G‘AFUR G‘ULOM
nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA’NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI

IKKI JILDLI

Nizomiddin MAHMUDOV
tahriri ostida

TOSHKENT– 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA’NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI

BIRINCHI JILD

G‘AFUR G‘ULOM NOMIDAGI
NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI

UO‘K 811.512.133’373.421(038)
KBK 81.2O‘zb-4
M 16

N. Mahmudov
O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 504 bet

MUALLIFLAR JAMOASI:

Nizomiddin Mahmudov, filologiya fanlari doktori, professor
Durdona Lutfullayeva, filologiya fanlari doktori, professor
Yorqinjon Odilov, filologiya fanlari doktori, professor
Durdona Xudoyberganova, filologiya fanlari doktori, professor
Ma’rufjon Yo‘ldoshev, filologiya fanlari doktori, professor
Shuhrat Ko‘chimov, filologiya fanlari doktori, dotsent
Dilrabo Andaniyazova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Feruza Musayeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

TAQRIZCHILAR:

Abduvahob MADVALIYEV
filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Sharifa ISKANDAROVA
filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur lug‘atda ilk marta ona tilimizning boyligi hisoblangan leksik sinonimlarning keng qamrovli leksikografik talqini amalga oshirildi. Lug‘atdan leksik sinonimlarning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi so‘zlarning ma’no nozikliklari, bu ma’noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatuvchi illyustrativ misollar o‘rin olgan. Lug‘atga faqat mustaqil so‘zlardan iborat sinonimik qatorlargina emas, balki yordamchi so‘z turkumlari doirasidagi sinonimik qatorlar ham kiritilgan. Lug‘at o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo‘yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

UO‘K 811.512.133’373.421(038)
KBK 81.2O‘zb-4

ISBN 978-9943-8835-5-0

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022

SINONIMLAR – TIL ZANGINLIGI VA RANGINLIGI KO‘ZGUSI

Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatik munosabatlardan biri bo‘lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta’min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma’nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so‘z gavharlari zaxirasiga sohib tildir.

Ayrim tadqiqotchilar sinonimlar muammosi benihoya muhim leksikologik masalalardan biri ekanligini ta’kidlar ekan, shunday yozadilar: Yevropada “hali XVIII asrning oxirlaridayoq muayyan bir tushuncha ifodasi uchun tilda bir necha so‘zni qo‘llash imkoniyati haqidagi masala muhokama qilingan edi”[1]. Hech kimga sir emaski, so‘z mulkining sultoni ulug‘ Alisher Navoiy XV asrda “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida o‘zbek (turkiy) tili misolida mazkur muammoni sinonimlar sinchisiday ko‘rsatib bergandi. Bu holatni taniqli til tarixchisi Q.Sodiqov birma-bir tahlil qilgan, shoirning sinonimlarga munosabati haqida gapirar ekan, u quyidagi jihatlarga e’tiborni qaratadi: “Navoiyning yozishicha, shoirlar mayning ta’rifida ko‘p mubolag‘a qildilar, may ichmak qoidasida ko‘p so‘z surib, nihoyasiz zarif ta’riflar zohir qilurlar. Biri *sipqarmaq* lafzidirkim, mubolag‘a bundan o‘tmas... Navoiyning e’tiroficha, *sipqaray* so‘zining mazmuniga yetganda, forsiy she’rda bu ta’rifni berishning iloji yo‘q. Yana *tamshimaq* lafziki, ma’nosi “g‘oyat zavqdan tez ichmas-u, lazzat topa-topa oz-oz ichar”. Olim Navoiyning yana *bo‘xsamoq, yig‘lamaq, yig‘lamsinmaq, ingramak, singramak, siqtamaq, o‘kurmak, inchkirmak, hoy-hoy yig‘lamaq* kabi ma’nodoshlar; *qimsanmaq, qizg‘anmaq* kabi ma’nodoshlar; *xor, cho‘kir* kabi ma’nodoshlar; *bezanmak, yasanmaq* kabi ma’nodoshlar va boshqa ma’no nozikliklari haqidagi fikrlarini tahlil qilgan.[2] Benazir so‘z sinchisi Alisher Navoiy mazkur so‘zlar

[1] Qar.: Королева Н.В., Артамонова Е.В. Проблема синонимии как одна из важных проблем лексикологии // Вестник КАСУ, 2009. – № 2. // www.vestnik-kafu.info/journal/18/713

[2] Содиқов Қ. “Муҳокамату-л-луғатайн”ни ўқиб ўрганиш. – Тошкент: ТДШИ, 2011. – Б.12–15.

orasidagi ma’nodoshlikning zimn-u zaminini ko‘rsatish bilan bir qatorda ular o‘rtasidagi farqli mazmuniy injaliklar va bu injaliklarning badiiy-mantiqiy ifoda quvvati qamrovlarini ham oydinlashtiradi.

Sinonimiya, xususan, leksik sinonimiya hodisasi dunyo tilshunosligi tarixida juda keng o‘rganilgan semantik kategoriyalardan biri, hozirga qadar bu hodisa sinoatlarini nazariy inkishof qilishga bag‘ishlangan minglab asarlar, ana shunday paradigmatik munosabat asosida uyushgan birliklarni tizim sifatida ta’rif, tavsif va amaliy istifoda uchun taqdim etadigan yuzlab sinonimik lug‘atlar yaratilgan[3]. Masalan, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida rus leksikografiyasida nashr etilgan va 3200 ga yaqin turli tipdagi lug‘atlar tahlil qilingan monografiyada rus tilidagi 50 ga yaqin sinonimik lug‘at batafsil ilmiy sharhlanib, ularning yutuq va kamchiliklari qayd etilgan[4]. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, dunyo tilshunosligida sinonimiyaning murakkab mohiyatini ochib berishda tamoman bir xil bo‘lgan yagona ilmiy qarash mavjud emas. Rus tilshunoslari N.V.Koroleva va E.V.Artamonovalar turli tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan bir-biridan farqli bir qancha sinonimlar ta’riflarini qayd etadilar, ya’ni sinonimlar – “bir yoki bir necha lug‘aviy ma’nolari bilan mos keluvchi lug‘aviy birliklar” (T.I.Arbekova); “ma’nosi bir xil, ammo talaffuzi har xil so‘zlar” (N.G.Golsova); “bir tushunchani ifodalaydigan, ammo bir-biridan semantik (ma’no qirralari) yoki stilistik farq qiladigan so‘zlar” (A.M.Chepasova); “nafaqat bir predmet yo‘nalishidagi, balki ma’nosi ham yaqin so‘zlar, ularda leksik ma’noda umumiylik mavjud” (V.I.Koduxov); “teng ma’noli so‘zlar” (M.Maruzo); “o‘xshash ma’noli so‘zlar” (L.R.Zinder, T.V.Stroyeva); “bir tushunchani yoki o‘zaro juda yaqin tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar” (A.P.Yevgenyeva); “yagona yoki juda yaqin predmetli-mantiqiy mazmunga ega so‘zlar” (K.V.Arxangelskaya); “nominativ mohiyati jihatidan bir xil, ammo odatda stilistik jihatdan farqlanuvchi so‘zlar” (A.A.Reformatskiy); “muayyan kontekst yoki mazmunan yaqin kontekstlarda bir-birini almashtira oladigan so‘zlar” (L.A.Bulaxovskiy).[5] Mazkur ta’riflar jamlab olib qaralganda, sinonimiya hodisasining butun murakkab mohiyatini ma’lum ma’no yoki darajada oydinlashtirar, lekin alohida-alohida olib qaralganda, bu lisoniy sinoatning ich-ichiga kirish imkonini bermasligi aniq.

Alohida ta’kidlamoq joizki, o‘zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining ta’riflanishi o‘zining qamrovliligi bilan e’tiborga molik. Bu ta’rif atoqli tilshunos akademik A.Hojiyevga tegishlidir, unda sinonimiyaning bir qator benihoya nozik jihatlari o‘zining aniq-tiniq ifodasini topgan: “Sinonimlar ma’nosi-

[3] Batafsil qar.: Пардаев А. Проблематика лексикографического представления синонимии на современном этапе // Anuari de Filologia. Llengues Literatures Modernes. 5/2015, pp. 89–98 / readcube.com/articles/10.1344%Faflm2015.5.7.

[4] Козырев В.А., Черняк В.Д. Лексикография русского языка: век нынешний и век минувший. 2-е изд. – СПб: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2015. – С. 116–126.

[5] Королева Н.В., Артамонова Е.В. Ko‘rsatilgan asar.

ning bir xilligi ularning o‘zaro farqli xususiyatlarga ega bo‘lishini inkor etmaydi. Aksincha, tilda bir ma’noni ifodalash uchun bir necha so‘zning mavjudligi sinonimlarning bir-biriga har jihatdan to‘la mos kelmasligini, ulardan har biri o‘ziga xos belgi-xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlar qaysidir jihatlari bilan bir-birlaridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega bo‘ladi”[6]. Agar ayni shu farq mavjud bo‘lmasa, bu farqning ifodalanishi lisoniy-mantiqiy muloqot muvozanati uchun qimmat bilan yukunmasa, sinonimlar deyiladigan ulgurji lisoniy zaxira tilga mutlaqo ortiqcha va keraksiz yuk bo‘lib qolardi.

Hatto tilda “absolyut sinonimlar” deb nomlanib kelayotgan bir tur sinonimlar bor deb qaraladi. Ammo A.Hojiyev bunday sinonimlar haqida shunday yozadi: “Tilda har jihatdan bir-biriga teng bo‘lgan, har jihatdan bir-birini qoplaydigan ikki yoki undan ortiq so‘zning bo‘lishiga ehtiyoj yo‘q. Ehtiyoj yo‘q ekan, bunday xususiyatli so‘zlar ham bo‘lmaydi. Demak, tilda sinonimlarning borligining o‘ziyoq o‘zaro sinonim bo‘lgan har bir so‘z o‘ziga xos qandaydir xususiyatga yoki xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi. Haqiqatda ham shunday. Ma’nosi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biriga juda teng keladigan so‘zlar asosan ilmiy terminlarda uchrab turadi: *revolyutsiya, inqilob; agitatsiya, tashviqot; tema, mavzu* kabi. Lekin bunday sinonimlar ham qandaydir belgisi, masalan, qo‘llanish darajasi, eskirganlik yoki eskirmaganligi va sh.k. bilan ma’lum darajada farqlanib turadi. Agar hech qanday farqli belgi bo‘lmasa, bunday sinonimlik o‘tkinchi holat bo‘lib, ma’lum vaqtlardan so‘ng ulardan biri shu ma’noda iste’moldan chiqadi. Tilning tabiati shuni talab etadi.”[7] Taniqli semasiolog M.Mirtojiyev A.Hojiyevning absolyut sinonimlikni o‘tkinchi holat sifatida baholaganligini ma’qullaydi va shunday yozadi: “Uningcha, absolyut sinonim tarkibidagi bir so‘z yo arxaiklashadi, yo sherigiga nisbagan semantikasini bir jihati bilan farqlaydi. Bu gap haqiqatga ancha mos keladi. Faktlarga murojaat qilaylik. Rus tilida shu vaqtgacha *aeroplan* va *samolyot* so‘z juftligi absolyut sinonim deb kelinadi. Ammo so‘nggi vaqtlarda *samolyot* so‘zi umumxalq nutqida keng qo‘llansa, *aeroplan* kitobiy leksikaga xoslanayotganligi sezilmoqda. Bu so‘zlardagi taraqqiyotni o‘zbek tili nuqtayi nazaridan ham aytish mumkin. O‘zbek tilida *tilshunos* va *lingvist* so‘zlari absolyut sinonim deb ko‘rsatib kelinadi. Lekin hozir *tilshunos* so‘zi umumso‘zlashuv tilida qo‘llansa, *lingvist* so‘zi deyarli kitobiy leksikaga xoslanib bo‘ldi. Absolyut sinonimlar deyarli tillarda sanoqli miqdorda uchraydi. Uning ham ayrimlari yuqoridagicha absolyutligini yo‘qotayotgan bo‘lsa, bu

[6] Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 115.

[7] Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 241.

A.P.Hojiyev o‘z qarashi bilan nihoyatda haq ekanligini ko‘rsatadi.”[8] Ko‘rinadiki, har jihatdan tamoman bir-biriga teng keladigan, hech qanday farqli jihatlari bo‘lmagan absolyut sinonimlar (yoki dubletlar deb ham nomlanadigan) tilda barqaror hodisalar emas, balki vaqtincha yoki o‘tkinchi hodisalardir.

Bu o‘rinda yana bir xususga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq. A.P.Yevgenyeva tahriri ostida nashr qilingan “Rus tilining sinonimlar lug‘ati”[9] kitobida sinonimlarni tanlash mezonlari anchayin munozarali, ya’ni uning kirish qismida shunday qayd qilingan: “Bir-biriga sinonim so‘zlar sifatida faqat hozirgi adabiy tilning, jonli umummilliy so‘zlashuv nutqining ajralmas qismi bo‘lgan so‘zlarni e’tirof etish kerak. Shuning uchun lug‘atda sinonimlarni ajratish va tanlashning birinchi va asosiy tamoyili bu so‘zlarning a) hozirgi, b) umummilliy, d) adabiy tilga mansubligi bo‘lishi kerak. Bir xil va yaqin ma’noli so‘zlarni sinonimlar sifatida hozirgi adabiy til tarkibida ajratish ... arxaik, shevaga oid, jargon, shuningdek, tor mutaxassislik leksikasi haqidagi masalani o‘rtadan ko‘taradi va bunday leksikani lug‘atdan tashqariga chiqaradi. Faqat ana shunday qilinganda, sinonimiyaning mohiyatini tilning alohida hodisasi sifatida ochish va sinonimlarning roli va vazifasini tavsiflash mumkin bo‘ladi.” Lug‘atdagi mazkur tamoyilning bahsli ekanligini asoslar ekan, o‘zbek tilshunosi Abdunazar Pardayev, ayniqsa, arxaik so‘zlar va jargonlar uslubiy vazifalarni bajarishiga urg‘u beradi hamda bunday nuqtayi nazar o‘zini aslo oqlay olmasligini alohida to‘g‘ri ta’kidlaydi.[10] Mazkur lug‘atning bir jildli yangi nashrida A.P.Yevgenyevaning o‘zi ham lug‘atning tuzilishini tavsiflar ekan, 2-paragrafda mazkur fikrlarini bir qadar tahrir qilgan va munozarali jihatlarni anchayin bartaraf etgan: “Sinonimik guruhlarga hozirgi rus adabiy tilining, jonli umummilliy so‘zlashuv nutqining so‘zlari kiradi. Tor mutaxassislik va sheva so‘zlari faqat muayyan sohaga yoki qo‘llanish doirasiga mansubligini saqlagan bo‘lsa-da, keng tarqalgan bo‘lsa, beriladi. Eskirgan so‘zlardan XIX asr klassik adabiyoti uchun odatiy bo‘lgan va hozirgi badiiy adabiyotda u yoki bu darajada qo‘llanadiganlari beriladi”.[11]

Sinonimlarning mohiyati va tavsifi, ularning boyligi va hajmdorligi haqida gap borar ekan, bular e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Chunki sinonimik qatorning miqdoran kattaligi ifoda aniqligi va ranginligini ta’minlashdagi muhim omillardandir.

Tildagi intensivlik semantik kategoriyasining ifodalanishidagi faol unsurlardan biri sinonimik qatorlar ekanligini tadqiqotchilar ko‘p bor qayd etganlar.[12] Muayyan belgi-xususiyatning intensiv, kuchli ifodalanishi, belgi-xususiyatning

---

[8] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 192–193.

[9] Евгеньева А.П. Словарь синонимов русского языка. – Ленинград: Наука, 1970–1971.

[10] Пардаев А. Ko‘rsatilgan asar. –Б. 94–95.

[11] Словарь синонимов русского языка. Под ред. А.П.Евгеньевой. – М.: Астрель. АСТ, 2002. – С. 6.

[12] Masalan, qar.: Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – М.: Высшая школа, 1990. – С. 50–52.

kuchli-kuchsiz ifodalanishi tarzida qarshilantirilishi va bunda sinonimlarning ishtiroki tildagi real hodisalardandir. A.Hojiyevning quyidagi fikrlari intensivlik va sinonimiya munosabati va mohiyatini aniq ko‘rsatib beradi: “Sinonimlar bildiradigan vaqt, harakat, belgi, miqdor kabilarda ularning har birida belgining darajasi har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, *avval, oldin, ilgari, burun, qadim* sinonimlaridan *ilgari* so‘zida vaqtning o‘tishiga qarab uzoqlik darajasi *avval, oldin* so‘zidagidan ortiq. *Burun* so‘zida *ilgari* so‘zidagiga nisbatan, *qadim* so‘zida esa *burun* so‘zidagiga nisbatan ortiqroq. *Ishchan, harakatchan, serharakat, g‘ayratli, serg‘ayrat, tirishqoq, urinchoq* sinonimlaridan *g‘ayratli, serg‘ayrat, tirishqoq* so‘zlari belgini kuchliroq ottenka bilan ifodalaydi. *Kambag‘al, qashshoq* sinonimlaridan *qashshoq* so‘zi belgini kuchli ottenka bilan ifodalaydi. *Ovora, sarson, sargardon* sinonimlaridan belgi darajasi *ovora* so‘zidagiga nisbatan *sarson* so‘zida kuchli, *sarson* so‘zidagiga nisbatan *sargardon* so‘zida kuchli. *Kuch, quvvat, mador, majol, darmon* sinonimlaridan *mador, majol, darmon* so‘zlari, asosan, kuch-quvvatning normal holatdan pastligini ifodalashda qo‘llanadi. Demak, sinonimlar bildirgan belgi darajasidagi har xillik ham shu so‘zlarning ma’nosidagi farqli ottenkalari hisoblanadi”.[13]

Ta’kidlash joizki, sinonimlarni belgilashda aynan bir xil ma’nolar bilan bir qatorda differensial semantik belgilar ham mutlaq hal qiluvchi o‘ringa ega. Aytish mumkinki, sinonimlarni tavsiflashda, xususan, leksikografik tavsiflashda bevosita differensial semantik belgilarni imkon qadar ko‘proq va xo‘broq tasvirlab ko‘rsatish muhimroq. So‘zlardagi birlashtiruvchi sinonimik ma’noni idrok etish unchalik mushkul emas, ammo sinonimik so‘zlar qatoridagi differensial belgilarni to‘lasicha ilg‘ash va to‘laligicha tasavvur qilishni oson ish deb bo‘lmaydi.

Akademik A.Hojiyev bundan 40–50 yillar ilgari sinonimik so‘zlar qatoridagi ana shunday differensial farqlarni quyidagicha guruhlashtirgan edi:

1. Emotsional-ekspressiv bo‘yoq nuqtayi nazaridan. Sinonimik qatordagi so‘z emotsional-ekspressiv bo‘yoqsiz (neytral) yoki emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor bo‘lishi mumkin: *xunuk* (neytral) – *badbashara* (emotsional bo‘yoqdor).

2. Sinonimik qatordagi so‘zlar uslubga farqli munosabatda bo‘ladi. Masalan, *odam – kishi – inson – bashar* sinonimik qatorida *bashar* so‘zi, *ko‘krak – ko‘ks – bag‘ir – to‘sh – siyna* sinonimik qatorida *siyna* so‘zi poetik uslubga xos. *Pul – aqcha – mullajiring – yakan* sinonimik qatoridagi *mullajiring* so‘zi, *yarashmoq – kelishmoq – ketmoq* sinonimik qatoriga oid *ketmoq* so‘zi va *o‘lmoq – vafot etmoq – qazo qilmoq – qurbon bo‘lmoq – halok bo‘lmoq – qulamoq – uzilmoq* sinonimik qatoridagi *qulamoq* so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos.

[13] Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 243.

3. Sinonimik qatordagi so‘zlar hoziri o‘zbek adabiy tiliga munosabati nuqtayi nazaridan o‘zaro farqlanishi mumkin, ya’ni sinonimik qatordagi so‘z hozirgi adabiy til normasi doirasida yoki undan tashqarida turishi mumkin.

4. Sinonimik qatordagi so‘zlar ma’noni qay darajada ifodalashi jihatidan ham o‘zaro farqlanadi. Ba’zi so‘zlar belgini normal (neytral) darajada ifodalasa, boshqalari kuchli yoki kuchsiz daraja bilan ifodalaydi.[14]

Tabiiyki, keyingi yillarda dunyo tilshunosligida ana shunday sinonimik qatordagi qarshilantirishlar uchun asos bo‘luvchi shunday differensial belgilarni yanada aniqlashtirish yuzasidan jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, rus tilshunosi A.I.Olxovskaya “Rus tili sinonimiyasining semantik parametrizatsiyasi” nomli ishida bunday differentsial parametrlarning 16 tasini tavsif va tahlil qilgan, bu parametrlar quyidagilardan iborat: subyekt, obyekt, sabab, maqsad, usul, tashqi namoyon bo‘lish, davomiylik, masshtab, miqdor, intensivlik, baho, munosabat, xususiyat – holat, qism – butun, aniqlik – noaniqlik va fokus.[15]

O‘zbek tilshunosligida sinonimik qatorlar anchayin batafsil va ziyraklik bilan tavsiflangan lug‘atni A.Hojiyev yaratgan. Uning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (Toshkent: O‘qituvchi, 1974)da o‘zbek tilidagi sinonimlarni izohlashda mazkur parametrlarning aksariyati o‘z aksini topgan. Ammo mazkur parametrlarning inobatga olinmaganlari ham tabiiy ravishda ancha-muncha bor. Aytish lozimki, bu lug‘at o‘zbek lug‘atchiligidagi sinonimiyaga bag‘ishlangan yagona jiddiy leksikografik ishdir, lekin uning nashr qilinganiga qariyb yarim asr bo‘lgan. Ayni paytda O‘zbekiston mustaqillikka erishdi, tamoman yangi jamiyat barpo bo‘ldi, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va siyosiy hayot mutlaqo yangi o‘zanlarda shitob bilan rivojlanib bormoqda. Bu, shubhasiz, tilimizda, ayniqsa uning leksikasida qonuniy ravishda o‘z aksini topmoqda.

O‘zbek tilidagi sinonimiya muammosini monografik aspektda tadqiq qilgan B.Doniyorov asosli tarzda ta’kidlaganiday, “Sinonimlar... nafaqat semantikasining konnotativ aspekti bo‘yicha farqlanadi, balki aniq bir hollarda ijtimoiy tomondan anglangan tarixiy jihatdan saqlangan kontekstlardagi denotativ ma’nosi bo‘yicha ham farqlanadi”[16]. Ammo ko‘p hollarda, N.G.Komlev qayd etganiday, so‘zda dunyoqarashni aks ettiradigan (“мировозренческий”), madaniy-tarixiy uzv ham mavjud bo‘ladi, bunday konnotatsiya so‘zni turli ijtimoiy guruh vakillari tomonidan turli tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda qo‘llashi asnosida yuzaga keladi, bunday konnotatsiya ko‘proq ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid birliklar se-

---

[14] Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. va boshq. Ko‘rsatilgan asar. – B. 115–116.

[15] Ольховская А.И. Семантическая параметризация русской синонимии // Litera. – 2019. – №5. – С. 63–78. (https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=27457)

[16] Данияров Б. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. –Тошкент: Sano-Standart, 2019. – Б. 149.

mantik strukturasida kuzatiladi.[17] O‘zbek tilshunosi M.Mirtojiyev, shuningdek, so‘zning semantik strukturasi tarkibida milliylik uzvi, ya’ni milliylik konnotatsiyasining mavjud bo‘lishini haqli ravishda ta’kidlaydi.[18]

Alohida ta’kidlash joizki, mustaqillik davrida faollashgan semantik jarayonlardan biri so‘z va uning ma’noviy mohiyatiga munosabatning salbiydan ijobiyga tomon o‘zgarishi ekanligini sezmaslik mumkin emas. Mustaqillikdan avval bir qancha so‘zlarning ma’no talqini zamona zayliga muvofiq anchayin subyektiv edi, ya’ni ularning yuzi qora edi. Biz bir maqolamizda bunga e’tibor qaratgan edik: “Sho‘ro davrida yuzi qora bo‘lgan so‘zlardan yana biri *savdogar* so‘zidir. Hatto so‘zlashuv tilida bu so‘zning “xususiy manfaati uchun arzimagan narsaga ham talashadigan, pastkash odam” (eski izohli lug‘at) tarzidagi ko‘chma ma’nosi ham yuzaga keldi. Bugun bu so‘z savdo-sotiq, tijorat faoliyati bilan halol shug‘ullanadigan shaxsni ifodalaydi va bunday kishilar jamiyatda hurmat-ehtiromga sazovordir, bugun mazkur so‘zning yuzi ham yorug‘ bo‘ldi. Yuzi yorug‘ bo‘lgan ko‘plab so‘zlardan yana biri sifatida *fermer* so‘zini tilga olish mumkin. Bu so‘z ilgari “kapitalistik mamlakatlarda: fermani ijaraga oluvchi kishi yoki ferma egasi” ma’nosida salbiy bo‘yoq bilan bo‘yalgandi. Mustaqillik tufayli amalga oshirilgan favqulodda muhim iqtisodiy islohotlar samarasi o‘laroq fermer degan yaratuvchi shaxs shakllandi. Bugun *fermer* “o‘ziga qarashli yoki ijaraga uzoq muddatga olingan yerda ziroat, chorva, parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi mayda yoki o‘rtacha qishloq xo‘jaligi korxonasi egasi” (yangi izohli lug‘at) bo‘lib, jamiyatda alohida obro‘-e’tiborga sazovordir. Oliy niyati “kishilar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan” sho‘ro tuzumi, ajabki, barcha kambag‘alni boy qilib emas, balki barcha boylarni kambag‘al qilib, mazkur oliy niyatning ijobatiga yetmoqday dumbul tutum bilan sa’y-harakat qilganligi bugun hech kimga sir emas. Ana shu tutumning palag‘da mohiyati bois *boy* so‘ziga nisbatan ham salbiy nigoh mezon bo‘lgan, jamiyatda bu kabi so‘zlarga xolis munosabatning qaror topishi mushkullashgan. Eski jamiyatda barqarorlashgan ommaviy idrok o‘zaniga muvofiq bu so‘zning asosiy ma’nolaridan biri ham eski izohli lug‘atda “kishi kuchidan foydalanish hisobiga boylik, dunyo orttirgan (odam)” tarzida tavsiflangan. Muhtasham maqsadi “yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi”ga qaratilgan “o‘zbek modeli” asosida muntazam taraqqiy etib borayotgan mamlakatimizda *boy* so‘zi o‘zining chin ma’nosi bilan qovushdi, “birovning kuchidan foydalanish hisobiga” emas, balki o‘zining halol va mashaqqatli mehnati, favqulodda aql-u zakovati, tadbirkorligining hadisi hisobiga boylik, dunyo orttirgan(odam)ni nomlaydigan bo‘ldi, bu so‘z anglatgan tushuncha jamiyatda haqiqiy havasning hadafiga aylandi”.[19]

---

[17] Комлев Н.Г. Компоненты содержательной структуры слова. – М.: МГУ, 1969. – С. 122–129.

[18] Миртожиев М. Ko‘rsatilgan asar. – B. 38.

[19] Batafsil qar.: Маҳмудов Н. Юзи ёруғ бўлган сўзлар // Huquq va burch. – Toshkent, 2015. – № 9. – Б. 36–40.

Sinonimlarni leksikografik tavsiflashda yuqorida tilga olingan sinonimik qatordagi so‘zlarning differensial belgilari, sinonimiyaning zaruriyatini ta’minlaydigan asosiy parametrlari, ayni paytda lingvokulturologik o‘ziga xosliklari muntazam e’tiborga olinishi, sinonimik qatorlar tavsifi – izohida imkon qadar o‘z ta’kidini olishi zarurdir. Aks holda sinonimik lug‘at biron-bir jihatdan unga bo‘lgan ehtiyojni to‘lasicha qondira olmaydi. Sinonimlar lug‘atida o‘zbek tilining qiyossiz zanginligi va ranginligini, istiqlol davridagi yorug‘ istiqbolini, sur’atli taraqqiyoti va takomilini inkishof qilishday ulkan maqsadga erishmoq mas’uliyati shuni taqozo etadi.

Nizomiddin MAHMUDOV

“O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI”NING TUZILISHI

“O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” hozirgi o‘zbek tili uchun ahamiyatli bo‘lgan sinonimik qatorlarni qamrab olgan. Mazkur lug‘atga leksik sinonimlar, ularning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi so‘zlarning ma’no nozikliklari, bu ma’noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatuvchi illyustrativ misollar kiritilgan. Lug‘atdan faqat mustaqil so‘zlardan iborat sinonimik qatorlargina emas, balki yordamchi so‘z turkumlari doirasidagi sinonimik qatorlar ham o‘rin olgan. Masalan:

YARASHA, QARAB *ko‘m. vaz.* Mos ravishda, muvofiq. Sinonimik qatordagi so‘zlar jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarga bog‘lanib, ushbu so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan grammatik jihatdan bog‘lanishiga ko‘mak beradi. Shu bilan birga, turli grammatik ma’nolarni hosil qiladi...

Shuningdek, sinonim qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida sinonimga aylangan so‘zlar ham o‘z ma’nosiga ko‘ra tegishli qatorga kiritilgan:

SOQOLLI, SOQOLDOR, SERSOQOL Soqol qo‘ygan, soqoli bor bo‘lgan. **Soqoldor**, **sersoqol** so‘zlaridan “soqoli ko‘p, uzun va qalin” ma’no ta’kidi anglashiladi. **Soqoldor** so‘zida “soqolning o‘sib ketganlik” ifodasi kuchli...

Lug‘at maqolalari sinonimik qatordagi bosh so‘zning ilk harflari asosida alifbo tartibiga solingan. Har bir lug‘at maqolasi quyidagilardan tashkil topgan: 1) sinonimik qator; 2) ushbu qator uchun umumiy bo‘lgan ma’noning izohi; 3) qatordagi har bir so‘zning ma’no nozikligi tavsifi (zarur bo‘lganda); 4) nutqiy uslubga aloqasi; 5) nutqdagi faollik darajasi; 6) lingvomadaniy belgilari (milliy-madaniy ta’kid, erkak-ayol nutqiga xoslik kabi (mavjud bo‘lsa); 7) sinonimik qatordagi har bir so‘zning tegishli ma’nosini dalillovchi o‘zbek adabiyoti namunalaridan olingan misollar.

Agar ko‘p ma’noli so‘z har bir ma’nosi bilan alohida sinonimik qatorni tashkil etgan bo‘lsa, har bir qator rim raqami bilan ajratib ko‘rsatilgan. Masalan:

NOZIK I, **LATIF** Bichimi chiroyli va kelishgan. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, insonning tana a’zolariga nisbatan qo‘llanadi. **Nozik** so‘zi nisbatan ko‘p ishlatiladi. **Latif** so‘zi badiiy uslubga xoslangan bo‘lib, unda belgi darajasi **nozik** so‘ziga nisbatan kuchliroq ifodalanadi...

NOZIK II, **NAFIS** Yuksak mahorat va did bilan ishlangan. **Nozik** barcha uslublarda teng qo‘llanadi. **Nafis** esa yozma nutqqa xoslangan. **Nafis** so‘zida belgi **nozik** so‘ziga nisbatan ta’kidlab ifodalanadi...

NOZIK III, **QALTIS** O‘ta ehtiyotkorlik talab qilinadigan. **Qaltis** so‘zida belgi **nozik** so‘ziga qaraganda kuchliroq ifodalanadi.

Sinonimik qatordagi so‘zlar birdan ortiq ma’noda o‘zaro sinonim bo‘lsa, bu holat arab raqamlari bilan berildi:

ISH, YUMUSH 1. Inson faoliyati bilan bog‘liq, uning mehnati bilan amalga oshadigan, bajariladigan harakat. **Yumush** bu ma’noda biroz ta’kid oladi, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi.

2. Lavozim yoki mansab talabi, ijtimoiy maqom taqozosiga ko‘ra bajariladigan vazifa. Bu ma’noda **yumush** so‘zi **ish** so‘ziga nisbatan unchalik faol emas.

3. Xizmat, vazifa, soha, kasb. Bu ma’noda ham **ish** so‘zi ko‘p qo‘llanadi, **yumush** esa faol qo‘llanmaydi.

4. Alohida kuch, mehnat talab qilmaydigan narsa, ermak. Bu ma’noda **yumush** so‘zi alohida ta’kid bilan ishlatiladi.

5. O‘zgaga, o‘zga manfaatiga qarashli yumush, hojat. Bu ma’noda **ish** so‘zida kimningdir “hojati tushganlik” ifodasi ustuvor, **yumush** so‘zida bunday ifoda yaqqol emas...

Ko‘p ma’noli so‘z har bir ma’nosi bilan har xil sinonimik qatordan o‘rin olishi mumkin. Masalan, *keyingi* so‘zi “ketma-ketlikda oldingi narsa yoki o‘rin-joy yoki xatti-harakatdan so‘ng turadigan, navbatda turgan, navbatdagi” ma’nosida *kelasi*, *kelgusi* so‘zlari bilan bir sinonimik qatorda berilgan bo‘lsa, “ma’lum bir ish yoki ma’lum bir paytdan so‘nggi yoki nutq so‘zlanib turgan vaqtda bo‘lgan” ma’nosida *oxirgi*, *so‘nggi* so‘zlari bilan bir qatorga birlashtirilgan.

Agar omonim so‘zlar har xil sinonimik qatorda ishtirok etgan bo‘lsa, bu holat ham rim raqami bilan ifodalangan:

O‘T I, **OLOV, ALANGA, OTASH, NOR, O‘RT** Tabiiy ta’sir, yonilg‘i yoki yoqilg‘i vositasida amalga oshiriladigan yonish jarayoni...

O‘T II, **O‘LAN, ALAF** Poyasi yog‘ochlanmaydigan, chorva mollari uchun asosiy ozuqa bo‘ladigan yashil o‘simlik...

O‘T III, **ZARDA, SAFRO** Jigardan ajralib chiquvchi sarg‘ish-yashil rangli achchiq suyuqlik...

Shuningdek, sinonimik qatordan birdan ortiq shevalarda faol ishlatiladigan so‘zlar ham o‘rin olgan. Bu esa omma tomonidan sheva so‘zlarining ko‘proq tushunilishiga yordam beradi. Masalan:

AKS, TESKARI, QARSHI, QARAMA-QARSHI, ZID, TERS, CHAPPA Bir-birini inkor etadigan, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan holatdagi. **Qarama-qarshi** so‘zida inkorning ikki tomonlama ekanligi ta’kidi qabariq ifodalangan. **Teskari, ters** so‘zlarida “odatdagi, to‘g‘ri deb qabul qilingan holatga qarama-qarshi holatdagi” tarzidagi ma’no ta’kidi mavjud. Bunday ma’no ta’kidi **chappa** so‘zida ham bor, ammo bu so‘z ko‘proq shevaga xos deb qaraladi. **Zid** so‘zi ko‘proq adabiy nutqda qo‘llanadi...

IZLAMOQ, QIDIRMOQ, AXTARMOQ, ISTAMOQ U yoki bu kishi, narsa, o‘rin-joyni topish maqsadida bo‘lmoq. **Izlamoq, qidirmoq, axtarmoq** so‘zlari adabiy tilda parallel qo‘llansa ham, shevaga munosabatda o‘zaro farqlanadi. Masalan, mazkur ma’noda Farg‘ona shevasida **axtarmoq**, Toshkent shevasida **qidirmoq,** Andijon shevasida **istamoq** so‘zi qo‘llanadi...

Yuqorida aytib o‘tilganidek, sinonimik qatorni hosil qilgan so‘zlar uslubiy, hiissiy-ta’siriy, zamon nuqtayi nazaridan biri-biridan farqlanadi. Ulardan nutq vaziyatini hisobga olgan holda o‘rinli foydalanish har bir madaniy nutq sohibining nutqiy mahoratini ko‘rsatadi.

* * *

“O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”ning A, B harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov; D, E, T, U, X, Y harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari doktori, professor D.Lutfullayeva; F, G, S harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari doktori, professor M.Yo‘ldoshev; H, I, K, L, M, R harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari doktori, professor Y.Odilov; J, V harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari doktori, professor Sh.Ko‘chimov; N, O harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari doktori, professor D.Xudoyberganova; P, Q, Z harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori F.Musayeva; O‘, G‘, Sh, Ch harflari lug‘at maqolalari filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori D.Andaniyazova tomonidan tuzildi.

Lug‘at maqolalarini to‘plash, ilmiy muvofiqlashtirish va tartib berish ishlari filologiya fanlari doktori, professor Y.Odilov tomonidan amalga oshirilgan.

Mualliflar “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”ning texnik-amaliy ishlarini bajarishda ishtirok etgan institut katta ilmiy xodimlari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari N.Ahmedova, M.Sobirova, A.Saidno‘monov, Z.Muqimova, institut kichik ilmiy xodimlari D.Ro‘zmatova, A.Ahmedova, O‘.Namozova, L.Mirzajonova, A.Yusupova, J.Yunusova, shuningdek, doktorant A.Hasanov, tayanch doktorantlar S.Barliboyeva, G.Andaniyazovaga o‘z minnatdorchiliklarini bildiradilar. Shuningdek, lug‘atni bosmaga tayyorlash va so‘nggi texnik ishlarni bajarishda institut ilmiy xodimlari: N.Ahmedova, M.Sobirova, D.Ro‘zmatova hamda A.Ahmedova faol ishtirok etdilar.

Lugat matnining so‘nggi imloviy va texnik tahriri filologiya fanlari doktori, professor D.Xudoyberganova boshchiligida amalga oshirildi.

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari M.Sobirova, A.Saidno‘monov hamda kichik ilmiy xodim O‘.Namozova lug‘at ko‘rsatkichlarini tuzdilar.

Tuzuvchilar lug‘atning ushbu nashri keng o‘quvchilar ommasining ehtiyojini qondirishga, sinonim so‘zlardan nutqda o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga yordam beradi, deb umid qiladilar.

Aziz o‘quvchilardan lug‘at haqidagi mulohazalarini, taklif va istaklarini quyidagi manzillarga yuborishlarini so‘raymiz: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutiga – 100060, Toshkent – 60, Shahrisabz, 5-uy va G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyiga – 100128, Toshkent, Labzak ko‘chasi, 86-uy.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

A

ABADIY, MANGU, UMRBOD, TOABAD, ALALABAD, ABADULABAD, ILALABAD, BOQIY, JOVIDON Vaqt nuqtayi nazaridan oxiri yo‘q, hamma zamonda mavjud bo‘ladigan. **Mangu, toabad** so‘zlarida zamonning so‘ngsizligi kuchli ifodalangan, ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Umrbod** so‘zida ham zamon ma’nosi qamrovli, zamonning shaxsga aloqadorligi ta’kidlangan. **Alalabad, abadulabad, ilalabad, boqiy** so‘zlarida ham zamon so‘ngsizligi ta’kidi kuchli, eskirgan, kitobiy. Bu so‘zlar ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanadi. **Jovidon** so‘zi eskirgan, ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Ulug‘ shaharlarning bo‘ysirasida A b a d i y o‘rnini topa olgan Shosh. A.Oripov, Quyosh shahri. *Bunday paytda vaqt sekin o‘tayotganday, qorong‘ilik chor-atrofni tongga qadar emas, a b a d i y qamrab olganday tuyuladi.* T.Malik, Davron. *Xizmatingdan, hikmatingdan El-u yurt m a ng u rizo, O‘chmagay, noming asrlar So‘ngidan bergay sado*. A.Oripov, Oybek haqida qo‘shiq. *Chor-atrofda bahor yashnar, tabiat o‘zining m a ng u buzilmas qonuniga amal qilib, ko‘klamni yetaklab kelgan edi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Shohmisan, fuqaro – endi u m r b o d Daxldor bo‘lding sen abadiyatga*. A.Oripov, Fidoyi. *– Kishi hayotida shunday voqealar bo‘ladiki, u m r b o d xotiridan ko‘tarilmaydi, – deb hikoyasini boshladi Aziz*. O‘.Umarbekov, Urush farzandi. *Xotin, uyning chirog‘ini o‘chirma, bolalarimni birovga xor qilma, agar uyimning chirog‘i o‘chsa, t o a b a d sendan rozi emasman*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *T o a b a d shon-sharafga burkangaysan! T o a b a d yer yuzida yashagaysan! T o a b a d ulug‘ingga ko‘rguzg‘an ehtiromingni zurriyotingdan ko‘rgaysan!* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Lochin parvarishin topgan shunqordek, o‘zbek a l a l a b a d sendan minnatdor*. G‘.G‘ulom. *Men o‘zimni dunyoga keltirgan, oq sut bergan, mudom oq yuvib-oq taragan volidam bilan – dunyodagi eng aziz, eng mehribon kishim bilan mana shunday vaziyatda a b a d u l a b a d ga vidolashdim.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Nahot, qalbi yaxshilik qilib halovat topish baxtidan a b a d u l a b a d mahrum bo‘lgan bo‘lsa?!* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *...Men oltmish yil ot belidan tushmadim, toki i l a l a b a d avlodlarim bo‘lsin jahongir*. M.Shayxzoda, Mirzo Ulug‘bek. *Agar otasi ham, o‘g‘li ham rostdan shu niyatda bo‘lsa, ular ra’yini qaytarish qiyin... Unda i l a l a b a d shu yerda qolib ketishlari aniq.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Kim bilsin... shu mahal, balki, dunyoning qayeridadir o‘sha bechora chol hanuz besamar daydimoqda... va umrlari b o q i y bo‘lmagan, ammo*

A

Abu Lahabdan ming bora og‘irroq gunohlarni sodir etayotgan boshqa kishilarni ko‘rib, o‘z jazosining bu olamda berilganiga hamd-u sanolar o‘qiyotgan bo‘lsa, ne ajab? I.Sulton, Boqiy darbadar. *U kunlar yodi ham senga shon! Tunlar xotirasi b o q i y dir. Salomlar abaddir, onajon, Vidolar foniydir! Foniydir!* S.Sayyid. *Kel, ey Bobur, Vatanga, Elda yoding, qadr-u shoning bor, Tabarruk bul zaminingda Hayoti j o v i d o n ing bor*. E.Vohidov, Kel, ey Bobur, Vatanga. *O‘z umrini qilgandi u she’ri bilan j o v i d o n*. E.Vohidov, Ruhlar isyoni.

ABADIYLIK, ABADIYAT, MANGULIK, BOQIYLIK, BAQO Vaqt, zamon jihatidan eskirmaslik, hamma zamonlarda qimmatini yo‘qotmaslik. **Abadiyat, mangulik** so‘zlarida bir qadar kitobiylik ta’kidi bor. **Boqiylik** so‘zida eskirganlik va kitobiylik seziladi. **Baqo** so‘zi ma’nosida shaxsga daxldorlik qabariq ifodalangan, bu so‘zda eskilik bo‘yog‘i mavjud, ayni paytda, u kitobiy nutqqa xos.

A b a d i y l i k shumi? – deb o‘yladi Asadulla, ohista qadam tashlab borib, chinor tanasiga kaftini qo‘yar ekan. – Urushlar, zulmlar ham uzoq vaqt unutilmaydi, ammo bular la’nat bilan eslanadi. T.Malik, Savohil. *Yangi taqdirlilar a b a d i y l i k ka Olib kirgan husn, yangi jilolar.* Zulfiya, Saylanma. *A b a d i y a t (mangulik) qoshida inson umri, yillar, asrlar bir lahza kabidur. Inson umri – faqatgina bir lahza*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Sening dovrug‘ing-u shoning o‘chmagay, A b a d i y a t qadar noming o‘chmagay.* S.Sayyid. *Rassom esa xudoning qudrati bilan ularga m a ng u l i k ato etibdi: o‘q otilyapti-yu, otlarga kor qilmaydi, biror tomchi qon ham yo‘q...* T.Malik, Shaytanat. *Havaskor novchamiz motamxona oldidan beo‘xshov gavdasini tugolmay, naynovsirab... Yopiray, m a ng u l i k maskaniga qiron keldimi, nima balo?* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Mening niyatim u yerdagi b o q i y l i k ning sabablarini o‘rganish emas edi...* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Bunda suv saqlamoq, hayot saqlamoq Demak, b o q i y l i k ni qilganlar ardoq*. Zulfiya, Quyoshli qalam. *Tegramda fazoviy cheksiz sukunat, Ortimda mangulik, oldimda b a q o*. E.Vohidov, Iltijo. *Tashakkur, qadr-u ardoqqa, senga umri b a q o qonun, Ajab kamyob bu qismatdin ko‘ngil tog‘ o‘ldi, tog‘ o‘ldi.* Zulfiya, Saylanma. *Qani, o‘sha sehrgar hozir paydo bo‘lsa, bu toshlarni uloqtirib tashlasa, shoirga jon bersa, o‘sha b a q o gulshanidan tashvishli dunyoga qaytarsa...* T.Malik, Savohil.

ABJIR, EPCHIL, CHAQQON, CHAPDAST, UDDABURON, BALO Har qanday vaziyatda tez va osonlik bilan harakat qiladigan. **Epchil** so‘zi qayd etilgan ma’nosidan tashqari, “harakati chaqqon” ma’no uzviga ham ega. **Chaqqon** so‘zida harakatni tez va oson bajarish mahoratiga egalik ochiqcha ifodalangan. **Abjir, chapdast** so‘zlarida “usta, mohirlik” ma’nolari ham kuchli ifodalanadi, kitobiy nutqqa xos. **Uddaburon** so‘zida “hamma narsaning uddasidan chiqadigan”, “ishni uddaburonlik bilan bajara oladigan” ifodasi ustuvor. Bu so‘zda belgi kuchli ifodalanadi. **Balo** so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llanganda,

ushbu ma’noni ifodalaydi va unda “har qanday ishni uddalay oladigan” ifodasi ochiq namoyon bo‘ladi.

Kichkinagina a b j i r qiz Mehri yugurib Maratning yoniga kelib, baland ovoz bilan so‘radi: – Nega daladan qochding? Uyalmadingmi? O.Yoqubov, Dastlabki qadam. *Tilovberdiday a b j i r polvon uchun bu yuz foizlik imkoniyat degan so‘z bo‘ldi!* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *E p ch i l Buzoq bir paytda emar to‘rtta Sigirni, Uloq oshar o‘mbaloq, arg‘amchiga chirmashib.* A.Obidjon, Bepul tomosha. *E p ch i l, muomalalikkina Sariqul joniga ora kirdi, bojgirlarga hajga borishayotganini aytib, ularning qo‘yniga qo‘l solib... ruxsat oldi.* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *Xo‘jayin baqaloq bo‘lgani bilan ch a q q o n edi.* T.Malik, Shaytanat. *Turdialini jo‘natamiz, oyoq-qo‘li ch a q q o n, hafta-o‘n kun tajriba almashib kelsin.* A.A’zam, Hali hayot bor. *Tilov buva Yaxshiboyev tegirmonga tushganda ham butun chiqqan, ch a p d a s t odam.* T.To‘la, Saylanma. *Odamxo‘r bir yo‘lbarsni Otgan edim qay zamon. Shunda-chi, u ch a p d a s t ham Qaltir-qaltir bergan jon.* A.Suyun, Saylanma. *Axir uchovlon ichida eng bilag‘oni ham, u d d a b u r o n i ham Yusuf edi-ku!* U.Hamdam, Muvozanat. *Bibi Sardor. Olampanoh! Qaysi gunohlarim uchun bul ko‘rgulik? Qirq yillik sadoqati zohir cho‘ringiz turib, ne-ne u d d a b u r o n arkoni davlat qolib, bul mushkul yumushni... Kecha topgan subutsiz sanamingizga topshirasiz?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Ibrohimbek “B a l o bu, b a l o qariya!” deb o‘ylardi. – Javobi yo‘q, taqsir, – dedi u. – Biz ham xuddi shu so‘roqlarni berib, o‘ylanib turib edik.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *B a l o-ku bu yigit! – dedi Akushin zavq bilan Akobirovga. – Kinodramaturg deyayotuvding, ul-bulini o‘qiganmisan?* E.A’zam, Shovqin.

ABLAH, YARAMAS, IFLOS, RAZIL, BADKIRDOR, BADKOR, OLCHOQ, QABIH, PALID, PASTKASH, BATTOL Xulq-atvori tuban, kishini jirkantiradigan darajada axloqsiz. **Badkirdor, badkor, olchoq** so‘zlari kitobiy nutqqa xos, ammo **badkor** kam qo‘llanadi. Mazkur ma’no, ayniqsa, **iflos, razil, olchoq, qabih, palid, battol** so‘zlarida qabariq ifodalangan. Sinonimik qatordagi so‘zlar ana shunday xulq-atvorli shaxslarga nisbatan haqorat uchun ham qo‘llanadi.

So‘kinaman, nega so‘kmas ekanman! U a b l a h ning otasi – eshak, onasi – mochaxar! S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *A b l a h, sen tirikmisan, o‘lmaganmiding? – deydi Asadbek.* T.Malik, Shaytanat. *Xunuk ish bo‘lgan, jo‘rajon, juda xunuk, anavi y a r a m a s, it emgan Qo‘chqor Zulfiqorni qamab, ko‘p azoblar berdi.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Bu y a r a m a s Bozorboy ana shunaqa paytlarda o‘z foydasini ko‘zlab qoladi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Abdulla... O‘zini i f l o s, katta bir gunoh qilib qo‘ygandek his qilardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Nihoyat, ...hushyor vaqtda qarasang, ko‘ngil aynaydigan bittasini ilintiradi-da, o‘zi i f l o s, changallaridagi ovi i f l o s, ikki i f l o s bir-biriga suykanib, tagsiz botqoq ichiga botib ketishadi!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Uning uchun,*

A *hozir uning nazarida olamda eng past va r a z i l ko‘ringan Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan xirillashishni, yoqa bo‘g‘ishni o‘ziga or bildi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Mo‘min (hushyor tortib). Nodir, qizim, bu yoqqa kelinglar. Men eng r a z i l, eng pastkash odamman.* E.Vohidov, Oltin devor. *Sultonmurod... Sabohiddinning yaktagidan siltab, o‘shqira ketdi: Bu nima qilganing, gumroh! Qaysi iblisning vasvasasiga kirding, b a d k i r d o r!* T.Malik, Devona. *Judo bo‘lmas edilar ular, B a d k i r d o r lar judo etdilar*. H.Olimjon, Vido. *Rashk etib b a d k o r taroqqa Gohi ko‘nglim g‘ash bo‘lur.* E.Vohidov, Taroq. *Ofatingdan saqla, yo parvardigor! Norasida qizga qo‘l soldi b a d k o r*. Mirtemir. *Miryoqub, qancha balandparvoz bo‘lgani bilan, o‘z bo‘yidan ortiq ko‘tarilolmaydi. Chunki u bir it! O l ch o q va ayanch bir it!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ilhaq harakatsiz yotgan Devonaga qarab turib qoldi. Yerliklar orasida o l ch o q, mal’un odamlar borligini u avvalgi safari chog‘ida aytarli sezmagan ekan.* T.Malik, Devona. *...Miryoqubning so‘ng so‘zlarini eshitmagan bo‘lsa, mingboshini ayblash kerak emas. Bu q a b i h odam so‘ng vaqtlarda o‘zining o‘zi ekaniga ham uncha ishonib yetolmaydi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yana nimalardir degisi… keldi. Biroq bilgan so‘zlarining ichidan u bundan ham q a b i h so‘z topa olmadi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Bu ishingni Asadbek akam bilsalar, urug‘ingni quritvoradilar, p a l i d! – deb baqirib yubordim*. T.Malik, Shaytanat. *To‘lqin, sendan bir iltimos, oshna, o‘sha janozaga borib yurma, u p a l i d ni yoqib, kulini sovurgan odam savobga qoladi*. T.Malik, Shaytanat. *Nodir, qizim, bu yoqqa kelinglar. Men eng razil, eng p a s t k a sh odamman. Yurtning tuzini ichib, tuzlig‘iga tupurgan odamman*. E.Vohidov, Oltin devor. *Bir p a s t k a sh, insonlik qiyofasini yo‘qotgan, shafqatsiz, hissiz to‘nka oldida ojiz-u notavon qolish naqadar alamli, naqadar o‘kinchli!* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Tashrif ermas, to‘rt oyoqlab emaklab kelmog‘i darkor erdi ul b a t t o l ! G‘ururini jilovlab, taqdiri azalga tan bermoq o‘rniga hanuz janob Sohibqiron joniga qasd qilmoq rejasini tuzadur ul iblisi layin!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Men bilan Otabekni qamatib dor ostig‘a yuborguvchi, Otabek tilidan soxta taloq xati yozib, bir-birimizdan judo etkuchi, Komilbekni o‘ldirguchi, uyimiz orqasini teshib, Kumush qasdida bo‘lg‘uchi – hammasi ham shu b a t t o l Homid ekan.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

ABLAHLIK, PASTKASHLIK, IFLOSLIK, TUBANLIK, RAZILLIK, QABIHLIK, BADKIRDORLIK, OLCHOQLIK, PALIDLIK Insoniylik, ezgulikka zid, jirkanch harakatlarni qilish odati. **Tubanlik** so‘zida yomonlik qilish darajasi **pastkashlik**ka qaraganda kuchliroq, **razillik, qabihlik**da **tubanlik**ka qaraganda yanada kuchli. **Pastkashlik** ko‘proq so‘zlashuvga, **tubanlik, qabihlik, razillik** so‘zlari badiiy nutqqa xoslangan.

Dunyoda har xil a b l a h l i k bor, lekin bemor davolash uchun pora olish... O‘.Hoshimov, Imon. *A b l a h l i k odamzodning qonida bor. Lekin aqlli odamlar buni sezdirmaydilar, – javob qildi erkak sira ham jahli chiqmasdan. – Oyimni...*

Onamni... shunday... haligi boyagi… Z.Qurolboy qizi, Ikki manzil. *O‘ylab qarasam, p a s t k a sh l i k ning katta-kichigi bo‘lmas ekan.* S.Ahmad, Tosh. *Din peshvolarining o‘zaro kelisholmasliklari, mansab talashib tarafkashlik qilishlari va, hatto p a s t k a sh l i k larga borishlari ana shu shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan.* H.Shayxov, Tutash olamlar. *Qiz bola, yoningda erkak odam turib, atrofing to‘la i f l o s l i k bo‘lsa, juda uyalar ekan...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Birov sal kayf qilsa shiringina jinni bo‘ladi-qoladi...umrida qilgan hamma i f l o s l i k larini hayosizlik bilan to‘kib soladi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Ular asli tubandan tuban, Ojizdan ham ojizdir, biroq – O‘sha ojiz t u b a n l i k bilan U manfurlar mendan kuchliroq.* E.Vohidov, Faryod. *Yomg‘irdan qolganin selga oldirmoq Ojizlik, ahmoqlik, t u b a n l i k erur.* U.Azim, Sarbadorlar. *Oyoqlaring temirdandir, Taning temir, jon qushim. Ne temirni yemirgandir Goh r a z i l l i k muk tushib.* H.Xudoyberdiyeva, Kichik quvonch-u shonlarim. *Bu qadar r a z i l l i k dan larzaga tushgan Falonchi Pistonchiyevich rosa iztirob chekadi, natijada bir kechada jingalak sochi avval qorday oqaradi, keyin bosh tepasidan to‘kila boshlaydi.* A.Yo‘ldoshev, Puankare. *Q a b i h l i k, badbaxtlik va zolimlikda Amir Olimxonga teng keladigan xon kam bo‘lsa kerak.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Shu ishni qilsa, dilidagi intiqom o‘ti biroz susayishi mumkin edi, ammo Oyto‘ldining pok ko‘ngli bunday q a b i h l i k ni qabul qilolmadi.* I.Sulton, Xun. *Jismoniy o‘lim changalidan tortib olib, ma’naviy o‘limga – uzoq davom etadigan azobga yem qilish – o‘taketgan berahmlik, b a d k i r d o r l i k ekanini Asadulla bilar edi.* T.Malik, Savohil. *Otang qilgan b a d k i r d o r l i k, beinsoniylikka Eng yengilroq jazo edi shahardan surgun.* M.Shayxzoda, Mirzo Ulug‘bek. *Kattalarga atalgan kitoblarni o‘qigan sayin unda odamlarga bevosita yaxshilik qilish istagi kuchaya bordi, haqiqat va ezgulikning g‘alaba qozonishi uchun yolg‘on va o l ch o q l i k ka qarshi kurashish lozimligini tobora chuqurroq anglay boshladi.* A.Obidjon, Alamazon. *Qo‘qqisdan to‘xtab qolayotgan qanchadan qancha jasoratli, adolatparvar yuraklarni ming-minglab haqsizlik, jaholat, razolat-u qabohat, xiyonat, zulm-u istibdod, hasad, fisq-u fasod, g‘iybat, bo‘hton, fitna, xusumat, adovat va boshqa-boshqa p a l i d l i k o‘qlari ko‘zga ko‘rinmasdan tegib, halok qilmoqda.* M.Abdulhakim, Chavandoz ruh. *Menga-ku, mayli, tupurding, o‘lgan akangga tuhmat qilishga uyalmadingmi? Bunaqa p a l i d l i k ni Xongireydan o‘rganib keldingmi?* T.Malik, Shaytanat.

ADOLAT, ODILLIK, ADL Har qanday ish-harakat, munosabatdagi xolislik, ish-faoliyatdagi tutumda haqiqatga uyg‘unlik. **Adolat** so‘zi ko‘proq qonun-qoida mezonlari ifodasida qo‘llanadi. **Odillik** so‘zi oddiy va odatdagi munosabatlardagi xolislikni ifodalaydi, ko‘proq adabiy so‘zlashuv nutqiga xos. **Adl** so‘zi eskirgan, kitobiylik ta’kidiga ega.

Jahonda fitnalar bordir, A d o l a t gohi nochordir, Adolat qil, o‘zing odil, Kechir, yo rab, kechirdim men. E.Vohidov, Kechir, yo rab! *Bilgingiz kelsa, men ijtimoiy a d o l a t, insoniy tenglik tarafdoriman xolos*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *“Katta”ning bu gapni aytishga undagan narsa ichida bo‘g‘ilib yotgan o d i l l i k deb atalgan qaysar bir kuchning qalqib yuzaga chiqqanidan, sado berganidan edi*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Har ikkovini uylariga qo‘yib yuborishni buyurdi. Allomalar bu o d i l l i k boisidan garang bo‘lib, xonalariga qaytdilar*. T.Malik, Tiriklik suvi. *Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon hukmdorligi kunlarida Movarounnahr va Turkiston mamlakatining raiyati zulm zulmatidan a d l-u ehsonning obihayot chashmasiga yetishdi*. T.Malik, Falak. *Hazrat amir sohib, – dedi Abdul G‘ani suhbatga aralashib, – mening harakatim istig‘forga loyiq, alqissa, a d l eshigini kushod aylagan sizdayin saltanat hukmdorining qanotidan chiqmakni xayol qilishning o‘zi ko‘rnamaklikdir*. T.Malik, Savohil.

ADOLATLI, ODIL Har qanday ish-harakat, muayyan muammoli munosabatga haqiqatga uyg‘un tarzda yondashadigan, tarafkashliksiz hal qiladigan. Bu so‘zlar o‘rtasidagi farq **adolat** va **odillik** so‘zlari orasidagi kabidir.

Bandasi adolatsiz bo‘lsa, yaratgan egam a d o l a t l i. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Farmonbibi kelinlarining oshini zahar-zaqqumga aylantiruvchi zolim qaynona emas, balki talabchan, lekin a d o l a t l i, insofli, donishmand ayol*. O.Sharafiddinov, Xalq sevgan adib. *Sendan ilinjim shuki, inim, rais bo‘lsang, o d i l rais bo‘l*. T.Malik, Devona. *Shoh Muslim dunyodagi eng dono, eng o d i l podsholardan edi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

ADOLATSIZLIK, HAQSIZLIK, BEDODLIK Adolatga, haqqoniyatga rioya qilmaslik, adolatga, haqqoniyatga tamoman zid xatti-harakat. **Adolatsizlik** so‘zidan ko‘proq qonun-qoida mezonlarining poymol qilinishi ta’kidi ham anglashiladi, **haqsizlik** so‘zida esa ko‘proq o‘zganing qonuniy manfaatiga zid harakati ma’nosi qabariqroq ifodalanadi, ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Bedodlik** so‘zida o‘zganing haqli talabiga, arz-dodiga hech kimning quloq solmasligi holati ta’kidi mavjud, kitobiy bo‘yoqqa ega.

Adolat deb kuyinib yurgan yigitning a d o l a t s i z l i k bilan topilgan pullar evaziga tuzalgan dasturxon to‘rida o‘tirishi unga g‘alati tuyuldi. T.Malik, Shaytanat. *A d o l a t s i z l i k ni ko‘rib, xunibiyron bo‘lamiz. Hayotdan, taqdirdan noliymiz.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Sharif bilan Qobil uning fe’liga yaxshi tushunar, ul birar h a q s i z l i k ka duch kelsa, garchi masalaning o‘ziga taalluqi bo‘lmag‘anda ham shuning singari jinni bo‘lib olar edi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *U yerda tong otsa bezillar inson, U yerda haqorat, ochlik, h a q s i z l i k.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Safsarning kelib-kelib, ana shu kazzobning bozoriga mijoz bo‘lgani alamli b e d o d l i k emasmi?* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Hamma birdan g‘azabga mindi. B e d o d l i k! Borib*

turgan b e d o d l i k bu! – dedi jamoatchi muxbir E.Safar o‘rnidan sapchib. E.A’zam, Aralashqo‘rg‘on.

ADOVAT I, **KEK, KIN, GIDIR, G‘ARAZ** Yomonlik ko‘zda tutilgan maqsad, ko‘rolmaslik munosabati. **Kek** so‘zida biron narsa ta’sirida ko‘ngilda qolgan alam, o‘ch olish his-tuyg‘usi ma’nosi ifodalangan, ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Kin** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Adovat** so‘zida bu tushuncha **kek, kin** so‘zlaridan ko‘ra ham kuchli ifodalangan. **Gidir** so‘zi kam qo‘llanadi.

O‘zbek oyim bo‘lsa, eski gina va a d o v a t larni qaytib kelmas dunyosiga jo‘natdi. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *…o‘ylab-o‘ylamay aytgan so‘zlari bois mana shunday haqir qismat ila dunyoga kelganimizdan qahr-u g‘azabga to‘lib, yana cho‘qqilar uzra o‘rlab ketamiz – yana kin-u a d o v a t ila boqamiz bularning turmish-turmushlariga.* I.Sulton, Ozod. *Bolangizning bir martaba “dada” deganini eshitsangiz, har qanaqa k e k esdan chiqadi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *K e k dan hech kim ko‘karmagan. O‘ch-intiqom deb yurib, ko‘zingga qon to‘lib yo yog‘ bosib qolmasin.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ko‘nglim qolgani yo‘q yorug‘ olamdan, Xayolimda yo‘qdir na viqor, na k i n.* U.Azim, Ko‘nglim… *Bundan Abdullatif Mirzo qattiq ranjidi, k i n va alam tirnog‘ini tishlab gir-gir aylandi va otasiga qarshi qo‘shin tortishni o‘ylay boshladi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Yomg‘r bo‘lib bo‘zlar sag‘ir sukunat, ichingda o‘rmalar kuygin bir g i d i r*. Faxriyor. *Karim aka qarilik qursin, odamning esi kirdi-chiqdi bo‘lib qolar ekan, deb Yulduzxondan kechirim so‘radi, sal-pal yengil tortdig-u ko‘nglimizdan g i d i r ketmadi...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Bu xotinning bir g‘ a r a z i borligiga borgan sari ishonchim ortdi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...O‘zing shohid, ko‘nglimda na g‘ a r a z, na bir yomonlik bor edi.* E.A’zam, Shovqin.

ADOVAT II, **XUSUMAT, DUSHMANLIK, YOVLIK, G‘ANIMLIK, AG‘YORLIK, YOG‘IYLIK, ADULIQ** Dushmanlik munosabati, shunday munosabatga xos his-tuyg‘u, xatti-harakat. **Adovat** so‘zida mazkur his-tuyg‘u, xatti-harakat ifodasida umumiylik mavjud. **Dushmanlik** so‘zida mazkur ma’no qabariq ifodalangan. **Xusumat** so‘zida mazkur tuyg‘u va harakatning yashirinligi ta’kidi bor. **Yovlik**, **g‘animlik** so‘zlarida “dushmanlarcha munosabat” ma’no uzvi ustuvor. Sinonimik qatordagi **ag‘yorlik** so‘zida poetik bo‘yoq kuchli, **yog‘iylik** so‘zi eskirgan, kitobiy nutqqa xos. **Aduliq (aduvliq)** so‘zi eskirgan, kitobiy.

Shu tobda o‘sha eski a d o v a t lar, bir-biridan jirkanganlari ko‘z o‘ngiga keldi-yu, allanechuk yengillik sezdi. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Davron Yigitali akaga “A d o v a t larining sirini bilmayman”, deb noto‘g‘ri aytdi. A d o v a t sabablarini Bekmirzayevning o‘zidan eshitgan, ammo uni birovga aytishga shu topgacha hojat sezmagan edi*. T.Malik, Davron. *Zaynabning bitmas x u s u m a t i esa, g‘olibo, manim ikki qatlig‘im oshkor bo‘lg‘an kundan boshlandi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *X u s u m a t deydilar ushbuning otin, Dastidan yig‘in-*

A

lar, uylar bezovta. A.Oripov, Xusumat. *D u sh m a n l i k ka sabab bo‘lgan voqeani eshitib, Yomg‘iralining qornida kulgi chuldiradi.* A.Obidjon, Ayollar va xayollar. *Uzoq o‘tmishga aylangan qonli d u sh m a n l i k ni bugun davom ettirish kimga kerak?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xorazmga ingirangan er edi, Y o v l i k kuni Rustamdayin zo‘r edi.* “Yusuf va Ahmad”. *Xuddi o‘t bilan suvdek bir-biriga yov. Ana, shu y o v l i k tagida hali balki o‘zlari ham to‘la anglab yetmagan bir narsa bor ediki, buni o‘sha paytlardayoq sezganday edim*. O.Ergash, Shohsanam. *Birinchi yordamchi iljayib qo‘ydi: Yaxshiboyev bilan Shoymardonovning azaliy g‘ a n i m l i g i ni bilardi.* M.M.Do‘st, Galatepa qissalari. *O‘sha odam bizga g‘ a n i m l i k maqomida bo‘lgan yana uch-to‘rt kishi bilan Kobuldan Makkaga hajga borish bahonasida Qazvinga kelib tushibdir.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Dilbarim chindan qilib yorlik menga, Ahd-u paymonin qilur yorliq menga. El ichida bo‘lgusi u sharmisor, Qilsa ishqda kimsa a g‘ y o r l i k menga.* S.Abdulla, Tabassum va taassuf. *Go‘zal hislarimiz etdilar barbod Ag‘yorning ozori, do‘st a g‘ y o r l i g i…* Z.Mirzo, Ishq. *Mirzo hazratlariga y o g‘ i y l i k maqomida bo‘lgan chag‘raklar o‘lpon to‘lashdan bosh tortganlari uchun o‘n olti ming qo‘ylari, ikki yarim ming yilqilari jarima tarzida tortib olib kelindi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *A d u l i q shior aylab ag‘yor eli, Ayon etgusi bo‘yla bahs-u jadal*. Avaz.

ADVOKAT, OQLOVCHI, HIMOYACHI Sudda javobgarga huquqiy yordam beruvchi, javobgarni himoya qiluvchi yuridik ma’lumotli shaxs. **Advokat** so‘zi, asosan, rasmiy-huquqiy nutqda qo‘llanadi. **Oqlovchi** so‘zida “aybli deb gumon qilingan shaxsni oqlab ko‘rsatish” ifodasi qabariq ifodalangan, **himoyachi** so‘zida esa “aybli deb gumon qilingan shaxsning qonuniy huquqlarini himoya qilish” ifodasi ta’kid olgan, mazkur ikkala so‘z ham ko‘proq xalq tilida, so‘zlashuv nutqida ishlatiladi.

Istasangiz, a d v o k a t yollang. A d v o k a t ishtirokida gaplashing, bu sizning huquqingiz. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Mingboshining boshiga ne qora kunlar kelmadi! Yaxshi a d v o k a t lar tomonidan bitilgan g‘alati arizalar qanday tergovchilarni keltirmadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Jinoyat qasddan qilinmagan. Davlat qoralovchisi ham, o q l o v ch i si ham shu fikrda*. T.Malik, Shaytanat. *O q l o v ch i mijozini qarshilash uchun yo‘lakda to‘xtadi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Hamonki, h i m o y a ch i ga ehtiyoj yo‘q deb hisoblar ekansiz, mening vazifam – sizni ogohlantirish.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Sud yoki tergovchining har bir bolani o‘rganishga vaqti yo‘q, buni h i m o y a ch i lar bajarsin, deyishingiz ham mumkin. Buni rad etmaymiz.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li.

AFSONA, RIVOYAT, ASOTIR, UYDIRMA Avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan, to‘qimadan iborat hikoya, gap-so‘z. **Rivoyat** so‘zida hi-

koya qilinayotgan voqeaning og‘zaki o‘tib kelayotgani, og‘izdagi gap ta’kidi mavjud. **Asotir** so‘zida og‘zakilik ma’nosi ochiq ifodalanmagan, unda qadimiylik belgisi kuchli, ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Uydirma** so‘zida “to‘qib chiqarilganlik, yolg‘onlik” ifodasi ochiq anglashlib turadi, ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Ertak, dostonlarga Qancha boy bu olam. Qanchalar ko‘p Sharqda a f s o n a! E.Vohidov, Sharq ertagi. *Bu holga boshqalar, eng qizig‘i, uning o‘zi ham allaqachon ko‘nikkan, ko‘paylashib to‘qilgan anovi a f s o n a ga ishonib ketgan, ishonish ham gapmi, uni yangi-yangi tafsilotlar bilan boyitganki, bularsiz endi ul shirin a f s o n a ham, uning boshqa mualliflari hayoti ham shoyon kemtikdir*. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Bu r i v o y a t ni kichkinaligimizdan qulog‘imizga quyaverib ishontirib qo‘yishgandi. Endi bu gapga hech kim ishonmaydi*. T.Malik, Davron. *Tuproq baxmalday mayin, undan bahor va yoshlikning hidi keladi. Odamning tuproqdan yaratilgani haqidagi r i v o y a t esga tushadi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Shahar yulduzli osmon ostida chiroqlarini pirpiratib, yashnab-yastanib yotar edi. Shu yotishida a s o t i r lardagi juda bahaybat, juda ulkan jussali afsonaviy tirik jonzotga o‘xshab ketardi*. A.A’zam, Bu kunning davomi. *Arastu ulamoyi yunon turur. Alarda a s o t i r-u fasona bisyor bo‘lur.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Ularning yolg‘onini eshitmaganga olaman, bunaqa tortishuvlar ko‘p bo‘lib, oxirida hamisha o‘zim yutganim uchun kiprik qoqmay u y d i r m a to‘qishga o‘taman...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Yolg‘onchi edi, go‘yo bormagan joyi, ko‘rmagan yurti yo‘q, xayoliga kelgan u y d i r m a ni, orqa-oldiga qaramay, chippa-chin qilib gapirib tashlardi*. A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda.

AFSONAVIY, AFSONAVOR, FANTASTIK, XAYOLIY Faqat afsonalarda mavjud bo‘ladigan, aql bovar qilmaydigan. **Afsonavor** so‘zida mazkur umumiy ma’no poetik ta’kid bilan ifodalangan. **Fantastik** so‘zida “voqea-hodisalarning notabiiy, mubolag‘ali tasviriga daxldorlik” ma’no qirrasi qabariq ifodalangan. **Xayoliy** so‘zida tasavvuriylik, to‘qib chiqarilganlik ifodasi ta’kid olgan.

Ulug‘vor tog‘lar a f s o n a v i y Qal’a devorlaridek atrofni o‘rab turgan bu go‘zal vodiy hozir avvalgidan xiyla osuda. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U noma’lum yigit goh a f s o n a v i y pahlavon, goh Tursunboydek nomard bo‘lib ko‘rinardi*. S.Ahmad, Ufq. *Lekin u a f s o n a v o r Yelsin emas, keyinchalik uning hukumatida bosh vazirlik qilgan kishi ekan.* E.A’zam, Shovqin. *Afsonavor damlar bilan kelib yuzma-yuz...* Otayor, Oq fasl. *Yozuvchi f a n t a s t i k usuldan foydalangan bo‘lsa-da, roman teran realistik asar sifatida qabul qilinadi.* O.Yoqubov, Chingiz Aytmatovning falsafiy “vahiylari”. *Ertaklar to‘la syujet komponentlariga ega bo‘lib, ularda voqea-hodisalar f a n t a s t i k libosda tas-*

A

virlanadi. “O‘zbek tili va adabiyoti”. *Oxirda ko‘zini katta ochib o‘tgan daqiqada uchrashgani x a y o l i y go‘zalni istab xayollandi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U bularni botinning juda chuqur bir puchmoqlarida ro‘y bergan x a y o l i y voqea ekaniga ortiq shubha qilmasdi*. U.Hamdam, Muvozanat.

AFSUS I**, ATTANG, TAASSUF, PUSHAYMON (PUSHMON), O‘KINCH, NADOMAT** Nomaqbul qilmish, harakat va holat kabilar bois tug‘ilgan tuyg‘u, achinish, xafalik hissi, ko‘pincha o‘z qilmishining nodurust oqibatidan ruhiy ezilish tuyg‘usi. **Taassuf** so‘zida ko‘proq kitobiylik seziladi. **O‘kinch, o‘kinish** so‘zlarida so‘zlashuv nutqiga xoslanganlik bor. **Nadomat** so‘zida xafalik va ezilish hissi ortiqroq, kitobiylik mavjud. **Pushaymon** so‘zida ko‘proq o‘z qilmishi oqibatlaridan xafalik ifodalanadi, uning qo‘llanishi nutq uslublariga ko‘ra cheklanmagan, **pushmon** so‘zi faqat so‘zlashuv nutqiga xos. **Afsus, nadomat** so‘zlari *afsus-nadomat* tarzida juft so‘z shaklida ham ishlatiladi, bunda ma’noda xafalikning yanada kuchaytirilishi va umumlashtirilishi voqelanadi.

Mening o‘rnimda hamma ham shu ahvolga tushib qolarmikin, yo men o‘zim shunchalik beqaror ekanmanmi, bilmadim, ishqilib, o‘shandan atigi bir soat oldin, majlis vaqtida qilgan a f s u s larimni unutib, inshoni qayta ko‘chirar edim. O.Yoqubov, Muqaddas. *Mana shu san’atning ta’sirida men birinchi tilmani ocholmaganimning a f s u s ini unutib yubordim.* P.Qodirov, Meros. *Peshonangga bitilgan a t t a ng, Yengilmoq bor doimo jangda.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Boshimda a t t a ng lar to‘zg‘ilanib, ingillay-hingillay yo‘l bosyapman-u, juftakni rostlash o‘rniga Sangin tandirchidan astoydil kechirim so‘rasam, og‘zim qiyshayib qolardimi, deb o‘ylanaman nuqul.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? – *Sizlarda ham ichki parokandalik-u viloyatlarni bir markaz atrofiga birlashtirish muammosi bor ekan-da, – dedi Humoyun t a a s s u f bilan.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Boz ustiga, enasining ta’naomuz qarashlari-yu, otasining t a a s s u f-la boqishlariga chidamog‘i qiyin kechdi.* N.Norqobilov, Bo‘ron qo‘pgan kun. *Shuning uchun ham umrining ikkinchi yarmi p u sh a y m o n da, azobda o‘tadi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Rost, kechasi allamahalda mehmonxonaga kirib borib, nogahon do‘stlari davrasiga tushganida, ayniqsa, Oltinoyning bo‘taloqning ko‘zlariday ma’sum, ma’yus ko‘zlari bilan to‘qnashganida yuragida p u sh a y m o n ga o‘xshash bir narsa g‘imirladi*...O.Yoqubov, Adolat manzili. *Kun o‘tadi, Tunga kirganda Ruhim, qalbim ezadi p u sh m o n. O‘tgan ishga zaif qolganda Salovat ham ko‘tarsa fig‘on...* Zulfiya, Yillar sadosi. *Sen yo‘qsan, ko‘nglimda halovat, Ilgari u edi dushmanim. Yo‘q endi oldingi tilovat, Baxt bor-u, borday ham p u sh m o n im.* H.Xudoyberdiyeva, Hayrat. *Qadim ajdod o‘ k i n ch bilan cho‘kib soyaga, Bu so‘zlarni cho‘kich bilan yozdi qoyaga.* E.Vohidov, Bu ko‘hna hasrat. *So‘rsang, sevinchimdan o‘ k i n ch im ko‘proq, Sendan-da kumushroq sochimdagi oq.* M.Yusuf, Yangi yil kechasi. *Na-*

d o m a t birla boqg‘ayman vatansizlarga har doim, Egib boshini zor yig‘lar, agarchi davlati qoyim. A.Oripov, Vatan. *Afsus, n a d o m a t lar, Armonlar uchun Paxtada ne gunoh? Savala meni!* E.Vohidov, Savag‘ich. *Vazir Shamsulmulk daryoni kechishda cho‘kkan deb o‘ylardi sulton. Afsus va n a d o m a t lar ko‘nglini o‘rtardi.* E.Samandar, Sulton Jaloliddin.

AFSUS II, **ATTANG, TAASSUF, ESIZ** Mazkur so‘zlar kirish so‘z vazifasida kelganda, sodir etgan ishi, yuz bergan hodisa uchun ruhiy ezilish, achinish tuyg‘usini ifodalaydi. **Attang**da afsuslanish darajasi **afsus**ga qaraganda ortiqroq, **taassuf** so‘zi bu vazifada ko‘proq *-ki* yuklamasini olib keladi, kitobiy nutqqa oid.

A f s u s, olamni nurga to‘ldirgan bu g‘alati kunlar nari borsa bir hafta-o‘n kun davom etdi-yu, kutilmaganda taqa-taq to‘xtadi. O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Umid opasining dardiga davo istab do‘xtirma-do‘xtir yurdi – biror tayinli naf topmadi, onasi sho‘rlik ne-ne ilinjlarda qatnamagan duogo‘yi-yu qilmagan ilmi-amali qolmadi, a f s u s, ularning hech biri qizini bebaxt qilgan na ko‘zning, na suqning kuchini qirqa oldi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza… *Oqsoqol a t t a ng, a t t a ng, deb boshini sarak-sarak qildi.* S.Ahmad, Ufq. *O‘g‘il bo‘lmay o‘lay, A t t a ng, ming a t t a n g. Qiz tug‘sang netardi, Ko‘proq qiz tug‘sang.* M.Yusuf, Onajon. *– Hind elida ajib ishlar voqe bo‘lubtir, – deb davom etdi mudarris. – T a a s s u f ki, tamomi kofiristondir.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Binobarin, bugun rostini aytadigan kun. Chunki shoirni ko‘rgan-bilgan odamlar, ustozlarimiz, t a a s s u f ki, yildan yil kamayib borayotir.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *– E s i z, tushib qopti, boychechak olib kelgandim bir dona, – dedi.* Sh.Xolmirzayev, Boychechak ochildi. *Ammaginangning qiziga ko‘nmayapsan, o‘sha yoqlardan birontasini topdingmi deyman-ov? Oyday qiz edi-ya, e s i z gina!* E.A‘zam, Shovqin.

AFSUSLANMOQ, AFSUS QILMOQ, TAASSUFLANMOQ, PUSHAYMON QILMOQ, PUSHAYMON BO‘LMOQ, O‘KINMOQ Nomaqbul qilmish, harakat va holat kabilar, ko‘pincha o‘z qilmishining nodurust oqibati bois xafa bo‘lmoq, ruhan ezilmoq. **Taassuflanmoq** so‘zida kitobiylik ta’kidi mavjud. **Pushaymon qilmoq, pushaymon bo‘lmoq** so‘zlarida o‘z qilmishi oqibatlaridan xafalik ta’kidi ochiqroq ifodalangan. **O‘kinmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

– Yo‘qsa, sizning bosh olishingiz ham anovilarning qirg‘inidan farqlik bo‘lolmas, – dedi va biroz to‘xtab olg‘andan keyin a f s u s l a n di, – shu yoshg‘a yetib, bu xalq orasida haligi jamoani uch-to‘rt nafardan ortiq uchratolmadim, afsus. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bolqon urushidan xabarsiz bir musulmon boyining savoliga u ichidan a f s u s l a n sa ham, lekin buni sezdirmadi, avvalgi tur bilan gapini davom ettirdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Manzura endi a f s u s q i l adi. Uning ko‘zlariga qayg‘u cho‘kdi*. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Ish kutgancha chiqmadi, deb a f s u s q i l dim, chunki darbozadan o‘n adim ichkariga*

A

kirgan edik, darboza yopilmasdan yana orqamga qayrildim... A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Biz uning ayanchli holiga... t a a s s u f l a n dik*. Mirmuhsin, Sozanda. *Muhtaram sarkarda, Xo‘jandning qo‘ldan ketganini eshitib, ko‘p t a a s s u f l a n dim.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Lekin Toshkentda qolganingiz uchun p u sh a y m o n q i l ayotgan bo‘lsangiz, marhamat, haliyam yo‘lingizdan qolmang!* O.Yoqubov, Matluba. *P u sh a y m o n q i l yapsiz-a? Bo‘lgani bo‘ldi endi, do‘stim, o‘ylamang!..* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Lekin hozir Samig‘jon bilan uchrashganda nima derdi? O‘shanda gapingizga kirmay ahmoqlik qilgan ekanman, mana endi p u sh a y m o n b o‘ l ib keldim, deydimi?* O.Yoqubov, Matluba. *Bo‘ston gapirganiga p u sh a y m o n b o‘ l ib, otining jilovini tortib, sal chekkaroqdan ketdi.* S.Nazar, Yashil boylik. *Oraga tushib ukasini qutqarib qololmaganidan o‘ k i n dimi?* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Biroq u dadasi va qizlarining kelajagi uchun o‘z orzusini qurbon qilganidan zarracha o‘ k i n ayotgani yo‘q va bundan keyin ham o‘ k i n mayajagini teran anglardi...* U.Hamdam, Muvozanat.

AFTIDAN, CHAMASI, CHAMAMDA, NAZARIMDA, NAZDIMDA, CHOG‘I, CHOG‘IMDA, SHEKILLI, BALKI Ifodalanayotgan fikrning taxminanligini ta’kidlaydi. **Aftidan** so‘zidan taxminning ko‘proq ko‘rish asosida ekanligi anglashiladi. **Chamasi, shekilli, chog‘i** so‘zlaridan taxminiylik ma’nosining qabariqroq va umumiy tarzdaligi anglashiladi. **Chamamda, nazarimda, nazdimda, chog‘imda** so‘zlarida taxminning so‘zlovchi shaxsning mo‘ljaliga ko‘ra ekanligi ifodalanadi. **Balki** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda, kirish so‘z vazifasini bajaradi.

A f t i d a n, u xotin-qizini juda yaxshi ko‘rsa kerak. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Men... ustki kiyimlarimni olib qoladigan kishi tomon borayotgan edim, shundoq ro‘paramdan, a f t i d a n, qo‘lyuvgich xonadan chiqib kelishayotgan novcha, norg‘ul yigit bilan etagi yerga teggudek uzun, qora barqut ko‘ylakli juvonga ko‘zim tushdi*. Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *Ch a m a s i, bu tushunchalarga faqat kitoblarda yoziladigan narsa deb qaralardi*. E.A’zam, Guli-guli. *Mening lavozimim uning odamlaridan yana birortasiga kerak, ch a m a s i*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Mehmon iflos suvga xuddi sichqonni ko‘rib qolgan mushukdek butun vujudi bilan qarar, ch a m a m d a, fotoapparati yonida bo‘lmaganidan afsuslanar edi*. A.Qahhor, Dumli odamlar. *Hushimga kelsam... oyoq og‘riyapti. Qattiq og‘riq hushimga keltirdi, ch a m a m d a*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *N a z a r i m d a, yigitga unchalik ta’sir etolmagan oddiy voqealarni tiklashga elallomaning qurbi yetmagan*. T.Malik, Falak. *N a z a r i m d a, o‘sha podsho jodugar kampirning gapiga uchib, meni cho‘ldagi quduqqa tashlaydi, men esa quduqda hech narsani ko‘rmay, ko‘p yillar yashayman... deb o‘ylardim*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Xona chindan ham huvullab qolgan, n a z d i m d a, o‘zim yolg‘iz bo‘lib qoladigandek edim*.

Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Mening tomog‘imdan o‘tmas, n a z d i m - d a, qoshiqni ushlashim mahol edi.* Sh.Xolmirzayev, Abdulla Qahhorni eslab... *Ustiga ustak, harbiyga kuzatish, kutib olish, diplomni nishonlash, nafaqaga chiqishni tabriklash odatlari “eskilik sarqiti” emas, ch o g‘ i!* O‘.Hoshimov, Do‘stlik hurmatdan boshlanadi. *Spirt ta’sir qila boshladi, ch o g‘ i, birpasdan keyin yengil tortib, sherigiga iljaydi*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Nosirjon karavotiga borib yotgach, varaqqa uzoq tikildi. Allanarsalar deb pichirladi. Ch o g‘ i m d a, o‘sha ikki satrni takrorladi*. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Kechagi dam olish kuni Mullajonni tovuq bozorida ko‘rib qoldim, ch o g‘ i m d a, urishadigan xo‘roz qidirib yurgan edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Said aka o‘g‘lining dilida nima bo‘layotganini sezdi, sh e k i l l i, atrofdagilarga eshittirib gapirdi*. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *O‘sha sersavlat akaxon mayda-chuyda odamlarga qo‘shilib allaqanday bolani kutib turganidan o‘ng‘aysizlandi, sh e k i l l i, menga yaqin kelib o‘z-o‘zidan gap boshlab qoldi.* L.Bo‘rixon, Sut sotuvchi bola. *B a l k i, arizaning beoqibat qoldirilishini so‘rab, ariza berarlar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *B a l k i, inson ongi, yuragida qo‘rqinchli narsalarga, tahdidlarga ham qarshilik hissi vujudga kelar*. Q.Kenja, Palaxmon toshlari.

AFZAL, YAXSHI, ORTIQ, USTUN, YUQORI, A’LO Ikki narsa-hodisani chog‘ishtirishda birida boshqasiga ko‘ra muayyan belgi darajasining ortiqligi, maqbulligini ifodalaydi. **Afzal, yaxshi, a’lo** so‘zlari ko‘proq sifat, fazilat, qadr-qimmat jihatidan belgining ortiqligini bildiradi. **Ortiq, ustun, yuqori** so‘zlari ko‘proq miqdoriy belgining ortiqligini bildiradi. Umuman, mazkur so‘zlardagi ortiqlik belgisining darajasi berilgan so‘zlar ketma-ketligida o‘sib boradi. Bunda **afzal** so‘zidagi ma’no daraja jihatidan anchayin umumiy, bu daraja **yaxshi** so‘zidan **a’lo** so‘ziga qarab ortib boradi.

Bu yerda yana o‘n kun qolgandan ko‘ra umrbod kar bo‘lib yashagan a f z a l! E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *“Zavoddami, fabrikadami ishlash ming marta a f z a l-ku bundan” deb qo‘yardi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shunga boja bo‘lgandan ko‘ra itga boja bo‘lganim ming marta y a x sh i!* T.Malik, Xazonrezgi. *U bir vaqtlar telestudiyada ilk bor qo‘liga ushlab tomosha qilganidan ham y a x sh i roq tor ko‘tarib turardi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Mister Grant, – dedi Chelmsford uni bog‘ga boshlab, – siz Nasrulloxonni mendan ko‘ra y a x sh i roq bilasiz.* T.Malik, Savohil. *Siz saxovatda Hotamtoydan, adolatda No‘shiravoni odildan o r t i q ish yurityapsiz*. T.Malik, Savohil. *Axir, u Arslonov istaganidan ham o r t i q ish bajardi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Mirzakarimboyning qizi Nurinisoning tabiatida yengillik bilan makr u s t u n edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Nayza o‘pkaning bir chetini kesib o‘tgan bo‘lsa ham, yurak va jigar kabi nozik a’zolarga tegmagan, Tohirning yoshligi va baquvvatligi u s t u n kelib, asta-sekin tuzalib ketgan edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Yigit-*

A

ning yuragi, nomusi, odamgarchiligi puldan aziz, puldan y u q o r i emasmi? Oybek,Tanlangan asarlar. *Sening bahodirligingga ulug‘ Chingizxonning havasi kelgani bizga ma’lum. Seni o‘z o‘g‘illaridan ham y u q o r i baholaganini bilamiz*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Birovni abgor qilib yaxshi yashashdan ko‘ra, birovning qarg‘ishiga qolmay kambag‘allikda umr kechirgan a’ l o emasmi*? T.Malik, Shaytanat. *...Bu uy uning qimmatbaho jihozlar bilan to‘lib ketgan yotog‘idan soddaligi bilan ming marta a’ l o edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

AFZALLIK, ORTIQLIK, USTUNLIK, MAZIYAT Afzal, ortiq belgiga egalik. **Ortiqlik** bu ma’noda ko‘proq narsa-hodisalarga, **ustunlik** shaxslarga nisbatan qo‘llanadi. **Ortiqlik** ko‘proq kitobiy nutqqa, **ustunlik** so‘zlashuvga xos. **Maziyat** so‘zi eskirgan.

To ichkariga kirgunlaricha u rasadxonaning a f z a l l i k larini gapirib bordi. T.Malik, Falak. *Hech kim o‘z-o‘zidan yolg‘onchi bo‘lmaydi. Axir rostgo‘ylikning a f z a l l i g i ni, go‘zalligini kim bilmaydi?* P.Qodirov, Uch ildiz. *Havlining to‘rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan va to‘rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o‘ralg‘an bo‘lib, shu ikki uyning orasig‘a o‘lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu havlining birinchi martaba ko‘zga chalinadirg‘an o r t i q l i k laridandir*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Nihoyat, qiz tomon bo‘sh kelmasa ham, umuman erkakning hurmati va uning ayoldan u s t u n l i g i ni tasdiqlash uchun picha yon berdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yovning son jihatidan beqiyos darajada u s t u n l i g i ko‘pchilik bek va navkarlarning qalbiga g‘ulg‘ula solar edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qizini yer-ko‘kka ishonmagan, uning butun nuqsonlarini bir m a z i y a t bilgan onasi Lutfiniso erining davlatidan mumkin qadar ko‘proq qo‘porib, shu kenja arzandasiga sarf qilish uchun urinar... edi*. Oybek, Tanlangan asarlar.

AGAR, MABODO, BASHARTI, BORDI-YU, MAGAR Gap mazmunidagi shartni kuchaytirish, ta’kidlash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z. **Agar, mabodo** so‘zlarining qo‘llanishi nutq uslublariga ko‘ra cheklanmagan, og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham qo‘llanaveradi. **Bordi-yu** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xoslangan. Ayni paytda, **mabodo, bordi-yu** so‘zlari shart mazmunidagi harakat-holatning ehtimoldan uzoqroq ekanligini ta’kidlaydi, ko‘proq kitobiy nutqqa xoslangan. **Magar** so‘zi eskirgan, kitobiylik bo‘yog‘iga ega.

Tuzuk, a g a r Musulmonqul bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg‘anda... unga kim nima deya olur edi? A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *A g a r o‘rtada farzand bo‘lmaganda, oila allaqachon buzilib ketardi*. U.Hamdam, Muvozanat. *M a b o d o qachondir mansabdor bo‘lib qolsang, bilib qo‘y: amal kursisida o‘tirganingda kim eng ko‘p tovoningni yalasa, kursidan tushganingda o‘sha birinchi bo‘lib sendan yuz o‘giradi*! O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Urushda qon kechib yuribmiz, m a b o d o vafot etsam, meni Kobulga eltib ko‘mgin*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *B a sh a r t i arizada bitilgan gaplar rost*

bo‘lganda ham seni ayblashga ko‘nglim bormaydi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *B a sh a r t i aytmagan bo‘lsam, sen biroz yon bersang, “Munisxon”ligingdan tushib qolarmiding?* A.Qahhor, Sarob. *Bo‘z ot qanday bo‘ladi? Surpday oppoq bo‘ladi. B o r d i-y u ajdodida bo‘lsa, to‘qqizga to‘lganda tarlon bo‘ladi*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Polvonlar birovi bo‘shroq bo‘lsa-ku yaxshi, yiqilmaganiga shukur qilib yura beradi. B o r d i-y u ikkovida g‘oliblikka bab-barobar da’vogar bo‘lsa-chi? Unda... asablar olishadi!* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *M a g a r bul so‘zlaringiz rost bo‘lsa, baxtiqaro bibingizni tashlab ketmas edingiz, amirim!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *M a g a r bul o‘y avvalroq xayolimg‘a kelg‘onda, m a g a r o‘z qudratimga inonib ketmog‘anumda, bul so‘nggi safarga otlanar erkanman, barcha farzandlarim va nabiralarimni yonimga olsam bo‘lmasmidi?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat.

AHD, VA’DA, LAFZ, AZM, JAZM, TO‘XTAM, QAROR, AHD-PAYMON, PAYMON Nimanidir qilish-qilmaslik haqida o‘ziga yoki o‘zgaga berilgan qat’iy ishontirish so‘zi. **Va’da, lafz** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Azm, jazm** so‘zlarida qat’iyat darajasi **qaror**, **to‘xtam**ga nisbatan kamroq, **ahd**da **qaror**ga nisbatan kuchliroq. **To‘xtam** so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos. **Paymon** so‘zi eskirgan, kitobiy, o‘zi alohida juda kam qo‘llanadi. Ammo ko‘pincha **ahd-paymon, ahd-u paymon** tarzidagi juft so‘zlar tarkibida keladi va ulardagi ma’noda ifodalangan va’daning qat’iyligi kuchli darajada ta’kid oladi.

Shunda men bir adib sifatida... odamda bo‘layotgan o‘zgarishni ko‘rdim; uni kuzatish a h d im bo‘lib qoldi. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Ijodiy ishni yig‘ishtirib, butunlay bog‘bonlikka o‘tishga esa ori yo‘l bermasdi: shuncha yil nonini yeb, yaxshimi-yomonmi, shu tufayli nom taratib, endi zamon sal yuz burganda muqaddas a h d ga xiyonat qilish nomardlik emasmi?!* E.A’zam, Yozuvchi. *Bola onasidan ham ertak eshitolmasligini bilsa-da, bu v a’ d a ga ishondi*. T.Malik, Shaytanat. *Qolaversa, Sizga v a’ d a m bor, bergan so‘zim bor. Endi qaysi til bilan ochaman u tashrifingizni?* M.Mansur, Judolik diyori. *Unsin Nodirmohbegimga ko‘zi tushgan zamoni undan dodxoning l a f z i l a f z mi ekanini so‘ramoqchi bo‘lgan edi, uning ahvolini ko‘rib, eshitilar-eshitilmas: -Sizga nima bo‘ldi? – dedi*. A.Qahhor, Dahshat. *– Juma kuni shanbada yuboraman deb va’da qiluvdingiz, – dedi ranjib. – Shanba kuni dushanbada dedingiz. Sizda l a f z degan narsa bormi o‘zi, o‘rtoq master?* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Nega unda hali hech narsa qilmay turib, aqlimiz “hamma narsani qilish mumkin”ligi ehtimolidan ogohlantirmoqda, orqaga qayirmoqda, qayta qurish shahdini, a z m ini yana loqaydlik bilan almashtirishga urinmoqda*. I.G‘afurov, Najot haqiqatda. *Karvon qo‘ng‘irog‘i jaranglardi goh – Yo‘lchilar a z m i dan yagona guvoh.* B.Boyqobilov, Jonginam. *Ko‘rinishi va xatti-harakatidan u bir narsaga qattiq jazm qilgani, hozir ko‘ziga o‘sha j a z m idan boshqa narsa ko‘rinmayotgani balqib bilinib turardi*. N.M.Raufxon, Qiyomat. *Ne mashaqqatlar kuyib kul*

A

bo‘ldi jonim j a z m iga, Do‘st madad bo‘ldi uning ham ahdiga, ham azmiga. J.Kamol, Erkin Vohidov g‘azaliga muxammas. *Asqaralibekning t o‘ x t a m ini otasi tuyibdi, yugurib kelib oldiga ko‘ndalang turdi*. B.M.Ali, Ko‘kto‘nliklar. *Manzuraning qaytish haqidagi q a r o r i Asadbekning rejalarini buzib tashladi*. T.Malik, Shaytanat. *Shu kuni Ravshan bilan Munira qat’iy bir q a r o r ga kelishdi*. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Uning xayoli butunlay boshqa yoqda – a h d-p a y m o n larini barbod qilgan Suxsurada edi*. S.Ahmad, Tut pishig‘i. *Bo‘ladigan gap shuki, bir qiz bilan a h d-u p a y m o n imiz bor edi*. T.Malik, Shaytanat.

AHD QILMOQ, AZM QILMOQ (ETMOQ), JAZM QILMOQ (ETMOQ), TO‘XTAMGA KELMOQ O‘z ko‘nglida biror harakat-holatni amalga oshirishga qat’iy qaror bermoq. **Azm qilmoq (etmoq)** fe’lida qat’iyat darajasi **to‘xtamga kelmoq**qa nisbatan kamroq. **Jazm qilmoq (yoki etmoq)** qat’iy “qaror qilmoq” ma’nosida oddiy so‘zlashuvda ham ishlatiladi. **To‘xtamga kelmoq** so‘zlashuvda faol uchraydi.

Qullarning qasosini Olurman deb a h d q i l gan. Xonlikning asosini Buzurman deb jahd qilgan. H.Olimjon, Oygul bilan Baxtiyor. *Yunonga borib Suqrotni topishga va uning uchun qorong‘i bo‘lgan tilsimni ochishga a h d q i l gan Farhod zo‘r mo‘jizalar ko‘rsatadi*. H.Olimjon, Farhod va Shirin. *So‘rayman, bu nima ekanini bilib olaman deb, ko‘p bor a z m q i l gan bo‘lsam-da, mavridi bo‘lmayotgandi.* I.Abdiyev, Arslon yelkasidagi xazina. *Obodlik yo‘lini a z m e tdi bu el, Farhodlar yaralur fidolaridan. Shunchalar aziz va xislatli bu yer, Temurlar yaralur duolaridan!* M.Mirzo, Sajdagohim. *Ular bu ishni oldindan maslahatlashib qilishgan, Nizom otasining qasdi uchun ham bu noinsof jinoyatchini jazolashga j a z m q i l gan edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Va biz ham bir kecha yetti otliq – yetti botir Ollohga tavakkul aylab, dovon oshmoqqa va sarhaddan o‘tmoqqa j a z m e t dik*. M.Mansur, Judolik diyori. *Akangizning qarorini eshitib, ajablanmadim-u, yuz-ko‘zidagi o‘zgarishdan bir t o‘ x t a m g a k e l maganini sezdim.* O.Jumaboyev, Uy. *Maslahatlashib-maslahatlashib, oxiri bir t o‘ x t a m g a k e l dik: barcha ishlar yarim kechadan keyin boshlanadi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?

AHDLASHMOQ, VA’DALASHMOQ, AHD-PAYMON QILISHMOQ, KELISHMOQ, BITISHMOQ, SHARTLASHMOQ Biror harakatni amalga oshirish uchun bir fikrga kelmoq, so‘zni bir joyga qo‘ymoq. **Ahdlashmoq** so‘zi sinonimik qatordagi boshqa so‘zlarga nisbatan qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, biror ishni qilish yoki qilmaslikka berilgan so‘zni uslubiy betaraf ifodalaydi. **Shartlashmoq** so‘zi kitobiy uslubga xos, **ahd-paymon qilishmoq** ishq-muhabbatda va’dalashishni bildiradi, **kelishmoq** so‘zlashuv nutqida ko‘proq qo‘llanadi. **Bitishmoq** so‘zi “o‘zaro bir to‘xtamga, qarorga kelish, sulh, murosaga kelish, yarashish” ma’nolarini ifodalaydi.

Abdulla Gulchehra bilan qat'iy a h d l a sh ganiga sevinsa, Obid aka uyda chaqaloqning ovozi eshitilayotganidan boshi osmonda edi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Voqea yuz bergan, er-xotin ajrashishga a h d l a sh ishgan oqshom Rustam ko'proq baliq tutib, ertasiga shaharga bormoqchi, sotib, puliga Risolatga sovg'a-salom olib kelmoqchi edi (lekin bu niyatini xotiniga bildirmagandi).* Q.Kenja, Toshqin. *V a' d a l a sh gan vaqtida borsak ham bo'lar ...ikki-uch qayta aytdi, shunchaki aytib qutilmadi, balki yotig'i bilan batafsil so'zlab hikoya qilib berdi.* X.Do'stmuhammad, Kuza... *Rostdan, uning gapi yana qovushmadi, bu odam o'zimcha turibman, tanishimni ko'rgani kelganman, shu yerga v a' d a l a sh ganmiz desa, nima gap topib beradi? To'yda ikki yosh a h d-p a y m o n q i l ib, bir-biriga qo'l beradi.* A.Qahhor, To'ylar muborak. *Bashirjon birpasda shuncha rejani xayolan tuzib chiqqach, sangtarosh bilan k e l i sh ib, qo'l tashlashdi.* N.Aminov, Suvarak. *Endi k e l i sh ib olaylik: bundan keyin hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'lsin.* T.Malik, Savohil. *Bunday "muassir" nasihatlar ham Anvarga kor qilmadi. Chunki u Nigor oyim va Ra'no bilan bu to'g'risida qat'iy b i t i sh ib qo'ygan edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Xo'jayin erta ko'klamda sh a r t l a sh ib, pulni to'lab qo'ygan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

AHIL, INOQ, TOTUV O'zaro do'stona munosabatli, bir-biri bilan ittifoq bo'lib yashaydigan, bir-biriga mehribonlik va yaxshilik ko'rsatish bilan birlashgan. **Inoq** so'zida bir-biriga bog'liqlik, **totuv** so'zida bog'liqlik bilan bir qatorda "farovonlik-tinchlik" ta'kidi seziladi. **Inoq** oddiy so'zlashuvda ko'proq qo'llanadi. Mazkur ma'no **inoq-ittifoq** juft so'zida yanada kuchli ifoda topadi.

Shundoq a h i l adashlarimga qarab turib, ismim Ahmad ekanidan, ahmadlarning ko'pligidan rosa ko'nglim ko'tarilib, boshim osmonga yetdi. A.A'zam, Odamning ismi. *Agar qabilalar avvalgidek a h i l yashashganda, u jon-jon deb shu qizni kelin qilardi.* O'.Umarbekov, Oqsoqol. *Ko'zim tirikligida sizning inilaringiz bilan i n o q, ittifoq bo'lganingizni ko'rsam dunyodan bearmon ketardim.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Parvardigor i n o q er-xotinlarni yaxshi ko'rarmish, shuning uchun bizni o'zi yorlaqaydi.* Q.Kenja, Toshqin. *Er-xotin juda t o t u v, yaxshi yashashardi.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Kattakon o'rik soyasidagi chorpoyada t o t u v oila ahli xushvaqtlik bilan choyxo'rlik qilib o'tiribdi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir.

AHMOQ, TENTAK, TELBA Aqli past, aql bilan ish qilmaydigan, fikrlash qobiliyati me'yorida emas. **Ahmoq** so'zida aqlning anchayin kamligi aniqroq ifodalangan, shuning uchun so'kish-koyish ma'nosida ham qo'llanadi. **Tentak, telba** so'zlaridan aqldagi noqislik, fikrlashning yetarli emasligi anglashiladi.

"Mevalari oldin-ketin pisha boshlab, ekinlar ekilib, oldingilari tayyor bo'lgan paytda qaysi a h m o q bog'ini sotadi" deb Salimboyvachcha hayron qoldi. Oybek, Qutlug' qon. *– Jinni bo'ldingmi, yurtimga qaytay, uylanib, bola-chaqali bo'lay, boshqalardek bearmon yashab yuray deb niyat qilmaysanmi, a h m o q! – dedim unga.* S.Ahmad, Oftob oyim. *Ahmoq, t e n t a k! Bir muttaham-*

A

ning nayrangiga uchiib... Odam ham shunday anoyi bo‘ladimi? E.A’zam, Anoyining jaydari olmasi. *Yig‘lama, nega yig‘laysan, t e n t a k, – dedi u boshimni silab.* O‘.Umarbekov, Charos. *Unsin qo‘rquvdan t e l b a bir ahvolda bo‘lsa ham fahmladi: maymun! Dodxoning maymuni!* A.Qahhor, Dahshat. *Siz bo‘lsa... u l t e l b a ning bul yolg‘on po‘pisasiga inonib, ruxsoringizni ko‘rsatdingiz?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat.

AHVOL, HOLAT, HOL, KEPATA, AHVOLOT Ruhiy va jismoniy hayotda muayyan vaqt va sharoitda yuzaga kelgan yoki mavjud bo‘lgan vaziyat. **Ahvol** so‘zida umumlashtiruvchilik belgisi kuchliroq. Ko‘pincha bu so‘z **hol-ahvol** tarzidagi juft so‘z tarkibida ham keladi, bunday juft so‘zda umumlashtirish yana ham kuchli bo‘ladi. **Kepata** so‘zi shevaga xos bo‘lib, asosan, shaxsga nisbatan ishlatiladi, unda, odatda, muayyan qiyofaning yomon, achinarli, ayanch ahvoldaligi ta’kid oladi. **Ahvolot** so‘zi kitobiy va kam qo‘llanadi (asosan, tarixiy asarlarda).

Zebining haligi a h v o l i ko‘ngliga tashvish solganidan keyin chiday olmadi; bir kun Zebining yo‘q vaqtini topib turib, eriga so‘z ochdi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Abdulla uni bu a h v o l da ko‘rib, g‘alati bo‘lib ketdi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Mening shunday yaxshi amaldorim bor ekan, qadriga yetib, h o l-a h v o l idan xabardor bo‘lib turibsanmi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ha, endi, do‘stim, h o l-a h v o l im o‘zingga ma’lum. Nima qilasan meni qiynab?* E.Vohidov, Oltin devor. *Botirxonga bu h o l a t ma’qul bo‘ldi va opaning bu kayfiyati kelinga ham yuqishini taxmin qilgani uchun voqeani yanayam bo‘rttirib hikoya qila boshladi*. Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Som mirzo Humoyunning shunday tahlikali h o l a t da o‘zini mardona tutganidan juda ta’sirlangan edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Anvar so‘nggi marta bu uydan chiqqanida, bular sochilgan h o l da edi. Keyin... Xonzoda titroq qo‘llari bilan batartib h o l ga keltirdi*. T.Malik, Shaytanat. *U bunday h o l da Daminning fikrini ma’qullamagan odam baloga qolishini bilardi*. T.Malik, Savohil. *Demak, odamzod butunlay hayvon k e p a t a siga kirmabdi. Demak, hali umid bor*. U.Hamdam, Muvozanat. *Mana hozir orqasidan tepki yegan notavon odam k e p a t a sida bo‘lsa ham, qorovulga sir boy bermaslik uchun hazil bilan javob qilib, ko‘chaga chiqdi*. T.Malik, Shaytanat. *Otam siz bilan o‘lturishib, Toshkand a h v o l o t ini so‘zlashmakka mushtoqdirlar*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Menga dedilarki, siz, muhtaram qori afandim, o‘tgan oydamikin, Turkiyadan qaytmish ekansiz. Undagi a h v o l o t ni bizdan ko‘ra siz durust fahm etasiz*. T.Malik, Devona.

AJAB, AJABLANARLI, TAAJJUBLI, TAAJJUBLANARLI, G‘ALATI, G‘ARIBA Aqlni shoshiradigan, hayrat va hayronlik tuyg‘usini tug‘diradigan. **Ajablanarli** so‘zida bu ma’no **ajab** so‘zidan ko‘ra kuchli ifodalanadi. **Taajjubli, taajjublanarli** so‘zlarida harakat-holatga ikkilanib qarash ta’kidi mavjud. **G‘alati** so‘zida harakat-holatning rostligiga ishonchsizlik ta’kidi bor, bu so‘z ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **G‘ariba** so‘zi eskirgan, juda kam qo‘llanadi.

A j a b dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do‘stlar, Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku. Cho‘lpon, Qalandar ishqi. *Xayyom o‘z baxtini izlagan bu zahmatkash yigitga boqarkan, dunyoning a j a b savdolarini o‘ylay ketdi*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Ota-onasi durustgina yerlarda xizmat qiluvchi yigitning ko‘cha supuruvchi – farrosh bo‘lib ishlashi a j a b l a n a r l i edi*. T.Malik, Shaytanat. *Kim biladi, menga shunday tuyulgandir, hozirgina kitob o‘g‘irlab chiqqan hovli derazasida cho‘qqisoqol menga qarab turardi va ajablanarlisi shundaki, u menga jilmayib qo‘yganga o‘xshadi*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *T a a j j u b l i hol: (jussasi kichikroq bo‘lgani uchunmi) u azaldan novcha, norg‘ul odamlarni yoqtirar, ko‘proq o‘shanaqalar bilan do‘st tutinmoqqa intilar edi*. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *T a a j j u b l i jihati, janjalga turtki bo‘lgan asosiy sabab allaqachon o‘tmish qa’riga singib, har ikki tomonning ham yodidan chiqib ketgan…* N.Norqobilov, Kurash. *Xususan, bunday yumushlar xizmatkorlarga buyurilsa, bu hech qanday t a a j j u b l a n a r l i hol hisoblanmaydi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Ularning munosabati g‘ a l a t i edi. Yosh yigit bilan qiz, so‘lim xiyobon. Lekin na bir-biriga termulish bor, na entikish, na ishq-muhabbatdan she’rxonlik*. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Ammo uyga qaytganimda g‘ a l a t i xabarning ustidan chiqdim*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Sizga tegishlik g‘ a r i b a xabar shudirkim, kecha o‘rdadin qaytib kelsam, mehmonxona sahnida uch nafar yigit o‘lturibdir*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

AJABLANMOQ, TAAJJUBLANMOQ, HAYRON BO‘LMOQ, HAYRON QOLMOQ, HAYRATLANMOQ, HAYRATDA QOLMOQ, HAYRATGA TUSHMOQ, ANGRAYMOQ, HANG-MANG BO‘LMOQ, HANG-MANG QOLMOQ Voqea-hodisa yoki harakat-holatning mohiyat-sababini tushunmay, anglab yetmay qiziqsingan holda hayronlikka tushmoq. **Ajablanmoq, taajjublanmoq** so‘zlarida hayronlikka qaraganda qiziqish kuchliroq ta’kid olgan. **Hayron bo‘lmoq, hayron qolmoq** so‘zlarida esa qiziqishga qaraganda hayronlik holati ko‘proq ta’kidlangan. **Hayratlanmoq, hayratda qolmoq, hayratga tushmoq** so‘zlarida hayronlikning yuqori darajasi bir qadar ijobiy munosabat bilan birga ifodalangan. **Angraymoq** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda, salbiy munosabat ham anglashiladi. **Hang-mang bo‘lmoq, hang-mang qolmoq**da mazkur ma’no obrazli aks etadi.

Otabekning bu javobidan yolg‘iz Akram hojigina emas, balki majlisning boshqa a’zolari ham a j a b l a n dilar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xizmatdosh hamkasblari hech gapdan bexabar, uning Samarqandda bunchalik uzoq qolib ketganiga a j a b l a n ib, o‘sha yoqda kasal-pasal bo‘lib qoldimikan, degan gumon bilan yurishgan ekan.* E.A‘zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Xayolingiz qayerda, nima so‘zlayapsiz, oyi? Tuzukkina gapiring – dedi Gulnor t a a j j u b l a n ib.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Farhod hali Gulya bilan xayrlashayotganida*

A

nimadandir t a a j j u b l a n gan edi, hozir bu gapni eshitib batamom dong qotdi. E.A'zam, Shovqin. *Zabarjad h a y r o n b o' l ib dahlizga qadam bosadi-yu, serraygancha qotib qoladi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Pakana yerga kirgach, h a y r o n q o l adi: tartibga soladigan narsaning o'zi yo'g'-u bunda!* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. – *Tavba, shu joyda ham buloq bor ekan-da! – dedi oqsoqol h a y r a t l a n ib.* A.Asil, Olqor, nega ko'zing to'la yosh? *Mulla Fazliddin g'alati bir tush ko'rgan odamday h a y r a t l a n ib qolaveradi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Matluba sport bilan ko'p qiziqmas edi, musobaqaga yig'ilgan olomonni ko'rib h a y r a t d a q o l di.* O.Yoqubov, Matluba. *Xonadagilar shaffof oynak oldida to'planib, bir zum h a y r a t d a q o l dilar.* T.Malik, Falak. *Uning bir qaynovi ichida bo'lgan odamligini bilib qolganimga qaramay, h a y r a t g a t u sh dim.* O'.Umarbekov, Mening o'g'il bola jiyanim. *Baliqning kattaligini ko'rib, polvon a ng r a y ib qoldi.* J.Sharipov, Xorazm. *Vafo attor hang-mang bo'lib, yigitga a ng r a y di.* N.Aminov, Qahqaha. *Botir firqa ana shunda tushundi. H a ng-m a ng b o' l di. Alang-jalang bo'ldi. Olazarak bo'ldi.* T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. *Hafta oxiriga borib, G'aybarovga kursini bo'shatib qo'yishi lozimligini chiroyli qilib tushuntirib qo'ydilar. U h a ng-m a ng b o' l ib qoldi.* A.Namozov, Notanish. *Ana shunda u ortidan it quvgan devonadek hovliqib matohlarini tera ketdi-yu, men uni yaqindan ko'rib, h a ng-m a ng q o l dim.* M.Mansur, Judolik diyori.

AJIN, TIRISH, BURUSHIQ Teridagi yo'l-yo'l, botiq chiziqlar (asosan, yuz va peshonada bo'ladigan). **Ajin** so'zi, asosan, yuz va peshonadagi shunday izlar ifodasi uchun qo'llanadi. **Tirish, burushiq** so'zlari ayni ma'noga ko'ra mazkur sinonimik qatorga kiradi, ammo boshqa ma'nolari (terining har qanday joyidagi botiq izlar) bilan bu qatordan tashqaridadir.

Cholning chuqur ko'zlariga, peshonasidagi qavat-qavat a j i n lariga tikildi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Kechasi uxlamaganidanmi, kampirning ko'zlari kirtaygan, katta cho'qqi burnining ikki chetidagi, peshonasidagi a j i n lari chuqurlashgan, o'ziyam xiyol cho'kkan, eski tivit ro'molidan chiqib turgan sochlarining oqi ko'paygan edi*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Fotih Burhonovich… chakka va bo'yinlaridagi t i r i sh larning yozilayotganini aniq fahmlab yotar, oyoq-qo'llarini yozib, yosh boladek miriqib uxlardi.* Q.Kenja, Ko'ktoy. *Folbin ingichka, uzun, qop-qora habashday, ko'zlari g'ilaynamo, sirli qiyofadagi yuzi qat-qat t i r i sh*. Oybek, Bolalik. *Dehqon… ko'ziga tushgan katta eski qalpoqni ko'tardi, juldur choponning etagi bilan b u r u sh i q peshanasining terini artdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Boburning gaplaridan Xadicha begimning yuzlari tundlashib, lablari atrofida b u r u sh i q lar paydo bo'ldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

AJRATMOQ I, AYIRMOQ Birgalik holatidan chiqarmoq, butun holatidan alohida qilmoq. **Ayirmoq** so'zida ko'proq so'zlashuv tiliga xoslik seziladi.

U hozir Yo‘lchini chaqirib, kun kech bo‘lmasdan, ikkovlashib qo‘yni so‘yib, go‘shtini go‘shtga, moyini moyga a j r a t moqchi ekanini bildirdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Uning gapiradigan gaplari ularning ko‘ngillarida tugilgan og‘ir va chigal tugunchakni yo yechib yuborajak, yoki yana battarroq chigallashtirib, ikki yosh narsani – yana necha oy! – bir-biridan a j r a t ib tashlayajakdi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yo‘q, chuchvarani xom sanabsan! Samig‘jondan a y i r ib bo‘psan meni!* O.Yoqubov, Matluba. *Muzaffarshoh ehtiyotkorlik qilib orqaroqda turgan edi, darhol o‘zining odamlarini a y i r ib olib, Patan tomonga qochdi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Hayot bilan orzuning orasiga tushgan tog‘lar Sattor bilan Roziyani umrbod bir-biridan a y i r ib qo‘yadiganday tuyuldi*. P.Qodirov, Erk.

AJRATMOQ II**, AYIRMOQ, FARQLAMOQ, FARQ QILMOQ** Bir tur deb qaralgan narsalar yoki voqea-hodisalarning farqiga bormoq, o‘rtadagi farq-ayirmani bilmoq, idrok qilmoq. **Ayirmoq** so‘zida so‘zlashuv tiliga xoslik, **farqlamoq, farq qilmoq** so‘zlarida esa yozma nutqqa xoslik ko‘proq.

O‘g‘lim, sen bir qadar oq bilan qorani a j r a t a olasan, yozg‘anlarimni diqqat bilan o‘qi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ko‘p odamlar ot bilan xachirni a j r a t a olmaydilar*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bosib o‘tgan rabotlarining barchasi bir-biriga o‘xshash… biridan ikkinchisiga ko‘chib borgan kishi avvalgisidan bunisini a y i r mog‘i uchun o‘tkir zehn sohibi bo‘lmog‘i lozim edi*. T.Malik, Savohil. *Uydagi narsalarni bir-biridan g‘ira-shira a y i r ishga imkon beruvchi “jinchiroq” ham ko‘rinmaydi, uy ichi qalin tutun*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Tillani jezdan f a r q l a moq esa siz-u bizdan, odil vatandosh!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bu – gavharni shisha sinig‘idan f a r q l a yolmagan zargar zargarmi, degani emasmi?* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Olis-olislarda chiroqlar miltillab ko‘rinardi. Yo‘l yuqorilab borgan sari ko‘kda goh yonib, goh so‘nib turgan son-sanoqsiz yulduzlardan f a r q q i l ib bo‘lmaydi ularni*. O‘.Umarbekov, Shirinsoy oqshomlari. *Holbuki, yaxshini yomondan f a r q q i l moq uchun ularni o‘rganib chiqmoq kerak*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

AKA, OG‘A 1. Bir ota-onadan tug‘ilgan farzandlar orasidagi katta o‘g‘il (ukalariga nisbatan). Bu ma’nodagi **og‘a** so‘zi shevaga xos.

Yigitning a k a si eshik orqasida turgan edi, bir zumda Komissar ro‘parasida paydo bo‘ldi. T.Malik, Ov. *Men kimga deb olibman bu hovli-joylarni! Kimga deb quribman – agar a k a m qaytib kelmaydigan bo‘lsa?!* M.Mansur, Judolik diyori. *Kechagina qonliq qilichini fuqaro ustida yurguzib turg‘an Azizbekka uning tig‘i zulmi bilan qora qonig‘a belanilgan o‘g‘lining, otasining, onasining, o g ‘a sining mazlum gavdasi tuproq ostida hali chirib bitmay turib bu kun xalq yana Azizbekka, o‘sha qonxo‘rg‘a o‘z qoni bilan yamin etdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Assalom alaykum! – dedi Qurbon qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib va alik olishlarini kutmay, so‘radi: – Yo‘l bo‘lsin, o g‘ a lar?* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik.

A

2. O‘zidan katta er kishiga murojaatda unga hurmat yuzasidan ishlatiladi (bunda yakka holda yoki nutq qaratilgan shaxsni bildiruvchi so‘z bilan birgalikda qo‘llanadi). Tabiiyki, **aka** so‘zining qo‘llanishi faol.

Shunda Nosirjon unga sovuq tikilar, gapi ado bo‘lgach: – Oxun a k a, siz ovqatni biling... Muhabbat boshqa narsa!.. – deb yo‘lakka chiqib ketar edi. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Ajablanmangiz, boy a k a, kelishimda bir majburiyat bor*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Men sizga aytsam, Bahriddin o g‘ amiz ko‘zdan-da yaqin, jigardan-da afzal bir birodarina qayushib, ul og‘asina yaxshiluklar sog‘inadur*. M.Mansur, Judolik diyori. *O g‘ a, sog‘ borsangiz, avval Dadamlarga salom ayting*. Hamza, Salom ayting.

AKS, TESKARI, QARSHI, QARAMA-QARSHI, ZID, TERS, CHAPPA Bir-birini inkor etadigan, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan holatdagi. **Qarama-qarshi** so‘zida inkorning ikki tomonlama ekanligi ta’kidi qabariq ifodalangan. **Teskari, ters** so‘zlarida “odatdagi, to‘g‘ri deb qabul qilingan holatga qarama-qarshi holatdagi” tarzidagi ma’no ta’kidi mavjud. Bunday ma’no ta’kidi **chappa** so‘zida ham bor, ammo bu so‘z ko‘proq shevaga xos deb qaraladi. **Zid** so‘zi ko‘proq adabiy nutqda qo‘llanadi.

Hakima opa katta qiyinchiliklar ko‘rgan, shuning uchun ham o‘z farzandlarini erkalatmasdan, har bir buyum, har bir kiyimning qadriga yetadigan qilib o‘stirgan edi. Munisxon buning a k s i. U erka, hayotga anchayin yengil qaraydigan, ertaga nima bo‘lishi bilan uncha qiziqmaydigan odam edi. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Mengboy hayrat bilan: “Bu – xotinimning a k s i, xuddi o‘zim istagan qiz”, deb o‘yladi*. Sh.Xolmirzayev, Farzand. *Tavba, daryo ko‘rinishda bir tomonga va bir xil oqayotganga o‘xshasa-da, uning bag‘rida turli xil va bir-biridan butunlay farq qiladigan oqimlar bo‘larkan: biri umumiy oquvga bo‘ysunib, boshqasi t e s k a r i tomonga oqar ekan*. U.Hamdam, Muvozanat. *Meshpolvon xachirga t e s k a r i o‘tirib, bigizli o‘qlovni qo‘liga qo‘ndirib, eti dir-dir titrab, yirtqichlarga zog‘lanib qarab, to‘xtamasdan ilgarilab ketaverdi*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Ha, yaratishda unga baxt va’da qilishdi, yaralgandan so‘ng ayovsiz aldashdi, aldovga q a r sh i bosh ko‘targani uchun o‘ldirishdi*. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Hojixon ajina gapini tugatgach, o‘chkorlar boshni bir yerga jamlab, bunga q a r sh i chora axtarishdi*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Ularga umummanfaat yo‘lida murojaat qilsangiz, bajonidil yordam beradilar, hech bo‘lmasa, ko‘nglingizni ko‘tarishadi... Bunga q a r a m a-q a r sh i o‘laroq oramizda shundaylar ham borki, yo‘q bo‘lsang, berolmaydi, bor bo‘lsang, ko‘rolmaydi*. A.Asil, Bunyodkorlik o‘zimizga bog‘liq. *Hikmatilloning qalbida bir-biriga z i d ikki tuyg‘u olishardi, biri qandaydir iztirob to‘la minnatdorlik, biri xudbinlik aralash shodlik!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Siz yana avvalgi e’tiqodlaringizga z i d gapirmoqdasiz*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Hoji so‘zini tugata olmadi, hojining t e r s so‘ziga chidal-*

magan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shunday dedi-yu, supa labiga borib, t e r s o‘tirib oldi*. O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Birin-ketin xizmatchilar keldi. Bir ayol raisga ko‘zi tushib, ch a p p a burilib qochdi. Bir ayol yuzlarini changallab, o‘tirib qoldi*. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Tushlik tugunni olma shoxiga ildi. O‘ngirlarini ch a p p a qayirib, belbog‘iga qistirdi. Jo‘yak boshida tok kesib boshladi*. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar.

AKSINCHA, AKS HOLDA, BIL’AKS Aytilganga yoki kutilganga zid o‘laroq voqelanganlikni ifodalaydigan kirish so‘z. **Aks holda** so‘zida “aksincha bo‘lgan taqdirda” ma’nosi ochiq ifodalanadi. **Bil’aks** so‘zi, asosan, eskirgan, ko‘proq kitobiy nutqda qo‘llanadi.

Bekorga qizishishdan nima foyda? A k s i n ch a, yoshimizga, mavqeyimizga yarasha ish tutaylik. O‘.Usmonov, Girdob. *Yo‘q, Nodira indamaydi. U sho‘rlik, a k s i n ch a, meni ba’zan borib turishga undaydi*. O.Muxtor, Mo‘jiza. *Bular bilan qorong‘ida so‘zlashganiga ichidan sevindi. A k s h o l d a, ko‘karib shishgan basharasi chapanining izzat-nafsini so‘ndirgan bo‘lar edi!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Masalan, qadimdan qolgan gap bor: ovchi kiyikdan bitta otishi kerak... A k s h o l d a, bir falokat yuz berishi mumkin emish*. Sh.Xolmirzayev, Omon ovchining o‘limi. *Ular ahil bo‘lib, faqir barpo qilg‘on muazzam binoga yana bir g‘isht qo‘yadurlarmi yo, b i l’ a k s, toj-u taxt talashib, uni barbod etadurlarmu?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Bu jarohat yillar o‘tib ham tuzalmadi. B i l’ a k s, yaralangan jangchi badanida qolib ketgan temir parchasiday dam-badam qo‘zg‘olib, azob berib turdi*. T.Malik, Shaytanat.

AKSIRMOQ, AKSA URMOQ, CHUCHKURMOQ Kishining dimog‘i qichishi natijasida g‘ayriixtiyoriy ravishda burundan (dimog‘dan) havoni kuch bilan chiqarishi harakati. **Chuchkurmoq** so‘zi shevaga xos.

O‘rtoqlarinikidadir deb ichkariga kirdim. Yotibdi. Nuqul a k s i r adi. O‘.Umarbekov, Sevgim, sevgilim. *Nazir ota sandiqni ochdi. Mog‘or hidi gup etib dimog‘iga urildi, a k s i r ib yubordi*. O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Qog‘ozlar qatidan yengil g‘ubor ko‘tarilib, dimog‘ini qichishtirdi. Ikki-uch a k s a u r gach, yengillashganday bo‘ldi*. T.Malik, Shaytanat. *U har a k s a ur ganda zalvorli burni silkinib og‘zini surib qoq miyasiga chiqarib yuborar ekan*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Bir shofyor betini burchakka burib kulumsidi. Bir shofyor chappa burilib... ch u ch k u r di.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Ch u ch k u r ganda kafti bilan og‘zini berkitib, “la ilaha illolloh”, deb turadi*. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar.

ALAHLAMOQ, ALAHSIRAMOQ, BOSINQIRAMOQ O‘z ixtiyoridan tashqari, bilmagan holda (yomon tush ko‘rib, hushini yo‘qotib, isitmaning zo‘ridan), bezovta bo‘lib, qovushmagan, noaniq so‘zlar so‘zlamoq. **Alahsiramoq** bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Bosinqiramoq** so‘zi, asosan, yomon tush ko‘rib, qo‘rqib, turli ovozlar chiqarmoq, noaniq so‘zlar so‘zlamoqqa nisbatan qo‘llanadi.

A

Ikki qo‘li bilan yuzini ushlab, o‘layotgan kasalga tikildi. Yuzi sovuq, nam edi. “O‘lim oldidan a l a h l a yapti...” deb o‘yladi... A.Muxtor, Chinor. *Nosirjon uxlab yotar, biroq hamon ahyon-ahyonda baqirar, a l a h l a r edi.* Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Poyoni yo‘q ufqqa tutashib ketuvchi kengliksiz yashash mumkin emas... A l a h s i r a yapmanmi?.. Bedorlik kuchini ko‘rsatyapti.* T.Malik, Devona. – *Farhodjon, ko‘zingizni oching, a l a h s i r a-yapsiz! – Tepamda haqiqatan ham Baynalmilalchi bobo, kiftimga asta qoqa-qoqa meni uyg‘otmoqchi bo‘layotir.* E.A’zam, Shovqin. *Erining yettisi kuni aytib yig‘layotgan xotinning nafasi qaytdi, behush yiqildi. Bir soatcha a l a h-s i r a b yotib, joni uzildi.* T.Malik, Shaytanat. – *Tushida ham qonda suzsa kerakda, odamxo‘r, b o s i n q i r a b to‘pponcha otadi, – dedi oradan endi sal o‘ziga kelgan Madumar.* A.Muxtor, Chinor. *Buni so‘ramang, mulla tog‘a! Shayboniyxonning qirg‘ini kechalari tushimga kirsa, b o s i n q i r a b chiqamen!..* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

ALAY-BALAY, BO‘LAR-BO‘LMAS, U-BU, G‘ING-PING, G‘IRING-PIRING Har xıl asossız gap-so‘zlar (odatda nomaqbul, yoqmaydigan gap-so‘z haqida). Sinonimik qatordagi deyarli barcha so‘zlar so‘zlashuv tiliga xosdir.

Paymonalar o‘z-o‘zidan to‘lgan emas, Mangulik ham bir lahzada bo‘lgan emas. Hoy raqibim, a l a y-b a l a y dema menga, Men o‘lmayman, chunki bobom o‘lgan emas. A.Oripov, Qaysar bola. *Akobirov Farhodni mikrofon sari sudrab, kiftidan quchgancha, “Ssenariyni mana shu ukamiz yozib berdi. Tanib qo‘yinglar: yosh,iste’dodli kinodramaturgimiz, a l a y-b a l a y”, deb elga ovoza qilgan.* E.A’zam, Shovqin. *Shuni unutma, b o‘ l a r-b o‘ l m a s gaplarni Bekka aytaverma.* T.Malik, Shaytanat. *B o‘ l a r-b o‘ l m a s gaplar aytib, onamizni kuldirib-kuldirib turdi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Jadidlar yangi maktabga qarashmagan boylarni “nodon, johil, u-b u” deb so‘kishadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Montyor darvozadan chiqayotganda, Begijon uni to‘xtatdi. Montyor o‘zini soddalikka olib, u-b u, deb ko‘rdi. Bo‘lmadi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Qilichburun qizning og‘zini bekitdi: “Jim bo‘l! Agar g‘ i ng-p i ng desang qorningga mana shuni botirib olaman!”* M.Ali, Sarbadorlar. *Ko‘nmasalaring, yana o‘zlaring bilasanlar. Lekigin tuxum bosib o‘tirasanlar... G‘ i r i n g-p i r i n g degan gap chiqarsalaring tuxumlaringni quritaman.* T.Malik, Shaytanat. *Pulsizga g‘ i r i n g-p i r i n g, Pullikka hiring-hiring, “Dunyo harom!” deganning dardidir mullajiring.* Charxiy, Pul o‘lsin-a, pul o‘lsin.

ALANGA, YOLQIN Yonib turgan olovning yuqoriga ko‘tarilayotgan va yorug‘lik tarqatayotgan qismi. **Yolqin** so‘zida yorug‘lik ta’kidi kuchliroq.

Uning oldida bakni qaynatishyapti, shekilli, bak karnayidan qizil a l a ng a chiqib qolardi. Sh.Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri. *Tashqarida shamol uvullar, burchakdagi tunuka pech otashxonasidan lop-lop etib a l a ng a chiqardi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Atlas ko‘ylagi olov y o l q i n ida tovlangani ham*

esimda. I.Sulton, Genetik. *Sovitgisi kelar ko‘ngil bulog‘ida Saratonning lov-lov y o l q i n in*. A.Muxtor, Umid.

ALBATTA, SHUBHASIZ, MUQARRAR, SO‘ZSIZ, ANIQ, TAYIN, SHAKSIZ, BESHAK, BEGUMON Bayon qilinayotgan fikrning rostligiga so‘zlovchining qat’iy ishonchini yoki biror narsa-hodisaning umuman chinligini ifodalaydi. **Albatta** so‘zi so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan fikriga qat’iy ishonchini bildiradi va gapda, asosan, kirish bo‘lak bo‘lib keladi. **Shubhasiz, so‘zsiz, shaksiz, beshak, begumon** so‘zlari mazkur ma’no ifodasi bilan gapda kirish bo‘lak vazifasida ham, gapning odatdagi bo‘laklari vazifasida ham kelaveradi. **Muqarrar, aniq, tayin** so‘zlari mazkur ma’no bilan faqat gapning odatdagi bo‘laklari vazifalarida keladi. **Beshak, begumon** so‘zlari ko‘proq yozma nutqqa xos, eskirgan.

Zap o‘rik ekan-da, kanal bitib, suv serob bo‘lib, bog‘-rog‘ qilganimizda, a l b a t t a, shuning danagidan ekamiz. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Bizda ishlaydiganlar, a l b a t t a, kamida ikki-uch hunarni egallagan bo‘lishi kerak, amolaykim boshlig‘imiz o‘g‘ilbola yigit, sizning ahvolingizni hisobga oladi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Hikmatillo uni qayerdadir ko‘rgan, bu miqti, pakana yigit boshqa gruppada bo‘lsa ham, sh u b h a s i z, texnikumda birga o‘qigan, lekin xotirani qarang, ismi yodidan ko‘tarilgan edi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *O‘zlari kelsalar, mudarris janoblariga ham manzur bo‘lishlari sh u b h a s i z.* P. Qodirov, Yulduzli tunlar. *Agar uning qo‘llari yechiq bo‘lsa, bizlarga ham tashlanib qolishi m u q a r r a r...* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *U umrini boy bermagan bo‘lsa, ketayotgan yo‘li jarga olib borayotganini bilib qolsa va undan qaytish xohishi bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘lni topib olishi m u q a r r a r.* S.Ahmad, Ufq. *Bilganingda edi, s o‘ z s i z, hasaddan O‘shal quvonchimga solarding og‘u.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *U tashrif buyurgan kuniyoq isyonchilarning hammasi s o‘ z s i z qurolsizlanib, do‘stlik va hamkorlik haqida shartnomaga qullarcha tavoze bilan qo‘l qo‘yishga majbur bo‘ladilar*. U.Azim, Sevgi. *Qora domla shularni o‘yladi, ammo-lekin savob degan so‘z ham ko‘nglining allaqayerida aylangani a n i q.* A.Muxtor, Qora domla. *Tunda u yoqqa yurib o‘tirmang. Yo‘llar ham o‘zgarib ketgan. Yana adashishlaring t a y i n.* Sh.Xolmirzayev, Olis yulduzlar ostida. *Shunda men aytardim baralla, sh a k s i z, To‘xta, ey daqiqa, go‘zalsan g‘oyat!* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Qayu millatda maktab o‘lmasa, b e sh a k, xarob o‘lgay, Hama millatda shul-chun guftugo‘ bisyor maktabdan.* Hamza, Maktab. *Hoji aziz afandim ozoda ishfurushlik, B e sh a k erur gumonda qaytib borib ko‘rushlik*. G‘urbat, Muxammas. *Rozi bo‘lsang, bir umrga cho‘ring bo‘lib qolaman. Istaging ne, hammasini bajaraman, b e g u m o n.* O‘.Umarbekov, Gul vodiysi. *Chetga chiqib ketmas, b e g u m o n, Vaqt-u makon o‘rtasidan baxt*. T.Yusuf, Umidli faraz.

A

ALDAMOQ, LAQILLATMOQ, AVRAMOQ Turli yolg‘on-yashiq gaplar, va’dalar bilan yo‘q narsaga ishontirmoq, to‘g‘ri yo‘ldan chiqarmoq. **Aldamoq** so‘zi biror maqsadga erishish uchun yolg‘on gapirib, birovni noto‘g‘ri harakatga ko‘ndirish ma’nosida ham, umuman, yolg‘on bilan yo‘q narsaga ishontirish ma’nosida ham qo‘llanadi. **Laqillatmoq** so‘zi yolg‘on-yashiq so‘zlar bilan bo‘lishi mumkin bo‘lmagan narsaga ishontirish, soddaroq kimsani yolg‘on bilan chuv tushirish ma’nosida ishlatiladi. **Avramoq** so‘zi ma’nosida juda ustalik, ayyorlik bilan aldash ta’kidi mavjud.

– Bo‘ladi, – dedim men, – lekin yolg‘on bo‘ladi-da. Odamlarni a l d a b nima qilamiz? – Nega a l d a r ekansan? – dedi Nurmat aka. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Anzor allanarsa deb g‘o‘ldiray boshlagan edi: – A l d a ma! – dedi Shahlo*. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Demokratiya emish! L a q i l l a t moqchi ekansan, sotsializm nafasi yetib bormagan biror yurtdan kelgan biror anoyini topib l a q i l l a t ganing ma’qul edi, tovarish Yak!* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Yigit rostdan tushunmadimi yo l a q i l l a t yaptimi deb o‘ylanib, unga qattiq tikildi*. T.Malik, Shaytanat. *Umida past sinf o‘quvchilaridan bittasini a v r a b boya bozorga ketayotganimizda, ataylab o‘sha ko‘chaga turg‘azib qo‘ygan...* L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Zumradxonga o‘xshaganlar birovga yordam qo‘lini cho‘zmaydi. Gap bilan a v r a b, o‘zini olib qochadi, ular o‘zini o‘ylaydi.* O‘.Umarbekov, Yer yonganda.

ALJIMOQ, ALJIRAMOQ, VALDIRAMOQ, VALAQLAMOQ, VAQILLAMOQ, LAQILLAMOQ, VAYSAMOQ, SANNAMOQ Bema’ni, bo‘lmag‘ur gap aytmoq, o‘rinli-o‘rinsiz, mantiqli-mantiqsiz, keragidan ortiq gapirmoq. **Aljimoq**da qo‘pol, haqoratli so‘zlar ham ishlatiladi. **Aljiramoq** bu ma’noni **aljimoq**qa nisbatan kuchliroq ifodalaydi. **Valdiramoq, sannamoq**da bunday so‘zlarning bo‘lishi shart emas. **Vaqillamoq, valaqlamoq, laqillamoq** so‘zlarida boshqalariga nisbatan belgining darajasi kuchli. **Sannamoq va vaysamoq** so‘zlarida gapirish harakatining keraksiz davomiyligi, ayni paytda, gapdagi fikrning mantiqan raso emasligi va ovozning balandligi qabariq ifodalanadi. **Valdiramoq, vaysamoq, sannamoq** so‘zlari ko‘proq oddiy nutqqa xos.

Xumorxon: Sizdan ham serpulrog‘ini topgandir-da... Bunaqa vaqtda erni sher qiladigan pul, xotinni sher qiladigan xushtor! Marasul: A l j i ma! A.Qahhor, Og‘riq tishlar. *Oqsoqol odamlar o‘zi to‘g‘risida nimalar deyayotganini bilardi. Bilardi-yu, til suyaksiz, ko‘rolmaganidan a l j i ydi, deb qo‘ya qolardi*. S.Ahmad, Ufq. *Yormat eshikka tomon bir necha qadam tashlab, so‘ng yana qaytib keldi-da, yumshoqroq so‘zladi: Qo‘shnilarga chiqib a l j i r a ma*. Oybek, Tanlangan asarlar. *– Anzor! – xo‘rligi kelib qichqirib yubordi Munira. – Bas, nima deb a l j i r a yapsan, ahmoq!* L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *“Jinnixona malikasi” deb nom olgan bu do‘mboqqina ayol bir nimalar deb v a l d i r a sa javob qaytarish shartmi, balki, meni sinamoqchidir...* T.Malik, Shaytanat. *Ka-*

lavaning uchini izlab ko‘rdi-yu, topolmadi, oxiri Mutalning o‘sha kungi gaplari shunchaki v a l d i r a shdan boshqa narsa emasdek tuyula boshladi. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Shpionlik qilib uyiga gap tashibdimi, yo ko‘cha-ko‘yda v a l a q l a b yuribdimi?* T.Malik, Shaytanat. *Sarhovuzda bolalar bilan v a l a q l a shib o‘tirib, o‘z-o‘zidan sinfxonamizni ko‘rgim keldi*. E.A’zam, Shovqin. *Nimadir deyishi kerak edi, qurbaqani bossang vaq deydi, har holda u qurbaqadan ming chandon ulug‘roq bir odam, v a q i l l a ganda ham tuzukroq v a q i l l a shi kerak.* T.Malik, Shaytanat. *V a q i l l a b o‘tirishga berilib, handalakdan paqqos quruq qolganini kechroq payqagan tovuqboqar menga bir tig‘lanib olib, ro‘molchada noiloj og‘iz artarkan, nihoyat, maqsadga o‘tdi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Bu yigit choyxonada nima deb l a q i l l a di?* X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. *Nishon, senam tilingni tiy. Og‘zim bor, deb har baloni l a q i l l a y verma.* B.Aytmurod, Qo‘noq. *Xizmat qilgan joyi – Barnaul haqida v a y s a yverib, kechasi bilan uyqu bermagan*. E.A’zam, Anoyining jaydari olmasi. *Tiniq momo v a y s a rdi. Ammo so‘zlari anglashilmas edi*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Voy, bo‘yingga girgitton bo‘laylar! Voy, senlardan xolang aylansin! – deya tag‘in iljayib s a n n a y ketdi kampir*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Kelin s a n n a ganicha kirib ketgach, “o‘zlaridayam ancha-muncha ayb borga o‘xshaydi”, – deya Mardivoyga chimirildi*. A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi.

ALLAKIM, KIMDIR, BIROV Qandaydir noma’lum shaxsni ifodalovchi gumon olmoshi. **Allakim** so‘zida noma’lumlik belgisi **kimdir** so‘zidan kuchliroq ifodalanadi. **Birov** so‘zida “begona” ma’nosi qabariq holda ifodalangan.

Allaqayga a l l a k i m ning xoli chorbog‘iga bazm qilgani borishgan ekan, o‘sha a l l a k i m ning otasi allaqanday ulfatlarini boshlab kelib qolibdi – bular shaharga qaytishga majbur bo‘lishibdi. E.A’zam, Shovqin. *Farhod metrodan chiqqach, maydonni kesib vokzal sari borayotganida ko‘cha shovqini ora k i m d i r otini aytib chaqirayotgandek bo‘ldi.* E.A’zam, Shovqin. *Shunda k i m d i r qulochkashlab urdi yuzi aralash, gandiraklab yiqildi u, ammo ovoz bermadi.* O‘.Umarbekov, Gayduk qizi. *– Bolam, yig‘lama, ko‘z yoshingni yut, b i r o v ko‘rmasin, – dedi uning qulog‘iga shivirlab, Ermat shu zahoti yaktagining yengini ko‘ziga surtdi.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Yana bir necha qadam bosgan edim, to‘satdan yerto‘la adog‘idan... bir sas kela boshladi. – Iye, bu yerda mendan boshqa yana b i r o v bormi?* I.Sulton, O‘rmondagi kulba.

ALLANIMA, NIMADIR, ALLANARSA, BIR NIMA, BIR NARSA Noaniq, noma’lum narsani ifodalovchi gumon olmoshi. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, ma’noni ifodalash darajasiga ko‘ra farqlanadi. **Nimadir, allanima, allanarsa** so‘zlarida noma’lumlik aniqroq ifodalangan. **Bir nima, bir narsa** so‘zlarida esa noma’lumlik umumiy tarzda aks etadi.

To‘g‘ri, o‘xshaydi-yu, qorachagina-yu, ko‘zi ham bilinar-bilinmas pistarog‘-u, ana shu qaroqqinalarining tub-tubida o‘zbeknikidan farq qiladigan

A *begona a l l a n i m a bor edi.* E.A'zam, Shovqin. *Soli voyvoylagancha oyog'ini changallab o'tiribdi-yu, qo'yniga a l l a n i m a ni tuzukroq yashirish bilan ovora.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ular bilan kun bo'yi valaqlab yurib, so'ng yolg'iz qolganimda menga yana n i m a d i r yetishmayotgandek tuyulaveradi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Xotin ichkariga kirdi va qushbegi oldig'a borib unga n i m a d i r berdi-da, orqasig'a qaytib eshik yonig'a kelib turdi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Qutidor nimanidir Otabekdan so'ramoqqa og'zini juplab tursa ham, Akram hoji bilan Ziyo shohichining a l l a n a r s a to'g'risidag'i gaplari keti uzilmay davom etar edi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Endi devor boshida ikki mayna qolgan, biri hurpayib turar, biri panjalari orasidagi a l l a n a r s a ni cho'qib yer edi.* Sh.Xolmirzayev, Qush tili. *Ammo uyga qaytib chiroqni o'chiraman-u, yuragim orqamga tortib ketadi, b i r n i m a tomog'imga kelib tiqilganday bo'ladi.* O'.Umarbekov, Abdulla qovunchi. *Bu yerda, eshitganimiz, unda-bunda tarixda o'qiganimiz va tasavvurimizda shakl topgan qadim Sharq bozorlarini esga soluvchi b i r n i m a lar bor.* Sh.Xolmirzayev, Yangi zot. *Sinfda b i r n a r s a yo'qolsa, yo sendan, yo mendan ko'rishadi.* T.Malik, Shaytanat. *Faqat b i r n a r s aning kuchli guvullashi uzoq eshitilib turdi.* T.Malik, Davron.

ALLAQANDAY, QANDAYDIR, ALLANECHUK, G'ALATI, BIR XIL Noaniq bir tarzdagi, holat belgisi aniq bo'lmagan. **Allaqanday, allanechuk, qandaydir** so'zlarida mazkur ma'no keng va umumlashgan. **G'alati, bir xil** so'zlari ko'proq ruhiy holatga nisbatan va iboralar tarkibida qo'llanadi. **G'alati** bu ma'noda kelganda, noaniq-nodurust ruhiy holatni bildiradi.

Suvning kechuviga yetib, xarsangtoshga o'tirdi va a l l a q a n d a y alanglagan ko'z bilan atrofni tomosha qila boshladi. Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog'ida. *Jaloliddin a l l a q a n d a y noladan uyg'onib ketdi*. E.Samandar, Sulton Jaloliddin. *Mastura to'yda ham, odamlar ketganida ham o'zini telba quvonch va q a n d a y d i r g'ashlik qo'ynida his qildi.* Sh.Xolmirzayev, Bahor o'tdi. *Bir payt q a n d a y d i r shang'illagan ovoz qulog'imga chalindi.* E.A'zam, Anoyining jaydari olmasi. *Uning ohangida a l l a n e ch u k kinoya borga o'xshab ketdi*. Sh.Xolmirzayev, Notanish odam. *Yo'lchi ...hayajonli ravishda tevarakka alanglab, ildam yugurgan bir necha yigitni ko'rdi, yuragi birdan a l l a n e ch u k to'lqinlanib, keluvchilarga termilgan holda, to'xtab qoldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yigit ko'zlarini yerdan uzmasdan o'tirardi. Men ham g' a l a t i bo'lib ketgan edim.* O'.Umarbekov, Oltin yaproqlar. *Ular-ku mayli, Botiraliyam notinch edi. Rostini aytsam, meni o'zimam g' a l a t i ahvolda edim.* O'.Umarbekov, Mening o'g'il bola jiyanim. *Kechqurun nimanidir qidirib stolning tortmasini ochdi-yu, ko'zi xatga tushib, ko'ngli yana b i r x i l bo'lib ketdi.* O.Yoqubov, Matluba.

ALLAQANCHA, BIR QANCHA, BIR NECHA, BIR TALAY, BIR QATOR, KO'PLAB, KO'PGINA, ALLANECHA Qanchaligi noma'lum miqdorni ifodalovchi gumon olmoshi yoki shunday ma'nodagi ifoda. **Allaqancha, bir**

talay, ko‘pgina so‘zlarida noma’lum miqdorning anchayin kattaligi ta’kidi bor. **Allanecha, bir qancha, bir necha** so‘zlarida esa noma’lum miqdorning nisbatan kichikligi ta’kidi mavjud, **allanecha** so‘zi kam qo‘llanadi. **Ko‘pgina, ko‘plab** so‘zlarida miqdoriy noaniqlik ma’nosi xiralashadi, “umumlashtirish” ma’nosi kuchayadi.

Bizningcha, bir yarim soat, Otabekcha a l l a q a n ch a yil hisoblangan bir fursat o‘tib, nihoyat, yangalar kuyav so‘radilar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U kishi hali past-baland tog‘ yo‘lidan shu ahvolda a l l a q a n ch a yo‘l bosishi kerak*. S.Ahmad, Zumrad. *Xolnisa, Asal xola va b i r q a n ch a xotinlar tugun-tersak ko‘tarib, ular bilan salomlashib, o‘tib ketadilar*. S.Ahmad, Kuyov. *Hojar buvi anchagina o‘qimishli ayol bo‘lib, b i r q a n ch a kitoblarni, dostonlarni yod bilardi, yoshligida Anbar otinga ergashib, b i r n e ch a g‘azallar ham bitgan edi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Tong g‘ira-shirasida boshlangan dahshat b i r n e ch a soat ichida Humoyun qo‘shinini tor-mor qildi...* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Birpasdan keyin u parqu to‘shakda, chetlari chetlariga moslab buklangan yashil, silliq, yaltiroq ellik so‘mlikdan b i r t a l a y ini kaftida silab o‘tirar, lekin ko‘zlari yoshli edi*. Sh.Xolmirzayev, Kimsasiz hovli. *Ayni vaqtda Amir Bahlulning ruxsati bilan Sharqqa taxta ortib ketayotgan aravalarga Sherxonning xufiyalari b i r t a l a y qilich-qalqon va nayzalarni yashirib qo‘ydilar*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *...bu komediyada markaziy o‘rin tutuvchi qahramon avvallari qay bir qirralari bilan b i r q a t o r hikoyalar va hajviyalarda namoyon bo‘lgan edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Yana bir jiddiy muammo, bu mamlakatdagi ayrim ma’naviy-ma’rifiy tashkilotlarning, ayniqsa, b i r q a t o r gazeta va jurnallar mutasaddilarining boshini qumga tiqib, xavf-xatardan qutulmoqchi bo‘lgan tuyaqush kabi, internetdan unumli foydalanish o‘rniga, undan ko‘z yumib kelayotganida namoyon bo‘lmoqda.* X.Davron, Uyg‘onmoq – dunyo bilan barobar yashamoqdir. *Asir olingan k o ‘ p l a b olim-u munshiylarni ishga solar, kitoblarni tanlatib, qoplab, tuya karvonlarida Xo‘jand-u Shosh yo‘li orqali mo‘gul eli tomon jo‘natardi...* Mirmuhsin, Temur Malik. *Elchi janoblari k o ‘ p l a b bunaqa davlat asrorlaridan voqif, umuman, hangomaning koni ekan.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Ollohning inoyati bilan k o ‘ p g i n a davlatlar qatori O‘zbekiston ham istiqlolga erishdi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Shuning uchun Samadning yordamida u qishloq arxitekturasiga oid k o ‘ p g i n a kitoblarni, plakat va loyihalarni yozdirib olgandi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Yigitlar, qizlardan a l l a n e ch a si o‘yinga tushmoqda*. S.Nazar, Yashil boylik. *To‘xtaboy... o‘z pushti-kamaridan bo‘lgan bolalarini o‘g‘rincha… kirib ko‘rsa... bolalariga zug‘um battar zo‘rayishini o‘ylab a l l a n e ch a kungacha xavotirda yursa...* X.Do‘stmuhammad, To‘xtaboyning boyliklari.

ALOQA, DAXL, TAALLUQ Biror shaxs yoki narsaga munosabat – tegishlilik holati. **Aloqa** so‘zida ayni ma’no umuman ifodalanadi, **daxl** so‘zida tegish-

A lilikning zichligi qabariqroq ifodalanadi. **Taalluq** so‘zi hozirgi tilda faol emas. Mazkur so‘zlar ayni ma’noda kelganda, ko‘pincha egalik qo‘shimchasini taqozo etadi.

Xullas, hamma hodisa va ular asosida paydo bo‘lgan nazariyalarning tafakkurga a l o q a si bor. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. – *Zo‘r ertak ekan. Xo‘sh, uning menga nima a l o q a si bor? – so‘radi Hafiz. – Senga hech qanday a l o q a si yo‘q*. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Adib qaysi tilda asar yozsa, o‘sha xalqning yozuvchisi hisoblanadi. Bu o‘rinda millatning d a x l i yo‘q*. O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Qizcha supa chetidan supurgi bilan xokandozni olib, bu voqealarning unga d a x l i yo‘qdek itoat bilan nari ketdi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Asad qori... so‘nggi hikoyaning ham o‘ziga t a a l l u q i yo‘qday, bez bo‘lib o‘tiraverdi*. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.

ALOQADOR, BOG‘LIQ, DAXLDOR, TEGISHLI, OID, DOIR, TAALLUQLI Muayyan narsa-hodisaning boshqasi bilan u yoki bu darajadagi bog‘lanishi, aloqasi bo‘lgan. Shuning uchun bu so‘zlar mazkur ma’noda qo‘llanganda, o‘zlaridan oldin jo‘nalish kelishigi (*-ga* qo‘shimchasi)ni taqozo etadi. **Oid, taalluqli** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Daxldor** so‘zida aloqadorlik belgisi **bog‘liq, oid, doir** so‘zlariga qaraganda kuchliroq ifodalanadi. **Tegishli** so‘zi ayni ma’noda kam qo‘llanadi.

Bu so‘z qulog‘iga chalinishi bilan Xurram qotmaning ko‘z oldida bekat boshlig‘ining mebellar bilan jihozlagan keng bo‘lmasi, ko‘hlikkina talaba qiz fojiasiga a l o q a d o r ishchilar hamda ular orasida sukutga cho‘mib o‘tirgan G‘ayratning tabassumdan yiroq, sovuq turqi gavdalanadi. N.Norqobilov, Kurash. *Mahalliy xalqning milliy qadriyatlariga a l o q a d o r barcha osori atiqalari yer bilan yakson qilindi*. A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Bosh vrach qo‘l ostidagi xodimlarga u bilan b o g‘ l i q tag‘in nimalardir dedi, lekin Otabek endi ularni eshitmasdi*. U.Hamdam, Otash. *O‘zlari bilan b o g‘ l i q birorta voqeani, albatta, bo‘rttirib, eshitimli qilib gapirardi*. A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Kelolsangiz, yaxshi bo‘lardi – sizga d a x l d o r boshqa gaplar ham bor*. E.A’zam, Shovqin. *Xo‘p, biz qo‘limizdan kelgan ishlarni qilaylik, ammo tabiat muhofazasiga d a x l d o r boshqa tashkilotlar ham astoydil kirishmasalar, tayinli biror natijaga erishib bo‘larmikan?* A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *Qo‘ysang-chi, eski paxtalarni titib nima qilasan? Boshingdan o‘tgani bu do‘xtir bolamizga t e g i sh l i emas.*T.Malik, Xazonrezgi. *O‘zim ham shu o‘rtada o‘ylab yurgan edim, chunki odamning soyasi yo‘qligiga t e g i sh l i u-bu narsalarni o‘qigandek edim*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Daftarda uning bionikaga o i d faraz va taxminlari, eng muhimi – exolokatsiyaga asoslangan yangi mashina yaratish fikri jamlangan edi*. T.Malik, Falak. *Meditsinaga o i d kitoblarni o‘qib o‘zida o‘n ikki xil kasallik borligini “kashf” qilibdi*. T.Malik, Falak. *Jaloliddin buvisi bilan salom-alik, hol-ahvol so‘rashardi-yu, mudofaa va davlat*

ishlariga d o i r biron gap aytmasdi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Vasiliy Ivanovich uyidagi texnikaga d o i r kitoblar bilan to‘lgan kutubxonasini ham unga ishonib topshirib qo‘ydi*. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Ustozlar bemorni, uning xastaligiga t a a l l u q l i yozuv-chizuvlarni, dori qog‘ozlarini sinchiklab ko‘zdan kechirishdi…* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Xullas, erni er qiladigan ham xotin, kechirasiz, bu sizga mutlaqo t a a l l u q l i emas, yer qiladigan ham xotin.* O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i.

AMAL QILMOQ, RIOYA QILMOQ Biror odat-qoida, tartib, ko‘rsatma doirasida ish tutmoq. **Rioya qilmoq** so‘zida talab-qonunga bo‘ysunish, itoat qilish ta’kidi qabariqroq ifodalangan.

Kumushning go‘zallik ta’rifini g‘oyibona eshitib, og‘zining suvi kelguchi xotinliq va xotinsiz orzumandlar “yotib qolg‘uncha, otib qol!” so‘ziga a m a l q i l ib, qutidornikiga sovchilarni turnaqator yubora boshlag‘an edilar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Agar haqiqiy qonunlarga a m a l q i l inganda, uni yo otish, yo umrlik surgun qilish shart edi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Biroq bu mahallaning shumtaka erkak bolalari “kelin chimchilash” degan eski odatga juda r i o y a q i l ishar ekan*. Oybek, Tanlangan asarlar. *– Tezroq tuzalib keting. Tartib-intizomga r i o y a q i l ing, – deb chiqib ketdi*. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi.

AMALDOR, MANSABDOR, A’YON Muayyan mansab-lavozim egasi, rasmiy boshqaruvda muayyan vazifani bajaruvchi. **Mansabdor** so‘zida lavozimning balandligi ta’kidi kuchliroq, oddiy so‘zlashuvda kam qo‘llanadi. **A’yon** so‘zi eskirgan.

Hokimiyat o‘zgargandan keyin amalidan ajralgan ilgarigi a m a l d o r lar “Shayboniyxonning odamlari Sulton Ali mirzoni ham nomardlarcha o‘ldirdilar” deb xun talab qilib chiqdilar. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Yo‘q, nimamga tuhmat qilardi, men katta a m a l d o r bo‘lsamki, birontasi joyimga ko‘z olaytirsa...* A.A’zam, Nima qilib qo‘ygan ekanman? *Uning m a n s a b d o r sifatidagi asosiy aqidalaridan biri ham uzoqni ko‘zlab ish tutish, yana bir shiori – “ehtiyotkorlik osh talab qilmas” edi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Yo‘q, m a n s a b d o r ni ko‘pincha o‘zimiz buzamiz, o‘zimiz aynitamiz, ko‘tar-ko‘tar bilan osmonga chiqarib qo‘yamiz-u, keyin yerga tushirolmay xunob bo‘lib yuramiz*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Butun Marg‘ilon ahli oyoqqa qalqdi. Shahar a’y o n lari Bobur kelib tushgan ko‘shkka borib, uni g‘alaba bilan qutladilar*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Amirning farmoni ila a’ y o n larimiz amiralmuslimin ila shartlashuv niyatida Farg‘ona muzofotiga bordilar.* T.Malik, Savohil.

AMALLAMOQ, ILOJINI TOPMOQ, AMAL-TAQAL QILMOQ Biror ishni bajarish choralarini topib, nihoyasiga yetkazmoq. **Ilojini topmoq**da qanday qilib bo‘lsa-da, yechim yo‘lini qo‘lga kiritish ta’kidi, **amal-taqal qilmoq**da esa yengil-yelpi yo‘l bilan yoki bor imkoniyatdan foydalanib harakatni amalga oshirish ta’kidi mavjud.

A

Ana shunda men Umrzoq akadan bir a m a l l a b so‘radim. Sh.Xolmirzayev, Ko‘k dengiz. *Ana shu suv masalasi chatoq. Lekin bu yerda eski bir quduq bor. Shuni bir a m a l l a ymiz*. O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Bu qiyomat ur-yiqitdan qochib qutulishning i l o j i n i t o p gan filbonlar-u otliqlar jon-jahdlari bilan qochishga tushdilar*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Temir sandiqqa solib ko‘mib tashlasang ham, i l o j i n i t o p ib teshib chiqaveradi*. T.Malik, Devona. *Qarz olay desa, tanishlar ta’tilda. Borlari ham a m a l-t a q a l q i l ib kun ko‘ryapti*. U.Hamdam, Muvozanat. *Albatta, avvallargidek endi to‘yib ovqatlana olmas, qog‘ozlarga chala-chulpa o‘rab ketilgan narsalar bilan a m a l-t a q a l q i l adi*. O‘.Umarbekov, Urush farzandi.

AMMO, LEKIN, BIROQ, ILLO Gap bo‘laklari yoki qo‘shma gap qismlarini zidlash munosabati bilan bog‘laydigan zidlovchi bog‘lovchi. **Ammo** so‘zi umuman zidlik munosabatini ifodalaydi. **Lekin** so‘zi mazmunan zid bo‘lsa-da, biri ikkinchisini inkor etmaydigan gaplar yoki gap bo‘laklarini bog‘laydi. **Biroq** so‘zi mazmunan avvalgisiga tamoman zid bo‘lgan fikrning boshlanishini anglatadi. **Illo** alohida ta’kid ohangi bilan aytiladi va zidlik ma’nosiga ta’kid ifodasini qo‘shadi, boshqa sinonimlariga qaraganda nutqda kam qo‘llanadi, ushbu so‘zda eskilik bo‘yog‘i mavjud. **Ammo** va **lekin** so‘zlari ba’zan **ammo-lekin** tarzida juft so‘z sifatida qo‘llanib, yuklama vazifasida keladi va boshqa bir fikrga zid yoki aloqador bo‘lgan fikrni qo‘shimcha alohida ta’kidlashga xizmat qiladi, bunda zidlik ma’nosi yanada kuchayadi.

– So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, – dedi, – a m m o shuni ham qo‘shmoq kerakki, oladirg‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab bo‘lsin. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ko‘ktoy o‘rnidan turdi, bo‘ynini cho‘zib, dumaloq tumshug‘ini pasaytirdi, dumini lapanglatdi, a m m o kelishga jur’at etolmadi*. Sh.Xolmirzayev, Jo‘raboshi. *Jo‘raning yoshlik do‘stlari – o‘zidek lo‘ppi, l e k i n bo‘yi past, xushchaqchaq militsioner Nodir va redaksiya xodimi – burni uzun, qoracha Imom chorpoya yonida bittadan ustuxonni kemirib turishar edi*. Sh.Xolmirzayev, Sayr. *Ko‘nglingga qara, bolam! L e k i n uylansang, shunday birovini topib xotin qilginki, sira-sira joningga tegmasin!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Garajda mashinam bor, b i r o q uni yurgizadigan odam yo‘q*. S.Ahmad, Mukammal inson suvrati. *U homilador xotinga samovar ko‘tartirib, qarab o‘tirgan pochchasidan o‘pkalamoqchi edi, b i r o q uyaldi, indamadi*. A.Qahhor, Adabiyot muallimi. *Agarda dunyodan o‘tayozg‘an bir keksangizning maslahatiga quloq bersalaringiz, bu fikringizdan qayting, burodarlar! I l l o Yusufbekni o‘ldig‘a chiqarib, bu shum ishingizdan meni tashqarida hisoblangiz!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shu bois har qanday odam nazar-e’tiborga tushishdan mast bo‘ladi, rohatlanadi, o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi… i l l o uni yengolmasligi tayin*. X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Qishloq odamlaridan ko‘p narsani eshitdim... A m m o-l e k i n, tutib olib o‘ldirsam ozlik qiladi juvonmargingni!* Cho‘lpon, Kecha va

kunduz. *A m m o-l e k i n, hamma ishning qonun-qoidasi bor, o‘zingiz bilasiz-ku!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir.

ANIQ, OCHIQ, YAQQOL, RAVSHAN, ANIQ-TINIQ, YORQIN, OYDIN Ko‘rish, eshitish, tushunish, idrok qilish uchun qulay, mavhumlik, mujmallik va yanglishlik tug‘dirmaydigan. **Aniq** so‘zi mazkur ma’noni to‘lasicha ifodalaydi. Bu so‘z ba’zan **tiniq** so‘zi bilan birga **aniq-tiniq**, **ravshan** so‘zi bilan birga **aniq-ravshan** juft so‘zlari tarkibida keladi va ularda mazkur ma’no yanada teranroq o‘z aksini topadi. **Ochiq** so‘zida yanglish tushunishga olib kelmaydigan ma’nosi qabariqroq ifodalangan. **Yaqqol** so‘zida ko‘rish va eshitish asosidagi belgi ta’kidi mavjud. **Ravshan** so‘zida belgining har jihatdan to‘laligi o‘z ifodasini topgan. **Yorqin** so‘zining ma’nosida ko‘rish va eshitish asosidagi belgining o‘ta ochiq va ta’sirli darajadaligi ta’kidi bor, ko‘proq yozma nutqda ishlatiladi. **Oydin** so‘zining ma’no ottenkasi **yorqin** so‘zinikiga yaqin, kuchli ta’kidga ega. Ayni paytda, bu so‘z **ochiq** so‘zi bilan birga **ochiq-oydin** tarzidagi juft so‘z tarkibida ham qo‘llanadi va yaxlit holda mazkur ma’no unsurlarining barchasini ayricha ta’kid bilan ifodalaydi.

– Ha, haa! – deb yubordi Ziyo aka va biroz o‘ylang‘andan keyin so‘radi, – buni siz a n i q bilasizmi? A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu holdan qaltirab ketding; eshik tambalangancha turar, lekin u xuddi sim-simday ochilib yopilganini sen a n i q ko‘rgan eding*. N.Eshonqul, Qaytish. *Otabekka mahram bo‘lishg‘a loyiq bir mehribonchiliqqa ega bo‘lg‘anliqdan xo‘jazodasi bilan o ch i q so‘zlashish fikriga keldi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Avval yosh xotinning ko‘zlariga qaradi: horg‘inligi, uyqusiraganligi o ch i q ko‘rinib turardi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *U odamlarning ko‘zlarida g‘azab yashinining yana kuchliroq yonganini, otuvchilarga qarshi dahshatli adovat mavjlanganini y a q q o l ko‘rdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Negaki u ko‘z-qoshi bilangina emas, ravish-raftori bilan ham boshqalardan y a q q o l ajralib turar edi*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Ittifoqo, bu kun, nima bo‘ldi-yu, uch so‘zni r a v sh a n roq aytdi: “Jigarlaring ezilib ketsin”, dedi*. A.Qahhor, Anor. *Adir tarafdan kelayotgan qo‘y-echkilar ma’rashi bilan cho‘ponlar ovozi tobora y o r q i n roq eshitildi*. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *...xatda Shirinning qizlik nomusi, undagi iffat, bokiralik, hayo va odob ham yo r q i n ifoda qilingandir*. H.Olimjon, Farhod va Shirin. *Endi u o‘rischa ashulalar aytganida tovushida paydo bo‘ladigan begona nolalarning qayerdan adashib kelganligini o y d i n bir o‘kinch bilan his qildi*. U.Azim, Sevgi. *Kim qildi ekan, deb o ‘ylayman. Axir begona qilmagani kundek o y d i n-ku.* B.Mirzo, Ot mingan odamlar. *Yozuvchining mahoratini, betakrorligini ayni shu to‘plam a n i q-r a v sh a n ko‘rsatib turadi*. T.Malik, Qiyomat qarz. *Hozir qorong‘i uyda birdan chiroq yoqilib, xonadagi barcha ashyolar a n i q-t i n i q ko‘ringani kabi o‘sha manzara ko‘z oldida gavdalandi*. T.Malik, Shaytanat. *Yaxshi yopilmaydigan eshikdan esa ayasi bilan tog‘asining*

suhbatlari unga a n i q-t i n i q eshitilib turardi. U.Hamdam, Muvozanat. *U kelin bo‘lib borgusi oilaning boyligini o‘ylamagan, chunki bu narsa u uchun o ch i q-o y d i n edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Iloji bo‘lsa, ko‘nglingga olmagin-u, Farhodsiz, ikkovimiz o ch i q-o y d i n suhbatlashaylik*. X.Do‘stmuhammad, Kuza...

ANQAYMOQ, ANGRAYMOQ, AG‘RAYMOQ, LALLAYMOQ Es-hushini yo‘qotganday, hayronlik bilan loqayd qaramoq. **Angraymoq, ag‘raymoq** so‘zlarida hayronlik belgisi qabariqroq, **lallaymoq** so‘zida bo‘shashganlik, shalviragandagi loqaydlik ta’kid olgan.

Uning shirin so‘zligidan va savlatidan ayam a n q a y ib qoldi. A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Berdiqulov jo‘nadi. Sattorov a n q a y ib ketidan qarab qoldi*. S.Nazar, Yashil boylik. *Boysunga tushaman deb yotib eding, Xurram? Ha, a ng r a y ib qoldingmi?* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. – *Hamon a ng r a y ib qarab turgan qatron kal, gaplarimni-da a ng r a y ib eshitdi!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Kampirning ketidan o‘rta yashar ozg‘in bir erkak yugurib chiqdi-yu, otliqlarni ko‘rib, qo‘rqqanidan bir lahza a g‘ r a y ib turib qoldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bobur opasiga a g‘ r a y ib qarab qoldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Kecha “Ke, nima bo‘lsa bo‘lar” dedim-u, baqato‘nning tagiga kirib olib, uning yo‘lini poylay boshladim. Bir vaqt l a l l a y gancha suzib kepqoldi.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Bilishing kerak edi. Og‘zingga pashsha o‘tirib ketsa ham, l a l l a y ib yotaver.* T.Malik, Shaytanat.

ANQOV, MEROV, OVSAR, DOVDIR, ANOYI, GO‘L, PANDAVAQI, KALVAK Es-hushini kerak narsaga lozim vaqtda qarata olmaydigan, aqlini ishga solishga tanballik qiladigan, zehni past, gapga hadeganda tushunib yetolmaydigan. **Merov** va **ovsar** so‘zlarida hushyorlik, ziyraklikning yo‘qligi ta’kid olgan. **Dovdir** so‘zida fikrlashda mantiq muvozanatining yetarli emasligi ta’kidi sezilarli. **Anoyi** so‘zlarida soddaligi natijasida laqillashga moyil ma’nosi qabariq ifodalangan. **Go‘l** so‘zida kerak-nokerak gapga ishonaveradigan ma’no ta’kidi mavjud. **Kalvak** so‘zi eskirgan, juda kam qo‘llanadi. **Pandavaqi** so‘zida mazkur ma’no tarkibida epsizlik ta’kidi anglanadi va ular, asosan, so‘zlashuv nutqiga xos.

Men ersam, men a n q o v ersam, saroydagi bu mishmishlarning barchasi tuhmat degan so‘zlaringga inonib, bir oy tun-u kun orom bilmay ot surib, arzingni kimsan Jahongir hazratlariga yetkazibman. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Birga borsang, oyog‘ingga kuydirgi chiqarmidi, muncha noshud-notavon, muncha ham a n q o v-lakalov bo‘lmasang!* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Orada Sotti m e r o v deganimiz bo‘lardi, semiz, dangasa, ochiq havoda uyqu bosib, mukka ketmaslik uchun cho‘p bilan qumga har xil suratlar chizib o‘tirardi*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *U bir m e r o v, laqma ekan. Bek akang qanday qilib uni yonida olib yuribdi?* T.Malik, Shaytanat. *Akobirov esa bu sal o v s a r roq cholni pisandiga ilmoq u yoqda tursin, oshkora mazax qilaveradi*. E.A’zam, Shovqin. *Yo gapning fahmiga yetmaydi, yo izzat-nafs deganini xudo*

ko‘p ko‘rgan. O v s a r, dovdirroq. E.A’zam, Guli-guli. *Hovlida d o v d i r odam kabi nima qilishini bilmay gangib turdi*. T.Malik, Shaytanat. *Menga qara, d o v d i r desam, dovdirmassan, go‘l desam go‘lmassan.* T.Malik, Savohil. *Bu charxchi a n o y i emas, pichoq bahona meni poylayotgandir*. T.Malik, So‘nggi o‘q. *– Ja boshqalarni a n o y i deb o ‘ylamang, – dedi Orzimurodov.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Sizni hiylakor dedim: esingizda bormi, sodda otamni, g o‘ l onamni qandog‘lar qilib aldadingiz?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Men-ku ko‘r, nodon ekanman, yaxshi-yomonni bilmaydigan g o‘ l ekanman, odamlarga nima bo‘ldi?* E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Bu p a n d a v a q i lar nima deyishayotganlarini o‘zlari ham bilishmaydi*. T.Malik, Xazonrezgi. *Men p a n d a v a q i shu gapga ishonib o‘tiribman!* M.Mansur, Judolik diyori. *U tulki o‘z o‘g‘lini Marg‘ilonda to‘polon chiqarish uchun deb yuborishidayoq har bir ehtimolga qarshi bu maktubni yozib bergan, bunga Marg‘ilon k a l v a k lari tushunmasalar ham biz tushuna olamiz!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu k a l v a k o‘g‘lingiz marg‘ilonliqning eshigida qul bo‘lib yotib oladir*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

APIL-TAPIL, NARIDAN BERI, SHOSHA-PISHA, APIR-SHAPIR Tezlik bilan, harakatning tugal natijasini ko‘zlamay, juda ham shoshgan holda. **Apil-tapil** so‘zida shoshish va, ayni paytda, harakatning to‘la bajarilmasligi, **naridan beri** so‘zida harakatning yuzaki, qo‘l uchida bajarilishi alohida ta’kidga ega. **Shosha-pisha** so‘zida “shoshilinchlik” qabariq ifodalangan. **Apir-shapir** so‘zida esa harakatning tez va qo‘l uchida bajarilishi ta’kid olgan.

A p i l - t a p i l kiyinib, choyini ichdi-yu, papkani silkitib maktabga jo‘nadi. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Karimulla pullarni a p i l-t a p i l yig‘ishtirib olib, qulluq qilganicha chiqib ketdi*. T.Malik, Shaytanat. *Choyni n a r i d a n b e r i ichib, otxonaga yugurdim*. A.Qodiriy, Uloqda. *Unsin n a r i d a n b e r i choy damladi, quruq yantoq va qamishlarga o‘t ketmasin uchun o‘tni tepkilab o‘chirdi*. A.Qahhor, Dahshat. *Hikmatillo sh o sh a-p i sh a qo‘lini artdi-da, allaqanday ichki bir sezgidan yuragi uvishib, tashqariga chiqdi*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Anzirat uning gaplaridan uyalib ketar, sh o sh a-p i sh a o‘zini ko‘rpa ichiga tortar va yig‘lab yuborardi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Onasining ko‘zidan tezroq qochish uchun u ariqqa borib, a p i r-sh a p i r bet-qo‘lini yuvdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bashorat ovqatni og‘il bolalarday tez, a p i r-sh a p i r ichib, hammadan oldin tugatdi*. A.Muxtor, Opa-singillar.

AQALLI, LOAQAL, JILLAQURSA, JILLA BO‘LMASA, JUDA BO‘LMAGANDA, HECH BO‘LMASA Harakat, holat, belgi, miqdor kabilarning eng ozlik chegarasida ekanligini ta’kidlagan holda ifodalaydi. **Jilla qursa, jilla bo‘lmasa** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi, **jilla bo‘lmasa** nutqda kam ishlatiladi, **hech bo‘lmasa** so‘zlashuv nutqida juda faol qo‘llanadi.

Nega muncha shoshmoq, yov quvladimi, a q a l l i bir oy bo‘lsin. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *A q a l l i jon taslim qilayotganida, oltin boshini silab taskin-u*

A *tasalli berarmidim unga?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *L o a q a l uni sen tanigin, Inson, Yolg‘iz boshpanangni o‘t qo‘yib yoqma*. A.Oripov, Boshpana. *Agar ikki orada bordi-keldi bo‘lsa edi, Moskoviya podshosi bizning kimligimizni l o a q a l karvon bilan kelib-ketgan o‘z sayyohlaridan eshitib bilmog‘i mumkin edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Yur, mehmon bolam, j i l l a q u r s a, bir piyolagina choyimizni ichib ket*. M.Mansur, Judolik diyori. *Bir-biridan rashk qilmasmikan, j i l l a q u r s a, iymanmasmikan bular?* E.A’zam, Shovqin. *Holbuki, hozir nomdor akademikning ishini qayta ishlash tugul, tahlil qilish, j i l l a b o‘ l m a s a, sharhlash katta muammo bo‘lib qolyapti*. T.Malik, Falak. *U bir narsalar bo‘lishini, trenerning jahli chiqishini, j i l l a b o‘ l m a s a “Og‘zingga qarab gapir”, deyishini kutgandi*. Z.A’lam, Zarb. *Shunday qilsa, uning har qadamiga tikilib, kuzatib turganlar, j u d a b o‘ l m a g a n d a, qo‘rqoqlik tamg‘asini bosar edilar*. T.Malik, Shaytanat. *Sulaymon ota. Bog‘aro qo‘ysam qadam, gul g‘uncha qilmay xandadur. J u d a b o‘ l m a g a n d a, shu bitta xandasini ko‘rsam armonim yo‘q edi...* O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Agar bironta odamga yaxshilik qilish qo‘lingdan kelmasa, h e ch b o‘ l m a s a, yomonlik qilma*. T.Malik, Devona. *– Yur, h e ch b o‘ l m a s a, kino ko‘raylik, – desam, – kino kelib meni ko‘rsin, – deydi...* A.Qahhor, Og‘riq tishlar.

AQL, ES, MIYA, BOSH, KALLA, XIRAD Kishining fikrlash, idrok qilish, dunyoni bilish qobiliyati. **Es, miya, bosh, kalla** so‘zlarining mazkur ma’noda qo‘llanishi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Miya** so‘zida bu ma’no boshqa sinonimlariga qaraganda ancha aniq ifodalanadi. **Kalla** so‘zida bir qadar nopisandlik yoki hazil ma’nosi anglashiladi. **Xirad** so‘zi eskirgan, kitobiy.

Buvim aytar edilarki, odamning hayvondan bitta farqi bor, uyam bo‘lsa a q l i. Rost-da, hayvonda a q l nima qiladi? Shuning uchun a q l yaratgan mo‘jizalarni hurmat qilish kerak der edilar. Sh.Xolmirzayev, Oy yorug‘ida. *E’lon ossang agar biror shaharda, E s i butun odam kerak deb shu on. Taloto‘p bo‘lgandek ro‘zi mahsharda, Yopirilib kelardi odamlar g‘ujg‘on*. A.Oripov, Shoir. *Umarning e s i bo‘lsa, bir soat o‘tirmay turib, “Aylanamiz!” deb qoladi.* Sh.Xolmirzayev, Baxtli bo‘linglar. *Aytmoqchi, sizlarning xotinlaring ham boradi-ya?.. Haa, ha, ularning ham e s i bor*. Sh.Xolmirzayev, Sayr. *Nazir ota shunday o‘yladi-yu, “kerak narsa bo‘lsa kerak” degan gap m i y a siga mahkam o‘tirishib qoldi.* O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Biroq Komiljon ishdan yangigina kelgan xotinining m i y a sini yana ish bilan band qilib, o‘zining tashvishiga uni ham sherik qilgisi kelmadi.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Hali u-bu uyga kirarkan, boydan haqini talab qilish uchun “mulla aka”dan yo‘l-yo‘riq so‘rash, mumkin bo‘lsa, bir ariza yozdirish fikri b o sh iga kelgan edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *B o sh im tekis ishlashga tushib, umrimni qanday davom ettirish to‘g‘risida yoyilibroq o‘ylashga sharoit tug‘ildi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Odamzodning boshiga ish tushsa, aqli kiradi,*

deganlari rost ekan. Homidjonovning ham shu topda k a l l a si ishlab qoldi. S.Ahmad, Oshqovoq-2. *Omonulloxon k a l l a siga kelgan bu fikrdan g'ijinib, shart burildi-da, deraza oldiga bordi.* T.Malik, Savohil. *Har x i r a d ahlini so'zi bir muammo go'yiyo, Donish ahlin pandini rad aylamoq bekor ekan*... Hamza, Bu falak.

AQLLI, OQIL, ESLI, MIYALI, KALLALI, XIRADMAND Bilish, fikrlash qobiliyti yaxshi, aql bilan ish tutadigan. **Oqil** so'zida "har qanday ishni aql va donolik bilan bajaradigan" tarzidagi ma'no ta'kidi ustunroq, ayni paytda, birqadar badiiylik bo'yog'i bor. **Esli, miyali, kallali** so'zlari ko'proq so'zlashuv nutqida qo'llanadi. **Xiradmand** so'zi esa eskirgan, kitobiy.

Shahodat opa... gapida davom etdi: Biram a q l l i, biram a q l l i, xuddi otasining o'zi! O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Danilov shunday mehribon, shunday a q l l i, tadbirli kishiki, buni faqat u hal qilib berishi mumkin.* A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Erkin, g'azaling O q i l -u nodon uqib oldi, O q i l o'zicha, O'zgacha nodon tushunibdir*. E.Vohidov, Do'stga deganim. *O'rda ichida shunchalik o q i l va donolar to'lib yotqan bir fursatda, tahsil ko'rmagan, nodon bir go'dakka bunday ulug' bir vazifa, vallohi a'lam, topshirilmas deb o'ylayman*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Abdulla e s l i, aqlli bola, katta odam bo'lib qaytardi*. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. – *E s l i yigit ko'rinasiz, – ayol yana yig'lamsiradi. – Nasihat qiling, xudoyo, baraka toping.* O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. *Asror m i y a l i bola. Matematiklar maktabida o'qigan. Birov yo'ldan urmasa, to'g'ri yurib, to'g'ri turadi.* T.Malik, Alvido, bolalik. *Hozirgi mudirimiz bo'ladigan bola. M i y a l i, esli-hushli, doktorlikka o'qiydi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Mayli, o'yla. K a l l a l i bolasan. Sen men qilgan xatolarni chetlab o'tsang, uzoqqa borasan*. T.Malik, Shaytanat. *Manga o'xshash odamxo'rdan ko'ra sanga o'xshash k a l l a l i yozuvchidan ko'proq qo'rqadi maraz-lar.* X.Do'stmuhammad, Yolg'iz. *Hoshalloh, bu gapni siz aytmang. Xiradmandga munosib emas*. T.Malik, Savohil. *Ilohiyot ila band bo'ldim, Faylasufi x i r a d m a n d bo'ldim.* E.Vohidov, She'r dunyosi.

AQLSIZ, BEAQL, NODON, LODON, BEXIRAD Aqli yo'q, ongi, fahm-farosati yetarli darajada bo'lmagan. **Aqlsiz, beaql** so'zlarida aqlning yo'qligi yoki juda pastligi, **nodon, lodon** so'zlarida esa aqlni ishga solavermaslik, bilimsizlik ta'kidi kuchliroq ifodalanadi, **lodon** ko'proq so'zlashuv tiliga xos. **Bexirad** so'zi eskirgan, asosan, kitobiy bo'yoqqa ega.

Musulmonqul o'z g'arazi yo'lida... a q l s i z bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib, el yelkasiga mindi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Siz ilmingizga xiyonat qildingiz. Xudo sizga aql bergan edi, siz a q l s i z lar bilan qoldingiz*. T.Malik, Shaytanat. *Shuning uchun ham b e a q l Sultonmuroddan qutulib, itoatkor bandaga aylangan Sabohiddinning xizmatiga umidvor edi*. T.Malik, Devona. *B e a q l ning ohi yo'q, Bog'lamoqqa shoxi yo'q*. Maqol. *Erkin, g'azaling Oqil-u*

A

n o d o n uqib oldi, Oqil o‘zicha, O‘zgacha n o d o n tushunibdir. E.Vohidov, Do‘stga deganim. *Tabiiy, Matqovul chol buni shunchaki yaxshilik yuzasidan tilga olgan, n o d o n nevara esa bu voqeaga butunlay boshqacha to‘n bichgan.* N.Norqobilov, Kurash. *Tanamga taftingiz tegganidayoq, sizga yo‘liqqanimni fahmlashim kerak edi men l o d o n*. A.Obidjon, Kezargon Boychechak. *Unga rom bo‘lgan l o d o n lar, aslni soxtadan... farqlashni o‘rgatishi lozim bo‘lganlar mudrabroq qolgani bois shishadan birma-bir chiqib kelyapti.* A.Obidjon, “Vahimali” savollarga vazmin javoblar. *Har b e x i r a d kirib do‘kon, ustod oldida Asbob ushlagan bilan usto bo‘larmidi*. Charxiy, Muxammas.

ARANG, ZO‘RG‘A, ZO‘RG‘ATDAN, BAZO‘R, ZO‘R-BAZO‘R, O‘LIB-TIRILIB Katta qiyinchilik-mashaqqat bilan, ko‘p kuch sarflab. **Arang** va **zo‘rg‘a** so‘zlari keng qo‘llanadi. **Zo‘rg‘atdan** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos. **Bazo‘r, zo‘r-bazo‘r** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqqa oid, shuning uchun nisbatan kam qo‘llanadi. **O‘lib-tirilib** so‘zida belgining ortiqligi ta’kidi mavjud, so‘zlashuv nutqiga xosligi seziladi.

Ming mashaqqat bilan turib, gandiraklay-gandiraklay a r a ng aravaga yetib oldim-u shaharga jo‘nadim. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Alimardon hozir uning yuragiga bigiz sanchishidan zavqlanar, ich-ichidan toshib kelgan kulgisini a r a ng bosib turardi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Azizxon bu suratni ko‘rib qolib, oynani sindirib suratni yirtib tashlagan, katta janjal chiqib, z o‘ r g‘ a militsiya qo‘lidan qochib qolgan edi.* S.Ahmad, Ufq. *Oddiy-oddiy savollarimizga ham sarosimaga tushib, asabiylashib, ikki muovin o‘zaro uzoq muhokama qilib, tortisha-tortisha, so‘ng z o‘ r g‘ a javob qilishardi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *– Sizga kim kerak o‘zi? Biz bu yoqlardan ko‘chib ketganmiz. – Qang‘li desa, “qani, qani”lab z o‘ r g‘ a t d a n topib keluvdim.* M.Mansur, Judolik diyori. *Z o‘ r g‘ a t d a n sudralar duch kelgan yoqqa, Urinmas hattoki tezroq uchmoqqa.* “Mushtum”. *Uzoq vaqt kesak kabi harakatsiz qolg‘ach, kuch orqasida tilimni b a z o‘ r shu so‘zga harakatlantirdim: – Joyi yaxshi bo‘lsa, o‘ylab ko‘rish kerak.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Olomon taraf-ma-taraf bo‘lib to‘zib ketdi, domla bilan so‘fi o‘zlarini b a z o‘ r chetga olishdi.* L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Juvon bu kulfatlarga o‘zi aybdorday z o‘ r-b a z o‘ r gapirib, ko‘ziga yosh oldi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Ishga z o‘ r-b a z o‘ r joylashgan Umid ko‘p o‘tmay Ustozdek nomdor olimga shogird tushganiga boshqalar emas, hatto o‘zi ham ishonolmay yurdi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Manglayiga bir umr o‘ l i b-t i r i l i b xizmat qilish-u achchiq-tiziq gaplar eshitish yozilgan ekan.* A.Samad, Qaniydi. *Byurokrat. Kechalari uxlamay, o‘ l i b-t i r i l i b sizga xotin tayyorlab bergan ekanman-da, a?* Sh.Boshbekov, Temir xotin.

ARDOQLAMOQ, E’ZOZLAMOQ, E’ZOZ ETMOQ, PAPALAMOQ Izzat-ehtirom, g‘amxo‘rlik, ardoq hissi bilan munosabatda bo‘lmoq. **Ardoqla-**

moq so‘zida suyish-g‘amxo‘rlik ma’no qirrasi qabariq ifodalanadi. **E’zozlamoq, e’zoz etmoq** so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubga xos bo‘lib, unda hurmat va g‘amxo‘rlik ta’kidi yanada kuchli ifodalanadi. **Papalamoq** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, unda ehtiyotlash, suyish-erkalash ta’kidi kuchliroq.

Vey, mani qanaqa a r d o q l a shardi. Hammasi kaftida ko‘tarardi, desam ishonovuring, do‘stim. Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *Mustaqilligimizga baholi qudrat hissa qo‘shayotganlarni a r d o q l a b, xizmatiga yarasha taqdirlayapti*. S.Ahmad, Umrim bayoni. *U bechora endi barcha azob-uqubatlardan qutulib, Samarqand qizlari orasida eng mo‘tabari bo‘lishini, hamma uni “yosh podshohimizning qallig‘i”, deb e’ z o z l a shini bilarmikin?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ota-onangiz sizga qanchalar mehr qo‘yganini, sizdan hatto jonini ayamasligini bilasiz. O‘sha chol ham o‘z farzandlarini xuddi shunaqa suyub, e’ z o z l a r edi*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *O‘g‘uzlar o‘zidan yoshi ulug‘larni ne deb e’ z o z e t adilar?* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Kelishda xushxabar birla kelibsan, Ketishda na’rali ovoz etib ket. Bu mushkul hola tushganlarga homiy, O‘zing, qadrimga yet, e’ z o z e t ib ket*. Charxiy, G‘afur G‘ulomga hasbi holim. *Bir kuni doimgidek uni p a p a l a b ketayotganimda, birdaniga oldimdan to‘siq chiqib qoldi*. A.A’zam, O‘zim bilan o‘zim. *Bevaligiga qaramay, p a p a l a b o‘stirayotgan to‘ng‘ich qizining dardi Soliya opani gangitib qo‘ygan edi*. A.Muhiddin, H.Tojiboyev, Otash qalbli qiz.

ARMIYA, QO‘SHIN, LASHKAR, CHERIK Davlatning qurolli kuchlari majmuyi yoki uning biror qismi. **Armiya** so‘zi, asosan, qurolli kuchlarning barchasi ma’nosida qo‘llanadi, **qo‘shin** so‘zi esa ko‘proq armiya tarkibidagi muayyan qism ma’nosida ishlatiladi. **Lashkar, cherik** – eskirgan so‘z, asosan, tarixiy asarlarda uchraydi.

Muxtorjon kuzakda a r m i y a ga ketish oldidan keksa o‘rik tagiga shu piyozni sepgan edi. O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *Davra o‘rtasida yarador ofitser turardi. Uning ko‘kragida Oltin yulduz. A r m i y a ga chaqirilgan yigitlar uni o‘rab olib ketishga yo‘l berishmasdi.* S.Ahmad, Ufq. *Urganj deyarlik taslim etilib, q o‘ sh i n Najmiddin Kubro xonaqosiga yaqinlashib borayotgan hozirgi asnoda bu orzu Jo‘ji qalbini tag‘in egallab oldi*. E.Samandar, G‘ayb qushlari. *Ertaga malikaning to‘yi deganida, qal’a kuzatuvchilari shoshilinch xabar yetkazishibdi: son-sanoqsiz dushman q o‘ sh i n i daryodan kechib o‘tmoqda.* J.Fozil, Xongul. *Ibrohimbekning l a sh k a r i jang maydonini katta talafotlar bilan tashlab chiqib, Amudaryo tarafga chekindi*. K.To‘ramurod, So‘nggi bek. *L a sh k a r i ning borini Afg‘onistonga tashlay olmaydi.* T.Malik, Savohil. *Ch e r i k sardorlari Muhammad Ali so‘zlariga tamoman ishonardi, og‘asidan ko‘ra ham u e’tiborliroq, chunki Xo‘jandda, Choriqdarronda, Jandda, Hazoraspdagi qonli muhorabalarda qatnashgani, yarador bo‘lganligi – zaminning yaxshi farzandi ekanligidan dalolat berardi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Qosimbek mo‘yloviga*

A *teggan qimiz yuqini kafti bilan artib, so‘z boshladi: – Amirzodam Sulton Ali mirzo bilan ittifoq tuzganlar. Bu yerdan ch e r i k tortib bormoqqa so‘z berganmiz*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

ARQON, ARG‘AMCHI, CHILVIR Zig‘ir, kanop kabi o‘simliklar tolalaridan, ipdan yoki jundan eshib tayyorlangan, bog‘lash uchun ishlatiladigan buyum. **Arg‘amchi, chilvir** so‘zlarida bu buyumning kichikligi, nisbatan ingichkaligi ta’kidi mavjud, shuningdek, bu so‘zning qo‘llanishi ko‘proq shevaga xos.

Toshkand olomonining talablari bilan Azizbekning ikki oyog‘idan a r q o n bilan bog‘lab, otning chovig‘a sudratma qildilar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ko‘chaning u boshida rais kattakon semiz qo‘yning quyrug‘iga a r q o n solib sudrab kelmoqda edi*. A.Qahhor, Kampirlar sim qoqdi. *Bog‘ aylanasi a r g‘ a m ch i ip bilan o‘ralmish bo‘ldi. A r g‘ a m ch i ni har-har yerida qizil bayroqchalar ilig‘lik bo‘ldi*. T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *A r g‘ a m c h i ni uzib qochgan Qora g‘ulom ancha narida it quvganday, shataloq otganicha tog‘ning orqa tarafiga chopib borardi*. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Chang‘aroq degani – gumbaz shaklida qilib xodalardan yasalgan panjara. Shu panjaraning ustini bir parcha kigiz yopib turadi. U kigizningbir uchiga ch i l v i r bog‘langan bo‘lib, ch i l v i r ning ikkinchi uchi eshikning biron yeriga o‘rab qo‘yiladi.* Sh.Xolmirzayev, Zov ostida adashuv. *Direktor qizishib, G‘ani akani o‘padi, bitta katta serkani yetaklab kelib, ch i l v i r idan tutqazadi.* Sh.Xolmirzayev, Nasib etsa.

ARG‘IMCHOQ, HAYINCHAK, HAYINCHALAK, HALINCHAK Uchib o‘ynash uchun baland yog‘ochga, ko‘pincha daraxt shoxiga osib, uchlari qo‘shib bog‘langan uzun arqon-moslama. **Arg‘imchoq** so‘zida bu moslamaning nimadan qilinganligi ta’kidi bor, **hayinchak, hayinchalak** so‘zlarida esa o‘ynash jarayoniga daxldor “hayy” tasviriy so‘ziga ishora ohangi seziladi. Shuningdek, keyingi ikki so‘z ko‘proq shevaga oid. **Halinchak** so‘zi aynan **hayinchak** so‘zi bilan teng.

– Baribir, maynalarni o‘ldirolmaysan, – dedi tolning soyasida a r g‘ i m ch o q uchib o‘tirgan jajji Shahodat beparvo qiyofada. G‘.Shermuhammad, Langartog‘ yo‘lida. *Aksiga olib, uyda kattalar bo‘lmadi. Ikkita o‘smir qiz a r g‘ i m ch o q uchib o‘tirgan bo‘ldi*. R.Xolbek, Qora yo‘rg‘a. *Eh, juda mazza bo‘ldi-da, o‘rikni yeb danagini bir-birimizga otishamiz, qiqirlashib kulamiz, silkinib h a y i n ch a k uchamiz.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Ota terdi maymanchak, Ona terdi maymanchak. Qizi esa o‘ynadi, Shoxni qilib h a y i n ch a k*. A.Obidjon, Qorinbotir. *– Menga desa, bo‘ynimga h a y i n ch a l a k solib uch, – deb tirjaydi Cho‘tir pahlavon*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Uzun-uzun arg‘amchiyo H a l i n ch a k ka, Chakan ko‘ynak yarashar Kelinchakka*. Xalq qo‘shig‘i. *H a l i n ch a k bir chap sayin, bir o‘ng sayin yuqorilab turdi. Qiz h a l i n ch a k uchishiga qarab, goh o‘tirdi, goh turdi*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

ASABIY, TAJANG, JIZZAKI, JIRRAKI, JIRTAKI O‘rinli-o‘rinsiz sababga ko‘ra qizishib, tutaqib ketaveradigan, salga jahli chiqaveradigan. **Tajang** so‘zida har narsaga keraksiz qizishaverish ta’kidi mavjud. **Jizzaki, jirraki, jirtaki** so‘zlarida mazkur holatga tushayotgan shaxsning haqli emasligi ochiqcha ifodalanadi, shuningdek, oxirgi ikki so‘z so‘zlashuv nutqiga xos.

Bozorning g‘ovur-g‘uvuri avjida, odamlar a s a b i y, qo‘pol. Oybek, Tanlangan asarlar. *Soqchilar bu yerda poyloqchi bo‘lib o‘tirganlaridan juda a s a b i y edilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bir t a j a ng uyg‘ur yigit sochini ustarada qirdirib yayrab kelayotgan ekan, qayoqdanam ari uchib kelibdi-yu naq boshini chaqibdi*. T.Malik, Shaytanat. *Keyin o‘zi Mirhosilning yonidan joy olib, t a j a ng oshnasini sovutish maqsadida tizzasiga shapatilab urib qo‘ydi*. T.Malik, Xazonrezgi. *Bir bola asabiyroq – arzimagan narsaga jazavaga tushadi, ikkinchisi dimog‘dor, uchinchisi chiranchoq, to‘rtinchisi arazchi, yana hasadgo‘y, j i z z a k i, takabbur, shuhratparast*. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Urush ko‘rganlarning aksari asabiy, mendan battar j i z z a k i*. T.Malik, So‘nggi o‘q. *E, qiziqmisan, bir kamimiz o‘sha j i r r a k i boshlig‘ingdan so‘kish eshitishmi?* L.Bo‘rixon, Qo‘noq. *Avvalgi kuni biznikilarga to‘rt-u ellik besh hisobida yutqazib qo‘ygan quyi mahallaliklar bu safar boplab o‘ch olish niyatida eng j i r r a k i o‘yinchilarini saralab kelishgandi*. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Zokirjon haddan tashqari j i r t a k i, asabiy bo‘lib qolgandi*. F.Musajonov, Bahor nafasi. *Bulbul to‘rt-beshta tuxum qo‘yib, bola ochib, bor-yo‘g‘i bittasi sayroqi bulbul bo‘lib yetishib, qolgani j i r t a k i qush bo‘lib ketganiga ishonadigan bo‘lsak, Shayxning uch-to‘rtta farzandi ham oddiy tirikchilik girdobiga singib ketib, otadan meros maxsumlik ham ularning belini mayishtirib yubordi*. G‘.Rahmon, Dunyo asbobi.

ASAL, BOL, SHAHD O‘simliklar gulidagi shiraning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo‘ladigan shirin, suyuq oziq mahsuloti. **Bol** so‘zi ma’nosida shirinlik darajasi ortiqroq ta’kid olgan. **Shahd** so‘zi eskirgan, poetik nutqda qo‘llanadi.

Oltita sedonali issiq non, shisha bankada a s a l ko‘tarib, ordenlarini jaranglatib, xandon-xushon Normat kirib keldi. S.Ahmad, Azob. *Yulg‘in, pismiq, nega yashirinyapsan? Arilarga a s a l ni kim beradi, tentak!* U.Azim, G‘oz. *Sensiz tomog‘imdan choy tugul, b o l ham o‘tmasligini bilmaysan go‘yo*. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Mening yorim qoracha, xoldekkina, Arining dumidagi b o l dekkina*. E.Vohidov, Mening yorim. *Ey begim, ushbu so‘z degul, sh a h d bila shakarmudur?* Atoiy. *La’lining bir-bir hadisi sh a h d dek shirin erur, Ore-ore, doyimo gul bargidindur angubin.* Navoiy.

ASAR, ASORAT, NISHON, ALOMAT, IZ, BELGI Biror narsa yoki voqea-hodisadan qolgan yoxud ulardan darak beruvchi muayyan belgi. **Asorat** so‘zida mazkur belgining salbiy ekanligi ta’kid oladi. **Alomat** so‘zida mazkur

A belgining salbiy-ijobiyligi ta’kidi mavjud emas. **Nishon, iz, belgi** so‘zlari ham bu jihatdan betaraf. **Iz** so‘zi mazkur ma’noda kam qo‘llanadi.

Mirqobil boshini qashib turib qoldi, Asqar bo‘shashib, partaning ustiga cho‘qqayib o‘tirib oldi; boyagi tog‘ni tolqon qilgudek vajohatlaridan a s a r ham qolmadi. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Yigirma qadam yurmay masrurlikdan a s a r ham qolmadi, hushsiz odam kabi tevarakka ma’nosiz mo‘ltirab boqardi.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Shu sababli uni doim peshonasi shishgan yoki momataloq bo‘lgan holda, ya’ni erining jahlining a s o r a t larini ko‘rish mumkin edi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Sening butun vujuding kechagi ichkilikning a s o r a t idan qaqshab og‘rirdi, ko‘ngling aynib, tomog‘ing quruqshab qolgandi*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bir vatankim, bunda yo‘qdir dard va hasratdan n i sh o n, Bir vatankim, yer va osmonida odam topdi shon*. H.Olimjon, Baxtimiz tarixiga. *Bu na gumbazdir, eshigi-tuynugidin yo‘q n i sh o n*. Uvaysiy, Anor. *Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik a l o m a t lari sezilmas va tusida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu so‘zdan Homidning yuziga qayg‘urish a l o m a t i chiqdi va e’tibor bilan qo‘rboshining og‘zig‘a qaradi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Asadbekning otasi ham “harakatida jinoyat i z lari bo‘lmagani sababli” afv etilgan*. T.Malik, Shaytanat. *Uning butun gavdasida og‘ir mashaqqat, iztirob, yo‘qchilik va boshqa kulfatlar bilan to‘la bir umrning i z larini juda yaqqol ko‘rish mumkin edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Ochiq xotin-qizlarning har bir harakatidan mulla Norqo‘zi buzuqlikka dalolat qiladigan talay b e l g i lar topadi*. A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Bu yuzda... zo‘r qayg‘ular tamg‘asi bo‘lsa, ko‘rgiliklar b e l g i si bo‘lsa, qora kunlar suvrati bo‘lsa!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi.

ASIL, SARA, SARXIL, MUMTOZ, POSHSHAXON Sifati, fazilati, qimmati va boshqa xususiyatlari jihatidan eng yuqori darajali, eng yaxshi. **Asil, sara** so‘zlari shaxsga nisbatan ham, narsa-predmetga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Sara, sarxil** so‘zlarida “saralab, tanlab olingan eng yaxshilari” ma‘nosi qabariq ifodalangan. **Mumtoz** so‘zi kitobiylik bo‘yog‘iga ega, **poshshaxon** so‘zi esa shevaga oid bo‘lib, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Kambag‘alning qizi ochko‘z, molparast bo‘lmasdan iloji yo‘q. Uydagi hamma a s i l buyumlarni o‘zi egallab oladi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Buning uchun barcha qonuniy asoslar ham, yangicha sharoitda faoliyat ko‘rsatishga shay turgan a s i l, fidokor nomzodlarimiz ham yetarli.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Davlatpanoh Sohibqiron hazratlari amr qiladurlar: ushbu farmoni oliy yetib borg‘on kundan boshlab hududsiz davlatimizdagi barcha bekat va rabot nozirlari choparlar va ayg‘oqchilar uchun eng s a r a otlar, eng tez chopar yuguruk tuyalarni shay qilib qo‘ysunlar!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Birinchi va ikkinchi guruhlar yasog‘lik uylarda o‘tirishadi. Ovqatlarning s a r a si ularga*

tortiladi. Oybek, Tanlangan asarlar. *S a r x i l mollar tijoratini boshlaganimdan beri ikki yil o‘tib ketibdi, dastmoyam ham harholda besh-olti hissaga ortib yomon bo‘lmadi.* U.Ibrohim, Qalbi gul. *U yo‘rg‘a eshagi ustiga ikki ko‘zi turshag-u bargak, anor-u nashvati, behining s a r x i l i bilan to‘lgan jundan to‘qilgan ola xurjunni ortib, o‘zi Xo‘jand qaydasan, deb yo‘lga piyoda tushdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Xonaqoni m u m t o z ustalar qurib edi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Lekin Sharqda mash’al charog‘on yurtim, Olamda tengi yo‘q, o‘lkadur m u m t o z.* E.Vohidov, O‘zbekiston. *Elmurod ham yigitlarning p o sh sh a x o n i-da! Mayli, ikkovi qovushsin.* Shuhrat, Shinelli yillar. *– Husnda tengi yo‘q. Qizlarning p o sh sh a x o n i. – Bilar ekansiz, hazratim. O‘zi ham o‘n yettidan o‘n sakkizga o‘tib turibdi.* Mirmuhsin, Cho‘ri.

ASILZODA, OQSUYAK, ZODAGON, ARISTOKRAT Yuqori tabaqali ajdodlarga mansub shaxs. **Oqsuyak** so‘zida birqadar diniy bo‘yoq mavjud. **Zodagon** so‘zida eskilik bo‘yog‘i bor. **Aristokrat** hozirda, asosan, g‘arb hayoti tasvirida qo‘llanadi.

Goh a s i l z o d a ser-u sinyorlar misoli zanjirlarini shiqirlatib arzandasini sayr qildiradi… goh labida sigaret, buklama kursichasida jonivorga o‘ychan tikilib uzoq-uzoq o‘tiradi. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *A s i l z o d a qizlar orasida eng ko‘hligi bo‘lgan Xonzoda begim bir marta erkakcha kiyinib ot minib, inisining o‘smir mulozimlari bilan chavgon o‘ynagan*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Keyin bahavo, kengishgina ayvondagi suhbat chog‘i gapdan gap chiqib, mehmon o‘zlari asli xo‘jalardan – “o q s u y a k” ekanini aytadi*. E.A’zam, Shovqin. *Xo‘ja Husayn ham o q s u y a k saidlardan...* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Rikshami bu, sohibmi bu, Gadomi yo z o d a g o n – Farqsiz, Faqat – Bir yon hindu, Bir yon esa – musulmon*. E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Bu yo‘llarni qoralag‘uchining ota-bobosi hazrati Odam Atodan tortib, gohi dehqon, gohi mardikor, goho sarjinchi, qisqasi shulki, z o d a g o n lar ta’biricha, “Biri bit – biti sirka” bo‘lmay kelgan o‘nqovsizlar sinfidandir...* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Anna muhabbatini ongiga bo‘ysundirganda ham mehnatsiz hayot kechirayotgan a r i s t o k r a t xonimning ongiga bo‘ysundirar edi*. P.Qodirov, Uch ildiz.

ASIR, TUTQUN, BANDI Dushman tomonidan asir etilgan, ozodlikdan, erkinlikdan mahrum qilingan shaxs. **Tutqun** va **bandi** so‘zlari ayni ma’noda eskirgan va ko‘proq tarixiy matnlarda qo‘llanadi.

Shaharning qoq markazidagi bu koshonani bino etishda urushdan keyingi yillar harbiy a s i r larmi, allaqanday ajnabiylarmi qatnashgan, degan gap yuradi. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *U a s i r larni narigi ikki sherigiga haydatib yuborgach, o‘zi otini yetaklab, Mamatni chetga boshlab chiqdi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O‘g‘lingizning salomat ekani, qaroqchilar qo‘lida t u t q u n ekani, yorug‘ dunyoda tirik yurgani meni bag‘oyat xursand etdi*. Mirmuhsin, Temur

A Malik. *Ozodlikda ularning atrofida ozmi-ko‘pmi sog‘lom muhit bo‘ladi. T u t - q u n lar esa bundan mahrumlar*. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Shoir b a n d i, She’ri biroq Uchar edi beto‘siq*. E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Zindondagi b a n d i- ni hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

ASIRLIK, ASORAT, TUTQUNLIK, QULLIK Ozodlikdan, erkinlikdan mahrum qilingan holat. **Asorat** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Asirlik, tutqunlik, qullik** so‘zlaridagi ma’no nozikligi, ular o‘rtasidagi mazmuniy farq mazkur so‘zlarning asoslaridan anglashilib turadi.

So‘nggi yillardagi a s i r l i k kulfatlaridan yuzida ajinlar ko‘paygan edi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Aybi bo‘lmasa ajralarmidi? A s i r l i k da bo‘lgan ekan, nimalar qilgan u yoqda, kim biladi?!* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Faqat Askariyni emas, hali Komronning o‘zini ham bu a s o r a t dan kimdir qutqarmasa, butun umri va otameros iste’dodi hayf ketadi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Olloning xohishi ila dushmanni yengib, mamlakatimizni uning a s o - r a t idan xalos eturmiz.* Mirmuhsin, Temur Malik. *O‘n bir yil t u t q u n l i k da yashagan yaponlar shu topda ozodlik deb atalgan buyuk bir olamga qadam bosa boshladilar*. S.Ahmad, Oftob oyim. *Shu o‘rinda mantiqsizlik borday ko‘rinadi: o‘smir t u t q u n l i k davrida ozodlikka intildi, koloniyadagi tartiblardan bezdi*. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Ana shunday, jigarim, sen… shu yo‘lda, tug‘il- gan elingdan minglarcha kilometr yiroqda q u l l i k ka qarshi joningni tikding.* S.Anorboyev, Yaxshilik urug‘i. *Bu qamoqlar, xo‘rliklar uni sindiribdi. Uzoq vaqt q u l l i k da o‘tgan odam qo‘lidagi kishanga muhabbat qo‘yadi, deyishadi*. T.Malik, So‘nggi o‘q.

ASOSAN, BINOAN, KO‘RA, MUVOFIQ Sabab, asosga uyg‘unlik muno- sabatini bildiradi. Ayni ma’no bilan ko‘makchi vazifasida keladi va jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadi. **Asosan, ko‘ra** so‘zlari esa yozma nutqda ham, og‘zaki nutqda ham qo‘llanaveradi. **Binoan, muvofiq** so‘zlari ko‘proq ki- tobiy nutqqa xos.

Mazkur tarhga a s o s a n, rasadxona yuqorisidagi tog‘ning to‘shida ora- lig‘idagi masofa yetti gaz keladigan ikkita o‘zaro yondosh tosh devor o‘rnatil- mog‘i lozim. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Shu qo‘llanmaga a s o s a n, aholi soni va maydonining katta-kichikligiga qarab ba’zan bir, ba’zan ikki-uch bo‘lisga bir qozi tayinlangan*. X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Har kungi odatiga b i- n o a n, mo‘ysafid xayollarining jilovini bo‘shatdi*. X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Hasanali o‘tkan faslda Homidning o‘z og‘zidan xotinlarig‘a qarshi qamchi ishlat- kanini eshitkan edi. Shunga b i n o a n uning bu oxirg‘i jumlasi Homidni yerga qaratib, lom deyishka majol bermay qo‘ydi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Birinchi guruhga siyosiy-iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlar kiradi va ular e’tiqodlariga k o ‘ r a nasroniylar bo‘lishiga qaramay, dinni davlatdan, davlatni dindan ajratib qo‘yganlar*. U.Hamdam, Muvozanat. *Men chet ellarda safarda bo‘lganimda turli*

sababga k o ‘ r a xorijda qolib ketgan vatandoshlarni ko‘rganman. E.Vohidov, Istanbul fojiasi. – *Men sizning “amringizga” m u v o f i q chiqg‘an edim. – Amrimga m u v o f i q mi? – dedi Anvar va Ra’noning ko‘ziga to‘g‘ri qarab iljaydi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Kelishuvga m u v o f i q, shaharning diqqatga sazovor joylarini ko‘rgani chiqdik.* A.Qahhor, Dumli odamlar.

ASOSLAMOQ, ISBOTLAMOQ, DALILLAMOQ Muayyan fikr, faraz va shu kabilarning to‘g‘riligi, chinligini mantiq yoki dalillar bilan ko‘rsatib, asoslab bermoq. **Asoslamoq** so‘zida mazkur ma’no umuman ifodalanadi. **Isbotlamoq, dalillamoq** so‘zlarida o‘zaklar ma’nosiga muvofiq harakatning dalil-isbotlar bilan amalga oshganligi alohida ta’kid oladi.

Haromdan hazar qiluvchi Solihabibining o‘t qo‘yishini a s o s l a m o q uchun yozuvchining o‘zi, avvalo, haromdan hazar qilmog‘i shart. T.Malik, Qiyomat qarz. *Uning ijodiga bag‘ishlangan kitoblarda, yoqlangan dissertatsiyalarda adabiyotimizga qo‘shgan juda katta hissasi ilmiy a s o s l a b berildi.* S.Ahmad, Mukammal inson suvrati. *Bu bilan ular Andijon taxtini narigilardan tortib olib to‘g‘ri ish qilganlarini i s b o t l a ganday bo‘lar edilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bobur Shayboniyxonning harbiy qudratini va shafqatsizligini isbotlaydigan dalillar keltira boshladi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Keyin shu fukrini d a l i l l a moqchidek, mamlakat ichki hayotiga oid bir talay qiziq-qiziq narsalarni so‘zlab berdi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Ivan Ivanovich oldida qalashib-qalashib yotmish qog‘ozlarni titdi: – Da’volarimni d a l i l l a b beraymi? – dedi. – D a l i l l a yman, d a l i l l a yman!* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

ASOSLANMOQ, SUYANMOQ, TAYANMOQ Biror ish-harakatni bajarishda muayyan bir narsani asosga, hisobga olib va undan kelib chiqqan holda ish tutmoq. **Asoslanmoq** so‘zi ko‘proq adabiy nutqda qo‘llanadi. **Suyanmoq, tayanmoq** so‘zlari, odatda, og‘zaki so‘zlashuv nutqida ishlatiladi. Har uchala so‘z ham mazkur ma’noda jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadi.

Bu faktga a s o s l a n ib, biz asarni 1934-yilda yozib tugallangan, deb qat’iy ayta olamiz. N.Karimov, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani to‘g‘risida. *Uning sirlarini ochaman, ilm bilan, tajribalarimga a s o s l a n ib u yerga bemalol kiraman*. Sh.Xolmirzayev, Zov ostida olishuv. *Asadbek Kesakpolvonga qabr tepasida turib, “Yuragimga tupurding” degan gapini aniq ishonchga emas, gumonga s u y a n ib aytgan edi*. T.Malik, Shaytanat. *Yo tafakkur bilan aniqlanganmikin? Bunday deyilsa, tafakkur ham dalillarga s u y a n adi-ku?* T.Malik, Falak. *Xilma-xil fikr va mulohazalar changalzoridan tikanlarga tirnalib o‘tdim, yo‘limdan adashib ketmaslik uchun doim tarix haqiqatiga, xususan, “Boburnoma”day asl manbalarga t a y a n dim*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U o‘z tajribasiga, yaxshilik haqidagi o‘z tushunchalariga t a y a n ib, oilaviy hayot tizginini qattiq ushlab turadi*. O.Sharafiddinov, Xalq sevgan adib.

A

ASQATMOQ, KERAK BO‘LMOQ, FOYDA BERMOQ, ISH BERMOQ Muayyan bir vaziyatlarda juda ham kerakli bo‘lib qolmoq. **Kerak bo‘lmoq, foyda bermoq, ish bermoq** so‘zlarida asos so‘z ma’nosiga ko‘ra keraklilik darajasidagi farq ta’kid oladi. **Kerak bo‘lmoq** oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi.

Qo‘ziboy cholning kasbi betayin. Bozor kunlarida jarchilik qiladi. Xususan, moli yo‘qolgan kishilarga a s q a t adi. Sh.Xolmirzayev, Qariya. *Humoyun filbon bilan yuborgan ming tanga oltin Nizomning og‘ir kuniga juda a s q a t adi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Obbo, Tursuniy, Tursuniy! Buni qarang-a, ilm-fan deganlari o‘sha yerda ham a s q a t ar ekan-a, a?* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *O‘sha to‘n sizniki, roziman. Ertaga bir kun o‘zlariga k e r a k b o‘ l ar*. E.A’zam, Farrosh kampirning tushi. *Ketar chog‘ida kelinimga piyoz tagida pul bor, hammasini tergovchiga bermanglar, ellik mingi o‘zlaringda qolsin, hali sizlarga pul ko‘p k e r a k b o‘ l adi, deb jo‘nab ketadi*. S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Mazkur uslub f o y d a b e r gan damlar ham bo‘lgan: gumondagilar ozod qilinib, mo‘ljalda yo‘q noma’lum odamning iziga tushilgan*. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Beozor musichadek qimtinib, pastak uy derazasidan mo‘ltirab boqqan qizaloqlarini bag‘riga olgan hovli darvozasini qoqish f o y d a b e rmadi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Ammo tog‘ga chiqishda Boburning o‘smirligi juda i sh b e r di. U hammadan oldinda toshdan toshga yengil ko‘tarilib borar, goh onasiga, goh opasiga yuqoridan qo‘l cho‘zib yordamlashib qo‘yardi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Agar G‘ilay tirsagi bilan turtib yuborsa, to‘pponchasi i sh b e r may qolishi, hatto Bo‘tqaning o‘girilishga ham ulgurolmasligi mumkinligini o‘ylamaydi.* T.Malik, Shaytanat.

ASTOYDIL, SIDQIDILDAN, YURAKDAN, CHINDAN, ROSTAKAM(IGA), CHINAKAM(IGA), UVVALO Biron-bir harakatni bajarish tarzidagi holat belgisi shunchaki emas, balki, berilib, alohida diqqat-e’tibor bilan, hech bir soxtaliksiz. Mazkur ma’no darajalari so‘zlarning o‘zaklaridan anglashilib turadi. **Rostakami(ga), chinakami(ga)** so‘zlari so‘zlashuv nutqiga xos. **Uvvalo** so‘zi eskirgan, kam qo‘llanadi.

Ishonmaganingni qara, benamoz! Men a s t o y d i l gapirayotirman. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *U endi faqat o‘ziga ishonishga… yaxshi o‘qib, katta, obro‘li odam bo‘lib yetishishga a s t o y d i l qaror qilgan edi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bu tilakka hammalari s i d q i d i l d a n qo‘shilib, yuzlariga fotiha tortdilar*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Halol yashayapman, o‘zganing haqini yemayman, birovga yomonlik qilmayman, s i d q i d i l d a n ishlayman, nonimni beminnat topaman*. A.A’zam, O‘zim bilan o‘zim. *Chin odamsan, chin o‘g‘lonsan, Y u r a k d a n elni chin suysang, Vatan sevmoq saodatdir, Agar naslingga sen kuysang.* E.Vohidov, Vatandin yaxshi yor bo‘lmas. *Nega Said necha yillardan beri endi Yusufni ko‘rishga ishtiyoqmand bo‘lib, u bilan y u r a k d a n,*

samimiy gaplashish ehtiyojini tuydi ekan? U.Hamdam, Muvozanat. *Ba'zilari ch i n d a n, ba'zilari esa hazil-mutoyiba bilan Oxunning tovushini maqtashdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Umuman, ... u r o s t a k a m i g a Michuringa o'xshar ekan, – dedi Volodya, Habibaning so'ziga quloq solmasdan*. O.Yoqubov, Tengdoshlar. *– O'ho', shunday katta ishga ko'tarilib ketibdimi?! – r o s t a k a m i g a hayratlanib so'radi qishloq podachisi Rajab cho'pon*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. *Azizxon xijolatdan qizarib ketgan, bu qo'shiq, bu obro' uni ch i n a k a m i g a mast qilgandi*. S.Ahmad, Ufq. *Olis bir qishloqdan kelib shahri azimda shu qadar tomir otgan bu jamoaga Pakana ch i n a k a m i g a havas qildi*. E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. *Muyassar "Ketma" deb, u v v a l o yalinsa ham ko'nmadi. "Tushunsangiz-chi, aya, o'z holimga qo'ying, yosh bola emasman". – dedi.* O'.Hoshimov, Dehqonning bir tuni.

ATAYLAB, ATAY, ATAYIN, ATAYDAN, JO'RTTAGA, JO'RTTA, AZZA-BAZZA Biron-bir maqsad bilan, ongli tarzda, bilib turib. **Jo'rttaga, jo'rtta** so'zlarida muayyan xatti-harakatning noto'g'riligini bilib turgan holda, yolg'ondakamiga qilinganligi ta'kidi qabariq ifodalanadi, bu so'zlar-ko'proq so'zlashuv nutqiga xos. **Azza-bazza** so'zi ham, asosan, oddiy so'zlashuv nutqida qo'llanadi.

Ovozingizni eshitish umidi bilan a t a y l a b kelgan edim. Oybek, Tanlangan asarlar. *Tushay desa, o'zi ancha charchagan, undan tashqari, Esh polvon a t a y l a b uning charchashini kutayotgani bilinib qolgandi*. S.Ahmad, Ufq. *Binafsha yigitning a t a y qilayotganini tushunib qolib, kulganicha ikkala qo'lini musht qilib Akmalning ko'kragiga tapillatib uradi*. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *A t a y sheriklaridan qochib orqadagi bo'sh o'rindiqqa o'tib olgan safar guruhining rahbari – san'at arbobi Farhod Ramazon daf'atan bezovtalandi*. E.A'zam, Shovqin. *– Shu deyman, Bozorboy aka, a t a y i n kurortga borib, biron marta vannaga tushmadingiz-a, – dedi kulib Sulaymonov*. S.Ahmad, G'ildirak. *Kishi ba'zan og'riqdan bezor bo'lganda eng nozik joyiga a t a y i n qattiq tegadi*. P.Qodirov, Uch ildiz. *...ayni shunday ko'ngil xufton damlarida onasini chalg'itish va ovutish uchun a t a y d a n hazil-huzullar o'ylab topar, topardi-yu, o'zi ichidan zil ketib yurardi*. X.Do'stmuhammad, Kuza... *Qulog'i batamom bitgan Xudoyor bobo kelishi bilan pinakka ketar, nazarimda, u buni a t a y d a n qilardi*. A.Abdullayev, Frontovik. *Ana shundagina Qurbonnazar meni j o ' r t t a g a gapga solib, meni gap bilan alaxsitganini bildim*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Ular bu yerda kim bosh maslahatchi ekanini ham bilishadi-yu, bular bilishmas ekanmi... Hazrat j o ' r t t a g a so'rayapti, chog'i*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *Biroq oyisining ko'ngli sira tinchimaydi, bir kuni yarim kechada a z z a-b a z z a kelib xabar olib ketgani hali esida*. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Bekorchi bo'lmasa, biron-bir vakolati yo'q bizga o'xshaganlarni mana bunday a z z a-b a z z a*

A *qabul qilib, bamaylixotir suhbat qurib o‘tirarmidi!* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati.

ATIGI, BOR-YO‘G‘I, BORI, BO‘LGANI, NIHOYATI, FAQAT(GINA) Hammasi bo‘lib, bor-yo‘g‘i (eng oz miqdor haqida). Qatordagi deyarli barcha so‘zlar, **atigi, faqat** so‘zlaridan tashqari, so‘zlashuv nutqiga xos.

Qarang, a t i g i uch-to‘rt yil ichida hamma yoq bino, hamma yoq qurilish bo‘lib ketibdi!.. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Shu topda javdirab turgan Munira a t i g i bir og‘iz so‘zga qanchalik mahtal ekanini Ravshan bilsa edi!* L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Rostmi, yolg‘onmi, uning aytishicha, qaysidir yili “taqiq yoshi”da bo‘lgan bir yigit-qiz ko‘zdan panaroq bir xilvatda b o r-y o‘ g‘ i quchoqlashibmi, o‘pishibmi turgan ekan, hech qanday savol-javobsiz, o‘sha yerning o‘zida ikkalovi ham otib tashlanibdi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Qolaversa, beshtasizlar, bir yarim so‘m har bittangizga b o r-y o‘ g‘ i o‘ttiz tiyindan tushadi.* A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi. *Biroq ming la’nat shu holigaki, Amir tushunib turishiga qaramay, farzandlariga yordam berolmasdi. Shunda uning ham ko‘zlari gohi-gohida achishib yoshlanardi. Lekin b o r i – shu. Amir bundan narisiga o‘tmasdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *– Xurshid, jon do‘stim, hech narsa qilib qo‘yganim yo‘q, uyimda bir kun tinchgina o‘tiraman degan edim, b o‘ l g a n i shu, sizlar bo‘lsa...* A.A’zam, Nima qilib qo‘ygan ekanman? *Peshonang har doim toshdan bo‘lsin. Baxtingni topvolsang b o‘ l g a n i shu.* A.Odil, Urush va qismat. *Men bu narsani jiyanimga aytmadim, aytsam ham urishmasa kerak, chunki mehmonga ozor berganim yo‘q, n i h o y a t i yuziga oyna tutdim.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *U n i h o y a t i bir o‘zi ixlos qo‘ygan adabiyot muallimidek bo‘lishni tilardi, xolos.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bu sohada u qisqa vaqt ichida f a q a t g i n a maktab direksiyasining emas, tuman rahbarlarining ham hurmatiga sazovor bo‘ldi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Zamirani bir odam deb emas, f a q a t g i n a bir qiz deb qarayotgan bu behayo ko‘zlar uning insoniy g‘ururini poymol qilganday bo‘ldi va g‘azabini keltirdi.* P.Qodirov, Uch ildiz.

ATOQLI, TANIQLI, NOMDOR, DONGDOR, MASHHUR Samarali faoliyati bilan nom qozongan, shuhrat topgan, ko‘pchilik biladigan. **Taniqli** so‘zida barcha taniydigan shaxs ta’kidi o‘zakdan anglashilib turadi. **Nomdor, dongdor** so‘zlarida dovruqqa egalik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Mashhur** so‘zining ma’nosida ko‘pchilik orasida tanilganlik ta’kidi mavjud. Bu so‘z shaxsga nisbatan ham, narsalarga nisbatan ham qo‘llanaveradi.

Koshona odamga liq to‘ladigan kunlar ham bo‘ladi. Katta-katta anjumanlar, a t o q l i shoir-u olimlarning tantanavor ro‘zi tavalludlari – yubileylari shu yerda o‘tadi. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Unga barcha teatrshunoslar, yozuvchilar, deyarli hamma teatrlarning rejissyorlari, a t o q l i artistlar hamda O‘lmasning qarindosh-urug‘lari, yor-birodarlari taklif qilingan.* S.Ahmad, Kiprikda

qolgan tong. *Mulla Qutbiddin Samarqandning t a n i q l i sahhoflaridan edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Muhammad Yazdiy ilgari Agraning t a n i q l i ulamolari orasida yurganda, Salim uni bir necha marta ko‘rgan, va’zlarini ham eshitgan edi.* P.Qodirov, Avlodalr dovoni. *Tuproqni ketmon bilan shibbalayotgan go‘rkov yonida O‘lmas Akram, Xolidiy, Mirolim, yana bir necha n o m d o r olimlar paydo bo‘lgan edilar.* T.Malik, Shaytanat. *Muzofotning o‘n chog‘li n o m-d o r polvonlarini ham ayttirgan ekanlar.* T.Malik, Falak. *Aftidan, bu yerda uni tanimaydugan odam kam topiladi. Kimsan – o‘zbek kinosida yangi yo‘nalish ochib, “bepoyon yurt” bo‘ylab ham ajab nom qozongan d o ng d o r kinorejissyor Ravshan Akobirov!* E.A’zam, Shovqin. *Ammo, o‘rinsiz andishani chetga qo‘yib gapirganda, u maydonda ot surib yurgan d o ng d o r otaxon-u akaxonlarning ko‘pchiligiga nisbatan asl adabiyotga yaqinroq, hatto uning sodiq fuqarosi edi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Lofchiroq dotsentning aytishicha, bir asr muqaddam bu yerlar m a sh h u r Mirzakarimboyning huv Yo‘lchivoy g‘ayrat ko‘rsatgan serhosil ekinzori bo‘lgan emish.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Birdan m a sh h u r shoirimizning m a sh h u r misralari yodimga tushdi: “Menga alam qilar: tilla baliqcha Shu ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni”.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati.

ATROF, TEVARAK, GIRD, GIRD-ATROF, TEGRA, DEPARA, HAR TOMON, HAR TARAF, HAR YON, AYLANA, QURSHOV, O‘NG-U SO‘L, SO‘L-U SOG‘ Muayyan nuqta (joy)ning barcha taraflari. **Atrof** so‘zida taraflarning jami ma’nosi, **tevarak** so‘zida aylanalik ma’nosi qabariq ifodalangan. **Gird, tegra** so‘zlarida eskilik bo‘yog‘i mavjud. **Depara** so‘zi shevaga oid. **Gird-atrof** juft so‘zida mazkur ma’no yanada qamrovli ifodalangan. **Har tomon, har taraf, har yon** so‘zlarida barcha taraflar ma’nosi juda ochiq ifodalangan. **Qurshov** so‘zida o‘rab turganlik ma’nosi qabariq aks etgan. **O‘ng-u so‘l, so‘l-u sog‘** so‘zlarida ikki tomon ma’nosi ifodalangan bo‘lsa-da, bu ma’no ko‘proq tomonlar ma’nosini ham umumlashtiradi.

A t r o f da tuman tarqab ketgan, olislarda esa cho‘kib turganga o‘xshar, unga yaqin borsang, tag‘in olisroqqa siljigandek ko‘rinardi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Ummatali bo‘lsa esankirab qolgan, o‘g‘lining orqasidan qaltirab ergashar, a t r o f dagilardan madad so‘rayotgandek ko‘zlarini hasratli javdiratardi.* S.Ahmad, Ufq. *Otamiz t e v a r a k ka alangladi. T e v a r a k ovloq bo‘ldi*. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Hali tag‘in ko‘payamiz. T e v a r a k qishloqlardan yigitlar kelib qo‘shilyapti.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Chorbog‘ning xilvat bir burchagidagi keksa o‘rik tagida ko‘z ochgan chashma. G i r d iga doirasimon shaklda bir tekis qilib kulrang tosh terilgan*. E.A’zam, Shovqin. *Odinaqul top-toza va silliq tovonlariga qayta-qayta jiddiy nigoh yugurtirdi, barmoqlari bilan o‘rtasi va g i r d larini goh avaylab, goh qattiq bosib-bosib ko‘rdi...* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Hokimlik binosining g i r d-a t r o f i ni tan-*

A

ka-yu bronetransportyor bosib ketgan edi. E.A'zam, Shovqin. *Atigi uch-to'r yil ichida g i r d-a t r o f da shunday hovlilar qurilib, shunday imoratlar qad rostladiki, ko'rganning aqli shoshadi.* E.A'zam, Shovqin. *Kattakon bir xiyobon t e g-r a s i dagi ko'hna imoratlar tanishdek ko'rindi...* E.A'zam, Shoirning to'yi. *Nilufarning t e g r a si nafis bo'yalgan ko'zlarida to'satdan sho'x uchqunlar o'ynab, oqargan yuziga anor suvi yugurdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Bu d e p a r a da boshqa qizil uzum yo'q, uzumimizning ta'rifi uzoq-uzoqlarga ketgan edi.* I.Sulton, Ozod. *Bu d e p a r a larda hozirgacha maymog'imizni hech kim yiqolgan emas.* A.Asil, Alqor, nega ko'zing to'la yosh. *Ketidan sozlovchi bolalar yerto'la eshigidan bir-bir chiqib h a r t o m o n ga tarqaldilar...* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Shamol asnosi gullar ham kelinlar kabi h a r t o m o n g'a egilishib salom berishib olar edilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Yerlar ko'k gilamlar bilan bejalganda, h a r t a r a f ni binafsha chechaklari bosqanda, qushlar uya qayg'usini chekkanda biz ham to'y qilarmiz...* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Shu desang, kanal bitgandan keyin hammanglar h a r t a r a f ga tarqab ketasizlar.* S.Ahmad, Ufq. *U boshini h a r y o n ga burib, jonsizgina qo'l silkigancha olqishlarga javoban salomlashgan bo'ldi.* E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Qiz o'z-o'zini yeb qo'yar ekan. Jonini ayamas ekan, qushday potirlab o'zini h a r y o n urar ekan.* I.Sulton, Onaizorim. *To'qayning a y l a n a joyidan Jannat xola bir quchoq ildiz orqalab chiqdi.* S.Ahmad, Ufq. *Ha, chayqovchi, – u shunday deb xotinlar q u r sh o v idan chiqdi.* S.Ahmad, Ufq. *Taqsir... biz – o'zbek. Bizning tog'lar q u r sh o v ida qolgan o'lkamizda hanuz urug' so'rash bor.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *Shu alfozda borar ekan, o'ng-u s o'l idan oppoq bulutlarning suzib o'tayotganini ko'rdi.* Sh.Xolmirzayev, Cho'loq turna. *U – sen bilan biz – odamlar o'ng-u s o' l ga qaramay va'da berib yuboraveramiz, ayniqsa, qayta uchrashmog'imiz gumon bo'lsa-ku, og'zaki saxovat bobida bizdan o'tadigani topilmaydi.* E.A'zam, Manana. *Qonga to'lgay jangga botir kirsa s o' l- u s o g' lar, Sol qilich yov boshiga, qirg'inga keldi chog'lar.* H.Olimjon, Yigit.

ATROFLICHA, HAR TOMONLAMA, HAR TARAFLAMA, BATAFSIL, MUFASSAL, MUKAMMAL, TO'LA, TO'LIQ, TO'LA-TO'KIS Hamma tomonlarini hisobga olgan holda. **Atroflicha, har tomonlama, har taraflama** so'zlarida narsa-hodisaning barcha jihatlari qamralganligi ta'kid oladi. **Batafsil, mufassal** so'zlarida barcha tafsilotlari bilan tarzidagi ma'no qabariq ifodalanadi va mazkur so'zlar narsa-hodisaning ta'rif-tavsifiga daxldor o'rinlarda qo'llanadi. **Mufassal** so'zi ko'proq kitobiy nutqqa xos. **Mukammal, to'la, to'liq, to'la-to'kis** so'zlarida narsa-hodisaning tomon, jihatlari alohida ta'kid olmaydi, balki ma'no umuman yaxlit tarzda namoyon bo'ladi.

Ilgari juda qulay bo'lib ko'ringan narsa, endi a t r o f l i ch a o'ylaganda, hazilakam emasligi ravshanlashdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *U hatto talaba qiz*

fojiasi a t r o f l i ch a taftish qilinib, ochiq qolgan eshik masalasi tilga olinganda ham ortiqcha bir so‘z aytmagan… N.Norqobilov, Kurash. *Uning nozikligi, shu bilan birga, epchil harakatlari, ochiqligi, xuddi otasidek xushmuomalaligi uni Abdulla bilan boshqa qizlardan ajratib, h a r t o m o n l a m a ulardan yuqoriligini ko‘rsatib turardi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bozor huquqshunosi Rahbarov poraxo‘r, “shantajchi” rejissyorni… fosh etishda ham sobiq qozi, ham faol fuqaro sifatida h a r t o m o n l a m a ko‘maklashishga tayyorligini bildirgan.* A.Yo‘ldosh, Bozor. *Birinchidan, hozircha Gurganjdan nariroqda turmoqlik va mashriqdagi eng mustahkam qal’a himoyasida bo‘lmoqlik h a r t a r a f l a m a muhimdir!..* Mirmuhsin, Temur Malik. *Yuqoridagi sa’y-harakatlar natijasida Muhammad Nodirshoh katta kuch to‘pladi, uni ham moddiy, ham ma’naviy tomondan, h a r t a r a f l a m a qo‘llab-quvvatlaguvchilar soni orta bordi*. M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Qo‘shni ayol shoshqaloq xabarchi bolaning gapini tasdiqladi xolos, qanday voqea yuz berganini b a t a f s i l tushuntira olmadi* T.Malik, Xazonrezgi. *Men do‘konga kelib voqeani dadamga b a t a f s i l gapirib berdim*. A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Damba Binafsha beka so‘zini no‘yonga m u f a s s a l aytdi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Solijon injener Sattorov bilan Manzura o‘rtasidagi kelishmovchilik haqida m u f a s s a l aytib bergandan keyin Danilov bu haqda uzoq o‘yladi*. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *U – yantoqqa tarvuz payvand qilish sirini m u k a m m a l egallagan mirishkor dehqon*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *O‘sha binolardan bir nechtasining m u k a m m a l tuzilishi uning xotirasida mustahkam saqlanib qolganligi ajablanarli hol edi*. A.Obidjon, Ey yorug‘ dunyo. *T o ‘ l a javob berdingiz, qoniqdik, uka, – dedi Qambarali aka*. A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Men sizni t o ‘ l a qanoatlantiradigan javobni berishim uchun bu yerda tonggacha o‘tirsak ham kamlik qiladi*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *O‘rtoq Burunovskiy yosh olimning oxirgi gaplarini t o ‘ l i q qo‘llab-quvvatlab, bu boradagi shaxsiy fikrini rad etib bo‘lmaydigan dalillar bilan isbotlab berdi*. A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi. *Dadam “alhamdu”ni t o ‘ l i q hijolab berdi-yu, meni qo‘limdan yetakladi*. A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan t o ‘ l a-t o ‘ k i s davom etar edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mastura kuldi: Kuchimni, g‘ayratimni t o ‘ l a-t o ‘ k i s ishga solib yuribman, – dedi*. A.Qahhor, Ming bir jon.

AVAYLAMOQ, AYAMOQ, EHTIYOT QILMOQ, ASRAMOQ, ARDOQLAMOQ Nodurust, nomaqbul ta’sirdan, salbiy hodisadan himoya qilmoq, ehtiyotli holatda tutmoq. **Avaylamoq, ayamoq** so‘zlarida harakatning noziklik bilan voqelanishi qabariq ifodalanadi. **Ehtiyot qilmoq** so‘zida alohida ta’kid kuzatilmaydi. **Asramoq** so‘zida harakatning davomliligi aniq seziladi. Ba’zan bu so‘z **avaylamoq** so‘zi bilan birga **asrab-avaylamoq** tarzidagi juft so‘z tarkibida ham qo‘llanadi va bu juft so‘z ma’nosida ehtiyotlash harakati yanada

A kuchli ta’kid oladi. **Ardoqlamoq** so‘zida harakatning g‘amxo‘rlik bilan bajarilishi ta’kidi mavjud.

Ko‘p yillardan beri bir-birimizni a v a y l a b, bir-birimizga dilni og‘ritadigan biron so‘z aytmay… yashadik. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *...yangi chust do‘ppilarini peshanalariga qiya qo‘ndirib, qayliqlarini a v a y l a b gina qo‘ltiqlab olgan yosh kuyovlarni ko‘rganida yana Nilufar esiga tushib, yuragi zirqirab ketdi*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *A y a gan ko‘zga cho‘p tushganday, shuncha asralgan narsa yirtilib-netmasin*. M.Mansur, Judolik diyori. *Bir kuni kechqurun ovqatdan keyin oyim gap boshladilar: – Bugun dalaga rais keldi. A y a ydi-da, achinadi. Dadang ikkalasi qanday inoq edilar*. F.Salayev, Qamish qayiqchalar. *Olimjon. Axir, u temir-ku, Qo‘chqor aka, temir!.. Uni avaylash kerak, e h t i y o t q i l ish kerak!* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Ma, e h t i y o t q i l! – dedi bandi yelim qog‘oz bilan yamalgan kattakon papkamni stol tagiga tiqib. Anavi yerda begona kampaniya o‘tiribdi. Ilib ketmasin tag‘in!* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Ha, biroq ota – umrini bolalariga, ota-onasiga fido qilib yuboradigan, oilam-ro‘zg‘orim deya o‘zini o‘tga-cho‘g‘ga uradigan, shu farog‘at maskanini har turli xatarlardan a s r a ydigan benihoya ulug‘ zot.* I.Sulton, Mega-intellekt. *A s r a yman deganni tikan ham kirgizmay a s r a ydi ekan, – dedim.* M.Mansur, Judolik diyori. *Endi navbat xarobaga aylana boshlagan, lekin qolgan qismi ko‘z qorachig‘idek a s r a b-a v a y l a b saqlanayotgan mashhur Rim kolizeyini ko‘rish, tomosha qilishga*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *“Kuch – adolatdadir” degan e’tiqodni mening dilimga jannatmakon otam ham singdirganlar, bu qilichni a s r a b-a v a y l a b menga yetkazib berganlar*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Biz maktab bolalariga, qushlarni sevinglar, a r d o q l a nglar, deb o‘rgatamiz*. Sh.Xolmirzayev, Kulgan bilan kuldirgan. *Ishq-u ilhom junbushiga tushgan rassom kela solib, bisotida a r d o q l a b yurgan bir taxta nafis xitoyi karton bilan suvbo‘yoqlarini hozirlab qo‘ydi*. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli.

AVLIYO, VALIY, KAROMATCHI Bashorat qila oladigan, mo‘jizalar ko‘rsatishga qodir odam. **Avliyo, valiy** so‘zlaridagi ayni ma’no tarkibida ilohiy ta’kid qabariq ifodalangan, ammo **valiy** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Karomatchi** ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos, unda ilohiy tomon ifodalanishi ham, ifodalanmasligi ham mumkin.

Yo rab, bu borliq yolg‘iz o‘zingniki, istasang bordan yo‘q qilasan, xohlasang, yo‘qni-da mavjudotga aylantirasan. Ana shu qudratingni bilguvchilar a v l i y o yi Allohlardir. A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Bir kuni a v l i y o ning huzuriga baland bo‘yli, uzun sochlari yelkasiga tushgan, yalangoyoq bir odam kirib keladi va undan mo‘jiza ko‘rsatishishini, agar ko‘rsatmasa, o‘ldirajagini aytib, tahdud qiladi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Allohning v a l i y lari uchun oltin bilan tufroq orasidagi mohiyat yo‘qolur, deganlari shudir-da*. A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Payg‘ambarimiz Amirni chorlab: – Kel, o‘tir, sen hali uzoq va xayrli par-*

vozlar qilasan. Hech bir v a l i y ning poyi yetmagan manzillarga yetasan, – debdi. U.Hamdam, Muvozanat. *Oxirgi ko‘runishda abbosiylarning birinchi xalifasi ro‘lini Sayfi qori juda yumshoq o‘ynadi. Ayniqsa, Abo Muslim bilan Marv begi qizining o‘lishlari chog‘ida, k a r o m a t ch i shayx choponi ostidan hovarjlarning josusi Zahhok chiqib kelgan vaqtda, o‘zining katta va tuzalmas xatolarini anglag‘on damlarda shu qadar kamharakat edikim, sira qo‘ya qoling!* Cho‘lpon, “Abo Muslim”. *Yo‘q, u k a r o m a t ch i emas, hech nimani oldindan ko‘ra bilgani yo‘q.* J.Fozil, Ayriliq ostonasi.

AVVAL, ILGARI, OLDIN, BURUN, QADIM 1. Nutq so‘zlanib turgan paytga qadar o‘tgan vaqtlar, **hozir**ning zidi. **Avval, oldin** so‘zlarida o‘tmish ta’kidi bevosita va konkret ifodalanmaydi, bu ma’no kontekstga ko‘ra reallashadi. **Ilgari, burun, qadim** so‘zlaridan esa o‘tmish zamon ma’nosi bevosita va ochiqcha angalshilib turadi. **Burun** so‘zi **ilgari** so‘ziga nisbatan uzoqroq o‘tmishni anglatadi, ammo nutqda **ilgari, avval, oldin** so‘zlariga qaraganda kamroq qo‘llanadi. O‘tmish zamonning juda uzoqligi **qadim** so‘zida sinonimik qatordagi boshqa barcha so‘zlardagiga nisbatan qabariq ifodalanadi.

Og‘ayningiz a v v a l ham chayqovchilik bilan shug‘ullanarmidi? E.A’zam, Anoyining jaydari olmasi. *Yo‘q, hozir ishlamaydi. A v v a l u trikotaj fabrikasida ishlardi*. S.Ahmad, Sinovchi-ichuvchi. *I l g a r i roq, balki, shundog‘ bo‘lg‘andir, ammo endi, ayniqsa, siz...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Tunning sehrli manzarasi Gulchehrani eltgan, uni qandaydir i l g a r i xayolida ham paydo bo‘lmagan o‘zga bir dunyoga olib kirgan…* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Boburning ko‘z oldiga boyagi telba kampir keldi-yu, sahhofning muhtojligini o l d i n roq sezmagani uchun o‘zidan koyindi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U o l d i n ham o‘g‘il bola edi, hozir ham o‘g‘il bola*. T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Yarim soat kuttirding. B u r u n bunaqa odating yo‘q edi-ku?* O.Yoqubov, Matluba. *Bu ulug‘ tadbir yo‘lida b u r u n ham ba’zi harakatlar qilinsa-da, ko‘ngildagidek natija bo‘lmadi*. G‘.Karimiy, Ko‘ragon. *Ajab, ketib boryapman-u o‘ylayman: nega piyodaman? ...Hech qursa, q a d i m zamonlarning ot-aravasi bo‘lsayam mayliydi*. U.Hamdam, Ko‘zini ochib yumgan odam. *Barcha anhor-u soylar kabi q a d i m da Ilamish atalmish bu keksa daryoda ham ko‘klamda, olma gulidan keyinroq suv ko‘payardi.* Q.Kenja, Toshqin.

2. AVVAL, ILGARI, OLDIN, BURUN so‘zlari chiqish kelishigidagi so‘z bilan birga kelganda yoki vaqt bildiruvchi so‘zni boshqarib kelganda, ko‘makchi vazifasini bajaradi va harakat-hodisaning chiqish kelishigidagi so‘z ifodalagan narsa-hodisagacha bo‘lgan vaqtga oidligini ko‘rsatadi.

Gulsumbibi bu savolga javob berishdan a v v a l kambag‘alchilikdan, erining ahvolidan shikoyat qildi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Dadamni bir yilga qamashgan ekan, boshliqlari insofliroq bo‘lsa kerak, oilangda bayram qila qol, deb muddatidan a v v a l roq bo‘shatib yuborishibdi…* A.Obidjon, Oddiy ayriliq

A haqida ertak. *Tong yorishayotganda hammadan i l g a r i uyg‘ondi*. O.Yoqubov, Tengdoshlar. – *Yo‘qolmasdan i l g a r i bormidi? Qandaqa ho‘kiz edi? – Ola ho‘kiz...* A.Qahhor, O‘g‘ri. *Shu asno Eshoni Sudur haqida so‘rashni orqaga surdi... Undan o l d i n boshqa – muhim narsalarni bilib olishi kerak ekan*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Vahobjon urushdan o l d i n meditsina texnikumini tugatib, Sumbulsoyga yuborilgan edi.* S.Ahmad, Sumbul. *Hisob-kitob qilinmasdan b u r u n nafsini tiygan kishi yutadi. Nafsi bilan g‘aflatda qolgan esa, zararga uchraydi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Men-chi? Men bu yerda undan b u r u n o‘lib qolaman-ku*. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari.

AVVALDAN, ILGARIDAN, OLDINDAN, BURUNDAN, QADIMDAN, AZALDAN, BOSHDAN O‘tgan vaqtlardan hozirga qadar. Qatordagi so‘zlarda o‘tmishning uzoqligi ma’nosi darajalangan holda aks etgan. Xususan, o‘tmishning uzoqligi ma’nosi **ilgaridan** so‘zida **avvaldan** so‘zidagiga nisbatan, **burundan** so‘zida **ilgaridan** so‘zidagiga nisbatan, **qadimdan, azaldan** so‘zlarida **burundan** so‘zidagiga nisbatan kuchliroq ifodalangan. **Boshdan** so‘zida o‘tmishning ilk davrlaridan ma’nosi qabariq tarzda o‘z ifodasini topgan.

Ziyofatda a v v a l d a n o‘ziga ixlos qo‘ygan tengdoshlari va uning o‘shandagi asarlarini o‘qib, hurmat bilan qarovchi shogirdlari ishtirok etdi. Sh.Xolmirzayev, Boychechak ochildi. *Demak, bari minbarning o‘zida, a v v a l d a n tayyorlab qo‘yilgan, shundoq kelasiz-u o‘qib ketaverasiz*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. – *Siz bo‘lg‘anlig‘ingizni i l g a r i d a n bilganimda boshqacha qarshilar edim, – dedi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. – *Siz... siz i l g a r i d a n bilasizmi? – dedi u yuzlarimga termulib.* M.Mansur, Judolik diyori. *Oyisha begim bu ipak yozuvni o l d i n d a n tika boshlagan bo‘lsa kerak*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Lekin tojik o‘n yil bo‘ldi qadam uzganigayam, o‘lmagan bo‘lsa, borib ko‘r, o‘sha yoqda b u r u n d a n qog‘on eshonlar ko‘p, shulargayam bir uchrab rom ochir, o‘zingga dam soldir, dedi*. S.O‘nar, Chambilbelning oydalasi. *Ana shuning uchun bu yerlarda islomning ta’siri q a d i m d a n sust bo‘lgan, singlim*. Sh.Xolmirzayev, Oy yorug‘ida. *Asta-sekin bu yangiliklarni unutdi va bularga q a d i m d a n bor narsalardek qaray boshladi*. Sh.Xolmirzayev, Bahor o‘tdi. *Sababi menga qorong‘i bu ziddiyat tog‘a-jiyanning o‘rtasida a z a l d a n bor edi, desa bo‘ladi*. E.A’zam, Bizning tog‘a. *A z a l d a n kurashli davralarni unchalik xushlamasligi bois o‘zidagi bu kuch-qudratni kishi ko‘ziga namoyish etmoqni hatto o‘yiga yaqin yo‘latmaydi.* N.Norqobilov, Kurash. *Erim meni b o sh d a n qattiq ushlagan-da, xolajon*. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Shuning uchun b o sh d a n oq xotinning yaxshisini tanlash kerak*. A.A’zam, Bu kunning davomi.

AVVALGI, ILGARIGI, OLDINGI, BURUNGI, QADIMGI, SOBIQ Vaqt e’tibori bilan boshqasidan oldin, o‘tgan vaqtga tegishli. **Avvalgi, oldingi** so‘zlarida ko‘proq yaqin o‘tmishga oidlik qabariq ifodalanadi. Shuningdek, **oldingi** so‘zi, odatda, og‘zaki so‘zlashuv nutqiga xos. **Burungi** so‘zi **ilgarigi**

so‘ziga nisbatan uzoqroq o‘tmishga oidlikni bildiradi. **Qadimgi** so‘zida sinonimik qatordagi barcha so‘zlarga nisbatan uzoqroq o‘tmishga oidlik ifodasi qabariq ifodalangan. **Sobiq** so‘zi kitobiy uslubga xos bo‘lib, faqat biror o‘rin yoki lavozimdan ajralgan shaxs yoki narsaga nisbatan qo‘llanadi.

Ammo Shokir ota a v v a l g i bardosh, a v v a l g i g‘ayrat bilan ishlab turdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Qaytish xabari Oftob oyim qulog‘ig‘a yetishkandan keyin uning a v v a l g‘ i uchrashishi qizi bilan edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Pochcham bilan jiyanim i l g a r i g i so‘roqda qanday javob bergan edilar, buni xotirlay olasizmi?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Endi i l g a r i g i lanjlik, loqaydlik yo‘q, yurish-turishlari dadil, gap-so‘zlari ham qat’iyat kasb etgan…* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Onasi o‘g‘lini podshoh bo‘lmasidan o l d i n g i nomi bilan atab, mehri tovlanib gapirgani Boburga juda yoqimli tuyuldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O l d i n g i sho‘xliklar, hazil-huzullar endi... Muhabbat erining yuzlarini, sochini ohista silay boshladi*. M.Hazratqulov, Cho‘li Iroq. *Yo‘q! Endi u b u r u n g i Mahmud emasdi*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Zargarov. Yo‘q, sen bilmaysan, b u r u n g i Oqila emas*. A.Qahhor, Og‘riq tishlar. *Ammo-lekin “bobur shunos” yayrab qoldi: q a d i m g i jangi jadallar to‘g‘risida mardikor bilan soatlab bahslashadi.* E.A’zam, Bir daqiqa ko‘zingni yum. – *Bizga qon-qarindosh qabilalar ko‘p, – tasdiqladi oqin. – Alarning ochun bo‘ylab tarqalishi ona bo‘ri o‘limdan saqlab qolgan o‘n yashar bolaning ajdodlari bo‘lmish q a d i m g i xunlar buyuk davlat yaratgan davrga borib taqaladi.* G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Bir kunmi-ikki kun oldin s o b i q eri kelib ketgan ekan*. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Bechorani biram chang bosibdiki, kimdir bo‘r bilan yoniga: “Kolxozimizning s o b i q mexanizatori falonchi mavsumda bir hafta dalaga chiqib, shu mashinada paxta tergan” deb yozib ketibdi.* S.Ahmad, Sobiq.

AVVALO, AVVALAMBOR, AVVALAM, AVVALAN, AVVALBOSHI, AVVALI, BOSHI, BOSHDA, BIRINCHIDAN Narsa-hodisalar turkumi tarkibidagi eng muhim, eng asosiy unsurni ta’kidlab ko‘rsatishga xizmat qiladi, asosan, kirish so‘z vazifasida keladi. Qatordagi so‘zlarning ma’no nozikligi va farqli jihatlari mazkur so‘zlarning asoslaridan anglashilib turadi. **Avvalam, avvalan, avvali, boshi, boshda** kabilar mazkur ma’noda anchayin kam qo‘llanadi.

Xudo hoji akamizning umrini uzun qilib, bola-chaqasining egaligini ko‘rsatsinki, a v v a l o, uning aqllik tadbiri, undan keyin og‘aynining bir yoqadan bosh chiqarishi soyasida Musulmonqul balosidan yengilgina qutuldik. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *A v v a l o, o‘z cho‘ntagining, qolaversa, otaxon mingboshining yordami bilan cho‘lning o‘rtasidan katta bir ariqni o‘tkazib qo‘ydi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Unaqa dema, bolam. A v v a l a m b o r, jigaring. Qolaversa, buvang ko‘p qarashgan unga*. O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *Ha, a v v a l a m b o r, adasiga telegramma berish kerak*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Dog‘iston,*

a v v a l a m b o r, jug‘rofiy tushuncha. Tog‘lar, daryolar, g‘orlar, dengizlar... E.Vohidov. *Yo yuraklari betlamayaptimi, a v v a l a m, panohlariga olgan, padardan ham yaqin bo‘lib qolgan kishiga ko‘rinishga?* M.Mansur, Judolik diyori. *Hojibi dargoh kirib, ta’zim ila xizmatga shay turgach, buyurdi: A v v a l a n, muhtasibni, so‘ngra vaziri a’zamni chorla!* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Xullas, jahon adabiyoti dunyosini “o‘zbekcha” bilish xususida gapiradigan bo‘lsak, a v v a l a n, rus adabiy olamidan minnatdor bo‘lishimiz kerak, soniyan, o‘zimizning didimizni mustaqil tarbiyalashga kirishmog‘imiz darkor*. X.Davron, Uyg‘onmoq – dunyo bilan barobar yashamoqdir. *A v v a l b o sh i, o‘zi yig‘lab qolgan menga. Qaynonasida gramm aql bo‘lmasa nima qilsin?* T.Malik, Xazonrezgi. *Abdulla Qahhor aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. So‘z san’ati, a v v a l b o sh i, er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo‘ladi.* Z.Isomiddinov, Ikki ayol. *Milisa tog‘a chala o‘qlangan to‘pponchasiga boshini qo‘yib, a v v a l i, oqshomdayoq qotib qoladi*. E.A’zam, Guli-guli. *...yigit hali uylanmagan, qizning nikohi esa shubhali, a v v a l i – uning nikohga rizoligi yo‘q...* T.Malik, Falak. *B o sh d a, anketa so‘rovi o‘tkazaman, deb niyat qilgan paytdayoq, Mahmudaliga o‘zining kuchi yetmasligini va, albatta, sizning o‘ziga qo‘shilishingizni o‘ylagan, aniq hisob-kitob qilgan*. A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *G‘ani qora bir qarashda u qadar baquvvat ko‘rinmagan Xurram qotmani dastlab chetdan zimdan kuzatarkan, b o sh d a, g‘oyatda taajjublandi...* N.Norqobilov, Kurash. *B i r i n ch i d a n, qizil rangning bo‘lakcha xosiyati bor, odamni tetiklantiradi, tunchiroqlar shu uchun qizil, ehtirosni qo‘zg‘aydi...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *B i r i n ch i d a n, har yumushni o‘zim bajaraman, ikkinchidan, namozga azonni o‘zim chaqiraman, uchinchidan, qanday nisor aziyat kelsa, o‘zim uddasidan chiqaman*. A.Abdullayev, Hazrati Attor.

AYB, GUNOH, JINOYAT, QILMISH, KIRDIKOR, YOZIQ Jamiyatdagi mavjud odat-qoidalarga yoki axloq-odob me’yorlariga xilof tarzda qilingan xatti-harakat. **Gunoh** so‘zida “nomaqbul xatti-harakat” ma’nosi **ayb** so‘ziga qaraganda qabariq ifodalanadi, ayni paytda, unda ko‘pincha muayyan diniy ohang ham seziladi. **Jinoyat** so‘zi huquqiy qonun-qoidalarga zid harakat ma’nosida qo‘llanadi. **Qilmish** so‘zida salbiy baho kuchli. **Kirdikor** badiiy nutqqa xos, unda salbiy bo‘yoqdorlik yuqoriroq. **Yoziq** so‘zida esa eskilik bo‘yog‘i mavjud.

“Yur, hech bo‘lmasa kino ko‘raylik” desam, “Kino kelib meni ko‘rsin” deydi, a y b o‘zida-yu, yana ba’zan mendan nolib ham qo‘yadi. A.Qahhor, Og‘riq tishlar. *Shu arzimag‘an narsani Saodat bilan ukasiga hayitlikka olib kelgan edim, bu a y b im uchun, albatta, mendan koyimassiz, dedim*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Menda nima g u n o h?! – o‘ylardi u gohida, – hamma ayb urushda, agar urush bo‘lmaganda, erim yonimdan jilmaganda men bunday qilmasdim*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *E, xudo. G u n o h im nima men sho‘rlik-*

ning. G u n o h im – kuni kecha do‘konimda tachka haydab yurgan bu go‘rso‘xtani yaxshi ko‘rib qolganimmi? O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Qishloqda askarlardan boshqa hech kim ko‘rinmas, odamlar go‘yo suvga cho‘kkanday g‘oyib bo‘lgan, faqat derazalarga tortilgan qora pardalar bu mudhish j i n o y a t ga loqayd va befarq boqib turardi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Vaqtida bu xotin o‘zining j i n o y a t ini mening o‘limim bilan yopmoqchi bo‘lgan edi*. A.Qahhor, Muhabbat. – *Ko‘p nojo‘ya q i l m i sh laringiz bor, qori, – dedi Buzruk eshon ranjigan tusda.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Demak, u, hechqursa, Said Olimxonning bobolari q i l m i sh i haqida gapirishi mumkin.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Uning k i r d i k o r i ni men bilaman, undan men jirkanaman deb yursam, butun qishloq bilar ekan, butun qishloq jirkanar ekan.* A.Qahhor, Xotinlar. *Hakimboyvachcha yolg‘iz qolarkan, uning ma’lum va chala ma’lum k i r d i k o r i ni bir-bir xotirdan kechirdi, uning epchilligiga qoyil bo‘ldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yaratgan o‘z bandalarini va ularning y o z i q larini o‘shalar orqali hisob-kitob qilarmish*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Alanglab xizmat qilib yurgan laganbardorlarga, ko‘rinishlaridan ma’muriyat xodimlariga o‘xshagan olifta kishilarga umid bilan qaradim, hatto ikki-uchtasining oldigayam bordim, ne y o z i q ki, ular dardimni eshitishniyam xohlashmadi...* U.Hamdam, Bir piyola suv.

AYBDOR, AYBLI, GUNOHKOR Jamiyatdagi mavjud odat-qoidalarga yoki axloq-odob me’yorlariga xilof tarzdagi xatti-harakatni sodir etgan. **Aybli** so‘zida belgi me’yordan kam. **Gunohkor** so‘zidan ko‘pincha muayyan diniy ohang seziladi.

Eshniyozda jindak asabiylik ham seziladi: qandaydir o‘zini a y b d o r sezadi... Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *A y b d o r larni biz o‘zimiz topib, jazosini beramiz*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Cholning yurak yaralarini ochishda o‘zini a y b l i sanagan Yo‘lchining ko‘kragi og‘ir tuyg‘ular bilan to‘ldi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Ro‘para bo‘ldi-yu, yaqin kishisidan ayrilgan odamning dardi, qayg‘usi bilan emas, a y b l i kishining xavotirli nigohi bilan qaradi*. T.Malik, Shaytanat. *Qushbegining ishorati bilan yigitlar hozir bo‘lib, g u n o h k o r lar zindonga jo‘natildilar*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Endi unga boshqa g u n o h k o r bandalar qatori jazo berish podsho hazratlarining ixtiyorida ekanligi aytilgan edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

AYBSIZ, GUNOHSIZ, BEGUNOH, YOZIQSIZ Jamiyatdagi mavjud odat-qoidalarga yoki axloq-odob me’yorlariga xilof tarzdagi xatti-harakatni sodir etmagan. **Gunohsiz, begunoh** so‘zlaridan ko‘pincha muayyan diniy ohang anglanadi. **Yoziqsiz** so‘zida eskilik bo‘yog‘i mavjud.

Ikki yil konda ishlagach, a y b s i z ekani birdaniga ayon bo‘lib qolib uyiga qaytdi. T.Malik, Shaytanat. *U hozir Umarovning a y b s i z kishi sifatida chiqib kelganiga ishonmasdi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Sababsiz sochilgan g‘azablar, G u-*

A

n o h s i z chekilgan azoblar. E.Vohidov, Asablar. *Azizbekdan bo‘lg‘an umidi bo‘shka ketdi: bu kun ul o‘zining yaramas xayoli yo‘lida xondan yuz o‘girdi va bu orada qancha g u n o h s i z ning qoni to‘kilishiga sabab bo‘lmoqdadir*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qo‘rqmang, bibim. Niyatlari yomon bo‘lsun-bo‘lmasun, Siz Olloh qovushtirgan yoringiz janob Sohibqiron oldida sutday oq, farishtaday b e g u n o h siz!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Po‘pisa tinib-tinmasidan, yirtiq bir shippak havoda chirpiroqlanib kelib, uyga orqamacha o‘tirgan b e g u n o h Pixpix Chandrning kuragiga tegdi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Bir qarang atrofingizga, qancha-qancha y o z i q s i z mazlumlarning uyi kuydi ekan*. T.Malik, Savohil.

AYIL, PUSHTAN, QORINBOG‘ Egarning ot qornidan aylantirib bog‘lab qo‘yiladigan tasmasi. **Pushtan, qorinbog‘** so‘zlari xalq tiliga xos.

Kamarga kirdim. O‘rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan, o‘rta bo‘y bir kishi eshagining a y i l ini bo‘shatardi. Sh.Xolmirzayev, Notanish odam. *Avvalgidek ishtiyoq bilan egar urdi unga Qilich. Avvalgilek tortib-tortib a y i l ini boyladi.* E.Samandar, Sulton Jaloliddin. *Ko‘sa sinchi: Qimtisa o‘tadi osmonda qushdan, Beliga yarashgan kark qubba p u s h t a n, Hech kamlik bo‘lmasa yo‘rg‘a yurishdan, Umid qilma oy Barchinday buvushdan...* “Alpomish”. *Shundan so‘ng terlikni, keyin chirgini, ustidan jahaldirikni, undan keyin egarni qo‘yib ayilni qisdim. Oxirida p u sh t a n ni salqiroq qilib qo‘ydim.* A.Suyunov, Solin yo‘li. *Quyushqoni ham o‘rnida, egar ham yaxshi qo‘ngan, q o r i n b o g‘ i ham jips, yugan ham to‘ralarnikidek! Lekin umuldirig‘ining yo‘qligi biroz ko‘nglimni g‘ash qildi. Anchagina o‘ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo‘ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto‘ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim.* A.Qodiriy, Uloqda. *Nasibali darrov otxonaga kirib, bitta otni yetaklab chiqdi. – Ot minganda odam orqa-oldiga qarab yuradi, – dedi q o r i n b o g‘ ini tortayotib, – hali sal bo‘lmasa avtomobil urib ketayozdi*. A.Qahhor, Karavot.

AYIRBOSHLAMOQ, AYIRBOSH QILMOQ, ALMASHMOQ, ALMASHTIRMOQ, ALISHMOQ, MAVOZA QILMOQ Biror narsani boshma-boshiga yoki boshqa biror shart bilan oldi-berdi tarzida almashmoq. **Ayirboshlamoq, ayirbosh qilmoq, mavoza qilmoq** so‘zlarida oldi-berdining boshma-bosh tarzida kechishi alohida ta’kid olgan. Qatordagi boshqa so‘zlarda esa bu ta’kid ochiq ifodalanmaydi va mazkur jarayon umuman o‘z ifodasini topadi. **Mavoza qilmoq** so‘zi eskirgan.

O‘z joyida muqim narsa qolgani gumon, Alish-almash, a y i r b o sh l a sh zamoni kelmish. O.Matjon, Bozor hazili. *Qachonlardir, chamasi, urushdan keyingi yillar edi, birov beshotar miltig‘ini taklif qilgan, qariya bitta qo‘yga o‘sha matohni a y i r b o sh l a gan edi*. U.Uteuliyev, Qizil tulki. *Ana shu voqeadan keyin Usmonjon to‘rt xonali uyini shahar chetidagi uch xonali uyga a y i r b o sh q i l ib ko‘chib*

ketdi. S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *Otam rahmatli, bolam o‘ksimasin, deb shu otni bag‘ridan yulib olgandek ikki yashik choynak-piyolaga a y i r b o sh q i l-di*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. – *Men so‘z xizmatidamen, – dedi Ayri Qo‘bo‘z tap tortmay, – so‘z esa haqiqat xizmatidadur. Sohibimni senga ham a l m a sh mas-men*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Yalla bitgach, ba’zi qizlar o‘rinlari-dan turib, u yoq-bu yoqqa jildilar, ba’zilari joylarini a l m a sh t i r ib, yaqin ko‘rgan o‘rtoqlarining yonlariga o‘tib o‘tirdilar*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Er-tangi savol-javobdan qo‘rqsa… o‘tkinchi dunyo matohiga insonlik sha’nini a l-m a sh t i r armidi*?! E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Kechayam aytuvdim, ko‘nmadi-lar. Qulupnayga sut a l i s h adi, dedilar*. O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *“O‘zim-ning Mardon akamni hech kimga a l i sh mayman!” Bo‘yida bo‘lganini sezgani-dan beri xayoliga shu flkr mahkam o‘rnashdi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo‘zlaridan Buvamat ota butun qolip-u shon-u so‘zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo‘xori unga m a v o z a q i l di*. G‘.G‘ulom, Mening o‘g‘rigina bolam.

AYIRMOQ, AJRATMOQ, JUDO QILMOQ, MAHRUM QILMOQ Bi-rovni yaqin kishisi yoki kerakli narsasidan uzoqlashtirmoq, undan benasib qil-moq. **Judo qilmoq, mahrum qilmoq** so‘zlarida ajralish, benasiblik kuchli ta’kid bilan ifodalanadi.

Biroq qarshilig‘im shundadirki, kuyav toshkandlik bo‘lg‘andan so‘ng qizi-ngizni o‘zi bilan birga olib ketar va siz bilan meni yolg‘iz bolamizdan a y i r ar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sen otamdan a y i r ding, Qanotimni qayirding*. H.Olimjon, Oygul bilan Baxtiyor. *Otalarimiz bir-biri bilan eskitdan oshna. Mo-zorimiz bir, ko‘chamiz bir. Sen bizlarni a j r a t ib yuborma*. Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida. *Qariganida gunohga botgan odamdan o‘zi sezmagan holda, onalik, ayollik hissi bilan pokiza kelinini, norasida, g‘uborsiz nevaralarini a j-r a t ib olgan edi*. O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *Kelin deganni xudoyi taolo ona-bolani bir-biridan j u d o q i l ishga yaratgan! Ilm-u amal bilan bolamni o‘zingga qaratib olgansan!* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Hali sen edingmi, mening hayotimni bulg‘agan, meni bolalarimdan j u d o q i l gan!* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Bilmaysanki, ayni paytda o‘sha dardmand olamning dod-faryodlariga parvosiz boqishdek cheksiz halovatdan m a h r u m q i l ingan-san…* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Ko‘rdingizmi, o‘rganmaganlar! Bu kishini ishlash huquqidan m a h r u m q i l ishga haddim sig‘maydi*. A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar.

AYLANAY, AYLANSIN, O‘RGILAY, O‘RGILSIN, TASADDUQ, GIR-GITTON, QOQINDIQ Erkalash, suyish va shu kabi munosabatlarni bildiradi va, asosan, shu ma’nodagi murojaat shakli sifatida qo‘llanadi. **Tasadduq** so‘zi erkaklar nutqida ham, ayollar nutqida ham qo‘llanadi. Sinonimik qatordagi boshqa so‘zlarning barchasi esa xotin-qizlar nutqiga xosdir.

A

– Topildilarmi? Odamni qo‘rqitib yubordingiz-a, a y l a n a y, – dedi Safar otaning xotini ular o‘tovga yetib kelishganda. O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Kampir tojikcha talaffuz bilan: – Undoqlar yo‘q, a y l a n a y, – dedi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bu yoqqa kelinglar! Onang a y l a n s i n, Marasul, xotining yosh, kimda nima ko‘rsa havas qiladi*. A.Qahhor, Og‘riq tishlar. *Ha, bo‘yginangdan momoginang a y l a n s i n-da! Qani, yura ber*. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *U Akbarni bag‘riga bosib: – Momo degan tilingdan o‘zim o‘ r g i l a y! – deb erkalatdi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Yosh umringizni xazon qilmang. Bolagayam ota kerak, o‘ r g i l a y*. O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *– Sog‘-salomat keldingmi? – deb dasturxonni stolga qo‘yib, Botirning peshonasidan o‘pdi. So‘ngra “Onang o‘ r g i l s i n, kap-katta yigit bo‘lib qolibsan, tez-tez uyga kelib tur” deb qo‘ydi*. S.Nazar, Yashil boylik. *Xumorxon. Voy, opasi o‘ r g i l s i n, xamir qilganmidingiz.... qarashvorsam bo‘lar ekan*. A.Qahhor, Og‘riq tishlar. *– Turing endi, t a s a d d u q, bizlardan boshqasi qolmadi bu yerda, – dedi Qamara uning qo‘lidan tortib*. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Shu dunyoning bir chekkasida bir g‘arib oshnam bor, ko‘nglini olay debsan-da? ...Jonim t a s a d d u q lar bo‘lsin senga*. M.Mansur, Judolik diyori. *Voy, qudam keptilar! Voy, g i r g i t t o n! Esonmisiz, omonmisiz?..* A.Qahhor, Og‘riq tishlar. *Uyga kir, g i r g i t t o n, hozir samovarga cho‘g‘ tashlayman...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Uni kelin qilaman degan xotin-xalaj ham “aylanayin, q o q i n d i q” deya Diloromning amma-xolalariga girdikapalak bo‘ladilar*. I.Sulton, Ozod. *– Yuringlar, jonim q o q i n d i q lar, qishlog‘imizdagi gumbazli hammomni ko‘rsatib qo‘yay, yuvinib sal odamnusxa bo‘lvolinglar, – deya hammasini go‘dakchasiga taltanglata ketdi*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

AYLANMOQ, SAYR ETMOQ, KEZMOQ, KEZINMOQ Tomosha, hordiq yoki boshqa shu kabi maqsadlar bilan muayyan joylarda yurmoq. **Sayr qilmoq**da istirohat ma’no ta’kidi ochiq ifodalanadi, ko‘proq badiiy nutqqa xos. **Kezinmoq** so‘zida “bemaqsad kezib yurmoq” ifodasi bor, kitobiy uslubga xoslangan.

Men oyimlarnikiga ketyapman. Uch-to‘rt kun a y l a n ib, ko‘nglimni yozib kelay. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *U daraxt taglaridan yurdi. Qo‘llarini orqasiga qo‘yib yurdi. Xiyobon a y l a n di: skameykalarda dam olib-dam olib a y l a n di.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *U mana shu yo‘lkada erta sahar-u shomdan keyin s a y r e t ishni yoqtirar, hech kanda qilmasdi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bugun oqshom savalab o‘tgan yomg‘irning salqinida amir sarobo‘stonda s a y r q i l ib yurardi.* T.Malik, Savohil. *Shudgorning g‘o‘zapoyasi yig‘ishtirib olingan joylarida anchagacha s a y r q i l dim.* A.Boyqo‘ziyev, Teshikmozor hangomalari. *Hikmatillo horg‘in odimlab, ...bu parkda Nilufar bilan birga yurgan xiyobonlari, o‘tirgan skameykalari, qo‘l ushlashib k e z gan*

anhor bo‘ylarini ko‘rsa battar ezilishini o‘yladi-yu, ikkilanib to‘xtadi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ikkalamiz jimgina shahar ko‘chalarini k e z ardik.* N.Eshonqul, Bahoudinning iti. *Bog‘ning hali yaproq yozib ulgurmagan yalang‘och daraxtlari oralab k e z i n gan Umar, ko‘klam yomg‘irini har nechuk xushlamasin, o‘zini panaga olmoqqa majbur bo‘ldi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Ertasi ular qo‘sh mototsiklda Xurram qotmaning suruvini qidirib, keng adir bo‘ylab k e z i n isharkan… suruv itlarini qisqa bir hayqiriq bilan joy-joyiga “mixlagan” kimsaga boshda Salabek zarracha e’tibor bermadi.* N.Norqobilov, Kurash.

AYNIMOQ, BUZILMOQ, ACHIMOQ Me’yoriy holatini yo‘qotmoq, iste’molga yaroqliligi yomonlashmoq yoki iste’molga yaroqliligini yo‘qotmoq. **Buzilmoq** so‘zida iste’molga tamoman yaroqsiz holatga kelganlik ta’kidi qabariq ifodalangan. Qatordagi boshqa so‘zlarda bu ta’kid unchalik emas, ammo kontekstga ko‘ra shunday ta’kid yuzaga chiqishi mumkin. **Achimoq** so‘zida “achimsiq ta’mli bo‘lib qolmoq” ifodasi bor.

Tursunboy ota echkining go‘shti a y n i b qolmasdan xotiniga mushkulkushod o‘qitgani eshon ayani uyiga chaqirgandi. S.Ahmad, Hukm. *Bir kun Odina unga erkalanib, o‘lsin, to‘nka erimdan a y n i gan tuxumning hidi kelardi…* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Baliq boshidan b u z i l adi. Pir qanday bo‘lsa, murid ham shunday bo‘ladi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Go‘shtlar dastlab shahriston ichkarisida b u z i l di. Eng so‘nggisi shu yerda aynidi*. T.Malik, Falak. *Bir banka a ch i gan sut bo‘lsa ham yomon bo‘lmas edi, lekin kim beradi unga sutni?* O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar. *U o‘tirishi bilan sassiq papiros va a ch i gan ovqat hidi dimog‘imga urildi*. O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i.

AYNIQSA, XUSUSAN, ALALXUSUS O‘zaro biror jihatdan munosabatda bo‘lgan shaxs yoki narsa-hodisalardan birining boshqasiga nisbatan muhimligini ajaratib, ta’kidlab ko‘rsatishga xizmat qiladi. **Ayniqsa** so‘zida ajratish, ta’kidlash qabariq ifodalangan. **Xususan** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Alalxusus** so‘zi eskirgan va kitobiy nutqqa mansub.

Ko‘rib qolishmasin, – dedi u hayron bo‘lib turgan Nafisaga tushuntirib, – a y n i q s a, Viktor, ertalab derazaga chiqib qarab turganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Gap unda emas, – dedi hoji, – umr, murosa degan gaplar bor, a y n i q s a, kundashlik ishi qiyin…* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Yo‘lchi hamma eski, yangi voqealarni, x u s u s a n, kechadan buyon tortgan tashvish va hayajonlarini gapirdi…* Oybek, Tanlangan asarlar. *Chindan ham Ibrohimbekni birovlar oldida, x u s u s a n, To‘g‘aysari oldida qattiq tahqirlaydigan… voqea sodir bo‘lgan edi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Albatta, shunday-ku, – dedi Shahidbek, – ammo kishi, a l a l x u s u s, sizga o‘xshash yigitlar hamisha bir o‘runda o‘lturib qolmaydirlar*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Xo‘jand ahlining ko‘p barkamol ayollari va yana, a l a l x u s u s, tog‘ ayollari-*

A

ning zeboligi ham faqat chashmalar suvi emas, oltin o‘rig-u anjir-u anoriga ham bog‘liqdir. Mirmuhsin, Temur Malik.

AYOL, XOTIN, XOTIN-QIZ(LAR), XOTIN-XALAJ Erkakning zidi bo‘lgan jinsga mansub odam. **Ayol** so‘zi, odatda, “turmush qurgan katta yoshdagi xotin” ma’nosida qo‘llanadi, “umuman, turmushga chiqqan va chiqmagan turli yoshdagi erkakning zidi bo‘lgan jinsga mansub odamlar” tarzidagi ma’noda bu so‘z, odatda, *-lar* qo‘shimchasi bilan ishlatiladi. **Xotin** so‘zi “turmush qurgan katta yoshdagi ayol” ma’nosi bilan so‘zlashuv tiliga xos. **Xotin-qiz(lar)** so‘zida turmushga chiqqan va chiqmaganlardan iborat umumlashtiruvchi ma’no qabariq ifodalanadi. **Xotin-xalaj** so‘zi, asosan, turli yoshdagi turmushga chiqqan ayollarni bildiradi va so‘zlashuv tilida qo‘llanadi.

Bo‘shagan likopchalarni yig‘ishtirib yurgan to‘rt a y o l Jamshidning ishorasi bilan sochilib yotgan pullarni tezlik bilan terib olishdi. T.Malik, Shaytanat. *Gulchehralarning uyiga esa odam ko‘pligidan kirib bo‘lmasdi. Hamma yoqni a y o l larning yig‘isi, oh-dodi tutib ketgan edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *A y o l larning juda murakkab va mug‘ambir bo‘lishini eshitganman, lekin Oypopukni shunday ayollar qatoriga mutlaqo qo‘shgim kelmasdi*. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Onasi x o t i n larning chirmanda chalib “Yor-yor, yorona”lar aytib... karnay-surnaylar, qiyqiriqlar ostida Sanaqul polvonga uzatilgan edi*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Feodallarga o‘xshab o‘zlaring maza qilmanglar-da, biz sho‘ring qurg‘ur ezilgan x o t i n larni ham aylantiringlar*. S.Ahmad, Kataysa. *X o t i n-q i z l a r bilan munosabatda vijdonni ham, insofni ham tan olmaydigan Nodirning istehzosi Sattorga o‘qday tegdi*. P.Qodirov, Erk. *Maning to‘qug‘an ishlarim va chiqarg‘an nusxalarim hammaga maqbul, ayniqsa, xotin-q i z l a r uchun mashhur bo‘lib, har doim to‘quv do‘konim yonidan xotin-qizlar ayrilmas edilar*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– O‘zing bilasan, – dedi Hafiz. – Lekin men senga aytsam, do‘stim, x o t i n-x a l a j ning dilini bilish ham katta kashfiyot*. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *X o t i n-x a l a j, bola-chaqa orasida o‘tirishni yoqtirmagan Salimboyvachcha... musulmoncha gazetalarga ko‘z yugurib o‘tirar edi*. Oybek, Tanlangan asarlar.

AYOV, SHAFQAT, RAHM Ayash, rahm-shafqat tuyg‘usi, shunday his-tuyg‘uli munosabat. **Shafqat** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Rahm** so‘zida achinish ta’kidi qabariq ifodalangan. **Rahm-shafqat** tarzidagi juft so‘z holida qo‘llanganda, ma’no yanada kuchli ta’kid oladi.

– Vey, har kuni ov-ku, – dedi kampiri. – Ana, Bo‘rijarga tushing. Choshgohgacha tomosha ko‘rasiz... Vey, odamlar-e, a y o v nimaligini bilmaydi-ya. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Mayli, unga ishonib, Dushman bilan olishay. O‘z yurtimning erki deb, A y o v bilmay solishay.* A.Obidjon, Qorinbotir. *Ular odamlar ko‘magidan allaqachon umidlarini uzganlar. Biz mehrga zor bechoralarni sh a f q a t va muruvvat bilan emas, balki turli qurollardan yog‘iluvchi ajal yomg‘iri*

bilan kutib olishga odatlanib qolganmiz! A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *Yaxshilarga sh a f q a t uchun, Yomonlarga nafrat uchun, Avlodlarga ibrat uchun Kichik joning kerakmidi?* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. – *Menda r a h m yo‘q – dedi Chuvrindi. – r a h m nima qilsin. Shaharda daydib yurganimda, rahm-shafqat degan hislar o‘lib bo‘lgan.* T.Malik, Shaytanat.

AYOVSIZ, BEAYOV, SHAFQATSIZ, BESHAFQAT, OMONSIZ, BEOMON, RAHMSIZ, BERAHM Hech bir ayash munosabatisiz, ayamasdan qilingan. **Ayovsiz, beayov** so‘zlarida ma’no tushunchasi keng, predmet belgisi uchun ham, harakat belgisi uchun ham qo‘llanaveradi. **Shafqatsiz** so‘zida kitobiylik ta’kidi mavjud. **Beomon, omonsiz** so‘zlari ko‘proq urush-jang va shu kabi holatlardagi o‘ta shafqatsiz, omonlik bermaydigan predmet va harakat belgisini ifodalaydi.

Ichi yonib-yallig‘lanib ketayotgandek, ichak-chavog‘ini a y o v s i z bir panja g‘ijimlab burayotgandek... E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Tabiat bilan hamkorlik qilib cho‘llarga suv chiqargan, bog‘-rog‘lar bunyod qilgan butun o‘troq aholini nechun a y o v s i z qirgan?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Feodal! Alomat bechoraning boshiga ne kunlarni solmadingiz! Nima azoblarni ko‘rmadi bu yerda! Sho‘rlikni b e a y o v ekspluatatsiya qildingiz!* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Yerga bosib olib b e a y o v bo‘g‘zimga chang solgani-solgan. Big‘illayman, xirillayman. Panjalari temir-a!* E.A’zam, Shovqin. *Men sh a f q a t s i z ovchi edim, ammo aynan mana shu joyda ko‘nglim bir xil bo‘lib ketdi*. A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh? *Hayot bir sh a f q a t s i z yovga o‘xshaydi, Birovning o‘rniga birov yashaydi*. B.Fazliddin, Ko‘ksim og‘riqlari. *Shu kichkina, badbashara, do‘ppisini olib kel desa, boshi bilan olib keladigan b e sh a f q a t odam tufayli ko‘rgan kulfatlarimizni xayolimdan haydayman, lekin yana bo‘lmaydi*. O‘.Umarbekov, Qaytar dunyo. *B e sh a f q a t ajalga berar ekan tan, U dedi: “Shu ekan, dunyo shu ekan”.* A.Oripov, Dunyo. *Musulmonqulning o m o n s i z qilichi og‘aynining bo‘g‘zida edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mirzakarimboy Yo‘lchiga dalda berish uchun, Olloning rizosiga bo‘ysunish kerakligini, o‘lim har kimning boshida o m o n s i z qilichini tutib turganligi… haqida gapirdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yo‘q, yo‘q, yillar emas umrga egov, Uni yemiradi b e o m o n hislar...* A.Oripov, Sen uzoq… *Ular olishdilar uzoq, b e o m o n, Oqibat birining kallasi uchdi*. A.Oripov, Do‘zaxiylar. *Zolim beklar, qonxo‘r hokimlar, r a h m s i z jallodlar, mash’um dorlar va qo‘rqoq xalqlar orasida keksa otasini, mushtipar onasini ko‘ralmay dunyodan ketdimikin?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U ayni damda bir soatgina ilgari pochtachining o‘ligini qabrdan chiqartirib tashlataman, deb hukm yuritayotgan diydasi qattiq r a h m s i z odam emasdi*. T.Malik, Shaytanat. *Nahotki, sizning ko‘nglingiz shu b e r a h m xonga moyil bo‘lsa?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Muhammad Intizom jiddiy bir tusda dedi: Xudo xohlasa, biz bu b e r a h m no‘yonni qo‘lga tushiramiz...* Mirmuhsin, Temur Malik.

AYRILIQ, JUDOLIK, HIJRON, HAJR, FIROQ, FURQAT Yaqin kishilardan ayrilish holati. **Judolik** so‘zi ma’nosida ayriliqli holatning vaqt va

A masofa jihatidan uzoq bo‘lishi qabariq ifodalanadi. **Hijron, hajr, firoq, furqat** so‘zlari eskirgan va kitobiy nutqda ko‘proq qo‘llanadi.

Gulnor butun yuragi bilan Yo‘lchiga maftun, uning ko‘ksini baxtsiz sevgi hasrati va a y r i l i q lim-lim to‘ldirgan. Oybek, Tanlangan asarlar. *Olis a y ri l i q-dan keyin ko‘rishmishdayin bag‘ridan qo‘yib yubormadi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *“J u d o l i k” degan so‘z bino bo‘lgandan beri bunaqa ko‘z yoshini ko‘rmagandir...* A.Qahhor, Dahshat. *Bobur endi otasini umrbod ko‘rol-masligini butun vujudi bilan his qildi-yu, achchiq j u d o l i k tuyg‘usi birdan uning borlig‘ini to‘ldirib, ko‘zlaridan yoqasiga yosh bo‘lib tomdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Shunday bo‘lsa ham, Ochildagi visol quvonchi undagi h i j r o n dardini bo‘rttirib ko‘rsatardi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Diydor ko‘rishganlar, h i j-r o n azoblarini orqaga tashlab baxtdan mast bo‘lgan kishilar yana hushyor tor-tib ketishdi.* S.Ahmad, Ufq. *Ishq davosi avom o‘ylag‘ancha vasl emas – h a j r-dir. Zero, vasl ishq o‘tini so‘ndirg‘uchi, h a j r esa kamolatka erishdirguchidir.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Jannat xola... o‘g‘lining f i r o q ida, dard-u alamida shu to‘qaylarda jon taslim qildi.* S.Ahmad, Ufq. *Onangni f i r o q o‘tida yondirishdan uyalmading, qizim.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Yig‘ladi f u r q a t da Furqat Ham muqimlikda Muqiym, Nolishingdan Hind-u Afg‘on Qildi afg‘on, o‘zbegim.* E.Vohidov, O‘zbegim. *Olti oydur tushdim shundoq g‘urbatga, Suygan-larim tashlab birdan f u r q a t ga, Dilim qondur shirin o‘g‘lon, qizlarim, Mu-habbatlik dilbarimni sog‘inib.* Hamza, Sog‘inib.

AYTGANDAY, AYTMOQCHI, AYTGANCHA, DARVOQE So‘zlov-chining nutqi davomida yodiga tushib qolgan biror gapni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan kirish so‘z. **Darvoqe** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

– Aha, a y t g a n d a y, bizning qo‘ylar yaxshi yuribdimi, o‘rtoq Qurbonov? – dedi. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *A y t g a n d a y, Nasim oshna... Bizning Momoqiz omonmi?* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Zargarov. Iye, bunisi esga kelmapti-ku... (Esiga tushadi, Xumorxonga). A y t g a n d a y, karavotning tagidagi doklad-xaltani olib chiqing.* A.Qahhor, Og‘riq tishlar. *– A y t m o q ch i, arra bor-ku! – dedi Mahmud.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *A y t m o q ch i, lanka ham yaxshi ko‘radigan ermagimiz edi, hay, dabba bo‘lib qolasan deb koyishsa ham, bu tepkini qo‘ymas edik.* A.A’zam, Quroq. *Hali nima deyayotgan edik?.. Ha, ha. Redkollegiya... o‘rtoq Eshonboyev, agar men ham redkollegiyada... a y t g a n ch a, Akbarov qani?..* P.Qodirov, Uch ildiz. *– Xayriyat, – dedi chol yengil tortib. – Jindekkina bo‘lsa ham, qarzdan uziladigan bo‘ldim. A y t g a n-ch a, biz, deganing nima deganing? Axir bir o‘zingsan-ku?* S.Ahmad, Ufq. *Ha, d a r-v o q e, sadoqatni unutibmiz. U Asadbekka sadoqatli edi.* T.Malik, Shaytanat. *D a r v o q e, mukofotini nima qiladi? U beixtiyor sumkasini ochib, pulli konvert-ni ushlab ko‘rdi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

AYTISHMOQ, JANJALLASHMOQ, MOJAROLASHMOQ, G‘IJIL-LASHMOQ, QIZARISHMOQ, TIKLASHMOQ Bir-biriga me’yordan chiqib

ketgan holda, hatto janjal shaklida og‘ir so‘zlar aytishmoq. **Janjallashmoq, mojarolashmoq, g‘ijillashmoq** so‘zlarida janjal belgisi qabariq ifodalangan, **mojarolashmoq** so‘zi juda kam qo‘llanadi. **Qizarishmoq, tiklashmoq** so‘zlarida bu belgi bir qadar yopiqroq aks etgan, bu ikki so‘z ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Otang pichanga ketganlaridan keyin buving bilan a y t i sh ib qolib, uyimga ketdim. T.Malik, Shaytanat. *Mahalladagilar Ubay aka bilan a y t i sh ib qolishdan ehtiyot bo‘lar edilar*. I.Sulton, Genetik. *U hozir, ammasi yana kelinlari bilan j a n j a l l a sh ib qoldimi, degan fikrga bordi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Bir men nominiyam bilmaydigan idoralarga qatnaydi, kimlar bilandir j a n j a l l a sh ib, asabi qaynab keladi*. Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Xona ichidan qo‘shni bilan m o j a r o l a sh ib chiqqan tajang kampirning: “Ha, o‘z tilim bor! Qarg‘a bo‘lganimda ham o‘z tilim – o‘z qag‘illashim o‘zimga yoqadi!” deb qaqshayotganiga ham quloq solmasdi.* Mirmuhsin, G‘urbatdagi odam. *Ertasi m o j a r o l a sh gan ikki qo‘shni qozi huzuriga kelishibdi.* J.Ismoilov, So‘nggi manzil. *Goho atrof ko‘chalarda biror kishi it yoki mushuk tutib olsa, ochlar shuni ham talashib, g‘ i j i l l a sh ib qolishadi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bugun, deng, kennoyingiz bilan sal g‘ i j i l l a sh ib qoldik...* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Polvon yigitchalarning harakatlari, hatto ba’zilarining arazlashib, q i z a r i sh ib qolishlari-da tomoshabinlarning zavqini qo‘zg‘aydi*. A.Ayizov, Polvon yig‘lagan tun. – *Nima gap o‘zi, qorishmaga nima bo‘libdi? – dedi Hikmat ham Usmonovga t i k l a sh ib*. Y.Shomansur, Qora marvarid.

AYTMOQ I, BAYON QILMOQ (ETMOQ), IZHOR QILMOQ (ETMOQ), BILDIRMOQ Muayyan fikrni og‘zaki bayon qilmoq. **Aytmoq** so‘zi mazkur qatordagi barcha so‘zlar o‘rnida qo‘llana oladi, u mazkur ma’noning asosi bo‘lgan tushunchani umuman ifodalaydi. **Bayon etmoq (qilmoq)** ko‘proq kitobiy nutqqa xos, ixcham fikr-mulohazani emas, balki kengroq, kattaroq fikr-mulohazani batafsilroq ifoda etishda qo‘llanadi. **Izhor etmoq (qilmoq)** so‘zi ham kitobiy nutqqa xos, bu so‘z ko‘proq so‘zlovchining ichki kechinmalari asosidagi mulohazalarini ifoda etishda ishlatiladi. **Bildirmoq** so‘zi mazkur ma’noda tegishli birikmalar tarkibida keladi.

Busiz ham o‘lim dog‘ida jizg‘anak bo‘lib o‘tirgan onayizoriga bu gapni ay t ib adoyi tamom qiladimi? O.Yoqubov, Billur qandillar. *Men qo‘rqmayman! Men rostini a y t aman.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bir daqiqa muqaddam sarkardalaringizga o‘z irodangizni b a y o n e t dingiz*. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Xayoli to‘zib ketdi. Hozirgina b a y o n e t ilgan gaplar ana shundan keyin xotirasidan o‘tdi*. T.Malik, Shaytanat. *Hamma byulletenlarni tashlab, ochiqdan ochiq ovoz beramiz deb Jahongirov G‘ani nomzodini dil-dildan quvvatlab o‘z fikrlarini b a y o n q i l dilar*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Qo‘ni-qo‘shnilar uni katta odamday ko‘rib, ta’ziya i z h o r e t ishdi*. T.Malik, Shaytanat. *Bu xatda Tursunboy samimiy yurak dardlarini i z h o r e t gan edi*.

A S.Ahmad, Ufq. *U laboratoriyadagi bir eksperimentini batafsil aytib, uni yana takrorlamoqchi bo‘lganini b i l d i r di*. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *O‘sha g‘ilofli eshikni ochdim. Kapitan kattaga Dono momoni aytib berdim. Kapitan katta bosh irg‘ab, hamdardlik b i l d i r di*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

AYTMOQ II**, TAKLIF QILMOQ, CHAQIRMOQ, CHORLAMOQ** Biron tadbir yoki yig‘inga tashrif buyurish, ishtirok etishni iltimos qilib boshqa shaxs yoki shaxslarga murojaat etmoq. **Taklif qilmoq** so‘zida bir qadar rasmiylik ohangi mavjud. **Chaqirmoq** ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Chorlamoq** so‘zi shevaga oid.

Ichkari uyda qariyalar. Ayvonda Maxsumning yor-birodarlari. Bitta so‘ri bo‘sh. Nazarimda, artistlar ham a y t ilgan bo‘lishi kerak. S.Ahmad, Nomi yo‘q to‘y. *Rupa enaga tirik bo‘lsa, uni ham shu to‘yga a y t ib keltirgaymiz*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Yig‘ilishga shaharning hamma yirik olimlari t a k l i f q i l ingan*. E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Axir, men qashqirning emas, do‘stimning uyiga keldim. U bazmga t a k l i f q i l di. Men unda qatnashyapman*. U.Hamdam, Muvozanat. *Mirazim shunday o‘ylar bilan boshi g‘ovlab turganda, Zahro ovqatga ch a q i r ib keldi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Tursunning hamma o‘rtoqlarini ch a q i r aman. Keksalarni ham ch a q i r aman. Nazir bog‘bonning o‘g‘li qanaqaligini bilib qo‘yishsin*. O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. – *Qaysi uyni bo‘shatdirsaq ekan? – deb so‘radi va javob kutmasdan, – qudalaringni nima bilan kutishni bo‘lsa o‘zing bilasan: tuya so‘yib ch o r l a g‘aningda ham kelmaydirgan kishilar, – dedi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

AYTMOQ III**, OLMOQ** Ijro etmoq (ashula, qo‘shiqqa nisbatan). **Olmoq** so‘zi mazkur ma’nosi bilan, asosan, so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, o‘rni bilan ba’zan kuyni ijro etishga, biron qiziqarli gap aytishga, gapdonlikka nisbatan ham qo‘llanadi.

Hammaning ko‘zi uzun stolning burchagida dutorga jo‘r bo‘lib qo‘shiq a y t ayotgan qizda edi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Onasi xotinlarning chirmanda chalib, “Yor-yor, yorona”lar a y t ib, yigitlar karnay-surnaylar, qiyqiriqlar ostida Sanaqul polvonga uzatilgan edi*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Tursunali esa buning fahmiga yetmay bitta kosani ko‘tarib olganicha likopcha ushlab, katta ashulani o l ayotgan hofiz kabi turib, ming‘irlashini davom ettirdi*. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. – *Nima qilib qo‘yganingizni bilmayman-u, – dedi Erkin. – Lekin gapni o l asiz*. A.A’zam, Nima qilib qo‘ygan ekanman?

AYYOR, MUG‘OMBIR, HIYLAGAR, NAYRANGBOZ, QUV, USTOMON, MAKKOR, DOG‘ULI, MO‘LTONI, QILVIR(I), SHAYTON, TULKI, TULLAK, QIRRIQ, XIRPA, MASTON Aldash, chalg‘itish yo‘li bilan har qanday ishni o‘z foydasiga hal qila oladigan, makr-hiylaga juda usta. **Ayyor, quv, mug‘ombir** so‘zlari odamga nisbatan ham, jonivorlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. Qatordagi boshqa so‘zlar esa mazkur ma’noda faqat odamga nis-

batan ishlatiladi. **Hiylagar, nayrangboz, makkor** so‘zlarida ishni o‘z foydasiga hal qilishda hiyla, firib, makrni ishlatish ifodasi qabariq ifodalanadi. Mazkur so‘zlarda so‘zlovchining salbiy subyektiv munosabati ifodalanadi. **Mug‘ombir, quv, ustomon** so‘zlarida muayyan darajada aqlni o‘z foydasiga bo‘ysundirgan holda ishga solish ma’no qirrasi qabariq aks etadi. **Dog‘uli, mo‘ltoni, qilvir** so‘zlarida o‘ta ayyorlik belgisi ortiq darajada, ammo kam qo‘llanadi. **Shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa** so‘zlarida o‘ta ayyorlik ma’nosi zalvorli obrazlilik asosida qabariq tarzda o‘z ifodasini topgan. **Maston** so‘zi mazkur ma’noda (asosan, xotinlarga nisbatan) folklor asarlari va shevalarda uchraydi.

Tavba, ba’zi chiroyli qizlar juda a y y o r bo‘ladi: hamma vaqt xunuk qizlarni yetaklab yuradi. A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Darhaqiqat, ikkovining yaqinlashayotganini ko‘rgan a y y o r qush ataylab teskari qarab turar edi*. I.Sulton, Ozod. *Sohibqiron. – Bor, sen m u g‘ o m b i r ham anov puchuq kanizning ko‘nglini ol! (yelkasiga qoqib) Balosen! Ichingdan pishgan ayyorsen!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *O‘zbek oyim uni qistab tushdi: – Iymanma, Kumush otin, bu kun-erta bizga yangi kelinsan, uchunchi kundan boshlab sen m u g‘ o m b i r ning boshingda tegirmon yurgizishni o‘zim yaxshi bilaman! – dedi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sabohiddin xotirasida uyg‘onayotgan voqealar, shuningdek, unda-bunda uchraydigan h i y l a g a r lar uning ruhini cho‘ktirdi.* T. Malik, Devona. *Ko‘p hollarda bu meros ham olg‘ir n a y r a ng b o z lar qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘ldi.* M.Safarov, Sarbasta Surxon. *Meni bu yerga keltirgan n a y r a ng b o z qizingizni chaqirib, el oldida, er oldida so‘roq qilishingizni talab etaman*. *Boqursan, yuzingda q u v zaharxanda, Dunyoni go‘yoki men etdim taxir*. A.Oripov, Sen kabi. *Biri boyib ketgan, q u v, izzattalab, Balki o‘zgartirgan eski raqamin*. A.Oripov, Telefon daftari. *U s t o m o n va hiylagar Qazviniyning anovi hezalak Takashdan allaqachonoq xafsalasi pir bo‘lgan*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Hammasi yolg‘on! Hammasi noz-karashma, odamni mensimaslik... Tavba, bunday u s t o m o n ni ko‘rgan emasman*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Uning xotini malika Maston bosh lashkarboshi Burbulut Idrik Ibrohimning opasi bo‘lib, judayam u s t o m o n va mug‘ombir ayol edi*. A.Obidjon, Ey yorug‘ dunyo. *Sohibqiron hazratlarini kutmoq darkor. Ungacha anov qora uyga joyla ul m a k k o r ni*. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Qurbon cho‘chib ketdi-yu, o‘zini darrov so‘lga oldi. – Sinayaptimi? – deb o‘yladi. – Ayyor ekan, m a k k o r ekan!* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Ammo Xonzoda begim Komronni o‘rab olgan d o g‘ u l i odamlarni xayolidan uzoqlashtirolmay qiynalardi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ammo okangga aytib qo‘y. Hazir bo‘lsin undan. Naq iblisning boshli-ko‘zli balosi-ya! Shunaqa d o g‘ u l i, ilonning yog‘ini yalagan*. M.Mansur, Judolik diyori. *Men bunday m o‘ l t o n i ni sira ko‘rganim yo‘q edi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Xudoyiga borib, Qur’on o‘qib tugun uchiga necha pul tugilarkin, deb yuradigan m o‘ l t o n i*

A *odamsiz-u, yana menga g‘irromdan gapirasizmi?* T.Malik, Shaytanat. – *Baribir, niyatingga yetolmaysan, q i l v i r, – qat’iy boqib so‘zladi Kuntug‘di ota*. A.Obidjon, Kezargon Boychechak. *Boyning q i l v i r taroziboni ham ming xil nayranglar bilan har bir qanor paxtadan bir necha qadog‘ini urib qolar edi*. M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari. *Qayin otangdan meni quvladi, deb ko‘ngling olinmasin, chunki u bechora ham bir sh a y t o n ning vasvasasi bilan bu xatoga tushkan*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Miryoqub o‘rnidan turdi. Do‘stining yelkasiga qoqdi: Sh a y t o n san, do‘stim, sh a y t o n! Yetti do‘zaxga kunda bo‘ladigansan!.. – dedi va tez-tez qadam qo‘yib, ko‘chaga chiqdi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yengingga qarta yashirib o‘ynaysan, t u l k i. Sezmaydi deysan-da, a?* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Bu t u l k i u yog‘ini ham pishirib qo‘ygan ko‘rinadi*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Mirzaqul hosilotning kinoyali gapirishidan g‘ijinib qo‘ydi. T u l l a k, g‘irt t u l l a k bu! – o‘yladi u alam bilan*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Xudosini aytgan – berdisini ham aytadi, shaytonni avragan t u l l a k*. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Q i r r i q! Har safar ataylab shisha olib keladi. Xizmat haqiga pul bersa, endi daromadni bo‘lishaylik, deyolmaydi-da*. A.Obidjon, Oxirgi sedanatut qissasi. *Uning bilgani shuki, u zamon yigitlari manovi ikkisi kabi q i r r i q emasdi, “yurt”, “ozodlik” deganga o‘xshash so‘zlarni og‘izlaridan qo‘ymay, yov bilan olishganlari-olishgan edi*. N.Norqobilov, Buloq. *U ba’zi eski x i r p a amaldorlarning kirdikorlarini o‘rgandi*. Oybek, Navoiy. *Tulkilikda bu odam x i r p a bo‘lib ketgan*. Mirmuhsin, Qizil durralar. *Buni Eron podshosi ham eshitib, bir m a s t o n kampirini yuborgan*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Malika m a s t o n ni ko‘pdan beri azoblab kelayotgan ko‘kyo‘talning biroz tiyilishi evaziga saroyda katta ziyofat berilishini eshitib, Eshmatning avval ishtahasi, keyin chehrasi ochildi*. A.Obidjon, Ey yorug‘ dunyo.

AYYORONA, MUG‘OMBIRONA, MAKKORONA Ayyorlik bilan, ayyorlarcha. **Makkorona** so‘zi ma’nosida mazkur harakat belgisi qatordagi boshqa so‘zlardagiga qaraganda ortiq.

– Agar mening kamtarin mehnatim poshsholik ishlariga salgina yordam bera olsa, bundan baxtiyor bo‘lardim... – a y y o r o n a dedi miyig‘ida kulib Hoshim Shoiq. M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Normat uning a y y o r o n a tikilib turishidan kelinchakligidagidek biron mug‘ombirlikni o‘ylaganini sezib, xafa bo‘lib, xo‘mraydi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. – *Hozir ishlar shunaqa! – pakana yigitcha munchoq ko‘zlarini m u g‘ o m b i r o n a o‘ynatdi*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Kampir cholga qarab m u g‘ o m b i r o n a kulib qo‘ydi. – Oh, bolam, yoshligim qaytib kelsa, bu sassiq cholga o‘lsam ham tegmasdim*. S.Ahmad, Chol kuyov bilan kampir kelin. – *Go‘sht marinavat qilinganmi? Qilingan bo‘lmasa, bizda tayyori bor, – deya m a k k o r o n a kuldi*. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Qayerdan kelyapsan? – deb so‘radi u targ‘il ko‘zlarini m a k k o r o n a qisib...* L.Bo‘rixon, Bir tomchi yosh.

AYG‘OQCHI, JOSUS, XUFIYA Biror shaxs yoki davlatning foydasi uchun boshqa shaxs yoki davlatga tegishli maxfiy ma’lumotlarni yashirincha to‘plash bilan shug‘ullanadigan shaxs. **Josus** ko‘proq begona davlatning shunday faoliyat bilan mashg‘ul kishisiga nisbatan qo‘llanadi. **Xufiya** – tarixga oid so‘z, eskilik bo‘yog‘iga ega.

Muxbir zarracha og‘rinmay, pinak ham buzmay oxiriga o‘tadi: – ...Qo‘shib olgani yetmagandek, boshimizga o‘g‘ri, a y g‘ o q ch i larini yubordi. E.A’zam, Guli-guli. *Ba’zida bir chimdim g‘iybat ham qilib olamiz, lekin beozorgina: bilib bo‘ladimi, oramizda a y g‘ o q ch i si o‘tirgandir!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Davlatpanoh Sohibqiron hazratlari amr qiladurlar: ushbu farmoni oliy yetib borg‘on kundan boshlab hududsiz davlatimizdagi barcha bekat va rabot nozirlari choparlar va a y g‘ o q ch i lar uchun eng sara otlar, eng tezchopar yuguruk tuyalarni shay qilib qo‘ysunlar!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Bobur juda qaltis bir ishga bel bog‘laganini sezardi. Shayboniyxonning j o s u s lari ko‘pligi unga ma’lum edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *He yo‘q, be yo‘q, ikkala qo‘lini ko‘tartirib qo‘yib tintib chiqdi. Yigitali j o s u s lar haqidagi filmlarda shunaqa qilishlarini ko‘rgan edi*. T.Malik, Shaytanat. *Ularning bu muzokaralarini chetda eshitib turgan x u f i y a lardan biri bu so‘zni Azizbekning qulog‘iga yetkazur*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xaloyiq orasida yuradigan x u f i y a lar dahshatli mishmishlarni shahar hokimi – dorug‘aga yetkazish uchun arkka tomon shoshildilar*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

AYSH, ISHRAT, AYSH-ISHRAT, KAYF-SAFO Maishat bilan fahsh ishlar qilish. **Ishrat** so‘zida axloq me’yorlaridan chiqish belgisi **aysh** so‘zidagiga qaraganda ortiq. **Aysh-ishrat** (**aysh-u ishrat** tarzida ham qo‘llanadi) so‘zida fahsh darajasi qabariq ifodalangan, **kayf-safo** (**kayf-u safo** tarzida ham qo‘llanadi) so‘zida esa mastlik holatidalik belgisi alohida ta’kid olgan.

Miris’hoq, sanga molimni emas, jonimni qurbon qilsam arziydi. Qiz dedingmi? A y sh qilar ekanmiz. Qani, oldindan biroz no‘sh qilib turaylik! Oybek, Tanlangan asarlar. *Umrini maqtov eshitish-u chiroyli qiz-juvonlar bilan a y sh qilishga tikkan idora boshlig‘ini Xolidiy emas, balki kinoya bilan “xalq otasi”deb atash rasm bo‘lgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Muhabbatsiz va lekin i sh r a t i ng kulfat bilan tengdur.* E.Vohidov, Muhabbat birla. *Issig‘ kunlarda salqinlash, malika xonimlar bilan ishrat qurish uchun “Bog‘i Eram” yasatdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Jamolboyning xizmatkori Jo‘ra a y sh-i sh r a t, fahsh to‘g‘risida ko‘rgan, bilgan va eshitganlarini ancha vaqt so‘zlab: “Uxlayver, bu kun tongotar qilishadi xo‘jayinlar”, – deb o‘z aravasiga yumalagan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shaharning buzuqlik ila nom chiqargan mashhur nomerlaridan biri edi. Bu nomerga keladigan kishilar faqat a y sh-u i sh r a t uchungina to‘xtalardilar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qirolicha ulardan eng yoshini, eng chiroylisini tanlab chaqirtirar ekan. Tun bo‘yi k a y f-s a f o surib, tongda o‘ldi-*

A

rar ekan. O‘.Umarbekov, Urush farzandi. *Qachonlardir uning bag‘rini xun etgan Diloromxon k a y f-s a f o qilyaptilar-ku!* U.Azim, Birovning umri.

AZIZ, QADRLI, QADRDON, QIMMATLI, ARJUMAND E’zoz-e’tiborga, izzat-hurmatga munosib. **Aziz, qadrdon** so‘zlari murojaat qilinayotgan shaxsni ifodalovchi so‘zlar bilan ham, shunday so‘zlarsiz ham qo‘llanaveradi. **Qadrli, qimmatli** so‘zlari esa ko‘proq murojaat qilinayotgan shaxsni ifodalovchi so‘zlar bilan birgalikda ishlatiladi. **Arjumand** so‘zi eskirgan, ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Orqama-orqa kirgan mezbon qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, “Xush ko‘rdik, a z i z mehmonlar” deb iljaydi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Bir-biring kamsitib qilma sharmanda, Siylangan joyida a z i z dir inson.* A.Oripov, Shoh va gado. *Endi Gulchehra unga hammadan ham yaqin, a z i z bo‘lishi kerak.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Q a d r l i mister Sattorov! Sizni Kembrij dorilfununining faxriy professori bo‘lganingiz bilan muborakbod etamiz.* T.Malik, Shaytanat. *Vaholanki, yaqin-yaqingacha, ya’ni esini tanib, kitob hamda ertaklar dunyosiga oshno tutinganidan beri ayni shu ertak uning eng sevimli, eng q a d r-l i ertaklaridan biri edi.* N.Norqobilov, Yangi ertak. *Bul q a d r d o n ikki do‘stga Xohishimdir, toabad Topsa bir ma’no masaldan, O‘zbegim tojik bilan.* A.Oripov, O‘zbegim tojik bilan. *O‘n yillar burun u q a d r d o n oshnasi Ibod sartarosh bilan... Bulg‘oriyaga sayohatga borib kelgan.* E.A’zam, Bizning tog‘a. *Lekin taqdir menga dunyodagi barcha olmoslardan q i m m a t l i roq bir mukofot bermishdir. Bu mukofot – mening sendek o‘g‘lim borligidir.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Umida, jonim qizim! Opang kabi men uchun ham eng aziz, eng q i m m a t l i, eng shirin va shakar odamsan.* O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *Bu sheryurak o‘g‘lon faqirga jonini beradurg‘on bir er erdi, o‘z farzandi a r j u m a n d larim qanday qalqon bo‘lsa, shunday qalqon erdi!* O.Yoqubov, Farzandlarga vasiyat. *Ulug‘ amirim, kuyovlarimnnig har biri men uchun a r j u m a n d. Marhamatingiz bilan men amirzodalarga padarzan bo‘lish sharafiga yetishibman, ularning har birini ko‘zimning oq-qorasi deb bilaman.* T.Malik, Savohil.

AZOB, DARD, OG‘RIQ, AZIYAT, JABR, JAFO, OZOR, ALAM, IZTIROB, UQUBAT Jismoniy yoki ruhiy azob, qiynoq, ezilish. **Azob, ozor** so‘zlari ham jismoniy, ham ruhiy qiynoqni ifodalayveradi, ammo **ozor** so‘zida belgi darajasi **azob** va **jabr** so‘zlaridagiga qaraganda anchayin kuchsiz. **Dard** so‘zi biron-bir ta’sir yoki kasallikdan paydo bo‘ladigan jismoniy azobni va, ayni paytda, ruhiy azobni ifodalaydi, lekin “jismoniy azob” ma’nosida ko‘proq qo‘llanadi. **Alam** so‘zi ruhiy azobni ham, biron-bir ta’sir yoki kasallikdan paydo bo‘ladigan jismoniy azobni ham ifodalay oladi, ammo unda “ruhiy azob” ma’nosi yetakchilik qiladi, “jismoniy azob” ma’nosida juda kam qo‘llanadi. **Og‘riq** so‘zida “jismoniy azob” ma’nosi ochiqcha ifodalangan, ammo ba’zan “ruhiy azob” ma’nosi ham reallashadi. **Aziyat, uqubat** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqda

qo‘llanadi, **aziyat** so‘zi aksar hollarda *aziyat chekmoq* iborasi tarkibida keladi, **uqubat** so‘zi ko‘pincha **azob-uqubat** tarzidagi juft so‘z tarkibida keladi. **Jabr, jafo** so‘zlari ham ko‘pincha **jabr-jafo** (yoki **jabr-u jafo**) tarzidagi juft so‘z holida ham ishlatiladi, bunda belgi darajasi yanada kuchli bo‘ladi. **Iztirob** so‘zi ham ko‘proq kitobiy nutqqa xos, asosan, ruhiy qiynoqni ifodalaydi.

Endi tong otishi bilan hammasini, a z o b larni, chidab bo‘lmas og‘riqlarni tashlab hech kim to‘ymagan bu dunyodan ko‘z yumib ketaman. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Bundog‘ yigitlar uylanganlarida ham kishi qizini umr bo‘yi a z o b ichida o‘tkazadirlar*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Omon qaytsa-da, pishqirib kelayotgan poyezdni ko‘rmay, uning tagida qolib o‘lsa?! Bundan ham qattiq alam, d a r d bo‘lishi mumkinmi?* O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *E, d a r d ko‘rmagan odam bor emishmi bu dunyoda? Mehnat mehnat emas, d a r d mehnat ekan-ku.* S.O‘nar, O‘lmaydigan odam. *Otdan yiqilganini hech kimga aytmabdi ham. Lekin ertalab o g‘ r i q zarbidan turolmay qolibdi. O g‘ r i q shu-shu qolmas ekan*. O‘.Umarbekov, Hayot qo‘shig‘i. *O‘lmas akaning do‘stga ham, dushmanga ham samimiy munosabatda bo‘lishlari zamirida qalb o g‘ r i q lari mavjud ekanini endi-endi tushunib yetganday bo‘laman.* T.Malik, Qiyomat qarz. *Ular mahkama rahbari, ya’ni axborot vazirining o‘rinbosarlari bo‘lib, boyoqishlar bizdan tezroq qutulish chorasini topolmay rosa a z i y a t chekishdi*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bobur Andijonni qayta qo‘lga kiritguncha ozmuncha a z i y a t chekdimi?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Boydan shuncha j a b r ko‘rgan, shuncha haqoratlangan yigitning singlisi yana undan tilasin...* Oybek, Tanlangan asarlar. *– Kelinigizga j a b r ni xohlamasangiz va o‘zingiz aytkan insofka qaytsangiz, eng oson bir yo‘l bor, – dedi va onasidan ma’lum “nima?” deb bilaturgan savolni kutib to‘xtadi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U o‘ylardi, shu andishali, shu mulohazali odamning farzandi bu oilaga cheksiz j a f o lar qilgan*. S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Kimki bul yo‘lda menga vafo qilg‘on bo‘lsa, vafo topadi, j a f o qilg‘on bo‘lsa j a f o topadi*. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Shu qisqagina yashab o‘tkazgan umringda sen ko‘rmagan j a b r-u j a f o lar qolmadi.* S.Ahmad, Yo‘g‘ontepa. *Tirik, ya’ni yurakdan chiqqan jo‘shqin nutq o‘likniyam tiriltirsa, o‘lik, ya’ni yurakdan chiqmagan sovuq nutq, darhaqiqat, o‘likka ham o z o r yetkazadi*. A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Jimlik cho‘kdi. Anchadan keyin kampir gap boshladi: – Asrorqul otangizga qancha o z o r berdim...* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Uning gulzorida bulbul o‘qib qon ayladi bag‘rim. Ko‘zimdan yoshni jo‘ aylab, a l a m lar ichra botdim-ku*. Cho‘lpon, Qalandar ishqi. *Boy tura solib ularni haydamoqchi bo‘lganda, arilar uni boshi demay, yuzi demay chaqib tashlayveribdi... Buning a l a m iga chidolmay, o‘zini katta suvga tashlab cho‘kib ketibdi*. “O‘zbek xalq ertaklari”. *Lekin bu toifa yigitlar bir tanishgan qizga qattiq ko‘ngil qo‘yib, qattiq sevib qolishadi. Shu sabab ular uchun judolik ham katta i z t i r o b ga aylanadi*. O.Yoqubov,

A Billur qandillar. *Hikmatillo keyinchalik bu uchrashuvni, o‘zining “axir, bir o‘pishgan edik-ku!” degan so‘zlarini har eslaganida uyat va i z t i r o b dan ingrab yuboray derdi*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ro‘parasida zulmat, ortiga o‘girilib qarasa, qorong‘u bo‘shliq. Faqat u q u b a t uchun tug‘ilgan odam ham u kabi u q u b a t chekmasa kerak*. T.Malik, Shaytanat. *Ilgari faqir ming u q u b a t ila bitta non topsa, o‘ziga bir tishlamgina qolardi*. T.Malik, Savohil. *Uzoq vaqt nemis asoratida a z o b-u q u b a t chekkan Oryol aholisi ko‘chaga chiqadi*. A.Qahhor, Oltin yulduz. *Bu odamlar, urushdan katta o‘ljalar olish umidida oylab-yillab qon kechib, hamma a z o b-u q u b a t larga bardosh berib yurar edilar*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

AZOBLI, DARDLI, OG‘RIQLI, ALAMLI, IZTIROBLI, UQUBATLI Ruhiy yoki jismoniy qiynoq beradigan, azobga soladigan. Qatordagi **azobli** so‘zidan boshqalari oddiy so‘zlashuvda juda kam qo‘llanadi. So‘zlardagi ma’no nozikliklari ularning o‘zaklari ma’nosidan anglashilib turadi.

Boshidagi g‘uvilloq endi a z o b l i sanchiqqa aylandi. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Tushlarida o‘zini qiyalab uchib ketayotgan mashinada ko‘rib, baqirib uyg‘onar, ...a z o b l i muolajalardan keyin orom topib uzoq uxlardi…* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Shokir ota Yo‘lchining boshiga cho‘kka tushib, o‘zining og‘ir d a r d l i, chuqur yarali qalbi bilan uzoq yig‘ladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Uning shu sir ochilib qolishidan iztirobga tushib, d a r d l i va hayajonli ko‘zlar bilan Boburga qarashi… Boburga g‘alati ta’sir qildi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Nihoyasida topgani mana, yolg‘izlik, so‘nggi bo‘lmagan dardli xayollar, ezgin, o g‘ r i q l i o‘ylar*... U.Hamdam, Muvozanat. *Yusuf xayoliga kelgan bunday o g‘ r i q l i savollar nayzasidan bag‘ri ilma-teshik bo‘lib, o‘g‘lining jasadini mahkam quchgancha mashinada ketib borar*... U.Hamdam, Muvozanat. *Safsarning kelib-kelib ana shu kazzobning bozoriga mijoz bo‘lgani a l a m l i bedodlik emasmi?!* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Bu vaqtda u gapni eshitmay, faqat o‘zi haqida a l a m l i o‘ylar o‘yladi…* A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *I z t i r o b l i o‘ylar tuni bilan mulla Fazliddin ko‘ziga uyqu qo‘ndirmadi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Biroq Akbarning o‘zi kiyimlari ostida yashirin yaralarni ko‘tarib yurgan odamday hazin va i z t i r o b l i*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *...sovuq suv zahrini yutib, achchiq shamol nayzalariga o‘mgan tutib intilish qanchalik u q u b a t l i, nechog‘lik og‘ir bo‘lmasin, baribir ilgarilashardi*... Q.Kenja, Toshqin. *Tug‘ilgan joyimdan uzoqlashar ekanman, o‘zimni xuddi yana bir jigarbandimdan judo bo‘lgandek his etdim. Bu – u q u b a t l i darbadarlikning boshlanishi ekanligini o‘shanda bilmagandim*... A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola.

ASHADDIY, O‘TAKETGAN Belgining nihoyat ortiq darajada ekanligini ifodalaydi, ko‘proq odamga nisbatan qo‘llanadi. **O‘taketgan** so‘zi, asosan, salbiy baholi so‘zlar bilan qo‘llanadi, ayni paytda ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Bir a sh a d d i y kitobxon Norindan shu bugun ertalab tutgan oltmish kilo keladigan laqqani ikkita ho‘l qanorga o‘rab, “Moskvich” yukxonasida olib kelgan ekan. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Ikki a sh a d d i y dushman qo‘yib yuborilganiga sarbozlar hayron*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Nega desangiz, ular muloyim, mo‘min-qobil ko‘ringanlari bilan, eh-ha, o‘ t a k e t g a n dangasa-yu, g‘irt yolg‘onchi ekan...* L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Chet elning nazariga tushgan olimni qo‘ldan chiqarsak, o‘ t a k e t g a n ahmoq bo‘lamiz*. T.Malik, Shaytanat.

ASHQOL-DASHQOL, LASH-LUSH, LAQ-LUQ, QAQIR-QUQUR, MAYDA-CHUYDA Turli sohalarga oid, ko‘proq ro‘zg‘orga oid kerak-nokerak narsa-buyumlarning jami. **Lash-lush** kerak-nokerak kiyim-kechaklarga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Laq-luq** so‘zi kam qo‘llanadi. Qatordagi so‘zlarning deyarli barchasi so‘zlashuv tiliga xos.

Hovlidagi temir so‘ri ichkaridan olib chiqilmish a sh q o l-d a sh q o l lar bilan to‘ldi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Qayoqda, xona to‘la eski-tuski, a sh q o l-d a sh q o l, hech kimga kerak bo‘lmagan yaroqsiz buyumlar qalashib yotibdi*. G.Adashboyeva, Tilla belbog‘. *Goho zarurat bo‘lib, eski l a sh-l u sh lar bilan to‘lib ketgan hujrachani titkilab qolsangiz, zanglab yotgan pichoq-changizmi, jiyagi titilib ketgan do‘ppingizmi topilib qoladi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Bu yer masala so‘qishadigan joy emas. Tur, l a sh-l u sh laringni yig‘ishtir*. T.Malik, Shaytanat. *Vistavkaning l a q-l u q i – Suboy ibdashdan tavan*. G‘.G‘ulom. *Turli q a q i r-q u q u r betartib qalashib yotganidan odam qayoqqa qadam bosishini ham bilmaydigan eski-tuskilar omboriga o‘xshash uch xonali uyda Susanevich bir o‘zi yashar ekan.* E.A’zam, Shovqin. *Ta’ziya kunlari o‘tkandan keyin o‘g‘ulliqqa deb so‘rag‘anlarg‘a ikki bolani berib yubordi va Anvarni o‘zi bilan olib, onasining q a q i r-q u q u r larini bir aravaga ortib erining uyiga keldi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Lekin Nilufar bunga e’tibor ham bermadi, u shkafning pastki qutisini sharaqlatib ochib, taxlab qo‘yilgan m a y d a-ch u y d a larni titkilab ketdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Erta bilan Hasanali aravani qo‘shib tayyorlag‘an, m a y d a-ch u y d a aravada tashilar edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

ASHULA, QO‘SHIQ She’riy matnni tarannum etadigan musiqa asari. **Qo‘shiq** so‘zidan shunday asarning eng oddiy va ommaviy (o‘zbek musiqa folklorida keng o‘rin tutadi) turi ekanligi anglanadi, mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, **ashula** so‘zida shunday asarning shakli erkin, kuy rivojlanishi va diapazoni keng bo‘lgan turi tarzidagi ma’no farqi mavjud. Ko‘p hollarda bu ikki so‘zning biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanaverishi mumkin, ammo termin sifatida qo‘llanganda, bunday qilish joiz emas.

G‘anijon beixtiyor orqasiga qaradi-yu, yana yo‘lida davom etdi; biron a sh u l a boshlamoqchi bo‘lgan edi, yo‘l bo‘yida o‘tirgan kishi sira nazaridan ket-

A

may, hech narsa esiga kelmadi. A.Qahhor, Karavot. *A sh u l a kelmish tarafga o‘ng qo‘lini shop qilib baqirdi: – Anavini hangratmasalaring-chi!* T.Murod, Momo yer qo‘shig‘i. *Supersur indamay o‘rnidan qo‘zg‘alib, allaqanday q o‘ sh i q ni xirgoyi qilganicha hovli tarafga keta boshladi*. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Gulchehraga Botirning ovozidan ko‘ra shu q o‘ sh i q ni aytayotgandagi kayfiyati yoqardi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

ASHULACHI, QO‘SHIQCHI, XONANDA, HOFIZ Kasbi ashula aytish bo‘lgan, ashula aytish bilan shug‘ullanadigan shaxs. **Qo‘shiqchi** va **xonanda** so‘zlari ko‘proq adabiy nutqda qo‘llanadi. **Hofiz** so‘zi ma’nosida “yetuk, usta ashulachi” ta’kidi qabariq ifodalangan, ayni paytda bu so‘z ko‘proq mumtoz qo‘shiqlar ijrochisiga nisbatan qo‘llanadi.

U yolg‘iz bir a sh u l a ch i ni a sh u l a ch i deb biladi. Bu a sh u l a ch i ni Yunus Rajabiy deydi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Traktorchi tanqid qilganiga san’atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu… a sh u l a ch i qayoqda!* A.Qahhor, San’atkor. *Shu chog‘gacha mo‘ltayib, xayol ichida sho‘ng‘ib o‘lturg‘an Kumushbibi bir seskandi-da, q o‘ sh i q ch i qizlarg‘a qaradi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Zaynab kuyov bo‘lmishning bir vaqtlar mashhur q o‘ sh i q ch i ekanini eshitganidan beri o‘ylab o‘yiga yetolmaydi…* T.Malik, Shaytanat. *Sozanda ustod Ota Muhammad himoyasidagi bu x o n a n d a va raqqosalar – saroyga taalluqli, har qanday bazmlarga boravermas ekanlar*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Alimardon x o n a n d a ning bo‘g‘iq ovozidan g‘ijinib, boshini ko‘tarib qaradi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *O‘rmon kaltaning yoz-yozi ta’siridami yo kimdir bir baraka topkur rahm qilib, kechalari tahlika ichida yashayotgan Jiydali xalqining ko‘ngliga chiroq yoqmoqchi bo‘ldimi, harqalay, torini yelkasiga mingashtirib chaladigan kitoblik mashhur h o f i z o‘sha kunlari adashib qishlog‘imizga kelib qoldi deng!* E.A’zam, Guli-guli. *Hirotning mashhur h o f i z lari ovozlarini uncha baland ko‘tarmasdan, yurakning qat-qatiga singadigan sokin mayin tovush bilan ashula aytishar, bu hammasi Boburga juda ulug‘vor bir san’atning namunasi bo‘lib tuyulardi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

ACHINARLI, AYANCHLI, AYANCH, ZABUN Achinish, rahm hissini uyg‘otadigan. **Ayanchli** so‘zi belgini **achinarli** so‘zidan kuchliroq ifodalaydi. **Ayanch** so‘zi kam qo‘llanadi, ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Zabun** so‘zi eskirgan, kitobiy nutqda qo‘llanadi, belgini juda kuchli ifodalaydi.

Archaning shoxlari tarvaqaylab ketgan, ba’zi shoxlari quriy boshlagan, tanasida po‘stlog‘i chirib, nimxush, achimsiq hid kelardi. Archaning shu turishi juda a ch i n a r l i edi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Burchakda yotgan bola uyqusirabmi, yo sovuqdan uyg‘onibmi, a ch i n a r l i tovush bilan “dada!” dedi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bolalar tarqalib, hovlida bitta mendan boshqa hech kim qolmadi. Hamma yoqni a y a n ch l i jimlik qopladi*. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Gavhar hozir bu qadar kuyunib gapirayotganini o‘yla-*

di-yu, bir narsa yuragini qattiq parmalab o‘tdi, quvonch ham a y a n ch l i xudbinlik bo‘lib tuyuldi. P.Qodirov, Uch ildiz. *Qulahmatning turqi haqiqatan ham juda a y a n ch edi*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Borliq sening qarshingda chala tug‘ilgan go‘dakday xunuk bo‘lib qolishini bilgan falak bu a y a n ch dunyoni ko‘rmasin deya sening ko‘zlaringni bog‘lab qo‘ygan*... N.Eshonqul, Ajr. *...kuniga yuz o‘lib, yuz tirilgan, sovuqqa ham, olovga ham chidagan pahlavon yigitning aftodahol o‘tirishi, ilojsiz z a b u n o‘tirishi Dildorning yurak-bag‘rini ezib yubordi*. S.Ahmad, Ufq. *Sen itoatkor, jur’atsiz, z a b u n bola bo‘lding. Sening shunaqa bo‘lishingga men, mening shunaqa bo‘lishimga otam Mulla Nishon sababchi bo‘lgan*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

ACHCHIQ, ZAHAR, ZAHAR-ZAQQUM Ta’mi og‘iz-tilni achitadigan, lovullatadigan. **Zahar** va **zahar-zaqqum** so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanganda shunday ifodani anglatadi. Qatordagi so‘zlarda achchiqlik belgisi daraja-ma-daraja kuchayib boradi. **Zahar** so‘ziga qaraganda **zahar-zaqqum** so‘zida belgi kuchli. Ayni paytda, **zahar-zaqqum** so‘zining qo‘llanish doirasi kengroq.

Serqalampir a ch ch i q sho‘rva ichib, o‘ralib yotsa tuzalib ketadigan narsa-ku, bu. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *U... bu dunyoda qaynoq, a ch ch i q suyuqlikni mayda ho‘plab o‘tirishdan bo‘lak quvonchi va tashvishi yo‘qdek, tevarak-atrofga nisbatan g‘oyatda loqayd edi.* N.Norqobilov, Kurash. – *Ovqating namuncha z a h a r, qalampirni kilolab soldingmi, qizim, – norozilandi Salima xola.* Mirmuhsin, Tanlangan asarlar. *Qalampir sho‘rvani z a h a r-z a q q u m qilibdi*. Gazetadan. *Azizlar! Bir kuni kelib afsus-nadomatning z a h a r-z a q q u m sharobini ichmaslik uchun qo‘lning kiri bo‘lgan mol-mulkni insoniy qadr-qiymatdan yuqori qo‘ymaylik*. Gazetadan.

ACHCHIQLANMOQ, JAHLLANMOQ, G‘AZABLANMOQ, QAHRLANMOQ Yoqmaydigan gap-so‘z, voqea-hodisa yoki harakat-holatdan jahli chiqmoq, achchig‘i kelmoq, asabi buzilmoq. Qatordagi so ‘zlarda darajama-daraja achchiqlanish ma’nosi kuchayib boradi va ma’nodagi bu farq ularning asoslaridan ham seziladi. **G‘azablanmoq, qahrlanmoq** so‘zlari kitobiy uslubda faol.

Bilmaganlar Suvto‘raning bu odatidan a ch ch i q l a n ishardi. S.Ahmad, Ufq. *Kiraverishda pochasi tor shim kiygan yigitcha, qo‘llarida papkalari, eshikka tomon intilar, Gavhar a ch ch i q l a n ib ularni ichkariga tortardi*. P.Qodirov, Uch ildiz. *Shu qadar ko‘p ne’mat berilganki, bularga... qismatimizdan j a h l l a n ib – g‘azabga to‘lib kun kechiramiz bizlar. Bular bizdan shu qadar qo‘rqishadiki! O‘zlari sodir qilgan narsalardan qo‘rqib-qochib yurishlaridan yanada j a h l l a n amiz!* I.Sulton, Ozod. *Asadbek uning laganbardorligidan bir g‘ashi kelgan bo‘lsa, befahmligidan bir g‘ a z a b l a n di*. T.Malik, Shaytanat. *Nusratning qilig‘ini ko‘rib qolib g‘ a z a b l a n di: – Hay-hay, ikki kunda bo‘yningga ip tushadi, raqamlarga qalam urma*. S.Nazar, Yashil boylik. – *Tuting uni! – q a h r l a n ib qichqirdi Bobur*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Amru Lays q a h r l a n ib*

A *dedi: – Mening askarlarimga tangrining la'nati bo'lsinkim, har vaqt tanga va tillolarni ularg'a berurman va ta'minotlarig'a sarf qilurman, ular esa xotunlarini semirtirib, o'z minadigan otlarig'a qaramay, oriq holda saqlaydilar*. "Asrlar sadosi".

ACHCHIQLASHMOQ, XAFALASHMOQ, SEN-MENGA BORMOQ O'zaro qattiq gap qilishmoq, bir-biriga qattiq tegmoq. **Sen-menga bormoq** ko'proq so'zlashuv tiliga xosdir.

Ertalab, odat bo'yicha, Nuri to'r ro'mol yopinib beshikdagi boladan to keksalarga qadar hammaga salom qilar ekan, "nega senga oldin salom qiladi?" deb kundoshlari bir-biri bilan a ch ch i q l a sh ib qolishgandi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Sukutni rizolik alomati deb fahmlagan qo'rboshi gapini davom ettirdi: – Biz bir-birimiz bilan a ch ch i q l a sh masligimiz kerak, mulla.* T.Malik, Devona. *Komron akasi bilan x a f a l a sh ib yurganda, bu satrlarni unga qarshi qaratgani rost edi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *U o'tgan gal kelganida, qovog'ini ochmagani va oxirida x a f a l a sh ib ketgani uchun Oyshaxon erini yana uch-to'rt oysiz kelmaydi, deb yurar edi.* P.Qodirov, Erk. *Er-xotin yolg'iz o'gilning taqdiri xususida o'zlaricha turli fikrda bo'lganliklari uchun ikkinchi marta s e n-m e n g a b o r ishdi.* T.Malik, Falak. *Bir-biri bilan aytishib o'ynadi, janjallashib o'ynadi. Janjalga onalari aralashdi. O'zaro s e n-m e n g a b o r di.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar.

B

BADAN I**, TAN(A), JISM, BORLIQ, VUJUD** Odam jismi butunicha, yaxlitligicha. **Badan** va **tan(a)** so‘zlarida odamga tegishlilik ochiqcha ifodalangan. **Borliq** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Odam oqar suvdan ichsa – b a d a n i jimir-jimir etadi. B a d a n i yayraydi! T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Avvaliga men hech narsani tushunmadim; so‘ng ustozning ustixondan iborat qaddi, b a d a n idan anqib turuvchi zax qiyofasida aks etib turadigan hasad aralash kibr va faqat marhumlarga xos sovuq ko‘zlarini eslagach, nimadir butun shuurimni yorishtirib yubordi…* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Tong pallasi havas bilan Dalaga oqqan, Muzday sovuq shabbodalar T a n iga yoqqan…* H.Olimjon, Baxtlar vodiysi. *Yo‘lda ko‘nglimga hadik tushdi. Hadik t a n a mga-da yoyildi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Shu voqeadan keyin Meshpolvonning kayfiyati ochilib, o‘z-o‘zidan ruhi ko‘tarilib ketdi. Ochligi esidan chiqqandek bo‘lib, t a n a siga yangi quvvat quyildi*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Og‘iz bilan til – bandaning j i s m ida eng aziz va tabarruk a’zolar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Jang maydoniga yetib kelguncha u ancha charchadi, ammo birinchi xanzuning o‘ligini yaqindan ko‘rishi bilan j i s m ida yangi kuch-quvvat paydo bo‘ldi va murdani ag‘darib qaradi: nayza zarbidan uning bir beti o‘pirilgan, oppoq suyagi ochilib, qiyiqlikka moyil ko‘zlari kosasidan chiqib ketguday bo‘lib olaygandi.* I.Sulton, Xun. *Xursand, ko‘ngli ochilgan, allanechuk yengillagan ko‘zlari, yuzlari, butun b o r l i g‘ i bilan kulgani holda ildam-ildam bosib, ko‘chaga chiqdi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Mash’ala yorug‘ida beliga oltin kamar bog‘lagan, dubulg‘a va jiba kiygan Ahmad Tanbal ko‘rindi-yu, mavlono Fazliddinning b o r l i g‘ i muzlab ketganday bo‘ldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ul nasihat uchun og‘iz ochsa v u j u d im erib ketgandek va bir turluk uxlab huzurlang‘andek*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shu topda Poshshaxonning butun v u j u d ini kundoshlik olovi o‘rab olgan, ko‘zlari olovning alangalari ila chaqnab yonmoqda…* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

BADAN II**, ET, TAN(A)** Odam jismining, gavdasining sirt qismi. **Et** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Bu qo‘llar uni yo‘rgaklagan, unga ko‘krak tutgan, shamollaganida b a d a n iga qo‘y yog‘i surgan. O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Bordon ichidan bir oyog‘ida kafsh, ikkinchisi kafshsiz oldi ochiq kir yaxtagidan b a d a n i ko‘ringan, bir qo‘li*

bilan yelkasini qashib, ikkinchisi bilan ishtonbog‘ini ushlagan, boshyalang bir yigit chiqdi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Kampir yana unga ko‘zlarini tikkanicha, haykaldek qotib o‘tirardi. O‘zi sezmagan holda e t i jimirlab ketdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *So‘z suyakdan, tayoq e t dan o‘tadi.* Maqol. *Hozir ko‘kka boqib yotar ekan, ho‘l bo‘lib ketgan oq batist ko‘ylagi t a n a siga yopishgan edi.* S.Ahmad, Ufq. *Bunyod yetti kun kezdi, Yetti qora tun kezdi. Eng oxiri tun chog‘i, Bir hid sezdi dumog‘i. T a n i jimirlab ketdi, Qalbi qimirlab ketdi.* H.Olimjon, Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod.

BADNOM, UYATLI, YOMONOTLIQ, SHARMANDA, SHARMISOR Nodurust, nomaqbul, yomon, uyatli ishi bilan jamiyatda nomi yomonga chiqqan, obro‘-e’tiborini yo‘qotgan. **Badnom**, asosan, *bo‘lmoq* yoki *qilmoq* yordamchi fe’li bilan qo‘llanadi. **Sharmanda** va **sharmisor** so‘zlari ma’nosida tamoman uyatli holatga tushganlik ta’kidi ochiq ifodalangan. Bu ikki so‘z izofali qo‘shilib, **sharmandayi sharmisor** tarzida ham qo‘llanadi, bunday holatda mazkur ma’no yanada kuchli ifodalanadi.

Kiraman deb qo‘ymading, lekin tushuntirishim kerak ediki, otasi b a d n o m bo‘lib ketgan joyda bolasi ta’naga qoladi. P.Qodirov, Uch ildiz. *Maorif mudiriga arz qilsam, allaqachon meni b a d n o m qilib qo‘ygan ekan, gapimni inobatga olishmadi.* S.Ahmad, Ufq. *Qovog‘ini osiltirib o‘tirgan Sadriddin a’lam quyuq qoshlarini ko‘tardi va boyga murojaat qilib, qahrli ohangda dedi: Jadid degan b a d n o m dahriylar paydo bo‘lmish, kofiri jahondir badbaxtlar!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qizil hukumatning o‘ziday qizil ordenini qabul qilib olganim uchun... men siz ulug‘lar oldida u y a t l i man, u y a t l i!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Oftob oyim Kumushka qaranib javob berdi: – Aytsangiz, aytmasangiz biz juda u y a t l i k bo‘lg‘anmiz.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bobur va uning tarafdorlari xalq orasida y o m o n o t l i q bo‘lishlaridan Jahongir mirzo va uning onasi Fotima Sulton begim ham manfaatdor edilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Voy, sho‘rim!.. Qo‘chqorvoy, mehmonimning tutqanog‘i bor, deb aytib qo‘ymaysizmi?.. Voy, tortsangiz-chi buningizni! Voy, sh a r m a n d a!..* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Yerga kirib ketay deyapman, ishonsangiz. Bu sh a r m a n d a larning qilig‘ini ko‘rmaysizmi!* E.A’zam, Shovqin. *O‘z bolam meni yurt ko‘zida sh a r m i s o r qildi. Omonatingni ol, Allohim.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Ahmad Tanbal siz orqali begim-u xonimlarni sh a r m i s o r qilmoqchi ekan. Ammo biz tirik bo‘lsak, Bobur mirzoning oilasiga ham, muborak nomiga ham dog‘ tushurmagaymiz!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ammo bir yosh boladan yiqilib, sh a r m a n d a y i sh a r m i s o r bo‘ldim.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda.

BAHONA, VAJ, VAJ-KORSON Biror harakat yoki maqsadni amalga oshirish yoki oshirmaslik uchun asos sifatida o‘ylab topilgan soxta sabab. **Vaj** so‘zi ayni ma’nosi bilan ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos. Bu so‘z **vaj-korson** tar-

zidagi juft so‘z tarkibida ham keladi, bunday holatda o‘ylab topilganlik, soxtalik juda qabariq ifodalanadi.

Shu vaqtda san ham bir narsani b a h o n a qilib birga Marg‘ilon borasan… A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bora-bora shunisi ham unutilib, endi allaqanday asos-u b a h o n a lar topib, o‘zingizni oqlaydigan, hatto bundan mag‘rurlanadigan bo‘lib qolar ekansiz*. E.A’zam, Shovqin. *Mirzo ila xilvat suhbatlar quradir, bir v a j topib unga siz haqqingizda bir nima desa, boshingizni og‘ritgaydir*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Dangasaning v a j i ko‘p, ohangsizning – avji.* Maqol. *“Milliy-ekzotik bo‘yoqlar me’yoridan ortiq, markaz buni o‘tkazmaydi” degan v a j-k o r s o n bilan bultur badiiy kengash rad etgan bir ssenariysini Farhod o‘rischaga o‘girib, shu yoqqa jo‘natgan edi*. E.A’zam, Shovqin. *Har qancha v a j-k o r s o n ko‘rsatmagin, xudoning farz qilganlari o‘z o‘rnida qoladi.* U.Hamdam, Muvozanat.

BAHOR, KO‘KLAM Yilning qish bilan yoz oralig‘idagi fasli. **Ko‘klam** so‘zi ma’nosida mazkur faslning mohiyatiga muvofiq tabiatning ko‘k tusga kirishi, borliqning ko‘karishi alohida ta’kid olgan.

B a h o r keldi gul sepin yoyib, Tengsiz chiroy kasb etdi o‘lka. A.Oripov, Bahor. *Hut yaxshi kelib, hamalga eson-omon chiqib olinsa, buyog‘i b a h o r...* T.Malik, Savohil. *Nechun k o ‘ k l a m madhi tushmas g‘azaldan, Shoirlar bahorni kuylar azaldan?* A.Oripov, Bahor tilaklari. *Sochimda oq, men bahordan o‘tindim: K o ‘ k l a m oyim, ko‘kingdan ber bir chimdim*. M.Yusuf, Ko‘klamoyim.

BAHS, TORTISHUV, MUNOZARA, MUBOHASA Biror narsa, holat yoki masalani yoqlash (yoki yoqlamaslik), haqiqatni aniqlash maqsadida o‘tadigan muhokama. **Tortishuv** so‘zida muhokama ishtirokchilari o‘rtasidagi fikriy qarama-qarshilik alohida ta’kid oladi. **Munozara, mubohasa** so‘zlari kitobiy. **Mubohasa** anchayin kam qo‘llanadi. **Bahs-munozara** shaklidagi juft so‘zda fikriy qarama-qarshilik ta’kidi yanada kuchli bo‘ladi.

Yana b a h s ko‘tarildi va shunday shovqin boshlandiki, hatto Valining qo‘ng‘irog‘i ham yordam bermay qo‘ydi. O.Yoqubov, Tengdoshlar. *– Xotirimga keldi... O‘zi yoshlig‘ida bizning maktabda o‘qug‘an? – Habba, – dedi maxdum va b a h s ga Nigor oyimni ham tortdi, – uni sen ham bilasan.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Botir kolxozning umumiy yig‘ilishida bog‘ haqida hech qanday t o r t i sh u v bo‘lmas, hamma bir og‘izdan yangi bog‘ qurishni ma’qullar deb o‘yladi.* S.Nazar, Yashil boylik. *...Zuhranikidagi t o r t i sh u v lar va pedsovetning ancha kech tugashi Saodatxonni charchatgan edi.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Vasiliy Ivanovich bu suhbatning anchayin bir o‘zaro m u n o z a r a ekanini unutib, majlisdagiday qo‘l ko‘tardi…* A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Tovarish Yak esa tabiatan o‘ta zukko, o‘ta zehni baland yigit edi – m u n o z a r a larimiz asnosi bunga amin bo‘lganman.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Sohibqiron chorpoyadagi nardni ham chetga surib, m u b o-*

B

h a s a ga kirmoq uchun shaymiz degandek e'timod bildirdilar. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *So'ng ular orasida vulqondek otilib turadigan olovli m u b o h a s a lar go'yo tindi, Husan din borasida Hasan aytganga ko'ndi.* U.Hamdam, Musulmon. *Asar to'g'risida matbuotda rosa b a h s-m u n o z a r a ham bo'ldi.* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. *Odamlar Ka'baga turli xil tomondan kelisharkan, yo'lda bir-birlari bilan "Mening yo'lim haq, seniki botil...", – deya b a h s-m u n o z a r a qilib kelishadi*. U.Hamdam, Muvozanat.

BAHSLASHMOQ, TORTISHMOQ, MUNOZARA QILMOQ, TALASHMOQ, MUNOZARALASHMOQ Bahsli muhokamada qatnashmoq, farqli, har xil fikrlardan birini yoqlab muhokama yuritmoq. **Tortishmoq, talashmoq** so'zlarida muhokama ishtirokchilari o'rtasidagi fikriy qarama-qarshilikning keskinligi qabariq ifodalanadi, **talashmoq** ko'proq so'zlashuv nutqiga xos. **Munozaralashmoq** so'zi nisbatan kam qo'llanadi.

Safar bo'zchi kabi bir "ablah" bilan b a h s l a sh ib, o'ziga nega buncha xafalik orttirdi? A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Atrofda to'p-to'p bo'lib o'tirganlarning ayrimlari faqat o'zlari tushunadigan payrovda askiya qilar, ba'zilari qattiq b a h s l a sh ar... edi.* T.Malik, Davron. *Tursunxo'ja Rahmonalining qulog'iga shivirladi: – Nima qilardingiz shu sassiq bilan t o r t i sh ib? Jimgina o'tiravermaysizmi?* S.Ahmad, G'ildirak. *Choy ustida ham gap boshdan oyoq uloq haqida bo'ldi. Bir uy odam xuddi futbol ishqibozlariga o'xshab qizishib t o r t i sh ardi*. O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. *Shayxulislom bu fikrlarini Xondamirga aytib, u bilan ko'p m u n o z a r a q i l di. Bu munozarada Bayramxon Xondamirning tarafini olgan edi, Said Xalil uni dinsizlikda aybladi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Eshoni Sudur Nurillaxon bilan boloxona ayvonida... kishibilmas m u n o z a r a q i l yapti-yu, xayolida Dushanbe tashvishi*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *Shukurga tarafkash bolalar bir-biriga so'z bermay t a l a sh di, bakovulga elandi*. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Bekmirzayev ham shu yerni deb t a l a sh ib yurardi.* T.Malik, Davron. *Qahramonimizning yaqin do'sti bo'lardi. Shu bilan ham m u n o z a r a l a sh ib, araz dashtiga yuz burdi.* M.Abulfayz, Arazchining umri.

BAJARMOQ, ADO ETMOQ, BITIRMOQ, O'RINLATMOQ, DO'NDIRMOQ, O'TAMOQ, BAJO QILMOQ Biror ish, reja, majburiyat yoki topshiriqni amalga oshirmoq. **Ado etmoq** so'zi ko'proq kitobiy nutqqa xos. **Bitirmoq, o'rinlatmoq, do'ndirmoq, bajo qilmoq** so'zlarida ish-vazifani nihoyasiga yetkazish ifodasi qabariq ifodalangan. **O'rinlatmoq** bu ma'noda kam qo'llanadi. **Do'ndirmoq** ko'proq so'zlashuv nutqiga xos va unda qoyillatib nihoyasiga yetkazish ta'kidi mavjud. **O'tamoq** so'zi, asosan, "muayyan burch-vazifani ado etish" ma'nosida ishlatiladi. **Bajo qilmoq** nisbatan eskirgan, kam qo'llanadi.

Bu xil odamlar hech qachon ortiqcha narsalarni o'ylashmaydi, o'ziga yuklatilgan vazifani siz o'ylagandan ham a'lo darajada b a j a r adi. N.Eshonqul,

Maymun yetaklagan odam. *Xomashyoni "odam qilish"da qahramonimiz ham ishtirok etgan, bosh rassomga ko'maklashuv bahona… asosiy xizmatni Pakana b a j a r gan edi.* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. *Qani, Abdullajon, siz qabul komissiyasining raisi sifatida o'z vazifangizni a d o e t ing.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Gaz kelgandan keyin xizmatini a d o e t ib bo'lib, nuray boshlagan mo'ri yonida uyilib yotgan latta-luttalar orasidan kitoblar, gazit-jo'rnal boylamlari, allaqancha qog'ozlar chiqdi.* T.Malik, Shaytanat. *Bir yo'lini topib, ayaning ishini b i t i r ib berishi kerak.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Anvar… mehmonxonada o'zini kutib o'lturganlar bilan nari-beri ishni b i t i r ib, ichkari kirdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bo'tqa xo'jayinning topshirig'ini a'lo darajada o' r i n l a t di.* T.Malik, Shaytanat. *Bu mamnunlik oyoqlari ostida salmoqdor o'lja yotganidan emas, balki Avtobola topshiriqni kutilganidan afzalroq qilib o' r i n l a t gani tufayli edi.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Yigit o'zini har joy, har vaziyatda erkin tutar, yor-do'stlarining uncha-muncha amaldor ham xat yozib, qo'ng'iroq qilib eplayolmagan yumushlarini birpasda d o' n d i r ib kelar edi.* E.A'zam, Shovqin. *Dadam onamga sovchi qo'yganida, opoq otam… "Avval iligingni to'ldir, biron ishni d o' n d i r, payingni shishir, aqlingni pishir, keyin uylan", degan ekan.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Sherqo'zi esa o'g'lining uylanishiga ruxsat berib, otalik burchini o' t a gan, ammo uning boshiga tushgan fojiadan gangib qolgan odamdek yelkasidan bosib turgan yukni bazo'r ko'tarib, og'ir-og'ir qadam tashlagancha jo'nadi*. A.A'zam, Odamning olasi. *Bilasanmi, tovarish Axmed, Kamikadze burchini o' t a masa, uni urmaydilar, so'kmaydilar, sud qilmaydilar. Bo'yniga xuddi Riksha aravasining g'ildiragidek qulf-kalitli g'ildirak kiydirib qo'yadilar*. S.Ahmad, Oftob oyim. *Zohid "bu madaniyat sohibasi yana o'lib qolmasin", deb aytganini b a j o q i l di. "Tez yordam" Zohidni hayratga solib, tezlik bilan yetib keldi.* T.Malik, Shaytanat. *Har turli yoshdagi muallimlar buyruqni birday b a j o q i l dilar.* M.Zohidova, Boychechak.

BAJONIDIL, JON-DILDAN, SIDQIDILDAN, JON DEB, JON-JON DEB Jon va ko'ngil mayli bilan, chin ko'ngildan, mamnuniyat bilan. **Jon-dildan, jon deb, jon-jon deb** ko'proq so'zlashuv nutqiga xos, **jon-jon deb** so'zida mamnunlik belgisi anchayin ortiq. **Sidqidildan** so'zi ko'proq kitobiy nutqqa xos.

Keyin ming bir istihola-yu iymanishlar bilan olgan chelaklarini o'g'illariga ko'tartirib jo'narkan, kir-chiri bo'lsa, b a j o n i d i l yuvib berishini aytdi. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *U bolalar bilan b a j o n i d i l suhbat qurar, ularda "arxeologiyaga nisbatan mehr uyg'otyapman" deb o'ylar edi*. T.Malik, Davron. *Siz unday qilmang-da, go'yo ularga j o n-d i l d a n xizmatda bo'laverasiz-u, aslida bizlarga qayishasiz*. T.Malik, So'nggi o'q. *Nozirlar bunaqa tog'larni bir shiddat bilan piyoda kezib chiqishadi, j o n-d i l d a n qo'riqlashadi*. A.Asil,

Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh? *Sizga s i d q i d i l d a n xizmatda bo‘lish – burchim, burchimni ado etmoqqa bobolarimizning ruhlari yor bo‘lgay*. T.Malik, Savohil. *Halol yashayapman… s i d q i d i l d a n ishlayman, nonimni beminnat topaman. Bundan ortiq yana qanday yashashim kerak?* A.A’zam, O‘zim bilan o‘zim. *O‘rtoqlari kulgi aralash, vaqti kelganda, uning uyiga mehmonga borishlarini aytar, Vosit ularni j o n d e b qabul qilishga va’da berar edi*. Sh.Xolmirzayev, Yovvoyi gul. *Agar yog‘iy, bu tomonga o‘tolmasin, deb o‘sha ko‘prikni hozir yondirib yuborsalar, men j o n d e b rozi bo‘lur edim!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bu rahbar qo‘lida ishlovchilar… o‘zlariga berilgan har qanday topshiriqni j o n-d i l d a n bajarishadi*. A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. – *Mayli! – j o n-j o n d e b rozi bo‘ldi qiz.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Menmi? Men-ku, j o n-j o n d e b ko‘maklashaman.* T.Malik, Devona.

BALAND, YUQORI 1. Yer yuzasidan yoki boshqa biror sath-nuqtadan uzoq masofada. **Yuqori** so‘zi tegishli sathdan unchalik uzoq masofada bo‘lmagan holatlarda ishlatiladi.

Inson shu qadar buyukki, uning fazilatlarini o‘lchash – dunyodagi eng b a l a n d tog‘ning eng b a l a n d cho‘qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng. O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Oy juda-juda b a l a n d da, nurli gardishi ichida loqayd suzib borar… edi*. A.A’zam, Oyning gardishi. *Jannat opa... qaytishi hamono y u q o r i dan uchib o‘tgan bir-ikki moshak qushning chev-chev-chev degan tovshini eshitib ko‘kka qaradi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu vaqtda oy anchagina y u q o r i ko‘tarilib qolgan edi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

2. Kuch darajasi belgilangan, odatdagi me’yordan ortiq. Mazkur ma’noda **yuqori** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi.

Qiz monand nozik bo‘ladi. Issig‘i b a l a n d dedingmi? Chatoq-ku... Oybek, Tanlangan asarlar. *Guzar tomondan b a l a n d muzika ovozi yangraydi.* O‘.Hoshimov, Dehqonning bir kuni. *Qutidor tanchaga borib o‘lturmadi-da, ayvon peshonasidan turib, qo‘lidag‘i xatni y u q o r i tovush bilan o‘qub chiqdi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U joyda harorat ortadi, chunki y u q o r i haroratda begona jon egalari tezroq halok bo‘ladi*. I.Sulton, Genetik.

BALANDLAMOQ, YUQORILAMOQ, YUKSALMOQ, KO‘TARILMOQ, O‘RLAMOQ Pastdan yuqoriga qarab harakatlanmoq. **Ko‘tarilmoq** so‘zining o‘zagidagi qismlar mazmuniga ko‘ra harakatning o‘zlik ma’nosi qabariq ifodalangan. **Yuqorilamoq, yuksalmoq** so‘zlarida ko‘tarilish belgisi **ko‘tarilmoq** so‘zidagi belgidan ortiqroq, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **O‘rlamoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Qurbon… yerdan b a l a n d l a b ketgandek his etdi o‘zini va quvonib: – Zo‘r-ku! – dedi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Men esam Sultonmurod akam bilan oldinma-ketin yong‘oqzordan b a l a n d l a b boryapmiz.* M.Mansur, Judo-

lik diyori. *Qandaydir qush y u q o r i l a b pastga sho‘ng‘ib, ilang-bilang uchadi*. I.Sulton, Ozod. *Men o‘zimni eshitmaslikka oldim... Bir nishabroq yerdan y u q o-r i l a dim.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Shaharda, xususan, Fotih Burhonovich-lar hovlisida quyosh ko‘ko‘par binolar, daraxtlar panasida terak bo‘yi yuksal-gandagina, shunda ham chala-yarim, birqadar rangsizlangan, kichraygan tax-litda ko‘rinadi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Esimda, bolaligimda tush ko‘rib edim: qan-daydir muz tog‘iga chiqib qolibman, qaydan paydo bo‘ldi bu muz tog‘i, qay mahal y u k s a l a qoldi, bilmayman, bilganim shuki, men turgan tog‘ tobora y u k s a l ardi, uni eritib bo‘lmaydi, deya o‘ylagandim o‘shanda.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Samolyot k o‘ t a r i l a-k o‘ t a r i l a olislaydi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Nazir ota zangori gilam to‘shalgan zinadan k o‘ t a r i l ar ekan, ayol orqasidan qichqirdi.* O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Bolapaqir oqsoq jonivorini niqtab, har qaysi guzarda bir to‘xtab, tepa kelsa o‘ r l a b, nishablikda ashulani tuyoq ovoziga jo‘rlab boraverdi.* A.Obid-jon, Meshpolvonning janglari. *Ular aylanma yo‘llar bilan shahardan chiqib, balandlikka o‘ r l a y boshladilar*. Mirmuhsin, Temur Malik.

BALANDPARVOZ, DABDABALI, TUMTAROQLI Havoyi gaplar bilan me’yoridan oshirilgan, ortiq darajada bo‘rttirilgan, soxta dabdabadan iborat bo‘lgan. So‘zlarning asoslarida tegishli ma’no ta’kidlari ochiqcha ifodalangan. **Tumtaroqli** so‘zining fonetik shakli (garchi mazkur so‘zning o‘zagi forsiyda “dabdaba, hashamat” ma’nosini anglatsa-da) *tumtaraqay* so‘zini va uning “tar-tibsiz tarzda har tomonga to‘zg‘igan” ma’nosini esga soladi.

Bu so‘z shunchalik serjilo, jimjima, soxta, b a l a n d p a r v o z ki, eshitsam ko‘nglim ayniydi. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Yozib o‘rganmagan-man Bayramga qasidalar, B a l a n d p a r v o z xitoblar tilimga kela qolmas*. E.Vohidov, Sening sha’ning. *Stalin to‘g‘risida d a b d a b a l i gaplarni eshitib yurgan bo‘lsam-da, bu nomning shaxsan men uchun bir pullik qimmati yo‘q edi.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar. *Berlindan qaytib “Qizil O‘zbekiston” gazetasida ish boshlagach, bosh muharrirning d a b d a b a l i satrlarga g‘oyat o‘chligidan ko‘ngli xira bo‘lgandi*. T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *U t u m t a r o q l i so‘zlar bilan To‘marisni qutlar ekan, mulozimlar tillado‘z chopon va harir ko‘ylaklar tugilgan zarbof bo‘g‘chani uning oyog‘i ostiga qo‘ydilar*. M.Osim, Ajdodlarimiz qissasi. *Buxoro amirlaridan Abdullaxon bir kuni Mushfiqiyga: – Shoirlarning kurakda turmaydigan t u m t a r o q l i, aql bovar qilmaydigan mubolag‘ali she’rlaridan juda zerikdim*. G‘.G‘ulom, Latifalar.

BALLI, BARAKALLA, OFARIN, YASHA(NG), YASHAVOR, QOYIL, TASANNO, O‘LMA(NG), TAHSIN, SALLAMNO, YASHAB TASH-LA(NG) Ma’qullash, tasdiqlash, maqtov, tahsin, mamnunlik ma’nolarini ifoda-laydi. **Yasha, yashavor, o‘lma(ng)** so‘zlarining shaklidan ham ularning ikkinchi shaxsga qaratilgani bilinib turadi, ular ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xoslangan.

Ofarin, tasanno, tahsin so‘zlari kitobiy uslubga xos. **Sallamno** so‘zi eskirgan, juda kam qo‘llanadi. **Yashab tashla(ng)** bu ma’noni kuchli ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos.

– B a l l i! – dedi o‘qituvchimiz. Bu maqtovdan ko‘nglim ko‘tarilib, dadil so‘zlashga tushdim. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Ammo mendan so‘rasang, Marg‘ilondag‘i na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajh bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo‘lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, b a l l i, o‘g‘lim, deyman*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– B a r a k a l l a, singilginam! – deb qichqirdi buni kuzatib turgan Meshpolvon.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Xushro‘ybibining o‘g‘liman degin, b a r a k a l l a. Rahmat, jiyan, yo‘qlab kelibsan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *– O f a r i n, qizim, o f a r i n! Ana falsafa-yu, mana falsafa!* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *– O f a r i n, – dedi Anvar, – bu kungi mehmondorchilig‘ingizdan qariyb mamnun bo‘ladirg‘ang‘a o‘xshayman.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *– Y a sh a ng! – deb yubordi shunda Olim muovin. – Mening ko‘nglimdayam shu gap endi pishayotgan edi*. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Y a sh a, o‘g‘lim. Ana shunaqa o‘yla! Bu yaxshi odat*. Sh.Xolmirzayev, Qush tili. *Juda soz joyga o‘rnashibsan-ku, jo‘ra. Y a sh a v o r, omadingni bersin.* U.Hamdam, Muvozanat. *Chori bobo: Qoyilman, qizim, baraka top! Anavi ipak o‘ramini chapdagi g‘altakka bog‘lasang yaxshi bo‘ladi, dastgohning o‘qini ozroq pastga tushiringlar. Ana shunday… Ha, y a sh a v o r!* Q.Norqobil, Quyoshni sen uyg‘otasan. *Ofarin, q o y i l, Bo‘stonxon, endi paxta qurimaydi, namni asta shimib turaveradi, undan payvand bahra oladi.* S.Nazar, Yashil boylik. *Mirzaabdulla aka mezbonni bag‘riga bosib: O‘g‘il bolaning ishini qildingiz, do‘stim. “Ota-onang o‘lsa o‘lsin, yori do‘sting o‘lmasin” degan dono gapga yuz foiz amal qildingiz, q o y i l.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Hammasi qat’iy tartib, hisob-kitob bilan joylashtirilgan. Ofarin va t a s a n n o!* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *– T a s a n n o! – sevinganidan qichqirib yubordi o‘qituvchimiz.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *U jon achchig‘ida qo‘liga tuf-tuflab edi: – Ha, o‘ l m a ng, endi topdingiz, aka pochcha, kuyganning davosi tufuk. Yaxshilab tufuklay bering, – dedi sherigi uning joniga ora kirmoqchi bo‘lib*. M.Mansur, Judolik diyori. *– T a h s i n-t a h s i n! – deydi Xatib domla hasadli taajjub bilan, – toza ham pulni qirdik deng… T a h s i n-t a h s i n!* A.Qodiriy, Obid ketmon. *Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningg‘a s a l l a m n o, To‘kar har damda ming qon tiyg‘i mujgoningg‘a s a l l a m n o.* Ogahiy, Sallamno. *Olib kirdilar sariq-ko‘kish olovdek tovlantirib, o‘tdan to‘qilgan jildbog‘ida osiltirib. – S a l l a m n o, s a l l a m n o. Nomiga-da, kishtikoriga-da, yetishtirgan egalariga-da*. M.Mansur, Judolik diyori. *Y a s h a b t a shl a ng, qo‘shni, ko‘nglimdagi gapni aytdingiz!* A.Yo‘ldosh, Bozor.

BALO, FALOKAT, MUSIBAT, OFAT Biror voqea-hodisa, harakat tufayli yuzaga kelgan g‘am-tashvish, azob va qiyinchilik. **Falokat, ofat** so‘zlarida

g‘am-tashvish bilan birga uni yuzaga keltirgan voqea-hodisa yoki narsa alohida ta’kid olgan bo‘ladi. **Musibat** so‘zida esa g‘am-azobni yuzaga keltirgan narsadan ko‘ra g‘am-azobning o‘zi qabariq ifodalangan bo‘ladi.

Bu qizga bir b a l o bo‘lgan. Yonoqlarining eti qochib, battar turtib chiqqan, burun so‘rraygan. Egnidagi keng, uzun atlas ko‘ylakning oldi ko‘tarilib, orqasi osilib turibdi. E.A’zam, Pakananning oshiq ko‘ngli. *– Barakalla, – dedi uy egasi va – manimcha, hamma b a l o o‘zing ko‘rib, suyib uylanishda, – dedi va eshitkuchisi kutmagan joyda sukutka ketdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– F a l o k a t ni qarang, singlim, – derdi u oldidan o‘tib turgan hamshiralarga yig‘lamsirab. – Shundoq Ochilboyning qo‘lini arra obketdi-ya! Qandoq yigit edi-ya! F a l o k a t qosh bilan qovoq o‘rtasida turarkan-da, a?!* O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *Kunbotarda bir yovuz Dev bor emish, yalmog‘iz. Odamga dushman emish, Qon emish unga yemish. Har m u s i b a t, har ofat, Har bir mudhish kasofat, Barcha jabr-u jafolar, Hamma dard-u balolar O‘shandan kelar emish*. H.Olimjon, Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod. *Mamlakat mudofaasidan qochgan kimsadan chumoli emas, hatto vabodek o f a t ham hazar qilishini… fahmladi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Dehqonlar ketishi bilanoq Rayhon qiziqning jahli qo‘zib: “Qanaqa hayvonlarni aytyapsan, kuydirgi? Boshimizga kelgan o f a t bo‘lding-ku”, – deb vaysab berdi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

BALOG‘AT, VOYA, KAMOL, KAMOLOT, YETUKLIK Odamning jismoniy, aqliy jihatdan rivojlanishidagi muayyan yuqori me’yor darajasi. **Voya** so‘zi **yetmoq** fe’li bilan birga qo‘llanadi. **Voya** so‘zida ko‘proq jismoniy jihat nazarda tutiladi. **Kamol, kamolot** so‘zlari kitobiy uslubga xos. **Yetuklik** so‘zi ma’nosi rivojlanishning barcha jihatlarini qamraydi.

Orastaxondan gup-gup fransuz atiri bilan… b a l o g‘ a t yoshiga yetgan qizlardagina bo‘ladigan ajib bir tarovatli hid ham anqib turardi. S.Ahmad, G‘ildirak. *Butun ko‘cha bolalari ana shu kitob ta’sirida b a l o g‘ a t ga yetishdi…* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Men v o y a ga yetyapman, ortimdan singillarim ulg‘ayib kelishmoqda...* I.Sulton, Ozod. *Kuyov kelin aksi bilan, kelin kuyov aksi bilan pichirlashib aytishdi: Bizni v o y a ga yetkazmish ota-onamizga ming bor qulluqlar bo‘lsin.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Sanskrit tili shundoq edi, yunon tili, chin-mochin tili, so‘ngra lotin shundoq holni boshdan kechirdi, bashar k a m o l i uchun xizmat etdi.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Balki, elning bitta o‘g‘loni shu tarz k a m o l ga yetib, bir ro‘zg‘orning boshiga kelishga tayyor bo‘lganidan qoniqish hosil qilgandirlar?* I.Sulton, Ozod. *Asqar ota o‘ylab qarasa… o‘z qishlog‘ida, bo‘lak joylarda ko‘rgani, bilgani xotinlarning nimadan iborat ekanliklariga yaxshi razm solmagan va ularning k a m o l o t ini payqamagan ekan.* A.Qahhor, Dahshat. *K a m o l o t zinalaridan o‘tib shon-shavkatga, mol-dunyoga, o‘zi bir vaqtlar entikib orzu qilgan hamma narsaga ega bo‘libdi…* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Bari muhrlanib qolmish-*

dir, ajab, Birida ma'yusman, birida shodon. Baribir, yashadim shuhratga hamdam, Bu mening y e t u k l i k davrimdir, bolam. A.Oripov, Kasseta. *O'spirinni o'z mehnat mahsulotidan iftixor tuyg'usi, o'z-o'zini yangidan his etish, y e t u k l i k tuyg'usi harakatga keltiradi.* O.Tog'ayev, Iftixor.

BAQIRMOQ, QICHQIRMOQ, QIYQIRMOQ, CHINQIRMOQ, BO'KIRMOQ Juda kuchli tovush bilan ovoz chiqarmoq. **Chinqirmoq, bo'kirmoq**da belgi darajasi **qichqirmoq, qiyqirmoq, baqirmoq**qa nisbatan kuchli. **Qiyqirmoq** bolalarning kuchli ovoz bilan shovqin ko'tarishiga nisbatan ishlatiladi. **Bo'kirmoq**da salbiy bo'yoqdorlik ham mavjud, u, asosan, hayvonlar tovushini ifodalash uchun qo'llanadi.

Nosirjon uxlab yotar, biroq hamon ahyon-ahyonda b a q i r ar, alahlar edi. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Ikki haftalardan keyin xabar olgani kirsam, janjal ustidan chiqib qoldim. O'zi b a q i r gan, xotini dodlagan.* O'.Hoshimov, Oyog'ing yerdan uzilmasin. – *Ket deyapman senga, – deb q i ch q i r di Xolmatjon.* S.Ahmad, Ufq. – *Nima bo'ldi?! – deb Ortiq bilan Eshmurot aka baravar q i ch q i r ib so'rashdi.* P.Qodirov, Qora ko'zlar. *Shunda bir qirg'oqdan go'yo hoziroq uzilib tushganday Momo Quyoshdan, bolalar q i y q i r d i, oq ko'ylaklarin bandi oqqushlarday silkitib boshda.* Sh.Rahmon, Amudaryo qirg'oqlari. *To yerning ostiga Ketmasdan kirib, Dunyoda behishtiy Un ham borligin Go'dakka aylanib Shodon, q i y q i r ib Bir-birin quchoqlar Kun ham borligin Unutma!* H.Xudoyberdiyeva, Osmon yaqin kelar. *Kampir oxurga boshi bilan urilib ch i n q i r di-yu, hushidan ketdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Beshikni titratib ch i n q i r ar ohim, Yuzlari oppog'im, ko'zi munchog'im.* M.Yusuf, Qizilgul. *Galatepaliklar avvaliga iymanibroq turishdi, keyin ular ham qo'shildi, to o'zlarining sarhadlariga yetguncha b o' k i r ib borishdi: "Tomda tovuq yotadi, yor-yor-yoron-ey, oyog'i sovqotadi yor-yor-yoron-ey!.."* M.M.Do'st, Dasht-u dalalarda. *Hovlining bir chetidagi o'g'liga atab qurilayotgan chala imoratga tikilgan ko'yi tushunqiramay turganimni ko'rib, tog'amiz alam-iztirob bilan b o' k i r ib yubordi: Bo'lmasa, kelib mendan ko'radi-da, jiyaan!* E.A'zam, Bizning tog'a.

BAQIROQ, SHANG'I Baland, qo'pol va yoqimsiz ovoz bilan gapiradigan, baqirib gapirishga odatlangan. **Shang'i** so'zi ma'nosida yoqimsizlik ta'kidi mavjud, ko'proq so'zlashuv tiliga xos.

Maydonchada taranglik, b a q i r o q rejissyorning g'azabi hukm suradi, hamma xunob, hamma yig'lagudek bir alpozda. E.A'zam, Shovqin. – *Og'zingizga qarab gapiring, muxbir! – deydi umrida sekin so'zlamoqni bilmagan ukkiko'z Soli b a q i r o q odatdagidek ovozining boricha.* E.A'zam, Guli-guli. *Nihoyat, sh a n g' i samovarchi jo'mragi uchiga jez qoplangan choynakni va bir piyolani yigitning oldiga do'q etib qo'yib ketdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Hoy, sh a n g' i! – dedilar oyim kesib. – Sen o'zi kimning uyiga kirvolib shang'illayapsan?* M.Mansur, Judolik diyori.

BARG, YAPROQ Daraxt va boshqa turli o‘simliklarning havodan oziqlanish uchun xizmat qiladigan turli shakllardagi organi. **Barg** so‘zi har qanday daraxt va o‘simliklarning ana shunday a’zosini ifodalash uchun qo‘llanaveradi. Ammo **yaproq** so‘zining asl ma’nosida “yopmoq” mazmuni mavjudligi uchun bu so‘z, masalan, ninabargli daraxtlarning mazkur a’zosiga nisbatan qo‘llanmaydi. Ayni paytda **yaproq** so‘zida poetik nutqqa xoslik ham mavjud.

Shamol borgan sari avjga chiqar, hovlidagi yong‘oq b a r g lari shovullab, shoxlari shubhali g‘irchillardi... O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Goho yo‘lovchilarning biri archaning butog‘ini sindirmoqchi bo‘ladi, biroq chayir daraxt tob bermaydi, yo‘lovchining qo‘lida bir hovuch nina b a r g lari qoladi, yo‘lovchi shu b a r g lar bilan ham qanoat topadi, ularni hidlab ketaveradi*. Sh.Xolmirzayev, Uchinchi hamroh. *O‘tlar va daraxt y a p r o q laridagi shudring tomchilari quyosh nurlarida jimirlab tovlanadi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *...Sutday to‘lin oy pastak uy ro‘parasidagi olchalarning sarg‘aya boshlagan y a p r o q larini allalar, mayin shabada esib turardi.* O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi.

BARIBIR, FARQSIZ, BEFARQ, AHAMIYATSIZ Hammasi birdek, hech qanday farqi, ahamiyati yo‘q. **Ahamiyatsiz** ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Menga b a r i b i r, yashaydigan sen. Mening uyim boshqa, ro‘zg‘orim boshqa. S.Ahmad, Ufq. *Zotan, buning nima ahamiyati ham bor?.. “Akbar” bo‘ldi nima, “Qambar” bo‘ldi nima – b a r i b i r emasmi? Bir sartning nomi!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bu vaqt Otabekning tusiga ham haligidek o‘zgarish chiqdi ersa-da, lekin sezdirmaslikka tirishib javob berdi: – Manim uchun f a r q s i z.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Turdiqulning do‘koni hamisha gavjum. Birov biron narsa xarid qiladimi-qilmaydimi – f a r q s i z, kirib kelib, besh-olti kishi sig‘adigan xarrakka o‘tirib oladi.* Sh.Bo‘tayev, Haykal. *Qishloqda askarlardan boshqa hech kim ko‘rinmas, odamlar go‘yo suvga cho‘kkanday g‘oyib bo‘lgan, faqat derazalarga tortilgan qora pardalar bu mudhish jinoyatga loqayd va b e f a r q boqib turardi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Har holda, siz xalqning qismatiga b e f a r q emas edingiz*? T.Malik, Savohil. *Nazarida, Alimqul... hamma narsaga faqat shaxsiy manfaati ko‘zi bilan qarar, manfaat ko‘ziga chalinmagan nimaki bor, uning uchun begona va a h a m i y a t s i z edi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Jamshid so‘qqabosh bo‘lgani sababli qayerda tunash uning uchun a h a m i y a t s i z edi.* T.Malik, Shaytanat.

BAS, BO‘LDI, TAMOM, YETARLI, KIFOYA, BO‘LGANI Aytilgan gaplar, voqe bo‘lgan harakat-holatlarning yetarli, talab darajasida bo‘lganligini, ularni tugatish zarurligini ta’kidlashga xizmat qiladi. **Tamom** so‘zida “aytilayotgan gap-so‘z, voqelanayotgan xatti-harakat oxirgi chegarasiga yetib kelganligi” ifodasi ochiq anglashiladi. **Yetarli** so‘zida “kifoya qiladi” ta’kidi seziladi. **Kifoya** ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Bo‘lgani** so‘zida istak ma’nosi qabariq ifodalangan, bu so‘z, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

B

Shu jazo, shu haqorat bilan oralari ochiq bo‘lsa b a s, boshqa hech narsa kerak emas unga. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Yo‘q, bilmaysen! Bilsang so‘rab o‘ltirmas eding! B a s! Bu befoyda mubohasaga chek qo‘ymoq darkor!* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *– B o‘ l d i! – dedi Jingalaksoch. – Yirik planda shu ikkita terimchi bo‘ladi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Ayo Tarlon, sen mening ukamsan, ukam. B o‘ l d i, men endi ularni ukam demayman.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Sotolmayman, deganingiz nimasi… u yer-bu yerini artib, moylab, burang, t a m o m. Shaharga olib boring, kamida, oltiga sotasiz, men kafilman.* T.Malik, Davron. *– T a m o m, – dedi ikki qo‘lini bo‘shatib Rahim. – Shud. Bu ahdlashishdan so‘ng uchavi ham xomush qoldilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Yaxshi. Sen Haydar akangdan uzoqlashma. Hozircha bitta narsani bilsang, y e t a r l i – uning fikri buzilgan, ehtiyot bo‘l.* T.Malik, Shaytanat. *Rahbarov ovozini pasaytirdi: ya’ni bizga o‘sha odamning otini aytsangiz, y e t a r l i.* A.Yo‘ldosh, Bozor. *Ko‘rkamlik, xushqadlik – qariyb baxtdek gap, omad deganlariga tayyor pillapoya, oyoq qo‘ysangiz – k i f o y a.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *– O‘zlaringizni aytishlaringizga qarag‘anda, musulmon kishi uchun kina saqlash bir ro‘ymolni yuvib qurutqancha ekan, – dedi Safar bo‘zchi, – bizlar bo‘lsaq to‘rt kundan beri shaytonni apichlab yuruymiz... Shunisi ham k i f o y a-da, taqsir.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *O‘zimni o‘ldirishsa mayli, bolalarimga tegishmasa b o‘ l g a n i...* T.Malik, Shaytanat. *Unday qilmang. Bozor aka, mayli, pul ketsa ketipti. Bu yog‘i tinchisa b o‘ l g a n i.* S.Ahmad, G‘ildirak.

BASTAKOR, KOMPOZITOR Musiqa asarlari ijodkori, musiqiy asar muallifi. **Kompozitor** so‘zida ko‘proq Yevropa musiqasiga daxldorlik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Bu odam men hech kim tanimaydigan yosh shoirni radioga chaqirib, she’rlarimni b a s t a k o r larga berib qo‘shiq yozdirgan. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Bunday asarlar yaratish uchun adib rassomdek ranglarni bir-biridan farq qiladigan, b a s t a k o r dek tovushlarni tiniq eshitadigan bo‘lishi kerak*. S.Ahmad, Tog‘ay Murodning qo‘shiqlari. *Silliq taralgan va to‘lqinlanib yelkasiga tushib turgan qop-qora qalin sochlari esa uni hatto yosh rassom yo xotini taniydigan kibor k o m p o z i t o r larga o‘xshatar edi!..* O.Yoqubov, Billur qandillar.

BAXT, IQBOL, TOLE, SAODAT, QUT Hayotdan, turmushdan to‘la mamnunlik holati, yashashdan qoniqish va mamnunlik tuyg‘usi. **Iqbol** so‘zi ko‘proq badiiy nutqqa xos. **Tole** so‘zi ma’nosida taqdir, omad sifatidagi mamnunlik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Saodat** so‘zida kitobiy uslubga xoslik mavjud, ko‘pincha **baxt-saodat** tarzidagi juft so‘z tarkibida qo‘llanadi. **Qut** so‘zi mazkur mamnunlik bilan bir qatorda, “boylik, baraka” ma’nosini ham o‘z ichiga oladi, eskirgan.

Tijoratxon b a x t dan entikar, erining gapiga, “to‘g‘ri” deb javob qilardi. S.Ahmad, G‘ildirak. *Tug‘ilsang, b a x t bilan kamol o‘shadir, Tark etsang olam-*

ni, zavol o‘shadir. Oxir chog‘ tuprog‘ing ustiga kelib, Kimdir yod aylasa, i q b o l o‘shadir. A.Oripov, Tug‘ilsang… *T o l e yimning oshinosisan, Sen sevgimning ko‘kargan bog‘i, Sening bilan birga i q b o l im, Ishonchimning sen vafo tog‘i.* H.Olimjon, Xayolimda bo‘lding uzun kun. *U shu topda o‘zining yaqin kelajakdagi qora kunlarini, qay rangda ko‘rinishi ma’lum bo‘lmagan baxti, t o l e yini o‘ylardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Do‘stim, xotirangdan qilma shikoyat, Yoddan chiqarmoq ham yaxshi odatdir. Yoddan chiqarmoq ham bir s a o d a t dir, unutmaslik dardi og‘ir nihoyat*. E.Vohidov, Xotira. *S a o d a t ga makondir qay chamanga sen qadam qo‘ysang, o‘zingni baxtli bil yurtda yashashning zavqini tuysang, Chin odamsan, chin o‘g‘lonsan, Yurakdan elni chin suysang, Vatan sevmoq s a o d a t dir*. E.Vohidov, Vatandin yaxshi yor bo‘lmas. *Yuraklarga mehr sol, adovatdan qil yiroq, Bukungi zahmatlarning oqibati q u t bo‘lsin.* E.Vohidov, Yangi yil munojoti. *Hamon q u t yo‘q, o‘t yo‘qday yurtda Ranging sariq, mangu sildaysan.* H.Xudoyberdiyeva, Yarim kecha... *Yangi yil, yangi baxt zavqi gupurgan odamlar orasida his etib, ularning g‘ala-g‘ovuri ichida gangib o‘tirar, o‘zigina ularga b a x t-s a o d a t tilab qolmay, ularning ham o‘ziga b a x t-s a o d a t tilayotgan so‘zlarini eshitar… edi*. Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor.

BAXTLI, BAXTIYOR, SAODATLI, TOLELI, MAS’UD O‘z hayotidan mamnun, ana shunday qoniqish va mamnunlikka erishgan. **Baxtiyor** so‘zida belgi **baxtli** so‘zidan ko‘ra kuchli ifoda topadi, ayni paytda unda “xushnud holatdalik” ifodasi ham bor. **Saodatli** so‘zi kitobiy uslubga xos, **baxtli-saodatli** juft so‘zi tarkibida ham keladi. **Toleli** so‘zi ma’nosida “taqdir, omadga ko‘ra mamnunlikka erishish” ta’kidi mavjud, kam qo‘llanadi. **Mas’ud** so‘zi eskirgan, kitobiy nutqqa xoslangan.

Ot kavsh qaytarishini ko‘rgan odam, yo telbanamo bo‘ladi, yo sho‘rpeshona bo‘ladi, yo b a x t l i, yo dono, yo nuktadon bo‘ladi! T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *U bilan o‘sha yerda bir daqiqa birga bo‘lgan, uning olov ko‘zlariga tikilib, ovozini eshitgan odam bir umrga o‘zini b a x t l i hisoblasa bo‘lardi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Nilufar biladi: oyisi uni juda b a x t i y o r deb hisoblagani uchunmi, qizining eri bilan urishib, uylariga qaytib kelishidan, qaytib kelib, beva bo‘lib o‘tirib qolishidan qo‘rqadi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Manzura b a x t i y o r edi. U Aziz bilan birinchi ko‘rishgan kunlarini, u haqda toqatsizlik bilan o‘ylagan, kutib intizor bo‘lgan oqshomlarini esladi.* A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *O‘n kun orasida hozirlikni bitirib to‘y qildiq. Nihoyat, Saodat meniki bo‘lib, s a o d a t l i k kunlarim boshlandi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Kumushbibi kutilmagan baxt qushi boshiga qo‘ngan s a o d a t l i qizning esankirashi bilan aytgan edi bu gapni…* T.Malik, Shaytanat. *T o l e l i kishi mushkka ega bo‘lgan va o‘zi ham unga o‘xshagan zotdir.* J.Rumiy, Ichindagi ichindadur. *Shu daraxtlarni, shu gullarni o‘z qo‘li bilan ekkan. Ularni*

B

ko‘rganda, Abdulla aka bilan birga kechgan m a s’ u d kunlar jonlangandek bo‘ladi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Boylik va kambag‘allikni yo‘q qilib, dunyo moli(ni) rohatidan hammani barobar foydalanturub, m a s’ u d va rohat umr o‘tkazilmoqig‘a va har kim o‘z istiqbolidan amin bo‘lmoqig‘a zakun va qoida joriy qilmoqchidurlar*. M.Behbudiy, Xayrul umuri avsatuho. *Insonlarni b a x t l i-s a o d a t l i ko‘ray deb, aziz umrlarini sarflab yubordilar*. I.Sulton, Alisher Navoiy.

BAXTSIZ, BEBAXT, BADBAXT, TOLESIZ, SHO‘RPESHONA, BALOKASH Hayotdan, turmushdan to‘la mamnunlikka erishmagan, yashashdan qoniqish va mamnunlik tuyg‘usidan mosuvo. **Badbaxt, sho‘rpeshona, balokash** so‘zlari ma’nolarida mamnunlikning yo‘qligidan tashqari o‘ta darajada qiynalish, azoblanish ta’kidi ham mavjud. **Tolesiz** so‘zi ma’nosida “taqdir, omadga ko‘ra huzur va mamnunlikdan mosuvo bo‘lish” ta’kidi anglashiladi. **Sho‘rpeshona** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Balokash** so‘zi, asosan, badiiy nutqqa xos.

Yaproqlar so‘ladi – b a x t s i z man, Olovlar so‘nadi – b a x t s i z man. Yo‘lingga intizor ko‘zimni Tuproqlar ko‘mmadi – b a x t s i z man – Ammo sen baxtiyor bo‘lgin, hamisha! U.Azim, Oytuman. *Qiziq, kecha dunyoda undan baxtiyor odam yo‘q edi. Bugun undan b a x t s i z kimsa yo‘q.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *– To‘g‘ri aytding, – dedi shamol qoniqish bilan. – Bular – mardudlardir. Bulardan ham b e b a x t roq yana biri bor – hozir uni ham ko‘rasan, shomlarni titratadigan qichqirig‘ini ham eshitasan. Uni Murtad deydilar*. I.Sulton, Ozod. *Dunyodan rizqi uzilay deb turgan qariya, yarim asrdan ko‘proq umr ko‘rib, hali o‘z Vataniga ega bo‘lmagan bu ikki b e b a x t bandaning aytaman desa, hasrati kammi, eslayman desa, xotiralari yo‘qmi?* T.Malik, Shaytanat. *Siz bir meni emas, uch kishini baxtsiz qildingiz. Manavi go‘dak, jigaringiz Nizomni ham b a d b a x t qilgan odamsiz.* S.Ahmad, Ufq. *Endi u asliga – mayli, o‘sha b a d b a x t pakanaligiga qaytishni shundoq orzu qilardiki!* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Mana shu kal, sho‘rpeshona boshni ul sanamning ko‘ksiga bir boragina bossa, sanam uning ana shu t o l e s i z boshini silasa, shunda u tengsiz bu baxtdan yig‘lab yuborsa-yu sanam ham qo‘shilib yig‘lasa...* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Nima bo‘lganda ham Zahro ayni damda Yusufdan ko‘ra ko‘proq o‘z xayolidagi hayotni sevardi, chunki uzoq yillar o‘zini t o l e s i z his qilib yashar ekan, xayoliga erk bergandi, unga turli-tuman va shirin-shakar hayotlar rasmini solib ulgurgandi.* U.Hamdam, Muvozanat. *U so‘zini tamomlamay turib, sh o‘ r p e sh o n a opam yelimga butunlay qorishib ketdi.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Men ahmoq bo‘lmasam, sizdek ablahni sevib qolamanmi? Men... eh, sh o‘ r p e sh o n a!* A.Mamarasulov, Telba muhabbat. *Ko‘ngul berdim ko‘z-u qoshingga, jono, asr-u dilkash deb, Tarahhum qilmading hargiz, bu bir zori b a l o k a sh deb*. Vola, Mahzun g‘azaliga muxammas.

BAYROQ, YALOV, ALAM, TUG‘, BAYDOQ Dastaga o‘rnatilgan, davlat, tashkilot, uyushma, harbiy qism va sh.k.larga qarashlilikni ramziy ifodalovchi muayyan o‘lchamdagi mato. **Tug‘, alam** so‘zlari eskirgan. **Yalov** kitobiy nutqqa xos. **Baydoq** so‘zi folklor asarlari tilida uchraydi.

Ayniqsa, Manhettenda BMT qarorgohi oldida hilpirab turgan b a y r o q lar qatorida O‘zbekiston b a y r o g‘ ini ko‘rganimda mijjalarimga yosh qalqib chiqqanini sezmay qoldim. S.Ahmad, Oftob oyim. *...Binolarda rang-barang b a y r o q lar, hali yozuvlarining bo‘yog‘i o‘chmagan tiniq matolar hilpirab turardi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Qo‘lingda erk, boshda y a l o v, tilingda surud, Vataning bor, bola-bog‘chang, or-nomusing bor.* A.Oripov, O‘zbek Qomusi. *Har qanday lashkarning ham o‘z tug‘i, y a l o v i bor, Sen qaysi saltanatdan, Sen qaysi davlatdan kam.* A.Oripov, O‘zbekiston bayrog‘i. *Yo biror jahongir, yurt talovchining unutib qoldirgan mudhish t u g‘ idir*. Sh.Rahmon, Yurak qirralari. *Bayroqni o‘rdu tashiga chiqarib, yuksak ko‘taring! Qo‘liga yarog‘ olgan har bir jangchi t u g‘ ostida turib, agar erk kurashiga xiyonat qilsam, el qarg‘ishiga qolay, ko‘k kirib, qizil chiqsin, deya ont ichsin!* G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Oq-u qizil – ko‘p b a y d o q lar qurildi maydon ichinda*. “Erali va Sherali”.

BA’ZAN, BA’ZIDA, GOH(O), GOHI(DA), BA’ZI-BA’ZIDA, AHYONDA, VAQTI-VAQTI BILAN, UNDA-BUNDA, ORA-SIRA, HAR ZAMONDA, O‘QTIN-O‘QTIN, BIRDA-YARIM Hamisha ham emas, harakat-holat, voqea-hodisaning sodir bo‘lishida vaqt jihatidan muayyan uzilishlar bilan. **Goh**, **ahyon-ahyonda** so‘zlari yozma nutqda ko‘p qo‘llanadi. **Unda-bunda, ora-sira, har zamonda, birda-yarim** so‘zlari ma’nolarida vaqt oralig‘ining uzoqligi ta’kidi qabariq ifodalanadi, ayni paytda bu so‘zlar ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xosdir. **Vaqti-vaqti bilan** voqea-hodisa yoki jarayonning o‘rtacha darajada, **o‘qtin-o‘qtin** tez, ko‘p vaqt oralatmay yuz berishini, **ba’zi-ba’zida**, **ora-sira** juda sekin, har zamonda takrorlanishini bildiradi, ularda harakat-holatning takrorlanib turish ifodasi ustuvor.

Ular orasida Anzor ham bor. B a’ z a n u kechalari ovsar xolaning uyiga nimalarnidir keltiradi. Xullas, rosmana detektiv. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *B a’ z a n yarim kechalari eshik taqillab qolar, Iskandar onasining dik etib o‘rnidan turib ketganidan uyg‘onar, zum o‘tmay onasi qaytib kirardi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Otam o‘zi uncha-muncha gapga quloq soladigan emas edilar, shu fe’llari o‘tganmi, b a’ z i d a men ham o‘zimnikini juft deb turib olaman.* A.A’zam, Quroq. *Halvoday yumshoq, toshyong‘oqday qattiq va jumboq xotin zotining qalbini zabt aylamoqqa b a’ z i d a bir og‘iz shirin so‘z, bir dona gul yoki bir ma’qul xatti-harakat kifoya qilishi mumkin.* Q.Kenja, Toshqin. – *G o h o birpas eshikka chiqaman, – javob berdi soqolini tutamlab chol.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar. *Gulgun kunlaringni ortiga tashlab, Goh yashnab,*

g o h i d a qilichday chaqnab. Adirlar ortidan qulunday kishnab, Bir beg‘am, bezavol davroning ketar. S.Sayyid, Seni umring. *Ayniqsa, dimog‘ida qumg‘onning o‘ziga damlangan oliy navli ko‘k choyning yoqimli bo‘yini tuyganida, qalbida g‘aroyib tuyg‘ular junbushga kelib, g o h i d a bu dunyoning odami bo‘lmay qoladi.* N.Norqobilov, Kurash. *Demak, amirning qaytishi ham yaqin. Amir Mahmudbek Tarzi bilan b a’z i - b a ’z i d a maslahatlashib turar edi.* T.Malik, Savohil. *B a’z i - b a ’z i d a o‘ziga o‘xshash faqir qo‘shni qizlar, o‘rtoqlari chiqishib, ko‘ngillarini gam-g‘ussadan jinday bo‘shatadilar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bu ikki ulfat a h y o n d a mana shunday dilkashlik qilganlarida suhbat boshdan oyoq ikki mavzudan chetga chiqmas edi.* A.Qahhor, O‘jar. *Otabek bu holga tushunmadi, chunki a h y o n d a osiladirg‘on gunohkor Eski namozgoh doriga elitilar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *To‘g‘ri-da! V a q t i-v a q t i b i l a n “tozalash” o‘tkazib turmasa, eplab bo‘ladimi bu turfa jamiyatni!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *O‘zida bor-yo‘g‘i bitta oriq tanacha, u ham podasida, kal v a q t i-v a q t i b i l a n podachimiz ham, buncha ko‘p ip nima zaril, inson zoti tushunmaydi.* A.A’zam, Quroq. *U n d a-b u n d a bir eslagudek bo‘lsam, erkakchasiga qo‘pol kiyingan jez tishli qarimsiq xotin… ko‘z oldimga keladi.* E.A’zam, Shovqin. *Sovuq tushib, u n d a-b u n d a o‘g‘il to‘ylari boshlanib qoldi…* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *O r a-s i r a gumburlash eshitilar, so‘ng yana kimlarningdir qiynoq aralash chinqiriqlari kelardi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bilaman, ishing ko‘p. Katta bog‘ qilayotirsan. Mevasidan yeyish nasib qilsin, lekin o r a-s i r a kelib-ketib tur!* S.Nazar, Yashil boylik. *Uchib qolganlar alahsirab h a r z a m o n d a bir “do‘o‘st” deb yuborishardi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Kuchuk… h a r z a m o n d a to‘xtab, havoni ham iskab ko‘rardi.* I.Sulton, Ozod. *Kumushni o‘ q t i n-o‘ q t i n og‘riq ushlamakda, doya xotin va O‘zbek oyim unga o‘zlari bilgan udumlar bilan yordamlashmoqda edilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sherigim o‘ q t i n-o‘ q t i n labini yalab, ketma-ket yutinib katta tayyorgarlik ko‘ruviga qaraganda, gurunglashmoq istardi.* L.Bo‘rixon, Qo‘noq. *Avvaliga, b i r d a-y a r i m nochor odamlarning suhbatini tinglab, ta’sirlanib ham ko‘rdim.* I.Po‘latov, Chol. *Ha, albatta, Eskijuva – eskidan bozorjoy, xo‘p, shovqini bor, oldi-sotdining g‘ala-g‘ovuri, lekin endi eshak hangramaydi, b i r d a-y a r i m lo‘liniki ko‘rinib turadi, lekin u ham aravasini jim tortadi.* A.A’zam, Quroq.

BA’ZI, AYRIM, BA’ZI BIR, BIR XIL Muayyan narsa, kimsa, voqea-hodisalardan ayrimlarini, butundan bo‘lakni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. **Ayrim** va **ba’zi bir** so‘zlari ajratib ko‘rsatish belgisini **ba’zi** so‘zidan ko‘ra kuchli ifodalaydi. **Bir xil** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqida kuzatiladi.

Chindan ham, bu yoqlar kungay, qorlari yupqa, b a’z i joylarda erib ketgan, uzoq-yaqindagi bug‘ o‘rlayotgan yonbag‘irlarda boychechaklar ochilib qolgan edi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Umuman, Abusharof akamizning b a’z i qiliq-*

lari, gap-so‘zlari menga erishroq tuyula boshladi. E.A’zam, Shovqin. *Chavandozlar dastlabki shashtidan qaytdi, otlar shashtidan qaytdi. A y r i m chavandozlar to‘da chetiga chiqdi, peshonalarini artdi, tomoshago‘y bo‘ldi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Farhod o‘ng‘aysizlanibroq sal narida turar, a y r i m gaplarni ilg‘amay ham qolar edi.* E.A’zam, Shovqin. *Har xil mish-mishlarga ishongan b a ’ z i b i r ayollar kasal bolalariga dam soldirgani olib kelishar, ba’zan hatto domlani izzat-ikrom bilan uylariga olib ham ketishar edi.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Usta Alim qutidorning b a ’ z i b i r e’tirozlariga qarshi Otabekning qutidor tomonidan quvlang‘anidan tortib, shundan beri Marg‘ilong‘a yetti-sakkiz martaba kelib ketkanini ... so‘zlab chiqdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish – kasal odamning kulishiday og‘ir, b i r x i l sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg‘on xushomadlarday ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ayniqsa, shu topda ko‘ngli allaqaylarga tortayotgan Zebi uchun b i r x i l ezma kampirlardan ko‘ra bu – kamgap, seruyqu kampir yaxshi edi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

BEDARAK, DARAKSIZ, DOM-DARAKSIZ, BEDOM-DARAK, NOM-NISHONSIZ, XAT-XABARSIZ Hech qanday xabar-ma’lumot yo‘q holatda. Ko‘proq kimsaga, ba’zan esa boshqa narsalarga tegishli ana shunday xabar-ma’lumotning yo‘qligiga nisbatan qo‘llanadi. Qatordagi so‘zlar orasida **daraksiz** so‘zida mazkur ma’no nisbatan neytral ifodalangan, boshqa so‘zlarning deyarli barchasida mazkur ma’no anchayin kuchaytirilgan va qat’iylashgan tarzda o‘z aksini topgan. **Xat-xabarsiz** so‘zi faqat kimsaga nisbatan qo‘llanadi.

Qay biri b e d a r a k, qay biri beun, Uzoq sarhadlarda jimgina uxlar. A.Oripov, Xotira. *Mansurjonning hamma ishi joyida-yu, lekin ko‘nglida kishi bilmas bir dardi bor. Tog‘am urushga ketib, “b e d a r a k yo‘qoldi” degan xabar kelgan edi*. Sh.Xolmirzayev, Ota yurt. *Xudoyqulov d a r a k s i z ketgandan keyin ferma mudiri bor edi, barzangiday yigit, bilmadim, nima balo qilib, urushga bormay qolgan, shuni rais qilib qo‘yishdi.* O‘.Umarbekov, Husn. *Uxlamay kutib o‘lturdi. Ammo ul tungi soat o‘n bir bo‘lsa ham kelmas, o‘n ikkida ham d a r a k s i z edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Muxtorxon akam Stalingrad janglarida d o m-d a r a k s i z yo‘qolgan, dadam bilan akam qamoqda. Endi meni olib ketishyapti*. S.Ahmad, Umrim bayoni. *Umarshayx mirzo qal’aning bir chetida, daryoning baland qirg‘og‘i ustida, jar labida turgan kabutarxonaga qarab yo‘l oldi. Otliq choparlar d o m-d a r a k s i z ketganliklari uchun Mirzo endi qanotlik “chopar”larini ishga solmoqchi edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Volidamiz b e d o m-d a r a k ketgan ikki o‘g‘lining dard-firoqida kuyib, yotib qoliptilar*. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Mana, bir yil bo‘ldiki, o‘g‘lidan xat olmaydi, n o m-n i sh o n s i z ketdi. O‘qib yurgan paytlarida tuzuk edi, haftada, juda bo‘lmasa, oyda bir yozib turardi. Ishga kirdi-yu, bedarak ketdi*. O‘.Umarbekov, Sovg‘a. *Abdumo‘minning*

B

Akbarga kuyov bo‘lgisi kelib yozgan maktubi ham, yuborgan sovg‘alari ham suvga cho‘kib n o m-n i sh o n s i z yo‘qolganini Buxoroda turib eshitgan Abdullaxon: – Battar bo‘lsin! – deb suyundi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Xudoyg‘a shukr, qo‘lingda xating bor, o‘lg‘anning ustiga chiqib tepkandek x a t-x a b a r - s i z qo‘yma. Har bir o‘n besh kunda xat yozib eringga ber*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Toshmurod x a t-x a b a r s i z, ikki yil o‘sha yoqda qurilishda ishlab, buyragi og‘rib, zo‘r-bazo‘r uyiga qaytib keldi.* G‘.Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida.

BEFAHM, FAHMSIZ, BEFAROSAT, FAROSATSIZ, BETAMIZ, KALTAFAHM, MOLFAHM O‘z aqli-farosati bilan bir ish qilolmaydigan, narsa-hodisaning mohiyatini tez tushunib yetmaydigan, did-farosati yetarli emas. **Fahmsiz** so‘zining **befahm** so‘zi bilan qo‘llanish darajasi qariyb yaqin. **Befarosat, farosatsiz** so‘zlarida did-farosatsizlik ifodasi ochiq ifoda topadi. **Betamiz** so‘zi ma’nosida salbiy bo‘yoq anchayin kuchli. **Kaltafahm** so‘zida belgi darajasi bir qadar past. **Molfahm** so‘zida salbiy bo‘yoq juda ham kuchli.

Oldiga kelganni qaytarmay yemoq, Aslida, aqli yo‘q hayvonning ishi. Og‘izga kelganni qaytarmay demoq Noqis-u b e f a h m, nodonning ishi. A.Oripov, Inson. *Qozoqiliklarda Husayn Mirzo sulton emas, shahzoda edi. Hozir ahvol tamomila o‘zga, bul b e f a h m shahzoda emas, sultoni mutlaq qarshisida turganini hanuz fahmlamaydi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Ne bo‘ldiki, sen bunday odobsizlik qilasen? Podshohlar e’zozlagan narsa ilkingda-yu, sen f a h m s i z suv ichmoqdasen!* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Nahang o‘lponchi Sepkilshohning moldek f a h m s i z, bo‘ridek rahmsiz soliqchisi edi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Bola bo‘lib birov bilan mushtlashmabman, birovdan tuzukroq kaltak yemabman. Ana endi, dong‘im chet elga chiqib turganida, bir b e f a r o s a t savalasa.* T.Malik, Shaytanat. *Deydilarki, kim qaysi muchalda tavallud topsa, fe’li o‘sha jonivorga o‘xshab ketadi. Agar shu rost bo‘lsa, yana bir – o‘n uchinchi muchal joriy etilib, b e f a r o s a t larni shunga jamlamoq va bu muchalga eshakning nomini bermoq durust bo‘larmi edi.* T.Malik, Shaytanat. *Bani Odam faqatgina baxt yoki baxtsizlik nima ekanini farqlay olmasa, unchalik ajablanmasa ham bo‘lar, “f a r o s a t s i z, adashgan banda”, deb qo‘yilar.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Chindan ham sinchkov bo‘lsangiz, menga dunyodagi eng f a r o s a t s i z hayvonning nomini aytib bering-chi. Yo‘q, Eshak emas.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Shoshmay tur, qizim, ertagayoq o‘zim qudanikiga tag‘in borib, gaplashib kelaman. Kerak bo‘lsa, Toshkaniga borib, yetaklab kelaman o‘sha b e t a m i z ni!..* U.Hamdam, Muvozanat. *Bu dunyoda so‘rab bo‘lmaydigan narsalar ham borligini, binobarin, ko‘pdan ko‘p savollarga ochiqdan ochiq javob berilmasligini hali bilmaydigan b e t a m i z jiyan battar xuruj qiladi.* E.A’zam, Bizning tog‘a. *Anavi to‘ng‘ich akangizning qo‘ylari bo‘lmaydi! Bari o‘ziday k a l t a f a h m!* T.Murod. Ot kishnagan oqshom. *Urush degan palakatni, ko‘pincha, k a l t a f a h m siyosatdonlar o‘ylab topadi.*

O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – *Ko‘raman, – dedi Juman bobo. – Ammo sen ko‘rmaysan. Mollar orasida yurib m o l f a h m bo‘lib ketgansan.* S.Ahmad, Tut pishig‘i. *Askarlar beixtiyor uning ketidan ergashib, yoppasiga chekinishga tushishdi. – Qayt, m o l f a h m lar! Buyoqda pishirib qo‘yibdimi? – deya Sepkilshoh otda kelib ularning yo‘lini to‘sdi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

BEGONA, YOT, O‘ZGA, BIROV, KISHI, NOTANISH, G‘AYIR, AG‘YOR Qarindoshlik, tanishlik, o‘rtoqlik yoki boshqa jihatlardan bir toifadagi kishilardan chetda turuvchi, ularga hech bir munosabatda bo‘lmagan shaxs. **Yot** so‘zida begonalik bilan bir qatorda nodo‘stlik ta’kidi ham mavjud. **O‘zga** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Kishi** so‘zi mazkur ma’nosi bilan ko‘proq ayollar so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **G‘ayir, ag‘yor** so‘zlarida begonalik bilan bir qatorda, nodo‘stlik ma’nosi ham anglashilib turadi, kitobiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan bu so‘zlar eskirgan.

Ba’zan dil uyingni aylar munavvar Yetti yot b e g o n a yoqqan bir chiroq. A.Oripov, Hayot haqiqati. *Uni xonasidan chiqarib yuborib, derazadan tashqariga tikilganicha chekib turgandi, xonasiga b e g o n a kishilar kirib kelishdi.* A.Namozov, Notanish. *Otabek o‘zi bilan ko‘rishgan mundagi ikki y o t kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko‘z ostidan kechirdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Seni y o t lar tugul hatto – Qilurman rashk o‘zimdan ham, Uzoqroq termulib qolsam, Bo‘lurman g‘ash ko‘zimdan ham.* E.Vohidov, Rashkim. *Yuzta jonim bo‘lsa har bir Kokilingga bir pilik, Tolasiga o‘ z g a larning Ko‘ngli chirmash bo‘lmasin.* E.Vohidov, Uch balodan saqlasin. *Mana bu nomani Mozori Sharifga tezlikda yetkaz. Boshing ketsa ketsin, nomaga o‘ z g a lar nazari tushmasin.* T.Malik, Savohil. *Nima bo‘lgandayam, o‘shanda b i r o v larning yukini tashib, tachka sudrab yurgan bolangizni odam qilgan mana shu yomon Dilora edi.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Til bilan b i r o v ning aybini aytish oson, o‘z tili bilan o‘z aybini aytadiganlar juda kam.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Kunlardan bir kun hali k i sh i dan qochar darajaga yetmagan o‘n uch-o‘n to‘rt yoshlar chamaliq do‘ndiqqina bir qiz kelib, men chiqarg‘an yangi nusxa shohidan so‘radi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qo‘rg‘on eshigidan ayol ovozi eshitildi: – Nima kerak? – Munda kel, – chol qo‘li bilan imladi. – K i sh i bor-ku. – Qarindosh... Xushro‘yning o‘g‘li, – deb tushuntirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *N o t a n i sh yigit ichkariga kirishi bilan salom berib, bo‘ynidagi tumorini sarkardaga uzatdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Zodagon yigitlar ko‘ldan chiqib kelib, baqrayib qolishdi: dasturxon payhon, noz-ne’matlarning ko‘pi gumdon. Boshiga sopol idish kiygan n o t a n i sh juldirvaqi ko‘zini mo‘ltiratganicha qunishib turibdi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Alamzada – alamzada avlod! Bu avlod... havoda muallaq osilib qoldi. O‘z kasb-kori bo‘yicha u yoqlik-da bo‘lmadi, buyoqlik-da bo‘lmadi. Arosatda qol-*

di! Oqibat g‘ a y i r avlod bo‘lib qoldi! T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Bilaman, qadimdan bilaman: Siz a’lo hazratning eng ishonchli lashkarboshisi bo‘lib keldingiz va keyin ham shunday bo‘lib qolasiz. Shuning uchun meng‘a g‘ a y i r ko‘zi ila qarashingiz tabiiy, deb hisoblayman.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Ota-bobolarim sulton Sanjar xizmatida bo‘lishg‘on. Davlat ishida yurg‘onlar betashvish bo‘lmaydi. Xijolat bo‘lmang‘. Oramizda a g‘ y o r borlig‘i juda aniq bo‘lib qoldi.* Mirmuhsin, Temur Malik.

BEGONASIRAMOQ, YOTSIRAMOQ, YOTSINMOQ Notanish odamlar orasida o‘zini bir qadar noqulay sezmoq, tortinmoq, ularga qo‘shilib keta olmaslik. **Yotsiramoq** ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Yotsinmoq** – shevaga xos so‘z.

Ikkinchi ona va uning bolalari Ochilga yomon ko‘z bilan qarashmasa ham, har holda, u b e g o n a s i r a r, sal narsani ko‘ngliga olib o‘ksir edi. P.Qodirov, Uch ildiz. *...Bir payt tashqarida ikki begona erkakning qorasi ko‘rindi. Biri kalta charm paltoda, ikkinchisi esa rusga o‘xshadi – uzun shinelli – b e g o n a s i r a b oyoq olishlaridan kimnidir surishtirib kelishgani sezildi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Unga y o t s i r a b, xo‘mrayib qarashdi.* A.Muxtor, Chinor. *Nazarimda... unsiz savollarida odatdan tashqari, noqulay bir y o t s i r a sh paydo bo‘lgan, hech kim o‘zini qanday tutishni bilmas edi.*A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. – *Menga bir-ikki qayta qarab olg‘aningiz uchun bilsangiz ham so‘zlashka mendan y o t s i n dingizmi, deb usta o‘yladilar shekilli, – dedi Otabek.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bog‘chadan kelgan bolalar uydagi mehmon bolani ko‘rib, unga biroz y o t s i n ib tikilib turishdi...* I.Rahim, Chin muhabbat.

BEHUDA, BEKOR, BEKORCHI, BEKORGA, FOYDASIZ, BEFOYDA, ZOYE, BENAF, MA’NOSIZ, ORTIQCHA, CHAKKI Hech bir naf-manfaati yo‘q, biron-bir foyda bermaydigan, mutlaqo keraksiz. **Bekor, bekorchi, bekorga** so‘zlari mazkur ma’noda ko‘proq oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Zoye** aksar hollarda *ketmoq*, *bo‘lmoq*, *qilmoq* kabi so‘zlar bilan qo‘llanadi. **Benaf** so‘zi kitobiy va eskirgan, juda kam qo‘llanadi. **Ortiqcha** so‘zi ma’nosida foydasizlikdan ko‘ra keraksizlik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Chakk**i so‘zi mazkur ma’noda ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Xayoling b e h u d a gap bilan banddir. Eng oddiy jumboq ham senga kamanddir. A.Oripov, Eng qulay javob. *Qani, kuch bo‘lsa-yu, tog‘ni tilkalasang, B e h u d a yotmasa ne-ne xazina.* Mirtemir, Berdimat amaki. *Nahotki, u o‘z fikridan shu qadar tez qaytadigan kishilar toifasidan bo‘lsa? Unda shuncha yillik toat-ibodat ham b e k o r ekan-da?* O‘.Usmonov, Girdob. *Bu gaplar bari b e k o r. Bu bilan hech bitmas kor.* H.Olimjon, Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod. *Badbaxt Fitna! Qo‘yasanmi, qo‘ymaysanmi, axir? “Hubbil vatani minal-imon”, deganlar – “vatanni sevish imondan”, axir! Bilmasang b e k o r-da, Vatani yo‘q*

– *dunyoda lo‘li xolos.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Lekin buning uchun o‘ylanib o‘tirish kerakmi? B e k o r ch i xarxashani ko‘paytirib nima qiladi kishi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Kattakonning mahallaga aralashmasligiga sabab dimog‘dorligidan emas, avvalo, ko‘p ishli odam, b e k o r ch i qartabozlig-u safsata sotib o‘tirishga fursati yo‘qdir.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Onasining uzoqlashib ketgan tog‘asini yigit b e k o r g a yo‘qlab keladimi? Yo‘q, mandan kiyim-kechak, pul-mul olish umidida kelgan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Tavba! Shuncha yil o‘tib unutmabdi-ya, boyoqish! Demak... ko‘nglida bor ekan! B e k o r-g a ketimdan chopib yurmagan ekan...* O‘.Usmonov, Girdob. *Onasining mo‘ltillab turgan ko‘zlarini ko‘rib, noo‘rin, f o y d a s i z gaplarni ayta boshlaganini fahmladi.* T.Malik, Shaytanat. *– U to‘g‘rida qat’iy bir qarorg‘a kelganim uchun sizlarga so‘zlab o‘lturish ham f o y d a s i z, – dedi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Yo‘q, bilmaysen! Bilsang so‘rab o‘ltirmas eding! Bas! Bu b e f o y d a mubohasaga chek qo‘ymoq darkor!* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Endi mashina kutish b e f o y d a. Malikani o‘rtaga olib chor-nochor yayov yo‘lga tushamiz.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *O‘zini tuhmat balosiga uchragan mazlum sifatida ko‘rsatib, hech bo‘lmaganda, sovxoz direktorligini qaytarish ilinjida ko‘p urindi. Ammo urinishlari z o y e ketdi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Kimda iqtidor yo‘qdir, Ilm ila hunar z o y e, Iqtidor berurman deb, Chekma ranj, ketar z o y e.* E.Vohidov, Kimda iqtidor yo‘qdir. *B e n a f o‘tgan damlar, men sizning uchun, Hayhot, qabrimga ham yig‘lab borurman.* A.Oripov, Qah-qah urar bo‘lsam… *Xastalikka bunday tashxis qo‘ygan hakimlar muolajani b e n a f deb kelganlar.* T.Malik, Falak. *Yo‘lchi… Qambar bilan biroz so‘zlashmoqchi bo‘ldi, lekin bundan ojiz qoldi: har qanday so‘z behuda, m a’-n o s i z ko‘rindi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *U har narsa bo‘lishi mumkin deb, avvaldan shubhaga yo‘l ochgan, endi kundan kunga Jamildan shubhalanish o r t i q ch a ekanini his etar…* O.Muxtor, Mo‘jiza. *Kerakli narsalardan kecha besh arava ketdi. Bugun bir arava ketadi. Unsin, hammasi o r t i q ch a narsa.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Jadidlikni o‘zingizga nomunosib ko‘rganingizdan so‘ng safimizda parokandalik bo‘ldi, xabaringiz bor, ko‘p fozillar o‘zga yo‘l tutdilar. Vallohi, bu harakatlarning barchasi ch a k k i, – dedi Munavvar qori.* T.Malik, Savohil. *Nima qilardingiz, axir bola sizni ko‘rib uyiga ketgisi keladi. Bu ovqatlarni ham ch a k k i olib kelibsiz.* S.Ahmad, Zumrad.

BEIXTIYOR, IXTIYORSIZ, BEXOSDAN, G‘AYRISHUURIY, BILMASDAN O‘z xohish-ixtiyoridan tashqari holda, g‘ayriixtiyoriy ravishda. **Bexosdan** so‘zida kutilmagandalik ta’kidi kuchli darajada, bu so‘z ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Bilmasdan** so‘zi ma’nosida harakat natijasining qanday bo‘lishini idrok etmaganlik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Onam... Uvishgan oyoqlarini uqalagancha oqsoqlana-oqsoqlana orqaga, bola yig‘layotgan tomonga qarab ketdi. Men ham b e i x t i y o r ergashdim. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *So‘z shu yerga yetganda, men b e i x t i y o r*

B

o‘rnimdan turdim-da, “Shohga hamd-u sano aytdingiz, endi davlatiga ham duo qilsangiz deb iltimos qildim. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Otabek maktubni tugatib, tushunmay o‘tkan jumlalarini qayta ko‘zdan kechirar ekan, Azizbek voqeasi ustiga kelganda, i x t i y o r s i z “tulki” deb yubordi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Yo‘lchi to‘g‘risidagi qizning so‘zlarini chuqur diqqat bilan, yurak to‘lqini bilan tinglar, i x t i y o r s i z quyulib kelgan qaynoq ko‘z yoshlarini Gulnor ba’zan zo‘rg‘a yashirar, ba’zan yashirishdan ojiz qolar edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Shunday jimlik cho‘kdiki, bu xildagi jimlik aytgani til bormaydigan, eslashni ko‘ngil ko‘tarmaydigan biron dahshatli fojiaga uchrab halok bo‘lgan kishining nomi b e x o s d a n tilga olingan vaqtda bo‘ladi.* A.Qahhor, Xotinlar. *Tobutda yotgan o‘likning qo‘limi, oyog‘imi biron sabab orqasida b e x o s d a n qimirlab ketsa, kishi qay ahvolga tushadi?* A.Qahhor, Ming bir jon. *Shu mahal allaqanday g‘ a y r i sh u u r i y savq ila sezib qoldimki, vujudim bu ishga qodir emas.* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Yo‘lchining ko‘z oldi qoraydi, ruhan chuqur ezildi, g‘ a y r i sh u u r i y ravishda otni haydab ketarkan, bir nima “qars” etib, ot bir tomonga keskin burilib to‘xtadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Tevaragimizni shundoqqina qishloq yigitlari o‘rab olishibdi. B i l m a s d a n tutning tagiga borib qolsam, ikkitasi menga qarab baqrayib turibdi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Va Yusuf alayhissalom otalari Yoqub alayhissalomg‘a b i l m a s d a n bir odobsizlik qilib qo‘ygani uchun unga xabar keldiki, barcha nabiylardan yetmish yil keyin jannatga kirgay*. I.Sulton, Alisher Navoiy.

BEJIRIM, XUSHBICHIM Biron-bir nuqsonga ega emas, har jihatdan mutanosib va kelishgan. **Xushbichim** so‘zi ma’nosida mutanosiblik va ko‘rimlilik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Balandroq joydan, deylik, musofirxona derazasidan turib nazar tashlasangiz, Xoniya xuddi xayolparast musavvirning orzumand mo‘yqalamidan chiqqan b e j i r i m, benuqson bir ro‘yodek yarqirab ko‘rinadi. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Asqar... imoratning chiroyli, b e j i r i m terila boshlagan g‘ishtlariga havasi kelib: Ishlar boshlanib ketibdi-ku! – deb qo‘ydi.* L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Mullavachcha x u s h b i c h i m, qosh-ko‘zlari qora, yaxshi liboslar kiyib yuradigan bazzozning erka o‘g‘li Rukniddin shaharda ko‘plarg‘a ma’lum.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Bosh injener, yoshgina, x u s h b i c h i m yigit, pillapoyada to‘xtab: Xo‘sh, kelin topildimi o‘zi? – deb kuldi.* O.Yoqubov, Billur qandillar.

BEKAM-KO‘ST, KAM-KO‘STSIZ, BENUQSON, TO‘LA (TO‘LIQ), TO‘KIS, TO‘LA-TO‘KIS, BUT, BADASTIR, MUKAMMAL Hech qanday kamchiligi, nuqsoni yo‘q, har jihatdan to‘liq. **Bekam-ko‘st** so‘zi **bekam-u ko‘st** tarzida ham qo‘llanadi. **Benuqson** so‘zida nuqsondan batamon xolilik ta’kidi qabariq ifodalangan. **To‘la-to‘kis** so‘zi ma’nosida esa belgi darajasi yanada ortadi. **But** so‘zida tugallik ta’kidi qabariq ifodalangan, bu so‘z ko‘proq so‘zlashuv

nutqiga xos. **To‘la** so‘ziga nisbatan **to‘kis** so‘zida belgi darajasi kuchli. **Badastir** so‘zida har jihatdan ta’minlanganlik ma’nosi alohida ta’kidga ega, anchayin kam qo‘llanadi.

Nihoyat, gapira-gapira qaqragan lablarini tili bilan yalab, Lutfiniso jim bo‘ldi. Keyin “g‘iybat kitobi”ni b e k a m-k o‘ s t qilib qizi o‘qidi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Gap shundaki, hujjatli filmlarga ssenariy yozib yuradigan bu kimsa aslida boshqalar hazar qiladigan, har yo‘l bilan qochadigan maxsus topshiriqlarni b e k a m-k o‘ s t, haddi a’losiga yetkazib bajarib berardi.* E.A’zam, Shovqin. *Juda yaxshi bola edi, hamma fanlardan a’lo baholarga o‘qir edi, barcha to‘garaklarga faol qatnashar, muallimlarning aytganini b e k a m-u k o‘ s t bajarar, o‘ta intizomli, do‘stlariga mehribon, chinakam o‘rtoq edi.* E.A’zam, Shovqin. *Uzun ko‘ylagi butun badanini k a m-k o‘ s t s i z yopib turadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *G‘upra onasi o‘lganda, Yozyovonga yeldek uchib bordi. Barcha marosimlarni tog‘asi bilan k a m-k o‘ s t s i z o‘tkazdi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Yo‘q , men ham farishta emasman. B e n u q s o n yolg‘iz parvardigor.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Kushtigirlar ham biri olib-biri qo‘yib, u g‘azalni b e n u q s o n o‘qib berishdi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Chunki Huri Zaynabning butun Asroridan t o‘ l a xabardor.* H.Olimjon, Zaynab va Omon. *Yangi uyga ko‘chib ketgan bo‘lsalar ham, Munisxon t o‘ l a mustaqillikka erishgan bo‘lsa ham, qaynana va kelin munosabati o‘zgarmadi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *So‘nggi yillarning voqealarini qog‘ozga tushirganimda, barcha qurbonlar, to‘kilgan barcha qonlar ko‘z o‘ngimda shunday t o‘ l i q gavdalandiki, uyqularim o‘chib ketdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Har holda, bu safar bolalik xotiralari bilan bog‘liq. Bolalik xotiralari Jalilsiz t o‘ k i s bo‘larkanmi?* T.Malik, Shaytanat. *Noto‘kis olamning t o‘ k i s va tugal Ijodi senmisan, mo‘jiziy tal’at? Seni paydo etib buncha mukammal, Hayrat qilmasmikin o‘zi tabiat.* E.Vohidov, G‘azalni sevgan qiz. *Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan t o‘ l a-t o‘ k i s davom etar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bog‘ ichidan Yormat chiqdi. Xo‘jayinlar to‘g‘risida xotiniga savollar berdi. Lekin t o‘ l a-t o‘ k i s javob olmagani uchun Gulsumbibiga ancha-muncha qo‘lansa so‘zlar, so‘kishlar yog‘dirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Mayli-da, xush keldi, b u t keldi ko‘klam, To‘kinlik, baraka, kut, keldi ko‘klam…* E.Vohidov, O‘lkamda bahor. *“Menga desa, dunyoni o‘t olmaydimi. O‘zim sog‘, ustim b u t va qornim to‘q bo‘lsa, bas” qabilida yashaydiganlar xilidan edi u.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bo‘lmasa, o‘zi Toshkentning baobro‘, b a d a s t i r bir xonadonida katta bo‘lgan; otasi o‘sha kezlar shaharda yagona limonad zavodining direktori edi…* E.A’zam, Shovqin. *Mehmon yigit... xonaning quyidan yuqorisiga qadar ko‘z yugurtirib havaslandi. – Sharoitingiz b a d a s t i r ekan.* X.Do‘stmuhammad, Umid guli. *Noto‘kis olamning to‘kis va tugal Ijodi senmisan, mo‘jiziy tal’at? Seni paydo etib buncha m u k a m m a l, Hayrat qilmasmikin o‘zi tabiat.* E.Vohidov, G‘azalni sevgan qiz.

B

BEKINMOQ, YASHIRINMOQ, PISMOQ, BIQINMOQ O‘zini panaga olib, o‘zganing nazaridan pinhon bo‘lmoq. **Yashirinmoq** so‘zi ham nutqda ko‘p ishlatiladi. **Pismoq, biqinmoq** so‘zlari ma’nosida gavdani pastga olib, nazardan pinhon bo‘lish ta’kidi qabariq ifodalangan. **Pismoq** so‘zi shevalarda **pusmoq** tarzida qo‘llanadi. **Biqinmoq** so‘zi ko‘proq shevaga xos.

Chol… shuni es-es biladiki, bolaligida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga b e k i n ib, jon saqlab qolgan. Sh.Xolmirzayev, Qariya. *Ishorani payqagan qiz darhol joyidan turib choyshabga o‘randi-da, arazlagan misol g‘amzali bir qarash qilib, sharpasizgina o‘sha yoqqa chiqib b e k i n di*. E.A’zam, Shovqin. *Oltinchi bor hujum qildi dushman yana kuch to‘plab, tog‘ ichiga y a sh i r i n di chorasiz isyonkorlar*. O‘.Umarbekov, Gayduk qizi. *Sovuq shu darajada ediki, biron pana joyga y a sh i r i n masa, chidab bo‘lmas edi*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Humoyun chekinib borardi. Sherxon orqadan go‘yo p i s ib, hamla uchun payt poylab kelar edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ma’mur boyvachcha xirgoyi qilib borardi. Sabohiddin p i s ib kelib unga pichoq urdi-yu, orqasiga qarab qochdi*. T.Malik, Devona. *Keyingisi oson ekan: amaki p u s ib o‘tirgan yeridan sakrab turdi-da, yarim engashgan ko‘yi to‘rini silkidi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Tom shuvog‘ig‘a loy oling‘an zovur shekillik, o‘rinni kechagi kelishida b i q i n ish uchun belgulab ketkan edi…* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mehmonga borsa – qochib qoladi, do‘xtirga borsa ham shu ahvol! Bu yoqda gazetada mashhur bo‘lib turibdi-yu, b i q i n ib o‘tirishini qarang*! E.A’zam, Shovqin.

BEKOR, BEISH, ISHSIZ, BEKORCHI, BO‘SH Ish-yumushga ega emas, muayyan ish bilan mashg‘ul bo‘lmagan. **Beish, ishsiz** so‘zlarida ish bilan muntazam ta’minlanmaganlik ta’kidi mavjud, ayni ma’nodagi **ishsiz** so‘zi termin maqomiga ham ega. **Bekorchi** so‘zi ma’nosida “ishi yo‘q shaxs” ta’kidi ochiq ifodalangan. **Bo‘sh** so‘zida umuman mashg‘ul emaslik, band emaslik ta’kidi ochiq ifodalangan.

Xotira yozganda, unga o‘z hayoti avvalgidan iliqroq va ma’noliroq tuyulgan edi. B e k o r o‘tirganda esa yana o‘sha og‘ir o‘ylar, sovuq pushaymonlar xayoliga bosib kela boshladi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Jinoyatlar izidan yurgan Zohid bu yerga kelguncha ishsiz o‘tirishni tasavvur qila olmas edi. Qarang, shunday mahkamada ham b e k o r o‘tirish mumkin ekan*. T.Malik, Shaytanat. *B e i sh qoldi Matmusa, Endi ne qiluv kerak?* E.Vohidov, Matmusaning qo‘shig‘i. *Chindan ham Qulahmad santexnik bo‘lganidan beri hali b e i sh qolgani yo‘q*. A.Muxtor, Taqdir kimning qo‘lida? *Otabek keyingi vaqtlarda savdoga yurishni tark qilib qo‘yg‘ani uchun Hasanali i sh s i z qolg‘an… edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qahraton qish. Nima ko‘p – i sh s i z ko‘p. Ish topish qiyin. Mardikorlik, dala ishlari yo‘q*. Oybek, Tanlangan asarlar. *– Domla, men bu tomonlarini tushunmayman-u, xalq boyiyapti... – dedi Boltaboy. – Bundan tashqari, i sh s i z lar ko‘payib boryapti*. Sh.Xolmirzayev, Quyosh-ku falakda kezib yuribdi. *Yumushi*

borlar o‘rinlaridan turib, ishlariga ketdilar, b e k o r ch i lar esa bir g‘ijinib olib, ko‘rpani boshga tortdilar-da, uyquni kelgan joyidan davom ettirdilar. T.Malik, Devona. *Ikkita buldozer yerni tekislay boshladi, ikkita ko‘tarma kran keltirildi. To ularni o‘rnatguncha, yigitlarning b o‘ sh lari chodirlarni ko‘chirish bilan ovora bo‘lishdi*. O‘.Umarbekov, Yo‘lda. *Yaqinda “Jiguli” olganman. Bir katay-sa qildiraman, do‘stim. Bugun b o‘ sh misan axir*? O.Yoqubov, Billur qandillar.

BEKORGA, ASOSSIZ, BEJIZ, BEKOR, BEKORDAN BEKORGA, NOO‘RIN, O‘RINSIZ Arzirli sabab, asos bo‘lmagani holda. **Bejiz** so‘zi, asosan, *emas* so‘zi yoki inkor shaklidagi boshqa so‘z bilan qo‘llanadi va asos-sa-babga “bir narsasi bordir” qabilida ishora qiladi. **Bekordan bekorga** so‘zida belgi darajasi ortiq. **O‘rinsiz, noo‘rin, asossiz** so‘zlarida asos, sababning mut-laqo yetarsizligi ta’kidi mavjud.

Otabek bunday so‘roqlarning b e k o r g a emasligini payqab, buning tagida qanday bo‘lsa ham bir gap borlig‘ig‘a ishondi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Olim akam b e k o r g a dunyo kezmagan ekan, uyini xon qasri-yu saroylaridan qolish-maydigan qilib bezattirgan edi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Begunoh odamlarni a s o s s i z ayblab qamashdagi gunohlari uchun yaqindagina vazifasidan pastlatilgan odamning yana cho‘qqi sari parvozi ajablanarli hol edi*. T.Malik So‘nggi o‘q. *– Yaxshi qilibsiz, – aya shunday dedi-yu, kuyovining kelishi b e j i z emasligini sezdi. – Nima, yigirma o‘tkazasizlarmi*? O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Kecha kechqurun men bilan gaplashishdi, sen to‘g‘ringda bilganlarimni aytib berdim. B e j i z kel-magan. Yaxshilik bo‘lishini sezib turibman*. S.Ahmad, Menga yetib kelmagan xat. *Qizning yoshi o‘n yettidan o‘tganda ona tashvishlandi: – Nimaga shaharlikka be-raman, deysiz? Qizning yoshi o‘n sakkizga yetdi. B e k o r qaritib qo‘yasiz!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Munisni b e k o r Toshkentga uzatdingiz, domla! Menga berganingizda hozir oldingizda bo‘lardi…* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *So‘rab nima qilasan, bolam? Otangning fe’lini bilasan-ku, b e k o r d a n b e k o r-g a meni g‘azablab o‘tiribdi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Balki, buning hammasi taxmindir? Unda qaysi ahmoq b e k o r d a n b e k o r g a shunday sovg‘alar qila-di?* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Hamdamov n o o‘ r i n gapirganini anglab, endi nima deyishini bilmay, to‘xtab qoldi*. A.A’zam, Kichik ilmiy xodim Hamda-mov. *Zal gulduros qarsak ichida qoldi: mening n o o‘ r i n savolimga juda mu-nosib javob berilgandi…* N.Eshonqul, Xaroba shahar surati. *Afsuski, Adhamxon Malvada o‘ r i n s i z zo‘ravonliklar qilib, biz topshirgan nozik ishlarni buzib qo‘ydi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Agar odamlar yoshlikdan chiniqib borsalar, bizning tashvishlarimiz o‘ r i n s i z bo‘lib qoladi*. T.Malik, Devona.

BEKORCHI, BO‘LMAG‘UR, BEMA’NI, BEHUDA, YOLG‘ON, ASOSSIZ Hech bir foydasi yo‘q, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, tagi puch. **Bo‘lmag‘ur** so‘zi mazkur ma’noni befoydalik, yaroqsizlik, keraksizlik ta’kidi

bilan ifodalaydi. Ayni paytda bu so‘z kuchli salbiy bo‘yoqqa ega. **Yolg‘on** so‘zi-
B da haqiqatga zidlik ochiqcha ifodalangan.

– Meni yomon ko‘rganlarning maqsadi manavi, – rais shunday deb stolni urib qo‘ydi. –Yo‘q, unchalik emas. B e k o r ch i xavotirga berilar ekansiz. T.Malik, Devona. *Oyim, qo‘l silkidilar: Hammasi b e k o r ch i gaplar!.. Shunga ishonib o‘tiribsizlarmi?* M.Mansur, Judolik diyori. *Yo‘q yerdan yo‘q xavotir, b o‘ l - m a g‘ u r tashvishlar. Shunga qancha odam xafa, qanchasi bezovta*. A.A’zam, Hali hayot bor. *Men kecha b o‘ l m a g‘ u r gap aytib qo‘yibman-da, molga o‘xshab.* I.Sulton, Genetik. *Bu majlisga u din peshvolaridan hech kimni chaqirtirmagan, haqiqiy olimlarni ko‘rolmaydigan hasadgo‘y mullalar b e m a’ n i gaplarni o‘rtaga tashlab, ilm ahlining ta’blarini xira qilishlari mumkin edi.* M.Osim, Aljabrning tug‘ilishi. *O‘sha tumanli kundagi gurungimiz esingdami, uka? U b e m a’ n i gap edi. Shunchaki, o‘zimizning qilig‘imizni, vahshiyligimizni yashirish uchun aytgan edim.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Normo‘min... Abdurahmon polvondek kelbatli bo‘lganida bormi, manavi chiranchiq xo‘roz o‘zini bu qadar katta tutmagan, bir to‘lg‘ashdayoq yerga chalpak qilaman, deya b e h u d a xayollarga bormagan bo‘lardi*. N.Norqobilov, Kurash. *Bizdaqa xokisorlarni aldashga, avrashga usta ular. Boshimni qotirma, jiyan, qo‘y b e h u d a gaplarni.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Zero, u hamon xojasining o‘zi haqidagi dastlabki fikrlari (qarilik, yalqovlik, qaysarlik borasida) a s o s s i z ekanligini isbotlashga tirishardi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Aksincha, “uyushgan guruh buyurtmachini aniqlashmoqchi bo‘lishdi… menga ichirishdi… kissamga solib qo‘yishgan…” kabi poyintar-soyintar so‘zlar, a s o s s i z da’volar bilan tergovchining shubhasini battar oshirdi.* A.Yo‘ldosh, Bozor. *Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda ham u kuladi, lekin u kulgi kasal odamning kulishiday og‘ir, bir xil sjvuq hazillarday malol keltiruvchi, y o l g‘ o n xushomadlarday ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ammo bir iltimos: xonim hazratlariga ayting, y o l g‘ o n ovozalarga ishonmasinlar.* P.Qodiriv, Yulduzli tunlar.

BELBOG‘, QIYIQ, QIYIQCHA, CHORSI, BELQARS Belga bog‘lanadigan, to‘rtburchak ro‘mol shaklidagi, atrofiga gul-bezaklar tikilgan mato parchasi. **Belbog‘** so‘zida mazkur buyumning asosiy vazifasi aniq ifodalangan. **Qiyiq** so‘zida mazkur buyumning tayyorlanishiga daxldor jihat (qiymoq) anglashilib turadi. **Qiyiqcha** so‘zi ma’nosida ixchamlik va bejirimlik ta’kidi mavjud. **Chorsi** so‘zida mazkur buyumning shakli – to‘rtburchakligi qabariq ifodaga ega, bu so‘z shevaga xos. **Belqars** – shevaga xos so‘z.

Koshona zinasida egnida beqasam to‘n, belida b e l b o g‘, boshida do‘ppi, Sarvar chiqadi. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Boshiga b e l b o g‘ ini salla qilib o‘rab olgan rahmdil novvoy kaftida uvoqlarni olib chiqib, qor ustiga sochib yuborgan edi, qushlar undan hayiqmay, gur etib rizqqa yopirilib, cho‘qiy boshlashdi*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Sel kabi oqib kelayotgan qimmatbaho*

sovg‘alar orasida tabib yuborgan maydaqaviq ikki to‘n, q i y i q, do‘ppi, ikki kiyimlik xonatlas g‘aribgina ko‘rinardi. T.Malik, Shaytanat. *Ko‘p ajib mo‘jiza bunyodiga qodirlar yeri, Kiftda to‘n, belda q i y i q, mard-u bahodirlar yeri, Maqtanib yurdim jahonda, menga bu yurt onadir, Maskanim Farg‘onadir, Farg‘onadir, Farg‘onadir*. E.Vohidov, Maskanim Farg‘onadir. *Uy egasi, eski do‘ppining ustidan q i y i q ch a bog‘lab olgan mo‘ysafid yarim piyola sutga to‘rt to‘g‘ram non tashlab, bir tishlamini xastaning og‘ziga tutdi*. T.Malik, Shaytanat. *Belidagi q i y i q ch a sini tol soyasiga tashlab “Bismillohu rahmonur rahim” deb, maysa ustiga yonboshlaydi*. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Zotan, bu ro‘zg‘orni Qurvonbibining qavigan ko‘rpa-to‘shak va guppilari ila Zebining chevar qo‘llaridan chiqqan ch o r s i va do‘ppilari tebratib kelmaydimi*? Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qariya… yuziga fotiha tortib, belidagi ch o r s i ni yechdi-da, dasturxon o‘rnida yoyib, yarimta nonni o‘rtaga qo‘ydi*. T.Malik, Devona. *Kuyov b e l q a r s o‘ray-o‘ray eshik sari yurdi*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Enasi bolaning egniga zarbof, uqali to‘n kiydirib, beliga shohi b e l q a r s bog‘ladi*. H.Alp, Qo‘nalg‘a.

BELGI, NISHON, NISHONA, ALOMAT, IFODA, TAMG‘A, TANIQ

Tanib olish, ko‘rsatish yoki farqlashga xizmat qiluvchi narsa. **Nishon, nishona** so‘zlarida biror narsa-hodisadan darak yoki dalolat beruvchi narsa ma’no ta’kidi qabariq ifodalangan. **Alomat** so‘zi ko‘proq voqea, vaziyat-holatga xos belgilarga nisbatan qo‘llanadi. **Ifoda** so‘zida muayyan vaziyat-holatni mujassamlashtiruvchi belgi ta’kidi mavjud. **Tamg‘a** so‘zida nimadandir qolgan belgi mazmuni qabariq ifodalangan. **Taniq** so‘zi ma’nosida tanib olishga imkon beradigan belgi ma’nosi yaqqol ifodalangan, ammo bu so‘z eskirgan, juda kam qo‘llanadi.

– Esimda yo‘q, – dedim bo‘shashib. Starshina xo‘rsindi. – Odamlarga hayronsan. Kiyim kiyishni biladi-yu, rangiga qaramaydi. Alohida b e l g i lari bormidi? O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Jigar kasalining tuzalayotgani haroratda ham ko‘rinadi. Biroq eng ishonchli b e l g i si – ko‘z bilan badandan sariqning ketishi, kishi o‘zini tetik tuta boshlashi*. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Yana bir og‘aynim, o‘z-o‘ziga to‘q, To‘y qilishni kutdi, kutdi ichikib. Borsam, tantanadan zarra n i sh o n yo‘q, Axir men kelibman bir kun kechikib*. A.Oripov, To‘ylar. *Hatto Nikolayevga borib ham keldilar. Ammo na o‘zidan, na oilasidan darak topildi. Hatto uyidan ham n i sh o n qolmagan edi*. O‘.Umarbekov, Qaytar dunyo. *Chor atrofdan yig‘ilgan yigitlar frontga shu yerdan jo‘nashgan. Ustunlari chirigan choyxona ham o‘sha sertashvish yillardan n i sh o n a...* O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Har qanday xotin bilan ham inoq bo‘lavermaganining o‘zi o‘ta diyonatli, pokdomon ekanining n i sh o n a sidir.* A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Sovchilar uy sohibasining ko‘nglini ko‘taradigan bir-ikki gaplarni aytib, lutf ko‘rgazib, o‘rinlaridan jilishdi. Juvonlar biroz xijolat chek-*

kach, biroz noz qilgan bo‘lib, qog‘oz xaltani olishdi. Bu ham diplomatiyaning bir qoidasi — rozilik a l o m a t iga ishora. T.Malik, Shaytanat. *Eri ranjimasligi uchun Zaynabxon… o‘zini ovutdi, o‘g‘lidagi o‘zgarishni yoshlikning o‘tkinchi a l o m a t lari deb hisobladi*. O‘.Umarbekov, Garov. *Bu hukmni o‘qigan so‘xtasi sovuq do‘xtir xotinga minnatdorlik i f o d a s i sifatida Umar Xayyomning Toshkentda chop etilgan o‘rischa nashrini tuhfa qilgan edi…* E.A’zam, Shovqin. *Asosiy e’tibor ona tilida kino olish muammosiga bag‘ishlangani uchun suhbat “Kino: til – millat ruhining i f o d a s i dir” deb nomlandi*. E.A’zam, Shovqin. *T a m g‘ a kabi taniqli, Har yerda bir iz... Uzoqlarda jiladi Uch-to‘rt xotin-qiz*. H.Olimjon, Qish. *Bir kuni kelganda, onasi qurg‘ur bir og‘iz aytmagan edi, deb mendan ranjirmikinsiz deyman... Tana buzoqning turqi tuqg‘anig‘a t a m g‘ a deganlaridek, albatta, menga ravshan...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xotinning marhamati bilan boyvachcha bo‘ldi, degan umrbod o‘chmas t a m g‘ a ni peshonamga bosib, boyvachcha bo‘lish nima kerak edi menga*? O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Mahmudshoh hayron bo‘lib: – Agar sizning qullaringizga o‘xshasa, birorta t a n i g‘ i bordir? – debdi*. “O‘zbek xalq ertaklari”.

BEMAHAL I**, BEVAQT** Tunning anchayin kech payti. **Bevaqt** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi.

Qizi tushmagurning b e m a h a l da yurishi yomon-da. Unga qattiq gapirib bo‘lmaydi. Darrov hurpayib oladi. S.Ahmad, G‘ildirak. *– Mamatqulmiding, – dedi To‘xtabibi. – B e m a h a l da nima qilib yuribsan, bolam?* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Men ana qaradim-mana qaradim – taomdan darak bo‘lmadi. – Ay, vaqt b e m a h a l bo‘ldi! – deya ovoz berdim. – B e m a h a l bo‘lsa nima qilayin? – dedi ayolimiz.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Anvar so‘zini tugata olmadi, mehmonxona eshigida maxdum ko‘rindi: – Ichkariga kir, Ra’no, b e v a q t bu yerda nima qilib o‘lturibsan?* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

BEMAHAL II**, BEVAQT, BEMAVRID** Muayyan harakat-holat uchun uyg‘un bo‘lmagan, nomuvofiq, nomaqbul payt. **Bemavrid** so‘zi ma’nosida o‘z vaqtida emaslik, vaqt jihatidan noo‘rinlik qabariq ifodalangan, bu so‘z ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Ikromjon… tol shoxiga ilingan ketmonni tosh bilan daranglatib uraverdi. Bu b e m a h a l chalingan zang tovushidan uzoq-yaqindagilar tol tagiga yig‘ilib kelaverishdi. S.Ahmad, Ufq. *Birar daqiqadan keyin havli sahniga bir necha oyoqlar kirdi. B e m a h a l yo‘qlashdan Anvarning ko‘ngli g‘ash tortib, kelguchini “Safar aka bo‘lar” deb o‘yladi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Rasul kamoli hurmat bilan xo‘jayinning qo‘lini siqib ko‘rpachaga cho‘kkalagan hamona shunday so‘zni eshitdi: – Nimaga b e v a q t, beso‘roq qaytdingiz? – boy javob kutmay, so‘zini ustma-ust ag‘daraverdi, – men hali sizni kutganim yo‘q edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Urush deganiga bo‘lsin ming la’nat, Neki tirik bo‘lsa – aylagay g‘orat. Sening qalaming ham sindirmish b e v a q t, Yetib-yetolmagan*

armoning menda. A.Oripov, Jangdan qaytmagan shoirlarga. *Quruvchilar b e m a v r i d kelganimizdan o‘ng‘aysizlanib, bizni soxta iljayish bilan kutib olishdi.* A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi. *To‘lqin b e m a v r i d kirganini fahmlab, qanday turib ketishni bilmay kalovlandi*. T.Malik, Shaytanat.

BEMALOL, BAMAYLIXOTIR, BAFURJA, BAHUZUR, ORQAYIN Shoshilmasdan, xotirjamlik bilan, biror tashvish yoki o‘ng‘aysizlik sezmagan holda. **Bamaylixotir** so‘zida xotirjamlik ma’no ta’kidi mavjud. **Bafurja** so‘zida shoshilmaslik ma’no ta’kidi qabariq ifodalangan. **Bahuzur** so‘zida harakat-holatning o‘ng‘aysizlik, huzursizlik sezmasdan yuzaga chiqishi ochiq ifodalangan. **Orqayin** shevalarda qo‘llanadi.

Qo‘rqmang, ukaginam. Begishning qo‘li chaqqon bo‘lgani bilan oyog‘i sust. Yarim soatsiz yetib kelolmaydi. B e m a l o l yozavering. S.Ahmad, G‘ildirak. *Otinoyining bitta-yu bitta orzusi bor. Shu Iskandarining aqalli bittagina bolasini bag‘riga bossa, oyoq-qo‘lini b e m a l o l uzatib ketardi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *– Sizga gap bo‘lsa! – bo‘shagan laganni olib ketarkan, Gulchehra b a m a y l i - x o t i r chekib o‘tirgan Azimjonning gardaniga tirsagi bilan turtib o‘tdi.* O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *– Bu odamning bolalari b a m a y l i x o t i r o‘ynab yurishibdi, ayoli har kungi yumushi bilan ovora, – dedi shamol.* I.Sulton, Ozod. *– O‘zi bir isqirt kalamush bo‘lsa, shungayam mulozamatmi? – Meshpolvon shunday dedi-yu, butun boshli luqmani olib, b a f u r j a og‘ziga tashladi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Kun bo‘yi ikki-uch daf’a uchrashib, u yer-bu yerga birga kirib chiqqanlariga qaramay, mavridi bo‘lmagan, hozir ularning ilk bor mana shunday b a f u r j a o‘tirib gaplashishi edi*. E.A’zam, Shovqin. *Bu odamlar… b a h u z u r yonboshlab yotib faqat xursandlik bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilarday bamaylixotir, huzur qilib kulishar edi.* A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Cholning hurmati uchun mehmonlar oyoqlarini yig‘ib o‘tirishga urindilar. – B a h u z u r yoyilib o‘tiraveringlar… – dedi mehmonlarga murojaat qilib boy*. Oybek, Tanlangan asarlar. *– Siz shaharda yashaysiz-da, ulim, – dedi urush ishtirokchilari. – O‘tin-cho‘p demaysiz. Issiq-sovug‘ingiz oldingizda, shu bois, o r q a y i n bo‘lib yurasiz. Bizda, mana, serjant Orziqulov biladi, bir kallada ming xil tashvish.* T.Murod, Momo yer qo‘shig‘i. *Bugun bir o r q a y i n tin olar Toshkent, Tongda bir xotirjam kerishadi. Sen kecha Toshkentga jo‘nab ketib eding, Toshkent diydoringga erishadi*. M.Abdulhakim.

BEMAZA, MAZASIZ, TA’MSIZ, TOTSIZ, LAZZATSIZ Og‘izga xush yoqmaydigan, ta’mi yomon. **Ta’msiz** so‘zi ma’nosida biron-bir ta’mga ega emaslik ta’kidi mavjud. **Totsiz** so‘zida mazasizlik belgisi **mazasiz**, **ta’msiz** so‘zlariga qaraganda ochiq ifoda topadi. **Lazzatsiz** so‘zida, umuman, huzur bermaydiganlik ta’kidi, “lazzatlanish hissini hosil qilmaydigan” ifodasi yaqqol ifodalangan, bu so‘z anchayin kam qo‘llanadi.

B

Tirikchilik boshimizga tushgandan keyin hammasini bila boshladik. Eng b e m a z a, eng arzon sho‘rva-shultini qaynatish uchun igna bilan quduq qazish kerak. Oybek, Tanlangan asarlar. *Turobjon qizardi. U bir zamon betob o‘rtog‘ini yo‘qlab eltgan tarvuzini, b e m a z a chiqqan bo‘lsa kerak, sigirning oxurida ko‘rib shunday xijolat bo‘lgan edi*. A.Qahhor, Anor. *Shu sababli og‘izda eriydigan eng a‘lo go‘shtlar ham Fotima Sultonga ilitma ovqatdek m a z a s i z tuyulardi.* P.Qodirov, Yilduzli tunlar. *Bitta choy qo‘yib ber. Buxoroning t a’ m s i z suvini ichaverib tinkam quridi*. S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Qahva ichayotgan Guluzor begim bilan t a ’m s i z tuyulgan bo‘lsa-da, mezbonning hurmati uchun o‘zini zo‘rlab choy ho‘playotgan Manzurani bog‘lab turuvchi bir narsa bor…* T.Malik, Shaytanat. *Suluv kelinchak kabi totli edi Nafs ko‘rsatgan nahs. Bag‘riga chorlar edi t o t s i z alanga...* T.Malik, Tanlangan asarlar. *U qahvaxonaning tansiq taomi – negadir qizil sabzi qo‘shib damlanadigan t o t s i z roq palovni ham maqtay-maqtay oxirigacha tushiradi.* E.A’zam, Shovqin. *Mashaqqatsiz taom l a z z a t s i z bo‘lar*. Maqol. *Sayyohlar o‘zga yurt, o‘zga iqlim taomillariga ko‘ra tayyorlangan bu l a z z a t s i z taomni muntazam yeyishga ko‘p sa’y-harakat qildilar, ammo buning uddasidan chiqa olmadilar*. O.Jo‘rayev, Uzoqlarda.

BEPARVO, PARVOSIZ, BEG‘AM, BOQIBEG‘AM, PARVOYI FALAK, E’TIBORSIZ, BEE’TIBOR, LOQAYD, SOVUQQON Har narsaga e’tiborsizlik bilan qaraydigan, har qanday narsa-hodisaga e’tibor beravermaydigan. **Beg‘am** so‘zida har narsaga qayg‘u qilavermaslik, xotirjamlik alohida ta’kid olgan. **Boqibeg‘am, parvoyi falak** so‘zlari so‘zlashuv tiliga xos bo‘lib, ularda “e’tiborsizlik, befarqlik” ma’no ta’kidi ortiq darajada ifodalangan. **Loqayd** so‘zi ma’nosida “hech bir narsaga qiziqmaslik” ta’kidi yaqqol ifoda topgan. **Sovuqqon** so‘zi bo‘lar-bo‘lmasga hovliqib yoki tutaqib ketmaydigan odamga nisbatan qo‘llanadi. **Parvosiz, bee’tibor** so‘zlari nisbatan kam ishlatiladi.

Biz ko‘p xato qilamiz. Ko‘p zavqli manzaralar qarshisidan b e p a r v o o‘tib ketamiz. Sh.Xolmirzayev, Bir ko‘rgan tanish. *Balki, bu yerlarda ko‘p bo‘lganidan ko‘nikib ketgandir, balki, o‘zi shunaqa b e p a r v o odamdir?* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Yo‘q, ul sezsa-da, bilsa-da, go‘yo oyog‘, qo‘li bog‘lanib bo‘g‘izlanishga hozirlangan bir qo‘y kabi qayralayotgan pichoqqa butunlay p a r v o s i z, qo‘rquvsiz tomosha qilar edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Chehram yorishib ketdi, jilmayib shofyorga qaradim. Ammo u p a r v o s i z edi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Hoynahoy, ota-onasi ishga ketgan, u esa dunyoning turfa o‘yinlaridan bexabar, b e g‘ a m, betashvish, bolalik zavqiga berilib havolaydi – tushadi, havolaydi – tushadi*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bozorboy kurortga ketish oldidan qiladigan ishlarini o‘ylab b e g‘ a m gina yurgan edi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Anov Bo‘rsiqvoy qayda? Peshin bo‘ldi, haliyam inida xurrak otib, qornini silab yotibdimi b o q i b e g‘ a m*. O.Yoqubov,

Bir koshona sirlari. *Hali-hanuz ichimizda davlat mulkiga o‘gay ko‘z bilan qaraydiganlar, o‘z rohatini o‘ylab, dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydigan b o q i b e g‘ a m lar ham, afsuski, yo‘q emas...* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *– Ay, anavilarni oracha qilinglar-ay! – dedim. Militsionerlar p a r v o y i f a l a k bo‘ldi. Beg‘am-beg‘am choy ichdi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *...shu payt qo‘rg‘on darvozasi og‘zida musofirning o‘zi ko‘rindi. Bo‘lgan kor-holdan bexabar, odatdagidek, yelkasida bozorto‘rva, p a r v o y i f a l a k, munkaygancha lo‘killab kelyapti*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Qo‘rboshi kelguchining salomiga e’ t i b o r s i z g‘ina javoblang‘an bo‘ldi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ortiqcha gapga hech kimda toqat yo‘q edi. Hamma avtobus derazasi osha tashqariga e’ t i b o r s i z boqib, har biri o‘z xayoliga bandi bo‘lib borardi*. T.Malik, Shaytanat. *Elchin bunga qattiq ishonadi. Shu sababli ham Asadbekning gaplarini b e e’ t i b o r eshitdi*. T.Malik, Shaytanat. *Jamshid “Ish”ning rasmiylashtirilishiga shoshilishmayotganidan, gaplarini b e e’ t i b o r tinglashayotganidan bir shumlikni sezdi*. T.Malik, Shaytanat. *Qo‘lida choynak bilan Begijon paydo bo‘ldi. Xo‘jayin, to‘qson beshga qalaysiz? Asil lo‘nqasidan. Bozorboy unga l o q a y d qaradi*. S.Ahmad, G‘ildirak. *Agar hamma ham ana shu birinchi qadamni to‘g‘ri tashlasaydi, bordi-yu, kimningdir egri qadam qo‘yganini ko‘rib turib, o‘shanga l o q a y d qarovchilar bo‘lmasaydi, dunyoda yomonlik ham bo‘lmas edi*. S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Biroq Mahmud endi butunlay o‘zini yo‘qotmadi, chunki u so‘nggi voqealar va ko‘rgiliklardan keyin ancha s o v u q q o n bo‘lib qolgandi*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Yana o‘sha loqayd va s o v u q-q o n alpozga kirib, shahar darvozasi tomon yurdi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

BEPOYON, POYONSIZ, CHEKSIZ Oxiri, chek-chegarasi yo‘q, nihoyatda keng. **Poyonsiz** so‘zida bir qadar badiiylik bo‘yog‘i bor. **Cheksiz** so‘zida belgi darajasining nisbatan ortiqligi anglanadi, bu so‘z **chek-chegarasiz, cheksiz-chegarasiz** kabi juft so‘zlar tarkibida kelganda, bunday juft so‘zlardagi belgining favqulodda ortiqligi yanada yorqin ifodalanadi.

Zaminda charx urar ruhingiz bedor, Qolgan tiriklarning tinchini o‘ylab. Charx urar, Chotqolga termulgancha zor, Qarshining b e p o y o n dashtlari bo‘ylab. A.Oripov, Xotira. *Go‘yo dunyo faqat biz uchun yaratilgandek, undagi hamma narsa, b e p o y o n dalalar ham, ko‘ko‘par tog‘lar ham, kumush daryolar, jilg‘alar, lolarang chamandek yastanib yotgan bog‘lar ham biz uchun, yolg‘iz biz uchun barpo etilgandek edi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Hikoyaga quloq solib, qiz Uzoq-uzoq o‘yga tolardi. To‘lqin urgan p o y o n s i z dengiz Yuragiga g‘uluv solardi*. E.Vohidov, Nido. *Hosilimiz bo‘ldi oltin vaznida, Bo‘ldi har misqoli gavhar bilan teng. Shu bois paxtazor, mening nazdimda, Muruntovga o‘xshar, p o y o n s i z va keng*. E.Vohidov, Tabrik. *Tengdik tog‘lar cho‘qqisiga to‘sh urib uchayotgan burgutlar, pastlikka shiddat bilan oqqan sharsharalar, ch e k s i z yaylovlar-u, so‘ngsiz o‘rmonlar to‘g‘risida kuylardi*. S.Ahmad, Ufq.

B

Albatta, u menga biror shubha bilan qaragan bo‘lishi mumkin, negaki yo‘lning bir tomoni ch e k s i z qum barxanlari bo‘lib, bir tomoni vayronazor, uning chetidan Amu o‘tadi. Sh.Xolmirzayev, Ora yo‘l. *Sahro hayvonining bir maromda lo‘killashi, turfa tovushlar, karvonboshining har zamonda “Tah! Tah!” deb ovoz berishi, tuya tuyog‘i ostidan chiqayotgan qum saslari, ko‘kka sochilib ketgan yulduzlar, ch e k-ch e g a r a s i z hududlarga mayin yog‘dusini sochayotgan to‘lin oy... bularning bari ixtiyorsiz ravishda uni allalab, o‘z og‘ushiga tortardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Agar shu osmon yoxud tun va kun bo‘lmasa, umr ham xuddi mana shu cho‘l-u dashtlar yanglig‘ ch e k s i z-ch e g a r a s i z tuyuladi*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

BEQIYOS, BENAZIR, BEMISL, MISLSIZ Boshqaga qiyos qilib bo‘lmaydigan, o‘xshashi, tengi yo‘q. Qatordagi so‘zlarning deyarli barchasi, asosan, kitobiy, yozma nutqqa xos. **Beqiyos** so‘zida, umuman, qiyosi yo‘qlik ochiqcha ifodalangan. **Benazir, bemisl, mislsiz** so‘zlari ma’nosida qiyosning natijasi sifatida anglanadigan o‘xshashlikning mutlaqo mavjud emasligi ta’kidi qabariq aks etgan.

Lekin medik bo‘lgani uchun ularning o‘sha kungi olgan damlari butun kelasi hafta uchun b e q i y o s quvvat ekanini yaxshi bilardi u. O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i. *Shohlik aravasini bilmagan yosh buxoriylarning belini arava g‘ildiragi bukkan va ular ko‘nglidan shu kuni nafrat, oldin hech sezilmagan b e q i y o s nafrat ilk daf’a ingroq bilan chiqa boshlagan edi.* O.Muxtor, Vazifa. *Ko‘zlari cho‘lponday charaqlab turadigan, yuzlari sutga chayilgandek tiniq, go‘dakday yoqimtoy bu ma’suma faqat husnda emas, ilm va nazm bobida ham b e n a z i r edi.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Biz sevgiga qarshi yurmay, buning muqaddas tuyg‘u, b e n a z i r ne’mat ekanini, avvalo, o‘zimiz tushunib, so‘ng farzandimizga anglatishga urinishimiz kerak.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Aytishlaricha, dengiz maxluqlari ham shu singari to‘p-to‘p bo‘lib qaylargadir yo‘l olarmish. Sohilga yaqin joylardagi kishilar buni maroq bilan so‘zlab berishar, ko‘ch davri boshlanganidagi b e m i s l ovlardan gapirishardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Buyuk iste’dod va b e m i s l fikriy quvvat hosilasi bo‘lmish bu misralardan orttirib so‘z aytish mahol edi. Dunyodan ketar kishining bundan marg‘ubroq so‘z aytishi ham mahol edi*. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Uyning to‘riga, katta gilam ustiga tashlanilgan joynamoz gilam uning diqqatini jalb etdi. Uningcha, u ko‘rgan bu navdagi gilamchalar orasida Jondorniki m i s l s i z edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Axir bunday iztiroblar akasi Amirni aqldan ozdirmadimi, o‘zini esa m i s l s i z sinovlarga mubtalo qilmadimi?* U.Hamdam, Muvozanat.

BERK, BEKIK, YOPIQ Berkitib, yopib yoki to‘sib qo‘yilgan holatda, o‘tish yoki kirib-chiqish joyi to‘silgan. **Bekik** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Bu paytda nonvoylar non yopishga, ...kabobpazlar kabob pishirishga kirishardi... Hozir esa do‘konlar b e r k, hammayoq suv quyganday jimjit. O.Yoqubov,

Ulug‘bek xazinasi. *U hayajoni ko‘ksiga sig‘may, qo‘lida gazetasi bilan xonani bir-ikki aylanib chiqdi, g‘ayrati qistab, qishi bilan b e r k turgan baland derazani qasirlatib ochib yubordi.* O‘.Usmonov, Girdob. – *Shuni ayting! – dedi malla “no‘l bir”. – Mana, vodiyda zaprapkalar b e k i k, qatra benzin yo‘q.* A.A’zam, Tiqin. *Qo‘ng‘iroq ovozini eshitishi bilan Gulasal ko‘cha eshikka otildi. Eshik b e k i k qolganmidi?* A.Ayizov, Polvon yig‘lagan tun. *Sen kelganingda, eshik y o p i q bo‘ladi.* Ch.Aytmatov, Qiyomat. *Burchakda yerdan ikki yarim gazlar yuksaklikda kunbotishg‘a qaratib qurilg‘an ikkita ko‘rimsiz bir betlik eshiklar yuzlariga y o p i q holda edilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

BERMOQ, BAXSH ETMOQ, ATO ETMOQ, BAG‘ISHLAMOQ Ehtiyojini, talabini qondirmoq, o‘zida yo‘q bo‘lgan narsa bilan ta’minlanmoq. **Baxsh etmoq** so‘zida badiiylik bo‘yog‘i aniq seziladi. **Ato etmoq** so‘zi ma’nosida tabiat yoki ilohiy kuchlar tomonidan in’om qilish harakati alohida ta’kidga ega. **Bag‘ishlamoq** so‘zida ko‘proq ruhiy ehtiyojlarni qondirish, ruhiy-hissiy quvvatlarni in’om etish harakati qabariq ifodalangan.

Nabirang ko‘ngliga izlasang kalit, Bir juft chaqich b e r-u o‘zingni tanit. A.Oripov, Lo‘ttiboz. *Telba oqim qancha teran, sho‘x o‘tar, Tashnasiga qatra suv b e r sa netar?* Mirtemir, Yali-yali. *Uning yuzi andak keng bo‘lib, qora ko‘zlari chaqnab turar, xiyol uzun burni va gavdasining tikligi unga yoqimli, lekin erkak kishini bir qadar hayiqtiradigan mag‘rurlik b a x sh e t ar edi.* Sh.Xolmirzayev, Farzand. *Bir zarba bilan ham Humoyunning eng sadoqatli kutvali mahv bo‘lgani, ham Hindol bilan akasining do‘stligi adovatga aylangani Sherxonga alohida zavq va mamnunlik b a x sh e t di.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Nechun go‘zal qilding, Parvardigorim? U poyaga g‘ijim shoyi bo‘lib yaproq yozishini buyurding, yaprog‘ini yoygach, uni tekislading, beqiyos rangu – tus va ifor a t o e t ding.* I.Sulton, Alisher Navoiy. – *Ey onamning yodgori og‘acham! – dedi Mirsayid Kobuliy jilmayib. – Parvardigor senga shunday o‘g‘lon a t o e t ganiga shukur qil!* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Podsholar davlat xarajatlari uchun mablag‘ yig‘ib, xazina saqlashlari, albatta, joiz. Ammo umrini haq yo‘liga b a g‘ i sh l a ydigan so‘fiylar boylig-u martaba tamayida bo‘lmasligi kerak.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Paxtaning esa tikani yo‘q, shundaygina kaftimizga olib, etakka solamiz-qo‘yamiz, vassalom. Qaytanga kaftimizga momiqqina tegib, jonimizga huzur b a g‘ i sh l a ydi, rohat b a g‘ i sh l a ydi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

BETAVFIQ, MURTAD Diniy yo‘l-yo‘riqlariga ishonmaydigan, diniy e’tiqodi yo‘q, diniy e’tiqodidan qaytgan. **Murtad** so‘zi kitobiy nutqqa xos bo‘lib, uning ma’nosida xudoga shak keltirganlik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Razzoq so‘fi indamasdan… kulumsirash bilan yana ham xunukroq kepataga kirgan basharasini kampir tomon ko‘tarib turib: O‘sha b e t a v f i q, benamozga qiz beramanmi, qalay? – dedi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Kim edim? Kim bo‘ldim? Meni kimlardan ayirding b e t a v f i q? To‘rtta bolani so‘qqa boshimga*

nega tashlab ketding? O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i. *El orasida yomon ishlar bilan qo‘rquv solib yurgan odamki, bu haqda so‘z ochdimi, demak, Xolidiy munofiqqina emas, m u r t a d hamdir, degan tushuncha uning gap xaltasini ochib yubordi.* T.Malik, Shaytanat. *Ma’lumingizkim, Xudovandi karimning nazari tushgan jannatsifat Farg‘ona viloyatida g‘ayridinlar etagini tutgan m u r t a d lar islom lashkarlariga ozor yetkazmoq qasdiga tushganlar.* T.Malik, Devona.

BETAYIN, TAYINSIZ, SUBUTSIZ, BESUBUT, BEBURD, BURDSIZ, TUTURIQSIZ Bir gapda turmaydigan, va’dasining ustidan chiqmaydigan, o‘z qarorida sobit bo‘lmagan, ham aytaveradigan, ham qaytaveradigan, hadeb o‘zgaraveradigan. **Subutsiz, besubut, beburd, burdsiz, tuturiqsiz** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi, ularning ma’nosida boshqalarning e’tiboridan qolganlik ta’kidi qabariq ifodalangan, muayyan darajada salbiy bo‘yoqqa ega. **Tayinsiz, besubut** so‘zlari kam qo‘llanadi.

Qayta-qayta telefon qiladi, xunob bo‘ladi, “Qanaqa b e t a y i n yigit ekan, telefon qiling, kutaman, degandan keyin kutmaydimi, axir” deb jahli chiqadi... A.A’zam, Bu kunning davomi. *Topmay qo‘ymayman! Sotkasi bor-ku, axir. Yerga kirsa – qulog‘idan, osmonga qochsa – oyog‘idan ilintirib topib kelaman b e t a y i n ni. Faqat sen ham yo‘qolib qolma, tag‘in!..* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Bu gap uni t a y i n s i z roq odamga o‘xshatib ko‘rsatardi.* Mirmuhsin, Umid. *– Sen o‘zingni mening o‘rnimga qo‘yib ko‘r. Bilasanmi, men kimga aylanaman? Ollohning oldida s u b u t s i z odamga aylanaman-ku. Tushunasanmi shuni? – dedi u avvalgisidan ham qattiqroq silkilab.* M.Mansur, Judolik diyori. *Qirq yillik sadoqati zohir cho‘ringiz turib, ne-ne uddaburon arkoni davlat qolib, bul mushkul yumushni... Kecha topgan s u b u t s i z sanamingizga topshirasiz?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Tanimasman, ko‘rmasman, yot u men uchun, Baski biror do‘zaxidir, shilqim, b e s u b u t.* A.Oripov, Jannatga yo‘l. *Bir marta b e b u r d bo‘lgan tadqiqotchiga kitobxonning shubha soyasi doimo tushib turadi.* S.Ahmad, Mukammal inson suvrati. *Nahot, men seni deb bo‘ldim tutunlar? Nahot, shundoq dilbar b e b u r d, bevafo?* Mirtemir, Surat. *Sho‘rlikkina enajonim, b u r d s i z o‘g‘lining kirdikorlaridan xabarsiz “qarz ko‘taringlar, uyni sotinglar” deydi-ya.* S.Bo‘riyev, Yig‘layotgan kim? *Igor juda oriyatli, bir so‘zli yigit. Do‘stlarining oldida b u r d s i z bo‘lib qolishni istamaydi.* I.Nishonov, Hayot va ishq. *Shunchalar ham betayin... t u t u r i q s i z bo‘lish mumkinmi, ziyolilarni radga-qatorga chorlash, da’vatlash mumkinmi?* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz.

BETASHVISH, BEG‘AM, G‘AMSIZ, QAYG‘USIZ, BEDARD G‘am-tashvishdan xoli, biron g‘am-tashvishi bo‘lmagan. **Qayg‘u** so‘zi ma’nosida belgi darajasi nisbatan ortiq. **Bedard** so‘zi odatdagi nutqda ancha kam qo‘llanadi. Ba’zan sinonimik qator boshidagi ikki so‘z **beg‘am-betashvish** tarzida juft holda qo‘llanadi va mazkur ma’no yanada kuchli ifodalanadi.

Zaynab o‘sar oqil va dono, So‘zlarida mazmun va ma’no. O‘sganida b e t a sh v i sh, beg‘am, Buncha ziyrak bo‘lmas edi ham. H.Olimjon, Zaynab va Omon. *Rahim Saidov o‘z uyini yaxshi ko‘rar, unda o‘zini tinch va b e t a sh v i sh his qilardi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Kunduzlari b e g‘ a m, biyron odam, kechalari belog‘riqdan voy-voylab chiqadi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Jajjigina bir qizaloq halinchak uchmoqda. Hoynahoy, ota-onasi ishga ketgan, u esa dunyoning turfa o‘yinlaridan bexabar, b e g‘ a m, betashvish, bolalik zavqiga berilib havolaydi-tushadi, havolaydi-tushadi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Shu’la shafqat manbayidir! G‘ a m s i z, kadarsiz erkalanaman, yayrayman ko‘plardek!* Mirtemir, Shu’la. *Q a y g‘ u s i z o‘ynar edi shu oqar daryo bo‘ylarida... Yuzlari ochiq, ko‘zlari o‘ysiz, erkin-erkin yayrar edi shu yashil do‘nglarda...* Mirtemir, Oynisa. *Biri tog‘da o‘tin tersa, biri omoch haydardi, shunday o‘tar edi kunlar q a y g‘ u s i z va kulfatsiz*. O‘.Umarbekov, Ota. *Ammo zinhor bu shaharga Kiritilmas b e d a r d lar. Sevgi yukin ko‘tarolmay Bir bor qochgan nomardlar.* E.Vohidov, Palatkada yozilgan doston. *B e d a r d emas umr ham aslo, Hasratlardan goho so‘yladim. Shubha ichra qolganda tanho, G‘amdoshim deb seni o‘yladim*. A.Oripov, Senga. *...Pastdagi hovlilardan birida b e g‘ a m-b e t a sh v i sh halinchak uchayotgan jajji qizaloq ko‘z oldimga keldi negadir.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati.

BEVA, TUL, YESIR Eri vafot etgan va ayni paytda boshqa turmushga chiqmagan ayol. **Beva** so‘zi ana shunday holatdagi erkak kishiga nisbatan ham qo‘llanadi. Ba’zan **tul** so‘zi ham mazkur holatdagi erkak ifodasi uchun ishlatilgan. **Yesir** so‘zi anchayin kam qo‘llanadi, bu so‘z **yetim-yesir** shaklidagi juft so‘z tarkibida ko‘proq uchraydi.

Bitta... ammam bor edi. Eri frontda o‘lib ketgan, b e v a, hech kimi yo‘q. Shuning gazini to‘g‘rilab berish kerak edi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Shukur qilmay ilojing yo‘q. B e v a xotinga Buxorodan it huradi, deyishadi.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Xadicha, ke, senam b e v a, menam b e v a, ikkovimiz haligidek topishib qo‘ya qolaylik*. S.Ahmad, Birinchi muhabbat. *– Xullas, xotinim borib, o‘sha t u l kampir bilan gaplashib ko‘ribdi, – deya so‘zini bo‘lingan joyidan davom ettirdi cho‘qqisoqol kishi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Kap-katta erkak odamning so‘yishga mahkum etilgan buqaday o‘kirishi, so‘ng t u l xotinday piqillab yig‘lashi... faqat Sharifga atalganday edi.* T.Malik, Shaytanat. *Pastdagi qo‘shnisi t u l erkak, juda bo‘shang, beozor odam edi*. F.Musajonov, Himmat. *Ana, opasi yigirma yildan buyon tirik y e s i r, bolalari tirik yetim. Aza ochay deyishsa, birov pochchasining o‘ligini ko‘rgan emas.* O‘.Usmon, Qora chuqur. *Turdixolning eri askarlikka ketdi-yu, qaytmadi... Y e s i r boshi bilan ko‘zining oq-u qorasi bir o‘g‘il, bir qizini elga qo‘shaman, deb yoshini yashamay, yalmog‘izning singlisiday qaridi-qoldi.* N.Chori, Qizg‘aldoq.

B

BEZAK, ZIYNAT, HASHAM Chiroyli qilish, bezatish uchun ishlatiladigan turli katta-kichik narsa-buyumlar. **Ziynat** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi. **Hasham** so‘zi ma’nosida dabdabadorlik, keragidan ortiqlik ta’kidi anglashiladi. **Ziynat** so‘zi **zeb-ziynat, zebi-ziynat, zeb-u ziynat** kabi birliklar tarkibida ham keladi va bunday hollarda mazkur ma’no yanada qamrovli, kuchaygan tarzda ifodalanadi.

Nay chinakam, chiroyli nay edi. Kumushdan ishlangan b e z a k larini Yo‘lchi diqqat va zavq bilan uzoq tomosha qildi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Shundan keyin ular zargarlik rastasiga yo‘l olishdi. Jajji do‘konlarda devor-u qutilardagi oltin va kumush b e z a k lar, taqinchoqlar ko‘zni olardi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Olloh rahmat qilg‘ay qiblagohimiz tiklagan bu funun koshonasiga Fayz-u z i y n a t bermak bizning muddao*. E.Vohidov, Ahmad al-Farg‘oniy. *Shuning uchun maqbaraga ishlatiladigan barcha z i y n a t lar toshdan yo‘nilib, marmarga sayqal va zeb berib qilinmoqda edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Qarshimda bahaybat ibodatxonani eslatuvchi saroy namoyon bo‘ldi... Faqat ortiqcha h a sh a m va salobat meni lol qilib qo‘ygandi.* N.Eshonqul, Sibizg‘a volasi. *Ayol yuzini baralla ochib (tog‘ ayollari, jumladan, dasht ayollari ham bu o‘lkada yuzlarini yashirmagan, paranjini faqat markaz joylarda yopinishgan, shunda ham h a sh a m uchun), Qurbonga o‘tkir tikildi-da, turib qoldi*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Yoshlar Eron shohining ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan z e b-z i y n a t ichida yashashi, ichkilik bazmlari to‘g‘risidagi hikoyasini zavq bilan tinglab o‘tirdilar*. M.Osim, To‘maris. *Nilufar pulni olib sumkasiga soldi, so‘ng negadir naqshinkor yog‘och qutichani ochib, z e b i-z i y n a t larini titkilay ketdi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Tanla, umring shu eski hovlida o‘tsinmi yoinki yangi, dang‘illama imoratda, z e b-u z i y n a t lar ichida yashashni istaysanmi?* T.Malik, Shaytanat.

BEZA(T)MOQ, YASATMOQ Bezak berib, ziynatlab chiroyli qilmoq, ko‘zni quvontiradigan holga keltirmoq. **Yasatmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Maktab devorlari o‘quvchilarni puxta tayyorlanishga chaqirgan shiorlar bilan b e z a t ildi. S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Bo‘ston avvallari tashqari uylarni ko‘rgan bo‘lsa ham, xonaga kirib ko‘rmagan edi. Nor xola buni Bo‘ston uchun b e z a b, shu damgacha, hech kimni kirgizmay qo‘ygan edi.* S.Nazar, Yashil boylik. *Zaynab ham uncha xafa ko‘rinmas, qayin onasining buyruqlarini eski holicha bajarib yurar va hozirda uyga kirib olib, mehmonlar kelib tushdi deguncha, oldilarig‘a yozish uchun dasturxon y a s a t a r edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Men ham shundoq deb o‘ylagan edim, – dedi Sidiqjon xiyla qizarib, – lekin Kanizak hech ko‘nmadi: qo‘ying, o‘sha uyga olib bormaylik deb, sizning uyingizni y a s a t gani ketdi.* A.Qahhor, Tanlangan asarlar.

BEZBET, SURBET, SUR, UYATSIZ, BEHAYO, BEOR, YUZSIZ, ANDISHASIZ, BENOMUS, NOMUSSIZ, SHARM-HAYOSIZ, IBOSIZ, SULLOH Or-nomusni bilmaydigan, uncha-muncha gap ta'sir qilmaydigan. **Behayo, beor, benomus, andishasiz, sharm-hayosiz** so'zlari ko'proq kitobiy nutqda qo'llanadi. **Andishasiz** so'zi ma'nosida harakatning oqibatini o'ylamaslik, yuz-xotir qilmaslik ta'kidi qabariq ifodalangan. **Surbet, sur, yuzsiz** so'zlarida belgi darajasi ortiq, ko'proq so'zlashuv tiliga xos. **Sulloh** so'zida ochko'zlik, tortinmaslik ma'no ta'kidi ham anglanadi.

Biron b e z b e t roq muallifmi desam, qo'ltig'iga qistirilgan qog'oz papka shundan dalolat berib turganday edi, yoshi to'g'ri kelmayroq turibdi. A.Yo'ldosh, Yetim so'z. *Shorahim – b e z b e t bola. Agar birovda ishi bo'lsa, atrofida girdikapalak bo'laveradi. Ishi bitgach, yuzini burib ketadi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. *Qani, tuyog'ingni shiqillatib qol-chi bu yerdan! Hey s u r b e t lar, kimga aytilyapti, bo'l tez!* E.A'zam, Shovqin. *Uuh, s u r b e t! Basharasiga tushirib qolsami!.. Lekin odamlar nimaga urding, deyishsa, bironta jiddiyroq sababni ro'kach qilish kerak-da.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Vaqt-bevaqt tirg'alib keladigan G'ani qoraning s u r afti... gavdalanib, voqealar misli poyezd vagonlaridek, ko'z oldidan saf tortib o'tishda davom etarkan, u tishlarini mahkam siqqancha, ichdan beixtiyor ingrab yuborardi.* N.Norqobilov, Kurash. *Buncha s u r bo'lding? Mastmisan, nima balo?* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *O'sha u y a t s i z bolalar orasida men ham bor edim.* E.Malik, Bolaligim ertaklari. *U y a t s i z man-a? Qip-qizil sharmanda! Urib-urishadigan ering, uyaladigan bolang bo'lmaganidan keyin odam bora-bora mana shunday b e h a y o ga aylanar ekan.* E.A'zam, Zabarjad. *Qanday b e h a y o bolasan! Kap-katta to'ng'izday bo'lib qolibsan-u, sharm-u hayo qilmasdan, nomahram bor hovliga qaraysan-a!* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *Yo'ldan urdi qaysi bir makkor? Ochig'ini so'ylagil, b e o r. Senga buni kimlar o'rgatdi, Quchog'ingda qay iblis yotdi?* H.Olimjon, Zaynab va Omon. *Yolg'onchi – Haq oldida gunohkor, xalq oldida sharmanda. Bunday nahsning b e o r yuzi yomonlikka o'girilgan bo'ladi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. *Erim deb tug'gan onangdan kechasanmi, y u z s i z?* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Otamiz hadiksiradi: katta xalqi y u z s i z bo'ladi, s u r b e t bo'ladi!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Men onamdan yosh yetim qoldim. O'gay onaning qo'lida o'sdim. U tili tez, a n d i sh a s i z xotin edi.* E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Faqat b e n o m u s otagina Hosilning qilig'iga chidashi mumkin edi.* T.Malik, Shaytanat. *Hozir Nishobsoyga jo'nayman, qizni o'zi o'g'irlatib, senga to'nkagan bekni bola-chaqa avlod-u ajdodi bilan tilka-tilka qilaman! N o m u s s i z saroy, hamiyatsiz saroy, toj-u taxt lozim bo'lsa, o'zi saqlab qolsin.* Cho'lpon, Yorqinoy. *N o m u s s i z hayotdan nomusli o'lim yaxshi.* Maqol. *Sh a r m-h a y o s i z va baxil kishi bilan suhbatdosh bo'lma, shunday yaramas odamlar bilan qo'shni bo'lmaslikka harakat qil.* T.Malik, Odamiylik mulki. *O'zbekka or ma'nodosh, Ibo-hayo – ko'z-u qosh, G'ursiz Bek qayda-yu*

i b o s i z Kumush qayda? I.Mirzo, Asragil. *Yigitning xuddi balo chaqiniday kelib-ketishi uning hushini oldi. "Tursunali akamdan xat olib keldim", deb jilmayganida istaraligina bo'lib ko'ringan edi. "Osh-choyga qarzdorsiz", deb chiqayotganida ko'ziga isqirt bir s u l l o h bo'lib ko'rindi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Bir suratga, bir Surayyoga qarab qo'ydi. Yana suratga qaradi-da, xotiniga o'qraydi: – Nega bu s u l l o h yoningda turibdi?* E.Usmonov, Ajal xiyoboni.

BEZBETLIK, SURBETLIK, SURLIK, ANDISHASIZLIK, YUZSIZLIK, SULLOHLIK Uyat-andishani bilmaslik, beti qattiqlik. **Surbetlik surlik, yuzsizlik** so'zlarida belgi darajasi ortiq, ayniqsa, **yuzsizlik** so'zi ma'nosida birovni obro'sizlantirishga qaratilgan xatti-harakat ta'kidi mavjud. **Andishasizlik** so'zi kitobiy nutqqa xos. **Sullohlik** so'zida nazari ochlik bilan qilingan xatti-harakat sezilarli ta'kid olgan.

Hatto Habibulloxon ham bu qadar b e z b e t l i k ka jur'at etolgan emas. T.Malik, Savohil. *Nazarida o'zini shuncha odam kuzatib yurishi b e z b e t l i k dan boshqa narsa emasdi.* N.Eshonqul, Go'ro'g'li yoxud hayot suvi. *Asadbek undan bu darajadagi s u r b e t l i k ni kutmagan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Xon shig'ovuli ertangi qabul marosimida Jonibek Sultonni sizdan balandroqqa o'tqazmoqchi emish! Bu ne s u r b e t l i k. Azir, siz shohsiz!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Domla o'lgan kuni u s u r l i k bilan domlaning oldiga kirib ketdi.* O.Farmon, Advokatlar fosh qiladi. *"Mehmon" "taom isi"ni sezganday ishtahasi ochilib ketdimi, labini bir-bir yalab izzatini bilmay s u r l i k qilib turaverdi.* N.Hoshimov, Arosat dunyo. *Aziz do'stlar, ming bora uzr, shodiyona kunda noxush gaplardan gapirib men bir qadar a n d i sh a s i z l i k, balki shakkoklikka borgandirman*. E.A'zam, Shoirning to'yi. *Yaqin bir soatdan buyon boshini qotirayotgan mana bu telbanamoning a n d i sh a s i z l i g i ga achchig'i keladi*. E.A'zam, Navoiyni o'qigan bolalar. *Sababi – ularning joysiz qolganida emas, balki o'sha tarsakidan so'ng Oygulning "Erkak bo'lsang, javobimni ber!" deya ko'chaning yuzida – odamlarning oldida y u z s i z l i k qilganida edi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Ammo uzil-kesil fotiha o'qub, qudalashish uchun uylariga kelgan sovchi va quda xotinlarning oldilarig'a kelib, betlariga aytadir: "Hali men ersirab qolg'anim yo'q, fotiha o'qub tashvish chekmay uylaringga jo'nay beringlar". Mohira oyim bu y u z s i z l i k dan yer yorilsa yerga kirgundek bo'ladir*. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *To'lin oy juvon holicha erga tegayotgan qizning ahvolini bir ko'ray deb naq deraza tepasiga s u l l o h l i k bilan qo'nib olgan.* T.Malik, Shaytanat. *Yana uylangan bo'lsang, bir bokira qizni boshini aylantirib, s u l l o h l i k qilyapsan.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari.

BEZOVTA, NOTINCH, BETINCH, BESARANJOM, BEOROM, BETOQAT, HALAK Tinchi buzilgan, osoyishta emas. **Notinch** va **betinch** so'zlari ma'no ifodasiga ko'ra bir-biriga yaqin. **Bezovta** so'zi, asosan, ruhiy holatga nisbatan qo'llanadi. **Besaranjom** so'zi, asosan, odamning holatiga nis-

batan ko‘proq qo‘llanadi. **Betoqat** so‘zida ruhiy yoki jismoniy qiynoq natijasida yuzaga kelgan halovatsiz holat ifodasi qabariq aks etgan. **Halak** odamning holatiga nisbatan ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi, uning ma’nosida “juda qiynalganlik, uringanlik” ta’kidi mavjud. **Besaranjom** so‘zi so‘zlashuv uslubida nisbatan ko‘p qo‘llanadi.

Mabodo yig‘lasam ham... Yo‘q, o‘g‘lim. Men yig‘lasam, sen b e z o v t a bo‘lasan. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Katta malika amirzodani ovutish bilan ovora-yu, lekin b e z o v t a ko‘nglini allaqanday g‘ashlik sirqiratardi.* M.Ali, Ulug‘ saltanat. *Pushaymon aralash bu n o t i n ch o‘ylar Rasulga shaharga qaytgandan keyin ham tinchlik bermadi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar. *Negaki archazor o‘ta n o t i n ch sarhad – Ulkan ayiq tomonidan tez-tez buzilib turadi...* N.Norqobilov, G‘animlar. *Qo‘llarim ko‘ksimda, b e t i n ch, betoqat, Ta’zimlar qilurman senga ushbu dam.* A.Oripov, Uchinchi odam. *Orom bermas ko‘kragida b e t i n ch qalb, Bamisoli dastro‘molning tuguni*. E.Vohidov, Uchi tugik dastro‘mol. *Xolmatjon oshpazga ovqat suzdirib endi jo‘nataman deb turganida xurjuni handalakka to‘la otliq keldi. Uning ko‘zlari b e s a r a n j o m, oti ham terlab ketgan edi.* S.Ahmad, Ufq. *Marjonoyning boshiga og‘ir savdo tushibdiki, rahmatlik, ruhi b e s a r a n j o m, momoning tushiga kirib yuribdi!..* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Majnundek b e o r o m bo‘lib qolganim Sarsari yugurgan to‘lqinlar aytsin*. E.Vohidov, Fuzuliy haykali qoshida. *Ayniqsa, qamoqdagi tunlar b e o r o m kechadi. Bu safar iblislar uni xoli qo‘yishdi*. T.Malik, So‘nggi o‘q. *Chavandozlar tinimsiz davra o‘rtasiga niqtayotgan uloqchi otlar b e t o q a t pishqirgancha, o‘mrovi bilan boshqa otlarni chetga surib, oldinga intildi.* G‘.Shermuhammad, Saman toy. *– Mayli, ko‘rarmiz, – deb qo‘ydi Farhod ichi qizib, b e t o q a t.* E.A’zam, Shovqin. *E, toza hangoma bo‘b ketdi-da shu gap. O‘shandan beri Sultonmuroddan qasdini ololmay h a l a k, – dedilar pochcha mijjalarini arta-arta*. M.Mansur, Judolik diyori. *Kiravur, bolam, kiravur. Zap kelding. Men qay bir eslik odamni chaqirsam, kimga xabar bersam, deb h a l a k edim.* M.Mansur, Judolik diyori.

BEZOVTALANMOQ, BEZOVTA BO‘LMOQ, BETOQATLANMOQ, TOQATSIZLANMOQ, BETOQAT BO‘LMOQ, TINCHSIZLANMOQ, BETINCHLANMOQ, BETINCH BO‘LMOQ Odatdagi tinch, halovatli holatini yo‘qotib qiynalmoq. Bu sinonimik qatordagi deyarli barcha so‘zlar mazkur ma’noda, asosan, shaxsga, kamida, jonli narsalarga nisbatan qo‘llanadi. **Betinchlanmoq, betinch bo‘lmoq** so‘zlari anchayin kam qo‘llanadi.

Shu payt beshik qimirlab, ichidagi bola b e z o v t a l a n a boshladi. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Atay sheriklaridan qochib orqadagi bo‘sh o‘rindiqqa o‘tib olgan safar guruhining rahbari – san’at arbobi Farhod Ramazon daf’atan b e z o v t a l a n di. Chekkisi kelib ketdi. Samolyotda!* E.A’zam, Shovqin. *Ha, ko‘p narsa yozilmay, ko‘ngilda qolib ketdi. Kechalari ba’zan shuni o‘ylab qattiq*

b e z o v t a b o‘ l adi, ...hoziroq turib nimadir qilgisi, bir nimalar yozib tashlagisi keladi. E.A’zam, Shovqin. *Urushning alg‘ov-dalg‘ovida tobora bo‘yni yo‘g‘on bo‘lib ketayotgan bebosh beklar esiga tushgani sari ko‘ngli b e z o v t a b o‘ l ardi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Chaqiruvdan so‘ng o‘tgan bir necha soniya unga soatday tuyuldi. B e t o q a t l a n ib, yana baqirdi.* T.Malik, Shaytanat. *Ular she’r-u latofatni, ilm-u fasohatni tan olmaydigan shijoatli urush arslonlari bo‘lib, marosim tezroq tugashini kutib b e t o q a t l a n ishardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Yo‘lchi soch oldirib bo‘lguncha, qiynoq ichida t o q a t s i z l a n di. O‘rnidan turgach, bir “uh” tortib, yengillandi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yormat sapchib o‘rnidan turdi, t o q a t s i z l a n ib u yoqqa-bu yoqqa yurdi, yoqasini ushlab “tavba” deb, yana xotiniga o‘dag‘ayladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Bolta Mardon darvozaxona oldida, bir qo‘lida ikki buklangan qamchi, xurjunlari qappaygan qashqa otining jilovidan tutib b e t o q a t b o‘ l ib turibdi.* E.A’zam, Suv yoqalab. *Ro‘zaning azobi endi bilina boshlagan, yoz kunida chanqab holsizlangan odamlar kunni qanday kech qilishni bilmay b e t o q a t b o‘ l ishar edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Raqibning o‘ldirilishi uning tamom so‘nib bitkan umidini yana qaytarg‘andek bo‘lsa ham, nima uchundir ul bu ishdan o‘ziga tinchlik ortdira olmag‘an, aksincha t i n ch s i z l a n a boshlag‘an edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Otabek usta Alimning ko‘chasiga burilg‘ach, Sodiq eshigida uch-to‘rtta bel bog‘lag‘an kishilarni tobut yasash bilan mashg‘ul ko‘rib t i n ch s i z l a n ib ketdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *So‘nmish ishqi, demagin, Xom xayolda kulmagin, Ishqim battarroq hozir, Mayli, b e t i n ch b o‘ l magin.* Mirtemir, Kelmagin.

BEZOVTALIK, BETOQATLIK, TOQATSIZLIK Tinchi, halovatini yo‘qotganlik, tashvishli holatga tushganlik, ruhiy tinch-osoyishta holatda emaslik. **Betoqatlik** so‘zida yuzaga kelgan muayyan vaziyatdan ko‘ngilda g‘ashlik bilan qiynalganlik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Toqatsizlik** bu ma’noni yanada kuchli ifodalaydi.

– Siz nima dedingiz, siz? – deb so‘radi kampir. Uning bu savolidan ochiq bir b e z o v t a l i k sezilardi: “Bu so‘fi o‘lgur unab qo‘ymadimikan?!” Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *U mash’um o‘tmishidan osonlikcha qochib qutulolmasligini, yomon beklar Boburning nomidan qilgan zolimliklarni odamlar undan ko‘rishini o‘ylab, vujudini yangi bir b e z o v t a l i k chulg‘ab oldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Rahim Saidov ko‘p uchrashuvlarni shu yerga tayin qilardi va b e t o q a t l i k bilan uni kutardi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *– Oxiridan kelavering, O‘rmonboy, bu yog‘ini bilamiz! – deydi Soli baqiroq b e t o q a t l i k bilan*. E.A’zam, Guli-guli. *Qamchining kelishini t o q a t s i z l i k bilan kutib turgan Qumri qo‘lini silkitib, qichqirdi.* H.G‘ulom, Mash’al.

BECHORA, SHO‘RLIK, BOYOQISH, O‘KSIZ, NOTAVON, OJIZ, CHORASIZ, AFTODA Odamning rahmi keladigan holatdagi, achinish, ayanch

hissini uyg‘otadigan holatli. **Sho‘rlik** so‘zida rahmi kelish, achinish darajasining ortiqligi qabariq ifodalangan. **Boyoqish** so‘zi oddiy so‘zlashuv tiliga xos. **O‘ksiz** so‘zida ota-onasi, umuman, himoyachisi yo‘qligi holatiga rahm-shafqatli munosabat ehtiyoji alohida ta’kid olgan, bu so‘z kam qo‘llanadi. **Notavon, ojiz**, **chorasiz** so‘zlarida ilojsizlik ta’kidi ochiqcha ifodalangan. **Aftoda** so‘zi eskirgan.

Onamning o‘limi katta musibat bo‘ldi. Otam b e ch o r a birinchi kunlar yosh boladek ko‘zyosh to‘kaverib, kutilmaganda qarib qoldilar. O.Muxtor, Mo‘jiza. *Sho‘rlik Toshlon, b e ch o r a Toshlon! G‘amdiyda, he ko‘zlarim, yoshlan!..* Mirtemir, Surat. *Shunga qaramay, qiyin-qiyin, Nazar baxshiga qiyin bo‘ldi, sh o‘ r-l i k kim g‘olib-u, kim mag‘lubligini bilolmay hali-hanuzgacha garang.* N.Norqobilov, Kurash. *Chunki ko‘chaga chiqayotib, yetar, bugun ko‘ngilning gapiga kirish yo‘q, buvim sh o‘ r l i k meni tergayverib holdan toydi… deb ichimdan tuginib qo‘yuvdim*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *B o y o q i sh ko‘p yaxshi odam edi; insofli, hamiyatli edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Bolam b o y o q i sh-ey... – dedi Hakima opa uning shoshilib ovqat yeyishiga tikilar ekan. – O‘zingni juda oldirib qo‘yibsan, tuzuk-tuzuk ol.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Keyin, keyin... Dalda bo‘ldi munglug‘ xolasi, Keyin, ota bo‘shagan yo‘q yangi qayliqdan, Ahyon kelsa, o‘gay ona tinmas: “Chiq! Chiq!”dan, O‘ k-s i z go‘dak, noinsofning sho‘rlik bolasi.* Mirtemir, Tarsaki. *Qizg‘on ona, o‘ k s i z-ni, O‘sha qutqazdi bizni. Bo‘lmasa o‘lar edik, Ochilmay so‘lar edik.* H.Olimjon, Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod. *Deylik, bandasi uzundan uzoq yashasa-yu, umri poyonida qo‘lidan hech ish kelmay qolib, hech kimga keraksiz… hatto bola-chaqasiga ham dardisar, nochor-u n o t a v o n bir ko‘yga tushsa...* E.A’zam, Guli-guli. *Azbaroyi sharti ketib parti ham qolmagan bu n o t a v o n larga rahmimiz kelganidan biz ham uchrashuvni yumaloq-yostiq qilish payida bo‘ldik.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Endi senga hech kim tegmaydi, hech kim xafa qilmaydi. Lekin bilib qo‘y, hali bu hayotda kuchi o j i z largagina yetadigan noinsoflar, haromxo‘rlar oz emas.* O‘.Umarbekov, Hotamtoy. *Lekin u ham tirik inson, o j i z banda ekanini biz og‘ir xastalikka chalinib, mungli bir qiyofaga kirganida, qo‘li qisqaligini sezib qolganida yaqqol ko‘ramiz.* T.Malik, Shaytanat. *To‘g‘ri, uning tobsiz bo‘lgani rost, lekin hech qachon… Hech qachon! Uni majburlagan bo‘lishlari mumkin. Ch o r a s i z qolib, noiloj rozi bo‘lgandir...* Z.Qurolboy qizi, Qadimiy qo‘shiq. – *Tavba-yey, namuncha tegmanoziksiz? – Qaysi bir oqshom enajon, deb ch o r a s i z ingrayvergach, Shafoat chiroqni yoqib to‘ng‘illadi: – Hatto andak ko‘kargani yo‘q, shishgan yoki yiring-piring yig‘gan emas!* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Nursiz ko‘zlarini o‘sha tomonga bir tikib olgan a f t o d a mo‘ysafidning quruqshagan lablari ohista pichirlaydi: – Yo Rabbim, gumroh bandangni o‘zing kechirgaysan!..* E.A’zam, Shovqin. *Xabardor o‘lg‘il, ey mahvash gahi a f t o d a holimga, Bo‘libdurman asiri furqating, dilbar, salomat bo‘l.* Hayrat, Dilbar, salomat bo‘l.

B

BILIMDON, BILAG‘ON, BILARMON Muayyan bilimlarni egallagan, biron-bir fan, soha yoki kasb-hunar bo‘yicha bilim-malakaga ega bo‘lgan. **Bilimdon** so‘zida bilimlilik ta’kidi qabariq ifodalangan, u badiiy va publitsistik uslublarda ko‘p ishlatiladi. **Bilag‘on** mazkur belgini yanada kuchli ifodalaydi, shuningdek, salbiy bo‘yoq bilan ham qo‘llanadi. **Bilarmon** so‘zida ham “ko‘p narsani biladigan” ifodasi salbiy baho bilan ham namoyon bo‘ladi.

...Dadamning asl otlari Nuriddin bo‘lsa-da, ko‘proq “Traktorchi qori” deb atashardi. Chunki u kishi tengdoshlari orasida ancha ma’rifatli, b i l i m d o n edilar. D.Nuriy, Vijdon hayqiriqlari. *Tarix b i l i m d o n i bo‘lgan bu odamni rayondagi jami tarix o‘qituvchilari ustoz deb atardilar.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Katta olimlarning ko‘pchiligi qishloqdan chiqqan. Bu qiz “O‘n yillikda” olgan sabog‘i bilan o‘zini b i l a g‘ o n sanab, har balolarni valdirab yuribdi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Yoqub. Sen juda b i l a g‘ o n, haddan tashqari b i l a g‘ o n bo‘lib ketibsan.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *O‘z ishiga aqli yetadigan, anchagina b i l a r m o n bo‘lgani uchun ... uni ham yonimga ishga oldim.* Shukrullo, Saylanma. *Tog‘alari-yu amakilari, ammalari-yu xolalari shunaqa gapga chechan, shunaqa b i l a r m o n ki, gaplashaman desangiz, og‘zingizni ochishga qo‘yishmaydi, ammo hammalari to‘p bo‘lib birgina ishni eplasholmabdi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Bizlarga o‘xshagan o‘zi b i l a r m o n, mahmadona bolalar esa haligidek chinakam asil yigitlardek bo‘lishni havas qilib, Doniyorning yuz-ko‘zi oldida bo‘lmasa ham, orqasidan mazax qilardik.* Ch.Aytmatov, Jamila.

BIRDAN BIR, YAGONA, YAKKA-YU YAGONA, YOLG‘IZ, YAKKA-YU YOLG‘IZ, TANHO Biror jihatdan mutlaqo ajralib turadigan, boshqa tengi, o‘xshashi yo‘q. **Yakka-yu yagona, yakka-yu yolg‘iz** so‘zlarida belgi darajasi ortiq, ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Tanho** so‘zi ma’nosida kitobiylik bo‘yog‘i mavjud. **Yagona, yakka-yu yagona, yolg‘iz** so‘zlarida qiyoslash ma’no ta’kidi ochiqroq anglashilib turadi.

Cho‘g‘da pishib yetilgan kartoshkalar po‘stlari archilib, yeb ado qilinguncha gap-so‘z bo‘lmadi. Tashqaridan kuzatgan kishi bularning b i r d a n b i r maqsadi gulxanda isinib, kartoshka yeyishdan iborat deb o‘ylashi mumkin edi. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Tushingizga inondim, amirim. B i r d a n b i r tilagim: olib keting men sho‘rlikni! Yoringiz bo‘lmasam, cho‘ringiz bo‘lay.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Qo‘lingdan tushmasin shu oltin cholg‘u, Shu otashin soz, Kuyga shaydo elda y a g o n a orzu: Nay chalgin, eng kami, tag‘in ellik yoz.* Mirtemir, Nay. *Bu hofiz butun olamga tanilgan. Y a k k a-y u y a g o n a ovoz... Ammo hozir bu yerda yo‘q.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Odina chavandoz bizning qaynsinglimizdan o‘zgasini tan olmas emish. Qaynsinglimiz olamda y a k k a-y u y a g o n a emish!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Bir fikrda edik ikkimiz, Bu so‘z bo‘ldi takror har safar: Shu dunyoda y a g o n a-*

y o l g‘ i z Yaxshi shahar – biz turgan shahar. Mirtemir, Yaxshi shahar. *Seni jonim dedim y o l g‘ i z, Seni qalbim dedim t a n h o, Chimirding qosh, pushaymonman Qo‘pol aytgan so‘zimdan ham.* E.Vohidov, Rashkim. *T a n h o buyuk bastakordan ayrildi jahon, Na martaba, na boyligi bor edi uning.* E.Vohidov, Ixlos.

BIRPAS, ONIY, BIR LAHZA, BIROZ, OZGINA, ANDAK, SAL, PICHA Juda oz fursat, uncha ko‘p bo‘lmagan vaqt. Mazkur ma’no **birpas, oniy, bir lahza** so‘zlarida hamisha muntazam va mustaqil ifodalanadi. Qatordagi boshqa so‘zlarda “ayni vaqt”, “fursat” ma’no unsuri boshqa so‘zlar bilan birga qo‘llanganda, kontekstga ko‘ra ochiq ifodalanadi. **Andak, sal, picha** so‘zlari bu ma’noda, asosan, so‘zlashuv nutqiga xos.

Shavkat qiziga b i r p a s tikilib turdi-da, uning ko‘zlaridagi umidvorlikni ko‘rib, jilmayganicha quchoqlab oldi. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. – *Qayoqqa ketasiz? – dedi Tursunali aka. – Endi biz bilan b i r p a s o‘tirasiz.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ikki sevishgan yurakning bu o n i y uchrashuvini hech kim payqamadi.* Mirmuhsin, Umid. *Chol har gal Vardonzega kelganda, shashtidan tushar, bu qal’a oldida inson umri bir o n i y ekaniga iqror bo‘lar, tani sovib, fikri tiniqlashib uyiga qaytar edi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *U sodda, uyatchan, kamtarin yigit edi. Lekin b i r l a h z a da allaqanday kuch uni itarganday bo‘ldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ona engashib, b i r l a h z a uning yuziga yuzini bosib turdi.* E.A’zam, Shovqin. *Ko‘chaga chiqishganda, mijozga mahtal bo‘sh taksilarga o‘tirishmadi. B i r o z kechikibroq chiqqan Jamshidning sherigi xuddi begona odamday ularga e’tibor bermasdan ko‘chaning narigi betiga o‘tib ketdi.* T.Malik, Shaytanat. *Mabodo kimdir yurak yutib tut tanasiga o‘rlagani on, b i r o z kutib turgach, barimiz baravariga “Ilon!” deb baqirsak, botir do‘stimiz o‘sha zahoti o‘zini pastga tashlab tiraqaylab qochsa, qotib-qotib kulardik.* I.Sulton, Genetik. *U... do‘stlarining maslahati bilan bu tarafga, onamning yurtiga kelibdi. O z g i n a muddat rayon gazetasida ishlagan.* Sh.Xolmirzayev, Ota yurt. *Kechirasiz, Darveshali aka. Sizga aytmay ketuvdim. O z g i n a hayallab qoldim.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Bitta iltimos bor: o‘rin almashsak, Men ham daraxt kabi yashasam a n d a k.* A.Oripov, Qayrag‘och. *Kamol Kamtariy a n d a k sukut saqlab turgach, o‘z o‘g‘lining odobsizligidan xijolatga tushgan otadek iymanib, mayordan so‘radi: – Paxta zavodidan qancha pul o‘g‘irlanibdi o‘zi?* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Kun bo‘yi yer-u ko‘kni jizg‘anak qilib kuydirgan quyoshning botishiga s a l bor.* O‘.Usmonov, Girdob. *S a l avval yonbag‘irga bir nechta kaklik tushgan...* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Yasataman uychangni Sen p i ch a uxlab tursang. Tikaman ko‘ylakchangni, Xalaqit bermay yursang.* S.Zunnunova, Qo‘g‘irchog‘im... – *Ha, p i ch a gaplashib o‘tirdik, – dedi uzumdan bir shingilni tirnog‘i bilan uzib olar ekan Habib.* Sh.Xolmirzayev, Jo‘raboshi.

BITIRMOQ, TUGATMOQ, TUGALLAMOQ, TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, ADO QILMOQ Yakuniga, nihoyasiga yetkazmoq. **Tugatmoq, tugallamoq, tamomlamoq, tamom qilmoq** so‘zlarida ish-harakatning mo‘ljallangan yakuniga yetkazilishi muntazam ifodalanadi. **Tugallamoq** so‘zida ish-harakatning hech bir chalaliksiz, tugal bir tarzda yakuniga yetkazilishi qabariq aks etadi. **Ado qilmoq** so‘zi ko‘proq badiiy va folklor nutqiga xos.

Bu orada Aziz aspiranturani b i t i r ib, noiloj yana o‘sha laborantlik vazifasida ishlay boshladi. O‘.Usmonov, Girdob. *O‘n kun orasida hozirlikni b i t i r ib, to‘y qildiq. Nihoyat Saodat meniki bo‘lib, saodatli kunlarim boshlandi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mirzo Ulug‘bek so‘zini t u g a t magan ham ediki, ostonada kecha Keshga chopar qilib yuborilgan suyukli navkari Bobo Husayn Bahodir ko‘rindi.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Dugonalarining ko‘pchiligi qandaydir yigitlar bilan o‘z turmushlarini bog‘lab qo‘yishgan edi va tezroq o‘qishni t u g a t ib, to‘y qilish, birga turish orzusida yurishardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Vohid yarim soat oldin ishini t u g a l l a b, ko‘chaga chiqdi.* S.Ashur, Munchoq. *Foziljon bilan Odilbek bir mahallada o‘sdi, bir maktabda o‘qib, institutni ham birga t u g a l l a di, omadlarini qarangki, o‘qishni bitirgach, bitta muassasaga ishga kirdilar.* F.Musajonov, Darz. *O‘shanda men o‘qishni t a m o m l a b, qishloq xo‘jalik ilmiy-tekshirish institutida ishlardim.* O‘.Umarbekov, Urush farzandi. *Hoji o‘zidan oshirib so‘zlagan bu so‘zlarini shu gap bilan tamomladi: – Bilgan topib so‘zlar, bilmagan qopib.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bir tomon o‘qlarini otib t a m o m q i l gan, endi ikkinchi tomonning qarshi hujumga o‘tishi uchun sharoit yetilgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Kecha uzringizni qabul qilib, akangizni qo‘yib yubordim. Bugun siz so‘zimizni yerda qoldirmassiz, – Norxo‘ja gapini t a m o m q i l di.* T.Malik, Devona. *Bu yerga yig‘ilguncha hamma gaplar gapirilib a d o q i l inganmi, bugungi ag‘dar-to‘ntarlar xususida deyarli so‘z bo‘lmadi.* E.A’zam, Shovqin. *Cho‘lponoy Jo‘ra Bo‘tako‘zning sarguzashtlarini aytib a d o q i l gach, samimiy tarzda dedi: Bularning qizlari xuddi Kumushbibi kabi… cho‘x go‘zal emishlar.* T.Malik, Shaytanat.

BOLA, FARZAND, ZURRIYOT, BACHA (BACHCHA), JUJUQ Bitta ota-onadan dunyoga kelgan o‘g‘il yoki qiz. **Zurriyot** so‘zida bir qadar kitobiylik bor, anchayin kam qo‘llanadi. **Bacha, jujuq** so‘zlari ma’nosida yosh jihatidan kichiklik ta’kidi mavjud, ular shevaga xos.

B o l a si uyda qolgan Mushtipar kelinchakdan Xizrsifat cholgacha Barchaning mehnati bu! A.Oripov, O‘zbek paxtasi. *O‘zini o‘ylamay-o‘ylab, F a r z a n d ini yurgan sizlab, O‘nga kirgan b o l a siga Sarpo yig‘gan Qalliq izlab*. M.Yusuf, O‘zbekiston. *B o l a larning buyukligi shundaki, ular Yer kurrasining ertangi egalari, kelajak tarixini bituvchilardir. Ularning sharofati shundaki, ota bo‘lgan erkak o‘zini podshoh, ona bo‘lgan ayol esa o‘zini malika sanaydi! Ota-ona*

uchun f a r z a n d jannatiy ta'm, jannatiy iqlimlar beruvchi ne'matdir! T.Sodiqova, Dunyo buyuk ustaxonadir. *Biz davlatpanoh mirzo Ulug'bekdan mehr-saxovat ko'rgan bo'lsak, uning suyukli z u r r i y o t idan mislsiz aziyat chekdik, mavlono Ali!* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Falak sirlarining bir chetini xiyol ochganday bo'ldi, lekin insoniyat, nainki insoniyat, hattokim o'z pushtikamaridan bo'lgan z u r r i y o t larining yuraklariga qo'l solib ko'rolmadi, matlablari ne? Bilolmadi!..* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Berdiyor kampirga qaramay, u bilan qo'l berib ko'rishdi, gaplasha boshladi: – Yaxshimi? B a ch a lar chopqillab yuribdimi? Yusufboy qani? Shaharga ketganmi, deyman?* Sh.Xolmirzayev, Biz kech qolib yuramiz. *U Umar o'zini ko'rishga bormasligini bilib, bir ko'ray b a ch a mni deb, ancha yerdan sudralib kelgan*. O.Muxtor, Vazifa. *Er-xotinning orasida nimalar bo'lmaydi, falokat-da buyam, yarashib ketar, o'rtada j u j u qlari bor, neki qilgan bo'lsa – o'zining sho'riga.* E.A'zam, Ta'ziya. *Rahm qilsinlar, jon xolamoyijon, balki, shu oxirgisidir, qaytarlar tamom. Gunohlarini so'rab bering shu galcha, manavi j u j u q lari haqqi.* M.Mansur, Judolik diyori.

BOLASIZ, FARZANDSIZ, BEFARZAND, ZURRIYOTSIZ, BEPUSHT, NASLSIZ, QISIR Bola ko'rmagan, farzandi yo'q. **Befarzand** so'zida farzandsizlik ma'nosi kuchliroq ta'kidlanadi. **Bepusht** va **naslsiz** so'zlarida farzand ko'ra olmaslik ta'kidi bor. **Zurriyotsiz** so'zi folklor asarlarida, kitobiy nutqda uchraydi. **Qisir** so'zi hayvonga nisbatan, ba'zan ayol kishiga nisbatan ham qo'llanadi, odamga nisbatan qo'llanganda, benihoya kuchli salbiy munosabat ifodalanadi.

Bolali uy – bozor, b o l a s i z uy – mozor. Maqol. *Mutal b o l a s i z o'tishga rozi edi-ku, ammo e'tiborsiz yashashga rozi bo'lolmasdi.* S.Ahmad, Ko'zlaringda o't bor edi. *Erining f a r z a n d s i z beva ammasi uni juda sovuq kutib oldi*. S.Ahmad, Xotin. *Uning keyingi gapi ohangida f a r z a n d s i z o'tayotganidan bir afsus, bir armon bor edi*. T.Malik, Shaytanat. *Garchi b e f a r z a n d bo'lsalar-da, qirq yillik turmushlari davomida eri bilan yomon yashashmagandi*. Z.Qurolboy qizi, Yolg'izlik qurboni. *Go'yo men Tangirning olti bolasi bor, xotini yettinchisiga yukli deb o'ylaganim uchun ham u b e f a r z a n d yurganday?..* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Akrom mirob dunyoga kelib z u r r i y o t s i z o'tayotganidan ho'l o'tindek tutab qo'yardi*. E.Usmonov, Yolqin. *Meni bo'lsa... men bandangni bo'lsa, z u r r i y o t s i z qilding, ey xudo!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Shodi Mudarrisovichning otasi eskijo'valik Gulposhsha degan tannoz bir b e p u sh t juvonga o'ralashib yurdi*. D.Nuriy, Osmon ustuni. *Kichkina xotinimizning gapiga kirib yuraverganmiz. Rahmatlining o'zi esa b e p u sh t chiqdi*. Q.Ochilov, Oy ham yolg'iz emas. *Genotipi normal X va uzun yelkalarning birlashishidan hosil bo'lgan X izoxromosomali… shaxs ayol, lekin n a s l s i z bo'lib rivojlanadi.* S.Fayzullayev, T.Gofurov, E.Matchonov, Odam genetikasi. *Bu yerdagi bolalari ahvollaridan so'rasalar, alhamduliloh,*

ular ham erkag-u urg‘ochi, bo‘g‘oz-u q i s i r degandek, o‘ynab kulib yuriydirlar. A.Qodiriy, Maskov xatlari. *Undan ranjigan akaning ko‘kayiga shu gaplar keldi: “O‘vv enasi q i s i r!* N.Chori, Tashvishi yo‘q odamlar.

BOLASIZLIK, FARZANDSIZLIK, BEFARZANDLIK, BEPUSHTLIK Bolasi yo‘qlik, farzandga zorlik. **Befarzandlik** va **bepushtlik** so‘zlari tibbiyotda muayyan sabablarga ko‘ra farzand ko‘ra olmaganlik holatini ifodalovchi termin sifatida ham qo‘llanadi.

Ali Otabekning kami-ko‘sti shu b o l a s i z l i q dan deb o‘ylag‘an edi: – B o l a s i z l i q uchun xafa bo‘lish kerak emas, hali yoshsiz, bek aka! A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *F a r z a n d s i z l i k katta gunohdek tuyuldi.* T.Malik, Shaytanat. *Yo‘ldosh samovarchi G‘ozibek kelgach, unga f a r z a n d s i z l i k dog‘i, yolg‘izqo‘llikning azobidan xo‘b hasrat qildi*. N.Yusufiy, Hayot so‘qmoqlarida. *Endi, men b e f a r z a n d l i k ka mahkummanmi? Hech qanday yo‘li yo‘qmi?* O.Mo‘min xo‘ja, Otaning duosi – o‘q. *B e f a r z a n d l i k qadimda bexosiyatlik ramzi sifatida qoralangan.* N.Sabirova, Xorazm to‘y marosimlari haqida ba’zi mulohazalar. *Shunday kasblar borki, erkag-u ayollarda b e p u sh t l i k xavfini oshirishi mumkin*. Gazetadan. *B e p u sh t l i k ni iloji boricha barvaqt aniqlab, sabablari bartaraf qilinsa, yaxshi natijaga erishish mumkin*. “O‘zME”.

BOPLAMOQ, QOYIL QILMOQ, QOYILLATMOQ, O‘XSHATMOQ, O‘RINLATMOQ, KELISHTIRMOQ, QOTIRMOQ, DO‘NDIRMOQ, QIYMOQ, ESHMOQ, YASAMOQ Ijrosini kutilganidan ham ortiq darajada, har kimga maqbul bo‘ladigan tarzda amalga oshirmoq. **O‘xshatmoq, kelishtirmoq, qotirmoq, do‘ndirmoq, qiymoq, eshmoq, yasamoq** so‘zlari mazkur ma’nosi bilan so‘zlashuv tiliga xos, ularda ma’lum ma’noda obrazlilik idrok qilinadi, **yasamoq** so‘zi mazkur ma’noda juda kam qo‘llanadi. **Qoyillatmoq, qotirmoq, qiymoq, eshmoq** so‘zlari ko‘proq ijrosi mahorat, ustalik talab qiladigan harakatlarga nisbatan qo‘llanadi va ularda belgi darajasi hamisha yuqori bo‘ladi. **Kelishtirmoq** so‘zi anchayin kam ishlatiladi.

Siz oqsoqollar faqatgina duoyi fotiha berasizlar, bo‘ldi. Hasharni yosh avlodning o‘zi b o p l a ydi. T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Bunaqa ishni siz b o p l a ysiz. Menga jinoyatchini ko‘rsatib, tutib kel, deng, q o t i r i b tashlayman.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Har kim o‘z xohishi bilan ishlaydi. Ishlaganda ham qotirib, q o y i l q i l ib ishlaydi*. S.Ahmad, Umrim bayoni. *Erta peshindayoq hamma ishni q o y i l q i l ib tashladik.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Rahim har qadamda Ahmaddan turtki yeb tursa ham, tishini tishiga qo‘yib, o‘z vazifasini q o y i l l a t ish harakatida edi.* H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar. *Ayni shu damda uchinchi sheriklari o‘qday yetib kelib, o‘ x sh a t ib tushirib qoldi.* M.Mansur, Judolik diyori. *G‘irt palid odam deng, – dedi-da, eshonni o‘ x sh a t ib so‘kib qo‘ydi Yo‘lchi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shuni ham aytishim kerakki, o‘tovni tiklash va buzish faqat ayollarga tan, qadim-qadim zamonlardan shunday. Ular bu ishning piri*

bo‘lib kelgan, juda o‘ r i n l a t ishadi. Sh.Xolmirzayev, Zov ostida adashuv. *E-ha, sening bu tilagingni o‘ r i n l a t moq uchun men bir umr mehnat qilmog‘im kerak-ku!.. – dedi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Men shu to‘g‘rida gazetaga bir maqola yozsammi deb ham o‘ylagan edim,– dedi Zargarov, – lekin k e l i sh t i r olmasman deb qunt qilmadim.* A.Qahhor, O‘jar. *Xususan, toshbaqa chayonga yaxshilik qilib, uni daryodan o‘tkazib qo‘ymoqchi bo‘lganda, chayon unga zahar solishga tirishganini, so‘ng bu yomonligi uchun daryoga cho‘kib o‘lganini shunday k e l i sh t i r ib aytdiki, Bobur zavq qilib kuldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Siz o‘zi nimani q o t i r ib qo‘ydingiz-a? Nimaga muncha karillaysiz? Sizga kim huquq berdi? – Huquqni... kasbim berdi. Bir narsani q o t i r ib qo‘ygan bo‘lmasam, bunga, birinchidan, sizlar aybdor...* Sh.Xolmirzayev, Qish hangomasi. *Ustalik shu darajada: drama ham, opera librettosi ham, kinossenariy ham birdek qo‘lidan keladi. Bunday d o‘ n d i r ib yozadiganlar oz.* Mirtemir, Alloma. *Bu yog‘idan ko‘ngli to‘qligi uchundir, yigit o‘zini har joy, har vaziyatda erkin tutar, yor-do‘stlarining uncha-muncha amaldor ham xat yozib, qo‘ng‘iroq qilib eplayolmagan yumushlarini birpasda d o‘ n d i r ib kelar edi.* E.A’zam, Shovqin. *Xudyakov Leonid. “Latif aka” derdi hamma, Xudyakovi – Xudoyakov; xudo bir, yagona degani-da. O‘zbekchani q i y ib qo‘yardi o‘ziyam.* E.A’zam, Shovqin. *O‘sha kecha mas’ul bir shaxsning qaynotasi bo‘lmish Fan arbobining uyida telefon beto‘xtov jiringlab turdi: “Tabriklaymiz, zo‘r chiqish qilganmishsiz, domla!”... “Gapni q i y ib tashlabsiz ammo, yashang, do‘st!”.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Shoberdi baxshi e sh ib-e sh ib do‘mbira chaldi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Sen so‘rama, men aytmayin... Judayam charchadim... Naryog‘da rosa y a s a shdi. Otishmani ko‘rsang edi... Dahshat.* Q.Norqobil, Daryo ortidagi yig‘i. *– U bitta Cho‘ponni emas, hammamizni y a s a b tashladi. Ammo qo‘limga tushsa, ...onasidan tug‘ilganiga pushaymon yediraman! – deya Mamasoli rulni mushtladi.* N.Ismoilov, Muhabbat va nafrat.

BOQMOQ, PARVARISHLAMOQ, PARVARISH QILMOQ, QARAMOQ Yedirib-ichirib, katta qilmoq, shu maqsadda g‘amxo‘rlik qilmoq, voyaga yetkazmoq. **Parvarishlamoq**, **parvarish qilmoq** so‘zlari odam, hayvon, o‘simliklarga nisbatan qo‘llanadi. **Qaramoq** bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda odam, hayvon, o‘simliklarga nisbatan keng qo‘llanadi, ko‘proq so‘zlashuv, badiiy uslublarda uchraydi.

Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin: – O‘n yil kasal b o q ib, yana kasalxonada ham birgami? – dedi. A.Qahhor, Ming bir jon. *Manov yetimchalarni esa davlat o‘zi b o q sin.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Har kuni ertalabdan uni p a r v a r i sh l a shga kirishar edim: soqolini olar, tishini tozalar, yuziga xushbo‘y atirlar sepib qo‘yar edim...* A.A’zam, O‘zim bilan o‘zim. *Mahmudimni yo‘qotganimdan keyin yaratgan uni manga uchratdi. Mana to‘rt oydirki, mani o‘z onasiga qaragandek mehr bilan p a r v a r i sh l a yapti.* B.Ismoilzoda, Shirin va

armonli kunlar. *Mahmudxonning suyukli xotini Roziya Sulton singlisiga o‘zi turgan qasrdan joy berib, uni eng yaxshi tabiblarga qaratgan va yaxshi p a r v a r i sh q i l ib, oyoqqa turg‘izgan edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ha, o‘g‘lim, daraxt ekib, p a r v a r i sh q i l gan kishining bu dunyosi obod bo‘ladi, degan gapning mazmuni shundan ekan.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Oyim molga q a r a ydi, non yopadi, kir yuvadi…* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Jamil bolalarga q a r a r, ularni ovqatlantirib, o‘ynatar, navbati bilan uxlatar edi.* O.Muxtor, Sherlok Xolms Buxoroda.

BOR, MAVJUD Qo‘lda, ixtiyorda yoki umuman, voqelikdagi, *“yo‘q”*ning zidi. **Bor** so‘zining qo‘llanish doirasi chegaralanmagan. **Mavjud** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

O‘rnidan turmoqni, uning bo‘g‘ziga chang solmoqni istadi. B o r kuchini to‘plab turishga intildi… T.Malik, Shaytanat. *Tabiatda hech narsa yo‘qdan b o r bo‘lmaydi, b o r dan yo‘q bo‘lmaydi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Berahm dillar saltanati fuqarolarida mehr-muruvvat, yaxshilik-yomonlik tushunchalari yo‘q demoqlik noo‘rin. Ulardagi m a v j u d mehr ham, muruvvat ham o‘z nafslarining amriga ko‘ra belgilanadi.* T.Malik, Shaytanat. *Mana, m a v j u d navlar har qancha hosildor, tezpishar, tolasi pishiq bo‘lmasin, baribir, viltga tob berolmayapti.* O‘.Usmonov, Girdob.

BOSILMOQ, TO‘XTAMOQ, TINMOQ, QOLMOQ, QO‘YMOQ Muayyan harakati-holatini kamaytirmoq, pasaytirmoq yoki yo‘qotmoq. **Bosilmoq** so‘zi harakat-holatning har qanday darajadagi o‘zgarishiga nisbatan ham, batamom yo‘q bo‘lishiga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Tinmoq, to‘xtamoq** so‘zlari ma’nosida harakat-holatning batamom yo‘q bo‘lishi qabariq ifodalanadi. **Qolmoq, qo‘ymoq** so‘zlari mazkur ma’noda ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos, bu ma’noda anchayin kam qo‘llanadi.

Shuni ham aytib qo‘yayki, bu tinchsizlik b o s i l mag‘uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xolposhshaning ko‘zlari tiniqlashganini, issig‘i b o s i l ganini ko‘rib o‘gay ona o‘zida yo‘q sevinib ketdi*. O‘.Umarbekov, Hotamtoy. *Odamlar… bahslasha-bahslasha tarqaldi. G‘ovur b o s i l di.* A.Qahhor, O‘g‘ri. *Bul qattol bo‘ron hanuz t o ‘ x t a mabdur.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *...Mavlono Fazliddin orqasiga bog‘langan qo‘llarini beliga bosib, bilagining og‘rig‘ini t o ‘ x t a tmoqchi bo‘lar, lekin og‘riq pasayish o‘rniga tobora zo‘rayar edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Shamol t i n gach burgut ko‘rindi*. T.Malik, So‘nggi o‘q. *“Neva” kinoteatriga yetganda, Abdulla… osmonga qaradi: yomg‘ir t i n gan, nursiz yulduzlar birin-ketin ko‘rina boshlagan edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ziyamat o‘rnidan turdi. Oyoqlarining og‘rig‘i q o l gan, bosh og‘rig‘i ham ancha tingan edi.* O‘.Umarbekov, Vela. *Bunaqa gaplarni q o ‘ y ib turing, iltimos. Oldin tinchib olaylik, jinoyatchilar bilan keyin gaplashamiz.* T.Malik, Shaytanat.

BOTINMOQ, JUR'AT QILMOQ (ETMOQ), JASORAT QILMOQ, HAD QILMOQ, YURAK QILMOQ Biror ish-harakatni bajarishga ortiqcha andisha qilmay, hayiqmay kirishmoq, yuragi dov bermoq. **Jur'at qilmoq, jasorat qilmoq** so'zlarida hayiqmaslik belgisi qabariq ifodalangan. **Had qilmoq, yurak qilmoq** so'zlari juda kam qo'llanadi.

Siz nomardsiz! Pichoqni orqadan kelib urdingiz. Yuzma-yuz kelishga b o t i n a olmadingiz. T.Malik, Devona. *Qiz ularga qarashga b o t i n madi, go'yo har tomonda "ajina"larning ko'lkalari sakrashganday*... Oybek, Tanlangan asarlar. *Mana, bir qish kechasi qanday dahshatli qo'rquv, tahlika ostida bu uyga kirib, qorong'ida Yo'lchi bilan bir necha minutgina so'zlashishga j u r' a t q i l gan edi!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Alouddavla esa sulton Ulug'bekdan hayiqib, o'zini sulton deb atashga j u r' a t q i l olmay, jumalarda Shohrux Mirzo nomini xutbaga qo'shib o'qitaveribdi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Bu g'azallarni o'qib, fors fusaholari va o'zimizning forsiyparastlarimiz ne deb og'iz ochishga j a s o r a t q i l a olurlar!* Oybek, Navoiy. *Gulnor... sekin kuylaydi. Dadasi va onasi bo'lsa edi, bunga ham j a s o r a t q i l magan bo'lar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Avvaliga bu mo'tabar zot hayoti asosida ocherk yozmoqchi bo'ldim. Biroq hadeganda bu ishga h a d q i l avermadim.* R.Rahmon, Xalq professori. *Unsin boyagi gapni duoday tez-tez qaytarib… chuqurda qolgan bir poy kavushini olgani y u r a k q i l olmay mahsichan ketaverdi.* A.Qahhor, Dahshat.

BOTIR, JASUR, DOVYURAK, YURAKLI(K), QO'RQMAS, SHIJOATLI, MARD, YOVQUR, BAHODIR, PAHLAVON, ER Har qanday xavf-xatardan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, shijoat bilan harakar qiladigan, qo'rqishni bilmaydigan. **Botir, mard, shijoatli** so'zlarida maqsadidan chekinmaslik, shijoat bilan ish tutish ma'no ta'kidlari qabariq ifodalangan. **Mard** so'zida ayni paytda yana marhamatlilik, tantilik ta'kidi ham mavjud. **Jasur, dovyurak, qo'rqmas, yurakli** so'zlari ma'nosida hech narsadan qo'rqmaslik ochiq ifodalangan. **Bahodir, pahlavon** so'zlarida qo'rqmaslik bilan bir qatorda kuch-qudratlilik ma'no ta'kidi ham anglashiladi. **Yovqur** so'zi eskirgan, kam qo'llanadi. **Er** so'zi bu ma'noda ko'proq folklor asarlarida uchraydi.

Shundan so'ng b o t i r Bunyod bo'lib o'zida yo'q shod, Qilichni yuvib oldi, Bir o'pib, qinga soldi. H.Olimjon, Semurg'. *B o t i r bir marta o'ladi, qo'rqoq – ming marta*. Maqol. *O'lim xavfidan qo'rqmay shunday dalil tilaklarni aytgan mavlono Farid Salimga j a s u r odam bo'lib ko'rindi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Adolat esa o'zini tank ostiga tashlaydigan j a s u r askar kabi eriga yaqin kelib, yelkasidan quchib oldi*. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Andijon qo'rg'oni Xo'ja Abdulladay d o v y u r a k odam rahbarligida hali besh-olti oy qilt etmay turishi shubhasiz tuyulardi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qo'rqoq va zaif sanalgan bolaning shu ondan e'tiboran d o v y u r a k yigitchaga aylanganini biz ham his qildik*. T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. *Shaharning y u r a k l i k*

yigitlari Xadra chipiga qarab chopadirlar, yuraksiz va keksalar guzar va mahallalarga to‘nkalardan gulxan solib, “o‘ttuz ikki tanga” qayg‘usida olomong‘a muzaffariyat tilaydirlar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. – *Ha, buyam Ulug‘xo‘ja buvasiga tortdi. U kishiga o‘xshab y u r a k l i.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bilasanmi, kim u, o‘sha qiz, Osmondagi o‘sha qaldirg‘och? O‘sha q o‘ r q m a s va o‘sha lochin, O‘sha dilbar, o‘sha chilvir soch?* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Bilasizmi, juda q o‘ r q m a s odam ham, juda qo‘rqoq odam ham tez o‘lar ekan*. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *U o‘ttiz sakkiz-qirq yashar... yuragida yigitlik o‘ti so‘nmagan, sh i j o a t l i, o‘z so‘zli kishi edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yolg‘on aytding, sen sh i j o a t l i deb atalish uchun jang qilding. Shundoq deyildi ham*. M.Mansur, Judolik diyori. *Qizim, akang m a r d yigit edi, nomusli yigit edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. – *Chavandoz bova! – dedi. – Oshingni yesa-da m a r d yesin, boshingni yesa-da m a r d yesin!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Zunnun Arg‘un telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, b a h o d i r, y o v q u r bek edi.* Oybek, Navoiy. *Ko‘p ajib mo‘jiza bunyodiga qodirlar yeri, Kiftda to‘n, belda qiyiq, mard-u b a h o d i r lar yeri, Maqtanib yurdim jahonda, menga bu yurt onadir, Maskanim Farg‘onadir, Farg‘onadir, Farg‘onadir.* E.Vohidov, Maskanim Farg‘onadir. *Kel, ey Bobur, g‘azal yoz, Ot minib kez shoh Boburdek, Necha Bobur kabi nasling Bahodir, p a h l a v o n ing bor.* E.Vohidov, Kel, ey Bobur, Vatanga. *Yigit kuylasin, jangda Chin p a h l a v o n bo‘ldim, deb.* H.Po‘lat, Tanlangan she’rlar. *E r boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar.* Maqol. *E r yigit enasi g‘arib o‘larmi, Enam deb, mastonga ko‘ngil berarmi?* “Rustamxon”.

BOY, BADAVLAT, DAVLATMAND, DAVLATLI, G‘ANI, ZANGIN Katta boylikka ega bo‘lgan, mol-dunyosi mo‘l. **Davlatmand** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Boy** va **badavlat** so‘zlari ba’zan **boy-badavlat** tarzidagi juft so‘z tarkibida ham ishlatiladi va bunday juft so‘z ma’nosida belgi darajasi sezilarli darajada ortiq bo‘ladi. **G‘ani –** eskirgan so‘z, poetik nutqda qo‘llanadi. **Zangin** so‘zida eskilik bo‘yog‘i mavjud, anchayin kam qo‘llanadi.

Ayrilsa ayrilgay tog‘lar qoridan, Ayrilgay behimmat b o y ham boridan, Vafosiz ayrilgay do‘st-u yoridan, Shoir xalqi ash’oridan ayrilmas. A.Oripov, Ayrilmas. *Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning b o y laridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. – *Kim to‘y qilibdi? – B a d a v l a t bir odam. Katta osh tortibdi lekin!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Tabiiy, uning boyvachcha, b a d a v l a t ekanini hamma bilar va tumandagi eng katta oshxonani sotib olganiga-da hech kim hayron qolmagan edi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Ajrashayin desa – “nomard”ning otasi sudmi, prokurormi, ishqilib, rosa puldor, d a v l a t m a n d; hashamatli hovli-joyni tashlab, ikki go‘dagi bilan qayoqqa borsin?* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Qamalda yengilib xazinasidan va qo‘shinidan ayrilgan Komron d a v-*

l a t m a n d juvon bilan til topish fikriga tushdi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Sahnning tun va kunbotar jihatlari kichkina hujralar bilan o‘ralg‘an va bu hujralarning barcha eshiklari yopiq va qulflang‘an holda bo‘lib, mollar bilan bandligi va uy egasining d a v l a t l i k kishi bo‘lg‘anlig‘i bilinur.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Mirzom, – dedi oliy axloq egasi bo‘lmish Alisher Navoiy. – Men faqir, bu d a v l a t l i ostonaga tuproqdek tushib edim…* I.Sulton, Alisher Navoiy. *O, nahotki! Bu isqirt gadoy – bobokaloni z a ng i n Suyunboy!* M.Ali, Boqiy dunyo. *– Mehnat ahli hamisha zabunlikda. Savdogarlar-chi? Barchasi z a ng i n, bizning bel va bilak kuchimizdan semirgan haromtomoqlar! – dedi qahr bilan Jumaboy.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yo‘q zarracha, e voy, g‘ a n i lar saxavoti, Maktab so(l)sa bo‘lsunmi ani xarj manoti*. A.Avloniy, Afsus. *Payg‘ambarlar o‘tdi, o‘tdi valilar, Shoh-u beklar o‘tdi, o‘tdi g‘ a n i lar.* B.Bobomurod, Hayot qo‘shig‘i. *Omin, murod-maqsadlaringga yetinglar. Yurtimiz tinch, b o y-b a d a v-l a t bo‘lsin, iloyi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Ilk genetik tadqiqotlar shu zaminda boshlangani sir emas. Turli-tuman b o y-b a d a v l a t kishilar o‘z sarvatlarini tadqiqotlar uchun ayamay sarflashardi.* I.Sulton, Genetik.

BOYLIK, DAVLAT, DUNYO, MOL-MULK, MOL-DUNYO, SARVAT, BIZOAT Orttirilgan, to‘plangan butun qimmatli moddiy narsalar. **Mol-mulk, mol-dunyo** so‘zlarida umumlashtirish ta’kidi qabariq ifodalangan. **Sarvat, bizoat** so‘zlari eskirgan, juda kam ishlatiladi.

Agarda manim yurt so‘ramoqqa va shu vosita bilan b o y l i k orttirmoqqa orzum bo‘lsa, boshqalardan ham ko‘ra o‘z o‘g‘limg‘a – senga ma’lum bo‘lmasmidi? A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Halol, peshona teri bilan topilgan har qancha b o y l i k ka yana b o y l i k qo‘shilsin, uni topgan shovvoz-sheri mardga sharaflar bo‘lsin.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ishbilarmon to‘g‘ri, toza qo‘l bilan ishlaydi. O‘g‘rilik, xiyonat, aldamchilik bilan emas, aql-idrok bilan pul topadi, d a v l a t orttiradi, o‘z nomiga dog‘ tushirmaydi.* O‘.Umarbekov, Olamushuk. *Sen o‘zing o‘nta qo‘y bersam, pichoq sanchib kelasanmi? Yuzta qo‘y, d a v-l a t imning yarmini bersam, borasanmi?* A.Qahhor, Dahshat. *Boylikni olib ketish imkoni bo‘lganida edi, Olloh taborak va taolo bandalariga murojaat qilib, “d u n y o ga aldanmanglar”, demas edi.* T.Malik, Shaytanat. *Shunda biroz seskandim… lekin men shu tobda d u n y o topgan telbadek hayajonda edim.* Sh.Xolmirzayev, Ora yo‘l. *Uch-to‘rt yil ishlaganimdan keyin, xo‘jayinim umri qisqa ekan, o‘ldi. M o l-m u l k i yosh bolalariga qoldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ammo, mutlaqo maxfiy sir bo‘lsa-da, hijrat oldidan birgina savolga javob berib ketsangiz: shuncha m o l-m u l k, shuncha sarmoyani qayerdan, qay yo‘sinda topdingiz?* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Nima yetmaydi o‘zi senga? Kim uchun jonimni jabborga beryapman men? Kim uchun yig‘dim bu m o l-d u n y o, bu zeb-ziynatni?* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Kimdir to‘plagan m o l-d u n y o siga qaragan sayin ko‘zi quvnaydi, boshqasi teshik tog‘oraga qarab, qorin va nafs*

B

bandasi bo‘lmagani uchun Yaratganga shukr qiladi. T.Malik, Shaytanat. *...yo cho‘l-u biyobonda bir o‘zingiz dastgoh o‘rnatib, dollar ishlab chiqarmagandirsiz? Mana shu “noni qimmat” yurt, shu yurtdagi vatandoshlaringiz tufayli orttirilmaganmi o‘sha s a r v a t?!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Axir qo‘lida katta s a r v a t i bo‘lgan kishining turli-turli yeb, rango-rang kiyinishi tabiiy ekanidek, uning har xil joy va uylarda yashashni istashi ham g‘ayritabiiy emasda!* U.Hamdam, Muvozanat. *Johil G‘ulomjoni ul zarsalla, nomi – Afg‘on, Bori b i z o a t ini topshurdi shod-u xandon.* Pisandiy, Kajrav falakdin...

BOYO‘G‘LI, BOYQUSH, YAPALOQQUSH Yapaloqqushlar turkumiga mansub, tunda ov qiladigan yirtqich qush. **Boyqush** ko‘proq kitobiy uslublarda qo‘llanadi, **yapaloqqush** nutqda kam ishlatiladi. Har ikki so‘z mazkur qushning xalq orasidagi nomidir.

Serquyosh o‘lkaga falokat doribdi. Ne-ne go‘zal go‘shalar vayronaga aylanibdi, sayrog‘i bexosiyat b o y o‘ g‘ l i larga makon bo‘libdi. A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Uyimizdagi b o y o‘ g‘ l i shu yergacha uchib kelgan ekan, endi yong‘oqning kavagiga kirib olibdi, o‘sha yerdan turib yana menga o‘qraydi.* I.Sulton, Ozod. *Quloqlariga chigirtka-chirildoqlar chirillashi kirmas, b o y q u sh ovozidan ham cho‘chishmasdi.* Q.Kenja, Toshqin. *B o y q u sh lar makoni bo‘lgan bir vayronada yuz bergan voqea tafsilotini e’tiborsiz tinglash qiyin edi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Burgut qarisa, y a p a l o q q u sh bo‘lar.* Maqol.

BOSH, KALLA, SAR Tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi (odamda va hayvonlarda) qismi. **Kalla** so‘zining odamga nisbatan qo‘llanishi, asosan, so‘zlashuv tiliga xos va bunday qo‘llanganda, unda salbiy baho mavjud bo‘ladi. **Sar** kam qo‘llanadi, poetik nutqda uchraydi.

Yosh juvon b o sh ini quyi egib, yuzini chapga burgan va borgan sari qaltirashi kuchaygan lablarini o‘tkir va oppoq tishlari o‘rtasida qisardi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shayboniyxon qo‘lida qilichi bilan odamlariga hayqirib, to‘polonni bosmoqchi bo‘layotganda, to‘pning tosh o‘qlaridan biri xon mingan otning b o sh iga kelib tegdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bir erta uyg‘onib, k a l l a mga qo‘l yugurtirdim. Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Oyoqlari chalishib, muvozanatni ushlolmay qoldi – munkib borib deraza tokchasining qirrasiga k a l l a si bilan urildi.* T.Malik, Shaytanat. *Ne araqdurkim, ichinda g‘arqadur nozuk taning, Bargi guldekkim, gulob ichra cho‘mar s a r to qadam.* Navoiy. *Saf-saf tizilib Safsar oyog‘ingga qo‘yib s a r, Band-band uzilib Joni bilan banda bo‘libdur.* E.Vohidov, Gullar bazmi.

BOSHLAMOQ, KIRISHMOQ, TUTINMOQ Biror ish-harakatni bajarishga ibtido bermoq. **Kirishmoq** so‘zi ko‘proq shaxsning ish-harakatiga nisbatan qo‘llanadi. **Tutinmoq** so‘zi ma’nosida muayyan ish-harakatni bajarishga urinib ko‘rish ta’kidi mavjud, bu so‘z ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos. Qatordagi

barcha fe’llar mazkur ma’noda, ko‘pincha, jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan birga qo‘llanadi.

...Razzoq so‘fi uyiga qaytib kelganidan keyin “Qizingni mingboshiga berib keldim, taraddudingni qil!” degan, shundan so‘ng Qurvonbibi yig‘lashga b o sh l a gan, uni Zebi yupatgan, shu bilan ish fotiha to‘yiga borib yetgan edi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yigit so‘zga b o sh l a di, Gapni tizib tashladi.* H.Olimjon, Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod. *Hartugul, xudo asrab shiyponning omon qolgan joylari ham bor ekan. Tog‘amiz... “mening” imoratimdan ortib qolgan yog‘och-u to‘sinlarni eltib, shiyponni tiklash-ta’mirlashga k i r i sh ibdi.* E.A’zam, Bizning tog‘a. *Ammo o‘sha gapingizning joni bor edi: agar sizga o‘xshash rahbar tarbiya ishiga k i r i sh sa, Po‘latlarning ham kollektivni tashlab ketishi hech gap emas.* A.Muxtor, Chinor. *O‘nlik va yuzliklarga bo‘lingan qo‘shin har joyhar joyda to‘xtab, gulxan yoqib, ovqat pishirishga t u t i n di.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Homid uchun eng keyingi choradan boshqa iloj yo‘q edi – cho‘ntak kavlashka t u t i n di va yuz mashaqqat bilan yonchig‘ini chiqardi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

BOSHLIQ, RAHBAR, YO‘LBOSHCHI, RAHNAMO, ISHBOSHI, BOSHCHI, KATTA, KATTAKON, XO‘JAYIN, SARKOR Guruh, jamoa, xo‘jalik va sh.k.lar faoliyatiga bosh bo‘luvchi, ularning ish-harakatini boshqaruvchi mas’ul shaxs. **Rahbar** so‘zida mazkur ma’no neytral ifodalanadi, rasmiy nutqda ham, oddiy so‘zlashuvda ham qo‘llanaveradi. **Yo‘lboshchi, rahnamo** so‘zlari ma’nosida juda katta jamoaga bosh ekanlik ta’kidi qabariq ifodalangan va ko‘proq kitobiy nutqqa xoslangan. **Ishboshi, boshchi** so‘zlarida ko‘proq amaliy faoliyatni boshqarish ta’kidi mavjud. **Katta, kattakon, xo‘jayin** so‘zlari mazkur ma’nosi bilan oddiy so‘zlashuv tilida qo‘llanadi. **Xo‘jayin** so‘zining mazkur ma’nosida bir qadar salbiy munosabat ifodasi ham bor. **Sarkor** – eskirgan, kitobiy so‘z.

Hali b o s h l i q ning huzurida bo‘lganimda, ochig‘ini aytsam, undan qo‘rqib ketgan edim. X.To‘xtaboyev, Sariq devning o‘limi. *Yolg‘onchi qilmasin, u kishining uyida ko‘rganim ko‘pgina rahbar shaxslar – o‘sha sovxoz direktorlari-yu vrachlar, bo‘lim b o sh l i q lari ham shu yerda, bu xokisor, mehmonnavoz odamning qazosi yaqinligini eshitib kelishgan ekan.* Sh.Xolmirzayev, Olam tortilishi qonuni. *Lekin Ustozdek nomdor r a h b a r ning o‘zaro muloqot asnosida mutlaqo oddiy odamlardan farq qilmasligini ko‘rib, birdan xotirjam tortdi, dadillashdi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *G‘olib davlatlarning r a h b a r lari Parijdagi uchrashuvga tayyorlanayotgan onlarda Kobulda saroy ahli amirning Jalolobodga, qishlik qarorgohiga jo‘nashiga tadorik ko‘rar edi.* T.Malik, Savohil. *Lekin xonning y o‘ l b o sh ch i si bo‘lg‘an kishining o‘zi zulmda Azizbekdan bir necha zina baland o‘rinni ishg‘ol etkuchi kimsa bo‘lsa, biz qandog‘ qilayliq.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ko‘plar uchun u najotkor, xaloskor edi. Y o‘ l b o sh-*

ch i sifatida haqsizlikdan ezilgan, xo‘rlanganlarni o‘z ortidan ergashtira olardi.

B A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Yana oddiy mulla emas, islom lashkarlarining murodbaxsh r a h n a m o lari qanotiga kiruvchi e’tiborli odam sifatida qaytyapti.* T.Malik, Devona. *Hisob-kitob vaqti yetganini… Germaniyaga qarshi urishgan yigirma yetti davlat r a h n a m o lari ham anglab, mag‘lubning boyliklarini talash bo‘yicha o‘zlaricha reja tuzardi.* T.Malik, Savohil. *I sh b o sh i larga tilla tarqatadi: qullar o‘lmasligi kerak!* A.Muxtor, Chinor. *...yuk tashigan aravalarning gumburlashi… og‘irkarvon fillarning haybatli lapanglashi, i s h b o sh i larning keskin qichqirishlari Arslonqulni ancha esankiratdi.* Oybek, Navoiy. *Uni… bir o‘zi qirqta qizga bosh bo‘lgudek deb, chopiqchi qizlarga b o sh ch i qilib qo‘yishdi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Shu deyman, domla, yoshingiz ham bir joyga borib qoldi. K a t t a larda insof yo‘q-da. Sizni ishga chiqarmasalar ham bo‘lardi.* S.Ahmad, Sarob. *Qolaversa, qo‘li ancha yerga yetadigan, k a t t a lar ham hisoblashib, hayiqib turadigan tog‘asi bor edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *K a t t a k o n deganimiz aslida xipchagina, o‘rtamiyona jussali bir odam.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Hozir ham chakana emas – vazirlikdan-da moyliroq, chala, yo‘g‘-e, deyarli shaxsiy bir dovrug‘dor korxonaning x o‘ j a y i n i emish*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Hakimjon o‘z x o‘ j a y i n i ning ta’bi biroz olinganini payqadi, shekilli, uning yordamiga yetishmoqchi bo‘ldi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bir ko‘rayin Go‘ro‘g‘li s a r k o r ini, Ko‘rayin yonida qirq navkarini.* “Ravshan”.

BOSHQA I**, BO‘LAK, O‘ZGA** Zikr qilingani, aytilgani, ko‘rilgani yoki ko‘zda tutilgani emas. Qatordagi so‘zlar mazkur ma’noda, asosan, sifatlovchi vazifasida qo‘llanadi. **Bo‘lak** so‘zi ko‘proq og‘zaki nutqda uchraydi. **O‘zga** – kitobiy so‘z.

Bu dushmanning ishi emas. Qolaversa, dushman sizga emas, b o sh q a yerga, bo‘lak mazmunda xat yozardi. T.Malik, Devona. *Haligi o‘g‘rilarni ushlash rejasini tuza boshladimi yoki men bilmagan b o sh q a narsalar xususida o‘ylayaptimi, bilib bo‘lmasdi*. X.To‘xtaboyev, Sariq devning o‘limi. *...ishsiz qolgan boshqalar ham o‘sha yoqqa, yoki bo‘lmasa, mo‘mayroq pul chiqadigan b o‘ l a k paxtakor manzillarga bosh olib jo‘nagan edi*. E.A’zam, Guli-guli. *Emasam, qanotlari ko‘kish-kulrang mitti kapalak, xuddi b o‘ l a k joy qurib qolganday, kelib-kelib uning naq burni uchiga qo‘narmidi?* N.Norqobilov, Kurash. *Bu oshishlar, bu kechishlar o‘ z g a vaqtlarda Otabek uchun huzur va oshiqish bag‘ishlag‘an bo‘lsalar, bu gal uni nafratlandiradirlar...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *O‘z g a makon, o‘ z g a zamonda Mavjud bo‘lgan olis yulduzlar El ko‘zidan pinhon osmonda Ko‘rishgandek faqat kunduzlar – Biz ham shunday yashadik besh yil.* E.Vohidov, Tushlik tanaffus.

BOSHQA II**, BO‘LAK, O‘ZGA, ORTIQ, TASHQARI** Zikr qilingani, aytilgani, ko‘rilgani yoki ko‘zda tutilganini hisobga olmaganda, ulardan tashqa-

ri, ularning ustiga. Qatordagi so‘zlarning barchasi mazkur ma’noda, asosan, chiqish kelishigidagi so‘z bilan birga qo‘llanadi. Vazifadosh ko‘makchi vazifasida keladi. **Bo‘lak, o‘zga, ortiq** so‘zlari ko‘proq og‘zaki nutqqa xos, ammo anchayin kam qo‘llanadi.

Mendan b o sh q a xotin bo‘lsa, Zaynabingiz bilan birinchi kundanoq arazlashar edi... A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Adolat qiling, bolam! Sizdan b o sh q a hech kimdan umidim yo‘q.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Aytishiga qaraganda, Forishda turadigan onasidan b o‘ l a k hech kimi yo‘q ekan.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Insof bilan aytganda, do‘konda odamning jonidan b o‘ l a k hamma narsa bor...* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Yuragida Yo‘lchidan o‘ z g a bir fikr va tuyg‘uga o‘rin bermagan Gulnor, o‘z sevgisini hammadan yashira-yashira hozir o‘n sakkiz yoshini kechirib turadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qaydam, buning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini Oybek domla tirik bo‘lganida, o‘zlaridan so‘rash mumkin edi – bugun esa ishonmoqdan o‘ z g a chorangiz yo‘q*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. – *Venera bog‘chada, – dedi Zuhra va bundan o r t i q gap so‘rashini istamadi, shekilli, o‘zi savol berdi.* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Buni sezib turgan Qosimbek munozarani ortiq cho‘zib o‘tirgisi kelmadi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Kunning issig‘idan t a sh q a r i peshindan so‘ng ichilgan aroqning tafti ham uning ichini yondirmoqda edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Axir fransuzga maoshdan t a sh q a r i yana ijara uy, kelib-ketish xarajatlarini ham ko‘tarish shart bo‘ladi.* U.Hamdam, Muvozanat.

BOSHQARMOQ, IDORA QILMOQ (ETMOQ), SO‘RAMOQ Muassasa, tashkilot, xo‘jalik va shu kabilarning ish faoliyatini tashkil qilmoq, yuritmoq. **Idora qilmoq** so‘zi, asosan, yozma nutqqa xos. **So‘ramoq** so‘zi eskirgan va unda xo‘jayinlik, egalik ta’kidi qabariq ifodalangan, folklor va so‘zlashuv tilida uchraydi.

Gap shundaki, u yettinchiga o‘tganida otasi kasalga chalinib, tuman savdosini b o sh q a r ish og‘irlik qilib qoldi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. – *Hazratim, hech bo‘lmasa, Humoyunni Kobulda qoldiring! Axir siz Hindga ketsangiz, kimdir Kobulni b o sh q a r i sh i zarur-ku!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U bunday bo‘lishini kutmagandi, taxtga o‘ltiraman-u buyuk saltanatni i d o r a q i l i shga tushaman, deb o‘ylagandi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. – *Men yo‘g‘imda Kobulni siz i d o r a e t gaysiz, begim!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bu boshimga zo‘r sallani o‘rayman, omon bo‘lsam, mamlakatni s o‘ r a yman.* “Erali va Sherali”. – *Rustam bolam yurtga ega bo‘lsin deb, Podsholik navbatin Rustam olsin deb, Elni endi Rustam s o‘ r a b tursin deb, El-u xalqqa shunday xabar bildirdi.* “Rustamxon”.

BOSHQATDAN, QAYTA, QAYTADAN, YANGIDAN Qayta boshdan, boshqa marta. Qatordagi barcha so‘zlar ma’nosida ish-harakatning oddiy takrori emas, balki mazkur ish-harakatning muayyan tahriri, takomillashtirilishi, mukammallashtirilishi bilan bog‘liq qaytarilishi yetakchilik qiladi.

Voy, aylanay sizdan, egachi, tanimabmiz-a. Keling, b o sh q a t d a n ko‘rishaylik. T.Malik, Shaytanat. *Chang qo‘nsa shprislarni b o sh q a t d a n qaynatishga to‘g‘ri keladi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Hozirgi sening rayoningda biz yetti yildan beri qora terga botib ishladik, uning iqtisodiyotini q a y t a qurdik, pastdagi yovvoyi cho‘lni jilovlab, suv chiqardik*...A.Muxtor, Chinor. *Masala q a y t a ko‘riladi, deb turganlarida bu rayon qo‘shni rayon bilan birlashib, markaz boshqa joyga ko‘chdi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Hozir yalt etib ostonada paydo bo‘lsa, Matniyoz q a y t a d a n kuchga kirar, ilhomi toshib, qaqshatgich nutq so‘zlab tashlar edi.* A.Muxtor, Chinor. *Navoiy bu shikoyatni q a y t a d a n o‘qib, nafrat bilan boshini silkidi: – Ilohim, odam qiyofatidagi bu hayvon ish boshiga o‘tmasin-da! – deb, bu qog‘ozni alohida juzdonga solib qo‘ydi.* Oybek, Navoiy. *O‘n minglab xalq y a ng i d a n Xudoyorg‘a itoat izhor etib, chin xonlik bilan uni muborakbod qilishdilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Avtomobilchi Tolibjon hech qayoqqa chiqmay ertalabdan beri bizni kutib o‘tirgan ekan. Y a ng i d a n mehmondorchilik boshlandi.* O‘.Umarbekov, Mehmondorchilik.

BOSHQACHA, BO‘LAKCHA, O‘ZGACHA, AYRICHA Boshqalaridan, avvalgilaridan, odatdagidan biror jihatdan yoki butunlay farq qiladigan. **Bo‘lakcha** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos, kam qo‘llanadi. **O‘zgacha** so‘zi ko‘proq kitobiy uslubga xos. **Ayricha** so‘zida tamoman farqlilik, o‘ziga xoslik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Dalaga yoyilgan otlarning kishnashlari, yigitlarning qo‘shiqlari quloqlarda endi b o sh q a c h a yangraydi. Oybek, Navoiy. *Tiliyam, muomalasiyam b o sh q a c h a...* Sh.Xolmirzayev, Oy yorug‘ida. *Rahmatli bobosi Amir Temur ham, Mirzo Ulug‘bek ham ko‘hna Keshga b o ‘ l a k ch a mehr qo‘ygan edi*. O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Hisor tog‘lariga ovga chiqqanlarida ustod o‘zi otib olgan, shuning uchun ham hamisha b o ‘ l a k ch a bir faxr bilan tilga olardilar.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Akobirning bu borada fikri o ‘ z g a ch a edi: bu ko‘ngli yarim bo‘lsa ham, andishali va mag‘rur yigit o‘zicha mustaqil yashashni orzu qilar, qandaydir mulohazalarga borib, o‘zining borligini isbotlamoqchi bo‘lib yurardi.* Sh.Xolmirzayev, Bahor o‘tdi. *Nihoyat, Otabekdagi o‘ychanliq va o ‘ z g a ch a hollarning kundan kunga kuchayib borishi Hasanalini haligi mulohazadan voz kechdirib, boshqa yo‘sunlarni qaratmoqqa majbur etdi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shuning uchun ham muridlar Eshon buvaga a y r i ch a ixlos qo‘yishar ekan*. O‘.Hoshimov,Tushda kechgan umrlar. *Umuman, xalq, uning dard-u tashvishi, O‘zbekiston mavzusi shoir ijodida a y r i ch a bir muhabbat bilan qalamga olinadi.* D.Begimqulov, She’riyatimiz yulduzi.

BULOQ, CHASHMA Yer ostidan otilib, qaynab yoki oqib chiqib turuvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy. **Chashma** so‘zida ko‘proq badiiy uslubga xoslik mavjud.

Lekin hali ham bu joylarning ko‘rki, hisobsiz katta-kichik b u l o q lar, shoxlari bir-biriga chirmashib ketgan bahaybat tollarning shovur-shuvuri, muzdek havo dilni ravshan qiladi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Qo‘lida stakan, piyola ushlagan bemorlar suv ichgani b u l o q tomonga ketishyapti.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *...shunday yuksak tog‘ning eng baland bir nuqtasidan yorib chiqqan bunday g‘alati ch a sh m a ni Bobur birinchi marta shu yerda uchratdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bir ko‘klam tongining nozli chog‘ida Ch a shm a bo‘ylarida o‘ltirib qoldim.* Mirtemir, Chashma bo‘yida.

BURUN, TUMSHUQ Hidlash, hid bilish a’zosi, shu a’zoning yuzdagi tashqi qismi. **Burun** so‘zi odamga nisbatan ham, hayvonga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Tumshuq** so‘zi, asosan, hayvonga nisbatan ishlatiladi, odamga nisbatan qo‘llanganda, ochiqcha salbiy munosabat ifodalanadi.

O‘g‘il bolalarnikiga o‘xshagan katta b u r n i yuziga uncha yarashmagan bu qizni nega shunchalik yoqtirib qolganligini hozirgacha bilmaydi. Sh.Matkarim, Og‘riq. *Yuqoriga ko‘tarilganlari sari yurish qiyinlashadi, ot-ulovlar b u r u nlaridan hovur chiqarib og‘ir-og‘ir nafas olishadi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Shuning uchun sigirning t u m sh u g‘ i ga yog‘ochdan nayzador qilib to‘rtburchak chambarak ilib qo‘yishar, shunda sigir o‘tlashga o‘tlardi-yu, o‘rgangan noma’qulchiligini qilolmas edi.* O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *Meshpolvon gapni chuvalab o‘tirmay, qizlardan beshta non so‘rab olib, soqchiboshining t u m sh u g‘ i ga qadadi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

BUTUNLAY, BUTKUL, BATAMOM, TAMOMILA, TAMOMAN, TAMOM, MUTLAQ(O), PAQQOS, BIRATO‘LA, KUSHOD Hech bir narsani qoldirmay, butun boricha, qancha bo‘lsa shunchaligicha, to‘lasicha. **Butkul** so‘zida harakat-holatning to‘lasicha qamralishi ta’kidi qabariq ifodalangan, ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Batamom, tamomila, tamoman, mutlaqo** so‘zlarida harakat-holatning qoldiqsiz amalga oshishi ta’kidi kuchli, bu so‘zlar ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Paqqos** so‘zida harakat-holatning uzil-kesilligi ochiqcha ifodalangan, so‘zlashuv nutqiga xoslangan. **Birato‘la** mazkur ma’noda faol emas. **Kushod** so‘zi ko‘proq shevaga oid, anchayin eskirgan, kam qo‘llanadi.

Shu haqiqatdan vaqtida voqif bo‘lishgandami, balki, taqdirlari b u t u n l a y o‘zgacha kecharmidi. U.Hamdam, Safar. *Ammo bu mo‘jiza qachon – ertaga ertalabmi yoki kechqurun, balki, b u t u n l a y boshqa kuni – ro‘y berishini bilmayman.* Z.Qurolboy qizi, Kasal qush. *Hozir uning xayolini boshqa bir hissiyot, boshqa bir manzara b u t k u l asir etgan.* A.Sayyid, Qaytish. *Biroq qahvaxonadan chiqib, teatr binosining atrofini aylanib yurganimizda mehmon b u t k u l jiddiy bir tarzda yana dumli odamlar haqida so‘z ochdi.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *Bahorgi toshqin payti qirg‘oq o‘pirilib, tol anhorga qulaganda baquvvat shoxlardan biri narigi qirg‘oqqa tiralib uni b a t a m o m qulashdan asrab qolgan.* M.Sharif, Tol ko‘prik.

B

Bir hisobda shunisi ma'qul: b a t a m o m shukronaga o'tib olgan kishi kurashmay qo'yishi mumkin. N.Rahmat, Noxush xayollar. *Ana shunda men ham yog'a boshlarman tuproqlaring uzra, bag'ringga t a m o m i l a singib ketish uchun!* I.Sulton, Ona yurt. *Ikkinchi bor uchratganimda esa u t a m o m i l a yer qiziga aylanib bo'lgan, uchgali qanotlari yo'q – qirqilgan edi.* I.Sulton, Oydinbuloq. *Xayriyatki, ishdan ketishimga t a m o m a n bo'lak narsa, obro'yimga qattiq raxna solmaydigan boshqa bir voqea sababchi bo'ldi.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo'llar. *Shu tarzda xayolday chayqalgan ummon aro yov qayig'i baliqchilardan olislab, tumanlar ichra t a m o m a n ko'zdan yo'qoldi.* U.Hamdam, Safar. *T a m o m ko'zdan g'oyib bo'lganidan so'ng Said Jalolxon tikka o'zining ulfati mulla Shamsiddinning uyiga bordi.* A.Qahhor, Bashorat. *O'n minutdan keyin yigit xotinining har qanday shubhadan pok ekaniga… t a m o m ishondi…* A.Qahhor, Qayg'ular. *Uy ichida esa Ertosh ota karavotdagi jasadga kiprik qoqmay termilgan kuyi tosh qotib o'tirar… o'zgalarning gapi ham qulog'iga m u t l a q o chalinmayotgandek edi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Har holda, so'rab-surishtiradiganlar ko'payib qolgan, shekilli, ona Ra'nodan m u t l a q ozodalikni talab qila boshladi.* I.Sulton, Onaizorim. *G'alaba bayramini nishonlaymiz, deganda nuqul erkaklarni o'ylab… idoramizdagi xotin-qizlar p a q q o s esimizdan ko'tarilib qolibdi.* T.Po'lat, Ayollar isyoni. *Lang'illagan osmondan quyosh ayovsiz kun sochar, zamin olovga tashlangan yong'oq singari p a q q o s yorilib ketadigandek harsillardi…* Z.Qurolboy qizi, Yozsiz yil. *Xotin javrab-javrab hamma ishni bir boshdan saranjom qilaveradi, oxiri joniga teggach, erkakni ham b i r a t o' l a saranjom qilib qo'ya qoladi.* N.Oston, Uylanish. *Uyda yotib qolgan bemor uchun ham shart shu edi: u yoq-bu yoqni supurib-sidirib qo'yishi kerak. B i r a t o' l a qutulay deb uyni supurdim. Ayvonlarniyam tozaladim.* Sh.Xolmirzayev, O'zbek xarakteri. *Hayot bo'lsaydingiz, turardingiz shod Ulkan shu davraning eng o'rtasida. Tiriklik sha'nini ulug'lab k u sh o d, Doston insho etib, bitib qasida.* A.Oripov, Hamid Olimjon xotirasiga.

BUYRUQ, AMR, FARMON, FARMOYISH Biror ishni bajarish yuzasidan og'zaki yoki yozma beriladigan ko'rsatma. **Amr** so'zi anchayin eskirgan, ammo unda ko'rsatmaning qat'iyligi qabariq ifodalangan. **Farmon, farmoyish** so'zlarida ko'rsatma beruvchining yuqori, oliy maqomi ta'kid oladi.

Buning ustiga ular soldat edi. B u y r u q ni bajarmasdan ilojlari yo'q. O'.Umarbekov, So'nggi safar. *O'zlari ham qipchoqni qidira berib hamma yoqni tozayam g'alvir qilib yubordilar-da, taqsir... Qo'qonga ketkan beklardanmi, xondanmi, ishqilib, shunaqa b u y r u q kepti-da, taqsir...* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Tong otganda, askarlar otlanib, sovutlarini, dubulg'alarini kiygan holda birong'ar, jirong'arga bo'linib, a m r kutardilar.* Oybek, Navoiy. *Ular ot tuyoqlarining dupurini eshitib, o'rinlaridan sakrab turishar, lekin oldinda borayotgan yasovulning a m r i bilan yo'lni ochib, otliqlarni o'tkazib yuborishardi.* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Zulnun Arg'un va Shoh Shujobekka yigitlar yuborib,*

o‘zlaringizni qutqarishga harakat qilinglar deb f a r m o n berdi. Oybek, Navoiy. *Ustodning f a r m o n i shogird uchun amri vojibdur, – dedi.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Bugun Bobur kelishidan oldin Xo‘ja Abdullaning f a r m o y i sh i bilan qasrning zinapoyalariga yana poyandoz to‘shaldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Amirzodam, har bir daqiqa g‘animat. Xos navkarlaringiz otlangan. Hammasi f a r m o y i sh ingizga muntazir.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

BUYUM, NARSA, ASHYO, MOL, MATOH Tirikchilik va ro‘zg‘orda ishlatiladigan, kerak bo‘ladigan har qanday narsa. **Narsa** so‘zi muayyan so‘zlar bilan birga kelganda, mazkur ma’noni yanada aniq ifodalaydi. **Ashyo** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Mol** so‘zi, asosan, muayyan maqsad bilan to‘plangan, asrab qo‘yilgan ashyoni bildiradi. **Matoh** so‘zida salbiy bo‘yoq mavjud, so‘zlashuv tiliga xos, kam qo‘llanadi.

Davronning, unga o‘xshagan arxeologlarning vazifasi – tabiat muhrini buzish, sirni ochish. Ayrim odamlar ularni eski b u y u m larni izlab topib, eski shaharlarni ochib muzey qilishadi, deydilar. T.Malik, Davron. *Oyiginamning qo‘llari teggan biron b u y u m ni qoldirmayman. Elakniyam, samovarniyam, cho‘yan dazmolniyam olib ketaman*. S.Ahmad, Kuyov. *Sharti shulki, kim bu kamarga qo‘nib, bu n a r s a lardan foydalansa, keyin (ketar chog‘ida), albatta, o‘tinning ham o‘rnini to‘ldirib (ho‘l o‘tin bo‘lsa-da qo‘yib), ...to‘rdagi qush inidek tokchalarga ortib qolgan non-u tuzni ham qoldirib ketishi lozim.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Avvalboshda begonasirab turgan odamlar bunday suhbatlar so‘ngida bahri dillari ochilib, bisotida bor n a r s a lardan sovg‘a berishlarini aytsangiz!* I.Sulton, Alisher Navoiy. *U xatni ikki-uch qayta o‘qigandan so‘ng o‘zini andak bosib olib, atrofiga qaradi, nazarida, butun a sh y o lar tusi o‘zgargan, kulib turganday ko‘rinar edi*. A.Qahhor, Sarob. *Sira tashvish tortmang. Betonni o‘zim quydirtirib beraman. Tanish bolalar bor. ...Kerakli a sh y olarni yetkazib tursangiz, tez orada quyib chiqib ketishadi*. T.Yo‘ldoshev, Yaxshiboy. *Axir, Aziz Muhiddin Jabborovich bilan shunchaki arzimagan narsaga, otasining m o l ini talashib, yoki jahl ustida aytishib qolganmas-da.* O‘.Usmonov, Girdob. *To‘y uchun kuyov tomonidan o‘n besh arava yuk yuborilgan. Har bir aravada boshqa-boshqa m o l lar va buyumlar…* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qolgan m a t o h laring, kiyimlaring, sening hujjating garovda turadi.* M.Normurodova, Musofir. *Ikki-uch parcha-purcha qog‘oz, avtobusning oylik chiptasidan bo‘lak m a t o h chiqmadi.*X.Do‘stmuhammad, Maosh.

BUYURMOQ I, **AMR ETMOQ (QILMOQ)** Istak-talabni bajarishga ko‘rsatma bermoq, shu haqda buyruq bermoq. **Amr etmoq (qilmoq)** so‘zi ma’nosida qat’iylik, keskinlik ta’kidi qabariq ifodalangan, bu so‘z eskirgan.

Besh daqiqa ichida qaynotam, qaynog‘alarim, aka-ukalarim qayerda ishlashini surishtirib, o‘ziga foydasi tegishi mumkinligini miyasida chamalab chiqqach, ko‘ngli joyiga tushdi, shekilli, mezbon xotiniga ovqat suzishni b u y u r di.

B

D.Sobirova, Bir kecha – ming kecha. *U go‘yo mening tepamda turib olib, tinimsiz og‘ir ish b u y u r ayotgan badjahl va beshafqat xo‘jayinga o‘xshab borayotgandi.* U.Hamdam, Ko‘nglimdagi daryo. *Sohibqiron arkoni aqraboni chorlab a m r et dilarkim, taslim bo‘lgan ulusga shohona marhamat ko‘rguzilg‘ay.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Omonulloxon otasining fe’lini yaxshi bilar edi: endi unga gapirish ortiqcha. Achchiq ustida afv etmoq o‘rniga qatlga a m r q i l ib yuborishi hech gapmas.* T.Malik, Savohil.

BUYURMOQ II**, NASIB BO‘LMOQ, NASIB QILMOQ (ETMOQ)** Taqdiri azalda belgilangan nasibaga, biror narsaga muyassar bo‘lmoq. **Nasib bo‘lmoq, nasib qilmoq, nasib etmoq** so‘zlarida islomiy tushuncha ta’kidi qabariq ifodalangan.

O‘z uying, o‘z to‘shaging o‘z-o‘zingga b u y u r ib, O‘z farzanding, o‘z yoring bo‘laversin seniki. A.Oripov, Sarhadlar. – *Domla! – dedi mirishkor nazari bilan shu yerga tikilib turgan rais... Mana shu joy – sizniki! B u y u r sin, omin!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. – *Amirzodam, iloho asiralarni qutqarish sizga tezroq n a s i b b o‘ l sin! – dedi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Hasanali bilan qutidorni nong‘a taklif qilib o‘zi maqsadni ochiqroq onglatmoqchi bo‘ldi: – Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga n a s i b b o‘ l adirg‘an bir durri bebahodir, – dedi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *O‘lmasga osh yeyish n a s i b q i l madi. “N a s i b q i l sa kelar Shom-u Iroqdin, n a s i b q i l mas ketar qosh-u qoboqdin” degan hikmatni esladim.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Lekin uylansang, shunday birovini topib xotin qilginki, sira-sira joningga tegmasin! Necha yil o‘tsa ham! Bunisi endi har kimgayam n a s i b e t avermaydi, albatta.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Yaratgan egam shohid ekanki, mana seni ko‘rmoq n a s i b e t ibdi.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat.

BO‘LMOQ, YUZ BERMOQ, RO‘Y BERMOQ, SODIR BO‘LMOQ, VOQE BO‘LMOQ Amalga oshmoq, voqelanmoq (biror ish-harakat, ma’raka-tadbirga nisbatan). **Yuz bermoq, ro‘y bermoq** so‘zlarida kutilmagandalik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Sodir bo‘lmoq, voqe bo‘lmoq** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Goh-goh qishloqda to‘y b o‘ l ib qoladi, kimdir kimgadir uylanadi... I.Sulton, Ozod. *Gazetada Orol dengizini qutqarish majlisi haqida e’lon berildi. Ushbu majlis b o‘ l di. Orolpanohlar birin-ketin minbarladi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Shu hol y u z b e r sa, “Falonchini yozibdilar” deb yurmang. Bu shunchaki tasodifiy o‘xshashlikdan boshqa narsa emas.* T.Malik, Shaytanat. *Nimadir y u z b e r gan! Nimadir bo‘lgan! Oy ham, kun ham menga boqib qoluvdi... bir kunda o‘n martalab chaqirtirardi o‘zi.* O‘.Usmonov, Girdob. *Mehmonxona ko‘chasiga qayrilganimizda, mehmonning gazetasiga qo‘l keladigan yana bir hodisa r o‘ y b e r di: shu ko‘chadan g‘izillab chiqqan “Moskvich” kattakon bir sariq itni urib o‘tdi.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *Nogahon r o‘ y b e r-*

gan bu uchrashuv, tosh yo‘ldan yumalab ketgan bu oltin ne o‘zi? O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *O‘sha tunda murodiga yetishdi Hakim, S o d i r b o‘ l di tib ilmida pinhon inqilob. Yorib ko‘rdi u insonning tanin bavahm, Tong yorishmay dafn etishni buyurdi shitob.* A.Oripov, Hakim va ajal. *S o d i r b o‘ l mish voqealar tufayli dilgir qolib, qovog‘ini Dahbed osmonidek uyib olgan Mirza Hamid… tush paytida uyga qaytdi.* X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Ba’zan shunday bo‘ladi: talantli yozuvchilar xomush, talantsizlar mag‘rur bo‘lib yurishadi. Bunday holat yozuvchining faqat yaxshi niyati qadrlanib, kitobning qanday mahorat bilan yozilgani, muallifning talant kuchi bee’tibor bo‘lgan paytda v o q e b o‘ l adi.* E.Vohidov, Umrim daryosi.

BO‘PTI, MAYLI, XO‘P, MA‘QUL, YAXSHI, DURUST, TUZUK, BO‘LADI Taklif, iltimos yoki muayyan buyruq-da’vatni bajarishga rozilikni bildiradi. **Mayli, xo‘p, bo‘ladi** so‘zlarida rozilik umumiy tarzda ifodalanadi. **Ma’qul, yaxshi, durust, tuzuk** so‘zlarida rozilik bilan birga bajarilajak harakatni ma’qullash ta’kidi ham mavjud, ammo bu ta’kid darajasi **durust, tuzuk** so‘zlarida nisbatan kamroq. Qatordagi so‘zlarning deyarli barchasida so‘zlashuv tiliga xos bo‘yoqdorlik anglanadi.

– Manavi yerda birpas o‘tiraylik, yurisham jonga tegdi, – dedi Binafsha allaqayoqlargadir qarab. – B o‘ p t i, meniyam jonimga tegdi, – rozi bo‘ldi Ozodbek. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *– B o‘ p t i, ertaga pul olib kelaman, – deb oyog‘im qaltirab chiqib ketdim.* N.Oston, O‘lma, Go‘ro‘g‘li... *Modomiki, masala o‘zi bu qadar ravshan va aybdorning o‘zi o‘z og‘zi bilan iqror qilib turibdi, m a y l i, muzokara ochib o‘tirmasak ham bo‘ladi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *– M a y l i, to‘xtatib qo‘yganingiz yo‘lakni yuvishni men talab qilmayman… – dedi uy sohibi.* M.Salom, O‘zganing dilbandi. *– X o‘ p, albatta, chiqib turaman, – dedi ilmga ishtiyoqmand bo‘lgan Husayn.* M.Osim. Ibn Sino qissasi. *Endi majlisni ochsam, maylimi? X o‘ p, majlis ochiq.* A.Qahhor, Kampirlar sim qoqdi. *– Amirzodam, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz. Boshqa mushkul mashqlarni ertaga qoldiring. – X o‘ p, mushkuli ertaga qolsin, hozir osonini ko‘raylik, – kulib dedi Bobur.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Inson bolasini shu tabiat boqqanidan keyin tabiat oldida hamisha qulluq qilib turishi kerak, m a’ q u l mi, inim? Solihov “to‘g‘ri”, deb qo‘yib, olimlarning “Yovvoyi tabiatni yengamiz!” degan shiorini esladi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Karimga o‘xshaganlar, vaqtida aytgan edik, direktor quloq solmadi, deb yurmasin. M a’ q u l mi?* A.A’zam, Hali hayot bor... *– Do‘stim, sen bilan telefonda gaplashib qo‘ya qolish niyatim yo‘q. Bir ko‘rishsak. – Y a x sh i. – Kechqurun uyda bo‘lsang, boraman.* U.Hamdam, Muvozanat. *– Yo‘q hali, zirvagi yana biroz qaynasin. – Y a x sh i, unaqa gaplarni keyinroq gaplashamiz.* I.Sulton, Genetik. *– Mulla Abdishukur, ertaga ojizamizga to‘y keladi, marhamat qiling, d u r u s t mi? – Muborak bo‘lsin, juda soz, albatta, kelaman.* Oybek, Tanlangan asarlar. *– Boyonlarimizning bari hushyor.*

B

Aqli bo‘lgani uchun boy bo‘lganda. Shunday emasmi, Salimjon? – D u r u s t, Jamolboy aka, – Salimboyvachcha so‘zga kirishdi, – ko‘zimiz ochiq. Lekin savodli, o‘qigan boy bilan o‘qimagan boy orasida farq bor. Oybek, Tanlangan asarlar. *Xo‘b, t u z u k, so‘zingiz to‘g‘ri. Bu so‘zlaringizg‘a juda ishonaman, lekin zamonamizda yomon bid’at, isroflar taraqqiy topkan, uncha-muncha oqchag‘a bu vaqtda uylanmak qiyin, meni oqcham boyagi aytkanim.* A.Qodiriy, Baxtsiz kuyov. *T u z u k, agar Musulmonqul bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg‘anda, zolimlarni o‘rtadan ko‘tarib, yurtka osoyish berganda, unga kim nima deya olur edi?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Biz ertaga tushdan keyin yo‘lga chiqmoqchimiz, siz nima deysiz? – B o‘ l a d i, men ham so‘z aytgan paytda o‘sha o‘zimiz bilgan joyda bo‘lishga harakat qilaman.* A.Jo‘rayev, Qadrdonlar.

BO‘YIN, GARDAN Tanani bosh bilan birlashtiruvchi qism. **Gardan** so‘zi nisbatan kamroq qo‘llanadi, bu so‘zda birqadar shevaga, so‘zlashuv tiliga xoslik anglanadi.

O‘g‘rini solsang qo‘yningga, sirtmoq tushar b o‘ y n i ngga. Maqol. *Ular oradan ellik yil o‘tgach, bu unut va muztar go‘shaga birinchi bor qadam qo‘yishgan va tobut ortidan gunohkorona b o‘ y i n egib borishardi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *O‘rnidan turmoqchi bo‘lgan edi, boshi aylanib ketdi va g a r d a n ini yana yostiqqa qo‘yishga majbur bo‘ldi.* A.Taypatov, Alam. *– Yo‘g‘-e! – kulishga harakat qildi yigit va uyalinqirab sherigining ter yaltirab turgan yo‘g‘on, taram-taram g a r d a n iga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi.* O‘.Umarbekov, Ko‘prik.

BO‘YSUNMOQ, ITOAT QILMOQ Birovning buyrug‘i, topshirig‘i, yo‘l-yo‘rig‘iga amal qilmoq, aytganini bajo qilmoq. **Itoat qilmoq,** asosan, kitobiy nutqqa xos.

Uqqan bo‘lsang, ayt: inongan tog‘larim ko‘zim tirikligida irodamga b o‘ y s u n m o q ni istamasalar, ko‘zim yumulg‘ondan keyin bul elda ne bo‘lur, Mavlono? O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Yana hayotga, quvonchga talpinuvchi qudrat butun borlig‘imni band etayotganini va mening unga b o‘ y s u n ishdan, egasining ketidan ketgan itdek orqasidan ergashishdan o‘zga ilojim yo‘qligini chuqur anglayman.* U.Hamdam, Lola. *Tezda barchasi qaytadan hisob-kitob qilingay, ortiqcha olingan haq o‘z egalariga qaytarilgaydir. Buyruqqa i t o a t q i l ganingiz uchun siz aybli sanalmagaysiz.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Chillashir bir so‘z demasdan hukmga i t o a t q i l di, shu o‘tirgancha boshini ko‘tarmadi, faqat quyoshga teskari o‘girilib oldi, xolos.* M.Sharif, Jazo.

BO‘SHAMOQ, TUSHMOQ, OLINMOQ, OZOD QILINMOQ, CHETLATILMOQ, ISTE’FOGA CHIQMOQ, BEKOR BO‘LMOQ Ishdan, lavozimdan, mansabdan ketmoq, ulardan ayrilmoq, amal-vazifadan chetlatilmoq. **Tushmoq** so‘zida amal-vazifadan o‘z ixtiyoridan tashqari ketmoq ma’no ta’kidi qabariq ifodalangan, undagi yuqori lavozimdan pastga tushish mazmuni mazkur

so‘zda bir qadar salbiy bo‘yoqni yuzaga keltiradi. Ayni paytda mazkur so‘z ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **Olinmoq** so‘zidagi lavozimdan boshqalar tomonidan ketkazilganlik ta’kidi aniq ifodalanganligi uchun mazkur so‘zda bir qadar salbiy bo‘yoq yuzaga chiqadi. **Ozod qilinmoq** so‘zi mazkur ma’nosi bilan rasmiy nutqqa xoslangan. **Chetlatilmoq** so‘zida majburiy ravishda amal-vazifadan ketkazilganlik ma’no ta’kidi qabariq ifodalangan. **Iste’foga chiqmoq** so‘zida ko‘proq o‘z xohishi bilan vazifadan ketish ochiq o‘z aksini topgan. **Bekor bo‘lmoq** so‘zlashuv tiliga xos, ammo kam qo‘llanadi.

Bilaman: inson nimagadir intilib yashaydi, aks holda, o‘ladi. Chamasi, mening Toshkentda ishdan b o‘ sh a b, tug‘ilgan yurtga uloqib kelishim ham ana o‘sha nimagadir intilish… edi. Sh.Xolmirzayev, Quyosh-ku falakda kezib yuribdi. *Nima, endi, raislikdan b o‘ sh a b, befayz bo‘lib qoldikmi?* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Oyisi… nimadir bo‘lib, ishdan t u sh di-yu, birdan qandaydir cho‘kib qoldi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Shirinqul mansabdan t u shganiga endi bu yog‘iga yashashim qiyinroq bo‘ladi, deb kimda qancha puli borligini o‘zicha xomcho‘t qilib yurardi.* S.O‘nar, Dunyo shunday tururmi? *– Ie, vey, – dedi u, – bu yog‘i allambalo bo‘p ketdi-ku: “Sulaymonov ishdan o l i n ib, Namozov direktor vazifasini bajarishga kirishsin”.* T.Malik, Shaytanat. *Lekin machitlarni yoptirgan kattalar allaqachon ishdan o l i n ib, berkitilgan machitlar yana qayta ochilgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Bugundan boshlab, tarbiyachi Shoberdiyev bizning bolalar uyida ishlamaydi. U o‘z vazifasidan o z o d q i l indi*. U.Azim, Sevgi. *Ahmad Tanbal unga g‘azab qilib yelkasiga qamchi urdi. – Seni yuzboshilikdan o z o d q i l urmen, qo‘rqoq!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Lekin ertaga uning ahvoli chatoq bo‘ladi – ishiga mas’uliyatsizlik bilan qaragani… uchun vazifasidan ch e t l a t i l adi.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Jinoyat ishi kattalardan birining tantiq o‘g‘liga taqalganida, qat’iy turib olgani uchun “o‘z vazifasiga munosib emas” degan tamg‘a bilan ishdan ch e t l a t i l ganida-chi?* T.Malik, Shaytanat. *Shogirdlariga og‘ir hayfsan va boshqa intizomiy jazolar qo‘llanib, Ustozning o‘ziga i s t e’ f o g a ch i q ish tavsiya etildi.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Brest yaqinida Nizomiddin aka sonidan yarador bo‘lib, Minskka jo‘natildi. U yerdan uyiga qaytdi. Lekin harbiy xizmatdan uni bo‘shatishmadi. Oblast harbiy komissariatida ishladi. Shu yerdan i s t e’ f o g a ch i q di.* O‘.Umarbekov, So‘nggi safar. *Shu xilda olti oycha umr qilishgandan keyin nima bo‘ldi-yu, G‘afforjon selponing mudirligidan b e k o r b o‘ l di*. A.Qahhor, Ayb kimda? *Mingboshilikdan bekor qilsalar, uncha qayg‘urmas edi; munga o‘z nafsini bir ish qilib ko‘ndira olardi. Lekin “Akbarali mingboshi amalidan b e k o r b o‘ l ibdi” degan xunuk gapni haligi ikki boy bilan Abdisamat kaptarlarning qanotiga ilib, shamolning qo‘ltig‘iga qistirib, yomg‘irning tomchisiga joylab, bulutning qo‘yniga solib uchiradi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

B

BO‘SHATMOQ, OZOD QILMOQ, QO‘YIB YUBORMOQ, XALOS QILMOQ, QUTQARMOQ Tutqunlik, qamoq yoki boshqa bandilik-erksizlikdan chiqarmoq. **Ozod qilmoq, qo‘yib yubormoq** so‘zlari odamga nisbatan ham, qush-hayvonlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Qo‘yib yubormoq** ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos. **Xalos qilmoq, qutqarmoq** so‘zlarida harakatning astoydil, yaxshi niyat va jiddiy shijoat bilan amalga oshirilishi ta’kidi mavjud. **Xalos qilmoq** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xosdir.

– Ziyo aka bilan o‘g‘li Rahmatni b o‘ sh a t ingiz, so‘ngra anovini qo‘lg‘a olingiz! – degan amrni olib, qo‘rboshi ham siljidi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bilasizmi, boylardan bittasi o‘rtaga tushsa, akangizni qamoqdan b o‘ sh a t ish oson bo‘ladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yo‘q, yo‘q, amirzodam! Bunga yaqin bormang! Favjdor janglarda odam o‘ldirib o‘rgangan shafqatsiz fil! B o‘ sh a t-sak, sizni yiqitib qochib ketgay*! P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Zaripovani o z o d q i l ish haqidagi qarorni yozib berdi.* T.Malik, Shaytanat. *Bahona qilma, jin. Men axir seni necha yillik tutqunlikdan o z o d q i l gan xo‘jangman-ku!* A.Yo‘ldoshev, Oloviddinning sarguzashti. *Pastko‘chadagi Olim polvon lapashanglik qilib, hatto asirlikdayam bo‘lgan. Pashist qorovulini o‘ldirib qochganini inobatga olib, keyinchalik qamoqdan q o‘ y i b yubor ishgan.* A.Obidjon, Eh, la’nati ombor... *Lashkarboshi uning sadoqatiga qoyil qolib, ikkovini ham q o‘ y i b y u b o r ibdi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Bobur tezroq Andijonga borib, ota yurtini Ahmad Tanbal istilosidan x a l o s q i l ishga oshiqadi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Olloning xohishi ila dushmanni yengib, mamlakatimizni uning asoratidan x a l o s e t urmiz. Xo‘jand atrofida bundan ortiq turmoq – halokat demak*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Chaman akangiz Toyir elchi bilan yetib kelib, Akmal o‘risning changalidan q u t q a r ib ketdi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Albatta, Yusufbek hojiga bu va’dalarning hech ahamiyati yo‘q, faqat ul o‘g‘lining sog‘lig‘ini bilsa va Marg‘ilon zindonidan uning q u t-q a r ilishig‘a va’da olsa, uning uchun dunyolarcha martaba va hurmat edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

BO‘SHASHMOQ, BO‘SHANQIRAMOQ HOLSIZLANMOQ, DARMONSIZLANMOQ, MAJOLSIZLANMOQ, MADORSIZLANMOQ, SHALVIRAMOQ, SHALPAYMOQ Jismoniy yoki ruhiy quvvati kamaymoq, faol harakati zaiflashmoq, darmoni, madori qurigan holatga tushmoq. **Bo‘shanqiramoq** so‘zida mazkur holatning sezilarli kuchsiz ekanligi ta’kidi mavjud, kam qo‘llanadi. **Holsizlanmoq** so‘zida faol holatning kamayishi aniq ifodalangan. Qatordagi keyingi so‘zlarning o‘zaklaridan anglashilib turganiday, ularda darmon, majol, madorning yo‘qolishi ta’kidi qabariq o‘z ifodasini topgan. **Shalviramoq, shalpaymoq** so‘zlarida mazkur ma’no ifodasida obrazlilik mavjud.

Keyin hech yeri og‘rimagani holda xuddi o‘lasi qilib kaltaklaganday a’zoyi badani birdan b o‘ sh a sh di… atrofidagilarga bildirmay chuqur-chuqur nafas ola boshladi. O‘.Usmonov, Girdob. *Uch daqiqalik kurashdan so‘ng Mutal b o‘-*

sh a sh di, ilgarigi kuchanishlardan qoldi… A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Keksa militsioner hujjatlarni chiroqqa tutib, qayta-qayta ko‘zdan o‘tkazdi-da, b o‘ sh a n- q i r a b, yo‘ldoshiga berdi.* Oybek, Quyosh qoraymas. *Jalol polvon h o l s i z- l a n ib o‘rnidan turdi, mast odamdek chayqala-chayqala hovliga chiqib ketdi.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *U o‘zi bilan o‘zi olishib, shunday charchadi- ki, soat beshga zang urganda h o l s i z l a n ib divanga yiqildi.* O.Yoqubov, Matluba. *Zo‘ravor unga tomon o‘girilayotganida biqiniga tishlari bilan shun- day urdiki, qoyaday zo‘r Zo‘ravor og‘riqdan d a r m o n s i z l a n ib gandiraklab ketdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. – *Taniyman... – Asadullaning boshi qizib, ko‘kragida sanchiq turdi, qo‘l-oyog‘i d a r m o n s i z l a n di.* T.Malik, Savohil. *Boyning ilk so‘zlariyoq uni m a j o l s i z l a n tirgan edi.* Oybek, Tanlangan asar- lar. *Sattor birdan mag‘lubiyatga uchragan odamday butun vujudi m a d o r- s i z l a n ib ketdi.* P.Qodirov, Erk. *Mirsalim turgan yerida sh a l v i r a b qola berdi. Uning qimirlashga madori yo‘q edi.* Shuhrat, Oltin zanglamas. *Umid… bilan qo‘l yetmasdek tuyulgan ishlarga ham jazm etsa bo‘larkan. Bo‘lmasa, o‘ti- ruvdimda sh a l p a y ib...* M.Mansur, Judolik diyori.

D

DANG‘ILLAMA, **HASHAMATLI**, **DABDABALI**, **SERHASHAM**, **MUHTASHAM** Hashamga ega, juda ham hayratlantiradigan. **Dang‘illama, dabdabali** so‘zlari uy-joy, imorat, to‘y-hasham kabilarga nisbatan ishlatilib, hashamning keragidan ortiqlik ta’kidiga ega. **Muhtasham** so‘zi kitobiy uslubda ko‘p uchraydi, ijobiy bo‘yoqqa ega.

Shafoat. – Bor-e! Shuncha marvaridlarimdan ayrilgan, d a n g‘ i l l a m a uchastka, erdan ham ayrilamanmi? Mo‘min. Issig‘ida bir yoshroq erga tegib ol. E.Vohidov, Oltin devor. *Yashashi uchun aqchasi bo‘lsa bas, boshqalarday d a n g‘ i l l a m a imorat-u orzu-havaslarga berilmagan.* T.Malik, Shaytanat. *Uchinchi qavatning h a sh a m a t l i keng xollida Gippokrat, Kox, Mechnikov, Gamaleyaning katta portretlari osilgan joyda seylonlik olimlar ko‘rishishdi.* A.Muxtor, Chinor. *Choy damlab keldi, h a sh a m a t l i bufetdan qimmatbaho konfetlar bilan tuzalgan kumush patnis oldi.* A.Muxtor, Chinor. *D a b d a b a l i to‘y qilganmi-yo‘qmi – hozircha bilmaydi.* T.Malik, Shaytanat. *Taqdir bizni shunday yaxshi kunlarga yetkazsa, ixcham, chiroyli to‘y qilamiz, ortiqcha d a b d a b a l i marosimlardan voz kechamiz degan niyatimiz bor.* E.Vohidov, Bizning odatlar. *Ikkinchi manzil neon peshlavhali, s e r h a sh a m zamonaviy binoga olib keldi, bu ustaxona deb atalsa-da, haqiqiy fabrika edi.* A.Muxtor, Chinor. *Ilmdan chekingan ikki odam s e r h a sh a m bir xonada xuddi daryoning ikki qirg‘og‘ida turganday gaplashishardi.* T.Malik, Shaytanat. *Boplab ta’zirimni berishdi, ayb o‘zimda. Kelajakning m u h t a sh a m binosini quryapmiz, mangulikka quryapmiz.* A.Muxtor, Chinor. *Asqad Muxtorning m u h t a sh a m kabineti, Vahob Ro‘zimatovning hayhotdek xonasiga kirmay, to‘g‘ri mening oldimga kelibdi.* A.A’zam, Majnuntol tagida…

DARDLASHMOQ, HASRATLASHMOQ Bir-biriga dard-hasratini aytib suhbatlashmoq. **Dardlashmoq** so‘zi g‘am-tashvish borasidagi suhbatni ham, boshqa mavzulardagi suhbatni ham ifodalayveradi. **Hasratlashmoq** so‘zi esa o‘zaro suhbatning bevosita dard-alam, tashvish, qiyinchilik haqida bo‘lishini anglatadi.

Afsuski, Salimxo‘ja uzoqda qolgan. Bu yerda esa fikrlashadigan, d a r d l a sh adigan hech kim yo‘q. T.Malik, Devona. *Ana shunday diqqinafas kunlaridan birida Zahroni maktabdosh o‘rtog‘i Zarina yo‘qlab kelib qoldi. Ular allavaqtgacha yeb-ichib, d a r d l a sh ib, kulishib o‘tirishdi.* U.Hamdam, Muvozanat.

Nariroqda mujiklar h a s r a t l a sh ib turishardi: – Kechasi qochibdi, yo rab, oxiri baxayr bo‘lsin... A.Muxtor, Chinor. *So‘ralgan taqdirda ham, garchi ko‘ngil h a s r a t l a sh ishni istab turgan bo‘lsa-da, “yaxshi” deb gapni kalta qilgan bo‘lardi.* T.Malik, Shaytanat.

DARROV, DARHOL, TEZ, TEZDA(N), TEZLIKDA, BIRPASDA, BIR ZUMDA, BIR LAHZADA, BIR ONDA, ZUMDA, LAHZADA Juda qisqa muddatda, tezlik bilan. **Darhol** so‘zi ma’nosida tezlik va ayni hamonlik ta’kidi qabariq aks etgan. **Tez, tezda(n), tezlikda** so‘zlarida tezlik ta’kidi ochiqcha ifodalangan. Sinonimik qatordagi **birpasda, bir zumda, bir onda, bir lahzada, zumda, lahzada** so‘zlarida yanada qisqa vaqt ichida va tezlik bilan ta’kidi o‘zaklarga ko‘ra ochiq anglashiladi.

Otasi ham to‘yga d a r r o v rozi bo‘la qoldi. O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Haqiqiy do‘st birodarining aybini d a r r o v kechira olishi shart.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Alimardon qadim zamonlardan buyon xalq tilidan tushmay kelayotgan bu satrlarda o‘zgacha bir joziba, yashirin, iboli tuyg‘ular borligini d a r h o l payqab olgandi...* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Mirazim ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushib, d a r h o l Saidga sim qoqqan edi, u chiqib ketgan ekan.* U.Hamdam, Muvozanat. *– Yo‘q, avvaliga biroz cho‘chigandim, so‘ng t e z ko‘nikib ketdim.* X.Do‘stmuhammad, Umid guli. *– Nega? – ajabsinib so‘radi Omonmurod. – Bilmadim... t e z uchrashsin deb tayinladilar.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Boshqa hamma kishilarday u ham Zebining tutqaloqlarini “qizning nozi” deb bilar va t e z d a a o‘tib ketishiga ishonardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *– Boplab nonushta qiling, xo‘jayin, choy iching. Tomosha qilib turing. Men t e z d a kelaman! – dedi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Gilam to‘shalgan katta xonada t e z l i k d a dasturxon tuzaldi.* T.Malik, Shaytanat. *Bundan foydalangan Narimon yana stol ustiga tashlangan qog‘ozlarni t e z l i k d a yig‘ishtirib oldi-da, shunday tezlikda eshik tomon yurarkan, ostonaga yetgan mahal ortiga o‘girildi...* A.Yo‘ldosh, Javobi bor… *Begimqul biror joydan kayfi oshibroq kelgan kunlari doim vannaga tushar, iliq dush tagida turib uzoq yuvinar, suv unga doim yordam berar, b i r p a s d a hushiga keltirib qo‘yardi.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Yigitlaridan birovi unga egilib, bir narsa so‘ragan edi, u boshini silkitdi. “Opchiq!” degan, shekilli, b i r p a s d a rangi o‘chib boshlig‘imiz xonamga kirdi.* A.A’zam, Hali hayot bor... *Odil aka gandiraklab borib devorga suyangan ko‘yi hansirab qoldi. B i r z u m d a bo‘lib o‘tgan bu voqeaning guvohi – Gulshoda yugurib kelib, qaynotasining qo‘lidan tutdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Uyidan “B i r z u m d a borib kelaman”, deb chiqqan Salti ham bergan va’dasini, uyini va ota-onasini unutib, qo‘lida maymoq va tullagan bir supurgi bilan qolib ketmaganmidi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Xolidaning ko‘zlari o‘t bo‘lib chaqnab ketdi. Ammo b i r l a h z a d a yoq yana o‘shanday ma’yus bo‘lib qoldi.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *U kuchli hayajon ichida bo‘yniga solingan arqonni unutgandi. Arqon b i r l a h z a d a “G‘ip” etib bo‘yni-*

ni bo‘g‘di. U.Hamdam, Muvozanat. *Gul qo‘limda, bargida labim... Bu g‘ashlikmi, yashashga o‘chlik, Vaqt tuyg‘usi b i r o n d a unut.* Zulfiya. – *Sen meni butunlay unut, ora ochiqmi? Shunday dedi-yu bekatda to‘zib yurgan odamlar orasida b i r o n d a g‘oyib bo‘ldi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. – *Nafasingdan gul isi kelyapti. – Abduzafar aka ko‘zini yumib hidladi, yana Surayyoga qaradi. – Ha, bir gulning isi. Surayyoning yuzi z u m d a gul-gul ochilib, ko‘zlari porlab ketdi.* A.A’zam, Hali hayot bor... *Baqqolga tayinlab qo‘ydim, nima desang, berib turadi. Ikki oy uzoqmi? L a h z a d a o‘tadi-ketadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bu – nazar-e’tibor, o‘zingiz aytmoqchi – tog‘! L a h z a d a yelkangizga minib olgan tog‘.* X.Do‘stmuhammad, Kuza...

DARVOZA, QOPQA Shahar, qal’a, saroy, qo‘rg‘on, hovli va boshqalarning kirish joyiga o‘rnatiladigan katta eshik. **Qopqa** – eskirgan so‘z.

Ali Qushchi, bir lahza ikkilanib turgach, yuragi zirqiraganicha d a r v o z a dan chiqdi. O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Metin devorlarda – chaqirtikonlar, qulflar shodasi – d a r v o z a larda.* Sh.Rahmon, Buzilgan devorlar. *Bizga qo‘shilib qarta o‘ynamasa ham, o‘zidan bilib, mana, qo‘rg‘onning og‘zini ikki yondan silliq g‘isht bilan bejirim qilib ko‘tarib, gajakdor temir q o p q a o‘rnatib berdi-ku, bu yog‘iga ham qarab turmas!* E.A’zam, Aralashqo‘rg‘on. *U yerda har birimizning ismimizga zarb etilgan tilsim q o p q a lari bor. Bu qopqalarning halqasidan tutib, ismimizni aytsak bas: tilsim ochiladi*. I.Sulton, Manzil.

DAVOLAMOQ, **TUZATMOQ**, **SHIFO BERMOQ, SHIFOLAMOQ** Muolaja qilish orqali bemorni sog‘aytirmoq. **Tuzatmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos. **Shifolamoq** so‘zi nutqda kam uchraydi, kitobiy uslubga xos. **Shifo bermoq** so‘zining mazkur ma’noda duolar, tilaklar tarkibida buyruq-istak mayli shaklida kelishi ham kuzatiladi.

Tashxisni sen qo‘yishing kerak, shifokorlar esa d a v o l a sin. A.Muxtor, Chinor. *Uni Murod Vohidovich degan do‘xtir d a v o l a di.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Ibn Sinoga kasalning joni chiqmagan bo‘lsa, bas ekan, t u z a t ar ekan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Moshtabibning o‘g‘li bo‘lsang, o‘zing t u z a t asan, boshqa gap yo‘q. Gips qo‘yishni bilmaydigan do‘xtiringga boshqa bormaydi.* T.Malik, Shaytanat. *U kun bo‘yi Giyoh terib Kezib tog‘-u biyobon, Odamlarga sh i f o b e r ib Yashar ekan Shodumon.* E.Vohidov. *Luqmoni hakim xastaning bilak tomirini ushlab ko‘rib debdilarki: – Dardingizga davo bor. Ilon zahri sizga sh i f o b e r gay.* T.Malik, Shaytanat. *Sohibqiron. (Og‘ir hansirab). – Yo‘q, endi sening dori-darmonlaring sh i f o b e r mas! Saroybon qayda?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Xo‘jayinlar ham qiziq, uka, men aniq bilaman, oldingi katta xo‘jayinni shu odam sh i f o l a gan.* T.Malik, Shaytanat. *Maksim ana shunday chog‘larda, ayniqsa, betoqat bolalarning sinig‘ini ushlab, chiqig‘ini solayotganda, ularni ovutib, ko‘nglini topib sh i f o l a r edi.* I.Rahim, Chin muhabbat.

DAXMAZA, **DARDISAR**, **BOSHOG‘RIQ, TIRIKTOVON** Behuda tashvish keltiradigan narsa (yoki shaxs). **Daxmaza, dardisar** so‘zlari nutqda odam va narsa-predmetlarga nisbatan ishlatiladi, salbiy bo‘yoqqa ega. **Boshog‘riq** so‘zida ortiqcha g‘alvalik ta’kidi juda ochiq ifodalangan, ko‘pincha so‘zlashuv uslubiga xos. **Tiriktovon** so‘zi faqat odamga nisbatan qo‘llanadi.

O‘zi ellik gektar yer-u, d a x m a z a si besh yuz gektarga tatiydi. R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi. *Ayol dastlab, “ortiqcha d a x m a z a” degandek, yelkasini qisib qo‘ydi-da, liqildoq taburetkaga o‘tirib, manglayini ushladi.* Oybek, Quyosh qoraymas. *Lekin... vaqt topilgandayam... azbest truba bilan uning d a r d i s a r xomutini qayoqdan topadi?* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Uylanib nima qilasan? D a r d i s a r ni boshingga urasanmi?* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *E, manga qara, tashla shu b o sh o g‘ r i q ni. Bir umr kitobga termilib o‘tasanmi?* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Qancha vaqtdan beri ikkovlaring tortishasizlar. Hech bir to‘xtamga keldilaringmi? Buguncha qo‘yib turinglar, o‘sha b o sh o g‘r i q laringni.* U.Hamdam, Muvozanat. *Qarz! Juda b o sh o g‘ r i q narsa-da shu. Tag‘in turlari ko‘pligini aytmaysizmi: mas’uliyat, vazifa, burch...* A.Obidjon, Alamazon va Gulmat. *Men kolxozingga t i r i k t o v o n bo‘lishni istamayman.* O.Yoqubov, Diyonat. *Qiynab qo‘yaman deb o‘ylamagan edim. Men sizga t i r i k t o v o n bo‘ldim.* B.Rahmonov, Oltin odamlar.

DAXMAZA BO‘LMOQ, DARDISAR BO‘LMOQ, BOSHOG‘RIQ BO‘LMOQ Ortiqcha tashvish, yuk, boshog‘rig‘i bo‘lmoq. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlarda salbiy munosabat yorqin aks etadi. Nutqda subyektiv munosabat *juda, rosa* so‘zlari bilan yanada kuchaytiriladi.

Ularga ortiqcha d a x m a z a b o‘ l ishim mumkin. Hammasiga chidashim kerak. N.Hoshimov, Arosat dunyo yohud Mamajon g‘oyipning hayoti va g‘aroyib sarguzashtlari. *Kundalik hayotda vijdonli, halol, bilimdon, ishga mas’uliyat bilan qaraydiganlari qatori uquvsiz, e’tiborsiz, hujjatlarni yo‘qotib qo‘yadiganlari ham uchraydi. Har qanday buxgalterga g‘irt d a x m a z a b o‘ l adiganlari ham bor...* Gazetadan. *Yo‘q, men ukangga d a r d i s a r b o‘ l moqchi emasman. Boshda men emas, ukang menga yopishgan.* O.Yoqubov, Matluba. *Ezgu tuyg‘ular d a r d i s a r b o‘ l di. Vijdon, diyonat toptaldi.* X.Do‘stmuhammad. Najot muhabbatdami yo… nafratda? *Lekin unda hech kimga d a r d i s a r b o‘ l maysan...* G.Asronova, Dardisar. *Bu Tolibni nima qilsam ekan? Rosa b o sh o g‘ r i q b o‘ l di-ku.* S.Ahmad, Jimjitlik. *Virusni butunlay hayotimizdan haydab chiqarishga erishsak ham, u qoldirgan asoratlar biz uchun ancha vaqtgacha b o sh o g‘ r i q b o‘ l adi.* N.Karimov, Dunyoni qaqshatgan virus.

DAYDI, DARBADAR, SANQI (SANG‘I), SAYOQ, BEKORCHI Har yoqda, ko‘cha-ko‘yda sanqib yuradigan, vaqtini behuda o‘tkazadigan. **Darbadar** so‘zida “o‘zga yurtlarda g‘urbatda kezib yuruvchi” ma’no uzvi ham mavjud. Sinonimik qatordagi **sanqi (sang‘i), sayoq** so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib tura-

di. **Bekorchi** so‘zi keng tushunchaga ega. Bu so‘z ishsiz, bekor sanqib yurgan kishilarga nisbatan ham ishlatilib, salbiy munosabat ifodalaydi. Oddiy so‘zlashuvda bu ma’noda **bekorchi-sang‘i** qo‘llanishi ham uchraydi.

O‘lganing yaxshi edi, d a y d i! Tag‘in uyalmasdan kelib, ko‘zimga baqrayib qarab turganini qara! A.Muxtor, Chinor. *... Mahdi, d a y d i, lekin hech narsani tushuntirmadi, o‘zining ortida nimalar bor – ko‘rsatmaydi...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Umrbod sarson-sargardon yurganlaring, begona yurtlarda d a r b a d a r kezganlaringga rozi ketmoq mumkin edi!* M.Mansur, Judolik diyori. *Endi so‘ray: nimaga bu yerlarda sarson-sargardon bo‘lib odamlardan yashirinib yurganimizni bilasanmi? Nega qush quvganday d a r b a d a r ko‘chib yurganimizni tushunasanmi?* U.Azim, Tong otgan taraflarda. *– Shundaymi? – yigit bu yangilikdan ajablanmay, bamaylixotir ravishda sigaret tutatib, Tengizni ham lutfan siyladi. – Siz s a n q i o‘g‘rilardan emassiz, Aliyev, o‘qigan odamsiz.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Buning boisi yaqinginada lak-lak sherdil yigitlari bilan suron-u vahima solib, yurt so‘rab yurganligi-yu, bugun xo‘jasinikidan quvilgan s a n q i itdek yarim tunda ot ixtiyorini o‘ziga qo‘ygancha beta-yin-bemavrid yo‘lga tushganligi ham emas.* Sh.Bo‘tayev, Qora tuman. *Ha, u xuddi o‘g‘rilik qilib qo‘lga tushgan kissavurday, yomon yo‘lga kirgan s a y o q xotinday kaltak yedi, “o‘ynash” degan tuhmat gap eshitdi...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Eslaysanmi, sen bilan faqat bir yilgacha totuv yashadik, xolos. Ko‘p ichadigan, s a y o q yuradigan qiliq chiqarding.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Qurilishda har kuni o‘ralashib yuruvchi bitta b e k o r ch i kerak ekan.* T.Malik, Shaytanat. *Ularni shaharda talaba jiyan kutib oladi, o‘zining yotog‘idan joy gaplashgan, o‘sha yerda turib, duxturga qatnashadi, jiyan o‘qishni deyarli bitirgan, diplom berishlarini kutib yuribdi, g‘irt b e k o r ch i, o‘sha duxturga o‘zi olib borib-kelib yuradi.* N.Eshonqul, Bepoyon osmon.

DAYDILIK, DARBADARLIK, SANQILIK (SANG‘ILIK), SAYOQLIK, BEKORCHILIK Har yoqda, ko‘cha-ko‘yda vaqtni behuda o‘tkazishlik. **Darbadarlik** so‘zida “har yerda yurishlik” ma’nosi ta’kid oladi. **Sanqilik, sayoqlik** so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi. **Bekorchilik** so‘zi bu ma’nosida nisbatan kam qo‘llanadi. Bu so‘z, asosan, insonning ishsiz bekor yurishi holatiga nisbatan ishlatiladi.

– Yana d a y d i l i k ning xumori tutdimi, deyman? – D a y d i l i k deysanmi? – Tal’at bosh chayqadi. – Yo‘o‘q, kardinal, bunisi d a y d i l i k emas. T.Malik, Davron. *Shoir qaytar edi d a r b a d a r l i k dan, Usti-boshi yupun, yalang‘och edi.* X.Davron, To‘marisning ko‘zlari. *– D a r b a d a r l i k dan, o‘zimning simobday beqaror sayoqligimdan juda o‘kinar edim, – dedi Shum bola.* G‘.G‘ulom, Shum bola. *S a n g‘ i l i k joningga tegmadimi, bolam?* M.Ochilova, Bola tarbiyasi. *Odamlar biri olib, biri qo‘yib, gapga tushib ketishdi. Birov xotinni behayolikda, birov Tolibjonni s a y o q l i k da, birov*

qora yigitni qo‘pollikda ayblardi. S.Ahmad, Egizak. *Bolalikdan ustaning yonida yurganlarning ham ko‘zi pishadi, ham qo‘li o‘rganadi... Eng muhimi – b e k o r ch i l i k dan sang‘imaydilar.* T.Malik Jinoyatning uzun yo‘li. *B e k o r-ch i l i k qancha cho‘zilsa, yuragim shuncha siqilaverdi. Endi, kichikroq kovaklarni titkilab bo‘lsa-da, astoydil ish qidirishim kerak, degan qarorga keldim.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar.

DAYDIMOQ, **DARBADARLIK QILMOQ, SANQIMOQ (SANG‘IMOQ)**, **SAYOQLIK QILMOQ**, **TENTIMOQ, TENTIRAMOQ**, **TENTIRAKLAMOQ**, **SALANGLAMOQ**, **SANDIROQLAMOQ**, **SAKILLAMOQ** Vaqtini behuda sarflab, ko‘cha-ko‘yda tentirab, sanqib yurmoq. Sinonimik qatordagi **daydimoq, sanqimoq, sakillamoq** so‘zlari nafaqat odamga, balki hayvonlarning har yerda izg‘ib yurishiga nisbatan ham qo‘llanadi. **Sayoqlik qilmoq, sandiroqlamoq, tentiramoq, tentimoq, salanglamoq** so‘zlari faqat odamga, uning behudaga u yoqdan bu yoqqa besamar harakatlanishiga nisbatan ishlatiladi. **Sanqimoq, sandiroqlamoq, laqillamoq, salanglamoq, sakillamoq** so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi. **Sandiroqlamoq**da “darbadar tentirash” ma’nosi juda kuchli, **sakillamoq**da “u yoqdan bu yoqqa tentirab yugurib yurish” tushunchasi ustundir.

Bilasizmi, mehmon, yoz kechalari uydan d a y d i b chiqib ketaman. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bor, qayerda d a y d i b yurgan bo‘lsang, o‘sha yerga ket...* A.Muxtor, Chinor. *Agar men har oqshom tushimda gado bo‘lganimda ham, har kech ko‘z yumib yana gadolik rutbasiga minish, d a r b a d a r l i k q i l ish azobga solardi.* K.Bahriyev, Badialar. *Xudoning bermish kuni og‘zida papiros, tagida mototsikl, s a n g‘ i gani-s a n g‘ i gan.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Qayoqda s a n q i b yuradi, so‘rasa, hazilga olib, kundoshingning ro‘zg‘orini butlayapman, ertaga tomini suvab beraman, deydi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Qaynisi hech narsani tushunmadi. Shunday esa-da, boshini qimirlatib, “Xo‘p”, dedi. Ammo pochchasining s a y o q l i k q i l ayotganini ko‘rganidan keyin birdan portlab ketdi.* N.Ismoilov, Muhabbat va nafrat. *Masha ko‘chada uzoq t e n t i b yuradi.* B.Abdurazzoq, To‘zon. *Vahobjon shu kuni kechgacha shahar ko‘chalarida t e n t i b yurdi. Mehmonxonaga kirib yotib yotolmadi, o‘tirib o‘tirolmadi.* S.Ahmad, Poyqadam. *Shokir otaning kampiri Risolat bibi uyda kam bo‘ladi, t e n t i r a shdan bo‘shamaydi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Keyingi vaqtda onasiga, uning betobligiga ham e’tibor bermay, allaqayoqlarda bir nima qidirgandek, bir o‘zi t e n t i r a b yurar, kech qaytar edi.* A.Muxtor, Chinor. *U butun kun kuyib-yonib, boshi og‘gan yerlarda jinnilarday t e n t i r a k l a b, xufton vaqtida boynikiga sanqib kelib qoldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Men uni quchoqlab olganman, o‘zimniyam to‘xtatolmayapman. Emranishib, bir-birimizni suyashib tursak, qayerdandir t e n t i r a k l a b Vafo kelib qoldi.* S.O‘nar, Odamning kuchlisi. *Charlarda bir quchoq gul ko‘tarib, s a l a ng-*

l a b kirib kelmasdan shunaqa narsalarni olib kelsin edi… O‘.Mirzayor, Sovg‘a. *Odatda, qorong‘i tushgandan keyin ko‘cha-ko‘yda s a l a ng l a b yurishimga ruxsat bermaydigan oyim bu gal g‘oyatda mas’ul vazifaga tayinlanganimni ko‘rib, indamadi.* O.Sharafiddinov, Domlalar. *Shu ishni deb ozmuncha tashvishga qoldimi, ozmuncha s a n d i r o q l a dimi, ozmuncha sarf-xarajat qilib, ziyofat berdimi?* A.Nurpeisov, Zulmat. *– Ko‘cha s a n d i r o q l a b yurgandan ko‘ra, onangga boqishsang bo‘lmaydimi, kap-katta qiz, – dedi Vasila Nazarovna uning gapini eshitmaganday.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Menga qara, Zabar, bira-to‘la kelib menikida yashab tursang-chi? Shaharning qoq markazi, hamma sharoit muhayyo. Huuv Sirg‘alingdan s a k i l l a b yurguncha!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Hisobchilikning ishi ko‘payib, odamni zada qiladigan holga yetgan, u dalaga qorovulday gap, goh suvchilarning, goh qizlarning ortidan s a k i l l a b yuradi*. B.Murod Ali, Ko‘kto‘nliklar.

DANGASA, YALQOV, ISHYOQMAS, TANBAL, SOYAPAR(VAR), HORIMTOL Mehnat qilishdan qochadigan, ish qilishga xushi yo‘q. **Ishyoqmas** so‘zida belgi darajasining ortiqligi so‘zning asosida ochiqcha ifodalangan. **Tanbal** so‘zi nutqda kam ishlatiladi. **Soyapar(var)** so‘zining asosidan soya-salqin joylarni xush ko‘radiganlik ta’kidi anglashilib turadi, kitobiy uslubga xos. **Horimtol** shevaga xos so‘z.

Agar ularning da’volarini eshitsak, umumiylikni ko‘ramiz. Qaynona deydiki: kelin d a ng a s a, ishyoqmas, uyning tozaligiga yaxshi qaramaydi, mug‘ombir, onasiga gap tashiydi, kattalarga gap qaytaradi... T.Malik, Odamiylik mulki. *Goh kelinni d a ng a s a deydi, goh quda xolani ezma, deydi.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Har qanday y a l q o v bolada yilt etgan g‘ayrat cho‘g‘i, oz bo‘lsa-da, nimagadir nisbatan qiziqishi mavjud ekan, ana shu cho‘g‘ni, qiziqishni vaqtida ilg‘ab ola bilish zarur.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Umaralining sherigi, qori, y a l q o v, deb tanishtirgan shogirdi, Xurram mirzo ko‘zlari ola-kula, ko‘saroq, qarimsiq, pakanagina yigit edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Darvishlar, bizning nazarimizda, gadolardir, yirtiq-yamoq kiyuvchi, isqirt yuruvchi i sh y o q m a s bir shaxsdir. Agar shu fikrda qolsak, u muhtaram zotlarni haqoratlagan bo‘lamiz.* T.Malik, Odamiylik mulki. *... ana, birovlarga o‘lim tilaydigan badnafas Bozor sariq; ana, gurungga ishqiboz chol, bekorchi t a n b a l Jumaqul, rashkchi xotinidan dakki yegan er...* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *“Umr dono uchun juda qisqa, t a n b a l uchun keragidan ortiq uzun! Odam bo‘lsang, shu qisqasini tanla!” deb matal o‘qidi.* Shuhrat, Jannat qidirganlar. *Bitta go‘zal, nozik qiz ipakdek barmoqlari chanoqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog‘lab olib, endi zo‘rg‘a terayotganini ko‘rsangiz: “E, shaharlik oyimqiz! S o y a p a r-d a, s o y a p a r!” – deb ichdan haqorat qilar edingiz.* Sh.Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri. *Xolmurodov Abdurasul akani s o y a p a r v a r, shu choyxonachilikdan boshqa narsaga yaramay-*

digan nimjon odam deb o‘ylar, shu sababli bo‘lsa kerak, uning yuragida shunchalik g‘ayrati borligini xayoliga ham keltirmasdi. V.G‘afurov, Vafodor. *Dashtliklar sal h o r i m t o l tob, ko‘pchiligi bersang jeyman deydiganlar xilidan.* O‘.Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar. *Kuz sarg‘ayar, Kuzdir h o r i m t o l Tabassumi ko‘rinmas ko‘zga. Go‘yoki u muhtoj ham emas Biror rag‘bat – maqtovli so‘zga.* R.Xolbek, Ovozsiz kuylar.

DANGASA BO‘LMOQ, YALQOV BO‘LMOQ, YALQOVLANMOQ, ISHYOQMAS BO‘LMOQ, TANBAL BO‘LMOQ, TANBALLASHMOQ, SOYAPAR(VAR) BO‘LMOQ Dangasalik, yalqovlik holatiga tushmoq, yalqovlanmoq. **Yalqov bo‘lmoq**, **ishyoqmas bo‘lmoq**, **yalqovlanmoq** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda ko‘p uchraydi. Bu so‘zlarda salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi. **Tanbal bo‘lmoq, tanballashmoq, soyapar(var) bo‘lmoq** so‘zlari nutqda kam ishlatiladi, kitobiy uslubga xos.

“Salimning otasi dangasa-da”, deb o‘ylab qo‘ya qolarkan. Ota d a ng a s a b o‘ l magan taqdirda ham, risoladagiday yashash og‘ir ekaniga aqli yetmagan ekan. T.Malik, Tomchi. *Chunki o‘zini har qancha mehnatkash, serg‘ayrat hisoblagan inson ham u bilan solishtirilganda, juda nazokat bilan aytganda, borib turgan d a ng a s a b o‘ l ib chiqaveradi-da. “*Sharq yulduzi*”. Abjir bo‘lsa farzanding, cho‘ldan non terar, Y a l q o v b o‘ l sa farzanding, yerdan don termas.* Maqol. *Xuddi mehmonga kelgan takabbur kelindek y a l q o v l a n ib kezdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Chunki maktab ishida y a l q o v l a n ib Anvarga suyanib qoldi va madrasa masalasini unutdirish maqsadida, arab, fors nahv sarfidan o‘zi dars berishka kirishdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Yuvosh boladan qo‘rqish kerak, katta bo‘lganda, i sh y o q m a s b o‘ l ishi mumkin...* M.Osim, Ibn Sino qissasi. *...Internet, virtual o‘yinlar va zamonaviy uyali telefonlar yosh avlodning dangasa va i sh y o q m a s b o‘ l ib qolishiga sabab bo‘lmoqda.* U.Alimov, Oilada farzand tarbiyasi. *Nahotki u shundoq t a n b a l b o‘ l ib qoldi? Kitob o‘qishga qunti yo‘q.* Mirmuhsin, Umid. *Bu dunyoni suv bossa to‘pig‘iga kelmaydigan sinfdoshing senga boshqalardan ko‘ra ko‘proq yoqar va senga o‘zini yaqin tutardi; garchi u biroz t a n b a l b o‘ l sayam zarur paytda do‘sti uchun o‘zini tomdan tashlashga tayyor edi.* N.Eshonqul, Qaytish. *Yo itim t a n b a l l a sh ib g‘aflat bosdi, yoki raqibi zo‘r”. Shu xayol og‘ushida ayg‘irning ayilini tortayotgan cho‘pon yonida Sirtlon bosh egib turardi.* A.Asil, Sirtlon. *Alisher, Samandar xizmatidin rozimisiz, t a n b a l l a sh gan bo‘lsa, jangga solurmiz.* V.Sa’dulla, Xuroson yulduzi. *Holbuki, s o y a p a r b o‘ l ganlarning jinoyatchiga aylanishlari ehtimoli ham kam emas. Yalqovlarni jinoyatga nima da’vat etadi?* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li.

DANGASALIK, **YALQOVLIK**, **ISHYOQMASLIK**, **TANBALLIK**, **SOYAPAR(VAR)LIK** Biror ish yoki faoliyatni bajarishga layoqati, imkoni bo‘la turib, uni bajarishni istamaslik. Sinonimik qatordagi deyarli barcha

so‘zlar salbiy bo‘yoqqa ega. **Soyapar(var)lik** so‘zida ish qilmay, dam olib yotaverish ta’kidi ochiq ifoda topgan, nutqda kam ishlatiladi, asosan, kitobiy uslubda uchraydi.

Qorlar erib, yerning nami ko‘tarila boshlagach, barcha daladagi ishlar bilan ovora bo‘ldi. Qishloqdagi mudroqlik, d a ng a s a l i k bahor oftobi bilan hovur singari ko‘tarildi. T.Malik, Devona. *Ruhimizga loqaydlik, tanballik, d a ng a s a l i k, johillik, shafqatsizlik kabi illatlar in qurib, uni kirlay boshlaydi.* Q.Ochilov, Ruhni g‘ubor bosganda. *Avvalgilarida ichki g‘ayrat bo‘lsa, bulariga y a l q o v l i k, dangasalik, beg‘amlik, loqaydlik hukmronlik qiladi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *– Hoy, Sizif, y a l q o v l i k ni bas qil, qara, xarsang intizor senga, xarsangtosh!.. U ohista bosh ko‘tarib, ovoz egasini topmoqchi bo‘ldi, “y a l q o v l i k” dedimi, ola-a, Sizifning sha’niga istalgan malomat toshini otsinlar – chidaydi, illo yalqov degan ta’na tavqi...* X.Do‘stmuhammad, Donishmand Sizif. *Dangasalik, i sh y o q m a s l i k barcha kulfatlarning boshidir. Kambag‘allik ayb emas, ammo u yalqovlik sababidan kelgan bo‘lsa, katta aybdir.* R.Sayfuddinov, Mehnat – rohat… *I sh y o q m a s l i k, tanballik, bekorchilik, tilanchilik, o‘zgalarga yuk bo‘lish kabi illatlar girdobiga tushib qolishdan ogohlantirdi.* M.Obidjon, Halol kasb-hunar – qut-baraka keltirar. *Uning otasi ham... t a n b a l l i k, sovuqqonlik kishini oxiri xarob qilishini o‘g‘liga takror-takror aytar edi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Paxtakorga t a n b a l l i k yarashmaydi, uka...* A.Muhiddin, Chap cho‘ntak. *Dangsalikka, s o y a p a r v a r l i k ka... aslo yo‘l qo‘ymaslik kerak.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.

DANGASALIK QILMOQ, **YALQOVLIK QILMOQ**, **TANBALLIK QILMOQ (ETMOQ)** Mehnat qilishdan qochmoq. Nutqda mazkur ma’noni idodalashda **yalqovlik qilmoq** so‘zi **dangasalik qilmoq** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llanadi. **Tanballik qilmoq** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi.

Agar bunga ham bo‘yin qo‘ymay bu ko‘mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb, d a ng a s a l i k q i l ub, ishsiz yursa, zo‘r ayb, g‘ayratsizlikdur. A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq. *Men o‘zim ishyoqmas dangasaman. Buning ustiga biroz va’darakligim ham bor. Tajribalik kishilarga ma’lum bo‘lsa kerak, aksar yalqovlar o‘zlari uchun foydalik bo‘lgan ishlarga d a ng a s a l i k q i l ib, foydasiz bo‘lgan ishlar orqasinda umr o‘tkazarlar.* A.Qodiriy, Bozor surishtirmaydir. *Bosh tortib o‘qishdan, q i l sang y a l q o v l i k, So‘ngra, bolam, ko‘p pushaymon qilasan.* F.Yo‘ldosh o‘g‘li. *Shariat ham aql yuzasidan y a l q o v l i k q i l ub, ishsiz, bekor yurmak durust emasdur.* A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq. *T a n b a l l i k q i l gan odam shafqat kutmasin.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Ish shundog‘ ekan, endi ham t a n b a l l i k e t sak, butun mas’uliyat kelajak tarixda bizim ustimizda bo‘lur.* A.Qodiriy, Maorif sho‘rosi diqqatig‘a.

DEYARLI, **QARIYB**, **HISOB(I)** Biror predmet, miqdor, vaqt yoki harakatga juda yaqin qolganlik darajasini bildiradi. **Qariyb** so‘zi, asosan, kitobiy nutqda ishlatiladi. **Hisob(i)** so‘zida “tugal desa bo‘lgudek” ma’nosi bo‘rtib turadi. Sinonimik qatordagi **qariyb, deyarli** so‘zlari jumla tarkibida o‘zi bog‘langan so‘zdan oldin, **hisobi** so‘zi esa keyin keladi.

Zebi xola d e y a r l i har kuni tush ko‘radi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Bu – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidan d e y a r l i yigirma yil avval aytilgan fikr, amaliy qadam, o‘ktam jasorat edi.* B.Nazarov, Xalq mehrini qozongan adib. *Yon tomonda chog‘roqqina bog‘, u yerda mevali daraxtning yong‘oq bilan shaftolidan boshqa q a r i y b hammasi bor.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *...Akbarali mingboshi q a r i y b o‘n to‘rt yildan buyon oq podshohimizning azamat davlatlariga sadoqat bilan xizmat qilib, shuncha zamon mobaynida hech qanday sarzanishga mustahiq bo‘lmadilar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bugunga ish tamom, ertaga ham yo‘q h i s o b i, bosmaxonaga borsa ham, bormasa ham bo‘ladi...* A.A’zam, Hali hayot bor… *Bu kecha ham ming azobda o‘tdi. Malak haqida o‘ylayverib, qariyb jinni bo‘layozdim. Ertalabgacha uxlamadim h i s o b i.* A.Namozov, Qizmi bu, malakmi bu?

DODLAMOQ, DOD SOLMOQ, DOD-FARYOD QILMOQ, DOD-FARYOD SOLMOQ, DOD-VOY QILMOQ Ruhiy azoblanish, jismoniy og‘riq, qiynoq, qo‘rquv sababli qattiq tovush chiqarib baqirmoq, faryod chekmoq. **Dod solmoq** so‘zida qattiq va baland ovozdalik ta’kidi mavjud. **Dod-faryod qilmoq, dod-faryod solmoq** so‘zlarida belgi darajasi yanada ortiq. **Dod-voy qilmoq** so‘zida keragidan ortiq norozilik ta’kidi ham bor.

Dastgohdan so‘ra, d o d l a b beradi aytib, “Non, non” deya sulayib jon bergan bolani! H.Xudoyberdiyeva, Qamal qishida. *Keyin tovondan oyoq uchigacha qaychilayman-da, nafas rostlab, yana o‘zimga dalda bilan bir d o d l a yman.* A.A’zam, Tugmachagul. *Ey hazilmi, uxlab yotsangiz-da, eshigingizda dabdurustdan d o d s o l ib qolishsa*. A.A’zam, Quroq. *Yaqin atrofdagilar, jabrdiyda juvonga yordam berib qaytayotganlar gurullab d o d s o l ayotgan kishi tepasiga bordi.* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Onam hayot bo‘lganda onam, otam hayot bo‘lganda otamgina menga achinib, d o d-f a r y o d q i l ishlarigina mumkin bo‘lardi.* Shukrullo, Tanlangan asarlar. *“Baralla baqirsam-da, d o d-f a r y o d s o l sam, eshitarmikan bu olomon!” – dedi g‘azabdan ko‘karib.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *D o d-f a r y o d s o l aversangiz, o‘zingizni abgor qilsangiz, qolgan jujuqlaringizga kim mehr ko‘rsatadi?* Z.Aliyeva, Qismat. *Momom o‘rtaga tushib, bolasini jalloddan himoya qilishga uringan onaday d o d-v o y q i l di, yig‘ladi-siqtadi, ishqilib, arilarni saqlab qoldi.* M.Jumayev, Arilar ko‘zyoshi.

DOIM, DOIMO, HAMISHA, HAMMA VAQT, HAMMA PAYT, HAR DOIM, HAR MAHAL, HAR VAQT, HAR PAYT, HAR PAYTDA, NUQUL, MUDOM, HADEB, BIRDAY, YAKKASH, YALANG Vaqt nuqtayi nazaridan

davomli, uzluksiz, muntazam. **Doim, hamisha, doimo** so‘zlari harakat-holatning zamon jihatidan cheklanmagan darajada voqelanishini, davom etishini anglatadi, nutq uslublarining barchasida qo‘llanaveradi. **Hamma vaqt, har doim, har mahal, har vaqt, har payt, har paytda** so‘zlarida vaqt ta’kidi kuchli ifodalanadi. Bu so‘zlar harakat-holatga nisbatan qo‘llanganda, harakatning uzluksizligi ta’kidiga ega bo‘ladi. **Hadeb** so‘zida “takrorlanish” ma’no uzvi ustuvor. **Nuqul** so‘zida doimiy ravishda “takrorlanish” ma’nosi yanada kuchli ifodalanadi. **Mudom** kitobiy so‘z, nutqda kam uchraydi. **Yakkash, yalang, birday** so‘zlari bu ma’nosida nofaol.

U d o i m molini bizlarga qaytartirardi. O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Oysuluv hamisha erining uyga mehmonday kelib-ketishiga ko‘nikkani uchunmi, biron nojo‘ya gap bilan diliga ozor yetkazgisi kelmaydi, d o i m ko‘ngliga qaraydi, izzatini joyiga qo‘yadi.* A.Taypatov, Tazarru. *Bunday hollarda d o i m o sukutni afzal biladigan G‘ayratning oxiri sabri tugab, bir kuni Rasulning giribonidan xippa bo‘g‘ib oladi.* N.Norqobilov, Kurash. *Bo‘y yetgan har bir qiz qatori uning ham xayolini allaqanday bir yigit timsoli h a m i sh a tark etmasdi.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Hindiston haqida gapirayotib, u yerga bordik, bu yerni ko‘rdik… degan paytlarida h a m i sh a yonida “birga yurgan kishi” bo‘lganini… ko‘nglim sezadi...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bunaqa tortishuvlar ko‘p bo‘lib, oxirida h a m i sh a o‘zim yutganim uchun kiprik qoqmay uydirma to‘qishga o‘taman...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *U h a m m a v a q t rais nima desa, aytganidan ham afzal qilib qog‘ozga tushirgan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Rostini aytganda, h a m m a v a q t ham iste’dod egasi bo‘lgan haqiqiy shoirlardan ko‘ra noqobil havasmandlar ko‘proq bo‘lgan.* E.Vohidov, She’r qadri. *Avvalo shuni aytish joizki, Aliy, Ali deyilganda h a m m a p a y t ham Hazrati Ali nazarda tutilmagan*. I.Haqqul, Taxminda chalg‘ish bo‘lur. *H a m m a p a y t ham ishing kelavermas o‘ng, Cheksiz dunyo ba’zan qafasdan ham tor.* J.Ismoilov, Dehqon. *U h a r d o i m ustozlar hurmatini joyiga qo‘yar, tengdoshlari mehnatini yuksak qadrlar… edi.* U.Normatov, Oltin zanglamas. *Uning ijodi xuddi bir chashma. U h a r d o i m mavj uradi.* G‘.G‘ulom, Tolstoy va o‘zbek adabiyoti. *Kuylamagil chok etib dilni: U eslatar menga h a r m a h a l O‘zga hayot, olis sohilni...* T.Malik, Savohil. *Shundan keyin bir-ikki oy o‘tar-o‘tmay, afv tegib, Muhammadjon aka qamoqdan chiqib keladi. Ammo qamalgan, “urilgan” degan h a r m a h a l tavqi la’natdek uning keyingi taqdiriga yopishadi-qoladi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Har yil bir donami, Yuz dona, mayli, O‘lmaslik qasrig‘a g‘isht qo‘ygan h a r v a q t.* Zulfiya. Tanlangan asarlar. – *O‘g‘lim, haq so‘zni aytdingiz. Lekin madrasa eshigidan h a r v a q t zukko va allomalar chiqavermaydi-ku?* T.Malik, Falak. *Faqat kuyovjo‘ralar qars-badabang qiyqiriq bilan eshikdan kirib kelishganida, “To‘ylar muborak”ni aytishganida n u q u l xayoliga Zokirjon kelaverdi.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. – *Ishga chiqmaganlari ma’qul. Hozir o‘zlariga yaxshi qaramasa-*

lar, keyin qiyin bo‘ladi. – Men ham xuddi shunday deyman n u q u l, – dedi Abdulla va qizarib ketdi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *...lop etib Shodi akaning m u d o m oq shim kiyib yurishi yodimga tushdi.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *M u d o m shu institutda, shu odamlarning orasida ishlasam, shunday yashayversam…* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Mana, h a d e b Sultonni so‘kasizlar. Lekin uning nimaga shu ahvolga tushganining tubini o‘ylab ko‘rmagansizlar.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *– Qo‘ysangiz-chi, opa, – dedim xijolat aralash iyagimni qashib. – Nima qilasiz h a d e b o‘shaning tarafini olib?* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *–Asad, men b i r d a y sen bilan birgaman, – deb tasalli berdi.* T.Malik, Shaytanat. *O‘lig-u tirikda b i r d a y egnida sport libosi, ko‘zlari alang-jalang, mudom qo‘li qichib turadigan jismoniy tarbiya muallimining keyingi o‘quv yilida battar quturib, battar vahshiylab ketganiga qarab dadil aytish mumkinki, bu taxminlarda jon bor edi.* E.A’zam, Hikoyalar. *Har bahorga chiqqanda y a k k a sh: “Baxtim bormi?” deya so‘rayman.* H.Olimjon, O‘rik gullaganda. *Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib: Qani men kelganda kulib qarshilab, Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan “Baxtim bormi deya, y a k k a sh so‘roqlab”.* Zulfiya, Saylanma. *Katta amalda ishlaydigan odamlarning bolalari yomon o‘qishsa ham, y a l a ng a’lo baho qo‘yadi...* M.Ismoiliy, Odamiylik qissasi.

DOIRA, CHILDIRMA, CHIRMANDA, KEPCHIK, DAF Gardishi tok zangi, zarang, akasiya daraxtlaridan ishlangan, gardishining tashqi tomoniga buzoq, toy yoki echkining oshlangan terisi qoplangan aylana shaklidagi milliy urma musiqa asbobi. Musiqa terminologiyasida asosan **doira** ishlatiladi. **Kepchik, daf** shevalarda qo‘llanadi.

D o i r a ni chaling, jon momo, O‘yinga tushsin qiz bola, Qiz bolaning sochiga, Yarashibdi chuchmoma. “Xalq qo‘shiqlari”. *Hojar ko‘r d o i r a halqachalarini shildiratib-shildiratib chala ketdi, aytib-aytib chala ketdi...* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Ikki ch i l d i r m a qizitildi va dutor, tanbur, g‘ijjak, chang kabi asboblar sozlandi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Yarim kechagacha ch i l d i r m a chalib, bazm qilishni, qizil ko‘ylagining etagini hilpiratib raqs tushishni hech nimaga alishmaydigan xotinlarning hammasi uning onasi edi*. O‘.Hoshimov, Muhabbat. *Ch i r m a n d a gumburladi. Opa keksalarga xos salobat bilan shoshilmay, ammo juda chiroyli muqomlar qilib yo‘rg‘alardi*. S.Ahmad, Ufq. *Qizdirilgan ch i r m a n d a lar havoni yangratadi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Olomon yana ko‘proq yig‘ilsin uchun ikkita o‘g‘il bola irg‘ay novdasi bilan k e p ch i k qoqar edi*. G‘.G‘ulom, Shum bola. *Axiyri qayrilishdagi do‘kon qorovuli – yuzi k e p ch i k day, bujur odam qozoqning to‘qqiz pulidek qilib, tushuntirib berdi...* M.Mansur, Judolik diyori. *Kelin tomondan dafchi ayol kuyov va kuyovjo‘ralar oldiga kelib, d a f ga pul tashlashlarini so‘raydi*. H.Sattoriy, Sog‘inch. *Badash ohang, kuy, nola, nag‘ma (na’ma) singari to‘rt usulning birgalikda d a f (doira) orqali ifodalanishidan hosil bo‘ladi*. N.Rahmatullayeva, Badash.

DOVRUQ, **DONG (DONG‘)**, **SHUHRAT**, **SHON-SHUHRAT**, **SHON**, **NOM**, **OVOZA** Mashhurlik, hammaning e’tiborini qozonish. **Dong** so‘zi 3-shaxs birlikda **dong‘i** shaklida ham uchraydi. **Shuhrat, shon-shuhrat, shon** so‘zlarida belgi darajasi anchayin ortiq, katta hurmat-ehtiromga egalik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Shon** so‘zi kitobiy uslubga xos, nutqda kam qo‘llanadi. Sinonimik qatordagi **ovoza, nom** so‘zlari ko‘proq oddiy so‘zlashuvda uchraydi. Bu so‘zlarida mazkur ma’no kuchsiz ifodalanadi.

Ora yo‘l... Men o‘tgan hayotning mo‘li, O‘chli mehnatlarning yorqin d o v r u g‘ i… Zulfiya, Saylanma. – *Shunaqa deysiz-u birodar, omma Abdurahmon aka o‘zlarini tabib sanamaydilar. – Nega? – deb ajablandi Jalil. – D o v r u q-lari butun olamga taralgan bo‘lsa...* T.Malik, Shaytanat. *Saqlaymiz tuproqni, sharafni, d o ng ni, O‘tkir ko‘zimizni ufqdan uzmay Har kun qarshilaymiz sa-fobaxsh tongni.* Zulfiya, Saylanma. *O‘sha kezlarda d o n g‘ i Dog‘istonga ketib, shu kishi o‘ynagani uchun ham teatrga tomoshabin yopirilib kelgan paytlar ko‘p bo‘lgan.* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *To telbaligim sh u h r a t i olamni tutubdur, Bir jilvasig‘a ikki jahondin o‘ta qoldim.* Mashrab, G‘azallar. *Xos oshiqlar kimningdir sevgisiga, maqtoviga, sh u h r a t iga, xayr-u ehsoniga ahamiyat bermaydilar.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Nimasi qoldi uning! Nimasi qoldi axir?! Sahnami? Sh o n-sh u h r a t mi?* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Donoga ish – sh o n-u sh u h r a t, tambalga ish – g‘am-u kulfat*. Maqol. *Buyuk Alisherni yurgan unutmay – Elning sh o n i qani? Qani zakosi?* A.Oripov, Tan-langan asarlar. *Har o‘tgan kas bo‘g‘ib, qiynadi joning, Yashading, bir ayb-u nuqsoni bordek, Bugun o‘zgachadir shavkating, sh o n ing, Yurt o‘g‘li qad-dingni ko‘tardi tog‘dek.* X.Ro‘ziyev, Vatandek asrayman. *Iste’dodim, qalbim sizlarga. Yaxshi n o m im, baxt-sevinchim but.* Zulfiya, Tanlangan asarlar. – *Isi-yaptimi? Biror nima sezyapsizmi? – deb so‘raydi dam-badam. “Haa, bor”, deb qo‘yaman shundoq n o m i ketgan tabib ham uch-to‘rt kunlik ulfatimning ko‘ngliga borib.* E.A’zam, Shovqin. *Elchin o v o z a si uzoqlarga ketgan ana shu dahshatli O‘qilonga qarshi chiqdi.* T.Malik, Shaytanat. *Jahon titrar Yod-gor o v o z a siga, Quloq soling bu so‘zning mazasiga. O‘n to‘rt botmon parli yoyni sudrab Kelib qoldi Qo‘ng‘irot darbozasiga.* “Alpomish”.

DUM, QUYRUQ Hayvon tanasining chiqaruv teshigi tepasidan boshlanadi-gan, ingichkalanib boruvchi oxirgi qismi, tana a’zosi. Ikkalasi ham faol qo‘llanadi.

To‘rtko‘z g‘ajib turgan suyagini tashlab, d u m ini likillatgancha uni do‘sto-na qarshiladi. N.Norqobilov, Oqbo‘yin. *Ot qari va benihoya oriq edi, d u m ini qimirlatishga ham erinar, boshini quyi solib, chirkinlashgan ko‘zlarini ojiz jav-diragan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Turkistonlik sahroyilargina salla pechini pishakning q u y r u g‘ idek osiltirib yuradir*. S.Siyoyev, Ahmad Yassaviy. *Yak-kamixdagi jiyron ham kunning zo‘ridan zada: q u y r u g‘ ini selpib g‘uj-g‘uj chirkaylarni haydaydi, bir zayl aylanadi*. A.Suyunov, Qo‘shburun.

DUMBA, QUYRUQ Qo‘y tanasining ketidagi yog‘li qismidan chiqqan yog‘.

Uning qo‘shnisi Zargarov yaqin bir oy bo‘ladi, chorakam bir litr xushbo‘y vinoni d u m b a-jigar bilan ichgani asrab yurar edi, semiz tustovuqning daragini eshitib: “Xayr, qo‘y so‘ysak, yana vino topilar”, dedi. A.Qahhor, O‘jar. *Bo‘lmasa na go‘sht bor unda, na d u m b a. Hattoki oddiygina zira ham yo‘q.* Z.Qurolboy qizi, Yolg‘izlik.*Qaynovda ezilgan q u y r u q ta’mi lutfni peshkash qilayotgan birodarlarning dimog‘ini yalab o‘tadi.* A.Suyunov, Tomosha. *Aka-uka q u y r u q yog‘iga qilingan xushxo‘r palovni tushirib, so‘ngra xo‘jabilmas qovunni huzur qilib yeyishdi, ustidan achchiq ko‘k choyni bosib-bosib ichishdi.* A.A’zam, Odamning olasi.

DUNYO, JAHON, OLAM, BORLIQ, KOINOT, OCHUN Tashqi olam, borliq va uning bir qismi. Nutqda **dunyo** va **jahon** so‘zlari, asosan, borliqning Yerga to‘g‘ri keluvchi qismiga nisbatan qo‘llanadi. **Olam**, **borliq** so‘zlari keng tushunchaga ega. Bu so‘zlar obyektiv olamni bir butun holatda to‘laligicha aks ettiradi. **Koinot** so‘zi bizni o‘rab turgan borliq, uning barcha qismini qamrab oladi. **Ochun** badiiy uslubga xos.

Qiziq, kecha d u n y o da undan baxtiyor odam yo‘q edi. Bugun undan baxtsiz kimsa yo‘q. O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Bilardim, qaydadir olasan nafas, Murakkab bu d u n y o sen-chun ham tirik.* Zulfiya. *Nazarimda, xonam, nainki xonam, butun j a h o n ajib bir nurga to‘lganday tuyuldi…* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Yoshlig‘imda niyat qilg‘on erdim, bul shahri azimni j a h o n da eng ko‘rkam, eng muazzam shahri-munavvar qiladurmen deb!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Afsus, o l a m ni nurga to‘ldirgan bu g‘alati kunlar nari borsa bir hafta-o‘n kun davom etdi-yu, kutilmaganda taqa-taq to‘xtadi.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *…atigi uch-to‘rt kun muqaddam Nilufar bilan qo‘l ushlashib borgan sohillarni… xiyobonlarini, o‘tirgan skameykalarini ko‘rganida, o l a m ko‘ziga qorong‘i ko‘rinib ketdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *…Uzoqdagi Bulung‘ur arig‘i bandining shovullashi, hatto ostidagi egarning zorlanib g‘ichirlashi – hamma-hammasini birdan aniq eshita boshladi. Butun b o r l i q shatur-shutur qilib nafas olayotgandek.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Qirg‘oqqa to‘lqindan tosh otib, Go‘yo u erk uchun qilar jang. B o r l i q ni tutadi gulduros, Hammani chulg‘aydi ezgulik.* Zulfiya, Saylanma. *Yusuf ikki ulkan olov ichra arosatda qoldi. Biri – butun k o i n o t da hukm surishi shart Oliy Nizomga har jihatdan muvofiq yashash…* U.Hamdam, Muvozanat. *Ushbu kashfiyot hozirgi kompyuterlarning ish bajarish tezligini keskin ko‘tarib, kosmik kemalar tezligini bir necha barobar oshirib yuborishi mumkin ekan... Demak, k o i n o t bizga eshiklarini ochmoqda.* E.Shukur, Omochdan kosmik kemagacha. *Nainki bir makon, tor bo‘ldi o ch u n, Ketdi ikkisi ham ikki tomonga.* A.Oripov, Hayot saboqlari. *Nahot, g‘ofil qolding, ey keksa o ch u n? Nahotki, g‘aflatda muz qotding, quyosh?* J.Kamol, Alvido.

D

DURAGAY, GIBRID Ikki va undan ortiq turli navdagi o‘simlik yoki irsiy belgilariga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi ikki hayvonni chatishtirish yo‘li bilan olingan yangi nasl. Sinonimik qatordagi so‘zlar seleksiya va urug‘chilik terminologiyasiga oid birliklar hisoblanadi. **Duragay** so‘zi ko‘proq seleksiya va urug‘chilikda, **gibrid** so‘zi esa botanikada ommalashgan bo‘lsa-da, zoologiyada ko‘p ishlatiladi.

Sherbek d u r a g a y qo‘zining orqa tomonidan sezdirmasdan bordi-da, mahkam ushladi. S.Anorboyev, Oqsoy. *D u r a g a y – irsiy belgilari bilan bir-biridan farq qiladigan organizmlarni jinsiy yoki vegetativ usulda o‘zaro chatishtirib olingan nasl.* “O‘zME”. *Do‘xtir, siz qaysi urug‘dan ekansiz, g i b r i d mi, xarsidonmi?* M.Sharif, Somon yo‘li. *Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi Bahodir Ibrohimovning so‘zlariga ko‘ra, bu g i b r i d emas, bu yangi eksportbop navdir*. Gazetadan.

DUSHMAN, YOV, G‘ANIM, AG‘YOR, YOG‘IY, RAQIB Qarashlari, manfaatlari bir-biriga zid, o‘zaro qarama-qarshi munosabatda bo‘lgan shaxslar yoki tomonlar. **Yov** so‘zida dushmanlik qiluvchi tomon ta’kidi kuchli, eskirgan. **G‘anim** so‘zida yomonlik istovchi ma’no ta’kidi mavjud, kitobiy uslubga xos. **Ag‘yor** poetiklik kuchli, kitobiy so‘z. **Yog‘iy** so‘zi folklor asarlarida uchraydi. **Raqib** so‘zida dushmanlik ma’no uzvi nisbatan kuchsiz ifodalangan.

Anvarning ko‘ziga hamma – do‘st ham, d u sh m a n ham ilon bo‘lib ko‘rindi. T.Malik, Shaytanat. *“D u sh m a n ing otgan tosh emas, do‘sting otgan paxta o‘ldiradi”, deganlari bejiz emas ekan.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Kunlardan bir kun qizilbosh yurtidan bir katta y o v kelib, turkmanni ko‘p ovora qilib, Og‘alibekni o‘ldirib, turkmandan o‘g‘il-qiz asir qilib ketdi. “*Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi*”. Har turkmanlar chiqar y o v ning qasdida, Arabi tulporlar o‘ynab ostida…* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. *Eng chatoq jihati, g‘ a n i m dan o‘ch olish o‘yida kelgan qattol raqibday tutdi o‘zini.* N.Norqobilov, Kurash. *Yosh shuur, kurashchan tuyg‘ular bilan Sening taqdiringga mahkam tutashdim, Ne-ne g‘ a-n i m lar-la kurashganing on Ko‘pning biri bo‘lib malhamga shoshdim.* Zulfiya. *Uning ahvolidan a g‘ y o r lar mamnun, ahboblar dili xun.* T.Malik, Savohil. *G‘arib dunyo g‘ariblikda ko‘p xordir, O‘zi boqib – bovlagani a g‘ y o r dir.* U.Azim, Yurt farzandlari haqida. *…Cho‘kirtak qilichini o‘ynatib qo‘rqitmoqqa urinayotgan uvoqqina y o g‘ i y ni chertib-chertkilab mayna qilish yaxshi, hatto juda zavqli edi, biroq har birimiz o‘zimizcha o‘ylaganda, o‘sha y o g‘ i y ga qarshi yolg‘iz turganda, bu mish-mishlarning tagi borday, nimasidir asosliday, ko‘nglimizda noaniq bir tahlika uyg‘onar edi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bu qadar qarshilikni ko‘rmagan y o g‘ i y fig‘oni falakni tutdi...* T.Malik, Shaytanat. *Ustiga-ustak r a q i b uni go‘yo masxaralagandek o‘ziga chorlashi Yusufning g‘ururini o‘ynatib yubordi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Said o‘z r a q i-b i bilan bar-barobar tashlashardi, Mirazimning esa ahvoli tangroq ko‘rindi?*

DUSHMAN BO‘LMOQ, RAQIB BO‘LMOQ, YOV BO‘LMOQ, G‘ANIM BO‘LMOQ, AG‘YOR BO‘LMOQ, YOG‘IY BO‘LMOQ O‘zaro dushmanlik holatida bo‘lmoq. **Yov bo‘lmoq, g‘anim bo‘lmoq, ag‘yor bo‘lmoq, yog‘iy bo‘lmoq** so‘zlari kam ishlatiladi, eskirgan.

Uy egasining uyda yo‘qligidan bexabar odamlar uni yo‘qlab keldilar: undan olgan qarzini bermoqchi bo‘lib do‘st keldi, unga bergan qarzini olmoqqa chog‘lanib do‘st d u sh m a n b o‘ l ib keldi... A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Do‘stga d u sh m a n b o‘ l ish oson, Dushmanga do‘st bo‘lish qiyin.* Maqol. *“Agar notanish yoki sizga r a q i b b o‘ l gan to‘da bilan mushtlashish zaruriyati tug‘ilsa, siz nima qilar edingiz?” – degan savolga so‘ralganlarning 79 foizi “sheriklarimni qo‘llash uchun men ham urishaman”, – deb javob qaytardi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Endi bir-biroviga yov. Y o v b o‘ l a turib bordi-keldi qiladi.* T.Malik, Devona. *Turkman chochuv o‘tirganligi sababli qizilboshlar har doim turkmanga y o v b o‘ l ib kelib, bu yog‘idan, u yog‘idan talab, mol, odam o‘lja qilib ketar edi.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. *Sho‘roning g‘animi deb hisoblanib, sho‘rodan zulm ko‘rgan to‘razodalar bosmachi bo‘lmay bosmachiga ham g‘ a n i m b o‘ l dilar.* K.To‘ramurod, Cho‘mmoq. *G‘ a n i m b o‘ l olmasmiz ikkimiz sira, Do‘st ham bo‘lolmasmiz balki hech qachon.* A.Oripov, G‘anim bo‘lolmasmiz. *Akbar kimning gapiga ishonishini bilmay, intihosiz nizolardan to‘yib ketganda Dehliga, onasi va enagasi Mohim bibining yoniga borardi. Lekin Dehlida Bayramxonga a g‘ y o r b o‘ l ib qolganlar Agradagidan ham ko‘p.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. – *Ular do‘st emas... Bobom kitobdan o‘qib bergan edilar, esingizdami: “Do‘stingni yengilroq sevginki, kuni kelib, y o g‘ i y b o‘ l ib qolishi ham mumkin”.* T.Malik, Shaytanat.

DUSHMANLIK QILMOQ, DUSHMANLASHMOQ, YOVLIK QILMOQ, YOVLASHMOQ, G‘ANIMLIK QILMOQ, G‘ANIMLASHMOQ Boshqaga zarar keltiradidan harakatni sodir qilmoq, bir-biriga qarama-qarshi, nodo‘stlarcha munosabatda bo‘lmoq. **Yovlik qilmoq, yovlashmoq, g‘animlik qilmoq, g‘animlashmoq** so‘zlari eskirgan, asosan, tarixiy mavzulardagi asarlarda uchraydi.

Shayton to qiyomatga qadar odamzodga d u sh m a n l i k q i l ar ekan… T.Malik, Odamiylik mulki. *Xullas, do‘ppidek bir orol. Aholisi ham shunga yarasha: bir hovuch. Lekin shu bir hovuchgina odam ham hafsala qilsa, bir-biriga d u sh m a n l i k q i l ishni eplarkan.* U.Hamdam, Safar. *...G‘alabadan so‘ng ham ma’lum miqdor dushmanlarni saqlab qolmoq kerak, toki dushman yo‘qligidan o‘zaro d u sh m a n l a sh ib yurmaylik”, deya ogohlantiradi.* D.Quronov, Bezavol haqiqatlar. *O‘rtaga pul tushsa, ikki ko‘z bir-biriga y o v l i k q i l adi.* Q.Norqobil, Zamindan olis ketma. *Naxs bosgan qo‘li uning Har yerda hozir, paydo. Ikki qit’a – ikki yurt Y o v l a sh di oltin deya.* A.Suyun, Asrlar hikoyati. *Dunyoni suv bosgan, suv ustida ikki mo‘min-musulmon, shular ham*

bir-biriga y o v l a sh ib turibdi... I.Sulton, Suvdagi kosa. *O‘zi, odamzodning xamiri balchiqdan qorilgan – taniqli, nufuzli kishilardan xafa bo‘lib yuz o‘girishga, imkon topsa, g‘ a n i m l i k q i l ishga doim shay turishadi.* I.Mirzo, Iltimos. *Gohi yolg‘onga ergashdim, Gohi do‘st ham g‘ a n i m l a sh di...* T.Sodiqova, Gul atri.

DO‘Q, **PO‘PISA**, **DO‘Q-PO‘PISA, DAG‘DAG‘A**, **DO‘Q-DAVARA**, **SIYOSAT** Qo‘rqitish maqsadida aytilgan gap-so‘z, qilingan xatti-harakat. Sinonimik qatordagi **po‘pisa** so‘zida shunchaki qo‘rqitib qo‘yish uchun qilingan harakat ta’kidi mavjud. **Do‘q-po‘pisa**da ham gap, ham harakat nazarda tutiladi. **Dag‘dag‘a, do‘q-davara** so‘zlarida qo‘rqitish maqsadi kuchli ifodalangan. **Siyosat** so‘zi esa faqat gap bilan qo‘rqituvga nisbatan qo‘llanadi. **Siyosat** so‘zi ma’nosida harakatninig yolg‘ondan ekanligi anglashilib turadi, ayni so‘z bu ma’noda kamroq qo‘llanadi.

Bunday d o‘ q dan cho‘chib, yaxshilik tomon burilgan bolani hali hech kim uchratmagan bo‘lsa kerak. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Ota qarg‘ishi – o‘q, Ona qarg‘ishi – d o‘ q.* Maqol. *O‘ldirish qanaqa bo‘lishini bilishmas, shu bois ham bu p o‘ p i s a dan cho‘chishmas edi.* T.Malik, Shaytanat. *Haydovchi ko‘rsatkich barmog‘ini havoda o‘ynatib, “Ha, senimi!” degandek yengil p o‘ p i s a ham qilib qo‘ydi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Keyin men bilan bunaqa yumshoq muomala qilib o‘tirmaysiz. D o‘ q-p o‘ p i s a ga o‘tasiz, so‘kasiz, urasiz.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Tergovchining d o‘ q-p o‘ p i s a bilan gap boshlashini ko‘rgan boyvachcha xiyol bo‘shashdi.* S.Yunusov, Kutilmagan xazina. *Siz bo‘lsa... ul telbaning bul yolg‘on p o‘ p i s a siga inonib, ruxsoringizni ko‘rsatdingiz?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *U Zohidning kirib kelganini ko‘rsa ham, e’tibor bermay, d a g‘ d a g‘ a sini davom ettirdi...* T.Malik, Shaytanat. *Haydovchining d a g‘-d a g‘ a si ta’sir qildimi, yigitlar oldinga o‘tib ketishdi.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Bu d o‘ q-d a v a r a ning zamirida shu bugundan boshlab butun insoniy huquqlardan mahrumsan, kimligingni endi unutaver degan ishora bor edi.* Shukrullo, Kafansiz ko‘milganlar. *Ha, odamlar aytar edi, Azroil jon oladigan bo‘lganda, shunday s i y o s a t bilan, haybat bilan keladi, deb.* “Murodxon”. *Tahdid va s i y o s a t emas, mehribonlik darkor.* Oybek, Navoiy.

DO‘Q QILMOQ, DO‘QLAMOQ, DO‘Q-PO‘PISA QILMOQ, PO‘PISA QILMOQ, DAG‘DAG‘A QILMOQ, DAVARA QILMOQ, DO‘Q-DAVARA QILMOQ, SIYOSAT QILMOQ Qo‘rqitib qo‘yish, tartibga chaqirish maqsadida muayyan harakat qilmoq. Nutqda **do‘q qilmoq** so‘zi o‘rnida **do‘q urmoq** iborasi erkin almashinib qo‘llana oladi. **Do‘q-po‘pisa qilmoq** so‘zida harakat intensivligi yanada oshadi. Sinonimik qatordagi **do‘qlamoq, davara qilmoq**, **do‘q-davara qilmoq** so‘zlari shevaga xos. **Siyosat qilmoq** so‘zi ko‘pincha oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi.

Sigir qochmoqchi bo‘lib bo‘ynini bir qayirdi-yu, so‘ng “o‘zing pachoqqina odam ekansan, nimaga d o‘ q q i l asan, yo shoximga ilib otib yuboraymi?”

deganday mo‘rab qo‘ydi. T.Malik, Shaytanat. *Amin borib, shu so‘ng so‘zni aytgan odamga d o‘ q i l di: – Jim tur, ablah!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ijro-qo‘m raisi ketiga o‘girildi. – Bo‘ri polvon qani? – deya d o‘ q l a di.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *– Borganda ko‘rasan, – d o‘ q l a di haydovchining yonidagi sigareta chekib ketayotgan yigit ko‘zgu orqali orqa o‘rindiqda ikkita barzangining o‘rtasida o‘tirgan Ikromga qarab qo‘yib.* N.Ismoilov, Iblis saltanati. *Naim Yilqiboylarning uylariga uch-to‘rt marta kelipti, Ilashni holi-joniga qo‘ymapti, otalaringning quloq bo‘lib ketgani senlarga kammidi, deb d o‘ q-p o‘ p i s a ham q i l ibdi.* Sh.Bo‘tayev, Urug‘. *Orziqul bobo achchiqlanardi. “Muallimingizga borib, Maqsudboyga odob o‘rgatmabsizlar, deb aytmasin”, deb p o‘ p i s a q i l ardi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *– Qanaqa bo‘larkan! – dedi Nasiba barmog‘i bilan p o‘ p i s a q i l ib.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Ziyofat yakun topgach, arazchi qariyalardan biri sohibi ehsonga “Sen menga aql o‘rgatish uchun chaqirdingmi?” – deb d a g‘ d a g‘ a q i l a ketdi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Ammo hozir u – podsho bir yoqqa boradigan bo‘lsa, navkar-u qo‘shin bilan jo‘nashi kerak. Hamidabonuni ko‘rish uchun qo‘shin tortib d a g‘ d a g‘ a q i l ib borsa, Hindol mirzo bilan urush qiladimi?* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Savog‘ini bilmagan yoki sho‘xliq qilg‘an bolalarni har qancha so‘kib, koyisa, do‘q urib, d a v a r a q i l sa ham urmas, bu jihat bilan butun Qo‘qon bolalarining muhabbatlarini o‘ziga jalb etkan edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *– Yig‘lama, bolam... Bakir tog‘ang kelsa, d a v a r a q i l ib qo‘yaman. Nimaga aldading yosh bolani deyman.* Sh.Xolmirzayev, Ukki sayra-yapti. *To‘rabek... ba’zan qo‘liga xipchin olib, bolalarga d o‘ q-d a v a r a q i l ar, shu bilan hovrini bosar edi.* H.Nu’mon, A.Shorahmedov, Ota. *– Menga s i y o-s a t q i l mang, aka! – Ana, ko‘rdingmi, darrov qo‘rqasan.* T.Malik, Shaytanat. *Qalmoqlarni to‘plab oldi, Yetganiga nayza soldi, Qalmoqqa s i y o s a t q i l di, Quvib yo‘lga olib bordi. Yurtga qalmoq qochib ketdi, Endi beklar mundan qaytdi.* “Alpomish”.

DO‘ZAX, JAHANNAM, TAMUG‘, SAQAR Gunohkor bandalar oxiratda abadiy azoblanadigan joy. **Jahannam** badiiy uslubda ko‘proq ishlatiladi. **Tamug‘, saqar** so‘zlari eskirgan bo‘lib, qisman diniy kitoblarda, mumtoz adabiyotda qo‘llanadi, eskirgan.

Jalil, oshnam, boshimga tushgan balolarni, azoblarni boshqalar bilmasa ham sen yaxshi bilasan. Sen meni d o‘ z a x bilan qo‘rqitma. T.Malik, Shaytanat. *Ikki kishi bor edi, biri imon keltirdi. ...Bittagina so‘z aytdi, umrining oxiridagi d o‘ z a x jannatga aylandi.* I.Sulton, Ozod. *Yo‘l naq j a h a n n a m ga olib borayotganday harorat tobora ko‘tarilardi.* N.Eshonqul, Ajr. *Dasht-u biyobonning so‘nik qumlari aro bir kishi tentiraydi. U – ozg‘in, yuzlari qorayib ketgan, barmoqlari qiyshiq, ko‘zlarida j a h a n n a m o‘ti lovullab turadigan bir kimsa.* I.Sulton, Ozod. *Ilohi, agarchi zalolatqa tushubmen, ammo hidoyatingga talab-*

D

gormen va agarchi t a m u g‘ o‘tig‘a tushkali yovushubmen, ammo rahmatingdin umidvormen. I.Sulton, Ozod. *Mayli, girdibod-u dahshat ostona Rivoyati ila solaroq qo‘rquv Xayolot yaratgan turfa afsona T a m u g‘ alangasin yoqsa ham mangu, O‘shal ostonadan dadil qo‘y qadam...* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Jannat-u kavsar manam, ham do‘zax-u s a q a r manam.* Mashrab, G‘azallar. *Ey Allohga qarshi yigit, osiy sang‘i, Gunohkorning jazosi ne, bilasanmi? Osiylarning joyi – s a q a r. Yonar o‘zi, Shiddatli o‘t ichra pishar go‘zal yuzi.* T.Malik, Odamiylik mulki.

E

EGA, XO‘JAYIN, XO‘JA, SOHIB Uy-joy, narsa-predmet, mol-mulk va shu kabi o‘ziga tegishli mulkka egalik qiluvchi shaxs. **Ega** so‘zini har qanday narsa-buyum egasiga nisbatan qo‘llash mumkin. **Xo‘jayin** so‘zida yakka va to‘liq egalik ta’kidi mavjud. **Xo‘ja**, **sohib** so‘zlari eskirgan, asosan, tarixiy asarlarda uchraydi.

Mana shu toklarni, o‘riklarni, bodom-u yong‘oqlarni, anjir-u anorlarni senga qoldirib ketaman. E g a si o‘zing bo‘lasan, meni qancha sevsang, ularni ham shuncha sevgin. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *To‘g‘ri, ba’zan hayotda yana shunaqa qismat e g a lariga duch kelasanki, ular haqda bir nima demoqqa ojiz qolasan, kishi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Hamdam pivoxona x o‘ j a y i n i bilan o‘zaro og‘zaki shartnoma tuzib olgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Egasi esa mana – qandaydir tosh ustida yalang oyoqlarini kergan ko‘yi bukchayibgina xomush o‘tiribdi. Bugun saylangan rais! Mana shu joylarning ertangi x o‘ j a y i n i!* E.A’zam, Shovqin. *Farhod shohlar ahlining chin sevgi hislaridan mahrum ekanliklarini, odamgarchilikda, sevgida shoh bilan faqir, x o‘ j a bilan gadoning teng ekanini aytadi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Hech zamonda x o‘ j a xizmatkorini boshiga ko‘tarmaydi. Kuyov o‘g‘ildan baland izzatlanishini unutmang.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Boz ustiga, g‘oyatda uzoq umr ko‘radigan va odamni hayiqtiradigan qismat s o h i b i bo‘lmish bu maxluq kishida falsafiy xayollarni ham uyg‘otardi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Mirzaabdulla xonadon s o h i b ini ko‘p balolardan asrab yurishini bilardim.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

EKMOQ, O‘TQAZMOQ, TIKMOQ, QADAMOQ Nihol, ko‘chatni yerga o‘tqazmoq, o‘simlik urug‘ini tuproqqa joylashtirmoq. **Ekmoq** so‘zi urug‘, ko‘chat, ekin kabilarga nisbatan birdek ishlatiladi. **O‘tqazmoq** so‘zi faqat *nihol, ko‘chat* so‘zlari bilan bog‘lanadi. **Tikmoq, qadamoq** so‘zlari bu ma’nosida nofaol, asosan, so‘zlashuv tiliga xos.

Durkun-durkun, shig‘il-shig‘il uzumlarning bari qirmizi tusda bo‘lardi. Boshqa turlarini ham e k ib ko‘rganmiz, lekin negadir unib-o‘smagan. I.Sulton, Ozod. *Rahima. Hali Turkmaniston, hali Tojikiston, hali Qirg‘izistondan telefon ustiga telefon qilib, limonni qanaqa e k adi, ko‘chatidan bittagina olishning iloji bormi, deb so‘rab turishgan bo‘lsa.* S.Ahmad, Kuyov. *Bahor keldi. Shaharda daraxt o‘ t q a z ish mavsumi boshlanib ketdi.* A.Qahhor, Dahshat. *Minglab be-*

hilar orasida shu behi aziz. Chunki u behini marhum ota o‘ t q a z ib ketgan. I.Sulton, Hazrati Majoz. *Umid urug‘ini t i k kan dehqon qalb Baxtining donasin qoldirmas yerda.* Zulfiya, Saylanma. *Mo‘l hosil undirmoq niyatida ekin t i k kan dehqon bor suvni, oltin tortganday, misqollab sarflaydi.* J.Abdullaxonov, To‘fon. *Shudgorni kesib, chigit q a d a yotganlar oldiga bordi.* S.Ahmad, Hukm. *Yurt-doshim, bog‘ingga bir nihol q a d a, Bu nihol nomini Yaxshilik ata…* E.Vohidov, Umrim daryosi

ELAK, G‘ALVIR Un, don va shu kabi mahsulotlarni elash uchun ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi. Nutqda bu ma’noni ifodalashda, asosan, **elak** so‘zi faol ishlatiladi. **G‘alvir** so‘zi shevalarda uchraydi, **elak** un va shunga o‘xshash tuyilgan narsalarni elash uchun, **g‘alvir** guruch, bug‘doy singari tuyilmagan narsalarning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish uchun ishlatiladi.

E l a k ka kirgan xotinning ellik og‘iz gapi bor. Maqol. *E l a k dan un elandi, Supra unga belandi.* Topishmoq. *Said Jalolxon tovush chiqarmay uning yoniga borib o‘tirdi. Mulla Shamsiddin uni ko‘rmadi; g‘ a l v i r ga qo‘l solib bir changal mayiz oldi – payqamadi.* A.Qahhhor, Bashorat. *U eshik oldidagi supada, oldida bir g‘ a l v i r mayiz, cho‘pini terib o‘tirgan edi.* A.Qahhor, Dahshat.

EPLAMOQ, UDDALAMOQ, UDDA QILMOQ Berilgan topshiriq, yumushni bajara olmoq, uddasidan chiqmoq. **Eplamoq** so‘zi barcha nutq uslublarida erkin qo‘llana oladi. **Uddalamoq, udda qilmoq** so‘zlari, asosan, so‘zlashuvda ishlatiladi.

Bola-chaqalari ham durustgina kiyinmaydi. Mehmonni ham e p l a b kutolmaydi. Majlisda bo‘lsa tili bir qarich. S.Ahmad, G‘ildirak. *Qadamingni bilib bos, bola! Qizlarga osilgandan ko‘ra burningni e p l a sang-chi!* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *U bularning barchasiga ulgurayotganligidan, barchasini u d d a l a-yotganligidan hayratga tushar, quvonchi ichiga sig‘mas edi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *– Lekin sen qo‘rqma! – shivirlab gapida davom etardi qorovul. – Bari bir toshni qo‘lga kiritishga harakat qil. Agar bu ishni u d d a l a sang, – Bolta boyvachcha buni, albatta, u d d a l a ydi, bunga ishonchim komil.* H.Shayxov, Iblis bilan muloqot. *U desam u dedi, bu desam bu dedi – hech bo‘lmadi, nihoyat “seni dumli odamlarga yo‘latish qo‘limdan kelmaydi, xatarli, xohlasang, apparatingni ber, biladigan, u d d a q i l adigan ishonchli kishiga aytib, bironta dumli odamning suratini oldirib beraman” deyishdan boshqa chora qolmadi.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *– Mayli, bu yumush ehtimolki, aning qo‘lidan kelmas, – davom berdi muallim, – kecha-kunduz tinim bilmay ko‘cha, ko‘pruk qurushni u d d a q i l ur, lokinda sabzi to‘g‘ramoqdan bexabardur.* N.Rahmat, Kalvak mahzum nomalari.

ER, YOSTIQDOSH, UMRDOSH, RAFIQ, TANMAHRAM, O‘RTOQ, XO‘JAYIN, ZAVJ, SHAVHAR, BOY Xotin kishi bilan nikohda bo‘lgan erkak, umr yo‘ldoshi. **Yostiqdosh, tanmahram, umrdosh, o‘rtoq** so‘zlari nutqda tur-

mush qurgan er va xotinga nisbatan baravar qo‘llanadi. **Rafiq** so‘zi mazkur ma’noda kitobiy uslubga xos. **Xo‘jayin** so‘zi mazkur ma’noda ayollar nutqida ishlatiladi. Ayollar nutqida erga nisbatan **otasi, adasi, dadasi, xo‘jam, to‘ram, begim** kabilar murojaat birligi sifatida ishlatiladi. **Shavhar, zavj** so‘zlari eskirgan so‘z bo‘lib, tarixiy asarlardagina uchraydi. **Boy** so‘zi shevalarda qo‘llanadi.

Avvalgi e r i shundoq xotinning qadriga yetmagan ekan, nomard! O‘.Hoshimov, Hayajonlanmang. *Qimizxonning e r i Usmonjon qo‘ydek yovvosh odam.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Mamaniyoz y o s t i q d o sh i o‘lib ketib, Bir o‘g‘ilcha qolgan ekan bo‘yi yetib*. G‘.G‘ulom, Ko‘kan. *Mayli, qat’iy bo‘lsa ahding. Bo‘lay senga y o s t i q d o sh. Faqat bordir. Bitta shartim, Ko‘nsang agar etay fosh*. H.Sa’dulla, Tanlangan asarlar. *Bilolmasdan ko‘plar jonhalak: Bu qiz qanday u m r d o sh xushlar? Qaytishgandi ostonasidan Talaygina sovchilar quruq.* G.Nur, Yig‘larman. *Konservatoriyada tanishib, turmush qurgan u m r d o sh i, kasbdoshi Bahodir aka bilan shuncha yillardan beri bir jamoada mehnat qilib, ahil-totuv hayot kechirishadi*. R.Majnunova, Yuragida olov yashar. *Charxi kajraftordin har lahza afzundur, g‘amim, Sharh etarga yo‘q r a f i q im, g‘amguzorim, hamdamim...* Muqimiy, Asarlar. *Maryam Qodirjonga. Men ham o‘qigan, to‘g‘ri r a f i q istagan xotinman.* Hamza, Kim o‘g‘ri? *G‘ani. Meni kechir, bir t a n m a h r a m kerak bo‘lib qoldi, dedim.* S.Ahmad, Kuyov. *O‘z t a n m a hr a m im va xojam haramini yog‘iy ilkiga tashlab qochgandan ko‘ra, o‘lim afzal!* G‘.Karimiy, Ko‘ragon. *Ularning erlari ko‘ngillari o‘sib jo‘naganda, mening erim o‘ksib jo‘nadi. O‘ r t o g‘ im jo‘nagan kuni ertasiga kechqurun hovliga Komila xolam keldilar.* A.Qahhor, Xotinlar. *Shu zahoti eshik ochilib xotinim ko‘rinish berdi. Qo‘lida choynak, piyola, bir likopchada qand-u qurs. – Ijod qalay, x o‘ j a y i n!? Ilhom parisi keldimi? – deya u yengil harakat-la odimlarkan, yoqimli jilva qildi.* I.Eshmurodov, Ko‘ngil mehri. *Shu pallada Xadichaning yuzidagi tabassum yo‘qoldi: – Shunga noqulay bo‘lmasin deb eshigingizni qoqmadik. X o‘ j a y i n im aytdi, ertaga shahardan katta do‘xtirlar kelib ko‘risharmish, darrov oyoqqa turib ketarmish*. X.Eshqobilova, Ayolning martabasi. *Kumushbibi binti Mirzakarimboyga – z a v j i toshkentlik Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lidan.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Z a v j i ga chiroyli libosin kiyar, Er kulgusin ko‘rsa taomdek to‘yar.* X.Hamidov, Hayoli ayollar haqida xayollar. ... *Inchunin o‘shal xotinning... sh a v h a r i javobgardir.* I.Akram, Adolat. *– Kimning sh a v h a r i yaxshi ko‘rsa, o‘shaning o‘smasi yaxshi ucharmish! Chuchundingizmi? – Xoldona bibi hazil aralash dedi.* M.Ali, Shohruh Mirzo. *Och kishi moy tanlamas, qariqiz b o y tanlamas.* Maqol. *Man bildim: ammaning b o y i o‘libdi, Bilsang, ammam yesir bo‘lib qolibdi.* “Intizor” .

ERINCHOQ (ERINCHAK), YOLQAMSIQ (YALQAMSIQ) Biron ishni astoydil bajarmaydigan, yalqovlik bilan harakat qiladigan. Aynan shu ma’nodagi

erinchak so‘zi nisbatan kam uchraydi. **Yolqamsiq** (**yalqamsiq**) so‘zi shevaga xos so‘z.

– *E r i n ch o q odamni ko‘rsam, jinim qo‘zg‘aydi, – dedi Usmon aka brigadir ketgach. – Erkak kishi degan tinib-tinchimasa-da!* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Siz o‘g‘lingizning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishini, sog‘lom, baquvvat o‘sishini istaysiz. Lekin tanbal va e r i n ch o q bolangiz so‘zingizga kirmaydi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *E r i n ch a k ikki ishlar, oxiri barmog‘in tishlar*. Maqol. *Lekin shu bir ro‘zg‘orga aylanganlar ichida yaxshi ishlaydiganlari bor, y o l q a m s i q, mug‘ombir kishilari ham bor.* A.Qodiriy, Obid ketmon.

ERISHMOQ, YETISHMOQ (YETMOQ), MUVAFFAQ BO‘LMOQ, MUYASSAR BO‘LMOQ, VOSIL BO‘LMOQ, NOIL BO‘LMOQ Ko‘zlagan maqsadini amalga oshirmoq, istagan narsasini qo‘lga kiritmoq, mo‘ljallagan ish-harakatni natijali bajarmoq. **Yetishmoq, yetmoq** so‘zlarida natija aniqligi ta’kidi bor. **Muvaffaq bo‘lmoq, muyassar bo‘lmoq** so‘zlarida natijadan mamnuniyat ta’kidi qabariq ifodalangan. **Muyassar bo‘lmoq, muvaffaq bo‘lmoq** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubga xos. **Vosil bo‘lmoq, noil bo‘lmoq** so‘zlari eskirgan.

Bularning bariga o‘ziga xos, betakror, yorqin iste’dodi tufayli, ko‘p yillar mobaynida xalqqa qilgan sidqidil mehnati tufayli, qolaversa, yuksak insoniy fazilatlari tufayli e r i sh di. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Birov bor istaklariga e r i sh gan, birov endi e r i sh yapti. Birov esa... birov esa hech narsaga y e t i sh olmay o‘tib ketyapti.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Shunday qilib xudojo‘y otaning to‘rtovi farzandi ham el-yurt xizmatiga bel bog‘lashni niyat qilishgan ekan, niyatlariga y e t i sh ibdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Bu qo‘shiq – qalbning mahsuli. Bu qalb zarga emas, ozodlikka muhtoj edi, y e t i sh di. Unga bundan ulug‘ mukofot darkor emas.* T.Malik, Savohil. *Qaytaga qushdek yengil bo‘lib qolganga o‘xshayman. Orzum shu edi, mana, y e t dim. Besh yil bo‘ldi-ya!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Qani endi dunyoda vafo bo‘lsa, har kim tilagiga y e t sa.* A.Qahhor, Shohi so‘zana. *Shayboniy Dashti Qipchoqqa qaytib borib, lashkar to‘plashga m u v a f f a q b o‘ l gan.* Gazetadan. *...Qolaversa, u an’anaviy poetik janrlarni zamonga xizmat ettira olgan, unga davr hodisalarinigina emas, ruhini ham imkon doirasida kiritishga m u v a f f a q b o‘ l gan shoir edi.* B.Qosimov, Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining ilk bosqichi. *Buriyo hukumati tomonidan berilgan kechqurungi ziyofatda ulug‘ dohiy tovarish Xon Man Men bilan yana uchrashmoq sharafiga m u y a s s a r b o‘ l dik.* E.A’zam, Chapaklar va chalpaklar mamlakati. *Qiz katta bilim dargohining talabasi bo‘lishdek sharafga m u y a s s a r b o‘ l di.* Gazetadan. *Belgisiz bu olam, sirli bu ravoq Bag‘riga otilmoq, quchmoq istayman. E voh, nahotki men – xasdek tuban zot Tangri dargohiga v o s i l b o‘ l olsam!* E.Vohidov,

She’r dunyosi. *Yonimga tezroq kelsang-a, Vaslimga v o s i l b o‘ l sang-a, Tinmay bo‘salar olsang-a, Yoring nido ayladi.* “Tohir va Zuhra”. – *Otabek kabi bir yigitni o‘g‘ul qilish sharafiga n o i l b o‘ l a olsam o‘zimni eng baxtlik otalardan sanar edim, – dedi nihoyat qutidor.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Buni qiyomatda yolg‘iz Ollohning o‘zigina belgilaydi. Biz ojiz bandalarmiz. Kim do‘zaxga, kim jannatga n o i l b o‘ l mog‘i bizga qorong‘i.* T.Malik, Ov.

ERTA, BARVAQT, VAQTLI Odatdagi vaqtdan ilgari. **Barvaqt** so‘zi kitobiy uslubga xos bo‘lib, unda “payt” ma’no qirrasi kuchli ifodalanadi. **Vaqtli** so‘zi bu ma’noda, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi.

Qayoqda yuribsan, birga qaymoqxo‘rlik qilarmiz devdim. – Shunaqa niyati bor odam e r t a roq keladi, – dedi Asadbek unga javoban. T.Malik, Shaytanat. *O‘yinlardan ancha e r t a to‘ygan edim, Kitoblarga b a r v a q t havas qo‘ygan edim.* E.Vohidov, Saylanma. *Ular b a r v a q t yo‘lga chiqib yaxshi qilishgan ekan, pachoq mashina goh radiatori qaynab, goh motori o‘chib, shaharga soat to‘qqizdan oshganda kirib borishdi.* O.Yoqubov, Matluba. – *Onasi, ertalab v a q t l i ketaman. Kiyimlarimga dazmol urib qo‘y, – dedi Sarvar xotini uzatgan choyni olib.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *To xo‘roz qichqirguncha baza oldidagi skameykada u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirishadi. Tayyor poyloqchi topilganidan sevingan qorovul choponiga o‘ralib v a q t l i gina uyquga ketadi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

ESDALIK, YODGORLIK, YODGOR, XOTIRA 1. Inson uchun xotira ramzi bo‘lib qolgan biror narsa. **Yodgorlik** so‘zi shaxs yoki xotira ramzi bo‘lib qolgan narsa-predmetga nisbatan ishlatiladi. **Yodgor** so‘zida dunyodan o‘tib ketgan shaxsdan qolganlik ta’kidi mavjud. **Xotira** so‘zi mazkur ma’noda kam uchraydi.

To‘g‘nog‘ichni birpas tomosha qilib, keyin uni buvimga qaytib berdim. Bu to‘g‘nog‘ich buvimga qaynonasidan e s d a l i k. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *...onamdan qolmish yagona e s d a l i k – kichkina parq-u bolish – tobutimda boshimga qo‘yilsa-yu, o‘sha bolish tagiga daftarcham qo‘yilsa...* Mirtemir, Saylanma. *Yetti yoshga yetganda kampir uni yoniga o‘tqazib, bolam, senga bor haqiqatni aytishim kerak, deb bo‘lgan voqeani so‘ylab, mana bu uzuk onangdan y o d g o r l i k... debdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Bu shahriyorning farmonlari bilan tushirilgan. Hazrat sohibqironning eng ulug‘ zafarlaridan y o d g o r l i k.* T.Malik, Falak. *Olimjon. Nima qilardim, sog‘ qolgan qismlarini olib, zapchast qilaman. Qo‘chqor. (sidqidildan). Ha, omon qolgan joylarini olib qo‘y, y o d g o r-da...* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *U Yozyovonga kim uchun boradi? Xasis akasini, onasidan qolgan yagona y o d g o r to‘g‘nog‘ichni aza kuni taqib yurgan yuzsiz Yalpiza yangasini sog‘inib boradimi?* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *...Sayyoh o‘z yurtiga qaytgach, Osiyoda ko‘rgan-bilganlari haqida “Mening shahri Haybarim” degan x o t i r a kitobini yozadi.* I.Sulton, Boqiy

darbadar. *Salom! (kitobni uzatib). Mendan sizga x o t i r a.* N.Safarov, Hayot maktabi.

2. Boshqalar haqida inson xotirasida saqlanib qolgan tafsilot-taassurotlar. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlar ko‘chma ma’nosida qayd etilgan tushunchaga ega bo‘ladi.

Allaqachon yodimdan chiqqan, biroq, chamasi, ko‘nglimning bir chekkasida mudrab yotgan ham ma’yus, ham kuz oftobiday tiniq e s d a l i k lar selday yopirilib keldi-yu, xayolimni olib qochdi. O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *U – yoshlikni sog‘inar faqat, E s d a l i k lar jon qiynar faqat.* Mirtemir, Saylanma. *Darveshali. Bundan keyin faqir-u haqir sening xotirang bilan, sen in’om etgan baxtli kunlar e s d a l i g i bilan yashayman.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Ilk muhabbatimdan qolgan y o d g o r l i k bu – xotiralarimdir.* Gazetadan. *...bu odam o‘lganidan keyin y o d g o r l i k sifatida eslashga arzigulik biror xayrli ish qildimikin yoxud johil va fosiqligidan, o‘lishi bilanoq hammaning esidan chiqib ketdimikin?* T.Malik, Odamiylik mulki. *U Bog‘ishamol nafasini, o‘tmish so‘qmoqlarida qolgan bebaho bolalikning aziz x o t i r a larini olib kelgan bu yigitga havas bilan qarar edi.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Sayohat x o t i r a lari “Oyna” jurnalida bosilib turadi. Bu “x o t i r a lar” har jihatdan muhim bo‘lib, an’anaviy tarix-memuar janrining 20-asr boshidagi o‘ziga xos namunasi edi.* B.Qosimov, Mahmudxo‘ja Behbudiy. *Sen kuylagan o‘rik shu kecha Burkandi oq – oppoq chechakka. Men qadrdon x o t i r a bilan Jo‘nab ketdim uyimga yakka.* Zulfiya, Saylanma.

ESLAMOQ, ESGA OLMOQ, XOTIRLAMOQ, YODLAMOQ, YOD ETMOQ, YO‘QLAMOQ 1. Eslamoq, esga tushmoq, xayolda, xotirada tiklanmoq. **Esga olmoq** so‘zida xotirasida tiklamoq ma’no ta’kidi kuchli va ochiqcha ifodalangan. **Xotirlamoq, yodlamoq, yod etmoq** so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Yo‘qlamoq** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Onasining qo‘lida pichoq ko‘rgan qizcha “yiqitsang – o‘ldiraman”, degan po‘pisani e s l a ydi-yu qo‘rqqanidan tildan qoladi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *E s l a ng, ulug‘ ma’rifatparvar va vatanparvar Behbudiy-u Fitrat, Qodiriy-u Cho‘lpon kabi minglab, o‘n minglab mo‘tabar siymolar, aslida xalqimizning mana shu jabhada – Istiqlol yo‘lida bergan ulkan qurbonlari emasmi?* U.Hamdam, Muvozanat. *– O‘sha ko‘rganlaringizdan siz ham gapiring, hadeb bizni gapirtiraverasizmi? – Ona qizim-ey, qaytaga sizlar yaxshi e s l a yapsizlar. Qarib qolibman, shekilli, xotiram xira, ko‘p voqealarni yodimga keltirolmayapman.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Bizningcha, to‘rttagacha uylanish ijozati nafsni qondirish uchun emas, balki aynan bevalarni o‘z panohiga olish uchun bo‘lsa kerak. Bu o‘rinda Payg‘ambarimizning (s.a.v.) kimlarga uylanganlarini yana bir e s g a o l sak joiz bo‘lar.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Saodat Taqdir ekan. Menda ayb yo‘q. Shuncha yil o‘tib U savdoni e s g a o l ish nimaga kerak?* E.Vohidov,

Umrim daryosi. *Aslida baxtiyor kunlarimiz ham dilimizda bir umrga qolib ketadi. Faqat u onlar faraxbaxsh bo‘lgani uchun ko‘p y o d g a o l maymiz.* Gazetadan. *Birovlarning haqini yeganida bu dunyoning hisob-kitobli ekanini unutgan edi, qamoq zindonida x o t i r l a di.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Men bu yerga kelaturib, o‘tmish zamondoshlarimiz ichida o‘tgan eng buyuklaridan ikki inson bilan bo‘lgan ikki voqeani x o t i r l a dim.* M.Mansur, Judolik diyori. *Tongda xotini aybdor odamning siniq ovozi bilan debdi: Ey muhtaram xojam, bir voqeani bexos y o d l a dim...* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Bugun shifoxonada ko‘z ochgani sabab bo‘ldimi yo Shoqolning gaplarimi, har holda Burgutni yana y o d-l a di.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Olloh taoloni poklab y o d e t ganimiz holda bermish eng ulug‘ ne’matlari – farzand-u nabiralarimizni yomon va diyonat bilan voyaga yetmoqliklarini nasib etmog‘ini so‘rab duolar qilamiz.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *O‘tganlar ibratli so‘zini y o d e t, O‘tganlar yodidan dilingni shod et.* “Sharq donishmandlari hikmatlari”. *Munda qolib tinmay seni y o‘ q l a dim, Seni y o‘ q l a b kecha-kunduz yig‘ladim.* “Yusuf va Ahmad”. *Mayliga, xotiri bugun jam, Bir tanbal bulutday uxlasin. Chorlaydi charog‘on bir olam, Shu olam suru-rin y o‘ q l a sen*. H.Xudoyberdiyeva, Saylanma.

2. Inson xotirasini yod etmoq, insonning xotirasiga hurmat ko‘rsatmoq. **Yodlamoq** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Yod etmoq, xotirlamoq** so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubda ishlatiladi.

U radioda to‘rt yil birga ishlagan, frontda jag‘ini oskolka maydalab tashlagan do‘stini e s l a di. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *– E, muxbir uka, bormisiz? Biz tomonlarga sira kelmay ketdingiz. – Hol-ahvol so‘rashdik. Kanal qurilishi-dagi qadrdonlarni e s g a o l dik.* S.Ahmad, Xazina. *To‘qson uchinchi yili Ab-dulla akani x o t i r l a b jonliq so‘yib, u kishini qadrlaydigan yetmishdan ortiq odamni chaqirib, dasturxon yozdim.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Pochcha duoga qo‘l ochdilar. U kishi ko‘zlarini yumib olib, o‘tganlarni x o t i r l a b, duo qilyaptilar-u qaydandir allaqanday iforli hid taralib, mening aql-u hushimni o‘g‘irlab boryapti*. M.Mansur, Judolik diyori. *Mullaka, yana bir gapni aytib ke-tay: ...Umrim qisqa bo‘lmaganida sirni o‘zim bilan olib ketardim. Yana orqam-dan yomon o‘ylar bilan y o d l a mang, deb aytdim. Rozi bo‘ling...* T.Malik, De-vona. *Jalol. Seni topgandan ko‘ra Vatan uchun qurbon bo‘lgan ukamga yig‘lab Pok ruhini y o d l a b o‘tsam bo‘lmasmi edi.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Go‘zal Ukraina dalalarida Yana avvalgiday tabiat gullar, Buyuk Rusiyaning o‘rmonla-rida Bizlarni y o d e t ib sayrar bulbullar.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Qora ko‘zli va gul diydor, Bahor chog‘i meni y o d e t! Xiyobonda kezar bo‘lsang, Nahor chog‘i meni y o d e t!* Mirtemir, Saylanma. *Bilga xoqon o‘tmishini shun-day y o d e t dim. Bu o‘tmish ko‘kturklarning dong‘idan, dovrug‘idan so‘zlaydi*. I.Sulton, Bilga xoqon. *Men qaro tuproqda yotgan o‘g‘lingizman, yod eting, Inti-zor ruhim tilovat birla y o‘ q l a b shod eting.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Ke-*

chalari tushlarimga kiradi farzandlarim. Ular ham meni y o‘ q l a shar emish. Y o‘ q l a b, yig‘lashar emish. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Tong otganidan botirlanib, norasta ovozda o‘kirib-o‘kirib uni y o‘ q l a di. Har yo‘qlovdan so‘ng diqqat bilan tevarakka quloq tutdi.* N.Norqobilov, Bo‘ron qo‘pgan kun.

E

EVAZ, BADAL Biror narsaning o‘rniga beriladigan haq yoki narsa yoxud shu narsaning qiymatiga teng keladigan boshqa biror narsa. **Evaz** so‘zi ma’nosida o‘rinma-o‘rinlik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Qah-qah urar bo‘lsam, vijdonimdan men Mehnatim e v a z in so‘rab olurman. A.Oripov, To‘rtlik. *Shuncha sinov-u sinoqlar e v a z iga bandangga ravo ko‘rganing shu bo‘ldimi, yo Olloh?!* E.A’zam, Shovqin. *Lekin turk sultoni Tojli begimni buncha oltin e v a z iga ham qaytarib bermagan*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Uning abadiy barhayotligiga va bemisl kuch-qudrat egasi ekanligiga, vujudimga kirgan zarra tikan b a d a l iga aql bovar qilmas mukofotlarni ato etadigan va har narsani o‘rab-chulg‘ab oluvchi hikmatlargacha bino qiladigan muborak zot ekaniga hech qachon shak keltirmaganman...* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Inglizlar Turkistonga ko‘p emas, yigirma besh yil hukmronlik qilish b a d a l iga olam-olam aqcha sarfladilar*. T.Malik, Savohil.

EVAZIGA, BADALIGA, HISOBIGA Biror xatti-harakatning bajarilishiga sabab bo‘lgan asos ma’nosini bildiradi, bu so‘zlar ko‘makchi vazifasida keladi. **Evaziga** so‘zi bu vazifasida nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Hisobiga** so‘zi so‘zlashuv uslubida uchraydi. **Badaliga** so‘zi nutqda kam ishlatiladi.

Otang u uzukni qancha zahmatlar, ne-ne mehnatlar e v a z i g a, uzoq shaharga borib, sarson bo‘lib olib kelgan. I.Sulton, Uzuk. *...Zaruriy bir ishni ado etayotgani e v a z i g a siylov olayotganini, balki, it ham his qilar...* U.Hamdam, Muvozanat. *Sen qizni ham topasan. Nega topmas ekansan? Shuncha qiynalishlaring e v a z i g a uni, albatta, topasan. Xuddi boshqalarning erki h i s o b i g a erkalik qilayotgandek.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Uning... vujudimga kirgan zarra tikan b a d a l i g a aql bovar qilmas mukofotlarni ato etadigan va har narsani o‘rab-chulg‘ab oluvchi hikmatlargacha bino qiladigan muborak zot ekaniga hech qachon shak keltirmaganman...* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Inglizlar Turkistonga ko‘p emas, yigirma besh yil hukmronlik qilish b a d a l i g a olam-olam aqcha sarfladilar.* T.Malik, Savohil. *Razzoq so‘fiki yolg‘iz qizini baxtiqaro qilish h i s o b i g a ko‘zini ochgan va sig‘ingani eshon boboga qarshi qo‘l ko‘targan ekan, demak, bu chirigan hayot tarzini, ijtimoiy tuzumni tag-tomiri bilan o‘zgartirish lozim.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Birovni do‘zaxga otish h i s o b i g a o‘zlariga jannatdan joy hozirlashyapti.* M.Mansur, Judolik diyori.

EZMA, SERGAP, LATTACHAYNAR, EZMACHURUK Haddan tashqari ko‘p gapirib, bezor qiladigan. **Lattachaynar** so‘zida kuchli salbiy munosabat ta’kidi mavjud. **Ezma, sergap** so‘zlarida salbiylik bo‘yog‘i birmuncha kuchsiz.

Ezmachuruk so‘zida ko‘p gapirish belgisi kuchli ifodalanadi, bir qadar obrazlilik seziladi, eskirgan so‘z.

Ajoyib odam. O‘zi o‘lgudek e z m a. Tajanglikda tengi yo‘q... S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *...Ayniqsa, shu tobda ko‘ngli allaqaylarga tortayotgan Zebi uchun bir xil e z m a kampirlardan ko‘ra bu – kamgap, seruyqu kampir yaxshi edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yigit s e r g a p ekan, qahvani ichib bo‘lgunicha ham gapdan tinmadi.* T.Malik, Shaytanat. *Genetika (irsiyat) fanidan saboq beradigan domlaning tashqi qiyofasiga qarab yoshini taxminlash g‘alat. Bu novcha, serharakat va s e r g a p odamni ellikda desa ham, oltmishda desa ham bo‘laveradiganday.* N.Rahmat, Buni hayot debdilar. *– Namuncha l a t t a c h a y n a r s a n! – Kesakpolvon achchiqlanib, qo‘lidagi piyolani stol ustiga tashladi...* T.Malik, Shaytanat. *Sen ham mundoq gapirsang-chi, odamlar bola uchun jonini beradi, sen-chi, bitta qo‘yni bahridan o‘tolmayapsan. O‘zi sen ham anavi l a t t a ch a y n a r xotiningga o‘xshab...* N.Asad, Ko‘zmunchoq. *Og‘izlari maqtanib o‘n besh qarish, Mayda suxan, e z m a ch u r u k, zanchalish.* Muqimiy, Tanobchilar. *– Xo‘sh, onasi, qani so‘yla, kim kirmadi so‘zingga? To‘polonda qaysi biri uzib ketdi yo‘g‘imda? Kenjatoying Asparuxmi, Nikolaymi, Ivanmi? Yo Yeftimmi – e z m a ch u r u k, Yordanmi yo Gencho?!* O‘.Umarbekov, Cho‘pon Vasil va uning farzandlari.

EZMALANMOQ, EZMALIK QILMOQ, EZMACHURUKLIK QILMOQ, LATTACHAYNARLIK QILMOQ, SERGAP BO‘LMOQ Haddan tashqari ko‘p gapirmoq, ko‘p gapirish bilan jonga tegmoq, ammo fikrni aniq yetkazolmaslik. **Ezmachuruklik qilmoq, lattachaynarlik qilmoq** so‘zlarida kuchli obrazlilik bor, salbiy munosabat yorqin ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Ko‘sa mayizfurushning e z m a l a n ishidan So‘zamol yong‘oqfurush tutaqdi... X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Erining e z m a l a n ishidan Banotning toqati toq bo‘ldi...* A.Mamarasulov, Jarima. *– Savolingizga hozir javob berishim shartmi? – Mutlaqo shart emas. Gapdan gap chiqqani uchun ozgina e z m a l i k q i l dim, kechirasiz.* T.Malik, Shaytanat. *Rashidov e z m a l i k q i l ib, odamlarni zeriktirib qo‘yganini sezdi. Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib uzr so‘radi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Meva olsangiz, iloji bo‘lsa donabay oling. 60 dona kartoshka, 40 dona piyoz... To‘g‘ri, biroz e z m a ch u r u k l i k q i l gan bo‘lasiz, zato xaridingizning har biridan bir kilo-yarim kilo yutib turibsiz-da!* A.Meliboyev, Xotin yo‘g‘ida. *Sirkangiz suv ko‘tarmaydigan ko‘rinasiz. Mayli, xafa bo‘lmayman. Baxtsiz juvonning xafa bo‘lgani bilan kim ham qiziqqan... Ko‘nglim sezib turibdi, e z m a ch u r u k l i k q i l yapman.* O‘.Hakimali, Poklikdan keyingi umr. *...– Bilib qo‘y, Asad o‘lsa, sen yarim kun ham yashamaysan! – Nimaga axir... men... – L a t t a ch a y n a r l i k q i l ma.* T.Malik, Shaytanat. *Professor sal jahllandi: “Ko‘p l a t t a ch a y n a r l i k q i l ma. Bilasan, unaqa odamlarni*

jinim suymaydi…” M.Hazratqulov, Chiroq o‘chmagan kecha. *Ey farzand, dunyoda omon bo‘lay desang, s e r g a p b o ‘ l ma, zarurat tug‘ilsa gapir, bo‘lmasa jimlikni ixtiyor qil.* “Bola – odobi bilan aziz”. *... – Mehmon degan unaqa s e r g a p b o ‘ l maydi, – dedi u ayyorcha kulib. – Ertaga o‘zingiz ko‘rasiz. Bolalar aytib berishadi.* S.Ahmad, Cho‘l burguti.

EZMALIK, SERGAPLIK, LATTACHAYNARLIK, EZMACHURUKLIK, MAG‘ZAVALIK Haddan tashqari ko‘p gapirib, bezor qilishlik. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlar salbiy bo‘yoqqa ega. Qatordagi **lattachaynarlik, ezmachuruklik, mag‘zavalik** so‘zlarida salbiy munosabat bo‘rtib turadi.

E z m a l i k da uloq xotinlarda ketgan. – To‘rttagina gapimiz ham ezma bo‘ldimi? Biz gapirsak ishdan gapiramiz. T.Malik, Davron. *Ko‘plab zamondoshlarimiz e z m a l i k va vaysaqilikka o‘rganib qolishgan, ammo sen bunday bo‘lma.* B.Niyozmatov, Hayot qoidalari. *S e r g a p l i k – johillik alomati. Ba’zi ayollar ma’nosiz, poyma-poy so‘zlamoqlikdan ko‘ra sukut qila bilish nodir fazilat ekanini unutib qo‘yadilar.* T.Malik, Komila. *Ibn Sino o‘z qissalarida mardlikni targ‘ib qilib, munofiqlik, s e r g a p l i k, yolg‘onchilik, ishyoqmaslikni, riyokor imomlarning ikkiyuzlamachiliklarini fosh etadi.* F.Ro‘ziyeva, Abu Ali ibn Sino – qomusiy olim. *Adham sovuq bo‘lsa ham, mard yigit. Rost, sudralib yurishdan ish chiqmaydi. L a t t a ch a y n a r l i k dan ish chiqmaydi, og‘aynichalish.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Domla tergovchilarni l a t t a ch a y n a r l i k da aybladi. Xo‘jayin uning gapini kesib, qadah taklif qildi.* N.Rahmat, Buni hayot debdilar. *E z m a ch u r u k l i k ni jini yoqtirmaydigan, ya’ni sirkasi suv ko‘tarmaydigan erkak ...nafrat va g‘azabini o‘zidan olib, shiddat bilan yoniga o‘girildi-da, tashqariga chiqib ketdi.* O‘.Hakimali, Poklikdan keyingi umr. *M a g ‘ - z a v a l i k ham evi bilan-da.* Gazetadan. *Ko‘ngilxiralik, xijillik, qoralik, zardob-u m a g ‘ z a v a l i k ular xobbisi. Go‘yoki osmonning ustuni, oshpichoqning qini, ko‘rpachaning yengi, hovuzning qopqog‘i menda, menda bor, deb xushomad qiladi undaylar.* S.Dadaxo‘jayev, Umr nega beriladi?

ESHIK, QOPI Uy, bino, hovlining kirish qismiga o‘rnatiladigan, ochilib-yopiladigan moslama. **Qopi** so‘zi faqat shevalarda uchraydi.

Go‘yoki ana bu e sh i k dan kirib, mana bu qopidan chiqib ketamiz. S.Siyoyev, Yassaviyning so‘nggi safari. *...Ming yil yashagan bir sahoba: “Esiz-esiz, u e sh i k dan kirdim-u, bu e sh i k dan chiqib ketayapman”, – degan ekan.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Hoy uka, sekinroq gapir, q o p i ning orqasida odam bor.* J.Sharipov, Xorazm. *Bu dunyoda barchamiz besh kunlik mehmonmiz. Po‘lat q o p i sharaqladi. Zulfin tovushi eshitildi. Bir qarich sham bilan bir kosa suv ko‘tarib zindonbon kirdi.* S.Siyoyev, Yassaviyning so‘nggi safari.

ESHITMOQ, TINGLAMOQ Tovush yoki ovozli ko‘rinishdagi har qanday gap-so‘z, xabar va shu kabilarni qulog‘i orqali qabul qilmoq. **Eshitmoq** so‘zining bu ma’nosida *quloq orqali eshitish* semasi ustuvor. **Tinglamoq** so‘zida alohida diqqat-e’tibor bilan eshitish ta’kidi qabariq ifodalangan.

Hali aytdim-ku, bu gaplarning hammasini Ahmadqul bobomning darichasi yonida o‘tirib e sh i t dik. Hayitvoy ham e sh i t di, Murodxon o‘rtog‘im ham e sh i t di. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *– E sh i t ib ko‘r-chi, qornimdan yig‘lamsiragan tovush kelmayaptimi? – Kelyapti! – dedim iljayib.* O‘.Hoshimov, Telpak. *Zavqdanmi, afsusdan lablari qurib Ichar ko‘klam bo‘yi anqigan qimiz, Mezbonlar siylashar ming taom qo‘yib, Hikoya t i ng l a ymiz, she’r o‘qiymiz biz.* Zulfiya, Saylanma. *Po‘latning har bir so‘zini diqqat bilan t i ng l a yotgan, harakatini ziyraklik bilan kuzatayotgan Shokirning qalbi to‘lqinlandi.* T.Malik, Xazonrezgi.

ESHKAK, DAYOV Qayiq, ba’zan kemani harakatga keltirish uchun xizmat qiladigan uzun yog‘och kurak. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **eshkak** so‘zi faol ishlatiladi. **Dayov** so‘zi faqat shevalarda uchraydi.

Buning ustiga, u hech mahal qo‘liga e sh k a k ushlamagan edi. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Cholning oppoq soqollari shamolda silkinar, yenglari bilagigacha shimarilgan baquvvat qo‘llari e sh k a k ni epchillik bilan boshqarib kelardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Qayiqning orqa tomonida d a y o v ushlagan darg‘a uni to‘g‘ri yo‘ldan olib bormoqda.* J.Sharipov, Xorazm.



FAHM, FAROSAT, ZEHN, DID, TAMIZ, UQUV, IDROK Kishining to‘g‘ri mulohaza yuritish, to‘g‘ri xulosa chiqara olish, biror narsaning mohiyatiga tushuna olish qobiliyati. **Farosat** so‘zi kishining axloqiy jihatdan, **zehn** so‘zi aqliy jihatdan, **did** so‘zi esa estetik jihatdan yuksak qobiliyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. **Fahm-farosat, did-farosat** kabi juft so‘z shaklida qo‘llanganda, kishining ziyrakligi, tez va to‘g‘ri fahmlay olish qobiliyati o‘ta ijobiy baholanadi. **Tamiz** so‘zi hozirgi adabiy tilda juda kam qo‘llanadi. **Zehn, idrok, uquv** so‘zlarida to‘g‘ri mulohaza yuritish, tez tushunib yetish kabi ma’no ta’kidlari aniq seziladi. **Fahm, farosat** so‘zlari nutq uslublariga ko‘ra cheklanmagan.

Asadulla yog‘ochni ko‘tarib, ilonni chetga surdi. Ilon yog‘och bilan biroz olishgan bo‘ldi-da, ishga odam aralashganiga f a h m i yetibmi, toqilar orasidagi teshikka kirib ketdi. T.Malik, Savohil. *Agar bu yigitda, ko‘p emas, zig‘irdekkina f a h m bo‘lsa, buni darrov anglaydi va qaytib bu dashtda qorasini ko‘rsatmaydi.* N.Norqobilov, Kurash. *Yigirma besh-yigirma oltilardagi Said Akramxon To‘ra pahlavon kelbat, aqlli, f a r o s a t i o‘tkir bir yigit edi*. M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *“Befahm! Diplom bo‘lgan bilan, f a r o s a t bo‘lmagandan keyin, qiyin ekanda...” deya o‘yladi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Lutfdan maroqlanish, lazzat olishda individning xarakteri, ta’bi, f a h m - f a r o s a t i katta ahamiyatga ega*. “O‘TA”. *Hakim naynov-chi! Birinchi o‘qituvchilardan emish. Man bilmasam ekan uni! Jinko‘chalik otin oyining qo‘lida birga o‘qiganmiz. Olguday z e h n i past bola edi.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Qiz butun z e h n i, diqqatini berib, jon-dili bilan chok tikardi.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Dunyodan umidi bo‘lmagan odamda d i d ham, orzu-havas ham suvga urib ketar ekan*. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *U shu paytgacha bunday nozik d i d va mehr bilan to‘qilgan gilamni ko‘rmagan ekan*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Agar zamona ahlining t a m i z i bo‘lsaydi, hunarmandni hunarsizdan farq qila olsaydi, hunarmandning qadrini bilsaydi, boshqa sozandalarga unday va menga bunday muomala qilmasdilar.* S.Ayniy, Sudxo‘rning o‘limi. *Bu fakt va dalillar oldida o‘jarlik qilish aql va t a m i zdan emas.* A.Hakimov, Ilon izidan. *Ermatjon bilan Inomjon remontga kirishgan bo‘lsa ham, ba’zi joylariga u q u v lari yetmay, murvatni burab olishga olib, joyiga qo‘yolmay, uning (Qo‘qonboyning) yuragiga g‘ulg‘ula sola boshladi*. Mirmuhsin, Qizil durralar. *U q u v i bor ulg‘ayar, U q u v i yo‘q sarg‘ayar.* Maqol. *Rustam chidab turolmay, dahanaki jangga uncha u q u v i, sabri yo‘q edi, qo‘l otib yubordi.*

Q.Kenja, Toshqin. *Ammo Abdulg‘anixon podsho saltanatining puturdan ketib borayotganini i d r o k ko‘zi bilan ko‘rib turardi, shu sababdan betob ekanligini bahona qilib Bachayi Saqoga qarshi urushga borishdan bosh tortdi...* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Aqlning o‘lchovi – i d r o k.* Maqol.

FAHSH, BUZUQLIK, ZINOKORLIK, FAHSHBOZLIK, FAHSHIYAT, SHAHVONIYAT Shahvoniy hirsini qondirishga mubtalolik, nafsning quliga aylanish, zino ishlarga haddan ziyod berilish holati. **Buzuqlik** so‘zlashuv uslubiga xos. **Zinokorlik**da bu illat o‘zidan oldingi so‘zlarga qaraganda ochiq ifoda topadi. **Fahshbozlik** kam qo‘llanadi. **Fahshiyat** va **shahvoniyat** so‘zlari kitobiy uslubga xos.

Men sargardon hayotimda nimani ko‘rdim? Hamma yerda imonsizlik, f a h sh va qabohat! E.Vohidov, Saylanma. *Bunday shukrona va oqilona amallar o‘rniga teskari ishlar – buzg‘unchilik, g‘ayirlik, poraxo‘rlik, qotillik, dilozorlik, f a h sh va boshqa taqiqlangan yumushlar bilan hech tap tortmay shug‘ullanib, o‘zlariga berilajak ajr va umrni qisqartiradilar...* Q.Kenja, Toshqin. *Jamoa xo‘jaligining barcha a’zolari Ra’noning b u z u q l i k yo‘liga kirib ketganini, Umar zakunchining o‘ynashi bo‘lganini biladi, ammo “churq” etib og‘iz ochmaydi*. A.Rasulov, G‘aroyib saltanat. *Ochiq xotin-qizlarning har bir harakatidan mulla Norqo‘zi b u z u q l i k ka dalolat qiladigan talay belgilar topadi.* A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Yoshlarni tarbiyalash, mahallalarda tozalikni saqlash, ichkilikbozlik, haromxo‘rlik, z i n o k o r l i k kabi islom qattiq qoralagan jirkanch illatlarga qarshi kurash, oilalarni mustahkamlash kabilarda bu qadriyalarimizdan foydalanishimiz kerak.* I.Abdullayev, Ma’rifat va tarbiya. *Yigit esa yangasini z i n o k o r l i k da ayblab, qoziga shikoyat qiladi.* A.Pirimqulov, Attorga ta’zim. *...Sharanovskiyga o‘xshagan nopok tergovchilar o‘jar mahbuslarni... mana shunday qallob-u qimorbozlar, tug‘gan onasini ham ayamaydigan kallakesarlar, umrlari o‘g‘irlig-u f a h sh b o z l i k bilan o‘tadigan muttahamlarning orasiga tashlarmish.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Toshpo‘lat, yozuvchining o‘z ta’biricha, faqirlik orqasida o‘g‘rilik va f a h sh i y a t dengizida suzib, tajanglangan xolis bir chapanidir*. A.Qodiriy, Otam haqida. *So‘nggi yillarda tom ma’noda f a h sh i y a t va zo‘ravonlikni targ‘ib etuvchi o‘nlab pornografik asarlar, yuzlab kinofilmlar, seriallar o‘zbek tiliga tarjima qilinib, iste’molga kiritildi*. A.Nazar, Tarjima ma’naviy ko‘prik…mi? *Forobiy shunday degan edi: “Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalangki, sizda maishat, sh a h v o n i y a t kabi tuyg‘ular emas, balki kamolotga bo‘lgan ishtiyoq-havas qolsin…* E.Yusupov, Sharq falsafasi va insonparvarlik. *Q.Ahmedovning qariyb barcha xususiy gazeta sahifalarida zo‘ravonlik, fahsh, sh a h v o n i y a t ga boshlovchi hikoya va qissalarni uchratishimiz mumkin... degan qat’iy xulosasi bizni ajablantirdi*. O.Toshboyev, Sadoqatmi yoki xiyonat?

FALOKATSIZ, XAVF-XATARSIZ, BESHIKAST Biror kor-hol yuz bermay, talafotsiz, bexato, shikast yetkazmay. **Beshikast** so‘zi insonga nisbatan ishlatilganda, sog‘-omonlik ta’kidi sezilib turadi.

– Ayt xo‘jayiningga, nozik yukni f a l o k a t s i z eltib qo‘ydim, pulni mo‘lroq cho‘zsin, – dedi. Oybek, Tanlangan asarlar. *F a l o k a t s i z urush bo‘lmas, o‘ldirgan va o‘lganlar bo‘lar.* “Go‘ro‘g‘li”. *– Ishchi-xodimlarning og‘irini yengil qilish, ish joylarida x a v f-x a t a r s i z ish sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha korxona kasaba uyushma qo‘mitamiz qator chora-tadbirlarni ishlab chiqqan, – deydi “O‘zvagonta’mir” AJ kasaba uyushma qo‘mitasi raisi.* Gazetadan. *Turli davlatlarda atom energiyasidan xo‘jalik jarayonlarida foydalanishda atrof-muhitni huquqiy-muhofaza qilishning umumiy qoidalari ...yadro energiyasidan foydalanish va uni x a v f-x a t a r s i z qilishda Xalqaro qonunlar va dasturlar asosida ish olib borish kerak*. A.Ergashev, A.Sheraliyev, X.Suvonov, T.Ergashev, Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. *Eng muhimi, u hozir Buxoroga b e sh i k a s t yetib olishi kerak.* T.Malik, Savohil. *Qo‘ton qo‘riydigan, bir suruvni b e sh i k a s t yashatadigan it bu*. M.Zohidova, Sarhadsiz sadoqat.

FAOLIYATSIZLIK, HARAKATSIZLIK, NOFAOLLIK Ish-harakatda sustlik, berilib ishlamaslik holati. **Harakatsizlik** so‘zida kam harakatlanish holati, harakatdan to‘xtash yoki turg‘unlik ta’kidi yetakchilik qiladi. **Nofaollik** so‘zida sustlik, tashabbussizlik ta’kidli ifoda topadi.

Mazkur qissada qahramonning omadsizlik, alamzadalik, loqaydlik, f a o l i y a t s i z l i k, xudbinlik, jaholatga botgan, o‘z qobig‘iga o‘ralashib qolgan ruhiyat qatlamlarini yozuvchi ramziy-majoziy, lirik-kechinmali uslubda hikoya etadi. M.Qo‘chqorova, Neomifologik obraz talqini. *Agar shahvat mo‘tadil holatdan oshsa – ochko‘zlik, pasaysa – f a o l i y a t s i z l i k boshlanadi.* T.Malik, Sevgining joni. *Jarayon degani harakat degani-ku, axir, romanda esa butkul h a r a k a t s i z l i k, mahdudlik.* X.Do‘stmuhammad, Harakatdan to‘xtagan jarayon qissasi. *Buxoro – bizdan, biz Buxorodan... bunday qorong‘ilikda tanballik va h a r a k a t s i z l i k dan g‘imirsib yotganimiz yetar.* H.Boltaboyev, Talabni qondirmagan inqilob. *Munavvarqori Toshkent aholisini h a r a k a t s i z l i k da va boshqa millatlar allaqachon erishib bo‘lgan masalalar bizda o‘rnidan siljimayotganligi, ya’ni “Turkistondagi siyosiy tuzumni isloh etish; diniy va siyosiy huquqlar berilishini talab qilish” kabi ishlarni amalga oshirishga xohishlari yo‘qligidan shikoyat qiladi*. Z.Abdurashidov, “Katta boshliq” faoliyatining ayrim qirralari. *Ma’lum bo‘lishicha, gipotalamus neyronlaridagi ABHD6 fermentining n o f a o l l i g i ortiqcha vazn bilan kurashishda parhez va mashqlarning foydasini yo‘qqa chiqaradi.* Gazetadan.

FAOLLIK, JADALLIK, JONBOZLIK, ISHCHANLIK Mehnatda yoki biror tadbirda chin dildan harakat qilish, berilib ishlash holati. **Jadallik** so‘zida tez sur’atlardalik ma’no qirrasi yetakchilik qilsa, **jonbozlik** so‘zida fidokorlik ta’kidi anglanadi.

Hisobot kampaniyasi xalqni oyoqqa turg‘izdi, keng ommaning f a o l l i g i ni oshirib yubordi. H.Nosirova, Men o‘zbek qiziman. *Manzura: “Kursdoshimiz Karimni uchinchi kursdagi Iskandar bilan Qodir tentak rosa urishdi”, deb qizlarga sotib qo‘yibdi; f a o l l i g i oshib-toshib yotganidan o‘zini yana nima masalalarda ko‘rsatishni bilmay yurgan Salima shtabga borib aytibdi.* A.A’zam, Almisoqdan qolgan Karim. *Uch bo‘lib aytilgan shu ikki og‘iz so‘zda ham besaranjom bir j a d a l l i k boridi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shu oqshom qorong‘i tushishi bilan Isfandiyor cho‘qmorini ko‘tarib j a d a l l i k bilan tomga ko‘tarila boshladi.* K.Avaz, Qaytar dunyo. *Azbaroyi suyunganidan eshakni topishda j o n-b o z l i k ko‘rsatgan ikki shotirni oylik maoshlarining olti foizi miqdoridagi mukofot bilan taqdirlash to‘g‘risidagi buyruqqa ham og‘rinmay imzo chekib yubordi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Faqat taqdirning o‘yinini qarangki, Yusuf orzu qilgan maqsadlarni amalga oshirishda uning o‘zi emas, balki xuddi shular ustidan kulib yurgan Said j o n b o z l i k ko‘rsatmoqda.* U.Hamdam, Muvozanat. *Har kungi va’zxonlikdan bir kungi j o n b o z l i k yaxshi*. Maqol. *Lekin besh yil shaharda yashab qoldi: shahar odamlariga xos i sh ch a n l i k, vaqtini tejash, sovuqqonlik va bir qadar takabburlik paydo bo‘ldi unda.* Sh.Xolmirzayev, Sog‘inch. *Eshikdan Van Gog kiradi. Lablarida o‘sha beozor tabassum. Qo‘lida qappaygan yelimxalta. Ammo endi yurish-turishida qandaydir i sh ch a n l i k va bilinar-bilinmas tantanavorlik bor.* U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma.

FAQAT, YOLG‘IZ, BIRGINA, TANHO, YAKKA Ayirish, cheklash-chegaralash ma’nolarini bildiradi. **Yolg‘iz**, **tanho** so‘zi ko‘proq badiiy uslubga xos bo‘lib, “biror jihatdan yakka-yu yagona, tengi, o‘xshashi yo‘q” ifodasini ochiq namoyon etadi. **Yakka** bu ma’noda ma’lum birikmalar doirasidagina qo‘llanadi.

Chechaklar bo‘y taratishdan tiyilib, maysalar qo‘nishib oldi. F a q a t ko‘pni ko‘rgan keksa buloqqina beparvo, odatdagidek, bamaylixotir oqishda davom etardi. N.Norqobilov, Buloq. *Hammayoq jimjit. F a q a t qishloqda xo‘rozlar qichqiradi va onda-sonda itlar vovullaydi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Shu xotiralardan boshqa nimam bor mening? Axir men muhabbatimni ehtiyot qilolmagan, y o l g‘ i z yaxshi ko‘rish bilan kifoyalanib yurgan odamman-ku!* O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun… *Shu topda oldimda o‘tirgan kishining sevgan san’atidan, kasbidan ajralganini, uning ajoyib mahoratidan kishilar benasib bo‘lganini ko‘rib, bu urush y o l g‘ i z shaharlarnigina vayron qilmadi, yolg‘iz otani boladan, bolani onadan judo qilmadi, balki omon qolganlarning ham tanasida jarohat izlari qoldirib ketganini ko‘rib turardim.* S.Ahmad, Xazina. *Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni oiladagi shaxsiy baxtimizdan iborat bo‘lganida, shaxsiy baxtimiz b i r g i n a oiladagi muhabbatda o‘z ifodasini topganda edi, unda hayot deganlari chindan ham qop-qorong‘u sahroga aylanib qolgan bo‘lardi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Qo‘shnilarning u bilan de-*

yarli ishi yo‘q: na yigitning uydagilari va na qizning ota-onasi o‘simlikka egalik nigohi bilan qarar, aksincha, har safar kuz kelib, bog‘dagi turli-tuman daraxtlarning hosili yig‘ib olinganda, b i r g i n a shu – na u va na bu tarafdagi na’matak mevasi terilmay, qanday bo‘lsa, shundayligicha shoxlarida qolardi. U.Hamdam, Na’matak. *Mahmudxon turli mamlakatlardan kelgan hojilar musulmonchilik burchlarini o‘z zimmalaridan soqit etishib, baxtiyor yurtlariga qaytganlaridan keyin ham bir oy t a n h o o‘zi tabarruk makon ziyoratida bo‘ldi.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Tong bo‘zarganda, qarabsizki, miltiq yelkada, hali iz tushmagan bog‘ ko‘chadan g‘izillab ketib boryapmiz tog‘ga qarab. Goh o‘rtoqlar bilan chiqsak, goho... y a k k a o‘zim chiqardim.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

FAQIRONA, FAQIRLARCHA, KAMBAG‘ALLARCHA, NOCHORLARCHA Faqirga xos, faqirlardek, nochor bir ahvolda, noiloj holda. Bu qatordagi so‘zlarda belgi **faqirlarcha, kambag‘allarcha, nochorlarcha** tarzida kuchayib boradi, mazkur so‘zlar **faqirona**ga nisbatan kam qo‘llanadi.

Umarali yigirma uch, yigirma besh yoshlarda, baland bo‘yli, oqishdan kelgan, kelishgan yigit. Egnidagi juda sodda, hatto f a q i r o n a, lekin toza kiyimi ham, boshidagi qunt bilan o‘ralgan kichkina oq sallasi ham juda yarashgan. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *O‘tirishimiz qanchalik sodda, dasturxon qanchalik f a q i r o n a bo‘lsa, suhbatimiz shunchalik samimiy va shirin bo‘ladi*. T.Malik, Odamiylik mulki. *F a q i r l a r ch a hayot kechirsalar ham, oshyonini yer-u ko‘kka ishonmaydilar.* R.Karimov, La’li Badaxshon. *Biroq qalam haqi k a m b a g‘ a l l a r ch a kun kechirish uchungina yetardi, xolos.* F.Farhod, Shisha. – *Xo‘p... Menga biror boshqa ish beriladimi? – so‘radim n o ch o r l a r ch a*. A.Namozov, Men – ko‘rinmas odam.

FARISHTA, MALAK, HUR, G‘ILMON 1. Islomda va boshqa ba’zi dinlarda xudoning amrini bajaruvchi g‘ayritabiiy mavjudot. **Malak, hur** so‘zlaridan ayol jinsiga oidlik ochiq ko‘rinadi. **G‘ilmon** qatordagi so‘zlarga qaraganda kam qo‘llanadi.

Ba’zi rivoyatlarga qaraganda, f a r i sh t a lar jannatdagi kavsar suvidan... qumg‘onlarimizga quyib ketar emish. M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari. *Kipriklari zich, qora qoshlari xuddi ona qornidayoq f a r i sh t a lar tomonidan terib qo‘yilganday – me’yoriy enlikda, uchlari biroz egilgan, manglayi ham risoladagiday – keng ham, tor ham emas, burni, iyagi nafis, xullas, qaddi-qomati-yu yurish-turishidan, hatto ashaddiy hasadgo‘y ayol ham qusur topolmay qiynalardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Bir kun u gulshanda uchardi yakka, Uchrab qoldi o‘lim otli m a l a k ka.* E.Vohidov, Saylanma. *Shu so‘zlarni eshitar ekanlar yana bir ovoz keldiki: “Sen ov qilmoq uchun yaratilmading!” Bu sas ul zotni titratdi. Ko‘zlariga m a l a k lar ko‘rindi. Yig‘lay boshladilar.* T.Malik, Odamiylik mulki. *O‘sha uyda endigina o‘n to‘rt yoshga kirgan jannat h u r laridek bir ma’suma qiz*

bor ekan, aql-u odobi joyida, ko‘p rahmdil-u shafqatli ham ekan. O‘.Hoshimov, Jannati odamlar. *Jangda shahid ketsa, jannatda otasi bilan birgalikda h u r lar orasida yashaydi.* T.Malik, Savohil. *Narshaxiy: – Bu hurmi, yo g‘ i l m o n, yo Haqdan rizo. Ibodat: – U nurday, huv, ko‘kdan tushgan Buxoro.* I.Rajabova, Uvaysiy suhbatlar.

2. FARISHTA, MALAK, HUR Go‘zal va yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lgan. Asosan, ayollarga nisbatan qo‘llanadi.

Bu kim bo‘ldi? Cho‘rimi yoki bir ofatijon f a r i sh t a mi? Hamza, Boy ila xizmatchi. *Talaba edim. Farishtadek go‘zal, f a r i sh t a dek pokiza bir qizni sevib qoldim.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Shunday o‘ylarga tobora g‘arq bo‘lib borarkanman, hayotimning zulmatlari ichra nur tolasiday bo‘lib Diloromning qiyofasi tovlanardi. U m a l a k da bir sir borday tuyulardi.* I.Sulton, Ozod. *Boshqa qishloq, boshqa urug‘dan bir sohibjamol m a l a k bilan ahd-paymon qilib, qizning otasi, qarindoshlari qarshiligini qanday yengishni bilmay, boshi qotib yurgan kezlar.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Chayladan ham tushadi-ku oyning nuri, Ne hollarga solding meni falak h u r i?* S.Sayyid, Umr asta aylanmoqda aziyatga. *Olisdagi shaharga. Ul shaharda yo‘liqdi Bir h u r pari-paykarga.* E.Vohidov, Saylanma.

FAROSATLI, DIDLI Fahmli, aqlli, zehn-farosati yaxshi. **Didli** so‘zida “yuksak estetik qobiliyatga ega bo‘lgan” ifodasi ustuvor.

Alimqul xizmatkor bo‘lishiga qaramay, f a r o s a t l i, ko‘p narsaga aqli ham, fahmi ham yetadi. U.Hamdam, Muvozanat. *Osmon uzilib yerga tushsayam sira parvoyimga kelmadi. “Axir shunday oqila, shunday f a r o s a t l i, shunday diyonatli insonga bu dunyo torlik qilganda men yashab nima karomat ko‘rsatar edim”.* J.Hushboq, Qayg‘uning surati. *O‘zbek she’riyatida nozik d i d l i, betakror his qilish qobiliyatiga ega shoiralarimizdan biri Oydin Hojiyevadir.* M.Xalova, She’riyatda ayol qalbi. *Hamma yoqda d i d l i, mehribon xotinning qo‘li sezilib turardi.* S.Ahmad, Mehribon.

FAROSATLILIK, DIDLILIK Kishining tez va to‘g‘ri fahmlay olish qobiliyatiga egalik holati. **Didlilik** so‘zida yuksak estetik qobiliyatga egalik ta’kidi ustuvor.

U f a r o s a t l i l i k, xushmuomalalik, halollik, sobitqadamlilik va ilmga chanqoqlik kerakligini unutmadi. Gazetadan. *Bunda sadoqli (o‘q-yoy otishga qodir) shahzodalarning tajribasi va mohirligi, shaxsiy qobiliyatlaridagi sezgirlik, sinchkovlik, f a r o s a t l i l i k va merganlik kabi sifatlari sinab ko‘rilgan.* Gazetadan. *...D i d l i l i k va farosatlilik – yuksak madaniyat belgisi.* Gazetadan. *Nafis majlislarda yangi asar muhokamasi nihoyatda nozik d i d l i l i k bilan o‘tgan.* A.Sher, Estetika.

FARQ, TAFOVUT, AYIRMA, TAFRIQ(A) Narsa, hodisa va sh.k. orasidagi noo‘xshashlik, nomuvofiqlik. **Ayirma** bu ma’noda juda kam qo‘llanadi. **Tafovut**, asosan, kitobiy uslubga xos. **Tafriq(a)**, asosan, tarixiy asarlarda qo‘llanadi.

Bu asabi qaynagan yo‘lovchilar uchun Jo‘rabek bilan boyagi buqabo‘yinning qanday f a r q i bor? S.Ahmad, Xotin. *Bor kitoblari tokchada yotibdi. Shuni esladi-yu, o‘zi bilan Sayyora o‘rtasidagi f a r q ning nihoyatda kattaligini sezdi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Istak bilan iroda o‘rtasidagi t a f o v u t dan ko‘p qatori Davron ham bahramand.* T.Malik, Davron. *Shunday bo‘lsa-da, sag‘ir ushbu xonadonda jiyanlari bilan o‘z orasida katta t a f o v u t borligini ich-ichidan his etib-etib kun ko‘rdi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Chunki kerak til, sheva va kerak maslak jihatidan bu ikki gazeta orasida xeyli a y i r m a bor edi*. H.Muin, Tanlangan asarlar. *Bir xil sharoitda ishlanib... tuprog‘ining tabiati bir xil bo‘lgan ikki yer turlicha bo‘lmaydi. Bularning orasida qandaydir bir a y i r m a bor.* S.Ayniy, Qullar. *Bu ma’nosiz g‘avg‘o podshoning farmoni bilan ro‘y berdi. Xalq orasiga t a f r i q a solmoqdan o‘zga ish yo‘qmi, ajabo!* Oybek, Navoiy.

FARQLI, TAFOVUTLI, TURLI Belgi-xususiyati, holati, joylashish o‘rni va boshqa jihatlari bilan o‘zaro farqlanadigan. **Turli** so‘zi mazkur ma’noda so‘zlashuv nutqida har xil turga mansublik ta’kidi bilan qo‘llanadi.

Yonbag‘irlikka tutash nishobtob sayhonlikda joylashgan bu buloq suvi har ikkisining tomorqasi oralig‘idan o‘tib, naridagi soyga borib quyiladi. F a r q l i jihati, buloq ko‘zi Tovqora cho‘tirning tomorqasiga xiyolgina yaqinroq edi. N.Norqobilov, Buloq. *Ammo bugungi uyg‘unlik mezonlari kechagidan f a r q l i bo‘lsa, bu shoirning aybi emas-ku.* Faxriyor, Meta hikoyalar oralab. *...2014-yilda Baxtiyor Abdushukurov nashr etgan “Qissasi Rabg‘uziy”ning hozirgi o‘zbek tilidagi tabdil nusxasining matnlari Idris alayhissalom qissasi doirasida nashrlararo taqqoslanganda nusxalarning matnlari aro t a f o v u t l i holat ko‘zga ko‘rinadi.* I.Mirzo, Zarb. *Mamlakatimizning t u r l i iqlimiy zonalarida o‘suvchi o‘simliklar turli vaqtlarda gullaydi*. “Fan va turmush”.

FAVVORA, FONTAN Suvni kuchli bosim bilan yuqoriga qarab harakatga keltiruvchi qurilma, inshoot. **Fontan** so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos.

Ko‘chaning u betidagi teatr maydonida odamlar sollanib kezishar, f a v v o r a shovvasi tinim bilmay tepaga otilib yotar, farahli bir pallada o‘sha aziz manzaralardan ko‘z uzolmay o‘tirarkanman, eski gazetalar taxlamini orqalagan bir bedavo ko‘chani kesib o‘ta boshladi. M.Mansur, Judolik diyori. *Sohildagi o‘tloqlar gul-gul yashnardi, marzalarga sapchigan yovvoyi f a v v o r a larda quyosh nuri, oy shu’lasi jilva qilardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Shu daqiqada har narsa – shu muhtasham vokzal binosi ham, bir-birini quvib o‘tayotgan turnaqator mashinalar ham, keng vokzal maydoni o‘rtasidagi bahaybat ko‘sak nusxa f o n t a n ham, hamma-hammasi uni quvontirar, uning borlig‘idan va baxtiyorligidan darak berib turardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Maydondagi f o n t a n osmondan yerga qarab suv purkayotgandek*. S.Ahmad, Sud.

FAXRLANMOQ, G‘URURLANMOQ Biror kimsa, narsa yoki erishilgan yutuq tufayli maqtanmoq, g‘urur his qilmoq, mamnun bo‘lmoq. **G‘ururlanmoq** og‘zaki nutqda vaziyatga ko‘ra ijobiy (iftixor qilmoq) yoki salbiy (kibrlanmoq) ma’nolarda qo‘llanadi.

Mening otam milliy qahramon ekan. Xalq ozodligi uchun kurashgan. Men shunday otam borligidan f a x r l a n aman. S.Ahmad, Buqalamun bilan uchrashuv. *Tabiiyki, Said Mahmudxon To‘ra nomdor ajdodi bilan f a x r l a n adi va o‘zidagi holi qudrat valiylik, sohibi karomatlik shijoatlarini o‘sha bobosidan ko‘radi.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Shuning uchun ham “Sabo!” deya yoki boshqa bir ismni aytib, qulog‘imiz ostida bong ursalar-da, bir seskanib qo‘ymaydigan holga tushib qolganmiz va bundan, albatta, g‘ u r u r l a n amiz.* U.Hamdam, Sabo va Samandar. *– Ha, menga ishonaver, – dedi chol g‘ u r u r l a n ib… Sulaymon ota yolg‘on gapirmagan. Rohatijon joy bo‘ladi bu yer.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Vatanni sevmoq undan shunchaki quvonmoq, g‘ u r u r l a n moq emas. Uni dil-dildan anglamoq, u bilan nafas olmoq, u bilan yashamoqdir*. B.Qosimov, Ko‘z ochib ko‘rgan dunyomiz.

FAYZLI, SERFAYZ, FARISHTALI O‘ziga tortuvchi, ko‘zni quvontiradigan. **Farishtali** so‘zi asosidagi tushunchaga ko‘ra mazkur ma’noda poklik, pokizalik ta’kidiga ega.

Ko‘klamda bedazor juda f a y z l i bo‘ladi. E.Shukur, Akam kelyapti. *Otaning xarobasiga yetganimda, birdan ko‘nglimda g‘ayriixtiyoriy og‘riq uyg‘ondi: f a y z l i imorat o‘rnida muztar xonalar, to‘zg‘igan kiyim-kechaklar, bemorning rangidek sap-sariq xazonrez, adirdan sel tushib buzilgan hojatxona… endi kuchuk ham ko‘rinmasdi*. O.Jumaboyev, Uy. *Aziz do‘stlar! Mana bugun Nuriddinboy elga to‘y beryapti. Iloho, to‘ylari oxirigacha mana shunday tinch, f a y z l i o‘tsinkim, aslo melisavozlikka o‘rin qolmagay!* S.Mirvaliyev, Serfayz bog‘ sohibi. *Kechga tomon porlab turgan chiroqlar yorug‘ida hovuz bo‘yi yanada s e r f a y z bo‘lib qoldi*. J.Fozil, Yangi bog‘larda. *Chimyonga borgan kezlarim men hazrat Huvaydoning s e r f a y z ziyoratgohidan soy bo‘ylab bir necha sanatoriylarning obod manzillaridan o‘tib to Xonqizgacha sayr qilib borishni yaxshi ko‘raman*. I.G‘afurov, Adir olmasi. *Sarishtali uy – f a r i sh t a l i uy*. Maqol.

FAYZSIZ, BEFAYZ, FARISHTASIZ Yoqimsiz taassurot qoldiradigan, o‘ziga tortmaydigan, ko‘rimsiz. **Fayzsiz** va **befayz** so‘zlarida yoqimsizlik ma’no nozikligi, **farishtasiz** so‘zida jozibasizlik, pokiza emaslik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Erkaksiz uy f a y z s i z, ko‘rksiz ko‘rinadi ko‘zga. Farzand uchun esa ota bir tog‘day. M.Alaviya, Bolalarimning otasi. *Shavkatning ijaradagi uyi. Bu f a y z s i z va ko‘rimsiz xonada bitta sim karavotdan boshqa hech vaqo, hatto o‘tirishga stul ham yo‘q.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Tannoz Olamosh bolalarsiz huvillab yotgan b e f a y z xonadonni butunlay tark etib, mening*

ko‘magimda Sanaqul tog‘amning uyiga o‘rnashib olganicha, uning emaklagich o‘g‘liga tirik o‘yinchoq bo‘lib, kunlari maroqlidan maroqli kechyapti. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Shu b e f a y z gina ovulning afsonamakon ekaniga nahot o‘zi ham ishongan, bizni ham ishontirgan bo‘lsa?* X.Sulton, Onamning yurti. *Hovli ayol kishining oyog‘i yetmagan, biron marta supurgi ko‘rmagan, fayzsiz, f a r i sh t a s i z edi.* S.Ahmad, Tut pishig‘i. *Bulut f a r i sh t a s i z bu xonadonga quyosh nurining tushishini istamaganday mashriq yuzini to‘sdi.* T.Malik, Iblis devori.

F

FAZOGIR, KOSMONAVT, FAZOKOR, ASTRONAVT Kosmik kemada fazoga uchuvchi, fazoni zabt etuvchi shaxs. **Fazokor** so‘zi poetik uslubga xos, kam qo‘llanadi. **Astronavt** so‘zi publitsistik uslubdagi matnlarda uchraydi.

F a z o g i r Boyqo‘ng‘ir mehmondir bukun... E.Vohidov, Saylanma. *Yo‘lga chiqar bu kun f a z o g i r, Somonchining yo‘li poyandoz.* E.Vohidov, Muhabbatnoma. *Mezbon o‘zi kimdir – Jumanbulbuldi! Bildimki, konchini kutarlar uyda Ko‘kdan k o s m o n a v t ni kutgan singari.* A.Muxtor, Sizga aytar so‘zim. *Keyinroq eshitdimki, k o s m o n a v t lar guruhiga ham qabul qilingan ekan-u, ucha olmay qolganmish. Koinotni ko‘rmagan k o s m o n a v t !* E.A’zam, Shovqin. *Uning f a z o k o r o‘g‘li Yer atrofida aylanarkan, shu azamat chinorga bir on bo‘lsa ham ko‘z tashlar.* A.Muxtor, Chinor. *Maktab yo‘li, do‘stlar, f a z o k o r parvozidan kam emas zarra.* A.Oripov, Yillar armoni. *Balki, a s t r o n a v t olib tushgan tosh boshqadir deb o‘yladim.* N.Normatov, Oytosh. *A s t r o n a v t larimiz har safar koinotga parvoz qilganlarida kelajakka qisqa safar qilgan bo‘ladilar*. Gazetadan.

FAZOGIRLIK, **KOSMONAVTLIK** Koinotni zabt etish mahorati, kasbi, hunari. **Fazogirlik** so‘zida bir qadar badiiylik bor.

Biz uning f a z o g i r l i g i ga qoyil qolib, maktabni uning nomi bilan atadik. Gazetadan. *Bu f a z o g i r l i k tarixida bir vaqtning o‘zida fazoviy qurilmalarning orbitaga chiqarilishi bo‘yicha rekord ko‘rsatkich hisoblanadi*. Gazetadan. *Fazogirlik kasb emas, hayot tarzi, deyishadi-ku. Ishda ham, uyda ham k o s m o n a v t l i g i ngizcha qolasiz*. S.Sharipov, O‘zga sayyoralarda hayot bor. *Bu, deylik, skafandr kiyvolib, k o s m o n a v t l i k ni da’vo qilishdek bir gap*. M.Abdulhakim, Ogahiy o‘z taxallusini Navoiy ijodidan kelib chiqib tanlagan.

FIRIBGAR, QALLOB, NAYRANGBOZ, LO‘TTIBOZ, TOVLAMACHI Kishini firib bilan aldashga, avrashga, laqillatishga usta. **Firibgar** so‘zi ma’nosida hiyla-nayrang, firib bilan aldash ta’kidi mavjud. **Qallob** so‘zida qalbakilik bilan aldash harakati qabariq ifodalangan. **Nayrangboz, lo‘ttiboz** so‘zlarida so‘zlovchining o‘ta salbiy munosabati aks etadi. **Tovlamachi** so‘zi ma’nosida ham aldash, ham asossiz qo‘rqitish bilan harakat qiluvchi ma’nosi ochiq ifodalangan, ko‘proq og‘zaki nutqqa xos.

Zohidga bir narsa qorong‘i – kim bu, Komilov, chayqovchimi, imorat ustasimi... Yo boshqa bir f i r i b g a r mi? T.Malik, Shaytanat. *Ish bilan bo‘lib ketganimda, kim biladi, bu f i r i b g a r, harom odamlar qafasiga tushmasmidim, balki?* O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i. *Biladi, bilmasa, firmaning ishlari bunchalik yurishib ketmasdi. Aldamchi, q a l l o b lar bilan kim munosabat qilgisi, ish yuritgisi keladi?* O‘.Umarbekov, Olamushuk. *O‘tdi bundan o‘g‘ri-kazzob, Ukasini shilgan q a l l o b, O‘tdi allop, o‘tdi jallob, jilib-jilib emaklatdim*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Turli-tuman oqimlar, mazhablar, ta’limotlar yuzaga keldi; qonunlar, qomuslar yaratildi. Ko‘p hollarda bu meros ham olg‘ir n a y r a ng b o z lar qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘ldi.* M.Safarov, Sarbasta Surxon. *Meni bu yerga keltirgan n a y r a ng b o z qizingizni chaqirib, el oldida, er oldida so‘roq qilishingizni talab etaman*. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Men u l o‘ t t i b o z larga ishonmayman. Asablari zaif odamlarni laqillatishadi*. T.Malik, Shaytanat. *Qutuldim necha qish, necha yozlardan, Faqat qutulmadim l o‘ t t i b o z lardan*. A.Oripov, Lo‘ttiboz. *Tag‘in ne kerak – olinglar. Ammo yo‘l-yo‘lakay hududim ichida paydo bo‘lg‘on barcha qaroqchilar, bebosh t o v l a m a ch i larning payini qirqib, toki men qaytguncha yurtda osoyishtalik o‘rnatmoqlaring darkor!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Surishtirmayotganimning boisi shundaki, siz bilan ikki marta yuzma-yuz uchrashgan o‘sha t o v l a m a ch i boshlig‘i uchun vazifasini bajarib bo‘ldi*. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola.

FOHISHA, BUZUQ, AXLOQSIZ, G‘AR O‘z tanini sotish bilan shug‘ullanuvchi ayol. **Buzuq** va **axloqsiz** so‘zlari haqoratni ham fodalaydi. **G‘ar** shevada qo‘llanadi.

Shunday yo‘llar bilan bular f o h i sh a ko‘paytirar ekan-da. Hamza, Paranji sirlari. *Ammo sen iflos balchiqqa bo‘g‘zingdan botib, uning qo‘lansa isini olib qolgan ekansan, f o h i sh a!* K.Yashin, Hamza. *Birovlarning jufti haloliga ko‘z olaytiradigan maishiy b u z u q kim desangiz – Arbob Qulov!* E.A’zam, Arbob Qulov Parijga boradi. *Avliyo qiyofasidagi bu shaxs, aslida, jinoiy javobgarlikdan qochib yurgan axloqan b u z u q bir kimsa ekan*. X.Sultonov, Bir o‘ylab ko‘raylik. *Spektaklda “shafqatsiz va a x l o q s i z” dunyo obrazi rejissyor tomonidan mavhum, pinhona ma’naviy bo‘shliq sifatida idrok qilingan*. M.To‘laxo‘jayeva, Shekspir va sahna tajribalari. *A x l o q s i z va battol odamlarga beriladigan har xil tanbeh, hayfsan, jazo choralari sirasiga ularni bir xilda fikrlash, sidirg‘a, kitobiy so‘zlashga majbur qilishni ham kiritish kerak, deb o‘ylayman*. G‘.Salom, Fikr va zikr. *G‘ a r bo‘l, o‘g‘ri bo‘l – insofli bo‘l*. Maqol. *Mo‘mina momo to‘qqiz yildirki, erini insofga keltirolmasdi. Hozir mavridi kelib ichidagi dardlarini to‘kib soldi: – Qizingiz g‘ a r bo‘lmabdi, o‘g‘ri bo‘lmabdi, Hamroboying duxtariga o‘xshab o‘qishdan qornini do‘ppaytirib kelmabdi…* S.Ahmad, Uchinchi minora.

FOHISHAXONA, ISLOVOTXONA, FAHSHXONA Fahsh ishlar uchun mo‘ljallangan joy. **Fahshxona** kam qo‘llanadi, **islovotxona** eskirgan so‘z bo‘lib, tarixiy asarlarda uchraydi.

F o h i sh a x o n a barham topsun. Ko‘knor, araq, papirosni tashlasunlar der. N.Egamqulova, Millat fidoyisi. *Buyuk Odisseyning Troya jangidan uyga qaytishi bilan Blumning f o h i sh a x o n a dan uyga qaytishi sarguzashtida insoniyatga achchiq istehzo ufurib turadi*. N.Eshonqul, Jeyms Joys. *Salimboy-vachchaning i s l o v o t x o n a da bir kechada buzuq ayollarga sarflagan pulining yarmiga ham yetmaydi!* O‘.Hoshimov, Adibning mashaqqatli maktabi. *Bizga ajdod bo‘lgan o‘sha sodda o‘zbek qayerdan bilsinki, Turkiyada bekorning ma’nosi bo‘ydoq, korxonaning ma’nosi esa ishratxona, i s l o v o t x o n a…* E.Vohidov, Tirik xazina yoxud jahongashta so‘z. – *Tushing emas, o‘nging. Bu kushxona, f a h sh x o n a ga sendan beizn kirganim uchun meni ma’zur tutasan, boyvachcha*. K.Yashin, Hamza. *Muallimda yosh Muhammadiyor kamoli shavq-zavq ila o‘qumakda edi va bo‘sh vaqtlarini ham – o‘qumagan bolalar kabi choyxona, bazm va f a h sh x o n a larda yurmay – bir rus ofitserining taxti “rayosati”da tarbiyayi badani o‘yinlari ijro qilmakda va foydali kitoblar mutolaasi ila o‘tkarmakda edi*. Cho‘lpon, Do‘xtur Muhammadyor.

FOL, ROM Biror narsa-buyumga qarab, kishi bilishga qiziqqan narsa yoki hodisani odindan “aytib berish”, bashorat qilish. **Rom** so‘zi anchayin eskirgan, kam qo‘llanadi.

Chorsuda lo‘lilarga f o l ochdirgan edingizmi, a? A.A’zam, Hali hayot bor. *Qartadan f o l ochsam, bir-bir ketin “baxtsizlik” (neschastye) chiqadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Romchining r o m idan o‘zingning xom xayoling yaxshi*. Maqol. – *Acha xolamning r o m i doim to‘g‘ri chiqadi, – dedi oyim qo‘shnilarga maqtanib. – Ko‘p sinaganman*. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari.

FOLBIN, FOLCHI, ROMCHI, **QUSHNOCH, BAXSHI** Fol ko‘ruvchi, fol ochish, bashorat qilish bilan shug‘ullanuvchi shaxs. **Folchi** va **romchi** so‘zlari ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llanadi. **Qushnoch** so‘zi mazkur ma’noda juda kam uchraydi. **Baxshi** bu ma’noda faqat shevada qo‘llanadi.

Yanglishmasam, hozirgi f o l b i n larning ko‘pchiligi shunaqa kitoblarni yodlab, suv qilib ichib yuborib, keyin karomatgo‘ylik qilyapti, shekilli. Z.Qurolboy qizi, Ikki manzil. *Darhol chorladi u kulli ulamo, Munajjimlar, f o l b i n larini.* A.Muxtor, Sizga aytar so‘zim. *Birorta katta it ivirsib kirib qolsa, u yog‘i nima bo‘lishini f o l ch i ham aytolmaydi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *F o l ch i lar esa faqat tilda yaxshi so‘zlarni qalashtirib, sodda odamlar ishonchiga kirib, og‘ir gunohga qo‘l urishayotganini bilishmaydi*. Gazetadan. *O‘tgan hafta Yangibozordagi r o m ch i ga borib keldim*. Sh.Imomnazarova, Ilinj. *Sen r o m ch i eding, bir rom ochib ko‘r-chi, ular qayda ekan,*

– *dedilar.* O‘.Qobil, Ot o‘g‘risi. *Ayol mardumi q u sh n o ch-u mulla, eshonga ko‘p ixlosmand bo‘lur, – dedi momo Avazga.* “Zulfizar bilan Avazxon”. *Qizning ko‘ziga q u sh n o ch qo‘lidagi olov qizg‘aldoq bo‘lib ko‘rindi.* N.Chori, Qizg‘aldoq. *– Ko‘rdim, dedi erkak ishonch bilan. – Fol ko‘rsatibdi, b a x sh i xayrli gaplardan aytibdi.* H.Sattoriy, Sog‘inch.

FOLBINLIK, FOLCHILIK, ROMCHILIK Folbinning faoliyati, folbinlik kasbi. **Folchilik** og‘zaki nutqqa xos. **Romchilik** so‘zida turli buyum va jonzotlar vositasida fol ko‘rishlik ta’kidi mavjud.

Yaqinda f o l b i n l i k qilmoqchi bo‘libdi-yu, lekin eplolmabdi, shundaymi? Z.Qurolboy qizi, Ikki manzil. *Oqtamoq chap qo‘li kaftidagi burushiq chiziqlarni Pardumga ko‘rsatib f o l b i n l i k qilardi.* G‘.Rahmon, Oshiq dunyo. *F o l ch i-l i k dagi tajribasizlik Oymamatga pand berib, gapni nimadan boshlashni bilmay, birpas chaynalib qoldi.* A.Obidjon, Buzoq guvohlikka chaqirilsin! *Sehr-jodu, folbinlik, r o m ch i l i k va hokazo g‘ayb ishlariga burun suquvchilar go‘yoki ramazonda ushbu qabih ishlar bilan shug‘ullanmay o‘zlarini gunohdan forig‘ qilmoqchi bo‘ladilarmi?* Gazetadan. *Nayrang, r o m ch i l i k, dor o‘yin; ot o‘yin, ayiq, maymun, echki, eshak, ilon o‘ynatish; muallaq, yog‘ochot; pichoq, qilich, tayoq, tosh va boshqa buyumlar bilan o‘ynash; olov purkash, chinni o‘yin, huqqabozlik kabi xilma-xil janrlarni o‘z ichiga oluvchi xalq an’anaviy sirki ham tomosha san’atining bir turi hisoblanadi.* M.Qodirov, Temuriylar davri tomosha san’atlari.

FOYDA I, **NAF, MANFAAT, HAYON** Biror kimsa yoki narsa-harakat uchun bo‘ladigan ijobiy natija. **Foyda** so‘zining qo‘llanishi nutq uslublariga ko‘ra cheklanmagan. **Manfaat** so‘zi, asosan, moddiy, ma’naviy va boshqa jihatlardan ko‘riladigan natijaga nisbatan qo‘llanadi. **Naf** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Hayon** so‘zi eskirgan, kam qo‘llanadi.

“Hukumatga sariq chaqalik f o y d a ng tegmagan, faqat zararing teggan!” deydi. S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg‘alar. *Har holda, keyingisi to‘g‘riroq bo‘lsa kerak, rashkdan nima f o y d a?* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *– Bundan nima n a f? Ota-bobolarimiz ularni ming yildan beri o‘qib kelishdi, avaylab, butun umr yonlarida olib yurishdi, lekin natija, natija nima bo‘ldi*? U.Hamdam, Sabo va Samandar. *– Agar shahar topilsa, yana ham yaxshi. Muzey bo‘lsa nur ustiga a’lo nur... N a f deganda, faqat pulni emas, ma’naviy boylikni ham hisobga oling-da!* T.Malik, Davron. *U ham doim o‘zini hayot oqimiga tutadi-yu, har bitirgan ishidan taqdiriga ta’sir qila oladigan har odamdan bir m a n-f a a t chiqarib, ko‘nglining shunga chanqoq joyini sug‘orishga tirishadi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Katta bog‘ qilayotirmiz. Eng yaxshi navlarni tanlab o‘tqazmoqchimiz. – Juda yaxshi, pokiza ish. Xalq ham, davlat ham, qurt-qumursqa ham m a n f a a t ko‘radi.* S.Nazar, Yashil boylik. *Bir miri – h a y o n, Uch miri – ziyon*. Maqol. *Kofirlarga h a y o n, mo‘minlarga ziyon bo‘lg‘udek ishni Alloh*

hech qachon qilmaydi. Bu so‘zning haqligida hech shakimiz yo‘qdur. A.Sog‘uniy, Tarixi Muhammadiy.

FOYDA II, **DAROMAD, KIRIM, TUSHUM** Qilingan xarj bilan bu xarj natijasi sifatida kelib tushgan umumiy mablag‘ o‘rtasidagi farqdan tashkil topgan mablag‘. **Daromad** ko‘proq kitobiy uslubda faol. **Kirim, tushum** so‘zlarida kundaliklik ifodasi yetakchi.

F

Biroq u bu xil olibsotarligidan kam f o y d a qiladi. Negaki savdoga qiziqib ketganidan keyin “o‘n tiyinga beshtalab” sotayotgan ravochini “o‘n tiyinga o‘ntalab” sotganini ham bilmay qoladi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Menimcha, tijorat paydo bo‘lgan zamondan boshlab bunday mo‘l f o y d a ni hech kim ko‘rgan emas*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Shu yo‘sin to‘rtinchi yilidan o‘tganda a’zolardan to‘qson foiz sigir, har bir a’zo sutchilikdan keladigan ma’lum d a r o m a d ga ega bo‘ladi.* A.Qahhor, Obid ketmon. *D a r o m a d ga qarab buromad*. Maqol. *Men esimni tanigan vaqtlarda bu cholning hech bir k i r i m i yo‘q va uning kundalik ovqatini qarindoshlar berib turardilar*. S.Ayniy, Esdaliklar. *...u yog‘ingizdan kirib, bu yog‘ingizdan chiqib, kundalik t u sh u m ning o‘ndan to‘qqizini urib qolmoqda*. Gazetadan.

FOYDALANMOQ, ISHLATMOQ Biror narsa yoki imkoniyatdan bahramand bo‘lmoq, uni o‘z ehtiyoji uchun sarflatmoq. **Ishlatmoq** bu ma’noda oddiy so‘zlashuvga xos.

To‘g‘ri, lekin shunday jihozlar bekordan bekor o‘tin bo‘lgandan ko‘ra... f o y d a l a n sa bo‘lmaydimi? T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Bunaqa narsalarni boshqalarnikida ko‘rib, o‘zinikida ham shunaqa narsalar bo‘lishini hali faqat orzugina qilgan Ofiyatning pitirlashiga mumkin qadar ishontirib: “Ha, Tangir o‘ziga olgan ekan, moshin topilmabdi, vaqtincha turadi. Xonani bekor band qilmasin, f o y d a l a n ib turaverishsin, depti” degan javob berdim...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *U vaqtlarda aksariy kolxozlar iqtisodiy jihatdan kamquvvat bo‘lib, bahorga chiqqanda 101-joriy hisobda aytarli puli qolmas, kam-ko‘sti uchun 308-hisobda qo‘r bo‘lib turgan kapital mablag‘dan i sh l a t ishga majbur edi.* T.Po‘lat, Ichkuyov. *U mahallar qish qattiq kelardi. Har yili o‘tin g‘amlayman, ammo baribiram yetmay qoladi. Sababi sandalga qalaymiz yoki tandirga i sh l a t amiz.* I.Sulton, Bo‘ri.

FOYDASIZ, BEFOYDA, NAFSIZ, MANFAATSIZ Biror moddiy foyda yoki daromad keltirmaydigan, befoyda, samarasiz. **Foydasiz**, **befoyda** so‘zlari nutqda faol ishlatiladi, **nafsiz** badiiy, publitsistik, **manfaatsiz** so‘zi rasmiy, publitsistik uslublarda qo‘llaniladi.

Bemalol. Asar hali yana ishlanadi. Maslahatlaring f o y d a s i z ketmas. Kim so‘zlaydi? Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *O‘lim o‘limligini qiladi. Yig‘lamang, yig‘i endi f o y d a s i z.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Rais ularga gap tushuntirish b e f o y d a ekanligini anglagach, qo‘l siltab qo‘ya qoldi.* Sh.Sulaymon,

Uchinchi palata. *Azizim, b e f o y d a da'vodan kechgil, Davlat degan so'zning bosh-oyog'i yo'q, Davlat – bu hammamiz, davlat – bu hech kim*. E.Vohidov, Saylanma. *Sezdigina emas,gapirish b e f o y d a ekanini anglab yetdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Biz "Musulmon byurosi"ning zohiran ko'z bo'yov uchungina tashkil etilgan n a f s i z va e'tiborsiz bir idora ekanligini o'shal chog'da bilib oldiq.* H.Muin, Samarqandda matbuot ahvoli. *Axiyri, sher bundan zerikdimi yoxud sa'ylari n a f s i z ekanligini tushundimi, yerga dumalab, boshini har yonga urib, o'kira boshladi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Faqat haqiqiy san'atkornigina el shunday kutib oladi, boshiga ko'taradi, hech qanday m a n f a a t s i z uning shaydosi bo'ladi.* O'.Umarbekov, Ota va o'g'il. *...poytaxtdan borgan biror amaldorga bildirilgan e'tibor emas, yo'q, qandaydir samimiy, toza, insoniy, m a n f a a t s i z bir ehtirom edi bu; o'zimga ham sal noqulay, lekin qushdek yengilman, dil yayraydi*. A.A'zam, Xotira mavjlari.



GAJAK, ZULF, ZULFAK Ayollarning ikki chakkasi yoki peshonasidan tushib turadigan bir tutam sochi. **Zulf**, asosan, badiiy nutqda qo‘llanadi, mumtoz poetik asarlarda ko‘p uchraydi. **Zulfak** kam qo‘llanadi, asosan, xalq og‘zaki ijodi asarlarida uchraydi.

Umrining qirq ikki yili shu teatr dargohida kechdi. Bir zamonlar opa o‘rta bo‘y, to‘lagina, g a j a k qo‘ygan qizcha edi. Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Erkaklarning gullik do‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, g a j a k lari va ro‘mol popuklari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada... ko‘klam nash’asi bilan sho‘xlik qiladi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qora z u l f i m eshilgandir tol-tol, Kelgan hokim, bu so‘zlarga quloq sol*. “Shirin bilan Shakar”. *G‘am tuni dedim bulutning pardasidin chiqti oy, Z u l f din chiqqan jamoling mehri raxshoni emish*. Navoiy. *Kelayotir ko‘nglin xushlab, O‘n kanizi yo‘lni boshlab... O‘n kanizi z u l f a k tashlab.* “Alpomish”.

GAJAKLI, GAJAKDOR, ZULFAKDOR Gajagi bor ayol. **Zulfakdor** kam qo‘llanadi, asosan, folklor va mumtoz adabiyotda uchraydi.

Keling, o‘limga doir ikki bayonni eslaylik: ...sog‘ qolgan chakkalari, g a j a k l i boshi, og‘ir kokillari orqaga tashlangan... ko‘zlarida vahimali bir ifoda bor edi. T.Malik, Ajab Saodat. *Eshik ochilgach, ostonada boshini satang durra bilan tang‘ib olgan, ikki chakkasi g a j a k l i chiroyli juvon ko‘rindi.* U.Nazarov, Chayon yili. *Jingalaksoch yigit so‘rining oldida g a j a k d o r juvon bilan gap sotib turar, chollar o‘tirgan chorpoya bo‘shab qolgan edi*. X.Sultonov, Bir oqshom ertagi. *Ko‘ngil qo‘ygani u ko‘zlari xumor, Sizga kelin bo‘lar Nigor g a j a k d o r*. “Nigor va Zamon”. *Bu so‘zlarni aytma, Gulgun z u l f a k d o r, Men ham o‘z yurtimda davron suraman*. “Shirin bilan Shakar”. *Parvarish qil, borib Qora tulporni Men izlab toparman z u l f a k d o r yorni...* “Rustamxon”.

GANAK, DOV O‘yinda, masalan, qimorda o‘rtaga tikilgan har qanday narsa (pul, buyum, mol-mulk). **Dov**, asosan, *dov qo‘ymoq, dov tikmoq* fe’llari tarkibida qo‘llanadi.

Qimor o‘ynaysanmi? – Ha, g a n a k topilsa, ermak-da. A.Qodiriy, G‘irvonlik Mallavoy. *G a n a k ka gilam, talay pul, bir xo‘kiz tikilgandi*. M.Ali, Sarbadorlar. *Kimlar bor-budini tikkanda d o v ga, Shoir hayotini qo‘yar garovga.* A.Parda, Tanlangan asarlar. – *Qimorda meni d o v tikmasaydi, yana birovga yutqizmasaydi, deb qo‘rqar edim, – dedi Hoji xola.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.

GANDIRAKLAMOQ, SELTANGLAMOQ Muvozanatni yo‘qotib, notekis qadam tashlab yurmoq. **Seltanglamoq** – shevaga xos so‘z.

Akbarning yelkasidan boshlangan og‘riq butun badaniga tarqab, isitmasi ko‘tarila boshladi. Otini keltirganlarida uzangiga oyoq qo‘yolmay g a n d i r a k l a di. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Bu vaqt g a n d i r a k l a b Umarali yaqinlashdi, oyog‘ida zo‘rg‘a turgan holda, qo‘lini ko‘ksiga bosib Qulmatqoraga gapirdi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Bo‘ri polvon Ismoil polvon yoqasidan ushlab, ichidan chil berdi. Jon-jahdi bilan ketiga burdi. Shunday shiddat bilan surdiki, Ismoil polvon o‘zini o‘ngga-da, chapgada ololmadi. Tikka mash’ala ustiga s e l t a ng l a b-s e l t a ng l a b bordi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi.

GANCHKOR, GILKOR Ganch yoki alebastrdan naqsh yasovchi mutaxassis, usta. **Ganchkor**da ganch bilan ishlovchi ta’kidi ochiq ifodalangan. **Gilkor**da gil ta’kidi yetakchi.

Usta Mahmud Usmonovning g a n ch k o r shogirdlari ishi hammaning diqqatini tortardi. E.Vohidov, Ustoz G‘ayratiyni eslab. *G a n ch k o r lar qadimda 20 ga yaqin asbob ishlatganlar.* S.Bulatov, A.Muxtorov, Ganchkorlik san’ati. “O‘zME”. *Otasi ganchkor, me’mor, g‘isht teruvchi, g i l k o r, xullas, har tomonlama yetuk usta bo‘lgan.* S.Bulatov, A.Muxtorov, Ganchkorlik san’ati. *Loy pishitar chapani g i l k o r, G‘isht teradi tetikkina chol*. M.Ali, Amir Temur chamani.

GANCHKORLIK, GILKORLIK Ganchdan naqsh yasash bilan shug‘ullanish. **Ganchkorlik**da “bezak berish” ma’nosi ustuvor. **Gilkorlik**da gil ta’kidi yetakchi.

Teatrning Xiva, Termiz zallari qadimda ishlatiladigan g a n ch k o r l i k uslubida ishlandi. S.Bulatov, A.Muxtorov, Ganchkorlik san’ati. *Maqbaraning ichki bezagida g a n ch k o r l i k, bo‘yama naqsh va turli rangdagi koshinkori naqshlar qo‘shilib, uyg‘unlashib ketgan.* X.Davron, Samarqandda bir kun. *G i l k o r l i k O‘rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Yaponiya va boshqa Sharq mamlakatlarida rivojlangan, xilma-xil uslub va an’analari vujudga kelgan.* “O‘zME”. *Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviyning kasblari g i l k o r l i k bo‘lgan.* S.Buxoriy, Bahouddin Naqshband yoki yetti pir.

GAP, **JUMLA** Muayyan til qonuniyatlari asosida shakllangan, tugal fikr ifodalangan so‘zlar va so‘z birikmalari majmuyi. Tilshunoslik termini sifatida **gap** so‘zi ishlatiladi, barcha nutq uslublarida qo‘llanadi. **Jumla** badiiy, publitsistik uslublarda qo‘llanadi, unda nutqqa xoslik ta’kidi mavjud.

Adibaxon aya o‘g‘lining katta odamlardek gapirgan g a p laridan hayron edi. M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Olimning intihosiz g a p lari uning og‘iz ochishiga imkon bermasdi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Xat tagiga qiyshiq bir j u m l a qo‘shib qo‘yilgan edi, Abdulla zo‘rg‘a o‘qidi: “Kechiring, o‘choq boshida yozdim. Xatolari ko‘p”.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Hakimjonning bi-*

rinchi j u m l a sida sezilarlik darajada ochiq bir piching bor edi. Lekin u pichingni mingboshi dodho payqay olmadi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

GARDISH, GIRD, AYLANA Doira shaklidagi narsaning aylanma sirti. **Gardish** kichik hajmli narsa-buyumlar, shuningdek, oy, quyosh kabi fazoviy jismlarga nisbatan ishlatilsa, **aylana** ham kichik buyumlarga nisbatan, ham yirik hajmli makonga nisbatan ham qo‘llanadi. **Gird** – shevaga xos so‘z.

G

Osmon to‘la yulduz. Oyning nim rang g a r d i sh i adashib paydo bo‘lib qolgan bir quloch bulut pardasi orqasiga o‘tib, tunni qoraytirdi-da, ko‘p o‘tmay mo‘ralab chiqdi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Sening tilla g a r d i sh ko‘zoynaging bor, Lekin berkitolmas u ham ginangni*. M.Yusuf, Haqiqat. *Tunukatom boloxona ostidagi temir darvozaning so‘l qanoti g‘ijirloqlanib ochildi-yu, faqat to‘y-ma’rakalar munosabati bilangina javondan olinuvchi oppoq yaktagini, ohorli ko‘k to‘nini kiyib, boshidagi marg‘iloni do‘ppining g i r d iga adras qiyiqni ixchamlatib bog‘lagan do‘ngmanglay chol shoshqaloqlanib ko‘chaga chiqdi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Uch-to‘rtta ko‘chma vagon, g i r d iga bir gala brezent chodir tikilgan. Atrofda turli-tuman traktorlar, uzun-uzun allaqanday xandaqlar, tuproq uyumlari.* E.A’zam, Shovqin. *Qal’a baland kungurador paxsa devor bilan o‘ralib, a y l a n a sidan chuqur xandaq o‘tardi*. O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Imorat a y l a n a sida o‘rnatilgan past-u baland havozalarni qullar va mardikorlar lopillatib odimlar, bir-birlariga dalda bo‘lish, bir-birlarini qo‘llash uchun: “Bo‘l, hoo, bo‘l!” – deyishib, yuqoriga obaki g‘isht va tayyor koshinburush bo‘laklarini tashir edilar*. A.Dilmurod, Mezon burji.

GARMSEL, **TAFFOT, SAMUM, TAPPOT** Yozda bo‘ladigan issiq, yoqimsiz, zararli shamol. **Taffot** ko‘ngilni behuzur qiluvchi issiq shamol ma’nosida badiiy asarlarda uchraydi, shevaga xos. **Samum** so‘zi qumli cho‘l-sahrolarda qum uyurmasi hosil qilib ko‘tariladigan quruq issiq shamolni bildirib, kam qo‘llanadi. **Tappot** shevaga xos, kam ishlatiladi.

Haligi shirin xayollar bilan kulib, to‘lib, cho‘g‘day qizarib turgan yuzlari, g a r m s e l teggan ekin kabi bir nafasda so‘lib, o‘lib, uchug‘dek bo‘zarib qoladi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Kutubxona ichi peshayvondan ko‘ra salqinroq, qaynoq g a r m s e l epkinidan xoli.* N.Norqobilov, Bo‘ron qo‘pgan kun. *Tush mahali edi. Bu payt Buxoroda kun juda og‘ir kechardi. “Ko‘chaga chiqma, t a f f o t keldi”, deyishardi onalar farzandlarini garmseldan asrash niyatida*. S.Karomatov, Bir tomchi qon. *Sarob kosasida chanqatti t a f f o t, Shamol ochib qo‘ydi qanotlarini.* A.Said, Yoz. *S a m u m yalab o‘tar yalang to‘shini, Bunda yolg‘iz giyoh – sho‘ra-yu yantoq.* E.Vohidov. *Aslida s a m u m – Sahroyi Kabirda esadigan va jon zoti borki, barini kuydirib-eritib halok qiladigan qaynoq shamol, biroq aynan shu shamollar orasidan chiqib kelgani uchun ham arab badaviylari uni samum odami deb ataganlar.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Huv birda, cho‘lda qo‘y boqqanda, t a p p o t urib, ko‘z ilg‘ar-ilg‘amas olislarda ko‘tarilgan issiq*

zo‘ridan simyog‘ochlar ham ikkita-ikkita ko‘ringan kun alg‘ov-dalg‘ov tushday o‘tadi. B.Qobul, Oybuloq, Oynabuloq.

GAROV O‘YNAMOQ, GAROV BOG‘LAMOQ (GAROV BOYLAMOQ), GAROVLASHMOQ, BAS BOG‘LASHMOQ (BAS BOYLASHMOQ) Biron narsani bajarish, amalga oshirish yuzasidan shartlashmoq. **Garov bog‘lamoq (garov boylamoq)** nutqda **garov o‘ynamoq**qa nisbatan kam qo‘llanadi. **Garovlashmoq** ko‘proq shevada qo‘llanadi. **Bas bog‘lashmoq (bas boylamoq)** badiiy uslubga xos.

Buni qarang, ishxonamizdagilar boshqa joydagi jo‘ralari bilan odamning soyasi bo‘lmasligi mumkinligidan oshga g a r o v o‘ y n a b, turgan gap, albatta, yutib chiqadi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Xuddi kim bilandir g a r o v o‘ y n a gan-u, bor kuchini ishga solib kelayotgandek. Demak, u ham hiyla-nayrang ishlatsa kerak, hoynahoy!* M.Mansurov, Judolik diyori. *Siz shu yerda o‘qigansiz-a, Farhod Mirzayevich? Men shunday desam, anuvlaringiz... G a r o v b o y l a sh ib turibmiz-de.* A.A’zam, Olis shahar, olis kechmishlar. *Merganligimga ishonmaysizmi? Unday bo‘lsa, g a r o v b o g‘ l a sh amiz.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Ikkita futbolning ashaddiy ishqibozi bitta xonada yashasa, ularning suhbati ham, albatta, futbol haqida bo‘ladi. Ba’zida bahslashib, ba’zida g a r o v l a shib, hatto arazlashib yuramiz.* O.Yo‘ldoshev, Bir piyola choy ustida. *Ularning menga tarafdorligi ichimni ilitib, ko‘nglimni ko‘targan esa-da, biroq bizlarning g a r o v l a sh ganimiz ovoza bo‘lib ketganidan dilim g‘ash, ta’bim tirriq edi.* L.Bo‘rixon, Quyosh hali botmagan. *B a s b o g‘ l a sh ib, erta azonda dalaga chiqsangiz, hammadan oldin Jiparoyni ko‘rasiz.* “Qahramonnoma”. *U chaqqonlikda men bilan b a s b o g‘ l a sh ganday, balanddagi ingichka shoxga tarmashibdi.* P.Qodirov, Qadrim. *Yolqin akam o‘smir bo‘lsa ham, bu ishda kattalar bilan b a s b o y l a sh ib g‘olib chiqqan va qurilishdan yangi etik mukofot olib qaytgan edi.* P.Qodirov, Meros.

GAVDA, JUSSA, SULDAR Inson yoki hayvon vujudining bosh va qo‘l-oyoqdan tashqari qismi. **Jussa**, asosan, gavdaning katta yoki kichikligini ta’riflashda (“katta”, “kichik” kabi so‘zlar bilan birga) qo‘llanadi. **Suldar** – shevaga xos so‘z.

Isoy bobo, qotmadan kelgan uzun g a v d a sini ot ustida to‘g‘ri tutib, oldiga – uzoqlarga qarab borardi. O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Shu oydin kechada hamma narsa uning xotiridan ko‘tarildi-yu, birgina Omonning yuzi, ko‘zi, g a v d a si, butun borlig‘i bilan paydo bo‘ldi.* S.Ahmad, Muhabbatning tug‘ilishi. *Nahot, shu uvoqqina j u s s a da shunchalar katta, ishonib bo‘lmas pahlavon kuch yashirinib yotgan bo‘lsa. Buni “To‘pponcha polvon” deb bekorga aytmagan ekanlar.* S.Ahmad, Cho‘l burguti. *Shayx Dehlaviy oltmishlarga borgan, j u s s asi kichik, o‘rta bo‘yli, qalin soqolli, katta-katta ko‘zlari hamisha kulib turadigan bir odam ekan.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Boljonga esa bu gaplarning mutlaqo*

qizig‘i yo‘q, u shoshilayotgan, s u l d a r i shu yerda, xayoli tashqarida edi. Sh.Matkarim, Boljon.

GAVDALI, JUSSALI, BARVASTA, NORG‘UL, QOMATDOR, BARZANGI, GUNGURSDAY Gavdasi katta. **Barvasta** oddiy so‘zlashuvda juda kam uchraydi. **Norg‘ul**, asosan, yosh, yigit kishilarga nisbatan qo‘llanadi. **Barzangi** – salbiy bo‘yoqqa ega.

– Menda bor! – dedi ikkinchi qatordan g a v d a l i bir ayol ko‘tarilib. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Nihoyat, yirik g a v d a l i general Abdulhoshimxon dabdaba-yu as’asa bilan Demazangga kirib keldi va baxmal yopinchiqli stulga o‘tirdi.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Yangi komandir nozik yuzli, ko‘zlari suzuk, kichkina j u s s a l i, o‘ttizdan oshmagan yigit.* Oybek, Quyosh qoraymas. *G‘ulomqodir bu yerga tez-tez kelib turuvchi cho‘qqisoqol, kichik j u s s a l i odamni yaxshi tanib qolgan.* T.Malik, Savohil. *Davrada “Muborak bo‘lsin!”, “Qutlug‘ bo‘lsin!” degan ovozlar yangradi. Hamma o‘ng tomonda jim o‘tirgan b a r v a s t a odamga havas bilan qarardi.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Yaxshigina oti bor bu odamning – Mahmudali, kelishgan, b a r v a s t a gavdasi bor, agar turlanavermasa, to‘xtab o‘zini ko‘rsatsa, Xudo menga shunday qomat bermagan-da, a, qanday yarashirli odam, deb havaslanish mumkin...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Oppoq osilib yotgan g‘o‘zalar orasidan “Alif-Laylo”dagi ko‘zachadan chiqqan Ahraman devdek baland, har yag‘riniga bittadan odam minsa bo‘ladigan o‘ttiz besh yoshlardagi n o r g‘ u l yigit mashinaga qarab kelardi.* S.Ahmad, Cho‘l burguti. *N o r g‘ u l lar uni tappa yerga bosib, oyoq-qo‘lini bog‘lashadi, a’zoyi badanini ombirdek siqqan allaqanday ridoga o‘rab, “Tez yordam” mashinasiga tiqishadi.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Kozimjon rulni ortga burdi... Birpas o‘tib kelishilgan manzilga keldi. Qizil hoshiyali sport kiyimi kiyib olgan, sochini sariqqa bo‘yagan q o m a t d o r ayol mashina yonida paydo bo‘ldi.* U.Hamdam, Uzoqdagi Dilnura. *Xonada allanimalarni yozib o‘tirgan baland bo‘yli, o‘rta yoshlardagi, q o m a t d o r kishi darrov o‘rnidan turdi.* A.Samad, Qo‘lchalar. *Ko‘kragiga Bryus Lining surati tushirilgan mayka kiygan, b a r z a ng i yigit o‘rnidan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib qulluq qildi.* S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg‘alar. *Bir vaqt b a r z a ng i gavdali veteran eshikdan qaytib kirib, hamkasbining yoniga keldi-da, yuziga shartta tuflab asta chiqib ketdi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Ko‘ktoy g u n g u r s d a y gavdasini qilpillatib unga ergashdi: egasining oyog‘iga o‘ralishar, boldirini tishlaydiganday tumshug‘ini surkardi.* Sh.Xolmirzayev, Jo‘raboshi. *Erining sochlari tegirmonga kirib chiqqan odamday bir kechada oqardi. Ish-kuchiga yarab yurgan g u n g u r s d a y odam hapqirib, g‘alati entikadigan bo‘lib qoldi.* L.Mahmudov, Mehr qolur…

GAZAKLAMOQ, GAZAK OLMOQ, YIRINGLAMOQ, YIRING BOG‘LAMOQ Organizmning infeksiyaga javoban sariq suyuqlik ishlab chiqi-

shi. **Gazak olmoq, yiring bog‘lamoq** so‘zlarida harakatning endi boshlanganligi ma’no ta’kidi mavjud. **Yiringlamoq**da belgi darajasi **gazaklamoq, gazak olmoq** so‘zlariqa qaraganda kuchli.

Yuzi, peshonasidagi hokimning qamchisidan qolgan yara shishib, g a z a k - l a b ketgan. Har lo‘qillaganda joni uzilgudek bir ahvolga tushadi Namoz. X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Bu xotin boshiga keltirgan hamma ko‘rguliklari uchun negadir mendan qasos olmoqchi bo‘ladi, qalbida g a z a k - l a b ketgan chipqon og‘rig‘iga mening ko‘z qorachig‘im dori deb o‘ylaydi-yu, har bahona bilan nuqul chang solib, ko‘zimni o‘yib olmoqchi bo‘ladi.* A.Qahhor, Kundoshlar. *Haqberdi anketalarni dushanba kuni tarqatib… odamga aytishga ham uyaladigan joyidan chiqqan chipqoni g a z a k o l ib, yurg‘izmay qo‘ygani uchun chorshanba kuni mukka tushib yotib qolgan ekan*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Mana endi shu arzimagan narsa bitgan yarani g a z a k o l dirib, unut bo‘lganin esga solib o‘tiribdi.* Shuhrat, Oltin zanglamas. *Normat polvon kaklik ovidan qaytgach, hech qayoqqa chiqmadi. Buzilib qolgan chalg‘i, o‘roqlarni tuzatgan bo‘lib, o‘zini avrab yurdi. Yarasi g a z a k o l ib ketmaslik uchun rutubatda ham ko‘p yurmas, qorasovuq va ob-havoning birdan o‘zgarishi uning yarasiga ta’sir qilgan, y i r i ng l a y boshlagandi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Oyoqlaridagi zanjirning siquvini ham, yelkasidagi y i r i ng l a b ketgan chuqur yaraning og‘rig‘ini ham unutgan temirchi... entikib, “ozod” degan so‘zni takrorladi*. Sh.Toshmatov, Erk qushi.

GAZO‘CHOQ, GAZPLITA Gaz yordamida choy va ovqat tayyorlashga mo‘ljallangan uy jihozi. **Gazo‘choq** bu ma’nodan tashqari gazplitaning dimlama qismi ma’nosida ham ishlatiladi.

Gulshoda echkini sog‘ib, sutini dokadan suzib o‘tkazdi-da, tunuka idishda g a z o‘ ch o q ning ustiga qo‘ydi: uch bolaning har kungi nonushtasi. U.Hamdam, Muvozanat. *G a z o‘ ch o q ni yoqib, Bahrom chol olovga bir chelak suvni qo‘ydi.* N.Qilich, Zilzila. *Omonullo g a z p l i t a siga ham diqqat bilan qarab uchala buragichning ochiq turganini ko‘rdi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydi. *– G a z p l i t a si turganida o‘choqdan foydalanadimi? – deb ajablanmang. Gap shundaki, gazdan g‘o‘zapoya yaxshi*. K.Davron, Armon.

GANGIMOQ, DOVDIRAMOQ, ESANKIRAMOQ, GARANGSIMOQ, GANGIRAMOQ, KALOVLANMOQ, TALMOVSIRAMOQ, SAROSIMALANMOQ, SAROSIMAGA TUSHMOQ Biror narsa ta’sirida to‘g‘ri fikrlash, fikr aytish, to‘g‘ri harakat qilish holatini yo‘qotmoq, o‘zini yo‘qotib qo‘ymoq. **Esankiramoq, dovdiramoq** so‘zlarida belgi darajasi kuchliroq. **Garangsimoq, gangiramoq, talmovsiramoq** nisbatan kam qo‘llanadi. **Kalovlanmoq** so‘zida “fikr aytish” ma’no uzvi yo‘q. **Sarosimalanmoq** kam qo‘llanadi.

Dunyoda farzand ko‘rmagandek yana so‘qqabosh bo‘lib qoldim. O‘zimni qayoqqa qo‘yishimni bilmayman, devonaga o‘xshab g a ng i b yurdim. S.Ah-

mad, Turnalar. *Qancha yotganini bilmaydi. Ko‘zini ochib, dastlab nima uchun bu yerda yotganini tushunmadi. Tun zulmatida qay yoqdan kelayotgani-yu, qay yoqqa ketayotganini bilolmay g a ng i di.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Kutilmagan qaltis savoldan Aziza d o v d i r a b ketdi, yuzlari duv qizardi, kipriklari pirpirab uchdi.* U.Hamdam, Sabo va Samandar. *Mutal d o v d i r a b nima deyishini bilmay, tayinsizroq bir gap aytib qutulib ketmoqchi bo‘lardi-yu, ammo odatda shu gaplardan keyin keladigan: kattasi nechaga kirdi, degan so‘roqdan keyin, qiynalib-qiynalib javob berishga majbur bo‘lardi.* S.Ahmad, Ko‘zlaringda o‘t bor edi. *Jo‘rabek qulog‘iga chalingan tanish ovozdan seskanib ketdi. Qo‘lida yonib turgan gugurt cho‘pini qayoqqa tashlashni bilmay e s a n k i r a di.* S.Ahmad, Xotin. *Rustam e s a n k i r a b, o‘zini yo‘qotayozdi. Risolatni qutqarib oldim, endi uni menga berishadi, degan iddao xayoliga ham kelmagan edi.* Q.Kenja, Toshqin. *O‘zim shahardan bezib qishloqqa qaytib kelgandim. Endi qayga borishni bilmay g a r a ng s i b turibman.* T.Malik, Davron. *Hindistonlik missionerlar tillari bog‘lanib, hech narsa deya olmay qoldilar. Ular bu palla mushtlashuvda bir-ikki musht ortiq yeb, g a r a ng s i b qolgan odamni eslatar edilar.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Omontoy nima deyishini bilmay g a ng i r a b turardi.* S.Ahmad, Bo‘ston. *Qumrixon opa o‘rnidan k a l o v l a n ib turib ketdi. Xuddi shoh huzuriga kirib qolgan kanizakday qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib: – Rahmat, bolam, rahmat, – dedi va qo‘llari birdan qaltiradi, ko‘zlari yiltiradi.* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Poyezddan eng oxiri Abdulla tushdi. U t a l m o v s i r a b atrofga qaradi, keyin sudralib vokzaldan chiqdi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Do‘konchi bu gapdan bexabar ekanmi yoki atayin t a l m o v s i r a di.* A.Yo‘ldosh, Bozor. *U kishi o‘zlarini ilgarigiday yaqin olib, ko‘ngil so‘rashlaridan boshimga dovur bir jimirlov yugurib, g‘alati tortib ketdim. Xo‘rlikmi, nimadir bosib kela boshlab, s a r o s i m a l a n dim…* M.Mansur, Judolik diyori. *Abdumurod s a r o s i m a l a n di. U o‘z orzu-armonini tabarruk insonga malol kelmaydigan tarzda, sodda va oson qilib tushuntirish yo‘llarini izlardi.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Kuchli s a r o s i m a g a t u sh gan Rustam suv sachramalari qisib qo‘yayotgan qovoqlarini yirtguday ochib, yon-atrofni qidirarkan, besh-olti metr narida siltanib-hilpirayotgan ikki o‘rim soch uchlarini ko‘rdi.* Q.Kenja, Toshqin.

GIJGIJLAMOQ, QAYRAMOQ, TEZLAMOQ Tomonlarni bir-biriga qarshi qo‘yib, ular orasida nizo chiqarmoq. Sinonimik qatorni tashkil etgan so‘zlar badiiy va so‘zlashuv uslubida ko‘p uchraydi. **Gijgijlamoq** so‘zida ma’no kuchliroq ifodalanadi. **Qayramoq** so‘zida ma’no boshqa so‘zlarga nisbatan kuchsizroq. **Tezlamoq** badiiy asarlarda uchraydi.

Buning ustiga u yoqda ota-onasi g i j g i j l a b tursa... M.Hazratqulov, Chiroq o‘chmagan kecha. *Qayerda bir urish chiqsa, hozir-u nozir – g i j g i j l a ydi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Maqsadlari faqat bizning safarimizga to‘sqinlik qi-*

lish emas, amirni q a y r a shmoqchi. T.Malik, Savohil. *Rostdan ham Ma'sumov Noilani o'ziga qarshi q a y r a b qo'ysa-chi?* H.Qodiriy, Eski Toshkantda. *Ko'ryapsizmi, kimdir buzg'unchi yo'ldan urgan buni, bor, yerda hayvonlik huquqingni talab qil, kim qayerda hangrashiga erkinlik bor, deb t e z l a gan*. A.A'zam, Quroq.

GILAMDO'Z, GILAMBOF Gilam to'qish bilan shug'ullanuvchi shaxs. **Gilambof** so'zi ko'proq badiiy, publitsistik matnlarda uchraydi.

G i l a m d o ' z usta naqsh mujassamotini yodaki yoki nusxa asosida to'qiydi. To'qilish usuliga ko'ra patli va patsiz gilam turlari farqlanadi. "O'zME". *Qadimda esa g i l a m d o ' z barcha tayyorgarlik ishlarini: ip yigirish, dastgohni ishga tushirish, eng asosiysi, mavjud an'analarga binoan gilam bezaklarini yaratish ishlarini o'zi bajarardi.* A.Yershov, Xiva – qo'riqxona shahar. *Kishilarning xo'jalik faoliyatini, mehnat taqsimotini ko'rsatadigan qadimgi kasb-hunar nomlari bilan bog'liq oykonimlardan misollar keltiramiz: ...G i l a m b o f, Go'spandjallob...* S.Qorayev, Toponimika.

GILAMDO'ZLIK, GILAMCHILIK Gilam to'qish kasbi, gilam to'qish bilan shug'ullanish. **Gilamdo'zlik** so'zlashuvda faol, **gilamchilik** esa nutqda kam qo'llanadi.

G i l a m d o ' z l i k da quyidagi jihozlar kerak bo'ladi: tarashlash tarog'i, arqoqni tushirish moslamasi, ilgak, yog'och to'qmoq, urchuq, maxsus qaychilar. Gazetadan. *Mo'g'ullardan oldingi davrlarda turkiy qabila bo'lmish og'uzlarning g i l a m d o ' z l i k buyumlari dong chiqargan.* Sh.Mamasoliyeva, Xalq hunarmandchiligi. *O'rta asrlarda g i l a m ch i l i k uch yo'nalishda: ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalarda, o'troq (qishloq yoki shahar) aholi orasida hamda saroy ustaxonalarida rivojlandi.* Sh.Mamasoliyeva, Xalq hunarmandchiligi. *Qayd etilishicha, Marg'ilon shahrida davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan Hunarmandchilik markazida 200 dan ortiq turdagi atlas va adras to'qish, g i l a m ch i l i k, tikuvchilik, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.* Gazetadan.

GILVATA, **GILMOYA, GULUTA** Tabobatda qo'llaniladigan yumshoq, kulrang tog' jinsi. Xalq tabobatida ba'zi kasalliklarga qarshi dori sifatida ishlatilsa, ayrim ayollarda homiladorlik davrida unga nisbatan ehtiyoj seziladi. **Gilmoya** ilmiy uslubda ko'proq ishlatilsa, **gilvata** va **guluta** so'zlashuvda faol.

Haligina quyosh yog'dusida olmossimon yaltirab turgan tog' yonbag'irlari tezda g i l v a t a tusiga kirdi. H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar. *G i l m o y a, asosan, dengiz va okean tublarida vulkan kullari va gillarning ishqorli muhitda fizik va kimyoviy o'zgarishidan hosil bo'ladi.* "O'zME". *G i l m o y a tabiatda har xil: oq, kulrang, qo'ng'ir va boshqa ranglarda uchraydi*. M.Zokirov, Bebaho xazinalar. *Odamlarday g u l u t a ga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi*! A.Qahhor, Anor. *Pullanadi pillaqurt, Sedana-yu tog'kunjut,*

Achchiqtosh-u olmurut,G u l u t a-yu echki sut. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

GINA, KUDURAT, GINA-KUDURAT Biror kimsaga nisbatan dilda saqlangan xafalik, norozilik. **Gina** nutqda keng qo‘llanadi. **Kudurat** badiiy asarlarda uchraydi. **Gina-kudurat** so‘zida belgi darajasi ortiq.

Oh, kennoyim-a, sabrlari tog‘cha bor, kennoyim-a! Shuncha g i n a lardan keyin ham Olim akamning tarafini olgandek, ro‘mollarining uchini mijjalariga bosa-bosa... menga jilmayinqirab qarab turar edilar. M.Mansur, Judolik diyori. *Usta oshi Shogirdning dabdabaga o‘chligini oshkor qilib qo‘ygandi... Ammo Ustaning g i n a si cho‘zilmadi. Bir yildan so‘ng Shogird uning qiziga sovchi qo‘yganda, g i n a lar allaqachon unutilgan edi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Sirtga chiqdi Asrlik kin Va ming yillik k u d u r a t. Ikki jondosh el aro din Yana soldi adovat.* E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Ba’zilar orasidagi oldingi kek va k u d u r a t shu bahonada yo‘qoladi.* Fitrat, Tanlangan asarlar. *Chakki o‘ylabsan. To‘lqin bilan oramizda g i n a-k u d u r a t yo‘q. Sen uning yoshligini bilmaysan. Kimga yordam kerak bo‘lsa, birinchi shu yugurardi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Ayol o‘ta vazmin, ozgina g i n a-k u d u r a t ohangida so‘z qotdi.* Q.Norqobil, Qishdagi lola.

GINA QILMOQ, YOZG‘IRMOQ Xafalik, norozilik bilan nolib gapirmoq. **Yozg‘irmoq** so‘zida aybsitish ma’no qirrasi ham mavjud bo‘ladi.

Nima bo‘ldi-yu, tushim chalg‘ib, Shamsiddinni ko‘ribman, u: “Nega Fazliddinning halok bo‘lganini mendan yashirasiz?”, – deb g i n a q i l ar emish. S.Ahmad, Turnalar. *Jahlimdan tushganimdan keyin bunday tanamga o‘ylab qarasam, bechora o‘rtog‘imdan unchalik qattiq g i n a q i l ishning hojati yo‘q ekan...* A.Qahhor, Xotinlar. *Esankiradim, tag‘in qo‘limda qalam deng. Sal o‘zimni yig‘ib, bu nima gustohlik, ellik yil burun bosilgan eski lug‘atdan cho‘p chiqib kelib, xayolimni buzsa, deb ichimda y o z g‘ i r dim.* A.A’zam, Quroq. *Men bir karra yo‘l qo‘ygan qo‘pol xatomga qattiq afsuslanib, o‘zimni y o z g‘ i r dim: – Asab zo‘riqqan, – beixtiyor ovoz chiqarib shunday deya zaharxanda qildimda, aytishim bilan hushyor tortdim.* F.Iskandar, Yozuvchining kuni.

GIRDOB, KAMAR, O‘PQON, GUM Ariq, kanal va daryo suvlarining aylanib-buralib, uyurma hosil qilib oqayotgan joyi. **Girdob** so‘zi faol ishlatiladi, **o‘pqon** esa, asosan, badiiy asarlarda uchraydi. **Kamar** so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi, **gum** shevaga xos.

Mabodo panjalari yulg‘undan chiqib ketsa, bas, quturayotgan to‘lqinlar gavdasini chirpiratib, bir nimaga urishi yo g i r d o b qa’riga uloqtirib, cho‘ktirib yuborishi turgan gap edi. Q.Kenja, Toshqin. *Oradan uch soat o‘tgach, sokin havolarning ko‘zga ko‘rinmas mavjlaridan boshlangan va tobora kuchayib borgan shamolning, osoyishta to‘lqinlanayotgan suvlarni o‘nlab quloch balandlikka ko‘tarib g i r d o b lar hosil qilgan holda ichidagi jonzotlariga qo‘shib insonlar makoniga – quruqlikka qarab itqituvchi, yo‘lida uchragan narsani*

g‘orat qilib boruvchi kuchli bo‘ronga aylanishi kutilmoqdaydi. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Rustam yo‘l-yo‘lakay O‘rmoncha ichidan o‘tgan ariqning chuqurroq k a m a r i og‘ziga, qamishlar orasiga qo‘ygan savatlarni ko‘tarib qaradi. Bittasidan ikkita shim – moybaliq chiqdi, ikkinchisida hech vaqo yo‘q edi.* Q.Kenja, Toshqin. *Olis-olislarda tovlanib yotar Granit qirg‘oqli daryo k a m a r i.* E.Vohidov, Saylanma. *Anhor uni tushunmadi, ayniqsa, uning jununvash va tub oqimlari Sultonni ne ko‘ylarga solmadi – o‘ng qo‘l tomonda oqim sustroq tuyulsa, chap tomon oqimi tubsiz o‘ p q o n ga yutib yuborguday tortqilaydi, oyoqlari osuda suzishiga yordam bersa, biqiniga urilayotgan to‘lqin azbaroyi uning sumbatini daraxt novdasidek ikki bukib tashlaguday vajohat bilan urilaveradi.* X.Do‘stmuhammad, Qichqiriq. *O‘ p q o n ga tushgan harbiy mashina bu yerga qanday ko‘ndalang bo‘lib qolganiga hech kimning aqli yetmasdi*. N.Eshonqul, O‘pqon. *Shunday hodisa suv qirg‘oqlarining o‘yilishi sababli suv chekkalarida paydo bo‘ladigan suv aylanmasi – g u m larda ham ro‘y beradi*. O.Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar. *Sharsharaning balandligi bir terak bo‘yidan ortiq, suv tushgan o‘rin juda chuqur o‘yilgan va bunda g u m paydo bo‘lib, suv aylanib turar edi*. O.Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar.

GIYOHVAND, BANGI, NASHAVAND Nasha, qoradori, ko‘knor va shu kabi narkotikli moddalarni iste’mol qilishga odatlangan odam. **Giyohvand** uslubiy betaraf bo‘lsa, **bangi** va **nashavand** so‘zlari so‘zlashuv uslubida faol ishlatiladi.

Bu farzand irodasiz, tanbal, havoyi bo‘lib qoladi. Hayotga qiziqishi ham zaif bo‘ladi. Aynan shu toifa bolalar nashavand va g i y o h v a n d lar changaliga oson tushadilar. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Ha, bu torko‘chada, asosan, nashavand, g i y o h v a n d, qimorbozlar bo‘lardi.* Sh.Xolmirzayev, Darvesh. *O‘zi ham ikki kun yozmay qo‘ysa, qo‘li qichiy boshlar, ko‘knorini ezib ichmay qo‘ygan b a ng i dek karaxt bo‘la boshlar, halovatsizlanar, dam Chorsu bozorini aylanar, dam choyxonaga chiqar...* I.Sulton, Tosh kelinchak. *Yusuf xayoliga kelgan bunday og‘riqli savollar nayzasidan bag‘ri ilma-teshik bo‘lib, o‘g‘lining jasadini mahkam quchgancha mashinada ketib borar, xayoli parishon, o‘zida yo‘q, hushida yo‘q bir alfozda boshiga tushgan musibatning kuchidan b a ng i-dek mast-u karaxt edi...* U.Hamdam, Muvozanat. *Bizdan meros qolar nahotki behol N a sh a v a n d dalalar, suvsiz daryolar?! Yo‘q! Hech ishonmayman! Imon bor! Xalq bor Metin irodalik va oltin boshlik.* E.Vohidov, Saylanma. *Yangi beka shart qo‘ydi: yo shu n a sh a v a n d o‘g‘lingizni haydaysiz yo men ketaman!* J.Ergasheva, Jazo.

GIYOHVANDLIK, BANGILIK, NASHAVANDLIK Nasha, ko‘knori va boshqa narkotik moddalar iste’mol qilish, unga odatlanib qolish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. **Giyohvandlik** uslubiy betaraf bo‘lsa, **bangilik** va **nashavandlik** so‘zlashuv uslubida faol ishlatiladi.

G i y o h v a n d l i k olamining eshigini ochish uchun shu birgina chekish ham kifoya qiladi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *G i y o h v a n d l i k organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o‘zgarishiga sabab bo‘ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi.* “O‘zME”. *Mamlakatda ichkilik va b a ng i l i kni taqiqlandi.* Q.Usmonov, U.Jo‘rayev, N.Norqulov, O‘zbekiston tarixi. *B a ng i l i k ka mubtalo bo‘lgan bolalar zig‘irdekkina zahri qotil sotib olish uchun ota-onalarining qimmatbaho narsalarini og‘ufurushlarga keltirib berishgan, o‘g‘riliklar qilishgan.* L.Bo‘rixon, Sirli muallim. *Uchrashuv man etilmagan, ammo buzuqchilik bilan shug‘ullanish, n a sh a v a n d l i k qilish jinoyat hisoblanadi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *O‘rolboy traktorchining n a sh a v a n d l i k ka mubtalo bo‘lib, qorni yorilishiga aslida O‘roq dallol sababchi edi.* I.Shomurodov, Kultepada kechgan hangomalar.

GUL, CHECHAK O‘simlikning, odatda, onalik va otaliqlarini o‘rab turgan tojibarg (gulbarg)lardan iborat gultoj shaklidagi qismi. **Gul** so‘zi jonli tilda ham, kitob tilida ham keng qo‘llanadi. **Chechak** so‘zida tabiiy ravishda o‘sadigan ta’kidi mavjud, eskirgan, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Jiyda hidi!.. Uning hidi boshqacha bo‘lib, hech bir g u l ning hidiga o‘xshamaydi. O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Hamma ombor mudirlari baholi qudrat, biri billur vaza, biri ismi yozilgan tilla soat olib keldi. Eshmon bo‘lsa “o‘z hovlimizdan” deb, bir dasta g u l ko‘tarib keluvdi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Tun xushbo‘y siyohrang atirgulga o‘xshaydi. Bu g u l ni kim uzib ko‘k qo‘yniga qo‘yib ketdi ekan, men bilmayman.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bu orada avvaliga qayerdandir oppoq kapalaklar paydo bo‘lib, so‘ng vizillagancha arilar yetib keldi. Ular maysalar og‘ushidagi turfa rang mitti ch e ch a k larni tanlab-tanlab “bo‘sa” olmoqqa tushib ketdilar.* N.Norqobilov, Buloq. *O‘zim ham bir ch e ch a k larga burkandim, Men Vatanni giyohlardan o‘rgandim.* S.Sayyid, Vatanni o‘rganish.

GULDON, VAZA Gul solish uchun mo‘ljallangan idish. **Guldon** so‘zi barcha uslubda teng ishlatilsa, **vaza**, asosan, so‘zlashuvga xos.

Ana shu eski buyumlar orasida bir g u l d o n uning e’tiborini tortdi. M.Ahmedova, Billur guldon. *XIV–XV asrlarda xon saroylariga kumush va tilla g u l d o n lar qo‘yilgan.* “O‘zME”. *Derazaga qo‘yilgan, “oq nilufar” ataladigan gul “ancha uzoqda, toza suvli v a z a da tursa-da, dimog‘ida botqoq hidini tuyganday bo‘laveradi”.* M.M.Do‘st, Lolazor. *Tomosha davomida ikkita v a z a sinishi kerak, – direktor artistkaga qaradi.* S.Ahmad, Bir yuz yetmish so‘mlik xurrak.

GULZOR, GULSHAN, GULISTON, GULBOG‘, BO‘STON, CHAMANZOR, CHECHAKZOR Gul bilan qoplangan, gul ekilgan, gullab-yashnagan, obod maydon. **Gulshan**, **guliston**, **gulbog‘**, **chamanzor, chechakzor** so‘zlari ko‘proq badiiy uslubda ishlatiladi. Bulardan farqli ravishda **gulzor** yozma va og‘zaki nutqda ham faol.

Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib, qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan g u l z o r dan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bog‘ni ko‘rib bo‘lgach, Nazir ota bolalarni g u l z o r ga boshlab borib, gullar bilan tanishtirdi va ularga eng sara gullardan uzib berdi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Hoy oppoq tong, latofatli tong, Sen g u l sh a n ga gul bo‘lib qo‘nding.* A.Oripov, Tong. *Barcha g u l sh a n senga bo‘lsin, Bor tikanzorlik menga.* E.Vohidov, Barcha shodlik senga bo‘lsin. *Menga qarang. Bu g u l i s t o n aro bulbulg‘a rahm qil, ey gul, Ki hay, deguncha hazon yuzlanib, bahor borur.* Navoiy, Navodir un-nihoya. – *G u l b o g‘ shunday xushhavo, xushmanzara va kishiga rohat baxsh etar ekanki, hatto shu g u l-b o g‘ ga kirgan o‘lik tiriladi, – deb o‘ylash mumkin ekan.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *O‘sha go‘zal yurtda mening g u l b o g‘ im, O‘sha g u l b o g‘ aro sevganim ra’no. Yiroq-yiroqlarga qaragan chog‘ing Ko‘zing tushmadimi yorga mabodo?* E.Vohidov, Muhabbat. *Hikmat na dasht-u qir, na bog‘-u b o‘ s t o n Va na malikaning chorbog‘idadir.* S.Sayyid, Hikmat. *Kelding olamga, demak, Etmas uni so‘rmak, yemak, Yerni etmog‘ing kerak B o‘ s t o n o‘zing, rizvon o‘zing.* E.Vohidov, Inson. *To‘ylarda u yaxshi ko‘rinadigan joyni chamalab, mevalarini bolalar ship-shiydam qilib qo‘yishgan olmagami, behigami suyanib, oyoqlarini chalishtirganicha, mo‘ltayib tikilgani-tikilgan edi. O‘ziyam seviklisini ch a m a n-z o r dagi yagona atirgulday, ko‘zining qirida tanirdi.* Q.Kenja, Toshqin. *Ha, Namangan deganda, kishi ko‘z o‘ngida turfa gullardan dastalangan guldasta misol ch a m a n z o r shahar namoyon bo‘ladi.* Gazetadan. *Bu elitmako‘z qizaloq shu yoshimdayoq qalbim ch e ch a k z o r ini butunlay o‘ziniki qilib olayotgani, mazkur maskanda boshqa kezargonga joy qoldirmay borayotganini bilmasdim hali.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Yam-yashil qirlarni sog‘indim, Ch e-ch a k z o r yerlarni sog‘indim, U inja sirlarni sog‘indim, Vafo qilurmisan, bahorim?!* A.Oripov, Vafo qilurmisan, bahorim?

GUMBAZ, QUBBA, TOQ Qubba shaklidagi tom yoki shu ko‘rinishdagi narsa. **Gumbaz** so‘zi ko‘proq shu shakldagi bino ma’nosida ishlatiladi, **qubba** va **toq** so‘zlari esa badiiy uslubda shu ma’noda qo‘llaniladi.

Yassaviy maqbarasini Temir Ko‘ragon bino qildirgan, ko‘p haybatli, muhtasham-maqbara. G u m b a z i samoga yetadi. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Qishda, Samarqandning moviy g u m b a z lari oppoq qor bilan bezanadigan paytda Jamna bo‘ylarida donli ekinlar boshoq tortadi, toklar esa gulga kiradi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Uzun ham chiroyli, xuddi kecha bosmaxonadan chiqqandek oq-oppoq xatg‘ilofning bezalishidan tortib, ramzlarigacha bir bo‘lakcha edi. Ramzki, bir chekkasida hilol, bir chekkasida allaqanday hashamatli bino q u b b a si ko‘rinadi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Q u b b a – gumbazsimon qabariq sirt.* K.G‘ulomov, Amaliy san’at. *...aylana devorining ichki va sirtqi to-*

monlari hamda t o q larining yuzasi toshga o‘yilgan kitoba (yozuv)lardan ziynat topgan, “al-Qahf” surasi va boshqa Qur’on oyatlari harflari ham kalimalarining nurli aksi ularda jilolangan… X.Davron, Bibixonim qissasi yoxud tugamagan doston. *Uni ostonasi-yu ark, t o q lari, hamma-hammasi tilladan yasalgan bir saroyga qo‘ydilar. Saroy tepasida yashil qushlar charx urardi. Chol tilla hovuzni ko‘rdi.* Sh.Jabbor, Oltin g‘isht.

GUMON, SHUBHA Ma’lum va aniq bo‘lmagan, ishonchsizlik bilan qarash. **Gumon** so‘zida bu ma’no **shubha**ga qaraganda kuchsizroq ifodalanadi. Har ikki so‘z ayrim hollarda juft tarzda ham qo‘llanadi.

Faqiringizning g u m o n iga qaraganda, savdo ahli orasida ahvoli zamonni ko‘p farosat qilg‘uvchi ziyrak, epchil odamlar yo‘qligidadir. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Bu qadar keskin talabni kutmagan o‘g‘ilning dili vayron bo‘lib, miyasida turli g u m o n lar charx ura boshladi.* N.Norqobilov, Kurash. *Almashdilar seni nom-u rutbalarga, Munglug‘ bo‘lib qolding botib sh u b h a larga.* S.Sayyid, Ilinj. *...Eri bedarak ketgan ayol bunchalik xotirjam javob bermaydi. Buni Asadulla o‘shanda sezgan, ko‘ngliga sh u b h a oralagan edi. Bugun o‘sha sh u b h a si haqiqatga aylanganday bo‘ldi.* T.Malik, Savohil. *Balki, rostdan ham kasal yotgandir, ammo bu yoqda shuncha gapni q‘o‘zg‘ab, o‘zi ko‘rinmayotgani ko‘p sh u b h a g u m o n larga sabab bo‘ldi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

GUMON QILMOQ, SHUBHALANMOQ, GUMONLANMOQ, GUMONSIRAMOQ, DARGUMON BO‘LMOQ Voqea-hodisa, ish-harakat haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lmasdan turli nodurust taxminlar qilmoq. **Gumonlanmoq** so‘zi publitsistik, badiiy uslubda ishlatilsa, **gumon qilmoq**, **shubhalanmoq**, **gumonsiramoq** so‘zlari nutqda faol qo‘llaniladi.

Militsiya masalani har tomonlama tekshiradi. Yaxshimi, yomonmi ajratib o‘tirmaydi. Ular har narsani taxmin qilishga, hammadan g u m o n q i l ishga majbur. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Tuhmatni, fitnani yengib chiqishga ba’zan kattalar ham ojizlik qiladilar. U pulni portfeliga kim solib qo‘yishi mumkinligini ko‘p o‘yladi. O‘qituvchining o‘zidan ham g u m o n q i l di, jiqqa musht bo‘lgan bir-ikki bolani ham nazaridan qochirmadi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Katta auditoriya bo‘m-bo‘sh bo‘lgani uchun birinchi kirgan besh bola alohida-alohida o‘tirgan bo‘lsa ham, yosh domla ulardan ko‘zini uzmas, nimadandir sh u b h a l a n ayotganga o‘xshardi.* O.Yoqubov, Muqaddas. *Mana shu bolalardan biror ishni qiynalmay uddalaydigan irodali oliyjanob odamlar chiqadi desa, sh u b h a l a n ib o‘tirmang.* S.O‘nar, Chambilbelning oydalasi. *Dasturxon solib xizmat qilishmoq uchun chiqqan Umrinisabibini bir narsadan g u m o n l a n ib Poshshaxon quvib chiqargan: u Zebining boshiga kelajak falokatni unga yoki uning yaqin o‘rtoqlariga qanday qilib aytishini bilmasdan, o‘z uyida parvona singari aylanardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bo‘ysunmaslikda dong chiqargan o‘smirga bosh rol ijrosi berilganda, barcha ajablanibdi. Avvaliga o‘smir-*

ning o‘zi ham o‘ziga bildirilgan ishonchdan g u m o n s i r a gan. Keyin ijodiy muhitga qo‘shilib ketgan. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Chol har-har zamon baliqchilikning xumorini bosolmagan vaqtlarda yog‘ochlari chirib qolgan qayig‘idan o‘zi ham g u m o n s i r a b qirg‘oq atrofida suzib keladi.* M.Tilovova, Ko‘kko‘l qo‘shig‘i.

GUMONLI, SHUBHALI, GUMONCHIL Gumon qilish mumkin bo‘lgan, shubhalanadigan. **Gumonli** so‘zida shubhalanish darajasi **shubhali** so‘ziga nisbatan kamroq ifodalanadi. **Gumonchil**, asosan, badiiy asarlarda uchraydi.

Birov senga molini arzonroqqa sotishga intilsa, bilki, u mol g u m o n l i dir. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Men saflarimizni bunday sh u b h a l i unsurlardan tozalashni qat’iy talab qilaman!* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Siddiq Sharipovning o‘limidan oldin bu uyga notanish yoki yurish-turishi sh u b h a l i odamlar kelmaganmidi?* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Mamadi bova g u m o n ch i l xayollaridan dili ezilib, narsalarni bir-biri ko‘zdan kechirdi.* A.Qorjovov, Sandiqda saqlangan sir.

GUVOH, SHOHID Biror voqea-hodisani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, shuni tasdiqlovchi shaxs. **Shohid** eskirgan.

Men har bir manzarada boshqa ranglar o‘rnini qora ranglar olayotganining g u v o h i bo‘ldim. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Agar yaxshilikchasiga, shunga tegasanmi, deb so‘rashsa, oltita odamni g u v o h qilib, uch tom kitobga sig‘adigan shartlarni oldingizga ko‘ndalang qilib qo‘yardim.* S.Ahmad, Tamom, davomi yo‘q. *Gulchehraning o‘zi ham ko‘rdi buni, o‘zi janjalning g u v o h i bo‘ldi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Erkparvar libosidagilar jodugar kabi turli ko‘rinishga kiradi: ilonga aylanib qush uyasiga bosh suqmoqchi bo‘ladi, tulkiga aylanib makr ishlatadi, bo‘riga aylanib qo‘qqisdan hamla qiladi... Asadulla bularning hammasiga o‘zi sh o h i d bo‘ldi.* T.Malik, Savohil. *Ne davronlar kechmish qoldirib shuhrat, Barchasiga sh o h i d bu qari dunyo.* E.Vohidov, Saylanma.

GUVOHLIK, SHOHIDLIK Biror voqea-hodisaning chinligiga shohid sifatida ma’lumot berishlik. **Guvohlik** so‘zi **shohidlik**ka nisbatan nutqda ko‘p ishlatiladi. **Shohidlik** esa publitsistik, badiiy uslublarda qo‘llanadi.

Endi o‘ylang, kurash paytida bu biydek dashtda ikkimizdan bo‘lak biron kimsa bo‘lmasa, kim g‘olib-u, kim mag‘lub, bunga kim g u v o h l i k beradi? Yo biror tepalikdan turib kuzatib turmoqchimisiz? N.Norqobilov, Kurash. *Zilol suvli sharshara yonida ikki bahaybat chinor, Bobur zamonidan g u v o h l i k berib, shox otib turibdi.* H.Hasanov, Ekvatordan o‘tganda. *Milodiy 2–3-asrlarda o‘tgan yunon faylasufi Diogen Laertskiyning sh o h i d l i k berishicha, yunon mutafakkiri Pifagor birinchi bo‘lib o‘zini “filosof” deb atagan.* “O‘zME”. *Birgina fakt – haqiqiy shoirlik ko‘pchilik dardiga malham qo‘yishga urinish ekanligining o‘ziyoq ijodkorlikning qanday sharafli qismat ekan-*

ligidan sh o h i d l i k beradi... U.Normatov, U.Hamdam, Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji.

GO‘SHT, ET So‘yilgan jonivor tanasining ovqat sifatida iste’mol qilinadigan qismi. **Et** so‘zida eskililik bo‘yog‘i mavjud, kam qo‘llanadi.

U hozir Yo‘lchini chaqirib, kun kech bo‘lmasdan, ikkovlashib qo‘yni so‘yib, g o‘ sh t ini go‘shtga, moyini moyga ajratmoqchi ekanini bildirdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Qimizxon g o‘ sh t bilan kartoshka qovurib olib kirdi. Mo‘ylov go‘shtni og‘ziga solarkan: “Iya, muzlagan g o‘ sh t midi”, – dedi.* S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *U yaxna e t va dudlangan kolbasani pichoqda kesib, singib pishgan patirlardan biri ustiga did va hafsala bilan termoqda edi.* N.Norqobilov, Kurash. *Siz mana shu pulga guzardan bir chorak e t keltirib, sho‘rva qilib bersangiz!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

GO‘SHTDOR, SERGO‘SHT Yuz, bo‘yin va boshqa ayrim a’zolari odatdagidan semizroq bo‘lgan. Insonlarga nisbatan **go‘shtdor** so‘zi **sergo‘sht**ga qaraganda ko‘proq qo‘llanadi. **Sergo‘sht** bu ma’noda, asosan, badiiy asarlarda ishlatiladi.

Iste’fodagi mayor Nizomiddin aka Nazarov xotini qabrini ziyorat qilib qaytayotgan edi, birdan yuragiga sanchiq turdi, nafas olishi og‘irlashdi, uzun g o‘ sh t d o r quloqlariga tiralib turgan antiqa telpagi ostidan muzdek ter xuddi mingoyoqdek ikkala chakkasidan o‘rmalab tusha boshladi. O‘.Umarbekov, So‘nggi safar. *Xondamir hali yigit yoshida bo‘lsa ham, ko‘p o‘ltirib ishlash oqibatida biroz semirib qolgan to‘la gavdali o‘rtabo‘y kishi edi. U g o‘ sh t d o r barmoqlari bilan qoshining ustini silab qo‘ydi-yu: – Hazrat Alisher “Xamsa”larini bitirib Sulton Husayn Boyqaroga o‘qishga berdilar, – deya hikoya qila boshladi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ko‘z qisilibroq kelgan, parda tomirlaridan ikki-uchtasi va ham ikkala ko‘zining bir yonida jindak joyi hamma vaqt qizil, bir ko‘zida picha shapag‘liq asari ham bor... Iyak – keng, jag‘ – s e r g o‘ sh t.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Abdulla Ansoriy ellik yoshlardagi yuzlari tarang, qorasoqol, s e r g o‘ sh t odam edi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

GO‘SHTLI, SERGO‘SHT Ichida go‘shti bor; go‘sht solib tayyorlangan yegulik. **Sergo‘sht** so‘zida go‘shti ko‘plik ma’no ta’kidi mavjud.

“G o‘ sh t l i ekan”, tamshandi u bitta do‘lmani bo‘laklab og‘ziga solarkan. Oyijonim ham yeganida edi... D.Sobirova, Qadrdonlar. *Baliqning tangalarini shildim, qornini yordim, ichaklarini olib tashlab, oppoq qat-qat g o‘ sh t l i joyini sariq yog‘i bilan qo‘shib kesib oldim.* I.Sulton, Qismat. *Oshning oldini tog‘oraga bos! S e r g o‘ sh t roq bo‘lsin*. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Bittasi Qorako‘zga konfet, bittasi s e r g o‘ sh t suyak berdi.* S.Ahmad, Qorako‘z Majnun.

GO‘NG, TEZAK, NURI, PORI, DARS Uy hayvonlari va parrandalarning axlati. **Go‘ng** so‘zi bu ma’noda faol. **Tezak** ko‘proq go‘ngning quritilgan hola-

tini bildirish uchun qo‘llaniladi. **Nuri** ilmiy uslubda va ayrim shevalarda uchraydi. **Pori, dars** shevada qo‘llanadi.

Novvosimiz yotibdi, eshagimiz yotibdi, faqat Eshon bobo yo‘q, xolos. Oxurlar ham bo‘m-bo‘sh. G o‘ ng uyib qo‘yilgan joyni aylanib o‘tayotgandim, sopi kalta kurakni bilmasdan bosib olibman. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Otam bilan omoch tortib, shudgor qilamiz, makka-yu jo‘xorilarni o‘ramiz, qoplab tegirmonga tashiymiz, uzumlarni uzib, sotgani baqqolga beramiz, sabzilarni olamiz... g o‘ ng to‘plab o‘ralarga ko‘mamiz, qirqilgan uzum zanglarini yoqib, kulini aralashtiramiz... Bu mehnatning adog‘i ko‘rinmaydi.* I.Sulton, Ozod. *Olimjon: Xafa bo‘lmang-u, Qo‘chqor aka, kennoyimgayam qiyin-da. Ahvolni qarang: haliyam o‘choq, haliyam t e z a k yoqiladi. Progress yo‘q.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Hali qarasangiz, oyoqosti bo‘lgan uzum, pomidor, karam po‘choqlarini terib yuradi. Ba’zan qo‘shni mol bozoriga o‘tib, t e z a k ham supuradi.* Sh.Xolmirzayev, Qariya. *Umumiy holda molxonalardan shaltoqni yig‘ish, chiqarish… vaqtincha saqlanadigan joylariga tashish, n u r i tayyorlash uchun shaltoqni qayta ishlash, transport vositasiga yuklash, dalaga tashish va tuproqqa solish.* “Chorvachilikni mexanizatsiyalash”. *Odamlar mollarning tagini tozalab n u r i larni molxonalarning maxsus teshiklaridan tashqariga itqitishyapti.* S.O‘nar, Chambilbelning oydalasi. *Har bir daraxt tagida odam bo‘yi hovuz kavlab, uni p o r i bilan to‘ldirar, qish bo‘yi chuqurdan suv arimasdi. Daraxt vujudining muzlashi hasharotlarga qiron keltirsa, mahalliy o‘g‘it tomiriga singib, bo‘yini o‘stirardi.* H.Sattoriy, Sog‘inch. *Ona goh orqalab p o r i tashiydi, goh qayerdandir o‘rgan bir bog‘ o‘tni boshiga qo‘yib o‘tib qoladi.* H.Sattoriy, Sog‘inch. *Hovva, kuzda bug‘doyni sochganimdan keyin ustiga kamida ikki-uch barmoq chirigan tovuq d a r s i bilan mol d a r s ini aralashtirib to‘shiyman. O‘ldirilgan d a r s, kamida bir-ikki yil chiriganidan, dedi yigit.* Sh.Matkarim, Yilon.

H

HAMDARD, DARDKASH, DARDDOSH, QAYG‘UDOSH Kishining g‘am-qayg‘usini birga kechiruvchi, dard-hasratini yumshatishga ko‘maklashuvchi. **Darddosh, qayg‘udosh** so‘zlarida g‘am-tashvishlari yaqin kishilik ma’no ta’kidi qabariq ifodalangan, **qayg‘udosh** belgi darajasi ortiq, u kitobiy uslubga xos.

Unga h a m d a r d bo‘ladigan, yupatadigan, ko‘ngliga dalda beradigan yaqin kishisi qolmadi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ota olamdan o‘tgan, ona kasal… Yonimga kiradigan, h a m d a r d bo‘ladigan biron kimsa yo‘q.* I.Sulton, Bo‘ri. *To‘y-marakangga bosh-qosh, quvonchingga sherik, dardingga d a r d k a sh bo‘lsa, boshingga tashvish tushganda...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Hozir ham oshnasining gapni maydalashiga toqat qilolmadi. – Yorilsang-chi! – dedi u jerkib. – Mendan boshqa d a r d k a sh ing bormi?* T.Malik, Shaytanat. *Bizniki Farg‘onaning Quvasidan. Hoji aka bilan qadrdonmiz, to‘g‘rirog‘i, hasratdosh, d a r d d o sh miz. Har zamonda suhbatlashib xumor yozgani kelib turaman.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *U har yoqlarga intizor va shul kabi hurkak boqib, bir ittifoqdosh, d a r d d o sh izlaydur.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Azob ichra yonib jon, Qora kunda qul Tarlon Qizga q a y g‘ u d o sh keldi; G‘amiga yo‘ldosh keldi.* H.Olimjon, Oygul bilan Baxtiyor. *U Beknazarga o‘xshab dardi-shikvasini bo‘lmay, hayratlangan ko‘zlari bilan hamdardlik bildirib, jimgina tinglab o‘tiradigan q a y g‘ u d o sh ga ko‘pdan muhtoj edi.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari.

HAMMA, BARCHA, BARI, BUTUN, JAMI, BUTKUL, TAMOMI, BOR-YO‘G‘I Mavjud narsa-hodisalarning miqdor jihatidan jamini bildiradi. **Barcha** so‘zi **hamma** so‘ziga qaraganda uslubiy chegaralangan, unga birmuncha kitobiylik belgisi xos va so‘zlashuv uslubida deyarli qo‘llanmaydi. **Bari** oddiy so‘zlashuvga xos. **Hamma, barcha, bari, butun** so‘zlari ot so‘zlarning aniqlovchisi bo‘lib kelganda, ularning miqdoriy belgisini bildiradi. **Butun, butkul** so‘zlari miqdoriy jamlikni “birortasini qoldirmay” ifodasini qo‘shgan holda anglatadi. **Tamomi** so‘zi jami miqdorga xos belgini bildiradi, ko‘proq kitobiy uslubga xos.

Kelin uch kundan beri ro‘mol ichida hech kimga ko‘rinmagani uchun h a m m a ning ko‘zi unda. E.Vohidov, Saylanma. *H a m m a hushyor yotsin, tiq etgan tovush eshitishsa, chopib chiqishsin.* I.Sulton, Bo‘ri. *Katta-yu kichik, erkag-u*

ayol... b a r ch a ning kayfi chog‘ va bu xursandchilik ularni o‘z bag‘riga olib birlashtirgan edi... U.Hamdam, Muvozanat. *Bu mahalda kampir b a r ch a-ning haqiga duo qilib bo‘lgan va tasbeh o‘gira boshlagan edi*. I.Sulton, Ozod. *Chuqur xotiralar b a r i jonlanib, Go‘yo g‘olib Ayniy yozib, shodlanib, So‘niq Ark ustida etardi parvoz.* Zulfiya, Saylanma. *Saragul. ...Sizlar inongan mu-lozimlar – b a r i ilonning yog‘ini yalagan tulkilar. B a r i Sardorning ayg‘oqchi-lari!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *O‘sha kuni ish juda ko‘p bo‘ldi. B u t u n samosvallar tosh tashishga qo‘yilgan edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *...pod-shoning farzandi yo‘q edi. Bu faqatgina uning o‘zini emas, b u t u n xalqni tashvishga solib qo‘ygan edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *O‘tgan yil bahorda j a m i bir ming yetti yuz oltmish besh tup ko‘chat o‘tqazilgan...* A.Qahhor, Mahalla. *Qorxatda aytilgan j a m i taomlarni birov-dan qarz ko‘tarib bo‘lsa ham pishirishi mumkin.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Sohibqiron. Kaloming shulkim, men, kimsan Sulton Boyazid b u t k u l turk olamini mag‘rib g‘ayridinlaridan asrab o‘rtada qalqon bo‘lib turg‘on erdim...* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Yusufbek hojining Normuhammad qushbegiga yuborg‘an chopari Kirovchi yaqinida unga yetkan va qushbegini t a m o m i sipohlari bilan Toshkandga qaytarg‘an edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ulardan biri sezgir tayoqchasi bilan chirillatib t a m o m i joyimni, butlarimning ora-sini ham tekshirib chiqib, uchrashuv toloriga yo‘l ochdi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Endi mundan keyin boylar ham tek turmaydi: b o r-y o‘ g‘ i ni advokatga berib, kattakon arizalarni yozdiradi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *B o r-y o‘ g‘ i dan, vatanidan mosuvo bo‘lib uzoq ellarga jo‘nab ketar ekan, Sultonmurod alam ichida shunday so‘zlarni aytdi.* E.Vohidov, Umrim daryosi.

HAMMOL, YUKCHI Yuklarni tushirish va yuklash, bir joydan ikkinchi joyga tashishni kasb qilib olgan kishi. **Yukchi** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Maxsum hikoyani tugatdi, qiz va h a m m o l haqidagi boshqa bir hikoyani boshladi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Nahotki asosiy jonkuyar tashkilotchi shaxs bilan oddiy hammol, yana hayvon h a m m o l ning farqiga borishmasa?!* Q.Ken-ja, Ko‘ktoy. *Yonimda shunday odam turib, vatanini deb, ahli ayoli, jigarporala-rini deb, zimmasidagi shar’iy burchi – omonatini deb gung-soqov bo‘lib bo‘l-sa-da, qora yu k ch i bo‘lib bo‘lsa-da, vatanga borishga jur’at etgan mujohid turib, men kimni kino qilmoqchi bo‘lib yuribman?!* M.Mansur, Judolik diyori. *G‘ayratning y u k ch i larga xos bo‘lmagan sustkash xatti-harakati hamda dam-ba-dam “choy”lanib turishlari hammaga ham yoqavermasdi.* N.Norqobilov, Kurash.

HAMMOM, MO‘RCHA Yuvinish, cho‘milish uchun bir va bir necha xo-nadan iborat qilib qurilgan, issiq va sovuq suvli qilib maxsus jihozlangan bino. **Hammom** so‘zi bu jihatdan bunday binoning har qanday turiga nisbatan qo‘lla-

na oladi. **Mo‘rcha** so‘zi nisbatan kichikroq, yevropacha tipdagi hammomga nisbatan ishlatiladi.

Nam tuproqdan yumaloq gumbazli h a m m o m yasagach, ustiga mo‘ri o‘rnatib, yonidan eshikcha ochayotganimda, qara, men zo‘r uy qurdim, deb qoldi Goptay. A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Shunda yo bugun, yo ertaga olib ketishlari kerak, h a m m o m da kran o‘lgurdan suv oqyapti.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Yigit hujraga joylashib, biroz dam olgandan keyin saroy yonidagi ko‘hna m o‘ r ch a da yuvindi.* M.Osim, Karvon yo‘llarida. *Afsuski, eng oddiysi – umumyotoqdagi m o‘ r ch a larga issiq suv tarqatuvchi qozon hanuz ta’mirdan chiqmaganligi uning esiga ham kelmadi*. A.Obidjon, Ayollar va xayollar.

HAMON, HANUZ Shu damgacha davom etayotgan, hozirga qadar bo‘layotgan. **Hanuz** so‘zi harakat-holatning tugallanmaganligini ta’kid ohangi, badiiy bo‘yoq qo‘shgan holda ifodalaydi, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi.

Quyosh h a m o n uxlaydi, Haryon bulutlar. Tarqalmagan oqshomgi Mayin sukutlar. H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Yomg‘ir h a m o n chelaklab quyayotganiga qaramay, yo‘lka odamlar bilan to‘la edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Kim bilsin... shu mahal, balki, dunyoning qayeridadir o‘sha bechora chol h a n u z besamar daydimoqda...* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Olov to‘lqin tunning ichida, Qolib ma’yus chayqalar dengiz... Musibatning zang ilgichida Gulgun ko‘ylak osig‘liq h a n u z...* Zulfiya, Saylanma.

HAMQISHLOQ, QISHLOQDOSH, MAHALLADOSH, HAMMAHALLA, OVULDOSH Bir qishloq, mahalla yoki ovulda tug‘ilib o‘sgan kishilar, bir qishloq, mahalla yoki ovul odamlari. **Hamqishloq** so‘zi **qishloqdosh** so‘ziga qaraganda rasmiy adabiy nutq shakllarida faol. **Qishloqdosh** oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. **Qishloqdosh**dan “bir qishloq kishilari”, **mahalladosh**da “bir mahalla kishilari” ta’kidi ochiq ahglashiladi.

H a m q i sh l o q laridan esa yolg‘iz Safar cho‘tirning bir barmog‘i yengil yarador bo‘lgan edi. Oybek, Quyosh qoraymas. *Oradan o‘n besh kunlar o‘tganda tog‘am bilan birga jangga kirgan bir h a m q i sh l o q yigitdan xat keldi.* O.Yoqubov, Yaxshilik. *Boz ustiga, dardlari bir xil chiqib, ular endi “q i sh l o q-d o sh”gina emas, quloqdosh ham ediki, bu toifa hasratga tushib ketsa, vaqt deganini unutib qo‘yadi.* E.A’zam, Shovqin. *Shunda q i sh l o q d o sh imiz Qayum qorovul kelib qoldi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *O‘sha kuni men cholning m a h a l l a d o sh lari maqtaganchalik rassom ekanligiga sira ishonmadim va uning suratlarini ko‘rib, yana ham hafsalam pir bo‘ldi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Oldinda yarimta qo‘yni qopga solib orqalab olgan Sa’di aka. Bu odam nashriyotning kassiri, G‘afur akaning m a h a l l a d o sh i, qadrdon do‘sti*. S.Ahmad, Umrim bayoni. – *Ahvolimiz sizga ravshan, – bemor yo‘tala-yo‘tala do‘konxonaga, cholga ishorat qildi. – Bir epini qilsa bo‘ladi...*

Shoshmang, Ziyoxo‘jaboy sizga h a m m a h a l l a, yon qo‘shni, eshiklaring bir-biriga yopishgan, shundaymi? Oybek, Tanlangan asarlar. *G‘afforjon bir yildan ortiqroq selpoga mudir bo‘lib turdi; men yaxshiroq bilganimki, biz h a m-m a h a l l a edik*. A.Qahhor, Dahshat. *Tom labida oyoqni osiltirib o‘tiribman. O v u l d o sh lar meni savolga tutishadi: – U yoqlarda bizning odamlarni ko‘rmadingmi? – U yoqlarda bizning tog‘larga o‘xshagan tog‘lar bo‘ladimi?* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Oradan ko‘p o‘tmay hovlida jonlanish sezildi. Zelixon tanimagan o v u l d o sh lari uni ziyorat qilgani yig‘ila boshlagan edilar.* T.Malik, Shaytanat.

HAMROH I**, YO‘LDOSH, HAMSAFAR, ESH** Kishining yo‘ldagi, safardagi sherigi. **Yo‘ldosh** so‘zida sheriklik ta’kidi **esh** so‘ziga nisbatan ochiqroq ifodalanadi, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Esh** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Yo‘lchi ba’zan yolg‘iz, ba’zan o‘z yoniga birovni h a m r o h qilib qancha jar, qancha to‘g‘on va quloqlarni kezib, suv keltirar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *– Suvi qaynab ketibdi, shekilli? – dedi shofyor va h a m r o h ining roziligini kutib o‘tirmay, shunday qizning oldida mashinasini to‘xtatdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Muazzam adibga safarda y o‘ l d o sh Baxtidan quvonchim arshidan oshar.* Zulfiya, Saylanma. *Men ham shunday zavqsiz odamga y o‘ l d o sh bo‘lganimdan koyinib, indamay ketaverdim.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Yo‘l adashib g‘amda qoldim h a m s a f a r din ayrilib, Misli bulbulman bukun ham bol-u pardin ayrilib.* T.Nizom, Ruhi ravonim. *Men xayol otida ucharkan goh-goh, H a m s a f a r bo‘ladi yonimda xunnlar; Tarix varag‘ini yondirib nogoh Turkiylar tig‘idan sachrar uchqunlar.* A.Sher, Atilla. *Yo‘q, rahmatli otam tushimga kirib yuribdilar. Tag‘in dovon oshib borayotgan karvon ko‘rdim. Shularga e sh bo‘l dedilar... – deydi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Bu sahroda eshitilgan Sa’diy maqomiga e sh bo‘lib, ohanglari g‘azal bag‘riga zilolday quyilib o‘tardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

HAMROH II**, YO‘LDOSH, SHERIK, HAMDAM, HAMNAFAS, HAMTOVOQ** Ish-faoliyatda, hayotda doim birga bo‘luvchi. **Hamroh** so‘zida “turmush o‘rtog‘i”lik tushunchasi birmuncha umumiy ifodalanadi, **yo‘ldosh** so‘zida bu ma’no unga qaraganda aniqroq namoyon bo‘ladi. **Sherik** so‘zida “ish-faoliyatda hamkor” ifodasi boshqa so‘zlarga qaraganda aniq namoyon bo‘ladi. **Hamdam, hamnafas** – kitobiy so‘zlar, ayniqsa, **hamdam** so‘zida poetik bo‘yoq kuchli ifoda topadi. **Hamnafas** qatordagi sinonimlarga nisbatan kam qo‘llanadi. **Hamtovoq** ko‘chma ma’noda qo‘llanib, o‘ta salbiy bahoni bildiradi.

Kumush Otabekning yelkasiga qo‘lini tashladi: – O‘shal vaqtlarda hamrohsiz uxlag‘anim to‘g‘ri, – dedi, – chunki biravlardan butunlay umidim kesilgan, h a m r o h im menga hamisha umidsizlikkina berar, dahshatimnigina orttirar edi. A.Qo-

diriy, O‘tkan kunlar. *Shuning uchun ham u xudoga, avvalo, erkak qilib yaratgani, so‘ng Manzuradek ayolga h a m r o h etgani uchun shukrona aytadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Faqat baland qoya ustida qishloq tomonga egilib o‘sgan yakka chinor... xuddi qo‘llarini cho‘zib, sevikli hayot y o‘ l d o sh iga oltin guldasta uzatib turgan pahlavon yigitga o‘xshardi.* O‘.Umarbekov, Tanlangan asarlar. *Atay sh e r i k laridan qochib orqadagi bo‘sh o‘rindiqqa o‘tib olgan safar guruhining rahbari – san’at arbobi Farhod Ramazon daf’atan bezovtalandi*. E.A’zam, Shovqin. *Hulkarning tog‘asi Norboy ota Avazga qo‘y boqishni o‘rgatdi. Keyinroq uning cho‘ponlikka qiziqishini ko‘rib, o‘ziga sh e r i k qilib oldi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Do‘stining eng og‘ir, vijdon azobi qovurib tashlagan paytlarda h a m d a m bo‘lolgan, ko‘nglini ko‘tarib, qalbidan dardni quvlayotgan odam hozir uni yupatishga biron og‘iz bo‘lsin so‘z topolmasdi.* S.Ahmad, Ufq. *Endi mislsiz olovdan bino bo‘layotgan taftini olguvchi o‘shal h a m d a m i yo‘q edi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Bizga hamkor-u h a m n a f a s hind beklari, fuzalolari, hunarpeshalari ko‘p. Bizni zaharlab o‘ldirmoqchi bo‘lgan bu makkor xonim uchun eng og‘ir jazo shuki, biz mana, tirikmiz!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Akasi, Xoliqberdi to‘ra... Qachondir h a m n a f a s bo‘lgan ekan. Endi bir-biroviga yov*. T.Malik, Devona. *Haydar pakana deganlari qamoqda o‘ziga mos h a m t o v o q topolmaganmi, yana Asadbek atrofida xira pashshadek o‘ralashaverdi.* T.Malik, Shaytanat. *Qarchig‘ayday nigohi yasovulbegiga qadaldi-da: – H a m t o v o q lari qatl qilinsin! – dedi*. I.Sulton, Alisher Navoiy.

HAMROHLIK I**, YO‘LDOSHLIK, HAMSAFARLIK, ESHLIK** Kishining kishiga yo‘lda hamroh bo‘lishi, safarda, safar davomidagi sherikligi. **Yo‘ldoshlik** so‘zida sheriklik tushunchasi **eshlik** so‘ziga nisbatan ochiqroq ifodalanadi, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Eshlik** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ham qo‘llanadi.

Amir arkoni davlatining qorasi ko‘ringanida, egilib ta’zim qilib turdi. Arkoni davlat qirq kishidan kam emas. Vazirlar, xazinachi, qozi-yu quzzot, lashkarboshi-yu o‘n chog‘li qurollangan sarbozlar, hatto bosh Madrasa imom xatibigacha h a m r o h l i k qilmoqda edi. G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *– Namuncha sassiq bo‘lmasa-a? – deya dabdurustdan so‘radi Nilufar h a m r o h l i k qilib kelgan bir yo‘lovchidan.* N.Hoshimov, Adashgan avtobus. *Yakshanba kunlari yigitchalarday ixcham sport liboslari, butsi yo krossovka kiyib, Sanjarbek y o‘ l d o sh l i g i da tog‘ aylanar, kaklik, chug‘urchuq, tog‘ chumchug‘i otib, qozonga bosishar yo sixga tortishardi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *– Yo‘l azobi – go‘r azobi deydilar. Bu biyobon cho‘llarda bir-birini qo‘llamasa, h a m s a f a r l i k bo‘larmidi, xo‘jam*. Z.Samadiy, Yillar siri.

HAMROHLIK II**, YO‘LDOSHLIK, SHERIKLIK, HAMDAMLIK, HAMNAFASLIK, HAMTOVOQLIK** Kishining kishiga ma’lum bir ish-faoliyatda, hayotda doim birga bo‘lish holati. **Sheriklik** bu ma’noda oddiy so‘zlashuv-

da faol qo‘llanadi. **Hamdamlik**, **hamnafaslik** – kitobiy so‘zlar, ayniqsa, **hamdamlik** so‘zida poetik bo‘yoq kuchli ifoda topadi. **Hamnafaslik** qatordagi sinonimlarga nisbatan kam qo‘llanadi. **Hamtovoqlik** mazkur ma’noda qo‘llanib, o‘ta salbiy bahoni bildiradi, nutqda kamfaol.

U gazak uchun pomidor va bodring parraklar, “Ichiga olov tushgur aroq degani bunaqa gazak bilan kelishib qo‘yadi-da”, der, o‘ziga “h a m r o h l i k qilmayotgan” Mullaning yelkasiga “turtib” qo‘yar edi. T.Malik, Xazonrezgi. *Tangir degan jo‘ram bo‘lmagan, Haqberdi degani o‘qishda ham, ishda ham menga y o‘ l d o sh l i k qilmagan, hatto fakultetdagi hamkasblarim, talabalar ham, aslida, yo‘q, hammasi – o‘zim, o‘zimni ularga bo‘laklab, hammasining umrini yashayapman.* A.A’zam. Asqartog‘ tomonlarda. *Bu safar unga sh e r i k l i k qilmadim. Chunki boshim qiziy boshlagan edi.* N.Ismoilov, Shayton zanjiri. *Mangu hamdamlik, mangu h a m n a f a s l i k, mangu dildoshlik faqat ana shunday unsiyatdan paydo bo‘ladi va asrlarcha yashaydi.* I.G‘afurov, Munis dillar saodati. *Bir hamrozlik, ajib h a m d a m l i k Vujudlarda qon kabi kezar.* A.Sher, Yig‘layotgan tosh. *Dona-dona sochib tashla so‘zlarim. Ayt ularga mening h a m n a f a s l i g i m, Dildagi beriyo muhabbatim ayt.* E.Vohidov, Saylanma. *Nazarimda, manfaatparastlik, mahalliychilik, h a m t o v o q l i k avj olgan muhitda hech qachon xolis va adolatli adabiy tanqid bo‘lmaydi*. B.Karim, Tanqid kimga yoqadi?

HANSIRAMOQ, HARSILLAMOQ, HALLOSLAMOQ, ENTIKMOQ Tez harakat qilish, yugurish yoki og‘ir mehnat natijasida qiynalib chuqur va tez-tez nafas olmoq. **Harsillamoq** ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslubda insonning shunday harakat-holatiga nisbatan qo‘llanadi. **Halloslamoq** so‘zi kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Entikmoq –** uslubiy betaraf so‘z.

U yugurib kelganidan yonoqlari terlagan, o‘zi h a n s i r a rdi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Akbar cho‘ntagidan g‘ijimlangan ro‘molcha olib, h a n s i r aganicha terlarini artdi.* T.Malik, Falak. *Lutfiniso odatdagicha, h a r s i l l a b, nafasi bo‘g‘ilib, kelinlaridan shikoyat qildi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Iskandar mashinaga o‘tirganda h a r s i l l a b yugurib chiqdi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Yarim soatlardan keyin ustma-ust o‘q ovozlari eshitildi va Ismat ikkita o‘ljaning qanotidan ushlab, h a l l o s l a b qaytib keldi.* Sh.Xolmirzayev, Sog‘inch. – *Meni yo‘lga tashlab ketgansan. Orqangdan h a l l o s l a b yugurib, tilim og‘zimga sig‘may qoldi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. – *Yo‘q, yo‘q, qizim, – dedi qushbegi, – men nega kecha va o‘tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman. Kumushbibi bir e n t i k ib qo‘ydi va o‘zini to‘xtatib: – O‘zim ham bu maktubni shu bukun ko‘rdim, – dedi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sovuq havo birdan bo‘g‘ziga urilib e n t i k tirdi, tabrik oxiriga yetguncha ovozi xirillab qoldi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Gulsara e n t i k ib-e n t i k ib bir necha qultum ichdi. Juvonning ahvolini ko‘rib tushunishdi, shekilli, uni raqsga taklif etayotganlar ham, chapak chalayotganlar ham dasturxonga o‘nglanishdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

HAR HOLDA, HAR QALAY, HAYTOVUR Nima bo‘lsa ham, nima bo‘lganda ham. **Harqalay, haytovur** so‘zlari so‘zlashuv tiliga xos.

H a r h o l d a, Said Ahmadning aslahaxonasida kulgining turlari juda ko‘p va adib ulardan o‘rni bilan juda yaxshi foydalanadi. O.Sharafiddinov, Xalq sevgan adib. *H a r h o l d a, siz xalqning qismatiga befarq emas edingiz?* T.Malik, Savohil. *Qurvonbibi, so‘figa achchiq qilib bo‘lsami yo o‘zining yaratilish xamirida shu narsa bormi, h a r q a l a y, fitnalikdan, ya’ni makr va firibdan xoli emas.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Quruq manman emas, h a r q a l a y, Bir shoirman o‘zimdan ogoh.* E.Vohidov, So‘z haqida so‘z. *Nima balo, biron ishdan kufr bo‘lib borayotgan ekanmi, h a y t o v u r, Yolg‘izjonning yuziga tarsaki tortib yuboribdi*. R.Rahmon, Mehr ko‘zda. *Ammo o‘sha paytlarda yurtimizda demokratiya shamollari esishi tufayli odamlar o‘zgarganmi, domlaning o‘zi o‘zgarganmi, h a y t o v u r, zohiriy ziddiyatlar paydo bo‘lgan va u jiddiyatga aylangan.* N.Rahmat, Jadid.

HAROM, MAKRUH, NOHALOL, MURDOR Shar’iy nuqtayi nazardan yeyilishi, ichilishi, foydalanilishi man etilgan, qilish mumkin bo‘lmagan. **Harom** so‘zi yeyilishi, ichilishi, foydalanilishi man qilingan narsalarga nisbatan ham, qilinishi lozim bo‘lmagan xatti-harakatga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Makruh** so‘zi ko‘proq yeyilishi va ichilishi harom qilingan narsalarga nisbatan ishlatiladi, diniy uslubga xos. **Murdor** so‘zi eskirgan, qo‘llanishi chegaralangan.

Ba’zilar “halol va harom” deganda “yeb-ichish mumkin bo‘lgan va yeb-ichish mumkin bo‘lmagan” narsani anglaydilar... yuzaki tushuncha! Aslida bu “qilish mumkin bo‘lgan va qilish mumkin bo‘lmagan” amallar degani hamdir… Bilasiz: non eng tabarruk ne’mat. Biroq nopok yo‘l bilan topilgan non ham h a r o m! O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Musichaning go‘shti h a r o m. Sababi u musulmon qush.* I.Sulton, Ozod. *Piyoladagi choyiga m a k r u h bir narsa tushganday, Sattor uni hovliga sepib tashladi.* P.Qodirov, Erk. *Taqsirga ma’qul gap aytish mushkul. Uni aytsang, m a k r u h deydi, buni aytsang, shayton vasvasasi, deydi.* T.Malik, Ov. *N o h a l o l luqmadan biron kimsa o‘sib-unmagan, baraka topmagan.* Gazetadan. *– Bundan chiqdi... – u “harom” deyishga tili bormay, gap qidirib duduqlandi. – Bundan chiqdi, n o h a l o l ekan-da, bu yuz millionlar!* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani m u r d o r dan ayurub erur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur.* A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq.

HAROMI, VALAD Shariat yo‘li bilan nikohlanmagan ota-onadan tug‘ilgan bola. **Valad** so‘zida bola ta’kidi anqlashiladi, so‘zlashuv tiliga xos, eskirgan. Bu so‘zlar haqorat mazmuni bilan ham qo‘llanadi.

– Ana shunday kunlarning birida o‘zim yolg‘iz o‘tirib, haj yo‘lida orttirgan h a r o m i mga ko‘ylakcha tikayotgan edim, – dedi hoji xola. M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha. *“Birda bo‘lmasa, birda qaltis ish ko‘rsatadiyov bu h a r o m i”, – dedi Fotih Burhonovich o‘ziga o‘zi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Ota-onasining Tayini ham yo‘q, Sut ko‘r qilgur, h a r o m i Gitler oqpadar Farzandning neligin Qayerdan bilsin.* G‘.G‘ulom, Sen yetim emassan. *Bora-bora meni mensimay qo‘yadi bu v a l a d!* M.Osim, Karvon yo‘larida. *Kuning xom olmaga qoldimi! Shunaqa ko‘zi och bo‘lasanmi, v a l a d!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

HARORAT, TAFT, HOVUR Kishi tanasining, havoning yoki boshqa narsalarning issiqlik darajasi. **Taft** so‘ziga nisbatan **harorat** so‘zida ma’noni kengroq ifodalash imkoniyati mavjud. **Taft** so‘zi so‘zlashuv, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Hovur** so‘zi, asosan, jonli narsalardan chiqadigan issiqlikka nisbatan qo‘llanadi.

Peshin mahali qarasam, qaynab-toshgan quyosh o‘zining h a r o r a t iga o‘zi chiday olmay, ishq otashidan so‘zlayotir. I.Sulton, Mening gulim. *Sening h a r o r a t ing kessin shamolni, Gullasin bodom.* Zulfiya, Saylanma. *Qorako‘z gulxan atrofida aylanar, goh alanga t a f t iga chidolmay nari ketardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Poyezd olg‘a intilgani sayin havoning t a f t i qirqilib boraverdi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Yusuf sho‘rpaxta bosishni tugatgach, kiftlarini yana pechkaning issiq t a f t iga tutganicha pardasi surilgan derazaga ko‘zlarini qadadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Qachon edi o‘sha ezgu daqiqa? Yuzimda sezaman o‘sha h o v u r ni.* Zulfiya, Saylanma. *Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko‘ngli bahorning iliq h o v u r i bilan ochila tushgan…* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

HAR QANCHA, HARCHAND, QANCHA, MING Fe’l so‘zlar oldida kelib, harakatning ko‘p marta, ammo natijasiz takrorlanishini bildiradi. **Harchand** kitobiy uslubga xos bo‘lib, nisbatan kam qo‘llanadi. **Qancha** va **ming** so‘zlari so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi.

Otam u yoqlarda nima qilar ekan? Qo‘llari sovqotib daraxt kesar? H a r q a n ch a urinsam ham tasavvurim u manzaralarni jonlantirolmaydi. I.Sulton, Otamga nimadir bo‘ldi... *Hijron dardin yengar ekan vaqt, U h a r q a n ch a bo‘lmasin og‘ir. Yig‘lab-yig‘lab Orzu g‘amin ham Unutdilar qishloqda oxir.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Surishtirib kelsa, qishloqda deyarli hamma bir-biriga qarindosh chiqadi. Ammo h a r ch a n d urinmasinlar, Qodir kalamush bilan Egam bechorani bog‘lamoq iloji yo‘q ekan. Chunki biri asli tog‘lik, birining tagi dashtdan.* E.A’zam, Guli-guli. *Azaga kelgan xotin rostdanmi yo yolg‘ondanmi h a r ch a n d yig‘lamasin, oqibat o‘zining tashvishlariga ko‘chadi.* T.Malik, Shaytanat. *Uni o‘zgartirish uchun q a n ch a bahona to‘qimagin, bekor! Sen o‘z-o‘zingni aldagan bo‘p chiqasan oqibat.* U.Hamdam, Muvozanat. *Mehmonlar kechga tomon qaytib kelishdi. Eshik berk. Qo‘ng‘iroq tugmasini q a n ch a bosishmasin, ichkaridan sado chiq-*

madi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Iskandar… maktabdan isitmalab keldi. Onasi m i ng zo‘rlamasin, bir piyola choy ichdi-yu, xuddi mana shu karavotga cho‘zildi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *M i n g urinma, qon buzilgach, past hamisha past ekan, Tuyg‘ularim bilan yashagim kelar*. D.G‘aniyeva, Tuyg‘ular.

HAVO, KUN Atmosferaning ahvoli. **Havo** so‘zi atmosferaning sutkaning yorug‘ va qorong‘i qismlaridagi holatini ifodalaydi va nutqning barcha uslublarida qo‘llanadi. **Kun** so‘ziga, asosan, atmosferaning sutkaning yorug‘ qismidagi holatini ifodalash xos, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslublarda, qisman publitsistik uslubda ishlatiladi.

Yangi uyg‘ongan, yam-yashil bargchalar bilan yasangan daraxtlar quyosh nurida cho‘miladi. H a v o yorqin va tiniq... Oybek, Tanlangan asarlar. *...bunday yuksaklikdagi ellik besh daraja sovuqda h a v o sovib, quyun shiddati o‘z-o‘zidan pasayib ketar edi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Allaqachon bahor kelib, k u nlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi.* O‘.Hoshimov, Urushning so‘nggi qurboni. *Oftob charaqlab turar, k u n iliq, hatto biroz issiq, hali bayram libosini yig‘ishtirmagan ko‘chalar, xiyobonlar, maydonlarda erkaklar bitta kostyum, ayollar yengil jemperlarda yurishar ...edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar.

HAYDAMOQ I**, QUVMOQ, QUVLAMOQ** Kishining xohish-irodasiga qarshi egallab turgan joyidan ketkazmoq. **Haydamoq** so‘zining ma’no ifodalash doirasi keng va uslubiy betaraf. **Quvmoq** va **quvlamoq** so‘zlarining ma’nosida haydayotgan kishining ta’siri **haydamoq** so‘zidagidan kuchli ifodalanadi, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanadi. **Quvlamoq** so‘zida **quvmoq**qa nisbatan ma’no ta’kidi ortiq.

Juda erka kasal chiqib qoldingiz. Serqalampir achchiq sho‘rva ichib, o‘ralib yotsa tuzalib ketadigan narsa-ku, bu. Bugun yotib bir uxlang, ertaga h a y d alasiz. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Binafshaga xuddi dadasini davradan h a y d a yotganday tuyuladi. Og‘rindi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Bozorlarda Tanbal soliqchilari uchrab qolsa, odamlar ularni tayoq bilan urib, shahardan q u v dilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Devona Umidaning yonidan o‘tib ketdi-yu, ammo tezda iziga qaytdi. Chug‘urlashayotgan bolalarni po‘pisa qilib, q u vgan bo‘ldi-da, mehmon qiz qarshisida cho‘nqayib, tirjaydi.* T.Malik, Devona. *Etikdo‘z shu ketganicha badar ketgan va oradan yuz yil o‘tgachgina vataniga qaytib kelgan. Ammo odamlar uni yana oldilariga solib q u v l a shgan.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *O‘z baxtini o‘zi kaltak olib q u v l a gan xotin o‘zini o‘zi tahqirlab achchiq-achchiq yig‘lardi.* S.Ahmad, Alla.

HAYDAMOQ II**, BOSHQARMOQ, MINMOQ** Biron-bir transportni yurgizmoq, u yoki bu ulovni harakatga keltirmoq. **Boshqarmoq** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Minmoq** so‘zi mazkur ma’noda shevaga oid.

...Aytdim-ku, maktabni bitirdi, traktor h a y d a di, bola-chaqalik bo‘ldi, men hayotda uloqib ketdim, u qishlog‘idan chiqmadi... A.A’zam, Quroq. *Bir necha daqiqadan so‘ng Sayfi mashinasini h a y d a b chiqdi.* T.Malik, Shaytanat. *Suxsura ko‘zyoshlarini tiyolmas, unsiz yig‘lab mashinani arang b o sh q a r ib borardi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *...Agar yaxshilab razm solganingda, unda mashinalarni ham qoshsiz odamlar b o sh q a r ib borayotganini ko‘rarding.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Mashinani ko‘z-ko‘z qilib m i n ib borishga toqati yo‘q edi, ammo nachora, Asadbekning xotini avtobusda ketmaydi-ku?* T.Malik, Shaytanat. *Farzandlar hayotga beparvo qaraydi... Farzandlar o‘zlari m i n ayotgan mashinaga o‘xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo‘lmay qolyapti.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi.

HAYRATLI, HAYRATLANARLI, HAYRATBAXSH, HAYRATOMUZ, HAYRATANGIZ Sabab-mohiyatini yetarli darajada birdaniga anglab yetolmay, ortiq qiziqsinish, ajablanish holati. Qatordagi so‘zlar badiiy uslubga xoslanganligi, poetik bo‘yoqdorligi, nutqda kam qo‘llanishi bilan ajralib turadi, bosh so‘zdan **hayratangiz** so‘zigacha hayrat ifodasi darajama daraja oshib boradi. **Hayratlanarli** so‘zi publitsistik uslubda ham faol qo‘llanadi. **Hayratbaxsh**, **hayratangiz** so‘zlarida hayrat baxsh etish ta’kidi asosdan ochiq anglashilib turadi.

Mansurning hayajoni shoshqin va h a y r a t l i, nazdida, direktor o‘rinbosarining-u o‘zining-da halidan beri qiziqtirgan savoliga qariyaning jo‘ngina misoli eng jo‘yali javob bo‘lganday edi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Eng h a y r a t l i joyi – oppoq narsalar... mayda-mayda bo‘ldi. Do‘mboq-do‘mboq bo‘ldi!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Umuman, bu maxluqning paydo bo‘lishi naqadar hayratangiz va mo‘jizakor bo‘lsa, goh ko‘rinib-ko‘rinmasligi ham shu tarz h a y r a t l a n a r l i edi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *O‘rmonsiz diyorning o‘g‘illari uchun son-sanoqsiz daraxtlar manzarasi, ayniqsa, maroqli, go‘zal, h a y r a t b a x sh tuyuldi.* Oybek, Quyosh qoraymas. *Ularga daqiqa sayin yaqinlashib kelayotgan Avtobolaning h a y r a t o m u z turqi-tarovati aniq ko‘zga chalina boshlagach, Pufak momoning birdan ensasi qotdi.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Otlari esa h a y r a t o m u z pakana, xachirga o‘xshar edi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Shundan so‘ng, asrlar oralig‘ida, har zamon-har zamonda ba’zi kishilarning shamolli kechada yurtni kezayotgan g‘alati lashkarni ko‘rganliklari haqidagi bir-biridan qo‘rqinchli va h a y r a t a ng i z afsonalar paydo bo‘la boshladi.* I.Sulton, Tilsim lashkari yoxud Muqanna. *Xuddi shu o‘rinda tashqarining – o‘zga odamlarning h a y r a t a ng i z qarashlariga, orqavarotdan kulib mazax qilishlariga duch kelardi.* U.Hamdam, Muvozanat.

HAYRON, HAYRONA, LOL, HANG-MANG, HAYRON-U LOL, LOL-U HAYRON Ro‘y bergan u yoki bu voqea-hodisadan ajablangan. **Hayron** so‘zida “ajablanganlik” ma’nosi bilan birga “ikkilanganlik” ifodasi ham bor.

Hayrona badiiy uslubga xos, asosan, she'riyatda qo'llanadi. **Lol** so'zida "ikkilanganlik" ma'nosi kuchsizlanib, "ajablanganlik" holati ustuvorlashadi. **Hang-mang** so'zida ma'no obrazli ifoda topadi, oddiy so'zlashuvda faol qo'llanadi. **Hayron-u lol** so'zida **hayron** va **lol** so'zlariga nisbatan ajablanganlik holati kuchli ifoda topadi. **Lol-u hayron** so'zida bu jihat yanada kuchayadi. Keyingi ikki so'z kitobiy uslubga xos.

Vahobjon uzr aytsa ham qiz qo'ymadi. Choy quyib uzatdi. Bola bechora ichishni ham, ichmaslikni ham bilmay h a y r o n edi. S.Ahmad, Tog' afsonasi. *Bu hol o'sha mahallalik bir keksa novvoy qazo qilgan kuni ma'lum bo'ladi. Hamma h a y r o n. Aql shoshadigan hodisa!* E.A'zam, Guli-guli. *Hajringda fig'onim ko'p, jonona, tong otkuncha, Orom-u qarorim yo'q hijrona tong otkuncha, Majnun kabi ishqingda h a y r o n a tong otkuncha, Hijron o'tig'a bag'rim so'zona tong otkuncha, O'rtab yuragim, bag'rim biryona tong otkuncha*. Dilafgor, Haziniy g'azaliga muxammas. *"Sayding qo'yaber sayyod, sayyora ekan mendek", O'z dilida dardi bor, ovvora ekan mendek. Bir dardin so'rab dilin ayladim ming bir pora, Bu hayot ne ekan deb, h a y r o n a ekan mendek*. R.Parfi, Sayyoraga. *– Amaki, vergul zo'rmi, nuqtami? – deb so'raydi bo'lajak adib yozuvidan bosh ko'tarib. Qanchalab kitob bitib, umr bo'yi muharrirlik qilgan odam bolaning shugina savolidan l o l, o'ylanib qoladi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Zahro ham buni bilardi. Bilgani uchun ham Alimqulning quvligi qarshisida l o l edi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Pakana indamadi. H a ng-m a ng edi.* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. *Gulasal ham h a ng-m a ng, taxtaday qotib qoldi.* A.Ayizov, Polvon yig'lagan tun. *Umrida tirik professorni yaqindan ko'rmagan uchrashuv ahli xuddi hozirgina fazodan tushib, yerga qo'ngan kosmonavtga ro'para kelib qolgandek h a y r o n-u l o l qarab turardilar.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Lekin men bir narsadan h a y r o n-u l o l man: shuncha vaqtdan beri Sultonmurod akamning kimligini bilmas ekanman!* M.Mansur, Judolik diyori. *Men na qilay, harna qilsa, qildi taqdir, Ikki nuqta aro jismim muallaqdir. Ikki yoqqa boqar bo'ldim l o l-u h a y r o n: Birisining ismi – zamin, biri – osmon.* I.Mirzo, Men. *Ishqingning yo'lida yuribman sarson, Chorasin topolmay men l o l-u h a y r o n...* O.Maqsud, Jonim fido.

HAYRONLIK, HAYRONALIK, HAYRAT, TAAJJUB Kishining biror voqea-hodisadan ajablangan, yuz berish sababini bilmay ikkilangan holati. **Hayronalik** so'zida poetik bo'yoqdorlik kuchli, badiiy uslubga xos, kitobiy. **Hayrat** va **taajjub** so'zlarida kitobiy uslubga xoslik mavjud, bu so'zlar ajablanganlik tushunchasini **hayronlik** so'ziga nisbatan kuchliroq ifodalaydi. **Taajjub** so'zining qo'llanish darajasi **hayrat** so'zining shunday belgisidan birmuncha kamroq.

Qog'oz parchasiga ko'z yugurtirib Farhodning battar h a y r o n l i g i ortdi: notanish nomer, allaqanday Gulya Lagutina. E.A'zam, Shovqin. *Zohid juvon-*

ning savol nazariga javob berishga ojiz, chunki uning h a y r o n l i g i ham ayolnikidan kam emasdi. T.Malik, Shaytanat. *Ko‘rsam kima arz aylab, mahvash, sani dardingni, Har yerda davo so‘rmoq h a y r o n a l i g‘ i mdandir...* Hamza, Parvonalig‘imdandir. *Bir lahzalik h a y r o n a l i k ichida bu odam meni aldamayaptimi, degan shubhaga ham bordim.* I.Abdiyev, Arslon yelkasidagi xazina. *Ko‘zini keng-keng ochib, mehmonga qaradi. Bu qarashda ham h a y r a t bor edi, ham qo‘rquv...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *H a y r a t dan esim og‘ib qolayozdi! Ko‘zimga ishonmay, qayta-qayta o‘qidim.* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Musulmonqul t a a j j u b ichida o‘ziga Xudoyor tomonidan uzatilg‘an nomani oldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xaloyiq t a a j j u b va ehtirom ila bir-biriga shuni so‘zlar edi.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

HAZILKASH, HAZILVON, TEGISHQOQ Hazil-huzil qilishni yaxshi ko‘radigan. **Hazilkash** so‘zining qo‘llanish doirasi chegaralanmagan. **Hazilvon** bu ma’noda badiiy uslubda qo‘llanadi, birmuncha eskirgan, kamfaol so‘zdir. **Tegishqoq** so‘zidan kinoya, kesatiq orqali hazillashadigan, tegajaklik qilaveradigan ma’no ta’kidi mavjud, so‘zlashuv uslubiga xos.

Matluba achchiqlangan bo‘lib, yuzini chetga burdi; lekin bu h a z i l k a sh, xushchaqchaq yigitdan achchiqlanolmasligini, hatto qovog‘ini solishga ham qurbi yetmasligini sezib, beixtiyor jilmaydi. O.Yoqubov, Matluba. *Do‘stlarimni hayron qoldirar Ba’zan ishqiy she’rlar yozganim. H a z i l k a sh lar qo‘ymasdan so‘rar: – Kuylaganing qaysi nozanin?* E.Vohidov, Ishq savdosi. *O‘rtoqlaringizdan bittasi h a z i l v o n ekan, toza kuldirdi. Sizga xat yozgan ham o‘sha...* Mirmuhsin, Umid. *Ular o‘lgudek chistonchi-h a z i l v o n bo‘lganlaridan hozir ham allaqaysi tog‘amiz birovga yaxshilik qilaman deb, qovun tushirib qo‘yganlarini kula-kula hikoya etar edilar.* M.Mansur, Judolik diyori. *– Rostdan ja t e g i sh q o q ekansiz, a? – Men jiddiy gapiryapman. – Ismimni aytmasam-chi? – Menga shugina himmatniyam ravo ko‘rmaysizmi?* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Bu yigit juda t e g i sh q o q bo‘lib, bu gapni ham uning tilini qichitish uchun aytgan bo‘lsa kerak.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

HAZILLASHMOQ, HAZIL QILMOQ, TEGISHMOQ, O‘YNASHMOQ Hazil-huzil qabilidagi gap-so‘z aytmoq yoki hazilomuz biror xatti-harakat qilmoq. **Tegishmoq** so‘zida “kinoyali, kesatiqli gap-so‘z qilmoq” ma’nosi ustuvor va bunday gap-so‘zdan kishi doim og‘rinadi, oddiy so‘zlashuvda faol. **O‘ynashmoq** so‘zining mazkur ma’nosida oxiri voy bo‘lisi mumkin bo‘lgan hazil ta’kidi ham bor.

– Hamma gapimgayam ishonaverasanmi, h a z i l l a sh dim-ku? – dedim-da, har kungi ishimga-tashvishimga yo‘l oldim. I.Sulton, Bo‘ri. *H a z i l l a sh dim, suyuqlik qildim. Indamaganidan keyin bir shama qilib ko‘ray-chi, dedim.* A.Qahhor, Dahshat. *Olimjon. Siz yo ja nozik h a z i l q i l yapsiz-u, men tushunmayapman, yo jinni-pinni bo‘p qolgansiz.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Aftidan, u rah-*

bar xodim, albatta, jiddiy gapirishi shart, kulish, h a z i l q i l ish rahbar obro‘sini to‘kadi, deb o‘ylasa kerak… S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Sayfullosi tushmagur “sho‘x” bola emasmi, yozlik kinoning yonida bir juvonga erining oldida t e g i sh ipti.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *– Xotinini undan qizg‘anmaydimi? – Avvallari qizg‘anardi. Hozir bir o‘g‘li, bir qizi bor. Nu’monjonga quda bo‘lamiz, deb t e g i sh gan i-t e g i sh gan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bu isyonni, bu nifoqni Chiqarmoq ne zohirga. Siyosat-la o‘ y n a sh moqni Kim qo‘yibdi shoirga.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Xatni shu yaramas yozgani aniq. Ammo unga qattiq gapirib bo‘lmaydi. O‘lgisi kelgan odam u bilan o‘ y n a sh adi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

HECH, ASTI, SIRA, ASLO, MUTLAQO, ZINHOR, HARGIZ, BUTUNLAY, TAQIR, ZARRACHA, ZIG‘IRCHA, TIRNOQCHA Bu so‘zlar gap tarkibida kelib, undagi inkor ma’nosini kuchaytiradi. **Aslo** so‘ziga ko‘proq kitobiylik xos bo‘lib, rasmiy, publitsistik uslublarda keng qo‘llanadi. **Aslo** so‘zida inkor ma’nosi **hech**, **asti, sira** so‘zlariga nisbatan kuchli ifodalanadi. **Mutlaqo, zinhor, hargiz** so‘zlari inkor ma’nosiga **aslo** so‘zidagidan ko‘ra kuchliroq ta’kid qo‘shadi, ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Hargiz** so‘zi badiiy uslubda ko‘p qo‘llanadi. **Butunlay** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos. **Zarracha, zig‘ircha, tirnoqcha** so‘zlarida inkor ma’nosiga miqdoriy belgi qo‘shiladi. **Zarracha** badiiy uslubda, **zig‘ircha** va **tirnoqcha** esa so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi.

Noqulay ahvolda iljayib, unga razm soldim. H e ch o‘zgarmabdi. O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *...Katta Farg‘ona kanalini qurib bitirdilar. H e ch shubha yo‘qki, bu xalq jasoratining juda ajoyib va benihoya nodir ko‘rinishi bo‘lgan edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Vatan ishqida yongan qalb, Bilingki, a s t i xor bo‘lmas…* E.Vohidov, Ishq savdosi. *– Umr yonayotgan shamga o‘xsharkan. Bir puflasa o‘charkan... – dedi Abdulhamid. – Hay-hay, bo‘tam, a s t i bu gapni tilga olmang. Bu umrini yashab bo‘lgan keksalarga atab aytilgan, – dedi Muhiddin ota.* T.Malik, Shaytanat. *Undoq desam, bundoq dedi, bundoq desam, undoq dedi. S i r a gapimga ko‘nmaydi. Janjallashib raisning oldiga bordik.* S.Ahmad, Sobiq. *Bog‘ xayoli Yusufni s i r a tinch qo‘ymasdi...* U.Hamdam, Muvozanat. *Farhod dunyoda kimdan kutgan bo‘lsa kutgandirki, shu odamdan biron xat-xabar olishni, yana-tag‘in deng, bunday hayratomuz xushxabarni a s l o xayoliga keltirmagan.* E.A’zam, Olis shahar, olis kechmishlar. *Onam go‘rida tinch yotsin, desanglar Qumrini a s l o yolg‘izlatib qo‘ymanglar.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Uyquning-ku rasvo bo‘lgani bor gap, biroq evaziga m u t l a q o kutilmagan, jon-jon demoqqa arzigulik bunday tashrif va taklif!* E.A’zam, Olis shahar, olis kechmishlar. *Umrida birovga bir tiyin bermagan. Faqat olgan. Qaytib berish degan tushuncha unda m u t l a q o bo‘lganmas.* S.Ahmad, G‘ildirak. *“...Agarda qaytmasam shu mendan yodgor”, Deding-da ko‘rindi ko‘zlaringda nam. “Agar sevar bo‘lsang, unutma z i n h o r...” Uzun kipriklarning ustida shabnam.* H.Olimjon,

Tanlangan asarlar. *Sen, azamatim, arvoh ko‘ribsan, undan harf o‘rganganing yaxshi, savob bo‘ladi, uni unutmagin, takrorlab turgin, lekin z i n-h o r arvoh ko‘rganingni biron kishiga ayta ko‘rma.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Izlamang h a r g i z nishonim, topmagaysiz zarra ham, El netib topg‘ay menikim, men o‘zimni topmasam...* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Aqlsiz odamlar bilan h a r g i z do‘st bo‘lmagil.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Birovlarning yer-u zarlarini bosib olib, o‘lja hisobiga yashash, kuchga kirish – tamaddunning quyi bosqichiga xos bo‘lsa-da, afsuski, odamzod ibtidoiy bu usuldan haligacha b u t u n-l a y voz kecholmay kelyapti.* U.Hamdam, Muvozanat. *Agar odamda bosh bo‘lsa, og‘rib turgani ham ma’qul. Ba’zilariniki b u t u n l a y og‘rimaydi... Ular boshlari borligini ham unutib qo‘yishsa kerak...* T.Malik, Davron. *– Ko‘z tikib turgan yerlarimiz eski ariqdan suv icholmaydi, yangi ariqdan t a q i r icholmaydi, yana azalgiday qaqrab yotaveradi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Mumkinmi, aytgin axir? Bu ish yaramas t a q i r.* Q.Muhammadiy. *Mingboshi chiday olmadi: – Taqsir to‘ra, men hayronman: haligi qamoqqa olinadiganlarda z a r r a ch a gunoh yo‘q-ku.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Begimqul bilan Nilufar... bir mahallar choyxona bo‘lgan joyning skameykasida qo‘l ushlashib o‘tirishar, Begimqul yo‘lovchilarga z i g‘ i r ch a e’tibor bermay, qizni bag‘riga bosib o‘pmoqchi bo‘lardi...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Gapimni teskari tushunmanglar... Otamdan men hech qachon t i r n o q ch a yomonlik ko‘rmaganman.* S.Ahmad, Kuyov. *Ochiqko‘ngil, birovga t i r n o q ch a ham ozor bermaydigan… bu olim yigitni qattiq hurmat qilardim.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

HID I, IS, BO‘Y, IFOR Har bir narsa va moddaning burunga ta’sir etish xossasi. **Is** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. **Bo‘y** so‘zida kishiga xush yoqadiganlik ma’no ta’kidi mavjud, asosan, badiiy nutqqa xos. **Ifor** badiiy uslubga xos.

Shamol tinganidanmi yo havoga ananas isi o‘rnashib qolganidanmi, nihoyatda o‘tkir yoqimli h i d dimog‘imga urildi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Abdulla muzdek beqasam ko‘rpacha ustiga cho‘zildi. Yumshoq par yostiqning rayhon h i d ini eslatuvchi yengil, yoqimli h i d i gup etib dimog‘iga urildi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *So‘rma mendan bo‘saning ismin, Nomi yo‘qdir senga aytmoqqa. U keltirib atirgul i s in, Gulbarg bo‘lib qo‘nar dudoqqa.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *– Voy, munchayam yaxshi! – Muattar xola “polskiy” sovunni huzur qilib hidlaydi. Bahri xola ham hidlayotganida Muattar xoladan dashnom eshitadi. – I s bilmaysiz-ku, hidlab nimaning farqiga bordingiz...* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Salqin sohillardan esgan shabboda Goh olib kelardi gullar b o‘ y ini.* Zulfiya, Saylanma. *O‘sha-o‘sha, bizga beshikdan Tanish xush b o‘ y taralar har yon.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Yog‘iladi mayin sas, sado, yog‘ar, yog‘ar shomurut qori, naqadar xush jodugar navo, ozod, qora*

sochlar i f o r i. Sh.Rahmon, Bir kecha yodi. *Nam tuproq isi, ko‘klab qolgan maysalar i f o r i dimoqlarga xush uriladi*. L.Bo‘rixon, Tokchadagi tumor.

HID II**, IS** Biror narsa, hodisa yoki holatning belgisi, u yoki bu hodisaning daragi. **Is** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubiga xoslanganligi bilan ajralib turadi.

Buning har bir varag‘idan shaxsiy g‘araz h i d i keladi. A.Qahhor, Sarob. *Janjalning h i d ini sezgan Sarvi xola g‘udranib, stol ustiga dasturxon yoza boshladi.* “Mushtum”. *Chog‘imda, tuhmatning i s i keldiyov bu ishdan.* S.Ahmad, Hukm. *– Juda soz, biroq siyosiy, tarbiyaviy ishning i s i ham yo‘q, – dedi Sayramov.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.

HIDLAMOQ, ISKAMOQ U yoki bu narsaning hidini bilish uchun hidni burunga tortmoq. **Iskamoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

Gulya masalani ko‘ndalang qo‘ydi: – Yo meni deng, yo tilanchi onangizni! Ketaman! Dadamnikiga ketaman! Onam meni ko‘mirning sassig‘ini h i d l a sin, deb tug‘gan emas. O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Hali aytuvdim-ku, buvimning sochidan qatiqning hidi keladi deb... O‘sha hid-chi, buvim ketgandan keyin tushlarimga kirgan. Ertaga yana ketib qolsa, tushimga kirsin deb to‘yib-to‘yib h i d l adim.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Yo‘l chetidagi makkapoyalar orasidan juda xunuk, badbashara bir kuchuk chiqib keldi-da, yer i s k a b, yemish izlay boshladi.* I.Sulton, Ozod. *Kampir uning qiliqlariga andarmon bo‘lib yo‘l yurganini sezmaydi. ...Yo‘lda uchragan itlar bilan i s k a shib, quvlashmachoq o‘ynaydi.* S.Ahmad, Qorako‘z Majnun.

HILPIRAMOQ, HILPILLAMOQ, HILP-HILP QILMOQ (ETMOQ), YELPIRAMOQ Yengil shamol ta’sirida silkinib tebranmoq, yelpingansimon holatda turmoq. **Hilpillamoq** oddiy so‘zlashuvda, **hilp-hilp qilmoq (etmoq)** kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Yelpiramoq** so‘zi shevaga oid.

Samoviy bu otlarning uzun yollari shamolda h i l p i r a b, adoqsiz tiniq kengliklarda rohatlanib chopishayotgandek tuyulardi. I.Sulton, Ozod. *...pardani deraza tirqishidan oqib kirayotgan shabada ohista h i l p i r a tar, pol tagida chigirtkalar biri qo‘yib, biri olib tinmay hushtak chalardi...* N.Eshonqul, Bevaqt chalingan bong. *Oshxonaning to‘rida h i l p i l l a b turgan bayroqqa ko‘zimiz tushdi, bu – yoshlarning g‘oliblik nishoni ekan.* M.Jo‘ra, Quyoshdan nur emganlar. *Qum aro unib chiqqan-u ipday holida sarg‘ayib-quvragan giyohlar olov epkinida h i l p i l l a ydi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Shunda beshikyopg‘ich shamolda h i l p-h i l p etdi. H i l p-h i l p e t a-e t a beshik ketilab uchib tushdi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Ochiq yuzli qizlar o‘tadi; chaqchaqlashib o‘tadi, qora sochlari yellarda y e l p i r a b o‘tadi.* Mirtemir, Oynisa. *Y e l p i r a tib o‘lkada botirlik bayrog‘ini, Yaratasiz hayotning qora oltin tog‘ini.* Mirtemir, Konchi chirog‘i.

HISOBLAMOQ, BILMOQ, QARAMOQ, KO‘RMOQ, SANAMOQ, TUSHUNMOQ, ATAMOQ Biror narsa-hodisa haqida muayyan o‘y-fikrda,

hukm-mulohazada bo‘lmoq. **Bilmoq** so‘zida “o‘ylab bilganlik” tushunchasi birmuncha aniq ifoda topadi, kitobiy uslubga xos. **Qaramoq, ko‘rmoq, sanamoq, tushunmoq** so‘zlari “deb bilmoq” ma’nosi uzvini ochiq ifodalaydi va yordamchi so‘z vazifasida keladi. Ko‘pincha bu fe’llar bilan undan oldingi so‘z orasida *deb* so‘zi ishlatiladi. **Ko‘rmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvga, qolgan so‘zlar kitobiy uslubga xos. **Bilmoq, sanamoq** so‘zlari kitobiy uslubda ko‘p ishlatiladi.

Operatsiya paytida xirurg eng yaqin odamini ham begona h i s o b l a ydi. O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor. *...Lekin sizga aytmasdan ketib qolganim uchun o‘zimni aybdor h i s o b l a yman. Shuning uchun o‘tinib so‘rayman, meni kechiring, Gulchehra.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Abdulla Qahhor: – Men bugun lavozimimdan voz kechaman. Umuman, bu odamni soyuz a’zoligiga noloyiq kimsa deb b i l aman.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *...Gulchehra uni qo‘yib yubormadi. – Baribir, o‘rtoq bo‘lib qolamiz-a? Men seni o‘zimning eng yaqin do‘stim deb b i l aman.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Endilikda “munglug‘”, “mushtipar” singari so‘zlar qovushmay qolgan, bu xotinlardan hech biri qilayotgan ishiga, kasbi-koriga sababi tirikchilik deb q a r a maydi.* A.Qahhor, Xotinlar. *... “Shaytanat” olami – yaqin o‘tmishdagi bizning olamimiz, bizning voqeligimiz, bu olamni bir tirik vujud deb q a r a ydigan bo‘lsak, shu vujuddagi og‘riqlar, dard-xastaliklar bizning dard-u alamlarimiz.* T.Malik, Shaytanat. *Kampir Fotimaning so‘zlariga qarshi lom-mim deyolmay qoldi: haqiqatan, o‘zi vaqtida o‘qiyolmay qolib, hayotida nima kamlik, qanday qiyinchilik tortgan bo‘lsa, hammasini ilmsizlikdan k o‘ r gan, zehni o‘tkir Zuhraning ilmga tezroq to‘lishini ko‘zlab, uning maktabdagi qilday yutug‘i oldida uydagi filday gunohini payqamagan edi.* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Yo‘lchi Unsinni eshik oldida to‘xtatdi: – Singlim, o‘z uyingday k o‘ r, tortinma.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shariatpanoh musulmonlar payg‘ambar yoshidan nariyog‘ini harom s a n a shadi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *To‘ti so‘ylasa ham qanchalik biyron, Odam emasligi barchaga ayon. Odamning odamlik fazli bo‘lmasa, So‘zlashiga qarab s a n a ma inson.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *– Xo‘p, – dedi Samandar suhbatga yakun yasash uchun. Bazarov esa buni rizolik alomati deb t u sh u n ib, yelkasiga urib qo‘ydi...* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Shirin Xisravga xotin bo‘lishni, uning shoh degan zo‘r ovozasiga qaramasdan, o‘ziga chidab bo‘lmas katta bir xo‘rlik deb t u sh u n adi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Chindan ham, Zelixon biz jinoyatchi deb a t a ydigan odamlar olamining past-u balandini yaxshi bilardi.* T.Malik, Shaytanat. *Shoir bo‘lsam bir kun elga munosib, Meni shoirim deb a t a sa xalqim...* E.Vohidov, Umrim daryosi.

HISSA, ULUSH, TEGISH, TAN, PAY Biror narsaning kimgadir (nimagadir) oid, unga qarashli qismi. **Tegish** so‘zi so‘zlashuv uslubida qo‘llanishga xoslangan. **Tan** so‘zining qo‘llanish doirasi chegaralangan, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslublarda ishlatiladi, uning sinonimik qatordagi ma’nosi matn doirasida-

gina aniqlashadi. **Pay**, asosan, iqtisodiyot sohasiga oid nutq shakllarida uchraydi, kitobiy xoslangan.

Ilgariga, hech bo‘lmasa, har kimga o‘z h i s s a si tushadi, degan umid bor edi. Endi uch xotinga bir hovuchdan yer, qolgan hammasi Zebixonga… Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...Madrasa vaqfidan kutubxonador uchun ham h i s s a tayin qilganlar.* S.Ayniy, Esdaliklar. *Bazada bunaqa omborlardan o‘n yettita. Hammasi ham kuniga bitta-ikkita boyagidaqa ishlarni qilib turishadi. Begijon o‘z u l u sh ini olmay bunaqa mollarni chiqarmaydi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Alomat. Bugun paxta dalalariga qarar ekanmiz, yosh-u qari etak tutib, ulkan xirmonga o‘z u l u shlarini qo‘shish ishtiyoqi bilan javlon urayotganiga qoyil qolmay ilojing yo‘q...* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Do‘stlikning shartiga rioya bo‘lsin, Hech g‘ubor tushmasin dil ko‘zgusiga. Kamtar u l u sh imiz, ayting, qo‘yilsin Jahon bozorining tarozusiga.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Somsapazlik qilib, tinchgina yashab yuruvdim. Bir kuni tandirni ertaroq qoqlab, xo‘jaynimdan o‘z t e g i sh imni oldim-u, kayfiyat vajang bo‘lib, uyga jo‘nadim.* A.Obidjon, To‘g‘on Takayevning qoshiqbozi. *Kechki ovqatdan keyin opam chuvish uchun opachalarimga ikki, ukam va singlimga bir changaldan paxta beradi. Menga t e g i sh ni Enam belgilaydi. O‘sha oqshom t e g i sh imni tezda chuvib, aslida paxtani shundayicha Enamga topshirib, o‘rnimga kirib yotib olgandim.* B.Qobul, Ena shamol. *Endi siz bilmagan narsa shuki, teng sherik emasmiz. Men to‘rtdan bir t a n.* A.Qahhor, Asarlar. *– Bo‘pti, Davron, ziyofat menga t a n, – dedim. – Hammasini o‘zim pishiraman.* P.Qodirov, Qadrim.

HIYLA, NAYRANG, MAKR, FIRIB, DASISA Aldov, yolg‘ondan iborat xatti-harakat. **Hiyla** so‘ziga nisbatan **nayrang** so‘zida “ayyorona harakat” ta’kidi kuchli. Mazkur ma’no **makr** so‘zida yana kuchli, ko‘proq ayol kishi tomonidan qilinadigan shunday xatti-harakatga nisbatan qo‘llanadi. **Nayrang, makr, firib** so‘zlari, asosan, badiiy, qisman publitsistik uslubda uchraydi. **Firib** so‘zi kam qo‘llanadi. **Dasisa** so‘zi eskirgan.

Yashash uchun kurash borayotgan bo‘lsa, odatda, kuch bilan yengolmagan odamlar h i y l a bilan yengadilar: bu – juda tabiiy narsa. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Habib Sattorov toifasidagi odamlar uchun bu aldamchi dunyoning h i y l a lari – odatiy hol. Ular bu h i y l a larga bas kela olmasliklarini biladilar.* T.Malik, Shaytanat. *...Nasrullo Oxundiy saylov natijasini dazmoldan chiqqandek sip-silliq qilib qo‘yardi. Bu gal uning n a y r a ng lari ish bermadi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Bu sohada turli n a y r a ng larga duch kelaverib pishib ketgan mayor shogirdining gaplarini diqqat bilan eshitib, sukutga toldi.* T.Malik, Shaytanat. *E voh, ayol g‘azabidan ham, M a k r idan ham asra, xudoyim! Yondirsa-da ichini alam, Savol so‘rar yana muloyim...* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Qurvonbibi, so‘figa achchiq qilib bo‘lsami yo o‘zining yaratilish xamirida shu narsa bormi, har qalay, fitnalikdan, ya’ni m a k r va f i r i b dan xoli emas.*

Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shabixun mudhish chopqin bilan boshlandi. F i r i b i fosh bo‘lganini payqagan g‘anim orqaga yuz tutdi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Qosim qaroqchi titrab ketdi. – Axir bular savdogarlar, odamlarni f i r i b bilan bor bud-shudini qoqib oladi!* Z.A’lam, Afandining qirq bir pashshasi. *– Men buni payqadim, – dedi usta Alim kulib,– shu yo‘sinda makkor Homidning iblisona d a s i s a si bir oilani tamom ishdan chiqarayozg‘ankim, bu to‘g‘rida, ayniqsa, sizga so‘zlash ortiqchadir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *...mingboshining hayron bo‘lib o‘ziga tikilganini ko‘rgach, Qumariqda ko‘rib kelgan d a s i s a larni so‘zlab berdi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

HOLBUKI, VAHOLANKI Teng huquqli, lekin zid mazmunli gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladigan bog‘lovchi. **Vaholanki** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Deysan, mol-u mulk yo‘q sizda ziyoda, H o l b u k i, shoirsiz, Vatanda nomdor. A.Oripov, Shoirning o‘g‘li. *H o l b u k i, o‘shanda to‘kilgan obro‘yi xususida tashvish tortmog‘iga hech bir asos yo‘q – ovloq dashtning ovloq puchmog‘ida uyushtirilgan bu kurashda kim yiqildi-yu, kim yiqitdi – chetdan biror ko‘z ko‘rgani yo‘q edi.* N.Norqobilov, Kurash.*Uchyong‘oq deganimda, sen faqat bitta yong‘oqni ko‘rganingni aytding. V a h o l a n k i, u yerda bir mag‘izdan uchta daraxt unib chiqqan edi.* I.Sulton, Ozod. *V a h o l a n k i, aslini olganda, men o‘sha hukm bilan jamiyatga, davlatga juda katta foyda keltirdim, Davronjon akajon, juda katta foyda!* A.Yo‘ldosh, Bozor.

HOMILADOR, IKKIQAT, BO‘G‘OZ, YUKLI, OG‘IROYOQ, OG‘IRBO‘Y, DUJON Qornida homilasi bor, farzand kutayotgan. **Ikkiqat** so‘zlashuv uslubiga xos, odamga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Bo‘g‘oz**, asosan, hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi, odamga nisbatan ishlatilganda, dag‘al ifoda oladi. **Yukli** so‘zi ham oddiy nutqqa xos so‘z, undagi ma’no pardaliroq, yumshoqroq tarzda ifodalanadi. **Yukli, og‘iroyoq** so‘zlarida mazkur ma’no evfemik, **bo‘g‘oz** so‘zida disfemik ifoda topgan. **Og‘irbo‘y, dujon** shevalarda qo‘llanadi.

Mening hali niyatlarim ko‘p, aka... U yoqda xotinim h o m i l a d o r. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *U h o m i l a d o r xotinga samovar ko‘tartirib, qarab o‘tirgan pochchasidan o‘pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi*. A.Qahhor, Adabiyot muallimi. *Boshqa bir she’rida shaxs i k k i q a t xotinga oshiq bo‘ladi va o‘z kutubxonasidagi avtorlarini, ularning nomlarini bir-bir sanab chiqadi.* “Sharq yulduzi”. *Mukar opa boshini oq doka bilan tang‘ib, i k k i q a t ayolni qo‘ltiqlab turardi...* H.Sattoriy, Sog‘inch. *Bor, tovushqon ham bor. Bultur xiyla ko‘p edi, burnog‘i yil undan ham ko‘p edi. Shu shahardan keladigan o‘g‘ri ovchilar kamaytirib tashladi. B o‘ g‘ o z tovushqonni ham otadi, tuxum bosib yotgan kaklikni ham.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Ko‘kyol ona bo‘ri iniga birov kirib olganini sezdi. O‘zga bir is – kishi isi, bir u emas, b o‘ g‘ o z yaratiqlardagina bo‘ladigan sut isi anqirdi*. I.Sulton, Bilga xoqon. *Hozir Manzuradan qizi-*

ning y u k l i ekanini bilib, boshini qaysi devorga urishini bilmay qoldi. T.Malik, Shaytanat. *Rahmatulloh ota yurtini qoralab safarga chiqqanida u y u k l i edi. Yaratganning irodasi bilan eson-omon ko‘zi yorib olgandir...* T.Malik, Ov. *Rana Virsal Hamida bonuning o g‘ i r o y o q ekanini bilar, xotinidan “mehmon begimning oy-kuni yaqin emish”, deb eshitgan edi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Adashmasam, o‘shanda hammayoqni payhon qilib, bir kecha-yu bir kunduz shamol esgan edi... O g‘ i r o y o q xotin shamolli kechada Oydinko‘lga nimaga borgan ekan, degan savol ham ochiqligicha qolib ketdi.* I.Sulton, Ozod. *Naql etishlariga ko‘ra, Mavlono Lutfulloh onasi o g‘ i r b o‘ y ekanligida tushiga katta suv kirgan ekan, go‘yo bor olamni suv qamragan emish...* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Mukar opa boshini oq doka bilan tang‘ib, d u j o n ayolni qo‘ltiqlab turardi...* H.Sattoriy, Sog‘inch. *Ishqning uvoliga qolmasin bu jon, Armon azobidan qilgil himoya. Bechora yuragim umidga d u j o n, Kel, qalbim qiynalar, o‘zing bo‘l doya.* X.Nurullayev, Kel.

HORG‘IN, CHARCHOQ Charchagan, toliqqan. **Horg‘in** so‘zi umumiy tanaga nisbatan, shuningdek, ayrim tana qismlariga nisbatan ham qo‘llanadi. **Charchoq** so‘zi bu ma’noda kam ishlatiladi.

Ust-boshi chang-chung, boshidagi nafis havorang durrasi bir tomonga og‘ib ketgan, ko‘zlari h o r g‘ in. O.Yoqubov, Matluba. *...hozir esa h o r g‘ i n sukunat qo‘ynida tamshanib-tamshanib tush ko‘rar, ahyon-ahyonda entikib, ko‘zlari ochiq uxlar edi.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *– Adaaa, bu moshina-yu! – dedi qiz ch a r ch o q ohangida.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Tog‘ havosi naqadar so‘lim – ch a r ch o q asablarga orom, yuraklarga mador, tanlarga quvonch bag‘ishlar, inoqlik va shirin muloqotlarga sababchi bo‘lardi.* Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar.

HOSILDOR, SERHOSIL, UNUMLI, SERUNUM, UNUMDOR Ko‘p hosil beradigan. **Hosildor** bu ma’noda ko‘proq yerga nisbatan qo‘llanadi, ko‘p hosil beradigan ekin, mevali daraxtlarning o‘ziga nisbatan esa kamroq qo‘llanadi. **Serhosil** mo‘l hosil beradigan ekinlar, mevali daraxtlarga nisbatan ishlatiladi. **Unumli, unumdor** so‘zlari ham yerning mo‘l hosil berishini va ish unumini bildiradi. Ayni paytda, **unumli** so‘ziga nisbatan **serunum**da, **serunum**ga qaraganda **unumdor** so‘zida ma’no ta’kidi kuchliroq. **Serunum** yerdan boshqa narsalarga nisbatan ham ishlatiladi. **Serhosil** so‘zlashuv uslubida, **serunum** kitobiy uslubda faol.

Qadimgi mulkdorlarning h o s i l d o r yer va bog‘larigina emas, balki boshqa ishlab chiqarish qurollari ham endi batamom kolxozga o‘tishi lozim edi. P.Tursun, O‘qituvchi. *Bu erk olib yuksalgan elning Gul bahori, h o s i l d o r yozi, Qozog‘iston – bu jannatga teng, Bu – Kulashning ipak ovozi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Shunday s e r h o s i l yerlarda dehqon nochor yashasa?!* T.Malik, Savohil. *...Shu obro‘ orqasidan s e r h o s i l yerlarga ega-*

lik qilishlari ham mumkin edi. T.Malik, Shaytanat. *O‘z navbatida, u n u m l i mehnat uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berildi.* A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. – *Daraxtlarning ham tili bor, Veniamin Samoylovich, mana bu chinorning gapini eshiting: “Men shu yerga ekilib, necha yuz yildan beri shu tuproqni makon etganman. Suvsizligiga ham, ayozli sovug‘iga ham, jaziramasiga ham chidayman: s e r u n u m, sersuv tuproqni ma’qul deb ko‘chirsangiz – o‘laman”.* T.Malik, Savohil. *Yoz bo‘yi g‘o‘zalarni to‘ydirgan s e r u n u m tuproq kulrang o‘g‘it bilan aralashib, pastga tushar, ostki qatlamning dimiqib yotgan qora tuprog‘i yuzaga chiqib tovlanardi.* I.Shamsharov, Paxtaqaynar. *S e r u n u m mehnat ularni to‘q turmushga qarab yetaklar edi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Ovrupoliklar Amriqoni zabt etganlarida yerlik hindularni cho‘l-u biyobonlarga, tog‘-u toshlarga ko‘chirib, u n u m d o r yerlarni egallab olgan ekanlar.* T.Malik, Savohil. – *Bir qarang, atrof qanday go‘zal! – dedi u piching aralash. – Tuproq u n u m d o r – qurigan cho‘p tushsa ham ko‘karadi!* T.Malik, Devona.

HOVLIQMOQ, HAPRIQMOQ, HAPINMOQ Kutilmagan voqea-hodisa ta’sirida yuragi tez va tartibsiz ura boshlamoq. **Hapriqmoq** yurak urishining tez va tartibsizligi belgisini **hovliqmoq** so‘zidagidan ham kuchliroq, **hapinmoq** so‘zi esa kuchsizroq ifodalaydi, **hapinmoq** so‘zida “orziqib ketmoq” ma’no uzvi ham bor, shevaga xos.

Birpas kutdim, keyin yuragim h o v l i q ib, u yoq bu yoqqa qaradim. A.Qahhor, Dumli odamlar. *Domla Qo‘ng‘irot boychechakning qandoq bo‘lishini ham ancha yillardan beri unutib yuborgan edi, u kishi birdan h o v l i q ib, xuddi yosh boladek quvonib: – Qani? Hay-hay-hay!.. Qayerda ekan, qayerda ochilibdi? – deb so‘roqlab ketdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *U yuragi h a p q i r ib, suratlarni tomosha qilishga tutinadi, ammo Abror “hozir”lagancha, uni ustaxonaning to‘riga boshlaydi-da, ustiga bo‘z tashlab qo‘yilgan odam bo‘yi kartinaning ustidan matoni yulqib oladi...* U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma. *Bu gap yodiga tushgan boyning yuraklari h a p q i r ib ketdi.* G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *O‘z uyini bir necha yildan keyin yana ko‘rgan E’zozxonning yuragi h a p i n di.* H.G‘ulom, Mash’al. *Borgan yerlari hammasi vahima... (H a p i n ib ketib, hovliga tushadi, yomg‘ir tagida u yoqdan bu yoqqa yuradi.) Uh, hazil-hazil bilan hamma yoq tashvish bo‘lib ketdi.* H.G‘ulom, Ajab savdolar.

HOZIRGI, BUGUNGI, ZAMONAVIY, YANGI Ayni damga xos, hozir kechayotgan davr bilan bog‘liq. **Bugungi** so‘zida ayni kundalik ta’kidi mavjud. **Yangi** so‘zi mazkur ma’noda ilmiy, publitsistik uslublarda ko‘proq qo‘llanadi.

H o z i r g i yoshlarga qarab hayron bo‘laman, muallimlikdan or qilishadimi-ey... Ayniqsa, o‘g‘il bolalar. L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Ajoyib xalqimiz bor. Uning aql-idroki, qadoq qo‘llari bilan h o z i r g i qiyinchiliklardan*

eson-omon chiqib ketamiz... O‘.Umarbekov, Qadah. *Senga yot – noshudlik, tund ruhlik, qafas, B u g u n g i qadaming kechadan yirik, Nega, nega meni tashlab ketmading?* Zulfiya, Sensiz. *Lek ko‘zga ko‘rinmas b u g u n g i yovlar, kiyganday sehrli do‘ppi yo qalpoq.* Sh.Rahmon, Loda hazrati oliylariga. *O‘shanda bir xona kutubxona qilib qo‘yilganini, unda z a m o n a v i y o‘zbek adabiyotining ko‘pgina kutubxonalardan ham topib bo‘lmaydigan kitoblari mavjudligini ko‘rib hayron qolgan edim...* O.Sharafiddinov, Domlalar. *Adabiy tanqid esa adabiy-badiiy ijodning z a m o n a v i y jarayonlarini tahlil etadi va har bir yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi.* A.Sher, Estetika. *Y a ng i adabiyot, shuningdek, san’at sohasida professionalizm va diletantizm o‘rtasidagi tafovutga barham berdi, san’atkor va muxlislar o‘rtasidagi aloqa uzilishlarini bartaraf etdi*. M.Xolbekov, Yetakchi janrning tadrijiy tamoyillari. *Aytmoqchimizki, “O‘tkan kunlar” bu jihati bilan ham eski va y a ng i adabiyot orasidagi ko‘prik vazifasini ortig‘i bilan uddalagan*. “Sharq yulduzi”.

HUNARMAND, KOSIB Uyi yoki ustaxonasida, asosan, qo‘l mehnati bilan uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlaydigan kishi, maishiy va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan kasb-kor egasi. Hozirgi o‘zbek tilida **kosib** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Bolta – qotil qo‘lida o‘lim quroli. O‘tinchi qo‘lida mehnat quroli. H u n a r m a n d qo‘lida san’at quroli. O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Bir fir’avnning qirqta xotini bo‘lib, qirqinchisi kambag‘al bir gilam to‘quvchi h u n a r m a n d ning qizi ekan.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bir koranda yoki k o s i b kimsa bo‘lsa ham o‘z erim bo‘lishini istaymen.* Mirmuhsin, Temur Malik. *U ham asli bechora bir k o s i b ning o‘g‘li, saroyga katta martabalar orzusida ishga kirgan, lekin olti yildan beri o‘zi istagan darajadagi nufuzli bek bo‘la olgani yo‘q.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

HUNARMANDLIK, HUNARMANDCHILIK, KOSIBLIK, KOSIBCHILIK Uyi yoki ustaxonasida, asosan, qo‘l mehnati bilan uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlash ishi, maishiy va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdan iborat faoliyat. **Hunarmandlik, kosiblik** so‘zlaridan hunarmand yoki kosib ekanlik ta’kidi, **hunarmandchilik, kosibchilik** so‘zlaridan hunarmandlik yoki kosiblik ishi ta’kidi ochiq anglashiladi.

Uning ma’lum bir kasbi, hunari yo‘q. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-h u n a r m a n d l i k peshasini tutadi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Dastlabkisi shuki, ushbu mo‘jazgina kent fuqarolari h u n a r m a n d ch i l i k da xo‘b benazir sanalardi.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *H u n a r m a n d ch i l i k da, asosan, ota-bobo kasbini tutish qadimiy an’analarimizdandir.* “Sharq yulduzi”. *Birmuncha vaqtlar oldin mulla Burhon k o s i b l i k bilan kun kechirar edi.* Sh.Rashidov, Qudratli to‘lqin. *“Ari uyasi”ning ahli bir mahalla bo‘lib, asosiy kasbi k o s i b l i k dir.* Mirmuhsin, Chodrali ayol. – *Haytovur,*

dadam... ko‘zoynakni taqib, ertalabdan to shomgacha, ba’zi vaqt kechalari ham to‘qidi. – Hamma kosib shunday bo‘ladi, jonim! K o s i b ch i l i k – umrning egovi, – choyni ho‘plab-ho‘plab, go‘yo o‘z-o‘ziga aytganday gapirdi boyvachcha. Oybek, Tanlangan asarlar.

HURMAT, IZZAT, EHTIROM, IZZAT-EHTIROM Bir insonning boshqa insonga nisbatan qadrlash, ulug‘lash munosabati va shunday munosabatning o‘zi. **Izzat** so‘zida “hurmatini joyiga qo‘yish” ta’kidi **hurmat** so‘zidagiga nisbatan kuchliroq. **Ehtirom** so‘zida mazkur belgi darajasi yanada ortiq. **Izzat** so‘zi so‘zlashuv uslubida ham ko‘p qo‘llanadi. **Ehtirom** so‘zi, asosan, badiiy va publitsistik uslublarda ishlatiladi. **Izzat-ehtirom**da bunday ifoda yanada kuchayadi.

Bu qasidam senga, xalqim, Oq sut-u tuz h u r m a t i, Erkin o‘g‘lingman, qabul et, O‘zbegim, jon o‘zbegim. E.Vohidov, Ishq savdosi. *Alomat. O‘rtoqlar! ...Kechani kecha, kunduzni kunduz demay “zangori kema” shturvallarini boshqarayotgan azamatlarimizning jasorati osmon qadar h u r m a t va olqishga loyiqdir!* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Bugun men ham i z z a t daman, ham xizmatda.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Insonning i z z a t i isrof bilan o‘lchanmaydir, afandim. I z z a t yaxshi ila, yaxshi sa’y ila ifodalanur.* T.Malik, Shaytanat. *Ikki o‘g‘ilning o‘z onalariga bo‘lgan cheksiz e h t i r o m i bola-chaqalari-yu mahalla-ko‘yga yuqib, ular ham enani boshlariga ko‘tardilar.* U.Hamdam, Muvozanat. *...Sizga dildan eng samimiy e h t i r o m, Yangi yilning tabrigi ham assalom!* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Ha, haqiqatan ham, g‘alati charx bu: o‘g‘il erta-bir kun ulg‘ayib, o‘zi ota bo‘lgani mahal, onasiga ko‘rsatgan i z z a t-e h t i r o m ining o‘z juftidan qaytganiga shohid bo‘lsa, qiz turmush qurganida, xo‘jasiga ko‘rsatgan ehtiromining aksini bolasidan ko‘rmoqda...* I.Sulton, Ozod.

HURMAT QILMOQ, HURMATLAMOQ, IZZAT QILMOQ, IZZATLAMOQ, SIYLAMOQ Kishiga uning obro‘-e’tiborini saqlagan holda munosabatda bo‘lmoq. **Izzat qilmoq** va **izzatlamoq** so‘zlarida ehtirom ko‘rsatish ta’kidi **hurmat qilmoq** va **hurmatlamoq**qa qaraganda birmuncha ortiq. **Siylamoq** so‘zi mazkur ma’noda so‘zlashuv va badiiy uslublarda ko‘proq qo‘llanadi.

Ishoning, gapim chin. Sizni, sizni juda h u r m a t q i l aman! O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Olimjon. Qo‘chqor aka, sizni qanchalik h u r m a t q i l ishimni bilasiz.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *...ota-onasini behurmat qiluvchi xotinni qo‘yib, h u r m a t l a ydiganiga uylanuvchilar ham bor. Ammo ikkinchi yoki uchinchi xotin ota-onasini h u r m a t l a ydi, deb kim kafolat beradi?* T.Malik, Odamiylik mulki. *Zuhra kattakon qizil ro‘mol o‘rab olgan, katak ro‘molchasini lunjiga bosib soldatchasiga g‘oz turar, aftidan, onasining xotirasini o‘zicha h u r m a t l a r edi.* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Men bir ko‘hna kitobda o‘qiganman: kimki o‘z nafsini xor tutsa, Xudo uning qadrini oshirarkan. Kimki o‘z nafsini i z-*

z a t q i l sa, Xudo bandalari oldida uni xor qilarkan. T.Malik, Shaytanat. *Yigitlar, keyinchalik kelgan haligi mo‘ysafid ham, uni shunchalik i z z a t q i l ishar ediki, Asqar ota bu juvonning oddiy traktorchigina ekaniga shubhalanib qoldi.* A.Qahhor, Xotinlar. *Endi... bizga o‘xshagan qariyalarniyam i z z a t l a ydi-da. Ko‘pning duosi – ko‘l, hurmat qilsang – hurmat ko‘rasan.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Hammasidan anuv odamning bularni i z z a t l a b kelgani-chi. Boshqalar oyog‘ining tagiga qo‘y so‘ysa bormas.* M.Mansur, Judolik diyori. *Endi uning “kuyov” degan unvoni bor. Kuyovni payg‘ambarlar s i y l a ganida Asadbekning yugurdagi s i y l a mas ekanmi?..* T.Malik, Shaytanat. *Xo‘jayining mashhur va hotam, Ko‘p yo‘qlashar do‘st-u yoronlar. Ulug‘ mezbon ko‘ngli uchun ham S i y l a shadi seni mehmonlar.* E.Vohidov, Ishq savdosi.

HURMATLI, IZZATLI, MUHTARAM(A), QADRLI Hurmat-ehtiromga loyiq, qadr-qimmati bor bo‘lgan. **Izzatli** so‘zi ma’noni xususiy bir tarzda ifodalagani sababli ham **hurmatli** so‘ziga nisbatan kamroq qo‘llanadi. **Muhtaram** so‘zida hurmatlilik belgisi **hurmatli**ga nisbatan kuchli darajada, kitobiy, asosan, publitsistik hamda badiiy uslublarda ishlatiladi. **Muhtarama** ayol kishiga nisbatan ishlatiladi. **Qadrli** so‘zida ayni paytda qadrlilik belgisi ham ta’kid olgan.

Asqar ota bu h u r m a t l i juvon boshqa xotinlardan raftori bilan ajralib turar degan bir o‘yda edi... A.Qahhor, Xotinlar. *...H u r m a t l i sayyohlar! Kema palubasiga chiqish qat’iyan man etiladi.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *– Ota, bu Asadbek, mening i z z a t l i mehmonim, – dedi Xongirey ruschalab.* T.Malik, Shaytanat. *Otabekning bu holiga qarshi chiquvchi va Zaynabni yo‘lyo‘riqqa soluvchi yana faqat O‘zbek oyim ediki, buning sababi ham i z z a t l i o‘quvchilarimizga bir daraja ma’lum bo‘lsa kerak.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Men o‘z fikrimni m u h t a r a m sud hay’atiga arz qilib, masalaning bu tomoniga ham diqqat qilinmog‘ini so‘rayman.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Men m u h t a r a m professordan o‘rnidan turishini iltimos qilmoqchiman.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Agar mening so‘zlarim malol tuyulsa, ana, vatandoshimiz m u h t a r a m a xonim afandim aytsinlar...* T.Malik, Shaytanat. *Mahmadana pildiraganicha o‘rtaga chiqib, mikrofonni oldi: – Endi davraga dil so‘zlarini aytish uchun. ...kelinimiz Binafshaxon va kuyovimiz Akmaljonlarning m u h t a r a m a onalarini davraga taklif qilamiz!* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Enaxon o‘z ko‘nglida yana xijolat tortishdan qutulmadi. Q a d r l i mehmonlarini yana allaqanday ziyofatlar, mehmongarchiliklar, takalluflarga ko‘mib tashlamoqchi bo‘lardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bu hikoya va uning qahramoni Asror bobo ham biz uchun nihoyatda q a d r l i.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

HURMOQ, VOVULLAMOQ, AKILLAMOQ, VAKILLAMOQ “Vov-vov” degan tovush chiqarmoq. **Vovullamoq, akillamoq** so‘zlarida itning tovushi ta’kidi ochiq ifodalangan. **Akillamoq** so‘zi kishiga nisbatan qo‘llanib, o‘ta

salbiy munosabatni ham bildiradi. **Vakillamoq**, asosan, yosh kuchukchaning shunday harakatiga nisbatan qo‘llanadi.

Xotinlar o‘g‘rini qarg‘aydi, it h u r adi, tovuqlar qaqag‘laydi. A.Qahhor, O‘g‘ri. *Amir og‘riqning zo‘ridan dodlay boshladi, azonda uning faryodi adirlar osha Ulug‘tog‘ga urilib, aks-sado berdi. Itlar h u r di. Qo‘ylar qochdi...* U.Hamdam, Muvozanat. *Ko‘chib ketishayotgan kuni, xuddi xunuk bir ish sodir bo‘lganini sezgandek, Ko‘ktoy juda ko‘p g‘ingshidi, v o v u l l a di.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Allaqayerda it bir-ikki v o v u l l a di-da, jim bo‘ldi. Qishloqda yana tungi osuda hayot boshlandi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Shu yerlarda otasi yurgan... Hozir qiyshayib qolgan yog‘och minoralar ustida soqchilar turgan... Itlar a k i l l a gan... Zobitlar baqirgan...* T.Malik, Shaytanat. *Kuchuk bo‘lgandan keyin a k i l l a ydi-da – vazifasi. Qaytaga yaxshi – zamon qaltis, har xil yot nusxa bu yoqlarga doriyolmaydi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bittamas, hamma gapingni shivirlab gapirasan! Agar yana bir marta shu hovliga chiqib a k i l l a sang, anavi eshikka oyog‘ingdan osib qo‘yaman – shamolda tebranib turaverasan!* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Lekin u Kattakonga nisbatan biror yomonlik qasdida bo‘lmagan, zinhor-bazinhor – anovi la’nati kuchukni o‘ldirish maqsadidagina borgan. Sekin hovliga yaqinlashib, ko‘cha tomondagi baland, jimjimador panjara bilan o‘ralgan bog‘chada jag‘i-jag‘iga tegmay v a k i l l a b turgan yaramasni mo‘ljallab tepkini bosganida nogahon darvozadan lop etib, qo‘lida yaloq, Kattakon chiqib qolgan!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Uzoq va yaqindan boshqa itlar v a k i l l a shib, unga ovoz bera boshladilar.* Gazetadan.

HUSN, CHIROY, JAMOL, KO‘RK, ZEB, HUSN-U JAMOL Yoqimli, kishiga yoqadigan ko‘rinish. **Husn** so‘zi **chiroy, ko‘rk** so‘zlariga nisbatan nutqda keng qo‘llanadi. **Ko‘rk** so‘zi insonga nisbatan kam ishlatiladi. **Chiroy** va **ko‘rk** so‘zlari ko‘proq badiiy uslubda qo‘llanadi. **Ko‘rk, zeb** so‘zlari ko‘proq insondan boshqa narsalarni ham sifatlaydi. **Jamol** so‘zi bu ma’noni badiiy ifodalaydi, kitobiy. **Husn-u jamol**da belgi ta’kidi yanada kuchayadi.

Kunlar, yillar o‘tib, Gulira’no voyaga yetibdi. Xudoyi taolo unga shunday bir h u s n ato qilgan ekanki, o‘n olti yoshga yetganda husn-u jamolining, aql-u farosatining ovozasi olamga yetibdi. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Senga bo‘lsin barcha h u s n-u Menga bo‘lsin barcha ishq.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Bahorning sehrgar boqiy ch i r o y i Yosh-u keksa ko‘nglin ovlaydi birdak.* Zulfiya, Saylanma. *...Muhammadjon aka... qushni avaylab qo‘liga oldi: kaklik! Alomat qush: qanotlarining ustidagi beqasam to‘ni uning ch i r o y ini judayam ochib yuborgandi.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘lkamning j a m o l i o‘zgacha bukun, Shohroh ko‘chalar ham yasangan gulgun*. E.Vohidov, She’r dunyosi. *Yana to‘lib oqa boshlagan anhor kechaning oydinligida o‘z j a m o l ini ko‘z-ko‘z qilayotgandek yaltirab-tovlanib qo‘yadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Ona yur-*

tim jamolin, k o‘ r k in Men olamga ocholganim yo‘q. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Kun qaytguncha yurib, ko‘p tarixiy yodgorliklarni ko‘rdik, to‘g‘on-ko‘lga bordik, shahrimizning k o‘ r k i bo‘lgan yangi ko‘chalar, maydonlar, xiyobonlarni kezdik, muzeylarga kirdik.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *Nuqta qo‘y nazmingga, Erkin, Muxtasarlik so‘zga z e b, Yo‘qsa, tong otguncha she’ring Bo‘lg‘usi doston qadar.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Har binosi bir xalq kelinchagiday, Betakror z e b bilan diding etar xush.* Zulfiya, Saylanma. *Ana endi malika taxtiravonining butun hashamati va uning h u s n-u j a m o l i birvarakay namoyon bo‘lib, shoirning ko‘zlari tindi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Saltanat. ...Ho‘, olimcha, shu tomorqa bilan bola-chaqa boqaman! Mehmoningizning h u s n-u j a m o l iga qarab bolalarimning qorni to‘yib qolmaydi...* Sh.Boshbekov, Temir xotin.

HUSHSIZ, BEHUSH, KARAXT Kishining biron-bir tashqi ta’sirni, atrofidagi bo‘layotgan hodisalarni sezmay qolgan, hushini yo‘qotgan holati. **Karaxt** so‘zida ta’sirni sezmaslik ta’kidi ustuvor, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Bepoyon sahro... Olislarda bo‘ri uvullar, yarador amir Alp-Arslon kimsasiz dashtda h u sh s i z yotar, tepasida ota arvohi... Mirmuhsin, Turon malikasi. *H u sh-s i z yotgan paytida tag‘in kuchaygan qor izlarni ko‘mib yuborgan.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Asadulla ko‘zini ochganda navbatchi hamshira doktorga yugurgan edi. Doktor kirganda Asadulla yana b e h u sh yotardi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Ertalab yana kelishsa, onalari tirilib, qabring ustiga chiqib, b e h u sh yotgan emish.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Burnog‘i yili kampiridan ayrilganidayam cholni bunday k a r a x t kepatada ko‘rmagandik.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Zarblarning sanog‘i anchaga yetgach, so‘fi bir marta qattiq faryod ko‘tardi, shu bilan hushidan ketib, muridlar qo‘liga yiqildi... Undan keyin kuni bo‘yi k a r a x t bo‘lib yotdi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

HUSHSIZLANMOQ, BEHUSHLANMOQ, KARAXTLANMOQ Hushini yo‘qotmoq, tashqi ta’sirlarni, atrofda bo‘layotgan voqealarni sezmay, anglamay qolmoq. **Karaxtlanmoq** so‘zida “sezmasdan qolmoq” ta’kidi qabariq ifodalanadi, badiiy va publitsistik uslublarda faol ishlatiladi.

Besh daqiqalab yo‘l ustida esankiragan, h u sh s i z l a n gan ko‘yi qotib turg‘ach, moshinavori birdan yurib ketdi... A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Gulnorning g‘oyib bo‘lishi Yo‘lchiga yashin urgan kabi ta’sir ko‘rsatdi. U h u sh s i z-l a n ganday, ancha vaqtgacha qotib qoldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Lola ko‘chaga chopib chiqib ketadi. Mahmud yuragini changallagancha b e h u sh-l a n adi. Sunbul erini suyab stulga o‘tqizadi. Boshini silaydi.* H.G‘ulom, Ajab savdolar. *Kayfda pashshaning g‘ing‘illashidan ham cho‘chib irg‘ishlovchi ko‘knorilar, biri “voy dod”, biri “vavah” deb, b e h u sh l a n ib yiqilishibdi.* A.Obidjon, Oltiariq hangomalari. *O‘sha gap, Toshkentda chaynalgan o‘sha tashxis: koxlear nevriti, ya’ni ichkari quloqdagi tovush qabul qilish paychalari k a r a x t l a n gan, qurib-qovjiray boshlagan, ularni jonlantirish esa qiyin, juda*

qiyin, deyarli imkonsiz... E.A'zam, Shovqin. *Aka-ukaning ovozini eshitib, uydan dadasi chiqdi. Voqeani bilgach, k a r a x t l a n ib turib qoldi.* T.Malik, Devona.

HUSHSIZLIK, BEHUSHLIK, KARAXTLIK Kishining biron-bir tashqi ta'sirni, atrofidagi bo'layotgan hodisalarni sezmay qolgan holati, hushini yo'qotgan ahvoli. **Behushlik** so'zida "hushini yo'qotganlik" ifodasi ustuvor, u **hushsizlik** so'zi bilan nutqda almashib qo'llana oladi, uslubiy chegaralanmagan. **Karaxtlik** so'zida tashqi ta'sirni sezmay qolganlik ta'kidi ustuvor.

Lashkarboshi o'tiribdi hushsiz Petro oldida, hasad bilan, g'azab bilan tikilar pahlavonga. Bay Petroning h u sh s i z l i g i – hushli jangchidan afzal! O'.Umarbekov, Sarkarda Petro. *Tursam, baribir, yana uradi-da! Ular ketguncha o'zimni b e h u sh l i k ka olib yotardim. Qarabsizki, bir musht bilan qutulib qolardim!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Anchadan keyin Xolxo'ja qarasa, sherigi uxlab qolibdi. Uyqumi, b e h u sh l i k mi, ishqilib, mayli, sho'rlik orom olsin.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Lekin soatlar o'tadi, vujudidagi k a r a x t l i k va ruhidagi so'niklik hech tarqamaydi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ko'ksimni ochaman, Chekinar g'aflat. K a r a x t l i k to'kilib borar manglaydan...* U.Azim, Eng so'nggi ohu haqida ballada.

HO'L, NAM, SHILTA, SHALABBO Suv yuqqan, suvlangan, suvda ivigan. **Nam** so'zida suv tegishi natijasida "qisman ho'l bo'lgan", "jiqqa ho'l bo'lmagan" ifodasi bor, bu so'zning mazkur ma'noda qo'llanish doirasi keng. **Shilta** va **shalabbo** so'zlarida ho'llanganlik darajasi ortiq, asosan, so'zlashuv tiliga xos.

Bir ayol qo'lida chaqalog'i, egni-boshi h o ' l, hu-hulab, dildirab kirib keldi. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. *O'tlar orasidan och, ozg'in, yunglari h o ' l, jimitgina bir kuchuk chiqib keldi-da, egasiz ot ortidan qing'ayib ancha qarab turdi.* I.Sulton, Ozod. *Onaxoniing n a m ko'zlari nurlanib ketdi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Pechkada o'tin chirsillaydi, ba'zan n a m novda vishillagan ovoz chiqaradi, shunda xivichdan otilib chiqayotgan ingichka bug' oqimi ko'z oldimga keladi.* I.Sulton, Otamga nimadir bo'ldi... *Yigitning terdan sh i l t a bo'lgan ko'ylagi badaniga yopishib qolgan, o'zi ham nimadandir qo'rqqan odamga o'xshar, ko'zlari bejo edi.* O.Yoqubov, Larza. *Allaqachon shudring tushgan joy, birpasda shimining pochalari sh i l t a bo'ldi.* O.Husanov, Qo'shiqchining taqdiri. *Ust-boshi sh a l a b b o, sovqotgan ikki do'st sekin-sekin qirg'oq tomon siljishdi.* A.Ko'chimov, Halqa. *Yomg'irdanmi, terdanmi butun badani sh a l a b b o ho'l.* A.Muxtor, Chinor.

HO'LLAMOQ, NAMLAMOQ, SUVLAMOQ Ho'l qilmoq, suv tekkizmoq, nam bermoq. **Namlamoq** so'zidan suvning tegish darajasi, suv yuqish holati **ho'llamoq** so'zidagidan ko'ra kamligi ifodalanadi. **Suvlamoq** so'zi nisbatan kam qo'llanadi.

Polvonlar bosh bakovul oldida og'izlarini suv bilan chayqadi. Qo'llarini suvlab h o ' l l a di. T.Murod, Tanlangan asarlar. *Hamdamov... stol ustidagi*

sochilib yotgan kitob-u qog‘ozlarni yig‘ishtirdi, kuldonni tozaladi, latta h o‘ l-l a b kelib stolni artdi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Doktor bilintirmasdan paxtalik cho‘pini n a m l a b oldi*. O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar. *To‘rt-besh misqol bug‘doy n a m l a b-n a m l a b yoyildi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Men ketmon bilan qo‘zg‘ab-qo‘zg‘ab loy tepdim. Men s u v l a b-s u v l a b loy tepdim*. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. – *Bosib-bosib s u v l a ng. Suv nimalarni yuvmaydi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

H



I

IFLOS, KIR, ISQIRT, IRKIT, ISLIQI, IQNA, IVIRSIQ, NOPOK Nopok narsalar bilan bulg‘angan, sofligi ketgan, kirlangan. **Kir** so‘zida “toza bo‘lmaganlik” belgisi **iflos** so‘ziga qaraganda me’yordan kam ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Isqirt, irkit** so‘zlari “nopoklik” belgisini kuchli ifodalaydi hamda narsa, odam va uning kiyim-boshiga nisbatan ishlatiladi. Ayniqsa, odamga nisbatan qo‘llanganda, nopoklik belgisi yanada kuchayadi. **Isqirt** so‘zi so‘zlashuv uslubida, **irkit** so‘zi ko‘proq badiiy usulda qo‘llanadi. **Isliqi** so‘zi, asosan, kiyim-bosh va odamga nisbatan o‘ta salbiy belgi bilan ishlatiladi. Odamga nisbatan ishlatilganda iflos ko‘rinishli ekani nazarda tutiladi. So‘zlashuv va badiiy uslubga xos. **Ivirsiq** so‘zi yig‘ishtirilmagan, tartibsiz uy-joyga nisbatan qo‘llanadi. Asosan, badiiy uslubga xos. **Nopok** so‘zida “iflos bo‘lganlik” belgisi kuchsizlashib, aksincha, “nohalollik” ifodasi kuchayadi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Albatta, bu kiyimlar i f l o s, kir, ter hidi o‘rnab qolgan... ammo na chora, kiyishga majbur edi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Nodirning so‘zlaridagi “ovchilik” ma’nosi esa Sattorning qalbidagi eng pok, eng aziz tuyg‘ulariga i f l o s bir qo‘l kabi tegib, chirkin iz qoldirdi.* P.Qodirov, Erk. *Oftob – beta’sir shiorga o‘xshaydi – charqlaydi, tafti yo‘q, chor atrofga eski uvada sochilgandek – k i r qor.* A.A’zam, Qatog‘on yili. *Boshida k i r, to‘zg‘igan salla, cho‘poni ham qo‘sqi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Azobga mahkumlar i s q i r t va uvada kiyimlariga o‘ralgancha bir muddat mizg‘ib olishar, so‘ng yana uqubatli hunarlarini boshlashardi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bu i s q i r t xonadon, undan-da i s q i r t kimsalar orasida unga nima bor?* E.A’zam, Shovqin. *Umaralining qiziq odatlari bo‘lardi. Yuvuqsiz, i r k i t odam bilan ko‘rishib qolsa, mehmonxonaga yugurib borib cho‘milib kelardi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Ko‘zgudan yonog‘i qon, soqol-mo‘ylovi qo‘sqi, ko‘zlari qizargan, afti i r k i t, badbashara allaqanday bir ta’viya boqib turardi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Kotib esa xona o‘rtasida o‘zining azmi irodasidan biror marta chetga chiqmagan, o‘zi aytganidek xonaki to‘riq kabi yuvosh, fahmsiz, i s l i q i va aroqxo‘r, qulday itoatkor qorovulga g‘azab bilan qarab turardi...* N.Eshonqul, Bevaqt chalingan bong. *– Qazisan, qartasan, axir aslingga tortasan, – dedi kampir omborni qulflayotib, – ...Uvada, i s l i q i to‘n, chilvir belbog‘ning xumorisi tutgandir!* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Birinchi kirgan hovlimiz juda i v i r-*

s i q, har yer-har yerda go‘ng uyulib yotibdi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Rostdan ham bu yerda uzoqroq turish azob! Hammayoq xarob, i v i r s i q.* E.A’zam, Shovqin. *Nima bo‘lsayam o‘zing boshlab bording-ku o‘sha kechaga. Bunaqa ekan, nega obording o‘sha n o p o k mayxonaga.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Bilasiz: non – eng tabarruk ne’mat. Biroq n o p o k yo‘l bilan topilgan non ham harom!* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar.

IKKIYUZLAMACHI, IKKIYUZLAMA, RIYOKOR, MUNOFIQ Unga boshqa, bunga boshqacha so‘zlaydigan, ikki tomonga ikki xil muomala qiladigan. **Ikkiyuzlama** bu ma’noda kamfaol, oddiy so‘zlashuvga xos. **Riyokor** va **munofiq** so‘zlarida darajama-daraja belgi, salbiy baho kuchayib boradi. **Riyokor** ko‘proq kitobiy, **munofiq** ko‘proq diniy nutqda qo‘llanadi.

Xojako‘rsinga qilinadigan harakat esa odamni bora-bora i k k i y u z l a m a ch i, yolg‘onchi… qilib qo‘yadi. M.Ismoiliy, Odamiylik qissasi. *O‘qigan odam kulmaydimi? Kechagi zamonda boshqa ashulani aytardi, domlasi qurg‘ur endi bu yoqqa o‘tibdi-da, munofiq, i k k i y u z l a m a ch i ekan, demaydimi?!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ahmad uning i k k i y u z l a m a ekanligini yaqqol sezsa ham, keskin gapirolmasdi.* F.Musajonov, Himmat. *Uning bu so‘zlarini Mirzakalon r i y o k o r kishining tilyog‘lamaligi sifatida qabul qildi-da, istehzo aralash nishtarlab dedi: – To‘g‘ri yo‘lga – qamoq orqali!..* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *Qadr degan tushuncha shunchalik oyoqosti bo‘ldimi?! Nahotki odamlar shu qadar r i y o k o r, munofiq bo‘lib ketishmasa, a?* O.G‘afurov, Ayol ori. *Odam bolasi m u n o f i q bo‘lib tug‘iladimi? Bunday desa… Usta shogirdning otasini yaxshi biladi... Yoki munofiqlik odamzod tabiatiga keyinchalik atrofdagilar ta’sirida o‘rnashib oladimi?* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *– Tashqaridan yoki jabrdiyda Mirazimning nigohi bilan qaralganda, har ikkimiz ham sotqin, kamida m u n o f i q miz... Tag‘in bilmadim.* U.Hamdam, Muvozanat.

IKKIYUZLAMACHILIK, IKKIYUZLAMALIK, RIYO, RIYOKORLIK, MUNOFIQLIK Ikkiyuzlamachi odamlarga xos xatti-harakat, munofiqlarcha ish tutish, kishiga shunday munosabatda bo‘lish holati. **Ikkiyuzlamalik** nutqda **ikkiyuzlamachilik** so‘ziga nisbatan ko‘p ishlatilsa ham, mazkur ma’noni undan ko‘ra kuchsizroq ifodalaydi, ammo oddiy so‘zlashuvda faol. **Riyo** eskirgan, kitobiy uslubga xos so‘z. **Riyokorlik** va **munofiqlik** so‘zlarida belgi darajama-daraja kuchayib boradi, salbiy baho ham qatordagi sinonimlarga nisbatan kuchli ifoda topadi. **Riyokorlik**, **munofiqlik** so‘zlari badiiy uslubda ham, diniy uslubda ham faol qo‘llanadi.

*Ko‘rinib turibdi-ki, yolg‘onning ildizlaridan biri qo‘rquvning yana bir turiga taqalyapti. Ildizlardan yana biri i k k i y u z l a m a ch i l i k, laganbardorlikka ham borib ulanadi.*T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Bu riyoga, i k k i y u z l a m a ch i l i k ka kirmaydi. Parvardigor e’tiqodni saqlash uchun chora axtargan-*

ni xush ko‘radi… “Sharq yulduzi”. *Kumush ko‘tarilib ketdi: – I k k i y u z l a m a l i g‘ i ngiz va til tegida til saqlag‘aningiz ham arzimaydimi?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *…olimlarning buzilishi dunyoga hirs qo‘yish, tamagirlik, havoyi nafsga ergashish bilan, dunyoga berilmaganlarning, zohidlarning buzilishi esa riyo – i k k i y u z l a m a l i k va xo‘jako‘rsin bilan bo‘ladi.* M.Kenjabek, Buyuk termiziylar. *Ishq, haqiqatan, qudrati go‘yo Mening bilan tebratdi qalam. Qo‘shiqlarim bilmay g‘ash, r i y o, Oshkor kuldim, oshkor chekdim g‘am.* Zulfiya, Saylanma. *Yolg‘on – hech qachon rostning o‘rnini bosmagan. R i y o bilan kishi ko‘karmagan.* M.Mansur, Judolik diyori. *Kechagina yuvosh, sipogina bo‘lib yurgan odam, r i y o k o r l i k lar jonidan o‘tibmi, ana shunday shaddod, betgachoparga aylanib qolgan edi*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Hozirgina Akbarni “eng adolatli hakam!” deb maqtaganlari r i y o k o r l i k, quruq tilyog‘lamalik bo‘lib chiqadi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Qarshisida Oqibatxon emas, m u n o f i q l i k, riyokorlik va tubanlikning jirkanch timsoli turganday, eti junjikib ketdi.* O.G‘afurov, Ayol ori. *Endi pishib, qilishim mumkin bo‘lgan ishlarga yaqinlashganimda boshqa ishga o‘tib ketish m u n o f i q l i k-dek ko‘rinyapti.* U.Hamdam, Muvozanat.

ILMOQ, ILGAK, CHANGAK Biron-bir narsa yoki yukni ilib qo‘yish, ilib ko‘tarish, tortish uchun ishlatiladigan temir yoki yog‘och moslama. Qatordagi har uch ham so‘z qo‘llanishda uslubiy chegaralanmagan.

Ikki azamat yigit temir i l m o q lar bilan zanjirni ko‘tarib, kema burniga qo‘ydi. M.Osim, Karvon yo‘llarida. *Sherali i l m o q ni yaxshilab o‘rnashtirgach, sheriklari turgan tomonga qaradi.* S.Karomatov, Oltin qum. *Notanish kishi qo‘lidagi bo‘g‘chasini darvoza ustunidagi i l g a k ka ilib, Yusuf bilan quyuq so‘rashdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *So‘ng ichkari kirib, Asadbek uzatgan paltoni olib, i l g a k ka ildi.* T.Malik, Shaytanat. *Ch a ng a k da osilib turgan chelakdan bir cho‘mich suv olib ichdi.* “Yoshlik”. *Ch a ng a k dagi go‘shtlari-yu g‘aladondagi pullarini yonidagi choyxonachiga tayinlab ketibdi.* Shukrullo, Javohirlar sandig‘i.

ILTIFOT, LUTF, MARHAMAT, KARAM 1. Kishining o‘zidan ko‘ra nochor kishiga qilgan himmati, moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlovi. **Lutf** so‘zida bu ma’no kuchsiz darajada ifoda topadi, kitobiy uslubga xos. **Marhamat** so‘zida bu ma’no yanada kuchli va tantanavor ifodalanadi, kitobiy uslubga xos. **Karam**ning bu ma’noda qo‘llanishi, asosan, eskirgan kitobiy uslubga xos, oddiy so‘zlashuvda ishlatilmaydi. Qolaversa, xudo tomonidan qilingan marhamatga nisbatan ham qo‘llanadi.

Oh, hojam, bilsangiz edi, men sizga qanday quvonchli xabarlar keltirganimni. Yetti uxlab tushimizga kirmagan i l t i f o t larga erishib turibmiz. M.Mansur, Judolik diyori. *– Oliy i l t i f o t ingizdan va marhamatingizdan umid shuki, – dedi mavlono Alishoh. – Xazinachilar olti oylik maoshimni birdaniga bersalar...*

I.Sulton, Alisher Navoiy. *Yaxshilik yerda qolmaydi, o‘g‘lim. Bizga ko‘rsatgan l u t f-u karamingiz, Xudo xohlasa, o‘n chandon bo‘lib o‘zingizga qaytadi.* T.Malik, Falak. *Shu sababli l u t f va karam manbayi Alisher Navoiy undan juda tanglikka kelibdi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *– Men sening m a r h a m a t ingga zor emasman, – o‘dag‘ayladi G‘aybarov.* A.Namozov, Notanish. *Nochor qolsang nokas qo‘lini tutma, Arslonsan-ku, tulki yo‘lini tutma. O‘zingdan o‘zgadan m a r h a m a t kutma, O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!* I.Mirzo, Agar jannat ko‘kda bo‘lsa... *Ixtiyoringdagi lutf va k a r a m xazinasini nima qilasan? Uni marhamat qilib kimlarga berasan?* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Tangrining k a r a m iga sig‘inib, ularni Astrobod tomonga jo‘natdim…* S.Ayniy, Qullar.

2. Kishiga qilingan xush muomala, yaxshi e’tibor. **Iltifot,** asosan, xushmuomalalik bilan qilingan qo‘llab-quvvatlovni bildiradi, oddiy so‘zlashuvda qo‘llanmaydi. **Lutf** so‘zida maqtov tarzidagi qo‘llab-quvvatlov ma’nosi ustuvor, oddiy so‘zlashuvda juda kam qo‘llanadi. **Marhamat** ko‘pincha maqomi baland kishining o‘zidan maqomi past kishiga rahm-shafqat yuzasidan ko‘rsatgan munosabatini bildiradi, kitobiy uslubga xos.

Halimaxonimning bu i l t i f o t idan u charchoqni unutdi. S.Ahmad, Ufq. *– Qani, mehmon, bir gurung bering bizga, – dedi. Qariyalarning i l t i f o t idan ruhlangan Jalil o‘zining “chala mulla” ekanligini unutib, undan-bundan eshitgan diniy ma’ruzalaridan esida qolganini aytib, o‘z ko‘nglida da’vat qila boshladi.* T.Malik, Shaytanat. *– Menday ojiz bir ilm xizmatkori haqida sizdan shu l u t f-ni eshitmoq Allohning bechora bandasiga buyuk marhamatidir, – dedi mezbon.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Xayyom qizning l u t f i dan mutaassir bo‘lib zavqlandi va uning ilkidan tutdi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *– M a r h a m a t ingizga qulluq, – dedi Homid, – ammo shundog‘ bo‘lsa ham qarindoshlarim to‘g‘risida xavfdaman...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

ILTIMOS, ILTIJO, O‘TINCH, ZOR, TAVALLO Biror muddao, maqsad, istakni qondirish haqidagi so‘rov, murojaat. **Iltijo** so‘zida so‘rov ifodasi yalinib-yolvorishgacha yetadi, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda ishlatiladi. **O‘tinch** so‘zida o‘zini past tutishlik ta’kidi mavjud. **Zor** so‘zida muhtojlikka daxldorlik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Tavallo** so‘zi eskirgan, kitobiylik belgisiga ega.

Nazarimda, Tursunali akangning ham shunga mayli bor. I l t i m o s im shuki, keyingi xatingda shu haqda ham ikki og‘iz o‘z fikringni yozib yubor. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bazmlar-u o‘tirishlardan... to‘yib ketgan Zahro esa ayni vaqtda hech qursa uy yumushlarini o‘zi bajarib yashagisi kelardiki, eri uning shugina i l t i m o s ini ham oxirigacha ado etmagandi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Endi, ukajon, bundan buyon siz mening pirim bo‘lasiz. Shuncha qilgan i l t i j o larim bekor ketmadi, sizni topdim.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Egasi chakkasiga oq oralagan, xiyla bosiq odam ekan, i l t i j o mni eshitiboq bosh irg‘adi:*

– *O‘tiring.* M.Mansur, Judolik diyori. *Faqat jimlik tilaydi yurak, Sizdan bugun birgina o‘ t i n ch: Yolg‘iz qo‘ying meni, do‘stlarim, Charchaganman, orom olayin.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *“Ey xudoyim, meni hatto bolalarimga qarattirib qo‘ymay, omonatingni oyoqda ado yurgan holimda olgil!” deya duolar qilguvchi edim. Nega mening birgina shu o‘ t i n ch imni ham qabul qilmaysan?* U.Hamdam, Muvozanat. *Lekin qolganimda qalbim-la tanho, Tuyg‘ular z o r iga solganda quloq, O‘zni zaif, chanqoq sezganda goho, Alamdan beraman javobsiz so‘roq.* Zulfiya, Saylanma. *Yusuf so‘nggi bor qishloqqa borganida o‘zi bilan o‘zi yolg‘iz qolgancha shiftga tikilib yotish joniga tekkan kampirning z o r larini yaxshi eslaydi.* U.Hamdam, Muvozanat. *...Men “xo‘p demasinlar-da, devormasinlar-da”, deb titrab turibman. Ko‘ngillari yumshab ketmasaydi, deb qo‘rqib turibman... Shuncha t a v a l l o larim ham bir bo‘ldi, oyimning bir og‘iz so‘zlari ham...* M.Mansur, Judolik diyori. *Darhaqiqat, devor osha maykachan bir yigit ko‘rinadi. Birov so‘z so‘ramasdanoq t a v a l l o ga tushib, bidirlay ketadi u: – E, e, rais bobo! Assalom alaykum.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir.

ILG‘OR, ZARBDOR, YETAKCHI, PESHQADAM, UDARNIK, KARVONBOSHI Muayyan ish-faoliyatda har jihatdan oldinda boradigan, faoliyatida boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan. **Zarbdor** so‘zida tez va shiddat bilanlik ta’kidi mavjud, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Yetakchi** so‘zida oldinda borish belgisi ustuvor. **Peshqadam** so‘zida ayni ma’no kuchli ifodalanadi. **Karvonboshi** so‘zi mazkur ma’noda kamroq ishlatiladi. **Udarnik** so‘zi eskirgan, kitobiy.

Rayijrokom raisi: “Nima iltimos ekan? Agar qo‘limizdan kelsa, sizdek i l g‘ o r suvchidan yordamimizni ayaymizmi?” – deb qo‘ygach, Sherqo‘zi temirni qizig‘ida bosdi... A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Dunyodagi barcha i l g‘ o r mamlakatlar tibbiyotida shunday.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Bo‘yin egar daryo amrga, Oqa boshlar yangi iz bilan, Injenerlar, ishchi z a r b d o r lar Mag‘rur kular yongan ko‘z bilan.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Toshpo‘lat deganlari o‘zim qatori bir yigit ekan... U boshliq z a r b d o r yoshlar brigadasi bepoyon bir dalaning qoq o‘rtasiga qo‘r qurgan, aniqrog‘i – “desant tashlagan” edi.* E.A’zam, Shovqin. *Farzandlari – Ravshan va Feruzani ham o‘zlari bilan olvolishgan, toki yosh avlod dunyoni, unda har jihatdan y e t a k ch i davlatlardan bo‘lgan Fransiya, Germaniya va Italiyani ko‘rsin, dunyoqarashlari o‘ssin...* U.Hamdam, Muvozanat. *Biofizika institutining y e t a k ch i olimlaridan bo‘lgan professor Jahongir Aliyev bu damda elallomaning elektron miyasi qog‘ozga tushirgan satrlarni tahlil qilib o‘tirardi.* T.Malik, Falak. *Ayniqsa, Abdulla Avloniy... Toshkent jadidlarining p e sh q a d a m laridan.* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *Qamariddin avval o‘qigan maktabiga ham bordi. Harholda, yaxshi o‘qirdi, sportda p e sh q a d a m edi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Uch*

oy o‘tmay jononning Yaqinlashdi oy-kuni. Hamma hayron, hamma lol: “Biz bir yilcha kutardik, Matmusaning xotini Chiqib qoldi u d a r n i k”. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Endilikda ekologiya sohasidagi bir qator namunali harakatlarning hozirgi k a r v o n b o sh i laridan biri sifatida “EKOSAN” respublika jamg‘armasi faoliyati hammamizni umidlantirmoqda.* A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *Jahon adabiyotini uzluksizlik va muntazamlikda kuzatganlar yaxshi bilishadiki, borliq va inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar eng avval so‘zda aks-sado beradi. Ya’ni bunda k a r v o n b o sh i vazifasini asl so‘z bajaradi.* “Sharq yulduzi”.

I

IMILLAMOQ, IMIRSILAMOQ, SUDRALMOQ, SUSTLASHMOQ, SUSTKASHLIK QILMOQ (ETMOQ) Ish-harakatda sustkashlik qilmoq, muayyan yumushni o‘ta sekin bajarmoq. **Imirsilamoq** so‘zida salbiy munosabat ifodasi bor, kam ishlatiladi. **Sudralmoq** so‘zi so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi, salbiy baho oladi. **Sustlashmoq, sustkashlik qilmoq** so‘zlarida past sur’atli harakat ta’kidi mavjud.

Bir zum nigohim oldiga bu qorong‘i o‘rmonda behol i m i l l a b daraxt kesayotgan dadamlar keldi… O.Yoqubov, Muzqaymoq. *Tashqaridan Olamgirning ovozi keldi: – Bo‘la qol i m i l l a may. – Shomga xiyla vaqt bor shekilli? – dedi Xadicha eriga javdirab.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Xoljuvonoy chiqib, otni jo‘rttagadan i m i r s i l a nib, teskari abzallab: “Otni abzallab qo‘ydim”, – deb adab saqlab turdi.* “Rayhon arab”. *Rayhon arab shoshib kiyimlarini ham kiymay: “Hay, shu Go‘ro‘g‘li bo‘lsa, kiyimsiz ham ushlab kelaman. I m i r s i l a b kayfimni uchirding.* “Rayhon arab”. *Zebi... darvozadan chiqib, muyulishga yetganda u yoqdan O‘lmasjon ko‘rindi: charchagan otini horg‘in-horg‘in qamchilab, asta-asta s u d r a l moqda edi. Ikkalasi bir-birini ko‘rishdi, tanishdi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Abdulla... gandiraklardi, oyoqlari omonatgina ilib qo‘yilgan tayoqchalardek s u d r a l ar, tizzalari zo‘rg‘a bukilardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Faqat biz – tabiat himoyachilarimiz deb, ko‘kraklariga urib yurganlar faoliyatda s u s t l a sh dik, xolos.* A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *Qo‘rboshining shundan keyingi faoliyati biroz s u s t l a sh adi, o‘zi ham odamovi, sustkash, parishonxotir, bo‘lib qoladi.* M.Xo‘jayev, Shermuhammadbek qo‘rboshi. *Biz esa ayni yozadigan paytimizda s u s t k a sh l i k q i l yapmiz, – dedim. Misollar keltirdim, Yoqubjonning adabiyot gazetasida e’lon qilingan o‘ta jo‘shqin va keskin publitsistik maqolalarini esladim.* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Nazarimda, adabiy tanqid zimmadagi bosh vazifasi – mavjud roman xirmonini saralashda xiyla s u s t k a sh l i k q i l yapti.* “Sharq yulduzi”.

IMKON, IMKONIYAT, O‘NQOV 1. Biron-bir ish, maqsad yoki talab-istakni yuzaga chiqarish, bajarish uchun zarur, qulay shart-sharoit. **Imkoniyat** ko‘zlangan ish yoki maqsadni amalga oshirish uchun qulay vaqt, qulay sharoitni bildiradi, oddiy so‘zlashuvda ham faol qo‘llanadi. **Imkon** oddiy so‘zlashuvda

ham, kitobiy uslubda ham ishlatiladi. **O‘nqov** so‘zi *kelmoq, topmoq* so‘zlari bilan birikib, imkon ma’nosida keladi.

Ko‘cha tutash balchiq bo‘lganidan bolalarning o‘yini tugul, yurishga ham i m k o n yo‘q edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Bu zal ham keyingi paytlarda torlik qilib qolayotgan bo‘lsa ham bemalol o‘tirib, ma’ruzani ko‘chirib olishga i m k o n bor edi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *– Unchalik emas, – dedi Gulchehra va xo‘rsindi... – Mingbuloqda tansa tushishmaydi. Vaqt ham yo‘q, i m k o n i y a t ham yo‘q.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Uchinchi kursga o‘tganimda dilimda turgan otamning vasiyatini bajarish i m k o n i y a t i tug‘ildi.* O‘.Umarbekov, Qaytar dunyo. *Ziyo aka so‘z o‘ n q o v i kelganini payqab Hasanalining jim turishiga ishorat qildi va o‘zi javob berdi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *O‘ n q o v i kelgani zahoti o‘ng panjasi bilan Kenjatoyning bo‘ynidan omburday qisib yerga bosdi.* S.Is’hoq, Zulmatdan zulmatgacha.

2. Biron-bir xatti-harakatni bajarishga bo‘lgan chora-iloj, amalga oshirish mumkinlik. **Imkoniyat** bu ma’noda insonning o‘z jismoniy imkonini ham, shunday qobiliyatga egaligini ham bildiradi. **Imkon** so‘zida faqat insonning o‘zigagina bog‘liq bo‘lmagan “so‘nggi chora” ta’kidi anglashiladi. **O‘nqov** so‘zi eskirgan.

Bu ko‘chaga bir marotaba kirgan odam qaytib chiqmog‘i dushvor, ixtiyorida birgina i m k o n qoladi – ana shu ko‘cha bo‘ylab ichkarilash, ichkarilash, vassalom! E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Fikri-zikri shu ishida, shu bois vaqti juda kam, so‘z qotishga i m k o n i yo‘q*. I.Sulton, Ozod. *Shuhrat she’r yozish i m k o n i y a t idan mutlaqo mahrum bo‘lgan armonli paytlari nashr qilingan “Hali tun uzoq”, “Kechki nurlar”, “Shaydo ko‘ngil” kitoblarida xazinlik tuyg‘usi deyarli yo‘q, nolish yo‘q, umidsizlik yo‘q.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *“Insonning jismoniy i m k o n i y a t i cheksizdir”, deb ularning fikrini rad qilardi boshqalari.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Ishning ebini jo‘blab qarasaq, juda kashal, devor – tosh hamin! Oshib tushishning sira o‘ n q o v i yo‘q.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Unday bo‘lsa men shu yerda qolaman, agar o‘ n q o v i kelsa tanishib, hujra so‘rayman, bo‘lmasa aftini tanib olib, kelajak uchun yo‘l hozirlayman, – deb do‘stimdan ajraldim.* S.Ayniy, Sudxo‘rning o‘limi.

IMZO, QO‘L Shaxsning maxsus yozuv-chizuv (shakl)da ifoda etilgan va shaxsning o‘zi ekanini bildiruvchi belgi. Bunda ko‘pincha kishi ismi va (yoki) familiyasining ramzi aks etadi. **Qo‘l** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos.

O‘sha kechasi qo‘ygan i m z o sining bahosini Said ertasi choshgohda hushiga kelgachgina angladi. I m z o ning zalvori shu darajada ediki, u butun mol-mulkidan… “o‘z ixtiyori bilan” voz kechgandi. U.Hamdam, Muvozanat. *Sharif Namozovni qamash, qamoqdan chiqarish haqidagi qog‘ozlarda mening i m z o m yo‘q edi.* T.Malik, Shaytanat. *Siz borguncha markaziy gazet Sizni chalpak qilib hajviy lavha bosadi. Ostidagi imzo agar meniki bo‘lsa, Ajablanmang. Shu q o‘ l sizni mashhur qilgandi, Endi shu q o‘ l manfur qilar.* E.Vohidov,

Umrim daryosi. – *Qiziq. Ilmsiz, hatto q o‘ l qo‘yishni bilmaydigan odam qanday qilib sizdek ilmli odamga pir bo‘ladi? – ko‘zlarini ayyorcha qisdi Salim.* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Yaxshi, omma, gapni kalta qil. Sen uning erini bilmaysan, tanimaysan... Hech qanaqa qog‘oziga q o‘ l qo‘yma, – shunday deb iziga qaytgach, Nafisa eshikni yopdi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar.

IN, UYA, OSHYON 1. Qush, hasharot va hayvonlarning yashash, bola ochish uchun qurgan joyi. **In** so‘zi qush va hasharotlarning yashash joyiga nisbatan ko‘p qo‘llanadi, ammo hayvonlarning yashash joyiga nisbatan kam qo‘llandi. **Uya** so‘zi, asosan, qush va hayvonlarning yashash joyiga nisbatan ishlatiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan, biroq ayni ma’noda **in** so‘zining qo‘llanish doirasi kengroq, ijobiy-salbiylik bo‘yog‘iga ega emas. **Oshyon** so‘zi eskirgan, kitobiy nutqqa xos.

Sichqon sig‘mas i n iga, g‘alvir bog‘lar dumiga. E, ko‘rpangga qarab oyoq uzat-da, xumpar. E.Vohidov, Oltin devor. *Suv o‘rgimchagi ham bor, lekin u ko‘proq ariqlar va turg‘un suvlar ustiga i n quradi, oqar suv ustiga qurmaydi.* “Sharq yulduzi”. – *Meni aytdi, deysizlar, bu tulki! – dedi semiz odam. – Birinchidan, kuz. Yig‘im-terim tugadi. Chorva ko‘chyapti. Tulki i n qidirib, bu yoqqa kelib qolgan adashib.* O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar. *Qaldirg‘ochning tashlandiq u y a sidan chigirtkaniki singari ingichka hushtak ovozi chiqardi: izg‘irin berkinib olib, sho‘xlik qilayotganga o‘xshaydi!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Negadir Munisxon uni yoqtirmasdi. “O‘lsin, tasqara”, derdi. Ko‘ktoy ham uni ko‘rishi bilan dumini qisib, hujra yonidagi u y a s iga kirib ketardi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Iqbol peshonamga bitgan o sh y o n im – O‘zbekistonim.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Qushlar o sh y o n idan uchib ketmishlar, Kech kuzak haybati soya solganda*. A.Sher, Qadimgi kuy.

2. Yomon niyatli kishilar o‘rnashgan yoki uchrashadigan, to‘planadigan makon, pakka. Mazkur ma’noda **uya** so‘zining salbiy bahosi kuchli. Qo‘llanish doirasi chegaralanmagan.

Ayitboy jangovar uchuvchi bo‘lgan ekan. U fashistlar i n iga necha martalab qirg‘in solibdi. Sh.G‘ulomov, Qalb undaydi. *Aziz fuqaro! Ma’lumingizkim, ko‘hna Isfahonda fisq-u fujur i n qurib, turfa jodugarlar, iymoni zaif shofe’inlar ko‘paymoqdalar.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Siz avval shahardagi g‘uluni bartaraf qiling, fitnaning u y a sini toping, ana unda Bobur mirzoning inoyatlariga sazovor bo‘lg‘aysiz.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bu yovuzlik u y a siga tushib qolib, yolg‘iz qush holatida yurgan Halimjonga Elchinning gaplari boshqa bir yovuzlik u y a siga chorlash kabi tuyuldi.* T.Malik, Shaytanat.

INDAMASLIK, CHURQ ETMASLIK, MIQ ETMASLIK Hech narsa demaslik, biror og‘iz ham ovoz chiqarmaslik.

Hojiyaxon indamadi. Shu i n d a m a s l i k Asadullaning boshiga cho‘qmorday urildi. T.Malik, Savohil. *...Xo‘sh, uchrashgan onida uni ursinmi, tepsinmi*

yo xumordan chiqqunicha so‘ksinmi? ... Eng to‘g‘ri yo‘l – i n d a m a s l i k. T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *...Seni qamab qo‘ysalar ham ch u r q e t-ma. Keyinroq gapirib berasan. Ulardan qo‘rqdim, shu sababli darrov aytmadim, deysan.* T.Malik, Shaytanat. *...Biz Usmon aka bilan o‘zimizning ishlarimiz, kuzgi sabzavot, yangi ochilmoqchi bo‘lgan yer va boshqa ishlar haqida gaplashdik. U ch u r q e t madi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Yusuf m i q e t masdi. Sodiq esa gapirar, to‘lib ketgan yuragini tushunadigan odam topib olgandek to‘kib solar… edi.* U.Hamdam, Muvozanat. *– Yana quloq solyapsanmi? – qich-qirdi Olloyorov. Kampir m i q e t madi, qonsiz lablari nimalarnidir shivirladi, keyin sekin burilib, devorga qo‘lini qo‘ydi-da, ko‘zdan yo‘qoldi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri.

INOQ, AHIL, QADRDON, TOTUV, ITTIFOQ, QALIN, APOQ-CHAPOQ O‘zaro yaxshi, do‘stona, iliq munosabatda bo‘lgan. **Ahil** so‘zida ayni ma’no **inoq** so‘zidagiga nisbatan kuchli va u **inoq**qa nisbatan kamroq qo‘llanadi, badiiylik bo‘yog‘i esa kuchli. **Qadrdon** so‘zida munosabat belgisining darajasi **ahil** so‘zidagidan ham kuchli, ma’no hajmi keng, oddiy so‘zlashuvda ham ko‘p kuzatiladi. **Totuv** so‘zida bog‘liqlik bilan bir qatorda “farovonlik-tinchlik” ta’kidi seziladi. **Ittifoq** so‘zining mazkur ma’noda qo‘llanishi chegaralangan, asosan, badiiy uslublarda ishlatiladi. Mazkur ma’no **inoq-ittifoq** juft so‘zida yanada kuchli ifoda topadi. **Qalin, apoq-chapoq** so‘zlari oddiy so‘zlashuvga xos. **Apoq-chapoq** so‘zi o‘zaro yaqinlik ma’nosini **qalin** so‘ziga nisbatan juda ochiq va aniq ifodalaydi

Hademay urush tugaydi, faqirning noni butun bo‘ladi. ...Bunga yetishish uchun qo‘shnilar i n o q, ahil, tinch bo‘lishi kerak. T.Malik, Savohil. *...Musofir-likda kishilar o‘zaro ahil va i n o q, mehribon va oqibatli, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash tuyg‘usi kuchli bo‘lishini dastlab o‘shanda bildi.* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *Ikki urishqoq podshohdan ikki a h i l darvishning kuchi ziyod-roq, deyishadi.* T.Malik, Devona. *...inson bolasi hamma vaqt, hamma joyda o‘zaro a h i l, intifoq yashashi kerak, hayvonlarga o‘xshab shoxlashmay.* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *– Dunyoda eng q a d r d o n, jonajon do‘stlarim deb senlarga ko‘nglimni yorgandim, – dedi Aziz ma’yus tortgandek bo‘shashib.* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Said xotinining sermulohazaligi, gap hatto erining q a d r d o n do‘sti – Yusuf haqida ketayotganda ham hissiyotga berilmay… ma-salaga yondasha bilishiga ham hayrat, ham zavq bilan qarab turdi...* U.Ham-dam, Muvozanat. *Er-xotin juda t o t u v, yaxshi yashashardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Alloh buyuradiki: “Ey iymon keltirganlar! ...ular (xotinla-ringiz) bilan t o t u v turmush kechiringlar.* T.Malik, Odamiylik mulki. *– Bitta shaharda ikkita imom-domla bo‘lgan ekan. It bilan mushuk murosa qilsa qilar-kanki, bular i t t i f o q bo‘la olishmas ekanlar.* T.Malik, Shaytanat. *– Avvalo, biz o‘zbeklar o‘zimiz noahilmiz, i t t i f o q emasmiz.* M.Mansur, Judolik diyori. *Usta*

Alim qutidorning ba’zi bir e’tirozlariga qarshi Otabekning qutidor tomonidan quvlang‘anidan tortib… har bir kelishida o‘zining uyiga kelib tushkanini va q a l i n o‘rtoq bo‘lib olg‘anlarini... so‘zlab chiqdi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Kecha bir kampir sizga arizani topshirgan bo‘lsa kerak… – Ha, topshirdi. – O‘sha ariza bergan odam – otamning juda q a l i n o‘rtog‘i.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...Olim bir-birlarini uncha ham xushlamaydilar deb eshitgani ikki ulamoning birodarlari tashvishida fikrlari bir yerdan chiqib, a p o q-ch a p o q o‘tirishlariga hech tushunib yetolmas edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Suyanchi, himoyachisining shundoq zo‘r yigit bo‘lishiga qaramay, qayliqdan omadi chopmaganiga u ham achinar, orzulagani – a p o q-ch a p o q, sirdosh bo‘lib yurishga loyiq ochiq chiroy kelinoyi uchramaganidan yana afsuslanardi.* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *Rahmatli Jo‘raboy otani butun viloyat tanirdi!.. Chol-u kampir juda i n o q-i t t i f o q yashaganlar. Otaxon katta mirishkor bog‘bon edilar.* D.Qo‘ldosh, Siringizni ayting, momo. *O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari bir-biriga qon-qarindosh bo‘lib, bir zaminda i n o q-i t t i f o q yashab kelgan.* Gazetadan.

INOQLASHMOQ, AHILLASHMOQ, TOTUVLASHMOQ, QADRDONLASHMOQ, QALINLASHMOQ, ITTIFOQLASHMOQ O‘zaro yaqin, do‘stona, iliq munosabatli bo‘lmoq. **Ahillashmoq** so‘zida yaqinlik munosabati **inoqlashmoq**qa nisbatan kuchliroq ifodalanadi, ammo birmuncha kam, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Totuvlashmoq** so‘zida birgalikdagi farovonlikning mustahkamlanishi qabariq ta’kidlangan. **Qadrdonlashmoq** so‘zida o‘zaro yaqinlik-do‘stlik ta’kidi o‘z ifodasini topgan. **Qalinlashmoq** so‘zida mazkur ta’kid yanada kuchli namoyon bo‘lgan, asosan, so‘zlashuv uslubiga xos. **Ittifoqlashmoq** so‘zi kam ishlatiladi, kitobiy leksikaga mansub.

Kampir boshda Hikmatilloga…“so‘yloq” deb laqab qo‘ygan, bu laqab unga devorga otilgan loydek yopishib qolgan edi – keyinchalik i n o q l a sh ib ketib, ikki yildan ko‘proq turgan… edi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Avvallari “bu farangi shahzodani dindan chiqarmasin tag‘in!” deb xavotirda yurgan shayx Farid bora-bora Alibek bilan til topishib, i n o q l a sh ib ketdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Kek saqlaydigan odatim yo‘q, Mutallibxon bo‘lsa dili daryo odam: biz tez a h i l l a sh ib ketamiz.* N.Rahmat, Noxush xayollar. *Nazarimda, haligi ishchi hamma bilan a h i l l a sh ib, til topishadigandek tuyuldi.* I.Shog‘ulomov, Dilda borimni aytaman... *Yomonlik o‘shaning – Musulmonqulning boshi bilan birga ketgandek, qipchoq og‘aynilar ila t o t u v l a sh dik, qipchoqning eski adovatlari bitdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ba’zan Janna bilan Umid t o t u v l a sh ib ham qolishardi, bunday paytlarda Janna bir qadar o‘z ta’sirini eriga o‘tkazardi.* Mirmuhsin, Umid. *Biz juda q a d r d o n l a sh ib ketgan edik, redaksiyadagi muammoli ishlarni, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni bamaslahat hal qilardik.* Z.Yesenboyev, Umr daftari. *Bolalik yillari orttirgan do‘stim, yozuvchi A’zam Miraxmedov edi. Bir maktabda o‘qib, keyin q a d r d o n l a sh-*

gan edik. N.Rahimjonov, Nur – boqiylikdur. *Bu gal Abdulla uni yo‘qlab borgandi. Keyin esa… ular juda q a l i n l a sh ib ketdi.* Z.Qurolboy qizi, Muhabbat va nafrat. *Shu tarzda ikkalamiz ancha q a l i n l a sh ib qoldik.* M.To‘raboyeva, Burilish. *Unda, jumladan, shunday satrlar bor: “Yigirma ikki yoshga to‘lganimda Hoji barlos bilan i t t i f o q l a sh ib, amir Qazag‘onga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishga qaror qildim...”* H.Sattoriy, Mahak toshi. *Butkul askar boshlig‘iga, o‘zaro i t t i f o q l a sh ib, Abu Sufyonni belgiladilar.* “Temur tuzuklari”.

INQIROZ, TANAZZUL 1. Mavjud bo‘lgan, yashab turgan narsaning tugashi, yo‘qlikka yuz tutishi. **Tanazzul** ushbu ma’noni birmuncha yashirin ifodalaydi, **inqiroz**da ma’no ochiq namoyon bo‘ladi. **Tanazzul** so‘zida inqirozga nisbatan publitsistik ruh ustuvor. U badiiy uslubda ham qo‘llanadi.

Ko‘targanman isyon rostdan, Makr emasdi u biroq. Saltanatni i n q i r o z dan Lozim edi qutqarmoq. E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Temur zamonida Shodimulk degan bir shunaqasi chiqib, butun saltanatning i n q i r o z iga sabab bo‘lgan.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bu ish tezda bartaraf etilmasa, saltanat obro‘siga putur yetadi, t a n a z z u l ga olib boradi, deb o‘ylardilar.* Mirmuhsin, Me’mor. *Tangri inoyati – tangri rahmati, T a n a z z u l topmagay temuriy millat.* I.Mirzo, Agar jannat ko‘kda bo‘lsa... *Hech kim sevgan emas seni menchalik, Kirgan bormi yo‘lga so‘ngsiz, bemanzil? Mast bo‘lgan yo‘q oniy, omonat baxtdan, Bilaturib bu baxt so‘ngi – t a n a z z u l.* “Sharq yulduzi”.

2. Umumiy taraqqiyotda orqaga ketish, rivojlanishning qoloqlashishga aylanishi. **Tanazzul** mazkur ma’noda **inqiroz**ga qaraganda kam qo‘llanadi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar, i n q i r o z lar va chayqalishlarning bari kishilarning hayotida aks etadi va zalvoriga, ko‘lamiga qarab turli-tuman iztiroblarni... hosil qiladi. I.Sulton, Hazrati Majoz. *Jamiyatni i n q i r o z dan ilmiy texnika inqilobi, ishlab chiqarishdagi yuqori ko‘rsatkichlar emas, ma’naviy shakllanish, ma’naviy yuksalishgina asrab qolishi mumkin.* H.Xudoyberdiyeva, Yuragimning og‘riq nuqtalari. *Iqtisodiy tanglikni yengish mumkin, ammo ma’naviy t a n a z z u l ni yengish murakkab vazifa*. “Sharq yulduzi”. *Uzro uchun keyingi o‘n-o‘n besh yil ma’naviy-axloqiy t a n a z z u l davri bo‘ldi.* F.Salayev, Uzro.

ISIMOQ, QIZIMOQ Ko‘p issiqlikka ega bo‘lmoq, harorati ko‘tarilmoq. **Qizimoq** so‘zida haroratning balandlik darajasining yoqorilik ta’kidi mavjud.

Kun i s i di, amirzodam. Yoz ramazoni tinkani quritur. Iftorgacha toliqib qolmasinlar. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Holbuki, har qanday kaftni ham bir muddat tutib tursangiz, chakkangiz i s i gandek, hatto qizigandek bo‘ladi; “kaft” bilan “taft” bekorga qofiyadosh emas.* E.A’zam, Shovqin. *Kundan kun havo q i z i di. To‘rt tomoni baland uy, ayvonlar bilan o‘ralgan hovlida nafas bo‘g‘ila boshladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ko‘r* (*ilonni*) *qamchi deb o‘ylab, qo‘liga oldi va otiga mindi. ...Birozdan keyin havo q i z i di, ilon jonlanib, ko‘rning qo‘lini chaqdi va uni halok qildi.* T.Malik, Iymonlashish umidi. *Xamir achiguncha,*

o‘tin yorib, tandirga o‘t qo‘ydim. Non yasab bo‘lguncha tandir q i z i di. Oybek, Tanlangan asarlar.

ISTAK, XOHISH, HAVAS, ISHTIYOQ, HAFSALA, MAYL, RA’Y, KO‘NGIL, ARMON, RAG‘BAT, TILAK, **ORZU** Biror narsaga erishishga, biror narsa qilishga bo‘lgan ichki intilish, ehtiyoj hissiyoti. **Havas** so‘zida umumiy qiziqish ta’kidi qabariq ifodalangan. **Ishtiyoq** so‘zida erishish, yetishish maqsadi kuchli ifodalanadi. Oddiy so‘zlashuvda deyarli uchramaydi. **Hafsala** so‘zida istak ifodasi kuchsiz, asosan, oddiy so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanadi. **Mayl** va **ra’y** so‘zlarida mo‘ljallangan narsa-hodisaga tabiiy moyillik ifodasi kuchli aks etgan. **Armon** so‘zida erishilmagan niyat-istak ta’kidi qabariq ifoda topgan. **Ko‘ngil, rag‘bat, talab, tilak** so‘zlari mazkur ma’noda anchayin kam qo‘llanadi. **Orzu** so‘zida erishmoq maqsad qilingan muayyan niyatlik ta’kidi ochiqcha aks etgan.

Ovulim, tog‘larim, Dog‘istonim. Xayollarim, tuyg‘ularim, i s t a k larimning oshyoni – mana shu yer. E.Vohidov, Otamning so‘qmog‘i to‘g‘risida hikoyat. *Humoyunning endigi i s t a g i – otasining o‘smirlik yillaridan beri yozib yurgan “Vaqoyi’” nomli kitobini o‘qish edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *...Ovrupaning e’tiborli shaharlarida uch-to‘rt kundan bo‘lib, miriqib tomosha qilgach, hammalarining ko‘ngli to‘lib, uyga qaytamiz, deb turishganda Manzura yana bir x o h i sh ini ko‘ndalang qildi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Yaxshi odamlarda yomon x o h i sh bo‘lmaydi-ku?!* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Shahardan Saltilarning bir arava bo‘lib kelishlari ham Enaxonning shu xil h a v a s laridan biri edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *O‘g‘ilginam-ey, senda hamma narsani bilishga h a v a s baland, xudo xohlasa, sen katta olim bo‘lasan...* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *...Yur, parivash, men bilan yur, Bormi senda i sh t i y o q? Gul tutarman senga so‘lmas ul chamanda bir quchoq, Arganushim, Arganushjon, hoy, Arganush.* E.Vohidov, Arganush. *Said Ahmad qaytishi bilanoq yeng shimarib ijod qilishga kirishdi. Aftidan, tutqunlikda o‘tkazilgan yillar davomida ijod qilish ehtiyoji, yozish i sh t i y o q i qalbida yig‘ilib qolgandi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bu sovuq qutbda she’r yozishga ham h a f s a l a m qolmas!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Yusuf, – dedi Amir, – xohish va h a f s a l a bo‘lsa, to‘g‘rirog‘i, iymon butun bo‘lsa, har zamon imkon topiladi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Ikki qariya namoz o‘qiyotganida Asadbekda ham ibodat qilmoqqa m a y l uyg‘ondi.* T.Malik, Shaytanat. *Agar Sayyora bilan yulduzlaring to‘g‘ri kelib qolsa, Tursunali akang bilan quda bo‘lish biz uchun katta baxt bo‘lardi. Nazarimda, Tursunali akangning ham shunga m a y l i bor.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Jon tog‘a, bir gal mening ham so‘zimga kiring. Shaytonga hay bering. Uning r a’ y iga to‘g‘anoq bo‘la ko‘rmang.* M.Mansur, Judolik diyori. *Olamda bunday gul tag‘in bormi? Bunday dil tag‘in bormi? Bir daf’agina mening r a’y imga boqsang-chi, sohibim?!* I.Sulton, Mening gulim. *Bilgali k o‘ ng l i ng ni kirsam,*

Bog‘ing ichra har zamon, Shohigulga yolvorurman, Sirlaring ogohi gul. E.Vohidov, Ishq savdosi. *O‘zga bir imoratni boshlashga esa na istagi va na r a g‘-b a t i bor edi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Senda bitta nuqs bor, illo undan qutilmoqqa sira r a g‘ b a t ing yo‘q.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *U mayin tovush bilan alla aytar, bu allada uning orzu-umidlari, bolasiga baxt, ulug‘ istiqbol t i l a k lari ifodalanar edi...* S.Ahmad, Alla. *Men Bilim yurtiga sof yurak va yaxshi t i l a k bilan kirgan edim…* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *O, bu o r z u-lar!.. Qanday shirin, lazzatli...* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Biz o‘z o r-z u larimizga haddan ziyod katta kuch va istak bilan intilamiz, natijada ko‘pincha ularni boy beramiz...* U.Hamdam, Muvozanat.

ISTAMOQ, XOHLAMOQ, TUSAMOQ, ORZULAMOQ, ORZU QILMOQ, TILAMOQ, IXTIYOR QILMOQ, SOG‘INMOQ Kishining o‘z ixtiyoricha nimagadir erishishni, nimagadir ega bo‘lishini xohlash hararakati. **Tusamoq** so‘zi mazkur ma’noda kelganda, deyarli hamma vaqt *ko‘ngil* so‘zi bilan qo‘llanadi. **Orzulamoq, orzu qilmoq** so‘zlari mazkur ma’noda belgi darajasini kuchli ifodalaydi. **Tilamoq** so‘zi “istamoq” ma’nosida namoyon bo‘lishi uchun muvofiq kontekst kerak bo‘ladi. **Ixtiyor qilmoq** bu ma’noni poetik bo‘yoqdor tarzda namoyon qiladi. **Sog‘inmoq** ham bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Zebi supurgini qo‘ldan oldirdi, lekin o‘rtog‘i supura boshlagandan so‘ng: – Voy, bu nimasi! Qo‘ying, o‘zim supuraman! – deb yana supurgiga yopishdi. Salti bermadi, bu olmoq i s t a di; Salti qochdi, bu quvladi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Insonlar uzoq umr ko‘rishni i s t a ydilar, lekin bu olamda uzoq umr mashaqqat va zahmatdan iborat ekanini ham yaxshi biladilar.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Masalan, ovrupoliklar uchun imorat o‘zinikimi yoki ijarami, buning uncha ahamiyati yo‘q. Aksincha, ular tez-tez o‘z yashash joylarini o‘zgartirib turishni x o h l a shadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Alomat. Men odamlar haqida boshqacha tasavvurda edim. Ularning erki qo‘lida, nimani x o h l a sa shuni qiloladi, deb o‘ylardim.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Ularning injiqliklarini butunlay haqsiz deyish to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Chunki ular ham yoshlar, boshqa o‘z tenglari kabi ularning ham orzu-havaslari bor, ko‘ngillari ko‘p narsani t u s a ydi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *O‘shanda uning bola ko‘ngli ham tog‘ni, ham qizg‘aldoqzorni t u s a gandi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bu ayol dunyoga keltiradigan o‘g‘lonning zuryodim bo‘lishini shunday o r z u l a r edimki!..* I.Sulton, Ozod. *G‘ir-g‘ir shamollarga ko‘kragini tutgan o‘sha jannatday joyda bir lahzagina o‘tirmoqni… asal bo‘yli bosvoldilaridan bir tilimgina totmoqni o r z u l a r-di.* M.Mansur, Judolik diyori. – *Odam bolasi borki, barhayotlikni o r z u q i l adi, – dedi mehmon.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Bozorboy... kazo-kazolar bilan quda bo‘lib, katta davralarda savlat to‘kishni o r z u q i l adi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Sihat t i l a sang, ko‘p yema, Izzat t i l a sang, ko‘p dema.* Maqol. *Bugun menga sukunat kerak, Sukunatki, yo‘qlik qadar tinch. Faqat jimlik t i l a ydi*

yurak, Sizdan bugun birgina o‘tinch: Yolg‘iz qo‘ying meni, do‘stlarim... E.Vohidov, She’r dunyosi. *Oxiri Mahmud otga makr-xiyla bilan ega chiqishni i x t i y o r q i l di.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Ishga qaytishni i x t i y o r q i l may, Elchinni ko‘rgisi kelib, uning uyiga yo‘l oldi.* T.Malik, Shaytanat. *Endi sizdan shuni ham so‘rayin: xo‘jasig‘a sodiq bir qul, sizning ta’biringizcha, ma’naviy bir padar o‘z o‘g‘lig‘a yomonlik s o g‘ i n armi, bu to‘g‘rida javob beringiz-chi?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U dilining tub-tubidan cho‘ponlarga yomonlik s o g‘ i n di: “Iloyim, ko‘zlaringga suv to‘lsin senlarni!..”* U.Hamdam, Muvozanat.

IT, KUCHUK, SAK, BOBOV, TEVAT Uy-ro‘zg‘orni qo‘riqlash, ov ovlash va shu kabi maqsadlar uchun saqlanadigan to‘rt oyoqli sutemizuvchi uy hayvoni. **Sak** hozirgi o‘zbek tilida juda kam qo‘llanadi, eskirgan kitobiy so‘z. **Bobov** so‘zi ko‘pincha yosh bolalar nutqida qo‘llanadi. **Kuchuk**ning “katta it” ma’nosida qo‘llanishi, masalan, Toshkent shevasida uchraydi. **Tevat** so‘zi ham shevaga oid.

Amir og‘riqning zo‘ridan dodlay boshladi, azonda uning faryodi adirlar osha Ulug‘tog‘ga urilib, aks-sado berdi. I t l a r hurdi. Qo‘ylar qochdi... U.Hamdam, Muvozanat. *Sizga endi bitta i t lozim, o‘rtoq Tillayev. I t uyning savlati. Albatta, i t boqing. O‘zim g‘alatisini topib beraman.* S.Ahmad, Qoplon. *O‘tlar orasidan och, ozg‘in, yunglari ho‘l, jimitgina bir k u ch u k chiqib keldi...* I.Sulton, Ozod. *Tuyqusdan ko‘cha eshik qattiq taqilladi, hovlida, ko‘chada k u ch u k lar vovulladi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *– Men-ku hech yo‘q odamlarning ilkidan non yeguvchi s a k ekanmen, – dedi miyig‘ida kulib mag‘rur vazir.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Sevgimday sevarman seni, Ozodlik... Sayoq s a k emasman, ko‘chkin quyunmas.* E.Shukur, Hamal ayvoni. *Bolalarni shaytonlardan qo‘rqitmangiz, B o b o v keldi, deb ko‘rpaga berkitmangiz...* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Ba’zan b o b o v bo‘lib hurayotirmiz, Qarilik gashtini surayotirmiz.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *T e v a t ga suyak tashlaganingdan keyin o‘z holiga qo‘y, qanday g‘ajisa, shunday g‘ajisin.* “Qanotli so‘zlar”. *To‘rt tomon yeliga ko‘kragi ochiq, Eshakday t e v a t ham yotibdi beun.* Mirtemir.

IXTIYOR, IZM, MAYL Kishining biror narsadan foydalanish, tasarruf etish yoki idora qilish huquqi, shunday mazmundagi xohish-istagi. **Izm** faol so‘z emas, kitobiy nutqqa oid. **Mayl** so‘zi ayni ma’noni ifodalaganda, egalik qo‘shimchalari bilan keladi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Zalning xo‘jayinini chaqirib, qarorini aytdi: restoranni ichkaridan zanjirlaysan, u bizning i x t i y o r imizda, barcha xarajat bizning hisobimizdan! E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Bugun Sanobar Kamolova ertalabdan boshlab ToshMIda birga o‘qigan kursdosh o‘rtoqlari i x t i y o r ida bo‘ldi.* O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i. *Mulohaza qilib qarasam, men qayerda va nima ish bilan mashg‘ul bo‘lmay, hamisha Ollohning i z m ida va Unga ibodatda ekanman.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘g‘illar ona i z m idan bir qadam chiqishmasdi. Topgan-tutganla-*

rini ona qo‘liga tutqazishardi. S.Ahmad, Kelinlar qo‘zg‘oloni. *Har kimning m a y-l i o‘zida, – dedi Sharofat va labini burib, chetga qaradi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *– Taqsir, o‘zlari mullo ko‘rinadilar, – dedi mo‘ysafid Shamsibekka murojaat qilib. – Agar malol kelmasa, o‘zingiz o‘qisangiz. Qishlog‘imiz domlasi jur’at etolmaydi. – M a y l ingiz, – dedi Shamsibek.* T.Malik, Falak.

IZLAMOQ, QIDIRMOQ, AXTARMOQ, ISTAMOQ U yoki bu kishi, narsa, o‘rin-joyni topish maqsadida bo‘lmoq. **Izlamoq, qidirmoq, axtarmoq** so‘zlari adabiy tilda parallel qo‘llansa ham, shevaga munosabatda o‘zaro farqlanadi. Masalan, mazkur ma’noda Farg‘ona shevasida **axtarmoq**, Toshkent shevasida **qidirmoq,** Andijon shevasida **istamoq** so‘zi qo‘llanadi.

To‘lqinga tashlangan kemaday qalqib, Qudratli, mehrli qirg‘oq i z l a yman. Zulfiya, Saylanma. *Tasavvurim basirlik so‘qmoqlarida qoqilib-suqilib yo‘l i z-l a ydi, baribir, o‘z so‘qmog‘ini topolmaydi.* I.Sulton, Ozod. *Uning har narsasi bor edi. Shunday bo‘lsa ham, ayol kishi molga o‘ch bo‘ladi, nimalarnidir q i d i r di. Ba’zilari yoqmadi, ba’zi narsalarni topolmadi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Men hali tug‘ilmagan kitobimga qanday ot qo‘yay? Gullardan ism so‘raymi? Yulduzlardan izlaymi? Yoki purdonish kitoblardan q i d i r aymi?* E.Vohidov, Umrim daryosi. *...Miryoqub Mirzaboboni yoniga olib, darvoza darchasidan ko‘chaga chiqqan va qishloq itlarining to‘polon “vov”lari o‘rtasida keta turib, johil so‘fining qaysarligini sindirish uchun turli-tuman tadbirlar a x t a r ardi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ikki toychoq onalarining ham jon berganidan hali bexabar, nariroqda qor titkilab, yemish a x t a r moqda edilar.* I.Sulton, Ozod. *Ona bo‘sh kelmadi: –“Olma pish, og‘zimga tush!” bilan bo‘ladimi? Axtargan topadi! I s t a sangiz, durustroq kasb ham topiladi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...ekinzoridan chiqmay mehnat qilayotgan otam, tandir-u o‘choq boshidan beri kelmaydigan onam, tosh kesayotgan kishi, makkajo‘xorilar orasidan yemish i s-t a b chiqib kelgan kuchuk... bari nimalarningdir timsoli bo‘lib ko‘rinar edi!* I.Sulton, Ozod.

ISH, YUMUSH 1. Inson faoliyati bilan bog‘liq, uning mehnati bilan amalga oshadigan, bajariladigan narsa. **Yumush** bu ma’noda biroz ta’kid oladi, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi.

– Ishlayman desangiz, i sh ko‘p, rais bova, i sh ko‘p. Eski rais kalishi yirtig‘idan ko‘z uzmadi. – Qani edi, i sh bo‘lsa, ishlar edik, – dedi. T.Murod, Tanlangan asarlar. *Qorlar erib, yerning nami ko‘tarila boshlagach, barcha daladagi i sh-lar bilan ovora bo‘ldi.* T.Malik, Devona. *Kim o‘ylabdi, dengiz bo‘yi bandargohida, kishi nazariga ilmas bir y u m u sh ni bajaruvchilar – shu ishdan ro‘shnolikka chiqamiz deb?!* M.Mansur, Judolik diyori. *Yuk ortish, yuk tushirish kabi og‘ir y u-m u sh larni otasi yollagan bir-ikki erkaklar bajarsalar-da, chodir tikmoqlikning butun zahmati, avvalo, ayollarga tushardi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

2. Lavozim yoki mansab talabi, ijtimoiy maqom taqozosiga ko‘ra bajariladigan vazifa. Bu ma’noda **yumush** so‘zi **ish** so‘ziga nisbatan kamfaol.

– Xafa bo‘lmang, opa, i sh imiz shunaqa, – dedi Solihov uzr ohangida, – o‘g‘lingiz ko‘p narsani bilmas ekan. T.Malik, So‘nggi o‘q. *– Kechirasiz, – dedi Imomaliyev o‘rnidan turib, – bezorilarga zarba berish – sizning i sh ingiz. Men burchimni ado etdim – sizga xabar qildim.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Avvalo, raiyat osoyishtaligiga sen qayg‘urma. Bu sultonning y u m u sh i.* T.Malik, Falak. *Barcha o‘z y u m u sh ini bajarsa, bas, hech kimning inon-ixtiyoriga aslo dahl etmasdi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

3. Xizmat, vazifa, soha, kasb. Bu ma’noda ham **ish** so‘zi ko‘p qo‘llanadi, **yumush** faol emas.

I

Shubhasiz, sobiq mayor i sh ini qo‘msaydi. Xotin esa gap bilan uzib-uzib olishni. T.Malik, Alvido... bolalik. *U ginaomuz qaradi: – Bir og‘iz aytsangiz ekan o‘zingizdan ortib... – Ha, endi, i sh imni bilasan-ku, – deb baland keldim.* M.Mansur, Judolik diyori. *– Aslida, otang ham, men ham bir xil ish bilan ovoramiz, – dedi toshkesar. – Y u m u sh imiz boshqa-boshqa bo‘lsa-da, ma’nosi bitta: bolam-chaqam deb tirishamiz*. I.Sulton, Ozod. *– Buxorodagi oliy zotlarning istagi shunday. To‘ramning huzurlarida qanday y u m u sh ga chorlanishingizni o‘sha yerda ma’lum qiladilar, – dedi imom unga sinov nazari bilan qarab.* T.Malik, Devona.

4. Alohida kuch, mehnat talab qilmaydigan narsa, ermak. Bu ma’noda **yumush** so‘zi alohida ta’kid bilan ishlatiladi.

Ayniqsa, idoralar soni qisqarayotgan damda biron imoratni ijaraga olishdan osonroq i sh yo‘q. T.Malik, Shaytanat. *Xushkayfiyat odam uchun tong otishini kuzatishdan zavqliroq y u m u sh yo‘q. Hatto eng uyquchi odam ham tongda qushlarning sayrashini bir eshitadi.* T.Malik, Shaytanat.

5. O‘zgaga, o‘zga manfaatiga qarashli yumush, hojat. Bu ma’noda **ish** so‘zida kimningdir “hojati tushganlik” ifodasi ustuvor, **yumush** so‘zida bunday ifoda yaqqol emas.

– Mirzakarimboyning bog‘i qayerda, bilmaysizmi? – dedi muloyimlik bilan. – Nima i sh ing bor? – Yo‘liqmoqchi edim-da. Oybek, Tanlangan asarlar. *– Ha, kampir, o‘tiribsiz-da, – dedi yamoqchi. – Sobirjonda nima i sh ingiz bor edi? Men qilib beray?!* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Otabek shu holda tag‘in qanchag‘achadir o‘lturdi, nihoyat, uyqudan uyg‘ong‘an kishidek so‘chib o‘zini kuzatkuchiga qaradi: – Chiqib yotmaysizmi? – Menda y u m u sh ingiz yo‘qmi?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Jalilning o‘ylanib turgani sababini bilmagan choyxonachi o‘smoqchilab so‘radi: – Birodari aziz, machitda qanday y u m u sh ingiz bor edi? Yo birovni izlab keldingizmi?* T.Malik, Shaytanat.

ISHBILARMON, **TADBIRKOR 1.** Ishning ko‘zini biladigan, ishni uddaburonlik bilan eplaydigan. **Tadbirkor** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda “har ishning bir tadbirini topa biladigan” ta’kidi namoyon bo‘ladi.

G‘assol ko‘pni ko‘rgan, i sh b i l a r m o n kishi edi, “murda”ni chetga chaqirib: – Boshpurtni topshirib, domovoydan o‘chmagan bo‘lsangiz, sizni yuv-

mayman, benovat bo‘lishdan qo‘rqaman, – deb qoldi. S.Ahmad, Sag‘ana. *Yaxshiki, o‘ris to‘ralari, politsiyalar – i sh b i l a r m o n, hokimlikka usta odamlar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *– Vaqti-soati kelur. Samarqand orzusiga ham yetishursiz, – deb davom etdi Qutlug‘ Nigor xonim. – Biroq hozir raiyat osoyishta umr ko‘rishga mushtoq. Qanotingiz ostida Qosimbekdek t a d b i r k o r amir-u umarongiz bor.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xotin kishi ayyor, t a d b i r k o r bo‘larkan, ikki kunning birida xoli topib keladi, kutilmagan joyda qo‘lga tushiradi...* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen.

2. Ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi. **Tadbirkor** so‘zi ko‘proq rasmiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi, bu jihatdan **ishbilarmon** uslubiy chegaralanmagan.

I sh b i l a r m o n to‘g‘ri, toza qo‘l bilan ishlaydi. O‘g‘rilik, xiyonat, aldamchilik bilan emas, aql-idrok bilan pul topadi, davlat orttiradi, o‘z nomiga dog‘ tushirmaydi. O‘.Umarbekov, Olamushuk. *Uchinchi toifa odam – i sh b i l a r m o n odamdir, tadbirkor odamdir, uddaburon odamdir. Bular faqat kirim-chiqimni biladi, foyda-ziyonni biladi. Yaratib beradi, qurib beradi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Kecha buyuk ixtirolar qilgan olimning iste’dodli shogirdi bugun ilmini tashlab, t a d b i r k o r ga aylansa-yu, papkasiga “delavoy shartnoma” solib, zipillab yursa, hayron qolmayman.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Sarvar. ...Men unaqa pora-mora bilan ish qiladigan iprindi-siprindi t a d b i r k o r emasman*. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari.

ISHBILARMONLIK, **TADBIRKORLIK 1.** Ishbilarmonlarga xos xususiyat, xatti-harakat, ishni uddaburonlik bilan eplash. **Tadbirkorlik** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda, har ishni bitirish uchun tadbir topa biladigan ta’kidi namoyon bo‘ladi.

Miryoqub, uning i sh b i l a r m o n l i g i, epchilligi, ziyrakligi... U agar haq yo‘lni topsa bormi, noyob odam bo‘ladi. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. *Seningcha, bu ayyorlikmi, yo i sh b i l a r m o n l i k mi? Balki, tamoman bo‘lak narsadir?* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Sherxonning islohotlaridan raiyat mamnun emish. Uning aqliga, t a d b i r k o r l i g i ga tan berganlar ko‘p.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Siz, demak, aql bilan, t a d b i r k o r l i k bilan ish tutgansiz.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

2. Ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyatini tashkil etish, biznesning biron-bir sohasi bilan shug‘ullanish. **Tadbirkorlik** so‘zi ko‘proq rasmiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. *Valixon Sadirovich nahotki necha asrlardan beri avloddan avlodga o‘tib kelgan i s h b i l a r m o n l i k qoidalarini bilmasa?! Biladi, bilmasa, firmaning ishlari bunchalik yurishib ketmasdi.* O‘.Umarbekov, Olamushuk. *Iyun oyida O‘zbekistonda i sh b i l a r m o n l i k muhiti sezilarli darajada o‘sdi.* Gazetadan. *Ortiqali aka t a d b i r k o r l i k ka yaratilgan*

huquqiy sharoitni aholiga amalda ko‘rsatishga azm-u qaror qildi. “Sharq yulduzi”. *So‘nggi yillarda aholining keng qatlamini t a d b i r k o r l i k ka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan... dasturlar doirasida jami 13 trillion so‘mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi*. Gazetadan.

ISHLAMOQ, MEHNAT QILMOQ, XIZMAT QILMOQ 1. Muayyan ish-yumush bilan mashg‘ul bo‘lmoq. **Mehnat qilmoq** so‘zi ayni ma’noni birmuncha umumiy ifoda qiladi, asosan rasmiy, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Xizmat qilmoq** bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Ertasiga o‘nta odamni boshlab kelib, menga topshirdi... Topshirdi-yu, shular kuzgacha sizda i sh l a ydi, dedi. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim... *Hikmatillo tizzadan qor kechib, Novosibirsk o‘rmonzorlarida, qalin qarag‘ayzor orasida qurilishda i sh l a moqda edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Alomat. Esingizni tanibsizki, tinmay m e h n a t q i l asiz, lekin hech biringiz ikki bo‘lmaydi.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *To‘g‘ri, Sherqo‘zi tinmaydi, erta-yu kech m e h n a t q i l adi, ko‘pincha tez-tez mol almashtirib sotadi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Hovlida tinmay-qo‘nmay x i z m a t q i l ib yurgan paxmoq sochli, isqirt kiyimli yosh-qari xotinlar ham anchagina.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Nazmi. Bu gapning hidini chiqazmang. Bilmagandek, yelib-yugurib x i z m a t q i l avering.* S.Ahmad, Kuyov.

2. Biror kasb yoki lavozim egasi sifatida faoliyat ko‘rsatmoq. **Mehnat qilmoq** bu ma’noda, asosan, publitsistik yoki badiiy uslubda qo‘llanadi.

Jumhuriyat radiosida to‘rt yil muharrir bo‘lib i sh l a dim. T.Murod, Tanlangan asarlar. *Sobiq markazdan respublikamizga kir, nuqson qidirib kelgan shovvoz muxbirlardan biriga o‘sha paytda respublika Madaniyat vaziri bo‘lib i sh l a yotgan taniqli yozuvchi yoqmay qoladi.* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Diyorimiz markazida chiqadigan, jamiyki ijodkorlar orzusidagi mo‘tabar dargohlarda mas’ul vazifalarda m e h n a t q i l dim.* A.Asil. Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *Ota-onasi durustgina yerlarda x i z m a t q i l uvchi yigitning ko‘cha supuruvchi – farrosh bo‘lib ishlashi ajablanarli edi.* T.Malik, Shaytanat.

ISHCHAN, HARAKATCHAN, SERHARAKAT, G‘AYRATLI, SERG‘AYRAT, TIRISHQOQ, URINCHOQ Ishlab charchamaydigan, har qanday ishga alohida g‘ayrat bilan kirishadigan, astoydil harakat qiladigan. **Harakatchan** va **serharakat** so‘zlarida tinib-tinchimaslik ta’kidi mavjud. **G‘ayratli** hamda **serg‘ayrat** so‘zlarida g‘ayratlilik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Tirishqoq** so‘ziga ishga astoydil urinadiganlik ta’kidi xos, ijobiylik bo‘yog‘i kuchli. **Urinchoq**da ham ana shunday ta’kid qabariq, asosan, oddiy so‘zlashuvga xos.

Shunday i sh ch a n, topish-tutishi yaxshi bu juvonning kampir aytgancha yomon kiyinib yurishiga ajablanardim. S.Ahmad, Hasrat. *Katta yangi ish boshlaganda maydaroqlarining paytavasiga qurt tushadi. Odobli, i sh ch a n, halol odamlarga aylanadilar.* T.Malik, Shaytanat. *Etikdo‘z qirq uch yoshiga nisbatan*

ancha qarimsiq ko‘rinadigan, ozg‘in, h a r a k a t ch a n bir odam edi. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Ramziddin Ramazonov bu h a r a k a t ch a n odam bilan uzoq suhbat qurgisi kelgan edi, ammo Komlev gapni kalta qildi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Qo‘limizdagi bozorchiqni ayvon chetiga qo‘yib ham edikki, oyoqlari kalta, ammo nihoyatda s e r h a r a k a t bir kishi* (*u ajoyib tarzda yelka tashlab yurar edi*) *bizni karavotga yaqin joyga boshladi...* M.Mansur, Judolik diyori. *Muqaddam sarg‘ish jingalak sochli, s e r h a r a k a t, xushchaqchaq yigitni esladi.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Albatta, Gulchehra g‘ a y r a t l i, mehnatsevar, aqlli qiz edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Sen hanuz turibsan o‘ttiz besh yoshda, O‘shanday g‘ a y r a t l i, o‘shanday o‘ktam.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Ixcham cho‘qqisoqolli, ko‘k duxoba do‘ppi kiygan, qotma, s e r g‘ a y r a t Moshtabibning qiyofasi ko‘z oldiga kelib, vujudi holsizlandi.* T.Malik, Shaytanat. *Bozorqul bunday paytlarda bosh egib, xomush o‘tirardi, bugun esa s e r g‘ a y r a t, jonsarak.* A.Muxtor, Chinor. *Lekin kim bo‘lsa ham yaxshi odamga o‘xshaydi. T i r i sh q o q, kurashchan ko‘rinadi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *– Qalaysan? – bahaybat traktorchi og‘ir qo‘llarini tizzalarimga qo‘ydi. – Tirrancha, t i r i sh q o q ekansan. Sherday sapchiysan-a!* O‘.Hakimali, Kichik xonadon. *Bu – o‘sha mehnatkash dehqon qaylig‘i, Terimchi, pazanda, beshik: ko‘zmunchoq, Jami barnolarning eng chiroyligi, Qo‘li gul, uquvlik, dilbar, u r i n ch o q.* Mirtemir, Saylanma. *U shunaqa, o‘zi uchun o‘zi yo‘l ochishga harakat qiladigan u r i n ch o q, kuyinchoq bola edi.* I.Shog‘ulomov, Dilda borimni aytaman... *– Jonim qoqindiq, juda u r i n ch o q ekansiz-da! – deb zorlandi kampir.* A.Ibodinov, Ko‘l bo‘yida.

ISHCHI, MEHNATKASH, XIZMATCHI, MEHNATCHI Muayyan korxona, zavod-fabrika yoki boshqa joyda ish qilib kun ko‘ruvchi, mehnat qilib o‘z oilasini boquvchi kishi. **Mehnatkash** so‘zida mehnat qilib kun ko‘rish belgisi ustuvor, kitobiy uslubga xos. **Xizmatchi** so‘zida aniq belgilangan vazifani bajaruvchi kishi ta’kidi ustuvor. **Mehnatchi** bu ma’noda eskirgan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Har tomonda i sh ch i lar Toshlarni sindiradi. Daryoni tindiradi, Temir tan kurashchilar. H.Olimjon, O‘zbekiston. *Supaning o‘rtasidagi xontaxta yonida esa oyim i sh ch i larga choy quyayotgan edi.* O‘.Umarbekov, Qaytar dunyo. *–Mehnat qilinglar, o‘g‘illarim, mehnat or emas, m e h n a t k a sh lar, kosiblar olloning suygan bandalaridur...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shaharni m e h n a t-k a sh xalq tark etgan... to‘p-to‘p kezingan kechki ta’lim talabalari-yu melisalardan bo‘lak hech kim yo‘q*. U.Azim, Birovning umri. *Siz olim odam ekansiz. Agar zavodda oddiy x i z m a t ch i yoki oddiy ishchi bo‘lsangiz, nimadan qo‘rqayotganingizga tushunib yetardim.* T.Malik, Shaytanat. *Bu vaqtga qadar Tohir akaning yigitlari-yu restoran x i z m a t ch i lari har narsani taxt qilib qo‘yish-*

gan edi. U.Hamdam, Muvozanat. *Qolaversa, o'z vazifasini qoyilmaqom uddalayotgan, m e h n a t ch i larga haryoqlama yelkadoshligi bilan hurmat qozongan rahbarlarni maqtashning... nimasi yomon?* A.Obidjon, Vahimali savollarga vazmin javoblar. *Mendan keyingilar – singillarim, ular hali kichkina, mehnatga yaramaydi, onam bilan mayda-chuyda yumushlarga unnab o'ralashishadi. Ro'zg'orning m e h n a t ch i si – otam ikkovimiz*. I.Sulton, Ozod.

ICHKILIK, AROQ, SHAROB, VINO, MAY, MUSALLAS, MAVIZ Kayf beradigan ichimlik, spirtli ichimlik. **May**, **musallas, sharob, maviz** so'zlari, asosan, eskirgan, ko'proq kitobiy nutqqa xos.

I

– Hah, tirmizaklar-ey! Tug'ilib nima karomat ko'rsatibdilarki, uni nishonlasa! – dedi Sherqo'zi. – Mayli, borib kelaqolsin. Ishqilib, i ch k i l i k ka o'rganib ketmasa bo'ldi… A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Har galgidek Umarali bu maslahatga ham ko'nmadi: – Qo'yinglar, shu paytda ko'nglingizga i ch k i l i k sig'adimi?* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Nihoyat, shirin m a y dan bir qadahchaga to'ldirb, uning oldiga qo'ydi. O'zi yarim qadah a r o q quydi.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Kel, ichaylik, Miryoqub. Biz, ruslar, a r o q ichishni hammadan yaxshi bilamiz.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *Ikki gulgun chehra bo'lsa, O'rtada gulgun sh a r o b, Men uchun maydin ham ortiq Suhbati hamdam shirin.* E.Vohidov, Saylanma. *Adashgan bandagina hayotning lazzati sh a r o b va zinoda deb biladi.* T.Malik, Shaytanat. *– Qo'yib yubor! – Qosimjon siltanib qo'lini bo'shatgan edi, v i n o ko'ylagiga to'kilib ketdi. Lekin u parvo qilmay, qolganini qalqib-qalqib ichdi.* O'Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Och qoring'a tushkan o'tkir m a y "vij" etdirib me'dani qaynatdi-da, tomoq ostini lovullatmoqqa oldi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Sohibqiron. (Yana yumshab). M a y ing bormu? Suluvko'z. (Hayron) M a y ichmas erdingiz?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *– Nomi ichkilik bo'lsa, bas. Cho'lda bir hafta suvsiz qolgan tuyaday shimiradi. Bo'zami, aroqmi, m u s a l l a s mi, konyakmi, – qo'ymaydi eshon.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Hikmatilloni kuzatib chiqqan do'stlari qo'yarda-qo'ymay vokzalda ungayam jinday m u s a l l a s ichirishgan, u ham shirakayf edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Uy egasi iljaygan holda hujraga kirib, o'zining ta'biricha, may emas, bir ko'zacha m a v i z ni olib chiqdi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Yaqinlarda tabiblarga ko'rsatkan edim, qoningiz oz, qimiz iching, xo'rak oldidan m a v i z iste'mol qiling, deb kengash berdilar.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

ICHKILIKBOZ, AROQXO'R, SHAROBXO'R, PIYONISTA Mast qiluvchi ichimliklarni ichishga mukkasidan ketgan, hamisha ichib yuradigan. **Aroqxo'r** so'zida **ichkilikboz** so'ziga nisbatan salbiy baho kuchli. **Sharobxo'r** so'zida **aroqxo'r** so'zidagidek salbiy baho kuchli emas va nutqda **aroqxo'r** so'ziga qaraganda kam qo'llanadi. **Piyonista** oddiy so'zlashuvga xos, salbiy baholi.

Qani, ayting-chi, shunaqa dangasa, ishyoqmas, buning ustiga, i ch k i l i k - b o z brigadirni qayerda ko‘rgansan? E.Vohidov, Umrim daryosi. *I ch k i l i k - b o z odam qo‘l barmoqlari, ko‘z qovoqlari, til uchining titrab turishi, shuningdek, har kuni bajarib yurgan odatdagi ishini bajara olmay qolishi mumkin.* “Tibbiyot ensiklopediyasi”. *G‘aybarov o‘ziga kelganida ko‘chada yotardi. O‘tganketgan qaramaydi, a r o q x o‘ r, daydi, – deb o‘ylashsa kerak*. A.Namozov, Notanish. *Otam a r o q x o‘ r edi, onamni urardi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Uyda o‘tirib nima qiladi? Ichaverib adoyi tamom bo‘layozgan anovi sh a r o b - x o‘ r erning qovog‘ini poylaydimi?* E.A’zam, Shovqin. *Menga ham u dovdirroq, muntazam ichib yuradigan sh a r o b x o‘ r dek tuyulardi.* E.A’zam, Guli-guli. *Bilasanmi, bolam, bu p i y o n i s t a o‘lgir avvalgi xotinini so‘yib qo‘yib, o‘n ikki yil yotib kelgan.* S.Ahmad, Bir o‘pichning bahosi. *– Xo‘sh, kimdan chiqdi bu gap? – Birinchi qavatdagi Humayraxonimiz ko‘rganmishlar. ... – Anovi, p i y o - n i s t a eriga qo‘shilib araq ichadigan xotinmi?* E.A’zam, Shovqin.

ICHMOQ I, **SIMIRMOQ, SHIMIRMOQ, SIPQARMOQ (SIPQORMOQ, SIPQIRMOQ)** Umuman, quyuq bo‘lmagan narsalarni iste’mol qilmoq. **Simirmoq** va **shimirmoq** so‘zlarida harakatning jadal emasligi ta’kidi anglanadi. **Sipqarmoq**da harakatning birdanigaligi ta’kidi qabariq ifodalangan, kitobiy so‘z. **Sipqormoq, sipqirmoq** so‘zlari shevaviy so‘zlashuvga oid so‘z, nutqda kam qo‘llanadi.

Karomat erining sovib qolgan choyini i ch di-da: – Bugun o‘xshatib quyruq yog‘iga palov qilib beraman, – dedi. A.A’zam, Bu kunning davomi. *Yovg‘on sho‘rva i ch ib yurgan Oygulning yuzida bu tabiiy qizillik qayerdan ham bo‘lsin!..* U.Hamdam, Muvozanat. *Yo‘lchi indamadi. Piyolada sovib qolgan choyni s i m i - rib, uydan chiqar ekan, peshanasini eshik tepasiga qattiq urib oldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Keyin mehmonxonaga chiqib, shu choynakdan sovuq choy ichdi, yuqigacha s i m i r di va butun og‘irligi bilan o‘zini kresloga tashladi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Mingboshi choynakdagi suvni bir sh i m i r ishda tamom qildi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Xo‘rdani ko‘tarib, burdani urar, Sh i m i r ib yutadi, o‘pirib yeydi. Tirikni tunaydi, murdani urar, Qarasang, “biz kichik odammiz”, deydi.* I.Mirzo, Kichkina odam. *Xo‘ja Kalonbek muzday norinj suvidan bir chinni kosa s i p q a r di-yu, nafasini sal rostlab, Boburning yuziga qaradi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Pakana portretni avaylabgina avvalgi joyiga qo‘ygach, titrog‘ini bosish uchun kelib stoldagi choynakni jo‘mragidan ko‘taradi, s i p q a r adi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Dadamlar quduq suvini kosalab s i p q o r ar edilar-u shu bitta gapni qayta-qayta takrorlardilar: – Hukumat oldida begunohman, Gulshan!* O.Yoqubov, Muzqaymoq. *O‘ziyam bo‘lari bo‘lib, ichginasi kuyib ketgan ekan, qatiqni bir ko‘tarishda s i p q o r ib, huzurlanib turib qoldi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ular achchiq choyni s i p q i r ib,*

savdodan, xotindan, banka (bank deyilmoqchi) muomalalaridan so‘zlashar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yozda ariq labida o‘tirib, bir piyolaga anor suvini siqib, s i p q i r moqni kim sevmaydi deysiz?!* I.To‘lqin, Ali bobo bog‘i.

ICHMOQ II, **KO‘TARMOQ, TORTMOQ, OLMOQ, OTMOQ, URMOQ, NO‘SH ETMOQ** Spirtli ichimlik iste’mol qilmoq. **Ko‘tarmoq, tortmoq, otmoq, urmoq** so‘zlari oddiy so‘zlashuvga xos. **Ko‘tarmoq, tortmoq** so‘zlari mazkur harakatni birmuncha evfemik bir tarzda ifodalaydi. **Otmoq** va **urmoq** so‘zlari mazkur ma’noda qo‘langanda, ba’zan hazil, ba’zan zaharxanda ifodasi anglashiladi. **No‘sh etmoq** eskirgan, kitobiy so‘z.

I

Qayum kameraga ko‘z solib, iziga qaytdi. – Yerda yotibsan. Senga ko‘rpacha solib bergan edim... E, qurib ket! Sig‘sa, i ch gin-da!.. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Sog‘lig‘imdagi turmush – turmush emas. Turmushni boy berib bo‘lganman. Esimga tushishidan qochib yuribman. Har narsani sotib i ch dim.* A.A’zam, Bu kunning davomi. – *Qani, k o‘ t a r dik, – dedi Abdulla yangitdan ryumkalarni to‘ldirib.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *“Xonim” olib kelgan konyakdan ko‘zlarini chirt yumib, bir ryumkasini k o‘ t a r ib tashladi.* O.Yoqubov, Larza. *Bir kuni rosa t o r t - t o r t bo‘lgan ekan, ertasiga boshim xuddi ari qamalib qolgan tomoshaqovoqqa o‘xshab g‘uvullardi.* “Mushtum”. *Bayram-bayramday bo‘lsin, – u chinnigulli choynakdan piyolaga musallas quyadi. – Qani, bittadan o l aylik. Bundan o‘sha zamonlarning daholari-yu, shohlari ham tatib turishgan*. Q.Norqobil, Munofiq. *Yigit shunday deya yana qadahlarga shampandan quydi. – Qani, yana o l dik. Nima uchun qadah ko‘taramiz, bilasizmi?* M.Ahmedova, Taqdir. *Mehmon meni o‘pdi, salomatligimga ustma-ust ikki ryumka o t-di...* A.Qahhor, Dumli odamlar. *Payvandchi biroz ishlagach, yuqoriga qaradi: – Xo‘jayin, yuzta o t ib olmasam bo‘lmaydi, qo‘lansa hid tomog‘imni g‘ip bo‘g‘di, – dedi u.* T.Malik, Shaytanat. *Qadamini yuvadi yomg‘ir, Qadamiga to‘shaladi qor. U quvonar, g‘am chekar og‘ir, May n o‘ sh e t ib, seva boshlar yor.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Soqiyo jome karam qil, qilmay istig‘no sharob, N o‘ sh e t ib bilmay nadur ranj-u g‘ami dunyo sharob.* Muqimiy, Asarlar.

INGICHKA, NOZIK, XIPCHA Biron-bir narsaning ko‘ndalang o‘lchami kichikligini bildiradi. **Nozik** ingichkalik ma’nosiga nafislik, bejirimlik belgisini ham qo‘shib ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Xipcha**, asosan, kishi tanasiga nisbatan qo‘llanadi.

Men ham kuyov bo‘lib kelin qo‘liga uzuk taqdim. Oddiygina, i ng i ch k a, lekin qimmatbaho edi. I.Sulton, Uzuk. *Jamolboy hali ham tetik. O‘zining yo‘g‘on, go‘shtdor barmoqlari bilan goh Mariyaning i ng i ch k a, nafis qo‘lini, goh uning tizzasini silab qo‘yadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shahlo ariqda terlagan betlarini muzdek suvda yuvarkan, belining egilishini kuzatib turganlar ko‘nglida bir gap bor edi. Ketmon chopganida bu n o z i k beli uzilib ketmaganini qara-ya!*

S.Ahmad, Bahor qizlari. *...hovlining etagida yana bir triko kiygan yosh qiz... oqqushning bo‘yniday n o z i k, oppoq qo‘llarini o‘ynatib, mashq qilmoqda edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Shahloning sochi baland turmaklangan, ustidan kapron durra tang‘igan... Beli qo‘l soatning tasmasi bilan boylasa bo‘ladigan darajada x i p ch a.* S.Ahmad, Bahor qizlari. *U sochi oqara boshlagan, lekin qaddi-qomati yigitlarnikidek x i p ch a, bo‘yi o‘rtadan tikroq kishi edi.* P.Qodirov, Uch ildiz.



J

JABRDIYDA, ALAMDIYDA, JAFOKASH, MAZLUM, JABRLANUVCHI Jabr-jafo chekkan, azob-uqubat tortgan, yuragi dard-alamli. Qatordagi aksariyat so‘zlardagi alohida ta’kid ularning asoslaridan anglashilib turadi. **Alamdiyda** so‘zi, asosan, so‘zlashuv nutqiga, **jafokash** so‘zi badiiy uslubga, **mazlum, jabrlanuvchi** so‘zlari esa rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop uslublarga xos.

Ammo qani o‘sha Azroil, qani jon o‘g‘risi?! Asta bostirib kelmay, shartta kirib ola qolmaydimi Ollohning omonatini! ...shu j a b r d i y d a jonni bu dunyo azoblaridan qutqarmaydimi? T.Malik, So‘nggi o‘q. *J a b r d i y d a xalq podsho amaldorlaridan alamini olmoqchi ekan, olsin.* N.Safarov, Navro‘z. *O‘zi uchun emas, xalq uchun, jamiyki alamzadalar, a l a m d i y d a lar uchun qon to‘kdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ha, biz a l a m d i y d a lar dastlabki paytlarda juda asabiy edik. O‘zaro suhbatdayam qizishib ketaverardik.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Bir vaqtlar ishq mojarolarini yolg‘iz ertaklardan tinglagan Gulnor, bir qarichlikdan mehnatga uringan bu j a f o k a sh qiz, endi o‘zi ishqning olov ko‘ylagida yashar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Jo‘rabek buni sezdi-yu, endi kechikkanini, j a f o k a sh, chinakam munis do‘stini yo‘qotganini angladi.* S.Ahmad, Xotin. *Eshityapsanmi, Mahfuz, Alloh odil! U hamisha m a z l u m lar tarafida!* M.Mansur, Judolik diyori. *Zolimlarning, zamon zo‘ravonlarining yoqalarini tutib, toptalgan huquqlarini dovlash, qonxo‘rroq podshohning qora dovrug‘ini, uning m a z l u m xalqlar boshida jilpanglagan ilon qamchinini sindirish kuni!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ikkinchisi – kasbimiz, burchimiz nuqtayi nazaridan qarasak, Ehsonov chindan ham j a b r l a n u v ch i.* T.Malik, Shaytanat. *O‘zingizga ma’lum sabablarga ko‘ra, j a b r l a n u v ch i Yakkabog‘dan bosh olib chiqib ketib ulguribdi.* M.Mansur, Judolik diyori.

JAHL, ACHCHIQ, G‘AZAB, QAHR, ZARDA Nojo‘ya xatti-harakat yoki voqea-hodisaga qarshi kuchli darajada yuzaga keladigan keskin his-tuyg‘u, ana shunday his-tuyg‘u ifodasi. **G‘azab, qahr** so‘zlari belgi darajasini kuchli ifodalaydi. **Jahl, achchiq, g‘azab, zarda, qahr** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv, badiiy uslublarda qo‘llanadi.

– Olib bor bachchag‘arni! Qamab qo‘y! – deb baqirdi mingboshi; j a h l idan o‘z qo‘llarini chimchilardi. Hech kim qimirlamadi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bobo uning qiyqirishidan, gul barglarini sochib o‘ynashidan zavqlanib ketdi. Boyagi j a h l i dan nom-nishon qolmadi.* S.Ahmad, Bobo, bola, gul. *Axir uni o‘z*



farzandi – jigarbandi ko‘kragidan itarib yubordi. Albatta, atay qilmadi, a ch-ch i q ustida, asabiy holda qildi, lekin baribir, uni o‘z to‘ng‘ichi siltab tashladi-da!.. U.Hamdam, Muvozanat. *Omonulloxon otasining fe’lini yaxshi bilar edi: endi unga gapirish ortiqcha. A ch ch i q ustida afv etmoq o‘rniga qatlga amr qilib yuborishi hech gapmas.* T.Malik, Savohil. *Alimqul so‘ng esa Zahroning nafrat, g‘ a z a b va jirkanchga to‘la nigohiga ortiq dosh berolmay, eshik tomon tisarildi…* U.Hamdam, Muvozanat. *Titrayotgan qo‘llarimni yashirish uchun shimimning cho‘ntagiga suqdim. Yo‘q, yuragimni rashk emas, g‘ a z a b ham emas, alamli bir iztirob chulg‘ab olgandi.* O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun... *Chunki “oqsoqol”da noyob fazilat – Q a h r, beshafqatlik, zug‘um bor edi.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Asadbekning q a h r idan cho‘chuvchi odam uning mushtidan emas, ko‘proq Kesakpolvonning tepkisidan qo‘rqardi.* T.Malik, Shaytanat. *– O‘tiring, xo‘jayin! – dedi Miryoqub, uning ovozi ham biroz ko‘tarila tushgan edi. O‘shqirish bilan, z a r d a bilan bitadigan ish emas bu. O‘ylaylik, bir chora topaylik!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Sendan bitta iltimos, bu odam oldida bilib muomala qil, sharmanda bo‘lib ketmaylik. Uyda har qanday z a r d a ngni, so‘kishingni ko‘taraman.* T.Malik, Shaytanat.

JALA, SEL Juda kuchli va shiddat bilan yog‘adigan yomg‘ir. **Sel** so‘zida yomg‘ir bilan bog‘liq ravishdagi loy-suv oqimi ta’kidi ochiqcha ifodalangan. **Jala, sel** deyarli barcha uslublarda qo‘llanadi.

Kalkuttani aylanib yurishganda, to‘satdan shovv etib j a l a quyibdi-da, birpasda hamma yoqni suv bosib, ko‘chalar tizza bo‘yi burqirab oqa ketibdi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Haybat shamollari o‘sha yoqdan esadilar. Ular j a l a bulutlarini haydab kelishadi.* I.Sulton, Ozod. *Toshlar-u tog‘lar, qoyalar-u qumlar bab-baravar to‘lqinlanadi, s e l lar po‘rtana solib oqadi, mayda o‘tlarning tanalari loylarga qorishadi, yana va yana junbushga keladi bu makon!* I.Sulton, Ozod. *Bo‘ron boshlandi. S e l na odamni ayadi, na dov-daraxtni! Birpasda gullab turgan mamlakat vayron bo‘ldi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

JAMOA, GURUH, BIRLASHMA, UYUSHMA, ITTIFOQ Ma’lum asosda yoki ma’lum maqsadlarni ko‘zda tutib birlashgan guruh. **Jamoa, guruh** so‘zlari nutqning barcha turlarida qo‘llanadi. **Birlashma, uyushma, ittifoq** so‘zlari, asosan, rasmiy, ilmiy uslublarda ko‘proq ishlatiladi. **Ittifoq** so‘zida guruhning kattaligi ta’kidi mavjud.

Turli dinlar, guruhlar, j a m o a lar har xil yo‘llar orqali bu go‘zallikka erishish uchun harakat qiladilar, yo‘llar axtaradilar. T.Malik, Odamiylik mulki. *Do‘stmat pulni sanab, cho‘ntakka solmasdanoq, j a m o a da har bir oilaning tuynugidan chiqadigan tutunga qarab, qozonda nima qaynayotganini sezadigan xumkalla ellikboshi yetib keldi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Shunday qilib, xon boshchiligidagi qora g u r u h lar ma’rifatparvar Islomxo‘jadan o‘ch oldilar.* J.Sharipov, Xorazm. *G u r u h lar hali olishuv uchun pishib yetilmagan, olishuvning*

boshlanishiga asos yo‘q hali. T.Malik, Shaytanat. *B i r l a sh m a uch qavatli yangi binoda edi.* A.Muxtor, Asarlar. *Faqat o‘zini o‘ylaydiganlar u y u sh m a-siga qo‘shilmaymiz, deb bular aytdi. Janjalkashlar ittifoqiga o‘lsak ham qo‘shil-maymiz, deb ular aytdi.* S.Ahmad, Bo‘ri ovi. *Yer islohoti o‘tkazish oldidan qish-loq kambag‘allar u y u sh m a si tuzildi.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *– Axir, barcha temuriylar birlashib, i t t i f o q tuzsalar bo‘lmasmi? – dedi Nigor xonim.* P.Qo-dirov, Yulduzli tunlar. *Bu xabar merganlar i t t i f o q iga ham yetgandi. To‘rt-besh mergan to‘planib, pir nima desalar, shu bo‘ladi, degan qarorga kelib qo‘yishgan edi.* S.Ahmad, Bo‘ri ovi.

J **JANJAL, TO‘POLON, G‘ALVA, MOJARO, G‘AVG‘O, MASHMA-SHA** Kelishmovchilik oqibatda yuzaga kelgan asosli-asossiz achchiq-tiziq ayti-shuv va shunga muvofiq jahl bilan qilingan keskin xatti-harakat. **To‘polon so‘zi-da** jahlli harakat ta’kidi qabariq ifodalangan. **Mojaro, g‘avg‘o** so‘zlari ko‘proq badiiy uslubda, g‘alva, mashmasha so‘zlashuv nutqida ham faol.

Gulchehraning o‘zi ham ko‘rdi buni, o‘zi j a n j a l ning guvohi bo‘ldi. O‘.Umar-bekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ularning j a n j a l i ancha cho‘zildi. Bu bolalarga ham ta’sir qilmay qo‘ymadi. Ular dam yig‘lashar, dam qayoqqadir g‘oyib bo‘lib, shom-da kelishar, hatto ba’zan so‘ramay-netmay qaysi bir o‘rtog‘inikida tunab qoli-shardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Dutorning ovoziga endigina o‘z ovozini qo‘sha-man, deganda, tashqaridan mingboshini chaqirdilar. Bu Qumariq machitidagi t o‘-p o l o n xususida kelgan birinchi xabar edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Kech-qurun uyda yana tapir-tupur bo‘lib qoldi. T o‘ p o l o n orasida xotinning surnay-ga o‘xshash ingichka ovozi o‘qtin-o‘qtin eshitilib qolardi...* S.Ahmad, Osmonning onasi. *G‘ a l v a lardan chetroqda yura turay. Keyinroq qaytib kelaman. Sen ham, men ham, og‘ayni, bu dunyoga o‘lim bilan berkinmachoq o‘ynagani kelganmiz.* T.Malik, Shaytanat. *“Po‘nchik”da!...O‘sha kuni mukofot puli olmasak, “Po‘nchik” mukofotni “yuvamiz” deb tiqilinch qilmasa, shuncha g‘ a l v a yo‘q edi.* O‘.Hoshi-mov, Telpak. *Ikki qadrdon o‘rtasidagi m o j a r o ni devor orqasidan eshitib turgan Hurinisa kaftgir ko‘tarib erining oldiga chiqadi.* E.Vohidov, Oltin devor. *Bugungi janjal nimadan chiqdi? To‘plangan odamlar bu m o j a r o ni avvalgilariga sira o‘xshamasligini bilib qolishdi.* S.Ahmad, Mullajon. *Shoh nima istaydi, unga nima kam? Ulus g‘ a v g‘ o sidan boshi to‘la g‘am.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Katta aka o‘rtanchaga buyuradi, o‘rtancha esa kichigiga. Unisi “Hadeb men qilavera-manmi...” deb noliydi, oqibatda g‘ a v g‘ o dan bezgan ota yoki ona bu ishni o‘zi bajarib qo‘ya qoladi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Sizning aybingiz ham bor: qimorga aralashmaganingizda bu m a sh m a sh a lar yo‘q edi.* T.Malik, Shay-tanat. *Men bu m a sh m a sh a ning nima bilan tugashiga hech aqlim yetmasdi.* M.Mansur, Judolik diyori.

JANNAT, BEHISHT, RIZVON, RAVZA, FIRDAVS, UJHMOH (UCH-MOH) Gunohsiz kimsalar boqiy dunyoda yashaydigan rohat-farog‘atli joy. Shu

ma’noda **jannat** so‘zi nutqning barcha turlarida keng qo‘llanadi. **Behisht, rizvon, ravza, firdavs** so‘zlari, asosan, tarixiy hamda badiiy asarlarda uchraydi. **Ujmoh (uchmoh)** poetik nutqda qo‘llanadi.

Kimki umid bilan bechorahol yashar ekan, uning tilagi j a n n a t da osudalikka erishishdir. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Bu dunyoda alamzada, dardkash bo‘lgan xotinlarni tong-la qiyomatda Bibi Fotimaning o‘zlari j a n n a t ga boshlar ekanlar...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Sening og‘ushing oftobning yotog‘iga o‘xshaydi, badaningdan b e h i sh t yalpizining bo‘yi keladi...* N.Eshonqul, Ajr. *Bay, bay, bay husn-u latofatini qarang, b e h i sh t qizlaridek, hur-u g‘ilmonlaridek.* X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar. *Kelding olamga, demak, yerni etmog‘ing kerak Bo‘ston o‘zing, r i z v o n o‘zing.* E.Vohidov, Muhabbat. *Ilm-u fani qadim, san’ati qadim. Fayz, barakot bergan Ollohi karim. Suvi obi kavsar, bog‘lari r i z v o n, Bu yurtda yashaydur jannatiy inson.* E.Vohidov, Ahmad al-Farg‘oniy. *Do‘stlar jannatni ko‘rmoq istasangiz – marhabo. Bog‘i eram r a v z a din bor der misol Dushanbada.* Uyg‘un, Tong qo‘shig‘i. *Ting‘chi Turon sultonning Halabdan chiqib, Baalbek qal’asini olganini, undan Nuh alayhissalomning pok r a v z alari ziyoratiga borganini... aytdi.* M.Ali, Shohruh Mirzo. *Orazi xubingni har kim ko‘rsa gulshan sayrida, Orzuyi jannat ul-f i r d a v s-u rizvon aylamas*. Furqat. *Ishq yo‘lin f i r d a v s yo‘li deb anglagil, Pok diling, Erkin, bu yo‘lda bosh bo‘lur.* E.Vohidov, Sevgi kelsa. *Qari, turg‘un, g‘udur Qoratog‘ Sen go‘zalni asrar bag‘rida. Senday bo‘lmas u j m o h bog‘ida... Guldek borlig‘ingda hech yo‘q dog‘.* Mirtemir, Ko‘kqiyo. *Har og‘ochdan kelsa tirilmak isi, Qushlar nag‘masida u ch m o h mujdasi, Unutsam Hasratning qari shevasin (Go‘yoki bo‘lmagan taqiq mevasi).* G.Mo‘minova, Tilak.

JAVOHIR, GAVHAR Tarashlab sayqal berilgan olmos, brilliant; umuman, qimmatbaho toshlarning umumiy nomi. **Gavhar** ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Zelixon xayrlashayotgan paytda, qaytib kelmas bo‘lib ketayotganini sezganmi, semiz diplomatni Elchinning qo‘liga tutqazib: “Buning ichida ozgina pul, tilla, j a v o h i r bor. Qaytib kelmasam, men aytganday ishlatasan....”, degan edi. T.Malik, Shaytanat. *Qutichaning tagida kaptarning tuxumidek keladigan va kapalak rangidek nafis tovlangan ajib bir j a v o h i r yarqirab yotardi.* O.Yoqubov, Ko‘hna dunyo. *Ana, Mark Antoniyni gilamga o‘tqazib o‘nta qul ko‘tarib kelyapti. Dur, g a v h a r lar bilan bezangan beqiyos go‘zal malika Kleopatra uning istiqboliga chiqdi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Avval o‘limlikka atalgan kiyim-kechaklarni, kafanni olishdi, so‘ng… sopiga g a v h a r o‘rnatilgan xanjar… va sarg‘ayib ketgan Qur’onni olishdi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi.

JAZO, TA’ZIR, AJR, SAZO Kishining biron-bir aybi, qilmishi yoki jinoyati uchun ko‘riladigan chora, qilmishiga yarasha keladigan oqibat. **Sazo** sozida “sharmandali jazo” ifodasi ochiq ifodalanadi, ko‘proq badiiy uslubga

xoslangan. **Ta’zir** oddiy so‘zlashuvda faol. **Ajr** so‘zi bu ma’noda diniy mazmundagi matnlarda qo‘llanadi.

Ko‘ryapsiz-ku, haq joyiga qaror topadi, nohaq j a z o sini oladi. Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli. *– Zap qilgansiz, Otabek, – dedi usta, – yomonlarning j a z o si shunday bo‘ladi.*A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Maysara. – O‘g‘lim, shu t a’ z i r oz emas.* Hamza, Maysaraning ishi. *U yaramasning t a’ z i r ini o‘sha yerning o‘zidayoq berib qo‘ygan bo‘lardim, bunchalik uyatga qolmasdim.* F.Nasriddin, Tundagi voqea. *Nodon banda bilmaydiki, bu odamning ro‘para bo‘lgani – gunohlariga yarasha va’da qilingan a j r larning davomidir.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Yaratganiga banda bo‘lolmaganlarning a j r i, balki, shudir – tashvish-u alamlarga bandi bo‘lishdir...* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Devorlar ham menga s a z o berayotgandek qizardim, hech qayoqqa qaray olmadim.* Oydin, Hikoyalar.

J

JILMAYMOQ, KULUMSIRAMOQ, ILJAYMOQ, IRJAYMOQ, TIRJAYMOQ, ISHSHAYMOQ, IRSHAYMOQ Insonlarning ovozsiz holatda vaziyatga nisbatan kulgi holatini ifodalashi. **Jilmaymoq** va **kulumsiramoq** so‘zlari deyarli barcha uslubga xos bo‘lib, ijobiy munosabatni bildiradi. **Iljaymoq** so‘zi nutq vaziyatiga bog‘liq ravishda salbiy yoki ijobiy baho ifodalashi mumkin. Sinonimik qatordagi **irjaymoq**, **tirjaymoq**, **ishshaymoq**, **irshaymoq** so‘zlari faqatgina salbiy munosabat ifodasiga ega. **Iljaymoq**dan **irshaymoq**qacha salbiy baho darajama-daraja kuchayib boradi.

Binafsha sekin Shavkatning yoniga o‘tirdi, yelkasiga boshini qo‘ydi. “Qo‘ying, siqilmang” deganday bilagini siqib ma’yus j i l m a y di. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *U endigi aytmoqchi bo‘lgan gapidan iymandi, shekilli, j i l m a y di: – Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o‘sma...* S.Ahmad, Qorako‘z Majnun. *Aravakash yumshoqqina k u l u m s i r a di. Yosh yigitning bu yosh shirin tabassumini oy yorug‘ida alayno ko‘ra olgan yosh qiz butun badanlaridan muloyimgina durkirash kechganini payqadi va qizarib, teskari qaradi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bundan zavqi kelib k u l u m s i r a di, har holda, bu maxluqchalar ko‘ziga ariqcha ulkan daryo bo‘lib ko‘rinayotgan bo‘lsa ajabmas...* I.Sulton, Ozod. *Rais o‘tirgan yerida qomatini ko‘tardi, uzun mo‘ylovini burab, i l j a y di: – Kolxozimiz kartinaga arziydigan bo‘lsa xursandmiz...* A.Qahhor, Kartina. *Zumrad ko‘zini yashirdi-da, durrachasining uchi bilan artib oldi. Zo‘r bilan i l j a y di.* S.Ahmad, Zumrad. *– Qo‘yvoring qo‘limni. Men sizga nima qildim?! – dedim siltanib. Qayoqda! Battar qisib, xunuk i r j a y di.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ukalarimni, jiyanlarimni, og‘alarimni yer tishlatib, men sari tishlarini i r j a y tirib kelmoqda edi nojins!* I.Sulton, Ozod. *Rahim Saidov jahl bilan: – Nima qilyapsiz? – dedi. Begona erkak javob bermay, t i r j a y di.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Mamatbey hojasining ko‘ngli uchun t i r j a y di.* T.Malik, Shaytanat. *– Cho‘chimang, o‘g‘lim, – dedi Saksonboy ota ko‘zim javdirayotganini payqab. – Qo‘rqqan*

ko‘zga qo‘sha ko‘rinadi. Ko‘nikib, o‘rganib ketasiz. Men i sh sh a y dim. O‘sha paytdagi o‘zimning ahvolimni boshqacha tasvirlay olmayman. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim... *Qozi xo‘jayinining maqsadini anglab i sh sh a y di: – Xo‘jayin, asli hisob-kitobni to‘g‘ri qilib qo‘yish kerakmikan? Do‘xtirning soni bitta ko‘p ekan?* T.Malik, Shaytanat. *Soli eshik oldida lab-lunjini yalagancha unga qarab i r sh a y ib turardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Xumkalla ishning o‘zi o‘ylagandek yakunlanganidan quvonib, bir i r sh a y di-da, yangi hojasiga qulluq qildi.* T.Malik, Shaytanat.

JIRKANMOQ, HAZAR QILMOQ, YIRGANMOQ, IRGANMOQ Biron-bir shaxs yoki narsaga hazar hissi bilan munosabatda bo‘lmoq. **Hazar qilmoq** so‘zida salbiy munosabat ifodasi kuchli. Ayni jihat **yirganmoq**, **irganmoq** so‘zlarida yanada kuchli, ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

Lekin bunisi o‘q tegishi bilan o‘lgan, shuning uchunmi, yo ikkinchi marta ko‘rib ko‘nikdimi, Abdulla j i r k a n madi. O‘.Umarbekov. Odam bo‘lish qiyin. *Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo‘lsa, u ko‘p narsalarni nazarga ilmaydi va undan j i r k a n adi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Mamlakat mudofaasidan qochgan kimsadan chumoli emas, hatto vabodek ofat ham h a z a r q i l ishini... fahmladi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *O‘zlariga buyurmagan, menga buyurarmidi. H a z a r q i l-yapti deb o‘ylamang, birovning haqidan qo‘rqaman.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *O‘rnimdan turib ko‘rishishga ko‘targan qo‘lim ko‘tarilgancha qolaverdi. Machalaring man o‘lgur minan ko‘rishishga y i r g a n di.* A.Qodiriy, Diyori bakr. *To‘porining yonida bunaqa ne’matjonlar juda ko‘p bo‘lgan. Undan i r-g a n ishga i r g a n dim-u, lekin aslida o‘zimning ham undan behroq emasligimni angladim.* M.M.Do‘st, Lolazor. *Ahmadni ter bosdi. O‘zidan o‘zi i r g a n di.* T.Malik, Kurort.

JINGALAK, FATILA, QO‘NG‘IROQ Tabiiy yoki sun’iy ravishda halqa shaklida buralgan, zidi silliq. **Fatila** so‘zida belgi **jingalak** so‘ziga nisbatan ortiq, faqat sochga nisbatan qo‘llanadi, badiiy uslub uchun xoslangan. **Qo‘ng‘iroq** so‘zi mazkur ma’noda badiiy uslubda ishlatiladi, ayni paytda, unda ijobiylik belgisi ham bor.

Zahro piq etib kulib, boshini oldin pastga qaratib, sarak-sarak etdi, so‘ng shiddat bilan orqaga siltab, peshonasiga, yuz-ko‘ziga tushib turgan xiyol j i ng a-l a k, qo‘ng‘ir sochlarini nari qildi. U.Hamdam, Muvozanat. *Keling, men bilan bir iching. J i ng a l a k sochi ter aralash peshonasiga yopishib qolgan, ko‘mir tegib qorayib qolgan maykasi ham ho‘l bo‘lib ketgandi.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *U kishining o‘sib ketgan sochi f a t i l a-f a t i l a bo‘lib, yelkasiga tushgan edi.* N.Aminov, Suvarak. *Sochlaring f a t i l a, to‘ptosh o‘ynarding, Tirnog‘ingda shu’la, manglayingda nur.* I.Mirzo, Sochlaring fatila. *Keng yag‘rin, mosh-gu-*

ruch q o‘ n g‘ i r o q sochda Sezdim yoyilganin yangi hayajon. Zulfiya, Saylanma. *Uning yuzlariga bemahal tushgan ajinlar, q o‘ n g‘ i r o q sochlarga bemahal oralagan oqlar siz keltirgan “baxt” ekanligini endi yaxshi bilaman.* S.Ahmad, Bahor suvlari.

JOY, O‘RIN 1. Biror kimsa yoki narsa ishg‘ol qilgan yoki ishg‘ol etish mumkin bo‘lgan ma’lum bir yer. O‘rin so‘zi bu ma’noda rasmiy nutqda ham ishlatiladi.

Nodirmohbegim… Unsinning… ketidan chiqmoqchi bo‘lgan edi, dodxo xo‘mrayib j o y iga o‘tqazib qo‘ydi. A.Qahhor, Dahshat. *Ortimga qaradim: sas kelmay qo‘ygan, boyagi odam turgan j o y da endi hech kim yo‘q edi!* I.Sulton, O‘rmondagi kulba. *Boshqalar ham o‘ r i n laridan qo‘zg‘alib, unga ta’ziya bildirishdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Ayonlar o‘ r i n laridan qo‘zg‘alishdi. Chuvrindi ostonaga yetganida Asadbek uni chaqirdi…* T.Malik, Shaytanat.

2. *Biror voqea-hodisa, ish-harakat sodir bo‘lgan yer. Bu ma’noda ham o‘rin so‘zi joyga nisbatan kamfaol.*

Sidiqjon bolaligi o‘tgan… tor ko‘chalarni, qishloq, anhor bo‘ylarini, sigir boqqan j o y larini borib ko‘rdi. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Qatl uchun tepalikda maxsus j o y tayyorlab qo‘yilgan, mahkumning oyoqlariga, qo‘llariga yelkasi aralash zil-zambil kishanlar urilgan…* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Otabek to‘xtagan o‘ r i n to‘rt tomondagi imoratlar bilan o‘bdan qorong‘u, shuning uchun darvozadan chiquvchining faqat boshidagi oq sallasidan o‘zgasi ko‘zga ilinmas edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Men dod deganimcha o‘ r n imda qoldim, qimir etishga majolim qolmagan edi.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko?

JOYLASHMOQ, O‘RNASHMOQ, O‘RINLASHMOQ Muayyan kishi tomonidan biror joy yoki o‘rinni egallamoq. O‘rnashmoq va o‘rinlashmoq so‘zlarining ma’nolari deyarli bir xil. O‘rinlashmoq nutqda kam qo‘llanadi.

Institutda Gulchehrani rektorning o‘zi qabul qildi. – Keling, keling! – dedi u Gulchehraning qarshisiga yurib. – Biz esa telegrammangizni kutib yotibmiz! Qayerga j o y l a sh dingiz? O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Marikolar parovoz yaqinidagi uchinchi yo to‘rtinchi vagonga j o y l a sh gan ekanlar.* O.Yoqubov, Qaydasan, Mariko? *U... to‘ppa-to‘g‘ri birinchi klass nomerga bordi va o‘zi uchun ajratilgan kichkinagina chiroyli va soz uyiga o‘ r n a sh di.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *VII asrda Makedoniya hududiga slavyanlar kelib o‘ r n a shdi.* Gazetadan. *Shu yaqin orada tergov hay’ati o‘ r i n l a s h gan binoda yong‘in voqi’ bo‘lib, bir necha kunlar Chekaning ishlari to‘xtamoqg‘a majbur bo‘ldi.* A.Qodiriy, Eski shahar “Cheka”si atrofinda. *Amir Temurning o‘zi esa maxsus choparlari, mulozimlari... bilan o‘sha xandaq yonidagi tepalik ustida o‘ r i n l a shdi.* B.Ahmedov, Amir Temur.

JUDA, G‘OYAT, G‘OYATDA, BAG‘OYAT, NIHOYATDA, BENIHOYA, ASHADDIY, O‘TAKETGAN, TOZA, ROSA, XO‘P (XO‘B), BIRAM, CHUNON, OBDAN, O‘BDAN, CHANDON, ZAP, KO‘P, O‘TA, UVVALO, BISYOR, YOMON, KAMOLI, KIROYI, O‘LGU(N)DAY, O‘LARDAY, O‘LARCHA, QATTIQ Belgining me’yordan ortiq ekanligini ifodalaydi. **Juda, g‘oyat, g‘oyatda, nihoyatda, benihoya, rosa, toza** so‘zlari belgining ortiqligini yana ham kuchli ifodalaydi. **Benihoya(t)** nutqda kamroq qo‘llanadi. **Ashaddiy, o‘taketgan** so‘zlari belgining nihoyatda ortiq darajasini bildiradi, asosan, salbiy ma’noli so‘zlar bilan keladi. Ularda belgi darajasi juda kuchli bo‘ladi. **Obdan, o‘bdan, rosa, chunon** so‘zlari, asosan, harakat belgisining batomom, butunlay ortiqchaligini bildiradi. **Xo‘p, toza**, **biram, zap** so‘zlari, asosan, oddiy so‘zlashuvga xos bo‘lib, belgining darajasi o‘rtacha ortiqligini bildiradi. **O‘ta** so‘zi belgi darajasi yana ham ortiq ekanligini anglatadi. **Uvvalo** so‘zi nutqda juda kam qo‘llanib, belgi darajasi kuchliligini bildiradi, eskirgan. **Bisyor**, asosan, badiiy uslubga xos. **Yomon**, asosan, so‘zlashuv nutqida ma’noni kuchaytirish uchun qo‘llanadi.

Jadidlarning eng katta otaxonlaridan Ahmadboy Husainov... j u d a boy odam edi. Usuli jadid maktablariga ko‘p pul sarf qildi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ustoz gaplarining mag‘zini chaqishga urinib ko‘rganim sayin, haqiqatan ham, turli-tuman voqealar va hatto misralarning ortidagi yashirin ma’nolarga yetish j u d a mushkul ekanini payqay bordim.* I.Sulton, Ozod. *Saidga o‘zga bir vazifa yuklatildi – yozilayotgan yangi tarix ishiga ko‘maklashish. Vazifaning g‘ o y a t muhimligi aytilib, avval egallab turgan lavozimidan ozod etildi.* U.Hamdam, Muvozanat. *...mazkur buloqlarning suvi g‘ o y a t toza va shifobaxsh bo‘lib, dengizning sho‘r suviga aralashib ketmasdan to sohilga qadar oqib boradi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Yoshlik faslimda Bani Tamim qabilasi tomonga borgan edim. Qaytib kelayotib, qari bir ayol bilan yosh qiz o‘tirishganini ko‘rdim. Qiz g‘ o y a t d a chiroyli, latofatli ko‘rinar edi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Oradan yarim soat o‘tmay, uning tezligi soatiga ikki yuz kilometrga chiqqan va eniga taxminan besh yuz kilometrni enlagan g‘ o y a t d a kuchli havo oqimi shiddat bilan quruqlik tomonga harakatlanmoqda edi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *– Akamning diydoriga to‘ysam, degan niyatdaman, – dedi Sabohiddin shikasta bir ohangda. – B a g‘ o y a t to‘g‘ri fikr qilibsiz. Agar akangiz shayton vasvasasiga tushgan bo‘lsa, u kishini haq yo‘lga solishga qudratingiz yetadi, degan umiddaman.* T.Malik, Devona. *Sirsiz hayot senga b a g‘ o y a t mushkul, Yuragingda yashar itoatli qul*. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Olimjon. ...O‘zingiz mundoq bir atrofingizga qarang, ayniqsa, qishloqlarimizda turmush darajasi n i h o y a t d a past! Chidab bo‘lmaydigan darajada past!* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Kirgan eshigimiz hozir uchastka deb ataladigan oddiy, lekin mevazor, gulzor, n i h o y a t-d a didli, havasli odamlarning hovlisi ekan.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *– Ey*

butun borliqlarni yaratgan b e n i h o y a ulug‘ Tangrim! – deb nido qilib yubordi Ozod. – Men o‘zimda chaqmoq shiddatini his qilyapman-ku? I.Sulton, Ozod. *Goho to‘nimni yelkamga tashlab hovliga tushaman. Juda yuksaklarda, b e n i h o y a olislarda kichkina oy suzadi. Oy men orzu qilgan o‘sha cheksiz hududlarni esimga soladi.* I.Sulton, Bo‘ri. *Ba’zilar a sh a d d i y giyohvandlarni davolab bo‘lmaydi, deb hisoblaydilar. Bu xato fikr.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Bu xonadondagi er-xotin yechishi mushkul bo‘layotgan asosiy muammo futbol masalasi edi. Sarvar bu o‘yinning a sh a d d i y muxlisi bo‘lsa, Nazmi a sh a d d i y dushmani edi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Tenghuquqlilik degani er nima ish qilsa, ayol ham bajarsin, degani emas. Er qurilishda g‘isht terdi – ayol ham, beton quydi – ayol ham, traktor mindi – ayol ham. Bu o‘ t a k e t g a n insofsizlik-ku!* T.Malik, Odamiylik mulki. – *Undan keyin, – dedi direktor so‘zini yakunlab, – ba’zi xodimlarimiz ishga o‘ t a k e t g a n darajada mas’uliyatsizlik bilan qaraydigan bo‘lib qolishdi.* S.Ahmad, Uzun til. *Shofyor hayron bo‘lib unga qarab qoldi. – Ha? – Ishonmayapman. Kelinoyim ham t o z a hayron qolsalar kerak...* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Mingboshi endi juda yoyilib kuldi: – Obbo, benamoz-yey! Gapdan t o z a bergan senga xudo!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. – *Unday bo‘lsa, – dedi Yusuf kulishga urinib, – qolgan sinfdoshlarni ham olib o‘t. Sizlarni r o s a sog‘indim...* U.Hamdam, Muvozanat. *Bobojonimning haroratini tushirish uchun emlash kerak ekan, boshqa iloj qolmabdi. Hammalari r o s a yolvorishdi, bobojonim boshini chayqab, yo‘q, deb turaverdi.* X.To‘xtaboyev. Jannati odamlar. *Qutbiddinov bola bechorani x o‘ p urishdi.* A.Qahhor, O‘jar. *Nodirmohbegim Unsinning yosh joniga rahm qilishini, uni qaytarishni so‘rab dodxoga yolvorganida dodxo uni tutib olib x o‘ p urgan edi.* A.Qahhor, Dahshat. – *Voy, shirinim-ey, rahmatli otangga o‘xshab sen ham b i r a m mehribonsanki, tillaring ham b i r a m shirinki.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Osmon judayam baland, ko‘m-ko‘k... bu navnihol osmonga mahliyo bo‘lgani boismi, shundan keyin b i r a m gurkirab o‘sdiki, asti qo‘yaverasiz.* I.Sulton, Mening gulim. *Og‘riqdan qaqshagan belimiz silab, Kavushimiz sudrab, ch u n o n imillab, Belimiz changallab yurayotirmiz, Qarilik gashtini surayotirmiz.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *...Lekin qabrlar ko‘p va bir-biriga ch u n o n o‘xshash ediki, Yusuf o‘z o‘g‘linikini ajratolmay serrayib turib qoldi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Xullas, bir oy o b d a n hordiq chiqaribdi, ikki yuzi qip-qizil bo‘lib kuchga to‘libdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Biroq u – ilg‘angan asar. Ilg‘angan-u unutilganlari yozilganlaridan ch a n d o n ko‘p.* I.Sulton, Hazrati Majoz. *Mehmon nomerni ko‘zdan kechirdi, yarqirab ko‘zni qamashtirayotgan jihozlarni birma-bir ushlab, silkitib, tirnoqlab, hidlab ko‘rdi. Men bunga ch a n d o n e’tibor qilmadim...* A.Qahhor, Dumli odamlar. – *Z a p ajoyib xotin-san-da, Shahodat, – dedi zavq bilan G‘afurjon aka. – Baxtingga tuzalib ketsam,*

osmondan yulduzni olib ber desang, olib beraman. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Baraka topkur, z a p fayzli ayol-da. Bemorning og‘rig‘ini ikki og‘iz so‘z bilan tuzatvoradi-ya!* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. S*amijon k o‘p mulohazali yigit ekan, to‘y cholga ham tatisin, degan maqsadda Zuhrani xo‘p qidirdi, olti hafta qidirib, oxiri daragini topdi.* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *...Iskandarning yetti nomusi yerga bukildi. Nazarida, Otinoyi kelinining boshidan sochgan sochqilar ham, pishirgan moxorasi ham o‘ t a bachkana, o‘ t a g‘arib ko‘rinar edi.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *O‘sha voqeadan so‘ng Zahro Alimquldan soviy boshladi. ...Nazarida Alimqulning dunyoqarashi o‘ t a tor, o‘zi badnafs bo‘lib, har narsaga faqat shaxsiy manfaati ko‘zi bilan qarar... edi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Domga olib ketaman, deb u v v a l o yalinsayam, Otinoyi ko‘nmaydi: hovlisiga o‘rganib qolgan...* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Unga birovni ayblash uchun bu gaplar asos bo‘lolmasligini, bunaqa materialni, umuman, gazetalar bosmasligini u v v a l o tushuntiramanki, qani tushunsa.* S.Ahmad, Olqindi. *Kelmog‘imdan murod shuldirkim, men bechorani “pensiya” masalasida b i s y o r ranjitdilar. Arzihol qilishdan murod yordamingizdan picha umidvorlikdir.* S.Ahmad, Buqalamun bilan uchrashuv. *Sizga xusumatlari yo‘q edi, inoning menga, sizga b i s y o r sodiqlar ul zot. Yurtimizga ziyo kelturmakdan o‘zga niyatlari yo‘q edi.* T.Malik, Savohil. *Bu safar men yurak qonim bilan bo‘yaldim. Yomon bo‘ldim, vijdonimdan y o m o n uyaldim.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Rais mehmon oldida y o m o n izza tortdi. Ikkinchi uni uyiga taklif qilmaydigan bo‘ldi.* S.Ahmad, Bahor qizlari. *Zebi k a m o l i hayron bo‘lganidan aravakashning nomahramligini ham unutib, haligi tangriqosh nazari bilan unga qaradi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Otabek k a m o l i bo‘g‘ilganidan sukut qilishga majbur bo‘ldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Endi orada chaqirtikanak bo‘lishim – k i r o y i nomardlik!* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar. *– Uyg‘ondingmi? – dedi oqsoqol k i r o y i mehr bilan. – Uxlayver, bolam, charchagansan, uxlayver.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Yoshlikda ham sen o‘ l g u d a y jizzaki eding, Qaribsan-u, bu odatdan xalos bo‘lmabsan.* E.Vohidov, Istanbul fojiasi. *Demak, butun shu taraq-turuqni eshitmagan Zebining o‘ l g u d a y qotib uxlagani ma’lum bo‘lardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ansamblingiz bor ekan, a? Men ham san’atga o‘ l a r d a y qiziqaman. Repetitsiyangizga olib boring, zerikmayman, rost.* T.Malik, Shaytanat. *Zargarov Qutbiddinovni o ‘l a r d a y kalaka qilib toza alamini oldi, buning ham og‘irligi Suyarga tushdi.* A.Qahhor, O‘jar. *Kinochilar o‘ l a r ch a ezma, shoshmagan odam bo‘lishar ekan, ikki kun ovora qilishsa bo‘ladimi.* S.Ahmad, Sobiq. *Oyqiz xola, yolg‘iz bolam o‘ksimasin, yaxshi o‘ssin, deb mushuk boladay papalab katta qildim. U bo‘lsa o‘ l a r ch a o‘jar, birkesar bola chiqdi.* R.Rahmonov, Changalzordagi sharpa. *Asqar ota yo‘l bo‘yi uni sansirab kelganidan q a t t i q xijolat tortdi.* A.Qahhor, Xotinlar. *Ochiq*

ko‘ngil, birovga tirnoqcha ham ozor bermaydigan, og‘zidan biron nojo‘ya so‘z chiqmagan, o‘ta odobli, madaniyatli bu olim yigitni q a t t i q hurmat qilardim. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

JUFT, QO‘SH, QO‘SHALOQ, QO‘SHOQ Ikkita. **Qo‘shaloq**da qo‘shlik ustuvor. **Qo‘shoq** kam qo‘llanadi. **Qo‘sh, qo‘shaloq, qo‘shoq** ham sanaladigan, ham sanalmaydigan otlarga, masalan, *baxt, quvonch* kabi mavhum tushunchalarga ham qo‘shilishi mumkin.

...bir j u f t qaldirg‘ochning ini buzilgani ko‘pchilikni xafa qilgandi. Sh.Xolmirzayev, Qush tili. *Bilmam, nima edi maqsading: Menga bir j u f t guling asrading, Birin otin Kumush atading, Birin ismin Zaynab qo‘yding-ku.* M.Yusuf, Muhabbat. *Xayol otim asov va durkun edi, Olib uchar edi q o ‘ sh qanotida*. Mirtemir, O‘smirlik. *Bizlar ko‘rgan muztar kunni ko‘rmasdan, Q o ‘ sh kaklikday yayrab o‘ssin ikkisi!..* T.Sulaymon, To‘lg‘onoy. *Xanjarbekning bosh barmog‘i ikkita. Bu q o ‘ sh a l o q barmoqlar dahshatli bir maxluqning qichqichlariga o‘xshar va hozir Komronning ko‘zlarini o‘yib oladiganday tahdid solib kelar edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Voh darig‘ki, bu q o ‘ sh a l o q quvonchlar ko‘pga cho‘zilmadi. Saratonning adoqlariga borib rais tappa to‘shakka mixlanib qoldi*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bu satrlardagi “salqin-salqin”, “mayin-mayin” kabi q o ‘ sh o q so‘zlar tasvir ta’sirchanligini oshiradi*. Q.Yo‘ldosh, M.Yo‘ldosheva, Tog‘ to‘shida yotar suruv. *Shoir sohilda tik. Daryo nur ichra, Bahor toshmoq bo‘lar qirg‘oqlaridan. Oqindan to‘ldirib q o ‘ sh o q hovuchda To‘yib suv shimirar barmoqlaridan.* Zulfiya, Yaratish dardi.

JULDUR, UVADA Kiyilaverib, yoki tutilaverib eskirib, sitilib, yirtilib ketgan kiyim-kechak, latta-putta, eski-tuski. **Juldur** so‘zi ko‘proq kiyim-kechakka nisbatan ishlatilsa, **uvada** to‘shak anjomlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Yusuf o‘sha tuni bekatda o‘zidan sigaret so‘ragan kishinikida tunadi. Uni miriqib uxladi, deb bo‘lmaydi, mog‘ori chiqib ketgan bir xonali uyda j u l d u r o‘rindiqda tonggacha o‘tirib chiqdi. U.Hamdam, Muvozanat. *Bekatda katta odamlarga nisbatan j u l d u r kiyimli bolalar ko‘p edi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Narigi uydan, u v a d a si chiqib ketgan yostiqni ko‘tarib, Hamdam chiqdi.* A.Qahhor, Ayb kimda. *Mirzakalon Temir karavotga, u v a d a ko‘rpa ustiga emas, zax betonga bag‘rini berib yotib oldi.* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq.

JO‘SHMOQ, QAYNAMOQ, YONMOQ, KISHTI KELMOQ Zavq-shavqqa, ishtiyoqqa to‘lmoq. **Qaynamoq, yonmoq** so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Yonmoq**da ma’no yanada kuchliroq. **Kishti kelmoq** – shevaga xos so‘z.

Birodarlar, tani jonim rohat qildi! Jonim entikdi, tanim yayradi! Ko‘nglim xo‘rsindi, ko‘nglim j o ‘ s h di. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Rahbarov battar j o ‘ sh di: – Piching qilmang, Davronjon akajon, piching qilmang! Undan ko‘ra ochiq tan oling: men g‘alaba qildim!* A.Yo‘ldosh, Bozor. *Biroq*

bo‘ydoqlik kuch-quvvati q a y n a gan yigit o‘zini aslo yo‘qotmay, qizlarni ko‘zdan qochirmaslikka urinib, oqimga qarshi yondamalab borardi. Q.Kenja, Toshqin. *...Sen qo‘shiq ayt, Zubayda, y o n ib-y o n ib qo‘shiq ayt – o‘zing ko‘rmagan bu dunyoning ranglari haqida, oftob nuri, buloq suvi, daraxt gullari, chechaklar va qizg‘aldoqlar haqida qo‘shiq ayt; sen yig‘lab-yig‘lab xirgoyi qil*. N.Eshonqul, Ajr. *Erning tomog‘iga nimadir tiqilganday bo‘ldi. Ha, yonida yaqindagina visoliga yetgan tengsiz bir sohibjamolni ko‘rib, yigitning k i s h t i k e l gan, zavqi-yu g‘ayrati jo‘shgan edi o‘shanda*. Q.Ochilov, Soy sohili. *Hayqiriqdan k i s h t i k e l gan jonivor ham jaranglatib kishnadi*. X.Karimiy, Chorva odami.



K

KABI, SINGARI, YANGLIG‘, O‘XSHASH, MISOL(I), BAMISOLI, MISLI, DEGANDEK O‘zidan oldin kelgan so‘zdan anglashiladigan belgiga o‘xshatish ma’nosini bildiradi. **Singari, yanglig‘** so‘zlarida badiiy nutqqa xoslik bor. **O‘xshash** so‘zi o‘xshashlik belgisini boshqa sinonimlariga – **misoli, bamisoli** so‘zlariga nisbatan bir daraja past ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Misli, misoli**, **bamisoli** so‘zlari ko‘pincha badiiy va publitsistik uslublarda ishlatiladi. **Degandek** so‘zi o‘xshatish ma’nosini juda ochiq ifodalamaydi, bu so‘z tarkibidagi *-dek* qo‘shimchasi so‘zga “o‘xshatish” ma’nosini qo‘shadi, asosan, fe’l so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan qo‘llanadi.

U insonni go‘zal va oliyjanob sehrgar k a b i o‘ziga chorlaydi, erkalaydi. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Ha, uning orzulari xuddi qaytar bahorlar k a b i qaytib kelgandi...* U.Hamdam, Muvozanat. *...otini qamchilab ketayotgan aravakash bu ovoz chiqishi bilan og‘ir bir “uh” tortdi, qo‘lidagi qamchisi daraxtdagi kuzgi yaproq s i ng a r i zo‘rg‘a-zo‘rg‘a barmoqlariga osilib qoldi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shimirib nafas oldim. Havo xuddi qalbimdagi iliqlik s i ng a r i yoqimli edi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Oy va yulduzlar xuddi artib tozalangan dur y a ng l i g‘ yarqirab, olamga fusun bag‘ishlardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bu osmon necha ming yil Charx urib ko‘rmabdi bir bora Bahor gulzorida o‘sgan Bu y a ng l i g‘ toza gullarni.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *To‘polon orasida xotinning surnayga o‘ x sh a sh ingichka ovozi o‘qtin-o‘qtin eshitilib qolardi...* S.Ahmad, Osmonning onasi. *Yozda yantoq, shuvoqqa o‘ x sh a sh giyohlar o‘sar, qishda agar qalin qor yog‘sa, qishloq hovlimizdan ham tepalik yaltirab ko‘rinib turardi.* X.To‘xtaboyev, Erka cholning o‘rigi. *Ikki qalb go‘yo qo‘sh kabutar m i s o l, Tillarida bol...* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Ota qarg‘ishi m i s o l i o‘q – u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi.* S.Ahmad, Sarob. *Mirzaboyning Yunusobodga soldirayotgan imorati Yusufning nazarida b a m i s o l i bir saroy edi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Inson qalbi b a m i s o l i dengiz – tagi-tugi yo‘q bir narsa bo‘lar ekan.* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *M i s l i oykim, ko‘rk ochur sayri shabiston aylagach, Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach...* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Qobil farzand ota-onasi uchun m i s l i gavhar bo‘lsa, noqobil farzand ular bo‘ynini bo‘g‘ib turuvchi m i s l i ilondir, deydilar.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Jiyanim menga ko‘z qisib, “qo‘yavering” d e g a n d e k ishora qildi.* A.Qahhor,

Dumli odamlar. *Sut ichib og‘zi kuygan odam qatiqni ham puflab ichadi degandek, domlaning ham ko‘p marta og‘zi kuygan ko‘rinadi.* S.Ahmad, Sarob.

KABOB, SHASHLIK Asosan, go‘shtni sixga tortib, ko‘raga terib, cho‘g‘ damida pishiriladigan, shuningdek, tandirda ham, qozonda ham tayyorlanadigan taom. **Shashlik** so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanadi.

Shu yerdan o‘tayotib, k a b o b hidi dimog‘iga urilibdi-da, kabobxonaga ko‘tarilibdi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Yusuf... yo‘l-yo‘lakay to‘rt six k a b o b ni ikkita non orasiga qo‘yib ham tog‘asining eshigini qoqib kelaveradigan bo‘ldi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Sh a sh l i k – sixlik tansiq taom ekanini avval aytib o‘tgan edik.* K.Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari. *Yaponlar delfin go‘shtidan sho‘rva, sh a sh l i k tayyorlaydilar, ba’zan esa delfinlarni xomligicha ham tanovul qiladilar.* Gazetadan.

K

KABOBPAZ, KABOBCHI, SHASHLIKPAZ, SHASHLIKCHI Kabob pishirib sotuvchi kishi. **Shashlikpaz** bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Kabobchi, shashlikchi** so‘zlari oddiy so‘zlashuvga oid, nutqda kam qo‘llanadi.

Faqat Dodo somsapaz bilan Beg‘am k a b o b p a z bu tomoshadan norozi, jig‘ibiyron edi. E.A’zam, Shovqin. – *Mana bu boshqa gap! – dedi Ochil qaynoq jigardan olib. K a b o b p a z bo‘sh sixlarni yig‘ishtirib chiqib ketganidan keyin Xolxo‘jaga ko‘zi tushdi.* A.Muxtor, Fano va Baqo. – *Keling, keling!.. Pishdi kabob!.. G‘archcha moy!. Maza qilasiz, kelib qoling!.. – maqtaydi k a b o b ch i lar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Sh a sh l i k p a z Abdulla mo‘ylovning qo‘ralaridan erta choshgohdan kech namozshomgacha pistako‘mirning isiga omuxta xushxo‘r shashlikning ishtaha qo‘zg‘ar yoqimli hidi dimoqlarga urilgani urilgan edi.* N.Qilich, Ibrat. *K a b o b ch i lardan naridagi stolda o‘tirganlar bilan gaplashib qaytdi.* Gazetadan. *“Ha, bir sh a sh l i k ch i bizni chalg‘itgan ekan”, – debdi.* X.Sultonov, Do‘stim Esonboy. *“Xalqlar do‘stligi” oshxonasida oshpaz-sh a sh l i k ch i bo‘lib ishlab ko‘rdik.* Gazetadan.

KAFIL BO‘LMOQ, KAFILLIK BERMOQ, KAFOLAT BERMOQ, KAFILLIKKA O‘TMOQ Biron-bir ishni bajarish uchun kishini ishontirmoq, shu maqsadda mas’uliyatni, javobgarlikni o‘ziga olmoq. **Kafillik bermoq** so‘zi qatordagi sinonimlarga qaraganda kamroq qo‘llanadi, kitobiy so‘z. **Kafolat bermoq** so‘zi publitsistik uslubda ko‘p qo‘llanadi.

Ammo Otabek ish bir taraflik bo‘lg‘uncha o‘zining qochmaslig‘i uchun kafil berishka majburdir. Hamma mol va mulki bilan qutidor Otabekka k a f i l b o‘ l di... A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Jonfig‘on qasamning har xilidan ichdi, keyin bizning k a f i l b o‘ l ishimizni so‘radi. Biz oxirgi sinoq bo‘lishi sharti bilan k a f i l b o‘ l dik...* A.Qahhor, Dahshat. *Azim hoji Beknazarning otabobolarini yaxshi tanigani bois ular avlodiga g‘alamislik, munofiqlik yotligiga k a f i l l i k b e r ishga hozir, ammo buni fe’li-yu dunyoqarashi, maqsadmaslagi turlicha kishilarning hammasiga anglatib, isbotlab chiqish*

imkonsiz-da. “Sharq yulduzi”. *Bugun o‘z qarindoshining ma’sum go‘dagiga pichoq solgan yosh yigit ertaga o‘z akasiga, ukasiga, onasiga – millatiga pichoq ko‘tarmasligiga kim k a f i l l i k b e r a oladi?* “Fitna san’ati”. *U ufqdan har kungi odatiy quyosh ko‘tariladi deb k a f o l a t b e r a oladi?* I.Sulton, Ozod. *Ertaga ular suiqasd ishtirokchilarini, hech bo‘lmasa, el ko‘ziga, qatl etmasligiga kim k a f o l a t b e r a oladi?!* “Sharq yulduzi”. *Ajabo, qariya nimaga ishonib k a f i l l i k k a o‘ t ibdi? Yigitni qayerdan taniydi ekan? – dedi kotib*. M.Mansur, Judolik diyori.

KAFILLIGINI OLMOQ, KAFILINI OLMOQ, KAFILGA OLMOQ Biron-bir kishining keyingi harakatlari uchun butun mas’uliyat va javobgarlikni o‘z ustiga olmoq. **Kafilga olmoq** so‘zida qutqarmoq, ajratib olmoqlik ta’kidi mavjud.

K

Uni navkarlikka olishda bekning oldiga Asqaralibek o‘zi boshlab kirgan, k a f i l l i g i n i o l gan. B.Murod Ali, Ko‘kto‘nliklar. *O‘sha kezlarda qurilish brigadasining k a f i l i n i o l ganligi uchun birinchi bo‘lib bu ishga bosh qo‘shishga to‘g‘ri keldi*. “Tanish basharalar”. *– Hoy, ahli mahalla, shu jo‘jabirday bolalarining haqqi-hurmati, mayli, k a f i l g a o l aylik, – dedi Obid ota*. Gazetadan.

KAFOLAT, KAFILLIK Kafil bo‘luvchi narsa yoki shaxs. **Kafillik** so‘zi kitobiy uslubga xos, unda huquqiy terminlik belgisi ham bor.

Kelajak k a f o l a t i – besh yillik tahsil shahodatnomasiga goho olg‘irlik “talanti” tirkalmasa, muddaoga erishish qiyin. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *U qonunlarni hayotga tatbiq etarda adashib ketsangiz-chi? Adashmaslikka k a f o l a t ingiz bormi?* M.Mansur, Judolik diyori. *O‘zga iqlim kishilarida sinab ko‘rilgan dorilar bizning odamlarga naf keltirishiga k a f o l a t bormi?* I.Sulton, Genetik. *Korxonaning k a f i l l i k ka olgani – shu yigitchani o‘zimiz tarbiya qilamiz, degan va’dani anglatadi*. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Kechagida kimlarning qo‘llovi, k a f i l l i g i bilan zo‘rg‘a o‘z vazifasida ilinib qolgan mendek bir mirzodan kim yasamoqchilar – hech tushunib yetolmayman...* M.Mansur, Judolik diyori. *Magar shayxulislom va qozining k a f i l l i g i bo‘lmaganda, xalifat-ur-rahmon Qorako‘zbegimni o‘z nikohlariga olarmidilar?* R.Haydarova, Javzo.

KALIT, OCHQICH Qulfni ochish yoki berkitish uchun ishlatiladigan metall asbob. **Ochqich** kitobiy uslubga xos.

– Ee, aka, vaqf sandig‘ining k a l i t i sizlarda-ku! Oybek, Tanlangan asarlar. *Sojidaga endi borib yetdi, shekilli, Umarovning oldidagi varaqqa intildi. Umarov esa o‘rnidan turdi, shu varaqni orqasidagi seyfga qo‘yib, sharaq-shuruq qulfladi-da, k a l i t larni cho‘ntagiga soldi.* A.A’zam, Hali hayot bor. *Hayoti bo‘m-bo‘sh ekanini fahm etmas, qulf o ch q i ch ini topishga urinmasdi.* T.Malik, Xazonrezgi. *O‘z fikri o‘ziga bachkana va asossiz ko‘rindi, rassomda gavhar ne qilsin! Shunday bo‘lsa-da, qo‘ynidan qizil dastali sinxron o ch q i ch ni olib,*

kavakka suqib ko‘rdi. O ch q i ch qandaydir mayin, kukunsimon bir narsani kesib o‘tganini ilg‘adi. N.Arslon, Qulfbuzar.

KALTA, QISQA, KO‘TOH Uzunligi normal jihatdan kam, uzunning aksi. **Qisqa** ko‘proq abstrakt narsalarga, juda kam darajada aniq narsalarga nisbatan qo‘llanadi. **Ko‘toh** yakka holda juda kam qo‘llanadi, eskirgan kitobiy uslubga xos so‘z.

Mingboshi, odatda, xotinlarga k a l t a gapirar, ular bilan ezilib o‘tirishni o‘z erkaklik sha’niga sig‘dirolmas edi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qarashlari muloyim, bo‘y-basti kelishgan, k a l t a mo‘ylabli Muhammad Valixon amir uzatgan maktubni olib ko‘z yugurtirdi.* T.Malik, Savohil. *Telegrammani u juda q i s q a va faqat Gulchehragina tushunadigan qilib yozdi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *...Gulshoda Yusufni ayvondagi xontaxta oldiga – tayyor joyga taklif qildi. Yusuf o‘tirib, otasiga o‘xshab q i s q a duo qildi: “Omin, bolalaringiz katta bo‘lishaversin!”* U.Hamdam, Muvozanat. *Kel, ey Mashrab, so‘zing k o‘ t o h qil, yaxshilar ketdi, San ham bir kun ketarsan, jumla olam chashmi tark etdi.* Mashrab. *Aqling k o‘ t o h, Jamoloxun. O‘zingni ustomon sanaysan-u, sir berib qo‘yganingni sezmaysan.* M.Mansur, Judolik diyori.

KAM, OZ 1. Sanaladigan, o‘lchanadigan narsalarning miqdor jihatdan ko‘p emasligi, talab, me’yor yoki odatdagiga nisbatan miqdori yetarli bo‘lmaganligini bildiradi. **Kam** so‘zi shaxs bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelganda talab qilingan yoki odatdagi me’yorda emaslikni, chiqish kelishigidagi so‘z bilan birga qo‘llanganda, miqdorning qiyosan ozligini anglatadi. Ayni ma’noda **oz** so‘zi ham qo‘llanadi. Lekin **oz** so‘zi qiyos qilinmagan holatdalik ta’kidiga ega. Harakatning miqdor jihatidan ko‘p emasligini ifodalashda, asosan, **kam** so‘zi ishlatiladi.

– Kayfingiz yo‘q ko‘rinadi? – so‘radi qiz. – Ha, kechasi k a m uxladim. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Bilib ol, ko‘zi ochiqlar juda k a m narsani ko‘radilar.* I.Sulton, Ozod. *Umri boqiy va mas’ud odamlar makoni bo‘lmish abadiyat shahri – Haybar haqida esa tadqiqotchilar ixtiyorida juda o z manba bor.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Qizlik vaqtida Nuri ularning kulbasiga juda o z chiqardi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2. Harakat bildiruvchi so‘zlar bilan birga qo‘llanganda, “ba’zi-ba’zida, goho-goho” ma’nosini bildiradi.

So‘nggi paytda u Humoyun bilan k a m ko‘rishar, doim uning diydoriga zor bo‘lib yurardi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Roziya unga odam zotining orasida k a m uchraydigan bir tabiat mo‘jizasiga o‘xshab ko‘rinar, Maksimich uni yaqinroqdan bilgisi kelar edi.* P.Qodirov, Erk. *Anvar o‘zi tengi bolalar bilan o z aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o‘ynab-kulmas edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

KAMALAK, KAMON, YOY Qattiq yog‘ochning bir uchidan ikkinchi uchiga ip tortib egib, yarim doira shaklida yasalgan, nayza-o‘q solib otiladigan

qadimiy ov va jang quroli. **Kamon, yoy** so‘zlari kitobiy uslublarga oid, nutqda **kamalak** so‘ziga qaraganda kam qo‘llanadi.

Boshimizda otashin falak, Poyimizda otashin tuproq, Qo‘limizda yog‘och k a m a l a k... E.Vohidov, Saylanma. *Shu mahal g‘oyibdan Rustamning qo‘lida k a m a l a k paydo bo‘ldi va u kalxat tomon o‘q uzdi.* N.Hoshimov, Alamli muhabbat. *Ular Boburning hali yosh o‘spirin ekanini, qo‘lidagi k a m o n i bo‘yi-bastiga mos qilib kichraytirib ishlanganini bilar edilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O‘rmonbek yana biroz o‘q otgandan so‘ng zerikib, k a m o n ni yerga tashladi va o‘zi haram darvozasiga qarab jo‘nadi.* A.Qahhor, Mehrobdan chayon. *Sahrobek qilich chopishni, y o y tortishni, palaxmon otishni o‘rganib, hokimining navkarlariga sarkarda ham bo‘libdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Uzoq zamonlarda Irg‘ay tol egib, Y o y yasadi odam, O‘q otdi.* A.Muxtor, Sizga aytar so‘zim.

K

KAMAYMOQ, OZAYMOQ 1. Kam yoki oz bo‘lmagan holatdan kamaygan holga o‘tmoq. **Kamaymoq** so‘zi ko‘pincha sanaladigan narsalarning miqdoran ozayishini bildiradi. **Ozaymoq** so‘zi harakat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanganda, ularning me’yoriy holatdan kamayib ketishini ifodalaydi. Bu so‘zning ilmiy yoki rasmiy uslubda ishlatilishi birmuncha chegaralangan. Oddiy so‘zlashuv nutqida va badiiy uslubda faol qo‘llanadi. Har ikki so‘z suyuqlik bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanganda, suv yoki shu kabi narsalarning hajman kamayish jarayonini ko‘rsatadi.

...Tun qo‘yniga kirgan shahar asta-sekin uyquga keta boshlagan edi. Katta yo‘lga chiqishganda, chiroqlar k a m a y di... O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Hovuz suvi k a m a y gan, och baqalar yelkamga, boshimga o‘rmalab-o‘rmalab chiqishar... suvilonning bolasi bilagimga o‘ralardi.* I.Sulton, Ozod. *Urush oyoqlab bo‘lgan, ammo dunyo tashvishlari o z a y magan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Suvi o z a y ib qolgan samovarning jig‘illashi, choy uchun qayta dasturxon yozayotgan Ruzvonning... ship-ship yurishigina jimlikni buzar edi.* S.Zunnunova, Olov.

2. Avval ko‘p uchragan, kam bo‘lmagan narsa-hodisalarning keyinchalik kam uchraydigan, kam kuzatiladigan bo‘lib qolganligini bildiradi. Bu so‘zlar ushbu ma’noda, asosan, so‘zlashuv va badiiy uslublarda qo‘llanadi.

O‘sha yili sizga ochig‘ini aytsam, butun maktabimiz bo‘yicha “to‘rt” va “besh” baholar zapasi k a m a y ib qolgan ekan. X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. *Kakliklarning sayrashi k a m a y di, quyonlar g‘oyib bo‘ldi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Shundan beri fikri sal o‘zgardi, chog‘i, garchi avvalgiday “devonayi Mashrab” deyishini qo‘ymasa ham, kamsitishlari o z a y di.* O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. *Endi o‘tlar bahordagiday mo‘l-ko‘l emas, ko‘lmaklar ham o z a y gandi.* I.Sulton, Ozod.

KAMBAG‘AL, QASHSHOQ, YO‘QSIL, FAQIR, GADO, BECHORA, BECHORAHOL, NOCHOR, MUHTOJ, MISKIN, YARLI Moddiy muhtoj,

tirikchilik uchun zarur narsalari yetarli bo‘lmagan. **Qashshoq** so‘zi moddiy muhtojlikni kuchli ifodalaydi, so‘zlashuv uslubida kamfaol. **Faqir** oddiy so‘zlashuvda kam, badiiy uslubda ko‘p qo‘llanadi. Bu so‘zda moddiy muhtojlik belgisi **kambag‘al** so‘zidagiga nisbatan kuchli, ammo **qashshoq** so‘zidagidan ko‘ra kam. **Yo‘qsil** so‘zida hech vaqosi yo‘qlik ta’kidi mavjud. U moddiy muhtojlik belgisini ko‘p hollarda **kambag‘al** so‘zidek ifodalaydigan eskirgan so‘z, ko‘pincha badiiy uslubda qo‘llanadi. **Gado** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi, so‘zlashuv uslubida faol qo‘llanmaydi, ammo uning **gadoy** shakli oddiy so‘zlashuvda faol. **Bechora** bu ma’noda kam ishlatiladi. **Bechoraholda** muhtojlik ifodasi tashqi ko‘rinishga mengzalgan holda ifodalanadi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Miskin** so‘zi moddiy muhtojlik belgisini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalamaydi, balki faqirlikdan ahvoli tang bo‘lganlik, og‘ir ahvolga tushib qolganlik holatini kuchli ifodalaydi. Oddiy so‘zlashuvda qo‘llanmaydi, eskirgan, kitobiy uslubga xos so‘z. **Yarli** so‘zi eskirgan.

Mo‘min. – Bekor gap, mening hech qanaqa sarboz buvam yo‘q. Mening otam k a m b a g‘ a l o‘tgan. E.Vohidov, Oltin devor. *Akbarning tengdoshi va ko‘kaldoshi Adhamxon shayx Salimning yalangoyoq eshkakchilar orasidan chiqqan k a m b a g‘ a l yigit bo‘lganini Mohim bibidan eshitgan edi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Men endi o‘gay onaning burash va qarg‘ishlaridan, q a sh-sh o q va xasis otaning bir turtib bir burda non berishlaridan qutulib, derazalari katta, yorug‘, issiq va toza uyda... yangicha hayot kechira boshladim.* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *Kissavur va she’r o‘g‘risining farqi yo‘q, bo‘lsa ham oz, uning ham, buning ham qalbi q a sh sh o q va sayoz.* Mirtemir, Saylanma. *Mehnatdan boshqa hech narsani bilmagan bu y o‘ q s i l yigitning qanday zo‘r talablari bo‘lar edi deysiz? Butun havaslar, talablar va o‘ylar – har nechuk bo‘lsa ham shu oilani tebratib o‘tish tegrasida aylanadi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Domla. Bu yoqda bo‘lsa – hali siz aytgan kanaday son-sanoqsiz y o‘ q-s i l bir parcha nonga zor!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *F a q i r eshkakchi bo‘lgan paytingizda o‘zingiz ham qanday adolatsizliklarni boshdan kechirganingizni eslang.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Hademay – urush tugaydi, f a q i r-ning noni butun bo‘ladi.* T.Malik, Savohil. *Jamoliddin. – Xazinani boyitaman, deb xalqni g a d o qildingiz.* Uyg‘un va I.Sulton, Alisher Navoiy. *...muhojirlarning obrazlari ana shu g‘oyalarga bo‘ysundirilgan holda g‘arib, bir burda non ilinjida xor-u zor, g a d o, bechorahol tarzda yaratilar edi.* “Fitna san’ati”. *Chinakam, b e ch o r a Qurvonbibi kiyim-kechak, ayniqsa, yolg‘iz qizining sepi xususida ko‘p tashvish tortadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *B e ch o r a cholga ich-ichidan achindi, yordam bergisi keldi-yu, qo‘li qisqaligidan og‘iz ocholmadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Tavakkalning... b e ch o r a h o l odamlarning amal-taqal qilib o‘tkazayotgan to‘ylarida xizmat qilib, tushgan pullarni olib ketmay, to‘y egasiga tashlab ketishidan xabarim bor edi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan

tong. *Bora-borgunicha yo‘l chetlaridagi xarob bostirmalarni, bostirmalar atrofida yurgan b e ch o r a h o l odamlarni ko‘rib, Asadullaning ichi achishardi.* T.Malik, Savohil. *Shunday serhosil yerlarda dehqon n o ch o r yashasa?! O‘zi ekib, o‘zi o‘rib, o‘zi yanchgan donga zor bo‘lsa?* T.Malik, Savohil. *Direktorga bozordan somsa opkelishga chiqsam, ulargayam opkelaman. Hayotda kim n o-ch o r kimsalarni ko‘rib, ularga achinmagan?* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Humoyun xazinasida qolgan oltinlarini chamalab ko‘rsa, m u h t o j navkarlarga ot olib berish va maosh to‘lashga yetmaydi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Juma namozi oldidan Ulug‘bek diyor akobirlari va sohibqironning mozoriga borib m u h t o j larga duo-yu sadaqalar ulashdi.* T.Malik, Falak. *...mutasaddi qilib tayinlagan odamlar... savat-savat issiq nonlarni miskin-u bechoralarga ulashdi-*

K

lar. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Oltin-u nuqraga achinmang! Surohiylarning sinig‘ini m i s k i n -u bechoralarga ulashgaymiz.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Y a r l i-ning yolg‘iz oti – qochag‘on.* Maqol. *Qish qorli bo‘lsa, yoz y a r l i bo‘lmas.* Maqol.

KAMBAG‘ALLASHMOQ, FAQIRLASHMOQ, QASHSHOQLASHMOQ Moddiy yetishmovchiliklarga uchramoq, nochor ahvolga tushib qolmoq, muhtoj bo‘lib qolmoq. **Faqirlashmoq, qashshoqlashmoq** so‘zlarida moddiy nochor ahvol yanada qabariq ifodalangan.

Insof bilan aytganda, Sobir uning sigaretidan ikkita yo uchta, boringki, to‘rtta chekar, shu bilan k a m b a g‘ a l l a sh ib qolmaydi. A.A’zam, Bu kunning davomi. *Tohir tog‘asining k a m b a g‘ a l l a s h ib qolganini endi sezdi-yu, otining kumush bezakli yuganini mavlono Fazliddinga tutqazdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Alisher mamlakatning f a q i r l a sh gan ining sabablarini ko‘rsatib, o‘zicha isbotlab, butun davlat tartibotini isloh qilmoqni tavsiya qiladi, – dedi Majdiddin*. Oybek, Navoiy. *Farruxiy Xalaf yaqinlaridan biriga uylangach, xarji oshadi va bo‘yniga olaxurjin tushib, f a q i r l a sh ib qoladi*. T.Turdiyev, Denov – qadimiy shahar. *Xalq q a sh sh o q l a sh moqda, hukmron partiya vakillari ataylab zo‘ravonlik siyosatini olib bormoqda.* Sh.Doniyorov, Madaminbek kim edi? *U yana ham q a sh sh o q l a sh di, egnidagi kiyimlari juldurga aylandi, yeyishga noni qolmadi, tushkunlikning barcha ayanchli va xaroba ko‘chalarini bir-bir kezib chiqdi, lekin ixlos bilan ishlayverdi.* N.Eshonqul, San’at.

KAMBAG‘ALLIK, KAMBAG‘ALCHILIK, YO‘QCHILIK, FAQIRLIK, QASHSHOQLIK, MUHTOJLIK, NOCHORLIK, BECHORACHILIK, GADOLIK, MISKINLIK Hayotiy zarur, tirikchilik uchun kerak, yashash uchun kerakli narsalarning yetishmaslik holati. **Yo‘qchilik** so‘zida yo‘qlik ta’kidi qabariq ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Faqirlik** so‘zida belgi darajasi **kambag‘alchilik** so‘zidagidan ham kuchli, ko‘proq badiiy uslubda qo‘llanadi. **Qashshoqlik** umuman yegulik sotib olish uchun mablag‘ning yo‘qlik holatini bildiradi, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Muhtojlik, no-**

chorlik so‘zlari oddiy so‘zlashuvga xos. **Bechorachilik** so‘zi kam qo‘llanadi. **Gadolik** va **miskinlik** so‘zlari bu ma’noda kam uchraydi. Shuningdek, **miskinlik**da “muhtojlik” ifodasi **gadolik** so‘ziga nisbatan juda kuchsiz voqelanadi.

Yetmish to‘rt yildirki, g‘irt k a m b a g‘ a l l i k gashtini surib kelyapmiz. S.Ahmad, Go‘shtning zarari haqida. *Birovni abgor qilib yaxshi yashashdan ko‘ra, birovning qarg‘ishiga qolmay k a m b a g‘ a l l i k da umr kechirgan a’lo emasmi?* T.Malik, Shaytanat. *– Hozir ham kambag‘almiz, – dedi Sattorqul davom etib, – lekin bu k a m b a g‘ a l ch i l i k yorug‘ dunyodan bo‘lgan umidimizni emas, yorug‘ dunyodan bo‘lgan umidimiz k a m b a g‘ a l ch i l i k ni yeb, kemirib tashlayotibdi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *– K a m b a g‘ a l ch i l i k o‘lsin! – Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta’na deb tushundi.* A.Qahhor, Anor. *Onaning javobini kutib o‘tirmasdan, o‘rtangan bir ovoz bilan ilova qildi: – Y o‘ q ch i l i k dan qutular kun bormikin?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Xotin, bola-chaqasini tashlab, bu diyorlarga qochib o‘tganida kim joniga ora kirib edi? Y o‘ q ch i l i k lar zahrini birgalashib kim tortib edi?* M.Mansur, Judolik diyori. *Sodiqlar o‘z ovqatlarini ham o‘tquzolmag‘an holda f a q i r l i k da yashab, yil sayin menga oz-oz yerlaridan sotib tiriklik qilar edilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Lekin Zahro f a q i r l i k ning neligini bilmasdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Men bola-chaqamizni hech vaqosiz qolish balosidan, q a sh sh o q l i k changalidan xalos etdim.* U.Hamdam, Muvozanat. *Onam q a sh sh o q l i k azobiga va rahmsiz er zulmiga chidash bermay, yosh o‘lib ketdi.* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *Ergashvoy shu mehnatkash odamning qo‘lida m u h t o j l i k nimaligini, yetimlik nimaligini bilmay o‘sdi.* S.Ahmad, Azob. *Sen gurkirab o‘sding, bolajon. Ochlik-m u h t o j l i k ko‘rmagin deya o‘tga kirib, suvlar kechdik.* I.Sulton, Uzuk. *Shu topgacha kulfat nima, g‘am nima, n o ch o r l i k nima, och yashash, yupun yashash nima – bilmagan yigit... endi sinoatlar chohiga tushib qolgan edi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *O‘zimga munosib yigitga tegib, b e ch o r a ch i l i k bilan bo‘lsa ham, tinch ko‘ngil bilan umr kechirishni istar edim.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Nechuk uvol musicha monand Yuragingda makon tutgan qul? Umr qosh-u kiprik orasi, G a d o l i k dan adolik ma’qul.* E.Vohidov,Umrim daryosi. *Bu bandangda xatolik bor, Xatolik – jonfidolik bor, Shu bois ko‘p judolik bor, Gadolik bor-u johim yo‘q.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Ishim miskinlik ichra bo‘ldi mushkul, Murodim bo‘lmadi hech ishda hosil.* Faqiriy. *Kech kuzakning rutubatli, sovuq izg‘irinlari esa boshlaganda u uch oydan ortiq davom etgan qamal so‘ngida – ochlik, m i s k i n l i k, xor-zorlik nihoyasida, yer yuzining sayqali bo‘lmish shahri azim Samarqandni g‘addor dushmani Shayboniyxonga tashlab chiqdi.* X.Sultonov, Panoh.

KAMGAP, INDAMAS, PISMIQ, MING‘AYMAS, DAMDUZ Ko‘p gapirishni yoqtirmaydigan, so‘ralgan narsaga juda qisqa javob beradigan, gap-so‘zga juda kam aralashadigan. **Indamas** so‘zi salbiy bahoni ifodalaydi. **Pismiq**

so‘zida indamay ish bitiradiganlik ta’kidi bor, salbiy bo‘yoqqa ega, oddiy so‘zlashuvga xos. **Ming‘aymas** so‘zida ham ana shunday salbiy baho o‘z ifodasini topadi. **Damduz** so‘zi ham kishining “ichimdagini top” xilidan ekanligini sifatlaydi, eskirgan, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Keyingi paytlarda uning kamnamo-k a m g a p, xuddi ichimdagini top qabilidagi odamlar sirasidan bo‘lib qolgani shundan ekanmi yo?.. M.Mansur, Judolik diyori. *Umuman, eri va o‘g‘lining o‘limidan so‘ng k a m g a p va odamovi bo‘lib qolgandi.* N.Eshonqul, Bayna momo. *Qurvonbibi so‘zga qancha epchil bo‘lsa, Razzoq so‘fi shu qadar kamgap, i n d a m a s, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Mening ko‘cha-ko‘yda i n d a m a s, yuvosh bir odam bo‘lib yurishimga qarama.* I.Sulton, Bo‘ri. – *Hamma narsaga razm solib, kavlab yurasan-a, p i s m i q! – jerkib tashladi Nuri.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shorahim – bezbet bola. U maktabda p i s m i q, ko‘chada zo‘ravon o‘rtoqlari oldida sherday bo‘lib ketadi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. – *Singlingiz yubkamni dog‘ qilibdi. Yer yutkur, m i n g‘ a y m a s.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Mohira oyim qizining birorta ishdan noroziligini payqab: – M i n g‘ a y m a s, pismiq o‘lgur, tag‘in nima jin urdi seni? – deb so‘raganida, Zaynab qovoq-dudog‘ini solib, bir og‘iz ham javob bermas edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu iqrorni ham kelinchakning tilidan sug‘urib olish oson kechmadi: u d a m d u z edi. Ishlarni indamay qilaverar, birov bir nima so‘rasa “ha” yo “yo‘q” so‘zi qimtilgan lablari orasidan arang sirg‘alib chiqardi.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Shuncha yillar o‘tgandan keyin qizini topishining sababi shuki, Atoulloxon to‘ra d a m d u z odam bo‘lganidan qizining borligi va qayerdaligini aytmagan.* A.Samad, O‘tkir qalam.

KAMINA, BANDA, BANDAYI OJIZ, KAMINAYI KAMTARIN, FAQIR, QULINGIZ, HAQIR So‘zlovchining kamtarlik yoki odob yuzasidan “men” so‘zi o‘rnida ishlatadigan ifodasi. **Kaminayi kamtarin** bu ma’noni poetik bo‘yoqdor tarzda namoyon etadi. **Banda, bandayi ojiz, kaminayi kamtarin, faqir, qulingiz, haqir** so‘zlarida kamtarlik ta’kidi darajama-daraja kuchayib boradi. Mazkur so‘zlar kitobiy nutqqa xos.

Ammo ertagacha tuzalib qolar degan umiddamiz. Shuning uchun k a m i n a ni ma’zur tutgan holda, agar ahdingiz chindan-da jiddiy bo‘lsa va agar bu sizga malol kelmasa, erta-indin ko‘rishsak qandoq bo‘larkan? N.Norqobilov, Kurash. *...k a m i n a ham og‘ziga kelganini qo‘yib yuboravermas, aytadigan gapimni orqa-oldimga qarab, sizning nima deyishingizga to‘g‘rilab gapiraman.* A.A’zam, Quroq. – *Hazrati oliylari, osmondagi yulduzlar yaratganning ixtiyoridadur. Ular orqali Turkiyaning jannatligini isbot etishga b a n d a ojizmen.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *...man Vatan ozodligin ko‘rsam, Vatan erki xususindagi darakni eshitsamgina bas, orada to‘rt ummon o‘lsa-da, suzib o‘tajakman, Vatan tufrog‘in o‘pajakman! B a n d a uchun shu baxtning o‘zi basdir.* T.Malik, Shaytanat. *Ammo-lekin*

o‘ziga qaramay qo‘yibdi. B a n d a y i o j i z xudbin-da – shu o‘ziga qaramagani menga yoqibdi. A.A’zam, Tugmachagul. *– Siz-chi, b a n d a y i o j i z a Viktoriya-xonim Andreyboy qizi, bandayi mo‘min Farhod Mirzaboy o‘g‘lining shar’iy nikohiga kirmoqqa, unga tanmahram bo‘lmoqqa rozimisiz?* E.A’zam, Shovqin. *– va, nihoyat, – dedi Ajoyib domla jo‘shib, – Otashqalb shoirimizning safdoshi bo‘lmish k a m i n a y i k a m t a r i n ni-da ushbu safga qo‘shmoqqa jur’at qilgali ruxsat etgaysiz, muhtaram ahli anjuman!* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Bu k a m i n a y i k a m t a r i n lari. Haligi Saidmalik zargarga shogirdman.* E.Vohidov, Oltin devor. *Bularning siri f a q i r ingizga ko‘p ayon, – dedi Umarali tovushini pasaytirib.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Birodari aziz, siz manim bu so‘zlarimdin xafa bo‘la ko‘rmangiz, zeroki, f a q i r i ngiz bu so‘zlarni bir yo‘sin kelish vajhidin yozib o‘tdimiz.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ko‘ktoy… xo‘jayin koyisa, ayb qilgan boladay yerga qarab, tuyoqlari bilan tuproq titib turaverar, afv eting ojiz q u l i ng i z ni, deganday qosh-u qulog‘ini chimirib qo‘yardi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Men q u l i ng i z na derdim, Sizga fidodir jonim…* E.Vohidov, Saylanma. *Moziylardan tinglab h a q i r so‘zimni, Bir yuz kelib kuydirodi yuzimni.* S.Sayyid, Vatan yodi. *Ammo bu faqirul h a q i r ingiz Sizning chidam bilan o‘qishingizni Allohdan tilab, yozishni kanda qilmaydur.* I.Haqqul, Bokudan maktublar.

KAMONCHI, KAMONKASH, YOYANDOZ Kamalakdan o‘q otuvchi kishi. **Kamonkash, yoyandoz** so‘zlari eskirgan, kitobiy nutqqa xos, asosan, tarixiy mavzudagi asarlarda ishlatiladi. **Yoyandoz**da poetik bo‘yoq kuchli.

Lashkarning hujumi rejasini tunlari uxlamay tuzdi, suvoriylar hujumi, k a m o n ch i lar hujumi, qilichbozlar urushi va pistirma haqida fikrladi. A.Malik, Jangchi. *Sardor sadafgul qovoqdan nos kaplab olgach, k a m o n ch i lar safi bo‘ylab uyoqdan buyoqqa yura boshladi.* A.Obidjon, Ey, yorug‘ dunyo… *Ulardan narida merganlik bahslari uchun maydon barpo etilgan... U yerda k a m o n-k a sh lar (yoy otuvchilar) yana boshqa mayda-chuyda tayyorgarlik ishlari ila ovoralar*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Hakimning ko‘rsatmasiga binoan, qarorgohdagi aravalarni to‘siqning turli joylariga o‘rnatishdi. Aravalarga y o y a n-d o z lar chiqib olib, ular yonida dasta-dasta yoy o‘qlari taxlab qo‘yildi.* “Sharq yulduzi”. *Sultonning soqchilari-yu xos navkarlaridan so‘ng qator safga tizilgan y o y a n d o z va zarbdor nayzabozlar kelardilar*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

KAMTAR, KAMTARIN, KAMSUQUM Maqtanishni istamaydigan, o‘zini boshqalardan past, xokisor tutadigan, mag‘rurlanishni bilmaydigan. **Kamtarin** so‘zida bu belgi **kamtar** so‘zidagidan kuchli ifodalanadi. **Kamsuqum** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos.

Agar bilsangiz, bu dunyoda kim ko‘p, zo‘r ko‘p, tag‘in zo‘rni zo‘riga uchrab, erta bir kun uyalib qolmang! Shuning uchun sal k a m t a r bo‘ling! N.Norqobilov, Kurash. *Doim po‘rimgina yuradigan yigitning qo‘lini ko‘mirga urishi yarashmagan bir ish, qanaqadir maqtanchoqlikka ham o‘xshar edi. “Mana, ko‘rib qo‘yinglar, men qanaqa k a m t a r man. Ko‘mirni ham o‘zim tashiyvera-*

man”, deyayotgandek. A.A’zam, Hali hayot bor. *Axir toliqqan yo‘lovchi… oyna buloqdan muzdek suv ichsa, yuzini chaysa, ruhi ravshan tortib atrofga qaraydi, tabiatning k a m t a r i n yashnashini dilidan sezib, nimadandir mamnun bo‘ladi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Boshimdan o‘tgan-da, kamtarin tajribamda bunga misol ko‘p – mavridi kelganda hali aytib berarman.* E.A’zam, Shovqin. *Ey voh, otam juda mehnatkash, k a m s u q u m kishi edi.* I.Sulton, Ona yurt. *Uni yozgan odamni men anchadan beri bilardim; kamtar, k a m s u q u m, hech qachon hech narsaga da’vo qilmagan bir professor edi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam.

KAMTARLIK, KAMTARINLIK, KAMSUQUMLIK Maqtanishni istamaslik, o‘zini boshqalardan past, xokisor tutish, mag‘rurlanishni bilmaslik holati. **Kamtarinlik** so‘zida bu belgi **kamtarlik** so‘zidagidan kuchli ifodalanadi, **Kamsuqumlik** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Maqtov kimga yoqmaydi deysiz: ko‘z qirimni tashlab ko‘rdim – har qancha k a m t a r l i k qilishga urinsa-da, ayni haqiqatni eshitayotganiga chippa-chin ishonayotgan rahbarim lab-lunjini yig‘ishtirolmay qoldi... A.Yo‘ldosh, Yetim so‘z. *Baxshi... salgina burun diyonat va k a m t a r l i k to‘g‘risida ajoyib bir terma ijro etgan bo‘lib, endi navbatdagisiga hozirlik ko‘rayotgan edi.* N.Norqobilov, Kurash. *Buxoro amiri saroyida to‘kinlik guvohi bo‘lgan afg‘onlar bu yerda bundayin k a m t a r i n l i k ni ko‘rib, ajablanishdi.* T.Malik, Savohil. *Dildoraxon o‘zining og‘ir-bosiqligi, ozmi-ko‘pmi tajribasi, k a m t a r i n l i g i bilan hammaning mehrini qozonib kelyapti.* Gazetadan. *– Bir gapdan ol, Abdi, zerikib o‘ldig-u! – Nima ham deyman, – k a m s u q u m l i k bilan yerga qaradi Abdulla.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Men qalbimda muhabbat bilan yashamoqchi bo‘ldim. Lekin bo‘lmadi. Chunki muhabbat halollik va k a m s u q u m l i k ni taqozo qildi.* U.Hamdam, Muvozanat.

KAPTAR (KABUTAR), KO‘GARCHIN Rang-barang tusli va turli katta-kichiklikdagi xonaki yoki yovvoyi qushlarning umumiy nomi. **Kabutar, ko‘garchin** so‘zlari eskirgan, kitobiy nutqqa oid.

Otaboy ko‘chada yurganda ikki ko‘zi tomda, Mabodo bironta bola tomdagi k a p t a r ga tosh otsa, shiferni teshasan, tirmazak, deb uyigacha quvib boradi. T.Malik, Savohil. *Mensiz yasholmaydi mana bu qalam, Mensiz yasholmaydi bu oppoq daftar. Har oqshom va yo tong kelsam “pirr” etib Oldimga qo‘nadi misoli k a p t a r.* S.Sayyid, Mensiz yasholmaydi… *Gumbaz ustidagi k a b u t a r lar ovozi ularga go‘yo samodan kelgan payg‘ambar ovozi kabi tuyulardi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bulut chodirini yirtib, mo‘ralab, Chiqsa quyosh, ko‘kka bo‘laman maftun, Sevaman nurlarda pati yaltirab, Oppoq k a b u t a r lar qilsalar o‘yin.* Zulfiya, Saylanma. *Ka‘ba uzra aylanuvchi ko‘garchindek yuragim Soatlarcha shul ko‘zlarning tegrasida aylandi.* Fitrat, Yana yondim.

KAR, GARANG, KARQULOQ Eshitish qobiliyatini yo‘qotgan, eshitmaydigan yoki yaxshi eshitmaydigan. Shu ma’noda **kar** so‘zi keng qo‘llanadi. **Ga-**

rang so‘zi qulog‘i og‘ir, yaxshi eshitmaydigan ma’nosini bildiradi, murojaat shakli sifatida kelganda, salbiy baho aks etadi. **Karquloq** mazkur ma’noni obrazli ifodalashi, kam qo‘llanishi va oddiy so‘zlashuvga oidligi bilan farq qiladi.

Otabek sovuqqina qilib javob berdi: – K a r emasman, lekin sizning bu taklifingiz oldida ham k a r, ham ko‘rman. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bir k a r odamning ho‘kizi yo‘qolib qolibdi.* T.Malik, Shaytanat. *G a r a ng lar qo‘shiq konkurslarida hakamlik qilsa, so‘qirlar rassomlarga rang tanlashni o‘rgatsa, hid bilmaslar gulzor oralab yursa, alam qilmaydimi?* S.Ahmad, Maza bilmaslik dardi. *Uyni kuyadori hidi tutib ketgan. O‘rtadagi xontaxta atrofida Inoy g a r a ngning xotini Bahri xola, ...Ahmadning onasi Muattar xola, “Kelinposhsha” o‘tirishibdi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Men undan (boydan) to‘g‘ri hisoblashni iltimos qilib yalinardim, u k a r q u l o q va soqovdek g‘o‘dayib turaverardi.* I.Rahim, Hayot buloqlari.

K

KAROMATGO‘Y, KAROMATLI, MO‘JIZAKOR Biron narsa-hodisa haqida oldindan aytuvchi, u yoki bu hodisa yuz berishini karomat qiluvchi, mo‘jizalar ko‘rsatuvchi. **Karomatgo‘y** so‘zida “biron-bir bashorat haqida ayta oladigan”, “karomat qila oladigan” ifodasi mavjud. **Karomatli, mo‘jizakor** so‘zlari badiiy uslubda ko‘proq uchraydi.

Isfahonning eng katta shayxul mashoyixi, k a r o m a t g o ‘ y pir Adam Shayxning nomini tilga oldi-ya! N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Shunday rivoyat bor el orasida: Ya’ni Xizr buva – k a r o m a t g o ‘ y zot Gohi do‘st, goh ota qiyofasida Yigitga ikki bor keltirar imdod*. I.Mirzo, Hazrati Xizr maqbarasida. *Maxsum asl eshonzodalardan-ku, kimsan k a r o m a t l i Eshonboboning farzandi! Til tegizib bo‘lar ekanmi unga!* S.Anorboyev, Oqsoy. *Yurtda bir bizninggina emas, hech kimning boshiga qo‘nmadi u k a r o m a t l i qush*. “Sharq yulduzi”. *Titrar guldurakdan gumbazi davvor, Shamshirin ko‘tarur yer uzra chaqin. Va lekin, ey xoliq, bul m o ‘ j i z a k o r – Sening qudratingga o‘qiymiz tahsin*. E.Vohidov, She’r dunyosi. *Ibrohim kabi sodiq va sobit bo‘lgin. Isoday ishqda damsoz-u Musoday m o ‘ j i z a k o r bo‘lgin*. A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Qisqasi, “m o ‘ j i z a k o r” tabibimizning bor sir-asrori menga ayon bo‘lib qolgan, bu yog‘i anovi bezovta yurakdagi qushcha pirillashini bas qilsa kifoya edi.* E.A’zam, Shovqin.

KARVONBOSHI, SARBON Tuyalar karvoniga boshchilik qiluvchi kishi, savdo karvoni peshvosi. **Sarbon** so‘zida boshlab boruvchilik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Lo‘lilar k a r v o n b o sh i si sahroda itini ergashtirgan bir devonavash odamni ko‘rdi, u yalangoyoq, sochlari o‘sgan, qo‘lida aso, kunbotar tarafga – g‘arbga qarab ildam ketib borardi. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Baland tuya ustida borayotgan k a r v o n b o sh i nariroqda cho‘zilib yotgan kishini ko‘rib qolibdi, tuyadan tushib oldiga borsa, bir bandayi mo‘min yuziga doka yopilgan holda behush yotgan emish, yuragiga quloq solsa, xayriyat, tirik ekan.* X.To‘xtaboyev,

Jannati odamlar. *Mingboshi o‘ylaydiki, Miryoqub uning quyrug‘i... Miryoqub ishonadiki, mingboshi – tuya, burniga ip o‘tkazilgan, ipning uchi – sarbonda, ya’ni tuyachida, s a r b o n ning nomini Miryoqub qo‘yganlar...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Karvoningga posbon uyg‘oq s a r b o n ing bor, El dardida xalovatsiz o‘g‘loning bor.* E.Vohidov, Saylanma.

KARVONSAROY, RABOT, KARVONXONA Karvon qo‘nadigan, hordiq chiqaradigan maskan. **Rabot** so‘zining nutqda qo‘llanishi **karvon** so‘ziga qaraganda kam, **karvonxona** so‘zining nutqda ishlatilishi **rabot** so‘ziga qaraganda kam, bu so‘zlar ko‘proq tarixiy mavzudagi asarlarda qo‘llanadi. Ammo **karvonsaroy** so‘zi *xalqaro madaniyat karvonsaroyi* singari birikuvlarda publitsistik uslubda kuzatiladi.

K

Suddan so‘ng u yoq-bu yoqda tartibsiz qolib ketgan kursilar, bozorchilarning k a r v o n s a r o y da bog‘lagan otlari singari bir-birlariga teskari evrilganlar... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Biroq yovuqlashsam hamki, sardobaning qorasi o‘chavermadi, qaytaga tobora tiniq tortib, ko‘z o‘ngimda butun mahobati bilan yuksalib, qad ko‘tardi. U yo‘l chetidagi kattakon k a r v o n s a r o y bo‘lib chiqdi.* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Shahidlaring nomlaridir har bir r a b o t ing, Abadiy yod erur asli adabiyoting.* S.Sayyid, Vatan. *So‘ng yura-yura bitta boy r a b o t ga tushdilar, r a b o t ning xojasi alarni bo‘yrasiz tor kulbaga kiritib, ustlaridan qulf soldi.* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish.

KASAL, BETOB, NOTOB, BEMOR, NOSOG‘, NOSOG‘LOM, XASTA, OG‘RIQ Organizmning me’yoriy holati buzilgan, sog‘lomligini yo‘qotgan. **Betob, notob, bemor, xasta** faqat insonga nisbatan qo‘llanadi. **Betob, notob** so‘zlarida belgi darajasi kuchsiz. **Notob** so‘zi ko‘proq badiiy uslubda ishlatiladi. **Bemor, xasta** so‘zlarida ijobiy munosabat ifodalanadi. Bu so‘z oddiy so‘zlashuvga nisbatan kitobiy uslubda ko‘p qo‘llanadi. **Nosog‘** va **nosog‘lom** so‘zlari jismoniy kasal holat bilan birga, ruhan nosog‘lom holatni ham ifodalaydi, nisbatan juda kam qo‘llanadi. **Og‘riq** so‘zi mazkur ma’noda birmuncha eskirgan, asosan, badiiy uslubda ishlatiladi.

Bu suhbat Abdullaning u yoq-bu yog‘idan o‘tib ketdi. U o‘zini ham, uyda yotgan k a s a l otasini ham beobro‘ qilishgan, xo‘rlangan his qildi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Hikmat buva k a s a l musichaday bir chekkada qunishib o‘tirar, aftidan, endi uning uchun olamda hech kim, hech narsa qolmagan edi.* A.Qahhor, Mahalla. *Uyga barvaqtroq qaytishim kerak. O‘g‘lim b e t o b.* T.Malik, Davron. *Shu vaqtda Gulsumbibi, b e t o b, ishtahasiz qizi uchun ...bir kosa serqatiq xo‘rda oshni avaylab ko‘tarib, eshikdan kirib keldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Mingboshining ikkinchi xotini Poshshaxon o‘sha voqeadan bir kun burun shamol oldirib qo‘yib, n o t o b yotgan ekan...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Jannat xola begona, n o t o b bola tepasida o‘tirib o‘z bolasini o‘ylarkan, ko‘zlaridan dumalab tushayotgan qaynoq yoshlari ajinli yuzlarini kuy-*

dirardi. S.Ahmad, Ufq. *Uy… silkina boshladi. Dod soldi b e m o r bola. Hamshira qiz o‘zini eshikka urdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *B e m o r odamning ko‘ngli nozik bo‘ladi, deb hammamiz O‘lmasni ehtiyot qilish bilan ovora edik.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Men bu yerlarda yotaverib ko‘zim pishib qolgan. Kim sog‘, kim n o s o g‘ – darrov ajrataman.* T.Malik, Shaytanat. *Bilmagan kishi uni tani n o s o g‘ deb o‘ylashi hech gap emas.* E.A’zam, Guli-guli. *U butun qish bo‘yi xonanishin o‘ltirib, mutolaa zahmatini totganligi uchunmi, bir muncha n o s o g‘ l o m ko‘rinardi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Yo‘l ustidagi ayvonda ozg‘in, ko‘zlari juda ma’noli x a s t a bir kishi yotibdi.* I.Sulton, Ozod. *Mastura Aliyeva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og‘ir x a s t a, uni kasalxonada hamma bilar, ko‘p kishi kirib ko‘rgan ekan.* A.Qahhor, Ming bir jon. *Bu voqeaning uchinchi kuni Kumushbibi yillab yotuvchi o g‘ r i q lardek sarg‘ayib ozgan.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *O g‘ r i q ning tuzalasi kelsa, emchi o‘z oyog‘i bilan kelur, deganlaridek, Otabekni Marg‘ilonda bo‘lish xabarini eshitib xon bilan men juda quvonishdiq...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

KASAL BO‘LMOQ, KASALLANMOQ, BETOB BO‘LMOQ, BETOBLANMOQ, XASTALANMOQ, XASTA BO‘LMOQ, OG‘RIMOQ, UCHUNMOQ Biron-bir kasallik bilan og‘rimoq, kasallik ta’sirida bo‘lmoq, sog‘lom holatni yo‘qotmoq. **Kasal bo‘lmoq, kasallanmoq** odam va boshqa jonivorlarga nisbatan qo‘llanaveradi. **Kasal bo‘lmoq**da umuman nosog‘lom holatda bo‘lmoq ifodalanadi. **Betob bo‘lmoq**, **betoblanmoq, og‘rimoq** odamga nisbatan qo‘llanadi. Shuningdek, **betoblanmoq** so‘zi **betob bo‘lmoq**qa nisbatan kam qo‘llanadi. **Xastalanmoq** so‘zida kasallanish belgisi kuchli ifodalanadi. **Og‘rimoq** oddiy so‘zlashuvga xos. **Uchunmoq** so‘zida yomon kuchlar ta’sirida, qo‘rqish, cho‘chish sababli tobi qochib qolmoqni bildiradi, dialektal so‘zlashuvga xos.

Otasi o‘lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o‘qirdi. O‘shanda Shone’mat yig‘lamagan, ammo ichikib, k a s a l b o‘ l ib qolgandi. O‘.Hoshimov, Urushning so‘nggi qurboni. *Ijarada yashayman, o‘z uyim yo‘q, gaz yo‘q, o‘tin yo‘q, tez-tez k a s a l b o‘ l aman...* A.A’zam, Hali hayot bor… *Mutribning k a s a l l a n ib, Pitnakdan qaytib kelganini Avaz Ro‘zimboydan eshitdi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Ammo bu orada qora to‘qlisi k a s a l l a n ib, vaqtincha To‘ngiz qoyani unutdi.* N.Norqobilov, Bekatdagi oq uycha. *Bu hollarni ko‘rib xon, Yutdi laxta-laxta qon. Parizod xunob bo‘ldi. Xunob-u b e t o b b o‘ l di.* H.Olimjon, Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod. *Uning ko‘zlari qizarib, rangi oqargan, go‘yo b e t o b b o‘ l ib qolganga o‘xshardi.* O‘.Hakimali, Kichik xonadon. *Bilishimcha, o‘tgan oy Baytul-hikma qanotiga Xorazmdan kelgan tabib xastalik tarqatuvchi ins-u jins bilan o‘zini emlab b e t o b l a n ibdi.* T.Malik, Falak. *Zelixonning onasi b e t o b l a n ib, ikki kungina yotdi.* T.Malik, Shaytanat. *Hamida begim yana x a s t a l a n ib qolgan... edi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Elchin Asadbekning x a s t a l a n ib qolganidan bexabar, “bir-ikki kunda kelib qolar”, deb*

Zaynabga ruxsat berdi. T.Malik, Shaytanat. *Ammo esini tanigandan buyon x a s t a b o‘ l magan, tabib betini ko‘rmagan Yo‘lchi tabiblar, dorular to‘g‘risida aqlga sig‘adigan bir tadbir ko‘rsatib, bechorani qanoatlantirishdan ojiz edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. Bibi Sardor. *X a s t a b o‘ l moq tugul jon taslim qilayotg‘on bo‘lsang ham o‘rningdan tur, beadab!* “Sharq yulduzi”. *Onam yo‘l toliqtirib o g‘ r i b qolibdi.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Davlat imtihonlari arafasida onasi qattiq o g‘ r i b qoldi.* T.Malik, Davron. *Qizining xastalanib qolganini eshitib: “U ch u n ib qolg‘on bo‘lsa kerak, hech narsa qilmas” deb parvoyi palak yuraverdi.* N.Fozilov, Muxtor og‘a.

KASALLIK I**, BEMORLIK, BETOBLIK, NOSOG‘LIK, NOSOG‘LOMLIK, NOTOBLIK, XASTALIK, UCHUNIQ** Organizm me’yoriy holatining buzilganligi, sog‘lomlik yo‘qotilgan vaqt. **Kasallik** keng ma’noli so‘z sifatida odam, jonivor va jonsiz narsalarning nosog‘om holatiga nisbatan qo‘llanadi. **Betoblik, notoblik, bemorlik, xastalik** faqat insonga nisbatan qo‘llanadi. **Nosog‘lik, nosog‘lomlik** so‘zlari nisbatan kam qo‘llanadi. **Notoblik**, **nosog‘lik**, **nosog‘lomlik, betoblik**, **bemorlik** so‘zlarida holat darajama-daraja o‘sib boradi, bular ichida **notoblik** kam qo‘llanadi. **Nosog‘lomlik** so‘zida umuman aqliy-ruhiy sog‘lom emaslik ma’nosi ham ifodalanadi. **Uchuniq** so‘zida yengil og‘rib qolganlik ifodasi mavjud, eskirgan, kitobiy.

Murabbiya Zuhraning k a s a l l i g ini ko‘rib hol-ahvol so‘radi, keyin Venerani unga tomon yo‘lladi. A.Qahhor, Dahshat. *Sobirova opa ham inqillab o‘rnidan turdi. – Men o‘zim olib boraman o‘g‘limni, – dedi. Eri k a s a l l i g iga ishora qilsa ham ko‘nmadi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Kelini dahshatli urush xavfini bartaraf qilganidan suyungan Hamida begimning b e m o r l i g i ham esidan chiqib ketdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Bir xil b e m o r l i k jomasi kiygan bu ikki kishi, ikki shumshuk – it-mushuk, bu dunyoda bir-birlarini ko‘rmaslik uchun qolgan umrlarini berishga tayyor edilar.* A.Muxtor, Fano va baqo. *Rahmatullohning onasi betoblanib qoldi, bir tomonda b e t o b l i k, bir tomonda oy-kuni yaqinlashayotganidan darak beruvchi yuzdagi dog‘larning quyuqlashuvi ortga qaytish masalasini muammo qilib qo‘ydi.* T.Malik, Ov. *Doro Shukuh davr xoqonining iqboli qudratidan xavf-xatarda bo‘lganidan Oliy hazratning ta’bi n o s o g‘ l i k vaqtida bundan abadiy saodatmand bo‘lib qolishga urindi va turli xil ustaliklarni ishga solib, mamlakat panohi sanalgan shahanshoh jilovi xizmatidagi askarlarni huzuriga chaqirdi.* M.M.Soqiy, Boburiy podshoh Avrangzeb. *Ertasiga ana o‘shalarda isitma ko‘tarilibdi, yo‘tal, ichakda n o s o g‘ l i k bor...* Gazetadan. *Og‘a, hamshiralarga motamim Takror boshlatmang. Eshitgan bo‘lsalar n o t o b l i g‘ im, O‘zga marom ayting.* Hamza, Salom ayting. *Yo‘lchi g‘amgin tovush bilan qizning n o t o b l i g ini tushuntirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ikki kundan keyin Usta bosh hakimga o‘zini juda tetik his qilayotganligini aytib, uyga borib kelish uchun yarim kunga ruxsat so‘radi, bosh hakim av-*

valiga buni x a s t a l i k injiqligiga yo‘yib, qosh chimirib qo‘ydi. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Tibbi jo‘gining aytishiga qarag‘anda, tumovning mansha’i uchdir: birinchi bodi muxolif, ikkinchi suvdan yasalgan holva, uchunchi tuzsiz osh. Ammo u ch u n i q to‘g‘risida hukamoi qadim tumovning mansha’i bo‘lg‘an haligi uch unsurning insonga birdan yopishg‘an holi debdirlar*. A.Qodiriy, Maskov xatlari. *Ammo faqirul-haqir, xodimul-hukamo va muhibbul-atibbo, garchi ustodlarning aqli salimlariga qarshi borishdan hazar qilurman, illo tumov va u ch u n i q qa bo‘lg‘an o‘z nazariyot va kashfiyoti jadidalarimni bu yerda arz qilmasdan ham o‘tolmayman*. A.Qodiriy, Maskov xatlari.

KASALLIK II**, XASTALIK, BETOBLIK, BEMORLIK** Tirik organizmning me’yoriy holatini buzadigan, notoblikni keltirib chiqaradigan narsa, aniq xastalik turi. **Xastalik** bu ma’noni **kasallik** so‘ziga nisbatan kuchliroq ifodalaydi, kitobiy uslubda ko‘p qo‘llanadi. **Betoblik** va **bemorlik** so‘zlari bu ma’noda kam ishlatiladi, badiiy uslubga xos so‘zlar.

Albatta, qizimni yonimga o‘tqazib, gapirib berish imkoniyatidan hech xayolga kelmagan k a s a l l i k oqibatida mahrumman – ovozim yo‘q. O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *Emchilarning aytishicha, yo u, yo bu k a s a l l i k ka qirq ming xil ko‘katdan bittaginasi yoqimchil bo‘larkan. Opaginang ham turmushiga yoqimchilini izlayotgandir-da, Mo‘ttivoy?* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *– Taqsir, – dedi Muhiddin ota. – Sizga uchratgani uchun Ollohga shukr. Xudo xohlasa ham tan x a s t a l i g i, ham ruh x a s t a l i g i ga shifo topajakmiz.* T.Malik, Shaytanat. *Tuppa-tuzuk o‘ynab-kulib yurgan yangangiz banogoh x a s t a l i k ka chalindi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *– Kim sizlarga o‘limni dahshat, deb aytdi! Nega o‘zingiz bilmaydigan narsadan qo‘rqasiz?! Bu dunyoda bizni doimo b e t o b l i k, qahr-u g‘azab ta’qib etadi...* T.Hayit, Bemor. *Barcha shodlik senga bo‘lsin, Barcha b e m o r l i k menga.* E.Vohidov, Barcha shodlik senga bo‘lsin. *Onasining b e m o r l i g i-yu Maryami Zamonning dardlariga ham davo shu ekanini Akbar sezdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

KASALMAND, KASALVAND, DARDCHIL, DARDMAND Tez-tez kasallikka chalinadigan, ko‘pincha kasal holatda qoladigan, sog‘lom holatidan kasal holati ko‘p bo‘ladigan. **Kasalvand kasalmand** so‘zining oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadigan varianti hisoblanadi va salbiy bahoda namoyon bo‘lishi bilan farqlanadi. **Dardchil, dardmand** so‘zlarida doimiy dardi bo‘lganlik ta’kidi ifodalanadi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Bir yigit bor ekan. U keksa, k a s a l m a n d onasi bilan olis bir shaharda yashar ekan. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *O‘sha yerda xotinimni ko‘rdim: bechora, ozib – to‘zib, bir holatda bo‘p qopti, ustida o‘choq ko‘ylak, k a s a l m a n d, zo‘rg‘a oyoqda yuribdi.* N.Eshonqul, Urush odamlari. *Ular... Dadamat va Toshtanboy aka bilan uning nimjon va k a s a l v a n d o‘spirin o‘g‘li Alisher*

– *jami olti kishi edilar.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Endi bolalar k a s a l v a n d ota-onasiz ham bir kunini ko‘radilar.* U.Hamdam, Muvozanat. *Oyiginam-ey! Buncha d a r d ch i l, buncha g‘amchil, buncha ta’sirchan bo‘lmasa. O‘zgalarga bunchalik qayg‘urmasa...* O‘.Hakimali, Kichik xonadon. *Komil baayni oydinda uyqusirab yuradigan d a r d ch i l odamday... mavze ellikboshisining orqasidan bog‘ini aylanib chiqdi.* M.Osim, Tilsiz guvoh. *Men o‘shanda o‘zimga-o‘zim “Sevganing qizga yetisholmading... Kel, mard bo‘l-da, shu d a r d m a n d qizni baxtli ayla!” deganim hanuz esimda.* U.Hamdam, Muvozanat. *Daromad xola – ... tuman kasalxonasida farroshmi, sanitarkami bo‘lib ishlagan, to‘rt-beshta bolasi bor, eri qari, d a r d m a n d roq odam edi.* E.A’zam, Shovqin.

KASB, HUNAR, KASB-KOR, ISH Ish-faoliyatning ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan asosiy turi. **Hunar** ko‘proq duradgorlik, etikdo‘zlik, sartaroshlik singari faqat qo‘l mehnati yordamida bajariladigan mehnat turini nazarda tutadi. Ana shu ma’nosi bilan **kasb**dan farqlanadi. Har uslubda bu ma’noda faol. **Kasb-kor** kasb va hunar tushunchalarini umumlashtirib ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Ish** so‘zi mazkur ma’noda oddiy so‘zlashuvga xos.

...Bunaqa fursatlar ham kam uchraydi. Bizning k a s b imiz shu, fursatni qo‘ldan chiqarish o‘z kasbiga xiyonat qilish, demak... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Usta Rabbimni chukchi deyishardi. Bu laqab uning soddaligiga mos tushishidan tashqari k a s b iga ham bir ishora edi.* S.Ahmad, Bo‘ri ovi. *Qiz gilam to‘qishga tushibdi. ... – Seni husn bobida tanho desam, h u n a r bobida ham tanho ekansan. H u n a r ing siridan meni xabardor qil, – debdi shunda fir’avn.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Hali yoshsan. Biror h u n a r ning boshini ushlab ol. Bo‘lmasa bir kunmas bir kun xor bo‘lasan.* S.Ahmad, Luqmon. *Anvarni dastlab ko‘rganida ham esi butunligini bildi. Keyin ish joyi, k a s b-k o r i bilan qiziqdi.* T.Malik, Shaytanat. *So‘radi: “Sen kimsan, nedir k a s b-k o r ing, Bunchalar dahshatli turq-u atvoring?” O‘lim javob berdi: “Nomim ajaldir, Meni ato qilgan taqdir azaldir...”* E.Vohidov, Ishq savdosi. *– I sh inglar shunaqa xavflimi? – so‘radi Binafsha ko‘zlarini pirpiratib. – O‘o‘, xavfli bo‘lgandaki! – dedi Shavkat g‘ururlanib.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Anvar pochchasining i sh ini yomon ko‘rardi. Shu ham i sh bo‘ldimi, cho‘l-u biyobonlarda tuproq kovlab, eski imoratlarning qoldig‘ini topish. Bu i sh da qahramon bo‘lish qiyin.* S.Ahmad, O‘n sakkiz yoshing.

KASOFAT I, LA’NATI, GO‘RSO‘XTA O‘ta qo‘pol va dag‘al so‘kish so‘zi. **La’nati** so‘zida belgi **kasofat**ga nisbatan, **go‘rso‘xta** so‘zida **la’nati**ga qaraganda belgi darajasi kuchli.

Choyxonaning ichkarisidan bir tovush yangradi: – Tuf de, ko‘zing tegadi, k a s o f a t! Shu so‘zingni menga aytsang, tishingni sug‘urib olardim. Oybek, Tanlangan asarlar. *“Sobirjon Mansurovich” deydi-ya k a s o f a t! Mushtakkina*

boshiga! “Buva” demoqqa tiling kira tilasa yoki tarbiyang yo‘l bermasa, loaqal “dedushka” degin, mayli, ruxsat. E.A’zam, Shovqin. *Shundoq bo‘lsa ham, l a’ n a t i, ko‘zini ochishi bilan kechagi va’damni so‘radi.* A.Qahhor, Dahshat. *– Vo l a’ n a t i-yey! Vo muttaham ablah-yey!.. – xunobi oshdi tajang shefning.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Bular qayoqdan kelganini endi tushundingmi, g o‘ r s o‘ x t a!* O.Yoqubov, Tanlangan asarlar. *G‘ulom aka qo‘l siltab, menga yuz burdi. – O‘lgudek bo‘kib ichgan. Hazarni biladimi bu g o‘r s o‘ x t a.* M.Mansur, Judolik diyori.

KASOFAT II**, KASR, JAT** O‘zganing sababi (aybi) bilan bo‘ladigan yomon oqibat. **Kasr** bu ma’noni har ikki sinonimiga qaraganda ochiq va kuchli ifodalaydi. **Jat** hamma vaqt egalik va kelishik qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi.

Mehmon bir oz to‘xtadi. Papirosini qattiq-qattiq tortib, og‘ir-og‘ir bosh tebratdi. – Bular barchasi ilmsizlik k a s o f a t i, Hakimjon! Nodonlik mevasi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Sichqon bilan do‘stliging k a s o f a t idan qurbaqa bu baloga giriftor bo‘ldi. Kimki nojinsga qo‘shilsa, jazosi shunday bo‘ladi, deydilar donolar.* T.Malik, Iymonlashish umidi. *Shu topgacha otalik mehrini bermagan “zormanda er” k a s r iga endi bular ham azob chekishlari kerakmi? Qizini quchoqlab o‘tirgan Matluba shuni ...o‘yladi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *...eng yomoni o‘sha kasofatning k a s r i bir daraxtning o‘ziga ursa mayli ekan, yo‘l yoqasidagi barcha xonadonlarni ham xarob etib ketdi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Sening j a t ingga qovun bilan tarvuz pattachining qo‘lida qolib ketdi.* G‘.G‘ulom, Shum bola. *Uning j a t iga kolxoz katta-kichiklari oldida Xolmirzaning yuzi shamgin bo‘lib qoldi.* H.Nazir, O‘tlar tutashganda.

KATTA, ULUG‘, BUYUK, ZO‘R, AZIM, AZAMAT, MUAZZAM, ULKAN, BAHAYBAT, HAYBATLI, YIRIK, GIGANT, KABIR, HAPQAT Hajmi, o‘lchovi me’yordagidan ortiq bo‘lgan, kichikning zidi. **Katta** keng tushunchali bo‘lib, aniq va mavhum tushunchalarga, jonli va jonsiz narsalarga nisbatan qo‘llanaveradi**. Ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, azamat, muazzam, ulkan** so‘zlarining hammasidagi belgi darajasi **katta** so‘zidagi belgi darajasidan nisbatan kuchli. **Zo‘r** so‘zida bu belgi kuchsiz ifodalanadi, u shu ma’noda kelganda shaxsning aqliy sifat-xususiyati kuchli namoyon bo‘ladi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Azim, azamat** aniq narsalarga nisbatan (*azim chinorlar, azamat teraklar* kabi) qo‘llanadi, lekin qo‘llanish doirasi juda chegaralangan. **Ulkan, bahaybat, haybatli** so‘zlari ularning asosidan anglashilib turganidek, shaklan, hajman kattalikni bildiradi va, ayniqsa, **bahaybat** va **haybatli** so‘zlarida vahimalilik belgisi ustuvor. **Yirik** bu ma’noda shaxsga nisbatan juda kam, aniq narsalarga nisbatan juda ko‘p qo‘llanadi, turli nutqiy uslublarda ishlatiladi. **Gigant** kitobiy, asosan, qurilishga, joyga nisbatan qo‘llanadi, belgi darajasi kuchli. **Kabir** so‘zi o‘rin-joyning juda kattaligini ifodalaydi, eskirgan so‘z. **Hapqat** nutqda **katta** so‘zini erkin almashtiradi, biroq kam qo‘llanadi, ishlatilish doirasi tor.

Mahmudiy. Bo‘ldi. Men umrimni bekor o‘tkazmayman. Men k a t t a ishlar uchun yaratilgan odamman! E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *– Ilk, musaffo, k a t t a muhabbat Qiz dilidan kelmasdi tilga.* Zulfiya, Saylanma. *...onangning izzati otangdan yuz chandon u l u g‘ demoqdalar-ku?* I.Sulton, Ozod. *Shu kecha ...u l u g‘ niyatlar insonni u l u g‘ istiqbol sari qanotlantirishiga... iqror bo‘ldim.* S.Ahmad, Cho‘l burguti. *Bolaligida ertag-u rivoyatlarni ko‘p tinglab ulg‘ayganlar orasida katta olim, tengsiz kashfiyotchi, b u y u k rassom bo‘lib yetishgan kishilarning ko‘pini bilaman.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *O‘z davrida ular b u y u k vazifalarini uddalay bilganlar.* U.Hamdam, Muvozanat. *Men Mashrab qadar z o‘ r shoir bo‘lmoqchi edim, axir!* U.Hamdam, Muvozanat. *Ammo-lekin o‘zi z o‘ r qo‘shiqchi bo‘lgandi. Og‘izga tushib, radiolarni obod qilayotgandi.* S.Ahmad, Bo‘ri ovi. *O‘zini juda a z i m va arzigulik maqsadga bag‘ishlagani hamda o‘sha yo‘lda dadil qadam bosayotgani sezilib turardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Oy havolanib a z i m teraklar ustiga ko‘tarildi.* S.Ahmad, Alla. *Yoshlikni, biz ishlagan o‘sha a z a m a t qurilishlarni eslasam, birga orzu qilganimizcha yashasak...* S.Ahmad, Iqbol chiroqlari. *Seni ulug‘layman, A z a m a t diyor! Saxovat maxzani, Quyosh maskani.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Sohibqiron. Nechun O‘tror-u Samarqand, Buxoroga, Urganchday m u a z z a m shaharlarimga o‘t qo‘yib, shaqallar makoniga aylantirding?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *M u a z z a m Sayhun-u Jayhun – Labida tashna lab qoldim, Kiyintirdim jahonni, Jismi uryon, bekafan bo‘ldim.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Odatda mo‘jizalar va g‘ayrioddiy narsalar qandaydir u l k a n bir hodisaning boshlanishidan darak berib namoyon bo‘ladi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Ko‘nglimda Vatanimga, xalqimga bo‘lgan u l k a n muhabbatni avaylab yuribman.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bu o‘tloq ustida osilib turgan b a h a y b a t qoyalar, ilonday buralib-buralib o‘tgan tog‘ so‘qmoqlari... ko‘z oldimdan sira nari ketmaydi.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Shu payt ikki tomondan ikkita b a h a y b a t odam uning ustiga tashlandi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *... yerosti daryolarining tublarida yanada h a y b a t l i sirlar bor.* I.Sulton, Ozod. *Qorga cho‘mgan h a y b a t l i tog‘lar, Sharqiragan davo buloqlar Hammasi bor, hammasi ma’mur...* H.Olimjon, Zaynab va Omon. *Daraxtlar tani pakana, mevasi mo‘l va y i r i k*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Hibsda ekanimda men xayolan y i r i k asar ustida ish boshladim. Ikkita g i g a n t korporatsiyalar... o‘zaro kelishuv imzolab, elektrotexnik ishlab chiqarishni to‘liq nazorat qiladi.* Sh.Ergashev, Jahon tarixi. *Odimlovchi g i g a n t ekskavator, Shahdam yurib borar, misli pahlavon.* F.Zohid, Tuyamo‘yin qo‘shig‘i. *Boy buva undan nazarini uzmay o‘zicha xomcho‘tlar edi: – Ko‘p yaxshi-ko‘p yaxshi. Qaddi ulug‘, k a b i r yigit bo‘lar ekansiz, Xudo xohlasa.* M.Mansur, Judolik diyori. *Daryolardan so‘radim so‘ng: – Sizdek k a b i r, Jo‘mard qalblar qay puchmoqda, qay makonda? Ular aytdi: – Sen qalblarga boqqin, axir, Daryodilli odamlar bor Andijonda!* “Sharq yulduzi”. *Arslonqul ...yirik, h a p q a t odimlar bilan jo‘nadi*. Oybek, Navoiy.

KATTALASHMOQ, KATTARMOQ, KATTAYMOQ, YIRIKLASHMOQ, ULUG‘LASHMOQ, ULKANLASHMOQ, BAHAYBATLASHMOQ Hajm, o‘lchov, shakl va ahamiyat jihatidan me’yoriy holatdagidan ortiq bo‘lmoq, kichik yoki me’yoriy holatdan katta yoki me’yordan ortiq holatga o‘tmoq. **Kattarmoq** biron-bir aniq narsaning hajman yoki shaklan me’yoriy holatidan ortiqlashuvini ta’kidlaydi. **Kattaymoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos. **Yiriklashmoq** so‘zida belgi darajasi **kattalashmoq** va **kattarmoq** so‘zlariga nisbatan kuchli ifodalanadi. **Ulug‘lashmoq, ulkanlashmoq, bahaybatlashmoq** so‘zlarida belgi darajasi ortiq, badiiy uslubga xos.

Yangi uylanganimizda birga tushgan suratimizni k a t t a l a sh tirib oynaga solib, hu anavi yerga ilib qo‘y. S.Ahmad, Suyanchiq. *Uchayotgan yulduzning falakda qoldirayotgan nurli izi tobora k a t t a l a sh ib borar, so‘nishidan darak yo‘q edi.* T.Malik, Davron. *Lekin buning o‘rniga boshini tizzalari qadar egib, boshmog‘iga tikildi. Qo‘ng‘ir rangi uniqib, oqarib qolgan boshmog‘i asta-sekin k a t t a r ib borayotgandek tuyuldi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Yuzlari lovullab ketdi, burun kataklari k a t t a r ib, tez-tez nafas ola boshladi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Fotimaning yuziga, xuddi birinchi martaba ko‘rayotganday, juda xayron bo‘lib tikildi. Ko‘zlari ham bexosdan k a t t a y ib ketdi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Jahongir xavotirlanib derazaga qaradi-yu, ko‘zlari k a t t a y ib ketdi: devor boshida bir necha mayna tizilib o‘tirishar, qig‘-qig‘ degan ovoz chiqarib, buyoqqa qarashar edi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Qirg‘oqdan uzoqlashganlari sari to‘lqinlar y i r i k l a sh ib borardi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *– Parpi! Endi qorinni siqibroq bog‘laysan-da, uka, – gap qistirdi Fatxilla. – Nega? – Parpining ko‘zlari y i r i k l a sh ib ketdi.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Bu men tomonimdan ko‘rsatilgan ozgina e’tibor Marhamatning ulug‘lariga qanchalik ta’sir etganini bilsangiz, yosh boladay quvonganlarini ko‘rsangiz, siz ham dunyodagi eng baxtli insonga aylanasiz. U l u g‘ l a sh asiz.* “Sharq yulduzi”. *Qirg‘oqlar behad kengayib, daryo avvalgidan besh-olti barobar u l k a n l a sh ib ketadi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ko‘zgularning xususiyatlari har xil, botiq ko‘zgu narsalarni u l k a n l a sh tirib, qabariq ko‘zgu kichraytirib ko‘rsatishidan xabaring bor.* I.Sulton, Ozod. *Farqi shundaki, qo‘shni bilan tutash yerida tut o‘sibdi, hovli adog‘ida esa ikki tup o‘rik bilan yong‘oq bor ekan, bular o‘sib-b a h a y b a t l a sh ib ketgani uchun ostida o‘t-o‘lan unmabdi.* I.Sulton, Onaizorim.

KATTALIK, YIRIKLIK, ULKANLIK, ULUG‘LIK, BUYUKLIK, AZIMLIK, MUAZZAMLIK, AZAMATLIK, BAHAYBATLIK, HAYBATLILIK, GIGANTLIK, KABIRLIK Muayyan narsa-hodisaning shaklan, hajman yoki boshqa jihatiga ko‘ra me’yorning holatdan ortiq ekanligi. **Yiriklik** so‘zida hajman me’yordan ortiqlik belgisi kuchli. **Ulkanlik**da bu belgi yanada kuchli ifodalanadi, ko‘pincha badiiy uslubda qo‘llanadi. **Ulug‘lik** va **buyuklik** so‘zlarida ko‘proq ahamiyati jihatidan me’yordan ortiqlik ifodasi ustuvor,

asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Azimlik, muazzamlik** va **azamatlik** so‘zlarida ham belgi darajasi kuchli bo‘lib, bu so‘zlar ko‘pincha afsonaviy yoki tasavvur asosida bilinadigan tushunchalarga nisbatan qo‘llanadi. **Bahaybatlik** va **haybatlilik** so‘zlari shaklan, hajman me’yoriy holatdan juda katta ekanlikni bildiradi va ko‘pincha badiiy uslubda qo‘llanadi. **Gigantlik** kitobiy, nutqda kam qo‘llanadi.

Shudgordagi qop-qora do‘ngalak kesaklar xuddi qora papoqli boshlarga o‘xshardi, bolakaylar ularni ayamasdan yanchib, havasga tesha urishaverdi. – Vuy, manavining k a t t a l i g ini! A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Matyoqub Qo‘shjonovning “Sinchalak” deb nomlangan taqrizi g‘oyaviy-estetik jihatdan bir butunligi va hajmining k a t t a l i g i bilan e’tiborni tortadi.* “Sharq yulduzi”. *Yangi asarga yozilgan taqrizlar ixchamligi, qisqa hajmi va hozirjavobligi; monografik taqrizlar asarni chuqur va atroflicha o‘rganib, baho berishi, hajmining y i r i k l i g i... tufayli bir-biridan ajralib turadi.* “Sharq yulduzi”. *– Hajmining y i r i k l i g i bilan ajralib turadigan bu oshqovoqning urug‘ini hamqishlog‘imiz Sherali Hayitov bultur Rossiyadan olib kelgandi, – deydi A.Qo‘chqorov.* Gazetadan. *Xalq turli-tuman bo‘lsa yaxshi. Bu – u l k a n l i k, u l u g‘ l i k alomati bo‘ladi.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *...mavlono Xondamir olamning naqadar u l k a n l i g i ni endi birinchi marta astoydil his qildi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Men ...shu muhtashamlik va u l u g‘ l i k qarshisida lol-u hayron... yuragim achisha-achisha turardim.* I.Sulton, Genetik. *Nega unda, shunday chumoli kabi ojiz odamzot b u y u k l i k ka da’vo qiladi? Osmono‘par binolar quradi?* “Sharq yulduzi”. *Hozir Ko‘hinurni menim elima verib, cho‘x saxovat ko‘rsatmoqchi bo‘lganlarida men yer ostidagi tog‘ning b u y u k l i g i ni yana bir bor his etmisham.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Qadimlikda kim muqaddam, Olammi yo senmiding? A z i m l i k da kim muazzam, Odammi yo senmiding?* E.Vohidov, Saylanma. *Ularning ham muqaddas kitoblarida, insonni o‘ldirish gunohi a z i m l i g i qayta-qayta bitilgan.* N.Rahmat, Jadid. *...parchada Vatanning m u a z z a m l i g i, uning mehridaryo kishilari quyma obrazlarda, lo‘nda, ta’sirli ifodalangan.* M.Jumaboyev, O‘zbek bolalar adabiyoti. *Agarda qon, o‘liklar, xanjar, zahar tragediyaning odatdagi sifatlari bo‘lmasa ham, lekin uning oqibati butun bir hayot saodatining yo‘qoluvidir. Uning qora ulug‘vorligi, uning buyuk a z a m a t l i g i shundan kelib chiqadi.* H.Umarov, Adabiyot nazariyasi. *Qora tosh boshqalardan b a h a y b a t l i g i bilan ajralib turibdi.* Z.Adhamzoda, Nefrit ostidagi jumboq. *Ilgariroq Mozandaronda turgan va vazminlig-u h a y b a t l i l i k da har biri ulkan bir tog‘dek bahaybat bo‘lgan.* A.Samarqandiy, Matlayi Sa’dayn. *...jang mardlarining ko‘pligidan sahro maydoni tang bo‘ldi va u ikki guruhning shiddat va salobatidan tog‘ o‘ziga h a y b a t l i l i k kasb etdi.* A.Samarqandiy, Matlayi Sa’dayn. *Garchi ezgulik, odamiylik, ...haqiqat qanchalik yiriklashgan taqdirda yovuzlik, ...g‘animlik va nohaqlik*

ham shuncha semirar ekan, bunday g i g a n t l i k ning nima keragi bor? N.Jo‘rayev, Kibor yoxud ikkinchi qiyofa.

KAYFIYAT, KAYF, AVZO Kishining ichki kechinmalari natijasida yuzaga keladigan ruhiy holat. **Kayfiyat** so‘zi insonning umumiy ruhiy holati va ahvolini bildiradi. **Kayf** so‘zida umumiy ruhiy holat ma’nosi birmuncha torayadi: “xursandlik” belgisi ustuvorlashadi va ko‘pincha ijobiy ruhiy holatni ifodalashda qo‘llanadi: *kayfi chog‘, kayfi baland, kayfi buzilmoq* singari birikuvlar tarkibida ko‘p kuzatiladi. **Avzo** so‘zi o‘zi birikkan so‘zlar bilan kelib, ko‘pincha xafalik, tundlik ifodasini beradi, salbiy ruhiy holatni bildirishda qo‘llanadi va belgini kuchliroq ottenkada ifodalaydi. Shuningdek, bu so‘zda tashqi ko‘rinish ham ifodalanadi: **avzoyi buzuq** kabi.

Burgut mening k a y f i y a t imni sezib turgan, shekilli, qo‘l berib ko‘rishayotganda panjalarimni shunday siqdiki, burgut changaliga tushgan jo‘jadek chiyillab yuborishimga oz qoldi. S.Ahmad, Cho‘l burguti. *Axir balandparvoz maqsadlarni amalga oshirish uchun kishi muvofiq kuch-u qudratga, k a y f i y a t-g a ega bo‘lishi shart-ku!* U.Hamdam, Muvozanat. *Nihoyat, eshonbobo keldilar. K a y f lari chog‘, nash’alari baland, ovozlarida allaqanday bir sho‘xlik bor.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ular kanal yoqasida biroz aylanishdi. Ikkalovi ham xomush, ikkalovining ham k a y f i buzilgan edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *...Muhammadjon akaning a v z o yi har kungidek emasdi: allaqanday sokin, allaqanday ma’yus va allaqanday sirli ko‘rinardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Eri xotinining a v z o yidan uni nima qiynayotganligini tushundi va ohista yuzidan o‘pib, erkaladi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri.

KASHANDA, CHEKUVCHI Tamaki mahsulotlarini chekishni odatga aylantirgan, ko‘p chekadigan (kishi). **Chekuvchi** so‘zida **kashanda**ga nisbatan chekish darajasi kamroq ifodalanadi, rasmiy uslubga xos.

Yoshlardan faqat sershovqin Mavluda-yu uning ashaddiy k a sh a n d a eri, ular ham dasturxonga o‘tirmay, xizmatda bo‘lishdi – biri magnitofonga kaseta tanlashdan bo‘shamadi, biri kabobpaz yonida. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *U... cho‘chib uyg‘ondi, bosib chekkan k a sh a n d a kabi og‘zida yoqimsiz ta’m sezdi...* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish. *Manzura ch e k u v ch i ayollarni ko‘rgan-u, ammo “qachondir, kimdir menga ham chekishni taklif qilar”, deb o‘ylamagan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Ch e k u v ch i ayollarda yuraktomir xastaliklariga chalinish xavfi erkaklarga qaraganda 25 foiz yuqoriligi isbotlangan.* Gazetadan.

KASHFIYOT, IXTIRO, KASHF Muntazam ilmiy yoki kasbiy izlanishlar natijasida fanga ma’lum bo‘lmagan biron-bir yangilikni topmoq, ishlab chiqmoq. **Ixtiro** so‘zi, asosan, ko‘rish, ushlab ko‘rish mumkin bo‘lgan yangilikka nisbatan qo‘llanadi, kitobiy nutqqa xos. **Kashf** bu ma’noda, asosan, kitobiy uslubga xos,

aksincha, bu ma’noda *kashf qilmoq, kashf etmoq* fe’llari tarkibida kelishi ko‘p uchraydi.

Zamonasining olimi davronlari… dunyoni o‘zgartirib yuboradigan kashfiyotni mana men qilaman, deya ko‘kraklariga urib yurgan paytda Shoir hayotning ikir-chikirlarini muhokama qilib, o‘y surish bilan band bo‘ldi. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *...O‘sha kuni u kechki reys bilan Samarqandga uchishi kerak ekan. Qo‘lida Navoiy davriga oid kashfiyot darajasida muhim hujjat, navoiyshunoslar anjumanida qatnashishi, ma’ruza qilishi lozim.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Sen olim bo‘lsang-u, ixtiro bilan Lol qilgudek bo‘lsang agar dunyoni.* E.Vohidov, Saylanma. *Erining ixtiro sini olib kelishdan bosh tortdi*. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. – *Baribir ilm odamisan-da, Samadboy, kashfiyot degan narsani eshitsang, qulog‘ing ding bo‘ladi. Xo‘p, mayli, sal-pal sirimni shamollatay, xo‘o‘sh ... men “qahramon” so‘zining antonimini topganman. Nima? “Qahramon” so‘zining antonimi?! Buning nimasi kashf...* L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Go‘yo uning barcha ilmlarga oid jami fikrlari, qarashlari va hatto kashflari mana shu qoidalar ortidan yoxud ularning yetovida yaratilgandek...* N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

KASHFIYOTCHI, IXTIROCHI, KASHSHOF Muntazam ilmiy yoki kasbiy izlanishlar natijasida fanga ma’lum bo‘lmagan biron-bir yangilikni topgan yoki ishlab chiqqan kishi. **Ixtirochi, kashfiyotchi** so‘zi o‘rnida har doim ham qo‘llana olmaydi, bu jihatdan **kashshof** so‘zi **kashfiyotchi** so‘zini erkin almashtirish xususiyatiga ega. **Kashshof** eskirgan, kitobiy so‘z, unda kashf qiluvchi ifodasi juda ochiq namoyon bo‘ladi.

Bolaligida ertag-u rivoyatlarni ko‘p tinglab ulg‘ayganlar orasida katta olim, tengsiz kashfiyotchi, buyuk rassom bo‘lib yetishgan kishilarning ko‘pini bilaman. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Hazrat Alisher gavharday bebaho iste’dodlar xazinasini ochgan eng ulug‘ kashfiyotchi edilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. – *Misol uchun olsak, hindning tabibi zo‘r, nemisning muallimi zo‘r, arabning qorisi zo‘r, gollandning gulchisi zo‘r, xitoyning sopolchisi zo‘r, inglizning birjachisi zo‘r, braziliyalikning futbolchisi zo‘r, o‘risning qurolsozi zo‘r, turkmanning gilamchisi zo‘r, yaponning ixtirochisi zo‘r, boshqirdning asalchisi zo‘r.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Muslihiddin Sa’diy Sheroziy mashhur fors shoiri, adibi va mutafakkiri g‘azal janrining kashshofi va ustodi hamdir.* “Adabiyot”.

KELAJAK, ISTIQBOL, KELGUSI Hali yashab o‘tilmagan, kelgusidagi hayot, kelgusiga oid turmush. **Istiqbol** so‘zi ayni ma’noni badiiy bo‘yoq bilan ifodalaydi, asosan, badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Kelgusi** so‘zi mazkur ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi.

Imtihon tashvishlaridan qutulgan, yuragi ming xil orzular, noma’lum, ammo porloq kelajak lazzatlari bilan to‘lgan Abdulla o‘zini nihoyatda baxtli his

qilar... edi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Sizlar yaxshi o‘qinglar... Kelajak da yurtga o‘zlaring hokimlik qilasizlar.* T.Malik, Devona. *Shunday mehribon, buyuk istiqbol va’da qilgan ustozlarning yuziga oyoq qo‘yib, “Olchin”ga qaytib keldim.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Kun-tunning odatdan tashqari cho‘zilib, vaqt o‘tishining qiyinlashuvi aksariyat hollarda umidsizlik, istiqbolga ishonchsizlikdan dalolat beradi.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Ana shunday bahor kunlarida Vosit adirlarda sang‘ib kunni kech qilar, oshnalari chiqib qolganda, u kunbotarni ko‘rsatib, o‘sha yoqda shahar borligi, uning juda antiqaligini aytar va kelgusida o‘zining shaharda yashash orzusini hikoya qilar edi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Kapitan chehrasi yorishib kuldi-da: – Malades! – dedi boshimni silab. – Kelgusida zo‘r odam chiqadi sendan!* O.Yoqubov, Muzqaymoq.

K

KELI, O‘G‘IR, HOVONCHA Jo‘xori, bug‘doy va boshqa donli mahsulotlarini tuyish uchun g‘o‘la ichini o‘yib maxsus tayyorlangan, dastali uy-ro‘zg‘or buyumi. **Keli** va **o‘g‘ir** so‘zlari nutqda bir-birining o‘rnida almashib qo‘llana oladi. **Hovoncha** so‘zida kichiklik ta’kidi ochiq ifodalangan.

Xoldon momo ana shu maysalarni keli ga soldi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Jo‘xori tuyayotgan xotini uning qo‘lidagi tugunchani ko‘rib, kelisopni keli ning ustiga qo‘ya chopdi. Keli lapanglab ag‘anadi, chala tuyilgan jo‘xori yerga to‘kildi.* A.Qahhor, Anor. *Qarasam, oshxona tomondan gup-gup etgan tovush kelyapti – oyim o‘g‘ir da tolqon qilyapti.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Otam toldan yo‘g‘onligi o‘g‘ir dastadek keladigan bir ayri chopib olib, ko‘chatni to‘g‘rilab, unga tirab, bog‘lab-chirmab qo‘ydilar.* N.Aminov, Ayri. *Tokchalarda, yerda har xil kattalikda va shaklda bo‘lgan sopol ko‘zalar, mis va temirdan har nav idishlar, g‘alati shishalar, katta-kichik hovonchalar, har turli temir-tersak qalashib yotardi.* Oybek, Navoiy. *Ikkovlon yeng shimarib, ohaktosh va allaqanday shaffof ko‘k toshlarni hovonchada yanchib, elakdan o‘tkazdilar, ohanrabo yordami bilan uni temir zarralaridan tozalab, keyin suvga qorib, rosa pishitdilar*. M.Osim, Sandiq soat.

KELINOYI, (KENNOYI), YANGA, KELINAYA, KELINOPA, CHECHA Akaning xotini (uka va singilga nisbatan). **Kelinoyi** so‘zi mazkur ma’noda **kennoyi** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llana oladi. **Kelinoyi** so‘zi so‘zlashuvda kennoyi tarzida ham uchraydi. **Yanga**, **kelinaya**, **kelinopa, checha** so‘zlari shevalarga xos.

– Uyda yo‘q edilar, – Madina boshini ko‘tarmay javob qildi. – Kelinoyimga aytib ketganman. M.Xayrullayev, Birinchi muhabbat. *Ayvonda ko‘rpa qavib o‘tirgan ikki ayol o‘rinlaridan turishdi. Uydan kelinoyi si yugurib chiqdi. – Voy, keling. Eson-omonmisizlar!* S.Zunnunova, Xotiralar uyg‘onganda. *– Assalomu alaykum, kenno yi, yaxshimisiz, uy ichilar tinchmi... Yanga noxush alik oldi...* L.Bo‘rixon, Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi. *Yang am “Uzoqroq qarindoshimizning qizi. Xo‘p desangiz, bas” desa, laqqa tushib o‘tiribman. O‘sha qiz bilan uchrashmabman ham.* E.Usmon, Toshbosgansoy voqeasi. *Akmal*

qo‘ng‘iroq tugmasini bosishi bilan ichkaridan ovoz eshitildi: – Ana, Akmalxon keldilar. “Kelinoyim”, deb o‘yladi u y a n g a sining ovozidan tanib. O‘.Hoshimov, Yanga. *Moshinasidan tushdi-yu, k e l i n a y a ngga bor, deb shopirini iziga qaytardi*. A.Obidjon, Aspan attorning arizalari. *K e l i n a y a m o‘lib qoladi deb, qo‘rqib ketyapman. Kontrol o‘ylanib turib, shunday dedi: – Uyingda oy-kuni yaqin kelining bor ekan, kinoda nima?* S.Ahmad, Jimjitlik. *Bu gal ham ustozning xonadonida tunab, onasi Xatira oyining suhbatini oldim, Siddiqa k e l i n o p a m i z pishirgan moshkichirini o‘g‘illari Mirsodiq, Mirvosil, Mirahmadlar bilan talashgudek bo‘lib tanavvul qildim*. N.Boqiy, Anvar Obidjon o‘zini “qo‘rqoq” debdimi? *Go‘ro‘gli shunday tikilib qarasa, kelayotgan Xoljuvonday chechasi.* “Go‘ro‘glining tug‘ilishi”.

K

KELISHGAN, XUSHBICHIM, XUSHQOMAT, BEJIRIM, KETVORGAN, BARNO, LOBAR, TAMTAM Qaddi-qomati chiroyli, bichimi go‘zal. **Xushbichim, xushqomat** so‘zlari kishi qaddi-qomatining chiroyliligi ta’kidini **kelishgan** so‘ziga qaraganda kuchliroq va “yoqimlilik” belgisi bilan ifodalaydi. **Bejirim** bu ma’noda kam qo‘llanadi, qo‘llanganda ham bu ma’noga kichiklik, ixchamlik belgisini qo‘shgan holda ifodalaydi. **Ketvorgan** so‘zi oddiy so‘zlashuvda qiz-juvonlarga nisbatan faol qo‘llanadi, **kelishgan** so‘zi ko‘proq yigitlarga nisbatan ishlatiladi. **Lobar, tamtam**, asosan, qiz-juvonlarga nisbatan qo‘llanadi. **Tamtam** so‘zi so‘zlashuv tiliga xos.

...Poliklinikaga qarab chopdim. Yoshgina, k e l i sh g a n gina tish doktori jag‘imni ochib qarab, shish paytida sug‘urib bo‘lmaydi, deb dori surib qo‘ydi. S.Ahmad, Zumrad. *Qizlar unga yoqmasdi, deb bo‘lmaydi. Yoqardi. U taniydigan va u bilan yurishni istagan qizlar orasida k e l i sh g a n, chiroylilari ham bor edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bosh injener, yoshgina, x u sh b i ch i m yigit, pillapoyada to‘xtab: – Xo‘sh, kelin topildimi o‘zi? – deb kuldi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *...X u sh b i ch i m qiz nozli yurish bilan kirib keldi-da... zarhal yuritilgan piyolalarga qahva quyib uzatib, shirin jilmayish hadya etgach, yana o‘sha nozli yurish bilan chiqib ketdi.* T.Malik, Shaytanat. *O‘rta bo‘yli, x u sh q o m a t ... juvon otda olma yeb, yo‘l bo‘yida turar, Akramjon o‘z otining ayilini qayta bog‘lamoqda edi.* A.Qahhor, Ming bir jon. *Chiroyli yosh juvon uning boshini egib, ikki yuzidan cho‘lp-cho‘lp o‘pdi, qizlar kulishib qo‘l uzatishdi, ... xivchinday x u sh q o m a t yigitchalar navbatma-navbat quchoqlashib, o‘pishishib uzoq ko‘rishishdi...* O.Yoqubov, Matluba. *Mana, va’dani bajarishning birinchi imkoni tug‘ilgandayoq kamina yetib kelib turibman, – dedi Yusuf Zahroning yumshoq, b e j i r i m barmoqlarini yengil qisib.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bir kun kechqurun so‘nggi imtihondan qutulgan Matluba xurram kulib, yotoqxonasiga kirgan edi, qo‘shni xonada turadigan bir qiz yugurib kirdi: – Sizni bir yigit chaqiryapti! Ja k e t v o r g a n yigit!* O.Yoqubov, Matluba. *O‘yinchi qizlarniyam juda haligiday k e t v o r g a n laridan olib yuraman. Haqiniyam*

bas deguncha beraman. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Oy deganda yuzi bor, Kun deganda ko‘zi bor, Go‘zal, dono Oygulni, – Bu b a r n o bahor gulni El sevar edi jondan.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Muncha shirin baytingiz, omon borib qaytingiz, G‘olib, b a r n o yigitga bizdan salom aytingiz.* T.To‘la, Saylanma. *Suluv, uddaburro, l o b a r juvonlar, Ko‘zlar qamashgulik ofati jonlar.* Mirtemir, Saylanma. *To‘g‘ri, Elchin xushsurat yigit, avvalgi shuhrati ham unchalik so‘nmagan. Eng l o b a r qiz ham unga jon-jon deb tegishi mumkin.* T.Malik, Shaytanat. *...nomi Mo‘tti bo‘lsa ham ko‘p yigitlarni laqillatganidan Lo‘tti deb nom olgan bu qiz shahardagi eng t a m t a m larning biri ekan. Unga gap qotmagan, undan dakki yemagan bironta ham o‘spirin qolmabdi.* S.Ahmad, Mo‘tti. *U niyatiga yetdi. Qishloqning t a m t a m qiziga uylanyapti.* S.Ahmad, Ufq.

KELISHMOQ, BITISHMOQ O‘zaro maslahatlashib, ma’lum bir fikrga, xulosaga, qarorga, bitimga kelmoq, kelishilgandek xatti-harakatni ma’qul deb bilmoq. **Bitishmoq** bu ma’noda kam qo‘llanadi, eskirgan, kitobiy uslubga xos.

K e l i sh dilar donolar, Tashabbuskor ko‘p edi. Matmusa-chi? U – kamtar, Yo‘q demadi, xo‘p dedi. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Mana bu to‘rt qavatli bino xo‘jalikniki. Biz Nurmat aka bilan k e l i sh ib, uni madaniyat saroyi deb atadik.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Menga qolsa, senga tegmas edim, Akbar. Ish hokim to‘rada. Hokim to‘rani yo‘lga solish qiyin bo‘ladi... iloji bo‘lsa, o‘sha ikkala ko‘ppak bilan o‘zing b i t i sh.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Tag‘in Qo‘ysinning chehrasida kinoyaomuz ifoda bor. Bu nimadan deb o‘ylaysiz? Eshvoy bilan o‘zaro b i t i sh ganimizni anglab qolganidanmi?* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

KELMOQ, TASHRIF BUYURMOQ, DORIMOQ So‘zlovchi turgan tomonga, joyga yo‘l olmoq, yo‘nalmoq. **Tashrif buyurmoq** ijtimoiy bo‘yoqqa ega, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda ishlatiladi. **Dorimoq** – shevaga xos so‘z.

Mana, bahor ham k e l di. Gulto‘kar shamoli bot-bot shiddat urmoqda I.Sulton, Ona yurt. *Janozaga qishloqning katta-kichik hammasi k e l di. Faqat Nurim sartarosh kelolmadi.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Bizning kechamizga... Toshkentdan o‘rtoq Abdulla Sharipov t a sh r i f b u y u r dilar.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *...ular ishga xuddi bayramga t a sh r i f b u y u r ayotgandek ko‘tarinki kayfiyatda kelishadi, o‘z vazifalarini sidqidildan ado etishadi...* U.Hamdam, Muvozanat. *G‘o‘zalarim qirmiz-qirmiz gulladi. Qirmiz-qirmiz gullarimga kapalak d o r i di.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Kuchuk bo‘lgandan keyin akillaydi-da – vazifasi. Qaytaga yaxshi – zamon qaltis, har xil yot nusxa bu yoqlarga d o r i yolmaydi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir.

KEMACHI, KEMAKASH Kemani boshqaruvchi kishi, kema bilan daryodan kishi va yuk o‘tkazish yoki tashish bilan shug‘ullanuvchi odam. **Kemakash** – shevaga oid so‘z.

Karamnasa daryosining kasofatidan qo‘rqqan k e m a c h i va eshkakchi hindilarning besh-oltitasi tungi shamol-to‘polonda Ganga orqali suzib kelib,

Sherxon ixtiyoriga o‘tdi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Devor ortida k e m a ch i bir odamning kichkina hovlisi va ikki eshkaklik qayig‘i bor*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *K e m a k a sh uchun tuman qattiq bo‘rondan ham xavfliroqdir.* J.Abdullaxonov, To‘fon.

KEMIRMOQ, G‘AJIMOQ, MUJIMOQ Suyak, qattiq non va shu kabi narsalarni tishlar orasiga olib chaynamoq yoki bir chetidan tishlamoq. **Kemirmoq** so‘zi, asosan, kemiruvchi hayvonlarga nisbatan, kam darajada boshqa hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi. Odamga nisbatan ishlatilganda, kuchli salbiy munosabat ifodalanadi. **G‘ajimoq** so‘zi hayvonlarning shunday harakatiga nisbatan qo‘llanadi, odamga nisbatan qo‘llanganda, o‘ta salbiy baho anglashiladi. **Mujimoq** bu ma’noda odamga nisbatan ham, hayvonga nisbatan ham qo‘llanaveradi.

K

Ming yildan beri tog‘ni k e m i r ib tashqariga chiqishga urinishadi. I.Sulton, Ozod. *Sichqonlar tunda Bug‘doy k e m i r ar.* E.Vohidov, Nayning navosi. *Itga bersang oshingni, itlar g‘ a j i r boshingni! Koshki, o‘z boshini g‘ a j i sa! Qizi tovush chiqarmay kuyunib yig‘ladi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Ana o‘shanda egalari bugungidek har go‘rda tentib yurganida ochiqqan itlar kirib, bu gullarni g‘ a j i m o q qa tushadi, gul esa zaharli – zahardan ungan, uni yeb itlar quturadi.* E.A’zam, Shovqin. *Burchakdagi tokchada qattiq non m u j i b o‘tirgan sichqonni ko‘rsatib o‘tilmasa, bu uyda boshqa jonli zot ham ko‘rinmas edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bir mahal qarasa, tishi karavot tagida yotibdi. Shoshib oldi-yu, yuvib, lunjiga tiqdi. O‘zinikiga o‘xshamaydi. Yo boya qochgan mushuk kechasi bilan m u j i b xirpi qilib qo‘ydimikan?* S.Ahmad, Bir latifa aytaymi?

KENJA, KENJATOY, SUPRAQOQDI, TO‘RVAQOQDI, KICHIK, KICHKINA Oilada eng keyin, oxirgi tug‘ilgan farzand. **Kenjatoy** so‘zida erkalash, suyish ta’kidi bor. **Supraqoqdi, to‘rvaqoqdi** mazkur ma’noni obrazli ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos so‘zlar. **Kichik** va **kichkina** so‘zlari **kenja** so‘zlari bilan almashinib qo‘llana oladi.

Shodmon polvondan uchta farzand qolgan, kattasi bilan k e n j a si qiz, o‘rtanchasi o‘g‘il edi. Sh.Sulaymon, Saylanma. *K e n j a zurriyot bo‘lmish qiz besh yasharligida ota-onadan sag‘ir qoldi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Qolaversa, ikkovimiz ham tirik qolib, yashab ketsak, akamning k e n j a t o y o‘g‘lini nomimga o‘tkazib, katta qilsam, bir kun kelib otam, deb tepkilab ko‘msa, orqamda qolsa koshkiydi?* G‘.Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida. *U o‘sha odamlar orasidan xotini, bolalari ajrab chiqishini kutdi. Lekin ular ko‘rinmadi... xotini, bolajonlari ko‘rinmadi... “Qulupnay olib keeling”, deb qolgan k e n j a t o y i ko‘rinmadi...* T.Malik, Savohil. *Balki, eshitgan chiqarsiz, tog‘amizning ismi G‘azanfar. S u p r a q o q d i siga mehri bo‘lakchamidi, rahmatli bobomiz uni azza-bazza dabdaba otiga mindirib, erinmay, allanechuk maroq bilan nomini juftlab “Muhammad G‘azanfar” deb atardi.* E.A’zam, Bizning tog‘a. *Kenja*

o‘g‘il, ya’ni s u p r a q o q d i otaning nafaqat uy-joyi, balki boshqa boyliklariga ham egalik qila oladi. N.Hoshimov, Adashgan avtobus. *Haydar Abdurahmon otaning kenja o‘g‘li… t o‘ r v a q o q d i bolasi edi.* M.Muhamedov, Qahramon izidan. *Ayniqsa, Mavlon akaning t o‘ r v a q o q d i si… Nishonboy serxarxasha.* H.G‘ulom, Mash’al. *Shu choq eshikdan qora-qura uch-to‘rt bola kirib keldi. Eng k i ch i g i – qizchani katta o‘g‘il opichlab olgan. Bolalar chuvvos bilan otalariga yopishdilar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Nonushta ustidagi suhbatlari davomida Yusuf shuni bilib oldiki, Zahro qizlari katta bo‘lib, k i ch i g i bog‘chaga, to‘ng‘ichi litseyga qatnay boshlagandan beri uyda bir o‘zi qolgan va yana ularning qaytishini kutib kun o‘tkazar ekan. Opamning k i ch k i n a siyam o‘rganib qolgan, ikki kunning birida: “Salom, momajon!” deb kirib kelaveradi…* Sh.Xolmirzayev, Sayr. *U otasining vafotini eshitiboq, tildan qoldi. Hovlida jim yurdi. Odamlar nima deb ketdi? “E, kattasi bemehr ekan, ko‘zidan yosh chiqmadi-ya!” deyishdi. K i ch k i n a sini, piyonistani rosa maqtashdi… Hm, davomini aytaymi? Keyin “bemehr” o‘g‘il oilaga bosh bo‘lib qoldi. Otasining barcha marosimlarini o‘sha o‘tkazdi. K i ch k i n a si qorasini ko‘rsatmadi.* Sh.Xolmirzayev, Qaytish.

KERAK, LOZIM, ZARUR, DARKOR Talab-ehtiyoj bor. **Lozim** so‘zida “talab-ehtiyoj” ma’nosi **kerak** so‘zidagi ifodadan kamroq ifodalanadi, kitobiy uslubga xos. **Zarur** so‘zida belgi darajasi me’yordan ancha kuchli – **kerak**, **lozim** so‘zlaridan ham ortiq ifodalanadi. **Darkor** so‘zi mazkur ma’noni badiiy bo‘yoq ifodasi bilan namoyon qiladi, asosan, katta yoshdagilar nutqida qo‘llanadi.

Uyni qo‘riqlashga pishiq-puxta, ishonchli bir odam k e r a k. S.Ahmad, G‘ildirak. *– To‘g‘ri, – dedi rejissor, – shundoq bo‘lishi kerak. Mexanizatsiya masalasini olganimizda, bizga nima k e r a k? Bizga voqea k e r a k.* A.Qahhor, Kartina. *– Sizga endi bitta it l o z i m, o‘rtoq Tillayev. It – uyning savlati.* S.Ahmad, Qoplon. *– To‘g‘ri, – deb o‘yladi Namozov, – bunga ham iste’dod l o z i m. Men hatto oddiy yolg‘onni ham eplay olmayman*. T.Malik, Shaytanat. *...Shuning uchun ham ma’rifat z a r u r, ma’rifatli kishilar z a r u r.* U.Hamdam, Muvozanat. *– Yo‘q, yo‘q, singlim, – yalindi Rahim Saidov. – O‘tinaman, hozir bering. Juda ham z a r u r!* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Alqissa, sevishgan er-xotin uchun rashk ham d a r k o r. Lekin u quyushqondan chiqdimi tamom, oshga zahar tushadi...* T.Malik, Devona. *Buning uchun esa ozgina rag‘bat, ozgina shiddat d a r k o r. Zavq, ilhom d a r k o r.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli.

KERAKLI, LOZIM, ZARUR, ZARURIY Talab-ehtiyoj bo‘lgan, keragi bor, talab etiladigan. **Lozim** so‘zi mazkur ma’noda, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Zarur** so‘zida keraklilik darajasi **kerakli** so‘ziga nisbatan kuchliroq. **Zaruriy** so‘zi keraklilik belgisini **zarur** so‘zidagidan ham kuchli darajada ifodalaydi, rasmiy va ilmiy uslublarda ko‘p qo‘llanadi.

Hamyon tezda ochilavermagach, mavlono uni ochmasdan jiyaniga uzatdi. – Ma, O‘shning rastalariga chiq, bugun juma, mol ko‘p, o‘zingga k e r a k l i kiyim-kechak ol. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Sherqo‘zining bunga qadar k e r a k l i qog‘ozlarigacha to‘g‘rilab qo‘yib, mashina haydashni ham o‘rganib olganini aytmaysizmi!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *U haj amallarida shaytonga tosh otmoqlik qanchalar shart bo‘lsa, bu onda akasining qalbida muhrlangan iblisga qarshi isyon qilmoqlik shunchalar zarurligini his qilib, l o z i m so‘zlarni aytmoqqa shaylanib turganida eshik taqillab, askar yigit kirdi...* T.Malik, Devona. *Tursunalining ham bu mag‘rur yigitga da’vosi ko‘payib borayotgan bo‘lsada, l o z i m paytda himoya qila olishi mumkinligi sababli undan nari ketishni xohlamadi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Qobiljon buklangan qog‘ozni kotibaga uzatdi. Keyin paltosining yon cho‘ntagidan qog‘ozga o‘ralgan bir narsa chiqazdi. – Buni ham berib qo‘yasiz-da, juda z a r u r narsa.* S.Ahmad, Uzun til. *...mo‘ysafid tuyasini cho‘kkalatib yerga tushdi-da, otliq turgan Humoyunga ta’zim qilib yaqin keldi. Past tovush bilan: – Hazratim, xoli qoling, z a r u r gapim bor, – dedi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *...Yusuf ming dollar atrofida pul jamg‘ardi. Uning eng z a r u r i y ehtiyoji – kichikroq bo‘lsa-da, boshpana sotib olish edi...* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘g‘illar otlarni egarlashdi, ota bo‘lsa eng z a r u r i y ashyolarni bitta xurjunga naridan beri joylashtirdi.* U.Hamdam, Muvozanat.

KERAKSIZ, NOKERAK, NOZARUR, ORTIQCHA Talab-ehtiyoj uchun zarur bo‘lmagan, talab etilmagan. **Nokerak** – kitobiy uslubga xos bo‘lgan so‘z. **Nozarur** so‘zi keraksizlik belgisini kuchliroq ifodalaydi, kitobiy uslubga xos. **Ortiqcha** oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Zuhro zora biron nimaga yaraydigan narsa topilib qolsa deb, shu k e r a k s i z bo‘lib qolgan buyumlar orasidan yozuv stolining eshigini topdi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Xotiram karvonsaroydan ko‘ra, bir vaqtlar yaqinlarim boshpana topib, vaqtincha yashagan, keyin hammasi yurt-yurtiga ko‘chib, ko‘chayotganda irim qilib ul-bul k e r a k s i z narsalarini tashlab ketishgan g‘arib musofirxonaga o‘xshab ketadi...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bu yoqda – budkada haligina jonquloq bo‘lib turgan go‘shak yerga osilib yotibdi. Endi n o k e r a k, ortiqcha bir buyum!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bas! Men sendan shuni so‘radimmi? N o k e r a k so‘zlarni aytmoqdin tilingni tiy!* R.Haydarova, Javzo. *Usmon Nosir she’rlarini o‘qiganimizda ba’zi shoirlarning mudroq va g‘aliz ijodiyoti tarix uchun nechog‘li n o z a r u r ekanligini payqab qolamiz.* A.Oripov, Usmon Nosir haqida so‘z. *Er-xotinning tartibsiz va umidsiz hayotlari hamda biz kirib borgan xona menga M.ning hujrasini eslatdi; shundagina M. nega bu er-xotinga bot-bot qaytishini, ularni zarur, n o z a r u r lavhalarda eslatib o‘tishini endi anglaganday bo‘ldim.* N.Eshonqul, Zulmat saltanatiga sayohat. *Hasanali endigi o‘lturishni o r t i q ch a topib o‘rnidan turdi, hujrasiga*

kirar ekan, boshini chayqab o‘zicha so‘zlandi: – Bek oshiq! A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Jurnalistni nima charchatadi? O r t i q ch a, keraksiz majlis, shunchaki o‘tkazilayotgan havoyi tadbirlar, mazmunsiz yig‘inlar.* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat.

KERILMOQ, KEKKAYMOQ, GERDAYMOQ, MANMANSIRAMOQ, TAKABBURLANMOQ O‘zini boshqalardan baland tutmoq, o‘ziga haddidan ortiq bino qo‘ymoq va shunday xarakter bilan kishilarga munosabatda bo‘lmoq. **Kerilmoq** so‘zida bu ma’noga mag‘rurlanish bilan birga, taltayish belgisi qo‘shilgan holda ifoda topadi. Oddiy so‘zlashuvda **gerdaymoq**qa nisbatan faol qo‘llanadi. **Gerdaymoq** so‘zida belgi darajasi ortiq, oddiy so‘zlashuvda faol ishlatiladi. **Manmansiramoq** so‘zlashuv va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Takabburlanmoq** so‘zida kibrli munosabat ta’kidi mavjud, anchayin kam qo‘llanadi.

O‘rtoqlarimning havasi kelar, men k e r i l ib, “akang qarag‘ayning akasi shunaqa”, deb ko‘kragimga urardim. Q.Kenja, Baliq ovi. *Tavba, nimasiga buncha k e r i l adi? To‘g‘ri, ilmi bor. Lekin nima qilib beryapti o‘sha bilgan narsasi, o‘qigan kitoblari, yozgan maqolalari?* U.Hamdam, Muvozanat. *Hay’atlarda k e k k a y ib Yayrab yurar Matmusa. Biz undoq, biz bundoq deb Sayrab yurar Matmusa.* E.Vohidov, Donishqishloq hangomalari. *Men ahmoq birovni qon qaqshatib olgan ziragingizni taqib k e k k a y ib yuribman!* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Tovuq katagi oldida oshiqona g e r d a y ib, tovlanib-tovlanib, u yoqdan bu yoqqa bezovta yura boshladi.* S.Ahmad, Tonggi tovushlar. *Boy g e r d a y s a – salobat. Kambag‘al ta’zim qilsa – xushomad.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Avvalo, bu m a n m a n s i r a shga ishonish qiyin, boz ustiga, bu mamlakatda o‘n kun tugul tag‘in bir kun turgudek bo‘lsam, kargina emas, telba bo‘lib qolishim ham aniq edi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bakir mirob-da oldiga belbog‘ini yoyib qo‘ydi. Kattalar m a n m a n s i r a d i!* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Afsonalarga ko‘ra, Arabiston shahzodasi Zahhok Jamshidning t a k a b b u r l a n ib, xudolik da’vo qilganidan foydalanib, Eron-u Turon yerlarini bosib oladi.* “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari”.

KERMOQ, YIRMOQ Ikki tomonga tortib, orasini ochmoq. **Yirmoq** oddiy so‘zlashuvga xos va bu so‘zda “orasi ochilganlik” belgisi **kermoq** so‘zidagidan kuchsizroq ifodalanadi.

So‘ng ko‘m-ko‘k yo‘ng‘ichqazorda suvsardek yaltillab, odatdagi otlarnikidan yo‘g‘on bo‘ynini gajak qilib, odatdagi arg‘umoqlarnikidan keng o‘mrovini k e r ib va odatdagi chopqir otlarnikidan ingichka oyoqlarini yerga qattiq tirab turgan qorabayirga qaradi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Mo‘jazgina peshayvon ostidan kiriladigan bir juft xona, ularning ikkala yonboshida ensizroq, ammo uzun soyabon bo‘lib, bino go‘yo qanotlarini k e r ib, o‘ljani yo o‘zining hududini bir aylanib kelishni mo‘ljallab, uchishga shaylangan, qoyadan*

ko‘tarilayotgan ulkan, qudratli burgutning timsoli edi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Qaysi bir yili lektor kelib: “O‘rtoqlar, biz bir oyog‘imiz bilan sotsializmda, ikkinchisi bilan kommunizmda turibmiz”, deganida men hazillashib “Lektor uka, ehtiyot bo‘ling, bu turishda chotingiz y i r ilib ketmasin” deb sendan baloga qoluvdim.* T.Malik, Xazonrezgi. *“Laylakka yetaman deb chumchuqning buti y i r ilibdi”, degan gapni nahotki eshitmagan bo‘lsang?* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

KESMOQ I**, QIRQMOQ, CHOPMOQ** Tig‘li narsa-buyum bilan bo‘lakka ajratmoq, bo‘laklamoq**. Kesmoq, qirqmoq**, asosan, tig‘li narsalar bilan kamida ikki bo‘lakka ajratmoqni, bo‘laklab olib tashlamoqni bildiradi, uslubiy betaraf so‘z hisoblanadi. **Chopmoq** so‘zi esa tig‘li asbob bilan zarb berib bo‘laklash, parchalash, ag‘darishni bildiradi.

K

Otabek miqrozi bilan sham so‘xtasini k e s ib tuzatdi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ota-bola junjikib yotgan dalani kesib o‘tib, tutzorga borib, ipak qurti uchun barg k e s ar edik.* G‘.Hotamov, Ota. *Yana qayerdadir birov jodi bosar, “g‘irt-g‘irt” etib bedami, poyami q i r q ar edi*. A.Qahhor, Sarob. *Mirza Muhiddin o‘ylanib qoldi va zo‘r berib peshonasini uqaladi; qog‘oz ustiga tushgan yumaloq-yumaloq kirlarni puflab tashladi-da, ishni varaqlab, gazetadan q i r q ib olingan xabarni ko‘rsatdi*. A.Qahhor, Sarob. *Bir yigitcha ketmon bilan yer c h o p a-di, ovozini qo‘yib ora-sira kuylaydi, daraxtlarda qushlar unga jo‘r bo‘ladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Nazarimda, barmoqlari bir tekisda bolta bilan c h o-p ib tashlangandek, kichkina qo‘lining suyagi yo‘q edi.* O‘.Umarbekov, Qaytar dunyo.

KESMOQ II**, QIRQMOQ, OLMOQ, KO‘TARMOQ** Yuz berayotgan biron-bir ta’sirni kamaytirmoq, kuchini pasaytirmoq, yo‘q qilmoq. **Qirqmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuv va badiiy uslubda ko‘p ishlatiladi. **Olmoq** oddiy so‘zlashuvda cheklangan so‘zlar bilan bu ma’noda qo‘llanadi. **Ko‘tarmoq** so‘zida yuz berayotgan ta’sirni butunlay yo‘q qilishlik ta’kidi qabariq ifodalanadi.

Issiqning va yog‘liq ovqatlarning damini k e s ish uchun hech kim piyoladan, choynakdan qo‘l uzmas edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Hali yoz olisda-yu, uning qaynoq nafasi qulog‘ingizni qizdiradi. Hattoki salobatli to‘shini yozgan daryo epkini ham harorat damini k e s ishga ojizlik qilayotganday.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *...ko‘cha yon-beridagi daraxtlar shamolning kuchini q i r q qanday bo‘ldi.* R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi. *Umid opasining dardiga davo istab do‘xtirma-do‘xtir yurdi – biror tayinli naf topmadi, onasi sho‘rlik ne-ne ilinjlarda qatnamagan duogo‘yi-yu, qilmagan ilmi-amali qolmadi, afsus, ularning hech biri qizini bebaxt qilgan na ko‘zning, na suqning kuchini q i r q a oldi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Oyog‘iga botib ozor beradigan g‘adir-budur toshlar, butalar dilini o‘rtayotgan alamli o‘ylarning taftini o l adiganday bo‘lar edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Yigit kishining hamiyatiga teguvchi bu kesatig‘i bir bo‘ldi-yu, tirnoqlari bo‘yalgan uzun barmoqlarning erkalovchi mayin harakati*

bir bo‘ldi. Go‘yo birining zahrini biri o l di. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Sultonning qilgan muomalasidan mudom dilxun yurgan sohib devon o‘z farzandining taqdiri uchun qayg‘urib toliqqandi va bir taskin-u andarmonlik ilinjida Xayyomning suhbatini orzulagandi. Hartugul, odam taftini odam k o ‘ t a r ur, degan gap bor.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

KET, JO‘NA, TUR, YO‘QOL, DAF BO‘L Biron-bir joydan haydab chiqarish, quvish yoki oldidan nari ketkazishni bildiradi. **Jo‘na** so‘zi **ket** so‘ziga nisbatan harakat belgisini kuchli salbiy bahoda ifodalaydi hamda oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Tur** bu ma’noda yakka so‘z holida kam qo‘llanadi, ko‘pincha *yo‘qol* so‘zi bilan birga ishlatiladi va bunday qo‘llanishida ma’no **jo‘na** so‘ziga nisbatan yanada kuchayadi, oddiy so‘zlashuvda ham ko‘p ishlatiladi. **Yo‘qol** so‘zida ta’kid do‘q, po‘pisa tarzida namoyon bo‘ladi. Bu so‘z oddiy so‘zlashuvda ham, badiiy uslubda ham faol ishlatiladi. **Daf bo‘l** so‘zida do‘q-dag‘dag‘a ta’kidi yanada kuchli bo‘ladi.

– Bo‘ldi, k e t! – dedi bir mahal Samad vazminlik bilan. – Tirigida xo‘rlading, o‘lganida tinch qo‘y. K e t. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Sen... k e t... boshqa kelma... Istamayman sen bilan gaplashishni.* T.Malik, Shaytanat. *Ertaga ertalab yo “ha” deysan, yo “yo‘q” deysan! Bor, j o ‘ n a, turqingni ko‘rsatma!* T.Malik, Shaytanat. *Tur, j o ‘ n a, hoziroq ket, ko‘zimga ko‘rinma, j o ‘ n a.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Senga qarg‘ish kerak bo‘lsa, jahlim chiqqanda kel. T u r, yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma!* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Katta bedana tumshug‘ini pastga qilib, zavqlanayotgan uy egasiga qarab: –T u r yo‘qol, t u r yo‘qol! – deb sayrabdi yana*. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Normat seskanib, unga qaradi-yu, bir dam turib qoldi. Keyin yana avvalgi holatiga qaytib: – Y o‘q o l! – deb o‘shqirdi quturgandek talvasaga tushib*. N.Eshonqul, Urush odamlari. *– Qanaqa do‘st? – Yusuf alamini Mansurga sochdi, – sen ham do‘stmisan? Sening do‘stliginggayam, vrachlik qasamingayam qo‘ydim. Y o ‘ q o l, daf bo‘l olifta maraz!..* U.Hamdam, Muvozanat. *Saragul. Nadomatlar... nadomatlar bo‘lg‘aykim, Bibi Sardor ham o‘shal tuhmatchilar yonini olmish!.. Sohibqiron. (alam bilan, ammo sekin). Bilg‘on erdim... Shunday bo‘lishini bilg‘on erdim (baqirib). D a f b o ‘ l ko‘zimdin! (Saragul chiqadi).* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Qayoqqa borsang bor, d a f b o ‘ l! – deb otasi uydan haydab solibdi.* E.A’zam, Shovqin.

KETMA-KET, ORQAMA-KETIN, ORQAMA-ORQA, BIRIN-KETIN, BIRIN-SIRIN, IZMA-IZ Harakatlanishda birin-ketin, bir-birining izidan qolishmaydigan. **Orqama-ketin, orqama-orqa** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Birin-ketin, birin-sirin, izma-iz** so‘zlarida uzluksizlik ta’kidi qabariq ifodalanadi, badiiy va publitsistik uslublarda ancha faol.

Notiqlar o‘zgarib turardi, k e t m a-k e t yangi-yangi notiqlar so‘z olardi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Mamlakatning turli o‘lkalarida Humoyun va uning*

inilariga qarshi k e t m a-k e t isyonlar bo‘lmoqda. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ana, asfaltda og‘ir sirpanib, elektr simlarini vizillatganicha k e t m a-k e t ikki-ta trolleybus keldi...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ovqatdan so‘ng uzun oynaband koridor bo‘ylab o r q a m a-k e t i n borisharkan, necha-nechasi Akobirovga iljayib, ba’zilari hatto yaltoqlangansimon egilib salom berdi.* E.A’zam, Shovqin. *Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi deganlaridek, uning o r q a m a-k e t i n tug‘il-gan o‘g‘li va qizalog‘i nogiron edi.* Z.Yunusova, Baxt tilsimi. *Otlar o r q a m a-o r q a tizilib borishadi, balandga ko‘tarilgan sari nafas olishlari og‘irlashib dam-badam pishqirishadi, goho inqillab ham qo‘yishadi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *O r q a m a-o r q a kirgan mezbon qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, “Xush ko‘rdik, aziz mehmonlar”, deb iljaydi*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Eshikdan b i r i n-k e t i n ikki kishi kirdi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Qora baxmalga qadalgan zar tugmachalardek yaltirab turgan yulduzlar b i r i n-k e t i n o‘chib, osmon beti ohak surtilgandek oqara boshladi. Sharofat hamon uyg‘oq.* S.Ahmad, Seni izlab. *U yer-bu yerda yumalab, emaklab Jajmanni do‘pposlaganlar b i r i n-s i r i n oyoqqa turdi*. X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Tomoshabinlar b i r i n-s i r i n tarqa-la boshladilar*. “Sharq yulduzi”. *Polvon Toshgazagacha i z m a-i z bordi, lekin ularning qayrilmaganini ko‘rib shartta to‘xtadi.* M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda. *Orqamdan i z m a-i z Shuhrat Salimovich kelardi.* H.Shayxov, Sirli nur.

KETMOQ, JO‘NAMOQ, RAVONA BO‘LMOQ, YO‘L OLMOQ, DORIMOQ, SURMOQ O‘z turgan joyini tashlab, biron-bir boshqa tomonga harakatlanmoq. **Ravona bo‘lmoq** so‘zi, asosan, badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Dorimoq** – kitobiy so‘z, nutqda kamfaol. **Yo‘l olmoq** – kitobiy so‘z. **Surmoq** so‘zida qochib qolishlik ta’kidi mavjud, mazkur ma’noda oddiy so‘zlashuvga xos.

Sen k e t ding, Dillarni o‘rtab, yondirib,Yuraklarda qoldi alam-tugunchak. E.Vohidov, Kelinchak. *Hammalari k e t gach, enam vaqt allamahal bo‘lib qoldi, yota qolaylik... deb ikkovimizga... yumshoqqina joy qilib berdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *O‘rnidan irg‘ib turadi-yu... j o‘ n a ydi: yugurib borayotib pe-shonasini nimagadir urib oladi*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *U Toshkentga ketishga qaror qildi va ertasigayoq j o‘ n a di, Oygul haqida o‘y-lamadi ham.* U.Hamdam, Muvozanat. *Shu yaramas aroqni ichmasam o‘lib qola-manmi, deb uyi tomonga r a v o n a b o‘ l di*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *O‘sha oqshom Hikmatillo, birinchi marta, garchi ishdan charchab qaytsa ham, odat-dagiday tappa tashlamadi, soqol-mo‘ylovini qirtishlab, sochini tarab, bitta-yu bitta tuzukroq kostyumini kiyib, qizlar yotoqxonasi tomon r a v o n a b o‘ l di...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ishga qaytishni ixtiyor qilmay, Elchinni ko‘rgisi kelib, uning uyiga y o‘ l o l di.* T.Malik, Shaytanat. *Otlarni joylagach, turnaqa-tor bo‘lib, qo‘shxonaga y o‘ l o l dik.* A. Suyun, Solin yo‘li. *Qizim men ham qaridim, Go‘rga tomon d o r i dim*. H.Olimjon, Zaynab va Omon. *Otam qirqda*

yuk ko‘targan nor edi, Yetmishida go‘r tomonga d o r i di. “Bo‘tako‘z”. – *Sherigiyam borakanmi? – Ha, ammo oyog‘i chaqqon ekan, s u r voribdi. – Rostdan-a? – Tolzor ko‘chada ketvotkanini ko‘rishibdi.* M.Mansur, Judolik diyori. – *Turg‘un chol-chi, qoratoshlik? Qayoqqa yo‘qolibdi? – Ha-a, umi? Aniqladim-aniqladim. So‘ramasang, paqqos unutibman. Bilasanmi, nima qipti? Hammasining oldiga bir qop poxol tashlab... s u r voribdi, qotiribdi lekin!* M.Mansur, Judolik diyori.

KEYIN I**, SO‘NG, SO‘NGRA, KEYINCHA, KEYINCHALIK, INNAYKEYIN, BA’DAZ, SO‘G‘IN** Shu tobda emas, ma’lum vaqt o‘tgach, muayyan vaqtdan so‘ng. **So‘ng, so‘ngra** so‘zlari o‘zbek adabiy tili tayanch shevalarida qo‘llanmaydi, balki publitsistik va badiiy uslublarda ishlatiladi. **So‘ngra** – kitobiy bo‘yoqdor so‘z. **Keyincha** so‘zida “o‘sha tob va o‘tgan muddat orasi” ifodasi **keyin, so‘ng, so‘ngra** so‘zlaridan anglashiladigan xuddi shunday belgiga nisbatan ko‘proq va bu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida birmuncha kamfaol, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Keyinchalik**da oraliq muddat yanada uzaygan, ma’lum muddat o‘tganlik ta’kidlangan holda ifodalanadi. **Innaykeyin** oddiy nutqqa xos va unda birmuncha salbiy baho mavjud. **Ba’daz** – eskirgan so‘z, badiiy uslubda ham kam qo‘llanadi. **So‘g‘in** – shevaga xos so‘z.

Hindolni yelkasidan quchib erkalatdi, k e y i n uni yoniga olib, zarbof ko‘rpacha ustiga o‘ltirdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Aksiga olib, yomg‘ir shivalay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, k e y i n shiddat bilan yog‘ib ketdi.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Avvaliga yolg‘izlikdan biroz qo‘rqdi. S o‘ ng uxlab qoldi.* T.Malik, Shaytanat. *Alomat avval ko‘zlarini pirpiratib qo‘yadi, s o‘ ng bir necha qadam oldinga yurib, to‘xtaydi.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog‘ini siladi, s o ‘n g r a... o‘tirib yig‘ladi.* A.Qahhor, Bemor. *...besh-olti kishi yeb tamom qilolmaydigan oziq-ovqat!.. Men bularni opkelib, salqin yerto‘laga joylayman, s o ‘ng - r a mayorning kiyim-kechaklarini dazmollayman, xonalarni yig‘ishtiraman.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Bu orada anchagina vaqt o‘tsa ham, Qurvonbibi o‘z eridan – ilgari rad qilgan mingboshiga k e y i n ch a rozilik berishining sabablarini so‘ramadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Dastlab uning muomalalari Nuriga dag‘alroq ko‘rinsa-da, k e y i n ch a unda hech qanday adovat, g‘araz yo‘qligini, tabiati shunday keskinroq ekanini tushundi.* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Uch-to‘rt yil ichida, – javob berdi Gulchehra. – Madaniyat saroyi orqasiga kanal tushadi. K e y i n ch a l i k borib bu yer qishloq markaziga aylanadi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Axir o‘yinda g‘irromlik qilgan ayrim do‘stlarimizning k e y i n ch a l i k – katta bo‘lgandan keyin ham hayotda g‘irromlik qilganliklariga guvohmiz.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. – *Bilmasam... bilmasam, borib so‘rarmiz. Oldilaridan o‘tarmiz. – O‘ting-da, i n n a y k e y i n gapiring.* M.Mansur, Judolik diyori. *I n n a y k e y i n uy yasab, qum loydan o‘ynashadi –*

shovqin soladi. Mirtemir, Saylanma. *B a ’ d a z uning ustidagi shubham bir zoyil bo‘lib, ko‘ngil ko‘tardim.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *– Eksgumatsiya xulosalari... Zohid shunday deb gap boshlagan edi, Chuvrindi shart kesdi: – Bu gapni qo‘ya turing. Avval taom, b a ’ d a z kalom, deyishganmi?* T.Malik, Shaytanat. *Avval xandaqni ikki ag‘darib pishitaman, keyin tepaga qulochlab otaman, to‘dalangan uyumni suvlab, ketmonning orqasi bilan silliqlayman, – oftob yaltillaydi loyning ustida, – s o ‘ g ‘ i n tushdan keyingisiga yer ag‘darib, suvga bostirib qo‘yaman.* A.A’zam, Quroq. *Aksiga olib, Xurram qotma sir bermadi: “Kecha shomda oyoqni sal qayirib olgandim, shuningchun bellashib o‘tirmadik, choylashdik. S o ‘ g ‘ i n tinchgina xayrlashdik”.* N.Norqobilov, Kurash.

K

KEYIN II**, SO‘NG, SO‘NGRA** Ot va otlashgan so‘zlardan keyin kelib, oldingi so‘zni keyingi so‘z bilan bog‘lashga xizmat qiladigan ko‘makchi. Bu vazifada ko‘proq **keyin** so‘zi qo‘llanadi. **So‘ng** kitobiy uslubga xos. **So‘ngra** so‘zining bu vazifada qo‘llanishi birmuncha eskirgan, kitobiy so‘z.

Shu voqeadan k e y i n odamlar sekretar Otaboyni sog ‘ qo‘ymaydi, bir kuni qasdini oladi deb yurishgan edi. T.Malik, Savohil. *Otaxon dramaturgning navbatdagi ziyofatidan k e y i n Pakana bunga, ayniqsa, amin bo‘ldi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Bu notabiiy mashqlardan s o ‘ ng doimo o‘zini misli qushday yengil sezadi, hozir qanot chiqarib, osmonga uchib ketaman-ov, deydi ruhlanib.* N.Norqobbilov, Kurash. *Po‘lag‘ur samovarni olib qo‘yg‘ondan s o ‘ ng belidagi ro‘molini silliq taxlab manglayini bog‘ladi.* A.Qodiriy, Quyosh bilan ham kurashaman. *Serbiya askari kelgandan s o ‘ ng r a Adrna qahramoni Shukri posho yana avvalgidan ziyodaroq qattig‘lik ila Adrnani muhofaza qilib, ham dushman va ham ochlik ila muboriza qilubdur.* Behbudiy, Tanlangan asarlar. *Ularning eng avvali, albatta, xalq-u Vataningdir! Undan s o ‘ ng r a, balkim, ustoz-u shogirdlar*. N.Jabborov, She’riyat aslida hikmatdir.

KEYINGI I**, KELASI, KELGUSI** Ketma-ketlikda oldingi narsa yoki o‘rinjoy yoki xatti-harakatdan so‘ng turadigan, navbatda turgan, navbatdagi. **Kelasi, kelgusi** so‘zlarida ko‘tarinki uslubga xoslik mavjud. **Kelasi** oddiy so‘zlashuvda, **kelgusi** badiiy uslubda faol.

Parvina rozi bo‘ldi, faqat k e y i n g i uchrashuvgacha sabr qilishni so‘radi. O‘.Umarbekov, Saylanma. *O‘lig-u tirikda birday egnida sport libosi, ko‘zlari alang-jalang, mudom qo‘li qichib turadigan jismoniy tarbiya muallimining k e y i n g i o‘quv yilida battar quturib, battar vahshiylab ketganiga qarab dadil aytish mumkinki, bu taxminlarda jon bor edi.* E.A’zam, Guli-guli. *Bu qish kuchim yetmaydi, k e l a s i qishda katta to‘y beraman!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *K e l a s i safar uchrashganimizda men sizni bir odam bilan tanishtiraman.* E.A’zam, Shovqin. *Ikki haftada soyda suv qaytadi, k e l g u s i safar hammang-*

larni u qirg‘oqqa olib o‘taman, buloqni ko‘rasizlar. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Aytmoqchi, tayyorgarligingni ko‘rib yur, k e l g u s i hafta ovga boramiz.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

KEYINGI II**, OXIRGI, SO‘NGGI** Ma’lum ish yoki ma’lum paytdan keyingi yoki nutq so‘zlanib turgan vaqtda bo‘lgan. **Oxirgi** oddiy so‘zlashuvda, **so‘nggi** badiiy uslubda faol qo‘llanadi. Ushbu sinonimlarning barchasi bu ma’noda namoyon bo‘lishi uchun payt bildiruvchi *kun, oy, yil, vaqt* singari so‘zlar bilan birikishi lozim.

“Men yomon odam bo‘lsam kerag-u, buni o‘zim bilmasam kerak...” K e y i n g i vaqtda Ikromjonning yaxshi ko‘rib aytadigan gapi shu bo‘lib qoldi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Ustozning e’tiboriga tushish Umidni k e y i n g i kunlarda boshqacha odamga aylantirib qo‘yayotgan edi.* X.Do‘stmuhammad. Kuza… *Ayollarning yo‘li boshqa, keyin... o x i r g i paytlari yangi odatlar ham kelib chiqyapti, yana ham bilmadik.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *...va, nihoyat, Yakkabog‘da o x i r g i vaqtlarda akamning nomidan ish ko‘rib yurgan sirli kishilarni bugun o‘z ko‘zim ila (men ehson berilgan xonadonda movut chakmon kiyib xizmat etgan kishilarni aytmoqdaman) ko‘rgan edim.* M.Mansur, Judolik diyori. *S o ‘ ng g i paytlar Sohibqironda bunday nogahoniy holatlar bo‘lib turardi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Yusuf bilardiki, s o ‘ ng g i yillarda odamlar ma’naviyat o‘choqlariga, jumladan, kutubxonalarga kam kiradigan bo‘lib qoldi.* U.Hamdam, Muvozanat.

KECH KIRMOQ, QORONG‘ILASHMOQ, QORONG‘I TUSHMOQ, KECHLATMOQ Sutkaning yorug‘ – kun qismi tugab, qorong‘i – tun qismiga o‘tmoq. **Qorong‘ilashmoq** so‘zi mazkur ma’noda kam qo‘llanadi, asosan, badiiy uslubga xos. **Qorong‘i tushmoq** so‘zining qo‘llanish darajasi deyarli **kech kirmoq** so‘ziniki bilan teng, ammo unda qorong‘ilik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Kechlatmoq** so‘zi kam qo‘llanadi, unda “qorong‘i tushishini kutib”, “qorong‘i tushgandan keyin” ta’kidi anglanadi.

K e ch k i r gan chog‘da, Tol shoxlarig‘a Shu’lalar tushdi... Havoning yuzi, Zaharli ko‘zi Muloyimlashdi. Cho‘lpon, Yana oldim sozimni. *– Bugun qoling, kun k e ch k i r di, ertaga o‘zim arava topib jo‘nataman. Isomiddin amakingiz allaqachon ketib qolgandir, – dedi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Ko‘chaga chiqqanimizda quyosh botgan, qishloqning pastki tomoni q o r o n g‘ i l a sh ib, birin-ketin chiroqlar miltillay boshlagan edi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim... *Bir muddat shu holga tikilib turgan odam, iyagini qashlay-qashlay nari ketadi. U tag‘in daraxt oralashga tushadi... Tevarak q o r o n g‘ i l a sh a boshlagan...* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *– Amirzodam, – deb Ali Do‘stbek Boburga arz qildi: – Q o r o n g‘ i t u sh ib qoldi, yovni o‘zimiznikilardan ajratish qiyin bo‘lg‘ay. Qamalni ertalabdan boshlaylik.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Q o r o n g‘ i t u sh di, olisdan podachi bolaning “qurey-qurey”si eshitildi.* O‘.Umarbekov,

Odam bo‘lish qiyin. O‘sha kuni k e ch l a t ib, mingboshinikiga jo‘nadi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shunday yonimizga kelgan-da: – Ha, yo‘l bo‘lsin k e ch l a t ib? – dedi A’zam.* N.Fozilov, Qush qanoti bilan...

KECHA, KECHASI, TUN, OQSHOM Sutkaning quyosh botib, qorong‘i tushgandan to quyosh chiqquncha o‘tadigan qismi. **Kecha** so‘zi sutkaning qorong‘i qismining boshlanishidan tugashigacha bo‘lgan muddatni to‘liq o‘z ichiga oladi. **Kechasi** so‘zida **kecha** so‘zidan farqli ravishda butun qorong‘i paytlik ta’kidi mavjud. Oddiy so‘zlashuvda ham, badiiy uslubda ham faol qo‘llanadi. **Tun** so‘zida qorong‘ilik ottenkasi kuchli. **Oqshom** shom tugab tun boshlanadigan vaqtni bildiradi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Bunday k e ch a larda odamzod qo‘ymijoz: g‘uj bo‘lib va nimanidir kutib jimgina o‘tirishni xohlab qoladi. A.Qahhor, Dahshat. *K e ch a lari ular uchrashgan paxtazorlar Hikmatilloning tasavvurida oddiy paxtazor emas, go‘yo chaman ochilgan nafis gulzor... edi*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Qosimbek kerakli odamlarga: “Hujra – mirzo hazratlarining xilvatgohlari bo‘ldi, k e ch a s i ham o‘sha joyda tunamoqlari mumkin”, deb bildirib qo‘ydi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Lop etib, k e ch a s i vagonda bo‘lgan voqealar esiga tushdi*. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Kunduz seni quyosh yondirib, T u n lar yoniq she’rga oshnasan.* E.Vohidov, Oqshom. *T u n – uzundan uzun – yo‘l, qirrali toshlar qizib-chatnab yotgan toshloq azob edi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *O‘sha o q sh o m Hikmatillo birinchi marta, garchi ishdan charchab qaytsa ham, odatdagiday tappa tashlamadi, soqol-mo‘ylovini qirtishlab... qizlar yotoqxonasi tomon ravona bo‘ldi...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Farhod liqilloq kursida bir soatlar liqillab o‘tirib kitobxonlik qilgach, qorong‘ida ko‘zi toliqdi – kun o q sh o m ga og‘a boshlagan edi*. E.A’zam, Shovqin.

KECHIKMOQ, KECH QOLMOQ, HAYALLAMOQ, HAYALLAB KETMOQ, HAYALLAB QOLMOQ, UZOQMOQ, UZOQIB KETMOQ, UZOQ QOLMOQ Belgilangan vaqt, tayin qilingan muddatdan so‘ng kelmoq yoki o‘z fursatidan keyin harakat qilmoq. **Kech qolmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos. **Hayallamoq** so‘zida kechikishning oz vaqtgalik ta’kidi anglashiladi. **Hayallab ketmoq** va **hayallab qolmoq** so‘zlari kechikish darajasini turlicha ifodalaydi. **Hayallab ketmoq**da kechikish darajasi **hayallab qolmoq**qa nisbatan ortiqroq. Har ikki so‘zda so‘zlovchining ijobiy munosabati aks etadi. **Uzoqmoq, uzoqib ketmoq** va **uzoq qolmoq** kechikish tushunchasini biroz pardalab, yumshatib ifodalaydi, bu ma’noda juda kam qo‘llanadi.

Nega bu gal k e ch i k dingiz? Doim o‘n beshinchi avgustda kelar edingiz? O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *G‘azab ichida Anvarni yoqasidan olmoqchi bo‘ldi-yu, k e ch i k di. Anvar allaqachon yerga sakrab tushgan, eshikni siltab yuborgan edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Men salla-to‘nimni kiyib chiqay. Jumani xonaqoda o‘qiymiz. K e ch q o l dik...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

– Kechirasiz... – deb Xosiyat uzr so‘ragan bo‘ldi-yu, yugurib ketdi. – K e ch q o l-yapman... Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Hojar buvi uning yuz-ko‘zlaridan o‘par, og‘zi tinmas edi. – Voy, o‘zim o‘rgilay! Voy, bo‘yingga qoqay! Odamni xavotirga qo‘yib bu gal muncha h a y a l l a ding? Esonmisan, omonmisan?* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ora uzoq, otda qirq kunlik yo‘l, Abulfazl-ning h a y a l l a shini Akbar shundan deb bilar, uning o‘ldirilganini xayoliga ham keltirmas edi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ancha h a y a l l a b k e t gan Erkin ko‘zlari qizarib xomush qaytib chiqdi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Bu yoqda Xudoyberdi bilan Aka pochcha ichlari tushib, juda h a y a l l a b k e-t ishdi-ku, deganday hovliga mo‘ralashardi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Gulnoza. Kechirasiz, Darveshali aka. Sizga aytmay ketuvdim. Ozgina h a y a l l a b q o l-dim. Darveshali. Ozgina emish. Bir soat bo‘ldi: ikki ko‘zim eshikda.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Muallimlarimiz h a y a l l a b-h a y a l l a b q o l adi. Di-rektorimiz bizni uxlatmay olib o‘tiradi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *– Mayli, faqat tez qaytinglar, u z o q i b k e t manglar. Buyam shaharni ko‘rib kela qolsin, – dedilar oyim menga qayishib.* M.Mansur, Judolik diyori. *– Dada, u z o q i b k e t dingiz-ku, enam tuzukmi? – Darvozani ochmasimdan enangni so‘raysan-a. Dadangni ham so‘ra, – hazillashdi muallim o‘g‘liga quchoq ochar ekan.* Y.Xo‘jamberdiyev, Hokim muallim. *Jamshid kirgach, Kesakpolvon “Kel” ham demadi, “Buncha u z o q q o l ib ketding?” deb gina ham qilmadi.* T.Malik, Shaytanat.

KECHIRIM, UZR, AFV Qilingan nomaqbul ish, xato deb bilingan xat-ti-harakat, nodurust gap-so‘z qilganlik uchun uzrxohlik. **Kechirim, uzr** so‘zlari biror gunoh-aybni kechirish iltimosi ma’nosida ham, umuman kechirish ma’no-sida ham qo‘llanadi. **Kechirim** ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos. **Uzr** oddiy so‘zlashuvda ham, kitobiy uslubda ham qo‘llanaveradi. **Afv** so‘zi gunoh-aybni kechirish iltimosini kuchli ifodalaydi, faqat ijtimoiy maqomi baland shaxslardan so‘raladi va, asosan, rasmiy, badiiy uslublarda qo‘llanadi.

Domla. K e ch i r i m ni kimdan so‘raymiz, sizdanmi? Tursuniy. (xijolato-muz). Xalqdan-da, ustoz. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Sotuvchi yana ni-malarnidir gapirib, k e ch i r i m so‘radi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Tursu-noy... undan gap, u z r kuta-kuta toqati toq bo‘lib ketdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Urush o‘chmas qilib qoldirgan dastxat. Ayt, u z r na darkor, Afsus na darkor.* E.Vohidov, Dehli aeroportida bo‘lgan voqea. *Samarqand xalqiga ham a f v i umumiy bermoqchi emish!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Haqiqatda, agar josus, xoin bo‘lmasang, O‘zga neki gunoh bo‘lsa, uning a f v i bor.* E.Vohidov, Umrim daryosi.

KECHIRIMLI, UZRLI Nomaqbul ish yoki xatti-harakat, nodurust gap-so‘z qilganlik uchun so‘ralgan uzrxohlikni qabul qila oladigan, kechira biladi-gan. **Kechirimli** so‘zi shaxsning kechirimlilik xususiyatini ham, boshqaning

nodurust xatti-harakati yoki gap-so‘zini kechirish mumkinligini ham bildiradi. **Uzrli** so‘zi o‘zganing xatti-harakatini kechirsa bo‘lishligini, kechirish mumkin bo‘lgan ish ekanligini ifodalaydi. Ko‘pincha badiiy uslubda qo‘llanadi.

Qo‘rboshi. – Ha, gap mana bunaqa bo‘pti! Chin do‘stlar arzimagan narsaga qovoq-tumshuq qilmasdan, k e ch i r i m l i bo‘lishadi, mana shunaqa! O.Yoqubov, Adolat manzili. *Lekin qiz bola zoti quv bo‘ladi, lozim joyda karashma ishlatadi, lozim joyda shirin hiyla... Har ikkisi ham yarashimli, k e ch i r i m l i.* M.Ali, Ulug saltanat. *– Xo‘sh, ukam... Bitta tushuntirish xati yozasiz. Nimaga yarim kun ishga kelmadingiz, sababi u z r l i mi, uzrsizmi?– ko‘rsating. – Ko‘mir tashish u z r l i ga kiradimi, uzrsizgami? – deb so‘radi A’lam.* A.A’zam, Hali hayot bor… *– Sayramga ketishib edi ikki-uch oshnalari bilan, – deb javob qildi hamrohim. – Unda u z r l i, u z r l i. Sinchiboy oshnam aytilmay qolibdilarmi, deb bolalarni tergab... turib edim.* M.Mansur, Judolik diyori.

KECHIRMOQ, KECHMOQ, O‘TMOQ, AFV ETMOQ Kishining o‘ziga qilingan nodurust xatti-harakat, nomaqbul gap-so‘zni yoki boshqa biror aybni unutmoq, shunday xatti-harakat yoxud gap-so‘z bo‘lmagan deb hisoblamoq. **Kechmoq** so‘zi bu ma’noda ko‘pincha *ayb, gunoh* so‘zlari bilan birga qo‘llanadi, badiiy uslubda faol ishlatiladi. **O‘tmoq** bu ma’noda kitobiy uslubda *gunoh, ayb* so‘lari bilan birga keladi. **Afv etmoq** mazkur ma’noni badiiy bo‘yoq bilan ta’kidli ifodalaydi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Men yuzlab yillardirki, yurgan yo‘limda Parvardigorimga iltijo qilib gunohimni k e ch i r ishini so‘rab yolvoraman... tavba-tazarru qilaman. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Qo‘chqor. “Sal-pal”mish! yechilmayotganidan ham biluvdim, sening qo‘ling tegganini! ...E, qarashvormay ket! Bo‘pti, k e ch i r dim, qo‘lni bo‘shat.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Men kafil bo‘lay, har holda, Sa’dullaga qarindoshligim bor. Uning nomidan men k e ch dim gunohlaringni*. T.Malik, Xazonrezgi. *– Hech narsamizni olmagan ekan, biz gunohidan k e ch dik, endi tarqalinglar sizlar ham, – dedi qat’iy kesib.* M.Mansur, Judolik diyori. *Men gunohingdan o‘ t dim. Ammo militsiya gunohingdan sira o‘ t maydi. Olib borib qamamaguncha tinchimaydi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Osiy bandalarmiz, xon hazratlari. Xatolik o‘tgan bo‘lsa, a f v e t ing, huzuringizga bosh egib keldim...* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Asli turkman bo‘lgan bu olim o‘ttizinchi yillarda, yigit chog‘ida kelib qolgan, dastlabki qama-qama shamoli adolat istab kelgan bu yigitni ham chetlab o‘tmagan edi. O‘shanda bir yildan so‘ng a f v e t ilib, yana ilmga qaytgandi.* T.Malik, Shaytanat.

KECHKI I, KECHPISHAR Kech ekiladigan, kech pishadigan, kech yetiladigan. **Kechki** so‘zi umuman kech yetiladigan o‘simliklarga nisbatan ham, kech pishadigan hosilga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Kechpishar** so‘zida yetilish ta’kidi qabariq ifodalangan.

Ertaga kartoshkani qazib bo‘lsak, indindan k e ch k i karamga tushamiz. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *O‘rik, shaftoli kabi mevalar tamom bo‘lay deganida, o‘rta va k e ch k i uzum pishsa, ularning o‘rnini bosadi*. S.Nazar, Yashil boylik. *K e ch p i sh a r o‘rik bir vaqtda ham barg chiqaradi, ham gul chiqaradi. Bilarkanmanmi*? – *Barakalla, o‘g‘lim, barakalla*. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *K e ch p i sh a r toshnokning ustida chaqchayib turgan hakka Alpomishga ko‘p yomonliklar qilgan Surxayl kampirga o‘xshab ko‘rindi-yu, unga tish qayraganimcha, kamondan o‘q uchirdim*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?

KECHKI II**, KECHQURUNGI, OQSHOMGI, TUNGI, KECHALIK** Ish-faoliyati kechqurun bo‘ladigan, xatti-harakatlari tunda amalga oshadigan. **Kechqurungi** va **tungi** so‘zlari ish-faoliyat yoki biron-bir xatti-harakatning tundagina amalga oshishini **kechki** so‘ziga qaraganda ochiqroq, aniqroq ifodalaydi. Ayni paytda, **kechqurungi** so‘zi – oddiy so‘zlashuvga oid. **Kechalik** so‘zida kechqurun foydalanish uchun mo‘ljallangan ta’kidi mavjud, oddiy so‘zlashuvga oid.

Endi k e ch k i vasli-visoldan tashqari, deyarli har kuni ko‘rishib, birga tushlik qilishar, shirin entikib shivirlashgancha, shoshmasdan bundan buyon turmushlari qanday bo‘lishi rejasini tuzishar edi. O.Muxtor, Ming bir qiyofa. *Qizgina ishlab turib k e ch k i maktabni “oltin medal” bilan tugatibdi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Menga nima qilibdi? Otdekman. Bir kun ming kun emas. Abdullani ol-da, k e ch q u r u n g i poyezdda jo‘na.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *K e c h q u r u n g i bazmi jamshid – To‘yga shoshib boramiz*. E.Vohidov, Farg‘onaning yo‘llarida. *To‘g‘ri, dada! Qo‘yni ertaroq so‘yib, saranjom qilganingiz yaxshi. K e ch a l i k ish qursin.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Undan keyin, shuncha mashaqqatlarning ustiga, bir k e ch a l i k bir mashaqqatni ham ustingizga olasiz.* Hamza, Paranji sirlari. *Ular ketgach, sershovqin chorbog‘da tun-allamahalga qadar yangrab turadigan ovrupocha sho‘x ohanglar-u raqslar tindi, kinoxona biqinidagi mushtlashuvlar, o q sh o m g i bashang ko‘cha sayrlari ham barham topib, jo‘shqin tuman bamisoli bir sokin qabriston siyog‘ini oldi.* E.A’zam, Shovqin. *Komandirovkaga kelgan edim. Ishlarim bitdi. O q sh o m g i poyezd bilan qaytaman.* T.Malik, Davron. *T u n g i poyezd bilan yo‘lga chiqqan Abdulla tushga yaqin Mingbuloqqa yetib keldi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Keyin chalqancha yotganicha ikkala kaftini boshiga yostiq qilib oldi. – O‘t o‘chiruvchi... Bizniki – smenniy: bir kun ish, ikki kun dam. Zato, t u n g i smenasiyam bor*. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi.

KECHUV, KECHIK Ariq, soy, kanal, daryoning sayoz joyidan kechib o‘tiladigan joyi. **Kechik** ko‘proq so‘zlashuvda qo‘llanadi.

Loyqa daryo yoqaladi, sayoqroq k e ch u v izladi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Suvning k e ch u v iga yetib, xarsangtoshga o‘tirdi va allaqanday alang-*

lagan ko‘z bilan atrofni tomosha qila boshladi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *So‘ngra u kichkina bir anhorning k e ch i g i dan kecharkan, otini sug‘orishga to‘xtagan vaqtida Zebi bilan birga Saltanat ham sharaq-sharaq gapga tushgan edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Daryo k e ch i g i dan, oqishdan qo‘rqib, Xonning ko‘prigidan o‘tibman, e voh!* A.Suyun, Saylanma.

KIFOYA QILMOQ, YETMOQ, BO‘LMOQ Kifoya qilish darajasida bo‘lmoq, yetarli darajada bo‘lmoq. **Yetmoq** so‘zi barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Kifoya qilmoq** so‘zi adabiy nutq shakllarida faol. **Bo‘lmoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubida ishlatiladi.

Bu ham k i f o y a q i l masa, shubhaliroqlarining ketiga ziyrak xufyalardan qo‘yib qo‘yganmen. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Darhaqiqat, bu juda muhim ziyorat edi. Shu qadar muhimki, uzundan uzoq bu sarguzashtlarni ijikilab o‘tirmasdan, ana shu qabriston to‘g‘risidagina so‘zlab berilsa ham, k i f o y a q i l ardi.* E.A’zam, Chapaklar va chalpaklar mamlakati. *Qara, bu uzumlarni! Qancha axir. Hammaga y e t adi.* O‘.Umarbekov, Charos. *Shu bilganim o‘zimga y e t adi, chuchvaradan maqsad go‘sht bilan xamir yeyish bo‘lsa, ikkovi ham turibdi, qo‘shib yeyaveraman!* A.Qahhor, Hikoyalar. *Kichik jiyani mashinani yuvib, yog‘larini tekshirib safarga tayyor qilib qo‘ydi. Endi ertalab bitta akkumulator qo‘ysa b o‘ l di. Bemalol ketaversalar bo‘ladi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Endi etikni maza qilib kiyadi, uchiga ozgina paxta tiqib qo‘ysa b o‘ l di, lopillamaydi.* O‘.Umarbekov, Hotamtoy.

KIGIZ, NAMAT Milliy hunarmandchilik usulida qo‘y yoki echki junidan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos. **Namat** so‘zida kitobiy uslubga xoslanganlik belgisi bor, shu bois, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Atrofi taxta bilan o‘ralgan bu omborlarning ustiga o‘tovning k i g i z lari yopildi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Shunday bo‘lsa-da, bozordan tuki o‘skin yo‘g‘on arqondan bir bog‘lamini opkeltirib, hujra atrofiga aylantirib chuvab chiqqan, uning yonidan bir sidra k i g i z to‘shab qo‘ygan.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Chol “uh!” deb uzoq sukutga tolgach, n a m a t ni bo‘yra bilan qo‘shib ko‘tarib, nosvoyni tupurdi, bo‘g‘ilib qattiq yo‘taldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Keyin birimiz n a m a t ga, birimiz po‘stakka yonboshlagancha uxlab qolibmiz. Bir mahal sovuq qotib, uyg‘onib ketdim.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari.

KIMSASIZ, YOLG‘IZ, SO‘QQABOSH, G‘ARIB, BEKIMSA, BEKAS Hech kimi yo‘q, yaqin kishisi mavjud emas. **So‘qqabosh** so‘zida salbiy munosabat qabariq ifodalangan. **G‘arib** so‘zida muhtojlik ta’kidi ham ochiq anglashiladi. **Bekimsa, bekas** so‘zlari badiiy nutqqa xos, juda kam qo‘llanadi.

Shuncha yil k i m s a s i z bir kampirni yedirdik, ichirdik deng! Endi u kishimni Amerikaga ham opketish qoluvdi! E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Shunday ekan qismat xohishi, Men ham edim k i m s a s i z, tanho. U kamina beozor kishi Yuragimga bo‘ldi oshino. Men-ku y o l g‘ i z edim, Na otam, Na onam bor, na*

oilam bor. E.Vohidov, Tushlik tanaffus. *Faqat uni "Dohiy!", "Mahdiy!" deganlari sari o'zini allanechuk y o l g' i z, hammadan uzilgan b e k a s odamday sezadi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Senga nima, bu bo'lmasa boshqasini yasab olaverasan, bizga o'xshagan s o' q q a b o sh ga qiyin... yolg'izlik yomon.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Yaxshi yozuvchi edi, ko'p bama'ni asarlar yozgan. Lekin kampisandroq, hazardan chetda yurardi. Boz ustiga, xotin-bolasi tashlab ketgan, s o' q q a b o sh. Sababi – piyonista edi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Shu dunyoning bir chekkasida bir g' a r i b oshnam bor, ko'nglini olay debsan-da.* M.Mansur, Judolik diyori. *Minglab xonadonlarning ba'zi a'zolari Vatanda qolgan bo'lsalar, ba'zilari g'urbatda g' a r i b bo'ldilar.* G'.Karim, Taqdirning achchiq sinovlari. *Ohkim, sen birla yurganda, edim bir podshoh, Naylay, endi b e k a s-u g'amxonadurmen ayrilib.* Miskin, Ayrilib.

KINNA, SUQ Xurofiy tushunchaga ko'ra, go'yo yomon, suqli ko'z bilan qarash ta'sirida "kiradigan" kasallik, og'riq. **Suq** so'zida ma'no **kinna**ga nisbatan o'ta salbiy ifoda topadi.

Bir haftadan so'ng "k i n n a" bahonasi bilan kampirni yana chaqirtirib, o'z kiyimlaridan bir nechasini berdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yaxshiki, birozdan keyin yuziga ro'mol yopib olib chiqishadi, aks holda, ko'z, nazar, k i n n a degan qora-qusurlar o'rab olishi, oyoqdan yiqitishi tayin.* "Sharq yulduzi". *Daf bo'l, falokat sho'rtumshuq, Tegirmonda tuz yegan s u q, ket, ket, ket, ket!* Hamza, Tanlangan asarlar. *S u q degani yomon narsa-da. Bu atrofda kinnachi yo'qmikin?* T.Malik, Shaytanat.

KINNACHI, KINNAKASH Kinna solish bilan shug'ullanuvchi shaxs. **Kinnakash**da, ayniqsa, salbiy baho kuchli, **kinnachi**ga nisbatan kam qo'llanadi.

Uning farmoni bilan qora qo'y so'yildi, qon chiqarildi, mushkulkushod o'qitildi, ins-jinslarni aritish uchun chilyosin qildirdi, k i n n a ch i chaqirtirdi. U.Nazarov, Chayon yili. *Suq degani yomon narsa-da. Bu atrofda k i n n a ch i yo'qmikin?* T.Malik, Shaytanat. *Bundan tashqari, shu "lug'at"da k i n n a k a sh va kinnachi so'zlarining aynan bir ma'noda qo'llanishi aytilgan*. "O'zbek tilidagi ergash morfemalarning semantik-stilistik xususiyatlari". *Isiriqda "bir gap bor"ligini folbinlar, azayimxonlar, k i n n a k a sh lar ham payqab...* N.Shorahimov, Isiriq tutatish xurofotmi?

KINOYA, PICHING, KESATIQ, ISTEHZO, ZAHARXANDA Kamsitish, masxaralashni yarim yashirin ravishda ifodalovchi, fikrni kosa tagida nimkosa qabilida yetkazuvchi gap-so'z, xatti-harakat. **Piching** yengil kulish, mazax qilishni bildiradi va u oddiy so'zlashuvga xos. **Kesatiq** so'zida qochirim bilan, pardalab masxaralash ta'kidi **kinoya** so'zidagiga nisbatan kuchli. **Kinoya** so'zi **kesatiq** so'ziga qaraganda ko'proq kitobiylik bo'yog'iga ega. **Istehzo** so'zida ham kitobiy uslubga xoslik bor va bu ma'noni **kesatiq** so'zidan ham kuchli ifodalaydi. **Zaharxanda** achchiq kulgi ta'kidini ochiq ifodalaydi.

– Xo‘sh, sizcha nima qilish kerak, o‘qimishli akam! – dedi k i n o y a bilan Yo‘lchi. Oybek, Tanlangan asarlar. *– Kallangiz joyida bo‘lsa, o‘zingiz uylantirib qo‘ya qoling! – deb Sherqo‘zi birdan sizlashga o‘tdi. Musoga akasining k i n o y a s i juda og‘ir botdi…* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *– Ishlar yaxshi, taqsir, yettita desak, o‘ttiztasi kelib o‘tiripti. – Hakimjonning birinchi jumlasida sezilarlik darajada ochiq bir p i ch i ng bor edi. Lekin u pichingni mingboshi dodho payqay olmadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...Nilufarga oshiq kursdosh yigitlar ham to‘satdan jimib qolishdi. Ilgarigi “oyim supurgi”, “aravakash”, degan p i ch i ng lar o‘rniga “chempion!”, “sambochi!” – degan hayrat aralash vahimali xitoblar eshitiladigan bo‘ldi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *...choy icha turib ham soatiga bir-ikki qarab qo‘ydi. Xotini buni sezib, yengil uf tortdi. – Bora qoling ishingizga. Yana dunyoni o‘g‘ri bosib ketmasin, – deb kesatdi. Maqsud Soliyev bunday k e s a t i q larga… ko‘nikib qolgan.* T.Malik, Alvido... bolalik. *– Ko‘zimiz tirigida sizlar ham tup qo‘yib, palak yoyib olinglar-da, jiyan. – Murosayi madora – shunaqami? – deb to‘ng‘illadi akam. Tog‘am uning k e s a t i g‘ i ga parvo qilmadilar.* M.Mansur, Judolik diyori. *Xubbijamol Nosirga qiziqish bilan tikildi. Chehrasida kinoya ham, i s t e h z o ham, yigitchaning maymunga o‘xshash qiyofasidan hayronlik alomati ham ko‘rinmadi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *– Xullasi kalom. Bobur mirzongiz Ulug‘bekdek ulug‘ odam bo‘lmoqchi ekanlar-da, Ahmadbek? – so‘raydi Xonqulibek i s t e h z o qilib.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Keyin-keyin oshkora z a h a r x a n d a ga o‘tdim. Bunday paytda u ham kinoyaomuz o‘shshayib qo‘yardi: hah nodon-a, hah buzuq dunyoning g‘ofil nusxasi-ya!* E.A’zam, Chapaklar yoki chapaklar mamlakati. *Old qatorda o‘tirmish bir oriq yigit z a h a r x a n d a bilan kuldi. Qabatidagilarga: – Modernizm! – dedi. Daho chidab turolmadi. – Nega kulasiz? – deya o‘shshaydi.* T.Murod, Momo Yer qo‘shig‘i.

KINOYALI, KINOYAOMUZ, PICHINGLI, KESATIQLI, ISTEHZOLI Hazil-mazah ohangida bo‘lgan, kosa tagida nimkosa qabilida aytilgan, masxaromuz. **Kinoyaomuz** – kitobiy uslubga xos so‘z. **Pichingli** so‘zida zaharxandalik belgisi birmuncha kam darajada, nutqda faol qo‘llanmaydi. **Kesatiqli** bu ma’noni **kinoyali** va **kinoyaomuz** so‘zlariga nisbatan kuchliroq namoyon etadi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Mahmudxonning savolida “Yiqilgan kurashga to‘ymaydi, chamasi-da!” degan k i n o y a l i ma’no bor edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Xayriyat-e, – dedi Chuvrindi k i n o y a l i jilmayib. – Meni gunohkor qilib qo‘yasizmi, deb jonim halak edi.* T.Malik, Shaytanat. *Malika Bahodirning eshikka yana xavotir bilan ko‘z tashlab qo‘yganini ko‘rdi-yu, k i n o y a o m u z iljaydi: “Bu nevaram bo‘shroq, ayg‘oqchisi ham ko‘p ekan, sir berib qo‘ysa juvonmarg bo‘ladi, men ham niyatimga yetolmayman”, dedi o‘zicha...* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Keyin-keyin oshkora zaharxandaga o‘tdim. Bunday paytda u ham k i n o y a o m u z*

o‘shshayib qo‘yardi: hah nodon-a, hah buzuq dunyoning g‘ofil nusxasi-ya! E.A’zam, Chapaklar yoki chapaklar mamlakati. *Uning tarixni buzib talqin etilayotganidan kuyinishlari, p i ch i ng l i gaplari, zamonni turli maxluqlarga o‘xshatishi Zohidni hayron qoldirgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *– Xudo xohlasa, chiqadi, – dedi Shoirali ishonch bilan. Keyin Sultonaliga ma’noli boqib, p i ch i ng l i ohangda gapini davom ettirdi: – Kitob chiqarish to‘qqiz oyda xotin tug‘dirishday oson ish emas, og‘aynijon.* T.Malik, Malades chollar. *Qudasining k e s a t i q l i so‘zlari tunlari yodiga tushib qolsa, oh urib yuborar, asabiylashib o‘rnidan turib ketar, kappa-kappa nos chekardi.* N.Abbosxon, Sho‘rqishloq. *O‘shanda bolaligiga boribmi, oyisi yukli bo‘lmayotganligi uchun buvisining k e s a t i q l i gaplarini, dadasining bor alamini onasidan olib, janjal chiqarishini tushunmas, nega oldingidek tinch-totuv emasliklarini murg‘ak qalbi anglay olmasdi.* N.Asad, Ko‘zmunchoq. *– Yozuvchimisan? Endi kasbingni o‘zgartirishingga to‘g‘ri keladi. Muhim topshiriqni bajarasan. Qanday topshiriq ekanini zonadan tashqariga chiqqanda bilasan. – Qani, marsh! – dedi u i s t e h z o l i kulib. – Yozuvchi emish, hozir kim ko‘p, yozuvchi ko‘p.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *– O‘zbekistonning bir yillik paxta hosili-yu oltini o‘zida qolsa, bilasizmi, har bir o‘zbekning tuvagi tilladan bo‘lib ketadi, birodar! – derdi “Gorbachyov” haqiqiy Gorbachyovga o‘xshab – i s t e h z o l i nimtabassum bilan so‘zni chertib-chertib.* E.A’zam, Shovqin.

KIPRIK, MIJGON (MUJGON), MIJJA Ko‘z qovoqlari ikki chetida qator joylashgan tuklar. **Mijgon** va uning varianti **mujgon** eskirgan, kitobiy uslubga xos. **Mujgon** so‘zida poetik bo‘yoq kuchli. **Mijja** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos.

Zuhraning ko‘zlari yumuq, qalin k i p r i k lari orasidan yosh sizar edi. A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Oypopuk o‘rta bo‘yli, qotmadan kelgan qiz edi. Qora ipak tolasidek ingichka, uzun k i p r i k lari xuddi surma surgandek ko‘zlarini ajratib turardi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim... *Qosh-u m i j g o n lardin ul xolning qator jallodi bor, Oxir o‘lgumdir, yoronlar, bu qator saf ostida.* S.Sayyid, Ko‘ksimdagi zangorlarim. *Qarshisida: Fuzuliy ta’biricha, sebi zanaxdoni negadir qizarib, novaki m i j g o n i ko‘z yoshlari bilan juftlangan haligi pari edi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bas, xayolga cho‘kma, Erkin, Bitmagay olam o‘yi, Keng jahon sig‘gan ko‘zingni Bosdi tong m u j g o n yuki.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Azizim, dunyoda tenging yo‘q sening, Sen tanho quyoshim, tanho oyimsan. Nozik dil ko‘ksiga o‘qlari tekkan M u j g o n lari paykon, qoshi yoyimsan.* M.Yusuf, Muhabbatning ma’yus qo‘shig‘i. *U ro‘molining uchini m i j j a siga bosib xo‘rsindi. – Qarab turing, hali qo‘sha-qo‘sha nevaralar ko‘rasiz, to‘ylar qilasiz, ovsin moshsha! – U “poshsha” deganda ovozi “moshsha” bo‘lib chiqadi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Hayajondan Zuhroning m i j j a lariga yosh to‘plandi. Bir kiprik qoqsa yuzlarini yuvib ketadi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

KIRISH, SO‘ZBOSHI, MUQADDIMA, DEBOCHA Biron-bir adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop yoki boshqa asarning asosiy qismidan oldingi qismi. **Muqaddima** so‘zi ilmiy, rasmiy, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Debocha** so‘zi – poetik bo‘yoqdor so‘z, ko‘pincha badiiy uslubda ishlatiladi.

Dissertatsiya k i r i sh, uch bob, xulosa, ilmiy adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 165 betni tashkil etadi. A.Saidno‘monov, O‘zbek tili tibbiyot terminologiyasi va uning leksikografik talqini. *Keyin qisqa k i r i sh so‘zi qilib, masalani butun tafsiloti bilan batafsil tanishtirdi.* J.Abdullaxonov, To‘fon. *Muallifning romanga yozgan s o‘ z b o sh i sida “xalqimizni shu zamonning Tohir-Zuhralari ... bilan tanishtirishga o‘zimizda majburiyat his etamiz”, deya ta’kidlab o‘tishi ham shundan.* “Sharq yulduzi”. *Yaxshi kitobning m u q a d d i m a si ana shunday bo‘lishi kerak. Uzundan uzoq, zerikarli s o‘ z b o sh i ning hech kimga keragi yo‘q.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Bu ish xuddi o‘sha, hofizning qo‘shiq boshlashdan oldin tanbur ting‘illatishiga o‘xshaydi. Kitobga m u q a d d i m a yozish ham shunday*. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Ahli she’r, balki, kitobim Nazmi ishq deb ochadir, Yo‘q, kitobim sevgining Devoniga d e b o ch a dir.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Mardikorlardan biri o‘z mahallaligidan bir hamrohini yurtiga uzatayotganda aytganlari. Ohangi esa, “Sar daftari” musiqning d e b o ch a si bo‘lgan “Savti chorgoh” ohangidadir.* Hamza, Tanlargan asarlar.

KIRMOQ, JOYLASHMOQ, O‘RNASHMOQ Biron-bir joyga ishga yoki xizmatga qabul qilinmoq. **Joylashmoq** so‘zi mazkur ma’noda nutqda kam qo‘llanadi. **O‘rnashmoq** – bu ma’noda oddiy so‘zlashuvga xos so‘z.

Uyning tashvishi endi butunlay mening boshimda. Shunday bo‘lsa ham, o‘qishga k i r dim. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *U ham asli bechora bir kosibning o‘g‘li, saroyga katta martabalar orzusida ishga k i r gan, lekin olti yildan beri o‘zi istagan darajadagi nufuzli bek bo‘la olgani yo‘q.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Nihoyat, xotini ishlaydigan maktabdagi bufetga amallab ishga j o y l a sh di, endi u yerda amal-taqal qilib kun o‘tkazardi...* U.Hamdam, Muvozanat. *Asirda bo‘lganlar-da, keyin qochganlar. Polshadan. Ancha vaqt ishga j o y l a sh olmay yurdilar. Dadam j o y l a sh tirib qo‘ydilar*. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Yusuf g‘alati bo‘lib ketdi, lekin indamadi: – Juda soz joyga o‘r n a sh ibsan-ku, jo‘ra. Yashavor, omadingni bersin. Bunaqa magazinda ishlash har kimga ham nasib qilavermaydi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *U viloyat gazetasiga mas’ul kotib bo‘lib o‘ r n a sh di.* A.Qahhor, Sarob. *Bobur ishga olgan to‘rt oshpazdan birining yolg‘iz inisi Panipat jangida halok bo‘lgan edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

KIYIM, LIBOS, KIYIM-KECHAK, UST-BOSH, KIYIM-BOSH, ENGIL-BOSH, ENGIL, EGIN Badanni va tana a’zolarini berkitish, inson tanasini tashqi muhit ta’sirlaridan saqlash va ma’lum ma’noda go‘zal bo‘lish uchun kiyiladigan, asosan, mato va teridan tayyorlanadigan narsalarning umumiy

nomi. **Kiyim** har qanday kiyiladigan buyumga nisbatan qo‘llanadi, ya’ni bosh, ust, oyoq va ichki kiyimlarni bildiradi. **Libos** ko‘proq kitobiy uslubga xos. **Engil** va **egin** so‘zlari juda kam qo‘llanadi. **Ust-bosh, kiyim-bosh, engil-bosh**, asosan, bosh, ust va ichki kiyimlarni umumlashtirib ifodalaydi. **Ust-bosh** va **kiyim-kechak** so‘zlari **kiyim-bosh** hamda **engil-bosh** so‘zlariga nisbatan oddiy so‘zlashuvda ham, publitsistik yoki badiiy nutqda faol qo‘llanadi.

Xonada hamon to‘shaklar yig‘ilmagan, shkafdagi k i y i m lar yerga sochilgan, hamma yoq alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib yotardi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Gulchehra oynaga bir qarab, o‘zidan va k i y i m idan ko‘ngli to‘ldi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Alomat o‘ziga nihoyatda yarashib turgan milliy l i b o s d a, usti sochiq bilan yopilgan allanimani ushlaganicha chiqib keladi*. Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Keyin boshliq meni kompyuterchi qilib oldi, yashashim uchun xona ajratdi, yangi l i b o s va zaruratlar xarid qilish uchun pul berdi.* N.Rahmat, Jadid. *Onang qalay, k i y i m-k e ch a g i butmi? Uyalma, aytaver*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Hikmatillo tasmani yechib, chamadonni ochdi, olma-anor ustiga taxlangan k i y i m-k e ch a k larini titib, cho‘ntaklarini kovlab chiqdi. Pul yo‘q*! O.Yoqubov, Billur qandillar. *U Hikmatillodan ham bo‘ydor, lekin yelkalari keng bo‘lgani uchun miqtiroq ko‘rinar, o‘ziyam kurashchi, sambo bo‘yicha shahar yoshlari o‘rtasida chempionlikni olgan, agar shu qaddi-qomatiga yarasha u s t-b o sh iga ham e’tibor bersa, yigitmisan-yigit bo‘lardi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Boya yiqilganimda u s t-b o sh im tuproqqa rosa belangan bo‘lsa kerak.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Endi ma’lum bo‘lishicha, Zuhraning uy tutishi, k i y i m-b o sh i, o‘ziga qaramay qo‘yganligi shuning oqibati... edi.* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Boz ustiga o‘lgudek yasanchoq, har turli k i y i m-b o sh ga o‘ch.* E.A’zam, Shovqin. *U ushbu shukuhli manzaradan zavqlanmoq istaydi-yu, biroq davradagi kimsaning eskizgan, kirlangan e ng i l-b o sh i, haftadirki, ustara yuzini ko‘rmagan qoraygan afti bunga izn bermaydi*. N.Norqobilov, Bo‘ron qo‘pgan kun. *Meni rosa do‘pposlading, o‘shanda uyga E ng i l-b o sh im qop-qora qon bo‘lib qaytdim-u*. E.Vohidov, She’r dunyosi. *Derazadan qo‘lni tiqdi. Ulkan, jundor, dahshat qo‘l. “So‘rashaylik” demaganda Dodlar edik, e ng i l ho‘l*. E.Vohidov, Umrim daryosi. *U yerda men kiyim tozalash bo‘limida yuk tashuvchiman,odamlardan olingan kir e ng i l larni fabrikaga olib boraman, tozasini qaytib olib kelaman.* E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Suvdan chiqdik, shosha-pisha e g n imizni kiya boshlagandik, chorvoq tomondan birov ko‘rindi-yu, pisib oldi.* M.Jo‘ra, Iztirob. *Rahim Saidov ensasi qotib, xotinining qo‘liga qaradi. – E g n imga qarang, e g n imga! Munisxon olib kelgan narsasini kiyib ulgurgan edi. Oddiy, qora kofta.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri.

KIYMOQ, ILMOQ, QO‘NDIRMOQ Egni, boshi, qo‘li yoki oyog‘ini muayyan kiyim-bosh bilan yopmoq. **Kiymoq** so‘zi egin, bosh, qo‘l yoki oyoqqa

kiyiladigan narsalar bilan qo‘llana oladi. **Ilmoq** so‘zidan muayyan kiyim-boshni omonat kiyib olmoq ifodasi anglashiladi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Qo‘ndirmoq** so‘zidan yarashadigan qilib kiyib olish ta’kidi anglashiladi, badiiy uslubda ko‘p ishlatiladi.

Havo sovidi. Terlagani uchunmi, Savri xola buni darrov sezdi. Nimchasini k i y ib oldi. O.Umarbekov, Kuz havosi. *Chol qovog‘i soliq, yerga boqqani holda xonaga kirdi, ustidagi olacha to‘nini yechib, eski kir choponini k i y gach, ayvonga chiqdi, o‘ho‘-o‘ho‘lab yo‘talgancha, tanchaga tiqildi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Oyog‘iga yelim shippakni i l di.* Q.Kenja, Toshqin. *Shu mulgigan ko‘yi egningizga bir nima i l ib, ko‘zingizni yirib-artib, mollarni dalaga haydaysiz.* A.A’zam, Quroq. *Adolatning nazarida boshidagi baxt tojini Rixsi ayovsiz qo‘llari bilan yulib olib, o‘z boshiga q o‘ n d i r ib olganday edi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Shu boisdan o‘rta bo‘yli, bug‘doyrang yuzli, keksaligiga qaramay, ko‘zlari tiyrak boquvchi to‘rvasoqol, boshiga nimdoshgina salla q o‘ n d i r ib, egniga qalami yaktak kiyib olgan qahramonimiz Usta O‘roqqa ham bozordagilardan biror kishi ahamiyat berayotgani yo‘q.* O.Husanov, Ustaning muhabbati.

KISHILIK, INSONIYAT, BASHARIYAT Umuman, insonlarga oidlik, odamlarga xoslik. **Kishilik** so‘zi mazkur ma’noni me’yorida ifodalaydi. **Insoniyat** va **bashariyat** so‘zlarida “insonlarga xoslik” ta’kid oladi, har uch sinonim so‘z kitobiy nutq shakllarida qo‘llanishga xoslangan. **Bashariyat** mazkur ma’noni poetik bo‘yoqdor qilib ifodalaydi.

Muvozanat qo‘lga kiritilganidan so‘ng k i sh i l i k ning, shubhasiz, yangi tarixi boshlanadi. U.Hamdam, Muvozanat. *Ko‘chalar bo‘ylab o‘tib borarkanman, oddiy k i sh i l i k hayotining bironta nishonasini ko‘rmadim.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Millionlab i n s o n i y a t umid nigohini tikib turgan Orol fojiasi i n s o n i y a t ni mudhish fojialardan ogoh etuvchi achchiq saboq sifatida qayd etildi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Qarangki, i n s o n i y a t erishgan barcha fan yutuqlarini o‘zida jamlagan mega-intellekt insonni inson aylab turgan qancha narsalardan bexabar, ularni izohlashga ojiz.* I.Sulton, Mega intellekt. *Ularning nazarida muhabbat – b a sh a r i y a t sayyorasining mehvari, undan ulug‘roq tuyg‘u… yo‘q edi.* Q.Kenja, Toshqin. *U… hayotning bitmas-tuganmas mazmunlarini bor-yo‘g‘i o‘n soniyada b a sh a r i y a t ko‘z o‘ngida namoyon etishi qanchalar ulkan shodiyonaga aylanishiga ishonchi komil edi.* X.Do‘stmuhammad, O‘n soniya.

KICHIK, KICHKINA, MITTI, JIMIT, ARVAK Tuzilish, hajm va o‘lcham jihatidan katta bo‘lmagan. **Kichkina** oddiy so‘zlashuvga xos. **Mitti, jimit** so‘zlarida hajman kichiklik belgisi tobora kuchayib boradi. **Mitti** so‘zida bo‘y jihatidan kichiklik ta’kidi ham bor. **Jimit** ko‘pincha *-day, -dek* qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi. **Arvak** shevaga, xususan, Farg‘ona shevasiga xos.

Yusuf aylanib o‘tib, o‘g‘lining og‘zi-burnidan qon kelganini ko‘rdi. U yengil xirillar, k i ch i k jussasi ahyon-ahyonda titrab qo‘yardi. U.Hamdam, Muvozanat. *Mirzakarimboyning gavdasi k i ch i k, qo‘llari ingichka bo‘lsa ham, zuvalasi pishiq ko‘rinadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bedana halloslar va k i ch k i n a ko‘zlarini pirpiratib, ularga yalinganomuz tikilardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bir qarag‘ay shoxida k i ch k i n a gina olmaxonni ko‘rdim, qo‘lida bujur yong‘og‘i ham bor, munchoq ko‘zlarini menga behadik tikib turibdi.* I.Sulton, O‘rmondagi kulba. *Moychechaklar m i t t i quyoshchalar kabi yashnab turardi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Agar Tangri taoloning bu mo‘jizasi bo‘lmasa, dunyoga sig‘magan g‘am-tashvish m i t t i yurakka, yurakdan-da m i t t i roq ko‘z qorachig‘iga sig‘armidi...* T.Malik, Shaytanat. *...shunda tepadan qaraganimda j i m i t uychalar, ...tandir-u o‘choq boshidan beri kelmaydigan onam, tosh kesayotgan kishi... bari nimalarningdir timsoli bo‘lib ko‘rinar...* I.Sulton, Ozod. *Gazetxon. Uni hozir ko‘rsangiz tanirmidingiz? Radiomuxbir. Albatta, taniyman. U j i m i t takkina oriq bola edi*. E.Vohidov, Ikkinchi tumor.

KICHRAYMOQ, KICHIKLASHMOQ, KICHKINALASHMOQ, MAYDALASHMOQ, MITTILASHMOQ Tuzilish, o‘lcham va hajman kichik holatga kirmoq. **Kichiklashmoq** va **kichkinalashmoq** kam qo‘llanadi, **kichiklashmoq** kitobiy uslubga, **kichkinalashmoq** oddiy so‘zlashuvga xos. **Maydalashmoq** ko‘pincha jonsiz narsalarning ana shunday holatga o‘tishiga nisbatan qo‘llanadi, oddiy so‘zlashuvda faol ishlatiladi. **Mittilashmoq** kichkinalashish holatini boshqa sinonimlarga qaraganda kuchliroq darajada ko‘rsatadi, kitobiy uslubga xos, nutqda kamfaol.

Qirg‘oqqa yaqin kelganimizda xarsang ustida maxorka chekib o‘tirgan O‘sarboyni ko‘rdim. Uning gavdasi k i ch r a y ib, yuzidagi ajinlari ko‘payib ketganga o‘xshadi. S.Ahmad,To‘lqinlar. *Kitob Anvarning qo‘liga o‘tishi bilan bir yorug‘lik taratdi-yu, k i ch r a y ib, kaftday bo‘lib qoldi.* T.Malik, Shaytanat. *Beg‘ubor bolaligini ehtirosli muhabbatga, muhabbatni ilmga almashgan ayol, ko‘zlari nursiz va zaif, jussasi yanada k i ch i k l a sh gan ayol, turay desa turolmaydigan ayol, hali himoya qilinmagan ilmiy ishning himoyasiz qurboni ayol Muhabbat so‘zini bir umrga yomon ko‘rdi endi.* Y.Akramova, Nurli kunlar soyasi. *Juda katta uylarga ega bo‘lmoqdamiz, ammo, oilalarimiz k i ch i k l a sh ib bormoqda.* D.Yormatova, Aylanayin ishq. *Xayrullo ayolni ko‘zdan kechirdi, shishgan, anchagina shishgan, qovoqlari osilib turibdi, ko‘zlari k i ch k i n a l a sh ib ketgan, bir paytlar juda husndor bo‘lgan ko‘rinadi.* “Sharq yulduzi”. *Dunyodagi hamma katta narsa maydadan ulg‘ayadi. Lekin Musoniki teskari – u kattadan m a y d a l a sh ib ketyapti.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *...tovuq degan kunda tug‘sa, bexosiyat bo‘ladi. Tuxumi ham m a y d a l a sh ib qoladi. Kunora tug‘gani durust.* S.Ahmad, Tovuq tilini biladigan odam. *...endi yulduz o‘ta m i t t i l a sh ib, elas-elas miltiraydi,*

gohida osmoni-falakda bir lahzalik olovli iz qoldiradi, ba'zan esa, izsiz yo'qolib, butkul o'chib ketadi. Otauli, So'z san'atidan saboqlar. *...integral mikrosxemalarda tranzistorlarning o'lchami shu darajada m i t t i l a sh ib ketgan-ki, o'rtacha bitta mikrosxemada 2 milliardgacha tranzistor joylashtirilishi oddiy holga aylangan.* Gazetadan.

KOMPAS, QIBLANAMO Dunyo tomonlarini aniqlash uchun foydalaniladigan, magnitlangan strelkasi doim shimolni ko'rsatib turadigan doirasimon asbob. **Qiblanamo** – eskirgan, kitobiy so'z, tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi.

Qoraqosh sinchiklab qarasa, bir nemis sal narida daraxtga suyanib turib, k o m p a s iga qarab o'ziga yo'l qidirmoqda edi. I.Rahim, Fidoyilar. *Geologlar k o m p a s dan kattaroq qandaydir bir asbobni qo'llariga olib, "Cho'pong'or"ning ustiga chiqib ketishdi.* O'.Umarbekov, Kimning tashvishi yo'q. *Komandirnikiga o'xshab q i b l a n a m o ng bormi?* Oybek, Quyosh qoraymas. *Ikki malla ustun falakka bo'y cho'zib buralardi. – Q i b l a n a m o ga qarang, u qaysi tomon?* Mirmuhsin, Me'mor.

KON, SHAXTA Foydali qazilmalarni kavlab olish uchun qurilgan yerosti inshooti. **Shaxta** so'zida "maxsus korxona" ta'kidi qabariq ifodalangan.

Keyin chorbozorchilarga qo'shilib, ko'mir k o n i yaqinidagi qishloqqa borgan. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Menga hamroh bo'lgan k o n muhandisiga qarayman.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Bir yarim yil Rurning qaro sh a x t a larida It azobin chekkanimga qog'ozim bormi?* E.Vohidov, Saylanma. *Sendek ishchini sh a x t a ga darrov ishga oladilar. Katta maosh beradilar.* S.Ahmad, Umrim bayoni.

KONCHI, SHAXTACHI, SHAXTYOR Foydali qazilmalar kavlab olinadigan yerosti inshooti ishchisi, yerosti tog' sanoati korxonasi xodimi. **Shaxtachi** oddiy so'zlashuvga xos. **Shaxtyor** so'zidan "shaxtada ishlaydigan" ta'kidi ochiq anglashiladi.

Bildimki, k o n ch i ni kutarlar uyda Ko'kdan kosmonavtni kutgan singari. A.Muxtor, Sizga aytar so'zim. *K o n ch i yigit yer qa'rida qurch qoyalar o'ysa gar, Yoki olov yallug'ida tinmay po'lat quysa gar, To'rt fasl ham kamarbasta, xirmon uyar paxtakor.* Mirtemir, Jujun. *Yer ostiga tushib ketgan sh a x t a ch i lar, Chirik molin maqtayotir soxtachilar.* A.Azim, Bizlar esa... *Sportchilar, kolxozchilar, sh a x t y o r larmi-yey... Xullas, hamma yoq haykal.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Bu ahvolda qanaqa iqtisodiy erkinlik va xo'jalik hisobi haqida gap bo'lishi mumkin, deya kuyinadi kuzbaslik sh a x t y o r.* "Fitna san'ati".

KOSAGUL, SOQIY, QADAHKASH, JUR'AKASH Turli bazmlar va o'tirishlarda ichkilik quyuvchi va o'tirishni boshqarib turuvchi kishi. **Soqiy** so'zi bu ma'noni poetik bo'yoqdorlik bilan ifodalaydi, asosan, badiiy uslubda qo'llanadi. **Qadahkash, jur'akash** so'zlari eskirgan, kitobiy.

– Ko‘p emas, jichchagina, – dedi k o s a g u l iljayib… O‘.Hoshimov, “Butilka” hoji. *K o s a g u l, tabiiyki, ko‘p ta’rif-tavsifdan so‘ng birinchi bo‘lib so‘zni ulug‘ dohiyga berdi*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bazm avjiga chiqqanda s o q i y Bobur qarshisiga kelib, bir tizzasini gilamga tirab cho‘kkaladi, so‘ng yigirma yildan beri xumda kuch yig‘ib yotgan va bugungi ziyofat uchun ochilgan tiniq xushbo‘y mayi nobdan surohiyga quydi-da, Boburga uzatdi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– O‘zbek edi, – dedi Mansur va piyolani shart ko‘tardi-yu, bir qultum olgach, manglayi tirishib, s o q i y ga qaytardi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Bir q a d a h k a sh mug‘bacha ko‘nglum olibtur dayr aro, Din-u taqvo jonibidin, ey xayoli xom, ket*. A.Navoiy, Favoyid ul-kibar. *Ey nigori mahvashim, ey harifi j u r’ a k a sh im, Tut qadahki, behad erur ishq tobidin otashim*. Navoiy, Muhokamat ul- lug‘atayn.

K

KOSAGULLIK, SOQIYLIK, QADAHKASHLIK, JUR’AKASHLIK Turli bazmlar va o‘tirishlarda ichkilik quyish va o‘tirishni boshqarib turish ishi. **Soqiylik** so‘zi bu ma’noni poetik bo‘yoqdorlik bilan ifodalaydi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Qadahkashlik, jur‘akashlik** so‘zlari eskirgan, kitobiy, asosan, mumtoz matnlarda uchraydi.

Bir kuni u Ganjina qaynonasining bazmida k o s a g u l l i k qilayotganini ko‘rdi. R.Haydarova, Javzo. *Ziyofat dasturxoniga negadir allaqanday harbiy kishi, aftidan, yerostimi, yerustimi qo‘shinlari qo‘mondoni k o s a g u l l i k qilmoqda edi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Mohim begim... ko‘zachadan chinni piyolaga xushbo‘y mayni quyar ekan: – Ijozat bersangiz, men hozir s o q i y l i k qilsam! – dedi. Abdusattor suhbatlarimizda marhum otasini tez-tez eslaydi. Davrada s o q i y l i k qilayotganida, shishaning tagida qolganini ham bo‘lib yubora qoling, desak, u unamay: “Rahmatli otam magazinchi bo‘lgan, menga tejamkorlikni o‘rgatgan, tagidagi ham yana bir aylantirib quyishga yetadi”, – deydi.* G‘.Karimiy, Muhabbat va taqdir. *J u r’ a k a sh l i k dunlari va kofirvashlik o‘yinlari*. Navoiy, Mahbub ul-qulub.

KOSIB, ETIKDO‘Z, ETIKCHI, YAMOQCHI Oyoq kiyimlari tikish va ularni ta’mirlashni kasb qilgan hunarmand. **Etikdo‘z, etikchi** so‘zida ma’no birmuncha xususiylashgan, **etikchi** so‘zi **etikdo‘z**ga qaraganda kam ishlatiladi. **Yamoqchi** so‘zidan faqat “oyoq kiyimlarni ta’mirovchi usta” ta’kidi qabariq ifodalangan, bu so‘z oddiy so‘zlashuvda qo‘llanganda, shu kasb egasiga nisbatan bepisand munosabat ham voqelanadi.

– Kel, bolam, kamnamosan. – Do‘konxona burchagida usti yeyilgan, tekis katta k o s i b to‘nkasi orqasida ishlayotgan Shokir ota, odatdagicha ko‘zoynagini oz-moz ko‘tarib dedi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Sen bir k o s i b bo‘lsang, aqling igna-yu bigizingdan nari o‘tmas.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Avaz deganimiz hatto bozor kuni e t i k d o‘ z dan bigiz o‘g‘irlab olgan, uchini ninadek o‘tkirlagan, endi sal gapga o‘qtalaverib balo bo‘lgan edi.* A.A’zam, Tugmachagul.

Shaharda boylar va kambag‘allar ko‘p, qullar va cho‘rilar esa undan ham ko‘p, biroq e t i k d o‘ z na boy, na kambag‘al – o‘rtamiyona bir odam edi. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Boy tikuvchini so‘kib, qoliplangan bir toqa etikni uning boshiga chog‘lab otdi. E t i k ch i boshini xam qilib, bu hamlani rad qildi*. S.Ayniy, Qullar. *Ba’zida bu yerga yuksak martabali partiya arboblari qadam ranjida qilishib, e t i k ch i o‘g‘lidan XX asr hokimiga aylangan ana shu zotga bag‘ishlangan muzikaviy asarlarni birinchi bo‘lib eshitib ko‘rishar edi.* Ch.Aytmatov, Oxirzamon nishonalari. *Dukchi yonida y a m o q ch i kosiblar, biror kimsa yirtiq mahsimi, churuk choriqmi ko‘tarib kelarmikin, degan umid bilan sarg‘ayib o‘tirardilar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Balki, bu narsa sen uchun to‘pdir. Lokigin, biz y a m o q ch i lar hatto jahon birinchiligida ishlatiladigan to‘plargayam charm deb qaraymiz*. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola.

K

KOSIBLIK, KOSIBCHILIK, ETIKDO‘ZLIK, ETIKCHILIK, YAMOQCHILIK Oyoq kiyimlari tikish va ularni ta’mirlash ishi, shunday hunardan iborat faoliyat. **Kosibchilik** so‘zi **kosiblik**ka qaraganda shunday kasb-kor tushunchasini aniqroq ifodalaydi, ko‘proq oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Etikdo‘zlik** so‘zida ma’no birmuncha xususiylashgan, bu so‘zdan faqat “etik tikish, ta’mirlash ishi” ifodasi ochiq anglashiladi. **Yamoqchilik** so‘zidan faqat “oyoq kiyimlarni ta’mirlash ishi” ifodasi anglashiladi, mazkur so‘z oddiy so‘zlashuvda qo‘llanganda, shu hunarga, egasiga nisbatan bepisand munosabat ham voqelanadi.

Sirasini aytganda, Sobirjon qo‘li gul yigit. K o s i b l i k go‘yo uning uchun yaratilgan deysiz. Qorayib taram-taram bo‘lib ketgan baquvvat qo‘llarida bigiz, igna o‘ynab turadi. O‘.Umarbekov, Saylanma. *Shokir buva otasining qadrdoni edi. U dastgohini guzardagi tut ostiga o‘rnatib, ertadan kechgacha k o s i b ch i l i k qilardi.* O‘.Mirzayor, Yamoq. *Buni sotib, charm, ip, sirach, mum singari k o s i b ch i l i k uchun kerakli ashyolar oladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *U olamdan o‘tgach, Nozimning otasi – Sherim buva e t i k d o‘ z l i k qilmasa ham, qadrdonidan qolgan birgina shu merosni tashlab yubormadi.* O‘.Mirzayor, Yamoq. *Bu mahalla markazi mahalla yig‘ilishlari, sayillar, tadbirlar, mahalla yoshlarining sport bilan shug‘ullanadigan joyi... e t i k ch i l i k, sartaroshlik xonalari, odamlar dam oladigan so‘lim joy sifatida mahalla ahliga xizmat qilmoqda.* A.Xorazmiy, Olimning qismati. *Y a m o q ch i l i k ni ham bilaman. Botinkangiz yirtilsa, bering, o‘zim yamab beraman*. E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Sobirjon katta ko‘chada y a m o q ch i l i k qiladi. Do‘koni bor.* O‘.Umarbekov, Saylanma.

KOSHKI, ZORA, SHOYAD, QANI ENDI, QANI EDI, KOSHKIYDI, QANIYDI So‘zlovchining biror harakat-holatning amalga oshish-oshmasligi, bo‘lish-bo‘lmasligi borasidagi kuchli xohish-istagini bildiradi. **Zora koshki** so‘zi o‘rnida almashib qo‘llana oladi, biroq oddiy so‘zlashuvga xosligi bilan undan

farqlanadi. **Shoyad** badiiy nutqqa xos. **Qani endi**, **qani edi**, **qaniydi, koshkiydi** so‘zlarida so‘zlovchining ichki istagi hissiyot bilan ifodalanadi, **Qani endi**, **qani edi** so‘zlari badiiy uslubda, **qaniydi** oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Koshkiydi** qatordagi so‘zlarga nisbatan bu ma’noni kuchli darajada ifodalaydi.

K o s h k i, bilet olish oson bo‘lsa! P.Qodirov, Olmos kamar. *K o s h k i, ko‘nikib bo‘lsa, K o s h k i, unutib bo‘lsa, Birinchi bo‘sa, birinchi bo‘sa!* M.Yusuf, Birinchi bo‘sa. *Zuhra z o r a biron nimaga yaraydigan narsa topilib qolsa deb, shu keraksiz bo‘lib qolgan buyumlar orasidan yozuv stolining eshigini topdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Pichirlardi: Mayli, mulla bo‘lib qayt, Z o r a kelsa men ham jindak yayrar payt.* Mirtemir, Men ketganda.... *...siz Hakimboyvachchaga yo‘liqib, unga yalinsangiz, Yo‘lchiboyning arzimagan narsaga qamalganini, yot yerda yoppa-yolg‘iz qolganingizni aytib bersangiz... Sh o y a dsizga rahm qilsa...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yuz so‘mning nari-berisida. Lekin tabiat muhofazasi, o‘rmon xo‘jaliklari to‘g‘risida ko‘p yaxshi qarorlar chiqdi. Sh o y a d ularning maoshi ham oshib qolsa.* Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor. *Q a n i e n d i, bu Salabek deganlari onda-sonda dashtdan o‘tib qoladigan ayrim tanishlari kabi shunchaki salom-alik uchungina birrovga yo‘ldan qayrilgan o‘tkinchiga aylansa-yu, u bu azobni ortiq his qilmasa!* N.Norqobilov, Kurash. *Hozir xotiralarim ummonidan izlayman uni. Q a n i e n d i u besh daqiqaga oldimga kelsa...* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Lekin uning Alloh taborak taolodan yolg‘iz o‘tinchi ota yurt sarhadiga yetib olmoq – vatan ruxsoriga yetmoq. O‘shal ma’vo havosidan emin-erkin bir qur nafas olsa, halovat tuysa, q a n i e d i!* M.Mansur, Judolik diyori. *Q a n i e d i, katta lo‘q ko‘zlarini bet-boshimdan olsa, q a n i e d i!* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Nuri uzoq o‘ylagandan keyin, sevinib entikdi va o‘z ichida shunday dedi: “Man ko‘r ekanman, kambag‘al bo‘lsa ham ko‘zi ochiq, nomusli yigit ekan. Uning bitta qusuri – kambag‘alligi. K o sh k i y d i, u boyvachcha bo‘lsa...”* Oybek, Tanlangan asarlar. *Gulnoza. Yo‘lga chiqishdan avval bir daqiqa o‘tirmoq kerak, deyishadi. Men ham bir daqiqa o‘tiray (chemodanini qo‘yib, to‘qima kresloga o‘tiradi). Darveshali. K o sh k i y d i, bir daqiqa emas, bir umr o‘tirsang shu kresloda.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Q a n i y d i, o‘kinch ne, bilmasa ko‘ngil, Q a n i y d i, she’r yozmay yashab bo‘lsaydi.* M.Yusuf, Taraqqiyot. *Yovuzlikka jindak ham joy qolmasaydi, Q a n i y d i... Har yuvuqsiz yoqaga chang solmasaydi, Q a n i y d i...* Mirtemir.

KULGI, XANDA, QAHQAHA Kishining xursandligi, vaqtichog‘ligi hamda zavqlanishini ifodalovchi xushnud ovoz. **Xanda** ko‘proq poetik uslubda, kishining ich-ichidan baland ovozda kulishiga nisbatan qo‘llanadi. Agar **kulgi** so‘zi nutqiy vaziyat talabi bilan salbiy subyektiv baho ifodasi sifatida qo‘llana olsa, **xanda** so‘zida bunday xususiyat deyarli yo‘q. **Xanda** chin, samimiy kulgining baland ovozda chiqishini bildiradi. **Qahqaha** baland ovozdagi kulgini ifodalaydi.

Nilufarning yoqimtoy qiliqlari, jozibali k u l g i si, oppoq qo‘llarining qonni ko‘pirtiruvchi mayinligi, dam suykalib, dam kiyikday hurkib qochishlari bir umr esida qoldi uning. O.Yoqubov, Billur qandillar. *K u l g i xunuk bo‘lsa bordir, ammo yig‘i chiroyli bo‘lolmaydi, hatto quvonch yig‘isi ham — bu quvonchga yetguncha tortgan azoblarni bildiradi*. A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Nogoh bir devona paydo bo‘ldi-yu, Shodlik va x a n d a ga to‘ldi har tomon.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Bu kun o‘zgachadir jilvayi olam, Bu kun o‘zgachadir borliqda x a n-d a.* E.Vohidov, Sakkizinchi mart. *Qadahlar jaranglar, q a h q a h a yangrar, (Tilni tiyolmaslik bunday payt yomon).* M.Yusuf, Saylanma. *Xonada tuyqus av-jiga chiqqan quvnoq q a h q a h a va sho‘x-shodon qiyqiriqlarni eshitib fig‘oni falakka chiqqan bosh hakim va hamshiralar ko‘z ochib-yumguncha fursat o‘tmay, eshik oldida paydo bo‘lishdi*. Sh.Salom, Uchinchi palata.

K

KULMOQ, HIRINGLAMOQ, XAXOLAMOQ, QAHQAHA OTMOQ (URMOQ) Yuz mimikasi va turlicha tovushlar bilan xursandchiligini ifodala-moq. **Hiringlamoq**da salbiy bo‘yoqdorlik mavjud. **Xaxolamoq, qahqaha ur-moq (otmoq)** “baland ovozda kulmoq” ma’nosini ifodalaydi.

Qizlar qiyqirishib k u l dilar. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bozor ahli k u l ad i: Shunaqa ham bo‘larmi? Eshak axir eshak-da, Eshak odam bo‘larmi?* E.Vohidov, Matmusaning eshak sotgani. *“O‘la, o‘l, o‘salning qadag‘i necha puldan tushdi?” deb h i r i ng l a di.* S.Ahmad, Ufq. *– Kurash tushamiz, – deb h i r i ng l a di Chori kassir xuddi o‘z uyiga kelganday, narsalarini shkaflar-ning sonsiz qutilariga bemalol joylashtirarkan.* U.Azim, Birovning umri. *Hamroali aka x a x o l a di. Unga qo‘shildim.* S.Anvar, Haydarchilik. *Ular katta ariqdan o‘tib, o‘siq makkajo‘xori ichidagi so‘qmoqqa burilganlarida sen tomonga qayrilib, yana x a x o l a shdi*. S.Anorboev, Yaxshilik urug‘i. *Qu-log‘imga Jivakuning q a h q a h a o t ayotgani eshitilib turardi*. N.Ismoilov, Baxtning olis manzili. *– Voy xudoyim-ey! – deya q a h q a h a u r di Salomat. – Ruxsor chillashirga kuching yetmagan, menga yo‘l bo‘lsin!* X.Sultonov, “Yo, Jamshid!” *– Ha-ha-ha! – yigit yayrab q a h q a h a o t di, qiz unga jo‘r bo‘ldi...* U.Hamdam, Na’matak.

KUTMOQ, POYLAMOQ Biron-bir kishining kelishiga umid qilgan holda turmoq, muayyan narsa-hodisaning yuz berishini kutib ma’lum joyda bo‘lmoq. Bu ma’noda **kutmoq** so‘zi keng qo‘llanadi. **Poylamoq** bu ma’noni **kutmoq** so‘ziga nisbatan kuchli ifodalaydi, ammo **kutmoq**qa nisbatan kamroq ishlatila-di, oddiy so‘zlashuvga xos.

Husan aka mung‘ayib bosh irg‘adi. So‘ng o‘zicha ming‘illab gapira ketdi: Ko‘p k u t dik. Ko‘chaga chiqib qaradim... Yo‘qsiz... Sh.Xolmirzayev, Saylan-ma. *U sekin yurib tramvay bekatiga keldi. Bekatda yana kimdir tramvay k u t ib o‘tirardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Baqirdingiz. Kimga? Menga-ya, eshik tiq*

etsa, keldilarmi deb, ko‘chaga yuguradigan odamga-ya?! Mendan bo‘lak kim yarim kechagacha yolg‘iz o‘tiradi sizni p o y l a b? O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Uzr, Zabarjadxon, vaqtim ziqroq edi. Pastda xo‘jayinning moshinalari p o y l a b turibdi*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir.

KUY, MUSIQA, TARONA Cholg‘u asbob(lar)i yordamida hosil qilinadigan, o‘ziga xos ritm va intonatsiyaga ega musiqiy tovushlar birligi. **Kuy** keng ma’noli, uslubiy farqlarga ega emas. **Musiqa** nutqda **kuy**ga nisbatan ham ishlatiladi. **Tarona** kitobiy, juda kam qo‘llanadi.

O‘zi bastalayotgan k u y larda quvonch bilan iztirob, muhabbat bilan sadoqat – hamma-hammasini mujassam etishga urindi. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *...Shuning uchun ham boshqalarga bir olam quvonch keltirgan paxtadan qaytish xabari unga motam k u y i kabi sovuq eshitildi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Mashshoqlar darhol “Xon chiqar” deyiladigan tantanavor m u s i q a ni boshladilar*. S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Salqin hovlidan mayin, latif... m u s i q a eshitilar edi.* M.Mansur, Mangu kuy izlab. *Yurt, sen yolg‘iz tuproq, makon emassan, Yo milliy t a r o n a, tug‘ro yo bayroq*. E.Vohidov, Ishq savdosi. *Men ham endi qalamimni she’rlar uchun charxlayin, Ayniqsa, keyingi t a r o n a ga Vika bilan Vitalikning raqsidan Farhod lol qoldi*. E.A’zam, Shovqin.

KUYINMOQ, KUYIB-PISHMOQ, KUYIKMOQ Qattiq qayg‘urmoq, ich-ichdan achinib tashvishlanmoq. **Kuyib-pishmoq** so‘zida “astoydil, ich-ichdan qayg‘urmoq” ta’kidi kuchli, oddiy so‘zlashuvga xos. **Kuyikmoq** bu ma’noda shevaga xos.

Qassob go‘sht sotilmayotganidan k u y i n ib o‘tirgan edi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Men xalqimning menga kuyishi, k u y i n ishiga ham arzimayman.* I.Sulton, Ozod. *Jumladan, Yusufning uzoq vaqt k u y i b-p i sh i b aytgan gaplari uning qiziqishlaridan, manfaatlaridan juda-juda uzoq tuyuldi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Shamsiddin k u y i b-p i sh ib hech qanday g‘azot, hech qanday askar yo‘qligini, uning ertalabdan beri shu yerda yotganini uqtira boshladi.* A.Qahhor, Bashorat. *Onangni tomga chiqarmagil, qizim, betobligiga k u y i k ishi ham sabab. Men ertan yana chiqib xabar olarman*. R.Haydarova, Javzo.

KUYLAMOQ I, ASHULA AYTMOQ, QO‘SHIQ AYTMOQ, XONISH QILMOQ, JIRLAMOQ Ovoz chiqarib ashula yoki qo‘shiq ijro etmoq. **Qo‘shiq aytmoq, ashula aytmoq** oddiy so‘zlashuvda, **xonish qilmoq** kitobiy nutq shakllarida qo‘llanadi, **xonish qilmoq** so‘zida poetik bo‘yoqdorlik kuchli, kitobiy so‘z. **Jirlamoq** shevalarda qo‘llanadi, folklor asarlarida uchraydi.

Karim cholday qamish sibizg‘a chalgisi yoxud ... xuddi Nazar baxshidek ovozini tovlantirib-tovlantirib k u y l a gisi keladi. N.Norqobilov, Kurash. *Mahallamiz bolalari biri qadimda, biri shu davrlarda to‘qilgan, bunisi o‘ta quv-*

noq, unisi juda-juda qayg‘uli bo‘lgan o‘nlab tilqayramalarni xuddi qo‘shiq k u y l a yotgandek ohangga solib aytib yurishardi. A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. – *Ukalarim oqshomlari a sh u l a a y t ib o‘ynardi, enam urishdi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Qayerdadir mast kishi a sh u l a a y t ardi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Avvaliga ovozimni baland qo‘yib q o‘ sh i q ayta-man.* U.Hamdam, Bir piyola suv. *...hammaning ko‘zi uzun stolning burchagida dutorga jo‘r bo‘lib q o‘ sh i q a y t ayotgan qizda edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Halim qori hovlisidagi tanho “nafarmon gul”ga ko‘z tikkan, uning ilinjida tunlarni bedor o‘tkazib, saharlar nolavor x o n i sh q i l adigan “bulbul”lardan biri, shubhasiz, Rustam edi.* Q.Kenja, Toshqin. *Haydar amaki shiyponda akamning ro‘parasiga cho‘kkalab olib, qo‘lidagi likopchani bir ajib selpib-chertgancha, eshilib x o n i sh q i l moqda edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bo‘z yigit, men seni tinglayman har kun, Siringga oshnaman, o‘zing bilmaysan. Yulduzlar charaqlab, boshlanganda tun, Garmonga jo‘r bo‘lib sekin j i r l a ysan, Xayolingda kezar yuzlari gulgun.* S.Zunnunova, Garmon-chi.

KUYLAMOQ II**, MADH ETMOQ (QILMOQ), TARANNUM QIL-MOQ (ETMOQ)** U yoki bu narsaning ijobiy jihatlarini ilgari surmoq, baralla aytmoq. **Madh etmoq** so‘zida publitsistik ruh, **tarannum etmoq** so‘zida poetik bo‘yoq kuchli.

O‘sha o‘t yoshlikka men sodiq qolib, Butun xalqqa dilim berib ketaman. So‘ng bu gul diyorni qo‘msab, sog‘inib, Quyoshday do‘stlikni k u y l a b o‘ta-man. Zulfiya, Saylanma. *To‘g‘ri, ozodlikni k u y l a sh kerak, ko‘klarga ko‘tarib k u y l a sh kerak.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Biz yana o‘sha tonggi nabotot, hashorat va parranda ovozlarini – tabiatning ulug‘vorligini m a d h eta-yotgan, borliq bilan uyg‘unlashib ketgan tiriklik va yaratuvchilik ohanglarini yozib ola boshladik.* N.Eshonqul, Bahouddinning iti. *Mening chamamda, shoir-lar m a d h e t ishni o‘rniga qo‘yishayotgan edi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Dar-haqiqat, muhabbat har qanday shoir ijodining asosini tashkil etadi. Ishqni o‘zi-ga xos uslubda m a d h q i l adi va qalb kechinmalarini she’rga soladi.* “Sharq yulduzi”. *Biz qirq yil yonma-yon, orzuga banda, Faqat saodatni t a r a n n u m e t dik.* E.Vohidov, Saylanma. *Vatan ozodligini asarlarida t a r a n n u m e t gan adib, olim va shoirlarning nomlari abadiylashtirildi, ularga haykallar qo‘yildi, asarlari qayta-qayta nashr etildi.* O‘.Hoshimov, Ona bitta, Vatan yagona. *...qani endi o‘sha yerning muqaddasligini, uning ko‘rkini Doniyorchalik seza bilsam, seva bilsam, uning madhiyasini Doniyorchalik t a r a n n u m q i l olsam, degan bir havas uyg‘onganligigini sezdim.* “Sharq yulduzi”.

KUYMALANMOQ, KUYMANMOQ, IVIRSIMOQ, IVIRSILAMOQ, IVIRSIRAMOQ U qadar muhim bo‘lmagan yoki mayda-chuyda ishlar bilan

mashg‘ul bo‘lmoq. **Kuymanmoq** – oddiy so‘zlashuvga oid. **Ivirsimoq** mazkur ma’noga kuchli salbiy baho qo‘shgan holda ifodalaydi, uslubiy chegarlanmagan. **Ivirsilamoq**, **ivirsiramoq** – so‘zlari shevaga oid.

Afruza choynakni Xudoyorning oldiga surib, oshxonaga chiqdi, u kuymalanib, taqir-tuqir qilar ekan, Xudoyor xo‘rsinib manglayini siladi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Har holda, u yerda bir oila yashar, erkak bo‘ri esa mening, ya’ni cho‘l bag‘rida o‘zicha k u y m a l a n ib o‘tin to‘plab yurgan odamning qiyofasidagi xatarni sezib, yo‘l yoqasiga bola-chaqasini himoya qilgani chiqqanga o‘xshaydi.* I.Sulton, Bo‘ri. *Ra’noning oyisi oshxonada nimagadir k u y m a n ib, g‘ivirlab yurardi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Men “suyunchi”lab chopgan bolakaydek yugurib chiqishni o‘zimga ep ko‘rmay, hovlida “k u y m a n ib yurgan” edim, darvozaxonada oyimlarni qo‘ltiqlagan ayolim ko‘rindi.* M.Mansur, Judolik diyori. *U uchayotgan odamni birinchi ko‘rishi edi. “E, odamzod bu dunyoda i v i r s i b-i v i r s i b, o‘lib ketadi” deguchi edi rahmatli onasi.* U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma. *Boshiga oq mato o‘ragan ayollar, do‘ppi kiygan erkaklar ikki buklangan ko‘yi paxta to‘la etak orqalab, pritsep tomonga turnaqator kelyapti. Xuddi o‘zidan katta bug‘doy boshog‘ini ortmoqlagan chumolidek. Bir xillari hamon egat oralab i v i r s i b yuribdi.* O‘.Hoshimov, O‘zbek ishi. *Nima qilib i v i r s i r a b o‘tiribman, tezroq yaraning oldini olish kerak.* Hamza, Zaharli hayot. *Hoy, muncha i v i r s i l a dilaring. Bo‘la qolsalaring-chi!* A.Qahhor, Og‘riq tishlar.

KUYUNDI, KUYUK Kuyish natijasida hosil bo‘lgan qoldiq, kuygan narsa. **Kuyuk** ko‘proq oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi.

Shom tushib kelar, shahar o‘rtasida qaydandir achchiq k u y u n d i hidi anqib-anqib kelar edi. M.Mansur, Judolik diyori. *Tog‘amiz darrov o‘g‘illarini boshlab borib, vayronani k u y u n d i lardan tozalatibdi.* E.A’zam, Bizning tog‘a. *Oftob tikkaga kelgan, yo‘l changi, yong‘in, k u y u k, dud isi tomoqlarimizni qaqratgan edi.* A.Muxtor, Davr mening taqdirimda. *Mahallasiga yaqinlashganida dimog‘iga k u y u k hidi urildi. Yong‘in, asosan, o‘chgan, faqat allaqayerlarda nimalardir hanuz tutar edi.* T.Malik, Shaytanat.

KUYUNCHAK, KUYDI-PISHDI Har qanday ishni kuyinchaklik bilan bajaradigan, har nega ich-ichdan qayg‘uradigan. **Kuydi-pishdi** ma’noni **kuyunchak** so‘ziga nisbatan kuchliroq ifodalaydi, unda “ich-ichdan qayg‘uradigan”, “xafsalasizlikka toqat qilolmaydigan” ifodalari **kuyunchak** so‘zidagidan ortiqroq voqelanadi, oddiy so‘zlashuvga xos.

Ko‘rmayin ham, kuymayin ham, Diydoriga to‘ymayin ham. Kipriklaridan ignalar, Aylang, k u y u n ch a k yangalar. S.Sayyid, Ko‘rmayin ham, kuymayin ham. *Amma juda k u y u n ch a k edi, bolaning shishgan lunjini ko‘rib, o‘zini qo‘ygani joy topolmasdi.* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish. *Tog‘amiz – o‘rniga qarab, albatta, birda k u y d i-p i sh d i, birda sipo-some kayvoni; qarindosh-urug‘da biron-bir mayda-katta majlis-u mashvarat usiz, uning maslaha-*

ti-yu yo‘l-yo‘riqlarisiz o‘tmog‘i ravo ko‘rilmaydi. E.A’zam, Bizning tog‘a. *Tog‘ay Murod kursdosh do‘stlaridan taniqli shoir Mirpo‘lat Mirzoni o‘ziga yaqin olar, u ham do‘stining murakkab fe’liga yarasha muomala qilib, ko‘ngliga yo‘l topar, sadoqat ko‘rsatar, asarlarining muhokamalarini k u y d i-p i sh d i bo‘lib uyushtirar, Tog‘ay Murodni ko‘rolmaydigan ayrim olifta g‘alamislarning shashtini qaytarar edi.* Sh.Otabek, O‘zi ham, ijodi ham betakror.

KUZATMOQ, UZATMOQ, XAYR-XO‘SH QILMOQ Ketayotgan kishi bilan muayyan masofagacha xayrlashib bormoq. **Xayr-xo‘sh qilmoq** so‘zida belgi ifodasi kuchli.

Direktor u kishi bilan oddiygina xayrlashdi. U odam esa bizni uyidan k u z a-t ayotganday: – Xushvaqt boringlar, – dedi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Dadalarimiz mehmonni k u z a t ib qo‘yib, yana yumushga berilishdi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Otni Sayfi yetaklagani holda usta Alim Otabekni ko‘chaga u z a t ib chiqdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Oygul shu holda uch oy Muttasil oqib bordi. Qancha dara, qancha soy, Uni u z a t ib qoldi*. H.Olimjon, Oygul bilan Baxtiyor. *Ular Naimani ko‘rish uchun Andijonga borishlarini aytib, x a y r-x o‘ sh q i l ib qoldilar.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Hamyurtining bu qadar to‘lqinlanib, shosha-pisha gapirishi Samadga yoqib, ko‘nglida umid uyg‘otdi: “Harqalay, telefonda gaplashib, x a y r-x o‘ sh q i l moqchi-yov...”* L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit.

KUSHXONA, SALLOXXONA Mol, qo‘y, echki, ot, tuya kabi hayvonlarni so‘yish va go‘sht-yog‘ tayyorlash uchun mo‘ljallangan ish joyi. **Kushxona** so‘zi keng ma’noda shunday ish bilan shug‘ullanuvchi davlat korxonasini ham bildiradi hamda “so‘yish”, “o‘ldirish” ma’nosini birmuncha yashirin ifodalaydi. **Salloxxona** so‘zi eskirgan, kam qo‘llanadi.

Shariatni mahkam ushlagan xotin shaharda ikkita bo‘lsa, biri – mulla Norqo‘zining xotini, ikkinchisi – shu! Namoz o‘qiydi, odatdagi ro‘zadan tashqari ashir oyida ro‘za tutadi, zavoddan chiqqan nonni, hozirgi k u sh x o n a larda so‘yilgan molning go‘shtini yemaydi. A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Baxtsiz insonlarni ko‘raverib beti qotib ketgan soqchilar uchun bular odammi yoki go‘shtga topshirish uchun k u sh x o n a ga olib ketilayotgan molmi, bari bir edi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *– Qaysi s a l l o x x o n a ning axlati bu? – dedi Komiljon papiros tutunini burnidan chiqarib.* I.Rahim, Ixlos.

KUCH, QUVVAT, MADOR, MAJOL, DARMON, QUDRAT Kishining biron-bir ishni qilish, harakatga keltirishga bo‘lgan jismoniy qobiliyati. **Kuch** keng tushunchaga ega bo‘lib, jonli va jonsiz narsalarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Majol** so‘zida “kuch-quvvatga egalik” darajasi **kuch**ga nisbatan kamligi ifodasi bor. Oddiy so‘zlashuvda, badiiy va publitsistik uslublarda faol ishlatiladi. **Mador, darmon** so‘zlarida jismoniy qobiliyat darajasining me’yordan pastligi qabariq ifodalangan. **Quvvat** so‘zida jismoniy qobiliyat darajasi **kuch** so‘zidan ko‘ra kuchliroq. **Qudrat** mazkur ma’noga xos belgini qatordagi sinonimlardan kuchli darajada ifodalaydi, kitobiy, nutqda faol.

Hamon Begimqul bilan olishayotgan Hikmatillo bu nidoni eshitib, bor k u ch i bilan raqibini chetga otdi-da, Nilufar tomon intildi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Shu payt Kozimning dadasi bor k u ch ini to‘plab, qopni baland ko‘tardi, zarb bilan daryoga otdi.* O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar. *Qani, sandiqni joyiga qo‘yib, ko‘rpalarni yig‘, ilgarigi q u v v a t yo‘q ayangda.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Shu yoshgacha og‘zimga olmagan taomlarni sanagudek bo‘lsam, bu o‘zi nima yeb, nimaning q u v v a t i bilan tikka yuribdi ekan, deb hayron qolish mumkin*. E.A’zam, Shovqin. *Ustiga oq choyshab yopilgan stolga tirsagini tayaganicha kaftini peshanasiga bosib o‘tirgan Muqaddam o‘rnidan turdi-yu, oyoqlaridan m a d o r ketganday yana o‘tirib qoldi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Humoyun tuni bo‘yi alahlab behush yotdi. Faqat sahar palla ko‘zini xiyol ochib, tepasida turgan otasini tanidi, o‘rnidan turgisi kelib qimirladi, lekin boshini ko‘tarishga ham m a d o r i yetmadi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bosh ko‘tarish uchun m a j o l i-da qolmadi, haddida qolmadi!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Yusuf bu olov alal-oqibat o‘zlarini ham sob etajagiga shubha qilmas, biroq uni o‘chirishga m a j o l i yetmasdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘zi ham qarib, d a r m o n i ketib qolgan... Nimaga hadeb uylana berar ekan, hayronman...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Rejissyor kulib javob berdi: – D a r m o n imiz yetsa, elektrostansiyaga boramiz-da.* A.Qahhor, Kartina. *Shamol qattiq g‘uvullar, qoyalarni yemirmoqchiday shiddat urar, Ozod uning q u d r a t ini his qila-qila, tippa-tik devordan chayqala-chayqala yuqoriga qarab o‘rlamoqda edi.* I.Sulton. Ozod. *Qanotimga q u d r a t kirdi, Nurlandi ko‘zim.* E.Vohidov, She’r dunyosi.

KUCHAYMOQ, ZO‘RAYMOQ 1. Biron-bir narsaning ta’sir darajasi yuqorilashmoq, kuchli tus olmoq. **Zo‘raymoq** so‘zida belgi darajasi kuchli, u harakat-holatning me’yoriy holatdan ancha-muncha ortiqligini **kuchaymoq** so‘zidagiga qaraganda ortiqroq ifoda etadi, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi.

Kechqurun izg‘irin ancha k u ch a y gan edi. T.Malik, Falak. *Oradan uch soat o‘tgach, sokin havolarning ko‘zga ko‘rinmas mavjlaridan boshlangan va tobora k u ch a y ib borgan shamolning ...bo‘ronga aylanishi kutilmoqdaydi*. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Murodning gapidan ham ta’sirlandim, ham ko‘nglimdagi g‘ulg‘ula k u ch a y di.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *To‘lqinlarning dahshatli gumburlashi chayqalishning z o‘ r a y ganidan darak beradi.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Yomg‘ir z o‘ r a y ib, jalaga aylandi.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Atlantikada bo‘ron shiddati z o‘ r a y moqda, uning tezligi soatiga ikki yuz ellik kilometrga chiqdi.* I.Sulton, Boqiy darbadar.

2. O‘zida yanada kuch to‘plamoq, kuchlanmoq. **Zo‘raymoq** so‘zining bu ma’nosida ham belgi darajasi **kuchaymoq** so‘ziga qaraganda kuchli.

Buning ila sipohlar tag‘in ham k u ch a y ib, olomonni Xadraga qarab surishka muvaffaq bo‘ldilar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Said xotinining ta’siridan*

uzoqlashib, unga sig‘may, undan balandlab, k u ch a y ib borayotganini his qilar va bu his uning g‘ururini puflar edi... U.Hamdam, Muvozanat. *Humoyunning ishlari o‘nglanib, qo‘shini yil sayin z o‘ r a y ib borayotgani Islomshohning xavotirini oshirib yurgan edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *– Xo‘p-pa! – deb Sultonmurod akam uni bir ko‘tarib, aylantirib qo‘ydi. – Seni qara-yu! Z o‘ r a y ib ketipsan-ku! – dedi Haybat akam ham*. M.Mansur, Judolik diyori.

KUCHLI, QUVVATLI, BAQUVVAT, AZAMAT, POLVON, ZABARDAST, ZO‘R Jismoniy ahvoli me’yoriy holatdan ortiq, kuch-quvvati boshqalarnikidan baland. **Kuchli** keng tushunchaga ega. Bu so‘z jonli-jonsiz narsalarga, shuningdek, mavhum otlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Quvvatli** so‘zida kuch belgisi **kuchli** so‘zidagidan yuqori. Bunday belgi **baquvvat** so‘zida yanada kuchliroq. **Azamat** va **kuchli** so‘zlari odamga nisbatan ham, uning gavdasi, tana a’zolariga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Zo‘r** so‘zida kuchlilik belgisi me’yordan ancha baland, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Enamning aytishicha, bolalar yangi sog‘ilgan sutdan ko‘p-ko‘p ichib tursa, k u ch l i bo‘larkan. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *U manfurlar mendan k u ch l i roq, Ularda bor qasoskor hasad*. E.Vohidov, Faryod. *Bunday telbalarcha ko‘pirib-toshuvlarni to‘xtatmoq uchun ham, albatta, telbalarcha hayqirishlar, chaqmoq qadar q u v v a t l i zarblar lozim bo‘lardi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ilohiy tuyg‘ulardan mahrumligi bois ruhlari o‘lik, hayvoniy hislari esa q u v v a t l i bu odamga nisbatan shu gaplar aytilsa, balki, shayton alayhila’na ranjirmidi...* T.Malik, Shaytanat. *Mirazim b a q u v v a t bo‘lgani bilan qo‘pol, Yusuf esa miqtiligiga qaramay epchil va kuchli edi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Begimqul rangi o‘chib, o‘rnidan turdi. B a q u v v a t qomatini oldinga tashlab: – Kecha... – dedi salmoqlab. – Kecha nima maqsadda boruvding mening uyimga?* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Yo‘lchi ham butun a z a m a t gavdasini silkib kuladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yana bir necha daqiqadan keyin u erining z a b a r d a s t yelkasidan mahkam quchoqlab bag‘riga bosar, hozir uni birov tortib olayotganday qo‘yib yuborgisi kelmasdi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Yerga to‘shalgan namat ustida bir-biridan z a b a r d a s t uch yigit chordona qurib, qarta o‘ynab o‘tirishar, o‘rtada kir-chir ro‘molchada bir dasta pul uyulib yotardi*. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Aytmoqchi, bilaman-ku: olamda insondan z o‘ r narsa yo‘q! Hamma jonivorlar insondan qo‘rqadi. Men ham insonman.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Otashqalb o‘zidan z o‘ r shoirligi uchun Oqsoqol uni hasaddan qamatib yuborgan, degan gap yuradi, ayting-chi, shu to‘g‘rimi?* E.A’zam, Shoirning to‘yi.

KUCHSIZ, QUVVATSIZ, BEQUVVAT, DARMONSIZ, KAMQUVVAT, ZAIF, NIMJON, OJIZ Kuchi, quvvati me’yordagidan ko‘ra oz bo‘lgan, me’yorga yetarli bo‘lmagan, jismoniy imkoniyati past. **Bequvvat** nutqda boshqa

sinonimlariga qaraganda kam qo‘llanadi. **Zaif, nimjon, ojiz** so‘zlarida belgi darajama-daraja kuchayib boradi. **Zaif** va **ojiz** badiiy va publitsistik uslublarda ko‘p ishlatiladi, **nimjon** so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos.

“Burnidan tortsa yiqiladigan”, k u ch s i z, xunukkina kishi – bazzoz Abdulxoliqboy qoshini chimirib, ingichka, xotinchalish ovozi bilan gapga aralashdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Qorovul inspektorning qo‘llarini ozg‘in, qaltiroq, k u ch s i z panjalari bilan ushlab olgan, ko‘zlari jahldan kattarib ketgandi...* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Kirganimda yoshlik shijoati ufurib, tiyiqsiz kuch-quvvatga to‘lgan tanim tirishib, eti ustixoniga yopishib qolgan, suyaklar teridan bo‘rtib chiqib turar, juda-juda mo‘rt va q u v v a t s i z tuyulardi.* “Sharq yulduzi”. *– Zardoluchang katta bo‘lib, daraxtga aylansa, ayrining ham hojati bo‘lmay qoladi, – dedilar, – hozir b e q u v v a t-da, tepasi jon olgach, unga ayri nimaga kerak?* N.Aminov, Ayri. *O‘zlari nimjon, b e q u v v a t bo‘ladi, o‘zing ham sezgandirsan?* O.Yoqubov, Dastlabki qadam. *Yo‘qsilmanmi? Endi mendan yo‘qsil odam yo‘q, Ko‘zim xira, d a r m o n s i z man, tashlandiq zotman...* E.Vohidov, Istanbul fojiasi. *Suhbat tamom bo‘lib, kampir tashqariga chiqqanida Zebi holsiz va d a r m o n s i z darparda yoniga cho‘zilgan, uning hali juda yosh va jonli ko‘zlarida ko‘p yillik mehnat va qiynalishlarning og‘ir bir horg‘inligi ko‘rinardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Biroq malika uning ko‘ksidan bosdi. – Yo‘q, olampanohim, hali k a m q u v v a t siz. Siz menga faqat bugungina kerak emassiz-ku, jonim.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *U vaqtlarda aksariyat jamoa xo‘jaliklari iqtisodiy jihatdan k a m q u v v a t bo‘lib, bahorga chiqqanda aytarli puli qolmas, kam-ko‘sti uchun hisobda qo‘r bo‘lib turgan mablag‘dan ishlatishga majbur edi.* T.Po‘lat, Ichkuyov. *Men ham adabiyot maydoniga kirib, yaxshi-yomon bir-ikkita asar yozdim, bu safar kitobning ko‘p fazilatlari bilan birga ayrim z a i f tomonlari ham ko‘zimga chalindi.* O.Yoqubov, Abdulla Qodiriyni o‘qiganda. *Va’zxon hech nimani eshitmas-sezmas, parvoyi falak, z a i f, xirqiroq tovushda diydiyosini cho‘zar, u endi “ming yillik” xotiralaridan ham so‘z ochib ulgurgan edi.* E.A’zam, Shovqin. *Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan z a i f, yo‘q, zaif emas, mayin tovush eshitildi.* A.Qahhor, Ming bir jon. *Begimqulning dadasi Asakadagi katta bir millioner kolxozda bosh buxgalter bo‘lib ishlardi. Ko‘rinishidan u Begimqulning tamom teskarisi, n i m j o n gina, yuvoshgina, kamgap odam.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Johil va bag‘ritosh bir otaning chegarasiz qaysarligi va teskariligi oldida ojiz bir xotin... n i m j o n bir ko‘ngil...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shoikrom bu o j i z, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.* O‘.Hoshimov, Urushning so‘nggi qurboni. *Kechasi Begimqul izlab borganini bilganida Nilufar o‘zini xuddi o‘rgimchakning to‘riga tushgan pashshaday o j i z sezgan edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar.

KUCHSIZLANMOQ I, **QUVVATSIZLANMOQ, DARMONSIZLANMOQ, MADORSIZLANMOQ, NIMJONLASHMOQ, ZAIFLASHMOQ, OJIZLANMOQ** Lozim bo‘lgan ish-yumushni bajarishga, lozim darajada xatti-harakat qilishga, biron-bir gap, so‘zni aytishga holi kelmay, kuchi yetmay qolmoq. **Quvvatsizlanmoq** so‘zida jismoniy kuch darajasining me’yordan kamayib ketganligi **kuchsizlanmoq** so‘ziga nisbatan ortiqroq ifodalanadi, boshqa sinonimlaridan farqli ravishda oddiy so‘zlashuvda ham ko‘p qo‘llanadi. **Darmonsizlanmoq** va **madorsizlanmoq** so‘zlarida mazkur ma’no ochiqroq va kuchliroq ifodalanadi, asosan, oyoq-qo‘l, umuman esa tanaga nisbatan qo‘llanadi, badiiy va publitsistik uslublarda ishlatiladi. **Ojizlanmoq** kuch-quvvatdan qola boshlaganlikni yanada kuchli ifodalaydi. Asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

K

U shunday g‘aribona kuylar bilan aza tutib yig‘ladi. Shunday so‘zlarni aytgach, shikast topgan boshini yerga urdi. Yana k u ch s i z l a n ib, oxiri hushsiz holda yiqildi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *O‘g‘li Tohirjon sil kasalidan o‘lgandan keyin Shokir otaning beli yana ko‘proq bukilgan, ko‘zlari yig‘i bilan yana ko‘proq k u ch s i z l a n gan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Har doimgidek, oldinda og‘amiz borayotir. Uning bir mahallar alpday bo‘lgan gavdasi endilikda oldga egilgan, q u v v a t s i z l a n gan.* I.Sulton, Manzil. *– Hoy, – dedi Haydar mo‘ylov, – namuncha angrayasan? Olib chiqsang-chi! – Yo‘q, – Odiljonning oyoqlari q u v v a t s i z l a n ib cho‘kkalab qoldi.* A.Hotamov, To‘yona. *Humoyun ko‘p uringan sari yelkasidagi yaradan qon ketib, uni d a r m o n s i z l a n tirib qo‘ydi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *– Ha, bor, uni taniysizmi? – Taniyman... – Asadullaning boshi qizib, ko‘kragida sanchiq turdi, qo‘l-oyog‘i d a r m o n s i z l a n di.* T.Malik, Savohil. *Sattor birdan mag‘lubiyatga uchragan odamday butun vujudi m a d o r s i z l a n ib ketdi.* P.Qodirov, Erk. *Sen m a d o r s i z l a n ib qolgan oyoqlaringni zo‘rg‘a ko‘tarib hovli eshigigacha bording*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Nachora, hozir zahar inmagan ne’mat yo‘q; shuning uchun chumoli oilasida go‘daklar o‘limi ko‘payib ketdi, zurriyot n i m j o n l a sh di*. N.Rahmat, Jadid. *Lekin tashqaridagi buyruq bilan ichidagi haroratning o‘zaro ziddiyati, muvozanat buzilishi, oxir-oqibat, nimjon va yanada z a i f l a sh gan vujudga salbiy ta’sir o‘tkazdi, shekilli, kechga yaqin bolaning afti og‘riqdan bot-bot tirisha boshladi.* “Sharq yulduzi”. *Farzand otasi z a i f l a sh ib qolganida, xizmat qilish fursatini topdim deb jonkuyarlik qilishi lozim*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *...ammo u shu gapni aytdi-yu, beixtiyor bir so‘lish oldi. Shu-shu kechgacha o j i z l a n a bordi. Oqshomda isitmasi chiqib, yotib qoldi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Odamzod doimo odamlar orasida o‘zini erkin va qudratli sezadi, chetga chiqdi deguncha turli xavf-xatarga yo‘liqadi, yolg‘izlanib, pashshadek o j i z l a n ib qoladi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

KUCHSIZLANMOQ II**, QUVVATSIZLANMOQ, ZAIFLASHMOQ, OJIZLASHMOQ** Muayyan narsa-hodisa yoki shaxsning ta’sir kuchi va doirasi

yoki yashovchanligi kamaymoq, sustlashmoq. **Zaiflashmoq**da avval mavjud ta’sir kuchining me’yoriy holatdan kamayib ketganligi ta’kidi mavjud. **Ojizlashmoq** so‘zida biron-bir xatti-harakatni amalga oshirishga umuman imkonsiz bo‘lib qolganlikni ifodalash kuchli. Ushbu sinonimik qatordagi so‘zlarda holat belgisi darajama-daraja kuchayib boradi.

Radiostansiya ishdan to‘xtashi bilan to‘lqin so‘nmaydi. Radiopriyomnik qabul qila olmaydigan darajada k u ch s i z l a n ib, ma’lum muddat fazoda yuradi. T.Malik, Falak. *Elallomalar ishga tushganida tajribaxonani radioto‘lqindan muhofaza qiluvchi pardaning k u ch s i z l a n gani sezildi.* T.Malik, Falak. *...ajriq, kurmak va semizo‘tlar unib chiqadi, keyin ular ham suvsizlikdan ilviray boshlashadi... durkun tanalari so‘ladi, ozadi, ingichkalashadi, q u v v a t s i z l a n adi, suvsizlikdan avval och-yashil, so‘ng sarg‘imtir tusga kiradi.* I.Sulton, Ozod. *Raykom uni ko‘z ostiga olib yurgan ekan, cho‘lda yangi tashkil qilinib, hali qaddini ko‘tarmay turib, azamatlarini jangga kuzatgan, o‘zi nihoyatda quvvatsizlanib qolgan kolxozga raislikka tavsiya etdi.* S.Ahmad, Yer uyg‘ondi. *Shom kunduz bosimini ozaytirib, yengillik ola keldi. Qizg‘ish yog‘dular zaiflashib g‘oyib bo‘lar ekan, nimtatir-ko‘kimtir tuslar qolganida, yulduzlar ko‘paya bordi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Movarounnahrda esa shayboniyzodalarning hokimiyati parcha-parcha bo‘lib z a i f l a sh ib bormoqda.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Axir shu sahroyi qavm emasmi, qoraxoniylardek oliy nasab hukmdorlar sulolasining ildiziga bolta urib, ularning sarhadlariga daxl qilib, o j i z l a sh uviga sabab bo‘lgan?* N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

KUCHSIZLIK, QUVVATSIZLIK, HOLSIZLIK, MAJOLSIZLIK, DARMONSIZLIK, MADORSIZLIK, ZAIFLIK, OJIZLIK Lozim bo‘lgan ish-yumushni bajarish, lozim darajada xatti-harakat qilish, biron-bir gap, so‘zni aytishga holi kelmaslik, kuchi yetmaslik. **Holsizlik, majolsizlik, darmonsizlik** va **madorsizlik** so‘zlarida belgining me’yordan ancha kamligi ahglashiladi. **Zaiflik** kuchsizlik ifodasini qatordagi boshqa sinonimlariga qaraganda kuchliroq va umumiyroq ifodalaydi, asosan, badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Ojizlik**da bu ta’kid yanada kuchli ifoda topadi.

To‘g‘risi ham ul dadasi tomonidan so‘zlangan haligi qonung‘a qarshi chiqish uchun lozim bo‘lg‘an kuchka molik emas; bas, k u ch s i z l i k ning natijasi esa sukut edi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qo‘liga tiralib o‘rnidan turmoqchi bo‘lgandi, chap qo‘li k u ch s i z l i k qilib yana o‘tirib qoldi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Botir firqa qo‘l uzata-uzata qoldi. Tobutga qo‘li yetmagani uchun yoshidan o‘pkalamadi. Q u v v a t s i z l i g i dan-da o‘pkalamadi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *U q u v v a t s i z l i g i tufayli ortiq do‘mbira chalib kuylay olmasa ham, turklar kechmishiga oid doston-u rivoyatlarni yaxshi bilgani uchun elda aziz va tabarruk.* G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Kasallikning o‘tkir boshlanishida tana harorati 37,5–37,8°, hatto undan ham yuqori bo‘lishi mumkin,*

bundan tashqari, h o l s i z l i k, quvvatsizlik, bosh og‘rishi, uyquchanlik ham kuzatiladi. N.Xo‘jayeva, Psixiatriya. *Ustoz o‘rnidan azot turib olganini, holsizlik dan chayqalib ketmaslik uchun tizzalari bilan karavotning chekkasiga suyanib turganini Umid keyin payqadi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza… *Lekin shu topda Ustozning sochi u kishining qaysarligidan emas, balki m a j o l s i z l i g i dan Umidning barmoqlariga bo‘ysunmayotgan, to‘g‘rirog‘i, hatto bo‘ysunishga ham holi qolmay, bemorning chap qulog‘i-chap qanshari aralash yoyilib tushgan edi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza… *Bu orada hovliga gavdali, ayol “cholim” degani bilan ko‘rinishi chollik martabasiga yetmagan, oyoqlari og‘ir gavdani ko‘tarishga m a j o l s i z l i g i danmi, o‘rdak kabi lapanglab yuruvchi uy egasi kirdi.* T.Malik, Shaytanat. *Qo‘llari qoshiqni m a d o r s i z l i k bilan ko‘tararkan, uning shu soniyada yana ham ifodasiz tusga kirgan yuziga qarab, ovqatni ham eplab icholmaydigan asabiy va ro‘dapo cholning rassom ekanligiga sirayam ishongim kelmasdi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Saodat. Ertalabdan beri ko‘nglimda Bir xiralik bor. Jalol. Sog‘inchdan, d a r m o n s i z l i k dan...* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Hozirgina Roziyani bo‘shashtirib turgan d a r m o n s i z l i k qayoqqadir yo‘qoldi. Butun vujudiga iliq bir kuch quyulganday bo‘ldi.* P.Qodirov, Erk. *O‘rnidan bazo‘r turib tashqariga yo‘l oldi. M a d o r s i z l i k dan boshi aylanar, oyoqlari qaltirab, sillasi tobora qurib borardi.* E.Norsafar, Zulmat va alanga. *Odatda, qandli diabetning birinchi turida chanqash, m a d o r s i z l i k, asabiylik, tana vaznining kamayishi yaqqol kuzatiladi.* Gazetadan. *Agar sizda tez-tez chanqash, muntazam og‘iz qurishi... holsizlik va darmonsizlik ...kuzatilsa, albatta, shifokorga murojaat qiling.* Gazetadan. *Zargarov badanida z a i f l i k sezib, suhbatdan hafsalasi qochdi.* A.Muxtor, Bo‘ronlarda bordek halovat. *...Bu gaplarning Tangirga zaifona o j i z l i k bo‘lib tuyulishini, qorni to‘q saxiy qorni och yo‘qsulning tekin ne’matdan bosh tortishini hech qachon tushunmasligini bilib, ochiq aytolmayman...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

KO‘K I**, YASHIL, ZANGOR(I), KO‘KMAK** Yashnab, gurkirab o‘sib turgan o‘t-o‘lan rangidagi, yashnagan yaproq tusidagi. **Yashil** shu rangni **ko‘k** so‘ziga nisbatan biroz kuchliroq ifodalaydi, ya’ni to‘q ko‘k rangni bildiradi, asosan, badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Zangor** shaklida, asosan, badiiy uslubda, **zangori** shaklida oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. Umuman, **zangor** shakliga nisbatan **zangori** shakli nutqda faol, ammo ular o‘rtasida rang ifodalash jihatidan farq yo‘q. **Ko‘kmak** so‘zida belgi darajasi nisbatan ortiqroq, shevaga xos.

Ular yalang‘och bedanalarni birpasda tozalab, peshnob bilan ilikdek po‘st-dumba qiymasiga k o‘ k kashnich, ariq bo‘ylaridan terib kelingan yalpiz, zira, zirk, jambil qo‘sha boshladilar. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Qir y a sh i l, bog‘ y a sh i l, bo‘stondir y a sh i l, Bahoriy libosda jahondir y a sh i l, Erk y a-*

sh i l, istiqlol, imondir y a sh i l, Vatanim, muborak bo‘lsin navro‘zing. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Navoiy “Unsiya”ga kirib kelganida Bektosh bobo ariq bo‘yida o‘tirib, oq gul ochgan y a sh i l yalpizlarni birma-bir yulayotgan ekan.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Quyosh nuri tushmaydigan soya yerlarda o c h z a n g o r tusli zax bor.* I.Sulton, Ozod. *Xayr senga, yaxshi bor, tuman, Xayr senga, eriyotgan qor – Chaqmoq chaqib, gulduros bilan Kelayotir z a ng o r i bahor.* “Sharq yulduzi”. *Z a ng o r i yaproqlar shahrida, G‘unchalar orzumdek har safar.* R.Parfi. *Go‘yo k o‘ k m a k o‘tlar qilvir qo‘llari bilan suvni jilovlab, bo‘g‘ziga chang urganlar.* T.Malik, Davron. *Eslamay nima! Chamasi, ming-minglab nusxada tarqalgan plakatsimon bir tasvir-da. Bir yoni pushtinamo allaqanday yirik shaftoli, k o‘ k m a k butog‘i tikkayib turibdi.* E.A’zam, Stupka.

KO‘K II**, MOVIY, HAVORANG** Tiniq osmon rangidagi. **Ko‘k** keng tushunchaga ega bo‘lib, *ko‘k ot*, *ko‘k ko‘z* kabi ranglarni ham bildiradi. **Moviy**, asosan, badiiy va publitsistik uslublarga xos. **Havorang** so‘zi shu rang ma’nosini **moviy**ga nisbatan kamroq darajada bildiradi, och ko‘k rangni ifodalash uchun so‘zlashuv va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Havorang** so‘zining qo‘llanish doirasi **ko‘k** so‘zi singari keng, ammo belgi darajasi me’yordan kamroq. K

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o‘ziga juda ham katta k o‘ k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko‘chaga qarab o‘tirgan edi... A.Qahhor, Ming bir jon. *Juvon saroyga kirib, k o‘ k toy minib chiqdi.* A.Qahhor, Dahshat. *Qiz xunukkina, ko‘rimsizgina; aft-boshini soch-soqol bosgan yigit esa, sirtdan qo‘sqiroq ko‘rinsa-da, nihoyatda xushsurat, ko‘zlari Vikaniki singari m o v i y ...edi*. E.A’zam, Shovqin. *Oldinda kunduz Suyunni so‘roq qilgan, Sharanovskiy degan, novchadan kelgan, jingalak mallarang sochlari shoirona to‘zg‘igan, tiniq m o v i y ko‘zlari yosh bolaning ko‘zlariday ma’sum yosh yigit...* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Hikmatillo piyoda yurib, “Rossiya” mehmonxonasi yonidan h a v o r a ng gumbazlar xiyoboniga, undan Qizil maydonga o‘tdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Xiyobonning u boshida naqshdor h a v o r a ng baland ayvonning bir chekkasi ko‘rinib turar edi*. A.Qahhor, Hikoyalar.

KO‘KARMOQ, KO‘KLAMOQ, UNMOQ, AMAL OLMOQ, O‘SMOQ Ko‘k barg chiqarib, o‘sa boshlamoq. Shu ma’noda **ko‘klamoq** so‘zi tomiridan ko‘karadigan daraxtlarga nisbatan qo‘llanadi, asosan, oddiy so‘zlashuvga xos. **Ko‘karmoq** bu ma’noda daraxtlar va urug‘i hamda tomiridan ko‘karadigan ekin turlariga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Unmoq** va **amal olmoq** so‘zlarida o‘sib-rivojlanishning ilk bosqichiga xos holat ta’kidi mavjud, kitobiy uslubga xos. **O‘smoq** o‘sib-rivojlanishning umumiy bosqichini bildiradi.

Kungaydan hayotbaxsh ekan yer bahri, O‘z o‘rnida yana k o‘ k a r di daraxt. Zulfiya, Saylanma. *Ajriq g‘o‘za k o‘ k a r ib chiqmasdan oldin k o‘ k a r adi. Boisi – ajriq tomirdan k o‘ k a r adi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Erta ko‘klamdayoq kesilib, xodasi ishkomga ishlatilib ketgan tollar tekis k o‘ k l a b*

yotibdi. Taglariga savat ko‘targan xotinlarning soyasiday soya tashlagan. M.Mansur, Judolik diyori. *Qarangki, guzardagi bu tollar kallaklanib, qator do‘konlar-u rastalar yopilib qolganidanmi, u allaqanday fayzsiz ko‘rinar, tollar esa endigina k o‘ k l a b kelar, yangi navdalari hali qing‘ir-qiyshiq butoqlarini enlab ulgurmagan edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bahorda bu yerdan turli-tuman nabotot u n ib chiqadi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Kurmakning suvi taxir, ajriqniki yanada achqimtirroq. Sababi kurmak suvliroq joyda o‘sadi, ajriqqa esa baribir, duch kelgan joyda u n ib ketaveradi*. I.Sulton, Ozod. *Qish qaridi. Yel ko‘klamni poyladi. O‘t-o‘lan a m a l o l ishini qaradi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Eng muhimi, mening xizmatimdan sizlar rozi bo‘lsalaringiz, nihol a m a l o l adi. Bo‘lmasa yo‘q*. T.Malik, Shaytanat. *Hamdam... mashinadan tushdi-da, tarvaqaylab o‘ s gan daraxt sari yurdi*. T.Malik, Shaytanat. *Nonjiyda ... sernam yerlarda yaxshi o‘sadi*. “Botanika”.

KO‘KAT, KO‘K 1. O‘sish jarayonida bo‘lgan o‘t-o‘lan, maysa va turli ekinlar. **Ko‘k** so‘zi mazkur ma’noda, asosan, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi.

Uyida vaqtida Razzoq so‘fi yo ariq bo‘yidagi k o‘ k a t larni yulib, yo eshik va darvozalarning bo‘shalib qolgan zanjirlarini mahkamlab... yura beradi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ko‘ragon tog‘idan mayin shabada esyapti, ko‘katlarning hidi dimoqni qitiqlaydi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Yomg‘irlar yog‘ib, yerda o‘t-o‘lanlar ko‘rina boshladi, hayvonlarning og‘zi ko‘kka tegdi.* M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari. *Mening brigadamga qarashli yerdan uch gektariga misr paxta ekdim. K o‘ k i juda yaxshi*. G‘.G‘ulom, Tirilgan murda.

2. Bahorda yangi chiqqan, somsa, chuchvara kabi ovqatlarga ishlatiladigan otquloq, yo‘ng‘ichqa, ismaloq, yalpiz kabi o‘t-o‘lanlar yoki kashnich, ukrop, ko‘k piyoz kabilarning umumiy nomi. **Ko‘k** so‘zi shu ma’noda oddiy so‘zlashuvga xos.

Binafsha qovurdoqni chiroyli laganga suzib, atrofini k o‘ k a t lar bilan bezatib, dasturxonga olib kelib qo‘ydi. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Qishloqda Sharvon buvi degan so‘qqabosh kampir bor edi. Rahmatli bir parcha yerida k o‘ k a t, rezavor yetishtirar, ba’zan ermak uchun bozorga ham eltar edi.* O.Jorqinboyev, Portret. *K o‘ k terish bahonasi bilan bir-ikki marta keng hovlilarga, shahar ichida bo‘lsa hamki, dala-tuzlarga chiqib kelganidan beri ko‘ngli qirlarni, dalalarni, ishqilib, olis-olis joylarni yana ko‘proq tusay boshlagan edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *K o‘ k solib qatiqlangan mastavaning lazzatli hidi keldi.* A.Muxtor, Opa-singillar.

KO‘KRAK I, EMCHAK, MAMMA, SIYNA Tananing ko‘krak qismida joylashgan bir juft sut bezlari, ularning har biri. **Emchak** so‘zi bu ma’noni biroz ochiq va dag‘al tarzda ifodalaydi. **Mamma** so‘zi, asosan, oddiy so‘zlashuvda,

bolalar nutqida ishlatiladi. **Siyna** so‘zida poetik bo‘yoq bor, badiiy uslubda qo‘llanadi, tushunchani pardalab ifodalaydi.

Yo‘g‘on tim qora ikki soch o‘rimi, uning egnidagi oppoq shohi ko‘ylak ustidan balqib turgan k o‘ k r a k orqali pastga, kindikka qadar tushib turadi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Dumaloq k o‘ k r a k lari turtib turgan ko‘ylagi har nafas olganida ko‘tarilib, belini tarang qilib tortar, tushganda esa k o‘ k r a k lari o‘rtasida uzun chiziq hosil qilardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Qo‘lidagi bolani bir siltab, e m ch a k dan oldi-da, Gulchehraga uzatib, deraza yoniga bordi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Kenja onasi yoqasini tataladi. – Ena, m a m m a! M a m m a ber! – dedi. Onasi o‘g‘liga e m ch a k berdi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Agar bolasi nobud bo‘lmay, uni bag‘riga bosa olganida edi, chaqaloq m a m m a siga talpinganida edi, bu rohatni, bu ulug‘ baxtni his etgan bo‘lardi.* T.Malik, Shaytanat. *Ikkinchisi men o‘limga mahkum bo‘lganimda o‘zining hayotbaxsh s i y n a sini tutgan, sut emas, ob-hayot bergan, meni o‘lim so‘qmog‘idan olib, tiriklik yo‘liga qo‘ygan.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Mening toleyimga biz ko‘chib borgan ovulda yaqinda chaqalog‘i o‘lgan yolg‘iz mushtipar ona bor ekan. O‘sha menga s i y n a sidan sut berib boqibdi.* E.Vohidov, Yoshlikda eshitganim.

KO‘KRAK II**, KO‘KS, BAG‘IR, SIYNA, TO‘SH, O‘MROV** Tananing bo‘yindan qorin boshlanadigan joygacha bo‘lgan old qismi. **Ko‘ks, bag‘ir, siyna** so‘zlari faqat insonning shunday tana a’zosiga nisbatan qo‘llanishi bilan **to‘sh, o‘mrov** so‘zlaridan ajralib turadi. **Ko‘ks** va **bag‘ir** so‘zlari ko‘pincha egalik qo‘shimchalarini olgan holda qo‘llanadi. **Bag‘ir** ma’lum so‘zlar (masalan, *bosmoq, bermoq* so‘zlari) bilan ko‘p qo‘llanadi. **Ko‘ks** so‘zida poetik bo‘yoqdorlik **bag‘ir** so‘zidagi shunday belgidan kuchli. **Siyna** badiiy uslubga xos, poetik bo‘yoqdorlikka ega. **To‘sh,** asosan, hayvon va parrandalar tanasining shu qismiga nisbatan ishlatiladi, shevaga xosligi seziladi. **O‘mrov** so‘zi insonlarga nisbatan ham, hayvonlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi.

Tabib chakkalariga, bilaklariga, k o‘ k r a k lariga soch tolasiday ingichka tilla ignalar qadagach, yanada yengillashib, uyquga ketganini o‘zi ham sezmay qoldi. T.Malik, Shaytanat. *Taxtning ortida ikki zabardast zanji qo‘llarini k o‘ k r a k larida qovushtirib, haykaldek qotib turar, lekin sovuq nigohlari sergak edi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *K o‘ k s i quyoshday yagona, quyoshday yorqin onalik mehri bilan to‘lib-toshdi. Shavkatni mahkam bag‘riga bosib, negaligini o‘zi ham tushunmay jilmayib qo‘ydi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Muhammad akaning bedazorida b a g‘ r i mni yerga berib yotaverdim…* I.Sulton, Ozod. *Yusufning b a g‘ r i da – juda chuqur bir joyda nimadir, allaqanday aziz bir rishta uzilganday bo‘ldi, yo‘q-yo‘q, uzildi “chirt” etgan tovushni uning qalb quloqlari aniq eshitdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Ona, deb tanho, Indamay qo‘yurlar s i y n a siga bosh.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *S i y n a si*

alamga, ayriliq, yetimlik iztiroblariga, musofirlik o‘kinchlariga to‘lib ketgan edi. “Sharq yulduzi”. *Emishki, yakkabuloqlik Boborayim gov hamqishloqlari Sobir polvonning qonini ichmoq qasdida yurganmish. U meni tuproqqa qorib ketdi, endi men uni qizil qoniga belayman, pichog‘im qayroq ustida, o‘chim t o‘ sh ostida, deganmish.* N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun. *Odamning yo hayvonning ko‘krak qismi t o‘ sh deyiladi.* I.Sulton, Qoraqush yulduzining siri. *O‘ m r o v ini stol qirrasiga qo‘yib: – Xo‘sh, xizmat? – dedi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Ertasi kuni yana dovon tomonga ko‘tarilib borayotganlarida qorning qalinligi otning o ‘m r o v igacha chiqdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

KO‘NIKMOQ, O‘RGANMOQ, ODATLANMOQ, ODAT QILMOQ Mavjud holat, shart-sharoit, hayot tarzi, gap-so‘z, xatti-harakat va boshqa jarayonlarga odatiy hol deb qaramoq, ularga nisbatan shunday ko‘nikma hosil qilmoq. **O‘rganmoq** so‘zida yakka shaxsga xos xatti-harakat yoki tutumning odat bo‘lib qolganligi ma’nosi **ko‘nikmoq** so‘ziga nisbatan kuchli ifodalanadi, u oddiy so‘zlashuvga xos. **Odatlanmoq**da ko‘pincha kishining o‘z ixtiyoricha biron-bir xatti-harakat va qiliqni qilishga o‘rganib qolganligi ta’kidi anglashiladi. **Odat qilmoq** kitobiy nutqda ko‘p ishlatiladi.

Men esa shu uch-to‘rt kun ichida bunaqa ajabtovur gap-so‘zlarga ko ‘n i k i b qolgan edim. E.A’zam, Shovqin. *Avom kundalik hodisalarni tug‘ilganidan buyon ko‘ra-ko‘ra k o‘ n i k ib ketgani uchun ham, g‘ayriodatiy holatgina uning ongiga qattiq ta’sir qiladi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *U yo‘lida uchragan har qanaqa g‘ovni bosib-yanchib o‘tishga, doimo g‘olib chiqishga o‘ r g a n gan edi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Qopni yelkamga olaman-u og‘irligini sezmayman – balki, o‘ r g a n ib ketgandirman.* I.Sulton, Ozod. *Said ayoliga bo‘ysunib o‘rgangandi, uning yo‘rig‘iga yurib o d a t l a n gandi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Yoyilib-yastangan o‘lkaning qayeriga bormang, odob bilan salom beradigan, kattalar oldida hurmat saqlashga o d a t l a n gan dastyorlar hozir-u nozir...* I.Sulton, Genetik. *Saxiylikni o d a t q i l gan bo‘lsa kim, Elga sochgan bo‘lsa borini doim. Himmati bor bo‘la turib, ilohim, Qo‘lidan davlati ketmasin uning.* E.Vohidov, Tilak. *Koshona egalari salqin xonalarda jimgina yotib, uyqu bilan jon saqlashni o d a t q i l ganlar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

KO‘NMOQ, ROZI BO‘LMOQ, UNAMOQ, YURMOQ Amalga oshirilishi niyat qilingan biron-bir ish, iltimos, maslahat, talab, shart va boshqalarga rozilik bildirmoq. **Unamoq** so‘zida zo‘r-bazo‘r rozi bo‘lishlik ta’kidi qabariq ifodalangan, ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos. **Yurmoq** so‘zi mazkur ma’noni muayyan sintaktik qurshovda kelganda namoyon qiladi, asosan, so‘zlashuv nutqiga oid.

Domla (xayolchan). ...Sizning qistovingiz bilan k o‘ n ishga k o‘ n dim-u, lekin o‘sha kundan beri o‘zimga kelolmayman, to‘g‘risi! E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Hamida bonu Humoyundan bir oyga muhlat so‘raganini, hazrat shun-*

ga k o ‘ n ganini aytdi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Hayratda qolgan ota-ona shu zahotiyoq rus qizini kelin qilishga r o z i b o ‘ l gan ekan*. E.Vohidov, Umrim daryosi. *G‘ilayning shartga osonlik bilan r o z i b o ‘ l ganidan u ko‘p ham ajablanmadi.* T.Malik, Shaytanat. *Zebi u n a di: – Bo‘lmasa, siz o‘zingiz nariroqqa borib o‘tiring! – Xo‘p, qizim, xo‘p, – dedi domla.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ana shunda ishondimki, bu odam, haqiqatan ham... avvalo, shu ko‘l uchun kelgan ekan, shuni deb taklifimga u n a gan ekan*. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *To‘g‘ri, ixtiyor o‘zlarida, lekin sizga maslahat soladilar, maslahatingizga y u r adilar-da, yaxshi maslahat bersangiz, y u r maydilarmi?* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *U “Asadbek Kesakpolvon degan ahmoq oshnasining maslahatiga y u r adi”, – deb o‘ylagan.* T.Malik, Shaytanat.

KO‘P, KO‘PLAB, ANCHA, TALAY, SONSIZ, SANOQSIZ, BESANOQ, BEHISOB, HISOBSIZ, ADADSIZ, BEADAD, MO‘L, SEROB, BISYOR K

Son jihatidan me’yordan ancha ortiq, miqdoran keragidan ham ko‘p; zidi oz. **Ko‘plab** miqdoran ko‘plikni jamlab, umumlashtirib ifodalaydi, kitobiy uslubga xos. **Ancha** so‘zi anglatgan miqdor darajasi **ko‘p** so‘zi anglatgan miqdor darajasiga nisbatan kam, bu so‘z umumiyroq, noaniqroq miqdorni bildiradi. **Talay** so‘zi ham narsa-hodisalarga, ham vaqt bilan bog‘liq tushunchalarga nisbatan qo‘llanadi, bu so‘zdagi miqdoran ortiqlik belgisi **ancha** so‘zidagi shunday belgidan kamroq, asosan, kitobiy uslubga xos. **Sonsiz, sanoqsiz, hisobsiz, behisob** so‘zlari faqat narsaning miqdoran ortiqligini bildirish uchun qo‘llanadi va belgini juda kuchli darajada ifodalaydi. Ushbu to‘rt sinonimda miqdor darajasi **behisob** so‘ziga qadar darajama-daraja kuchayib boradi, **behisob** so‘zida haddan tashqari ko‘plik ta’kidi qabariq ifodalangan, ular, asosan, kitobiy uslubga xos. **Adadsiz** va **beadad** so‘zlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida qatordagi so‘zlarga qaraganda kamfaol, ko‘pincha kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Mo‘l, serob** so‘zlari ma’nosida to‘kinlik ta’kidi mavjud, vaqtning miqdorini ko‘rsatish uchun qo‘llanmaydi. **Bisyor** so‘zi ma’nosida poetik bo‘yoqdorlik mavjud. **Besanoq** kam qo‘llanadi.

Chiyabo‘rilar to‘dasi halokatli bo‘ladi. Bularning sanog‘i uch-to‘rtta emas, ancha k o ‘ p edi. I.Sulton, Ozod. *Bu voqea uni qattiq qayg‘uga soldi, lekin shu bilan bir vaqtda, k o ‘ p narsaga o‘rgatdi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *To‘g‘ri, shaharda keyin ham, ayniqsa, zilziladan so‘ng k o ‘ p l a b imoratlar qad ko‘tardi, ne-ne sarvqomat binolar bo‘y cho‘zdi.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *O‘sha kechasi k o ‘ p l a b ulug‘ sayyidlar va olimlar ul hazratning fayzli qabrlari boshida bedor o‘tirib chiqishdi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *O‘shanda ham yoz bo‘lib, Abdulla kanikulga kelgan edi. Bu xabarni eshitib, Gulchehra ikkalovi a n ch a qayg‘urishdi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Momom keyin t a l a y zamon urchug‘i bilan mashg‘ul bo‘lgach, yana gapga tushib ketardi rahmatli*. E.A’zam, Shovqin. *Ro‘ziqul t a l a y musobaqalarda qatnashib yutib chiqdi.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Yo‘l boshida s o n s i z chiroqlar porlar, daryo*

ustidagi Yashil ko‘prikdan gupullab poyezd sostavi o‘tardi. S.Ahmad, Ufq. *Oy hali chiqmagan; faqat kechaning qorong‘isiga o‘chakishgan s a n o q s i z yulduzlar tepada turib mash’allarini yondirganlar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Tuproq ko‘pchib-jo‘shib, s a n o q s i z xazinalarni bag‘ridan chiqarib yuborar, turli-tuman mevalar-u o‘tlar yetila boshlardi*. I.Sulton, Ozod. *Odamzodning bola-chaqasi, qavm-qarindoshi, urug‘-avlodi-yu qabila, millati s o n-s a n o q s i z bo‘lishi mumkin, lekin o‘zi yagona, bir nusxalik, xolos!* E.A’zam, Shovqin. *Muzday suv s o n-s a n o q s i z ignalar kabi badaniga sanchilib, zirillatib azob berar, kaftlari, tirnoqlarining uchigacha bezillar, yulg‘un sirg‘alib, sidirilib ketadiganday, butani qattiqroq siqimlardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Ichidan nimadir uzilganday, boshidagi siyrak soch tolalari o‘rniga b e s a n o q ignalar sanchilganday bo‘ldi, seskanib ketdi chol.* Q.Norqobil, Guldurak momo. *Marjontov etagida, uning ser-suv soylari, ko‘m-ko‘k yaylovlarida ko‘proq yilqi va qoramol boqiladi, qo‘y-echkilar esa Marjontovning o‘ng qanotidagi b e h i s o b adirlar, sero‘t, sergiyoh sayhonliklar, yantoqzor dalalarda boqiladi*. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Bog‘imiz b e h i s o b hosil bersa-da, huvullagan dilimda katta bir armon o‘rgimchakka aylanib o‘rmalar, to‘r qurar, to‘riga o‘zimni ilintirardi*. I.Sulton, Ozod. *Otabek so‘z boshladi: – Siz mendan ham yaxshiroq bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarg‘a solg‘an, cheksiz jonivorliqlar ishlatkan va h i s o b-s i z tillalar to‘kdirgan, nihoyat, shu daqiqag‘a keltirib to‘xtatqan birav uxlaydir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Erta tong mahali, hali quyosh tog‘ning ortidan ko‘tarilmasdan dalaga chiqsangiz ...h i s o b s i z qo‘y-qo‘zi podalarini ko‘rasiz.* O‘.Umarbekov, Sevgim, sevgilim... *Jang-u jadallarda necha-necha odamning yostig‘ini quritgan, a d a d s i z jonivorlarni xokka qorgan sulton Malikshohning yodiga o‘sha voqea tushishi hamono yuragi zirillab ketadi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Keng uyga sig‘magan mushtday yurak tog‘ yonbag‘irlarida, bir-biriga chirmashib yotgan to‘qayzor-u chakalakzorlarda, tovonini teshadigan mayda tosh zarralari ustida a d a d s i z taskin topardi.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Go‘yo u kutgan gaplar satrlar orasiga yashiringanday, xatni qayta o‘qidi, uchinchi marta, oltinchi, sakkizinchi, yuzinchi marta o‘qidi, so‘ng, butun vujudida b e a d a d bir horg‘inlik sezib, tag‘in devorga suyandi-da, tag‘in ko‘zini yumdi*. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Jahon podsholari xazinasidan Oltin yuborganda hamki b e a d a d, Dilorom, Dilorom, Jajji singilcham, Sening yordamingcha bo‘lmasdi madad.* E.Vohidov, Shahri Dilorom. *Daraxtlar tani pakana, mevasi m o‘ l va yirik.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bolam, orzularim m o‘ l, hammasi ajoyib, yorug‘*. I.Sulton, Uzuk. *Yeydigan ovqat esa yo‘q, aniqrog‘i – bor, hatto mo‘l-ko‘l-u, lekin men emas, Baynalmilal bobo yeydiganidan s e r o b!* E.A’zam, Shovqin. *Yeri toshloq, har bahor soy toshib, sel kelib bezor qilsa ham, xalq mana shu sohilga naq yopishib olganday, aholi ko‘payaveradi: suv s e r o b, bog‘-rog‘ tutash...* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Hosilot bobom adir etagidagi hayhotdek chorbog‘ni egallab o‘tirar, hovli-harami katta, har yon uy-ro‘zg‘or*

– *tog‘alarimniki, bola-baqra ham b i s y o r, chug‘ur-chug‘urning makoni edi.* E.A’zam, Shovqin. *Badavlat amaldorning qizi Manzuraga talabgorlar b i s y o r edi*. U.Hamdam, Muvozanat.

KO‘PAYMOQ I, **ORTMOQ, OSHMOQ, OSHIB-TOSHMOQ, URCHIMOQ, SEROBLASHMOQ** Son, miqdor jihatidan me’yordan ko‘p, ortiq holatga o‘tmoq. **Ortmoq, oshmoq** so‘zlariga bu ma’noni me’yoriy holatga nisbatlab ko‘rsatadi. **Ortmoq** kitobiy nutqqa, **oshmoq** oddiy so‘zlashuvga xos. **Oshib-toshmoq** so‘zi ma’nosida haddan ortiq ko‘payganlik ta’kidi qabariq ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda ham ko‘p qo‘llanadi. **Urchimoq** so‘zi ma’nosida ko‘payganlikning o‘z-o‘zidan ekanligi ta’kidi mavjud, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Seroblashmoq** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi.

Choyxonada odam k o‘ p a y di. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Usmon aka o‘zgarmabdi. Faqat sochi kumushdek oqarib ketibdi, ko‘z ostidagi ajinlari k o‘-p a y ibdi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Savdo qiziq, mijozlar o r t di, mol-dunyo daryo bo‘lib oqib kela boshladi.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Chirchiq daryosi esa yil sayin o r t ib borayotgan iflos oqavalar hisobiga tobora ko‘proq bulg‘anmoqda*. A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *O‘zbek, turkman, tojik, hind, arab, ajam, fors – qo‘yingki, hamma bani bashar bu og‘ir soliqdan xalos bo‘lib, daromadlari o sh ibdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Sho‘rolar jamiyatida o‘smirlar orasida jinoyatchilikning o sh i bbor ishini tan olgilari kelmay, ko‘p ma’lumotlarni yashirishardi yoki kamaytirib ko‘rsatishardi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Bu harakat ularni bir-biriga yana ham yaqinlashtirib qo‘ydi. Akobirning sevgisi ham, Masturaning muhabbati ham o sh ib-t o sh ib ketdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *– Mayli, sizlar indamanglar – pullaring ko‘p, maoshlaring o sh ib-t o sh ib yotibdi!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *...so‘ngra asli palagi toza Jiydalida nechuk keyingi yillarda bundayin aynish-buzilishlar u r ch i b ketayotgani taftish qilindi va, nihoyat, hamma balo “mana shu ichib o‘tirgan suvimiz”ga kelib taqaldi.* E.A’zam, Guli-guli. *Oshkoralik bo‘lmas ekan, odamlarda ishonchsizlik kayfiyati yuzaga keladi, turli xil mish-mishlar u r ch i ydi, pirovard natijada davlatning obro‘siga putur yetadi.* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Lekin, hali aytganimizday, hovliqib-entikib yurganlarning, salla ol desa, kalla oladiganlarning urug‘i s e r o b l a sh gan paytlar edi.* A.Yo‘ldoshev, Quduq. *Uzr, “Sayohat xotiralari”dan tag‘in chalg‘ib, iqtiboslarni s e r o b l a sh tirib yubordim*. N.Rahmat, Jadid.

KO‘PAYMOQ II, **URCHIMOQ** O‘zidan ko‘p nasl qoldirmoq. **Urchimoq** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Ko‘paymoq** so‘zi keng va umumiy ma’noli so‘z sifatida mazkur ma’noni subyektiv bahosiz ifodalaydi, odamga ham, boshqa jonzotlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi.

Bu o‘rmonda quyonlardek urchib, k o‘ p a y ib, Quyonlardek tanimaymiz bir-birimizni. E.Vohidov, Istanbul fojiasi. *Ha, ana, birini so‘yding-u go‘shtini*

qo‘ni-qo‘shning bilan tanovul qilding deylik. Qolganlari esa yerda o‘sib yotgan son-sanoqsiz o‘tlarni yeb, o‘z-o‘zidan k o‘ p a y ib yuraverishadi. I.Sulton, Ozod. *...sayozlashgan yerlaridan qamish va qiyoqlar bosh ko‘taradi... ularning popiltiriqlari har tomon uchadi va qayda nam bo‘lsa, o‘sha yerga o‘rnashib yana u r ch i ydi, bir kuni qarasang, bu yerda qamishzorni ko‘rasan.* I.Sulton, Ozod. *Tanasi xol-xol, ko‘zi ko‘k, yuzi qora bu maxluqlar ko‘p zamonlardan beri tog‘ning ortidagi o‘ngir-u puchmoqlarda u r ch i b-ko‘payib yotadi der edilar.* I.Sulton, Ozod.

KO‘PINCHA, AKSAR, AKSARIYAT, ASOSAN Ko‘p hollarda, ko‘p vaqtlarda. **Aksar va aksariyat** so‘zlari mazkur ma’noni vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan birikib namoyon etishga xoslangan, ammo alohida holatda ham ba’zan mazkur ma’noni ifodalaydi. Har ikki sinonim kitobiy uslubga xos. **Asosan,** so‘ziga bu ma’noni odat, qoida tusiga kirganlik belgisini qo‘shib ifodalash ham xos, oddiy so‘zlashuvda, rasmiy, ilmiy nutq shakllarida faol.

K

Uning sal narsaga qizarishi ham, qizlardek tortinchoqligi ham, chiroyli chehrasi ham k o‘ p i n ch a Alimardonning jig‘iga tegardi. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *– Bizda o‘zi k o‘ p i n ch a shunday, – dedi Tursunali aka o‘ylanib. – Yaxshi odamlar tez kasalga chalinadi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ollohga shukr, a k s a r hollarda uloqni davradan Suyun akasi yulib chiqardi...* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Biroq nega otasi ularning aloqalari bilan qiziqib qoldi? Aloqalari har doimdagidek yaxshi. A k s a r i vaqt ular birga*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Kelinoyim meni ko‘zi to‘rt bo‘lib qarshi olar, chunki tog‘amning xatlarini a k s a r i y a t men olib kelar edim*. O.Yoqubov, Yaxshilik. *Amir ana shu Ko‘plikdan, ruhlarning jamuljamidan najot qidirdi, lekin a k s a r i y a t hollarda sonlardangina iborat bu jamoadan naf ko‘rmadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Xuddi shu fe’li goho shoirga xush kelar va a k s a r i y a t hollarda uning beozor sho‘xliklari g‘ashnok qalbini tarabnok (xursand) etardi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Bu nashriyotda a s o s a n siyosiy adabiyotlar bosiladi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Zohid prokuror bilan a s o s a n majlislarda ko‘rishardi, yuzma-yuz holda gaplashish sharafiga hali muyassar bo‘lmagan edi.* T.Malik, Shaytanat.

KO‘PCHILIK, KO‘PLAR, AKSAR, AKSARIYAT Ma’lum son yoki miqdordagi kishi yoki narsalarning katta, ko‘p qismi, shunday qismni tashkil qiluvchi kishilarning jami. **Ko‘plar** so‘zi mazkur ma’noni **aksar, aksariyat** so‘zlariga qaraganda aniqroq va ochiqroq ifodalaydi, badiiy uslubga xos. **Aksar, aksariyat** kitobiy uslubga xos. Bu so‘zlar “ko‘pchilik” ma’nosini ifodalashi uchun egalik shakllaridan birida qo‘llanishi kerak bo‘ladi.

Shunday deydi-ku, unga ham qiyin axir. Ishi og‘ir, k o‘ p ch i l i k ning ko‘nglini olish osonmi? O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *K o‘ p ch i l i k, ayniqsa, yoshlar shunday qilishardi ham*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Marosimga mahalladan odam ko‘p qatnashmadi, aftidan, domla ko‘p odamning qalbida*

bundan bir oy burun o‘lgan, k o‘ p l a r o‘sha to‘yni domlaning janozasi hisoblashgan edi... A.Qahhor, To‘yda aza. *K o‘ p l a r Shuhrat uslubda ham, fikr qilishda ham Abdulla Qahhorga yaqin, deyishardi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Burgut hibsga olingan kunning ertasigayoq uning o‘rniga kelgan Mansur meshning jiyani Suyun burgut haydab yuborgan bu yugurdaklarning a k s a r i ni avvalgi lavozimlariga qaytardi*. O.Yoqubov, Adolat manzili. – *Borasizmi? – Muqaddam sekingina, hurkibgina so‘radi. Endi u turmushni tushuna boshlagan, a k s a r i xotinlarday yuvosh bo‘lib qolgandi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Olib kelgan odamlarning orasida militsionerlari kam, a k s a r i y a t i bashang kiyingan, kelishgan yosh yigitlar edi*. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Aksariyati o‘zimizning yigitlar bo‘lsa-da, oqsoqolimiz odatdagidek “ikkinchi ona tillari”da sayrab berdilar, biz ham odatdagidek, atay o‘jarlik bilan yagona ona tilimizda ko‘rgan-bilganlarimizdan so‘ylagan bo‘ldik.* E.A’zam, Shovqin.

KO‘R, SO‘QIR, BASIR, OJIZ Ko‘rish qobiliyati yo‘q, ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan. **So‘qir** so‘zida ko‘zi ojizlik belgisi kuchli, juda ochiq va dag‘al ifoda topadi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Ojiz** so‘zida ko‘zi ojizlik belgisi bir qadar yashirin, “pardalangan”, “yumshatilgan” holda namoyon bo‘ladi, bu ma’noni ifodalashi uchun *ko‘z, ko‘rmoq* singari so‘zlar gapda bo‘lishi kerak, oddiy so‘zlashuvda ham faol ishlatiladi. **Basir** so‘zi eskirgan (asl ma’nosi “o‘tkir ko‘zli”), oddiy so‘zlashuvda ko‘pincha salbiy bo‘yoq bilan, haqorat sifatida qo‘llanadi.

Haqberdidan ham olgan bo‘lsam kerak, ammo qaytarishga uning o‘zi arzimaydi, baribir qaytarganimning qadrini bilmaydi, unga nima kerak, deb hisoblayman – xuddi k o‘ r kampirning tillalarini o‘zimniki qilib olganday. A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Rayma bitliqi bor, uning k o‘ r momosi bor, tamom.* E.A’zam, Shovqin. *Sabr, qanoatdan yaralgan elim, S o‘ q i r ham o‘ziga so‘qmoq izlar-ku!* Zulfiya, Xotiram siniqlari. *Bosh urarga toshingni ber, ey xudoyim, Hasratingda yig‘lay-yig‘lay s o‘ q i r bo‘ldim*. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Sen bu o j i z diydamga nur bergin bir nafas, Sening bilan eng baxtiyor onim ketmoqda.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Bilasizmi, ey qadrdon, ko‘zimiz ochiq bo‘lgani bilan o j i z ekanmiz-da...* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Shuhratga mast,O‘z holini bilmagan b a s i r! Nomard taqdir, Meni qildi qo‘lingga asir.* E.Vohidov, Arslon o‘rgatuvchi. *Chol. Asli tug‘ilgandan B a s i r edim men o‘zim. Sen joduning tig‘i bilan Ochib qo‘yding ko‘r ko‘zim*. E.Vohidov, Ruhlar isyoni.

KO‘RINISH, TUS, QIYOFA, AVZO, VAJOHAT, TURQ, SIYOQ Ko‘zga tashlanib turgan tashqi ifoda. **Ko‘rinish** keng ma’noli bo‘lib, odam, hayvon, shuningdek, jonsiz narsalarga nisbatan qo‘llanaveradi. Mazkur so‘z odamga nisbatan ishlatilganda insonning yuzi, qosh-ko‘zi, qaddi-qomati nazarda tutiladi. Qo‘llanish doirasi kengligi jihatidan **tus** so‘zi **ko‘rinish** so‘ziga juda yaqin, lekin qo‘llanish darajasi kamligi, ijobiy bahoda qo‘llanavermasligi bilan **ko‘ri-**

nish so‘zidan farq qiladi. Kitobiy uslubga xos bo‘lsa-da, oddiy so‘zlashuvda ham ishlatiladi. **Qiyofa** insonga nisbatan qo‘llanganda, uning yuz sohasi nazarda tutiladi, qolgan holatlarda narsaning butun shakl-u shamoyili nazarda tutiladi, ko‘proq kitobiy uslubga xos. **Avzo, vajohat, turq**, asosan, odamga, juda kam darajada boshqa narsalarga nisbatan ishlatiladi, salbiy baholi. **Vajohat** so‘zida mazkur ma’no “jahllanganlik” ta’kidi bilan anglashiladi, oddiy so‘zlashuvda faol. **Turq** so‘zida ham **vajohat** so‘zidagi xususiyat bor, salbiy bo‘yoqqa ega, oddiy so‘zlashuvda faol. **Siyoq** so‘zi mazkur ma’noda egalik qo‘shimchalaridan birini oladi, oddiy so‘zlashuvda salbiy baho bilan katta yoshli kishilar nutqida qo‘llanadi.

Chiroyli k o ‘ r i n i sh i bor odam, nega endi chiroyli fikrlarga ega bo‘lmasin. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Mahkum k o ‘ r i n i sh idan haddan tashqari holdan toygan edi*. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va t u s ida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Turdiali qat’iyatli t u s bilan eshikka yo‘l oldi.* A.A’zam, Hali hayot bor… *U endi tamomila boshqa libos, boshqacha q i y o f a-da. Soqol-mo‘ylovi taqron qirilgan, boshida nasroniy qalpoqcha*. E.A’zam, Shovqin. *Birdan uning ko‘z o‘ngida hozirgi emas, o‘sha o‘z Anvar akasining uyatchan, xayolchan q i y o f a si jonlandi...* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Eri xotinining a v z o yidan uni nima qiynayotganligini tushundi va ohista yuzidan o‘pib, erkaladi*. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Har tongdagidek vaqtli uyg‘ongan Muhammadjon akaning a v z o yi har kungidek emasdi: allaqanday sokin, allaqanday ma’yus va allaqanday sirli ko‘rinardi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Anvar peshanasi bilan old tomondagi oynaga urilib ketay dedi. Uning ko‘zlari qorong‘ida charaqlar, v a j o h a t i xunuk edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Mulla Norqo‘zi ovqatini yeb, choyga umidvor bo‘lib o‘tirganida, ko‘cha eshigidan yoshgina bir xotin kirib keldi; chimmati qo‘lida, v a j o h a t i dan uyiga o‘g‘ri kirgan, yordamga kishi chaqirgani kelgan odamga o‘xshar edi*. A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Erining t u r q i shu topda dahshatli bo‘lib ketgandi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Miqtidan kelgan, qaddi dol, rangi zahil, t u r q ida qo‘rquv qotib qolgan hujradoshining nigohidan tayinli ma’no uqmadi*. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Tavba! Qizlarni ham xudo urib ketganmi? Yoz bo‘yi bir sakkiztasi shuning oldiga qatnadi-ya! ...shuning nimasiga uchadilar? Odamlik s i y o h i yo‘q-ku.* A.A’zam, Hali hayot bor… *Ha-da. Ularga odam s i y o h i bo‘lsa bas ekan, odammi, alvastimi, surishtirib o‘tirishmaskan!* M.Mansur, Judolik diyori.

KO‘RNAMAK, NONKO‘R, NONTEPKI, HAROMNAMAK Birovning bergan tuz-namagini, qilgan yaxshiligini qadrlamaydigan, yaxshilikka yomonlik bilan javob beradigan (odam). Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, turli nutq uslublariga xoslanganligi, nutqda qo‘llanish darajasi, subyektiv munosa-

batni ifodalovchi ma’no uzvi bilan o‘zaro farqlanadi. **Nonko‘r** so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi. **Nontepki nonko‘r** va **ko‘rnamak** so‘zlariga nisbatan kam qo‘llanadi. **Haromnamak** so‘zi kam qo‘llanadi.

K o‘ r n a m a k Amir Bahlul poraxo‘r ekan. Sherxonning odamlaridan hamyon-hamyon oltin olib, sizning qurol-yarog‘laringizni g‘animingizga yashiriqcha sotar ekan. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Tog‘am bunday javobni kutmagan edi: o‘zini tutolmay: “K o‘ r n a m a k!” dedi va Murshidning chakkasiga tarsaki tortib yubordi.* N.Rahmat, Fojia. *– Nega bo‘lmasa sizning k o‘ r-n a m a k yurtdoshlaringiz mana bu qal’ada turib meni shuncha vaqtdan beri behurmat qilmoqda?* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Yo‘q, Ali Qushchi unday n o n k o‘ r emas. Boshiga qilich kelsa ham sizning yaxshiligingizni esidan chiqarmas, ustod!* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Sen hammasini bilgansan! Bila turib menga aytmagansan! N o n k o‘ r! Bergan tuzim ko‘r qilsin seni!* Z.Qurolboy qizi, Boyvuchcha. *Gapning indallosi, Qodir bilan Shokir o‘ta bemehr, n o n t e p k i, g‘irt yaramas odam!* R.Yo‘ldosh, Qoplon. *...o‘sha n o n-t e p k i xotiningiz, harom pullarni militsiyaga topshirib yuborganman, dedi.* X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. *– Dadangizni taniyman,– tez-tez gapira boshladi noib. Gapira turib negadir o‘rnidan ham turib oldi, – halol ham pokiza bir kishining farzandi bo‘la turib bu n o n t e p k i larga nega qo‘shilib yuribsiz?* X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar. *Muhammad Do‘st asli h a r o m-n a m a k ekan, Andijon tomonlarida fitna-ig‘volar qilib yurganida, yana Shayboniy qo‘liga tushdi-yu, ko‘zlarini o‘yib oldilar.* X.Sultonov, Bir oqshom ertagi. *Bo‘lmasa, podshoh haqida ig‘vo qilganlarning gapini eshitgan hamono og‘ziga urmasmidi! Yoki u h a r o m n a m a k larni bizga tutib bermasmidi?!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

KO‘RSATMA, YO‘L-YO‘RIQ Qanday harakat qilish, ishlash lozimligini ko‘rsatuvchi tartibot yo‘rig‘i, qo‘llanma. **Ko‘rsatma** adabiy nutq shakllarida ko‘p qo‘llanadi. **Yo‘l-yo‘riq** ham nutqda **ko‘rsatma** so‘zi o‘rnida almashinib ishlatiladi, biroq unda “boshqa birov tomonidan beriladigan ko‘rsatma” ta’kidi kuchsiz voqelanadi.

U qog‘ozdagi k o‘ r s a t m a dan chekinishni intizomni qo‘pol ravishda buzish, deb hisoblaydi. S.Karomatov, So‘nggi barxan. *U “shef”dan ba’zi k o‘ r s a t-m a larni olgach, asta o‘rnidan turar ekan, A’zam Zohidovich so‘rab qoldi.* O.Mo‘minov, Xiyobondagi uch uchrashuv. *Ma’ruza, chamasi, boya majlis raisi ta’kidlagan “hozirgi siyosiy vaziyatning dohiyona tahlili-yu kelajakning dohiyona bashoratlari va y o‘ l-y o‘ r i q lari”dan iborat edi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Tom ustida yonboshlab olmish Nabi oqsoqol to‘yxonadagi voqealardan ko‘z-quloq bo‘ldi, tegishli y o‘ l-y o‘ r i q lar berdi.* T.Murod, Tanlangan asarlar.

KO‘SAK, KO‘RAK G‘o‘zaning guldan so‘ng tugadigan, ichida paxta yetiladigan, chanoqlaridan iborat mevasi. **Ko‘rak** hali yetilmagan paytda sovuq urib, ochilmay qolgan ko‘sakni ham bildiradi.

G‘o‘zalar shonalarini tutib qoldi, Shonalar gulga, gullar k o‘ s a k ka aylana boshladi. N.Safarov, Olovli izlar. *Belimizda ho‘l etak, ertadan kechgacha izg‘irinda k o‘ s a k qidiramiz.* E.A’zam, Shovqin. *Yangi nav paxta ekilgan, u gullab, endi k o‘ s a k tuga boshlagan edi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *K o‘ - r a k dek og‘izni Yumarmiz har dam, Ochmasam chanoqdek Dilni endi ham.* E.Vohidov, Saylanma. *Yigit biroz ularni kuzatib turdi va alam qildimi olmani otib yubordi va bir-ikki to‘p g‘o‘zalarni tepib tashladi. Atrofga k o‘ r a k lar sochildi.* N.Hoshimov, Alamli muhabbat.

K

KO‘CH, KO‘CH-KO‘RON, KO‘CH-KO‘LON Ko‘chish paytida tashiladigan uy-ro‘zg‘or buyumlaridan iborat yuk. **Ko‘ch-ko‘ron, ko‘ch-ko‘lon** so‘zlarida ko‘chirilishi kerak bo‘lgan narsa-buyumlarni jamlash, hammasi ekanligini ta’kidlash kuchli, asosan, oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Ko‘ch-ko‘ch boshlandi. Jiydalidagi mayda-katta ismiki tashkilot yo idora bor – barchasi k o‘ ch ini ko‘tardi. E.A’zam, Shovqin. *Men hali tug‘ilmasimdan burun Nusa xola bilan eri Sadir tog‘a qish ichi biznikida turishganini, yalpizlar quloqlay boshlagan pallada ikki ko‘tarim chiqib-chiqmaydigan k o‘ ch ini yig‘ib, yangi yerlar o‘zlashtirilayotgan cho‘lga ketishgach, o‘zlariga kichik bir kulba qurib olishganini eshitgandim.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *– Endi… mayda-chuyda k o‘ ch-k o‘ r o n lar shu uyda. Biz sotsak, ertaga hovlini bo‘shat, deysizlar.* A.Mamarasulov, Jarima. *– Qani, marsh! – dedi qo‘shni. – Bir marta salom bergan odamning uyiga k o‘ ch-k o‘ r o n ingni orqalab, bostirib kirib kelaverasanmi! – E, sendaqa izzatini bilmagan mehmondan o‘rgildim. Ko‘tar jiyda xaltangni!* S.Ahmad, Bir siqim xandonpista. *Zahr-u zardasini sochganiga qaramay, tushdan keyin k o‘ ch-k o‘ l o n ini ko‘tardi.* R.Rahmat, Go‘rkov.

KO‘CHAT, NIHOL Urug‘ yoki qalamchasidan o‘stirilib, boshqa joyga ko‘chirib ekiladigan yosh o‘simlik. **Ko‘chat** keng ma’noli so‘z bo‘lib, yosh daraxtni ham, urug‘idan undirib ekiladigan sabzavotlarni ham bildiradi. **Nihol** ko‘pincha o‘tqaziladigan yosh daraxtlarga nisbatan qo‘llanadi. Oddiy so‘zlashuvda faol emas, kitobiy uslubga xos.

– Raisimiz juda hafsalali yigit, – dedi chol meva to‘la savatni shogirdining qo‘lidan olayotib, – hamma ishga ham shundoq jon-dili bilan kirishadi. Mana, mana shu anjirning k o‘ ch a t ini Oqqo‘rg‘ondan oldirib keldi. A.Qahhor, Dahshat. *Shunda haykalning orqasidan Qulmuhammad jo‘ram, frontovik oshnam, chiqib keldi-da: – Ortiga ag‘anaydi. K o‘ ch a t ni sindirmaydi, – dedi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Sen o‘tkazib ketgan n i h o l O‘sib bo‘yingday bo‘ldi. Novdalari barg chiqardi, Boshi gulga ko‘mildi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko‘tarib kelayotgan yosh n i h o l larni tebratar edi.* O‘.Umarbekov, Saylanma.

KO‘CHATZOR, KO‘CHATXONA Daraxt nihollari yetishtiriladigan maxsus maydon, joy. **Ko‘chatxona** so‘zida, asosan, pomidor, qalampir, karam kabi sabzavotlar urug‘idan undiriladigan va ekish uchun yetishtiriladigan usti yopiq maxsus joy ifodasi yetakchi. Undan farqli ravishda, **ko‘chatzor** so‘zidan ochiq maydon ifodasi anglashiladi, uslubiy chegaralanmagan.

Axir, ellik ikki gektardagi bog‘ va k o‘ ch a t z o r lar yo‘q qilinadi-yu, atrof-muhitga zarar yetmaydimi?! A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *Urug‘ ko‘chatlar chiqarish – bargli daraxtlar yuzasidan kolxoz k o‘ ch a t z o r larida — 500 ming tup va davlat k o‘ ch a t z o r larida 600 ming tup.* Gazetadan. *Bugungi kunda shundan 26 ming gektarida ish boshlangan, 562 tonna urug‘lar tayyorlangan. Shuningdek, 100 gektar maydonda k o‘ ch a t x o n a tashkil qilinmoqda.* Gazetadan. *Kelgusi yillarda... har bir xo‘jalikning o‘zida k o‘ ch a t x o n a lar barpo qilmoqchimiz.* Gazetadan.

KO‘CHIRMACHI, KO‘CHIRMAKASH, PLAGIATOR O‘zganing ishidan nusxa olib, ko‘chirib, o‘zinikidek taqdim qiladigan kishi. **Ko‘chirmakash** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi. **Plagiator** so‘zi ko‘proq ilmiy nutqqa xos.

Nohaqlikka barham berib, adolatni qaror toptirish, nopok, qo‘li egri, k o‘ - ch i r m a ch i, mas’uliyatsiz ilmiy kotibga tegishli jazo berish, hech bo‘lmaganda Qadimshunoslik institutidan badarg‘a qilish so‘ralgan edi o‘sha xatda! “Sharq yulduzi”. *O‘quvchining o‘rtog‘idan ko‘chirib olganini sezmagan o‘qituvchi esa k o‘ ch i r m a ch i o‘quvchiga ijobiy baho qo‘yadi.* Gazetadan. *Zamondoshlari uni “tinim bilmas sayohatchi” deb hisoblasalar, kimlardir uni “dengizchi, kema kapitani” deb o‘ylashar, yana kimlardir “k o‘ ch i r m a k a sh yozuvchi” deb g‘iybat qilar edi.* E.Usmonov, “Vern sayyorasi”ga sayohat. *Odatda, bunday faktga nisbatan befarq bo‘lmasligimiz kerak. Ammo k o‘ ch i r m a k a sh ning yoshi saksondan oshib ketgan bo‘lsa-chi? O‘ylab-o‘ylab, oxiri u kishini og‘zaki ogohlantirishga qaror qildik...* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat.

KO‘CHKI, KO‘CHKIN Tosh, tuproq, qor va shu kabi narsalarning tog‘dan ko‘chib, nurab tushadigan uyumi. **Ko‘chkin** bu ma’noda kam qo‘llanadi, asosan, badiiy uslubda uchraydi.

O‘z-o‘zidan ma’lum: bu kiyiklar k o‘ ch k i dan vahimaga tushib qochgan. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Oqshomga yaqin qor ko‘chdi. Qancha yigit k o‘ ch k i ostida qoldi. Qanchasi qutuldi, bilmaydi.* T.Malik, Devona. *Pisandmas k o‘ ch k i n, balo, Na zilzila, na vabo.* Mirtemir, Saylanma. *Tog‘larda boshlaydi gulduros k o‘ ch k i n.* E.Oxunova, Biz suv ichgan daryolar.

KO‘CHMA I, **SAYYOR** Ko‘chib yurib ish yuritadigan, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib faoliyat ko‘rsatadigan. **Sayyor** so‘zida sohaviy xoslanganlik bo‘yog‘i bor, kitobiy uslubga xos.

Mahkamboy k o‘ ch m a qozixona oldida tiz cho‘kib, shahodat kalimasini aytib guvohlik berdi. G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *Qishloqqa keladigan k o‘ ch m a kinoning uquvsiz mexaniklari uzib tashlagan yamoq lentalardan yig‘ib, olaquroq*

“kinofilm” qilgan edi. S.Amad, Yer uyg‘ondi. *Mana shu vahima va tashvishlar bilan liq to‘lib Toshkentga tomon qanot qoqqan depeshalar (rasmiy telegrammalar) voqeaning uchinchi kunida Toshkentdan O‘lka harbiy sudining s a y y o r hay’atini uchirib keldi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *S a y yo r zoopark chorbog‘ yonidan o‘tgan Sovet ko‘chasi bo‘ylab makon qurgan edi.* E.A’zam, Shovqin.

KO‘CHMA II, **KO‘CHKINCHI, KO‘CHMANCHI** Tabiiy va boshqa ta’sirlar natijasida o‘z o‘rnidan siljib, suzib yoki uchib, boshqa joyga ko‘chib yuradigan. **Ko‘chkinchi** so‘zi kitobiy uslubga xos, **ko‘chmanchi** so‘zida “ko‘chib yuradigan” belgisi yetakchi, kitobiylik belgisi ortiq.

Devorlarning ustini, ular orasini ham k o‘ ch m a qumlar bosib ketgan. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Bo‘ron turganda k o‘ ch m a qumlar har kuni necha martalab joydan joyga ko‘chib yuradi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Shaharlar boqiydir, umr – o‘tkinchi, Daryolar sobitdir, suvlar – k o‘ ch k i n ch i.* M.Shayxzoda, Toshkent-noma. *...tazod san’ati hayotiy dramalarning qovushmasligini ...o‘zgartirib turgan dunyomizning k o‘ ch k i n ch i va doimiy tendensiyalarini... u yoki bu darajada namoyish qildirishga majbur bo‘lganidir”, degan fikrni ilgari suradi.* O.Abdullayev, Maqsud Shayxzoda – navoiyshunos. *Mahalliy va k o‘ ch k i n-ch i aholi o‘rtasida vaziyat keskinlashib bordi.* “O‘zbekiston tarixi”. *Avomning, ayniqsa, harb-u zarblarda umrini o‘tkazgan k o‘ ch m a n ch i kishilarning e’tiqodlarini tushunish qiyin emas.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Qoyalar uzra izillashib o‘tayotgan k o‘ ch m a n ch i qushlarga qarayman.* B.Qobul, Ena shamol.

KO‘CHMOQ, O‘TMOQ 1. Muayyan vaqtda egallab turgan, o‘rnashgan, yashab kelgan joyini o‘zgartirmoq.

Jiyan Daho qo‘yniga qo‘l soldi: – Uylaringizga k o‘ ch ib boradigan bo‘ldim, tog‘a, – dedi. T.Murod, Momo Yer qo‘shig‘i. *Birinchi qor cho‘qqilarga ingan kunning ertasi Shodiyax yaqinidagi chekka qishloqda qurilgan yangi xonaqoga k o‘ ch ib o‘tdilar.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Bu yerdagilarning aytishicha, biz tilga olgan “bir-ikki mushtlashuv” ham milisaxona k o‘ ch ib kelganidan so‘ng boshlangan.* T.Malik, Shaytanat. *Nozik qo‘llari bilan G‘aybarovning yelkalarini uqalab qo‘ydi. Ikkovlon sekin yon xonaga o‘ t dilar...* A.Namozov, Notanish. *Derazani sassizgina yopdi-da, qo‘lidagi kalishini kiyib, oyoq uchida uyning ortiga o‘ t di.* B.Murod Ali, Oqto‘sh.

2. Bir bosqichdan keyingi bosqichga, pastki sinfdan yuqori sinfga o‘tmoq. **O‘tmoq** oddiy so‘zlashuvda faol.

Urush tamom bo‘lgan yili u oltinchi sinfga o‘ t di. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Bular ham mayli, kattaroq sinfga o‘ t ganingizda tamomila notanish, yaramas va bo‘lmag‘ur bilimlarga ro‘para kelasiz. Logarifm cheksizga nima uchun intiladi, intilganida qiymati nima uchun birga teng bo‘lib qoladi?* I.Sulton, Genetik. *Smenalarda ham har bir sinfning maktabga kelish vaqti oralig‘i 0,5 soat etib belgilangan. O‘quvchilar sinfdan sinfga k o‘ ch ib yurmaydi.* Gazetadan.

3. Mavzuni, harakatni, holatni, yashash yoki ishlash tarzini o‘zgartirmoq, boshqasiga o‘tmoq.

Muhammadjon aka uyda doimo bo‘yniga dumaloqlab tashlab yuradigan durrasi uchi bilan ko‘zlarini tezgina artib olib, yana maromdagi ohangga k o‘ ch di. U.Hamdam, Muvozanat. *Oddiy ovoz bilan aytilgan va Zebiga aniq eshitilgan bu ikki og‘iz so‘zdan so‘ng uydagilarning ikkovi ham pichirlashga k o‘ ch dilar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Nosir muallim Saidvalini oldindan urishib keladi, yana urishdi, tak-tak boshiga chertdi, chertkisi qo‘rg‘oshindek og‘ir, naq tovongacha o‘yib tushardi, bor gap, bu ham kor qilmagandan keyin urishga o‘ t di.* A.A’zam, Quroq. *Mamasoli duodan so‘ng choy quyib uzatgach, hol so‘rashga o‘ t di.* T.Malik, Xazonrezgi.

KO‘NGIL, QALB, YURAK, DIL, SIYNA, KO‘KRAK Insonning ruhiy kechinmalari, ma’naviy dunyosi his qilinuvchi joy, ramziy markaz. **Ko‘ngil, dil** so‘zlarining qo‘llanish doirasi birmuncha keng; so‘zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda ko‘p ishlatiladi. **Yurak** so‘zi uslub jihatidan betaraf. **Qalb** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Siyna** so‘zi poetik nutqqa xoslangan. **Siyna, ko‘krak** so‘zlarining mazkur ma’noda qo‘llanishi kam kuzatiladi.

O‘rtog‘ining bu samimiyatini Salti ham ko‘z bilan ko‘ribgina emas, k o‘ n g i l bilan sezib anglagan edi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *– Borib xabar olib turaman, – dedi Tursunali aka. – K o‘ n g i l ni xotirjam qiling.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *O‘rtanib turgan yurakka suv sepa biladigan mana shu hamdard q a l b ing uchun rahmat.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Halvoday yumshoq, toshyong‘oqday qattiq va jumboq xotin zotining q a l b ini zabt aylamoqqa ba’zida bir og‘iz shirin so‘z, bir dona gul yoki bir ma’qul xatti-harakat kifoya qilishi mumkin.* Q.Kenja, Toshqin. *Hurkak-hurkak titrab tunda y u r a k lar, To‘lqin-to‘lqin tortar edi nolalar.* I.Mirzo, Dadam qabri *Bir mahal qulog‘imga d i l ni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi: “Haq-qu, haq-qu...”.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Umarali indamadi, u onasining ahvoliga ich-ichidan qayg‘urar, tabib chaqirsammikan, deb o‘ylar, puli yo‘qligi d i l ini ezar, onasidan yoki singlisidan pul so‘rashga tili bormas edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bulbul uchib, qo‘nar zog‘lar, s i y n a m to‘la alam-dog‘lar.* “Erali va Sherali”. *Ko‘k dengizning ortida Bir o‘lka bor. Unda el S i y n a si chok, bag‘ri qon.* E.Vohidov, aylanma. *Uzoqda qo‘sh haydab yurgan yigitning ashulasi eshitiladir: “Ikki yorni ajratuvchi bu falakning gardishi!” Ruhlik, kuchlik k o‘ k r a k dan chiqg‘an bu ashula tevarakni zir etdirib yuborg‘andek, Otabekka ham boshqacha bir ta’sir beradir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U yillarning zilzilasi k o‘ k r a k larda, Mash’um urush dog‘i hali yuraklarda.* Zulfiya, Teranlik.

L

LAB, DUDOQ, IRIN Og‘iz bo‘shlig‘ining kirish qismini chegaralab turadigan harakatchan teri burmasi. **Dudoq** ma’noni badiiy bo‘yoqdor tarzda ifodalaydi, kitobiy uslubga xos. **Irin** so‘zi eskirgan, kitobiy xoslangan.

Inobatxon... ho‘ngrab yubormaslik uchun ro‘molchasini l a b i ga qattiq bosib bir chekkada o‘tiribdi. A.Qahhor, Oq aroqning qora ishi. *Kampirning ko‘zlari yumuq, ajin tortib ketgan ingichka l a b lari nimalarnidir shivirlardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *U chiroyli mayin tovush bilan so‘zlarkan, ...uning yuzlarida, d u d o q larida yigitning yuragini erituvchi bir tabassum yonadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Fazilat savoli o‘ziga ham nash’a qilganday, “piq” etdi-yu... lablarini qimtidi, ammo aqiq, uyatchan d u d o q lar chetidan taralgan, nazokatli jilmayish yuz-ko‘zlariga yoyilib ulgurgandi.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Yarim ochiq i r i n lari ichidagi oq tishlari bilan tilini g‘archcha tishlagan-da, go‘yo shu turmushda, shu besar xalq ichida tug‘ilg‘ani uchun “attang” o‘qiydir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Kumushbibining sezilar-sezilmas kulumsirashidan yoqutdek i r i n lari ostidagi sadafdek oq tishlari ko‘rinib ketdi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

LABBAY, HA Chaqiriqqa, so‘rovga beriladigan javob. **Labbay** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda chaqiruvchi chorloviga hurmat bilan qilingan munosabatni bildiradi, **ha** so‘zidan esa, aksincha, bepisand, birmuncha qo‘polroq munosabat anglashiladi.

Oxirda qushbegi maktubning so‘ngrog‘ig‘a kelib to‘xtadi-da, chaqirdi: – Pirmat, Pirmat! Pirmat yugurib kirdi. – L a b b a y, taqsir! A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Afsariddin, o‘g‘lim! – L a b b a y, ota!* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Jamshid futbol o‘ynayotgan bolalar tomonga qarab, kimnidir chaqirdi: – Ozodbek! Yugurib borayotgan Ozodbek taqqa to‘xtadi: – H a, ada?..* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Xudoyberdi aka hovliga qarab baqirdi: – Mardon, hov Mardon! Ichkaridan Mardonning ovozi eshitildi: – H a?* A.Yo‘ldoshev, To‘y.

LAGAN, TOVOQ Asosan, quyuq taomlar solish uchun mo‘ljallangan, likobchadan katta yassi idish. **Tovoq** so‘zi bu ma’noda shevaga xos.

To‘ylarda l a g a n mi, piyolami yo‘qolsa, Sepkilli xolaning uyidan topishar, xola “esidan chiqib” uyga olib kelgan bo‘lardi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Chunki kim ikkita non, kim bog‘idan uzilgan meva, kim kosada obi yovg‘on yo l a g a n da osh bilan, kunda-kunora yo‘qlashlaridan shunday xulosa chiqar-*

sa bo‘lardi. A.Boyqo‘ziyev, Teshikmozor hangomalari. *So‘ng odatdagicha shol dasturxon keldi: bir t o v o q qaymoqday qo‘y qatig‘i, bir juft katta uy noni, bir kosada qovurdoq, bir kosada oqpishar o‘rik bilan paxtaseb olma, bir qumg‘on choy.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Rustam uni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylar, dastasi va g‘ilofiga har zamonda oshdan keyin t o v o q dagi yog‘ yuqidan surkab, tig‘ini qumlab yuvib turardi.* Q.Kenja, Toshqin.

LAGANBARDOR, XUSHOMADGO‘Y, MADHGO‘Y, LABBAYGO‘Y, TILYOG‘LAMA, TILYOG‘LAMACHI, YALTOQ, YALTOQI O‘z manfaati yo‘lida o‘zini boshqalardan, ayniqsa, yuqoriroq mansabdagi odamlardan past tutib, ularga xushomad qilaveradigan pastkash odam. **Laganbardor** so‘zida mazkur belgi kuchli ifodalanadi. **Xushomadgo‘y** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Madhgo‘y** so‘zi eskirgan. **Labbaygo‘y** so‘zida har qanday buyruqqa hozirlik ta’kidi mavjud. **Laganbardor, xushomadgo‘y, tilyog‘lama, yaltoq** so‘zlaridagi kuchli salbiy baho **labbaygo‘y** so‘zida biroz kuchsizlanadi. **Tilyog‘lama, tilyog‘lamachi** so‘zlari ma’noni kuchli salbiy bahoda ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Yaltoq, yaltoqi** so‘zlarida salbiy baho nafratlanarli darajaga yetadi, asosan, oddiy so‘zlashuvga xos.

Bir bo‘lim mudirimiz bor, o‘lgudek l a g a n b a r d o r. O‘sha odam kasalxonaga borib buyrakdan chiqqan toshni esdalik uchun boshlig‘imizdan so‘rab opti. S.Ahmad, Tosh. *Alanglab xizmat qilib yurgan l a g a n b a r d o r larga… hatto ikki-uchtasining oldigayam bordim.* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Kim butun odam, kim x u s h o m a d g o‘ y, kim yaltoqi, kim tilanchi, kimning or-nomusi bor...* U.Azim, So‘ngso‘zlar. *Avvalboy chalasavod, xomkalla, x u sh o m a d g o‘ y, boringki, fikr o‘g‘risi hamdir, lekin – odam, Odam axir!* A.A’zam, Bu kunning davomi. *U o‘z zamonasidagi ko‘pchiligi m a d h g o‘ y laganbardorlardan iborat shoirlarni yoqtirmaydi.* Gazetadan. *Jomiy o‘sha davrdagi ko‘pchilik m a d h g o‘ y – laganbardor guruhini yoqtirmas, suhbatlashishni ham xohlamas edi.* L.Axatov, Tasavvuf va falsafa uyg‘unligi. *Zulfiqor Saidovich ko‘pni ko‘rgan, tajribali, malakali rahbar edi. L a b b a y g o‘ y larni, lo‘ttivozlarni xush ko‘rmasdi, o‘z fikriga ega xodimlarni hurmat qilardi.* F.Musajon, Darz. *U yonidagi bir ayol, bir erkak l a b b a y g o‘ y ga gap uqtirardi.* N.Rahmat, Oq kalamushlar. *Ilon, chayon, bo‘ridan emas, xushomadgo‘y, t i l y o g‘ l a m a, laganbardorlardan qo‘rqish kerak.* A.Vohidov, Qalbim marvaridlari. *Bir odam bilan do‘stlashishni istasangiz, muhtojlik vaqtingizda yordam qiluvchi… pok qalbli odam bilan do‘stlashing, t i l y o g‘l a m a munofiqlar bilan do‘st bo‘la ko‘rmang.* “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”. *Hoy, menga qara, sen judayam riyokor, t i l y o g‘ l a m a ch i, rasvo odam ekansan-ku. Nega buncha bo‘lmag‘ur gaplarni vaysading-a?!* X.Shoxoniy, Qovushmagan odam. *Sadr y a l t o q keyingi kunlarda tilini shu qadar shirin qilgan ediki...* Y.Shamsharov, Toshqin. *Mening ustimda allaqanday yuvundixo‘rlar, y a l t o q ilar… emas, iymoni butunlar tursa, deyman.* M.Mansur, Judolik diyori.

LAGANBARDORLIK, XUSHOMADGO‘YLIK, MADHGO‘YLIK, LABBAYGO‘YLIK, TILYOG‘LAMALIK, TILYOG‘LAMACHILIK, YALTOQILIK O‘z manfaati yo‘lida o‘zini boshqalardan, ayniqsa, yuqoriroq mansabdagi odamlardan past tutib, ularga xushomad qilaverish. **Xushomadgo‘ylik** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Madhgo‘ylik** so‘zida shunday odatga o‘chlik belgisi ochiq ifodalangan. **Labbaygo‘ylik** so‘zida har qanday gapga, ishga “yo‘q” demaslik tutumi kuchli darajada ifodalanadi. **Tilyog‘lamalik, tilyog‘lamachilik** so‘zlari “tamagirlik bilan qilinadigan izzat-ikrom” ifodasini kuchli salbiy bahoda anglatadi, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Yaltoqilik**da nafratlanarli darajadagi laganbardorlik belgisi yetakchi, oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi.

Rahim akaning hamma qilig‘ida – namoyishkorona l a g a n b a r d o r l i g i da, xushomadgo‘yligida, vahimaligida bir qadar maynavozchilik bor edi. F.Musajonov, Himmat. *Bizda amalparastlik erkinligi, dunyoparastlik erkinligi, haqiqat ko‘ziga cho‘p tiqish erkinligi, l a g a n b a r d o r l i k erkinligi bor.* T.Malik, Shaytanat. *O‘sha tog‘ safaridan so‘ng menda shunday bir fikr paydo bo‘lgan edi: “Endi birovga yoqaman deb hech urinmayman. Yo‘qolsin x u sh o m a d g o‘ y l i k!”* Sh.Xolmirzayev, Ikki ko‘rgan bilish. *...U sho‘rpeshana, qayg‘uli va juda kamgap edi. Agar gapirsa ham, jiddiynamo so‘zlar gapirar, o‘z zamondoshi bo‘lgan kasbdoshlariday hazilkashlik, sho‘xlik, qiziqchilik va x u sh o m a d g o‘ y l i k, laganbardorlik kabi ishlarni bilmas.* S.Ayniy, Sudxo‘rning o‘limi. *Bu she’riyat zulm, zo‘ravonlik, adolatsizlik, razolatdan... nafratlanadi. Maddohlik, l a b b a y g o‘ y l i k, xushomadgo‘ylik va qo‘rqoqlikdan hazar qiladi.* “Jahon adabiyoti”. *Mana shunday paytlarda ta’magirlarni omadi chopardi: yosh jahongir maqtov eshitishni xush ko‘rardi. Bu esa ta’magirlik, t i l y o g‘ l a m a l i k qilishni bilmaydigan ayrim lashkarboshilarni qiyin ahvolga solib qo‘yardi.* X.Davron, Iskandar Maqduniy va sak cho‘poni. *Jahongir bu savollarga javob topishga ojiz edi. Bu dunyoda boylik bo‘lgani uchun ham yolg‘on, t i l y o g‘ l a m a l i k, yovuzlik borligini bilmasmidi? Bilardi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Hasan ovchi ellikboshining t i l y o g‘ l a m a ch i l i g i ga e’tibor berib o‘tirmadi.* Sh.Toshmatov, Erk qushi. *Hammani zir titratadigan shu odam akamga y a l t o q i l i k qilib keptimi?* M.Mansur, Judolik diyori. *O‘lganlarning orqasidan Tosh otishga ustamiz, Tirigida deymiz faqat Payg‘ambarlik sizga xos. Y a l t o q i l i k o‘sha-o‘sha: Eski hammom, eski tos.* E.Vohidov, Umrim daryosi.

LALMI, LALMIKOR, BAHORIKOR Yog‘in suvlari hisobiga yetishtiriladigan ekin va shunday ekinlar ekiladigan yer. **Lalmikor** so‘zi, asosan, sug‘orilmaydigan, yog‘in suvlari hisobiga ekin ekiladigan yerni bildiradi, kitobiy uslubda qo‘llanadi. Bundan farqli ravishda **lalmi** keng ma’noni bildiradi. **Bahorikor** so‘zi sug‘orilmaydigan yerni ham, sug‘orilmay yetishtiriladigan ekinlarni ham bildiradi va, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi.

Qishlog‘imizning pasti l a l m i yerlar edi. Yon tomoni esa bog‘lar... R.Haydarova, Javzo. *Polvon bir kasofatni sezgandek bo‘ldi, l a l m i bedaga urib ketgan podani ham unutib, Nazar Maxsumning ortidan chopdi.* M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda. *L a l m i k o r dehqonchilik sug‘orish uchun noqulay bo‘lgan yerlardan foydalanish imkonini berganligi uchun ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega.* “O‘zME”. *U yer l a l m i k o r hamda u tepaga na mashina, na kombayn chiqa olar, yerni qo‘shda haydab, donni ham ho‘kizlar tuyog‘ida yanchib olishardi.* Sh.Xolmirzayev, Og‘ir tosh ko‘chsa. *Toshxo‘ja o‘ylab turdi-da, og‘ilxonadan qari biyasini egarlab chiqib, b a h o r i k o r qirlar tomonga yo‘rttirib ketdi.* A.Muxtor, Chinor. *... muning olti yuz chaqirimi komilan musulmon yerlari ham nihoyatda manbit (ko‘kalamzor) va a’lo yerlardurkim, arpadan sholig‘acha ekilgan va aksariyati b a h o r i k o r.* N.Rahmat, Jadid.

LANJ, LOHAS Issiq havo, uyqusizlik, kasallik yoki shu kabi ta’sirlar natijasida tobi aynigan, jismonan tetik holatda bo‘lmagan. **Lanj** so‘zi jismoniy behuzurlikka nisbatan ham, ruhiy besaranjomlikka nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Lohas** so‘zida ko‘proq ruhiy bo‘shashganlik, tetik emaslik ta’kidi ochiq anglashiladi. L

Ertasi, yakshanba kuni Pakana uyqudan karaxt bo‘lib uyg‘ondi. Hammayog‘i zirqirardi, l a n j. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Dilmurod chiroqning piligini sal pastlatib yotdi. Uyqusi kelmadi. Tongga yaqin ko‘zi ilindi-yu boshi lo‘qillagan, l a n j bir ahvolda o‘rnidan turdi.* T.Malik, Devona. *Humoyun kuni bo‘yi zirhli kiyimda yurib, issiqda juda l o h a s bo‘lgani uchun xonayi xosda eng avval yengil ipak kiyimlarini kiydi, sovutilgan limu sharbatidan ichdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ertalabdan beri o‘zimni l o h a s sezyapman. Butun vujudim qaqshab og‘riyapti.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

LANJLANMOQ, LOHASLANMOQ, BO‘SHASHMOQ Issiq havo, uyqusizlik, kasallik yoki shu kabi ta’sirlar natijasida tobi aynimoq, jismonan sustlashmoq. **Lohaslanmoq** so‘zi nutqda **lanjlanmoq** so‘ziga nisbatan kamroq qo‘llanadi. **Bo‘shashmoq** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda, umuman, lohas ahvolni ochiq ifodalaydi, **lanjlanmoq** so‘zidagi ma’noviy aniqlik **bo‘shashmoq** so‘zida birmuncha umumiy ifodalanadi. Oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi.

Ertalab o‘rnidan birmuncha l a n j l a n ib turgan Sa’dulla o‘zicha avval alg‘ov-dalg‘ov tushlarini muhokama qildi. M.Hazratqulov, Chiroq o‘chmagan kecha. *Nonushtaga uyg‘otishdi. Chivin chaqqan joylarimni qashlay-qashlay, l a n j l a n ib o‘rnimdan turdim.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *U yo‘l-yo‘lakay oq muhojirlar yashaydigan joylardan o‘tdi. Kech kirganda ochlikdan l o h a s l a n di, darmoni quridi.* S.Ayniy, Eski maktab. *U odatdagiday l o h a s-l a n ib o‘rnidan turdi va derazani ochdi.* Z.Mamadaliyeva, Olam xotirasi. *Hamida uning afyun kayfidan o‘zini qushday yengil sezib, xandon urib kulgan paytlarini, ertasiga esa lanj bo‘lib, b o‘ sh a sh ib o‘ltirganlarini ko‘rardi.* P.Qodirov,

Avlodlar dovoni. *Boshga tushganni ko‘z ko‘rar deb, b o‘ sh a sh ib yotaverdim.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola.

LAPASHANG, LAVAND, LAVANG, EPASHANG, BO‘SH-BAYOV, BO‘SHASHGAN, SHALVIRAGAN, BO‘SHANG, LANDAVUR, LAKALOV, NOSHUD, SO‘TAK, LATTA Biron-bir ishni eplab, ko‘ngildagidek qilib bajarolmaydigan, uddasidan chiqolmaydigan. **Lavand, lavang, epashang** so‘zlari kam qo‘llanadi, kitobiy uslubga xos, **lapashang** so‘zidagi salbiy baho bu so‘zlarda ochiq ifodalanmaydi, kuchsiz ifodalanadi. **Bo‘shang** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ham faol ishlatiladi, undagi salbiy baho **lapashang** so‘zidagiga nisbatan kuchsiz, ammo **lavand, lavang, epashang** so‘zlariga qaraganda ochiqroq, ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos. **Bo‘sh-bayov** so‘zi bu ma’noni umumiyroq tarzda namoyon etadi. **Bo‘shashgan, shalviragan** so‘zlarida “epchil emaslik” ma’nosiga holat belgisi ham qo‘shilib, belgi **lapashang** so‘zidagidan ham kuchli ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvda juda faol qo‘llanadi. **Landavur, lakalov** so‘zlarida anqovlik, merovlik ta’kidi mavjud. **Landavur, noshud, so‘tak** so‘zlarida salbiy baho so‘zdan so‘zga kuchayib boradi. **Noshud** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda ojizlik belgisi namoyon bo‘ladi. **Lakalov** oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi, shuningdek, dialektal xususiyatli hamdir. **Latta** so‘zi holatni obrazli tarzda kuchaytirilgan salbiy baho bilan ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos.

Yo‘q, Muso bersang – yeyman, ursang – o‘laman, degan l a p a sh a ng lardan emas. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bo‘ldi qil, l a p a sh a ng! Oldin otda o‘tirishni o‘rganib ol!* “Sharq yulduzi”. *Bu voqeani ko‘rib turgan haligi jin botir, l a v a n d melisa pochchamni shu minutda bezgak tutadir-da, o‘zlarini pastqamga tortadirlar.* A.Avloniy, Tanlangan asarlar. *Ko‘ngulda gap ko‘p ayturg‘a, bo‘lub ko‘rganda gung-u lol, L a v a n d-u, landahur-u, sodda-yu, noshud anoyingman.* Muqimiy, Asarlar. *U go‘zal Gulnorani o‘zining noshud, l a v a ng o‘g‘liga turmushga bermoqchi bo‘ldi.* B.Nasriddinov, Ertakning qayta tug‘ilishi. *Bularning yoshlari o‘n to‘rt-o‘n besh o‘rtalarida, zamona tarbiyasini oz bo‘lsa-da olib, ba’zi e p a sh a ng qizlarday ko‘p gap tagida eziladiganlardan emas edilar.* H.Shams, Dushman. *...mardi maydonlarni xalqimiz chin yurakdan tabriklaydi, fursatni qo‘ldan berayotganlarga, no‘noq, e p a sh a ng larga o‘zining nafratini bildiradi.* Gazetadan. *Bumayram, sen uyim-joyim deydigan yaxshi kelin chiqding. Shu b o‘ sh-b a y o v bolamni senga ishonib tashlab ketaman.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *B o‘ sh-b a y o v gina ko‘ringan qirg‘iz chol balodek tabib ekan.* M.Mansur, Judolik diyori. *Farmon. Kenjatoyim To‘xtavoydan ko‘nglim notinch edi. O‘lib ketsam, bu b o‘ sh a sh g a n ning holi nima kechadi, derdim. Baxtiga sen uchrading. Endi ko‘nglim tinch.* S.Ahmad, Kelinlar qo‘zg‘oloni. *Abdusamad onasiga o‘xshash b o‘ sh a sh g a n roq, Abdulhamid esa otasi kabi irodasi mustahkam yigit edi.* T.Malik, Shaytanat. *Sh a l v i r a g a n*

ko‘yi katta ko‘chaga chiqaman. Taksi to‘xtataman, aeroportga yo‘l olaman. Q.Norqobil, Hamyon. *Men bu sh a l v i r a g a n osiyolikni ishga qabul qilib, o‘z martabamga futur yetkazaymi...* Y.Xaimov, M.Rahmon, Hayot-mamot. *Bolalar uni b o‘ sh a ng deb bilib, baravar tortishishdan tap tortishmasdi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *...shunday paytlarda kelinchak o‘ziga o‘zi bechorahol, b o‘ sh a ng, uquvsiz, injiq va yig‘loqi bir kelin bo‘lib ko‘rinardi.* N.Eshonqul, Ochilmagan eshik. *O‘zing emasmiding, eski direktorni byurokrat, l a n d a v u r, prinsipi yo‘q laqma degan...* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Boshliqning... birinchi halqadayoq ishni bir yoqlik qilish maqsadida ekanini eng l a n d a v u r tergovchi ham tushunadi.* T.Malik, Shaytanat. *Birga borsang, oyog‘ingga kuydirgi chiqarmidi, muncha noshud-notavon, muncha ham anqov-l a k a l o v bo‘lmasang!..* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Nazmi. – O‘zi sizga bir balo bo‘lgan. Bitta megajin boshingizni aylantirib, l a k a l o v qilib qo‘ygan.* S.Ahmad, Kuyov. *To‘g‘risini aytsam, u o‘lgudek n o sh u d, yo‘lini topib yurolmaydiganlardan edi*. S.Ahmad, Buzoq. *Endi... onasi xafa bo‘ladi: “Shunday katta dargohdan o‘rin topolmay, qo‘lingni burningga tiqib qaytdingmi, n o sh u d!” deydi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *U sen o‘ylagan s o‘ t a k lardanmas. Erkak u, bilib qo‘y!* T.Malik, Shaytanat. *Yo rabbiy, shunchalik beshafqatmisan. Orziqib kutilgan umid haqiqatini ko‘kka sovurdingda, biz s o‘ t a k larni yana vatangadolikning boshi berk ko‘chasiga uloqtirding...* S.Azimov, Qonli sarob. *Katta kelin. – Erim o‘lgudek l a t t a. Uyro‘zg‘or qilib, biron kun yayraganim yo‘q.* S.Ahmad, Kelinlar qo‘zg‘oloni. *Onasi uni anchadan beri uylantiraman deb, munosib kelin topolmay yurgandi. Qayoqqa sovchilikka borsa, o‘g‘lingiz l a t t a ekan, deb qaytarishardi.* S.Ahmad, Qo‘riqxona.

LATIFA, ANEKDOT, AFANDI Kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik, ixcham syujetli hikoya. **Latifa** keng ma’noli so‘z sifatida ham milliy-tarixiy, ham zamonaviy mavzudagi kulgili hikoyalarni anglatadi. **Anekdot,** asosan, zamonaviy mavzudagi kulgili, ayrim hollarda satirik hikoyalarni bildiradi va oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Afandi** bu ma’noda so‘zlashuv tilida ishlatiladi.

Yusuf ham kula-kula poygakka cho‘kdi. Unga, nafaqat unga, balki butun qishloqqa bu l a t i f a lar yod bo‘lib ketgan. U.Hamdam, Muvozanat. *Qachon bormang, uyi to‘la odam. Gurra-gurra kulgi. Tesha tegmagan l a t i f a lar shu joyda aytilardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bu dargohga kirsak, mironqullik Chori chatoq do‘kondagi bolalarga a n e k d o t aytar va alar qah-qah otib kulur erdilar.* N.Rahmat, Kalvak maxsum nomalari. – *Keling, bitta a n e k d o t aytib beraman. – Mayli...* B.Ismoilzoda, Shirin va armonli kunlar. *U endi... askiya va a f a n d i aytishar, ishga doir gaplarga aralashib, birovning fikrini quvvatlar yoki rad qilar, o‘z fikrini aytar edi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

LATIFACHI, LATIFAGO‘Y, LATIFABOZ Kichik hajmli, ixcham syujetli kulgili hikoyalarni aytib beruvchi, latifa to‘qib yuruvchi kishi. **Latifachi** latifa

aytuvchini ham, latifa to‘quvchini ham bildiradi. **latifago‘y** so‘zida latifa aytuvchilik ta’kidi yetakchi. **Latifaboz** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Mavlono Abdulvosi degan mashhur hajvchi – l a t i f a ch i ning so‘z va harakatlari hammaning ichagini uzdi. Oybek, Navoiy. *L a t i f a ch i oshnamizni mehmon qilish uchun tovuq go‘shti, anor sotib oldik.* M.Salom, Kechirim. *L a t i f a g o‘ y, benazir inson Erkin Siddiqov hangomalarini ko‘pchilik adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi.* A.Meliboyev, Erkin Siddiq nima deydi? *Jinoyatchining taqdirini hal qilish oson emas-da. Maktabga borib bolalarga latifa aytib berib kelishmi bu sizga. ... – Haa, tuzuksan-ku. Hali biz l a t i f a g o‘ y bo‘lib qoldikmi...* M.Hazratqulov, Chiroq o‘chmagan kecha. *Odatda, kallayi saharda ko‘plar l a t i f a b o z rassom deydigan ezmayi go‘r Shodmon Cho‘tiriy yoki mahmadonalik bobida uni bir cho‘qishda qochiradigan jurnalist Alivoy Salim qo‘ng‘iroq qilardi...* A.Dilmurod, Rang va mehvar.

L

LAVLAGI, QIZILCHA Ildizmevasi ozuqa bo‘ladigan, ovqatga solinadigan sabzavot. **Lavlagi** bu sabzavotning barcha turini anglataveradi. **Qizilcha** shevaga oid so‘z, asosan, lavlagining katta-katta bo‘lib yetiladigan xilini bildiradi.

L a v l a g i shirin narsa-yu, har kuni yegandan keyin jonga tegadi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Hov, yer xohlab qolsa, qand l a v l a g i degani yomon bo‘lib berar ekan. Har l a v l a g i lar bo‘ldiki, uning oldida o‘g‘irdasta – ingichka edi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Bosqinchilar ketganidan keyin yoz o‘rtalarida ekilgan bo‘lishiga qaramay, arpa-yu bug‘doy, mosh-u loviya, makka-yu sholi, javdar-u qo‘noq, q i z i l ch a-yu oshqovoqlar kech kuzga qolmasdan pishib yetildi*. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

LAVOZIM, MANSAB, AMAL, O‘RIN, ISH Biron-bir muassasa, idora, tashkilot va sh.k.da biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog‘liq mas’ul vazifa. **Mansab, amal** so‘zlarida mas’ul rahbarlik ta’kidi ochiq ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda ko‘proq salbiy baho bilan qo‘llanadi. **O‘rin** so‘zi kitobiy uslubda ham, oddiy so‘zlashuvda ham qo‘llanadi. **Ish** so‘zi *ishdan olinmoq, ishdan ketmoq* singari birikuvlarda bu ma’noda qo‘llanadi.

Saidga o‘zga bir vazifa yuklatildi – yozilayotgan yangi tarix ishiga ko‘maklashish; vazifaning g‘oyat muhimligi aytilib, avval egallab turgan l a v o z i m idan ozod etildi. U.Hamdam, Muvozanat. *Yangi l a v o z i m ni yuvish uchun Bozorboy Oxunovich uyiga telefon qilib, kechqurun o‘n besh kishilik dasturxon tayyorlashni buyurdi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Birov pul topsa, birov katta m a n s a b ga yetishsa... baxtimni topdim, deydi.* T.Malik, Shaytanat. *Hakimjon bu daf’a so‘figa achingan bo‘lsa-da, javob berishda o‘sha sipolik yo‘lini buzmadi. – Odam tayin bo‘lgan. Indinga kelib m a n s a b iga o‘tiradi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Axir birovning mol-mulki, a m a l iga qarab muhabbat qo‘yib bo‘ladimi? Bu sharmandalik-ku!* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Biz ishi yurishib o‘zini yo‘qotgan, dunyoni pul ushlab turibdi deb jindek a m a l i bor odam oldida*

emaklab yurishga tayyor pastkashlarni ham ko‘rdik. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Amaldorlar talashib o‘ r i n, Bir-birining quritar sho‘rin.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Asqar ota erkaklar qoshida ko‘p muhtaram xotinlarni ko‘rgan, lekin bularning ko‘pchiligi rais, mudir, direktor deganday rahbarlik o‘ r i n dagi xotinlar edi.* A.Qahhor, Xotinlar. *Dadam rahmatli ana geroy bo‘laman, mana geroy bo‘laman, deb ikki yil radioning yonidan ketmadilar. Xrushchev i sh dan tushgandan keyin hafsalalari pir bo‘lib, geroylikdan umid uzdilar.* S.Ahmad, Bo‘ri ovi. *Shu orada katta boshliq Muxtorbekovni i sh dan olishdi. Ko‘zbo‘yamachilik qilgani uchun.* E.Vohidov, Umrim daryosi.

LOYIQ, MUNOSIB, MUVOFIQ, MOS, BOP, MONAND, MAQBUL, TAQOVUL To‘g‘ri keladigan, qanday talab qilinsa, xuddi shunday. **Munosib, muvofiq, monand** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Mos, bop** so‘zlari ko‘proq oddiy so‘zlashuvda faol ishlatiladi. **Maqbul** kitobiy uslubga xos, unda qabul qilsa, ma’qullasa bo‘ladiganlik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Taqovul** so‘zi so‘zlashuv tiliga xos, eskirgan.

U o‘z ovulimda menga l o y i q yigit yo‘q deb, boshqa ovullardan kuyov chiqishini kutib yurib, butunlay ersiz qolgan ekan. E.Vohidov, Umrim daryosi. *-Sal maqtab qo‘ymadingizmi? – Maqtashga l o y i q bir ish qildingizmi o‘zi?* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *...o‘sgan bolaga eski kiyimi tor kelganday, Miryoqubga ham endi “epaqa” laqabi kamlik qilardi. Unga boshqa bir m u n o s i b laqab topish lozim kelardikim, unday laqabni endi bu qishloq odamlari topolmasdilar...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qizingizga m u n o s i b bir yigit topilmasmidi? Topiladi. Mana Yo‘lchivoy. Tog‘ni ursa talqon qiladigan yigit.* Oybek, Tanlangan asarlar. *U o‘zgarib-turlanib borayotgan davrning yashin tezligidagi odimlariga m u v o f i q odim bosa olmadi, unga moslasholmadi...* U.Hamdam, Muvozanat. *Bu hukm garchi boshqa bir paytda qaror topgan taomil mezoniga m u v o f i q kelmasa-da, shu tobda adolatli va insonparvar edi.* N.Eshonqul, Urush odamlari. *Sayyora shunday deb, qo‘llarini ikki yoniga ko‘tardi va musiqa ohangiga m o s harakat qila boshladi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *...yigit butun vujudi quloqqa aylanib, Fazilatning yuziga tikilgan bo‘lsada, xayolan so‘z bisotini titkilab, qizning izzat-nafsi va o‘zining manfaatiga m o s iboralarni tanlardi.* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *Boshlang‘ich maktab bolalarini ham politexnika ta’limidan chetda qoldirayotganimiz yo‘q. Ularga ham o‘zlariga b o p ish topganmiz.* S.Ahmad, Guvala. *Bobomurod dastlab “bola o‘zi istab shu ko‘chaga kiryapti, shogirdlikka b o p ekan”, deb o‘yladi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Yillar o‘tib, yoshiga m o n a n d O‘zgaradi har bitta inson. Bolalikda shirin bo‘lsa qand, Qariganda shirin bo‘lar jon...* E.Vohidov, Ishq savdosi. *U tanish darvozani bukilgan ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlari orqasi bilan qoqarkan, yuragining ham ana shu tovushga m o n a n d, undan tezroq va besaranjomroq urayotganini eshitardi.* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *Anvar bundan qirq yil av-*

valgi tergov hujjatlarini o‘rgana turib, o‘ziga tez-tez shu savolni berar, ammo tayinli m a q b u l javob topa olmas edi. T.Malik, Shaytanat. *...gen o‘ramlarining eng m a q b u l kombinatsiyalaridan birini topgan hamkasbimiz professor Ziyodir.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Huri bilan ikkovi unga ot ham qo‘yib qo‘yishgan: o‘g‘il tug‘ilsa, Elbekka taqovul – Sherbek, qiz tug‘ilsa, Huriga t a q o v u l – Nuri qo‘yishadi*. S.Anorboyev, Oqsoy.

LUG‘AT, SO‘ZLIK Muayyan tildagi so‘zlarni alifbo tartibida yoki mavzuviy guruhlariga ko‘ra jamlab, so‘zlarning ma’nolarini izohlab yoki boshqa til(lar)ga tarjima qilib berilgan kitob. **Lug‘at** lug‘atchilik talablari asosida tuzilgan har qanday lug‘at turlariga nisbatan qo‘llanaveradi. **So‘zlik** bu ma’noda eskirgan, kam qo‘llanadi.

Lapashang. Shuncha yashab ko‘rmadingmi? Opa-singillarning mittigina ruscha-yaponcha l u g‘ a t lari bor. O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Har qanday l u g‘ a t shu lug‘atning egasi bo‘lgan xalqning katta madaniy va ma’naviy boyligi sanaladi.* “Ona tilini o‘rganamiz”. *Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otut turk” asaridan boshlab bugunga qadar o‘nlab s o‘ z l i k, turli hajm, yo‘riq va saviyada, bir, ikki va ko‘p tilli s o‘ z-l i k lar yaratilgan.* M.H.Yorqin, “Sanglox” so‘zligi. *Bunga men o‘zim ham qiziqib qolib, suhbatni maroq bilan quvvatlay boshladim. – Domla... Nazarimda, bu ishning bir qismi bajarilgan ham, barcha tillardagi s o‘ z l i k lar, qomuslar... ularni bir joyga to‘plash... yo “Ezgu kitob”ga qo‘shish, jamlash kerakdir.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen.

LUG‘ATSHUNOS, LUG‘ATCHI, LEKSIKOGRAF Lug‘atlar tuzish va lug‘atchilikni ilmiy o‘rganadigan mutaxassis. **Lug‘atshunos** so‘zida lug‘atchilikni ilmiy o‘rganuvchi mutaxassis ta’kidiga ega. **Leksikograf** so‘zi ilmiy adabiyotlarda faol qo‘llanadi.

Yusufiy... – forsigo‘y shoir, l u g‘ a t sh u n o s, tabib. “O‘zME”. *Bositxon ibn Zohidjon Shoshiy... shoir, faqih, rassom, mohir tarjimon, l u g‘ a t sh u n o s va noshir sifatida faoliyat ko‘rsatgan olimlardan biridir.* B.Shoshiy, Qonuni Bositiy. *O‘zbek lug‘atchiligining birinchi davri sharqning ulug‘ olimi, filolog ham l u g‘ a t ch i Mahmud Koshg‘ariyning XI asr yodgorligi bo‘lmish “Devonu lug‘otit turk”... lug‘ati bilan boshlanadi.* “O‘zbek tili leksikologiyasi”. *Xo‘p, imlo lug‘atida ayb kam deylik. Chunki l u g‘ a t ch i lar, biz allaqachon kirib qolgan so‘zlarning qanday yozilishini ko‘rsatdik xolos, deyishlari mumkin.* M.Kenjabek, Til erki – el erki. *Deyarli tilshunoslar, ayniqsa, l e k s i k o g r a f lar figural ma’nolarni ko‘chma ma’no termini bilan ataydilar.* M.Mirtojiyev, O‘zbek tili semasiologiyasi. *...lug‘at tuzuvchilar ham odamlar bir-birlarini yaxshiroq tushunishlari maqsadida “ko‘prik” quradi. Bu o‘rinda l e k s i k o g r a f lar tomonidan so‘zlarga berilgan izoh qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi.* A.Baskakov, S.Sodiqov, A.Abduazizov, Umumiy tilshunoslik.

LUG‘ATSHUNOSLIK, LUG‘ATCHILIK, LEKSIKOGRAFIYA Lug‘atlar tuzish va lug‘atchilikni ilmiy o‘rganadigan soha. **Lug‘atshunoslik** so‘zida “lug‘at tuzish amaliyoti” ifodasidan ko‘ra “lug‘atchilikni ilmiy o‘rganish” ifodasi kuchli voqelanadi, bundan farqli ravishda, **lug‘atchilik** so‘zi “lug‘at tuzish nazariyasi va amaliyoti” tushunchasini ifodalay oladi. **Leksikografiya**da ilmiy uslubga xoslik, “lug‘at tuzish nazariyasi va lug‘atlarni tuzish ishi” ifodasi yetakchilik qiladi.

O‘tmishda l u g‘ a t sh u n o s l i k tilshunoslikning muhim bir qismi sifatida qaralgan. Q.Sodiqov, Tarixiy leksikografiya. *Innovatsion rivojlanish boshqarmasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tarjimashunoslik va l u g‘ a t sh u n o s l i k innovatsiya markaziga tashrif buyurdi.* Gazetadan. *O‘zbek l u g‘ a t ch i l i g i o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlandi.* “O‘zbek tili leksikologiyasi”. *O‘zbekiston mustaqilligi yillarida ham o‘zbekl u g‘ a t ch i l i g i sohasidagi ishlar aslo susaygani yo‘q, balki yanada avj oldi.* A.Madvaliyev, O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. *L e k s i k o g r a f i y a nazariyasida lug‘at turlari, so‘zlik tarkibi va so‘z maqolasining tuzilishi asosiy o‘rinni egallaydi.* “Ona tilini o‘rganamiz”. *Aytishimiz mumkinki, o‘zbek l e k s i k o g r a f i y a si bugun o‘zining yangi tarqqiyot bosqichiga kirdi.* “Kompyuter lingvistikasidan qisqacha atamalar lug‘ati”.

LO‘LI, JO‘GI, MAZANG, MO‘LTONI Asli vatani Hindiston bo‘lgan, turli davrlarda dunyoning turli hududlariga tarqalgan va, asosan, ko‘chmanchi bo‘lib yashab kelayotgan o‘ziga xos qavm. **Lo‘li** so‘zi – shu nomdagi etnik guruhning eng qadimgi, keng tarqalgan va umumiy nomi. Qolgan boshqa etnonimlar lo‘lilar yashagan hududlardagi mahalliy aholi tomonidan ularga berilgan nomlar. **Jo‘gi** so‘zi lo‘li urug‘laridan biriga tojik xalqi tomonidan berilgan nom bo‘lib, lo‘lilarning dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan urug‘ini bildiradi. **Mazang** so‘zi lo‘li etnik guruhlaridan birining nomi bo‘lib, u tilanchilikdan tiyilgan, ayollari turli attorlik mahsulotlari sotgan, erkaklari dehqonchilik bilan ham shug‘ullangan, ijtimoiy va madaniy rivojlangan etnik guruhni bildiradi. **Mo‘ltoni** so‘zida “fol ochib tirikchilik qiladigan lo‘li guruhlaridan biri” ifodasi mavjud.

...Yuksaklikdan elas-elas ko‘zga tashlanadigan materikning sarg‘ish sahrosida l o‘ l i lar karvoni tin olish uchun to‘xtagan edi. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Jonga tegdi bunaqa sarson-sargardonlik. Har yili xalta-xurjunni ko‘tarib, l o‘ l i dek eshikma-eshik yuramiz.* U.Hamdam, Muvozanat. *Farg‘ona vodiysi l o‘ l i larini o‘rgangan Sh.Ataxanov fikricha, “j o‘ g i” so‘zi, bir tomondan, “yoga” ma’nosida, ikkinchi tomondan, hind tilida “darvesh, tilanchi” ma’nosida qo‘llangan.* Z.Qoryog‘diyev, Buxoro lo‘lilarining ijtimoiy hayoti va madaniyati. *J o‘ g i lar dehqonchilik va yog‘och buyumlar, arava g‘ildiraklarini yasash, to‘qimachilik*

va temirchilik hunarlari bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Z.Qoryog‘diyev, Buxoro lo‘lilarining ijtimoiy hayoti va madaniyati. *Keyingi vaqtlarda j o‘ g i lar ham bunga o‘ch bo‘lib qolishgan. Qayergaki qo‘sh tashlasa, bilingki, o‘sha yerda zira bor.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Bir mahal torko‘chada juvonlari iljaygan, erkaklari so‘ljaygan m a z a ng lar paydo bo‘ldi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Avlod-ajdodi fol ochib, firibgarlik bilan kun ko‘rib kelgan m o‘ l t o n i kolxoz ishiga bo‘yin berarmidi.* N.Safarov, Katta karvon yo‘lida. *Dastlabki guruh adabiyotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan guruh “lo‘li”, “jo‘gi”, “mazang”, m o‘ l t o n i”, “mugat” kabi turli nomlarda atalgan.* Z.Qoryog‘diyev, Buxoro lo‘lilarining ijtimoiy hayoti va madaniyati.

L

M

MAHALLIY, YERLIK O‘zi tug‘ilgan, yashayotgan hududga mansub bo‘lgan, shu hududga qarashli hisoblangan. **Yerlik** so‘zi birmuncha kam qo‘llanadi.

Raisning boshi qotdi: hozirgacha yaqin yo‘latilmagan m a h a l l i y mualliflarni endigina kino san’atiga aralashtirib turganida (o‘zi shu shart bilan lavozimga o‘tkazilgan) bu nima hol? E.A’zam, Shovqin. *Qarashsaki, bu ishni m a h a l l i y ishchilarga ham o‘rgatsa bo‘lar ekan...* U.Hamdam, Muvozanat. *Imperiya inqirozga yuz tutgandan keyin buddaning ham puturi ketib, o‘rnini y e r l i k xalqlar dini zardushtiylikka yana bo‘shatib bergan*. Sh.Xolmirzayev, Ora yo‘l. *Ovrupoliklar Amriqoni zabt etganlarida y e r l i k hindularni cho‘l-u biyobonlarga, tog‘-u toshlarga ko‘chirib, unumdor yerlarni egallab olgan ekanlar.* T.Malik, Savohil.

MAHBUS, MAHKUM, ARISTON Ozodlikdan mahrum etilgan, hibs qilingan kishi. **Mahkum** so‘zida hukm qilinganlik ta’kidi ochiqcha anglashiladi. **Ariston** so‘zi so‘zlashuv tiliga xos, eskirgan.

Xurram qotma arzimagan cho‘plardan butun boshli qumg‘onni qaynata bilish tajribasi va ko‘nikmasini temiryo‘lda o‘zi bilan birga ishlagan sobiq m a h b u s – G‘ayratdan o‘zlashtirib olgan. N.Norqobilov, Kurash. *Har kuni uch-to‘rt m a h b u s hamma yog‘i shishib, momataloq bo‘lib, axloqi tuzalib qaytadi*. A.Mamarasulov, Uchinchi yo‘l. *Men qamoqdaligimda ham, etapdan etapga tashlashganlarida ham, m a h k u m lar orasidan Sa’dullani qidirardim.* T.Malik, Xazonrezgi. *...Bu hukm majlisida hozir turgan otam m a h k u m ning gunohini so‘raganida Azizbek jallodga baqirar: “Tezroq olib chiq!”* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *O‘rmalab, g‘imirlab yaqinlashayotgan kana-yu bit misoli maxluqlar yangi kelgan a r i s t o n larning ustiga qora qurumdek yopirilishga... kirishdi*. X.Do‘stmuhammad. Yolg‘iz. – *Bitta a r i s t o n bor edi. Erta-yu kech namoz o‘qir, tilovat qilar edi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik.

MAHTAL, MA’TAL, MUNTAZIR, INTIQ, INTIZOR, MUSHTOQ, KASHAL Kutib, qarab qolgan, muntazir bo‘lgan. **Ma’tal** kitobiy uslubga xos, nutqda kam qo‘llanadi. **Muntazir** so‘zida intizorlik bilan ta’kidi mavjud. **Intiq** so‘zida sabrsizlik bilan ta’kidi bor, shevaga xos. **Intizor** va **mushtoq** so‘zlarida zor bo‘lib kutish ifodasi qabariq, ma’noni badiiy bo‘yoqdor ifodalaydi, kitobiy uslubga xos. **Kashal** shevaga oid so‘z, ko‘proq folklor asarlarida uchraydi.

Bizning qo‘ynimiz ham mehrga m a h t a l, Ochilmoq, sochilmoq, yayramoq havas. Zulfiya, Saylanma. *...qorako‘l yoqali paltosiga o‘ranib olgan Shoto‘ra muallimning ham quloqlari kaklik qo‘shig‘iga m a h t a l edi*. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Olim otlarga qarashib turdi. U “Otlarni egarla!”degan farmonga m a’- t a l.* A.Hakimov, Ilon. *O‘tkir, qonsirag‘an xanjarini beliga osib, oyboltasini ko‘targan jallod qushbegining hukmiga m u n t a z i r edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shirinliklar rastasida esa novvot-u halvoyi lafzdan tortib qandolat-u chakchakidongacha – yigirma-o‘ttiz xil shiravor ne’mat xaridorlarga m u n t a- z i r*. O.Husanov, Ustaning muhabbati. *Faqat u – yosh va zoriqqan xotin chida- yolmadi: o‘zicha otilgan o‘q singari tomog‘idan ixtiyorsiz otilib chiqqan kuchli va i n t i q ovoz bilan: – Berahm... – deb qichqirdi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Hazratim, Siz Humoyunni toj-u taxtga bunchalik i n t i q deb o‘ylamang!* P.Qo- dirov, Yulduzli tunlar. *Er-xotin bir-birlarini aniq ko‘rmasalar-da, bir-biriga i n-*

M *t i z o r*. Q.Kenja, Toshqin. *Balki, o‘sha mahbuba, agar u chindan ham bor bo‘lsa, erkakning atoqlab guldasta olib kelishini oldindan bilib, i n t i z o r kutayotgan- dir...* A.A’zam, Gul ko‘tarib ketayotgan erkak. *Shu bois Usta ham, Mulla ham, Shoir ham uni o‘zlariga teng sherik sanashni burch bilishar, mehrga m u sh t o q Mosuvoning ko‘ngli bu ehtiromdan tog‘ bo‘yi o‘sar edi*. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Ayniqsa, boyagi ko‘rganim maktubga – akamning qo‘llari teggan, har so‘zidan uning nafasi ufurib turguvchi xatiga shunchalar m u sh t o q manki, qani endi, so‘ray olsam, yetisha qolsam...* M.Mansur, Judolik diyori. *Tezroq boring shu chodirga, K a sh a l onam sizday zo‘rga*. Islom shoir.

MAJBURLAMOQ, QISTAMOQ, MAJBUR QILMOQ (ETMOQ), ZO‘RLAMOQ Biror-bir ish-harakatni bajarish yoki gap-so‘zni aytishga zo‘r berib undamoq. **Majburlamoq** so‘zi **majbur qilmoq** bilan almashib qo‘llana oladi, **qistamoq**da bu tushuncha nisbatan kuchsizroq, **zo‘rlamoq**da **majburla- moq, majbur qilmoq**qa nisbatan kuchli, ikkinchi subyekt ta’siri ochiq ifodala- nadi. **Majbur etmoq** badiiy uslubga xos, unda harakatga undash ifodasi **majbur qilmoq**qa nisbatan kuchsiz.

Bir sidra go‘yo u Saltanatni emas, aksincha, Saltanat uni m a j b u r l a b qiynayotganday... juda ham og‘rindi. O‘.Usmonov, Girdob. *Uni m a j b u r l a gan bo‘lishlari mumkin. Chorasiz qolib, noiloj rozi bo‘lgandir...* Z.Qurolboy qizi, Qadimiy qo‘shiq. *Farhodning andishamand angrayganiga ensasi qotib, keskin- roq q i s t a di: – Ketdik, ketdik!* E.A’zam, Shovqin. *Bir gapirib, o‘n qiyqiradigan kelinchak uni qo‘lidan tortib: “Turmaysanmi, nima qilib ivirsib o‘tiribsan”, – deb birga borishga q i s t a di ham*. S.Ahmad, Ufq. *Modomiki, Muhiddin Jabbo- rovich bilan Rasul Olloyorovichniki harakatga keltirgan ekan, ayniqsa, manovi qaysar domlani o‘z qarashlaridan sal bo‘lsa ham orqaga chekinishga m a j b u r q i l gan*. O‘.Usmonov, Girdob. *Botirning qovoqlari orasi issiq yoshlarga to‘ldi, so‘ng tashqariga oqib chiqdi va uni sapchib turishga m a j b u r q i l di.*

O‘.Hakimali, Poklikdan keyingi umr. *Ammo bu xayoldan dahshatga tushib, o‘zini aldar, uni pok deb o‘ylashga m a j b u r e t ardi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *...Shu qisqa, yo‘lakay aytilgan gap-so‘z Islomga tasalli berishi, balki, uni bu holga ko‘nikishga m a j b u r e t ishi kerakday edi*. Sh.Xolmirzayev, Yangi zot. *Meni ma’zur tuting, amirzodam. Ammo egachingizni xohlamagan odamiga z o‘ r l a b uzatsalar, shuning o‘zi katta bir zolimlik bo‘lmagaymi?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *To‘lqin “qorni g‘oyat to‘q” ekanini bahona qilib, qoshiqni qo‘ydi. Robiya z o‘ r l a madi. Choy quyib uzatdi.* T.Malik, Iblis devori.

MAJLIS, YIG‘ILISH, YIG‘IN, KENGASH, MASHVARAT U yoki bu masalani hal qilish, bir to‘xtamga yoki xulosaga kelish maqsadidagi yig‘in. **Yig‘ilish** oddiy so‘zlashuvga, **yig‘in** kitobiy uslubga xos. **Kengash**, **mashvarat** so‘zlarida “maslahatlashish uchun chaqirilgan yig‘in, maslahat majlisi” ifodasi ustuvor. **Mashvarat** so‘zi eskirgan, kitobiy uslubga xos.

M a j l i s Ziyo shohichining uyida Otabekning mehmondorchilig‘i uchun yig‘ilg‘an, yuqorida ismlari o‘tkan zotlardan boshqa Homid, Rahmat ham Hasanali bor edilar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Raykom sekretari byuro m a j l i s i ga kelganda mashinasining yog‘i tugab qolgan ekan.* T.Malik, Savohil. *Kechqurun seksiyamizning y i g‘ i l i sh i, yetib borishim kerak.* E.A’zam, Shovqin. *Xonaga pashsha uchsa bilinadigan darajada sokinlik cho‘kdi... O‘tirganlarning nazarida y i g‘ i l i sh tugagandek edi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Hisobot-saylov y i g‘ i n i kuni xo‘jalik klubining old qatoriga o‘rnashib olgan qishloq keksalari raisning ikki gapidan biriga luqma qo‘shaverib, savol yog‘diraverib, ma’ruzaning maza-matrasini qochirishdi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Zamonali ko‘ngliga tugib yurgan gaplarini kattaroq y i g‘ i n da aytmoqchi edi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Roziya chorbog‘dagi k e ng a sh da Maksimichga hamma alohida ehtirom bilan muomala qilganini eslab, bu taxminiga ishongisi kelmadi*. P.Qodirov, Erk. *Muxtasar k e ng a sh shu bilan yakunlanib, ustoz-shogird Ollohning marhamatlari, karomatlari, mo‘jizalaridan suhbatlashib o‘tirishdi*. T.Malik, So‘nggi o‘q. *Keyin oxirgi yozuvlarni yutoqib o‘qiy boshladim: “Ertaga asr namozidan keyinoq katta m a sh v a r a t...”* M.Mansur, Judolik diyori. *Umid Ustozning qabuliga kirganida yetti-sakkiz chog‘li erkak-ayol qo‘r to‘kib o‘tirishar, ularning ahvol-ruhiyasidan m a sh v a r a t ayni avjiga chiqqani ko‘rinib turardi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza…

MAJLIS QILMOQ, YIG‘ILISH QILMOQ, KENGASH QILMOQ, YIG‘IN QILMOQ Muayyan bir masala muhokamasi bo‘yicha to‘planib, yig‘ilish, majlis o‘tkazmoq. **Yig‘ilish qilmoq** so‘zi keng tushunchaga ega. Bu so‘z “tashkilot, muassalarda kun tartibidagi masalalar muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazmoq” ma’nosida qo‘llanganda, **majlis qilmoq** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llana oladi. Qatordagi so‘zlarning deyarli barchasi rasmiy nutqqa xos.

Agar sizlar mana shu yo‘l bilan butun bir mavsumda o‘n mehnat kunini pilladan yulib paxtaga bergani yordam qilsalaring ham harna! Men sizlar bilan m a j l i s q i l ib, mana shu masalani o‘rtaga tashlamoqchi edim. A.Qahhor, Kampirlar sim qoqdi. *Uning aytishicha, “anovi idora”dan kelgan Bobkovmi, Popkovmi degan bir polkovnik hammani yig‘ib, m a j l i s q i l ayotgan emish.* E.A’zam, Shovqin. *O‘sha kuni ammamning uylari birpasda odamga to‘ldi. Hamma qarindoshlar y i g‘ i l i sh q i l ishdi*. O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *K e n g a sh q i l gan el ozmas.* Maqol. *Aqlli k e n g a sh q i l ar, Ahmoq – urush.* Maqol. *Qurilish boshida katta y i g‘ i n q i l di.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

MANMAN, DIMOG‘DOR, KALONDIMOG‘, KERIK, KERILMACHOQ, KERILMAJON, KEKKAYMA, KEKKAYMAJON, CHIRANMACHOQ, CHIRANCHOQ, KARANDA, KATTAZANG, TAKABBUR, MUTAKABBIR O‘ziga o‘zining imkoniyatidan ortiq darajada baho beradigan, o‘zini o‘zgalardan baland tutadigan. **Dimog‘dor, kalondimog‘** so‘zlari kishiga mensimay, kek va kibr bilan munosabatda bo‘ladiganlarga nisbatan qo‘llanadi. **Kerik, kerilmachoq, kerilmajon, kekkayma, kekkaymajon** so‘zlarida mazkur ma’no obrazli ifodalanadi, asosan, so‘zlashuv tiliga xos. **Chiranmachoq**, **chiranchoq** so‘zlarida o‘z imkoniyatlarini hisobga olmaslik ta’kidi ochiq aks etgan. **Karanda** va **kattazang** so‘zlari shevaga oid. **Takabbur** va **mutakabbir** so‘zlarida kibrlilik ta’kidi kuchli, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Mutakabbir** – eskirgan, kitobiy so‘z.

Quruq m a n m a n emas, har qalay, Bir shoirman o‘zimdan ogoh. Madhing bo‘lsa har qancha qilay, Lekin faqat bo‘lmayin maddoh. E.Vohidov, So‘z haqida so‘z. *Institutni kechagina bitirgan bu yosh, lekin o‘ziga juda zeb qo‘ygan, ancha m a n m a n yigitning bosh injener bo‘lib kelganiga hali bir oy ham bo‘lmadi, ammo shu bir oy ichida u Begimqulni bir necha marta tanqid qildi...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *...Zuhra qoqvosh, ta’bi nozik, d i m o g‘ d o r qiz bo‘lib, maktabdoshlariga qo‘shilmas edi...* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Abdurahmon tabibning qaynisi bu hashamatli uyda, shohona dasturxon atrofidagi d i m o g‘ d o r odamlar orasida o‘zini begona his qildimi... har holda, bir piyola choydan iborat ziyofatdan qoniqib, o‘rnidan turdi.* T.Malik, Shaytanat. *...u kotibning k a l o n d i m o g‘ odam ekanligini bilsa ham, uning shu tantiligini juda hurmat qilar, gapini ikki qilmay bajarishga urinar edi...* N.Eshonqul, Bevaqt chalingan bong. *Faqat xaridor anqoning urug‘i bo‘ldi, yoniga kelgan k a l o n d i m o g‘ va tantiq kaslar, og‘zi ochiq xaltalarga birrov qarashardi-da, sekin bosh chayqab jadal burilib ketishardi.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Mana bugun ham mingboshining k e r i k xotini... “Itvachchalarini ergashtirib chiqmasin, biram suq, biram ifloski bolalari”, deganini eshitib, bormadi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Menga esa hecham yoqmasdi bu kampir. Badqovoq, k e r i k xotin edi.* D.Ashurova,

Bisot. *...keling, men bu yerda ul ajib manzilning osmono‘par tog‘lari-yu soya-salqin bog‘larini yoxud bir qarashda k e r i l m a ch o q, lekin aslida mag‘rur, jonfido odamlarini ortiqcha ta’riflab o‘tirmayin.* O.Shofiyev, Parijdan qo‘ng‘iroq bo‘lguncha va bo‘lgach. *Paxtalar qiyg‘os ochilib, terim mashinalari “Qani, qayerdan ish boshlaylik” degandek gurullab kelganda yuqoridagi k e r i l m a-ch o q akamlar pildirpis bo‘lib, damlari ichiga tushib ketdi.* “Mushtum”. *Rohila... k e r i l m a j o n yigit bilan ot chopishib ko‘rishga ruxsat so‘ragan edi, kapitan-ning baroq qoshlari chimirildi.* A.Muhiddin, Otash qalbli qiz. *Xudo farosatdan qisgani uchun suhbatni salomdan boshlashga fahmi yetmasdi, bu k e r i l m a-j o n ni...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Xalq kurash ilmini yaxshi biluvchi chinakam tanti va bahodir polvonlarni hurmat qilgan, qadrlagan. K e k k a y m a, maqtan-choq, quruq polvonlardan kulgan.* M.Qodirov, O‘zbek xalq og‘zaki dramasi. *O‘z izzatini bilmagan k e k k a y m a j o n larga yalinishning nima keragi bor?* Oy-bek, Oltin vodiydan shabadalar. *Shunday dedi-yu, o‘zini tutolmay kulib yubordi. Oshnoga ishonmadi, uni shunchaki ch i r a n m a ch o q deb o‘ylaydi.* M.M.Do‘st, Lolazor. *Bu gap ham yolg‘on, Sen ch i r a n ch o q, manman eding. Eng go‘zal qizni Qo‘lga olib do‘stlaringga maqtanib yurding.* E.Vohidov, Istanbul fojiasi. *Bir bola asabiyroq – arzimagan narsaga jazavaga tushadi, ikkinchisi dimog‘dor, uchinchisi ch i r a n ch o q, to‘rtinchisi arazchi, yana hasadgo‘y, jizzaki, takabbur, shuhratparast...* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *...yaktagi quyosh tushgan qordek yaraqlab, chust do‘ppisi bosh ustida omonat qo‘nib tu-radigan bu yigitni hamshaharlari “k a r a n d a” deyishardi, deb eslaydi.* L.Mah-mud, Dilmurodning dilkash davralari. *Gapga Muzrob k a r a n d a qo‘shildi-yu, davradan fayz ketdi*. A.Boyqo‘ziyev, So‘zim mening – o‘zim mening. *Ammo usta k a t t a z a ng odam edi. Panji sayoqni payqamaganga oldi. Salomi yerda qolgan Panji sayoqning dili og‘risa-da, o‘zini bosdi.* N.Norqobilov, Tog‘-u tosh-larda. *U kuyovi bilan urishli edi. K a t t a z a ng kuyovini ilgariyam unchalik xushlamasdi*. N.Norqobilov, Qabrtosh. *Eshboyev bu t a k a b b u r, bezbet bolani bo‘yin egishga majbur qilolmagan edi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Nahotki inson shunchalar t a k a b b u r? Atrofdagi minglab kishilar singari odmigina kiyinib, kamtargina yuradigan bu o‘zbek yigitining bag‘rida shunchalar kibr yashirinib yotgan bo‘lsa?..* U.Hamdam, Muvozanat. *Mening ko‘zim o‘zimizning m u t a-k a b b i r, semiz, dahshatli Amuda edi…* Cho‘lpon, Kileo‘patra. *Dunyoga hirs qo‘ygan, xudbin, muxolif, mag‘rur, m u t a k a b b i r, ziqna, darg‘azab, riyokor, shuhratparast insonlar ham shu jumladandirlar.* T.Malik, Vijdon uyg‘onur.

MANMANLIK, DIMOG‘DORLIK, KALONDIMOG‘LIK, KERIK-LIK, CHIRANCHOQLIK, KARANDALIK, KATTAZANGLIK, TAKAB-BURLIK, MUTAKABBIRLIK O‘ziga imkoniyatidan ortiq darajada baho berib, o‘zini o‘zgalardan baland tutish holati. **Dimog‘dorlik, kalondimog‘lik** so‘zlarida kishiga mensimay qarash, kek va kibr bilan munosabatda bo‘lish

ta’kidi aks etgan. **Keriklik** so‘zida ortiq darajada mag‘rurlanib ketganlik ta’kidi kuchli ifodalanadi. **Chiranchoqlik** so‘zida o‘z imkoniyatlarini hisobga olmaganlik alohida ta’kid oladi. **Karandalik** va **kattazanglik** so‘zlari shevaga xos. **Takabburlik** va **mutakabbirlik** so‘zlarida kibrlilik belgisi ochiq ifodalangan.

Shunday ekan, m a n m a n l i k nechun, Kibr-u havo nimaga kerak? E.Vohidov, Kamtarlik haqida. *Agar yosh avlodni fikr mahdudligi va m a n m a n l i k balosidan yiroq tutib, ular ruhiyatiga avvalgisidan-da mustahkam bir davlat, sog‘lom bir jamiyat barpo etish g‘oyasini singdira olsak...* U.Hamdam, Muvozanat. *– Bollar! – dedi u past, lekin o‘ziga ishonch aralash sal d i m o g‘ d o r l i k sezilib turgan hirqiroq ovozda (undan oldindan qo‘rqib, oldindan nafratlanib turganimiz uchun bu so‘zni “mollar” tarzida eshitdik)...* A.Yo‘ldosh, Aybdor. *Asadbekka bu “olifta imomcha”ning d i m o g‘ d o r l i g i yoqmadi*. T.Malik, Shaytanat. *Takabbur, uncha-munchani nazar-pisand qilmaydigan k a l o n d i m o g‘ l i g i uchun ko‘pchilik uni zimdan xushlamaydi*. E.A’zam, Shovqin. *Turdibek unga sayin o‘zini katta olib, k a l o n d i m o g‘ l i k ka o‘rgangan edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *...buvimning aytishicha, uning k e r i k l i g i ham o‘ziga yarasharkan*. H.Musurmonova, Kelinchak. *...mundoq qarasam bir tulki tovuqxona devoridagi yostiqdek keladigan darchaning yarmi siniq panjarasiga osilgan tarzda jonhalak jalanglab turibdi. Ch i r a n ch o q l i k bilan joyimdan qo‘zg‘aldim*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Doniyor... Savdo boshqarmasida ishlovchi, mol-dunyosi bilan doimo k a r a n d a l i k va kattazanglik qilib, uni mensimaydigan... raqibiga o‘chakishib, ana shu ishga kirishgandi*. S.Qahhor, Daydi qizning daftari. *Nazar baxshi... Salabekning k a t t a z a ng l i k bilan “shu qochgani uchun ham kelaman” deya qilgan zamzamasiga tariqcha ishonmadi*. N.Norqobilov, Kurash. *– Baland dorga osilma, bola! – dedi Farhod ortiqcha gapga o‘rin yo‘q degan mazmunda k a t t a z a ng l i k bilan.* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Bundaylar... martabalarini yashirishga qanchalik urinishmasin, gap ohanglaridagi t a k a b b u r l i k ularni fosh qilib qo‘yadi*. T.Malik, Savohil. *Azim ...besh yil shaharda yashab qoldi: shahar odamlariga xos ishchanlik, vaqtini tejash, sovuqqonlik va bir qadar t a k a b b u r l i k paydo bo‘ldi unda*. Sh.Xolmirzayev, Sog‘inch. *O‘z vaqtida Pushkinni “buyuk xalq shoiri” deb atagan “marksist” adabiyotshunoslar esa shoirning bunday “shakkokligini”, “xalqqa nisbatan m u t a k a b b i r l i g i”ni “sinfiylik” qoliplariga sig‘dirolmay rosa xunob bo‘lgan edilar*. O.Sharafiddinov, Cho‘lponni anglash.

MAQSAD, NIYAT, MUROD, MUDDAO, MAQSUD Biror narsaga erishish, yetishish istak-ixtiyori. **Niyat** so‘zida “qat’iy intilish” ifodasi ochiq ifoda topmaydi, oddiy so‘zlashuvda qo‘llanishga moyil. **Murod** orziqib, intiqib kutilgan xohish-istakni bildiradi, kitobiy uslubga xos. **Muddao** so‘zida maqsad qilingan ish-harakatning aniqligi ta’kidi qabariq ifodalangan, kitobiy uslubga xos. **Maqsud** so‘zi poetik bo‘yoqqa ega, eskirgan, kitobiy uslubga xos.

Mo‘ylov choy ustida Toshkentga kelishdan m a q s a d ini aytdi. S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. – *Tokni boshqa tomonga tarashdan m a q s a d ham shu – oftobga olib chiqish, – negadir Odil aka o‘g‘liga xiyol qizarib, qimtinib, buning ustiga “siz”lab gapirardi*. U.Hamdam, Muvozanat. *U yerga kim qaysi n i y a t da borsa, o‘sha n i y a t iga ko‘ra zuhur etadi*. I.Sulton, Boqiy darbadar. *U bir necha yil muqaddam Asadullaga uchrashib, teatr san’ati bilan qiziqqan, Qo‘qonda ham shunday tomoshalar ko‘rsatish n i y a t i borligini aytib, maslahatlar so‘ragan edi*. T.Malik, Savohil. *Bu qiyqiriqda iltijo bilan birga, erkakning ayolga, erning zavjasiga mehri, judolik hadigi, hayotga tashnalik, shuningdek, mardonalik, yupanch berish m u r o d i ham mujassam edi.* Q.Kenja, Toshqin. *Tangri taolo iroda etgan botiniy yumushlarni bajarmoqda... ikkinchisi besamar daydi ekan, bu besamarlikdan m u r o d ne?* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Sotiboldi xo‘jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan m u d d a o si nima ekanini aniq bilmas edi*. A.Qahhor, Bemor. *Mirahmad tajang behazil-bemutoyiba m u d d a o sini aytdi...* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Rejam tayyor, kirishib tezdan M a q s u d imga topaman imkon.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Zaynabning taqdiriga dil m a q s u d iga yetolmaslik yozilgan ekan, na iloj qilsin?* T.Malik, Shaytanat.

MAQTANMOQ, MARSINMOQ O‘zini ulug‘laydigan gaplar aytmoq. **Marsinmoq** shevalarda qo‘llanadi.

Yolqin akamning jilmayib aytgan bu so‘zlarida biroz kinoya bormidi, yoki mehmon o‘zining m a q t a n ganday bo‘lib gapirganini endi sezdimi, o‘tirgan joyida o‘ng‘aysizlansb, bir qimirlab qo‘ydi. P.Qodirov, Meros. *Juda izza bo‘ldim va shu-shu yozgan va yozmoqchi bo‘lgan she’rim haqida birovga m a q t a n maydigan bo‘ldim.* Q.Kenja, Bir piyola suvga almashmam. *Ulingiz o‘qib, bir stolning egasi bo‘lsa, sizgayam yaxshi-ku, ota, – To‘lanboy qontalash ufqqa jonsarak boqadi. – M a r s i n ib yurasiz keyin! Lekin vaqt ketyapti, mollarni tezroq haydamasak bo‘maydi, ota.* N.Norqobilov, Dasht-u dalalarda. *Chavandozning m a r s i n gisi, yigitlik davrini eslab maqtangisi kelgan, chog‘i, bor gapni o‘zi aytgan*. N.Chori, Tashvishi yo‘q odamlar.

MAQTOV, OLQISH, ALQOV, TAHSIN, SALLAMNO, KO‘TAR-KO‘TAR Kishi sha’nini ulug‘lab, madh etib aytilgan gap-so‘z. **Olqish** kitobiy uslubga xos. **Alqov** so‘zlashuv tiliga xos. **Ko‘tar-ko‘tar** bu ma’noni salbiy bo‘yoqda ifodalaydi, quruq maqtov, xushomadgo‘ylik bilan qilingan xatti-harakatni bildiradi, ko‘proq oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi.

Ana, raqibi... olqish va m a q t o v lariga zig‘ircha e’tibor bermay, ular orasidan kimlarnidir qidira boshladi. N.Norqobilov, Kurash. *Hakima opa ham uning biron narsasini, garchi ular m a q t o v ga arziydigan buyumlar bo‘lmasa ham, biron harakati yo gapini kinoyasiz tilga olmaydigan bo‘lib qoldi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *...axborot vaziri nutqini muxtasargina o l q i sh so‘zi bilan bosh-*

lab, hozirgi siyosiy vaziyatni dohiyona tahlil etib, dohiyona yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish... uchun ulug‘ dohiy tovarish Xon Man Menni ko‘pdan ko‘p ta’zim-tavozelar ila minbarga taklif etdi. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Tungi yengil shudring ostida orom olib yotgan turfa chechaklar-u maysalar quyoshdan oldin uyg‘onishib, avval unga, so‘ng oftobga o l q i sh yo‘llashdi*. N.Norqobilov, Buloq. *“Shunchalar savobga ko‘mildingizki, o‘liboq, tap etib jannatga tushasiz, akaxon”, degan a l q o v larni yog‘dirib, po‘rimni iliq kuzatib qo‘yayotgan Qoramirzaga Qo‘shmat qoniqish ila tirjaydi...* A.Obidjon, Hangoma va hikoyalar. *O‘sgan bog‘iga a l q o v, o‘stirgan bog‘boniga, Xavf-u xatardan saqlay kelgan soyaboniga...* T.Sulaymon, Gul bir yon, chaman bir yon. *Gugushidzelari ajab san’atkor chiqib qoldi. U burun parraklarini bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan chimdib, kaftini dahaniga qopqoq qildi-da, qulog‘idan tovush tarata – hushtak chalib barchani hayratga soldi. Bazmxonaning har yog‘idan t a h s i n yog‘ilardi*. E.A’zam, Shovqin. *Biron so‘z haqida savol bersa, javobini berganimdan so‘ng zavqlanar, goh t a h s i n-u, goh duo qilar ekan, har bir so‘zidan shodlikka to‘lib, murodim hosil bo‘lardi*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Uning qisqagina nutqi maydon uzra shag‘al to‘kkandek bir tekis qarsag-u s a l l a m n o lar bilan bo‘linib turdi.* E.A’zam, Shovqin. *Ana endi Muhabbat, E’tiqod, Vatan haqidagi s a l l a m n o larni ana shu dahlizdan izlayvering...* I.Qo‘shshayeva, Darvozasiz qolgan dunyo. *Podsho, eshak, afandilar zamoni-ku o‘tgan, biroq huda-behuda maqtov, k o‘ t a r-k o‘ t a r, silliq xushomadlar qolgan.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bir vaqtlar podachilik jontalosh edi. Endi bo‘lsa k o‘ t a r-k o‘ t a r, kim yaxshi – podachi yaxshi*. B.Qobul, Oynabuloq.

MARD, TANTI, JO‘MARD, HIMMATLI, ER Er kishiga xos ijobiy fazilatlarga ega, aytganining ustidan chiqadigan, himmati baland, odamiylik xarakteri kuchli. **Tanti** so‘zida “o‘z aytganidan qaytmaslik” tushunchasi deyarli yo‘q darajada, ammo “o‘zgalar manfaati uchun mehnatini, kuchini ayamaydigan” tushunchasi kuchli darajada ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvda ham faol. **Himmatli** so‘zi kitobiy uslubda faol qo‘llanadi, poetik bo‘yoqqa ega.

Men o‘shanda o‘zimga o‘zim “Sevganing qizga yetisholmading, boshqalariga esa mana, necha yildir ko‘ngling chopmayapti. Kel, m a r d bo‘l-da, shu dardmand qizni baxtli ayla!” deganim hanuz esimda. U.Hamdam, Muvozanat. *Sudda esa... Tojiboy bir so‘zli m a r d yigit-da. Tergovchiga bergan va’dasida turdi*. A.Mamarasulov, Uchinchi yo‘l. – *Otangiz juda t a n t i boylardan edilar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Men... oqko‘ngil – t a n t i Tangir bilan bahslashayotgan bo‘laman*. A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *To‘yga mas’ul tomonning vakili sifatida j o‘ m a r d tog‘amiz shartta o‘rnidan turibdi...* E.A’zam, Bizning tog‘a. *Eshitgan borki, bir muddat gangib qolar, j o‘ m a r d va odil shohning bu tutumiga aqllari yetmay bosh chayqashardi*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Tashakkur aytaman shu onning Shu qo‘qqis h i m m a t l i zayliga...* Zulfiya, Saylanma.

H i m m a t l i hamxonasi uni qizlar ko‘rgazmasiga boshlab kirgan edi go‘yo: mana, sayla saylaganingni, tanla tanlaganingni! E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Yaxshiki, yigitda e r yuragi bor, U sevsa hech qachon yonmas yashirin*. Zulfiya, Saylanma. *Necha-necha e r yigitlar umri zoye – choyxona! Choyxonaga qurbon el qalbida o‘qimoqqa muhabbat uyg‘otmoqlik uchun ham ko‘p, rost va qiziq yozmoqlik shart*. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz.

MARDLIK I, **JASURLIK, QO‘RQMASLIK, ERLIK, DOVYURAKLIK, BOTIRLIK** Har qanday xavf-xatardan qo‘rqmaslik, qo‘rquvni bilmaslik holati. **Jasurlik** so‘zida qo‘rqmaslik tushunchasi **mardlik** so‘ziga nisbatan kuchliroq, poetik tarzda ifodalanadi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Qo‘rqmaslik** so‘zida qo‘rquv bilmaslik ta’kidi ochiq ifodalangan. **Erlik** tushunchani erkak kishilarga xos qo‘rqmaslik, mardlik tarzida ifodalaydi, bu ma’noda eskirgan, kitobiy uslubga xos. **Botirlik** so‘zida xavf-xatarni pisand qilmaslik, mardonalik tushunchasi qabariq ifodalangan. **Dovyuraklik** so‘zida mazkur belgi obrazli tarzda yorqin ifoda topgan.

Bu kun Zaynab yurishlarida, Yurish bilan turishlarida Bir ajoyib m a r d l i k bor edi, Bir jasurlik unga yor edi. H.Olimjon, Zaynab va Omon. *O‘sha qish Bobur ko‘rsatgan m a r d l i k va dovyuraklikning mukofoti shu bo‘ldiki, Qosimbek Hirot chorbog‘ida uchragan go‘zal qizni izlab topdi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Chopu barlosning j a s u r l i g i va tadbiri shunda ish berdi*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *– Modomiki shundoq ekan, biz kezi kelganda j a s u r l i k, kezi kelganda muloyimlikni ishga solib, g‘olib chiqurmiz, – dedi Anvarxon qori*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Shafqatsiz jazolashga odatlangan xonadonda bola aybga iqror bo‘lish, tantilik, mardlik, q o‘ r q m a s l i k, insof, qat’iylik kabi fazilatlardan begona ravishda ulg‘ayadi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Ularga ham dardmandlik istash, ularning uvolidan q o‘ r q m a s l i k yirtqichlikdan battar-ku!* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar. *Har kim bu kungi urushdagi o‘zining e r l i k lari bilan, qo‘lg‘a tushirgan... o‘ljalari bilan maxtanadir*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Chunki chavandozlik, merganlik, d o v y u r a k l i k, harbiy safar mashaqqatlariga chidam ularning qonida bor*. G‘.Karimiy, Narshax qal’asi. *Jahongirning merganligi, d o v y u r a k l i g i ayon bo‘lgach, komandir qarashlaridagi xavotir, ishonchsizlik yo‘qoldi*. T.Malik, So‘nggi o‘q. *– Aziz yurtdoshlar, men bir rajput sifatida sizlarning b o t i r l i k laringizga, metin irodangizga qoyilman! – deb hayajon bilan so‘z boshladi Brahmajit Gaur*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ziyamat o‘z komandirlarini yaxshi ko‘rib qolgan va har doim ularning jangdagi sovuqqonligi va b o t i r l i g i ni ko‘rib qoyil qolardi*. O‘.Umarbekov, Saylanma.

MARDLIK II, **TANTILIK, JO‘MARDLIK, HIMMATLILIK, HOTAMLIK** Haqiqiy er kishiga xos ijobiy fazilatlarga egalik, odamiylik xarakteri kuchlilik, har ishda himmatni baland tutish. **Tantilik** o‘z xizmati, yordami uchun bi-

ron-bir manfaat kutmay harakat qilishni ta’kidlaydi, oddiy so‘zlashuvda faol. **Jo‘mardlik** so‘zida “mardlik bilan himmat ko‘rsatish” tushunchasi kuchli, kitobiy uslubga xos. **Himmatlilik va hotamlik** so‘zlarida borini berish, himmati zo‘rlik ifodasi kuchaya boradi, kitobiy so‘zlar. **Hotamlik**da bu ma’noga saxiylik tushunchasi ham qo‘shiladi.

Qo‘y, To‘qim, joning o‘zingga buyursin. Bunaqa m a r d l i k ni yoshlikda qilish kerak. Erta-indin o‘ladigan joning kimga kerak?! T.Malik, Xazonrezgi. *– Rahmat. Bu – m a r d l i k dan nishona, – deb qo‘ydi direktor o‘rinbosari*. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *...Bunda shaklda ham, rangda ham t a n t i l i k, istisno bor... Bunday tasvir ko‘rgan odamning ko‘ziga ko‘z, tuyg‘usiga tuyg‘u qo‘shadi, Nigora*. E.Boboyev, Musavvir. *Qutbxon... ikki yil Humoyun askarlari safida xizmat qilgan, uning t a n t i l i k larini ko‘p ko‘rgan*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *– Sultonim! – dedi malikayi kirom hayajonda, yuzi qizarib. ...J o‘ m a r d l i g i ngizga jonim fido bo‘lsin!* I.Sulton, Alisher Navoiy. *– U yog‘idan g‘am yemang, jiyan, bizga qo‘yib bering, – dedi tog‘amiz tog‘alargagina xos bir j o‘ m a r d l i k bilan*. E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Ko‘nglim saxoga moyil, H o t a m l i g i m ga qoyil, Chekdim tavakkal imzo, Bor, nima bo‘lsa bo‘lsin*. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Amir Temur hazratlari bu ulug‘ xushxabarni haqiqiy shohlarday, g‘urur va h o t a m l i k bilan qarshi oldi.* F.Ahmedov, Falakiyot ilmining sultoni.

MARTA, KARRA, BOR(A), GAL, NAVBAT, DAF’A, QAYTA, TOPQIR, QUR, YO‘L, QATLA, QAT, HISSA, CHANDON, SAFAR Sonlar va miqdor bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanib, takror, qaytarilishni bildiradi. **Marta, topqir** so‘zlari **har** so‘zi bilan qo‘llanmaydi. **Karra** so‘zi o‘zi ifoda etayotgan xatti-harakatni ta’kidlab ko‘rsatadi, kitobiy uslubga xos. **Bor(a)** *yana bir* birikmasi bilan qo‘llanganda, harakatning so‘nggi marta takrorlanayotganligini bildiradi, kitobiy uslubga xoslanagan. **Gal**, **navbat**, **daf’a** so‘zlari harakatning necha marta qaytarilayotganligini ta’kidsiz ifodalaydi. **Daf’a** so‘zi istalgan miqdor bildiruvchi so‘z bilan birikib, harakatning o‘shancha marta qaytarilishini bildiradi, kitobiy uslubga xos. **Navbat** bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Qayta**, **qat** bu ma’noni ifodalashi uchun *necha* yoki *bir necha* so‘zlari bilan birikishi zarur va bunda harakatning ko‘p marta takrorlanishi anglashiladi. **Topqir** bu ma’noda boshqa sinonimlariga qaraganda kamfaol, oddiy so‘zlashuvga xos. **Qur**, **yo‘l** so‘zlari faqat *bir* so‘zi bilan birikkanda, mazkur ma’noni ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Qatla** bu ma’noni ifodalashda bir va undan ortiq sonlar bilan birika oladi, kitobiy uslubga xos. **Hissa, chandon** so‘zlari “karralik” ma’nosiga o‘zi anglatayotgan harakatni ham qo‘shgan holda ifodalaydi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Safar** so‘zi harakatning bir marta bajarilganligini bildiradi, *bir* soni hamda *bu*, *o‘tgan* kabi so‘zlar bilan birga qo‘llanadi.

Mayingina muhabbat shabadasi bir m a r t a, faqat bir m a r t a siypalab o‘tsa, bu uchqun lovullab ketarkan. O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Ular endi yiliga bir m a r t a uchrashar edi – Azimning istirohat oyida yoxud u ish yuzasidan qishloqqa kelganida*. Sh.Xolmirzayev, Sog‘inch. *Binobarin, kitob yozayotgan qalamkash hayajoni kitob o‘qiyotgan o‘quvchi hayajonidan o‘n k a r r a kuchliroq bo‘ladi*. O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Haqiqatda, Aziz ich-ichidan tutaqib tursa-da, o‘zini jilovlay olishga odatlanibdi. Umid do‘stini kuzatib o‘tirib bunga yana bir k a r r a iqror bo‘ldi.* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Gulduros qarsaklar og‘ushida ...bu fikrni qizg‘in ma’qullayotgan kabi bir necha b o r bosh irg‘adim.* A.Yo‘ldosh, Yetim so‘z. *Talabalik kezlari to‘qimachilik kombinatida ishlaydigan o‘ris qizlar bilan voleybol o‘ynagani bir necha b o r kelishgan.* E.A’zam, Shovqin. *Bir g a l bu to‘g‘rida jo‘rasiga tish yorganda... “o‘zing bilasan” deganday yelka uchirib qo‘ya qolgan*. N.Norqobilov, Kurash. *Bir g a l Gulchehra uni qattiq itarib yubordi...* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ushbu tarixqacha Temurbekning avlodini bovujudi saltanat mirzo derlar edi, ushbu n a v b a t buyurdumkim, meni podshoh degaylar.* E.A’zam, Bir daqiqa ko‘zingni yum. *Ikki d a f’ a G‘ozi, bir safar Ziyo yo‘qladi...* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Eshonxon avval mo‘ylovini bir-ikki d a f’ a burab oldi, keyin... sirli ohangda dedi: – Otaxon, tangriga ming karra shukur qilsangiz arziydi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Oxirida Hasanali Otabekning tusiga bir necha q a y t a ko‘tarilib qo‘ydi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ey Alimat, necha q a y t a aytaman, qaddingni g‘oz tut*. M.Mansur, Judolik diyori. *Hirot xo‘rozlari kechaning sukutini ikkinchi t o p q i r buzganda Darveshali ko‘zlarini uqalab, o‘z xonasiga chiqdi*. Oybek, Navoiy. *Qiz birozdan so‘ng boshini ikki-uch t o p q i r eshikdan chiqarib, yana yashirinib, allaqanday erka ovoz bilan dedi: – Ayt, yana chalsin...* Oybek, Tanlangan asarlar. *B i r q u r bo‘lsa-da, uning ko‘zlariga qarab qo‘ymaydi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Yangi buloq o‘zining dastlabki g‘alabasidan behad shodlanib, tevarakka g‘olibona bir q u r nazar tashladi*. N.Norqobilov, Buloq. *– Menimcha, qutidorning oldidan bir y o‘ l o‘tilsin, – dedi Hasanali.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shoir topdi Erk chinakam, Ozod bo‘ldi tamoman. Bir y o‘ l unga dardi olam Barbod bo‘ldi tamoman*. E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Shahid ketmish notavon qizga bir q a t l a achinish izlayman, afsuskim, nadomat chekkan bir kimsani-da topolmasman...* Oybek, Tanlangan asarlar. *...Rustam boyagi taxlitda uch-to‘rt q a t l a kaftlariga “zahri qotil”dan quyib, Risolatning orqasiga obdan, beozor ishqadi. Juvonning vujudi cho‘g‘day qizib ketdi.* Q.Kenja, Toshqin. *Nega, ko‘nglim, bo‘lding betoqat? Tinchlan, dedim senga necha q a t*. Mirtemir, Surat. *Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o‘tkazmak uchun barcha qizlar o‘zlarining eng asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqulodda yasanib, husn olamini yana bir q a t, yana bir qayta bejabdirlar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Erkakning o‘zini nochor sezishi – qalbi uchun og‘ir azobdir. Tan azobidan bir*

necha h i s s a ortiqroqdir. T.Malik, Shaytanat. *Nigoraning uyi boyagi uy hashamidan o‘n ch a n d o n afzal edi.* S.Ahmad, Poyqadam. *O, g‘ofil banda! U dunyoda bu yerdagidan yuz, balki ming ch a n d o n ortiqroq azob hozirlab qo‘yilganini fahm etsami, o‘limga bu qadar intilmasmi edi...* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Bir s a f a r Xolxo‘ja uyg‘ondi-yu, juda uzoq jim yotdi.* A.Muxtor, Fano va baqo. *Normo‘min gung... Otam… bechorani hadeb azoblayvermasdan, bir s a f a r gina asta yiqilib bersa nima qilarkin, deb o‘ylaydi*. N.Norqobilov, Kurash.

MASLAHAT, KENGASH, MASHVARAT Biror ishni qanday qilish yoki, umuman, nima qilish kerakligi haqida yo‘l-yo‘riq tarzidagi fikr, mulohaza. **Kengash** so‘zi mazkur ma’noda kam qo‘llanadi, qisman eskirgan, kitobiy uslubga xos. **Mashvarat** bu ma’noda eskirgan, kitobiy uslubga xos so‘z.

Umri mening bu gaplarimni o‘zaro m a s l a h a t deb tushundi, shekilli, yu-
M *gurib uyidan bir qog‘oz olib chiqdi*. A.Qahhor, Xotinlar. *Mirkomil hoji uning m a s l a h a t iga amal qilib, “Xudo yana haj qilishni ko‘ngliga solganini” masjid ahliga bildirib qo‘ydi*. T.Malik, Savohil. *Menga qandog‘ yomonlik sog‘indingizki, sizga ishonchim bitsin? Vasvasalanishning o‘rni yo‘q, mundan so‘ng ham sizning xayrixohona k e ng a sh laringizga, ham vujudingizga muhtojman...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Poshshaxon Umrinisabibining eshigiga qulf soldirib qo‘yib, “ittifoqchisi” bilan yana kengashgali kirdi. Bu safar k e ng a sh juda kalta bo‘ldi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qo‘shnilarga qarshi urushlarning maslahatlari, saltanat m a sh v a r a t lari aynan shu joyda o‘tkazilar... edi*. I.Sulton, Boqiy darbadar. *M a sh v a r a t tugab, Mavlono Kamol Turbatiy Alisherning qolishini har qancha tilasa-da, uzr-ma’zur aytib tashqariga chiqildi*. I.Sulton, Alisher Navoiy.

MASLAHATLASHMOQ, MASLAHAT QILMOQ, KENGASHMOQ, AQLLASHMOQ, MASHVARAT QILMOQ (QURMOQ) Muayyan ish yoki xatti-harakat yuzasidan fikrlashmoq, muhokama yuritmoq. **Maslahat qilmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Kengashmoq**, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Aqllashmoq** mazkur ma’noda juda kam ishlatiladi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Mashvarat qilmoq** va **mashvarat qurmoq** so‘zi kitobiy uslubga xos.

Bobur Qosimbek bilan m a s l a h a t l a sh ib, oxiri Xo‘ja Abdullani Andijonga yubordi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Tog‘asi xesh-tabor bilan kengashdi, m a s l a h a t l a sh di*. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *...bobojonimdan ko‘ngil so‘rashni o‘sha yerda m a s l a h a t q i l ishibdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Aytishicha, tog‘amiz atayin biz bilan m a s l a h a t q i l gani kelibdi*. E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *U yaqinlari bilan k e ng a sh ib, Angliyaga noma yuborishni lozim topdi*. T.Malik, Savohil. *Chol-kampir k e ng a sh ib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim – oxirgi va ho‘kizni bo‘ynidan bog‘lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas*. A.Qahhor,

O‘g‘ri. *Unda bu g‘oyani sen shakllantir. Tuzukroq fikr uyg‘onsa, xabar berarsan, a q l l a sh armiz*. T.Malik, Shaytanat. *Lekin o‘zimni bosaman, avom ko‘tarilganda qayoqqacha borishini bilaman: a q l l a sh ish uchun to‘dalanadi-da, aql qolib, kekirdakka zo‘r beradi...* A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *Kechqurun beklar bilan m a sh v a r a t q i l di-yu, besh kunlik yo‘l bo‘lgan Joudhpurga roja Mal Devaning huzuriga Otakaxon degan bekni qimmatbaho sovg‘alar bilan elchi qilib yubordi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Dunyoning haqiqati bu yoqda ekan-ku, deyman, kecha hazrati imom m a sh v a r a t q i l ib: “Xudodan qo‘rqmagandan qo‘rqingiz”, deb aytdilar.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Bu gal arkoni ashraf-u umaro Shahrisabzda m a sh v a r a t q u r di: yurish kerakmi-yo‘qmi?* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen.

MASLAHATLI, KENGASHLI Maslahatlashilishi, kengashilishi lozim bo‘lgan, shunday yo‘l tutish talab qilinadigan yoki maslahatlashish, kengashish bilan bo‘lgan. **Maslahatli** so‘zi ko‘proq “maslahatlashish talab qilinadigan, maslahat bilan qilingan” ma’nosida, **kengashli** so‘zi “kengashilishi lozim bo‘lgan yoki kengashish bilan qilingan” ma’nosida qo‘llanadi. **Kengashli** bu ma’noda kam ishlatiladi, ko‘proq kitobiy uslubga xos.

Oqsoqol. – Mulla Mo‘min, m a s l a h a t l i gapim bor. Hammamiz bir mahallaning odamimiz. E.Vohidov, Oltin devor. *– Gaplashsang, gaplashaver, – dedi Ruzvon xola, – “m a s l a h a t l i ish buzilmas”, degan eskilar*. O.Yoqubov, Tilla uzuk. *K e ng a sh l i to‘y tarqamas*. Maqol. *Uchov nimaningdir bahsiga kirishgan ham edilarki, Abdulhay, nima bo‘lganda ham muharrir-da, fikri-zehni o‘zgacha – bir k e ng a sh l i gap bor, sizlarga atalgan, deb qoldi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz.

MASLAHATCHI I, MASLAHATGO‘Y, KENGASHCHI Maslahat beruvchi, kengashuvchi. **Maslahatchi** va **maslahatgo‘y** so‘zlari adabiy til va oddiy so‘zlashuvda keng qo‘llanadi. **Kengashchi** nisbatan kam qo‘llanadi.

Manzura unga xotingina emas, sodiq do‘st, dono m a s l a h a t ch i ham... U.Hamdam, Muvozanat. *Yaqin uch oydan beri shunday qorong‘i kecha uning m a s l a h a t ch i si, ovunchi.*O ‘Umarbekov, Yer yonganda. *Bu yetmaganday, domlasi tushmagur mahalla masjidi imomchiligiga qo‘shimcha o‘laroq o‘zini mahalla-ko‘yning ma’naviy padari, m a s l a h a t g o‘ y i o‘rnida ko‘rar, bu “nodir” qobiliyatini o‘zgalarga ko‘z-ko‘z qilishdan iymanmas... edi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. U *Saidga nafaqat rafiqa, ayni damda eng yaqin va eng ishonchli m a s l a h a t g o‘ y, xavf-xatardan asraydigan “tumor”, palaponlari uchun esa har narsaga tayyor mehribon va g‘amxo‘r ona...* U.Hamdam, Muvozanat. *Qushbegi Otabekning bu gaplaridan yaxshigina taraddudga tushgan edi, ammo Azizbekning otalig‘i va k e ng a sh ch i si bo‘lgan Yusufbek hojining o‘g‘li bo‘lishi uning miyasini qotirgan.. edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Abdishukurni ba’zilar “zakunchi” deydi, ba’zilar “dahriy” deydi. Hozirgi kunda*

Jamolboyning prikazchigi, do‘sti va k e ng a sh ch i si. Oybek, Tanlangan asarlar.

MASLAHATCHI II**, KENGASHCHI** Biron idora, muassasada yoki biror mansabdor shaxs huzurida maslahat berish vazifasida ishlovchi xodim. **Maslahatchi** so‘zining ma’no doirasi keng, ayni paytda unda “lavozimli shaxs” ma’no uzvi ham mavjud. **Kengashchi** eskirgan, asosan, tarixiy mavzudagi asarlarda qo‘llanadi, kitobiy uslubga xos.

– Yo‘l solish-ku “no problem”, shef, – dedi qurilish bo‘yicha ko‘p yillik malakaga ega, ancha uquvli va shu bois norasmiy m a s l a h a t ch i rutbasini egallagan xodim mo‘ljaldagi pakkani ko‘zdan kechirib, azmoyish olarkan. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Bu paytga kelib, u ancha keksaygan va sulton m a s l a h a t-ch i si lavozimiga o‘tkazilgan edi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Qanday bo‘lsa ham, safar sunnatiga muvofiq Nazarqulni safar amiri qilib, o‘zim boshliq olti odamni unga k e ng a sh ch i saylagan, so‘ng oldi-orqamizga mergan yigitlardan soqchilar belgilagan holda yo‘lga tushdik.* A.Sog‘uniy, Turkiston qayg‘usi. *Jangju xoqon muni eshitib, so‘zchini qo‘niq qilishni buyurdi-da, k e ng a sh ch i larini yig‘ib, uzoq kengashdi.* I.Sulton, Bilga Xoqon.

MASOFA, ORALIQ Muayyan ikki narsa, belgili ikki nuqta oralig‘i. **Masofa** so‘zi bir joydan ikkinchi joygacha bo‘lgan oraliq uzunligini bildiradi. **Oraliq** so‘zi, asosan, hisob so‘zlar bilan birga qo‘llanganda, “masofa” ma’nosini ochiq ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi.

Umid... o‘n chaqirim m a s o f a ni beto‘xtov yugurib o‘tgan chopardek “hars-hars” nafas olganicha orqasi bilan devorga suyanib, tek turib qoldi. X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Uyatdan qizarib, nomus o‘tida kuyib kelayotgan qizga oradagi m a s o f a juda uzoq tuyuldi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Sohilgacha yana uchta shaldirama bor, har birining oralig‘i sakson-yuz qadam kelardi, o r a l i q lar esa toshloqlardan iborat edi...* Q.Kenja, Toshqin. *Oftob xonaqoh oldidagi teraklar ustidan tushib, ikki terak o r a l i g‘ i da qonli barkashday qizarib turib qoldi.* M.Mansur, Judolik diyori.

MAST I**, KAYF, SHIRAKAYF, SARXUSH** Ichkilik yoki boshqa mast qiluvchi narsaning ta’sirida bo‘lgan, kayfi bor. **Kayf** so‘zida mastlik belgisi **mast** so‘ziga nisbatan me’yordan biroz past ifodalanadi. Bu belgi **shirakayf** so‘zida **kayf** so‘zidagidan ko‘ra ham kamroq ifodalanadi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Sarxush** yengil mast bo‘lganlikni bildiradi, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi.

Qayerdadir m a s t kishi ashula aytardi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Bu mashmashani adolatli hal etmoq qasdida qalam charxlab borgan E.Safarni kechqurun direktorning mashinasi o‘lardek m a s t ahvolda keltirib uyiga tashladi*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ko‘pchilik bilan to‘qishtirib ichaverib, anchagina k a y f bo‘lib qolgan G‘oziboy chayqalib-gandiraklab hovli o‘rtasida*

turgan oppoq mashinasi yoniga bordi-da, kutilmaganda kapotga bor kuchi bilan daranglatib urdi. A.Yo‘ldosh, Yolg‘on va haqiqat. *Eri k a y f bo‘lib kelgan kunlari Hilola o‘zini qo‘yarga joy topolmasdi.* B.Mansurov, Qarg‘ish. *Sh i r a k a y f yigitlar kelib, “sho‘xrog‘idan bo‘lsin”, deb qulog‘iga shivirlab ketishsa ham parvo qilmadi.* T.Malik, Shaytanat. *– O! Juda sodda yasharkansiz-u? – dedi sh i r a k a y f rejissyor Islomning uyini ko‘rib.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Tunda tramvayda s a r x u sh o‘spirin Tinmay haydovchiga yolvorar edi. Ana u ko‘chaga yuz qadam kiring, Uyim o‘sha yerda, jon aka, derdi.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Hamma yegan, ichgan, s a r x u sh.* E.A’zam, Shoirning to‘yi.

MAST II**, KAYF, SARXUSH** Biror narsadan kuchli ta’sirlangan, masrur. **Kayf** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi, kitobiy uslubga xos. **Sarxush** ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanganda, shunday ifodani bildiradi, kitobiy uslubga xos.

Muyulishdagi supachada bir mo‘ysafid devorga suyanib, mudragandek bir ko‘yda o‘tiribdi... Ko‘zi ko‘rmaydi – ojiz. O‘zicha ming‘irlab xirgoyi qiladi. O‘zicha m a s t. Ajabo, nimadan sarxush ekan u? E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Men sizga hozir ta’riflagan bu suvratni keyin – oromsiz tun-u kunlarimda xotiramdagi mayda bo‘lakchalardan yig‘ib tikladim. Hozir esa men s a r x u sh edim, boshim aylanib, ko‘zlarim tinib, oyoqlarimdan mador ketib, devorga suyanib qolgandim.* N.Jaloliddin, Ayo, ishq! *...Farhod yoqimli xayollar og‘ushida talay vaqt s a r x u sh yotdi.* E.A’zam, Shovqin.

MASXARA, MAZAX, ERMAK, KALAKA, KULGI Mazaxlovchi, kulgi qiluvchi xatti-harakat, gap-so‘z. **Ermak**da kamsituvchi kulgi tushunchasi **masxara** so‘zidagiga qaraganda kam, **ermak** so‘zida bu ma’noga “hazil” ifodasi ham qo‘shiladi, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Mazax** so‘zida kamsituvchi kulgi darajasi **ermak** so‘zidagidan ko‘proq, **masxara** so‘zidagidan kamroq ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvda ham, adabiy so‘zlashuvda ham faol ishlatiladi. **Kalaka**da kamsituvchi kulgi darajasi **masxara** so‘zidagidan ham kuchliroq ifodalanadi, adabiy til va oddiy so‘zlashuvda baravar ishlatiladi.

Sud raisi ovozini ko‘tara tushdi: – Harbiy sud m a s x a r a mi bu kishiga? Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Davradagilarning chehralari jiddiylashib, m a s x a r a ni bas qildilar.* T.Malik, Shaytanat. *Xalq kular bu alfozdan, Qah-qah, m a z a x bitmaydi.* E.Vohidov, Matmusaning haykali. *G‘ozi Yunus davom etdi: – Faqat kulgiga haddan ziyod zo‘r berilayotgani menga ma’qul kelmayapti. Kulgi, m a z a x, piching me’yordan oshib ketayotganday.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *U avval bilinar-bilinmas qilib kuldi, keyin ovozida bir nav e r m a k asarini bosolmagan holda mingboshiga “nasihat” qildi: – Yo‘q, xo‘jayin, unday demang. Miryoqub akamning sizdan boshqa hech kimi yo‘q.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...to‘polonchi nevaralar ...bobolari huzuriga otilishib-quvalashib kirib kelishar, bundan zavqlangan bobo surnaychani yashirib, o‘zini bilmaganga olib yotaverar, shu go‘daklarcha e r m a k dan o‘zicha zavq tuyardi.* X.Do‘st-

muhammad, Yolg‘iz. *Muhayyo ham k a l a k a ohangida dedi: – Tegsam, olarmidingiz?* A.Qahhor, Muhabbat. *Bir kuni kechki ovqatdan keyin haqoratga guvoh bo‘lgan qizlarni, hamisha k a l a k a ostida yuradigan zaifroq bolalarni to‘pladi-da, kottejlar tomon boshladi.* T.Malik, Savohil. *Jasadning to‘satdan kipriklari qimirlab, beso‘naqay qalin lablarida zaharxandali k u l g i ifodasi paydo bo‘lgandi*. H.Shayxov, Ikki hikoya.

MASXARABOZ I**, QIZIQCHI, LO‘TTIBOZ, NAYRANGBOZ, FOKUSCHI** Xalq sayillarida, yig‘inlarida, sirk tomoshalarida yig‘ilganlarni kuldiradigan o‘yinlar ko‘rsatuvchi artist. **Qiziqchi**, **nayrangboz** so‘zlari bu ma’noda kam qo‘llanadi, bu jihatdan **masxaraboz –** eng faol so‘z. **Lo‘ttiboz** so‘zi mazkur ma’noda eskirgan. **Nayrangboz, fokuschi** so‘zlaridan “hiylali xatti-harakatlar bilan kuldiradigan” ifodasi juda ochiq anglashiladi.

Do‘kat bilan ikkala tomonga ikki marta qo‘l tegizilsa, u sichqon dumlaridan asar qolmaydi, shu bilan mo‘ylov m a s x a r a b o z kepatasidan chiqib, odam nusxasiga kiradi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Men – to‘qaylar shohi, Tutqun bo‘lsam-da agar, Sen-chi, – no‘noq m a s x a r a b o z, Pastkash bozingar*. E.Vohidov, Arslon o‘rgatuvchi. *Tomoshabinlar to‘dasi behad zichlasha borayotgan bir mahal uchov q i z i q ch i to‘satdan sarosimaga tushdi*. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *U bir n a y r a ng b o z – qo‘g‘irchoqbozdurkim, uning kapasi chodiridir...* Navoiy, Farhod va Shirin. *Men yarim yalang‘och ayol tasvirlangan qartani eslab olganimga, f o k u s ch i ning o‘zi bu qartani ham ko‘rmaganiga yana bir karra ishonch hosil qilganimdan so‘ng u “mahbuba”ni ham to‘pga qo‘shdi.* L.Bo‘rixon, Qo‘noq. *Nega ko‘zboylog‘ich deyishadi? G‘arbda f o k u s-ch i deyishadi. Nazarimda, sharqliklar bu kasbning mohiyatini to‘laligicha ochib berishgan*. Sh.Suyundukov, Parvoz yoki intuitsiyani kodlash.

MASXARABOZ II**, NAYRANGBOZ, LO‘TTIBOZ** Kishiga faqat haqorat bo‘lib tuyuladigan, kishini butunlay ahmoqqa chiqaradigan tutum, munosabat va gap-so‘zni odat qilib olgan kishi. **Nayrangboz** so‘zida bu ma’no **masxaraboz** so‘zidagi me’yoriy holatdan birmuncha kuchsiz va yashirinroq ifoda topadi, **lo‘ttiboz** so‘zida nazarda tutilgan ma’no me’yoriy holatdagidan ancha kuchli hamda ochiq namoyon bo‘ladi.

Yordamchilardan umid yo‘q, hammasi m a s x a r a b o z, nayrangboz bo‘lib qoldi. X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. *U bir to‘p m a s x a r a b o z orasida kalaka bo‘lgandek qizarib, vagonga yaqinlashdi*. “Yoshlik”. *Elchin qo‘l siltab qo‘ydi. – Hammasi n a y r a ng b o z. Qur’onni sharillatib o‘qib, barchani mahliyo qiladi-yu, bu yoqda maishatdan bo‘shamaydi*. T.Malik, Shaytanat. *Qushlar ham qo‘nib-qo‘nib Qilgandek ko‘kda parvoz, Bir kun ko‘zasi sinib, Qo‘lga tushdi n a y r a ng b o z.* A.Oripov, Firibgar qissasi. *– Qanaqa olim deyapman? – Olim emas u, lo‘ t t i b o z.* T.Malik, Shaytanat.

MASXARABOZLIK I**, QIZIQCHILIK, NAYRANGBOZLIK, FOKUSCHILIK** Xalq sayillarida, yig‘inlarida, sirk tomoshalarida yig‘ilganlarni turli

o‘yinlar ko‘rsatish orqali kuldirish ishi, san’ati. **Masxarabozlik** so‘zi bu ma’noda **qiziqchilik** so‘ziga qaraganda faol qo‘llanadi **qiziqchilik** so‘zi **nayrangbozlik** so‘ziga nisbatan bu ma’noda ko‘proq ishlatiladi, bu jihatdan **masxarabozlik** – eng faol so‘z. **Lo‘ttibozlik** so‘zi bu ma’noda eskirgan. **Nayrangbozlik, fokuschilik** so‘zlaridan “hiylali xatti-harakatlar bilan kuldiradigan” ifodasi juda ochiq anglashiladi.

Otda turib qilich solish, yoy urishda birov bas kelolmadi. Qoldiki, har turlik huqqabozlig-u m a s x a r a b o z l i k tomoshalarida usta ekanlar, shu darajadaki, bizlar undoq qilolmasmiz. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Registonda erta-kech xalq qaynar, do‘konlarda savdo qizir, ayniqsa, qish-ro‘za kunlarida kechalar sayilgoh – bozor shabga aylanib, yoz kezlari Janggoh suvi bo‘yida dor o‘yini, maddohlik, masxaraboz-q i z i q ch i l i k o‘yinlari ham bo‘lib turar edi*. H.Qodiriy, Eski Toshkantda. *Bozorshabda… turli-tuman n a y r a ng b o z l i k, q i z i q ch i l i k… qilib berib, tomoshabinlarni, xususan, yosh bolalarni hayron qoldirar edilar.* M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari. *Dor o‘yinlari dor tagida polvonlar chiqishi, raqqoslarning o‘yinlari, qiziqchi, masxaraboz, askiyachilarning chiqishlari hamda an’anaviy sirk turkumlaridan simdor, yog‘ochoyoq, n a y r a ng b o z l i k... sozandalar jo‘rnavozligida... olib borilgan*. Gazetadan. *– Oldingi ishim f o k u s ch i l i k ka o‘xshaganroq bir kasb edi-da, uka. – Sirkda ishlaganmisiz? – Yo‘g‘-e, bizda sirk nima qilsin?! – Unda qanday f o k u s ch i l i k qilgansiz?* D.Azimova, Ko‘prik.

MASXARABOZLIK II**, MAYNAVOZCHILIK, LO‘TTIBOZLIK** Haqorat, borib turgan ahmoqlik sifatida qabul qilinadigan xatti-harakat. **Maynavozchilik** so‘zida shunday xatti-harakat **masxarabozlik** so‘zidagidan ko‘ra kuchliroq ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. Bunday munosabat **masxarabozlik**ka nisbatan ham, **maynavozchilik**ka qaraganda ham **lo‘ttibozlik**da kuchliroq namoyon bo‘ladi.

– Agar boshqa iloj topolmagan bo‘lsangiz, na qilurmiz, – malika iljayib qo‘ydi. – Axir bu m a s x a r a b o z l i k-ku. M.Osim, Ibn Sino qissasi. *Kamina bu m a s x a r a b o z l i k, nodonlikning bu ko‘rinishining nima bilan tugashini bilish uchun toqat bilan kuzatdim.* T.Malik, Iymonlashish umidi. *...shunday ekan, savol-javob emas, manavi m a y n a v o z ch i l i k tugagan zahoti u yo‘lga otlanadi...* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Mayli-mayli, m a y n a v o z ch i l i k ni qo‘y. Qorning ochdir, nima yeysan?* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ba’zilar unga qarab, hihilab kulib tarqalishdi. Ba’zilar bu l o‘ t t i b o z l i k dan ranjishdi.* Mirmuhsin, Supurgiga sajda. *Seni biz to‘rtinchi barakka oqsoqol qilib tayinlaymiz. Odamlarga qaraysan, vaqtida ishga olib chiqasan, l o‘ t t i b o z l i k ka yo‘l qo‘ymaysan, ayyorlarni jazolaysan*. T.Malik, So‘nggi o‘q.

MASXARABOZLIK QILMOQ, MAYNAVOZCHILIK QILMOQ, LO‘TTIBOZLIK QILMOQ O‘rinsiz kulgili, yopishmaydigan gap-so‘z qil-

moq, kishiga yoqmaydigan, yarashmaydigan xatti-harakatda bo‘lmoq. **Maynavozchilik qilmoq** bu ma’noda qo‘llanganda, xatti-harakatga o‘ta salbiy bo‘yoq qo‘shadi, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Lo‘ttibozlik qilmoq** so‘zida salbiy baho ortiq, oddiy so‘zlashuvda faol.

– Hmm… ajabo, bitta eshak topish shuncha qiyinmi, a?! – deya hayron va jig‘ibiyron bo‘lardi rahbar. – Qaysi deparada ko‘proq bo‘ladi o‘zi u qurib ketgur? – Afg‘onistonda, Avstraliyada… – M a s x a r a b o z l i k q i l ma! Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Men sizni jonimdan ham yaxshi ko‘raman, Malohat! Yo‘q, mening Malohatim! – dedi Abdumajid, kulib yubormoqdan o‘zini arang tutib. Shunchalar m a s x a r a b o z l i k q i l ishga qodirligini o‘zi ham endi anglab turar, bundan ham g‘ururlanib, ham hayratga tushardi*. A.Mamarasulov, Alibek va qirq do‘stining sarguzashtlari. *Bu xodimlarga nima jin urgan o‘zi? Chindan gapirishyaptimikin yo m a y n a v o z ch i l i k q i l ishyaptimikin*. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *– Nega m a y n a v o z ch i l i k q i l asan? Men jiddiy gapiryapman, – dedi Hamdamov*. A.A’zam. Soyasini yo‘qotgan odam. *Sohib qori: “Nega o‘shshayasan, xotin yoki qizingning sirini ochgani qo‘rqyapsanmi?” – deb l o‘ t t i b o z l i k q i l di. Xolida o‘zini shu yerda, o‘z uyida, kuppa-kunduz kuni birovning bisotini o‘g‘irlayotganday sezdi...* I.Rahim, Chin muhabbat.

MASXARALAMOQ, MASXARA QILMOQ, ERMAKLAMOQ, MAZAXLAMOQ, MAZAX QILMOQ, MAYNA QILMOQ, KALAKA QILMOQ Masxara qiladigan, kulgi qiladigan xatti-harakat yoki gap-so‘z qilmoq. **Masxara qilmoq** ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Ermaklamoq** so‘zida belgi nisbatan kuchsizroq, unda hazil ta’kidi ham anglashiladi. **Mazaxlamoq** so‘zida bunday xatti-harakat **ermaklamoq** so‘ziga nisbatan kuchli, **masxaralamoq** so‘zidagidan yashirinroq namoyon bo‘ladi, nutqda kam qo‘llanadi. **Mazax qilmoq**da bunday tushuncha darajasi **mazaxlamoq** so‘zidagi holat bilan bir xil, biroq nutqda unga qaraganda ko‘p ishlatiladi. **Mayna qilmoq** so‘zida mazkur holat belgisi obrazli ifodalangan. **Kalaka qilmoq** kamsitish, haqoratlash darajasidagi xatti-harakatni bildiradi.

Agar laqab kishining jismoniy kamchiligini m a s x a r a l a sh maqsadida to‘qilganida Turg‘unga “Buqoq” deyilmas edi. T.Malik, Xazonrezgi. *Bobom tengi odamni necha gal izzaga qo‘yib dilini og‘ritdim, hatto ochiq m a s x a r a l a shgacha bordim*. E.A’zam, Shovqin. *Dodxo g‘ashi kelib, Unsinni m a s x a r a q i l di: – Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo‘yni nazarlari ilmaydi! Nechta qo‘y bo‘lsa arzir edi?* A.Qahhor, Dahshat. *Men tushunmay qoldim, Mahmudali Asqarovich, bu yetuk olimlarni m a s x a r a q i l ishdan boshqa hech narsa emas!* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Aytsa nima, el faqat Kulgi qilar e r m a k l a b...* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Akobirov uzatilgan qo‘lni xuddi e r m a k l agan kabi silkiy-silkiy qo‘yib yubordi: bor, ishingni qil!* E.A’zam, Shovqin. *G‘oyibdan esa ham sokin, ham zalvorli bir nido eshitiladi: “Tutgil o‘zingni, ul seni*

m a z a x l a ydir!” A.Dilmurod, Mahmud Tarobiy. – *O‘zimniyam boshim qotdi, – deya uf tortib qo‘yardi Yoqutoy otin. – Hatto, Katon lo‘liyam saqichdek qizimni o‘sha isfiropkasiz jinniga beramanmi deb, meni m a z a x l a di*. A.Obidjon, Yerliklar. *Jajman boboni m a z a x q i l g a n dek tirjaydi, aslida, u talvasaga tushgan – behad oshiqayotgan edi...* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Boshqa “oddiy” otryaddagilar bizni ochiqdan ochiq m a z a x q i l ishar, istehzo bilan qarashardi.* Y.Tog‘a, Aybdor. *Karomatning kipriklari pir-pir uchdi: – Sizga shunaqa m a y n a q i l ish bo‘lsa!* A.A’zam, Odamning olasi. *Shu mahal orqa tarafdan kimningdir g‘ingshigani eshitildi: – Ey o‘rtoqlar, nimaga mum tishlab o‘tiribsizlar – Akobirov sizlarni m a y n a q i l yapti-ku?!* E.A’zam, Shovqin. *Zargarov Qutbiddinovni o‘larday k a l a k a q i l ib toza alamini oldi...* A.Qahhor, O‘jar. *Men tashlagan shisha idishlarni sotib pulini olganda huzur qilgani yetmagandek, endi k a l a k a q i l ib, xumordan chiqardi.* T.Eshbek, Ostonaqul buvaning “boyliklari”.

M

MASXARALI, KULGILI, MAZAXLI, MASXARAOMUZ, KALAKALI, MAZAXOMUZ, MAZAXNAMO Kishini kamsitadigan darajada kulingan, masxara ruhi bor bo‘lgan, kalaka ohangidagi. **Kulgili** so‘zi bu ma’noni umumiy qilib ifodalaydi, masxara yoki kalaka ifodasi kuchaygan tarzda namoyon bo‘lmaydi. **Mazaxli** so‘zi belgini me’yordagidan kamroq ifodalaydi, kitobiy uslubga xos. **Masxaraomuz, mazaxomuz** so‘zlarida masxara-mazax ta’kidi bir qadar kuchsiz. **Kalakali** so‘zida kishining ustidan kulish ta’kidi ortiqroq. **Mazaxnamo** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi, kitobiy uslubga xos.

Endi Panji Polvonning o‘yib-o‘yib olayotgan m a s x a r a l i hayqiriqlariga chaganaliklar chidab turolmaydilar. U.Azim, Birovning umri. *U ketish oldidagina ko‘rinishda samimiy, lekin aslida soxta va m a s x a r a l i tovush bilan Yo‘lchining onasini va ukalarini so‘radi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Uzun bolani opichib yurish tashqaridan qaragan odamga k u l g i l i tuyular edi.* T.Malik, Shaytanat. *Shu topda u bo‘ynida bir shoda teshikkulcha bilan judayam k u l g i l i ko‘rinardi* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Bu hayqiriqlar kerakli izni iskalab borayotgan Bosvoldining quloq pardalarida m a z a x l i sadolanib, ta’bini battar xiralashtirdi*. A.Obidjon, Qora bodring. *Hududga da’vogarlik, tajovuzkorlik, nopisandlik va hatto m a z a x l i belgilargacha bo‘ladi*. N.Norqobilov, G‘animlar. *Ubaydulla Sulton beklarining orasida turgan Mansur baxshi bilan ma’noli ko‘z urishtirib oldi-yu, m a s x a r a o m u z kulumsiradi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. – *Men sening qulog‘ingni tishlarkanman! – dedi Ozodbek harbiychasiga. – Nimaa? – dedi qiz m a s x a r a o m u z.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Uning k a l a k a l i so‘zlari-yu tikandek qadalgan och kulrang ko‘zlaridan nafratlanib, yuzimni burdim.* G‘.Po‘latov, Herirud faryodi. *G‘oziqul savol berguvchiga “Shuni ham bilmaysanmi?” degandek m a z a x o m u z qarar va sira e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan ohangda shartta aytardiki: – Bir maza qilib*

qolishmoqchi bo‘lishgan-da. A.Yo‘ldosh, Yolg‘on va haqiqat. *To‘riga yonboshlab olgan To‘lan to‘lpoq: – Ha, Mahay, choyxonaga burilmay, g‘irmayib o‘tib ketyapsan, yana omading chopmadimi deyman? – deb m a z a x o m u z gap otgan edi...* A.Obidjon, Mittivoymisan, Mo‘ttivoymisan? *Mikrofon bo‘lmasa tovushi to‘rt qadamdan nariga yetmaydigan xonandachani “sehrli ovoz sohibi”, “davrimizning eng porloq yulduzi” deb ko‘klarga ko‘tarish o‘sha qahramonlarni bilganlarga m a z a x n a m o tuyulishi tayin, albatta*. A.Obidjon, “Vahimali savollar”ga vazmin javoblar. – *Bundan bexabar ekanman, – dedi sanitar m a z a x n a m o ohangda*. A.Obidjon, Mittivoymisan, Mo‘ttivoymisan?

MATO, GAZLAMA, GAZMOL To‘qish yoki boshqa yo‘l bilan tayyorlangan tikish mahsuloti. **Gazlama, gazmol** so‘zlarining asosidan uzunligi o‘lchab sotiladigan tikish mahsuloti ta’kidi anglanishi mumkin. **Mato** so‘zi mazkur ma’noda nutqda keng qo‘llaniladi.

M

So‘ng hamisha dasturxon o‘rnida yoziladigan belbog‘idagi non ushoqlarini bir chetga qoqib-suqib, uni to‘ni ostidan beliga bog‘laydi-da, xurjunidan toza va mayin m a t o ga o‘ralgan kitobni qo‘liga oladi. N.Norqobilov, Kurash. *U ham faslga mos kiyingan: tiniq, muloyim mavjli m a t o dan tikilgan ko‘ylagini ustiga yengilgina tashlab olgan*. U.Hamdam, So‘z. *Bo‘zchilar kanopdan yupqa va qalin g a z l a m a lar to‘qishib, ularni turli giyohlar yordamida har xil ranglarga, jumladan, oq rangga ham bo‘yar edilar.* A.Obidjon, Ey yorug‘ dunyo. *G a z l a m a orqali bajariladigan gullarni yasashda atlas mato oldindan kraxmallab olinadi.* “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi”. *Uning hujrasi Otabekniki bilan bir qatorda bo‘lib, g a z m o l, poyabzal va shuning singari mollar ila to‘lgan*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Safar to‘rvasini olmoqchi bo‘ldi-yu, keyin qaytdi. Birov “ha, yo‘l bo‘lsin!” deb so‘roqlab qoladigandek tuyuldi. Uning ichida bo‘lgan kolbasa konservani cho‘ntagiga tiqdi, nonni ham paytava uchun berilgan, lekin ishlatishga ko‘zi qiymay yurgan oppoq g a z m o l ga o‘radi, qo‘yniga tiqdi.* Shuhrat, Oltin zanglamas.

MAYDA, DUVARAK, MAYDA-CHUYDA Bir turdagi juda kichik, yirik bo‘lmagan (asosan, meva hamda sabzavotlar haqida). **Duvarak** oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi, bu jihatdan **mayda-chuyda** ham shunday. **Mayda-chuyda** so‘zida belgi **duvarak** so‘zidagidan ham kuchli ifodalanadi.

Bodomdan keyin gilos gullaydi, uyam oldin gullab, keyin barg chiqaradi, guli bilan bargi barobar chiqsa, mevasi m a y d a bo‘p qoladi. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Ko‘pincha, qazuv chog‘ida chetini ketmon tirnab zaxalagan, birinchi o‘rinda sotib yoki ovqatga ishlatib yuboriladigan piyozlarni alohidalatib to‘plashga qarashar edik. Bularning bir qismini o‘ta m a y d a lariga qo‘shib, ro‘zg‘orga ishlatarsizlar, deya yollanmachilarga tekin tarqatishda qatnashish bizga o‘zgacha zavq bag‘ishlardi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Soqoli oppoq bir turk mo‘ysafid d u v a r a k anjirimizdan uzib etak to‘ldirgan sakkiz-*

to‘qqiz yoshlardagi ikki bolaning qulog‘idan cho‘zib, ayamay urayotgan ekan. M.Ibrohimova, Anjir. *Yig‘lamsirab keldi Sher Tepdi deb qo‘rs suvarak. Otning boshin yorganmish Shoxdan tushgan d u v a r a k*. A.Obidjon, Bahonachilar kasalxonasi. *Qoyatoshlarning yonbag‘irlarida deyarli yaydoq, m a y d a-c h u y-d a tog‘ butalarini-yu pistalarni aytmasa, archa-yu sarvlar oz*. I.Sulton, Hazrati Xizr izidan.

MAYDALAMOQ, MAYDA-MAYDA QILMOQ, BURDALAMOQ, BURDA-BURDA QILMOQ, PARCHALAMOQ, PARCHA-PARCHA QILMOQ, BO‘LAKLAMOQ, TILKALAMOQ, TILKA-TILKA QILMOQ (ETMOQ), PORALAMOQ, **PORA-PORA QILMOQ** (**ETMOQ**) Biron-bir narsani qismlarga, eng mayda bo‘laklarga ajratmoq. **Tilka-tilka qilmoq, burda-burda qilmoq, mayda-mayda qilmoq, parcha-parcha qilmoq, pora-pora qilmoq** so‘zlarida “maydalash, burdalash” ma’nosi kuchli ifodalanadi. Ammo **tilka-tilka qilmoq, pora-pora qilmoq, burda-burda qilmoq, parcha-parcha qilmoq** so‘zlari *yurak*, *ko‘ngil*, *qalb* so‘zlariga bog‘langanda “ruhan ezmoq” ma’nosini ifodalaydi. **Burdalamoq, maydalamoq** so‘zlarida biror narsani “juda mayda holatga keltirmoq” ta’kidi anglanadi. **Poralamoq** so‘zi nutqda kam ishlatiladi.

Keyin bir sovuq shamol kelsa, barchasini quritsa, bas, barglari sarg‘ayib quriy boshlaganini ko‘rasan, keyin hammasi sinib, m a y d a l a nib, somonga aylanadi. T.Malik, Shaytanat. *– Davosi tuxum, – deydi kulib jarkopga piyozni m a y d a l a b to‘g‘rayotgan Hasan aka*. Oybek, Bolalik xotiralari. *Asadbek xatni m a y d a-m a y d a q i l ib yirtgan chog‘ida bo‘ydor unga yaqinlashdi. – Kuchaydingmi? – dedi o‘qrayib qarab*. T.Malik, Shaytanat. *Avvaliga kulaverib o‘ldim, keyin jahlim chiqib ketdi. M a y d a-m a y d a q i l ib yirtib tashladim xatini*. Oybek, Tanlangan asarlar. *U hayhaylashimga qaramay, qatlamadan ikkitasini b u r d a l a b, oldimga surib qo‘ydi*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *A’zam ikkovimiz oyilarimiz yopib bergan yumshoq nonni xaltamizdan olib b u r d a l a y-m i z. Katta anhor labiga o‘tiramiz-da, nonni b u r d a l a ymiz, bir burdadan suvga tashlaymiz…* Oybek, Bolalik xotiralarim. *Janna Hafizaning kulib turgan suratini b u r d a-b u r d a q i l ib, korzinkaga tashladi*. Mirmuhsin, Umid. *Xatni b u r d a-b u r d a q i l ib uloqtirdim. Bevafo! Yaramas! Sotqin!* O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun. *Oradan bir soatlar o‘tib, orqa yonboshimizdagi baland tog‘larning tepasida banogoh osmon qarsillab yorilgandek bir mudhish ovoz eshitildi-yu... tog‘lar p a r ch a l a nib tushayotgandek bir qiyomat qo‘pdi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Amirning bolaligi, yoshligi yaqinda p a r ch a l a nib ketgan azim imperiyaning so‘nggi yigirma yillik g‘oyat sokin, yakrang muhitida kechdi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Kerak bo‘lsa haqiqat uchun Yuragingni p a r ch a-p a r ch a q i l*. E.Vohidov, Haqiqat. *Faqat onaning yolg‘iz bolasiga bo‘lgan mehri shunday kuchlik narsaki, undaqa tosh-metinlarga qarshi o‘z tosh-metinini*

irg‘itadi, balki bir irg‘itishda p a r ch a-p a r ch a q i l ib tashlaydi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qiz tog‘orachadan bitta sabzi oldi-yu, sochiqqa artdi, so‘ng shoshilmay b o‘ l a k l a di.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *...biz esa eshikka tiqilishib, bo‘yinni cho‘zib kutamiz, oqligi bilinmay ketgan kamzul kiygan armanimi, eroni amakimi, biroz muztar qilgach, katta pichoqda kirsovundek b o‘ l a k l a b, qo‘limizga bitta-bitta tutqazadi...* A.A’zam, Quroq. *Unga yorilmoqchi, bir gunohi azim t i l k a l a yapti ko‘ksini.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Xurram qotma qora o‘tmish qa’riga cho‘mmaslikka har qancha urinmasin, biroq xotira aylanib ... yurak-bag‘rini t i l k a l a b, aslo xohlamaganini o‘ylashga ... majbur etardi...* N.Norqobilov, Kurash. *Bosmachilar himoyasiz juvon murdasini vahshiylarcha t i l k a-t i l k a q i l ib, quzg‘unlarga tashlab ketadilar.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Hushtak chalib keladi bo‘ron. Deydi: “Men borliqni T i l k a-t i l k a q i l ay, Qora ko‘lka solay jahonga”...* E.Vohidov, Sharq ertagi. *Kun bulutni p o r a l a b par-par,*

M

Boshlar uzra kezib yuribdi. M.Ali, Boqiy dunyo. *Bittadan cho‘qiganlaringda ham meni p o r a-p o r a q i l ib qo‘yasizlar.* Oybek,Tanlangan asarlar. *Biroq harchand urinmasin, qalbini p o r a-p o r a q i l gan, halovatidan ayirgan o‘ylar girdobidan qutulish chorasini topolmayotgan edi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata.

MAZA, TA’M, TOT, LAZZAT 1. Yegulik-ichgulik narsalarning yeb, ichib yoki yalab ko‘rib bilinadigan xususiyati. **Ta’m** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ham, kitobiy uslubda ham faol qo‘llanadi. **Tot** so‘zi bu ma’noga “shirin ta’mga egalik” belgisini qo‘shib ifodalaydi, kitobiy uslubga xos, poetik bo‘yoqdor so‘z. **Lazzat** so‘zida “shirin ta’mga egalik” belgisi **tot** so‘zidan ham kuchli darajada ifodalanadi, kitobiy uslubga xos, poetik bo‘yoqdor so‘z.

Oling, m a z a sini ko‘ring, tasadduq. O‘.Umarbekov, Saylanma. *– Qani, shirchoy sovimasin. Patir qaynoqligida to‘g‘ranglar, m a z a si boshqacha bo‘ladi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *– Otamning yoniga, – dedi ko‘r kishi. Bu yerlarning tarixida birinchi marta yetishtirilgan oq kishmish sal sersuvroq bo‘lsa ham, lekin uning t a’ m i Boburga Samarqandni eslatdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qumg‘onda bir choy damlay, t a‘ m i juda boshqacha bo‘ladi.* I.Sulton, Ozod. *– Nimaning hidi desam – jizzanikimidi? – dedi chollarga xos bosh to‘lg‘ab, besh ketib, – jindekkina tuz sepvoring-a, t o t iga t o t qo‘shilsin.* M.Mansur, Judolik diyori. *Va shabboda qurg‘ur ilk sahar Olib ketdi gulning t o t ini.* H.Olimjon, O‘rik gullaganda. *Akbar limu sharbatining l a z z a t ini ancha kundan beri endi qaytadan sezdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Suvqovoqdagi suvning l a z z a t i go‘yo Zamzam suviday edi.* I.Sulton, Ozod.

2. Ayrim narsalarning ijobiy hodisa sifatida qalban his etilishini anglatuvchi ruhiy kechinma. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlar ko‘chma ma’nosida qayd etilgan tushunchani anglatadi. **Maza** so‘zida ma’no boshqa so‘zlarga nisbatan kuchli ifodalanadi. **Tot** so‘zi ushbu ma’nosida poetik nutqda ko‘p ishlatiladi.

Agar shoirlar xafa bo‘lishmasa, shu narsadan poema m a z a si keladi, der

edim: agar bunga xafa bo‘lishsa, ajoyib bir poemaning juda chiroyli qilib olingan qisqacha mazmuni deyish bilan qanoatlanaman. A.Qahhor, Maqolalar va suhbat. *Quloq soling so‘zning m a z a siga, Jahon titrar “Qultoy” ovozasiga.* “Alpomish”. *Tiriklik t a’ m ining o‘zlari uchun shirin va mazali bo‘lishini istab, butun olamni o‘zlaridan past deb bilgan xoqonlar davronida ular bu tuproqqa begona bo‘libdilar.* T.Malik, Falak. *Negadir xayolida “Jannat” so‘zi chaqnadi... “Darhaqiqat, jannatning t a’ m i shunaqa bo‘lsa kerak”, deb o‘yladi...* U.Hamdam, Muvozanat. *Baxtsizlikni ko‘rmagan odam baxt nashidasini tuymagani singari muvaffaqiyat t o t ini anglash uchun ham bir qatla bo‘lsin, muvaffaqiyatsizlikni ko‘rmoq darkor*. R.Haydarova, Javzo. *Kutish soatlarin olib tashlasam. Yo‘q. Bu mumkin emas! Yashamoq t o t i, Lazzati mo‘tabar bizga har soat.* E.Vohidov, Saylanma. *Imtihon tashvishlaridan qutulgan, yuragi ming xil orzular, noma’lum, ammo porloq kelajak l a z z a t lari bilan to‘lgan Abdulla o‘zini nihoyatda baxtli his qilar... edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Har jihatdan to‘kin, hech nimadan kamchiligi yo‘q bir hayot ichidaman-u lekin u yo‘q edi, uning yo‘qligi mana shu to‘kinlik l a z z a t ini ketkizar, yurak o‘sha aziz, qadrdon makonni qo‘msayverardi.* I.Sulton, Ona yurt.

MAG‘LUBIYAT, YUTQIZIQ Bahs, bellashuv, musobaqa kabilarda yutqazish. **Yutqiziq** bu ma’noni bir qadar umumiyroq – biror sohadagi muvaffaqiyatsizlik tarzida ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos. Shu jihatdan **mag‘lubiyat** har qanday faoliyatdagi mag‘lub bo‘lishni bildiradi.

Abdulla holdan toygan edi, uning uchun jismoniy m a g‘ l u b i y a t dan ko‘ra ma’naviy mag‘lubiyat og‘irroq ...edi. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Shogird ...o‘z m a g‘ l u b i y a t ini Ustadan ko‘rdi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Elchilik-da, ba’zan uloq-ko‘pkarida tortishib qolsak, tog‘lik og‘aynilar “baribir dashtligiga bordi” deb, dashtlik og‘aynilar “tog‘lik-da” deb g‘ayirlik qilishini sezib qolardim, ha, endi y u t q i z i q alamidan-da deb ko‘p e’tibor qilmasdim*. B.Mirzo, Ot mingan odamlar. *...shayton boylik jilosi bilan aqlimizni olsa... bu y u t q i z i q uchun jannatdagi huzur-halovat bilan haq to‘lashimiz mumkin...* T.Malik, Iymonlashish umidi.

MAG‘RURLANMOQ, G‘URURLANMOQ, KIBRLANMOQ, HAVOLANMOQ G‘ururlanib yurmoq, o‘zini shunday tutmoq. **G‘ururlanmoq** so‘zida ijobiy baho munosabati mavjud, oddiy so‘zlashuvda ham qo‘llanadi. **Havolanmoq** so‘zida salbiy bo‘yoq bor, so‘zlashuv tilida ko‘proq qo‘llanadi. **Kibrlanmoq** so‘zida shunday bo‘yoq mavjud, kitobiy uslubga xos.

Gulruh begim esa bir emas, ikki o‘g‘li bo‘y yetib kelayotganidan behad m a g‘ r u r l a n ar, Komron mirzo va Askariylarni taxt vorisi Humoyunga qarshi raqobat tuyg‘usi bilan tarbiyalar edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bora-bora shunisi ham unutilib, endi allaqanday asos-u bahonalar topib, o‘zingizni oqlaydigan, hatto bundan m a g‘ r u r l a n adigan bo‘lib qolar ekansiz.* E.A’zam, Shovqin. *...Shakar xolaning Robiya puchuqqa: “Mushtday bolaning shuncha*

yo‘ldan qo‘rqmay kelganini qara”, degani qulog‘iga chalinib, g‘ u r u r l a n ib qo‘ydi. A.A’zam, Oyning gardishi. *Otang g‘ u r u r l a n ar, onang bilmas tin, Buving bo‘ylaringdan yuz bor aylandi*. E.Vohidov, Umrim daryosi. *Aks holda u o‘zining erishgan-erishmagan fazilatlaridan k i b r l a n gan zohidning ayanchli ahvoliga tushadi*. I.Sulton, Hazrati Majoz. *Keyinroq bilsaki, Zaynab u o‘ylagan sal narsaga suyuladigan yoki k i b r l a n adigan qizlardan emas*. T.Malik, Shaytanat. *Boshliq... qo‘llarini beliga qo‘ydi. Siyosat bilan h a v o l a n di. Yerga tikilib h a v o l a n di. Sukut saqlab h a v o l a n di.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Noo‘rin h a v o l a n maydigan, o‘zingni kamtarin tutadigan bo‘lib qolasan, demoqchi bo‘ladilar.* M.Sattor, O‘zbekning gapi qiziq.

MASHG‘UL, BAND, OVORA, ANDARMON Biror ish-yumushni berilib bajarish holatida. **Band** kishining boshqa ishlarni unutib, nima bilandir butunlay mashg‘ul bo‘lib qolganligi ta’kid oladi, oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Ovora** so‘zida biron-bir xatti-harakatdan natija chiqmasligi ta’kid oladi, salbiy baho ifodasi mavjud, oddiy so‘zlashuvda faol ishlatiladi. **Andarmon,** asosan, **bo‘l** fe’li bilan, shunda ham kam qo‘llanadi. Bu so‘z ma’nosida asosiy narsa qolib ketib, uncha muhim bo‘lmagan narsa bilan ovora bo‘lmoq qabariq ifodalangan.

“Ulug‘ jarroh”ning kuni qursin: bir soat ham dars qoldirolmaydi, ustiga-ustak, keliboq muk tushgancha odamzod ichak-chavog‘ining lotincha nomlarini yodlashga kirishadi; qonatmay kesish yo‘llarini qidiradi. Boshqa paytlarda xalati-yu oq qalpog‘ini yuvish bilan m a sh g‘ u l. E.A’zam, Bir daqiqa ko‘zingni yum. *Eski shaharning afkori umumiyasi shu qo‘tur masalasi bilan m a sh g‘ u l...* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Hoji akaga bir nima deyish u yoqda tursin, Mirrahimov ikkovimiz ham kechgacha bir-birimizga so‘z qotmadik; aftidan, borlig‘imiz Mastura bilan b a n d, quyunday charx urayotgan taassurotlar, fikrlar, tuyg‘ularni ifoda qilgani so‘z topolmas edik*. A.Qahhor, Ming bir jon. *Qo‘shtutni qoralab yo‘lga chiqqan Asadullaning xayoli shu o‘ylar, gumonlar bilan b a n d edi*. T.Malik, Savohil. *Abduzafar akaning hafsalasi pir bo‘ldi: qanaqadir tortishuv ekan; bular ish qilishning o‘rniga nima balo bahslar bilan o v o r aya*. A.A’zam, Hali hayot bor... *– Xayriyat, – devordi Xolxo‘ja. Ochil, oyog‘i bilan o v o r a, eshitmadi*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Shu tong chog‘ida, kimdir dalasiga, kimdir xizmatiga, kimdir o‘qishiga, kimdir qarindoshinikiga ketayotgan edi, har kungi tashvishlari bilan a n d a r m o n yuzlab-minglab kishilar kabi*. I.Sulton, Bo‘ri. *Risolat xomush, u o‘z xayollari bilan a n d a r m o n edi*. Q.Kenja, Toshqin.

MA’LUM, AYON, RAVSHAN, OSHKOR, ANIQ Bilingan, sir yoki noma’lum bo‘lmagan holatdagi. **Ayon, ravshan, oshkor** so‘zlarida ma’lumlik belgi darajasi anchayin ortiq, ko‘proq kitobiy uslubga xos. **Aniq** so‘zida bu ma’no shubhasizlik ta’kidi bilan ifodalanadi.

Erkparvarlarning aksari do‘st libosida yurgani Asadullaga m a’ l u m. T.Malik, Savohil. *Ahmad Hojibek vaqtini ko‘pincha shahardan tashqarida, jang-u jadal mashqlari-yu qush ovi bilan o‘tkazishi hammaga m a’ l u m edi*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Rustam xotinining avzoyini sezdi-yu, sezmaganga oldi, nimayam desin, sababi a y o n-ku*. Q.Kenja, Toshqin. *Bandasining aybi Yaratganning o‘ziga a y o n*. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Yurish-turishi, ko‘kragidagi dardi, diliga tuggan ginasi – oynaday r a v sh a n*. Oybek, Tanlangan asarlar. *To‘g‘ri, sizlar bularga o‘xshamaysizlar, o‘zga yurt, o‘zga iqlim farzandi ekanliklaringiz kundek r a v sh a n*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Burjlar aro Gohi o sh k o r, goh pinhon, Ibtidodan to intiho Hukm surar g‘alayon*. E.Vohidov, She’r dunyosi. *Qumrixon opa o‘zi o sh k o r aytmoqchi bo‘lgan fojiani o‘zi tushunib yetmagan ekan, shekilli…* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Kotiba ensasi qotganini bu safar o sh k o r a namoyon etgan edi, G‘aybarov jahl bilan qabulxonani tark etdi*. A.Namozov, Notanish. *Yov qurshovida qolayotgan Umarshayx mirzo bitta me’morni deb yuz, ikki yuzdan navkari bor zo‘ravon beklarga qarshi bormasligi a n i q*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ul emas, bul emas, Pakananing yetti pushtidan kimdir pachoqroq o‘tgani a n i q*. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli.

MA’LUM BO‘LMOQ, AYON BO‘LMOQ, BILINMOQ, RAVSHANLASHMOQ, RAVSHAN BO‘LMOQ, OYDINLASHMOQ, ANIQLASHMOQ Noma’lumlikdan ma’lumlikka o‘tmoq, ochiq-oshkor bo‘lmoq. **Ayon bo‘lmoq** so‘zining ma’nosida **ma’lum bo‘lmoq** so‘zidan farq yo‘q, biroq ko‘proq yozma nutqqa, kitobiy uslubgagina xosligi bilan ajralib turadi. **Bilinmoq** so‘zi bu ma’noni kuchsiz ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Ravshanlashmoq** va **ravshan bo‘lmoq** so‘zlarida aniq bo‘lganlik holati **ayon bo‘lmoq** so‘zidan ham kuchli ifodalanadi, kitobiy uslubga xos. **Oydinlashmoq** so‘zida belgi darajasi kuchli. Bu qatorga **ma’lum-mashhur bo‘lmoq** so‘zi ham oid va u “hammaga oshkor bo‘lgan, bilmagan odam qolmagan”ini bildiradi, kitobiy uslubga xos.

Suhbat asnosida u kishining ismi Parpivoy ekani, olis bir rayondagi bo‘rdoqichilik bazasida qatnab ishlaydigan bosh axraynik ekani m a’ l u m b o‘ l di. S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin “kichkinagina” sharti bor. Bu shart kuzda m a’ l u m b o‘ l adi...* A.Qahhor, O‘g‘ri. *Qisqasi, “mo‘jizakor” tabibimizning bor sir-asrori menga a y o n b o‘ l ib qolgan, bu yog‘i anovi bezovta yurakdagi qushcha pirillashini bas qilsa kifoya edi*. E.A’zam, Shovqin. *– Hali zamon u tashqarida edi, endi bo‘lsa ichimda erib yotibdi… Buning sinoati ne ekan? – deb mushohada yuritib ulgurmayin hammasi a y o n b o‘ l di-qoldi*. U.Hamdam, Ko‘zini ochib yumgan odam. *Ikki-uch yillik qor-yomg‘irda bo‘yog‘i ko‘chib, tag‘in yupqalashgan eski quvurlar bebosh bolalar osilavergach, darz ketgan, ichidagi zangi ko‘rinib, eskiligi b i l i n ib qolgan edi*. Sh.Su-

laymon, Uchinchi palata. *O‘ylashimcha, odamning tirikligi har xil qiynoqlarga yo‘liqib turishidan b i l i n adi*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Mana shu er bilan uch oydan buyon birga yashaydi. Erining fe’li, mijoz-tabiati kun sayin unga r a v sh a n l a sh di*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Sabohiddinga voqea r a v sh a n l a sh ganday bo‘ldi*. T.Malik, Devona. *Ko‘p o‘tmay har narsa r a v sh a n b o‘ l di*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Haqiqat r a v sh a n b o‘ l gach, Gulnor boshi og‘riguncha o‘yladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *O‘z shubhamni o y d i n l a sh tirish uchun ertasiga tanishimga sim qoqdim va jasad qay holatda topilganini so‘radim*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Abdullaga har narsa o y d i n l a sh di. In’omning otasi amaldor, uning otasi esa kichik bir artelda ishlaydi! Mana masala qayerda.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Keyinroq tasvirlar oydinlashib, so‘zlar ham a n i q l a sh di.* T.Malik, Devona. *Yusuf aka doktorlar bilan maslahatlashib, qishda uni Toshkentga olib bordi. Bu yerda rakligi a n i q l a sh di*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ikki qo‘shin yoyloqda safga tizilar ekan, ilg‘or dasta ta’minot bo‘lugini yakson qilgani haqidagi xabar yovni esankiratib qo‘ygani uchun jangni oson yakunlagani m a’ l u m-u m a sh h u r b o‘ l di*. I.Sulton, Alisher Navoiy.

M

MA’NO, MAZMUN, MA’NI 1. Aql, fikr bilan tushuniladigan mantiqiy mundarija, so‘z, birikma, gap yoki boshqa til birligi bilan ifodalangan ichki mundarija. **Ma’no** so‘zi, asosan, oddiy mundarija (mazmun) ma’nosida qo‘llanadi. **Mazmun,** aksincha, ma’noning murakkab holatlariga nisbatan ishlatiladi. Masalan, *so‘zning ma’nosi*, *gapning mazmuni* deyiladi, aksincha bo‘lmaydi. Ammo oddiy so‘zlashuvda **ma’no** so‘zi **mazmun** o‘rnida ham ko‘p qo‘llanadi. **Ma’ni** umuman “ma’no”, “mazmunni” ifodalaydi, bu ma’noda kamroq qo‘llanadi, so‘zlashuv tiliga xos.

Janob Ko‘pakbiy, siz avval Turkiston degan so‘zning m a’ n o sini tushuning! Turkiston – turklar makoni degani-ku! P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Mahallamizda shunaqa hazil bor – kimdir angrayib turib qolsa, bunaqa uzoq anqayma, agar hozir kabob pishirayotgan bo‘lsang, kuydirib yuborarding, degan m a’ n o da shu qochirimni qo‘llashadi*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Bobur G‘aznidan topib kelingan bu kitobning eski arab tilidagi nusxasini qiynalib o‘qigan bo‘lsa ham m a z m u n ini juda yoqtirgan edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Botir firqa ushbu gap m a z m u n ini tushunmas edi*. T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Uning gavhar yoki ilon bo‘lmog‘i bizning tilimizdan uchuvchi so‘zlarning m a’ n i siga, bosajak qadamimizning pok yoki nopokligiga bog‘liq*. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Bu bolalar og‘zidan chiqqan gapning m a’ n i sini bilmaydi-yu, yana birovlarni nah urishiga o‘lasanmi!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

2. Biror narsaning sababi, mohiyati, nima ekanligi. Har uch so‘z ko‘p hollarda tushum kelishigi shaklida bu ma’noni ifodalab keladi. **Mazmun** so‘zi ko‘zda tutilgan narsa-hodisaning asosiy sababi ma’nosini **ma’no** so‘zidan kuchliroq

ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvda ham, adabiy so‘zlashuvda ham qo‘llanadi. **Ma’ni** so‘z yuritilayotgan narsa-hodisaning “haqiqiy sababi, mohiyati” ifodasini **mazmun** so‘zidan ham kuchliroq, ta’kidlagan holda ifodalaydi. Oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi.

Kelinbibisi bu qarashning m a’ n o sini darhol angladi va kampirga javob qaytardi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shomil xo‘jasining bu po‘pisasi quruq emas, amalga oshuvi muqarrar ekanini bilgani kabi, Hosilboyvachcha bu tirjayishning m a’ n o sini yaxshi anglaydi*. T.Malik, Shaytanat. *Negadir chekingisi ham kelmas, hayotning m a z m u n i puchga aylanganday edi*. N.Rahmat, Jadid. *U yashamoqning m a z m u n ini (garchi ko‘p o‘qigan bo‘lsa-da) yaxshi anglab yetmagan edi*. T.Malik, Davron. *Buning m a’ n i si shuki, yo‘lga otlangan o‘g‘lon ovulida nimasi qoldi-yu, yo‘lda uni nimalar kutadi – shuni o‘ylab olishi kerak*. E.Vohidov, Umrim daryosi. – *Bular-ku – begunoh norasida, o‘g‘rilikning m a’ n i-sini qaydan bilsin, – deb g‘ashlanadi chol*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

3. Nazarda tutilgan yoki so‘z yuritilayotgan narsa-hodisaning ahamiyatini, muhimlik darajasini bildiradi. **Mazmun** so‘zida ko‘zda tutilayotgan narsa-hodisaning ahamiyatlilik darajasi **ma’no** so‘ziga qaraganda alohida ta’kid olib ifodalanadi, kitobiy uslubga xos. **Ma’ni** so‘zi “ahamiyatli ekanlik” ma’nosiga “muhimlik” ma’no uzvini ham qo‘shib ifodalaydi.

Turmush qurishning hech qanday m a’ n o si qolmagan hozir. Tabiiy zarurat tufayligina turmush quriladi. T.Malik, Devona. *Bir tildan boshqa tilga o‘tish roman strukturasi bilan olib borilgan tajribalarni leksika sathiga o‘tkazishga sabab bo‘ldi, aniqrog‘i, so‘zlardan iborat konstruksiyalar o‘z mantig‘i va aniqligini, m a’ n o va mazmunini yo‘qotdi*. “Sharq yulduzi”. *...u yoqlarda faqat xotiragina kishiga huzur beradi, boshqa hech narsaning m a z m u n i qolmaydi*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Men shunga aytyapman, odamning m a z m u n i yo‘qolganga o‘xshagan bir holat deb*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *...to‘g‘risi, uning almoyi-aljoyi gaplari jonimga teggan, bu so‘zlar men uchun m a’ n i sini yo‘qotgan edi*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Biroq yer usti turganida, yer ostida yashashning ne m a’ n i si bor?* I.Sulton, Boqiy darbadar.

4. Belgi, alomat.

Bu gal Xurram qotma yanada jo‘shqinlik bilan o‘z hayajonini izhor etadi. Bunga javoban G‘ayratning ko‘zlarida quyidagi m a’ n o aks etadi: “Qachon?” N.Norqobilov, Kurash. *Juvonning anor yuzini panohgohi – keng, alpona ko‘krakka bosib, ko‘zlarini yumib turishida shu istak, shunday m a’ n o zohir edi*. Q.Kenja, Toshqin. *Mingboshining haligi so‘ng savolida butun shu iztiroblarning m a z m u n i bor edi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. – *Nega? – so‘radi xanzu o‘g‘li, to‘garak yuzida kampirdan ranjiganlikni ifodalovchi m a’ n i aks etdi*. I.Sulton, Xun. *Miryoqub fonarni o‘chirib uning qarshisiga kelganda va ikkalasi bir-biriga havoning tabiiy yorug‘ida indamasdangina*

bir-ikki minut tikilishganda, ikkala tomon ham bir-birining ko‘zida haligi m a ’ n i ni ko‘rdi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

MEHMON, QO‘NOQ To‘y, ziyofat yoki boshqa biror munosabat bilan yo‘qlab kelgan kishi, o‘zganing uyi (joyi)da vaqtincha bo‘lib turuvchi odam. **Qo‘noq** so‘zida o‘zakdan anglashilib turganiday o‘zganing uyida vaqtincha qo‘ngan, turganlik ta’kidi ochiqcha ifodalangan, ma’lum ma’noda shevaga xoslik mavjud.

Mulla Norqo‘zi urishib beradi: – O‘zingga munosib gapni gapir! Yengil bo‘lma! M e h m o n – atoyi xudo. A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Biroq m e h m o n, aftidan, hozir bergan savoliga javob olishi g‘oyatda muhim bir vazifadek ko‘rpachaga qadam bosishga oshiqmadi*. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Uni to‘y-ma’rakalarga, q o‘ n o q lar oldi u yoqda tursin, hatto hasharlarga ham chaqirmay qo‘yishdi*. A.Yo‘ldoshev, Quduq. – *Baxting adim ekan, – deydi qarmoqni tortib qozoq. – O‘ljang ulkan, ol q o‘ n o q!* Zulfiya, Saylanma. *O‘tovning eshigini ochib, “Xudoyi q o‘ n o q”, dedim, bir kecha tunab ketishga ruxsat so‘radim*. G‘.G‘ulom, Shum bola.

MEHMONDO‘ST, MEHMONNAVOZ Mehmon kutishni yoqtiradigan, kishini mehmon qilishni yaxshi ko‘radigan. **Mehmonnavoz** so‘zida bu ma’no poetik bo‘yoq bilan namoyon bo‘ladi, kitobiy uslubga xos.

Keyinchalik Gulchehra, institut joy bersa ham bormay, shu quvnoq, m e h m o n d o‘ s t kampirnikida turadigan bo‘ldi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Biz, o‘zbeklar, o‘zimizni eng m e h m o n d o‘ s t xalq hisoblar edik...* E.A’zam, Manana. *Oshnamiz ko‘p ajoyib m e h m o n n a v o z kishi. Rafiqasining bu maqtovi shunchaki iltimos ekanini tushunadi*. S.Anorboyev, Yaxshilik urug‘i. *Yolg‘onchi qilmasin, u kishining uyida ko‘rganim ko‘pgina rahbar shaxslar o‘sha sovxoz direktorlari-yu vrachlar, bo‘lim boshliqlari ham shu yerda, bu xokisor, m e h m o n n a v o z odamning qazosi yaqinligini eshitib kelishgan ekan*. Sh.Xolmirzayev, Olam tortishish qonuni.

MEHNATSEVAR, MEHNATKASH, MEHNATCHAN Mehnat qilishni yaxshi ko‘radigan, ish qilib charchamaydigan. **Mehnatkash** so‘zida mazkur ma’no **mehnatsevar** so‘zidagiga qaraganda biroz kuchsiz ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Mehnatchan** so‘zi so‘zlashuv nutqida uchraydi.

Albatta, Gulchehra g‘ayratli, m e h n a t s e v a r, aqlli qiz edi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Buyam oz: u saxiy, uyparvar, xotinparvar, m e h n a t s e v a r va o‘ta kamtar yigit ekanki, ko‘plar zimdan havas qilarkan*. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Savri xola boshini sarak-sarak qilib, yo‘q, deydi. Sobirjon gapida davom etadi: – Bu odam o‘lgudek m e h n a t k a sh. Ish bo‘lsa bo‘ldi unga.* O‘.Umarbekov, Kuz havosi. – *Hmm... Juda qang‘il-ku bu, – dedi “shef noyob topilma”ning u yoq-bu yog‘ini sinchilarday nazardan o‘tkazarkan. – Bular ham odamlardaqa – qotma, chayiri m e h n a t k a sh, semizlari ishyoqmas, tebsa-teb-*

ranmas bo‘ladi, – uqtirdi shotir. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Chinorday mavzun qomat o‘rtog‘im ko‘p Anjonda, Bari halol yigitlar – m e h n a t ch a n, mard, mehmondo‘st*. G‘.G‘ulom, Tanlangan asarlar. *Oksana... M e h n a t ch a n, tirishqoqligi bilan ko‘pchilik nazariga tushadi*. D.Nuriy, Yadro bombasi bizga kerakmi?

MEROSXO‘R, VORIS Merosga ega bo‘luvchi, meros olishga haqli shaxs. **Voris** kitobiy, bu so‘zda merosga ega chiquvchilik ta’kidi **merosxo‘r** so‘zidagiga nisbatan ochiq ifodalanmaydi. Bu jihatdan **merosxo‘r** ma’noni ochiqroq ifodalaydi.

Gar o‘sha qog‘ozda bitta harf xato – O‘g‘il m e r o s x o‘ r mas ota-onaga. E.Vohidov, Davlat ishi. *Zebixonga elchi qo‘yib yurilgan vaqtlarda mingboshi bir so‘z degan emasmidi: “Shuni qo‘lga keltirsam, bor-yo‘g‘imni tutaman. ...Bittagina bola tug‘ib bersa, m e r o s x o‘ r im bo‘ladi...”* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Og‘ir yaralangan Shohmalik o‘limi oldidan jamiki vazir-u vuzarolarni, hokim-u hakamlarni chaqirib: “Sahrobek mening qonuniy o‘g‘lim bo‘ladi, taxtimning v o r i s i u, podsholik saltanatini unga topshirdim”, deya farmoni oliy e’lon qilibdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Anvar v o r i s bo‘lsa, men vasiy! Nima kerak bo‘lsa mening qo‘limdan oladi! Bermasam ololmaydi!* A.Qahhor, Muhabbat.

MEZBON, MEHMONDOR O‘z uyi yoki boshqa joyda mehmon kutayotgan kishi. **Mehmondor** so‘zi kam qo‘llanadi, kitobiy uslubga xos.

Qayrilmadagi katta to‘yda el tanigan polvon – qo‘shni tumanlik Abdulla chempionni mag‘lub etgan g‘olibga sira o‘xshamay, ya’ni rang-tusi ochilmay, har safargidek m e z b o n ni tagdor ohangda: “Himm, tag‘inmi?..” – deyishini intiq-la kutmoqda. N.Norqobilov, Kurash. *Mehmon yigit qo‘llarini boshi uzra baland ko‘tarib peshvoz chiqqan m e z b o n bilan ostonadan ikki odim ichkarida qo‘l olishdi*. X.Do‘stmuhammad, Umid guli. *Kobulda elchilarni intiqlik bilan kutayotgan bo‘lsalar-da, karvon oshiqmas edi. Vakola hay’atini tog‘li-toshli yo‘llarda urintirib qo‘ymaslik uchun m e h m o n d or karvonning ildamlashiga yo‘l qo‘ymasdi*. T.Malik, Savohil. *Nodirshoh. Emdi xon orqadoshimiz o‘zlariga belgilangan chodirg‘a borib yozilsunlar. O‘g‘lum Rizoquli bilan Mirzo Mahdi, siz bunlarga m e h m o n d o r siz*. Fitrat, Abulfayzxon.

MESH, MESHKOB, SANOCH, BURDUQ, TO‘RSIQ Teridan qilinib, suv, qimiz kabi suyuq narsalar quyib qo‘yiladigan, saqlanadigan idish. **Sanoch, to‘rsiq** nutqda o‘z sinonimlariga qaraganda kamroq qo‘llanadi, eskirgan, kitobiy uslubga xos. Asl ma’nosi “meshda suv tashuvchi yoki sotuvchi odam” bo‘lgan **meshkob** so‘zi ham ayrim hollarda mazkur ma’noda qo‘llanadi.

Hasanali ko‘rindi, qo‘lida bir m e sh qimiz ko‘targan edi, darichadan turib mehmonlarni “Xush kelibsiz” qildi... A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Nazir ota m e shdan chelakni yarim qilib suv soldi-da, qayoqdan qoyaga chiqishni bilmay, Cho‘pong‘or tomonga yurdi*. O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *U bir s a-*

n o ch qimiz bilan katta zarang kosada yaxna go‘sht, non olib chiqdi. Y.Shukurov, Birinchi parvoz. *To‘marisdek ona Kayxisrav boshin Qon to‘la s a n o ch ga solgan chog‘ida, Spitomen kamon tutib dastida Maroqandni saqlab turganda uzoq*. E.Vohidov, She’r dunyosi. *Suvoriylarning egarlariga ixcham m e sh k o b lar ham ilingan bo‘lib, ularga suv to‘ldirilgandi*. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Sindning yarmiga yetib-yetmay kemasi cho‘kkach, b u r d u q qa ko‘ksini bergancha qalqib-qalqib bordi-yu oqim izniga tushib qoldi.* E.Samandar, Sulton Jaloliddin. *Bozorning qimirlashga darmoni yo‘q, ichida bir joyi lovullab yonadi, t o‘ r s i q dagi iliq suvni ichgan sari, qora ter bosadi tanini*. A.Muxtor, Chinor. *Bir kulbaning soyasida uch-to‘rt ko‘chmanchi qo‘llarida zarang kosa ushlab, qimiz to‘la t o‘ r s i q larni ezg‘ilab o‘tirar edi*. M.Osim, Elchilar.

ME’MOR, ARXITEKTOR, LOYIHACHI, TARROH Bino va boshqa inshootlarning tarhini yaratish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis. Keyingi yillarda rasmiy-publitsistik nutqda **me’mor** so‘zi faollashmoqda. **Loyihachi** so‘zi **tarroh** so‘zining hozirgi o‘zbek tilidagi muqobili. **Tarroh** so‘zi eskirgan.

M

Shahrimizning bosh m e’ m o r i kasal bo‘lib olgan, o‘rniga biron tuzuk odam chiqmayapti. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Men usta m e’ m o r Miriyni bu ish ila chorlatib edim.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Gulchehra quvonchining cheki yo‘q edi. U endi a r x i t e k t o r! Uning loyihasini qabul qilishdi!* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Tushsam, haligi Samijon Salimovich degani soyam yo‘qligini ko‘rgani kelganini yashirib, o‘zini a r x i t e k t o r ko‘rsatadi*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Sattor maqtanchoq ko‘rinishdan qo‘rqib, uning so‘zini bo‘ldi: – Men minglarning biri edim, xolos. Juda kichkina bir l o y i h a chi edim*. P.Qodirov, Erk. *Yo u joylarni nomi-nishoni, mozorati bilan tugatvor, degan topshiriq olganmi Xudodan qo‘rqmagan bu l o y i h a ch i laring?* M.Mansur, Judolik diyori. *Ki bunyod ettilar joyi ajoyib, Solib t a r r o h lar tarhi g‘aroyib.* Majlisiy. *Yasarda tarhini t a r r o h lar andog‘ sakiz gulshan, Bu gulshan har biridin topdilar yuz ming chaman oro*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

MIJG‘OV, LANJ Bir ishni dadil hal qilmaydigan, aniq va qat’iy fikr bildira olmaydigan. **Lanj** so‘zida bo‘shashganlik, sustkashlik ta’kidi ochiqcha ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi.

Ey birodar, jasoratingizga ming bora tasanno, mendek m i j g‘ o v kimsaning suhbatini olishga qaror qilibsizmi, xudo sabr-bardoshingizni bersin, inoyatini ayamasin. A.Abdiyev, Muallaq odam. *...boshi Yozyovon cho‘lidek yap-yalang, ko‘rinishidan kamgap-u anqov, aslida mahmadana-yu m i j g‘ o v, ko‘zlari boyqushnikidek ola... xullas, rosayam qiziq bola ekan*. A.Obidjon, Meshpolvon. *– E, siz so‘ramang, men aytmayin! – dedi Bo‘ri polvon. – Mag‘zava, l a n j ham gapmi, mag‘zava!* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi.

MIJG‘OVLANMOQ, MIJG‘OVLIK QILMOQ, CHAYNALMOQ, LANJLANMOQ, LANJLIK QILMOQ Biror gapni dangal aytmay, mijg‘ovlarga xos harakat qilmoq. **Chaynalmoq** so‘zida mazkur ma’no obrazli ifodalangan, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. **Lanjlanmoq** va **lanjlik qilmoq** so‘zlarida bo‘shashganlik, sustkashlik ta’kidi ochiqcha aks etgan, **lanjlik qilmoq lanjlanmoq**qa nisbatan nutqda faol, **lanjlanmoq** badiiy uslubga xos.

...Mayram opa miyig‘ida iljayib, kigizga yopishgan guruch donasini olib tashladi, o‘g‘liga mehr bilan boqib: – Shundaymi, bolam? – dedi. – Shu… bizni kichkinalikda… – m i j g‘ o v l a n di Abdurasul. Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida. *– Ishlar qalay, Norsuluv. Qara-ya, yigirma besh yil o‘tibdi. Hech kim o‘zgarmabdi, deyarli, – m i j g‘ o v l a n di.* N.Qochqor, Osmon ostidagi sir. *– Sen unaqa m i j g‘ o v l i k q i l ma. Kechadan beri o‘ylangandirsan, aniq bir fikrga kelgandirsan?* T.Malik, Shaytanat. *– Bekordan bekor urmaydi-ku, o‘zing ham m i j g‘ o v l i k q i l magin-da.* U.Ro‘ziyev, Tavba. *Shu gapni deyishga dedi-ku, qandoq qilib xotiniga aytishini bilmay, bir-ikki kun ch a y n a l ib yurdi.* Sh.Xolmirzayev, Yangi zot. *Ochil temir darvoza tepasidagi dumaloq soatga qarab qo‘ydi: yettidan o‘n daqiqa o‘tibdi. – Endi, menga uzr, – dedi ch a y n a l ib.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *– He, sulla! – unga yeb qo‘ygudek bo‘lib boqdi Ayozzoda. – Shunaqa l a n j l a n ib ishning pachavasini chiqarsang, o‘zing tugul, urug‘ingniyam quritvoraman.* A.Obidjon, Kezargon Boychechak. *– Ish ko‘p-da, ishim ko‘p… Mayli, boraman, – o‘g‘il l a n j l a n di*. Q.Norqobil, Guldurak momo. *Gapni cho‘zishga yoki l a n j l i k q i l ishga hojat yo‘q edi.* T.Malik, Shaytanat. *Akademiyaga xat yuborish masalasi ko‘tarilganda biri: “Ikki marta uylanganman, sharmandam chiqadi”, – dedi, biri: “Ilmiy kengash a’zosiman, qo‘l qo‘yolmayman”, – dedi, yana biri: “To‘g‘ri-yu, to‘g‘ri emas-da”, – deb l a n j l i k q i l di.* T.Malik, Davron.

MIJG‘OVLIK, LANJLIK Bir ishni dadil hal qilolmaslik, aniq va qat’iy fikr bildirish xususiyatiga ega bo‘lmaslik. **Lanjlik** so‘zida bo‘shashganlik, sustkashlik ta’kidi ochiqcha ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi.

Kampirning m i j g‘ o v l i g i, injiqligi ularning joniga tegib ketgan bo‘lsa ajab emas. N.Rahmat, Buni hayot debdilar. *Darhaqiqat, muhabbat m i j g‘ o v l i k ni yoqtirmaydi. Ikkilanuvchilarga chin oshiqlik zavqi begona*. “Sharq yulduzi”. *Endi ilgarigi l a n j l i k, loqaydlik yo‘q, yurish-turishlari dadil, gap-so‘zlari ham qat’iyat kasb etgan…* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli.

MILLATPARVAR, MILLATSEVAR, MILLATCHI Millat manfaatini har narsadan ustun qo‘yadigan, o‘z millatini yaxshi-yomon tomonlari bilan birga sevadigan. **Millatsevar** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Millatchi** so‘zi mazkur ma’noda hozirgi o‘zbek tilida kam qo‘llanadi.

Mening yo‘rig‘imda yurganida ko‘proq savobli ishlar qilarmidi... Shunday m i l l a t p a r v a r odam nobud bo‘lib ketaveradimi... T.Malik, Savohil. *Qirqinchi yilda bobosi qamalib, keyin Sibirda o‘lib ketgan ekan. M i l l a t p a r v a r kishi bo‘lgan ekan.* T.Malik, Xazonrezgi. *...bu kitobimni o‘quvchi va ham eshituvchi vatanparvar, m i l l a t s e v a r qahramon bolalarimizga mening topshirig‘im shulki, tilim uchidan emas, dardlik dilim ichidan chiqarib yozgan yolqinlik so‘zlarimni faqat uqibgina o‘tmasdan, har bir og‘iz so‘zini tekshirib, uning ustida fikr yuritsinlar*. A.Sog‘uniy, Turkiston qayg‘usi. *Boisi Botir firqa qalban... m i l l a t ch i edi! Ha-ha, ich-ichidan: m i l l a t ch i edi!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *O‘z el-yurti uchun o‘limga-da shay m i l l a t ch i bo‘lish kerak! Ko‘nglida millatchilik his-tuyg‘ulari yo‘q inson... inson emas! U bir... robot, robot!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi.

MIQYOS, KO‘LAM, MASSHTAB Biron-bir narsa-hodisa, ish-faoliyatning yoyilish, qamralish doirasi, darajasi, hajmi. **Ko‘lam** nazarda tutilgan narsaning hajm doirasini yoki darajasini bildiradi, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Masshtab** so‘zi bu ma’noda ko‘pincha ilmiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi.

M

Orzu m i q y o s ini, Dil haroratin, Aytmoqqa tortingan so‘zini topsam, O‘rgatsam izhorga ishq-muhabbatin. Zulfiya, Saylanma. *Suv kuchayib, odamni tebratadigan, suradigan m i q y o s ga yetgan*. Q.Kenja, Toshqin. *Xizmating, burchlaring, his, tuyg‘ularing K o ‘ l a m in anglashim bag‘ishlar g‘urur*. Zulfiya, Saylanma. *Biror-bir asarda ana shu yaxlitlikdagi epik k o ‘ l a m yo‘q ekan, hajmi qancha katta bo‘lishidan qat’i nazar, uni roman deb atay olmaymiz*. J.Eshonqul, Eposdan romangacha. *Shu jihatdan qaraganda shaxsan menga Yusufbek hojini qiynagan ko‘p hayotiy jumboqlar, o‘zaro urushlarga, behuda qon to‘kishlarga qarshi turish, mansabdorlarni adolatga, insofga undash, xalqning birligi, osoyishi, farovonligi uchun kurash, aql-idrok tantanasiga ishonch – bular keyinchalik Navoiy obrazida hayotiy faktlar asosida yangi kuch bilan keng m a s sh t a b da namoyon bo‘ldi*. U.Normatov, Oybek dahosi. *Keyingi qissa “O‘lim o‘pqoni”da yozuvchi g‘oyani yiriklashtiradi, katta m a s sh t a b bilan yondashadi, asar ikki roviyning hikoyasi ketma-ketligida shakllantiriladi.* X.Abdurashid, O‘lim o‘pqoni: g‘oyalar yashashdan to‘xtamaydi.

MIRISHKOR, OMILKOR O‘z ishida katta tajriba to‘plagan, ishining sir-u asrorini yaxshi biladigan.**Omilkor** so‘zida mohirlik, ustalik ta’kidi ochiq ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

U yantoqqa tarvuz payvand qilish sirini mukammal egallagan m i r i sh k o r dehqon. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *...yoshligimda m i r i sh k o r polizchilardan qovunning pishmagan xamagini “tarrak” deyishganini eshitganman*. M.Jo‘rayev, So‘z sog‘inchi. *Ayniqsa, miltiq o‘qini tatib ko‘rgan itlar bu borada juda o m i l k o r bo‘lishadi*. N.Norqobilov, Oqbo‘yin. *Mol-holi kam, ko‘proq ovchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan tirikchilik qilisharkan. Odamlari ancha o m i l k o r, g‘ayratli, biroz jizzaki, sergap, ammo bachkanaroq*. H.Elxon, Xapamat.

MIRISHKORLIK, OMILKORLIK O‘z ishida katta tajriba to‘plaganlik, ishining sir-u asrorini yaxshi bilganlik. **Omilkorlik** so‘zida mohirlik, ustalik ta’kidi mavjud, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Xalqimiz mehnatkash, azaldan bir parcha yerdan m i r i sh k o r l i k bilan foydalanib, xonadoniga Allohning inoyati ila baraka kiritayotgan, rizq-u ro‘zini butlab, o m i l k o r l i k bilan ish tutayotgan yurtdoshlarimiz ko‘plab topiladi. M.Mirjalilov, Ekin ekish – mo‘l rizq garovi. *Keng yelkali, katta sopol tovoqday beo‘xshov yuzli soldat konserva bankalarini m i r i sh k o r l i k bilan ochib tashladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *...pedagogik muomala madaniyatiga ega bo‘lishlik kasbiy-pedagogik o m i l k o r l i k ning asosiy poydevori hisoblanib, o‘qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi.* A.Xoliqov, Pedagogik mahorat.

MOL, TOVAR Sotish uchun ishlab chiqarilgan narsa-buyum. **Mol** so‘zining qo‘llanish doirasi keng, u sotish uchun ishlab chiqarilgan yoki sotiladigan narsa-buyumlarni ham bildiradi. **Tovar** sotiladigan narsa-buyumlarga nisbatan qo‘llanadi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Shohona sovg‘alarimni yo‘lda qaroqchilarga oldirib qo‘yganim uchun Erondan mayda-chuyda m o l olgan edim. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *“Selmag” ga bir asil m o l kelsa, avval shu kishining oldidan o‘tishadi: “Kelinoyimizga mabodo..?”* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnat uning qiymatini tashkil qiladi.* “O‘zME”. *Matlubot jamiyati mutasaddilari esa aholini kundalik ehtiyoj t o v a r lari bilan ta’minlash ishiga panja ostidan qaramoqdalar*. Gazetadan.

MOLBOQAR, MOLCHI, PODACHI Mollarni boquvchi, mollarga qarovchi kishi. **Molboqar** so‘zi nutqning turli shakllarida qo‘llanadi. **Molchi,** asosan, oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Podachi** so‘zida umuman uy hayvonlarini poda qilib boquvchi ta’kidi ochiqcha ifodalangan.

Kuni bo‘yi izg‘ib yuradigan m o l b o q a r bolalar, o‘smirlar savatlarni ship-shiydam qilib ketishgan bo‘lsa kerak. Ha, shumg‘iya-zararkunandalar!.. Q.Kenja, Toshqin. *Ilmsiz bo‘lsang, zootexnik tugul m o l b o q a r ham bo‘lolmaysan!* X.To‘xtaboyev, Sariq devni minb. *Qancha m o l ch i, cho‘ponlar soqchilarning ko‘zlarini shamg‘alat etib kelishganida sizday yovqurlar o‘tolmasangiz!* M.Mansur, Judolik diyori. *Mol deganing siljimas*, *Yopirilishar g‘aramga*. *M o l ch i sho‘rlik tinchimas*, *Ko‘z tikadi ko‘klamga*. Mirtemir, Qishloqda qish. *P o d a ch i ning tovshini eshitib, dalaga oshiqg‘an onasig‘a ergashib qashqa buzoq ham mag‘rab yubordi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Uning p o d a ch i bo‘lgan vaqtlarini hali ham qishloq odamlari havas bilan eslashadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

MOLPARAST, DUNYOPARAST, LATTAPARAST Mol-dunyo yig‘ishga o‘ch bo‘lgan, qiymatdor moddiy ashyolarni haddan ortiq yaxshi ko‘radigan. **Lattaparast** so‘zi mazkur ma’noni obrazli-kinoyali tarzda ifodalaydi, bu so‘zda

salbiy munosabat benihoya qabariq ifodaga ega, asosan, oddiy so‘zlashuvga xos.

Sayyora kursdosh qizlar ichida eng yaxshi va eng chiroyli kiyinadigan qiz edi. Lekin, shu bilan birga, ba’zi qizlarga o‘xshab m o l p a r a s t emas edi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Hozir mana shu m o l p a r a s t, haromxo‘r qora yuragingni teshib qo‘yaman*. E.Vohidov, Oltin devor. *Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg‘iz o‘z manfaati shaxsiyasi yo‘lida bir-birini yeb, ichkan mansab-parast, d u n yo p a r a s t va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizg‘a aqlim yetmay qoldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xotin zotining men degani ham l a t t a p a r a s t bo‘ladi, inim!..* Sh.Xolmirzayev, Tikan orasidagi odam. *Kelinimiz ozgina l a t t a p a r a s t chiqib qoldi. Buning ustiga tili ham chatoq…* A.Jo‘rayev, Oqsoqol.

M

MOLXONA, OG‘IL, OG‘ILXONA, MOLQO‘RA, QO‘RA Mol-qo‘y boqiladigan, turadigan bino. **Molxona** so‘zi ma’nosida umumlashtirish ta’kidi kuchli. **Og‘ilxona og‘il** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi, kitobiy uslubga xos. **Molqo‘ra** va **qo‘ra** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda faol.

Alomat (qopni ko‘rsatib). – Qo‘chqor aka, manavini uyga olib kiraymi, m o l-x o n a gami? Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Militsioner bilakday xitoyi fonarini yoqdi. M o l x o n a, otxonalarni qarab keldi*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *O g‘ i l da chori qo‘y, panji qo‘y, mang‘i qo‘ylar quyrug‘ini ko‘tarolmay yotibdi!* T.Murod, Tanlangan asarlar. *U fermaga borganda, Xolparang ota poyga uchun boqilib qo‘yilgan otlarning o g‘ i l i yonida eski quti ustida chordona qurib o‘tirardi*. O‘.Umarbekov, Saylanma. *O‘lja ot qidirib yurgan navkarlarning ikki-tasi darhol o g‘ i l x o n a ga kirdi-yu, uning to‘ridagi tuynukdan naryoqqa oshib o‘tayotgan qizni ko‘rib qoldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ashurboy, qo‘ylarni ushlab, o g‘ i l x o n a ga qamang!* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Halim domlaning hovlisida deyarli hech narsa o‘zgarmabdi. Choyxonaday keng ayvon. Uy orqasi m o l q o‘ r a, suvsizlikdan qurib yotgan o‘rikzor*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *U xotinlar bilan yonimizdagi m o l q o‘ r a dan soy bo‘yiga go‘ng tashirdi*. S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Qarasam, uychaning nari tomonida uzun q o‘ r a bor. Tevaragi shox-shabba bilan o‘ralgan.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Suruv navbatini bo‘lasi Eshimga topshirib, o‘zicha bugun-erta bahuzur oyoq uzatib yotmoqni niyat qilgan Normo‘min gung enasining bu harakatidan kim kelganini fahmlagach, yonboshini bolishdan uzmagan ko‘yi, q o‘ r a tarafga sekin o‘girilib qararkan, og‘zi qulog‘iga yetgudek ishshayib, deydi: – Buni anavundan so‘rang.* N.Norqobilov, Kurash.

MOMAQALDIROQ, MOMAGULDURAK, QALDIROQ, GULDU-RAK Chaqmoq chaqnashidan oldin yoki o‘sha paytda atmosferada hosil bo‘-

ladigan tabiat hodisasi. **Momaqaldiroq** so‘zi turli nutqiy uslublarda qo‘llanadi. **Momaguldurak –** shevaga xos so‘z. **Qaldiroq** va **guldurak** so‘zlari poetik bo‘yoqqa ega bo‘lib, ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanadi.

To‘g‘ri, tog‘da m o m a q a l d i r o q dahshatli qarsillaganida osmon chok-chokidan sitilib ketadiganday, chaqmoqlar yer yuzini yondirib yuboradiganday tuyulardi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Tangritog‘ ustida tuyqusdan m o m a q a l d i r o q gumburladi...* I.Sulton, Xun. *M o m a g u l d u r a k kabi botirlarning ovozi yangrab turdi gohi u, goh bu yerda yetti kun.* O‘.Umarbekov, Sarkarda Petro. *Yana muhabbatdan entikar yurak, Yoshlarin unutib qo‘yar kattalar. Dillarda osmoniy m o m a g u l d u r a k, Bag‘irni yormoqni ko‘zlab sattalar*. N.Jaloliddin, Onamni eslab. *Shovulladi tun bo‘yi shamol, Q a l d i r o q lar ko‘chdi larzakor. Shivirlading yonimda xushhol, “Yana keldi , do‘stginam , bahor”*. A.Oripov, Bahor. *Ko‘k yuzida dam q a l d i r o q, dam sukut, Yog‘may o‘tma, pag‘a bulut – oq bulut!* Mirtemir, Bulut. *So‘radi: “O‘q tegsa og‘rirmi, dada?” Uning ovozini bosdi g u l d u r a k...* X.Davron Saylanma. *Yel turar, yig‘lar falak, bu g u l d u r a k ham barq dema, Dardi hijronimni o‘krab so‘zlar osmon har kima, Jism aro jondek omonat chayqalib borgay kema, Titrabon siymobdek ko‘nglim, yetar jon og‘zima.* E.Vohidov, Navoiy g‘azaliga muxammas.

MUBOLAG‘A, LOF, MAHOBAT (MAHOVAT) Haqiqiy holatdan ancha oshirib ko‘rsatish, ortiqcha bo‘rttirish. **Lof** so‘zida haqiqiy holatga aslida bo‘lmagan jihatni – yolg‘onni qo‘shib ko‘rsatish ta’kidi mavjud, oddiy so‘zlashuvda ham ko‘p qo‘llanadi. **Mahobat** nisbatan eskirgan, kitobiy uslubga xos.

Xonzoda begim xandon urib kuldi-yu: – Bu so‘zlar siz uchun chindan ham m u b o l a g‘ a! – dedi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Abduzafar aka bularning barini o‘tirg‘izib-turg‘izadi, hatto yoshi o‘zidan kattalariga ham u ota maqomida. Hech m u b o l a g‘ a si yo‘q.* A.A’zam, Hali hayot bor… *Onasi o‘pmagan hurliqolar haqidagi gap-ku, agar hali vertolyotda tog‘ga ketgan yosh kotibasi demasa, l o f ga o‘xshaydi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar. *L o f i bilan aytganda, kechagina ko‘rib-bilib yurgan odamlaringizning har to‘rtovidan biri “sehrli barmoq sohibi” bo‘lib chiqaverdi.* E.A’zam, Shovqin. *Barakda tug‘ilgan kunini nishonladi, deng, m a h o v a t emas-u, yuz shishalar aroq bilan konyak quyib berdi*. N.Rahmat, Buni hayot debdilar yoki o‘g‘lim Ulug‘bekning kundaligi. *– Bir shahar nima bo‘libdi! – dedi Bahrom. – Buxoroday shaharning to‘rttasini ta’minlaydi! – M a h o v a t dir? – Yo‘q, chin, – dedi Pyotr Petrovich, – Hammasi hisoblab chiqilgan*. P.Qodirov, Qadrim.

MUHARRIR, REDAKTOR Gazeta, jurnal, televideniye, radio, ijtimoiy tarmoq tahririyatlari hamda nashriyotlarda tahrir bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis. Bu ma’noda **muharrir** so‘zi faol qo‘llanadi. **Redaktor** eskirgan.

Bir kun menga xat keldi. Xat men hurmat qiladigan bir jurnalning m u h a r r i r idan ekan. E.Vohidov, Yon daftardan. *Uchov nimaningdir bahsiga kirishgan ham edilarki, Abdulhay, nima bo‘lganda ham muharrirda, fikri-zehni o‘zgacha – bir kengashli gap bor, sizlarga atalg‘an, deb qoldi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Ertasi barvaqt ishga kelib, montajni endigina tugallagan edimki, yana bosh r e d a k t o r yo‘qlatib qoldi. Borsam, turqi bejo.* A.Obidjon, Ayollar va xayollar. *Felyeton gazeta r e d a k t o r i Qodirjon Qobilovga haddan ziyod ma’qul tushib, O‘rinboyni huzuriga chaqirtirdi.* T.Po‘lat, Ichkuyov.

MUHIM, AHAMIYATLI, ASOSIY Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, ahamiyat jihatidan birinchi darajali. **Ahamiyatli** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Asosiy** so‘zi so‘zlashuv tilida ham, kitobiy nutqda ham faol qo‘llanadi.

Yerni iqtisod qilish, hozir m u h i m masalalardan biri. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Hirot Samarqanddan qanchalik uzoq, Navoiyning diqqat-e’tiborini band qiladigan mashhur odamlar-u m u h i m ishlar qanchalik ko‘p.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Hozirgina o‘ylab turg‘an jo‘nash masalasi ham uning esidan chiqg‘an, chunki raqibining qotili kim ekanligini bilib olish hammadan ham unga qiziq va a h a m i y a t l i edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Abdulla Isoq domla bilan o‘rtalarida boshlangan muloqot tarixini ipidan ignasigacha a h a m i y a t l i deb hisoblardi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Men uchun yasama soqollar-u savlat kiyimlar, teatr anjomlarining hammasi ikkinchi darajali edi. Faqat bir narsani a s o s i y deb hisoblardim.* E.Vohidov,Yon daftardan. *O‘tinaman: hayajonlanib ketib, a s o s i y maqsaddan chalg‘iyapman, lekin bu izohlar ham kerak.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

MUHTOJ, EHTIYOJMAND, HOJATMAND, ZOR Biror narsaga kuchli darajada ehtiyoji, talabi bor. **Ehtiyojmand** so‘zida muhtojlik belgisi **muhtoj** va **zor** so‘zlaridagidan kuchsiz, kitobiy nutqqa xos. **Hojatmand** so‘zida muhtojlik ta’kidi yumshoqroq, kitobiy uslubga xos. **Zor** so‘zida muhtojlik belgisi juda qabariq ifodalangan, oddiy so‘zlashuvga xos.

Gulchehra yolg‘izlikka yolg‘iz edi-yu, lekin xoli joyga m u h t o j emas edi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Singlim, xafa bo‘lmang, bola-da, soatni ehtiyot qilib qo‘ying. Omontoy katta bo‘lganda taqadi. Marhum o‘rtog‘im shu umid bilan sizlarni menga tashlab ketganmidi? Pulga m u h t o j emasman.* S.Ahmad, Yer uyg‘ondi. *U ilgari hech qachon o‘zini ayolga bunchalar bog‘liq va e h t i y o j m a n d sezmagandi.* U.Hamdam, Muvozanat. *E h t i y o j m a n d larga har dam cho‘zdi yordam qo‘llarin, Haq taolo berdi fayzin, topdi hikmatda sharaf.* “Sharq yulduzi”. *Opog‘otam quvonchdan terisiga sig‘may ketdi: – Umringdan baraka top, Rahimboy, ko‘kraging bundan keyinam ordenga to‘laversin! E h t i y o j m a n d larga mana shunaqa qayishib yurishing xudoga xush kelgandirki, viloyatdagi to‘rtta eng oldi fermerning bittasi bo‘pturgandirsan.*

A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Devona beozor edi. Qishloqdagi h o j a t m a n d larning, samovarchining yumushini bajarib, nonini halollab yerdi*. T.Malik, Devona. *Gunoh – gunohkorning qo‘lin tutmakdir, Savob – h o j a t-m a n d ning yo‘lin tutmakdir*. “Sharq yulduzi”. *Kecha oldi maktubingni yor, Izlab seni Tin olmay bir zum, Kelayotir visolingga z o r*. E.Vohidov, Orzu chashmasi. – *O‘rdaning bu tomonidagi eski shahar aholisining ahvoli ham nochor, afandim, – dedi hoji Asadullaga sinovchan tikilib. – Ular ham allaqachondan beri bir tishlam nonga z o r lar*. T.Malik, Savohil.

MUHTOJ BO‘LMOQ, ZOR BO‘LMOQ, ZORIQMOQ Biror narsaga ehtiyoj sezmoq. **Muhtoj bo‘lmoq** so‘zida ehtiyoj darajasi **zoriqmoq** so‘ziga nisbatan kamroq, **zor bo‘lmoq**da bu belgi **zoriqmoq**qa qaraganda kamroq. Ushbu so‘zlarda mazkur belgi darajama-daraja kuchayib boradi.

M u h t o j b o‘ l ganingda silaydi boshing O‘zi m u h t o j b o‘ l gan tanti mardumlar. A.Oripov, Hayot haqiqati. *Bir-ikki yil oldin biz sizlarga ko‘maklashar edik , hozir o‘zimiz sizlarning yordamlaringga m u h t o j b o‘ l ib o‘tiribmiz.* P.Qodirov, Olmos kamar. *Ona bir qultum suvga z o r b o‘ l ib turgan bo‘lsa ham baribir olib ichardi.* S.Ahmad, Ufq. *Bir kuni u kulib-kulib aytib bergan edi: shunda, qornidagi gumonasi qimirlab yana uyqusi qochdi… To‘qmoqda, z o r i q qan chog‘lari yaxshi niyatlar bilan ko‘ylakchalar, qalpoqchalar tikkanini esladi.* X.Do‘stmuhammad, To‘xtaboyning boyliklari. *Bu yerda chorva tez ko‘payib, tog‘da temir konlari ko‘p bo‘lganidan, temir qazib, o‘q-yoy yasab, ohu va arxarlar ovlab, hech narsaga z o r i q may, yuz yildan oshiq farog‘atda yashaydilar*. G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni.

MUHTOJLIK, EHTIYOJ, HOJAT, ZORLIK Biror narsaga bo‘lgan talab. **Ehtiyoj** so‘zida tabiiy talab ta’kidi anglashiladi. **Hojat** so‘zi bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda kam qo‘llanadi, ko‘pincha *bor, yo‘q* so‘zlari bilan birga keladi. **Zorlik** so‘zida muhtojlik ta’kidi qabariq aks etgan.

Ergashvoy shu mehnatkash odamning qo‘lida m u h t o j l i k nimaligini, yetimlik nimaligini bilmay o‘sdi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Mening o‘g‘lim Yusufga bo‘lgan mehringiz uchun, Muhammadjon aka, sizga mingdan ming rahmat aytaman. Lekin uyga m u h t o j l i k joyimiz yo‘q. Xudoga shukr, birovdan oldin, birovdan keyin degandek...* U.Hamdam, Muvozanat. *Bizning e h t i y o j-ga na parvoying bor? Do‘koning bo‘lakdir, bozoring bo‘lak.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Tangri taolo hammaga e h t i y o j iga yarasha ne’mat beradi.* I.Sulton, Hazrati Majoz. *She’rni o‘lchab bo‘lmaydi. Zargar taroziga h o j a t yo‘q. She’r tarozisi o‘quvchi qalbida.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Biz, ikkovlon – davlat kotibi bilan Yoningga keldik-u dedik: “Podsho – El h o j a t i uchun chek bunda imzo”*. E.Vohidov, Saylanma. – *Rishvaxo‘r firibgarlarga kunimiz qoldi... – dedi siyrak soqolli chol. ... Z o r l i k... Kim aybdor buning bariga?..* M.Ali, Sarbadorlar. *...Yana mehrga z o r l i k dashtida qolgan bola uchun non do‘konida ishlov-*

chi amaki qatoridagi odamning berguvchi nonidan ko‘ra birgina shirin so‘zi azizroq edi. T.Malik, Shaytanat.

MUKOFOT, SIYLOV, AJR, SIYLIQ Kishiga qilgan yaxshi ishlari, faoliyati orqasidan beriladigan rag‘batlantirish. **Siylov** so‘zida hurmat bilan birga moddiy manfaat ta’kidi ham anglashiladi, bu ma’noda **mukofot** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi. **Ajr** so‘zida yaxshi amallar evaziga qaytadigan manfaat ta’kidi mavjud, nutqda faol emas, asosan, diniy mazmundagi matnlarda uchraydi.

Ismat haqiqatan ham katta bir m u k o f o t olgandek, boshi osmonga yetadi. Sh.Xolmirzayev, Sog‘inch. *Azbaroyi suyunganidan eshakni topishda jonbozlik ko‘rsatgan ikki shotirni oylik maoshlarining olti foizi miqdoridagi m u k o f o t bilan taqdirlash to‘g‘risidagi buyruqqa ham og‘rinmay imzo chekib yubordi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Bir kun yuksak mukofotni Berdilar unga, Biroq hech kim zarra parvo Qilmadi bunga. Va inchunin mahallada Yashardi bir boy, U ham bir kun ola qoldi S i y l o v, hoynahoy*. A.Oripov, Everest va ummon. *Samarqandda uni – Sohibqironni iltifot va s i y l o v bilan kutdilar*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Oyim aytardilar, chiroyli sabr etganlarga chiroyli a j r bor, deb. Ilojim qancha! Sizga yetishmoqning boshqa yo‘lini topolmayotirman* M.Mansur, Judolik diyori. *– Xo‘p, jannat yaxshilar uchun buyuk a j r ekan, – degandi u o‘sha suhbatda.* N.Jalolidin, Umar Xayyom. *Nakurt qishlog‘idan qirchillama yoshli bir mulla yigit yo‘rg‘a eshagini xalalab, Qoratog‘ni oshib Mojrim qishlog‘iga o‘tdi. Oshnolarini ziyorat etib, ko‘p s i y l i q lar ko‘rib, kelgan yo‘lidan ortga qaytdi...* A.Suyun, Odam bo‘lmish. *...Agar shunaqa bo‘lganida, hozir turli dabdabali unvon-u boshqa s i y l i q olayotganlar Navoiy hazratlaridan ham o‘tib ketar edi.* “Yoshlik”.

MUNOSABAT, ALOQA, MUOMALA, ORA, ROBITA Kishilar o‘rtasidagi aloqa, bog‘lanish. **Aloqa, muomala** so‘zlari bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Ora** so‘zida “ikki kishi o‘rtasidagi munosabat” ifodasi ustuvor, oddiy so‘zlashuvga xos. **Robita** so‘zi bu ma’noda juda kam qo‘llanadi, eskirgan, kitobiy uslubga xos.

Yo‘g‘-ey, o‘libdimi, xotini bilan m u n o s a b a t lari juda yaxshi deyishadi, o‘g‘il-qizlari bor. Q.Kenja, Toshqin. *Biroq bir tirg‘aldimi, tamom – o‘rtadagi m u n o s a b a t ni bir yoqlik qilmaguncha sira tinchimaydigan bu “g‘alvali muhit” namoyondalari Xurram qotmani o‘z holiga qo‘ymasdi*. N.Norqobilov, Kurash. *Zohid prokurorning yordamchisi bilan yaqin a l o q a da bo‘lgan bu tergovchini tanirdi*. T.Malik, Shaytanat. *Onasiga qaraganda uning xotini bilan a l o q a si yaxshi edi. Munis ham uni yaxshi ko‘rardi*. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Uning odamlar bilan m u o m a l a si ham Ustaga ma’qul bo‘ldi: u katta-kichikni o‘zining shirin so‘ziga mahliyo qilar olar, bitmagan ishni bitirish-u yechilmagan chigalni yechishda unga teng keladigani yo‘q edi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi pala-

ta. *...chunki Hasanali Otabekning quli. Qullar bilan jiddiy m u o m a l a da bo‘linmoq, ayniqsa, Ziyo shohichilardek odamlarg‘a favqulodda bir ish*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mingboshi bilan o r a lari tuzalgandan keyin muni Zebixonning o‘zi iqror qilmadimi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Veteran Mansur meshni ko‘pdan buyon, viloyat qo‘mitasining kotibi bo‘lib yurgan chog‘laridan beri yaxshi bilar, bir mahallar o r a lari yomon emas edi.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Garchi Alisher janoblari bilan faqirning orasida munosabat va r o b i t a unchalik barpo bo‘lmagan esa-da... u janobning hayotlariga doir ba’zi jihatlardan xabardorman*. Oybek, Navoiy. *Balki, balki... mening soyamning yo‘qolishi bilan o‘sha shoirning “soyasini yo‘qotgan odam” degan dostoni qandaydir r o b i t a bordir?* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

MUSOBAQA, BELLASHUV, KURASH 1. Sportning muayyan turi, xalq o‘yinlari bo‘yicha tashkillangan bahs. **Bellashuv** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Kurash** so‘zi bu ma’noni yanada ochiq, ravshan ifodalaydi, oddiy so‘zlashuvda ham, yozma nutqda ham faol qo‘llanadi. M

Matluba sport bilan ko‘p qiziqmas edi, m u s o b a q a ga yig‘ilgan olomonni ko‘rib hayratda qoldi. O.Yoqubov, Matluba. *Ro‘ziqul talay m u s o b a q a larda qatnashib yutib chiqdi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Askiyachilar m u s o b a q a si tugab, kulgilar bosilgach, Bobur Muzaffar mirzodan hazrat begimning huzurlariga borish uchun ijozat oldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Uloqni chetdan kuzatgan odam shu dovyuraklar b e l l a sh u v ida ham nohaqlik, nayrang bo‘lishini sira o‘ylamaydi*. T.Malik, Davron. *B e l l a sh u v da, qilich chopishda, merganlikda, chavandozlikda urug‘ning faxri edi.* T.Malik, Savohil. *K u r a sh shunday davom etaveradi – goh u g‘olib, goh bu...* U.Azim, Birovning umri.

2. Muayyan kishilar yoki guruhlarning biron-bir maqsadga erishish yo‘lidagi sa’y-harakati. **Bellashuv** so‘zida “kimo‘zarga harakat qilish” ma’no ta’kidi ustuvor. **Kurash** so‘zida bu ma’no ba’zan salbiy bo‘yoq ham kasb etadi, oddiy so‘zlashuvda ham ko‘p qo‘llanadi.

Ular bir asr davomida Shayboniyxonning Turondagi avlodlari bilan Mirzo Boburning Hindistondagi avlodlari orasidagi ma’naviy m u s o b a q a ni xolis kuzatib turdilar. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bu hol, bu m u s o b a q a bir necha bor takrorlangach, puldor raqibiga bas kelmog‘iga ko‘zi yetmaganmi... tog‘amiz to‘yxonaga sig‘may, arazlab turib uni tark etibdi.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Odamzod, nihoyat, zulm va zo‘ravonlik yaroqlari-yu yovuzlik musobaqasidan voz kechib, eng ulug‘ insoniy amal – baxt-u iqboldan bahs etadigan, shu borada b e l l a sh u v larga kirishadigan yuz yillik bo‘lishini orzu qilamiz*. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ajab, yashash uchun kurashga undaydigan doimiy shafqatsiz raqobat iqtisodiy-siyosiy b e l l a sh u v rivojlanishning eng tez, eng ishonchli yo‘li, biroq u Insonni oyoqosti qilib, taxtiravonga “Narsa”ni*

chiqarmoqda. U.Hamdam, Muvozanat. *Asadbek salkam qirq yillik bezovtalikni, k u r a sh ni, tahlikali yillarni, jon talvasasida yurishlarni osoyishta hayot degan ekan, bu osoyishtalik tugagan bo‘lsa, nimalar yuz berishi aniq.* T.Malik, Shaytanat. *Hokimiyat uchun k u r a sh da og‘a inini, qarindosh-urug‘ bir-birini ayamaganligi hech kimga sir emas-ku!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

MUSOBAQALASHMOQ, MUSOBAQA QILMOQ, BASLASHMOQ, BELLASHMOQ, KURASHMOQ Kamida ikki kishining bir-biri bilan musobaqa o‘ynamog‘i, kimo‘zarga harakat qilmog‘i. **Musobaqa qilmoq** so‘zi nutqda kam qo‘llanadi, kitobiy uslubga xos, bu jihatdan **musobaqalashmoq** so‘zi juda faol. **Bellashmoq** so‘zida raqobat ta’kidi kuchli. **Baslashmoq**da kim o‘zargalik ta’kidi qabariq, so‘zlashuv tiliga xos. **Kurashmoq** so‘zi mazkur ma’noda kitobiy nutqqa xos.

Hirotga kechasi yetib kelgan Muzaffar mirzo hatto yengilish va qochishda M *ham akasi bilan m u s o b a q a l a sh gan kabi ish qildi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bunday she’rlar tajribali ustozlarning ayrim asarlari bilan bemalol ijodiy m u s o b a q a l a sh a biladi. Shu yoshdayoq, dastlabki, “Orzular chashmasi” nomli to‘plamning muallifi*. “Sharq yulduzi”. *Mana menga xabari keldi: Turonda hukmron bo‘lgan Jo‘ybar shayxlari Buxoro atroflaridagi juda ko‘p yer-u mulkka ega bo‘lib, boylik orttirishda xonlar bilan m u s o b a q a q i l ur ekanlar.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Jo‘ra polvon To‘lapboyning gapiga salmoqlab javob qildi: – Shundaqa sog‘inib qoldingizmi? Ichishga men bilan m u s o b a q a q i l asizmi? Bellashaman, desangiz yana ikki-uch kun sabr qilasiz.* S.Ahmad, Ufq. *Ikkala bola kim uzoqni mo‘ljalga olishga b a s l a sh a boshlashdi.* R.Haydarova, Javzo. *B a s l a sh ib, Valibobodagi chinorga o‘zini oyoq-qo‘li, hamma joyidan arqon bilan qattiq chandib bog‘latib, keyin hech kim qarashmasa ham bo‘shalib olgan, biz ko‘rmaganmiz, ko‘rganlardan eshitganmiz...* A.A’zam, Quroq. *U bir kuni Istambulda dong‘i ketgan turk polvoni bilan b e l l a sh ib qolibdi*. E.Vohidov, Yon daftardan. *Tog‘am... shaxmatni ham yaxshi ko‘rardilar. Ta’kid joizki, uncha-buncha odam tog‘am bilan b e l l a sh a olmasdi*. T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *Ilm ahliga bir-biri bilan k u r a sh ib yurish ko‘p ham foyda bermaydi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *U Mirazim bilan hazillasha turib k u r a sh ib ketishganda ham o‘ziga deyarli bir yarimta keladigan “Alpomish”ni hash-pash deguncha oyog‘ining tagiga ola bilardi*. U.Hamdam, Muvozanat.

MUSOBAQACHI, MUSOBAQADOSH Sportning muayyan turi, xalq o‘yinlari, shuningdek, boshqa sohalari bo‘yicha tashkillangan bahs ishtirokchisi, musobaqalashuvchi tomonlar. **Musobaqadosh** so‘zi musobaqalashayotgan tomonlarning bir-biriga nisbatan shunday maqomda ekanligini ochiq ta’kidlaydi.

M u s o b a q a ch i lar boshqalarni o‘nlab odim orqada qoldiradilar. A.Qodiriy, Obid ketmon. *M u s o b a q a ch i lardan boshqalar ishdan chiqib, bir-ikki piyoladan choy ichib olg‘onlaridan so‘ng nafaslar rostlanib, og‘izlar*

suvlandi. A.Qodiriy, Quyosh bilan ham kurashaman. – *Xatamjon qanilar? – Klubda. Qo‘shni rayondan m u s o b a q a d o sh lar kelgan ekan. Rais qo‘ymay olib ketdi*. O‘.Umarbekov, Saylanma. *O‘g‘it qachon keladi deb o‘tiraversa, ertaga m u s o b a q a d o sh lari oldida mulzam bo‘lib qolishi mumkin-ku*. A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat.

MUXLIS, IXLOSMAND, ISHQIBOZ, SHINAVANDA, MUHIB Biror narsaga qattiq berilgan, chin yurakdan ixlos qo‘ygan. **Ixlosmand** so‘zida chin ixlos ta’kidi ochiq ifodalangan, ko‘proq badiiy nutqqa xos. **Ishqiboz** so‘zida mazkur ma’no poetik noziklik aralash tarzda ars etgan, muhabbatli munosabat ta’kidi juda kuchli. **Shinavanda** so‘zida g‘ayriixtiyoriy ixlos ta’kidi qabariq namoyon bo‘lgan, badiiy nutqqa oid. **Muhib** eskirgan, kitobiy uslubga xos.

Sizning qog‘ozdek oq qalbingiz doimo qog‘ozdek lovullab yonib, mash’ala nuri bilan m u x l i s lar qalbini yoritib turaversin. A.Samad, O‘tkir qalam. *Tog‘am axloq-odob mavzusiga butunlay berilib ketdilar. Radiodagi suhbatlar, matbuotdagi chiqishlardan tashqari maktub yo‘llagan m u x l i s lariga iloji boricha javob qaytarishga urinardilar.* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *Uchrashuvdan xabar topgan adabiyot i x l o s m a n d lari Namangan, Andijon taraflardan “Jiguli”da, “Moskvich”da yetib kelgan edilar.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Ko‘pchilik qishloqilar menga i x l o s m a n d: ba’zilar eshonpochcha deydi, ba’zilari mulla aka deydi.* G‘.G‘ulom, Shum bola. *...Bugungi kurashga kechagidan ikki barobar ko‘p odam kelgan. Uch avtobusda shahardan i sh q i b o z lar, yengil mashinalarda tumanlardan polvonlar kelishgan.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Pedinstitutda o‘qigan bu ikki opa-singil bilan u bir kunda tanishgan; biri “zerikarli” tarixchi, biri chet tillarga i sh q i b o z.* E.A’zam, Shovqin. *– Otashqalbning shoirlik guvohnomasiga aylanib ketgan “Sen-sen” she’rini o‘qimagan she’rxon, uning qo‘shig‘ini eshitmagan san’at sh i n a v a n d a si topilmasa kerak, – deya og‘zidan bol tomib sayrardi Ajoyib domla*. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Muhtaram ustoz, keyingi maqolalaringizdan birida qandaydir avtoodam yasayotganingizga shama qilib o‘tgandingiz. Qisqa vaqt ichida radio sh i n a v a n d a laridan yuzlab xat oldik – avtoodamga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda*. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Otashqalb shoirning ona yurtdagi hayoti va ijodi, o‘ylaymanki, bu yerdagi har bir adabiyot m u h i b iga ma’lum-u mashhurdir*. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *...bu fikrlardagi adadsizlik va hududsizlikdan suhbatdoshimiz, ustozimizning g‘oyibona muxlisi va m u h i b iga aylanardi*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam.

MUXLISLIK, IXLOSMANDLIK, ISHQIBOZLIK, SHINAVANDALIK, MUHIBLIK Biror narsaga qattiq berilganlik, chin yurakdan ixlos qo‘yganlik holati. Bu so‘zlar ifodalaydigan ma’no nozikliklari ularning asoslaridan anglashilib turadi. **Ishqibozlik** va **shinavandalik** so‘zlari badiiy nutqda ham, oddiy so‘zlashuvda ham qo‘llanadi.

Shoir machchoyi sayohatlaridan birida menga qo‘shilib borib, tog‘aga mehmon bo‘lgan, ikkalasi rosa chiqishib qolgan, tog‘a uni Toshkentdagi naqd eng dovruqli odam deb bilar edi – m u x l i s l i k dardi yomon-da! E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Xizmat taqozosiga ko‘rami, m u x l i s l i k g‘olib kelibmi, ertasi Shoberdi Boltayev bilan uchrashgandik.* Y.Tog‘a, Bolalik hidi. *Ilgarigi eshik-og‘a Qosimbek o‘sha paytda Hisor qo‘shinining orasida edi. Uning Bobur mirzoga i x l o s m a n d l i g i ni bilasiz.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *San’at va san’atkorlarga bunday sadoqatli i x l o s m a n d l i k ni boshqa joyda topish mushkul edi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Ammo “serdsa”si chatoq odamga kim qo‘yibdi i sh q i b o z l i k ni?* E.A’zam, Shovqin. *So‘ng Chaganani, nihollarini, tabladagi otini, kurashga tushayotgan polvonlarning o‘yin ko‘rsatishlarini, xalqning i sh q i b o z l i k gashtida goh tosh qotib, goh guvullashlarini esladi...* U.Azim, Birovning umri. *Biznikiyam bir sh i n a v a n d a l i k-da, shunday gu-*

M

runglar dilimizni rom etdi. A.Abdiyev, Qo‘msash. *Men Navoiyning muhibiman. Ana shu m u h i b l i k – meni ruhlantiruvchi, charchoqlik va chorasizliklardan muhofaza qilib, doimiy ravishda yozib-chizishga undovchi bir asos*. I.Haqqul, Navoiyga qaytish. *Shoirlar – Shodmonqul Salom, Behzod Fazliddin, Nosirjon Jo‘rayev ijodini qariyb o‘n yildan beri kuzatib-o‘qib kelaman, orada she’rga oshuftalik, adabiyotga m u h i b l i k bor.* B.Qobul, Yoshlar ijodi: o‘zlik, uslub, mahorat.

MUZ, YAX Suvning qattiq sovuq ta’sirida qotib qolgan holati. **Muz** so‘zi barcha nutq uslublarida faol qo‘llanadi. **Yax** shevaviy mansublikka, oddiy so‘zlashuvga xos.

Havo aynib, qor aralash yomg‘ir shivalashga, yuqoridan m u z nafasi ura boshlashga tushgan bir pallada... qaraki, Alloh bizni yorlaqadi. M.Mansur, Judolik diyori. *Qishning m u z larini eritib tashla, yerni azoblardan o‘zing qutqar. Qaldirg‘och shunday der ekan-u bir qanotiga oftobni, bir qanotiga baharni o‘tqazib ucharkan.* T.Malik, Savohil. *Chavandoz... bir kuni achchiq ustiga y a x suvdan ishlatgandi. Tish og‘rig‘ini topdi*. N.Chori, Tashvishi yo‘q odamlar. *Ariq bo‘ylariga ataylab go‘yo Y a x dan marjon yasab taqibdi birov*. T.To‘la, Saylanma.

MUZLAMOQ, TO‘NGMOQ, YAXLAMOQ 1. Qattiq sovuq ta’sirida suyuq holatdan muzli holatga, yumshoq holatdan qattiq holatga o‘tmoq. **To‘ngmoq** so‘zida muzlash holati **muzlamoq**qa nisbatan kuchli, kitobiy uslubga xos. **Yaxlamoq** mazkur ma’noda kam qo‘llanadi, oddiy so‘zlashuvga xos.

Yo‘lni kesib suv urgan arna o‘tadi. Uning tubidagi suv allaqachon m u z l a b qolgan. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Qor tushgani bilan hali yer m u z l a magan edi*. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Ko‘z yoshlari soch-soqoliga tomib, t o‘ ng ib qolardi.* I.Sulton, Bilga xoqon. *Kechasi yer y a x l a ydi-yu, shuncha narsa nobud bo‘ladi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Siyohqalam yetguncha qog‘oz*

yuzidagi nam y a x l a b ulguryapti, yuqorida nima qilarkanmiz bu sovuqda. M.Mansur, Judolik diyori.

2. Qattiq sovuq ta'sirida bo'lmoq, qattiq sovuq o'tib qaqshamoq. **To'ngmoq** so'zi bu ma'noda kam qo'llanadi, kitobiy uslubga xos. **Yaxlamoq** so'zi bu ma'noda oddiy so'zlashuvda qo'llanadi, shevaga mansubligi mavjud.

– A, balli! – Qo'ldosh Botir O'sarning yaqinlashib qolganini ko'rib, tag'in shoshib jilgandi, shimining pochasi ko'tarilib qoldimi – boldirlari m u z l a b ketdi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Qochganlarning qancha-qanchasi cho'lda m u z l a b qashqir-u shoqollarga yem bo'lishgan*. S.Ahmad, Umrim bayoni. *T o ' ng ib qolgan qo'llari egar qoshidami yo tagidagi ot nogoh munkib ketsayoq o'mbaloq oshib ketadimi, bilolmay halak*. M.Mansur, Judolik diyori. *Alisher... so'ng so'radi: – Tag'oyi, bu suvda baliqlar t o ' ng ib qolmaydimi?* I.Sulton, Alisher Navoiy. *– Voy-voy-voy, toza y a x l a b san-ku, chaqaman deydi-ku! Qayerda bunday sovuqqa oldirding?* M.Mansur, Judolik diyori. *Tan-jonim y a x l adi. Suyaklarim qaqshadi. Tishlarim tik-tik etdi*. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

MO'JIZA, KAROMAT 1. Olloh taoloning o'zi yoki u tomonidan alohida kishilarga ato etilgan xislat tufayli sodir bo'ladigan hodisa, masalan, payg'ambarlar xudoning elchilari ekanligini tasdiqlaydigan g'ayritabiiy fazilat. **Karomat** so'zida "g'ayb sirlariga oidlik" ifodasi kuchli, badiiy uslubda ko'p ishlatiladi.

...Shalg'am – Bibi Fotimayi Zuhraning duolari barakati, qovoq bo'lsa hazrati Yunusning m o ' j i z a lari deb bahosi arzon va lekin xosiyati ko'b bo'lg'an bu mablag'lar bilan oshxonani to'ldira berar edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Agar Tangri taoloning bu m o ' j i z a si bo'lmasa, dunyoga sig'magan g'am-tashvish mitti yurakka, yurakdan-da mittiroq ko'z qorachig'iga sig'armidi...* T.Malik, Shaytanat. *– Buyam yaratgan egamning bir k a r o m a t i-da, o'g'lim.* X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. *Ayrim din peshvolari va ulamolar o'zlarini duch kelgan majlisga urishib, foniy dunyo, oxirat haqida, payg'ambarlar va avliyo-anbiyolar k a r o m a t lari xususida ibratli hikoyatlar so'ylashar edi*. A.Dilmurod, Mezon burji.

2. Inson tomonidan bajarilgan har qanday odatdan tashqari, kishini hayron qoldiruvchi ish. **Karomat** bu ma'noda **mo'jiza** so'ziga qaraganda nutqda kam qo'llanadi, kitobiy.

Salon peshtoqidagi televizorda namoyish etilayotgan allaqanday texnikaviy m o ' j i z a lar o'rnini osmon xaritasi, manzilga yaqinlashayotgan uchoq tasviri va yengil musiqa egalladi. E.A'zam Shovqin. *Keksa-yosh, xotin-qiz Shogird yaratgan m o ' j i z a lar atrofida lol-u hayron kezardi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *K a r o m a t nog'orachilarda bo'ladi. Qo'shningning xotini tug'sa, ertalab nog'ora ovozidan bilasan.* T.Obidov, Yusufjon qiziq. *Bir so'zi bilan butun bu tuproqlarga, zor-u intizor kishilarga, yo'lingda senga hikmat so'ylayotgan*

barcha-barchaga muboraklik baxsh etadigan, hammasiga ega chiqadigan o‘sha o‘g‘lonning izzati tufayli edi u k a r o m a t lar. I.Sulton, Ozod.

MO‘JIZALI, MO‘JIZADOR, MO‘JIZAKOR, MO‘JIZAVIY, MO‘JIZ (MU’JIZ) Kishini hayratlantiradigan, mo‘jizadan iborat bo‘lgan. Qatordagi so‘zlarda belgi darajama-daraja kuchayib boradi. **Mo‘jizador, mo‘jizakor, mo‘jizaviy** so‘zlari kitobiy nutqqa xos. **Mo‘jiz** so‘zi eskirgan, kitobiy.

To‘qimachilik sanoatining bu m o‘ j i z a l i mashinasini dunyoda biror mamlakat xayoliga keltirgan emas. Tuyg‘un, Yurak qo‘shiqlari. *Umidlari puch ekanini bilsa-da, g‘oyibdan m o‘ j i z a l i panoh kutardi.* T.Malik, Shaytanat. *Yo‘lning ikki chetini Hindiston tabiatining m o‘ j i z a d o r, sehrkor kuchi yaratgan azim, ko‘rkam daraxtlar bezar edi*. Oybek, Nur qidirib. *She’rning turli misralarida musiqiylik turlicha tovlanib, o‘zgarib tursa-da, lekin bir butunligini saqlasa, yakka va betakror namuna ekanligini namoyish etsa… erkin vazn dunyoga keladi va u ham hayajonli holatni bunyod etgani, saqlagani, ta’sirdorlikka erishtirgani uchun m o‘ j i z a d o r bo‘laveradi*. H.Umurov, Adabiyot nazariyasi. *Somon amirining askari toshbaqani qirq kun qidirdi, lekin topolmadi. Umuman, bu maxluqning paydo bo‘lishi naqadar hayratangiz va m o‘ j i z a k o r bo‘lsa, goh ko‘rinib-ko‘rinmasligi ham shu tarz hayratlanarli edi*. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Raqamlarning m o‘ j i z a k o r bu o‘yinlarini Ibn Sino ajib sodda, shuningdek, maftunkor bir yo‘sinda tasvirlab bergandiki, birozgina kirishib qolgan odamni asir etardi qo‘yardi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Bu ichki kuch unga Dahkatning kunchiqish tomonidan uch ming gaz balandlikdagi Osmon Yaylov tog‘ining uchidan otilib chiqib turgan m o‘j i z a v i y buloqni eslatdi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Biz shaharning qaysi burchagiga bormaylik, m o‘ j i z a v i y san’atkorlikka va uni olqishlayotgan muxlislar olomoniga duch kelardik*. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Andinki erur xasis muhlik, Ko‘rguzgucha durur Masih mu’jiz.* Navoiy, Muhokamat ul-lug‘atayn.

MO‘L, SEROB, MO‘L-KO‘L, TO‘KIN, TO‘KIN-SOCHIN, MA’MUR Yetarli darajada ko‘p bo‘lgan. **Serob** so‘zi oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Mo‘l-ko‘l** so‘zida belgi **mo‘l** va **serob** so‘zlaridan ko‘ra ham kuchli, kitobiy uslubga xos. **To‘kin** so‘zi ko‘proq oziq-ovqatga nisbatan ishlatiladi, unda keragidan ortiqlik ta’kidi ochiq aks etgan, **to‘kin-sochin** so‘zida belgi darajasi yanada yuqori. **Ma’mur** so‘zida farovonlik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Bugun dalalarda hosil m o‘ l, sap-sariq bo‘liq bug‘doyzorlar shabadada chayqalib yotibdi... I.Sulton. Mega-intellekt. *O‘t yoqish uchun esa xas-xashak, o‘tin-cho‘p s e r o b*. Sh.Xolmirzayev, Quyosh-ku falakda kezib yuribdi... *Dala-dasht mayli, lekin bu gazanda qishloqning ichida ham s e r o b...* A. A’zam, Quroq. *...hudud suvga s e r o b, maysa-giyohlar to mezon oxirlarigacha yashil libosini yechmas edi*. Q.Kenja, Toshqin. *Shuunday imkoniyat yaratilgan joyda*

m o‘ l-k o‘ l ijod qilishingiz tabiiy. X.Do‘stmuhammad. Umid guli. *Shunday ekan, arzimas maosh bilan kifoyalanmay, jonini garovga qo‘yib bo‘lsa-da, m o‘ l-k o‘ l mablag‘ topishi kerak*. A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Avvalo, dasturxon yozildi: “dov-daska” t o‘ k i n.* Y.Tog‘a, Bolalik hidi. *Bu mamlakat kichkinagina bo‘lsa-da, el-ulusi ahil, turmushi t o‘ k i n va farovon ekan*. S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Dehqonning omadi kelgan – t o‘ k i n-s o ch i n kuz bo‘ldi.* S.Anorboyev, Yaxshilik urug‘i. *Nimanidir yo‘qotgandayman, nimadir yetishmaydi menga, lekin nima shu – bilolmayman, bir yoqlarga ketgim keladi, bu istak hozir qilayotgan ishim, juda t o‘ k i n-s o ch i n bo‘lmasa-da, hartugul, boshqalardan hech kami yo‘q turmushimga nisbatan g‘alati tuyuladi.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Man burung‘i zamonda ilm va madaniyat o‘chog‘i bo‘lg‘onim uchun dunyoning m a’m u r va mas’ud o‘lkasidan sanalar edim*. H.Muin, Turkiston fig‘oni. *Kimga qanday? Lekin o‘shanda ul-bul topilib turardi. Bozorlar m a’ m u r edi*. Sh.Xolmirzayev, Xorun ar-Rashid.

MO‘LJALLAMOQ, MO‘LJAL QILMOQ, KO‘ZLAMOQ, CHOG‘LAMOQ, CHO‘TLAMOQ Biror ishni bajarishda mo‘ljal qilib yoki qandaydir reja-maqsadga asoslanib harakat qilmoq. **Mo‘ljal qilmoq**da “rejalashtirib qo‘ymoq” ifodasi ustuvor, oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Ko‘zlamoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos. **Chog‘lamoq** so‘zida taxminiy ifoda biroz kuchsizlanadi, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Cho‘tlamoq** so‘zida harakatning o‘z imkoniyati doirasida ekanligi ta’kidi ochiq anglashiladi, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Tosh-tikan demay... xuddi buloq sapchib yotgan joyni m o‘ l j a l l a b tusha boshlashdi. A.Muxtor, Qora domla. *Botirxonning o‘zi aytib qo‘ydi: – Siz ishonsangiz, bu rolni sizga m o‘ l j a l l a b yozdirgan edim*. Sh.Xolmirzayev, Qora kamar. *Oldin vokzalni m o‘ l j a l q i l di, axir allamahalda birovning eshigini qoqib kirish xunuk*. U.Hamdam, Muvozanat. *Bo‘yim Barotdan uzunroq, uning betini boshimning soyasiga m o‘ l j a l q i l ib: – Yaxshilab qara, yuzimdan oftob ko‘rinyaptimi, yo‘qmi? – dedim*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *U hech kimning Toshkentga kelishdan k o‘ z l a gan asl maqsadini sezib qolishlarini istamasdi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ko‘kqo‘tonni k o‘ z l a b yurgandim, eldan burun Bozorvoy egallabdi...* “Sharq yulduzi”. *Agar yoshimni nazarda tutayotgan bo‘lsangiz, meni yigirma besh yashar ch o g‘ l a ng*. N.Norqobilov, Bekatdagi oq uycha. *Xotin haram darbozasini ch o g‘ l a b borar edi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *O‘zicha turli rejalar tuzdi, qishloqqa yakka o‘zi kirishni ma’qul ko‘rib, Navro‘zbekni Jondorda, qaynotasi Bekmirzanikida qoldirishni ch o‘ t l a di*. A.Dilmurod, Mahmud Torobiy. *– Xo‘p bo‘ladi, o‘rtoq Ahmedov, – dedi O‘rmonjon, – imkoniyatimizni ch o‘ t l a b, bir o‘ylashib ko‘ramiz*. A.Qahhor, Tanlangan asarlar.

MO‘LCHILIK, MO‘L-KO‘LCHILIK, SEROBCHILIK, SEROBGARCHILIK, TO‘KINLIK, TO‘KINCHILIK, TO‘KIN-SOCHINLIK, KENGCHILIK, MA’MURCHILIK Yetarli darajada ko‘plik holati. **Mo‘l-ko‘lchilik** so‘zidan mo‘llik holati **mo‘lchilik** so‘zidagidan ko‘ra ham kuchli ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Serobchilik** va **serobgarchilik** so‘zlari yashash uchun kerakli narsalarning juda ko‘pligi holatini bildiradi, oddiy so‘zlashuvga xos. **To‘kinlik**, **to‘kinchilik** so‘zlaridan turli tabiat noz-ne’matlarining mo‘lligi ma’no ta’kidi ochiq anglashiladi, kitobiy nutqqa xos. **To‘kin-sochinlik** so‘zida bu ma’no yanada kuchli darajada namoyon bo‘ladi. **Kengchilik** so‘zida ma’no biroz umumiylashadi, oddiy so‘zlashuvga xoslangan bo‘ladi. **Ma’murchilik** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi, eskirgan, kitobiy.

...Avval har bir musulmonning o‘z farovonligi haqida o‘ylashi, boylikka intilishi, to‘qchilik va m o‘ l ch i l i k ichida turmush kechirishi Allohga xush keladigan narsa ekani ta’kidlanadi. O.Sharafiddinov, Sardaftar sahifalari. *Bog‘ nomi xususida fikr yuritganda aytish joizki, “Bo‘ldu” kalimasini ayrimlar “kamolotga yetgan, yetuk, kam-ko‘stsiz”, boshqalar esa “farovonlik, m o‘ l ch i l i k” ma’nosiga ega deb ko‘rsatadilar.* X.Davron, Sohibqiron nabirasi yoki mitti yulduz qissasi. *Bugun dalalarda hosil mo‘l, sap-sariq bo‘liq bug‘doyzorlar shabadada chayqalib yotibdi, har tarafda m o‘ l-k o‘ l ch i l i k...* I.Sulton, Mega-intellekt. *Goh xud, goh behud deganlaridek, ba’zan xonadonda m o‘ l-k o‘ l ch i l i k bo‘lib, “sen je, men je” bo‘lib qolar, ba’zan oylab qozon suvga tashlab qo‘yilar edi.* X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar. *Ko‘nikib ketgan bo‘lsam-da, bu ahvolimning bir kuni o‘zgarishidan, ro‘zg‘orimga mo‘l-ko‘lchilik, s e r o b ch i l i k kelishidan umidlanardim...* I.Sulton, Ozod. *Yem deysizmi, s e r o b g a r ch i l i k. “Jiguli”ning yukxonasida kuniga ikki marta shahar hovliga yem opkelishimiz bor.* S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *Qariya o‘rnidan chaqqon turib, bola tomon yurdi: – Xudoga shukr qil, bug‘doy to‘kildi, endi yurtda s e r o b g a r ch i l i k bo‘ladi.* T.Malik, Savohil. *Tushunyapsizmi? Har jihatdan to‘kin, hech nimadan kamchiligi yo‘q bir hayot ichidaman-u lekin u yo‘q edi, uning yo‘qligi mana shu t o‘ k i n l i k lazzatini ketkizar, yurak o‘sha aziz, qadrdon makonni qo‘msayverardi.* I.Sulton, Ona yurt. *T o‘ k i n l i k, baraka, kut, keldi ko‘klam, Inshooloh, deylik – qut keldi ko‘klam.* E. Vohidov, O‘lkamda bahor. *T o‘ k i n-ch i l i k, ma’murlik, dimoqlarni qitiqlovchi anvoyi hidlar ... xaridor bilan furushandaning savdolashib-tortishayotgani – Sharqdagi barcha shaharlarda uchraydigan bunday manzara Samarqand bozoriga ham xos*. O.Husanov, Ustaning muhabbati. *Kuz cho‘zilib turibdi. Bu yaxshilikka. Xudo xohlasa, t o‘ k i n ch i l i k bo‘ladi*. O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Ammo Davron ishiga ijodiyroq yondashdi: hech bo‘lmasa peshtaxtalardagi t o‘ k i n-s o ch i n l i k tomoshabinni o‘ziga jalb etardi...* A.Yo‘ldosh, Bozor. *Kenjavoy aka xotini-yu bolalari davrasida duoga qo‘l ochib turardi: – Iloha omin, xonadonlarimizga tinchlik-xotirjam-*

lik, yurtimizga t o‘ k i n-s o ch i n l i k bersin...U.Hamdam, Muvozanat. ...*kechagina Yangisar – Qashqarda qirg‘in qilib, bugun k e ng ch i l i k va’da qilayotgan “podsho”ga hech kimning ishongisi kelmasdi*. Z.Samadiy, Yillar siri. ...*musibatga toqat qilishdan ko‘ra, avval aytganimizday, k e ng ch i l i k ka sabr qilish og‘irroq*. T.Malik, Vijdon uyg‘onur. *Negaki turmush shirin, hayot go‘zal, hamma yoqda mo‘l-ko‘lchilik, m a’ m u r ch i l i k, odamlar uzoq yashasam deydi*. X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. *Rejissyor o‘zini majburlab kulumsiradi: – Yo‘g‘-e, aka. Bu umuman bozorlarimiz haqida. Ulardagi to‘kinlik-sochinlik, deganday. M a’ m u r ch i l i k*… A.Yo‘ldosh, Bozor.

MO‘YLOV, MURT, MIYIQ Yuqori labning ustini qoplab turadigan mo‘ylar. **Murt, miyiq** – shevaga xos so‘zlar, folklor asarlarida ham qo‘llanadi,

Ko‘chaga chiqqan erkaklarning m o‘ y l o v lari qirov boylab, morjga o‘xshab uyga qaytishyapti. S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *Usmonnning yuzi beo‘xshov qiyshayib ketdi, m o‘ y l o v i asabiy qimirladi*... A.Mamarasulov, Jarima. *Go‘ro‘g‘libek bol Avazga qarab, m u r t i ni burab, bir so‘z aytayotir*... “Ravshan”. *Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina m u r t i sabz urgan bir yigit*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Domlaning dam-badam kaftlari bilan sochining ikki yonini tekislash, og‘zini katta ochib m i y i q larini ohista silab qo‘yish odatlari bor edi*. E.A’zam, Shovqin. *O‘spirinlikdan o‘tgan novcha Muxonning m i y i-g‘ i endi sabza bo‘lgan*. G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni.

MO‘YLOVLI, MURTLI, MIYIQLI, MO‘YLOVDOR, SHOPMO‘YLOV(LI) Mo‘ylovi bor bo‘lgan, mo‘ylov qo‘ygan. Qatordagi so‘zlarda belgi darajama-daraja oshib boradi. **Murtli, miyiqli** so‘zlari belgi darajasi jihatidan **mo‘ylovli** so‘zi bilan teng, ammo eskirgan, shevaga oid. **Mo‘ylovdor, shopmo‘ylov(li)** so‘zlarida mo‘ylovning katta va qalinligi ta’kid oladi.

M o‘ y l o v l i kishi ikki og‘ir chamadonni uchinchi qavatga ko‘tarib chiqquncha terga pishib ketgan. S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *Xoliq! Puli ko‘p artistlar detdomlar bilan ko‘rishmaydimi? Yo‘ldoshning hayqirig‘i pasaymasdi. “RAF” oldida turgan m o‘ y l o v l i barvasta yigit norli yuziga yarashgan tabassum bilan kelib ko‘rishdi*. U.Azim, Sevgi. *Eshik oldida turgan qora m u r t l i militsiya xodimi mensimagandek bo‘lib: – Kim kerak sizga? – dedi*. M.Xayrullayev, Qarz. *Bolalarning qiy-chuvini eshitgan m u r t l i kishi maktab deb atalmish yetti to‘sinli uydan otilib chiqdi. – Hay, bolalar, nima to‘polon? – deb so‘radi*. S.Barnoyev, Quloq bolasi. ...*Bir nafasdan so‘ng zarda bilan olmani uloqtirdi. Uning kichik, kiyiq ko‘zlari yomon yondi, dakkam-dukkam m i y i q l i qalin lablari titrab ketdi*. Oybek, Navoiy. *Ovqatlanib o‘tirganimizda, m o‘ y l o v d o r, to‘lpoqyuz kishi zovurning ko‘prigidan o‘tib, biz sari yaqinlashaverdi. Keling, domla, keling, deb dadam uni Sadir tog‘aning yoniga o‘tqazdi-da, qornim to‘q, desa ham, baribir sho‘rva quyib kelib, oldiga qo‘ydi*. A.Obidjon, Oddiy ayriliq

haqida ertak. *Baland bo‘yli, m o‘ y l o v d o r, ovozi uyni titratadigan odam edi. Unga qiyos qilsa, albatta, otasi, Karimbek polvon ham shunday odam bo‘lgan.* O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *Borsalar bir sh o p m o‘ y l o v odam gijinglagan otda yo‘llarini to‘sib turganmish.* M.Mansur, Judolik diyori. *Restoran eshigiga odatdagiday “Joy yo‘q” degan lavha osilgan, ostonada sh o p m o‘ y l o v barzangi to‘g‘anoq bo‘lib turib olgan edi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Usmonjon shu sovuqda qaysi befahm odam keldi ekan, deb eshikni ochdi. Ostonada sh o p m o‘ y l o v l i, semiz bir kishi hansirab turipti.* S.Ahmad, Bir siqim xandonpista. *Buni xona to‘riga ilig‘lik suratidan ham bilish mumkin. Unda jiddiy qiyofali, o‘ktam nigohli, sh o p m o‘ y l o v l i kishi qat’iyat bilan boqib turibdi.* A.Haydarov, Kunlardan bir kuni va har kuni.

N

NAFAS, DAM, TIN O‘pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, nutq uslublariga munosabati hamda nutqda qo‘llanish darajasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Dam** so‘zi **nafas**ga nisbatan kam qo‘llanadi. **Tin** kitobiy, kam qo‘llanadi.

Jamshid hayajondan n a f a s i tiqilib, tili g‘o‘lduray-g‘o‘lduray, bo‘lgan voqeani aytib berdi. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Men uning kiyim-kechagi-yu a’zoyi badanidan n a f a s ni bo‘g‘ib qo‘yadigan achimsiq hid anqiyotganini yo‘lning yarmini bosib o‘tganimizdan so‘ng sezdim.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ot pishqirgan d a m iga Erir tog‘dagi qorlar.* “Oysuluv”. *Yig‘ishtirib bor bisotini, Bo‘g‘iziga tiqilib t i n i, Nuri sari qildi ishora, Zaynab uchun bo‘ldi bu chora.* H.Olimjon, Zaynab va Omon.

NAFAS OLMOQ, TIN OLMOQ, SO‘LISH OLMOQ O‘pkaga havo tortmoq va uni chiqarmoq. **Nafas olmoq** so‘zi keng qo‘llanadi. **Tin olmoq** so‘zi, asosan, badiiy uslubga xoslangan. **So‘lish olmoq** shevada qo‘llanadi.

O‘zi g‘alati kun bo‘ldi. ...Qandaydir dim, bo‘g‘ilib ketayotgandek bo‘lasan-u, chuqur n a f a s o l aman desang, havo bemalol, ko‘kraging to‘ladi, “Havo yetmayapti-ya!”, deb yozg‘irmoqqa chog‘langan odamga alam qiladi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Abjal yo‘l-yo‘l ko‘ylagining yirtilgan yoqasini g‘ijimlaganicha kimyoviy formulalar yozilgan taxta oldida turar, hansirab n a f a s o l ardi.* O‘.Hoshimov, Oq bulut, oppoq bulut. *Bobur og‘ir t i n o l diyu: – Alqissa, bu go‘zal olmos ham zo‘ravonlik-u xunrezlik balosini ko‘rib kelmishmi? – dedi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qalandar ko‘zlarini yumib, chuqur t i n o l di.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Anvar oshdan bir-ikki luqma olib, qo‘lini artdi, sandal ko‘rpasini bag‘riga tortib, kuchli va uzun t i n o l di.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Mamat mesh yana og‘ir s o‘ l i sh o l di.* A.A’zam, Oyning gardishi. *Xurram qotma shunday deyishi bilan Salabek chuqur s o‘ l i sh o l ib, qo‘llarini har ikki yoniga yozgancha: “Haa, endi...” – deydi.* N.Norqobilov, Kurash.

NAMGARCHILIK, ZAXKASHLIK Yog‘in-sochin vaqti va shu vaqtdagi zax bosganlik. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, xususiy ma’no uzvi va nutqda qo‘llanish darajasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Namgarchilik** so‘zi “vaqt” ifodali ma’no uzvi (*yog‘in-sochin vaqti*) bilan **zaxkashlik** so‘zidan farqlanadi. **Namgarchilik** so‘zi barcha uslublarda faol qo‘llanadi. **Zaxkashlik** so‘zi nisbatan kam ishlatiladi.

Devor katta toshlardan urilgan, n a m g a r ch i l i k tufayli ustini zangor po‘panak qoplagan, xarsanglari shilimshiq holda nuray-nuray deb turardi. I.Sulton, Devor voqeasi. – *Ota, qalamchalar necha yilda terak bo‘ladi? – Ikki-uch yilda bo‘y cho‘zadi, tog‘da qishin-yozin n a m g a r ch i l i k. Tez oladi.* Q.Norqobil, Osmon ostidagi sir. *O‘sha kuni ta’ziyadan qaytayotib Joniqul otaning eti uvushdi. Qattiq n a m g a r ch i l i k ta’sir qildimi, uyga kelib yotib qoldi.* M.Hazratqulov, Ko‘kko‘l. *Quyoshga ters, burchakka tiqilgan bu uychadan hali qish nafasi o‘chmagan, z a x k a sh l i k va chirik havo nafasga uradi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Pastdagi ikki xonaning g‘ishtlarii z a x k a sh l i k dan sho‘ralab, oqarib ketgan.* Mirmuhsin, Umid.

NAMOZSHOM, OQSHOM Quyosh botishi bilan tun boshlanishi o‘rtasidagi g‘ira-shira yorug‘ vaqt. **Oqshom** so‘zi **namozshom** so‘zidan yozma nutqda, xususan, badiiy uslubda nisbatan ko‘p qo‘llanishi bilan farqlanadi.

N a m o z sh o m jimligida ularning quvnoq chug‘ur-chug‘urlari yangrab eshitilib turardi. A.Muxtor, Qora domla. *Asta n a m o z sh o m bostirib kelayotgan bo‘lishiga qaramasdan birpasda do‘kon oldiga tumonat odam to‘plandi*. A.Yo‘ldosh, Biz o‘tgan yo‘llar. *Bu kun kechdi, quyildi o q sh o m*, *Men haqimni olurman tundan*. R.Parfi. *Boku bog‘lariga cho‘kmoqda o q sh o m, Dengiz mavj uradi tovlanib zarhal.* E.Vohidov.

NAMUNA, MISOL, O‘RNAK Muayyan voqea-hodisaga xos xususiyatlarni yaqqol ko‘rsatuvchi predmet, jarayon va sh.k. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, adabiy tilga munosabatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Namuna** so‘zi publitsistik uslubda faol ishlatiladi.

Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqa o‘nlab ma’rifatparvarlarning “yangi usul” (“usuli jadidiya”)dagi o‘zbek maktablari talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o‘qish kitoblari o‘zbek bolalar adabiyotining tom ma’nodagi yorqin n a m u n a lari hisoblanadi. “O‘zME”. *Afsuski, bugungi kunda publitsistikaning badiiylik bilan qorishib ketgan yorqin n a m u n a si – ocherklar kam yozilyapti.* L.O‘roqova, Jurnalist, yozuvchi va shoir. *Mazkur insonparvarlik akti davlatimizning har qanday holatda fuqarolar uchun g‘amxo‘rligining yorqin m i s o l idir*. G.Sharipova, Kechirimlilik – bag‘rikenglik ifodasi. *Bitta m i s o l keltiring, chiroyli kinoyulduzlardan bo‘lsa ham, – dedim.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Hadeb boshqalarga o ‘r n a k sifatida ko‘rsatilishi bolalar bilan uning o‘rtasiga g‘ov bo‘lib tushgandi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Chin mamlakatiga elchi yuborish masalasi ham muhokama qilinishi kerak bo‘lib, ularning yarog‘-aslahalaridan o‘ r n a k keltirish amri berilgan…* I.Sulton, Alisher Navoiy.

NAMUNCHA, BUNCHA(LAR), BUNCHALIK, SHUNCHA(LAR), SHUNCHALIK, QANCHALAR, QANCHALIK, NECHOG‘LIK, NAQADAR Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar o‘zidan keyin kelgan so‘zga xos

harakat-holat, belgi darajasini orttirishga, kuchaytirishga xizmat qiladi. Ular, asosan, turli nutq uslublariga xoslanganligi, belgini ifodalash darajasining kuchli yoki kuchsiz ekanligi hamda ayrim so‘zlarda subyektiv munosabatni ifodalovchi ma’no uzvi mavjud ekanligi bilan o‘zaro farqlanadi. **Namuncha**, **qanchalik, bunchalik, shunchalik** so‘zlashuv tilida ko‘p qo‘llanadi. **Naqadar, qanchalar, bunchalar, nechog‘lik** so‘zlari kitobiy, yozma nutqqa xoslangan. **Naqadar, nechog‘lik** so‘zlarida harakat-holat, belgi darajasining ortiqligi kuchliroq ifodalanadi. **Naqadar** emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘z hisoblanib, so‘zlovchining subyektiv munosabatini ham ifodalaydi. **Buncha**, **shuncha** va **qancha** so‘zlari *-lar* qo‘shimchasini olganida, harakat-holat, belgi darajasining yuqori ekanligi ma’nosi kuchli ta’kid oladi hamda mazkur so‘zlar emotsionallik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi, shu shaklda badiiy uslubda qo‘llanishga xoslangan.

– *Tavba-yey, n a m u n ch a tegmanoziksiz? – Qaysi bir oqshom Tugalboy enajon, deb chorasiz ingrayvergach, Shafoat chiroqni yoqib to‘ng‘illadi: – Hatto andak ko‘kargani yo‘q, shishgan yoki yiring-piring yig‘gan emas!* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Hovlidagi olma shig‘il hosil qildi.Onam uyga mehmon bo‘lib kelgandilar. Ko‘zlari tushib, chehralari yorishdi: – Voy, jonivor-a, n a m u n ch a chiroyli.* A.Hotamov, Ko‘ngil. *Mittiman, deb g‘am chekma zinhor, Kengliklarga sig‘may hayqir: “Olam b u n ch a tor!”* U.Azim, Bir boshingda she’r g‘alvasi... *Shoir bo‘lib tug‘ilmasaydim, Ko‘rmas edim b u n ch a l a r xo‘rlik...* T.Malik, Shaytanat. *Nima deb kuylaydi qo‘ng‘iroqchalar, B u n ch a l a r sevdirding meni, b u n ch a l a r?* I.Mirzo, Bunchalar. *Dunyoda hali biror tovush Fazliddinga b u n ch a l i k yoqimli tuyulmagan edi.* P.Qodirov,Yulduzli tunlar. *E voh, yer s h u n c h a qattiq, Osmon shuncha uzoqmi?!* U.Azim, Vatan. *Borliq sh u n ch a l a r go‘zal, Yashash sh u n ch a l a r shirin*. E.Vohidov, Bir tomchi quyosh o‘ynar... *Oshiq bo‘lib , ishon, sh u n ch a l a r Sevmagandim hech qachon seni.* E.Vohidov, Oy fonusin ko‘tardi osmon... *Bo‘lajak farzand Ozodani unga sh u n ch a l i k yaqinlashtirib qo‘ygan ediki, go‘yo u Ozoda, Ozoda esa Murod bo‘lib bir-biriga aralashib ketgandek edi*. S.Ahmad, Alla. *Azizxonning jasorati qishloq ahlini q a n ch a l a r quvontirgan bo‘lsa, Tursunboyning qilmishi shuncha xafa qilgan edi.* S.Ahmad, Ufq. *U endigina, “Qaldirg‘och” deganda o‘g‘lining ovozi alam aralash allaqanday cheksiz bir mehr bilan yangrab ketganini eshitganidagina, boya o‘ylagan o‘ylarini unga aytish q a n ch a l a r qiyin bo‘lishini angladi...* O.Yoqubov, Adolat manzili. *O‘zgaradi qancha kaloming, O‘zgaradi q a n ch al a r lavhang.* E.Vohidov, She’r haqida she’r. *Kishining tashqi qiyofasi ba’zan intilishlariga, fikr-o‘ylariga q a n ch a l i k qarama-qarshi bo‘lishiga endi ishondim.* S.Ahmad, Cho‘l burguti. *Savodsiz kampirning sodda falsafasida q a n ch a l i k chuqur ma’no borligini endi tushunyapman.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Qishlog‘im, n e ch o g‘ l i k suluvsan bugun, Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha. N e ch o g‘ l i k to‘kissan, n e ch o g‘ l i k to‘kin,*

Meni o‘rab oldi xayol, tushuncha. Mirtemir, Qishlog‘im. *Yevdokiya Fyodorovna Rasulni darvozagacha kuzatib chiqdi. O‘zi vrach emasmi, u erining ahvoli n e c h o g ‘ l i k og‘ir ekanini aytib, birpas ko‘z yoshi to‘kib oldi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... – *Bas,bas! Hazratning yuragi yana og‘rib ketdi: ha, o‘sha ertaklar ham unga tanish! O‘, n a q a d a r tanish! Ajib, yoqimli!* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Ertangi kun hech qanday yaxshilik va’da qilmaydigan kuz kechalari n a q a d a r hazin, n a q a d a r og‘ir.* S.Ahmad, Borsa kelmas tomonlarda. *O‘sha kuni esa uning haziliga n a q a d a r dag‘al javob berayotganimni hatto sezmas ham edim.* O.Yoqubov, Muqaddas.

NARVON, SHOTI, ZANGI Yuqoriga chiqish va tushish uchun ishlatiladigan, pillapoyalari bo‘lgan yog‘och yoki temirdan yasaladigan buyum. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, adabiy tilga munosabatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Narvon** so‘zi adabiy tilda qo‘llanadi. **Shoti**, **zangi** so‘zlari shevaga xos. Badiiy asarlarda ham qo‘llanadi.

N

– *Og‘ayni, o‘sha n a r v o n tez-tez tushimga kirmoqda, – noma’lum nuqtadan nigoh uzmay so‘ylandi Rizo amak*. A.Dilmurod, Narvon. *Juvon bunga parvo qilmadi, indamay-netmay zipillab n a r v o n dan ikki-uch pog‘ona ko‘tarildi.* X.Do‘stmuhammad, Vasiy. *Homid: – Juda yaxshi ekan. Bo‘lmasa tomig‘a sh o t i yetarmikin?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu qo‘rg‘on devorlariga sh o t i qo‘yib oshib o‘tish mumkin edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Zang, zang, z a n g i ni Oyoqima qo‘y z a n g i ni*. O‘zbek xalq qo‘shig‘idan.

NARX, NARX-NAVO, BAHO, QIYMAT Narsalarning pul bilan o‘lchanadigan qiymati. **Narx** va **baho** so‘zlari faol qo‘llanadi. **Narx-navo**da umumanlik ta’kidi bor. **Qiymat** so‘zi bu ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi, yozma nutqqa xoslangan.

Bu orada Sotvoldi dadasidan motorli veslosiped, Suydixondan n a r x i palon pullik rangli televizor... undirdi. S.Ahmad, Bir o‘pichning bahosi. *Kuzalgan moshguruch soqoli sog‘lom chehrasiga g‘oyat yarashib tushgan notanish bu chol bungacha choyxonadagi haydovchilar bilan bir-bir gaplashib chiqqan, ammo u aytgan n a r x ga hech kim rozi bo‘lmagan.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xudoyor ham, Norbibi ham bu rasmlarda o‘z qishloqlari, uning manzaralari va odamlarini yaqqol ko‘rishdi. So‘ng rassomdan bularning n a r x ini so‘rashdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Bu paytda esa Erkaklar xonasida gurung qizigan. Goh ob-havo, goh bu yilgi g‘alla, goh n a r x-n a v o. Ishqilib, gap topiladi-da*. A.Yo‘ldosh, To‘y. *Oradan ikki yil o‘tdi: pul qadrsizlanib n a r x-n a v o ham necha marta oshdi, hozir o‘n mingdan sotyapman...* A.Damin, Tentakka salom berdim. *...shalg‘am – Bibi Fotimayi Zuhraning duolari barakati, qovoq bo‘lsa hazrati Yunusning mo‘jizalari deb b a h o si arzon va lekin xosiyati ko‘b bo‘lg‘an bu mablag‘lar bilan oshxonani to‘ldira berar edi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *U yirtiq pullarni yarim b a h o ga olib, bankadan butunga almashtirib*

olardi. S.Ahmad, Ufq. *Q i y m a t i ulkan oltin xazinalariga barobar keladigan bu olmosni o‘g‘rilardan qo‘riqlab turish uchun ham juda ko‘p navkar kerak edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Mirza: – Kecha namozi shomdan keyin o‘sha ikki oqsoqol kelib, shariatpanoh janoblariga ikki ming tanga hadya etib, erning gunohini tilab oldilar. Men: – Nima deyapsiz? Mushuk olib qochgan bitta nonning q i y m a t i ikki ming tanga... Buning ma’nisi ne?* Fitrat, Hind sayyohining qissasi.

NARXLAMOQ, BAHOLAMOQ Narxini belgilamoq, narx qo‘ymoq. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, nutqda qo‘llanish darajasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Narxlamoq** so‘zi **baholamoq**qa nisbatan kamroq qo‘llanadi. **Baholamoq** narsa-buyumga, asosan, xardidor tomonidan narx chiqarilishini bildiradi.

Boboqul bozor aylanib narx-navoni bilgach, sigirni sakkiz yuz mingga n a r x l a di. N.Abdullayeva, Begona govmish. *U choyxonada uyi shu tomonda bo‘lgan va ilgari tanish bir odam bilan uchrashib, unga o‘n ming xom g‘isht quyib berishni b a h o l a b oldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shomatovning o‘g‘li tergov guruhiga sakson uch ming pul, yana o‘ttiz ming atrofida b a h o l a ngan tilla buyumlar topshirgan.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar.

NASIHAT, O‘GIT, PAND, MAV’IZA To‘g‘ri, oqilona yo‘l tanlashga yo‘naltiradigan gap, maslahat. **Nasihat** so‘zi keng qo‘llanadi. Ayrim hollarda **pand-nasihat** shaklida kelib, so‘zning ma’nosi kuchayadi. **O‘git, pand** so‘zlarining ma’no tarkibida uslubiy belgi mavjud. Ushbu so‘zlar, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Mav’iza** diniy mazmundagi nasihatga nisbatan ishlatiladi.

Men harom qo‘l teggan taomni yemayman. Mendan senga n a s i h a t, sen ham yema. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Yigitlarga aytar n a s i h a t im shul: Yosh yoshlikda yoshlik gashtini sursin*. E.Vohidov, Keksalik gashti. *Xonamga kelib xaroba shahar surati bilan professorning umrini qiyoslagach, men bunga yana ham ko‘proq amin bo‘ldim va hamma narsani – professorning o‘ g i t ini ham, o‘zini ham unutdim.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Uning-ku bahonasi bor, men nima deyin bu so‘roqqa? Huv poyezdda birga ketgan dono suhbatdoshimning o‘ g i t lariga amal qilolmay, yana dunyoning o‘tkinchi jilvalariga chalg‘ib-sho‘ng‘ib, ko‘ngilni erkin, ozoda tutolmaganimdan so‘z ochaymi?* E.A‘zam, Shovqin. *Qol, deganda qonlar yutib qolmadim, Otam p a n d in qulog‘imga olmadim.* “Folklor”. *Asarda Alisher Navoiyning inson axloqiga va tarbiyasiga doir eng noyob p a n d va nasihatlari xalq maqollari va hikmatli so‘zlari shaklida bayon qilingan.* A.Hayitmetov, Alisher Navoiy. *Fond tomonidan amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning davomi sifatida Toshkent viloyatining Chirchiq shahri hamda Navoiy viloyatining Navoiy shaharlaridagi masjidlarda surdo-onlayn uskunalari o‘rnatildi va ilk bor 15-fevral kungi juma m a v ’ i z a si surdo tarjimon yordamida namoyish etildi*. Gazetadan. *Juma kuni peshin*

namozi o‘rniga Juma namozi o‘qiladi. Imom-xatiblar namoz oldidan yarim soat chamasida m a v ’ i z a (diniy va’z) o‘qiydilar. “O‘zME”.

NATIJA, OQIBAT, YAKUN Harakat-holat, voqea-hodisadan kelib chiquvchi yakuniy holat. **Natija, oqibat** so‘zlari barcha uslublarda keng qo‘llanadi. **Natija** so‘zi ko‘p hollarda aniq narsalarga nisbatan qo‘llanadi, shu sababli uning o‘rnida har doim ham **oqibat** so‘zini ishlatib bo‘lmaydi (Masalan, *imtihon natijasi, qon tahlili natijasi* deyish mumkin, lekin *imtihon oqibati, qon tahlili oqibati* deb bo‘lmaydi.) **Oqibat** so‘zida aksar hollarda harakat-holatdan kelib chiqadigan ko‘ngilsiz yakuniy holat ta’kidi mavjud. **Yakun** mazkur ma’noda kam qo‘llanadi.

Hozir qon olishdi, n a t i j a sini aytib qolishadi. T.Malik, Shaytanat. *Hali insho nima bo‘lishini ayting! Domla og‘rib qolgan ekanlar. Bugun kelibdilar. N a t i j a sini tushdan keyin eshittirishar emish, – dedi u...* O.Yoqubov, Muqaddas. *Ming yildan beri aytaman: fakultetga har kimni olavermaylik, deb. Mana, o q i b a t i!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Men katta bir adolatsizlik va insofsizlik qilib qo‘yganimni bo‘ynimga olaman, ammo, birinchidan, buning o q i b a t ini yaxshi o‘ylamagan bo‘lsam, ikkinchidan, meni bunga majbur etgan narsa... Muqaddas edi-ku, sevgimiz edi-ku!* O.Yoqubov, Muqaddas. *Sening sevging ham, mening oilam ham, butun xalqimiz baxti ham shu urushning y a k u n i ga bog‘liq.* H.G‘ulom, Toshkentliklar.

NAVBAT, GAL, KEZAK Muayyan qatorda egallangan yoki avvaldan belgilab qo‘yilgan o‘rin. Mazkur so‘zlar, asosan, nutq uslublariga munosabati jihatidan farqlanadi. **Navbat** so‘zi barcha uslublarda keng qo‘llanadi. **Gal** so‘zlashuv uslubida nisbatan ko‘proq ishlatiladi. **Kezak** so‘zi shevaga xos. Badiiy asarlarda ham qo‘llanadi.

Qosimjonning n a v b a t i kelguncha ham anchagina vaqt o‘tdi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *N a v b a t ga turib, ikki kilo limon oldim.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Aytarini aytib, g a l menga kelganda, toshkentlik sherigimizning tunov kungi iddaosi esimga tushdi*. E.A’zam, Maestro. *Mening g a l im keldi. Parda yopilishi bilan tezgina sahnadagi stol oldiga borib o‘tirib oldim.* N.Fozilov, Shoirning baxti. *Azroyilga ochilmas eshik bormi Dam bitib, boshga kelsa k e z a k – navbat!* M.Ahmad, Ikki do‘st dostoni.

NAVBATDAGI, GALDAGI, ENDIGI Navbatda turgan, navbatga ko‘ra birinchi galda bajariladigan yoki bajarilishi lozim bo‘lgan. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, nutq uslublariga munosabatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi **Navbatdagi, galdagi** yozma nutqda, **endigi** so‘zlashuv tilida ko‘proq qo‘llanadi. **Endigi** so‘zida ko‘p holda kelgusida amalga oshish ta’kidi yetakchilik qiladi.

Ayol n a v b a t d a g i mashqqa o‘tdi. Tik turgan holatda gavdasini orqaga tashlab “ko‘prik” yasadi. X.Do‘stmuhammad, Sohildagi nash’u namo. *– Ayting, n a v b a t d a g i odam kirsin, – deb qoldi doktor uning ketidan.* O‘.Hoshimov,

Bahor qaytmaydi. *“Demak, Anvarga o‘z munosabatini yashirdi chol...” deb o‘yladi va buning tagiga yetish uning g a l d a g i maqsadi bo‘lib qoldi*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Qisiqko‘z sanitar bu gapni telbaning g a l d a g i aljirashiga yo‘yib, ko‘rdik, bilamiz, odamlar qut-qut itga aylanib turadi, deb miyig‘ini jimirdi*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Sidiqjon butun sarguzashtini – onasi nima uchun aravasozga shogird berganini, nima bo‘lib Zunnunxo‘jaga ichkuyov bo‘lib qolganini, ...e n d i g i niyatini batafsil gapirib berdi*. A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Kumush yana bir kulib qaragandan keyin uydan chiqdi. Otabek endi tamom o‘zini bosib olgan, e n d i g i yurak urishi faqat haligi farishta tomonga oshiqishgina edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Maktabni bitirgansiz, a? E n d i g i rejalaringiz qanaqa? Sport institutiga kirmoqchimisiz?* O.Yoqubov, Adolat manzili.

NAZOKAT, LATOFAT Kishining ko‘rinishi, harakat va qiliqlaridagi noziklik. **Nazokat** va **latofat** so‘zlari, asosan, ayollarga nisbatan qo‘llanadi, badiiy uslubga xos. **Latofat** so‘zida, asosan, tashqi ko‘rinishga xos, **nazokat** so‘zida esa xatti-harakat, muomalaga xos noziklik ta’kidlanadi.

Bir narsadan qo‘rqaman faqat: Oshno bo‘lib jangda beboklik, Senda qolmas dilbar n a z o k a t, Bu mayinlik, go‘zallik, poklik. E.Vohidov, Hofizdan. *Jayron ham jozibdir bolasi bilan, Zumrad qir ajibdir lolasi bilan. Qiz bola ko‘rklidir n a z o k a t i-yu Yangasi, ammasi, xolasi bilan.* S.Sayyid, Shoir go‘zal erur nolasi bilan. *U mutaassib dindorlar xonadonida tug‘ilgan bo‘lib, Yaratgan egam go‘zallik-u l a t o f a t bobida karami-yu qudratini qizdan ayamagan edi*. Q.Kenja, Toshqin. *So‘ng juvonning yuzidagi nafis oq pardani sekin ko‘tarib qaradi-da, uning ajib bir l a t o f a t ini yurakdan his qilib zavqi keldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

NASHR QILMOQ (ETMOQ), BOSMOQ, CHOP QILMOQ (ETMOQ) Nashr qilish yo‘li bilan bosib chiqarmoq. **Nashr etmoq, bosmoq** keng qo‘llanadi. **Bosmoq** so‘zi mazkur ma’noda qo‘llanganida, ko‘pincha **chiqmoq** fe’li bilan birga keladi. **Chop qilmoq** so‘zi **nashr etmoq** va **bosmoq**qa nisbatan kam qo‘llanadi, kitobiy.

Avloniy 1917-yilda “Turon” gazetasini n a sh r q i l di. “O‘zME”. *Adibning uy-muzeyida Ma’ruf Hakimning 1939-yilda n a sh r q i l ingan “Hayot qo‘shig‘i” nomli hikoyalar to‘plami bor.* B.Karim, Bir taqriz talqini. *Zarifa ona butun umrini Oybekning ijodiy bisotini yig‘ish, to‘plash, tartibga solish va n a sh r e t ishga bag‘ishlaganligi sababli bu bisotdan – Oybekning arxividan chetda qolgan va yo‘qolgan qo‘lyozmalarni esga olganda, iztirob chekar edi.* N.Karimov, Oybek va Zarifa. *Xullas, roman 1957-yilda tamomlandi, 1959-yilda esa n a sh r e t ildi.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Kenjaning o‘zi qarab chiqdi, bir necha son jurnalda muttasil va ba’zi bir sonlarda ikki joyda Saidiyning ismini “b o s ilmaydi” so‘zi bilan bezalganini ko‘rib avval hayron qoldi, so‘ngra*

bir oqardi, bir qizardi. A.Qahhor, Sarob. *Oybek xatida tilga olingan she'rlar sekin-asta b o s ilib chiqa boshladi.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Abdulla Qodiriy ikkinchi yirik asari "Mehrobdan chayon"ni 1928-yil fevralda yozib tugatdi. Roman 1929-yil Samarqandda b o s ilib chiqdi.* "O'zME". *Mana, nihoyat, bugungi kunga kelib, sevimli adibimizning 100 yillik yubileyiga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti nomidan kichik bir tuhfa sifatida kafedramizda turkchaga o'girilgan barcha hikoyalarini bir joyga to'plab, kichik tirajda tezkor nashrda ch o p q i l ishga jazm qildik.* I.Toshmatova, Said Ahmad hikoyalari turk tilida chop etildi. "*Yulduzlar mangu yonadi" qissasi ilk marta "Sharq yulduzi" jurnalida ch o p e t ilgan*. T.Murod,Yulduzlar mangu yonadi.

NA'MATAK, GULBUTA, AJINABUTA, ITBURUN, BOG'GUL, JINGUL, RA'NO, HULULI (HULO'L), XORGUL, XAMIRCHA Bo'yi ikki-uch metrga yetadigan, guli xushbo'y va rangi har xil, mevasi shirali; ariq yoqalarida, butalar orasida, tog' yonbag'irlarida o'sadigan, ra'nodoshlar oilasiga mansub butalar turkumiga kiruvchi o'simlik. Mazkur sinonimik qatordagi so'zlar, asosan, adabiy tilga munosabatiga ko'ra farqlanadi. **Na'matak** so'zi keng qo'llanadi. **Gulbuta, ajinabuta, bog'gul, itburun, jingul, hululi (hulo'l), xorgul, xamircha** ko'pincha so'zlashuv nutqida va shevalarda qo'llanadi.

Avtomat kassa oldiga borib, yangi g'altak biletni qo'yar ekan, ko'zi bekat yonidagi n a' m a t a k butalari orasidan chiqib turgan ayol kishining oyog'iga tushdi. O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri. – *Haa, Uchyong'oq tomonga ekan-da, – dedi ko'r kishi. – Eshitdim, eshitdim... U yerda, qoya labida bir to'p n a'm a t a k bo'lar edi, shamolda chayqalib o'sar edi... haliyam turibdimi?* I.Sulton, Ozod. *Men esa hovlimiz ichidagi g u l b u t a dan har kuni tillaqo'ng'iz ushlayman va ko'zimni chirt yumib ularning bo'ynini uzib, undan marjon yasayman*. H.Ahmedova, Mashrabning xurjuni. *Zanjirband it huradi, Tunga qarab g'ingshinar... G u l b u t a ning tagida O'ltiradi ajina*. U.Azim, Bolalikning bir kechasi. *Qayerda a j i n a b u t a bo'lsa, chet-chakalak, ovloq joylarda, paxtazorlardagi egasiz shiyponlarda, hatto qishloqlarning ichidagi odam turmaydigan choldevorlarda ham bu kasofat bisyor uchrab turgan*. A.A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. *Lekin undan ham keng tarqalgan oti "ajinapitta", ya'ni "a j i n a b u t a". Chunki ilgarilari hamma joyda bor edi, barining tagida kamida bittadan,bo'lmasa uch-to'rttadan ajina o'tiradi.* A.A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. – *Menga b o g' g u l opkemaysanmi, ulim? – derdi. Nevara bedazorning qoq o'rtasiga ekilgan b o g' g u l ga yetib boraman deguncha necha martalab surinib, yiqilib, ishtoni ertalabki shudringlarda ho'l bo'lib qaytib kelarkan, chol gul bilan qo'shib nevarasini boshdan oyoq hidlar, hidlab to'ymas edi*. S.O'nar, O'lmaydigan odam. *Bizning G'azirada i t b u r u n – na'matakni hech kim "itburun" yo "na'matak" demaydi, uning oti "b o g' g u l", odamlar b o g'-*

g u l deydi, na'matak desangiz, nima u, deb hayron ham bo'ladilar. A.A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. *Shunday kunlarning birida... qop-qora va tarashaday jasadini chapga tashlab, qiyshayib, jangallar orasidan, i t b u r u n-u, bo'ritaroq ostidan enkaygancha isga botib, tortanakka talanib, timirskilangan suratchi juhud chiqib keladi*. B.Qobul, Oy yo'li. *U bir yiqilib, bir sirg'anib, yulg'un va i t b u r u n butalarini tutgancha dara tubiga qulamaslik uchun intilardi*. M.Baxtiy, Xubon. *Qishloqning yuqori qismida tevaragida j i n g u l-u chakalaklar o'sgan Toshkelinchak degan qarovsiz joy bor edi*. I.Sulton, Tosh kelinchak. *Tovuq tutqich bermay, anhor bo'yidagi j i n g u l lar ostiga kirib ketdi*. A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Chuchmoma, r a ' n o, binafsha – ko'zni bog'lovchi farang*. G'.G'ulom, She'rlar. *Firoq o'qin pari ko'ksimga otdi, Ajab, g'am tog'i uzra undi r a ' n o*. E.Vohidov, Ishq savdosi. *Chakamug', h u l u l i pishgan, Ayiqlar yeyishga tushgan...* X.M.Hasan, Sehr. *Ko'chaga na'matak guli ega chiqqanda lo'lilar kelish mavsumi boshlanadi. Ular na'matakni h u l u l deyishadi*. B.Qobul, Ena shamol. *Bog'ning har-har yerida g'uj bo'lib tikanak bosgan h u l o' l o'sadi.* E.A'zam, Hulo'l. *Xalq orasida esa na'matak turli xil atamalar bilan nomlanadi: x o r g u l, x a m i r ch a...* R.X.Ayupov, Tabiiy shifobaxsh ne'matlar.

NIMA, NE 1. Predmet va voqea-hodisa haqidagi so'roqni ifodalaydi. Mazkur sinonimik qatordagi so'zlar, asosan, nutq uslublariga ko'ra farqlanadi. **Nima** so'zi barcha uslublarda keng qo'llanadi. **Ne** so'zi badiiy uslubga xoslangan.

– Kim u? – Shavkat Qudratovich ko'zoynagini yaltiratib chaqchaydi. – Familiyasi n i m a? O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Oti n i m a shu kuchugingizni? – deb so'radim.* A.A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. *Shahzoda turgan joyida gilamga tiz cho'kib, sajdaga bosh qo'yarkan, ko'ksidan achchiq faryod aralash bir nido otilib chiqdi: "Osiy bandangga o'zing shafqat qilgaysen, ey parvardigori olam! Va lekin yozug'im n e dur? ...Bedinlar bitgan makruh kitoblarni o'tga yoqqanimmi?.. Osiy bandangga ayon qil, yozug'i n e dur uning, n e dur?"* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Faqat Yig'lamagin, Gunohim n e deb, Aybing – Onang seni Chiroyli tug'gan!* M.Yusuf, Biz baxtli bo'lamiz.

2. Nima, ne so'zlari belgi haqidagi so'roqni bildiradi. **Nima** so'zi barcha uslublarda keng qo'llanadi. **Ne** so'zi badiiy uslubga xoslangan.

– O'v singlim, juda ko'zim go'rda chirigulik n i m a yomonlik qildim sizga? – desam, u menga yalt etib qaradi... A.A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. *Marg'ilonga n i m a yumush bilan kelgan edingiz? – Savdogarchilik bilan, taqsir.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Ruhiy erkinlikning mazmuni n e dir? Dil erkinligining ta'mi qanaqa? Qanday odam erkin bo'ladi?* N.Rahimjonov, Eng go'zal sir.

NIMAGA, NEGA, NECHUN Sabab haqidagi so‘roqni bildiradi. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, nutq uslublariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Nimaga** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida**, nechun** so‘zi badiiy uslubda qo‘llanadi. **Nega** so‘zi ko‘proq yozma nutqqa xoslangan.

Lekin yurak bezovta. N i m a g a potirlaydi? Ozodlikni qo‘msayaptimi? T.Malik, Shaytanat. *Maykachan, sochlari to‘zg‘igan Hayitning: “Ha, oshna, n i m a g a bizning ishimizga tumshug‘ingizni suqyapsiz?” degandek qarashini ko‘z oldiga keltirdi-yu ich-ichigacha qizarib ketdi.* A.A’zam, Almisoqdan qolgan Karim. *– Nima bo‘ldi, singlim? – dedi Marat plashini yechib, stul suyanchig‘iga tashlarkan. – N e g a xafa bo‘lyapsiz?* O‘.Hoshimov, Uzun kechalar. *Qani ayt, maqsading nimadir sening, N e g a tilkalaysan bag‘rimni, ohang?* A.Oripov, Munojotni tinglab. *Bo‘ron do‘stim, n e ch u n jimsan, N e ch u n jimsan, Chaqmoq ukam, Singlim sukunatning boshida?* R.Parfi, Tuyg‘ular. *N e ch u n kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim, n e ch u n kerak, rubob, senga shuncha g‘am?* A.Oripov, Munojot.

N

NIMJON, ZAIF, NOZIK Mo‘rt, yaxshi rivojlanmagan, o‘zini yaxshi tutib olmagan. Qatordagi so‘zlar nutq uslublariga munosabati hamda xususiy ma’no uzvlariga ko‘ra farqlanadi. **Nimjon, zaif** so‘zilarida kuchsizlik belgisi, **nozik** so‘zida mo‘rtlik belgisi ta’kidi yetakchilik qiladi. **Nimjon** so‘zi so‘zlashuv tilida, **zaif** va **nozik** so‘zlari yozma nutqda nisbatan ko‘p ishlatiladi. **Zaif** so‘zi kitobiy.

Mana, qaragin, mana bu novdalar oqaribroq, n i m j o n gina bo‘p turibdi. Yozda oftob yaxshi tegmagani sabab pishmay qolgan. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Qator-qator o‘tqazilgan yosh va n i m j o n nihollar endigina yaproq chiqargan edilar*. Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli. *Go‘yo bu kecha son-ming sarg‘ish kapalaklar yopirilib kelib, shu o‘rigimizga qo‘na qolishgan-u mana endi kun yuz ko‘rsatishi bilan jon bitib, n o z i k qanotlarini yumib-yoygancha o‘zlarini oftobga solishar edi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Muhiddin Jabborovich issiqni pisand qilmay, endi maydonning qoq o‘rtasida turib olgan, goh engashib adl g‘o‘zalardagi ochilgan ko‘saklarni sanar, goh tolasini tortib ko‘rar, keyin n o z i k narsani avaylayotganday yana kafti bilan joyiga itarib-itarib qo‘yardi.* O‘.Usmonov, Girdob. *...Hatto tuprog‘i ham boshqa tuyuladi, o‘z tuprog‘im mayinroq, iliqroq, taftliroqday, bunda o‘sadigan o‘tlar z a i f roq, rangparroq, o‘z yurtimning tuprog‘i hayotbaxsh-u jonliroqday, hatto havosi ham mayinroqday tuyuladi*. I.Sulton, Ona yurt.

NINA, IGNA, SO‘ZAN Teshigidan ip o‘tkazib narsa tikish uchun mo‘ljallangan nayzasimon ingichka metall asbob. **Nina, igna** so‘zlari keng qo‘llanadi va farqlovchi ma’no uzvlariga ega emas. **So‘zan** so‘zi asosan, poyafzal tikish uchun mo‘ljallanganlik hamda yo‘g‘onlik ta’kidi bilan **nina** va **igna** so‘zlaridan farqlanib turadi.

Qorindor boshqon unga ajablanib tikilarkan: "Bularga nima bo'lgan o'zi? Hammasini ajina chalganmi?" – deya xayolidan o'tkazgan zahoti dodlab yubordi: kotiba qiz bexosdan uning orqasiga n i n a sanchib olgandi. H.Shayxov, Tutash olamlar. *Hikmatillo dasturxon yasayotgan bu yosh, go'zal juvon oldida o'zini erkin tutolmas, nimadir unga xalaqit berar, nimadir asablarini tarang tortib turar, eng yomoni – yuragi n i n a sanchilganday betinim sanchib og'rirdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *– Sizga bir so'zni aytib ham bo'lmaydi, – deb kuldi Sultonali, – i g n a ni tuyadek, xasni xaridek ko'rasiz.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Tug'ilgan kunimdan boshlab onam qo'liga i g n a olib men uchun tikkan palakni bozorga olib ketayotganingda: "Qo'y, tegma, onamdan yodgor" dedim.* S.Ahmad, Begona. *Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo'zlaridan Buvamat ota butun qolip-u shon-u s o ' z a n, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo'xori unga mavoza qildi.* G'.G'ulom, Mening o'g'rigina bolam. *Eng qadimgi odamlar… suyaklardan teshgich, bigiz, s o ' z a n va ignalar yasab, terilardan yopinchiqlar tikib kiyishgan.* "O'zME".

N

NINACHI, IGNACHI, SO'ZANAK Naychasimon tana tuzilishiga ega qanotli hasharot. **Ignachi, so'zanak** shevaga xos so'zlar hisoblanadi.

Bir n i n a ch i – sarxush-u dovdir – Jirkanmasdan qo'ndi qo'limga... U.Azim, Saylanma. *Qishloq tomorqalari aro olingan sarg'ish guvalak devor ustiga quyosh chiqmasidan n i n a ch i lar qo'nib olishgan.* I.Sulton, Onaizorim. *Uning atrofidagi gulzorda rang-barang kapalaklar, i g n a ch i lar qanot qoqar, asalarilar g'o'ng'illar... edi*. A.Qahhor, Kartina. *Qani u javlon urib bog'ma-bog' kezib, qanotlarini pirpiratib havoda sho'ng'ib yurgan ko'k, qizil, sarg'ish rangli i g n a ch i lar?* N.Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim. *Chumchuqqa qo'ysam ko'zanak, ilindi unga s o ' z a n a k.* Maqol. *Bepoyon tolzorlar, makka-jo'xorizor yonidan o'tib borarkanmiz, qarshimizdan ariday to'zib yurgan sariq s o ' z a n a k lar galasi chiqdi*. Q.Kenja, Hind sorig'a.

NISH, NISHTAR, NAYZA Gazandalarning chaqqanda sanchadigan a'zosi. **Nish** va **nishtar** so'zlari nutqda faol qo'llanadi. **Nayza** so'zi ushbu ma'noda kam ishlatiladi. **Nishtar** so'zidan badiiy uslubda nisbatan ko'proq foydalaniladi.

Arining qanoti kuysa ham n i sh i qoladi. Maqol. *Baxt-qayg'u, yaxshi-yomon Turar doim yonma-yon. Atirgullarda tikan, Arining ham n i sh i bor!* N.Sadriyev, Kimga nima... *Chayon zaharli n i sh t a r ini bir gal o'rtancha barmog'ining uchiga, ikkinchi marta ko'rsatkich barmog'iga sanchib oldi*. P.Tursun, O'qituvchi. *O'lik ari ham n a y z a sida zahar saqlaydi*. Maqol.

NOANIQ, NOMA'LUM, NOAYON, NOTAYIN, TAYINSIZ, DUDMOL, MUJMAL, MUHMAL, MUBHAM, MAVHUM, BELGISIZ Aniq emas, aniqlanmagan; tayini yo'q. **Noaniq, noma'lum, notayin** so'zlari keng qo'llanadi. **Tayinsiz, notayin, dudmol, mujmal** so'zlari ko'proq so'zlashuv uslubiga

xos. **Muhmal, mubham, mavhum, belgisiz** so‘zlari kitobiy, asosan, badiiy uslubga xoslangan. **Tayinsiz, notayin, mujmal** so‘zlari ma’nosidan salbiy munosabat anglashiladi. **Muhmal, mubham, mavhum** so‘zlari ma’noni ifodalashiga ko‘ra o‘zaro yaqin. Ushbu so‘zlarda noaniqlik belgisi boshqa so‘zlarga nisbatan kuchli ifodalanadi.

Zohid ham taklif etilmaganlar safida, ammo uning maqsadi Asadbek odamlari uchun n o a n i q edi. T.Malik, Shaytanat. *Suyun burgutning yuragiga allaqanday n o a n i q, mavhum, sovuq bir shubha g‘imirlab kirdi-yu: – Marhamat, chaqiring! – dedi xiyol bo‘shashib.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Xonzoda begim shohning yashirin niyatlarini bilmasa ham yana allaqanday xatarlar uni yosh o‘g‘ilchasi bilan birga o‘z girdobiga tortmoqchi ekanini elas-elas sezar va n o m a’ l u m bir tahlikadan yuragi dam-badam uvushar edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Olib qochilgan Gulnorni qutqarib, uni sharmanda qilayozgan n o m a’ l u m yigit – Yo‘lchi ekan!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Talosh pallasi deb she’r yozdim u vaqt, Oqshomning bu siri garchand n o a y o n.* A.Oripov, Irim. *Junun to‘la ko‘zlarida yonardi har vaqt Bizga – oddiy bandalarga n o a y o n shuur…* E.Vohidov, Ixlos. *Sa’dulla ko‘chaga chiqdi. Boradigan joyi n o t a y i n. Yotoqxonaga boray desa, hozir hamma kanikulda.* M.Hazratqulov, Chiroq o‘chmagan kecha. *Karimning ko‘nglida n o t a y i n, umidsiz og‘riq yana turdi*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Ular t a y i n s i z bir rassomning fazl-u irodasi bilan vayron etilgan qandaydir Tursori deb tashvish chekib yurishim sababini tushunmasdilar…* N.Eshonqul, Tun panjaralari. *Ma’nili-ma’nisiz, t a y i n s i z, javobli-javobsiz savollar shuurimdan sirg‘alib uchib chiqdi…* X.Do‘stmuhammad, Hijronim mingdir mening. *Ne’mat akaning to‘g‘ri savolga shu tarzda d u d m a l roq javob beradigan odati bor edi.* M.M.Do‘st, “Zarbulmasal” va boshqa masalalar. *“Bu vaqtinchalik, tez orada ishlarim “besh” bo‘lib ketadi, ana undan keyin alohida yashayveramiz” degan d u d m a l roq javob bo‘ldi*. A.Yo‘ldosh,Yolg‘on va haqiqat. *Bolalar, qizlar qotillik yuz bergan kechasi qayerda ekanliklarini o‘ylab o‘tirmay, shartta-shartta aytdilar, faqat kichik xonadagi kichik davra ishtirokchilaridan uch bola m u j m a l javob berdi.* T.Malik, Alvido, bolalik. *Bu to‘g‘rida so‘rag‘an edim, m u h m a l roq javob berdi, – dedi usta va yonini kovlab xatni oldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mana, o‘sha mujmal-u m u h m a l kinolaring boshlaringga yetdi endi. Xorijiy festivallarda ularni ko‘tar-ko‘tar qiladigan hamfikr-hammaslak jo‘ralaring esa – olisda!* E.A’zam, Shovqin. *Bobur beixtiyor jilmaydi. “M u h m a l” aslida noaniq degan ma’noni bildirardi. Bu so‘z bilan mulla Binoiy o‘z ahvolining noaniqligiga ishora qilmoqchi edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *…u gapirar ekan, hech birimiz u gapirayotgan narsa haqida o‘ylamas, xayolimizga Malmstining “Yig‘i” musiqasi kabi olis shovqin aralash m u b h a m jilvalar kelar, …o‘z-o‘zidan biz o‘limning ulug‘ligi va qudrati haqi-*

N

da o‘ylardik. N.Eshonqul, O‘lik mavsum. *Nazarimda, bunday chaqinlar aslida uning ongida ro‘y berayotir va shunday daqiqalarda m u b h a m qiynoqlardan zimiston bo‘layotir...* Z.Qurolboy qizi, Ikki hikoya. *Qurbonoy xolaning ko‘ngliga m u b h a m xavotir tushdi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Unda oldinga surilgan ko‘p masalalar m a v h u m, mujmal, hatto noo‘rin joylari ham bor.* S.Karomatov, So‘nggi barxan. *...uchga bo‘lingan yo‘lning qay tarmog‘i qaynotasining uyiga borishi noma’lum, o‘zi qay tomondan kelgani-da m a v h u m edi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *O‘q uchdi b e l g i s i z yoqlarga tomon, Keksa otasining qaddin dol etib.* A.Oripov, Farzand. *Ammo u olis, juda olislarda... b e l g i s i z yoqlarda.* M.Ali, Ulug‘ saltanat.

NOILOJ, NOCHOR, CHOR-NOCHOR, ILOJSIZ, ISTAR-ISTAMAS O‘zi istamagan holda, majburan. **Noiloj, ilojsiz** so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi. **Nochor, chor-nochor, istar-istamas** so‘zlari yozma nutqqa xoslangan. **Ilojsiz** so‘zida majburiylik ta’kidi qatordagi boshqa so‘zlarga nisbatan kuchli ifodalanadi.

“O‘tgan kun o‘rdaga borg‘an edim; xonimlar yotib qolasiz deb qo‘ymadilar, n o i l o j bir kecha yotib keldim”, deb so‘z orasig‘a qistirib ketar edi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *...Akobirov tag‘in uni nari surib o‘ziga yo‘l ocharkan, n o i l o j murosa qildi: – Semashenkov, ko‘rib turibsan-ku, ukam kelgan. Gaplashadigan gaplarimiz bor!* E.A’zam, Shovqin. *Biz yigitka qaray-qaray n o ch o r qadam bosar edik.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U kuni qissaxondan eshitdik-ku, Sulton Jaloliddin haqida... Sulton Chingizxon askarlaridan qochib, n o ch o r Sind daryosi bo‘yiga keldi.* M.Ali, Ulug‘ saltanat. *“Volga” ch o r-n o ch o r tag‘in o‘zini chapga oldi. – Amakijon! “Zaporoj”ni bilasizmi? – bu safar Shodivoyning ovozi yig‘lamsirab chiqdi.* O‘.Hoshimov, “Ajdar”ning tavbasi. *Shuning-chun ham vujudini kuch-quvvat butunlay tark etgunga qadar ko‘tarilib kelib, nihoyat, holi o‘ziga ayon bo‘lgachgina qarshisidan chiqqan qavatga ch o r-n o ch o r o‘zini topshirardi.* U.Hamdam, Pillapoya. *Sodiq o‘rtoqlarining jabri ostida i l o j s i zgina borsa ham, lekin ikkinchi tomondan kutkanini bu kun ham kelmasligiga qarori ham yo‘q emas edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Amir-ku borishni istamasa-da, xufiyona badbaxt Qozonchi Bahodirdan yozg‘irgancha, i l o j s i z jo‘nab ketdi.* M.Ali, Ulug‘ saltanat. *– Qosim aka, men aytilgan ishni qilaman, – dedi Eshquvvat va i s t a r-i s t a m a s unga qo‘l uzatdi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *A’lam istar-istamas ergashib chiqdi.* A.A’zam, Hali hayot bor…

NOK, NASHVATI, OLMURUT Ko‘p yil hosil beradigan, mevasi turli shakl va rangda bo‘ladigan yog‘ochi qattiq daraxt va uning mevasi. **Nok** so‘zi barcha uslublarda keng qo‘llanadi. **Nashvati** so‘zi kitobiy. **Olmurut** shevaga xos, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Turgan sari yumsharib, pisha boradigan va pishgan vaqtida og‘izga solsa, eriydigan n o k lar... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *N o k daraxti 50–300 yilgacha*

yashaydi, bo‘yi 15–20 metrga yetadi; shox-shabbasi ixcham, piramida shaklida. “O‘zME”. *Bu chorbog‘larda n a sh v a t i, bodom, yong‘oq, gilos, jilonjiyda va boz anbar bo‘yli jannatda bo‘ladirg‘on har ravzamonand mevalar g‘oyatda yaxshi va go‘zal tarzda o‘tqazilgan erdi...* I.Zoyir, Yuz tillo mojarosi. *Yo‘lning ikki chetida nok ko‘p – n a sh v a t i nok, tosh nok, gulobi nok.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Domla bir dasta anvoyi gul saralab, qo‘liga ikki dona n a s h - v a t i tutqazib xonimni ko‘chaga kuzatdi*. E.A’zam,Yozuvchi. *Bir soyda ikki-uch tup yovvoyi o‘rik, yana birida yovvoyi o l m u r u t – nok. Tokli degan joyda yovvoyi uzum o‘sadi.* S.O‘nar, Otamzamon hikoyalari. *U goho yugurgilab baland qoya ustiga chiqib ketar, o l m u r u t larga tosh otib qolar, kaklikning sayrashiga quloq berar edi*. Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam.

NOLA, NOLISH, OH, ZOR, FIG‘ON, AFG‘ON, FARYOD Dard-alam, hasratni ifodalovchi nolali ovoz. Mazkur ma’nodagi hissiy holat quyuqligi qatordagi so‘zlar ketma-ketligida darajama-daraja oshib boradi, har bir so‘z mazkur ma’noni o‘zidan avvalgi so‘zga nisbatan ekspressivroq tarzda ifodalaydi. **Oh** va **zor** so‘zlari hissiy-mazmuniy jihatdan o‘zaro yaqin, shu sababdan matnda ko‘pincha juft yoki yonma-yon qo‘llanadi. **Afg‘on, fig‘on, zor, faryod** so‘zlari badiiy nutqqa xoslangan.

N

Nihoyat, tintuv tugadi. Dadamlarga kiyinishni buyurdilar. Oyimlar bilan opamlarning n o l a si ko‘kka chiqib, uyimiz achchiq faryoddan zir titradi. O.Yoqubov, Muzqaymoq. *Osmonda qat-qat bulutlar ohista suzib borar, baland-balandda turnalarning horg‘in n o l a si eshitilar, ammo o‘zi ko‘rinmasdi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Yig‘ladi furqatda Furqat Ham Muqimlikda Muqiym, N o l i sh ingdan Hind-u afg‘on Qildi afg‘on, o‘zbegim.* E.Vohidov, O‘zbegim. *N o l i sh narvon bo‘lolmas ko‘kka – Yengil-yelpi oh-voyingni qo‘y.* B.Fazliddin, Dashnom. *Ey, telba kechmishning tilsiz guvohi, Tinglanar qalbingdan yillarning o h i.* G‘ayratiy, Qo‘shiq. *Onalarning hasratidan, o h va zoridan Odamlaming yuragida ummoni bor.* E.Vohidov, Teranlik. *Chirqirab yig‘layotgan haligi bolaning z o r iga yana ikki bolaning faryodi qo‘shildi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Keta ber, turmagin, sarkarda, beklar, Quloq soling menday nochor z o r iga.* “Murodxon”. *Sal o‘tmay, teatr hovlisi, yo‘laklar gavjum bo‘lib qoldi. Chunki bir vaqtlar Boburni qiynab, f i g‘ o n ini ko‘kka chirmashtirgan quyunlar hozir Humoyunning atrofida aylanib yuribdi.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Har holda, f i g‘ o n-u nola yaxshi emas, har banda qudrat qalami bilan yozilganni ko‘radi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Hazar qil ohidan, a f g‘ o n idan u mazlumi(ng), Bir oh birla solur boshinga butun arosat.* A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq. *Men ishq elining nola-yu a f g‘ o n ida kuydim, Ko‘ngil uyining otashi armonida kuydim*. S.Sayyid. *Tun sukunatida qandaydir mislsiz qiynoqlardan chinqirgan begimning f a r y o d i haram atrofidagi*

uylarga ham eshitilib turardi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ichingda bir f a r y o d bordek. Yurak yig‘layapti, yurak aza tutyapti!* E.A’zam, Shovqin.

NOLIMOQ, SHIKOYATLANMOQ, SHIKOYAT QILMOQ, ZORLANMOQ, HASRATLANMOQ, HASRAT QILMOQ O‘z noroziligini bayon qilmoq, dard-hasratini aytmoq. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, nutqda qo‘llanish darajasi hamda ayrim so‘zlarda belgining ifodalari kuchiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Shikoyatlanmoq** va **shikoyat qilmoq, hasratlanmoq** va **hasrat qilmoq** so‘zlari ma’no jihatidan bir-biriga teng. **Zorlanmoq**da harakat darajasi nisbatan kuchli ifodalanadi. **Shikoyatlanmoq, hasratlanmoq** so‘zlari kitobiy, nisbatan kam qo‘llanadi.

Ayam dadamdan n o l i di. ...Buni ko‘rmaysanmi, do‘konni topshirib, Meliboy aminga yigit bo‘lib o‘tiribdi! – dedi. A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *O‘zi vrach emasmi, u erining ahvoli nechog‘lik og‘ir ekanini aytib, birpas ko‘z yoshi to‘kib oldi. Ayniqsa, Ivan Xaritonovichning o‘jarligidan, operatsiyaga ko‘nmay xato qilayotganidan n o l i di.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... – *E... bizda boylar bir-birini ko‘ra olmaydi, birlashmaydi, shunisi chatoq-da, – s h i k o y a t l a n d i Salimboyvachcha.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Farhod ana shu dardi bedavo unga rosa xalal berayotgani – hech nima yozolmayotganidan sh i k o y a t q i l di.* E.A‘zam, Shovqin. *U, Nosirovdan sh i k o y a t q i l gan sayin, Saidiy uni o‘ziga yaqin ko‘rar, uni qo‘lga olish umidi kuchayar edi.* A.Qahhor, Sarob. *Mening borgim kelmaydi deyapsanmi! – z o r l a n di Normat. – Borsam odamlar so‘rayverishadi, so‘rayverishadi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Qizning pinhona azobidan o‘zicha kuyinib, butun aybni yana ho‘ birdagidek Azizga ag‘dardi-da, yana uning “tagi past”ligidan z o r l a n di*. O‘.Usmonov, Girdob. *Qurib ketsin, kuya yeb ketyapti bularni, – deb z o r l a n di Anzirat.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Senga o‘xshagan donolar hozir tanqisroq, – deb h a s r a t l a n di Bekxo‘ja.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Xotinim muvofiq emas deb zorlanib, h a s r a t l a n ib yurish er kishining ishi emas.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Uning bir ryumkasi suhbatni qizitadi, ikkinchisi uchinchisiga talab qo‘zg‘otadi, uchinchi va to‘rtinchisi esa birovning qo‘lini boshqa birovning yelkasiga tashlatib, olamning koridan h a s r a t q i l diradi.* A.Qahhor, Sarob. *So‘fi otasining davlatida o‘qib olmagani, tirikchilik og‘ir ekani, machitning butun vaqfini imom, qolaversa, mutavalli yeb, so‘figa faqat yalatganidan h a s r a t q i l di.* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar.

NOLISH, SHIKOYAT, HASRAT Norozilik va dard-hasrat mazmuni ifodalangan gap-so‘z. Har uchala so‘z nutqda faol qo‘llanadi. **Hasrat** so‘zida dard, o‘z ahvolidan shikoyat ta’kidi aniqroq seziladi.

N o l i sh bilan ish bitmaydi, Mard nomardga tiz cho‘kmaydi. Maqol. – *Keling-keling, jiyanjon, sahifa hali tayyor bo‘lmabdi, – dedi Salim Qaror gunohko-*

rona ohangda va n o l i sh bilan ilova qildi: – Qurg‘ur bel og‘riydi. Shunga birpas yonboshlab olay deb... E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Kambag‘alchilik o‘lsin! – xotin bu gapni sh i k o y a t tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta’na deb tushundi.* A.Qahhor, Anor. *Turg‘unning oyoqdan sh i k o y a t i bir bahona edi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Amirning dard-hasratlari uning she’rlarida shunday aks etganki, hali tanqidchilik qahramon qalbi va she’rdagi h a s r a t ifodalari uzvilarini yoritgani yo‘q.* A.Rasulov,Tarix, falsafa, roman. *Ehson Saidiyning uyiga keldi-yu, uning baxtiga tong otguncha mana shular to‘g‘risida o‘z h a s r a t idan bo‘shamay, hisob ham so‘ramadi.* A.Qahhor, Sarob.

NOLOYIQ, NOMUNOSIB, NOMUVOFIQ Mos kelmaydigan, to‘g‘ri kelmaydigan. **Nomunosib** va **noloyiq** so‘zlari kitobiy uslublarga xoslangani bilan **noloyiq** so‘zidan farqlanib turadi.

U Sharifning yuqori lavozimga n o l o y i q ekani, ishni buzayotganini aytib ogohlantirgan edi. T.Malik, Shaytanat. *Ko‘p yillardan beri kattakon ijodiy idora rahbari bo‘lib ishlayotgan bu janobni o‘z o‘rniga n o l o y i q deb bilaman.* Q.Norqobil, Elakda suv turmaydi. *G‘afforjonning butun tentak-tantiqliklari, yoshiga n o m u n o s i b erka-injiqliklari, meni soqchining qo‘liga tashlab qochib ketgani ham bir bo‘ldi-yu, bu qilmishi ham bir bo‘ldi.* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Uni hammadan ko‘p larzaga solgan narsa shu bo‘ldiki, inson degan nomga n o m u n o s i b bu ishga sobiq xo‘jayinning eng yaqin shogirdlari tashabbuskor bo‘lishdi!* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Jonzot borki, o‘z kushandasi kim-u yemagi nimadan iborat yaxshi biladi. ...Lekin birda-ikkida o‘z fe’l-xo‘yiga n o m u v o f i q harakat qilib turish ham tirik jonga xos narsa*. M.Sharif, Yashil alanga. *“O‘zstandart” agentligi tomonidan yurtimizning barcha hududlarida sifatsiz va standart talablariga n o m u v o f i q bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi va aholiga sotilishining oldini olish bo‘yicha o‘rganishlar olib borilmoqda.* Gazetadan.

NOMIGA, YO‘LIGA, IRIMIGA, XO‘JAKO‘RSINGA, SHUNCHAKI Jiddiy maqsadsiz, astoydil emas; shunday qilish lozim bo‘lgani uchungina. **Irimiga** so‘zi ko‘pincha urf-odat harakatlarini bildiruvchi so‘zlarga nisbatan qo‘llanadi. **Xo‘jako‘rsinga** so‘zida so‘zlovchining salbiy subyektiv munosabati ifodalanadi. **Shunchaki** so‘zida harakat bajaruvchisining o‘z harakatiga e’tiborsizligi ma’nosi anglashiladi.

Shu boisdan ro‘yxatni n o m i g a gina ko‘zdan kechirishib, eldan yig‘ilgan qo‘ylarni naridan-beri sanagan bo‘lishibdi-yu, juftakni rostlash payiga tushishibdi. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Oynalari chil-chil singan, tomi-yu kapotlari, orqa-oldi-yu yonboshlari bolg‘a bilan pachoqlangan, shu qadar hafsala bilan, shu qadar erinmay, tartib bilan pachoqlangan ediki, aqalli n o m i g a bir qarich sog‘ joyi qolmagandi*. O‘.Hoshimov, “Ajdar”ning tavbasi. *“Zeriktirma”*

deb shunchaki bu hazilni y o‘ l i g a aytdi-qo‘ydi-da u. E.A’zam, Shovqin. *Bu gapni y o‘l i g a aytdim-qo‘ydim-da.* S.Ahmad, Ufq. *Bo‘ri polvon mehmon bilan bir qo‘llab ko‘rishdi. I r i m i g a hol-ahvol so‘radi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Osh keldi, maqtab-maqtab yeyildi, i r i m i g a borib oshatildi ham. Keyin hangoma boshlandi.* E.A’zam, Shovqin. *Mabodo Akbar keladigan bo‘lsa, uni aravadan ag‘darib tashlaydi-yu, boshqa itoatkorroq, yoshroq boburiyzodani x o‘ j a k o‘ r s i n g a podsho qilib ko‘taradi.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *“Tajribali me’morlardan jo‘nating” degan taklifga, x o‘ j a k o‘ r s i n g a meni jo‘natishayotganini sezib turdim*. N.Eshonqul, Tobut. *Endi u xotinning basharasiga ham qaramayman. Tamom. Poylab boribsanda-a, hammasini ko‘ribsanda-a, sh u n ch a k i ko‘ngli uchun bordim. Turgan-bitgani bo‘yoq*. S.Ahmad, Iqror. *Qani endi, bu Salabek deganlari onda-sonda dashtdan o‘tib qoladigan ayrim tanishlari kabi sh u n ch a k i salom-alik uchungina birrovga yo‘ldan qayrilgan o‘tkinchiga aylansa-yu, u bu azobni ortiq his qilmasa*. N.Norqobilov, Kurash.

N

NOMUS QILMOQ, OR QILMOQ, ANDISHA QILMOQ, ORLANMOQ Uyatli holatga, uyaladigan vaziyatga tushib qolmoq. **Andisha qilmoq** so‘zida oqibatini o‘ylab yuz-xotir qilish ta’kidi ochiq ifodalangan.

– N o m u s q i l gandir, bunaqa gapni qanday aytsin?! E.A’zam, Shovqin. *Ha, yoqmadimi? N o m u s q i l dingmi? Agar n o m u s q i l ish qo‘llaringdan keladigan bo‘lsa, endi ko‘rasanlar. Ko‘ylak-ishtonimni avtobus ostanovkasigacha opchiqib yuvaman.* S.Ahmad, Kuyov. *– O‘rgildim! Ko‘mir tashishdan o r q i l m a y d i, tashidim deb yozishdan o r q i l adi!* A.A’zam, Hali hayot bor... *Ular oshxonaga borib, ko‘pchilik bilan ovqatlangani o r q i l adilar.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *“Yegan yog‘-u go‘shtlaring ko‘r qiladi hali seni, shuncha sovg‘a-salomlarni ham a n d i sh a q i l mading!” – deb ko‘nglidan o‘tkazdi-yu, ko‘zoynakli kishiga qarab: – Har qalay, zakon biladigan kishisiz, bir yo‘l ko‘rsating, – dedi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Nazar baxshi qomat kerib, og‘iz to‘ldirib, “emasam-chi” demoqchi bo‘ldi-yu, lekin mehmonligiga borib, a n d i sh a q i l di.* N.Norqobilov, Kurash. *“Aroqxo‘rning farzandi” degan malomat toshini ko‘tarib yurishga o r l a n yaptilar”, – desalar, u adashganlar: “Bizdan o r l a n salaring biz ulfatdan chiqdik!” – deb o‘rinlaridan turib ketishdi.* T.Malik, Odamiylik mulki.

NOMUSLI, IBOLI, HAYOLI, ANDISHALI, SHARMLI Andishasi, hayosi bor. **Nomusli, hayoli, andishali, sharmli** so‘zlari so‘zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda faol qo‘llanadi. **Iboli, hayoli** so‘zlari, asosan, qizlarga nisbatan qo‘llanadi. **Andishali** so‘zi “mulohaza bilan ish tutadigan” ifodali xususiy ma’no uzvi bilan farqlanadi. **Sharmli** va **hayoli** so‘zlari ma’noni ifodalashi jihatidan bir-biriga yaqin. Shu sababli kontekstda bu ikki so‘zning **sharm-hayoli** shaklida juftlashib kelishi kuzatiladi.

Asadbekning qarori Zelixonni ham gangitib qo‘ydi. Osmonga ustun bo‘lay, deb turgan odamning farzandini n o m u s l i qiz sifatida o‘z tengiga uzatishga qurbi yetmas ekanmi? T.Malik, Shaytanat. *Islom dinida xotin-qizlar masalasi murakkab muammo. Payg‘ambarimiz tili bilan aytganda, bizning islom dinimizdagi ayollar iffatli, n o m u s l i, hayoli bo‘lmog‘i shart, – derdi u.* Oybek, Tanlangan asarlar. *U, o‘roq o‘rib-o‘rib... ro‘molining uchi ko‘kragiga tushib-tushib... uni tag‘in yelkasiga tashlab-tashlab... menga qiyo boqib-boqib... Zulflarini toblab-toblab... Ham i b o l i, ham ginali kulib-kulib... qo‘shiq aytadi!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Sirasini aytganda, Naima ham juda ko‘hlik, aqlli, i b o l i qiz edi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Ahmad bu sof, h a y o l i, sodda qizga juda shirin so‘z aytgisi keldi…* F.Musajonov, Himmat. *Sherqo‘zi shu taxlit Nodira bilan uchrashdi va… kutilmaganda qiz unga yoqib qoldi. Go‘zal, h a y o l i, ustiga-ustak, nufuzli xonadondan, tag‘in nima kerak.* L.Bo‘rixon, Kutilmagan tashvish. *Inshoolloh, farzandlarimiz aslo undog‘ odobsizliklarga yuz burmagaylar, barchasi aqlli, o‘tkir zehnli, a n d i sh a l i...* M.Ali, Ulug‘ saltanat. *Akobirning ota-onasi u yoshligida o‘lib ketgan, u olti yasharligidan yetim bolalar uyida tarbiyalangan, zehnli, a n d i sh a l i, bir so‘zli va ko‘ngli yarim yigit edi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Ona… har ishda to‘g‘riso‘zlik, sh a r m l i, hayoli, or-nomusli, adolatli, diyonatli, vatanparvarlik kabi ma’naviy qadriyatlarni o‘ziga jo qilib, kelgusi avlodga yetkazmog‘i bilan oila mustahkamlanishida oziq ildizini yaratadi va sog‘lom turmush tarzini tashkil etadi.* S.Ro‘zimurodov, Sog‘lom oilani shakllantirishda ma’naviy merosning tutgan o‘rni.

NOQULAY, **O‘NG‘AYSIZ, NOO‘NG‘AY 1.** Biror ish-harakatni amalga oshirish uchun qulay emas. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, nutqda qo‘llanish darajasiga hamda uslubiy belgisiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Noqulay** so‘zi nutqda faol ishlatiladi. **O‘ng‘aysiz** so‘zi so‘zlashuv tiliga xos. **Noo‘ng‘ay** so‘zi kitobiy, kam qo‘llanadi.

Aslida bunday sharoitda tomosha ko‘rsatish n o q u l a y. Yaxshi tomosha uchun obdan jihozlangan sirk sahnasi kerak. N.Rahmat, Iqbol. *Ushbu kod asosan giperhavola sifatida ishlaydi va bunday rasm (QR-kod)da matn shaklida joylashtirish n o q u l a y bo‘lgan yoki qimmatga tushadigan ma’lumotlar mavjud.* Gazetadan. *Kasallarda yana pitekoid poza va o‘ n g‘ a y s i z yurish, koordinirlanmagan harakat… kuzatiladi.* “Oligofreniyalar”. *U oyoqlariga ilashgan yengil ko‘rpani nari surib, qiyinchilik bilan tizzalarini quchoqlagancha to‘shak ustida o‘tirmoqchi bo‘ldi, ammo bu noqulay edi. To‘g‘rirog‘i, juda o‘ n g‘ a y s i z edi.* Z.Qurolboy qizi, Ayol. *Bu – n o o‘ n g‘ a y, mashaqqatli edi: qarshidan bot-bot botqoqliklar, to‘qaylar chiqar va ularni yengib yoki chetlab o‘tishga to‘g‘ri kelardi.* N.Rahmat, Ayiq ergashtirgan amaki.

2. Kishini xijolat qiladigan, xijolatli vaziyatga soladigan. **O‘ng‘aysiz** so‘zi mazkur ma’noda **noqulay** so‘ziga nisbatan kam ishlatiladi. **Noo‘ng‘ay** so‘zi kitobiy, kam qo‘llanadi.

Yusupov mashinadan tushar-tushmas G‘afur G‘ulom ulug‘ kishi oldida maykachan o‘tirish n o q u l a y ekanligini bilib, jujun kitelini shoshib kiya boshladi. S.Ahmad, Ufq. *Boshida begonasirab, o‘zini birmuncha n o q u l a y sezgan mehmon uy egasining samimiy dildorliklari tufaylimi yo ichilgan ozroq konyak ta’siridami, xiyla dadillashib qolgan, berilgan savollarga burro-burro javob qilayotir.* E.A’zam, Shovqin. *Orada yotsirashka o‘xshash bir hol bor, nima uchundir bir so‘zlab ikki to‘xtar edilar. Bu o‘ n g‘ a y s i z holatdan chiqish va so‘zg‘a ulab yuborish uchun Rahmat tirishkandek ko‘rinar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Tantiboyvachchaning nafasi ichiga tushib ketdi, lekin bu o‘n-g‘aysiz, chatoq ahvoldan qutulish uchun yana o‘zini bilmaslikka soldi…* Oybek, Tanlangan asarlar. *Baquvvat gavdali, ammo qarashlari muloyim, yoqimtoy chehrali Do‘smatov o‘ n g‘ a y s i z ahvolga tushib qoldi. ...Dovdirab Yusupovga qaradi.* S.Ahmad, Ufq. *...tezligini to‘xtatolmagan pahlavon sahnadan pastga tushib ketdi. Harqalay yiqilmadi! Ikkalamiz ham bunday bo‘lishini xayolimizga keltirmadik: naqadar n o o‘ n g‘ a y vaziyat.* N.Rahmat, Iqbol.

NORDON, QIMIZAK, ACHCHIQ, TURUSH Tishni qamashtirib, og‘izni burishtiruvchi. **Nordon** va **qimizak** so‘zlari ushbu ma’noda ta’mga nisbatan ishlatiladi. **Nordon** so‘zi keng qo‘llanadi. Bosh ma’nosi “og‘izni achitib lovullatadigan” tarzida bo‘lgan **achchiq** so‘zi bu ma’noda nisbatan kamroq ishlatiladi. **Turush** shevaga xos so‘z.

Turgan sari yumsharib, pisha boradigan va pishgan vaqtida og‘izga solsa, eriydigan noklar... Quvaning yirik donali va n o r d o n anorlari... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shoali n o r d o n narsa tishlaganday aftini burishtirdi*. M.Hazratqulov, Ayol. *Mushtdek keladigan q i m i z a k olma tomosha qilsa qilgudek chiroyli edi...* M.Ali, Sarbadorlar. *Otasi a ch ch i q olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashadi.* Maqol. *Hovlilarning birida yosh kelinchak boshqorong‘i bo‘lgan a ch ch i q olma shoxlari mevalarini ko‘tarolmay yergacha egilib qolgandi*. M.Rajab, Achchiq olma. *T u r u sh nokni suv hovurida yoki xamirga o‘rab, olovda pishirib yoki asal, shakar bilan murabbo qilib yeyilsa, zarari bo‘lmaydi.* O‘.Mirzohidov, Nok – shifobaxsh meva.

NOVCHA, NAYNOV, UZUN, DAROZ Bo‘yi baland, baland bo‘yli. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega yoki ega emasligi, belgini ifodalash darajasining kuchli yoki kuchsiz ekanligiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Naynov** va **daroz** so‘zlarida so‘zlovchining salbiy munosabati ifodalanadi. **Daroz** so‘zida belgi darajasining ortiqligi qatordagi boshqa so‘zlarga qaraganda aniq seziladi. **Uzun** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

– *Otang qayerda? – deb so‘radi n o v ch a rog‘i.* T.Malik, Shaytanat. *Yonboshida n o v ch a bo‘yli ozg‘in kishi. Taniyman. Oqsoqol buva bilan biznikiga ko‘p kelgan*. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Zero, shu chog‘gacha bo‘yining uzun-kaltaligi xayoliga kelmagan, qaytaga, ba’zi n a y n o v larning dovdirligi-yu kaltafahmligidan kulib, o‘zining pishiq-puxta, uddaburonligi bilan faxrlanib yurar… edi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *“Hormanglarov”, – dedi ko‘chadan o‘tib borayotgan Pirimqul n a y n o v devordan bo‘ylab*. A.Yo‘ldosh, Ota o‘g‘il. *Saodat kampir u z u n, yoshiga qaramay, hali egilmagan, oriq, lekin suyakli, qiyg‘ir burunli, harakatlaridan shijoatli va chaqqon ekani bilingan erkaksimon bir xotin edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Sabohat qora xalat kiygan, u z u n erkak supurgi ko‘tarib olgan keksa bir ayolning unga jilmayib qarab turganini ko‘rdi.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Alyosha basketbolchiga o‘xshaydi. Bo‘yi baland, oyoqlari xodaday uzun, yurganda tuyaqushday lapanglab yuradi, biroq shu d a r o z bo‘y-basti bilan o‘zi yosh bolaga o‘xshaydi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Shu qutlug‘ ishning boshida o‘zingiz turibsiz, amirim! O‘zingiz!.. – gapga pishang berdi “gushna” deganlari – nozik qomatli d a r o z yigit.* M.Ali,Ulug‘ saltanat.

NOXUSH, KO‘NGILSIZ, YOQIMSIZ Yoqmaydigan, xush kelmaydigan. **Ko‘ngilsiz** so‘zi **noxush** va **yoqimsiz** so‘zlariga nisbatan kam qo‘llanadi. **Yoqimsiz** so‘zida belgi darajasi birmuncha kuchli va undan so‘zlovchining salbiy subyektiv munosabati anglashiladi.

Bugun No‘g‘ayqo‘rg‘onda n o x u sh gap tarqaldi. “Qulup”da maylis bo‘larmish, Orif oqsoqolni olib tashlab, o‘rniga boshqa rais saylasharmish. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Shu ipakdek muloyim kelini Madinaxon vafot etdi-yu, biror n o x u sh xabar qulog‘iga chalinsa, ko‘z oldida tinmay tobut ko‘targan odamlar ko‘rinaveradi.* T.Malik, Davron. *Bir yildan beri davom etib kelayotgan bu k o‘ ng i l s i z janjal menga juda og‘ir botardi.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Jannat eriga bu k o‘ ng i l s i z xabarni yetkazish uchun qadamini tezlatdi.* S.Ahmad, Ufq. *Qamchining dastasi bilan eshikni taqillatdi. Yigitning otasi chiqib odaticha tilla tishlarini ko‘rsatib kuldi-da, y o q i m s i z bir mulozamat bilan ichkariga taklif qildi.* T.Malik, Davron. *…jiyda gulining xushbahra ifori uzzukun texnika asrining xush-noxush, yoqimli-y o q i m s i z axborotlari, voqealar, suhbatlar tafsilotlari yuki bilan cho‘yanday og‘irlashgan miyaga, yurakka yengillik, xushhollik bag‘ishlardi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy.

NOYOB, NODIR, KAMYOB, KAMCHIL, **TANQIS, KAMOB, TAQCHIL** Kam uchraydigan, kam topiladigan; yetishmaydigan. **Noyob** so‘zi barcha uslublarda keng qo‘llanadi. **Nodir, kamyob** so‘zlari yozma nutqqa xoslangan. **Tanqis**, **taqchil** so‘zlari so‘zlashuv tilida faol qo‘llanadi. **Kamchil** so‘zi kam qo‘llanadi. **Noyob**, **nodir** so‘zlari, ko‘pincha, san’at asarlariga nisbatan,

kamyob so‘zi esa hayvonot dunyosiga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Tanqis**, **taqchil** so‘zlari esa, asosan, ishlabchiqarish mahsulotlariga nisbatan ishlatiladi.

Ammo bizga hozircha ma’lum asarlarining o‘zi ham Mashrabning favqulodda n o y o b iste’dod egasi ekanligidan dalolat beradi. “O‘zME”. *Menda… italyancha, n o y o b, mumtoz qo‘shiqlar, kuylar bor.* E.Boboyev, Musavvir. *“O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”dek n o d i r asarlar muallifi Abdulla Qodiriyning munaqqid, beayov hajvchi ham bo‘lganligini uning 1923–1926-yillari yozgan maqola, felyeton va hajviyalaridan bilish mumkin.* E.Nishonov, Haqiqat ochiq so‘zlashdir. *– Hay-hay-hay, “Ming bir kecha” arablarning n o d i r gavhari, o‘lmas, abadiy asar! Misli yo‘q ajoyib hikoyalar bor bunda.* Oybek, Tanlangan asarlar. *O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi k a m y o b va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvonot va o‘simliklar olami obyektlarining davlat kadastrini qonunchilikda belgilangan tartib asosida yuritadi.* Gazetadan. *Bunday k a m y o b iste’dod egasining o‘ziga xos olamidan bahra yashash kerak, o‘rganish kerak.* X.To‘liboyev, Hikoya yozish siri. *E, u paytlarda miltiq k a m ch i l edi-da. Bizda miltiq yo‘q edi.* P.Qodirov, Ayiqni yenggan cho‘pon. *Tuprog‘i serunum, iqlimi mo‘tadil, ammo suvi k a m ch i l Qashqa vohasini bog‘-rog‘larga aylantirish qadimiy orzu edi.* “O‘zbekiston qo‘riqlari”. *Atrof-muhitning assimilyatsiya potensiali (AMAP) – o‘ziga xos tabiiy resurs bo‘lib, u cheklangan yoki t a n q i s (kamchil) resurs hisoblanadi.* “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati”. *Faqat oziq t a n q i s bo‘lganida, keksa va yarador ayiqlar odam uchun xavfli hisoblanadi.* “O‘zME”. *Xayyomdek oqil-u donolar k a m o b, Har bir ruboiysi – to‘rt qultum sharob.* A.A’zam, Tajribalar. *Shu yili, ayniqsa, qish quruq kelib, suv k a m o b bo‘lgan, paxta hosili xavf ostida qolgan...* H.Nazir, Suv gadosi oqpadar... *Qisqasi, vodiy hududida e’tiborga arzigulik g‘aroyibotlar yetarli darajada esa-da, biroq ularni ilg‘aydigan nigoh, anglay oladigan idrok g‘oyatda t a q ch i l edi.* N.Norqobilov, Enatosh. *Sobiq sho‘ro davrining so‘nggi yillari ko‘p narsa t a q ch i l bo‘lib qolgan edi.* T.Eshbek, To‘yga buyurgan “Kafanlik”.

NOZ, KARASHMA, ISHVA, G‘AMZA, ISTIG‘NO, TAMANNO, ADO, NOZ-(U) KARASHMA, NOZ-U ISTIG‘NO, JILVA, SHEVA Yuz mimikasi bilan qilinadigan maftun etuvchi noz-ishvali harakat. Qatordagi so‘zlar ko‘pincha ayol kishiga nisbatan qo‘llanadi. **Noz-karashma** hamda **noz-istig‘no** so‘zlarida belgining ortiqlik darajasi anglashiladi. **G‘amza** so‘zida kiprik qoqib, ko‘z suzib qarash ta’kidi mavjud. **Karashma, ishva, g‘amza istig‘no, tamanno, ado, jilva** badiiy nutqqa xoslangan. **Ishva** so‘zida belgi-harakat darajasining yuqori ekanligi anglashiladi. Bosh ma’nosi “tovlanish”dan iborat bo‘lgan **jilva** so‘zi ko‘chma ma’nosi bilan ushbu sinonimik qatordan o‘rin oladi. Mazkur so‘z bu ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi. **Sheva** so‘zi badiiy uslub, xususan, she’riy nutqda qo‘llanishi bilan ajralib turadi.

– *Kirib bo‘psiz! – Saltanatning ovozida garddakkina vahima, garddakkina n o z, gardakkina buyruq ohangi bor edi.* O‘.Usmonov, Girdob. *...ularning shahar atiri ufurib turgan n o z va tamannolari sirli tarzda o‘ldirilgan otboqarning azasi orasida ko‘zga tashlanmay qoldi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Derazadan boqar sohibjamol oy, Nigohlari to‘la k a r a sh m a, chiroy.* U.Azim, Oy. *K a r a sh m a dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir...* Cho‘lpon, Qalandar ishqi. *Yorimning i sh v a sidan, noz-u karashmasidan, Kelmoqqa va’dasidan og‘zim bu kun quloqda.* Charxiy, Ko‘nglim yaqin. *U Anziratga xos bo‘lgan ko‘ngilchanlik va o‘ziga yarashadigan nozli i sh v a laridan endi qandaydir yengiltaklik topganday...* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Ko‘nglimni olib, tunlari bedor etib ketding, Ming g ‘a m z a ila vaslingga xumor etib ketding.* O‘.Mirzayor, Ko‘nglimni olib... *G‘ a m z a o‘qin nigorim ishqi kamonga olsin, Qalbimni so‘ngra chog‘lab, jonim nishonga olsin.* M.Kalonxon, Ming imtihonga olsin. *O‘lmasboy qizning bu so‘zini bir noz va qizlarga xos i s t i g‘ n o deb anglagan edi.* Cho‘lpon, Novvoy qiz. *Sal o‘tmay yo‘limda bir qiz uchradi. “Yaxshimisiz?”, dedim. U i s t i g‘ n o bilan labini burdi... qoshlarini chimirdi.* A.A’zam, Bir kam dunyo. *Ma’shuqaning t a m a n n o zamzamasi oshig‘ining to‘qson ikki tomirida muzlagan hislarni junbushga keltirdi.* G‘.Rahmon, Oshiq dunyo. *Ayo, jonim yonar o‘tda kuydirdi yor t a m a n n o si, Lablarining zarbi bo‘lmish jahon bulbulin savdosi.* D.Haydarova, Yor tamannosi. *Yigitni mast etar jonon a d o si.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. *Nazokatda Kumushoy-u Ra’nolardan dars olib, Xalqimga xos odobi-yu nozik a d o si go‘zal.* Z.Ne’mat, O‘zbegim go‘zallari. *Hozir yigirma yoshga kirgan paytida ham ajoyib hind qizlarini uchratsa, ularning n o z-u k a r a sh m a bilan raqs qilishlarini ko‘rsa... yoshlikdagi o‘sha orzulari qalbiga turtib-turtib qo‘yganday bo‘ladi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ammo ayni chog‘da... pastga pildirabgina Matluba emas, necha kunki ko‘z o‘ngida jilolanib, jilvalanib turgan xilqat sarg‘ish-qizg‘ish etaklarini silkitib go‘yoki n o z-u i s t i g‘ n o bilan ortidan chorlab uyi tomon enib ketganday tuyuldi.* L.Bo‘rixon, Tokchadagi tumor. *O‘sha j i l v a va o‘sha otash, O‘sha ko‘zki, suzgun, xayolkash.* H.Olimjon, She’rlar. *– Xo‘p, mayli, men ketay, – dedi Hayot, j i l v a bilan qayrilib.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Bir sh e v a bilan jonon devona qilib ketdi, Aqlimni sochib har yon, mastona qilib ketdi.* Hamza. *Bir qiz keldi sh e v a bilan, necha g‘alva jilva bilan.* “Nurali”.

NOZIK I, **LATIF** Bichimi chiroyli va kelishgan. Qatordagi so‘zlar, asosan, insonning tana a’zolariga nisbatan qo‘llanadi. **Nozik** so‘zi nisbatan ko‘p ishlatiladi. **Latif** so‘zi badiiy uslubga xoslangan, belgi darajasi **nozik** so‘ziga nisbatan kuchliroq ifodalanadi.

Yomg‘irda ho‘l bo‘lib og‘irlashgan chakmon uning n o z i k bo‘yniga og‘irlik qildi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *...ayniqsa, Gulimoh Yulduzovna, qoshlarini chi-*

mirib, n o z i k bo‘yinlaridagi Iskandariyadan kelgan chig‘anoq shodasini shildiratib: “Voy, ukajon, qo‘rqmang. Men borman, to‘g‘risini aytavering”, deydi. A.A’zam, Hali hayot bor... *Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan l a t i f burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shamni balandroq ko‘tarib, chiroyli bir lavhani tomosha qilgan kabi yoki nodir bir gavharni diqqat bilan ko‘rgandek, ko‘zlarini suzib, boshini dam ko‘tarib, dam egib, qizning l a t i f qomatiga razm soldi*. Oybek, Navoiy.

NOZIK II, **NAFIS** Yuksak mahorat va did bilan ishlangan. **Nozik** barcha uslublarda teng qo‘llanadi. **Nafis** esa yozma nutqqa xoslangan. **Nafis** so‘zida belgi **nozik** so‘ziga nisbatan ta’kidli ifodalanadi.

Javonlarning birida, bitta-bitta terilgan serjilo kitoblar orasida n o z i k o‘ymakorlik bilan yasalgan bejirimgina yog‘och rutina turardi. O.Yoqubov, Adolat manzili. *...qishloq xo‘jalik bo‘limining mudiri Zokir Qo‘shmoqov qotmadan kelgan, jikkakkina yigit bo‘lib, Rasul Olloyorovichnikiga o‘xshash n o z i k ko‘zoynak taqqan, ustida odmi kostyum, sochini tipratikan nusxada oldirgan, harakatchan odam edi*. O‘.Usmonov, Girdob. *– Sizni men... bir maslahatga chaqirdim, – dedi Rasul Olloyorovich n a f i s ko‘zoynagi ostidan Azizga qattiq tikilarkan, u tomonga xiyol egilib.* O‘.Usmonov, Girdob. *Archalar orasida tovlangan oq, sariq, nafarmon va qizil gul kosachalarini lim-lim to‘ldirgan tiniq tomchilar, go‘yo n a f i s piyolachalarga quyilgan mayday gul-gul yondi, borliqni bulbul xonishi tutdi*. O.Yoqubov,Ulug‘bek xazinasi.

NOZIK III, **QALTIS** O‘ta ehtiyotkorlik talab qilinadigan. **Qaltis** so‘zida belgi **nozik** so‘ziga qaraganda kuchliroq ifodalanadi.

Bu n o z i k ishlarning hammasi Abu Yusuf Arg‘unning harakatlari bilan bitayotganini yaxshi biladigan Shayboniyxon yasovulga buyurdi: – Abu Yusufbekka mening eng chopqir otlarimdan birini in’om qiling! P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xo‘p. Ishqilib uyatga qolmaylik. Hozirgi paytda bu nihoyatda n o z i k masala...* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Ayniqsa, tayyorgarlik pallasi q a l t i s. Albatta, nimadir xalal beradi, albatta, nimadir yo‘qolib yo yetishmay qoladi*. E.A’zam, Shovqin. *Mehmonlar yaxshi kishilar bo‘lishsa-ku, nur ustiga nur, basharti oralarida birorta ayg‘oqchisi bo‘lib, bu yerda bo‘ladigan q a l t i s suhbatni tegishli joylarga yetkazsa-chi?* O.Yoqubov, Adolat manzili.

NOZLANMOQ, NOZ QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ), NOZ-(U)-KARASHMA QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ), NOZ-(U) ISTIG‘NO QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ), KARASHMA QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ), ISTIG‘NO QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ), ISHVA QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ), G‘AMZA QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ), JILVA QILMOQ Yuz mimikasi bilan maftun etuvchi nozli harakat-

lar qilmoq yoki nozli ohangda so‘zlash orqali o‘ziga e’tiborni tortmoq. Qatordagi so‘zlar, asosan, ayol kishiga nisbatan qo‘llanadi. **Nozlanmoq** so‘zlashuv uslubida nisbatan faol ishlatiladi. **Karashma qilmoq, ishva qilmoq, istig‘no qilmoq, g‘amza qilmoq, noz-karashma qilmoq, noz-istig‘no qilmoq, jilva qilmoq** badiiy nutqqa xoslangan. **Ishva qilmoq** so‘zida harakat darajasining yuqoriligi ta’kidlanadi. **Noz-karashma qilmoq** hamda **noz-istig‘no qilmoq** so‘zlarida belgi yanada ta’kidli ifodalanadi. **G‘amza qilmoq** so‘zida kiprik qoqib, ko‘z suzib qarash ma’nosi ustuvorlik qiladi. Qatordagi **aylamoq** so‘zi bilan hosil qilingan fe’llar she’riy matnda qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Bosh ma’nosi “tovlanmoq”dan iborat bo‘lgan **jilva qilmoq** so‘zi ko‘chma ma’nosi bilan ushbu sinonimik qatordan o‘rin oladi. Mazkur so‘z bu ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi.

Shunda qiziq hol yuz berdi. Xonimlarning birinchisi n o z l a n a-n o z l a n a qosh qoqib, turli ifodalar bilan bir nimalarni so‘zlay ketdi… I.Sulton, Bir tomosha tarixi. *N o z q i l nozbardoringga, Xarid qil xaridoringga.* Maqol. *Qancha n o z e t sang, nigorim, ranjimam, Chunki shaydolar dili daryosi men*. Chustiy, Gul yuzingni bulbuligo‘yosi men... *Erkalan, n o z a y l a, mehrimga to‘yin! Faqat ko‘zlarimga qarama, jonon.* M.Salomov, Kayfiyat. *Baayni sahar palla… siz ilohani uchratib qoldingiz, ammo u esankiramaydi, cho‘chimaydi, bil’aks, sizga... n o z-k a r a sh m a lar, sirli imo-ishoralar q i l adi...* A.Yo‘ldosh, Puankare. *Tilim nomingni tilga olmaguncha so‘zga kelmaydi, Q i l ib ming n o z-u i s t i g‘ n o, unutsang ham unutmasman.* Chustiy, Unutmasman. *Yurma i s t i g‘-n o q i l ib, noz etma husningga boqib, Nozanin, sohibjamol, ozoda jononlar yotur.* Habibiy, Muqaddas yor. *Kel, ey ko‘ngilning azizi, ko‘p e t m a i s t i g‘ n o, Na deb o‘zingga meni avval aylading oshno*. Habibiy, Ko‘ngil quvonchi. *K a r a sh m a q i l moq ichra qil yorarsen, Nekim jonimg‘a qilsang, qil, yararsen.* S.Ahmad, Taashshuqnoma. *“Kiring” – tortqilaysan qo‘limdan mayin, I sh v a lar q i l asan – “Sog‘indim-ku…”.* M.Salomov, Kayfiyat. *Oldi jonim i shva a y l a b, ofati davrongina.* Muhyi, Muvashshah. *Sen binafsha dastasin ko‘ksingga bos-u g‘a m z a q i l, Qo‘llaring siljitma, ey yor, ushbu tasvir yaxshidir.* S.Sayyid, Lola faslida... *To‘kti qonim g‘ a m z a a y l a b ul ko‘zi cho‘lfongina.* Muhyi, Muvashshah. *Yor eshigida turib. Bir j i l v a q i l ay dedi, Har xil qiliqlar qilib, Ko‘nglini olay dedi*. “Oq olma, qizil olma”.

NOZLI, ISHVALI, ISHVAKOR, SERISHVA, SERNOZ, SERKARASHMA, KARASHMALI, G‘AMZALI Maftun etadigan nozli harakatlar qiluvchi yoki nozli ohangda so‘zlovchi. Ushbu so‘zlar, asosan, muayyan xatti-harakat yoki shaxsga, ayrim hollarda narsaga nisbatan qo‘llanadi. **Serishva, serkarashma, ishvakor, sernoz** so‘zlarida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **G‘amzali** so‘zida ko‘z suzib qarash ta’kidi mavjud.

Ko‘zlari cho‘lpondek n o z l i sevgilim! Bir qarash tashlading, men sevdim seni. Oybek, Uzoqdan turib. *Sochini ro‘vakka o‘xshatib yelkasiga yoygan, toza, yangicha atlasdan kalta ko‘ylak kiyib, bosqonposhna hashamdor tuflida n o z l i taysallab, beg‘am-betashvish gaplashib turgan chuchuk til qizlarga o‘qrayib-o‘qrayib qo‘yardi-da, ichida Azizni qarg‘ardi.* O‘.Usmonov, Girdob. *Kelinchak hamisha o‘zini shaharlik ayolga qaraganda ojiz va xunuk bo‘lsam kerak deb o‘ylar, erining aqlini olgan ayol nazarida o‘zidan go‘zalroq, mehribonroq, i s h v a l i roq, jozibaliroq va nafosatliroq bo‘lib tuyulardi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Xuddi shunday tim qora sochlar, xuddi shunday fusunkor yuzlar, xuddi shunday yurakka o‘t soluvchi i sh v a k o r tabassum… Umrining eng beg‘ubor damlarini Amir o‘sha sirli jilmayishlarga baxsh etgan edi…* A.Ibodinov, Ko‘l bo‘yida. *Bir ilhom parisin ko‘rdim i sh v a k o r, Ayt, sen Ajiniyoz qo‘shiqlaridan.* A.Oripov, Ayt, sen Ajiniyoz qo‘shiqlaridan. *Tarix, kechagi kun – bamisoli s e r i sh v a jonon, har kim uni ta’biga moslab olaveradi; davr shamoliga qarab o‘zgaravergani sayin chin haqiqatni aniqlash mushkullashib boradi.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Er-xotinning o‘zining shaxsiy mulki ekaniga shubhasi qolmagach, ko‘chadan yangi, s e r i sh v a, nozanin ma’shuqa qidirishga tushadi.* R.Jabborov, Intihor. *G‘azal ham bo‘lurmi muncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar s e r n o z.* E.Vohidov, Fuzuliy haykali qoshida. *...yoshi o‘tib qolganiga qaramay, o‘zini qizlarday tutadigan s e r k a r a sh m a, nafaqachilar va yosh bolali ayollarning xaloskori, aloqa bo‘limining mudirasi Flora Fayziyevna xuddi shaharlik artistlar kabi po‘rim kiyinadigan Tolibjonni iliq kutib oldi.* N.Qobul, Kechagi kun. *Samarqand degan shahri azimning to‘rt narsasidan ogoh bo‘lib yashash kerak. Bu – s e r k a r a sh m a qizlar, chapdast kissavurlar, o‘tkir konyak va imtihon oluvchi chollardir.* N.Rahmat, Buni hayot debdilar yoki o‘g‘lim Ulug‘bekning kundaligi. *– Mana bu uzumni oling, juda yaxshi pishibdi, qo‘limni qaytarmang! – dedi-da, yigitlarning ko‘nglini larzaga soladigan sho‘x, k a r a sh m a l i kulgi bilan kuldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bular endi ko‘proq erkaklarga xos. Ayollarda esa nozli, k a r a sh m a l i, pismiqona, makkorona, kuydiradgan, o‘ldiradigan toifa-turlari ham uchraydi.* T.Eshbek, Elni shod aylamak kerakdur... *Gulyuz Rashidga qarab g‘ a m z a l i jilmaydi.* M.Ismoil, Sahroyi gullar. *Ne ko‘ylarda aylanmoqda yer, ishq – g‘ a m z a l i qiz, beli tolma, men Ayolman, sen – baxtiyor Er, qo‘llaringni qo‘limdan olma.* Z.Rahimova, Hech kim bilmas, qayda tugar ishq...

NUR, SHU’LA, YOG‘DU, ZIYO, PARTAV Yorug‘lik manbayidan taraladigan energiya. **Nur** so‘zi ingichka tola ko‘rinishida tasavvur etiladigan yorug‘likni umumlashgan tarzda ifodalaydi. **Yog‘du** so‘zida yorug‘lik belgisi kuchli ta’kid bilan aks etgan. **Shu’la, yog‘du, ziyo, partav** badiiy uslubga xoslangan. **Partav** eskirgan, kitobiy.

Marat taqqa to‘xtadi-da, Hilolaning ko‘zlariga tikildi. Neon lampalar n u r i ostida qizning chehrasi biroz rangsiz, ammo jozibali ko‘rinar edi. O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Tom boshidan botishqa yaqinlashqan oy n u r i arang-arang ko‘zga chalinar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bobur quyoshli kunda… So‘x soyiga tikiladi. Bu soyning suvida tillarang sh u’ l a lar o‘ynaydi.* P.Qodirov,Yulduzli tunlar. *Mushakning ko‘k, sariq, qizil sh u’ l a lari tuproq uyumlarini, choyxona tomlarini uzoq yoritib turdi-da, keyin asta so‘ndi.* S.Ahmad, Ufq. *Tumbochkamni titkilay-titkilay to‘rt enlikkina sham topib yoqdim. Uning xira y o g‘ d u sida xatimni davom ettirdim.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Tilla jabduqli qizil ayg‘irg‘a mingan, quyosh y o g‘ d u si bilan turlik tuska kirib tovlanadirg‘an, yoqa va etaklariga oltin uqa tutilgan kimxob to‘n kiyib, belidagi oltin kamarga kumush qinli jazoiri qilich osqan, …bug‘doyranglik, qirq besh-ellik yoshlar chamali bir kishi edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *O‘g‘lim, so‘ramasman sendan mol-dunyo, Uy ham qurib berma, mayli, alomat. Mayli, ko‘zlarimga bo‘lmagil z i y o, Yonimda yursang bas sog‘-u salomat.* A.Oripov, Ota duosi. *Xayyom tashqariga chiqib… ko‘ksini to‘latib nafas olarkan, cho‘zib chiqarish asnosida to‘lin oy z i y o sida oqish ko‘ringan ko‘kka tikildi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Sani vaslingni, ey jono, mane afgor sog‘indim, Shabi hijronda qoldim, p a r t a v i diydor sog‘indim.* Mashrab, Sog‘indim. *Uning ko‘z o‘ngida joy olgan qoraliklar shu yoqila boshlagan najot shamlari p a r t a v i bilan o‘z-o‘zlaridan yo‘qolgandek ko‘rinarlar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

N

O

OBDASTA, OFTOBA (OBTOVA) Yuz-qo‘l yuvish uchun ishlatiladigan, uzun va ingichka jo‘mrakli, dastali idish; ro‘zg‘or asbobi. Mazkur so‘zlar ma’noni ifodalash jihatiga ko‘ra o‘zaro teng. Ular, asosan, adabiy tilga munosabatiga ko‘ra farqlanadi. **Obdasta** adabiy tilga, **oftoba** (**obtova**) shevaga xos. **Oftoba** badiiy asarlarda ham ishlatiladi.

Domla nima qilibdi deng: qo‘rg‘onchadan bog‘ga kiradigan eshik oldiga ikki o b d a s t a suv, eshik halqasiga uchta to‘n bilan salla ilib qo‘yibdi. S.Ahmad, O‘rik domla. *Bandi eshon har kuni saharda avrod o‘qir ekan, ayam har kuni saharlab O‘lmasoyni ko‘tarib avrodga boradigan bo‘ldi; bir kuni qo‘limga bir o b d a s t a suv berib, meni ham olib bordi.* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Tursun mergan cho‘nqayib o‘tirib, o f t o b a dan suv quyib, qo‘lini yuvardi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Birinchi G‘ulom Meshpolvonga yaqinlashib, o‘zini o‘ng qo‘lida o f t o b a, chap qo‘lida chilopchin tutgandek ko‘rsatdi…* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Ayollar ana shu taxtasiz uy gilamini yig‘ib oldi... Ikki obtova suv olib keldi*. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Qarasa, o b t o v a tarnovdan tushayotgan suv bilan to‘lib turibdi.* N.Chori, Tashvishi yo‘q odamlar.

OBRO‘, E’TIBOR, NUFUZ Insonning o‘z faoliyati va shaxsiy fazilatlari tufayli jamoatchilik o‘rtasida topgan e’tibori, hurmati, egallagan yuksak maqomi. **Obro‘** so‘zi barcha nutq uslublarida qo‘llanadi. **Nufuz** va **e’tibor** so‘zlari uslubiy belgisi, ya’ni badiiy, publitsistik hamda rasmiy uslublarga xoslangani bilan farqlanadi.

O b r o‘ ga, izzat va hurmatga ega bo‘lishni xohlasang – halol mehnat qil. T.Malik, Odamiylik mulki. *Siz mirzo Anvarning o b r o‘ sig‘a to‘qunmoqchi bo‘lg‘an bir yomonliqning xabarini oldindan olib kelgansiz…* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Nizomiddinning ko‘z oldida bu notanish odamning e’ t i b o r i yanada oshdi*. Mirmuhsin, Me’mor. *Dadamlarni ko‘pchilik “Mulla Rahimbek”, “Rahimbek oqsoqol”, “Rahimbek polvon”, deb atardi. Shu murojaatlarning hammasida u kishiga nisbatan chuqur hurmat, e’ t i b o r borligi ko‘rinib turibdi.* O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *Shoh n u f u z i bilan donishmanddan ustun bo‘lsa, donishmand shohdan bilimi ila ulug‘*. T.Malik, Falak. *Biroq Anvarning homiysi – Muhammad Rajabbek katta e‘tibor va n u f u z ga molik, ham xong‘a inobatlik, shuning uchun mirzolar Anvarga qarshi hech narsa qilolmas edilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

OBRO‘LI, NUFUZLI, E’TIBORLI, OBRO‘-E’TIBORLI, MO‘TABAR, OBRO‘DOR Obro‘ga, chuqur hurmatga, e’tiborga ega bo‘lgan. **Obro‘li** barcha uslublarda qo‘llanadi. **Nufuzli, mo‘tabar, e’tiborli** so‘zlari kitobiy, odamdan tashqari predmetlarga nisbatan ham qo‘llanadi. **Mo‘tabar** so‘zida e’tiborning kattaligi ta’kidi mavjud. **Obro‘dor**, asosan, badiiy uslubga xos, juda kam ishlatiladi. **Obro‘-e’tiborli** so‘zida belgi darajasi qatordagi boshqa so‘zlarga nisbatan kuchli.

Tog‘a – o b r o‘ l i odam. Deputat odam, gapini qaytarishmaydi. S.Ahmad, Ufq. *Salobatli, o b r o‘ l i bir yigitning muhabbat izhorini eshitib, cho‘g‘day qizib, hayajondan yuragi gursullab urayotibdi-ku.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Nomini tutib baloga qolmaylik-u, poytaxtdagi n u f u z l i… bilimgohning yil sayin qabul hay’atida bakovullik qiladigan yo‘g‘on domlasi qanaqa davron surishi mumkin – tasavvur qilib olavering.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *O‘zi ham, soqol-mo‘ylovi ham qop-qora Xo‘ja Abdulla katta olim bo‘lishidan tashqari, Andijon beklarining eng n u f u z l i piri hisoblanar edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *XX asrning boshlarida Andijondagi Jome masjidi qoshidagi madrasada e’ t i b o r l i bir mudarris bo‘lar ekan.* R.Qo‘chqor, Orzum – ruh tarbiyasi. *...Turdi Farog‘iy davrining eng e’ t i b o r li shoirlaridan biri bo‘lgan.* Sh.Xolmirzayev, Adabiyot o‘ladimi? *Lashkar ichidagi ko‘p sarkardalar Inolxonning yaqin do‘stlari bo‘lib, o‘zi Xorazm saltanatiga ko‘p xizmatlar qilgan o b r o‘-e’ t i b o r l i sarkardaligi… bilan tajang, muhokamasi sayoz sultonga ba’zan soya tushurib qo‘yadigan qiliqlari ko‘p bo‘lardi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Qavmining yosh-u qarisini ardoqlaydigan… o b r o‘-e’ t i b o r l i… bu bekning mag‘lub bo‘lganini hech kim hech qachon eshitmagan, ko‘rmagandi.* M.Choriyeva, Suyunchi. *Shu noma bois ahli risolatni yo‘llab, siz m o‘ t a b a r donishlarni chorlab kelturdim.* T.Malik, Tiriklik suvi. *Zotan, do‘zaxning “hasrat qudug‘i” deb nomlangan eng yomon joyi ota-onasini xorlaganlar uchun ekanligi m o‘ t a b a r kitoblarda alohida zikr etilgan.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Qishloq o b r o‘ d o r larining ma’lumotlari bo‘yicha oqsoqolning qotili deb Berdiboy ko‘rsatildi.* A.Qodiriy, Kichik asarlar. *Kim biladi, balki o‘ziga o b r o‘ d o r, dongdor bir esh qidirar...* Oybek, Tanlangan asarlar.

OBUNACHI, MUSHTARIY Gazeta va jurnallarga oldindan haq to‘lab, uni muayyan muddatda olish huquqiga ega bo‘lgan odam yoki tashkilot. Mazkur so‘zlar ma’noni ifodalash jihatiga ko‘ra o‘zaro teng. **Obunachi** keng qo‘llanadi. **Mushtariy** yozma nutqqa xos.

Bugungi kunda bosma davriy nashrlar adadlarining ozligi, o b u n a ch i-larning, gazetxonlarning kamligi sababli matbuotda internet va elektron nashrlar ko‘paygani uchun gazeta-jurnallar inqirozga yuz tutadimi, degan mulohaza paydo bo‘lmoqda. K.Matyoqubov, Gazetalar inqirozga yuz tutadimi? *Gazeta jurnalistining bir tomonida muassis, bir tomonida o b u n a ch i. U har ikkisiga*

ham qaram… R.Maqsudov, Gazetangizga obuna bo‘lmaymiz. *Mana, 5 yildirki, Farg‘onada chop etilayotgan, muxlislari – m u sh t a r i y lari ko‘payib borayotgan nomi ixchamgina, bejirimgina “Olamaro” jurnaliga ham Muhammadjon Obidov bosh-qosh. Jurnalni varaqlagan m u sh t a r i y dunyoni bir kezib chiqqanning zavqini oladi.* X.Do‘stmuhammad, Farg‘onaning fidoyi farzandi.

ODAM, ODAMZOD, KISHI, INSON, KIMSA, KAS, BASHAR Tafakkur qilish, so‘zlash, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu sababli boshqa maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot. **Inson** so‘zidan ijobiy munosabat anglashiladi. **Odam, odamzod, inson** so‘zlarida umumlashtirish mavjud. **Kimsa, kas** so‘zlari ma’nosida bir qadar salbiy munosabat ta’kidi ham anglashiladi. **Bashar**, asosan, badiiy uslubga xos.

Dadam ochiqko‘ngil, bag‘rikeng, saxiy, xalqimiz urf-odatlarining hammasini chuqur hurmat qiladigan o d a m edi. O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *Ot kavsh qaytarishini ko‘rgan o d a m, yo telbanamo bo‘ladi, yo sho‘rpeshona bo‘ladi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Sizlar qilgan va qilayotgan ishlarni ko‘rib, o d a m z o d hamon yashab kelayotganiga ishonmay qolaman.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *O d a m z o d ning bola-chaqasi, qavm-qarindoshi, urug‘-avlodi-yu qabila, millati son-sanoqsiz bo‘lishi mumkin, lekin o‘zi yagona, bir nusxalik, xolos!* E.A’zam, Shovqin. *Bir qo‘lida katta chamadon tutgan, katta tugunni qo‘ltiqlab olgan, kiyimlari ancha uringan, soch-soqoli o‘sgan o‘ttiz besh yoshlardagi k i sh i ni avvaliga tanimadi.* T.Malik, Davron. *O‘sha k i sh i – ustozlari mening shunaqa hayot yo‘ldoshim bo‘lganida o‘n marta doktor bo‘lardim dedilar.* O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Faqat savob borki, jahon bus-butun, Faqat savob borki, azizdir I n s o n!* A.Oripov, Savob. *Keyin harqalay shuncha kun bizga hamroh yurib, qadrdonlashib ketgan bu i n s o n ni allanechuk mehrim iyibmi quchoqlab oldim.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bu toqati toq, joni temirdan i n s o n ning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko‘rishini uning o‘zidan ham ko‘proq tilar edim.* A.Qahhor, Ming bir jon. *Ba’zi og‘zi bo‘sh k i m s a lar bularni shafqatsiz, deb gap tarqatishadi, aslida bulardan mehribon va ko‘ngilchan odamlar yo‘q.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Ayt, axir o‘zing ham to borsan sobit, K i m s a ga nasiba uzatganmisan? Ko‘changda lapanglab o‘tganda tobut, Sen uni to‘rt qadam kuzatganmisan?* A.Oripov, Savob. *Axir tuyani yutib, dumini ko‘rsatmasdan o‘tib ketadiganlar qancha! Umuman, xotini yo eri yoki boshqa bir yaqin kishisidan maxfiy tutgulik a’moli yo‘q k a s ning o‘zi bormikin bu yorug‘ jahonda?* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Faqatgina xalq sohib Bardavom bu dunyoga, Asragay har k a s nomin Faqat xalqning hayoti.*A.Oripov, O‘zbekiston bayrog‘i. *Sanskrit tili shundoq edi, yunon tili, chin-mochin tili, so‘ngra lotin shundoq holni boshdan kechirdi, b a sh a r kamoli uchun xizmat etdi.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Parvardigor nafaqat baliqlarni, yer yuzidagi ayrim taqiqlangan, nohalol*

hisoblanganlardan tashqari, jamiki ne'matlarni b a sh a r farzandining nafsi-manfaatiga shafe, tobe yaratgan. Q.Kenja, Toshqin.

ODAMGARCHILIK, INSONGARCHILIK Boshqalarga haqiqiy insonga xos bo‘lgan muhabbat, mehribonlik, samimiylik, insof bilan munosabatda bo‘lish. Qatordagi so‘zlar, asosan, nutqda qo‘llanish darajasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Insongarchilik odamgarchilik**ka nisbatan kam qo‘llanadi, shuningdek, yozma nutqqa xoslangan.

Begim, garchi achchig‘lansangiz ham aytishga majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va‘da, vafo, yaxshiliqni bilish, boring-chi, o d a m g a r ch i l i k dan hech gap yo‘q emish. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. – *O d a m g a r ch i l i k ni ham biladi, bu tuz ko‘r qig‘ur! – dedi zaharxanda ichida tunqotar va xatni buklab yonig‘a soldi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Demak, unda i n s o n g a r ch i l i k, o‘z nomaqbul ishidan xijolat bo‘lish fazilati bor ekan.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Lekin bekorga xafa bo‘lmayapti-ku, deb o‘yladim: “Buxoroga kelsa-yu, uni men kutib olmasam. Axir i n s o n g a r ch i l i k bunday bo‘lmas…”*. N.Boqiy, Rohila.

O

ODAMOVI, YOVVOYI Odamlardan o‘zini olib qochadigan, odamlarga aralashmaydigan. Har ikkala so‘z keng qo‘llanadi. **Yovvoyi** so‘zida belgi darajasi **odamovi**ga nisbatan kuchliroq.

Qolaversa, ular o‘qituvchilarini sevadi, bu – bir qadar xo‘mraygan, og‘irkarvon va allanechuk o d a m o v i yigitni hurmat qilishadi. Sh.Xolmirzayev, Ot egasi. *Mayli, o‘rtoqlari hozir undan kulishsin, qizlar uni o d a m o v i, kekkaygan, deyishsin.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Egnida o‘sha kalta po‘stin, boshida baroq telpak. Qandaydir y o v v o y i bo‘lib turibdi, olomonga yopishmaydi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. – *Voy, tentag-ey, salom berishni esingdan chiqarib qo‘ydingmi? – Kabir kuldi. – Y o v v o y i -da, amakisi, y o v v o y i bu.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi.

ODAMOXUN, ODAMSHAVANDA, ODAMJON Odamning izzat-hurmatini joyiga qo‘yadigan, qadrlaydigan, odamgarchiligi bor. **Odamshavanda** hamda **odamoxun** so‘zlarida shinavandalik, kirishimlilik ta’kidi, **odamjon** so‘zida mehribonlik ta’kidi yetakchilik qiladi.

Mohruh esa, o‘ta xushmuomala, o d a m o x u n, kirishimli edi. S.Hidoyat, Obji xonim. *O‘zining qadrini biladigan, lekin kibri yo‘q, o d a m o x u n, shu o d a m o x u n ligida ham hamsuhbatini o‘ziga bo‘ysundiradigan nimadir kamtarligi bor edi.* A.A’zam, Ming o‘limdan qolib. *Omon bo‘lgur, o‘ziyam juda xushchaqchaq, o d a m o x u n-da. Ko‘rdingiz-ku, Temurjon, birpasda siz bilanam apoq-chapoq bo‘lib oldi…*O.Ergash, Shohsanam. *Xayriyat, Cho‘ntoqdan yigirma-o‘ttiz otni olib, o‘zlarining otlariga matab yetib kelgan manzillari – Soybo‘yining oqsoqoli o d a m sh a v a n d a chiqdi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Begovotliklar o d a m sh a v a n d a, xushmuomala, sodda-sofdil bo‘larkan.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Ne'mat qurmagur juda o d a m j o n nar-*

sa. Har gapiga maqol, matal qo‘shib gapiradi. U shundoq mehribon, shundoq mehribon... S.Ahmad, Mening do‘stim Babbayev! *Baraka topsin mirzam, o d a m-j o n-d a, o d a m j o n; bizdek faqirlar bilan ham og‘ayni, sizlar bilan ham shunday, barchaga barobar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

ODAT, RASM, TAOMIL, UDUM, URF, URF-ODAT, AN’ANA Jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, tartib-qoidalar. **Odat**, **rasm**, **urf-odat** so‘zlarining qo‘llanishi nutq uslublari jihatidan cheklanmagan. **Taomil, udum, urf, an’ana** so‘zlari badiiy va publitsistik uslublarda nisbatan ko‘proq qo‘llanadi. **Taomil** so‘zida kitobiylik bo‘yog‘i bor. **Urf-odat** so‘zida ma’no birmuncha kengaygan. **An’ana** so‘zida davom etib kelayotganlik ma’nosi ta’kid olgan.

Bu yerlarning o d a t i ga ko‘ra, chopar hammadan avval askar oilasiga xush-xabar yetkazishi... zarur. M.Baxtiy, Xubon. *Ertalab, o d a t bo‘yicha, Nuri to‘r ro‘mol yopinib, beshikdagi boladan to keksalarga qadar – hammaga salom qilar ekan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Xonadonda otaning gapi – gap, unga e’tiroz bildirish r a s m emas edi.* Q.Kenja, Toshqin. *Ularning r a s m i shunaqami, ishqilib, avval obdan g‘azal aytishdi, keyin ichkari kirishdi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Zohid qalin daftar ochib, t a o m i l ga ko‘ra Namozovni so‘roq qila boshladi.* T.Malik, Shaytanat. *Bu hukm garchi boshqa bir paytda qaror topgan t a o m i l mezoniga muvofiq kelmasa-da, shu tobda adolatli va insonparvar edi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Bosib olingan yer, uning har bir qarichigacha ulug‘ imperiya hisobiga darhol kirgizilishi shart, mustamlakachilarda t a o m i l shundoq edi.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Darvoqe, bu ishda, qo‘l sinsa – yeng ichida, degan t a o m i l ga amal qilganimiz ma’qul.* N.Norqobilov, Kurash. *Bu mo‘ylabli yigit qadim shohlarning faqat nazarinigina olgan, qolgan u d u m lardan “feodal sarqiti” sifatida voz kechgan deyish mumkin emas.* T.Malik, Shaytanat. *Bular o‘z oralarida allaqanday yo‘sinda rasm bo‘lgan u d u m ni bajo keltirishgan edi...* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Tabiiyki, o‘zbekning u r f iga ko‘ra, davolanayotgan odamning oldiga quruq qo‘l bilan borilmaydi*. N.Jabborov, Ibrat va hikmat dorilfununi. *O‘sha paytlardagi u r f ga ko‘ra, aravada umr yo‘ldoshining uyiga kelgan kelinni zavji ko‘tarib, yerga tushirmog‘i lozim edi*. Sh.Murodova, Ayolini kaftida ko‘targan adib. *...Bobur xolasi va qallig‘ini butun odamlari-yu ko‘ch-ko‘ronlari bilan birga qo‘riqlab olib ketmoqda edi. Faqat u r f-o d a t ni buzmaslik uchun kuyov bilan qalliq orasida besh-olti chaqirimlik masofa qoldirib, ikki to‘p bo‘lib bormoqda edilar.* P.Qodirov,Yulduzli tunlar. *“O‘tgan kunlar” romani bamisoli ulkan va tiniq ko‘zgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, u r f-o d a t lari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan tasvirlanadi.* B.Karim, “O‘tkan kunlar” ibrati. *Xalq nimasi bilan xalq? O‘zining urf-odatlari bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy a n’a n a lari bilan xalq!* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. – *Eski fikr, a n’a n a lar*

endi butkul uzildi. T.Malik, Shaytanat. *O‘z madaniyatimizning, urf-odatlarimizning unutilishiga, a n’ a n a larimizning buzilishiga, oyoqosti qilinishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi…* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar.

ODATLANMOQ, ODAT QILMOQ, O‘RGANMOQ Biror xatti-harakatni muntazam bajarishni odat tusiga kiritmoq. **Odat qilmoq odatlanmoq** va **o‘rganmoq** so‘zlariga nisbatan kam ishlatiladi.

Har gal kuzatganimdek, kostyumining pastki tugmasi qadalmagan – shunga o d a t l a n gandir. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Keksa kimsalarni nihoyatda hurmat qilishga o d a t l a n ganidanmi, darhol tugunli qo‘lini ko‘ksiga yaqinlashtirib salom berdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Hamshiralar norozi bo‘lavergach, karavotida shiftga tikilib yotishni o d a t q i l di.* T.Malik, Shaytanat. *Kishi bilan so‘zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to‘g‘ri, baquvvat o‘sgan soqolini tutamlab o‘ng ko‘zini biroz qisib qarar, o d a t q i l g‘andan bo‘lsa kerak, gap orasida “habba” degan so‘zni ko‘proq ishlatar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *... “Muhammad Solih” deb qo‘ygan ismini hali hech kim to‘liq aytmagan, “Muhammad Muso”ni “Matmusa”, “Muhammad Amin”ni “Madamin”, “Muhammad Rahim”ni “Marayim” deyishni o d a t q i l gan qishloq ahli “Mamasoli” deb chaqirganda u ajablanmas ham, ko‘ngli og‘rimas ham edi*. T.Malik, Xazonrezgi. *O‘ r g a n gan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas*. Maqol. *Ayni shu nuqtada farzand va ota-ona orasida kelishmovchilik, hatto kuchli ziddiyat paydo bo‘ladi. ...O‘smir o‘zini kamsitilgan hisoblaydi, ko‘ngli og‘riydi. Odob doirasidan uzoqlasha boshlaydi. Kattalarning illatlaridan nusxa ko‘chirishga urinadi (Chekishga yoki mayxo‘rlikka o ‘r g a nish bunga misoldir).* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li.

ODDIY, SODDA, ODMI, JO‘N, BEHASHAM, BEZAKSIZ Ko‘rinishi hashamdor emas, bezak berilmagan. **Oddiy, sodda, odmi, bezaksiz** so‘zlari keng qo‘llanadi. **Behasham** so‘zining ma’noviy tarkibida uslubiy belgi bor: mazkur so‘z yozma nutqqa oid uslublarga xoslangan. **Odmi** so‘zi, asosan, kiyim-kechakka nisbatan qo‘llanadi, so‘zlashuv tiliga xos.

Ikki ryumkadan so‘ng Po‘latga bu hashamatli restoran xuddi studentlar oshxonasidek o d d i y gina bo‘lib ko‘rina boshladi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Jihozlar s o d d a, ozoda va tartib bilan o‘rnatilgan, hech qanday ortiqcha narsa yo‘q*. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Egnidagi juda s o d d a, hatto faqirona, lekin toza kiyimi ham, boshidagi qunt bilan o‘ralgan kichkina oq sallasi ham juda yarashgan*. Oybek,Tanlangan asarlar. *Qator-qator soqchilar tekshiruvidan o‘tkazib, o d m i gina bir xonada tovarish Yak bizni biri-biridan ko‘hna ikki qariyaga ro‘para qildi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bekxo‘ja yosh olimning tartibsiz to‘zg‘ib turgan sochlari, egnidagi o d m i-gina kostyumiga istehzoli ko‘z yugurtib chiqqach, “erib turganimda opqolsang-chi”, degan ma’noda kiprik qoqib, muloyim jilmaydi.* A.Obidjon, Oltin

yurakli Avtobola. *Studentlar yotog‘idagi qizlar faqat uning kiyimlarini gapirishardi, gazetadan andaza qirqib, j o‘ n matolardan unikiga o‘xshagan ko‘ylak tikishardi.* S.Ahmad, Zumrad. *Shunday paytlarda bobosi… Ulug‘bek otga chaqqon minolmasa yo qilichbozlikda no‘noqlik qilsa darg‘azab bo‘lar, b e h a-sh a m po‘lat g‘ilofga solingan qilichini sug‘urib olardi-yu, ko‘zlari yonib, yonida kim tursa, shu bilan qilichbozlik qilib ketardi...* O.Yoqubov, Mirzo Ulug‘bek. *Ular b e h a sh a m mehmonxonaga kirdilar.* A.Suyunov, Yo‘qchi. *Sherxon shomiyona to‘ridagi baland shahnishinda chordana qurib sokin o‘ltiribdi. Kiyimlari b e z a k s i z odmi ipakdan, kichkina sallasiga ham gavhar yoki boshqa toshlar qadalmagan…* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Madrasa deyarli b e z a k s i z. Unda Qashqadaryo viloyati tarix-o‘lkashunoslik muzeyi joylashgan*. “O‘zME”.

ODOBLI, ADABLI, BOADAB, AXLOQLI, XUSHAXLOQ, TARBIYALI Xulq-odobi yaxshi, yaxshi tarbiya ko‘rgan. **Boadab, adabli, xushaxloq** so‘zlari badiiy va publitsistik uslublarda nisbatan ko‘proq qo‘llanadi. **Boadab**, odatda, kattalar nutqida ishlatiladi. **Xushaxloq** so‘zida ijobiylik bo‘yog‘i ushbu qatordagi boshqa sinonimlardagidan kuchliroq.

U yonimga yaqinlashsa bas, sinfdoshlarim, keyinroq borib esa, hatto maktabdoshlarim asta-sekin, sezdirmasdan, benihoya o d o b l i kishilarga xos tarzda bizni yolg‘iz qoldirishga urinishardi. N.Ismoilov, Kechir meni, Ra’no. *Kichik kelin o d o b l i, farosatli, odamning ichiga kirib ketay derdi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *O‘zingni hammaga sevdirishni istasang – fe’l-atvoringni tuzat, a d a b l i, tarbiyali bo‘l.* T.Malik, Odamiylik mulki. *A d a b l i, tarbiyali odam boshqalarga muhtoj bo‘lmas.*T.Malik, Husni xulq. *Bu yigitning b o a d a b bo‘lg‘onidan ham durust odam, deb o‘ylag‘on edim.* A.Qodiriy, Kalvak maxzumning xotira daftaridan. *Odamlarimiz juda b o a d a b, chiptasiz chiqqan bo‘lsa, chiptali joyga o‘tirmaydi…* A.A’zam, Avtobus. *Muxtorjon bitta bo‘lsayam o‘ntaga tatiydigan yigit chiqdi. A x l o q l i, odobli...* O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *Ota-ona bolani odobli, a x l o q l i qilib voyaga yetkazganlari uchungina olqishga sazovor bo‘ladilar.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Mutavoze’, x u sh a x l o q, birovga zarari yo‘q, o‘z maslagida sobitqadam bo‘lganlar.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Uning yozishicha, har bir ziyoli zohiriy ilmlar (dunyoviy fanlar) bilan birga, botiniy ilm (tasavvuf)ni ham egallashi lozim, bu uning fazl-u kamolini oshiradi, x u sh a x l o q, halim va odamshavanda bo‘lishga ko‘maklashadi.* N.Komilov, Tasavvuf. *Yigitning o‘zi ham nihoyatda xushmuomala... juda boadab, t a r b i y a l i, qo‘li ko‘kragidan tushmaydi.* A.A’zam, Noto‘g‘ri tush. *Go‘zal xulq va t a r b i y a l i onaning xislatlari, yaxshi fe’l-atvori farzandlarida ham namoyon bo‘ladi.* T.Malik, Odamiylik mulki.

ODOBSIZ, ADABSIZ, BEODOB, AXLOQSIZ, TARBIYASIZ Xulq-odobi yomon, yaxshi tarbiya ko‘rmagan. **Odobsiz**, **adabsiz, axloqsiz**, **tarbiyasiz**

so‘zlari keng qo‘llanadi. **Beadab, beodob** so‘zlari, asosan, yozma nutqqa xos. **Tarbiyasiz** so‘zi ma’nosidan salbiy munosabat anglashiladi. **Beodob** so‘zida kitobiylik bo‘yog‘i bor.

Aslini aytsam, yosh bolaligimdan beri kattalar farzandlarini ana shu yov bilan qo‘rqitishar, o d o b s i z bolalarni opketib qoladi deb tarbiya berishar edi. I.Sulton, Ozod. – *Erkin aka, siz meni o d o b s i z qiz deb o‘ylayapsizmi? – Xolida javdiragan ko‘zlarini ko‘zimga qadadi*. O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun. *Orif Oqsoqol bunaqa a d a b s i z “taka”larni tarbiyalagan ota-onasi bilan gaplashib, shunaqangi tanobini tortib qo‘yganki...* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Zo‘rlikka zo‘rakan-u, lekin juda tezob va b e o d o b ekan*. N.Norqobilov, G‘animlar. *Ul b e o d o b maktabdor bo‘lsa, hamma fuqaroning nazarida past va haqir ko‘rilgan edi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Agar inson go‘zal tarbiyaga musharraf bo‘lsa, butun umr baxtiyor bo‘lg‘usi, agar buzuq odatlarga o‘rgansa, a x l o q s i z, nomussiz, tanbal, insonlik turqini yo‘qotgan maxluq, ollodan qo‘rqmaydigan, shariatni hamisha oyoqosti qiladigan bo‘lur*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Nazarida, hamma unga qarayotgandek, “mana, mana, o‘sha a x l o q s i z!” deb barmog‘ini bigiz qilib ko‘rsatayotgandek edi*. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Endi, mana, tarbiyaning nimaligini o‘z tajribangiz bilan bilasiz. T a r b i y a s i z, ongsiz va nodon musulmon xotin bilan tarbiyalik madaniy ovro‘palikni solishtirib ko‘rasiz.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Forobiy yozadi: “Agar hokimlar t a r b i y a s i z bo‘lsalar, Aflotunning fikricha, u holda ularning ishlari ham, fuqarolarning ishlari ham inqirozga yuz tutadi”*. I.Sulton, Hazrati Majoz.

ODOBSIZLIK, ADABSIZLIK, BEODOBLIK, AXLOQSIZLIK, TARBIYASIZLIK Tarbiya ko‘rmaganlik; axloq-odob me’yorlariga muvofiq bo‘lmagan xatti-harakat, holat. **Odobsizlik**, **axloqsizlik**, **tarbiyasizlik** so‘zlari keng qo‘llanadi. **Adabsizlik**, **beadablik**, **beodoblik** so‘zlari, asosan, yozma nutqqa xos. **Beodoblik** so‘zida kitobiylik bo‘yog‘i bor.

Bunday o d o b s i z l i k dan g‘azablangan keksa sulton Iroq sari kelayotganini eshitgan Sulton Muhammad Mirzo darhol o‘ziga keldi, qilgan ishiga pushaymon bo‘lib, afv olishiga ko‘zi yetmay tog‘-u toshlarga qochdi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *...direktor bilan xayrlashib turgan odam “shap” etib qo‘limdan ushladi: – Menga qarang, yaxshi yigit, o d o b s i z l i k ham evi bilan-da!* O.Yoqubov, Muqaddas. *Safar bo‘zchi tunovi kungi a d a b s i z l i k ni taqsirimning ko‘nglidan chiqardim, deb mulla Abdurahmonning ko‘zini uchratishka va ozgina bo‘lsa ham taqsirimdan minnatdorchilik olishg‘a tirishar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Shu bois sudxo‘rlik, harom, zulm, ko‘pxudolilik, butparastlik, johillik, a d a b s i z l i k kabi illatlar yo‘l ahlini parokanda qilib tashlagan ekan.* U.Hamdam, Yo‘l. *Egasiz uyga kirishni b e o d o b l i k sanab, barchalari mashinada o‘tirdilar*. T.Malik, Shaytanat. *Eshik oldida sochlari to‘zg‘igan, ko‘ylak yoqasi*

yirtilgan o‘sha qiz qon-qon yig‘lab turar, nuqul: “Bu qandoq gap! Bu qandoq b e o d o b l i k!” der, boshqa so‘z aytgani o‘pkasini sira bosolmas edi. A.Qahhor, Muhabbat. *Buning uchun “Qo‘ynimda bir yor-u ko‘nglimda bir yor” deya odamzodning asl holini birgina misraga abadul-abad parchinlab tashlagan shoirga dilimiz jo‘r bo‘lsa-da, tilimiz uni a x l o q s i z l i k da ayblashdan charchamaydi*. U.Hamdam, Muvozanat. *Qayerdaki o‘sha parda olib tashlandimi, o‘sha yerda odobsizlik, a x l o q s i z l i k, hatto razolat yuz beradi*. O.Husanov, Ibn Sino visoli. *Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg‘on t a r b i y a s i z l i k va jaholatdir...* M.Behbudiy, Padarkush. *Talaba o‘qituvchisiga qarshi talab bilan chiqsa, bu sizlar uchun betgachoparlik, t a r b i y a s i z l i k hisoblanarkan*. T.Eshbek, To‘g‘ri gapning to‘qmog‘i.

ODOBSIZLIK QILMOQ, BEODOBLIK QILMOQ, AXLOQSIZLIK QILMOQ, **TARBIYASIZLIK QILMOQ** Axloq-odob me’yorlariga muvofiq bo‘lmagan xatti-harakatni amalga oshirmoq, o‘zini odobsizlarcha tutmoq. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlarning qo‘llanishi nutq uslublariga ko‘ra chegaralanmagan. **Axloqsizlik qilmoq** so‘zi ko‘pincha yozma nutqda qo‘llanadi.

Humoyun otasi oldida o d o b s i z l i k q i l ib qo‘yganday ko‘zlari javdirab: – Hazratim, – dedi, – afv eting, bemavrid o‘q otmishmen. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Men nima qildim, hazrati Xizr bovajonim? – dedi otamiz. – Qo‘l uzatib, o d o b s i z l i k q i l ding.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *O‘z navbatida, farzandingiz sizga qanday b e o d o b l i k q i l gan yoki alam o‘tkazgan bo‘lsa, u ham farzandidan shuni, albatta, topadi*. U.Alimov, Oilada farzand tarbiyasi. *Endi aksiga olib mudirning nima zarur gapi chiqib qoldi ekan? Kirmasinmi yo oldiga? Yo‘q, kirish kerak. Nima bo‘lganda ham kafedra mudiri.* (*Sa’dulla*) *Hozircha uning qo‘l ostida ishlab turibdi. B e o d o b l i k q i l sa – yaxshimas.* M.Hazratqulov, Chiroq o‘chmagan kecha. *Agar mazkur prokuror, aksincha, qonun himoyachisi degan nomi bo‘la turib, o‘zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo‘lida oqni qora, qorani oq deb tursa, u a x l o q s i z l i k q i l gan bo‘ladi: oddiy fuqaro nazdida birgina kishi – prokuror – amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uyg‘onadi.* A.Sher, Axloqshunoslik. *Bu yoqimsiz hodisani kuzatib ketayotgan yetti yoshli o‘g‘lim: “Ayajon, bu bola nega t a r b i y a s i z l i k q i l yapti, uydagilari, ustozlari o‘rgatmaganmi kattalarni hurmat qilishni...”, – deb qoldi.* L.Sayidova, Tafakkurni toraytiruvchi texnikalar.

OILA, XONADON, UY, RO‘ZG‘OR Er va xotin, ularning bolalari, kelini va nabiralari, eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar jamoasi. **Oila, xonadon** kitobiy uslublarda ko‘proq qo‘llanadi. **Uy**, **ro‘zg‘or** esa so‘zlashuv tilida nisbatan faol ishlatiladi. **Ro‘zg‘or** so‘zi oila va u bilan bog‘liq narsalarni umumlashtirgan holda ifodalaydi. **Xonadon, oila** so‘zlarida oila istiqomat qiluvchi joy ma’nosiga ham ishora bor.

Qutidor o i l a sida boshqa er zoti bo‘lmag‘anliqdan Oftob oyim qarindoshlaridan “jonkuyar” deb tanilg‘an kishi Kumushning tog‘asi Ahmadbek… edi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xullas, rashk mavjud, ammo xiyonatga begona o i l a sohibasi garchi Anvarga mehri bo‘lsa-da, chegaradan chiqa olmas edi.* T.Malik, Shaytanat. *Bu ixtiyoriy ravishdagi hozirlikdan so‘ng, “mamlakatimdagi har bir x o n a d o n bitta ketmon va bitta mardikor bersin!” deb istisnosiz umumiy bir farmon ham bo‘ldi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Ayol x o n a d o n ravnaqidir, chunki u oila a’zolarini tushunadi, oqilona ish olib boradi, har doim hayotning achchiq-chuchuklariga chidab yashaydi.* Gazetadan. *Yomon arava yo‘l buzar, Yomon kishi u y buzar*. Maqol. *– Opa, bu u y da boshqa ayolning yurishiga chidashim qiyin.* T.Malik, Talvasa. *Bo‘zchi belboqqa, temirchi taqaga yolchimas, deganlaridek, marhum dadasi ham, bor kuchini kolxozdagi qurilishlarga sarflab, o‘z r o‘ z g‘ o r iga deyarli qaramas edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Qo‘chqor. Endii, Alomatxon, mana shu r o‘ z g‘ o r ning og‘ir-yengili ikkovimizning bo‘ynimizda, xo‘pmi.* Sh.Boshbekov, Temir xotin.

O

OKEAN, UMMON Yerning materik va orollarni o‘rab turuvchi suv qobig‘i. Mazkur ikki so‘z, asosan, nutq uslublariga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra farqlanadi. **Okean** barcha uslublarda keng qo‘llanadi. **Ummon** badiiy va publitsistik uslublarga xos.

Gidrologik rejimning tabiiy-geografik xususiyatlariga ko‘ra, dunyo o k e a n i alohida o k e a n lar, dengizlar, qo‘ltiqlar, buxta va bo‘g‘ozlarga ajralib turadi. “O‘zME”. *O k e a n orqali telefon aloqasi o‘rnatildi, endi odamlar bemalol gaplashadi*. A.Muxtor, Tundaliklar. *U m m o n lar ko‘rinar qatra yosh misol, Chigit uvog‘icha kelmas tog‘lar ham.* A.Oripov, Ona sayyora. *Mashriq mamlakatlaridan birida hududsiz u m m o n lar orasida mo‘jazgina bir orolda... mo‘jiza bir daraxt o‘sarmish.* O.Yoqubov, Ko‘hna dunyo. *Daryodan daryoni talab aylagil Va lekin hech qachon u m m o n ni kutma.* A.Oripov, Donishmand deydiki...

OLA, OLA-BULA, OLA-QURA, OLABAYROQ, OLATAROQ, OLAPES Oq va boshqa har xil rang aralash tusli. **Ola-bula** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos. **Ola-qura** kam qo‘llanadi. **Olabayroq, olataroq, olapes** so‘zlarida belgi darajasi kuchli ifodalangan. **Olabayroq** so‘zining ma’no tarkibida “yo‘l-yo‘l” va “katak-katak”; **olataroq** so‘zida “rango-rang”; **olapes** so‘zida “yangiligidagi tusi qochgan” ma’no qirrasi bor. Shuningdek, **olapes** so‘zida salbiy munosabat ham anglashiladi.

Qobil bobo ro‘para bo‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi. – Ha, sigir, yo‘qoldimi? – Yo‘q... sigir emas, ho‘kiz, o l a ho‘kiz edi. – Ho‘kizmi?.. Ho‘kiz ekan-da! Himm... O l a ho‘kiz? Tavba!.. A.Qahhor, O‘g‘ri. *Oyoqlariga qizil botinka, ustiga ko‘k ishton-ko‘ylak, boshiga eski o l a do‘ppi kiyib olgan uch yashar nevara, hammadan oldin o‘rnidan turib,*

ayvonga chiqadi. T.Murod, Bobosi bilan nevarasi. *Tandir tagida uch-to‘rtta chumchuq ovqat qidirib sakrar, tumshuqlari bilan qor ostida o l a-b u l a ko‘ringan yerni titkilar edi.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Ana, bo‘ynini o l a-b u l a sharf bilan o‘rab olgan qizaloq, ukasi bo‘lsa kerak, besh-olti yoshlardagi bolakayni chanaga o‘tqazdi-da, tepalikdan itarib yubordi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Tong azon bo‘lishiga qaramasdan, bir to‘da och o l a-q u r a itlarni ergashtirib, eski Kappon tomondan Malla jinni javrab kelar edi*. G‘.G‘ulom, Shum bola. *Oldindagi mashinada lunjini shishirib surnay chalayotgan surnaychining yonida turib, beo‘xshov o‘yinga tushayotgan o l a b a y r o q to‘n kiygan bir kishiga ko‘zim tushdi, sinchiklab qarasam – mehmon!* A.Qahhor, Dumli odamlar. *U jiyakli o l a b a y r o q ipak to‘nining etaklarini tizzalari orasiga olib, po‘stak ustiga yonboshlagan mehmonning tomirini ushlab, shiftga qaradi…* M.Osim, Ibn Sino qissasi. *Temiryo‘lchi o‘likning o l a t a r o q yuziga, tizzasigacha ko‘tarilgan no‘xat gulli yupqa ko‘ylagiga… tikilar ekan, hech narsa tushunmasdi*. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. (*Sobir chinorga:*) – *Odamlar ko‘rsin seni ham. Ranging kirib qoldi, o l a t a r o q barglaringga qon yugurdi.* O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Mana, Haqberdi, Tangir, Hasanboy, Suvon, ko‘k bo‘yog‘i o l a p e s to‘rtta karavot, liqilloq-omonat stol...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *“...no‘l to‘qqiz”ining oldida turgan pistoqi “no‘l olti”, uning orqasidagi “Moskvich”ga taqalgan malla “no‘l bir”, undan keyingi surmarang “no‘l to‘rt”, uning orqasidagi asli surrang bo‘lib, hozir o l a p e s boylagan, ustiga butunicha temir panjara qotirilib, uch tonnani miq etmay ko‘taradigan yukkash “GAZ–yigirma bir” ham javob kutayotgandek tuyuldi.* A.A’zam, Tiqin.

OLD(IDA), HUZUR(IDA), YON(IDA), QOSH(IDA) Biror kimsa yoki narsaga juda yaqin joy. Qatordagi so‘zlar mazkur ma’noda kelganida, egalik qo‘shimchasi va makon-zamon kelishiklarini olgan bo‘ladi. **Old(ida), yon(ida)** keng qo‘llanadi. **Oldida, huzurida, qoshida** so‘zlarida yuzma-yuzlik, **yonida** so‘zida yonma-yonlik ta’kidi anglanadi. **Huzur(ida)** so‘zida biroz rasmiylik belgisi bor, kitobiy. **Qosh(ida)** so‘zida rasmiylik belgisi yo‘q, badiiy uslubga xoslangan.

Juvon deraza o l d i d a muztargina turibdi. U.Ali, Ikki qutb. *U ko‘cha eshik o l d i d a to‘xtagan yap-yangi “Volga” mashinasining yonida xayol surgandek qimirlamay turardi.* O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun. *Ismoil polvon bir-ikki qadam tashlab, olov o l d i d a to‘xtadi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Sen chindan ham go‘zalsan, H u z u r ingga keldim bot.* A.Oripov, “Noma’lum qiz” suratiga. *Bek h u z u r i da hisob berguvchi bir mo‘min kabi qo‘llarini tizzasiga qo‘yib, nihoyat, to‘rga qarashga jur’at etdi...* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *U eshikning ham ikki y o n i d a soqchilar turishar – ikkitasi choponli, ikkitasi sallali edi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Zohid Sharipov*

prokuratura joylashgan imoratning ro‘parasidagi katta chinor y o n i d a turgan ayolni darrov tanidi. T.Malik, Shaytanat. *Asqar ota erkaklar q o sh i d a ko‘p muhtaram xotinlarni ko‘rgan, lekin bularning ko‘pchiligi rais, mudir, direktor deganday rahbarlik o‘rnidagi xotinlar edi.* A.Qahhor, Dahshat. *Uch oydan beri Anvar q o sh i d a – o‘z huzurida mirzoliq qilib kelar va ikkinchi oydan besh tilloliq mohonaga ham yozilg‘an edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

OLDINGA, ILGARI, OLG‘A Old tomonga. **Ilgari** so‘zi mazkur ma’noda **oldinga** va **olg‘a** so‘zlariga nisbatan kam qo‘llanadi. **Olg‘a** kitobiy. Mazkur so‘zda harakatning old tomonga yo‘nalganligi ma’no ta’kidi **oldinga**, **ilgari** so‘zlaridagiga nisbatan kuchliroq.

Shu holda kemalar tun qorong‘iligini panoh etib, o l d i n g a suzib borishardi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Boshqa hamma narsani bosib-yanchib o‘tish mumkin, faqat o l d i n g a, maqsad sari intilish zarur.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Qudrat bilan G‘ulomjon ham bir necha odim i l g a r i yurdi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *O‘lgan, yarador bo‘lganlarga qaramay, qo‘zg‘olonchilar katta suron bilan i l g a r i otilib, toshbo‘ronni kuchaytirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qo‘rg‘on ustida yasov tortgan qahramonlar qo‘l bog‘lab, ikki bukilgansimon ta’zim bilan Azizbekni i l g a r i ga o‘tkaza boshladilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U allanechuk bo‘lib orqaga tortildi-da, yana o l g‘ a intildi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Biz tushgan “Neksiya” dala yo‘lining tanobini tortib o l g‘ a intiladi.* M.Ahmad, Faoliyat odami.

OLIFTA, FASON (POSON), BASHANG, PO‘RIM, SATANG Pardoz-andozga, kiyinishga, o‘zining tashqi ko‘rinishiga zeb beruvchi. **Bashang** so‘zida belgi darajasi kuchli. **Po‘rim, satang, poson** so‘zlashuv nutqiga xos. **Satang, poson, olifta** so‘zlaridan so‘zlovchining salbiy munosabati anglashiladi. **Po‘rim** so‘zida kiyimning hashamdorligi ta’kidi mavjud.

Esiga tushdi: o l i f t a Ma’sumov faqat ma’danli suv ichardi. M.Mansur, Judolik diyori. *Alanglab xizmat qilib yurgan laganbardorlarga, ko‘rinishlaridan ma’muriyat xodimlariga o‘xshagan o l i f t a kishilarga umid bilan qaradim, hatto, ikki-uchtasining oldigayam bordim...* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Sirasini aytganda, amakisi bashorat qilganday, poytaxtda, institutlarda f a s o n yuradigan har-har qizlarni ko‘rib ko‘nglida andak taraddudlanish, yangi hayajonlar tug‘ilgan bo‘lishi ham ehtimoldan uzoq emasdi.* Q.Kenja, Toshqin. *Katta shahardan kelishgan bu odamlar juda g‘alati tuyular, dam hurkak qishloq qizlarini suratga olib, dam “Tarzan” bo‘lib daraxt shoxlarida uchib yuradigan xushsurat “p o s o n” yigitcha esa bir yuragini jizillatar, bir cho‘chitar edi.* O.Yoqubov, Matluba. *Ikki chetiga xonaki archalar ekilgan yo‘lkadan ola xalat kiygan bemorlar, b a sh a ng kiyingan kishilar tinmay o‘tishadi.* O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *Eshikdan birin-ketin ikki kishi kirdi. Oldingisi b a sh a ng kiyingan edi: boshida chaqmoq telpak, egnida adras to‘n.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Unda*

manavi mishiqi p o ‘ r i m onasi qornida yo bor edi, yo yo‘q edi. T.Murod, Momo Yer qo‘shig‘i. *Hali gap avvalida ta’kidlaganimdek, do‘stimiz ishga p o ‘ r i m borib, p o ‘ r i m qaytadi.* L.Bo‘rixon, Ota va oila. *Mahalla-yurt deb kimni aytyapsan? Og‘ziga kuchi yetmagan uch-to‘rtta s a t a ng laringnimi?* O.Yoqubov, Billur qandillar. *– S a t a ng sovuqda o‘ladi? – dedi yana po‘ngillab Turkon xotun, – katta xotiningizga Badaxshondan keltirilgan la’lni beribsiz, hammaga ko‘z-ko‘z qilibdi.* Mirmuhsin, Temur Malik.

OLIY, YUQORI, YUKSAK, A’LO Baholanish nuqtayi nazaridan eng yuqori darajada bo‘lgan. **Yuksak** so‘zi kitobiy uslubga xos, yuqori so‘ziga nisbatan belgini kuchli ifodalaydi. **A’lo** so‘zida eng oliylik ta’kidi mavjud. Shu bois bu so‘zda ham belgi darajasi nisbatan kuchli.

– O l i y iltifotingizdan va marhamatingizdan umid shuki, – dedi mavlono Alishoh. – Xazinachilar olti oylik maoshimni birdaniga bersalar... I.Sulton, Alisher Navoiy. *Lekin shuni ham ta’kidlab qo‘yaman, bo‘lar-bo‘lmasga jang qilmaslik kerak, o l i y niyatlar uchun, yuksak maqsadlar uchun kurashgan inson o‘zi ham o l i y, hayoti ham mazmundor bo‘ladi...* X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. *Uning zehniga y u q o r i baho bergan edi, ammo bu darajada bo‘lishni kutmovdi.* T.Malik, Savohil. *Nuroniy Hoziq to‘raning “Qadrdonimiz, bizning Botur”, deya eslashi Sultonmurodga berilgan y u k s a k bahodir.* M.Mansur, Judolik diyori. *O‘ylab qarasangiz, juda qiziq, shuncha bochka bor, ichi to‘la bo‘yoq, bo‘yoq bo‘lganda ham a’ l o navli, juda zo‘r bo‘yoq, hazilakam pulga kelmagan, lekin egasi yo‘q.* A.A’zam, Hali hayot bor. *Menga diyor berding, ko‘rk-u latofat, Husn-u malohatda tengi yo‘q, a’ l o.* E.Vohidov, Saylanma.

OLTIN, TILLA, ZAR Tabiatda tabiiy ravishda uchraydigan sariq-qizg‘ish tusli qimmqtbaho metall. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **olin** va **tilla** so‘zlari nisbatan faol qo‘llanadi, badiiy va so‘zlashuv uslublarida **tilla** so‘zining **tillo** varianti ham uchraydi. **Zar** so‘zi kitobiy uslubga xos.

– Faqir kishi uchun bir o l t i n tanga – xazina, – dedi Eshonxon va cholning hamyonini bir daf’a to‘ldirmoq, qizga bir necha qat asil sarpolar tayyorlamoq lozimligini aytdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Sabohat maktabni tugatib, ToshMIga kirib keldi. A’lochi. O l t i n medal oldi.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Gilos shoxlari orasidan yana o‘sha sirli bog‘ namoyon bo‘lgan edi... Qopqalari t i l l a dan, tutqichlari marvaridan...* I.Sulton, Bogi Eram. *Odam qalbini xuddi qo‘lida t i l l a zanjir o‘ynagandek o‘ynamadimi?* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Zar qadrini zargar biladi.* Maqol. *Norga ortinglar z a r ingni, Xotin, bola-chaqalaringni.* “Yusuf va Ahmad”.

OLXO‘RI, OLU, OLHIROT, QORAOLI (QAROLI), GURDOLI, G‘AYNOLI Ra’noguldoshlar oilasiga mansub, shirali mevasi qoramtir-siyohrang, to‘q qizil ranglarda bo‘ladigan daraxt. **Olu, olhirot, qoraoli, gurdoli, g‘aynoli** shevalarda va xalq tilida ishlatiladi hamda adabiy tilda **olxo‘ri**ga nisbatan kamroq qo‘llanadi.

Zaynab xola o l x o ‘ r i ga o‘ch edi. O‘.Umarbekov, Kimning tashvish yo‘q. *Yoqut ularning oldiga bir tarelkada yangi o l x o ‘ r i bilan choy olib kelib qo‘ydi…* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Kichikroq o l x o ‘ r i qoqisidek qop-qora tumshug‘i bo‘lmasa kuchukchani bir hovuch paxta deb o‘ylash mumkin edi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Olxo‘rini kimdir o l u deydi, yana kimlardir o l h i - r o t yo g‘aynoli deydi.* M.Yo‘ldoshev, Gurdoli. *Baland-baland so‘qir paxsa devorlar osha, ko‘cha tomonga shaftoli, o l h i r o t, ba‘zan aymoqi tog‘uzumlar osilib tushgan.* G‘.G‘ulom, Yodgor. *Bir gektarcha keladigan uzumzor, atrofida turfa daraxtlar: olma, o‘rik, yong‘oq, shaftoli, olcha, q a r o l i...* M.Hazratqulov, Ta’til kunlari. *Buni* (*olxo‘rini*) *qirg‘izlar qora o‘rik deyishardi. ...Samarqand tomonlarda q a r o l i deyishadi…* M.Yo‘ldoshev, Gurdoli. *Q o r a o l u ning bahosi ko‘tarilib, soyasida qolib ketarlaridin hamiyatlari lat yeb, bo‘stonda g‘ovur qo‘pturubdurlar*. B.M.Ali, Ko‘kto‘nlilar. *Onam rahmatli Buxorodan edi. G u r d o l i derdi olxo‘rini.* M.Yo‘ldoshev, Gurdoli. *Dasturxonning mehmon o‘tirgan tarafida pista-yu bodom, olma-yu anor po‘choqlari, o‘rik-u shaftoli, gilos-u g‘ a y n o l i danaklari, uzum-u tarvuz urug‘lari, behi-yu nok qoldiqlaridan yangi “Oloy tog‘ tizmasi” paydo bo‘la bordi.* A.Obidjon, Oltin vasvasasi. *Shaftoli shoxiga zar, alla, G‘ a y n o l i bargiga zar, alla. Men dadangga intizor, alla, Ko‘z tikarman beqaror, alla.* “Allalar”.

ONA, ENA, OYI, OPA, AYA, VOLIDA, BUVI, MOMO Farzand ko‘rgan, farzandlari bo‘lgan ayol. **Ona**, **volida** so‘zlari kitobiy uslublarda faol qo‘llanadi. **Volida** so‘zida eskilik bo‘yog‘i bor, shuningdek, ijobiy munosabat aks etgan. **Ena, opa, buvi, aya** so‘zlari shevalarda qo‘llanadi. **Oyi**, **opa**, **ena**, **buvi, aya** so‘zlari so‘zlashuv nutqida onaga nisbatan murojaat birligi sifatida faol qo‘llanadi. Bu vazifada **ona** so‘zi ayrim shevalardagina ishlatiladi.

O n a qaddini g‘oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi. O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *– Oyingniki, – dedi Nazir ota eslab. – Yo‘qolib ketgan, deb yuruvdim men. Sen tug‘ilgandan beri taqmasdi, – u “o n a ng vafot etgandan beri” deb aytolmadi, tili bormadi.* O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *E n a, men sezib turibman, bu g‘oz qaytmaydi. Menga boshqa g‘ozning nima keragi bor?* U.A’zim, G‘oz. *Xayriniso e n a sining uyidan ko‘ngli cho‘kib, qaddi bukilib qaytadi. Qir etagidagi o‘z uyiga kelguncha boshida turfa xayollar aylanadi*. Q.Norqobil, Osmon ostidagi sir. *Men o p a m ni yaxshi ko‘raman, juda, juda ham yaxshi ko‘raman, hecham xafa qilmasam, hecham yig‘latmasam deyman. O p a m ham meni yaxshi ko‘radi: “Xayriyatam esim yo‘g‘ida seni tug‘ib olgan ekanman, bo‘lmasa, ahvolim nima kechardi,” – deb, erkalatgani-erkalatgan*. X.To‘xtaboyev, Besh bolali yigitcha. *Bu dunyoda o p a ngchalik senga mehribon, yaqin, aziz, sendan jonini ham ayamaydigan odam yo‘q. Birga bo‘l. Yolg‘izlatib qo‘yma. Asra.* O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *Bo‘ldi, bo‘ldi,*

o y i, bilaman, – deya Abdulla bu mavzuga nuqta qo‘ymoqchi bo‘ldi bu safar. G.Mamarasulova, Pariro‘y. *– Orif yo‘q, – dedi o y i si, – magazin tomonga ketuvdi*. X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. *U sapchib o‘rnidan turdi. Ko‘cha eshigiga tolpinganda a y a si yo‘lini to‘sdi.* S.Ahmad, Seni izlab. *Kampir beso‘naqay harakatlanib yerga cho‘kkaladi. Itoatkorligi ham a y a siga o‘xsharkan. Balki, chindan a y a s idir.* Y.Akramova, Oq bulutga o‘ralgan gunoh. *V o l i d a ngiz tayinlab yubordilar. Darhol Andijon qo‘rg‘oniga borib, beklarni to‘plamoq kerak.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Men o‘zimni dunyoga keltirgan, oq sut bergan, mudom oq yuvib-oq taragan v o l i d a m bilan – dunyodagi eng aziz, eng mehribon kishim bilan mana shunday vaziyatda abadulabadga vidolashdim.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *– Qo‘ying, b u v i, xafa bo‘lmang, – dedi G‘ulomjon onasini ichkariga yetaklab.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Ko‘p ertak eshitgandim, So‘ylab berardi b u v i m*. H.Olimjon, Oygul bilan Baxtiyor. *Biz Tanbal tufayli shuncha jabr ko‘rdik, ikki yil sargardon bo‘ldik, xon tog‘amiz bizga bironta ham navkarini yordamga yubormadi. ...Buni qanday tushunmoq kerak, hazrat m o m o jon? Qani bu yerda adolat?! Qutlug‘ Nigor xonim xon og‘asining qilmishidan xijolat bo‘lib yerga qaradi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *...Anovu yerda bir xotin ming‘irlagani ming‘irlagan. Kim u o‘zi? O‘sarning ham ko‘ziga yosh keldi. – M o m o jon, axir u – kelinингiz-ku! – dedi. – Sizdi onasiday ko‘radi...* Sh.Xolmirzayev, Qadimda bo‘lgan ekan.

OPA, EGACHI Bir ota-onadan tug‘ilgan bolalar ichida o‘zidan kichik qiz farzand yoki o‘g‘il farzandga nisbatan katta qiz. **Opa** so‘zi keng qo‘llanadi. **Egachi**, asosan, singilga nisbatan katta qiz farzand, tarixan va ayrim shevalarda esa ukaga nisbatan katta qiz farzand ma’nosida ham qo‘llanadi.

Hojar yuzi lo‘ppi, Normatning o p a lariga tortgan, do‘mboq, to‘ladan kelgan qiz edi. N.Eshonqul, Urush odamlari. *Xoh ishoning, xoh ishonmang, yo‘qlab kelgan yigit bezot-bebaqo Qulovning tus jiyani bo‘lib chiqdi, qondosh-qorindosh o p a sining o‘g‘li!* E. A’zam, Arbob Qulov Parijga boradi. *Zaynab e g a ch i si Xushro‘ydan yetti yosh chamasi kichik edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Marvdagi voqealarni Qunduzda turib eshitgan Bobur Shoh Ismoilga maxsus maktub yo‘llab ... xon haramidagi e g a ch i si Xonzoda begimni beshikast Qunduzga jo‘natib yuborishni iltimos qilgan edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

OQ, OPPOQ, OQPAR, BO‘Z, BO‘ZRANG, SUTRANG, BAYZO, BAYOZ Qor, sut, paxta rangidagi, qoraning zidi. **Oqpar** so‘zi oqish, oqqa moyil rangga nisbatan qo‘llanib, belgini kuchsiz tarzda ifodalaydi. **Bayzo** kam qo‘llanadi va badiiy nutqqa xos. **Sutrang** so‘zi badiiy va so‘zlashuv uslublariga xos. **Oppoq** va **bayzo** so‘zlarida belgi darajasi **oq** so‘zidagidan kuchli. **Bo‘z** so‘zi, asosan, ko‘kka moyil oq tusni bildiradi. **Bo‘zrang** ham oqish-ko‘kish rangga nisbatan ishlatiladi. **Bayoz** so‘zi eskirgan, kam qo‘llanadi.

Daraxtzorning ichkarisida o q imorat ko‘rinadi, yonida yana nimadir qurilayotir. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Diqqat-e‘tiborlari dala o‘rtasidagi o q bayroqda. Uzoqdan u tayoqqa tirkab qo‘yilgan o q matoga o‘xshaydi.* I.Abdiyev, Oqqush. *Negadir bari bir xil muddatda bino etilmish son-sanoqsiz o p p o q qasr-u saroylar, ko‘rkam bog‘-u keng-keng sayilgoh maydonlar, necha yilda qurib bitkazilishi, afsus, esimda yo‘q, lekin shaklan bir-birini aslo takrorlamaydigan… alomat musofirxonalar!* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Ertasiga ertalab odamlar uyg‘onganlaridan so‘ng tashqariga chiqib, hayrat bilan uzoq-uzoqlarga boqdilar: hammayoq o p p o q qor edi, go‘yo butun dunyo o p p o q edi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Ba’zan uyqu uni o‘zining sirli domiga shunchalik chuqur tortib ketardiki, hatto nafas olayotgani ham sezilmay qolar, chippa yumilgan ko‘zlari va ifodasiz tusga kirgan o q p a r yuziga tikilib turib, kishi daf’atan noxush va sovuq o‘yga borganini sezmay qolar edi.* Sh.Hamro, Qaqnus qanotidagi umr. *Oq, o q p a r kunduzlar qorong‘i bo‘ldi, Shamollar xor-xasni otdi yuzlarga.* A.Suyun, Olis tonglar. *Bobur b o‘ z otni choptirib borib, navkarga yetganda oyoqlarini uzangidan bo‘shatdi, qamchini tishiga oldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Birodarlar, b o‘ z ot qanday bo‘ladi?* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Tutzorning narigi tomonida b o‘ z r a ng bir uzun imorat ko‘rinardi.* Sh.Xolmirzayev, O‘zbeklar. *Mashina qattiq siltanib, o‘rnidan jildi. Uning izidan ko‘tarilgan b o‘ z r a ng chang tun bo‘lsa-da, negadir aniq ko‘rinardi...* N.Jaloliddin, Dayus. *U birinchi marta qishloqqa s u t r a ng “Volga”da kirib kelganida, har turli mish-mishlar tarqadi.* X.Sultonov, G‘ulomgardish. *Eshikning s u t r a ng, bujur oynasi orqali Azizning sharpasi ko‘rinardi.* A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Havoda “Ollohu akbar” degan sas yangraganda gumbazli bino tepasiga bordi-da, bir charx urib, so‘ng yengil harakat bilan boyagi b a y z o mashina ketgan yoqqa yeldi...* U.Hamdam, Musulmon. *Subhi b a y z o dek gul uzra Shomi savdo tusli barg.* E.Vohidov, Barg. *Ko‘z firoqingda oqardi-yu sirishki qurudi, Yomg‘uri bo‘lmas, agar ayni b a y o z o‘ldi bulut.* A. Navoiy, Ey ko‘ngul...

OQARMOQ I, **BO‘ZARMOQ, GEZARMOQ** Qoni qochib, rangi o‘chmoq (yuz haqida). **Oqarmoq** va **bo‘zarmoq** nutqda keng qo‘llanadi. **Bo‘zarmoq** so‘zida holat darajasi **oqarmoq**qa nisbatan kuchli ifodalanadi. **Gezarmoq** so‘zida tabiiy rangini yo‘qotish belgisi **bo‘zarmoq** so‘ziga qaraganda ham ortiq darajada ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvda lab va yuzga nisbatan faol ishlatiladi.

Meni hamma yukchilar qurshab oldi. O q a r ib, qaltirab ketdim: ularning menga tikilishi shunday qo‘rqinchli edi. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Oychechakning rangi o q a r ib “darvish”ga qaradi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Choyxonachi angrayib qoldi. Yuzlari b o‘ z a r di.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Qizardi, b o‘ z a r di va shunday bir qarash qildiki, mulla Nusrat qo‘rqib ketdi.* S.Nazar, Yashil boylik. *Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha,*

o‘zini onasining quchog‘iga otdi. – Oyijon, oching ko‘zingizni! – dedi u g e z a r ib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o‘pib. O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Isoq domlaning rang-quti g e z a r gandan g e z a r di-yu, o‘sha zahoti hushyor tortdi, bir yumalab o‘zining olim-u ulamo ekanligi yodiga tushib qoldi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz.

OQARMOQ II, **O‘NGIMOQ** Tashqi ta’sirlar natijasida rangi o‘chib, oqish tusga kirmoq, rangi xiralashmoq. **Oqarmoq** va **o‘ngimoq** nutqda faol qo‘llanadi.

Boltaboy ota o‘g‘illaridan kelgan xatni yuvilaverib o q a r ib ketgan ko‘k satin belbog‘iga tugib yuradi. S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *E, qo‘ying, sun’iy charm yozda – oftobda o q a r ib, qishda namdan shalvirab qoladi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *To‘nini yechib, astarini ag‘dardi-da, qatlab ustiga o‘tirib oldi, kashtalari o‘ ng i b ketgan belbog‘ining uchini terlagan peshonasiga bosdi*. M.Safarov, Ayrishox. *Qo‘lingiz pul ko‘rsa, manavinaqa tiviti to‘kilgan kamzir, guli o‘ ng i b ketgan ro‘molda yurishdan qutulasiz, andak odambashara bo‘lasiz.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?

ORIQ, OZG‘IN, QILTIRIQ, DIRDOV, IPILTIRIQ, RAMAQIJON, QOQSUYAK, LOG‘AR Eti qochgan, vazni me’yordan kam. **Oriq** so‘zi odam va hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi. **Ozg‘in** va **ramaqijon**, asosan, odamga nisbatan qo‘llanadi. **Dirdov** ot, qo‘y, buzoq kabi hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi. **Ipiltiriq** odam bilan birga o‘simliklarga nisbatan ham qo‘llanadi. **Qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon** so‘zlarida oriqlik belgisi kuchli. **Ramaqijon** so‘zida mazkur ma’no obrazli tarzda ifodalanib, holdan toyganlik ma’nosi kuchli ta’kid olgan. **Qoqsuyak** so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Dirdov, ipiltiriq, ramaqijon** so‘zlarida so‘zlovchining kamsitishdan iborat shaxsiy munosabati anglashiladi. **Log‘ar** eskirgan.

Bu tashlandiq qo‘radagi qarovsiz o r i q otlar orasida otasining Chopdor va Chontor degan otlari ham yurar edi. U.Hamdam, Ko‘zini ochib yumgan odam. *Kecha ov qilib yursam, ulardan ikkitasi qarshimdan chiqib qoldi: bittasi vajavang semiz, boshqasi chakachak o r i q.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Eshik oldida qotgan o‘rta yosh, o z g‘ i n, novcha kishi yarim o‘girilib, yonidagi xotinini tashqariga chiqartirdi.* O.Muxtor, Mezon. *Kampirning ketidan o‘rta yashar o z g‘ i n bir erkak yugurib chiqdi-yu, otliqlarni ko‘rib, qo‘rqqanidan bir lahza ag‘rayib turib qoldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Go‘dakligida to‘yib ovqat yemagan o‘g‘il bolalar katta bo‘lganda nimjon, q i l t i r i q, lanj, og‘ir ishga yaramaydigan bo‘lib qoladi, deganding.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Hamon bidillayotgan Bonu, yaltiroq tuflisini silkitayotgan q i l t i r i q xotin, kostyumining qo‘yni do‘ppayib turgan yana allaqanday odamlar oldidan o‘tguncha nafasi qaytib ketdi.* O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *Ha, ishlab nima ham topardi. Yarim oylik moyanasiga sakkizta d i r d o v qo‘y ham kelmaydi.* S.Ahmad, Gap. *Bunaqa d i r d o v larning tog‘ tugul, oddiy yo‘lda ham dadil yurishiga*

ishonch yo‘q. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Yenglari tirsakka qadar shimarilib, ariq bo‘yiga cho‘nqaygan Mirzaxo‘ja hojimning xayoli qirg‘oqdagi maysalar-u sambitgullarning oqish i p i l t i r i q ildizchalarini o‘pib o‘ynoqlagan suv ham qolib, tamomi bo‘lak narsaga qochgan edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Qishdan r a m a q i j o n bo‘lib chiqqan dehqon sho‘rlikda don qoptimi?* I.Rahmon, Kelin. *Ayniqsa, qo‘llari ajoyib ekan, bilagi uzun, ammo kafti juda kalta, barmoqlari r a m a q i j o n.* N.Jo‘rayev, Kibor yoxud ikkinchi qiyofa. *Chol esa terisi halviragan oq badanini q o q s u y a k barmoqlari bilan qashlab, silab-siypalab yana qihqihlaydi.* N.Norqobilov, Ayriliq quvonchi. *Bir haftaning nari-berisida birdan et tashlab, q o q s u y a k bo‘lib qolgan Tamara xola isitma va og‘riq zo‘ridan butun vujudi qurib-qovjirab, kundan kun so‘lib borayotgan bo‘lsa-da, tezda tuzalib ketishiga butkul ishonardi.* Z.Qurolboy qizi, Yolg‘izlik qurboni. *Yopirilib pashsha, chivin, tirnadi l o g‘ a r badaning. Qimir etarga holing yo‘q, yelpig‘ich duming, sigirim.* “Mushtum”.

ORQA, KET, ORT Odam yoki narsaning yuz, bet, old tomoniga qarama-qarshi bo‘lgan tomoni. Bu so‘zlar mazkur ma’noda kelganida, egalik qo‘shimchalari va makon-zamon kelishiklari bilan turlanadi. **Orqa** so‘zi keng qo‘llanadi. **Ket** so‘zi so‘zlashuv tilida faol ishlatiladi. **Ort** so‘zi kitobiy uslubga xos.

O

Yo‘q, avval menga bir aytib qo‘ying, qachongacha boladek o r q a mdan ergashib yurasiz! Dastingizdan na kurortga borolaman, na qurultoyga. S.Ahmad, Suyanchiq. *Bu jangchi, qahramon otning qabri. U frontda yaralangan egasini olib ketayotgan sanitar vagoni o r q a sidan yugurib, poyezd tezlab ketganda yetolmay, yo‘lda qolib ketgan*. S.Ahmad, Ot bilan suhbat. *Qobil bobo, qo‘l qovushtirib, uning k e t i dan yurar va yig‘lar edi.* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Shu payt eshik taraqlab ochiladi, qopini sudrab, jahl bilan Sulaymon ota kiradi. K e t idan hovliqib sekretar kiradi.* O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Dadamning o r t idan saf tortib, qo‘ng‘iroq ovoziga quloq solganimizcha buloq bo‘yidagi tog‘olcha ostidan o‘tib borayotgan paytimizda “zuvv” etgan tovush eshitilib qoldi.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *– O‘zi “onang buzuq”, dedi, masxara qildi, – dedi Xolmat onasining o r t idan yig‘lab...* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Qaramayman o r t ingdan men ham, Tezroq bundan ketmoq tilagim.* M.Yusuf, G‘urur.

ORTIQ, OSHIQ, ZIYOD(A) Muayyan miqdordan yoki me’yordan ko‘p. **Ortiq, oshiq** so‘zlari **ziyod(a)** so‘ziga nisbatan faol qo‘llanadi. **Ziyod(a)** so‘zida kitobiylik aniq sezilib turadi. **Oshiq va ziyod(a)** so‘zlarini har doim ham **ortiq** so‘zi o‘rnida qo‘llab bo‘lmaydi.

Bunda ikki yuzdan o r t i q bola dam oladi. Biri cho‘milib shamollasa, boshqasi parmanchak teraman deb oyoq-qo‘lini timdalatib keladi. S.Ahmad, Zumrad. *Ayting, yana ne qilayin imkondan o r t i q, Hammasini qo‘yib bering, eplay-*

man o‘zim. F.Afro‘z, Men ayolman. *Qarasa, o‘z mo‘ljalidan o sh i q, 53 pillapoya bo‘libdi…* A.Muxtor, Qora domla. *...uydagi to‘rt mingdan o sh i q kitoblarimning hammasini bir boshdan titib, o‘sha kitobni axtardim, topilmadi*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Demak, konsert bu gal ham to‘rt soatdan z i y o d davom etibdi.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Mayli, boshqalardan ikki-uch so‘m z i y o d ham oling, lekin ayilimni topib bering*. N.Aminov, Ayri.

ORTMOQ, YUKLAMOQ, BOSMOQ, JOYLAMOQ Yukni biror transport vositasining ustiga yoki ichiga joylamoq. **Ortmoq, bosmoq** shaxs va narsalarga nisbatan qo‘llanadi. **Yuklamoq**, **joylamoq** esa faqat narsalarga nisbatan ishlatiladi. **Bosmoq** so‘zi odamga nisbatan qo‘llanganda, majburanlik ifodasi, narsalarga nisbatan ishlatilganda esa ko‘p miqdorda, zich holda ekanlik ta’kidi ham anglashiladi.

Qoplari kichkina-kichkina. Bir tuyaga elliktasini o r t ib kelishadi. O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *...Qobuldan esa (Kofirun adog‘i – dasht ochiq edi) qurol-yarog‘ o r t ilgan tuya karvonlari kelardi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *O‘n kundan keyin esa Sadir qimorbozning xotini uyga xaridor chiqishini ham kutmay: “Sadir akamlar katta shahardan joy olibdilar”, deb ko‘ch-ko‘ronini y u k l a b jo‘nab ketdi.* T.Malik, Shaytanat. *Traktorlar gurullab-varillab yovvoyi jiyda, changal, turong‘u, tol, do‘lana singari buta va mayda daraxtlarni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlar… arra, bolta ko‘targan odamlar bularni kesib-qirqib aravalarga y u k l a shar edi.* A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Ko‘k shapka kiygan temiryo‘l xizmatchilari chamadon y u k l a ngan aravachalarini g‘izillatib o‘tib qolishadi...* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Uning issiqda ham tulki teridan tumog‘, oyog‘ida bashang etik kiyganidan So‘htu no‘yon deb o‘ylashdi. Dam oyog‘idan, dam yelkasidan tortib, sudrab, baqirtirib, kemaga b o s ishdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Yelkasidagi xurjunni eshakka b o s ib, indamay ketaveribdi*. O.Qo‘chqorbekov, Kulgi darg‘alari. *Bugun tunda hujumga bormaydiganlar qurol-yarog‘larni, xo‘raklarni kemalarga j o y l a b qo‘yishlari lozim, – dedi Shohmurod Ko‘histoniy atrofidagi qilich osgan sarbozlarga.* Mirmuhsin, Temur Malik. *U G‘apporovni azot ko‘tarib mashinaning old o‘rindig‘iga o‘tqazdi. Keyin aravachani orqa o‘rindiqqa j o y l a di.* S.Ahmad, Tut pishig‘i.

OSMON, KO‘K, SAMO, FALAK, GARDUN, FAZO, SIPEHR, MI(Y)NU Yer ustida gumbaz shaklida ko‘rinib turuvchi havo qatlami. **Ko‘k**, **samo**, **falak**, **gardun**, **fazo** kitobiy. **Ko‘k**, **samo**, **falak**, **gardun** so‘zlari badiiy uslubga xoslangan. **Gardun** so‘zida eskilik bo‘yog‘i bor, **fazo** so‘zi mazkur ma’noda juda kam qo‘llanadi. **Sipehr**, **mi(y)nu** eskirgan.

Shu so‘zlarni aytayotganda, yaraqlagan o s m o n ga ilkis qora bulut chiqqandek, Binafshaning chehrasi bir zum ma‘yuslandi. A.Ko‘chimov, Binafsha. *Tiniq buloqlarday pok bo‘lar bari, Orzulari mo‘l-u yo‘q hunarlari, Moviy o s m o nlarning oq turnalari – Shoir bo‘laman deb kelgan bolalar.* S.Sayyid, Shoir bo‘la-

man deb kelgan bolalar. *Qator orasida ketmon urayotgan chiroyli, kichik yuzli Qumri k o‘ k ka tikildi...* S.Nazar, Yashil boylik. *Salabek ...xuddi nohaqlikka duch kelgan alamzada odamday, yanada aniqrog‘i, akasi tomonidan atay chalib yiqitilgan boladay, arazli bir qiyofada k o‘ k ka termilib yotaverdi*. N.Norqobilov, Kurash. *Uchar likopcha shiddat bilan yuqoriga suzdi, hovli ustida xayrlashganday bir aylandi, so‘ng besas s a m o ga ko‘tarilib, izsiz g‘oyib bo‘ldi.* A.Yo‘ldoshev, Samo elchisi. *Har vaqtdagidan ko‘rkamroq, tiniqroq ko‘ringan to‘lin oy s a m o ning bir nuqtasida qotgan kabi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Jahonning mehri ikkidur: biri – sensan, biri – oftob, Tarozu pallasi ikki: biri Yerdur, biri g a r d u n.* E.Vohidov, Rubobim tori ikkidur... *Yulduz sachratib g a r d u n Pasayar. Torayar tun... Ruhda notanish mazmun – Qayta bo‘lyapman bunyod.* U.Azim, Tun – erimas... *Olam ko‘m-ko‘k. F a l a k zangori*. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Ha, bukun elda ham, dilda ham bahor, Shodlik xandalari f a l a k ka tutash.* E.Vohidov, Sakkizinchi mart. *Daka varrak tiniq zangori f a z o Tubiga intilar, sho‘ng‘ir naq xayol.* Zulfiya, Nevaramga. *Polvonlar qadamiga osmon poya, Jaranglar bosh ustida nilgun f a z o*. G‘.G‘ulom, Stadion oqshomi. *O‘rtanur, ey voiz, ohimning sharoridin s i p e h r, Ne so‘ray, do‘zaxqa mundoq bir sharar bo‘lg‘aymu deb*. Navoiy, Badoye ul-bidoya. *Husnig‘a parvonadur jonim bu axshom, ey s i p e h r, Yordur sham’i shabistonim bu axshom, ey s i p e h r*. Vola, Navoiy g‘azaliga muxammas. *Jomi minoni ilikdin qo‘ymakim, bu shevasiz, Kimsa xushhol bo‘lmadi bu toqi m i n u ostida.* Navoiy, Navodir un-nihoya.

OSON, YENGIL, O‘NG‘AY Qiyin emas, murakkab emas. **Oson** va **yengil** so‘zlari narsa va harakat-holatga nisbatan ishlatiladi. **O‘ng‘ay** so‘zi, asosan, xatti-harakatga nisbatan ishlatiladi va muayyan xatti-harakatning yuzaga chiqishiga qulaylikni bildiradi. Mazkur so‘zlar nutq uslublarida qo‘llanish jihatidan cheklanmagan.

Ayol qalbidek yumshoq, har narsani o s o n kechiradigan qalb bo‘lmaydi. S.Ahmad, Ufq. *Lekin ustoz Michurin aytganidek, bog‘ yaratish o s o n emas.* S.Nazar. Yashil boylik. *“Yana nimani boshladingiz?” deb so‘raydi Tohir aka o‘tirgan joyida y e n g i l jismoniy mashqlar bajarib*. N.Boqiy, Haq so‘z xizmatkori – Tohir Malik haqida. – *Y e n g i l roq bir ish bersak-chi, – degan edi sekretar, opa xafa bo‘lib ketdi. – Men hali holdan toyganim yo‘q. Keksayganim ham yo‘q. Nega y e n g i l ishni qilar ekanman?!* Sh.Xolmirzayev, Kechagi kun kecha. *Bir nafas cho‘nqayib o‘tirdi, tag‘in olis bir qadrdon narsasini qo‘msagandek uvladi va so‘qmoq bilan chopa ketdi. Yo‘l nishab edi, yurish o‘ n g‘ a y.* Sh.Xolmirzayev, Uchinchi hamroh. *Pakana maslahatlardan eng o‘ n g‘ a y va serzavqrog‘ini tanladi – turnik.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli.

OSTONA, BO‘SAG‘A, ADAN, PO‘SAXONA Hovli, bino, uyning kiraverishidagi yerga ko‘ndalang yotqizilgan yog‘och, taxta, marmar va sh.k.dan

qilingan joyi, yuqoridagi kabi joylarning kirish qismi. **Ostona** so‘zi nutq uslublarida qo‘llanishi jihatidan chegaralanmagan. **Bo‘sag‘a** so‘zi, asosan, badiiy uslubda ishlatiladi. Mazkur so‘zda kitobiylik seziladi. **Adan, po‘saxona** so‘zlari shevaga xos.

Jannatxon o s t o n a oldida mung‘ayib o‘tirar edi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Odamlarning kulishini bilardi, ammo uydagi hamma narsa Xadichani esga soladi: o s t o n a ga qadami teggan, devorga yelkasi…* M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda. *Otlarni joylagach, turnaqator bo‘lib, qo‘shxonaga yo‘l oldik. B o‘ s a g‘ a da Tilov bobo kutib oldi.* A.Suyun, Solin yo‘li. *B o‘ s a g‘ a da meni sarvqomat, ko‘zlari ohunikini eslatadigan jonon qiz qirmizi dudoqlarida nim tabassum ila kutib oldi*. U.Hamdam, Bir piyola suv. *Eshikka chiqsam mening bilan yuradi, Uyga kirsam a d a n da menga qarab turadi.* (*Kavush*). “Topishmoqlar”. *Sheroziy a d a n da tiz cho‘kib, titrab-titrab, Durdibika buyurgan qo‘shiqlarni aytibdi.* J.Sharipov, Xorazm. *Xotin hamma ishini tashlab qo‘yib, kallangni p o‘ s a x o n a ga midib (bosib) yotqizadi, shishgan joyingga yalang oyog‘i bilan yetti marta tepadi*. A.Obidjon, Dahshatli Meshpolvon.

O

OT I, YILQI, TULPOR, ARG‘UMOQ, ASP Yakkatuyoqlilarga mansub o‘txo‘r, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni. **Yilqi** so‘zida umumlashtirish ta’kidi mavjud. **Arg‘umoq** so‘zida uchqurlik belgisi ta’kidi qabariq ifodalangan. **Tulpor, arg‘umoq** so‘zlari badiiy uslubga xoslangan. Mazkur ikki so‘z “zotli” hamda “uchqur” ifodali ma’no uzvi bilan **ot** hamda **yilqi** so‘zlaridan farqlanadi. **Asp** so‘zi eskirgan, badiiy nutqda va xalq dostonlarida qo‘llanadi.

Ichkaridan o t ning pishqirishi, keyin unga urilgan shapatining, so‘ngra cholning “ha, jonivor!” degan ovozi keldi. T.Malik, Uloq. *O t bepoyonlikni deydi. O t masofa nimaligini bilmaydi. O t qahraton qishda-da dasht-biyobonlarda chopib o‘sadi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Kuzda y i l q i go‘shtidan qazi-qarta tayyorlaganlar. Y i l q i ning yog‘ini, dumini kuzab (qirqib olib), qil chilbirlar eshganlar.* N.Karimov, Mirtemir. *Rost aytasan. Qo‘ylarga o‘xshab o‘n ming y i l q i ham o‘rmon atrofida o‘tlab yuribdi. Men har kuni o‘shalarning birovini yeyman*. “O‘zbek xalq ertaklari”. *Gulnor bir amallab egarga mindi-da, boshi ko‘kka yetgudek bo‘lib: – Qani, chu, t u l p o r im, chu, – deya qichqirdi.* A.Ibodinov, Ko‘l bo‘yida. *Ko‘zlari chaqmoq t u l p o r, Tuyog‘i chaqmoq t u l p o r. Suvliq lablarin yirtgan, Yollari bayroq t u l p o r* . U.Azim, She’riyat. *– Bo‘shat yo‘lni! – Mirzo Ulug‘bek shunday deb baqirdi-da, betoqat pishqirgan oq bedoviga qamchi bosdi. Achchiq qamchiga o‘rganmagan arabiy a r g‘ u m o q osmonga sakradi-yu, shamolday uchib ketdi…* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Maysalar lol egdi boshini, Qizg‘aldoqlar to‘kdi yoshini, Ko‘k berkitdi shan quyoshini, Bahodirsiz kelar a r g‘ u m o q.* A.Suyun. *Ha, bunda o‘ynadi Chingizning a s p i, Nodirshoh fillari – goh oq, goh qaro.* A.Sher, Karvon qo‘ng‘irog‘i. *Eshitingiz bunday shohning so‘zini, Qumlarda qichaydi a s p i tozini*. “Malikayi ayyor”.

OT II**, NOM, ISM** Shaxs yoki narsalarga atab qo‘yiladigan lisoniy birlik. **Ot** so‘zi shaxslarga va jonli narsalarga nisbatan ishlatiladi va keng qo‘llanadi. **Nom** so‘zi, asosan, shaxs va narsalarga nisbatan qo‘llanadi va so‘zlashuv nutqiga nisbatan kitobiy uslublarda ko‘proq uchraydi. **Ism** so‘zi faqat shaxsga nisbatan qo‘llanadi.

Bola raisning o‘g‘li bo‘ldi. Bo‘ri polvon atayin shu bolani yetaklab keldi. – O t ingiz nimaydi, polvon? – dedi. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Bizniki o‘zi ana shunday baynalmilal oila! Asl o t imni aytaymi? Gulgun!* E.A’zam, Shovqin. *Qog‘ozga Gulnor bilan Yo‘lchining n o m larini yozardim, aslida esa o‘z muhabbatimni hikoya qilardim.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Nizomning qo‘lidagi qog‘ozchaga n o m i yozilgan yana bir kishi – agralik keksa to‘quvchi – ikki kun burun zindonda jon bergan ekan.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Raqam yoniga mahbusning i s m va familiyasi qayd etib qo‘yilgan edi.* S.Ahmad, Sarob. *Ipak xarid qiladi, hol-ahvol so‘rab turaman. I s m i Zuhro…* H.Qodiriy, Eski Toshkantda.

O

OTA, DADA, ADA, PADAR, QIBLAGOH Farzandli, bola-chaqali erkak (o‘z bolalariga nisbatan). **Ota, dada** so‘zlari adabiy tilda ham, shevalarda ham qo‘llanadi. **Ada** – shevaga xos so‘z. **Padar** va **qiblagoh** so‘zlari, asosan, badiiy nutqda qo‘llanadi, kitobiy. **Qiblagoh** so‘zida ma’no obrazli tarzda aks etgan, ulug‘lashdan iborat ijobiy munosabat anglashiladi. Qatordagi **ota**, **dada**, **ada** so‘zlari so‘zlashuv nutqida murojaat birligi sifatida ham qo‘llanadi. **Padar**, **qiblagoh** so‘zlari murojaat birligi sifatida qo‘llanganda, mazkur so‘zlarning kitobiylik bo‘yog‘i yanada kuchli ta’kid oladi.

Lekin yolg‘iz tilagim: ilm yo‘lida o t a ng qilgan ishlarga, uning shogird va ustodlariga tegmagaysen. Tegsang… o t a qarg‘ishiga uchrab toabad badnom bo‘lursen!.. O t a rozi – Xudo rozi, yodingda bo‘lsin: al qasos-ul minalhaq! O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *O t a si uni hech qachon urmagan, hatto chertmagan ham, lekin qattiqroq gapirganda, u bo‘ynini qisadi, yelkalarida titroq turadi.* A.A’zam, Oyning gardishi. *Ertalab oyim: “Tur, tur tezroq, d a d a ng kelsa naq o‘ldiradi!” – deb ustimdan ko‘rpamni tortib tashladi. Men uyquli ko‘zim bilan: “D a d a m bozor ketmadimi?” – deb so‘ragan edim, oyim: – Esonboyning janozasida! – deb javob berdi.* A.Qodiriy, Uloqda. *Po‘lat ichkariga, o‘z xonasiga kirib, yechindi, yuvinib, uy kiyimlarini kiydi va a d a si yoniga chiqdi.* O‘.Umarbekov, Mo‘jiza. *A d a m ga telefon qilamiz! Rahmat, deymiz! Rahmat, a d a, haqiqatni tiklashga yordam berganingiz uchun ming rahmat!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Shahzoda gapini bo‘lmoqchi ekanini ko‘rgan Mirzo Ulug‘bek keskin qo‘l siltab: “To‘xta!” deb buyurdi. – Ota so‘zi amri vojib, deb bilursenmi, yo‘qmi – ixtiyor senda. Va lekin so‘nggi nasihatimni eshit, xohla, o‘z p a d a r ingni qatl et, xohla, Movarounnahr sarhadidan haydab, darbadar qil – boz ixtiyor sendadur.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Taxt*

vorisi – Inoyatulloxon. Padar amri – vojib deydilar. Omonullo p a d a r i amriga zid bormaydi. T.Malik, Savohil. *Q i b l a g o h ining turbati, onayizorining bir siqim turpog‘i Isfijobda...* S.Siyoyev, Ahmad Yassaviy. *Ota jigarband yuziga tik boqdi: – Bolam, mard bo‘l. Halol bo‘l! Senga aytar gapim shu. O‘g‘il qalbi-vujudi bilan his qildi, ko‘zlaridan yosh tirqirab sitildi – q i b l a g o h rozi-rizolik pallasida edi.* Q.Norqobil, Poraning ildizi.

OTBOQAR, YILQICHI, YILQIBOQAR, YILQIBON, SAYIS, MIROXUR Otlarni parvarish qiluvchi, otlarga qarovchi odam. **Otboqar**, **yilqichi**, **yilqiboqar**, **yilqibon** so‘zlari keng qo‘llanadi. **Sayis**, **miroxur** so‘zlari eskirgan, har ikki so‘z ham shevaga oid.

O‘n besh yillardan so‘ng Zamon o t b o q a r qishloqqa qaytib kelganda qishloqdan fayz ketib, odamlar yana ham ojiz va hurkak bo‘lib qolgandilar. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bu yerda qorovul, o t b o q a r dan tashqari o‘zbek yo tojikka o‘xshash to‘rt kishi ham ariq qazishardi.* N.Rahmat, Fojia. *Bir joyga borib yilqi haydab yurgan y i lq i ch i dan: – Bu yilqilar kimniki? – deb so‘radi chol. Y i l q i ch i: – Laylakvoyniki, – dedi.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Y i l q i ch i biyalarga ergashgan toychoqlar horimasa, yo‘lda oyoq ilmasdan ovulga yetishni mo‘ljalladi*. S.Vafo, “Araal...araal...”. *Bir y i l q i b o q a r kelib: “Dod, yilqiga o‘g‘ri tegdi”, – deb bo‘lgan so‘zlarni podshoga arz qilib edi. Shunda podsho: “Shu o‘g‘rilarni topasan-da, kelasan!” – deb lashkar jo‘natib yubordi*. “Kuntug‘mish”. *Alpomish Qultoyning kiyimlarini kiyib, Ultontoznikiga jo‘naydi. Alpomish to‘yga y i l q i b o q a r qiyofasida kirib keladi*. A.Abdurahmonov, Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. *O‘rmonda yo‘lbarsni aylantirib yurib, o‘lguday uribdi. Yo‘lbars holdan ketib yiqilibdi. Y i l q i b o n To‘g‘riboyning xizmati uchun ola ayg‘irni beribdi.* “Ertaklar”. *Allonbiyning y i l q i b o n i bo‘lgan Elgeldi... yaylovdan yaylovga kezardi*. A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi. *Podshoh “otni ertaga ovga minaman”, deb otxonaga olib kirib qo‘yishga buyuribdi. S a y i s lar otni boylay desa, ot qulog‘ini qalam qilib, quyrug‘ini alam qilib, so‘lig‘ini chaynab, oldidan kelganni tishlab, ketidan kelganni tepib, hech kimni tablaga kirgizmabdi.* “Bulbuligo‘yo”. *Qori Ishkamba bilan noib ko‘rishayotgan choqda noibxonadagi mulozimlar, s a y i s lar va otboqarlar qiqirlashib kulishdan o‘zlarini tiya olmadilar...* S.Ayniy, Sudxo‘rning o‘limi. *Lashkarni muntazam toza qonli jangchi otlar bilan ta’minlab turishga kuchli e’tibor berilgan. Buning uchun sohibqiron davlati devonida “sipohsolar”, “m i r o x u r” kabi lavozimlar joriy etilgan bo‘lib, ular eng sara sinchi-sayislarni jamlagan.* “Huquq va burch”.

OTMOQ, ULOQTIRMOQ, IRG‘ITMOQ, ITQITMOQ Qo‘lidagi narsani qo‘lni siltalab yoki qulochkashlab, keskin harakat bilan uzoqqa yoki mo‘ljaldagi joyga tashlamoq. Mazkur so‘zlarning adabiy tilda qo‘llanishi cheklanmagan. **Uloqtirmoq** so‘zida mazkur ma’no kuchliroq ifodalanadi. **Irg‘itmoq** so‘zi

bu ma’noda nisbatan kam ishlatiladi. **Itqitmoq** so‘zi ko‘proq shevalarda ishlatiladi, u yoki bu narsani nafrat aralash o‘zidan uzoqlashtirish ta’kidi mavjud.

Lekin Begimqul qo‘lini bir siltab, Nilufarni o t ib yubordi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Asadulla qo‘lidagi ketmonni jahl bilan nari o t di-da, shaxt bilan yurib Shuvalovning ro‘parasiga kelib to‘xtadi*. T.Malik, Savohil. *Nimalar qilib qo‘yding?.. Ol xatni, yirt, u l o q t i r!* Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor. *– “Yo‘qoling”, – baqirdim uning gapidan o‘zimni tutolmay va unga oldimda turgan piyolani u l o q t i r dim.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Yigit to‘nini yechib uyning to‘riga i r g‘ i t di, boshidan qalpog‘ini olib qoziqqa ildi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Rais oynadan sigaret qoldig‘ini i r g‘ i t di-da, orqaga suyandi*. M.Hazratqulov, Ko‘kko‘l. *Temur Malik jonholatda qichqirib, na’ra tortib, orqasida iljayib turgan kallani i t q i t ib tashladi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Rahimboy fermer bir chaqmoq oqqandni sovuq choyga botirib, shimib-shimib yumshatdi; chetidan tishlayotib, menga ko‘zi tushdi-yu, opog‘otamdan otimni surishtirib olgach, tishlangan qandning yarmini tumshug‘imning tagiga i t q i t di: – Ol, Mittivoy!* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?

OTXONA, SAYISXONA, TABLA Otlar saqlanadigan bino, og‘ilxona. **Otxona** so‘zi barcha uslublarda teng ishlatiladi. **Sayisxona** va **tabla** so‘zlari shevaga xos, so‘zlashuv tili va badiy nutqda qo‘llanadi.

Haybatali oftobning kuchsiz nuriga yelkasini toblab o‘tirgan kampiriga parvo qilmay to‘g‘ri o t x o n a ga kirib ketdi. T.Malik, Uloq. *Yo‘g‘-e, taxta bo‘ladi-yu, ortib qoladimi? Ko‘prik, o t x o n a, molxonaga ham kerak bo‘ladi.* S.Ahmad, Ufq. *O t x o n a dagi qora qashqani ko‘chaga chiqarib turishga buyurib, go‘shtni oyimga kirgizib berdim-da, tashqariga qarab chopdim*. A.Qodiriy, Uloqda. *– Bu yoqqa, – qiz chiroqni bo‘yi baravar ko‘tarib, s a y i s x o n a ga yo‘l boshladi. – Otingizni ana u yakkamixga bog‘lasangiz bo‘ladi.* A.Mustafoyev, Yo‘lovchi. *“Sarkori havoyi” deb atalgan vazir saroy ta’minotiga, oshxona, s a y i s x o n a, kiyim-kechak ishlariga mutasaddi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Uyda bitta kafanligim bilan t a b l a da bitta otim bor*. M.M.Do‘st, Bir toychoqning xuni. *Naim otni t a b l a ga bog‘ladi.* Sh.Hazrat Ismat, O‘tinch.

OVORA, SARSON, SARGARDON, SARSON-SARGARDON Muayyan maqsad yo‘lida yoki biror sababdan darbadar kezingan, bir joyda qo‘nim topmagan holat. Bu holat **sargardon** so‘zida **ovora** va **sarson** so‘zlariga nisbatan, **sarson** so‘zida **ovora** so‘ziga nisbatan kuchliroq ifodalanadi. **Sargardon** so‘zi nisbatan badiiy uslubda faol ishlatiladi. **Saron-sargardon** so‘zining ma’noviy tarkibida darbadarlik ma’nosi kuchli ta’kid olgan.

Jon degay, o‘t oraman, tan aytadir, ming poraman, To muhabbat dashti bepoyonida o v o r a man. E.Vohidov, Navoiy g‘azaliga muxammas. *Qismat kimni siylar, kimni kamsitar, Kim obro‘ – martaba istab o v o r a*. I.Mirzo, Singlimga.

“Ikkalamiz ham baxtsizmiz, ikkalamiz ham s a r s o n miz”, deb o‘ylardi qorovul ko‘zlarini chetga olib qocharkan... N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Ko‘klamdan mezonning adog‘igacha paykal-u qishloq orasida shu jinqarcha s a r s o n, Maydaqadam s a r s o n.* N.Chori, Tashvishi yo‘q odamlar. *Bolaligim mening ortimdan Kezib yurar, hanuz s a r g a r d o n.* A.Obidjon, Bolaligim. *O‘rmonlar bag‘rida sayr etgan sayyoh, Changalzor qo‘ynida s a r g a r d o n ovchi…* A.Oripov, Savob. *Xonavayron bo‘lgan xalq kimga dodini aytishni bilmay s a r s o n-u s a r g a r d o n emish...* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *U sohildan xiyla uzoqlashib ketgan, Qizilqumning tandirday qizigan barxanlari aro s a r s o n-s a r g a r d o n edi.* J.Fozil, Yo‘lbarsdaraning so‘nggi sultoni.

OVOZ, TOVUSH, UN, SAS, SADO, NIDO, SAZO Gapirish, qichqirish, shivirlash, kuylash, kulish, sayrash kabi harakatlar vaqtida o‘pkadan chiqayotgan havoning urilishi natijasida tovush paychalarining tebranishidan yoki ikki jismning bir-biriga tegishidan hosil bo‘ladigan, eshitish organlari orqali seziladigan fizikaviy hodisa. **Ovoz, tovush** so‘zlari deyarli barcha nutq uslublarida qo‘llanadi. **Un, sado, nido, sazo** so‘zlari badiiy nutqqa, **un** so‘zi so‘zlashuv tiliga ham xos. **Un** so‘zi faqat insonga nisbatan qo‘llanadi, og‘riqli, zorli tovush ta’kidi bor. **Sas** so‘zi poetik bo‘yoqdorlikka ega. **Nido** so‘zida ovoz ohangining zorli, iztirobli ekanligi ta’kidi mavjud. **Sazo** so‘zi eskirgan, kam qo‘llanadi.

Anchadan keyin, ko‘chki tinib, buloq boshida chang buluti bosilgach, sho‘x o v o z lar, chinqirib aytilgan behayo so‘zlar, kulgi aralash baqiriq-chaqiriqlar eshitildi. A.Muxtor, Qora domla. – *O‘tgan gal ham shunday degansiz, – dedi o v o z ini pasaytirib.* A.Muxtor, Taqdir kimning qo‘lida. *Meshpolvon “orqangga qara”, deb qichqirmoqchi bo‘lgan ediki, yonginasida “tup” etgan t o v u sh eshitildi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Ichkarigi xonaning eshigi ochiq, undan bosiq yig‘i t o v u sh i eshitildi.* A.Muxtor, Taqdir kimning qo‘lida. *– U n ingni o‘chir! – dedi Asadbek dag‘al ovozda. – Uyga bor, ovozingni chiqarma.* T.Malik, Shaytanat. *Qandaydir entikish yayratar tanni, Borliq tinch kuzatar chiqarmayin u n. Sokin tun...* B.Elmurod, Tun... *Atrofimda qushlarning s a s i, Ado bo‘lib bormoqda sahar.*Y.Eshbek, Qishloqdan qaytish. *S a s keldi, quloqqa ila olmadim, Men kimman, nedir ul – bila olmadim.* O‘.A’zam. *Ularni qilday umid ushlab turar, dam-badam uzoq jim qolib, tiq etgan s a d o ga ilhaq, tepaga qarar, quloq osar edilar.* A.Muxtor, Fan va Baqo. *Qirq kun deganda Jayhunning Xorazm sohillarida Amir Temur lashkarlarining to‘zon bulutlari va suron s a d o lari osmonni tutdi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Hayqiraman, Tog‘lar bag‘ridan Gumburlagan sado keladi, Ona-Yerning otash qa’ridan “O‘g‘lim!” degan n i d o keladi.* E.Vohidov, Nido. *Boshim uzra horg‘in to‘zigan Samovatdan bir n i d o kutdim.* U.Azim, Saylanma. *Xotinidan s a z o chiqmagach, Sohib qori qo‘lidagi sarpalarni Xolidaning boshidan oshirib, ichkariga otdi*. I.Rahim, Chin muhabbat. *Ishqiy tug‘yonlarga qaynab yurakdan Chiqolmas bir tovush, bir s a z o, bir un.* H.Olimjon, Ofeliyaning o‘limi.

OVOZSIZ, TOVUSHSIZ, UNSIZ, BEUN, SASSIZ, BESAS, SADOSIZ, BESADO Ovoz chiqarmasdan, tovushsiz. **Ovozsiz, tovushsiz** so‘zlari barcha uslublarda teng qo‘llanadi. **Unsiz, sassiz, besas, sadosiz, besado** so‘zlari, asosan, badiiy nutqqa xos. **Beun**, **sassiz**, **besas** so‘zlarida belgi darajasi boshqa so‘zlarga qaraganda kuchli ifodalanadi.

Bir mahal yana bir mashina o v o z s i z gina kelib to‘xtadi-yu, men turgunimcha boshqalar uning ichiga kirib ulgurishdi. U.Hamdam, Muvozanat. *Kechasi yotoqqa kirib qalamni asta qo‘lga olasiz-u bitta-bitta... nishonga olib, “chiq!”, “chiq!” A labbay? Ha,bamisoli qalam emas, men sizga aytsam, o v o z s i z o‘qday gap bu*. A.Muxtor, Taqdir kimning qo‘lida? *Kul, t o v u sh s i z qahqahangdan durday tishlaring Oq chaqnashi qamashtirsin ko‘z*. Zulfiya, Saylanma. *T o v u sh s i z yig‘lagan dehqonlar, eshonga ergashib, qadoqli qo‘llari bilan yuzlarini siypadilar*. Oybek,Tanlangan asarlar. *Ikki tomchi yosh ko‘zlaridan duv etib yumalab tushdi-yu, keyin yelkalari silkinib-silkinib, u n s i z yig‘lay boshladi*. O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun... *Endi ona qishlog‘imga faqat mehmonman, uzoqdan borib, yaqinlasholmay kelaman – o‘rtamizni bo‘lib katta ko‘kdaryo u n s i z ayqirib yotadi ko‘nglimda…* A.A’zam, Quroq. *Men onam yonida ivirsib b e u n, Kun bo‘yi yurardim dilgir, betoqat.* A.Oripov, Oftobshuvoq. *Keyin oyning yelkasiga Qo‘limni qo‘yib b e u n, Yuragimni ochaman – Oydin bo‘lar o‘sha tun…* X.Davron, Men ertaga... *U yer-bu yerda ko‘katlar bosh ko‘taryapti. Ular orasida o‘tgan kunlar sharpasi s a s s i z ivirsidi*. T.Malik, Savohil. *Asli u tabiblikdan ham, hakamlikdan ham mutlaqo xorijda, u shovqin-suron ham ko‘tarmaydi, jimgina, s a s s i z gina ilgarilayveradi...* Q.Kenja, Toshqin. *Iloyo, bosh egib yurmayin b e s a s Takabbur zotlarning ostonasida.* A.Oripov, Burgut qismati. *Dardday uzun-uzun ko‘chani Oyoqlaring b e s a s o‘padi.* X.Davron, Qiz va shamol haqida ertak. *Suvlarda s a d o s i z sindilar oylar, Afsunday jim, sokin oqdilar soylar.* S.Sayyid, Alamli dunyoda. *Tovushim chiqmas bir kapalakcha ham, s a d o s i z kuzatgim kelar dunyoni*. M.Yusuf, Sodda Muhammadman... *Bog‘larni ixtiyor etmoqda yurak – Xazonrez tartibin buzmay, b e s a d o Shovshagan yaproqqa qo‘nsaydi titrab – Shabnamday, yo tomchi yoshday benavo.* U.Azim, Besado. *Ammo olis-olisda tanho Yongan yulduz uxlatmas meni. U chorlaydi beso‘z, b e s a d o Zulmat aro yotgan qalbimni*. X.Davron, Yarim tunda xonamga kirar...

OVQAT, TAOM, OSH, OZIQ, TOMOQ, XO‘RAK, YEMISH, NE’MAT, YEGULIK, G‘IZO, **OSH-NON** Iste’mol qilinadigan, odam, hayvon va o‘simliklar uchun oziq bo‘luvchi tayyor narsa. **Ovqat**, **oziq**, **xo‘rak**, **yemish**, **yegulik** so‘zlari barcha tirik organizmlar, jumladan, odamlardan tashqari hayvonlar, jonivorlar, o‘simliklar ham iste’mol qiladigan narsani bildiradi. **Taom**, **osh**, **tomoq** va **ne’mat** esa odamlar yeydigan narsaga nisbatan qo‘llanadi. **Taom**, **tomoq**, **osh**, **yegulik**, **yemish** so‘zlarida odamning yeyishi uchunlik ta’kidi aniq

bilinib turadi. **Osh** so‘zi ba’zan **ovqat** so‘zi bilan **osh-ovqat** tarzida juft holda ham qo‘llanadi. **Taom**, **ne’mat** so‘zlari badiiy uslubga, **tomoq** so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos. **G‘izo** so‘zi eskirgan, ma’no jihatidan **ozuqa** so‘ziga yaqin. **Osh-non** juft so‘zi so‘zlashuv tilida faol qo‘llanadi, mazkur ma’no birmuncha umumlashgan holda ifodalanadi.

Bir kuni uy bekasi mendan cholga kechki o v q a t chiqarib berishni iltimos qilib qoldi. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Ilgari bu pulni uning qo‘liga berishmas, tegadigan maoshidan o v q a t i bilan kiyim-kechagiga bosib qolishardi...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Tomiringiz betartib, notekis urmoqda, bugun yo ovqatni ko‘p yeb qo‘ygansiz, yo birov sizni xafa qilgan, ammo bilurman, t a o m ni oz yeysiz, ikkinchi taxminim to‘g‘ri bo‘lsa kerak.* M.Osim, Ibn Sino qissasi. *Suvon. Endii, mulla Qo‘chqor, t a o m yeb yurgan joyimiz. Xudo xohlasa, hali ko‘o‘p kelamiz...* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *O sh i ng halol bo‘lsa, ko‘chada ich.* Maqol. *Otangiz asr namozidan chiqib, bir joyg‘a borib kelaman, degan edilar. Sizning o sh ingizni suzub chiqara beraymi?* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bir kunlik yo‘lga chiqsang, bir haftalik o z i q ol!* Maqol. *Ko‘chaga chiqib borib, o z i q larni eshakning oldiga to‘kdik.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Yozning yozig‘i – qishning o z i g‘ i.* Maqol. *Hasanali kunlarini t o m o q siz, tunlarini uyqusiz kechira boshladi…* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *T o m o q t o m o q emas, tomoqdan o‘tgani t o m o q.* Maqol. *Nihoyat, o‘zini o‘nglab, ne bir his-sezgi bilan quruq yerga tumshug‘ini urdi. U ovqatga muhtoj – yangi olamda x o‘ r a k topish shu tarzda sodir bo‘lishini tuyg‘u bilan tuygan edi.* Sh.Xolmirzayev, Cho‘loq turna. *– Boshimga og‘ir musibat tushdi... – dedi dehqon ho‘ngrab yig‘lab, – kecha chaqalog‘imni beshikka belab, onasi bir muddatga bizning yonimizga x o‘ r a k olib ketgan edi…* Mirmuhsin, Temur Malik. *Bahor. Dala. Qandaydir go‘zal o‘tloq. Chetroqdagi stolda har xil y e m i sh va ichimliklar.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Xudo har jonivorni o‘z rizqi-ro‘zi bilan yaratadi. Y e m i sh topiladi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *– Shuning uchun chiqargan yog‘ingda baraka yo‘q! – jerkidi yog‘chi va biroz sukut qilgandan so‘ng, – Ollo deyaver, u dunyoda mo‘l-ko‘l n e ’ m a t larini ko‘rsatadi, – dedi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bir necha qarindoshlarning titrab-qaqshab qilg‘an ziyofatlari bilan “uydan uyga o‘tib n e ’ m a t lar ichida suzib yurish” xayoli ham “bir xayol” bo‘lib qoldi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Duxtir juda ko‘p y e g u l i k larni taqiqlab tashladi, go‘sht, yog‘ yemasin, xamirli ovqat, non yemasin, eng yomoni – yeydigan o s h-o v q a tlariga umuman tuz solinmasin, dedi.* J.Ergasheva, Shom shafag‘i jilvalari. *Men o‘sha kun, odatdagidek, tug‘uruqxonaga y e g u l i k ko‘tarib bordim…* Sh.Hamro, Qaqnus qanotidagi umr. *G‘am gulshanida g‘uncha kibi xuni dil nasib – Bo‘ldi-yu, naylay, o‘lmasa o‘zga g‘ i-z o menga.* S.Xondayliqiy, Menga. *Bazm aro holimdan pirlar norizo,Goh halol, goh harom jonimga g‘ i z o.* E.Shukur, Qalb manzaralari. *Hunarni o‘rganib*

qo‘ysang, sendan o sh-n o n tilamaydi. Maqol. *Qadim zamonda bir saxovatli odam bo‘lgan ekan. U odam hamisha elga o sh-n o n ulashar va el xizmatini qilar ekan.* “O‘zbek xalq ertaklari”.

OVUNMOQ, YUPANMOQ 1. Yig‘idan to‘xtamoq. **Yupanmoq** so‘zi **ovunmoq** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi, kitobiy.

– Mana, keldik. Rahmat. Shu yerda trolleybusga chiqamiz. – U o v u n ib qolgan o‘g‘ilchasini ko‘tarib shosha-pisha mashinadan tushdi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *...rostdan ham kotibni xuddi o‘z jigariday to‘yib-to‘yib quchgisi, xuddi go‘dakday og‘ushiga olib o v u n tirgisi kelardi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *“Bir oy ichida Afandining ham xotini, ham eshagi o‘lib qoldi. Xotini o‘lganida Afandi bir-ikki kun yig‘ladi-yu y u p a n di...* Otauli, Afandining yo‘rig‘i. *Onasi cho‘k tushib zinaga suyanganicha ko‘zlaridan yosh oqizmay yum-yum yig‘lagani-yig‘lagan. Nihoyat, Umid opasini y u p a n tirishga qaror qildi*. X.Do‘stmuhammad, Kuza…

2. Biror ish bilan mashg‘ul bo‘lish natijasida noxush hissiyotlarni unutib, xotirjam bo‘lmoq, tinchlanmoq.

O

Bu gaping to‘g‘ri. Qo‘ylardan qutuldim. Tashvishim yo‘q. Lekin yuragim g‘ash. Shu qo‘ylar bilan o v u n ardim. O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Haqiqatan, endi bu iztiroblardan foyda yo‘q, vujudini qaqshatgan bu tizginsiz g‘amni jilovlay bilmoq, nima bilandir o v u n moq kerak!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Yo‘lchi bu gal ham kasalning ko‘nglini ko‘tarish uchun unga taskin beruvchi umidbaxsh so‘zlar aytdi. Shunday y u p a n tiruvchi so‘zlarni har kimdan eshita-eshita ularga e’timodi qolmagan… Tohirjon kinoya bilan jilmaydi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Baxtli onlar umr tunida yulduzlar kabi chaqnaydi, ular yurakka totli hasrat va y u p a n ish bag‘ishlab imlaydi*. Oybek, Tanlangan asarlar.

OVUNCHOQ, OVUNCH, YUPANCHIQ, YUPANCH, ERMAK Ovuntiradigan, yupanch beradigan narsa, odam, harakat-holat, hodisa. **Ovunchoq, yupanchiq** so‘zlari shaxs, narsa va hodisalarga nisbatan qo‘llanadi. **Ermak** so‘zi esa, asosan, narsaga nisbatan qo‘llanadi. **Yupanch** so‘zida ma’no boshqa so‘zlarga nisbatan ta’kid olgan holda ifodalanadi. **Yupanch** va **ovunch** so‘zlarida kitobiylik bo‘yog‘i bor, asosan, badiiy nutqda qo‘llanadi. **Ovunchoq, yupanchiq, ermak** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarga xos.

Yo‘lchi o‘zi uchun o v u n ch o q xayollariga berilib, sovuqni-da sezmay tanho yurarkan, Shoqosim chiqdi… Oybek, Tanlangan asarlar. *G‘ayrat qilsam, bu ketishda uch-to‘rt kundayoq muqaddas kalomulloh tilini uncha-muncha bilib oladigandekman. Anjuman soatlari mashg‘ulotim ham, o v u n ch o q ermagim ham shu bo‘lib qoldi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Kun uch oydan beri shunday qorong‘i kecha uning maslahatchisi, o v u n ch i.* O‘.Umarbekov, Yer yonganda... *Kim qanday kun ko‘rsa ko‘rgan zamon bu, Shoirning*

holidan kulma, iltimos:Xayoldir yagona o v u n ch i uning, Tiriklik manbayi orzudir, xolos. O.Matjon, Seni yaxshi ko‘raman. *Yo‘qdan ko‘ra y u p a n ch i q*. Maqol. *Qani dunyo tor ko‘ringanda ko‘nglimni ko‘taruvchi y u p a n ch i q larim?* H.Nazir, Ko‘kterak shabadasi *Y u p a n ch topoldingmi, dunyoga kelib, Ustoz yo shogirddan yoki tengdoshdan?* A.Oripov. *Uning yolg‘iz y u p a n ch i va suyanchig‘i besh yoshli nabirasi edi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dog‘ida ado bo‘lay dedi. O‘zi esa cho‘p bo‘lib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. E r m a g i – choyxona.* O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Domlaning birdan bir e r m a g i, ovunchog‘i mana shu bog‘, mana shu daraxtlar edi.* E.A’zam, Yozuvchi.

OVUTMOQ, YUPATMOQ Biror kimsani yig‘idan to‘xtatmoq. **Yupatmoq** so‘zida “taskin bermoq” ma’no uzvi bo‘rtib turadi.

Ertalab nevaram itini izlab topolmagach, yig‘ini boshladi. Nima deb o v u t ishga hayronmiz. B.Mirzo, Ot mingan odamlar. *Abdumurod o‘sha maktab bog‘idagi arazidan so‘ng Gulchehrani naq olti oy ko‘rmadi. O‘ziga g‘urur, yigitlik sha’ni haqida matal to‘qib o‘z-o‘zini o v u t ib yurdi.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *U shunday deya beixtiyor yig‘lab yubordi. Allamahalgacha o‘pkasini bosolmadi. Men bu safar uni y u p a t ish uchun so‘z topolmadim.* A.Haydarov, Kunlardan bir kuni va har kuni... *Ukalari… yig‘lashganida, hammalarini aldab y u p a t arkan. Xuddi bog‘cha opalariga o‘xshab, boshlaridan silab-silab, peshonalaridan o‘pib-o‘pib y u p a t ar ekan.* X.To‘xtaboyev, Yovvoyi echkilar.

OVCHI, SAYYOD Ov qiluvchi kishi. **Sayyod** so‘zi eskirgan. Badiiy nutqda, xususan, she’riy nutqda badiiylik talabi bilan qo‘llanadi.

O v ch i lar orasida shohning xolis kuzatuvchilari ham bor edi. P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Masalan, qadimdan qolgan gap bor: o v ch i kiyikdan bitta otishi kerak… Aks holda, bir falokat yuz berishi mumkin emish.* Sh.Xolmirzayev, Omon ovchining o‘limi. *Rost bo‘lsin, s a y y o d larga osib ming tavqi la’nat, O‘q yetmas manzillarga bosh olib ketganlari.* A.Suyun, Alqorlar. *S a y y o d jabri senga bermaydi imkon, Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.* A.Oripov, Ohu.

OXIR I**, OYOQ, ODOQ (ADOQ), POYON, NIHOYA** Muayyan hudud, joy, yo‘l kabilarning eng so‘nggi qismi. **Nihoya, poyon** so‘zlari kitobiy, badiiy va publitsistik uslublarda faol ishlatiladi. **Oyoq, odoq** kam qo‘llanadi, **odoq** oddiy so‘zlashuvga xos. **Adoq** so‘zida poetik belgi kuchli.

...O‘zlarining uyi hov narida, jinko‘chaning o x i r idaydi. Turganmikin hozir? O‘.Hoshimov,Tushda kechgan umrlar. *Mening xonam koridorning eng o x i r ida joylashgan bo‘lib, bir o‘zim ishlardim.* O.Begaliyev, A.O‘ktam, Bir yo‘l ko‘rinur. *Otabek kishi orqasidan ketdi, Oldinma-ketin, So‘zlashmasdangina ko‘chaning o y o g‘ iga qarab borar edilar*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *To‘yxona qishloqning a d o g‘ i da bo‘lgani bilan poyga yo‘lini uzoq deb ham bo‘lmasdi.*

R.Xolbek, Qora yo‘rg‘a. *A d o g‘ i yo‘q tuproq yo‘ldan aravaga tushib kelganim yodimda, – derdi onam va shu zahoti ko‘zlaridan duvullab yosh oqib ketardi.* X.Sultonov, Onamning yurti. *Yo‘lning p o y o n i ga yeta bilmasman Sen meni kuzatib, kutib turmasang.* A.O‘ktam, Onamga. *P o y o n i yo‘q adirda bu on O‘tlab yurar kirtillab bir ot.* X.Davron, Yulduzlarni ko‘kka sochdi g‘ayb... *Ikki soatlik uzoq yo‘l n i h o y a sida bizni juda go‘zal bir manzara kutib turgan ekan.* M.Nosirov, Yurt kezishning gashti bor. *Biz suhbatlashmoqchi bo‘lgan korxona direktori o‘rinbosarining xonasi birinchi qavatdagi uzun koridor n i h o y a sida joylashgan ekan.* Gazetadan.

OXIR II, **SO‘NG, OYOQ, ODOQ (ADOQ), NIHOYA, PIROVARD, INTIHO, POYON** Ma’lum muddatda amal qiluvchi jarayon, hodisa, vaqt, xatti-harakat, jismoniy va ruhiy holat kabilarning oxirgi qismi, davri. Qatordagi so‘zlar III shaxs egalik qoshimchasini olgan holda ishlatiladi. **Oxir**, **so‘ng** so‘zlarining qo‘llanishi uslub jihatidan chegaralanmagan. **Oyoq**, **odoq** so‘zlari so‘zlashuv nutqi va badiiy uslubda ishlatiladi. **Nihoya**, **pirovard**, **intiho**, **poyon** so‘zlari yozma nutqqa xoslangan, kitobiylik bo‘yog‘iga ega. **Oyoq**, **odoq**, **pirovard** so‘zlari nisbatan kam qo‘llanadi.

Qishning o x i r i ga borib, ikkalasi ham nihoyatda holdan toydi. A.Obidjon, Oxirgi sedanatut qissasi. *Yozning o x i r larida eri uni o‘zi ishlaydigan, imoratlar pala-partish ham tartibli qurilgan katta shaharga olib bordi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Keyin kitobni ochib, qayta o‘qishga tutindi. Mutolaa s o‘ ng ida tomoq qirib, sandal atrofida o‘tirgan yaqinlariga qaradi.* B.G‘oziddinov, Tong va shom orasida. *Kech kuzakning rutubatli, sovuq izg‘irinlari esa boshlaganda u uch oydan ortiq davom etgan qamal s o‘ ng i da – ochlik, miskinlik, xor-zorlik nihoyasida, yer yuzining sayqali bo‘lmish shahri azim Samarqandni g‘addor dushmani Shayboniyxonga tashlab chiqdi.* X.Sultonov, Panoh. *Kuz kunlarining o y o g‘ i va qish kunlarining boshi edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Hafta-o ‘n kun shu sozda qimirlasak, bu yoqdan Vali guppi himmat qilsa, yetib qolar shu bilan. Ishqilib, qish o y o g‘ i qop ko‘tarib birovga yalingulik qilmasin*. N.Norqobilov, Olim o‘g‘il. *Afsus, sog‘inchning ham bordir a d o g‘ i, Keyin unutilish, bari abasdir.* A.Oripov, Sog‘inch. *Qish a d o g‘ i da Buvgul xola o‘g‘lining tarkidunyo qilgan odamdek xonaga qamalib olganini, erta-yu kech bag‘rini yerga berib yotishlarini ko‘rib, saodatli kunlar nihoyasiga yetganini fahmladi*. A.Yo‘ldosh, Yolg‘on va haqiqat. *Yashayverasan, yashayverasan, bu yashashning, qani, oxir – n i h o y a si bo‘lsa.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Anjuman n i h o y a sida o‘zaro sovg‘a-salom almashuv shunchalik avj oldiki, ulug‘ dohiy ziyoratiga quruq qo‘l bilan borgan bizning delegatsiya ...xijolatdan qochishga joy qidirib qoldik.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Lekin qancha o‘ylamasin, kechalari kiprigiga uyqu inmay, hovlini gir aylanadi, savoliga javob qidiradi, beorom xayoli p i r o v a r d ida bultur yozdagi bir*

voqeaga borib taqalaveradi, taqalaveradi. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Dildan boshlangan munozara p i r o v a r d ida dilg‘a va turmushg‘a obodlik keltirgay*. X.Do‘stmuhammad, Umid guli. *Hazrat, bir xumcha musallasim bor, ozgina sabr eting... Bu dunyoning na ibtidosi va na i n t i h o si bor...* Mirmuhsin, Temur Malik. *Bu endi navbatdagi bahsning i n t i h o si edi*. N.Norqobilov, Kurash. *Shu bilan hammasi p o y o n iga yetdi. Ra’no qiz – kecha o‘z uyining yo‘laklarida potirlab, jayronday chopib yurgan o‘sha qizaloq bugun oyday kelin bo‘ldi.* I.Sulton, Onaizorim. *Dunyoyi azalning g‘azaliy matlayi buldur: Boshlab hama ishni ani p o y o n ida kuydim*. S.Sayyid.

OXIRGI, SO‘NGGI Narsa, voqea-hodisalar qatorining eng so‘ngidagi. **So‘nggi** so‘zi ham **oxirgi** so‘zi singari keng qo‘llanadi, kitobiy.

Nihoyat, o x i r g i kunlardan birimidi, tushlikdan qaytayotib balki so‘nggi bor omadimizni sinab ko‘rmoq bo‘ldik. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *O x i r g i turishda obrezda yarim satil sovuq suvni boshidan quydi-da tandir biqiniga suyalgan lo‘mni yelkasiga olib, chiqib ketdi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Lekin Bobur s o‘ ng g i yillarda ko‘p kasal bo‘lib, juda ozib ketgan, jussasi xiyla kichrayib qolgan edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U shod edi, jimjit ko‘chadan uyiga qaytar ekan, bir nimalarnidir xirgoyi qilar, Toshkentni s o‘ ng g i marta ko‘rayotgandek, hamma narsaga suq bilan qarardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

OY, OYMOMA(O), QAMAR, MOH, HILOL Quyoshdan nur olib yog‘du sochuvchi samoviy jism, Yerning tabiiy yo‘ldoshi. **Oy, oymomo, qamar** oyning har qanday ko‘rinishdagi (yangi chiqqan va to‘lgan) holatiga, **hilol** esa yangi chiqqan oyga nisbatan qo‘llanadi. **Oymomo, qamar, hilol** so‘zlari ko‘proq badiiy uslubga xos. **Oymomo** bolalar nutqiga ham xos. **Qamar** badiiy nutqqa xos.

To‘lin o y juvon holicha erga tegayotgan qizning ahvolini bir ko‘ray deb naq deraza tepasiga sullohlik bilan qo‘nib olgan. T.Malik, Shaytanat. *Uning o y nuri yoritib turgan ko‘zlari namdanmi yo sevinchdanmi, xuddi boyagi uzukning brilliant ko‘zlaridek yaltirardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Go‘dak ko‘zlaridan qalqdi-da, to‘lib Ko‘z yoshi to‘kildi, uni shimdi tosh .Unga ko‘ksin tutdi nurga ko‘milib Tunlari o y m o m o, kunduzi quyosh.* X.Davron, Afrosiyob devoridagi ko‘zlar. *– Opa, biz-chi o y m o m o dan kulcha so‘radik. – Tandirga yopilganidan, – qo‘shib qo‘ydi Shohruh.* Sh.Rahimxo‘jaeva, Kulcha tashlang, Oymomo. *Bukun koinotda Shams – podsho, Q a m a r vazirdir.* Oybek, Navoiy. *Osmonimni obod qilgan q a m a r eding, Balolardan asraguvchi tumor eding.* I.Mirzo, Meni desa... *Kunduz quyosh emish, tunda m o h emish, Neki sodir bo‘lsa, inson guvoh emish.* A.Oripov, Emish. *Magar ko‘ngli munavvar emas iymon bilan, Rutbasi gar quyoshdir, m o h, bizdan emas*. M.Rahmon, Bizdan emas. *Ana, derazangga Qo‘nibdi h i l o l. Boshingga egilib So‘rmoqchi savol.* E.Vohidov, Nido. *Lekin hayrat-u hayajonga limmo-lim nigohlari qop-qorong‘u zulmatda h i l o l ning zarrin shu’lalaridan boshqa hech narsani ilg‘amadi*. S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma.

OYLIK, MAOSH, MOYANA, MOHONA Bir oyda qilingan mehnat uchun beriladigan ish haqi. **Moyana** so‘zlashuv tiliga, **maosh** va **mohona** kitobiy uslubga xos. **Mohona** so‘zi eskirgan.

Klaraning xabari yo‘q, bugun men o y l i k oluvdim. O‘.Hoshimov, Nimadir bo‘ldi. *Buvim parranda fermasida ishlab o y l i k o‘rniga tuxum bilan pati yulingan tovuq oladi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *O‘zining do‘q-po‘pisalarini ishga solib ham inspektor qorovulni ko‘ndirolmagach, oylik m a o sh idan yuborib turishga va’da qilib, Omon Juma ayolini iziga qaytarib yubordi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Sabriddin m a o sh qo‘liga tekkan paytdagi holatlarni ovoz chiqarib aytib eslayaptimi yoki xotini va bolalariga hisobot beryaptimi – tushunish qiyin edi.* X.Do‘stmuhammad, Maosh. *Ma’mur. Voh, pul tutmayman emish. Do‘xtirlik ham ish bo‘ptimi? Har o‘n besh kunda m o y a n a poylab o‘tirasiz.* S.Ahmad, Kelinlar qo‘zg‘oloni. *Nazarov. O‘shalarga bo‘lmay kimga bo‘lardi? M o y a n a olganimda, bir siylab qo‘ymasam bo‘lmaydi.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Ikkinchi yildan boshlab yetti tillo m o h o n a bilan maoshliq mirzolar qatorig‘a o‘tdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bobur hazratlari mashqdan, navkarlarining jonbozliklaridan ko‘ngli to‘lgan chog‘i har bir navkarga uch tangadan m o h o n a va barcha lashkar o‘rdularig‘a oshliq tarqatishga farmon beribdurlar.* B.Abdurazzoq, Girdobod.

O

OYNA, KO‘ZGU, TOSHOYNA Qarshisidagi narsalarni aks ettiradigan, inson o‘z aksini ko‘rish uchun foydalanadigan, orqa tomoni sirlangan maxsus shisha. **Oyna** barcha uslublarda qo‘llanadi. **Ko‘zgu** ko‘proq badiiy uslubga xos. **Toshoyna** so‘zlashuv uslubida, shuningdek, badiiy uslubda ham ishlatiladi.

Men o y n a oldida bitta-bittadan shlyapa kiyib ko‘rdim. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Gavharning sumkachasini ochdi: Ro‘molcha. O y n a cha. Pul.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Begimqul galstugini to‘g‘rilab, k o‘ z g u dagi o‘z aksini yana bir ko‘zdan kechirdi-da, polda bodrab yotgan shisha siniqlarini patir-putur bosib, uydan chiqdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Jamshid orqa tomonidagi o‘tkir nigoh ta’qibini sezib, dam-badam k o‘ z g u orqali unga qarab olardi.* T.Malik, Shaytanat. *Eski t o sh o y n a xira yiltiraydi. T o sh o y n a burchagiga qistirib qo‘yilgan rasm oqarib ko‘rinadi.* O‘.Hoshimov, Dehqonning bir tuni. *Katta t o sh o y n a dan unga gaz masteri Begimqul emas, kamida fan kandidati, hatto yosh professorlarga o‘xshab ketadigan, qaddi-qomati ketvorgan, salobatli va ayni zamonda xushsurat bir yigit mag‘rur jilmayib qarab turar edi!* O.Yoqubov, Billur qandillar.

OZGINA, BIROZ, OZ-MOZ, PICHA, SAL, XIYOL, JINDEK (JINDAY, JINDAK), QITDAY, JICHCHA, ANDAK, GARTAK, ZIG‘IRCHA, CHIZI Narsa, masofa, belgi, harakat-holat va shu kabilarning miqdor-darajasi birmuncha oz ekanligini bildiradi. **Sal**, **xiyol** so‘zlari harakat, vaqt, belgining miqdor-darajasini bildirishi bilan bir-biriga semantik jihatdan yaqin. **Ozgina**,

sal, **xiyol**, **qitday**, **zig‘ircha** so‘zlari so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanadi. **Gartak**, **jichcha** so‘zlari shevaga xos. **Chizi** juda kam qo‘llanadi. **Jindek**, **qitday**, **zig‘ircha** so‘zlarida miqdor-darajaning kamligi obrazli ifodalangan, ularda kamlik belgisi kuchli tarzda ifodalanadi.

Safar bo‘zchi tunovi kungi adabsizlikni taqsirimning ko‘nglidan chiqardim, deb mulla Abdurahmonning ko‘zini uchratishka va o z g i n a bo‘lsa ham taqsirimdan minnatdorchilik olishg‘a tirishar edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Oyimlar o z g i n a pul olib kelgan ekanlar, dir-dir titragan qo‘llari bilan dadamlarga tutdi…* O.Yoqubov, Muzqaymoq. – *Sizga baribir emasmi? – Klara hamon uning qo‘lini qo‘yib yubormas, oydinda chehrasi b i r o z rangsiz, ammo jozibali ko‘rinardi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Mavlono qovuni esa aksincha, hali b i r o z xom, pishishiga picha bor ekan...* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Nihoyat, Ibrohimbek: – Janob poshsho, so‘zlaringizni o z-m o z tushundim, – dedi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. – *Men pul beray, shu atrofdan o z-m o z durust, oyoqqa ilinadigan bir narsa topib bering, – Yo‘lchi murojaat qildi Qora Ahmadga.* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Ana bu boshqa gap, tovarish Erkin aka! – deya maqtadi meni tovarish Yak, siyosiy ongim p i ch a oshganidan chiroyi yorishib.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. – *Mehmon miltiq doridan p i ch asini yoqib, usti qizil va ichi oq chiroyli pistondan bittasini chaqib ko‘rsatdi.* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *So‘ng qo‘shib qo‘yadi: – Shuu bu yil uzumning s a l cho‘g‘i pastroqmi deyman, xotin?* N.Norqobilov, Ayriliq quvonchi. *Yo‘q, xayriyat, s a l kunda odamlar insofga kelishdi, cholning ishi yengil bo‘lib qoldi.* A.Qahhor, Dahshat. *U hamon behush yotgan Humoyunga qarab: – Ko‘tardim dardingni! – dedi-da, yelkasiga og‘ir yuk olgan odamday qaddi x i y o l egilib xobgohdan chiqib ketdi...* P.Qodirov,Yulduzli tunlar. *Maydagina eshakdan yiqilsa, x i y o l vaqt qimirlamay yotadi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Bu hol uni j i n d e k ranjitdi, u o‘z yulduzi quyoshdek bo‘lishini istardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Siz hammasini j i n d e k-j i n d e k tatib ko‘rib oxiri og‘zingizga yoqqanini olib qolasiz.* S.Ahmad, Kelinlar qo‘zg‘oloni. *Sizdan yashiradigan q i t d a y sirim bo‘lsa, til tortmay o‘lay, ayting.* S.Nazar, Yashil boylik. *Nurining harakatida agar q i t d a y shubha sezsa, qolganini kampir o‘zi to‘qib-jo‘yib ola bilishiga qiz ishonar edi...* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Ko‘p emas, j i ch ch a gina, – dedi kosagul iljayib…* O‘.Hoshimov, “Butilka” hoji. *Paxta paytida telejkadan tushayotgan paytida yiqilib, qovurg‘asi j i ch ch a lat yegan ekan.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Berigi uyda Mo‘minning opasi, ammasi va bir-ikki xotin-xalaj u bilan ovora – tinmay ovqat yeyishga qistashadi: – J i ch ch a yegin, Mo‘mintoy!* N.Jaloliddin, Yig‘i. *Xotin – Hikmatoy sovuqqon, xotirjam ham a n d a k qo‘polroq edi.* Sh.Xolmirzayev, Nimadir yo‘q bo‘ldi. *Qishloq kayvonilaridan biri Hamidqul oqsoqol a n d a k iddaoli, a n d a k zardali ohangda raqibi – yakkaqayrog‘ochlik Asilbekning nomini tilga olmaguncha Omonali ta-*

yinli biror gap aytmadi… N.Norqobilov, Tog‘dagi yolg‘iz odam. *Og‘a Yunus pari… karashma qilib, g a r t a k uyalgan bo‘lib hovli o‘rtasida suqsurday suzib yuribdi.* “Go‘ro‘g‘li”. *– Oshnalar, shu yerda g a r t a k dam olamiz, − dedi sir boy bermaslikka urinib, azza-bazza cho‘nqayib o‘tirib olarkan.* B.Ali, Tunkezar bolalar. *Belingda jindakkina quvvat bo‘lsa, mehnat qil, ko‘zingda z i g‘ i r ch a nur bo‘lsa, mehnat qil.* S.Ahmad, Yer uyg‘ondi. M.Mansur, Judolik diyori. *– Nima balo, ko‘zni shamg‘alat qilib ko‘knoridan z i g‘ i r ch a tashlavorganmisan? – Ko‘knor otliqqa yo‘q-ku, aka pochcha…* M.Mansur, Judolik diyori. *Kimki yo‘ldan ch i z i toysa, Pokistonning chin o‘g‘li emas u.* Oybek, Nur qidirib. *Alqissa, ba’daz janoza faqirning qo‘limga ch i z i hadya berib uzatdilar.* A.Qodiriy, Kichik asarlar.

OZMOQ, ORIQLAMOQ, OZG‘INLANMOQ, OZIB-TO‘ZMOQ Ozg‘in holatga kelmoq, eti qochmoq. Qatordagi so‘zlarning barchasi odam va hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi. **Oriqlamoq**da belgi darajasi kuchli ifodalangan, hayvonlarga nisbatan ko‘proq qo‘llanadi. **Ozib-to‘zmoq** so‘zida ozish holati boshqa sinonimlariga nisbatan kuchli ifodalanadi. **Ozg‘inlanmoq** belgini **ozmoq**qa nisbatan kamroq ifodalaydi va nutqda kam qo‘llanadi.

O

Bir vaqtlar gavdali va chiroyli bo‘lgan o‘ttiz yashar yigit hozir cho‘pday o z ib ketgan. Oybek, Tanlangan asarlar. *Devdek odam uch-to‘rt oy ichida cho‘pdek o z ib, rangi za’faron bo‘lib ketdi.* E.A’zam, Stupka. *...O‘tgan yetti yil mobaynida u o r i q l a gan, zaiflashgan, keksaygan edi.* N.Rahmat, Zarpechak. *Shundan keyingina uning ancha o r i q l a b, qorayib qolganini…* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Burungi to‘laligi ketib, o z g‘ i n l a n gan va lekin bu ozg‘inlik uning husniga kamchilik bermay, bil’aks yuqorilatgan.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shifokorlarning bildirishicha, ...ancha o z g‘ i n l a n gan, sog‘lig‘i zaif.* Gazetadan. *Eshikni Otaqul Qulyevichning xotini ochdi. Barcha och-nahor, yuvundidan farq qilmaydigan ovqatlar va qotgan qora non ta’sirida cho‘pdek o z i b-t o‘ z ib, ko‘zlari kirtayib, qovurg‘asi sanalib ketgan holda zo‘rg‘a oyoq bosib, yuzida xavotir zohir bo‘lib tashqariladi.* Sh.Ortiqov, Bahor yakshanbasi. *...armon iskanjasida ich-etini yeyaverganidan o z i b-t o‘ z ib ketgan xotini Davron qaylargadir yashirib tashlagan suratlarni baribir topib oladi…* A.Yo‘ldosh, Bozor.

OZOD, ERKIN, HUR, SARBAST, **SUVEREN** Erki, haq-huquqi o‘z qo‘lida bo‘lgan, mustaqil. **Ozod** va **erkin** so‘zlari **hur** va **sarbast** so‘zlariga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Hur** va **sarbast** badiiy uslubga xoslangan, kitobiylik bo‘yog‘i bor. **Suveren** so‘zi rasmiy uslubda qo‘llanadi. **Erkin** so‘zida bu ma’no **ozod** so‘ziga nisbatan kuchsiz, **hur** so‘zida esa har ikki so‘zdagidan ham kuchli, unda ham erkinlik, ham ozodlik ma’nosi jamuljam.

Bu ko‘ngil Vatan der va ona quyosh Nurini shimirib men tirilaman. Va bag‘rim tuyadi o z o d, bepoyon, Ulug‘ Vatanimning muhabbatini. X.Davron,

Muqaddas so‘zim Vatandir. *Yorug‘ dunyodagi mustaqil davlatlar qandayin haq-huquqqa ega bo‘lsa, bizning o z o d yurtimiz ham shu huquqlar egasidir.* T.Malik, Savohil. *Ozodlik orolining odamlari. Ozod, e r k i n odamlar*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *...Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki, sen ham h u r tug‘ilg‘onsan!..* Cho‘lpon, Ko‘ngil. *Ey ona yurt, jonimdagi ildizimsan, Ko‘zlarimda yonib turgan yulduzimsan, Yuragimni yashnatguvchi h u r so‘zimsan, Zabonimda gul unadi seni desam.* O.Bekmurodova, Vatan haqida qo‘shiq. *Bo‘g‘izda tiqilib, o‘rtada to‘lib turgan nafasni faqat s a r b a s t gap bilan, o‘rtadagi taranglikni yo‘qotuvchi erkin so‘z bilan o‘nglash mumkin edi*. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *U har bir musulmon qizi kabi o‘yin-kulgidan, s a r b a s t ovoz chiqarishdan mahrum, ota-ona, tanish va begona, erkak-ayol – hammaning oldida soqov bo‘lishga majbur...* Oybek, Tanlangan asarlar. *O‘zbekiston – suveren demokratik respublika*. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”. *Zotan, aynan asosiy Qonunimiz s u v e r e n davlatimizning huquqiy negizini shakllantirishning asosiy poydevori, mustaqil davlatchiligimizning tamal toshi bo‘ldi.* Gazetadan.

O

OZODLIK, ERKINLIK, MUSTAQILLIK, ISTIQLOL, HURLIK, HURRIYAT, **SUVERENITET** Inson, millat va davlatning boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashashi. **Ozodlik**, **erkinlik**, **mustaqillik**, **istiqlol** so‘zlari barcha uslublarda keng qo‘llanadi. **Hurlik**, **hurriyat** publitsistik va badiiy uslubda nisbatan faol ishlatiladi. **Suverenitet** so‘zi, asosan, rasmiy uslubda qo‘llanadi. **Mustaqillik, istiqlol, hurlik**, **hurriyat** so‘zlarida publitsistik ruh darajama-daraja yuqorilab boradi.

Adib yuragida alamlar qat-qat, Lekin bittasi bor, o‘chmasdir dog‘i: Jonni tik o z o d l i k yo‘lida faqat, Bu esa ustozning so‘nggi sabog‘i. A.Oripov, Abdulla Qodiriyning so‘nggi sabog‘i. *O z o d l i k yo‘llari bo‘lmagay ravon, Tayyor dasturlar yo‘q saodat uchun. Bu yo‘lda kurash bor, zafar va armon, Ishonch bor, shubha bor, yanglish va tugun.* E.Vohidov. *Ha, non-u tuz bilan tirikdir inson, E r k i n l i k, istiqlol mening ham jonim*. A.Oripov. *Hurriyat xuddi shu beozor qushlar misol qanotlarida ozodlik, e r k i n l i k, baxtni olib kelib go‘yo xalqqa in’om qilganday edi*. T.Malik, Savohil. *M u s t a q i l l i k imkoniyatlarini oldindan payqagan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishini to‘g‘ri kuzatib, to‘g‘ri baholay bilgan O‘zbekiston ittifoqdoshlari orasida birinchilardan bo‘lib, o‘z m u s t a q i l l i g ini e’lon qildi...* “O‘zME”. *Qutlug‘ i s t i q l o l kunida Ey vatan, bag‘ringda shod, Erkin o‘g‘loning bo‘lib Yurmoqni istaydir ko‘ngil.* E.Vohidov. *I s t i q l o l, sadag‘ang ketay, I s t i q l o l! Buncha og‘ir ekan qutlug‘ yo‘llaring.* A.Oripov. *Boshingizdagi toj – yurtning h u r l i k quyoshi*. T.Malik, Savohil. *Bayroq – bizni ulug‘ maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash’aladir. ...Qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, h u r l i k, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan*. A.Haitov, Bayroq – hurlik timsoli,

ezgulik ramzi. *H u r r i y a t, keldingmi – nahotki kelding, Pinhona sog‘indim, pinhona kutdim.* Zulfiya. *H u r r i y a t xuddi shu beozor qushlar misol qanotlarida ozodlik, erkinlik, baxtni olib kelib go‘yo xalqqa in’om qilganday edi*. T.Malik, Savohil. *Davlat – o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur Davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat mexanizm (mahkama)ga, huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari – sud, prokuratura, militsiya, politsiya kabilarga, o‘z mudofaasi, s u v e r e n i t e t i, hududiy yaxlitligini va xavfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo‘ladi.* “O‘zME”. *Davlat s u v e r e n i t e t i haqidagi g‘oyani XVI asrda Fransiyada yashab ijod qilgan mutafakkir Jan Boden ilgari surgan.* “Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at”.

OG‘IR I, **VAZMIN, ZALVARLI, ZILDEK (ZILDAY), ZIL, ZIL-ZAMBIL** Vazni, og‘irlik o‘lchami katta, yengilning aksi. **Zildek, zil, zil-zambil** so‘zlari haqiqatda vaznning og‘irligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi, so‘zlashuv nutqiga xoslangan. Bu so‘zlarda og‘irlik belgisi kuchli ifodalanadi. **Zildek, zil-zambil** so‘zlarida belgining o‘ta darajada yuqori ekanligi; **zalvarli** so‘zida kattalik ta’kidi mavjud. **Zalvarli, zil, zildek, zil-zambil** ketma-ketligida belgi darajasining so‘zdan so‘zga oshib borishi kuzatiladi.

O

Oriq Zokiralining chillakday oyog‘iga, o g‘ i r yukdan egilib, qiltillab yurishiga... qarab Davronning ham kulgisi keldi... T.Malik, Davron. *Shundan keyin u o‘rindiq ostidagi to‘rvadan bir quchoq keladigan o g‘ i r kitobni chiqarib menga ko‘rsatdi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Yigitalining hovlisiga v a z m i n cho‘yan darvoza orqali kirilar, uning yonboshidagi… kichik uychada cho‘qqisoqol qorovul o‘tirardi.* D.Nuriy, Osmon ustuni. *To‘xta! Nechun yillar pallasi v a z m i n, Umrim emasmidi hayot tuhfasi.* Zulfiya, Saylanma. *Azizxon z a l v a r l i bir tosh nokni qo‘liga olib salmoqlab ko‘rdi.* S.Ahmad, Ufq. *Qorako‘z begim gilam uzra cho‘kkalab, vahimadan xiyol titrayotgan nafis qo‘llarini hazratning mayin choyshab ustida yotgan z a l v a r l i bilagiga qo‘ydi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Poyezd jo‘nashiga uchinchi qo‘ng‘iroq urilganda ikki qo‘lida z i l d e k chamadon ko‘targan bo‘yni yelkasiga tutashib ketgan bir kishi kirdi*. S.Ahmad, Ta’zim. *Biyday dalada saratonning z i l d a y hovuri kezadi.* A.Suyunov, Ota va o‘g‘il. *Zil-zil gilam, z i l gilam, zildan ham og‘ir gilam (Yer).* O‘zbek xalq topishmoqlari. *U oyoq-qo‘li uvushinqirab, lohas bo‘lib uyg‘ondi. Z i l-z a m b i l boshini bazo‘r ko‘tarib, devorga orqa tiradi.* Q.Norqobil, Yangi yil kechasida. *...Begimqul qo‘llarini silkitib uning ketidan talpindi, biroq oyoqlari ostida yotgan kolbasa parchalariga sirg‘anib ketdi-da, ayiqday z i l-z a m b i l gavdasi bilan polga gursullab yiqildi.* O.Yoqubov, Billur qandillar.

OG‘IR II, **VAZMIN, BOSIQ, SIPO** O‘zini tuta biladigan. **Bosiq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv nutqiga xos. **Og‘ir** so‘zi ba’zan **vazmin** hamda **bosiq** so‘zlari bilan juftlashib kelib (**og‘ir-vazmin**, **og‘ir-bosiq**), belgi darajasining kuchli ekanligini ifodalaydi. **Vazmin, sipo** so‘zlarida ko‘proq kitobiylik bo‘yog‘i seziladi.

Aminjon, o‘zi yosh bo‘lsa ham, juda pishiq, o g‘ i r, g‘ayratli. A.Qahhor, Xotinlar. *Katta o‘g‘li o g‘ i r odam edi. Enasining javrashlariga jilmayib qo‘yardi xolos.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Qiziq, otalarning hammasi tabiatan shunaqa ichidagi dardini sirtiga chiqarishdan iymanishadigan og‘ir, v a z m i n bo‘lisharmikin-a?!* L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. *Bo‘ri polvon, Tilovberdi joyidan turib, Maksim polvon bilan yoqalashib ketadi, deb o‘yladi. Yo‘q, o‘g‘li v a z m i n yigit bo‘libdi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Deyarli butun hayoti turli tahqirlashlarga chidash bilan o‘tgan Rayhon qiziqning b o s i q ekanligi qo‘l kelib, tezda esini yig‘ib oldi…* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Normat ancha b o s i q, ayollarning oldida o‘zini tuta oladigan, lekin fe’li kelsa, otasini ham ayamaydigan odam edi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *U juda orkash, lekin s i p o odam edi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *So‘ng oppoq “Volga”lar bir daqiqaga to‘xtab o‘tishadi. Undan tushgan s i p o odamlar atrofga alanglab olib, yerto‘laga sho‘ng‘ishadi.* T.Malik, Shaytanat.

OG‘IRKARVON, SUSTKASH, **SUST** Juda sekin harakat qiladigan, imillagan. **Og‘irkarvon** so‘zi **sustkash**ga nisbatan nutqda faol qo‘llanadi, unda salbiy munosabat ifodalanmaydi. Shuningdek, **sustkash** so‘zida kitobiylik bo‘yog‘i bor. **Sust** bu ma’noda yozma uslubga xos.

Qolaversa, ular o‘qituvchilarini sevadi, bu – bir qadar xo‘mraygan, o g‘ i r k a r v o n va allanechuk odamovi yigitni hurmat qilishadi. Sh.Xolmirzayev, Ot egasi. *Bu gapi bilan teshikmozorga qayerdagi, “belaqab odam”ni olib kelmaganini, eng muhimi, o g‘ i r k a r v o n deb nom qozongan bunaqa brigadani tortib ketishi uchun mana shunaqa, To‘lqinjonga o‘xshagan nortuyaday baquvvat kadrlar shart, degan siyosatini o‘tkaza olgan ekan.* A.Boyqo‘ziyev, Teshikmozor hangomalari. *Odamlar ehtiyotkor, s u s t k a sh va hushyor bo‘lib qolishdi.* H.Shayxov, Sirli nur. *G‘ayratning yukchilarga xos bo‘lmagan s u s t k a sh xatti-harakati hamda dam-badam “choy”lanib turishlari hammaga ham yoqavermasdi.* N.Norqobilov, Kurash. *Qo‘li s u s t kosibdan oyog‘i chaqqon gadoy yaxshi*. Maqol

OG‘IRLIK, VAZMINLIK, BOSIQLIK, SIPOLIK O‘z xatti-harakatlari, his-tuyg‘ularini boshqara bilish holati. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar odamning turli vaziyatlarda o‘zini tutishi, so‘zlash tarziga nisbatan qo‘llanadi. **Og‘irlik** so‘zi barcha uslublarda qo‘llanadi. **Vazminlik, bosiqlik, sipolik** so‘zlari yozma nutqda nisbatan ko‘proq qo‘llanadi. **Sipolik** so‘zida o‘zini o‘ta madaniyatli tuta bilmoqlik ta’kidi ham anglashiladi.

U, aftidan, e’tirozini ifodalovchi jiddiyroq xatti-harakatlar sodir etishdan tiyilib, o‘zini o g‘ i r l i k ka solar, zangori qorachiqlaridagi norozilik uchqunlarini ham ko‘rsatmaslik payida edi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Sohibqiron chorpoyada o‘tirib o g‘ i r l i k bilan tingladilar: yuzlaridan u yonga-bu yonga*

og‘ganlari bilinmadi. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *U ancha ulg‘aygan, butun qomatida, chimirilgan qoshlari bir-biriga yopishib, g‘unchadek tugilgan lablarida salobat, v a z m i n l i k sezilib turardi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Ha endi, bunaqa gaplarni eshak misolida aytish noqulay-u... biron karomati bor, na iloj, bilmaganimda ma’quli shu, biron yo‘li ko‘rinar deb, o‘zimni v a z m i n l i k ka soldim.* A.A’zam, Quroq. *B o s i q l i k bilan so‘z boshlagan Shuvalov shu yerga kelganda asablarini jilovlay olmadi.* T.Malik, Savohil. *– G‘ozi, – dedi b o s i q l i k bilan Abdulhay, – no‘noq maqolalarni epaqaga keltirishdagi mehnatingizni... yaxshi bilamiz...* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Faqat Hakimjon s i p o l i k ni qo‘ldan bermay, og‘ir va keskin javob qildi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Chaldratyan deganlari qulog‘iga chalingandek edi-yu, ammo uning birorta filmidan bexabar Farhod s i p o l i k yuzasidan “Ha, ha, albatta, yaxshi, juda yaxshi”, deb qutuldi.* E.A’zam, Shovqin.

OSH, PALOV, PALOVXONTO‘RA Piyoz, go‘sht, sabzini qovurib, so‘ng qaynatib, unga guruch solib pishiriladigan o‘zbek milliy taomi. **Osh**, **palov** so‘zlari nutqda faol qo‘llanadi. **Palovxonto‘ra** so‘zi, asosan, so‘zlashuv nutqida va badiiy nutqda ishlatiladi. Mazkur so‘zdan so‘zlovchining ijobiy munosabati anglashiladi.

Bir shishani tamom qilib, yuvuqsiz qo‘li bilan o sh ga chang soldi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Boshqa paytlarda otinoyi to‘ygami, ma’rakagami chiqib ketar, allapallada bir lagan sovigan o sh, bir kosa moxora, bir chekkasi ushatilgan qatlama olib kelib, o‘rtaga qo‘yar... edi...* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Minishga ulov bo‘lsa, Qish keldi, olov bo‘lsa, Sovuq qattiq, qor qalin, Qo‘y yog‘li p a l o v bo‘lsa.* “Chittigul”. *Nima qilasan ovqat qilib?! Mana, ko‘rayapsanmi, bir qozon p a l o v damlog‘lik turibdi.* S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg‘alar. *Dorining zo‘ri uyingizda, deydi. O‘shandan gapiring-da, nima ekan u, dedim. Qo‘y go‘shti, zig‘ir yog‘ida kenja guruchdan p a l o v x o n t o‘ r a, deydi.* O.Ergash, Shohsanam. *U, ayniqsa, kiyinish madaniyatiga alohida e’tibor berar, gastrol safarlarida dazmol topilmay qolsa, uxlashdan oldin shimini hafsala bilan ko‘rpa ostiga taxlab: “Mana, oshni damladik, ertalab quling o‘rgilsin p a l o v x o n t o‘ r a bo‘ladi” – deb qo‘yarkan.* Sh.Otabek, Do‘rmon hangomalaridan.

OSHIQ, XUSHTOR, SHAYDO, SHAYDOYI, OSHUFTA, **BEDIL** Birovga yoki biror narsaga mehr-muhabbat qo‘ygan, juda sevib, shaydo bo‘lib qolgan (odam). Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar, asosan, turli nutq uslublariga xoslanganligi va xususiy ma’no uzviga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. **Xushtor** ko‘pincha so‘zlashuv tilida ishlatiladi. **Shaydo, shaydoyi, oshufta** so‘zlari kitobiy. **Shaydoyi** so‘zida **shaydo**ga nisbatan ma’no kuchliroq ifodalanadi. **Bedil** kitobiy uslubga xos.

Vasl umidin tark etolmay Intilar ko‘nglim senga, Umrini o sh i q hamisha O‘tkazur orzu bilan. E.Vohidov, Sevgini tortib bo‘lurmu... *Hech narsadan xabari yo‘q o sh i q lar esa butun umr ta’qib etadigan xavfli dunyoni go‘yo unutib*

qo‘yishgandi. G‘.Rahmon, Oshiq dunyo. *Shivir-shivir gap bo‘lib qoldi. Nima deysan, kelin x u sh t o r i bilan qochib ketibdi.* S.Ahmad, Lochin. *Ko‘hi Qofda Misqol pari, O‘zing jononlar sarvari, Go‘ro‘g‘lining sen x u sh t o r i, Nozlar qilib yetib kelgin.* Yunus bilan Misqol. *Sanam, sochingdan ham sh a y d o laring ko‘p, Husning oshiqlari – adolaring ko‘p.* M.Yusuf, Men bittadurman. *Juda ko‘p seriallar bir-biriga o‘xshaydi: bir mamlakatning hamma yigiti bitta qizga oshiq, hamma qizlar esa shu qizning xushtoriga sh a y d o, boshqalar esa shularning yo tashvishi yo g‘iybati bilan ovora, xullas, ishq mojarosi.* A.A’zam, Dunyo o‘zi azaldan bozor... *Arzi hol etsang seni hech tinglamaslar ko‘p erur, Tinglagin endi o‘zing sh a y d o y i ko‘nglim nolasin.* F.Usmon, G‘azallar. *Ulug‘ shoirning So‘zi besh asrdan o‘tib, oltinchi asrga qarab ketayotgan vaqt oqimi bo‘ylab muzaffar va fath bilan suzib bormoqda. Uning kalomi So‘zga o sh u f t a har qanday qalbni zabt etmoqda*. A.Malik, Kishi topsa hamdardini nogahon... *Sendayin bir malakning-ku tanholigi rost, Men kabi bir o sh u f t a ham yo‘qdir, ehtimol.* A.Oripov, Malak. *Chiroqpoyadagi sham b e d i l lar yuragidek titrab, mehmonxonani arang yoritar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Muntaziri visol edim, b e d i l-u beqaror ham, Rahmki, emdi qolmadi toqati intizor ham*. M.Bayramxon, Muntaziri visol edim...

OSHIQLIK, XUSHTORLIK, SHAYDOLIK, SHAYDOYILIK, OSHUFTALIK, BEDILLIK Birovga yoki biror narsaga mehr-muhabbat qo‘yish, kim (nima)nidir sevib qolish, shaydo bo‘lish holati. **Xushtorlik, shaydolik** ko‘pincha so‘zlashuv nutqida ishlatiladi. **Shaydolik, oshuftalik** so‘zlari kitobiy. **Shaydoyilik** so‘zida **shaydolik**ka nisbatan ma’no kuchliroq ifodalanadi. **Bedillik** kitobiy uslubga xos.

Shoir hamisha o‘zining mangu o sh i q l i k e’tiqodiga sodiq, har bir she’rida yangi fikr aytishga intiladi, buning uchun yangi shakl va uslub, ishora va tashbehlar, ramzlar izlaydi. H.Hamroyeva, Shoir bo‘lsang, mangu oshiqsan. *Kimki o sh i q l i k ni da’vo Aylasa shuldir jazo. Oqibat xum ichra bo‘ldi Mahkumi zindon uzum*. E.Vohidov, Uzum. *Barcha dildorlik senga-yu, Barcha x u sh t o r l i k menga*. E.Vohidov, Senga. *Uning hamhujrasi uylanadi. Bu yigit uning xotiniga ko‘z olaytiradi, xotinning samimiy munosabatlarini x u sh t o r l i k nishonalari deb o‘ylaydi*. A.Qahhor, Yoshlar bilan suhbat. *O‘zi suhbatni qiziqib Marat boboga “yo‘naltirib qo‘ygan” bo‘lsa-da, birovga yoki birovning so‘ziga sh a y d o l i k Hasanga yot*. O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Muallimda kasbiga sh a y d o y i l i k, fidoyilik bo‘lishi kerak...* R.Jumaniyozov, Zullisonayn olimni olqishlab... *Badiiy so‘z sehriga o sh u f t a l i k, adabiyotga bo‘lgan adoqsiz mehr-muhabbat Nosir bilan bizni bir-birimizga yaqinlashtirdi, do‘stlashtirdi*. N.Rahimjonov, Do‘st qalbingda bog‘ o‘stiradi. *Ayni shu muhabbat dastlabki onlardayoq qalbida chechak otganini Omonali sezmagan, buni shunchaki qizning suhbatiga o sh u f t a l i k deb o‘ylagan.* N.Norqobilov, Tog‘dagi yolg‘iz odam.

Bahor qizi, osmonga boshla! Kamalakning dorlariga os. Zangori kuy – ummonga tashla, B e d i l l i g im uchun ol qasos! V.Fayzulloh, Lolaqizg‘aldoq. *Ilk sevgi pokiza va sirli hislarga cho‘lg‘aydi, eng toza va ardoqli yo‘llarga oshno etadi. Ko‘p hollarda esa ayriliq azobini, b e d i l l i k jafosini totasan, natijada shoirning o‘kinchli “toleyimda sen bo‘lmading, baxtli muhabbat” so‘zlarini beixtiyor takrorlaysan.* V.Alimasov, Men hayotni suyib...

OSHMOQ, YETILMOQ, KO‘PMOQ, KO‘PCHIMOQ, ACHIMOQ Xamirturush ta’siri natijasida shishib ko‘tarilmoq, tayyor holatga kelmoq. Qatordagi so‘zlar xamirga nisbatan qo‘llanadi. **Oshmoq**, **ko‘pmoq** va **ko‘pchimoq** so‘zlarida shishganlik, yetilganlik ta’kidi kuchli. **Yetilmoq** so‘zida tayyor holatga kelganlik ta’kidlangan. **Achimoq** so‘zi so‘zlashuv tilida faol.

Sojidaxon tandirdan non uzayotqanda Vahobjon kirib keldi. – Keldingizmi! Sahar xamir qorib ketgan edim. O sh ib ketibdi, – u shunday deb tutayotgan yengchasiga kosadagi suvdan sepib o‘chirdi. S.Zunnunova, Xotiralar uyg‘onganda. *Buvim esa sahardan xamir o sh irib, non yopib, sigir sog‘ib, ovqat pishirib, katta oilaning butun xizmatini bajargan.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Dastlab maxsus usulda olingan no‘xat va arpabodiyon qaynatmasiga bir miqdor bug‘doy uni sepib xamirpaygir qoriladi. Paygir 5-6 soatdan so‘ng y e t i l adi*. “O‘zME”. *Sut va suv issiq bo‘lishi kerak, sunda xamir tez y e t i l a d i.* Gazetadan. *– Yaxshi boring, Hasan aka. Haligi, oyim uzoqdan qarab turibdilar. Xamirim k o‘ p ib ketgandir. – Xayr bo‘lmasa, Mushtariy, – dedi Hasan uning qo‘lini mahkam qisib.* N.Hoshimov, To‘g‘lik qiz qismati. *Munisa xola bugun xursand uyg‘ondi. ...Kechqurun qorib qo‘ygan xamiri k o‘ p ib ketibdi. Tezroq nonga zuvala bosish kerak.* M.Bekmirzayeva, Ona. *Turish kerak, xamir k o‘ p ch i b ketgandir... Salima sigir sog‘guncha non zuvalab qo‘ymasam bo‘lmas.* O‘.Hoshimov, Dehqonning bir tuni. *Kafti bilan urib-urib, ustiga eski dasturxonni yopib, to‘shak bilan o‘rab qo‘yibdi. Xamir uch-to‘rt soatda k o‘ p-ch i y di*. I.Sulton, Oftob chiqdi olamga. *Tayyor massa idishda qopqoq bilan yopiladi va 1-2 soatga iliq joyga achitish uchun qo‘yiladi*. Gazetadan. *Nihoyat, shogirdlar Iso nimani nazarda tutganini anglashadi. Xamirturush xamirni a ch itib, ko‘taradi.* Gazetadan. *Azbaroyi semizligidan grillni eslatuvchi juvon esa qush qanoti kabi ko‘tarilib qolgan kalta qo‘llarini a ch i gan xamir kabi ko‘pchigan qat-qat biqiniga tiraganicha kirtaygan ko‘zlarini kampirga tikdi*. E.Norsafar, Salamandra.

OSHQOZON, ME’DA Inson va hayvonlarda ovqat hazm qilish a’zosi. Mazkur so‘zlar ma’noni ifodalash jihatiga ko‘ra o‘zaro teng. **Me’da** so‘zi **oshqozon** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi.

Aksiga olib so‘nggi imtihon oldidan bir hafta yotib olsam bo‘ladimi? O sh q o z o n nosog‘-da. S.Ahmad, Ta’zim. *Yarim o sh q o z o n i yo‘q bulbul bilan Do‘st tutindik keyin to‘shab bo‘yroni.* S.Sayyid, Saylanma. *Sakkiz-to‘qqiz oylab*

qovun ko‘rmagan m e’ d a ga odatdan tashqari ko‘p tiqilgan yangilik o‘z ishini qiladi. A.Qodiriy, Obid ketmon. *Lola sayli kishi dilidagi g‘uborni yo‘qotur, ravoch m e’ d a n i tozalaydi.* Mirmuhsin, Me’mor.

OCHKO‘Z, SUQ(A)TOY, SUQ, MECHKAY, QULQULUM, BADNAFS, OCHOFAT, YEBTO‘YMAS, HARIS, YUHO, YUQTOB Nafsini tiyolmaydigan, nafsi buzuq, yeb to‘ymaydigan. **Ochko‘z** keng tushunchali, faol qo‘llanadi. **Badnafs** katta yoshdagilar nutqiga xos. **Suqatoy**, **mechkay**, **yuqtob** so‘zlashuv uslubiga xos. **Yuho**, **suq** nisbatan kam qo‘llanadi. **Ochofat**, **yebto‘ymas, yuho, yuqtob** so‘zlarida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Suqatoy** so‘zidan boshqalarning ovqatiga suqlik bilan qarash ma’nosi ham anglashiladi. **Yebto‘ymas**, **mechkay** va **qulqulum** so‘zlari ma’no jihatidan bir-biriga yaqin, “haddan tashqari ko‘p yeydigan” ma’no uzviga ega. **Haris** so‘zida hirslilik ta’kidi bor. **Qulqulum** so‘zi kam qo‘llanadi. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlarning yuqorida qayd etilgan ketma-ketligida belgi darajasining so‘zdan so‘zga oshib borishi kuzatiladi.

Oltin, avvalo, ilonlarni o‘ziga rom qiladi. Ilondan keyin o ch k o‘ z xalqni o‘ziga rom qiladi. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Kotib… ko‘zlarida o‘ljasidan ayrilgan bo‘rinikiday o ch k o‘ z va qizg‘anch bir ifoda yonardi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Men O‘rmon akani hozir qitmir, s u q a t o y qilib ta’riflayotganga o‘xshayman.* Sh.Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri. *S u q a t o y qush ziqnalikdan urishqoq, Bir don uchun, qizg‘anishib, yulishqoq...* Q.Muhammadiy, Musicha nega urishadi? *Kunda yegan – s u q, Oyda yegan – to‘q.* Maqol. *S u q to‘ymas, gadoy boyimas.* Maqol. *Keyin Sherqo‘zi hech ham m e ch k a y emas, ovqatni taniga qarab tanlab yeydi.* A.A’zam, Odamning olasi. *...endigina besh yoshga kirgan Omon ukasi ... ovqat so‘ragani so‘ragan; shunaqangi m e ch k a y ki, hatto uxlaganda ham og‘zini ochib uxlaydi.* U.Normatov, Sarguzashtlar sardori. *Og‘zi q u l q u l u m, Uzun oyoq-u kalta dum.* (*Tuya*) “O‘zbek xalq topishmoqlari”. *– Adashmasam, sen boshqalardan ancha b a d n a f sroqsan, – dedi u nihoyat Bo‘riga qarab.* A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi. *Otang rahmatli ikki lagan palovdi ko‘rdim demay, yeb yuborardi. Juda b a dnafs edi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Obbo o ch o f a t-ey! Qo‘l-oyoqli oziq-ovqat omborimi bu?* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Qahratoniyadagi manaman degan o ch o f a t ovqat yeyishda men minan bahslashib ko‘rsin.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Uni dahshatga soladigan narsa ukalarining o‘pqondek yamlog‘ich, y e b t o‘ y m a s oshqozonlari emasdi.* S.Ali, Ayron. *Aftidan, daroz y e b t o‘ y m a s Baroni bilan qaygadir aylanishga ketganga o‘xshaydi.* A.Yo‘ldosh, Javobi bor... *Qorni (o‘zi) to‘ysa ham ko‘zi to‘ymaydi. Suqatoy, h a r i s, ko‘zi och, nazari past, ko‘rmaganning ko‘rgani qursin, tagi zoti ko‘rmagan, iboralariga ma’nodosh. ...Suq, h a r i s ochko‘zligicha qolaveradi. Ibora qattiq tanqid, hazar qilish, istehzo ohanglarini tashiydi.* M.Sattor, O‘zbekning

gapi qiziq. *Shariati Mustafoga shak keltirib, birovning haqqiga xiyonat qilg‘on, yolg‘on fatvo ila raiyatning noniga chang solg‘on ...munofiq, h a r i s kimsaning jazosi ne bo‘lg‘ay, ayting!* S.Siyoyev, Ahmad Yassaviy. *Goh qanoatda sobit, daho bo‘ladi inson, O‘z nafsin yo‘lida goh y u h o bo‘ladi inson.* H.Xudoyberdiyeva, Bir qadam. *Pechka ham pechka emas, y u h o ning o‘zi, o‘tin-po‘tinni yamlamay yutadi, issiq bermaydi, unga faqat ko‘mir kor qilar ekan.* A.A’zam, Hali hayot bor... *Itdan suyak ortmas, Y u q t o b dan – po‘stak.* Maqol.

ONG, SHUUR Faqat insonga xos bo‘lgan va uning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va qarashlaridan tashkil topuvchi ruhiy-aqliy faoliyatining eng yuksak shakli. **Ong** so‘zi nutq uslublarida qo‘llanishi jihatidan cheklanmagan. **Shuur** kitobiy. Badiiy va publitsistik asarlarda faol qo‘llanadi.

Dildor uning bag‘ridan uzilib chiqishni istamasdi. Ammo qandaydir hayo, qandaydir andisha sekin-asta o ng iga quyilib kela boshladi. S.Ahmad, Ufq. *Nihoyat Akbarovning bir gapi uning o ng iga sal tegib o‘tdi: – Kamida o‘n yil, bo‘lmasa o‘n to‘rt-o‘n besh yil o‘qigan yoshlar nahotki majlisning nimaligini-yu, ijtimoiy ishning nimaligini tushunmasa?* P.Qodirov, Uch ildiz. *Insonga aql va sh u u r shu maqsadda berilgankim, u bu teran haqiqatni tushunsin!* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Uning sh u u r i, ongi ta’qibga, qo‘rquv va vahimaga moslashib borar... edi.* N.Eshonqul, Istilo.



PAKANA, KALTABAQAY, KALTABO‘Y, GIRDIG‘UM, YERMITTI, YERKINDIK, LILIPUT Bo‘yi past, kalta. **Pakana, kaltabaqay, kaltabo‘y** odam, hayvon va ularning a’zolariga nisbatan, **girdig‘um** faqat odamga nisbatan ishlatiladi. **Kaltabaqay, girdig‘um** so‘zlarida baqaloqlik ta’kidi anglashiladi. **Yermitti, yerkindik** so‘zlarida salbiy bo‘yoqdorlik bor, inson va jonzotlarga nisbatan qo‘llanadi. **Liliput** so‘zida o‘ta kichiklik, mittilik ta’kidi mavjud. Asosan, ilmiy uslubda shunday belgili odamlarning ilmiy nomi sifatida qo‘llanadi, so‘zlashuvda masxara qilish, haqoratni bildiradi.

P a k a n a qiziga qaramoqchi bo‘lib boshini ko‘tardi-yu, dahshat ichida ortiga tislandi: ajdar, ajdarho!.. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Pastlashib ketyapti bolalarning bo‘yi. Yaqinda p a k a n a xalqqa aylanamiz...* U.Azim, Turmush suratlari. *Biroq k a l t a b a q a y odam, zina pillapoyalarining yarmiga yetmasdanoq, yuragi qinidan chiqib ketguday gurs-gurs urib, to‘xtab qoldi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Derazaga intildim. Nosirjon k a l t a b a q a y qo‘lini qimirlatib nimadir der edi.* Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *...ostonada k a l t a b o‘ y, jingalaksoch, ko‘zlari kishiga tik va behayo boqadigan... o‘ttizlarga yaqinlashgan ayol yelkasi ochiq xalatda paydo bo‘ldi.* N.Eshonqul, Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi. *Men o‘rtabo‘y-o‘rtabo‘y ham k a l t a b o‘ y-k a l t a b o‘ y g‘o‘zalarim paxtasini terib olish uchun barabanlar oralig‘ini tor-tor olaman.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *O‘zi keksaroq bo‘lsa ham hali baquvvat, g i r d i g‘ u m gavdasiga chog‘ ketmon obdon yarashib turibdi.* A.Muxtor, Chodirxayol. *Barotning oyoqdan boshlangan, boshi ham do‘mpayib turgan soyasi bor. Oftob tikkada charaqlab turgani uchun kalta, g i r d i g‘ u m, lekin, har qalay, odamning soyasi-da!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Chavandoz ostidagi ot maydagina, y e r m i t t i ot bo‘ldi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Agar shu gap rost bo‘lsa, unda rais nimaga bunaqa pachaq? Sutdan qisilgan qo‘ziday y e r k i n d i k, – deya g‘udrandim yo‘l-yo‘lakay.* A.Hamro, Muso rais. *Qo‘mondon: – Jo‘ralari bilan til biriktirib, bizni muzlatmoqchi bo‘lgan u l i l i p u t!* A.Ko‘chimov, Boychechak. *– O‘o‘, jaa nozik joyimdan olding-ku, l i l i p u t, – Qo‘zivoy aka otdan tushsa ham egardan tushmadi.* A.Hamroyev, Qo‘sh ustunimning biri.

PALAXMON, MANJANIQ (MANJANAQ), KATAPULTA, ARRODA Tosh otadigan jang quroli. **Palaxmon**, **manjaniq** – qurolning o‘rta asrlardagi

nomi, **katapulta** – zamonaviy nom, harbiy terminologiyada ishlatiladi. **Arroda** – manjaniqning kichik turi.

Ta'mir etilgan devor kunguralari va boshqa ishlarni ortiq kutishga vaqt yo'q, qo'rgon tepasiga xarsangtosh va manjaniqlarni, p a l a x m o n larni shay qilmoq, idishlarda qoramoy, oltingugurt va boshqa qurol-yarog'lar tayyor turmog'i lozim. Mirmuhsin, Temur Malik. *...p a l a x m o n lar otgan toshlar gursullab devorlarga, darvozalarga urilishidan taralgan bo'g'iq tovushlar... Sohibqironning: "Bosing! Bosing!" degan hayqirig'i!..* X.Davron, Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat. *...Temur Malik va boshqa sardorlar qal'ani ta'mirlash, mashq... chilangarlarga qilich-u nayza buyurtmalar berish, m a n j a n i q, kemalar yasash kabi ishlar bilan band edilar*. Mirmuhsin, Temur Malik. *...xandaq girdida yonma-yon qo'ndirilgan ulkan palaxmonlar va m a n j a n a q lar og'izlarini ochib muttasil guvullar, havoda son-sanoqsiz kamon o'qlari ilondek vishillar edi.* A.Dilmurod, Mezon burji. *K a t a p u l t a tosh, g'o'lalarni, smola solib yondirilgan bochkalar va nayzalarni bir necha yuz metrga uloqtirgan.* "O'zME". *– Hayhot! – dedi. – Shahzodada tosh otguvchi a r r o d a lar bordur, taqsir! Butkul shahar zer-zabar bo'ladi! Butkul shahar!* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Qurol-aslaha, bilxossa, manjaniq va tosh a r r o d a lar yetarlidir*. N.Qobul, Qadarning g'arib jilvasi.

PANSHAXA, YOVA, AYRI, BESHLIK, SHOXA Uchta, to'rtta yoki beshta sanchqisi bo'lgan, poxol, somon va shox-shabbalarni surish, olish uchun ishlatiladigan uzun sopli mehnat quroli. **Yova, ayri**, **beshlik, shoxa** shevalarda qo'llanadi. **Beshlik** beshta sanchqili asbobni ifodalaydi. **Shoxa** uch, to'rt, besh sanchqili asbobni ifodalashi mumkin.

Ummatali tashqariga chiqib aravani to'g'riladi-da, qaytib kirib p a n sh a x a bilan raxnadan oshirib aravaga go'ng ota boshladi. S.Ahmad, Ufq. *Xirmonchi chol p a n sh a x a bilan yoyilib ketayotgan somonlarni ho'kizlar oyog'i ostiga tashlab turdi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Kampirning tishlari y o v a day bir balo edi*. "Go'ro'g'li". *...mag'ribi mashriq, oqshom va bugun, o'tgan va kelasi kun osmonida shahd bilan aylanmish chaqin digirchaklar... yaqin kela-kela... tarang-turung... taqa-taqur bir-biriga urilib, osmon toqidan olovli yulduzlar, olovli y o v a, olovli sanchqi, nayzalarini otib, qiyomat jangiga kirishdi*. S.Vafo, Hasan-Husan o'q yoyi. *Otam va akamlarning otlar tuyog'i ostidagi bug'doy poyasini a y r i – panshaxalar bilan tez-tez ag'darib turganidan ko'tarilgan chang-chunglar dimog'ga urilarkan, nafas olish qiyinlashadi.* M.Qo'shjonov, Dagish. *– Ketamiz, faqat sen boshlaysan, – dedi Sotvoldi. – Shartta b e sh l i k ni go'ngga sanchib ketvorsa-chi.* A.Damin, Hayot va o'lim. *– Ko'plarning qo'lida yog'och sh o x a, gavron, kamdan kam odamda miltiq, yo ham pilta bilan ishlaydi...* H.Sattoriy, Sog'inch. *Pirmanboy, keling, to'rt sh o x a tashlab bering, – dedi O'rol bobo xirmoni yonida qo'llarini ortiga qilib turgan Pirman kaltaga qarab*. H.Alp, Zuryod.

PARDOZ, ORO, OROYISH, ZEB, GRIM Husnni ochish uchun qosh, ko‘z, lab, yonoqlarni bo‘yash. **Oro, oroyish** *oro bermoq, oroyish bermoq* fe’llari tarkibida uchraydi, badiiy nutqqa xos, nafaqat yuz, umuman, har tomonlama yasanishni bildiradi. **Zeb** ham badiiy uslubda qo‘llanadi. **Grim** teatr, kino sohasida ishlatiladi, sahna uchun yuzga ishlov berishni bildiradi, san’atshunoslik termini.

Asrora kuniga p a r d o z ini necha marta yangilar, qanaqaki kiyimi bo‘lsa, hammasini bir kunda kiyib, bir kunda yechardi. S.Ahmad, Ufq. *Sanam xola Norboy otaga yuzlandi: – Cho‘ponligida baloday oylik olar edi. Endi bir oyda olib kelgan matoyi o‘n besh so‘m! Xotinining p a r d o z iga yetmaydi!* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Ayolning o‘ziga ortiqcha o r o bergani salbiy ta’sir qildimi yo erkaklar to‘g‘risidagi achchiq mulohazalari g‘ashimga tegib qo‘ydimi... menimcha, u hammas, bu hammas...* Q.Kenja, Taqiq chizig‘i. *Atroflari tillaqoshdek, kumushga behisob zumrad ko‘zlar qadalgan katta, tuxum shaklidagi oyna oldida ancha muddat o‘tirib o‘ziga o r o berdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Ming o‘lim, Ming zulm, Ming tig‘li qilichdan Omon olib chiqqan xalqim javharin Mehr, iftixor-la berib o r o y i sh Sizga yaraqlatib ko‘rsatolmadim...* Zulfiya, Sharqning o‘zi ona bo‘lgan hamisha. *Dillari bo‘lib dayron, Z e b lari bo‘lib vayron, Xollari bo‘lib hayron – Mening izlarim qoldi, Sening izlaring qoldi*. I.Otamurod, Xaritaga tushmagan joy. *Ha, sevgi haqida. U dilga ne z e b, Kuyinmang, ne iloj qilmasa nasib, Baxtimga hamisha Siz sog‘ bo‘ling deb, Sog‘ingan o‘g‘lingiz – Muhammad Yusuf*. M.Yusuf, Onamga. *Qumrixon opa ichkariga kirdi. Dimog‘iga o‘ta tanish hidlar – jihozlarga o‘rnashib qolgan g r i m hidi, yog‘och hidi urildi*. Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *A.Avloniy memorial muzeyida shu voqea munosabati bilan xuddi shu kuni spektakl ishtirokchilari g r i m va kostyumlarida aks ettirilgan tarixiy surat saqlanadi*. Sh.Rizayev, Jadid dramasi.

PARVONA, GIRDIKAPALAK, JONHALAK Haddan ziyod mehribonlik ko‘rsatish, mehr-muhabbat berish, parvarish qilish. **Girdikapalak** so‘zida **parvona**ga nisbatan ma’no kuchliroq, unda ekspressivlik ham yuqori. **Jonhalak** poetik nutqda qo‘llanadi.

Yordan ayrilgan devona, Yor o‘lguncha men p a r v o n a, Yor sevmayman yor ustina. Mirtemir. *Uyda harorati pasaysa-da, do‘zax azobiga teng sirqirash bosilmadi, Maqsudjonning boshida p a r v o n a Sharofatni tahlikaga qo‘ymaslik ilinjida, ingranish yoki bo‘zlashdan arang tiyilardi*. A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Oh ayol, biz ayollar ishqqa g i r d i k a p a l a k, Shu ishq ortidan kuyib bo‘ldik doimo halok*. H.Xudoyberdieva, Kumushning o‘limi. *Yuqori kurs yigitlarining deyarli barchasi atrofimda g i r d i k a p a l a k, tarozi mahali zil-zambil choyshab-etagim talash, birovi nomimga she’r bag‘ishlagan... tugal baxtiyor edim*. I.Mirzo, Bonu. *Erta-yu kech j o n h a l a k Titrar ona sayyora, Biz-chi yer*

farzandlari, Uning uchun ovora! A.Oripov, Qaydadir... *Onasi j o n h a l a k, men tunlar bedor, Uni ardoqlaymiz, darddan ayaymiz. Zinhor og‘rimasin, og‘risa bir bor, Mingta jonni uzib bermoqqa shaymiz*. M.Mirzo, Istiqlol.

PARVONA BO‘LMOQ, GIRDIKAPALAK BO‘LMOQ, AYLANIB-O‘RGILMOQ Kimgadir xizmat qilish, yordam berish uchub aylanib-o‘rgilmoq, g‘amxo‘rlik qilishga haddan ortiq berilmoq. **Girdikapalak bo‘lmoq**da g‘amxo‘rlik qilish darajasi **parvona bo‘lmoq**qa qaraganda kuchliroq. **Aylanib-o‘rgilmoq**da ekspressivlik boshqalarga nisbatan kuchliroq, kitobiy uslubga xos.

Puldorning oyog‘i mudom yarqirar, Bulutsiz umridan beg‘am nishona. Unga duch kelganda ayyor bolalar, Girdida b o ‘ l asiz darrov p a r v o n a. U.Azim, Mamamrayim baxshining bir davrada aytgani. *Qalbim bir sevinchga p a r v o n a b o ‘ l di, Sevib qoldim.* Mirtemir, Balki... *Ammo-lekin yaxshi xotin shu, yaxshi inson. Etta-betda uchrashib qolsak, g i r d i k a p a l a k b o ‘ l ib o‘lay deydi-ya!* E.A’zam, Shovqin. *Hamidabonu ham o‘g‘li Akbarning xabarini olib kelgan kayvonining atrofida g i r d i k a p a l a k b o ‘ l ib, mehmondorchiliklar qildi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *O‘zbek oyim ham uni mahkam siqib quchoqlab olgan, yuzidan shap-shap o‘pib, a y l a n i b-o ‘ r g i l ar va tikilib-tikilib nima uchundir yig‘lar edi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Dunyoda “Girgitton buvi”dan muloyim, undan mehribon odam bo‘lmasa kerak. Hamma bilan “buving girgitton” deb a y l a n i b-o ‘ r g i l ib ko‘rishadi...* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar.

PARCHA, QISM, BO‘LAK, BURDA Butundan kesish, qirqish, sindirish yo‘li bilan ajratib olingan tarkib. **Bo‘lak, burda** moddiy butunlikning qismini ifodalaydi, **bo‘lak** oddiy so‘zlashuvga xos. **Parcha, qism** mavhum tushunchalarning tarkibiy qismini ham ifodalaydi.

Hamon shamol novdalarni bir-biriga ayqash-uyqash qilib, hovli yuzidagi qog‘oz p a r ch a larini u yoqdan bu yoqqa uchirib yurardi. S.Ahmad, Ufq. *U o‘choqdagi chala ustiga tushgan go‘shtdan bir p a r ch a sini olib Avazga ko‘rsatdi*. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *O‘ljaning bir q i s m ini qovurib yegach, G‘affor qishloqni aylanib kelishga taklif etdi*. Sh.Xolmirzayev, Farzand. *Nog‘ora cho‘pining tez urilishi, bachchaning chir aylanishi va kuchli, yalpi qiyqiriq bilan bazmning birinchi q i s m i tugadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bo‘lsa har ko‘ksida yol Bir bolang yo‘lbarsyurak, Qaddi qoshingda cho‘kib, Tog‘ bo‘lur ikki b o ‘ l a k*. M.Yusuf, Hayrat. *Bunday qarasam, yonginamda oppoq ust-bosh kiyib, boshiga oq salla o‘rab olgan mo‘ysafid qo‘lidagi qovunqoqi b o ‘ l a g i ni shira-pirasiga qaramay ko‘zlariga surtib, hiq-hiq yig‘lar, yaratganga shukronalar aytar edi*. N.Fozilov, Poliz oqshomi. *Bir b u r d a non so‘rab yig‘lasa go‘dak, Diydangga kelmasa agar qatra yosh. Masjid-u cherkoving endi ne kerak, Yaxshisi, yo‘qlikka olib ketgil bosh*. A.Oripov, Ezgulik. *Qancha qazo*

bo‘ldi ro‘za-yu namoz, Nafsimni tiymadim, unutdim seni. Uzildi oxiri bu xayr-u niyoz, Sog‘intirdi nonning b u r d a si meni. A.O‘ktam, Sunbula.

PASAYMOQ, QUYILAMOQ, TUBANLAMOQ, ENMOQ, ADOQLAMOQ Yuqoriroq sath, darajadan quyi sath, darajaga qarab harakatlanmoq. **Pasaymoq** so‘zining ma’no qamrovi keng, mavhum va moddiy tushunchalarga nisbatan teng qo‘llanadi. **Quyilamoq**, **tubanlamoq** makonda pastga tomon harakatlanishga nisbatan qo‘llanadi. **Enmoq** – shevaga xos so‘z, jonli va jonsiz narsalar harakatlanishiga nisbatan baravar qo‘llanadi. **Adoqlamoq** bu ma’noda kam qo‘llanadi, shevaga xos.

Quyosh p a s a y ib oppoq cho‘qqilar ustiga qo‘na boshlagan, tog‘ning qori ko‘zni olar darajada yaltiraydi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Sinfdagi shov-shuv ham ancha p a s a y di.* O.Yoqubov, Dastlabki qadam. *Qushlar bu savollarga javob berib, aniqrog‘i javob berishga harakat qilib, bu harakat asnosida, to‘g‘rirog‘i, javob topa olmaganlaridan, tobora q u y i l a b borishardi. Bu q u y i l a sh navbatdagi sahroga keldi.* Z.Mamadaliyeva, Semurg‘ga yetolmagan qushlar. *Qishloq o‘rtasidan janub tomonga q u y i l a b oquvchi soyning suvi juda kam*. N.Abbosxon, Sho‘rqishloq. *Hali tushlaringda uchasan yuksak... Men qancha qanotday qoqmay qo‘limni, Yo‘qolgan osmondan topmasman darak, Ko‘raman t u b a n l a b ketgan yo‘limni*. U.Azim. *Men o‘t-o‘lanni oralab, t u b a n l a b keta boshladim*. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Oy teraklar tepasidan e n ib, tom ustiga tushdi*. A.Suyunov, Ro‘zaning birinchi kuni. *Qiz tolning beo‘xshov, tarvaqaylagan sarg‘ish ildizlarini ushlab pastga e n adi.* M.Sharif, Tolko‘prik. *Otam a d o q l a b ketaversa bir yo‘lovchiga duch kelibdi*. X.Karimiy, Qonda bor.

PAST, QUYI, TUBAN Yuqori sath, darajaga nisbatan sayozlik. **Past** – keng ma’noli so‘z, moddiy va mavhum tushunchalarga nisbatan qo‘llanadi. **Quyi** so‘zi makondagi sayozlikka nisbatan qo‘llanadi. **Tuban** bu ma’noda kam ishlatiladi, asosan, sheva va folklor asarlarida uchraydi.

Kayfim uchib, traktorni darrov to‘xtatdim-u p a s t ga tushdim. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Chol: – Tentak bolalarim, bu qanday gap? Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo‘ladimi? U yuqorida, sizlar p a s t da o‘ynay beringlar-da.* Oybek, Fanorchi ota. *Shu kungacha to‘plagan puli nest-u nobud bo‘lsa-da, sog‘ayish alomati gardcha sezilmadi, mudom qovoq solib yuradigan Sobit Musayevich esa goh yuqoriga o‘rlab, goh q u y i ga enayotgan cho‘g‘ nima balo ekanini hanuz aytgan emas, negadir maxfiy tutayotir.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *...ne ko‘z bilan ko‘rayki, aravaning ichida suv to‘la ko‘zalar qator tizilishib turar, ulardan bittasi yiqilib singgan-u suvi q u y i ga – asriy tashna qumliklarga chak-chak tomardi...* U.Hamdam, Bir piyola suv. *T u b a n da – jarlik tubida yaltirab suv oqar, sohillarni yulg‘un bosib ketgan...* Sh.Xolmirzayev, Oqtosh. *Bir payt, chamasi, ikki quloch oldinroqda tirmashib ketayotgan odam dod solib, qo‘l va oyoqlarini*

kapalak qanotlaridek hilpiratgancha t u b a n ga – tumanlik va bulutlar qa'riga tushib ketdi. U.Hamdam, Lola.

PAXTA I**, G'O'ZA** Gulxayridoshlar oilasiga mansub, paxta tolasi olish uchun ekiladigan texnika ekini. Botanika terminologiyasida, ya'ni ilmiy uslubda, asosan, **g'o'za** ishlatiladi. Qolgan uslublarda **paxta** so'zi faol.

Shundan keyin u Naymandagi yerlarga p a x t a ekilgani, hozir bu g'o'zalar parvarishsiz yotganini aytib berdi. S.Ahmad, Ufq. *Nahoringda p a x t a, shomingda p a x ta, Ayvoningda p a x t a, tomingda p a x t a. Oqar og'u bo'lib qoningda p a x t a, Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?* M.Yusuf, Andijon. *Ko'p g' o' z a lar barg to'kib, sarg'ayib qolgan.* Sh.Xolmirzayev, O'zbek xarakteri. *Havoyutgich moslama g' o' z a larim ostilab tushmish paxtalarimni so'rib-so'rib oladi*. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

PAXTA II**, MOMIQ, QOV** Go'za o'simligining mevasi, chanoqlarda hosil bo'ladigan oq tola. **Paxta** chigiti bor tolani ham ifodalashi mumkin, **momiq,** asosan, chigitdan ajratilgan tolani ifodalaydi, poetik nutqqa xos. **Qov** alangasiz kuydirilgan paxta bo'lib, xalq tabobatida yaraga qo'yish uchun ishlatiladi.

P

U engashib p a x t a ga o'ralgan narsalarni ocha boshladi. Har biri no'xotdek keladigan brilliantlar, yoqutlar. S.Ahmad, Ufq. *Qamariddin xonada qushni qag'illatib qanoti va biqiniga p a x t a ga shimdirilgan yod bosib, doka bilan bog'laguncha "aytib berdi".* Sh.Xolmirzayev, Qush tili. *Ko'kda suzgan bulut m o m i q dan ham oq, Koshkiydi, boshlansa yomg'ir yog'aloq*. T.Sulaymon, Tanlangan asarlar. *Shunday o'ski, lo'ppi m o m i q lar bulutlarday toshsin chanoqdan*. Sh.Rahmon, G'o'za. *Yosh hakim kechgacha qilich yarasiga q o v qo'yib, malham surtish, badanga sanchilgan o'qni olib, yarasini bog'lab qo'yish bilan ovora bo'ldi.* M.Osim, Kitobga ixlos.

PAYKAL, POLIZ, CHEL, OTIZ, KARTA Marza, ariq, yo'l kabilar bilan ajratilgan katta ekin maydoni. **Poliz** qovun, tarvuz kabi palakli o'simliklar ekiladigan maydonga nisbatan qo'llanadi. **Chel** so'zi bug'doy, sholi kabi o'simliklar ekilgan maydonga nisbatan ishlatiladi. **Chel, otiz** – shevaga xos so'zlar. **Karta** so'zining o'zlashmaligi sezilib turadi, ko'proq paxtachilikda qo'llanadi.

Dalaga chiqdik. Yolqin akam qaynag'asini hali bitta ham daraxti yo'q yangi o'zlashtirilgan p a y k a l ning o'rtasiga piyoda olib ketdi. P.Qodirov, Meros. *Hovlisining ichidan suv o'tdimi, bas, uni kim bog'lab keldi, qanday boshlab keldi – surishtirib o'tirmay p a y k a l i tomon burib olaveradi…* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Muxbir yigitning butun xayoli oqshom go'zalligida, p o l i z gashti-yu tabiat sehrida edi*. N.Fozilov, Poliz oqshomi. *Xoliq p o l i z oralab, dum bergan oq novvotni uzdi-da, qo'ltiqlab yo'lkaga tushdi: – Boboo, mana qovun oldim*. Sh.Xolmirzayev, Ukki sayrayapti. *Olaboy avval ch e l da orqa oyoqlariga cho'nqaydi, so'ng xo'jasining astoydil ishga kirishganini ko'rib,*

yerga to‘shini berib yotdi. N.Qilich, Zilzila. – *Mening o‘g‘lim besh yildan beri bel ko‘tarib beli qayishgani yo‘q. Ishdan horib kelding, damingni ol desam, “Beee, brigadir ishga bormadi, ch e l da o‘tirib karta o‘ynab qaytdik” deydi.* M.Rajab, Yo‘lovchilar. *Choshgoh ham bo‘ldi, chig‘irni hamon Ibrohim ota bilan Polvon aylantirmoqdalar, Bekjon ketmon bilan o t i z dan otizga o‘tib, kichik ariqlarni bog‘laydi, charchagan otasining o‘rnini bosadi*. J.Sharipov, Xorazm. *Darvesh uning yoniga ham bormadi, ne gap, deb ham so‘ramadi. U ham hech gap aytmadi. O t i z dan chiqib ust-boshini hafsala bilan qoqdi-da qanday kirib kelgan bo‘lsa, shunday gap – so‘zsiz chiqib ketdi*. Sh.Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam. *Shura to‘rtta k a r t a ni kultivatsiya qilib bo‘lgan ekan, Dildor berigi k a r t a ga kirdi*. S.Ahmad, Ufq.

PAYPOQ, JILOB (JILOP) To‘piq, boldirgacha kiyiladigan, paxta, jun va boshqa turdagi xomashyodan tayyorlangan to‘qimachilik mahsuloti. **Jilop** shevaga xos.

Vazira boldirigacha ochib ipak p a y p o q ni tutib turgan rezinkani “Voy, jonim qiynalib ketdi-ye”, deb pastga surib qo‘ydi. S.Ahmad, Ufq. *Xolposhsha yupqa p a y p o q da, jigarrang ko‘ylagi, qora fartugida qoldi.* O‘.Umarbekov, Hotamtoy. *Melisaning battar jahli chiqdi: – O‘v boboy! Jonga tegdingiz lekin! Boya nevaramga j i l o b olaman dedingiz! Endi bu gap chiqdimi?!* A.A’zam, Qatag‘on yili. *Normat: – Biz u yoqlarda, gospitalda – yotganimizda, do‘xtir qiz zerikib qolmasligimiz uchun ipdan har xil narsalar to‘qishni o‘rgatardi. Savat, soldatlarga j i l o p, qo‘ljilop to‘qirdik*. N.Eshonqul, Urush odamlari.

PAYG‘AMBAR, NABI, RASUL, RASULULLOH, ANBIYO, PAYG‘OMCHI Allohning xohish-irodasini bandalariga yetkazuvchi vakil. **Nabi, rasul, rasulullo**h badiiy uslubga xos. **Anbiyo** – nabi so‘zining ko‘plik shakli. **Payg‘ambar** barcha uslublarda faol, **nabi, rasul, anbiyo** badiiy uslubda qo‘llanadi. **Payg‘omchi** poetik nutqqa xos, kam qo‘llanadi.

U kishining aytishiga qaraganda, p a y g‘ a m b a r imizning qabrlari ustidan kaptarlar ham uchib o‘tishga jur’at qilolmas emish... Oybek, Tanlangan asarlar. *Ha, o‘lmoq bor muhaqqaq Har kimsaning boshida, Lekin o‘lmoq savob-ku, P a y g‘ a m b a r ning yoshida.* E.Vohidov, Jumadan qolgan odam. *Umrimiz o‘tmoqda sahnada kabi, Azoblar – eng qiziq tomoshaga teng. Sendirsan bu kuzni yaratgan n a b i, Kuzga abadiylik muhrin bosgan men.* U.Azim, Kuzgi bog‘. *Olovdan so‘ylaymi, so‘ylaymi maydan, darbadar n a b i day o‘qiymi oyat?* Sh.Rahmon, Kayfiyat manzarasi. *Payg‘ambar ummati – qora tan Bilol R a s u l ga hamisha kamarbastadir.* A.Oripov, Haj daftari. *Ey, pok Madina – ikkinchi haram, R a s u l tufayli bo‘lding muhtaram, Parvardigorim ko‘rsatdi karam, Senga yetishdim, alhamdulillah!* M.Karimova, Hajnoma. – *Topdim! – dedi. – Mana, hazratim R a s u l u l l o h davrida mut’a nikohi shar’iy bo‘lgan*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Tasviri joizmas bu holni, biroq Visol nasib etdi R a s u l u l l o h ga*. A.Ori-

pov, Me’roj. *Jaholat davrida ham Avliyo – avliyodir. Kaforat davrida ham A n b i y o-a n b i y o dir.* A.Oripov, Tafsir. *Ayrim din peshvolari va ulamolar o‘zlarini duch kelgan majlisga urishib, foniy dunyo, oxirat haqida, payg‘ambarlar va avliyo-a n b i y o lar karomatlari xususida ibratli hikoyatlar so‘ylashar edi*. A.Dilmurod, Mezon burji. *Misli qora bulutdan tomchi, Bashoratgo‘y ezgu p a y - g‘ o m ch i, Har zot uchun mehrim ziyoda*. A.Pardayev, Zardo‘sht nidosi.

PESHIN, TUSH, QIYOM, TOLTUSH, TO‘POTAR Kunning yarmidan og‘gan payt. Hozirgi adabiy tilda **peshin**, **tush** faol qo‘llanadi. **Qiyom** so‘zlashuvda faol. **Toltush** shevaga xos, qoq tush ta’kidi mavjud. **To‘potar** – eskirgan so‘z, kunduzi soat 12 ni bildiradi (avvallari Toshkentda shu paytda to‘p otilgan).

Shu ahvolda p e sh i n gacha arang chidadi, keyin yuragi o‘ynayverdi, o‘ynayverdi-yu, idoraga borib shaharga sim qoqishga (garchi kimga sim qoqishini tasavvur etmasa ham) ahd qildi. O.Yoqubov, Adolat manzili. *P e sh i n dan keyin nuqul o‘ng qovog‘im uchaverdi. Qurib ketsin!* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Har kuni t u sh da, xuddi xat kelsa darrov xabar berishmaydiganday, meni uyga jo‘natar, so‘ng, rangi qochib, ko‘zlari mo‘ltirab, yo‘limni poylardi.* O.Yoqubov, Yaxshilik. – *T u sh dan keyin yana majlis! – dedi Sur’at qo‘lidagi ruchkani stolga otib. – Qaror loyihasini tayyorlashim kerak.* E.A’zam, Shovqin. *Menga qara, kun q i y o m vaqti-qiyom vaqti uyingning ustidan bir samolyot uchib o‘tdimi? Qanotlarida parragi-da bor?* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Q i y o m palla, avtobusda odam tirband, chiqish ham, tushish ham bir necha tugmadan ajralish degan gap*. E.A’zam, Jiyan. *T o l t u sh emish… Olapar tut soyasida old oyoqlariga tumshuq qo‘yib suvga termular emish*. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Ota va o‘g‘il bepoyon dasht o‘rtasida, t o l t u sh da, quyosh jamiyki mavjudotga rahm qilmay, achchiq va zilday nurlarining iskanjasiga olgan paytda somon yig‘ayotir.* A.Suyunov, Ota va o‘g‘il. – *Voy o‘lmasam, t o‘ p o t a r bo‘lib qolibdi-ku! – dedi Hojiya xola bir vaqt soat strelkasining 12 raqami ustida turganini ko‘rib.* V.G‘ofurov, Vafodor. *Unsin tumshug‘iga tunuka qoplangan choynakka choy damlab, ikkita kulcha bilan Shokir otaga uzatdi: – Otajon, t o‘ p o t a r bo‘ldi, choy iching!* Oybek, Qutlug‘ qon.

PESHONA, MANGLAY Yuzning qoshlardan sochgacha bo‘lgan yuqori qismi. **Manglay** badiiy nutqda va shevalarda ko‘p qo‘llanadi.

Mehribon buvim! U mening iztiroblarimga tushundi. Kelinoyim bilan gaplashadigan bo‘ldi, yig‘lay-yig‘lay p e sh o n a mdan o‘pib, boshimni silab tinchitib qo‘ydi. O.Yoqubov, Yaxshilik. *Oqsoqol shahd bilan qaddini rostlagan edi, belining bodi tutib qoldi, shekilli, oh chekib yostiqqa yonboshladi. Birpasda p e sh o n a si terlab ketdi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Ko‘ksimni ochaman, Chekinar g‘aflat. Karaxtlik to‘kilib borar m a ng l a y dan...* U.Azim, Eng so‘nggi ohu haqida ballada. *Biroq kerilmas ham ko‘rsatavermas, zorlanib har kimga m a ng l a y sho‘rlarin.* Sh.Rahmon, Xorazm qishloqlari.

PESHONABOG‘, PESHONABAND Ayollar peshonasiga bog‘laydigan kichik ro‘mol. **Peshonaband** kam qo‘llanadi.

Bizning bo‘linmaning rang-u tusi oq edi. Barchamizning peshanamizga oq p e sh o n a b o g‘ lar bog‘langan. I.Sulton, Askar. *Zarbof qabolar, zarrin p e sh o n a b o g‘ lar, ipak kamzullar… bilan kelgan karvonlar to‘ppa-to‘g‘ri Qozonxon qasri darvozasi oldiga kelib to‘xtar ekan.* X.Davron, Bibixonim qissasi yoxud tugamagan doston. *Ortidagi sharpani sezib, chap yelkasi osha o‘sha yoqqa qayrildi. Bir necha qadam narida p e sh o n a b a n d ila bostirilgan harir ro‘ymoli yel og‘ushida maftunkor hilpiragan Maryam xijolatli boqib turardi.* N.Jaloliddin, Siyrat va niqob. *Kelinlik anjomlari, avloddan avlodga ishlatib kelinadigan tillaqosh, shildiroq tangalar osilgan dastro‘mol, p e sh o n a b a n d, bilaguzuk, zeb-ziynatlar*. D.Saidova, Qismat o‘yini.

PIYODA, YAYOV Kishilarning ulovsiz, o‘z oyog‘i bilan harakatlanishi. Har ikki so‘z nutqda erkin almashinib qo‘llana oladi. **Yayov** so‘zlashuv tiliga xos. **Piyoda** rasmiy, badiiy uslublarda faol.

Avtobusga tushmasdan p i y o d a ketarkanman, shu haqda o‘yladim. Bu o‘ylarimga ko‘nglimdan aniq javob topolmasdim. O.Yoqubov, Muqaddas. *Chavandoz uloqdan qaytdi p i y o d a, Ranglaringiz bir ol, ayting, ne bo‘ldi?* U.Azim, Qishki ertak. *Salkam saksonni urgan, birda gado bo‘lsa, birda shoh, birda otga minsa, birda y a y o v, yaxshini ham, yomonni ham, ochni ham, to‘qni ham ko‘raverib ko‘sa bo‘lgan Veteran, hiqillay-hiqillay diydiyosini boshlar-boshlamasdanoq hamma gapga tushundi.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Ular shaharchaning kunbotish tomonidagi ufqqa tutash sarhadsiz cho‘lni y a y o v va mashinada qadam-baqadam kezib chiqishgan.* N.Norqobilov, Bo‘ron qo‘pgan kun.

PIYOZ, SO‘G‘ON Loladoshlar oilasiga mansub ikki yillik va ko‘pyillik, nayzasimon bargli, tugunagi va yosh barglari ovqatga ishlatiladigan o‘simlik. **So‘g‘on** – eskirgan so‘z, folklor asarlarida uchraydi.

Ularning bolalarcha suhbatlariga qarab p i y o z to‘g‘rab o‘tirgan oshpaz xotin boshini sarak-sarak qilib kulardi. S.Ahmad, Ufq. *Kecha qishloqdan keltirilgan pomidor va p i y o z yaxshilab parra qilingan edi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *So‘fi s o‘ g‘ o n yer, topilsa yo‘g‘on yer*. Maqol. *So‘fiylari s o‘ g‘ o n yerlar tariqat soxtadin soxta. Tabib riyo, hakim badnafs tabobat soxtadin soxta*. T.Sulaymon, Soxta.

PICHAN, XASHAK, XAS, CHO‘P Hayvonlarga yemish bo‘ladigan, quritilgan o‘t. **Xas**, **cho‘p** so‘zlari mazkur ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi.

Davron aka pastda, soy tomonda ko‘ringan g‘aramga ishora qilib, bir quchoq quruq p i ch a n olib kelishni buyurdi. O.Yoqubov, Izlayman. *Tashvishi ko‘p edi hali, p i ch a n pishib dalada, Shoxlardagi unga mustar oppoq olmalar qoldi.* H.Xudoyberdiyeva, Oq olmalar pishganda. *Ikki chekkasi guvalak devor-*

lar, tomlariga g‘o‘zapoya, x a sh a k bosilgan uylar oralab Qoratepa guzariga yetib kelishdi. S.Ahmad, Ufq. *Bu yerda allaqachon ish boshlangan edi. Birov x a sh a k tashigan, birov sigir sug‘organ.* O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Saraton kirishi bilan adirlar tilla rangga bo‘yaladi, soylarga shamol x a s ni ko‘rpadek to‘shaydi. Xo‘jayipokning selgasi yoqalab besh-o‘n tom-toshli ovullar har-har joyda ko‘zga chalinadi.* X.Karimiy, Tosh qoya. *Bola kechagi, oldingi kungi, yo‘q, avvalgi kungi bobo o‘rgatgan: “Bedananing yotar joyi x a s bo‘lar, mezon kirsa, targ‘il morlar mast bo‘lar” qo‘shig‘ini aytmadi.* N.Chori, Tashvishi yo‘q odamlar. *Inoyat oqsoqol kuniga yarab turgan eshagini ham yolchitib boqmasdi. Faqat kechqurun oldiga ch o‘ p tashlaydi*. S.Ahmad, Ufq. *– Ozodjon, mollaringga o‘t-ch o‘ p solmading-ku bugun! – oshxonadan qichqirdi oyim.* N.Jaloliddin, Ayo, ishq!

PICHIRLAMOQ, SHIVIRLAMOQ, PICHIR-PICHIR QILMOQ, SHIVIR-SHIVIR QILMOQ Boshqalar eshitmaydigan darajada past ovozda so‘zlamoq. **Pichir-pichir qilmoq, shivir-shivir qilvoq** so‘zlarida ma’no **pichirlamoq, shivirlamoq**qa qaraganda kuchli ifodalanadi, bu so‘zlar oddiy so‘zlashuvda faol.

Oqsoqol soqolini selkillatib p i ch i r l a rdi. S.Ahmad, Ufq. *Yumuq ko‘zlariga, chimirilgan qoshlariga, allanimalarni eslab p i ch i r l a gan lablariga qarab dam quvonaman, dam duv etib ko‘zimdan yosh keladi.* O‘.Umarbekov, Husn. *G‘ulom qal’a darvozasidagi posbonlar yoniga borib, nimanidir sh i v i r l a di.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Qiz avval yelka uchirib qo‘ydi, so‘ng og‘zidagi xo‘rakni shosha-pisha yutib, tevarakka olazarak ko‘z tashlab, sh i v i r l a di.* L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Klara bilan “Oq kaptar” nimanidir p i ch i r-p i ch i r q i l ib oshxona tomon chiqadi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Gulya Lagutina ichkarigi xonada o‘ziga o‘xshashib ketadigan (yo armani, yo ozari) bir ayol bilan achomlashib-cho‘lpillashib, p i ch i r-p i ch i r q i l a boshladi.* E.A’zam, Shovqin. *Aktyorlar sh i v i r-sh i v i r q i l ishdi. Rejissyor qo‘lini ko‘tarib qo‘ydi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Boya koridorda muncha sh i v i r-sh i v i r q i l dilaring?* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

PICHIR-PICHIR, SHIVIR-SHIVIR, PICHIR, SHIVIR Boshqalar eshitmaydigan darajada past ovoz. **Pichir-pichir, shivir-shivir** so‘zlarida mazkur ma’no ta’kidli tarzda aks etadi. **Shivir** nafaqat odam ovozini, balki jonsiz narsalar chiqaradigan ovozga nisbatan ham qo‘llanadi.

Xadichaxon uni kunda uch marta chaqirsa, bu uni besh marta chaqirardi. P i ch i r-p i ch i r gap, p i ch i r-p i ch i r gap... maslahat! Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ayollar jonlanib, tashvishmand qiyofada og‘iz poylagan, erkaklar burchak-burchakda so‘kingan; shivir-shivir, p i ch i r-p i ch i r...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Ularning har bir o‘yiniga, har bir hangamasiga “onabosh”*

bo‘luvchi To‘xtasin o‘rtoqlarini yig‘di, ularga sh i v i r-sh i v i r bilan bir nimani tushuntirdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Sh i v i r-sh i v i r qulog‘iga urildimi yo yomon tush ko‘rdimi, Turg‘un cho‘chib bosh ko‘tarib, atrofiga alangladi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Qaydan payqardim, axir koinot p i ch i r ini Soniya titrog‘ida, Zarrada zarralarning sira o‘lmas sirini Qo‘r quyosh o‘chog‘ida*. Mirtemir, Ilhom parisiga. *Shunday uy bor, devorlari metindan metin, Ko‘rar faqat muhabbatning o‘tli yozini. Yotog‘ida juda qisqa tuyuladi tun, Devorida baxt p i ch i r i qolar yozilib*. H.Xudoyberdiyeva, Shunday uy bor... *Qoyalarda olqor-u cho‘qqilarda sor burgut, Qiyoq o‘tlar sh i v i r i uning sirli zaboni.* A.Oripov, Nakurt. *O, ona Turkiston, o‘ylayman seni, Tinglayman olamning sh i v i r in takror.* R.Parfi, Shoir.

POLVON, PAHLAVON, BAHODIR, AZAMAT Jismoniy jihatdan baquvvat, zabardast kishi. **Pahlavon, bahodir** so‘zlarida belgisining ortiqligi alohida ta’kidga ega, muayyan darajada poetik bo‘yoq ham bor, ko‘proq shaxsning o‘ziga nisbatan ishlatiladi. **Azamat** so‘zida belgi darajasi boshqalarga qaraganda kamroq, u ham ko‘proq badiiy nutqqa xos.

Raqib podsholar eng zo‘r p o l v o n larini o‘rtaga tushirib kurash oldirishi, qaysi tomonning p o l v o n i yengsa, o‘sha tomon g‘olib sanalishi rivoyatlarda ham bor. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *P o l v o n edi Matmusa, To‘rt fil kuchi jam edi. Qishloqda eng zo‘r, ammo Aqli biroz kam edi*. E.Vohidov, Matmusaning charxpalagi. *Kel, ey Bobur, g‘azal yoz, Ot minib kez shoh Boburdek, Necha Bobur kabi nasling Bahodir, p a h l a v o n ing bor*. E.Vohidov, Kel, ey Bobur, Vatanga. *Bir vaqtlardagi p a h l a v o n yigit, keyingi yillar ichida ozib-to‘zib, avvalgi jasadining yarmi ham qolmagandi, otasining turtkisidan pirpirak bo‘lib tashqariga uchib chiqdi*. U.Hamdam, Muvozonat. – *Siz haqsiz, Boburjon! – dedi. – Bugun bo‘lmasa ertaga haq joyida qaror topgay. Men shunday pahlavon, haqgo‘y, b a h o d i r o‘g‘lim borligi bilan iftixor qilurmen.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Huzurida mo‘yloviga bolta o‘tmas ne-ne zabardast, b a h o d i r erkaklar qo‘l qovushtirib, hatto ayrim hollarda titrab turadigan vallomat shu bir pachoq, “kesak qisgan” ojizasiga hukm o‘tkazolmaganidan qattiq iztirob chekardi*. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Unga to‘yguncha ovqat beringlar, go‘shtli, yog‘li ovqat beringlar, bir o‘zi sakkiz kishining ishini qiladigan a z a m a t dan ovqat ayamanglar, deb oshpazlarga tayinlaydi*. S.Ahmad, Umrim bayoni. *Ha, zamonlar o‘zgardi, lekin hayvonot bordir, A z a m a t yigitlar ham ketgan emas yo‘qolib*. A.Oripov, Bo‘ri ovi.

POPISHAK, SASSIQPOPISHAK, SARIQSO‘FIYON, HUDHUD Pati oq-qora yo‘l-yo‘l, sarg‘ish jigarrang, boshida toji (popugi) bor, tumshug‘i ingichka, biroz pastga egilgan, ko‘kqarg‘asimonlar turkumiga mansub qush.

Zoologiya terminologiyasida ham **popishak, sassiqpopishak** so‘zlari qo‘llanadi. **Sariqso‘fiyon** – shevaga xos so‘z. **Hudhud** – eskirgan so‘z.

Yon-atrofdagi paxta paykali, bug‘doypoya, polizzor u yoqda tursin, uzoqdagi bog‘-u uzumzorlarda yurgan chumchuq-u to‘rg‘aylar, mayna-yu g‘urraklar, musicha-yu qaldirg‘ochlar, qizilishton-u p o p i sh a k lar ham pirro-pir yopirilib kelib, jiydaning ustini bulutdek qopladi. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Ariq labiga kelib qo‘ngan p o p i sh a k “hu-ku-pish-sh”lagancha menga bir qarab qo‘ydi-yu pildirab don izlab ketdi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Har zamonda hozir juda kamayib ketgan s a s s i q p o p i sh a k ning uncha yoqimli bo‘lmagan ovozi eshitilib qoladi.* Q.Kenja, Xilvat so‘qmoqdagi yolg‘iz tosh. *Sassiq unvoni xunuk. Qushga kelishmas dog‘, yuk. S a s s i q p o p i sh a k nechuk? Nega bunday deyishar.* Q.Muhammadiy, Yangi nom qo‘ydim. *Gohida yashilliklarga burkangan ma’volar orasidan s a r i q s o‘ f i y o n tovushi kelib qolsa, qayerdaligini aniq bilardi.* I.Sulton, Oftob chiqdi olamga… *Garchi ba’zi qildi bedilliq ayon, H u d h u d irshodin qilib sharh-u bayon.* Navoiy, Lison uttayr. *Dunyoda qushlar turli-tuman, ularning hayot kechirishi va tabiati ham turfa, xalq h u d h u d, qumri, popishak kabilarga navosoz, donishmand, yengiltak kabi ma’nolarni yuklagan, bular – qisman aks*. I.Sulton, Ozod.

POPUK, GAJIM, SHOKILA Narsalarga bezak uchun taqiladigan bir bog‘lam tola, pat, ip va boshqalar. **Gajim** xalq tilida uchraydi. **Shokila** badiiy nutqqa xos.

Erkaklarning gullik do‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro‘mol p o p u k lari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada... ko‘klam nash’asi bilan sho‘xlik qiladi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ana, g‘oyibona suyib-mehr qo‘yib qolgani – qozi Muhammad Valixon, yulduzni ko‘zlagan uchqur bedov belida, tilla qoshli va fil dandonli egarda qo‘nib, bir maromda tebranib boradi, p o p u k lari ipak tarog‘i xurjunida butun boshli xazina – Qur’oni sharif bilan birgalikda Hikmat kitobi!...* A.Dilmurod, Mezon burji. *Shamol yo‘q, havo dim bo‘lganidan bayroq hilpiramas, zardan yasalgan og‘ir g a j i m lari uncha-muncha shabadaga hilpiratgani qo‘ymasdi*. S.Ahmad, Ufq. *Kelinning uyidek qilib bezatilgan mashina yaraqlab ketgan, orqa tomondagi oynasiga tutilgan atlas darpardaning g a j i m lari, hurpaygan qo‘g‘irchoq mushukcha allaqanday bachkana ko‘rinardi*. O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor. *To‘g‘ri, uning “qo‘nqa”si yangi emas, ortiqcha jihozlardan ham xoli – atrofiga allaqanday qiyqim matolardan sh o k i l a lar osilmagan va orqasiga xumor ko‘zli jononlarning erkak yo‘lovchilar ko‘nglini besaranjom qiladigan katta, rangli suratlari yopishtirilmagan, sodda, ammo bikr edi*. Q.Kenja, Muhabbat badali. *Bola emizayotgan chog‘da yosh onaning oppoq ko‘ksini xapamat yarim to‘sib turar, go‘dagi jajji qo‘lchalari bilan sh o k i l a larini silkitib o‘ynaganda ajib manzara zohir bo‘lardi.* H.Elxon, Xapamat.

PORA, RISHVA Biror ishni qonunga zid ravishda bajarib bergani uchun mansabdor shaxsga beriladigan pul yoki narsa. **Rishva** – eskirgan so‘z, hozir ko‘proq tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi.

Hazrat Nizomiddin: – Ilkingizdagi marvarid tasbehni farangistonlik xufiya p o r a ga berganini hibsxonadagi muridlaringiz bizga aytdi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Turg‘unboyga shum taqdir Sira shafqat qilmaydi. P o r a beray, der, ammo usulini bilmaydi.* A.Oripov, Turg‘unboy. *Ahmad Yassaviy poraxo‘rlik, hirs-u hasadni, jaholatni tanqid qildi, harom yegan qozilar, r i sh v a olgan muftilarni, riyokor shayxlarni mazammat etdi.* N.Komilov, Tasavvuf. *Men seni tog‘larga olib ketaman, Seni tutib qolar na zar-u r i sh v a.* A.Suyun, Saylanma.

PORAXO‘R, RISHVAXO‘R Pora oladigan, talab qiladigan (odam). **Rishvaxo‘r** – eskirgan so‘z, hozir ko‘proq tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi.

Qo‘zg‘olonchilar Islomshohning p o r a x o‘ r amaldorlarini shahardan quvib yubordilar. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Turg‘un o‘rtada turgan, xolos. Paxta punktining boshliqlari bilan p o r a x o‘ r ga chiqarib qo‘yishganiga u ham qo‘shilmaydi.* O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *– R i sh v a x o‘ r firibgarlarga kunimiz qoldi... – dedi siyrak soqolli chol.* M.Ali, Sarbadorlar. *Bedilning asarlarida zulmga qarshi fikrlar juda ko‘p, u zolim amirlar, xasis boylar, nodon va r i sh v a x o‘ r ruhoniylarni chindan-da nafrat bilan tanqid qiladi.* N.Komilov, Tasavvuf.

PORAXO‘RLIK, RISHVAXO‘RLIK Pora olish, pora yeyish bilan shug‘ullanish. Hozirgi adabiy tilda, yuridik terminologiyada **poraxo‘rlik** ishlatiladi. **Rishvaxo‘rlik** – eskirgan so‘z, hozir ko‘proq tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi.

O‘shanda qirq yoshda bo‘lgan Sherxon hisob-kitobni va xo‘jalik yuritishni yaxshi bilar, Sasaramdagi betartiblik va p o r a x o‘ r l i k ni yomon ko‘rardi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Shuning uchun ham, nazarimda, insondagi eng tabiiy, insoniyat darajasidagi ojizliklar ham, yovuzliklar ham yuzaga balqib-balqib chiqa boshladi: o‘g‘irlik, shafqatsizlik, p o r a x o‘ r l i k ning qandaydir oliy shakllari...* Sh.Xolmirzayev, Quyosh-ku falakda kezib yuribdi... *Mudarris: Qozikalon o‘zlarining nopok ishlariga ilonlar po‘st tashlaydir. R i sh v a x o‘ r-l i k, fahshbozlik – uning suygan kasbi...* M.Ali, Sarbadorlar. *Navoiy shu yerda muhim bir fikrni keltiradi: zinokor odam r i sh v a x o‘ r l i k ka beriladi, harom ishlardan hazar qilmaydi.* N.Komilov, Xizr chashmasi.

POROX, BORUT Ko‘p komponentli portlovchi moddalarning zichlashtirilgan qattiq (kondensatsiyalangan) aralashmasi. **Borut** – eskirgan so‘z, tarixiy asarlarda uchraydi.

To‘rt-beshta snaryad otmasingdan tank ichi p o r o x isiga, tugunga to‘lib bo‘g‘ib tashlayotgandek bo‘ladi. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Portlaganday yomon portladi, chinmochin p o r o x i to‘ldirilgan yog‘och bochka-*

day har yonga sochilib ketdi. Sh.Bo‘tayev, Eski arava. *B o r u t dan o‘t olgan kigiz parchalari fillarning ustiga olov bo‘lib yog‘ilardi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Todar Malning vositachiligidan natija chiqmagach, Sherxon qal’aning tagini kavlashni va devori ostiga b o r u t qo‘yib portlatishni buyurdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

POYABZAL, OYOQ KIYIM, CHORIG‘, BOSHMOQ Charm, uning o‘rnini bosuvchi boshqa xomashyodan tikiladigan, oyoqni tashqi muhit ta’siridan muhofaza qiladigan kiyim. **Poyabzal** badiiy, rasmiy uslublarga xos. **Oyoq kiyim** so‘zlashuvda faol. **Choriq, boshmoq** eskirgan, kam qo‘llanadi.

Tog‘-u toshga p o y a b z a l chidamagani uchun yalangoyoq yurardi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Oshnalikka uni tanlashar. Ko‘ylak kabi, p o y a b z a l kabi. Hamma bilan kechdan tonglashar, Ammo xira bo‘lmaydi ta’bi*. U.Azim, Yaxshi odam. *So‘ngra o y o q k i y i m ini ko‘ngildagidek joylashtirgach, shimini yechishga iymanib, shu ko‘yi o‘z o‘rniga cho‘zildi.* L.Bo‘rixon, Yalangoyoq. *Ayvonga kiraverishda bir necha o y o q k i y i m lari tartib bilan terib qo‘yilgan.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Dotsentimizning lof urishicha, bir zamonlar dehqondan yetishgan, eski ch o r i g‘ ini eshik tepasiga osib qo‘yib, muhtasham mansabxonasiga kirganda ham, chiqqanda ham peshonasini urib o‘tadigan do‘lvor davlat arbobi mana shu chorpoyada yonboshlab choyxo‘rlik qilishni yaxshi ko‘rar ekan*. E.A’zam, Aralash qo‘rg‘on. *Oyog‘idagi yamalaverib supradek rangsizlangan, tovonining yarmi siniq botinkasiga ko‘zi tushdi. Ch o r i g‘ i uchidagi yamoq uvada bo‘lib, yashiltob paypog‘i ko‘rinib turardi*. A.Suyunov, Bolalikning so‘nggi kuni. *B o sh m o g‘ im allaqachon yirtilib tamom bo‘lgandi, bosh barmog‘im bilan yerni paypaslab oyog‘im ostida ikki barmoq joylashgulik chuqurchani “kashf” qildim…* N.Arslon, Yashash huquqi. *Biron narsa ilashibdimi yo b o sh m o g‘ i mni poyma-poy, yo shimimni teskari kiyibmanmi, degan xavotirda o‘zim ham o‘zimga qarab oldim – hech gap yo‘q.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

POYINTAR-SOYINTAR, POYMA-POY, TELBA-TESKARI Bir-biriga muvofiq kelmaydigan, uyg‘un bo‘lmagan (gap-so‘z haqida). **Poyintar-soyintar, poyma-poy,** asosan, badiiy uslubga xos. **Telba-teskari** so‘zlashuvda faol.

Shuncha p o y i n t a r-s o y i n t a r alahlashning ichida shunday qishning kuni muzqaymoq sotilayotganidan o‘zimga keldim chog‘i. A.A’zam, Tugmachagul. *Ammo bir deputat sira minbardan tushmay, majlis boshlangandan beri uzluksiz nutq so‘zlayapti. Uning gaplari poyma-poy, so‘zlari p o y i n t a r-s o y i n t a r, ma’no yo‘q, jumlalar bir-biri bilan bog‘lanmaydi.* O.Sharafiddinov, Domlalar. *Asrora Karimjonning kelishini kutib dunyodagi jami tashvishlarni unutgan, gaplari ham allaqanday p o y m a-p o y, qiliqlari o‘ziga yarashmagandek, yerda yurayotganga emas, osmonda uchib yurganga o‘xshardi*. S.Ah-

mad, Ufq. *Jovdirab-jovdirab turarding qaqshab, Qo‘lchalaring kuhlab isitardim men. Tushida gapirgan tentakka o‘xshab, Almoyi, p o y m a-p o y she’r aytardim men.* I.Mirzo, Singlimga. *...men esa hadikli yashash naqadar ayanchli qismat ekanligiga iymon keltirib, suhbatdoshimni t e l b a-t e s k a r i muomalasidan shubhaga tushdim.* A.Abdiyev, Muallaq odam. *Qiziq, hamma narsa t e l b a-t e s-k a r i ko‘rinadi. O‘n qadam naridagi baqaterakdan ko‘ra ikki chetidagi simyog‘ochlarda chiroqlar yonib turgan ko‘cha yaqinroq tuyuladi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar.

POSHNA, O‘KCHA Oyoq kiyimning tovon qismiga qoqilgan qattiq charm yoki boshqa qattiq narsa. **O‘kcha** – shevaga xos so‘z.

Shahlo... baland p o sh n a tufli bilan qiynalib-qiynalib qizlar oldiga bordi. S.Ahmad, Bahor qizlari. *Qora cho‘yan etik, qo‘nji taxminan to‘rt metr, p o sh n a sining o‘zi tegirmon toshiday keladi!* A.Muxtor, Etik. *Ko‘rgiliklarning hammasi o‘z qilmishimizdan. O‘zing aytganday, hozir yurt jalovsiz, el egasiz. Etik o‘ k ch a lari chegasiz.* T.Sulaymon, Tangriga tavallo. *Ammo kim erinmasa yanchib o‘tardi, O‘ k ch a sining siniq mixin sanchib o‘tardi*. Mirtemir.

POCHA, BALOQ Shimning tizzadan pastki qismi. **Baloq** – shevaga xos so‘z.

Normat p o ch a sini tizzagacha ko‘tarib qashlar ekan, birdan yara ko‘chib ketdi, barmoqlari qon aralash yiring bo‘lib qoldi. N.Eshonqul, Urush odamlari. *Qoramag‘iz, siyrak qoshlari ostidagi qo‘yko‘zlari cho‘kkan o‘rta yashar kishi o‘zini dadil tutishga harakat qilar, lekin uniqib, titilib ketayozgan shimining p o ch a si shabadada qolgandek tinimsiz hilpirardi*. M.Sharif, Parvoz. *Turg‘un taraddudlandi. B a l o q turilmay baliq tutib bo‘lmasa.* M.Zohidova, Boychechak. *Yigit... o‘ziniki qolib ukasinikini kiyib olganday kostyumi zo‘rg‘a kindigini yopar, yengi ham panja bo‘g‘inidan to‘rt barmoq yuqori, shimining b a l o g‘ i to‘pig‘iga yetar-yetmas edi.* Sh.Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam.

POCHCHA, YAZNA Opaning eri (singil, uka uchun). **Yazna** – shevaga xos so‘z.

Zina oldida p o ch ch a si u yoqdan-bu yoqqa betoqat yurardi. S.Ahmad, Ufq. *Rangi o‘chgan, qaltiragan Salimboyvachcha bolalarcha yalindi: – Siz yolg‘iz p o ch ch a m emas, ham do‘stim, ham otamsiz, hamma vaqt ishimiz bir*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Jamol jo‘ramning otasi Hafiz cho‘loq y a z n a miz tuman markazidagi Chorbog‘ atalmish istirohat bog‘ida rohatijon sotardi*. E.A’zam, Qani sening haykaling? *Kapitan bo‘ldim, deb, he, tilingiz uzun bo‘p qopti. Bizga y a z n a bo‘lsangizam qo‘rqmayman...* Sh.Xolmirzayev, Yazna.

PUL, AQCHA, MULLAJIRING, YAKAN, SOQQA, LOY Barcha tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan, metall, qog‘oz yoki elektron shakldagi maxsus belgi. **Aqcha, mullajiring** so‘zlashuvda uchraydi, **mullaji-**

ring so‘zida mazkur ma’no obrazli ifodalangan. **Yakan**, **soqqa, loy** so‘zlarida jargonlik xususiyati bor.

U Lochinning to‘yiga deb o‘z maoshidan yigirma so‘m-o‘ttiz so‘m ajrata-ajrata salkam to‘rt ming so‘m yig‘gan, bu p u l ni qaysi bir matoning orasiga taxlab qo‘ygandi. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Yo‘llardagi samovarlarda ertalabki nonushtaga chiqqan choyxo‘rlar gur etib turishar, sartaroshxonadagilar, do‘kondagilar ishlarini, p u l lari-yu qimmatbaho buyumlarini tashlab, tobut dastasini yelkaga olishardi.* S.Ahmad, Ufq. *Biroq bu istakni amalga oshirishim uchun to‘plaganimning yana yarmicha a q ch a topishim kerak edi. Aytishga oson.* A.Yo‘ldosh, Puankare. *Xotini Surma kirdi. U darchadan suvsar telpakning ichkariga kirganini ko‘rgan chog‘i, quvonchli xitob etdi. “A q ch a sini tashladimi?”. “Mana senga a q ch a”. Mahdi xaltani xotinining etagiga tashlab salobat bilan o‘rnidan turdi*. S.Vafo, Vaqt va zamon o‘g‘risi. *Uchinchi qimorboz: – ...Yaxshi mezbon mehmonni shunday qarshi oladimi, da’yus! Avval bundoq hol-ahvol so‘raydi. Ism-shariflarini, kasb-korini, nasl-nasabini surishtirib, tanishadi-bilishadi... Ana undan keyin m u l l a j i r i n g dan ochadi, Bo‘rsiq!* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Fatxulla: – Nega bo‘lardi? G‘isht poylab sarg‘ayganingdan keyin m u l l a j i r i n g kamayadi-da!* O‘.Umarbekov, Yo‘lda. *Esing borida etagingni yop, degan mashhur naqlga amal qilmasak bo‘lmas. Bir yoqdan y a k a n ning qo‘ri qochyapti*. J.Abdullaxonov, To‘fon. *Gapni aylantirmang. Yog‘liq joy. Y a k a n katta bo‘ladi!..* “Mushtum”. *Xonim: – Jaa qo‘lingiz qichiyotgan bo‘lsa, ana, Bo‘stonga yozib bering! Do‘xtirskiy yozdirishga odam qidirib yuribdi. S o q q a si tayyor. O‘nta bermoqchi! Ko‘kidan!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *– S o q q a sini bersangiz tinchitaman, – dedi u ruhsiz. – Ishonavering, to sahargacha birontasining dami chiqmay qoladi.* I.Sulton, Olisdagi urushning aks-sadosi.

PUXTA, MUSTAHKAM, PISHIQ, MAHKAM, CHIDAMLI Uzoq muddat chidaydigan, buzilish va shikastlanishlarga bardoshli. **Pishiq** so‘zida chidamlilik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Mustahkam, mahkam, chidamli** so‘zlarida belgi darajasining nechog‘lik ekanligi so‘zlarning o‘zaklaridan ochiq anglashilib turadi.

Mulla Ikrom baland bo‘yli, dag‘al soqol, og‘ir qarashli, qirq beshlar chamasida bir kishi edi. Kiyimi qo‘pol, lekin yangi va p u x t a edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Doniyor bobo miyig‘ida kuldi: – Toshni uchirib o‘tirish shart emas, – dedi u sinchkov nazar solgach. – O‘ziyam bilinmaydi-ku. Ja ko‘ngling to‘lmasa, gulkari qil. Ishing ko‘payadi-yu, p u x t a chiqadi. Erinmay oldi-atrofiga loy yalatib chiq, kari-o‘yiqlari yopiladi.* O.Jumaboyev, Gulkari. *Tanka-yu bronetransportyorlari bu yoqqa bostirib kirolmagan, negaki hamma yoq tumonat odam, maydonning tevaragi har turli mashinalar bilan to‘sib qo‘yilgan – mudo-*

faa m u s t a h k a m edi. E.A'zam, Shovqin. *Turkistonda Qul Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasining shundoq biqinida O'rta Osiyoni zabt etgan general Chernyayev qurdirgan besh-oltita m u s t a h k a m g'ishtin binolar bo'lardi.* O.Yoqubov, Muzqaymoq. *Nosirjon uyg'onib, birdan turib o'tirdi. Bir daqiqa bizga begona nazar bilan qaragach, oppoq p i sh i q tishlarini ko'rsatib jilmaydi: – Yaxshi uxlab turdilaringmi, akalar?* Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Ichkari hovlining butun bir tomonini p i sh i q, bo'g'otli yangi uy egallagan*. Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Qaddingni baland tut, Bo'lma serta'zim, Cho'qqi bo'lolmasang, m a h k a m qoya bo'l*. E.Vohidov, She'r dunyosi. *Otasining kayfi hamisha buzuq, yegani sholg'om; o'zi o'lardek ziqna, u yog'ini so'rama; uylari qutichadek bejirim, m a h k a m, mustahkam*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yana butun borlig'imning negizlari yemirildi, Umidimning ko'p ch i d a m l i teraklari yiqildi…* Fitrat, Yana yondim. *Bu yerning daraxtlari biznikidan ko'rkamroq, tanasi ham silliq, baland-baland! O'sib ketaveradi galalashib, ob-havoga ch i d a m l i, beor*. E.A'zam, Shovqin.

PUSHTA, MARZA, QORIQ Yonma-yon ariqchalar orasidagi, ekin ekiladigan uzun yer bo'lagi. **Marza**ning ma'nosi kengroq bo'lib, "ekinzorlarni bir-biridan ajratib turuvchi tuproq uyumi"ni ham bildiradi. **Qoriq** – shevaga xos so'z.

Bog'da sakkiz uzun ishkom, hammasining poyalari yaxshi ishlangan, p u sh t a lari chopilgan. Oybek, Tanlangan asarlar. *U birov bilan urishadigandek qo'llarini ko'ksida tutib olib, lo'k-lo'k sakrab, p u sh t a dan yurdi, so'ng qadamini tezlatib, bedapoyani aylana boshladi.* Sh.Xolmirzayev, Sayr. *Hulkar so'ng m a r z a da ochilgan nafarmon tusli erbo'ta gullaridan terib, chambar yasay boshladi.* P.Qodirov, Qora ko'zlar. *Shoikrom loyli m a r z a dan emaklab borgancha, o'zini onasining quchog'iga otdi*. O'.Hoshimov, Urushning so'nggi qurboni. *Q o r i q qa qadalgan jajji boshlarni, Bilmadik kim uchun poya qilishdi.* O.Matjon, Saylanma. *– Ha, seni rais qilganlarni… debdi sal kattarog'i jahli chiqib, g'o'zani rasvo qilibsan-ku. Darrov q o r i q olib suv qo'yinglar.* B.M.Qurbon, Jummi doyi hangomalari.

PUCH, PO'K, KOVAK, G'OVAK, KO'ZANAKLI, PO'LA Ichi bo'sh. **Po'k, puch, kovak** biror narsaning ichida umuman hech narsa bo'lmasligini ta'kidlasa, **g'ovak, ko'zanakli** narsalarning ichi zich emas, havo aralash ekanligini ta'kidlaydi. **Ko'zanakli** mineralogiyada g'ovak tuproqni ifodalash uchun qo'llanadi. **Po'la** so'zi kam qo'llanadi.

Hoy, Nazirbuvi, shu bo'ladigan ishmi, yo raisning qo'ynini p u ch yong'oqqa to'ldirib jo'natdikmi? A.Qahhor, Kampirlar sim qoqdi. *Topdim, Siz, yolg'iz Siz, qolgan dunyo p u ch, Yo'qotdim, qaytadan ko'rdim dunyoni*. H.Xudoyberdiyeva, Saylanma. *To'lanboy: – Jannat xola... P o ' k ildizdan o'tin chiqmas, bu o'tindan*

tutun chiqmas. Nima qilasiz ildiz yig‘ib. S.Ahmad, Ufq. *Terak shoxidan sindirib olgan, yomg‘ir-qorda turaverib, hatto qurt yeb ado bo‘layozgan shu p o ‘ k tayoq qachon qo‘liga tushganini eslolmasa ham kerak.* U.Ro‘ziyev, Urushdan qolgan imorat. *Yakkatol – qari tol. Jarlik bo‘yida. Tanasi k o v a k bo‘lib ketgan.* Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor. *U ichi k o v a k bo‘lib qolgan beso‘naqay chinor daraxti atrofida nimanidir izlayotgandek alanglab yuradi…* A.Karim, Urush ko‘rgan chollar. *Qamishlar ham qarsillagan ovoz chiqaradi. Chunki tanasi g‘ o v a k bo‘ladi, shabadada egilganida qarsillaydi*. I.Sulton, Qismat. *Ko‘sakqurt ko‘sak teshadi. Ko‘sakqurt ko‘sak g‘ o v a k etadi. Ko‘sakqurt ana shu g‘ o v a k dan ichkari kirib oladi*. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Yomonqul cho‘lida k o ‘ z a n a k l i, do‘ng va marzali qum shakllari uchraydi...* “O‘zME”. *Qovunning yomoni p o ‘ l a, Xeshning yomoni bo‘la.* Maqol.

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI

BIRINCHI JILD

Muharrir *Habib Abdiyev*
Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*
Musahhihlar: *Muxlisa Sobirova, Dilnoza Ro‘zmatova*
Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016
Bosishga 2022-yil 24-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 $^{1}/_{16.}$ Times New Roman garniturasi.
Ofset bosma. 40,95 shartli bosma taboq. 35,4 nashr tabog‘i.
Adadi 1000 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz **info@gglit.uz.**

G‘AFUR G‘ULOM
nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA’NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI

IKKI JILDLI

Nizomiddin MAHMUDOV
tahriri ostida

TOSHKENT– 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA’NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI

IKKINCHI JILD

G‘AFUR G‘ULOM NOMIDAGI
NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI

UO‘K 811.512.133’373.421(038)
KBK 81.2O‘zb-4
M 16

N. Mahmudov
O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. II jild / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 488 bet

MUALLIFLAR JAMOASI:

Nizomiddin Mahmudov, filologiya fanlari doktori, professor
Durdona Lutfullayeva, filologiya fanlari doktori, professor
Yorqinjon Odilov, filologiya fanlari doktori, professor
Durdona Xudoyberganova, filologiya fanlari doktori, professor
Ma’rufjon Yo‘ldoshev, filologiya fanlari doktori, professor
Shuhrat Ko‘chimov, filologiya fanlari doktori, dotsent
Dilrabo Andaniyazova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Feruza Musayeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

TAQRIZCHILAR:

Abduvahob MADVALIYEV
filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Sharifa ISKANDAROVA
filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur lug‘atda ilk marta ona tilimizning boyligi hisoblangan leksik sinonimlarning keng qamrovli leksikografik talqini amalga oshirildi. Lug‘atdan leksik sinonimlarning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi so‘zlarning ma’no nozikliklari, bu ma’noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatuvchi illyustrativ misollar o‘rin olgan. Lug‘atga faqat mustaqil so‘zlardan iborat sinonimik qatorlargina emas, balki yordamchi so‘z turkumlari doirasidagi sinonimik qatorlar ham kiritilgan. Lug‘at o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo‘yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

UO‘K 811.512.133’373.421(038)
KBK 81.2O‘zb-4

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022

ISBN 978-9943-8835-5-0

Q

QABR, GO‘R, MOZOR, LAHAD, TURBAT, MARQAD, O‘BA, QO‘YINDI Marhumning jasadi ko‘miladigan yoki ko‘milgan maxsus joy. **Qabr, go‘r, mozor** ham adabiy tilda, ham so‘zlashuvda keng qo‘llanadi. **Go‘r** ko‘proq salbiy bo‘yoqdorlikka ega. **Lahad** so‘zida qabrning ichki qismi ta’kidi mavjud. **Turbat, marqad** kam qo‘llanadi. **O‘ba, qo‘yindi** – shevaga xos so‘z.

Sarkarda topshirig‘i bilan to‘rt jangchi uch kecha-yu uch kunduz q a b r atrofida posbonlik qilishdi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Zarang markazidan chiqaverishdagi eski qo‘rg‘on devorlari yaqinida Farhod o‘quvchilik yillari juda muqaddas sanalgan e’tiborli bir q a b r bo‘lardi.* E.A’zam, Shovqin. *O‘lik ko‘mishning o‘zi bo‘lmaydi. O‘lgan o‘lib ketaveradi, qolganga qiyin. O‘lik g o‘ r ga kirmasdan xarajat boshlanadi*. S.Ahmad, Ufq. *Jaloliddin g o‘ r adog‘ida cho‘kkalab, uvlayotgan shamolga betkay o‘ltirdi.* E.Samandar, Sulton Jaloliddin. – *Tong sizg‘ib qoldi, aravani qo‘sh, o‘g‘lim, – dedi u. – Ko‘nglum alag‘da, ukag‘inangni m o z o r in ko‘rib kelmasak bo‘lmaydi!* S.Is’hoq, Qabrdan chiqqan qul. *Tursunboyning go‘ri yonardi, Ikromjon endi o‘g‘lining m o z o r i yonayotganini ko‘rmas, ko‘zlarini yumib, ingroq, alam, iztirob bilan to‘lg‘anardi*. S.Ahmad, Ufq. *Kimdir Yaratganning huzuriga borayotganiga shukr qilib ko‘z yumar, kimdir l a h a d da yolg‘iz yotishini o‘ylab qo‘rquv bilan jon berar...* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. – *Ochiq mozorga kelib qolding! – dedi onamiz. – Ochiq l a h a d ga kelib qolding!* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Dilni o‘rtar hamon g‘am-u g‘urbatlari, Yot ellarda qolib ketdi t u rb a t lari, “Fig‘onkim...” deb o‘tdi qancha furqatlari, Yorkentlarda ko‘zi jayron yurt edi bu*. S.Sayyid, Vatan nadir? *Tez orada qabristondagi go‘dak t u r b a t ini eslatuvchi tanish mozor yonida yangi qabr paydo bo‘ldi.* G‘.Shermuhammad, Quduq. *Aytishlaricha, Behbudiy qabri “Eshoni shahid” maqbarasi yaqinida bo‘lgan. Bir necha yil davomida uning m a r q a d i e’tiborda bo‘lib kelgan.* P.Ravshanov, Behbudiyning so‘nggi manzili. *Bir marrasi Samarqand bo‘ldi, bir tomoni Sadr Vaqqos otaning m a r q a d i bo‘ldi.* B.Qobul, Enayo‘l. *Besshatir o‘ b a lari Yettisuvdagi saklarning ijtimoiy-maishiy, xo‘jalik tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega*. “O‘zME”. – *Shu yerdan o‘tgan Nonber ota kimdan kam? – dedi oqsoqol. – Kelinglar, shu zotning q o‘ y i n di sini obod qilaylik!* S.O‘nar, Vijdon. *Nogahoniy voqeadan hamon o‘ziga kelolmagan hasharchilar unga yuzlanishdi. – Palakat bosib, eski q o‘ y i n d i ga duch keldik. Ko‘z tegdi bizga! Ishimiz chappasiga ketadi endi*. G‘.Shermuhammad, Quduq.

QABRISTON, MOZOR, GO‘RISTON, MOZORISTON, MOZORBOSHI, MOZOROT, MOZORTEPA, QO‘YINDI Marhumlar dafn qilinadigan maxsus joy, qabrlar majmuyi. **Qabriston**, **mozor** adabiy til va so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Go‘riston** va **mozoriston** nisbatan kam qo‘llanadi. **Mozorboshi**, **mozorot** so‘zlashuv tiliga xos. **Qo‘yindi** – shevaga xos so‘z.

Rukniddin og‘zini ham o‘ramagan, shundoq qo‘li bilan vabodan o‘lgan kishilarni yelkasidan ushlab, bordonga yotqizar, undan keyin tutun ichida jimjit ko‘chalardan sudrab q a b r i s t o n yonidagi xandaq tomonga ko‘tarilardi. Mirmuhsin, Temur Malik. *U q a b r i s t o n ning yarmini asta-asta aylanib, Van Gogni ko‘rgan joyiga yetdi va yo‘lakchadan sal narida – qabrdagi yodgorlik poyiga bag‘ir bosib yotgan bir dasta qizil gulga ko‘zi tushdi*. U.Azim, Bir dasta qizil gul. *Uning har bir surasi qabriston jimligini, boyqushlar ko‘zi chaqnagan m o z o r dahshatini eslatadi*. S.Ahmad, Ufq. *Ot-aravani maydon chetiga qo‘yib, o‘zlari kichik m o z o r ni yoqalab o‘tib, daryoga yaqinlashishdi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *G o ‘ r i s t o n to‘g‘risida dodxo nimalar eshitgan bo‘lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi go‘riston dodxo xayolida qandoq dahshatli bo‘lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli...* A.Qahhor, Dahshat. *Bahor – barchaga baravar! Shohona saroylar oldidagi gulzor nima, g o ‘ r i s t o n da ma’yus do‘ppaygan qabrlar nima – tanlab o‘tirmaydi. Hammasini bir tekis maysalarga burkaydi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *M o z o r i s t o n odam bilan to‘lib ketdi: hisobchi ko‘p kishilarga yaxshilik qilgan edi.* N.Eshonqul, Xayol tuzog‘i. *Bu m o z o r i s t o n boshida qancha o‘tirdim ekan? Chunon behudligimdan subh-u shomimni bilmasdim.* I.Sulton, Mening gulim. *Nega desangiz, ko‘chadan shoxdor jinaravasini minib o‘tganda ko‘chamizdagi bolalar to m o z o r b o sh i gacha orqasidan yugurib, ko‘chani changitib... masxara qilib borardik.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Lekin har hayitda m o z o r b o sh i ga borib, qabrini ziyorat qilib keladi*. O‘.Umarbekov, Kuz havosi. *So‘ng tor ko‘chadan rayonga qatnab o‘qigan chog‘lari – bu m o z o r o t yonidan o‘tayotganda oyog‘i uchida yurganlarini esladi.* Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida. *Xayriniso m o z o r o t ichidan o‘tgan so‘qmoq bo‘ylab erining qabri tomon yo‘l oldi.* Q.Norqobil, Osmon ostidagi sir. *O‘zining kitobga termilib o‘tirishi tevarakdagilarning istehzoli iljayishlariga sabab bo‘layotganini ich-ichdan his etib, uzoqdagi m o z o r t e p a ga ma’yus termilib qoladi*. N.Norqobilov, Bo‘ron qo‘pgan kun. *Alloh ularni bu dunyo mashaqqatlaridan forig‘ etib, bir lahzadayoq dargohiga chorlab ola qolgan, ko‘z yumib ochguncha fursat ichida orqamizda oq m o z o r t e p a paydo bo‘la qo‘ygan edi*. M.Mansur, Judolik diyori. *Masjiding uzoq bo‘lsa ham, mozoring yaqin bo‘lsin degandek, q o ‘ y i n d i ham shundoqqina qishloqning biqinida*. N.Qobul, Kechikkan turnalar. *Avtobus katta q o ‘ y i n d i – qabristonning o‘rtasidan go‘ristonni ikkiga bo‘lib, xuddi endi mayit olib kelgan ulkan tobutdek lapanglab borardi.* B.Qobul, Ena shamol.

QADAH, JOM, PAYMONA, AYOQ Sarxush qiluvchi ichimlik quyib ichiladigan idish. **Jom, paymona** poetik nutqqa xos, kitobiy xoslangan. **Ayoq** eskirgan, mumtoz adabiyotda qo‘llanadi.

Q a d a h lar jaranglaydi. Kelin-kuyovning salomatliklari uchun ko‘tarilgan qadahlar o‘z kuchini ko‘rsatdi. S.Ahmad, Ufq. *Tavakkal shoyon xursand bo‘lib: – Oldik! Keyin – o‘yin! – deya q a d a h ni shartta bo‘shatdi-da, kursisini orqasiga qitirlatib surib, chetga chiqdi.* Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *Iloyo, boshimizga kelmasin qaro kunlar, O‘zbegim, deb ko‘taring, do‘stlarim, oltin j o m ni.* A.Oripov, O‘zbekiston davlati. *Qiyomatda bo‘lmaydi hiyla, Yomg‘ir – sharob, gazagi – ilon. Hech kim qusmas do‘stlari ila Bir qadah, may ichib, bir j o m qon*. M.Yusuf, Qiyomat. *Bu zamin obi hayot birla to‘lug‘ p a y m o n a dir, Maskanim Farg‘onadir, Farg‘onadir, Farg‘onadir*. E.Vohidov, Maskanim Farg‘onadir. *P a y m o n a sharobga to‘ldimi? To‘ldi... Qalbda esa o‘sha og‘ir ko‘lanka.* I.Mirzo, Ko‘lanka. *Bahor faslidur-u may havosi boshimda, A y o q tut manga, soqiyki, xush havoyidur.* Bobur.

QADAM, ODIM, HATLAM, HOPPOY Yurish jarayonidagi har bir oyoq tashlash. **Qadam** adabiy tilda ham, so‘zlashuvda ham faol qo‘llanadigan so‘z. **Odim** ko‘proq badiiy uslubda qo‘llanadi, **hatlam** shevaga oid, ko‘pincha hisob so‘zi vazifasida keladi, mazkur vazifada nutqda **qadam odim**ga qaraganda kam ishlatiladi. **Hoppoy** – shevaga xos so‘z.

Alimardon tramvaydan tushdi-da, Estrada teatri tomonga yengil, dadil q a d a m lar bilan yurib ketdi. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Munisxon ketidan uning kelayotganini, ko‘chaga ham chiqishini bilib q a d a m ini tezlatdi.* A.Qahhor, Sarob. *Yo‘lchi o d i m ini katta otib jo‘nadi. Biroz nari borgach, orqasidan Qambar chaqirdi: – Beri keling!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Hozir ham xuddi sahnaga chiqqandek yengil o d i m lar bilan yurib, burchakdagi toshoyna oldiga keldi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Qolaversa, “Ikki h a t l a m joy, bir zumda boraman-u qaytaman-da” deb o‘yladi.* O.Abdiyev, Rizq. *Momomiz ikki h o p p o y tashlashi bilan buvamiz ilkis uning qo‘lidan tortib, ot egariga o‘ngarganda, otiga qamchi urgan.* O‘.Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar. *Xullas, Saypi muallim qadami bilan hoppoylab oltmish h o p p o y sanab, u boshigayam, bu boshigayam yalpoq qayroq tosh bilan o‘yib bir chiziq tortardi*. S.O‘nar, Bibisora.

QADAMOQ, TO‘G‘NAMOQ, SANCHMOQ Uchli, tig‘li narsani biror sathga o‘rnatmoq, mahkamlamoq. **To‘g‘namoq** to‘g‘nog‘ich, medal, orden kabilar bilan bajariladigan harakatga nisbatan ishlatiladi. **Sanchmoq** qilich, xanjar, pichoq kabi tig‘li buyumlarga nisbatan qo‘llanadi.

Qora baxmalga q a d a l gan zar tugmachalardek yaltirab turgan yulduzlar birin-ketin o‘chib, osmon beti ohak surtilgandek oqara boshladi. Sharofat hamon uyg‘oq. S.Ahmad, Seni izlab. *Azizbek bo‘lsa “javohir q a d a l g‘an tojlar, oltin taxtlar, nozanin parivashlar, dongdor mahramlar” haqidag‘ina o‘ylar edi.* A.Qo-

diriy, O‘tkan kunlar. *Zumrad ninani palakka t o‘ g‘ n a di-da, o‘rnidan turdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Anvar yugurib kelib, yorliqni olib o‘pdi va uni sallasiga s a n ch ib, orqasi bilan yurib, ilgarigi o‘rniga borib to‘xtadi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

QADIMGI, QADIMIY, QADIM, AZALIY, AZALGI, KO‘HNA, ESKI Vaqt nuqtayi nazaridan avvalgi, uzoq o‘tmishdagi. **Qadimiy** so‘zida vaqt nuqtayi nazaridan olislik belgisi **qadimgi** so‘zidan ko‘ra kuchliroq. **Qadimgi, qadimiy, qadim, azaliy, azalgi** barcha uslublarda qo‘llanadi, **ko‘hna** badiiy nutqqa xos. **Eski** so‘zida vaqt jihatidan uzoqlik belgisi nisbatan kuchsizroq.

Toshdagi rasmlar bundan ko‘p ming yil avval o‘tgan bobokalonlarimizning ijodi ekan. Shu rasmlarga qarab, q a d i m g i odamlar qanday yashaganini bilish mumkin. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Deraza-darvozalar q a d i m g i Sharq me’morchilik san’atining noyob namunasi edi!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Qisqasi, u ovchilikning q a d i m i y va deyarli hech o‘zgarmas rasm-rusumlariga to‘la amal qilishdan yo erinadi, yo ularni bilmaydi*. N.Norqobilov, Dasht-u dalalarda. *To‘qaydan chiqishimiz bilan bizni pishqirib oqayotgan q a d i m i y Jayhun va daryo chetida egarlangan otday, yozig‘li dasturxon bilan mo‘jazgina soyabonli paroxod kutib turardi.* K.Avaz, To‘yxat. *Muhammad Avaz q a d i m zamonlardan beri shuhratini yo‘qotmay kelayotgan, mo‘ysafid yoshida ham qirchillama yigitni eslatadigan Registon qiyofasida ilgari ko‘rilmagan ajab bir o‘zgarish, binobarin, ta’rifga sig‘mas ulug‘vorlik namoyon bo‘lganini e’tirof etdi*. A.Dilmurod, Mezon burji. *Valilardan ibrat so‘ylar q a d i m sahrolar, So‘ndi qancha saltanatlar, qancha tug‘rolar*. S.Sayyid, Vatan. *Ammo hamma gap kelib-kelib tag‘in o‘sha a z a l i y jumboq – inson, inson ma’naviyati, insonning hanuz noraso tabiati masalasiga taqalmoqda.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Qutlug‘ davralarda jam bo‘lgan mahal, Do‘stlarga baxt tilash a z a l i y odat.* A.Oripov, Inju diyor uchun. *Bu o‘lkaning ariqlarini a z a l g i tajriba va uquv bilan va benihoya zo‘r, doimiy mehnat bilan yaratibdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yoyilib yotibdi bu qadimiy Shosh, Hali mo‘l jinko‘cha, loyshuvoq tomlar, Boshlaridan kechmish ne shum ayyomlar, O‘rtada parpirar k o‘ h n a Ko‘kaldosh*. Mirtemir, Ko‘kaldosh. *Yog‘iy ham biznikilarni o‘ldirmishdir. Bu – e s k i odat. Siz buni unuting, begim.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bobom mana shulardan – e s k i, olis, men tushunmaydigan g‘alati tarixlardan hikoya qilib berardi.* I.Sulton, Genetik.

QALAM, XOMA Yozish-chizish quroli. **Xoma** – eskirgan, kitobiy so‘z.

Shahardan hammani quvlab chiqarib, Bo‘m-bo‘sh ko‘chalarda kezar bir o‘zi. Yagona quroli qog‘oz va q a l a m, O‘ylar u na bugun, na ertasini. A.Oripov, Muxbirlar. *Kunduz – o‘ltiraman o‘ylarim to‘zib, O‘zim stolda-yu xayolim oyda. Kunduz – latifalar aytaman yig‘lab, Q a l a m qitirlatib suraman xayol.* U.Azim, Saylanma. *Noma uchun x o m a tarosh ayladim…* Navoiy. *Toshkent –*

sevganniki, oy – hammaniki, Mehrim izhor etay dilnoma bilan. Farzandlar safida turibman toki, Qo‘lda otameros shu x o m a bilan. I.Mirzo, Toshkent xomasi.

QALAMPIR, GARMDORI Achchiq mevasi ovqat bilan iste’mol qilinadigan o‘simlik. **Qalampir, garmdori** adabiy tilda ham, shevalarda ham faol qo‘llanadi.

Undan so‘ng xuddi shunday tartib bilan pomidor, bodring, kartoshka, loviya, bulg‘ori qalampir, achchiq jaydari q a l a m p i r ekilgan. A.A’zam, Odamning olasi. *Keyin bilsak, odamlarning rahmini keltirish uchun oyoqlari ostiga q a l a m p i r surtib qo‘yishar ekan.* N.Qobul, Unutilgan sohillar. *Chol shu xabarni eshitdi-yu, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shilib, bog‘ga o‘tdi. Piyoz o‘tadi, g a r m d o r i ning tagini chopdi*. O‘.Umarbekov, Marusya xolaning miltig‘i. *Brigadangizning ishlari yaxshi! Piyoz o‘toq qilindi... kechki qovun chopib qo‘yildi... g a r m d o r i sug‘orildi... Yana nimani gapirib beray?* O‘.Umarbekov, Abdulla qovunchi.

QALBAKI, SOXTA, YASAMA, SUN’IY, YOLG‘ONDAKAM, BOTIL Asliyatga mos emas, haqiqiy emas. **Qalbaki, soxta** ma’no jihatdan keng qamrovli, adabiy tilda faol, ammo so‘zlashuv tilida kam qo‘llanadi. **Yasama, yolg‘ondakam** so‘zlashuv tiliga xos. **Yasama, sun’iy** inson xatti-harakatlariga nisbatan ham, narsa-predmetga nisbatan ham ishlatiladi, **yolg‘ondakam** faqat inson xatti-harakatlariga nisbatan qo‘llanadi. **Botil** so‘zi eskirgan.

Hamma narsa Hojining ko‘ziga q a l b a k i ko‘rindi, shekilli, butun jihozlarni alohida-alohida ko‘zdan kechirdi, hatto devorlarni chertib ko‘rdi. A.Qahhor, Yillar. *Norqobil esa do‘stlari tayyorlab qo‘ygan… haqiqiyligiga hech kim shubha qilmaydigan q a l b a k i pasport bilan shu besh kun ichida Termizga yetib keladi.* S.Ahmad, Taqdir, taqdir. *S o x t a taloq xatini olg‘an so‘ngingizda menga xitob qilib yozg‘an fikrlaringizdan, ehtimol, endi qaytayozg‘andirsiz…* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sen bundaylarning qilich-qalqonidan qo‘rqma. Bu qilich-qalqon mo‘rt, bolalarning o‘yinchog‘i kabi s o x t a.* T.Malik, Falak. *Kechqurun Fazliddin akasi Abdullaboy bilan uzoq gaplashib, so‘ng o‘z uyiga kirgach, Nuri y a s a m a noz bilan dedi: – Maskovga jo‘narmishsiz, nimaga manga bildirmaysiz?* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bobur bu y a s a m a e’tiqodlardan g‘ashi kelib, bosh chayqadi-yu: – Taajjub! – deb qo‘ydi.* P.Qodirov,Yulduzli tunlar. *Rastaning ichida besh-o‘n kishi paydo bo‘ladi, ular s u n’ i y tavoze bilan shovqinsiz muomalaga kirishadi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Endi, yozuvchilik “sirlari”ni ozmi-ko‘pmi o‘rganganimdan keyin, romanning butun realistik kuchi va kishini rom qiluvchi go‘zalligi ham, xarakterlarning betakror milliy koloriti ham, shu bilan birga, realistik uslubda yozilgan va bugungi kitobxon uchun s u n’ i y tuyuladigan ayrim sahifalar ham ko‘zimga tashlanadi*. O.Yoqubov, Adolat manzili. *– Yana sovuq suvga yuvindingmi? – dedi u y o l g‘ o n d a k a m po‘pisa qilib.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Ilgari xonga aniq, axborotlar berib turadigan*

maxsus odamlar bu gal Shoh Ismoilning y o l g‘ o n d a k a m chekinayotganini va harbiy nayrang ishlatmoqchi ekanini bilmay qolgan edilar. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Kimki b o t i l yo‘l bilan izzat talab qilsa, Alloh uni haq yo‘l bilan xor qilib qo‘yadi.* S.Sayfulloh, Buyuklar halqasi. *– Aytib kel u fikri b o t i l ni?! – dedi u shiddat bilan Asad qoriga*. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.

QALBAKILIK, SOXTALIK, YASAMALIK, SUN’IYLIK, G‘AYRITABIIYLIK Asliyatga mos emaslik, haqiqiy emaslik. **Qalbakilik, soxtalik, g‘ayritabiiylik** ma’no jihatdan keng qamrovli, adabiy tilda faol qo‘llanadi. **Yasamalik** – so‘zlashuv tiliga xos so‘z.

Vinzavod hujjatlarida q a l b a k i l i k bo‘lsa, mening nima aloqam bor? T.Malik, Shaytanat. *Qo‘ying-chi, talaba xalqining ham makkora ayolga o‘xshagan hiyla-nayrangi qirq eshakka yuk bo‘ladi. Lekin Sanjar qanday bu q a l b a k i l i k l a r n i ko‘radi – bilmayman-u, firibgar talabani bir zumda fosh qiladi-qo‘yadi.* O.Sharafiddinov, Domlalar. *Lekin qonimizga kirgan – s o x t a l i k a’zoyi tanimiz qaqshatar butun.* E.Vohidov, Saylanma. *– Menga u butunlay yoqmaydi, – gapga aralashdi Po‘lat. – Nazarimda, ancha qo‘pol ishlangan. Boshqa figuralar yaxshi. Faqat Samson shunday ko‘rinadi. Uning qarashida ham qandaydir s o x t a l i k bor.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Biroq bahridilini ochib yuboradigan bunday go‘zallikda qandaydir y a s a m a l i k bor edi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Shamsibek saboqdoshining so‘zlarida s u n’ i y l i k sezdi. Abdulvahobning yoqa ushlashi, kalima keltirishi kimlargadir taqlid qiluvchi masxarabozni eslatardi.* T.Malik, Falak. *Sof, har qanday s u n’ i y l i k n i bag‘riga singdirmagan umrimning unutilmas yaxlit bir parchasi, bir kecha-kunduz, senga ta’zim qilaman.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Diqqat bilan kuzatilsa, hatto kasalxona xodimlarining xatti-harakatlari-yu imo-ishoralarida allaqanday g‘ a y r i t a b i i y l i k ni ilg‘ash mumkin edi.* U.Hamdam, Muvozanat.

QALIN, ZICH, TIG‘IZ, BAROQ, G‘UPPA Ko‘p va bir-biriga yaqin joylashgan, siyrakning aksi. **Qalin, zich** faqat moddiy predmetlar joylashuviga nisbatan qo‘llanadi, **tig‘iz** aniq predmetlarga nisbatan qo‘llanganda, orada joy qoldirmaslik ta’kidi anglashiladi, mavhum tushunchalarga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. **Baroq** jun, yung, tuk kabilarga nisbatan ishlatiladi; qalinlik, o‘siqlik ta’kidi mavjud. **G‘uppa** – shevaga xos so‘z, asosan, folklor asarlarida uchraydi.

Bobur esa to‘g‘riga ketgan tor so‘qmoqdan, q a l i n daraxtlar orasidan yelday uchib boryapti! P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Muqad! – U dadasining yo‘g‘on ovozini eshitib, boshini ko‘tardi, qorong‘ida uning q a l i n, hali oq oralamagan soqolini, quyuq qoshlari tagidan sinchiklab tikilib turgan ko‘zlarini aniq ko‘rdi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Ariq bo‘yida qad ko‘targan z i ch oqterak yaproqlari shitirlab turadi*. I.Sulton, Men, Onam va O‘rta Yer dengizi. *Shu sa-*

babli xiyobonda daraxtlar shunchalik z i ch va tarvaqaylab ketgan, ustiga ustak, shaharning barcha qushlari ancha yillardan beri arra tovushini eshitmagan daraxtlarga uya qurgandi. N.Eshonqul, Bahoviddinning iti. *Bu qishloq Qiziriq cho‘lining kun botish tomonida. T i g‘ i z guvala uylar, qo‘ralarning o‘rinlarigina qolgan*. M.Safarov, Ayrishox. *Boburdan orqaroqda turgan ko‘zlari katta-katta ozg‘in qora yigit – Hindubek t i g‘ i z oq tishlarini ochib kuldi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qora b a r o q qoshlarini chimirib, bir zum dengizda suzib borayotgan teploxodga qarab turdi-da: – Yuring! – dedi va mashina tomon tez-tez yurib ketdi.* O‘.Umarbekov, Haykal. *Habibulla uning uzatgan oyoqlarini ushlab, oldiga tortdi, quymuchiga itning o‘mrovini tirab, b a r o q, oq junlarini siladi...* Sh.Xolmirzayev, Jo‘raboshi. *Tilla ko‘za ichida g‘ u p p a go‘za, yor-yor, yangi kelgan yangajon, Tutmang ro‘za, yor-yor.* “Oy oldida bir yulduz...”

QALQON, SIPAR Jangchining tanasini qilich, nayza va boshqa tig‘li qurollardan himoya qiladigan, qattiq materialdan tayyorlanadigan moslama. **Sipar** – eskirgan so‘z, asosan, tarixiy asarlarda uchraydi.

To‘plarning gumburlashi, miltiqlarning qarsillashi, borut tutuni, har qanday q a l q o n ni teshib o‘tadigan olovli o‘qlar zarbasi va yana buning hammasi behisob aravalar shakliga kirib o‘z-o‘zidan yurib kelayotgani yov qo‘shinini dahshatga keltirdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Q a l q o n ing bor, kim qasd qilsa gar joningga, Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loningga*. M.Yusuf, Tavallo. *Taxmonda turlik rangda atlas va shohilardan qoplangan ko‘rpalar, taxmon tokchalariga uyilgan kumush qinlik xanjar va qilichlar, qalqon va s i p a r lar; qip-qizil gilam va shohi ko‘rpachalar kishi ko‘zini qamashtirar darajada edilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Biron yeri lat yesa ham astoydil qilich solib, s i p a r tutadigan, payt poylab, “raqibi” gardaniga qilich soladigan sarbozlarni yuqori baholardi*. Mirmuhsin, Temur Malik.

QAL’A, QO‘RG‘ON, ISTEHKOM Yashash va mudofaa maqsadida qurilgan inshoot. **Qal’a, qo‘rg‘on** baland devorlar bilan o‘ralgan, asosan, o‘rta asrlarga oid inshootlarni bildiradi, **istehkom** so‘zida devorlar bilan qurshalganlik ta’kidi mavjud emas. Bu so‘zning ma’nosi kengroq bo‘lib, mustahkamlangan har qanday inshootni, shu jumladan, zamonaviy inshootlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

Qurbon... mutaassir bo‘lib turardi: bir zamonlar o‘lkaning biron kentida, qishlog‘ida, shaharda isyon ko‘tarilsa, uni bostirish uchun uzoq-yaqindagi oqposhsho garnizon – q a l’ a laridan “jazo otryadlari” ham jalb etilardi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *...kutilmaganda tashqi ishlar xalq noziri so‘z olib, kun tartibiga yana bir masalani kiritishni taklif qildi. – Aprel oyida Termiz q a l’ a siga ikki afg‘on kelib, amirning muhim maktubini topshirgan*. T.Malik, Savohil. *Malika Bayda q o‘ r g‘o n darvozalarining kalitini Jamna bo‘yida Boburga topshirayotganda ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi.* P.Qodirov,

Yulduzli tunlar. *Yetti istehkomni qon bilan olgach, to‘xtadilar. Bu q o‘ r g‘o n ni yanchib o‘tish asli hech gap emas edi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Xo‘jandni ikki bo‘lib oqqan Sirdaryoning o‘rtasida, shahardan bir chaqirim quyiroqdagi orolda qadimdan qolgan bir i s t e h k o m bor edi.* M.Osim, Temurmalik. *Sohibqiron lashkarlari Ikki hafta o‘tib, rabbiul-avval kirganida hirovul to‘dalari bir kichik kent qo‘rg‘onining mustahkam i s t e h k o m lariga yo‘liqdilar.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen.

QAMAL, QURSHOV, MUHOSARA O‘rab, qamab qo‘yilgan holat. **Qamal, muhosara** so‘zlari, asosan, harbiy sohada qo‘llanadi va faqat dushman tomonidan o‘rab olinish holatini ifodalaydi. **Qurshov** so‘zining qo‘llanish doirasi kengroq va u nafaqat dushman, balki boshqa narsa, predmetlar bilan o‘rab olinish holatini ifodalashi mumkin. **Muhosara** eskirgan so‘z, ko‘proq tarixiy asarlarda qo‘llanadi.

Kech kuzakning rutubatli, sovuq izg‘irinlari esa boshlaganda u uch oydan ortiq davom etgan q a m a l so‘ngida – ochlik, miskinlik, xor-zorlik nihoyasida, yer yuzining sayqali bo‘lmish shahri azim Samarqandni g‘addor dushmani Shayboniyxonga tashlab chiqdi. X.Sultonov, Panoh. *Urganj q a m a l i boshlanib, uning darvozalariga yaqin yo‘lash mushkulligini va qal’a devori ustida har gal shayx paydo bo‘lganida cherik beixtiyor orqaga serpilishini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgach, bu ishonch diliga tag‘in-da mahkamroq o‘rnashdi.* E.Samandar, G‘ayb qushlari. *To‘dadan chiqolmas eng zo‘ravon ham Yelkasida uloq, qolur q u r sh o v da*. Mirtemir, Yayov uloq. *Xonzoda begim hamma balolarga o‘zini tutib berib ukasini yov q u r sh o v idan xalos qilganini Bobur bilmasa ham, Qutlug‘ Nigor xonim yaxshi bilar edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Yetmish kunlik bir m u h o s a r a dan keyin uch ming sipohni bir yarim mingga tushurib, bir yarim ming sipohni Toshkand qo‘rg‘onlari ostida qurbon berib, Normuhammad qushbegi quruq qaytishg‘a majbur bo‘ldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Biroq bu jang shiddatini susaytirmadi, m u h o s a r a kuchaygandan kuchayar, har ikki tomon bir-birini ayashni xayoliga ham keltirmasdi.* X.Davron, Amir Temur o‘g‘lining o‘limi haqida rivoyat.

QAMAMOQ, HIBS QILMOQ (ETMOQ), HIBSGA OLMOQ Ozodlikdan mahrum qilmoq, yopiq inshootda muayyan erkinliklarni cheklagan holda saqlamoq. **Qamamoq** so‘zining ma’nosi kengroq, odamdan boshqa mavjudotlarga nisbatan ham ishlatiladi. **Hibs qilmoq, hibsga olmoq** faqat shaxslarga nisbatan qo‘llanadi, hozirgi o‘zbek tilida ham faol, kitobiy.

A’zamjon agar dadam q a m a lib qolmaganda, albatta, meni rais qilishardi, deb afsuslanib o‘tirardi. S.Ahmad, Ufq. *Qorli uvalarda qora qo‘toslar, temir halqalar bor burunlarida. Bir joyda aylanar butoq cho‘llarning daraga q a m a l gan quyunlariday.* Sh.Rahmon, Ozodlik. *Hali Sharif urfon dumini likillatib, Oydinbibi nomini tilga oldi, nahotki sho‘rlik zavjayi halolini ham*

h i b s q i l ishgan? A.Dilmurod, Mezon burji. *To‘rt savdogarni ham h i b s e t ib, mollarini ehtiyot saqladi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Humoyun gap nimadaligini surishtirib bilgach, navkarlarga: – Rojani bo‘shating! – deb buyurdi. – ...Farmoni oliyni unutgan shahvatparast Vaysbek h i b s g a o l insin!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ayol boyoqish h i b s g a o l inadi*. Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy.

QAMISH, CHIG‘, SOZ Boshoqdoshlarga mansub, suvda, botqoqlikda, to‘qayzorda o‘sadigan, bo‘g‘im-bo‘g‘im uzun poyali ko‘pyillik o‘simlik. **Chig‘, soz** – shevaga xos so‘zlar, kam qo‘llanadi.

Yoshlikda poda boqib yurgan chog‘larida, q a m i sh dan, har xil tog‘ yog‘ochlaridan nay yasar va poyonsiz dalalarda, qoyalar ostida, suvlar bo‘yida chala-chala vaqtini o‘tkazar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Yolqin akam yer-to‘lalarning ustiga yopadigan taxtasi-yu q a m i sh larini mashinada berib yuboribdi*. P.Qodirov, Meros. *Ch i g‘ keraga balandligicha kesiladi*. N.Rahmatullayeva, Badash. *Solma eshik ch i g‘ dan to‘qilib, ustiga mato tikiladi*. N.Rahmatullayeva, Badash. *Mingashib toyga, Yo qapchig‘oyga, Yoki bedana Qalin, s o z joyga, Balig‘i pana Yoyilma soyga – Ketsak-chi ikkov, Ov yaxshi-da, ov...* Mirtemir, Ov.

QAMISHZOR, SOZLIQ, SOZLOQ Qamish o‘sadigan yer. Adabiy tilda **qamishzor** faol qo‘llanadi, **sozliq, sozloq** kam ishlatiladi va, asosan, shevada uchraydi.

Cho‘l shamoli esib q a m i sh z o r larda uvladi, qiz sochlarini to‘zg‘itdi, buydalab ko‘zlarini, qoshlarini berkitib tashladi. S.Ahmad, Ufq. *Qamishzordan ayrildim deb u dod etarmish, Chamanlarda, bog‘larda ham faryod etarmish...* E.Vohidov, Saodatga. *Biz tekis yo‘l qolib, s o z l i q ni kechib ketdik*. A.Muxtor, Davr mening taqdirimda. *Shu payt ro‘paradagi dovon orqasidan eshaklarning hangrashi, “ol-ol!”, “ur-ur!” degan shovqin-suron eshitildi-yu, qamishlar chayqalib, s o z l i q ni eshak qopladi.* O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. *Jar tagida ajriqzor, s o z l o q bor, Jar tagida yam-yashil yozloq bor...* Mirtemir, Buloq. *Etaklaring yaylov, s o z l o q va poda, Qaydaki suv bo‘lsa, qator o‘tovlar.* Mirtemir, Achchisoy.

QAMOQ, QAMOQXONA, HIBS, HIBSXONA, ZINDON, TURMA, AVAXTA, MAHBAS Ozodlikdan mahrum etilgan kishilar, mahbuslar, jinoyatchi va sh.k. qamaladigan joy. **Hibs, hibsxona** rasmiy va badiiy uslublarga xos. **Zindon** – eskirgan so‘z. **Turma, avaxta** so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Mahbas** o‘zbek tilida eskirgan, kitobiy.

Uning bu holati frontdan qaytgan jangchidan ko‘ra, q a m o q dan qaytgan mahbusga o‘xshardi. S.Ahmad, Ufq. *Tog‘a q a m o q da kechgan kunlari va nomidanoq ot hurkadigan allaqanday kimsalarning parvozi-yu fojialari xususida so‘zlaydi.* N.Norqobilov, Dasht-u dalalarda. *Hosila opa hovli devori ustini*

aylantirib tikanli sim bilan o‘ratdi. Bu ancha xunuk edi; nimasi bilandir q a m o q x o n a devorlarini eslatardi. Sh.Xolmirzayev, Kimsasiz hovli. *Q a m o q x o n a dan qochayotib soqchilardan birining qurolini tortib olgan davangir malla mahbus bir o‘qni o‘ziga asrab qolib, askarlar bilan rosa otishadi.* N.Norqobilov, Dasht-u dalalarda. *Jon tikkan shoir El dushmani ataldi. Hukm o‘qildi. Bosh egib u Asta borar h i b s tomon.* E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Shunday qilib, dadam boyoqish 53 yoshida halok bo‘ldi va shu qisqa umrining 11–12 yilini h i b s va surgunlarda o‘tkazdi.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Yosh-yosh juvonlar, qaqshab-qaltirab qolgan keksalar h i b s x o n a xodimlarining ovqat qabul qilishini kutib, ertalabdan kechgacha tikanli sim oldida diydirab turishadi.* O.Yoqubov, Muzqaymoq. *O‘shanda Bo‘tabekov h i b s x o n a dan chiqqan mahbusdek xursand bo‘lgan, ko‘z yoshi to‘kkancha rayon markazidan qishloqqacha piyoda qaytgan edi.* N.Qobul, Kechagi kun. *Z i n d o n lar ochildi, sochildi sirlar, temir pardalardan omoch quyildi, toshlarga aylanib qolgan botirlar na’rasi quloqqa kelib urildi*. R.Parfi, Kutilmagan siyliqlar. *Qabr esa badbaxtlar uchun z i n d o n, to yaxshilik yomonlikdan ajraladigan jazo kunigacha tor hibsxona bo‘ldi…* T.Malik, Xazonrezgi. *Umuman, Mirzakarimboy uyi Yo‘lchi uchun t u r m a dan xunukroq ko‘rindi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Solihabibi... jiyaniga uchrashish zarurligini tushunsa ham avval t u r m a ga borishga qaror qildi*. O‘.Umarbekov, Yer yonganda. – *Qaysi a v a x t a ga tashlaymiz buni? – shoshilib so‘radi Temirbek.* X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar. *Manman degan siyosatchilar, rahnamolarning biri a v a x t a da chiriyapti, biri sarsonlikda yuribdi*. T.Malik, Savohil. *Bir yo‘li ul ravzani qilma unut, Bu xarobobod m a h b a s tarki tut.* Navoiy, Lison ut-tayr. *Dunyo esa imtihon sahnasi. Ba’zilar inson vaqtincha qoladigan bir m a h b a s, ya’ni zindon ham deydilar*. T.Malik, Shaytanat.

QAQSHAMOQ, ZIRQIRAMOQ, SIMILLAMOQ, SIZLAMOQ Achitib og‘rimoq, og‘riqli zirqiroq tutmoq. **Zirqiramoq**da og‘riq darajasi kuchliroq. **Simillamoq** so‘zida og‘riqning darajasi kuchsiz, davomlilik ta’kidi bor, kam qo‘llanadi. **Sizlamoq** – shevaga xos so‘z, folklor asarlarida uchraydi.

– Yuring, oyi, tanchangizda biroz o‘tiraylik, oyog‘im q a q sh a b qoldi, – Anvar shunday degach, kampir o‘rnidan turdi. T.Malik, Shaytanat. *Ikki kundan buyon betinim uvlayotgan izg‘irin bug‘ularni suyak-suyagigacha q a q sh a t ib yubordi.* M.Safarov, Ayrishox. *Dildor butun tani z i r q i r a b og‘risa ham, ko‘ziga uyqu kelmasdi.* S.Ahmad, Ufq. *Muzaffar tirnoqlarigacha z i r q i r a b: – Nima qilibdi Fotihga? – dedi arang.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Tonggacha mashinaning motori sovib qoladi. Bazo‘r o‘t oldirdim. Salonda o‘ynab turgan buyuqdan etim s i m i l l a ydi*. J.Kengboyev, G‘urbatxona. *Yuragimning qayeridir kuyadi, S i m i l l a ydi, charsillar, sanchar, Go‘yo ming yil yuraksiz yashab. Bir qadoq og‘riqqa kunim qolganday…* F.Afro‘z, Seni sog‘in-

ganman… *Suyg‘un (kiyik)ning bir shoxiga ursang, ikki shoxi s i z l a ydi.* Maqol. *Tovonimga chaqirtikanakday botguvchi – g‘ashlik, Bedavo sizloviqday s i z l a t-guvchi – g‘ashlik*. Mirtemir, Onaginam.

QARAM, TOBE, MUTE Erki, ixtiyori o‘zida emas, boshqaga bo‘ysungan. **Qaram** barcha uslublarda faol. **Tobe** so‘zlashuvda kam qo‘llanadi. **Mute** so‘zida kimgadir tobelik belgisi boshqa sinonimlarga nisbatan kuchli ifodalanadi. **Mute,** asosan, badiiy nutqda qo‘llanadi.

Amir Afg‘onistonni butkul mustaqil, o‘zgalarga q a r a m emas, deb yurtga omonlik beribdi. T.Malik, Savohil. *Nega maktab o‘quvchilari haligacha paxta dalalaridan chiqolmayapti?.. Nega, Yusuf!? Axir biz ozodlikka chiqqan, hech kimga q a r a m emasmiz, deya bayramlar qilayotgan xalqmiz axir!* U.Hamdam, Muvozanat. *– Men o‘zim ham shohlik zanjiridan butunlay ozod bo‘lishga intilmoqdamen, janob Qosimbek. Bu zanjirning bir uchi t o b e odamlarga bog‘langan bo‘lsa, uning ikkinchi uchi shohning o‘ziga bog‘lanur ekan!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Mudom kayfiyatga t o b e dir inson, Xastasan, ta’bingga kiradi tundlik*. Zulfiya, Saylanma. *Elim, seni m u t e ko‘rsam, Ko‘zdan qolay, ko‘zim kuysin...* H.Xudoyberdiyeva, Hurlik o‘ti. *M u t e holida turgan o‘rtog‘ining bunday baqirishi G‘ayratdagi g‘azab oloviga moy sepdi: – Sen ablahsan! Sen hayvonsan!* T.Malik, Talvasa.

QARAMA-QARSHI, ZID, KONTRAST Bir-biriga teskari. **Qarama-qarshi, zid** ko‘p qo‘llanadi. **Kontrast** ko‘proq terminologik ma’noda adabiyotshunoslikda qo‘llanadi.

Xullas... tag‘in, xullas deyapman, ana shunday q a r a m a-q a r sh i fikrlar kallamdan kechdi. Sh.Xolmirzayev, Qumrilar. *Farhodning... bir-biriga q a r a-m a-q a r sh i chigal o‘ylardan ko‘ngli g‘ash...* E.A’zam, Shovqin. *O‘shanda ham Fotihning ovozidagi betaskin iztirob undagi g‘urur va manmanlikka shunchalik z i d ediki, Nigora xiyol yumshab: – Mayli, o‘tgan ishga salavot, Fotih aka! – degan edi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Men sizlar bilan birmen, yerimni tashlab ketmaymen, ammo sulton farmoniga z i d hech ish qilg‘on emasmen.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Bu o‘rindagi ma’naviy-axloqiy sathda olingan k o n t r a s t hikoya yakunida yanada kuchaytiriladi.* D.Quronov, Cho‘lpon nasri poetikasi. *Sonet janri qoidasiga binoan... dastlabki misradayoq mazmun bayon qilinib, keyingi misralarda u rivojlantiriladi, obrazlar talqini, k o n t r a s t holatlar va ishqiy kechinmalar me’yoriga yetkazib ta’riflanadi.* M.Xolbekov, “Ishqing saqlaguvchi ko‘ksim beqalqon” yoxud Shekspirning xushta’b sonetlari.

QARAMA-QARSHILIK, ZIDLIK, ZIDDIYAT, KONTRAST Bir-biriga teskari bo‘lgan holat. **Qarama-qarshilik, zidlik, ziddiyat** so‘zlarida qarshilantirish belgisi darajama-daraja kuchayib boradi. **Kontrast** ko‘proq terminologik ma’noda adabiyotshunoslikka oid asarlarda uchraydi.

G‘oyalar kurashining g‘oyatda q a r a m a - q a r sh i l i g i bugunga kelib hammaning diqqat markazida turibdi. T.Murod, Tanlangan asarlar. *Oqibat shunday bo‘ldiki, Saidiyning ichki hayoti bilan tashqi hayoti orasidagi kundan kun o‘sib borayotgan q a r a m a-q a r sh i l i k uning joniga qasd qilarli darajaga yetdi.* A.Qahhor, Sarob. *...yobonda sochilib yotgan lak-lak lashkargina emas, go‘yo butun dunyo buyuk hukmdorning tonggi hukmini kutar, ammo u zotning xayollarida z i d l i k tarozusining shayini muallaq edi...* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Tarozining juft pallasidir Ruhlarining z i d l i g i siri.* M.Abdulhakim, Javzo tashrifi. *Insonning umri, shaxsiy-intim kechinmalar haqidagi z i d d i y a t lar ga to‘lib-toshgan adoqsiz o‘ylar men o‘zimnikiga aylantira olmagan go‘zal qalbning o‘zgacha dukurlashiga sabab bo‘ladi...* X.Do‘st-muhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *O‘g‘li bilan xotini z i d d i y a t i yil o‘tgani sayin kuchayib borayotgan edi.* T.Malik, Talvasa. *So‘zlardagi ma’no ziddligi shoir va yor o‘rtasidagi munosabatni oydinlashtirishga xizmat qilmoqda: lab – shirin, ammo undan chiqqan so‘z – achchiq; keyingi misrada k o n t r a s t ajoyib yechimga ega: bol (lab) har qancha achchiq bo‘lsa, oshiqqa shuncha xush yoqadiki, oshiq undan-da mastroq bo‘ladi.* M.Tojiboyev, Muhammad Shayboniy lirikasida badiiy til muammolari. *Lekin dugonalar orasidagi suhbatni psixologik k o n t r a s t asosiga qurgan Cho‘lpon Saltining ham o‘zicha haqligini ko‘rsatadi*. D.Quronov, Cho‘lpon nasri poetikasi.

Q

QARAMLIK, TOBELIK, MUTELIK, QULLIK Erki, ixtiyori o‘zida emaslik, boshqaga bo‘ysunganlik. **Qaramlik, tobelik** faol qo‘llanadi. **Mutelik** ko‘proq badiiy nutqqa xos. **Qullik** so‘zida tobelik tushunchasi yanada kuchli ifodalanadi, salbiy bo‘yoqdorlik ham bor.

Har bir fuqaro: “Fikrim mustaqil – men mustaqil! Men mustaqil – yurt mustaqil!” – degan tushunchani dil-diliga jo qilgandagina, mamlakat q a r a m l i k isnodidan abadiy xalos bo‘ladi. A.Obidjon, Tip-tiniq vujud. – *Tangri turk kabi erksevar elga doimiy q a r a m l i k ni ravo ko‘rganiga inonib bo‘lmaganidek, Inalning, qolaversa, har bir turk yigitining kelajagi yorug‘ bo‘lishini umid qilmog‘imiz kerak, – dedi yabg‘u.* G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Juvon ham, erkak ham shu tobda mushtdek bo‘lib qolgandi. Ularning sukutga to‘la bu turishida qismat hukmiga, t o b e l i k alomatlari mujassam edi.* E.Norsafar, Oq yomg‘ir. *Ammo har ikkovi ham payti kelsa Zokirni o‘ldirib o‘zim Sardori a’zam bo‘lib olaman degan pinhoniy bir niyat bilan t o b e l i k ka rozi bo‘layotgan edilar.* X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar. *Mashaqqatli mehnatda ezilgan, m u t e l i k dan bezillagan jonivor shataloq otib, boshi og‘gan yoqqa ketadi...* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Qamariddin bu ayolni ustozi huzurida hamisha m u t e l i k holida ko‘rgani uchun hozirgi turishidan ajablanmadi.* T.Malik, Talvasa. *Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman, O‘ynagan boshqalar, ingragan menman, Erk ertaklarini eshitgan boshqa, Q u l l i k qo‘shig‘ini tinglagan menman.* Cho‘lpon, Kulgan

boshqalardir, yig‘lagan menman... *Qo‘rqitish siyosati oqibatida xalqning haqiqiy guli yo‘q qilingan bo‘lsa, boshqa bir beqaror toifasida ma’naviy aynish yuz berdi. Bu – sharoitga moslashish, itoatkorlik, q u l l i k zanjiriga ixtiyoriy bo‘ysunish edi.* O.Tog‘ayev, Qanoti qayrilgan lochin.

QARAMOQ, BOQMOQ, NAZAR SOLMOQ (TASHLAMOQ), NIGOH TASHLAMOQ (QADAMOQ), KO‘Z TASHLAMOQ, RAZM SOLMOQ, SIN SOLMOQ, SINGALAMOQ, JAVDIRAMOQ, TERMILMOQ, MO‘LTAYMOQ, MO‘LTIRAMOQ, MO‘LTILLAMOQ, BAQRAYMOQ, O‘QRAYMOQ, CHAQCHAYMOQ, DO‘LAYMOQ, GO‘LAYMOQ Ko‘rish uchun ko‘zni biror tomonga, narsa yoki kimsaga yo‘naltirmoq. So‘zlashuvda ko‘pincha **qaramoq** so‘zi ishlatiladi. **Boqmoq, nigoh tashlamoq (qadamoq), nazar solmoq (tashlamoq), ko‘z tashlamoq** badiiy uslubga xos. **Ko‘z tashlamoq** qisqa muddatli harakatni ifodalaydi. **Razm solmoq, sin solmoq, singalamoq** so‘zlarida sinchkovlik bilan qarash ta’kidi anglashiladi. **Sin solmoq, singalamoq** shevaga xos so‘zlar. **Javdiramoq, mo‘ltaymoq, mo‘ltiramoq, mo‘ltillamoq** so‘zlarida najot izlaganlik, iltijo bilan qarash ta’kidi aks etadi. **Chaqchaymoq, baqraymoq** so‘zlarida ko‘zlarini katta-katta ochib qarash ta’kidi qabariq ifodalanadi. **Do‘laymoq, go‘laymoq –** shevaga xos so‘zlar. **Chaqchaymoq, baqraymoq, o‘qraymoq, do‘laymoq, go‘laymoq** so‘zlarida salbiy bo‘yoqdorlik mavjud.

Q

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o‘ziga juda ham katta ko‘k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko‘chaga q a r a b o‘tirgan edi... A.Qahhor, Ming bir jon. *Shovvoz o‘z quloqlariga ishonmay chang kipriklarini pirpiratib, ro‘parasida qoyaday qaqqayib turgan yosh direktorga q a r a di.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Dildor bu mehribon, otasidek muloyim kishiga allaqanday mehr bilan b o q di...* S.Ahmad, Ufq. *Fadeyev menga tez-tez b o q ib, ko‘zlarini qisardi-da, tag‘in kulardi.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. – *Birortasi bormidi? – shunday deb Akobirov quvlik bilan nari-beriga n a z a r s o l di; negadir shkafga tikilibroq qaradi.* E.A’zam, Shovqin. *Kallaklangan tutzor orqasidan Dildorlarning oq tunuka tomli uyi ko‘ringanda Nizomjon bir dam ma’yus n a z a r t a sh l a di-yu, ortiqcha hislarga berilishdan o‘zini saqlab jadal yurib ketdi.* S.Ahmad, Ufq. *Kechgan har oningga n a z a r s o l sang gar, Shoirning shoh satri ravodir, balkim, Oltin uydi axir fazolar qadar, Mening bobo yurtim, azamat xalqim.* A.Oripov, Qutlov. *Xayollanib s o l a di r a z m – Qish Turkiston darvozasida*. U.Azim, Kuzgi bog‘. *To‘shakda o‘tirgan ko‘yi tashqariga r a z m s o l di*. Q.Norqobil, Yangi yil kechasida. *Ularning tanish, lekin turmush tashvishlari to‘r tashlab uzoqlashtirgan qiyofalariga s i n s o l ib, imkon qadar har bir ifodani, har bir dog‘ni, har bir ajinni eslab qolishga urindi.* I.Mirzo, Iltimos. *U bir maromda qadam tashlarkan, yon-atrofga salqi s i n s o l di.* K.Avaz, Yoqut

momo. *Yer s i ng a l a b-yer s i ng a l a b, supa chetiga borib o‘tirdi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Daraxtlarga qayta boshdan s i ng a l a b qaradi-yu qishda bexosdan suvga yiqilib tushgandek qaltirab ketdi.* X.Karimiy, Chorva odami. *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari j a v d i r a ydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi.* A.Qahhor, O‘g‘ri. – *Bilasizmi... ishonasizmi... – Aytishga hech tilim bormay... ko‘zlariga j a v d i r a dim.* M.Mansur, Judolik diyori. *Gulnor shoshib-pishib uydan chiqdi, Unsinni zinada qarshi oldi. So‘zsiz, lekin butun yurak tuyg‘ularini ifoda etgan ko‘zlari bilan t e r m i l ib, qizni uzoq quchoqladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Komiljon xotiniga mehr bilan uzoq t e r m i l ib turdi.* S.Zunnunova, Yangi direktor. *Rahim atrofiga bezovta alanglab, kimnidir axtardi. Lop etib ko‘zi bir chekkada m o‘ l t a y ib turgan “Mitti”ga tushdi.* H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar. *Habiba gapim kor qildi degan o‘yda chimirilib ukasining og‘ziga m o‘ l t a y di.* X.Do‘stmuhammad, Bozor. *...Teptekis, kimsasiz makonlarda yolg‘iz o‘zim tevarakka m o‘ l t i r a yman. Kichkina maxluqchalar tegramni yer bag‘irlab o‘rab olishgan*. I.Sulton, Ozod. *Vali aka Xadicha xolaning yum-yum yosh oqib tushayotgan yuziga m o‘ l t i r a b turib: – Xafa bo‘lmang, onasi, – dedi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. – *Bekor qipsan kelib, – dedi Matluba. – Men baribir borolmayman. Mastura, ko‘zlari m o‘ l t i l l a b, opasiga tikildi. – Nega?* O.Yoqubov, Matluba. *Haligi odam m o‘ l t i l l a b turib, so‘ng yig‘lab yubordi.* T.Malik, Shaytanat. *Basharasiga b a q r a y ib so‘ksangiz ham iljayardi – eshitmasdi, qulog‘i og‘ir edi*. E.A’zam, Anoyining jaydari olmasi. *Erkak boshiga kaltak teggandek, bir lahza gangib, juvonga b a q r a y ib qoldi*. E.Norsafar, Oq yomg‘ir. *Nosirjon o‘zining yigit kishi ekanini ilk bor eshitgandek, Aminjonga hayrat aralash o‘ q r a y di*. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *O‘ q r a y ma “Sen bizga mehmon”, deganga, Qiyiq axtarmagin hech qachon qildan.* A.O‘ktam, Onam fotihasi. *Shahnoza aftimga ch a q ch a y ib, istehzoli kuldi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Boysunlik alamidan yomon-yomon o‘qraydi, yomon-yomon ch a q ch a y di.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Qiyom, ko‘zi d o‘ l a y ib, Qurbonga tikildi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Yuvoshga musht do‘layma, Zo‘rni ko‘rsang, g o‘ l a y ma.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Gulnora avval g o‘ l a y ib turdi, biroq Aziza bilan Amir kampirga ergashgach, barmoqlarini o‘quvsiz birlashtirib, yuziga yaqinlashtirdi.* A.Ibodinov, Ko‘l bo‘yida.

QARASH, BOQISH, NIGOH, NAZAR Ko‘zlarning biron narsa, voqea-hodisaga yo‘nalgan holati, ko‘z tashlash. **Qarash, nazar** ham adabiy til, ham so‘zlashuvda faol qo‘llanadi, **boqish, nigoh** poetik nutqqa xos.

Ikromjon amakining q a r a sh lari jiddiy, nimadandir xafaroq ko‘rinardi. S.Ahmad, Ufq. *Shunda o‘tgan yozda chorpoya ustidagi qahqahalar, Nazirning sho‘x va quv q a r a sh lari Nazokatning yodiga tushdi.* M.Safarov, Armon.

Azizxoning bosiq ovozida, o‘ychan b o q i sh larida yurt ko‘rgan, tirikchilikning achchiq-chuchugini totigan erkak nuqsi sezilib qolgandi. S.Ahmad, Ufq. *O‘zi ham, ma’yus b o q i sh lari-yu, xiyol g‘amgin kulib qo‘yishlarigacha – hammasi o‘sha-o‘sha, birinchi ko‘rishdayoq Fotihning yuragini cho‘g‘day “jaz” ettirgan Nigora!* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Davradagi bitta begona – yetimxonadan taklif qilingan Zoya ismli qiz edi. Bir-biriga bildirmay hammaning n i g o h i shunda*. E.A’zam, Shovqin. *U asli samarqandlik: qirra burun, rang-par, ko‘zlari ichiga tushgan, n i g o h lari o‘tkir odam*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Yodgor yonlamasi turgancha shim kiyarkan, Azizaning bir lahza tashlagan g‘amzalik n a z a r ini ilib oldi-yu, yuragi gupullab ketdi.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Muridlar ustozga savol n a z a r i bilan boqdilar. Ularning ko‘nglidan nimalar kechayotganini hazrat ko‘rib-anglab turardi.* E.Samandar, G‘ayb qushlari.

QARI, KEKSA, QARTANG Ancha yoshga borgan, qartayib qolgan. **Qari, keksa** ham odam, ham daraxt va hayvonlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin. **Keksa** so‘zidagi ma’no ifodasida bir qadar yumshoqlik bor. **Qartang** yakka holda kam qo‘llanadi, asosan, **qari-qartang** juft so‘zi tarkibida uchraydi.

Buvisi q a r i, sochlari oq, yuzlarida ajin, tasbeh o‘girib kuni o‘tadi... Mirtemir, Oynisa. *Shunda u, o‘zi ne ahvolda-yu, g‘alati bir manzarani payqamasdan qolmadi: sharti ketib, parti qolgan q a r i iti – Qoplon boshini to‘dalab qo‘yilgan kigizlar tagiga tiqqancha, yer bag‘irlab, bir tus bo‘lib yotardi.* N.Norqobilov, Dasht-u dalalarda. *Qay mahaldir yelkalari keng-keng, shop mo‘ylovli k e k s a bahodir Sohibqiron poyiga zang bosgan qilich uloqtiribdi-da, masxaraomuz qahqaha uribdi*. A.Dilmurod, Mezon burji. *Chol o‘tirgan joyidan qimir etmadi, bir qo‘lini qosh ustiga qo‘yib, k e k s a larga xos boqish bilan bir zum tikildi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Asom chol degan bir q a r t a ng xotin-qizlarga qarshi tashviqot yurgizib, bir qavat terisini tashlabdi.* “Mushtum”. *Bomdodga turgan qari-q a r t a ng barmoq tishlab, “attang”lab qolishdi.* A.Muxtor, Makruh.

QARIMOQ, KEKSAYMOQ, QARTAYMOQ Yoshi ulg‘ayib, qarilik davriga o‘tmoq. **Qarimoq, qartaymoq** ham odam, ham boshqa tirik organizmlar, masalan, daraxt, hayvonlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin. **Keksaymoq** faqat odamlarga nisbatan ishlatiladi va badiiy uslubga xos. **Qartaymoq** so‘zlashuv tiliga xos, shevalarda faol uchraydi.

Men ham kelin ayamning bolalarga, uyga o‘zini qurbon qilib, tez q a r i yotganini, akam hozir unga nisbatan xiyla yosh ko‘rinishini sezardim. P.Qodirov, Meros. *U besh yildan buyon yangi rol o‘ynamagan edi! Besh yildan buyon armonda ediki, bu alam-o‘kinch opani tobora q a r i tib bormoqda edi*. Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Og‘ir mehnatni ko‘p qilib, zaiflashib qolganingda yoki k e k s a y gan odam bo‘lganingda sening bu rohatparvarligingni, kurortga o‘chligingni tushunish mumkin edi.* P.Qodirov, Meros. *Bek ancha k e k s a y ib qolgan, nuroniy*

yuz, so‘zlari bag‘oyat serma’no kimsa edi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Nag‘mani birato‘la eslab, manglaylariga mushtlab afsus tortdilar: “O‘shanda shabixunni to‘xtatib, esni yig‘ib olish ayni muddao edi-ku, q a r t a y dikmu, nima balo?!* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Nevara esa hassasiga suyanib imillab qadam bosayotgan, ancha q a r t a y ib qolgan bobosiga qarab turib, xayoliga to‘satdan kelgan fikrdan qo‘rqib ketdi-da, uni mahkam quchoqlab oldi*. I.Sulton, Askar.

QARINDOSH, URUG‘, TUG‘ISHGAN, JIGAR, BOVUR, JIGARBAND, JIGARGO‘SHA, QONDOSH, QARDOSH, AYMOQ, XESH Nasliy, irsiy yaqinlikdagi shaxslar bir-biriga nisbatan. **Qarindosh** ham so‘zlashuvda, ham adabiy nutqda faol qo‘llanadi. **Tug‘ishgan, jigar** so‘zlashuv tilida faol. **Urug‘** mazkur ma’noda oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Jigarband, jigargo‘sha** poetik nutqda faol. Qatoridagi **tug‘ishgan, jigar, jigarband, jigargo‘sha** so‘zlarida qarindoshlik belgisi darajama-daraja ortib boradi. **Bovur, xesh** shevaga xos so‘zlar. **Xesh** so‘zida arxaiklik ham mavjud. **Aymoq** yakka holda kam qo‘llanadi, asosan, **urug‘-aymoq** juft so‘zi tarkibida uchraydi. **Qardosh**, asosan, xalqlar o‘rtasidagi irsiy yaqinlikni bildiradi. **Qarindosh** va **urug‘** so‘zlarining juftlashib kelish holati uchraydi.

Q

Rasul necha marta mehmon bo‘lgan katta chorxari xona ayollarga liq to‘la. Ulardan bir guruhi – bular eng yaqin q a r i n d o sh lar bo‘lsa kerak – ustlariga ko‘k ko‘ylak kiyishgan, boshlariga uzun ko‘k ro‘mol tashlab, yuzlarini to‘sib olishgan. O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Allaqachon dunyodan o‘tib ketgan uzoq bir q a r i n d o sh ini ko‘z oldiga keltirmoqchidek, Farhod Ramazon aftini tirishtiradi*. E.A’zam, Shovqin. *Men ham bu yerda xor bo‘lib yurmoqchi emasmen... Axsida Jahongir mirzo bor. Buxoroda Sulton Ali mirzo bor. Bularning u r u g‘ i ko‘p. Hammasiga siz-u bizdek beklar kerak.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Erxon! – deb bo‘kirdi so‘yloq tishli qari xanzu. – Mening necha-necha u r u g‘ imning kulini ko‘kka sovurding-a, qari kalamush.* I.Sulton, Xun. *Bu shunday bevafo dunyo, bu hayot, Tunda t u g‘ i sh g a n ing tongda yetti yot.* M.Yusuf, Tillaqo‘ng‘iz. *Biroq taqdir uning yelkasiga og‘irroq yuk qo‘ydi. Urush, otasizlik, sag‘irlik, muhtojlik, t u g‘ i sh g a n lardan judo bo‘lish...* M.Safarov, Olis qirlar ortida. *Sen unda ter to‘ksang, singlim, j i g a r im, Men nechun yuraman axir ishratda?!* A.Oripov, Yuzma-yuz. *O‘yim uzaymoqda ulg‘aygan sarim, Kengroq bo‘lsak, deyman bu keng dunyoda. Farg‘onada bo‘lsa yarim j i g a r im, J i g a r imning yarmi Surxondaryoda*. M.Yusuf, Mish-mish. *Shundoq ajib yurtsan, jon Qozog‘iston, Qardoshim, qurdoshim, b o v u r im azal!* A.Oripov. *Ayo, tug‘ishganim, do‘stim, b o v u r im, Otalar ruhini qilmoq uchun shod Xudoning kalomin takrorlay turib, Tarix sabog‘ini aylagaysan yod.* I.Mirzo, Ata bayit. *Bobur j i g a r b a n d lariga dil yorib so‘zlar ekan, ilojsizlikdan ko‘ngli ezilib, ruhi qiynalar, ko‘zlariga yosh quyulib*

kelardi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Sen kimni fosh etmoqchi bo‘lib yuribsan? Men seni o‘g‘lim deb, j i g a r b a n d im deb o‘rtoqlarga yelib-yugurib ishingni to‘g‘rilab bersam-u, sen bunaqa qilsang?* O.Yoqubov, Muqaddas. *U o‘z asarini, asaridagi jangchinigina emas, o‘z j i g a r g o‘ sh a larini yo‘qlab faryod chekayotgan mushfiq ayollarni shunday aniq tasavvur etdiki, bu manzaradan yuragi uvushib ketdi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Ularni shu darajada ko‘r-ko‘rona yaxshi ko‘rganidan boshqalar ham... xuddi o‘zinikiga o‘xshash shirin-shakar dilbandi, j i g a r g o‘ sh a si ekanini ham tan olgisi kelmay, shu boisdan u ba’zan ertaklardagi jodugarga o‘xshab ketardi*. O‘.Usmonov, Girdob. *...Toshkentga qatnab, yotoqxona topolmay sarson yurganimda... poytaxtdagi bu ikkala q o n d o sh imdan loaqal bittasi tirik emasligidan, ulardan so‘ng aloqalarimiz uzilib qolganidan afsuslanib ketardim.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar. *Devorning bu yoqqa emas, qaytanga, narigi tomonga og‘ishi ham bunday gumonsirashga izn bermaydi. Qolaversa, q o n d o sh lari o‘zining ustiga devor yiqitadigan darajada nodon emas...* N.Ochilov, Darcha. *Mangu elda esdalik bo‘lsin deb mendan, Borib yetgay bu xatim senga daf’atan. Oh, q a r d o sh im, og‘ajon, piri barkamol, Qirq yillik bir daftardir xotira, xayol.* M.Shayxzoda, G‘afurga xat. *Umidim bor Tangrim marhamatidan, Q a r d o sh im xo‘rsinsa, ko‘zim to‘la yosh. U ham bovurim deb tushib otidan Chinni kosasida tutar go‘ja osh.* I.Mirzo, Kosa. *Mening shirin qaymog‘im-o, alla, Oftobimsan a y m o g‘ im-o, alla.* U.Ali, Devona. *Hirotda Badiuzzamon mirzo bilan Muzaffar mirzodek tojdor x e sh larimiz biz uchun orasta bazmlar berib, chog‘ir taklif qilganlari majlis ahliga ma’lum bo‘lsa kerak.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Oqshom esa yuzi-ko‘zi bejalgan Abdukattaning x e sh lari dov to‘kib kelishadi.* N.Norqobilov, Kurash.

QARSAK, CHAPAK Kaftlarning bir-biriga urilishi va undan chiqadigan tovush. **Qarsak** so‘zida ma’no kuchli ifodalangan.

Yusufjon qiziqning Oxunjon qiziq bilan qiladigan tesha tegmagan askiyalari... va latifalari zalda gulduros q a r s a k larga va kulgi ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi. T.Obidov, Yusufjon qiziq. *Olqishlar va siylovlar ohangida yana musiqa taraldi, ammo kutilgan gulduros q a r s a k lar eshitilmadi*. I.Sulton, O‘rmondagi kulba. *...Soatov ham qizarib-bo‘rtib ch a p a k ka qo‘shilarkan, lol-u hayron edi: qachon yozib olishga ulgurdi ekan, qachon?!* X.Sultonov, Onamning yurti. *Ch a p a k battar avjiga chiqdi, biroq bu hol nechundir g‘ashga tegmas – quloqni qomatga keltirmas, aksincha, xush yoqar, go‘yo odamni mayin bir maromga solib tebratar, yelpitar, allalar edi.* E.A’zam, Chapaklar va chalpaklar mamlakati.

QARSAKBOZLIK, CHAPAKBOZLIK Chapaklar, qarsaklar bilan ifodalangan sevinch, mamnuniyat, olqish. **Qarsakbozlik** so‘zida berilib, “davomli, takror-takror qarsak chalish” ma’nolari bilan birga, soxta mulozamat kabi ma’no qirralari ham kuzatiladi.

Oilalarda barqaror daromad manbayini yaratish bugun kechiktirilmaydigan, ortiqcha ko‘zbo‘yamachilik hamda q a r s a k b o z l i k bilan berkitib bo‘lmaydigan vazifadir. Gazetadan. *U... majlislarda so‘zga chiqsa bormi, odamlar “gapni qiyvorar ekanmi”, deb qoyil qolishar va ch a p a k b o z l i k bo‘lib ketardi.* S.Anorboyev, Oqsoy. *Zotan, bu xil namoyishlar bizga begona emas – ommaviy ch a p a k b o z l i k muhitida o‘sib-ulg‘ayganmiz.* E.A’zam, Chapaklar va chalpaklar mamlakati.

QARSAK CHALMOQ, CHAPAK CHALMOQ Chapak bilan olqishlamoq, tabriklamoq. **Qarsak chalmoq** so‘zida “ma’qullash, qoyil qolish, tan berishni chapak bilan izhor qilish” kabi ta’kidlar mavjud.

Hamon Ota pismiq qo‘shiq aytib o‘ynar, bolalar q a r s a k ch a l ib kulishardi. E.Raimov, Ajab qishloq. *Biz hammamiz o‘rnimizdan turib gurullatib q a r s a k ch a l ib yubordik, Abduhalimning o‘zi hammamizdan ko‘proq chaldi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Poytaxtdagi Xon Man Men nomi bilan ataluvchi namunaviy kashshoflar saroyiga borganimizda bizni olqishlab ch a p a k ch a l gan, uzundan uzoq chapak chalib turgan bolakay va qizaloqlarning qo‘lchalariga jonim achib ketdi.* E.A’zam, Chapaklar va chalpaklar mamlakati. *Kattalarning chehrasida kulgi, bolalar esa “urra, urra!” – deb ch a p a k ch a l ishardi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim...

Q

QARZ, KREDIT, NASIYA, BO‘NAK Ma’lum muddat o‘tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan narsa. **Qarz** faol qo‘llanadi. **Kredit** hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol, unga sohaviy leksikaga oidlik xususiyati xos va bu so‘zda **qarz** so‘zidagidek salbiy bo‘yoq ochiq ifodalanmaydi. **Nasiya** bu ma’noda kam qo‘llanadi, oddiy so‘zlashuvga oid. **Bo‘nak** eskirgan, kitobiy.

– Q a r z kishining boshini bukadi, – keksalarcha jiddiy va salmoqli so‘zladi Salimboyvachcha. Oybek, Tanlangan asarlar. *Ikromjon to‘qqiz oy deganda q a r z dan uzildi.* Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor. *So‘nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan... dasturlar doirasida jami 13 trillion so‘mdan ziyod imtiyozli k r e d i t lar ...ajratildi.* Gazetadan. *Endi gap shu: oyoqni qattiq tirang. Qozoqlardan n a s i y a ni undiring, durustmi?* Oybek, Tanlangan asarlar. *Tugalboy so‘ng daroz va n a s i y a ga mol bergan odam bilan hisob-kitob qildi.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *“Agar o‘zboshimchalik qilib hosilni topshirmasangiz, bahorda berilgan b o‘ n a k ni ikki hissa qilib undirib olamiz” deyishibdi.* M.Xo‘jayev, Shermuhammadbek qo‘rboshi. *Shirkatlarning faoliyati shunday ediki, erta bahorda shirkat paxtakor dehqonlar bilan shartnomalar tuzar edi. B o‘ n a k naqd pul, ishlabchiqarish vositalari hamda bug‘doy, qand, gazlama kabi natura shaklida berilar edi.* M.Xo‘jayev, Shermuhammadbek qo‘rboshi.

QARZDOR, KREDITOR, BO‘NAKCHI Keyin qaytarish sharti bilan qarz olgan, qarz bo‘lib qolgan kishi. **Qarzdor** faol qo‘llanadi. **Kreditor**ga sohaviy leksikaga oidlik xususiyati xos va bu so‘zda **qarzdor** so‘zidagidek salbiy bo‘yoq ochiq ifodalanmaydi. **Bo‘nakchi** eskirgan, kitobiy.

Mahallamiz odamlaridan bir kambag‘al bizdan q a r z d o r edi, uch yuz so‘mga yaqin. Oybek, Tanlangan asarlar. *G‘aybarov jahl bilan qabulxonani tark etdi. Hisobxonaga o‘tdi. Ha, haqiqatdan ham q a r z d o r. Tavba, uch kun ishlab, uch yuz ming so‘m q a r z d o r. Shunaqasiyam bo‘larkan-da!* A.Namozov, Notanish. *“SINO” AJ davlat aksiyalari paketini investorlarga tanlov asosida “nol” xarid qiymatida, korxonaning k r e d i t o r lar oldidagi qarzini to‘lash va faoliyatni sog‘lomlashtirish uchun investitsiyalar kiritish sharti bilan sotish belgilangan edi.* Gazetadan. *To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilayotganda barcha k r e d i t o r larning manfaatlarini k r e d i t o r lar yig‘ilishi yoki k r e d i t o r l a r qo‘mitasi himoya qiladi.* Gazetadan. *Bitta menmas, bechora-bekas B o‘ n a k ch i lar boydan norozi.* M.Ali, Boqiy dunyo. *Foyda tushar! Kech kuzdan dehqon – B o‘ n a k ch i lar berishar paxta.* M.Ali, Boqiy dunyo.

QARG‘A, ZOG‘ Patlari tim qora (qoraqarg‘a) yoki qora bilan kulrang aralash (olaqarg‘a), O‘zbekistonda qish oylarida bo‘ladigan ko‘chmanchi qush. **Qarg‘a** so‘zlashuvda ham, adabiy tilda ham faol. **Zog‘** badiiy uslubga xos.

Gul bo‘l, tikanak bo‘l – chamaningda bo‘l, Bulbul bo‘l, q a r g‘ a bo‘l – vataningda bo‘l. E.Vohidov, Uzoqqa bormadik andisha bilan... *Chindan ham, tepada bir juft q a r g‘ a aylanmoqda va beton hovuzning qirg‘og‘iga qo‘nib turgan zag‘izgon jonholatda chag‘illab, go‘yo u ham kelinga: “Joning bormi? Chop!” deganday bo‘lardi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *O‘g‘lim, tasavvur qilingki, lochin bittagina, yolg‘iz! Z o g‘ lar esa minglab, hatto behisob!* A.Dilmurod, Mezon burji. *Ajab hangomalar bo‘lar qaytadan, z o g‘ larning ko‘zida qaynar ajina. Z o g‘ lar orasida sayrar ataylab, bu bulbul o‘ziyam juda g‘ajir-da.* Sh.Rahmon, Qaysar bulbul.

QARG‘AMOQ, LA’NATLAMOQ, DUOYIBAD QILMOQ Birovga yomonlik tilamoq, qarg‘ish so‘zlarini aytmoq. **La’natlamoq, duoyibad qilmoq** so‘zlarida yomonlik tilash darajasi **qarg‘amoq**qa nisbatan yuqori. **La’natlamoq, duoyibad qilmoq** badiiy nutqda faol qo‘llanadi.

Uning ota-onasi avvaliga q a r g‘ a b, keyin yig‘lab butun lolazorni, butun qishloqni taka-taka qildi. A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Rahima qismatiga shukr qiluvchilardan emasdi, o‘z taqdirini la’natlashga qoniqmay, erini, keyin bolalarni ham q a r g‘ a y boshladi.* T.Malik, Qarg‘ish. *Sho‘rlik Marina uni rosa l a’ n a t l a di, qarg‘adi...* N.Rahmat, Go‘rkov. *Bugun ertalab Tugalboy muttasil xuruj qilayotgan cho‘g‘ni l a’ n a t l a b hovlidan uzildi.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *– Olaygan ko‘zlaring ham oqib tushsin, – deya tag‘in d u o y i b a d q i l di Shirinqulning xotini.* S.O‘nar, Dunyo shunday tururmi? *Ayol borki, bu muzga*

tegib qolsa munglanib, Duoyibad qilurki, ololmassiz o‘nglanib. H.Xudoyberdiyeva, Ayol monologi.

QARG‘ISH, LA’NAT, DUOYIBAD Birovga yomonlik tilab aytilgan so‘z, gap. **La’nat, duoyibad**da belgi darajasi **qarg‘ish**ga qaraganda kuchliroq, badiiy nutqda faol qo‘llanadi. **La’nat** so‘zi **padari(ng)ga la’nat** birikmasi shaklida so‘zlashuvda ham ko‘p uchraydi.

Bu nafrat kutilmagan joylardan Islomshoh dargohiga ham yo‘l topib kirar, saroydagi iste’dodli shoirlar va fozil kishilar ko‘zidan podshoga atalgan q a r g‘ i sh yog‘ilib turganday bo‘lardi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Yo‘ldosh bir kuni xolasidan “Birov birovni qarg‘asa, bu q a r g‘ i sh necha kundan keyin uradi?” deb so‘radi.* T.Malik, Qarg‘ish. *Odam Ato shaytonchani L a’ n a t bilan bo‘ktirdi, Oyoq-qo‘lin bog‘lab so‘ngra Cho‘ng dengizga cho‘ktirdi*. A.Oripov, Odam va shayton qissasi. *Mayli, kim bo‘lmasin, yermi, samomi, Yo puchak bir daho, puchak bir tal’at – Zolim padarkushdir o‘shaning nomi, Men uning ruhiga o‘qiyman l a’ n a t!..* J.Kamol, Otam. *– D u o y i b a d emas, antivirus… – dedi Umar bilimdonlik qilib. – Zamonaviy tilda shunaqa narsa bor*. I.Shomurodov, Kultepada kechgan hangomalar. *Sen olamga yovuz d u o y i b a d ni “chiqarib” yubording va u bir kun, albatta, o‘zingga qaytib kelajak.* “Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf”.

Q

QARSHILIK, MONELIK, TO‘SIQ, G‘OV, TO‘G‘ONOQ, TO‘SQIN, TO‘SQINLIK, TO‘SIQLIK Biror ishni amalga oshirish uchun paydo bo‘lgan monelik, kishilar munosabatiga nisbatan bildirilgan qarshilik. **To‘siq, g‘ov, to‘g‘onoq** so‘zlarining nutqda erkin almashinib ishlatilishi ko‘p uchraydi. **To‘sqinlik, to‘siqlik, monelik** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi.

Gavharning q a r sh i l i g i ga qaramay, ikki marta suratga oldi-yu, rahmat aytib, burilib ketdi. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz: yuzini ochmasa bo‘lmaydi... Aytingiz, q a r sh i l i k dan foyda yo‘q!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Sen bilan mening har to‘g‘rida ham ochiq so‘zlashmagimizga hech bir m o n e l i k bo‘lmas, deb o‘ylayman.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Ana undan so‘ng Jahongir mirzoning taxtga o‘tirishiga hech bir m o n e l i k qolmas.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qiziq, oyim harchand mehribonlik qilgani bilan o‘rtamizda allaqanday t o‘ s i q turganga o‘xshardi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *...Yangi dunyo quramiz. T o‘ s i q larni yengamiz, Faqat olg‘a yuramiz.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *G‘ o v ham yo‘qdir olamda, lek Ishq yo‘lin band etgulik.* E.Vohidov, Saylanma. *U yo‘lida uchragan har qanaqa g‘ o v ni bosib-yanchib o‘tishga, doimo g‘olib chiqishga o‘rgangan edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *...bizlar faxriylarni yoshlarga t o‘ g‘ o n o q emas – suyanchiq, raqib emas – ustoz, befarq emas – hamdard deb bilishimiz lozim va bu milliy g‘oyalarimizda yana o‘z ifodasini topdi.* Gazetadan. *Ne bosqin, ne t o‘ s q i n dan Saqlab kelgan uni el. Kim etur so‘zni uvol, Xor bo‘lur, abgor*

bo‘lur. Sh.Qurbon, So‘z yo‘li. *...1918-yildan e’tiboran, ma’lum har bir ish uchun keng yo‘l ochildig‘i kabi maorif ishlari uchunda o‘rtadagi t o ‘ s q i n lar oling‘ach, teatrlar yozmoq ishi ham har bir qo‘lidan yozuv keladirg‘an yoshlar va o‘quvchi shogirdlar uchun bir ermak yoki havas shaklig‘a kirdi.* A.Qodiriy, Bizda teatr ishining borishi. *Doniyorov uchastkadagi hamon sudralishga sabab bo‘layotgan asosiy t o‘ s q i n l i k larni isbotlay boshladi...* J.Abdullaxonov, To‘fon. *Qiyinchilik, to‘sqinliklar hamma yerda ham bo‘ladi.* Gazetadan. *To ‘siqliklar ko‘rarsang-da, o‘z yo‘lingdan burilma, Otang o‘lur haq yo‘lida, sen ham uning kabi o‘l!* H.Muin, Hajviy she’rlar.

QASAM, ONT, QASAMYOD Muayyan shartlarni qabul qilib berilgan qat’iy va’da. **Qasam** ham so‘zlashuvda, ham badiiy nutqda faol qo‘llanadi. **Ont, qasamyod**da belgi darajasi **qasam**ga nisbatan kuchliroq. **Ont**, asosan, badiiy nutqqa xos. **Qasamyod** ko‘proq harbiy sohada qo‘llanadi.

– Azbaroyi xudo, olmadi! – dedi Safar va asabiylashib o‘rnidan turib ketdi, – shu Ka’batulloning ichida o‘lturib yolg‘on gapirgan odam musurmon emas, kishining q a s a m ig‘a ishonmag‘an ham yetti mazhabda mo‘min emas! A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Onaxon, Jo‘raxonning tobuti yonida yuragimizdan alamli faryodday bo‘lib chiqqan q a s a m imizni oyoqosti qilmassiz, deb o‘ylagan edik...* A.Muxtor, Opa-singillar. *Lekin qiyinchiliklar orqada qolib, ishi sal yurishgudek bo‘lsa, o‘ziga bergan va’dalari, ichgan o n t lari yana esidan chiqib, yana hovliqa boshlaydi Otaqo‘zi...* O.Yoqubov, Diyonat. *Ona-bola kiyik voqeasini va bundan buyon qo‘limga miltiq olmaslik o n t imni eshitgan Ukkiboy ota kulimsiradi-da: – Ovchilikda ne balolar bo‘lmaydi, – dedi qo‘l silkib.* A.Asil, Ukkiboy otaning oxirgi ovi. *Bundan tashqari, harbiy q a s a m y o d ga sadoqat, ofitserlik burchi, degan gaplar bor!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Do‘xtir unutmasin q a s a m y o d ini, Shu yo‘lda ko‘rsatsin iste’dodini*. M.Mirzo, Shifokor haqida.

QASAM ICHMOQ, ONT ICHMOQ, QASAMYOD QILMOQ O‘zining haqligi, so‘zining to‘g‘riligi va sh.k.ni tasdiqlash, unga boshqalarni ishontirish uchun muqaddas narsalar, kishilar nomini og‘izga olmoq. **Ont ichmoq, qasamyod qilmoq** so‘zlarida belgi darajasi **qasam ichmoq**qa nisbatan yuqori. **Ont ichmoq** badiiy uslubda faol qo‘llanadi. **Qasamyod qilmoq** harbiy sohada faol.

Uyda ayolimizga bor gapni aytib berdim. Ayolimiz oldin ishonmadi. Men endi q a s a m i ch ib aytdim. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Kesilgan ming qullar bilan gultojlarday toshib tengsiz, dahshat solib gumburladi q a s a m i ch ib qo‘ygan dengiz*. Sh.Rahmon, Ishqdan o‘lgan o‘smir. *– Hazrat oliylari, – dedi. – Bu borada bir so‘zni yashirgan bo‘lsam, boshim oyboltangiz tagida. Kalomullo bilan o n t i ch aman!* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Humoyun jiddiy turib: – Tangrim oldida o n t i ch ib aytamenki, sabr-toqatim umrim yetgunicha yetur! – dedi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Nizomjon safda turgan yangi jang-*

chidek q a s a m y o d q i l di. Endi u o‘zini katta qo‘shinning sodiq jangchisi deb biladi!.. S.Ahmad, Ufq. *Biz besh-olti yasharligimizda onamlar: “Bu yil ona-Vatanga bir million tonna paxta beramiz!” – deb gapirib yurishar, hatto majlisda q a s a m y o d ham q i l ishar edi.* P.Qodirov, Meros.

QASSOB, SALLOX Mol so‘yib, uning go‘shtini sotadigan odam. Barcha uslublarda, asosan, **qassob** so‘zi ishlatiladi. **Sallox** – eskirgan so‘z.

Akbarali alamdan lablarini tishladi. Kecha kuyov yuborgan novvosni so‘ygan q a s s o b pichog‘ini qinidan chiqardi. S.Ahmad, Ufq. *Janjalni uzoqdan kuzatib turgan baland bo‘yli, qozoqbashara, o‘rta yashar Mirg‘ozi q a s s o b kelib, cholning tirsagidan ko‘tardi.* Sh.Xolmirzayev, Qariya. *Men ne qilsa ham eshak so‘yib korafta bo‘lib qolgan s a l l o x. Jinni sigirni yiqitib oyog‘ini boyladik*. G‘.G‘ulom, Shum bola. *...anovi qovun bozori, baqqollik, sovun bozori, s a l l o x sotib kalla-pocha, qassobga tovun bozori*. “Ravshan”.

QATNASHMOQ, ISHTIROK ETMOQ Biror ish-harakat bajarilishida, voqea-hodisada bevosita faoliyat ko‘rsatmoq, shu harakat, voqeaning ijrochisi, bajaruvchisi bo‘lmoq. **Qatnashmoq** so‘zlashuv, badiiy uslublarda faol, **ishtirok etmoq** rasmiy, ilmiy uslublarga xoslashgan.

O‘tgan yili Moskvadagi ko‘rgazmada bizning xo‘jalik nomidan Abdullajon o‘z qovunlari bilan q a t n a sh di. O‘.Umarbekov, Abdulla qovunchi. *Ish-boshimizdan yalinib-yolvorib, ulush keltirish va’dasini quyuq qilib, nihoyat izn olgach, yaqin bir qarindoshimizning to‘yiga q a t n a sh ish uchun qishloq-qa jo‘nab ketdim.* L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Ra’no havli yuzida ikkita ukasining o‘rtasig‘a tushib, ularning loy o‘yunig‘a i sh t i r o k e t ar, yer su-purib yotqan soch o‘rumlarining tuproqqa belashkanidan xabarsiz edi.* A.Qo-diriy, Mehrobdan chayon. *Bu yil naq dekabr oyida domla Qo‘ngirotning olt-mish yoshga kirgani munosabati bilan kichkina ziyofat bo‘ldi, ziyofatda avvaldan o‘ziga ixlos qo‘ygan tengdoshlari va uning o‘shandagi asarlarini o‘qib, hurmat bilan qarovchi shogirdlari i sh t i r o k e t di.* Sh.Xolmirzayev, Boychechak ochildi.

QATNASHCHI, ISHTIROKCHI Biron tadbir, voqea-hodisada ishtirok etgan, etayotgan kishi. **Ishtirokchi** rasmiy va badiiy uslublarda ko‘p qo‘llanadi.

“Gurung” q a t n a sh ch i lari o‘zbek tili va adabiyotining faqat umumiy masalalari bilangina cheklanib qolmay, adabiy jarayonni ham sinchkovlik bilan kuzatdilar. N.Karimov, XX asr adabiyoti manzaralari. *– Mana, siz, uka? – dedi Daho. – Otingiz nima edi? Ha, Avaz! Mana, siz urush q a t n a sh ch i sisiz...* T.Murod, Momo yer qo‘shig‘i. *Opa bir zumga o‘zini shu davrada i sh t i r o k ch i kabi sezdi va siniq dili o‘kinch bilan zavqqa to‘ldi...* Sh.Xolmirzayev, Kechagi kun kecha. *Urush esa Ernest Xeminguey uchun navbatdagi universitet vazifasini o‘tadi. Birinchi jahon urushi uning i sh t i r o k ch i si bo‘lgan adib uchun katta saboq berdi.* M.Ahmedova, Xemingueyning so‘nggi yozi.

QATRANG‘I, TOSHDARAXT, TUG‘DONA Qayrag‘ochdoshlar oilasiga mansub barg to‘kadigan, doim yashil, tog‘li yerlarda o‘sadigan, yog‘ochi og‘ir, qattiq, mevasi yeyishli daraxt. Xalq tilida **qatrang‘i, tug‘dona** so‘zlari faol qo‘llanadi. Botanika termini sifatida **toshdaraxt** birligi ishlatiladi.

1500–2000 metr balandlikda tog‘ o‘rmondasht mintaqasidagi jigarrang va jigarrang-qo‘ng‘ir tuproqlarda zarang, archa, yong‘oq, bodom, q a t r a n g‘ i, pista, do‘lana, itburun, chiya o‘sadi. “O‘zME”. *Yosh nihol yildan yilga bo‘y cho‘zib, daraxtga aylanib borganidek, Bo‘ronbek ham chiniqib, pishiq, muqaddas q a t r a n g‘ i dek chayirlashib bordi.* M.Mahmudov, O‘lmas qoyalar. *T o sh d a r a x t ko‘kalamzorlashtirish uchun ekiladi.* “O‘zME”. *Bu yo‘l yong‘oqzor ichidan o‘tgan yo‘l bilan jar labidagi keksa t u g‘ d o n a tagida tutasharkan*. Sh.Xolmirzayev, Olis yulduzlar ostida. *Mehmonlar bo‘ylarini bo‘ylab ko‘rishga botinadilar. Azaliyatdan shavkat va sharaf tug‘ini ko‘tarib kelayotgan t u g‘ d o n a lar hidiga to‘yinmoq istaydilar.* B.Qobul, Ota chiroq.

QATTIQ, METIN, ZARANG, TOSH, QURCH Umuman, shakl o‘zgarishlariga, tashqi ta’sirga yaxshi qarshilik ko‘rsatadigan, sindirish, ushatish, kesish qiyin bo‘lgan. **Zarang, tosh, qurch** so‘zlaridagi mazkur ma’no bu so‘zlarning asl ma’nosi bo‘lmish qattiq material nomi asosida yuzaga kelgan. **Qurch** kam qo‘llanadi. **Metin, zarang, tosh** so‘zlarida belgi darajasi **qattiq**qa nisbatan kuchliroq. **Metin** faqat narsa-predmetga nisbatan emas, balki jonli mavjudotlar, mavhum tushunchalarga nisbatan ham qo‘llanadi.

Uch-to‘rtta o‘q shoxlar orasidan o‘tib filning orqasiga urildi, lekin po‘latday q a t t i q va qalin fil terisiga botolmay, yerga uchib tushdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Oysuluv bilan dugonasi... jo‘xori bo‘tqa pishirishdi, tutmayiz, olmaqoqi, so‘k qo‘shib q a t t i q nondan tolqon qilishdi...* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Axir o‘sha oqshom Lochin aytgan so‘zlar quloqlari ostida hanuz yangrab turgan bo‘lsa, lablarida lablarining harorati, uni quchgan , sochlarini, peshonasini silagan m e t i n qo‘llarining tafti hamon vujudini lovullatayotgan bo‘lsa-yu, uni ko‘rmay qanday ketadi?* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Otlarning tuyoq tovushi m e t i n devorlarga urilib, aks sado beradi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Polvon iyagini z a r a ng yerga tiragan ko‘yi qotib yotaverdi.* M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda. *Uch buxorolik azamat yigit lom bilan, belkurak bilan toshga aylanib ketgan z a r a ng yerni kavlab qabr ochguncha terga pishib ketdilar.* S.Ahmad, Ufq. *Tong chog‘idan tinmay xarsang urishar, Tosh chaqib, t o sh bo‘lmish qadoq qo‘llari.* Mirtemir, Berdimat amaki. *Azizxon zalvarli bir t o sh nokni qo‘liga olib salmoqlab ko‘rdi*. S.Ahmad, Qirq besh kun. *Ko‘klam-u yoz, kuz-u qishga timsol turur – To‘rt yondagi to‘rt bo‘lakli q u r ch chang‘aroq*. A.Suyun, O‘tov. *Konchi yigit yer qa’rida q u r ch qoyalar o‘ysa gar, Yoki olov yallug‘ida tinmay po‘lat quysa gar, To‘rt fasl ham kamarbasta, xirmon uyar paxtakor.* Mirtemir, Jujun.

QAZIMOQ, KOVLAMOQ, CHUQALAMOQ, O‘YMOQ Tuproq, tosh, shag‘al kabilarni ma’lum qismini olib, chuqur hosil qilish. **Qazimoq, kovlamoq, chuqalamoq** davomli harakatni ifodalaydi, **o‘ymoq** bir martalik harakatni ham, davomli harakatni ham ifodalaydi.

Pollarni aylantirib ariq q a z i dim. Ariq endi bir ketmon enicha bo‘ldi. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *U to‘g‘on boshiga borishini ertaga qo‘yib, kunni shu yerda o‘tkazdi, lekin kuni bo‘yi tinmadi... to‘lib qolgan kir o‘rani ko‘mib tashlab boshqa o‘ra q a z i di.* A.Qahhor, Sarob. *Adolat bir joyni panjasi bilan tataladi, ketmonda k o v l a di, ammo buloq ko‘zini topa olmadi.* I.Rahim, Chin muhabbat. *Botir firqa serrayib turdi. Endi o‘zi enib kelmish tuproqni k o v l a di.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Bu gaplarga shiypon orqasidagi daraxtlar panasida turib go‘yo gullarning tagini ch u q a l a b yumshatayotgan sersoqol bog‘bon zimdan quloq solmoqda edi*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Qorachiqda salqin bo‘lsin deb, bir metr chuqurlikda yerto‘la o ‘y iladi, so‘ng uning ustiga 1,5 metr balandlikda paxsa devor olinadi; nihoyat, tom mayda yog‘och shoxlar bilan yopilib, suvaladi.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Muz qotgan yerlarni o‘ y ar edik. O‘ y ib bo‘lib, hosil bo‘lgan chuqurni g‘o‘zapo‘choqqa to‘ldirgach, paqirda ariqdan suv tashirdik.* I.Sulton, Uzuk.

Q

QACHONGACHA, TOKAY(GACHA) Qay vaqtga qadar. **Tokaygacha** badiiy nutqqa xos. **Tokaygacha** e’tiroz, norozilik ifodalangan so‘roq gaplarda uchraydi, **qachongacha** sof so‘roq gaplarda ham, e’tiroz, norozilik ifodalangan so‘roq gaplarda ham qo‘llanishi mumkin.

Q a ch o n g a ch a ovozimni bo‘g‘adilar? Tirikman, tinchimayman. Ko‘rsataman ularga! Oybek, Tanlangan asarlar. *Shu ahvolda q a ch o n g a ch a bardosh beradi-yu, keyin nima bo‘ladi – Rustam buni ham bilmasdi...* Q.Kenja, Toshqin. *T o k a y chiday bu judolik dog‘ina man, Qani o‘sha qoziqdagi to‘nim mening!..* M.Yusuf, Sog‘inch satrlari. *– T o k a y g a ch a ezilamiz, ota!? – Yo‘lchi mushtumini siqdi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

QIL, TUK, MO‘Y Jun, soch kabilarning tolasi. **Mo‘y** so‘zi **qil** va **tuk**ka nisbatan kam qo‘llanadi. **Qil** ko‘pincha soch tolasiga nisbatan ishlatiladi. **Mo‘y** – kitobiy so‘z, umuman, tanada o‘sgan tukni bildiradi.

La’nati sel!.. Men bitta q i l ham bermoqchi emas edim. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Sochvon q i l lari chirsilladi, alanga tili allaqayoqdan uchib tushgan yana uch-to‘rtta paranjini yamlab ketdi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Xalil bobo yelkalari keng, ko‘ksi qavariq, oppoq soqoli ko‘kragining t u k lari bilan qo‘shilib ketgan, ko‘zlari qizg‘ish, nuqul tish qayrab, g‘alati ovoz chiqarib turadi*. N.Aminov, Ayri. *Hoji aka baayni sovuq choy ichayotgandek, qop-qora soqolining bittayam t u k i qilt etmadi.* O‘.Hoshimov, “Butilka” hoji. *– Ketaver! –*

Otaning biron m o‘ y i qilt etmaydi. – Kim seni tutib turibdi? N.Norqobilov, Dasht-u dalalarda. *...Qosimov domla, xabarkashroq odamlarga: Jonuzoqning aft-basharasiga durustroq qaranglar, bu bir yurgan boshi ochiq arab, turgan-bitgani m o‘ y, shuncha m o‘ y i bor odamning dum-pumi bo‘lsayam ajabmas... deb aytgan*. M.M.Do‘st, Bir toychoqning xuni.

QILICH, SHAMSHIR, ISFIHON Bir tig‘li, chopish, sanchishga mo‘ljallangan jang quroli. **Qilich** barcha uslublarda faol qo‘llanadi. **Shamshir** badiiy uslubga xos. **Isfihon** – Isfahon shahrida tayyorlangan qilich turi, kam qo‘llanadi.

– Bu q i l i ch mening boshimni emas, boshimdagi xom xayollarni chopib tashladi, – dedi Bobur ohista. X.Sultonov, Panoh. *Hamon ulug‘ kelbat, hamon boshi tik, hamon tog‘ni bo‘lar q i l i ch in zarbi, quturgan bu hangi ayg‘ir-da tetik dunyoga tashlanar ko‘zi och harbiy.* Sh.Rahmon, Jez otliq. *Damba o‘rnidan turgan edi, Muhammad Intizom yigitlaridan biri o‘tkir sh a m sh i r ini havoda o‘ynatib kelib, bo‘yniga chunonam zarb bilan urdiki, kalla xom qovoqdek yerga gurssa uzilib tushdi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Bir kuni ba hukmi taqdiri azal, Sh a m sh i r in ko‘tarib keldi-ku ajal.* A.Oripov, Dunyo. *Belda keskir i s f i h o n Uzangida chirqillab O‘mildiriq so‘m oltin, O‘mirovda alqillab*. “Ravshan”. *O‘g‘il bolalarga o‘xshab, chalvor kiyib, belini kamar bilan bog‘lab olgan shaddod Badia akasining dimishqiy i s f i h o n ini kamariga osib ko‘rar, hovlida bog‘loqlik turgan otga minmoqchi bo‘lardi...* Mirmuhsin, Me’mor.

QILMOQ, ETMOQ, AYLAMOQ Ot va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, qo‘shma fe’l hosil qiluvchi fe’l. **Qilmoq, etmoq** barcha uslublarda faol qo‘llanadi, ammo **etmoq** so‘zida qisman badiiylik bor. **Aylamoq** badiiy uslubga xos.

Qush uyasida ko‘rganini q i l adi. Maqol. *– Bilganingni q i l! – Qiz shunday dedi-yu, jahl bilan ariqdan sakrab o‘tib, qishloq tomonga orqasiga qaramasdan yugurib ketdi.* “Yoshlik”. *Yozuvchilik kasbi ba’zan shafqatsizlikni talab e t adi*. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Shu tufayli jumada aniq fanlar bilan shug‘ullanish unga, Shunqorbekka odat bo‘lib qolgandi. Madrasada tahsil ola boshlasa ham bu odatini tark e t madi*. S.Is’hoq, Qabrdan chiqqan qul. *Naqadar qudratli talpinishlari, Nelar bayon a y l a r bu zarblari zil...* Mirtemir, O‘ylar. *Ko‘ksindagi hayajon, Ko‘ksimda a y l a r tug‘yon, Yo‘lin burib biz tomon, Intizorim kelmasmi?* S.Ochil, Intizorim kelmasmi?

QIR, ADIR, TEPALIK, DO‘NGLIK, GAZA Atrofidagi yerlardan biroz ko‘tarilib turgan, yassi yoki sal gumbazsimon balandlik, tepalik. **Qir, adir, gaza** ham yakka, ham bir necha tepaliklarni ifodalashi mumkin, **tepalik, do‘nglik** so‘zlarida yakka tepalik ta’kidi anglashiladi. **Gaza** – shevaga xos so‘z.

Shahrimizga hali q i r dan lola kelmagan edi. Keksalar to‘qson chiqdi-yu, oppon-soppon hali turibdi. S.Ahmad, Jajji hikoyalar. *Sarvar boychechakning polvonligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish uchun q i r ga chiqib, toshlar orasidan bosh*

ko‘tarib turgan chechakning ildizini topishga urinardi. H.Musurmonova, Qir guli. *Tanish a d i r lar qor qo‘ynida jim yotar, archazor tog‘dan bug‘dek tuman oqib kelar edi.* Sh.Xolmirzayev, Sog‘inch. *Alvon-alvon gullar yog‘ar a d i r larga, Qo‘l yetmaydi sizlar yotgan qabrlarga.* M.Yusuf, Marsiya. *Sohibqiron taxminan saharga qadar xayol surib yotdi, axiyri, kipriklari yumilarkan, o‘zini bir tomoni chuqur jarlig-u bir tarafi yaydoq a d i r , xazon-u to‘zon qoplagan bepoyon bo‘zloqda ko‘rdi.* A.Dilmurod, Mezon burji. *T e p a l i k ka yetgach, tik jarlik yoqasiga kelib, pastlikda yaltirab turgan daryoga qaradi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Ko‘ramizki, qarshimizda t e p a l i k ustidagi mashina yonida qoqqan qoziqdek bir ola-bula kiyimli askar turibdi*. Sh.Xolmirzayev, Yozuvchi. *Katta bir d o‘ ng l i k ning ikki tomonida ikki suruv qo‘y yoyilib yurar, yolg‘izlikdan zerikkan cho‘ponlar d o‘ ng l i k ustiga to‘planishib, gaplashib turishar edi*. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Mana o‘sha tuyaning o‘rkachiday g‘o‘dayib turgan sho‘r bosgan d o‘ ng l i k*. O.Tillayev, Hazin. *Biror soatlardan keyin ikki akasi ham shalpayib kirib kelishdi. Bir-biriga bo‘zrayib o‘tirgan mahali otasi katta g a z a dan qo‘ylarni haydab endira boshlaganini ko‘rib qoldi*. X.Karimiy, Qonda bor. *Soydan va g a z a dan tushgan mashina yo‘llari yuvilib, buzilib ketdi.* M.Safarov, Ota yurt.

QIRG‘OQ, SOHIL, YOQA, BO‘Y, LAB, CHET, KANOR(A), ROSH

Q

Quruqlikning suv havzasi bilan tutashgan joyi. **Yoqa, bo‘y, lab, chet** so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Sohil** badiiy nutqqa xos. **Kanora** – eskirgan so‘z. **Rosh** – shevaga xos so‘z.

Qal’a etagida Kosonsoyning Sirdaryoga guvullab quyilayotgani, ikki daryo to‘lqinlari bir-birlari bilan olishib, q i r g‘ o q qa shaloplab urilayotgani uzoqdan eshitilib turadi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U q i r g‘ o q dan endi uzoqlashgan edi: to‘pponchadan qarsillab osmonga o‘q uzildi.* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Uyushmada mashinkachi bo‘lib ishlaydi. Vengriyaga – Balaton ko‘li s o h i l ida o‘tadigan yosh kinoijodkorlar anjumaniga ketayotganingda tanishgan eding.* E.A’zam, Shovqin. *Hozir dengiz s o h i l ida turganicha, beixtiyor... Bir kitobda fillarni “quruqlikda yashovchi sutemizuvchi hayvonlarning eng kattasi” deb yozishgan.* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Tanish terak. Ariq y o q a si. Bo‘tana suv, shirin loyqa suv. Tol ko‘chada otlar taqasi... Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga.* M.Yusuf, Qancha bo‘ldi. *Buning ustiga, bu ajib manzara uning miyasida xayollar uyg‘otdi: bolaligi, shu daryo y o q a sida turib, qandaydir qiz haqida surgan xayollari yodiga tushdi va chuqur xo‘rsinib, birdan xo‘mraydi.* Sh.Xolmirzayev, Farzand. *Tomdan tarasha tushganday, ko‘l b o‘y ida yelkasiga miltiq ilgan baliqbegi paydo bo‘lib qoldi.* Y.Tog‘a, Bolalik hidi. *Qo‘msayman: anhorning b o‘y ida asta Yozgi oqshomlarda siz bilan yursam.* O.Matjon, Toshkentlik shoir do‘stlarimga. *Men ko‘p tonglarni ana shunday, daryo l a b ida o‘tkazganman.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Berdiyor suv*

l a b iga cho‘nqayib, qo‘lini chaydi, belbog‘iga artib kelib, akasiga uzatdi. Sh.Xolmirzayev, Biz kech qolib yuramiz. *To‘qaydan chiqishimiz bilan bizni pishqirib oqayotgan qadimiy Jayhun va daryo ch e t ida egarlangan otday, yozig‘li dasturxon bilan mo‘jazgina soyabonli paroxod kutib turardi.* K.Avaz, To‘yxat. *Izmirg‘a yetmasdan dengiz k a n o r inda mustahkam harbiy qal’a-da bordur.* Behbudiy, Tanlangan asarlar. *Sen meni yo‘llading, Kelib men nogoh Ko‘hna Sirdaryoning k a n o r a sidan Bu kun Moskvaga tashladim nigoh.* E.Vohidov, Quyosh maskani. *Maktabga yetar-etmas ariq bor edi: Zufarov muallim o‘sha zamonlar ariqning ikki r o sh iga daraxt o‘tqazgandi: do‘lana, yong‘oq, terak... deganday qo‘lga ilinganini.* N.Rahmat, Xonayi g‘aribon. *Chavag‘on charxlangan o‘roq bilan qiyaliklarni, ariq r o sh larini, butalar orasini o‘tdan tozalaydi, u har o‘roq sirpaganida, maysalar itoatgo‘ylik bilan bosh egib kelaveradilar, o‘ti o‘rilgan yer yaltirab qolaveradi.* H.Sattoriy, Sog‘inch.

QIRG‘OVUL, TUSTOVUQ, YOZTOVUQ, SULGUN, DURROJ, TAZARV Tovuqlar zotiga mansub, patlari chiroyli, asosan, to‘qayzorlarda yashaydigan, ovlanadigan qush. **Tustovuq** oddiy so‘zlashuvda ham, kitobiy uslubda ham qo‘llanadi. **Yoztovuq** – shevaga xos so‘z. **Sulgun** – shevaga xos so‘z, folklor asarlarida ham faol qo‘llanadi. **Durroj**, **tazarv** – eskirgan so‘zlar.

Ammo bugun ham Olim kitob va jurnallarni oldilar-da, osh, q i r g‘ o v u l, patir va boshqa mayda-chuyda yeguliklarni qaytarib berdilar. Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Otamlar tog‘dan q i r g‘ o v u l, kaklik otib kelar ekanlar.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Qutbiddinovga ovchi oshnasi ikkita t u s t o v u q in’om qildi. T u s t o v u q lar tozalanib, tuzlanayotganda Qutbiddinovning fe’li aynidi, ya’ni bironta shinavanda ulfat bilan birpas dilkashlik qilg‘usi keldi.* A.Qahhor, O‘jar. *Shofyorning nazarida hozir bir o‘rdak yo bir t u s t o v u q uchib chiqadigandek bo‘ldi.* Sh.Xolmirzayev, Farzand. *Zarafshonning chimtol yoqalarida Chirqillar y o z t o v u q polaponlari.* O.Hojiyeva, O‘zbekning yozi. *Y o z t o v u q yovshanzor – Vatanim, deydi.* O.Hojiyeva. *Qizlarining yuzi gulgun, Tog‘larida yurar s u l g u n, Yetib borsang agar bir kun, Bog‘ida gullari bordir.* “Gulruh pari”. *Erhasan kunlardan bir kun... otini, tozisi, qushi, yoyi, asbob-anjomlarini shaylab to‘rt-besh yigit bilan jo‘nab ketdi. Cho‘l-u sahrog‘a chiqib, kiyik, quyon, s u l g u n, qo‘ton ovlab yurdilar.* “Oshiqnoma”. *Chug‘zdin ram aylasa ne ayb d u r r o j-u tazarv Xossa bo‘lsa mastligdin o‘zgacha olamlari*. Navoiy, Hikmatlar. *Tovusning go‘shti xoli az maza emas, d u r r o j go‘shtiga o‘xshar, vale teva etidek karohati tab’ bila yeyiladur*. Bobur, Boburnoma. *Durroj-u t a z a r v-u kabk-u ham qoz, Ko‘b necha desam hanuz erur oz*. Ogahiy. *To‘qayda ov. Tovuq, kabk-u hular ham g‘oz, o‘rdak, T a z a r v-u turna, laylak birla churrak*. Furqat.

QIRCHANG‘I, CHO‘BIR, YOBI, OLACHA Xashaki, zotdor bo‘lmagan ot. **Qirchang‘i** – qo‘tir va oriq ot. **Yobi** – zoti past ot. **Olacha** – past bo‘yli ot.

Qirchang‘i, cho‘bir birliklari **yobi**ga nisbatan faol qo‘llanadi. **Olacha** – eskirgan so‘z.

Ko‘zga g‘ubor chekmasa shiprindi – qo‘qim, O‘zin tulpor bilmasa q i r - c h a n g‘ i – so‘qim. Baxmaldan bichishmasa eshakka to‘qim, Qaniydi... Mirtemir, Dunyo bir soz qo‘shiqdan zavq ololsaydi. *Tuzukroq boquv ko‘rmagan q i r ch a n g‘ i tezroq yugurish o‘rniga inqillab, sekinlay boshladi.* A.Asil, Sirtlon. *Bir gal qahraton qishda Garashaga to‘yga ketyapmiz, mening ostimda ch o‘ b i r, uning ostida bo‘z, gapdan gap chiqib uni maqtab yubora qolibman, sovuqqa o‘lguday chidamli deb, bu go‘rso‘xta o‘zidan ketib po‘stin bilan telpakni yechib tagiga, egarga to‘shab oldi deng.* S.O‘nar, Bir o‘larman chavandoz. *Ch o‘ b i r, baribir, ch o‘ b i r ligiga bordi. Unga Kuntuv degan qozoq polvoni yetib oldida uloqqa tarmashdi.* R.Yunusov, Chavandoz. *Ilgari qo‘raga kirganda surdov qoq yorilib ketardi, tagidagi tulpor otmi, y o b i mi farqi yo‘q.* H.Alp, Qo‘nalg‘a. *Kesgir isfihonni olib dastiga, qarab bo‘lmas chin botirning bastiga, y o b i dema, shu ot tulpor ekandi, shu o‘tirgan Hasan shunqor ekandi.* “Ravshan”. *O l a ch a ni otga sanama, yaxshini yotga sanama.* Maqol.

QISIQ, QIYIQ Qisilgan (ko‘z haqida). **Qisiq, qiyiq** ko‘zlarning tug‘ma qisilgan shaklini ifodalaydi. **Qiyiq** so‘zi turli nutqiy uslublarda qo‘llanadi, ijobiy bo‘yoqdorlikka ega.

Q

Chol choyni qaytararkan yana q i s i q ko‘zlarini ayyorona qisib Azizxonga qaradi. S.Ahmad, Ufq. *Biri tund, birovin nazari issiq, Biri menga o‘xshar – ko‘zlari q i s i q.* A.Oripov, Xalqaro anjuman. *Uyg‘onganiga ancha bo‘lgan bo‘lsa kerak, q i y i q ko‘zlari tetik, suyagi yo‘g‘on yuziga qizillik yugurgan edi*. O‘.Umarbekov, Yo‘lda. *Bu mag‘lubiyatdan xabar topgan Uloq no‘yon qilich o‘ynatib, q i y i q ko‘zlarini shaharga tikib baqirar, sirtlonga o‘xshab, tishlarini ko‘rsatib irillardi*. Mirmuhsin, Temur Malik.

QIYIN, MUSHKUL, MAHOL, OG‘IR, MASHAQQATLI, SERMASHAQQAT, AMRIMAHOL, DUSHVOR Qiyinchilik bilan amalga oshadigan, osonning aksi. **Mushkul, mahol, dushvor** badiiy nutqqa xos. **Mashaqqatli, sermashaqqat** so‘zlarida qiyinlik darajasi **qiyin**, **og‘ir** so‘zlariga qaraganda yuqori. **Amrimahol** so‘zida qiyinchilikdan tashqari, harakatning bajarilishiga gumon, shubha bilan qarash ta’kidi ham bor. **Dushvor** so‘zi eskirgan.

Kobulning yengil va quruq tog‘ havosiga o‘rgangan Mohim begim Jamna bo‘yidagi issiq kunlarda sernam dim havodan nafas olish qanchalik q i y i n bo‘lishini avval ham eshitgan... edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O‘sha gap, Toshkentda chaynalgan o‘sha tashxis: koxlear nevriti, ya’ni ichkari quloqdagi tovush qabul qilish paychalari karaxtlangan, qurib-qovjiray boshlagan, ularni jonlantirish esa q i y i n, juda q i y i n, deyarli imkonsiz...* E.A’zam, Shovqin. *Bobur: – Shu m u sh k u l damlarda bir-birimizni tark etmaylik. Men bilan birga yuring.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U kechalari turli rejalar chizib chiqar, tong otishi*

bilan bu rejalarning hammasi bema'ni ekanini, raqibining ostonasiga bosh egib borishi m u sh k u l ekanini bilar... edi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Yigirmanchi asr talabiga javob beradigan mukammal maktablarni bu usulda tashkil qilish m a h o l, – dedi Abdishukur.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ha, sarkardaning onaxoni uyiga burilishiga ehtiyoj yo'q (bo'lsa ham shu mahalda borishi m a h o l)...* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *O g' i r janglarda jasurlik ko'rsatgan Temur Malik Xo'jandni mo'g'ullarga shundoq tashlab ketishi mumkin emas edi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Do'stining eng o g' i r, vijdon azobi qovurib tashlagan paytlarda hamdam bo'lolgan, ko'nglini ko'tarib, qalbidan dardni quvlayotgan odam hozir uni yupatishga biron og'iz bo'lsin so'z topolmasdi.* S.Ahmad, Ufq. *Hirotga bir marta borib kelgan mavlono Fazliddin notinch o'lkalardan oylar davomida yurib o'tiladigan behad m a sh a q q a t l i yo'llarni ko'z oldiga keltirdi-yu, yuragini g'am bosdi.* P.Qodirov, Tanlangan asarlar. *Mashaqqatli mehnatda ezilgan, mutelikdan bezillagan jonivor shataloq otib, boshi og'gan yoqqa ketadi, balki, o'z qavmlarini topib, ularga qo'shilib olar, deb o'ylashdi.* Q.Kenja, Ko'ktoy. *Mazkur chiziq – yo'llar s e r m a sh a q q a t taqdirdan so'ylab tursa, el-yurt tarixidan so'ylab tursa.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Endi ...mutlaq hokim davlatni idora qilishdek s e r m a sh a q q a t ishni qanday uddalar ekan, deb qiziqsinishimiz turgan gap.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Ko'prikning o'rtasida boyagi yigitlar mixlarni sug'urib, to'sinlarini arralab ketgan joy bunchalik og'ir yukka bardosh berishi a m r i m a h o l edi.* P.Qodirov, Tanlangan asarlar. *Bas, Mohlar oyim o'z tirikligida maxdumning "boshini ikki" qilmasa, o'zidan so'ng uning uylana olishi a m r i m a h o l.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Azaldan bunaqa rasmiyatlarga tob-toqati yo'q, asovroq Farhod hech qachon yodgorlik sirtidagi yozuvlarga diqqat bilan qaramagan, shuning uchun hozir bir nima demog'i d u sh v o r edi.* E.A'zam, Shovqin. *Ko'kdan oftob to'kilsa-da, quritmoq d u sh v o r yog'du savatlarida.* O.Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli.

QIYINLASHMOQ, OG'IRLASHMOQ, MUSHKULLASHMOQ Biron-bir xatti-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligida mushkulot, murakkablik yuzaga kelmoq. **Og'irlashmoq** so'zida murakkablik ta'kidi ochiq namoyon bo'ladi, so'zlashuv uslubida faolroq qo'llanadi. **Mushkullashmoq** kam qo'llanadi, ko'proq badiiy nutqda uchraydi.

Bu holda sira yurmagani uchun xuddi o'g'li sudrayotganday tuyulib, qadam olishi q i y i n l a sh di. T.Malik, Shaytanat. *Bu maqtovlar menga ham xush yoqar edi-yu, lekin yengchani bir paykaldan ikkinchisiga ko'tarib o'tkazish kun sayin q i y i n l a sh ib borar edi.* P.Qodirov, Meros. *Boylarning chaqig'i bilan Yo'lchining ishi o g' i r l a sh di, dedi Shokir ota.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Otlar kutilmaganda uvatda tomoshabinlar qarshisida to'xtadi. Sharoit o g' i r l a sh di.* O'.Hakimali, Poklikdan keyingi umr. *Namozshom palla, ovulga yaqinlashgan*

sayin haydovchi ko‘ksini alamli armonmi, iztirobli qo‘msashgami o‘xshash nedir og‘uli tuyg‘u kuydirib-yondirib o‘rtayotganini kuchliroq his qilaverdi… Bunga toqat qilish tobora m u sh k u l l a sh ib borardi… A.Yo‘ldosh, Qotil. *Shu janjaldan so‘ng uydagi ahvol m u sh k u l l a sh di. Rahimaxon qovoq solib yuradigan odat chiqardi*. J.Ergasheva, Hur qiz.

QIYINCHILIK, OG‘IRCHILIK, QATTIQCHILIK, RIYOZAT, MASHAQQAT, ZAHMAT Qiynoq, azob keltiradigan holat. **Og‘irchilik, qattiqchilik** kam qo‘llanadi va, asosan, moddiy qiyinchilikni ifodalaydi. **Riyozat** – eskirgan so‘z. **Mashaqqat**, **zahmat** badiiy nutqda faol qo‘llanadi. **Mashaqqat, og‘irchilik, qattiqchilik**da belgi darajasi **qiyinchilik**ka qaraganda yuqori, **riyozat, zahmat**da qiyinchilik darajasi **qattiqchilik**ka nisbatan ham yuqori. **Riyozat**ning ma’no ifodasi **mashaqqat** so‘zidagi ifodaga yaqin.

Hali oq-qorani durustgina tanimagan yigitcha bu q i y i n ch i l i k lar, vijdon iztiroblari oldida savdoyidek kalovlab, taqdirning ayovsiz o‘yinidan garang bo‘lib qolardi. S.Ahmad, Ufq. *Kampir… hayotida nima kamlik, qanday q i y i n ch i l i k tortgan bo‘lsa hammasini ilmsizlikdan ko‘rgan… edi*. A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Sharofatxonning otasi Samandar aka ilgaridan ot chiqarg‘on bir savdogar edi. Shuncha o g‘ i r ch i l i k yillarda, qiymat, kasod vaqtlarida ishini taraqlatib kelib, oxiri o‘zg‘in yili erta bahorda sing‘on.* Cho‘lpon, Qor qo‘ynida lola. *Hech kim yo‘q. Qo‘shnilardan so‘rasam, seni o‘ldi deb eshitdik, o g‘ i r ch i l i k xotiningni ezib qo‘ydi*. N.Eshonqul, Urush odamlari. *Asadbek… o‘zicha bir haqiqatni kashf etdi: har qancha qiyinchilikka duch kelsa, bayon etarga bir mehribon do‘st, boshiga har qanday q a t t i q ch i l i k yetsa, izhor qilarga sirdosh o‘rtoqlar zarur ekan.* T.Malik, Shaytanat. *1943-yilning yoz oylari edi. Urush, q a t t i q ch i l i k hammani qiynab tashlagan.* T.To‘la, Obidcha maxsum yoki Muqimiy portreti. *Niyoz bilan noz orasinda yuz ming r i y o z a t pardasi tutilmishdur... Bas, shayx birlan murid maqomlarini anglagan bo‘lsangiz kerak, a, bo‘tam?* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Bu kishi qirq yoshlar chamaliq, qonsiz yuzlik, siyrakkina soqollik, qo‘yko‘z, ko‘b vaqt madrasa r i y o z a t ini chekkannamo, qotma, uzun bo‘ylik bir odam edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu yo‘l m a sh a q q a t lari Mahmud yalovoch ko‘z oldidan bir lahzada o‘tdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Xalqning m a sh a q q a t dan qovjiragan, toliqqan siynasiga teggan umidbaxsh “hurriyat” so‘zining muqaddasligini tushunaman.* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Biz shu davrda yosh edik, shu sababdan bu qadar ortiqcha z a h m a t larni ko‘targanmiz, ularga dosh berganmiz*. Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *O‘g‘illari birinchi zotlarini keltirib tashlaganda, u shuncha chekkan z a h m a t lari bekorga ketmaganini anglab, eri o‘lgandan beri birinchi marta to‘yib-to‘yib yig‘ladi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi.

QIYNAMOQ, AZOBLAMOQ, AZOB BERMOQ, JABRLAMOQ, JABR QILMOQ Boshqaga azob bermoq, qiyinchiliklarga duchor qilmoq.

Azoblamoq, azob bermoq, jabrlamoq, jabr qilmoq so‘zlarida qiynoqqa solish darajasi **qiynamoq**qa qaraganda kuchli. **Jabrlamoq** nutqda kam qo‘llanadi.

Eri bilan buvasining tashvishlari yetmagandek, Lochin ham Marjonoyni ko‘p qiynadi. O.Yoqubov, Adolat manzil. *Shugina gap uchun sho‘ro qonun posbonlarini bir yildan ziyod q i y n a ding-a!* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Muqaddam mana shu dahshatli sukunatning tezroq tamom bo‘lishini kutar... hozir portlash ro‘y berishini bilib, a z o b l a nardi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Shu paytgacha hafsala qilib shuni artib qo‘ymaganini esladi, “qix-qix” xurrak otayotgan eriga tikildi. Vijdoni a z o b l a ndi, shekilli, yuragi battar siqilib, kasal paytidagidek chakka tomirlari lo‘qillab og‘riy boshladi*. O‘.Usmonov, Girdob. *A z o b b e r sin senga ilhom, She’r dardida bemor bo‘l*. E.Vohidov, Nihoyat. *Yoshlikdagi bir dard menga umr bo‘yi a z o b b e r ib yurganidan Humoyun hazratlari xabardor edilar*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *U shoh tarafdorlari bo‘lgan Xorazm aslzodalarini qattiq j a b r l a gan, ularning mol-mulkini, chorvasini, qizlarini, singillarini va xotinlarini tortib olgan*. I.Jabborov, Buyuk Xorazmshohlar davlati. *Inson qonundan himoya kutadi, ammo, aslida, aynan ana shu qonunning o‘zi odamni eng ko‘p darajada j a b r l a ydi*. Q.Yo‘ldoshev, Yoniq so‘z. *Murodxondir pastga ketib boradi. Yolg‘izdir, joniga j a b r q i l adi*. “Murodxon”. *Umida eriga j a b r q i l sa, o‘sha bolaning ham ko‘ngli o‘ksiydimi axir?* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar.

Q

QIYOMAT, OXIRAT, MAHSHAR Diniy e’tiqodlarga ko‘ra, bu dunyo tugaydigan, o‘lganlar tiriladigan, so‘roqqa tutiladigan kun. **Qiyomat, oxirat** barcha uslublarda faol. **Mahshar** badiiy uslubga xos. **Oxirat** va **mahshar**da savol-javob kuni ta’kidi anglashiladi.

Q i y o m a t da qorayar quyosh, Osmon qora dudga to‘ladi. Munofiqlar mushukday yuvosh, Fohishalar otin bo‘ladi. M.Yusuf, Qiyomat. *Lekin bugungi ish – ko‘z oldida Zeboni mo‘g‘ullar sudrab olib ketishi q i y o m a t gacha unutib bo‘lmaydigan sharmandalik bo‘ldi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Tangri bilib Yaratgan ko‘r, Davo qilding ne uchun? O x i r a t men – manglayi sho‘r – Nima deyman So‘roq kun?* E.Vohidov, Jaholat to‘g‘risida rivoyat. *Eng katta bobo xon zamonlarida shaharda jarchi-so‘pilik qilgan ekan. Umri Qo‘qon ahlini machitga, namozga, o x i r a t azoblaridan qutulishga chaqirish bilan o‘tgan, deyishadi.* N.M.Raufxon, Qiyomat. *Har bir muslim biladiki, m a h sh a r, ya’ni qiyomat kuni barcha o‘liklar tiriladi.* N.Arslon, Oy jodusi. *Voy, kunim, m a h sh a r ga to‘qingan kunim, so‘nggi ko‘zlarimdan eriganda yosh, Bilolni chaqirdim, ey, buyuk qulim, manov xoqonlarning quloqlarin och.* Sh.Rahmon, Gul yig‘isi.

QIYOSIY, CHOG‘ISHTIRMA, TAQQOSLAMA, SOLISHTIRMA O‘zaro taqqoslashga, qiyoslashga asoslangan. **Taqqoslama, solishtirma**, asosan, aniq fanlarda qo‘llanadi. **Qiyosiy, chog‘ishtirma** ijtimoiy-gumanitar so-

hada ko‘proq qo‘llanadi, **qiyosiy**da ikki narsa taqqoslab ko‘rish, **chog‘ishtirma**-da uch va undan ortiq narsa-hodisani solishtirib ko‘rish ko‘proq anglanadi. Tilshunoslikda **chog‘ishtirma** turli oilalarga kiradigan tillarni, **qiyosiy** bitta oilaga kiradigan tillarni qiyoslash uchun qo‘llanadi.

Hind-Yevropa tillarining dastlabki q i y o s i y grammatikalari nemis olimlari F.Bopp va A.Shleyxerlar tomonidan yozilgan. “O‘zME”. *Bu o‘rinda q i y o s i y yondashuv asosan ikkinchi guruhdagi muammolarni o‘rganishga qo‘l kelishini e’tirof etish lozim*. “Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish”. *Ch o g‘ i sh t i r m a tilshunoslik 17–18-asrlarda Yevropadagi va dunyoning boshqa mintaqalaridagi turli-tuman qarindosh tillar bo‘yicha tadqiqot materiallarining to‘plana borishi bilan yanada rivojlanadi va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi.* “O‘zME”. *Xuddi shu shaklda adabiyot tarixchisi Jola Parla ham “Don Kixotdan to hozirgi kungacha bo‘lgan roman” nomli keng miqyosli asarida “Mening otim qirmizi”dan boshlab, O‘rxon Pamuqning romanchiligini c h o g‘i sh t i r m a adabiy guldasta ichida tadqiq etadi*. M.A’zam, Nobel mukofoti sovrindorlari: Orxan Pamuk. *Masalan, qalampirning achchiq ekanini bildirib qo‘yish uchun uning ta’mini totish shart emas. Aslida, bolaga qalampirning achchiqligini shakarning shirin ta’mi bilan ham anglatish mumkin. Mana shunday t a q q o s l a m a tasvirlar orqali bolani dastavval halollik, halol rizqqa o‘rgatish zarur.* A.Jumamurodov, Har bir fuqaroning muhim vazifasi yoxud bolalar korrupsiyaga qarshi qanday tarbiyalanadi? *Hamma o‘qiganning zanjiri olib tashlansa, zanjirsizlarning s o l i sh t i r m a miqdori oshib ketadi, keyin hamdardlik kuchayib, eshkilga qarash o‘zgaradi.* A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *Muayyan jism s o l i sh t i r m a og‘irligining qiymati o‘lchov o‘tkazilayotgan joyning geografik kengligiga va Yer sirtidan balandligiga bog‘liq*. “O‘zME”.

QIYQIM, QIYQINDI, LAXTAK Gazmolning bichiqdan yoki savdodan ortgan bo‘lagi. **Laxtak** matoning hajman kattaroq parchasini ifodalaydi, **qiyqim, qiyqindi** juda kichik, yaroqsiz mato parchalarini ham ifodalashi mumkin. Har uchala so‘z oddiy so‘zlashuvda ham faol qo‘llanadi.

– Shukr, shukr, mingdan ming shukr, gap kelganda aytdim-da. Qizlaring anuv yangi karavotimizga joy qila qolishsin, – deb yura boshlagan joyida ayoli shoshqich o‘rnidan turib, etaklariga ilashgan q i y q i m larni qoqishga tutingan ko‘yi uni to‘xtatdi. M.Mansur, Judolik diyori. *Onam haligi laxtaklarni shartta qo‘limizdan yulib olardi: “Kishining haqi – Tangrining o‘ti. Qiyomatda men buning javobini berishim kerak. Agar egasiga qaytarmasam, bu q i y q i m lar u dunyoda ilonga aylanib meni quvib yurarkan”.* J.Ergasheva, G‘animatim onam. *Mening uyimda har xil q i y q i n d i lar bor, o‘shani olib kelaman-da, kostyumchalar tikamiz*. N.Nazarov, Zamon. *Yonida turgan oq xalatdagi har xil q i y q i n d i lar orasidan ro‘molchadek laxtakni olib, qiziga berdi.* R.Fayziy,

Q

Sen yetim emassan. *Bu l a x t a k larni katta chitfurush gazlamachilar arzonroq baho bilan ko‘tarmachilarga sotadilar.* G‘.G‘ulom, Shum bola. *...qariyb ellik yildan beri yolg‘izlikdan zerikkan daraxt esa uni qo‘yib yubormaslik uchun juldur kiyimlaridan bir parcha yulib qolganini ham, keyin asov shamolda xuddi g‘oliblik tug‘iday l a x t a k ni hilpiratib turganini ham sezmay, Uljon sari otilardi.* N.Eshonqul, Qultoy.

QIYG‘OS, SHIG‘IL, SHIG‘A, TEKIS Bir vaqtning o‘zida, juda ko‘p bo‘lib. **Qiyg‘os, shig‘il, shig‘a** faqat o‘simliklarga nisbatan qo‘llanadi. **Tekis** boshqa predmetlarning ko‘p va bir-biriga yaqin paydo bo‘lishiga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin.

Sap-sariq qoqilar, ko‘k-qizg‘ish no‘xataklar, nofarmon erbaholar orasida uzoqdan qip-qizil gilamga o‘xshab ko‘zga tashlanadigan – q i y g‘ o s ochilgan lolaqizg‘aldoqlar edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O‘lik yerda chigit q i y g‘ o s unmaydi*. T.Murod, Tanlangan asarlar. *Rayondagi kolxozlarning bog‘ida hozir sh i g‘ i l meva berib turgan o‘riklar shu domlaning ko‘chatidan bo‘ladi*. S.Ahmad, O‘rik domla. *Bolazor, mevazor, tolzor ko‘chalar, shoxlar yerga tegar sh i g‘ i l hosildan.* Sh.Rahmon, Aravon ko‘rinishlari. *Hamma joyda sh i g‘ a hosil, uni o‘z kuchimiz bilan terib olish amrimahol.* M.Jo‘ra, Quyoshdan nur emganlar. *Daraxtlarga chirmashib o‘sgan toklar, xilma-xil mevalar kesilmas, ko‘milmas, shunday bo‘lsa-da, har yili sh i g‘ a-sh i g‘ a hosil beraverardi.* A.Asil, Muvozanat. *Bahor – barchaga baravar! Shohona saroylar oldidagi gulzor nima, go‘ristonda ma’yus do‘ppaygan qabrlar nima – tanlab o‘tirmaydi. Hammasini bir t e k i s maysalarga burkaydi*. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Quva atrofidagi cho‘lga tutash qishloqlar urushdan avvalroq obod bo‘la boshlagan, bir t e k i s yangi imoratlar tusha boshlagan edi.* S.Ahmad, Ufq.

QIYSHAYMOQ, EGRILASHMOQ, EGRI BO‘LMOQ, MAYISHMOQ, KAJ BO‘LMOQ, QINQAYMOQ Tik holatdan yotiq holatga o‘tmoq, biror tomonga og‘moq, asl holati, yo‘nalishini yo‘qotmoq. **Kaj bo‘lmoq** kam qo‘llanadi. **Qinqaymoq** shevaga xos so‘z bo‘lib, unda salbiy bo‘yoqdorlik ham mavjud. **Mayishmoq** so‘zida deformatsiya darajasi **qiyshaymoq**qa nisbatan kamroq, asosan, oyoqning shunday holatini bildiradi. Oyoq kiyimga nisbatan qo‘llanganda, uning ezilib, bir yonga qiyshayganligini bildiradi.

Yuki og‘irligidan xotin bir tarafga q i y sh a y ib, qiynalib borardi. S.Ahmad, Ufq. *Ahmad brigadir hali hech narsadan xabari yo‘q, qo‘lida to‘rxalta, pidjagi yelkaga, do‘ppisi chapga biroz q i y sh a y gan holda tuya yurish qilib kelardi.* T.Malik, Kurort. *Eshmat. – Velosipedni to‘g‘ri borib so‘kichakni ustuniga suyab qo‘ydi. Ammo yaxshi o‘rnashmagan ekanmi, sidirilib ustunga tiralib qoldi, qanoti q i y sh a y di.* M.Ziyo, G‘ashlik. *Bolada oldiniga ko‘p terlash, injiq, uyqusi buzilishi kuzatiladi, so‘ngra suyaklari yumshab qolishi natijasida ular e g r i l a sh ib, shakli buziladi...* “Odam fiziologiyasi”. *Shunda podsho: – Sen*

duradgor bo‘lsang, anavi uyning to‘rtta vassasi e g r i b o‘ l ib qolgan, shu vassalarini olib tashla, o‘rniga to‘g‘ri vassa qo‘y, – debdi. “O‘zbek xalq ertaklari”. *Bechora eshak zarbdan chapga m a y i sh di, “tap-tap” yurgan ko‘yi yo‘l chetidagi loyxandaqqa yaqinlashdi.* M.M.Do‘st, Darvoza yonidagi it. *O‘tkir Sayfiddinning qo‘llariga yopishdi, lekin olib tashlashga quvvati yetmadi. Ko‘zlari olayib, g‘uldiradi, asta-sekin oyoqlari m a y i sh di, tanasi qiyshaydi.* O‘.Hakimali, Vahshiy olomon. *“Chena” jarlikka qarab ag‘anagan, vater k a j b o‘ l ib ketgan, simlarni tirs-tirs uzib, jarning qizil tuprog‘ini o‘pirib pastga yumalamoqda edi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Ernazar bobom enkayadi, Kallasi q i n q a y adi, Tevaragi to‘p-to‘p, O‘rtasi qip-qizil.* “O‘zbek xalq topishmoqlari”. *Rahmatlik enam aytardilar, o‘zingda turibdi bir ayb, kishiga kulmagin q i n q a y ib.* M.Zohidova, Boychechak.

QIYSHIQ, EGRI, QING‘IR, KAJ, QAYQI Yo‘nalishi, holati to‘g‘ri emas, biror tomonga og‘gan; qiyshaygan. **Kaj, qayqi** – shevaga xos so‘zlar. **Qing‘ir**, asosan, **qing‘ir-qiyshiq** juft so‘zi tarkibida ham uchraydi va belgini kuchli ifodalaydi, yakka holda kam ishlatiladi, shunda ham u ifodalagan belgi **qiyshiq** so‘zidagi holatdan ortiqroq.

– Sen? – uning kaltarib qolgan choponi, kir sallasi va oyog‘idagi poshnasi q i y sh i q kavushiga boqdi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Men biron qog‘ozga o‘qimasdan qo‘l qo‘ysam, sen biron ko‘ylakning yoqasini q i y sh i q qadab qo‘ysang, ishga sovuqqonlik bilan qaraganimiz uchun javobgar bo‘lamiz, nima uchun bola tarbiyasiga sovuqqonlik bilan qaragan o‘qituvchiga qonun yo‘q, qani, chaqir bu yoqqa Hamdamni!* A.Qahhor, Ayb kimda? *Qizilbosh navkar e g r i qilichini qinidan sug‘urib, kesak otgan odamni ko‘zlari bilan qidirdi, ammo topolmadi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ot o‘zi yurmish e g r i so‘qmoqdan yuraman, dedi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Fuqaro uylari cho‘zilgan q i n g‘ i r ko‘chaning boshida arava sig‘adigan katta, bo‘yoqli darvozaga kirishdi.* Oybek, Navoiy. *Shom azoni… muazzinning yosunsiz, Kuchsiz tovushi titrabgina cho‘zilg‘an… Yomg‘ir picha yog‘ib o‘tkan, buzilg‘an – Q i n g‘ i r ko‘cha chetidagi uzun iz…* Cho‘lpon, Kechkirish. *Charx azal k a j aylanur, garchandki dardi bedavo, Rost kelturmak qasdida o‘zimni Farhod ayladim*. B.Boyqobilov. *Qultoy Alpomishni ko‘rib, ko‘nglini xushlab, yilqi boqadigan q a y q i tayog‘ini ushlab... bir so‘z aytib turgan ekan.* “Alpomish”. *Unga anqayib yo‘lka chetidagi temir beton to‘siqqa qoqildim. Chiqib qolgan q a y q i simi oyog‘imga juda yomon urildi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

QIZ, QIZALOQ, OJIZA, HOLVA, TO‘NBICHAR Ayol jinsiga mansub farzand (ota-onaga nisbatan). **Qizaloq** – **qiz** so‘zining kichraytirish-erkalash shakli, yoshi katta qizga qarata kinoyaviy qo‘llanadi. **Ojiza** mazkur ma’noda eskirgan. **Holva** chaqaloqning jinsini bilish uchun “o‘g‘ilmi, holvami?” so‘rog‘i

tarkibidagina uchraydi. **To‘nbichar** – shevaga xos so‘z, qiz chaqaloqni ifodalaydi.

Qo‘rqaman, ertaga men o‘lib ketsam, Yotar bo‘lsam qumga botib ko‘zlarim, Ko‘nglimni ko‘chkiday bosadi bir g‘am – Yig‘lashni ham bilmas mening q i z larim... M.Yusuf, Xavotir. *Tashvishlardan kunda bir jang bo‘lsayam, siqilma, O‘g‘ling yeb, o‘rga ketar, q i z ing yeb, qirga.* M.Karimova, Kattalarga nasihat. *Biriga sut tutar, u biriga suv, O‘zgasi qo‘liga shirin kulchalar. Bunisi yopiray, go‘daklikdan quv, Arzanda q i z a l o q va o‘g‘ilchalar.* Mirtemir, Acha. *Tetapoya yurgan chog‘laringda ham Mehr to‘la ko‘zim tikib bo‘yingga, Dedim, yuragimda qolmas edi g‘am Q i z a l o g‘ im, yetsam baxtli to‘yingga.* E.Vohidov, Saylanma. *U yoqdan sodda va biroz dag‘al, lekin quvnoq bir erkak ovozi keldi: – Ha, Razzoq so‘fining o j i z a larimisiz? Qalaysizlar, omon-eson bormisizlar?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ayniqsa, maxdumning hech bir muqaddimasiz “O j i z a miz bilan mirzo Anvarning to‘ylarini qilmoq niyatimiz bor edi. Shu to‘g‘rida janobingiz mirzo Anvardan to‘yg‘a urunishimiz uchun bir kalima javob olib bersangiz” deb, to‘g‘ridan to‘g‘ri faqat to‘y vaqtini belgilashni so‘rashi Sultonali mirzoga yana boshqa sirlarni onglatqan edi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Hasanali ham iljayib, yonchiq kovlashga tutindi va: – O‘g‘ilmi, h o l v a? – deb so‘radi xotinidan. – O‘g‘il*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Omontoy ikkilanib kassaga bordi. Shu payt Qo‘ziboy kelib qoldi. – O‘g‘ilmi, h o l v a? – dedi iljayib. – Holva, holva! – dedi Omontoy ham iljayib.* S.Ahmad, Bo‘ston. *Birdan xayoliga jo‘rasi qizchalik bo‘lgani kelib, cho‘ntak kovladi va “t o‘ n b i ch a r qutlug‘ bo‘lsin, umri uzun bo‘lsin!” dedi*. S.O‘nar, Vijdon. *...Sa’dulla aka “Odamlar-o, odamlar, eshitmadim demanglar. Uyushmamiz qiz nabiralik bo‘ldi. Xolmurodning uyiga t o‘ n b i ch a r keldi. Muborak bo‘lsin. Hamma yalpi qulluq bo‘lsinga safarbar etilsin!” deb yozibdi.* X.Salimov, Mehribon murabbiy edi.

QIZIL, QIRMIZI, OL, ALVON, GULGUN, LOLARANG, LOLAGUN, QONTALASH, AHMAR, QO‘CHQIL Qon rangidagi, qon tusidagi. **Qizil, qirmizi** so‘zlashuv tilida ham, adabiy tilda ham faol qo‘llanadi. **Ol, alvon** och qizil rangni ifodalaydi. **Gulgun** poetik nutqqa xos, yuz, yonoq, may qizilligini ifodalash uchun qo‘llanadi. **Lolarang, lolagun, qontalash** bu ma’noda, asosan, she’riy matnlarda qo‘llanadi, qizil rangni poetik bo‘yoqdor shaklda ifodalaydi, kitobiy uslubga xoslangan. **Ahmar** eskirgan so‘z bo‘lib, mumtoz adabiyotda uchraydi. **Qo‘chqil** xalq dostonlari tilida uchraydi.

Yurtning obodlig‘i gunohsiz qipchoqning q i z i l qonig‘a qolg‘an bo‘lsa, mayli, o‘ldirsinlar! A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mehriniso bugun odatdagidan barvaqtroq turdi, qichiq atlasdan tikilgan ko‘ylagi va parcha-parcha q i z i l gul solingan paxmoq koftasini kiydi, sochlarini chiroyli turmakladi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Bildim – ayolimiz q i r m i z i olma, dedi. Bildim – ayolimiz q i r m i z i olmaga yerik bo‘ldi!* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

Bo‘sag‘ada meni sarvqomat, ko‘zlari ohunikini eslatadigan jonon qiz q i r m i z i dudoqlarida nimtabassum ila kutib oldi. U.Hamdam, Bir piyola suv. *Degaylarki, charos-u O l gilos olmish labingdan rang.* E.Vohidov. *Sochi qumrol, dudog‘i lola, yuzlari oq, yonoqlari o l, o‘ynab harir etaklarini, quchoqlardi bolakay shamol.* Sh.Rahmon, Manzara. *Shahidlarning qirmiz qonidan A l v o n bo‘ldi qora tunlaring. Qonga to‘lgan kafanim manim, O‘zbekiston – Vatanim manim.* A.Oripov, O‘zbekiston. *Yurak qoning to‘kilgan so‘qmoq Bag‘ri a l v o n lolaqizg‘aldoq, Senga toshlar otdi qay gumroh, Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?* M.Yusuf, Jayron. *To bor ekan bu olam, Biz bor ekan dahr aro Yangi yil bor, may g u l g u n, Sukunat begonadir.* E.Vohidov, Yangi yil orzulari. *Yulduzlar charaqlab, boshlanganda tun, Garmonga jo‘r bo‘lib sekin jirlaysan, Xayolingda kezar yuzlari g u l g u n.* S.Zunnunova, Garmonchi. *Go‘yo dunyo faqat biz uchun yaratilgandek, undagi hamma narsa, ...kumush daryolar, jilg‘alar, lolarang chamandek yastanib yotgan bog‘lar ham biz uchun, yolg‘iz biz uchun barpo etilgandek edi*. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim... *Qop-qora jingalak sochli, qalin qoshlari tutash, l o l a r a ng yuzidagi sepkillari o‘ziga yarashgan, ...shu qiz mening ham ko‘zimga olovdek ko‘rinib, ichkilik ta’sirida unga bir-ikki og‘iz “olifta” gap otgan ekanman, chog‘i...* E.A’zam, Shovqin. *O‘zga hayot, balki, sokin tun Qamishlarning shovullashidir. Tongotarda, balki, l o l a g u n Shafaqlarning lovullashidir.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Meni yana xayol tortdi: Sabr qilib butun tun, Tongda ochsam qo‘llarimni, Kaftim bo‘lar l o l a g u n.* M.Karimova, Xina. *Boqib lablaringga, o‘zi ham dog‘da, Q o n t a l a sh bir rangni bera qoldi u. Rosa pardoz qildi tabiat to‘lib, To oydin ranglari tortguncha xira.* A.Oripov, Ranglar. *Belgrad ko‘kida bulut q o n t a l a sh, Bir kuchli shamolga muhtoj ko‘rindi!* Shuhrat, Vatanga qaytish. *Yo‘lung muhlik toshi yoquti a h m a r, Eshiging tiyra gardi mushki soro*. Navoiy. *Musaffo ko‘ying ichra jilva qilg‘och chehrayi oling Eram bog‘ida ochilg‘on guli a h m a r g‘a o‘xshaydur.* Ogahiy. *Xurshidoy toshga tegib tirnoqlari to‘kilib, Yurgan izga q o‘ ch q i l qonlar yoqilib.* “Xurshidoy”. *Ahmadbek: – Martabani bergay yaratgan rahmon, Choponlarim bo‘lib qopti q o‘ ch q i l qon.* “Yusuf bilan Ahmad”.

QIZIQMOQ, HAVAS QILMOQ, HAVASLANMOQ Biron narsaga qiziqish uyg‘onmoq, erishish istagida bo‘lmoq. **Qiziqmoq** barcha nutq uslublarida faol, **havas qilmoq** oddiy so‘zlashuvda ham faol. **Havas qilmoq**, **havaslanmoq** so‘zlarida “qiziqish uyg‘onmoq” ma’nosi bir qadar umumiy tarzda ifodalanadi, badiiy, publitsistik uslublarda ko‘proq qo‘llanadi.

Ota-onalarining bunaqa aytishuvlariga o‘rganib qolgan bolalar yaqinlashib kelayotgan poyezdga q i z i q ib qaray boshlashdi. P.Qodirov, Olmos kamar. *Rustam: – Harqalay, ko‘zim dastlab sochingizga tushib q i z i q ib qolganman. Keyin ko‘rsam, yuzingiz ham, hamma joyingiz chiroyli, kelishgan* ekan. Q.Ken-

ja, Toshqin. *Kecha oqshom yurt kattalari oldida, minglab quruvchilar oldida mehnat tantanasidan mast, qorabayir ot minib hammadan balandda ko‘ringan Azizxonga hamma h a v a s q i l gandi*. S.Ahmad, Ufq. *Oydonaning o‘g‘li galagov haydaganida qanchalar h a v a s q i l gandim. Endi menga xuddi shunday h a v a s q i l adiganlar bo‘ladi.* N.Eshonqul, Urush odamlari. *Nazira hikoyada esa, aksincha, Zohid Yaqinga befarq tibbiy xodimning o‘zi yo‘q – biri achinib, boshqasi h a v a s l a n ib, tag‘in birisi ibrat ko‘zi bilan qaraydi unga...* D.Quronov, Bir ijodiy bahs xususida. *Mehmon yigit javob qaytarmadi. Xonaning quyidan yuqorisiga qadar ko‘z yugurtirib h a v a s l a n di*. X.Do‘stmuhammad, Umid guli.

QIZG‘IN, QAYNOQ, JO‘SHQIN G‘ayrat, shavq-u zavqqa to‘la. **Jo‘shqin** badiiy nutqqa xos. **Qaynoq, jo‘shqin** faoliyat, fe’l-atvorga nisbatan qo‘llanishi mumkin. **Qizg‘in** biror jarayon, faoliyatning avjini ham bildiradi.

Q i z g‘ i n tabiatli temirchining yuragi shu kunlarda har soat yangi bir o‘y, mulohaza bilan hovliqar, ishida ham biron tartib qolmagan edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Issiqqina mehmonxona do‘st-yorlarning nafasi-yu chekkan tamakilari tutuni, yuzlarining tafti-yu q i z g‘ i n suhbat-kulgidan fayziyob… edi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Men azim tup tolning bujur tanasiga suyanib, keksalar qalbida allaqachon uxlagan yoshlikning q a y n o q hislarini uyg‘otib yuborgan, yigitlar ko‘ksida yilt etgan muhabbat uchqunini alanga oldirayotgan sehrli kuy sadolariga berilib jimgina o‘tirardim.* S.Ahmad, Xazina. *U hozir yosh, qoni q a y n o q navqiron davri, dunyo o‘ziniki, biri-biridan suluv qiz-juvonlar shuniki – qarab o‘tirarmidi! Otasiga tortadi-da.* E.A’zam, Shovqin. *Oq tunda ajralolmas, j o‘ sh q i n ishqi bor, Qanday go‘zal bu Vatan, yaxshi bu diyor!* Mirtemir, Kuz. *Aftidan, karnay-surnay va nog‘oralar sadosi saf tortib o‘tadigan tengdoshlarimning quvnoq va j o‘ sh q i n qo‘shiqlari bo‘lsa, ajab emas*. O.Yoqubov, Adolat manzili.

QISHLOQ, OVUL, O‘BA Aholisi qishloq xo‘jalik ishlari va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan maskan, aholi punkti. **Ovul qishloq**qa nisbatan kichikroq bo‘lib, ko‘chmanchi chorvadorlar yashaydigan joyni anglatadi. **O‘ba** – shevaga xos so‘z.

Ikromjon bir haftagina Toshkentda yurib q i sh l o q ni sog‘inib qoldi. S.Ahmad, Ufq. *Bu q i sh l o q da o‘zi xonadonlar siyrak ekan: huv unday yerda qora suvoq qilingan bir katalak ko‘rinsa, undan ancha narida bir kapa ko‘zga tashlanadi*. Sh.Xolmirzayev, Oqtosh. *Temur Malik tepalikdan qiya zinapoyalarga oyoq qo‘yib tushib ketayotganida pastdagi o v u l dan jadal yurib kelishayotgan uch og‘a-ini otliqlar yoniga kelib, Temur Malikka ta’zim etishdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Usta tavakkal qilib yo‘lga chiqmoqchi, atrof o v u l va qal’alardan singlisini izlamoqchi ham bo‘ldi.* E.Samandar, Sulton Jaloliddin. *Xon noiloj ko‘ndi... Bunda Junaid katta imtiyozlar olib, o‘z o‘ b a siga ketdi*. J.Sharipov,

Xorazm. *O‘tovlarning har birinda shu o‘ b a dan – qishloqdan o‘n yigit turardi.* M.Qo‘shjonov, Dagish.

QOBILIYAT, LAYOQAT, SALOHIYAT, UQUV, ISTE’DOD, IQTIDOR, TALANT Shaxsning muayyan faoliyat, ishni uddalay olish imkoniyati. **Qobiliyat, layoqat** ko‘pchilikda mavjud imkoniyatni ifodalaydi, **iste’dod, iqtidor, talant, salohiyat** so‘zlarida qodirlik darajasi **qobiliyat, layoqat, salohiyat** so‘zlariga qaraganda ko‘proq va alohida kishilarga nasib qiladigan imkoniyat, tug‘ma qobiliyatni ifodalaydi. **Uquv** muayyan faoliyat, ishni bajarishga bo‘lgan ko‘nikmani bildiradi. **Talant** so‘zlashuvda **iste’dod, iqtidor**ning muqobili sifatida qo‘llanadi. **Iste’dod, iqtidor** badiiy, publitsistik uslublarda faol qo‘llanadi. **Layoqat, salohiyat** ko‘proq rasmiy uslubga xos.

She’r yozib tugatgach, yana mutolaaga o‘tadi. Men undagi ish q o b i l i y a t ining shu qadar zo‘rligiga hayratlanaman. Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Marjonoy Suyun burgutni qancha suymasin, qancha hurmat qilmasin, uning qonida bunday shijoat, bunday q o b i l i y a t borligini xayoliga ham keltirmagan edi.* O.Yoqubov, Adolat manzil. *Uch hafta qadar bu yerda yashab, boy tog‘aning hamma yumushlarini yaxshi bajargani va mehnatga l a y o q a t ini, uquvini yaqqol ko‘rsatgani uchun boy unga katta yerga chiqib paxtada ishlashga buyruq bergan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Darhaqiqat, bu martabaga nihoyatda l a y o q a t ingiz bor ekanini o‘rda arboblaridan ham eshitamiz…* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Anvar unga yaxshiroq tikildi, shunday jadidni eshitgan edi. Buxoro amiri dorga torttirgan ziyo ahli orasida Shoakbar Zunnuniy ismli zotning buyuk s a l o h i y a t egasi bo‘lgani haqida tarix kitoblarida bir qancha satrgina bor.* T.Malik, Shaytanat. *Al-Buxoriy ham shogirdi s a l o h i y a t ini tan olib yuksak qadrlardi. Buyuk muhaddisning bu haqda aytgan quyidagi so‘zlari ilm ahli aro mashhurdir: “Sendan ko‘rgan foydam”, – debdi al-Buxoriy at-Termiziyga.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Saidiy shu fikrga keldi: umuman kishilarda biroz san’atga qobiliyat, u q u v bo‘ladi, ammo bu bilangina o‘sha san’atning vakili bo‘lavermaydi.* A.Qahhor, Sarob. *– Qaysi xilini buyursam ekan? – deb o‘z-o‘ziga savol berdi Anvar. – Ugraga u q u v ing yo‘q, palovni lanj qilasan, somsani yopolmaysan, tuppani kesolmaysan, senga qayla buyurg‘andan , atala qil degan yaxshi, chunki eziltirib yuborasan, manti to‘g‘risida o‘ylash ham ortiqcha.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *I s t e’ d o d sohiblari esa, ayniqsa, o‘zlarini sportga bag‘ishlamoqchi bo‘lgan yoshlar uncha ko‘p emas.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Erkin Vohidov to‘g‘risida oltiariqliklar gapirsin, degan takliflar bo‘ldi. Har bir yurt fuqarosi o‘zidan chiqqan i s t e’ d o d egalari bilan faxrlanadi. Uni ko‘z-ko‘z qilgisi keladi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Xudo baxshilarga in’om etgan i q t i d o r ni o‘ziga ravo ko‘rmagan? Ko‘p emas, zig‘irdekkina i q t i d o r berganida bormi, qo‘liga do‘mbira tutib, manovu dala-dashtni kuy-qo‘shiqqa to‘ldirib, doston-u termalar*

aytib yurgan bo‘larmidi? N.Norqobilov, Kurash. *Kimda i q t i d o r yo‘qdir, Ilm ila hunar zoye, I q t i d o r berurman deb Chekma ranj, ketar zoye*. E.Vohidov, Kimda iqtidor yo‘qdir... *Men o‘z boshimdan kechirgan arzimas tajribamdan bilaman: kitobxonni bu ko‘ylarga solish, bo‘lg‘uvsi bo‘ronlarning sovuq nafasini oldindan bildirish uncha-muncha t a l a n t ga muyassar bo‘lavermaydi!..* O.Yoqubov, Tanlangan asarlar. *Hisob komissiyasining raisi – ko‘p jihatlari Jahongirov qolipiga mos keladigan, t a l a n t i Jahongirovdan ham ancha past, ammo berilgan ovozlarni sanab chiqishda ustasi farang bo‘lib ketgan Nasrullo Oxundiy saylov natijasini dazmoldan chiqqandek sip-silliq qilib qo‘yardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

QOBILIYATLI, LAYOQATLI, SALOHIYATLI, UQUVLI, SHUDLI, ISTE’DODLI, IQTIDORLI, TALANTLI O‘qish va o‘rganishga bo‘lgan kuchga ega, yaratuvchanlik kuchi bor. **Iste’dodli, iqtidorli, talantli** so‘zlarida qobiliyat darajasi **qobiliyatli, layoqatli, salohiyatli, uquvli, shudli** so‘zlariga qaraganda ortiqroq bo‘lib, xudo yuqtirgan alohida iste’dodga egalikni bildiradi. **Shudli** bu ma’noda kam qo‘llanadi, unda uddaburonlik ta’kidi ham mavjud.

Kamgap, hamisha o‘ychan yuradigan Hayitboy quvnoq, hazilkash, mahmadona To‘xtashvoyga qaraganda q o b i l i y a t l i roq chiqib qoldi. X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Chor Rossiyasida aholining to‘rtdan uch qismi qishloq xo‘jaligida band edi, endilikda mehnatga q o b i l i y a t l i aholining uchdan bir qismidan kamrog‘i qishloq xo‘jaligida mehnat qilmoqda*. T.Murod, Tanlangan asarlar. *Bunaqa l a y o q a t l i odamlar talantlarni tabiatan yomon ko‘radi.* P.Qodirov, Olmos kamar. *Ayniqsa, iqtidor egalarini izlab-topish va ularni rag‘batlantirish, intellektual s a l o h i y a t l i yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida ibratli ishlar olib borilyapti.* N.Chori, Adabiy chechaklar. *Baxtiga o‘g‘li Qutlug‘murod o‘tli-shudli, u q u v l i chiqdi*. O.G‘afurov, Ayol ori. *Etiksiz kun ko‘rsa ham bo‘ladi. Ammo nonsiz yashash mumkin ekanmi? Yalangoyoq qolishmas bolalar. Xudoga shukr, o‘g‘illarning ikkovi ham sh u d l i yigit bo‘lyapti...* T.Malik, Zilzila. *Shuni bilingki, farzandlarning sh u d l i yoki shudsiz bo‘lishi, bir hunarning ustasi bo‘lishi yoki chala tashlab ketishi, rostgo‘y yoki g‘irrom bo‘lishi faqat shu bolaning aybi emas*. T.Sodiqova, Rizolik istab. *Avvalambor, ular, ya’ni Lochinlar juda i s t e’ d o d l i yoshlar*. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Lekin bu beqiyos i s t e’ d o d l i rassomda bir-ikki marta ko‘rgan odam qiyofasini yoddan chiza olish qobiliyati bor edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Asar voqealari asosiy personajlardan biri – yosh va i q t i d o r l i yozuvchi yigit tilidan hikoya qilinadi*. A.Otaboyev, Osmondagi oy va yerdagi chaqa. *Ustoz aytmoqchi, i q t i d o r l i va umidli tadqiqotchisan, shunday ekan, Ustozing qulog‘ingga shipshigan bo‘lsa, yaxshi, osmon boshingga o‘pirilib tushgani yo‘q, engil-boshingga rov ko‘z yugurtir – yoqasi,*

tugmasi, burmasi, kissa-pissasi joyidami-yo‘qmi – qara, olam guliston. X.Do‘stmuhammad, Kuza… *Hozir biz bilan suhbat o‘tkazgani kelgan yozuvchilarning kitoblari qanday o‘qilayotganini aniq raqamlar bilan aytib berishim mumkin. Oybek-u, G‘afur G‘ulom-u, Abdulla Qahhorlar gurkuragan Toshkentdek shahri azimda bu yosh t a l a n t l i ukalarimizning borligi uncha sezilmayotgan, ular soyasida qolib ketayotgan bo‘lishlari mumkin.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Unda “Kelinlar qo‘zg‘oloni” muvaffaqiyat bilan sahnaga qo‘yilganligi, asar t a l a n t l i ijrochilar bilan hamohang ekanligi alohida e’tirof etilgan edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

QOBIQ, PO‘CHOQ, PO‘ST, PO‘STLOQ Narsalarning ustini qoplab, o‘rab olgan, ularni tashqi muhitdan himoyalab, ajratib turuvchi qatlam. **Qobiq** – keng ma’noda qo‘llanadigan so‘z, ham moddiy, ham mavhum tushunchalarga nisbatan ishlatilaveradi. **Po‘choq**, asosan, danak, pista kabi chaqiladigan, mag‘izli narsalarning ustki qattiq qismini anglatadi. **Po‘st**, asosan, meva, sabzavotlarning archiladigan ustki qatlamiga nisbatan qo‘llanadi. **Po‘stloq** ko‘pincha daraxtlarning g‘adir-budir ustki qattiq qavatini bildiradi.

Hatto jo‘n bir tuxumni yorib chiqqan jo‘ja ham shu tuxumning q o b i g‘ i ga qaytib kirolmaydi-ku. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Soddaroq qilib aytsak, shakl qolip ham, q o b i q ham emas. Shakl va mazmunni danak bilan mag‘izga ham o‘xshatib bo‘lmaydi, danakni chaqib, mag‘zini eksangiz, nihol unib chiqishi mumkin, lekin san’atda shakl buzilsa – mazmun o‘z-o‘zidan yo‘qoladi, undan badiiy asar unib chiqmaydi.* A.Sher, Estetika. *Ikrom yashil eshik oldida to‘xtab oyoq ostidagi bodring p o‘ ch o q lariga, chala tishlab tashlangan g‘o‘ra olmalarga, bir-ikki joyidan timdalangan kungaboqar laganchasiga qaradi.* S.Ahmad, Ufq. *Oppoq vanna, Gazxona... rohat, Hatto p o‘ ch o q tashlashga paqir... Hamma narsa joyida, Faqat... Faqat bunda yo‘q ekan tandir.* E.Vohidov, Tandir haqida ertak. *U maydon o‘rtasidagi p o‘ s t i archilmagan ikki yog‘ochga o‘rnatilgan to‘r to‘siqqa qarab o‘yladi: “Buni bittasi gum qiladi. Qo‘zining qo‘li egri, shu oladi”.* Sh.Xolmirzayev, Jo‘raboshi. *Keyin qator orasta teraklar bo‘y cho‘zgan. Ular katta bo‘lganida kesib olinadi, kesilganida yog‘och shirasining boshni aylantiradigan isi anqib ketadi, p o‘ s t i shilinganida ham shunaqa bo‘ladi.* I.Sulton, Qismat. *Men jiyda yoniga kelib, tiz cho‘kdim va g‘o‘dir p o‘ s t l o q lariga peshanamni qo‘yib pichirladim: – Onajon...* Mirtemir, Jiyda. *Cho‘qqilari ochilib, oqara boshlagan tog‘dan sovuq shabada esa boshladi. O‘choqdagi kul changidi, chaylaning tomiga osilgan tol p o‘ s t l o g‘ i shitirlab tebrana boshladi.* Sh.Xolmirzayev, Tikan orasidagi odam.

QOLIP, ANDAZA Biron narsani yasashda, hosil qilishda unga shakl beradigan moslama, namuna bo‘ladigan narsa. **Andaza** ko‘proq kitobiy nutqda qo‘llanadi.

Shonalar, har xil siniq-mertik q o l i p lar, charm rezgisi, shirach kosa, mahsi ichiga yopishtiradigan eski lattalar va hokazo do‘konxona yuzini tutgan. Oybek, Tanlangan asarlar. *Nasiba boshi guvullab borayotganini, ko‘ngli behuzur bo‘lib ketayotganini his etar, qulog‘i ostida hamon q o l i p ning ora-chora yerga pakpak urilgani eshitilib turardi.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Qandoq kiyinardi-ya! Studentlar yotog‘idagi qizlar faqat uning kiyimlarini gapirishardi, gazetadan a n d a z a qirqib, jo‘n matolardan unikiga o‘xshagan ko‘ylak tikishardi.* S.Ahmad, Zumrad. *She’rni har kuyga, ko‘yga solish mumkin, Shoirga a n d a z a, qolip bo‘lmaydi. Shoir qo‘shiqlarin yod olish mumkin, Shoirning yoniga borib bo‘lmaydi*. I.Mirzo, Shoir.

QOMAT, QAD, BAST, BO‘Y-BAST, KELBAT, QADDI-QOMAT, SOXT, SOXT-SUMBAT, SUMBAT, ANDOM, BICHIM Inson jismoniy tuzilishining yaxlit ko‘rinishi. **Bast, soxt** yakka holda kam qo‘llanadi, asosan, **bo‘y-bast, soxt-sumbat** juft so‘zlari shaklida uchraydi, ma’noni umumlashtirib ifodalaydi. **Andom –** eskirgan so‘z, ko‘proq poetik nutqda qo‘llanadi. **Kelbat** so‘zlashuv usubiga xos. **Bichim**da qomatning tuzilishi ta’kidi qabariq ifodalanadi, oddiy so‘zlashuvda faol. **Soxt, sumbat** so‘zlarida salbiy baho mavjud.

Uning boshiga kiygan serbezak baland toqisi, bo‘yniga taqilgan zebigardon va marjonlar nozik q o m a t iga og‘irlik qilayotgandek tuyuladi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Uning novdadek tik q o m a t i shunday kelishgan, o‘zi shunday xushmuomala va yoqimtoyki, hatto harbiy kiyimda ham u eng qimmatbaho liboslar kiygan go‘zallardan ham go‘zal ko‘rinadi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Eshoni Sudur ancha yergacha q a d dini rost tutib bordi-da, keyin pasaydi – egarga cho‘kib qoldi*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Hamid G‘ulom yetmishdan oshib ketgan bo‘lishiga qaramay q a d d i tik, gapga chechan, tinglovchilarni gap bilan “sehrlab” qo‘yadigan, usta notiq.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *To‘rt mucha sog‘, qaddim tik, Lekin ko‘rmadim ko‘prik, Savoblar... b a s t i egik, Istig‘for, istig‘for.* A.Suyun, Istig‘for. *Huzurini sandiq ko‘rgan to‘n – b a s t larni sog‘inib-sog‘inib titilar.* I.Otamurod, Ichkari... Tashqari... *Sobirjon katta ko‘chada yamoqchilik qiladi. Do‘koni bor. Nop-nozanday yigitsan, nega yamoqchilik qilasan, b o‘ y-b a s t ingga yarasha ish qilsang bo‘lmaydimi, deb ko‘pincha so‘ramoqchi bo‘ladi Savri xola, lekin so‘ray olmaydi, uyaladi.* O‘.Umarbekov, Kuz havosi. *Rasul bir mahallar butun polk soldatlarini maftun qilgan bu xushsurat, muloyim ayolning ikki bukilib qolgan b o‘ y-b a s t iga zimdan tikilib, uning ko‘z yoshi aralash aytgan gaplariga quloq solarkan, hayotning, vaqtning shafqatsizligi haqida o‘yladi-yu, yuragi shig‘illab ketdi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *So‘zlariyam, ko‘zlariyam, jahli chiqqanda dikrayib ketadigan mo‘yloviyam, kelishgan k e l b a t i-yu qiyg‘ir qarashlariyam – hamma-hammasi momo suyib qovushgan Mamat merganning o‘zginasi!* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Birinchi bo‘lib ostona hatlagan burundor militsioner uning za-*

bardast k e l b a t idan ham ko‘ra, qo‘lidagi andavadan hadiklandi. N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun. *Unga ergashib ikkinchi qavatga chiqarkan, oldinda dikirlab ketayotgan juvonning q a d d i-q o m a t ini Farhod endi baralla ko‘rib, xayoli bir yoqlarga borib keldi.* E.A’zam, Shovqin. *U Omontoyning q a d d i-q o m a t iga, shop mo‘yloviga qarab, ko‘zlari yashnab ketdi. Omontoy unga do‘stini eslatgandek bo‘ldi*. S.Ahmad. Yer uyg‘ondi. *Xushvaqt bo‘lib aytdim sizga dardimni, Yaxshi odamman xo‘p ko‘rdinglar, s o x t imni, yoshlik qilib hech beparvo bo‘lmanglar, Ikkingga berayin ildam otimni.* “Yusuf va Ahmad”. *Anavi, rafiqasining qizlik paytidagi xushtori, bir davrada: “Gap s o x t-s u m b a t dayam, telba kuchdayammas. Risolatning umrini bekor o‘tkazyapti, u yaxshi qiz edi...” – deb otgan qora chaqir tosh yuragiga yomon botib, tinchi, oromini yo‘qotdi.* Q.Kenja, Toshqin. *Begimqul, s o x t-s u m b a t iga mos tushmagan, xuddi tishlariday bitta-bitta yozilgan yirik harflarni ipga tergan sadafday terib, undan, hamqishloq do‘stidan, yana uzr so‘ragan, yana maqsadi jiddiyligini aytib, Hikmatilloni yaqinda bo‘lajak to‘yga taklif qilgan edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Darhaqiqat, qiz to‘lishgan – qarg‘ashoyi keng ko‘ylagi ham uning yetilgan s u m b a t ini ko‘zdan yashirolmas edi.* Sh.Xolmirzayev, Tanlangan asarlar. *Ustida xipcha s u m b a t iga yarashib tushgan ohorligina kostyum-shim, havorang galstuk, sochlari orastalangan.* L.Bo‘rixon, Qidiruvdagi qiz. *Ikki oy-u ikki yil Yursang bog‘lab mahkam bel Makoniga borarsan, A n d o m iga qararsan*. H.Olimjon, Semurg‘. *Ammo osmon yiroq, zamin qattiq-da tag‘in a n d o m iga qaytar tolg‘inlik. Tag‘in xayol surar turgancha tikka, hazratni qiynaydi hamon yolg‘izlik.* Sh.Rahmon, Shoirlar xiyobonida. *To‘g‘ri, ba’zi yigitlar uni ko‘rganda miyig‘ida jilmayib, unga ishora qilar, goho uning b i ch i m i kelishgan qiz ekanini yuziga ham aytar, Mastura bulardan mamnun bo‘lar, biroq shulargina uni qanoatlantirmas edi.* Sh.Xolmirzayev, Tanlangan asarlar. *U tabiatan chiroyli, bo‘y-basti, b i ch i m i kelishgan yigit edi. Ovozi dag‘al bo‘lishiga qaramay, qandaydir shirin, titroqli edi*. N.Jo‘rayev, Kibor yoxud ikkinchi qiyofa.

QON, XUN Odam va hayvonlar tana a’zolari va hujayralarni oziqlantiradigan, modda almashinishini ta’minlaydigan qizil suyuqlik. **Xun** badiiy nutqqa xos.

Ko‘rdim umrimda ilk bor Q o n ga tomgan ko‘zyoshni. Qarab turdim seskanmay, Kechir, men bag‘ritoshni... M.Yusuf, Oq qo‘chqor. *Qiziq bo‘ldi: bir kuni hammamizdan q o n olishdi. Ertasi natijasini bilsak, Nosirjonning qoni top-toza chiqdi!* Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Tangrim, meni talatding yomon. Holsiz qoldim, borliq tanim x u n*. E.Vohidov, Faryod. *Sen Ka’bamsan – Turkistonsan, x u n imsan, sen axir qonsan.* R.Parfi, Abdulhamid Cho‘lponga muxammas.

QONIQARLI, QANOATLANARLI, QANOATLANTIRARLI, KOFI Qanoatlansa bo‘ladigan, yetarli deyish mumkin bo‘lgan. **Qoniqarli** so‘zida belgi darajasi umumlashgan tarzda ifodalanadi. **Qanoatlanarli, qanoatlantirarli**

so‘zlari, asosan, badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Kofi** – eskirgan, kitobiy so‘z.

Biroq u Buxoro amiri va uning farzandlari haqida q o n i q a r l i ma’lumotlar yig‘a olmagan. M.Hasaniy, Yurt bo‘ynidagi qilich yoki istilo. *Qog‘ozdagi hisobotlarda ishlar besh, ammo amaldagi natija q o n i q a r l i emas*. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *E’tirof qilish kerakki, rayonlarga bo‘lgan rahbarligimiz q a n o a t l a n a r l i emas.* N.Safarov, Olovli izlar. *Bu savolga to‘g‘ri va q a n o a t l a n a r l i javob topmoq uchun sal oldinga – Mahdumning shajaraviy tarixiga bir nazar tashlash zaruriyati tug‘iladi.* N.Umarova, Maktabi betakror. *Turdiyev qancha o‘ylamasin, oxiriga yetmadi. O‘zini q a n o a t l a n t i r a r l i javob topolmadi.* Shuhrat, Shinelli yillar. *Bu xizmatga uning ilmi k o f i mi?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

QONMOQ, QONIQMOQ, TO‘YMOQ, MIRIQMOQ Qanoat, qoniqish hissini his qilmoq. **Qonmoq, qoniqmoq** ham moddiy, ham mavhum tushunchalarga nisbatan qo‘llanadi. **To‘ymoq** moddiy narsalarga nisbatan ham qo‘llanadi. **Miriqmoq** so‘zida qoniqish belgi darajasi ortiq, mavhum tushunchalarga nisbatan ham qo‘llanadi.

– Kucher ahli ham har xil xizmatkor ahli, tiriklikda uyquga q o n adimi, uka?! O‘lganda – boshqa gap, – deb javob berdi Jo‘ra. Oybek, Tanlangan asarlar. *...men bu lablarning bunchalik totli bo‘lishini bilmagan edim, men bitta bo‘sa xuddi chanqoqni q o n diradigan bir piyola buloq suvi kabi qalbimdagi butun alam va iztiroblarni bosa oladi deb o‘ylamagan edim!..* O.Yoqubov, Muqaddas. *– To‘la javob berdingiz, q o n i q dik, uka, – dedi Qambarali aka*. A.Qahhor, Sarob. *– Uyquga q o n i q dingizmi, Jo‘ra aka? – dedi Yo‘lchi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Bugun hamma nevara-chevaralarimni Qo‘qonga oborib, kabobga t o‘ y diraman.* Sh.Xolmirzayev, Tanlangan asarlar. *Kuyov oldida uyalib o‘tirgan onasiga hiqillab, kuyovning ensasini qotirib, t o‘ y ib emib oladi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *– Vorisbek! O‘g‘lim! Aziz mehmonlarni ertaga qumga olib chiqish kerakmikan? Ov bahona, bir m i r i q ib dam olishsa...* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Qishloqdagi gap-gashtaklarda o‘sha latifalarni aytib m i r i q ib kulishardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

QONUN, KODEKS, YASOQ, TUZUK Davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy me’yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida. **Kodeks** qonunlar majmuyini bildiradi. **Yasoq, tuzuk** – eskirgan so‘zlar. Yuridik terminologiyada **qonun, kodeks** so‘zlari qo‘llanadi.

Mustaqil O‘zbekistonning q o n u n lari muhokama qilinadigan, qabul etiladigan maskan – Oliy Majlisning halollikni yalovday yuksak ko‘targan zotlar mangu oromga ketgan joyda qad ko‘tarishida ramziy ma’no-mazmun borday... O‘.Hoshimov, Atoqli va ardoqli adib. *“U – poraxo‘r”, deydi xaloyiq, Men o‘rta-*

ga qo‘yib jonimni, Deyman: “Yo‘q, u yashashga loyiq, Q o n u n, to‘kkin mening qonimni”. U.Azim, Tush. *K o d e k s chiqdimi, demak, bas, odamlar unga amal qiladi: risoladagidek bo‘ladi, deb hisoblashadi ba’zilar.* Sh.Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri. *Intizomiy javobgarlik qoidalarini belgilovchi asosiy hujjat O‘zbekiston Respublikasining Mehnat K o d e k s i hisoblanadi, unga asosan ichki mehnat tartibi qoidalari belgilanadi.* “Davlat xizmati” o‘quv qo‘llanmasi. *Temurbekning Amir Husayndan bir narsada ustunligi aniqdir: u jang yo‘rig‘ini biladir, y a s o q tuzishga mohir, jang maydonini bir qarashda chamalay oladir...* M.Ali, Sarbadorlar. *– Darhaqiqat, shunday, – dedi Sog‘uniy akasining so‘zlarini ma’qullab, – aslida Turkiston va Movarounnahr sultonlarining o‘z paytlarida tutgan askariy va xalq ustidagi y a s o q va yusunlari Chingizxonning yasoq va yusunlaridan olingandir*. Y.Xo‘jamberdiyev, Bulutli kunlar. *O‘shal bobokalonimiz kashf qilgan qonun-qoidalarni “tuzuklar” deb atagan ekanlar. Shu t u z u k lar mazmuni avloddan avlodga o‘tib, bizga ham yetib keldi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Temur t u z u k lari Amir Temurning devonxonasida Amir Temur ishtirokida yaratilgan haqiqiy, tarixiy yuridik manbadir.* Z.Muqimov, Amir Temur tuzuklari.

QOP, QANOR, XALTA, TO‘RVA Sochiluvchan narsalar solib qo‘yiladigan, puxta, dag‘al mato, chipta va sh.k.dan tikilgan, ro‘zg‘or buyumi. **Qanor** – katta qop. **Xalta, to‘rva** – shevada kichik qop. **Qop qanor**dan kichik, **xalta**dan kattaroq.

Q

Q o p ning orqasidan bir ro‘molga tugib qo‘yilgan qoqnon topdim... Sh.Xolmirzayev, Zov ostida adashuv. *...kimdir uni, kichkina kuchukchani, bo‘ynidan ko‘tarib q o p ga solmoqchi bo‘lar, u esa bor kuchini to‘plab kichkina yapaloq oyoqchalari bilan qopni itarardi.* O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar. *Azizxon tutib turgan q a n o r ga kuraklab tuproq tashlay boshladi.* S.Ahmad, Ufq. *Yigit... ketmon chopyapti, qilich siltayapti, o‘roq o‘ryapti, tosh qulatyapti, otda uchyapti, to‘g‘on bog‘layapti, q a n o r orqalayapti – hammasi shundoq ustakorona...* Mirtemir, Raqs. *Million yillar o‘tdi, odam nasliga, ajib, Tarix bo‘ldi insonlikdan ortga tislanish. X a l t a siga tosh yig‘di-yu, bo‘lmadi nasib Insonlikka qaytib yana qurolsizlanish*. E.Vohidov, Qurolsizlanish. *Tosh bitikchi panjarani tuzatib bo‘ldi. Asbob-anjomlarini x a l t a ga soldi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Omadni qarangki, yengil mashinalar to‘xtamiga chiqsak, bitta “VAZ–31”dan yelkasiga charm t o‘ r v a osgan ajnabiylar tushishmoqda, haydovchi orqa qopqani ochib, g‘ildirakli charm chamadonni chiqarmoqda edi.* Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *Ilgarilari chakana mollarni boqib kelgan podachilar yelkalariga t o‘ r v a va osh solinadigan qovoq osib, hovlidan hovliga o‘tib, “oshihalol” deb nido qilishar edi...* P.Qodirov, Qora ko‘zlar.

QOPLAMOQ, EGALLAMOQ, QURSHAMOQ, QAMRAMOQ, CHULG‘AMOQ, BOSMOQ, TUTMOQ, O‘RAMOQ Keng sath, maydon,

sohaga yoyilib, to‘liq yoki qisman ishg‘ol qilmoq. **Qurshamoq, o‘ramoq** so‘zlarida harakatning har tomondanlik ta’kidi ochiq aks etgan, **bosmoq, tutmoq, egallamoq** so‘zlarida harakatning bir tomondanlik ta’kidi anglashiladi. **Qoplamoq, qamramoq, o‘ramoq, bosmoq** so‘zlashuvda ham, adabiy tilda ham faol. **Chulg‘amoq** adabiy tilda qo‘llanadi, mavhum otlar bilan birikadi.

Peshindan keyin osmonni mag‘zavadek kir bulutlar q o p l a di. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Nogoh ko‘z pardasin q o p l a b kelar yosh.* E.Vohidov, Sharqiy qirg‘oq. *Bu so‘zdan so‘ng uy ichini kuchlik bir kulgi tovshi q o p l a di.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Salon peshtoqidagi televizorda namoyish etilayotgan allaqanday texnikaviy mo‘jizalar o‘rnini osmon xaritasi, manzilga yaqinlashayotgan uchoq tasviri va yengil musiqa e g a l l a di.* E.A’zam, Shovqin. *Asta-sekin ko‘nglimdagi g‘ubor tarqab, uning o‘rnini allaqanday yorug‘, dilni ravshan qiladigan o‘ylar, orzular e g a l l a di.* O.Yoqubov, Muqaddas. *Yorug‘likni o‘g‘irlab sekin, Tevarakni q u r sh a di tuman.* R.Parfi, Yorug‘likni o‘g‘irlab sekin... *Quyosh botib borar, Ufq qirmiz rang, Q u r sh a b olayotir yer yuzini tun.* A.Oripov, Talosh pallasi. *Ammo uyqusidan uyg‘onar go‘zal, hayrat qamrab olar hamma narsani.* Sh.Rahmon, Musavvirona. *Lochinning vujudini yana boyagi, bir-biriga zid hadik aralash jo‘shqin istak q a m r a b oldi.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Kechqurun Gulnor o‘z uyiga qaytarkan, yo‘l-yo‘lakay hasratda yonib, qorong‘i xayollarga ch u l g‘ o n di.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Solihabibi miyasini ch u l g‘ a b olgan shunday o‘y, xayollar bilan ancha o‘tirdi.* O‘.Umarbekov, Yer yongan-da. *Qorong‘i kechani sukunat b o s di.* S.Ahmad, Borsa kelmas tomonlarda. *Quloq-miyadagi shovqinni samolyotning bir maromdagi guvullashi-yu yo‘lovchilarning bezovta g‘ala-g‘ovuri b o s ib ketdi.* E.A’zam, Shovqin. – *Hozir mana bu dardisarlardi yig‘ib olay. – Anzirat ko‘rpalarining orasiga kuyadori sepdi. Xonani achimsiq hid t u t ib ketdi.* N.Eshonqul, Urush odamlari. *Kimsan, mashhur kinodarg‘aning taklifi… ham qo‘shildi-yu, yomon arining iniga o‘xshab turgan anjuman bir soniya tin olib, so‘ng majlisxonani ma’qullovchi chapak t u t di.* E.A’zam, Shovqin. *Meni o‘rab oldi hayajon, Yana ortdi sevgining kuchi.* Zulfiya, Saylanma. *Dilorom deb qoshida tiz cho‘kkanim hamono dilimni o‘rab-chaqib turgan ilonlar zumda erib-yo‘q bo‘lib ketdi, yuragimga qo‘shib hayotimni ham baxt-u saodat o‘ r a b oldi.* I.Sulton, Ozod. *Magar o‘ r a sa ham tegrangni bo‘ron Seni asrab qolar, albatta, ixlos.* A.Oripov, Ixlos.

QORAMAG‘IZ, QORACHA, QORASHIRG‘AY, QORAPARANG, QORASH, SABZAK Qorachadan kelgan, qoraga moyil (odam). Bu belgi, asosan, yuzga nisbatan olinadi. **Qoracha** oddiy so‘zlashuvga xos. **Qorashirg‘ay, qoraparang** kam qo‘llanadi. **Qorash** – shevaga xos so‘z. **Sabzak** kam qo‘llanadi.

Yo‘q, hammaga o‘xshagan odam ekan. Qalin qoshli, yuzlari q o r a m a g‘ i z. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Erxon o‘t-o‘lan ustiga yonboshlagancha ayolining harakatlarini kuzatar, shamollarda qotgan chandiqli, q o r a m a g‘ i z yuzida Oyto‘ldiga juda yoqadigan dag‘al bir tabassum jilva qilib turardi.* I.Sulton, Xun. *Maxdumga kutilmagan ravishda mehribon muomala qilg‘uchi bu o‘rdaliq qirq yoshlar chamasida, uzun bo‘yliq, qora uzun soqolliq, simobi sallasining peshini tushirg‘an q o r a ch a tuslik bir yigit edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bir haftadan beri shu chodirda Akbar bilan turib, q o r a ch a yuziga yana qon yugurdi...* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Baraka topkur rasmiy tantanaga boradigandek ko‘rinishda: ohori to‘kilmagan yozlik simobiy kostyumshim, och sariq ko‘ylak, shunga munosib pushti chiziqli qizg‘ish bo‘yinbog‘ bir salobatini ikki qilgan, yakkam-dukkam ajin qo‘ngan q o r a sh i r g‘ a y-enli raftoriga ayricha shukuh bag‘ishlagan edi…* A.Dilmurod, Xayol cho‘g‘lanishi. *Q o r a sh i r g‘ a y, nigohi tikandek qadaluvchi maykachan bir yigit darvoza darichasini ochib: “Kimligingni aytmasang, ichkariga kirmaysan!”, deganday kiftini darvozaning bir tavaqasiga tirab, qarshimizda ko‘ndalang turib oldi.* A.Ko‘chimov, Cho‘qqidagi quyosh. *Shu asnoda, yelkasiga xurjun tashlab, qo‘liga uzun hassa tutgan, baland bo‘yli, q o r a p a r a ng, oltmish yoshlardagi bir lo‘li xotin darvozaxonaga tutash ayvondan o‘tib, so‘ri sari ildam yaqinlashaverdi.* N.Qilich, Jumboq. *Biroq… biroq q o r a p a r a ng, jingalaksoch, ko‘zlari yonib turgan mehnatsevar Komiljon yosh yetim qoldi. Uylariga yaqinroq bo‘lgan internatda tarbiyalandi.* U.Bekmuhammad, Oxunlardan qolgan meros. *Xushbichim shu ayol – umr yo‘ldoshim, anavi o‘zimga o‘xshagan q o r a sh, shukrkim, o‘g‘lim!* U.Hamdam, Yolg‘izlik. *Qorong‘u bo‘lsa ham, Abu Bakr Kalaviy Lakshmanning kutilmagan musibatdan s a b z a k rangi tag‘in ham qorayib ketganini tasavvur qilib turardi*. M.Ali, Sarbadorlar.

QORIN, ICH, QURSOQ Tananing qorin devori bilan qorin bo‘shlig‘idan iborat pastki, ovqat hazm qilish a’zolari, yana ba’zi boshqa a’zolar joylashgan qismi. **Ich** bu ma’noda so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Qursoq** nisbatan kam ishlatiladi.

Suyunboy aka o‘zi kulmas, boshqalar esa xaxolashdan sillasi qurib, q o r i n larini ushlashar edi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Do‘xtirlar ham o‘lmasin! Xo‘p antiqa asboblar o‘ylab chiqaribdimi, baraka topgurlar! Chalqancha yotqizib qo‘ydi-da, q o r n i ga moy surib, qo‘lidagi asbobini u yoqqa yurgizdi, bu yoqqa yurgizdi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Ko‘zing og‘risa, qo‘lingni tiy, I ch ing og‘risa, nafsingni tiy*. Maqol. *I ch im burab-burab qoladi. I ch im qabz etib-qabz etib qoladi. Dardim ichimda bo‘ladi.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *– Axir yo‘l ketadigan odamlar ham q u r s o q o‘lgurning nafsini qondiradi oldin.* Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *Mezbon-u mehmon go‘yo tubsiz quduqni to‘ldirmoqqa shaylangan kabi to‘qqiz qadahni ketma-ket q u r s o q qa quyishi – taomil... dasturxonga go‘zallik mezonlariga mutanosib*

tarzda terilgan taomlarni paqqos tushirish ham – taomil! X.Do‘stmuhammad, Razolat saltanatiga sayohat.

QORONG‘I, ZIM-ZIYO, SIM-SIYO(H) Yorug‘lik bo‘lmagan, zulmatdan iborat, yorug‘ning aksi. **Zim-ziyo, sim-siyoh**da qorong‘ilik darajasi **qorong‘i**ga qaraganda yuqoriroq. **Sim-siyoh** poetik nutqqa xos.

Eshik darichalariga g‘isht qalanib, qamoqxonaga aylantirilgan q o r o n g‘ i uyda singillari Gulbadan ham bir necha oy zindon azobini tortgan... P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Q o r o n g‘ i cho‘l esa o‘z nafosatini, sirlarini xufiya aylab turadi.* M.Safarov, Olis qorlar ortida... *Ular yerga cho‘kkan z i m-z i y o zindonga kirib, kutilmagan holatga duch kelishdi.* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Keyin avtobusdan tashqaridagi z i m-z i y o qorong‘ilikka, derazaga shart-shurt urilayotgan izg‘irin aralash yomg‘irga termilgancha, yengil ust-boshi va poyabzalini o‘ylab borarkan, to‘satdan og‘zida qandaydir bemaza ta’m sezdi.* O‘.Usmonov, Girdob. *Ne zotlar o‘tdilar hasratga to‘lib, Kunlari zimiston, tuni s i m-s i y o.* A.Oripov, Ziyo. *Olam bir alamdir, s i m-s i y o h cheti, Alam bir olamdir endi, sevarim. O‘rik gullaridek sochilib ketdi Kaftimdagi bir juft sitoralarim.* I.Mirzo, Kelinchak.

QORONG‘ILIK, QORONG‘I, QORONG‘IZOR, ZULMAT, ZIMISTON Yorug‘lik mavjud bo‘lmagan holat, yorug‘likning aksi. **Zulmat, zimiston** so‘zlarida belgi darajasi **qorong‘ilik, qorong‘i**ga qaraganda ko‘proq. **Zulmat, zimiston** badiiy nutqqa xos. **Qorong‘izor** poetik nutqqa xos, kam qo‘llanadi.

Ko‘zlari q o r o n g‘ i l i k ka o‘rganguncha bir lahza eshik og‘zida turib, alanglay-alanglay bo‘sh joy qidirayotganlarida “Farhod, bu yoqqa!” degan ovoz eshitildi. E.A’zam, Shovqin. *Quyosh botgan, bog‘ni faqat yoz oqshomlaridagina bo‘ladigan mayin va sokin bir q o r o n g‘ i l i k chulg‘amoqda edi.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Shorahim amaki q o r o n g‘ i da paypaslab, unga suv berdi, allanimalar deb yupatdi*. O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *– Kim kerak edi sizga? – dedi qiz q o r o n g‘ i da yaxshi ko‘rmayotgani uchun bo‘lsa kerak oldinga egilib*. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Otabek shu q o r o n g‘ i z o r bilan qo‘shilishib ketgandek va qorong‘ilikning quchog‘iga kira borgandek, mevazorning ichkarisiga yura bordi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xonadon... motamxona bo‘ldi. Zim-ziyo q o r o n g‘ i z o r bo‘ldi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Osmonga tikildim. Boshimning qoq tepasida sarg‘ish dog‘ ko‘rindi. Oy bo‘lsa kerak... Dog‘ qoraya-qoraya z u l m a t ichiga sho‘ng‘ib ketdi...* O‘.Hoshimov, Cho‘l havosi. *Yo‘q, shundan keyin ko‘z o‘ngidagi z u l m a t chekinib, atrof yorisha boshlaydi.* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Dara, to‘g‘rirog‘i, uning ko‘z ilg‘amas, tubsiz, z i m i s t o n qa’ridagi asov daryo go‘yo uni o‘z bag‘riga chorlayotganday allaqanday sirli shovullar, kishini o‘ziga rom qiluvchi maftunkor sado tarqatib, betinim guvullar edi!* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Alimardon z i m i s t o n qo‘ynida Kabir-*

ga urilib ketganini ham, yugurib borib mashinaga o‘tirganini ham sezmadi. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi.

QOROVUL, QO‘RIQCHI, SOQCHI, POSBON, TO‘SQOVUL Inson hayoti, bino, inshootlarni himoya qiluvchi kishi. **Qorovul, qo‘riqchi** so‘zlashuv tilida faol. **Soqchi, posbon** badiiy, rasmiy uslublarga xos, terminologik tizimda ham aynan ular qo‘llanadi. **To‘sqovul** eskirgan leksikaga mansub.

Q o r o v u l chiqib hammani choyxona orqasida tayyorlangan joyga taklif qildi. S.Ahmad, Ufq. *Yolqin akam Toshkentning ko‘lini yaxshi ko‘rar edi, shaharga tushganda shu yerda to‘xtab, ko‘lning yon darvozasida o‘tiradigan q o r o v u l bilan tanish bo‘lib olgan edi.* P.Qodirov, Meros. *Ko‘zlarimga chegarada shay askarday q o‘ r i q ch i, Ko‘zlarimga olis Bobur g‘ussasiday yo‘riqchi, Ey, aziz kipriklarim.* Mirtemir, Kipriklarim. *Q o‘ r i q ch i lar boqadi hayron, Hech kim menga demaydi: “To‘g‘ri!..”* U.Azim, Tush. *Kichkina shahar ahli uyquga ketib qolgan. Faqat ko‘cha s o q ch i lari, mast-alastlar hamda vokzallardagi avtobus va poyezd kutayotgan yo‘lovchilar uyg‘oq.* Sh.Xolmirzayev, Kimsasiz hovli. *Xonadan baralla eshitilayotgan yo‘g‘on ovozdagi yig‘i sasini eshitib, s o q ch i yigit sekin eshikni ochib, tinchlikmi degandek avval Ramazonga, keyin Sobirjonga qaradi.* Z.Masharipova, Dahshatli nikoh. *Ka’ba qopqasida turgan, ey p o s b o n, Avval onalarning ochgin yo‘llarin.* A.Oripov, Ona. *Shuning uchun yo‘lda uchraganlarning kiyimiga ko‘zim tushganda ham yilt-yilt qilgan nimaligini aqlimga keltirolmagan edim, hatto p o s b o n larni yaqindan ko‘rganda ham, bularning ko‘chalik libosi shunaqa ekan, degan xayolga boribman.* A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *Sen Chambilning t o‘ s q o v u l i yo‘q ko‘chalarini bilasan.* “Bo‘tako‘z”. *Dedi: har kimning erki o‘z qo‘lida, Na g‘ov, na t o‘ s q o v u l bordir yo‘lida.* Habibiy.

QOTIL, QATTOL, ODAMKUSH, XUNREZ Odam o‘ldiruvchi yoki o‘ldirgan kishi. Yuridik terminologiyada **qotil** so‘zi qo‘llanadi. **Qattol, odamkush, xunrez** badiiy uslubda qo‘llanadi.

Cheksiz hurmat bilan so‘ylashdan oldin kim go‘shtdor qo‘lini qo‘yar yelkangga, go‘yoki otangni o‘ldirgan q o t i l boshqacha niqobda taskin berganday. Sh.Rahmon, Kutilmagan siyliqlar. *Navoiy baytiga o‘xshaydi yo‘llar, Bu toshlar Hamzaning q o t i l i, hayhot!* R.Parfi, Ona tilim. *U toshdek og‘ir gavdasini kuch bilan Mardonbek tomon tashlagan zamonoq, q a t t o l birin-ketin ikki o‘q uzdi.* S.Azimov, Oppoq tong qo‘shig‘i. *Tavba, nima jin urdi bahodirni, to‘yib may ichvolgan kishidek, ko‘zlari ola-kula bo‘lib guldirayotir, yopiray, og‘zidan bodrayotgan har bir kalom kamondan uzilgan o‘q kabi q a t t o l!..* A.Dilmurod, Mezon burji. *To‘tioy: – Oh, ota! Man sizga nima deb aytay ekan endi?! Siz rahmsiz hayvon! Toshyurak! Siz o d a m k u sh! Xunrez!.. Onamni o‘ldirgan ekansiz, keling, mani ham o‘lduring...* A.Badriy, Juvonmarg. *Kun-bakun taraqqiy etmoqda dunyo, Nogoh o d a m k u sh ni topmoq ham qiyin.*

Hozirgi madaniy jallodlar hatto Avval uzr so‘rab, so‘yishar keyin. A.Oripov, Uzr. *Men kabi oshiqqa ma’shuqdin to‘la jom qayda bor? Lashkari x u n r e z bo‘lsa, sabr-u orom qayda bor?* J.Kamol, Mashrab g‘azaliga muxammas. *Ming afsuslar bo‘lsinki, shu jinoiy jarayonda faqat Shimoldan kelgan x u n r e z lar emas, balki ular oldida dumini likillatib, yor-do‘stlarini, qo‘ni-qo‘shnilarini, xizmatdoshlarini sotgan kimsalar ham oz bo‘lmagan.* N.Karimov, Mirtemir.

QOSH, ABRO‘ Qovoq tepasidagi yoysimon tukli qatlam. **Abro‘** – eskirgan so‘z, poetik nutqda qo‘llanadi.

Gulxan atrofida shoshilmay, goh yelka qoqib, goh oyoqlarini bir-biriga urib, bir q o sh ining uchini uchirib aylanarkan, qiyqiriq avjga chiqdi. S.Ahmad, Ufq. *Bu hol uning qayrilma q o sh larining ko‘tarilib tushishidan bilinar, taomni chaynab turgan jag‘lari harakatdan to‘xtab qolar edi...* Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *To nishon qildi ko‘ngillarni o‘shal a b r o‘ kamon, Qatra-qatra ko‘zlarimdin keldi yosh o‘rnig‘a qon*. Muqimiy, Kerak. *G‘araz iydi visolingdur ko‘ngulg‘a, ey hilol a b r o‘, Yuzingni oyig‘a jonimni qurbon etmasam bo‘lmas*. Nodira.

QOCHOQ, QOCHQIN, QOCHQINDI Biror falokat, sabab tufayli o‘z joyi, vatanini tashlab chiqib, o‘zga joy, yurtda bo‘luvchi, kezuvchi, shaxs(lar). Rasmiy, publitsistik uslublarda ijtimoy-siyosiy termin sifatida, asosan, **qochoq, qochqin** birliklari qo‘llanadi. **Qochqindi** shakli ularga nisbatan kam ishlatiladi va, asosan, badiiy uslubda uchraydi.

Sovuq! Gapirgan gaping og‘zingdan muz bo‘lib tushayotgandek... Fashist Moskva ostonasiga kelib qolgan, q o ch o q lar, vahimachilar ko‘paygan... O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Ahdlashayotgan davlatlar borish joyi hududiga viza olgan q o ch o q larga tranzit vizalarni berishlari shart.* “Qochoqlar maqomi to‘g‘risida”gi Konvensiya. *Ko‘ngil bir zum ochilmaydir, Xayol q o ch q i n kabi daydir, Qo‘lim bog‘lab parishonlik Qalam olmoqqa qo‘ymaydir.* M.Jalil, Parishonlik. *Qayiqlarni ham boshqa q o ch q i n navkarlar va beklar tortib olishdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *...Negaki u mahalda bosmachilar deysizmi, o‘g‘ri-muttahamlar deysizmi, yoxud q o ch q i n d i kallakesarlar deysizmi – xullas, hukumatning odil mushtidan qochgan barcha muttahamlar tog‘ning xilvat joylarida pashshadan ham ko‘payib ketgan edi*. O.Yoqubov, Ota izidan. *Urush tugagan bo‘lsa ham, shaharda yetishmovchilik ko‘p, q o ch q i n d i-quvg‘indi, bezori va o‘g‘rilar yetarli...* R.Bobojon, Muhabbat mezoni.

QUL, G‘ULOM, QAROL, BANDA, BATRAK Butunlay xo‘jayinga qaram bo‘lgan xizmatkor; kimsaga ko‘r-ko‘rona xizmat qiluvchi. **G‘ulom, qarol** so‘zlari ham **qul**ga nisbatan kam qo‘llanadi, asosan, tarixiy mavzudagi matnlarda uchraydi.

Tunda u Shahobiddinga kishi yuborib, kanizak so‘radi. Bu iltimos bichilgan q u l Mahfuz orqali ma’lum qilindi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Uyg‘onmoqda*

sonsiz g‘aflat tutqunlari! Bulutlarda qizarish, q u l lar ko‘nglida toshqin... Mirtemir, Shu’la. *Sulton Malikshoh Isfahon shahriga ziyoratga borib bir manzilga kelib tushdi. Uning g‘ u l o m lari o‘sha kecha bir qari ayolning sigirini o‘g‘irlab, so‘yib yedilar.* B.Ahmedov, Ajdodlar o‘giti. *Xudoning birligiga, sho‘r taqdirning g‘ u l o m i ekanligimizga shahodat keltirib, shu ishni qilmoqdan boshqa yo‘l topa olmadim. Ollohu akbar! Qani, yo bismilloh!* O.Toshboyev, Kiprik soyasi. *Kechki ovqat oldida, nim qorong‘ilikda, q a r o l va mardikorlar tiz cho‘kib, qo‘llarini qovushtirib o‘tirishdi, ularning boshlari egilgan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Barimiz rus klassiklarini o‘qib katta bo‘lganmiz. Tolstoy, Turgenev, Chexov asarlarida pomeshchiklarning ajoyib obrazlari bor. Ularning aksari Peterburgda yashadi, qishloqda esa falon desyatina yeri, yuzlab q a r o l lari bor edi.* N.Rahmat, Go‘rkov. *Axir qiynalar-ku bir kun vijdoning, Elga ayon bo‘lar narxi arzoning. O‘shanda qolg‘aymu nom-u nishoning, O, mansab b a n d a si, mansab b a n d a si!* M.Yusuf, Saylanma. *Yillarning jabrini tortgan b a n d a lar turgan o‘xshaydi... Isyonsiz zanjirlar uzilmasligin bilgan o‘xshaydi...* Mirtemir, Boq. *Men Qo‘qonning Qumqishlog‘ida bir b a t r a k oilasida tug‘ilganman.* Oydin, Hikoyalar. *Har biringizda dang‘illama saroylar, qo‘sha-qo‘sha qayrilma qosh xotinlar, behisob b a t r a k lar bo‘ladi*. X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar.

Q

QUMG‘ON, CHOYDISH, CHOVGUN(M), TONQA (TANQA) Ko‘zasimon dastali va qopqoqli, choy qaynatish uchun ishlatiladigan idish. **Choydish, chovgun** so‘zlarida choy qaynatishga daxldorlik ta’kidi ochiqcha aks etgan. **Tonqa** – shevaga xos so‘z.

Lekin go‘ristonga pichoq emas, q u m g‘ o n olib borasan. Onhazratim sag‘anasi oldida qumg‘on qaynatib, bitta choy damlab kelasan, maylimi? A.Qahhor, Dahshat. *Chakmonini yelkasiga tashlab, q u m g‘ o n tagiga o‘t qalayotgan paromchi chol ot dukurini eshitib o‘rnidan turdi: – Keling, mehmon, yo‘l bo‘lsin?* S.Ahmad, Iqbol chiroqlari. *O‘rnidan turib, bet-ko‘zini yuvdi, o‘choqqa o‘t yoqib, ch o y d i sh ni qo‘ydi, so‘ngra tashqari eshikni yopib qo‘yib, sekingina uy tomonga bordi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ana, ayvon boshida o‘choq. Unda bobomdan qolgan mis ch o y d i sh da choy qaynatilardi. Momom choynakka choy damlagach, cho‘g‘ga qo‘yar, jo‘mragidan pirqillab suv tosha boshlasa, qozonsochiq bilan tagini artib, dasturxonga keltirar edi.* Sh.Xolmirzayev, Ota yurt. *Ikkita-uchta ch o v g u m ni eritib, o‘zlarini Xudo bir asragan. Qishloqda gazga o‘rganmaganlar-da, ch o v g u m ni olovga qo‘yib, esdan chiqarib ketaverganlar.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Qorayib ketgan uchta t o n q a ni mesh suviga to‘lg‘azib, olovga tiqishtirib qo‘yishdi*. E.Samandar, Tangri qudug‘i. *Uzoqlardan ko‘zga tashlanayotgan, Qoraqum yoki Qizilqum cho‘llarida yonib turgan gulxanga yaqinlashib, bag‘rikeng cho‘ponning qaynoq t a n q a choyidan labimiz kuygancha ho‘plar ekanmiz,*

ojizligimizdan ko‘zlarimizga beixtiyor yosh quyiladi. Sh.Bo‘tayev, Igor Savitskiy yoxud Orfey iltijosi xaloskori.

QUNT, HAFSALA Biror ish-harakatni astoydil berilib, sabr-toqat bilan bajarish ishtiyoqi. **Hafsala** so‘zi ma’nosida juda astoydillik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Eshonxon qo‘njidan bir latta chiqarib, q u n t bilan etiklarining changini arta boshladi. – Ishim olchi, amaki, obro‘ katta, boyning jilovi qo‘limda, chizgan chizig‘imdan chiqmaydi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Enam ovqat yeb bo‘linganida, ushoqlarni q u n t bilan to‘playdi, keyin akamga, ba’zan menga beradi.* I.Sulton, Qismat. *Ba’zi birovlar, ayniqsa, bilmagan begonalar tog‘amizga ishi tushganda payg‘ambarimizning muborak nomlarini aytardi-yu, ummatlarining asl ismiga kelganda h a f s a l a si yetmasdi*. E.A’zam, Bizning tog‘a. *Halim ham shoshilmasdan dam olishga hozirlandi: odmigina kostyumini bosh tomondagi ilgakka ildi, tuflisini h a f s a l a bilan yechib, patnisnusxa yig‘ma stolcha tagiga avaylabgina qo‘ydi*. L.Bo‘rixon, Yalangoyoq.

QURB, CHAMA, CHOG‘, HOL, KUCH, QUVVAT, QUDRAT Qodirlik layoqati. **Chama, chog‘**da qodirlik darajasi **qurb, hol** so‘zlariga qaraganda past. **Kuch, quvvat** so‘zlarida qodirlik darajasi **qurb, hol** so‘zlariga qaraganda yuqori. **Qudrat** so‘zida qodirlik darajasi **kuch, quvvat** so‘zlaridan ham yuqori. **Chog‘** bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Chama** so‘zlashuv uslubiga xos.

Akobirov hech kimga arz qilmadi. Arz qilsa, agar xohlasa – sendek bir bezorini kino sohasi-ku, mayli, Toshkentdan ham uchirib yubormoqqa q u r b i yetardi. E.A’zam, Shovqin. *Yo tavba! Zebi-ziynat haqida yo birorta qimmatbaho buyum haqida gap ketganda pulning yuziga qaramaydigan erining bunchalik xasisligini ham Nilufar bugun ko‘rdi, ko‘rdi-yu, bir og‘iz e’tiroz bildirishga, “Sizdan boshqa kimga boradi bu bechora, yordam berib yuboring!” deyishga q u r b i yetmadi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Quruq va’da bilan qutulaman dema, o‘rtoq, Oldin ch a m a ngga boq, so‘ng nog‘ora qoq*. Maqol. *To‘yga odam ko‘p keladi, Izzat ko‘ray deb keladi, Qulen bo‘lis o‘pkaladi, Kelmadimi ch a m a ng sening?* Berdaq, Odil qalmoq. *Qo‘yib bersa, Bozorboydan ham uncha-muncha undiradigan ch o g‘ i bor*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ch o g‘ im yetmas chog‘lasam, Oftob erir taftidan. Kechagina, xohlasam, Suv ichardim kaftidan.* M.Yusuf, Zebi, Zebi... *Oqibat – mehmonlar oldiga qo‘yar h o l i qolmaydi.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *O‘z navbatida, Marvarid ham biron da’vo-talab qo‘ymagan, aftidan, bunga jur’ati, hattoki botinishga h o l i yetmagan edi*. O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Uning oxirgi k u ch i boyagi so‘zlarni aytishga sarf bo‘lgan edi.* P.Qodirov, Meros. *K u ch ing bo‘lsa yurakka qo‘l sol. Qudratingga qoyil bo‘layin. Ayamayin, mayli barin ol, Hech ayamayin*. Mirtemir, Qoya. *E xudo, o‘zingga tavallo qilaman, menga yana ozgina kuch ato qil, bilaklarimga q u v v a t ber!* X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Qiziq,*

tanidagi og‘riq ham xuddi qo‘l bilan sidirib olgandek yo‘q bo‘ldi, vujudiga allaqayerdandir kuch, q u v v a t oqib kelayotgandek... X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Men esa uni qayta-qayta o‘qib berishdan charchamasdim, aksincha, o‘qiganim sayin qandaydir kuch yuragimga oqib kirar va tanamda g‘oyibona q u d r a t paydo bo‘lardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Men ularga Tursoriya haqida... odamzotning q u d r a t ini namoyish etish uchun qurilgan minoralari... haqida so‘zlardim.* N.Eshonqul, Tun panjaralari.

QURIMOQ, QUVRAMOQ, QOVJIRAMOQ, QURUQSHAMOQ, QAQRAMOQ, SELGIMOQ (SERGIMOQ) Nami kamaymoq, namligi butunlay yo‘qolmoq. **Quvramoq, selgimoq** xalq tilida ko‘p ishlatiladi, **selgimoq**, asosan, yer, tuproqqa nisbatan qo‘llanadi. **Qovjiramoq, qaqramoq**da belgi darajasi **qurimoq**qa qaraganda yuqori, **qovjiramoq**, ko‘pincha o‘t-o‘simliklarga nisbatan qo‘llanadi. **Qaqramoq** sahro, cho‘lga va tomoqqa nisbatan qo‘llanadi. **Quruqshamoq**da belgi darajasi **qurimoq**qa qaraganda kamroq va, asosan, lab, tomoq va boshqa tana a’zolariga nisbatan qo‘llanadi.

Q u r i b qovjirab qolgan qiyoqlar bir gurullab alangasi savag‘ich uchidagi popukni o‘t oldirdi. S.Ahmad, Ufq. *Qadlarin rostlab qolar bukchaygan daryolar ham, chiqajak yer qinidan irmoqlar xanjarlari, shodlikday gullasin deb, q u r i gan og‘ochlarning joni yo‘q panjalari.* Sh.Rahmon, Saylanma. *Xalq nihoyatda qizishdi. Go‘yo birisi q u v r a gan to‘qayga o‘t tushdi. Ho‘l-u quruq deganlaridek katta-kichik barobar yonmoqqa oldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Tepada oftob qizdirar, tevarak-atrof kimsasiz – devorlar ostidan yulinmay qolib q u v r a gan o‘t-o‘lanlarni makon qilgan chirildoqlar chirillashi quloqqa chalinadi.* Sh.Bo‘tayev, Men, onam va bolam. *Qabr atrofidagi ko‘kalamzor maydon ham Akbarning ko‘ziga qayg‘udan xazon bo‘lib q o v j i r a b turganday ko‘rinadi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Yorug‘ dunyodan armon orqalab ketish ulkan musibat, buni teran anglagan Mo‘ysafid darada tuyasini qantarib, q o v j i r a gan maysada muk tushgancha, bo‘zlay-bo‘zlay Xudoga yolboradi.* A.Dilmurod, Mezon burji. *Bobur binafsharang poyandozga qadam qo‘yganda q u r u q sh a b ketgan tomog‘ini ho‘llamoqchi bo‘lib yutindi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Olya chuqur botgan ko‘zlarini bir ochib yana yumdi, q u r u q sh a gan lablarini yalab: “Sovuq”, deb pichirladi.* O.Yoqubov, Izlayman. *...ayqash-uyqash barxanlar oralab ilgari bosar emish, sudrala-sudrala shunaqa charchabdiki, butunlay tinkayi madori qurib, tomog‘i q a q r a b ketibdi.* A.Dilmurod, Mezon burji. *Qani endi bu q a q r a gan cho‘l aro bir zilol suvli quduqqa duch kelsam-u undan qonib-qonib ichib tashnaligimni qondirsam*. U.Hamdam, Bir piyola suv. *Juvon suv yuqi s e l g i shini kutib qo‘llarini yoniga osiltirdi, keyin boshi barobar ko‘tarib quyoshga tutdi*. X.Do‘stmuhammad, Vasiy. *Alimardon erta uyg‘ondi. Yomg‘ir tinganidan beri havo tiniqlashib, yerlar s e l g i b qolgan edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Avval peshonasi – ikki ko‘krak orasi s e r g i b qurib qoladi.* B.Qobul, Ena shamol.

QUROL, ASLAHA, YAROG‘, SILOH Jang, urush asbobi. **Aslaha yarog‘** yakka holda kam qo‘llanadi, asosan, **qurol** so‘zi bilan juft so‘z hosil qiladi: **qurol-aslaha qurol-yarog‘**. Bu juft shakllar otadigan, chopadigan jang qurollarini umumlashtirib ifodalaydi. **Yarog‘, siloh** – eskirgan so‘zlar.

Unda Xolmatjon hali yosh bola edi. Endi o‘zi voyaga yetib, yurt ishiga yaragan, qo‘liga q u r o l olib jangga kirganida buvisi ko‘z yumdi. S.Ahmad, Ufq. *– Nari tur, eshonvachcha! – dedi Soat nafrat bilan. – Nega qochding? Nega q u r o l ingni tashlading?* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Bosh ko‘targan odam yo‘q – cheksiz dashtda jasadlar, kallalar, otlar, a s l a h a lar... to‘kilib, to‘planib yotardi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Birdaniga yoppasiga jangovar safarbarlik boshlandi. O‘rganib ketilgan harakatlar bilan a s l a h a va qurollarimizni olib safga tizildik*. I.Sulton, Askar. *To‘yib erkning quchoqlarini, Sokin o‘tda yonar ko‘zlarim. Yalang‘ochlab y a r o g‘ larini, Atrofingni o‘rar do‘stlarim*. U.Azim, Saylanma. *Lekin uning keksa odamligi, y a r o g‘ ini tashlab, yerga o‘tirib olgani yosh sarbozning yuragiga g‘ashlik soldi*... Mirmuhsin, Temur Malik. *Buning orqasidan qizil movutdan shahzoda kabi kiyinib, s i l o h taqing‘an va har qatorg‘a to‘rt nafardan terilgan o‘n olti-o‘n yetti yashar, yosh va xushro‘y sipohlar chiqdilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Nahot parchalanmas, bu toshlar sinmas, Kimsan, o‘zligingdan qil meni ogoh. S i l o h lar, zanjirlar olami tinmas, Qayon oqmoqdasan, ey, olampanoh?* R.Parfi, Siyovush faryodi.

QURUQ, QURG‘OQ, QOQ, QOVJIROQ, SUR Namligi qolmagan, ho‘lning aksi. **Qoq** so‘zida belgi darajasi **quruq** va **qurg‘oq**qa nisbatan kuchli. **Qurg‘oq** shevalarda faol ishlatiladi, o‘ta issiq yoz mavsumi yoki dashtlarga nisbatan qo‘llanadi. **Qovjiroq,** asosan, o‘simliklar, inson tana a’zolariga nisbatan qo‘llanadi. **Sur** so‘zi suvi qochirilgan go‘sht, baliqqa nisbatan qo‘llanadi.

Tohir chakmonning tagidan qo‘ltig‘iga qisib olib kelgan q u r u q poxolni shu cho‘g‘ga tutdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Nazokat tikanli, q u r u q changalzor ichidan chiqib qoldi...* A.Muxtor, Opa-singillar. *Q u r g‘ o q dasht shamoli paydar-pay esar, har yer-har yerda o‘sgan daraxtlarning qurigan yaproqlarini band-bandidan uzib uchirar va oyog‘im ostiga to‘zon qilib urar edi*. I.Sulton, Hazrati Hizr izidan. *Demak, taqsimotchi mirob hazilakam odam emas. Ayniqsa, yil q u r g‘ o q kelgan yoz oylari u raisdan oldingi bo‘lmasa-da, keyingi arbobga aylanadi*. E.A’zam, Suv yoqalab. *Dunyoga qayta kelishimga ko‘zim yetsaydi, Yigit yoshim to‘lmay turib, Ayriliq zaylida q o q yog‘ochday qurib Jon bergan onamni ko‘rishimga ko‘zim yetsaydi...* Mirtemir, Onaginam. *Dildor kela turib tut tagidagi q o q kesakka qonga o‘xshash bir nima tomganini ko‘rdi-da, to‘xtadi.* S.Ahmad, Ufq. *Bu ilk kuz yomg‘iri edi. Q o v j i r o q ko‘katlar-u daraxtlarning turfa hidi atrofga anqib ketdi*. Sh.Xolmirzayev, Hayot abadiy. *Nur qo‘rboshi q o v j i r o q lablarini qimtib, mushukdek pusa-pusa ilgarilab*

borarkan, yugurik qo‘llari beixtiyor yarog‘ izlab paypaslandi. L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Ot go‘shti, sigir go‘shti, echki go‘shtlari, ayniqsa, tuzlik s u r go‘shtlar bo‘lsa, ko‘p ziyon qilur.* A.Sog‘uniy, Shifo ul-ilal. *Qozoq qizi tutgan qimiz, qalbidek sof, Esdan chiqmas s u r qazining to‘g‘ramchasi.* S.Abdulla, Saylanma.

QUSMOQ, QAYT QILMOQ Yegan-ichganini qaytarib tashlamoq. **Qayt qilmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos, faqat odamga nisbatan qo‘llanadi. **Qusmoq** jonzotlarning shunday holatiga nisbatan ham qo‘llanadi.

Otabek shoshib tokchadag‘i xitoyi norin tovoqni oldi. Kumush q u s di. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ota turna esa bolalari o‘rtasiga kirib, g‘ut-g‘ut deya yerga q u s di. Turnachalar ota jig‘ildonida hazm bo‘lmagan, ho‘l, yutumli xo‘rakni cho‘qib-cho‘qib yemoqqa tutindilar.* Sh.Xolmirzayev, Cho‘loq turna. *Mansur ham ichdi-yu, saldan keyin uzr so‘rab turdi. Tanish butaning orqasiga o‘tib, q a y t q i l di.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Bodringdek bir narsa biqiniga botib, to‘satdan sanchiq kiradi. Oxiri og‘zi taxirlanib, ko‘ngli behuzur bo‘ladi. Q a y t q i l adi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar.

QUTULMOQ, BO‘SHAMOQ, OZOD BO‘LMOQ, XALOS BO‘LMOQ, XOLI BO‘LMOQ, FORIG‘ BO‘LMOQ Ko‘ngilsiz, og‘ir, xavfli va sh.k. holatlar ta’siridan chiqmoq. **Qutulmoq, bo‘shamoq, xoli bo‘lmoq** so‘zlashuv tiliga xos, **ozod bo‘lmoq, xalos bo‘moq** ko‘proq publitsistik, **forig‘ bo‘lmoq** badiiy uslubga xos. **Ozod bo‘lmoq, xalos bo‘lmoq** so‘zlarida tutqunlikdan chiqish ta’kidi yaqqol anglashiladi.

Uch kundan so‘ng Shoqosim tilanchilikdan q u t u l di. Oybek, Tanlangan asarlar. *Oqsoqol bundan ham nozik joylardan osonlikcha q u t u l ib ketgan edi. Ammo bugungisi u qadar nozik bo‘lmasa-da, q u t u l ishning iloji yo‘q edi.* S.Ahmad, Ufq. *Dadamni bir yilga qamashgan ekan, boshliqlari insofliroq bo‘lsa kerak, oilangda bayram qilaqol, deb muddatidan avvalroq b o‘ sh a tib yuborishibdi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Mirhosil ham ular ketiga tushmoqchi edi, oshnalari b o‘ sh a tishmadi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Qandoq o z o d b o‘ l ar insoniy qadr, Boylik bandalarin dast panjasidan.* H.Sa’dulla, Tanlangan asarlar. *Inson tug‘iladi asli belibos, Bir parcha et bo‘lib kelar jahonga. Libos-u hashamdan b o‘ l gay u x a l o s, Ketar chog‘ida ham so‘nggi makonga.* A.Oripov, Umr. *G‘alayonga to‘la vujuddan oxir dunyo b o‘ l adir x a l o s. Yer ostiga kirib ketarman barcha mo‘min bandalarga xos...* Sh.Rahmon, Avj. *To‘rtinchi kun uy mehmondan x o l i b o‘ l ib, yigit zerikdi va ishtonini lippa urib, soyga tushdi.* Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida. *Armonning gullari sap-sariq, Sariqqa to‘ldi-ya, bu borliq, Men qancha baxtqaro bo‘lsam, ayt, G‘ussadan b o‘ l asan sen f o r i g‘.* U.Azim, Saylanma. *Sen ham harsillab qolding, charchading, inim, mayli, qamchini labi kemtik jo‘rangga ber, u ham ursin, ayt, qattiqroq ursin, o‘rmasi har sermab o‘tganida yag‘rinimdan par-*

cha-parcha et uzib olsin-u men uyg‘onib ketay, tushdan f o r i g‘ b o‘ l a y... M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda.

QUVNOQ, XUSHCHAQCHAQ Xursandlik holatidagi, xursandchilikka to‘la. **Quvnoq** ham inson, ham jarayon, ham mavhum tushunchalarga nisbatan qo‘llanadi, **xushchaqchaq** so‘zi, asosan, insonga xos xislatni ifodalaydi.

...Chunki ulardagi bosh qahramonlar – ayollar kelajakka qandaydir ishonuvchi, kishilar uchun bir ish qilish istagida yurgan, q u v n o q ayollar bo‘lardi. Sh.Xolmirzayev, O‘n sakkizga kirmagan kim bor? *Ko‘pchiligi har yoqqa to‘zib ketib, sinfdoshlardan sanoqligina qolgan ekanmiz: yigirma yoshligini nishonlayotgan Rafik, qurilishda shofyorlik qiladigan Fotih – Fatik tatar, hamshiralikka o‘qib, tuman kasalxonasida ishlayotgan q u v n o q Svetka, maktabni bitirar-bitirmas mahalliy bezori Yurka paxanga teggan Larisa, bugungi bazmga atay “odamga o‘xshab” oq ko‘ylak kiyib kelgan Yuraning o‘zi va yozgi ta’tilda yurgan Shavkat bilan men.* E.A’zam, Shovqin. *Kasallik, o‘lim to‘g‘risidagi gap tugab, x u sh ch a q ch a q suhbat boshlanishiga ilhaq bo‘lib turgan Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi.* A.Qahhor, Ming bir jon. *Abdusamad ismli x u sh ch a q ch a q childirmachi yigitning kula-kula aytishicha, chol meni “O‘zi yomon bolamas-u, mafkurasi chatoqroq ekan-da”, deganmish.* E.A’zam, Shovqin.

QUYON, TOVUSHQON Quloqlari va oyoqlari uzun sutemizuvchi hayvon. Barcha uslublarda **quyon** so‘zi faol. **Tovushqon** – shevaga xos so‘z.

Makiyon burgut... tuyatosh yonida barra maysalarni chimdiyotgan kulrang q u y o n ni diqqat bilan kuzatardi. S.Is’hoq, Sadoqat toshi. *Qo‘rqoq edi, bola paqir. Q u y o n ham bunga qaraganda yurakliroqdir.* T.Malik, Xazonrezgi. *– T o v u sh q o n! Muallim, tovushqon! – qichqirib keldi bolalardan biri. Archa tagidan sapchib chiqqan dumi sarg‘ish, ko‘kishgina quyoncha quloqlarini bo‘yni tomon yotqizib olib, olatasir qochib qoldi*. Sh.Xolmirzayev, O‘n sakkizga kirmagan kim bor? *Bundan tashqari, qumliklarda burgutlar sevib ov qiladigan t o v u sh q o n lar, yumronqoziqlar, kalamushlar ko‘p*. A.Suyun, Sahro o‘rtasida to‘ntarilib yotgan toshbaqa.

QUYOSH, KUN, OFTOB, SHAMS, XURSHID, BAYZO Termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorug‘lik va issiqlik tarqatuvchi ulkan gazsimon shar shaklidagi yoritqich. **Kun** oddiy so‘zlashuvda faol. **Oftob** ham kitobiy, ham so‘zlashuvda faol. **Shams**, **xurshid** so‘zlari poetik nutqqa xos. **Bayzo** – eskirgan so‘z.

Osmon boyagiday musaffo, q u y o sh charaqlab, haroratini beomon purkardi. Q.Kenja, Toshqin. *Bu gapga maydonchada bor odam, sal narida – adirlikning kungayida somon qalpog‘ini yuziga qoplab, oppoq badanlarini q u y o sh ga toblab yotgan bekorchi kinoxonimlargacha – bari negadir kulib yubordi.* E.A’zam, Shovqin. *O‘zi k u n botib, qosh qorayib qolgan edi...* O.Yoqubov, Adolat manzili. *K u n chiqish tomondagi to‘rt qavatli bino ustidan ko‘tarilgan*

quyosh ko‘chalarni nur seliga ko‘mib yuborgan, odamlar o‘zlarini daraxtlarning soyasiga ura boshlagan edilar. O.Yoqubov, Adolat manzili. *Tong endi otgan, hali o f t o b chiqmagan bo‘lsa ham, ko‘pchilik beklar va mulozimlar devoni omda hozir erdilar*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xudo hech bir bandasining boshiga solmasin, bunday notinch mavridlarda soat ham imillab yurar ekan, osmondagi o f t o b ham joyidan jilmay turib qolar ekan!* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Kurrayi arzning Sh a m s atrofida aylanajagini aytaman, deb edingiz. Bu hodisani qanday tafsir etmoq kerak?* T.Malik, Falak. *Sh a m s ila olamni qizdiradi kun, Birgina oy ila olamni yoritar osmon...* Oydinniso, Afv. *Ey o‘shal x u r sh i d yanglig‘ tal’atingdin o‘rgulay, Zulfi rayhoning bilan xol-u xatingdin o‘rgulay.* Muqimiy, Tal’atingdin o‘rgulay. *Bo‘ldi osmoning charog‘on Tole x u r sh i d i bilan, Bo‘ldi asriy tiyra shoming Shu’la afshon, o‘zbegim.* E.Vohidov, O‘zbegim. *Isming – shahristonni isitgan b a y z o, Aytsam sen kelmaysan – bitmas karashma.* I.Mirzo, Chorlasang.

QUYUN, UYURMA, GIRVAT, GIRDIBOD Aylana bo‘lib harakatlanadigan shamol. **Uyurma** ko‘proq termin sifatida qo‘llanadi. **Girdibod** kam, asosan, tarixiy asarlarda uchraydi. **Girvat** – shevaga xos so‘z.

So‘zlashar cho‘lga ilk kelgan kunlardan, Qora ayozlardan, qum q u y u n lardan. Mirtemir, Chollar. *Oh, shoir umriga havas qilmagil, U q u y u n ichida ungan bir daraxt*. A.Oripov, Shoir umri. *Aniqroq aytganda, Yer bag‘ridagi suyuq oqimda vaqti-vaqti bilan u y u r m a lar hosil bo‘lib turadi. Ana shu u y u r m a lar o‘zaro ta’sir tufayli bir-birini kuchaytirishi mumkin...* A.A’zam, Fan va din: qayta tirilish. *Oqibatda havoning burama holida osmonga o‘rlaydigan va Yer yuzasida shiddat bilan ko‘chib yuradigan ingichka ustunli u y u r m a si paydo bo‘ladi.* “Mo‘jiza kitob”. *Me’morning ko‘z oldida g i r v a t-u bo‘ron kashf etgan mislsiz bir qasr turardi*. Mirmuhsin, Me’mor. *G i r v a t day aylanar zulm dunyosi... qa’ridan anqirdi qora ter hidi, go‘yoki bu qadim yo‘llar xudosiz, go‘yoki butun bir elim berk edi*. Sh.Rahmon, Saylanma. *Me’mor Horunbekka qaradi: – Huv anavi tomonga qarang, u g i r d i b o d emasmi? – G i r d i b o d! – dedi Horunbek*. Mirmuhsin, Me’mor. *Jasoratni qaydan olay yurakka Og‘amni tuproqqa erta berdim, o! Zaqqum g i r d i b o d da qolganda yakka, Sening ostonangda bo‘laman paydo.* M.Mirzo, Do‘st qadri.

QUSH, PARRANDA, MURG‘, TAYR Umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan, uchishga layoqatli sinfi. Shu sinfning tirik vakillarini ifodalashda ikkala so‘z ham nutqda faol. Shu sinfga mansub jonzot go‘shtini ifodalash uchun **parranda** so‘zi faol qo‘llanadi, **qush** so‘zi bu birikuvda kamfaol. **Murg‘**, **tayr** – eskirgan so‘zlar.

Yigit qora q u sh larni ko‘rdi-yu, birdan sergaklandi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Allaqanday mayin, muloyim jimjitlikni atrofda sigir, buzoqlarning ma’rashi, da-*

raxtlar orasidan q u sh larning ora-sira yangrab, yana bir zumda tingan sayrashi buzadi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Tong chog‘i turardim q u sh lardan burun, Tinglay deb p a r r a n d a kuyini sahar*. Mirtemir, Qizg‘aldoq. *Senga ayon axir, p a r r a n d a Hasharotdan bo‘lgandir bunyod.* E.Vohidov, Faryod. *Kim qilib Simurg‘ o‘ttuz qush havas, O‘zlarin ko‘rdilar ul s i m u r g‘ u bas*. Navoiy, Lison ut-tayr. *Tabassum qildi yoqut birla gavhar huqqasin ochdi, Hushim qochdi, jamolin bandiga m u r g‘ i hushim tushdi*. Chustiy, Saylanma. *Bor emish qaqnus degan bir turfa t a y r, Hind mulkida anga orom-u sayr*. Navoiy, Lison ut-tayr. *Jufti bo‘lmas hech qush, payvandi ham, Hech t a y r o‘lmas oning monandi ham*. Navoiy, Lison ut-tayr.

QUCHOQ, QO‘YIN, BAG‘IR, OG‘USH, PINJ Kishining o‘zgani quchishi, o‘rashi bilan hosil bo‘ladigan holat. **Quchoq**da qo‘llarning ikki tomonga keng yoyilishi nazarda tutiladi, **qo‘yin, bag‘ir, og‘ush, pinj**da qo‘llar harakati nazarda tutilmasligi mumkin. **Bag‘ir**, asosan, so‘zlashuvda qo‘llanadi, **qo‘yin, og‘ush** poetik nutqqa xos. Bu sinonimlar egalik shakllaridan birini olib faol qo‘llanadi. **Pinj** so‘zi ko‘pincha *pinjiga kirmoq, pinjiga suqilmoq* fe’llari tarkibida uchraydi, unda kishining yon tomoni ta’kidi bor.

Ergashvoy to‘ng‘ich o‘g‘lini yoniga olib, arrakashlik qilib, q u ch o q qa sig‘mas g‘o‘lalardan taxta tilardi. S.Ahmad, Azob. *Xonzoda begim ikki yarim yashar Akbarni q u ch o g‘ iga bosib, qulog‘iga shivirladi…* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Muhabbat bog‘iga kirmadim bir bor, Suyib bir gulga qo‘l urmadim bir bor. Endi tunlar yig‘lar menga qo‘shilib, Ko‘nglimda bir yor-u q o‘ y n i mda bir yor*. M.Yusuf, Ko‘nglimda bir yor. *Sodiq q o‘ y n idan qog‘oz-qalam chiqarib nimadir yozdi.* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Paxtazor q o‘ y n iga cho‘kmish farahli bir tun, Egatlar oralab esar sarin shaboda.* B.Boyqobilov, Hayot mahzani. *Qayiq bir gal pista po‘chog‘i bo‘lib o‘ynaganida hushimdan ketgan ekanman, qayiqni ham, meni ham qo‘yvormay balo-qazodan saqlagan keksa xizmatkorimning b a g‘ r ida o‘zimga keldim.* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Farhod ijirg‘anib ketdi: he, sen ham shu irkit cholning b a g‘ r iga otilmay o‘l-a!* E.A’zam, Shovqin. *U Hikmatilloga shunday yaqin turardiki, yengsiz koftasini turtib chiqqan bo‘liq ko‘kraklari yigitning ko‘ksini tobora yondirib borar, umrida birinchi marta qiz quchgan sodda qishloq yigiti butun vujudi bilan hozirgina o g‘ u sh ida bo‘lgan qizning allaqanday silliq, durkun gavdasini his etib, titroqqa tushgan edi!..* O.Yoqubov, Billur qandillar. *U o‘zini yo‘qotib qo‘ygan, Alimardonning o g‘ u sh ida talpinar, ammo chiqib ketolmas edi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Sarin shabadalar tunning pardasin Alvon shafaq sari surgani chog‘da, Bolakay nihoyat suyuk otasin P i n j ida ketadi shirin mudroqqa...* M.Mirzo, Xotirot. *Har gal Tursunoy Ikromjonning shu kabi har gapiga ters javob bersa-da, keyin xayolchan bo‘lib qolar, ne bir intilish bilan*

goho uning pinjiga tiqilar va oralarida o‘sha suhbatlarning tamom aksi bo‘lar edi. Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor.

QUCHOQLAMOQ, QUCHMOQ, ACHOMLAMOQ, ACHOM QILMOQ, BAG‘RIGA BOSMOQ, BOVURLASHMOQ O‘z quchog‘iga olmoq. **Quchoqlamoq, quchmoq, achomlamoq, achom qilmoq**da qo‘llar harakati nazarda tutiladi, **bag‘riga bosmoq, bovurlashmoq**da qo‘llar harakati nazarda tutilmasligi mumkin. **Quchmoq**da poetik ifoda bor. **Achomlamoq**, **achom qilmoq** bolalar tiliga xos, oddiy so‘zlashuvda faol. **Achom-achom qilmoq** tarzida qo‘llanganda, harakat-holat yanada kuchli ifodalanadi. **Bovurlashmoq** kam qo‘llanadi.

– Ha, qochoq! – dedi Farhodga yuzlanib va so‘mka-po‘mkasi bilan kelib uni q u ch o q l a di-da, chakkasini bo‘saga tutdi. E.A’zam, Shovqin. *– Zahar! – birdan qichqirdi Gulsumbibi. – Qay tig‘iparronga uchragur, sani zaharlaydi. Sho‘rim qursin! Zahar! – Tizzaga urib, qizini q u ch o q l a di ona.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qabrni q u ch ib nola qilayotgan Azizxonni Tog‘a kelib bilagidan ko‘tardi.* S.Ahmad, Ufq. *Men bugun barini bir-bir q u ch arman, Yuragi kuyuklar uchun icharman!..* M.Yusuf, Qadahso‘z. *– Uyg‘ondingmi, toylog‘im, – so‘radi bobom. Uyqusirab turgandim, shunday bo‘lsa ham yugurib borib bobojonimning bo‘ynidan a ch o m l a b oldim.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Ikkisi a ch o m l a shdi. Rahbar mehmonni idoraning poyigacha kuzatib qo‘ydi.* Sh.H.Ismat, Chalinmagan chanqovuz. *Qurbonoy xola bo‘ynidan a ch o m qilib yotgan nevarasini uyg‘otib yubormaslik uchun sekin qaddini rostladi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Ikki dugona a ch o m-a ch o m q i l adi, hol-ahvol so‘rashadi.* E.A’zam, Stupka. *Birozdan so‘ng uni qizi Zarifa uchun olganini, buni ko‘rib u qanchalar xursand bo‘lishini va a ch o m-a ch o m qilib, yuzlaridan muchchi olishini o‘ylab shu qadar sevindiki, quvonchi ichiga sig‘madi.* F.Farhod, Miqnotis. *U o‘g‘lini ko‘rganda, yuragi uvushib og‘rib, to uni b a g‘ r i g a b o s ib yig‘latib, o‘zidan bezdirmaguncha qo‘lidan qo‘ymaydi.* Sh.Xolmirzayev, Farzand. *– Rostmi?! – Murod uni b a g‘ r i g a b o s ib, dast ko‘tarib oldi-da, uyni ikki marta aylantirib chiqdi.* S.Ahmad, Alla. *To‘yga tevarakdagi ovullar yoppa xabar qilindi. Biri qo‘y, biri echki yetaklab keldi. To‘y bahona ko‘rishib-tanishib, b o v u r l a shdi.* M.Burxonov, Ikki tog‘ orasida.

QO‘L, ILIK, AL, DAST Odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo‘lgan qismi. **Ilik, al** – eskirgan so‘zlar. **Al** o‘g‘uz shevalarida ham ishlatiladi. **Dast** nutqda kam qo‘llanadi.

Uning bo‘yi baland edi – q o‘ l ini bort taxtasidan olar-olmas uzun oyoqlari yerga kelib tushdi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Qadamlar yengil, q o‘ l lar qush qanotlaridek uchag‘on – suv olyapti, pilla uzyapti, atlas to‘qiyapti, paxta teryapti.* Mirtemir, Raqs. *“Shul yoshdin kitobga muhabbat qo‘ysa, ulg‘aygach, albatta,*

kitobni i l k i dan ayirmay o‘zi bila asrab yurg‘ay”, deb o‘yladi ota shiringina, do‘mboq o‘g‘lidan ko‘zini uzolmay. M.Osim, Zulmat ichra nur. *...Akbar jallodni chaqirdi-yu, g‘azab bilan buyurdi: – Bu ablahning chaqimchilik qilgan tili, xoinlik qilgan i l i k lari, Bayramxonni o‘limga boshlab borgan oyoqlari bir-bir kesilsin...* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *– To‘ydim, ota, ko‘p yedim, – dedi Polvon va gapni davom etdirdi, – a l imdan kelgancha ko‘maklashaman*. J.Sharipov, Xorazm. *Til uzun, agarchi kalta d a s t lari Garchi o‘tkazmagan birorta nihol. Ag‘darib hayotning avra-astarin, Qusur qidirishda ular ko‘p faol*. H.Sa’dulla, Ular.

QO‘MONDON, SARKARDA, LASHKARBOSHI Harbiy qism yoki qo‘shin boshlig‘i. Harbiy terminologiyada **qo‘mondon** so‘zi qo‘llanadi. **Sarkarda**da poetik ma’no mavjud. **Lashkarboshi** – eskirgan so‘z, tarixiy matnlarda uchraydi.

O‘rtada, zaxira qo‘shinlar, daler bahodirlar qurshovida bosh q o ‘ m o n d o n qarorgohi ummondagi buyuk bir orolday siljib boradi. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Lekin Sho‘ro bobo shunchaki nomiga bodilik qilayotgani yo‘q. U rostdan ham o‘sha shopmo‘ylov q o ‘ m o n d o n ni ko‘rgan, u bilan uchrashgan*. E.A’zam, Shovqin. *To‘rda, naqshli suyanchiqlariga dur va javohirlar qadalgan oltin taxtning o‘ng tomonida vaziri a’zam Ali G‘arib boshliq saroy a’yonlari va devon beklari, chap tomonda amirlar va s a r k a r d a lar saf tortgan, devon beklarining oppoq simobiy sallalariga tig‘simon tilla nishonlar qistirilgan, kimxob va movut to‘nli amirlarning qunduz telpak va suvsar bo‘rklariga uch qirrali oltin jig‘alar qadalgan, bellaridagi serbar kamarlariga kumush g‘ilofli egri qilichlar taqilgan*. O.Yoqubov, Ko‘hna dunyo. *Sahrobek qilich chopishni, yoy tortishni, palaxmon otishni o‘rganib, hokimining navkarlariga s a r k a r d a ham bo‘libdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Tog‘larni tun chulg‘ar. Yotaman behol, U darcham oldida paydo bo‘ladi. Gohida mo‘ysafid, ko‘pni ko‘rgan chol, Gohi l a sh k a r b o sh i bo‘lib keladi.* E.Vohidov, Saylanma. *Fitnachi beklar Andijon taxtiga Jahongir mirzoni o‘tkazmoqchilar. Ahmad Tanbalni l a sh k a r b o sh i qilishib, Boburdan ota yurtini tortib olmoqchilar!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

QO‘NJ, SOG‘I Etik, mahsi va shu kabi oyoq kiyimlarining boldirni, ilikni o‘rab turadigan yuqori qismi. **Sog‘i** – shevaga xos so‘z.

Oyog‘ida shporli yaxshi xrom etik, uning q o ‘ n j ini manglay ajiniday qatqat qilib, biri ustiga birini qalashtirgan. Shuhrat, Shinelli yillar. *“Oyog‘ini ham sovuq urib shishib ketibdi-da”, deb o‘ylashdi. Kigiz etikni q o ‘ n j i dan to‘pig‘igacha kesib chiqarib olishdi*. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Qo‘shimcha qazishlar boshlandi-yu, ahvolimiz mushkullashdi – bir yarim metrdan keyinoq yerosti suvlari sizib chiqaverdi, ikkinchi metrga borganimizda, suv etigimizning s o g ‘ i ni ko‘madigan darajaga yetardi.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar. *Ichkari-tashqari*

zarchaqovoq tusli matodan tikilgan ixcham kamzul-shim, s o g‘ i si kalta ko‘n etik, soyabonli qalpoq kiygan nazoratchilar qarovida. A.Dilmurod, Yortilik qonuni.

QO‘NMOQ, O‘TIRMOQ, INMOQ, DO‘NMOQ Uchishdan to‘xtab, yerga yoki biror sathga o‘rnashmoq. **Qo‘nmoq**, asosan, uchadigan narsalar – qush, hasharot va samolyot kabilarning harakatiga, qisman, chang, gard kabilarga nisbatan qo‘llanadi. **O‘tirmoq** chang, g‘uborga nisbatan qo‘llanadi. **Inmoq** poetik nutqda ishlatiladi. **Do‘nmoq** shevada, folklor asarlarida uchraydi.

Polizlar huvullab qolgan. Serraygan tanho qo‘riqchining qo‘liga hakka q o ‘ n gan. S.Ahmad, Ufq. *Boshqa suratda tikanak ustiga q o ‘ n gan qush tasvir etilgan. Qush sayrab turibdi.* E.Vohidov, Yon daftardan. *Yuraklaring titramasin barg yanglig‘, Yoz qushlari butoqlarga q o ‘ n di, qiz...* Mirtemir, Ana, bog‘lar. *Odamlar bola hozir qorni bilan yerga qapishib qoladi, degan gumonda chang o ‘ t i r ib ho‘l bo‘lib ketgan og‘ir kipriklarini qimirlatmay qarab turishardi.* S.Ahmad, Ufq. *Sochimizga qirovlar i n di, Baxt otiga birovlar mindi, Dilda bo‘lak so‘rovlar tindi – Qulamasdan hayot chinori, Qaytarmikan umr bahori?* B.Bobomurod, Umr bahori. *Quyuq hislarimdan yo‘qoldi maza, horg‘in lablarimga i n madi hech ta’m.* R.Bobojon, Umrimning birinchi yomg‘iri. *Orsizlar joy tiklagan qirlik, jarliklarga d o ‘ n ar bir sinat, Qalbni pastga urish – ko‘rgilik, qalbga nasog‘ tushirish – la’nat!* I.Otamurod, Xaritaga tushmagan joy. *Bu yurakda nelar bor, Ochib ko‘rar zamon yo‘q. Boshimga d o ‘ n ar burgut, Ko‘zi och-u qorni to‘q.* Sh.Salom, Tog‘ay Murod xotirasiga.

QO‘NG‘IR, JIGARRANG, QUMROL Qora-sariq rangli, to‘q malla, kashtan rangidagi, qoraga yaqin rang. **Qo‘ng‘ir, jigarrang** barcha turdagi narsalarning rangini ifodalashda teng qo‘llanadi. **Qumrol** faqat soch rangini ifodalashga xizmat qiladi, nutqda kam uchraydi.

Ey, q o ‘ n g ‘ i r tuproq, Ey, muqaddas tuproq, Sen Shukur boboga bolish bo‘l, yumshoq. M.Yusuf, Saylanma. *Xolida kulrang makentosh ustidan q o ‘ n g ‘ i r sochlarini tashlab olgan.* O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun... *...eshik ochilib undan ikki kishi tushdi: biri – novcha, ozg‘in, katak ko‘ylak va pochasi bo‘g‘ma j i g a r r a ng shim kiygan o‘rta yoshlardagi bir kishi; ikkinchisi – qora sochi quloq va bo‘yinlarini bosib ketgan, jujuncha kitel va amirkon tufli kiygan pakana bir yigit edi.* A.Qahhor, Kartina. *– Xudoyimga shukr, behisob shukr! Hademay otdek bo‘lib ketar ekansiz, dadasi! – J i g a r r a ng sumkasi bilan Sobit Musayevich huzuriga kirib chiqqan Shafoat yonoqlari yashnab entikardi.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Sochi q u m r o l, dudog‘i lola, yuzlari oq, yonoqlari ol...* Sh.Rahmon. *Kutdim, kirib kelding kutilmaganda, Q u m r o l sochlaringga taqib bahorni.* V.Luqmon.

QO‘RIQLAMOQ, QO‘RIMOQ, SAQLAMOQ, HIMOYA QILMOQ, MUHOFAZA QILMOQ, MUDOFAA QILMOQ Kimnidir yoki nimanidir boshqalarning da’vosi, tazyiqi, ta’siridan xoli qilmoq. **Qo‘rimoq** xalq tilida ko‘p

qo‘llanadi, doston matnlari va maqollarda ko‘p uchraydi. **Saqlamoq** mazkur ma’noda kam qo‘llanadi. **Himoya qilmoq** badiiy va rasmiy uslublarda faol. **Muhofaza qilmoq** ko‘pincha o‘simlik va hayvonot olami, huquq kabi tushunchalarga nisbatan qo‘llanadi, bu so‘z, asosan, badiiy va publitsistik uslublarga xos. **Mudofaa qilmoq**, asosan, harbiy sohada qo‘llanib, shahar, inshootlarning askarlar tomonidan qo‘riqlanishini nazarda tutadi.

Dildor bundan o‘n besh kun narida – eri tashlab ketgan kechasi uyda yolg‘iz qolgani, o‘shanda Xolmatjon uni q o‘ r i q l a b to sahargacha uy atrofida aylanib chiqqanini... eslab, o‘zidan o‘zi xijolat bo‘lib ketdi. S.Ahmad, Ufq. *Sen otammi, bolammi, bilolmayman, asli kim, Bir chetida quyoshday onam botgan Vatanim, Bir chetini q o‘ r i q l a b otam yotgan Vatanim.* H.Xudoyberdiyeva, Bu – Vatan... *Gajdumbek bilan Hasanbek, otasi Og‘alibekning qirq yigitlari el q o‘ r i b yurar edi, Ahmadbek bo‘lsa, hali yosh edi.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. *Oftobsan, sendan bir soyaman, ota, Sochni oq, bag‘rimni esa bosar g‘am. Ona, senga nafim tegmadi hatto, Ostonang q o‘ r i gan kuchugingcha ham.* M.Yusuf, Qadahso‘z. *Boshqalar bolalarning umrini s a q l a sh ga borib kelganda, siz okopda yotib shu hujrani o‘ylabsiz.* S.Ahmad, Ufq. *Biroq shunga qaramasdan u bilan birga jo‘xori s a q l a sh ga qolishimdan men xursand edim.* M.Qo‘shjonov, Dagish. *H i m o y a q i l olmas betoniy dovlar, qadaming qarichlab o‘lcharlar har chog‘.* Sh.Rahmon, Loda hazrati oliylariga. *Zamonqul mo‘jizalar mo‘jizasini dahanaki hujumlardan h i m o y a q i l ib nimalardir degisi keldi-yu, lekin jo‘yali so‘z topolmay, o‘tirgan ayolga yaxshigina o‘qrayib qo‘ydi, xolos*. L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Serbiya askari kelgandan so‘ngra Adrna qahramoni Shukri posho yana avvalgidan ziyodaroq qattig‘lik ila Adrnani m u h o f a z a q i l ib, ham dushman va ham ochlik ila muboriza qilubdur.* Behbudiy, Tanlangan asarlar. *Shoir bundan hech nima yutqizmaydi, balki so‘qirlik va qo‘pollikdan o‘zini o‘zi m u h o f a z a q i l ishni go‘yo qonunlashtiradi*. I.Haqqul, G‘ussali yurak – yolqinli yurak. – *Bu shunday, mirzo Anvar, ammo o‘zingizni dushmandan m u d o f a a q i l ish kerakmi, yo‘qmi? – Men nimani dushmandan m u d o f a a q i l ay? – deb kuldi Anvar*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Davlat dumasi nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarga kirib, bizni m u d o f a a q i l adurgon kishimiz yo‘q.* Behbudiy, Ehtiyoji millat.

QO‘RIQCHI, QARATQI, QUBOSH Ekinlarni qushlardan asrash uchun dala o‘rtasiga o‘rnatiladigan odam shaklidagi qo‘g‘irchoq. **Qaratqi** kam qo‘llanadi. **Qubosh** – eskirgan so‘z.

Polizlar huvillab qolgan. Serraygan tanho q o‘ r i q ch i ning qo‘liga hakka qo‘ngan. S.Ahmad, Ufq. *Qatorasiga bir-biriga tutashgan mosh, loviya, tariq dalalari o‘rtasidan o‘tamiz. Ko‘pchiligining qoq o‘rtasida q o‘ r i q ch i si qaqqayib turgan bo‘ladi.* I.Sulton, Qo‘riqchi. *Minglagan otlar kishnaydi, yuzlagan itlar vovullaydi, q a r a t q i – devlar behisob mash’alalar yorug‘ida og‘zidan o‘tlar sochadi, qaratqi-ajdaholar vishillaydi.* E.Samandar, Sulton Jaloliddin. *U*

Hanifa opa bir kuni Matnazar akaga: – Dadasi, Jur'at oilasida xuddi q a r a t q i ga o'xshab qolgan, men bir nima desam, siz aralashmang, deydi. Z.Masharipova, Dahshatli nikoh. *Rasul aytmishtek qildilar, hollari aziz bo'ldi. Savol: – Ekin orasida q u b o sh sanchmoqda ne foyda bor? Javob: – Foyda ul turur, yamon ko'zluk kim ersa oshliqg'a boqsa ul oshliq halok bo'lar.* Rabg'uziy, Qissasi Rabg'uziy. *Chuqur-chuqur botib ketgan ko'zlari xuddi poliz o'rtasiga qo'yilgan q u b o sh nikiga o'xshab hissiz boqardi*. I.Zoyir, Qismat o'chi.

QO'RQINCHLI, HADIKLI, DAHSHATLI, VAHIMALI, MUDHISH Kishida qo'rquv tuyg'usini uyg'otadigan, shunday tuyg'u bo'lgan. **Hadikli** so'zida qo'rquv darajasi kamroq. So'zlashuv nutqida qo'rqinchli so'zi o'rnida ba'zan qo'rquv hissini bo'rtirib ko'rsatishga xizmat qiluvchi **dahshatli** so'zi qo'llanadi. **Dahshatli**, **vahimali** so'zlarida qo'rquv darajasi **qo'rqinchli**ga qaraganda kuchli. **Mudhish** so'zida narsa-buyum, voqea-hodisa yoki harakatning mohiyatida dahshatli holat, kulfat va baxtsizlikka sabab bo'luvchi qo'rqinchli holat ifodasi mavjud. **Hadikli, mudhish** badiiy uslubga xos.

Shunda Robiyaning tushiga kirgan q o' r q i n ch l i voqea uning esiga tushdi-da, noma'lum bir xatar vujudiga larza solib o'tdi... P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ko'l yana bezovtalandi, tunlari vahimali gulduradi, ayg'ir otning kishnashidek q o' r q i n ch l i ovozlar tog'larda aks-sado berdi.* M.Safarov, Sarbasta Surxon. *Tunlarim uyqusiz va serg'ash, H a d i k l i tushlarni ko'rarman.* O'.Hoshimov, Uzun kechalar. *Tun sukunatida allaqanday sehr bor. To'g'ri, biroz vahimali, h a d i k l i, ammo bilgan odam uchun orombaxsh, huzurbaxsh.* A.Abdullayev, Dard. *D a h s h a t l i portlash tovushlari, yerning tinmay silkinishi, Norinning chayqalishi odamlarni vahimaga solib qo'ydi*. S.Ahmad, Ufq. *Shu ondayoq d a h s h a t l i bir haqiqat uning yuragini qiymalab tashladi.* O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham, qulog'i g'uvullayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: "Hozir go'riston qanaqa v a h i m a l i bo'lsa ekan..."* A.Qahhor, Dahshat. *Muzaffar Farmonov yuragini chulg'ab olgan bu v a h i m a l i tuyg'udan qutulish umidida xayol jilovini boshqa tomonga burishga, yoshlik yillarini, do'stlarini eslashga urinib ko'rdi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Keyin m u d h i sh sokinlik va sovuqqonlik bilan boyvachchaning etagidan tortib tushirdi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Pichoq ushlab, jarliklarda yirtqichning inini qidirib yurgan og'alari, yo'ldagi qon-u chaqaloqning panjalari... bu m u d h i sh manzara uning bag'riga nayzadek sanchilib, ovqatga ham ortiq hushi qolmadi*. Mirmuhsin, Temur Malik.

QO'RQMOQ, HAYIQMOQ, HAYMIQMOQ, CHO'CHIMOQ, XAVFSIRAMOQ, XAVFLANMOQ, DAHSHATGA TUSHMOQ (KELMOQ) Qo'rquv, vahima hissini tuymoq. **Hayiqmoq**, **haymiqmoq**, **cho'chimoq** so'zlarida belgi darajasi **qo'rqmoq**qa qaraganda kamroq. **Xavfsiramoq** va **xavflanmoq** so'zlarida kishining nimadan cho'chiyotganligi aniq anglashilib turadi,

xavfsiramoq uslubiy chegaralanmagan, **xavflanmoq** badiiy uslubga xos. **Dahshatga tushmoq** so‘zida qo‘rquv darajasi **qo‘rqmoq**qa qaraganda yuqori. **Haymiqmoq** – shevaga xos so‘z.

Asqar ota avval q o‘ r q di, keyin juvonning ot chopishini ko‘rib shunchalik zavqi keldiki, otiga ustma-ust qamchi bosganini o‘zi ham bilmay qoldi. A.Qahhor, Dahshat. *Rayimberdi tog‘a... baridan, echkemardan q o‘ r q ardi.* S.Ahmad, Ufq. *Bolalar uni ehtirom qilmasalar ham, unga burung‘icha yomon muomala qilishdan h a y i q ib qoldilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Erkak h a y i q di, yerda yotgan bir cho‘pni olib “Ket, ket!” deb kuchukka otgan edi, kuchuk ilib oldi-da, g‘ajib, mayda-mayda qilib tashladi...* I.Sulton, Farishta. *Shodmonboy akaning salobatidan h a y m i q ib, eshik hatlashga jur’ati yetmaganlar endi oyoq cho‘zib to‘rda o‘tirar, soyasiga ko‘rpa to‘shaganlar uning otini ham unutgandi*. O.Jumaboyev, Uy. *Har tulpor o‘z ovulida shamolday yeladi, lekin iligi moyga to‘lmagan tulporchalar katta ko‘pkarida h a y m i q ib qoladi.* H.Asqar, Ibodat. *Biroq Oysuluv na qorong‘i tun sharpalaridan xavotirlandi, na tepasidagi arxar muguzida oq lattalar hilpiragan yolg‘iz qabrdan ch o‘ ch i di!..* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Shunqorbek tasodifan Hulkarning otasi yo onasiga, yoki akalaridan birortasiga ro‘para kelib qolishdan ch o‘ ch i rdi*. S.Is’hoq, Qabrdan chiqqan qul. *Tujjorlar mol-mulki davlatga musodara bo‘lib ketishidan x a v f s i r a b qatnamay qo‘yishgan*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Harqalay, uning ko‘zlari senga x a v f s i r a b tikilib turardi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Nuri: – Man qizlik vaqtimda u xavflandi, mandan qochishga intildi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Kun bo‘yi uyida, bir burchakda, o‘g‘illarining kiyimlarini titib, allakim bilandir gaplashib o‘tiradigan va odamlarga begonasirab qaraydigan, odamlardan x a v f l a n adigan va ularga adovat bilan tikiladigan odat chiqardi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Mo‘ysafid shu paytda uya tomon o‘rmalab borayotgan qora ilonni ko‘rib, u ham d a h sh a t g a t u sh armish...* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Akbar o‘ziga maqbara qurdirmoqchi ekanini eshitgan Hamidabonu o‘g‘lining xilvatxonasiga kirdi-yu, uning sag‘ana tarhini chizib o‘ltirganini ko‘rib d a h sh a t g a k e l di: – Sizga ne bo‘ldi, shoh o‘g‘lim? Hali men, onangiz, tirik yuribmen...* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Boy ba’zan o‘ylab d a h sh a t g a k e l ar edi: hali umr bo‘yi, ayniqsa, keyingi yillarda titrab-qaqshab to‘plagan davlatim shunga qoladimi?* A.Muxtor, Opa-singillar.

QO‘RQOQ, HURKAK, YURAKSIZ, QUYONYURAK, **BUZDIL** Qo‘rquv hissini tuyaveradigan, biror harakatni sodir etishga jazm eta olmaydigan. **Hurkak** so‘zida qo‘rquv darajasi **qo‘rqoq**qa nisbatan kam, bu so‘z, asosan, ayollar, jonzotlarga nisbatan qo‘llanadi, **yuraksiz**ga qaraganda **quyonyurak**da belgi darajasi kichli. **Quyonyurak** so‘zida ma’no obrazli ifodalangan, achchiq kinoya anglashiladi. **Buzdil** – eskirgan so‘z.

Q o‘ r q o q rais darrovgina rozilik bergan, Ustoz-pustozga yo‘llamoqdan og‘iz ham ocholmay qolgan... E.A’zam, Shovqin. *Nega shunday bo‘ldi? Nega*

uning bolasi q o ‘ r q o q chiqdi? S.Ahmad, Ufq. *Shu joylarda xovtag‘ay degan yovvoyi tuyalar yashaydi. Ularni kamdan kam odamlar ko‘rgan, juda h u r k a k, asov hayvon.* M.Safarov, Ayrishox. *Jo‘raxon ko‘cha bo‘ylab kelarkan, bu h u r k a k xotinlarning hamma harakatini ko‘rib, butun tashvishini payqab, bilib turardi*. A.Muxtor, Opa-singillar. *Mirzakarimboy ilonning yog‘ini yalagan odam edi: hamma boylar kabi, ayyor, mug‘ambir, puxta-pishiq; u y u r a k s i z emas, balki har ishda ehtiyotkorlikni ma’qul ko‘rar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Agar biz uning qamalg‘an joyini bilsak, nima uchun mumkin bo‘lmasin, Anvar? O‘rtoqlarim y u r a k s i z yigitlar emas, bu yog‘idan xotirjam bo‘lingiz.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Q u y o n y u r a k lar aravani quruq olib qochayotgan bo‘lsalar kerak, deb o‘yladi.* A.Asil, Sirtlon. *Shu q u y o n y u r a k bilan bunaqa shilta ishlarga aralashib yuribsanmi?* T.Malik, Shaytanat. *– E, men b u z d i l lardan emasmen! – deb Ahmad Tanbal qahr bilan o‘rnidan turdi...* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

QO‘RQOQLIK, YURAKSIZLIK, QUYONYURAKLIK, BUZDILLIK, JABONAT Qo‘rquv hissini tuyish, biron harakatni sodir etishga jazm eta olmaslik holati. **Yuraksizlik** so‘ziga nisbatan **quyonyuraklik** so‘zida belgi darajasi kuchli. **Buzdillik, jabonat** – eskirgan so‘zlar.

Tursunboy o‘zining q o ‘ r q o q l i g i ni sevgi niqobiga yashirmoqchi. Q o ‘ r q o q l i k dan emas, Zebixonning visoliga yetishmoq uchun qaytishi kerak emish. S.Ahmad, Ufq. *Urushda jasorat bilan q o ‘ r q o q l i k, fidoyilik bilan xoinlik ko‘pincha yonma-yon yuradi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Xandaqdan chiqmaganlar qo‘rqoqlikda nom chiqarib, y u r a k s i z l i k bilan afsona bo‘ldilar.* Bobur, Boburnoma. *Ammo, taassuflar bo‘lsinki, Burhon o‘g‘lonning y u r a k s i z l i g i bu gal ham unga pand beradi, dushmanning qorasini ko‘rmay turib, sovutini tashlab qochishga moyillik ko‘rsatadi.* H.Dadaboyev, Sohibqironga ato qilingan xislatlar. *Urushda q u y o n y u r a k lik qilib xandaqqa pisib olgan yigitlarni ko‘rganida: “Peshonangga o‘lim yozilmagan bo‘lsa, ustingdan tank bosib o‘tsa-da o‘lmaysan, umring kalta bo‘lsa, Azroil pusib yotgan joyingdan ham topib oladi...”, derdi.* T.Malik, Shaytanat. *– B u z d i l l i k (echkiyurak, qo‘rqoqlik) aslo sizga yarashmaydi, bardam bo‘lasiz, Boburjon, – dedi-yu, uning otiga kutilmaganda qamchi bosib yubordi, ot keskin olg‘a intildi.* S.Jalilov, Shahzoda Bobur. *Agar shunday hodisalarni o‘ylab tursang, o‘rdada emas, hatto ko‘chada ham yurishing maholdir. Baxting bunchalik kulgan ekan, j a b o n a t bilan davlat qushini qo‘ldan uchirish kufroni ne’mat, bolam!* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

QO‘RQUV, XAVOTIR, HADIK, QO‘RQINCH, VAHIMA, DAHSHAT, VAHSHAT Qo‘rqish his-tuyg‘usi, shunday his-tuyg‘u qoplagan ruhiy holat. **Xavotir**, **hadik**da belgi darajasi **qo‘rquv, qo‘rqinch**ga qaraganda kam, yengil qo‘rquv ifodalanadi. **Vahima, dahshat**, **vahshat** so‘zlarida belgi darajasi **qo‘r-**

quv, qo‘rqinchga qaraganda kuchli bo‘lib, qo‘rquvning yuqori darajasini ifodalaydi.

Mohim begim yig‘idan to‘xtab, Boburga q o ‘ r q u v aralash hayrat bilan tikilib turardi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Hamshira qariyaning oqara boshlagan yuziga qarab q o ‘ r q u v i battar oshdi, nima qilarini bilmay, “Oydin opa!” deb qichqirib yubordi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Xolxo‘ja ham ko‘ngildagi x a v o t i r, shubha, vahimali o‘ylarni darrov unutib, bir umrlik qadrdonday quchoqlashdi.* A.Muxtor, Fano va baqo. *– Ha, jonivor miltiqning hidini sezgan, x a v o t i r i bor ko‘nglida, – dedi Islom.* Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam. *U bir qarashda vajohatidan ot hurkadigan ustuvor odamga o‘xshasa ham, hozirgi notinch vaziyatda ishtonsizning h a d i g i cho‘pdan, degandek har narsadan hadiksirayveradigan bo‘p qolgan edi.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar... *Birozdan keyin o‘zini zo‘r-bazo‘r jilovlab, o‘ziga h a d i k-la termilib turgan itlaridan xijolat tortganday, kuylamoqdan tiyiladi.* N.Norqobilov, Kurash. *Shunqorbek parvonachining hovlisiga yaqinlashgani sari h a d i k va hayajonda yuragi yana po‘killab ura boshladi.* S.Is’hoq, Qabrdan chiqqan qul. *Zum o‘tmay ichkaridan ayol kishining “Nima qilyapsizlar?” degan q o ‘ r q i n ch to‘la xitobi eshitildi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Ona bug‘u bu lahzalarni ham sevinch, ham q o ‘ r q i n ch bilan kutardi.* J.Fozil, Xongul. *Anvar Muqaddamning ovozini eshitib burilib qaradi-yu, uning v a h i m a dan katta-katta ochilib turgan ko‘zlarini qorong‘ilikda aniq ko‘rdi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Tun zulmati zil-zambil qo‘llari bilan yelkasidan bosib, v a h i m a si ortdi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *D a h sh a t uning yuragiga raxna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari xayolidan ko‘tarilib, ko‘z oldiga oppoq kafanga o‘ralib sag‘ana va go‘rlar atrofida yelib yurgan arvohlar keldi.* A.Qahhor, Dahshat. *Bahaybat qoyalar orasida ko‘milib qolgan jajji qishloq tabiat qudratidan vahimaga tushganday pusib qolgan… go‘yo hamma allaqanday yengilmas d a h sh a t oldida titrayotganday edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Qator turgan boshqa nevaralari v a h sh a t ichida chirqirashib, to‘rt tomonga javdirab, buvalaridan najot kutarmishlar...* Mirmuhsin, Temur Malik. *Pliniyga ko‘ra, katoblepas juda beso‘naqay maxluq... Uning hamma v a h sh a t i ko‘zlarida, vazmin qovoqlarini arang ko‘tarib qarasa, u qaragan jonzot o‘sha zahoti til tortmay o‘ladi, deyishadi.* I.Sulton, Kichkina pushti rang maxluqcha.

QO‘RS, QO‘POL, DAG‘AL, TO‘NG, TO‘RS, TERS, TUND, TERSFE’L Kishining ko‘ngliga qattiq botadigan, nomaqbul muomalali (kishi). **Qo‘pol**, **dag‘al** so‘zlarida belgi darajasi kamroq, salbiy munosabatni yumshoqroq ifodalaydi. **Qo‘rs**, **to‘ng**, **to‘rs** so‘zlarida belgi darajasi kuchli, salbiy bo‘yoqdorlik ham nisbatan kuchli. **Tersfe’l** kam qo‘llanadi.

Ko‘rinishdan u xiyla q o ‘ r s va to‘ng odam edi. Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Qiziq, Shahnoza nimasini yoqtirgan bu bolaning! O‘lgudek q o ‘ r s bo‘lsa, tegganga tegib, tegmaganga kesak otsa.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan

umrlar. *Ularga nisbatan u har chog‘ q o‘ p o l, har chog‘ xirpalovchi edi. Chunki u pul kuchi bilan qattiq mast edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ammam bir qarashda dag‘al, q o‘ p o l ko‘rinsalar ham, dillari bo‘sh, salga ko‘zlari namlanadigan... ayol edilar*. A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Haqiqatda, sofdil mutaxassislar undan nafratlanadi, chunki o‘lguday d a g ‘a l, odobsiz.* A.Qahhor, Sarob. *Amir Bekchik mansabparast, buning ustiga o‘lguday d a g‘ a l odam edi*. B.Ahmedov, Amir Temur. *Mulla Ikrom usta bilan gaplasha boshladi. Lekin u t o‘ ng odam edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Buning yoshida sen o‘r eding, t o‘ ng eding, pulga juda o‘ch eding*. N.Norqobilov, Kapalak. *Muazzam bu turmushdan juda bezgan. Bu dim va jazirama dalalar, uni hech qachon tushunmaydigan qo‘pol-t o‘ r s odamlardan... bezib... odamlardan ajralib, yolg‘izlanib qolgan.* N.Eshonqul, Momoqo‘shiq. *Oila boshlig‘i kecha ot sotib olgan edi, necha yillik orzusi ushaldi, badjahl, t e r s odam mumday erib, ajoyib hikoyanavisga aylandi-qoldi.* A.Qorjovov, Yigit baxti. *Negadir hammasining qiyofasi bir xil: t u n d, loqayd.* O.Yoqubov, Diyonat. *Abdumalik hovliga kirishi bilan o‘gay onasini t u n d, mahzun qiyofada ko‘rib, xiyol ajablandi*. R.Jabborov, Ilon. *Shu pallada, to‘rsimon kepka kiygan t e r s f e’ l yigitcha Bosvoldi va Go‘ga Gadoyevichning orasidan muzyorardek o‘tib kelib, sotuvchiga ko‘kimtir ko‘zoynakning ustidan mo‘raladi.* A.Obidjon, Qora bodring. *Alhazar, kechagi badniyat, t e r s f e’ l Tantiga aylanar bitta yumalab. Nega uyg‘onishdan qo‘rqadi bu el, Suyab-suyganlari yotibdi talab.* B.Fazliddin.

Q

QO‘YXONA, QO‘TON, QO‘RA Qo‘ylar saqlanadigan maxsus joy. **Qo‘ra** shox-shabba, yog‘och bilan o‘ralgan joy ma’nosini anglatadi. **Qo‘ton** va **qo‘ra** faqat qo‘y emas, qoramol boqiladigan og‘ilni anglatishi ham mumkin.

Malik ham bo‘ynini uqalab, balodan hazar degandek, q o‘ y x o n a ortiga o‘tib, bir chetda o‘tirdi. N.Abbosxon, Sho‘rqishloq. *Kun bo‘yi q o‘ y x o n a da usta ishladi, qafas yasadi. Ustalar q o‘ y x o n a tevaragini tikan sim va pichan bilan o‘rab chiqishdi.* M.Tilovov, Ko‘kyol. *Chaqmoq! Yomg‘ir uriladi Qoya betiga. Qo‘ylar hurkib g‘uj bo‘ladi Q o‘ t o n chetiga*. U.Azim, Bezovta tun. *Tirkash qirga chiqib el qatori yantoq chopay desa, otasidan qolgan molxona-yu q o‘ t o n bo‘m-bo‘sh, bir biyasi bor edi, uniyam o‘tgan yili qo‘li qisqalik qilib sotib yuborgan...* A.Yo‘ldoshev, Quduq. *Ayasining aytishicha, bir zamonlar otxonalar-u q o‘ r a lar nazr-niyozga to‘lib ketarkan*. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Ko‘ktoy q o‘ r a ning burchagiga borib, yog‘och qoziqlarga ko‘ndalang bog‘langan xodalar panasidan pichan g‘aramiga o‘tib oldi va yer bilan bitta bo‘lib yotgan pichan ustiga o‘zini madorsiz tashladi*. O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar.

QO‘ZG‘ALMOQ, JILMOQ, SILJIMOQ, QIMIRLAMOQ, KO‘CHMOQ, QALQMOQ Tayanch joydan uzilmoq, tayanch nuqtasi o‘zgarib harakatga kelmoq. **Qo‘zg‘almoq** harakatning boshlanishini ifodalaydi. **Jilmoq**, **siljimoq** uzoq bo‘lmagan masofaga tayanch nuqtani o‘zgartirishni bildiradi,

ko‘chmoq esa ham yaqin, ham uzoq masofaga tayanch nuqtani o‘zgartirishni bildirishi mumkin. **Qalqmoq** so‘zida g‘ayriixtiyoriylik ta’kidi mavjud. **Qimirlamoq** so‘zi tayanch nuqtaning oz darajada, kam intervalda takroriy yo‘qotilish holatiga nisbatan qo‘llanishi mumkin.

Botir firqa inqillab q o‘ z g‘ a l di. Esnab kerildi. T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Gulnor o‘rnidan q o‘ z g‘ a l di, darmonsizlikdan oyoqlari titrab pastga tushdi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *“Ha Ramzan, siz kim taraf?” deb so‘ramoqni unutmadi. Ammo javob-pavobini kutmay, yana baqir-chaqir bilan nari j i l di.* E.A’zam, Shovqin. *Sanjar mashinasini j i l dirib bozor darvozasidan chiqayotsa, Shahnoza turibdi*. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Nihoyat, uloq yerdan ko‘tarildi. To‘da asta-asta jonlandi. To‘da pastga s i l j i di*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Ra’no goh chalg‘ib, goh to‘xtab, quyig‘a s i l j i di...* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Baland peshtoqli deraza ostidan oppoq bir narsa q i m i r l a di.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Xanjarga o‘ralib turgan uzun ilon uning muskullari bilan birga q i m i r l a di*. P.Qodirov, Qadrim. *Do‘stlar davrasidan ketaman hatto, Olis yulduzlarga k o‘ ch ar xilqatim.* A.Oripov, Yuzma-yuz. *Yozgan kitoblarim – qog‘oz kemadir, Men ketsam, ular ham k o‘ ch ar izimdan.* M.Yusuf, Ertak. *Dunyo goh simobday q a l q ir beomon, Nogahon qaydadir otilgay vulqon...* Z.Ne’mat, Ogoh bo‘ling, aziz odamlar. *Norboy chavandoz hazil odammi, “hap, senimi”, deb oyoqqa q a l q di, besh o‘g‘lini besh tarafga quvladi.* O‘.Qobil, Ot o‘g‘risi.

QO‘ZG‘OLON, ISYON, G‘ALAYON Biror ijtimoiy tuzum, hukmron sinf yoki shu kabilarga qarshi ko‘tarilgan ommaviy harakati. **Isyon, g‘alayon** badiiy nutqqa xos.

Yurtda katta q o‘ z g‘ o l o n, otish-tutish bo‘lganini eshitgan Unsin, akasidan xavflanib, kechga yaqin temirchining bir o‘g‘li bilan birga Taxtapulga kelgan edi. Oybek, Tanlangan asarlar. *1898-yil may oyida bo‘lgan Dukchi eshon stixiyali q o‘ z g‘ o l o n i Andijon, Marg‘ilon, O‘sh, Namangan, Yettisuv, Avliyoota kabi mintaqalarni qamrab oladi.* O‘.Hoshimov, Odamkushlik tuzumi. *O‘zi to‘ppa-to‘g‘ri Dorussaltanat tomon yurib, bunda tashqariga chiqa olmay o‘tirgan mansabdorlarni otlariga mindirib, i s y o n o‘chog‘i bo‘lmish bozor chetidagi chilangarlar rastasi tomon yurdi*. Mirmuhsin, Temur Malik. *Mamlakatning turli o‘lkalarida Humoyun va uning inilariga qarshi ketma-ket i s y o n lar bo‘lmoqda*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ichkarida pinhona ildiz otgan mojaro Xoja Hoshim fatvosi tufayli tashqariga chiqadi va Vali Muhammadga qarshi i s y o n ga aylanadi. G‘ a l a y o n to‘lqinini to‘xtatishga qurbi yetmagan podshoh Eron sari yo‘l oladi.* A.Dilmurod, Mezon burji. *“G‘animlar”ning asosiy kuchi qayerda ekani, Axsikatdagi g‘ a l a y o n tafsilotini bilib olgach, bekni shahardan tashqaridagi bog‘ida qoldirib, uch yuz otliq shaharni batamom o‘rab oldi.* Mirmuhsin, Temur Malik.

QO‘SHILMOQ, BIRLASHMOQ, QOVUSHMOQ, BITISHMOQ, CHATISHMOQ Bo‘lak, alohida, mustaqil narsalardan bir butunlik hosil qilmoq, umumlashmoq. **Birlashmoq** to‘da, jamoa hosil qilishni ifodalashi mumkin. **Qovushmoq** o‘zaro yaqinlashuvni, ammo aralashib ketmaslikni bildiradi, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi. **Bitishmoq, chatishmoq** so‘zlari mazkur ma’noda nisbatan siyrak qo‘llanadi.

Shirin yoshlik berdi zamon, Qadrin har kim bilsa qani. Ishq umrida yangi davron – Ikki umr q o ‘ sh i l gani... Mirtemir, To‘yga ataganim... *Ey gulim, ko‘zlarga yoshlar to‘lganda soyamiz q o ‘ sh i l gan damlarni eslang!* Sh.Rahmon, G‘amgin she’r. *Mirzaorollik sobiq batrak va chorakorlar tutgan yo‘ldan borilganda yangi, eskilari ham nimjon xo‘jaliklar b i r l a sh ib katta kuch holiga keladi*. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Bilishimcha, Oybekning Toshkentdagi dushmanlari shu paytda o‘zaro b i r l a sh ib, unga qarshi harakat boshlagan...* Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Bahor va yoz q o v u s h gan tunning havosi xonangga gupirib kirdi.* H.Ahmedova, Ruh olmoshlari. *Oftob nurlari gerdaygan daraxtlar barglariga, keyin esa tuproqqa yog‘ilib, namlik bilan q o v u sh di-da, pag‘a-pag‘a bo‘lib yana ko‘kka ko‘tarila boshladi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *To‘qson ikki bovli qadim xalqning barcha urug‘-bo‘g‘inlari vaqt silsilalarida chatishib, b i t i sh ib, yaxlit bir xalq – buyuk millat darajasiga yetganki, endilikda laqab ko‘rinishidagi bobolarimizning o‘zlug‘i shiringina tarix bo‘lib qolgan.* R.Hasan, Bir sulola qissasi. *Odatda, bu soha burmalardan holi, silliq bo‘ladi, chunki bu sohada shilliq parda ko‘z ostidagi muskul qavati bilan b i t i sh ib ketgan bo‘ladi*. “Odam anatomiyasi”. *Chig‘atoy avlodlari O‘troq hayotga intilib o‘zlari ham har tomonlama taraqqiy etganlar va asta-sekin mahalliy aholi bilan c h a t i s h ib, qo‘shilib, kirishib ketadilar.* O.Masharipov, Xorazmnoma. *Lekin u tashkilot sifatida uyushmagan, parokanda, jinoyat dunyosi bilan ch a t i sh ib ketgan bu amalparastlar to‘dasida uzoq qolib ketmaydi.* X.Shayxov, Ikki jahon ovorasi.

QO‘SHNI, HAMSOYA, QO‘NISH Uylari, hovli-joylari yonma-yon, yaqin bo‘lgan kishilar, oilalar, xonadonlar (bir-biriga nisbatan). **Hamsoya**, **qo‘nish** – shevaga xos so‘zlar, **hamsoya** qo‘nishga qaraganda faol.

Odamlar tarqab ketishdi. Qorong‘i tushdi. Q o ‘ sh n i uyda chiroqlar yondi. S.Ahmad, Ufq. *Q o ‘ sh n i miz uyiga tushmakda kelin, Hovli-yu ko‘chani zabt etgan karnay.* Zulfiya, Kelintushdi. *Sheraliboy “yangilik”ni qiziga aytolmay, ko‘p andisha qildi, h a m s o y a kampirni chaqirib, ayttirishni ham o‘yladi*. Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida. *Shu paytgacha tumshug‘i bulutga yetib turgan, dimog‘idan yog‘ dog‘ bo‘lguday h a m s o y a Habi do‘kondorning hovli hatlaganiga nima deysiz?* Q.Norqobil, Osmon ostidagi sir. *Yonida jo‘ralari, hamsoya-q o ‘ n i sh i ot yo‘rttirib borishardi*. H.Alp, Norkallaning uylanishi.

R

RAHMAT, TASHAKKUR, QULLUQ Kishiga minnatdorchilik, mamnuniyat ifodasi sifatida aytiladigan so‘z. **Tashakkur** so‘zida mazkur ma’no yanada kuchli ifodalanadi, badiiy nutqqa xos. **Qulluq** so‘zi so‘zlashuv tiliga oid.

Shofyor yuklarni ayvongacha oborib, qaytib chiqib ketdi. Bozorboy unga r a h m a t ham demay, ko‘cha eshikni ichidan berkitib oldi... S.Ahmad, G‘ildirak. *– R a h m a t sizga, – dard soya solgan yuzi yorishib bosh irg‘adi Shoir. – R a h m a t...* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *– Janoblari, bardammilar? – so‘radi boyga murojaat etib Sadriddin a’lam. Boy o‘ziga jiddiyat berib, qulluq qildi: – T a s h a k k u r, taqsir, o‘zlaridan so‘rasak?* Oybek, Tanlangan asarlar. *E’zozlar, ardoqlar uchun t a sh a k k u r, Asli Siz oftobim, men ziyosiman.* Zulfiya, Saylanma. *Matxoliq kuldi. – Q u l l u q, taqsir, xizmatingizni qilsam bo‘ldi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *– Hazratim, she’ringiz muborak bo‘lsin! – Q u l l u q. Endi mening dardimni tushungandirsiz?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

RASMIYATCHI, RASMIYATPARAST, TO‘RA, BYUROKRAT Quruq rasmiyatga yoki ortiqcha takallufga berilgan, har qanday ishga kerak-nokerak rasmiyat bilan munosabatda bo‘ladigan odam. **Rasmiyatparast** so‘zida belgi me’yordan kuchli ifodalanadi, rasmiy uslubga xos. **To‘ra** so‘zida belgi me’yordan biroz past ifodalanadi, kitobiy. **Byurokrat** hozirgi o‘zbek adabiy tilida eskirgan, ba’zan oddiy so‘zlashuvda, ba’zan badiiy nutqda davr voqeligini aks ettirish uchun qo‘llanadi.

Mahkam Shoazimning pichinglariga boshqacha javob qaytarmaganidan achinib, o‘rtoqlariga sovuq r a s m i y a t ch i bo‘lib ko‘ringanidan ko‘ngli og‘rinib o‘tirgandi, Sulaymon Ziynatullayev kirib keldi. P.Qodirov, Uch ildiz. *Xullas, bugun bizning to‘yimiz. Ammo oramizda shunaqa r a s m i y a t ch i, byurokratlar ham bor ekanki, ular bu to‘yimizni yana ishlab chiqarish majlisiga aylantirmoqchi bo‘lyaptilar.* O.Yoqubov, Mirza terak. *O‘taketgan r a s m i y a t p a r a s t inglizlarning o‘sha uchrashuvi 7 soat-u 55 daqiqa davom etgandi.* “Gazetadan”. *Boshqarma idorasiga joylashib qolgan ikki-uchta o‘zbilarmon t o ‘r a ning beboshligi tufayli ishlar ketga ketgandi.* Sh.G‘ulomov, Yorqin ufqlar. *Bu qari b y u r o k r a t larga ishning mohiyatini tushuntirib bo‘lmayapti.* T.Malik, Shaytanat. *Ne’mat bu gaplarni eshitganda, kuyib yonib ketardi. Direktorimizni b y u r o k r a t, laqma, prinsipi yo‘q, qo‘pol va yana allanimalar deb so‘kardi.* S.Ahmad, Mening do‘stim Babbayev!

RASMIYATCHILIK, TO‘RALIK, TO‘RACHILIK, RASMIYATPARASTLIK, BYUROKRATLIK, BYUROKRATIZM Quruq rasmiyatga

yoki ortiqcha takallufga berilganlik, har qanday ishga kerak-nokerak rasmiyat bilan munosabatdalik. **To‘ralik** so‘zidan “to‘ralarga xos xususiyatlarga egalik” ifodasi anglashiladi. **To‘rachilik** so‘zida “to‘ralarcha tutumning odatga aylanib qolganligi” ifodasi bor, nutqda **to‘ralik**ka nisbatan faol. **To‘ralik, to‘rachilik** so‘zlarida rasmiyatchilikdan iborat tutum tushunchasi qatordagi boshqa sinonimlardan ko‘ra biroz kuchsiz ifodalanadi, kitobiy, bu so‘zlarda mazkur ma’no obrazli ifodalangan. **To‘ralik** badiiy, **to‘rachilik** rasmiy va publitsistik uslublarda faol. **Rasmiyatparastlik** so‘zida belgi me’yordan kuchli ifodalanadi, rasmiy uslubga xos. **Byurokratlik, byurokratizm** so‘zlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida eskirgan, ba’zan oddiy so‘zlashuvda, ba’zan badiiy nutqda davr voqeligini aks ettirish uchun qo‘llanadi.

Sherzod qog‘ozlarni qaytadan quticha ichiga tashladi: – Ahamiyatsiz qog‘ozlar, r a s m i y a t ch i l i k yozishmalari ekan, – dedi, – muhim bo‘lganda bunda yotmas edi. R.Haydarova, Javzo. *Ammo ko‘pchilikning bu mavzuga mutlaqo e’tiborsizlik, shunchaki r a s m i y a t ch i l i k bilan yondashuvi kishini ajablantiradi.* A.Asil, Alqor, nega ko‘zing to‘la yosh. *Go‘yoki bu narsani hammadan yaxshi biladigandek imzo chekkunga qadar o‘zingizcha jumlalarni tahrir qilib, qayta yozishni ham buyurasiz va shu tariqa qog‘ozbozlik va t o‘ r a l i k mashinasining motoriga yog‘ quyasiz!* N.Qobul, Unutilgan sohillar. *Ko‘ngil anjomsiz, qayg‘u-dard, Ichimda ishq o‘ti hasrat, T o‘ r a l i k yo‘q, yigirma to‘rt, Cho‘g‘li-hovurli kunlarim*. Tanlangan asarlar. *Ommaviy axborot vositalari mansabdorlarning t o‘ r a ch i l i g i, korrupsiya, mustabidlik va boqimandalik psixologiyasi yo‘lida mustahkam g‘ov bo‘lib, qonunchilik me’yorlarini ro‘yobga chiqarishning ...ta’sirchan vositasi bo‘lib qolishi zarur*. I.Karimov, Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. *Faqat demokratiya sharoitidagina mansabdorlarning t o‘ r a ch i l i g i, odamlar taqdiri va ehtiyojiga bepisandlik to‘g‘risida yozish, jamiyat hayotidagi yutuqlar bilan birga mavjud nuqsonlarni oshkora qilish mumkin.* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Bir gal b y u r o k r a t l i k da jahondagi jamiki nomdor byurokratlarning ustozi darajasiga yetgan amaldorning qabulxonasida uzoq qolib ketdim.* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Asardagi qahramonlar, ayniqsa, jamiyatdagi b y u r o k r a t l i k, to‘rachilik, sansolarlik, qog‘ozbozlikdan bezganliklari sezilib turadi.* N.Rahmat, Jadid. *G‘aflatda qolgan o‘zbeklar esa partapparatning mitti dohiylari irodasiga, b y u r o k r a t i z m ga qarshi kurash qanday dahshatli fojialarga olib kelishini qalb ko‘zlari, xotira ko‘zlari bilan ko‘rib qo‘ydilar!* Sh.Rahmon, Maxfiya.

RASSOM, MUSAVVIR, SURATKASH Turli tasvirlar chizish, rasm solish bilan shug‘ullanuvchi ijodkor. **Musavvir** so‘zi faol emas, asosan, kitobiy nutqda ishlatiladi. **Suratkash** so‘zi so‘zlashuv tiliga oid.

Shermat, uka, siz r a s s o m siz-ku, go‘zallikni tushunasiz, qarang, qanday chiroyli! A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bir tomonga mahalliy r a s s o m-*

lardan birining moybo‘yoqda ishlangan “Kuz manzaralari” kartinasini, ikkinchi tarafga “Mona Liza” portretidan ko‘chirilgan nusxani ildirdi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Ulug‘ m u s a v v i r Kamoliddin Behzod ham yoshlikdan hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulg‘aydilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. – *Sen endi tayyorsan, – xitob qildi cho‘qqisoqol. – Sen endi eng ulug‘ m u s a v v i r s a n.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Qora xalq orasidan chiqqan menday bir s u r a t k a s h n i n g shoh qiziga muhabbat qo‘yishi kulgili emasmi? Yo‘q! Men faqat o‘zim chizgan suratga – o‘z ijodimga mehr qo‘yganmen, xolos!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

RASHK, QIZG‘ANCH, QIZG‘ANCHIQ, QIZG‘ANCHIQLIK Yaxshi ko‘rgan kishisini birovdan qizg‘anish hissi, shunday tuyg‘u ta’sirida kelib chiqadigan munosabat. **Qizg‘anch, qizg‘anchiq, qizg‘anchiqlik** so‘zlarida “qizg‘anish hissi” ta’kidi ochiq ifodalanadi, mazkur ma’noda bu so‘zlar faol emas, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Erkakni goh r a sh k mas, hasad o‘ldirar, Ayolni goh fahsh-u fasod o‘ldirar, Odamzod bir-birin ko‘nglin kuldirar Bir gul taqmay qo‘ydi. Bu ne sinoat? H.Xudoyberdiyeva, Evrilish bo‘lmasa... *Alqissa, sevishgan er-xotin uchun r a sh k ham darkor. Lekin u quyushqondan chiqdimi tamom, oshga zahar tushadi...* T.Malik, Devona. *Hamdam q i z g‘ a n ch-hasad bilan to‘lib-tosha boshlagan ko‘nglini yupata boshladi*. S.Ayniy, Qullar. *Bu so‘z Elmurodning ko‘nglidagi q i z g‘ a n ch cho‘g‘ini bosgan kulni o‘chirib yubordi.* Shuhrat, Shinelli yillar. *Farhod bu manzarani ham maroq, ham q i z g‘ a n ch bilan kuzatib o‘tirarkan, ko‘ngli allatovur bo‘lib, alamini ustma-ust chekishdan olmoqda edi.* E.A’zam, Shovqin. *Hamidabonu bu voqealarni aytib berar ekan, ko‘zlarida, yosh yiltiradi. Humoyun buni ko‘rganda boyagi q i z g‘ a n ch i q tuyg‘ulari endi o‘ziga ham juda noo‘rin va uyatli tuyuldi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Lekin bu uydan chiqib ketishni, bir-ikki oylab Otabekni Zaynab qo‘lig‘a topshirib qo‘yishni yana muvofiq ko‘rmas, ya’ni Kumushda ham bir q i z g‘ a n ch i q l i k hissi uyg‘ong‘an...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

RASHK QILMOQ, QIZG‘ANMOQ O‘z yaqini yoki sevgan kishisiga nisbatan kuchli qizg‘anish hissini tuymoq, shunday tuyg‘u ta’sirida munosabatda bo‘lmoq. **Qizg‘anmoq** so‘zi bu ma’noda oddiy so‘zlashuv tiliga xos.

– Xotiningizni r a sh k q i l maysizmi? Mengboy hayratlandi: haqiqatan ham xotinini hech kimdan r a sh k q i l m a s, bu to‘g‘rida o‘ylash xayoliga ham kelmas edi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Bir-biridan r a sh k q i l masmikan, jillaqursa, iymanmasmikan bular?* E.A’zam, Shovqin. *Bir vaqtlar kundosh bo‘lgan bu ikki ayol hozir inoq bo‘lib qolishgan. Endi ularning bir-birlaridan q i z g‘ a n adigan erlari yo‘q.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Yoshlik edi, qon qaynab-ko‘pirib turgan davr, Moviyko‘zni Otashqalbdan rashk qilgani, q i z g‘ a n gani rost, bunga asosi ham bor*. E.A’zam, Shoirning to‘yi.

RASHKCHI, KUNCHI, QIZG‘ANCHIQ Qizg‘anish hissi kuchli bo‘lgan, huda-behudaga qizg‘anaveradigan kishi. **Kunchi** so‘zi bu ma’noda eskirgan, kitobiy uslubga xos, ayni paytda, **rashkchi** so‘ziga nisbatan salbiy bahosi kuchli. **Qizg‘anchiq** so‘zida qizg‘anish hissi ta’kidi ochiq ifodalangan, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Boshda, paxtada tanishgan mahalda Nilufarning dilida iliq mehr uyg‘otgan bo‘lsayam, keyinroq shaharga kelganlaridan keyin o‘ta jo‘n, o‘ta sodda, ayni zamonda juda r a sh k ch i va to‘pori bo‘lib ko‘ringan edi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Umribibi r a sh k ch i edi. Qodirboy buni sezdi va yuzaki fikr yuritib tirnoq ostidan kir axtargan xotinidan achchiqlandi.* H.Qodiriy, Eski Toshkandda. *Soraxon benihoyat k u n ch i xotin chiqdi.* A.Qahhor, Sarob. *Majdiddin k u nch i erlardan bo‘lsa ham, lekin bu xabar uni juda quvontirdi.* Oybek, Navoiy. *Yigirma yilmi yo undan ko‘proqmi hamisha qanotida yurgan farzandining xuftondan so‘ng “g‘oyib” bo‘lishiga ona avvaliga ko‘nikolmaydi, keyin-keyin esa chidolmay qoladi. “Qizil oyoq kelib, qizil yuzdan judo qildi”, degan maqolning aynan o‘shanday “q i z g‘ a n ch i q” onalar to‘qigani bejiz emasligini Soliyev anglaydi.* T.Malik, Shaytanat.

RANG, TUS, RANG-TUS Narsalarning o‘ziga xos bo‘yog‘i. **Rang** so‘zi **tus** so‘ziga nisbatan keng qo‘llanadi. **Tus** bu ma’noda, asosan, oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Rang-tus** so‘zida ma’no umumiylashadi, badiiy uslubga xos.

R

Nashvati, noklar, kuzda pishar olmalarga – ko‘k va qizil, shaftolilarga oltin r a ng kirmoqda, behilar guldan chiqib, meva tugib yotibdi. O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo‘lsa-da, r a ng lari yorqin va tiniq edi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *O‘sha, etakdagi jar tagidanmi baqalar qurullaydi. Uning ortidagi adir havoiy – qora t u s da ko‘rinadi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Xurram qotma... kirza etigini “mehmon”ning qizg‘ish, sarg‘ish tasmalar bilan ziynatlangan oqishtob t u s dagi sport poyabzaliga solishtirib ko‘rayotgandek... picha turib qoldi.* N.Norqobilov, Kurash. *Lekin haligacha r a ng-t u s i ko‘zni oladigan bu ajoyib ne’matga og‘zi tegmagandi, mazasi qanaqa ekan, degan fikr kechdi xayolidan.* “Sharq yulduzi”. *Negadir ularning turq-tarovati o‘zlari chiqib kelayotgan eshiklarning r a ng-t u s i bilan bir xil edi.* R.Rahmat, Adashvoy.

RANGLI, RANGDOR, RANGIN, RANG-BARANG, RANGO-RANG Muayyan rang, tusga ega bo‘lgan, ranglangan. Qatordagi sinonimlarda daraja-ma-daraja belgi kuchayib boradi. Bosh so‘zdan boshqa so‘zlar badiiy uslubda qo‘llanishga xoslangan poetik bo‘yoqdor so‘zlar.

Maqola ertasi kuni to‘rtinchi sahifada, r a ng l i suratlar bilan e’lon qilindi... A.Yo‘ldoshev, Yetim so‘z. *...tovuqlarga don sepib turib tushgan surati r a ng l i jurnalda bosilgan Mo‘saqo‘zi tovuqboqarning parrandalari uch mingtadan oshdi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Kakliklarning yana bir*

dushmani kobra, ya'ni ko'zoynakli ilon, uni kapcha ilon ham deyishadi. U rangdor. Kaklik esa ranglarni yaxshi ko'radi. Kobra ranglari tuzoq bo'lishi mumkinligini bilmaydi. A.Suyun, Nevaralarim uchun. *Hovlining ikki tomoni bo'g'ot imorat; katta chorxari, shifti rang dor toqili, devorlari ganchli mehmonxonalar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bu – rassom, o'ynatib neylon ko'zlarin, Suratlar chizadi, rang in, jimjima.* E.Vohidov, Saylanma. *Jumalardan birida "Qozirabot" jomesiga borsam, kitob rastasi yonida bir to'p odam pastak o't-devor ustiga yoyib qo'yilgan rang in suvratlardan ko'z uzisha olmay turibdi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Usti parcha-parcha qizil tunukali qubbasimon yopilgan uch qavat bino hashami ancha-muncha o'zgargan edi. Yon-atrofi rang-barang marmar toshli darvoza peshtoqida qo'lbola taqa, isiriq, bir shoda garmdori – hay-hay yomon ko'zdan asrasin!* L.Mahmudov, Mehr qolur. *Har xil rusumdagi rang-b a r a ng mashinalarga tepadan qarasangiz, uyasi atrofida g'ujg'on galalashgan asalariga o'xshaydi.* A.A'zam, Tiqin. *Otabek... tush ko'rar edi: "Chamanda gullar ochilg'an emish... Bu gulshan uning o'ziniki emish... Ul rang o-r a ng chechaklardan ko'zini ololmas emish..."* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Ertalab ishga kelgan odamlar ishxonaning foyesi va yo'laklari birdan o'zgarib, ajabtovur tusga kirganini his qiladilar. A!.. Devorlarda rasmlar... Rang o-r a ng, turli-tuman rasmlar!* U.A'zim, Ishxonadagi ko'rgazma.

RANGPAR, RANGSIZ Biron-bir kasallik yoki uzluksiz zahmat chekish natijasida kishi yuzi rangidagi qizillik o'chgan, zahil, siniqqan holatga kelgan. **Rangpar** so'zidan davomli kasallik tufayli rangi siniqqanlik ta'kidi ochiq anglashiladi. **Rangsiz** so'zida davomli kasallik tufayli rangi siniqqanlik ta'kidi **rangpar** so'ziga qaraganda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Sun'iy nafas olish apparatiga ulangan, bilak tomiriga tomchi dori quyilayotgan rang p a r yigitni Soli Murodov tanidi. T.Malik, Talvasa. *Shunday bir odamni bugun sochlari olingan, soqollari o'sgan, qovoq, yuzlari salqi, rang-par, ustida telogreyka, galstuksiz, yoqavayron bir ahvolda ko'rdim-u, naqadar xo'rlanganimizga yig'lagim keldi.* Shukrullo, Kafansiz ko'milganlar. *Qo'pol qilib boshig'a salla o'ragan, ustag'a o'xshash rang s i z gina bir yigit kirib kelar edi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Qodirboy to'g'ri ichkari hovliga o'tib, ayvonda ko'rpa-to'shak qilib yotgan yoshgina, ozg'in, rang s i z xotinidan hol so'radi: – Qalay? Yaxshimisan, Umri?* H.Qodiriy, Eski Toshkandda.

REJA, MO'LJAL Qilinishi lozim bo'lgan ish-yumushning puxta va o'z vaqtida bajarilishi uchun belgilab olingan aniq dasturi yoki taxminiy mo'ljali. **Mo'ljal** so'zida bu ma'no reja so'ziga qaraganda noaniqroq ifodalanadi, ko'proq oddiy so'zlashuvda qo'llanadi.

Ertangi ishga bugun rej a tuz. Maqol. *Uning rej a sicha, hamsuhbat biroz asabiylashganda maqsad ayon etilsa ko'ngildagiday bo'lishi kerak. Bu rejadan bexabar Mirkomilboy bir kinoya bilan uzib oldim deb, o'z ko'ngliga taskin ber-*

di. Cho‘lpon, Tanlangan asarlar. *Uni aldamaslik kerak... edi. M o ‘ l j a l aniq: to‘rt soat qishloqqa, to‘rt soat ortga qaytishga, ikki soat ishni bitirish uchun, yana ikki soat har ehtimolga qarshi...* A.Mamarasulov, Uchinchi yo‘l. *Hozir ham havoning avzoyi buzildi-yu, m o ‘ l j a l dagi ishini tugatolmay, diqqati oshdi.* S.Karomatov, Oltin qum.

REJALASHTIRMOQ, REJALAMOQ, MO‘LJALLAMOQ, BELGILAMOQ, TAYIN QILMOQ (ETMOQ) Kelgusida qilinishi lozim bo‘lgan ish-yumushning aniq dasturi yoki taxminiy mo‘ljalini oldindan belgilab olmoq. **Rejalamoq** so‘zi **rejalashtirmoq**qa nisbatan kam qo‘llanadi. **Mo‘ljallamoq** bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda faol. **Belgilamoq, tayin qilmoq (etmoq)** kitobiy nutqqa xos.

U o‘sha eshitganlari asosida Ollonazar polvon haqida kichikroq doston bitmoqni ham r e j a l a sh t i r ib qo‘ygandi. N.Norqobilov, Kurash. *Qanday qilib bo‘lsa ham Sarsarani bosib olishni, boyliklarini talab, el-ulusni qul qilishni r e j a l a sh t i r ibdi.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Aytishlaricha, bo‘lamizning shiyponi bahavoroq joyga qurilgan oddiy bir boshpana bo‘lsa, “meniki” qo‘sh oshyonli chinakam ko‘shk emish! Buni ko‘rgan Amirboyvachchaning g‘ayirligi kelib, shiyponi o‘rniga uch qavatli qasr tiklamoqni r e j a l a b yurganmish.* E.A’zam, Bizning tog‘a. *Kechalarigina u o‘zini odamdek his qiladi, rejalar r e j a l a b chiqadi. Kun tug‘ishi bilan yana tunni kutadi.* U.Hamdam, Otash. *Jajjigina, lekin qo‘ng‘irog‘i shunaqangi qattiq chirillaydiki, hatto o‘liklar ham sapchib o‘rnidan turib ketsa ajabmas. Umidbekka shuni tortiq qilishni m o ‘ l j a l l a dim.* L.Bo‘rixon, Sut sotuvchi bola. *Siz ishonsangiz, bu rolni sizga m o ‘ l j a l l a b yozdirgan edim. Buni o‘ynash uchun sizda quvvat bor deb o‘ylagan edim...* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Qiz rozi bo‘lsa, indamas, aks holda, fursatni o‘zi b e l g i l a b, “Bu kitobni o‘qigan ekanman”, deb qaytarib berardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Odatda, man-man degan aktyor ham rejissyorga suyanadi, nafsilamri, aktyor rejissyor b e l g i l a gan yo‘ldan boradi, uning qarashlarini ifodalaydi, faqat... o‘ziniki qilib yetkazadi...* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *U shoshib o‘rnidan turdi-da, Muhiddin t a y i n l a b ketgan joyga jo‘nadi.* T.Malik, Savohil. *To‘y yanagi haftaga t a y i n q i l indi.* S.Ahmad, To‘yboshi. *Xullas, uzoq taklif-u mulohazalar, o‘y-u andishalardan so‘ng vaqt t a y i n q i l indi: shanba kuni yo‘lga chiqamiz!* Y.Tog‘a, Bolalik hidi.

REJALI, TARTIBLI Aniq reja asosida harakat qiladigan, ishlaydigan. **Tartibli** so‘zida tartib asosidalik ta’kidi ochiq aks etgan.

...Hovli juda keng, pastdagi bog‘-ishkomlar uzun ketgan, yo‘lkalar bir rasamadli, meva tuplari undan-da r e j a l i, akam bog‘hovli olibdimi, yangi hovli-joy qilibdimi, bir qarashda bilish qiyin edi. M.Mansur, Judolik diyori. *Turkistondagi ilm-fan, madaniyat, ma’naviyat yodgorliklarini r e j a l i, ilmiy asosda qo‘lga kiritish bobida Peterburgda tashkil etilgan Rus jug‘rofiya jamiyati katta rol o‘ynadi.* M.Hasaniy, Yurt bo‘ynidagi qilich yoki istilo. *Bu yoshda badandagi*

quvvatning asosiy qismi jismoniy o‘sishga sarf etilishi natijasida o‘smir o‘zini behol seza boshlaydi. Qo‘shimcha dam olishga, t a r t i b l i ravishda quvvatli taom iste’mol qilishga ehtiyoji kuchayadi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Jangdan so‘ng barcha qismlar G‘orbobo yaqinidagi bir mavzeda to‘plandilar va t a r t i b l i ravishda G‘orboboga qaytdilar*. M.Xo‘jayev, Shermuhammadbek qo‘rboshi.

REJASIZ, TARTIBSIZ Reja asosida bo‘lmagan, qurilmagan. **Tartibli** so‘zida tartib asosida emaslik ta’kidi mavjud.

R e j a s i z daraxtzor – changalzor. Maqol. *R e j a s i z ish – qolipsiz g‘isht.* Maqol. *Bino bo‘lganidan beri ko‘p bo‘lsa ikki-uch marta ochilgan, ichkaridagilardan hech birining esida va xayolida ham qolmagan bu darichadan oshib o‘tsangiz, qator-qator uylarning ketidagi kattakon va t a r t i b s i z o‘stirilgan boqchaga tushasiz*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *T a r t i b s i z ishda, odamlar bilan muomalada yuzaga keladigan salbiy to‘lqin me’yoridan osha borsa, odam asab kasaliga yo‘liqadi.* T.Malik, Devona.

RIVOJ, TARAQQIY, TARAQQIYOT, RAVNAQ Yuqori bo‘lmagan sifat holatidan yuqori sifat holatiga o‘tish, kamolot kasb etish, yuksalish. **Taraqqiy, taraqqiyot, ravnaq** ma’noni **rivoj** so‘ziga nisbatan kuchliroq darajada ifodalaydi. **Taraqqiy** faol emas, ko‘pincha *topmoq, etmoq* fe’llari bilan birga keladi. **Taraqqiyot** so‘zida harakat belgisi kuchliroq, publitsistik uslubda faol. **Ravnaq** kitobiy uslubga xos, unda poetik bo‘yoq nisbatan kuchli.

Men o‘z ulushimni jahongirlik emas, saltanatni obod qilmoq, madrasalar qurib, ilm-fan r i v o j iga sarf etmak niyatida edim. O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Senga baxtdan taxt tilarman, Toledan boshingga toj, Mulki husningga omonlik, Toj-u taxtingga r i v o j.* E.Vohidov, Saylanma. *Uning hayotdagi amallari ham, ijoddagi izlanishlari ham millatning ertasi haqidagi tashvish, millat t a r a q q i y s i, millat ozodligi kabi ulug‘ niyatlar bilan chambarchas bog‘liq edi.* D.Quronov, Cho‘lpon haqida so‘z. *Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining t a r a q q i y s i g a chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur.* Cho‘lpon, Adabiyot nadur? *Maydon chetidagi bayroq osilgan muhtasham binoda tenglik va insonparvarlik hamda fan t a r a q q i y o t i to‘g‘risida qandaydir da’vatkor shiorlar osilgandi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bugungi kunda mamlakatimiz t a r a q q i y o t ini yangi bosqichga ko‘tarishda har bir vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari, fuqarolar faol ishtirok etib, uning ravnaqini ta’minlashga munosib hissa qo‘shmoqda.* Gazetadan. *Bir narsaga aniq ishonadi – u Galatepaga rais, Galatepaga undan boshqa odam raislik qilolmaydi, usiz Galatepa uchun hech qanday r a v n a q yo‘q.* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish. *Kelgusida yurtimiz r a v n a q iga farzandlik sadoqati ila munosib hissa qo‘shishlariga ishonamiz.* “G‘uncha”.

RIVOJLANMOQ, O‘SMOQ, TARAQQIY QILMOQ (ETMOQ), YUKSALMOQ Bir sifat holatidan ikkinchi, yuqori sifat holatiga o‘tmoq. **O‘smoq** so‘zida mazkur holat ta’kidi nisbatan kuchsizroq ifoda topadi, oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. **Taraqqiy qilmoq (etmoq)**da **rivojlanmoq** so‘ziga nisbatan ifoda kuchli, unda publitsistik bo‘yoq mavjud. **Yuksalmoq**da mazkur ma’no ta’kidi juda kuchli, badiiy nutqqa xos.

Ammo bora-bora vaqf yerlar obod bo‘lib, mahsulotlari oshdi va savdo-sotiq r i v o j l a n ib vaqfga oid saroy, do‘kon va tijoratxonalar ko‘proq daromad bera boshladilar. S.Ayniy, Esdaliklar. *Hoshimjon bironta r i v o j l a n gan yurtda na muhandis, na agronom bo‘la olardi.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Eng muhimi, uning otasiga bo‘lgan mehri, ixlosi shu kitob tufayli yangi bir kuch bilan o‘ s ib borardi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ma’lumki, Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay) davrida Movaraunnahrda tabiiy fanlardan tashqari, adabiyot va, ayniqsa, me’morchilik t a r a q q i y e t di.* H.Zayniddinov, Samarqand sayqali. *O‘zbekiston endilikda jahon hamjamiyati tomonidan jadal t a r a q q i y e t ayotgan... mamlakat sifatida e’tirof etilmoqda.* Gazetadan. *Biz ham muz tog‘ida – oftob va ko‘klamdan xoli bo‘lib yashayapmiz. Tog‘ esa kundan kun y u k s a l moqda – u endi yuraklarimizni ham zabt eta boshladi, taqsirim.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Tarixda bugungiday ta’lim tizimi va uslublari bo‘lmagani, shart-sharoit zamonlar osha y u k s a l ib borganligi bor gap.* “Yoshlik”.

R

RIZQ, NASIBA, RIZQ-NASIBA 1. Insonlarning hayot kechirishlari, yashashi uchun zarur bo‘lgan yegulik narsalar, oziq-ovqat. **Nasiba** bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Rizq-nasiba** so‘zi kitobiy uslubga xos, belgi kuchli.

Tishimizning kavagida asragan qirq so‘m pensiya puli turgan ekan, yanagi oygacha qozon qaynatmasak qaynatmasmiz, bolalarning r i z q idan qiyib, shuni olib keldik. A.Mamarasulov, Jarima. *Odamlarning yumushiga hozir bobo, tegirmonchi, Halol r i z q dan doim topgan huzur bobo, tegirmonchi.* S.Sayyid, Tegirmonchi. *Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo‘lar deb ekkanmiz, norastalarning n a s i b a siga tegmang, deb bobillab beribdi.* O‘.Hoshimov, Urushning so‘nggi qurboni. *Titroq qo‘li bilan o‘g‘liga tandirda qizarib pishgan non uzatdi: – Tishlab keting, bolam, n a s i b a ngiz... shu yerda qolyapti, ilohi eson-omon bag‘rimga qaytib keling...* T.Malik, Falak. *Aslida kimsasiz sahroda bu r i z q-n a s i b a qayerdan kelib, tomoqdan ortgani qayoqqa ketyapti.* A.Abdullayev, Hazrati Attor.

2. Qur’oni karim, Islom diniga ko‘ra, xudo har biri kishi, jonivor uchun atagan, o‘lchab, belgilab qo‘ygan ulush.

Non-nasibang bizda bo‘lsa qolarsan, bo‘lmasa, qishlog‘inggami yo boshqa tomongami, jo‘narsan. R i z q ingni Ollo taolo qayerga sochgan, biz bilamizmi?

Oybek, Tanlangan asarlar. *R i z q i ulug‘ odamsizlar-da, qor tagiga bostirilgan sabzilardan o‘tgan kuni besh-olti qop oldirib kelgan edim.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Ollo bergan n a s i b a ni birga baham ko‘rib, Mashriqdan Mag‘rib-ga cho‘zilgan hududsiz davlat qurdik.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Xudoyim xudovando onayizor rizq-ro‘zini bermabdi-da, n a s i b a sini bermabdi-da!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. – *Bularniyam Xudoyim yaratib qo‘yibdi o‘z r i z q -n a s i b a si bilan, – derdilar o‘sha janggohga ketgan Kenja tog‘am. – Bi-rovning n a s i b a sini birov yeb ketolmaganidek, bularga buyurganini kim qoqmalab qo‘ya olardi.* M.Mansur, Judolik diyori.

ROHAT, HUZUR, GASHT, FAROG‘AT, AYSH, HALOVAT, HUZUR-HALOVAT, ROHAT-FAROG‘AT Kishi qalbida yuzaga keladigan estetik zavq yoki orom beradigan narsalardan olinadigan lazzat, orom, mamnuniyat. **Rohat** so‘zi estektik zavq va oromni ham, huzur va gashtni ham ochiq ifodalay oladi. **Huzur** so‘zida kishining mavjud holat yoki biron-bir xatti-harakatdan ichki qo-niqish ta’kidi ochiq ifodalangan, kitobiy xoslangan so‘z. **Gasht** so‘zida mazkur ma’no **rohat** so‘ziga qaraganda kuchliroq ifoda topadi, oddiy so‘zlashuvda faol ishlatiladi. **Farog‘at** badiiy nutqqa xos. **Aysh** so‘zi mazkur ma’noda *surmoq* fe’li bilan birga ham keladi, kam qo‘llanadi, kuchsiz salbiy ifoda bor. Mazkur ma’no **huzur-halovat** va **rohat-farog‘at** juft so‘zlarida yanada kuchli aks etadi, asosan, badiiy nutqda faol.

Devor kaftlarini qitiqladi. Ayni vaqtda kaftlari... devordan huzur oldi. Devor-dan zavq oldi. Devordan r o h a t oldi. T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Birdan mayin shabada esayotganini ilg‘adim. Nechukdir tanim allaqanday ro-h a t g a cho‘mdi-da, uyqum qochdi.* D.Nazar, Qutulish. *K. necha daf’alar yugu-rib, g‘oliblik nashidalarini bearmon surib ham hozirgidek, bu safardagidek h u z u r topmagan, joni rohat tuymagandi.* X.Do‘stmuhammad, O‘n soniya. *Sekin pisib bordim-u, shartta o‘zimni otdim. O‘rdak “g‘iq” etmadi. Kunduzi o‘q tegib yaralangan-u oqshom sovuqda qotib qolgan, uyga opketib kun bo‘yi h u z u r qilib yedim.* G‘.Rahmon, Oshiq dunyo. *Tumanga kirdik, buning ham o‘z g a s h t i bo‘lar ekan.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Uzoq yillar kolxozda tabelchi, briga-dir, hosilotlik lavozimlarida ishlab nafaqaga chiqdi: qarilik g a sh t ini surmoq-da.* A.Boyqo‘ziyev, Teshikmozor hangomalari. *Xonandaning ovozi biram yo-qimli, biram shirali ediki, go‘yo bu sehrli navo: “Ketma, ey inson. Bu dunyoda faqat g‘amlar emas, f a r o g‘ a t, o‘yin-kulgilar, yaxshiliklar ham mo‘l” deya nola qilayotgandek edi.* J.Hushboq, Qayg‘uning surati. *Hayriyat, adashuvdan qutulgan edim, o‘zimni bir yengil his etdimki, bu turuvimizdan faqat f a r o g‘ a t tuymoqda edim.* M.Mansur, Judolik diyori. – *Sen ozodsan, Ko‘ktoy! To‘rt to-moning – qibla, a y sh ingni surib, tuyog‘ingni sudrab yuraver, – deyishdi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Nahot nodon abadulabad a y sh ini surib, dono abadulabad jabrini tortaversa?* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Men itga aylanishni, uning*

yonida bo‘lishni, uning qo‘tir bosgan tanasini uzun, o‘zinikiday, xuddi muhabbat yaloviday osilib turadigan tilim bilan yalashni, uning ham g‘aflat yarasi bosgan tanamni yalab, h a l o v a t bag‘ishlashini istardim. N.Eshonqul, Bahouddinning iti. *Bundan-da battari, aksariyat dasht polvonlariga o‘xshab, mag‘lublikni o‘ziga ravo ko‘rgan taqdiri azal hukmiga osonlikcha bo‘yin egmaydi… toki uning yelkasini yerga tekkizmaguncha h a l o v a t nima, bilmaydi…* N.Norqobilov, Kurash. *Buvgul xola... keksaygan chog‘ida qo‘lini sovuq suvga urmay, huzur-halovatda yashash o‘rniga... hali-hamon qo‘li kosov, sochi supurgi bo‘lib yurganini o‘ylab... alamini ichiga yutadi.* A.Yo‘ldosh, Yolg‘on va haqiqat. *Dunyodagi bor h u z u r-h a l o v a t ichimda to‘planayotgandek bo‘ldi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *El-yurt kelajak Navro‘zgacha xush-xush-vaqtlikda kun ko‘radi, r o h a t-f a r o g‘ a t da kun ko‘radi!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *U og‘riyotgan boshlarni r o h a t-f a r o g‘ a t sari eltguvchi odatdagi yo‘lni beto‘xtov yaqqollashtirib, ko‘ngillarga g‘ulg‘ula solib turadi.* U.Azim, Sevgi.

ROHATLANMOQ, HUZURLANMOQ, ROHAT QILMOQ, HUZUR QILMOQ, HUZUR OLMOQ, MAZA QILMOQ, LAZZATLANMOQ Ko‘ngilga manzur biror narsa-hodisa ta’sirida kishi o‘zida rohat, huzur hissini tuymoq. **Huzurlanmoq** so‘zidan huzur hissining kishining o‘zida kechganligi ta’kidi bor va bu jihat **huzur qilmoq, huzur olmoq, maza qilmoq** so‘zlarida ancha kuchsiz. **Maza qilmoq** oddiy so‘zlashuvga xos. **Lazzatlanmoq** so‘zida belgi darajasi yanada kuchli.

Shayx bilan shayxulislom suhbati – ikki sohibi ilmning, ikki zukko olimning suhbati edi, ikkisi ham bir-birlari haqida yaxshi taassurotlarga ega bo‘ldilar, mazmunli gurunglardan bag‘oyat r o h a t l a n dilar. M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Agar istasangizlar, sizlarni Bag‘dodga olib ketayin, o‘sha yerda r o h a t l a n ib yashanglar.* T.Malik, Umidimiz yulduzlari. *Shoir hozir uyquda, mast uyquda. Bugun har qancha huzurlanib uxlasa arziydi – unga halol.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *U ikki xil mavzudagi ikki asarni birvarakay qog‘ozga tushirmoqqa imkonli edi va bundan o‘zi chinakamiga h u z u r l a n ardi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Zo‘rg‘a-zo‘rg‘a qayrilib yoniga qaradi: sevimli bulbuli, sochlarini to‘zdirib, shirin uyquda r o h a t q i l moqda edi!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qarang, ko‘zingiz dam olsin, ko‘nglingiz quvnasin, odamlar ko‘rsin, ko‘rib rohat q i l sin, deb yaratilgan-ku bu go‘zallik!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Chaqaloq og‘izlarini katta-katta ochib, “g‘i-g‘i”lab kuldi, h u z u r q i l di, yayradi, ammo barcha bolalarday qiqirlab kulolmadi.* X.Safarov, Qo‘g‘irchoqchali bolakay. *Ularni sotib, pulini olganida qanchalik h u z u r q i l gani yetmagandek, endi kalaka qilib, xumoridan chiqardi.* T.Eshbek, Ostonaqul buvaning “boyliklari”. *Ayni vaqtda kaftlari... devordan huzur oldi. Devordan zavq oldi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. – *Buncha shoshasan? Osh-*

nang m a z a q i l ib uxlab yotibdi, – deya gap qistirdi boyadan buyon sog‘ ko‘zini tilla buyumlardan uzolmay turgan Ko‘rshapalak. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Salim kenjani esa dunyoga kelganiga ming bor pushaymon yedirsa! Oo, zap zo‘r ish bo‘lardi-da lekin! Bu bo‘ronli xayoldan bolakay m a z a q i l di.* N.Norqobilov, Erkak. *– Ko‘rgandirsiz, axir? – dedi Sutchi endi omuxta choydan l a z z a t l a n a - l a z z a t l a n a ho‘plarkan.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bu mo‘jiza bir necha daqiqadan so‘ng yuz beradiganday o‘z xayollaringdan o‘zing l a z z a t l a n a r ding.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam.

ROST I**, TO‘G‘RI, CHIN, HAQ, HAQQONIY, HAQIQAT** Haqiqatdan iborat bo‘lgan, yolg‘on emas. Mazkur so‘zlarda belgi bosh so‘zdan qatordagi oxirgi so‘zgacha darajama-daraja kuchayib boradi. **To‘g‘ri, rost** so‘zini nutqda erkin almashtira oladi. **Chin, haq, haqqoniy** so‘zlari bu ma’noda, asosan, *gap, so‘z* birliklari bilan birikma hosil qiladi, kitobiy uslubda faol qo‘llanadi.

Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi, – deganlari r o s t ekan! O.Yoqubov, Billur qandillar. *So‘ng r o s t gapni yashirsa yolg‘on gapirganday bo‘lishini o‘ladi-yu: – Yuring: kitobatni ko‘rsatay, – dedi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– To ‘g ‘- r i aytasiz, xizmatkor qulday bo‘lsin, – erining haligi fikrini jo‘rttaga quvvatladi Nuri...* Oybek, Tanlangan asarlar. *– T o ‘ g ‘ r i aytding, – dedi shamol qoniqish bilan. – Bular – mardudlardir.* I.Sulton, Ozod. *– Shoshmang, yana bir narsani aytib beray, buni cho‘pchak deysiz, lekin o‘ngkay ch i n so‘z.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yana ch i n gaplardan kelar bo‘lsam... bu munglug‘ ko‘nglumdan qo‘zg‘olgan qayg‘ularim qaynar suvdek bo‘lib ikki ko‘zimdan oqqan...* M.Mansur, Judolik diyori. *– Nimaga indamaysiz? – deb so‘radi akasi. – H a q gapga nima deyman? Qiziqsiz... – dedi Razzoq so‘fi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Xo‘sh, nega maning h a q gapim fitna bo‘ladi?* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shuhrat dafn marosimidagi so‘zlagan nutqida Abdulla Qahhor haqida mardona, h a q - q o n i y so‘zlarni aytdi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Ansoriy o‘shanda nelar qilganini h a q q o n i y so‘zlar bilan bayon qilishlari kerak emasmi?* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Men h a q i q a t gapni aytdim! Bo‘ritosh opa, haqiqatni aytganim uchun ketasizmi?!* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Bizning bu mamlakatni tark etganimiz h a q i q a t edi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati.

ROST II**, TO‘G‘RI, CHIN** Aytilgan gap-so‘zni tasdiqlash, ta’kidlash vazifasini bajaradigan kirish so‘z. **To‘g‘ri** nutqda **rost** so‘zini erkin almashtiradi, ammo **to‘g‘ri** so‘zida yolg‘on emaslik belgisi **rost** so‘ziga qaraganda kuchsiz ifoda topadi. **Chin** so‘zi bu ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi.

Salti ko‘tarildi: – O‘lmasxon, bormisiz? Durustroq aytsangiz-chi! Saltining yana bir o‘rtog‘i – Qumri uning so‘zini quvvatladi: – R o s t, shunday yaxshi ovozingiz bor ekan, sho‘x-sho‘x aytmaysizmi? Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *O‘spirin Akbarning shuncha narsalarga aqli yetayotganidan xiyol taajjublangan Bayramxon: – R o s t, – dedi, – bo‘sh kelsak, ichki urush boshlanmog‘i*

mumkin. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Gulsumbibi ko‘z yoshlarini etak uchi bilan artib, so‘zida davom etdi: – T o ‘ g ‘ r i, ular boy, juda boy. Ammo ular Gulnorga tinchlik bermaydi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *T o ‘ g ‘ r i, qadr-qimmatingiz oshkora haqoratlanganida o‘sha miltillayotgan cho‘g‘ alanga olganday bo‘ladi...* Sh.Boshbekov, Temir xotin. – *Chechamga bolalardi omonligi kerak, a? – dedi u Maryam momoga ma’noli qarab. – C h i n, c h i n. Menga baloyam urgani yo‘q. Qayerga bor, desang, qancha jur, desang ketaberaman. Shuginani joni omon bo‘sa bo‘ldi, – dedi nabirasining boshini silab.* B.G‘oziddinov, Tong va shom orasida.

ROSTDAN, CHINDAN, ROSTAKAM, ROSTAKAMIGA, HAQIQATAN Haqiqiy holatda, asosan, harakat-holatning shunday belgisini ifodalaydi. **Chindan** so‘zi **rostdan** so‘ziga qaraganda kam qo‘llanadi. **Rostakam, rostakamiga** oddiy so‘zlashuv tiliga xos. **Haqiqatan** so‘zi oddiy so‘zlashuvda **chindan** so‘ziga nisbatan ham kam qo‘llanadi.

Qalay, yangi ayang yaxshimi? Dadang yaxshi deydi. R o s t d a n yaxshimi? O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Mening ertaklarim qo‘ynida Robiya r o s t d a n ham gul bo‘lib ochildi va dunyoning mudhish kuchlaridan qochib, mening ko‘ksimga kelib yashirindi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Ch i n d a n ham, qum ichiga singib ketgan suv sizib chiqqanidan u sekin qimirlay boshladi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Ch i n d a n ham kamdan kam bo‘lsa-da, poyma-poy tuflining bir poyi boshqa razmer tuflilarga aralashib kelib qoladi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Tursunoy avval ishonmaganday ko‘zlarini katta ochib qaradi-yu, keyin Yefim tog‘aning r o s t a k a m ichkari boshlayotganini ko‘rib ishondi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Endi Mo‘min tog‘aning r o s t a k a m jahli chiqdi: – Boringlar hammang! U senlarnikiga kelganmi, menikagami? Namuncha bag‘ritoshsanlar?!* M.Mansur, Judolik diyori. *Isrofilning r o s t a k a m i g a jahli chiqadi: Sayoz daryoga o‘xshab shag‘illaysan-u, ko‘ngling ko‘r – tumshug‘ingning oldida turgan geniyni ko‘rmaysan...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Akangdan bir xabar ol, o‘g‘lim. To‘ng‘ichini jo‘natishib, o‘zlari kelishmadi. Mendan r o s t a k a m i g a arazlaganga o‘xshaydi.* U.Hamdam, Muvozanat. *H a q i q a t a n Vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak. Sotmasga va o‘lguncha ayrilmasga kerakdur...* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Qiz o‘zi ko‘rgan-kechirgan ba’zi voqealarni xayolidan o‘tkazib, dunyoning h a q i q a t a n ham adolatsiz qurilgani ustida o‘ylab ketdi, o‘zicha Jumaboy aytgan fikrlarning mag‘zini chaqishga urinib ko‘rdi.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *H a q i q a t a n ham tug‘ilmasimdan ancha ilgari “Sharq” oshxonasida faqat pashshalargina yashashar ekan.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola.

ROSTGO‘Y, TO‘G‘RISO‘Z, HAQGO‘Y, HAQIQATGO‘Y, ROSTCHI Rost gapiruvchi, yolg‘on-yashiq so‘zlamaydigan. **To‘g‘riso‘z, haqgo‘y, haqiqatgo‘y** so‘zlarida darajama-daraja belgi oshib boradi. **Haqgo‘y** oddiy so‘zlashuvda faol, **haqiqatgo‘y** badiiy nutqda ko‘p qo‘llanadi. **Rostchi** jonli so‘zlashuvga xos.

Qochma r o s t g o‘ y do‘stlarning Kohish-u ozoridan… E.Vohidov, Saylanma. *Bu dardi dilimga ogohim bormi? Ertan kun bir r o s t g o‘ y guvohim bormi?* S.Sayyid, Xudoga topshirdim. *Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda bir podshohning ikkita vaziri bor ekan. Biri boshiga qilich kelsa ham, haqiqatni aytadigan t o‘ g‘ r i s o‘ z ekan.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Sinashning hojati yo‘q. Uni qarzdor qilib qo‘yganmiz. T o‘ g‘ r i s o‘ z bola ekan, menga shunisi yoqdi.* T.Malik, Shaytanat. *Men shunday pahlavon, h a q g o‘ y, bahodir o‘g‘lim borligi bilan iftixor qilurmen.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O‘z umrini savob ish – tabiblikka baxsh etgan odam, eng avvalo, saxiy, muruvvatli, soddadil, h a q g o‘ y, beg‘araz va adolatparvar bo‘lmog‘i kerak.* Gazetadan. *Shunaqa paytlari Sobir uning ko‘ziga yelkadosh, h a q i q a t g o‘ y do‘st bo‘lib ko‘rinadi...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Shodlikzordan shodliklar terib, Eltib bersam etaklarimda. Yana issiq nonlar yoparding H a q i q a t g o‘ y ertaklarimda.* “Tamaddun nuri”. *Biz yolg‘onchi-yu, sen r o s t ch i bo‘ldingmi?* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.

ROSTLAMOQ, TIKLAMOQ, TO‘G‘RILAMOQ Tik holatga keltirmoq. **Rostlamoq, tiklamoq** bu ma’noda asosan “qad” so‘zi bilan birga keladi. **To‘g‘rilamoq** o‘simlik poyasi va boshqa tik holatga keluvchi narsalarga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin.

Zero, fikr-u yodi qazoyi muallaqdan omon qolish, o‘zini o‘nglab, kuchli to‘lqinga qarshi kurashish g‘ami, qayg‘usi bilan band edi. R o s t l a nib olish, tik turish, g‘ayrishuuriy ravishda qo‘l cho‘zib, nimanidir tutamlashga urinardi. Q.Kenja, Toshqin. *Yotgan ko‘yi surindim, paypaslandim. Ittifoqo, barmoqlarim tayoqni his qildi: mahkam tutib, suyanib dol qaddimni r o s t l a shga urindim.* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Yo‘q, raqibiga jon kirdi. Inqillab qaddini t i k l a di.* N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun. *Ahmad Tanbal egar ustidan uloqchilarga o‘xshab pastga engashdi-yu, uzun qo‘li bilan yerdan mushtday bir toshni oldi. So‘ng qaddini t i k l a b, toshni Xo‘ja Abdullaga qarab otdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Dardingizga davo menda! – u qaddini t o‘ g‘ r i l a b, mag‘rur boqish bilan yana iljaydi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yoki sug‘orishdan so‘ng kuchli shamol esgan bo‘lsa, qiyshaygan ko‘chatlar t o‘ g‘ r i l a b chiqiladi.* D.Mirzaqulov, Qishda ham ko‘chat o‘tqazish mumkinmi?

ROZILIK, RIZOLIK Yuz bergan yoki yuz berishi mumkin holatga ko‘nganlik, unaganlik holati, tasdiq javob. **Rizolik** kam qo‘llanadi, birmuncha eskirgan, kitobiy xoslangan so‘z.

Normo‘min gung, elchilik, ular yuzidan o‘tolmay, noiloj kurashga r o z i l i k bildiradi. N.Norobilov, Kurash. *Rustam qat’iy qarorga kelguncha, to‘g‘rirog‘i, xotinining maslahatini yoqlab, r o z i l i k bildirguncha bu masala o‘zlari o‘rtasidagina emas, boshqalar ishtiroki, aralashuvi, tazyiqida ham ko‘p bora muhokama etildi.* Q.Kenja, Toshqin. *Mirhosilning jimib qolganini “sukut – r i z o l i k*

alomati”, deb bilgan Turg‘un zaharli so‘zlarini davom ettirdi... T.Malik, Xazonrezgi. *Bundan tashqari, men uchun eng muqaddas narsa bu ota-onamning rizoligi edi, xolos!* Shukrullo, Kafansiz ko‘milganlar.

RUH, ARVOH Inson tirik paytida u bilan birga bo‘ladigan, olamdan o‘tishi bilan kishi tanasini tark etadigan, islomiy qarashlarga ko‘ra, narigi dunyoda abadiy qoladigan, bu dunyo kishilarining ko‘ziga ko‘rinmaydigan narsa, g‘ayritabiiy kuch. **Arvoh** so‘zida kishi ko‘ngliga qo‘rquv soladigan belgi bor, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Salabek o‘ta ziyrak, raqibining o‘ziga atay yon bosganini darrov sezadi, bu – bir, ikkinchidan esa, yigitga harchand qayishishga urinmasin, botinidagi devkor r u h bunga aslo izn bermaydi – raqibiga qo‘l cho‘zmasidan burunoq, ichidagi “dev” yashin tezligida uyg‘onib, zumda Xurram qotmaning bor inonixtiyorini o‘z izmiga bo‘ysundiradi va oqibat u butunlay o‘zga bir odamga aylanadi-qo‘yadi. N.Norqobilov, Kurash. *Men o‘zimni uning r u h i oldida aybdorday his qilaman.* Q.Kenja, Toshqin. *Biz o‘lib ketganimizdan keyin ham arvohlarimiz seni bu uyga yaqinlashtirmaydi, bilib qo‘y.* T.Malik, Xazonrezgi. *Shokir ota ishdan to‘xtab, ko‘zoynagini peshonasiga ko‘tardi: – Yo‘lchining arvohini tinch qo‘y, til tegizma! Yo‘lchi mard, sher yigit edi, dunyoga bir keldi, bir ketdi. Singlisi kamtar, mehnatkash bir qiz.* Oybek, Tanlangan asarlar.

RUHIY, RUHAN, RUHONIY Insonning ruhiy olamiga, uning ichki kechinmalariga tegishli yoki bog‘liq bo‘lgan. **Ruhoniy** so‘zida ruhga oidlik alohida ta’kid oladi, kitobiy.

R

Xurram qotmani doimo taajjubga solib keladigan yana bir hol, g‘olib bo‘lmoq umidida jon-jahdi bilan kurashayotgan yigitlarning ushbu lahzada chekayotgan ruhiy va jismoniy azoblari bilan kishilarning zig‘ircha ishi yo‘q... N.Norqobilov, Kurash. *Ammo bot-bot yuz beradigan davomli va qizg‘in “muhoraba”lar, fikr va dunyoqarashlarning mudom zid kelishi bilan bog‘liq ezilish, ruhiy zo‘riqishlar oqibatida uning tolmas, metin yuragi hilviray, hil-hil jigari esa bandidan uzilgan chinor yaprog‘idek bujmaya boshlagan edi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Bu noxushlik uni butkul r u h a n yerga urdi.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *To‘g‘risi, Fotih Burhonovich avvaliga qurilishning borishidan naridan beri xabar olib turuvdi, o‘sha yerda jisman va r u h a n yengil tortayotganini tuygach, astoydil bo‘lib qoldi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Shaxsan mening ruhoniy-uvaysiy ustozlarim – Mirzo Bobur, Oybek, Usmon Nosir, ko‘rgan – suhbatdosh ustozlarim Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi.* X.Davron, Uyg‘onmoq dunyo bilan barobar yashamoqdir. *Bashar farzandining asli nima? Asli, albatta, r u h o n i y olami.* T.Malik, Shaytanat.

RUHLANMOQ, ILHOMLANMOQ, RAG‘BATLANMOQ Ruhiy ko‘tarinkilik kasb etmoq. Qatordagi so‘zlar kitobiy uslublarda qo‘llanadi. **Ilhomlanmoq** so‘zida ko‘ngilga yoqadigan nimadandir “ilhom olmoq” ifodasi ta’kid oladi. **Rag‘batlanmoq** so‘zida “rag‘bat olmoq” ifodasi ta’kid oladi.

Bu notabiiy mashqlardan so‘ng doimo o‘zini misli qushday yengil sezadi, hozir qanot chiqarib, osmonga uchib ketaman-ov, deydi r u h l a n ib. N.Norqobilov, Kurash. *“Xudoga shukr...” ko‘nglidan o‘tkazdi u, hali nima bo‘lishi noma’lum, ehtimol, bu bolta tushguncha dam oladigan kundaning quvonchiday bir holdir, lekin Rustam baribir r u h l a n di.* Q.Kenja, Toshqin. *Hamonki, Vadud Mahmudning “Cho‘lpon o‘zbekning yangi shoiridir” degan ta’rifi chin bo‘lsa, shogirdingiz yangi hayotni yozsin, inqilobiy o‘zgarishlardan i l h o m l a n sin!..* X.Do‘stmuhammad, Umid guli. *Abdurahmon bu ayolning shaddodligidan zavqlanardi. Hozir ham tantanavorlikda qarg‘anishidan i l h o m l a n ib, muloyimgina hazilini davom ettirdi...* U.Azim, Sevgi. *– Barakalla, ilk sinovga dosh bering, – luqma tashladi o‘sha gulduros tovushning ko‘rinmas sohibi meni r a g‘ b a t l a n tirib.* A.Abdiyev, Muallaq odam. *Nazarimda, hammadan ham bizning og‘iz ochib quloq solganimizdan xursand, shundan r a g‘ b a t l a n ar, unga sari toshib gapirar edi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen.

RUXSAT, IJOZAT, IZN Biror narsa qilish uchun olinuvchi yoki beriluvchi rozilik. **Ijozat** ko‘proq yozma nutqda qo‘llanadi. **Izn** so‘zi **ruxsat, ijozat** so‘zlariga nisbatan eskirgan, nutqda faol emas.

Ayni vaqtda Amir Bahlulning r u x s a t i bilan Sharqqa taxta ortib ketayotgan aravalarga Sherxonning xufiyalari bir talay qilich-qalqon va nayzalarni yashirib qo‘ydilar. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *– Xafa bo‘lmoqqa r u x s a t yo‘q! – deya Kamolova, xiyla yaqinliklari bormi, uning chakkasiga shapatilagandek yengilgina barmoq urib qo‘ydi...* E.A’zam, Shovqin. *Bizningcha, to‘rttagacha uylanish i j o z a t i nafsni qondirish uchun emas, balki aynan bevalarni o‘z panohiga olish uchun bo‘lsa kerak.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Ular shisha idish ichida sun’iy odam qoldirgan elektron xatni topdilar, i j o z a t ingiz bilan, hozir sizga shu maktubni o‘qib eshittiraman.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Saroybeka Xayyom va Mikoilni kutib turmoqqa undab, o‘zi malikaning i z n ini so‘ramoq uchun ichkariga kirib ketdi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Aslida u qolganlarini ham Alloh i z n i ila ko‘rsata olardi.* “Sharq yulduzi”.

RUXSAT BERMOQ (ETMOQ), JAVOB BERMOQ, IZN BERMOQ, ROZILIK BERMOQ, IJOZAT BERMOQ Vakolatli yoki javobgar tashkilot yoxud shaxs tomonidan biror ishni bajarish, amalga oshirish uchun roziligini bildirmoq. **Javob bermoq** so‘zidan boshlab qatorning oxirigacha ushbu tushuncha darajasi ortib boradi. **Javob bermoq, rozilik bermoq** bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda, **izn bermoq, ijozat bermoq** so‘zlari kitobiy uslubda qo‘llanadi, ularda rasmiy bo‘yoq ham mavjud. **Rozilik bermoq** so‘zida nazarda tutilgan tushuncha qatordagi qolgan birliklarga qaraganda ma’noni ochiq ifodalaydi.

Nafisa muallim gapidan to‘xtab: – Ha, tashqariga chiqasanmi? Mayli, lekin tez qayt, – deb r u x s a t b e r di. A.A’zam, Tugmachagul. *– Lekin r u x s a t b e r sa-*

ngiz, azizlar, shu xususda kamina sizlarga andak ma'lumot bersam, zero bu gaplar hali ko'pchilikka notanish yangiliklardir. E.A'zam, Shoirning to'yi. *Shunga ko'ra, sizning qutlug' shaxsingiz vakolati bilan qolgan umrimni Ansoriyning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o'tkazishimga va saroy mulozimligi ishidan butunlay bo'shashimga r u x s a t e t sangiz.* I.Sulton, Alisher Navoiy. – *Iltifotlari uchun rahmat, ammo meni siz emas, boshliq chaqirtirgan, – shunday deb qaddini g'oz tutdi. – Ketishga r u x s a t e t i n g, o'rtoq podpolkovnik.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Lekin qanday yolg'iz boraman? Mening sherigim Said Akramxon To'raga ham j a v o b b e r a s i z l a r, dedim.* M.Ali, Abadiy sog'inchlar. *O'zbek xotin-qizlarini uyidan ko'chaga chiqarishni o'zi... katta gap edi!.. Birov – qozon-tobog'ini vaj etar edi. Birov – erkagim j a v o b b e r m a y d i, der edi.* T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. *Beixtiyor nari ketsa darhol iziga qaytar, to'satdan chiqishiga i z n b e r i l s a, ul-bulni unutib qoldirmay degan o'yda yon-veriga qarab-qarab qo'yardi.* I.Sulton, Tosh kelinchak. *Bu orada toshoyna yonida o'zimga oro berish bilan ovora edim. Bosh irg'ab i z n b e r g a n i m d a n so'ng kotiba trubkani oldi.* L.Bo'rixon, Xizr ko'rgan yigit. *Gulchehra ukasini yuborishni istamasa ham, otasi r o z i l i k b e r g a n i uchun indamadi.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Jurnalist xalqidan qochib qutulishning iloji yo'qligini bilganim uchun vaqt kech bo'lib qolganiga qaramay, r o z i l i k b e r d i m.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *Janob eshik og'a, i j o z a t b e r i n g, kamina Bobir mirzo huzurlariga kiray!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *G'orlarda yashash jonga tegdi: uylar, shaharlar qurishga i j o z a t b e r i l a r m i k i n?* N.Rahmat, Jadid.

R

RUXSATNOMA, IJOZATNOMA Biron-bir joyga kirish yoki shunday joydan chiqish, muayyan xatti-harakatni amalga oshira olish vakolati qayd qilingan hujjat. **Ruxsatnoma** – bu jihatdan keng ma'noli so'z, nutqning turli shakllarida faol qo'llana oladi. **Ijozatnoma** so'zi juda kam ishlatiladi, asosan, tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi, kitobiy.

Axir mendan lozim emasmidi, ishxonamdan o'sha yurtlarga r u x s a t n o m a olish, Sultonmurod akaginamning daragini izlab ko'rish?! M.Mansur, Judolik diyori. *Haykaltarosh shu issiqqa qaramay boshiga bo'g'irsoqday qilib beret qo'ndirgan daroz, beti bujur bir odam, baloning o'qi ekan, gapimizni tushunishi bilan: "Sizlarni hujjatsiz, r u x s a t n o m a siz qaysi ahmoq yubordi o'zi?!", dedi.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Abdurahmon Jomiy bilan Mir Alisher Navoiy hazratlari Hirotda turib yordam qo'llarini cho'zdilar. Movarounnahr sarhadidan chiqmoqqa i j o z a t n o m a olib berdilar. Mavlono Ali Qushchi u zoti shariflarga ko'nglida tahsinlar aytib, duo qilib yo'lga shaylandi...* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Bular ketar vaqtlarida chegaraning boshlig'ig'a uchrab, i j o z a t n o m a olib yo'lg'a chiqmoqchi bo'ldilar.* I.G'ofur, Domla Hindistoniyning boshdan kechirganlari.

RUXSAT OLMOQ, JAVOB OLMOQ, IZN OLMOQ, ROZILIK OLMOQ, IJOZAT OLMOQ Vakolatli shaxs, javobgar tashkilotdan unga tobe

yoki uning qaramog‘idagi shaxs tomonidan biror ishni bajarish, amalga oshirish uchun rozilik olmoq. **Javob olmoq** so‘zidan boshlab qatorning oxirigacha ushbu tushuncha darajasi ortib boradi. **Javob olmoq, rozilik olmoq** so‘zlarida vakolatli shaxsga tobelik ta’kidi qabariq ifodalangan, oddiy so‘zlashuvga xos. **Izn olmoq, ijozat olmoq** so‘zlarida vakolatli shaxs yoki tashkilotning yuqori mavqedaligi ta’kid oladi, rasmiylik bo‘yog‘i ham mavjud, kitobiy nutqda qo‘llanadi. **Rozilik olmoq** so‘zida mazkur ma’no nisbatan ochiq ifodalanadi.

Agar malikadan ruxsat olib bersa, Xayyomning oq fotihasi ila unga uylanmoqchi ekanligini aytgandi. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Farrux aslida bugun ta’tilga ruxsat olmoqchi, qishlog‘iga borib ota-onasining mehriga to‘ymoqchi, bolaligini eslab, ko‘chalarni kezmoqchi edi.* “Sharq yulduzi”. *Shuning uchun sizga javob! Boshqa bek-u mulozim-u navkarlar ham vaqt-soati bilan javob olurlar!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ertaga domladan javob olib, uyga borib kelmoqchi edim*. A.Mamarasulov, Alibek va qirq do‘stining sarguzashtlari. *Ishboshimizdan yalinib-yolvorib, ulush keltirish va’dasini quyuq qilib, nihoyat, izn olgach, yaqin bir qarindoshimizning to‘yiga qatnashish uchun qishloqqa jo‘nab ketdim.* L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Qushbegi tinchlandi, qo‘rboshi dahlizdan tashqarig‘a ishorat berdi va qaytib qushbegiga ruxsat qullig‘i ado qildi va undan izn olib o‘lturdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Askiyachilar musobaqasi tugab, kulgilar bosilgach, Bobur Muzaffar mirzodan hazrat begimning huzurlariga borish uchun ijozat oldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Zohid ishni qanday davom ettirishni o‘ylay-o‘ylay birinchi galda Oysanam yashayotgan uyni kuzatish kerak, degan qarorga keldi. Shu qarori bilan rahbariyat huzuriga kirib, ijozat oldi.* T.Malik, Shaytanat.

RUXSATSIZ, BERUXSAT, IJOZATSIZ, BEIJOZAT, IZNSIZ, BEIZN, SO‘ROQSIZ, BESO‘ROQ Ruxsat so‘ramay, ruxsat berilmagani holda, ijozat olmay. **Beruxsat** oddiy so‘zlashuvga xos. **Ijozatsiz, beijozat, iznsiz, beizn** so‘zlari kitobiy. **Ijozatsiz, iznsiz** so‘zlari bunday belgini **beijozat, beizn** so‘zlariga nisbatan kuchliroq ifodalaydi.

Bu nima to‘polon?! Men o‘lganmidimki, hech bir ruxsatsiz beboshlik bilan qilichni qindan sug‘urasiz? M.Choriyeva, Suyunchi. *Bir kuni Abu Nasr qo‘lida bir dasta o‘t-o‘lan ushlab kelayotgan shogirdini ko‘rib, uni o‘z xonasiga chaqirdi-da: – Nega ruxsatsiz shahardan chiqib ketding? – deb so‘radi*. M.Osim, Jayhun ustida bulutlar. *Sen kimga teggansan? Mengami, u kishiga? Mendan beruxsat shu uydan bir qadam jilishga nima haqqing bor?..* M.Mansur, Judolik diyori. *Ayvonning chap tomoni – Salima Hikmatovnaga tegishli hudud. Undan beruxsat bu hududga o‘tishga Shermat bilan Davronning haqqi yo‘q.* R.Yo‘ldosh, Arvoh ishi. *Bular mendan ijozatsiz qayoqqa borishadi deb o‘tiribman. Ich-ichimdan bir norozilik uyg‘onib kelmoqda edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Hatto o‘zga ovullardan kelgan turklar ham ijozat*

s i z kiritilmaydigan yabg‘u o‘rdusida jujanlar o‘zlarini xo‘jayin his qilib, yo‘l hordig‘ini chiqarish uchun duch kelgan o‘tov oldida otdan tushishardi. G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Risolatning Rustamdan b e i j o z a t bir yoqqa boradigan odati yo‘q edi.* Q.Kenja, Toshqin. *Banogoh b e i j o z a t kirding-u hayratda qoldirding. Olib domingga bir ohanrabo ohista-ohista.* T.To‘la, She’rlar. *Undan atigi besh-o‘n qadam beridagina kaklikning ichak-chavoqlari yotar, it ularni bemalol olib yeyishi mumkin edi. Lekin Olapar i z n s i z biror narsaga og‘iz urib o‘rganmagan edi.* Sh.Xolmirzayev, Uchinchi hamroh. *Shunda birdan yuragida har xil tuyg‘ular g‘alayon qilib qolar, u yerda i z n s i z dovullar boshlanar, to‘rt tomoni ham devor bo‘lgan katalakdek uyda yuragi siqilib ketardi...* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Vahshiy rassom mudroq, b e i z n Daho suratini buzadi Va u surat ustiga o‘zin Beburd suratini chizadi.* O.Abdullayev, Turkistonning qora kunlari. *Hadigingmi, Sharqning shamoli, Kuzatarsan, b e i z n, beso‘z. Xayrlashuv chog‘idek g‘amli, Har ne menga tuyular aziz.* A.Umirova, Dasht. *Qumrixon opa o‘shanda o‘g‘lining nobud bo‘lgani haqidagi xabarni olib, o‘zidan ketib qolgan, uch-to‘rt oy davomida ham o‘zini o‘nglay olmagan edi. Buning ustiga, kelini undan s o‘ r o q s i z, o‘tkinchi yigitga qo‘shilib uydan chiqib ketgan...* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Es-hushingiz joyidami, Qo‘chqor aka?! Ming marta aytaman, mening narsalarimga s o‘ r o q s i z tegmang, deb!* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Mazmuni – shu-shu, sud tayin qilingan shaharga yeta-yetguncha yonimda borayotgan soqchining izmidan chiqmayman, be-so‘roq hech yoqqa chalg‘imayman, duch kelgan hech bir tanish-notanish bilan salom-alik qilmayman, gurunglashmayman.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz.

RUXSAT SO‘RAMOQ, JAVOB SO‘RAMOQ, IZN SO‘RAMOQ, ROZILIK SO‘RAMOQ, IJOZAT SO‘RAMOQ Vakolatli yoki javobgar tashkilot yoxud shaxsdan biror ishni bajarish, amalga oshirishga rozilik talabida bo‘lmoq. **Javob so‘ramoq** so‘zidan boshlab qatorning oxirigacha ushbu tushuncha darajasi ortib boradi. **Javob so‘ramoq** bu ma’noda oddiy so‘zlashuvda, **rozilik so‘ramoq, izn so‘ramoq, ijozat so‘ramoq** so‘zlari kitobiy uslubda qo‘llanadi, ularda rasmiy bo‘yoq ham mavjud. **Rozilik so‘ramoq** so‘zida nazarda tutilgan tushuncha qatordagi qolgan birliklarga qaraganda ma’noni ochiq ifodalaydi.

O‘g‘limning yuzi birdan o‘zgardi va menga o‘qrayib qaradi. – Endi yosh bola emasman, sizdan har bir narsa uchun r u x s a t s o ‘ r a y d i g a n, – dedi va indamay xonasiga kirib ketdi. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Ana shunaqa, uka, bir og‘iz gapirish uchun bulardan r u x s a t s o ‘ r a s h kerak.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Shohida opaga mazam yo‘qligini aytib, davolanish uchun uch-to‘rt kunga j a v o b s o ‘ r a d i m, ularning javobi esa hammasidan ham o‘tib tushdi.* B.Ismoilzoda, Shirin va armonli kunlar. *Uy-uylariga j a v o b s o ‘ r a b ketgan yigitlarni yig‘ib kelish uchun odamlar yuborildi.* M.Xo‘jayev, Shermuhammadbek qo‘rboshi. *...Shoir haqida ikki og‘izgina xotiram bor, shuni so‘zlab*

bersam, deya izn so‘ragan edi. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Toshkanddan bir chopar bor, huzuringizga kirish uchun izn so‘raydir!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Natijada, Said Mahmudxon To‘ra boshliq to‘qson uch o‘zbek oilasi Turkiyaga ko‘chib ketish istagini bildirib, ijozat so‘rab Turkiya hukumatiga rasmiy murojaat etdilar.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *– Podshoh hazratlari, Mohim begim oliynasab egachingiz huzuriga kelishga ijozat so‘radilar!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

RO‘MOLCHA, DASTRO‘MOL(CHA), QO‘LRO‘MOL(CHA) Yonda olib yuriladigan kichkina ro‘mol. **Dastro‘mol** so‘zi ko‘pincha **dastro‘molcha** shaklida ham qo‘llanadi. **Dastro‘mol** so‘zi ko‘proq shevaga xos. **Dastro‘molcha** qatordagi so‘zlarga nisbatan kam qo‘llanadi. **Qo‘lro‘mol** shevaga oid, folklor asarlarida ko‘p uchraydi.

Mo‘ylovdor kishi bir ko‘tarishda kosani bo‘shatgach, popukli satin ro‘molcha da og‘zini artib, Sadir tog‘aga salmoqli siyoqda yuzlandi. A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Ko‘zidan ko‘zoynakni oldi. Ro‘molcha bilan artdi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Umarov... kirishi bilan aksirdi, dastro‘moli bilan burni, ko‘zlarini artdi-da, salom berib, o‘sha yerda turib qoldi.* A.A’zam, Hali hayot bor. *Eshik ochilib, qo‘lida bir dasta dastro‘mol bilan yangasi kirdi: – Bo‘p qoldingizmi, qizposhsha?* “Sharq yulduzi”. *...shu orada ko‘zi kurtkasi yoqasidagi qizg‘ish dog‘ga tushib qolib, cho‘ntagidan dastro‘molchasini oldi va uni hafsala bilan tozalashga kirishdi.* N.Norqobilov, Kurash. *Nusratjon qoshlari chimirilib, allaqanday sodda yuzidagi jimir-jimir tomchilarni dastro‘molchasi bilan artib, Matlubaning ro‘parasidagi kresloga cho‘kdi.* O.Yoqubov, Matluba. *Oymomo qayliq tarafdan ko‘ylak, jelak, belqars hamda qo‘lro‘mol hayitlik keldi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Bozorga borsangiz yo‘lingiz bo‘lg‘ay, Bir to‘qqiz olmaga qo‘yningiz to‘lg‘ay, Avval savdongiz qo‘lro‘mol bo‘lg‘ay, Qo‘lro‘mol bo‘lmasa savdongiz qurg‘ay.* “Xalq qo‘shig‘i”. *Amir Temur so‘zlanib, ularning tepasiga keldi. Zarbof ipak xil’atining zarrin iplar bilan naqshlangan o‘ngiridan qo‘lro‘mol cha olib, ko‘z yoshlarini yengiga artayotgan Xoja Mahmudga uzatdi.* Sh.Isaxonova, Turon malikasi. *Nasim polvon qo‘ynidan qo‘lro‘mol chasini oldi.* T.Murod, Tanlangan asarlar.

S

SABAB, VAJ, BAHONA, BOIS, VAJ-KORSON, VAJH Biror (ko‘ngilli yoki ko‘ngilsiz) ish-harakat, voqea, hodisaning yuzaga kelishida, sodir bo‘lishida omil bo‘lgan boshqa bir voqea, hodisa. **Vaj** so‘zidan haqiqiy sabab ma’nosi bilan birga to‘qilgan sabab ta’kidi ham anglashiladi. **Bois** so‘zida kitobiylik bo‘yog‘i mavjud. **Vaj-korson** o‘z qilmishini asoslash, dalillash uchun keltiriladigan sabab ma’nosini ifodalaydi. Bu so‘z odatda sabab-bahonaning ko‘pligi ma’nosida qo‘llanadi. **Vajh** so‘zi eskirgan, kitobiy nutqda ko‘proq qo‘llanadi.

Polvon achchiqlanmadi, qaytaga xo‘rligi keldi, xotini o‘ragan bir so‘mlik gardi ro‘mol-u uning kir unnagan ko‘ylagi s a b a b bo‘ldimi yoki qo‘lidagi cho‘ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi, uyaldi, o‘zini nomard, noinsof sezdi. M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda. *Oh, onayizor! Bir hafta avval otasi Said Is’hoqxon To‘ra bilan onasi Adibaxon aya tushiga kirib qolishibdi. Ikkisi bir-birlari bilan gaplashmas emishlar, bunga Mahmudxon s a b a b bo‘lgan emish.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Menga aytgin yig‘laganing v a j ini, Ne sababdan bunday o‘ksib yig‘laysan?* “Bahrom va Gulandom”. *...do‘xtirga yuborganing v a j ini endi bildim, ablah!* A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi. *Armiyada ham vaqt kam edi, lekin... u oldin Nadyadan uyalgani uchun, mazmunini so‘rasa o‘sal bo‘lib qolmay, deb o‘qidi, keyin... kitob b a h o n a diydor g‘animat, deganlaridek, qizni ko‘rgisi kelgani uchun olgan asarlarini tezroq o‘qiydigan bo‘ldi, oxirida esa o‘ziyam shunday qiziqib ketdiki, so‘nggi besh-olti oyda bir dunyo kitob o‘qib tashladi!..* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Guzarda to‘p tepib charchadim-u, dars tayyorlamoq b a h o n a uyga oshiqdim.* E.A’zam, Shovqin. *Titramog‘im b o i s i ul Bargni tebranmog‘idir...* E.Vohidov, Barg. *Boyagi yigit – tergovchi shu yerda edi. U Hikmatilla kamerasining havosini olib, v a j-k o r s o n larini rejalab qo‘yguncha chaqirib suhbatlashdi.* Shuhrat, Umr pog‘onalari. *Yig‘i-sig‘i, v a j-k o r s o n bilan qutulib bo‘lmaydi, odam o‘lib turibdi! Odam! Kimdir bunga javob berishi kerak.* A.Muxtor, Tug‘ilish. *Faqir bo‘lsam, bu v a j h dan bisyor malol-xotir bo‘lib, har turlik choralarni ko‘rar erdim*. A.Qodiriy, G‘irvonlik Mallavoy. – *Saltanat Tangri taolo nizomining yorug‘ olamdagi aksidir. Shu v a j h dan sulton muslimlarga bosh bo‘ldi, Tangrining yerdagi soyasi deb ulug‘landi*... I.Sulton, Alisher Navoiy.

SABABLI, SABABDAN, BOIS, TUFAYLI(DAN), NATIJASIDA, OQIBATDA, ORQASIDA, VAJIDAN Biror hodisa, holat ta’siriga bog‘liq holda. **Tufayli** so‘zida biror sababga asoslanganlik qabariq ifodalangan, bu so‘z kitobiy nutqqa xos. **Natijasida, oqibatda, orqasida** so‘zlarida ko‘proq voqea-hodisa,

ish-harakatning amalga oshganidan keyingi natijasi ifodasi yaqqol kuzatiladi. **Oqibatda** ko‘proq ommabop, ba’zan rasmiy nutqda uchraydi. **Vajidan** badiiy uslubga xos, kam qo‘llanadi.

Shayxzoda o‘ziga qo‘yilgan ayblar biror dalil bilan isbotlanmagani sababli o‘z ishini qayta ko‘rishlarini talab qilib, tegishli idoralarga arizalar yozadi. N.Karimov, Maqsud Shayxzoda. *Ergash bodining qorasi o‘chishi bilan Safar inga suqilib kirar, to‘rda qaltirab turgan Yoldorni silab-siypalar, erkalab ovutar, goho esa alami kelib, yig‘lab ham olardi. Shu sababli mi Yoldor unga qattiq mehr qo‘ygandi.* N.Norqobilov, G‘animlar. *Ajabo, buyuk muhaddis allomani xorijdan ona yurtiga qaytishga nima majbur qildi ekan?.. Ne sabab dan umri poyoniga yetay deganda, og‘ir yo‘l azoblarini bo‘yniga olib, yurtga qaytgisi kelib qoldi?* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Asror Valiyevich, suratlardan ko‘z uzmagan holda, unga mashinaning oldida peshvoz chiqishga ulgurmagan, shu sabab dan ortiqcha shoshib, yo‘lakdan yugurgilab chiqqan yordamchisiga plashini va portfelini nim behushlik yanglig‘ bir holatda uzatadi-da, suratlarni yutoqib tomosha qilishga tutinadi.* U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma. *Xurram qotma qo‘shni jamoada ishlaydigan depo biqinidagi mahalla yigitlarining qiyiqligi bois bilib-bilmay, G‘ani qoraning jig‘iga tegib qo‘ygandi.* N.Norqoblov, Kurash. *Bir qancha kishi bayram bahonasida G‘iyosiddinbek bog‘iga yig‘ilgan edi. Tantanalar shovqini shom namozi bois yarim soatcha tindi, so‘ng qaytadan ud, setor, daf sadolari eshitila boshladi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Professor Ziyo shamollarning hosil bo‘lish sabablarini yaxshi bilardi. Bu, aslida, Yevropa, Xitoy va Mo‘g‘ulistondagi jazirama yoz tufayli ro‘y berdi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *O‘zi buzar, o‘zi tuzatar, o‘zi yurgizar, mahsulotga ham o‘zi xo‘jayin, lekin o‘lguday qo‘pol, johil, berahm odam bo‘lib, qo‘li gulligi tufayli gina ishlab turar edi.* A.Muxtor, Chinor. *Ustma-ust xafachiliklar, og‘ir kechinmalar natijasida Farida oxiri kasalga chalindi-yu, homiladan ham ajradi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Qari va johil malika Mastonning haddan ziyod taltanglatishi natijasida shahzoda Fonus ishyoqmas, injiq va ovsar bo‘lib ulg‘aya boshladi.* A.Obidjon, Ey, yorug‘ dunyo… *Lekin kuch-quvvat uni tark eta borishi, shamol uni orqaga suraverishi oqibatida u deyarli harakatsiz bir holga tushdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Ammo bot-bot yuz beradigan davomli va qizg‘in “muhoraba”lar, fikr va dunyoqarashlarning mudom zid kelishi bilan bog‘liq ezilish, ruhiy zo‘riqishlar oqibatida uning tolmas, metin yuragi hilviray, hil-hil jigari esa bandidan uzilgan chinor yaprog‘idek bujmaya boshlagan edi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *– Bundan yetti yil oldin, – dedi u, – Kauchukonos institutining ekspeditsiyasi xuddi shu yerdan yovvoyi tovsag‘izni topdi. Shundan beri o‘tkazilgan tajribalar orqasida yovvoyi tovsag‘izdan urug‘lar olindi va u endi madaniy o‘simlikka aylandi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *O‘ylab ko‘rsam, umrim xatolarga to‘la ekan. Shu xatolar... o‘chirilgan... adashuvlar orqasida*

S

bilib-bilmay, sizlarning ham hayotingizni barbod qilibman. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Qarigani v a j i d a n mi, zamon o'zgargani tufaylimi… qisqasi, uni odatda vokzal-pokzalda tentirab yuradigan mayxo'r mubtalolardan deb fahmlab, tishlari orasidan vishillab amr qildi.* E.A'zam, Shoirning to'yi. *Bilmagan odamini tirikchilik v a j i d a n qiynalib qolgan gumon qiladi.* A.Qahhor, Asarlar.

SABABCHI, SABABKOR, AYBDOR Ish, hodisa, narsaning yuz berishiga (bo'lishiga) sabab bo'luvchi shaxs, narsa. **Sababkor** so'zi bu ma'noda kam qo'llanadi. **Aybdor** so'zida noma'qul, ayb (gunoh) bo'ladigan ish-hodisaning sababchisi ifodasi ustuvor.

U negadir Mariya Vasilyevnaning bu yerga kelib qolishiga o'zini s a b a b c h i deb his etardi. A.Muxtor, Chinor. *Agar Ziynatullayev, "bu xunuk ishga men ham beixtiyor s a b a b ch i bo'libman", deb vijdonan iqror bo'lganda edi, Temir Akbarovich, "o'ylamay gapiradigan odatingiz bor", deb uni o'rtoqlarcha koyib qo'ya qolishi mumkin edi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *S a b a b k o r mi yolg'iz taqdir holingga saning?* E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *O, inson omili, so'nggi s a b a b k o r, Tangri qoshidagi yolg'iz dalolat. O'zingning dardingga o'zingsan a y b d o r, O'zingga yuklaysan o'zing malomat.* A.Oripov, Inson omili. *Zamon odamlari nafs balosiga giriftor bo'lgani ayon. Xo'sh, zamon a y b d o r mi yo zamon bergan erkinlikni birgina nafs erkinligi deb bilgan odamzodmi?* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir.

SABIL (SAVIL), ORDONA, ZORMANDA, BAYTALMON, EGASIZ, QAROVSIZ Egasiz, qarovsiz qolib xarob bo'lgan, ayanchli, achinarli ahvolga tushgan. **Sabil, ordona, baytalmon** so'zlari qarg'ish sifatida ham ishlatiladi. **Baytalmon** so'zi kam qo'llanadi. **Egasiz, qarovsiz** so'zlari, odatda, so'zlashuv tilida ishlatiladi.

Botir joni s a b i l dir, Yomon joni azizdir. Maqol. *Sigirga o't o'raman deb-a? Joning s a b i l qolganmi sening? Odam ham shunaqa bo'ladimi?* P.Qodirov, Erk. *Mana, karillagan rais buvamiz endi yo'q, idorasi oldidagi chinor esa hamon gurkurab turibdi. Yoki, deylik, siz bu dunyodan ketasiz-u, ne azob-mashaqqatlar bilan tiklagan uy-joyingiz, o'stirgan bog'ingiz qoladi – o r d o n a !* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Uning bo'zarib ketgan yuzi endi ko'kimtir tus ola boshlaganini barcha aniq ko'radi. Shu idora ham o'lib ketsin, Van… Nima edi?… O'sha ham o r d o n a qolsin!* U.Azim, Ishxonadagi ko'rgazma. – *Haroratini o'lchab ko'ray, deb termometrni qidirsam, u z o r m a n d a ham topila qolmaydi, – dedi Kamol.* H.Nazir, Ko'kterak shabadasi. *...hattoki shoshirib isi-bisiga qo'ymagan boshliq qo'lingdagi nimasi deb qiziqmasa, ahmoq bo'lib shoshganingiz qoldi, nimagayam hovliqdingiz o'zi, hovliqmay yana uch-to'rt kunda tayyorlab bersangiz bo'lardi-ku shu z o r m a n d a ni…* D.Nurullayev, Bayramdan keyingi bayramlar. *...B a y t a l m o n ketmon yarim pud bo'lsa, jamul-jam bir yarim ming pud degin.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *Mana bir haftadirki, xotinim bilan qizim – otasinikida, men bi-*

S

lan buzog‘im esa o‘z otamnikida, itimiz zanjiridan bo‘shatilgan, hovlimiz egasiz, b a y t a l m o n. O.Begaliyev, Xaloskor mushuk. *Hozir xotinining mung‘ayib o‘tirishiga qarab faqat uy emas, vujudi ham e g a s i z ekanini, ruhi ham huvullab qolganini his etdi.* T.Malik, Shaytanat. *Sovuq chordoqlarda quvg‘indi, shumshuk, Och o‘lim vahmida yashab har nafas. Taqdirdan noliydi e g a s i z mushuk, Xonaki qavmiga qiladi havas.* E.Vohidov, Sovuq chordoqlarda... *U shundan iborat ediki, Yusuf och va yupun, q a r o v s i z va tashlandiq holga tushib qolgandi.* U.Hamdam, Muvozanat. *– Hazratim, Ulug‘bek mirzoning olamda yagona rasadxonasi ham mana shu Chinnixona kabi tashlandiq ahvoldadir, – dedi mavlono Fazliddin. – Kecha ko‘rib, ko‘nglim vayron bo‘ldi. Oltmish yildan beri q a r o v s i z.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

SABIL QOLMOQ, ORDONA QOLMOQ (QOLGUR) Egasiz qolib, yo‘q bo‘lib, o‘lib ketmoq. **Ordona qolmoq** so‘zida bu ma’no kuchli ifodalanadi. Bu so‘zlar, asosan, og‘zaki nutqda qarg‘ish sifatida qo‘llanadi.

Shunda biz uni, tek tur, s a b i l q o l g u r, deya qamchilaymiz... T. Murod, Ot kishnagan oqshom. *Xullas, bormasak bo‘lmasdi. Ammo telegramma bilan chegaradan o‘tkazishmasligini bilardim. S a b i l q o l g u r vizani qo‘lga kiritish uchun esa kamida besh-olti kun kerakligini aytishdi.* N.Rahmat, Kalvak Maxsum nomalari. *E, choying o r d o n a q o l s i n, dedim-u, shartta turib samovardan chiqib ketdim.* S.Ahmad, Tabelchi. *Qora shol ro‘molini iyagidan o‘tkazib boshini chirmab tashlagan kampir uyg‘ondi-yu, cho‘kik og‘zidan nos bo‘yini taratib o‘shqira ketdi: – Hi, maylising ham o r d o n a q o l s i n.* Sh.Xolmirzayev, O‘n sakkizga kirmagan kim bor.

SADAQA, EHSON, XAYR, HADYA, NAZR, NAZR-NIYOZ Zor-muhtojlarga, tilanchilarga beriladigan narsa, pul. **Ehson** nisbatan kam qo‘llanadi. **Nazr** diniy tushuncha (e’tiqod) bilan atab beriladigan narsani bildiradi. **Xayr, ehson** so‘zlarining **xayr-ehson**, **xayr-u ehson** tarzida juft holda qo‘llanishi ham kuzatiladi. Ma’noni kuchaytirish maqsadida sinonimik qatordagi so‘zlar ko‘p hollarda **xayr-ehson, nazr-niyoz, nazr-sadaqa, xayr-sadaqa** tarzida juft holda qo‘llanishi kuzatiladi.

S a d a q a siga qarab – savobi, So‘ziga qarab – javobi. Maqol. *...s a d a q a (boshqa so‘zni qo‘llash qiyin) tutqazilganlardan biri ko‘p yillar kattakon lavozimlarda o‘tirib elga xizmat qilgan baobro‘ otaxon edi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Shefning yodiga to‘satdan ertaga bu yerda e h s o n bahonasida “uy ko‘rdi” bo‘lajagi, shahardagi kazo-kazolardan terib (ular orasida katta idoralarning cho‘nglari ham bor), qat’iy ro‘yxat asosida ellikta odam aytgani tushdi-yu, esi og‘ib, ko‘zi olaydi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Avval boshdan Jumag‘ulboyning mol-mulki uchun vaqtida zakot berishi, oliq-soliq, xayr-u e h s o n ni muntazam ado etishi haqida ishorat qilgandik.* G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *Bir paytlar, Hiriydan Samarqandga yo‘l olgan yosh Alisher: “Umrim mobaynida menga*

uchraydigan turli hodisalarni men uchun x a y r-u marhamatlarga aylantirib qo‘ygin”, – deb iltijo qilgan edi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Sevar yorga gul uzgan ham, Ochiq kaftini cho‘zgan ham Tilab x a y r-u zakot tanho, Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir.* E.Vohidov, Saylanma. *Taqsir mutavallidan farroshgacha tayin qilibdilar, do‘stlarning holi ne kechgay? Yillik emas, kunlik bir burda non-u bir kosa suv h a d y a etsalar bas, xizmatlarini qilgaymiz.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *U kishini berishga o‘rgatish qiyin! U kishi shuncha badavlat bo‘lib turib, eshikdan gadoy kirsa, qo‘liga qaraydi, “n a z r i yo‘qmikin?” deb.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qarzim ko‘pdir, bu dunyodan qarzim ko‘pdir, Rabbim hali oldingdagi farzim ko‘pdir. Qo‘lim bilan berdim qancha xayr-u ehson, Lek ko‘nglimdan berolmagan n a z r im ko‘pdir.* E.Siddiqova, Ko‘nglim ufqlari. *“Hazrati sulton” shayxlariga n a z r-n i y o z lari bekorga ketmaganiga, qizining bo‘yida bo‘lganiga… ishondi, kulumsiradi.* H.G‘ulom, Mash’al. *Ziyoratga kelganlar qovoq solib o‘tirgan avliyoga salom berishib, uning yoniga n a z r-n i y o z larini qo‘yishdi, eskigina sopol tovoqqa bittadan kumush tanga tashlashdi.* Mirmuhsin, Me’mor.

SAF, QATOR 1. Shaxs yoki predmetlarning biror chiziqda yonma-yon, ketma-ket joylashgan holati. **Qator** so‘zi so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi.

Ertasiga kechki payt to‘y tarqadi va Sobirova opa eri bilan Akbarov tushgan “Volga”ga o‘tirib, yana uchta mashina s a f ida Samarqandga yo‘l oldi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Oradan ikki hafta o‘tgach, simyog‘ochlar s a f i jarlardan va qirlardan “hatlab” o‘tib, Oyko‘l tomonga tizilib bora boshladi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Ko‘chat qilingan sada, lipa q a t o r lari suratdagidek tekis, mashina yo‘llarigina emas, ikki chekkadagi ariqlar ham betondan.* A.Muxtor, Chinor. *Kulba atrofida turli-tuman bahaybat hasharotlar q a t o r ida yuzlari qora, ko‘zlari ko‘k, tanasi xol-xol maxluqlar bir nimani kutganday aylanib yuradilar.* I.Sulton, Ozod.

2. Belgi-xususiyatida, ishida umumiylik bo‘lgan shaxslar doirasi, tarkibi.

Shifoxonaga og‘riq azobidan panoh izlab kelgan dardmandlar s a f iga qo‘shilar ekan, avvaliga jazoga mustahiqlar s a f iga tasodifan tushib qolgan mahkumdek o‘ng‘aysizlandi. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Viloyatlarimizdan biriga anjuman qilgani bordik. Kazo-kazolar s a f ida.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Do‘stlar s a f in mustahkam et, Ahil etgil, ittifoq. Dushmanlarning q a t o r iga Toqlik ber, tarqoqlik ber.* S.Sayyid, Oddiy tilaklar. *U butun kuchini o‘qishga berib, maktabni a’lo bitirdi, bu yerda ham eng quntli, eng intizomli studentlar q a t o r iga kirdi.* P.Qodirov, Uch ildiz.

SAFSATABOZ, SAFSATACHI Quruq gap sotishni, safsatabozlikni yaxshi ko‘radigan odam. **Safsatachi** nisbatan kam qo‘llanadi. Qatordagi so‘zlarda kuchli salbiy munosabat ifodasi mavjud.

Chet elliklarni hayron qoldirib turgan odamni qamoqqa tiqsak, xalqaro janjal chiqib ketishini ham unutmasligimiz kerak-da, azizim. Chet eldagi safsataboz dushmanlarimizni bilasiz-ku. T.Malik, Xazonrezgi. *Anovi tolmas safsataboz zavq-shavq bilan davom etardi: – Shoirimizning chap yonida, yurakka yaqin tomonda, tabiiyki, uning sevikli rafiqasi, o‘zi ta’rif etmish “muhabbat guli” – Ma’shuqaxonim o‘tirgan bo‘lur edilar.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Ular bo‘lsa na safsata ch i o‘rinbosarga qarshi bir og‘iz so‘z aytishdi, na muharrirning yuzaki betarafligini payqay olishdi.* A.Obidjon, Alamazon va Gulmat. *Biri “nodon”, biri “safsata ch i”. Kim na der, deyabersin so‘zini, So‘zi-la ko‘rsatsin yuzini*. H.Muin, Hajviy she’rlar.

SAHIFA, BET, VARAQ Daftar, kitob va shu kabilar tarkibidagi har bir qismning yuza sathi. **Sahifa**, asosan, adabiy tilda, **bet** oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **Varaq** so‘zi mazkur ma’noda faqat oddiy so‘zlashuv tilida ishlatiladi.

Olim Mirzo bir sahi fa ni o‘qib, “bismillo” deya ikkinchi sahi fa ni ochmoqchi bo‘lgan edi. X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Uzundan uzun muqaddima sirli musiqa singari meni rom etib olgan, qarshimdagi hali bo‘yog‘i qurib ulgurmagan kitob sahi fa sida jodu kuchi bilan ro‘yobga chiqqan qahramonga monand kishini lol qolib kuzatardim...* A.Abdiyev, Muallaq odam. *Ertasiga haligi she’r gazetaning ikkinchi bet i boshida bosilib chiqib, hammaning og‘zida qiroat qilindi.* A.Qodiriy, Kichik asarlar. *Zohid o‘sha kezlari daftarni varaqlab bir-ikki bet o‘qigan bo‘ldi-yu, bitxat bilan bitilgan sahifalarga ko‘z tashlashga toqati yetmadi.* T.Malik, Shaytanat. *Ammo qiz meni eshitmadi. Yangi varaq ni ochib, jilmaydi-da, yana o‘qishga tushib ketdi.* O‘.Umarbekov, Gul sotuvchi qiz. *Ertasiga ustoz dediki, “Sharhus-sunna”dan bir necha varaq qoldi, shuni o‘qib tugat.* S.S.Buxoriy, Shayx Najmiddin Kubro.

SAHIFAMA-SAHIFA, BETMA-BET Biror sahifasini, betini qoldirmay. **Betma-bet** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ko‘proq qo‘llanadi. **Sahifama-sahifa** kitobiy uslubga xos.

– “Boburnoma”ni sahifama-sahifa varaqlab ko‘rsangiz, – deb yozadi muallif, – uning qatlarida o‘nlab g‘aroyib tilsimotlarga duch kelasiz... U.Normatov, Ijod sehri. *U bir o‘tirishda o‘qib tugatmasdi, xuddi xushta’m qahvani ichib tugatishni istamay, asta-asta ho‘plab borgandek, sekin, sahifama-sahifa o‘qib tushirar, bu lazzatni imkon qadar uzoqroq cho‘zishga harakat qilardi.* R.Haydarova, G‘ururtepada saraton. *U kitobni betm a-bet qoldirmay o‘qidi, qayta-qayta o‘qidi.* Gazetadan.

SAKRAMOQ, SAPCHIMOQ, IRG‘IMOQ, HATLAMOQ Butun gavdani irg‘itib, keskin harakat qilmoq, pastga, yuqoriga yoki bir necha qadam nariga o‘zini otmoq. **Sapchimoq** so‘zida **sakramoq**qa nisbatan otilish tezligining yuqoriligi ta’kidi anglashiladi. **Irg‘imoq** kam qo‘llanadi. **Hatlamoq** so‘zi gori-

zontal harakatni – bir joydan ikkinchi joyga yoki qarshi tomonga otilmoqni ifodalaydi.

Qavmimizdan ba'zilar tog' tepasidan s a k r a b ham ko'rgan – cho'qqilar shu qadar balandki, yerga yetib bormasdan parcha-parcha bo'lib ketishgan. I.Sulton, Ozod. *Chavkar ot marzalardan s a k r a b yelday uchib borar, Xolbek egarda mixlanganday o'tirar, boya otdan yiqilgan odam shu ekaniga endi ishonib bo'lmas edi.* P.Qodirov, Qora ko'zlar. *Hovlidan cholning ovozi eshitildi. It ortiga tislanib, devorga s a p ch i b va tomorqaga o'tib, ayvonga chiqib bordi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Yo'lda yo'ng'ichqapoya keldi, ariq keldi, o'r-chuqur keldi. Ot baridan s a p ch i b o'tdi, baridan irg'ib o'tdi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Hikmatilloni eslashi bilan Begimqul xuddi ari chaqqanday i r g' i b o'rnidan turdi, yana ust-ustiga ikki piyola konyak ichdi, so'ng qayta joyiga o'tirib, uzoq, og'ir xayolga toldi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Sandalda o'tirib pinakka ketgan dodxo uyg'onib tamshandi, boshini ko'tarib Unsinni ko'rdi-yu, "jon berayotipti" deb o'yladi, shekilli, ko'zlari olaydi, undan ko'zini olmay sekin o'rnidan turdi, xuddi o'lim xavfidan qochganday, bir i r g' i b sandaldan oshdi-da, o'zini eshikka urdi...* A.Qahhor, Dahshat. *Zabarjad yengil-yengil h a t l a b zinapoyadan tushmoqda.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Shavkat... hech narsa topolmagach, beshik ustiga yopilgan yopinchiqqa chaqaloqni shoshapisha o'raganicha, g'isht uyumlaridan h a t l a b katta ko'chaga chiqib oldi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi.

S

SAKSOVUL, SAZOQ Sho'radoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumining nomi. **Sazoq** so'zi shevalarda qo'llanadi.

S a k s o v u l cho'g'ining uchqunlari esa Yulduz bo'lib ko'kka ko'chibdi. Qo'ychivonlar yoqqan gulxan o'chibdi. A.Muxtor, Sizga aytar so'zim. *Ozod yonginasidagi s a k s o v u l ning shoxini ushlab ko'rdi – shox ilvirab turgan ekan, tuyqusdan ushlangan joyidan qirs etib uvalanib ketdi.* I.Sulton, Ozod. *Endi siz uyda o'ltirasiz, momojon, men o'zim o'tinkashlik qilamen! S a z o q tashib, sizni boqamen, momojon!* O.Yoqubov, Ko'hna dunyo. *...Kir pardali oyna ortida dengizning xo'rsinig'i eshitilar, yozda qurigan yantoq va s a z o q shoxlari shamolga qo'shilib yig'lab aytardi.* S.Vafo, Yomg'ir buluti xotirasi.

SALLA, DASTOR, CHALMA Uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha bo'ladigan, do'ppi, kuloh ustidan o'raladigan sidirg'a mato, doka; musulmon erkaklarning bosh kiyimi. **Dastor** eskirgan so'z. **Chalma** ayrim shevalardagina qo'llanadi. Badiiy matnda ma'lum hududga xoslikni ta'kidlash maqsadida **salla** o'rnida **chalma** qo'llanishi kuzatiladi.

Yo'lning chetida bir qishloqi chol nevarasi bilan mashina kutib o'tirishibdi. Egnida chopon. Boshida s a l l a. U.Azim, Ishxonadagi ko'rgazma. *Tomoshaxo'rlar ko'payib ketgan, boyagi kampirlar-u bolalar orasida endi s a l l a o'ragan chollar, yosh ayollar, erkaklar ham ko'rinar, qirq chog'li olomon yarim*

doira yasab o‘shshayib turardi. O‘.Hoshimov, O‘zbek ishi. *O‘zi ham egnidagi zarrin libosi, boshidagi simobiy d a s t o r i, butun shiddatli qiyofasi bilan yonidagi barcha a’yonlardan ajralib turardi.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Boshiga o‘ralgan ixcham oq d a s t o r ida yong‘oq kattaligidagi shaffof tosh yarqiraydi.* R.Haydarova, G‘ururtepada saraton. *Choponining ustidan chakmonini kiydi, boshini ch a l m a si bilan tang‘idi.* Sh.Toshmatov, Erk qushi.

SALOMLASHMOQ, SO‘RASHMOQ, KO‘RISHMOQ, OMONLASHMOQ, SALOM-ALIK QILMOQ O‘zaro bir-biriga salom bermoq, salom berib, bir-biri bilan ko‘rishmoq. **Salom-alik qilishmoq, salomlashmoq, so‘rashmoq** so‘zlari so‘z orqali salom-alik qilishni ifodalaydi. Bunda boshqa harakat ham bo‘lishi mumkin. **Ko‘rishmoq**da harakat umumlashtirilgan holda ifodalanadi. **Omonlashmoq**, asosan, katta yoshdagilar o‘rtasidagi muomalada va nisbatan kam qo‘llanadi.

Aeroport katta, gavjum edi. Qandaydir sermulozamat yigitlar kelib Ochil buva bilan s a l o m l a sh ishdi. A.Muxtor, Chinor. *Kitob chiqqanidan so‘ng uch-to‘rt kun o‘tib muallif to‘ppa-to‘g‘ri muharrir o‘tiradigan xonaga kirib keldi. Muharrirning s a l o m l a sh gani cho‘zgan qo‘lini do‘stonasiga bir chetga siltab, quchoqlasha ketdi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Mansurov boya Hulkar bilan s o‘ r a sh ib, uch-to‘rt og‘iz gaplashgan edi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Odamning mingta tanishi bo‘ladi, yuztasi bilan s o‘ r a sh ib yuradi, lekin haqiqiy do‘sti uncha ko‘p emas, besh-oltita, boringki, o‘nta.* A.A’zam, Nima qilib qo‘ygan ekanman? *Shoshilib chiqqan choyxonachi yigitlar bilan k o‘ r i sh ida, chollarga xavotir bilan qarab olgach, mehmonlarini ichkariga boshladi.* T.Malik, Xazonrezgi. *– Ostonada k o‘ r i sh ishning xosiyati yo‘q deyishadi! Ichkariga kir! Qani, quchoqlashamizmi, ablah? – Begimqul quloch yozib ko‘rishdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Uzun guppisi ustidan kalitlarini beliga bog‘lab olgan darvozabon hujrasi yoniga cho‘nqayib oftobda kim bilandir so‘zlashib o‘tirar edi. Qodirboy ko‘prikdan o‘tib, darvozabon bilan o m o n l a sh di-da, shahar tashqarisiga chiqdi.* H.Qodiriy, Eski Toshkandda. *Biz qoziqtog‘lardan qulagan ko‘chkidan esxonamiz chiqib, tiyg‘ona-tiyg‘ona yo‘lda davom etarkanmiz, dovondan yuk-ulovlari bilan atak-chechak tushib kelayotgan kichik bir karvonga uchrab edik. Bu diyorlarning daxlsiz tijoratchilari bo‘lsalar kerak, o m o n l a sh ib, xo‘shlashib o‘tib ketib edilar.* M.Mansur, Judolik diyori. *Men Malika bilan yaqinlashgan sari Janob mendan uzoqlashardi. Mendangina emas, jamoatdan ham. Hech kimga aralashmaydigan odamovi, yakkamoxovga o‘xshab qoldi. Endi ko‘rgan-ko‘rishganda sovuqqina s a l o m-a l i k q i l ardik, xolos.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *U mizoji xush ko‘rmish odamlar bilan s a l o m-a l i k q i l adi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar.

SAMIMIYATSIZLIK, RIYOKORLIK, SOXTALIK Samimiy emas; samimiyati yo‘qlik. **Samimiyatsizlik** so‘zida bir ishga chin dildan kirishmaslik,

zo‘rakilik ta’kidi sezilib turadi. **Riyokorlik** so‘zida munofiqlik ta’kidi aniq aks etadi. **Soxtalik** so‘zida tabiiy emaslik ta’kidi anglashiladi.

S a m i m i y a t s i z l i k va ikkiyuzlamachilik bo‘lgan ishda yaxshilik bo‘lmaydi. M.Farmonova, Sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosida farzand tarbiyasi. *Bu yerdagi s a m i m i y a t s i z l i k va munofiqlik, bir-birini aldash Elmurod uchun oddiy bir haqiqat bo‘lib qolgan edi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Negaki “tuzalmas”lik atrofmizdagi kunda, kunora bo‘lib turadigan soxta firiblar, ko‘zbo‘yamachiliklar-u r i y o k o r l i k larni ko‘rib turgan ijodkorki bor, u ko‘ngliga ingan tuyg‘uni, ya’ni Xudo buyurganini yozishni maqsad qiladi.* I.Qurbonboyev, Hozirgi o‘zbek lirikasi. *Ana shunda u birovdan marhamat kutmaganidek, nojins-u nokaslarning turfa-turfa r i y o k o r l i k lariga parvo ham qilmaydi.* I.Haqqul, Qo‘rqoq bo‘lsang, qo‘rqoq bo‘lar she’r. *O‘ylar edim: Dunyoda bor Musaffolik, soddalik. Ko‘zim ochib Ko‘rdim ilk bor Berahmlik, s o x t a l i k.* E.Vohidov, Sharqiy qirg‘oq. *Odamlar ko‘zidagi har qanday s o x t a l i k dan, har qanday loqaydlikdan xoli bo‘lgan chinakam quvonchni, ajib bir hayratni kuzatganman.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

SAMOLYOT, UCHOQ, TAYYORA Havoda uchish uchun mo‘ljallangan, qanotli havo transporti. **Tayyora** eskirgan. **Samolyot** so‘zi – havo transporti ma’nosidagi eng faol so‘z. **Uchoq** so‘zi keyingi yillarda, asosan, ba’zi internet nashrlarida qo‘llanmoqda. Mazkur so‘z o‘zbek tili tabiatiga mos ravishda yasalgan bo‘lsa ham, hali faol so‘zlar qatoriga o‘tmagan.

S

Bu shunday muhit ediki, garchand yerda mashinalar, osmonda s a m o l y o t-u raketalar uchib yursa-da, soat singari bir maromda harakatlanuvchi tabiati bor edi. U.Hamdam, Muvozanat. *...O‘rinboy atrofiga qaradi. S a m o l y o t xiyla baland ko‘tarilgani uchun salondagi boyagi issiqdan endi asar ham qolmagan, odamlar o‘zlarini yelpishdan qutulib, bir-birlari bilan qovoqqa qamalgan arilardek g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir qilib ketishyapti.* T.Po‘lat, Ichkuyov. *Kechikadi poyezdlar ba’zan, Uch o q lar ham kechikar, ammo Chin kulfatdir mabodo inson Aytar so‘zi kechiksa, illo.* O.Suyundiqova, Ko‘ngil kengliklari. *Parvoz chog‘i t a y y o r a ning dilbar kelini Ko‘k yuzini barchamizga taxti Sulaymon qildi.* E.Vohidov, Saylanma. *Bir vaqt qarasam, quloq-miyamdagi doimiy g‘uvullash tingan, uni t a y y o r a ning bo‘g‘iq shovqini bosib ketibdi.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati.

SANDIQSOZ, SANDIQCHI Sandiq yasash, sandiqlarni tuzatish bilan shug‘ullanuvchi kishi. **Sandiqchi** so‘zlashuvda nisbatan ko‘p ishlatiladi.

S a n d i q s o z Ashrafjonning hunari daromadli edi, shu kasb tufayli uning tirikchiligi yaxshi o‘tardi. S.Ayniy, Asarlar. *Bola ortida kimdir turganini sezib, qayrilib qaradi. Ortida bibisi kulib turardi. – Bu sizga, – dedi bibisi. – Bobongiz uni atayin sizga atab s a n d i q s o z ustalarga buyurib, yasatdilar!* X.Davron, Sohibqiron nabirasi yoki Mitti yulduz qissasi. *Sobirboy bir s a n d i q ch i ning*

do‘koniga borib, unga: – Menga bir mustahkam sandiq yasab, kechasi karvon saroyiga olib boring. Men sizni kutib o‘tiraman, – debdi va saroyiga jo‘nabdi. “O‘zbek xalq ertaklari”. *Qani, O‘tanvoy, g‘irr etib Tongotar s a n d i q ch i nikiga kirsinlar, olmosdek arrasi bor.* A.Obidjon, Oxirgi sedanatut qissasi.

SANOQLI, HISOBLI, O‘LCHOVLI Son-hisobi ko‘zga ko‘rinib turgan, juda oz miqdorda. **Sanoqli** so‘zida juda o‘zlik ta’kidi kuchli ifodalangan. **Hisobli, o‘lchovli** so‘zlarida mazkur ma’noda miqdoran belgilanganlik ta’kidi ochiq aks etgan.

Keyin davron charxi bir aylandi-yu, goho o‘n-yigirma yillarda ham ko‘rilmaydigan voqea-hodisalar s a n o q l i gina oylar domanasida sodir bo‘lib ketdi. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Oqibat beqiyos kuchga ega bo‘lgan raqibi oldida bilgan barcha amallari g‘oyatda ojizligini his etishga ulgurib-ulgurmay, s a n o q l i lahzada oyog‘i yerdan uzilib, o‘zini uning tagida ko‘rgan.* N.Norqobilov, Kurash. *Bu yerlar yaylov, har bir qarichi h i s o b l i.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Bugun oylik oldi. Arzimagan ishgayam ancha pul berisharkan. Ilgari pensiyaning tiyini ham h i s o b l i edi.* O‘.Umarbekov, Kuz havosi. *Otlar o‘ l ch o v l i qadam tashlab va boshlarini jirka-jirka ilgari bosarkan, yigitlarning goh ko‘tarib, goh pasayadigan mungli ashulalari ostida mingboshi dodxoning miyasi shu xil fikrlar bilan tashvishlanardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bu dunyodagi umrim o‘ l ch o v l i, meni ranjitsang, gunohga botasan, bilib qo‘y.* T.Malik, Shaytanat.

SARALAMOQ, SARXILLAMOQ, XILLAMOQ, SAYLAMOQ, TANLAMOQ, TERMOQ Saralarini yomonlaridan ajratmoq. **Saralamoq, saylamoq, xillamoq, tanlamoq, termoq** odam va narsa-predmetlarga nisbatan qo‘llanaveradi. **Sarxillamoq** narsalarga nisbatan qo‘llanadi. **Tanlamoq, termoq** so‘zlarida harakatning subyekt manfaatiga yo‘nalishi ifodasi mavjud.

Domla bir dasta anvoyi gul s a r a l a b, qo‘liga ikki dona nashvati tutqazib xonimni ko‘chaga kuzatdi. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Shavkat tugunni orqalab ketmoqchi bo‘lib turgan edi, javondagi terib qo‘yilgan kitoblarga ko‘zi tushib qoldi, s a r a l a b ham o‘tirmasdan choyshabga sidirib tashladi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Ular uzumlarni s a r x i l l a b, savatlarga joylashdi.* Gazetadan. *O‘lib-tirilib hisor zotini x i l l a ganman, yuz yigirmatadan qo‘zi olganman.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Maktab tashkilotlarini qo‘lga olgandan keyin o‘quvchi va muallimlarni x i l l a sh kerak bo‘ladi.* A.Qahhor, Sarob. *Salgina noxush hidga chidamaydi. Toza havoga o‘rgangan. Ovqatni ham s a y l a b yeydi. Ko‘ngli shunaqa nozik.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Men ikki kun ot s a y l a dim. Oboqli dashti gala-gala ot!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *O‘tlar turli-tuman, lekin qalin o‘smagan, bo‘ylari ham past. Oralaridan sigir-u qo‘ylarim yoqtirib yeydiganlarini t a n l a b-t a n l a b o‘rishim kerak.* I.Sulton, Ozod. *Shiyponning soya tomonida esa qizlar, dam pichirlashib, dam qiqir-qiqir*

kulishib, pardoz qilishadi, etak t a n l a shadi, o‘sma qo‘yishadi. A.Muxtor, Chinor. *Savat ko‘targan ayollar, qizlar, yigitlar olma daraxtlariga narvon qo‘yib, mevani bittalab t e r moqda edilar.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Ikki tokchaga arab va fors tillarida, ba’zilari toshbosmada chop etilgan, ba’zilari qo‘lda bitilgan qalin-qalin kitoblar t e r ilgan.* Oybek, Ulug‘ yo‘l.

SARANJOM, SARISHTA, ORASTA, TARTIBLI, BATARTIB, BOTARTIB Hamma narsa tartibga solingan, o‘z o‘rnida, tartib bilan joylashgan. **Sarishta** so‘zi yakka holda **saranjom** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi. **Orasta** so‘zidan oro berilganlik ta’kidi ham anglashiladi. **Tartibli, batartib, botartib** so‘zlarida muayyan tartibga keltirilgan, o‘z o‘rnida tartib bilan joylashgan kabi ifodalar ta’kidi mavjud. **Tartibli** so‘zi so‘zlashuv nutqida faol.

Karavot s a r a n j o m, darpardalar tushirilgan, hech kim ko‘rinmaydi-yu, haligi ovoz yana takrorlandi... A.Muxtor, Chinor. *Arslon jim kezinadi. Go‘yo armon-u g‘ussalar yo‘q, go‘yo hamma narsa badastur, s a r a n j o m...* I.Sulton, Ozod. *Asadulla Turkijroqo‘mdan yuborilgan avtomobilga o‘tirmay, uyiga piyoda ketdi. U uy o‘rnida xarobani ko‘raman, deb yurak yutib borgan edi. Ko‘chasiga burilib qarasaki, uyi o‘sha-o‘sha turibdi – devorlar oqlangan, atrof s a r i s h t a... Faqat... boloxona yo‘q.* T.Malik, Savohil. *Ertalab keladi, supuradi-sidiradi. Ba’zan xonalarning polini yuvadi. Derazalarni artadi. Xizmatchilar kelganda hamma yoq chinnidek toza, s a r i sh t a.* O‘.Umarbekov, Kuz havosi. *Zulfiyaning uyi. Chog‘gina hovli. Hamma yoq o r a s t a, saranjom-sarishta.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *...Bugun ilk qor yog‘di. Qishning beg‘ubor nafasi keng-mo‘l xonalariga, o r a s t a yo‘laklariga xastalarning ko‘ngli kabi og‘ir sukunat cho‘kkan shifoxonaga ham bostirib kirdi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Habiba aytgandek, bog‘ shunday t a r t i b l i, shunday ozoda ediki, ko‘rgan kishi: “haqiqiy Michurin bog‘idagina shunday tartib joriy qilinishi mumkin”, deb o‘ylar edi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Mahkam bilan Ochil eshik taqillashini, mehmondo‘stlik bilan kutib o‘tirgan t a r t i b l i va jimjit auditoriyani ko‘z oldilariga keltirib bordilar-u, lekin butunlay boshqa bir ahvolning ustidan chiqdilar.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Uydagi narsalarni tashqariga olib chiqib, ko‘rpa-yostiqlarni oftobga yoyamiz, uyni supurib-sidirib, shamollatib tozalaymiz-da, narsalarni joy-joyiga taxlaymiz: ivirsib yotgan uy keng, bahavo, odam kirsa, bahridili ochiladigan, eng muhimi – izlagan narsangiz topiladigan t a r t i b l i bir go‘shaga aylanadi.* A.A’zam, O‘zim bilan o‘zim. *O‘rmondagi uychaning eshigi ochiq. Egalari qani, deya xavotirlanib ichkariga mo‘raladim. Hech kim yo‘q, ammo hamma yoq orasta, b a t a r t i b.* I.Sulton, O‘rmondagi kulba. *Toshkent Buxorodan salqinroq, yerning umurtqasini sindirib yuboradigan katta imoratlari kam, ko‘chalari ancha b a t a r t i b shahar edi.* T.Malik, Savohil. *Qiz bor uy hamisha ozoda, b o t a r t i b bo‘ladi-da.* Gazetadan.

SARANJOMLAMOQ, SARANJOM QILMOQ, TARTIBGA SOLMOQ (KELTIRMOQ), YIG‘ISHTIRMOQ, SARANJOM-SARISHTA QILMOQ O‘z o‘rniga qo‘ymoq, tartib bilan joylamoq. Juft holda qo‘llanganda tartibga keltirish harakatining ortiq darajada bajarilganligi ta’kidi seziladi. **Yig‘ishtirmoq** so‘zi ko‘proq uyni supurib-sidirmoq, narsalarni joy-joyiga qo‘ymoq ta’kidini ham ifodalaydi.

Bu kecha shu yerda bafurja o‘tirib, qo‘lidagi qog‘ozlarni s a r a n j o m l a ydi, anjumanda bayon etajak mulohazalarini puxtalab oladi... E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *– Bor qog‘oz-pog‘ozlarni yig‘ishtiramiz, – dedi o‘ris yigit avzoyiga jiddiy tus berib va xuddi o‘z uyini s a r a n j o m l a shga kirishgan oila bekasidek qo‘liga ilingan kitob bormi, daftar va varaqlar bormi, sandal kursisi ustiga taxlashga kirishdi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Endi to‘yni boshlayveramiz, o‘zing bosh bo‘lib, hamma ishni s a r a n j o m q i l asan, uqdingmi?* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Onalik hurmati jihatidan unga iltijo qiladi: “Sen uy ishlarini s a r a n j o m q i l aman deb tashvish chekma, xotirjam bir yerda o‘tir, toat-ibodating bilan shug‘ullan va shukur etginki, bitta farzanding ikki bo‘ldi.* S.Ayniy, Asarlar. *U paytlarda Abu Rayhon o‘zi qurgan rasadxonadan chiqmas, kechalari sayyoralar harakatini kuzatar, kunduz kunlari Hindistondan olib kelgan kitoblari va yozgan asarlarini t a r t i b g a s o l ish bilan band bo‘lardi.* O.Yoqubov, Ko‘hna dunyo. *Kelsang, haftaning oxiriga, shanba kuni kel. Ungacha u yoq-bu yog‘imni sal t a r t i b g a k e l t i r ib olay.* X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. *Men ayvonni y i g‘ i sh t i r ib, o‘rningni uyga kiritib berib, masjidga chiqaman. Havoning avzoyi buzuq, yomg‘ir yog‘sa ham, ehtimol, bunda sovuq qotasan.* H.Qodiriy, Eski Toshkandda. *Hasanboy bu gapdan dik etib turib, dasturxonni chaqqon y i g‘ i sh t i r adi , hujramizdagi yakka-yu yagona kursini Shodi aka egallagani uchun bir zum tek qotadi, keyin Tangirning yoniga omonat qo‘nib, yer ostidan hammamizga birbir qarab chiqadi.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Nazar rais polvon gavdali, tim qora mo‘ylovli, armani qosh-ko‘zlariga parallel tushgan, tikilsa daryoning gumini quritadigan nazarkarda, yurganda g‘ijirlab ketmasa, yog‘och oyog‘i borligini sezib bo‘lmaydigan odam kolxozni s a r a n j o m-s a r i sh t a q i l ib, uyidagi yetim bolalarni ham, dunyoda tengsiz ayol Oysuluvni-da boshini silashga vaqt topar...* G‘.Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida. *U dunyoda pensiya yo‘q! U dunyoda... kampiri nozik ta’b bilan boqmaydi. Silab-siypalamaydi. S a r a n j o m-s a r i sh t a l a maydi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi.

SARFLAMOQ, SARF QILMOQ, XARAJAT QILMOQ, XARJLAMOQ, XARJ QILMOQ, CHIQIM QILMOQ Talab-ehtiyoj, biror narsa olish uchun pul ketkazmoq. **Sarflamoq, sarf qilmoq** keng tushunchaga ega, u har qanday sarfni ifodalash uchun qo‘llana oladi. **Xarajat qilmoq, xarjlamoq, xarj qilmoq**, asosan, talab-ehtiyoj (yeyish-ichish, kiyim-kechak va shu kabilar)

uchun bo‘ladigan sarf uchun qo‘llanadi. **Chiqim qilmoq** so‘zida “yondan ketmoq” ifodasi doim sezilib turadi.

Bor-budini mana shu zormonda hovliga s a r f l a b, oqsoqol bultur bir masalada tang ahvolga tushgan edi. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Agar uch tashkilotning har biri o‘z boshiga loyiha tuzib alohida kommunikatsiya o‘tkazsa, bunga uch barobar ortiq kuch ishlatiladi, uch barobar ortiq pul s a r f l a nadi, ko‘cha uch marta kovlanishidan aholi ham oylab-yillab azob tortadi!* P.Qodirov, Erk. *Kenjatoy esa qaysi bir ekspeditsiyada ishlaydi, umrining yarmi dalada, tog‘-toshlarda o‘tadi, shaharga qaytgan paytlarida, nihoyatda sipo kiyinib, pardoz-andozni o‘rniga keltiradi-yu, lekin kampirga bir tiyin ushlatmaydi, balki undan, hatto ijaraga o‘tirgan studentlardan qarz olib yuradi, topgan-tutganining hammasini qizlarga, maishatga s a r f q i l adi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Pulni qay yo‘lga s a r f q i l ishni bilmay, gangiganlar ham ko‘p topiladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bugun Omontoy Qizilsuv bo‘ylarini aylanib kelgandan keyin ko‘prik qurish haqida uni, injenerlar aytguncha bir millionga emas, olti yuz ming so‘mcha x a r a j a t q i l ib, yaxshilab qurish mumkinligini isbot qilmoqchi bo‘ldi.* S.Ahmad, Yer uyg‘ondi. *Ayab, tejab x a r a j a t q i l gani uchun yonida o‘n besh so‘m qolgan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *To‘qqizta qo‘yimiz bo‘lardi. Dadam qamoqdaligida ikkitasini sotib ro‘zg‘orga x a r j l a gandik, qamoqdan chiqqanida bittasini elga yegizdik.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Qarashsaki, bu ishni mahalliy ishchilarga ham o‘rgatsa bo‘lar ekan va shunday qilinganda fransuz ishchisiga x a r j l a nayotgan pul deyarli bus-butun holda yonga qoladi.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘sha odamlar shu yerga kelguncha qancha mashaqqat tortadilar, pul x a r j q i l adilar. Olib ketadigan boyliklari esa ikkita-uchta kaklik.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Mo‘min onasi bergan pulni hech narsaga x a r j q i l madi.* “Yoshlik”. *Kirim bo‘lmagach, ch i q i m q i l ish kimga ham yoqardi.* Gazetadan. *Sendan boshqa hamma biladi. Sarsongarchilik – ch i q i m q i l ish degani.* T.Malik, Xazonrezgi.

SARIYOG‘, **SARIMOY** Asosan, mol sutidan ajratib olingan yog‘. **Sarimoy** – shevaga va og‘zaki nutqqa xos so‘z.

Samarqand danagi... S a r i y o g‘, qazi shunday ustalik bilan parrak qilib to‘g‘ralgan ediki, biron joyida pichoq tirnab ketgan g‘adiri ko‘rinmasdi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Nonushtaga har safar Halima aya bir necha patir isitar va qizib turgan non ustiga s a r i y o g‘ tashlab, barmoqlari kuygancha qatlariga shimitar, ota va bolalar esa so‘laklarini yutgancha buni kuzatib turishardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Har nonning ustida kuydirilmagan s a r i m o y, ko‘pining oldida qand choy.* “Dalli”.

SARLAVHA, PESHLAVHA Kitob, asar, maqola kabilar yoki ularning ayrim qismlariga qo‘yilgan nom. **Peshlavha** eskirgan. Ushbu so‘z hozirda biror tashkilotning nomi yozib, devorga ilib qo‘yiladigan lavhaga nisbatan qo‘llanadi.

Har nuqtaga sayqal berib u, Vodiy uzra chizdi zar lavha. So‘ng quyosh deb imzo chekdi-yu, Tongotar deb qo‘ydi s a r l a v h a. E.Vohidov, Saylanma. *Mirkomil dastlab minbarga bir necha gazetalarni yoyib tashladi-da, baland ovoz bilan undagi yirik s a r l a v h a larni o‘qidi: “Gazandalar xalqning qahr-u g‘azabidan qochib qutulolmaydi!”* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Chol “Vino. Vodka. Bar” degan p e sh l a v h a osilgan pastqam imorat tomonga qo‘li bilan ishora qildi va gapini davom ettirdi.* Q.Ochilov, Savil. *O‘sha yillari idoralar va turli tashkilotlarda p e sh l a v h a lar o‘zgarayotgan edi.* S.Ahmad, Saylanma.

SARIQ, MALLA, ZA’FARON Somon, zarchuva, tilla kabi narsalar tusidagi rang. **Malla** och sariq, jigarrangga moyil rangni ifodalaydi. **Za’faron** belgini me’yoriy ifodalaydi, eskirgan, kitobiy.

S a r i q sochlariga oq oralagan, Moviy ko‘zlarida tubsiz bir xayol. E.Vohidov, Sharqiy qirg‘oq. *Qoplon otamiz... tok tomirlarida g‘imirlamish s a r i q chumolilarga tikilib qoldi*. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa, Qora sochning m a l l a bo‘lgani shudir.* E.Vohidov, O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa... *Humoyun o‘ng tomonda, fildan ancha ortda saman ot minib kelayotgan keng m a l l a to‘nli, katta oq sallali, sersoqol Said Xalilga sinchiklab bir qarab oldi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Hind vodiylaridan yil bo‘yi bahor yashilligi ketmagani kabi yil bo‘yi daraxtlar tagidan z a’f a r o n yaproqlar ham arimaydi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

SASIMOQ, QO‘LANSIMOQ, HIDLANMOQ Sassiq hid chiqarmoq, yoqimsiz, qo‘lansa hid taratmoq. **Qo‘lansimoq** so‘zida mazkur belgi darajasi ortiq ifodalangan, kam qo‘llanadi. **Hidlanmoq** so‘zi og‘zaki nutqqa xos.

To‘g‘ri, ammo Olloh bu luqmayi halollarni suyukli, aziz qullari uchun shifobaxsh taom sifatida vujudga keltirgan ekan-da. Ular yeb turilmasa, daryo, dengizlarga sig‘may ketadi, keyin o‘lib s a s i ydi. Q.Kenja, Toshqin. *Anavilarning q o‘ l a n s i gan shishalarini yig‘ishtirganim qoldi-da, uka.* O.Yoqubov, G‘.Hotamov, Kecha va bugunning saboqlari. *Har xil millat matroslari... ishratxonalar sassig‘i bilan q o‘ l a n s i b yotgan Istanbulda kun sayin razolat tubiga cho‘kib borardi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *U savat, unda go‘sht bor. Shabadada h i d l a n may turadi*. S.Nurov, Narvon. *H i d l a n ib qolgan go‘shtlar, qurt tushgan qazi-qartalarni qo‘shnilar, qarindosh-urug‘ga berolmay, kechalari itlarga tashlab yashashning nimasi yaxshi?* O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i.

SASSIQ, BADBO‘Y, QO‘LANSA Yoqimsiz, yomon hid. **Badbo‘y** kam qo‘llanadi. **Qo‘lansa** so‘zida yoqimsizlik darajasi juda kuchli aks etgan, ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Nima uchun hech bir aybim bo‘lmagan holda shuncha vaqtdan beri o‘pkam teshilib s a s s i q havodan nafas olishim kerak? Qaysi gunohimga? O‘zi nimaga

sizlarga arz qilib o‘tiribman?.. A.A’zam, Hali hayot bor. *Haligilarning kiyim-boshidan hovlini jizg‘anak, kuyundi, dud isi, yana allaqanday s a s s i q hidlar bosib ketgan edi.* A.Muxtor, Chinor. *Ko‘rar edim rastalar qator. Kanorada sasigan go‘shtlar, O‘ynar edi pashshalar g‘ujg‘on, Savdo qilar sabzafurushlar, Dim, b a d b o‘ y hid, betartib suron.* E.Vohidov, Saylanma. *O‘rinlariga besh-o‘n kunlardan keyin yana boshqa savdogarlar kelib qo‘nadi-da, ulardan birisi Egamberdiga: “Bizning hujraga kirib ko‘ring, yomon bir hid kelyapti. Tag‘in biror narsa ko‘milgan bo‘lmasin”, deydi. Egamberdi kirsa, darhaqiqat, hujrani bir b a d b o‘ y hid tutib ketgan.* H.Qodiriy, Eski Toshkandda. *Gup etib urgan q o‘ l a n s a is dimog‘ni yorib yubora yozdi – ichkarida qora-qura ko‘lanka tirband ekanligini Abdulla uch qadam yurganida ko‘rdi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Ajina bu yerdagi bazmni yakunlab, Teshikmozor ko‘chalarida chappar urayotganda, Olamaydondagi Sobirjonlar yotgan karavot atrofida q o‘ l a n s a hid taratib, goh tutab, goh lippillayotgan kuyundilar sochilib yotardi.* A.Boyqo‘ziyev, Teshikmozor hangomalari.

SAVAT, CHONOCH Tol, tut, yulg‘un novdalari, bug‘doy poyasi, sim, plastmassa va sh.k. dan to‘qib tayyorlangan ro‘zg‘or buyumi, idish. **Chonoch** so‘zi shevaga oid, kam qo‘llanadi.

Birov uloviga s a v a t osib oldi, birov qo‘ltig‘iga s a v a t qisib oldi. Dehqonlar uzum uzishga kela berdi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Kuz, bahor oylarida, hatto qishda ham to‘r, qarmoq, s a v a t kabi vositalar bilan baliq tutib sotardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Don solingan ch o n o ch lar naq xazina-ya, xazina. Eh, attang, attang...* H.Karimiy, Mushtipar.

SAVOL, SO‘ROQ Javob, tushuntirish talab etuvchi murojaat. Jonli so‘zlashuvda, asosan, **so‘roq** so‘zi, kitobiy nutqda **savol** so‘zi ko‘p qo‘llanadi.

“Endi nima bo‘ladi?..” Bu s a v o l – vaqt o‘tgan sayin og‘ziga tushgan o‘sha bir qoshiq sho‘r oshdek butun borlig‘ini achitib, zaharlab borardi. U.Hamdam, So‘z. *Hozir ham birorta topshiriq olishni sezib, Osiyo opaning s a v o l idan sevinib ketdi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *To‘g‘ri, aniq gap tuzib, Javob bergin s o‘ r o q qa, Xizmat qilsin har so‘zing Fikringni to‘latmoqqa.* E.Vohidov, Saylanma. *Erlar boshlarini egib, s o‘ r o q qa ne deyarini bilmay, yer chizishdi.* I.Sulton, Bilga Xoqon.

SAXIY, SAXOVATLI, HIMMATLI, HOTAM, HOTAMTOY, SAXOVATPESHA, TANTI Hech kimdan hech narsani ayamaydigan, qo‘li ochiq. **Himmatli** so‘zida o‘zgadan yordamini ayamaslik ta’kidi qabariq aks etgan. **Saxovatli** kam qo‘llanadi. **Hotam, hotamtoy** so‘zlarida ma’no obrazli ifodalangan, kitobiy nutqqa xos. **Saxovatpesha** saxovatni maslak qilib olganlik belgisini kuchli darajada ifodalaydi. **Tanti** so‘zida qo‘li ochiqlik va bag‘ri kenglik ta’kidi mavjud.

Oftob chiqdi olamga, Yana yoniq, yana yosh. Shunday s a x i y, shunday saxiy Har tomchida – bir quyosh! A.Muxtor, Sizga aytar so‘zim. *Ammo insof bilan gapirganda, Kattakonning birovga ziyoni yo‘q. Aksincha! Mahalla ahli nomidan uni-buni vaj keltirib, oqsoqol undan pul undirgani undirgan. Juda s a x i y, serhimmat odam.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Cholning o‘g‘illari ham otalariga o‘xshab saxiy, s a x o v a t l i, mehnatkash ekan.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Yoqutxon yig‘lasak arziydigan dilbar juvon edi. Qo‘li ochiq s a x o v a t l i edi.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Pul bergan o‘rtoqlarini quchoqlab o‘pgisi keldi, ular shu topda dunyoda eng h i m m a t l i, eng qadrdon, eng mehribon odamlar bo‘lib tuyuldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Uning turkman do‘stlari nihoyatda himmatli, odamshavanda kishilar edi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Xo‘jayining mashhur va h o t a m, Ko‘p yo‘qlashar do‘st-u yoronlar. Ulug‘ mezbon ko‘ngli uchun ham Siylashadi seni mehmonlar.* E.Vohidov, Ishq savdosi. *Eshitishimcha, Mirkarimov serhimmat, qo‘li ochiq, mehmondo‘st, h o t a m t o y odam ekanlar.* T.Malik, Shaytanat. *Xojasi bunaqa paytlarda h o t a m t o y bo‘lib, ichkariga olib kirardi, qornini to‘yg‘izardi-da, “Falon paytgacha bo‘shsan” derdi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Machit va Madrasa ta’minoti uchun hukumat tomonidan xatlab berilgan “Vaqfiya” yerlarga ekiladigan ekinlar hosilidan ajratib berilgan, boz ustiga s a x o v a t p e sh a boylarning yordam ko‘magidan bahramand edilar.* G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *...Juda tagli-zotli, saxovatpesha odamlar bu qo‘shnilarim.* N.Jaloliddin, Ayo ishq! *Uningdek bo‘lishni, er yetishni o‘ylab, kechalari to‘lg‘onib chiqardim. Keyin ham uningdek mard, t a n t i insonni uchratmadim!* M.Mansur, Judolik diyori. *Faxr etarman, ona xalqim, Ko‘kragimni tog‘ qilib, Ko‘kragida tog‘ ko‘targan T a n t i dehqon o‘zbegim.* E.Vohidov, O‘zbegim.

SAXIYLIK, SAXOVAT, SAXOVATPESHALIK, SAXOVATLILIK, OCHIQQO‘LLIK Hech kimdan narsasini, yaxshiligini ayamaslik, qo‘li ochiqlik, oliyhimmatlik. **Saxovat** so‘zida himmatlilik ta’kidi ustunlik qiladi. **Saxovatpeshalik, saxovatlilik** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Ochiqqo‘llik** og‘zaki nutqqa oid.

Yo‘q, Nilufar aybni oyisiga to‘nkamasayam bo‘ladi. Begimqulning... mardligiga, s a x i y l i g iga, sovchilar kelgan bu oq “Volga”larga oyisidan avval uning o‘zi uchmaganmidi? O.Yoqubov, Billur qandillar. *S a x i y l i k ni odat qilgan bo‘lsa kim, Elga sochgan bo‘lsa borini doim, Himmati bor bo‘la turib, ilohim, Qo‘lidan davlati ketmasin uning.* E.Vohidov, Tilak. *Istardim, inson ham Yerga faqat don, Muruvvat, s a x o v a t urug‘in eksa. Hech kim o‘ksimasa, hammaga yetsa, Ko‘k gumbaz ostida to‘kin dasturxon.* A.Muxtor, Sizga aytar so‘zim. *Dunyo yaratilgan kuni Jumada tavallud topgan Juma o‘g‘li, shevada Jumag‘ulboy bir kun kelib ming qo‘yli mashhur boy bo‘lishi, uning bir boshqa s a x o v a t i bilan bus-butun to‘for boy el deb nom olishini, ...ekin maydonlari ko‘z ilg‘amas*

bo‘lib kengayib ketishini qayerdan bilsin? G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *Saxovatpeshalik, bag‘rikenglik azal-azaldan xalqimizga xos insoniy fazilatlardan biri bo‘lib kelgan.* Gazetadan. *Lekin Xudoyorning saxovatpeshaligi va ma’muriyatparvarligi mehnatkashning xazinaga oltin suratida yig‘ilgan kuchidan emas, bevosita bilak kuchidan, ko‘zyoshidan edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *O‘shanda Iskandar o‘z boyliklarini saxiylik bilan odamlarga ulashar ekan, yurt ulamolarining boylikka, aysh-u ishratga, ayollarga ruju qo‘yishlarini o‘taketgan pastkashlik, qabihlik deb hisoblaganidan, bu ochiqqo‘lligi bilan shunday yo‘l tutayotganlarga sha’ma qilayotgandek ham bo‘lardi.* Sh.Bo‘tayev, Qora Klit.

SAYILGOH, SAYRGOH, SAYRBOG‘, TOMOSHABOG‘ Xalq sayillari, turli tadbirlar o‘tkaziladigan joy. **Sayrgoh** va **sayrbog‘** so‘zlarida hordiq chiqaradigan joylik ta’kidi qabariq ifodalanadi. **Tomoshabog‘** so‘zida poetik ta’kid mavjud, bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Qachonlardir Mingbuloq Qo‘qonning, qolaversa, butun Farg‘onaning eng go‘zal sayilgoh laridan biri bo‘lgan. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Kela berdi raqqosa qizlar Ko‘rsatmoqqa ishva-nozini. Butun qishloq Bugun xurram, shod, Butun qishloq sayilgoh bugun.* E.Vohidov, Saylanma. *Asfalt yo‘lkalarning ikki yonida gulzorlar, yashil o‘rindiqlar, qisqasi, bemorlar uchun so‘lim sayrgoh.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Kunduzgining diydasi – kelinchak quyosh, Ufq darchasidan chiqarmishdi bosh; Osmon yuzini sayrgoh aylab, Firuza bo‘shliqdan o‘tar avaylab.* Mirtemir, Tanlangan she’rlar. *O‘sha qo‘shma korxonaga ishga o‘rnashgan kuni Baxtiyor uchun chinakam bayram bo‘ldi. Xotini ikkisi bolalarni sayrbog‘ ga olib chiqishdi.* L.Bo‘rixon, Bir tomchi yosh. *Chamasi, o‘n minutcha yurilsa, salqin va so‘lim sayribog‘lar bor edi.* F.Musajonov, Himmat. *Tomoshabog‘ aro sayr etganda siz, Xilvatda bir go‘zal qizni ko‘rursiz.* E.Vohidov, Saylanma. *Salim bilan Fazliddin “tomoshabog‘”da kezgan singari sekin-sekin, bog‘ning har jihatini ko‘zdan kechira boshladi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

SAYOHAT, SAFAR, YO‘L, SAYR Dam olish, hordiq chiqarish, dunyoni ko‘rish maqsadida qilingan yurish. Mazkur ma’noda **yo‘l** so‘zi, asosan, og‘zaki nutqda faol qo‘llanadi. **Sayr** so‘zida aylanib yurish, tomosha qilish ta’kidi qabariq namoyon bo‘ladi. Bu so‘z **sayohat** so‘zi bilan birga juft holda kelib, **sayr-sayohat**, **sayr-u sayohat** tarzida ham qo‘llanadi, bunda ma’no yanada qamrovli ifoda topadi.

Zero, bir hafta o‘n kunlik sayohat uning muammosini hal qilolmas, hayotini tubdan o‘zgartirolmas edi... U.Hamdam, Muvozanat. *Har bir beshchashmalik uchun bu qishloqlarga yumush bilan yoki beyumush kelib-ketish sayohat yoki ziyorat kabi xush yoqadi.* G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *Sizni Afg‘oniston safariga taklif etmoqchiman. Kobulda biroz turib, so‘ng Hindiston orqali*

Angliyaga, o‘g‘illaringiz yoniga olib boraman. T.Malik, Savohil. *Qiziq, avval ham xizmat taqozosi bilan uzoq s a f a r larda ko‘p bo‘lgan. Lekin qizalog‘ini hech qachon bunchalik sog‘inmagan edi.* O‘.Hoshimov, O‘zbek ishi. *Y o‘ l ga chiqsang, yo‘ldoshing bo‘lsin.* Maqol. *Bu so‘roqni o‘z-o‘ziga ham berib ko‘rmagan, go‘yo burungidek Marg‘ilon y o‘ l iga oshiqib hozirlanar edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Jo‘raning esiga bugun Xo‘jaqo‘chqorga s a y r ga borishlari tushdi, u gavdasini dast ko‘tarib, tirsagiga tiranib oldi*. Sh.Xolmirzayev, Sayr. *Na iloj? Bugun dam olish uyiga ketsam... O‘sha yerda to‘yib uxlayman. Toza havo... Maroqli s a y r lar...* T.Malik, Falak.

SAYOZ, SIYQA, G‘O‘R, BO‘SH G‘oya, mazmun va badiiylik jihatidan yuzaki. **Siyqa** so‘zida mazkur ma’no ancha kuchli ifodalangan. **G‘o‘r** so‘zida qiyomiga yetmaganlik, xomlik ta’kidi mavjud. Bu so‘z ko‘pincha ilmiy-badiiy asarlar hamda maqolalarga nisbatan qo‘llanadi. **Bo‘sh** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Xom-xatala asarlarga, g‘oyaviy-badiiy s a y o z buyurtmalarga chek qo‘yish vaqti allaqachon keldi. Gazetadan. *Ilmi juda s a y o z, faqat qaqillab gapirishi bor...* Mirmuhsin, Umid. *Bu s i y q a, yoqimsiz savolga ensasi qotgani ko‘rinib turardi, biroq yozuvchi kulumsiradi.* E.A’zam, Shovqin. *Baxtiyor bo‘yniga bo‘yinturuq solingan qirchang‘iday arang sudralib ishga borar, quruvchilarning sayoz-s i y q a gurunglaridan darrov zerikar, bir yoqlarga bosh olib qochib ketgisi kelar edi.* L.Bo‘rixon, Bir tomchi yosh. *Ba’zan gazetalarimizda g‘ o‘ r, shablon, kishilarni zeriktiradigan materiallar ham bosiladi*. Gazetadan. *G‘oyaviy b o‘ sh, badiiy oqsoq asarlar o‘z bahosini olayotir.* Gazetadan.

SAYQALLAMOQ, SILLIQLAMOQ, PARDOZ BERMOQ Turli materiallar (metall, tosh, yog‘och va b.)ga ishlov berish bilan ularni silliq qilmoq, jilo bermoq. **Silliqlamoq** so‘zida qayta ishlab, kamchiliklardan xoli qilmoq ustuvor. **Pardoz bermoq** so‘zida ziynatlamoq, jilo bermoq ma’no ta’kidlari mavjud.

Tog‘am boplab imorat qurdi, s a y q a l l a di har bir g‘ishtini. Sh.Rahmon, Uyg‘oq tog‘lar. *Yelim qurigach, charm bosib, angishvonaday bolg‘achasi bilan taglik atrofiga to‘qqillatib urib chiqdi va yon tomonlarini charxga tutib s i l l i q l a di...* O‘.Mirzayor, Yamoq. *Avval handaqni ikki ag‘darib pishitaman, keyin tepaga qulochlab otaman, to‘dalangan uyumni suvlab, ketmonning orqasi bilan s i l l i q l a yman...* A.A’zam, Quroq. *Ustalar yangi uyga so‘nggi p a r d o z b e r ish bilan, mardikorlar esa eskisini buzish bilan band edi.* T.Malik, Shaytanat.

SAYYOH, SAYOHATCHI, TURIST Dunyoni ko‘rish, bilish, o‘rganish hamda dam olish maqsadida sayohat qiluvchi kishi. **Sayohatchi** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos. **Turist** so‘zida ko‘proq zamonaviylik ta’kidi bor.

Xurram qotma har kuni ayni tush paytida choy qaynatish uchun tosh o‘choq tiklashga tutinarkan, negadir hamisha uzoq vaqt dashtni sog‘inib-sog‘inib

chiqqan s a y y o h dek his etadi o‘zini. N.Norqobilov, Kurash. *Tashqarida imorat-u darvozaxonaning dabdabasidan andak ensasi qotgan kishi ichkarida ajoyib gulzorga duch kelgach, go‘yo o‘zga bir olamga kirib qolgan s a y y o h dek hayratga tushardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Gul gasht qilib, gulzorlarga gul xaridorlari yo s a y o h a t ch i lar kelaversa, u o‘rnidan turar, Buxoroning katta qabristoni Bihishtiyonga chiqardi, kun qoraya boshlagach, shahar darvozasi bekilishidan oldin shaharga qaytib, to‘g‘ri hujrasiga borardi...* S.Ayniy, Asarlar. *Kema katta, s a y o h a t ch i ko‘p...* E.Vohidov, Saylanma. *Respublikamizga chet eldan keladigan ba’zi t u r i s t larga tushunib bo‘lmaydi.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *Yigitali lola sayliga bir necha kun tayyorgarlik ko‘rdi... palatka, hatto t u r i s t larning qozon-tovog‘ini ham olib keldi.* D.Nuriy, Osmon ustuni.

SEHR, AFSUN, JODU, SEHR-JODU, AVRASH Mo‘jizalar yuzaga keltiruvchi harakat, go‘yoki g‘ayritabiiy kuchlarni muayyan maqsadga yo‘nalgan harakatni bajarishi uchun aytiladigan “so‘zlar”. **Sehr** va **jodu** so‘zlarida yuzaga keladigan g‘ayritabiiy holat darajasining ortiqligi sezilarli, shuning uchun mazkur so‘zlar, ayniqsa, afsona, rivoyat, ertak kabilarda ko‘proq uchraydi. Bu ikki so‘zning **sehr-jodu, sehr-u jodu** tarzida juft holda qo‘llanishi ham kuzatiladi. **Avrash** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

Biroq bu orzu-havas orqasidan kutilgan marg‘ilonliq balosidan o‘g‘lini qutqarish masalasi uning tilagicha bo‘lib chiqmadi-da, yana marg‘ilonliqning s e h r i o‘tkirlik qildi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Hang-u mang qotib turgan mijozlar to‘pi, tuyqus s e h r dan forig‘ bo‘lganday, duvva bola tomon yopirildi.* L.Bo‘rixon, Sut sotuvchi bola. *Uning oyoqlari allaqanday yomon bir kuchning a f s u n iga ilashganlar, o‘sha kuchning sudragan tomoniga borardilar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shomon childirma chalib, irg‘ishlab munchoqlarini shaldiratib, gulxan atrofida aylanib a f s u n lar o‘qib, yovuz ruhlarni haydab, qasamyodgohni pokladi.* G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Aytadilarki, bu oy ichiga simob va ma’dan aralashmasi to‘ldirilgan shisha edi. Yana aytdilarki, yo‘q, bu j o d u edi.* I.Sulton, Tilsim lashkari yoxud Muqanna. *Chindan ham, malikaning j o d u si bormidiki, tun bo‘yi mislsiz huzur-halovatga oshno etardi-yu, tong otishi bilan o‘shal orom onlari uning xotiridan ko‘tarilib boraverardi.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Osuda ko‘klam shabadasining bir nafaslik epkini yanglig‘ omonat, ayni vaqtda sanoqqa ham dosh bermas ushbu lahzalarda bu yorug‘ ma’voning o‘zidek uzun, mazmunlarga to‘lib-toshgan, hayajon-u ehtiros mavjlariga limmo-lim voqealar namoyish etilguvchi o‘zgacha s e h r-j o d u mujassam masofa. Yaqin-yaqingacha bundayin hayot haqiqatlarini yigirma soniyada tasdiqlashga Musharraf.* G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *Ayni shu sehrmi va yoxud boshqa nimarsami, uning g‘animlariga yoqmasdi, hatto undan qo‘rqardilar. Sultonni s e h r-u j o d u ila o‘ziga bandi etib olgan, yo‘rig‘iga solgan, deya yozg‘irardilar.* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Otaqul tog‘am birdan shalvirab,*

S

nima qilay, a v r a sh iga uchibman-da, deb past ovozda qisinqilandi. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Masalan, deylik, tanbeh usuli, aslida, soxta bo‘lgan muqobil “haqiqat”lar bilan raqibni chalg‘itish sofistikaning a v r a sh usullaridan biri bo‘ladigan bo‘lsa, ustoz Arastu ko‘rsatgan nishonga qarshi Pahlavon Mahmud hazratlari qaqshatqich va aniq o‘q uzadi.* “Ikki fil hikmati”.

SEHRGAR, AFSUNGAR, JODUGAR, SEHRBOZ, SEHRCHI, AFSUNCHI Afsun, sehr, jodu bilan g‘ayritabiiy harakat-holatlar, mo‘jizalar yuzaga keltiruvchi. **Sehrgar** so‘zida sirlilik ma’no nozikligi anglashiladi. **Afsungar** so‘zida “alohida so‘zlarni o‘qish yordamida” ta’kidi ko‘proq. **Jodugar** so‘zida salbiy munosabat ochiqroq ifodalangan, afsona va ertaklarda ko‘proq uchraydi. **Sehrboz** so‘zi eskirgan, juda kam qo‘llanadi. **Sehrchi** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos. **Afsunchi** boshqa sinonimlariga nisbatan kamfaol.

O‘sha yetim qiz. O‘z onasi o‘lib ketib, o‘gay onaning qo‘lida qolgan... kunlarning birida o‘rmonda adashib, s e h r g a r kampirning hujrasiga borib qolgan. Sh.Xolmirzayev, Quyosh-ku falakda kezib yuribdi! *Siz hayotdan umidini uzgan bechora insonlarga qaytadan jon ato qilgan paytlaringizda... O‘zingiz bilmaysiz, kechalari o‘pib chiqardim bu s e h r g a r qo‘llaringizni*. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Tag‘in ermaksiz qolib, Farhod endi rostakamiga siqila boshladi. Nima qilib o‘tiribdi o‘zi bu yerda xor bo‘lib? O‘sha ekstrasens-u afsungar larini bugun ko‘rishimi?! Toshkentda qanaqalariga uchramagan!* E.A’zam, Shovqin. *Ertasiga kechga yaqin u qo‘riqchilarini chorladi hamda tez orada bu yerga Qaf degan a f s u n g a r kelishini, uni zinhor tutib qolmasliklarini amr etdi.* I.Sulton, Tilsim lashkari yoxud Muqanna. *Nima balo, j o d u g a r mi bu? Hali Nargisxonni sevib qolganimniyam aytib berar!* O‘.Hoshimov, Ikki karra ikki – besh. *J o d u g a r otini o‘rmonga yashirib, o‘zi bir musofir odam bo‘lib, qizning oldiga kelibdi*. “Burgutlar ertagi”. *Marg‘ilonlikning domlasi s e h r ch i hindi edi, men bo‘lsam bu yerdan hindi domla topa olmadim.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Poshsha a f s u n ch i ning bu o‘rgatma iloni bir marta nishini botirib olmasa, bo‘ladimi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

SEKIN, ASTA, OHISTA, SUST, ASTA-SEKIN, SEKIN-ASTA Muayyan me’yordan past tezlik bilan, oshiqmasdan, shoshilmasdan. **Asta** so‘zida tezlik darajasi **sekin** so‘zidagiga nisbatan kuchsizdir. **Sust** so‘zi, odatda, salbiy ma’noda qo‘llanadi. **Asta-sekin, sekin-asta** so‘zlarida belgi darajasi yanada kuchli.

Qarshilik Lo‘li shoir ko‘hna aytishuvni boshlaganida, Toshboy s e k i n qo‘zg‘aldi. G‘.Rahmon, Shukuhli karvon. *Nilufar qizlik chog‘ida kinogami, teatrgami tushib, uylariga kech qaytgan paytlarida dadasini uyg‘otib yubormaslik uchun oshxonalarining derazasini uch marta s e k i n taqillatar edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Uzun karidordan o‘z bo‘lmasi tomon a s t a odimlab borarkan, bosh vrach xonasining qiya ochiq qolgan eshigidan uchib chiqayotgan so‘zlar qulog‘iga qo‘rg‘oshinday quyildi.* U.Hamdam, Otash. *Saidahmadxon va An-*

varxon qori tag‘in qulluq qilib, ulamolar bilan qayta-qayta xayrlashdilar va ko‘chaga qarab a s t a yurdilar. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Nilufar birdan yuragi gurs-gurs urib eshikni tovushsizgina ochdi, dahlizda hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, yuragi qinidan chiqqudek bo‘lib, o‘zini o h i s t a tashqariga oldi...* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Xurram qotma, misli shirinlikka o‘ch boladay, Nazar baxshi uzatgan kitoblarga oshig‘ich qo‘l cho‘zdi. Birini qo‘ltig‘iga qisib, ikkinchisini o h i s t a varaqlashga tusharkan, quvonib, bu kitobni anchadan beri qidirib yurganini aytdi.* N.Norqobilov, Kurash. *Seminarlarga s u s t qatnashadiganlarning ba’zisi (Ochil ularning nomini ham yozib oldi) to‘rtinchi bob bo‘yicha mustaqil o‘ylab “falsafiy fikr” yuritishga o‘rgana olmay qiynalar ekan.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Issiqdanmi, kamxo‘raklikdanmi – podalar juda s u s t jilar, mollar o‘tlashdan ham ko‘ra bir-birlariga biqinish, suyanish payidan edilar.* A.Muxtor, Chinor. *A s t a - s e k i n bog‘ga kelishim bilan ichimdan sakrab chiqib ketgan sharpaning itga o‘xshashligiga ishona boshladim.* N.Eshonqul, Bahouddinning iti. *Qiziq: xuddi unda xayollarida azaldan o‘rnashib, endi xiralashib qolgan qandaydir ranglar, yo‘qolgan – o‘tmaslashgan tuyg‘ularini ko‘rayotgandek angrayib qoldi va a s t a - s e k i n atrofini aylana boshladi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Sovuq s e k i n - a s t a vujudining tepa qismini – jiqqa ho‘l ko‘ylagi chippa yopishgan badanini ham zabt eta boshlagan Rustam junjikib qaltirardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Hozir keksa jangchining tomirlarida qon s e k i n - a s t a oqar, oyoq-qo‘lining jarohatlangan yerlari ham simillab og‘rirdi.* I.Sulton, Xun.

S

SEKINLASHMOQ, SUSAYMOQ, SUSTLASHMOQ, PASAYMOQ, QAYTMOQ Sekin (sust) holatga kelmoq. **Sekinlashmoq, susaymoq** so‘zlari harakat-holatning me’yoriy tezlikdan pasayishi, shuningdek, harakat-holatning kuchi yoki boshqa biror belgisining normal holatdan kamayishi (kuchsizlanishi) ma’nosida qo‘llanadi. **Pasaymoq** harakat-holatning kuchi yoki boshqa biror belgisining (tezlikning emas) me’yoriy holatdan kamayishi (kuchsizlanishi) ma’nosida qo‘llanadi.

Karim qori to‘xtashga to‘xtamadi-yu, qadamini s e k i n l a sh tirdi... X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Tanasi vazminlashib, qadami s e k i n l a sh ib borayotgan Rustam xotinining ovozidan sergaklanib, jon-jahdi bilan olg‘a intila boshladi.* Q.Kenja, Toshqin. *Shu tob, mana, umrning allaqancha qismi o‘tib, shiddatlar ilg‘ar-ilg‘anmas s u s a y ib borar ekan, unutilib ketgan yovvoyi bir shavq ham ichimda uyg‘onadi.* I.Sulton, Bo‘ri. *“Eshakning yuki yengil bo‘lsa, yotoq bo‘ladi”, degan gap ham rost ekanmi, yo qarilik oxir-oqibat o‘zini ko‘rsatdimi, yo nomus kuchi, jon holatda ishlash asnosida o‘zining bor quvvat-layoqatini sarflab yuboribmidi, Ko‘ktoyning shashti-shijoati sekin-asta s u s a y a boshladi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *O‘tgan hafta Oyko‘lda pichan o‘rog‘i s u s t l a sh ib qoldi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *...Jajman har safar o‘zini o‘nglab olar, xud-*

di kaltak ostida qolganini sezmagandek, hamon ko‘zlari olma-kesak terar, aftidan, qo‘liga ilinadigan narsa qidirar, shunday bo‘lsa-da, uning holdan toyayotgani, yurishlari tobora s u s t l a sh ayotgani, qaddini tutolmayotgani sezilayotgan olomon zo‘r kelayotgan edi... X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Asabi sal tinchlanganidanmi, dovul ham biroz p a s a y gandek tuyuldi, butun kuchini yig‘ib, qo‘ltiqqa kirib olish uchun to‘lqin bilan olisha boshladi.* A.Muxtor, Chinor. *Dushdan chiqqanida chindan ham yuzlarining, qovoqlarining shishi qaytgan, ko‘zlari xiyla tiniqlashgan, bosh og‘rig‘i ham ancha p a s a y gan edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Nizomiddinovning titrog‘i q a y t gandek bo‘ldi.* S.Ahmad, Hukm.

SEMIRMOQ, TO‘LISHMOQ Odatdagi vaznga nisbatan biroz et olmoq, vazni ko‘paymoq, yo‘g‘onlashmoq. Bu ma’no **to‘lishmoq** so‘zida biroz kuchsiz.

Amir s e m i r ib ketgani sababli gavdasidagi nomutanosiblik aniqroq sezilardi. T.Malik, Savohil. *– Mehnat ahli hamisha zabunlikda. Savdogarlar-chi? Barchasi zangin, bizning bel va bilak kuchimizdan s e m i r gan haromtomoqlar! – dedi qahr bilan Jumaboy.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Kasal shunday javob berdi: “Bilganim shuki, sog‘lik kelishi bilan quvvatga kiraman, t o‘ l i sh aman, rangim ham qizarib, o‘zim yosh va nash’ali bo‘laman”.* I.Sulton, Hazrati majoz. *– Buyursin, yarashibdi. – Zumrad opa havas bilan unga tikildi. – T o‘ l i sh ibsan-da, biroz kengroq edi, endi yaxshi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

SEMIZ, ETLI, TO‘LA, DO‘MBOQ, LO‘PILDOQ, LAPPOS Etli, ortiqcha vaznli, to‘ladan kelgan. **Semiz, etli** so‘zlari odamga nisbatan ham, hayvonga nisbatan ham qo‘llanaveradi. Mazkur ma’no, ayniqsa, **do‘mboq, lo‘pildoq, lappos** so‘zlarida qabariq ifodalangan, keyingi ikki so‘z so‘zlashuv tiliga xos. **Etli, to‘la** so‘zlarida belgi biroz kuchsiz.

– Keling-keling, xo‘jayin! – qarshi oldi Eshonxonni samovarchi – bir ko‘zi g‘ilay, s e m i z, pakana kishi. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Ellikni urib qo‘ygan, bo‘rdoqiga boqilgan qo‘ydek biqqi s e m i z turshakfurush alpang-jalpanglab emaklaganicha qavat-qavat to‘shalgan ko‘rpachalarni itqitar, nuqul “Yo‘q!.. Yo‘q!.. Shilib ketibdi!”, der, lekin yo‘qotganini topishdan umidvor, shekilli, qalt-qalt titrayotgan qo‘llari bilan ko‘rpachalarni qayta-qayta ag‘dar-to‘ntar qilishdan tinmas edi.* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *– Avval mol bozorga kiramiz. E t l i suyakli mol kamroq bo‘lsa, uyga shartta borib, ho‘kizni yetaklab kelasan.* Q.Ochilov, Nadur xayoling? *Cho‘loq goho yiqilib ketar, parvoz oldidan ham tez yugurib olishda shu oyoq xalal berardiki, shuning uchun u ko‘pincha yerda bo‘lishni afzal ko‘rardi. Shuning uchun o‘zga turnalardan zaif-u, ularga qaraganda xiyla e t l i bo‘lib o‘sdi.* Sh.Xolmirzayev, Cho‘loq turna. *T o‘ l a dan kelgan, qora cho‘tir yuzli, qo‘ng‘iz mo‘ylabli, chamasi o‘ttiz besh-o‘ttiz olti yoshlardagi afti kesakdek sovuq soqchi – Abdullaning yuragi shig‘ etib ketdi, turqi*

Homidning o‘zginasi-ku! X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Xonaga harbiy meditsina formasidagi t o‘ l a dan kelgan ofitser kirdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Yangi eshakni qo‘shni tumandan sotib olib kelishdi. U chindan ham navqiron, tiyrak, etlikkina, tizzalari d o‘ m b o q, qoramtir baxmal kabi silliq yunglari, quyuq yoli ko‘rkam edi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Eshik g‘iyqillab ochildi. Iskandar Vahobovich ostonada turgan d o‘ m b o q kotibaga “ha, tag‘in nima gap?!” degandek zardali qaradi.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *L o‘ p i l d o q yuzining qoni qochib, yonog‘i dir-dir uchadi.* Q.Norqobil, Yer yorilmadi. *Toyqulovga achinib ketdim. Dag‘dag‘asi qa’rida dag‘-dag‘ titroq borligini his qildim. Ovozi sinib, parchalanib borayotganga o‘xshadi. L o‘ p i l d o q yuzining qoni qochib, yonog‘i dir-dir uchadi.* Q.Norqobil, Yer yorilmadi. *Zaynab l a p p o s va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradigan edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *...Peshinlab raisnikiga o‘tdim. Kirib borganimda sutday oppoq bilagi bo‘g‘im-bo‘g‘im l a p p o s bir xotin go‘shanga tortilgan eshikni yarim to‘sib: – Beshinchingiz qani, yo‘masam kiritmayman! – deb turgan ekan.* A.Murod, Uchchanoq.

SENSIRAMOQ, SENLAMOQ, SANSIRAMOQ, SANSANLAMOQ Yosh jihatidan o‘zidan kichik yoki munosabatlari yaqin bo‘lgan biror shaxsga “sen” deb murojaat etmoq. **Sansiramoq, sansanlamoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos, odatda shaxsga hurmatsizlik ta’kidi anglashiladi.

– Ich! – dedi Miryoqub yana sensirashida davom etib. Birinchi marta s e n s i r a ganida, negadir qunt qilmagan xotin bu safar hayrat aralash ranjib qo‘ydi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shofyor sergak tortdi: – O‘ho‘, g‘ururing zo‘r-ku?! – dedi u s e n s i r a b, ham yaqin olib.* M.Mansur, Judolik diyori. *U yana otilib erining oldiga bordi. – Pulni qayerdan topding? – U s e n l a di va s e n l a b davom qildi: – Ayt deyapman!..* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Eri bo‘lsa har kuni kirlab, terdan tarashaday qotgan ko‘ylagini yechib otadi-da, kitob o‘qib o‘tirgan Mohbibiga: “Hey, xotin! Mabiyi, deyapman! He biyingni... Etikni tort, yig‘ishtir bayti-g‘azalingni, choyni opke!” – deya s a n s i r a b bo‘kiradi...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Iskandar o‘shanda xotinini birinchi marta s a n s i r a di. “Uyat bormi sanda”, – dedi g‘azabdan titrab.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *– Yana nega muncha shovqin-suron solasan? Xo‘p, o‘zing ayt, qancha edi? – hoji Zokir endi kampirni “s a n s a n l a b”, unga do‘q urardi.* S.Ayniy, Asarlar. *Xuddi men bilan eski tanishdek, s a n s a n l a b, “chekasanmi, tortadigan narsangdan ol”, – dedi.* Shukrullo, Kafansiz ko‘milganlar.

SEP, BISOT, BANNA Ota-ona va qarindosh-urug‘lar tomonidan qizni uzatishda unga hadya etiladigan, berib yuboriladigan mol. **Bisot** so‘zida narsa-molning me’yordan ortiqligi, umumiylik ma’no uzvi bor. **Banna** – shevaga xos so‘z.

Ularning ikkidan bir gapi o‘g‘il uylash, qiz chiqarish, kim sandig‘iga nima s e p tashlagani xususida bo‘ladi. Q.Kenja, Toshqin. *Chinakam bechora Qurvonbibi kiyim-kechak, ayniqsa, yolg‘iz qizning s e p i xususida ko‘p tashvish tortadi.*

Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Sart ayollar qizlariga tug‘ilgan kunidan b i s o t yig‘adilar-ku, Unsin!* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Nima deyapsiz o‘zi! Zavod ayaning po‘lat sandiqlaridagi b i s o t o‘nta beshik to‘yiga yetadi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

SEPKILLI, SEPKILDOR Sepkili bor, sepkil bosgan, sepkili ko‘p. **Sepkildor** so‘zida sepkilning me’yordan ko‘pligi ta’kidi mavjud.

S e p k i l l i xola to‘nkarilgan paqir ustida o‘tirib nuqul hasrat qilar edi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *To‘rtinchi yo‘lakdan atay kelgan opaxonning s e p k i l l i sarg‘ish chehrasiga boqib, achindim.* T.Eshbek, Ostanaqul buvaning “boyliklari”. *Bulturdan beri maktabda rus tilidan dars berayotgan malla, s e p k i l d o r Sarvar (u o‘qishdan diplomga qo‘shib “Savrasik” degan laqab ham olib qaytgan) Sherqo‘zini “meshchan” debdi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *O‘ng tomonda o‘tirgan s e p k i l d o r bola Botirdan ko‘zini olmaydi.* R.Fayziy, Hazrati inson.

SERRAYMOQ, SO‘RRAYMOQ Bir joyda biror ish qilmasdan angrayib, harakatsiz turmoq. **So‘rraymoq** so‘zi kishi tanasidan tashqari uning yuzidagi shunday holatga ham nisbatan qo‘llanadi.

Usmonjon xotiniga nima deyishni bilmay s e r r a y ib turardi. S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *Keyin esa qo‘llari belda, go‘yo ko‘kish sport kiyimi sirib turgan kelishgan qomatini ko‘z-ko‘z qilganday, kunbotishga tikilib, s e r r a y gancha turib qoldi.* N.Norqobilov, Kurash. *...u paytlari biz tomonda bunaqa kasalning urug‘i ko‘p, yopig‘i bildirmaydi, kalta yo‘taltirib yuraveradi, ochig‘i esa ko‘pga qo‘ymaydi: binoyidek yurgan odam kun sayin rangi qochib, beti s o‘ r r a y ib, gavdasi bukilib, ketib boraveradi.* A.A’zam, Quroq. *Buni ko‘rib Kozimbek o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, ostonada s o‘ r r a y ib qoldi.* A.Ibrohimov, Qish yomg‘iri.

SERXARAJAT, SERXARJ, SERCHIQIM, CHIQIMDOR Ko‘p xarajat qiladigan, ko‘p pul sarflaydigan. **Serchiqim** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos. **Chiqimdor** so‘zi mazkur ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi.

Sayyora xatga ko‘z yugurtirar ekan, dadasining “sen juda s e r x a r a j a t chiqib qolding, yaqinda pul yuborgan edim, yana so‘rabsan” degan joyiga kelganda kulib qo‘ydi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ixtiyoringiz, lekin xorijda davolatish osonmas, s e r x a r a j a t, sertashvish ish.* L.Bo‘rixon, Boltaboyning bolasi. *Axir u Toshkentga qurultoylarga borishganda o‘ziga o‘xshagan s e r x a r j raislar bilan restoranlarga kirishardi, aqalli bir marta bo‘lsin, “Sen ham yur!” demagan.* S.Ahmad, Azob. *Shundoq ham s e r ch i q i m oilamiz bu xarajatni ko‘tara olmasligini bilardim.* I.Mirzo, Bonu. *Serbola va s e r ch i q i m oilamizdagi ahvol kun sayin og‘irlashayotgandek, yetishmovchilik qalanib borayotgandek edi.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar. *Boshqa payt bo‘lganda er ham, xotin ham Mamatga nima deyishni yaxshi bilishardi. Og‘iz ochgani qo‘yishmay,*

yummalab tashlashardi. Lekin hozir... iloji boricha kamroq ch i q i m d o r bo‘lish, Mamatning jig‘iga tegmay, qirq so‘m bilan masalani hal qilish... A.Mamarasulov, Jarima. *Mirzo savodsiz odam qidirib uch-to‘rt kun ichidayoq bu shahardagi sharoitni bila qoldi: “Chakki kelgan ekanman, bekor ch i q i m-d o r bo‘ldim”, dedi.* A.Qahhor, Mirzo.

SEVGI, MUHABBAT, ISHQ Qarama-qarshi jinsdagi odamlarning (er va xotin, yigit va qizning) bir-biriga nisbatan chin qalbdan iliq munosabat tuyg‘usi. **Ishq** so‘zida ayni ma’no nisbatan kuchli. **Muhabbat, ishq** so‘zlarida kitobiylik ta’kidi mavjud.

Dunyoni aylanib yuraveribsiz-ku, ishq-muhabbat ko‘chasiga kirmabsiz-da, a? Qo‘ying-e, inim! S e v g i dardini tortmagan bo‘lsangiz, hali dunyoga kelmab-siz. Sizga qoyil bo‘lmadim. T.Malik, Devona. *Odatda, yigitlar ikki toifaga bo‘linadi. Birinchi toifa yigitlar uchun s e v g i muammosi, ya’ni qizlar bilan tanishish, ularga muhabbat izhor qilish muammosi umuman yo‘q.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Kimdir kimnidir sevdi, m u h a b b a t da kuyib-yondi deydilar, bu kuyib-yonishdagi Tangrining irodasi tamomila boshqadir.* I.Sulton, Ozod. *Oqni ham, qorani ham bir taroziga solguvchilardan, balandni ham, pastni ham bir mezonda baholaguvchilardan, xullas, nafratini m u h a b b a t idan, muhab-batini nafratidan farqlab bo‘lmaydiganlardan badbaxtroq odam yo‘q.* Sh.Sulay-mon, Uchinchi palata. *Oyshaxonga ehtiros bilan intilgan paytlari ko‘p bo‘lar edi, “i sh q degani shudir-da!”, deb o‘ylar edi.* P.Qodirov, Erk. *Ko‘zlariga bo-qib, soddagina gaplariga quloq solsangiz, o‘ylarini, dardini, i sh q ini, ko‘ngli-dagi ezguliklarni sezasiz...* A.Muxtor, Chinor.

SEVGILI, MAHBUB(A), YOR, NIGOR, DILDOR, SUYUKLI Ko‘ngil berilgan (sevilgan) kishi. **Mahbub(a), yor, nigor** so‘zlari badiiy uslubga xos. **Nigor, dildor, mahbuba** ayollarga nisbatan ishlatiladi.

– Ey malomat diyori, – dedi Ozod. – Magar sen meni yutib yubormasang, narida esa qoyalardan yiqilib halok bo‘lmasam-u, eson-omon elimga qaytsam, u holda bir kuni s e v g i l i m onaga, o‘zim esa otaga aylanaman. I.Sulton, Ozod. *Orif akani shunisi tortdimi, ishqilib, viloyatdan yoshlar vakili bo‘lib yurib, m a h b u b a sini shu yerdan topdi.* A.Muxtor, Chinor. *Ellikboshi har ikkala to-mondan cho‘tal oldi va boy otaga qizlarday bir yosh juvonni topib berdiki, husni bajo, orqasi bilan bitta soch, yuzlari sutday tiniq, qoshlari payvasta, yigirma sakkizga to‘lib-to‘lmagan bir barvasta qomat m a h b u b a...* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Gavhar anchagacha unamadi, oxiri tortinib “Boshimga qilich kelsa ham sen y o r imni derman” degan ashulani ayta boshladi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Y o r ko‘ksidan panoh bergil Sevib sevilganlarga. Sevganlarga y o r zulfidan, Dorlik ber, sirtmog‘lik ber.* S.Sayyid, Oddiy tilaklar. *Bevafo n i g o r yodin Tez unutmoq istarmen, Lek menda yo‘q bu xil Bebaho parishonlik.* E.Vohidov, Saylanma. *Umarali bilan Zumradlarning mahallasi bir-biriga yaqin. Umarali Zumradni*

bolaligidan xush ko‘rar edi. Qiz o‘sha vaqtlaridayoq sho‘x, o‘ynoqi, gapga chechan, d i l d o r edi. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Gul bo‘ylarini bog‘dan Keltirgan, ey shabboda, D i l d o r ga noma yozdim, Yetkur uni havoda.* E.Vohidov.

SEVINMOQ, SUYUNMOQ, QUVONMOQ, QUVNAMOQ, SHODLANMOQ Xursand, shod kayfiyatda bo‘lmoq, ichdan sevinch, shodlik his etmoq. Bunda **sevinmoq** va **quvonmoq** mazkur ma’noni me’yorida ifodalaydi. **Suyunmoq** so‘zida ko‘proq so‘zlashuv tiliga xoslik seziladi. **Quvnamoq** so‘zi ko‘proq bolalardagi shu holat ifodasi uchun qo‘llanadi. **Shodlanmoq** badiiy bo‘yoqdor, kam qo‘llanadi.

To‘ydan bir hafta oldin Begimqul Nilufarni shu uyga boshlab kelganida va u jihozga to‘la bu xonalarni, yerdagi qip-qizil gilamlar, hali g‘ilofdan chiqarilmagan anavi servantlar, xolodilniklar, to‘rda turgan rangli televizorlarni ko‘rganida yosh boladay s e v i n ib, qimmatbaho buyumlarni qo‘llari bilan silab-siypab ko‘rmaganmidi? O.Yoqubov, Billur qandillar. *O‘g‘lini hamisha sog‘inch bilan kutuvchi Hilol buvi s e v i n ganidan darhol yostiqdan boshini uzdi: – O‘tir, tanchaga o‘tir, bolaginam, ranging o‘chibdi, sovuq-da... O‘tira qol!* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Rustam qon yurishini tezlashtirish uchun harakatlanish kerak degan qarorga keldi, miyasida shu fikr tug‘ilganidan s u y u n ib ketdi.* Q.Kenja, Toshqin. *Shone’mat Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom s u y u n gan edi.* O‘.Hoshimov, Urushning so‘nggi qurboni. *O‘sha maskanning mutasaddisiga qo‘ng‘iroq qilib, niyatimizni aytganimizda u rosa q u v o n di.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Akbarali Bektemir akaning baxtiyor kulib turgan yuzini ko‘z oldiga keltirdi, u konchi formasini kiyganda qanday q u v o n ib ketgan edi...* A.Muxtor, Chinor. *Kishi o‘zini gunohkor his qilsa, beg‘am q u v n a yotganlarga havasi keladi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *...qishloq chetidagi yovvoyi qamish-u qovg‘alar orasida beozor jonzotlar q u v n a b o‘ynab yurishganday tuyulishi, bularning bari oy nuri elangan kechalarda xonadonlarga kirib kelib, beozor mo‘ralashi qiziq.* I.Sulton, Ona yurt. *Ko‘p o‘tmay bo‘liq maysalar boshini silab-siypalab, eshilib-erkalanib yengil epkin ham yetib keldi. Yonbag‘irlikdagi yashil butalar s h o d l a n ib, kulrang yapaloq tosh tagini makon tutgan chumolilar g‘imirlab qoldi.* N.Norqobilov, Buloq. *Gapimiz sira ado bo‘lmasdi. Yaxshi narsalar haqida gaplashsak, baravar sh o d l a n ar, yomon narsalar haqida gaplashsak, baravar nafratlanardik.* O‘.Umarbekov, Sevgim, sevgilim...

SEVMOQ, SUYMOQ, YAXSHI KO‘RMOQ, OSHIQ BO‘LMOQ, XUSHTOR BO‘LMOQ, SHAYDO BO‘LMOQ, OSHUFTA BO‘LMOQ Biror kimsaga nisbatan ishq-muhabbat tuyg‘usida bo‘lmoq, unga ko‘ngil qo‘ymoq. **Suymoq, yaxshi ko‘rmoq** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv tiliga xos. **Oshiq bo‘lmoq, xushtor bo‘lmoq** so‘zlari ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanadi. **Shaydo bo‘lmoq, oshufta bo‘lmoq** so‘zlarida poetik bo‘yoqdorlik kuchli.

– Fikrim, xayollarim faqat sizda, bolalikdan s e v aman sizni, inoning, Zumradxon, – dedi yigit yalingan ohangda. Oybek, Tanlangan asarlar. *Shuning uchun Zaynab nihoyat S e v ib qoldi birovni g‘oyat.* H.Olimjon, Zaynab va Omon. *Undan ko‘ngli qolib, ajrashib ketgan bo‘lsa ham, lekin bir vaqtlar ilk yoshlik mehri bilan s u y gan xotinining Shayboniyxon haramiga tushishi ehtimoli uni dahshatga keltirdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Birlamchi, haramdagi barcha kanizlar, xoh istasin, xoh istamasin, men shul yosh sanamni deganim degan, s u y ganim-s u y gan!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Nizomning otasi o‘zining katta o‘g‘liga hindlarning eng ezilgan shudra qavmidan chiqqan eshkakchi do‘stining qizini olib bermoqchi bo‘ladi. Yigit bilan qiz bir-birlarini y a x sh i k o‘ r adi.* P.Qodirov, Avlodldr dovoni. *Erkin aka, esingizda bo‘lsin. Meh bari bir sizni y a x sh i k o‘ r aman. Umrimning oxirigacha y a x sh i k o‘ r aman.* O‘.Hoshimov, Xayollarga bo‘laman tutqun. *Ko‘ngillar entikdi, ko‘ngillar orziqdi. Qaysidir ko‘ngil o sh i q b o‘ l di, qaysidir ko‘ngil ma’shuq bo‘ldi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Tinchlik davrida, kelin, bitta g‘arib kimsa sizga o sh i q b o‘ l di. Oshiq bo‘ldi…* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Yosh, chiroyli ayol. Ko‘p odam unga x u sh t o r b o‘ l gan bo‘lishi kerak.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Buni qarangki, yo yoshi o‘zidan katta, yo bo‘yi o‘zidan uzun sarvqomat qiz-juvonlarga x u sh t o r b o‘ l adi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Yo u ham, shunchaki, Salomatxonga sh a y d o b o‘ l ib, quruq qolgan majnunlardan bittasimikan?* O.Yoqubov, Tanlangan asarlar. *– She’riyat shaydosi ekan, Pushkindan ko‘p o‘qiydi. – Senga sh a y d o b o‘ l masa bas, she’r o‘qisa o‘qiyversin. – Sh a y d o b o‘ l ishiga arzimaymanmi? – U arzimaydi senga.* T.Malik, Savohil. *Pochcha, endi tahlika o‘tdi. Dadamdan o‘chimni oldim. Gulnorga o sh u f t a b o‘ l gan chol keyinchalik mendan xafa bo‘lmasin, bizning shartimizga ko‘nmadi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

SEZGI, HIS, TUYG‘U 1. Sezish, his etish qobiliyati. **His** so‘zi, odatda, voqea-hodisani ko‘ngil, ruh orqali sezishni anglatadi. **Tuyg‘u** badiiy bo‘yoqdor, unda kishi sezimlarining ko‘tarinki holati ifodalanadi.

Oyoq ostida o‘rmalovchi tezchopar chumolilar-u kaltakesaklar g‘ayrioddiy bir s e z g i xususiyati bilan bu shamolning oddiy emasligini sezganlari bois qum ostiga ko‘milib olgan edilar, sahroning boshqa fuqarolari – ilonlar va echkemarlar ham o‘z bilganlaricha yashirindilar. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Rustam ohista cho‘nqaymoqqa tutindi. Dardmand, boz ustiga uvushgan pay tizza bukish, rostlanishni murakkablashtirsa ham oyoqda, harqalay, ozgina s e z g i uyg‘ongan edi.* Q.Kenja, Toshqin. *Avtomat-telefon kabinalari oldiga kelganlarida Roziya navbatda turgan yosh-yalanglar ikkovlariga qiziqib, havaslanib, ko‘z tashlayotganliklarini his qildi. Bu h i s uning qalbida yana bir vaqtlardagi iftixor tuyg‘usini uyg‘otdi.* P.Qodirov, Erk. *Odam nigohi uni ilg‘aganida u, tabiiyki, hali asar emas, t u y g‘ u dir. Ko‘zdan-u quloqdan, sezgidan shuurga kirib,*

tuyg‘u hosil qiladi va ba’zan so‘zga, ba’zan esa musiqaga aylanadi. I.Sulton, Hazrati Majoz.

2. Ichki hissiyot, kishining ichki dunyosida o‘zgaga bo‘lgan munosabat.

Erta tong vaqti alohida bir s e z g i beradir. Musaffo havo, mayin va yoqimli shamol kurtakdan endigina chiqib bahorni salomlagan yosh va tiniq yaproqlarni yelpib turadir. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Eng ezgu s e z g i day yaraqlab, suzib Kirgan dillarimni hayrat, hayronlab...* Zulfiya, Saylanma. *Xayolida o‘tmish xotiralari, og‘ir o‘ylar, ko‘nglida g‘alati h i s lar chuvalib, Orif aka jin ko‘chayu eski tokzorlar oralab ancha yurdi.* A.Muxtor, Chinor. *Opa-akalarning tergashlari, achchiq tanbehlari bolalar ko‘ngliga og‘ir botmas, aksincha, murg‘ak qalblarida ildiz otayotgan ezgu h i s lar ularga ajib farog‘at baxsh etar edi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Hikmatilloning qalbida bir-biriga zid ikki t u y g‘ u olishardi, biri – qandaydir iztirob to‘la minnatdorlik, biri – xudbinlik aralash shodlik!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Tug‘ishganlardagina bo‘ladigan issiq bir t u y g‘ u Avazning yuragini chulg‘ab oldi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar.

SEZGIR, ZIYRAK, TUYG‘UN, HUSHYOR, SERGAK, TIYRAK Tez sezish-fahmlash qobiliyatiga ega, sezish-fahmlash qobiliyati kuchli. **Sezgir, ziyrak, tuyg‘un** so‘zlarida tez fahmlash ta’kidi ham, tez sezish ta’kidi ham aks etadi. **Hushyor, sergak, tiyrak** so‘zlarida tez sezish ta’kidi qabariqroq. **Ziyrak** so‘zi odamga nisbatan qo‘llanganda oddiy sezish emas, balki aql, fahm bilan sezishning kuchliligi ta’kidlanadi. **Tuyg‘un** faqat odamga, asosan, kichik yoshdagilarga nisbatan qo‘llanadi.

Mansurov baloni biladigan s e z g i r odamga o‘xshaydi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Birpasda ularning s e z g i r itlari hurib chiqar, to egasining hukmdor ovozi eshitilmaguncha yo‘lni to‘sib, qishloqqa yo‘latmasdi.* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Sattor ham o‘z qadrini yerga urmaydigan xushmuomala, z i y r a k yigit ekanligi Soraxonning tilini bog‘lab turar edi.* P.Qodirov, Erk. *U sarbast, z i y r a k, harakatlari dadil, so‘zlari o‘tkir, o‘rtoqlari orasida onabosh qiz.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Bunday t u y g‘ u n, bunday ziyrak, bunday boadab qiz yetti iqlimda ham topilmaydi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bo‘lmasa h u sh y o r yor-u, Oqil-u sodiq jo‘ra, Yaxshidir idrokli dushman Do‘sti nodondan ko‘ra.* E.Vohidov, Saylanma. *Ertasiga brigadaga boshqa mexanizator keldi. Unisi h u sh y o r roq ekan, yechgan kiyimini qiyiqchaga tugib, kabinaga olib kirib qo‘ydi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Tong bo‘zarganda Avazning ko‘zi ilingan ekan. Lekin butun borlig‘i s e r g a k bo‘lgani uchun qoyatoshdan tushgan bir toshchaning shitirlashidan cho‘chib darrov ko‘zini ochdi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Mahkam yoniga ag‘darilib yotdi va ko‘zini yumdi. Lekin butun vujudi s e r g a k edi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *U yurak kasali, o‘pka qisishidan yuzlari biroz solqi, ikki erning dog‘ida sochlariga barvaqt oq oralagan, lekin ko‘zlari t i y r a k, chehrasidan juvonlik husni qochmagan bo‘ydorgina ayol.* A.Muxtor, Chinor. *Qodir og‘a haz-*

S

rat oppoq soqolli, ko‘zlari t i y r a k, payg‘ambar yoshidan hatlagan bo‘lsa-da, yurish-turishi bardam odam edi. T.Malik, Savohil.

SEZMOQ, PAYQAMOQ, TUYMOQ Sezgi a’zolari orqali his etmoq, tashqi ta’sirni tuymoq. **Payqamoq**da sezish darajasi **sezmoq**, **tuymoq**qa qaraganda kamroq. **Tuymoq** nisbatan kam qo‘llanadi, kitobiylik ta’kidi mavjud.

Komila ko‘nglining ko‘z va dil ilg‘amas burchaklarida sas-sado chiqarishga jur’at etolmay, pusib yotgan shubha-gumonlari endi ko‘z o‘ngida saf torta boshlaganini s e z d i. X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Turdi kunjara maydalarini supurib ulgura olmasligini s e z d i-da, ustiga mashinaning brezentini to‘shab qo‘ydi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Kelinoyim novcha, hatto tog‘amdan ham novcharoq, men buni tog‘am yuvinib bo‘lib, qaddini rostlaganida p a y q a dim, – uzunchoq yuzli, nozikkina qiz edi.* O.Yoqubov, Yaxshilik. *Xolbek bo‘zrayib qoldi. Hulkarning boyagi gaplari tagida ham boshqa ma’no borligini u endi p a y q a di.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Kuchuk qon isini t u y di, burnini yerga tekkizguday qilib iskab, g‘ingshib ketaverdi, loylardan-u ko‘lmaklardan o‘tdi, har zamonda to‘xtab, havoni ham iskab ko‘rardi – yo‘q, is hali quyuqlashmagan, ammo o‘ziga tortardi.* I.Sulton, Ozod. *Kurash asnosida qo‘llar bir-biriga chirmashdi, issiq tanalar bir-biriga tirmashdi, dimog‘lar qaynoq ter hidini t u y di.* N.Norqobilov, Kurash.

SIFATSIZ, YOMON, NOBOP, YAROQSIZ Sifati yaxshi emas, tegishli talabga javob bermaydigan. **Yomon** so‘zida yaxshi emaslik ta’kidi ochiq ifodalangan. **Nobop** so‘zida mos, muvofiq emaslik ta’kidi mavjud.

S

Biz aytadigan alyorlar butun boshli siyosiy dokladga aylanib ketadi, masalan, unda paxta rejasining to‘lishidan boshlab, bozorga s i f a t s i z mol kiritishimizgacha hamma narsa bo‘ladi-yu, bir chimdim kulgiga, hazil-mutoyibaga o‘rin topilmaydi. O.Sharafiddinov, Adabiyotimiz fidoyisi. *Bakiga s i f a t s i z benzin solingan avtomobil korbyuratori yomon ishlaydi va tez ishdan chiqadi.* A.Egamnazarov, Havoga o‘rlayotgan zahar. *Ungacha Sizni birov ranjitmoq u yoqda tursin, bir og‘iz y o m o n so‘z aytilmasun!..* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *N o b o p yo‘lning, n o b o p mashinaning zahmatidan Temirjonning butun suyaklari zirqirab og‘rir, quloqlari shang‘illardi.* J.Abdullaxonov, Oriyat. *O‘qituvchi bolaning qalbiga n o b o p urug‘ sepsa, achchiq, “hosili”ni butun jamiyat o‘rib oladi.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Sadir tog‘aning uyidan teparoqdagi tuprog‘i arzikli, kamquvvat, serkesak, shu sababli paxta ekishga y a r o q s i z hisoblangan dalalarda piyozlar pishib-yetilib yotardi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak.

SILAMOQ, SIYPALAMOQ, SIYPAMOQ Biror narsa ustidan, yuzasidan qo‘l kaftini asta yurgizmoq. **Silamoq, siypamoq** so‘zlari juft (**silab-siypab**) holda qo‘llanib, mazkur ma’no darajasini kuchaytirib ifodalaydi. **Siypalamoq** so‘zi ayrim o‘rinlarda erkalash mazmuni bilan uyg‘unlashib keladi. **Siypamoq** so‘zida harakat belgisi kuchsiz darajada ifodalangan, kam qo‘llanadi.

Gavdasi shalvirab qolgan mushukchani yerdan ko‘tarar ekan, qo‘lidan hech narsa kelmasligini o‘ylab, xo‘rligi keldi. Uning jajji boshchasini, ko‘krakchasini s i l a b, ko‘zlarini yumgancha allanimalarni shivirlay boshladi. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. – *Urinmang, yoting, oyi... – dedi Umarali onasining yuzini s i l a b.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Abdurahmon polvon o‘ng kafti bilan chimzor yuzini s i y p a l a b deydi: – Hay, birpas nafas rostlab olay, tag‘in silkilab ko‘raman seni!* N.Norqobilov, Kurash. *O‘z bekasini muqarrar halokatdan asragan xaloskor, tabarruk sochlar haqida er-xotin ko‘p gaplashishar, shunday kezda juvon ichki bir mamnuniyat, balki biroz faxr bilan uzun kokillarini s i y p a l a b, o‘ynab o‘tirardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Kun bo‘yi oftobda kuyib, tosh qotgan badanlarimizni Qorasuv silaydi, s i y p a ydi, yumshatadi; oy kecha, oydin kecha, g‘ira-shira tol ko‘lkasidan pari qizlar poylab, bizni tanlayotgandek sirli hayajonda, shivirlashib, shapir-shupur cho‘milamiz.* A.A’zam, Quroq. *Chol bir burda bo‘lib kursidan joy oldi-da, keng-mo‘l kostyumiga yarashiqsiz, almisoqdan qolgan to‘g‘asi do‘mboq bo‘yinbog‘ini o‘zicha to‘g‘rilab qo‘ydi, so‘ng tepakalini s i y p a y-s i y p a y, qabariq ko‘zoynagini har yonga yalt-yult qilib, kino san’atining muqaddasligidan va’z ayta ketdi.* E.A’zam, Shovqin.

SILTAMOQ, SILKITMOQ, SELPIMOQ Kuch bilan keskin harakat qilib tortmoq yoki itarmoq. **Siltamoq** so‘zida harakatning bir martalik, qat’iylik ifodasi kuzatiladi, **silkitmoq** so‘zida harakat takroriyligi anglashiladi. **Selpimoq** mazkur ma’noda kam qo‘llanadi.

Shosha-pisha uning boshiga kelib, yelkasiga qo‘l uzatdi. Biroq allaqanday kuch o‘zini orqaga s i l t a b tashlaganini his qilib, darhol qo‘lini tortib oldi. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. – *Qo‘lingizdan kelsa, yo‘latmang! Brigadirga boring, ayting! – dedi Mamat cho‘rt kesib va jilovni s i l t a di.* A.Mamarasulov, Jarima. *Endi o‘sha bir tup sadaqayrag‘och atrofida qum bo‘ronlarini yelkasida s i l k i t ib tashlaydigan azamat teraklar, g‘uj-g‘uj tollar qad ko‘tardi.* S.Ahmad, Yer uyg‘ondi. *Shuncha hodisalar orasida shamollarga havas qilar edim, dov-daraxtni s i l k i t ib, qir-u dashtlar ustida shunaqa ozod, shunaqa hur uchgim kelardi, suvlarga aylansam-u, sharqirab oqsam, chaqmoqqa aylansam-u, tevarakni yoritib, ko‘klarning bag‘rini tilib, bulutlarning pardalarini yirtib yuborsam, der edim...* I.Sulton, Ozod. *Ustiga tashlanishga shaylangan mahali, hech kutilmaganda, Ko‘rkalamush chap qo‘lidagi hassani qilichdek s e l p i b, mushukning qoq kallasiga qarsillatib tushirdi.* A.Obidjon, Kezargon Boychechak. *Toyir aka olov jo‘nashdirib, biroz javobsiz o‘lturdi. Soqol-murtiga uchib tushgan uchqun kullarini s e l p i b tashladi.* A.Qahhor, Mehrobdan chayon.

SIMYOG‘OCH, STOLBA, SIMUSTUN Elektr simlarini o‘tkazish uchun yerga tik holatda o‘rnatilgan baland, yo‘g‘on yog‘och yoki boshqa materialdan qilingan tayanch. **Stolba** so‘zi bir qadar eskirgan, **simustun** nisbatan yangi yasama so‘z, kam qo‘llanadi.

Alisher darvozamiz oldidagi s i m y o g‘ o ch ga suyangancha, yiqilgan mashinani tomosha qilib turgan ekan. O‘.Usmonov, Sirli sohil. *S i m y o g‘ o ch uchiga o‘rnatishgan lampochka yorug‘ida hovuz suvi yaltirab ko‘rinadi*. M.Hazratqulov, Jur’at. *Erta tongda Imomaliyev joyni aniqroq ko‘rsatishi mumkin. Mayor s t o l b a ga yaqinlashib, tepaga qaradi: lampochka sindirilgan.* T.Malik, Alvido, bolalik. *Hozir el og‘zida “s t o l b a qorovullari” degan ibora paydo bo‘lgan. Ko‘p yerlarda kech tushishi bilan simyog‘och yaqiniga o‘smirlar to‘planishni odat qilishgan.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Kech kuzning achchiq izg‘irini paypaslanib yuribdi. Baland beton s i m u s t u n dagi lampachiroq tevarakni xira yoritadi*. L.Bo‘rixon, Sut sotuvchi bola.

SINOV, SINOQ Sabot va chidam zarur, kerak bo‘lgan palla, voqea-hodisa. **Sinoq** – shevaga xos so‘z.

Asadullani hali oldinda ko‘p s i n o v lar, ko‘p kurashlar kutadi... T.Malik, Savohil. *– Boshqa har qanday s i n o v ga chidashga roziydim... – Rustam mijjalariga sizgan namni bosh barmog‘ining orqasi bilan kishibilmas siypalab, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.* Q.Kenja, Toshqin. *Bu ro‘yi olamda mukammal bo‘lmoq oson emas, uning mana shu kabi azob-u tashvishlari bisyor-behisob. Ana shu s i n o q larga chidagan, bardosh berganlargina murod cho‘qqisiga yetgusi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Umr ko‘chasida s i n o q lar talay, Goh baland-past chiqar, goho yaxmalak.* Sh.Qurbon, Ozoringni sog‘indim.

SINCHLI, SINCHKOR Devorlari sinch qadab qurilgan. **Sinchkor** so‘zi eskirgan, kam qo‘llanadi.

S

Teshavoy s i n ch l i uyning shifti, derazasini ko‘zdan kechirib, chiqib ketdi... Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Avvallari uning o‘z fe’l-atvori, injiqliklari borligini bilmas ekanman, endi o‘ylasam, bir jonlidan sira kam emas – yaslangan bog‘-u rog‘lari, o‘ynab oqqan ravon suvlari, bepoyon dalalari-yu s i n ch l i uylari bilan allaqachon tilga kirib, menga bir nimalarni so‘zlab ham ulguribdi.* I.Sulton, Yoqimli yomg‘ir yog‘adi. *19-asr o‘rtalarida maqbara yoniga s i n ch k o r katta ayvon, hujralar va gumbazli xonaqoh jome masjidi barpo etilgan.* “O‘zME”.

SIQIM, QISIM Narsa changallab siqilgan kaft va shu kaft orasiga olingan narsa miqdori. Ko‘pincha *bir, ikki* kabi so‘zlar bilan birga ham qo‘llanadi. **Qisim** ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

– To‘g‘ri, ilgari ko‘zimizga ko‘rinmagan, u bir s i q i m-ikki s i q i m mayizturshak yegani bilan kamayib qolmasdik, “yesa yebdi-da”, derdik. X.Do‘stmuhammad, Jajman. *To‘y egasining ko‘ngliga kelmasin deb, taqsimchadan bir s i q i m xandon pista olib chaqib edi.* S.Ahmad, Bir siqim xandonpista. *Yigit q i s i m iga to‘lib-toshib, xushbo‘y taratuvchi sochlarni silab o‘ynaydi.* Q.Kenja, Toshqin. *Azizxon shunday deb shimnning cho‘ntagiga qo‘l suqib bir q i s i m pul oldi.* S.Ahmad, Ufq.

SIRPANMOQ, SIRG‘ANMOQ, TOYMOQ, TOYINMOQ, TIRG‘ANMOQ Sirg‘anchiq, silliq joyda oyoqni tayanch holatda tutolmay, biror tomonga surilmoq. **Sirg‘anmoq, tirg‘anmoq** so‘zlari adabiy nutq shakllarida kam qo‘llanadi, ayniqsa, **tirg‘anmoq** faol emas. **Sirg‘anmoq** oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Shahar uyg‘onmoqda edi. Ana, asfaltda og‘ir s i r p a n ib, elektr simlarini vizillatganicha ketma-ket ikkita trolleybus keldi, qo‘ng‘iroqlarini yoqimli jiringlatib tramvay o‘tdi, oqish tuman orasida yalt-yalt etgan simob qatralari – yengil mashinalar ko‘paydi... O.Yoqubov, Billur qandillar. *Nihoyat, avtobus s i r p a n a s i r p a n a o‘rnidan og‘ir qo‘zg‘aldi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Poyezd zo‘r shiddat bilan borar, derazalar oldidan tunnel chiroqlari lip-lip qilib o‘tar, ularning aksi yaltiroq po‘lat tutqichlarda s i r g‘ a n ib, uchib-qo‘nib o‘ynar edi.* P.Qodirov, Erk. *Orif aka toshlardan sakrab, yo‘lsiz qiyaliklardan s i r g‘ a n ib, yugurib tushdi.* A.Muxtor, Chinor. *Otlarning katta-katta ko‘zlarida endi mute’lik seziladi. Mudhish bir bo‘ysunish ila tortib borishadi aravani. Goh unisining, goh bunisining oyog‘i t o y ib, munkib ketadi...* I.Sulton, Ozod. *Yana qaragandim, oyog‘im t o y ib ketdi...* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *...amudaryolik Ramon ikkovimiz bizning qishloqda yangi qurilgan vodoprovod minorasiga tirmashib chiqibmiz, men chiqqan joyimda t o y i n ib ketib, zo‘rg‘a panjarasidan tutib qolibman...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda.

SIRPANCHIQ, SIRG‘ANCHIQ, YAXMALAK, TIRG‘ANCHIQ, TOYG‘OQ, TOYG‘ANOQ Silliq, toyg‘oq yuza. **Yaxmalak** so‘zida muz bilan bo‘liqlik ta’kidi ochiq ifodalangan. **Toyg‘oq** so‘zida belgi darajasi kuchliroq. **Tirg‘anchiq** va **toyg‘anoq** so‘zlari kam qo‘llanadi.

Yo‘llar s i r p a n ch i q vaqtida avtomobilni to‘g‘ri boshqarishning bir necha oddiy usullari mavjud. Gazetadan. *Qishda suvi to‘ngib, chetlari s i r g‘ a n ch i q bo‘lib qoladi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Shishaday yaltirab qolgan yer beti muzlay boshlagan, oyoq osti s i r g‘ a n ch i q edi.* O.Yoqubov, Bir felyeton qissasi. *Bolalar chana uchishgan bo‘lsa kerak, anhor ustidagi ko‘prik y a x m a l a k bo‘lib ketibdi.* H.G‘ulom, Toshkentliklar. *Yo‘l qatqaloq, t i r g‘ a n ch i q bo‘lganligidan motor qattiq ovoz chiqarib guvullar ...edi.* D.Nuriy, Begona. *Qahraton sovuqqa chidab bo‘lmaydi. Ko‘chalar t o y g‘ o q, mashinalarning g‘ildiraklarida zanjirlar shaqirlaydi.* P.Qodirov, Erk. *Yo‘l t o y g‘ o q, manzil uzoq. Birbirimizga suyanishib ketib boryapmiz.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Ikki tomoni qirlar bilan o‘ralgan arava yo‘li t o y g‘ a n o q bo‘lib qolgan, yurish qiyin, ayniqsa, yo‘l tepalikka ko‘tarilganda yurish yana ham qiyinlashar, ot tuyog‘i sirpalib ketaverar, shu sababli yo‘l chekkasidagi sarg‘ayib qolgan o‘t-o‘lanlar ustidan yurishga to‘g‘ri kelardi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Himolayning sharqiy tomonidagi t o y g‘ a n o q yonbag‘ir va qoyalarda dovyurak sherlarning oyog‘i yetmagan joy yo‘q desa bo‘ladi.* M.Aminjonova, “Qor odam” bormi?

SIRT, TASH Narsalarning tashqi tomoni, tashqi yuzi. **Tash** hozirgi o‘zbek tilida juda kam qo‘llanadi.

...Otasidan qolgan yodgorlik – s i r t iga g‘oyat ustalik bilan qalin mato sirilgan suv to‘la ko‘zachani olib, undan qumg‘onga qulqullatib suv quydi. N.Norqobilov, Kurash. *Kun tig‘ tortib, daryoning u tomonidagi adirlarning s i r t i to‘q yashil, jilg‘alari qora tusga kirdi*. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Maksimich biri-birini to‘sgan ko‘p qavatli uylarga, kinoteatr peshtoqida to‘pponcha o‘qtalib turgan yigitning kattakon rangdor suratiga, ichi, t a sh i odamga to‘lgan oynavand magazinga ko‘z yugurtirdi.* P.Qodirov, Erk. *Mol olasi – t a s h ida, odam olasi – ichida*. Maqol.

SIRCHI, SIRKOR Sirlash (moybo‘yoq bilan bo‘yash) bilan shug‘ullanuvchi usta. **Sirkor** so‘zi kam qo‘llanadi.

Sen duradgor bo‘lsang, anavi uyning to‘rtta vassasi egri bo‘lib qolgan, shu vassalarini olib tashla, o‘rniga to‘g‘ri vassa qo‘y. Sen s i r ch i bo‘lsang, darrov o‘shani sirla. “O‘zbek xalq ertaklari”. *Bundan buyog‘i s i r ch i larga, koshinpazlarga yordam qiling; ko‘pi ketib, ozi qoldi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Me’morlarimiz... s i r k o r, naqqosh va o‘ymakorlar bilan yaqindan ijodiy aloqada bo‘lishlari kutilmagan natijalar beradi.* Gazetadan.

SIYDIK, PESHOB, BOVUL Buyrak orqali ajralib chiqadigan va tanosil a’zolari orqali tashqariga chiqarib tashlanadigan suyuqlik. **Peshob** va **bovul** so‘zlarida mazkur ma’no pardali ifodalanadi, **bovul** so‘zi eskirgan, juda kam qo‘llanadi.

S

Organizmdan s i y d i k bilan birga suv, tuzlar va boshqa chiqindilar, shuningdek, organizmga kirgan yoki uning o‘zida hosil bo‘lgan turli zaharli moddalar chiqib ketadi. “O‘zME”. *Xotinidan keyin, albatta, bolalari esiga tushadi, ko‘zi yoshlanadi: “Farzand nimaligini hali bilmaysan. Qizim gilamga siyib qo‘ysa, uy s i y d i k hidi bo‘lib ketdi, bolalarga qaramaysan, deb xotinni urardim. Hozirlari esa... e uka, ishonmaysan-da, shu s i y d i k hidini ham sog‘indim.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Seldir yeyish ishtahani ochadi, p e sh o b ni haydaydi, isitmada foyda qiladi.* K.Maxmudov, O‘zbek tansiq taomlari. *Masalan, ishqoriy asosli dorilar (alkaloidlar) birlamchi p e sh o b da ionlashgan holda bo‘ladi va qaytadan so‘rilmay, p e sh o b bilan chiqib ketadi.* M.Maxsumov, M.Malikov, Farmakologiya.

SIYMOQ, PESHOB QILMOQ, BOVUL QILMOQ Qovuqni bo‘shatmoq. **Siymoq** so‘zi mazkur qatordagi barcha so‘zlar o‘rnida qo‘llana oladi, ammo tibbiyotda, asosan, termin sifatida **peshob qilmoq** so‘zi qo‘llanadi. **Bovul qilmoq** kitobiy nutqqa xos, kam qo‘llanadi.

– Ko‘p suv ichsang s i y ib qo‘yasan, – dedi Kesakpolvon tirjayib. T.Malik, Shaytanat. *...shunda karvonboshi – ko‘pni ko‘rgan keksa tuyakash ekan – yosh tuyakashga: “Urma, p e sh o b q i l sin, bo‘lmasa, yurmaydi, buning onasining*

onasida shunaqa odat bor edi: aqlsiz hayvon, doim shu kechuvda suvning o‘rtasida to‘xtab p e sh o b q i l ardi, bolasi bunaqa qilmagan edi, nevarasiga o‘tibdi, urug‘ida bor ekan-da”, – debdi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *O‘g‘ri bo‘lsa ham, zinhor bezarar, aytish mumkinki, ijobiyroq o‘g‘ri edi… Qozonning qopqog‘ini teskari yopib ketadimi-yey, birovining tomidan hovlisiga shirillatib p e sh o b q i l ganmish, ertalab turib qarasalar, zarang yer xuddi tesha urib yumshatilgandek shudgor bo‘lib yotganmish!* E.A’zam, Shovqin. *Qandli diabetning asosiy belgilariga og‘iz bo‘shlig‘ining quruqlashishi, yetarlicha yoki ortiqcha suyuqlik iste’mol qilganda ham kuchli tashnalik his qilish, tez-tez b o v u l q i l ish, terining quruqlashishi… kabi belgilar kiradi.* Gazeta.

SIZLAMOQ, SIZSIRAMOQ O‘zidan kattaga yoki biror odamga hurmat yuzasidan “siz” deb murojaat etmoq. **Sizsiramoq**, odatda, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Bobo yana meni otamning hurmatiga s i z l a ydi deng! Shuncha bodringni atay berdimi yo bilmaymi, lekin yomon uyaltirdi. A.A’zam, Quroq. *Ish boshlandi. Eshak “hayt!” desa, hurkib, sapchib tushar, ko‘zini yumib, taysallab, ortiga tisarilardi. – Ana, aytmadimmi?! – bo‘g‘ildi shef. – Menimcha, bu johilroq odamning qo‘lida tayoq yeb bezillagan, yaxshi gapirish kerak. Fotih Burhonovich g‘ijindi. – Hmm… S i z l a ymizmi?.. “Eshakboy aka” deylikmi?* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Ana shunda Said akaning bir marta s i z s i r a b gapirgani unga juda qimmatga tushgan edi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Ular ketkandan keyin, albatta, O‘zbek oyim eri yonig‘a kirar, hoji bo‘lsa xotinig‘a s i z s i r a b: “Siz ikki kelin ushlashni bilmabsiz, Zaynabka jabr qilg‘an ko‘rinasiz, ayniqsa, Zaynabning ko‘ngliga qarashingiz kerak, Otabekka ham nasihatingiz lozim!”, – der edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

SIZLOG‘ICH, SIZLOVUQ Tuk, soch xaltachasi og‘zining yiringli yallig‘lanishi; follikulit. **Sizlovuq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv tilida qo‘llanadi.

S i z l o g‘ i ch ning oldini olishda teri tozaligiga alohida e’tibor berish, ayniqsa, muhim. “O‘zME”. *Terining yiringli kasalliklari – s i z l o g‘ i ch, chipqon, sachratqi ko‘rinishida bo‘ladi.* S.Faxriddin o‘g‘li, Valeologiya asoslari. *Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g‘ashlik, Bedavo s i z l o v u q day sizlatguvchi – g‘ashlik.* Mirtemir, Onaginam.*U xuddi bo‘yniga s i z l o v u q chiqqanday, kallasini bir yonga qiyshaytirib, aftini bujmaytirib, salom-aliksiz to‘g‘ri to‘rga o‘taverdi.* S.Siyoyev, Avaz. *Fosh etilmas chetdan otilguvchi o‘q Chaqmoq yorug‘ida. Jarrohi qilinmas hatto s i z l o v u q Chaqmoq yorug‘ida.* Y.Darmon, Kumushning asridan kelganday bo‘lding.

SOLIQ, BOJ, O‘LPON, **XIROJ, SOLG‘IT, SURSAT** Davlat tomonidan amaldagi qonunlar asosida yuridik va jismoniy shaxslarning daromadi yoki mol-mulkidan undiriladigan va byudjetga o‘tkaziladigan majburiy to‘lov. **Boj, o‘lpon** va **xiroj** so‘zlari mazkur ma’noda eskirgan, asosan, tarixiy asarlarda qo‘llanadi. **Solg‘it** so‘zi shevaga xos. **Sursat** so‘zi folklarga oid, eskirgan.

Ot bilan eshakka s o l i q solinibdur, xayr, solinsa solinibdur; bu orada bir kambag‘alning eshagi ochliqda harom qotibdur; xayr qotsa qotibdur. O‘lgan eshagingning s o l i g‘ ini beraverasan, deb farmon chiqaribdi kalonog‘izlar… I.Sulton, Tosh kelinchak. *Shu bilan birga, uning biror joyga chaqa s o l i q to‘laganini, biror kasbga biror marta “qizil qog‘oz” (patent) olganini hech kim bilmaydi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Hayot shunday mo‘jizaki, Qancha jabrin tortsang, oz. O‘lim esa uning uchun Arzimas b o j dir, xolos.* A.Muxtor, Sizga aytar so‘zim. *Olloyor b o j yig‘uvchilar mahkamasida xizmat qildi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Turklar temir-jez ro‘zg‘or buyumlarini sotsalar-da, qurol-yarog‘ sotishga haqsiz: ular o‘zlari yasagan barcha qurol-yarog‘ni o‘l p o n tarzida qudratli jujan qag‘aniga topshirishga majbur.* G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Sahrobek o‘zining kuch-qudratiga, navkarlarining mahoratiga ishonganidan uch yilgacha shoh xazinasiga o‘ l p o n to‘lamabdi. Boj-u xiroj ni tezroq to‘la deb chopar ustiga chopar kelarmish.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Unda eshit: Dilorom Eranga nikohlansa, ulardan qiymati ikki olam x i r o j i dan ham baland Imon degan bir bolaning dunyoga kelishi bashorat qilingan edi.* I.Sulton, Ozod. – *S o l g‘ i t lar jonga tegdi! Xonning zulmi oshdi! – degan gaplar havoni qoplar edi*. J.Sharipov, Xorazm. *Kattagina davlat boshqaruv idorasi va armiya soliqlar evaziga tutib turilgan, asosiy davlat solig‘i – xiroj yoki s o l g‘ i t, dehqonlar ushr – daromadning 10 dan 1 qismini undirish, chorvador aholidan zakot – mulk qiymatining 40 dan 1 qismini davlat foydasiga olish, ... kabi soliq turlari bo‘lgan.* Z.Muqimov, O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. *Uchqur eding, qanotingdan qayrilding, Yuguruk bo‘lsang, tuyog‘ingdan tayrilding, Biz ovqatdan, sen s u r s a t dan ayrilding*. “Alpomish”. *Otaliqning ham burni ko‘tarilib, ancha ish qildi. S u r s a t, podsholik chiqimlarini ham ko‘p ziyod soldi.* “Murodxon”.

SOLISHTIRMOQ, TAQQOSLAMOQ, QIYOSLAMOQ, QIYOS QILMOQ, CHOG‘ISHTIRMOQ Biror narsa, voqea-hodisa, belgi va shu kabilarni boshqasi bilan o‘zaro nisbatlab qaramoq. So‘zlashuv nutqida **solishtirmoq** so‘zi **qiyoslamoq, taqqoslamoq** so‘zlariga nisbatan keng qo‘llanadi. **Qiyoslamoq, qiyos qilmoq** so‘zlarida nisbat bermoq, o‘xshatish orqali o‘zaro taqqoslash ta’kidi mavjud. **Chog‘ishtirmoq** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Zamira beixtiyor xat kelgan tomonga o‘girildi. Ikki qator orqada yuzi cho‘g‘dek yonib o‘tirgan hamkursi Omonni ko‘rdi-da, darhol ko‘zini oldi. Daftarning qatidagi xatni qo‘lidagi yozuvga s o l i sh t i r ib ko‘rdi. P.Qodirov, Uch ildiz. *Kapitan Aliyev serjant Qoraboyev va leytenant Sultonovlar olib kelgan suratlarni s o l i sh t i r di.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Mittigina nevarasi o‘zicha, kishilar uchun eng shirin va kerakli narsa shokolad deb biladi. Shuning uchun hamma narsani, avvalo, shokoladga t a q q o s l a b ko‘radi.* T.Murod, Bobosi bilan nevarasi. *Hozirgi ahvoli o‘shandagisiga t a q q o s l a nsa,*

rohatlanib dam olish uchun yaratilgan sharoit deb ham atash mumkin. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Qismatullaning o‘yi o‘zga, notanish chiziqdan ketdi: u beixtiyor “qahramon xotin”ni o‘zining Hikmatoyi bilan q i y o s l a di va nazdida, xotini undan go‘zalroq tuyuldi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Xullas, guldastani uni ko‘tarib ketayotgan odamga q i y o s l a sangiz, xayolingizga ming xil bir-biriga qarama-qarshi fikrlar, o‘xshatishlar kelaveradi.* A.A’zam, Gul ko‘tarib ketayotgan erkak. *Bazm uchun Mirazim sarflayotgan pulga shaharning chetroq joyidan bemalol ikki xonali uy sotib olish mumkin edi. Ha, Yusuf uni uyga q i y o s q i l di!..* U.Hamdam, Muvozanat. *Tashqarida samolyot motorlarining bir maromdagi guvullashiga quloq solib turib, O‘rinboy beixtiyor o‘z qishlog‘idagi tegirmonning aylanishiga q i y o s q i l di buni, qish paytlari g‘alla tortuvchilar ko‘payib ketganda, tegirmonning ichi ham mana shunaqa olag‘ovur bo‘lardi, odamlarning gapi xuddi uyqu aralash kelayotgan ovozga o‘xshab eshitilardi.* T.Po‘lat, Ichkuyov. *Suyum bobo taqdiri bilan o‘z taqdirini ch o g‘ i sh t i r di, allaqanday o‘xshashliklarni ko‘rdi: sevgi, ishonch, aldash, aldanish...* R.Bobojon, Muhabbat mezoni. *Sultonmurod esa so‘fiyona ruh bilan yozilgan bir g‘azalnigina maqtadi, uning ayrim misralarini bu nav g‘azallarning eng go‘zal namunalarini bergan Hofiz Sheroziy va zamondoshi mavlono Jomiy kabi shoirlarning misralari bilan ch o g‘ i sh t i r di.* Oybek, Navoiy.

SON, MIQDOR, HISOB, SANOQ, ADAD Predmetlarning sanab o‘lchanadigan belgisi. **Sanoq** so‘zi mazkur ma’noda ko‘proq **yetmoq, yo‘q** kabi ma’lum so‘zlar bilan birgalikda qo‘llanadi. **Adad** eskirgan.

S o n i bor, salmog‘i yo‘q, Bog‘i bor, parvoyi yo‘q. Maqol. *To‘g‘ri-yu, lekin taraqqiyotga faqat aholining s o n i bilan maydonning kengligi kirmaydi-da, Roziy. Miqdoriy taraqqiyotidan tashqari, sifat taraqqiyoti ham bor...* P.Qodirov, Erk. *Qoradaryoda suv bilan birga baliqlar turi, m i q d o r i ham kamayib ketgan, asosan, shim, oq amur, so‘zanbaliq (usach), mayda cho‘rtan, zog‘ora baliq bo‘lib, bular ichida serobrog‘i shim (ba’zi shevalarda “shum”) bilan oq amur edi.* Q.Kenja, Toshqin. *Zinapoya bo‘ylab chiqib-tushayotganlarning h i s o b i yo‘q edi. Yigitlar qizlarga, qizlar yigitlarga to‘qnashib ketayozgan, quvnoq qahqahalar, shodon baqir-chaqirlar, salom-aliklar-u xayr-xo‘shlar to‘lgan zinapoyada yoshlarning joni ichiga sig‘maydi, oyoq-qo‘llari qanotga aylangan – uchishmaydi, xolos.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Mingboshining yer-suvi shu qadar ko‘pki, h i s o b ini o‘zi ham bilmaydi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Manzura deraza pardasini ochib qaradi: yangi kelib to‘xtagan “Pobeda”dan Danilov, direktor va bosh injener tushdi. Eshik oldida mashina, odam demaganning s a n o g‘ i yo‘q edi.* A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Haykal deganining makoni shu yer ekan. S a n o g‘ i yo‘q, Odamdan otgacha, kiyikdan kuchukkacha – hammasidan bor.* A.A’zam, Go‘zallik qirralari. *Bu olamda mavjud o‘t-o‘lanlar, dov-daraxtlar barglari*

a d a d i qadar hamd-u sanolar bo‘lsin Yaratganga! M.Mansur, Judolik diyori. *Sud majlisiga yarim soat qolganda, zakunchi keldi. Sud bo‘ladigan binoning bog‘chasida tikka turib aybdor bilan gaplashdi. Bu gaplashuv ham kaltagina savol-javobdan iborat bo‘ldi. Bu daf’a savollarning a d a d i ikkidan beshga chiqdi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

SONIYA, SEKUND, LAHZA, ON Juda oz, ko‘z ochib yumgunchalik vaqt. **Sekund** so‘zida vaqtning aniqligi, ya’ni minutning oltmishdan bir qismiga tengligi ochiq qabariq ifodalanadi. **Lahza, on** so‘zlarida vaqtning qisqalik ta’kidi va kitobiylik anglashiladi.

Biroq hech kutilmaganda vaziyat butunlay teskari tus olib, bir s o n i y a da uning o‘zi yerparchin bo‘ldi. N.Norqobilov, Kurash. *Rustam to‘lqinlar uzra, og‘zi-burniga kirgan suvni purkab-purkab quloch otarkan ...Suvdan kalla ko‘targisi, bir s o n i y a ni ham boy bergisi kelmasdi.* Q.Kenja, Toshqin. *Unday mish-mishlarga men ishonmayman, lekin men ishlaydigan mashina bo‘limida ish bir s e k u n d ham to‘xtagani yo‘q, xo‘jayin.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Fursat degan s e k u n d lar Qanotida uchadir. Kecha “bugun” bo‘lgan kun Bugun mana “kecha”dir.* E.Vohidov, Saylanma. *Tasviriy san’at galereyasida l a h z a ni aks ettirgan ikki yosh ijodkor ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.* Gazetadan. *G‘afur G‘ulom l a h z a ga haykal qo‘ygan ijodkordir.* Gazetadan. *Umid Hafiza bilan bo‘lgan shirin o n larni xayolidan o‘tkazardi.* Mirmuhsin, Umid.

SOP, DASTA, BAND, TUTQICH, TUTQI, TUTQA Qo‘l asbob-qurollari yoki boshqa narsalarning qo‘l bilan ushlaydigan qismi. **Sop** so‘zi ko‘proq pichoq, o‘roq, arra kabi asboblarga, **dasta, tutqich** so‘zlari esa hajman kattaroq narsalarga nisbatan ham qo‘llanadi. **Band** so‘zi mazkur ma’noni kengroq ifodalaydi. **Tutqi, tutqa** so‘zlashuv nutqiga xos.

S

Matosini ochgan edi, s o p i sadaf bilan ishlangan chiroyli rubob kechki quyosh nurida yiltirab ketdi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Baxtiyor nari ketgach, u o‘rindiqqa raso yastanib, ko‘zoynagining quloq ortidagi s o p iga o‘rnatilgan murvatni asta silab qo‘ydi, hamma yoq jimjit, hech narsa eshitilmay qolgandek bo‘ldi*. E.A’zam, Shovqin. *Rustam uni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylar, d a s t a si va g‘ilofiga har zamonda oshdan keyin tovoqdagi yog‘ yuqidan surkab, tig‘ini qumlab yuvib turardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Chol fil tishidan yasalgan, b a n diga dur va yoqut qadalgan asosini devorga suyab, to‘rdagi ko‘rpachaga o‘tib o‘tirdi.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *...Qinmisan-qin. Yonga taqadigan belbog‘chasini aytmaysizmi, o‘shani-da unutishmagan edi. Fil suyagidanmi, nimadan qilingan oppoq sadaf b a n d i esa o‘sha qindan chiqib turibdi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Eshiklarning tashqari tomonidagi t u t q i ch ini ushlasang, qo‘lingni chippa oladi.* S.Ahmad, Bir siqim xandonpista. *U ulovi yonida bir zum xayollanib turdi-da, so‘ng oshiqmay egnidagi qoramtir charm kurtkani yechib, mototsikl rulining o‘ng t u t q i ch iga osdi.* N.Norqobilov, Kurash. – *A?*

– boy bukilib, iljayib turgan Maxsumga tikildi, borib eshik t u t q i sini ushlagach, joyida to‘xtab qoldi. A.Muxtor, Opa-singillar. *Dushanning otasi… t u t q a si yaltillab turgan hassasini olib, o‘z xonasiga kirib ketadi.* A.Muxtor, Davr mening taqdirimda.

SOQOLLI, SOQOLDOR, SERSOQOL Soqol qo‘ygan, soqoli bor bo‘lgan. **Soqoldor**, **sersoqol** so‘zlarida soqolning ko‘pligi, qalinligi ma’no ta’kidi anglashiladi.

– Mirzakarimboy eski tulki, – dedi yo‘talib bazzoz Muhammadmansur, oltmishdan endi oshgan kalta qirov s o q o l l i, lekin yigitlarday olifta yasangan kishi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Shayx Dehlaviy oltmishlarga borgan, jussasi kichik, o‘rta bo‘yli, qalin s o q o l l i, katta-katta ko‘zlari hamisha kulib turadigan bir odam ekan.* M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Tagingda dabdabali mansab mashinasi, qo‘l ostingda haq deb turguvchi, aslida, serda’vo, serg‘avg‘o ko‘p s o q o l d o r-u besoqol.* E.A’zam, Shovqin. *Soqolda gap ko‘p, o‘rtoq Rajabov. S o q o l d o r odam ancha-muncha xalqni o‘ziga ergashtiradi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Zar choponlilar orasida s e r s o q o l bir odam Asadullaning diqqatini tortdi.* T.Malik, Savohil. *Xona juda shinam, devordagi trubka tishlagan s e r s o q o l odamning rasmini aytmaganda, boshqa bironta ortiqcha bezak yo‘q.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

SOQOV, GUNG, GUNGALAK, TILSIZ, LOL So‘zlash qobiliyatidan mahrum bo‘lgan, so‘zlay olmaydigan. **Gung** so‘zi **soqov** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi. **Gungalak** oddiy so‘zlashuvga xos. **Tilsiz** so‘zi, odatda, jonivorlarga nisbatan ham qo‘llanadi. Qatordagi so‘zlar insonlarga nisbatan kamsitish, haqorat bildiruvchi so‘zlar sifatida ham qo‘llanadi. **Lol** so‘zi mazkur ma’noda eskirgan.

S o q o v yigit na bir tovush eshitar, na bir so‘z tushunar, uning ichki ruhiyati o‘zga bir olam, o‘z fikrlari, o‘ylariga chulg‘angan holda charx tortar edi. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *...Qismatdoshlarim bilan dardlashaman, deya og‘iz ochaman-u javob ololmayman. Hammasining og‘zida talqoni bormi? Yo bari s o q o v mi?..* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Eshikni Mohbibining o‘zi ochdi. Karimning tiliga gap kelmadi, u garang, g u ng, kar edi, faqat ko‘zlari ochiq; boshini quyi solganicha Mohbibiga ergashib ichkari kirdi.* A.A’zam. Almisoqdan qolgan Karim. *Til bilmagan, yo‘l bilmaganning kuni qursin – ko‘r-u g u ng dan nima farqi bor?* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Normo‘min g u ng hamda ayrim ovul erkaklari nazarida esini tanibdiki, hech qo‘lidan kitob tushmaydigan bu yigitchadan kelajakda katta, shunchaki katta emas, judayam katta odam chiqmog‘i tayindek edi.* N.Norqobilov, Kurash. *– Jon yigitlar! Ushlab tashqariga chiqarib tashlanglar sabil qolgurni, – deya yalingandi, yigitlar o‘qishga mukkasidan ketgan kitobxonga o‘xshab g u ng a l a k bo‘lib olishdi…* D.Qo‘ldosh, Kutubxonada. *Hayf sizga-yey, xo‘jayin, kuchingiz shu t i l s i z max-*

luqqa yetdimi! Kuchingiz juda oshib, qo‘lingiz qichiyotgan bo‘lsa, sekin meni chaqirmaysizmi? Sh.Xolmirzayev, Ahad Mirzo yig‘ladi. *Hozir ular hujum qilayotgan bo‘lsa-da, har qalay, o‘zimni qayonga urishni bilmay, muz kabi sovuq, t i l s i z, zabonsiz gung devor orasida qolgandek edim.* J.Hushboq, Qayg‘uning surati. *Agar bir o‘g‘lon onadin tug‘ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u o‘g‘lon hech kishining so‘zin eshitmasa, ulug‘ bo‘lg‘onda l o l bo‘lur. Ko‘rmas-musankim, barcha l o l lar kar bo‘lurlar.* Kaykovus, Qobusnoma.

SOTMOQ, PULLAMOQ, PUL QILMOQ Pulga ayirbosh qilmoq. **Pullamoq** so‘zida kelishilgan pul evaziga bermoq ta’kidi qabariq ifodalangan. **Pullamoq** so‘zi **sotmoq** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi.

Sabohat chorva ilmini yaxshi bilar, bu tog‘da yaxshi ko‘payadigan sergo‘sht hisor zotini xillashga tirishar, qo‘ylarning yirigini s o t ib, maydasini olib, foydasini bo‘lib yeyishlariga yo‘l qo‘ymas edi... P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *To‘qqizta qo‘yimiz bo‘lardi. Dadam qamoqdaligida ikkitasini s o t ib ro‘zg‘orga xarjlagandik, qamoqdan chiqqanida bittasini elga yegizdik. Yetishmovchilik bordirki, keyinroq yana ikkitasini s o t dik.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Hikmatillo chiqqan vagonning deyarli yarmini lo‘lilar egallagan edi. Keyin bilsa, ular Saratov tomonlardan yaroqsiz otlarni opkelib, p u l l a b qaytayotgan asbi jalloblar ekan.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Bir chelak baliq – o‘n-o‘n ikki kilo, demak, to‘rt-besh mingdan bo‘lsa, qirq-ellik ming so‘m. Maydalab ko‘proqqa p u l l a sh ham mumkin, ammo chakanalab o‘tirgani vaqti ham, imkoni ham yo‘q edi, tushlikka Risolat palov damlashi lozim.* Q.Kenja, Toshqin. *Molini quritaman degan p u l q i l ar, Donini quritaman degan un qilar.* Maqol.

SOTQIN, XOIN, XIYONATKOR, G‘ADDOR O‘z tomoniga, tarafdorlariga nisbatan xiyonat qilgan, o‘zga, dushman tomonga sotilgan. **Sotqin** so‘zi ma’noni **xoin** so‘ziga nisbatan kuchliroq ifodalaydi. **G‘addor** eskirgan, kitobiy so‘z.

Tashqaridan yoki jabrdiyda Mirazimning nigohi bilan qaralganda, har ikkimiz ham s o t q i n, kamida munofiqmiz... Tag‘in bilmadim. U.Hamdam, Muvozanat. *Oralarida bitta s o t q i n bor ekan. Juda ayyor ekan, tulkidan ham ayyor ekan. O‘zi usta mergan ekan-u osmondagi qushni urib tushirar ekan-u, baribir s o t q i n ekan.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Agar unga qilingan bu jabr uchun dushmandan qasos olmasa, o‘zini xiyonatchi, x o i n, sotqin bo‘lib qoladigandek his etdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Sen jon fido qilgan eling x o i n sanasa, Itdek otib tashlasa-chi? Alam qilmasmi?* E.Vohidov, Saylanma. *Osmonda xoin oy kezar, behayo iljaygancha nurini sochar, x i y o n a t k o r yulduzlar xoinlarcha ko‘z qisishar, xiyonatkor shamol xoinona qiqir-qiqir kular edi.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *– X i y o n a t k o r lar o‘z chuqurlariga o‘zlari yiqilurlar, – dedi Navoiy ishonch bilan.* Oybek, Navoiy. *Ey parivashlar, di-*

mog‘dor keldingiz, Buncha g‘ a d d o r, buncha dildor keldingiz. S.Sayyid, Ey parivashlar. *Charx bilmonkim manga bu uzrni tutti ravo, Yo‘qsa mehr ahlig‘a to bor edi, g‘ a d d o r edi.* Abdulla A’zam, Ishq sirrin notavordin so‘rung.

SOVG‘A, HADYA, TORTIQ, TUHFA, ARMUG‘ON, IN’OM, SOVG‘A-SALOM Kishining ko‘nglini olish yoki xizmatlarini taqdirlash uchun tortiq qilib berilgan narsa. **Hadya** so‘zi, umuman, taqdim etilgan narsani bildiradi, unda siylash ta’kidi bo‘lmasligi mumkin. **Tuhfa** taqdim etilgan eng arzimas (kichik) narsani, shuningdek, qimmatbaho narsani ifodalash uchun ham qo‘llanaveradi. **Tortiq**, asosan, muhimroq sovg‘alarni ifodalash uchun qo‘llanadi. **Tuhfa, armug‘on** so‘zlarida kitobiylik ta’kidi mavjud. **Sovg‘a-salom** so‘zida alohida ehtirom va umumlashtirish ta’kidi mavjud.

Avaz bilan Hulkarning o‘ylab topgan s o v g‘ a laridan xursand bo‘lib, xurjunni ichkariga olib kirib qo‘ydi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Ochil gazeta qog‘oziga “tars-tars” urib zaharxanda qilmoqda edi: – Ha, bu g‘arazli maqola Faridaxonga munosib to‘y s o v g‘ a si bo‘ladi!* P.Qodirov, Uch ildiz. *Bir kun Miryoqub noyib to‘raning uyida edi. Bu safar olib borgan h a d y a si to‘raga nihoyat darajada yoqib ketgan bo‘lsa kerak, to‘ra uni uzoq olib o‘tirib, ko‘p narsalarni gapirib berdi.* A.Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ammo hammasidan Olim akam qo‘yin cho‘ntagidan chiqarib, menga uzatgan “mozorbosdi h a d y a” o‘tib tushdi. U hov bir vaqtlar – bolaligimda tog‘am hadya qilgan narsaga juda-juda o‘xshab ketmoqda edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Kim bo‘lding? Ne qilding? T o r t i q bo‘larli Bormi kelurlarga arzirlik t u h f a ng? Bir kimga boshpana, Bir kimga ko‘prik, Yo ruhni yuksaltar biron so‘z aytding?* Zulfiya, Saylanma. *Shoirlarga hayron bo‘lmang, Shoir xalqi turfadir. She’r olami bu olamning Evaziga t u h f a dir.* E.Vohidov, Saylanma. *Bugunim yaxshi, aminmanki, ertaga hayot menga o‘z armug‘onlarini tayyorlab turibdi.* A.Muxtor, Davr mening taqdirimda. *O‘n yettinchi yilning bahoridan to kuziga qadar xo‘pam muloyimlashdi. Ishchilarning maoshini oshirdi, yo‘qsillarga i n’ o m lar berdi.* T.Malik, Savohil. *Ayniqsa, xonadonlarga Qorboboning s o v g‘ a - s a l o m bilan kelishi bolalarning quvonchiga quvonch bag‘ishlaydi, hayratini oshiradi.* A.Jo‘raev, Sirli sirg‘a. *Siz O‘tror shohiga s o v g‘ a - s a l o m yuborib, “bir yillik xiroj seniki, kelasi yildan boshlab, o‘z vazifangizni o‘tashdan umidvormiz”, degan mazmunda maktub yo‘llang*. M.Osim, Aljabrning tug‘ilishi.

SOYA, KO‘LANKA, KO‘LKA, KO‘LAGA Nurga to‘siq bo‘lib turgan predmetning aksi va uning aksi tushib turgan joy. **Soya** so‘zi **ko‘lanka, ko‘lka** so‘zlariga nisbatan keng qo‘llanadi. **Ko‘lanka, ko‘lka** ko‘proq badiiy asarlarda qo‘llanadi.

Tuprog‘i ko‘pchib yotgan ko‘chadagi yagona qayrag‘och s o y a siga to‘nini tashlab o‘tirgan Muhiddin esa daraxtning bujur tanasiga suyanib mudrardi. T.Malik, Savohil. *Shoxi uzun qizil serka archa s o y a sida yastanib yotibdi.*

P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Gup etib urgan qo‘lansa is dimog‘ni yorib yubora yozdi – ichkarida qora-qura k o ‘ l a n k a tirband ekanligini Abdulla uch qadam yurganida ko‘rdi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘izlik. *...Atrofimga qarayman, hu, ana, tosh bo‘lsa ham, haykalning soyasi bor, daraxtlarning tagi quyuq k o ‘ l a n k a, ko‘chada mashinalarning soyasi yonida hilpirab ketyapti...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Kun bo‘yi oftobda kuyib, tosh qotgan badanlarimizni Qorasuv silaydi, siypaydi, yumshatadi; oy kecha, oydin kecha, g‘ira-shira tol k o ‘ l k a sidan pari qizlar poylab, bizni tanlayotgandek sirli hayajonda, shivirlashib, shapir-shupur cho‘milamiz.* A.A’zam, Quroq. *Mendan uzoqlashib borar bir odam. Xira k o ‘ l k a sida mujassam qayg‘u.* S.Sayyid, Men yasholmagan umr. *Bobo bo‘y-basti bir qarich chiqmaydigan ajabtovur bir maxluqni ko‘rib xuddi irkit narsaga ko‘zi tushib, nigohi bulg‘anganday birdan seskangan va ko‘ngliga xatarli bir k o ‘ l a g a soya solgan edi, nafasi bo‘g‘ziga tiqilib ovozi chiqmay qoldi.* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Tok osti so‘ri olachalpoq k o ‘ l a g a bo‘ldi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi.

SOYALI, SERSOYA, **SOYADOR** Soyasi ko‘p, soyasi keng maydonni egallagan. **Sersoya** so‘zida soyaning maydoni **soyali va soyador** so‘zlariga nisbatan keng ekanligi anglashiladi.

– Seniyam tomog‘ing qurib ketdimi, jonivor? – deya otga qaradi Mamatg‘uli. – Ozgina sabr qil. Biror suvli, s o y a l i joy topamiz. N.Ismoilov, Shahzoda. *Hovuzlarning biridan ikkinchisiga baland va katta s o y a l i daraxtlardan bamisoli yo‘l solingan.* X.Davron, Sohibqiron yoki mitti yulduz qissasi. *Rahim Saidov shu yerda birpas bo‘lgisi keldi. U bu xiyobonni sevardi. S e r s o y a, baland arg‘uvon, chinorlar ostida studentlik yillari ko‘p yurgan, ajoyib rejalar tuzgan, xayollarga erk berib, kechalari yulduzlarning ko‘z ilg‘amas yo‘llarini axtargan...* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Kaftday kichkina hovlining bir yoqasidan o‘tgan anhor bo‘yi – quyuq tolzor, s e r s o y a, jimjit bir go‘sha.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Novda o‘sgan chinorimdan, Daraxti s o y a d o r imdan, Elimga e’tiborimdan, Barisidan judo bo‘ldim.* E.Jumanbulbul, Tarjimayi hol. *Daraxti s o y a d o r imdan, Haybatli ul chinorimdan, Har ish desam, tayyorimdan, Ravshanga xaridorimdan, Yigitlardan judo bo‘ldim.* “Ravshan”.

SOZ, CHOLG‘U Milliy musiqa asboblarining (mas., dutor, tanbur, g‘ijjak kabi) umumiy nomi. **Cholg‘u** so‘zi o‘zagida chalish ta’kidi ochiq o‘z ifodasini topgan.

Yuzlari oy kelganda, Qo‘lga olay s o z imni, Oqshom payti bo‘lganda, Aytay yurak rozimni... E.Vohidov, Saylanma. *Malla shoshilib mashinadan tushdi-da, sariq “RAF”ning yonida qo‘llariga g‘ilofli s o z lar tutgan kishilar bilan nimanidir gaplashayotgan barvasta gavdali, qunduz telpak kiygan odamga qarab yurdi.* I.Sulton, Xun. *Axir bundayroq ch o l g ‘ u ham yaxshi mashshoqning qo‘liga tushsa, ajoyib ohanglar chiqaradi-ku.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Chal, chalur*

chog‘ing shu choq,Chala qolmasin navo. Chal, navo bo‘lmasin toq, Chal, ch o l-g‘ u ng dilga davo. Mirtemir, Soz.

SOZANDA, SOZCHI, NAVOZANDA, CHOLG‘UCHI, MASHSHOQ, MUZIKACHI Kasbi cholg‘u chalish bo‘lgan shaxs. **Sozchi, muzikachi** so‘zlari hozirgi kunda ko‘proq so‘zlashuv nutqida ishlatiladi. **Navozanda** so‘zida poetik ta’kid ustuvor. **Mashshoq** nisbatan eskirgan bo‘lib, xalq cholg‘u asboblarini chaluvchi kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

Yuksak mahoratli s o z a n d a lar ijro etgan dilnavoz kuy birdan barchaning ko‘ngliga safo keltirdi. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Epsiz s o z a n d a sozin cho‘zar.* Maqol. *Ofiyatning yuzida ham mening ko‘nglimda daryoday sollanib quyilayotgan tuyg‘ularning aks sadosi o‘ynaydi, goh men – s o z ch i, u soz bo‘lib, goh u – s o z ch i, men sozga aylanib, suhbatimiz hech to‘xtamadi, shu to‘xtamaganicha, ba’zan baravj, ba’zan past, hozirgacha kelyapti.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Birning taqdiri – bu tuman taqdiri, Sarbonga bog‘liqdir karvon taqdiri, S o z ch i ning qo‘lida kamon taqdiri, Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.* T.Sulaymon, Sozim. *U cholg‘uchilarga qarab “bo‘ldi, bas”, deganday panjalarini silkib, sun’iy, dag‘al kipriklarini pirpiratar, ammo n a v o z a n d a lar doira-yu boshqa sozlarini battarroq daranglatishar va nigohlari bilan bir-birlarini yanada shiddatliroq chalishga da’vat etishardi.* Q.Kenja, Indamas odam. *Mingbuloqning markazidayoq tolzor takya vodiyning mashhur qiziqchilari, shoir va polvonlarini to‘plagan, qulochga sig‘maydigan tollar tagidagi supalarda oshxo‘rlar kunni kech qilishgan, shuhrati butun respublikaga tarqalgan ashulachi, ch o l g‘ u ch i larning ashula, mashqlarini eshitishgan.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Barot polvon “dodxoh keldi, shekilli”, deb samovar tomonga qaragan edi, dutor, tanbur, g‘ijjak, nay, doira ko‘tarib kelayotgan m a sh sh o q larga ko‘zi tushdi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Ustalar, mardikorlar, duradgorlar ko‘p edi. Bir chetda havaskor yosh sozandalardan iborat duxovoy m u z i k a ch i lar to‘dasi eski-yangi kuylarni chalar edi.* Oybek, Ulug‘ yo‘l.

SOG‘AYMOQ, TUZALMOQ Dardi, kasali arib, yaxshi bo‘lmoq, shifo topmoq. **Tuzalmoq** so‘zi o‘zagidan sog‘ligi tuzuk holatga kelganlik ta’kidi ochiq anglashilib turadi, bu so‘z so‘zlashuv nutqiga xosdir.

Ko‘pincha bir xonada yotgan bemorlar, s o g‘ a y ib chiqqach, tez-tez uchrashib turaylik, deb bir-birlariga adres beradilar. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Kuyga to‘lib ketdi tosh-u devorlar, So‘lg‘in-so‘lg‘in s o g‘ay adi bemorlar.* S.Sayyid, Bahor. *Bugun maydonga tushmoqning hech iloji yo‘q, chunki belni andakkina yellatib qo‘yganmiz. Ammo ertagacha t u z a l ib qolar degan umiddamiz.* N.Norqobilov, Kurash. *O‘sha kun Shoirni boshqa bo‘limga ko‘chirishdi. Tanasida qand miqdori oshib ketgan, jarohati t u z a l ish o‘rniga jism-u joniga xatar solayotgan edi…* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata.

SOG‘INMOQ, QO‘MSAMOQ, KO‘RGISI KELMOQ Dilga yaqin insonlarga nisbatan sog‘inch hissini tuymoq, shuningdek, biror narsa yoki joyni eslab, uni ko‘rishga, unga yetishga orzumand bo‘lmoq. **Qo‘msamoq** so‘zida qattiq sog‘inganlik, ko‘rishga intiqlanganlik ta’kidi qabariq ifodalangan, bu so‘z kitobiy nutqqa xos. **Ko‘rgisi kelmoq** so‘zining o‘zagida mazkur ma’no ochiq aks etgan, ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Seni izlab keldim... S o g‘ i n ganman-da. Esingdami bahor, beg‘ubor kunduz, O‘ylamagan joyda bo‘ldik yuzma-yuz. Mirtemir, Pardalik. *G‘ulomjon aka yurtini shunchalik s o g‘ i n gan ediki, har eslaganda, yurak-bag‘ri ezilib ketardi.* J.Abdullaxonov, To‘fon. *To‘g‘ri, goho uni qattiq q o‘ m s a b ketganing, ko‘rging, hechqursa, telefonda bir og‘iz so‘zlashging kelganlari rost.* E.A’zam, Shovqin. *Kishi qarigandan keyin kindik qoni to‘kilgan joyini q o‘ m s a b qolarkan.* B.Rahmonov, Oltin odamlar. *Shu qadar k o‘ r g i s i k e l adiki!.. Biroq kech bo‘lib qoldi. Uy egalari har xil xayolga borishlari mumkin*. S.Anorboyev, Oqsoy. *Qiziq, gaplari sovuq shu hasadgo‘y oshnasini baribir k o‘ r g i s i k e l averadi-ya!* E.A’zam, Shovqin.

SOG‘LIK, SALOMATLIK, SIHAT, TOB Organizm a’zolarining normal (to‘g‘ri) ishlab turish holati. **Sog‘lik** keng qo‘llanadi. **Salomatlik, sihat** faqat odamga nisbatan qo‘llanadi. **Sihat** so‘zi **sog‘lik, salomatlik** so‘zlariga nisbatan kam qo‘llanadi. **Tob** so‘zi ko‘pincha **yo‘q** so‘zi bilan birga so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

S

Otalarga farog‘at ber, Va rohat ber bus-butun, Onalarga saodat ber, Umr ber-u s o g‘ l i k ber. S.Sayyid, Oddiy tilaklar. *Sen mening jonimni olgin, Men sening darding olay, Barcha s o g‘ l i k senga bo‘lsin, Barcha bemorlik menga.* E.Vohidov, Saylanma. *Chindan ham, obi zamzam desa bo‘ladi, bu ichimlikni! Endi ter chiqay dedi! Qani, shunday narsani o‘ylab topgan gurji xalqining s a l o m a t l i g i ga yana bittadan olaylik, do‘stim!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Lekin cholning qarzi ko‘paya bordi, buning ustiga s a l o m a t l i g i ketib, juma sayin simkor uzilmay qolaverdi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Asadulla ilgari “elchilikni eplay olarmikanman”, deb o‘ylagan bo‘lsa, endi “s i h a t im dosh berarmikin”, degan xavotirga tushgan edi.* T.Malik, Savohil. *Izzat tilasang, ko‘p dema, S i h a t tilasang, ko‘p yema.* Maqol. *Senga nima bo‘ldi? Men... bozorga chiqolmadim, Jamolboy! Andak t o b im aynib yotib qoldim deng... Shamol tegdimi, bilolmadim.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Oldimizda kabob, gazaklar, u yarimta buyurdi, ko‘nglini yozish uchun, men, t o b im yo‘q, ichmadim.* A.A’zam, Quroq.

SOCHIQ, LUNGI, SURTKI Yuz, qo‘l, oyoq yoki idish-tovoq, biror buyumlarni artish uchun ishlatiladigan buyum. **Lungi, surtki** shevada qo‘llanadi.

Ko‘chma do‘kon tadqiqotchining homiylaridan yegulik, suv, shirin hidli qog‘oz s o ch i q largacha olib keladi. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Tokchalar o‘rtasidagi ustunlarning g‘altak o‘tqazilgan qoziqlarida har doim dazmollangan va*

atir sepilgan s o ch i q lar osig‘liq turardi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Hammom miyon xonasining yon gumbazlaridan biri. Xodimgarning bo‘z l u n g i si tanga dag‘al-dag‘al urinadi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *U o‘rnidan turib, uzoq esnagandan keyin ikki qo‘llab sallasini boshidan oldi va sartaroshxonaning devoridagi l u ng i lar osilgan qoziqqa ilib qo‘ymoqchi bo‘ldi.* S.Ayniy, Sudxo‘rning o‘limi.

SOCHMOQ, SEPMOQ Bir tekisda muayyan sathga tarqatmoq. **Sepmoq** so‘zi ko‘pincha suyuqlikka nisbatan qo‘llanadi. **Sochmoq** so‘zida ushbu ma’no **sepmoq** so‘ziga nisbatan biroz kuchliroq.

Eshonxon laganda ustiga murchli piyoz s o ch ilgan kabobni ko‘tarib kirdi. Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Qizlar o‘n yetti-o‘n sakkiz yosh – balog‘at davrining ta’rifga sig‘mas o‘tli hissiyotlari og‘ushida ehtiros, zavq ila bir-birlarini bosishar, yuzlariga suv s o ch ishar, qiyqirishar, xandon otib kulishardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Dala-dasht, mayli, lekin bu gazanda qishloqning ichida ham serob, daraxtlarning ustida chumchuqlarni qiy-chuv to‘zitib, odamning yuragiga g‘ulg‘ula soladi, uylarning shiftida yuradi, egasiga tegmaydi, un s e p sa yo‘qoladi...* A.A’zam, Quroq. *...ammo ichida g‘urmishlagan narsani hech unutolmasdi, hatto karavotga qilingan bir chiroyli joylar ham, shakarob berib suv s e p ilgan, salqin ufurayotgan ichkari hovlining o‘zi ham uning ko‘ziga ko‘rinmayotgan edi...* M.Mansur, Judolik diyori. *Avval kashnich, rayhonlari quridi, So‘ng suv s e p gan ayvonlari quridi.* S.Sayyid, Momomga bag‘ishlov.

SUBUT, BURD So‘zning, va’daning yoki tutgan ishning ishonchga sazovorligi. **Subut** so‘zi ko‘pincha so‘z, va’dadagi; **burd** so‘zi esa ishdagi qat’iylikni ifodalaydi.

Esiz, qurilgan saltanatlar sharafi, to‘kilgan u qonlar javobini kim bergay? Qolaversa, lafz qayerda qolyapti, s u b u t qayerda qolyapti? Ahd-chi, unga sadoqat-chi?! M.Mansur, Judolik diyori. *Nomardlik inson bilan yonma-yon yashaydi. Undan qochib qutulishning sira iloji yo‘q. Ayniqsa, kishida s u b u t degan bir kalima so‘zga jo narsadan asar bo‘lmaganda.* J.Hushboq, Qayg‘uning surati. *O‘shanda Xolbekka “So‘qir otangning kunini boshingga solaman!”, – degan edi. Endi so‘zining ustidan chiqmasa b u r d i qoladimi?* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Maqtanganning b u r d i ketar, Asl niyatiga kam tar yetar*. Maqol.

SUDXO‘RLIK, RIBO Muayyan shartlar bilan qarz berib, foyda olinadigan faoliyat. **Ribo** so‘zi eskirgan, kitobiylik bo‘yog‘i mavjud. Har ikki so‘zda ham g‘ayriqonuniy shaklda foyda olish ma’nosi alohida ta’kid oladi.

Bu holda hujra egasi o‘z hujrasidan ikkiyoqlama foydalanardi – bir tomondan, hujraning vaqfini olsa, ikkinchi tomondan, garov uchun talabadan olgan mablag‘ni s u d x o‘ r l i k yo savdo yo‘li blan ishlatib foydalanardi. S.Ayniy, Esdaliklar. *Ota-onasidan farqli o‘laroq unga omad kulib boqdi – otasidan qolgan eski tegirmonni ijaraga berib, mablag‘ topdi va s u d x o‘ r l i k bilan*

shug‘ullandi. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Bu qadar jazosini tortadur, kishi gar r i b o g‘a chu ho‘ qilur, Yana ishtiyoqida pullarin kechalar fig‘on ila noladur.* Zavqiy, Ajab zamona. *Islomdan ilgari arablar orasida R i b o keng tarqalgan edi.* “O‘zME”.

SUHBATDOSH, HAMSUHBAT, HAMGAP, HAMNISHIN Suhbatda ishtirok etuvchi kishi, suhbat qatnashchisi. **Hamsuhbat** va **hamnishin** kitobiy nutqqa xos. **Hamgap** kam qo‘llanadi.

Bu poyonsiz dashtda s u h b a t d o sh degani hamisha anqoning urug‘i. N.Norqobilov, Kurash. *Goho yigit s u h b a t d o sh larning yuz ifodasi, ko‘zlari jilvasidan biror narsa tushungisi kelar, nochor ichdan uh tortib qo‘yar va tag‘in bitmas-tuganmas xayollarga botar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Mo‘ylabi yuqoriga qayrilgan past bo‘yli notanish yigit bilan h a m s u h b a t bo‘ldi-yu, qalbining allaqayerida umid chirog‘i miltillab qoldi.* T.Malik, Savohil. *Odamning tabiati shunday: agar h a m s u h b a t ingiz qandaydir muhim, qiziqarli bir narsani hikoya qilsa, sizning ham shunday qiziq gaplarni aytgingiz, latifasiga latifa bilan javob qaytargingiz keladi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Shukur, siz u bilan h a m g a p bo‘lmagansiz-a?* Sh.Xolmirzayev, Darvesh. *Ehson Murodxo‘ja domlani biladi, ammo sira h a m g a p bo‘lmagan edi...* A.Qahhor, Sarob. *Ehtimolki, sarlavhani o‘qug‘aningizda tasfiyayi nafs, tazkiyai qalb qilg‘uchi va qildirg‘uchi, nur ichiga cho‘milgan, riyozat bilan cho‘pustixon, tamom foniy, faqir va ehtiyoj bilan h a m n i sh i n bo‘lg‘an vujudlarni ko‘z o‘ngimizga kelturarsiz.* A.Qodiriy, Eshonlarimiz. *Xon seskanib ketdi, h a m n i sh i n lar ham along‘-jalong‘ bo‘ldilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

SUHBATLASHMOQ, SUHBAT QILMOQ, GAPLASHMOQ, HASRATLASHMOQ, OTAMLASHMOQ, HANGOMALASHMOQ (HANGAMALASHMOQ), GURUNGLASHMOQ, GURUNG QILMOQ (QURMOQ), CHAQCHAQLASHMOQ Gap-suhbatda bo‘lmoq. **Hangomalashmoq** va **chaqchaqlashmoq** so‘zlarida qiziq-qiziq voqealar haqida suhbat bilan vaqtichog‘lik qilish ta’kidi mavjud. **Gurunglashmoq, gurung qilmoq** so‘zlari so‘zlashuv tilida qo‘llanadi. **Otamlashmoq** ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xos, asosan, yaqin insonlarning yaqin suhbati ta’kidiga ega. **Hasratlashmoq** so‘zida dard-hasrat ta’kidi qabariq ifodalangan.

Kamol akasi bilan bu xonadonga ilk safar kelishganini esladi. O‘shanda aka-uka yuqori qavatda s u h b a t l a sh ib qolishdi, shunda to‘satdan pastdagi allaqaysi eshik o‘zidan o‘zi qisirlab yopildi... X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Yurtiga yo‘l olishga hozirlangan Goptay momo so‘nggi kechada Ertosh ota bilan uzoq s u h b a t l a sh ib o‘tirgach, tun yarimdan og‘ganida uxlashga yotibdi-yu, qaytib uyg‘onmabdi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *...Meva terib o‘ynardik, o‘ynab meva terardik. Yana sahargacha s u h b a t q i l ib, qo‘shiq aytib, raqs tushganlarimiz-chi...* U.Hamdam, Muvozanat. *O, bu jodugar faslni u*

S

qanchalar yaxshi ko‘radi! Ammo kuz bilan yurakni ochib, jim suhbat qilishdan qanchalar qo‘rqdi! U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma. *Nazarimda, Xubbijamol kelsa, ular o‘zaro nimadir deb g a p l a sh ishadi-da, keyin Nosirjon ham taqdirga tan berib, avtobus parkiga yo‘l oladi...* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Nafisa qo‘shni ayollarning bu xonadonga kirib, g a p l a sh ib o‘tirishlarini bilardi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Karim qori ...ko‘chaga chiqqan joyida bir zum tin oldi, yon-verida hozirgina eshitib chiqqan vahima to‘la dag‘dag‘alar yuzasidan h a s r a t l a sh adigan kimsa yo‘qligidan afsuslanib, tek turgan ko‘yi xufton namoziga aytilayotgan azonni jon qulog‘i bilan tingladi...* I.Sulton, Tosh kelinchak. *Bu xabarni eshitib, Yunus bobom enajonimga: – Bizning hovlimizga chiqa qoling, o‘rtog‘ingiz yolg‘iz, iyakni iyakka tirab olib miriqib h a s r a t l a sh asizlar, oshni o‘zimiz damlaymiz, – dedi.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Begimqul so‘nggi bir xatida Chilonzorda, ikki xonali alohida uyda turishini aytib, mehmonga taklif qilgan, “otpuskaga kelsang, eski og‘aynilaring yodingdan chiqmasin, ayaning uyida qilgan jinniliklarimizni eslab, bir o t a m l a sh amiz”, deb yozgan edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Tanishib olganimiz yaxshi bo‘ldi. Uchto‘rt kun o t a m l a sh amiz. Usmonjon ukam, biz Parpivoyga kuyov bo‘lishdan tashqari shogird hisobdamiz.* S.Ahmad, Bir siqim xandonpista. *– Mani xoli qo‘yinglar deb noliysanda, o‘sha odam bilan h a ng a m a l a sh ib o‘tirganingga balli! – ham kesatib, ham norozilanib dedi Rahimberdi.* I.Sulton, Tosh kelinchak. *Yangiyo‘ldan Sayfi qiziq kelgan ekan, yarim kechagacha h a ng a m a l a sh ib o‘tirdik.* O‘.Umarbekov, Boboyong‘oq. *Shokir ota qo‘lidagi charmni cho‘za-cho‘za, qizdan mamnun bo‘lib javob berdi: – Bolam, picha dam ol, o‘rtoqlaringnikiga chiqib, birpas g u r u ng l a sh.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Mard bilan g u r u ng l a sh gan Mard bo‘lar. Nomard bilan hiringlashgan Part bo‘lar.* Maqol. *Safarimiz tugab, Toshkentga qaytib kelgach, sayohatlarimizni eslab, bir necha bor g u r u ng q i l dik.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Shuncha yigit-u qiz bemalol gaplashib yuribdi, avtobus-u trolleybuslarda birga o‘tiradi, g u r u ng q u r adi.* A.A’zam, Tugmachagul. *Guzardagi choyxonaga chiqib, odamlar bilan bir ch a q ch a q l a sh sangiz, ko‘nglingiz yozilarmidi, deb qo‘yardi ayam ba’zida.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Hojiyaxon indamadi. Boshqa xotin bo‘lganda: “Uyda o‘tirib oling, demayman, begonalarga o‘xshab birrov kelib ketmay, “uyim-joyim bor”, deb bolalaringiz bilan ch a q ch a q l a sh ib ham o‘tiring”, deb nolalar chekardi.* T.Malik, Savohil.

SUPURGI, JO‘ROB Supurish-sidirish, tozalash uchun burgan, shuvoq, makkasupurgi va sh.k. dan dastalab bog‘lab yasaladigan ro‘zg‘or buyumi. **Jo‘rob** – shevaga xos so‘z.

Qo‘shni qizmi, kimdir o‘sha yer bilan bitta suqsurdek barglarni bir chekkadan supura boshlabdi-yu, yana nimani o‘ylab, s u p u r g i sini tashlab ketgan edi... M.Mansur, Judolik diyori. *Sabohat qora xalat kiygan, uzun erkak s u p u r g i*

S

ko‘tarib olgan keksa bir ayolning unga jilmayib qarab turganini ko‘rdi. O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Yangi j o‘ r o b yaxshi supuradi-da!* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Yalli momo, yalli-ye, Yalli momo o‘ldi-yo, Yallining izi yitsin deb Jo‘rob bilan supurdik-o.* M.Jo‘rayev, Navro‘z qo‘shiqlari. *...Yangi j o‘ r o b yaxshi supuradi-da!* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari.

SURAT, RASM, TASVIR, PORTRET, KARTINA Shaxs, narsalarning qalam, bo‘yoq bilan yoki boshqa usul bilan ifoda etilgan aksi. Hozirgi vaqtda **surat, rasm, tasvir** so‘zlari adabiy tilda, shuningdek, jonli so‘zlashuvda mazkur ma’noda aralash qo‘llanadi. **Portret** so‘zida kitobiylik ta’kidi mavjud. **Kartina** so‘zida musavvir tomonidan ishlanganlik ta’kidi ochiq anglashiladi.

Hikmatillo shitob bilan kirib borganida, Nilufar odam a’zolarining s u r a t i osilgan doska oldida bir guruh dugonalari bilan gaplashib turardi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ravon, uy va yo‘laklar, har qadamda did bilan qo‘yilgan qimmatbaho jihozlar, devorlarga ilingan manzarali s u r a t lar, mahobat, mahobat... ikkinchi qavatdagi mehmonxonaga ilingan qandilni tomosha qilayotgan Kamolning do‘ppisi bexosdan tushib ketdi.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *So‘zananing ustiga Sattor bilan Oyshaxonning guldor ramkaga solingan r a s m lari yonma-yon osib qo‘yilgan.* P.Qodirov, Erk. *Rahim Saidov oxirgi tortmani ochganida, uch rus bahodiri r a s m i solingan qutichaga ko‘zi tushdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Bu daftarda Buxorodagi bir necha madrasalarning ham t a s v i r i bor.* Mirmuhsin, Me’mor. *Uning yonida samovar. Samovarning qorniga g‘alati t a s v i r lar tushirilgan.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *O‘g‘lim qandaydir p o r t r e t ni shoshib chizar, qo‘li bo‘yoqqa botib qolgandi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Oyoq ostida qandaydir p o r t r e t lar teskari qilib devorga suyalgan*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Abror “hozir”lagancha, uni ustaxonaning to‘riga boshlaydi-da, ustiga bo‘z tashlab qo‘yilgan odam bo‘yi k a r t i n a ning ustidan matoni yulqib oladi...* U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma. *Dali 1951-yili chizilgan bu k a r t i n a si bilan mumtoz tasviriy san’at va uning buyuk namoyandalarini ulug‘lik shohsupasida batamom tor-mor qilganini e’tirof etadi.* N.Eshonqul, Olamlar birlashadigan makon.

SURATCHI, SURATKASH, RASMCHI, FOTOGRAF Rasm oluvchi, surat chizuvchi. **Rasmchi** so‘zlashuvda nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Suratkash** so‘zi musavvir ma’nosida ham, maxsus rasmga olish apparatida rasmga oluvchi kishi ma’nosida ham ishlatiladi. **Fotograf** hozirgi kunda ommalashgan.

S u r a t ch i miz Boris Mizroxin bilan yo‘lga chiqib, uch kunda surat va ma’lumotlarni olib qaytdik. E.Malik, Bir kuni Zuliya opa... *Agar suratingni oldirsang, ko‘rasan mendan, s u r a t ch i ham, sen ham kaltak yeysanlar, deb tayinlab qo‘ygan*. S.Ahmad, Ufq. *Qora xalq orasidan chiqqan menday bir s u-*

r a t k a sh ning shoh qiziga muhabbat qo‘yishi kulgili emasmi? P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U stol ustidagi bejirim tugmachani bosib, kotibasiga bosh s u ratkashni chaqirishni buyurdi.* Z.Xolov, Tongotar. *R a s m ch i surat chizadi. Suratda odam qoshi qoshday bo‘lmadi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Qarsak tinib, zal endi jimigan edi, kinochilar, f o t o g r a f lar chaqqonlik bilan ishga kirishib ketdilar*. N.Safarov, Olovli izlar. *Hammaga ma’lum, Sog‘indiq tuppa-tuzuk f o t o g r a f. Fotoapparatini olib ketsa, bitta foto-gazetaga yetarli surat ham olib kelishi mumkin.* N.Fozilov, Shum bolaning nabiralari.

SURUNKASIGA, SIRASIGA, QATORASIGA, BETO‘XTOV Biror ish-harakat, voqeaning bir vaqtning o‘zida ketma-ket, muttasil sodir bo‘lishi. **Sirasiga** bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Beto‘xtov** so‘zida voqea-hodisaning tezlik bilan bir-biriga ulanib ketaverish ifodasi kuchli. **Qatorasiga** so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Komsomol majlisi uch kun s u r u n k a s i g a davom etganda ham, pedagoglar hech narsa deyolmay, muallimlar xonasida intizom saqlab, kun-uzun shumshayib, bekor o‘tirishardi. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Chilla chiqishiga oz qolgan bo‘lsa ham, bu kutilmagan sovuq qalin qor olib keldi. S u r u n k a s i g a ikki kun yog‘di.* O‘.Umarbekov, Hotamtoy. *Uch kun s i r a s i g a tinmay yomg‘ir yog‘di.* Gazetadan. *Qaniydi, shu tob-shu kayfiyatda uyidagi ijod xonasida bo‘lsa, lampashishani yoqib qo‘yib, qo‘lida qog‘oz-qalami bo‘lsa, ichi to‘la qaynab kelyapti, toshib-ayqirib kelyapti, bosh ko‘tarmay, q a t o r a s i g a yetti-sakkiz maqolani yozib tashlardi-ya!* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Ellikboshi b e t o‘ x t o v aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketdi.* A.Qahhor, O‘g‘ri. *...Avval mastona davraning b e t o‘ x t o v hazil-huzil-u, tortishuvi, bahslari qanday gurillagani xotirasidan o‘tadi!* U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma.

SUSAYMOQ, PASAYMOQ, SEPSILMOQ, SEPSIMOQ Ish-harakat, hodisa, holatning kuchi, shiddati oldingisiga nisbatan kuchsizlanishi. **Pasaymoq** so‘zida ilgarigi holatning sezilarli kamayishi ta’kidi mavjud. **Sepsilmoq** ko‘pincha badiiy asarlarda ishlatiladi. **Sepsimoq**, asosan, shevada ko‘p qo‘llanadi.

“Eshakning yuki yengil bo‘lsa, yotoq bo‘ladi”, degan gap ham rost ekanmi, yo qarilik oxir-oqibat o‘zini ko‘rsatdimi, yo nomus kuchi, jon holatda ishlash asnosida o‘zining bor quvvat-layoqatini sarflab yuboribmidi, Ko‘ktoyning shashti-shijoati sekin-asta s u s a y a boshladi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Harakatlaridagi ilgarigi hayajon s u s a y di, qizning birdaniga jiddiylashgani u bilan barobar oyoq tashlasa ham, musiqani boyagidek his qilmayotgan, uning yengil gaplarga bo‘lgan jur’atini to‘xtatgan, boyagina butun vujudida jo‘sh urib turgan erkini qisib qo‘ygan edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bizning bog‘imizdagi olov p a s a y ib qolibdi. Endi qop-qora tutun bo‘lib chiqyapti.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Ko‘pchilikka quloq solsangiz, quturganlarning chor-nochor yumshaganini, osiylarning bo‘ysunganini, telbalarga es kirganini,*

S

olovlarning p a s a y ganini, alangalarning so‘nganini, faryodlarning bo‘g‘ilganini... aytadi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yuzlab oyoqlar ostidan ko‘tarilib, ufqni tumandek qoplab olgan chang asta-sekin s e p s i l di, ilonizi yo‘l endi bo‘m-bo‘sh edi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Kuzning madadi bilan ochlik ham s e p s i l di. Odamlarga biroz darmon kirdi.* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Bu orada biroz s e p s i b qolgan, bir xil jussali, bir xil quvvatli polvonlarning o‘rtamiyona kurashidan zerikkan davra Shaymardon polvonning chakmonidan tutishga kim jur’at etishini kutardi.* N.Chori, Bo‘ron tingan kecha. *Bo‘ron biroz s e p s i gan edi, qir pastidan yana quyuq to‘zon ko‘tarildi.* A.Hasanov, Chiroqlar.

SUXANDON, SO‘ZAMOL, GAPDON, NOTIQ, SUXANGAR, SUXANVAR Gapga chechan, so‘zga usta. **So‘zamol** so‘zi so‘zga boylik ta’kidini qabariq ifodalaydi, so‘zlashuv nutqiga xos. **Gapdon** so‘zi oddiy so‘zlashuvga xos, ko‘pincha salbiy baho namoyon bo‘ladi. **Notiq** so‘zida kitobiylik mavjud. **Suxangar** va **suxanvar** so‘zlarida poetik ta’kid mavjud, asosan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydi, eskirgan.

Yana biri sohibkor bog‘bon, Tosh ustida undirguvchi gul. Biri naqqosh, Biri s u x a n d o n, Biri esa qo‘shiqchi-bulbul... E.Vohidov, Saylanma. *Gulyaning otasi juda kirishimli, s o‘ z a m o l odam ekan.* E.A’zam, Shovqin. *Eshitgan edimki, Sohibqirong‘a tab’i mahzul bir s o‘ z a m o l sozanda manzur bo‘lmish, mashshoqlar ichra davrada ko‘ngul ochar erdi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Inson ko‘ngli haqidagi ancha-muncha kitoblarni titkilagan-u, ammo vaziyat taqozo qilganda, “odamlarning yuragiga oyoq qo‘yib devor oshadigan” g a p d o n larni ko‘raverib ko‘zi qotgani rost.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Iyagi silkinadigan bemor anchagina g a p d o n ekan.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *To‘ti xoladay to‘qqiz o‘g‘ilning onasi, majlisda n o t i q, terimda devkor ayolni jondan sevmaslik mumkinmi?* Oybek, Otin vodiydan shabadalar. *Ana endi shu xushvaqtlikda kunduz kuni ko‘pkari, to‘y, kechalikka sozanda, dutorchi, ohangar, s u x a n g a r lar so‘z aytadi.* “Yusuf va Ahmad”. *Quloq soling s u x a n v a r ning so‘ziga, o‘zi tirik, dushman tushmas iziga.* “Xushkeldi”. *Bu matla’g‘a tatabbu’ qilg‘on ko‘p s u x a n v a r lar va nazm gustarlar chun muqobalada debdurlar, lat yebdurlar.* Navoiy, Muhokamat ul-lug‘atayn.

SUYAK, SO‘NGAK, USTUXON Odam va umurtqali hayvonlar skeletining bir qismi. **So‘ngak** tarixiy, **ustuxon** kam qo‘llanadi.

Bo‘rijonning oriq, umurtqa s u y a k lari bo‘rtib, qovurg‘alari sanalib turgan qo‘sh ho‘kizi omochni zo‘rg‘a tortib boryapti. S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi. *Bobo... umr bo‘yi ko‘ksini bekitmagan, anordek qizg‘ish ko‘ksidagi s u y a k lar bo‘rtib chiqib turardi.* Mirmuhsin, Umid. *Bizlar gunohkormi, s o‘ ng a k laringiz Sinsa bizning og‘ir, qattol qo‘llarda?!* E.Vohidov, Saylanma. *Oyog‘imda bodim bor, s o‘ ng a k larim hali butun, shukr, zamona to‘klik, iligim to‘la, – de-*

dim. N.Aminov, Qahqaha. *Onangizni ko‘ring: u s t u x o n, bir hovuch ustuxon.* Shuhrat, Umr pog‘onalari. *Kirganimda yoshlik shijoati ufurib, tiyiqsiz kuch-quvvatga to‘lgan tanim tirishib, eti u s t u x o n iga yopishib qolgan, suyaklar teridan bo‘rtib chiqib turar, juda-juda mo‘rt va quvvatsiz tuyulardi.* U.Hamdam, Bir piyola suv.

SUYAKSIZ, BESUYAK Suyagi yo‘q, suyagi ajratib olingan. **Besuyak** so‘zi og‘zaki nutqda ko‘proq qo‘llanadi.

Go‘sht s u y a k s i z bo‘lmas, Sholi – kurmaksiz. Maqol. *Otamiz cholni tanidi: hazrati Xizr bobo! Boisi boshmaldog‘ida suyagi yo‘q! U kishining boshmaldog‘i s u y a k s i z bo‘ladi!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Til b e s u y a k, benazorat, istagan paytdida tish hatlayveradi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. – *Til qurg‘ur b e s u y a k, og‘izga kelganini aljimang, inim, – dedi juvozkash og‘rinib.* N.Norqobilov, Oqbo‘yin.

SUYUNCHI, SEVINCHI Biron quvonchli voqea to‘g‘risida xushxabar keltiruvchiga beriladigan sovg‘a. **Sevinchi** – shevaga xos so‘z.

E ahmoq kampir, bir norning bahosi ming tilla bo‘lmas-u, sen-ga men s u y u n c h i ga ming tilla beraymi?! “Nurali”. *Mirhosil oshnasiga quruq po‘pisa qilib, keyin hamshiraga qaradi: – Qizim, sen bunaqa sovuq gaplardan ehtiyot bo‘lgin, xo‘pmi? Yaxshi gap bo‘lsa, darrov s u y u n c h i ol. Yomonini ichingga yutovur.* T.Malik, Xazonrezgi. *Hasanali s e v i n c h i sini topshirgandan so‘ng, duoga qo‘l ochdi: – Ollo taolo umri bilan bergan bo‘lsin!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ishim yaxshi, kim kelsa, xotining Hasan-Husan tug‘di, deb s e v i n c h i olaveraman endi*. S.Ahmad, Tarjimayi hol.

SUZMA, CHAKKI Zardobi sizib chiqqan qatiqdan hosil bo‘lgan sut mahsuloti. **Chakki** – shevaga xos so‘z.

Yaylovdagi qirg‘iz o‘tovida tunab qolishga to‘g‘ri keldi. Qimiz ichdik, s u z m a yedik. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Egamberdi s u z m a ga bulab olgan nonni og‘ziga solib, duduqlanganicha bidillay ketdi* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *...uyi bozorjoyga yaqin Hotambovo nevarasini kesdirib, kechqurun bazm berdi, biz bir chekkada osh yeb olgandan keyin yashinmachoq o‘ynadik, men sariqmoy, c h a k k i sotiladigan kappon tagiga kirib, qapishib bekindim, hech kim topolmadi.* A.A’zam, Quroq. *Yo bobongdan qo‘rqasanmi? To‘g‘risini ayt, bo‘lmasa o‘zim urib yuboraman. Tagi sayozroq o‘zi. Haa, malades, ur! Yo hayot, yo mamot! Ch a k k i dan yala, ch a k k i dan.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar.

SUG‘URMOQ, CHIQARMOQ Suqilgan (joylashgan) o‘rnidan tashqariga tortmoq. **Chiqarmoq** bu ma’noda, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Shunday deb otam aravadan belkurak bilan boltani s u g‘ u r ib oldilar. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *...el uchun halok bo‘lgan bir kishi yuragidagi o‘qni s u g‘ u r ib oldi, jarohatdan silqqan qon yerga chak-chak tomib, o‘rnidan qizil gullar va uzumlar bosh ko‘tarib chiqdi.* I.Sulton, Ozod. *Boborayim gov,*

qo‘ltig‘ida chog‘roq tarvuz, chamasi, adirdagi palakdan qaytayotgan ekan, So-bir polvonni ko‘rib ko‘zlari chaqnab ketadi. Tarvuzni chetga itqitib, etigi qo‘njidan pichog‘ini ch i q a r di. N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun.

SO‘FI, MUAZZIN Masjidda azon aytib namozga chaqiruvchi shaxs. **Muaz-zin** so‘zi diniy nutqlar va manbalarda keng qo‘llanadi, kitobiylik ta’kidiga ega.

Butoqda xo‘roz qichqirar, Mezanada – s o‘ f i. Maqol. *S o‘ f i otasining dav-latida o‘qib olmagani, tirikchilik og‘ir ekani, machitning butun vaqfini imom, qolaversa, mutavalli yeb, s o‘ f i ga faqat yalatganidan hasrat qildi.* A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. *Saharlari mashinasini qasdma-qasdiga dudullatib, m u a z-z i n ga xalaqit berishga urinadigan bo‘ldi. Har kuni azon vaqti uyqusirab garaj-ga chiqadi-da, gudokni basma-bas chalib, Ashirmat so‘fining ovozini bosib tushmoqchi bo‘ladi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Jomedan m u a z z i n ovozi yangradi, dukchi shoshilinch ravishda duklarni, asboblarni yig‘ishtirgach, juma namoziga yugurdi.* Oybek, Ulug‘ yo‘l.

SO‘KMOQ, SO‘TMOQ, SITMOQ Tikilgan narsaning ipini uzib chiqish. **So‘tmoq, sitmoq**, asosan, shevada ishlatiladi.

Fotih Burhonovich ne zamonlardan beri biron narsa minmagan, oyog‘ini bu qadar yuqori ko‘tarmagan edi, xayolida shimining og‘i chokidan s o‘ k ilib ke-tadiganday tuyulardi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Barglar aro yolg‘iz yulduz ko‘ngil so‘rab tikilgay, Halovating chodirlari chok-chokidan s o‘ k ilgay.* S.Sayyid, Fasl. *Qaynonasi o‘tirib olganicha eski ko‘rpachani s o‘ t yapti.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Yaxshilik istabon o‘tgan umringiz, Choponday eskirdi, to‘zdi, s i-t ildi.* S.Sayyid, To‘rtliklar. *...ishqilib, og‘zida nosi bo‘lgan, ammo noskadi yo‘q, na jildida, na lippasida; pachoq qalpog‘ini yechib, astarining piltasigacha s i t ib qaraganmiz, so‘raganda miq etmaydi, faqat beti jiyriladi, qirriqning bopladim-mi deb tirjaygani shu.* A.A’zam, Quroq.

SO‘LG‘IN, SO‘LIQ G‘am-tashvishdan, biror kasallikdan dard chekib, o‘zi-ni oldirgan, rangi ketgan. **So‘liq** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi.

Kuyga to‘lib ketdi tosh-u devorlar, S o‘ l g‘ i n-s o‘ l g‘ i n sog‘ayadi bemor-lar. S.Sayyid, Bahor. *Qiz s o‘ l g‘ i n nigohini yerdan uzarkan, yigitga ko‘zi tushib, yuziga qizillik yuguradi.* N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun. *Hamma go‘zal: Yoshi o‘tgan onam ham Xushbo‘y edi xiyol s o‘ l i q gul misol.* Zulfiya, Saylanma. *Soppa-sog‘ odamday yozarmishsiz xat, Lekin, bilamanki, aftingiz s o‘ l i q.* Mirtemir, Asarlar.

SO‘LG‘INLIK, SO‘NIQLIK, SO‘LIQLIK Biror kasallikdan dard che-kish, g‘am-tashvish chekishdagi holat. **So‘niqlik** so‘zida bu ma’no bir qadar obrazli ifodalangan. **So‘liqlik** so‘zida “qattiq iztirob chekish natijasida o‘zini oldirganlik” ta’kidi aniq seziladi.

Naqadar bu kuzning hasrati ulkan. Dunyoning bor-budini – har bir zarrasi-gacha – bu za’faron s o‘ l g‘ i n l i k zabt etganday! U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgaz-

S

ma. *Sultonxonning rangi o‘cha boshlagan edi, ikki betidagi shapaloqday qiziliga s o‘ l g‘ i n l i k yugurdi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. – *Qiziq, – deding sen s o‘ l g‘ i n l i k bilan, – balkim, mehmonxona devoriga tog‘ning surati solingandir?* N.Eshonqul, Ozod qushlar. *Chunki kishi yuzidagi s o‘ n i q l i k, esnash odatidek, darrov boshqalarga ham o‘tadi.* Mirmuhsin, Ildiz va yaproqlar.

SO‘NA, BO‘KA, O‘QALOQ, QATALOQ Hayvonlarning terisi ostida, oshqozonida, burnida parazitlarcha yashab yetiladigan, qo‘shqanotlilar turkumiga mansub hasharotlarning umumiy nomi. **Bo‘ka** so‘zida ko‘proq kitobiylik seziladi. **O‘qaloq va qataloq** so‘zlari shevaga xos, asosan, sutemizuvchilar terisi ostiga yopishib olgan hasharotlarga nisbatan qo‘llanadi.

Ba’zi-ba’zida gullarga kelib qo‘nayotgan arilarning yoki ninachilar va s o‘ n a larning g‘ung‘illagan ovozlari bu shovqinni birpas bosib ketgandek tuyular, lekin bu hashoratlar ovozida ham bizning pyesamizga mos uyg‘unlik va ko‘tarinkilik bor, shu sababli hammasi tabiiy va go‘zal edi. N.Eshonqul, Bahouddinning iti. *Targ‘il yurib ketmasin deb goh-goh uning qornini silab turdi, jonivorni chaqmoqchi bo‘lgan s o‘ n a larni do‘ppisi bilan urib o‘ldirdi.* Muhammad Sharif, Jazo. *Go‘shting olaqarg‘aga xomtalash bo‘lgur, men yetib borgunimcha o‘t chimdib turadi, yetib borganimdan keyin, menga bir qarab qo‘yadi-da, xuddi sag‘risiga b o‘ k a tushgandak yana o‘ynoqlab qochadi.* G‘.G‘ulom, Shum bola. *Bizda o‘ q a l o q, bir joylarda so‘na, bo‘ka deyishadi, ana shu kasofat kelib qolsa, o‘zini ko‘rmaysiz, eshitmaysiz ham, tinchgina o‘tlab turgan mol bechora birdan shaytonlaydi, shunday shaytonlab ketadiki!* A.A’zam, Quroq. *Ilhom q a t a l o q chaqqan sigir kabi shataloq otib qochgan edi.* I.Shomurodov, Kultepada kechgan hangomalar.

SO‘RAMOQ, SO‘RAB-SURISHTIRMOQ, SO‘ROQLAMOQ, DARAKLAMOQ Biror kishining daragini yoki biror voqea-hodisaning tafsilotini bilish uchun surishtirmoq. **So‘rab-surishtirmoq** so‘zida astoydil izlash ta’kidi anglashiladi. **Daraklamoq**da daragini topish harakatida bo‘lish ta’kidi qabariq ifodalangan.

Xizmatkor yigit sal o‘ziga kelgandan so‘ng mulla Fazliddin undan va qo‘shnisidan voqeaning tafsilotlarini s o‘ r a b bildi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Safarali bizning tegirmonchimiz. Juda qiziq yigit. Shu kelib, qorovuldan sizlarni s o‘ r a bdi. Qorovul: “Nima qilasan?”, – desa, “Bizning tegirmon ham kartinaga tushib qolarmikin?”, – debdi.* A.Qahhor, Kartina. *Yangi buloqning s o‘r a b-s u r i sh t i r adigan narsalari juda serob edi. Ming afsuski, shundoqqina yonginasidan, bu dunyoga begonadek, sassiz-sadosiz, horg‘in va tolg‘in oqayotgan keksa buloq uning barcha savollarini javobsiz qoldirmoqda edi.* N.Norqobilov, Buloq. *– Har kuni shu ahvol – seni s o‘ r a b-s u r i sh t i r ib keluvchilar oshib bormoqda, – dedi u Abdullaga qarata.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *“Qani men kelganda, kulib qarshilab, Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan? “Baxtim*

bormi deya, yakkash s o ‘ r o q l a b” Meni she’rga o‘rab suqlanib boqqan? Zulfiya, Saylanma. *Machitning ichini, atrofini qaradim, odamlardan s o ‘ r o q l a dim, yo‘q.* A.Qahhor, Dumli odamlar. *Abdurahmon polvon qozon-o‘choqni ayollar ixtiyoriga qoldirib, uni chetga boshlagan va o‘pkalab degan: – Chortepadagi to‘yda seni rosa d a r a k l a tdim, ko‘rinmading, so‘g‘in uch marta odam qo‘yib, atay chaqirtirdim, qorangni ko‘rsatmading.* N.Norqobilov, Kurash. *Markaziy uyushmaga borib yo‘llanmasini d a r a k l a moqchi bo‘ldi-yu, anovi Sur’at sovuqqa uchramoqdan xavfsirab, hech qayoqqa qayrilmay to‘g‘ri istirohatgoh tomon yo‘l tortdi.* E.A’zam, Shovqin.

SO‘Z, KALOM, KALIMA, SUXAN Gap, gap-so‘z, nutq. **Kalom** va **suxan** so‘zlarida mazkur ma’no poetik ta’kid bilan ifodalangan.

Nazar baxshi qavatidagi sozini qo‘liga olgan yerida tag‘in o‘ylanib qoldi, yo‘q, bu kabilarga baxshiyona o‘gitlar hayf, tun qa’riga otilgan toshdek, aytgan s o ‘ z lari besamar ketadi. N.Norqobilov, Kurash. *“Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” yo‘rig‘ida aytilgan bu piching s o ‘ z lar dovulini Turg‘un xuddi o‘ziday ko‘rinishda do‘stiga qarata sochdi.* T.Malik, Xazonrezgi. *K a l o m im tamom. Senga ruxsat, Bibi Sardor!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Til bilan ilohiy k a l o m larni, shirin so‘zlarni aytishi yoki, aksincha, buning o‘rniga tilini g‘iybat, ig‘vo, yaramas gaplar bilan band etmog‘i mumkin.* T.Malik, Iymonlashish umidi. *Kitob-u doston bir qancha nazm-u nasr ila yozding, S u x a n maydonida javlon qilib topding zafar Jomiy.* Habibiy, Devon. *Jumaniyoz Jabbor bobo, She’r-u g‘azal birlan keling, Har bir s u x a n gul bo‘lsa gar, Gulda asal birlan keling.* S.Sayyid, She’r-u g‘azal.

S

SO‘ZLAMOQ, GAPIRMOQ, DEMOQ, SO‘YLAMOQ, AYTMOQ Og‘zaki ravishda muayyan fikrni ifoda etmoq. **Gapirmoq** va **demoq** so‘zlari og‘zaki nutqqa xos. **So‘ylamoq** so‘zida **so‘zlamoq**qa nisbatan poetik ta’kid kuchliroq. **Aytmoq** so‘zi ma’nosida fikr bayonining kimgadir qaratilganligi ta’kidi anglashiladi.

Ko‘p bilgan oz s o ‘ z l a r, oz s o ‘ z l a sa ham, soz s o ‘ z l a r. Maqol. *Yigit ular oldida pildirab borarkan, tinmay Azizxon qilayotgan ishlardan s o ‘ z l a b borardi.* S.Ahmad, Ufq. *Ulfatlarda har yerlarda o‘ltirdi, Sultonxon dardini endi g a p i r di.* “Rustamxon”. *Shu ikki fikr atrofida munozara juda qizib ketdi. G a p i r magan, tortishmagan odam qolmadi*. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *To‘qlik nelar d e dirmas, Ochlik nelar yedirmas*. Maqol. *Har neni yemak – hayvonning ishi, har neni d e m a k – nodonning ishi. Maqol. So‘z s o ‘ y l a shda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak.* A.Qodiriy, Kichik asarlar. *Shivirlab s o ‘ y l a ylik Vatan haqida Uzoq qish tuni Oq tongni uyg‘otgan ertakka o‘xshab.* A.Sher, Qadimgi kuy. *Meni nazariga ilmaydi birov, Sizga shu gaplarni a y t ayin tikka.* A.Oripov, Yozg‘uvchilikka ariza. *Ulug‘ otdoshlarim maqomi yuksak, Men shogird erurman garchand alarga. Har nechuk, bir gapni a y t m o g ‘ i m kerak: Oson bo‘lmagan hech Abdullalarga.* A.Oripov, Ism haqida.

T

TABRIK, QUTLOV, MUBORAKBOD Biror bayram, quvonchli kun, erishilgan muvaffaqiyat, g‘alaba munosabati bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bildiriladigan yoki yo‘llanadigan qutlov so‘zi. **Qutlov, muborakbod** so‘zlari kitobiy nutqqa xos, bu so‘zlarda qutlash ta’kidi qabariq ifodalanadi.

Yuzlari quvonchdan qizargan Obid Yo‘ldoshevich t a b r i k larga past tovush bilan rahmat aytardi. P.Qodirov, Uch ildiz. *U qabr ustida so‘zlamadi nutq, Tabrik ham aytmadi to‘ylarda xandon…* A.Oripov, Noma’lum odam. *Tabriklaydi Uni Thokur, “Ozodliging muborak!” Ro‘znomalar q u t l o v yozur, Bular unga ne kerak?* E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Oybek o‘zida yo‘q shod, qo‘li ko‘ksida xiyol bosh egib tashrif va q u t l o v uchun minnatdorchilik bildirdi*. U.Normatov, Adib huzurida 19 daqiqa. *Bola asraganning daragini eshitgan qo‘ni-qo‘shnilar, uzoq-yaqin qarindoshlar m u b o r a k b o d ga kela boshlagan edilar.* H.G‘ulom, Mash’al. *Nishonboy m u b o r a k b o d ga kelganlarning ko‘ngliga qo‘l solardi: – Mening yangi lavozimga o‘tganimdan xursand bo‘lganlaring uchun rahmat, – derdi ularga.* N.Yoqubov, Xazina sultoni.

TABRIKLAMOQ, TABRIK QILMOQ, QUTLAMOQ, MUBORAKBOD QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ) Biror bayram, quvonchli kun, erishilgan muvaffaqiyat, g‘alaba munosabati bilan tabrik so‘zini aytmoq. **Qutlamoq** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqda ishlatiladi. **Muborakbod qilmoq, muborakbod etmoq** so‘zlari poetik bo‘yoqqa ega, rasmiy, publitsistik, badiiy uslublarga xoslangan. **Muborakbod aylamoq** so‘zi eskirgan.

Oltinoydan boshqa hamma, hatto boya Klaraxonning qiliqlarini yoqtirmay qovog‘ini uygan qo‘rboshi ham, g‘alabadan xiyol mast, bir gapirib, o‘n kulishar… qo‘llarini silkitib t a b r i k l a shar edi... O.Yoqubov, Adolat manzili. *O‘yinning oxirida fizkulturachilar Samig‘jonni osmonga otib, t a b r i k l a shdi.* O.Yoqubov, Izlayman. *Anvar o‘zini t a b r i k q i l uvchi ulamo va ashraflar yuzidan ochiq ravishda riyo, shaytanat va ta’ma o‘qir, kambag‘allardan sodda samimiyat ko‘rar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Shahar a’yonlari Bobur kelib tushgan ko‘shkka borib, uni g‘alaba bilan q u t l a dilar...* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Viloyat hokimi va markazdan kelgan kazo-kazolar tender g‘olibi bo‘lgan loyiha muallifi Jobirbekni q u t l a shdi*. F.Tilovat, Qora quzg‘un. *Anvar devonxona sahniga yetkanda, ichkaridagi kattadan kichik mirzo, munshiylar yangi boshliqlarini m u b o r a k b o d q i l g‘ali o‘runlaridan qo‘zg‘aldilar*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *– Hazrati shahanshoh, Shirvondagi yangi g‘alabalar bila sizni chin dildan m u b o r a k b o d e t gali keldim, – deb gap boshladi Humoyun.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

TADQIQ QILMOQ (ETMOQ), TEKSHIRMOQ, TAHLIL QILMOQ (ETMOQ), O‘RGANMOQ Biror hodisaning mohiyatini ilmiy asosda o‘rganmoq, tajribada tekshirmoq, tahlil o‘tkazmoq. **Tadqiq qilmoq (etmoq), tahlil qilmoq (etmoq)** so‘zlari ilmiy uslubda faol ishlatiladi. **Tekshirmoq, o‘rganmoq** so‘zlari bu ma’nosida oddiy so‘zlashuvda ham qo‘llanadi.

Xullas, bu joylarni t a d q i q e t ib, aniq bir fikrga kelish kerak. S.Karomatov, Oltin qum. *…A.L.Kun garchi mutaxassisligi sharqshunos bo‘lsa-da, Xiva xonligi arxiv hujjatlarini to‘liq t a d q i q q i l ishga ulgurmadi.* U.Bekmuhammad, Xiva xoni arxiv hujjatlarining tadqiq qilinishi. *– Andoqki, kamina bilgan, o‘qigan, eshitgan narsalarimni tajriba toshiga urib t e k sh i r ib ham ko‘rganmen... – iljaygancha tumog‘a ko‘zlarini o‘ynatib dedi Malik Ashraf.* M.Ali, Sarbadorlar. *Yo‘q, buloq suvi bu. Chorbog‘imizdagi buloqdan. Tarkibini t e k sh i r tirgani opketyapman. Biror natija chiqib qolsa, keyin, balki...* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Jinoyat bilan jinoyatni keltirib chiqaradigan sharoitning farqiga bormaydigan, jinoyat sodir bo‘lishiga turtki bo‘ladigan holatlarni t a h l i l q i l a olmaydigan g‘irt savodsiz sudya deb yozdim.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Romandagi bayon uslubining o‘zicha ravonligi, qahramonlar ruhiyatining atroflicha t a h l i l e t ilganligi, hayot falsafasining teran aks ettirilishi har ikki sinovdan muvaffaqiyatli o‘tishni ta’minlagan.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Albatta, shoir yoki adib, tarixiy mavzuda ijod qilishga bel bog‘lar ekan, tom-tom kitoblarni, sahifa-sahifa tadqiqot va arxiv materiallarini to‘plashi, ularni chuqur o‘ r g a n ishi tabiiydir.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *...badiiy adabiyotga taalluqli muammolarni atroflicha va chuqur ilmiy o‘ r g a n ish – adabiyotshunoslikning vazifasi…* D.Quronov, Adabiyotshunoslikka kirish.

TAKRORLAMOQ, QAYTARMOQ 1. Biror ish, xatti-harakatni takror holda bajarmoq. **Takrorlamoq** so‘zi qo‘llanish darajasiga ko‘ra nisbatan faol, deyarli barcha nutq uslublarida uchraydi. **Qaytarmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. Bu so‘z jumla tarkibida *yana, takror, bir necha bor* kabi birliklar bilan bog‘lanib kelganda, xatti-harakatning bir necha marta bajarilganligini anglatadi.

Yozuvchiga avvalgi asaridan qolgan hayajonlarini unutish qiyin kechadi. Qisman bo‘lsa ham, o‘sha his-hayajonlarni beixtiyor t a k r o r l a yotganini o‘zi sezmaydi. S.Ahmad, So‘z gavhari. *Zobit biroz past tushsa-da, sezdirmay amirona dedi: – Boshqa t a k r o r l a ma… Sen boshqa askarlarga o‘rnak bo‘l, o‘rgat, yo‘l ko‘rsat.* Q.Norqobil, Kulib tur, azizim. *Bu tajriba tugagach, robot yordamida yana q a y t a r amiz. Keyin natijasini solishtiramiz.* T.Malik, Falak.

2. Biror so‘z, jumla, matnni takror qo‘llamoq. **Takrorlamoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Qaytarmoq** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos.

– Rahimjon aka! – dedi Ra’no sekin. Dedi-yu, entikdi, so‘ngra chuqur nafas olib, ohista t a k r o r l a di: – Katta rahmat!.. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

Qorako‘z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko‘cha boshiga kelganda, albatta, kampir shu gaplarni t a k r o r l a ydi. S.Ahmad, Qorako‘z Majnun. – *Sho‘xlik qilmay, jim o‘tir, xo‘pmi? – dedi har doimgi gapini q a y t a r ib.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *U yana har kungi gapini q a y t a r adi: – Axir qachongacha o‘zing sog‘asan.* A.Hotamov, Yaxshilik daraxti.

TANBEH, DASHNOM, KOYISH, DAKKI Yo‘l qo‘yilgan biror kamchilik yoki qilingan ayb uchun koyish, dashnom berish maqsadidagi gap-so‘z. **Dashnom** so‘zida belgi darajasi ancha ortiq. **Koyish** so‘zida shunchaki urishib qo‘yish ta’kidi o‘zakdan ochiq anglashiladi. **Dakki**da belgi darajasi pastroq, ko‘proq so‘zlashuvda islatiladi.

Tog‘ tumanini tugatib chakki qilibsizlar. “Yana t a n b e h” deb o‘yladi Mariya Vasilyevna. A.Muxtor, Chinor. *Dindor kishilar uchun eng sevimli narsa – boshqalarning t a n b e h i bilan o‘z qusur va ayblaridan voqif bo‘lmoqdir.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Men o‘n besh yildir, azim kentda ijarama-ijara sudralib xotinimdan d a sh n o m eshitib ezilsam, u yoqda otamning tanti boshida buvijonim har zamon-har zamonda yong‘oq chaqib turadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *...hozirgina tandirdan uzilgan issiq nonlardan birini kosadagi suvga bo‘ktirib-bo‘ktirib yesa, ora-sirada tinib-tinchimas Oftob momosining xivichini tatib, uning beg‘araz d a sh n o m larini to‘yib-to‘yib eshitsa!* N.Norqobilov, Kurash. *Yuzini borutning qurumi qoraytirgan, faqat ko‘zining va tishining oqlarigina aniq ko‘rinadigan to‘pchiboshi Sherxondan yana k o y i sh eshitdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Xurram qotma daf’atan ne gapligini anglamadi. Anglamagani uchun ham momosidan d a k k i eshitib, nari ketmoqqa majbur bo‘ldi.* N.Norqobilov, Kurash. *Esingdami, dadangdan d a k k i eshitganing... Ho‘, temir yo‘l yoqasida suv sug‘organingda? Tojiddin esladi, shekilli, asta bosh irg‘adi.* S.Anorboyev, Yaxshilik urg‘i.

TAQDIR, QISMAT, YOZMISH, PESHANA (PESHONA), NASIBA, KO‘RGILIK Ilohiy tushunchaga ko‘ra, insonning oldindan belgilab qo‘yilgan hayot yo‘li, butun umri davomida duch keladigan jami voqea-hodisalar tizimi. **Qismat, ko‘rgilik** so‘zlari ma’nosida tashvishli, qayg‘uli holat ta’kidi anglashiladi. **Peshana, nasiba, ko‘rgilik** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv tilida ishlatiladi. **Peshana, nasiba** so‘zlarida og‘ir, qayg‘uli holatga ko‘nikish ta’kidi ham namoyon bo‘ladi. **Yozmish** so‘zi eskirgan.

Xalqning ko‘zi bog‘lansa, qulog‘iga qo‘rg‘oshin quyilsa, t a q d i r hukmi o‘limdek haq, degan aqidani uning zehniga singdirish osonroq bo‘ladi. A.Qahhor, Hindiston xotiralaridan. *T a q d i r uning bag‘ridan sevimli Saragulini yulib oldi-yu, o‘rniga mana shu ovunchoqni, mana shu qimmatga tushgan jajji baxtni berdi*. A.Muxtor, Chinor. *Q i s m a t bizni bu balo girdobiga soldi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Ko‘ngilda Zuhradan go‘yo bir xat bor, Go‘yoki Laylidan meros q i s m a t bor.* O.Matjon, Odamning soyasi quyoshga tushdi. *Bular taqdirga*

tan berganlar, o‘zining o‘ligi ham shu biyobonda qolib ketishini bo‘yniga olib qo‘yganlar edi. Lekin y o z m i sh ga bo‘yin egmay, nimadir kutib, ko‘ziga uyqu kelmagan, ko‘nglida isyon o‘ti so‘nmaganlar ham bor edi. A.Muxtor, Chinor. *Hakimjonni kuzatishda “hozirgi yoshlar”, “p e sh a n a” degan gaplarni aytibdi*. A.Qahhor, Muhabbat. *Kimning p e sh o n a siga nima yozilgan bo‘lsa, ertami kechmi, shu narsa uning boshiga keladi, undan qochib qutulib bo‘lmaydi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *N a s i b a m shu ekan, endi men sizning himoyangizga muhtojmen, begimni olib kelavering.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Nasibangizda bor ekan, qishlog‘imizga keldingiz. Bir piyola choy ichdingiz.* T.Malik, Shaytanat. *K o‘ r g i l i k bu, dedi hind-u, Taqdir, dedi musulmon, Lekin zo‘rlar zulmiga u Tan bermadi hech qachon*. E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Saidxon aka, bu qanday k o‘ r g i l i k-a? Endi men nima qildim. Men o‘lsam, kim yig‘laydi onam deb?* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri.

TAQSIMLAMOQ, TAQSIM QILMOQ, BO‘LMOQ Muayyan ulush nisbatida qismlarga ajratmoq. **Bo‘lmoq** so‘zi mazkur ma’noda oddiy so‘zlashuvda faol qo‘llanadi.

Mavlon aka nonushta ustida bugun qilinadigan ishlarni oila a’zolari o‘rtasida t a q s i m l a di. H.G‘ulom, Mash’al. *Nima bo‘lsa ham, mulkingizni qanday t a q s i m l a sangiz ham, menga baribir, men hamisha sizni sog‘inib kelganman.* U.Hamdam, Muvozanat. *Axir odamlarni bir yerga jamlab, keyin barobar t a q s i m q i l ib, o‘rtamiyona bir narsa hosil qilib bo‘lmaydi*. A.Muxtor, Chinor. *Mol-u mulkingizni qanday t a q s i m q i l sangiz, qilavering.* U.Hamdam, Muvozanat. *Xotinlar dasturxondagi tuz, mayiz va choyni b o‘ l ib olishdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Go‘ro‘g‘li pulni to‘rt b o‘ l di. Bir bo‘lagini Boloyimga berdi, bir bo‘lagini Guloyimga berdi...* “Avazxon”.

TARJIMA, O‘GIRMA Biror asar, matnni bir tildan boshqa tilga yoki bir necha tillarga o‘girishdan iborat ijodiy ish. **Tarjima** so‘zi nutqda shunday ishning barcha turlariga nisbatan keng qo‘llanadi. **O‘girma** so‘zi o‘zbek tilining ichki imkoniyati asosida yasalgan, nisbatan kam qo‘llanadi, kitobiy nutqqa xos.

T a r j i m a lar ustida ancha shoshilib bo‘lsa hamki, juda jiddiy ish olib borildi... H.Olimjon, Salom, Pushkin. *Matbuot sahifalarida t a r j i m a masalalariga bag‘ishlangan diqqatga sazovor har bir chiqish jonli munozaralarga sabab bo‘lmoqda.* A.Qahhor. Tarjimachilik tashvishlari. *“Shovqin” romani milliy ruhiyati bilan ajralib turadi. ...Bu o‘ g i r m a esa faqat “uning malla jingalak sochi” ma’nosini beradi.* M.Barotova, E.A’zamning “Shovqin” romani tarjimasida milliy xarakterga xos xususiyatlarning berilishi. *Men nimaga ishonib unday xat bitib bera qoldim? Tuzoqqa tushirishdi, desang-chi! Yaxshi ham, Sutchi bergan o‘ g i r m a ni qo‘shmaganim!..* M.Mansur, Judolik diyori.

TARJIMA QILMOQ, O‘GIRMOQ, AG‘DARMOQ Bir tildagi matnni o‘zga tilda ifoda etmoq, boshqa til materialida bermoq. **O‘girmoq, ag‘darmoq** so‘zlari mazkur ma’noni tegishli so‘zlar qurshovida aniq ifodalaydi.

Keyinchalik Bag‘dodga borib, qadimgi yunon olimlarining falakiyotga oid asarlarini t a r j i m a q i l dilar va ilmiy sharhladilar. Mirmuhsin, Me’mor. *Oqsoqol o‘rischani yaxshi bilishi endi esiga tushgandek t a r j i m a q i l di.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Asadulla xayolidagi o‘zbekcha she’rni forsiyga o‘ g i r ib yozdi...* “Sharq yulduzi”. *Hikoya rus tilida “Literaturnaya Rossiya” haftaligida chiqdi, to‘plamga kirdi, talay qardosh xalqlar tillariga, chet el tillariga o‘ g i r ildi.* O‘.Hoshimov, Dehqonning bir tuni. *Axir u asl nusxadan yoki loaqal ruschadan emas, fransuz tilidan a g‘ d a r moqda-ku!* A.Qahhor, Maqolalar va suhbat. *Shu yili “Munozara” rus tiliga a g‘ d a r ilib, oz sonda kitob bo‘lib chiqdi.* B.Qosimov, Abdurauf Fitrat.

TARJIMON I**, TARJIMACHI, TILMOCH, MUTARJIM** Tarjimonlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs. **Tarjimachi** so‘zi nutqda kam ishlatiladi, ko‘proq “no‘noq” tarjimonlarga qarata qo‘llanadi. **Tilmoch, mutarjim** so‘zlari eskirgan. **Tilmoch** sinxron tarjima qilish bilan shug‘ullanadigan mutaxassisni ham bildiradi.

Biz doim asl nusxaning o‘zidan tarjima qila biladigan tarjimon bo‘lsa deymiz. Lekin bunday t a r j i m o n lar bizda hozircha u qadar ko‘p emas. A.Qahhor, Maqolalar va suhbat. *Mustaqillik yillarida “Jahon adabiyoti” jurnalining maydonga kelishi adabiy-madaniy hayotning taqozosi bilangina emas, balki ustoz t a r j i m o n lar ijodiy ishlarini yangi tarixiy sharoitda davom ettirib, xalqimizning madaniy va ma’naviy olamini yanada boyitish talabi bilan ham ro‘y berdi.* N.Karimov, Tarjima san’ati va jahon adabiyoti. *Joylardan keladigan originallarni (asl nusxa) o‘qib bo‘lmaydi, t a r j i m a ch i larning no‘noqligi ishlab chiqarishni orqaga siltab, naborchilarni asabiy qiladi.* G‘.G‘ulom, Mukammal asarlar to‘plami. *...Bir necha kundan so‘ng t a r j i m a ch i keldi.* T.Malik, Shaytanat. *Hokim gap nima to‘g‘risida ketayotganligini t i l m o ch dan so‘rab, Teshaboyga kulib qo‘ydi − targ‘il ko‘zlarida g‘alati bir sirning o‘ti chaqnadi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Biroq sal fursat o‘tmay, hokim to‘ra t i l m o ch ni o‘rnidan quvdi.* S.Ahmad, Hukm. *...Rindona qiyofali bir m u t a r j i m kishi ham shu oraliqda so‘z izlab yurganday tuyuladi.* S.Sayyid, Bir mutarjim xokisor. *Asqar Mahkam estetik dunyosini uning tarjimalari ham baralla ko‘rsatib turibdi, shoir m u t a r j i m sifatida “Avesto”ni o‘zbekchaga ag‘dardi*. O.Toshboyev, Haq oshig‘i yoxud chin ma’noda shaxs bo‘lib o‘tgan adib.

TARJIMON II**, O‘GIRGICH** Kompyuter va boshqa axborot kommunikatsiya vositalarida tarjima ishlarini bajaruvchi dasturlar. **Tarjimon** so‘zi bu ma’nosida *dastur* so‘zi bilan birga ishlatiladi. **O‘girgich** so‘zi o‘zbek tilining ichki imkoniyati asosida yaratilgan, keyingi davr mahsuli. Bu so‘z ham asosiy hollarda *dastur* so‘zi bilan birga qo‘llanadi.

Shu o‘rinda “Microsoft” t a r j i m o n lari qo‘llayotgan va, menimcha, xato hisoblangan usul va tarjimalar haqida ikki og‘iz to‘xtalib o‘tsam... F.Ma-

matxalilov, “IT” sohasiga oid o‘zbekcha tarjimalar xususida. *T a r j i m o n dasturlar kompyuter yordamida matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish dasturlaridir.* Gazetadan. *...To‘la o‘girgich kabi qadam-baqadam o‘ g i r g i ch dastur tuzuvchi tomonidan yozilgan dastlabki kodni mashina kodiga o‘giradi.* “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati”.

TARJIMONLIK, TILMOCHLIK, MUTARJIMLIK, TARJIMACHILIK Tarjimonlik faoliyati, tarjimachilik kasbi. **Tilmochlik, mutarjimlik** so‘zlari eskirgan. Keyingi yillarda **tilmochlik** so‘zining birmuncha faollashganligi kuzatiladi. **Tarjimachilik** so‘zida faoliyatdan ko‘ra soha ma’nosini ifodalash kuchli, kitobiy uslubga xos.

Badiiy tarjima sohasida ham shoir o‘ziga xos t a r j i m o n l i k madaniyatini va poetik didini namoyish qilgan edi. O‘.Rashid, Usmon Nosir haqida. *Tarjimonlik, to‘g‘rirog‘i, haqiqiy tarjimonlik tarjima qilinayotgan asarni o‘shanday mahorat bilan qayta yozishdir.* D.Ro‘zmetov, Tarjimonlik sohasini qutqaring! *Enasiz qulunday alanglab kun-tun, Xatar jarlaridan izladik rukn, Dag‘i t i l m o ch l i k ka til urdi xazon.* A.Qutbiddin, Xayol kechasi. *Kunlardan bir kun Samarqand politsmeysteri to‘ramni o‘ziga t i l m o ch l i k ka taklif qiladi.* R.Bobojon, Muhabbat mezoni. *...Tarjimonlik, adabiy m u t a r j i m l i k kasb yo hunar emas, bu san’at, mehr va mahorat, muhabbat, iztirobdir.* S.Sayyid, Bir mutarjim xokisor. *Bas, juvonmarg shoirning m u t a r j i m l i k san’ati adabiyot olamida yanada teranroq ochib berilmog‘i kerak*. I.Haqqul, Haqning ozod quli. *Mirzaali Akbarovning t a r j i m a ch i l i k sohasida o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi e’tiborga molikdir.* M.Akbarov va tarjimalari haqida. *Men t a r j i m a ch i l i k bilan ham shug‘ullandim. Ushbu mashg‘ulotimning eng asosiysi Dantening “Ilohiy komediya”si deb bilaman.* A.Oripov, Tanlangan asarlar.

TARJIMONLIK QILMOQ, TILMOCHLIK QILMOQ, MUTARJIMLIK QILMOQ Tarjimonlik faoliyati bilan shug‘ullanmoq. **Tilmochlik qilmoq, mutarjimlik qilmoq** so‘zlari eskirgan, asosan, tarixiy mavzudagi asarlarda qo‘llanadi. **Mutarjimlik qilmoq** ko‘proq yozma shakldagi, **tilmochlik qilmoq** esa ko‘pincha og‘zaki tarzdagi tarjimonlik qilishni bildiradi.

Nasib bo‘lsa, chet elliklar bilan ishlaganimizda t a r j i m o n l i k q i l adi. N.Ismoilov, Shayton zanjiri. *U grek fani va falsafasini xalqqa yoyishda, bir tomondan, t a r j i m o n l i k q i l sa, ikkinchi tomondan, grek mutafakkirning asarlariga sharhlar yozdi; tushunish qiyin bo‘lgan asarlarini oddiylashtirdi.* B.Karimov, Madaniyatshunoslik. *Qalin tilini chiqarib xotinga ko‘rsatadi, kallasini tebratadi va Abdishukurga murojaat qiladi: – Abdishukur, masxara qilyaptimi do‘ndiqcha? T i l m o ch l i k q i l ing.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qiziq holat-a, bir millatga mansub ikki fuqaro o‘rtasida mutlaqo boshqa bir millat vakili t i l m o ch l i k q i l sa*. Sh.Hayitov, Tilimiz taraqqiyotiga tahdid. *O‘zi m u t a r j i m l i k q i l gan asarlar uning istaklariga hamohang edi*. Y.Xo‘jamberdiyev,

Sog‘uniy. *Tarjimonlik, adabiy mutarjimlik qilish kasb yo hunar emas, bu san’at, mehr va mahorat, muhabbat, iztirobdir.* S.Sayyid, Bir mutarjim xokisor.

TARZDA, HOLDA, XILDA, QABILIDA, YO‘SINDA, RAVISHDA, SURATDA, TAXLITDA, TARIQA Biror holatda, shu tarzda yoki boshqacha yo‘sinda (belgi, harakat-holat kabilarga nisbatan). **Tarzda, holda, yo‘sinda, taxlitda** so‘zlari nutqda ko‘pincha *qay* so‘roq olmoshi bilan birga qo‘llanadi. Bunday vaqtda “holat” ma’nosi kuchli ifodalanadi. **Xilda, yo‘sinda, taxlitda** so‘zlari *bir, shu* so‘zlari bilan birga kelib, harakat-holat, belgining bir ko‘rinishda, o‘xshash holatda ekanligini anglatadi. **Qabilda, yo‘sinda, ravishda, suratda, taxlitda, tariqa** so‘zlari *shu* so‘zi bilan birga ishlatilganda, “harakat-holat, belgining o‘xshash holatda ekanligi” ta’kidi yuzaga chiqadi.

Lekin hozir buning mavridi emas, mazkur ma’no saqlanib qolsa-da, savolning yumshoqroq t a r z d a qo‘yilishi shundan. T.Malik, Shaytanat. *U notiqlikning hamma qoidalariga rioya qilib, “mafkura maydoni”ning hamma “past-baland”larini e’tiborga olib so‘z boshlaydi. Xuddi shu t a r z d a so‘zini tamom qiladi*. A.Qahhor, Qaydlar. *Istiqbolning shirin xayollarig‘a ko‘milgan h o l d a maxdum asr namozi uchun tahorat olar edi...* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Modomiki, shundoq ekan, bu azim qurilish brigadasini texnika bilan mukammal qurollanmagan h o l d a tasavvur qilish mumkin emas*. A.Qahhor, Mashina – odamning do‘sti. *To‘plamdagi boshqa hikoyalar ham shu x i l d a yozilgan bo‘lib, ularda ham favqulodda hodisalar, balandparvoz iboralar yo‘q.* M.Qo‘shjonov, Mohiyat va badiiyat. *Rasmiy so‘roqlar bu x i l d a borganda, orqadan Miryoqub g‘ayrirasmiy yo‘llar bilan so‘roq berardi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Uchinchidan, meni Anvarga yopishtirib, mol-dunyo to‘g‘risida “gilam sotsang, qo‘shningga sot, bir chekkasida o‘zing o‘tirasan” q a b i l i d a ish tutmoqchi!* A.Qahhor, Kundoshlar. *Sen menga tegma, men senga tegmayman q a b i l i d a ish tutish – eng xavfli maraz...* F.Musajonov, Himmat. *Vazifani qay y o ‘ s i n d a o‘rinlatganlari bo‘yicha hisob berib, Bek akalaridan olqish olishni o‘ylab, kayfiyatlari ko‘tarildi.* T.Malik, Shaytanat. *Chorsu bozoridan chiqib uyi tomon yo‘l olgan Abdulla... boyagina bozorda o‘z ko‘zi-o‘z qulog‘i bilan ko‘rgan-tinglagan hangamalarni qay y o ‘ s i n d a qog‘ozga tushirish yo‘sinini izlardi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Bo‘layotgan gaplar biron joyda yozma r a v i s h d a qayd qilinmasin.* S.Ahmad, Yulduz. *Poytaxtdagi yor-do‘stlarining harakatlari soyasida u shartli r a v i sh d a qamoqdan chiqarildi*. A.Qahhor, Maqolalar va suhbat. *Bek qayerda qanday majlis bo‘lsa qolmaydi; borganida ham ataylab hammadan kech boradi-da, o‘rtadan tantanali s u r a t d a o‘tib, oldingi qatorga o‘tiradi*. A.Qahhor, Bek. *Ular oxirgi paytda keng s u r a t d a qo‘llanilayotgan uslubga murojaat qilib, tugallanmaydigan yo‘lni tanlashgan, chog‘i.* X.Hamidov, Tugatish. *Shu t a x l i t d a bola-chaqamning oldiga boramanmi?* A.Qahhor, Bir shofyorning xotira daftaridan. *Eson shunday xayollar bilan uyga qay t a r i q a yetib kelganini ham sezmadi.* H.Ahmar, Kim haq.

TASKIN, TASALLI, YUPANCH Insonni ruhiy jihatdan yupatish, tinchlantirish his-tuyg‘si. **Tasalli** so‘zida yupatish, taskin berish belgisi ta’kidi kuchli. **Yupanch** so‘zida “yupatish” ifodasi ochiq ifodalanadi, so‘zlashuv tiliga xos.

Yuragim ranjigan boladay, Na ermak, t a s k i n ga ko‘nadi. Sh.Rahmon, Saylanma. *Nachora... Endi birgina t a s k i n shulki, ota-onam behuda yashashmadi – naslimizni davom ettiruvchi, to‘rt o‘g‘il, ikki qizdan iborat zavol topmas bog‘ yaratib ketishdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Yo‘qlab turishadi, yig‘ilish kerak bo‘lganda, yig‘ilishadi, yig‘lash kerak bo‘lganda, yig‘lashadi. Bu, albatta, behuda gap, o‘rinsiz, asossiz t a s a l l i, chunki gap ayol boshiga nima yopinib yurishida emas, nima uchun yopinib yurganligida*. A.Qahhor, Teshik dasturxon. *Yengil esgan shabadadanmi yo brigadirning t a s a l l i si kor qildimi, harqalay, raisning chehrasi biroz yorishdi.* X.Ergashev, Tadbirkor rais. *Bu tovushlar, bu portlashlar uning asabini negadir buzmadi. Qiz qalbiga y u p a n ch, o‘ziga hamdard kishi izlardi.* S.Ahmad, Ufq. *Bu qamoqxonada ona uchun ham, bola uchun ham birgina y u p a n ch, birgina baxtli daqiqalar bor edi.* T.Malik, Shaytanat.

TAXMINIY, TUSMOLIY, FARAZIY Taxminga asoslangan, faraz holatidagi. **Taxminiy** so‘zining qo‘llanish darajasi nisbatan faol. **Faraziy, tusmoliy** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqqa xoslangan.

Maktubning t a x m i n i y mazmunini Anvar posho bilan kelishgan edik. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *T a x m i n i y gaplar quloqqa yoqmaydigan bo‘lib qoldi.* H.G‘ulom, Mehnat va go‘zallik. *Ko‘zdan kechirish o‘tkazilgan hodisaning mohiyati, uni o‘tkazish mexanizmi va holatlari to‘g‘risida tergovchining t u s m o l i y xulosalari, tusmollari, baholash xulosalari tekshiruv bayonnomasida aks etmasligi kerak*. A.Haqberdiyev, Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda… *Ijtimoiy tarmoqlarda mazkur voqelikka nisbatan bildirilayotgan “asossiz va t u s m o l i y ayblovlar” tashkilotning “imijiga” putur yetkazmoqda.* Gazetadan. *Turkiy xalqlar uchun umumiy bo‘lgan adabiyotimizni sak (soq)lar davridan boshlashimiz taxminlarga asoslangan f a r a z i y gaplar emas...* I.Nurahmad o‘g‘li, Turkiy xalqlar adabiyotining ildizlari. *Elementar zarrachalar fizikasida ko‘p narsalar Xiggs-Bozon kabi f a r a z i y zarrachalarga bog‘liq bo‘lib qolyapti.* M.Toirov, XXI asr ham fizika asri (mi?)

TAYYOR I, SHAY, TAXT, HOZIR Biror ish, yumushni bajarish, xatti-harakatni amalga oshirishga, shay holatda bo‘lgan. **Shay** so‘zida biror ishni amalga oshirishga to‘liq chog‘langanlik ta’kidi mavjud. **Taxt** so‘zi bu ma’noda nutqda kam qo‘llanadi. **Hozir** so‘zi, asosan, so‘zlashuvda ishlatiladi, bu so‘zda doimiy tayyorlik ta’kidi bor.

Inson t a y y o r turar, sinovlarga shay, Yashaydi oilam, el-u yurtim deb. A.Oripov, Uch zina. *Garchi bekning yuragi hozir bo‘lsa ham Marg‘ilong‘a qarab uchishga t a y y o r edi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Oldilariga bir uyum*

mayda tosh, qalampirga qorilgan loy soqqani g‘amlab, temirchining cho‘qmoriday shay turgan Rayhon qiziq va Chumakvoy ularni istehkom ortida kutib oldi... A.Obidjon, Meshpolvon jangga otlandi. *Askarlar maydonning chetida, baland qo‘rg‘on tagida saf tortib, miltiqlarining nayzalarini maydonga o‘qtalib shay turishibdi.* A.Muxtor, Chinor. *Ikkiga bo‘lingan qontalash yaproq, Titrab, to‘kilmoqqa shay dir kun sari.* I.Mirzo, Sizni kuylayman. *Mollarni olib kelishga taxt holatda turishsin.* N.Ismoilov, Dunyo. *Sharofat hamon shovqin solar, Sidiqjonga otgani narsa izlab, u yoq-bu yoqqa yugurar, topganini otar, lekin endi g‘azabidan emas, otilayotgan narsalarga chap bermay t a x t turgan Sidiqjonning olov sochayotgan ko‘zlarini ko‘rib qo‘rqqanidan otar edi*. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Nimaiki maslahat yoki yordam kerak bo‘lsa, biz xizmatingizga hozirmiz.* Shuhrat, Jannat qidirganlar. *Shahanshoh biza ne farmon bersalar, ado etishga hozirmiz. Ammo qulingizda bir andesha vardir.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

TAYYOR II**, SHAY, TAXT, MUHAYYO, HOZIR** Muayyan narsa-predmet foydalanishga, qo‘llashga yoki iste’mol qilishga tayyor holatda. **Shay** so‘zi narsaning qo‘llanishga chog‘langanlik holatidaligini anglatadi. **Taxt** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos, narsaning qo‘llanishga har jihatdan tayyor holatda turganligini ta’kidlaydi. **Muhayyo** so‘zi, asosan, yozma nutqda qo‘llanadi, narsa-predmetning foydalanishga yoki iste’mol qilishga naqd qilib qo‘yilganligini anglatadi, bu so‘zda poetik bo‘yoq ortiq. **Hozir** so‘zi bu ma’nosida nutqda kam ishlatiladi.

G‘avvos t a y y o r aravalardan birini olib keldi. Mirmuhsin, Me’mor. *Chustiy o‘zi yangi she’riy ifodalar yaratmaydigan, o‘tgan shoirlardagi t a y y o r ifodalardan hatto mexanistik ravishda foydalanadigan bo‘lib qoldi...* A.Qahhor, Maqolalar va suhbat. *Xontaxtaga quroq dasturxon yozilgan, o‘rtada pista, bodom, qand-qurs to‘la patnis turardi. Oqsoqolnikida patnis hamisha tayyor!* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Urushdan qaytgandan beri shofyorlik qiladi, mashinasi doim egarlangan otdek olis yo‘lga shay turardi.* O‘.Umarbekov, Ko‘prik. *Klubda stollar yasatib bo‘lingan. O‘tirishni boshlashga hamma narsa shay.* M.Xayrullayev, Ko‘ngil. *Miltiqlar t a x t, otlar tayyor, lekin kimning qush olib kelishini kutishar edi...* A.Qahhor, Xotinlar. *Hamma narsa ishni boshlash uchun t a x t.* S.Karomatov, So‘nggi barxan. *Maktablari naq jahongirlarning qasriday. Yegulik, ichkilik m u h a y y o.* L.Bo‘rixon, Sirli muallim. *Ertalab xolodilnikni ochsa, “suxoy payok” m u h a y y o. Pishloq, kolbasa, sariyog‘, tuxum...* O‘.Hoshimov, O‘zbek ishi. *...Ichimlik suvi iste’molga h o z i r!* Gazetadan. *Yeguliklar tayyor, dasturxonga tortishga h o z i r holatda*. I.Salimova, To‘kin dasturxon.

TAYYOR BO‘LMOQ, TAXT BO‘LMOQ, MUHAYYO BO‘LMOQ, SHAY BO‘LMOQ, HOZIR BO‘LMOQ Biror narsa foydalanish, qo‘llash yoki

iste'mol qilishga tayyor holatda bo'lmoq yoki ish, vazifa, xatti-harakatni bajarishga shay turmoq. **Muhayyo bo'lmoq** so'zi esa o'rni bilan narsaning ishlatishga yoki iste'mol qilishga tayyor holatga kelganligini ifodalaydi. **Taxt bo'lmoq, shay bo'lmoq, hozir bo'lmoq** so'zlarida tayyorlik belgisining ortiqligi anglashiladi.

Sutchoy t a y y o r b o ' l di, suzib kiraymi? A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Domlalarni choy va dasturxon t a y y o r b o ' l guncha ovutib turish uchun mulla Obid palakdan uch-to'rtta qovun uzib chiqadi.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *Hamma narsa taxt bo'lgan.* O.Yoqubov, Izlayman. *Noz-ne'mat muhayyo bo'lsa-yu, diling siyoh, ruhing so'nik bo'lsa, hayotda ne lazzat bor?* M.Jo'ra, Iztirob. *Yaxshilik bor yerda shay bo'lgan sozsan, Tunlari to'lishgan oy bo'lgan sozsan.* T.Sulaymon, She'rlar. *Asbob-uskuna shay bo'lsa, materiallar taxt bo'lsa, kalavachi pand yemaydi.* M.Jo'ra, Quyoshdan nur emganlar. *Buni qarang, shu esdan chiqibdi-ku. Kechirasiz, hechqisi yo'q, besh minutda hozir bo'ladi.* O'.Umarbekov, Oyning oltin o'rog'i. *Bir qarishlik yo'lga kirsang, qo'yma beyo'ldosh qadam, Bir maviz ollingda hozir bo'lsa, behamdam yema.* S.Olloyor, G'azallar.

TAYYORGARLIK, TAYYORGARCHILIK, TAYYORLIK, HOZIRLIK, TARADDUD, TADORIK Biror ishni amalga oshirish uchun tayyorlanish, hozirlik ko'rish ishlari. **Tayyorgarchilik** ko'proq oddiy so'zlashuvga xos. **Tayyorlik** so'zi tayyorlanish jarayonining deyarli amalga oshganligini ta'kidlaydi. **Taraddud** so'zida tayyorlanish harakatiga chog'lanish, shunday holatda ekanlik anglashiladi. **Tadorik** so'zi kitobiy uslubga xos, nutqda nisbatan kam qo'llanadi.

Nimaga t a y y o r g a r l i g i miz bo'lmas ekan. Bitta-yu bitta qizimizdan, molimiz emas, jonimizniyam ayamaymiz. O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Parvoz oldidan t a y y o r g a r l i k, xomaki balandparvozlikmi bu? Sal pastroq tushing, birodar.* E.A'zam, Manana. *Stalingrad ostonasida bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'lganlarini urushdan keyin bildik. Ularni deyarli t a y y o r g a r c h i l i k s i z, juda oz o'qitib, urushga solishgan.* O'.Umarbekov, Qizimga maktublar. *Hammaning boshidagi qismat senga ham yetib keldi, xo'p desang, t a y y o r g a r c h i l i k l a r i m i z n i ko'raversak?* I.Sulton, Onaizorim. *Tushgacha bozor, magazin. Nima istasam, olaman. Tushdan keyin kechqurunga t a y y o r l i k.* O'.Umarbekov, Oyning oltin o'rog'i. *Mashinasida pechka olib kelgan ekan, qishga h o z i r l i k. Tushirishvordim.* U.Hamdam, So'z. *O'n kun orasida h o z i r l i k ni bitirib to'y qildik. Nihoyat, Saodat meniki bo'lib, saodatlik kunlarim boshlandi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *T a r a d d u d bitgandan keyin hajga borish qolib keta beradi-da, yog'liq patirlarni xonaqodagi tekinxo'r so'filar yeydi!* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *Uning endigi t a r a d d u d i uchrashish yoki uchrashmaslik borasida emas, Ra'noning oldiga ochiqcha borishmi, yashirin-*

chami to‘g‘risida edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Hatto ko‘chishda yo‘qolgan ayrim namunalarni qaytadan yozib olish t a d o r i g i ham ko‘rildi.* T.Mirzayev, Hodi Zarif suhbatlari. *Chol to‘y t a d o r i g ini ham ko‘rib qo‘ygan edi.* S.Ahmad, Oydin kechalar.

TAYYORLAMOQ, HOZIRLAMOQ, TAYYOR QILMOQ, TAXT QILMOQ, TAXTLAMOQ, SHAY QILMOQ, SHAYLAMOQ, MUHAYYO QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ) 1. Biror narsani foydalanish, qo‘llash yoki iste’mol qilishga tayyor, shay holatga keltirmoq yoki ish, xatti-harakatni bajarishga shay holatga kelmoq. **Tayyorlamoq, tayyor qilmoq** so‘zlari barcha nutq uslublarida qo‘llanadi. **Hozirlamoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv tilida qo‘llanadi. **Taxtlamoq, taxt qilmoq, tappa-taxt qilmoq, shay qilmoq** so‘zlarida tayyorlik darajasining ortiqligi qabariq ifodalangan. **Shaylamoq** so‘zi nutqda kam ishlatiladi. **Muhayyo etmoq** so‘zi kitobiy, **muhayyo aylamoq** esa eskirgan.

Kelinlar, qizlar saharlab bu taomlarni t a y y o r l a b, birlari ishga, birlari o‘qishga ketishgan. S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Zavrak nonushta tayyorlab, u odam kutib o‘tirganini Me’morga xabar qildi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Otabek tushga yaqin uyg‘ongach, Hasanali choy h o z i r l a di...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ey, xonaqohda turuvchilar! Menga quloq berib, so‘zlarimni yaxshilab tinglangiz! Men uchun hozir suv to‘la obdastani h o z i r l a ng!* Navoiy, Lison ut-tayr. *Kichik jiyani mashinani yuvib, yog‘larini tekshirib, safarga tayyor qilib qo‘ydi.* S.Ahmad, Sarob. *Nazoratchi... u yer-bu yerini tozalab, ertalabga t a y y o r q i l ishimni aytdi.* T.Malik, Savohil. *Bobom Umar zakunchining ulov jo‘natishini kutmasdan, o‘zining eshak aravasini t a x t q i l di.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Xona o‘rtasidagi supa chekkasiga mo‘jaz kursi qo‘yilib, uning ustiga turli mitti qutichalar terib, t a x t q i l ib qo‘yilgan edi.* R.Haydarova, Javzo. *Bir kuni ishdan qaytib, xotiniga xonasining bog‘ga qaragan derazasi oldiga joy qildirdi: stolni t a x t t a b bo‘lgach, oromkursiga cho‘kkancha, bog‘ni tomosha qila boshladi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Hujjatlarni t a x t l a b, Bobur Mirkomil bilan birga yana o‘likxonaga bordi.* N.Ismoilov, Omonat g‘or siri. *Mishaning ko‘z oldida avtomatim zatvorini tortib otishga shayqilib qo‘ydim.* H.Burxon, Ko‘prik. *Sh a y q i l ib qo‘ygan qalam-daftarini yig‘ishtirib, Mirahmadning oldiga tushib bordi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Traktorimni shaylab qo‘y ganman. Qator oralarida qo‘shiq aytib ishlamasam, armondan chiqmayman.* F.Nurullayev, Bo‘z yigit. *Mergan pichoqni urishga sh a y l a b, bo‘riga yaqinlashdi.* D. Sulaymonov, Bo‘ri ovi. *U kishini konkursda qatnashishga targ‘ib qilib, bu xususda qanday yordam zarur bo‘lsa, uyushmamiz tomonidan m u h a y y o q i l inishini aytdim.* R.Majid, Ajoyib inson. *Ilgarilari bunaqangi pivo ichish Cho‘loq uchun faqat orzu edi. Endi esa xayoliga kelmasayam, m u h a y y o q i l inadi.* N.Ismoilov, Burgut tog‘da ulg‘ayadi.

2. Biror narsani yuzaga keltirmoq, hosil qilmoq, yaratmoq (qurmoq, pishirmoq, tikmoq, yetishtirmoq kabilar). **Tayyorlamoq, tayyor qilmoq** so‘zlari deyarli barcha nutq uslublarida qo‘llanadi. **Taxtlamoq, taxt qilmoq, shay qilmoq** so‘zlarida belgi darajasi ortiq. **Hozirlamoq, shaylamoq** so‘zlari bu ma’nosida, asosan, kitobiy uslubga xos.

O‘rmondan keltirilgan chim va yog‘ochlardan yerosti bostirmalari t a y y o r l a nmoqda... I.Rahim, Chin muhabbat. *Menga yana qancha azob t a y y o r l a b q o‘y gansan, mayli, boshimga kulfat toshlarini ayamay yog‘diraver.* T.Malik, Shaytanat. *Zarur bo‘lsa, hoziroq ustaga berib kelaman, ertalabgacha t a y y o r q i l ib qo‘yadi.* S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Xolbeka oyim o‘zining suratini qog‘ozga naqqoshga soldirib, bir sandiqcha t a y y o r q i l ib... to‘raning uzugini o‘zining suratiga o‘rab... sandiqni qulflab, kalitini sandiqqa bog‘lab daryoga ravona qildi.* “Kuntug‘mish”. *Hamma narsani unutib, shu oy ichida ilmiy ishimni t a x t q i l ib, qo‘liga topshirishimga zarracha shubha qilmasdi.* N.Eshonqul, Xaroba shahar surati. *...she’r yozish oson ish emas, qofiyasini keltirib, turog‘ini t a x t l a gan bilan u she’r bo‘lib qolmaydi...* X.Abdullayeva, Adabiyot – shunchaki havas maydoni emas yoki ijod odobi haqida o‘ylar. *...Hozirgacha naq 12 ta audioertakni t a x t l a b qo‘yishdi.* Gazetadan. *Nimani istasang, pildirab qizing O‘sha on oldingga sh a y q i l ib qo‘ygay.* A.Oripov, Saylanma. *Qayerdandir “rogatka” sh a y l a b, Bir bolakay, toshni o‘zicha, Musichaga uchirdi, tosh ham, Yaqinlashdi musicha tomon*. A.Po‘latov, Musicha. *Duradgor, shunday bir taxt yasayki, bu taxtga saodatli shoh chiqib o‘tirsin, degan o‘y bilan taxt h o z i r l a di.* Navoiy, Lison ut-tayr.

TAYYORLANMOQ, HOZIRLANMOQ, SHAYLANMOQ Biror ish, yumushni bajarish, faoliyatni amalga oshirish uchun tayyorgarlik ko‘rmoq. **Hozirlanmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. **Shaylanmoq** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Navbatdagi so‘z o‘rtoq Rahmatovga. O‘rtoq Hakimova t a y y o r l a n sin. A.Qahhor, Munofiq. *Yaxshisi, yong‘oqzorga kirib dars qilamiz. Yozmaga t a y y o r l a n amiz.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Anvar kechqurun o‘rdadan qaytishga h o z i r l a n ar edi...* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Rashk do‘stimizmi yo dushmanimizmi? Shular haqida fikr yuritishga h o z i r l a n aylik.* T.Malik, Odamiylik mulki. – *Yigitlar, sh a y l a n ing! – buyurdi Sherzod yuragi gursullab.* R.Haydarova, Javzo. *Kimsanning xatini eshitishga sh a y l a n ib, hali o‘tiribman, hali o‘tiribman.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Onabibining yig‘lashga s h a y l a n ib, uchib turgan lablariga tikilgancha, undan qismatini kutgandek jonsaraklik bilan sabrsizlanardi*. A.Muxtor, Chinor.

TASHNA, CHANQOQ, SUVSOQ, QAQROQ Suvsagan, chanqagan holatli. **Tashna** so‘zi bu ma’nosida, asosan, insonga nisbatan qo‘llanadi. **Chanqoq** so‘zi esa boshqa jonzotlarga hamda o‘simlik, yer kabilarga nisbatan ham ishlati-

ladi. **Suvsoq** so‘zi nutqda kam uchraydi. **Qaqroq** so‘zida “suvsizlikdan qaqrab ketgan” ma’nosi yuzaga chiqadi.

Ey sen, boshi va oxiri yo‘q cho‘lda suvsirab, jon berayotgan t a sh n a yo‘lovchi! F.Musajonov, Himmat. *Olislardan kelgan t a sh n a musofir Nogoh bir manzilda quduq topadi. To‘yib ichgandan so‘ng, geolog, shofyor, Irg‘ay, yovshan bilan ustin yopadi.* A.Muxtor, Sizga aytar so‘zim. *U asfalt yo‘l tugab, dashti-biyobonga son-sanoqsiz karvon yo‘llari, cho‘pon so‘qmoqlari kirib ketadigan joyda, kichkinagina, ch a n q o q gulzor o‘rtasida yo‘nilgan xarsang ustida turibdi*. A.Muxtor, Chinor. *Ko‘nglida g‘alati bir g‘urur uyg‘ondi, o‘zining miskinligidan, manavi qora balchiqqa belanib yotganidan, suvni kuchukka o‘xshatib shaloplatib ichayotganidan shodlandi, sovuq tomchilarning ch a n q o q vujudi bo‘ylab bir maromda taralayotganiga quloq soldi.* M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda. *Suvsoq soylar ilon kabi bilanglab ketib borar suvloq yerlarga.* Faxriyor, Sangijumonda yoz manzaralari. *Och va s u v s o q o‘ldi ne-ne bolalar, Panjalar yopishdi to‘g‘ri yoqaga, Kimga ham der edi arz-u dodini, Haqiqat sotilgach qora chaqaga.* Mirtemir, Tanlangan she’rlar. *Lekin u ot minib, qorli bo‘ronlarda, dahshatli sellarda haftalarcha tentirab, tog‘-dovon oshishni, yozning qizg‘in oylarida bepoyon Osiyo cho‘llarining jahannam yong‘iniga chidash berib, och, s u v s o q kezishni mashaqqat hisoblamas edi.* Oybek, Navoiy. *Obod, ko‘rkam hududlar asta-sekin chekinib, o‘rnini q a q r o q yerlar, sahrolarga bo‘shatib bera boshladi.* Gazetadan. *Tongga yaqin ular sahroga kira boshlashdi. Shahar tugab, q a q r o q dasht keldi.* A.Malik, Jangchi.

TASHNA BO‘LMOQ, CHANQOQ BO‘LMOQ Biror narsaga ehtiyojmand bo‘lmoq, biror narsa talabida bo‘lmoq. **Tashna bo‘lmoq, chanqoq bo‘lmoq** so‘zlari bu ma’nosida ko‘proq badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Tashna bo‘lmoq** so‘zida ma’no kuchli ifodalanadi.

...Eh-he, adolatga t a sh n a b o‘ l ib o‘tgan buyuk zotlar dunyoda kam deysizmi? O.Yoqubov, Ijodkorning o‘zi halol, imonli bo‘lishi kerak. *Uloqqa havoyilarcha yopisha berish Tarlonimiz joniga tegdi. Tarlon uloqqa t a sh n a b o‘ l di!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *U holda, nur – alan nur, taqsir. Bu quloqlar shodiyona xabarlarga ch a n q o q b o‘ l ib qoldi*. T.Malik, Qochoqlar. *Qachonki yoshlarimiz Vatanga, ona tabiatga o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat tuyg‘usi bilan o‘ssa, shuningdek, ilmga, kitobga ch a n q o q b o‘ l ib ulg‘ayishsa, ular hech qachon yot g‘oyalar hamda ommaviy madaniyat ta’siriga tushib qolmaydilar.* Y.Sodiqov, Ma’naviy va jismoniy sog‘lomlik mustahkam oila garovi.

TASHNALIK, CHANQOQLIK Organizmning suv, choy va boshqa ichimliklarni talab qilib turgan holati. **Chanqoqlik** so‘ziga nisbatan **tashnalik** so‘zida suvga bo‘lgan ehtiyoj me’yorida ifodalanadi.

U behollig-u t a sh n a l i k dan qutulishning chorasi nedir? I.Sulton, Alisher Navoiy. *Suvni ko‘rdi-yu, t a sh n a l i k azobi yana zabtiga oldi*. T.Malik, Shay-

tanat. *Ayrim hollarda ch a n q o q l i k tepadan betinim tushib turgan bombalar va snaryadlardan ko‘ra ko‘proq tinkani quritib, jangchilarni holdan toydirib yuborardi.* T.Rustamov, Mangu jasorat. *Ch a n q o q l i k organizmning unga namlik yetishmayotganligini bildiruvchi belgidir.* Gazetadan.

TASHVISH, SAVDO, G‘AM, QAYG‘U Biror maqsadni amalga oshirish, xatti-harakatni bajarish yo‘lida yuzaga kelgan bezovtalik hissi, o‘y-fikri. **Savdo** so‘zida biror xatti-harakat bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan bezovtalik bo‘rtib turadi. **G‘am, qayg‘u** so‘zlarida bezovtalik ta’kidi qabariq ifodalangan.

Xon oyim ulkan haram t a sh v i sh lari, bolalar, nevaralar g‘ a m i ila band. R.Haydarova, Javzo. *Millat dardini o‘ylab so‘zlayotganlar davrasida ham shu t a sh v i s h bilan o‘tirdi.* T.Malik, Shaytanat. *Bu s a v d o har xotinning boshida bor.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. – *Qiziq, – dedi Anvar, – har boshda bir s a v - d o , birov yanglishadi, birovni birov yanglishtiradi, birov yurgani yo‘l topolmaydi, birov bor yo‘ldan yurolmaydi...* A.Qahhor, Muhabbat. *Tuyada yukim yo‘q, Yiqilsa, g‘ a m im yo‘q.* Maqol. – *Bir muddat dashtda, kun kechirmoq g‘ a m ida goh ul, goh bul ulusni bosar edim.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Qorni to‘qning q a y g ‘ u si yo‘q.* Maqol. *Q a y g‘ u si yo‘q biror kunni ko‘rmadim, Biror soat men baxtiyor bo‘lmadim.* H.Olimjon, Muqanna. *Yur, gullardan halinchak yasab uchamiz. Shudring to‘lgan o‘tloqlarda yalangoyoq. G‘ a m-t a sh v i sh ni unutamiz, voz kechamiz.* D.Uralova, Yur. *Ket degandan keyin ketish kerak-da. Sendan boshqa g‘ a m-t a sh v i sh im yo‘qmi?* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi.

TASHVISHLANMOQ, TASHVISH QILMOQ, QAYG‘URMOQ Biror maqsadni amalga oshirish, xatti-harakatni bajarish yo‘lida bezovtalik holatida bo‘lmoq. **Tashvishlanmoq** so‘zi o‘rnida **tashvish chekmoq** iborasi ham ishlatiladi. **Qayg‘urmoq** so‘zida haddan tashqari tashvishlanish ma’no ta’kidi bo‘rtib turadi.

O‘rmonjon To‘panisoning biron joyga borib gapni ko‘paytirishidan t a s h - v i s h l a n di va uni qidirishga, topib har yo‘l bilan bo‘lsa ham, uyga olib kelishga qaror berdi. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *“Yopiray, nima bo‘ldi bolalarimga?” – deb ota t a sh v i sh l a n a boshladi.* H.G‘ulom, Mash’al. *Bilmayman, Ko‘kaldosh qayda bo‘ldi deb, Oti o‘zib badbaxt borib qoldi deb, Agar borsa, bir savdoni qildi deb, Tek o‘tirmas, bekka t a sh v i sh q i l di deb, Qorajonbek shunday bo‘ylab qaradi.* “Alpomish”. *Go‘daklar, chaqaloqlarning ham rizqini beradi. Siz t a sh v i sh q i l mang.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Nechun hayratlanursiz? Axir sultonzoda Muhammad Shohibek bizga noxos shikast yetib qolmasin uchun q a y g‘ u r moqdalar.* R.Haydarova, Javzo. *Ikkinchi shahardagi kishi ham do‘stining qarzga botganini eshitib g‘oyat q a y g‘ u r di.* T.Malik, Odamiylik mulki.

TA’NA, TA’NA-DASHNOM, YOZG‘IRIQ, MALOMAT, MAZAMMAT, TA’NA-MAZAMMAT Biror ayb yoki kamchilikni ko‘rsatib, kamsitib

aytilgan gap, qilingan xatti-harakat yoki “minnat”, “haqorat” ma’nosidagi gap-so‘z. **Ta’na-dashnom** so‘zida tanbeh ta’kidi ham mavjud. **Malomat** so‘zi kitobiy uslubda ishlatiladi. **Yozg‘iriq** so‘zi nutqda kam qo‘llanadi, eskirgan. **Mazammat** so‘zi ham eskirgan, asosan, tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi. **Ta’na-mazammat** so‘zida ma’no alohida ta’kidga ega, kitobiy uslubga xos.

Kimga dardimni aytsam, kuladi. T a ’ n a dan boshim chiqmay qoldi, aylanay opajon. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Itdek mehnat qilib, bir burda nonlarini t a ’ n a bilan yedim.* S.Zunnunova, Gulxan. *Baribir ikkovini t a ’ n a-d a sh n o m larga ko‘mib tashladik*. A.Qahhor, Maqolalar va suhbat. *Shayx Muborak bu t a ’ n a-d a sh n o m larni Akbarga aytishga tili bormay, istihola qilib yurgan edi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Biroq bu fikrni y o z g‘ i r i q ohangida yoki adabiyotimizga 70-yillar avlodidan keyin kirib kelganlarni kamsitish ma’nosida aytish to‘g‘ri emas, deb bilaman*. D.Quronov, Talqin imkonlari. *Lekin she’rda arvoh kuchli y o z g‘ i r i q, cheksiz alam bilan tilga olinadi.* Q.Yo‘ldoshev, El yuragidagi shoir. *M a l o m a t dan ezilgan shahzoda parishon holda do‘stlari davrasidan chiqib ketib, qon-qon yig‘labdi*. T.Malik, Odamiylik mulki. *Og‘ajon, har ne m a l o m a t ingiz bo‘lsa, menga ayting.* R.Haydarova, Javzo. *Zero, malomat va m a z a m m a t bilan ichki dunyosini boyitish va xokisorlikka berilish qalandar uchun ham eng yaxshi odat edi…* A.Abdullayev, Tasavvuf va uning namoyandalari. *Bular avvalgi ikki jamoaning martabasiga yetolmasalar ham, lekin har qanday holatda gunohdan o‘zlarini tiyganlari uchun t a ’ n a-yu m a z a m m a t ga munosib emaslar.* A.Fitrat, Najot yo‘li.

TA’NA QILMOQ, MALOMAT QILMOQ, MAZAMMAT QILMOQ (ETMOQ, AYLAMOQ) Biror ayb yoki kamchilikni ko‘rsatgan holda kamsituvchi gap aytmoq. **Malomat qilmoq** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Mazammat qilmoq (etmoq, aylamoq)** so‘zi eskirgan, kitobiy uslubga xos.

– Boqqaningizni t a ’ n a q i l yapsizmi? – dedim chaqchayib. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Mulla tizzasiga urgancha afsus bilan bosh chayqadi. Mosuvoga t a ’ n a q i l di: – Bo‘ldi-da, endi!.. Yengiltaklik ham evi bilan-da…* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Maqsad – biron-bir birodarlarimizni m a l o m a t q i l ish emas, balki qaysi illatlardan qay tarzda qutulish masalasiga barchalarimizning diqqatimizni tortish.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Hazratim, sizdek xalifat-ur-rahmonni m a l o m a t q i l ishga jur’at eta oluvchi kimsa yo‘qdur*. R.Haydarova, Javzo. *Jinni odamni xon dorga tortibdi, deb xalqi olam m a z a m m a t e t urlar.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Bilmadim o‘z aybimi xalqqa m a z a m m a t a y l a dim, Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne’mat ayladim…* T.Farog‘iy, G‘azallar.

TEBRANMOQ, CHAYQALMOQ, LAPANGLAMOQ, TALPANGLAMOQ, TALTANGLAMOQ, GANDIRAKLAMOQ, LOPILLAMOQ, IRG‘ALMOQ, SOLLANMOQ Turli tomonga yoki bir tomonga tekis, notekis tebranma harakat qilmoq.**Talpanglamoq** so‘zida belgi kuchli darajada ifodala-

nadi. **Taltanglamoq** – shevaga oid so‘z. **Lopillamoq** yon-veriga yoki baland-pastga chayqalish harakati anglashiladi. **Gandiraklamoq** so‘zlashuv tiliga xos. **Lapanglamoq, lopillamoq** so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi, ko‘proq so‘zlashuv uslubida uchraydi. **Irg‘almoq** so‘zi shevaga xos. **Sollanmoq** so‘zi nutqda kam ishlatiladi.

Kuy boshlanib, raqqosa o‘yinga tushishi bilan, atrof jimjit bo‘lib qoladi. Hamma o‘tirgan joyida t e b r a n ardi. T.Obidov, Yusufjon qiziq. *Ular yengil-gina kiyinishdi. ...yosh va baquvvat vujudlari sharobning yengil kayfidan mas-tona t e b r a n ib borardilar...* U.Hamdam, Muvozanat. *Ch a y q a l ib-ch a y-q a l ib g‘ishtin zinalardan chiqdi-yu, salqin dahlizdan o‘tib, uyga otilib kirdi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Erta sarg‘aygan qamishlar ohista ch a y q a l ib, shitirlab turar, uchidagi makka supurgidek popiltiriqlari sekin-sekin ch a y q a-l ardi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Supaning orqasidan yuz-ko‘zi qorakuya, oyoqyalang bir bola ko‘tarilib, l a p a ng l a b keldi-da, ayasining etagiga yopishdi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Tijoratxon xalatini yelkaga tash-lab, shippakni oyog‘i uchiga ilib, l a p a ng l a b borib darvoza o‘rtasidagi eshikni ochdi.* S.Ahmad, G‘ildirak. *Biydi momoni itarib tashlab, t a l p a ng l a b chiqib ketdi*. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Hozir eslolmayman-u, ammo aqlim yetadi, har holda, emaklab yoki t a l p a ng l a b yurib borib, ariqqa yoki shundoqqina tuproq yerga necha martadir yiqilib tushgan ...bo‘lsam kerak.* I.Sulton, Ota qasidasi. *Beqasam choponlik: – Voh, o‘ldim-a! – deya baqirdi. Peshonasini ushladi. T a l t a ng l a di, gandirakladi. Ana yiqilaman,* T *mana yiqilaman dedi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Bu odam azbaroyi semizlikdan, yursa – t a l t a ng lab, gapirsa – uzluksiz pishillar edi*. P.Tursun, O‘qituvchi. *U mast odamdek g a n d i r a k l a b qadam tashlar ekan, hech kim, hech nima hayoliga kirmasdi. Hech narsani ko‘rmasdi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Odil aka g a n d i r a k l a b borib devorga suyangan ko‘yi hansirab qoldi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Biz har kuni yo tushgacha, yo tushdan keyin l o p i l l a gan osma ko‘prikdan o‘tib, Jo‘ra akaning onasidan xabar olgani bo-rardik...* Sh.Xolmirzayev, Oqtosh. *Birlashmading, ketma-ket balo keldi, o‘t kel-di, Tog‘day yigitni solib, l o p i l l a b tobut keldi.* X.Xudoyberdiyeva, She’rlar. *Ishchi-shoir Ne’mat akaning ozgina ajiva qilayotganini sezmadi, aksincha, ming muridga ham yetib-ortadigan ixlos bilan qarab turdi, ixlos barobarida o‘qilayotgan g‘azal ohanglariga moslab i r g‘ a l ib turishni ham unutmadi.* M.M.Do‘st, “Zarbulmasal” va boshqa masalalar. *Agar ona shu tobda sal sinch-kov qaraganida, bola juda siqilayotganini, tinimsiz kaftining yumshoq joyini ezib, i r g‘ a l ib o‘tirganini ko‘rgan bo‘lardi.* E.Norsafar, Chol va nabira. *Oftob nurini emib, qizargan uzum boshlari s o l l a n ib turibdi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Zulukxon amirkon kavushini asfalt yo‘lkada g‘ijirlatib bosib, shiy-pon tomonga s o l l a n ib yurib keldi.* H.G‘ulom, Mash’al.

TEKINXO‘R, TEKINTOMOQ, BALOXO‘R, HAROMXO‘R, HAROMTOMOQ, HAROMTOVOQ, PARAZIT O‘zi mehnat qilmay birovlarning hisobiga yashovchi. Qatordagi barcha so‘zlar salbiy bo‘yoqqa ega. **Tekinxo‘r** so‘zi uslub jihatdan betaraf bo‘lib, barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Tekintomoq, haromtomoq, haromtovoq, baloxo‘r, haromxo‘r** so‘zlarida belgi darajasi yanada kuchli ifodalanadi. **Parazit** so‘zi, asosan, oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Ahmadga o‘xshagan sof vijdonli odam uchun eng yomoni – o‘zini bekorchi, t e k i n x o‘ r sezish. F.Musajonov, Himmat. *Tomosha aylang Guloyimning ishiga, T e k i n x o‘ r boradi xirmon choshiga.* “Avazxon”. *Talashsam, bolalarimning rizqi uchun talashaman, bu t e k i n t o m o q mendan yulib olmoqchi bo‘ladi.* T.Malik, Shaytanat. *– O‘rgatma menga!.. – qahrdan qichqiradi Muhsina xonim. – Bir gala so‘qim, bir gala t e k i n t o m o q.* M.M.Do‘st, Lolazor. *G‘alabangga sherik bo‘lar lekin b a l o x o‘ r, Salomingni berib-bermay, o‘taver, polvon.* A.Oripov, Polvon. *Chamasi, ular oshiq-ma’shuq, b a l o x o‘ r xon loaqal shunga cho‘vagini tiqmasa nima qilar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Amalga minsa har xudbin, h a r o m x o‘ r, O‘zin hisoblaydi fuqarodan zo‘r.* M.Kolonxonov, Ko‘ngil navolari. *Birovning moliga tish qo‘ydiradigan haromxo‘r bilan ko‘rishmayman!..* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Ona-bola qichqirdilar unga shu chog‘: – Ko‘p gapirma, ol savatni, h a r o m t o m o q.* A.Muxtor, Adolat. *– Barchasi bizning bel va bilak kuchimizdan semirgan h a r o m t o v o q lar! – dedi qahr bilan Jumaboy.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Rixsiyani men qamatmaganman, p a r a z i t Doniyor qamatgan.* T.Malik, Shaytanat. *Qayerdan paydo bo‘ldiykin bu p a r a z i t?* H.Nazir, Yonar daryo.

TEKSHIRMOQ I, NAZORAT QILMOQ, KUZATMOQ, TERGAMOQ Inson va boshqa jonzotlar xatti-harakati, holati, ahvolini ko‘zdan kechirmoq. **Kuzatmoq** so‘zida zimdan qarab kuzatish ma’no ta’kidi mavjud. **Tergamoq** so‘zi mazkur ma’noda nisbatan kam ishlatiladi.

Ko‘pincha otni izvoshga men qo‘shardim. Dadam t e k sh i r ib, u yoq-bu yog‘ini qattiqroq tortib qo‘yardilar. O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *– Xotiramni t e k sh i r ib ko‘rmoqchimisiz? – T e k sh i r sam buning nimasi yomon, Zafarjon?* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Domla mudarris “zamona buzuqlig‘ini” nazarga olg‘ani uchun Abdurahmonni haligi to‘g‘risida juda qattig‘ n a z o r a t q i l ar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Ishni Umar zakunchining o‘zi n a z o r a t q i l adi!* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *U suvni sharillatib quyib, qo‘lini naridan beri yuvmoqchi edi, derazadan k u z a t ib turgan buvi yana o‘shqirdi: – Sovunlab yuv, ikki martalab sovun sur!* Mirmuhsin, Umid. *Hamon kulib turgan ko‘zlari bilan uni boshdan oyoq k u z a t ib chiqdi.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Chol bolalarning nojo‘ya harakatlarini t e r g a b, mudirga yetkazib turar edi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Men faqat shu maktub dalo-*

latiga bovar qilib, gunohkorlarni bo‘shata bermay, qo‘limdan kelgancha, yana tekshirib t e r g a dim. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

TEKSHIRMOQ II**, NAZORAT QILMOQ, KUZATMOQ** Biror narsa, hodisaning tog‘ri-noto‘g‘ri, haqiqiy-haqiqiy emasligi, maqbul-maqbul emasligini bilish uchun tekshiruv, kuzatuv o‘tkazmoq. **Nazorat qilmoq** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Kuzatmoq** so‘zi keng qo‘llanadi.

Qari soldat dor tagidagi to‘nkalarni qimirlatib ko‘rdi, sirtmoqning tugunini sinchiklab t e k sh i r di. X.Sultonov, Bir oqshom ertagi. *Manzura opa har bir sinfga kirib, bolalarning tozaligi bormi, kundaligi bormi – birma-bir t e k sh i r ib chiqdilar.* E.Raimov, Ajab qishloq. *...uning xulq-atvorini baholash, dasturlash va n a z o r a t q i l ish marketingning eng muhim funksiyasidir.* F.Qo‘chqorova, Jamoatchilik nazoratining sotsial-psixologik mexanizmlari. *Tilga e’tibor bilan qarash, so‘z qudrati tilni hurmat qilish, unga e’tibor bilan yondashib nutqni n a z o r a t q i l i sh masalalari... shu kunning eng dolzarb muammolaridir.* A.Ahrorov, Rost va yolg‘on so‘zlamoq haqida xalq maqollari sharhi. *Orif ikkalasining yozuvini k u z a t ar, dam biriga, dam ikkinchisiga izoh berib, goh ular bilan olishib ketar, goh peshanasini tirishtirib o‘ylab qolar edi*. A.Muxtor, Chinor. *Avval ekinlarning nish urishidan xirmongacha bo‘lgan jarayonni to‘rt ko‘z bo‘lib k u z a t gan bo‘lsa, endi kishilarning qalbini, qarashini, yaxshi o‘rgana boshladi.* Shuhrat, Shinelli yillar.

TEKSHIRMOQ III**, TAFTISH QILMOQ, NAZORAT QILMOQ, O‘RGANMOQ** Biror obyekt, shaxs faoliyatini tekshirmoq, taftish o‘tkazmoq; ijroni nazorat qilmoq. **Taftish qilmoq, nazorat qilmoq** so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubda ishlatishga xoslangan. **O‘rganmoq** so‘zi bu ma’nosida oddiy so‘zlashuvda ham qo‘llanadi.

Dastlabki faoliyatini Rasuljonga biriktirilgan sohalarni t e k sh i r ishdan boshladilar. J.Abdullaxonov, Xonadon. *“Rosa t e k sh i r dik, biron xatoga yo‘l qo‘yib qo‘ymaylik, deb juda chuqur qaradik, lekin yo‘q, baribir, yo‘q ekan”, deb qat’iy xulosa qildi...* A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *Biz buni sizga aytishdan oldin o‘zimiz t a f t i sh q i l moqchi bo‘ldik.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *– Shoiri davron hazratlarini-chi? – deb so‘radi Majididdin, g‘olibona iljayib. – T a f t i sh q i l dingizmi?* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Videobar nomiga yashirin hisoblansa-da, xilvatda joylashmagan, n a z o r a t q i l uvchi kerakli odamlarga vaqtida cho‘tal to‘lab turilgani uchun bu atrofdan o‘tgan mushukni birov pisht demas edi.* T.Malik, Shaytanat. *Bu jarayonni tartibga soladigan, o‘rni kelganda, n a z o r a t q i l adigan maxsus tashkilotlar tuzilganidan ham xabardormiz.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Uch kunlik taftishda korxonaning faoliyati o‘r g a n i l di.* Gazetadan.

TENTAK BO‘LMOQ, TELBA BO‘LMOQ, DEVONA BO‘LMOQ, DALLI-DEVONA BO‘LMOQ (DALI-DEVONA BO‘LMOQ), SAVDOYI

BO‘LMOQ, JINNI BO‘LMOQ (JINNI-PINNI BO‘LMOQ), OVSAR BO‘LMOQ, ESVOS BO‘LMOQ Mantiqli fikrlay olmaydigan holatga kelmoq, aqli noraso bo‘lmoq. **Telba bo‘lmoq, devona bo‘lmoq, savdoyi bo‘lmoq, ovsar bo‘lmoq, esvos bo‘lmoq** so‘zlarida belgi ifodasi kuchli ta’kidga ega. **Dalli-devona bo‘lmoq** so‘zi nutqda kam qo‘llanadi. **Jinni bo‘lmoq, ovsar bo‘lmoq, esvos bo‘lmoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv tilida ishlatiladi.

O‘g‘ling tentak bo‘lsa ham, omon bo‘lsin. Maqol. – *Dehqonqul aka, ay, Dehqonqul aka! – dedi. – Tentak bo‘lmang! – Shularday katta bo‘lgandan ko‘ra tentak bo‘lganim yaxshi!* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Og‘amning zaifasi farzand dog‘idan telba bo‘lib qoldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *...balkim, rostdan ham telba bo‘lib qolgandirman, yo‘qsa, menga bu nahs va zo‘rlik g‘arq qilingan kitobning fosih-u fotih ko‘chalarida kezishga ne hojat.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Bechora... o‘g‘lining qatlidan keyin devona bo‘lib qolibdi...* Mirmuhsin, Me’mor. *Dadam aytdiki, u boyoqish bir zamon bitta qizning ishqida devona bo‘lib qolgan ekan...* Oybek, Bolalik xotiralarim. *Ko‘p o‘tmay, to‘raning bog‘ini sug‘orayotgan Polvonni ko‘rib sevib qoldim-u, dalli-devona bo‘lib, ishqi o‘tida yondim.* J.Sharipov, Xorazm. *Xotinlar: – Bechora chol! Suyukli qizidan ayrilib, savdoyi bo‘lib qoldi! – deb pichirlashar edi.* O.Yoqubov, Izlayman. – *Jinni bo‘libsan! Savdoyi bo‘lib qolibsan! – dedi Salimxon Obidiy unga.* Mirmuhsin, Umid. *Qurvonbibi jinni bo‘lib, paranjisiz va yirtiq kiyimlar bilan eshonnikiga kelgan vaqtida uni zanjirga bog‘laydigan odam ham topilmadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Biroq fojianing o‘ninchi kunlarida Zaynabning jinni bo‘lib, ochiq ko‘yi ko‘chada yurgan xabari va og‘asi tomonidan ushlanib, kishanga solingan mojarosi eshitildi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *E, jinni-pinni bo‘lganmisiz? Jinnilikka ham talant kerak!* A.Meliboyev, Xotin yo‘g‘ida. – *Ovsar bo‘lsa ularga “bibingni oldiga hasrat qil, hezlar!” – deb zaharxanda qiladir.* A.Qodiriy, Suddagi nutq. *Esvos bo‘lsang na deyman, rasvo bo‘lsang na deyman...* M.Ali, Sarbadorlar.

TERGOV QILMOQ, SO‘ROQ QILMOQ, TERGAMOQ Shaxsni so‘roq qilib, jinoiy ish bo‘yicha dalil yig‘moq. **Tergov qilmoq, so‘roq qilmoq** so‘zlari sud, prokuratura sohalarida faol qo‘llanadi. **Tergamoq** so‘zi ushbu ma’nosida, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi.

Militsiya tergovchisi holatiga kirib Badalovni tergov qildim. X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Nega meni tergov qilasiz-da, uyimga bostirib kirgan bezoriga indamaysiz?* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Xo‘o‘sh, poshsho hazratingni Bosh prokurorimiz o‘rinbosari o‘rtoq Vasilyev so‘roq qildilar. Mana, so‘roq varaqasi.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Sen bilmaysan-da, uka. Kunduzi tik oyoqda turg‘azib qo‘yadi. Kechasi bilan so‘roq qiladi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Otabekning so‘zlari kishini tamom ishontirarliq*

darajada maktubga muvofiq edi. Shundog‘ bo‘lsa ham, faqat Mirzakarimni ozod qilib, keyingi t e r g a sh lar tamom bo‘lg‘unchaliq Otabekni kafilga berdim. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *T e r g a shdi, turtkilashdi, rosa ta’zirimizni yedik. Eng yomoni, qo‘yib yubormay, olib o‘tirishaverdi*. M.Xo‘jayev, Aytmay deyman-u... bo‘lgan voqealar-da.

TETIK, BARDAM, TIYRAK 1. Jismonan bardam-baquvvat, kuch-quvvatini yo‘qotmagan; ruhan ko‘tarinki. **Tetik, bardam** so‘zlari ko‘pincha keksalar, kasaldan tuzalgan, toliqqan kishilarga nisbatan, ularning tetiklashgan holati tasviri uchun ishlatiladi. **Bardam** so‘zi ko‘proq so‘zlashuvda uchraydi. **Tiyrak** so‘zi badiiy uslubga xos.

Onam yetmishdan oshib qolgan bo‘lsalar ham, hali ancha t e t i k lar... M.Qoriyev, Oydin kechalar. *Biroq uning bu qadar royishligi o‘zi t e t i k, tili zahardek achchiq enasi – Oftob momoga sira xush kelmas va bobillab derdi: – Zo‘rni men tug‘may o‘layin-a! Zo‘rni tug‘may mengina o‘layin-a! Urishtiriladigan itday bo‘p tag‘in ketyapsanmi, a?!* N.Norqobilov, Kurash. *Hali b a r d a m siz, birgalashib ishlaymiz. Durustmi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *O‘rinoyning o‘zi to‘rda – mushtdekkina bo‘lib qolgan, biroq hamon tetik, b a r d a m, ko‘zlari t i y r a k boquvchi ammajonining pinjiga suqilib, erkalanib o‘tiribdi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *U chindan ham navqiron, t i y r a k, etlikkina, tizzalari do‘mboq, qoramtir baxmal kabi silliq yunglari, quyuq yoli ko‘rkam edi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy.

2. Xatti-harakati tetik. Qatordagi barcha so‘zlar ushbu ma’nosida insonning biror xatti-harakatiga nisbatan qo‘llanadi, harakatning bajarilish tarzi haqida ma’lumot beradi. **Tetik** so‘zi nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Bardam** so‘zi, asosan, so‘zlashuvda, **tiyrak** esa ko‘proq badiiy uslubda uchraydi.

Aziza o‘zini biroz oldirgan, ammo hamon o‘shanday chiroyli, ko‘zlari kirtayib qolgan bo‘lsa ham, t e t i k boqar edi. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *U endi negadir jadalroq, t e t i k roq qadam tashlardi*. A.Muxtor, Chinor. *Yo‘q, xayriyat, Mastura operatsiyadan b a r d a m turibdi.* A.Qahhor, Ming bir jon. *Klavdiy o‘tadi yonidan b a r d a m, U mag‘rur shoxlikning sirtmoqlarida.* U.Azim, Saylanma. *To‘g‘ri, havas qilsa arziydigan, zukko, t i y r a k yigit-qizlar ko‘p, ammo saviyasizlari ham yetarli.* E.Shukur, Omochdan kosmik kemagacha.

3. Gap-so‘zi dadil, fikri teran. **Tetik** so‘zi *gap, fikr, ovoz, ohang* kabilarga nisbatan qo‘llanadi. **Bardam** so‘zi, asosan, *ovoz, tovush*, *ohang* so‘zlari bilan bog‘lanib, “ovozi dadil, o‘ziga ishongan ohangda” kabi ta’kidlarni ifodalaydi. **Tiyrak** so‘zi esa *gapi, gap-so‘zi, fikri* so‘zlari bilan birikib keladi.

Pochchayev, qurilishga biron fikri t e t i k roq bola kelib qolsa, darrov iziga tushadi. A.Muxtor, Tug‘ilish. *Soylik tomondan kelayotgan t e t i k va yangroq ovoz Elmurodning o‘yini buzdi*. Shuhrat, Shinelli yillar. *– Keldik, ona! – dedim atay b a r d a m tovushda. Onam shoshib bosh irg‘adi, kulumsiragandek bo‘ldi.*

X.Sultonov, Onamning yurti. – *Oo, Gulenka, azizim, sizniyam ko‘radigan kun bor ekan-da! – deya b a r d a m ovozda, quchoq ochib kutib oldi ularni chol*. E.A’zam, Shovqin. ... *“Yashamoq – bol, yashamoq – og‘u” misralari she’rxonga t i y r a k fikr, o‘tkir estetik nazar beradi.* Q.Yo‘ldoshev, Ko‘ngilga yaqin she’riyat. *Shunday t i y r a k fikr yurituvchi kishilar borligidan xursand bo‘ldi.* A.Irisov, Chahoryorlar (4 xalifa haqida risola).

TETIKLASHMOQ, TETIKLANMOQ, TETIK BO‘LMOQ, BARDAMLASHMOQ, BARDAM BO‘LMOQ, TIYRAKLASHMOQ, TIYRAK BO‘LMOQ, JONLANMOQ Ruhan va jismonan tetik holatga kelmoq. **Bardamlashmoq** so‘zida belgi **tetiklashmoq**qa nisbatan ortiqroq namoyon bo‘ladi. **Tiyraklashmoq, tiyrak bo‘lmoq** so‘zlari kitobiy uslubga xos. **Jonlanmoq** so‘zi mazkur ma’noda ko‘proq so‘zlashuv uslubida ishlatiladi.

Ishbaraning oti tanish og‘irlikni sezib, t e t i k l a sh gan edi. I.Sulton, Bilga xoqon. *Ko‘ktoy xirillab, ovozlarini chiqarib, shu narsalarni yeb qo‘ydi. Ruhi ancha t e t i k l a sh di, badani qizidi.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Ertalab allanechuk t e t i k l a n ib, fikrlarim tiniqlashib turdim.* L.Bo‘rixon, Quyosh hali botmagan. *Onamning ruhi t e t i k l a n ib: – Siz mulla emassiz, shariatdan gapirmang, – deb jiddiy gapirdi.* Z.Misbax, So‘fito‘rg‘ay. *Ertalab uyg‘onib o‘rnimdan t e t i k b o‘ l ib turdim.* N.Ismoilov, Baxtning olis manzili. *Hartugul, Rustam ancha quvvatlanib, b a r d a m l a sh ib qolgandi.* Q.Kenja, Toshqin. *Ustoz picha nafas rostlab olgach, ovozi b a r d a m l a sh ib so‘zida davom etdi...* X.Do‘stmuhammad, Kuza... *Doimo umidim b a r d a m b o‘ l sa ham, Ba’zan vasvasalar bosar dilimni.* G‘.G‘ulom, Sen yetim emassan. – *B a r d a m b o‘ l ing, o‘rtoq Rajabov, b a r d a m b o‘ l ing! – dedi Botir firqa.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Qaytaga t i y r a k l a sh ib, Mo‘min tog‘aga yaqinlashdi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Agar qushday yengil, boladay t i y r a k b o‘ l ib yurishning mazasini totsangiz, badantarbiyaning ahamiyatini chuqurroq his qilasiz.* O.Tolib, Vujudimiz ham tarbiyaga muhtoj. *Shu yo‘sun ko‘b vaqt ruhiy xastaliq kechirib kutilmaganda j o n l a n ib ketdi. Solih maxdumning maktab ishi ham uchunchi yildan boshlab biroz j o n l a n g‘an, bolalar ham o‘ttiz-qirqqa yetkan edilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TEZ, ILDAM, JADAL, SHITOB, SHAXT, SHAXDAM, ZUD Tez sur’atda, jadallik bilan (harakatga nisbatan). **Ildam** so‘zida chaqqonlik ta’kidi ham mavjud. **Jadal** so‘zi tezlikning yuqori ekanligini, **shitob** so‘zi esa harakat tezligining kuchli darajadaligini anglatadi. **Shaxt** so‘zining ma’nosi birdanlik, keskinlik ta’kidiga ham ega bo‘ladi. **Shaxdam** so‘zida harakatning tezlik va dadillik bilan bajarilishi ta’kidi yuzaga chiqadi. **Zud** so‘zi nutqda kam ishlatiladi.

“Ikki og‘aynimni qo‘ltiqqa qistirib yo‘rg‘alab qoldim” juda t e z yurdim demoqchi bo‘lsa kerak. A.Qahhor, Maqolalar va suhbat. – *T e z-t e z yuring-e, buva, muncha imillaysiz, – deyman to‘xtab.* Oybek, Bolalik. *Mohbibi buni sezib*

qoldi, shekilli, i l d a m turib kelib shkafni yopib qo‘ydi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Fazliddin otni i l d a m chiqarib, daraxtga bog‘ladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Vaqtning uchqur oti odatdagidan ham j a d a l yelayotganday, yo‘l esa qisqarmayotganday tuyulardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Biron kor-hol bo‘lmasin, deb motorga o‘t berib, j a d a l haydab ketdi…* S.Ahmad, Yulduz. *Furqat esa Shaytanat qo‘rg‘oni darvozasini zarb bilan qoqib, sh i t o b bilan kirib kelmoqchi.* T.Malik, Shaytanat. *Bazzoz do‘koniga kirdi-yu sh i t o b, Sallalikka oldi besh-olti gaz bo‘z...* A.Oripov, Everest va ummon. *Uning qarshisiga supurgi va xokandoz ko‘targan bir ayol sh a x t bilan kelardi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Obid sh a x t bilan o‘rnidan turadi-yu, shu ayolni yana bir bor ko‘rish ilinjida tashqariga intiladi.* E.Shukur, Ayol sehri. *Tamara sh a x d a m harakat qildi, ayolning yonboshiga o‘tib, yonidan yuziga ko‘z qirini tashladi.* M.Muhamedov, Qahramon izidan. *Vaziri a’zam yigitdek sh a x d a m o‘rnidan turdi. S.*Siyoyev, Avaz. *– Mana bu nomani Urganchga z u d eltgaysen va ani sulton hazratlarining o‘z ilklariga bergaysen, – dedi Temirtoshga.* M.Osim, Zulmat ichra nur. *Har bir ishni puxta qilib, Pishiq bajarib. Tez, ildam, jadal, shitob, shaxt, z u d... Haydov planini jadal, Tez bitirgali.* U.Nosir, Bodom gullagan kechasi.

TEZLAMOQ, JADALLAMOQ, ILDAMLAMOQ Tez sur’atda, jadal tarzda harakat qilmoq. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **tezlamoq** so‘zi nisbatan faol qo‘llanadi. **Jadallamoq, ildamlamoq** so‘zlarida harakat tezligi ortganligi anglashiladi. Bu so‘zlar, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi. **Ildamlamoq** so‘zi ko‘pincha *qadam, odim* so‘zlari bilan bog‘lanib keladi va harakat tezligining nisbatan tezlashganligini ta’kidlaydi.

Notanish odam Asadullani ko‘rib cho‘chidimi, har holda, qadamini sekinlatdi. Keyin t e z l a tdi. T.Malik, Savohil. *Ovqatingni t e z l a t, xotin, arpa ugra bo‘lsayam qorin to‘ysin.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Davron aka bir nima deb qo‘l siltadi-da, j a d a l l a b ketdi.* O.Yoqubov, Diyonat. *Hamma hasharchilar orolga o‘tib olganlaridan keyin ish j a d a l l a shib ketdi.* M.Osim, Temur Malik. *Bozorqul… keyin bilsa, oldindagilar ham j a d a l l a sh haqida buyruq olishgan ekan*. A.Muxtor, Chinor. *Qishloq ko‘chasi tovonlarini kuydirgandek, jangchilarning odimlari o‘z-o‘zidan i l d a m l a shdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Sabohiddin qochishga harakat qildi, lekin i l d a m l a shga qancha urinmasin, og‘ir oyoqlarini sudray olmadi...* T.Malik, Shaytanat.

TENG I, BARAVAR (BAROBAR) 1. O‘lchami, hajmi, miqdori, muddati, qamroviga ko‘ra bir xil, mos. **Teng** so‘zi uslubiy jihatdan betaraf. **Baravar** so‘zi ko‘proq so‘zlashuvda ishlatiladi. **Barobar** so‘zi esa kitobiy nutqqa xos.

Osmon deganlari keng ekan, Bo‘yi bo‘yim bilan t e ng ekan. M.Yusuf, Saylanma. *...Sendan ayru dam uzundir, lahzalar ham yilga t e ng...* A.Oripov, Tanlangan asarlar. *Muhabbatning gavdasi unikidek kelishgan, taxminan u bilan baravar.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Hammasi qopini ko‘tarib dala*

chekkasiga olib chiqadi, keyin b a r a v a r bo‘lashiladi. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Uy devorlari bel b a r o b a r ko‘tarilganda rozilik berganidan achina boshladi.* T.Malik, Shaytanat. *...Abdulla qancha yashasa, sen ham shuncha yashaysan! U bilan birga, u bilan b a r o b a r yashaysan.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin.

2. Mavqeyi, ahamiyatlilik darajasi, huquqi, belgi-xususiyati aynan, bir xilda. **Teng** so‘zi bu ma’nosida barcha nutq uslublarida qo‘llana oladi. **Baravar** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Barobar** so‘zi esa kitobiy uslubda faol ishlatiladi. **Baravar** va **barobar** so‘zlari tilda variantlikni hosil qiladi.

Kimgadir t e ng dirman, kimdandir ustun, Zuvalam qorilgan samimiyatdan. A.Oripov, Saylanma. *...Seni tinglab, seni anglamoq, Jannat bog‘larini kezgan bilan t e ng.* Jontemir, She’rlar. *Shoshgan shamol bilan b a r o b a r.* Maqol. *Katet, gipotenuzalaringizni chetga qo‘yib, ayting-chi, dunyo formulasida haqiqat nimaga b a r o b a r?* T.Malik, Shaytanat.

TENG II**, BARAVAR (BAROBAR), BARAVARIGA** Bir vaqtda, baravariga. **Teng** so‘zi bu ma’nosida ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi, **baravar, baravariga** so‘zlari esa so‘zlashuvda faol ishlatiladi.

Tohir-Zuhra holidan bir kalima eshiting: o‘qib, o‘ynab bir bog‘da ulg‘ayar edilar t e ng. S.Abdulla, Tohir va Zuhra. *Tarix qatlarida sakson sahifa, Har satri tizilgan marjon sahifa, Karvonim t e ng borar mardlar safida, Shu safda hamisha omon bo‘laylik.* J.Rahmatov, Osmon bo‘laylik. *Shunda bemorlar b a r a v a r so‘zladi! Bab-baravar so‘zladi!* T.Murod, Tanlangan asarlar. *G‘ira-shirada hayajondan qizargan chehralar ko‘rinardi, orqa qatordagilar o‘rnidan turib ketgan, hamma b a r a v a r chapak chalar edi.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *– Ovga men ham boraman, – dedim. – Nima? – uchovlari b a r o b a r so‘rashdi, – shu sovuqda-ya?* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Ikkovi b a r a v a r i g a yig‘lab yuborishdi*. T.Malik, Mehmon tuyg‘ular. *Odamlar b a r a v a r i g a qarsak chalishar, Alimardonning raqibini olqishlashardi*. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi.

TENG BO‘LMOQ, BARAVAR BO‘LMOQ (BAROBAR BO‘LMOQ) 1. O‘lchami, hajmi, miqdoriga ko‘ra bir xil bo‘lmoq; teng holatda bo‘lmoq. **Teng bo‘lmoq** so‘zi barcha nutq uslublarida uchraydi. **Baravar bo‘lmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida ishlatiladi. **Barobar bo‘lmoq** so‘zi, asosan, kitobiy uslubga xoslangan.

Oyim hali uxlamagan ekan. Bo‘yi o‘zi bilan t e ng b o‘ l ib qolgan Omonni quchoqlab ayvon o‘rtasida o‘tirar, tokchadan ag‘darilib tushgan samovar Omonning to‘shagi yonida tumshug‘i bilan namatga sanchilib yotar edi. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Bo‘lar elda botirlar ot chopishganda, Tog‘lar cho‘kib, to‘pig‘iga t e ng b o‘ l adi...* M.Yusuf, Turkiston madhiyasi. *Kechasi bilan gupullab ham qor yog‘ib chiqdi. Ertalab hovliga chiqsam, naq tizza b a r a-*

var b o‘ l ib qolibdi. X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Andoqkim, sahni devonxona sahni bila b a r o b a r b o‘ l g‘ay.* Bobur, Boburnoma.

2. Ahamiyatlilik darajasi, mavqeyi, imkoniyati, huquqiga ko‘ra bir xil bo‘lmoq. **Teng bo‘lmoq** so‘zi barcha nutq uslublarida uchraydi. **Baravar bo‘lmoq** so‘zi esa ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Hali men u bilan t e ng b o‘ l dimmi? Hali meni u bilan bir kursiga o‘tqazmoqchimisiz? A.Muxtor, Chinor. *Domullo, siz hali yangamullomizga hamma t e ng b o‘ l mog‘i lozim, deganday gap qildingiz-a? Qandoqasiga t e ng b o‘ l sin, axir?* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Dadam qamalganlaridan keyin To‘lagan boshqa partaga o‘tib olgan edi, aytmovdim sizga. Innaykeyin, men bilan o‘ynamay qo‘ygan edi. Endi b a r a v a r b o‘ l dik!..* O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *Tarix takrorlanmoqdadir, bu mashvaratda yana b a r o b a r b o‘ l gaymiz.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Ana shunda Shohimardon piri Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshkirti qilib: “Bu ikkovi er-xotin bo‘lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi b a r o b a r b o‘ l olmasin, “omin Olloh-u akbar”, deb fotihani betiga tortdi*. “Alpomish”.

TENGDOSH, TENGQUR, HAMQUR, TENG-HAMQUR, TENG-TUSH (TENG-TO‘SH), BO‘YINSA Bir yilda tug‘ilgan, bir vaqtda o‘sib ulg‘aygan. **Tengdosh** so‘zi “yoshi teng” ma’nosiga ega bo‘lib, ham kattalar, ham kichik yoshdagilarga, shuningdek, jonivor va narsa-predmetlarga nisbatan ham ishlatiladi. **Tengqur** so‘zi, asosan, bolalar, yoshlarga nisbatan qo‘llanadi. **Hamqur, teng-hamqur, teng-tush** so‘zlari nofaol, ayrim shevalarda uchrab turadi. **Teng-tush** poetik asarlarda **teng-u tush** shaklida ham qo‘llanadi. **Bo‘yinsa** – shevaga xos so‘z.

U avval shuncha yildan beri ko‘rishmagan t e ng d o sh i bilan uchrashuv bunchalik jiddiy tus olishini kutmagan edi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Marhum t e ng d o sh lari ichidagi eng yuvosh va kelishgan yigit edi...* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Nima uchun t e ng q u r lari, hatto o‘zidan kattaroq qizlar ham uni “opacha” deb atashadi?* A.Qahhor, Muhabbat. *T e ng q u r larim – besh yil bir auditoriyada o‘qigan qadrdonlarim – to‘da-to‘da bo‘lib, safarga otlanishardi.* H.Nazir, Muhabbat. *Yo‘lchi o‘z h a m q u r lari bilan birga tong shabadasida ishga tushar, quyosh tik kelganda ovqatlanib, to qorong‘ilik tushguncha yana mehnat qilar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Alisherning bobosi birla Temur Ekan do‘st-u qadrdon, t e ng-u h a m q u r.* O.Bo‘riyev, Amir Temur. *Boy zotini ko‘rganda-ku uchar hushi, Qolib ketar qarindosh-u t e ng i-t o‘ sh i. So‘lim choyxonada davra qurishib, T e n g i-t u sh i bilan yayrashar chollar.* A.Oripov, Hayot ishqi. *Yaqinda yana aytib yuboribdi. Shunga t e ng-t o‘ sh larim bilan bir borib kelmoqchiman.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Baxayr, otaning bo‘yinsalari – tobutkash tengqurlari bilan o‘g‘il-qizlarining gaplari bir yerdan chiqib, unga munosib “yor” izlashga kirishdilar.* T.Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol.

TENGDOSH BO‘LMOQ, TENGQUR BO‘LMOQ, HAMQUR BO‘LMOQ, TENG-TUSH BO‘LMOQ, (TENG-TO‘SH BO‘LMOQ) Bir xil yoshda bo‘lmoq, tengqur bo‘lmoq. **Hamqur bo‘lmoq, teng-tush bo‘lmoq** (**teng-to‘sh bo‘lmoq**) so‘zlari, asosan, shevalarda ishlatiladi.

U bu olamga kirish uchun Rimning t e ng d o sh i b o ‘ l gan Afrosiyobni qarichma-qarich kezib chiqdi. O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *...Olim patentlash idorasida ishlab yurgan chog‘ida o‘ziga t e ng d o s h b o ‘ l gan falsafashunos M.Solovin va matematik K.Gabixt ismli yigitlar bilan do‘stlashadi.* Ch.Nasriddinov, Kashfiyotchidan chiqqan ixtirochi. *Nega t e ng q u r b o ‘ l a turib, ikkalovi ikki xil yashaydi?* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Yozuvchi Isajon Sulton o‘ziga t e ng q u r b o ‘ l gan adib Ulug‘bek Hamdam bilan qilgan “Musaffo bolalikning orzumand xayollari” deb nomlangan suhbatida “Ozod” romani tabiatiga to‘xtaladi...* N.Sultonova, Isajon Sulton nasri poetikasi. *Ustodga tengdosh va hammaslak, h a m q u r b o ‘ l gan buyuk Jovidning hasratli bir satrini esladim.* I.G‘afurov. Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida ikki badia. *Bosh vazirga h a m q u r b o ‘ l gan ba’zi beklar va har xil amaldorlar bir yorliq bilan katta yerlar olib, tantanali ziyofatlarda, majlislarda haftalab mayxo‘rlik qiladilar, qimor o‘ynaydilar.* N.Karimov, XX asr o‘zbek adabiyoti – jahon adabiyoti kontekstida. *Bolalari bilan t e ng -u t o ‘ sh b o‘l ishgan. Kirdi-chiqdi qilishgan.* S.Hamidova, Mahalla – tarbiya o‘chog‘i.

TIK, TIKKA, ADIL, TO‘G‘RI, VERTIKAL Vertikal holatdagi. **Adil** so‘zi ko‘pincha *qomat*, *gavda*, *qad* so‘zlari bilan birikib keladi, kitobiy nutqda ishlatiladi. **To‘g‘ri** so‘zi bu ma’nosida barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Vertikal** so‘zi, asosan, ilmiy va rasmiy uslublarda ishlatiladi.

Rostlanib olish, t i k turish, g‘ayrishuuriy ravishda qo‘l cho‘zib, nimanidir tutamlashga urinardi. Q.Kenja, Toshqin. *Eshonxon qaddini t i k tutib, tim tomon tez yurib ketdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Kurmak t i k ka o‘sadi, poyasi qo‘lni tilib-kesib yuborishi ham mumkin.* I.Sulton, Ozod. *Uning amri bilan polvon yana ilgarigi joyiga kelib, chatanog‘ini kerib, t i k k a turdi.* A.Qahhor, Ko‘r ko‘zning ochilishi. *Yuqori sinf shogirdlaridan bir nechasi a d i l, yuksak palma daraxtlari ostida jiddiy suhbatlashmoqda edilar.* Oybek, Nur qidirib. *Yerda odam siyrak edi, odamlar orasida u balandgina a d i l qomat, qizil ko‘ylakda, xipchagina qaddidagi har bir bo‘rtgan joyi xuddi kulol dastgohda mehr bilan yumaloqlagandek bejirim ketib boryapti, dod devorging keladi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Ayvon bitay deb qolganida bitta chetiga ustun yetmay qolibdi. Ayvonga t o ‘ g ‘ r i va silliq ustun kerak ekan.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Qomatni t o ‘g ‘r i tutishga odatlanish unchalik qiyin emas.* Gazetadan. *Jism v e r t i k a l yo‘nalishda o‘zgaruvchan harakat qilganda og‘irlik o‘zgaradi*. Fizika.

TIL, ZABON, LISON Kishilar o‘rtasida aloqa-aralashuv uchun xizmat qiluvchi muhim vosita. **Zabon** so‘zi ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Lison** so‘zi mazkur ma’noda eskirgan.

O‘gilcham jajji qo‘lchalari bilan bog‘ g‘oyib bo‘lgan tomonni ko‘rsatib, o‘zining t i l ida allanimalar deb chug‘urlar edi. I.Sulton, Bog‘i Eram. *T i l – dil jarchisi.* Maqol. *Ular shu ko‘yi bir muddat bir-birlariga ishqalanib, bo‘ylariga to‘ymay turib qolishgach, Qora darveshga z a b o n bitdi: – Oh, meni Hotamtoy birodarim, ehsonlari, sochganlari Abdurahmon Afvcha bor oshnaginam, ko‘rar kun bor ekan-ku.* M.Mansur, Judolik diyori. *Egam, ismingni aytmoq jur’atin bergil z a b o n imga, Ko‘ngil – xomush sadaf, dur jilvasin bergil bayonimga.* E.Vohidov, Saylanma. *...Said Olimxon marhamat ko‘rsatdi: O‘rusiya yerlarini, urf-odatlari, shuningdek, l i s o n ini ham durust biluvchi a’yonlaridan birini vakolat birlan jo‘natajagini ma’lum qildi.* T.Malik, Savohil.

TILANCHI, GADO(Y), SADAQACHI, DEVONA Ko‘cha-ko‘yda kishilardan xayr-sadaqa, ehson so‘rab, tirikchilik qiluvchi shaxs. **Gadoy** so‘zi nutqda **gado** shaklida ham uchraydi. **Sadaqachi** so‘zi kam qo‘llanadi. **Devona** so‘zi bu ma’nosida nofaol, asosan, so‘zlashuvda kuzatiladi.

Xiyobonda ikkita t i l a n ch i aylanib yurishar, to‘planib turganlarning oldiga borib qo‘llarini cho‘zishardi. N.Eshonqul, Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi. *Ukasi “shu bir qarich yer evaziga kichik o‘g‘lingizga atab hovlingiz etagiga bir imorat solib beray”, desa ham, bu marhamatni sadaqa, o‘zini esa t i l a n ch i o‘rnida ko‘rib, unamadi.* T.Malik, Shaytanat. *Ular g a d o y ning gapidan hayron lab tishlab, ulovlarining tizginidan ushlab, yalanglikni piyoda kesib o‘tishdi…* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *...men sadaqa oladigan g a d o y emasman, men pulni happa-halol ishlab olaman.* T.Malik, Shaytanat. *Termiziyning lafzida: “Qachon oldingizga s a d a q a ch i kelsa, faqat rozi bo‘lib qaytsin”, – deyilgan.* “Hadislar olami”. *Yashashdan birdan bir maqsadi xazinaga erishmoqlik bo‘lgan d e v o n a esa bor-u yo‘q sarmoyasidan – hayotidan ajraldi.* T.Malik, Shaytanat. *Soniy, arzi bandaligimiz shulki, biz, darbadari d e v o n a, aql-u hushdin begona, xalq tilida afsona, elkezar g‘aribona qullaringiz dard-u alam yutar erdik…* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TILIMLAMOQ, TILIKLAMOQ, TILIM QILMOQ, TILIM-TILIM QILMOQ Biror narsani uzun-uzun qilib bo‘laklarga bo‘lmoq. **Tiliklamoq** so‘zida bo‘lakning ixchamligi ham anglanadi. **Tilim-tilim qilmoq** so‘zida tilimlash harakati kuchli ifodalanadi.

Qovunga pichoq tortayotganimda ham, t i l i m l a b yeyayotganimda ham chol hozir qiziq hodisa yuz beradigandek menga qarab iljayib turardi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Jalolxon yarimta qovunni t i l i m l a b tashladi.* R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi. *Shartta uzib, tolning tagiga bordim. T i l i k l a b yeya boshladim.* G‘.G‘ulom, Tirilgan murda. *Yerga chordana qurib, yonidan pichoq chiqardi-da, qovunni t i l i k l a di.* “Yoshlik”. *U qovunni t i l i m q i l ib kesdi, keyin idishlarga joylab, jo‘ralarining, shiyponda qo‘lbola qilib yasatilgan dasturxon atrofida tizilishib o‘tirgan yigitlarning yoniga shoshdi.* Gazetadan. *...yuz-*

larini t i l i m-t i l i m q i l sa, yula-yula sochlaridan ayrilsa, bundan Chin o‘lkasiga qora mushk o‘rniga hidli kofur sochilganday bo‘lsa... R.Qo‘chqor, Darbadarlikning bedor talqini.

TINCH I**, JIM, JIMJIT, TEK, SOKIN, OSUDA, OSOYISHTA, TINCH-OSOYISHTA** Hech bir harakatsiz yoki tovush-shovqinsiz holat. **Tinch** so‘zi barcha nutq uslublarida uchraydi va asosiy hollarda shovqin-suronsizlik, to‘polonsizlik vaziyatini ta’kidlaydi. **Jim** so‘zi ham shovqin-suronsiz holat, tinch amalga oshirilgan harakatga nisbatan ishlatiladi. **Jimjit** so‘zida belgi darajasining ortiqligi bo‘rtib turadi. **Tek** so‘zi nafaqat insonga, jonivorlarga nisbatan ham ishlatiladi, so‘zlashuv uslubida ko‘p kuzatiladi. **Sokin, osuda, osoyishta** so‘zlarida kitobiylik ta’kidi anglashiladi. **Tinch-osoyishta** juft so‘zida belgi darajasi ortiq.

O‘ttiz yildan beri shu yerdamiz, hali biron kori hol bo‘lgani yo‘q. Bu yer t i n ch joy. Mirmuhsin, Me’mor. *Shovqin-suronli, serqatnov ko‘chalarni yoqtirmas, sal aylanish bo‘lsa ham, t i n ch, salqin xiyobonlarni tanlardi.* F.Musajonov, Himmat. *Men buyruqni buza olmayman. Pulni olgin-u, j i m o‘tiraver*. T.Malik, Shaytanat. *Suv bo‘yida turib intizor, Kun yo‘liga tikilaman j i m.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Tong oldi qorong‘isi derazalarga saqichdek yopishgan, yo‘laklar, palatalar j i m j i t...* A.Muxtor, Chinor. *Endigina rang olib kelayotgan barkashdek quyosh tog‘lar ortidan ko‘tarilmoqda edi. Ko‘cha j i m j i t.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Sizga nima bo‘ldi, t e k o‘tirsangiz bo‘lmaydimi?* A.Qahhor, Muhabbat. *Jamshid boshini xam qilganicha t e k turaverdi.* T.Malik, Shaytanat. *U endi tevarak-atrofga beparvo, nega hamma yoq bunday jimjit, s o k i n deb ham bosh qotirmas, o‘zi bilan o‘zi, ko‘ngil dunyosiga sho‘ng‘ib ketgan edi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *S o k i n hujrasida o‘ychan turganda Tushdi huzuriga Hazrat Jabroil...* A.Oripov, Saylanma. *Shu o s u d a bir damda daf’atan qattiq portlash yuz berib, Sevgi mulki chil-chil bo‘lib ketibdi.* A.Muxtor, Chinor. *Shaharliklarning ko‘pi terimga – hasharga jo‘nab ketgani uchun Toshkent xiyla o s u d a, tramvaylarda odam siyrak.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Qarindoshlardan ketadigani ketdi, qoladigani qoldi. Tun o s o y i sh t a o‘tdi.* A.Qahhor, Muhabbat. *Xiyobon kunduz ham, tun ham tinch, o s o y i sh t a.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *T i n ch-o s o y i sh t a hayotga, iqbolga erishmak xalqlarning o‘z qo‘lida, o‘z ixtiyoridadir.* M.Ali, Sarbadorlar.

TINCH II**, OSOYISHTA, OSUDA, SOKIN, BEXAVOTIR, BETASHVISH, TASHVISHSIZ, G‘AM-TASHVISHSIZ, XOTIRJAM** Urush-janjaldan, keraksiz qayg‘u-tashvishdan xoli. Bu ma’noda **tinch, osoyishta** so‘zlarining erkin almashinib ishlatilishi ko‘p uchraydi. **Tinch-osoyishta** juft so‘zida mazkur ma’no kuchli ifodalanadi. **Osuda** so‘zi, asosan, kitobiy uslubga xos. **Bexavotir, xotirjam** so‘zlarida xavotirsizlik qabariq ifoda topgan.

T i n ch elning bog‘i gullar. Maqol. *Lekin uning halovati yo‘q, notinch uxlaydi. Men bo‘lsam t i n ch uxlayman.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Xongirey*

qanday o‘lim topganini bilmaydi, biroq bu o‘lim endi o s o y i sh t a hayotga emas, yangi fojialar jarligi tomon yo‘l ochganini fahmlab turardi. T.Malik, Shaytanat. *Orzularga to‘liqdir ko‘ngil. Vahimasiz, o s o y i sh t a dil.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *O‘sha Naddoflar ko‘chasidagi uchrashuvdan so‘ng Jahonbikaning ham o s u d a xayollari buzildi.* M.Ali, Sarbadorlar. *Endi uning o s u d a turmushini hech kim loyqata olmaydi.* S.Anorboyev, Oqsoy. *Chol yirik gavdali, peshonasi keng, soqollari qalin, ustida bo‘z yaktak, eskigina chopon; devorga suyalib, go‘yo uxlaganday ko‘zlari yumuq, s o k i n o‘tiribdi.* Oybek, Bolalik xotiralarim. *...Sardor tishdan s o k i n ko‘ringani bilan ichdan qasos o‘tida o‘rtanardi.* N.Norqobilov, Bo‘ron qo‘pgan kun. – *Xo‘p, mayli, – dedi O‘rmonjon, – bo‘lar ish bo‘lib o‘tibdi. Endi bemalol, b e x a v o t i r ishlay bering.* A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Zamira “o‘qishimni bitirgunimcha hech narsaga qiziqmayman” degani uchun Ochil bu jihatdan b e x a v o t i r yurardi* P.Qodirov, Uch ildiz. *Avvaliga sekin boshlangan, kishining beg‘am, b e t a sh v i sh sho‘x kunlarini eslatadigan kuy borib-borib juda avjiga chiqib ketdi.* Shuhrat, Shinelli yillar. *...Bu dunyoda t a sh v i sh s i z yashamoq naqadar zerikarli!* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Oila jamuljam bo‘lib g‘amsiz, t a sh v i sh s i z, rohat-farog‘atda o‘tirgani uchunmi, mehribonlarimiz haqidagi eng so‘nggi ma’lumotni ololmay, ovqat solingan ikkita qora sumkani salanglatib qaytayotganimiz uchunmi, bilmayman, oyog‘im ostidagi yerni tepib-tepib yuboryapman.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Hozir yelkamni ezib turgan tog‘ birdan ag‘darildi, endi uyga borib bola-chaqa bilan g‘ a m-t a sh v i sh s i z, bir chaqchaqlashib o‘tiray.* T.Malik, Shaytanat. *Hasan Hamza x o t i r j a m orqasiga qaytdi...* M.Ali, Sarbadorlar. *Tomiringga yaqin turibsan-da, bolam. Suyaklaring joy-joyiga tushib, x o t i r j a m uxlagansan.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir.

TINCHIMOQ, TINCHLANMOQ, TINMOQ, JIMIMOQ, JIM BO‘LMOQ, TEK BO‘LMOQ Shovqin-suron, to‘s-to‘polon, gap-so‘z kabilar to‘xtamoq. **Tinmoq, jimimoq, tek bo‘lmoq** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi.

T i n ch i maydi chaqaloq dedi, Xotin quvolmaydi sharpani. U.Qo‘chqorov, Hayajonga ko‘milgan dunyo. *Zalda yana qarsakbozlik, shovqin boshlandi... Zal t i n ch ib ulgurmay, u yerdan qo‘lida piyola ushlagan uy nazoratchisi chiqib keldi.* N.Eshonqul, Go‘ro‘g‘lining tug‘lishi. *Jim bo‘l! Bir zumda hamma t i n ch l a n di. Maydonga sukut cho‘kdi.* A.Malik, Jangchi. *Nihoyat, suronli unlar tugadi, karnay barini yakunlagan bo‘ldi: go‘yo kutish azoblari bitdi, deganday osmonga qarab so‘nggi bor na’ra tortdi-yu t i n di.* M.Ali, Sarbadorlar. *Bozorda shovqin t i n maydi. Mozor esa sukunat maskani...* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *U xo‘rsinib j i m i di. Keyin cho‘ntagidan toza, oppoq ro‘molcha olib, ko‘zlarini artdi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *U bir zum j i m ib qoldi-da, sekin qo‘shib qo‘ydi...* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Oyi, siz sezasizmi, boynikida orqamdan kulishadi, gapirishadi. Man yaqinlashsam, j i m bo‘li-*

shadi. Oybek, Tanlangan asarlar. – *To‘g‘ri tushunibsan... – Tarzan shunday deb j i m b o‘ l di*. T.Malik, Shaytanat. *U otasidan qo‘rqib gapirmadi, t e k b o‘ ldi.* Gazetadan.

TINCHLANMOQ, TINCHIMOQ, TINCH BO‘LMOQ 1. Notinch holatdan ruhan tinch holatga o‘tmoq, ko‘ngli tinch bo‘lmoq. **Tinchimoq, tinch bo‘lmoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuvda uchraydi.

Razzoq so‘fining behuda taqvodorlikka suyangan so‘zlari va Qurvonbibining qayta-qayta ishontirishlari ila Zebining ko‘ngli bir qadar t i n ch l a n di... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ha, o‘g‘lim, t i n ch l a n, xudo xohlasa, yomonning jazosini o‘zi beraveradi, hammasi o‘ziga ayon.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *O‘zining adolatli, yaxshi inson ekanini shu so‘kishlar orqali isbot etganday bo‘lib t i n ch i di-da, chuqur xo‘rsinib: – Bola-chaqa boqish shunaqa qiyin bo‘lib qolgan, – dedi*. T.Malik, Shaytanat. *Darrov tushundim, tushundim-u, G‘ulistondan ko‘nglim t i n ch i di: ha, u endi yana ishonchli qo‘llarda.* A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *Qo‘ng‘irot elda unab turgan odamlar, Katta-kichik, bari bu so‘zni bilar, Enang Ultontozga tegsa, t i n ch b o‘ l ar.* “Alpomish”. *Ana, o‘sha... naqshinkor eshik! ... Ko‘ngli t i n ch b o‘ l di. Ohista qo‘zg‘oldi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi.

2. Biror ish yoki belgilangan vazifani amalga oshirib, xotirjam bo‘lmoq. **Tinchimoq, tinch bo‘lmoq** so‘zlarida xotirjamlik ta’kidi kuchli.

Nihoyat, otasi o‘z muddaosiga yetdi, qizini yangi kuyovga topshirib t i n ch l a n di... A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qiz bola ota-onaga omonat, uzatib t i n ch i y!* S.Zunnunova, Yangi direktor. *Dunyo shaytonning do‘koni, undan bir narsa oldingmi, shayton haqini undirib olmagunicha t i n ch i maydi*. T.Malik, Shaytanat. *Kecha kechqurun yangi oy chiqdi. Qarasam, o‘rog‘i yana bemalol yonboshlab yotibdi. Oy o‘ziga t i n ch b o‘ l sa, yer notinch bo‘ladi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Uning boshini aylantirishgan. Bir balolarni va’da qilishgan, yo qo‘rqitishgan. Ochiladi bu hali. T i n ch b o‘ l, bolam.* O‘.Umarbekov, Saylanma.

TINCHLIK I, JIMJITLIK, JIMLIK, SOKINLIK, SUKUNAT, OSUDALIK, OSOYISHTALIK, TINCHLIK-OSOYISHTALIK G‘ala-g‘ovursiz, shovqin-suronsiz tinch holat. Nutqda mazkur ma’noni ifodalashda **tinchlik** so‘zi bilan birga **jimjitlik** ham faol ishlatiladi. **Jimlik** so‘zi nutqda nisbatan kam uchraydi. **Sokinlik, sukunat, osudalik, osoyishtalik** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubga xoslangan. **Tinchlik-osoyishtalik** juft so‘zida “tinch holat, jimjitlik” ifodasi alohida ta’kid oladi.

Faqat bu t i n ch l i k ni savog‘ich qalamlarning qog‘oz ustida qirillashi va goho buklangan qog‘ozlarning shildirashi buzar edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bundan burun ul ko‘p og‘ir tunlarni Chidam bilan, t i n ch l i k bilan o‘tkardi.* Cho‘lpon, Yana oldim sozimni. *Suv quyganday j i m j i t l i k da Bobur Muhammadjon eshik og‘asiga mayin kulumsirab qaradi...* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

...Men faqat yolg‘izlikni, j i m j i t l i k ni istardim. L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *J i m l i k, hovli to‘la olachipor, qora tovuqlar.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *...ikkovi jimgina kelisharkan, na unisidan, na bunisidan sado chiqardi. Bu j i m l i k ni Omon buzdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Hirotdagi bugungi osoyishtalik dahshatli to‘fon oldidan bo‘ladigan muvaqqat s o k i n l i k ni eslatur.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Odatda, haqiqat sustlik va s o k i n l i k ni yoqtirmaydi*. I.Haqqul, Abdulla Qahhor jasorati. *Karvon yo‘lga tushar yuklarni ortib, S u k u n a t buzilar qo‘ng‘irog‘idan...* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Vujudimdagi oromning, atrofdagi sehrli s u k u n a t ning sirlari shundandir.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Ark hovlisidan o‘tib borayotganda Toshkentdagi o s u d a l i k hozir unga dovul oldidan bo‘ladigan xatarli sukunatdek tuyuldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. – *Maqsadim – yurtda o s u d a l i k ni saqlash! – dedi vaziyatni yumshatish maqsadida.* I.Nishonov, Afg‘on shamoli. *Bu hovlida doim o s o y i sh t a l i k hukm suradi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Qizlari oldin u yoq-bu yoqqa o‘g‘rincha nazar solibdi. Hamma yoq tinchlik, o s o y i sh t a l i k, to‘rt-beshta qizaloq asfaltda chizma-chiziq o‘ynayotgan emish.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Istiqlolning ilk kunlaridanoq yurtimizda t i n ch l i k-o s o y i sh t a l i k barqarorligini ta’minlash yo‘lida katta ishlar olib borilmoqda.* N.Botirova, Tinchlik va osoyishtalik – oliy ne’mat. *...T i n ch l i k-o s o y i sh t a l i k hukm surgan joyda yuksalish va taraqqiyot bo‘ladi...* I.Beknazarov, Tinchlik – bebaho ne’mat!

TINCHLIK II**, OSOYISHTALIK, XOTIRJAMLIK, OSUDALIK, SOKINLIK** Insonni bezovta qilmaydigan, tinch, osoyishta holat. **Osoyishtalik, sokinlik, osudalik** so‘zlari nutqda “xotirjamlik” ma’nosini ham ifodalab keladi, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi.

T

Dadam aytibdi: t i n ch l i k emish, vahima ko‘tarmasdan tezda uyga qaytishim kerak ekan. X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *T i n ch l i k edi saroyda, Qiz bo‘lsa katta soyda, Suv yuzida betinim Oqib borar edi jim.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Ana shunda hammalarimizning uylarimiz o s o y i sh t a l i k rohatidan bahramand bo‘ladi.* T.Malik, Shaytanat. *Odamga bo‘lgan muhabbat va hurmat, odam hurriyatiga bo‘lgan tuganmas sevgi, odamning erki va o s o y i sh t a l i g i ga bo‘lgan g‘amxo‘rlik Farhod uchun bir umr ajralmas do‘stlarni yuzaga keltiradilar.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Mumkin emas – bexavotirlik, x o t i r j a m l i k, sokinlikka esh hissizlik, g‘ariblik, befayzlik...* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Yana bir soatlar yurilgach, qator mirzateraklar, orasta bog‘lar ko‘zga tashlanib, ich-ichimda xuddi o‘z uyimga kelganday x o t i r j a m l i k paydo bo‘ldi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Tepadagi uch qavatli binoda tashvishli kun qaynab yotibdi. Pastda o s u d a l i k hukmronday go‘yo... Uch qavatli imoratning yerto‘lasida nima uchun o s u d a l i k hukmron?* T.Malik, Shaytanat. *Shundagina u rasmana cho‘kkalab, qo‘llarini yana suvga soldi, muzdek suv tirsaklarigacha ko‘mdi, hovuchini og‘ziga olib bormasdanoq, vujudi-*

ni orombaxsh s o k i n l i k qoplay boshladi. O‘.Umarbekov, Saylanma. *Qalbimga s o k i n l i k yoqar, Jim kezinar shamollar bedor.* O.Suyundiqova, Oydinlik.

TIQMOQ, SUQMOQ, SANCHMOQ, SOLMOQ, JOYLAMOQ Biron narsani boshqa narsaning ichiga, orasiga kiritmoq. **Tiqmoq, suqmoq** so‘zlari narsani boshqa narsaning ichiga sanchib, suqib, majburan kiritilishiga nisbatan ham, narsani boshqa ichi bo‘sh narsaning ichiga kiritilishiga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Sanchmoq** so‘zi narsani boshqa narsaning ichiga kuch yoki zarb bilan urib kiritilishiga nisbatan qo‘llanadi. **Solmoq, joylamoq** so‘zlari faqat narsani boshqa ichi bo‘sh narsaning ichiga solinishiga nisbatangina qo‘llanadi. **Suqmoq** so‘zi – ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xos.

O‘limligim deb, (pulni) yostiqlarining orasiga t i q ib qo‘ygan edilar. O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Matmusa amakim: “Qopga somon t i q ish ham hunar bo‘ladi”, deb meni somon bozoriga olib ketdilar.* E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Chinqirib yubordim. Ko‘z oldim qop-qora bo‘ldi... – Tepib o‘tirasanmi, biqiniga t i q i b ol!..* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Ofitser miltiq nayzasini cho‘g‘ga t i q di.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Komissarning yonidan quyon telpakli kishi shitob bilan o‘tib ketdi. Ikki qo‘lini paltosining cho‘ntagiga s u q ib olgan...* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Mastura erining kostyumini qo‘liga olishga ham cho‘chidi, nazarida kissaga qo‘l s u q sa, birov barmoqlaridan tutib qoladigandek yuragi betlamadi.* X.Do‘stmuhammad, Ikki hikoya va ikki roman. *Yo‘lchi qarmoqni ko‘l bo‘yiga s u q ib, o‘zi xashak yig‘ishtirishga tutindi.* N.Yusufiy, Hayot so‘qmoqlarida. *Kelganlar mash’alalarni qumga s u q i b o‘chirishdi.* A.Muxtor, Chinor. *Qasd qilgan nomard, o‘ziga ro‘para kelmaysanmi, pichog‘ingni ko‘ksiga s a n ch maysanmi, sanchib-sanchib xumoringdan chiqmaysanmi. Shu bolalarning hayoti uchun bir emas, o‘n joni bo‘lsa hammasini bermasmidi.* Cho‘lpon, Xayrli saboh. *Rustam esa bir qo‘lida xo‘rakli xaltani suvga pishib-pishib, uning hidiga kela boshlagan baliqlarni ikkinchi qo‘lidagi o‘roqning uchi bilan asta urib, s a n ch ib, chelakka tashlab ketaverardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Ko‘ziga shu qadar ma’noli tikilib qaradiki, Iskandar beixtiyor pulni qaytib kissasiga s o l di.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *U kissasiga s o l gan boyagi pulni olib, sanab ko‘rdi: beshta, birining cheti sal yirtilibdi, shumikan uning haqi.* A.Taypatov, Xo‘rozqand. *Qo‘ldosh bobo pulni po‘stinining ich cho‘ntagiga ehtiyotlab j o y l a b qo‘ydi.* H.G‘ulom, Toshkentliklar.

TIRIK, HAYOT, BARHAYOT Yashayotgan, o‘lmagan holat. **Tirik** so‘zi nutqda insonlarga, hayvonot, o‘simlik olamiga nisbatan baravar qo‘llana oladi. **Hayot** va **barhayot** so‘zlari esa asosiy hollarda insonga nisbatan ishlatiladi. **Hayot** so‘zi so‘zlashuv nutqida, **barhayot** so‘zi, asosan, badiiy uslubda uchraydi.

Alhamdulillah, ko‘rdim, t i r i k ekansan, noqobil bolam. Oybek, Tanlangan asarlar. *Qarashsa, t i r i k ekanman, demak, men bir marta o‘lib bo‘lganman.* T.Malik, Shaytanat. *Bu gapning qanchasi rivoyat, qanchasi haqiqat – bilmay-*

man, lekin Ochil buva hamon h a y o t, bu yil qovun pishig‘ida to‘qson to‘rtga kiradi, hali chinorday baquvvat. A.Muxtor, Chinor. *To h a y o t ekanmiz, savobga zormiz, Yilt etgan shu’ladan dillar fayziyob.* A.Oripov, Saylanma. *Ba’zan olisda suzib borayotgan bahaybat kemalarning behisob chiroqlari samo yulduzlaridek charaqlab, zimiston dengiz b a r h a y o t ekanidan dalolat berib turadi.* T.Rustamov, Mangu jasorat. *Mening quyidagi b a r h a y o t va hozirda sog‘-salomat bemorlarim o‘pka faoliyatining eng so‘nggi imkoniyatlari, ilmiy tajribalardan o‘tgan aniq va minimal chegaralari bilan qanoatlanib yashamoqdalar* A.Muxtor, Chinor.

TIRSAK, SARIQCHA Ayrim hollarda tilning uchida paydo bo‘ladigan so‘galsimon chiqiq. **Tirsak** so‘zi qarg‘ishlar tarkibida qo‘llanganda kuchli ekspressiv ifodani anglatadi. So‘zlashuv nutqida **sariqcha** so‘zi ko‘p uchraydi.

– Menga qarang, – dedi Adham. – Nima, tilingizga t i r s a k chiqqanmi? Boyadan beri eshakning qulog‘iga tanbur chertyapmanmi! A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *– Tilginangga t i r s a k chiqsin seni! – alami zo‘rligidan O‘sarqul battol xotinchasiga qarg‘anganini sezmaydi.* N.Norqobilov, Dasht-u dalalarda. *– Aldasam, tilimga s a r i q ch a chiqsin! – qasam ichdi bola.* “Yoshlik”.

TITMOQ, TITKILAMOQ, KOVLAMOQ, KOVLASHTIRMOQ Biron narsani topish yoki tekshirish maqsadida hamma narsalarni joyidan qo‘zg‘atib ko‘zdan kechirmoq. **Titkilamoq** so‘zida harakatning davomiyligi ta’kidi mavjud, belgi nisbatan kuchli ifodalanadi. **Kovlamoq, kovlashtirmoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv tilida uchraydi.

T

U yoq-bu yoqni t i t di, qovoqxonaga kirdi, bozorni qarab chiqdi. Lekin topolmadi. B.Ahmedov, Amir Temur. *Axtam old qopqoqni ochib, nimanidir t i t k i l a gach, “Tarzan, kalitni bura”, deb buyurdi.* T.Malik, Shaytanat. *Marg‘uba taqinchoqlarni darrov t i t k i l a b ko‘rdi, hamma narsa joyida, lekin quti yengilroq bo‘lib qolganday tuyuldi.* A.Qahhor, Muhabbat. *Uchinchi xumda nimadir bor edi. Unmi, kepakmi, bilolmadi. Qo‘lini sug‘urmasdan k o v l a b ko‘rdi…* O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *Beqasam choponlik bolaning kissasini k o v l a di.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Zufar Xodiyevich boshini quyi solgancha stol ustidagi allaqanday qog‘ozlarni k o v l a sh t i r ib o‘tirar, uy ichi tamaki tutuniga to‘lgan edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi.

TITRAMOQ, QALTIRAMOQ, QALT-QALT QILMOQ (ETMOQ), DILDIRAMOQ, DIYDIRAMOQ, DIRDIRAMOQ, VARAJALAMOQ, VARAJA QILMOQ, IDRAMOQ Qo‘rquv, holsizlik, sovuq, ochlik va shu kabilar natijasida titroq holatida bo‘lmoq. **Titramoq** so‘zi inson, jonivorlar va narsa-predmetlarga nisbatan qo‘llanaveradi. **Qaltiramoq, dildiramoq, diydiramoq, qalt-qalt qilmoq** so‘zlarida belgi darajasi nisbatan kuchli namoyon bo‘ladi. **Qaltiramoq, diydiramoq** so‘zlari nutqda, asosan, insonga nisbatan ishlatiladi. **Dildiramoq** so‘zi narsalarga nisbatan ham qo‘llanadi. **Qalt-qalt qilmoq**

so‘zi nutqda kam ishlatiladi. **Idramoq, dirdiramoq** shevaga xos. **Varajalamoq**, **varaja qilmoq** ham shevaga oid so‘z, kasallik sababli qaltirashni ifodalaydi.

Atrof qorong‘i bo‘lmaganida uning lablari salgina t i t r a ganini, yuziga tashvish buluti soya tashlab turganini sezgan bo‘lar edi. T.Malik, Shaytanat. *Muborakxonim birdan to‘xtadi, vujudi t i t r a b, qiziga o‘qtalgan mushtini o‘zining ko‘kragiga, boshiga urib dod soldi.* A.Qahhor, Muhabbat. *Xon oltinni uning belidan yechib olgan ekan, chol darhol tizzalari q a l t i r a b yiqilibdi-yu, o‘rnidan turgani harchand urinsa ham majoli yetmabdi.* A.Qahhor, Hayotimiz jamoli. *Oxiri madori ketayotganini sezdi, tizzalari q a l t i r a di.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Qo‘ylar ochlik va sovuqdan q a l t-q a l t q i l ar edi.* S.Anorboyev, Oqsoy. *O‘sha kez bahaybat Oqtirnog‘imning qoyadek ag‘darilganini va cho‘botlar iti ildamlik bilan bo‘g‘ziga chang solganini ko‘rdim. Ichim i d r a b ketdi*. A.Suyunov, Oqtirnoq. *Bir ayol qo‘lida chaqalog‘i, egni-boshi ho‘l, hu-hulab, d i l d i r a b kirib keldi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Burchakda o‘sha nogiron xo‘tikcha zax va sovuqdan boshini solintirib, d i l d i r a b turardi.* N.Aminov, Qahqaha. *Roziya Sattorning qo‘lida sovuqdan d i y d i r a b turgan bolani ko‘rdi.* P.Qodirov, Erk. – *Yomonlikka yaxshilik, – dedi o‘t yonida d i y d i r a b o‘tirgan Ubbiniyoz soqolidagi loyni sidirib.* A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi. *U Sho‘rqishloqqa och-nahor yetib keldi. Xufton chog‘ida bir kosa mastava ichib, sovuqdan d i r d i r a b to‘shakka o‘ranib uxlashga chog‘landi.* Q.Kenja, Toshqin. *Davlatmurod bo‘lsa, tizzalab o‘tirgancha boshini ko‘tarmay, yerga qaragancha, qaltiragan, d i r d i r a gan ovozda tinmay kalima qaytarardi.* B.Qobul, Oy yo‘li. *Tavba, bir juma kechki payt hovlisidagi voyish tagida achchiqqina ko‘k choy ho‘plab, xayol surib o‘ltirsa, bexosdan badani v a r a j a l a b, nogiron qo‘li asta-asta tepaga ko‘tarilibdi*. A.Dilmurod, Oq Ajdar sayyorasi. *So‘nggi xabarlarga qaraganda, qariyaning ahvoli og‘ir. Dam v a r a j a l a b, dam behush bo‘lib yotgan emish.* S.Boboyev, Chol o‘lmaydigan bo‘ldi. *Shamsiddin bir payt tamshanib ko‘zini ochsa, yumshoqqina to‘shakda v a r a j a q i l ib g‘ujanak yotibdi, yonida onasi mung‘ayib o‘tiribdi...* A.Dilmurod, Mezon burji. – *V a r a j a q i l yapman, a’zoyi badanim muzlab ketyapti, – dedi onam ovozi ham qaltirab*. U.Ro‘ziyev, Shabnam soyasida. *Ichim i d r a b ketdi. Oqtirnoq xirillar, mening esa qonim qaynab-toshardi.* A.Suyun, Oqtirnoq.

TITROQ, QALTIROQ 1. Qo‘rquv, holsizlik, sovuq, kasallik va shu kabilardan yuzaga kelgan titrashli holat. **Qaltiroq** so‘zida harakat belgisi **titroq** so‘ziga nisbatan kuchli ifodalanadi.

Ko‘sani battar qo‘rquv bosdi, t i t r o g‘ i kuchayib, labi labiga tegmay qaqrab qoldi. B.Ahmedov, Amir Temur. *...Salimjonning t i t r o g‘ i biroz bosildi. “Tez yordam” mashinasi Muhayyoni hushsiz holda kasalxonaga olib ketdi.* A.Qahhor, Muhabbat. *Q a l t i r o g‘ i m shisha idishdagi suvni-da chayqatardi. Stakan lablarim va tishlarimga teggach-da, titrog‘im bosilmadi.* F.Farhod,

Ko‘klam kuyi. *Hilola oyoqlarining q a l t i r o g‘i bosilmayotgani uchun yurolmagach, bedapoya chetidagi baland uvatga o‘tirishga ruxsat berishdi.* A.Qorjovov, Zindonband qiz nolasi.

2. Titrab, qaltirab turadigan (qo‘l, oyoq, tana, vujud kabilarga nisbatan). **Qaltiroq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda faol ishlatiladi.

T i t r o q qo‘llari bilan chiroqni yoqdi-yu, ustiga gazeta to‘shalgan jajji stol qarshisiga o‘tirdi. O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Fazliya t i t r o q qo‘li bilan piyolani ushlaganicha jim turaverdi*. T.Malik, Shaytanat. *Tojiboy q a l t i r o q qo‘llari bilan egri-bugri yoza boshladi. Tergovchi bir piyola suv tutdi.* A.Mamarasulov, Uchinchi yo‘l. *So‘ngra q a l t i r o q barmoqlari bilan cho‘ntagini kovladi. Boyagi pulni chiqarib, dasturxon chetiga qo‘ydi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri.

3. Uzilib-uzilib chiqadigan, titroq holdagi (ovozga nisbatan). Ko‘p hollarda *ovoz, tovush* so‘zlari bilan bog‘lanib keladi. **Titroq** so‘zida belgi nisbatan kuchsiz, **qaltiroq** so‘zida esa belgi darajasi kuchli.

– By surat qalbaki, – dedi t i t r o q ovozda. – Unaqa demang... Bunaqa deyishga haqqingiz yo‘q! T.Malik, Shaytanat. *– Kechirasiz! – dedi u, anchadan keyin sekin, t i t r o q ovozda, – men o‘sha mahaldagi... hamma so‘zlaringizga, sevgingizga, taqdim etgan tilla uzuklaringizga – hammasiga ishongan edim!* O.Yoqubov, Tilla uzuk. *Oyijonim darvozaga yaqinlashib q a l t i r o q ovozda “nega tentaklik qilasan, ocha qol”, deb buyurdi.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *– Muyassar qilganingga shukr, – deb yig‘lardi qariyalarga xos q a l t i r o q ovoz ila, “Xamsa”ni peshanasiga tekkizib.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

T

TOMON I, TARAF, YON, YOQ Biror narsa yoki o‘rin-joyga nisbatan yo‘nalishdagi makon, joy. Mazkur ma’noda **tomon, taraf** so‘zlari nisbatan faol ishlatiladi va bir-biri bilan erkin almashinib qo‘llanadi. **Yon** so‘zi ushbu ma’nosida nutqda kam uchraydi. **Yoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Bu yerdan o‘tganlarning ba’zilari g‘or og‘zining ikki t o m o n ida ikki bahaybat sherning turganini ko‘rishgan. I.Sulton, Boqiy darbadar. *Ee, O‘tkirjon, bu xotinlarning gapiga kirsangiz, odamni qantarib qo‘yadi. U gaplar biz t o m o n da yo‘q.* A.A’zam, O‘zi uylanmagan sovchi. *Eshon bobo xudoyimning sevgan quli, noz-u ne’mat to‘rt t a r a f dan suvday oqib turadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bir t a r a f i hujralardan iborat bo‘lub, hammasi pishgan g‘ishtdan yasalgan*. A.Avloniy, Afg‘on sayohati. *Ozgina o‘ynayman-u darrov qaytib kelaman deb, tepalik y o n iga qarab yugurdim.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Meni bir y o n boshlasa aqlim, Boshqa y o n ga yetaklar yurak.* E.Vohidov, Saylanma. *– Bu y o q qa o‘t, tentak! – deydi Bolta Mardon o‘g‘lidagi o‘zgarishni payqab jahl bilan.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *“Borib o‘sha y o q larni bir ko‘rib kelinglar”, devdilar xo‘jayin, mana, aytganlarini qildik.* Nazarmat, Jo‘rlar baland sayraydi.

TOMON II**, TARAF 1.** O‘zaro aloqada, munosabatda bo‘lgan kishilar yoki guruhlarning har biri. Nutqda ushbu ma’noni ifodalashda **tomon** so‘zi nisbatan faol ishlatiladi.

Har ikki t o m o n ning ishini ko‘rgan odam muqarrar: “Bular kim tez qazirga o‘ynashganov!” deb o‘ylaydi. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Abdurahmon yosh bola ekan, otasi o‘lib, onasi va ota t o m o n lari tarbiyasida qoldi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *U t a r a f dan men ham to‘yni tezlatay...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ko‘rdingizmi, ham ota, ham ona t a r a f dan birmiz.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

2. O‘zaro ziddiyatda bo‘lgan, muxolif tomonlar. Sinonimik qatordagi ushbu so‘zlar qayd etilgan ma’nosida erkin almashinib qo‘llana oladi. **Tomon** so‘zi uslub jihatdan betaraf, **taraf** so‘zidan ko‘proq kitobiy uslubda foydalaniladi.

– Men unga hech narsa demayman, – dedi tergovchi, – mening uchun ikki t o m o n ham barobar. – Barobar?! – Ha, biz ikki t o m o n ning ham fikrini eshitamiz, hujjatlari bilan tanishamiz… A.Muxtor, Chinor. *Yov t a r a f so‘radi: – Orqam, deb nechun Oh chekding, ko‘ksingdan ochdik-ku yara.* A.Oripov, Saylanma. *Ne ko‘rgulikki, qarama-qarshi t a r a f larning har ikkisi ham mening o‘zim: “Otam” ham men, “akam” ham men.* U.Hamdam, Muvozanat.

TOMON III**, TARAF, JIHAT** Biror masala, narsa, voqea-hodisa va shu kabilarning qirralari, qismlaridan biri. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **tomon** so‘zi nisbatan faol qo‘llanadi. **Taraf, jihat** so‘zlari, asosan, kitobiy nutqda ishlatiladi.

Men o‘z fikrimni muhtaram sud hay’atiga arz qilib, masalaning bu t o m o n i ga ham diqqat qilinmog‘ini so‘rayman. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ha, bizning kasbning o‘ziga xos nozik, jilov tutqizmas, ba’zan asov, ba’zan injiq t o m o n lari bor.* N.Safarov, Olovli izlar. *“Millatchilik – o‘z kindik qoni to‘kilgan yerga sadoqatdan bino bo‘ladi… Ammo-lekin millatchilikni yomon t a r a f lari-da bor.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Ammo mulla Abdurahmon ahmoq emas, ko‘p ish ko‘rgan tullak! Endi faqat uning dushmanlik t a r a f i qoldi, ham bu aniq.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Said o‘ylanardi. Ro‘monda yana bundan boshqa ko‘p j i h a t lar bor. Ularni bu yerda sanab o‘lturish hojat emas, ular muhtaram o‘qug‘uchining nazaridan qochib qutilmas.* A.Qodiriy, Ro‘monning mavzusi to‘g‘risida. *Birgina alamli, armonli j i h a t ini aytmaganda, bari sodda, bari naqd! Mo‘may biznes!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir.

TOMON IV**, TARAF, QARAB, SARI, BO‘YLAB, BO‘YICHA** Harakat yo‘nalgan tomonni ko‘rsatadigan yordamchi so‘z. Qatordagi so‘zlar bosh va jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarga bog‘lanib keladi. **Tomon** so‘zi uslubiy jihatdan betaraf, **qarab** so‘zi ushbu vazifada ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Bo‘ylab, bo‘yicha** so‘zlarida muayyan yo‘nalish doirasidalik ta’kidi mavjud, kitobiy uslublarda faol qo‘llanadi.

Zohid anchagacha o‘ziga kelolmay o‘tirdi. So‘ng shart o‘rnidan turib, prokuror yordamchisi xonasi t o m o n yurdi. T.Malik, Shaytanat. *U endi eshik t o m o n yo‘nalgan edi, xotiniga ko‘zi tushdi.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Anvar qo‘lini yaqindan isitmakchi bo‘lib gulxan t a r a f ga bir qadam bosti.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Chindan ham ancha uzoqda, magazin t a r a f dan buruqsib alanga aralash tutun ko‘tarilyapti.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Ko‘ngli notinch bo‘lganiga qaramay, o‘ttiz birinchi dekabr kuni eski uyiga q a r a b ketdi*. T.Malik, Shaytanat. *Hamma vagon eshigiga q a r a b yuguradi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Begunoh odamlarni asossiz ayblab qamashdagi gunohlari uchun yaqindagina vazifasidan pastlatilgan odamning yana cho‘qqi s a r i parvozi ajablanarli hol edi*. T.Malik, So‘nggi o‘q. *Farhod metrodan chiqqach, maydonni kesib vokzal s a r i borayotganida ko‘cha shovqini ora kimdir otini aytib chaqirayotgandek bo‘ldi.* E.A’zam, Shovqin. *Zaminda charx urar ruhingiz bedor, Qolgan tiriklarning tinchini o‘ylab. Charx urar, Chotqolga termulgancha zor, Qarshining bepoyon dashtlari b o‘ y l a b*. A.Oripov, Xotira. *Bu ko‘chaga bir marotaba kirgan odam qaytib chiqmog‘i dushvor, ixtiyorida birgina imkon qoladi – ana shu ko‘cha b o‘ y l a b ichkarilash, ichkarilash, vassalom!* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Sobirning sog‘ligida aytarli o‘zgarish yo‘q, umri har doimgiday uy-kasalxona marshruti b o‘ y i ch a o‘tardi*. Z.Qurolboy qizi, Yozsiz yil. *Nihoyat, katta yo‘lga qaytib chiqib, odatdagi marshrut b o‘ y i ch a ketdilar*. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik.

TOMCHI I**, QATRA, CHAKKA** Suyuqlikning tomishidan hosil bo‘lgan zarrasi. **Qatra** so‘zi badiiy uslubga xos, suyuqlik zarrasining juda oz miqdorda ekanligiga ishora qiladi. **Chakka** so‘zi shevaga oid, tomdan sizib o‘tib, uyning ichiga tomayotgan yomg‘ir tomchisiga nisbatan ishlatiladi.

Ko‘nglida g‘alati bir g‘urur uyg‘ondi, o‘zining miskinligidan, manavi qora balchiqqa belanib yotganidan, suvni kuchukka o‘xshatib shaloplatib ichayotganidan shodlandi, sovuq t o m ch i larning chanqoq vujudi bo‘ylab bir maromda taralayotganiga quloq soldi. M.M.Do‘st, Dasht-u dalalarda. *Har tun uzib ketar umrimdan bir kun. T o m ch i toma-toma ko‘l bo‘lgandek lim.* Zulfiya, Saylanma. *Ummonlar ko‘rinar q a t r a yosh misol, Chigit uvog‘icha kelmas tog‘lar ham.* A.Oripov, Ona sayyora. *Xirurg stakandan choy ho‘plar, uning peshonasida mayda ter q a t r a lari yiltirar edi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Shiftning qamishlari osilib qolgan: kuzda ch a k k a o‘tgan.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Molining xashagi tamom bo‘lganga xashak berdi, tomidan ch a k k a o‘tganning tomini suvatdi.* O‘.Umarbekov, Saylanma.

TOMCHI II**, QATRA** Son so‘zlar bilan birga kelib, hisob so‘z vazifasini bajaradi. Bu ma’noda **tomchi** so‘zi nutqning barcha shakllarida faol. **Qatra** so‘zi bu ma’noda **tomchi** so‘ziga qaraganda kam qo‘llanadi, ammo **qatra** so‘zida ma’no ta’kid oladi, kitobiy uslubga xos.

Bir t o m ch i suv chumoliga daryo ko‘rinadi. Maqol. *Yuragimni yoqar o‘tli iztirob Ammo ko‘zlarimda bir t o m ch i yosh yo‘q.* E.Vohidov, Saylanma. *Hayhot, ko‘tarolmam kipriklaringdan Uzilgan bir q a t r a qayg‘u yoshini...* E.Vohidov, Saylanma. *Qaysidir yillar matbuotda Orol mavzusini rosa “chaynashdi” – biroq sho‘rlik dengizga bundan bir q a t r a naf bo‘lmadi.* N.Egamov, Muxbircha palov sabog‘i.

TORTINMOQ, IYMANMOQ, QIMTINMOQ Uyat, andisha bilan biron narsadan o‘zini tiymoq. **Qimtinmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

O‘tib, ana, bog‘ni aylaning. Mevalardan uzib yeng. T o r t i n mang, dehqonchilik. E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ilgari qizlarning o‘zlari o‘tirishar ekan. Endi oralariga u kirdi... Pardoz-andozga boshqa xonalarga chiqishdi, hatto choyni ham t o r t i n ib ichishdi.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Shunaqa odamlar bo‘ladi. O‘zining odamgarchiligidan i y m a n gandek, uni yuzaki badjahllik, qo‘pollik yoki sergaplik bilan niqoblashga urinadi.* A.Muxtor, Chinor. *Yana oldiga kirishga i y m a n di, uzoq vaqt yolg‘iz yashagan kishi odam yoqtirmaydigan bo‘lib qoladi, deya ko‘nglidan o‘tkazdi.* Q.Kenja, Palaxmon toshi. *Chokarning hamisha hazil-mutoyiba ilashib turadigan lablari asabiy q i m t i ngan edi.* S.Siyoyev, Avaz. *– Ha, vaqt ham o‘taverar ekan, jo‘ra, – dedi hashamatli kresloga q i m t i n ibgina o‘tirarkan Nurillo.* U.Hamdam, Muvozanat.

TOZA I, OZODA, POKIZA, POK Kir, ifloslikdan xoli. **Ozoda** so‘zida **toza** so‘ziga nisbatan belgi darajasi kuchliroq. **Pokiza, pok** so‘zlarida nihoyatda tozalik ta’kidi yorqin ifodalangan.

So‘ng hamisha dasturxon o‘rnida yoziladigan belbog‘idagi non ushoqlarini bir chetga qoqib-suqib, uni to‘ni ostidan beliga bog‘laydi-da, xurjunidan t o z a va mayin matoga o‘ralgan kitobni qo‘liga oladi. N.Norqobilov, Kurash. *Zebi tashqariga chiqib, t o z a qor bilan qo‘lini yuvdi, t o z a qorni yuzlariga surkadi, jindak yedi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Oqsoqol xud-bexud, o z o d a engilboshi bilan nevaralari tuprog‘ini o‘ynatib yuborgan yalang hovli sahniga o‘tirib qoldi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Yam-yashil archazorlar orasiga yashiringan bir qavatli o z o d a, ko‘rkam uychalar.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Xuddi shu kunlarning odamlari yashaydigan oddiy, lekin bir qaraganda hovli egasining kimligini “aytib” turadigan p o k i z a, fayzli, ro‘zg‘or buyumlari ham ortiqcha ziynatli bo‘lmasin.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Yomg‘ir tomchilari bilan yuvilgan havoning p o k i z a yellari goh badanni chimchilab o‘tadi, goh seskantiradi.* Shuhrat, Shinelli yillar. *Rasulullo‘h na bo‘yoq surgay erdi, U poklardan p o k-u p o k yurgay erdi.* O.Bo‘riyev, Amir Temur.

TOZA II, POK, POKIZA, SOF, OZODA G‘araz, qabih, nodurust niyatdan xoli. **Ozoda** so‘zi bu ma’nosida nutqda kam qo‘llanadi.

Siz uni iflos chuqurdan tortib chiqaribsiz. U muni taqdir etadi, o‘zining yosh va t o z a ko‘nglini sizga tutadi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Men uni yaxshi*

bilaman. U yaxshi qiz, ko‘ngli t o z a. Shuhrat, Shinelli yillar. *Qiz qalbiday p o k edi havo, Qiz qalbiday sevgiga davo.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *– Unaqa demang, onasi, – Komil tabib xotinini yupatdi. – Ochilboy – p o k bola. P o k odam xor bo‘lmaydi, adolat degan narsa bor. Xudo bor.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *“Bobom doim Olloga sig‘inardi, p o k edi, albatta, Munkarnakir yaxshi so‘roq qilar”, deyman ichimda.* Oybek, Bolalik xotiralarim. *Imoniga, diniga mustahkam p o k i z a odam bor joyda ajina yuz chaqirim nariga qocharmish.* S.Ahmad, Hukm. *Bu olamda mening p o k i z a imonimdek imon yo‘q. Bizga oltin ne kerak, Oltin muhabbat birlamiz.* E.Vohidov, Saylanma. *She’r s o f yuraklarning qulog‘i va ko‘zidir.* S.Rustam, She’r nima? *Urib turgan yoniq ko‘ksingda Buloqday s o f qalbingni ko‘rdim.* E.Vohidov, Saylanma. *Ufqqa tirmashar chaqaloq bahor Yam-yashil vujudi biram o z o d a...* U.Azim, Saylanma. *Xayollari shirin qizginam, Ko‘ylagiday ko‘ngli o z o d a, Yuragingga jo bo‘lar olam, Tuyg‘ularing o‘ynar fazoda.* E.Jumanov, Shoh qiziga.

TOZA III**, SOF, MUSAFFO, BEG‘UBOR, G‘UBORSIZ** Chang-g‘ubordan xoli. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **toza** so‘zi nisbatan faol qo‘llanadi. **Musaffo** so‘zi ko‘proq osmon, havo kabilarga nisbatan ishlatiladi. **Sof** so‘zi tiniqlik ta’kidiga ham ega. **Beg‘ubor, g‘uborsiz** so‘zlarida har qanday nodurust unsurlardan xolilik yorqin aks etgan.

T o z a osmonda yulduzlar charaqlaydi. S.Nurov, Narvon. *Lekin Saidni quchoqlab, ko‘nglini ko‘tarish uchun emas, balki derazani ochib, t o z a havodan to‘yib-to‘yib simirish uchun...* U.Hamdam, Muvozanat. *Yoshlik – bu karvonning erka noridir, Daryoday toshqindir, jilg‘a kabi s o f.* A.Oripov, Inju diyor uchun. *Qorsiz qishning muzdek, s o f havosini simirib borarkan, Yusuf shu yo‘ldan to‘ppa-to‘g‘ri tog‘ning qor tushgan cho‘qqisiga chiqib ketadigan kabi sezardi o‘zini.* U.Hamdam, Muvozanat. *Havas bilan qaradim senga, Tahsin o‘qib, qoshingda turdim. Havo toza, m u s a f f o, zangor, Gulzor bo‘ldi menga sayl-goh...* E.Vohidov, Saylanma. *Havo nihoyat toza, m u s a f f o.* Oybek, Bolalik xotiralarim. *Sen ketding-u so‘ldi chamaning, Qurib bitdi b e g‘ u b o r chashmang.* E.Vohidov, Saylanma. *Ular anhor bo‘ylab yurishdi. Havo iliq, b e g ‘u b o r.* U.Hamdam, Muvozanat. *Ko‘zlarini yarim yumgancha quyoshga, b e g ‘u b o r osmonga tikilib uzoq yotdi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Ko‘k g‘ u b o r s i z, yuksakda quyosh, Laylo yanglig‘ vafodor va yosh. Doston ila uxlab qolibman, Tushlarda ham shoir suhbatdosh.* A.Oripov, Alisher. *G ‘u b o r s i z havolar ipakdek mayin, Shamol, senga qulluq, senga tashakkur!* I.Mirzo, Sizni kuylayman.

TUGAMOQ, TAMOM BO‘LMOQ, YAKUNLANMOQ, YAKUN TOPMOQ, BITMOQ, SOP BO‘LMOQ, ADO BO‘LMOQ, OXIRLAMOQ, NIHOYALAMOQ Amalga oshirilgan biror faoliyat, ish nihoyasiga yetmoq, jarayon oxirlamoq; savol-javob, suhbat, ma’ruza, bahs kabilar yakun topmoq; narsa-predmet ishlatilib, sarflanib tamom bo‘lmoq. **Tugamoq** so‘zi ko‘p

ma’noli bo‘lib, “ish-yumush yakuniga yetmoq; savol-javob, suhbat, ma’ruza kabilar nihoyasiga yetmoq; biror predmet sarflanib, tamom bo‘lmoq; vaqt, muddat kabilar tugamoq, nihoyasiga yetmoq” kabi qator ma’nolarni ifodalaydi. **Tamom bo‘lmoq, yakunlanmoq, yakun topmoq, bitmoq, sop bo‘lmoq, ado bo‘lmoq** so‘zlari “biror ish-faoliyat, xatti-harakat, gap-so‘z kabilar butkul poyoniga yetmoq” ma’nosini anglatadi. Ushbu qatordagi **bitmoq, sop bo‘lmoq, ado bo‘lmoq** so‘zlari, asosan, so‘zlashuvda ishlatiladi. **Oxirlamoq, nihoyalamoq** so‘zlarida “biror ish-yumush, savol-javob, suhbat, bahs kabilar poyoniga yetmoq” ma’nosi ustuvor. Bu so‘zlar orqali xatti-harakat, faoliyatning hali davom etayotganligi anglashilib turadi.

Ammo tez orada to‘rvasidagi onasi tugib bergan talqoni, cho‘ntagidagi chaqalari tugadi. Q.Ochilov, Savob. – *Bugungi ishimiz tugadi, – dedi. – Ertaga kelsangiz, margimushni olib, kasal tishingizni plombalab qo‘yaman.* A.Egamnazarov, Tishi og‘rigan bo‘ydoq. – *Oltin o‘tda bilinadi, – dedi Sobiraxon, – urush tamom bo‘lar, o‘yin-kulgi uchun to‘planganimizda, bu kunlar ertakday bo‘lib ham qolar.* A.Qahhor, Xotinlar. *Norqul ham mardlik qildi – nasiyaga nafas olishga ijozat etdi. Norqulning uyidagi bozor iqtisodiga o‘tish marosimi shu zaylda yakunlandi.* T.Malik, Bozor iqtisodi. *“Muzokara” yana o‘shanday – ayanchli yakunlandi...* U.Hamdam, So‘z. *Mazmunki, olam-olam zo‘r boylik topdi yakun.* G‘ayratiy, Saylanma. *Tortishuv tan jarohati bilan yakun topdi.* Gazetadan. – *Ish bitdimi ? U kulumsiradi. Kulgisi o‘g‘irlik ustida ko‘lga tushgan odamning esankirashiga o‘xshardi.* Q.Ochilov, Uchinchi odam. *Ana, zavoddan olib, nihoyat haykalni qo‘ydirdim. Bu ish bitdi. – Xabarim bor. Tunov kuni qabristonni ziyorat qilgan edim, ko‘rdim.* O.Muxtor, Keksa muallim yoki Napoleon haykali. *Ha, bir alami bordir-da... Yo nos sop bo‘ldimikin? Xumori tutgan bo‘lsa kerak.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor.* M.Yusuf, Saylanma. *Sigirning puli ado bo‘ldi, Rahmonqul somsapazga o‘tqalar bo‘libdi, kabobpazga shogird tushibdi-yu, ammo birortasiniyam eplay olmabdi.* “Gulxan”. *Qish oxirladi. Uyimizga pochtachi keldi. Harbiy xizmatga chaqiruv qog‘ozi qoldirdi.* F.Jabborov, Maktub. *Sal o‘tib, yozuvlarim oxirlaydi va men keksa tanimga ozgina hordiq beraman.* M.M.Do‘st, Lolazor. *Parizod bir og‘iz ham gapirmadi. Abdullaning savollariga ba’zida boshini irg‘ab qo‘ydi, ba’zida umuman javob bermadi. Shu alpozda jinko‘cha ham oxirladi.* G.Mamarasulova, Pariro‘y. *Bir menmikan desam, boshqalar-da qo‘shiq ketidan ergashib keldi. Qo‘shiq nihoyaladi.* T.Murod, Yurt qo‘shig‘i. *Dallol bilan sotuvchi murosaga kelishib, eshak savdosi nihoyaladi.* G‘.Shermuhammad, Barakasini bersin.

TUGATMOQ I**, TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, SOP QILMOQ, BITIRMOQ, ADO QILMOQ, YO‘Q QILMOQ, YO‘QOTMOQ, QURITMOQ** Biror narsani sarflab, uni batamom yo‘q holatga keltirmoq.

Tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq so‘zlari barcha nutq uslublarida faol qo‘llanadi. **Ado qilmoq**, **sop qilmoq, quritmoq** so‘zlari bu ma’nosida so‘zlashuv nutqida ko‘p uchraydi. **Quritmoq** so‘zi salbiy bo‘yoqqa ega, bu so‘zda tugatish, ado qilish harakati kuchli ifodalanadi. **Yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq** so‘zlarida harakatning batamomligi ta’kidi mavjud.

– O‘zing ye, bolam, – deydi buvim. – Yemayman. ...Kosadagi go‘jani o‘zim yeb t u g a t dim. S.Barnoyev, Arvohlar. *Uning sarflayotgan pullari boshqalarnikiga qaraganda ozmi, ko‘pmi, bunisini bilmaydi. Biroq u bor-budini sarflab t u g a t di.* M.Nizanov, Aqchagul. *Men uni pishgunicha qo‘ymay, g‘o‘raligidayoq t a m o m l a yman.* Sh.Sulaymon, Ota va o‘g‘il. *Ular ikkalasi topgan-tutgan gaplarini bir-birlariga aytishib, uch choynak choyni t a m o m l a dilar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Xotinlar ziyrak bo‘lishadi, uydagi konfetlarni ko‘chadagi bolalarga tashib t a m o m q i l ishini bilmaydi, deysizmi?* S.Ahmad, Ko‘zlaringda o‘t bor edi. *Ko‘ryapsiz-ku, ikki mashinalab ham terib t a m o m q i l ib bo‘lmayapti.* S.Ahmad, Cho‘l burguti. *Qorni ochiqqan yigit qozondagi ovqatni birpasda paqqos tushirib s o p q i l ibdi.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Olimjon shunday qilsa, men darrov tuzalib qoladigandek, do‘ppisidagi suvning hammasini ichib b i t i r di.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Arslonqul, o‘z odaticha, ovqatni deyarli hammadan oldin yeb b i t i r di-da, hamkorlari bilan hali nonqatiq bo‘lmagani uchun ularni kutmasdan o‘rnidan turdi.* Oybek, Navoiy. *...Meni qutqarish uchun xotinim hammasini sovurib a d o q i l gan.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Davlati qursin! Hammani yeb a d o q i l adiganga o‘xshaydi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Oxiri mazkur voqealar shunday tugadiki, futbol uchrashuvlarini deb 12 ming dollar pulini sarflab y o‘ q o t gan yigit yana o‘ynashda davom etdi.* Gazetadan. *Nodir hamma pullarini qimorga tikib, butkul y o‘q q i l ibdi.* B.Toshev, Qimorning oqibatlari. *Lekin bola o‘lgudek ichag‘on ekan, bir shishasini bir o‘zi q u r i t di, tezgina mast ham bo‘lib qoldi.* E.A’zam, Shovqin. *Bul bu yoqqa o‘tdi, u yoqqa o‘tdi, bir qozon oshni pishmay turib q u r i t di.* “Alpomish”.

TUGATMOQ II**, TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, OXIRLATMOQ, SOP QILMOQ, YAKUNLAMOQ, BITIRMOQ, ADO QILMOQ (ETMOQ)** Biror yumush, ish-harakatni oxiriga yetkazmoq. **Tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq, bitirmoq, yakunlamoq** so‘zlari biror yumush, faoliyat, ish-harakatni poyoniga yetkazish ma’nosida erkin almashinib qo‘llanaveradi. **Yakunlamoq** so‘zida biror natija bilan tamomlash ta’kidi anglashiladi. **Ado qilmoq** so‘zi ish-harakatni yakunlash ma’nosida juda kam ishlatiladi. **Ado qilmoq**, **sop qilmoq** so‘zlari so‘zlashuv uslubiga xos.

Cho‘llarda boshlangan yangi hayot va yangi odamlarning qissasini yozib t u g a t ib bo‘larmidi! S.Ahmad, O‘rik domla. *Balkim, bu yosh yozuvchining so‘nggi qo‘lyozmasidir, balkim, bu qo‘lyozmani t u g a t may turib, uni ajal elchilari ma-*

ngu rihlatga yetaklab ketgandir?! N.Eshonqul, Qalb to‘zoni. *Ikkinchi chopiqni t a m o m l a dingmi?* I.Rahim, Chin muhabbat. *Me’mor raisligida barcha ustalarni to‘plab, ishni yana ham tezlatish va sha’bon oyigacha qurilishni t a m o m l a b, ramazonga xursandchilik bilan kirishni ta’kidladi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Qanday qilib o‘yinni t a m o m q i l ganimni bilmadim. Sahna orqasidan chiqib kelayotsam, chiroylikkina bir qiz ro‘molga o‘ralib turibdi.* S.Ahmad, Zumrad. *Omadimiz kelgan ekanmi yo qurt tutishni sog‘inib qolgan ekanmizmi – biram bo‘lib berdi, qani endi terib t a m o m q i l olsak?* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Tong otar mahal Temurbek ibodatini o x i r l a t di.* N.Ismoilov, Movarounnahr tongi. *U kishi fin urushi, nemis urushlarida qatnashib, qayta-qayta yaralanib, qayta-qayta tuzalib, nihoyat urushni o x i r l a t ib, qishlog‘iga qaytgan.* G‘.Hojiyev, Sodiq bobo-ning ketmoni. *Halima kechgacha uy yumushlarini s o p q i l a olmadi*. Gazetadan. *“Tez yordam” doktori rasmiyatchilikka doir ishlarini y a k u n l a b ketgach, u ham sekin ko‘chaga chiqdi*. T.Malik, Talvasa. *Xo‘jalikdagi hamma qishloqlarda kelgusi qishgacha gazlashtirishni y a k u n l a sh rejalashtirilgan.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *O‘zi bebaho dastyor-a, zipillab, hamma ishni b i t i r adi bir zumda.* S.Nurov, Narvon. *Mendan kashtachi chiqmas ekan. Harflar qing‘ir-qiyshiq bo‘lib ketdi. Shu arzimagan ishni b i t i r guncha tong bo‘zardi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *O‘qib to‘ymas edik, ko‘zdagi nam va yoshlarni artib a d o q i l a olmasdik, Maqsud.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ul aksar shom va ertalabgi namozlarnigina masjidda o‘qub, qolganlarini uyda a d o q i l ar, peshin, asr, xuftonlarga vaqt topolmas edi...* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TUGATMOQ III**, TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, OXIRLATMOQ, SOP QILMOQ, SOPLAMOQ, YAKUNLAMOQ, BITIRMOQ, XOTIMALAMOQ, XOTIMA QILMOQ, ADO QILMOQ (ETMOQ), XATM QILMOQ** Biror gap, suhbat, ma’ruza, bahs, fikr, o‘y kabilarni oxiriga, poyoniga yetkazmoq. **Tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq, yakunlamoq, xotimalamoq, xotima qilmoq** so‘zlari gap, suhbat, ma’ruza, bahs kabilarning yakunlanganligi ta’kidini anglatadi. **Bitirmoq** so‘zi bu ma’nosida, asosan, *so‘z, gap* so‘zi bilan bog‘lanib, ularning aytib bo‘linganligini ifodalaydi. **Sop qilmoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi. **Soplamoq**, **ado qilmoq** so‘zlari bu ma’nosida nutqda juda kam ishlatiladi. **Xatm qilmoq** so‘zi koproq diniy-kitobiy nutqqa xos.

Keyin bu fikrni ochiq aytolmasligim bois: – Bir-birlaring bilan yanayam yaqin bo‘lib kelishlaring uchun, – deb gapni t u g a t dim. Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *Chol gapini t u g a t ib bo‘lgandan keyingina biz bilan ko‘rishdi.* S.Ahmad, O‘rik domla. *Hoji o‘zidan oshirib so‘zlagan bu so‘zlarini shu gap bilan t a m o m l a di.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qurbon ota, ayniqsa, Xadicha xola, Sobirjon mana shu to‘g‘rilarda ham gapirar, deb xavotirda edi, xayriyat, so‘zini t a m o m l a ydiganga o‘xshaydi.* A.Qahhor, To‘y. *U notiqlikning hamma*

qoidalariga rioya qilib, "mafkura maydoni"ning hamma "past-baland"larini e'tiborga olib so'z boshlaydi. Xuddi shu tarzda so'zini t a m o m q i l a d i. A.Qahhor, Qaydlar. *Men uni bozorchaning yonida uchratgandim. Gaplashgandim. Gapimni o x i r l a t masdan ko'zimni oldidan yo'qolib qoldi.* N.Ismoilov, Tabib. *– Namuncha ezmalanding, gapingni s o p q i l dingmi?* Gazetadan. *...Abbosov so'zini y a k u n l a di: – Do'stim, qadrdonim, qabringda tinch yot. Sening nurli xotirang hech qachon unutilmaydi. Alvido!* S.Ahmad, Jimjitlik. *– Qisqasi, oldin o'yla, keyin so'yla!" – deb, o'z ma'ruzasini y a k u n l a di.* F.Bobojonov, Orzuga eltuvchi yo'l. *– Shunday qilib, – gapini y a k u n l a di Gulchehra, – maketda, asosan, qishloqning markazi ko'rsatilgan.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Yosh pardasi bosgan ko'zlarida ko'rinib turgan cheksiz minnatdorchilik tuyg'usini aytib b i t i r a olmas, aftidan, Masturaning bir minutlik orom uchun o'ng ko'zini o'yib berishga ham tayyor edi.* A.Qahhor, Ming bir jon. *Zaynab so'zini b i t i r a olmadi, chetga qarab, ko'z yoshini to'kdi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Qachondir, hamma narsani x o t i m a l a ydigan va yo Oyto'ldining, yo bolaning umriga nuqta qo'yadigan kun yetib kelishi kerak edi.* I.Sulton, Xun. *– Iqtisod – tejash degani, deydi mudarris so'zini x o t i m a l a yotib, minbar ortidagi o'rindiqqa cho'kar ekan...* A.Suyunov, Mudarris. *Falastinlik shayx so'ziga juda go'zal x o t i m a q i l di.* Gazetadan. *Ular diyor tasvirlarini-da unutib, Allohga hamd-u sanolar aytishar, bu kunlarga yetkazgani, hamma narsani chevarlik bilan chok-chokiga to'g'rilab, ularni qo'sha qaritib qo'yganiga shukronalar aytib, a d o q i l isha olmas edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *U kishining ta'riflarga sig'maydigan shunday fazilatlari ko'pki, aytib a d o q i l olmaysan.* M.Bo'ron, Kulgu hikoyalar. *To'rt kunsiz Qur'onni x a t m q i l ib bo'lmaydi.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *– Siz Sharqda ishlab juda ko'p tajriba orttirgansiz, bir necha til bilasiz, – davom etdi Malison, – Qur'onni x a t m q i l gan zabardast mudarrissiz...* K.Yashin, Hamza.

TUGATMOQ IV**, YOPMOQ, BEKITMOQ (BERKITMOQ)** Biror muassasaning faoliyat yuritishiga chek qo'ymoq. **Yopmoq** so'zi so'zlashuv uslubida faol ishlatiladi. **Bekitmoq** so'zi bu ma'noda nisbatan kam ishlatiladi, asosan, oddiy so'zlashuvda qo'llanadi.

Qirg'inni kim qilgan-u, jodiga kim qolgan edi? Yetmish xonadonli qishloq rentabelsiz xutor sifatida t u g a t ildi, bu yil guvala uylar-u molxonalar yer bilan bitta qilib tekislanib, shudgorlangach, lalmi arpa ekildi. A.Yo'ldoshev, Quduq. *1914–1915-yillari reaksiya, ikki tomonlama tazyiq kuchaydi, ro'znomalar yopib qo'yildi. "Ma'rifat" nashriyoti va kitob savdosi ishlari t u g a t ildi...* H.Boltaboyev, Talabni qondirmagan inqilob. *Yana bir mulohaza: eski maktablar, masjid-u madrasalar xurofot o'chog'iga aylangan, keyinroq esa shular-da y o p ilgan va buzilgan, ulamolar quvg'in qilingan, noyob ilmiy-ma'rifiy kitoblar yoqib, ko'mib yuborilgan...* R.Qo'chqor, Sulaymonning o'limini kutayotgan

devlar. *Sakkizinchi oyg‘acha bormay, Andreyev ismindag‘i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy y o p ildi.* Hamza, Tarjimayi hol. *...Sho‘rolar tomoniga o‘tgan deyarli barcha bosmachilar umumiy afv to‘g‘risida dekret bo‘lishiga qaramay, otib tashlandilar, eski maktablar, madrasalar tez orada b e k i t ildi...* “O‘zbekiston tarixi”. *529-yilda Vizantiya imperatori Yustinian farmoniga binoan Afinadagi Aflotun Akademiyasi b e r k i t ildi.* “Falsafa”.

TUHMAT, BO‘HTON Birovga asossiz ravishda qo‘yilgan ayb, asossiz da’vo. **Bo‘hton** so‘zida **tuhmat**ga nisbatan ma’no kuchli ifodalanadi.

T u h m a t tosh yoradi, Tosh yormasa, bosh yoradi. Maqol. *– Iloyo ovmin, – fotiha o‘qidilar Eshon bobom, – tikilib kelgan balodan, notavon t u h m a t-u bemahal o‘limdan o‘zi asrasin.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *O‘limidan avval otam bechora Unga bag‘ishladi ajoyib doston, Lekin Shomil nomin qildilar qora, Yog‘dirdilar mardning sha’niga b o‘ h t o n.* E.Vohidov, Saylanma. *Vijdon ketgan joyda, albatta, bir kun, Ilondek qo‘zg‘olur b o‘ h t o n va tuhmat.* A.Oripov, Saylanma.

TUHMAT QILMOQ, BO‘HTON QILMOQ, MALOMAT QILMOQ Tuhmat yog‘dirmoq, asossiz ayblamoq. **Bo‘hton qilmoq** so‘zida belgi kuchli ifodalanadi.

Mayli, o‘g‘lim, u masalada har birimizning o‘z nuqtayi nazarimiz bor. Bir la’nati odam menga pora berganman deb t u h m a t q i l yapti. X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Qachon sendan pul olibman? Unaqa t u h m a t q i l ma, xotin.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Har holda, bizning mundagi vazifamiz maxdumni tahlil qilish emas, balki uning shaxsiga xiyonat va b o‘ h t o n q i l ishdan saqlanib, ya’ni ortdirmay va kamitmay o‘qug‘uchig‘a butun taqdim eta bilishdir.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *O‘zim nechog‘liq haqmanki, birovga nohaqsan, deya m a l o m a t q i l ardim.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Bir-ikki kishi norozi bo‘lib, menga etakdan yo ichkaridan tegdi degan ekan, odamlar m a l o m a t q i l ib tashlashibdi.* I.Sulton, Onaizorim.

TUHMATCHI, BO‘HTONCHI, MALOMATCHI Birovga tuhmat qiluvchi. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **bo‘htonchi** so‘ziga nisbatan **tuhmatchi** faol qo‘llanadi. **Bo‘htonchi, malomatchi** so‘zlarida belgi darajasi anchayin ortiq, **malomatchi** so‘zida hayosizlik ta’kidi ham mavjud.

– Qamoqxonada ovqatni tekinga beradi deyishuvdi-ku? – Bir t u h m a t ch i-ga berarkanmiz. Tavba, ham tuhmat qilsin, ham pul olsin. X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Nadomatlar... nadomatlar bo‘lg‘aykim, Bibi Sardor ham o‘shal t u h m a t ch i lar yonini olmish!..* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Lekin g‘iybatchi, b o‘ h t o n ch i, mish-mishchilar bu narsadan ham o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinib ko‘rishdi.* “Mushtum”. *Chin m a l o m a t ch i boshqalardan ichki hayoti va hollarini yashiradi.* I.Haqqul, Abdulla Oripov ijodida malomatiylik motivlari.

TUR, XIL, NAV, TIP, TOIFA Umumiy belgi, vazifa va boshqa xususiyatlariga ko‘ra birlashgan narsa-predmet hodisalar guruhi yoki ularning ko‘rinishi. **Xil** so‘zi so‘zlashuv uslubida ko‘p uchraydi. **Nav** so‘zi o‘simliklarga nisbatan, uning turini belgilashda qo‘llanadi. **Toifa** so‘zining nutqda insonlarga nisbatan ishlatilishi ko‘p kuzatiladi.

Har holda, Said Ahmadning aslahaxonasida kulgining t u r lari juda ko‘p va adib ulardan o‘rni bilan juda yaxshi foydalanadi. O.Sharafiddinov, Xalq sevgan adib. *Shamolning t u r lari anchagina. Misol uchun, bezori shamol bor, u bulutlarni surib kelmaydi, havo ochiqligida g‘uvullab esaveradi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Haqiqiy Sibir bakrabalig‘i. Juda tez ko‘payadigan x i l idan.* A.Yo‘ldoshev, Daryo. – *Men zerikmayman... Qanday osh qilay? – Qaysi x i l ini buyursam ekan? – deb o‘z-o‘ziga savol berdi Anvar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *O‘lmas aka hayotda samimiy bo‘lganlar, atrofidagilarga ishonganlar, odamlarni toifalarga, n a v larga ajratmaganlar.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Ertapishar qovunlar ham bor, o‘smirlar ba’zilarini xom-xatalaligicha yorib yeb qo‘yishadi... Ilk n a v lar kuchli, bo‘liq hosil bersa, keyingilari ota-onaning kuchsiz taraflarini olib unib chiqdi.* I.Sulton, Genetik. *Keyin, shu bilan barobar, adabiyot va san’at zimmasiga yanada mas’ul vazifalar yuklanayotir. Bu – yangi t i p dagi demokratik shaxsni tarbiyalash, shakllantirish masalasi.* Shukrullo, Xalq dardini joyladim dilga. – *“Viki”, ona kim? – Sotsial t i p lardan biri. Biologik, surrogat, genetik, ijtimoiy turlari bor. Izohlarga o‘taymi? – Yo‘q, o‘tmay qo‘yaqol.* I.Sulton, Mega-intellekt. *Oqsoqol bu t o i f a xalq bilan ham chiqishib yashash kerakligini biladi.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Oq podshoh bo‘lsin-u, yetmish ikki t o i f a ning tilini biladigan tilmochlari bo‘lmasin!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

TURMUSH, HAYOT, TIRIKCHILIK Insonning kun kechirish sharoiti, shunday holati. **Turmush** so‘zi keng tushunchaga ega bo‘lib, kun kechirish bilan bog‘liq barcha shart-sharoit, holatlarni o‘z ichiga oladi. **Tirikchilik** so‘zi, asosan, insonning moddiy ta’minot bilan bog‘liq holda kun kechirishiga nisbatan qo‘llanadi. **Hayot** so‘zi mazkur ma‘noda kamroq qo‘llanadi.

Nima qilayki, tilim qisiq. Bu qanday t u r m u sh? E.Vohidov, Saylanma. *Eshitgandirsiz, t u r m u sh i nochorroqlar qolib, aksariyat mulkdor-u badavlat odamlar pul ishlab kelmoq uchun chet ellarga oshiqayotir...* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Qaytaga uning qishloqda yashashi, ko‘chalardan baqirib-chaqirib sigirlarini haydab o‘tishi va telbavor qiliqlari bu go‘shadagi h a y o t ni yanada qiziqroq qilib ko‘rsatar edi...* Sh.Hamroyev, Qora kun. *Nahotki, odamning tabiati shunaqa: bir xillikdan zerikadi, rang-baranglik joniga oro kiritishini, siyqalashib ketgan h a y o t iga toza ruh, o‘zga ma’ni berishini tilaydi?* U.Hamdam, Muvozanat. *Bundaylarning ba’zisi daftar-qalamini momosidan qolgan sandiqqa tashlab, t i r i k ch i l i k izmiga tushib ketdi.* E.A’zam, Jannat o‘zi

qaydadir. *T i r i k ch i l i k toshi benihoyat og‘ir bo‘lar ekan. Bizlarni zoriqtirmaslik uchun ayam tikish tika boshladi…* Oybek, Tanlangan asarlar.

TUTASH, PAYVASTA Bir-biriga ulashgan, tutashgan holatda. **Tutash** so‘zi uslub jihatdan betaraf, **payvasta** so‘zi ko‘proq badiiy uslubda uchraydi. Inson qoshiga nisbatan ishlatilganda, ijobiy munosabat ifodalaydi.

Sayhonlik tugab, t u t a sh bog‘lar ko‘rindi… S.Siyoyev, Yorug‘lik. *U yerda tugaydi o‘rmon, Davomi t u t a sh dir poyonsiz cho‘lga.* E.Vohidov, Saylanma. *U ingichka, rangpar, qisiq ko‘zli, quyuq p a y v a s t a qoshli, peshanasi torroq yigit edi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Uzun-uzun, qora, p a y v a s t a Kipriklari titrar, qaltirar.* M.Ali, Boqiy dunyo.

TUTASH BO‘LMOQ, PAYVASTA BO‘LMOQ Bir-biriga ulashmoq, tutashgan holatda bo‘lmoq. **Payvasta bo‘lmoq** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Tabg‘ach yerlari eski O‘tukan ila t u t a sh b o‘ l gani uchun tabg‘achlar-u jangjular qiyqira-qiyqira bosib kelib qolishardi… I.Sulton, Bilga xoqon. *O‘tinxonaning bir devori Robiyalarning hovlisiga t u t a sh b o‘ l gani uchun Tohir qo‘shni hovlida ham to‘polon ko‘tarilganini eshitib qoldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xor vaziyatga qarab, asosiy qahramonlarning ariya va duetlariga p a y v a s t a b o‘l ib, qo‘shilib ketadi.* A.Sharipov, Musiqali teatr an’analari. *Alisher Navoiy mazkur bobda o‘ziga xos mahorat bilan muayyan zamon va makonni tasvirlaydi.... Har bir ko‘z yulduzi bir qosh hiloliga p a y v a s t a b o‘ l adi.* A.Malik, Alisher Navoiyning iloh, olam va odam haqidagi falsafasi.

TUTMOQ, USHLAMOQ Biror jonivor yoki jinoyatchini ushlab olmoq, qo‘lga tushirmoq. **Tutmoq, ushlamoq** so‘zlari nutqda erkin almashinib ishlatiladi.

Hali kiyik t u t dikmi, yo‘qmi, hech bo‘lmasa, shamollab kelamiz-da. M.Mansurov, Yombi. – *Mana, haromi o‘g‘rini t u t dik! – dedi uchovlondan biri.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bir necha soldat kelib, mahbuslarni u sh l a di, yasovul hammasining qo‘liga kishan urdi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Biz bir-ikki o‘g‘rini u sh l a b, qamab, kerilib yuribmiz. Bu yoqda biz bilmagan, ming o‘ylab bir kallaga kelmagan ishlar bor ekan.* T.Malik, Shaytanat.

TUTUN, DUD Biror narsaning yonishi natijasida havoga ajralib chiqadigan gazsimon modda. **Tutun** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Dud** so‘zi esa, asosan, kitobiy uslubda uchraydi.

O‘sha tomondan osmonga o‘qtin-o‘qtin ko‘kimtir t u t u n ko‘tariladi. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Tappi yonmay tutab turaveradi, t u t u n i ko‘zimni achitadi-da, keyin uni tepgim kelaveradi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Mamajonning dimog‘iga qorachiroq d u d i gup etib urildi...* A.Muxtor, Opa-singillar. *Sharofat xolaning tovushi mashinaning d u d i ichida qoldi…* A.Muxtor, Chinor.

TUXUM, MOYAK, YUMURTA Urg‘ochi parranda, toshbaqa va boshqa ba’zi hayvonlarning bola ochish uchun qo‘yadigan urug‘i. **Tuxum** so‘zi uslub jihatdan betaraf, barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Moyak** so‘zi mazkur ma’noda shevalarda uchraydi, **yumurta** so‘zi (**yumurtqa** shaklida ham qo‘llanadi) shevaga oid.

...tulki esa hech kim yo‘qligida tovuqlarni yoki t u x u m larni o‘g‘irlab ketuvchi zaif, ammo epchil hayvon ekanini bilib olgan edi. I.Sulton, Orif. *Yuzta tuxumni qo‘ni-qo‘shni, yor-birodarlar o‘zaro yig‘ib berdi.* A.Qahhor, O‘g‘ri. *Bitta tuxum keltirib, shu m o y a k day saqich bering, desam, moyakday saqich berardi...* S.O‘nar, Otamzamon hangomalar. *Bir guruh bola m o y a k urishtiryapti.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Berganing bir y u m u r t a, O‘ldirding turta-turta.* Maqol. *Qudamning qudasi – y u m u r t a ning sho‘rvasi.* Maqol.

TUZMOQ I, TASHKIL QILMOQ (ETMOQ), BARPO QILMOQ (ETMOQ), OCHMOQ Biror davlat, tashkilot, jamg‘arma va shu kabilarni yuzaga keltirmoq. **Tuzmoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf, shu bois barcha nutq uslublarida uchraydi. **Tashkil qilmoq, barpo qilmoq** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi. **Ochmoq** so‘zi mazkur ma’noda, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi.

Temur t u z gan saltanatning vorisligi Shohruxdan keyin Ibrohim Sultonga o‘tishiga umid bog‘landi. Mirmuhsin, Me’mor. *To‘garak t u z ib, nimalarnidir o‘rgatib yuribdi yoshlarga.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Shu’ba doirasida bo‘lib o‘tgan dastlabki mashvarat ochiqdan ochiq tortishuvga, tarafkashlikka aylandi. Pirovardida maxsus hay’at t a sh k i l e t ildi.* X.Do‘stmuhammad, Qichqiriq. *Unday asarlarni siz to‘plangiz, milliy kutubxona t a sh k i l q i l aylik.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Endi biz mustaqil va har tomonlama rivojlangan davlat b a r p o e t ish harakatidamiz.* U.Hamdam, Muvozanat. *Men maktabga eson-omon kirib olgach, yotoqxonamizning shundoqqina biqiniga hurmatli ustozim nomida ustaxona o ch dim*. X.To‘xtaboyev, Sariq devning o‘limi. *Siyosat bo‘lmasa, tijorat bilan shug‘ullanarsiz, biron nima o ch ib ish yuritarsiz.* U.Hamdam, Muvozanat.

TUZMOQ II, YARATMOQ, HOSIL QILMOQ, TARTIB QILMOQ Hosil qilmoq, shakllantirmoq (gap, jumla, matn, ro‘yxat va shu kabilarga nisbatan). Nutqda bu ma’noni ifodalashda **tuzmoq** so‘zi nisbatan faol ishlatiladi. **Yaratmoq, hosil qilmoq, tartib qilmoq** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Xanda ur, jo‘sh ur, yurak, Ozod zamindur bu zamin, Nazm t u z, Erkin, axir, Erkin zamondur bu zamon. E.Vohidov, Saylanma. *U kechalari turli rejalar t u z ib chiqar, tong otishi bilan bu rejalarning hammasi bema’ni ekanini, raqibining ostonasiga bosh egib borishi mushkul ekanini bilar, o‘g‘lini qaytarish uchun yana yangi rejalarni izlar edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Aybi shumishki, darsni programma bo‘yicha o‘tmasmish. Hisob ilmini Xorazmiy y a r a t gan, deb maqtaganmish.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *“...O‘zi y a r a t gan*

tartiblardan o‘zi siqiladi. Bo‘lmasa, kap-katta, rahbar odamga kun bo‘yi dolonda pishirib qo‘yibdimi?”, – deydi. A.A’zam, Hali hayot bor… *Gap hosil qilish uchun so‘z va so‘z birikmalarini grammatik jihatdan bog‘lash kerak.* J.Xolmurodova, O‘zbek tili. *O‘z asrida ma’nolar xazinachisi Amir Xusrav Dehlaviy Sulton Malikshoh Alp Arslon o‘g‘lining nomiga to‘rt devon tartib qilgan deydilar…* I.Sulton, Alisher Navoiy.

TUZOQ, QOPQON, DOM, KO‘ZANAK, JELA Hayvon va parrandalarni tutish uchun moslama. **Tuzoq, dom**ning ma’no qamrovi nisbatan keng. **Qopqon**, asosan, metall va yog‘ochdan ishlangan moslamani ifodalaydi. **Dom** badiiy nutqqa xos, eskirgan. **Ko‘zanak –** qushni tutish uchun qo‘yiladigan qil tuzoq, eskirgan so‘z. **Jela** – shevaga xos so‘z.

Tashna qushlar kelur ayni tush payti, Tuzoqlar qo‘yardim suv yoqasiga. Mirtemir, Qizg‘aldoq. *Mendan keyin hech Nomard kimsalarga Ishing tushmasin. Ularning qo‘lida Hamisha tuzoq, Lola, lolajonim, Lolaqizg‘aldoq!* M.Yusuf, Lolaqizg‘aldoq. *Izg‘irinli, sovuq tong palla Tushib qoldi qopqonga bo‘ri.* U.Azim, Qishki ertak. *Har qadamda g‘or, qoplon, Qurbon topqoni topqon...* H.Xudoyberdiyeva, Bul kun kimdir o‘ynasa. *Qush kabi parvoz tilar ko‘nglim, Ki anda bir umid Yor sayyodim sochini Dom etib ushlarmikin?* E.Vohidov, Hijron qushlari. *Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek, Ol dom ini bo‘yinidin, bechora ekan mendek...* Furqat, Sayding qo‘yaber, sayyod... *Chumchuqqa qo‘ysam ko‘zanak, ilindi unga so‘zanak.* Maqol. *Saksonipning o‘g‘li ham bu ish bilan shug‘ullanar, ovidan qolgan ikki-uchta tirik jo‘ja kaklikni qafasda saqlab, yozgacha boqib, yozda tog‘ga jela si bilan opchiqib kaklik ovi uyushtirardi.* S.O‘nar, Lochin. *Tush mahalida kukulayotgan musicha-yu kaptarlar – barisi bir bo‘lib o‘z tuxumiga sano aytaveradi: ku-ku, ku-ku… Ularga jela qo‘yishmaydi.* Sh.Salom, Saraton.

TUG‘ILMOQ, YARALMOQ, PAYDO BO‘LMOQ, BUNYOD BO‘LMOQ, BINO BO‘LMOQ, TO‘RAMOQ Dunyoga kelmoq (inson va boshqa jonzotlarga nisbatan). **Paydo bo‘lmoq, bunyod bo‘lmoq, bino bo‘lmoq** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **To‘ramoq** jonli narsalarga nisbatan qo‘llanadi, unda tarqalmoq ta’kidi qabariq aks etgan.

Men tug‘ildim go‘zal voha – Gul vodiysi qo‘ynida, quloq soling, so‘zlab beray bu vodiy qissasini. O‘.Umarbekov, Saylanma. *Mening hech bir noliydigan yerim yo‘q edi… Fazilat tug‘ilgandan keyin men juda xursand edim.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Ey mening Tangrili, qutlug‘ ulusim! Ostingda qo‘ng‘ir yer, ustingda moviy ko‘k yaraldi. Ikkisi orasida sen yaralding.* I.Sulton, Bilga xoqon. *So‘ngra jahonda yaralib jonzot, Suv ila xok berdi alarga hayot.* O.Bo‘riyev, Amir Temur. *Devni o‘ldirib bo‘lmaydi, deyishadi, shu rostmi? Uning qoni to‘kilsa, har tomchisidan ming dev paydo bo‘laveradi, deyishadi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Maktabda esa... zoologiya bizga “inson maymun-*

dan paydo bo‘lgan” deb uqtirardi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Dangasaning mingtasidan bitta yalqov paydo bo‘ladi.* E.Vohidov, Saylanma. *Farzand bunyod bo‘ldi, o‘lim yo‘q demak, Otaning ilgida zamon bilan vaqt.* A.Oripov, Ahmad Zoirni tinglab. *Odam-da. Loydan, gildan bino bo‘lgan.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bino bo‘lding qaysi gavhar donadan, Senday o‘g‘lon bino bo‘lmas enadan.* “Malikayi ayyor”. *Bog‘lar zebolanib olar alvon tus, Holbuki, saraton – jazirama yoz. Bamisli olovda to‘ragan qaqnus, Xayolimga keldi nogoh shu qiyos*. O.Tohir, Anor guli. *Shuncha mol-holi bo‘lgan odamning, albatta, uch xotini, ulardan to‘ragan yigirmaga yaqin farzandi ham bor edi*. A.Boyqo‘ziyev, To‘qol kampir.

TUSHUNMOQ, ANGLAMOQ, UQMOQ, FAHMLAMOQ, BILMOQ Biror gap-so‘z, xatti-harakat, imo-ishora va shu kabilarning mohiyatini anglab yetmoq. **Anglamoq, fahmlamoq** so‘zlarida aql bilan idrok etish ta’kidi ochiq aks etgan. **Uqmoq, bilmoq** so‘zlari ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos.

Mo‘min: – O‘shanday bo‘lsa kerak. Lekin onasidagi ko‘p fazilatlar yillar davomida mashaqqat bilan orttirilganligini keyinroq tushundim. U.Hamdam, Muvozanat. – *Men sizning ahvolingizni tushunaman, – deb gap boshlagan edi, ayol shartta kesdi...* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Asadbek savoldan kelib chiquvchi maqsadni anglab, istehzo bilan jilmaydi: – Meni o‘rtaga tushgan deb yuruvdingmi?* T.Malik, Shaytanat. *Olam uni anglади, bildi, Qalbi bilan his qildi dunyo.* E.Vohidov, Saylanma. *Qancha zo‘r berib qulog‘ini darpardaga qo‘ysa ham, darpardaning sekin g‘ichillashi bilan birga chol-kampirning pichirlashgani eshitilar, lekin nima deganlarini sira uqib bo‘lmas edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yana bir takrorlang, faqir radifini uqib olmoqchiman...* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Yusuf shu yerga kelganda o‘zi haqida gapirayotganini, o‘zini o‘zi tahlil qilayotganini fahmlab qoldi va gapini tugallashga shoshdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Botir firqa bir narsani fahmlab qoldi: notiqlar nutqini Oroldan boshlab... boshqa gaplarga burdi.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Bil, senga bu besh nasihat, Eng asosiy qoida: Qo‘lni ishga mohir etma, Tilni gapga usta qil.* E.Vohidov, Saylanma. *Nafaqat bir mamlakat, balki butun dunyo bir tan-u bir jon bo‘lib hammaning manfaatlari ko‘zlangan holda bir maqsad sari harakatlanish zarurligini bildi.* U.Hamdam, Muvozanat.

TO‘LA, LIM, LIMMO-LIM, LABOLAB, LAB-BALAB, TO‘LIQ Butun hajmi, sig‘imi egallangan, band bo‘lgan, oxirigacha to‘lgan. **To‘la** so‘zi ba’zan **liq, lim** so‘zlari bilan bog‘lanib keladi va bunday vaqtda belgi darajasi ortiqligi ta’kidlanadi. **Lim, limmo-lim, labolab, lab-balab** so‘zlarida belgining nihoyatda ortiq darajada ekanligi ifodalanadi, bu so‘zlar ko‘proq kitobiy uslubga xos langan. **To‘liq** so‘zi nutqda nisbatan kam ishlatiladi.

...Bibisi tushmagur sopol kosa to‘la talqon keltirib: “Yeb ol, Abdi, ol, bolam, holdan ketib qolasan, qo‘zim” deb qo‘yarda-qo‘ymay qistovga olar...

X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Qur’on mutolaasi sharafiga mansub bo‘lganlar yaxshi biladilarki, Qur’on sahifalari bu jamoani ta’na-yu mazammat qilgan so‘zlar bilan t o‘ l a.* Fitrat, Najot yo‘li. *Xuddi shu payt Ochilning l i m to‘la kosasiga ko‘zi tushib, badani jimirlab ketdi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Har tun uzib ketar umrimdan bir kun. Tomchi toma-toma ko‘l bo‘lgandek l i m.* Zulfiya, Saylanma. *Ko‘zlarim gavharlarida oydek jamoling porlab turar ekan, qalbim ham ilohiy himoya bilan l i m m o-l i m to‘lib boraveradi!* U.Hamdam, Binafsha. *Chunki qalbi bemisl bir saodat-la l i m m o-l i m to‘lgan, nuqul baxt ichida yashayotganday sezardi o‘zini.* I.Sulton, Onaizorim. *L a b o l a b to‘lgani-chun no‘sh etib jomi muhabbatni, So‘ray, deb mo‘r holini Sulaymonvor, xush kelding.* Q.Xo‘qandiy, G‘azallar. *Tong – l a b o l a b jom esa, oqshom – to‘la paymonadir. Kun yana tanho qadahdir, tun – yana tanho qadah.* J.Kamol, Qadah. *Vahm aylama, chekma taab, ishrat, Kiromiy, qil talab, Vuslat zamoni bo‘lajak, soqi qadah tut l a b-b a l a b.* Kiromiy, G‘azallar. *L a b-b a l a b ul may bila xumi sipehr, Og‘zidagi kirpich anga xishti mehr.* Navoiy, Hayrat ul-abror. *Xon o‘rdasi xotinga t o‘ l i q, Xorazmning go‘zallari bor.* Mirtermir, Tanlangan asarlar. *Bunda har dil kuy t o‘ l i q ziyo, Tug‘ilgan har o‘g‘il bir dunyo.* S.Sayyid, Bir sog‘inch.

TO‘LIQ, TO‘LA, TO‘KIS, TO‘LA-TO‘KIS Biror jihatdan chalasi yo‘q, bekam-ko‘st holatda. **To‘la** so‘zida qamrov ta’kidi bor. **To‘kis** so‘zida mukammallik yorqin aks etgan, ko‘proq so‘zlashuvda qo‘llanadi. **To‘la-to‘kis** so‘zida belgi darajasi yanada kuchli ifodalanadi. **To‘la, to‘liq** so‘zlarida uslubiy farqlanish kuzatilmaydi, ko‘pincha erkin almashinib qo‘llanadi.

Romanning yana bir e’tiborli tomoni shundaki, kitobxon qadimgi turk xoqonligi davri voqealariga t o‘ l i q ishonch hosil qiladi. N.Rahmonov, “Bilga xoqon” romani haqida. *Mumtoz shoirlar ijodini o‘rganish, ularning asarlarini t o‘ l i q shaklda nashr etish ishlari yo‘lga qo‘yildi.* G.Mo‘minova, Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur. – *Xo‘sh? – hamon gapni t o‘ l a tushunmadi Abdulla*. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Tabg‘ach t o‘ l a kuchga kirgan, muchal uch aylanguncha bo‘lmay, so‘ngsiz cho‘llarni, yalang yerlarni, tog‘-u toshlarni yurt tutgan shu tikbosh, ishonuvchan, to‘g‘riso‘z budun boshiga qayg‘u keltirgan edi.* I.Sulton, Bilga xoqon. *Institutni tugallaganida, urus tilida a’lo, t o‘ k i s gaplashardi.* Mirmuhsin, Umid. *Toshkentda manday t o‘ k i s kelin bormikan? Hamma narsa joyida.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Uning besh mahal namozni kanda qilmay t o‘ l a-t o‘ k i s o‘qigan kunlari kamdan kam bo‘ladi.* O.Husanov, Ustaning muhabbati. *Chol, nihoyat, mahalla ro‘zg‘orini t o‘ l a-t o‘ k i s qilib, maktab omboriga qamab oldi.* A.Qahhor, Mahalla.

TO‘LIQSIZ, NOTO‘LIQ, NOTO‘LA To‘liq bo‘lmagan. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **to‘liqsiz** so‘zi faol ishlatiladi. **Noto‘liq, noto‘la** so‘zlari nisbatan kam qo‘llanadi, ko‘proq kitobiy uslubga xos.

T o ‘ l i q s i z ish vaqti sharoitida yillik haq to‘lanadigan ta’tilning davomiyligi ish stajini hisoblash yoki boshqa mehnat huquqlari bo‘yicha cheklovlarga olib kelmaydi. “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi”. *Rayonda yagona t o ‘ l i q s i z o‘rta ma’lumot beradigan qishloq yoshlar maktabi? Ota-onamiz bag‘ridan uzilib yigirma besh kilometr yiroqda yotib o‘qiganlarimiz?* S.Anorboyev, Yaxshilik urug‘i. *“Xamsa”ning n o t o ‘ l i q va dostonlari alohida kitobat qilingan qo‘lyozmalari ham tarqalgan.* M.Hakimov, Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi. *N o t o ‘ l i q nusxa Tehronning Guliston qasri kutubxonasida saqlanadi.* B.Valixo‘jayev, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi). *Bunday xo‘jaliklar n o t o ‘ l a tizimli xo‘jaliklar uchun bir-ikki yoshli mayda baliqlar yetishtirib beradi.* T.Ikromov, Chorvachilik asoslari.

TO‘P I**, TO‘DA, UYUM, DO‘RJI** Bir joyga yig‘ilgan yoki to‘dalangan narsa-buyumlar majmuyi. **To‘da, to‘p** so‘zlari bir yerga to‘plangan narsa-buyumlarga nisbatan qo‘llanadi. **Uyum** so‘zida uyulganlik ta’kidi mavjud. **Do‘rji** so‘zi shevaga xos, nutqda kam ishlatiladi.

Uch davangir yigit orasida kelayotgan Ma’suma beka darhol o‘zini shohi mato sotayotganlar t o ‘ p iga urdi. Mirmuhsin, Me’mor. *O‘sha yerda alohida t o ‘ p bo‘lib turgan yigirmadan ortiq mashina kirib, to‘rtta kolonka atrofini to‘ldiradi.* A.A’zam, Tiqin. *Shunda uning ko‘z o‘ngida ovuli yonidagi kichik do‘nglikda suhbatlashib o‘tirgan chollar t o ‘ d a si gavdalanadi*. N.Norqobilov, Kurash. *Peshindan keyin osmonda tosha boshlagan bulut t o ‘ d a lari birlashib, atrofni go‘yo zulumot qopladi*. A.Qahhor, Muhabbat. *...hamon piri komilni abadiy panohiga olgan tuproq u y u m i biqinida parishon cho‘kkalab turardi.* A.Dilmurod, Xilvat. *Pista u y u m ini sovurayotganida mushtdek g‘isht parchasi uchib kelib pistani tuproqdek to‘zitib yubordi.* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Agar mehmon d o ‘ r j i bo‘lsa, bo‘linadi.* B.Abdusamad, Tog‘ atirguli. *Sarvar ikkilandi. Bir ko‘z oldiga d o ‘ r j i pulni keltirib, tamshanib xayol sursa, bir pulini yo‘qotgan kimdir bechoraning hozir ne ahvolga tushganini o‘ylab, yuragi allanechuk bezovtalanar edi.* J.Kengboyev, Dollar.

TO‘P II**, UYUM, TO‘DA** Son so‘zlar bilan birikib kelib, o‘zidan keyin kelgan so‘zning miqdorini ko‘rsatishda ishtirok etadigan hisob so‘z. **To‘da, uyum** so‘zlarida miqdor tushunchasi **to‘p** so‘ziga qaraganda kuchli ifoda topadi, ammo bu so‘zlar **to‘p** so‘ziga nisbatan kamroq qo‘llanadi. **To‘da** so‘zi ko‘proq shevada, **uyum** so‘zi adabiy nutq shakllarida qo‘llanadi.

Qor-qirovli kunlar nafasi chekinib ulgurmagan, bir t o ‘ p sinfdosh qunishgancha bir-birining pinjiga tiqilib, maktabdan qaytishayotgan edi. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Olisdan bir t o ‘ p yog‘du dastasi bo‘lib tuyulgan qishloqlarning chiroqlari mashina yaqinlashgani sari sochiladi – hovlilarga ko‘chadi.* U.Azim, Sevgi. *“...Bir u y u m maqola turibdi, o‘qib tugatsam, o‘zim tushaman.*

Kuting!" – dedi. A.Haydarov, Kunlardan bir kuni va har kuni... *Ayg'oqchi ilkini uzatibdi, kokildor uning kaftini bir silagan ekan, ayg'oqchining qo'lida bir u y u m oltin paydo bo'libdi.* S.Boboyev, Qora tundan qo'rqma. *...bir t o' d a bolakaylarga ko'zim tushdi. Biri, hoynahoy, Hasanboyning kenjasi bo'lsa kerak, quyib qo'ygandek o'zginasi.* U.Ro'ziyev, Yog'och otlar. *Shahar tugaganida esa, katta yalanglikda bir t o' d a odamlar ko'rindi!* I.Sulton, Boqiy darbadar.

TO'QIMOQ, O'RMOQ, ESHMOQ Tolalarni yoki ularning bir necha tutamini bir-biriga chalmashtirmoq. **O'rmoq** so'zining bu ma'nosida ayollarga nisbatan qo'llanish ham bor. **Eshmoq** so'zida aylantirib, burab, tovlab pishiq qilish ta'kidi aks etgan, ko'pincha *ip eshmoq*, *arqon eshmoq* singari birikuvlarda qo'llanadi.

O'rgimchak gul shoxchalari orasiga to'r t o' q i bdi, kumush tolasi yiltiraydi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Bo'zchi bilganin t o' q i r.* Maqol. *Men ham tek turmasdim: paxtani chig'iriqdan chiqarar, kanava o' r a r, paxta savar, hatto pilta ham eshib berardim.* Y.Shukurov, Qasos. *Hafiza oq batis(t) ko'ylagini... kiyib, sochini bitta qilib o' r gan edi.* Mirmuhsin, Umid. *Hayotxon bechora ip e sh ib, marvaridlarni terishga o'tirdi.* M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha. *Makkalar o'rilib, bir-ikkita poyasidan arqon e sh ib, belidan dastalab boylanadi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam.

TO'SATDAN (TO'SAT, TO'SINDAN), QO'QQISDAN, BEXOSDAN, BIRDAN, BIRDANIGA, DABDURUSTDAN, NOGAHON, KUTILMAGANDA, BANOGOH, ITTIFOQO, DAF'ATAN, ILKISDAN (ILKIS), TUYQUSDAN (TUYQUS, TUYUQSINDAN), FAVQULODDA, LOP ETIB Kutilmaganda, xayolga kelmagan holda. **To'sat** so'zi **to'satdan** so'zining qisqargan shakli, poetik nutqda uchraydi. **To'sindan, ilkisdan, tuyqusdan, tuyqusindan** so'zlari nofaol, shevalarda uchraydi. **Qo'qqisdan, dabdurustdan, favqulodda** so'zlarida kutilmaganlik ta'kidi bo'rtib turadi. **Ittifoqo**, **daf'atan, banogoh** so'zlari eskirgan. **Birdan, birdaniga**, **kutilmaganda, dabdurustdan, lop etib** so'zlari so'zlashuv nutqida keng ishlatiladi. **Lop etib** so'zida obrazlilik kuchli.

Somonning ustidan surgalib, emaklab borayotgandim, t o' s a t d a n kalish yo'q bo'lib qoldi. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. *Shu zahoti t o' s a t d a n chaqmoq chaqnaydi-yu, mashinaga o'tirayotgan odamning yuzini bir zum yoritib o'tadi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *T o' s a t-t o' s a t kelayotir qalmoqlar, O'n ming uyli Qo'ng'irot xalqi qaradi, Tomoshamon Oyna ko'lga to'ladi.* "Alpomish". *Ustma-ust tushayotgan zarbalar q o' q q i s d a n tindi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Ana shunday tarang kunlarning birida – o'rgangan qulog'ini kar qilib domla chorpoyada kitob varaqlab yotgan edi – q o' q q i s d a n Yormat kirib keldi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Anvar uning chindan ham behazil gapirayotganini tushundi. Birov b e x o s d a n "onang o'ldi", deganda kishi*

qanday ahvolga tushsa, hozir u ham xuddi shunday ahvolda qoldi. O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Yirtqich emas, madaniyatli, saxiy, rahmdil hammalari. Faqat tog‘am aytganidek, o‘rtalarida b e x o s d a n qaltis o‘yin boshlanib qoldi.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Qaytar edim tog‘ sayridan, Ko‘p edim tashna. Horg‘in edim, yo‘lda b i r d a n Uchradi chashma.* E.Vohidov, Saylanma. *B i r d a n havoda “qars-qurs” degan tovush yangradi va shovullab yomg‘ir boshladi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Harakatlaridagi ilgarigi hayajon susaydi, qizning b i r d a n i g a jiddiylashgani u bilan barobar oyoq tashlasa ham, musiqani boyagidek his qilmayotgan, uning yengil gaplarga bo‘lgan jur’atini to‘xtatgan…* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *D a b d u r u s t d a n gapni shunday boshlasang, cho‘chitib yuborasan.* R.Fayziy, Hazrati inson. – *Yusuf, to‘g‘risini ayt, mustaqillikdagi hayotimiz yaxshimi yoki avvalgisi? – deb qoldi d a b d u r u s t d a n Sodiq. – Sen ham eski zamonni qo‘msaysanmi?* U.Hamdam, Muvozanat. *Mastura kampir n o g a h o n bir qalqib, jiyanining ustiga tappa tushadi-yu, uv tortib yuboradi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Tirilsa n o g a h o n Farhod, Yuzingni ko‘rsa ko‘zguda, Kechib Shirinidan yuz yil Ko‘yingda darbadar bo‘lg‘ay.* E.Vohidov, Saylanma. *K u t i l m a g a n d a telefon cho‘zib-cho‘zib jiringlaydi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *…Bir kuni, Akbarali ishda edi, k u t i l m a g a n d a eshikdan otilib Hadya kirib keldi.* A.Muxtor, Chinor. *Qay fursat men sizni ko‘rdim b a n o g o h Endi zarra hijron dilimni g‘ashlar…* A.Oripov, Saylanma. *I t t i f o q o bir “Damas” ko‘rindi. Yormat! Domla battar g‘ujanak bo‘lib oldi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *I t t i f o q o tintuv payti ro‘yxat qilingan narsalar xayolimdan o‘tdi. Ular orasida taqinchoqlarim yo‘q edi.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Odamning hayvonlik hirslari avj olgan vaqtda har narsadan go‘zal ko‘rinadigan bu xonalarga u hirslardan ozoda bo‘lib kirgan odamni d a f ’ a t a n belgisiz bir qo‘rquv hissi bosardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Men bir o‘zbek o‘g‘li, Kelib d a f ’ a t a n Qadimiy Sayhunning kanorasidan Bugun Moskvaga qarab turibman Yuksak Ostankino minorasidan.* E.Vohidov, Saylanma. *Xotirjam, bevahim yotgan odamlar Jallodlarga i l k i s d a n duchor bo‘ldilar.* E.Jumanbulbul o‘g‘li. *Bir vaqti motor tovushi i l k i s pasaydi, uylarning shovqinni shuv-shuv qaytarmaganidan bildimki, shahardan ochiq dalaga chiqdim.* A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *Qora tun qa’ridan otilib chiqib, dilbar subhidam qo‘ynida sof kengliklar husniga mahliyo bo‘lgan, birpasda hamma narsani unutgan bu besh yo‘lovchi t u y q u s d a n nima bo‘lganini payqamay qoldi.* A.Muxtor, Chinor. *Yomg‘ir t u y q u s d a n taqqa tinib, quyosh chiqib ketadi... Mo‘jiza!..* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *T u y q u s ro‘paramdan chiqib qolding sen – Orzu-umidimning sobit tirgagi!* S.Allayor, Dil sog‘inchi. *…qo‘rg‘onimiz osoyishtaligiga “fayz” bag‘ishlab turgan Kattakonning kuchugi t u y q u s akillashdan to‘xtadi-qoldi!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Sohibqiron o‘z o‘tgan umrini eslaganidan mamnun-u masrur odamday f a v q u l o d d a*

T

hayajon-u tug‘yonga chulg‘angandi. M.Ali, Sohibqiron o‘ylari. *F a v q u l o d d a Nasim Momoqizga odam qo‘ydi! Non sindirildi!* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Biroq serhimmat do‘kondor ko‘tarib kelgan obinovvotga pichoq sanchilgan zahoti f a v q u l o d d a hol ro‘y berdi: qo‘rg‘onimiz osoyishtaligiga “fayz” bag‘ishlab turgan Kattakonning kuchugi tuyqus akillashdan to‘xtadi-qoldi!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Shunday oqshomlardan birida, esingizda turgandir, l o p e t ib Ochil buva bilan Azimjon kirib keldi.* A.Muxtor, Chinor. *Shuncha paytlardan buyon yuragining qaysi bir ko‘chasida yashirinib yotgan qaysar g‘azab tuyg‘usi l o p e t i b yuzaga chiqdi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi.

TO‘SIQ I**, G‘OV, IHOTA** Biror yerni, hududni to‘sish yoki boshqa joy, hududdan ajratish uchun o‘rnatilgan maxsus qurilma. **G‘ov** so‘zida ma’no nisbatan kuchli ifodalanadi. **Ihota** so‘zida himoya qilishga mo‘ljallanganlik ta’kidi mavjud, kitobiy nutqda uchraydi.

Hademay, shox-shabbalardan katta t o ‘ s i q hosil bo‘ldi... S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Shiftgacha yetib bormagan faner t o ‘ s i q orqali gaplar baralla eshitilardi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Poygachining ko‘zi – g ‘ o v da.* Maqol. *Ko‘chaning berk joyida esa pishiq g ‘ o v turardi. Mahallada yashovchi bo‘zchilar bu g‘ovni nafaqat arava, hatto ot o‘tmasligi uchun qo‘ygan edilar.* Oybek, Bolalik xotiralarim. *Bobur Zarafshon daryosi ko‘rinib turgan bir joyni o‘rda qilib, atrofiga chuqur xandaqlar qazitdi, shox-shabbalardan o‘q o‘tmaydigan i h o t a lar yasatdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qo‘rquvdan yuraklari tars yorilgudek bo‘lgan oqsoqollar i h o t a da qolgan shaharga qaytib, uning hukmdori huzurida uzoq kengashibdilar.* A.Mahkam, Oq kitob.

TO‘SIQ II**, G‘OV, TO‘G‘ONOQ, TO‘SQIN, TO‘SQINLIK, TO‘SIQLIK, QARSHILIK, MONELIK** Biror ishni amalga oshirishga qo‘yilgan to‘siq, to‘sqinlik; kishilar munosabatiga nisbatan bildirilgan qarshilik. **To‘siq, g‘ov, to‘g‘onoq** so‘zlarining nutqda erkin almashinib ishlatilishi ko‘p uchraydi. **To‘sqinlik, to‘siqlik, monelik** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi.

Qiziq, oyim harchand mehribonlik qilgani bilan o‘rtamizda allaqanday t o ‘ s i q turganga o‘xshardi. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *...Yangi dunyo quramiz. T o ‘ s i q larni yengamiz, Faqat olg‘a yuramiz.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *G ‘ o v ham yo‘qdir olamda, lek Ishq yo‘lin band etgulik.* E.Vohidov, Saylanma. *U yo‘lida uchragan har qanaqa g ‘ o v ni bosib-yanchib o‘tishga, doimo g‘olib chiqishga o‘rgangan edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *...bizlar faxriylarni yoshlarga t o ‘ g ‘ o n o q emas – suyanchiq, raqib emas – ustoz, befarq emas – hamdard deb bilishimiz lozim va bu milliy g‘oyalarimizda yana o‘z ifodasini topdi.* Gazetadan. *Ne bosqin, ne t o ‘ s q i n dan Saqlab kelgan uni el. Kim etur so‘zni uvol, Xor bo‘lur, abgor bo‘lur.* Sh.Qurbon, So‘z yo‘li. *...1918-yildan e’tiboran, ma’lum har bir ish uchun keng yo‘l ochildig‘i kabi maorif ishlari uchunda o‘rtadagi t o ‘ s q i n lar oling‘ach, teatrlar yozmoq ishi*

ham har bir qo‘lidan yozuv keladirg‘an yoshlar va o‘quvchi shogirdlar uchun bir ermak yoki havas shaklig‘a kirdi. A.Qodiriy, Bizda teatr ishining borishi. *Doniyorov uchastkadagi hamon sudralishga sabab bo‘layotgan asosiy to‘sqinlik larni isbotlay boshladi...* J.Abdullaxonov, To‘fon. *Qiyinchilik, to‘sqinliklar hamma yerda ham bo‘ladi.* Gazetadan. *To‘sqinliklar ko‘rarsang-da, o‘z yo‘lingdan burilma, Otang o‘lur haq yo‘lida, sen ham uning kabi o‘l!* H.Muin, Hajviy she’rlar. *Gavharning qarshiligiga qaramay, ikki marta suratga oldi-yu, rahmat aytib, burilib ketdi.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz: yuzini ochmasa bo‘lmaydi... Aytingiz, qarshilikdan foyda yo‘q!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Sen bilan mening har to‘g‘rida ham ochiq so‘zlashmagimizga hech bir monelik bo‘lmas, deb o‘ylayman.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Ana undan so‘ng Jahongir mirzoning taxtga o‘tirishiga hech bir monelik qolmas.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

TO‘SIQ BO‘LMOQ, G‘OV BO‘LMOQ, TO‘G‘ONOQ BO‘LMOQ Biror maqsadni amalga oshirishga, ishni bajarishga qarshilik ko‘rsatmoq. **G‘ov bo‘lmoq, to‘g‘onoq bo‘lmoq** so‘zlarida ma’no nisbatan kuchli ifodalanadi.

Hazrat Alining dulduli va zulfiqori oldida baland tog‘lar ham, qirg‘og‘i ko‘z ilg‘amas daryolar ham to‘siq bo‘lmagan emish. N.Safarov, Olovli izlar. *Muhammadjon Zamira bilan o‘zining yaqinlashishiga Ochilning agitatorligi ham to‘siq bo‘lishini sezdi-da, Ra’no Suyarovadan agitatorlar ro‘yxatini talab qildi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Lekin Gulchehra Sulton bilan Dilbar o‘rtasida g‘ov bo‘lishni sira-sira istamasdi.* M.Xayrullayev, Tilla marjon. *Muzlardan istehkom qurdi tabiat, Yo‘llarda g‘ov bo‘lib turdi tabiat.* Uyg‘un. *Men akusherka bo‘lib bordim-u, lekin bu ishni bajarishga ruhoniylar to‘g‘onoq bo‘lishdi.* M.Alaviya, Sevinchlarim. *Kimki ishning, mo‘ljalning to‘g‘riligiga ishonmasa, qadamingizga to‘g‘onoq bo‘laverar ekan.* Q.Ochil, Sayroblik barakali yigit.

TO‘SMOQ I, BEKITMOQ (BERKITMOQ), YOPMOQ, IHOTALAMOQ, O‘RAMOQ, IHOTA QILMOQ To‘siq qo‘yib yoki g‘ov solib, o‘tib bo‘lmaydigan qilmoq. **To‘smoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf bo‘lib, barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Bekitmoq** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Ihotalamoq, ihota qilmoq** so‘zlari kitobiy uslubga xos.

Amuning toshqini o‘zimning Kileo‘patramga-da, senga-da yo‘lni to‘sdi. Cho‘lpon, Kileo‘patra. *Bir tomoni dongdor dam olish uyining devori bilan to‘silgan, bir tomoni – serdaraxt sanatoriyga tutash.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Agar Bobur tezroq tog‘ oshib Xurosonga ketmasa, Shayboniyxon aylanib o‘tib, uning so‘nggi yo‘lini ham bekitadi!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Olmaota shahri tog‘ yon bag‘rida joylashgan bo‘lib, shahar yuqorisida to‘g‘onlar bilan bekitilgan yirik suv havzalari mavjud.* Gazetadan. *Eng yomoni, Abusaidni Xuroson bilan bog‘laydigan yo‘llar berkitilgan edi.* I.Haqqul, Mulkgirlik

savdosi va tole hiylasi. *Bizdan olmagan yordamni, oz bo‘lsa ham, ulardan oladi. Biz bu yerda savdo yo‘lini b e r k i t sak, Rossiya orqali Yevropaga chiqadi.* Cho‘lpon, Xayrli saboh. – *Bugun kechasi o‘n ikkida chegaralar y o p ilgan, xabaringiz bor-a? – Ha... – Boyaqishlar eson-omonmikin?* R.Haydarova, G‘urg‘urtepada saraton. *Davlatlararo chegaralar y o p ilgan bo‘lsa-da, 600 mingdan ortiq vatandoshimiz yurtimizga olib kelindi.* E.Aripov, Hayotimiz farovonligi asosi. *To‘rt tomoni baland uy, ayvonlar bilan o‘ r a lgan hovlida nafas bo‘g‘ila boshladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Otaqul tog‘am, oxiri kungurador darvozali, dang‘illama uyli, g‘ishtin devorlar bilan o‘ r a lgan hovlisini ...sotib qarzlardan zo‘rg‘a uchma-uch qutulibdi*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Qo‘rg‘onning qo‘l yetmas balandlikka qurilganidan va atrofi chuqur o‘ngirlar bilan i h o t a q i l inganidan alohida bir mamnuniyat sezdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

TO‘SMOQ II**, BEKITMOQ (BERKITMOQ), PANALAMOQ, PANA QILMOQ, PARDALAMOQ** Biror joy yoki narsani parda, latta, qo‘l va boshqa shu kabi vositalar yordamida panalamoq. **Panalamoq, pana qilmoq, pardalamoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos.

Nazokat uyalganidan yerga qaradi, o‘ng yuzidagi kuldirgichini shamol to‘zg‘itgan sochlari t o‘ s di. S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Jingalak sochlari ko‘zlarini t o‘ s ib turgan Raisa ikki qo‘li bilan onasining ko‘ksini ushlab, yig‘lab turardi.* I.Rahim, Chin muhabbat. *Ro‘molimning uchi bilan yuzimni b e k i t ib, yig‘lab olaman.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Muzaffar, ko‘zlari hayratdan olaygancha beixtiyor chap yuzini kafti bilan b e k i t di.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Sizif jon holatda yarador oyog‘ini yig‘ib, gavdasi bilan uni p a n a l a di, xira qushlarni hurkitish maqsadida qarsak urgandi, kaftlari orasidan toshni toshga urgandagi qarsillagan shovqin chiqdi…* X.Do‘stmuhammad, Donishmand Sizif. *Sulton buni ko‘rdi-yu, Bobur p a n a l a b o‘tirgan joyni bo‘ron tuni bilan qorga ko‘mib tashlashini o‘zicha tasavvur etdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U yo‘l boshlar ekan, shamoldan yuzini p a n a q i l ib Muqaddamga qarab qo‘ydi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *...Ayol keng yengi bilan fonusdan ko‘zini p a n a q i l ib: – Salomalaykum! – dedi past tovushda.* Sh.Xolmirzayev, Olis yulduzlar ostida. *Ularning ichida dev bilan shayton qaynaydi, tani esa maloyiklardan to‘kilgan pat bilan p a r d a l a ngan.* Navoiy, Hayrat-ul abror. *Ayni zamonda qizning so‘zlarida, allaqanday ichki bir dard aks etib turgan ma’sum chehrasida, yosh bilan p a r d a l a ngan katta qora ko‘zlarida bo‘lakcha bir poklik va samimiyat bor edi.* O.Yoqubov, Matluba.

TO‘XTATMOQ, TASHLAMOQ, QO‘YMOQ, YIG‘ISHTIRMOQ Biror ish, xatti-harakatni amalga oshirishni davom ettirmay qo‘ymoq, uni bajarishdan voz kechmoq. **Tashlamoq** so‘zi mazkur ma’noda ko‘p qo‘llanadi. **Qo‘ymoq, yig‘ishtirmoq** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi.

Otaboy kayf qilib qoldi. Gandiraklab o‘rtaga tushib, Kokilani o‘yindan t o ‘ x t a t di. T.Malik, Savohil. *Aroqni t a sh l a gan bo‘lsalar-a! Rosa mazza bo‘lardi-da.* E.Raimov, Ajab qishloq. *– Eski hunaringni t a sh l a mabsan-da? – deb g‘azabli nigohini unga qadadi, bu gap bilan restorandagi qilig‘ini eslatdi.* T.Malik, Shaytanat. *She’ringni q o ‘ y, Mahmud, onang ko‘nglin top, Jannatlarning posboni ham onadir.* M.Toir, Ona. *Jinniligingni q o ‘ y, Mutal aka!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Tirikchilikning oson yo‘li qaroqchilik deb bilgan Durdi dehqonchiligini y i g ‘ i sh t i r ib qo‘ydi.* J.Sharipov, Xorazm. *Bunga sabab, bir tomondan, o‘qish-o‘rganishni butkul y i g ‘ i sh t i r ib qo‘yganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, “uy qizi” bo‘lib, hayotdan uzoqlashib qolganligidir*. A.Qahhor, Maqolalar va suhbat.

TO‘XTOVSIZ, TINIMSIZ, BETINIM, MUTTASIL, UZLUKSIZ, BOSIM, SURUNKASIGA, PAYDAR-PAY, KETMA-KET Uzluksiz ravishda, tinmagan, to‘xtamagan holda. **Bosim** so‘zi mazkur ma’noda nutqda kam uchraydi. **Surunkasiga** so‘zida takroriylik ta’kidi ustun, kitobiy uslubda ishlatiladi. **Paydar-pay, ketma-ket** so‘zlari ushbu ma’nosida kam ishlatiladi, kitobiy uslubda uchrab turadi.

Harflarning biriga qarab, biriga qaramasdan t o ‘ x t o v s i z sharillatib o‘qib beraman. Oybek, Bolalik xotiralarim. *Qora Ahmadning basharasiga, ko‘ksiga, qorniga to‘qmoqday mushtumi bilan t o ‘ x t o v s i z tushira boshladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ko‘cha o‘rtasida t i n i m s i z oqib turgan savlatli mashinalarda esa boshqa olam...* A.Muxtor, Chinor. *Deraza ortida oqshom tashvishi bilan jonsarak bo‘lib qolgan chumchuqlar t i n i m s i z chirqillardi...* O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor. *Shuning uchun bu yerda darg‘alar bedor, tun-u kun baqiriq-chaqiriqlar, uzun eshkaklarning b e t i n i m shaloplagani eshitilib turadi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Son-sanoqsiz panja barglari ham b e t i n i m qimirlab, nurli havodan rizqini terib olayotganday, yuksaklikka intilgani intilgan.* A.Muxtor, Chinor. *Boyagi traktor yo‘tal tutgan odamdek ora-chora gup-gup qilib qo‘yadi, ammo m u t t a s i l tarillamaydi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Bu m u t t a s i l davom etib kelayotgan uyqusizlik, adadsiz iztiroblarning mahsuli, albatta...* D.Nuriy, Osmon ustuni. *Bulbullar qo‘shig‘i tinmaydi, u z l u k s i z sayrab turadilar.* Oybek, Bolalik xotiralarim. *Uyqu qochadi. Uning cho‘zinchoq oqish yuzi ham ehtirosli ko‘zlari va labi singari ichki kechinmalarini u z l u k s i z aks ettirardi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Uch kundan beri b o s i m chap ko‘zim uchar edi...* S.Ahmad. Saylanma. *Po‘rim kiyimimni yechib, egnimga eski korjomalarimni ilib, loyga ham kirib ketaverar, ey, shu ishlar bilan dam olar, noqulay bo‘lsa ham aytay, ustalda b o s i m o‘tiradiganlarning kasalidan kamina benasib emas, o‘sha ham bir kunda o‘tib ketar edi.* A.A’zam, Quroq. *Jang s u r u n k a s i g a yetti kun davom etdi...* N.Safarov, Olovli izlar. *Chilla chiqishiga oz qolgan bo‘lsa ham, bu kutilmagan sovuq qalin qor olib keldi. S u r u n k a s i g a ikki kun yog‘di.* O‘.Umarbekov, Saylanma. *-Inshoollo, p a y d a r-p a y zarba*

bilan dushmanni parokanda qilib, tor-mor etamiz. Mirmuhsin, Me'mor. *Muttasil yo'talayotgan nevarasining burnini p a y d a r-p a y etagiga artayotgan ovsinim talmovsirab choliga qaradi.* O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *– Tavba qilmayman! – dedi Toshmat, k e t m a-k e t tushayotgan kaltak zarbalaridan ingrab...* H.G'ulom, Mash'al. *Rostdan ham, chorak soatga yetmay, k e t m a-k e t ikkita "Tez yordam" mashinasi zuvullab shu tarafga o'tdi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir.

TO'G'RI, BEXATO, XATOSIZ Xatolikdan xoli, yanglish bo'lmagan. **Bexato** so'zi ko'proq kitobiy uslubda qo'llanadi. **Xatosiz** so'zi oddiy so'zlashuvga xos.

Men yig'lashni ham, kulishni ham bilmay, faqat ihihilayman, gapim t o' g' r i chiqqaniga ichimda xursandchilik qamalib qolgan. A.A'zam, Quroq. *So'fi bu t o' g' r i savolga boshqa javob eplay olmadi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *Daqiqa sayin kalla qismidagi g'uvulloq kuchayib borayotganiga qaramay, Avtobola topshiriqni odatdagidek b e x a t o bajardi.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. *...Puxta o'ylangan rejasini deyarli b e x a t o bajardi ham, lekin unga ikki daqiqa xalaqit berdi.* A.Mirzo, Suiqasd. *– She'rni gapirasiz-a, – deb kuldim men. – O'zining otini zo'rg'a x a t o s i z yoza oladi boyoqish.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo'llar. *So'zga, jumlaga sayqal berish, so'z sehri va jozibasini his qilish, mulohazalarni izchil ravishda bayon etish, ortiqcha va o'quvchi e'tiborini muhimdan chalg'itadigan nomuhimlardan voz kechish deganidir. Raqamlarni, ism-shariflarni, istilohlarni to'g'ri, x a t o s i z yozish demakdir!* X.Do'stmuhammad, Ko'ngildagi munavvarlik.

TO'G'RIDAN TO'G'RI, TO'PPA-TO'G'RI, BEVOSITA, TO'G'RI Biron-bir vositasiz amalga oshadigan. **To'g'ridan to'g'ri, to'ppa-to'g'ri** so'zlarida bevositalik ta'kidi mavjud. **To'ppa-to'g'ri** so'zi oddiy so'zlashuvda faol, **bevosita** so'zi esa ko'proq kitobiy uslubda qo'llanadi.

Mazkur taqdimot efirga t o' g' r i d a n t o' g' r i berilmoqda! E.Norsafar, Salamandra. *Zokir O'rinovichning gaplari t o' g' r i d a n t o' g' r i menga qaratilganini sezib, o'zim ham muzlab ketdim.* Sh.Xolmirzayev, Ikki ko'rgan bilish. *U shundan iborat ekanki, adabiy hodisani, ya'ni asarni ichdan yoritib va t o 'ppa-to 'g 'r i ko'ngilda aks sado berib, kishini qayoqqadir boshlaydigan bir nur bo'lar ekan!* Sh.Xolmirzayev, Adabiyot o'ladimi? *Odatda, u institutga t o 'ppa-to 'g 'r i kirib kelaverardi.* A.Muxtor, Ko'ngil ko'zi bilan... *Ammo eng muhimi bu muammoning yechimlarini topish va uni b e v o s i t a amalga oshirishdir.* R.Sayfuddinov, Tarbiya. Poklik saodat kalitidir. *Rahim Saidov topgan va uning b e v o s i t a rahbarligida o'tkazilayotgan tajribalari agar natija bersa, fanda katta kashfiyot qilingan bo'lar edi.* O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri. *A'lamga vazifa buyursa ham, t o' g' r i o'ziga aytmaydi, bosh muharrirga topshiradi, bosh muharrir o'rinbosariga yo bo'lim boshlig'iga tayinlaydi, ular A'lamga yetkazadi.* A.A'zam, Hali hayot bor...

TO‘G‘RISI, ROSTI, SIRASI, OCHIG‘I, NAFSILAMR(I) 1. Yolg‘onsiz, qanday bo‘lsa, shundayligicha. **To‘g‘risi, rosti, ochig‘i** so‘zlari ushbu ma’noni ifodalashda erkin almashinib qo‘llana oladi. **Nafsilamr(i)** so‘zida kitobiylik bor.

– T o ‘ g ‘ r i s i ni aytaymi? – dedi xonim allaqanday sirli jilmayib. So‘ng osmon barobar baland qo‘shni devor tomon ishora qildi: – U yoqdan ko‘ra sizning bog‘ingiz yoqdi menga! E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Haqiqat uchun kurashish qiyin, Temir Akbarovich… T o ‘ g ‘ r i s i ni aytsangiz, tug‘ishganingizga ham yoqmaysiz-da!* P.Qodirov, Uch ildiz. *Ona, ranjimagil xatimdan, Men r o s t i ni yozdim, shod damim Sen tushmaysan aslo esimga.* A.Oripov, Yillar armoni. *Keling, Zufar Hakimovich, hech bo‘lmasa, endi r o s t i ni ayting.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Ammam bilan pochcham, biz endi s i r a s i gapni aytdik-da, deyishib qatiqdan bo‘shagan, bidon-u uzumdan bo‘shagan qora sumkalarni salanglatishib, xijolat bo‘lgandek xayrlashib ketishdi.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *– So‘zlamayman, – dedi To‘ybeka, – lekin s i r a s i ni so‘zlayman... Oh, ko‘rsang edi bir kuyavni. Qanday chiroylik, qanday aqllik ekanini bilar eding, bekachim.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Komila o ch i g ‘ i ni aytdi. Hammasini gapirib berdi. Direktorni yig‘latgudek qilib gapirdi.* A.Muxtor, Chinor. *O ch i g ‘ i ni gapiravermaysizmi, do‘stim! Kattakon bizning direktor bilan qilo‘tmas qadrdon ekan, deb kerilgan siz emasmidingiz?!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *– Beee, go‘rnimi, taqsir, – dedi Safar bo‘zchi, – u gapni qo‘ying, n a f s i l a m r gap yaxshi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *– Tushuntirsangiz-chi? – N a f s i l a m r gapni aytguncha muncha shoshirmasang.* A.G‘afurov, Shaharlik kelin.

T

2. Gapning rosti, gapning ochig‘i, to‘g‘risini aytganda, haqiqatda. Qatordagi so‘zlar nutqda kirish so‘z vazifasida kelib, modal munosabat ifodalaydi. **To‘g‘risi, rosti** so‘zlari nutqda erkin almashinib qo‘llana oladi. **Ochig‘i** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. **Sirasi, nafsilamr(i)** so‘zlari esa kitobiy uslubda qo‘llanishga xoslangan.

Endi u shu kungacha hech kimni sevolmaganidan, t o ‘ g ‘ r i s i, sevmaganidan ajablanardi. Shuhrat, Shinelli yillar. *Sizning qistovingiz bilan ko‘nishga ko‘ndim-u, lekin o‘sha kundan beri o‘zimga kelolmayman, t o ‘ g ‘ r i s i!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Jumaboy (tamshanib). – Baliq yeb bunaqa totlisini ko‘rmaganman, r o s t i!* E.A’zam, Tanho qayiq. *Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo, Hammasiga guvoh – yer osti. Lekin, do‘stlar, she’r ahli aro Jahongiri kam bo‘lar, r o s t i.* A.Oripov, Yillar armoni. *S i r a s i, u yozadigan narsalarga g‘irromlik aralashtirib bo‘lmas, bunga zarurat ham yo‘q edi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Tushunmoq istamas edim, o ch i g ‘ i, Menga bog‘liq ekan uning qay dardi?* O.To‘xtash, She’rlar. *O ch i g ‘ i, sizni yaxshi ko‘ramanmi o‘zi, yo‘qmi, bunisiniyam bilolmay qolaman gohida.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ikki xushomadgo‘y uchrashdi bir kun, O ch i g ‘ i, tajriba almashmoq uchun.* A.Oripov, Saylanma. *... Sen qasamni buzgansan. N a f s i l a m r i, endi oddiy ayol emassiz, boy*

xotinsiz, o‘rgulay! O.G‘afurov, Ayol ori. *N a f s i l a m r i, kechagi kunlar-u qilmish-qidirmishlardan qochib-bekinib yashab bo‘larmidi, ayting?* A.A’zam, Hikoyalar.

TO‘SHAMOQ, TASHLAMOQ, SOLMOQ, YOZMOQ Biror to‘shamani yuzalikka, yerga yoymoq. **To‘shamoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf, barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Tashlamoq, solmoq, yozmoq** so‘zlari, asosan, so‘zlashuvga xos.

Mingboshi o‘ng tomondagi ozodaroq samovarga chiqib, o‘zi uchun t o ‘- sh a lgan to‘shakka o‘tirmasdan, gilamning bir chetida o‘tirdi va chilim buyurdi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Enajonim hammasining tagiga mening to‘yimga atab tikkan yakandozlaridan t o ‘ sh a b: – Xush kelibsizlar, mehmonlar! – dedi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Bo‘ri iziga burildi. Xirmonga keldi. Qorong‘i tushgach, supaga to‘shak t a sh l a b yotdi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Adyolni maysalar ustiga t a sh l a b o‘tirishdi*. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Oxiri qorong‘ida timirskilanib supaga joy s o l di-yu, xudodan ertangi kunni so‘rab uyquga ketdi*. S.Ahmad, Ufq. *Ha, oldin tippa barobar qilib somon to‘shashibdi, keyin kigiz yozishibdi, keyin ko‘rpacha s o l ishibdi, keyin Eshon boboni yotqizib, ustini o‘rab ham qo‘yishibdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Birozdan so‘ng tuzukroq kiyimda, boshig‘a salla o‘rab, oyog‘ida sag‘ri kafsh bilan qo‘lida joynamoz kabi bir narsani ko‘tarib bordondan Davlat chiqdi. Xong‘a ta’zim qilg‘andan so‘ng, joynamozni yerga y o z di.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Hindiy zodagonlar Malli Babuni, Vazir tayinlashib odil deb uni, Yo‘liga turfa xil poyandoz y o z ib, So‘ng taxtni bilishib unga munosib.* O.Bo‘riyev, Amir Temur.

TO‘SHOG‘LIQ, SOLIG‘LIQ, YOZIG‘LIQ Ko‘rpacha, gilam va shu kabilar biror yuzaga, yerga yoki o‘rin-joyga to‘shalgan holatda. **To‘shog‘liq** so‘zi barcha nutq uslublarida uchraydi. **Solig‘liq, yozig‘liq** so‘zlari esa, asosan, so‘zlashuv uslubida ishlatiladi.

Devorga qadalgan taxta karavotlarga yupqa to‘shak t o ‘ sh o g ‘ l i q. J.Abdullaxonov, To‘fon. *Osiljon qat-qat ipak turkman gilamlari t o ‘ sh o g ‘ l i q uyga qo‘rqa-pisa oyoq bosib kirarkan, ertakdagi oltin saroyga kirganday bo‘ldi.* J.Sharipov, Xorazm. *Bo‘stonning to‘rt burchagida to‘rt oltin taxt. Zar ko‘rpachalar s o l i g ‘ l i q.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Maqsud amaki peshin namozini o‘qib, ayvonga chiqqanda, xontaxta ustida oppoq dasturxon s o l i g ‘ l i q, uning ustida chiroyli kosada bug‘i chiqib turgan sho‘rva, bir juft obinon, xontaxta yoniga tashlangan ko‘rpachada to‘ng‘ich o‘g‘li o‘tirardi.* R.Haydarova, Osmon to‘la farishta. *U qo‘lidagi ko‘pchib-singib pishgan nondan bir chimdim uzib og‘ziga soldi-da, chala y o z i g ‘ l i q dasturxon ustiga qo‘ydi: – Ol, nondan ol.* E. A’zam, Piyoda. *Olti-yetti ayol aylana bo‘lib o‘tiribdi, o‘rtada katta un suprasi y o z i g ‘ - l i q*. Sh.Salom, Bolalikning so‘nggi kuni.

U

UMR, HAYOT Insonning tug‘ilganidan to o‘lgunigacha yashash davri. Nutqda mazkur ma’noni ifodalashda **umr** so‘zi nisbatan ko‘p ishlatiladi. **Hayot** so‘zi bu ma’nosida kam qo‘llanadi.

U o‘z hayotidan qoniqmas, u m r ining kun bilan tunning o‘zgarishiday bir xil ekanligi uni tobora hafsalasiz qilib qo‘ygan, tez-tez qishloq xotiralariga berilib ketardi. N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Aniqlab qarasam, u m r imda ko‘rmagan-tanishmagan yot kishilarga o‘xshaydilar.* A.Qodiriy, Jinlar bazmi. *G‘alati tuyuladi: h a y o t imdagi o‘nlab, yuzlab voqealarning tasodifiy bog‘lanishlari, ulanishlari, uzilishlaridan bugungi turish-turmushim bunyodga kelgan.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *H a y o t ibtidosi kabi bu sado Nahot bo‘ldi tandan charchovni quvmoq?* Zulfiya, Saylanma.

UMUMIY, MUSHTARAK Barchaga bir xilda taalluqli, barchasi uchun birday xos. **Umumiy** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Mushtarak** so‘zi nutqda kam ishlatiladi, kitobiy uslubga xos.

Endi ularning ikkalalari uchun u m u m i y raqib – yovvoyi odamlar paydo bo‘lgandi. Sh.Abdullayev, Arxar yo‘lboshchisi. *– Xo‘o‘sh, domla, meningcha, bu ishni cho‘zib yurmasak, men bir jiddiy, u m u m i y ishimizga yordam beradimi, deb o‘ylagan edim, arzimas gap ekan...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *–...hammalarining muddaolari – bir, sening yo‘ling – botil, meniki – haq, deya biri ikkinchisiga qora chaplayotgan dinlar ham alal-oqibatda jumlalarining maqsadi m u sh t a r a k – Olloh-taolo ekanligini nazardan qochirmasalar...* U.Hamdam, Muvozanat. *Biz oliy hazratning qulimiz, uning xazinasini to‘ldirmoq biz va sizning m u sh t a r a k vazifamizdir.* J.Sharipov, Xorazm.

UMUMIYLASHMOQ, MUSHTARAKLASHMOQ, UMUMIY BO‘LMOQ, MUSHTARAK BO‘LMOQ Barchaga bir xilda taalluqli bo‘lmoq. **Umumiylashmoq, umumiy bo‘lmoq** so‘zlari ko‘proq yozma nutqda qo‘llanib, narsa-predmet, voqelik va shu kabilarning umumga birday xosligi, taalluqli bo‘lganligini anglatadi. **Mushtaraklashmoq, mushtarak bo‘lmoq** so‘zlari publitsistik uslubda qo‘llanishga xoslangan.

Ularga mana shunday – to‘g‘ri tarjima bo‘lmasa, fikrni anglashi qiyin. Demak, til shakllanyapti. Nafaqat so‘z, balki gap tuzilishi ham u m u m i y l a sh yapti. I.Shomurodov, So‘z haqida so‘z. *Turkiy xalqlar u yoki bu darajada u m u m i y l a s h gan madaniyat va an’analarga ega.* Gazetadan. *Ushbu tantanada millatlar va el birligi m u sh t a r a k l a sh di*. Gazetadan. *Turkiy xalqlar uchun u m u m i y bo‘lgan adabiyotimizning dastlabki davr tarixini biz Turk xoqonligi davridan*

boshlaymiz. I.Nurahmad o‘g‘li, Turkiy xalqlar adabiyotining ildizlari. *Bizlar maqsadlari umumiy, m u sh t a r a k b o‘l gan qardoshlarmiz.* N.Safarov, Olovli izlar. *Saylov demokratiyaning eng muhim jarayonlaridan biridir. Chunki saylov manfaatlari m u sh t a r a k b o‘ l gan xalqning siyosiy madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadi.* E.Homidov, Muddatidan oldin qay tartibda ovoz beriladi?

UMUMIYLIK, MUSHTARAKLIK Barchaga umumiy bo‘lgan belgi-xususiyat, holat. Nutqda mazkur ma’noni ifodalashda **umumiylik** so‘zi nisbatan faol. **Mushtaraklik** so‘zi, asosan, kitobiy nutqda qo‘llanadi.

Sen bilan mening o‘rtamda hech u m u m i y l i k yo‘q. Binobarin, do‘st bo‘lishimiz ham mumkin emas. T.Malik, Odamiylik mulki. *Samandar bularning hammasida teran bir u m u m i y l i k ni angladi; u hamon qarovsiz bog‘ni – ko‘nglini tinmay kuzatardi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Humoyun bilan Komron Mirzo she’riy ijodi, ota-bolalar she’riyatidagi m u sh t a r a k l i k lar haqida qiziqarli mulohazalar yuritiladi.* U.Normatov, Maftunkor ishq mujdalari. *Maqsadlar-u dunyoqarashlar birligimi yoki taqdirlar-u tabiatlar m u sh t a r a k l i g i? – Yusuf bilmay qoldi, – balki, u tanalar hamrohligidir…* U.Hamdam, Muvozanat.

UNUMLI, UNUMDOR, SAMARALI, SAMARADOR, BARAKALI Yaxshi natija beradigan, ish-natija ko‘rsatkichi yaxshi. **Unumdor** – kitobiy so‘z. **Samarali, samarador** so‘zlarida natijalilik ta’kidi ochiq ifodalangan, asosan, kitobiy nutqqa xos. **Samarador**da belgi **samarali**ga nisbatan kuchli ifodalanadi. **Barakali** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga oid.

U n u m l i mehnat – katta daromad. Maqol. *...Abduqodir Hayitmetov Mashrab ijodi ustida uzoq vaqtlardan buyon u n u m l i ilmiy ishlar olib borib, anchagina muvaffaqiyatlarga erishdi.* G‘.G‘ulom, Ikki Mashrab. *Xalq farovonligi, mehnat u n u m d o r ligi, yurt yuksakligi odamlarning osoyishta, zamon talablariga javob beradigan shinam uylarda istiqomat qilishiga ko‘p bog‘liqdir.* “Sharq yulduzi”. *Titrash ta’sirida odam xayoli parishon bo‘lad, ish u n u m d o r bo‘lmaydi*. Gazetadan. *...turli tabiiy ofatlar vaqtida uchoqni boshqarishning eng s a m a r a l i usullari bundan ellik yil oldin ishlab chiqilgan, shu bois u oz-moz chayqalishlardan boshqa xavf tug‘dirmasdi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Hurlik tarbiyasi – eng s a m a r a l i tarbiya...* I.G‘ofurov, Bu bezovta zamona. *Mening loyihamda ta’qib idora usuli juda mukammal ishlab chiqilgan: hokimiyatni qaysidir kuch emas, ta’qib boshqaradi. Ta’qib ulug‘ va g‘oyat s a m a r a d o r mashinadir.* N.Eshonqul, Istilo. *Boku safari umrimdagi eng maroqli va eng s a m a r a d o r safar bo‘lgan edi, unda ko‘rganlarim, bilganlarim, orttirgan do‘stlarim hamon yuragimda.* O.Sharafuddinov, Adabiyotimiz fidoyisi. *Astoydil yig‘lasa, so‘qir ko‘zdan ham yosh chiqadi deganlaridek, yo‘qsillarning cho‘ntagidan b a r a k a l i suhbatga yetarli pul chiqib turib, kunduzni tongga, tongni ertasi kunga ulab yubordik.* A.A’zam, Majnuntol tagida. *Istiqlol yillarida Pirimqul Qodirov b a r a k a l i ijod qildi.* U.Rasulova, Munavvar taqdirlar talqini.

UNUMLI BO‘LMOQ, SAMARALI BO‘LMOQ, SAMARADOR BO‘LMOQ, BARAKALI BO‘LMOQ, FOYDALI BO‘LMOQ Yaxshi natija bermoq. **Samarali bo‘lmoq, samarador bo‘lmoq** publitsistik uslubga xos, **barakali bo‘lmoq** so‘zi ko‘proq badiiy uslubda ishlatiladi. **Samarador bo‘lmoq**da “natijadorlik” ifodasi **samarali bo‘lmoq**qa qaraganda kuchli.

Zohid safari u n u m l i b o‘ l ganidan quvonib, iziga qaytdi. T.Malik, Shaytanat. *Bilaman, hamisha bandsiz, hamma ishlaringiz O‘zingiz o‘ylagandek u n u m l i, omadli b o‘ l sin.* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti Bosh direktori Tedros Adanom Gebreisus koronavirusni davolashdagi eng s a m a r a l i b o‘ l gan yagona dori vositasi nomini ma’lum qildi.* Gazetadan. *Respublikamizda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimi s a m a r a d o r b o‘ l gan yangi tizimga olib chiqildi.* Gazetadan. *Rizqning b a r a k a l i b o‘ l ishini silayi rahmsiz tasavvur etmoq qiyin.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Ra’no cho‘nqayib o‘tirib, shunday qildi. “Mahkam-mahkam g‘ijimlayvering, qizim, qo‘lingiz xamirdan chiqmasin, b a r a k a l i b o‘ l sin”, deyishdi.* I.Sulton, Onaizorim. *Keyin esa farzandlar tarbiyasida f o y d a l i b o‘ l ib qolar, degan maqsadda bir risola yozib, unga “Jinoyatning uzun yo‘li” deb nom berdik.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Maqsadimga yetishda salla o‘rab va’z o‘qishdan ko‘ra ko‘proq f o y d a l i bo‘l adigan – bo‘yinbog‘ taqib, jamiyat ishlariga aralashishim zarur ekanligini angladim.* U.Hamdam, Muvozanat.

UNUMSIZ, SAMARASIZ, BESAMAR, NATIJASIZ, BEFOYDA, BEHUDA Unumi yo‘q, natija bermaydigan (ish, faoliyat, mehnat va shu kabilarga nisbatan). **Samarasiz, besamar, natijasiz** so‘zlari kitobiy uslubga xos. **Befoyda, behuda** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv tilida ishlatiladi.

U n u m s i z ishga urinma, Ko‘pdan qolib surinma. Maqol. *Qo‘nimsiz, qo‘nimsizning ishi u n u m s i z.* Maqol. *Bir oy davom etgan urush Buyuk Britaniya uchun s a m a r a s i z barham topdi.* T.Malik, Savohil. *Yusuf cho‘chib hushiga keldi. “Hammasi xayol, shirin xayol, – o‘ylandi u divanda yotgancha, – nahotki endi o‘sha chog‘lar qaytib kelmaydi, nahotki hayotim bundan buyon mana shunday s a m a r a s i z va zerikarli kechaveradi?* U.Hamdam, Muvozanat. *Tasavvur kenglikni unutgan. Nimani izlayapman? Kenglik – balki, o‘lim chohidir? Shu choh kenglikka olib borar? Agar shunday bo‘lsa, harakatim b e s a m a r.* T.Malik, Devona. *Uni yana avvalgi maqomga qaytarishga urinishlar bo‘ladi. Bunday urinishlar ko‘p hollarda b e s a m a r yakunlanadi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *She’rim bois boshimga yog‘ilgan malomatlarga u indamay yelka tutdi, do‘st bo‘lib dushmanning ishini qilganlar, qavmdosh bo‘lib yovning yo‘lini tutganlar ichirgan zaharga teng sherik bo‘ldi, tiriklik sahrosidagi b e s a m a r jang-u jadallar holdan toydirib, yerga qulatganida, qayta oyoqqa turg‘azdi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *...Mohbibi biron narsa so‘rasa,*

gapidan adashib, sevgisini hammaga o‘zi oshkor qilib yurdi. Axir nima qilsin – uch yil n a t i j a s i z sevib yurishning o‘zi bo‘ladimi?! A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bizning, adadi hammanikidan ko‘p bo‘lgan mudhish o‘rdumiz bir-bir ustun yengilayotir... Eng usta va eslik qo‘mondonlarimizning butun tadbirlari n a t i j a s i z qolayotir...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Tog‘da tabib zoti borki, hammasi keladi, muolaja oti borki, hammasini qo‘llashadi, lekin b e f o y d a – qiz yonib tagiga yetgan shamday so‘nib boraveradi.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Rahmonalining kallasi mokiday ishlardi-yu, b e f o y d a edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Kichkina bir dunyoda kichkina odamlarning bir-birini kavlab b e h u d a yashashi kulgili emasmi?* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *U nima qilishini bilmay, etigini yechib, kavush kiydi, yana bir nimalar qildi, hammasi b e h u d a ivirsish edi.* A.Muxtor, Chinor.

UNUMSIZ BO‘LMOQ, SAMARASIZ BO‘LMOQ, BESAMAR BO‘LMOQ, NATIJASIZ BO‘LMOQ, FOYDASIZ BO‘LMOQ Biror ish-faoliyat, xatti-harakat mehnat natijasiz bo‘lmoq. **Samarasiz bo‘lmoq**, asosan, publitsistik nutqda ishlatiladi. **Besamar bo‘lmoq** so‘zi ko‘proq badiiy va publitsistik nutqqa xoslangan. **Foydasiz bo‘lmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda faol ishlatiladi.

Sayt xodimlarining tuman hokimi va uning muovinlaridan bu xabarga munosabat olish harakatlari u n u m s i z b o‘ l di. Gazetadan. *Uning nolasi sahro bag‘riga tomgan tomchi kabi s a m a r a s i z b o‘ l di.* T.Malik, Shaytanat. *Undan qanoat hosil qilmagach, Prust qo‘lyozmani yo‘q qilib tashlaydi: “Men qilgan mehnat s a m a r a s i z b o‘ l di, asar ko‘nglimdagidek chiqmadi”, deb yozadi u 1906-yilda.* M.Xolbekov, Marsel Prust prozasi. *Qizig‘i shundaki, bu masalada bir necha yillardan buyon mutasaddi tashkilot rahbarlariga qilgan murojaatlarim b e s a m a r b o‘ l di.* Gazetadan. *Qilingan mehnat n a t i j a s i z b o‘ l di!* Gazetadan. *Kelini namozshom payti Tursun bilan birga kirib keldi. Solihabibi uning avzoyidan bu galgi safari ham n a t i j a s i z b o‘ l ganini sezdi.* O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *O‘zbeklar sofdilona maqolaga tarjimonsiz tushunub ranjigan edilar. Shuning uchun ikki oraning boshida turg‘an o‘rtoqning tarjimonliq xizmatini o‘tashlari f o y d a s i z b o‘ l ub chiqqan!* A.Qodiriy, Haqiqat ochib so‘zlashdadir. *– Bu unvon odamlarni chalg‘itsa-chi, jamiyatga f o y d a s i z b o‘l s a-chi?* T.Malik, Shaytanat. *Nihoyat, XX asr uchun dunyodan qo‘l yuvib qo‘ltig‘iga urgan, faqat o‘zininggina kelajagi tashvishida uzlatga chekingan darvesh qanchalik f o y d a s i z b o‘ l sa, o‘zini superindustrializm namoyandasi hisoblab, umrini allaqanday robotning yaratilishigagina sarflaydigan olim – “temir odam” shunchalik zararli.* U.Hamdam, Muvozanat.

URINMOQ, HARAKAT QILMOQ, INTILMOQ, TIRISHMOQ, UNNAMOQ, KO‘SHISH QILMOQ, KO‘SHISH KO‘RSATMOQ Biror ishni bajarish payida bo‘lmoq. **Intilmoq, tirishmoq** so‘zlarida kuchli xohish-istak bilan kirishganlik ta’kidi anglashiladi. **Unnamoq** so‘zida imkoni bor-yo‘qligiga

qaramay kirishgalik ma’no ta’kidi ochiq ifodalangan, asosan, so‘zlashuv tilida qo‘llanadi. **Ko‘shish qilmoq, ko‘shish ko‘rsatmoq –** kitobiy, eskirgan so‘zlar.

Ayni zamonda qizning so‘zlarida, allaqanday ichki bir dard aks etib turgan ma’sum chehrasida, yosh bilan pardalangan katta qora ko‘zlarida bo‘lakcha bir poklik va samimiyat bor edi. Samig‘jon bu samimiyatni sezar, sezgani uchun hazilga burishga u r i n ardi. O.Yoqubov, Matluba. – *Portretingni chizaman, deb ko‘p u r i n dim, – deydi uzilib-uzilolmagan do‘stim Isrofil.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bu azobga tob bermoqqa u r i n aman.* Zulfiya. – *Yo‘q, umidni uzmaylik, – dedi Gulimoh opa. – H a r a k a t q i l aman. Bo‘lib qolar.* A.A’zam, Hali hayot bor... *Oysuluv ham jon-jahdi bilan qanot qoqib, qulab tushmaslikka h a r a k a t q i l armish, biroq ko‘ksidagi og‘riqqa dosh berolmay, ahvoli zabun, tobora pastlab borarkan.* O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar… *Bu qovoq o‘g‘rilari ichidan tezroq qochib qutilish uchun ketishka i n t i l gan edi, biravi ushlab qoldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Abdulla shuni eslab, dili yorishgandek bo‘ldi... Uning kelajagini faqat Sayyora ta’minlaydi. Nima bo‘lsa ham, shunga i n t i l adi, shunga erishishi lozim.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *O‘qishda ham, turmushda ham Mahdidan orqada qolmaslikka t i r i shdim, endi yetdim deganda, u yana ilgarilab ketaveradi...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Darmoni qurigan yigit o‘zini dadil tutishga t i r i sh ar, lekin munkib-munkib ketar edi.* J.Sharipov, Xorazm. *Bir dam tin oladi, kaftini ko‘ziga soyabon qilib, quyoshga qaraydi, bir nimani chamalaydi. Keyin yana yumushiga u n n a ydi.* I.Sulton, Ozod. – *Hoy, shoshma, hozir ovqatga u n n a yman! Quruqdan quruq ketma, – degancha qoldi xolasi*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Burodari kiromi, siz dunyo ko‘rgan bir kishisiz, onasining bu talabini xo‘b mulohaza qilib ko‘ringiz, bu to‘g‘ridag‘i ra’yi o‘g‘lingizga qarag‘anda ham faqirlaricha sizlarda bo‘lg‘ani vajhidin, albatta, ko‘ndirishka sa’y va k o‘ sh i sh q i l ursiz, deb ishonamiz*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Lekin biz deymizki, turmushimizda bir qadar isloh yuzaga chiqsin, bema’ni ishlarni yo‘qotaylik, dini islomning ravnaqiga ko‘shish q i l ay lik.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Sal o‘tmay angladiki.. bu chaqqon davlatlar shunchaki Buxoroga qayishganlari... “insoniyatning manfaatdorligi” uchun unga k o‘ sh i sh k o‘ r s a t ishmayapti*. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Bolam, dardni kasal odam bilsa, o‘ziyam tuzalishiga k o‘ sh i sh ko‘rsatar ekan*. Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

URISHMOQ, OLISHMOQ, YOQALASHMOQ, SOLISHMOQ, MUSHTLASHMOQ, TASHASHMOQ, SO‘QISHMOQ Urush-janjal, kelishmovchilik natijasida bir-birini urmoq, kaltaklamoq. **Urishmoq, olishmoq, tashashmoq** so‘zlari bir-birini kaltaklashga nisbatan ham, gap bilan urishishga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Yoqalashmoq, solishmoq, mushtlashmoq** so‘zlari faqat bir-birini kaltaklashga nisbatan ishlatiladi. **Solishmoq, tashashmoq, so‘qishmoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv tilida qo‘llanadi. **So‘qishmoq** so‘zi nutqda kam uchraydi.

Palatkaga kirib, endi bir piyoladan choy ho‘plagan ham edikki, ot choptirib Burgut kelib qoldi. Vajohatidan hozirgina birov bilan u r i sh ib kelganga o‘xshardi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *...kecha kechqurun turgan yerimizga bostirib kirishdi. Qizning otasi, akalari bor. Akalari u r i sh di, ularga tegmadim.* T.Malik, Shaytanat. *Ular tezoqar tog‘ daryolaridan quloch otib suzib o‘tishgan, dengizlarda, sovuq bo‘ronlarda qolishgan, Afrika o‘rmonlarida yirtqich sherlar bilan yakkama-yakka o l i sh ganlar, yovvoyi odamlar bilan bir ko‘rpada uxlab qolgan paytlari bo‘lgan*. X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. *Ular o l i sh dilar uzoq, beomon, Oqibat birining kallasi uchdi*. A.Oripov, Do‘zaxiylar. *Bir-birining bilagiga urib, y o q a l a sh a ketdi ular.* E.A’zam, Shovqin. *Men ham senga tengqur bo‘lganimda boshqa gap edi. Hozir sendan o‘n yosh katta bo‘lib qanday y o q a l a sh aman?* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. – *Tashqaridagi akang bilan s o l i sh sang eplaysanmi? – deb so‘radi Chuvrindi Bo‘tqaga ishora qilib.* T.Malik, Shaytanat. *Yo‘lda ketyapmiz, Tursunxon so‘radi: – Nimaga shu bilan s o l i sh ib yuribsiz?* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Maktabda yaxshi o‘qimagan (u Risolatdan uch sinf yuqori edi), Rustam hali u, hali bu bilan m u sh t l a sh ib yurar, ko‘plar undan hayiqardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Rahmonali restoranda bir odam bilan m u sh t l a sh ib qopti. U odam jahl ustida Rahmonalining qulog‘idan cho‘zgan ekan, “shir” etib yirtilib ketibdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Lekin quloqlariga m u sh t l a sh ayotgan odamlarning hars-hurslari, ihrashlari kelishi bilan o‘sha tomonga chopa ketdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bo‘yin patlarini gardish qilib, patir-putur t a sh a sh ayotgan ikki xo‘rozning atrofini... doira shaklida o‘rab olgan edilar.* “Mushtum”. *O‘g‘uzxonning nafasi qisildi. Bu kunlarga oson yetib kelgan emas, ne-ne beboshlar bilan s o‘ q i sh di, ne-ne jang-u jadallarni ko‘rmadi, qiyinchiliklardan qo‘rqmadi...* “Sharq yulduzi”. *To‘qlik s o‘ q i sh tirar, Ochlik so‘kishtirar.* Maqol.

URISHQOQ, JANGARI, JANJALKASH, SHALLAQI, MANJALAQI Arzimagan bahona tufayli kishilar bilan urishaveradigan, bo‘lar-bo‘lmasga janjal ko‘taradigan. **Jangari** so‘zida jismonan urishishga moyillik ta’kidi mavjud. **Shallaqi** so‘zida hayosizlik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Manjalaqi** so‘zida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi, ayollarga nisbatan ishlatiladi, so‘zlashuv nutqiga xos.

O‘sha u r i sh q o q odamlar nima foyda ko‘risharkan-a? Maqsadlari nima o‘zi ularning? M.Murodov, Mening bola qalbim yoxud armonga aylangan umid. *U r i sh q o q xotin bor qishloqqa qo‘riqchining hojati yo‘q.* Maqol. *Shayboniyzodalarning behisob ko‘p qo‘shini bor emish. O‘zlari o‘lgunday j a ng a r i, qancha odam qirilishini o‘ylasam, vahmim kelur!* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Bittasi aeroportda g‘alva ko‘tardi. J a ng a r i roq ekan.* T.Malik, Shaytanat *Ularning ba’zilari mijg‘ov, j a n j a l k a sh, oqibatda, bor kuch-quvvatlari tanlarini tark etgach, ovozlari-da, chiqmay qoladi.* A.Malik, Halqa. *Ko‘p o‘tmay, orqadan j a n j a l k a sh ning xurragi eshitildi.* N.Niyoz, So‘nggi kun. *Oldiga*

qo‘ygan maqsadi yo‘lida bu sh a l l a q i hech narsadan qaytmasligi aniq, negaki yo‘qotadigan narsasi yo‘q: operachi ketgan, polkovnik ketgan, keyingilari ham birin-ketin tashlab ketayotir. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *– Umri qisqa ekan, nimayam qilardingiz, – dedi Do‘st bir nimalarni tusmollab. Ichida esa “aslida sen sh a l l a q i ning dastidan tamom bo‘ldi-ku, bilib bilmaganga olasan”, dedi nafratlanib.* I.Sulton, Ozod. *Siz qaysi zamonda yashayotganingizni bilasizmi o‘zi?! Janjalkashning shu uch og‘iz gapi yetarli, kampir birdan quturib ketadi: – Hoy, m a n j a l a q i, nima, meni esdan og‘ib qolgan deyapsanmi?!* Z.Qurolboy qizi, Kuygan shahar. *– Hay, nima gap?! – dedi mulla Norqo‘zi bo‘sag‘ada turib, – singlim, siz o‘zingizni bir chetga oling! Nima deydi bu m a n j a l a q i!* A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin.

URISHTIRMOQ I**, CHO‘QISHTIRMOQ** It, xo‘roz, qo‘chqor, buqa va boshqa hayvon, parrandalarni bir-biri bilan olishtirmoq. **Cho‘qishtirmoq** so‘zi faqat parrandalarga nisbatan ishlatiladi.

...Bu kinolavha bilan tanishar ekanmiz, o‘tmishdoshlarimizning o‘tgan asr boshlaridagi qiyofalari, kiyim-kechaklari, shayton aravalari, kurash tushishlari, dorvozlik, xo‘roz va it u r i sh t i r ish singari milliy o‘yin va tomoshalari to‘g‘risida tasavvur hosil qilamiz. N.Karimov, Xudoybergan Devonov – ilk o‘zbek fotografi. *Navro‘z bayrami “Kurash” “Ko‘pkari”, “Arqon tortish”, “Chillak”, “Xo‘roz u r i sh t i r ish”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Beshtosh” kabi quvnoq o‘yinlar bilan yanada gashtli va unutilmas o‘tadi*. Gazetadan. *Ba’zi ishqibozlar kunbotardagi futbol maydonida xo‘roz ch o‘ q i sh t i r ib, qo‘chqor urishtirdi.*

U A.Suyunov, Asrlarni qaritgan Yilboshi.

URISHTIRMOQ II**, CHO‘QISHTIRMOQ, TO‘QISHTIRMOQ** May, aroq kabi spirtli ichimlik solingan idishlar, qadahlarni bir-biriga tekkizmoq. **Cho‘qishtirmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi. **To‘qishtirmoq** so‘zi ma’noni biroz dag‘alroq ifodalaydi, asosan, shevalarda uchraydi.

Qani, ryumkangni ol, Musharrafxon bilan u r i sh t i r, qo‘shaloq o‘g‘illar niyat qil. Shuhrat, Oltin zanglamas. *U Sattor bilan birinchi marta u r i sh t i r ib ichadigan qadahi umrbod esda qoladigan damlardan nishona bo‘lishini istardi*. P.Qodirov, Erk. *Keyin, yana kula-kula piyolalarini uzatib ch o‘ q i sh t i r ishdi. Ichib bo‘lgach, tovakidan yeyishga qistadim.* Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy. *Ular kulishgancha qadahlarni ch o‘ q i sh t i r ishdi*. L.Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit. *Keyin ular qo‘llaridagi idishlarni t o‘ q i sh t i r ishdi. Ichishdi.* N.Ismoilov, Shayton zanjiri. *Kecha qadah t o‘ q i sh t i r ib hilol bilan, Gulob ichtim yolg‘iz do‘stim Iqbol bilan*. I.Mirzo, Ko‘ngil.

URMOQ, KALTAKLAMOQ, DO‘PPOSLAMOQ, SAVAMOQ, SAVALAMOQ, SOLMOQ, TUSHIRMOQ, SO‘QMOQ, PO‘PILLATMOQ Qo‘l yoki biror qurol, qattiq narsa bilan zarba bermoq. **Do‘pposlamoq** so‘zida urish harakatining kuchli ekanligi anglashiladi. **Savalamoq** so‘zida harakatning tak-

roriyligi ta’kidi ifodalanadi. **Solmoq, tushirmoq** so‘zlarida urish harakatining bir martaligi ta’kidga ega, belgi darajasi kuchsiz, so‘zlashuv tiliga xos. **So‘qmoq** so‘zi nutqda juda kam qo‘llanadi. **Po‘ppillatmoq** so‘zida urish harakatining kuchsizligi anglashiladi, asosan, so‘zlashuv tilida ishlatiladi.

Iskandar haydaladigan edi, g‘irromlikka o‘tdi, o‘laman sattor, oldin o‘zi urdi, deb isboti uchun shishib turgan yuzini pesh qildi, og‘zini ochib ko‘rsatdi... A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Ko‘pchilik bilan to‘qishtirib ichaverib, anchagina kayf bo‘lib qolgan G‘oziboy chayqalib-gandiraklab hovli o‘rtasida turgan oppoq mashinasi yoniga bordi-da, kutilmaganda kapotga bor kuchi bilan daranglatib urdi...* A.Yo‘ldosh, Yolg‘on va haqiqat. *Telba bo‘lib qolgan onasini zanjirga solib Eshonning uyida kaltakla ydilar.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *– Domlajon, omadi gap shuki, dam g‘animat! Turklarning uylariga o‘t qo‘yishyapti! O‘zlarini kaltakla shyapti, qochinglar! – dedi.* T.Malik, Shaytanat. *Agar beayov do‘pposla yotgan tajribali raqibimning qulog‘idan tishlab olganim uchun murabbiy meni oldiga solib haydamaganida, erinmay o‘n-o‘n besh kun qatnashgayam toqatim yetgan bo‘lardi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *O‘ziniyam shundoq do‘pposla dikki, qo‘yib bersam, xotinlar o‘ldirib qo‘yishadigan, zo‘rg‘a ajratib oldim.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *U mashinani bir maromda yurgizar, kabinaga kirgan shamol o‘rimga so‘z bermagan soch tolalarini yelkasidan olib bo‘yniga tashlar, yuzlarini beozor sava gandek bo‘lardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Tunov kun, anavi otinbularimiz kelishganda, savacho‘b bilan sava b ham uyg‘ota olmadim.* Cho‘lpon, Nonushta. *U inqillab o‘zini egarga oldi-yu, xalacho‘p bilan eshakni sava laydi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Bola bo‘lib birov bilan mushtlashmabman, birovdan tuzukroq kaltak yemabman. Ana endi, dong‘im chet elga chiqib turganida bir befarosat sava la sa.* T.Malik, Shaytanat. *Kuching yetmas ekan, nima qilarding bellashib, tosh-posh bilan jon joyiga sol maysanmi o‘xshatib.* “Yoshlik”. *– E, esi yo‘q murda, – deb peshonasiga shatirlatib bittani tush ir di.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *U bor kuchini to‘plab turib, avtomatning qo‘ndog‘i bilan asirning quloq chekkasiga sharaqlatib tush ir di.* A.Muhiddin va H.Tojiboyev, Otash qalbli qiz. *Matpano so‘yil bilan bitta itning kallasiga tush ir di.* S.Siyoyev, Avaz. *So‘qolmagan so‘yil ko‘tarar.* Maqol. *Yo‘q, og‘alar, temirni qizig‘ida so‘qib qolish kerak!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Buvi nevarasining orqasiga sekingina po‘pillat ib qo‘ydi*. Gazetadan.

URUSH, JANG, OLISHUV, KURASH, MUHORABA, HARB Tomonlar o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuv. **Olishuv, kurash** so‘zlarida mazkur ma’no bir qadar umumiy ifodalanadi. **Jang, muhoraba, harb** so‘zlari, asosan, qurolli kuchlarning qonli to‘qnashuviga nisbatan ishlatiladi. **Muhoraba, harb** bugungi kunda eskirgan.

Safaviylar xonadonida mo‘tabar ayollarni e’zozlab ovga, hatto u r u sh ga ham birga olib borish odati bor, bu ularning e’tiqodlari bilan ham bog‘liq edi. P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *U r u sh! Noming o‘chsin jahonda, Hamon bitmas sen solgan alam.* Zulfiya, Saylanma. *J a ng kuni qo‘zg‘alar mardning g‘ayrati, Yig‘ilib jam bo‘lar turkman elati.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. *Kuzdagi j a ng kunlari, Tuproqqo‘rg‘on atrofida jon olib jon berilayotganda: “Yaxshi ham eski shaharliklar bor ekan, shular bizni boqmasa ochdan o‘lardik”, degan kim edi?* T.Malik Savohil. *...biri so‘zga chiqsa, ikkinchisi, albatta, qarshi gapirishini kutib turishar, ularning o l i sh u v i bo‘lmasa, majlis ko‘ngilsiz o‘tganday tuyular edi.* A.Muxtor, Chinor. *Bir yil avval ayaning uyida bo‘lgan mana shunday o l i sh u v da Begimqul Hikmatilloni sambo uslubida bir siltashda ag‘darib, kulib turib piypalab tashlagan edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Boisi, k u r a sh oshkor emas, pinhon kechgan – kim g‘olib-u, kim mag‘lub – buni ikkisidan bo‘lak hech kim bilmaydi.* N.Norqobilov, Kurash. *Vladimir Yakovlevich chor amaldori bo‘la turib, podshoga qarshi k u r a sh ga beixtiyor bosh qo‘shayotganidan, ish tobora chuqurlashib, o‘zining ikkiyuzlamalarcha ishlay boshlaganidan darg‘azab edi.* A.Muxtor, Chinor. *– M u h o r a b a da qurbon bo‘lganlar shahid ketadilar. Ularning jasadlari havo bilan, oftob bilan yuviladi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *– Xayriyat, bu m u h o r a b a ga biz qatnashmagan ekanmiz, – dedi Komron.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Sizlarga bilim berayotganlarning otalari yoki bobolari h a r b maydonida, balki, sizning bobongiz bilan to‘qnashgandirlar...* T.Malik, Shaytanat. *Sen Chanoqqal’ada inglizlarni, farangilarni ko‘rding, ularning h a r b ilmida ilg‘or ekanliklariga guvoh bo‘lding.* T.Malik, Devona.

U

URUSH QILMOQ, URUSHMOQ, JANG QILMOQ, KURASH QILMOQ, KURASHMOQ, MUHORABA QILMOQ, HARB(A) QILMOQ Bir-biri bilan harbiy to‘qnashuv qilmoq. **Jang qilmoq, kurash qilmoq** so‘zlari asosiy hollarda “jang olib bormoq” ma’nosida ishlatiladi. **Kurashmoq** so‘zi nutqda keng ma’noda qo‘llanadi. **Muhoraba qilmoq, harb(a) qilmoq** so‘zlari eskirgan, tarixiy manbalarda qo‘llangan.

Shuncha u r u sh q i l ib, shuncha pul sarflab, shu ikkoviga qolganda ikkitagina o‘qqa xasislik qilsa-ya! T.Malik, Xazonrezgi. *Ota-bola bunday katta kuchlarni maydonga chiqarib u r u sh q i l sa, oqibati qanchalik yomon bo‘lishi onalarni dahshatga keltirdi.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Sho‘rolarning askari ham olmon bilan u r u sh ib obdon pishgan.* T.Malik, Devona. *– Humoyun mirzo Balx yaqinida shayboniyzodalar bilan j a ng q i l ib yurib halok bo‘ldilar!..* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Din peshvolari “g‘ayridin” deb xushlamaydigan La’l Chand kabi hindlar Kalanjarda Sherxon bilan qahramonlarcha j a ng q i l ib, uni qanday halokatga uchratganligi Humoyunning yodidan chiqmaydi.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Bobomning yo‘llarini otam davom ettir-*

dilar. Madaminbekka qo‘shilib, ikki yil k u r a sh q i l dilar. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. – *Qancha chapdast bo‘lsa ham, bir haftadan beri k u r a sh ib charchag‘on, – dedi keksa kolxozchi...* A.Qodiriy, Quyosh bilan ham kurashaman. *O‘pkangni bosvol, polvon, bizam to‘y-po‘ylarda k u r a sh ib yurganmiz.* A.Obidjon, Hangoma va hikoyalar. *Xoqon Boyazidning yengilib, asirga tushgan onlari. Sohibqiron bu kishi bilan zo‘r m u h o r a b a q i l gan ekanlar.* T.Malik, Falak. *Alqissa, ikki tomon ham shu xatarli hamda xavfli joyda matonat va sabot ila bir-birlari bilan qattiq olishdi. Farg‘ona qo‘shini ertadan kechgacha m u h o r a b a q i l di.* “Tarixi Jahonnamoyi”. *Xoldor do‘stim, bu o‘ylaring bo‘lmaydi, O‘ylaringning hargiz ebi kelmaydi, Arab ham bizdayin mo‘min-musulmon, Hech mo‘min mo‘minga h a r b a q i l maydi.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”.

USTA, MOHIR, MAHORATLI, FARANG Biron-bir sohada katta mahoratga ega bo‘lgan. **Usta** so‘zi ko‘proq aql, malaka talab etadigan harakatlarga nisbatan qo‘llanganda, bu belgi yanada kuchli ifodalanadi, juda keng ishlatiladi. **Mohir** so‘zida bilimdonlik belgisi **mahoratli** so‘zidagidan ko‘ra ham kuchliroq ifodalanadi, kitobiy uslubga xos. **Farang** so‘zi yakka holda kam uchraydi, bu so‘z asosida hosil qilingan **ustasi farang** iborasida mazkur belgi benihoya qabariq ifoda topgan.

...Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi; askiyaga juda u s t a ekan, olamda dard nima, o‘lim nima ekanini butkul unutib, rosa kulishdik. A.Qahhor, Ming bir jon. *Hamid G‘ulom yetmishdan oshib ketgan bo‘lishiga qaramay qaddi tik, gapga chechan, tinglovchilarni gap bilan “sehrlab” qo‘yadigan, u s t a notiq*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *M o h i r mashshoqlar duhul, nodir, ko‘s, tablaq, tabal, qo‘shnay va surnay chalish bilan mashg‘ul edilar*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Lolazor esa, xuddi m o h i r to‘quvchi qo‘lida to‘qilgan chorsi qizil gilamga o‘xshardi*. O‘.Umarbekov, Saylanma. – *Bo‘ron yaqinlashib kelyapti, – deb javob berdi qiz. – Lekin uchuvchilarimiz m a h o r a t l i, ozgina yoqimsiz chayqalishlardan boshqa hech qanday bezovtalik sezmaysiz, janob*. I.Sulton. Boqiy darbadar. *Yuksak m a h o r a t l i sozandalar ijro etgan dilnavoz kuy birdan barchaning ko‘ngliga safo keltirdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Qarshi begining bilimdon gumashtasi rahmatlik Omonqul f a r a n g ning bitta-yu bitta o‘g‘li edi u.* A.Muxtor, Chinor. *Ishi bojamga oshirilipti. Bazani ham bojam reviziya qilyapti. Mingboyev juda f a r a n g odam ekan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

USTALIK, MOHIRLIK, MAHORATLILIK Biron-bir ishni bajarishda shu sohaga xos yuqori malakaga egalik. **Mohirlik, mahoratlilik** so‘zlarida belgi ma’nosi bo‘rtib turadi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llananadi.

Abulfazl tilga olingach, Salimda Shomansurni tuhmatdan qutqarish istagi uyg‘ondi. Albert bu istakni u s t a l i k bilan Akbar tomon yo‘naltirdi. P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *…sirtiga g‘oyat u s t a l i k bilan qalin mato sirilgan suv to‘la ko‘zachani olib, undan qumg‘onga qulqullatib suv quyarkan, go‘yo Sala-*

bek o‘zi bilan bellashgani emas, shunchaki birrovga choylashgani kelganday, xushhol ohangda dedi: – Keling, avvaliga bir choylashib olaylik, polvon! N.Norqobilov, Kurash. *Til boyligidan m o h i r l i k bilan foydalanish, matn mazmuniga moslab qo‘llash, ularni asosiy maqsad va vazifalarga bo‘ysundira olishning o‘zi nutq madaniyatidir.* A.Aripova, Fikrni go‘zal ifodalash. *Buldozerni m o h i r l i k bilan boshqarish, ish unumdorligini ko‘zlab mehnat qilish bo‘lakcha ekan.* “O‘zbekiston qo‘riqlari”. *Soldat ushbu vazifani yuqori m a h o r a t l i l i k bilan bajarib, shaxsiy tarkibining umumyutug‘i uchun puxta zamin yaratdi.* “Vatanpavar”.

UY, UY-JOY, TURARJOY, HOVLI, XONADON Yashash uchun mo‘ljallangan joy. **Uy-joy, turarjoy, hovli** so‘zlari ma’nosida bir qadar umumlashtirish mavjud. **Xonadon** so‘zida oila a’zolari yashab turganligi ta’kidi ham ifodalangan.

Kecha to‘satdan radioda uni gapirib qolganlarida, so‘nggi darmonini yig‘ib to‘shakdan turibdi, u y ini topib kelibdi. A.Muxtor, Chinor. *O‘z u y ida ustidan qulflab o‘tiradigan bu odam esa do‘stdan yo, deylik, o‘g‘ridan qo‘rqmaydi, egali u y dan o‘g‘ri qo‘rqadi…* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Keyinroq xotini bilan qizini ko‘chirib kelib, u y-j o y ham qilib olsa!* A.Muxtor, Chinor. *Ayniqsa, payhon bo‘layotgan daraxtlarga achinardilar. Bu joylarga ko‘p qavatli t u r a r j o y qurilgach, shaharning qoq markazidagi to‘rt xonali shinam uylarini topshirib, shu yerdagi uch xonali uyga ko‘chib keldilar.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Balki, unga moddiy yordam kerakdir. Endi sen kimsan, ministrsan! Bunaqa uy, bunaqa h o v l i senga yarashmaydi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Qarasa, h o v l i to‘la yig‘in, yig‘ichilar, kelinga aza ochilgan, o‘g‘li esa o‘rtada Alpomishning loshiday cho‘zilib yotibdi.* A.A’zam, Quroq. *Mahalla qorovuli tong qorong‘isida x o n a d o n larning eshigini taqillatib, “Boqi Xalfa omonatini topshirdi, peshinga janoza o‘qiladi”, deb xabar berdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *– Mening o‘ttiz besh yoshimgacha o‘risning zamoni edi. Qur’onning nimaligini bilmasdik. Hozir har x o n a d o n da bor Qur’on, lekin olib o‘qiydigan odam – anqoning urug‘i!.. – haliyam hovuridan tushmay davom etardi Amir.* U.Hamdam, Muvozanat.

UYALMOQ, UYATMOQ, UYATLI BO‘LMOQ, IZZA BO‘LMOQ Uyalish, izza bo‘lish holatiga tushmoq. **Izza bo‘lmoq** so‘zida uyatga qolish darajasining juda ortiqligi qabariq ifodalangan. **Uyatmoq** so‘zi shevaga xos.

– Yo‘q... – Nilufar “qult” etib yutindi. U bir o‘yi Hikmatilloni so‘rab xat yozib chiqarmoqchi ham bo‘ldi, lekin u y a l di. O.Yoqubov, Billur qandillar. *So‘ng yemak stolining bir chetini artib-surtib, qog‘oz-qalamini suhbatga chog‘layotgan Gulyaga nazar tashladi-yu ich-ichida u y a l di.* E.A’zam, Shovqin. *Ota chaylaning to‘riga taxlab qo‘yilgan ko‘rpalar ustidagi yostiqqa ishora qildi: – Hech u y a t ib-netib o‘tirma.* S.Anorboyev, Oqsoy. *Hovliqib qolgani-*

dan, lippasini ham tushirmagan ekan, otasidan u y a t l i b o‘ l ib qoldi, darrov sochlarini turmaklab durra bog‘ladi, qiy-chuv bilan bolalarini joy-joyiga quvdi... A.Muxtor, Chinor. *Biz sizdan juda ham u y a t l i b o‘ l dik, pochcha.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *U noo‘rin savol berganidan i z z a b o‘ l di. Amakisi buni sezdi, shekilli, o‘ziga yaqin olib, izoh berdi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Rais tumandan kelgan vakillar oldida i z z a b o‘ l di.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata.

UYAT, NOMUS, SHARM, HAYO, SHARM-HAYO, OR, OR-NOMUS, ORIYAT, UYAT-ANDISHA, IBO Uyalish, nomus qilish, izza bo‘lish his-tuyg‘usi. **Uyat** so‘zi nutqda keng ma’noda qo‘llanadi. **Sharm, or, hayo** so‘zlari, asosan, juft so‘z holatida qo‘llanadi: **sharm-hayo, or-nomus** tarzida. Bu so‘zlarda uyalish, nomus qilish his-tuyg‘usi bo‘rtib turadi. **Andisha** so‘zi bu ma’nosida qo‘llanganda, ko‘pincha **uyat** so‘zi bilan juft so‘zni hosil qiladi: **uyat-andisha**.

Betamizda bet bo‘lmas, bezorida u y a t bo‘lmas. Maqol. *Hozir, olti yildan keyin, o‘shanda Samig‘jonga aytgan gaplari, darhol “ZAGSdan o‘tasan” deb, oyoq tirab turib olganlari Matlubaning o‘ziga ham g‘alati tuyuladi, buni har eslaganida u y a t dan yuzlari burishib ketadi.* O.Yoqubov, Matluba. *Jahon oshiqlari, volasi bilan, Nayson-yomg‘irlari, jolasi bilan. Yigitga ziynatdir or bilan n o m u s, Shoir go‘zal erur nolasi bilan.* S.Sayyid, Shoir go‘zal erur nolasi bilan. *Ayniqsa, u o‘tgan ko‘klamdagi ilk bellashuvni hech unuta olmaydi va bundan keyin ham unuta olmasa kerak. O‘sha uchrashuv har esiga tushganida, manglayi terchib, uyat va n o m u s dan misli o‘tdek tutab, yona boshlaydi.* N.Norqobilov, Kurash. *Shariat ishiga sh a r m yo‘q, deydirlar o‘rtoq, agarchi siz bilan menga bir muncha og‘irroq bo‘lsa ham yana so‘zlab o‘tishga hojat bor.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *To‘g‘ri, Zaynab Jamshidni sevdi, ammo h a y o qo‘rg‘onidan chiqmadi, bu tarzda sevmoq ayb emas, balki juvonning o‘zi uchun mislsiz bir azobdir.* T.Malik, Shaytanat. *O‘z xalqining va vatanining ahvoli to‘g‘risida va uning zolim Xisrav qo‘lida talon-toroj bo‘lib yotganidan so‘zlovchi bu xatda Shirinning qizlik nomusi, undagi iffat, bokiralik, h a y o va odob ham yorqin ifoda qilingandir.* H.Olimjon, Farhod va Shirin. *Biron joyga ishga kiritib qo‘yay desam, onasi ko‘nmaydi. Erkaklar bilan ishlasa, s h a r m i - h a y o si qolmasmish.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Voy, savil, dadam shuni oladilarmi? Sh a r m-h a y o bormi u kampirda.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *O‘zbekka o r ma’nodosh, Ibo-hayo – ko‘z-u qosh, G‘ursiz Bek qayda-yu ibosiz Kumush qayda?* I.Mirzo, Asragil. *Hazratim, mendan xatolik o‘tgan bo‘lsa afv eting. Men o‘yladimki, o‘z o r-n o m u s larini shunday bebaho olmosdan ham ortiq qadrlaydigan odamlar g‘ayridin bo‘lsalar ham...* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Go‘yoki, to‘qson yettiga kirib olamdan o‘tgan rahmatli bobomiz avlodimizning bor o r-n o m u s ini mana shu kenjasiga vasiyat qilib, qulf-kalitni o‘zi bilan olib ketgan.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. – *Mehnat qilinglar, o‘g‘illarim,*

mehnat o r emas, mehnatkashlar, kosiblar olloning suygan bandalaridur alkosi-bu habibullo! – dedi eshon so‘nggi so‘zlarni qiroat bilan. Oybek,Tanlangan asarlar. *Barcha-barcha o r i y a t-u andishalarni unutib, o‘ylab topilgan bema’ni odob-axloq me’yorlarining bahridan o‘tib, ayt, gapir axir!..* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Lekin o r i y a t kuchli, qarzni to‘lashga bel bog‘lab, qo‘lidagi bor molni to‘rtdan bir bahosiga berib, o‘zi haydab yurgan mashinani, nevaralariga deya olib qo‘ygan uylarni, xotin-qizlarining oltin va brilliant taqinchoqlarini, xullasi, qo‘lga ilashgan har narsani sotadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Sen befahmlarda u y a t-a n d i sh a degan narsa yo‘q.* T.Malik, Shaytanat. *Ra’no bir qo‘li bilan ikki yoqasining uchini birlashtirib, nomahram ko‘zi tushmasin, degandek “i b o” bilan kelinchaklarning salomiga o‘xshatib engashdi, suzilib dastxat yozilgan kitobni oldi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

UYLANMOQ, XOTIN OLMOQ, XOTINLI(K) BO‘LMOQ Biror qiz yoki ayolni o‘z nikohiga olmoq. Qatordagi so‘zlar er kishiga nisbatan qo‘llanadi. Mazkur ma’noni ifodalashda **uylanmoq** so‘zi nisbatan faol qo‘llanadi. **Xotinlik bo‘lmoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi, ma’noni **uylanmoq** so‘ziga qaraganda dag‘alroq ifodalaydi.

Eri esa bitta bolali xotinga u y l a n di. T.Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol. *Onam vafot etganlaridan keyin otam u y l a n dilar, ikki ukam bilan xolamnikida yashadik.* T.Malik, Qarg‘ish. *Ulfatlar orasida ismi aytilmay, x o t i n o l ib, xotin qo‘yavergani uchun “Boz” laqabi bilan sharaflangan Obid gapni ko‘paytirmay, shifoxona tomon shoshildi*. T.Malik, Xazonrezgi. *Ikki yil burun onalari qazo qilib ketganini, dadalari yangi x o t i n o l ganini, yaqinda o‘g‘il ko‘rganini istar-istamas aytdi.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *To‘ydan qayta turib, mening qulog‘imga: “Mana, yig‘lab-siqtab x o t i n l i k b o‘ l ib ham olding, endi “o‘ldim-kuydim” degan she’rlarni yozmassan”, degan edi.* E.Vohidov, G‘afur G‘ulom bilan uchrashuvlar. *“Hay etti, huy etti, ikki koski to‘y etti” deganlaridek har ikki to‘y ham bir hafta ichida o‘tti, Naimaxonim u yoqqa ketib, Nigorxonim bu yoqqa keldi. Shunday qilib, Solih maxdum x o t i n l i q b o‘ l di.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Sizga rahmim kelib tegganman. Siz!.. Meni oyoqosti qilyapsiz endi... X o t i n l i b o‘ l dingiz-da! Bolali, uy-joyli bo‘ldingiz-da, a?* Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor.

UYLANTIRMOQ, UYLAMOQ, UYLI QILMOQ, XOTINLI(K) QILMOQ, TAALLUQDOR QILMOQ Erkak kishini biror ayolga nikohlantirmoq, unga xotin olib bermoq. **Uylamoq, uyli qilmoq** so‘zlari shevaga xos; **uyli-joyli qilmoq** shaklida ham qo‘llanadi. **Taalluqdor qilmoq** so‘zi eskirgan.

Lekin nima uchun adib katta nufuzga ega ota-onaning yolg‘iz farzandi bo‘lgan Otabekni “o‘zboshimchalik” bilan xizmatkor – quli Hasanali boshchiligida Marg‘ilondan u y l a n t i r moqda? Sh.Turdimov, Alpomish va Kumush. *Bir kuni otam rahmatli uyga ochilib kirib keldi. – Onasi, mana bizga ham*

tomorqaga yer ajratishdi. Bir chekkasiga yangi uy quramiz, o‘g‘ilni u y l a n t i r amiz. Harakatingni boshlayver. A.Sulaymonov, Bir tup o‘rik. – *Bir oydan keyin o‘g‘illaring kelishadi. Ikkovini baravar u y l a b qo‘yamiz, – dedi Asadbek jimlikni buzib.* T.Malik, Shaytanat. *Opog‘otam kichik mehmonxonaga ko‘chib o‘tib, institutni bitirganidan keyin tumanda arxitektor bo‘lib ishlayotgan kenja o‘g‘li Sanaqul tog‘amni dahlizli uyga u y l a b qo‘ygani bois, hovlisini sotgan Otaqul tog‘am xotini bilan ikkita qizini ortiqcha imorati bor qaynotasinikiga joylashga majbur bo‘lgandi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Sen beshovingni u y l i q i l olmaganim yomon bo‘ldi-da.* Z.Qurolboy qizi, Xoliq amaki. *– Uchta o‘g‘ilni u y l i-j o y l i q i l ishga qiynalishayotganga o‘xshashadi. Kenjalarini uylay desalar ortiqcha xona yo‘q.* T.Malik, Shaytanat. *Yigit nochor bo‘lgani uchun uylana olmayotgan edi. Bir beva ayolni topib mahalladagilar uni x o t u n l i k q i l ib qo‘yishdi.* “Mahalla”. *Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo‘qmi, ammo azizlarning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkanddan ham t a a l l u q d o r q i l moqchi bo‘lib, bul ma’niga ba’zi harakatlarini qilib qo‘ygan erdik.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

UYLI, UY-JOYLI, HOVLILI Uy-joyga ega, uyi bor. **Uy-joyli** so‘zida joy qamrovi ta’kidi mavjud. **Hovlili** so‘zida umumlashtirish anglashiladi.

Mirazim “Ma’qul” degandek boshini qimirlatdi-da, yanayam hushyorroq qiyofaga kirdi: – Mening taklifim – bizga kel. Ikki-uch yilda u y l i ham, mashinali ham bo‘lasan, albatta, yaxshi ishlab o‘zingni ko‘rsatsang. U.Hamdam, Muvozanat. *Otaqul tog‘am, oxiri kungurador darvozali, dang‘illama u y l i, g‘ishtin devorlar bilan o‘ralgan hovlisini, bir gektarlik o‘rikzorini, “Kobalt” mashinasini sotib… qarzlardan zo‘rg‘a uchma-uch qutulibdi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Mana, yoqlar ham, uylanar ham ekanman, u y l i-j o y l i man, xotirjam, bemalol bo‘lishim kerak edi, ammo ko‘nglim notinch, yil o‘tgan sayin o‘rtanaman, qayoqlargadir ketgim keladi...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Xudoga shukr, o‘g‘il-qizlarimning hammasi u y l i-j o y l i, o‘zlaridan tinib-tinchib yurishibdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Men Chuguchakdagi ichkari-tashqari h o v l i l i, sakkiz xonali shinam uyimizni, bog‘imizni esladim.* H.Shayxov, Tutash olamlar. *Ammam bir qarashda dag‘al, qo‘pol ko‘rinsalar ham, dillari bo‘sh, salga ko‘zlari namlanadigan, ammo tez o‘zlarini tutib oladigan ayol edilar. Katta va kenja o‘g‘illari bilan qo‘sh h o v l i l i uch hovli uyda turardilar.* O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar.

UYLI BO‘LMOQ, UY-JOYLI BO‘LMOQ (UYLI-JOYLI BO‘LMOQ), HOVLILI BO‘LMOQ Uy-joyga ega bo‘lmoq. **Uy-joyli bo‘lmoq** so‘zi kengroq tushunchaga ega. Bu ma’no, ayniqsa, **uyli-joyli bo‘lmoq** so‘zida ta’kidga ega bo‘ladi. **Uyli bo‘lmoq, hovlili bo‘lmoq** so‘zlarida ko‘proq makonga egalik ochiqroq ifodalanadi. **Hovlili bo‘lmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi.

Avvallari tuzukkina kelib-ketib yurgan o‘g‘lining oyog‘i bora-bora tovsilib qoldi. Qumri xola u y l i b o‘ l di, o‘zidan tinsin deb ovunar, voajab, ozib-yozib o‘g‘li eshikdan kelsa, jonivor darrov tanib yonidan jilmasdi. L.Mahmudov, Mehr qolur… *Endi u y-j o y l i b o‘ l ib, jonim sal orom olganda... Yo‘q, yo‘q, toqatim qolmadi, tamom bo‘ldim...* A.Muxtor, Chinor. *Robiya, siz aytgandek, u y l i k-j o y l i k b o‘ l ib, tinchib ketgan bo‘lsa, unda... mayli... Taqdirga tan berurmen.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Qimizxon bilan Usmonjon ham xuddi shunaqalardan edi. Ularning bolalari u y l i-j o y l i b o‘ l ib ketishgan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Agar qaysarlik qilmay Said bilan Mirazim akalarning gapiga kirsangiz, bunaqa tentirab yurmasdik. Allaqachon u y l i-j o y l i, mashinali b o ‘l ardik.* U.Hamdam, Muvozanat. *U o‘z farzandlarini o‘qimishli qilishiga harakat qilib erishishi bilan birga, Sayramdagi ukalari G‘ofurjon, Zokirjon, Ma’murjon va Ne’matjonni uyli-joyli bo‘lishiga bosh-qosh bo‘ldi. Ular o‘zlari yashashi uchun qulay h o v l i l i b o‘ l ishdi.* F.Shodimatova, Boqiy xotira.

UYQUSIZ BO‘LMOQ, BEDOR BO‘LMOQ Uyqusiz holatda bo‘lmoq. **Bedor bo‘lmoq** so‘zi ko‘proq kitobiy uslubda uchraydi.

Ba’zida ularni xafa qilsang ham, Sening quvonchingni doim o‘ylaydi. Tunlari u y q u s i z, b e d o r b o ‘l sa ham, Kelishingni kutib, yo‘ling poylaydi. O.Qurbonmurodova. *Bobur ko‘pdan beri u y q u s i z b o‘ l ganidanmi yoki sog‘inch hissining zo‘ridanmi, ko‘zlari beixtiyor yoshga to‘ldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Har murod-u maqsadingga yetmoq istarsan murod, Ko‘z ochib b e d o r b o‘ l, darkor ilm, darkor.* H.H.Niyoziy, Ilm ista.

U

UYQUSIZLIK, BEDORLIK Uyquning kelavermasligi, uyquning buzilishi, uxlay olmaslik. **Bedorlik** so‘zi badiiy uslubga xos.

Mo‘saqo‘zi tovuqboqarning shiyponga o‘z oyog‘i bilan kelishi ayni muddao bo‘ldi – hasharga qo‘shilgach, handalak uzishda ham, ularni uvatga tashib chiqishda ham, xaridorlarning mashinasiga yuklab jo‘natishda ham qo‘ldoshimizga aylangani, u y q u s i z l i k dan garangsib turganimda jonimga ora kirdi. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Brahmanlar somaning kayfi bilan tuni bo‘yi hindcha duolar o‘qib, uxlamay chiqishlari esiga tushdi-yu, Akbarni qiynab yurgan u y q u s i z l i k larga soma ham sabab bo‘layotganini payqadi.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Moskvadagi mehmonxonada b e d o r l i k bilan olishib yotgan Asadbekni yo‘qlab kelgan Iliko o‘tlarga moy sepgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *– Meni azim bu dengizdan olib o‘tadigan kuch uyqu emas, balki b e d o r l i k, – derdi va yana muroqaba holida bo‘lishga tirishardi...* U.Hamdam, Muvozanat.

UYQUCHI, UYQUCHAN, SERUYQU Ko‘p uxlaydigan, uyquni yaxshi ko‘radigan. **Uyquchi** so‘zi nisbatan faol qo‘llanadi. **Uyquchan, seruyqu** so‘zlarida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Uyquchil** so‘zi shevaga xos.

Hatto eng u y q u ch i odam ham tongda qushlarning sayrashini bir eshitadi. T.Malik, Odamiylik mulki. *Birovi aytadi: – Bir u y q u ch i befarq xotinning*

bolasi. “Kuntug‘mish”. *Bu kecha hatto shahar qizlariga poyloqchi bo‘lib kelgan uyquchi kampirga ham jon kirdi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bola kasallangandan beri uyquchan edi.* Gazetadan. *Undan keyin pojarniyda ishlagan antiqa seruyqu kishi mudirlikka o‘tdi*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ayniqsa, shu topda ko‘ngli allaqaylarga tortayotgan Zebi uchun bir xil ezma kampirlardan ko‘ra bu – kamgap, seruyqu kampir yaxshi edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

UYG‘OQ, UYQUSIZ, BEDOR Uxlamagan, uyquga ketmagan holatda. Mazkur ma’noda **uyg‘oq** so‘zi juda faol qo‘llanadi. **Uyqusiz** so‘zi esa nisbatan kam uchraydi. **Bedor** so‘zi kam qo‘llanadi, ko‘proq poetik nutqda ishlatiladi.

Biz ...uyga kiramiz, ham uyning to‘riga soling‘an atlas ko‘rpa, paryostiq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa sabab bilanmi uyg‘oq yotqan bir qizni ko‘ramiz. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ho‘v naridagi yong‘oq shoxiga in qurgan qush: – Kak-ku! Kak-ku! Kak-ku! – deb haligacha uyg‘oq o‘tirgan oshiqlarni uyqu oromiga chorlagandek bo‘ladi.* X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz kechira boshladi: Otabeklar nega qamaldilar, qanday gunohlari bor ekan?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Balki, uyo‘qdir, uyqusiz tunlari xayolingda yaratgandirsan. Balki, o‘zing Unga munosib emasdirsan.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Qosim qizlarining qistovi bilan xonasiga kirib, biroz yotdi. Badaniga hukmini o‘tkazayotgan hordiq uyquni chaqirardi. Lekin bedor kipriklar qovusha qolaylik deyishmas edi.* T.Malik, Vasiyatnoma. *Mana adashishlar va xatolarning manzillari, boshlang‘ich nuqtalari, qayda xato qilgan eding, ey bedor zot?* I.Sulton, Ozod.

U

UZAYMOQ, UZUNLASHMOQ, CHO‘ZILMOQ Bo‘yiga, uzunasiga uzaymoq, uzun bo‘lmoq. **Uzunlashmoq** so‘zida oldingiga nisbatan uzun bo‘lishlik ta’kidi mavjud. **Cho‘zilmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tilida qo‘llanadi.

So‘ng yerlik odam qiyofasidan chiqib, asl shakliga kirgan – bo‘yi ikki baravar uzayib, qo‘li kichraygan... T.Malik, Devona. *Katta-kichik daraxtlarning yerga tashlagan ko‘lankalari, gerdayib ko‘kka uzaygan haybatli qayrag‘ochlar sirli, vahimali ko‘rindi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Hayronman, turmushga chiqding-u suvpariga aylanding-qolding. Ko‘ylaging ham, soching ham uzunlashdi.* J.Ramazonov, Hikoyalar. *Yo rab! Oftob Mag‘ribga engashgan, archalarning soyasi uzunlashgan edi.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Saodatingizning bo‘yi cho‘zilib qolg‘an ko‘rinadir, mundan so‘ng maktabdan bo‘shag‘an vaqtida Sayfini yuborsangiz qalay bo‘lar ekan?..* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Quyosh ufqqa yonboshladi, daraxtlarning soyasi kunchiqarga qarab cho‘zildi.* Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam.

UZOQ I, OLIS, YIROQ, IROQ Oraliq masofasi nisbatan katta, nisbatan narida. **Yiroq** so‘zi shevada ko‘p ishlatiladi. **Iroq** so‘zi nutqda nisbatan kam uchraydi.

U z o q demasangiz, erinmasangiz, ko‘nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. A.Qahhor, O‘g‘ri. *Qani edi, men ham u z o q roq joylarga borib kelsam, deb yurgan kezlarim edi, e’lonni o‘qib qanot bog‘ladim…* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Suhbat asnosida u kishining ismi Parpivoy ekani, o l i s bir rayondagi bo‘rdoqichilik bazasidan qatnab ishlaydigan bosh axraynik ekani ma’lum bo‘ldi.* S.Ahmad, Bir siqim xandonpista. *Yozgi ta’tillarni-ku, gapirmang: Mohbibi ikki oy o l i s Sariosiyosiga, Karim qurilishga ketadi!* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Hatto bilmas edim, sevarmiding sen, Balki, sevganingdir bir baxtiyor qiz. Balki, xayolingdan men behad y i r o q, Ammo sen dilimda kecha-yu kunduz.* Zulfiya, Saylanma. *Yoy o‘qi kamondan qochadi y i r o q , Tog‘lardan qochadi daryo va buloq.* A.Oripov, Begonalik. *Ey onam ko‘milgan yer, Nega buncha i r o q sen?* H.Olimjon. *Zuhra yulduz ko‘kda armon qiladi: Esizki, makonim bu bog‘dan i r o q.* Uyg‘un, Tanlangan asarlar.

UZOQ II**, OLIS, DAVOMLI** Vaqt nuqtayi nazaridan davomli. **Olis** so‘zi *yo‘l, safar* kabilarga bog‘langanda uzoq davom etadiganlik ta’kidiga ega boladi. **Davomli** so‘zida davomlilik ta’kidi ochiq ifodalangan.

U z o q jimlikdan keyin Unsin yonida o‘tirgan kundoshiga shivirlab: – O‘lsin, nokas odam ekan, bitta qo‘yni deb... Koshki arziydigan narsa bo‘lsa!.. – dedi. A.Qahhor, Dahshat. *Karim hozir Adhamning u z o q gapirishini, o‘z tajribalarini so‘zlashini va oxirida Mohbibining ko‘nglini olish yo‘llarini birma-bir ko‘rsatib berishini xohlar edi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Uchuvchi… nega bunaqa o l i s safarga otlanganimni so‘radi.* O‘.Hoshimov, G‘aroyib sayohat. *Onasiga doir voqealar, o‘smirlikning sururli damlari uning uchun o l i s o‘tmish bo‘lsa-da, unutilgan xotiralar emasdi.* T.Malik, Shaytanat. *...tarixiy ma’ruza qilib berish uchun ulug‘ dohiy tovarish Xon Man Menni ko‘pdan ko‘p ta’zim-tavozelar ila minbarga taklif etdi. Yana qarsak – yana sharshara! Gulduros qarsaklar, d a v o m l i qarsaklar! Yana, yana va yana!* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bu boradagi barcha ishlarimiz mavsumiy emas, d a v o m l i, chuqur o‘ylangan bo‘lmog‘i darkor.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li.

UZOQ BO‘LMOQ, OLIS BO‘LMOQ, YIROQ BO‘LMOQ, IROQ BO‘LMOQ Biror narsa, makon yoki kimsadan masofa jihatidan narida bo‘lmoq. **Uzoq bo‘lmoq** so‘zi bu ma’nosida ko‘p qo‘llanadi. Bu so‘zga nisbatan **olis bo‘lmoq** so‘zida masofa jihatidan ancha uzoq bo‘lganlik ta’kidi anglashiladi.

O‘g‘lim, hazir bo‘l. Yomonlar ko‘p. Ulardan u z o q b o‘ l, hamrohlaringga hamisha yaqin tut o‘zingni. Oybek, Bolalik. *Tunda, yaylovdan uncha u z o q bo‘lmagan sayhonlikda bosqinchilar va Yadg‘u yigitlari o‘rtasida misli ko‘rilmagan jang bo‘ldi.* I.Sulton, Xun. *Sovxoz markazi o l i s roq b o‘ l gani uchun unga bitta ot-arava ajratilgan, u shu aravada ham oziq-ovqat, ham suv tashir, ham ovqat pishirardi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Qishloq bir qadam ko‘rinsa-da, xiyla o l i s b o‘ l di.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Yaxshisi, dilingda*

bo‘lsin muhabbat, Oshkor etaverma uni jo‘rttaga. Avliyo misoli jim yurgin faqat, Ko‘zlardan y i r o q b o‘ l, chiqma o‘rtaga. A.Oripov, Odam bolalari. *Endi u dadillanib va kulib turib, qo‘lini tutning o‘ng tomoniga uzatdi. Faqat ikkalasining orasi ancha y i r o q b o‘ l ganidan boshqa bir qo‘l uning qo‘liga urinmadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Faqat yana darrov o‘zini to‘xtatdi: “Yo‘q, qizigan olovmiz ikkovimiz ham... Qancha i r o q b o‘ l sam, shuncha yaxshi...”, dedi o‘z-o‘ziga.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

UZOQDA, OLISDA, YIROQDA, **IROQDA** Masofa jihatidan uzoq joyda. Mazkur ma’noni ifodalashda **uzoqda** so‘zi **olisda, yiroqda, iroqda** so‘zlariga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Olisda** so‘zida makonning masofa jihatidan nisbatan uzoqdaligi anglashiladi. Bu so‘zlar **uzoqlarda, olislarda, yiroqlarda** tarzida ko‘plik shaklida ham uchraydi.

Dehlidan uch yuz mil u z o q d a – Panjobning shimoli sharqidagi Kalanurda yurgan Akbar otasining o‘limi haqidagi xabarni oradan bir hafta o‘tgandan so‘ng eshitdi. P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Unda u qayerda, kim bilan yashaydi? Turgan gapki, daryo bo‘yida, qishloqdan u z o q d a tanho o‘zi hayot kechirolmaydi.* Q.Kenja, Toshqin. *Men bu kun o l i s d a shovqinli shahar Qo‘ynida sen haqda xayol suraman.* A.Suyun, Nakurt qishlog‘i. *– Bugun? – Nazar baxshi boshini saraklatdi. – Buning iloji yo‘q, sal o l i s d a u. – Ishqilib, oyda emasmi? – dedi Salabek davrada kulgi qo‘zg‘ab.* N.Norqobilov, Kurash. *Hikmatillo xizmat qilgan joy nomiga Novosibirsk deb atalsa ham, shahardan ancha y i r o q d a , qalin o‘rmonlar orasida edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Go‘ro‘g‘li yetolmay, qop ketdi dog‘da, Yo‘rtanglab asta-asta undan y i r o q d a, Ayta bersam so‘zim turmas kurakda, Haddili hiylagar ekan enag‘ar.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. *Obbo, qizginaning shashti chatoq-ku! Bunisi ham bormidi hali? O‘zingiz – Iroqda, pushtikamaringizdan bino bo‘lgan nusxangiz esa huv y i r o q larda – ko‘zdan nari, mehrdan judo, yot ellarda, yotlar orasida... Qanday chidamoq mumkin bunga?!* E.A’zam, Shovqin. *Sevar yorim i r o q da, Jon qiynaldi firoqda.* Gazetadan.

UZOQDAGI, OLISDAGI, YIROQDAGI, **IROQDAGI** Masofa jihatidan uzoq joydagi. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlar sifat turkumiga mansub bo‘lib, makonning masofa jihatdan uzoqda joylashganligi belgisini anglatadi. **Uzoqdagi** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Yiroqdagi, iroqdagi** so‘zlari so‘zlashuv uslubiga xos. **Olisdagi** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Sherxon ishg‘ol qilgan Roxtas qal’asi daryodan ancha u z o q d a g i tog‘larda edi. P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Yon-atrofdagi paxta paykali, bug‘doypoya, polizzor u yoqda tursin, u z o q d a g i bog‘-u uzumzorlarda yurgan chumchug‘-u to‘rg‘aylar, mayna-yu g‘urraklar, musicha-yu qaldirg‘ochlar, qizilishton-u popishaklar ham pirro-pir yopirilib kelib, jiydaning ustini bulutdek qopladi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Bobur o l i s d a g i qorli*

tog‘larga qarab borar ekan, tizzaga chiqadigan yumshoq ko‘kat ustida otlar ham mayin qadam tashlab borayotganini sezardi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Chindan-da, aksariyat itlar o l i s d a g i shovur-u sharpani zudlikda ilg‘ashdan tashqari, odam bolasining kim qanaqaligini tez payqay oladi.* N.Norqobilov, Kurash. *Ro‘paradagi yumaloq darichadan y i r o q d a g i muhtasham qasrlar, masjid-u madrasalar ko‘zga chalinadi.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Qo‘shiqdagi hasrat! Ildizidan ayro tushgan za’faron barglarning y i r o q d a g i chorbog‘i bilan vidolashuvi edingmi sen?* U.Azim, Sevgi. *“Iroq”ni i r o q dagi yoriga eshitilsin, deb kuylar edi*. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.

UZOQDAN, OLISDAN, YIROQDAN, IROQDAN Masofa jihatidan uzoq joydan. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlar shu grammatik shaklida ravishga ko‘chgan. **Uzoqdan** so‘zi barcha nutq uslublarida uchraydi. **Yiroqdan, iroqdan** so‘zlari so‘zlashuv uslubida ko‘p ishlatiladi. **Olisdan** so‘zida oraliq masofaning ancha uzoq ekanligi ifodalanadi.

Murod menga ko‘p ham telefon qilavermaydi, juda ishlik odam, keyin hamma do‘sting bilan har kuni gaplashavermaysan-ku, u z o q d a n ham qalin do‘st bo‘lib yuraverasan… A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Usmonjonning qadrdonlari bo‘lamiz. U z o q d a n yo‘qlab keldik.* S.Ahmad, Bir siqim xandon pista. *Shamol och bo‘ridek uvullaydi. O l i s d a n buralib-buralib qora tutun chiqyapti.* A.Hotamov, Yaxshilik daraxti. *Hamrohlarining ovozi unga o l i s d a n eshitilayotgandek edi.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Horib, charchab, sayrga chiqsa, Buxoro Oq nurlar to‘shadi ming-ming chirog‘dan, Gumbazlar, minorlar, qal’alar go‘yo Afsonaviy yurtday boqdi y i r o q d a n.* Zulfiya, Saylanma. *Ha, boya oq bayroq ko‘targan otliqlar y i r o q d a n ko‘ringan edilar, endi hozir ular ham yaqinlashib qoldilar.* Cho‘lpon, Gunoh. *Yig‘i keldi qulog‘iga i r o q l a r d a n paydar-pay...* T.To‘la, She’rlar.

UZOQLASHMOQ, UZOQLAMOQ, UZOQMOQ, OLISLASHMOQ, OLISLAMOQ, YIROQLASHMOQ, YIROQLAMOQ, IROQLASHMOQ, IROQLAMOQ Biror narsa, makon yoki kimsadan masofa jihatidan uzoqqa ketmoq. Mazkur ma’noni ifodalashda **uzoqlashmoq** so‘zi nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Uzoqmoq** oddiy so‘zlashuvga xos. **Iroqlashmoq, iroqlamoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xos.

Hamdamov bir qarorga kelguncha yana to‘rt-besh odim yurib, o‘smirlardan u z o q l a sh ib qolgan edi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *So‘ng buloq bo‘yidan kapalaklar u z o q l a sh ib, ko‘p o‘tmay arilarning ham uni uchdi.* N.Norqobilov, Buloq. *Momo ona-bolani ovuldan chiqaverishdagi katta ariq bo‘yigacha kuzatib qo‘ydi. Ariqni yoqalab yursa, katta yo‘lga tushishini aytib, qo‘llariga mayda-chuyda solingan tugunni tutqazib, u z o q l a b ketgunicha qo‘l siltab qoldi.* B.Aytmurod, Qo‘noq. *Birdan yuragim ezildi, u z o q l a yotgan qiz xuddi uni Hebbim bulg‘alagandek, endi mumsik, xunuk ko‘rinib ketdi.* A.A’zam,

Soyasini yo‘qotgan odam. *Chindan ham eshik g‘iyt etib, yuziga yopildi-yu taxta polda o‘sha qoplonningmi, nimaning ship-ship yurgan oyoq tovushlari u z o q ib borib, tindi-qo‘ydi*. M.Mansur, Judolik diyori. *So‘ng oyoq ovozlari u z o q ib borib, oshxonaga kirib ketgachgina: – Boyoqishga shu yetmay turib edi, – dedilar bosh to‘lg‘ab*. M.Mansur, Judolik diyori. *Razzoq so‘fining sovuq yuzlari uning ko‘zlaridan o l i s l a shganlar; nasihat yo‘li bilan minglarcha marta aytilgan va ta’kidlangan so‘zlar unutilgan...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Dunyo yaqinlashgani sayin esa biz o‘zimizdan uzoqlashib borayotgandaymiz. O l i s l a sh ayotgan o‘zlikni qaytarishga vaqtimiz yetarmikin?* Q.Norqobil, Odamni nima asraydi? *Bu yerda bir zumrad buloq bor edi, Atrofi daraxtzor, maysazor edi, O l i s l a b ketmasdi suruv, uyurlar, Yayrashib yurardi alqorlar, ular. Turkiston bulog‘i derdilar uni.* A.Suyun, Turkiston bulog‘i. *U tobora o l i s l a b, allaqanday daraxtzor ichida ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Y i r o q l a sh dim, uzoqlashdim bir necha kun sendan, hol so‘rab ko‘r mendan, Nega muncha og‘ir keldi bu yiroqlik menga, anglatayin senga!* Cho‘lpon, Amalning o‘limi. *Axir u yigirma yildan beri o‘ziniki edi-ku, nainki shuncha muddat butun vujud-tanalari bir bo‘lgan odamlar endi begonalarday, bir-biridan butunlay y i r o q l a sh ib ketishsa?* Q.Kenja, Toshqin. *Bilmayman, nega shunday, bo‘lmasa, uchinchi kurslardan boshlab, yotoqxonaga o‘tganimdan keyin, Shodi aka, Haqberdi, Suvon, Hasanboylardan tamom y i r o q l a b ketdim...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *O, umid Ertasi! Y i r o q l a b yursang har kunlarim erkasi, afsona, Ehtiyot iltifot, Jon to‘la qadaming jodusin ilg‘ayman.* Zulfiya, Saylanma. *Sultonxon qizarib turgan yosh yigitga oxirgi marta tashna nazarlarini tashlab, asta-sekin i r o q l a sh di...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Allaqachonlar masalaning fahmiga borib qolgan Xolmat shu topda yigitchadan i r o q l a sh uvni ep ko‘rdi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

UZOQLIK, OLISLIK, YIROQLIK, IROQLIK Masofa jihatidan olislik, yiroqlik. **Uzoqlik** so‘zining qo‘llanish doirasi keng, barcha nutq uslublarida uchraydi. **Olislik** so‘zida oraliq masofaning yanada uzoq ekanligi ta’kidi anglashiladi, kitobiy uslubga xos. Oddiy so‘zlashuvda **yiroqlik** so‘zi ham ko‘p ishlatiladi. **Iroqlik** so‘zi ayrim shevalarda uchraydi.

Ufqning harir pardasi ortida – ko‘z ilg‘amas u z o q l i k larda Chotqol tog‘lari-yu Toshkent vohasi bor. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ayol tepalikda joylashgan hovli sahniga qo‘yilgan karavotda iyagini suyanchiqqa tiragancha pastlikka – huv u z o q l i k ka, kaftdagidek aniq-tiniq ko‘rinib turgan kengliklarga, ularning etagidagi tog‘larga ko‘z tikib, o‘z xayollariga g‘arq holda o‘tirardi*. U.Hamdam, To‘rt hikoya. *Bir tekisda o‘sgan quyuq qizg‘aldoqzorning enlari ma’lum-u bo‘ylari ko‘z ilg‘amas o l i s l i k lar qa’riga “cho‘kib” ketgandi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Yo‘lakcha ko‘z ilg‘amas o l i s l i k ni yoritar, yam-yashil o‘tloq, so‘lim tabiat qo‘ynida timqora sochlarini yoyib, ma’sum ko‘zlarini*

menga tikkancha u shirin jilmayib turar, ko‘z imosi bilan meni o‘z yoniga chorlardi. A.Abdiyev, Muallaq odam. *Nega muncha og‘ir keldi bu y i r o q l i k menga, anglatayin senga!* Cho‘lpon, Sendan yiroqda. *U kaftlaridan qon sizgan qo‘llari bilan temir parchani mahkam tutamlab bor kuchi bilan siltab tortdi! O‘ra o‘pirildi...Y i r o q l i k yaqinlikka, qattiqlik yumshoqlikka aylandi...*O.Tillayev, Hazin. *Yo‘lning i r o q l i g i ancha qiynadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

UZOQLIK QILMOQ, OLISLIK QILMOQ, YIROQLIK QILMOQ, IROQLIK QILMOQ Masofa jihatidan anchayin narida deb anglanmoq, shunday deb o‘ylamoq. Mazkur ma’noda **uzoqlik qilmoq** so‘zi faol qo‘llanadi. **Olislik qilmoq** so‘zi masofaning ancha olisda ekanligiga ishora qiladi, bu so‘z kitobiy uslubda ko‘p uchraydi. **Yiroqlik qilmoq, iroqlik qilmoq** so‘zlari, asosan, so‘zlashuvda ishlatiladi.

– U z o q l i k q i l yapti, – deyman nolib. – Ilgari shaharda turardim, darslar ham markazda, xiyobondagi binoda bo‘lardi, bilinmasdi. Hozir qishloqda yashayapman. S.Rahmon. Orzulardan yaratdi dunyo. *U z o q l i k q i l ib, dadasi maktabga qaytarib keldi. Bolaning xayoli faqat o‘qish bilan band*. T.Malik, Tanlangan asarlar. *Yer qattiq, osmon o l i s l i k q i l ib, arosatda kuyiblar ketaman... Nargiza bilan gaplashish imkoni bo‘lganda-ku, yotig‘i bilan tushuntirardim.* E.Norsafar, Oq yomg‘ir. *Oshiqbola bilan Oytumorning qarindosh-urug‘lari o l i s l i k q i l ib, bu marosimga ularni ayta olishmagani sababli, Meshpolvonning dadasi kuyov tomonga, onasi kelin tomonga mutasaddi bo‘ldi, mehmonlarni ko‘ngildagidek kutib-kuzatish, to‘yning barcha rasm-rusumlarini o‘rniga qo‘yib bajarishni boshqarib turishdi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Qaytgach, safar taassurotlarini o‘rtoqlashayotganimizda “Yo‘l i r o q l i k q i l madimi, toliqmadingizmi, Rauf aka?” deya kimdir luqma tashladi.* M.Mirzo, Shoir.

UZOQ QILMOQ, OLIS QILMOQ, YIROQ QILMOQ, IROQ QILMOQ Biror narsa, makon yoki kimsani masofa jihatidan nari qilmoq. **Uzoq qilmoq** so‘zi mazkur ma’noni ifodalashda nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Olis qilmoq, yiroq qilmoq, iroq qilmoq** so‘zlari masofaning yanada uzoq bo‘lganligini ta’kidlaydi.

“Meni jannatga yaqin va do‘zaxdan u z o q q i l adigan amallarni aytib bering”... T.Malik, Odamiylik mulki. *U z o q q i l gin yomonini-pesini, Yo‘qot yurtdan gina-gidir isini, Balki, Tangri tinglar qalbing sasini, Vatan, meni shu tuproqqa qurbon de.* Sh.Qodirov, Shu tuproqqa qurbon de. *Na tilni, na haqni o‘rtoq bilasan, Yaqin manzilni ham u z o q q i l asan, Xalq seni anglasa, qandoq qilasan?* M.Ismoil, Kimni gellayapsan? *U eslatar menga har mahal O‘zga hayot, o l i s q i l ib sohilni...* T.Malik, Savohil. *Vafo degan shunday-shunday bo‘lami, Yoridan o‘zini y i r o q q i l ami, Yo bunda kirishni uyat bilami, Tovushing yo‘q, qayoqda sen, Ravshanjon.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. *– Men bu dargohdan chiqib qayerga ham boraman. Nima bo‘lsa ham, meni shu dargohdan y i -*

r o q qil mang, – deb yalindi. “O‘zbek xalq ertaklari”. *...juda ulkan areal-qipchoq lahjasi shevalarining aksari boyliklari adabiy tilga kiritilmagani bizni qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird, oltoy tillari... umuman, Rossiyaning markaziy, janubiy, shimoliy hududlari, Oltoy o‘lkalari, Mo‘g‘uliston, Xitoy hududlarida yashayotgan turkiy xalq, el-elatlardan oramizni i r o q q i l ib, leksikamizni ham toraytirib qo‘ygan...* A.A’zam, Gulzordagi alaflar. *Tangrim, manmanlikni mendan i r o q q i l. Iymonni nafsimga har dam tuzoq qil. Shu so‘zni bir umr menga so‘roq qil – Kecha kim edim-u, bugun kim bo‘ldim?* B.Ergashev, Kim bo‘ldim?

UZUQ, UZUQ-YULUQ, DURDA-DURDA Bir-biriga bog‘lanmagan, chala-pulcha holatda (tovush, gap, suhbat, xabar, javob va shu kabilarga nisbatan). Sinonimik qatordagi so‘zlar asosiy hollarda juft, ba’zan takroriy shaklda qo‘llanadi. **Uzuq-yuluq, durda-durda** so‘zlarida belgi ta’kidi bo‘rtib turadi. **Durda-durda** so‘zi nisbatan kam ishlatiladi.

Bo‘g‘iq, u z u q tovush. Unda nimadir So‘zlaydi hikmatdan, qismatdan. A.Muxtor, Olma to‘kildi. *Zebi xo‘rsingan ovoz bilan yig‘lab turib, uzuq-uzuq javob qildi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Polvon kechqurun samovarga chiqdi. Choyxo‘rlar bilan hardamxayol, u z u q-y u l u q gaplashib, qishloq xalqini ertalab uyiga taklif qildi*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Qisqagina salom-u alikdan so‘ng, u qismat chohida ajal farishtasi sanalmish Azroilni intig‘-u intizor kutayotganini u z u q-y u l u q izohlar ekan, jimgina xayol surayotgan usta Po‘lat xotirasi nogoh tirildi.* A.Dilmurod, Narvon. *O‘rindiqda mung‘ayib qoldi. Uzuq-yuluq suhbat, visollar, Davomiydir oyna ortidan Intiq boqqan ko‘zlar, xayollar.* G.Mo‘minova, Umid shu’la sochar go‘yo qarshingda… – *Qanday masalada chaqirtirgan ekan... – dedi Omonmurod u z u q-y u l u q g‘udranib. So‘ng o‘zining kimligini aytgan bo‘ldi.* S.Boboyev. Qora tundan qo‘rqma. *Bir qolipga tusholmagan d u r d a-d u r d a fikrlar egovlansin*. G‘.G‘ulom, She’rlar.

UCHMOQ, PARVOZ QILMOQ (ETMOQ) Qanot yoki boshqa uchish vositasida havoga ko‘tarilmoq. **Uchmoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Parvoz qilmoq** so‘zi kitobiy uslubga xos, badiiylik bo‘yoq‘iga ega.

U kishining aytishiga qaraganda, payg‘ambarimizning qabrlari ustidan kaptarlar ham u ch ib o‘tishga jur’at qilolmas emish... Oybek, Tanlangan asarlar. *Haligi ikkisining janjali esa borgan sari battar avjlanardi. Ularning baqir-chaqiriga parrandalar dosh berolmadi, birinchi bo‘lib ular nari u ch ib ketdilar*. N.Norqobilov, Buloq. *Shu oy nuriga g‘arq bo‘lgan cho‘llarda Burgut p a r v o z q i l ib yurgandek, oy ham uning qadami tekkan yerlarni ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘lgandek, yanada ravshanlashayotganga o‘xshardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Chuvrindi uyga qaytgunicha ham bo‘lib o‘tgan suhbatlar mag‘zini chaqishga harakat qilib, “Qanoti bor har qanday maxluq ham erkin hamda baland p a r v o z q i l a olmaydi”, degan haqiqatga ishondi.* T.Malik, Shaytanat.

UCHRAMOQ I**, YO‘LIQMOQ, DUCH KELMOQ, TO‘QNASHMOQ, RO‘BARO‘ BO‘LMOQ, YUZMA-YUZ KELMOQ, YUZLASHMOQ** Qarshisidan chiqib qolmoq. **Yo‘liqmoq, duch kelmoq** so‘zlarida kutilmaganlik ta’kidi mavjud. **To‘qnashmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Ro‘baro‘ bo‘lmoq, yuzma-yuz kelmoq, yuzlashmoq** so‘zlarida mazkur ma’no obrazli ifodalangan, ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Qozog‘iston tomonlarda bo‘lib qaytgan tanish bir karis kishi dadamni u c h r a t i b qolib, Sadir tog‘a avtomashinalar to‘qnashuvida o‘lganini aytganligi eski qadrdonining ezgin qo‘shig‘ini o‘zbekcha she’rga aylantirib asrab yurishga turtki bergan ekan. A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Kechki soat to‘rtlarda Qoymas darbozasidan qaytib shaharga kirdilar-da, darbozadan o‘n adim narida boshi tanidan oling‘an uch kishining gavdasiga y o ‘ l i q dilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bir kambag‘al kampir bor ekan. Unga tushida Xizr y o ‘ l i q ib, bozordan bitta tovuq sotib oling, debdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Men umrim mobaynida bo‘riga bir necha marta d u ch k e l ganman.* I.Sulton, Bo‘ri. *Uning uyi bir ko‘cha yuqorida edi, biroz yurib o‘ng qo‘lga burilarkan, it urishtirib, to‘polon ko‘targan yigitchalarga d u ch k e l di.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Sizlarga bilim berayotganlarning otalari yoki bobolari harb maydonida, balki, sizning bobongiz bilan t o ‘ q n a sh gan dirlar, bir-birlarini tanimagan, bilmagan holda o‘ldirmoq qasdida bo‘lgandirlar, vallohi a’lam.* T.Malik, Shaytanat. *Kechasi ayiq bilan t o ‘ q n a sh gan joyiga kelib, bu yerda ayiqning bironta izini, belgisini topolmabdi, haligi ayiq otgan toshning bo‘laklari ham, teggan joyi ham yo‘q...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Kir chayayotgan Adolat hovliga bostirib kirgan notanish erkaklarni ko‘rib, qo‘llarini peshbandiga artganicha o‘rnidan turdi-da, ularga r o ‘ b a r o ‘ b o ‘ l di.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *...qani endi yengilmas raqib timsoliga aylanib ulgurgan manavi yaramas qotmaning boplab kuragini yerga ishqalasa-da, yorug‘ yuz bilan dashtni tark etsa... Va har gal y u z m a-y u z k e l ganda o‘ziga sinovchan-sinovchan boqmish Nazar baxshiga g‘olibona boqsa, uning oldida ortiq tili qisiqligini tuymasa!* N.Norqobilov, Kurash. *Yusufning gapi og‘zida qoldi. Chunki kimningdir yo‘lbarsday iti darvozadan hurib chiqdi-yu, ularga tashlandi... Safning bu tomonidagi Yusuf esa it bilan y u z m a-y u z k e l ib, serrayib qoldi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Homid uzoq o‘ylab turmadi, yuzidagi sovuq bir o‘zgarish ichida: – Mayli, basharti y u z l a sh moqqa to‘g‘ri kelganda ham, men hozir, – dedi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Gap shundaki, 2012-yilning oktabr oyida “Milliy” teatr namoyish etgan Vina Delmarning “Omon bo‘lgil, azizim” spektaklini tomosha qilish asnosida ajabtovur holga tushdim: spektakl qanchalik mashhur bo‘lmasin, men u bilan ilk bor y u z l a sh ib turgan edim.* U.Hamdam, “Mualliflik o‘limi”ga siz ham ovoz berasizmi?

UCHRAMOQ II**, YO‘LIQMOQ, KO‘RISHMOQ** Huzurida bo‘lmoq. **Yo‘liqmoq** so‘zida yo‘l-yo‘lakaylik ta’kidi bor. **Ko‘rishmoq** so‘zining o‘zagiga

ko‘ra yuzma-yuzlik ta’kidi ochiq ifodalangan. **Ro‘baro‘ bo‘lmoq** so‘zida atayinlik ta’kidi qabariq aks etgan.

Avvalo, idoradagilarning hammasi bilan negadir xayrlashib chiqdi… Alisher Nurmatovga u ch r a di. O‘.Umarbekov, Olamushuk. *Asadulla Markaziy ijroqo‘mdan topshiriq olgach, yo‘lga otlanishdan avval Niyoziy bilan u ch r a b, tomosha matnini so‘radi.* T.Malik, Savohil. *Shuning uchun siz Hakimboyvachchaga y o‘ l i q ib, unga yalinsangiz, Yo‘lchiboyning arzimagan narsaga qamalganini, yot yerda yoppa-yolg‘iz qolganingizni aytib bersangiz...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qobilboyga u ch r a b, xotinining qabrini qanday qilib topishi va uchinchi kuni xaloyiqni chaqirib, yettisini ham, qirqini ham, yilini ham biryo‘la o‘tkazib yuborishni tayinlash, so‘ngra bozorkomga y o‘ l i q ib, u bilan ham vidolashishni diliga tugdi...* Sh.Xolmirzayev, Qariya. *O‘shanda k o‘ r i sh gan ekansizlarmi-yey. Qaysi bir kitobingizni o‘qigan ekanmi-yey.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Ma’zur tuting, yo‘lim tushib, bir k o‘ r i sh ib o‘taylik dedim. Bu xotinim – Hikoyat.* E.Boboyev, Musavvir.

V

VAFO, SADOQAT, SODIQLIK So‘zida, va’dasida qat’iy turish, do‘stga, yaqin kishilariga munosabatda sodiq turish. **Sadoqat, sodiqlik** so‘zlari kitobiy nutqqa xos.

U minglarni chorlab yalingan emish, Ammo qalbida yo‘q hech kimga v a f o. A.Muxtor, Darbadar. *Biroq Kobul noibi Omonulloning jimligi, yangi amirga v a f o si, sadoqatini bayon qilmay turishi uni sergaklantirdi.* T.Malik, Savohil. *Ular ekib ketdi muhabbatini, Ular ekib ketdi s a d o q a t ini, “O‘zbekistonman!” deb hayqirgan, Dalalarning cheksizligiga.* F.Kamol, Bobolar xotirasi. *O‘zicha tan bergan kishi bo‘ladi-yu, ammo masalaning tub mohiyati – butun kelajagi, muhabbati va bir dunyo orzu-havasi hali oldinda bo‘lmish Xurram qotma otliq yigitchaga nisbatan G‘ayratning o‘ziga xos ulug‘vor s a d o q a t ini hech qachon teran his eta olmaydi...* N.Norqobilov, Kurash. *Mayli, ko‘pchilikning talabini inobatga olamiz deb o‘z yurtining fuqarosiga s o d i q l i g i ni izhor qildi.* A.Obidjon, Meshpolvon jangga otlandi. *G‘ani qora shuni yaxshi biladiki, bu kabilar aytgan gapini hech qachon havoga sovurmaydi va, shuningdek, bunaqalar avvaliga birovga mehr qo‘ymasin, mehr qo‘ydimi, tamom – s o d i q l i k da itdan o‘tadi.* N.Norqobilov, Kurash.

VAFODOR, VAFOLI, SODIQ, SADOQATLI O‘z va’dasi va ahd-paymonini muqaddas tutadigan, so‘zida qat’iy turadigan. **Vafoli** ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **Sadoqatli, sodiq** ko‘proq adabiy nutqqa xos.

Ular xo‘p tinchibdi, toleyi kulib, Asli yo‘q narsani axtarmoq bekor. Men esa to hanuz umidga to‘lib Izlayman zaminda do‘sti v a f o d o r. A.Oripov, Yerdan o‘zga joyda… *Senga, do‘sti aziz, muhtaram ota-onangga, v a f o d o r xotiningga, shirin-shakar bolalaringga uzoq umr, shu umrga barobar saodat ato etsin!* E.A’zam, Manana. *Teng tengini topsa, qanday yaxshidir, yor v a f o l i bo‘lsa, asli baxt shudir*. Faxriyor, Baxshining sevgisi. *V a f o l i shodliqg‘a erishmoq uchun esa kurashmoq, hokimiyat egasi bo‘lmoq kerak.* T.Malik, Savohil. *Bu aqidani u qayerdan kovlab topgani noma’lum-u, lekin o‘zi bunga yurakdan s o d i q edi.* N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun. *Sayfullo – ustoziga nihoyatda s o d i q, mehribon yigit.* O.Husanov, Ustaning muhabbati. *Ayniqsa, balandparvoz shior shaklida otilayotgan bu so‘zlar ishonch-e’tiqodingizga zid bo‘lsa, teskari bo‘lsa-yu, o‘zingizni samimiy, s a d o q a t l i ko‘rsatib, bor kuchingiz bilan kaftni kaftga urmoqqa mahkum etilsangiz!* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Risolat erdan yolchigan, Rustam esa eng ulug‘,*

mo‘tabar orzusi – sevganiga yetishishdek tolega erishgandi, bu tole, saodat unga s a d o q a t l i hamroh va hamdam edi. Q.Kenja, Toshqin.

VAFOSIZ, **BEVAFO, SADOQATSIZ** O‘z va’dasi va ahd-paymonida turmaydigan. **Bevafo** ko‘proq kitobiy nutqda qo‘llanadi. **Sadoqatsiz** adabiy nutqqa xos.

– Ha, la’nati-ya! – so‘kindi Fotih Burhonovich va og‘ilxona tomonga yuzlanib yana g‘ijindi. – Ha, nomard!.. Ayollarniyam yoshi, kelishgani v a f o s i z bo‘ladi o‘zi!.. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Endi meni ezar ming bitta xayol,Ular o‘tkinchi do‘st, v a f o s i z yorlar.* A.Oripov, Oftobshuvoq. *Bu toj-u taxtni deb, qatl-u qirg‘inga yuz tutmagil, zero, toj-u taxt ila bevafo xotin orasida farq yo‘qdur, bolam.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Oradan ko‘p yillar o‘tibdi. Bir kuni tong mahali tul qolgan bechora juvon ko‘za ko‘tarib suvga chiqsa, eshik tagida b e v a f o eri turganmish.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Vatanga sadoqatdan ayrilib qolsa...Iymonsiz, vijdonsiz, e’tiqod-diyonatsiz, s a d o q a t s i z ham yashayapman, deguvchi odam yolg‘on so‘zlabdi.* T.Malik, Iymonlashish umidi.

VAHSHIY, YOVUZ, YIRTQICH Jonivorlar go‘shti bilan oziqlanadigan, insonlardan xoli tog‘, sahro va shu kabi joylarda yashaydigan, qo‘rqinchli bo‘lgan (jonivorlar haqida). **Yovuz** va **yirtqich** so‘zlarida yovuzlik ta’kidi ochiq aks etgan.

*Osmonda uchadiganlardan murdaxo‘r kalxatni, suvda suzadiganlardan akulani, ...v a h sh i y hayvonlardan sherni ham, boringki, jami jonzotni bitta qo‘ymay o‘pib chiqqan.*S.Ahmad, Lab haqida doston. *Mol-dunyosini ko‘paytirish uchun qumursqaday g‘imirlab, kezi kelganda esa v a h sh i y hayvon singari bir-birini g‘ajiydigan odamlardan kulib yuraverardi.* T.Malik, Shaytanat. *Bamisoli ertaklarda y o v u z maxluqqa, Qoradevga ko‘krak tutib tik hamla qilgan.* E.Vohidov, Umrim daryosi. *Kunbotarda bir y o v u z Dev bor emish, yalmog‘iz. Odamga dushman emish, Qon emish unga yemish.* H.Olimjon, Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod. *Shuni aytish kerakki, o‘sha vaqtda Toshkent atrofida bo‘ri, tulki, yo‘lbars va boshqa y i r t q i ch hayvonlar ko‘p bo‘lgan.* H.Ziyoyev, Devor qurshovidagi hayot. *...Ba’zida u bolani o‘rmonda y i r t q i ch hayvonlar yeb ketsa yoki daraxtdan qulab o‘lsa koshkiydi, deb ham qo‘yar, ammo darhol bu o‘yini nari quvardi...* I.Sulton, Xun.

VAHSHIYLARCHA, VAHSHIYONA, YOVVOYILARCHA Vahshiylarga xos bir tarzda. **Vahshiylarcha, vahshiyona** so‘zlarida o‘ta shafqatsizlik ta’kidi ochiqcha ifodalangan, **yovvoyilarcha** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos.

– Bajurda qonxo‘rlarcha qatliom qilinganlar uchun ham, Panipatda v a h sh i y l a r cha otilgan harbiy asirlar uchun ham biz qasd olmog‘imiz kerak! – qat’iy qo‘shimcha qildi Sherxon. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ayniqsa, To‘lan to‘lpoq qizini uzatgan to‘yda qozonga yaqinroq borganimni bilaman, yelkamdan v a h sh i y l a r ch a tutamlab, ayamay siltab tashlagani po‘kanimga zildek botganidi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Buxoro arkiga borgan*

yigirma bir kishini v a h sh i y o n a o‘ldirgan. S. Ayniy, Qullar. *So‘ng birdan katta-katta ochilib ketgan ko‘zlari olayib, lablari pir-pir uchgan ko‘yi boshini mahkam changallagancha v a h sh i y o n a hayqiriq bilan yo‘lida uchragan projektorlar-u odamlarni ag‘darib-yiqitib borib leytenantiga tashlangan…* Y.Tog‘a, Quduq. *Bemor Rajabov y o v v o y i l a r ch a hayqirib... “Internatsional” aytdi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi.

VAQT, PAYT, ZAMON, FURSAT, MAHAL, CHOG‘, KEZ, KEZAK, MAVRID, PALLA, MUDDAT, DAM, ON, LAHZA, MAVSUM Yuz berib turuvchi voqea-hodisa va narsalarning asrlar, yillar, soatlar, daqiqalar, soniyalar va h.k. bilan o‘lchanadigan davomiyligi, shunday o‘lchov belgisiga ega bo‘lgan obyektiv hodisa. **Vaqt** so‘zi keng, umumlashtiruvchi tushunchaga ega. **Payt, zamon, mahal, chog‘, kez, kezak, palla, muddat, dam, on, lahza** so‘zlari ma’lum chegaralangan vaqtni ifodalaydi, ular ko‘pincha ifodalanayotgan vaqt chegarasini yanada aniqlab ko‘rsatish uchun boshqa so‘zlar bilan birga ham qo‘llanadi. **Zamon,** asosan, ma’lum bir davrga nisbatan qo‘llanadi. **Payt, mahal** so‘zlari vaqtning o‘rtacha darajasini, **on, lahza, chog‘, palla, dam** so‘zlari qisqa fursatni bildiradi. **Mavrid** III shaxs egalik qo‘shimchasi va *kelmoq* so‘zi bilan ko‘p qo‘llanadi. **Muddat** so‘zida muayyan maqsad uchun kerak bo‘ladigan fursat ta’kidi aks etadi, adabiy nutqqa xos. **Lahza, on, kez,** ko‘proq kitobiy nutqqa oid. **Kezak –** shevaga xos so‘z.

Navbatga turishga turdim-u, ichimga g‘ulg‘ula tushdi: nahotki, bir piyola suv haqini to‘layman deb shuncha odamni poylasam, oltindek v a q t imni ko‘klarga sovursam? U.Hamdam. Bir piyola suv. *– V a q t i kelib Lallay aka o‘sha suvni topsa, ajab emas, – dedi Chori Lallayga yuzlanib* G‘.Shermuhammad, Quduq. *Bu shahar chinlarning xangzu changzu qabilasining bosqini p a y t ida g‘oyib bo‘lgan, degan taxmin bor.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *G‘isht quygan p a y t imda o‘qishga iloj yo‘q edi, charchayman, uxlab ham olish kerak, jazirama kunlari ham kallaga kitob kirmaydi, Bulung‘ur bilan Qorasuv o‘ziga tortaveradi.* A.A’zam, Quroq. *Bir rahmdil, bir oqko‘ngil, bir ilinchakki, bu z a m o n ning yosh-yalangi orasida kam topiladi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...dashtlik cho‘ponlarga xos bo‘lmagan bir odat – har kungi tush mahaldagi eng sevimli mashg‘uloti – qumg‘onda choy qaynatish f u r s a t ini poylab, kun qiyomga kelishni sabrsizlik bilan kutmoqda edi*. N.Norqobilov, Kurash. *Tuya so‘yib chaqirsak ham kelishga f u r s a t i yo‘q odam, o‘z oyog‘i bilan kelib o‘tirsa-ya.* A.Yo‘ldosh, Bozor. *...Ertasi kuni Ostonaqul buva odatiga ko‘ra, qora qutilarni titkilayotgan m a h a l da men katta yo‘l bo‘yidagi bekat ustuniga “Uyimni sotaman” degan e’lon yopishtirayotgan edim…* T.Eshbek, Ostonaqul buvaning “boyliklari”. *Chollar masjiddan o‘sha m a h a l da chiqadi-da, birodar.* E.A’zam, Farrosh kampirning tushi. *Ma’qul. Ammo bunda sizning maqsadingizg‘a qarshi bir gap borkim, hukm ch o g‘ ida qushbegi sizni yo‘qlasa nima bo‘ladir?* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *…rasm chizishning turli sir-asrorini bolalik ch o g‘ idan*

hijjalab o‘rgatib kelgan bo‘lsa-da, qizi, baribir, tirishqoq talabaligicha qoldi. E.Boboyev, Musavvir. *Lekin o‘qtin-o‘qtin daryoning jazavasi tutar, shunaqa kezlarda tunni boshiga ko‘taradigan shovqin-suronlardan, jarlarning o‘pirilib-shaloplashidan qishloq ahli tahlikaga tushardi*. Q.Kenja, Toshqin. *Shunday kez larda, bilmadim, negadir yig‘lagim, o‘ttiz besh-qirq yil ortga qaytgim, dunyoning bor zavqini o‘yindan iborat deb tushungan bolakayga aylanib qolgim keladi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Bu mahluqdagi ichki botiniy sir yolg‘iz Mamat morbozgagina ayon edi. Bu ichki botiniy tuyg‘uni ifodalash mavridi emasdi.* O.Ulug‘ov, Sadab. *Har bir ish, tadbirning qulay mavridi kelishiga ishonar va uni umid-bardosh bilan kuta olardi*. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Bahor adoqlay boshlagan pallada odamlar Shayxontahurga oqdi*. T.Malik, Savohil. *Men hali tug‘ilmasimdan burun Nusa xola bilan eri Sadir tog‘a qish ichi biznikida turishganini, yalpizlar quloqlay boshlagan pallada ikki ko‘tarim chiqib-chiqmaydigan ko‘chini yig‘ib, yangi yerlar o‘zlashtirilayotgan cho‘lga ketishgach, o‘zlariga kichik bir kulba qurib olishganini eshitgandim.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Dedi soqchilari ularga erk bermas go‘yo hali siyosiy mahbusning qamoq muddati tugamaganday.* Faxriyor, She’rlar. *Terakzorga hovliqib, mudda t idan avvalroq borgan yigitcha qadrdon baqaterak yoniga gazeta to‘shab, shitirlagan tovushni poylab, intizorlik bilan, yuragi dukullab o‘tirardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Ertani o‘ylama, cho‘chima sira, Ayni dam yiqilib tushmasang bo‘ldi.* B.Fazliddin, She’rlar. *Tobora qiziyotgan bozorni tark etgan dam da mo‘maygina foyda ilashtirib qaytgan mullajiring tafti bag‘rini yoqimli isitayotgan edi.* A.Dilmurod. Qo‘ng‘iroq. *Bu jiddiy va o‘ta dahshatli sha’ma G‘ani qoraning yuragiga battar qutqu solib, tang va zarur o n larda pinhonona qo‘llaydigan qing‘ir amallardan foydalanish imkoniyatlaridan mahrum etgan esa-da, o‘z navbatida, uning izzat-nafsiga qattiq tegadi*. N.Norqobilov, Kurash. *Bunday o n da amir qat’iy qarorini anglatishi lozim, lekin u galga solyapti.* T.Malik, Savohil. *Biroq shu l a h z a dayoq qarshimdagi yuqori joyda yotgan Boyning g‘azab bilan uyulayotgan qovoq-tumshug‘iga nogoh ko‘zim tushdi-yu, damim ichimga tushib ketdi.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Nasim o‘rtog‘i Anvarning yatimlig‘ini otasig‘a bildirib, majbur qilg‘an bo‘lsa kerak, bir necha hayit m a v s u m larida Muhammad Rajabbek Anvarga kiyimlar ham berdi* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Rostdan ham tepada suv ombori qurilgach, daryoning eni bir chaqirimdan ziyod o‘zanining uch-to‘rt yerida egri-bugri shaldirama soylar hosil bo‘lgan, faqat ko‘klamda, yomg‘ir m a v s u m ida biroz ko‘payardi-yu, burungiday pishqirib, ko‘pirib, qirg‘oqlarga xavf-xatar solib oqadigan suv odamlarning tushiga ham kirmay qo‘ygan edi.* Q.Kenja, Toshqin.

VARRAK, VARVARAK, BODPARAK, PIRPIRAK Bir taxta yupqa qog‘ozga yoki matoga qamish yoki savag‘ich cho‘plarini belgili tartibda qo‘yib, yelimlab tayyorlanadigan va ipga ulab, shamolda uchiriladigan o‘yinchoq. **Var-**

varak so‘zida uning chiqaradigan tovushi ochiq ifodalangan. **Bodparak, pirpirak** shevaga xos.

Qirlarda “chuchmomo topdi”, tog‘larda “lola uzar” sayllari avj oladi, dashtlar basma-basiga v a r r a k uchirayotgan bolakaylar bilan to‘lib-toshadi. A.Obidjon, Kezorgan boychechak. *Hujramda yolg‘iz o‘tirganimda yoshlik, bolalik chog‘larimizda birga o‘ynaganlarimiz, tomma-tom chopib, v a r r a k uchirganlarimizni eslayman.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qosim Shamol andaki yengilroq, O‘xshab uchar xuddi b o d p a r a k ka.* Zavqiy. *Bu kishim bo‘lsa, bamisoli bir p a t p a r a k. Sal narsaga uchaman, deydilar.* T.Po‘lat, Ichkuyov. *Kulgisidan osmonning jomi jaranglar, Tentak shamol yo‘lini poylar v a r v a r a k.* G‘.G‘ulom, She’rlar. *Bu janjalistondan vaqtida g‘oyib bo‘lish uchun oyoqlarimni v a r v a r a k k a aylantirganimda ortimdan Sangin tandirchining baqirig‘i eshitildi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Oxirida uni boshqa – uzunroq va yo‘g‘onroq qamishning uchiga ko‘ndalangiga o‘rnatsangiz, tamom-vassalom, p i r p i r a k tayyor bo‘ladi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *“Oling, quda-bering, quda”. O‘ynaganlar “Oq-ko‘k terak” Chopa olar naq p i r p i r a k. Yetti pushtdan qolgan meros*. A.Obidjon, Dahshatli Meshpolvon.

VATAN, MAMLAKAT, YURT, DIYOR, EL Inson tug‘ilib o‘sgan va fuqarosi hisoblangan hudud, joy. **Vatan** so‘zida insonning yashash joyi va ma’naviy tushunchalar o‘zaro birlashgan. **Mamlakat** ko‘proq adabiy nutqqa xos. **Yurt** so‘zi ko‘proq oddiy nutqqa xos, hudud bilan birga shu hududdagi xalqni ham ifodalaydi. **Diyor, el** poetik uslubga xos.

V a t a n deb jon bergan har botir xoki, Dilda nafas olsin, dilda yashasin. X.Davron, Vatan. *Shamayda ekanman, qanotim bo‘lsa, v a t a n ga uchsam, to‘ppa-to‘g‘ri xon o‘rdasiga tushsam-da, o‘risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig‘ yozib o‘risning idora tartibini dasturilamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o‘z elimni o‘risniki bilan bir qatorda ko‘rsam...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Yozuvchi o‘z m a m l a k a t ida, o‘zi biladigan odamlar va, eng asosiysi, o‘zi bilgan hayot ichida yozuvchi, uning xayol-tasavvurga boyligi o‘z yurtida ish beradi, ya’ni u asarlariga materialni shu hayotning o‘zidan oladi...* A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *Harqalay, sen sinfdoshlaring tomonidan tan olingan “jug‘rofiyachi” eding: xaritaga orqa o‘girib turib bolalarning falon shahar, falon tog‘ yoki daryo qayerda, degan savollariga falon qit’a, falon m a m l a k a t da, falon joyda, deya aniq javob qaytararding.* S.Anorboyev, Yaxshilik urug‘i. *Men jilg‘aman, Daryo bo‘lib to‘lgim keladi. Ona y u r t im, Senga o‘g‘lon bo‘lgim keladi* E.Vohidov, Men jilg‘aman. *Yorug‘ dunyodagi mustaqil davlatlar qandayin haq-huquqqa ega bo‘lsa, bizning ozod y u r t imiz ham shu huquqlar egasidir*. T.Malik, Savohil. *Qayda sendek vafoli yor, Qayda sendek tanti d i y o r?* M.Yusuf, O‘zbekiston. *U ham umrida yolg‘iz bitta tosh bosadigan ish qilgan – otamizni surgun yeridan bemalol toat-ibodat qilish mumkin bo‘lgan bir d i y o r-*

ga o‘tkazib qo‘ygan edi. M.Mansur, Judolik diyori. *O‘ris shaharlariga borib savdo qilg‘uchilar Turkistonda juda oz hisobda bo‘lib, chet e l larni ko‘rgan Otabek majliska tansiqlandi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Egasi bir oymi-ikki oydan buyon tijorat ishlari bilan chet e l da ekan, “osh” jo‘ralari danap-sanaplarini eltib bas deguncha bazm qurishibdi, shunda badmastlik tufaylimi, beboshlik orqasidami, shiyponga o‘t ketibdi.* E.A’zam, Bizning tog‘a.

VAYRONA, **XAROBA** Buzilib, qulab, qarovsiz qolgan joy, inshoot, imorat. **Vayrona** ko‘proq adabiy tilga xos. **Xaroba** oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi.

Do‘st bilan obod uying, Gar bo‘lsa u v a y r o n a ham, Do‘st qadam qo‘ymas esa, V a y r o n a dir koshona ham. E.Vohidov, Do‘st bilan obod uying… *– Biz... biz... – deb Sohibqiron hayratda anchagacha so‘z topolmay, bu v a y r o n a ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, – ul sizningdur, biz olmaymiz... Illo, bizga ash’oridin aytsin*. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Uy bo‘lsa yarim x a r o b a. Egasi ko‘chib ketganday*. X.Abdullayeva, Hovlining egasi. *Yoshi qirqni qoralab qolganiga qaramay so‘qqabosh yashasa, ustiga ustak, ulkan shahardan chetda – istiqomatchilari birin-sirin manguga tark etgan, bugunga kelib nurab bitayozgan x a r o b a qishloqda moxovdek bir o‘zi tursa, kim ham uning hushsiz yotganidan xabar topardi deysiz...* U.Hamdam, Otash.

VAZIFA, BURCH, MAJBURIYAT Amalga oshirilishi, bajarilishi lozim bo‘lgan ish yoki masala, zimmadagi ish. **Burch** so‘zida bajarilishi majburiy hisoblanuvchi ishlik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Majburiyat**, asosan, fuqaroviy, xizmat vazifasiga ko‘ra bajarishga majburlik ta’kidiga ega.

Omon merganga bu v a z i f a juda ma’qul tushdi. Sh.Xolmirzaev, Omon ovchining o‘limi. *Teatr jamoasi ko‘pincha dala-ko‘yga yallachilikka chiqar, azbaroyi vijdon azobi yoki bekorchilikdan qo‘shilib borgan Pakana gohida ocharchi-boshlovchilik qilsa, gohida ma’murlik v a z i f a sini o‘tar edi*. E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Bu mening vijdon oldidagi qarzim, haqoratlangan, oyoqosti qilingan muhabbatim oldidagi b u r ch im edi.* S.Ahmad, Bahor suvlari. *Men, qaytarib aytaman, yakka o‘zim, ko‘ksimni qalqon qilib jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashdek b u r ch imga sodiq qoldim!* A.Yo‘ldosh, Bozor. *Toshkentga jo‘nash uchun o‘zida m a j b u r i y a t his etar… boshqa chora yo‘q edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *...eshikni taqillatish ham, javobni kutmay ichkariga kirib kelish ham, hatto “o‘rtoq professor” deya murojaat qilishlari ham azbaroyi allatovur dasturda bitilgan m a j b u r i y a t lar rioyasi-ijrosidek, ikki tomchi suvdek bir xil.* X.Do‘stmuhammad, Umid guli.

VAZIYAT, AHVOL, HOLAT, SHAROIT Tabiat, jamiyat va hayotdagi muayyan ahvol, holat, sharoit. **Vaziyat** umumadabiy tilda, ayniqsa, rasmiy va ilmiy uslublarda ko‘proq, oddiy so‘zlashuvda juda kam qo‘llanadi. So‘zlashuv nutqida **ahvol** keng ishlatiladi, **holat** nisbatan kam qo‘llanadi. **Sharoit** so‘zida “imkon beradigan yoki to‘siq bo‘ladigan holat” ma’no ta’kidi bor.

– Bu ayol buncha sabotli bo‘lmasa, – deb o‘yladi u. – Shunaqa v a z i y a t da ham odob chegarasida qolish shartmi? Dod solmaydimi? T.Malik, Shaytanat. *– Said, to‘g‘ri tushuning, – Manzura erining qarshisiga stul qo‘yib o‘tirdi, – v a z i y a t ancha qaltis.* U.Hamdam, Muvozanat. *Biron nayrang ishlatib bu noqulay a h v o l dan chiqish yo‘lini ko‘zladim, lekin o‘ylab-o‘ylab “eng yaxshi hiyla – to‘g‘rilik” degan qarorga keldim...* A.Qahhor, Dumli odamlar. *Uning holatidan, nihoyatda tang a h v o l da qolgani bilinib turardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Har ikki h o l a t da ham o‘ziga-o‘zi hisob berib qaytadi. Shoir uchun el nazaridan qochish – eng oliy jazo.* E.Vohidov, She’riyat – mehr demakdir. *– Xo‘sh, Namozov, endi ayt. – Avval xotinim chiqib ketsin. U bilmaydi. – Sen bizga shart qo‘yma, Namozov. – Bunaqa h o l a t da aytolmayman.* T.Malik, Shaytanat. *Uning bu qadar hayratga tushishining boisi shu ediki, uni o‘zidan ham yashirmoqchi bo‘lar, shuning uchun eslashni ham istamas, go‘yo s h a r o i t ga qarab tavakkal ish tutadigandek edi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Mening hozirgi s h a r o i t imda siz bilan do‘st tutinib yurishimning o‘zi qahramonlik emasmi?* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz.

VIJDON, INSOF, DIYONAT Kishining o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissi, iisoniylikning asosiy belgilaridan biri. **Insof** so‘zida odillik doirasidalik ta’kidi mavjud. **Diyonat**, asosan, adabiy tilda qo‘llanadi.

Ammo bundog‘ eng jo‘n bo‘hton bilan qoralanishimg‘a v i j d o n im qarshisida so‘ng daraja muazzabman, taqsir! A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Teatr jamoasi ko‘pincha dala-ko‘yga yallachilikka chiqar, azbaroyi v i j d o n azobi yoki bekorchilikdan qo‘shilib borgan Pakana gohida ocharchi-boshlovchilik qilsa, gohida ma’murlik vazifasini o‘tar edi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *I n s o f ham kerak axir, xo‘jayin! Sizning yerlaringizni sug‘orib bo‘lgandan keyin suvni yana Qumariqqa ochib qo‘ysa bo‘ladi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yana shotirlarning o‘zlariga i n s o f tilashdan o‘zga chora qolmadi (Shef ulgurjiroq pulli savdo-sotiqlarga xodimlarning faqat o‘zlarini yubormasdi).* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Kokildor noiloj Sarsara urushiga jo‘naydi. Lekin kecha-yu kunduz ibodat qiladi, duo qiladi: – Yo, Tangrim, qavmimga insof va d i y o n a t ber, yo Tangrim, Sarsarani o‘z himoyangga ol. Men mazlum bandangga to‘zim ber.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Baxshi sifatida o‘ziga xos nufuzga egaligi bois, u bor davralarda bu xil bachkana gaplar og‘izga olinmas, ikkinchidan esa salgina burun d i y o n a t va kamtarlik to‘g‘risida ajoyib bir terma ijro etgan bo‘lib, endi navbatdagisiga hozirlik ko‘rayotgan edi.* N.Norqobilov, Kurash.

VIJDONLI, INSOFLI, DIYONATLI Vijdonan ish tutadigan. **Diyonatli** ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

O‘g‘lingizni men yomon yo‘lga boshlabmanmi, halol bo‘lgin, v i j d o n l i bo‘lgin, birovning haqini yeyishga o‘rganmagin desam, buning nimasi yomon? X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *– Misol uchun ham aytma. Sotvoldi v i j d o n l i*

odam edi. Odam o‘lsa vijdoni ham qo‘shilib o‘ladi, deb o‘ylaysanmi? – dedi Mamasoli Turg‘unni qo‘llab. T.Malik, Xazonrezgi. *To‘g‘ri, bir malay kerak. Lekin i n s o f l i odamni topish qiyin.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Dadamni bir yilga qamashgan ekan, boshliqlari i n s o f l i roq bo‘lsa kerak, oilangda bayram qilaqol, deb muddatidan avvalroq bo‘shatib yuborishibdi, yangi yil kirishiga ikki kun qolganida lop etib uyimizda paydo bo‘ldi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Shayx Muborak o‘ta d i y o n a t l i, bilimi zo‘r, qalbi pok alloma ekan.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Shoir o‘z adl-u diyonati bilan ko‘pchilik orasida obro‘-e’tibor qozongan va o‘z jigarporalari, qondoshlarining ham d i y o n a t l i bo‘lishini istagan kishilar xonadonida unib-o‘sdi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata.

VIJDONSIZ, DIYONATSIZ, INSOFSIZ, NOINSOF, NOMUSSIZ, BENOMUS, MUTTAHAM Vijdonan ish tutmaydigan, vijdoni yo‘q. **Vijdonsiz, nomussiz, benomus, noinsof, insofsiz** so‘zlari o‘zaro farqli xususiyatga ham ega bo‘lib, bu ularning o‘zagidagi ma’nosidan kelib chiqadi. **Muttaham** so‘zida firibgarlik, qalloblik ta’kidi ham anglashiladi.

– V i j d o n s i z to‘ng‘iz, – dedi-da, ixtiyorsiz o‘rnidan turib ketdi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *– Hali men v i j d o n s i z manmi? – shunday deb o‘rnidan turishga harakat qilgan edi, yonida o‘tirgan Obid yengidan tortib, qimirlatmadi.* T.Malik, Xazonrezgi. *– U juda i n s o f s i z boy, – dedi temirchi, – ammo surishtirsang, hamma boy bir tekisda i n s o f s i z.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Agar sutga suv qo‘shadiganni insofli desang, mayli, bizlarni i n s o f s i z deyaver. Oma bilib qo‘y: biz shu yoshga kirib, birovning bir tishlam noniga xiyonat qilmadik.* T.Malik, Xazonrezgi. *Ha, n o i n s o f, ko‘rnamak shayton, shunday ulug‘ rejani beliga tepib o‘tiribdi-ya!..* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Kim n o i n s o f ? Ikki tannozning o‘rtasida o‘tiribsiz-ku, yana yolg‘izman, deysiz...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Nimaga sen xolangga, biz beramiz degan kishiga tegmayman, deb emishsan? Qanday beting bo‘ldi, n o m u s s i z?* Hamza, Paranji sirlari. *Agar inson go‘zal tarbiyaga musharraf bo‘lsa, butun umr baxtiyor bo‘lg‘usi, agar buzuq odatlarga o‘rgansa, axloqsiz, n o m u s s i z, tanbal, insonlik turqini yo‘qotgan maxluq, ollodan qo‘rqmaydigan, shariatni hamisha oyoqosti qiladigan bo‘lur.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shu ayol, shu b e n o m u s ayol mening xasmim edi.* S.Ahmad, Ufq. *– Muhtaram hokim rostini aytdi, – beixtiyor nigohini olib qochdi qozikalon. – Nafsi hakalak otgan m u t t a h a m Erxon xazinamiz barakasini uchirmish!* A.Dilmurod, Xilvat. *So‘ng biz – jabrdiyda da’vogarlarni yupatgan bo‘ldi: – Xotirjam bo‘linglar, topamiz, albatta, topamiz! Bugun-erta qo‘lga tushadi u m u t t a h a m!* E.A’zam, Bir daqiqa ko‘zingni yum.

VISOL, VASL, DIYDOR, UCHRASHUV Sevikli yor vasliga yetishuv. **Vasl** so‘zida poetik bo‘yoq kuchli, kitobiy uslubga xos. **Diydor** badiiy uslubga, **uchrashuv** oddiy so‘zlashuvga xos.

Soy sohili – so‘lim-so‘lim, Soy bo‘yiga tushsa yo‘lim, Sevganimning v i s o l i-ni So‘lim soydan so‘rar ko‘nglim… Q.Ochilov, Soy sohili. *Hayot oqimi mangu: uning o‘yinlari g‘oyat ajabtovur, ba’zan esa beshafqat: v i s o l lar va ayriliqlar, quvonch-kulgi va qayg‘u bir-biridan nafratlanmay, qo‘shilib, sel kabi bostirib kelaveradi, surib kelaveradi… kelaveradi…* T.Malik, Xazonrezgi. *...v a s l iga mushtoq bo‘lgan oshiq-ma’shuqlar yonma-yon qad rostlabdilar. El nazdida, ular murod-maqsadlariga yetibdilar...* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Buni qarangki, Nazar baxshi o‘sha malakning v a s l iga yetisholmagan esa-da, o‘lmoqni xayoliga ham keltirmadi.* N.Norqobilov, Kurash. *Davom etaversin hayot va d i y d o r, Xudo, shu damlarni parishon qilma*. S.Sayyid, Diydor. *Kami-ga Chaman akam ovozini baralla qo‘yib, unga taskin berardi: – Shunga shun-cha tashvishmi? Muhimi, o‘zini ko‘ribsan, d i y d o r iga to‘yibsan, sovg‘a-yu, salomlarini ola kepsan.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ertasi allaqayerga ilk u ch r a sh u v ga borganimizda so‘zlagan nutqini eshitib, men unga batamom tan berdim*. E.A’zam, Shovqin. *Karim bu orada Mohbibini, Adhamni, bugungi bo‘-lajak u ch r a sh u v ni o‘ylamaslikka tirishdi*. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

VOQEA, HODISA, GAP, SINOAT, HOL, HOLAT Muayyan vaqtda voqe bo‘lgan (bo‘layotgan, bo‘luvchi) narsa, ish-hodisa, holat kabilar. **Voqea** so‘zi uslubiy betaraf. **Hodisa** so‘zida ko‘proq “kutilmaganlik” ifodasi ochiq ifodala-nadi. **Gap** so‘zi bu ma’noda umumxalq tiliga xos. **Sinoat** ham so‘zlashuv nutqi-ga xos, unda noaniqlik, sirlilik ta’kidi anglashiladi. **Hol, holat**, asosan, ilmiy va rasmiy uslubda qo‘llanadi.

O‘zi men qo‘rqinchli v o q e a larni, uchar otlarga mingan qo‘rboshilar haqida qiziq-qiziq hikoyalarni, undan keyin devlar, ajdarholar to‘g‘risidagi ertaklarni yaxshi ko‘raman. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Baxtiga, Rustam, garchi o‘sha “gaplar”, “hodisalar”dan qisman, farazan xabardor bo‘lsa-da, o‘tmishni kovlashtirib, juvonning bag‘rini ezib, jarohatini yangilamas, qancha yillar ortda qolib ketgan nomatlub v o q e a larni yuziga solmasdi.* Q.Kenja, Toshqin. *Zebi bo‘lsa o‘sha zaharlanish h o d i s a sidan beri doim karaxt bir holda bo‘lardi; uning miyasi birdan falajga yo‘liqqan kabi edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Uyga qaytib, yostiqqa bosh qo‘yishlari bilan boshlangan bu favqulodda h o d i s a lar bois kayflaridan birpasda asar ham qolmagandi.* H.Shayxov, Iblis bilan muloqot. *Ulg‘aydik va lekin oldda ko‘p g a p bor, Davra shamollari esib o‘tgaydir.* A.Ori-pov, Hadis. *Bu g a p dan bola negadir qattiq hayajonga tushdi*. O.Tolib, Oqsoq mushukcha. *Biroq bu safar shunday bir s i n o a t yuz berdiki, tongdanoq yer-ko‘k-ka otash purkab kelayotgan garmsel hayratdan bir lahza dong qotdi.* N.Norqobilov, Yetim qolgan gullar. *Yurganda jussasiga yarasha pildirabgina yurmay, salmoq bilan, butini yirtgudek yirik-yirik qadam tashlar, gapirganda mavrid-bemavrid so‘lish olib, salmoq bilan, ta’sirchanlikka intilibmi yoki diqqatni tortish uchunmi, xuddi maxfiy bir s i n o a t ni ochayotgandek pichirlab gapirar edi.* E.A’zam, Pa-kananing oshiq ko‘ngli. *Uzun so‘zidan xulosa chiqarib, yer yuzidagi xalqlar*

taraqqiyot zinasining turli bosqichida, biron bosqichda turgan xalq orasida o‘tgan bosqich kishilari ko‘rinib qolsa, bunga tabiiy bir h o l deb qarash kerak, degan fikrni aytdim. A.Qahhor, Dumli odamlar. *O‘zimni gunohkordek his etganim uchun etim jimirlab ketdimikan, deb turuvdim; yo‘q, shunchaki, odatiy h o l yuz berib, yana kuchukka do‘ngan ekanman.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Mehmon Havo hududiga begona jangovar uchoqlarning kirib kelishi esa favqulodda h o l a t bo‘lib, mabodo barhayot odam boshqalarning ixtiyoriga o‘tib ketsa, u holda begona uchoqqa qarata o‘t ochish va yo‘q qilishga buyruq berilgan edi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Botirxonga bu h o l a t ma’qul bo‘ldi va opaning bu kayfiyati kelinga ham yuqishini taxmin qilgani uchun voqeani yanayam bo‘rttirib hikoya qila boshladi.* Sh.Xolmirzayev, Qaytish.

VOY, DOD, OH, VOH, VOYDOD G‘am, qayg‘u, alam, afsus, hasrat yoki og‘riqni ifodalaydi. **Voydod** so‘zida belgi darajasi yanada kuchayadi.

– V o y, yana biron shum xabar keldimi? – rangi quv o‘chib so‘radi Hamida. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ayamning to‘satdan rangi quv o‘chdi, v o y o‘lmasam, deb ko‘ylagining yoqasini tutamladi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *– E, odamlar, erimning dastidan d o d! Bu olim emas, zolim-ku! – deya u battar ayyuhannos soldi.* Gazetadan. *O h, u yo‘q, bunday yigit to‘yida, xalqning to‘yida yo‘q. U yer bag‘rida!* Oybek, Tanlangan asarlar. *O h bolam... sen qabr azobi nima ekanini bilmaysan...* T.Malik, Shaytanat. *Beqasam choponlik: – Voh, o‘ldim-a! – deya baqirdi. Peshonasini ushladi. Taltangladi, gandirakladi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *V o y d o d, xaloyiq, bu qanday erkakki, xotinini birovga qo‘shib qo‘yib, o‘zi eshik poylab yotadi! V o y d o d, xotiningga qo‘shgani bo‘ydoq yigit qurib ketganmidi!* A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Voydod, qayerga boray? Kim eshitadi ohimni!.. Dunyo bedarvoza bo‘lib qoldi! Voydod!..* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

VOYVOYLAMOQ, VOYLAMOQ, OH-VOH QILMOQ Ruhiy, jismoniy azobga yoki og‘riqqa chiday olmay faryod chekmoq. **Voyvoylamoq, voylamoq** sinonimik qatordagi boshqa so‘zlarga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. **Oh-voh qilmoq** so‘zida belgi darajasi ortiq.

Menday ko‘sa ko‘chada v o y v o y l a di, Kuyganidan necha alvon so‘yladi. “Ravshan”. *Yotar vaqti ayolimiz o‘ng oyog’i boshmaldog’ini ushlab-ushlab v o y v o y l a di.* T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Kipriging charxlanib “shir-shir” shu oqshom menga yoylansin, Menga o‘q tegsin-u bunda, dushmanim unda “v o y” l a nsin.* A.Obidjon, Bezgakshamol. *Shu kunlarning birida Oydin xola: “Ey Xudo, men senga nima gunoh qiluvdimki, meni buncha azoblamasang, qaysi gunohim uchun” deb o h-v o h q i l di-yu hushini yo‘qotdi.* N.Bozorboy, Chiroq yoqib, o‘zini ham yoqqanlar. *Xurram qotmaning “dard”larini jon qulog‘i bilan tinglardi-yu, so‘ng, har galgidek, hanuz o‘ziga qiya boqmay, ishq otashida qovurib kelayotgan qandaydir qizning nomini tutib, o h-v o h q i l moqqa tushardi...* N.Norqobilov, Kurash.



X

XABAR, DARAK, OVOZA, AXBOROT, AXBOR, MA'LUMOT, YANGILIK Biror voqea-hodisa, shaxs, narsa-predmet haqida ma'lumot beruvchi, undan ogoh etuvchi ma'lumot. **Ovoza** so'zida hamma yoqqa tarqalganlik ta'kidi anglashiladi. Oddiy so'zlashuvda bu so'z o'rnida *gap-so'z, mish-mish* so'zlari ham ishlatiladi. **Axborot, axbor** so'zlari ko'proq kitobiy nutqqa xos. **Axbor** so'zi nutqda kam qo'llanadi. **Yangilik** so'zida ilgari ma'lum bo'lmaganlik ta'kidi mavjud.

Arg'unning x a b a r iga ko'ra dushmanning katta qo'shini Rafqondan o'tib, Konibodom sari kelayotgan edi. Mirmuhsin, Me'mor. *Hamidning bedavo dardga chalingani, nari borsa, uch-to'rt oylik umri qolgani haqida sovuq x a b a r tarqaldi.* A.Yo'ldosh,Vido ziyofati. – *Eringizdan shu chog'gacha d a r a k yo'q-a? – dedi u kulib turib.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *To'y o'tganiga ham yigirma kundan oshdi. Zulfiyadan esa hamon d a r a k yo'q.* S.Tursunov, Chavandozning ko'ngli. *Qorasochning dong'i, o v o z a si boshqa mamlakatlarga ham yoyilib ketibdi.* "Qorasoch pari". *Yo'rg'aning ta'rifi zo'r, o v o z a si Qashqa vohasini tutib ketgan.* J.Beknazar, Qashqa yo'rg'a. *...Adiblar jim o'tirib, radiodan "sovinformbyuro"ning kechki a x b o r o t ini eshitishardi.* O.Yoqubov, Izlayman. *...Asrorning bu ma'lumotidan qanoatlanmagan vrach peshanasini tirishtirib, a x b o r o t ini davom ettirdi...* T.Malik, Talvasa. *Yer ichida ko'milib yotgan hamma oltin, kumush Yuzaga chiqdi bari, bois anga a x b o r, o'quv.* H.Niyoziy, Asarlar. *Oy shu'lasida yaltirab turgan ko'kimtir ko'zlaridan qandaydir muhim m a' l u m o t ni aytishga chog'lanayotganini payqab qoldim.* I.Nishonov, Afg'on shamoli. *Zohid suhbat bayonini ma'lum qilib, O'rinbosarning m a ' l u m o t ini ham qo'shib qo'ydi...* T.Malik, Shaytanat. – *Qobilbek tomorqasini sotarmish. Bu y a ng i l i k ni eshitgan Tolibjon ota oromini yo'qotdi.* A.Jo'rayev, O'tar dunyo. – *Ma'qul, ma'qul, egachi! – dedi Oqibatxon, yuziga mamnunlik ifodalari toshib, – Xo'b ajoyib y a ng i l i k lar bor!* O.G'afurov, Ayol ori.

XABARDOR, OGOH, VOQIF, BOXABAR Biror xabarga ega, ma'lumoti bor. Nutqda bu ma'noni ifodalashda **xabardor** so'zi eng ko'p qo'llanadi. **Ogoh, voqif** so'zlari, asosan, kitobiy uslubda uchraydi, **voqif** so'zi eskirgan. **Ogoh** so'zida hushyorlik ma'no ta'kidi ham bor. **Boxabar** – kitobiy so'z.

...Piching qiluvchi to'ralarning o'zlari mashhur rus adibining "Yetti osilganlar"idan ham so'zda, ham ishda juda yaxshi x a b a r d o r edilar... Cho'lpon, Kecha va kunduz. *U amirning qushbegisi davlatning barcha ichki-tashqi sirlaridan voqif hazratning nazdida kemaday qalqib turgan shahar sirlaridan ham*

xabardor. Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *...Shayx San’on dargohga yetishganlardan bo‘lib, ko‘ngillari g‘ayb sirlaridan o g o h edi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Men ham... Vera Davidova, siz saroy sirlaridan boshdan-oyoq o g o h edingiz, qanday tirik qoldingiz?* N.Oston, Tarix istehzosi. *...bu sirdan faqat sizlar v o q i f sizlar, hech kimga aytmanglar.* A.Namozov, Vijdon so‘rog‘i. *Birgina hamxonasi Muhammadjongina Ilyosning bu pinhon dardidan v o q i f va hamdard shu bo‘ldi unga.* G.Asronova, Vatan. *U ham Odilning ahvolidan b o x a b a r dek tuyulib ketdi.* Q.Kenja, Lafz. *Habibulloxon taxtga o‘tirar chog‘ida ukasini voris deb, keyinroq esa ahdini buzib, to‘ng‘ichi Inoyatulloxonni valiahd deb e’lon qilganidan G‘ulomqodir b o x a b a r edi.* T.Malik, Savohil.

XABARDOR BO‘LMOQ, BOXABAR BO‘LMOQ, XABAR TOPMOQ, DARAK TOPMOQ, VOQIF BO‘LMOQ, OGOH BO‘LMOQ Biror voqea-hodisa, shaxs, narsa-predmet haqida xabarga ega bo‘lmoq. **Boxabar bo‘lmoq** – kitobiy so‘z. **Xabar topmoq, darak topmoq** so‘zlarida biror kimsa orqali xabarga ega bo‘lish ta’kidi mavjud. **Voqif bo‘lmoq, ogoh bo‘lmoq** so‘zlari kitobiy uslubga xos.

Mulla Fazliddinning yuragi taka-puka bo‘lib ketdi. Nahotki bu bek po‘lat sandiqdagi suratdan x a b a r d o r b o ‘ l sa! P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Otaboy... o‘sha kuni ordenlarini taqib, mehmonlarni kutib, dasturxonning kam-ko‘stidan x a b a r d o r b o ‘ l ib turdi.* S.Ahmad, To‘yboshi. *Bu oh borib yana bobomning qalbiga chirmashadi: Eyki istarsiz savodul vajh fiddorayndin, B o x a b a r b o ‘ l moq meni yuzi qaroda istangiz.* H.Ahmedova, Jigarrang kitob. *Endi, og‘aynilar, avvalo, Durandan xabar olaylik. Zamon notinch, elchilik, bir-birimizdan b o x a b a r b o ‘ l masak yaxshimas-da...* S.Abdurahmon, Duranning qudug‘i. *Bu gapdan x a b a r t o p gan hukmdorimiz Rustak g‘azabga mindi na mening quloq-burnimni kestirdi.* M.Osim, Shiroq. *Umar polvon bundan x a b a r t o p ib, otasidan qolgan bir parcha yerlarini sotib bo‘lsa ham, ukasini Tozagulga uylantirmoqchi edi.* K.Yashin, Hamza. *Qaydandir d a r a k t o p gan Ollohshukur hoji kunora shu yerda.* E.A’zam, Yozuvchi. *Otam shu kuni xursand edi. Marg‘ilonlik hojilardan d a r a k t o p ibdi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Durust, ul Otabekning muhabbatiga v o q i f b o ‘ l g‘anidan beri bir daqiqa ham uni o‘zining ko‘z o‘ngidan uzoq tutmag‘an...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Hmm, qani aytchi, yana kimlar bul sirdin v o q i f bo ‘ l g‘on?* O.Tojiboyeva, Olmos sir. *...Millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan o g o h b o ‘ l moq lozim...* B.Qosimov, Mahmudxo‘ja Behbudiy. – *Taraqqiyot yaxshi, – dedi Abduvosit. – Lekin o g o h b o ‘ l gan ham ziyon qilmaydi.* O.Muxtor, Shaytonarava.

XABAR QILMOQ, XABARLAMOQ, XABAR BERMOQ, XABARDOR QILMOQ, BOXABAR QILMOQ, DARAK BERMOQ, MA’LUM QILMOQ, VOQIF QILMOQ (ETMOQ), OGOH QILMOQ (ETMOQ), OGOHLANTIRMOQ, OVOZA QILMOQ Biror voqea-hodisa, shaxs, nar-

sa-predmet haqidagi xabarni yetkazmoq; voqea-hodisani ma’lum qilib, undan ogoh qilmoq. **Xabar qilmoq, xabar bermoq** so‘zlari nutqda biri ikkinchisi o‘rnida erkin almashinib qo‘llana oladi. Nutqda **xabarlamoq, voqif qilmoq** so‘zlari kam qo‘llanadi. **Ogoh qilmoq, ogohlantirmoq** so‘zlarida birovga yuz berishi kutilgan voqea-hodisani bildirib qo‘yish ta’kidi ham mavjud. **Ovoza qilmoq** so‘zida hamma yoqqa bildirib qo‘yish ta’kidi anglashiladi.

Kimdir unga axlat qutisining yonida pasport bilan ma’lumotnomalarni topib olganini, yonida shu telefon raqamlari borligini x a b a r q i l ibdi. F.Iskandar, Yozuvchining kuni. *Leytenant Murodov… boshliqning huzuriga kirib, Juma bobo haqida x a b a r q i l di.* A.Namozov, Ota, qayerdasiz? *Bugun soat o‘n ikkida Otabek ila Mirzakarim qutidorning isyonchilik gunohi bilan dorga osilishlarini jarchi shaharga x a b a r l a b yurar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Chol noiloj ertaga tushdan keyin hammani to‘yga x a b a r l a b keldi.* S.Ahmad, Saylanma. *Ana endi o‘zingg‘a kelding, barakalla, balli, men bukun Fayziboyg‘a x a b a r b e r aman…* A.Qodiriy, Baxtsiz kuyov. *Yaqindagina ro‘y bergan, tabiatni yakson etib, shiddatli sellar paydo qilgan dovul mahali chaqmoq urgan bir kishining holidan x a b a r b e r moqchiman.* I.Sulton, Sofiya. *Soqchilar ro‘y bergan ahvolni anglagach, shovqin ko‘tarib, boshliqlarini bundan x a b a r d o r q i l dilar.* M.Osim, Temurmalik. *U “nima qilsang qil, turmayman”, deb qo‘l siltagach, Qambarali qulog‘iga “bu ishlar qancha tez tugasa, uyga shuncha tez kiramiz”, deb shivirlab, dunyodagi eng oliy haqiqatdan x a b a r d o r q i l gach, noiloj o‘rnidan turdi.* T.Malik, Malades chollar. *Bobo hushini yig‘ib ovozining boricha hayqirmoqchi – odamlarni halokatdan b o x a b a r q i l moqchi edi…* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *– Men erta yo indin u yoqqa ketishim kerak,* X *– dedi xotinini ahamiyatsiz yangilikdan b o x a b a r q i l ayotgandek beparvo ohangda.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *To‘kin dasturxon, shirakayf xotini va uning yonidagi begona erkak unga achchiq bir haqiqatdan d a r a k b e r ib turardi.* L.Bo‘rixon, Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi. *Hazrati Sulaymonning uzugi-ku unutilayozgan bir rivoyatning ajoyibotlaridan d a r a k b e r moqda.* I.Sulton, Uzuk. *Film yaratilgani va yaqin kunlarda uning global tarmoq orqali tarqatilishi m a’ l u m q i l indi.* Gazetadan. *Onasi o‘sha xatida, odatdagiday, qishloqdagi so‘nggi yangiliklardan uni v o q i f e t gan… edi.* M.Ahmedova, Uyga qaytish. *...Nasriddin afandi “Bilim” jamiyatiga lektor bo‘lib ishga kirgach, yangilikdan xotinini v o q i f e t ibdi.* T.Malik, Malades chollar. *Yaxshisi, bu sirdin do‘stini o g o h e t qonim ma’quldur.* O.Tojiboyeva, Olmos sir. *Gaz plita ustida turgan sirli choygum suvning harorati qaynash darajasiga yetganidan o g o h e t ib, “xushtak chalib yubordi”.* Q.Ochilov, Pisand. *Mashhad Hiriyga nisbatan osoyishta, buning boisi olimlarining ko‘pligi bo‘lib, ular kishilarni halol-u haromdan, gunoh-u savobdan o g o h l a n t i r ib turishardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Qolaversa, Virjiniya Vulf …o‘quvchini ayni paytda qayerdaligi,*

aynan “qaysi vaqtda va qaysi joyda” ekanligi haqida o g o h l a n t i r ib turadi. M.Xolbekov, Modernizm. *O‘shanda o‘n ikki mingdan ziyod nusxada chiquvchi “Paxta uchun” gazetasida tuman miqyosidagi bu katta yangilik baralla o v o z a q i l indi.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar. *– Bunisi hech gap emas, – deydi u, – sen faqat mening zo‘r doston yozganim haqidagi fikrni butun Moskvaga o v o z a q i l!* F.Iskandar, Yozuvchining kuni.

XAFA, G‘AMGIN, G‘AMLI, G‘AMBODA, QAYG‘ULI, MUNGLI, MAHZUN, HAZIN, XOMUSH, MA’YUS, HUZUNLI, HASRATLI, G‘AMNOK G‘am-tashvishga botgan, ruhini g‘am-tushkunlik egallagan. **Xafa** so‘zi bu ma’nosida “qayg‘uga botgan” inson holatiga nisbatan ishlatiladi. **G‘amgin** so‘zida belgi darajasi **qayg‘uli, g‘amli, hasratli** so‘zlariga nisbatan kuchsiz ifodalanadi. **G‘amboda**, **mahzun, hazin, mungli** so‘zlari ko‘proq badiiy uslubda uchraydi. **Ma’yus** so‘zida tushkun holatga ishora mavjud. **Ma’yus** so‘zida **xomush** so‘ziga nisbatan belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Huzunli, g‘amnok** so‘zlarida eskilik bo‘yog‘i mavjud, kitobiy nutqqa xos.

Shopsanovni akasi x a f a kutib oldi. Q.Ochilov, Savob. *Ammo ichmagan, allanechuk x a f a dek edi.* Sh.Otabek, Xonadon. *Ha, polvon, g‘ a m g i n siz?* J.Beknazar, Qashqa yo‘rg‘a. *Onam beshik tebratib alla ayta boshlaydi. Ovozi sokin, g‘ a m g i n yangraydi*. A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Bu mayin, jarangdor ovoz, g‘ a m l i so‘zlar... Umrbod qalbga muhrlanib qolganini bilsang edi.* B.Nuriddinov, Muhabbat muhri. *Kitoblarda o‘qigani, kinolarda ko‘rgani, rahmatlik buvasidan eshitganlari – o‘tmish, g‘ a m l i, alamli o‘tmish ko‘z oldiga keldi.* M.Hazratqulov, Cho‘li Iroq. *Boshlarini quyi solib ketayotgan g‘ a m b o d a kishilarning ko‘ngillaridan shunday fikrlar o‘tar edi.* M.Osim, Karvon yo‘llarida. *Yo‘l azobi – go‘r azobi, deganday Xivaga kelayotgan g‘ a m b o d a Xadicha oriqlab, qop-qora bo‘lib ketdi.* J.Sharipov, Xorazm. *Nodir asta o‘rnidan turdi va benihoya q a y g‘ u l i tusda sado berdi: – Xayrlashib emas, jo‘ra, vidolashib.* A.Yo‘ldosh, Vido ziyofati. *Shunday q a y g‘ u l i shovullash, shunday ko‘ngilni vayron qiluvchi shovullash!* T.Murod, Yurt qo‘shig‘i. *Bizning onalarday o‘ksik, mushfiq, mehnatkash, m u ng l i allalar aytadiganmi? Yoki eng yaxshi enagalar qo‘lida tarbiya topgan, sultonlar saroyida o‘sgan oliynasab, kibor bekachmi?* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Shunda m u ng l i aytib yig‘lash eshitgandim. Bir to‘da ayol dimog‘ida aytib yig‘lardi.* T.Murod, Yurt qo‘shig‘i. *Rubobim tori ikkidur: biri quvnoq, biri m a h z u n.* E.Vohidov, Muhabbat. *Bemajol holda ag‘anagan qishloq oqsoqolini Botir polvon tezkorlik bilan ko‘tardi-yu: – Kechiring ustoz, – dedi m a h z u n ovozda.* B.Nuriddinov, Egasiz uy. *Endi undagi may bazmlari yurak qonidan va ko‘ngilning h a z i n nola-yu afg‘onidan tuzilmoqda.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Mo‘minning tovushi o‘ziga ham juda horg‘in va h a z i n eshitildi.* F.Salayev, Yettinchi bo‘rdoqi. *“Pushkin suratlari ichiga qabih aksilinqilobiy so‘zlar yozilgan emish”, degan gap tarqalgan kuni yosh o‘qituvchimiz sinfi-*

mizga juda x o m u sh bir qiyofada kirib keldi. O.Yoqubov, Muzqaymoq. *Hasanboyning x o m u sh yurganini ko‘rib, ba’zan birga o‘ynagani ularnikiga chiqmay qo‘ysak, onasi bizlarni soydanmi, ko‘chadanmi chaqirib kelib, yog‘och otlarimizni qo‘llarimizga tutqazardi.* U.Ro‘ziyev, Yog‘och otlar. *Sovuq demay, loygarchilik demay, darvozamizdan m a’ y u s kirib kelaverdi-kelaverdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *M a’ y u s bosh egdi, m a’ y u s xayollandi… – Nima, biron joyi og‘riyaptimi? – dedi Oymomo.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *O‘zbek qizlarining yurak dardlari Naqadar h u z u n l i bu olti harfda!* X.Rasul. *Bu – hayot shafqatsizligi hamda mehribon ota haqidagi h u z u n l i bir hikoyadir.* I.Sulton, Yog‘och kavush. *Uning qalbidan eshilib,buralib chiqayotgan hasratlar to‘lqini h a s r a t l i dillarning yarasini tirnab yubormoqda.* X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Ha, bu – mana shunday qayg‘uli, h a s r a t l i ishq dostonidir. Aslida qaysi bir ishq dostoni qayg‘uli va h a s r a t l i bo‘lmagan?* I.Sulton, Tosh kelinchak. *Ana, mehmon amaki janjal ko‘tarish o‘rniga, asta joyidan turib, odatiga xos, shimi ketini qoqqancha, chetga chiqadi. Yiqilganini zo‘r-bazo‘r tan olgandek, g‘ a m n o k yerga cho‘kadi*. N.Norqobilov, Kurash. *Mirkarimovning uyida motamsarolik soyasi yo‘q edi. Ko‘k kiygan ayolni, g‘ a m n o k bolalarni uchratarman, deb o‘ylagan Zohid yanglishdi.* T.Malik, Shaytanat.

XAFA BO‘LMOQ, XAFALANMOQ, O‘KSI(N)MOQ, RANJIMOQ, OZOR CHEKMOQ, OZORLANMOQ, G‘AMGIN BO‘LMOQ, MAHZUN BO‘LMOQ, MAHZUNLANMOQ (MAHZUNLASHMOQ), MUNGLANMOQ, QAYG‘ULANMOQ, QAYG‘URMOQ, XOMUSH BO‘LMOQ, XOMUSHLANMOQ, MA’YUS BO‘LMOQ, MA’YUSLANMOQ Qayg‘uli holatda bo‘moq, g‘am chekmoq. **Xafalanmoq, qayg‘ulanmoq** so‘zlari nutqda kam qo‘llanadi. **O‘ksi(n)moq** so‘zida biror narsaga erisholmaganidan xafalik ta’kidi anglashiladi. **Ranjimoq** va **ozor chekmoq**da mazkur ma’no kuchli ifodalanadi, badiiy uslubga xos. Qatordagi **mahzun bo‘lmoq**dan **ma’yuslanmoq**qa bo‘lgan oraliqdagi so‘zlarda ranjish, ozor yetish natijasida yuzaga chiqadigan holat ifodasini bildiradi. **Mahzun bo‘lmoq, mahzunlanmoq (mahzunlashmoq)** so‘zlarida “mungli, g‘amgin holatda bo‘lmoq”lik kuchli ifodalanadi. Ushbu so‘zlar kitobiy uslubga xoslangan. **Munglanmoq, mahzunlanmoq (mahzunlashmoq)** so‘zlari nutqda kam ishlatiladi. **Xomush bo‘lmoq** so‘zi o‘rnida nutqda ko‘pincha **xomush tortmoq** iborasi qo‘llanadi. **Xomushlanmoq, ma’yuslanmoq** so‘zlari nisbatan kam ishlatiladi.

X

– Necha puldan beraylik, aylanay? – Qancha bo‘lsa, rozi bo‘lib beringlar. Ko‘p berdinglar, deb x a f a b o‘ l ib qolmayman! Q.Ochilov, Qaytim. *– Qo‘ying-e, bir nima desa, darrov eskichadan kelasiz! Gunoh deysiz, tavba-tazarru deysiz... Hay, mayliga, x a f a b o‘ l madim!* O.G‘afurov, Ayol ori. *Muallif o‘z asarining bunchalik e’tiriof topganidan mamnuniyat bildirgan holda, ba’zi mas’uliyatsiz*

o‘zboshimchaliklardan x a f a l a n ganini ham izhor etdi. Sh.Rizayev, Jadid dramasi. *Otam rahmatli, bolam o‘ k s i masin, deb shu otni bag‘ridan yulib olgandek ikki yashik choynak-piyolaga ayirbosh qildi*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Qurbonov bir oyog‘ini… Omonpolvon to‘dasiga qarshi kurashda yo‘qotgan ekan. Shuning uchundirki, cho‘loqligidan hech o‘ k s i n mas, doim mag‘rur, qadam olishi bardam edi.* S.Anorboyev, Yaxshilik urug‘i. *Tinchlik bilmas odatimdan O z o r ch e k sam mayliga. Olov bo‘lib bir dam yonsam, So‘ng o‘chsam ham mayliga...* E.Vohidov, Saylanma. *“Murodjon aka”sining mashinasi kutib qolganidan o z o r ch e k kan bo‘lsa kerak, shosha-pisha yo‘lakka otildi.* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Qutlug‘ Nigor xonim bolalar oldida qilingan bu kinoyadan o z o r l a n ib: – Qo‘ying, og‘a oyi. Bu begimda ayb yo‘q! – dedi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *...Er To‘nga o‘limidan shoyon o z o r l a n ib, dunyoning eng qadimiy marsiyasini bitgan ...zurriyotlariga adolat va mardlik o‘gitlarini bera-bera ulg‘aytirayotgan dono el edi!* I.Sulton, Genetik. *Agar biz baxt haqida xayol sursak, o‘zimizni baxtli his etamiz. O‘ylarimiz g‘ a m g i n b o ‘ l sa, tushkunlik girdobida qolamiz.* G.Jamilova, Yaxshi so‘zning qudrati. *Murakkab syujetlar m a h z u n b o‘ l gan o‘y-xayol va tashvishlardan chalg‘itadi.* Gazetadan. *Ovoz ham yoshlikdagidan butkul farq qiladi. Dag‘allashgan. M a h z u n l a sh gan.* O.Muxtor, Qorboboning qaytishi. *– Ilgarilari “huvullagan uy” deganda, ko‘z oldimda egalari tashlab ketgan bo‘m-bo‘sh hovli paydo bo‘lardi, – deydi u m a h z u n l a n ib.* A.Obidjon, Bir kishilik gurung. *Anorxon o‘qtin-o‘qtin xayol surib ketadi, birdan m u ng l a n ib ham qoladi.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar. *Arslonov m u ng l a n ib, joyiga o‘tirdi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘prik. *Tabg‘achdan lapanglab, o‘zicha q a y g‘ u l a n ib Ishang Likang keldi.* I.Sulton, Bilga Xoqon. *Suluv qizlarimdan, kelinlarimdan, qattiq o‘g‘illarimdan, kuyovlarimdan, qutlug‘ yer-suvimdan, yilqimdan, el-ulusimdan ayrilib, q a y g‘ u l a n i b, o‘zimcha ucha ketdim.* I.Sulton, Bilga Xoqon. *Q a y g‘u r mang, opajon. Qora kunlar o‘tar, yorug‘likka chiqarmiz.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qahramon qizning fojiali o‘limini eshitganlar hammasi q a y g‘ u r ib yig‘ladilar.* J.Sharipov, Xorazm. *Jalil ham boshqacha bo‘lib qolgan: goh tirjayadi, goh x o m u sh b o‘ l ib qoladi.* A.Namozov, Qizmi bu, malakmi bu? *Bu gaplarni E’tibor sezmasdi, deysizmi, sezardi. Sezardi-yu, ich-ichidan ezilib ketardi. Erining ko‘ziga qarolmay, x o m u sh b o‘ l ib qolardi.* S.Ahmad, Ko‘zlaringda o‘t bor edi. *Faqat birozdan keyin Anorxon allanechuk x o m u sh l a n ib uh tortdi, boshini egdi.* Oybek, Navoiy. *Ko‘rpachada lol-u hayron x o m u sh l a n ib o‘tirganda, gumashta hayhaylashiga qaramay, qiya ochiq eshikdan o‘sha mo‘mina pildirab kirdi.* A.Dilmurod, Xilvat. *U lom-mim demas, m a’ y u s b o ‘ l ib qolgan edi. Yana ranjitib qo‘ydim, chamamda.* A.Namozov, Men – ko‘rinmas odam. *– Bunga o‘zim ham ishonaman. – Sho‘rlikni Sorbug‘o qipchoq navkarlari hibs qilmishlar. – Sababi ayonmu? Gumashta yo‘q ma’nosida m a’ y u s l a n ib bosh*

tebratarkan, Sohibqiron tutaqib ketdi. A.Dilmurod, Xilvat. – *Menga qarang, tag‘in vrach bo‘lmang? – Yo‘q, – Qunduz ham m a ’ y u s l a n ib kuldi.* X.Sultonov, Dunyoning siri.

XAFALIK, XAFACHILIK, XAFAGARCHILIK, G‘AMGINLIK, MUNGLILIK, MAHZUNLIK, HAZINLIK, HAZINIYAT, XOMUSHLIK, MA’YUSLIK Kishining u yoki bu voqea-hodisadan xafa bo‘lish holati, g‘amli kayfiyatda ekanlik. **G‘amginlik** so‘zida “xafalik” ma’nosi kuchli ifodalanadi. **Haziniyat** so‘zi eskirgan, kitobiy uslubga xos. **Munglilik, mahzunlik** so‘zlari ham, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi. **Xomushlik, ma’yuslik** so‘zlarida qayg‘ulilik belgi darajasi ancha kuchsiz, kitobiy uslubga xos.

Faqat shaharning musulmonlar turadurgan qismi avval qanday bo‘lsa, yana shunday erdi! Yana x a f a l i k. Cho‘lpon, Do‘xtur Muhammadiyor. *Uning avzoyidan x a f a l i k n i sezgan ota ham ergashdi.* Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida. – *Sizlar bemalol tushlik qilaveringlar, uzrim bor. X a f a ch i l i k yo‘q, – dedim.* A.Niyoz, Taqdir qo‘ng‘irog‘i. *Bu fojiani unga sirayam bildirmasliklari kerak: xafa bo‘ladi, tag‘in x a f a ch i l i k da biror ishkal chiqarmasin.* Sh. Xolmirzayev, Kimsasiz hovli. *Shu payt yana birdan Abdurahmonning yodiga ertalabki x a f a ch i l i k tushdi.* U.Azim, Sevgi. *Shuning uchun kechasi egasi chaqirishi bilan x a f a g a r ch i l i k ni unutib, darhol krovat ostidan chiqqan edi.* O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar. – *Xafa bo‘ldingmi? – dedi. – Gap x a f a g a r ch i l i k-da emas. Men sizni akamday ko‘raman. Munnoq gaplariz og‘ir botadi.* S.O‘nar, Dunyo shunday tururmi? *Biror gap bo‘ldimi? Buni sezdirmaslikka urinsa-da, ko‘zidagi g‘a m g i n l i k barini oshkor etardi.* F.Jabborov, Maktub. *Eng muhimi, ko‘zlaridagi g ‘a m g i n l i k alomatlaridan asar ham qolmagan edi.* O‘.Umarbekov, Gul sotuvchi qiz. *Bu sovuq mag‘rurlig-u m u ng l i l i k jabrdiyda zaminni toptayotgan, aldangan askarlarning yuragiga qo‘rquv, g‘ulg‘ula soladi.* N.Jaloliddin, O‘limning rangi. *Qiziga tikilgan katta qora ko‘zlarida yana o‘sha m u ng l i l i k, kulganida ham butunlay yo‘qolmaydigan o‘sha namli tim qora nuqta paydo bo‘ldi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Ammo Kumushning m a h z u n l i k holati, ichki bir bezovtalik, iztirob, g‘am-alam aslo tark etmaydi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mahliyo jigarlarning yuzida quvonch emas, h a z i n l i k ko‘rib ajablandi.* F.Alimardon, Ko‘ngillarda ungan chechaklar. *Butun vujudingni allaqanday huzur, allaqanday mayinlik, allaqanday h a z i n l i k chulg‘ab oladi.* S.Ahmad, Maza bilmaslik dardi. *Yulduz yo‘q, chiroq yo‘q, faqat qandaydir kishi ko‘nglini tatalovchi h a z i n i y a t kezadi.* H.Shams, Dushman. *Sokin qabristonda kishining ko‘nglini cho‘ktiruvchi h a z i n i y a t hukmron edi.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. *Ajab, shu tobda ko‘zidagi tiyraklikni go‘yo qayoqqadir surib tashladi-yu x o m u s h l i k girdobiga g‘arq bo‘ldi-qoldi.* A.Hotamov, Tanholik. *Yana o‘rtada x o m u s h l i k hukm surib, Hasanali ishni tuzikroq ochish va yo shu ko‘yi qoldirib ketaberish talashida edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ayol chimirildi-yu, indamadi.*

Vahobjon savol nazari bilan keyin onasiga qaradi. Onasining yuzidagi ma’yuslikni, dilidagi xastalikni ham shundagina tushundi. S.Zunnunova, Xotiralar uyg‘onganda. *Tolning panasida turgan novcha qizaloqni endi ko‘rdim. Uning katta-katta ko‘zlari ma’yuslik bilan javdirar, nima qilishini bilmay, kalishining uchi bilan maysalarni ezg‘ilardi.* O‘.Hoshimov, Hurkitilgan tush.

XALQ, EL, ULUS, AHOLI, XALOYIQ, MARDUM, YURT Biror mamlakat, davlat, yurtda yashovchi, shularga mansub bo‘lgan kishilarning jami. **Xalq** so‘zi ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, aynan shu ma’nosida nutqda faol ishlatiladi. **El** so‘zi bu ma’noda **xalq** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llanadi. **Ulus, mardum** so‘zlari bugungi kunda eskirgan, tarixiy mavzudagi asarlardagina uchraydi. **Aholi** so‘zi tor ma’noda qo‘llanganda, ma’lum hududda yashovchi odamlarni anglatadi. **Xaloyiq** so‘zi ko‘p hollarda oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Yurt** so‘zi tegishli hududga mansublik ta’kidiga ham ega.

Ko‘ksingdan itarsa xalq, Peshonang namakob, talx, Sho‘rdayam xayqirolsang, Demakki, Sen shoirsan! H.Xudoyberdiyeva, Demakki, sen shoirsan. *Kimki xalq dilidagisini topsa – marra o‘shaniki.* T.Malik, Savohil. *Garchi maqsudig‘a mubhamdur bayon, Qush tilin el ko‘ngliga qilg‘il ayon.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana, Moziyni yod etay desang – xalq bo‘l, el im.* M.Yusuf, Xalq bo‘l, elim. *Changali dov qudratli qarchig‘aydan ogoh etgan va ulus ni ancha-muncha shoshirib qo‘ygan mo‘minayi muslima shu tinmasak mushfiq jon edi.* A.Dilmurod, Xilvat. *Qishlovdan yaylovdan ko‘chsa, yilqilarning tuyog‘i tagida qolib ketmaylik deb boshqa ulus lar ko‘z ko‘rinmas joylarga o‘zlarini olardi.* U.Azim, Tong otgan taraflarda. *Shu sababli aholi ko‘pincha yoz mahallari Birjand taraflarga ko‘char, Astrobodda kishi qolmas emish.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Islom dini zohir bo‘lmasdan avval Arabiston aholisi foyda olish niyatida bir-biridan qarz olar edi.* Fitrat, Najot yo‘li. *Kimiki bo‘lsa inson, bo‘lsa odam, Xaloyiq ning g‘amin yeydur damo-dam.* Uyg‘un va I.Sulton, Alisher Navoiy. *Na Allohdan, na o‘zidan uyalmay, jahannam va xaloyiq dan qo‘rqmay, har qanday gunohga oshkora va pinhon qo‘l urishlikni vaqohat (uyatsizlik) deb ataydilar.* Fitrat, Najot yo‘li. *...Mardum so‘zida “inson” ma’nosi ham, “xalq” ma’nosi ham bor.* A.Nurmonov, So‘z mulkiga sayr. *Har holda, ancha-muncha yil yashab qo‘ygan mardum bir marta bo‘lsin quvnamabman desa, birov ishonarmidi?* I.Sulton, Hazrati Majoz. *Yurt puflasa, shamol turadi.* Maqol. *– Ee, chol-e, – dedi Eshonxon qo‘lini siltab, – yurt ning ahvoli bilan bosh qotirmang, o‘zingizni o‘ylang, gapni eshiting!* Oybek, Tanlangan asarlar.

XASIS, QIZG‘ANCHIQ, ZIQNA, QURUMSOQ, NOKAS, NOKASTA, MUMSIK, PISHIQ, QATTIQ, HARIS, DO‘QOL Birovga biror narsasini bermaydigan, sarf-xarajatni xohlamaydigan odam. **Xasis, ziqna, qurumsoq, pishiq, qattiq** so‘zlari nutqda nafaqat birovga ziqnalik qiluvchi, balki o‘ziga ham xasis

bo‘lgan insonlarga nisbatan ishlatiladi. **Nokasta, nokas** so‘zlarida esa faqat birovlarga narsasini ravo ko‘rmaslik ta’kidi bor. **Qoqvosh, pishiq, qattiq** so‘zlari so‘zlashuv uslubiga xos. **Qizg‘anchiq** so‘zi ham so‘zlashuv uslubida nisbatan ko‘p uchraydi. **Mumsik, haris, do‘qol** so‘zlari nutqda kam qo‘llanadi.

To‘ydan faqat Shomurod aka biroz ranjib keldi: – Boy bo‘lgani bilan x a s i s ekan bular, – dedi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *U Yozyovonga kim uchun boradi? X a s i s akasini, onasidan qolgan yagona yodgor to‘g‘nog‘ichni aza kuni taqib yurgan yuzsiz Yalpiza yangasini sog‘inib boradimi?* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *– Bu deyman, Saydiboy… ust-boshing bir ahvolda... sal x a s i s roqmisan, – deb so‘radi Ibodullo Maxsim.* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish. *O‘taketgan q i z g‘ a n ch i q bola shu Bahrom. Tunov kun qarab tursam, bir qo‘lida sumka, bir qo‘lida pashmak, shipillaganicha maktabga ketyapti.* A.Obidjon, Hakka xolaning ig‘volari. *Q i z g‘ a n ch i q buzoq emgan uloqni ko‘rolmas.* Maqol. *Lekin qaynonaning avzoyi buzuqroq ko‘rindi. Buning boisi eri ishdan kelgandan keyin ma’lum bo‘ldi. – Xojarni bekor o‘sha z i q n a larga berdik, – yorildi ona o‘g‘liga.* G.Asronova, Palaxmon toshi. *– E, bas-e! Mo‘tabar zotlarga til tegizmang! To‘g‘ri, bitta-yarimta z i q n a, baxili onda-sonda chiqib qoladi, hammasi shunday bo‘laverarmidi!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qulmurod q u r u m s o q ning to‘ng‘ich farzandi Elmurod Qoraqurum qishlog‘idan ancha olis... shahardagi oliy dargohning tuprog‘ini yalaydi.* M.Ochil, Qulmurod qurumsoq hangomalari. *Bolta polvonning ahvoli tang edi. Shu q u r u m s o q dan qarz so‘rab kelguncha o‘lganim yaxshiydi, deb o‘yladi.* Q.Ochilov, Pufak. *– So‘figa osilma, hozir senga o‘xshagan n o k a s lar pul tugmay qo‘yishgan.* T.Malik, Xazonrezgi. *Do‘nonning toyligi bo‘lmas, N o k a s ning – boyligi.* Maqol. *Gul – dasta-dasta, Gul bermagan n o k a s t a.* Maqol. *– Bu pulni haligi n o k a s t a ga berib, kelishda aldar xaltamni olib kelaman. Ana undan keyin hangomani ko‘rasiz, – deb Aldarko‘sa jo‘nab ketibdi.* “O‘zbek xalq ertaklari”, *Qarzing bo‘lsa m u m s i k dan, Izingdan qolmas zingillab.* Maqol. *O‘zi ichmasdi, o‘zi kiymasdi. M u m s i k, ezilgan bir odam edi.* I.Sulton, Ozor. *U pastda, soyning yoqasida, yugura-yela, daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib tashlagan shox-shabbalarni terardi. “Ha, p i sh i q odam. Bu o‘tinlarni uyga olib ketadi. Eshagiyam tayyor”.* Sh.Xolmirzayev, Notanish odam. *– Sandiqning kaliti o‘zingizda-ku, qachondan beri bermaysnz, toshday q a t t i q siz, – deyman buvimga, qandni kusurlatib*. Oybek, Bolalik xotiralarim. *O‘lgudek q a t t i q odamlardan muruvvat kutish ham ahmoqlikdir.* Gazetadan. *H a r i s qarisa ham harisligi qarimas*. Maqol. *Boy juda d o‘ q o l ekan, hatto o‘zidan ham boyligini qizg‘anar ekan.* “O‘zbek xalq ertagi”.

XASIS BO‘LMOQ, QIZG‘ANCHIQ BO‘LMOQ, ZIQNA BO‘LMOQ, QURUMSOQ BO‘LMOQ, BAXIL BO‘LMOQ, NOKAS BO‘LMOQ, NOKASTA BO‘LMOQ, MUMSIK BO‘LMOQ, PISHIQ BO‘LMOQ, QATTIQ

BO‘LMOQ, HARIS BO‘LMOQ, DO‘QOL BO‘LMOQ Birovga biror narsasini bermaydigan, undan qizg‘anadigan bo‘lmoq. Qatordagi barcha so‘zlar salbiy bo‘yoqqa ega. **Nokasta bo‘lmoq, haris bo‘lmoq, do‘qol bo‘lmoq** so‘zlari eskirgan, nutqda kam qo‘llanadi. **Qoqvosh bo‘lmoq, mumsik bo‘lmoq, pishiq bo‘lmoq, qattiq bo‘lmoq** so‘zlari, asosan, oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Yangangiz ahmoq va x a s i s bo‘ l sa, men bechora nima qilay? Ayting, nima qilay? Q.Ochilov, Kalit. *Ana shunda tabiatan saxiy va ochiqko‘ngil amakiga jon kirardi. Chunki raisning oshpazi juda x a s i s b o‘ l ib, xo‘jayin aytmaguncha birovga tekinga bir burda non bermasdi.* J.Fozil, Bolalik bog‘lari. *...Vazir shahzodaning so‘zlaridan ranjigandek bo‘libdi: – Hoy, bunchalik q i z g ‘a n c h i q b o ‘ l masang! Bir nechtasini sotsang bo‘lmaydimi?* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Q i z g ‘a n c h i q b o‘ l gan baxil ayolga saxiy erkak taqdir qilinmas deydilar.* Gazetadan. *Ovqatni erinmay tekshirarkan: – Buncha z i q n a bo‘lmasang, – dedi. – Otangni suruvidagi qo‘ylardan sot, nima, kamayib qolarmidi?!* Sh.Komil Xalil, Nayrang. *Z i q n a b o‘ l may o‘l! – deb o‘yladi xotinini so‘kib. – Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi.* O‘.Hoshimov, Urushning so‘nggi qurboni. *Odamlar q u r u m s o q b o ‘l i b ketyapti. Avvallari bergan pullari bir qop un bilan ikki kilo go‘shtga yetardi.* N.Rahmat, Go‘rkov. *Kosa tagidagi piyolani darrov sezdi: “bizning jiyan sen aytgandek meni unutgan emas, q u r u m s o q b o‘ l sa, shuncha narsa ko‘tarib kelarmidi”.* O‘.Usmon, Katta dada. *B a x i l b o‘ l ma, saxiy bo‘l, O‘smog‘ingga to‘g‘ri yo‘l.* Maqol. *Yema, ichma, b o‘ l b a x i l, Boy bo‘lmasang, men kafil.* Maqol. *... – Ma, ol, n o k a s b o‘ l gan ekansan-da, – deb tokchada tangani xalta-paltasi bilan cholga otib yuboribdi. Chol pulni olganiga sevinib jo‘nab qolibdi.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Turgan gul – dasta-dasta bo‘lar, Gul bermagan n o k a s t a b o‘ l ar.* Maqol. *Osh degan joyga q o q v o sh b o‘ l gan yugurar.* Maqol. *Soqi bilan Boqi juda m u m s i k b o‘ l gan ekan. Bir-birlariga suvni ham ravo ko‘rmas ekanlar.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Ba’zi amaldorlar p i sh i q b o‘ l ganligi sabab fuqarolarning haqi ham ularning cho‘ntagiga tushayotgandek.* Gazetadan. *P i sh i q b o ‘l gan boy bo‘lar.* Maqol. *Undan biron narsa so‘rash kerak emas, o‘lguday q a t t i q bo‘l i b qolgan.* Gazetadan. *H a r i s b o‘ l gan haqir bo‘lar.* Maqol. *Shafaqgun may, hiloliy jom agar ko‘rsang, h a r i s b o‘ l ma.* Navoiy, Navodir ush-shubob. *D o ‘q o l bo‘lma, bugun bor narsang ertaga yo‘q bo‘lishi mumkin.* Gazetadan.

XASISLIK, QIZG‘ANCHIQLIK, ZIQNALIK, QURUMSOQLIK, NOKASLIK, NOKASTALIK, MUMSIKLIK, PISHIQLIK, QATTIQLIK, HARISLIK, DO‘QOLLIK Birovga biror narsasini ravo ko‘rmaslik, qizg‘onch hissining me’yordan ortiq bo‘lishi. **Nokastalik, harislik, do‘qollik** so‘zlari eskirgan, ayrim tarixiy asarlarda uchraydi. **Mumsiklik, pishiqlik, qattiqlik** so‘zlari, asosan, shevalarda ishlatiladi.

Umar gazchidan uch so‘m! Do‘xtirdan o‘n besh so‘m... Polvon x a s i s l i k zanjirlaridan ozod bo‘lgan hamshaharlarining ism-u shariflari-yu, laqablarini ilhom bilan jaranglatib turaveradi. U.Azim, Birovning umri. *Odamlar orasida x a s i s l i k bilan nom chiqargan ekan. Uning bir o‘g‘li bor ekan. U otasiga qaraganda birmuncha saxovatli ekan.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Q i z g‘ a n ch i q - l i k, hasad-adovat, baxillik va yovuzlik bu mamlakat odamlariga yot bo‘lgan. Balki, shuning uchundir, bu yurtni Sarsara, ya’ni tozalarning tozasi deb atashgan*. S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Oziq-ovqat taqchil bo‘lishiga qaramay, tabiatimda q i z g‘ a n ch i q l i k yo‘q edi.* Is’hoqov, Olam go‘zal. *“O‘zi qanaqasiga qo‘lga tushuvding, e bandayi g‘ofil”, deb so‘rasam: “O‘qim tugab qoluvdi”, – deydi. Ana z i q n a l i k ning oqibati*. A.Obidjon, Eh, la’nati ombor... *Pirmon ham z i q n a l i k da Ko‘lboy og‘adan qolishmaydi. Biroq sal boshqacha yo‘l tutadi.* O‘.Abdurahmonov, Tushlik. *Yap-yangi palto edi. Q u r u m s o q - l i k da, ayab, ehtiyotlab yurguncha o‘sha kuni darsga kiyib ketavermaymanmi! Endi nima qildim?* E.A’zam, Bir daqiqa ko‘zingni yum. *Dunyoda q u r u m s o q - l i k da undan o‘tadigani yo‘q ekan. Shu ishimiz noinsoflik bo‘ldi, xotin. Yo‘q, n o k a s l i k ! Oxiri ko‘chaga haydaganday qildik-a! E, attang!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Ey rafiq, Buningdek n o k a s l i k nechun, Past ketma, baland tur, aytay bir qiyos. Makoni yuksakda bo‘lgani uchun Barchaga barobar nur sochar quyosh!* S.Hakim, Ey, rafiq. *N o k a s t a l i k tuzalmas dardmas, faqat unga saxiy bo‘lishning rohatini bildira olish kerak.* Gazetadan. *Balki, qo‘rqoqlik, ojizlik, m u m s i k l i k kabi illatlar bu so‘zning salbiy tus olishiga sabab bo‘lgandir.* E.Shukur, So‘zlar bilan so‘zlashuv. *...Hayotda shunday insonlarga duch kelasiz, baxillik, m u m s i k l i k va qizg‘anchiqlik ularning qon-qoniga singib ketgan*. U.Alimov, Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam)ning muborak vasiyatlari. *Boy p i sh i q l i k bilan Botirga sariq chaqa ham bermaslik haqida o‘ylayotgan bir paytda Botir va’dasiga vafo qilish haqida bosh qotirardi.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Pulini q a t t i q l i k, qizg‘anchiqlik bilan sarflar edi*. Gazetadan. – *Yaxshi kunga yayrab minmaydigan mashinani nimaga olgansiz?! – dedi Kimyoxon ensasi qotib. – Tavba qildim, odam deganiyam shunchalik qattiq bo‘ladimi?! – Q a t t i q l i k emas bu, ehtiyotkorlik, – dedi Sa’dibek bo‘g‘ilgudek bo‘lib.* M.Islomqul, Bir kalishlik obro‘. *Zanji bizga mutlaqo beparvo, qo‘lidagi nishonni h a r i s l i k bilan aylantirib ko‘zdan kechirarkan, inglizchalabmi nimadir dedi*. E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Ey, nima, d o‘ q o l l i k qorin to‘yg‘izadigan kasbingmidi?! Rizq mo‘lligi uchun xasis bo‘lish shart emas.* “O‘zbek xalq ertaklari”.

XASISLIK QILMOQ, QIZG‘ANCHIQLIK QILMOQ, ZIQNALIK QILMOQ, QURUMSOQLIK QILMOQ, NOKASLIK QILMOQ, NOKASTALIK QILMOQ, MUMSIKLIK QILMOQ, PISHIQLIK QILMOQ, QATTIQLIK QILMOQ, HARISLIK QILMOQ, DO‘QOLLIK QILMOQ

Birovga biror narsasini berishni xushlamaslik, qizg‘anmoq, ziqnalik qilmoq. Ushbu sinonimik qatordagi **harislik qilmoq, do‘qollik qilmoq** so‘zlari eskirgan. **Mumsiklik qilmoq, pishiqlik qilmoq, qattiqlik qilmoq** so‘zlari shevaga xos. **Qurumsoqlik qilmoq, pishiqlik qilmoq, qattiqlik qilmoq** so‘zlarida belgi darajasi bo‘rtib turadi.

Tavba, odamlarga ham hayronsan. O‘sha hojining pullari achib yotgani aniq. Nega x a s i s l i k q i l adi-a? L.Rustamova, Do‘st. *Toshqul buni qamalmasidan avval birga yashashayotganida ham, keyin ham ko‘p marta aytgan. Pul uchun jonini garovga qo‘yib yashaydigan odam hayotida pulga x a s i s l i k q i l masdi.* T.Malik, Tanlangan asarlar. *To‘rxaltangizda yana nima bor? Q i z g‘ a n ch i q l i k q i l masdan olaversangiz-chi! Bolaning ko‘nglini olish savob bo‘ladi, birodar.* H.Tohirov, Bolali yo‘lovchi. *Bu restoran oshxonasi q i z g‘ a n ch i q l i k q i l di degani emas, yaponlarning ovqatga bo‘lgan haqiqiy munosabati shunaqa.* Gazetadan. *To‘ra (ijirg‘anib). – Yig‘ishtir safsatangni. Hoziroq Rahimnikiga bor! Har sariq chaqaga sarg‘ayib qaramasdan ko‘proq ber. Z i q n a l i k q i l ma.* Q.Norqobil, Zamindan olis ketma. *Rostmi, yolg‘onmi, Buxoro bozorida bir qovunfurush aytgan bahosida turib, o‘n tiyinga z i q n a l i k q i l ib olgani hangomasini beozor ohangda, kula-kula so‘zlab berdi*. E.A’zam, Manana. *Lekin kasofat q u r u m s o q l i k q i l ib dorisiniyam ichmay qo‘ydi. Yurganida tuzuk edi, bechora qolgan-qutgan yuqini yalab kun o‘tkazardi.* M.M.Do‘st, Bir toychoqning xuni. *Magizni mo‘lroq solaver, pakana! Eringga o‘xshab q u r u m s o q l i k q i l ma. Holvadan tashla, holvadan!* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Insofi bo‘lsa, o‘ylab ko‘radi, kampir! Olti bolam bor, ko‘rib turibdi o‘zi. N o k a s l i k q i l mas.* Sh.Xolmirzayev, O‘zbekning soddasi. *Bu yerda sen bir n o k a s l i k q i l asan. ...Bergan bilan go‘shting ado bolami?* “Alpomish”. *Q o q v o s h l i k q i l ma, ey boy, biz ham mehnat qilganmiz*. “O‘zbek xalq ertaklari”. *...Ayniqsa, oldi-sotdi va haq talab qilish paytida m u m s i k l i k q i l ib, tiyinning ustida yetti dumalab turib olish baraka keltirmaydi.* I.Madaliyev, Ilm. Savdoda halollik. *Seni shunday m u m s i k l i k q i l ib tarbiyalaganmidim? Kim aytadi seni Botir polvonning o‘g‘li deb?* G.Yormatova, Tiniq momo. *P i sh i q l i k q i l mang, boy, borini boricha bering, savob bo‘ladi.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *O‘tgan zamonda Tutjar qishlog‘ida bir xasis boy yashagan ekan. Uning davlati, moli mulki ko‘kka sig‘mas ekan, biroq q a t t i q l i k q i l ishda tengi yo‘q ekan.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Rahbar h a r i s l i k q i l masa, xodim ham mehnatda saxiy bo‘ladi.* N.Ismoilov, Ishonch. *D o‘ q o l l i k q i l ib molingni ayama, har neda bo‘lsa rizq berguvchi Yaratgan bor*. Gazetadan.

XAT, MAKTUB, NOMA, **TAQRIR** Biror kishiga muayyan xabar-ma’lumotni yetkazish uchun yuboriladigan matn aks etgan qog‘oz. Bu ma’noni ifoda etishda nutqda **xat** so‘zi eng ko‘p qo‘llanadi. **Maktub** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Noma** so‘zi bugungi kunda eskirgan, tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi. **Taqrir** so‘zi eskirgan, kitobiy.

X a t lar bilan ishlashga oyda bir-ikki bor beriladigan, ya'ni shanba kuniga to'g'ri keladigan kunlarning birida ular bilan borishga rozi bo'ldim. X.Nurullayev, Xatolik... *Ellik to'rtinchi yili Saidaxondan bir x a t oldim.* S.Ahmad, Yo'qotganlarim va topganlarim. *Ular shisha idish ichida sun'iy odam qoldirgan elektron xatni topdilar, ijozatingiz bilan, hozir sizga shu m a k t u b ni o'qib eshittiraman.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Butun oqshom... qoralagan m a k t u b i va uni kim orqali ularga yetkazish haqida uzoq o'yladi*. F.Jabborov, Kutilmagan maktub. *Bir oylardan so'ng kelgan navbatdagi n o m a esa Farhod Ramazonni batamom dovdiratib qo'ydi.* E.A'zam, Shovqin. *Gul bo'ylarini bog'dan keltirgan ey shaboda, Dildorga noma yozdim, yetkir uni havoda.* E.Vohidov. *Ammo bu t a q r i r ni... muayyan qatli om soati yetmaguncha... po'shida tutilmog'i ma'quldir.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

XAVF, XATAR, TAHLIKA Biror noxushlik, salbiy hodisa yuz berishi ehtimolli bo'lgan holat, xatarli vaziyat. **Xavf** so'zi keng tushunchaga ega. **Tahlika** so'zida xavfdan tashvishga tushishlik ta'kidi anglashiladi.

Bu voqeadan xabar topgan Sulton Ali mirzo o'lim x a v f i o'ziga ham yaqinlashib kelayotganini sezdi. P.Qodirov,Yulduzli tunlar. *Vatanimiz x a v f ostida turgan kunlar... Qorasuvga borib, to'y-tomosha qilib berishga fursat yo'q edi.* O.Yoqubov, Izlayman. *Jami tiriklikka tanish shu x a t a r, Qumursqa yaralgan yoppa talarga. Do'stim, alam qilar, arslon bexabar, Yem bo'lib ketsak shu qumursqalarga.* A.Oripov, Arslon chorlagandi. *Ot ana shu daraxtlarga quloq dikkaytirib, tikilib-tikilib boradi. U o'sha taraflarda x a t a r borligini sezdi.* A.Suyunov, Ota uy. *Ul o'zining hozirgi hayotini-da ulug' t a h l i k a ostida bo'lg'anlig'ini va bu t a h l i k a ning o'tkandagilarga qarag'anda tamoman boshqacha bir dahshatda bo'lishini onglar edi*. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Dilidagi – tilida. Faqat halovati yo'q. Doim t a h l i k a da.* Q.Ochilov, Qaytim.

XAVFLI, XATARLI, XAVOTIRLI, TAHLIKALI Xavf-xatar, xavotirni yuzaga keltiradigan, tahlikali. **Xavfli** so'zida belgi darajasi nisbatan kuchsiz ifodalanadi. **Xatarli** so'zida belgi darajasi sezilarli ortiq. **Tahlikali** so'zi kitobiylik bo'yog'iga ega.

Keyingi paytlar haddidan oshdi, almoyi-aljoyi gapirsa ham go'rga edi, biroq odamga tashlanib qolishi-chi?! Yo'q, yo'q, bu jinni hecham xavfsiz emas, x a v f li. Q.Norqobil, Zamindan olis ketma. *Zanbilning ostig'a yashirinish juda ham x a v f l i edi esa-da, ammo o'lturishning maqsadig'a qonmay ketish undan ham xatarlik edi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Siz hamkasbingiz Iks janoblarining kashfiyotini zararli, deb hisoblaysizmi? Zararli emas, mudhish va x a t a r l i deb hisoblayman.* T.Malik, Xazonrezgi. *Zovurda qancha vaqt qoldim, bilmayman. Nazarimda, tevarak sokin, haddan tashqari sokin, begona, boz ustiga, x a v o t i r l i ham edi, balki suv ostidan qaraganim uchun shunaqa tuyuldimikin?* I.Sulton, Qismat. *Uch-to'rt qadam yurgandan keyin Tal'at x a v o t i r l i ohangda gapir-*

X

di: – Qarang, Gavhar, havoni bulut o‘rayapti. Odamlarga jabr bo‘ladi-da. Paxtaga ham. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *U suvlarni to‘xtatib qolishga qodir kuch bu olamda yo‘qligini bilasanmi? Butun tevarakda t a h l i k a l i o‘zgarishlarni sodir qilishingni qaniydi oldinroq bilsaydim!* I.Sulton, Sofiya. *Bugun shahidlar xiyobonida g‘oyat t a h l i k a l i umidsizlik ta’sirida jon beraman yoki meni qutqarasan!* A.Allayorov, Imkon.

XAYRLASHMOQ, VIDOLASHMOQ, XAYR-MA’ZUR QILMOQ, XAYR-XO‘SHLASHMOQ, **XAYR-XO‘SH QILMOQ**, **XO‘SHLASHMOQ** Kuzatuvda, ayrilish oldidan o‘zaro yaxshi tilaklar, yaxshi so‘zlar aytib ajralishmoq. **Xayr-xo‘shlashmoq** so‘zida xayrlashish ma’nosi kuchli ta’kidga ega. **Vidolashmoq** so‘zida, asosan, abadiyga ajralish ta’kidi anglashilib turadi. **Xayr-ma’zur qilmoq** so‘zi ko‘proq kitobiy uslubga xos. **Xayr-xo‘sh qilmoq, xo‘shlashmoq** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi.

X a y r l a sh may turib qiynaydi sog‘inch, Yuragim qon bo‘ldi seni sog‘inib. I.Mirzo, Seni sog‘inib. *Otam namoz o‘qishga hozirlanayotgandi. Shosha-pisha x a y r l a sh dim-u yo‘lga otlandim.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *– Men Tiyonshon etagidagi yana bir odam bilan v i d o l a sh moq istayman, – dedi mehmon.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *– Bolaginam, yolg‘izim, chiroqchim, v i d o l a sh ish nasib etmasa... mingdan ming sendan roziman.* L.Mahmudov, Mehr qolur… *U otiga otlanib, x a y r-m a’ z u r q i l ganda so‘fi ichkarida “Hikmat” o‘qib yotardi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *…darrov qo‘lingizdagini stolga qo‘yasiz, x a y r-m a’ z u r q i l ib ochiq havoda aylangani tashqariga yo‘nalasiz...* D.Nurullayev, Bayramdan keyingi bayramlar. *Shuning uchun qabulxonadayoq x a y r-x o‘ sh l a sh di.* F.Tilovat, Qora quzg‘un. *Faqat bir o‘tinchim, oilam bilan oxirgi bor x a y r-x o‘ sh l a sh imga ijozat bersangiz...* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Har qalay, telefonda gaplashib, x a y r-x o‘sh q i l moqchi-yov...* L.Bo‘rixon, Cho‘ldan kelgan tashvish. *Juvon ko‘chaga otilib chiqdi-da, tashqarida turgan mashinasidan bir bo‘xcha olib, peshtaxtaga qo‘ydi va qisqagina x a y r-x o‘ sh q i l arkan: – Narxini o‘zingiz belgilarsiz, men sizga ishonaman, – degancha ortiga qaramay, chiqib ketdi*. Z.Ziyo, Sizga bo‘lmaydi. *Namozgardan keyin Sodiq o‘rnidan turib, x o‘ sh l a sh ib chiqib ketdi.* Oybek, Bolalik. *Manzilga yetgach, Qobilov bilan x o‘ sh l a sh ib yo‘l chetiga tushdi.* Sh.Salom, Bahorgi majlislar.

XILVAT, XILVATGOH, OVLOQ, CHEKKA, CHET, PUCHMOQ Hech kim bormaydigan, odamlar nazaridan uzoq bo‘lgan joy. **Xilvatgoh** so‘zida makon ma’nosi alohida ta’kidga ega. **Ovloq** so‘zida ham e’tibordan chetdalik, ham uzoqlik ta’kidi mavjud. **Chekka, chet** so‘zlari mazkur ma’noda ko‘proq so‘zlashuv tilida qo‘llanadi. **Puchmoq** so‘zi badiiy uslubga xoslangan.

Agarda bironta nozik ish chiqib qolsa va ham hokimto‘ra bilan x i l v a t da gaplashmakni taqozo qilinsa, hamma gapni Zunnunboy orqali Noyib to‘raning

og‘achalariga aytilsin... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *...Alijon tashqariga chiqqanda men mehmon yigitga uning murakkab hayoti va u azaldan shunaqa x i l v a t bir makon izlab, o‘sha yerda yashab, ishlash havasida yurganini qisqacha aytib berdim.* E.Usmon, Toshbosgansoy voqeasi. *O‘zingdan ikki-uch yosh katta bolalar studentkalar bilan qanday uchrashuv tashkil qilganlarini, x i l v a t-g o h larda... Eh-he, u yog‘ini eshitaversang, chiday olmay qolasan.* A.Mamarasulov, Farishta. *...aka-ukalar katta bir “ish”ni muvaffaqiyatli yakunlab... olgan “mukofot”larini yuvishgan va x i l v a t g o h dagi choyxonada rosa maishat qilib qaytishgandi.* H.Shayxov, Iblis bilan muloqot. *U o v l o q da tanho bir gujum o‘sadi, otam urishganda yo biror nimadan xijil bo‘lganimda borib o‘shaning tagida uzoq-uzoq qolib ketish odatim bor edi.* E.A’zam, Shovqin. *...Momolardan meros o‘sha muqaddas tumorni ko‘ksiga mahkam bosganicha erini giryona kutgan, shu alfozda o‘n ikki yil, umrining so‘nggi nafasigacha o v l o q adirlarda sarosar kezinib, yo‘l qaragan...* L.Bo‘rixon, Tumor. *Bu qishloq tumanning c h e k k a hududida joylashgani sababli, yana to‘rt katta qishloqqa xizmat qiluvchi shifoxona qurilgan edi.* T.Malik, Xazonrezgi. *...millatning biron-bir vakili tasodifan ham qadam bosishi gumon bo‘lgan ch e k k a qishloqlarning do‘konlarida ham mahsulot yoniga, qoplarning ustiga yirik, rangli harflarda “Optom narxi falon so‘m” deb yozib qo‘yishadi.* Q.Kenja, Ununtilgan so‘z qadri. *Bugun hal qiluvchi o‘yin uchun begona ko‘zlardan yiroqroq deb shu ch e t qishloq choyxonasini tanlashgan edi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Agar qarshilik ko‘rsatadigan bo‘lsa, ch e t xonaga olib o‘tadilar-da, uch-to‘rtta bo‘lib o‘rtaga oladilar.* A.Mamarasulov. Uchinchi yo‘l. *Tog‘larning bu xil p u ch m o q lari unga begona edi.* S.Ahmad, Jimjitlik.

X

XIRA, XIRAPASHSHA, XIRAXANDON, SHILQIM, YOPISHQOQ, YELIM, SHILIMSHIQ Insonning g‘ashiga tegib, unga ortiqcha, o‘rinsiz va yarashiqsiz tegishaveradigan. **Xirapashsha, xiraxandon** so‘zlarida ma’no obrazli ifodalangan. **Shilqim, yopishqoq, yelim, shilimshiq** so‘zlarida ularning o‘zaklari anglatgan ma’nolariga muvofiq belgi darajasi va salbiy bo‘yoq juda yorqin hamda qabariq aks etgan.

Obbo, judayam x i r a san-da. Lo‘limisan, nima balo. S.Ahmad, Bir o‘pichning bahosi. *Aeroport hamishagidek gavjum. Baland bino biqinidagi panjara ortida kutuvchilar, x i r a kirakashlar g‘ira-shira ko‘zga tashlanadi.* L.Bo‘rixon, Tumor. *O‘qi, deyman, ko‘zmi yo po‘stakning yirtig‘imi, deyman haligidaqa x i r a p a sh sh a larga.* F.Iskandar, Qo‘shyurak. *– Aytmasang, qo‘yvormayman. – Qo‘yvor, x i r a p a sh sh a! – Nima? Kim x i r a p a sh sh a?* A.Damin, Saylanma. *Mushuklarni qiynab, tovuqlarga tosh otib o‘ynaydigan x i r a x a n d o n bolalar bo‘ladi.* P.Qodirov, Qadrim. *X i r a x a n d o n reportyorlardan o‘zini doimo chetga olgan... Folkner aslida ilhom bag‘ishlovchi tanholikni afzal ko‘rardi.* M.Xolbekov, XX asr modern adabiyoti manzaralari. *Duygu begim esa*

erining qurbon bo‘lganiga ishonmay ne-ne aslzodalar yuborgan sh i l q i m sovchilarni rad etib, oxir-oqibat saroydan bosh olib chiqib ketgan… L.Bo‘rixon, Tumor. *O‘zicha Orif Yo‘lchining yangi bir qirrasini, ya’ni sh i l q i m aroqxo‘r ekanini ham kashf etgandi.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Ho‘ng-ho‘ng yig‘laganidan keyin chidab bo‘lmas ekan. – Namuncha y o p i sh q o q bu ayol, – o‘yladi yigit g‘ijinib.* A.Hotamov, Tug‘ilgan kun. *– Meni kupengizga taklif qilmaysizmi? – deb so‘radi y o p i sh q o q, allaqanday nozlangan, erkalangan ohangda*. L.Bo‘rixon, Qo‘noq. *Bu toifa odamlardan qochib qutulmasang, boshqa yo‘l bilan qutulib bo‘larmidi? Y e l i m-ku, y e l i m ular.* S.Ahmad, Yelim. *Bola emas, sh i l i m s h i q, shilqim bir narsa ekansan. Bo‘pti, yur.* S.Ahmad, Bir o‘pichning bahosi. *Lekin erkak ham sh i l i m s h i q lardan ekan. Gapira-gapira ayolning ortidan ergashdi.* G.Yormatova, Tuman ortidagi manzillar.

XIZMATKOR, XIZMATCHI, XIZMATKASH, MALAY, CHO‘RI, QAROL Birovning shaxsiy xizmatini, uy ishlarni qilib yuruvchi kishi. **Xizmatchi** so‘zi keng tushunchaga ega. Bu so‘z ushbu ma’nosida nisbatan kam qo‘llanadi. **Malay** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi, salbiy bo‘yoqqa ega. **Xizmatkash** so‘zi nutqda juda kam ishlatiladi. **Cho‘ri** so‘zi eskirgan. **Qarol** so‘zi “xizmatkor, batrak” ma’nosiga ega, eskirgan so‘z.

Agar Akbaralining mingboshilik lavozimini noyibning xotinboz x i z m a t k o r i Zunnun egallasa, erlik haq-huquqiga esa boshqalar allaqachon da’vogar edilar. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Garchi x i z m a t k o r bo‘lsa-da, hovlining yumushlarini Yo‘ldosh o‘z zimmasiga olib, ularni quvontirdi.* T.Malik, Qarg‘ish. *Xolamning ovoziga o‘xshatganim Lobarlarning uyidagi x i z m a t ch i ayol – Zumrad ayaning tovushi ekan.* A.Namozov, Men – ko‘rinmas odam. *Choygumni ko‘tarib kelayotsa, x i z m a t ch i lar xonasida turadigan kutubxonachi qiz unga ma’noli qarab, salom berdi.* A.Taypatov, Tazarru. *Men faqat Kattaqo‘rg‘on kanalida x i z m a t k a sh larning jasorat ko‘rsatib, qilgan mehnatlarini tasvirladim.* O.Rahimov, Ajdodlarimiz qissasi. *Zaynab javob bermadi. U yig‘ilish tashkil qilib, unda o‘z m a l a y larini yerda yovuz ishlar qilishga, bu uchun odam tanasiga joylashib olishni maslahat beradi…* E.Malik, Shaytonvachchaning nayranglari. *Endi siz-u bizning qilar ishimiz – eshik og‘zida turgan, muhtasham otelning muhtasham kiyimli m a l a y lariga mana shu gaplarni yetkazib qo‘yishdan iborat.* I.Sulton, Ota qasidasi. *Ch o‘ r i xotin o‘rtag‘a dasturxon yozib choy keltirdi…* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shodlanib ketgan Yoqutbika ch o‘ r i ga uch tanga uzatdi va bu xabarni qaynanasiga aytdi. …* J.Sharipov, Xorazm. *O‘zimizga qarashlik… q a r o l emas. Qarindoshimiz…* A.Qahhor, Sarob. *Qanday qilib Olaxo‘jaboy bilan uning jabr-zulmini ko‘rgan sobiq q a r o l i Abdurasulning dili bir bo‘lsin?* P.Tursun, O‘qituvchi.

XONA, BO‘LMA, UY Yashash uchun mo‘ljallangan uyning xonasi. **Bo‘lma** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Uy** so‘zi so‘zlashuvda ba’zan ko‘chma ma’noda qo‘llanib, uyning bir qismi – xonani ifodalab keladi.

X o n a yorug‘ida xira tovlanayotgan telefonning sirtida o‘sha qizning uni yo‘qlamasligini bildiradigan nimadir bordek edi. A.A’zam, Bu kunning davomi. *– Ahrorjon, sizga bir maslahat, uka, – dedi professor x o n a o‘rtasida bir muddat to‘xtab, – ko‘p ham suvni loyqalatmang, faqat o‘zingiz emas, boshqalar ham atrofni ko‘rolmay qoladi.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Do‘kon ikki b o ‘ l m a dan iborat edi: kichkina ayvonchadan o‘tib kiriladigan dahliz va soch-soqol olinadigan ichkari xona.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Kelin-kuyov xonaga kirishdi. Uy egasi narigi b o ‘ l m a ga o‘tib, nimadir deb g‘o‘ng‘illadi.* S.Siyoyev, Avaz. *O‘sha kuni eshikdan qo‘sh tobut chiqdi. Kelin tushadigan yasatug‘li u y huvullab qoldi*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *– Sening bu urush-janjallaring qaysi do‘zaxdan kam? – Halima aya boshini ko‘tarib, to‘ng‘ich o‘g‘liga qaradi. – Bor, u y ingga!* U.Hamdam, Muvozanat.

XOTIN, RAFIQA, YOSTIQDOSH, AYOL, OILA, AHLIYA, ZAVJA Er nikohidagi ayol, uning umr yo‘ldoshi. **Rafiqa** so‘zi, asosan, kitobiy nutqda ishlatiladi. **Yostiqdosh** so‘zi keng tushunchaga ega. Bu so‘z nutqda ham er, ham xotinga nisbatan qo‘llanadi. **Ayol, oila** so‘zlari shevaga xos. **Zavja –** eskirgan so‘z.

Eshik oldida qotgan o‘rta yosh, oriq-ozg‘in, novcha kishi yarim o‘girilib, yonidagi x o t i n ini tashqariga chiqartirdi. O.Muxtor, Mezon. *Kim agar xotindan aqlli maslahat chiqmaydi, desa, bekorlarni aytibdi.* A.Obro‘y, Kallangga qoyil, xotin. *U tom ma’nodagi baynalmilalchi! Uyog‘ini aytadigan bo‘lsam – r a f i q a si o‘ris, Margarita Ilinichna Shevsova.* E.A’zam, Shovqin. *U yoshligida yigitning xushro‘ygina r a f i q a siga sovchi yuborgan-u, biroq rad javobini olib, dog‘da qolgan ekan.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Bunga boshqalar emas, o‘z umr yo‘ldoshim, ha-ha, ishonavering, o‘z y o s t i q d o sh im sababchi bo‘ldi...* A.Haydarov, Kunlardan bir kuni va har kuni... *Yigitman degan birovga sovchi qo‘yarkan, o‘ziga y o s t i q d o sh deb, umrini umriga bog‘lar ekan, aqlini yig‘sin.* E.Malik, Onayizor. *Tushdan keyin maktabidan qaytgan er qo‘ylarni qo‘shnining o‘g‘li bilan uning qo‘ylariga qo‘shib yuboradi-da, a y o l i bilan tomorqada ishlaydi.* X.Safarov, Ota. *A y o l imiz aytadi, uyqungizda gapirib chiqasiz, deydi.* T.Murod, Yurt qo‘shig‘i. *– Xudo rahmat qilsin. O i l a si bormidi? – Yo‘q. Aytgandim-ku, birinchi turmushi bo‘lmagan...* E.Usmon, Toshbosgansoy voqeasi. *U o i l a siga birov bilan mushtlashmaslikka so‘z bergan, shuning uchun o‘sha oliftaning kekirdagini ikki barmog‘i bilan qisib, chakki aylanadigan urg‘ochi tilini ko‘rib qo‘ymoqchi edi, xolos.* Q.Kenja, Toshqin. *A h l i y a miz ham uchchiga chiqqan chevar, xudoga shukr.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *“Ota, sizning to‘kilgan qoningiz uchun, z a v j a mning bulg‘angan nomusi uchun qasos oldim.* Cho‘lpon, Xayrli saboh. *“Xudo xohlasa, bundan keyingi hayotimiz yanayam go‘zal bo‘ladi!” – deya ayoliga mehr bilan boqdi er mashinaga kelib o‘tirishganda. Z a v j a javob o‘rniga kulib qo‘ydi.* U.Hamdam, So‘z.

XUDDI, AYNAN, AYNI, NAQ, QOQ, BAAYNI Boshqasiga to‘la o‘xshaydigan, undan farq qilmaydigan. **Aynan** so‘zi kitobiy uslubda, **naq, qoq** so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv uslubida ishlatiladi. **Ayni** so‘zi narsa-predmet, jarayon, zamon bildiruvchi so‘zlarga birikib kelib, kuchli o‘xshashlik ta’kidini ifodalaydi. **Baayni** so‘zi “aynan o‘xshash, xuddi o‘zi” ta’kidiga ega.

Lekin bugun o‘ylab qaralsa, x u d d i shu odatlari uchun u yurtga Muxtor Shopsanov bo‘lib tanildi. Q.Ochilov, Savob. *X u d d i shunday qildim. Gapni sal uzoqdan boshladim.* A.Namozov, Qizmi bu, malakmi bu? *Ha, a y n a n shu umid uni xotirjam bo‘lishga undardi.* S.Tursunov, Chavandozning ko‘ngli. *Qaniydi, mo‘jiza yuz bersa-yu, a y n a n o‘sha yerdan – xato sodir bo‘lgan joydan hayotimni yana boshlasam...* I.Sulton, Ozod. *Qiziq, a y n i holat onamning xudoyisida ham, qirqida ham, yilida ham takrorlandi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *...Shu bois Eson nima bo‘lganda ham akasini kutishni mo‘ljallab, a y n i gapni aytdi: – Narx-navoni bilmayman-da men.* B.Ravshan, Ikki hikoya. *N a q shu pallada darvozadan katta qora sigir shataloq otib, orqasidan bir kishini surib kirdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Shu kuniyoq savdogar uni kemasiga olib jo‘nadi. N a q shu kechqurunda yomg‘ir.* A.Sog‘uniy, Tarixi Muhammadiy. *Shaharning q o q markazidan sanoqli kishilargagina nasib etadigan g‘ishtli uylardan kvartira olishni ham o‘ylamagan edi.* Q.Ochilov, Savob. *Q o q peshinda g‘o‘za kultivatsiya qilib yursam, shiypon tomonda rais buvaning “Niva”si ko‘rindi.* O‘.Hoshimov, “Ajdar”ning tavbasi. *B a a y n i sovuq choy ichayotgandek, qop-qora soqolining bittayam tuki qilt etmadi. Bodring bilan gazak qilib, “Yaratgan ne’matingga shukr”, deb qo‘ydi.* O‘.Hoshimov, “Butilka” hoji. *B a a y n i sevib-seviladigan yoshida “erdan chiqqan” degan tavqi-la’natni bo‘yniga olishga majbur bo‘lgan.* A.Haydarov, Kunlardan bir kuni va har kuni...

XUDO, ALLOH (OLLOH), TANGRI, YARATGAN, EGAM, PARVARDIGOR, O‘ZI Diniy qarashga ko‘ra butun olamni, mavjudotlarni yaratgan, ularni boshqaruvchi oliy kuch. **Alloh (Olloh),** asosan, diniy mazmundagi nutqda ishlatiladi. **Yaratgan, egam** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. Ushbu so‘zlar **Yaratgan egam** birikmasi shaklida ham uchraydi. **O‘zi** so‘zi, asosan, *O‘zi asrasin, O‘zingga shukr* jumlalari tarkibida “Xudo” ma’nosida qo‘llanadi.

X u d o dan joylari jannatda bo‘lishini tilaydilar. O‘.Umarbekov, Qizimga maktublar. *X u d o ning qudrati ila jonsiz tuproqlar o‘z bag‘ridan go‘zalliklarni potratib chiqarib yuborgan...* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Beixtiyor sof-beg‘ubor, iliq tomchilarga kaftimni tutaman. Ular menga har doim A l l o h ning eng buyuk ne’mati – Rahmat nuri bo‘lib tuyuladi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *– Men A l l o h ga ishonaman, – dedim unga dalda berish uchun.* Q.Ochilov, Mazlumning duosi. *Tushunyapsanmi, Binafsham, aylanay sendan, T a ng r i m yorlaqasa, biz hamisha bor, hamisha birga va hamisha baxtiyor bo‘lamiz!..* U.Hamdam, Binafsha. *T a ng r i qudrati bilan qanotingga kuch kirdi.* U.Azim,

Tong otgan taraflarda. *Ehtimol, bu shunchaki tasodifdir, ehtimol, Yaratganning o‘zi suygan bandalariga ularning o‘limidan so‘ng ko‘rsatadigan ilk inoyatidir.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *U hayot Yaratganning o‘zigagina ma’lum.* T.Malik, Qarg‘ish. *...dilxastalik paytida Eg a m unga mehr va yordam qo‘lini cho‘zdi.* F.Musajonov, Bahor nafasi. *Sizni Eg a m so‘zga pichib qo‘ygan ekan-da.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Boringizda bizga bo‘ldingiz Ota, Yo‘g‘ingizda yo‘qdan qidirdik xato. Beayb parvardigor, deydilar hatto, Bizdan rozi bo‘ling, ruhi notinch zot.* M.Yusuf, Bag‘ishlov. *...O‘zi ngga shukur. Qobilboyga ham umr ber, bola-chaqasining boshida omon yursin! Meni ko‘msin.* Sh.Xolmirzayev, Og‘ir tosh ko‘chsa.

XULQ, XULQ-ATVOR, AXLOQ, FE’L, FE’L-ATVOR, ODOB (ADAB) Kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmuyi, xatti-harakatlari, yurish-turishlari tartiboti. **Atvor** so‘zi **fe’l-atvor, xulq-atvor** juft so‘zlarini hosil qilishda ishtirok etadi. **Odob** so‘zi nutqda shu ma’noda qo‘llanuvchi **xulq** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llanadi. **Adab** so‘zi nutqda kam uchraydi.

Ruhiyatshunoslar o‘zi yo‘q odamning husnixatidan uning xulqini aytib beradilar. Sh.Salom, Ko‘ngil obidasiga yo‘l. *O‘zi, xulqi singari xati nihoyatda chiroyli edi.* O.Muxtor, Daraxtlar parvozi. *O‘ychanni yutib yuborgan ilonning yaramas xulq-atvori haqida ham hikoya qildi.* F.Iskandar, Quyonlar va bo‘g‘ma ilonlar. *Barini sanash, menimcha, shart emasdir. Chunki har birining o‘ziga xos xulq-atvori, fe’li-xo‘yi bor.* M.Ahmedova, Oddiy hikoya. *Ertasiga Qamariddinning axloqi maktabda ham, bolalar uyida ham muhokama etildi.* T.Malik, Alvido... bolalik. *Mana ikki yildan beri axloqini tuzatyapti. Bu maskan shunaqangi axloq tuzatkichlarga boyki...* A.Mamarasulov, Ikkinchi yo‘l. *Insonning fe’li qiziq. Sog‘-salomat yurganida, ishlari avj paytda o‘zini bu dunyoda abadiy yashaydigandek his qiladi.* A.Taypatov, Tazarru. *Ko‘rarman kishining gar fe’li yomon, Uning huzuri oz, ko‘p chekar pushmon.* Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig. *...yo‘rg‘amning fe’l-atvorini to‘liq bilmayman. Bu menga uyat.* J.Beknazar, Qashqa yo‘rg‘a. *Bobur qaysarning fe’l-atvori hammag‘a ma’lum... o‘z niyati yo‘lida hech kimni ayab o‘lturmaydi...* D.Qo‘ldosh, Xufiyona bitim. *Bola aziz, odobi undan ham aziz.* Maqol. *Irodaning uyatchanligi bo‘shanglik yoki noshudlikka emas, ishva va odobga asoslangan edi.* F.Musajonov, Himmat. *Shuning uchun cholni o‘limidan keyin ham qarg‘ashmabdi. – Nega? – Marhumlarni yomonlash odob danmas.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri.

XUNOB, XUNOBA, DIQQAT, ZIQ Diqqati oshgan, toqati toq bo‘lgan. **Xunob** so‘zida belgi **diqqat** so‘zidagiga nisbatan kuchli ifodalanadi. **Xunoba** so‘zi nutqda nihoyatda kam qo‘llanadi. Sinonimik qatordagi **diqqat** so‘zi esa yakka holda kam ishlatiladi. Bu so‘z bilan hosil qilingan *diqqat bo‘lmoq* qo‘shma so‘zi, *diqqati oshmoq* iborasi faol qo‘llanadi. **Ziq** so‘zi so‘zlashuv tiliga oid.

Bir hafta o‘tmay ro‘yxat qariyb ikki baravarga uzaydi. Xotin norozi, o‘zim x u n o b... lekin nima qilay, ulgurmayapman. U.Hamdam, Ko‘nglimdagi daryo. *O‘zi diqqat, x u n o b, lekin tez-tez xayolga berilardi.* Oybek, Nur qidirib. *Luqmoni Hakimga umid bilan tikilib, poyiga yiqilib, yoshiga yoqasi ho‘l bo‘lib, x u n o b a s i mo‘l bo‘lib izillayverdi.* U.Azim, G‘oz. *O‘zi d i q q a t, xunob, lekin tez-tez xayolga ketardi.* Oybek, Nur qidirib. *Avaz d i q q a t. Xiva tomonga qarayverib, ko‘zi teshilay dedi. Otasidan mujda yo‘q.* S.Siyoyev, Avaz. *Shu qadar z i q, noziktabiat bo‘lib qolgani uchun Begimxon ko‘p dakki eshitdi.* I.Rahim, Chin muhabbat.

XUNOB BO‘LMOQ, XUNOBI OSHMOQ, BO‘G‘ILMOQ, DIQQAT BO‘LMOQ, DIQQATI OSHMOQ, DIQQATLANMOQ, SIQILMOQ, ZIQ BO‘LMOQ Biror ko‘ngilsiz harakat-holat, voqea-hodisa ta’siri natijasida qattiq xafalik kayfiyatida bo‘lmoq, ruhan qiynalmoq. **Bo‘g‘ilmoq, diqqati oshmoq** so‘zlarida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Siqilmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv tiliga xos. **Ziq bo‘lmoq** so‘zi ma’nosiga ko‘ra siqilmoqqa yaqin.

Otam ham qiziq, yoshi o‘tib qolg‘anig‘a qaramay uylangudek jo‘ni bor, deb x u n o b b o‘ l adi. T.Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol. *Shanba va yakshanba kuni toza x u n o b b o‘ l dim.* O.Muxtor, Daraxtlar parvozi. *– Hay, bir gap bo‘lar, domla, – deya go‘shakni joyiga qo‘yarkan, oqsoqolning x u n o b i o sh di. – Kampirning dardi – g‘o‘zada. Bir qarich yerni deb, qachondan beri bo‘g‘ishasanlar.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Yettiqoyaning geologik kartasini tuzib chiqishdi, ammo natija hamon qoniqarsiz edi. Sobirning borgan sari x u n o b i o s h a boshladi.* O.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *– Vatansiz qolsang, shunday bo‘ladi, mening dardim Qrim... – derdi u b o‘ g‘ i l ib.* J.Jovliyev, Stalinga maktublar. *Botirxon b o‘ g‘ i l ib, obraz mohiyati va asar mazmunini opaga qayta boshdan tushuntira boshladi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Toza d i q q a t b o ‘ l i b, uyni, kampirni, bir poy choriqni izlab chiqib ketdim.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Kulollarning so‘zlashib, tortishib turganlari ustiga kelib qolibdi: – Ey ustalar, nega d i q q a t b o‘ l ayotibsizlar, nima gap?* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Jahohgir mana shularni o‘ylab, d i q q a t i o sh di. Ko‘nglidagi g‘ashlikni uyqu bilan quvmoqchi bo‘ldi.* T.Malik, Falak. *Shu o‘tirishida d i q q a t i o sh gandan oshib, to‘rtinchi qog‘oz parchasiga hisobsiz so‘roq belgilari chizib tashladi-da, chuqur uf tortdi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Otabek d i q q a t l a n di: – Qipchoqlar ekanini bildim, ammo gunohlari nima, deb sizdan so‘rayman!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mansur yana s i q i l di: “Nega bunday qilding, Nazira?”* A.Namozov, Vijdon so‘rog‘i. *Kampirning nola-yu fig‘oni qachon tugarkin deb, yuragim s i q i l di.* A.Qorjonov, Farzandlar. *– Oh, Po‘lat, g‘alati odating bor-da... o‘zingdan o‘zing z i q b o‘ l averasan, – dedi Bahor.* Sh.Rashidov, Qudratli to‘lqin. *Hadeb ishga to‘g‘ri borib, to‘g‘ri qaytaversa ham z i q b o‘ l ib ketarkan kishi.* F.Musajonov, Saboq.

XUNOBLIK, XUNOBGARCHILIK (XUNOBAGARCHILIK), DIQQATBOZLIK, DIQQATPAZLIK, DIQQATCHILIK, DIQQATLIK, ASABGARCHILIK, ASABIYLIK Diqqati oshganlik, xunob bo‘lganlik holati. **Xunoblik, xunobgarchilik** so‘zlarida xunob bo‘lganlik holati kuchli ifodalanadi. **Diqqatbozlik** so‘zi o‘rnida nutqda **diqqatpazlik, diqqatchilik** so‘zlari ham ishlatiladi, bu so‘zlar orasida **diqqatbozlik** so‘zi ko‘proq qo‘llanadi. **Diqqatlik** so‘zi ruhan ezilganlik, yuragi siqilganlik ta’kidiga ega. **Diqqatbozlik, diqqatpazlik, diqqatchilik** so‘zlari **diqqatlik** so‘ziga nisbatan ma’noni kuchli ifodalaydi.

Bozor-o‘charda o‘ylagan narsalaringizni xarid qilolmay qaytayotgandagi x u n o b l i k n i hov anavi chiroqqa qo‘ngan yirikkina chivinga qizig‘i yo‘q yoki bormikin? M.Mengli, Hikoya. *Zumrad ko‘zlarining nurini to‘ka-to‘ka, ko‘p x u n o b l i k bilan ish tikardi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Egat ochishning turgan-bitgani x u n o b g a r ch i l i k-ku!* R. Rahmonov, Changalzordagi sharpa. *Boyagi x u n o b g a r ch i l i k ustiga bunisi ham qo‘shildi-yu, biz bir yoqda qolib, otam onamni tushirib qoldi*. O‘.Hoshimov, Qanoat. *Ha, ha, ishonavering, shunisi ham borki, ba’zi sertashvish oilalarga xos d i q q a t b o z l i k bizda ham sodir bo‘lib turadi.* M.Safarov, Ayrishox. *Hammasi orqada qoldi. Xotin, bola, uy. Araz, d i q q a t p a z l i k, g‘iybat... Ish. Sovxoz. Ishchilar...* Sh.Xolmirzayev, Hayot abadiy. *Shu bilan birga, o‘zimning ham ikki-uch hafta shaharni tark etib, dalada bo‘lgim, toza havo olgim, bu yerdagi ishlarni, d i q q a t ch i l i k larni unutgim bor edi.* A.Hayitmetov, Yasha, Turon. *Ro‘zaman, yana ko‘ngli buzuldi, yana d i q q a t l i k, oh...* Cho‘lpon, Do‘xtur Muhammaddiyor. *Qobilvoy ham shu o‘ylar ta’sirida tamshanib qo‘ydi. Keyin esa d i q q a t l i k dan u yoq-bu yoqqa yurdi, chekdi, yo‘lga orqasini o‘girib, kishi sezmaydigan qilib bir qultum “anavin”dan yutdi.* A.Rustamov, Kelishuv. *Buzilgan binoda ehtiyot choralarini ko‘rgan holda harakat qiling. Bezovta bo‘lgan yosh bolalar va aholini tinchlantiring, ortiqcha a s a b g a r ch i l i k ka yo‘l qo‘ymang.* Gazetadan. *– Charchabsiz-a? – dedi bo‘lim mudirimiz Habibullo aka oldidagi qog‘ozdan boshini ko‘tarmay. Qizig‘i, uning ovozida horg‘inlik ham, a s a b i y l i k ham sezilmasdi.* Q.Ochilov, Uchinchi odam. *Baliqchilar odatdagi o‘zaro gangur-gungurlarini ham bas qilishgan, teran bir a s a b i y l i k hokim, muloqotga-da toblari yo‘q.* U.Hamdam, Safar.

XUNUK, BADBASHARA, BADBURUSH, BADQOVOQ, TASQARA, BEDAVO, TA’VIYA, BEO‘XSHOV, BESO‘NAQAY, SOVUQ, BADSURAT Ko‘rinishi yoqimsiz, chiroylining zidi. **Xunuk** so‘zi nutqda har qanday yoqimsiz ko‘rinishga nisbatan ishlatiladi. **Badbashara, badburush, badqovoq, badsurat, bedavo** so‘zlari faqat yuz ko‘rinishiga nisbatan qo‘llanadi, belgi darajasining ortiqligini ta’kidlaydi. **Badbashara, badburush, badqovoq, tasqara, bedavo, ta’viya, beo‘xshov, beso‘naqay, sovuq, badsurat** so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi. **Sovuq** so‘zi mazkur ma’noda, asosan, so‘zlashuv tilida qo‘llanadi.

Qiz o‘n sakkiz yashar emasdi, shuning uchunmi, uning x u n u k kinaligi darrov ko‘zga tashlanardi. A.Yo‘ldoshev, Aybdor. *– Mirhosil… bugun chap tomoning bilan turganmisan, odam zoti ko‘zingga x u n u k ko‘rinyapti, – dedi To‘lqin.* T.Malik, Xazonrezgi. *Lekin bizni biron qiz ham yaxshi ko‘rmas edi-da!.. Juda b a d b a sh a r a man-da.* Sh.Xolmirzayev, Xumor. *Ro‘ziqul aka novcha bo‘yli, qozonday qop-qora, ustiga-ustak, yuzlari cho‘tir, b a d b a sh a r a odam.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Tutgan baliqlarim shunaqa yirik va b a d b u r u s h ediki, hatto qo‘yib yubormoqchi ham bo‘ldim.* G‘.Mirzo, Ariq to‘lib baliq oqqan kun. *Ko‘z oldimda anchayin xunuk, yuzi gezargan, ko‘zlari o‘lja ko‘rgan bo‘rinikidek sovuq, kishiga hamisha shubha va gumon bilan boqadigan b a d b u r u sh kimsa turardi.* N.Eshonqul, Sibizg‘a volasi. *Biroq yo‘l-yo‘lakay tuman gaz idorasiga kirib o‘tishga qaror qildi: jarimani to‘lash kerak edi. Aksiga olib, yagona b a d q o v o q ayol ishlayotgan kassada odam ko‘p ekan.* A.Yo‘ldoshev, Mix. *Bu orada, ming shukr, bir o‘g‘il, bir qizning otasi bo‘ldim. Bu orada b a d q o v o q qaynonam rahmatli bo‘lib ketdi.* A.Yo‘ldosh, Puankare. *Zeroki, afti-angorini ko‘rib, xunukmi – t a s q a r a mi, desa bo‘laveradigan bu odamni qishloqda hurmat qilishardi.* O.Muxtor, Yozilmagan hayot. *Ovchidan bir necha kun keyin bu daraga inqillab-sinqillab kirib kelgan sang‘ilar galasi esa kiyikning toshdagi t a s q a r a suratiga boqib estetik zavq olmadilar…* A.Obidjon, Kambag‘albop Gulmatiy. *– Ha, ha, xunuksan, b e d a v o s a n ! Bo‘yningga ol, xunukman de!* Hamza, Boy ila xizmatchi. *Turkiyda keltiribdurlarkim: Qo‘nsa davlatning qushi bir b e d a v o ning boshig‘a, Ko‘rgali kelgay Sulaymon ul gadoning qoshig‘a.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *– Gapning rosa xo‘rrozini aytding. Bu ko‘proq So‘fini yalardi. Bu t a’ v i y a ni Sotvoldi bechora opichib oborib qo‘yardi uyiga.* T.Malik, Xazonrezgi. *Haydovchi oynadan boshini chiqarib baqirdi: – Hoy, t a’ v i y a, ko‘zingga qarab yursang o‘lasanmi?!* M.Hazratqulov, Sevgi sozi. *– Manavining xati bor, – deganiga bo‘z xaltadan olgan katak daftarning yarim varag‘iga xastalikda bitilgan harflari b e o‘ x sh o v xatga qarab lablari titray boshladi, qog‘ozni g‘ijimlab uloqtirdi.* L.Mahmudov, Mehr qolur... *Quyuq tutash qoshlari, qirrador burni yanada uzun va b e o‘ x sh o v ko‘rinardi.* Q.Kenja, Indamas odam. *Jasadning to‘satdan kipriklari qimirlab, b e s o‘ n a q a y qalin lablarida zaharxandali kulgi ifodasi paydo bo‘lgandi.* H.Shayxov, Ikki hikoya. *Daryoning sel yuvib, b e s o‘ n a q a y kengaygan shu yeri urush yillaridan beri – kech kuzdan erta bahorgacha – bozor.* O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. *Basharasi s o v u q badxulqning oldida jiddiy bo‘l.* “Hikmatlar shodasi”. *O‘rgimchak – turqi s o v u q hasharot. U bexos ko‘zi tushgan har qanday kishini seskantiradi.* S.Matjon, Shoirning badiiy olami. *Bir balo, bir ofat, b a d s u r a t xunuk, Og‘zidan ochilgan qora bir tuynuk.* Mirtemir, Asarlar.

XURSAND, MAMNUN, SHOD, XURRAM, KAYFICHOG‘, VAQTICHOG‘, VAQTIXUSH, XUSHHOL, XUSHVAQT Hayotdan juda mamnun, kayfiyati juda yaxshi. **Mamnun** so‘zida xotirjamlik, rozilik ta’kidi ham namoyon bo‘ladi, belgi darajasi kuchsiz ifodalanadi. **Xurram, xushhol, xushvaqt** so‘zlarida badiiylik bo‘yog‘i mavjud. Bu so‘zlarda mamnunlik belgisi kuchli ifodalanadi, kitobiy uslubga xoslangan. **Kayfichog‘, vaqtichog‘, vaqtixush** so‘zlarida shaxsning ko‘tarinki ruhda ekanligi ta’kidi anglashilib, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Mana, nihoyat, u jazoni o‘tab qaytibdi. Men shundan x u r s a n d edim... A.Haydarov, Kunlardan bir kuni va har kuni... *Madina ko‘ksimga bosh qo‘ygancha qushqarash qilib jilmaydi. Negadir x u r s a n d edi.* M.Xayrullayev, Birinchi muhabbat. *Muqim tog‘a m a m n u n holda jilmayib qo‘ydi.* J.Kengboyev, Ovchining so‘nggi ovi. – *Suv masalasi tang-ku! Yigit m a m n u n iljaydi. – Suv tashiydigan oshnamiz bor.* T.Yo‘ldoshev, Yaxshiboy. *Qo‘chqor Olimjondan rozilik oldim, deb o‘ylab o‘zida yo‘q sh o d.* Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Hasanboy esa g‘am-g‘ussaga botish o‘rniga, aksincha, o‘zida yo‘q sh o d edi. – Balki, “zavushniyga” urinib ko‘rarsan? – deyman unga dalda berib.* U.Ro‘ziyev,Yog‘och otlar. *Daf’atan bu x u r r a m ziyofatda, bu jamoatda o‘zini ortiqcha, itdek xor, bitdek zor, pachoq, pajmurda kimsadek sezdi.* E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli. *Subhanolloh! Oqil kishi o‘z umrini ozgina mol bilan x u r r a m va shodlikda o‘tkazadi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Ayqirib oqayotgan soy yoqalab o‘ttiz besh-qirq yoshlar chamali bir kishi yengil xirgoyi qilib kelmoqda. V a q t i ch o g‘, qadam olishlaridan andak shirakayfligi bilinadi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Dillariga g‘am to‘la bechoralarga yorman, V a q t i x u sh, g‘am ko‘rmaganlardan tamom bezorman.* Cho‘lpon, Galdir. *Qiz, oyoqlari ostida suv to‘la chelaklar, qarshisidan lop etib chiqqan dugonasi bilan x u sh h o l suhbatlashib turardi.* N.Norqobilov, Oriyat. *Xayriyat, har xil bo‘yoqlar isi anqib turgan xonada Samandardan boshqa hech kim yo‘q ekan. Yangi muallim ota-bolani x u sh h o l, xushmuomala kutib oldi.* M.Rustamova, Shaharlik muallim. *Qayerga, Unsinovajon? – x u sh v a q t bo‘lib so‘radi Sobirova opa.* Sh.Xolmirzayev, Kechagi kun kecha. *Uy bekasi o‘zini harchand sipo, x u sh v a q t tutishga urinmasin, xijolatda qolgani sezilib turar, baliq qovurmoq bahona, tez-tez oshxonaga chiqib ketar edi.* E.A’zam, Guli-guli.

XURSANDLIK, MAMNUNLIK, MAMNUNIYAT, SHODLIK, KAYFICHOG‘LIK, VAQTICHOG‘LIK, VAQTIXUSHLIK, XUSHHOLLIK, XUSHVAQTLIK, BEHBUDLIK Hayotdan mamnun bo‘lganlik, quvonganlik holati. **Xushhollik** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Kayfichog‘lik, vaqtichog‘lik, vaqtixushlik** so‘zlarida ko‘tarinki ruhda ekanlik holati alohida ta’kid oladi. **Behbudlik** so‘zi poetik nutqqa xos, eskirgan.

– Opa, o‘n olti kun qoldi, – dedi deyarli x u r s a n d l i k bilan. – Valdiray-verasan-da, – dedi onam va birdan tumtayib oldi. S.O‘nar, Safura xolamning ertagi. *Kozim bog‘chaga ketganida kuchukcha uzoq angillaydi, eshikka yopishib timdalaydi, kelganida esa x u r s a n d l i k dan sakrab uyni boshiga ko‘taradi.* O‘.Umarbekov, Bo‘ribosar. *Sovchilar xushhol, yuz-ko‘zlari sevinch-u m a m-n u n i y a t dan porlab, xayr-xo‘shlashib jo‘nashdi.* I.Sulton, Onaizorim. *Ha (yu-zida m a m n u n l i k aks etib), uni aytyapsizmi, ancha bo‘ldi-ku chiqqaniga!* A.Namozov, Gazetchilar. *M a m n u n l i k zohir nigohlaridan olib qochib ni-malarnidir g‘o‘ldiradi; oxirida “palakat-da” deb qo‘ydi sekin.* A.Yo‘ldoshev, Quduq. *Keyin yana maktub davom etardi: “Bu dunyoda bari o‘tkinchi, sh o d l i k ham, qayg‘u ham. Bas, ketar vaqti bo‘ldi. Azizim, men ketmoqchiman...* M.Ahme-dova, Jo‘natilmagan maktub. *Oldingi bayramlar juda g‘aroyib, bu kunlarni u juda zoriqib kutar, evaziga bir olam sh o d l i k egasi bo‘lib chiqardi.* J.Fozil, Bayramning rangi. *– Otpuskaga chiqqan. Agaratda ishlayapti, – dedi m a m-n u n i y a t bilan.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Muhammadrajab domla bu topshiriqni m a m n u n i y a t bilan qabul qildi.* A.Qahhor, Sarob. *Bu nash’a-lik kulish, bu k a y f i ch o g‘ l i k, bu ovozdagi sho‘xlik hech nari-beri bo‘lmadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shu k a y f i ch o g‘ l i k ustiga miriqib tamaki ham tortmoqchi bo‘ldimi, labiga sigaret qistirib, tutatdi.* N.Jaloliddin, Bolalar. *Ikrom-jon ishlamasdan burun ham ular namoyishga chiqishgan, biroq shunchaki o‘zlari... go‘yo safni to‘ldirish, raykom, ijroqo‘m rahbarlariga ko‘rinish berish uchun yoki shunchaki v a q t i ch o g‘ l i k uchun...* Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor. *Jangchilar bu kunni o‘yin-kulgi, v a q t i ch o g‘ l i k bilan o‘t-kazdilar.* A.Qahhor, Oltin yulduz. *Bizga g‘iybat illatining oqibatlari ham, zarar-lari ham, undan keladigan vaqtinchalik v a q t i x u sh l i k ham, uning “ko‘ngil bo‘shatish” niqobidagi soxtakorligi ham ma’lum.* D.Komil, Do‘zaxiy xatar yo-xud abadiy hasrat. *Hammang ham shunday o‘ylab, V a q t i x u sh l i k, o‘yin bo‘lsin.* “Bahrom va Gulandom”. *Olim ayolidagi x u sh h o l l i k uzoqroq davom etishini istab, uning botinida va zohirida kechayotgan farahli o‘zgarishlarni sezmaganga oldi.* Q.Ochilov, Pisand. *U x u sh h o l l i k bilan yurib deraza oldi-ga bordi.* E.A’zam, Manana. *Tutma ko‘z hargiz falakdin surati b e h b u d l i k, Holatim etti digargun sobit-u sayyorasi.* Uzlat, G‘azallar. *Abu majlisiga chopishar edi, Unda bir b e h b u d l i k topishar edi. Aslida, Zuhaliy sohibi dav-ron, Naysabur taxtiga yaqin bilimdon.* Zarafshoniy, Imom al-Buxoriy. *Kattakon o‘rik soyasidagi chorpoyada totuv oila ahli x u sh v a q t l i k bilan choyxo‘rlik qilib o‘tiribdi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Xayollari, o‘ylari qo‘ynidagi bo-bomiz, x u sh v a q t l i k lari, ruhiy hayitlari qo‘ynidagi bobomiz baytlarni eshit-madilar.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar.

XUSHBO‘Y, MUATTAR, SHIRIN, IFORLI Yoqimli hid taratadigan, yax-shi hidli. **Xushbo‘y** so‘zida belgi kuchli ifodalangan. **Muattar** so‘zi poetik

matnlarda ko‘p uchraydi. Garchi **xushbo‘y** so‘zida **hid** ma’no uzvi bo‘lsa-da, bu so‘z **muattar** so‘zi kabi ko‘pincha **hid** so‘ziga bog‘lanib keladi. **Shirin** so‘zi bu ma’noda hid bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanadi. **Iforli** so‘zi badiiy nutqqa xoslangan.

Gavharshodbegim tojdor nevarasini bag‘riga bosib ko‘rishar ekan, undan xushbo‘y may hidi kelayotganini sezdi. P.Qodirov, Chaqmoqday yaltillab so‘ngan umr. *Yozning shabbodasi daraxtlarni mehr bilan ohista silkitar, yerga g‘arq pishgan mevalar dup-dup tushganda juda shirin va xushbo‘y hid bog‘ni to‘ldirardi.* H.Ahmedova, Bobomning bog‘i. *Chaqaloqdan qandaydir muattar hid kelayotgandek, boshi aylanib ketdi.* A.Namozov, Bir oqshom. *Billur hovuzcha ichiga ikki kishilik par o‘rin to‘shalgan, oppoq choyshab tungi shabadada muattar hid taratar edi.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Haqiqatan ham, bog‘ning olmasi bir tarafi taram-taram qizg‘ish, boshqa tarafi och-yashil bo‘lib yetilgan, yaqiniga borsa, boshni aylantirar shirin isiyam gurkurab turardi.* I.Sulton, Onaizorim. *Polizga yetgach, o‘zimni atir-upa do‘koniga kirib qolgandek his etib, dimog‘im yashnadi. Ammo, million marta afsuski, shirin hid qorin to‘ydirmaydi.* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Iforli o‘tlarga ko‘milar, Tikilib qoladi osmonga.* Sh.Rahmon.

XUSHXABAR, MUJDA Yoqimli, kishini xursand qiladigan xabar. **Xushxabar** so‘zida mazkur ma’no kuchli ta’kidga ega. **Mujda** so‘zi poetik nutqqa xos.

Men bu yerga sizni hibsga olish uchunmas, balki favqulodda bir xushxabarni yetkazish uchun kelganman. A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Shuning ustiga suyukli nevarasining Abusayid bilan jang qilib g‘olib chiqqani haqidagi xushxabar ham keldi-yu, begim quvonganidan qanot chiqarib uchgudek bo‘ldi.* P.Qodirov, Chaqmoqday yaltillab so‘ngan umr. *U baxt mujdasi ediki, uni eshitish bilan Qamchining qalbidagi tashvishlarning bari tong tumaniday yengilgina tarqaldi.* H.G‘ulom, Mash’al. *Ammo u ilhaq kutgan mujda kelmadi. Avval oy, so‘ng Shopsanovning sabri qaridi.* Q.Ochilov, Savob.

XO‘TIK, TOYXAR (TAYXAR) Eshakning bolasi. Mazkur ma’noni ifodalashda **xo‘tik** so‘zi faol ishlatiladi. **Tayxar, toyxar** – shevaga xos so‘zlar.

Qopni xo‘tik ka ortishga yordamlashar ekan: – Tezroq qayt, jon qaynim, – deb kuldi. O.Yoqubov, Yaxshilik. *Mana, xo‘tik bizdan, daromad arra.* A.Obidjon, Mirzaqand naynovning hasratlari. *Bu ayanchli nola quduqda jaranglab ketdi. Lekin uni hech kim eshitmadi. Faqat og‘ilda turgan toyxar gina chivin kelib qo‘ngan qulog‘ini beparvo silkitib qo‘ydi.* A.Yo‘ldosh, Quduq. *...tomoshaga kelganlar ichida beton ariqda yoshgina toyxar chasini bog‘lab qo‘ygan qop-qora, to‘qqiz yoshlardagi bola ham bor edi...* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Keyin bunday qarasam, chang-to‘zon... Kulga ag‘nagan tayxar kabi toza yumalashibmiz-da o‘ziyam.* N.Norqobilov, Qo‘shnilar.

Y

YAKUNLAMOQ, YAKUN QILMOQ, XULOSALAMOQ, XULOSA QILMOQ, NATIJALAMOQ, SARHISOB QILMOQ (ETMOQ), TUGATMOQ Biror ish-yumushni nihoyasiga yetkazmoq, muayyan natijaga kelmoq. **Xulosalamoq** so‘zida bir ixcham umumiy natija ta’kidi namoyon bo‘ladi. **Natijalamoq** so‘zida umuman natija alohida ta’kid oladi. **Sarhisob qilmoq, sarhisob etmoq** so‘zlarida barcha jihatlarni hisob-kitob qilgan holdalik ta’kidi mavjud. **Tugatmoq** so‘zida batamomlik ta’kidi anglashiladi, ko‘proq so‘zlashuv tiliga oid.

Xo‘jalikdagi hamma qishloqlarda kelgusi qishgacha gazlashtirishni yakunlash rejalashtirilgan. Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. – *Charchab qoldingiz, shekilli, suhbatimizni y a k u n l a ylikmi? – Yaxshi bo‘lardi.* X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. – *U emas, bu emas, peshona, – o‘zicha y a k u n q i l di Ahad Komilov.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Iskandari Rumiyning tilsimini ochadi va Suqrot tog‘idagi qorong‘i g‘or ichida buyuk faylasufni topadi. Bularni Farhod o‘z umrining so‘ngida shunday y a k u n q i l gan edi: Biri Yunonga markab surgonimni, Qilib razm ajdaho o‘ldurgonimni.* H.Olimjon, Farhod va Shirin. *Da, sizning yo‘rig‘ingiz boshqa ekan, – fikrini x u l o s a l a di direktor o‘rinbosari.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Yuqoridagi fikrni x u l o s a l a b aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy ijodkor sifatida yashab o‘tgan emas, balki hozir ham barhayot…* N.Karimov, Abdulla Qodiriy qomusi. *Aytilgandan shunday x u l o s a q i l ish mumkin: badiiy adabiyot tarixga olib borguvchi yana bitta yo‘l – his va tafakkur bilan yo‘g‘rilgan muqaddas yo‘l.* U.Hamdamov, She’riyatimizda Qodiriy an’analari. *Junbishga kelgan tabib mingta zog‘ning ko‘ksini yorib ko‘rgan emish. Birortasining ko‘ksini dog‘dan xoli ko‘rmagan tabib shunday x u l o s a q i l gan ekan: “Ki bu dunyoda bir zog‘i bedog‘ yo‘q”…* H.Xudoyberdiyeva, Ikki qo‘lda ham malham turib. *Otabekning bu sinashi o‘z fikrining to‘g‘ri bo‘lishi bilan n a t i j a l a ndi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Ish Oxund domlamiz kabilarning foydasi bilan n a t i j a l a ndi.* A.Qodiriy, Tinch ish. *…odam… bosgan qadamini s a r h i s o b q i l ib, o‘z vijdoni oldida hisob berib tursa, ertaga bo‘lishi mumkin bo‘lgan mudhish xatolarga yo‘l qo‘ymas ekan…* U.Hamdam, Muvozanat. *Men qisqa kechmishim s a r h i s o b e t sam, Bir savol fikrimda hamisha yoniq: Odam bo‘loldimmi dunyoda men ham Otamning o‘g‘liman demoqqa loyiq?* E.Vohidov, Saylanma. *Qiz hali gapini t u g a t magan ham ediki, eshik ochilib Omontoyning mo‘ylovi ko‘rindi. Rais shoshib qichqirdi.* T.Malik, Savohil. *Maxsum hikoyani t u g a t di, qiz va hammol haqidagi boshqa bir hikoyani boshladi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

YALINMOQ, YOLVORMOQ, O‘TINMOQ, ILTIJO QILMOQ O‘tinib so‘ramoq, iltimos qilmoq. Nutqda mazkur ma’noni ifoda etishda **yalinmoq** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi. **O‘tinmoq** so‘zida iltimos darajasi qabariq ifodalangan. **Yolvormoq, iltijo qilmoq** so‘zlarida yalinish ta’kidi yanada bo‘rtib turadi.

– Nima qilsang, o‘zing bil, basharti o‘g‘ling ko‘nmasa men zo‘rlamayman! – dedi. O‘zbek oyim eriga y a l i n ib boshladi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *U o‘zi zaif, kasalmand ayol edi, “Hulkarjon, otang yo‘g‘ida ham ota, ham ona bo‘lib o‘stirdim, yuzimni shuvut qilma, qarg‘ishimga qolma!” – deb y a l i n ar, hatto yig‘lar edi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Mingboshiga ariza olib keladigan xotinlar, aksari, qatiq, qaymoq va qovun-tarvuz singari narsalarni ko‘tarib kelib, uch kundoshdan qaysi biri uchrasa, shunga y o l v o r adilar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Muborakxonim bu gaplarga sukut qilib quloq soldi, pirovardida boshini ko‘tarib eriga y o l v o r di.* A.Qahhor, Muhabbat. *Lekin sizga aytmasdan ketib qolganim uchun o‘zimni aybdor hisoblayman. Shuning uchun o‘ t i n ib so‘rayman, meni kechiring, Gulchehra.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Og‘ayni, iltimos, o‘ t i n ib so‘rayman, bir oftobga chiqing, soyangiz yo‘qligini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘raylik...* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Kumushni o‘zi bilan olib ketish uchun har kimga bir i l t i j o q i l ib, niyati ijobat bo‘lmagan Oftob oyim mahzun holatda o‘tiribdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Onam o‘rnidan turib ichkariga yo‘l olarkan, o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgandek i l t i j o q i l di: – E, Xudo! Ishqilib, bunaqa ko‘rguliklardan o‘zing asra!..* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri.

YALPIZ, HULVO, PIDANA (PUDINA) Tibbiyot sohasida, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan xushbo‘y ko‘pyillik o‘tsimon o‘simlik. **Yalpiz** so‘zi uslub jihatidan betaraf. **Hulvo**, **pidana** so‘zlari shevalarda ishlatiladi. **Pidana** so‘zi ayrim shevalarda **pudina** shaklida ham uchraydi.

Y

O‘n-o‘n besh qadam naridan o‘tgan, ikki labini yashil qiyoq, kulrang y a l p i z bosgan irmoqda esa suvkalamush – qunduzlar chopir-chopir qilib suzib yurishar, ba’zan qirg‘oqda ham ko‘zga tashlanib qolishardi. Q.Kenja, Toshqin. *Men hali tug‘ilmasimdan burun Nusa xola bilan eri Sadir tog‘a qish ichi biznikida turishganini, y a l p i z lar quloqlay boshlagan pallada ikki ko‘tarim chiqib-chiqmaydigan ko‘chini yig‘ib, yangi yerlar o‘zlashtirilayotgan cho‘lga ketishgach, o‘zlariga kichik bir kulba qurib olishganini eshitgandim.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Yaproqlari nurdan bino, Sirli h u l v o ga o‘xshayman.* H.Xudoyberdiyeva, Istama sevguvchi dil… *Atrof-javonib ko‘kalam: paxta bilan beda, makkayi bilan poliz ekini, qayerga suv yetsa, o‘t gurkiraydi: bo‘yimodaron, salomalaykum, semizo‘t, pechak, g‘umay paxtani bosadi, tak-tak, sho‘ra, yalpiz, buni p i d a n a deymiz.* A.A’zam, Quroq. *Yanvarda yalpiz chiqibdi. “P i d a n a” deyishadi, biz taraflarda. Temiryo‘lning takkinasidan, qazib tozalangan kattagina, suvsiz ariq labidan chiqibdi.* Sh.Bobonur o‘g‘li, Qora suyaklar.

YANA, TAG‘IN, TAKROR, **BOT, BOZ** Takror marotaba, yana qayta. **Tag‘in** so‘zida takroriylik ma’nosi alohida ta’kidga ega. Bu so‘z so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatiladi. **Bot, boz** so‘zi nutqda kam ishlatiladi, eskirgan, asosan, badiiy nutqda uchraydi.

Xurram qotmadan “Yo‘q, bizga dasht ma’qul”, degan javobni eshitgach, tag‘in bir o‘ylab ko‘ring, ne qarorga kelganingizni bilmoq uchun y a n a kelaman, degancha badar ketdi. N.Norqobilov, Kurash. *Paxta yetishtiruvchi brigada a’zolari qo‘sh otli, to‘rt g‘ildirakli, so‘risi keng “haptakach”da tong yorishib-yorishmasidan yo‘lga tushib, ishlari bitgach, qorong‘i tushganda y a n a qaytib kelishardi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Shu payt yana o‘sha xonimcha kelib qoldi. Yel esa uzoq-uzoqlardan kelib, o‘ynaydi, uchadi. Sochlarni dolg‘alantirib, t a g‘ i n qochadi.* Mirtemir, Edil kulganda. *T a g‘ i n shirin tabassum bilan “chikin”, deydi.* O‘.Hoshimov, G‘aroyib sayohat. *Bobur o‘rnidan sakrab turdi, t a k r o r eshitilgan alamli yig‘idan eti junjikib, buvisining xonasiga qarab yugurdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Eshik ichkaridan zanjirlangan edi. Hamdam astagina, odob bilan taqillatdi. Javob hayallagach, t a k r o r taqillatdi.* T.Malik, Shaytanat. *Bunga javoban Xurram qotma, farqi nima, deganday yelka uchirib qo‘yardi. Bu hol b o t takrorlangach, G‘ani qo‘l siltab, so‘kina-so‘kina jo‘nab qolar va so‘ng ma’lum muddatgacha qaytib qorasini ko‘rsatmasdi.* N.Norqobilov, Kurash. *Ochilar b o t turma-hujra shomgi soat to‘qqiz payti. Beshta soqchi sharbat ichib, tun qa’riga ketar qaytib. Yopilar b o t turma-hujra soat to‘qqiz bo‘lgan hamon.* Sh.Rahmon, Saylanma. *B o z maxfiy qolmag‘aykim, Toshkand begi bo‘lg‘an zot borasida andisha lozim ermas, zero ul odam fuqaroning osoyishi yo‘lida jonbozliq qilg‘uchi kishidir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bir kuni Fotih Burhonovich b o z yuqoriga – tog‘ning ustiga chiqdi, bu yerdan borliq-dalalar, bog‘lar, shahar yanada g‘aroyib – undan ancha quyida yastanib yotganday, fuqaro-bandalar chumoliday mayda, shunchaki ivirsib yurishganday ko‘rinardi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy.

YAQIN, YOVUQ Uzoq bo‘lmagan, o‘rtadagi oraliq masofa uncha katta bo‘lmagan. **Yaqin** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Yovuq** so‘zi eskirgan, tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi.

Qirg‘oqqa y a q i n yerda to‘rt qoziq ustida kattakon bir qayiq turar edi. A.Qahhor, Xotinlar. *To‘nkalar juda ko‘p, ham bir-biriga juda y a q i n.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bu vaqtda y o v u q dan miltiq ovozi eshitilib, uning tutuni bandilar va soqchilarni qoplab oldi.* S.Ayniy, Qullar. *Bulduruq ham tuvaloq, Suqsur, oqquv, tustovuq, Sayranglar menga y o v u q.* Mirtemir, Tanlangan asarlar.

YAQINLASHMOQ, YAQINLAMOQ, YO‘LAMOQ, YONDASHMOQ, YONASHMOQ, YOVUQLASHMOQ Biror kimsa yoki narsa-predmetning yaqiniga bormoq yoki yoniga kelmoq. **Yaqinlashmoq** so‘zi barcha nutq uslub-

larida erkin qo‘llana oladi. **Yaqinlamo**q so‘zi nutqda kam ishlatiladi. **Yo‘lamoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. **Yondashmoq, yonashmoq** so‘zlari nutqda kam qo‘llanadi. **Yonashmoq, yovuqlashmoq** so‘zlari eskirgan.

Zaynab ham kulumsiragan holda Kumushga y a q i n l a sh ib keldi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qumrixon ayaning yuragi gurs-gurs urib ketdi: men ham boraman ekan… U kishi jilmayib, rejissyorga y a q i n l a sh di.* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Bir-bir bosib, ilgari yeldi, Soy bo‘yiga y a q i n l a b keldi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Belidan qo‘lini olmay y a q i n l a b keldi texnik.* Sh.G‘ulomov, Yorqin ufqlar. *Bul xotinning qo‘lidan har bir ish keladir deb o‘ylab, o‘tkan kun qayin otangizg‘a aytdim: begona xotinni uyingizga y o‘ l a tmasinlar va chetdan kelgan taomni yemasinlar deb. Har holda, yomondan hazar lozimdir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sevadigan qizimizni o‘zimizdan juda ustun qo‘yib, keyin yoniga y o‘ l a shga chora topolmay yurar edik.* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Yaxshiga y o n d a sh, yomondan qoch.* Maqol. *Gulsum sandalning chetiga, Oyimxonga y o n d a sh ibroq o‘tirdi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Yonashib, qoshima yaqin kelmagin, Semurg‘ga hadik berib yurmagin.* “Bahrom va Gulandom”. *Toshganingda aslo bo‘lmas y o n a sh ib, Nochor ot chopishar mirob-boshilar.* Mirtemir, Tanlangan asarlar. *– Axiylar birodarlar, keling endi, barchaning xayolini mashg‘ul etgan ishlar borasida, ya’ni kun sayin y o v u q l a sh ib kelayotgan g‘animni daf etmoq choralari to‘g‘risida so‘ylashib olaylik, – dedi oqsoqol.* M.Osim, O‘tror. *Jome’ masjidini aylanib, jinko‘chalar oralab, Pahlavon Mahmud qabriga y o v u q l a sh di.* S.Siyoyev, Yorug‘lik.

YARA, YARA-CHAQA, JAROHAT Teri va gavda to‘qimalarida yallig‘lanish natijasida yuzaga kelgan nuqson, tig‘ yoki zarb ta’sirida hosil bo‘lgan shikast. Nutqda mazkur ma’noni ifoda etishda **yara** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi. **Yara-chaqa** so‘zi so‘zlashuv tiliga xos. **Jarohat** so‘zida shikastlik ta’kidi mavjud, kitobiy nutqqa xos.

Yozning qoq o‘rtasida “tulpor”imning ustini oppoq y a r a qoplab ketdi. X.To‘xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. *Avazning y a r a s i uncha xavfli emas edi. Uyga olib kirib dori-darmon qilishdi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Do‘xtirlar qatorma-qator yurib bittama-bitta bosh tekshiradi: y a r a-ch a q a si yo‘qmi, bo‘lsa – yuqumli kal emasmi?* E.A’zam, Shovqin. *Bir amallab, azobda ko‘tarib chiqqan qimmatbaho suvlari tirnalgan y a r a-ch a q a larini yuvishga ham yetmasdi.* A.Muxtor, Qora domla. *Aslida oddiy inson bolasiga o‘z-o‘zini tiklash salohiyati azaldan ato etilgan, masalan, biror joyini kesib olsa, bu j a r o h a t ma’lum vaqtdan so‘ng bitib ketadi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *O‘sha kun Shoirni boshqa bo‘limga ko‘chirishdi. Tanasida qand miqdori oshib ketgan, j a r o h a t i tuzalish o‘rniga, jism-u joniga xatar solayotgan edi…* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata.

YARALAMOQ, YARADOR QILMOQ (ETMOQ), JAROHATLAMOQ Tig‘, qurol-aslaha yoki boshqa narsa vositasida jarohat yetkazmoq. **Jarohatla-**

moq so‘zi ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Yarador qilmoq** so‘zida belgi ta’kidi ortiqroq.

Bu notinch zamonlarda keksa buloq suvi ko‘plab odamlarni – yaxshiniyam, yomonniyam qonini yuvdi, tashnaligini qondirdi. O‘q va tig‘dan y a r a l a ngan ne-ne azamatlar bir qultum suv ilinjida unga yetolmay shahid bo‘lib ketdilar. N.Norqobilov, Buloq. *Urush yillari frontdan y a r a l a nib kelib, rais bo‘lganida kolxoz omborxonasidagi bor g‘allani beva-bechoraga tarqatib, bir muddat qamalib ham chiqqan.* E.A’zam, Shovqin. *...boyvachcha ayvon oldidan yugurib kelib, unga qarata o‘q uzadi, o‘q Mamaturdining chap yelkasiga tegib, uni y a r a dor q i l adi...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *1853-yilning dekabr oyida 13 ming kishidan iborat qo‘shin Yoqubbek qo‘mondonligida Oqmachitga kelib dushman bilan to‘qnashadi, natijada yurt himoyachilaridan ikki mingga yaqin kishi o‘ldiriladi va y a r a d o r q i l inadi.* H.Ziyoyev, Chorizm istilosi. *Shuni deb goh kimlar bilandir urishganman ham, kimlardir meni ham j a r o h a t l a gan, u jarohatlardan anchagacha o‘zimga kelolmay yurgan mahallarim ham bo‘lgan.* I.Sulton, Bo‘ri. *Melisaxonaga bordim. – Ayb ukangizda ekan, – deyishdi, – o‘zi tomorqa devoriga urilib j a r o h a t l a ngan.* Q.Ochilov, Mazlumning duosi.

YARALI, **YARA-CHAQALI**, **JAROHATLI**, **YARADOR**, **MAJRUH** Biror yerida yarasi, jarohati mavjud. **Yarali** so‘zi keng tushunchaga ega, u yallig‘lanish natijasidagi jarohatga nisbatan ham, zarb ta’siridagi jarohatga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Yarador**, **jarohatli**, **majruh** so‘zlarida zarbdan jarohat olganlik ta’kidi anglashiladi. **Majruh** so‘zi mazkur ma’noda kam ishlatiladi, kitobiy uslubga xos.

Uning to‘shidan quyiroq – chap oyog‘ining boshlanish qismi yirtilib, chakchak qon oqar-da, boyaqish yo‘lida to‘xtab-to‘xtab damodam y a r a l i bag‘rini yalar, so‘ng yana chor-nochor odimlardi. U.Hamdam, Unutilgan nay navosi. *Kel, ko‘zingning yoshlarini surib olay Kel, y a r a l i tanlaringni ko‘rib olay, to‘yib olay.* Cho‘lpon, Buzilgan o‘lkaga. *Negadir har tomon chivin, pashsha qoni, ko‘zni bezovta qilar, bolalarning a’zoyi badani y a r a-ch a q a l i, ko‘zlari shilpiq, ko‘plari bezgak baloyi azimga duchor.* S.Sayhon, Yurt sog‘inchi. *Suhbatdoshim o‘q teggan ba’zi joylarini menga ko‘rsatdi... Uning bilaklaridagi y a r a-ch a q a l i o‘rinlariga qarab turuvdim, bunday izohladi...* M.Toirov, Uzoq yillar aks sadosi. *Bolasining j a r o h a t l i qo‘lini avaylab bog‘ladi.* Sh.Xolmirzayev, Tanlangan asarlar. *Askarlarning oldida kelayotgan Ahmad Tanbal zirhli kiyimda edi. Uning bo‘yniga yoy o‘qi teggan, y a r a d o r joyini yashil mato bilan bog‘lab olgan edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U shunday deya y a r a d o r barmog‘ini latta ustidan avaylab silab qo‘ydi. Og‘ridi, shekilli, serajin yuzi boyagidek iztirobli burishib ketdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Ko‘p jafolar ko‘rdi olam, Ko‘z yumib qilsam xayol, Misli sayyod tig‘i m a j r u h – Aylagan ohu zamon.* E.Vohidov, Saylanma. *Ikki tegirmon toshi orasida*

yanchilgan kishidek m a j r u h edim, zabun edim. Qimir etolmadim. X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz.

YARAMOQ, YAROQLI BO‘LMOQ 1. Biror ish, yumushni bajarishga yoki mehnat faoliyatini amalga oshirishga qodir bo‘lmoq. **Yaramoq** so‘zi keng tushunchaga ega. Bu so‘z ham insonga, ham narsa-qurolga nisbatan qo‘llanadi. Narsa-qurolga nisbatan ishlatilganda, uning ishga yaroqliligini, insonga nisbatan qo‘llanganda, biror faoliyatni yuritishga, yumushni bajarishga imkoniyati mavjudligini anglatadi. **Yaroqli bo‘lmoq** so‘zi ko‘proq kitobiy uslubda ishlatiladi.

Bir marta quduq qazishga yordam beraman deb, ichiga tushdi-yu, oyog‘ini urib oldi. Shundan tizzalari zirqirab og‘rib, arqon tortib turishga y a r a di, xolos. N.Normatov, Ko‘cha eshikning naqshin gullari. *Ish vaqtida sayraydi. Ko‘p ishlarga y a r a ydi. Bilib qo‘ying bir karra, Ustaga kerak...* “O‘zbek xalq ijodi. An’anaviy topishmoqlar”. *...Bu paytda voyaga yetib, mehnatga y a r o q l i b o‘l ib qolgan edim.* A.Egamnazarov, Surgun yoki 30-yillar boshidagi quloqlashtirish qurbonlari.

2. Iste’mol qilish, foydalanish uchun yaroqli bo‘lmoq.

Kesish juda qiyin, bolta o‘tmaydi, yog‘ochi burong‘i-bilang, faqat tomga bolorga y a r a ydi, kessangiz battar bo‘ladi – tomiridan bolalab ketadi. A.A’zam, Tilda machchoyi sayil. *Bu regionda yer yuzidagi daryo, ko‘l, yerosti suvlari ham sho‘r va sanitariya qoidasiga binoan ichishga y a r a maydi.* Z.Akromov, Yurt boyligi. *Shu kishi umrining oxirida eskib, piltalari chiqib ketgan aftodahol bir do‘ppini ko‘kraklariga mahkam bosib yurar ekanlar, azbaroyi eskiganidan kiyishga y a r o q l i b o‘ l may qolgan ekan.* A.Meliboyev, Bizni mehmon demanglar. *Yaxshisi, Amudaryo havzasiga barcha toifadagi ishlab chiqarishda foydalanilgan suvlarni oqizmaslik darkor. Shundagina daryo suvi o‘zining to quyi qismiga qadar iste’mol uchun y a r o q l i b o‘ l ib turadi...* Z.Akramov, A.Rafiqov, Orol madad so‘raydi.

YARATMOQ, VUJUDGA KELTIRMOQ, YUZAGA KELTIRMOQ, BARPO QILMOQ (ETMOQ), BUNYOD QILMOQ (ETMOQ), BINO QILMOQ (ETMOQ), QURMOQ Borliq va undagi barcha mavjudotlar, narsa-predmetlarni yuzaga keltirmoq, inshoot va shu kabilarni bunyod qilmoq. **Yaratmoq** so‘zi nutqda insonga va boshqa jonzotlarga, shuningdek, narsa-qurol kabilarga nisbatan qo‘llana oladi. **Barpo qilmoq, bino qilmoq, qurmoq** so‘zlari ko‘pincha biror inshoot, qurilish obyekti yoki jamiyat, oila kabilarga nisbatan ishlatiladi. **Vujudga keltirmoq, yuzaga keltirmoq, bunyod qilmoq (etmoq), bino qilmoq (etmoq)** so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubda ishlatiladi.

Qo‘chqor. – Ey, esi yo‘q bandam, shukronalar keltirkim, xotiningni odam qilib y a r a t ganman, – dedi... Sh.Boshbekov, Temir xotin. *Ko‘p yillardan buyon niyat va orzularda, xayol kengliklarida bo‘y ko‘rsatgan go‘zal asarni y a r a t ish uchun barcha hozirliklar ko‘rib bo‘lingan edi go‘yo.* I.Sulton, Alisher

Navoiy. *To‘g‘ri, ammo Olloh bu luqmayi halollarni suyukli, aziz qullari uchun shifobaxsh taom sifatida v u j u d g a k e l t i r gan ekan-da.* Q.Kenja, Toshqin. *Mamlakatlarda erishilgan muvofiqlik o‘z-o‘zidan zamindagi muvozanatni, mo‘tadil iqlimni v u j u d g a k e l t i r adi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Odatda, do‘l momaqaldiroqni ham y u z a g a k e l t i r uvchi to‘p-to‘p, qatlam-qatlam yomg‘ir bulutlaridan hosil bo‘ladi.* M.Toirov, Do‘l tog‘i va yetti osmon. *Shu yil boshida ayvonga romlar, isitish batareyalari o‘tkazib, taxtadan karavot yasalgan, uzunchoq, shinamgina xona y u z a g a k e l t i r ilgan edi...* M.Salom, O‘zganing dilbandi. *Shoxlar hayoti ular b a r p o e t gan mahobatli koshonalarga o‘xshaydi: yiroqdan gul-gul yonib, ko‘z qamashtiradi, ichiga kirsang, rutubat-u qorong‘iligidan eting junjikadi…* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Kattatagob qishlog‘ining tog‘ga yaqin tomonida… kultepaga aylantirilgan jannatiy bog‘lar o‘rnida kanaldan suv chiqarib yana bepoyon bog‘lar b a r p o q i l ishibdi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Tabiiyki, havo mavjud bo‘lmagan joylarda, suv ostida, kuchli nurlanishlarda, vulqonlarning tublarida bemalol ishlay oladigan va tadqiqotlarimizga ko‘mak beradigan bir nasl b u n y o d e t ilsa, insoniyatning ko‘p mushkullari yengillashgan bo‘lur edi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Zarrani ijod etib, Dahshat balo b u n y o d e t ib, Oqibatni yod etib Hayron o‘zing, hayron o‘zing.* E.Vohidov, Saylanma. *Buxoroyi sharifning amiri oliylari Peterburg musulmonlari uchun bir masjid b i n o q i l diribdilar ko‘rib aqlim lol qoldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Hindistondagi ko‘plab ibodatxona g‘orlarda qurilgan, bu ibodatxona ham o‘shalarga taqlidan b i n o q i l ingan, lekin ibodatxonaning qurilishidan tortib, rasm-rusumlar, undagi haykallargacha yerlik xalq an’analariga bo‘ysundirilgan, albatta!* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Buning evaziga Oyko‘lda uch yuz kishilik kamtargina madaniyat uyi q u r ish uchun mablag‘ va material berilgan*. P.Qodirov, Meros. *Bu uylar keyin q u r ilgan. Asl uyimiz o‘sha! Onam ham, tog‘am ham o‘sha uyda tug‘ilgan.* Sh.Xolmirzayev, Ota yurt.

YARASHA, QARAB Mos ravishda, muvofiq. Qatordagi so‘zlar jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarga bog‘lanib, ushbu so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan grammatik jihatdan bog‘lanishiga ko‘mak beradi. Shu bilan birga, turli grammatik ma’nolarni hosil qiladi. **Yarasha** ko‘makchisi “teng, mos, loyiq, asos, miqdor, o‘lchov, asos” ma’nolarini; **qarab** ko‘makchisi “tomon, asos, miqdor, o‘lchov” ma’nolarini hosil qiladi. Ushbu ko‘makchilar “asos, miqdor, o‘lchov” ma’nolari bilan sinonimik qatordan o‘rin oladi. Masalan, *mehnatiga yarasha, mehnatiga qarab.*

Har kim olgan maoshini o‘z ehtiyojiga y a r a sh a sarf qilib, modniy kiyimlarni kiyishga ruxsat etilsin. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *– Bu deyman, – professor hashamatli magazin binosi ichra ko‘z yugurtirdi, – magazin emas, naq saroy-ku, a! – Zamonasiga y a r a sh a-da, aka, – deb suhbatni yakunlamoqqa urindi Yusuf.* U.Hamdam, Muvozanat. *Ziyraklik bilan sulton kayfiyatidagi sezilar-sezilmas*

o‘zgarishni ilg‘ab olar, kuy yoki qo‘shiqni shunga q a r a b, sho‘xchan-u shodonini yoki dard-u hasratlisini tanlardi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Hamonki, siz Samarqand safarini xayol qilar ekansiz, o‘zingizning vazifalaringizni bilishingiz, shunga q a r a b amal qilishingiz lozim*. Fitrat, Najot yo‘li.

YARASHMOQ, KELISHMOQ Ko‘rinishiga, qaddi-qomatiga yarashiqli darajada mos tushmoq; shakl-shamoyili yoqimli holatga kelmoq. **Yarashmoq** so‘ziga *juda, nihoyatda, xo‘p* so‘zlari birikib kelganda, belgi-harakatning darajasi kuchayadi. **Kelishmoq** so‘zi *kiyim, ust-bosh* so‘zlari bilan bog‘langanda, ularning insonga mos, monand yoki mos emasligi ma’nosi ifodalanadi. Mazkur ma’noda **kelishmoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv tiliga xos, ammo juda kam ishlatiladi.

U o‘ziga xo‘p y a r a sh gan mo‘ylovchasini silab yana kuldi. O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Qishloqqa y a r a sh gan hokisorginam, Siz sabab sayroqi bo‘ldi-ku yurak.* M.Abbosova, Onamga. *Stol, stul k e l i sh ar Solijonning bo‘yiga.* Q.Muhammadiy, She’rlar. *Ammo bu ikki o‘rim soch qirq kokiliga qarag‘anda juda ham o‘ziga k e l i sh ib tushib, unga yana bir qayta ulug‘vorli va oliylik bag‘ishladilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

YARIMLAMOQ, YARIM BO‘LMOQ To‘lmagan, yarim holatda bo‘lmoq; biror ish-faoliyatning yarmiga, o‘rtasiga yetmoq. **Yarimlamoq, yarim bo‘lmoq** so‘zlari suyuqlikka nisbatan qo‘llanganda, suyuqlikning idishning yarmida ekanligini anglatadi. Bu so‘zlar *tun, kun* kabilarga nisbatan ishlatilganda, bevosita vaqtga ishora qiladi.

Quyuq-suyuq ovqatlar tortildi, paydar-pay so‘zlar aytildi. Shu tariqa do‘stlar tun y a r i m l a ganiniyam sezmay qolishdi. J.Fozil, Yangi bog‘larda. – *Hozir xotinim ikki-uch kunlab uyga kelmaydi, – dedi Akbarali ikkinchi qadahni y a r i m l a t gach. – Bolalarni opasinikiga tashlab, qayerlargadir yo‘qolib ketadi.* Q.Ochilov, Kalit. *–Bozorni aytmaysizmi, bozorni, – qulog‘im ostida shang‘illadi bir yarim kishining o‘rnini egallab olgan yuzi rapidaday xotin. – Hamma narsa zahardan qimmat. 50 ming olib chiqsang, sumkang y a r i m b o‘ l maydi.* N.Oston, Bizda hamma narsa bor. *Shunday qilib, bu qiyomat yig‘in kecha y a r i m b o‘ l ganda “guv-guv” bilan tarqaldi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

YASAMA, QO‘LBOLA, XONAKI Qo‘l mehnati bilan yasalgan, tayyorlangan, yetishtirilgan. **Xonaki** so‘zida uyda yasalganlik ta’kidi ochiqcha ifodalangan. **Qo‘lbola** so‘zida qo‘lda yasalganlik ta’kidi anglashiladi. **Qo‘lbola, xonaki** so‘zlari ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Eshik qulfining kalit bilan emas, y a s a m a mixochqich bilan ochilganini dalillovchi xulosa esa unga endi ahamiyatsizdek tuyuldi. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Ular aksariyat miniatyuralarda goh ko‘zoynak, goh parik, goho y a s a m a quloq, y a s a m a burundan foydalanishadi...* A.Jo‘raboyev, Loqaydlardan Xudo asrasin. *…gullar... bir-biridan chiroyli edi. Maydonda turfa rangdagi q o‘ l b o l a gulzor paydo bo‘lgandi*. N.Eshonqul, Og‘riq lazzati. *Bugun*

stipendiya olishgani uchun ikki o‘rtoq q o‘ l b o l a osh qilishmoqchi bo‘ldi. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Ramzlarni qarang! Qiz o‘rmonda adashib, daraxt shoxida otasining x o n a k i qalpog‘ini ko‘rib qolgan joyi esingizdami? Dahshatli detal-ku bu!* E.A’zam, Shovqin. *Dasturxonda x o n a k i pechenyelar, atirgulnusxa tort va turli xil mevalar bor edi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar.

YASANMOQ, YASAN-TUSAN QILMOQ, BEZANMOQ O‘ziga oro bermoq, yasan-tusan narsalarini taqib, chiroyli bo‘lmoq. **Yasanmoq** so‘zi uslub jihatidan betaraf. **Yasan-tusan qilmoq** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. **Bezanmoq** so‘zida bezak bilanlik ta’kidi ochiq ifodalangan.

– Mirzakarimboy eski tulki, – dedi yo‘talib bazzoz Muhammadmansur, oltmishdan endi oshgan kalta qirov soqolli, lekin yigitlarday olifta y a s a n gan kishi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Eshik og‘zida y a s a n gan yosh bir ayol paydo bo‘ldi.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Tomoshabinlar turfa xil, ular orasida tujjorlar, ularning xotinlari, bolalari va hatto y a s a n-t u s a n q i l gan chol-kampirlargacha bor edi.* I.Sulton, Bir tomosha tarixi. *Bir hisobga, qizlarining, kelinlarining bormagani ham yaxshi. Avval hammasi to‘yga chiqayotganday y a s a n-t u s a n q i l adi, so‘ng yig‘i-sig‘i, undan keyin tum-taraqay issiqdan qochadi, shoshadi.* Q.Ochilov, Qaytim. *Qizlarning aksariyati bo‘yanish, b e z a n ish bilan ovora, yigitlari ham kam emas ulardan.* H.Ermatov, Usta. *Hoy san, ...jaa kuyovlarday b e z a n ib kepsan? Nima balo, ikkinchi marta uylanyapsanmi?* N.Oston, Imtihon.

YASSI, YAPALOQ, YALPOQ Yoyiq, yalpoq holatdagi. **Yapaloq** so‘zi nutqda **yalpoq** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llana oladi.

Soy toshi yaramaydi, tikka jarda uning o‘rnashuvi mushkul, xavfli. Bunga y a s s i xarsang yo bazalt kerak. A.Muxtor, Qora domla. *Dam o‘tmay, u kaftlari bilan y a s s i peshonasini, baroq qoshlari aralash yuz-ko‘zlarini artardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ko‘p o‘tmay bo‘liq maysalar boshini silab-siypalab, eshilib-erkalanib yengil epkin ham yetib keldi. Yonbag‘irlikdagi yashil butalar shodlanib, kulrang y a p a l o q tosh tagini makon tutgan chumolilar g‘imirlab qoldi.* N.Norqobilov, Buloq. *Uyda yana bir o‘zim, joyimda o‘tirolmayman, tinmay u yoq-bu yoqqa yuraman, lekin telefondan uzoq ketmayman. Shu y a p a l o q quti jim, u istagan paytida jiringlab yuborishi mumkin.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Jo‘jining yuzi yorishdi. Zimdan Chig‘atoyga ko‘z tashladi. Uning y a l p o q burni tag‘inda ichga botganday edi.* E.Samandar, G‘ayb qushlari. *Ota qabristonning kun chiqish tarafidagi ko‘rimsizgina ikki go‘r yonida to‘xtadi. – Mana, belgi qo‘yganman, – U go‘r tepasidagi y a l p o q, yassi toshlarga ishora qildi.* A.Taypatov, Tazarru.

YAXSHI, DURUST, TUZUK, TUPPA-TUZUK, BINOYI (BIP-BINOYI), SOZ, QOYILMAQOM, JOYIDA Ijobiy xususiyatga ega bo‘lgan, insonga xush keladigan, ma’qullasa bo‘ladigan. **Yaxshi** so‘zi nutqda keng ma’no-

da ishlatiladi. Bu so‘zning narsa-predmetga, insonga, hatto harakatga nisbatan qo‘llanishi uchraydi. **Durust, tuzuk, binoyi** so‘zlarida **yaxshi** so‘zidagiga nisbatan belgi darajasi kuchsiz. **Tuppa-tuzuk, bip-binoyi** so‘zlarida belgi darajasi ortib, uning insonga xush keladigan darajada ekanligi e’tirof etiladi. **Soz** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Qoyilmaqom** so‘zida belgiga nisbatan nutq egasining ijobiy munosabati bo‘rtib turadi. **Tuzuk, binoyi, qoyilmaqom, joyida** so‘zlari so‘zlashuv uslubida ko‘p ishlatiladi. **Joyida** so‘zi ko‘pincha *ish, sog‘liq, ahvol* so‘zlari bilan bog‘lanib kelib, ularning yaxshi, me’yoriy holatda ekanligini anglatadi. Mazkur ma’noda oddiy so‘zlashuvda **bo‘ladi** so‘zi ham ishlatiladi.

Teatrga ishga kirdim. Ishim y a x sh i. S.Ahmad, Avtobiografiya. *Sen menga ota o‘rnida eding, har y a x sh i ishimga quvonib, nuqsonimdan iztirobga cho‘mar-ding.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *– Bunaqa emas-da, og‘ajon! – dedi Shavkat G‘iyosovich. – Axir restoranga quda-anda, aka-uka deganday, qancha qarindosh-urug‘im keladi. O‘shalarning oldida shu uvadani kiydirasizlarmi menga? D u r u s t roq zarbof to‘nga pullaring yetmagan bo‘lsa, aytinglar, o‘zim qo‘shay.* Q.Ochilov, To‘n. *Qaytib xonasiga kirdi. Endi ochlik xuruji o‘tib, o‘zini ancha d u r u s t sezardi*. U.Hamdam, Muvozanat. *“Amir Alishermi yoxud vaziri a’zammi? Qay biri t u z u k roq?” – deb o‘yladi peshanasini tirishtirib.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Solihabibi beixtiyor hovliga nazar tashladi. Kun botdi. Nega kelinidan darak yo‘q? Hech mahal u shaharda bunchalik qolib ketmas edi. Yaxshilikkamikan? Ajab emas, t u z u k xabar bilan kelsa!* O‘.Umarbekov, Yer yonganda. *Oyisi bir mahallar t u p p a-t u z u k tashkilotlarda rahbarlik qilgan, lekin bir-ikki yil oldin nimadandir qoqilib, popugi pasayib qolgan…* O.Yoqubov, Billur qandillar. *– Yey, mog‘orlaganga o‘xshaydi, – dedi u nevarasiga. – Kuya yemaptimi? – Yo‘q, t u p p a-t u z u k turibdi?* O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Erkinboy Masturaning yo‘q deyishidan qo‘rqib qochib yurgan ekan. Fotiha qilinganidan keyin o‘zini tuppa-tuzuk ko‘rsatibdi, b i n o y i dek tili ham bor ekan.* A.A’zam, Bu kunning davomi. *Bitta buyrak bilan b i n o y i day yashab yurganlar qancha? Nortoyloqday davangir polvon yigit, bitta buyragini akasiga bersa bo‘lmaydimi?* G‘.Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida. *Mevazorda bo‘ldi tantana, Olmalarni termoqdalar – S o z ! Qizlarini uzatgan Ona, Kabi yengil nafas oldi Yoz...* Q.Norqobil, Yoz. *Jonmurod shu xayollar bilan otasini eslab ketdi. Otasi Haqqul baxshi tabiatan yuvosh, kulib yuruvchi, ovozi s o z, ko‘ngli keng bir odam edi.* N.Normatov, Guldurak dashtlarida. *...kinooperator Aziz Rahmonov uni shunday eslaydi: “Usmon Nosirning ko‘zlari charaqlagan, ovozi nihoyatda o‘tkir edi. U she’rni shunday q o y i l m a q o m o‘qirdiki, unga maftun bo‘lmaslikning, uning sehriga asir bo‘lmaslikning iloji yo‘q edi.* M.Mirzo, Armon. *Buni eshitib, Sichqonchaning zavqi jo‘shib ketibdi. Q o y i l m a q o m salom berib, birovlardan tezroq rahmat eshitgisi kelibdi-da, shosha-pisha tashqariga yo‘l olibdi.* A.Obidjon, Odobli bo‘lish osonmi? *Nahotki mening o‘zim sekin-asta shu holga tushgan bo‘lsam? Axir hammasi j o -*

y i d a edi-ku! Qayerda xato qildim? U.Hamdam, Muvozanat. *Yo‘q, men unda xotirjam bo‘laman. Negaki, sog‘-salomatsiz, qorningiz to‘q, hech nima bezovta qilmayapti – demak, hammasi j o y i d a.* Sh.Boshbekov, Temir xotin.

YAG‘RINDOR, YAG‘RINLI Keng yag‘rinli (odam). **Yag‘rindor** so‘zida **yag‘rinli** ifodasidagiga qaraganda belgi darajasining ortiqligi anglashiladi. **Yag‘rinli**, odatda, *keng* so‘zi bilan birga qo‘llanadi.

Baquvvat, y a g‘ r i n d o r yigit bo‘lsam, yozning chillasida, quyoshning tig‘ida subhi sodiqdan beri yo‘l yurib obdon chanqagan esam-u, qayoqdagi munchoqdek bir piyola suv bilan tashnaligim tamoman qonsa?.. U.Hamdam, Bir piyola suv. *Katta yo‘l bo‘yidagi ko‘rkamgina darvoza oldiga kelib to‘xtagan mashinadan uch kishi tushdi... Ularni bo‘y-basti teng, yuz-ko‘zlari o‘xshash, y a g ‘ r i n d o r ikki yigit iliq kutib olishdi.* D.Qo‘ldosh, Siringizni ayting, momo. *U bir vaqtlar k e n g y a g‘ r i n l i, baland bo‘yli pahlavon edi.* M.Osim, Shiroq. *Roziyalarning bog‘ida… k e n g y a g‘ r i n l i, novcha… bir yigit bir zum ko‘rindi-yu, g‘oyib bo‘ldi.* O.Yoqubov, Tilla uzuk.

YASHAMOQ, UMRGUZARONLIK QILMOQ, HAYOT KECHIRMOQ Umr ko‘rmoq. Nutqda bu ma’noda **umr kechirmoq, umr ko‘rmoq, hayot kechirmoq** iboralari ham qo‘llanadi. **Umrguzaronlik qilmoq** so‘zi eskirgan.

Toshdagi… rasmlarga qarab, qadimgi odamlar qanday y a sh a ganini bilish mumkin. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *...odamdek y a sh a b, birovga aytishga arzigulik, loaqal, biron-bir jimjimali kechinmani boshdan o‘tkarmog‘imiz lozim, shekilli.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *O‘zining ruhiy madadi, ko‘magi bilan hamisha Sohibqironga kamarbasta bo‘lgan Mir Sayyid Baraka to so‘nggi nafasgacha Sohibqiron Amir Temur bilan birga u m r g u z a r o n l i k q i l di.* M.Ali, Amir Temur solnomasi. *Diqqatpazlik, asabiylashish kam, birov ularning mushugini pisht, itini ket demas, o‘zlari xohlaganicha, bamaylixotir u m r g u z a r o n l i k q i l ishardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Tangritog‘ning etagidagi ko‘kalamzor yaylovda Erxon chol elliklarni qoralab qolgan Oyto‘ldi otlig‘ ayoli bilan faqirona h a y o t k e ch i r ardilar.* I.Sullton, Xun. *Turgan gapki, daryo bo‘yida, qishloqdan uzoqda tanho o‘zi h a y o t k e ch i r olmaydi, har qalay, mahalla durust.* Q.Kenja, Toshqin.

YASHIRINCHA, YASHIRIQCHA, BEKITIQCHA, PINHONA, YASHIRIQ Hech kimga bildirmasdan, yashirin holatda. **Yashirincha** so‘zi uslub jihatidan betaraf. **Bekitiqcha, yashiriq, yashiriqcha** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi. **Pinhona** so‘zi ko‘proq kitobiy uslubda ishlatiladi.

Soqoli yo‘q Qambarali bobomning bog‘dagi kapasiga peshin namozini y a sh i r i n ch a o‘qish uchun yig‘ilishgan ekan, bobojonimdan ko‘ngil so‘rashni o‘sha yerda maslahat qilishibdi. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *...baqqoldan y a sh i r i n ch a oldirilgan kuchala kichkinagina dekchada ertadan-kechgacha qaynadi: ertalab uning suvi bir choynakka solinib, Zebining uyiga olib kiri-*

lishga mo‘ljallandi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Nimqorong‘i xona go‘yo yorishib, kengayib qolgan, unga bosh hakimdan y a sh i r i q ch a kirib olgan o‘n chog‘li odam xavotir sezmas, xona o‘rtasida g‘uj bo‘lib, qahqaha-yu askiyani avjiga chiqarar... edi...* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Yakkaxo‘jaliklar hadeb mol so‘ya bergandan keyin Samandarov, Safarovdan bemaslahat, bunga qarshi ma’muriy chora ko‘rmoqchi bo‘lgan edi, bu chora hali ko‘rilmasdan turib aks natija berdi: yakka xo‘jaliklar, “demak, baribir olar ekan” deb y a sh i r i q ch a yana ko‘proq so‘yadigan bo‘lishdi.* A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Bu kishi endi “xudojo‘y” bo‘lib qoldilar. Besh vaqt b e k i t i q ch a namoz o‘qiydilar.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Bizdan boshqa hech kim yo‘q. Bularni o‘g‘irlab ketishmasmikan, deb o‘yladim-da, keyin olib borib qayerga b e k i t i q ch a o‘rnatadi, dedim.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Garchi Risolat Rustamni suymasligini, otasi yigitning elchilarini noumid qaytarganini bilsa-da, endi Diloromning qalbida p i n h o n a g‘ayirlik, hasadga o‘xshash bir nima nish urgan edi.* Q.Kenja, Toshqin. *O‘choqboshidan qaytgan Obid shishani Mirhosilga p i n h o n a berib, xarajatlarni chetdagi stol ustiga yoyib, go‘sht-yog‘ni hafsala bilan to‘g‘ray boshladi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Bir vaqtlar Nurining o‘rtaga otgan tuhmati orqasida Gulsunbibi eri Yormatdan y a sh i r i q qizning fe’li-atvorini, yurish-turishini ochiq va bekitiq ravishda uzoq ta’qib etdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Musharrafnikida esa nimadir y a sh i r i q, nimadir sirli, nimasidir o‘ziga tortib, yurakni jizillatib turardi.* Shuhrat, Oltin zanglamas.

YASHIRMOQ I**, BEKITMOQ** Biror narsani o‘zganing ko‘zidan xoli joyga qo‘ymoq, yashirib qo‘ymoq. **Yashirmoq** so‘zi barcha nutq uslublarida uchraydi. Ushbu so‘z narsa-predmetlarga ham, insonga nisbatan ham erkin qo‘llana oladi. **Bekitmoq** so‘zi mazkur ma’noda **yashirmoq** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llana oladi. Ushbu so‘z nutqda ko‘proq narsa-predmetlarga nisbatan ishlatiladi.

Men kelin bo‘lib tushganimda o‘n olti yashar edim. Enang o‘zining uzugini menga bergan edi. Ammo taqmaganman, avaylab y a sh i r ib qo‘yganman. I.Sulton, Uzuk. *...men uni hech kim topolmaydigan bir yerga... y a sh i r ib qo‘ya qolgan edim.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ona turna ham boya e’tibor etmagan jo‘jasini endi e’tibor bilan yumshoq patlari ila b e k i t ib oldi.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Kelin lapanglab ag‘anadi, chala tuyilgan jo‘xori yerga to‘kildi. Turobjon tugunchani orqasiga b e k i t ib, tegishdi: – Akajon, degin! – Akajon! Joon aka!..* A.Qahhor, Anor.

YASHIRMOQ II**, BEKITMOQ** Biron gap yoki voqea-hodisani oshkor qilmaslik, maxfiy saqlamoq. **Bekitmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

Lekin bir narsani y a sh i r may aytaman: hali-hamon shahar ko‘chalaridami, ovloq joylardami – yashil “Niva”ni ko‘rsam, yuragim orqamga tortib ketadi. Sh.Xolmirzayev, Yashil “Niva”. *Tavba, buni tan olishdan uyalar edik. Birovlar-*

dan ham y a sh i r ar edik. Sh.Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri. *Endi Yoqubbek mana shu sirni yaxshiroq b e k i t ish uchun Boburga hammadan ortiq sadoqat bildirmoqda edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

YANGLISH, XATO, NOTO‘G‘RI, ADASH, G‘ALAT Haqiqiy holatga to‘g‘ri kelmaydigan. **Yanglish** so‘zida haqiqatdan chetga chiqish ta’kidi ochiq aks etadi. **Noto‘g‘ri** so‘zi ham mazkur ma’noda **xato** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llanadi. **Adash** so‘zi bu ma’nosida nutqda kam ishlatiladi. **G‘alat** so‘zi eskirgan.

– Biz biroz y a ng l i sh ish qilmoqdamiz amirim, – dedi zo‘rg‘a tili aylanib. – So‘ylang! Ne y a ng l i sh ish, qo‘limizdan kelsa tuzataylik, – choy ichayotgan piyolasini qo‘lda tutgancha xonimining yuziga qarab qolgan edi bek. N.Qobul, Bo‘lar elning bolasi. *Insonlarning tarixlarini o‘z ichida saqlagan, hayotlarini behuda narsalar-u y a ng l i sh e’tiqodlar uchun sarf qilganlarning muarrixi emasmikin bu?* I.Sulton, Hazrati Hizr izidan. *Ha, bolam, x a t o tushungandirman. Adanglarni bilasan-ku, ochiq-sochiq gapirmaydilar.* T.Malik, Shaytanat. *X a t o ish qilganini endi his qilgandek u menga gunohkorona tikildi.* X.Nurullayev, Xatolik *...Biz hammasini to‘g‘ri qo‘yganmiz, ammo kompyuter n o t o ‘ g ‘ r i chiqargan.* A.Namozov, Gazetchilar. *Afsuslarkim, oramizda “bola otadan qo‘rqib, zirillab turishi kerak”, degan n o t o ‘ g ‘ r i qoidaga rioya qiluvchilar ham topiladi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Ularning aksari a d a sh yo‘llarda sarsari bo‘lib o‘tadilar bu dunyodan, ayrimlari esa halokat jariga ham qulaydilar.* T.Malik, Saodat saroyining kaliti. *“Mim”i Ahmadni ketirsang ne qolur, fikr aylagil, Haq ani a d a sh deyur, eshit muazzindin sado.* M.Shayboniyxon, Bahrul hido. *Goho miyamizni qoplasa savdo, G ‘ a l a t tasavvurlar xayolga kelar: Registon yo‘qolib qolsa mabodo, Ayting-chi, do‘stlarim, ne hol yuz berar?* A.Oripov, Orol uchun. *“Dushman? Qanaqa dushman?” Ruh po‘rtanasidagi sarsari Samandarga bu savol g ‘ a l a t tuyulib, Bazarovga savol nazari bilan qaradi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar.

YANGLISH BO‘LMOQ, XATO BO‘LMOQ, NOTO‘G‘RI BO‘LMOQ, CHATOQ BO‘LMOQ, G‘ALAT BO‘LMOQ Haqiqiy holatga to‘g‘ri kelmaydigan holatda bo‘lmoq, noto‘g‘ri bo‘lmoq. **Chatoq bo‘lmoq** so‘zida nodurustlik ta’kidi aks etgan, ko‘proq so‘zlashuv tiliga oid. **G‘alat bo‘lmoq** so‘zi eskirgan.

Yo‘q-yo‘q, bu y a ng l i sh b o ‘ l ibdi, Yosun qatrasi yuqoridan quyi inib keladur. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Rahmim kelib: “E birodar, qo‘ying endi, x a t o b o ‘ l di, ko‘rib turibman, xondan ham xato o‘tadi”, deyman. Qani endi boshini ko‘tarib yuzimga qaray olsin-chi.* O.Yoqubov, Oshqovoq. *... “bolam, bolajonim” degan mehr-u shafqatli tovushlarini o‘ksib eslasam, sharillab oqqan soylarning zilol suvlari bilan hamohang edi desam, x a t o b o ‘ l maydi.* S.Sayhon, Yurt sog‘inchi. *Bu ish n o t o ‘ g ‘ r i b o ‘ l ganini mutasaddilar ham anglab turishibdi.* Gazetadan.

YANGLISHMOQ, XATO QILMOQ, ADASHMOQ Haqiqiy holatga muvofiq emas ish tutmoq, xatoga yo‘l qo‘ymoq. **Xato qilmoq** so‘zida belgi darajasi ochiq ifodalangan. **Adashmoq** so‘zi mazkur ma’noda ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Muhabbatdan mast, karaxt bo‘lgan Otaboy ZAGS mudirining savollariga poyintar-soyintar javoblar berib esankirayvergan. U shunchalik esankiraganki, y a ng l i sh ib, xotinining familiyasiga o‘tib ketganini o‘zi ham bilmay qolgan. S.Ahmad, To‘yboshi. *Balki men y a ng l i sh ayotgandirman, boshqa bir gazet jinnisini Akmal o‘risga o‘xshatib yuborgandirman.* M.Mansur, Judolik diyori. *– Turmushga chiqishni xohlamasangiz... bir nima deyishim qiyin, – dedi xo‘rsinib. – Lekin nazarimda, siz x a t o q i l yapsiz, Matlubaxon.* O.Yoqubov, Matluba. *Avaz o‘zi bilan birga o‘qigan ba’zi sinfdoshlarining oliy ma’lumot olib kelganini ko‘rganda, o‘zi bugungiga o‘xshab kunjara tashib yurganini o‘ylaganda, maktabdan ketib x a t o q i l gani hali-hali yuragiga armon soladi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Ortiqov barmoqlarini ho‘llab, pulni negadir shoshmasdan sanay boshladi. O‘zim ham tag‘in a d a sh ib ketmasin, dedim, shekilli, ko‘zimni lo‘q qilib tikilib turdim.* X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. *Cho‘tir, bunchalik beshafqat bo‘lmagin… Bir martagina a d a sh dim. Bolaligimiz hurmati, buncha qiynama, oshna.* T.Malik, Xazonrezgi.

YELKA, KIFT, O‘MIZ Inson tanasining ikki qo‘l oralig‘idagi bo‘yingacha bo‘lgan orqa qismi. **Kift** so‘zi ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi. **O‘miz** so‘zi yelkaning qo‘l bilan tutashgan qismi ta’kidiga ega, bu so‘z nutqda butun nomi **– yelka** so‘zi o‘rnida ham qo‘llanadi.

Bu javobdan so‘ng Homidning og‘zining tanobi juda ham qochqan va Sodiqning y e l k a siga qoqa boshlag‘an edi. Sodiq qo‘ynidag‘i xatni olur ekan, Y *ishlatkan hiylasini hikoya qildi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Orif choponini uning y e l k a siga tashlab, yana bag‘riga tortdi...* A.Muxtor, Chinor. *Tizzamni Tarlon biqiniga bosdim. Tarlon menga k i f t berdi, k i f t!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *K i f t imning chap yelka qismida og‘riqli nuqta paydo bo‘ldi. Bovujud, kimdir xanjarning uchini botirayotganga o‘xshaydi.* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz ...*O‘ m i z i keng, ko‘ksi qabariq, oq yuzi uzunchoq ekan.* I.Sulton, Bilga xoqon. *U mening o‘ m i z imdan bir otaday ushladi.* Mirtemir, Asarlar.

YEMOQ, TANOVUL QILMOQ, ISTE’MOL QILMOQ, OVQATLANMOQ, TAOMLANMOQ, TUSHIRMOQ, TOTMOQ, OLMOQ, URMOQ, HAM QILMOQ Taom, yemakni organizmga qabul qilmoq. **Yemoq** so‘zi inson va boshqa jonzotlarning ovqatlanish harakatiga nisbatan ishlatiladi. **Tanovul qilmoq, iste’mol qilmoq, ovqatlanmoq, taomlanmoq, tushirmoq, totmoq, olmoq, urmoq, ham qilmoq** so‘zlari nutqda faqat insonga nisbatan qo‘llaniladi. **Tanovul qilmoq, iste’mol qilmoq** so‘zlari kitobiy uslubga xos. **Tushirmoq, urmoq** so‘zlarida yemakning ko‘p miqdordalik ta’kidi mavjud, so‘zlashuv tiliga

oid. Bu so‘zlar asosiy hollarda *paqqos* so‘zi bilan birga keladi va salbiy munosabatni ham ifodalaydi. **Olmoq** so‘zi ham mazkur ma’noda so‘zlashuv nutqida faol ishlatiladi. **Totmoq** so‘zida yemakning oz miqdordalik ta’kidi anglashiladi. **Ham qilmoq** so‘zi kichik yoshdagi bolalar nutqida hamda kattalar tomonidan “bola tili”da gapirishda qo‘llanadi.

Do‘konni yopib, Hasanali bilan birga ketdi – yo‘lda, mehmonxonada, birga o‘lturib osh y e di, dasturxon ustida uning o‘ylag‘ani faqat shu bo‘lib qoldi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bitta yangi uzilgan bo‘rsildoq non olib, qaymoq bozoriga o‘tdim. Qaymoqchilarning panasida bir sopol tovoq qaymoqqa uni botirib y e dim.* O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i. *Ha, ana, birini so‘yding-u, go‘shtini qo‘ni-qo‘shning bilan t a n o v u l q i l ding, deylik.* I.Sulton, Ozod. *“Lag‘monga ishtahalari bo‘lmadi” deb o‘ylagan edi. Hovuz polvon palovni ham avvalgidek t a n o v u l q i l madi.* T.Malik, Shaytanat. *Doktorlar unga apelsin, limon, mandarin va o‘zimizning bozorda sotiladigan mevalardan yeyishni tavsiya etar, u esa bularni i s t e’m o l q i l ishdan mahrum edi.* Sh.Xolmirzayev, Yovvoyi gul. *Inson sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini i s t e’m o l q i l ishi orqali o‘tkir oshqozon ichak va parazitar… kasalliklarini yuqtirib olishi va tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin.* Gazetadan. *Komila uyga borib, o v q a t l a n ib… qirg‘oqqa kelguncha, Sattor karbas deydigan katta, eshkakli qayiq ichida, chuvalgan yarusning qarmog‘ini qarmoqqa, katagini katakka to‘g‘rilab, kutib turar edi.* A.Muxtor, Chinor. *Otam o v q a t l a n ib bo‘lgach, ikkovimiz o‘toqqa tushib ketamiz.* I.Sulton, Ozod. *Bu o‘rinda Tangri Taoloning “Ey Odam, sen o‘z jufting bilan jannatni maskan tutg‘ilkim, unda ko‘nglung nimani tusasa t a o m l a n g‘il, osh bo‘lsin, ammo mana bu daraxtga zinhor yaqin kelmag‘il, yaqin kelsang, zolimlardan bo‘lursan”, degan muqaddas kalomini eslamog‘imiz joizdir.* T.Malik, Shaytanat. *Xitoylik donishmand Lao Szi aytgani kabi, huzur bilan t a o m l a n moq istasang, ochlikni his qil.* Gazetadan. *Bir kosa sho‘rvani t u sh i r dim. Yigitlar dasturxonlar yoniga o‘tirdilar-da, sharoblarni no‘sh qilib... go‘shtlarni t u sh i r a ketdilar.* M.Osim, Ajdodlarimiz qissasi. *“Ko‘m-ko‘k o‘rmonga qaramoq”qa hushi kelmay tushlik mahali uxlab qolgan Farhodning qorni rosa och, boshqa vaqt bo‘lsa burilib ham boqmaydigan bir taomni zo‘r ishtaha bilan t u sh i r moqda edi.* E.A’zam, Shovqin. *Oqsoqol hech narsa t o t madi, yumshoq bolishni qo‘ltig‘i ostiga olib, yonboshladi-da, ko‘zlarini yumdi…* O‘.Umarbekov, Saylanma. *– Hoy yigit, sen ham, ota-onang ham tuzimdan t o t gansizlar.* T.Malik, Ov. *Hammasi sizning tegishingiz, hech kimga qaramang. Baliqni o l ing!* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *– E, shamollab yosh bolamizmi! Qatiq opkelay bo‘lmasam! – mezbon dasturxon yozdi, qo‘sh non keltirdi, kosada qatiq qo‘ydi. – Qani, o l ing!* Sh.Xolmirzayev, Sirli militsioner. *Qani, nonni sindirib, qaymoqqa bo‘lab-bo‘lab u r ib olinglar-chi.* E.Raimov, Ajab qishloq. *Bolajonim, ovqatingni h a m q i l gin.* Gazetadan.

YETIM, YETIMCHA, SAG‘IR Otasi yoki onasi o‘lgan yoxud ham otasi, ham onasidan ayrilgan bola, yosh odam. Bu ma’noni ifoda etishda **yetim** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi. **Yetimcha** so‘zida achinish ta’kidi mavjud. **Sag‘ir** so‘zi hali voyaga yetmagan yosh bolaga nisbatan ishlatiladi. Bu so‘z nutqda kam uchraydi.

Jinoyatchilarning 2,3 foizini ota-onasiz y e t i m lar tashkil etgan. O‘rganilgan paytda jinoyatchilar orasida faqat otasi bilan yashovchi o‘smirlar yo‘q edi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Y e t i m larga parvarish, Yesirlarga haq va ish; Bolalarga saroylar, – Go‘zal ozoda joylar.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Yo‘ o‘q, sen y e t i m ch a ga kun berishmaydi ular!..* N.Norqobilov, Yangi ertak. *Yegani noni, kiygani durustroq kiyimi, maslahat bergani yaqin kishisi bo‘lmagan y e t i m ch a endi o‘qishdan ham ko‘ra och qolmaslik g‘amini yeyishga majbur bo‘ldi.* Q.Ochilov, Savob. *Desangiz, Oynaxon, o‘zi – bir s a g‘ i r bola, hech kimi yo‘q...* Sh.Xolmirzayev, To‘lqinlar. *S a g‘ i r barmog‘ini so‘rib, dasturxonga mo‘ltiradi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar.

YETIM BO‘LMOQ, SAG‘IR BO‘LMOQ Otasi yoki onasi yoxud ham onasi, ham otasi o‘lib, yetimlik holatiga tushmoq. **Sag‘ir bo‘lmoq** so‘zi ko‘proq shevaga oid.

Begona yurtda g‘irt y e t i m b o‘ l ib qolayotgan nabirasini ozgina bo‘lsada, oyoqqa qo‘yib omonatini topshirsa, ko‘zi ochiq ketmas edi. T.Malik, Shaytanat. *Bolalaring y e t i m b o‘ l ib, chirqillab qolmasa, rozimasman! Muncha sho‘rpeshona bo‘lmasam, Xudoyim!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *O‘zing bir s a g‘ i r b o‘ l sang, senga kim qo‘yibdi otni, dedi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Bu sag‘irga qullar hayron qoladi, Nechovlari gumon qilib boradi. Muning o‘zi shunday s a g‘ i r b o‘ l adi(r), o‘g‘li otasidan baland bo‘ladi, O‘ldirmasak, bu davlatni oladi. “*Alpomish”.

Y

YETIMLIK, SAG‘IRLIK Otasi yoki onasi yoxud ham onasi, ham otasi o‘lganlik holati.

Yo‘q, u hech qanday y e t i m l i k ni, uni xo‘rlaganlar, undan voz kechganlarni eslamaydi, hech kimdan xafa bo‘lmaydi. O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Endi gap bunday, Umidjon bolam, adang rahmatli y e t i m l i k da katta bo‘lgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *Bari s a g‘ i r l i k ishi bo‘ldi! Sag‘ir bir qiz bo‘ldi, bir qiz bo‘ldi-ye!* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *S a g‘ i r l i k bilan katta bo‘lib, inoyat nasib etib, Buxoro madrasalarida ta’lim olgan ekanlar.* S.Nurotoiy, Domla Kamoliddin Oxun shukronasi.

YETIM QOLMOQ, SAG‘IR QOLMOQ Otasi yoki onasi yoxud ham otasi, ham onasi o‘lib, yetim bo‘lib qolmoq. **Sag‘ir qolmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi.

Turmush sinovlariga biz – kattalar dosh berolmasak, bolada nima gunoh? Nega bizning aybimiz uchun go‘daklar y e t i m q o l ib, aziyat chekishi kerak? O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Hali ovqat yeyishga o‘rganmagan*

to‘rtta buzoq ko‘zlari mo‘ltirab y e t i m q o l adi-yu, achinmay bo‘ladimi? S.Anorboyev, Oqsoy. *Kenja zurriyot bo‘lmish qiz besh yasharligida ota-onadan s a g‘ i r q o l di. Akasi qo‘lida qoldi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Ko‘rolmadik Kashal ketgan polvondi, Shu polvondan biror s a g‘ i r q o l gandi(r), Hali ul farzandi yoshlik qilgandi.* “Alpomish”.

YETISHMOVCHILIK, YETISHMASLIK, TANQISLIK, KAMCHILLIK, KAM-KO‘ST, KAM-KETIK Biror-bir narsaning yetishmasligi holati. **Yetishmovchilik** so‘zi mazkur ma’noda ba’zan **yetishmaslik** so‘zi bilan almashinib qo‘llanadi. **Yetishmaslik** so‘zi, asosan, so‘zlashuv nutqida uchraydi. **Kamchillik** so‘zi kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Kam-ko‘st** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda uchraydi.

Y e t i sh m ov ch i l i k, yo‘qchilik yomon bo‘larkan. Ancha qiynalib qoldik. Sh.Otabek, Sen uchun yashayman. *Y e t i sh m o v ch i l i k boshimizda qilich kabi osilib turar, saharlab turib, kech kuzning sovuq bulduruqlari yiltiragan dalalarda turli yumushlarni bajarishga majbur edik*. I.Sulton, Uzuk. – *To‘g‘ri so‘ylaysiz, taqsir, – dedi, – dunyoniki hamisha mirikam ikki, shu y e t i sh m a s l i k balosidan to‘yib ba’zi vaqtlarda kishining dunyodan chiqib ketgisi kelib qoladir*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Lekin yuzlab, minglab kam ta’minlangan oilalar farzandlari moliyaviy y e t i sh m a s l i k dan o‘z qobiliyatini namoyon eta olmayapti*. Gazetadan. *Axir bu t a n q i s l i k lar vaqtincha-ku. O‘tgan yilgi qurg‘oqchilikning kasofati. Bir yil yig‘im-terim yaxshi olinsa, o‘tadi-ketadi*. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Vatandoshlar hajga kelgan chog‘larida hamisha turarjoy t a n q i s l i g idan tanglik sezardilar*. M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. *Ro‘zg‘orlari but, hech narsadan k a m ch i l l i g i yo‘q. Hatto bu orada mol-hollik ham bo‘lishdi*. O‘.Rizayev, Og‘ringan ko‘ngil. *Otaboy to‘yboshi bo‘ldi. U o‘sha kuni ordenlarini taqib, mehmonlarni kutib, dasturxonning k a m-k o ‘ s t idan xabardor bo‘lib turdi*. S.Ahmad, To‘yboshi. *...ko‘pincha o‘g‘li unga yordam berishi o‘rniga, o‘g‘lining k a m-k o ‘ s t larini u to‘g‘rilab yurardi*. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ro‘zg‘orning k a m-k e t i k larini borganingdan keyin birga qilamiz, hammasi yaxshi bo‘ladi*. Z.Yunusova, Baxt tilsimi. *U kecha Saidiy bilan ro‘zg‘orning k a m-k e t i k lari, tuzukroq maishat qilish to‘g‘rilarida so‘zlashib, ko‘proq ishlash haqida uning roziligini olgan ... edi*. A.Qahhor, Tanlangan asarlar.

YETUK, BARKAMOL, RASO, **MUKAMMAL 1.** Jismonan, aqlan to‘liq rivojlangan, kamolotga yetgan; mukammal (insonga nisbatan). **Yetuk** so‘zi keng tushunchaga ega. **Barkamol** so‘zi ko‘proq badiiy va publitsistik uslubda ishlatiladi. **Raso** so‘zi nutqda ko‘pincha *aql* so‘zi bilan ham bog‘lanib keladi, belgi darajasi qabariq.

Buyuk, y e t u k odamlar kamtar, kamsuqum bo‘lishini bu dono qiz yaxshi bilardi. Mirmuhsin, Me’mor. – *Men ham shunisiga hayron bo‘lib qoldim, – dedi.*

– *Yo‘qsa, o‘zi ayni biz qidirg‘an, har to‘g‘rida ham y e t u k bir yigit edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Malika Oqqizning shunday b a r k a m o l yigitga tegayotganidan hasad qilmasdi.* M.Mahmudov, Mangu kuy izlab. *Ko‘kday bo‘lsa hamki yuksak, b a r k a m o l, Yerday sukut saqlab turadi oqil. Birpas sukut saqlab, holingga ko‘z sol, Birpas sukut saqlab, olamga boqqil…* J.Kamol, She’rlar. *Aqli r a s o odam qay yurtga bormasin, Mozorni ham aylanadi, Bozorga kirib, o‘sha yurtning moddiy boyligini ko‘radi.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Usmonali aka yer ilmini hammadan ko‘ra yaxshi biladigan aqli r a s o odamga o‘xshaydi.* S.Ahmad, Cho‘l shamollari. *Kumushkentda bir pirsiyonning maktabi bo‘lguchi edi. Unda ta’lim oladigan o‘rtamiyona boylarning bolalari har tomondan m u k a m m a l kishi bo‘lib yetishardilar.* Z.A’lam, Afandining qirq bir pashshasi. *Insonning o‘z Yaratguvchisi qudratini anglay bilishi ham tasavvur tufayli sodir bo‘lgan. Zotan, yaralmishlar ichida eng m u k a m m a l i bo‘lgan inson o‘z ijodkorining qudratini tasavvur qilib ko‘rmog‘i lozim edi.* A.Sayyid, Inson kim?

2. Talab jihatidan yuqori saviyadagi, mukammal darajadagi. Bu ma’noni ifoda etishda **yetuk** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi. **Yetuk, barkamol** so‘zlari bu ma’nosida mukammal darajadagi biror ijod namunasi, san’at asarlariga nisbatan qo‘llanadi.

Shu yil yozuvchilar ishtirok etgan oliy darajadagi hukumat yig‘ilishida atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov mazkur romanga “Mustaqillik sharafiga bitilgan eng y e t u k asar”, deb baho beradi. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Husayniyning y e t u k she’rlariga Navoiy yuksak baho beradi. Bunda, ayniqsa, uning o‘zbek tilida yozganligini alohida qayd qiladi.* S.G‘aniyeva, Husayn Boyqaro haqida. *Mahoratimni oshirish ustida olib borilgan ijodiy izlanishlar badiiy b a r k a m o l asarlarning vujudga kelishiga omil bo‘ldi.* N.Safarov, Olovli izlar. *Darhaqiqat, el sevgan adib O‘tkir Hoshimovning b a r k a m o l ijod yo‘li o‘quvchilarining kamolot sari intilgan yo‘li bilan tutash.* H.Boltaboyev, El sevgan adib. *Aytay desam hasratlaring yo‘q mahram, Yolg‘iz bekas, na yorim bor, na hamdam, Diydoringga netar to‘yganda bir dam, Tashnalig‘din o‘ldim judo na bo‘ldi? ...Fikri salim birla, tab’i r a s o muborak.* Muqimiy, Asarlar. *R a s o t a b ’-u, r a s o fahm-u, r a s o so‘zlik bilimdonlar, Munosib bir-biriga barchasi bo‘ldi r a s o suhbat...* Habibiy, Devon. *Zunnun xo‘jayinning sog‘ligiga ko‘tardi. Qadahlarning jaranglashidan m u k a m m a l bir simfoniya hosil bo‘ldi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Said Ahmad hajviyasi… yuksak tasvir vositalaridan, m u k a m m a l badiiy shakldan bahramand ekanidan dalolat beradi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

YETUKLASHMOQ, YETUK BO‘LMOQ, BARKAMOL BO‘LMOQ, RASO BO‘LMOQ, MUKAMMAL BO‘LMOQ, MUKAMMALASHMOQ, KAMOL TOPMOQ, TAKOMILLASHMOQ, TAKOMIL TOPMOQ Biror

jihatdan yetuk, barkamol bo‘lmoq, ma’nan kamol topmoq, mukammal darajada bo‘lmoq. **Yetuk bo‘lmoq, barkamol bo‘lmoq, raso bo‘lmoq, mukammal bo‘lmoq** so‘zlarida belgi darajasi bo‘rtib turadi. **Kamol topmoq, takomil topmoq** so‘zlarida belgi darajasi anchayin ortiq. **Takomillashmoq, mukammallashmoq** so‘zlarida harakat darajasi nisbatan kuchsiz ifodalanadi. Qatordagi barcha so‘zlar, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Bu yerda maqolning mag‘zi charxlangan, she’r ham yetuklashgan. T.Sodiqova, El ustozim. *Bugungi O‘zbekiston hayotiga nazar tashlasak, ishchilar sinfi tobora y e t u k l a sh ib borayotganini, taraqqiyotimizning g‘oyat muhim va murakkab problemalarini hal qiluvchi qudrat kasb etayotganini ko‘ramiz.* O.Sharafiddinov, Adabiyot – hayot darsligi. *Mukammal ko‘rmoqchi bo‘ldik dunyoni, Y e t u k b o‘ l olmadik o‘zimiz biroq.* A.Oripov, Saylanma. *Ayniqsa, endigina aqlini taniyotgan go‘dakning ongini ertaklar, har xil hikoyalar bilan bir qatorda turli o‘yinchoqlar ham boyitib boradi. Ular bolaning ma’nan y e t u k bo‘l ishida katta ahamiyat kasb etadi.* Gazetadan. *Men shoirning shaxs sifatida ham b a r k a m o l b o‘ l ishini orzu qilaman.* E.Vohidov, Yangi asr avlodi. *Haqiqatan, nazariy bilim yozuvchining eng yaxshi fazilatidir, lekin nazariy bilimni kundalik hayot bag‘rida, xalq hayotining qa’rida bevosita aql-idrok va mehnat bilan orttirish kerak. Haqgo‘y yozuvchi shunda o‘sadi, b a r k a m o l bo‘ladi.* O.Sharafiddinov, Talant – xalq mulki. *Yoshligida aqli raso odam keksayib, “annaqaroq” bo‘lib qolishi mumkinmi-yo‘qmi, unisini bilmadim-ku, ammo yoshligida “annaqaroq” odam keksayganda aqli r a s o b o‘ l adi, desalar... Bilmadimov.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Ma’lum muddatda ongi tamoman xiralashadi, ro‘parasidagi oq-qorani ajrata olmaydi... Agar K.ning aqli r a s o b o‘ l ganida qorovulning joniga qasd qilmasdi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *O‘zing olam eng mukammal, lek m u k a m m a l bo‘lolmassan… Sen piyoda bu dunyoda, hargiz otdan o‘tolmassan.* U.Hamdam, Muvozanat. *Universitetni bitirib, Moskvaga aspiranturaga borganda garchi bilimim besh yil avvalgidan m u k a m m a l b o‘ l masa-da, hali ham chakki emas edi.* O.Abdullayev, Umr bo‘yi davom etadigan sinov. *Lekin qizning husni, hasrat otashida tovlanib m u k a m m a l l a sh gani kabi yana ham yorqinroq, yana ham sehrliroq bo‘lib ko‘rindi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Talanti bor odam yozuvchilikni kamolga yetgan yozuvchilarning tajribasidan o‘rganishi, o‘z xatolarini tahlil qilishi, yozgan narsalarini tobora m u k a m m a l l a sh tirishga zo‘r berishi, yozgan narsasini ba’zan yirtib tashlashga ham o‘rganishi kerak.* A.Qahhor, Hayot hodisasidan badiiy to‘qimaga. *K a m o l t o p ar odamzod, o‘ylagani haq bo‘lsa.* T.Sulaymon. *Garchand sochga qo‘ndi bemahal qirov, Chiroying, irodang t o p o ldi k a m o l.* Zulfiya, Saylanma. *Shu sababli romanda yaratilgan ayrim obrazlar va kartinalar yozuvchining mahorati tobora t a k o m i l l a sh ib borayotganligini ko‘rsatib turibdi.* X.To‘xtaboyev, Besh bolali yigitcha. *“O‘tkan*

kunlar” romanining Abdulla Qodiriy nazari tushgan nusxalar asosida hozirgi adabiy tilga yaqin bo‘lgan, t a k o m i l l a sh gan uyg‘un matnini tayyorlashga zarurat bor. B.Karim, Uyg‘un matn zarurati. *Hayotni yaratgan muhtaram omil. Ulug‘ kelajakning yosh nihollari Sendan tarmoq yozib, t o p ar t a k o m i l.* Zulfiya, Saylanma. *Asr boshida Cho‘lponlar boshlagan yangicha tajribalar asr oxirida Rauf Parfi ijodida t a k o m i l t o p di.* V.Fayzulloh, Chin she’riyat yo‘li insoniyat qalbiga tutash.

YECHINTIRMOQ, YALANG‘OCHLAMOQ, YALANG‘OCH QILMOQ, YALANGLAMOQ Ust-boshi, kiyim-kechagini yechib olmoq, yalang‘och ko‘rinishga keltirmoq. **Yalanglamoq** so‘zi **yalang‘ochlamoq** so‘zi bilan variantlilikni hosil qiladi, asosan, shevalarda qo‘llanadi. **Yalang‘och qilmoq** so‘zida yalang‘ochlash harakati kuchli ta’kidga ega.

Ko‘zi ilinganda uzuq-yuluq tushlar ko‘rdi. Qandaydir odamlar uni quvlashdi, urishdi, y e ch i n t i r ishdi... O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Hozir kelgan opa ana shu soyga yiqilib tushibdi. Enam rahmatli o‘choqqa guldiramazon qilib o‘t yoqib yubordi. Opani y e ch i n t i r ib, chaqalog‘i bilan sandalga o‘rab qaynoq-qaynoq asal choy ichira boshladi.* X.To‘xtaboyev, Erka cholning o‘rigi. *Kufr elining ishlari sohasida mohir bo‘lmish bu kishilar Shayx iymonlarini kufrga taqdim etdilar va ul zotni o‘z dinlariga kiritdilar. Ul zotning xirqalarini yechib olib, y a l a n g‘ o ch l a dilar, so‘ng esa may hovuziga solib cho‘miltirdilar...* T.Malik, Odamiylik mulki. *Yigit beligacha y a l a n g‘ o ch l a nib olganidan xijolat bo‘lib, qizga gunohkorona ko‘z tashladi.* E.Samandarov, Tangri qudug‘i. *Ko‘cha darvozalari taqa-taq berkitilgach, hovuzning qalin muzini teshdilar: so‘ngra so‘fini y a l a n g‘ o ch q i l ib ko‘targanlaricha hovuzga tashladilar.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Yelkamni y a l a n g‘ o ch q i l ib, yetmish qamchi urishdi. Yetmishinchi qamchi tushar-tushmas shu qishloqlik bir odam meni tanib qoldi...* T.Malik, Odamiylik mulki. *Yurar Do‘mparabotda bir g‘alamis lalanglab, Muguz qilib mo‘ylovin, kal boshini y a l a ng l a b...* A.Obidjon, Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. *Tekin desang toshni yeydi. Nafsiga qul, Xudosi pul. Arz qilasan y a l a ng l a b to‘sh. Savob nomli xaltang bo‘m-bo‘sh. Sen Vatanga ne berding, xo‘sh.* G‘.Normat, Nafsiga qul, Xudosi pul.

YECHMOQ I, BO‘SHATMOQ Bog‘langan narsa-predmet yoki biror jonivorni bog‘langanlik holatidan xoli qilmoq. **Yechmoq** so‘zi bu ma’nosida barcha nutq uslublarida keng ishlatiladi. **Bo‘shatmoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. **Bo‘shatmoq** so‘zida qisman yechmoqlik ta’kidi ham anglashiladi.

Otlar bezovta kishnab, depsinib, arqonni uzgudek urinishyapti. O‘t ketsa kuyib, jizg‘inak bo‘lib qolishlari mumkin. Y e ch ib, otlarni hovliga chiqarib yuborishdi. X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Bunday holatga tushgan otlarning ko‘pi nobud bo‘ldi. ...Nihoyat, Sattor chovog‘on qorabayirning*

arg‘amchisini qoziqdan y e ch di. R.Xolbek, Qora yo‘rg‘a. *– Ayilni kim b o ‘ sh a t ib qo‘ygan edi? – Mamat kechasi ot dam olsin deb b o ‘ sh a t ib qo‘ygan ayilini ertalab mahkamlamaganini endi payqadi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Kotib bir qo‘li bilan, tomog‘ini qisib turgan bo‘yinbog‘ini tortib, b o ‘ sh a t ibroq qo‘ydi.* S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi.

YECHMOQ II**, YOZMOQ, BO‘SHATMOQ** Bog‘ich, arqon, belbog‘ va shu kabilar bilan bog‘langan narsalarni yechmoq. **Yozmoq, bo‘shatmoq** so‘zlari bu ma’nosida ko‘proq so‘zlashuv uslubida uchraydi.

Ko‘zlari yoshga to‘lib, kipriklari pirpiradi. Zaynab erining bosh tomonidagi stulga o‘tirib olgach, qo‘lidagi tugunni y e ch di. T.Malik, Shaytanat. *Uni tepib, itarib yerga cho‘kkalatdilar, qo‘lini y e ch ib, Said Xalilni zindondan ozod qilish haqida farmon yozishni buyurdilar.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Xayri shoshib tugunni y o z di. Uning ichida allaqancha pul va kiyimliklar bor edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Kula-kula chaylaga chiqishdi, u tugunni y o z di. Unda non, qatlama, qand bor ekan.* M.Mirzarahimov, Sog‘inch. *…Shunday ko‘rinib turibdi – bemor Rajabov oyoq-qo‘llarini b o ‘ sh a t ishni talab etdi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Odatda, ot kechasi egarlog‘liq qolsa, ayili, qorinbog‘i b o ‘ sh a t ib qo‘yilardi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

YECHMOQ III**, YOZMOQ, XOMITMOQ** Soch, jamalak, arqon, ip va shu kabi narsalarning o‘rimini, bog‘lamini tarqatib yubormoq. Bu ma’noda **yechmoq** so‘zi nutqda keng ishatiladi. **Yozmoq** so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos-langan. **Xomitmoq** so‘zi nofaol, nutqda kam uchraydi.

Hebbim shunda yana bir dono gap aytdi: “Kallani yelkaga kiydirgandan keyin arqonni y e ch ib olib, teshigini suvab qo‘yishadi”, – dedi! Ee, shu aqlni bergan otangga rahmat, dedim ichimda. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Chiy eshikning bog‘ichini y e ch ib ko‘targanida, ingrash yana eshitildi.* A.Mux-tor, Qoraqalpoq qissasi. *O‘tov tomondan: “Inim! Sheryurak inijonim!” – degan faryod eshitilar. Chodirga sochlari y o z ilgan yoqasi chok Saragul bilan uni to‘xtatib qolishga urinayotgan Qalqonbek kirib kelishadi.* O.Yoqubov, Avlod-larga vasiyat. *Bir marta Sanambuvi ikkovimiz o‘sha tarafga o‘ynagani borganimizda alvastining buvisini ko‘rganmiz. Malla sochlarini y o z ib, ...bolalarini o‘ynatib o‘tirgan ekan, shataloq otib qochib qolganmiz.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Onam ham marjonni olib, u qildi, bu qildi, iplarni x o m i t di, pishitdi, ishqilib birpasda besh qator durni tuzib, qo‘shnining oldiga tashladi-da, o‘z-o‘zidan mamnun jilmayib, menga qaradi…* J.Ergasheva, G‘animatim onam.

YECHMOQ IV**, HAL QILMOQ (ETMOQ)** Biror narsaning sir-u sinoati-ni, mohiyatini ochib bermoq; muammoni bartaraf qilmoq. **Hal qilmoq (etmoq)** so‘zi ko‘proq rasmiy uslubda qo‘llanadi.

Bironta muammoni o‘zi mustaqil y e ch sa nima bo‘lipti? Qancha uddaburon beklar, navkarlar bor. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Kesakpolvon Elchinning*

taqdirini hal qilib, Zaynab bilan Jamshidga o‘zicha nikoh to‘nini bichayotganida Asadbekning uyida o‘zgacha masala y e ch ilayotgan edi. T.Malik, Shaytanat. *Bu masalani mutaxassislar h a l q i l ishadi.* M.Xayrullayev, Tilla marjon. *Sen hammasini osongina h a l q i l ib qo‘ya qolding. Qoya ustiga kelganimizda mening ostimdagi otga qamchi bosding.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam.

YENGMOQ, G‘OLIB BO‘LMOQ, G‘OLIB CHIQMOQ, G‘OLIB KELMOQ, USTUN KELMOQ, G‘ALABA QILMOQ, G‘ALABA QOZONMOQ, ZAFAR QOZONMOQ, ZAFAR QUCHMOQ, TASLIM QILMOQ (ETMOQ), MAG‘LUB QILMOQ (ETMOQ), TOR-MOR QILMOQ (ETMOQ) 1. Urush, musobaqa, o‘yin, tortishuv va shu kabilarda dushman, raqib, muxolifat ustidan g‘olib kelmoq, g‘alabaga erishmoq. **Yengmoq, g‘olib bo‘lmoq, g‘olib chiqmoq, g‘olib kelmoq, g‘alaba qilmoq, g‘alaba qozonmoq** so‘zlari keng tushunchaga ega. **Taslim qilmoq, taslim etmoq, mag‘lub qilmoq, mag‘lub etmoq, tor-mor qilmoq, tor-mor etmoq** so‘zlarida mag‘lubiyatga uchratish ta’kidi qabariq anglashiladi. **G‘alaba qozonmoq, g‘alaba qilmoq** so‘zlari nutqda ko‘pincha *urush, jang, o‘yin, saylov* so‘zlariga bog‘lanib keladi, kitobiy uslubga xos. **Zafar qozonmoq**da tantanavorlik, **zafar quchmoq**da esa poetik ta’kid kuchli.

Yo‘lchi ham, Qora Ahmad ham musht bilan bir-birlarini y e ng a olmasliklariga ishonch hosil qilishdi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Xo‘p, biz sho‘rolarni y e ng dik, deylik, xo‘sh, yurtni kim boshqaradi? Din peshvolarimi?* T.Malik, Devona. *Dastlab eshitilganda qo‘pol tuyulgan bu maqol o‘tirganlar etini bir sidra zirillatdi. Bu holatni sezgan Sa’dulloxon mazkur bahsda mutlaq g‘ o l ib b o ‘ l dim, degan qarorga kelib, atrofidagilarga mag‘rur nazar tashladi.* T.Malik, Shaytanat. *O‘sha yerda g‘ o l i b b o ‘ l sang, bas. Uloq menda ketdi, deyaver. Qolgani bir pul.* U.Hamdam, Muvozanat. *Hosilboyvachcha bu olishuvda mutlaq g‘ o l ib c h i q qaniga amin edi.* T.Malik, Shaytanat. – *Tanishi bo‘laman, birga o‘qiymiz… – E, konkursda g‘ o l i b ch i q qan me’mor siz bo‘lasizmi? – uning savolini eshitmay so‘radi styuardessa qiz.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Bu sharoitdagi ikki hakam go‘yo suv bilan olov kabi edi. Er-xotin chetda qolib, ular o‘zaro dahanaki jangni boshlab yuborishdi. Bu jangda hech kim g‘ o l i b k e l madi, oila barbod bo‘ldi, xolos.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Bu omonsiz muhorabada kim g‘ o l i b k e l gani esa ayon.* E.A’zam, Shovqin. *Sherxonning islohotlaridan raiyat mamnun emish. Uning aqliga, tadbirkorligiga tan berganlar ko‘p. Kanaujdagi jangda Sherxonning harbiy jihatdan u s t u n k e l ganiga men ham tan berdim.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Chindali akayam melisaga qatnadi. Biroq yo zori, yo zo‘ri u s t u n k e l di chog‘i, ishqilib, tinchitdi.* S.O‘nar, Tegirmonchining bolasi. *Roziya kelarmikan? Agar kelsa, Sattor chindan g‘ a l a b a q i l gan bo‘ladi.* P.Qodirov, Erk. *Shunday ekan, muallimlarining gapi qulog‘iga kirarmidi? Bunday bola, ayniqsa, musobaqalarda g‘ a l a b a*

q o z o n a boshlagach, takabburlikni kasb qiladi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *To‘g‘ri-da, to‘y va sayillardagi katta-kichik kurashlarda ketma-ket z a f a r q o z o n ib, muxlislari olqishiga bo‘g‘zigacha ko‘milib yursa-yu, dashtda bo‘yi qulog‘ingdan kelmaydigan qandaydir bir cho‘pondan yiqilib o‘tirsa, ko‘ngliga quvonch sig‘armidi!* N.Norqobilov, Kurash. *Hayyom nim tabassum ila sultonning gapini davom ettirib ketdi: – Ustod Aristotilusning yozishicha…oq ot yaxshi va e’tiborga loyiq. Uning sohibi jangda doimo z a f a r q o z o n adi.* N.Jaloliddin, Oraliq. *...yozgi ta’tili tamom bo‘lgan Gulchehra yana poytaxtga ketib qoldi. Abdumurod esa bu qaysar qizni t a s l i m q i l ishning birdan bir yo‘li o‘qishga kirish, katta obro‘-e’tiborga erishish degan qat’iy fikrga keldi.* S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Tojiali Boboyev Berlinni bosib olish, gitlerchilarni t a s l i m e t ish uchun munosib hissa qo‘shdi.* T.Rustamov, Mangu jasorat. *Sokolov qushbegini ruhan m a g‘ l u b q i l ganligidan mamnun jilmayib qo‘ydida, istehzo bilan javob berdi.* K.Yashin, Hamza. *Bir gala farrosh lo‘li xotinlarga yakka o‘zi bas kelib, ularning nozik nuqtalaridan ushlab – m a g‘ l u b e t ib, idoradan chiqarib yuborgan boshliq esingizdadir?* T.Malik, Shaytanat. *...oqpodshohga ko‘proq yordam bersak, dushmanlar tezroq t o r-m o r q i l inadi, zafar qulayroq va tezroq keladi...* Oybek, Tanlangan asarlar. *Temur bobongiz Anqara yaqinida Boyazidni t o r-m o r e t gani bizim Tabriz-u Qazvinlar uchun-da cho‘x xayrli zafar o‘lmishdir.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

2. Yuzaga kelgan salbiy holatlar, ruhiy-ma’naviy jarohatlar, turli illat va qusurlarni bartaraf qilmoq, ular ustidan g‘olib chiqmoq (g‘am, kasallik, dard, ofat; kibr, nafs, yovuzlik, qarshilik va shu kabilarga nisbatan).

– Nega xafaligingni bilmayman, lekin g‘am yomon narsa, – dedi nihoyat rais. – Uni y e ng masang, hayoting buziladi, orzularing puchga chiqadi. Uni yengish kerak! O‘.Umarbekov, Shirinsoy oqshomlari. *Ena... Sog‘ayib ketdim!.. O‘limni y e ng dim!..* U.Azim, Tong otgan taraflarda. *Aka-uka o‘rtasida nizo chiqdi, o‘rtada oqibat o‘ldi. Yomon nafs g‘ o l i b b o‘ l di, shayton xursandchilikdan nog‘ora chaldi.* Gazetadan. *Ba’zan biror xayrli ish qilmoqchi bo‘lsak, bizlarga malol keladi. Aksincha, gunoh ishni bemalol qilib huzurlanamiz. Bu – nafsimiz ustidan g‘ o l i b b o‘ l a olmaganligimiz belgisi…* Q.Sharafiddinov, Nafs yo‘ldan ozdirur. *Sirdaryodan necha marta o‘tganlar, vaziyat yetilishini yillar davomida kutganlar, axiyri adolat g‘ o l i b ch i q qan kunlarga yetganlar. Siz ham yetursiz, ishoning!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bir tomondan xotira izidan ergashuvchi ruhiy kechinmalar uni ezishga chog‘lanadi, ikkinchi tomondan esa qasos o‘ti alanga olib bu kechinmalarni quvishga harakat qiladi. Alqissa, qasos o‘ti g‘ o l i b ch i q ib, u qaddini rostlashga muvaffaq bo‘ldi.* T.Malik, Shaytanat. *Kechasi bilan Jalol polvon o‘ylab-o‘ylab, Ermatga yiqilib beray, endi zo‘r kelib qayoqqa borardim, shu yosh polvonga bugungi g‘alabasi qanot bo‘lsin, deb niyat qilgandi. Bellashuv paytida niyatidan g‘ururi g‘ o l i b k e l di.*

S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Yaqinlashmoqlik man etilgan mazkur daraxt nafs uchun bir sinovdirki, bu balo g‘ o l i b k e l guday bo‘lsa, odam bolasi umrining oxiriga qadar qaqshaydi.* T.Malik, Shaytanat. *– Hay-hay, o‘zingizni bosing, A’zam aka, bu nimasi? – davradagilardan bir-ikki yoshi ulug‘roqlari zudlik bilan qo‘zg‘alishib, hissiyoti aqlidan u s t u n k e l a boshlagan A’zam akani yelkasidan tutib o‘rniga o‘tqazishdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Shu ishdan lazzat olish hissi, undagi xudbinlik illati u s t u n k e l ib, axloq talablarini chetlashga undayveradi.* T.Malik, Shaytanat. *Toshbaqa anchagina vaqt bu haqda o‘ylab iztirob chekdi, shubha va taraddud ichida qolib, nihoyat xotinining ishqi g‘ a l a b a q i l di. Oqibatda u vafodorlikdan voz kechish qaroriga keldi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Deraza ortida esa odamlar bir-birini chaqirar, gaplashar, kular, ovozlarida bahoriy ko‘tarinkilik aks etardi... Ha, bularning hammasi ko‘klamning qish ustidan uzil-kesil g‘ a l a b a q i l ganidan dalolat berardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Qolaversa, qiyomat yer yuzida qo‘pishi shart emas, bir inson botinida yovuzlik ezgulik ustidan g‘ a l a b a q o z o n dimi, shuning o‘zi o‘shal zot uchun qaysi qiyomatdan kam?..* U.Hamdam, Muvozanat. *Oxir-oqibat zulm g‘ a l a b a q o z o n ibdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Belkurak jarangi xush yoqar menga, Ishga kirishibdi xaloyiq demak. Suv ofatin t a s l i m q i l ib zaminga, Dovon qurmoqdalar mustahkam, yuksak.* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Uning o‘zini tutishida, haqiqatan ham, odamlarni cho‘chitmaydigan, aksincha, iydiradigan bir viqor borkim, ko‘zni qamashtiradigan darajadagi husni bilan qo‘shilib, yuraklarni tamoman t a s l i m q i l adi.* U.Azim, Sevgi. *Qani endi bu “mahluq”ni tezroqqina m a g‘ l u b e t ib, o‘z vijdoni va ori oldidagi sha’nini qayta tiklab olsa!* N.Norqobilov, Kurash. *Sizlarning bu ishingiz Islom jamiyatini qiyomatga qadar birlasha olmaslik fitnasiga giriftor etmasun, o‘zimizdagi ichki adovatga barham bermasak, tashqi dushmanlar bizni tezda m a g‘ l u b e t ajak.* T.Malik, Shaytanat. *Prorab kitob yozib bergan yozuvchi bilan og‘iz-burun o‘pishib o‘tiribdi... Gazetada mazkur kitob t o r-m o r q i l ingan bo‘ladi. Prorab yozuvchiga qarab o‘shqiradi: “Ahmoq, birovga kitob yozib berish qo‘lingdan kelsa yozib bergin-da!” deydi va uni uyidan haydab chiqaradi.* A.Qahhor, Husnbuzar. *Dali 1951-yili chizilgan bu kartinasi bilan mumtoz tasviriy san’at va uning buyuk namoyandalarini ulug‘lik shohsupasida batamom t o r-m o r qilganini e’tirof etadi.* N.Eshonqul, Olamlar birlashadigan makon.

YIQILMOQ, QULAMOQ, AG‘ANAMOQ, AG‘DARILMOQ Tik holatni yo‘qotib, boshqa holatda yerga tushmoq. **Yiqilmoq** so‘zi insonga nisbatan ham, jonivorlarga nisbatan ham qo‘llana oladi. **Ag‘namoq, ag‘darilmoq** so‘zlari yiqilish harakatini kuchli ta’kid bilan ifodalaydi.

Akbarali omonat o‘tirgan joyidan gandiraklab, y i q i l ib tushishiga sal qoldi. A.Muxtor, Chinor. *Yumshoq o‘t ustiga y i q i l gan Xolbek darrov o‘rnidan turdi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *...uzilib tushgan qoyalar ostida q u l a b yotgan*

keksa yong‘oqlarning yod hidi anqib, atrofga, dim havoga asta taralar edi. A.Muxtor, Chinor. *Said oyoqda turolmasdi, bir-ikki qadam tashlab qalqib ketdi va yonboshi bilan yerga q u l a di.* U.Hamdam, Muvozanat. *Sojida burnini ko‘tarib gapirsa, xuddi orqaga a g‘ n a b ketayotgandek ko‘rinar edi.* A.A’zam, Hali hayot bor. *...oyog‘ing ostida nimadir portlaganday gumburladi, ...sen so‘nggi pillapoyaga qoqilib a g‘ n a b tushding...* N.Eshonqul, Qaytish. *...xarsangtosh ustidan kalla tashlamoqchi bo‘lib, endi oyoq qo‘yuvdim, nima bo‘ldiyu, shalop etib suvga a g‘ d a r i l ib tushdim.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Bir dovonga chiqqanda ular tomiri bilan a g‘ d a r i l ib yo‘lda ko‘ndalang yotgan baqaterakka o‘tirib dam olishdi.* A.Muxtor, Chinor.

YIG‘MOQ, TO‘PLAMOQ, TO‘DALAMOQ, UYMOQ, DEVALAMOQ, JAMLAMOQ, JAMG‘ARMOQ, YIG‘NAMOQ, YIG‘INMOQ Turli joydagi shaxslar, narsalarni bir joyga keltirmoq. **Yig‘moq, to‘plamoq, jamlamoq** so‘zlari inson, jonivorlar hamda narsa-predmetlarga nisbatan qo‘llanadi. **Yig‘moq** so‘zi uslub jihatdan betaraf, deyarli barcha nutq uslublarida uchraydi. **To‘dalamoq** so‘zi narsa-predmetlarga nisbatan qo‘llanadii. **Uymoq** so‘zida uyum hosil qilish ta’kidi mavjud. **Devalamoq** – shevaga xos so‘z. **Jamlamoq** so‘zi mazkur ma’noda kam qo‘llanadi. **Jamg‘armoq** so‘zi molk-mulk, boylik, pul kabilarga nisbatan ishlatiladi. **Yig‘namoq** so‘zi faqat shevalarda uchraydi.

Hulkar degan qizcha o‘ng qo‘li bilan toshchalarni bittadan yuqoriga otar, ular tushib kelguncha yerdagi toshchalarni ham o‘sha qo‘li bilan bittalab terar, keyin hammasini y i g‘ ib, bir harakat bilan kaftining orqasiga o‘tkazar edi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Qirq birinchi kuni esa yetti iqlimdagi barcha dong‘i ketgan odamlar, fozil-u fuzalo, olim-u ulamolarni y i g‘ ib o‘g‘lini ko‘rsatdi va o‘z xalqining odaticha uning kelajagini aytib berishni so‘radi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Borgach… qish g‘amini yozda ye, deya g‘aram-g‘aram xashaklar t o‘ p l a sa… ora-sirada tinib-tinchimas Oftob momosining xivichini tatib, uning beg‘araz dashnomlarini to‘yib-to‘yib eshitsa!* N.Norqobilov, Kurash. *Ko‘pincha qazuv chog‘ida chetini ketmon tirnab zaxlagan, birinchi o‘rinda, sotib yoki ovqatga ishlatib yuboriladigan piyozlarni alohidalatib t o ‘p l a shga qarashar edik.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *...kombayn to‘kib ketgan mayda somon o‘roqqa ilinmaydi, qo‘lda t o‘ d a l a sh azob, ter quyilib, ko‘z achishganidan ko‘rganingiz atrof sariq oqova chayqaladi…* A.A’zam, Quroq. *O‘ttiz qadam chamasi naridan yigirmaga yaqin otliq chiqib t o ‘d a l a nib turgan otliqlarni o‘qqa tutib, yaqin qiyqirishib, yalang‘och qilichlarni havoda o‘ynatib, negadir soy yoqalab yuqoriga o‘tib ketishdi* X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Go‘ng u y ib qo‘yilgan joyni aylanib o‘tayotgandim, sopi kalta kurakni bilmasdan bosib olibman.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Ejiboy birgat u y ib qo‘yilgan chanoq g‘arami ustiga ag‘darildi.* M.Nizanov, Aqchagul. *Xirmonda alohida-alohida to‘kilgan paxtalar d e v a l a n ib yotardi.* M.Ismoiliy,

Farg‘ona tong otguncha. *Qiz chopgancha tushib, pastda devalanib yotgan shag‘al uyumlari orasida paydo bo‘ldi*. A.Muxtor, Tug‘ilish. *O‘tinchi bor aqli, hayajonini jamlab, cho‘zib ingradi, kaftlari bilan chekkalarini qisib, boshini sarak-sarak qildi.* O‘.Umarbekov, Oqsoqol. *Rahima aya bor irodasini jamlab ich-ichidan otilib chiqayotgan g‘azabnimi, o‘kiriknimi, nafratnimi bo‘g‘zida tutib qoldi…* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Bu ro‘zg‘or buyumlarini Yigitali hovli olish maqsadida jamg‘arib yurgan pullariga xarid qilgan edi.* D.Nuriy, Osmon ustuni. *Shunday qilib, Yusuf ikki yarim ming dollar pul jamg‘ardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Ertasiga o‘roqchilar quruq pichanlarni to‘p-to‘p yig‘nay boshladilar.* S.Anorboyev, Oqsoy. *Zarur toshning og‘irligi yo‘q deb, har narsani yig‘na guncha terlab ketdim.* A.A’zam, Ketgan birov edi. *Banotning akasi bultur to‘y qilaman, deb qattiq yig‘indi*. A.Mamarasulov, Jarima. *– Mayli, mayli, biz hali-beri kelmoqchi emasmiz. Sakkiz ming deganminan shuncha pulimiz yo‘q hozir. Savdosi pishsa, bas, keyin yig‘inamiz*. A.Mamarasulov, Jarima.

YODDAN, YODAKI, YODAKASIGA Xotirada tiklagan holda, qog‘ozga qaramay. Yod olgan holda. **Yoddan** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Yodaki, yodakasiga** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Yodakasiga** so‘zida belgi ta’kidi mavjud.

O‘zingiz kichikroq bir she’rni yoddan o‘qib bersangiz… I.Rasulov, Qayta qurish va muallim. *Xalq qo‘shiqlari va dostonlarini yoddan kuylovchi oqin ma’nosini anglatgan “baxshi” so‘zi aslida tilimizga sanskrit tilidan kirib kelgan.* E.Shukur, So‘zdan so‘zning farqi bor. *Shunda Binoiy yodaki bir ruboiy aytib, yegulik g‘allasi yo‘qligini, kiyay desa g‘allaning qopi ham topilmasligini aytdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Keyin xon Avazning bir baytini yodaki aytdi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *U xayolimdan kechgan savolni uqqanday, qaysi ekindan qancha hosil olinayotganini, xo‘jalikka qanday foyda keltirayotganini yodakisiga so‘zlay ketdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Satrlarimdan anchaginasini, ba’zi she’rlarimni to‘lig‘icha yodakasiga aytganidan bir quvonsam, bular allaqachon kitob bo‘lishi kerak edi, zo‘r kitob bo‘ladi, deganidan ikki quvondim.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar.

YODGORLIK, OBIDA Biror shaxs, voqea-hodisa xotirasi uchun qurilgan, o‘tmish madaniyatiga oid narsa. **Yodgorlik** so‘zida esdaliklik ta’kidi qabariq ifodalangan. **Obida** so‘zi eskirgan, kitobiy uslubga xos.

Tarix kitoblaridan o‘qidimki, Chingizxon o‘ziga ham bironta yodgorlik qurdirmagan ekan. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O‘sha yaqin o‘tmishdan taxtalari sug‘urib olingan o‘rindiqning temir oyoqlari yodgorlik bo‘lib turibdi. “Ajoyib yodgorlik”, – deb o‘yladi Zohid.* T.Malik, Shaytanat. *– Ammo biz muslimlarni hurmat qilurmiz! – dedi Akvaviva. – Qadimiy masjidlarni buzdirmay, tarixiy obida tarzida asramoqdamiz.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Qaysi sha-*

harga bormasin, uning tarixi, o b i d a lari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi. B.Qosimov, M.Behbudiy.

YOKI, YO, YOXUD, YOINKI Ayiruv bog'lovchisi, gapning uyushiq bo'laklari hamda qo'shma gap qismlarini bog'lashda qo'llanadi. **Yoxud, yoinki** so'zlari kitobiy uslubga xos. **Yo, yoki** bog'lovchilari gap tarkibida yakka va takror qo'llana oladi, **yo** oddiy so'zlashuvga xos. **Yoxud, yoinki** bog'lovchilari gap tarkibida takrorlanib kelmaydi, eskirgan, kitobiy uslubga xos.

Hali bu kuning holva, agar qo'ylarni qayerga yashirganingni aytmasang y o k i pulini to'lamasang, go'shingni itlarim nimtalaydi... U.Hamdam, Muvozanat. *O'g'uzlar bosqin y o k i chopqin bo'lsa to'rt bulungga jarchi yoyib, tevarak-atrofda kun kechirayotgan ulusini chorlab kelar, cherigini shunday to'plardi*. I.Sulton, Bilga xoqon. *...olov yoqqan joyimizga kelgan edik, eshagim yechilib ketib, o'zim ketaversammi y o ketmasammi, deb bizga qarab turgan ekan.* X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. *Amirning qaysarligi tutdimi y o boshqa degulik gapi qolmadimi, har holda bular ishonadigan sabab qidirib o'tirmadi…* U.Hamdam, Muvozanat. *Hind elining kishilari qora tusli bo'lgani bois, qora tunni y o x u d osmonni, qora ko'zni yoki qoshni ham hindubacha derlar.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Jahon ahli faqat fotosuratlarda y o x u d videolentalardangina bilgan mo'jizalar yurtini o'z ko'zi bilan ko'rish, ming yillar bag'ridan yulib olingan shaharlarda kezish har kimga ham nasib qilmasdi*. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Chamadonchamni ko'tarib, u yoqqa chopaman, bu yoqqa chopaman, qani endi, bo'yracha soya y o i n k i bir piyolagina yaxna topilsa!* H.G'ulom, Zamin yulduzlari. *...o'sha juftlik – er-xotinmi, y o i n k i oshiq-ma'shuqmi bunisini bilmaydi...* J.Fozil, Yaxshilar.

YOLG'IZ, YAKKA, TANHO, BITTA, BIR Sheriksiz, o'zgalarsiz, boshqa hech bir eshsiz, bir o'zi. **Yakka** so'zi ko'proq so'zlashuv nutqida qo'llanadi. **Tanho** so'zi badiiy uslubga xos. **Bitta, bir** so'zlarida sheriksizlik ta'kidi ochiqcha ifodalangan.

Y o l g' i z itning hurgani bilinmas, Y o l g' i z kishining yurgani bilinmas. Maqol. *Bu ish uchun y o l g' i z o'zim qabul javobi bersam-da, onasi bir chekkada qoldirilsa, ehtimol, puxta ish qilmag'an bo'larmiz.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Domla boshida chamandagul to'ppi, egnida kalta va tor shim, katak ko'ylak, yengini baland shimargan, bilagida kattakon tilla soat, o'zi y a k k a pivo ichib o'tirgan emish!* A.Qahhor, To'yda aza. *Yo o'zim y a k k a – Yuragimga qarshi bir so'z aytdimmi?* E.Vohidov, Kardiogramma. *Har neni ko'targan bir o'zi t a n h o, Bor na ta'mirchisi, na bir yukdoshi.* A.Oripov, Shoir yuragi. *Endi u o'z xayollari bilan t a n h o, yakkama-yakka qolgan. Shundanmi, qarilik alomatimi, ishqilib, keyingi vaqtlar tez-tez yuragi sanchib, ko'ngli bezovta bo'ladi.* U.Hamdam, Muvozanat. *B i t t a o'zi emas, kimnidir ko'tarib kelyapti.* Sh.Xolmirzayev, Bir ko'rgan tanish. *Endi senga ishlashni kim qo'yibdi! O'tiravermaysanmi! B i t t a*

seni boqish qo‘limdan kelmaydimi! Sh.Xolmirzayev, Kechagi kun kecha. *Avtobus yo‘lda buzilib qoldi. Men b i r o‘zimmasman.* O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i. *Darhol fartugimni yechib, eshikni ochdim. Sotimxon aka b i r o‘zlari edilar.* O‘.Umarbekov, Oyning oltin o‘rog‘i.

YOLG‘IZ BO‘LMOQ, YAKKA BO‘LMOQ (YAKKA-YAKKA BO‘LMOQ), YAKKA-YOLG‘IZ BO‘LMOQ, YAGONA BO‘LMOQ, TANHO BO‘LMOQ Sheriksiz bo‘lmoq, yolg‘iz qolmoq. **Yakka-yolg‘iz bo‘lmoq, yakka-yakka bo‘lmoq** so‘zlarida ma’no kuchli ta’kid olgan. **Tanho bo‘lmoq** so‘zi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Ammo so‘qmoq y o l g‘ i z b o‘ l di. O‘z oti o‘zi bilan, yolg‘iz. T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Ustozning... qo‘llari qaltirab, hozir nimasidir fosh bo‘lib qolishidan xavotirlanib turar, bizning muhabbatimizni qozonganiga ham ishonmaganday, shu sababli hamisha johil, kibrli, y o l g‘ i z b o‘ l ib tuyulardi.* N.Eshonqul, O‘lik mavsum. *O‘zining-ku, ikki dunyodayam achima hayvon bozorida shaltoq mol-qo‘ylardan avaylanib, y a k k a b o‘ l ib yurishini tasavvur qilolmasdi, inchunin o‘g‘illari ham ijirg‘anib, bosh tortishdi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Qor ostida qoldi sevgimiz, Sho‘rlik sevgi topmadi omon. Y a k k a-y a k k a b o‘ l di ismimiz, Har xil yo‘ldan ketdik har tomon...* R.Parfi, Ortiq ko‘rishmaymiz. *Bu zotlar urushda polk-polk bo‘lib jon berdi. Armiya-armiya bo‘lib jon berdi. Endi esa ... bitta-bitta bo‘lib ketyapti! Y a k k a-y o l g‘ i z b o‘ l ib ketyapti!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Ali Yazdiy yozadi: “Agar osmon gumbazi uning takrori bo‘lmaganda, bu gumbaz dunyoda y a g o n a b o‘ l ardi, agar somon yo‘li peshtoqining takrori bo‘lmaganda, bu peshtoq dunyoda yagona bo‘lardi”.* X.Davron, Bibixonim qissasi yoxud tugamagan doston. *Chuvrindining bu yigiti shaharda, balki butun mamlakatda ko‘rinishi jihatidan y a g o n a b o‘ l sa ehtimoldan xoli emas.* T.Malik, Shaytanat. *...xonning go‘zallikda t a n h o bo‘lgan bitta-yu bitta qizi tug‘ilganidan beri bir og‘iz ham so‘z aytgan emas.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Yer sayyorasi koinotda hozircha t a n h o b o‘ l gan... benazir maskandir.* M.Mirzo, Mehrga muhtoj xilqat.

YOLG‘IZLANMOQ, YAKKALANMOQ Bir o‘zi yolg‘iz qolmoq, yakkalab ajratib qo‘yilmoq. **Yolg‘izlanmoq** so‘zi keng tushunchaga ega. **Yakkalanmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida ishlatiladi.

Bilmayman, nimaga bunday, kitobning ta’sirimi, o‘ylar girdobiga tushib qolganimdanmi, odamlarning ichida y o l g‘ i z l a n ib yurar edim. A.A’zam, Quroq. *Ergash bir firma magazinida qorovul bo‘lib ishlab yurdi, so‘ng u yerda ishlar chappa ketgach, yana ishsiz qoldi. O‘shandan buyon butunlay y o l g‘ i z l a n di.* U.Hamdam, Muvozanat. *Qulahmatning esa endi boradigan majlisi yo‘q. Gaplashadigan odami ham yo‘q. Moxovday y a k k a l a n ib, hech qayerga sig‘may qoldi.* A.Muxtor, Taqdir kimning qo‘lida. *Qolipingizda burishib, to‘zib yashayvering – ustingizdan kulaman, chunki siz men bilgan narsani bilmaysiz. Shuning*

uchun sochlaringizga oq oralayapti, o‘ylaringizda xalovat yo‘q, qo‘rquvdasiz, y a k k a l a n gansiz... M.Mengli, Mehmon.

YOLG‘IZLIK, YAKKALIK, YAGONALIK, TANHOLIK Sheriksizlik, yolg‘iz qolishlik. **Yolg‘izlik** so‘zi uslub jihatidan betaraf. **Yakkalik, yagonalik** so‘zlarida miqdor jihatidan bitta ekanlikka urg‘u beriladi. **Tanholik** so‘zi, asosan, kitobiy nutqqa oid.

– Y o l g‘ i z l i k ning o‘zi bir tutqunlik emasmi? – dedi Samijon kulib. A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Ichimda “y o l g‘ i z l i k kor qilibdi-da” deb qo‘ya qoldim. Ancha gaplashib o‘tirdik.* A.Qahhor, Xotinlar. *Andryushamni opasining oldiga qo‘yib qaytdim. Yana y a k k a l i k da, zabunlikda qoldim...* S.Ahmad, Turnalar. *Buxoro mullalaridan ikkitasi kelib yonimga cho‘kdi... Y a k k a l i k jonimga teggani uchun o‘zimcha “bular bilan biroz suhbatlashsam-chi”, deb o‘yladimda, yaqinroq borib salomlashdim.* Fitrat, Hind sayyohining qissasi. *Ularda Allohning har ikki olam yaratuvchisi ekanligi, y a g o n a l i k faqat ungagina xosligi... ifodalangan.* H.Homidiy, Olim, musavvir va shoir. *Unsin tumorcha shaklli hovlida aylanadi, t a n h o l i k va hasrat uning yuragini ezadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *U umrining ko‘p qismini shunday yolg‘izlikda, xavotirlikda o‘tkazgan, t a n h o l i k ka ko‘nikkan bo‘lsa ham, bu galgisi nihoyatda og‘ir tuyuldi.* H.G‘ulom, Toshkentliklar.

YOLG‘ON I, NOTO‘G‘RI, TO‘G‘RI-NOTO‘G‘RI, YANGLISH, O‘TRUK (O‘TIRIK) Rostning zidi, noto‘g‘ri. **Yolg‘on** so‘zi ushbu ma’nosida gap, so‘z, xabar, xulosa, ma’lumot kabilarga nisbatan ko‘p ishlatiladi va ularning noto‘g‘ri, asossiz ekanligini anglatadi. So‘zlashuvda **yolg‘on** so‘zi o‘rnida shu ma’nosida **noto‘g‘ri** so‘zi ham qo‘llanadi. **To‘g‘ri-noto‘g‘ri** so‘zida belgi umumlashgan holda qabariq ifodalanadi. **Yanglish** so‘zi ko‘pincha *xabar, tasavvur* so‘zlari bilan bog‘lanib keladi. **O‘truk (o‘tirik)** so‘zi eskirgan, ayrim tarixiy matnlar tarkibida uchraydi**.**

Endi bilsam, ko‘rgazmalar salmog‘ini oshirish va ko‘rgazmalar to‘g‘ri ekani haqida y o l g‘ o n tasavvurni kuchaytirish uchun ana o‘shandek tajribaga yo‘l ochib qo‘yilgan ekan. N.Boqiy, Qatlnoma. *Jo‘ralarov, quloq beringlar, ho‘o‘y, bu dunyoning bir chinini so‘ylayapman, bir y o l g‘ o n ini, y o l g‘ o n im – chin, chinim – y o l g‘ o n, – eshitgan quloqqa bovli, quloq berganlar aytsin – qaysini so‘yladim?* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *...Hikmatillo boshdayoq yanglishgan, boshdayoq u haqda n o t o‘ g‘ r i xulosa chiqargan!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Chunonchi, ulug‘ olimning otasi Abdulloh saroyda xazinabon, xazinaga esa begonalar u yoqda tursin, hukmdorning qarindoshlari ham kiritilmaydi... – Balki, u ma’lumot n o t o‘ g‘ r i dir?..* O.Husanov, Ibn Sino visoli. *Bu orada Abdurahmon polvon narida kelinini tergab turgan Oftob momoning e’tiborini o‘ziga tortib, hozir o‘zi tilga olgan hikmatning nechog‘liq t o‘ g‘ r i-n o-t o‘ g‘ r i l i g i ni tasdiqlatib olgach, do‘stini battar burovga olishga tushadi.*

N.Norqobilov, Kurash. *Adabiyotning qonun-qoidalarini mutlaqo bilmaydi. Buni unga tushuntiradigan odamning o‘zi yo‘q. O‘zicha t o‘ g‘ r i-n o t o‘ g‘ r i xulosalar chiqarib yuripti.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *– Lola tuzukmi, ayajon? – Xotin turgan yerida dong qotib qoldi. Qunduz uni ayajon deb atadi, u yo y a ng-l i sh eshitdimi?! U xursandligidan entikdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Elchin Anvarga “Asadbekning qizini olyapman” deb y a ng l i sh gap aytdi. Xayolidagi ishini haqiqatga aylantirib yubordi.* T.Malik, Shaytanat. *Safarga bu balandparvoz o‘ t r u k gaplari yoqmadi.* I.Shomurodov, Mag‘lubiyat. *– O‘ t i r i k aytmang, jon jo‘ra, – deydi Nazar baxshi yalingudek bo‘lib. – Axir ming yillik do‘stmiz-a?..* N.Norqobilov, Kurash.

YOLG‘ON II**, YOLG‘ON-YASHIQ, ALDOV, ALDAM-QALDAM (ALDAM-QULDAM), UYDIRMA** Haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan voqelik, hodisa. **Yolg‘on-yashiq** so‘zida yolg‘onlik ma’nosi umumlashgan holda qabariq ifodalangan. **Aldov** so‘zi nutqda yolg‘on-yashiq so‘zlar bilan aldash jarayoniga nisbatan ishlatiladi. **Aldam, aldam-qaldam** so‘zlari so‘zlashuv uslubiga xos. **Aldam-qaldam** so‘zida ma’noning umumlashganlik ta’kidi anglashiladi. **Uydirma** so‘zida to‘qib chiqarilganlik ta’kidi mavjud.

Yov makrini y o l g‘ o n yashirar. Maqol. *Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin y o l g‘ o n yomon.* E.Vohidov, Yaxshidir achchiq haqiqat... *Xudo bergan yetmish-sakson yillik fursat dunyodan paqqos bexabar, qora g‘aflatda, temir devorlar ichida y o l g‘ o n-y a sh i q lar bilan o‘tib ketmog‘i hech gap emasdi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *...Madaminbek haqida yozilgan kitoblar kam va ular, asosan, y o l g‘ o n-y a sh i q dan iborat.* X.Davron, O‘zbek o‘zligini bilsin. *Asadbek “ertaga senga shokolad olib beraman”, degan a l d o v ga uchgan go‘l bola singari yuvosh tortdi.* T.Malik, Shaytanat. *Men bu iblisona a l d o v ga uchib, bu to‘g‘rida na senga va na Normuhammad qushbegiga og‘iz ochmadim...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Tupurdim o‘sha brigadirligiga! Hayday qolsin. Ammo a l d a m-q a l d a m ish qilmayman.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *...Kamtarinning fe’l-atvori Hokisorga judayam o‘xshab ketardi. O‘shanday sodda, samimiy, beg‘ubor, a l d a m-q a l d a m dan yiroq...* A.Hamro, Shoirning janozasi. *Zohid uning u y d i r m a larini indamay o‘tirib eshitdi.* T.Malik, Shaytanat. *...oltmishinchi yillarning boshlarida u y d i r m a shior atrofida qancha shov-shuvlar, qancha dabdabalar bo‘lgan, bu haqda yozmagan na birorta gazeta, na radio, na televideniye qolgandi.* O.Yoqubov, Muqaddas.

YOLG‘ONDAN, YOLG‘ONDAKAM, (YOLG‘ONDAKA), YOLG‘ONDAKASIGA Yolg‘on tarzda, yo‘lg‘ondakasiga (xatti-harakatga nisbatan). **Yolg‘ondan** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Yolg‘ondakam (yolg‘ondaka), yolg‘ondakasiga** so‘zlari oddiy so‘zlashuvda ko‘p ishlatiladi. Bu so‘zlarda belgi kuchli ifodalanadi. **Yolg‘ondaka** so‘zi aynan “yolg‘ondakam”ni anglatadi. **Yolg‘ondakasiga** so‘zida harakat tarziga alohida urg‘u beriladi.

Xashakdan hasham bichma, Y o l g‘ o n d a n qasam ichma. Maqol. *Bo‘lmasa, mening gapimga kirib, Zebixonning qulog‘iga sekingina shipshitib qo‘ysangiz: har kun y o l g‘ o n d a n bo‘lsa ham, bir soat, yarim soat o‘zidan ketib tursa...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Tutqazilgan stakanni tikka turgan ko‘yi oxirigacha simirib, ketidan kolbasasini chaynab, “spasibo”sini aytdi-da, eri bo‘lmishga y o l g‘ o n d a k a m musht do‘laytira-do‘laytira chodirxonadan chiqdi.* E.A’zam, Shovqin. *– Yo‘q, kelaman, – deb Surayyo Abduzafar akaning orqasidagi eshikka qarab qo‘ydi. – Hali buyruqlar ham bor. O‘zi nima gap, Zafar aka? Abduzafar aka y o l g‘ o n d a k a m xomuza tortdi.* A.A’zam, Hali hayot bor... *Uning nazarida hamma narsa yolg‘ondanga o‘xshardi. Devorlar, uylar, eshikderazalar ham yo l g‘ o n d a k a s i g a o‘xshardi.* Mirmuhsin, Chiniqish.

YOLG‘ONCHI, ALDAMCHI, ALDOQCHI, KAZZOB, UYDIRMACHI, AVROQCHI (AVRAG‘ICH(I) Yolg‘on-yashiq gaplarni ko‘p aytuvchi. **Yolg‘onchi** so‘zi barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Aldamchi** so‘zi mazkur ma’noda nisbatan kam qo‘llanadi. **Aldoqchi, avroqchi** so‘zlari shevalarda ko‘p ishlatiladi, bu so‘zlarda mazkur ma’no kuchli ifodalanadi. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlar salbiy bo‘yoqqa ega. **Kazzob** so‘zida salbiy bo‘yoq birmuncha kuchli ifodalanadi. Bu so‘z bugungi kunda kam ishlatiladi.

Ko‘nglim bir muncha tinchlandi. Jadidlarga endi ishonib qoldim. Ulardan y o l g‘ o n ch i chiqmaydi. Yaxshi odamlar! Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Demak, y o l g‘ o n ch i ning jazosi o‘limdir.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *E, podsho osmonda, otam yer ostidagi zindonda! Ikki orani poraxo‘r amaldorlar bilan a l d a m ch i shayxlar to‘sib olmishlar.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Otabek nihoyatsiz “bo‘lg‘ani yo‘q” dan zerikib qaradi: – A l d a m ch i. – Bu aldashlar – aldash emas, siz hali qarab turing, qochqoq.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Yosh ilon shu topda aldovga laqqa uchganiga qattiq afsuslandi. Hali u o‘sha a l d o q ch i Jarchiga ishonib yuribdimi?! O‘sha Jarchini jinidan battar yomon ko‘rib ketdi!* F.Iskandar, Quyonlar va bo‘g‘ma ilonlar. *Fuzuliy lutf etib ketgan bir zamon, Go‘zallar vafosiz, a l d o q ch i dedim. Yoningda qolishga yo‘q edi imkon, Men sening yodingda qolmoqchi edim.* I.Mirzo, Sizni kuylayman. *Sen ham k a z z o b o‘g‘rilarni menim dargohima boshlab kelmishsan?* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Musallama k a z z o b o‘zini payg‘ambar deb e’lon qilganida bir ko‘zi ko‘r, ikkinchisi esa xiralashgan qariya kelib “payg‘ambar bo‘lsang, duo qilib, ko‘zlarimning nurlarini qaytar”, deb so‘rabdi. K a z z o b “kuf-suf” qilgan ekan, cholning ikkinchi ko‘zi ham ko‘r bo‘libdi.* T.Malik, Shaytanat. *Redaksiyani “gullatib” yurgan chaqimchi shu qadar u y d i r m a ch i, yolg‘onchi ham ekanki, ...bahona topolmasa, o‘zining ustidan ig‘vo qilib bo‘lsa-da, shu kungi ig‘vogarlik normasini bajarib olar ekan.* T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. *Uydirmachini jazolagan fuqaro javobgarlikka tortildi.* Gazetadan. *Uning qora yo‘lini davom ettirgan boshqa eshonlar, so‘filar, har xil a v r o q ch i lar,*

tovlamachilarni fosh etaman. Oybek, Oy va shabadalar. *Endi redaksiyaning avrag‘ich voizlari musulmonlar birligi to‘g‘risida ko‘kraklariga urib, daryo-daryo so‘z quyadilar...* Oybek, Nur qidirib.

YOLG‘ONCHI BO‘LMOQ, ALDAMCHI BO‘LMOQ, ALDOQCHI BO‘LMOQ, KAZZOB BO‘LMOQ Yolg‘on-yashiqni ko‘p gapiradigan bo‘lmoq, aldoqchi bo‘lmoq. Qatordagi barcha so‘zlarda salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi. **Yolg‘onchi bo‘lmoq** so‘zi uslub jhatdan betaraf. **Kazzob bo‘lmoq** so‘zlari, asosan, shevalarda ishlatiladi, bu so‘zlarda holat ma’nosi nisbatan kuchli ifodalanadi. **Avroqchi bo‘lmoq** so‘zida avrashlik ma’no ta’kidi ustun, **kazzob bo‘lmoq** so‘zida o‘taketgan darajadalik ta’kidi mavjud.

Choliga olib kelib qo‘yaman deb va’da qiluvdim, uning oldida ham yolg‘onchi bo‘ldim endi... X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Oyim juda yolg‘onchi-da... Agar u yolg‘onchi bo‘lmasa, o‘ziga shuncha atirlar olib kelgan, tilla soat taqdim qilgan kishini rasvo, yomon odam deydimi?* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bolalarning bir-birlariga munosabatini muallimlar o‘zlarining kuzatuvlari asosida gapirib berishdi. Tashqi kuzatuv aldamchi bo‘lishi ham mumkin.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *E, ena-ya! Sochingizga oq tushganda aldamchi bo‘lib qoldingizmi?* U.Azim, Tong otgan taraflarda. *...Dunyoda ikkita benomus, aldoqchi bo‘lsa, bittasi o‘sha shaytoni lain.* J.Kamol, Adabiyot – nurli so‘z. *Umid, garchi aldoqchi bo‘lsa ham, harqalay, hayotimizni risoladagidek yakunlashimizga xizmat qiladi.* Gazetadan. *Muningiz yoshligida g‘irt xotinboz, kazzob bo‘lgan ekan-ku. Endi din peshvosi bo‘lib qopti.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘g‘li o‘g‘ri, kazzob bo‘lsa ham, Ona ko‘ngli umidga to‘lar: Hali odam bo‘ladi bolam, Hamma havas qilgulik bo‘lar.* O.Tolib, Ona ko‘ngli.

Y

YOLG‘ONCHILIK, ALDAMCHILIK, ALDOQCHILIK, KAZZOBLIK, ALDAM-QALDAMLIK Yolg‘on gapirishlik. Qatordagi **aldamchilik, aldoqchilik** so‘zlari so‘zlashuv uslubiga xos, salbiy bo‘yoqqa ega. **Kazzoblik** so‘zida salbiy bo‘yoq yanada bo‘rtib turadi.

Bo‘ysunmas bolalarning yana bir toifasiga yolg‘onchilik xos bo‘ladi, – Islomiy jihatdan yolg‘onchilik og‘ir gunohlardan hisoblanadi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Mutlaq hokimiyat bor joyda xiyonat ham, aldamchilik ham, adolatsizlik ham bo‘lmay iloji yo‘q, begim!* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Albatta, bu jahonshumul, mutaraqqiy tizimga qarshilik qilish befoyda. Kishini, nihoyati, reklama bahonasida sodir etilayotgan ayrim aldamchilik lar tashvishga soladi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Agar besh dirhamlik xinoni ayamasang, kanizagingni bahosi besh barobar oshadi, deydi! Mana aldoqchilik, firibgarlik!* M.Ali, Sarbadorlar. *Bu ne aldoqchilik? Bu ne masxara? Men uchun qog‘ozga kim chekdi imzo?* E.Vohidov, Saylanma. *Axir kazzoblik da aylanib turuvdi-ku! Qudratli Hamdamboy unga da’vogar edi-ku, qozi-yu mir-*

shab mening tarafimda edi-ku! X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Men uni k a z z o b l i k da ayblab, zindonga tashladim.* M.Osim, Karvon yo‘llarida. *– Ishonavering, bizda a l d a m-q a l d a m l i k bo‘lmaydi, faqat aytganni qilsangiz bo‘ldi.* E.Malik, Shaytonvachchaning nayranglari. *Mazkur yo‘nalishda so‘nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi a l d a m-q a l d a m l i k, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat’iy belgilash, ularga qattiq ta’sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo‘lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko‘plab innovatsiyalar yo‘naltirildi.* A.Ahmedov, Pedagogika nazariyasi.

YOMONLAMOQ, YOMONOTLIQ QILMOQ, QORALAMOQ Biror kimsa yoki narsani yomonga chiqarmoq, ortidan yomon gapirmoq. Bu ma’noni ifoda etishda **yomonlamoq** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi va barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Qoralamoq** so‘zida ayblash ta’kidi anglashiladi, ko‘proq kitobiy uslubga xos. **Yomonotliq qilmoq** so‘zi so‘zlashuv uslubida ko‘p qo‘llanadi. Bu so‘zda birovning nomini yomonga chiqarish ta’kidi bo‘rtib turadi

Jadid gazetda sizni so‘kkan bo‘lsalar, o‘z gazetamizda biz maqtaymiz, muallimni y o m o n l a ymiz. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Toshkentda meni “O‘rislarga sotilgan, o‘risparast” deb ig‘vo qilasan, bu yoqqa kelganingda esa “Ashaddiy o‘zbek millatchisi”, deb bularga y o m o n l a ysan – shumi menga aytadigan gaping?!* E.A’zam, Shovqin. *– E, bersa berib yuborar, – jahli chiqdi Muhammadning. – Nima, bir bechoraning qizini y o m o n o t l i q q i l ib tashlab ketaverasanmi?!* A.Taypatov, Tazarru. *– Yomon niyat qilmang, opa, Xudo saqlasin! – Yomon niyat yoqmaydimi senga, o‘sha paytda meni y o m o n o t l i q q i l ganlaring-chi? – Sizni y o m o n o t l i q q i l maganmiz. O‘zingiz... meni o‘g‘riga chiqargan edingiz.* T.Malik, Xazonrezgi. *– Faraz tug‘ilgan bo‘lishi mumkin. Lekin odamlar irim-sirimning quli bo‘lib kelishyapti-ku?! – Irim-sirimlarni q o r a l a shingiz yaxshi.* T.Malik, Devona. *...ular o‘sha kezlarda zo‘r berib shoir ijodidan siyosiy xatolarni qidirayotgan, uning nomini, ijodini q o r a l a shga urinayotgan edi.* M.Abdulxayrov, An’analarga esh, yangilanishga tashna.

YOMONLASHMOQ, YOMON BO‘LMOQ, RASVO BO‘LMOQ, RASVOLASHMOQ, OG‘IRLASHMOQ, OG‘IR BO‘LMOQ, CHATOQLASHMOQ, XURJUNLASHMOQ Yomon holatga o‘zgarmoq (vaziyat, sharoit, ahvol, sog‘liq va shu kabilar haqida). **Yomon bo‘lmoq, rasvo bo‘lmoq, og‘ir bo‘lmoq** so‘zlari vaziyat, ahvol kabilarga nisbatan qo‘llanib, ularning yomonlashgan holatda ekanligini anglatadi. **Yomonlashmoq, rasvolashmoq, og‘irlashmoq** so‘zlarida vaziyat, ahvol, sog‘liq kabilarning yanada yomon holatga o‘zgarganligi ifodalanadi. **Og‘irlashmoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida ishlatiladi. **Chatoqlashmoq, xurjunlashmoq** so‘zlari ko‘proq ishning yomon tomonga ketishini bildiradi.

Men bu o‘rinda iqtisodiy muammolarni nazarda tutayapman. Lekin ahvol yaxshilanish o‘rniga tobora y o m o n l a sh moqda. E.Vohidov, Insonni pul, mol-dun-

yo emas, noto‘g‘ri tarbiya, haqsizlik buzadi. – *Men ham eshitdim, ota, xunuk gap bo‘libdi, – dedi Zunnun. – Y o m o n b o ‘ l di bu ish, shu sababdan sening yoningga keldim.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Bir maktab bola ham kelayotgan ekan, shu oraga tushdi-yu, y o m o n b o ‘ l di.* A.Qahhor, Yillar. *Bu nodon o‘ylamabdiki, bu o‘rmonning o‘z xo‘jasi – arsloni bordir, u pinakka ketgandir, hademay uyg‘onar, uyg‘onsa ish r a s v o b o ‘ l ar...* T.Malik, Shaytanat. *Yaxlit granitdan iborat obyekt qa’ridan ham e’tiborni tortadigan biror narsa topib bo‘lmadi. Hafsala pir bo‘lib, kayfiyat r a s v o l a sh di.* A.Xolboyev, Yovuzlik. *Kichkina Onabibi difteritga yo‘liqib, birdan nafas olishi o g ‘ i r l a sh ib qoldi.* A.Muxtor, Chinor. *Kechasi bolaning ahvoli yana o g ‘ i r l a sh di, tongga yaqin nafasi tamom bo‘g‘ila boshladi.* A.Muxtor, Chinor. *...So‘nggi ikki kecha-kunduz ayniqsa o g ‘ i r b o ‘ l di, biz deyarli uxlamadik.* O.Yoqubov, Izlayman. *Lekin konda ahvol o g ‘ i r b o ‘ l ishiga qaramay, negadir, kasalxonada odam ko‘p emas.* A.Muxtor, Chinor. *Na bo‘ldi, bir nima yetmay, hisob ch a t o q l a sh di, Ko‘ngil xira, juda boshdan hushum uzoqlashdi*. Charxiy, Qiyolab o‘tdi. *Sexlardagi brigadalararo ijtimoiy musobaqa ishlari x u r j u n l a sh ib... qoldi.* “Mushtum”.

YOMONLIK, RASVOLIK, YARAMASLIK, QABIHLIK, RAZILLIK, BUZUQLIK, NOBOPLIK Yomon ish, razil, qabih xatti-harakat, qilmish. **Yomonlik** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Yaramaslik, qabihlik, razillik, buzuqlik** so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Yomonlik, noboplik** so‘zlarida belgi darajasi kuchsiz ifodalanadi.

Hech bir inson y o m o n l i k uchun yaratilmaydi. T.Malik, Shaytanat. *Ammo, o‘zing shohid, ko‘nglimda na g‘araz, na bir y o m o n l i k bor edi.* E.A’zam, Shovqin. *Kalomullohni ham o‘tga tashladilar. Gardun ul zotning boshiga solmagan hech bir r a s v o l i k qolmadi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Bu dunyoda tavba, qulluq qilish bo‘lmasin, chunki bu r a s v o l i k, ammo haqiqat oldida bo‘yin egish bo‘lsin.* A.Qodiriy, Suddagi nutq. *Tarbiyadan tashqaridagi bola bebosh va y a r a m a s l i k sari og‘adi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Bu q a b i h l i k faqat uning qo‘lidan keladi, deyishi muqarrar edi.* T.Malik, Shaytanat. *Odamzotning tabiati qiziq. Mavridi kelganda, yaxshilikni unutib, q a b i h l i k ni kechirib ham yuboraveradi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *O‘shanda u ...mana shu qotil to‘dalarning r a z i l l i k larini, oxir-oqibat o‘z qavmining ne ahvolga kelib qilayotgan qilmishlarini qalamga olgan ekan-da...* S.O‘nar, Begona mehmon. *Raqiblarimiz esa boshqa bir r a z i l l i k haqida reja tuzib, bizlarni yana dog‘da qoldirish payida yuribdi.* A.Mirzo, Suiqasd. *Hamma b u z u q l i k larni ko‘rib, ko‘ngling ag‘dariladi.* T.Malik, Shaytanat. *Ushbu asarlarda ijodkor o‘tmishdagi mehnatkash xalq hayotining fojiaviy manzaralarini aks ettirish, ijtimoiy n o b o p l i k, axloqiy tubanlik, ma’naviy qashshoqlik singari illatlarni hajv olovi bilan kuydirishga intiladi.* S.Sodiq, Mohir so‘z musavviri. *Odam bolasi sarxushlangan sari kim bilandir gaplashgisi, o‘zining mard-u may-*

don ekanini aytib maqtangisi yoki hayotining n o b o p l i k laridan zorlangisi keladi. B.Rizo, Ham tahdid, ham tahqir.

YOMONLIK QILMOQ, RASVOLIK QILMOQ, YARAMASLIK QILMOQ, QABIHLIK QILMOQ, RAZILLIK QILMOQ, NOBOPLIK QILMOQ Yomon, salbiy sifatlatlarni namoyon qilmoq; o‘zgalarga yomon ishlar qilmoq. **Yomonlik qilmoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Rasvolik qilmoq, yaramaslik qilmoq, qabihlik qilmoq, razillik qilmoq, noboplik qilmoq** so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi. Bu so‘zlar, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Yomonlik qilmoq, noboplik qilmoq** so‘zlarida harakat darajasi kuchsiz ifodaga ega.

Chunki bunday do‘st dushman tarafidan senga y o m o n l i k q i l ishdan ham andisha qilmaydi. T.Malik, Odamiylik mulki. *Lekin “bo‘lari bo‘ldi”, deb indamay yuraversa, bu quturgan bek ertaga beshbattar y o m o n l i k l a r q i l ishi mumkin emasmi?* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Muhammadsolih otlig‘, ey birodar, Bu r a s v o l i g‘ ni q i l ding sarosar.* Pisandiy, Muhyi haqida hajviya. *Reja ajoyib shaklda amalga oshgan edi. O‘sha kundan so‘ng, Fotih Sulton Mehmet aslo y a r a m a s l i k q i l madi.* Gazetadan. *...Bu dunyoda birov yolg‘on so‘zlashi, q a b i h l i k q i l ishi mumkinligiga ishonmaydigan sodda, ...to‘g‘ri kishi edi.* O.Muxtor, Katta bilan kichik munosabati. *Bu ko‘hna dunyoda Alloh irodasi bilan yaratilgan eng tilsim mavjudot inson qo‘sh ko‘zi tuproqqa to‘ymaguncha r a z i l l i k q i l ishni qo‘ymaydi.* A.Abdiyev, Muallaq odam. *Ayniqsa, men ba’zi hikoyalarni o‘qib juda qo‘rqdim. Yo‘q, voqealardagi sirlilik va g‘ayritabiiylikdan emas, hayotida r a z i l l i k q i l ayotgan, shaytonga bo‘ysunayotgan... kimsalarning oxir-oqibatda qanday ahvolga tushganlarini, olayotgan jazolarini his qilib qo‘rqdim.* O.Mo‘min, Mahorat izlanishlardan keladi. *Man sanga aytsam, mani shu Qayumjonim saal n o b o p l i k q i l di. U tul qolgan kelinim bilan yetim nevaralarimni uydan quvgan.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *O‘ylaymanki, ...inson o‘ziga-o‘zi hisob berib tursa... o‘zini-o‘zi tergab borsa, odamga o‘xshab yashayapman, desa bo‘ladi. Aks holda, odam izdan chiqib ketishi, ko‘p n o b o p l i k q i l ib qo‘yishi ham mumkin.* M.Sa’diy, O‘z qadrini bilgan qadr topadi.

YONMOQ I, O‘T OLMOQ, ALANGA OLMOQ, ALANGALANMOQ, OLOVLANMOQ O‘tda kuymoq, olov ichida bo‘lmoq. **O‘t olmoq, alanga olmoq, alangalanmoq, olovlanmoq** so‘zlarida “o‘t”, “alanga”, “olov” ma’no uzvlari alohida ta’kidga ega. **Alangalanmoq, olovlanmoq** so‘zlari nisbatan nofaol, kitobiy uslubga xos.

To‘qayga o‘t tushsa, ho‘l-u quruq baravar y o n adi. Maqol. *Shayx Asadullo ta’zim bilan xatni qaytarib oldi-da, qo‘ynidan chaqmoq, pilta chiqardi. Issiq qumtepa oldida pilta tez y o n di.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Odam olovni avaylamasa, o‘z uyini olov oldirib yuboradi. Butun... dunyoni o‘t o l dirib qo‘yadi!* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Qo‘li bo‘shlar bir chekkaga*

chiqib, damlarini ichlariga yutib turganlarida bir necha quloch joyda havoni lov etib o‘t oldi. A.Muxtor, Chinor. *Tutayotgan somon g‘arami birdan lov etib alanga oldi.* G‘.Shermuhammad, Langartog‘ yo‘lida. *Rasmiy xatni burnimga taqagan suratchi to‘satdan cho‘ntagidan zajigalka olib chaqdi va olovni qog‘ozning chetiga tutdi. Hujjat qorayib-buralib turdi-da, birdan “pov” etib alanga oldi.* A.Yo‘ldosh, Yetim so‘z. *Radiokarnayi osilib qolgan tank to‘xtadi-da, birozdan keyin alang alan di.* I.Rahim, Chin muhabbat. *U so‘qir kabi qo‘llarini oldinga cho‘zgancha tusmollab qadam tashlaydi… Nogahon uzoqda yalt-yult alangalanayotgan gulxanga ko‘zi tushdi.* G‘.Shermuhammad, Quduq. *Ramon harbiy bazasiga qo‘nayotgan uchoqning olov lan ib yerga qulashi oqibatida esa uchuvchi yordamchi tan jarohati oldi.* Gazetadan. *Buning chorasi uchun olimlar shohga yumaloq, g‘ovak ichiga qo‘rg‘oshin, bronza va turli portlovchi moddalar to‘ldirilgan, olov lan tirish uchun piligi bor bomba yasab beradilar.* T.Tog‘ayev, Iliktin ixtiyoring bermagil…

YONMOQ II**, KUYMOQ, O‘RTANMOQ** Ruhiy iztirobga tushmoq. Nutqda mazkur ma’noni ifoda etishda **yonmoq** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi. **Kuymoq** so‘zi bu ma’noda so‘zlashuv uslubida keng ishlatiladi. **O‘rtanmoq** so‘zida belgi darajasi kuchli aks etadi.

Faqat vujudini yon dirayotgan alanganing pasayganini sezdi. T.Malik, Shaytanat. *Seni desam, ichim to‘lib, Olov yon ar, yor-yor.* A.Muxtor, Chinor. *O‘n kundan beri huzuringizga kelolmaganimning sababi mana shu maktub. Buni sizdan yashirsam dilim kuyadi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Xadichaxon esa ezildi, kuydi, o‘rtandi, xo‘rlanib-xo‘rlanib achchiq-achchiq yig‘ladi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Siz ham manim kuygan jonimga o‘t yoqmang-da, agar qo‘lingizdan kelsa, bu o‘rtang‘an singlingizni tinchiting.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

Y

YOPMOQ, BEKITMOQ (BERKITMOQ) Ochilgan, ochiq holdagi predmetlarni yopiq, yopilgan holatga keltirmoq. **Yopmoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Berkitmoq** so‘zi, asosan, shevalarda qo‘llanadi.

Dodxo darchani zichlab yop di, joyiga borib tasbeh o‘girishga kirishdi. A.Qahhor, Dahshat. *Rahima aya boshqa churq etmadi, …bir zum ravon derazasi orqali hovliga nigohi yetganicha termilib turdi-da, boshini xam qilganicha ichkariga kirib eshikni ohista yop di.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Aka singlisining peshonasidan o‘pdi. Yo‘lakka qarab qo‘yib, eshikni bekit di.* Sh.Xolmirzayev, Baxtli bo‘linglar. *Eshikni Salma ochdi va Habibani ichkari kirgizib, qaytadan mahkam berkit di.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Kechasi ichkariga ilon yo boshqa gazanda kirib olmasligi uchun eshikni zichlab berkit ib yotishardi.* Q.Kenja, Toshqin.

YOPPASIGA, BARAVARIGA, BIRAKAY, BIRAKAYIGA, BIRVARAKAYIGA (BIRVARAKASIGA), BIRYO‘LA, BIRATO‘LA(SI), BIRDANIGA, JOVLIK Hammasini to‘liq qamragan holda, hech birini chetda

qoldirmagan holda. **Baravariga** so‘zida bir vaqtdalik ta’kidi ham bor. **Birvarakayiga, birato‘la, biryo‘la** so‘zlarida harakatning bir urinishda bajarilganlik ta’kidi bor. **Jovlik** so‘zi harakatning yoppasiga amalga oshish ta’kidiga ega, shevaga oid.

Sizning tog‘liqlaringiz bir vaqtlar y o p p a s i g a ko‘chirilganlar. O‘ttiz besh yildan beri ezilib yashaydilar. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Gohida Tangri taolo qish sovuqlarini yuborganida dalalardagi qurt-u qushlar y o p p a s i g a halok bo‘lib ketishadi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *– Ketamiz, qadrdon uyimizga ketamiz! – b a r a v a r i g a qichqirib yuborishibdi.* X.To‘xtaboyev, Yovvoyi echkilar. *Qushlar shu qadar ko‘p ediki, go‘yo har yaproqda bittadan qush o‘tirganday, qushlar emas, million yaproqlar b a r a v a r i g a tinimsiz chug‘urlar edi go‘yo.* S.Sayyid, Sariosiyo osmonlari. *Erta-indin saf-saf temir tuyoqlar Dalalarga b i r a k a y hammasi chiqur.* Mirtemir, Asarlar. *Har yoqqa taralsin tanburim tovushi, B i r a k a y to‘xtalsin ko‘zlarning yoshi.* Mirtemir, Asarlar. *...asfaltni b i r a k a y i g a shipillatib supurib o‘tgan muzdek yel endi Ummatning etini junjitdi.* Shuhrat, Jannat qidirganlar. *Yoz oylarining birida Omontoy b i r v a r a k a y i g a o‘n kuncha ustaxonaga kelmay, yo‘q bo‘lib ketdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ba’zan o‘ylab qolaman. Agar falon yillarda yashagansan, tirik yurgansan deb yuqoridagi siymolarni ham b i r v a r a k a y i g a rad qila boshlasak, umuman, adabiyotga hojat qolarmikan?* A.Oripov, O‘zbekning o‘z shoiri. *Yaqinda “Oriyat” nomli gazetaning b i r y o‘ l a uchta muxbiri bilan tanishish sharafiga muyassar bo‘ldim.* N.Oston, Qizil to‘qimachi. *U hujraga kiriboq hamma gapni b i r y o‘ l a aytdi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Xurram qotma kulgan bo‘ldi: – Undan ko‘ra, b i r a t o‘ l a sindirib bera qolay, a?* N.Norqobilov, Kurash. *Bag‘ri ochiqligi shundaki, tog‘dagi konda ishlab, qishloqqa uch-to‘rt haftada bir kelib-ketuvchi dadamdan b i r a t o‘ l a undirib olishini aytib, menga shirinliklarni nasiyaga beraveradi*. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *–Buvijon, buvi! Suyunchi bering! Suyunchi! Sizga medal berilibdi!.. – Hamma, b i r d a n i g a yuz-ko‘zlarida quvonch Sarviniso momoga qarab qolishgandi...* D.Qo‘ldosh, Siringizni ayting, momo. *Yosh avlod ham b i r d a n i g a mas’uliyatni bo‘yniga olishga tayyormikan?* N.Qobul, Katta haqiqat nuri. *Olomon qilichni yalang‘och qildi. Sakkiz yuzi birdan j o v l i k ot qo‘ydi*. “Ochildov”.

YOQAVAYRON, YOQAVALANGOR Yoqa tugmalari solinmagan. Har ikki so‘zda belgi kuchli ifodalanadi, ammo **yoqavalangor** so‘zi nutqda kam uchraydi.

Shu chog‘da yurish-turishi telbanamo, pala-partish kiyingan, ...y o q a v a y r o n bo‘yniga galstuk ham taqib olgan Olim pildirab o‘tib qoladi. Q.Norqobil, Zamindan olis ketma. *Kutilmaganda u qizning jasadini maysazorda qoldirib, yiqilib-suringanicha xonaga kirib bordi. Y o q a v a y r o n, hamma yog‘i qon,*

ko‘zlari telbanamo boqayotgan yigitni ko‘rib, Muazzam devorga yopishganicha, qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titrab yig‘lay boshladi. E.Norsafar, Ko‘zgu. *Ostonada sochlari chekkalariga yopishgan y o q a v a l a ng o r Viktor turardi.* Sh.G‘ulomov, Cho‘l belida.

YORDAM, KO‘MAK, MADAD Moddiy, ma’naviy yoki boshqa jihatdan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash. **Yordam** so‘zi keng tushunchaga ega. **Ko‘mak** so‘zi nutqda kam ishlatiladi. **Madad** so‘zi dalda bo‘lishlik ta’kidi anglashiladi.

– Bolalar, – dedi u. – Balki, eshitgandirsizlar, ertadan boshlab barcha o‘qituvchilar va yuqori sinf o‘quvchilari kolxozga y o r d a m ga chiqadi. O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Shifoxona dahlizigacha bardam yurib kelgan Po‘lat holsizlana boshladi. Reanimatsiya xonasiga yetganda gandirakladi. Doktor yonida bo‘lmaganida chalqancha yiqilishi mumkin edi. Orqada kelayotgan hamshira y o r d a m ga shoshildi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Shunda ular hiyla-nayrang ishlatish, sotqinlar k o ‘ m a g i dan foydalanish yo‘liga o‘tadilar...* D.Bobojonov, M.Abdurasulov, Abadiyat farzandlari. *O‘zining ruhiy madadi, k o ‘ m a g i bilan hamisha Sohibqironga kamarbasta bo‘lgan Mir Sayyid Baraka to so‘nggi nafasgacha Sohibqiron Amir Temur bilan birga umrguzaronlik qildi.* M.Ali, Amir Temur solnomasi. *Ammo Amir Husayn hech qanday sababsiz Amir Temurga m a d a d ga kelmaydi.* M.Sobirov, Sohibqiron Amir Temur faoliyatidagi mag‘lubiyat – Loy jangi haqida. *Jumaboy bilan Shermat... zavodga piyoda qatnaydilar, tramvay kirasiga sarf bo‘ladigan chaqa ham harna ro‘zg‘orga m a d a d...* Oybek, Tanlangan asarlar.

YORDAMLASHMOQ, YORDAM BERMOQ, YORDAM QILMOQ, KO‘MAKLASHMOQ, KO‘MAK BERMOQ, MADAD BERMOQ, QARASHMOQ, BOQISHMOQ, YORLASHMOQ Moddiy, ma’naviy yoki boshqa jihatdan qo‘llamoq. **Yordamlashmoq, yordam bermoq, yordam qilmoq** so‘zlari keng tushunchaga ega. Bu so‘zlar nafaqat moddiy jihatdan ko‘mak berishga, balki biror xatti-harakatni amalga oshirishda ko‘rsatiladigan yordamga nisbatan ham qo‘llanadi. **Madad bermoq** so‘zida dalda bo‘lishlik ta’kidi mavjud. **Qarashmoq, boqishmoq** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv uslubida ishlatiladi. **Yorlashmoq** so‘zi eskirgan so‘z.

Kumushni o‘qtin-o‘qtin og‘riq ushlamakda, doya xotin va O‘zbek oyim unga o‘zlari bilgan udumlar bilan y o r d a m l a sh moqda edilar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Doktorlarga xizmat qilib, kasallarni tuzatishga qo‘limdan kelganicha y o r d a m l a shsam, ko‘nglimdagi dog‘ biroz ketarmikan deyman...* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Aytganday, Ziyoxonov qalay, y o r d a m b e r yaptimi?* A.Muxtor, Chinor. *Kamol akasining ahvolini tushunib yetgan, lekin unga qanday y o r d a m b e r ishi mumkinligini tasavvuriga sig‘dirolmayotgan edi.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Bizni Andijonda kutishyapti. Sheriklarimizning Andijonga yetib olish-*

lariga ham y o r d a m q i l sangiz. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. – *Kamida o‘n yilga uchib ketasan. – Men ularga hech qanday y o r d a m q i l ganim yo‘q. Va’da ham bermaganman.* T.Malik, Shaytanat. *Erining mahsisini artishga k o ‘ m a k l a sh ib, yelpib qo‘ymoq uchun izn so‘radi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Saidga o‘zga bir vazifa yuklatildi – yozilayotgan yangi tarix ishiga k o ‘ m a k l a sh ish; vazifaning g‘oyat muhimligi aytilib, avval egallab turgan lavozimidan ozod etildi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Shoir unga qanday k o ‘ m a k b e r ishni, qay tariqa tasalli berishni bilmay shoshib qoldi.* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *...u jahongirlik faqat jang-u jadal yo buzg‘unchilik emas, bil’aks notinch o‘lkalarni birlashtirib obod etish, el-ulus manfaati uchun zarur xayrli binolar tiklash, donishmand-u shoirlarga k o ‘ m a k b e r ish, ilm-u fanni rivojlantirish deb anglardi.* X.Davron, Sohibqiron. *Hukumat nomidan xalqqa m a d a d b e r ish uchun, ofatga qarshi kurashni uyushtirish uchun kelgan.* A.Muxtor, Chinor. *Xuddi bexosdan dimog‘ga urgan tutun hidi cho‘lda adashgan yo‘lovchiga kuch berganidek, jiyda hidi bolalarga m a d a d b e r di.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *– O‘zingiz ham o‘tiring biz bilan, – deydi u bir vaqt kirib-chiqib dasturxonga q a r a sh ayotgan Zeboga.* E.A’zam, Shovqin. *Jiyanim turistlar idorasida ishlaydi, o‘tgan shanba kuni uyga kelib: “Bu yil turist ko‘p, odam yetishmayapti, shahrimizda ikki kun to‘xtaydigan bir mehmon bor, q a r a sh ib yuboring”, – deb qoldi.* A.Qahhor, Hikoyalar. *Otasi bir hafta uyda bo‘lsa, yigirma-o‘ttiz kun kasalxonada yotardi. Uni hozir olib ketishga chog‘langan Jamshid “Bo‘ldi, endi bu yoqqa olib kelish yo‘q, do‘xtirlar uyga borib b o q i sh adi”, deb qaror qildi.* T.Malik, Shaytanat. *Komil bo‘lib, elga ko‘p aralashdi, Ish o‘rganib, bir nechaga y o r l a sh di.* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”.

YORDAM OLMOQ, KO‘MAK OLMOQ, MADAD OLMOQ O‘zgalardan moddiy, ma’naviy yoki boshqa jihatdan ko‘mak olmoq. **Yordam olmoq** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Ko‘mak olmoq, madad olmoq** so‘zlari, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi.

U bir necha yil burun boylarga qarab ayyuhannos tortardi. Hozir Moskvada boylardan y o r d a m o l ib, gazet chiqaradi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Shundan so‘ng u... ustozi Munavvar qori Abdurashidxonov ko‘magida moddiy y o r d a m o l ib, Germaniyaga o‘qishga borish uchun Maskovga jo‘naydi.* S.Ahmad, Fitrat va Murodiy. *–...Islom lashkarlari hozircha ulardan k o ‘ m a k o l adilar keyin... – Keyin... Bugungi ko‘mak iplari ertaga tobe bo‘yindagi zanjirga aylanajak.* T.Malik, Devona. *Maqsadlari k o ‘ m a k o l ib, yana mo‘g‘ul ulusini egallash edi; mirzo muruvvat qilmadi, ba’zisini asir qildi: ba’zilarini birin-sirin viloyatlarga tarqatdi.* Bobur, Boburnoma. *...Unda g‘anim aniq edi: inglizlar, farangilar... bunda bir qanot o‘rislardan m a d a d o l adi, boshqasi inglizlardan.* T.Malik, Devona. *Albatta, Oliyaning bu xatti-harakatlari besamar ketmadi. Samar xotinining fidoyiligidan juda katta m a d a d o l di...* O.Sharafiddinov, Ajalni yenggan adib.

YORDAMCHI, KO‘MAKCHI, KO‘MAKDOSH, MADADKOR, QO‘LDOSH, YOVAR Biror ishda o‘zgalarga yordam beruvchi (kishilar, jonivorlar, narsa-predmet, tashkilot kabilarga nisbatan). **Yordamchi, ko‘makchi** so‘zlari barcha nutq uslublarida erkin almashinib qo‘llana oladi. **Ko‘makdosh, madadkor** so‘zlari nisbatan nofaol, asosan, kitobiy uslubda ishlatiladi. **Yovar** so‘zi bugungi kunda eskirgan.

Rejissyor y o r d a m ch i si Sobirjon kirib, ayrim-ayrim ko‘chirilgan rollarni egalariga taqsim qildi. Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *Bir paqir suvgayam, bir tutam o‘tingayam er yoki xotin o‘zlari yugurgan paytlarda, bir g‘o‘lani arralashga to‘g‘ri kelganda yana sherik, y o r d a m ch i – farzandning o‘rni bilinadi.* Q.Kenja, Toshqin. *Xotin – uy bezakchisi, Er – uy k o‘ m a k ch i si.* Maqol. *Farzand tarbiyasiga ota-ona mas’ul, maktab esa bu sohada k o‘ m a k ch i.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Axir butun borliq… menga k o‘ m a k d o sh ekan, hech shubha yo‘qki, uddamdagi vazifani bekam-u ko‘st bajargumdir!* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdardingu. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, k o‘ m a k d o sh ing u.* “Oila psixologiyasi”. *Inson ideali koinot singari cheksiz... Masalan, mashhur ertak qahramoni Semurg‘ qush inson orzusini ro‘yobga chiqaruvchi m a d a d k o r kuch timsolidir.* O.Tog‘ayev, Iftixor. *Zariadr: Nafaqat yor, balki m a d a d k o r im ham o‘zing... Sen ham ishtirok etasan.* G‘.Karimiy, Qadimiy sevgi qissasi. *Yaxshi bilan bo‘lsang yo‘ldosh, og‘ir ishingda u q o‘ l d o sh.* Maqol. *Aqlli aqlliga yo‘ldosh, Yomon yomonga q o‘ l d o sh.* Maqol. *Darhol azonga buyurib, namozdan so‘ng kaminaga: “Xayr, Muhammad, y o v a r ga ayting, tamomi sarbozlari bilan mani chodarim va chodar qanoti orqasida zohir va tayyor bo‘lib tursin”, deb amr qildi.* M.Y.Toib, Tarixi Alimquli amirlashkar. *Y o v a r i yo‘qqa tushodur mojaro, Yordami yo‘q xor o‘lodur xalq aro.* R.Xo‘qandiy, Zarbulmasal.

Y

YORISHMOQ I, YORUG‘LASHMOQ, YORUG‘ BO‘LMOQ, CHAROG‘ON BO‘LMOQ, YORQIN BO‘LMOQ, MUNAVVAR BO‘LMOQ, PORLOQ BO‘LMOQ, RAVSHAN BO‘LMOQ, RAVSHANLASHMOQ, OCHILMOQ, NURAFSHON BO‘LMOQ Nur, yorug‘lik tushishi natijasida yorug‘ holatga kelmoq. **Yorishmoq, yorug‘lashmoq, ravshanlashmoq** so‘zlarida belgi darajasi kuchsiz ifodalanadi. **Yorug‘ bo‘lmoq, charog‘on bo‘lmoq, porloq bo‘lmoq** so‘zlarida yorug‘lik darajasining yuqori ekanligi anglashiladi. **Ochilmoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubida ishlatiladi. **Munavvar bo‘lmoq, porloq bo‘lmoq, nurafshon bo‘lmoq** so‘zlari badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Ravshan bo‘lmoq, yorqin bo‘lmoq, ravshanlashmoq** so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubga xos.

Tongga yaqin qor tindi, Asta y o r i sh di osmon. Tepalikka ilk nurin Sochdi xurshidi jahon. E.Vohidov, Nido. *Quyosh hali chiqmagan, lekin atrof y o r i shgan edi.* O.Yoqubov, Tengdoshlar. *Ko‘z oldim y o r u g‘ l a sh di. “Nahot, eshitmagan*

bo‘lsang meni”, – dedi so‘zlarning biri. X.Davron, Ertaklardan biri. *Sen ila qolsaydim bir umr zora, Chunki y o r u g‘ l a sh di endi har tunim!* T.Eshbek, Yo‘limni yoritgan dorilfununim! *Bordi-yu, kechasi ham kunduzgidek y o r u g‘ b o‘ l sa-da, quyoshning o‘rniga oy chiqib tursa. Yoki hech ham kun botmasa. Juda alomat bo‘lsa kerak.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Biz qalliqqa borganda, oy y o r u g‘ b o‘ l ar.* Maqol. *Chor atrof birdan ch a r o g‘ o n b o‘ l ib ketdi: qahvaxonaning turfa chiroqlari rang-barang tusda tovlandi.* M.Ahmedova, Taqdir. *Ikki qalbning qizg‘in cho‘g‘ida Butun olam b o‘ l di ch a r o g‘ o n...* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Quyosh ufqdan pastga cho‘kishi bilan sayyora y o r q i n roq b o‘ l adi.* Gazetadan. *E’tibor bering, yulduz qanchalik y o r q i n roq b o‘ l sa, u shunchalik kichik bo‘ladi.* Gazetadan. *U kelib turganda mulla Norqo‘zi tashqarida – mehmonxonada yotib yuradi va uyini allaqanday nurdan m u n a v v a r b o‘ l gandek sezadi.* A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Quyosh botsa, nima bo‘pti? Axir u ertaga yana olam m u n a v v a r b o‘ l ishi uchun ufqdan bosh ko‘taradi!..* Z.Qurolboy qizi, Kasal qush. *P o r l o q b o‘ l sa yo‘llari, Oriqligi bilinmas. Garchi oriq qo‘llari...* M.A’zam, Saylanma. *Oygul turishi bilan Saroy charaqlab ketdi, Hamma yoq b o‘ l ib r a v sh a n, Uylar yaraqlab ketdi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Shifoxonaga olib ketishganmi ularni? Asadullaning ko‘z oldi biroz r a v sh a n l a sh di; darhaqiqat, yengil-yelpi kuygan bo‘lsa, davolagani olib ketishgandir...* T.Malik, Shaytanat. *Ko‘zlari nurdan qamashdi. Qancha vaqt o‘tganini bilmaydi. Bir vaqt nur kuchdan qolib, ko‘z oldi r a v sh a n l a sh di.* T.Malik, Shaytanat. *Qop-qora bulutlar tarqab, kun o ch i l ib ketdi.* Gazetadan. *Bemor ko‘z ochib jilmayganidek sharqdan yorishib, atrof n u r a f sh o n b o‘ l a yotgan tong bugun o‘zgacha edi.* X.Safarov, Uyg‘onish. *Ayni o‘sha asnoda ajabtovur yashin chaqnadi-yu, uy ichi op-oydin nurdan ko‘zni qamashtirguday n u r a f sh o n b o‘ l di va oyog‘ining tagida yer chayqalayotganligini sezdi.* N.Qilich, Zilzila. *Bu kun quyosh qanchalar porloq va n u r a f sh o n b o‘ l masin, unga hech kim muhabbat izhor qilmadi, muloyim nurlarini simirmadi...* Z.Qurolboy qizi, Ayol.

YORISHMOQ II**, OCHILMOQ, RAVSHANLASHMOQ, RAVSHAN BO‘LMOQ, NURAFSHON BO‘LMOQ** Tundlik holati tarqab, kayfiyati ko‘tarilmoq, tabiati ravshanlashmoq. **Ochilmoq** so‘zi bu ma’nosida so‘zlashuv uslubida ko‘p ishlatiladi. Bu so‘z ko‘pincha *chehra, chiroy* so‘zlariga bog‘lanib keladi. **Ravshan bo‘lmoq, ravshanlashmoq, nurafshon bo‘lmoq** so‘zlari nisbatan nofaol, mazkur ma’noda o‘rni bilan badiiy va publitsistik uslublarda ishlatiladi.

U do‘mbira bandini asabiy holatda siqib, siqimlab, shu o‘y-xayollar og‘ushida sassiz guvranib o‘tirarkan, kutilmaganda esiga Xurram qotma tushib qoldi-da, tund afti avval y o r i sh ib, so‘ng misli gulday yashnab ketdi. N.Norqobilov, Kurash. *– Elmirajon! Azizginam! – dedi rejissyor chehrasi yanada y o r i sh ib.*

– *Bergman boshqa, Chaldratyan boshqa!* E.A'zam, Shovqin. *Enaxonning yuzi birdaniga o ch i l di. Lablariga keng bir tabassum yoyildi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *...Xotinining chehrasi o ch i l ib ketdi-da, burilib ketar ekan, qizlarga xos sho'xlik bilan aylanib, dedi: – Bir narsangizni buzib qo'ydim, aytsam urishmaysizmi?* A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. *Asadbek xotiniga maqsadini ayon qilmagan edi. Shu sababli sovchilarning kirib kelishi Manzurani shoshirib qo'ydi. Hovlida ikki notanish juvonning paydo bo'lishidan avvaliga ko'ngli r a v sh a n l a sh di.* T.Malik, Shaytanat. *Sharifning dimog'iga yoqimli atir isi urilib, ko'ngli r a v sh a n l a sh di.* T.Malik, Shaytanat. *Odam yaxshi yuvinsa, toza kiyinsa, tabiati r a v sh a n b o' l adi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Lekin antiqa bir shirinlikni tatib ko'rgan odam uning ta'm-totini qo'msagani kabi, ko'ngli allanimadan n u r a f sh o n b o' l ib o'tirardi.* E.A'zam, Shovqin.

YORUG', NURLI, CHAROG'ON, YORQIN, MUNAVVAR, PORLOQ, RAVSHAN, NURAFSHON 1. Nur tushishi natijasida yuzaga kelgan yog'duli holat. **Charog'on, yorqin, munavvar, porloq, nurafshon** so'zlari ko'proq badiiy va publitsistik uslublarda qo'llanadi. **Charog'on** so'zi yorug'likning yuqori darajada ekanligini anglatadi. **Nurafshon** so'zida nurning baralla sochilib turishi alohida ta'kid olgan.

Oy to'lgan bo'lmasa ham, juda y o r u g', shabadada silkinayotgan terak barglarini bitta-bitta sanab chiqish mumkin. P.Qodirov, Qora ko'zlar. *Umida g'ijinib o'zini projektor y o r u g' idan chetga oldi.* A.Muxtor, Chinor. *N u r l i tong oqarar, tun bo'lar oxir, Senga tilaklarim shu tong kabi oq.* H.Xudoyberdiyeva, Saylanma. *...Tunlari ch a r o g' o n shunday shaharda, Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.* M.Yusuf, Onamga xat. *Birdan yengil tortdi-ya! Tang-u tor dunyo birdan yorishib, kengayib ketgandek bo'ldi. Ey, bor ekansan-ku, dunyoyi ch a r o g' o n!* E.A'zam, Shovqin. *U ultrabinafsha spektrometr yordamida y o r q i n yulduzga yaqinlik bo'yicha uchinchi turuvchi... xira yulduz atmosferasining kimyoviy tarkibini aniqlab, undagi vodorod va geliy miqdori Tangniki kabi ekanini aytgan edi.* T.Malik, Devona. *Chiroq uch marta ko'z qisib, tomoshabinni ichkariga imlaydi va projektorning y o r q i n nuri sahna bilan tomoshabin orasini to'sib turgan yashil pardani yoritadi va uni o'rtadan ko'tarib tashlaydi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bu bo'ston qayda bor, dilbar-u xurram? Porloq quyoshidan m u n a v v a r olam.* H.Yusufiy, Vatan ishqi. *...jiyda gulining xushbahra ifori uzzukun texnika asrining xush-noxush, yoqimli-yoqimsiz axborotlari, voqealar, suhbatlar tafsilotlari yuki bilan cho'yanday og'irlashgan miyaga, yurakka yengillik, xushhollik bag'ishlar, yanada yaqin mohi m u n a v v a r ning shu'lasi esa kishini zavq-u surur ummoniga g'arq aylardi.* Q.Kenja, Ko'ktoy. *Chaqmoqday bu yigit o'zidan p o r l o q nur sochib, ham chor atrofni hamda umidlarimiz ufqini yorishtirib yubormoqda.* M.Safarov, Da Vinchi va Della Porto. *Quyosh nuri juda ko'rkam, yuksak va p o r l o q, Nurin hatto aya-*

maydi vayronadan ham. G‘.G‘ulom, Tanlangan asarlar. *Qirg‘in-barotni, o‘limni bo‘yinlariga olgan qullar uchun u tan-u jon, birdan bir r a v sh a n fonus edi.* A.Muxtor, Chinor. *...R a v sh a n, nurli Ko‘m-ko‘k ko‘zing Hali ko‘pni ko‘rmagan.* H.Olimjon, Hoy, yaxshi qiz! *Tongning toza va n u r a f sh o n nurlari allaqachon xonani yorita boshlagan edi.* A.Jo‘rayev, Oqsoqol. *Chor atrof birdan charog‘on bo‘lib ketdi: qahvaxonaning turfa chiroqlari rang-barang tusda tovlandi. N u r a f sh o n oqshom o‘z-o‘zini ko‘z-ko‘z etdi.* M.Ahmedova, Taqdir.

2. Baxtli-saodatli, istiqbolga ega, ravnaqli; porloq (kun, kelajak, hayot, olam kabilarga nisbatan). Mazkur so‘zlar bu ma’noda ko‘proq badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. **Yorqin** so‘zi bu ma’noda qo‘llanganda, “istiqbolga ega” ifodasi ustuvorlashadi.

Ha, xo‘p, qaynanam o‘z vaqtida muhabbatni uyat deb o‘rgangan, kelinchakligida y o r u g‘ kun ko‘rmagan. Lekin nega buning alamini bizdan oladi? P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Shu qorong‘u tunlar arazi deb oldinda kutayotgan y o r u g‘ tunlar umidini o‘ldirish, y o r u g‘ kunlar quvonchini yerga qorish mumkinmi?!* Sh.Sulaymon, Uchinchi palata. *Zuhra bir vaqtlar ota-onasiga yozgan xatida: “Kelajakning n u r l i cho‘qqilari tomon bormoqdami”, degani esida bor ekan, rangi bo‘zarib ketdi. – Ta’na qilma! – dedi labi pirpirab. – Men n u r l i cho‘qqiga yetolmagan bo‘lsam... sigir minib sen yetib borasan!..* A.Qahhor, Nurli cho‘qqilar. *Unutgandir erkak va ayol, Kelganini dunyoga qachon, Sening bilan o‘z jahonini, Shu qadarlik ko‘rib ch a r o g‘ o n.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Kelajak! Bir umr ko‘zimda turasan, Men sening baringni tutganda, Tong kabi yasharib, orzuni quchganda, Ertaga chorlaysan ch a r o g‘ o n Ko‘rsatib xayolning oq chaqnoq silsila tog‘lig‘in!* Zulfiya, Saylanma. *Agar Mohbibi: “Men ham sizni...”, – deb qolsa-ku, bu eh-he!.. Mohbibining roziligi shu qadar y o r q i n baxt ediki, Karim bunga ishonishdan ham qo‘rqib ketardi.* A.A’zam, Almisoqdan qolgan Karim. *Kelin tushadigan yasatug‘li uy huvullab qoldi. Turg‘unboyning y o r q i n orzulari qora yerga ko‘mildi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Chorlar ozodlikning m u n a v v a r yo‘li. Yuragim kechagina to‘lgan kosa yanglig‘ edi. Bugun egasiz bo‘sh yotoqqa aylandi.* T.Malik, Savohil. *Sen kulayotibsan, Balki bu kulgi So‘nggi oylar ichra birinchi chechak. La’li labingdagi G‘uncha tabassum, Albat toleingga Muhr bo‘ladi Va bunda aks etar P o r l o q kelajak.* G‘.G‘ulom, Saylanma. *P o r l o q istiqbolim ko‘z tutar menga. Ishon, bir kun yana kelaman senga.* E.Vohidov, Saylanma. *Goho r a v sh a n, goho xira bu olamdagi dabdabalar momaqaldiroqday o‘tkinchi ekan-da, a?* T.Malik, Savohil. *Bu yerning namozgar pallalari, ayniqsa, tunlarining latofati ta’rifiga so‘z topish mahol edi: oy yaqin va yirik, dog‘larining shakli shamoyiligacha yaqqol ko‘zga tashlanar, chang, tutun pardalaridan xoli olovrang-pushti yulduzlar nihoyatda tiniq, r a v sh a n charaqlardi.* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Hammasi xuddi o‘sha kunga, dalahovlida hordiq chiqargan o‘sha hal qiluvchi kunga o‘xshab qoldi: tushgacha havo ochiq, osmon musaffo, olam n u r a f sh o n edi-yu, tushdan*

keyin qasirg‘alar boshlangan kun bor-ku, ana o‘shanga... U.Hamdam, So‘z. *Jahonning n u r a f sh o n Kelajagi deb, Ofat solmasin deb Olamga qotil.* E.Vohidov, Nido.

YOTOQ, YOTOQXONA, TO‘SHAKXONA, XOBGOH Yotib uxlash, hordiq chiqarish xonasi. **Yotoqxona** so‘zi keng tushunchaga ega. Bu so‘z nutqda tashkilot, muassasa ishchi, xodimlari, o‘quv yurtlari talabalari uchun yashashga beriladigan binoga nisbatan ham ishlatiladi. **To‘shakxona** so‘zi eskirgan, tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi. **Xobgoh** eskirgan so‘z, kitobiy uslubga xos.

Xufton namozini o‘qib bo‘lgan Muhiddin otaning ko‘zlari uyquga moyilligini sezgan Asadbek u bilan uzoq suhbatlashmay, y o t o q qa boshladi. T.Malik, Shaytanat. *Bir-birining pinjiga kirib divanda uxlab qolgan qizlarini turg‘azibsuyab, y o t o q lariga kuzatdi*. U.Hamdam, Muvozanat. – *Munisxon?! Bu nima deganingiz? Men, axir... – Munisxon quloq solmadi, shippagini shipillatib y o t o q x o n a dan chiqib ketdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Zaynab y o t o q x o n a da kuyovning hayallashidan hayron. Kuyovning esa bu yerga kirishga yuragi dov bermaydi.* T.Malik, Shaytanat. – *Sizda ayb bo‘lmasa, nechun mendan qochib t o ‘ sh a k x o n a ga bekindingiz? – so‘radi Bobur. – Qilich yalang‘ochlab kirganlardan qo‘rqdim, rost!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *T o ‘ sh a k x o n a chodirin tikturub, sham yoqturdi. Mashaqqat bila o‘t yondurub, tong otg‘uncha uxlamay, avroq va ajzoning qurutmog‘iga mashg‘ul eduk.* Bobur, Boburnoma. *Podshoh qarorimni ertaga aytaman, deb x o b g o h ga kirib ketibdi.* S.Tursunov, Ildizlarim. *Hoshim binni Hakim shundan so‘ng x o b g o h iga kirib ketganicha bir kecha-yu bir kunduz qorasini ko‘rsatmadi.* I.Sulton, Tilsim lashkari yoxud Muqanna.

Y

YOVUZ, VAHSHIY, YIRTQICH Insoniylik qiyofasini tamomila yo‘qotgan, shafqat nimaligini bilmaydigan. **Vahshiy** va **yirtqich** so‘zlarida bu belgi yanada kuchli ifodalanadi.

Shunday go‘zal va obod yurtning daragini eshitgan y o v u z hukmdor tinchini yo‘qotibdi. S.Boboyev, Qora tundan qo‘rqma. *Bu y o v u z qavmning qo‘lidan har ish keladi.* I.Sulton, Xun. *V a h sh i y xalqlarda qonxo‘rlikka tamoyil zo‘r bo‘ladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Basharti Musulmonqul chin inson bo‘lsa, insondan v a h sh i y tug‘ilganini hech kim eshitkan chiqmas.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. – *Surishtirib kelganda, ikkovimizzi oramizda farq yo‘q, – ovoz chiqarib kulumsiradi u. Bu gap Abdullani yanayam ensasini qotirdi. Nima deb valdirayapti bu y i r t q i ch?!* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Xudoyorxon ham y i r t q i c h qayinotasining changalidan qutilg‘anini tabrik qilg‘andek, Otabekka kulib boqdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

YOVUZLIK, VAHSHIYLIK, YIRTQICHLIK, SHARR Yomon niyatda amalga oshiriladigan yovuz xatti-harakat. **Yovuzlik, vahshiylik** so‘zlarida

yovuzlikka xos xatti-harakat bo‘rtib turadi. **Sharr** eskirgan so‘z, tarixiy asarlarda uchraydi.

...Boshboshdoqlik zamonida Cho‘lpondek shoirlarni jazoga tortish uchun matbuotdagi bir-ikkita tanqidiy maqolaning o‘zi yetarli edi. Ammo, ne baxtki, bu safar shoir y o v u z l i k sirtmog‘idan qutulib qoladi. M.Qarshiboyev, Muhit erkidagi tutqunlik. *Bu xat Alvarga borgan emas, hamma y o v u z l i k Agraning o‘zida qilingan.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Biz mahliyo bo‘layotgan G‘arb jinoyatchilikka qarshi chora topolmayapti. Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan vahshiyliklar o‘sha tomonlarda tug‘ilyapti va jahonga tarqayapti.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Shuyam ish bo‘ldi-yu! Qip-qizil v a h sh i y l i k!* E.A’zam, Shovqin. *Axir, biz maqbul ko‘rmagan kimsa cho‘lda yolg‘iz o‘sgan saksovul emas, uning oilasi bor, qo‘liga qarab turgan ota-onasi, mehriga zor bolalari bor. Ularga ham dardmandlik istash, ularning uvolidan qo‘rqmaslik y i r t q i ch l i k dan battar-ku!* A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar. *Hazrati oliy hovlimda mehmon bo‘lganlarida, fuqaroni bu yomonlar sh a r r i dan xalos qilaman, dedilar.* Mirmuhsin, Cho‘ri.

YOZMOQ, BITMOQ, QAYD QILMOQ (ETMOQ), QORALAMOQ Turli yozuv qurollari yordamida qog‘oz, daftarga yoki yuza, sirtga harf, raqamlarni tushirmoq. **Yozmoq** so‘zi keng tushunchaga ega. Ushbu so‘z biror matnni yoki raqamni yozuv qurollari vositasida yozish hamda telefon, kompyuter kabi texnik qurilmalarda qayd etishga nisbatan qo‘llana oladi. **Bitmoq** so‘zi eskirgan, mazkur ma’noda, asosan, tarixiy asarlarda uchraydi. **Qoralamoq** so‘zida tayyorgarliksiz qayd qilish ta’kidi mavjud. **Qayd qilmoq (etmoq)** so‘zi *daftar, jurnal, qog‘oz* kabi yozuv vositalarini bildiruvchi so‘zlar bilan birikib kelganda, mazkur ma’no namoyon bo‘ladi, kitobiy uslubga xos.

Y o z moqqa niyatlanganim ushbu – “O‘tkan kunlar”, yangi zamon ro‘monchilig‘i bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havasdir. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Keyin hisobini ham so‘rab qo‘yadi: qani, nima y o z d i n g, nima chizding?* E.A’zam, Shovqin. *Xo‘ja Abdulla Marvoriy... xatni chiroyli b i t ardi.* Oybek, Navoiy. *Shaqirlatib kompyuterda allaqanday xat b i t di. Xatjildni yopa turib, Bakir Po‘latovga bir dasta qog‘oz berdi-da “o‘qing” deya imladi...* A.Suyunov, Ro‘zaning birinchi kuni. *Har bir jadvaldagi sonlarni topishga ketgan vaqt sekundomer yordamida daftarga q a y d q i l inadi.* Z.Ibodullayev, Tibbiyot psixologiyasi. *Shoirning biror satrini loqayd yoxud shunchaki daftarga q a y d q i l ish uchun o‘qib bo‘lmaydi.* A.Mahkam, Adabiyot ibodati. *Unda yigirma yillardan buyon q o r a l a b yurgan o‘y-mulohazalarim, taxminlarimni yozganman. O‘qib ko‘ring, olimsiz-ku, arzisa, kitob qilib chiqararsiz, arzimasa, sizda qolar.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Men shaharda, nafaqaga chiqib, endi butun ermagi qog‘oz q o r a l a sh bilan kitob mutolaasi bo‘lgan odam, bu esa hu chang bosgan qishloqda qolib ketgan bir eshak*. A.A’zam, Quroq.

YOZUVCHI, ADIB, SHOIR, QALAMKASH Badiiy asar yozish bilan shug‘ullanadigan shaxs. **Shoir** so‘zida she’r yozish bilan mashg‘ullik alohida ta’kid olgan. **Qalamkash** so‘zi ma’nosida umumlashtirish kuchli, unda muayyan badiiy maqsad bilan har qanday qalam tebratuvchi shaxs ifodasi mujassam.

Ularni o‘z joyiga qo‘yib tasvirlash uchun y o z u v ch i dan o‘ta sezgirlik talab etilib qolmay, uning ezgulik va yaxshilik haqidagi e’tiqodining avvalgisidan ham mustahkam bo‘lishi talab etilsa kerak. Sh.Xolmirzayev, Tafakkur olami. *Yo z u v ch i ning o‘ziga xos uslubi bo‘lganidek, jinoyatchilarning ham o‘z uslublari mavjud.* T.Malik, Shaytanat. *Bizga a d i b lar, shoirlar, haqiqiy jasur kurashchilar lozim.* Oybek, Nur qidirib. *Biz, katta avlodga mansub a d i b lar, yaqin-yaqinda ham tanqidchilikning ijodkordan faqat g‘oyaga xizmat qilishni talab etgan davrlarni ko‘rganmiz.* Q.Yo‘ldoshev, Yoniq so‘z. *Daraxtni hamisha o‘raydi shamol, Sh o i r ni tashvishlar chulg‘ar hamisha. Sen sh o i r umrini dema bezavol, Uning ham har oni tashvishga pesha.* A.Oripov, Shoir umri. *Xotirasi, quvvayi hofizasi chakki emas. Boshlang‘ich q a l a m k a sh ekaniga qaramay iste’dod uchqunlari charaqlab ko‘zni qamashtirgani unga bo‘lgan hurmatini chandon orttirdi, shuning daldasida o‘tgan yili bosmadan chiqqan to‘plamga uning she’rlarini o‘zi saralab kiritgandi.* X.Do‘stmuhammad, Umid guli. *Binobarin, kitob yozayotgan q a l a m k a sh hayajoni kitob o‘qiyotgan o‘quvchi hayajonidan o‘n karra kuchliroq bo‘ladi.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar.

YOG‘, MOY Chorva mollari, o‘simliklar, sut mahsulotlaridan olinadigan, suvda erimaydigan modda. **Yog‘** so‘zi uslub jihatdan betaraf. **Moy** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi.

Kerak bo‘lganda, mingboshi Miryoqubdan pul so‘rab olar, un, gurunch, go‘sht, y o g‘ va ro‘zg‘orning boshqa keraklarini… Miryoqub tayyorlab berar, shu uchun jonning rohatidan boshqani bilmagan mingboshi undan narisini surishtirmas edi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *…bolalar uchun kiyim-bosh, ro‘zg‘orga guruch, un, y o g‘ degandek, o‘ziga dori-darmon, Amirga mahsikalish xarid qildi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Mashina ham shunday. M o y – mashinaning iligi. O‘zingiz m o y yeysiz-u, mashinaga bermaysiz.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ne shodki, bu o‘tni alanga olishi uchun m o y sepuvchi odam topildi.* T.Malik, Shaytanat.

YOG‘INGARCHILIK, YOMG‘IRGARCHILIK, YOMG‘IRGARLIK Yomg‘ir, qor kabilar nihoyatda ko‘p yog‘adigan muayyan davr; yomg‘irli ob-havo. **Yog‘ingarchilik** keng tushunchaga ega. Bu so‘z mavsumda qor, yomg‘ir, do‘l kabi yog‘in turlarining ko‘p yog‘ishi hodisasiga nisbatan ishlatiladi. **Yomg‘irgarchilik** so‘zi **yomg‘irgarlik** so‘ziga nisbatan nutqda faol ishlatiladi. Har ikki so‘z ham ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Haa, zo‘r bo‘ldi, ee, bu ish ko‘p bilan-da, ha endi Ziynat xolaning y o g‘ i n g a r ch i l i k da bir dardi aridi, suvoqning obravlari yaxshi, chakka o‘tkizmay-

di… A.A'zam, Quroq. *Bugun o'ttiz-o'ttiz besh daraja issiq bo'ladi. Yog'ingarchilik ehtimoli o'n foiz.* I.Sulton, Mega-intellekt. *Yomg'irgarchilik boshlanib ketdi.* A.Muxtor, Bo'ronlarda bordek halovat. *Shu bu yil ko'klam yomg'irgarchilik ko'p bo'lib, yo'llarda bir xil kulbalar qiyshayib-miyshayib yotar edi.* "Go'ro'g'li". *Yomg'irgarchilik davrida grunt suvlari yuza suvlarga qo'shilib ketadi.* Gazetadan.

YOG'LI, MOYLI, SERYOG', SERMOY Yog'i ko'p. **Sermoy** so'zi aynan "seryog'"ni bildiradi. **Sermoy, seryog'** so'zlarida yog'ning miqdor jihatdan mo'lligi anglashiladi. Bu so'zlar, asosan, so'zlashuv uslubida uchraydi.

Uning aytishicha, shu kungacha har kuni kichkinagina dekcha qozonda ikki mahal uch-to'rt kishiga mo'ljallab sergo'sht, yog'li ovqat tayyorlab kelarkan. Y.Tog'a, Bolalik hidi. *Talabaligingda seni oyoqqa turg'azgan echki sutidan bir xalta yog'li qurt tayyorlab qo'yganman, anchaga yetadi.* L.Mahmudov, Mehr qolur… *Tandirdan yangi uzilgan, ushlagan qo'lni kuydiradigan moyli patirni shirchoyga to'g'rab yegan odam "prama" jannatga tushadi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Shu dang'illama imoratdan ko'ra o'zimizning kulbamiz durust, dadasi. Moyli nondan qora nonimiz a'loroq.* T.Malik, Shaytanat. *Nazarov bo'linmasini oshxonaga olib bordi. Qaynoq karam sho'rva, seryog' bo'tqa va javdari non berildi.* H.G'ulom, Toshkentliklar. *Devzira guruch, ziravorlar hidi har yonga ufurgan, sergo'sht-u seryog' osh keldiki, kimdir boyagi zavqli xitoblardan uyalgan bo'lib, sekin uh tortdi.* M.M.Do'st, Lolazor. *Tursunoy tuxum bilan qovurilgan sermoy qo'y go'shtini bir xitoy laganda keltirib, sandal ustiga qo'ydi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Nusratbek bolishiga yonboshlab, katta sopol tovoqdagi sermoy chalobdan ichdi.* S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi.

YUBORMOQ, JO'NATMOQ, YO'LLAMOQ, YETKAZMOQ Biror narsa yoki kimsani ma'lum manzilga yo'llamoq yoki narsa-predmetni biror kimsaga, manzilga yetkazmoq. **Yubormoq, jo'natmoq** so'zlari nutqda erkin almashinib qo'llana oladi. **Yo'llamoq** so'zi mazkur ma'noda *salom, maktub, xat* so'zlari bilan bog'lanib keladi. **Yetkazmoq** so'zi ham xat, xabar, ma'lumot, salom kabilarga nisbatan qo'llanganda, mazkur ma'noni ifodalaydi.

Hozir o'zidan xafalik, o'ng'aysizliq sezmagan bo'lsa ham, boshig'a "o'zim borolmasam-da, Hasanalini yubor ishim va kezini topib o'tkan gaplarni otag'a hikoya qilishim kerak edi", degan fikr keldi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Har yil yozda vodiydagi g'o'zalarga ishlov berish paytida bu yoqlardan yordamchilar so'ralar, Oyko'l ham besh-o'n kishini yigirma-o'ttiz kunga chopiqqa yubor ar edi.* P.Qodirov, Qora ko'zlar. *Yurtning begi qizga sovchi yuboradi. Rad javobini olgach, zo'rlab olib kelish uchun o'nta navkar jo'natadi.* X.To'xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *Yil yangilangan oyning o'rtarog'idan boshlab dadam negadir uyga kelmay qo'ydi. Ayamdan so'rasam, uni bir ish bilan olisroqqa jo'natishdi, hali aancha yuradi, deyishdan nariga o'tmaydi.* A.Obidjon, Oddiy

ayriliq haqida ertak. *Ularning do‘stlik va qarindoshlik aloqalari uzoq davom etdi. Bir kuni Rum hukmdori qudasiga bu mazmundagi maktubni yo‘lladi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Fursatni boy bermay yonimni kovlab aqcha chiqardim. Lekin mutavoze’ qiz uni olmay, qo‘l ishorasi bilan ichkariga yo‘lladi.* U.Hamdam, Bir piyola suv. *Bizdan barcha so‘raganlarga duoyi salomlarimizni yetkazib qo‘ygaysan.* M.Mansur, Judolik diyori. *...Bo‘lak hakimlarga mening farmonimni yetkaz: xorazmlik tabib singari ins-u jinslarni sinab ko‘rish jazo bilan taqdirlanur.* T.Malik, Falak.

YUGURMOQ, CHOPMOQ, YELMOQ Oyoqda biror yo‘nalish bo‘ylab tez harakat qilmoq. Nutqda mazkur ma’noni ifoda etishda **yugurmoq** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi. **Chopmoq** so‘zida “tez yugurish” ma’no uzvi yuzaga chiqmaydi, bu harakat tez va sekin tarzda amalga oshishi mumkin. **Yelmoq**da bu harakat belgisi yanada kuchli ifoda topadi, badiiy uslubda qo‘llanadi.

...Shu choqda bir kishi oldimga yugurdi va bazmdagilarga qichqirib: – Mana, O‘sar aka ham keldi! – dedi. A.Qodiriy, Jinlar bazmi. *Komron nima voqea yuz berganini anglolmay qoldi, ...yuragi allaqanday noxushlikni sezib, mashinadan otilib chiqdi, yugurib hovliga kirdi.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *O‘shanda Mohim enaga chopib kelib, o‘z gavdasi bilan meni to‘sgan ediya!* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Rustam… tap tortmay va orqa-oldiga qaramay chopib borayotgan Risolat ko‘zdan yiroqlashguncha kuzatib qolardi.* Q.Kenja, Toshqin. *Dahshat uning yuragiga raxna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari xayolidan ko‘tarilib, ko‘z oldiga oppoq kafanga o‘ralib sag‘ana va go‘rlar atrofida yelib yurgan arvohlar keldi.* A.Qahhor, Dahshat. *Indallo, hibsda yotganlarni ozod qilishni so‘rash uchun borayotganlar oxiri hali maydondan uzilmay, ro‘paradan yelib kelayotgan qurolli suvoriylar ko‘rindi.* A.Dilmurod, Mezon burji.

Y

YUGUR-YUGUR, CHOP-CHOP, CHOPA-CHOP Biror ish, yumushni shoshilinch tarzda, hovliqqan holda amalga oshirish xatti-harakati, shunday holatdagi ovoragarchilik. Bu so‘zlar, asosan, so‘zlashuv uslubida ko‘p ishlatiladi. **Chopa-chop** so‘zida harakat belgisining anchayin ortiqligi anglashiladi.

...Birpaslik yugur-yugur jonni sug‘urib oladi-ya – qilgan ishimizdan o‘zimiz taskin topdik… A.A’zam, Quroq. *Bazada ish ilgarigiday tiqilinch, yugur-yugur ko‘p.* A.Muxtor, Fano va baqo. *Zahroning… go‘yo chopa-choplarga aloqasi yo‘qdek, o‘zi bilan o‘zi ovora, dam ichkariga kiradi, dam hovliga chiqadi, ivirsiydi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Yugur-yugur, chopa-choplardan biroz tining! Hali bunday ishsiz kunlarni sog‘inib ham qolarsiz.* M.Saidjalolova, Bir qiyinchilikka ikki yengillik bor. *To‘y qilishning o‘zi bo‘lmas ekan! Uni o‘tkazish bilan bo‘g‘liq asabbuzarliklar, yugur-yugur-u chopa-choplar esiga tushsa, hali ham Karimni vahima bosib, sovuq ter chiqib ketadi.* Gazetadan.

YULMOQ, **YUMDALAMOQ, TIMDALAMOQ** Chang solib yuz, qo‘l va boshqa a’zolarni tirnab jarohatlamoq. **Yumdalamoq** so‘zida belgi darajasi nisbatan kuchli ifodalanadi. **Timdalamoq** so‘zida harakatning tirnoq yoki o‘tkir narsa bilan amalga oshirilganlik ta’kidi anglashiladi.

– Bo‘shang ekansiz-da, – Tantiboyvachcha uning so‘zini kesdi, – manjalaqilik qilib, dodlamadingizmi, yuzlarini y u l ib t i m d a l a madingizmi? Oybek, Tanlangan asarlar. *Onasi beixtiyor “nega?” deb so‘radi-yu, nima voqea sodir bo‘lganini anglab, labini tishladi, yuzini y u l di.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Dilrabo yangasiga g‘azabnok, y u m d a l a shga shayday o‘qraydi.* M.Salom, O‘zganing dilbandi. *Ba’zilar hamon yuzlarini y u m d a l a b dod solayotgan ayolga tasalli berishardi.* J.Abdullaxonov, Oriyat. *Xotinining ayyuhannos solib, mehmonning yuzini t i m d a l a shga chog‘lanayotganini ko‘rgan hisobchi jonholatda oraga tushib, shoshganidan bo‘lsa kerak: “Bu meniki emas, buni men Xo‘rozqulga obkeldim!” deb yuboradi...* A.Yo‘ldosh, Boy. *Ishonmasang, basharasiga qaragin-a, onasi cho‘tir qilib tug‘magan, tug‘ilganida bib-binoyi bo‘lgan. Ammo tug‘ilgani zahoti aftini morjlar t i m d a l a b-t i m d a l a b tashlashgan.* T.Malik, Xazonrezgi.

YUMSHAMOQ, YUMSHOQ BO‘LMOQ, BO‘SHASHMOQ, BO‘SH BO‘LMOQ, MULOYIMLASHMOQ, MULOYIM BO‘LMOQ, YUMSHARMOQ Yumshoq holatga kelmoq, bo‘shashmoq; muloyim holatda bo‘lmoq. **Yumshamoq, yumshoq bo‘lmoq** so‘zlari biror qattiq holatdagi narsaning yumshaganligini anglatadi. **Muloyimlashmoq, muloyim bo‘lmoq** so‘zlarida mayinlik ta’kidi anglashiladi. **Yumsharmoq** so‘zi shevaga xos.

Fotih Burhonovich vujud-vujudidagi tanglik, tarangliklarning obdan yog‘langan teridek tobora y u m sh a b, bo‘shashayotganini... aniq fahmlab yotar, oyoq-qo‘llarini yozib, yosh boladek miriqib uxlardi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Asadulla cho‘p olib, ketmonga yopishib qotgan loyni qirdi, so‘ng atirgullar atrofini y u m s h a t di.* T.Malik, Savohil. *Ayiq Ortiqlar kutgan ungurdan emas, tepadan, qo‘l yetmas qoyatoshning allaqaysi kovagidan chiqib kelmoqda edi. Paypog‘i y u m s h o q b o‘ l gani uchun qadam tovushi eshitilmas, faqat o‘siq oq tirnoqlari toshga tegib sal-sal shiqirlar edi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *...bolalikning kesaklari ham y u m sh o q b o‘ l ganmi... birortamizga zarar yetmagan, ammo-lekin tosh otmasdik, faqat kesak, bolacha dushmanligimiz ichida g‘irromlik yo‘q edi.* A.A’zam, Quroq. *Chiranib, oyoq-qo‘llari bilan siltandi – lekin alamzada cho‘ponlar bor mahoratlarini ishga solishgan ekan, arqon b o‘ sh a shmadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *U o‘rindiqqa yastanib o‘tirib, chuqur-chuqur nafas oldi. Og‘riq biroz pasayganday, tepki zarbidan go‘yo bir-biriga chirmashib tarang tortilib qolgan ichaklari b o‘ sh a sh ganday tuyuldi.* T.Malik, Shaytanat. *Xamir b o‘ sh b o‘ l sa, non yaxshi chiqmaydi.* I.Choriyev, Nonvoyning mahorati. *Ilk bor yuzimga fotiha tortganimda barmoqlarim, kaftlarim*

muloyimlashib, xushbo‘y bo‘lib qolganini his qildim. N.Jaloliddin, Ayo ishq!.. *Ammo uning yuzida avvalgiga qaraganda ikkita farqni sezish mumkin edi. U soqol qo‘ygan, yuzi esa, anchayin m u l o y i m l a sh ib qolgandi.* Anor, Vahima. *Qadamidan to‘xtasa og‘ochlarning novdalari sekin m u l o y i m b o‘ l ib, u tomon egilishar, mevalar oyoqlarining ostiga to‘p-to‘p to‘kilar, rizq ilinjida chopib yurgan chumoli-yu hasharot yo‘l bo‘shatar edi.* I.Sulton, Ozod. *Temir g‘o‘lalari mumday erirdi va m u l o y i m b o‘ l ib qilichlarga do‘nardi!* I.G’afurov, Zulfiya siymosi. *Xontaxta ustida anvoyi noz-ne’mat, turli-tuman meva-cheva... Turgan sari yumsharib, pisha boradigan va pishgan vaqtida og‘izga solsa, eriydigan noklar...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

YUMSHOQ, BO‘SH, MULOYIM Qattiqlikdan xoli, oson eziladigan. **Yumshoq** so‘zi keng qo‘llanadi. **Bo‘sh** so‘zi mazkur ma’noda, asosan, so‘zlashuv tilida uchraydi. **Muloyim** so‘zida mayinlik, yoqimlilik ta’kidi qabariq aks etgan.

Ajab sinoat. Taxt misoli ishlangan (balki, menga shunday ko‘ringandir) yumshoq divanda lo‘labolish-u paryostiqlar ichiga ko‘milgancha Hizrdek nuroniy bir qariya – uzun yuz, cho‘qqisoqolli mo‘ysafid yonlariga engashgan kishining tushuntirishlariga some bir holda o‘ltirar... M.Mansur, Judolik diyori. *Habibulloxon y u m sh o q kursiga o‘tirib, o‘g‘liga joy ko‘rsatdi.* T.Malik, Savohil. *Reduktorlarni uzatish nisbati, ko‘mir yoki tog‘ jinslarining b o‘ sh va qattiqliklarini hisobga olib ishchi asboblariga 900–300 ayl/min harakat bera olsin.* A.Isaxodjayev, Kon mashinalari va majmualari. *Qoldiki, havo ham beradur, chunki ichi b o‘ sh og‘ochlardan qo‘yilgay.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi... Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Tolasi o‘z nomi bilan ipakdek m u l o y i m, silliq, ingichka, uzun. Jahondagi barcha yengil sanoat korxonalari shunday paxtani orzu qiladi.* I.Abdurahmonov, Yurt nufuzi ilm-la ortar.

YUPQA, INGICHKA, SHAPARAK Yon ko‘lami ingichka, qalin emas. **Yupqa** so‘zi barcha nutq uslublarida erkin qo‘llanadi. **Ingichka** so‘zi mazkur ma’noda **yupqa** so‘zi bilan erkin almashina oladi. **Shaparak** so‘zi so‘zlashuv nutqida va ayrim shevalarda uchraydi.

Kinoya, grotesk, oshkora norozilik, o‘rni-o‘rni bilan ayovsiz haqorat shoir she’rlarining ijtimoiy ta’sirini oshirib yubordi. Shoirning piyoz po‘stidek y u p q a kitoblarini odamlar qo‘lma-qo‘l qilib o‘qiy boshladilar. A.Mahkam, Adabiyot ibodati. *Bir kun to‘kin bo‘lar y u p q a dasturxon, Zarbof bo‘lmasa ham kiygansan chopon.* A.Oripov, Saylanma. *Sekretarning cho‘ziq va qotma yuzi ham, i n g i ch k a sariq qoshi ham nam edi.* X.To‘xtaboyev, Shonli avlod. *Xitoylilk tabiblar nihoyatda i n g i ch k a tilla ignalarini shunday nuqtalarga sanchishadi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *Bir kuni u maktabdan qaytsa, onasi sh a p a r a k kina*

ko‘rpacha ustida o‘tirib, qo‘l mashinada ish tikayotgan ekan. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Taxmonda bir eski yashik. Uning ustida ko‘rpa, toshday qattiq, kir, sh a p a r a k yostiq.* Oybek, Tanlangan asarlar.

YUPQALASHMOQ, YUPQALANMOQ, YUPQARMOQ Yupqa bo‘lib qolmoq, yupqa holatga kelmoq. **Yupqarmoq** so‘zi nutqda kam ishlatiladi, asosan, shevalarda uchraydi.

Boshida eski, to‘zigan qizil shol ro‘mol, egnida paxtasi yupqa solingan yoki yuvila-yuvila y u p q a l a sh gan kaltagina qora las kamzul, etaklari g‘ijimlangan, rangi aynigan chit ko‘ylak. Oybek, Tanlangan asarlar. *...tag‘in qarasalar, ishton ham qasamga kelgan, y u p q a l a sh ib, qaragan odam ko‘zini olib qochadi.* A.A’zam, Quroq. *U ma’nosiz nigohini ro‘parasidagi bostirmaga tikdi. Loysuvoq tom y u p q a l a sh ib qolibdi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Ota hamon indamas, xontaxtaning y u p q a l a n ib ketgan qirrasiga tikilgancha o‘tirardi.* O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Ne hayrat, oshiq ahli dengizday qalqsa bedor, Ne tongki, tog‘ bo‘lsa dil qog‘ozday y u p q a l a n sa.* J.Jabborov, Sevgim samosi. *...kitob noshirlari birgina romanni shu kungacha to‘rt qismga bo‘lib bosishdi. Kitob 1-dan 4-ga borgan sari y u p q a r ib bormoqda-yu, oxiri ko‘rinmayapti.* O.Jo‘raboyev, Tarjima nega qilinadi? *“Poraxo‘r, vijdonsiz” xalq yashar bostirmalarda, Bir kaftgina un qolgan y u p q a r gan suprasida.* E.Siddiqova, O‘zbek ishi.

YUPUN, YUPQA, YENGIL Tanani sovuqdan yaxshi saqlay olmaydigan (kiyim-kechak haqida). **Yupun** so‘zida belgi kuchli ifodalanadi. **Yengil** so‘zi mazkur ma’noda oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi.

Ust-boshlari y u p u n, lablari yorilib, yuzlari to‘rlab ketgan... T.Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol. *Onam meni, odatdagidek, xo‘roz qichqirmasdan uyg‘otdi. So‘ngra y u p u n gina kiyinib, tashqariga chiqib ketdi.* A.Haydarov, Y

Qo‘sh ustunimning biri. *Ayni shu tobda ochiq eshikda tovusday tovlanuvchan atlas ko‘ylak kiygan, boshiga y u p q a, zarrin oq shohi ro‘mol to‘shagan uzunchoq, nozikkina xilqat namoyon bo‘ldi.* M.Salom, O‘zganing dilbandi. *Eshik g‘iytillab ochildi. Kampir “yalt” etib eshikka qaradi. Ostonada birgina y u p q a ko‘ylagi shilta-shalabbo bo‘lib egniga yopishgan qizi turardi.* M.Ahmedova, Yomg‘irda… *Moriko, egnida kechagi y e ng i l kiyim, yalangoyoq, qo‘lida jo‘mragi teshik idish, derazamiz tagida gullarga suv separdi.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Odatdagiday uyni saranjom-sarishta qildi, y e ng i l kiyimlarini yuvib, dorga ildi.* S.O‘nar, Dunyo shunday tururmi?

YURTDOSH, HAMYURT, VATANDOSH, ELDOSH Bir yurtda yashovchi yoki yashagan kishilarning har biri (bir-biriga nisbatan). **Hamyurt** so‘zi **yurtdosh** so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llana oladi. Bu so‘z ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Vatandosh** poetik bo‘yoqdor so‘z, asosan, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Eldosh** so‘zi ham kitobiy uslubga xos.

O‘tgan yil yozda Janubiy Koreyadan ta’tilga kelgan y u r t d o sh ukamizning iltimosi bilan Boysunga borgan edik. Sh.Salom, Mangu dostonim. *Domlaning bir qadar barvaqt kelishidan tanish y u r t d o sh lari uni odatdagidan zo‘rroq ehtirom bilan kutib oldilar*. Sh.Xolmirzayev, Boychechak ochildi. *Gap-so‘z bo‘lishdan cho‘chimay, bu dafn marosimiga yo‘l ochib bergan h a m y u r t im, kapitan Rasulovga dil-dilimdan rahmatlar aytdim.* S.Ahmad, Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan? – *Rahmat, To‘xtajon, uka! Musofirchilikda yoningda dushmaning bo‘lsayam h a m y u r t ing bo‘lsin ekan.* X.Do‘stmuhammad, To‘xtaboyning boyliklari. *Men chet ellarda safarda bo‘lganimda turli sababga ko‘ra xorijda qolib ketgan v a t a n d o sh larni ko‘rganman*. E.Vohidov, Istanbul fojiasi. *Tillani jezdan farqlamoq esa siz-u bizdan, odil v a t a n d o sh!* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Yurgandir-da, birorta kursdoshi yoki e l d o sh inikida… – Ishqilib, omon yursa bo‘ldi… – Shoir bo‘ldim, men oddiy O‘zbekning bir bolasi. Bir tomirmiz, e l d o sh lar, Men sizniki – yotmasman*. A.Xudoyberdi, She’rlar.

YUVOSH, MO‘MIN, QOBIL, MO‘MIN-QOBIL, BEOZOR, ROYISH, YOVVOSH Sho‘xlik qilmaydigan, to‘polonchi emas. **Yuvosh** so‘zining qo‘llanish doirasi keng. Bu so‘z nutqda shaxslarga hamda jonivorlarga nisbatan ishlatiladi. **Mo‘min** va **qobil** so‘zlari faqat insonga nisbatan qo‘llanadi. **Mo‘min-qobil** so‘zida belgi darajasi qabariq ifodalanadi. **Royish** so‘zi gapga kiradigan, aytganni qiladigan odamlarga nisbatan qo‘llanadi. **Yovvosh** so‘zi shevaga xos.

O‘zi juda y u v o sh va beozor bo‘lgan bu bola umrida birinchi marta yuragining o‘ziga bo‘ysunmaganini… sezdi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Uni samimiy, y u v o sh, ma’suma qiz deb o‘ylardi, ya’ni o‘ziga o‘xshab, ilm istab shaharga kelganlardan!* Z.Qurolboy qizi, Yomg‘irli yo‘lka. *Sen Abulqosimning nevarasisan, a? Kattang juda m o‘ m i n, gapga kiradigan bola edi. Haptobusga ham kalishini yechib chiqardi, rahmatli. Sen unga o‘xshamabsan. Judaa qaysar ekansan. Kattang tirik bo‘lganida aytib, adabingni berdirib qo‘yardim-a.* T.Malik, Xazonrezgi. *Rahmatli... mo‘min-qobil odam edi. Shunchalik m o‘ m i n ediki, ko‘pincha uyda bor-yo‘qligi ham bilinmasdi*. O‘.Umarbekov, Kuz havosi. *To‘g‘ri, Ma’sumaxon yaxshi, mehnatkash, q o b i l juvon.* A.Ibodinov, Bir tomchi yosh. *...ha, bu bola shaharda buzilmagan, q o b i l, oqibati bor, shundan shu yoqqa qatnab uyidagi ishlarni qilib beryapti-ya, barakalla, deb qaramas, shu... yoqtirishmas edimi, “Iy-e, iy-e, sizga qoldimi bu ish”, deb taajjublanishlarida nimadir yozg‘irish ham bor edi.* A.A’zam, Quroq. *Sattorning so‘zini hech vaqt yerda qoldirmagan, hamisha yuvosh, m o‘ m i n-q o b i l Oyshaxon hozir uning iltimosiga quloq ham solmas, hovlining o‘rtasida turib, titrab-qaqshab: Pichoqni olib chiqing! So‘yib keting meni! – derdi.* P.Qodirov, Erk. *Rahmatli past bo‘yli – Savri xolaning yelkasidan kelardi – jikkakkina, m o‘ m i n-q o b i l odam edi.* O‘.Umarbekov, Kuz havosi. *Otam nihoyatda b e o z o r, umrini bolalariga fido qilib yuborgan kishi edi.* I.Sulton, Uzuk. *B e o z o r devona – Sabohiddin, unga*

mehribonlik qilayotgan Umida, kuyunchak Dilmurod, vafodor Aqida, hazilkash Asqarali, iffatli Saboxon, bir-birlariga oqibatli hamqishloqlar, Shoaziz, Mamarayim kabi temir odamlar ko‘z oldidan o‘ta boshladilar. T.Malik, Falak. *Bitta bolaning tirnog‘iga zor odamlar bor. Bu xotin shundoq r o y i sh bolani och tashlab qo‘yibdi.* Mirmuhsin, Umid. *Bosh shotir haq edi. Rostdan ham ko‘k eshak aslida juda r o y i sh, itoatgo‘y ekan.* Q.Kenja, Royish. *Aybi nimadaligini anglamagan ot jonivor, chiroyli sariq boshini y o v v o sh gina cho‘zib, chol ketidan ergashdi.* H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar. *Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab kuyavi Sheralixonni o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo‘y kabi y o v v o sh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o‘ldirib, o‘rniga Azizbekdek zolimni belguladi…* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

YUVOSHLIK, MO‘MINLIK, QOBILLIK, MO‘MIN-QOBILLIK, BEOZORLIK, ROYISHLIK Mo‘min-qobil bo‘lish xislati. Sinonimik qatordagi barcha so‘zlar, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Mo‘min-qobillik** so‘zida ma’no kuchli ta’kidga ega. **Royishlik** so‘zi nutqda kam uchraydi.

Hikmat – falsafa, donolik. Hilm – yumshoqlik, muloyimlik, y u v o sh l i k. A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq. *Ohu esa y u v o sh l i k, bokiralik timsoli.* E.Vohidov, Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar. *Omonulloxon otasining fe’lini yaxshi bilar edi: endi unga gapirish ortiqcha... Shu sababli amirzoda qo‘l qovushtirib, m o‘ m i n l i k holatida turdi.* T.Malik, Savohil. *Ammo ishning bitishi shaytonga bog‘liq bo‘lsa, aravasi loydan o‘tgunicha unga-da ta’zim qilib turishdan toymasdi. Hozir shunday bo‘ldi: badbasharani tepib yuborishga tayyor bo‘lgani holda, m o‘ m i n l i k bilan dedi: – Bir qarindoshimizni qidirib yuribmiz…* T.Malik, Shaytanat. *Johillikdan jon chiqar, q o b i l l i k dan dong chiqar.* Maqol. *Ochganmi biror kim ishqning sirini, Dillarga muhabbat qo‘yar ekan bosh, Q o b i l l i k tark etsa bir o‘spirinni, Bir jizzaki yigit tortadi yuvvosh.* X.Nurullayev, Muhabbat mulki. *Qur’oni karimda, xususan, ellikdan ziyod suralarning yuzlab oyatlarida musulmonlar m o‘ m i n-q o b i l l i k, tinchlikparvarlik, bag‘rikenglikka da’vat etilgan.* Gazetadan. *Qo‘ydek b e o z o r l i k, hiylakor dushmanning so‘zlariga laqqa ishonib yuraberish har qanday xalqni, ayniqsa, o‘z tarixini, insoniy izzatini unutib qo‘ygan xalqni boshqalarga qaram qilib qo‘yadi.* O.Mo‘min, Amir Temurning yoquti. *– Mening qadrimga yetmadinglar, endi ketaman... – deyayotgan ekan u. Ovozidan shirin bir sho‘xlikni, b e o z o r l i k ni uqdim.* Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *– Nega bo‘lmas ekan, – dedi r o y i sh l i k bilan sirli tovoqdagi muzday ayrondan huzur bilan simirar ekan. – O‘n chaqirim yo‘l cho‘t bo‘ptimi, ena. Boramiz-kelamiz...* Q.Ochilov, Qaytim.

YUVG‘UCHI, G‘ASSOL, MURDASHO‘Y, SHUSTAGAR, POKCHI Murdani yuvib, kafanlash bilan shug‘ullanuvchi odam. **Murdasho‘y** – shevaga xos so‘z. **Shustagar** so‘zi eskirgan. **Pokchi** so‘zi shevalarda qo‘llanadi.

Qori pochcha keldilar. Darbozadan yo‘talib. Y u v g‘ u ch i hozir bo‘ldi. Bo‘yrasini ko‘tarib. E.Vohidov, Bedorlik. *Xotini bir-ikki xonadonga sovchilikka borganida “o‘lik y u v g‘ u ch i bilan quda bo‘lamizmi?” deganday gap qilishibdi.* T.Malik, Xazonrezgi. *G‘ a s s o l qo‘lin o‘rabon, jasadim yuvdilar pok, Yog‘och otga mindirib, eltdilar ul so‘yi xok...* Maxtumquli, Saylanma. *G‘ a s s o l ishini tugatgach, janoza e’lon qilindi. Tobut derazadan chiqarilib, hovli sahniga qo‘yildi.* I.Sulton, Onaizorim. *– Aldasam, ko‘r bo‘layin. – Unda, Bo‘rining betiga qaramaganim bo‘lsin! Betini m u r d a sh o‘ y ko‘rsin”.* T.Murod, Tanlangan asarlar. *Qo‘yingni qassobga so‘ydir, O‘likni m u r d a sh o‘ y ga yuvdir.* Maqol. *Past odamlarsan-da: biring temirchining o‘g‘li, ikkinching sh u s t a g a r ning bolasi...* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Agar marhumning kiyimi p o k ch i ga berilgan bo‘lsa, lekin u farzandlari uchun qadrli bo‘lsa, oradan vaqt o‘tib uni qaytib so‘rasa bo‘ladimi?* Gazetadan.

YUZ, BET, AFT, BASHARA, TURQ, AFT-ANGOR, CHEHRA, JAMOL, DIYDOR, ORAZ, UZOR, RUXSOR, TAL’AT, SIYMO Inson boshining old qismi, yuz tomoni. Nutqda mazkur ma’noni ifoda etishda **yuz** so‘zi eng ko‘p ishlatiladi. Bu so‘z uslub jihatdan betaraf. **Bet, aft, bashara, turq** so‘zlari salbiy bo‘yoqqa ega, bu so‘zlarda salbiy baho darajama-daraja kuchayib boradi. **Bet** so‘zida bu bo‘yoq boshqa so‘zlarga nisbatan ancha kuchsiz, ba’zan **yuz** so‘zi bilan almashinib qo‘llanadi. **Aft-angor** so‘zida salbiy munosabat yanada ortadi. **Chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor, siymo** so‘zlari ijobiy bo‘yoqdor, asosan, poetik nutqqa xoslangan. **Jamol** so‘zida ijobiy bo‘yoq **chehra** so‘zidagiga nisbatan kuchli. **Diydor** so‘zi so‘zlashuv uslubida ko‘p uchraydi. **Uzor, oraz, ruxsor, tal’at** so‘zlari eskirgan, poetik nutqda uchraydi.

Kampir ro‘molga y u z ini o‘rab aksa urdi. S.Ahmad, Chol kuyov bilan kampir kelin. *Bolaligimda otamning y u z lariga tik qaramaganman, tikilib yodda saqlab qololmaganimga hanuz nadomat qilaman.* A.A’zam, Quroq. *Egnidagi odmi ko‘ylagi, boshidagi qizg‘ish durrasi o‘ziga yarashib turgan bu qizga Xurram qotma begonalarcha, hissiz tikildi, yuragida hech bir to‘lqin sezmadi. B e t ini bir ko‘ray, deb kelgandi, b e t iga tikildi.* N.Norqobilov, Kurash. *Komron rangi o‘chganini b e t i qizib ketganidan sezdi, ro‘parasida – uch pillapoya yuqorida tek qotgan notanish qizdan ko‘z uzolmay qoldi.* X.Do‘stmuhammad, Shabada. *Farid Buxoriy “Salimi” so‘zini “Salima” deganday qilib aytdi. Salim o‘gay onasi Salima begimni esladi-yu, a f t ini burushtirdi.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Bodomfurush bu gapga ishonishini ham, ishonmasligini ham bilmay pistafurushga angraydi-yu, qo‘rqqanidan a f t i qiyshayib ketdi.* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Eshik g‘ich etib ochildi-da, tirqishidan boshini yashil chorsi bilan tang‘ib, yuziga qatiq surib olgan ayolning b a sh a r a si ko‘rindi.* U.Nazarov, Odamlar. *Balki, men yanglishayotgandirman, boshqa bir gazet jinnisini Akmal o‘risga o‘xshatib yuborgandirman. Lekin maymundek xunuk, tasqara b a sh a r a si hech ko‘z o‘ngimdan*

ketmasdi. M.Mansur, Judolik diyori. *Bu so‘z qulog‘iga chalinishi bilan Xurram qotmaning ko‘z oldida …G‘ayratning tabassumdan yiroq, sovuq t u r q i gavdalanadi.* N.Norqobilov, Kurash. – *E, bo‘ldi, taniyman uni. Burnining tagiga soch qo‘ygan pakanagina qo‘ng‘iz bashara bolami? T u r q i xaladiynadan ham sovuqroq bir bola edi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Uzzukun ko‘chada tentiragani tentiragan. Hozir ham endi tutib olib keluvdim. A f t-a ng o r i ga qarab bo‘lmaydi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Endi u ta’viyaning a f t i-a ng o r i ham xunuklashganday, yunglari qari itnikiday hurpayib, to‘zib ko‘rinar…* Q.Kenja, Ko‘ktoy. *Bobom tandir oldida Oqsoqol buva bilan chaqchaqlashib turar, ikkalasining ham ch e h r a si ochiq edi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Mansurov trubkani qo‘yib, Zamonaliga tomon burilganda ch e h r a si odatdagidan xiyla ochiq ko‘rindi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Tashqi go‘zallik, qiyofadagi jamol – bular ikkovi ham yoqimli bo‘lishi kerak, odamlar o‘zaro uchrashganlarida ushbu go‘zal j a m o l ni ko‘rishga rag‘bat qiladilar* T.Malik, Saodat saroyining kaliti. *G‘ulomjon uning j a m o l i ni ko‘rib, surat bo‘lib qoldi. O‘n besh-o‘n olti yoshlarda, yuzlari shirmonday chiroyli qiz edi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Hazratning birodari amakingiz – ulug‘ pir haqida ko‘p eshitganmiz, afsuski, tabarruk d i y d o r larini ko‘rishga muyassar bo‘lolmadik…* Oybek, Tanlangan asarlar. *Sog‘intirgan onamning d i y d o r i senday shirin.* A.Oripov, Tanlangan asarlar. *O r a z ingni, ey mahvash, bog‘ aro namoyon qil.* Muqimiy. *O r a z i shafoat nuriga to‘liq, Qoshingga qor bo‘lib qo‘nmoqqa hozir. Shu sho‘rlik boshiga qilich kelsa ham, Vafoli yor bo‘lib o‘lmoqqa hozir.* D.Xudoyberdiyeva, Ayolga dunyoni aylagil hadya. *…Payg‘ambarning o‘n bir o‘g‘li bor edi… O‘n biridan shoh Yusuf gul u z o r edi…* A.Rustamov, Ramazon tunida. *Muncha latif-u muncha soz lola u z o r ini ko‘ring.* Habibiy, G‘azallar. *Qizning tundligi butkul yozilmasa-da, ruhiyati hamon tushkun bo‘lsa-da, har holda r u x s o r iga pushti rang yugurib qoldi.* Q.Kenja, Toshqin. *Quyosh, yulduz r u x s o r ini To‘smaysan ko‘zimizdan. Sen tark etsang sehring borin, Dehqonsan o‘zimizda.* Zulfiya, Saylanma. *Yig‘lab aytur ko‘zki: ‘‘Yo‘q erdi manga ham ixtiyor Ki, ko‘rundi nogahon ul sho‘xi mahvash t a l’ a t i’’.* Navoiy, Jong‘a chun dermen... *Muhabbat otashini Hech qachon do‘zaxga teng qilmam, Nechunkim, menga nurli – T a l’ a t ing jannat bilan tengdur.* E.Vohidov, Muhabbat birla... *Yusuf arosatdan gapirdi, Zahro uni yoqtirib eshitdi... Ular bir-birlarining s i y m o sida chinakam xayrixohlik ilg‘ab borishardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bir boqishdayoq o‘z s i y m o sini tanibdi. G‘azabdanmi-hayajondanmi, manglayi tirishib, beixtiyor mushtlari tugilibdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri.

YUZA, YUZ, SIRT, BET, SATH Biror narsa, obyektning ustki tomoni. **Sirt** so‘zida tashqi tomon ta’kidi anglashilib turadi. **Sirt**, **sath** so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi.

Sverdlov maydoniga borib, metrodan tushganlarida ham, Pushkin ko‘chasi tomondan yer y u z a siga chiqqanlarida ham Soraxon Roziyaga qayrilib qara-

madi. P.Qodirov, Erk. *Bilsang, tuproq turli-turli, qatlam-qatlamdir. Tuproqdan keyin mayda tosh qatlami boshlanadi, ana shu qatlamlarning har birida bir dunyo odam yotadi, sen hozir faqat y u z a qismni ko‘rmoqdasan, xolos.* I.Sulton, Ozod. *Derazalarga urilgan yomg‘ir parchalari oyna y u z ini yuvib, pastga oqardi.* E.Raimov, Ajab qishloq. *Daryoning ul y u z ida yashovchilar suvsiz o‘zanning ancha qismiga ham tol, teraklar ekib yuborishgan…* Q.Kenja, Toshqin. *– Yo‘g‘-e, tanchaga o‘tirgani qo‘rqaman. Qishin-yozin ayvonda o‘tirasiz, toza havoda, shuning uchun o‘zbek qizlarining yonoqlari loladay bo‘lar ekan-da, – kuldi Valya va tanchaning s i r t iga o‘tirib oldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Kiyik tipirchilar, yirik qora ko‘zlari uchqun sochib yiltirar, qizg‘ish-kulrang s i r t i va oqish qorni juda chiroyli ko‘rinar edi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Zebi shu tobda yana qaytib qo‘liga supurgi olishni istamasa-da, o‘rtog‘ining “bu qiz enasining gapiga kirmas ekan”, degan o‘yga borishini o‘ylab, indamasdan supurgini qo‘liga oldi va bir qo‘lini bir tizzasiga qo‘yib, sahn b e t ini supura boshladi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *U …do‘nglik b e t iga yoyilgan suruvga, tushovli eshagiga... tag‘in bir sidra nazar tashlab chiqdi.* N.Norqobilov, Kurash. *Qo‘ylar tunaydigan bo‘zlik qo‘tonlar qoramtir archazorlar orasida yashil orollarga o‘xshab ko‘rinadi. Dengiz s a t h i dan necha ming baland turgan shu qo‘tonlardan birida Avazlarning chodiri bor.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Qaytib ketar ekan, chashma s a t h ida Yulduzlar bezovta tebranib qoldi...* A.Muxtor, Chashma.

YUZAKI, YENGIL-YELPI Biror asosga ega bo‘lmagan, chuqur o‘ylanilmagan. **Yengil-yelpi** so‘zida belgi darajasining ortiqligi qabariq ifodalangan.

Umribibi rashkchi edi. Qodirboy buni sezdi va y u z a k i fikr yuritib tirnoq ostidan kir axtargan xotinidan achchiqlandi. H.Qodiriy, Eski Toshkantda. *Gung bo‘lsayam har qanday tilli-zabonli ustadan a’lo. Sizlar odamga y u z a k i baho bermanglar-da…* H.To‘ymanova, Ko‘ngil. *Davrada hamon o‘sha shakarguftorlik, o‘sha beozor g‘iybat-u y e ng i l-y e l p i munozara, o‘sha sarxush qiliqlar, yangi-yangi tanishuv va yeng ichida ish bitirishlar – qisqasi, behuda vaqtguzaronlik ruhi hukmron edi.* E.A’zam, Shovqin. *Leytenant y e ng i l-y e l p i tarzda bayonnoma yozgach, ayollarga imzo chekdirildi-yu, “katta ovni oldindan sezish qobiliyatiga ega” polkovnik amri bilan qamoqxona sari yurildi.* T.Malik, Shaytanat.

YUZMA-YUZ, RO‘PARA, RO‘BARO‘, QARAMA-QARSHI, BETMA-BET, BAQAMTI Bir-biriga bevosita qaragan holatda. Nutqda mazkur ma’noni ifoda etishda **yuzma-yuz** so‘zi faol ishlatiladi. **Ro‘para** so‘zi, asosan, *bo‘lmoq* fe’li bilan birga qo‘llanadi va ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos. **Ro‘baro‘** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Betma-bet** so‘zi, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi. **Baqamti** so‘zida bevosita yaqinlik ta’kidi mavjud, kitobiy uslubga xos.

Qarshisidan Avaz chiqdi. Ikkovi y u z m a-y u z turib, sirli bir tusda gaplashib qolishdi. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Yusufning gapi og‘zida qoldi. Chunki kimning-*

dir yo‘lbarsday iti darvozadan hurib chiqdi-yu, ularga tashlandi... Safning bu tomonidagi Yusuf esa it bilan y u z m a-y u z kelib, serrayib qoldi. U.Hamdam, Muvozanat. *Bir sirni ochaman deb, vaholanki, yo‘l-yo‘lakay son-mingta muammoga r o‘ p a r a bo‘lasan...* O‘.Usmonov, Girdob. *Shavkat big‘illab yig‘layotgan chaqaloqni bag‘riga bosganicha ro‘yxatxona darchasiga r o‘ p a r a bo‘ldi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Badaxshonni tinchitib qaytdi hamki, uni yana uzoq Sambxalga yubordingiz. Qayerda bir xatar bo‘lsa, o‘shanga Humoyun r o‘ b a r o‘!* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Akobirov gap bilan ovora, seni ko‘rmas edi; unga r o‘ b a r o‘ o‘tirgan Raf’iullin qulochini yozib, “Aa, Farxad, dorogoy, talantlivaya molodyoj!” deya artistona mulozamat bildirgan bo‘ldi.* E.A’zam, Shovqin. *U halizamon gapdan to‘xtaydiganga o‘xshamas edi, shu choq q a r a m a-q a r sh i tomonda chelakning qattiq sharaqlagani eshitildi...* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *Q a r a m a-q a r sh i turib yuqoriga ko‘tarilayotgan va pastga tushayotgan kishilar bir-birlariga juda aniq ko‘rinardi.* P.Qodirov, Erk. *Toshqin yer ostidan majlisning ikki ishtirokchisi – yozuv kursisining ikki tomonida q a r a m a-q a r sh i o‘tirgan Julqunboy bilan G‘ozi Yunusga zimdan nazar tashladi.* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Nogahon o‘q otildi, O‘t chaqnadi ketma-ket. Dushman sezdi, Razvedka Jangga kirdi b e t m a-b e t.* E.Vohidov, Saylanma. *Shu hisobda tog‘a-jiyanning ikki qirning tepasiga chiqarib b e t m a-b e t imorat qurgani shunchaki kimoshdi yoki “sen zo‘rmi, men zo‘r” o‘yini emas, zinhor-bazinhor unday emas*. E.A’zam, Bizning tog‘a. *Meni idorada iliq qarshi oldi. B a q a m t i o‘tirib, bafurja suhbatlashdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Xususan, maktubda Humoyunning ukalari bilan bamaslahat, b a q a m t i mashvarat orqali saltanat ishini boshqarishi, xusumatga yo‘l qo‘ymasligi… alohida uqtirilganini ko‘ramiz…* H.Qudratullayev, Boburning davlatchilik siyosati.

YUZMA-YUZ BO‘LMOQ, RO‘BARO‘ BO‘LMOQ, BETMA-BET BO‘LMOQ, BAQAMTI KELMOQ (BO‘LMOQ), QAMTI KELMOQ Bir-biriga qaragan holatda bo‘lmoq, qarshisiga yuzma-yuz chiqmoq. **Yuzma-yuz bo‘lmoq** so‘zi deyarli barcha nutq uslublarida uchraydi. **Baqamti kelmoq (bo‘lmoq), qamti kelmoq** so‘zlari nutqda kam ishlatiladi.

Afg‘onistonga borish, amir bilan y u z m a-y u z b o‘ l ish Turkistonga nima naf beradi? T.Malik, Savohil. *Xuddi Elchin kabi Zaynab ham yolg‘iz qolishdan, eri bilan y u z m a-y u z b o‘ l ishdan cho‘chiyotgan edi.* T.Malik, Shaytanat. *U ...bo‘yi o‘rtadan pastroq qandaydir qotma kimsaga emas, dashtda qomat kerib turgan bir alpga r o‘ b a r o‘ b o‘ l moqni tasavvur etib kelayotgan edi-da.* N.Norqobilov, Kurash. *...voqea meni mast qilib qo‘ygan, unga r o‘ b a r o‘ b o‘ l gan kundan boshlab, biron kecha ham o‘qimasdan uxlamas, hayotim shomi ham, tongi ham shu kitob bo‘lib qolgan edi.* N.Eshonqul, Qalb to‘zoni. *He, o‘sha beimon cholni boshimga uramanmi? U bilan yana b e t m a-b e t b o‘ l moqni o‘ylasam, ko‘nglim bezillardi.* E.A’zam, Shovqin. *B e t m a-b e t b o‘ l ganimizda ikkala qo‘lini ko‘ksi-*

ga qo‘yib, muloyimgina tabassum qilib turgan bo‘lam “Avvalo bu yoqqa qadam ranjida qilsinlar” deganday zo‘r ehtirom ila qasrni ko‘rsatib turardi... A.Yo‘ldosh, Boy. *A’yonlarimiz amiralmuslimin ila bo‘lak qo‘rboshilar bilan b a q a m t i b o ‘ l m o q harakatida Farg‘onada qolganlar*. T.Malik, Savohil. *Shu asnoda Risolat Rustamga b a q a m t i k e l ib, uning chap kifti bilan tirsagi o‘rtasidan ushladi*. Q.Kenja, Toshqin. *Ana shu oqpadarga q a m t i kelib qolsam bo‘ladimi! U otda, men yayov. Qo‘limda shashpari... o‘ziyam devday baquvvat, zug‘umli yigit edi-da...* Oybek, Bolaning ko‘ngli poshsho. *Mo‘mintoy aka charog‘on ko‘chalarda tentiragancha ko‘ngli xufton tortib, ertalabki avtobus bilan qishloqqa qaytdi. Q a m t i k e l may deb Qumri xola eshigini chetlab o‘tayotganda qo‘rg‘ondan o‘zi chiqib qoldi*. L.Mahmudov, Mehr qolur...

YUZTUBAN, DUSTUMAN Yuzi pastga qaragan holda. Nutqda bu ma’noni ifodalashda **yuztuban** so‘zi faol ishlatiladi. Bu so‘z deyarli barcha nutq uslublarida uchraydi. **Dustuman** shevaga xos so‘z, folklor asarlarida ham uchraydi.

Zokirov hamkasblarini u yoqqa-bu yoqqa surib, y u z t u b a n yotgan Turg‘unovga tikiladi. Ko‘zlariga yosh quyilib keladi. A.Namozov, Gazetchilar. *Yugurib kelib, hali o‘zini o‘nglashga ulgurmagan Abduqayum akaga tashlandi. Uning qo‘llarini chapdastlik bilan orqasiga qayirib, o‘zini y u z t u b a n yotqizdi-da, bor og‘irligini tashlab, beliga o‘tirib oldi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *O‘ta ovloq joy – birov ko‘rmaydi, xalaqit ham bermaydi. Biroq jar yoqasidagi bo‘liq kavul ortiga biqinib, d u s t u m a n tushgancha, cho‘zilib yotib olgan bolani payqashmaydi.* N.Norqobilov, Kurash. *Podsho taxti oldiga borib, d u s t u m a n yiqildi.* “Kuntug‘mish”.

YO‘LOVCHI, YO‘LCHI, O‘TKINCHI Yo‘lda ketayotgan, o‘tib ketayotgan odam. **Yo‘lchi** so‘zi ushbu ma’nosida nutqda nisbatan kam ishlatiladi. **O‘tkinchi** so‘zida har qanday o‘tib borayotgan shaxslik ta’kidi anglashiladi.

Y

Y o ‘ l o v ch i asta cho‘ntagiga qo‘lini tiqib, bir pachka yuztalikni oldi-da, erinmasdan, zo‘ravonning ko‘zini o‘ynatib sanay boshladi. N.Ismoilov, Baxtning olis manzili. *Gunohini orqalagancha Ketib borar yolg‘iz y o ‘ l o v ch i. Qaramaydi na yon, na ortga, Na aytuvchi, na yo‘l so‘rovchi.* A.Bek, Umidsiz yolg‘iz yo‘lovchi... *Qaraysan: yiroqda bir y o ‘ l ch i tanho, Na ortga burilar, na chiqarar sas.* A.Oripov, Saylanma. *Sado chiqdi chashmadan: “Shoshma, y o ‘ l ch i , Ichursan, bas, Muzdek, tiniq, to‘laman. Ammo bilki, Oddiy suvmas, Obihayot bo‘laman”.* E.Vohidov, Ruhlar isyoni. *Otliq, yayov o ‘ t k i n ch i lar to‘rt tomong‘a qatnab turardilar, uning bu kungi kayfi o‘rtacharoq ketkan bo‘lsa kerak, ularni g‘ira-shira ko‘zga ilgandek qaraydir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Nomus kuchli, qopni orqalab keta boshladim... Shunday kiyimlarda payraha orqalab borishimga o ‘ t k i n ch i lar taajjublanib qarashardi.* H.Qodiriy, Otam haqida.

Z

ZAHAR, OG‘U, ZAQQUM, ZAHAR-ZAQQUM Tirik mavjudotni o‘ldiruvchi, sog‘lig‘iga jiddiy salbiy ta’sir qiluvchi modda. **Og‘u** badiiy nutqqa xos. **Zaqqum** yakka holda kam qo‘llanadi, **zahar** so‘zi bilan juft so‘z hosil qiladi. **Zaqqum**, **zahar-zaqqum** so‘zlarida salbiy bo‘yoqdorlik kuchli. **Zahar-zaqqum** ma’noni boshqa sinonimlarga qaraganda ortiq darajada ifodalaydi.

Esimga tushdi-yu, vino emas, z a h a r ichgandek bo‘ldim. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Aytishicha, o‘sha portugal yangi dunyodan qandaydir “upayi do‘zaxiy” degan z a h a r ni Goaga xufyona keltirib, xufyona sotish bilan shug‘ullanarkan.* S.Is’hoq, Qabrdan chiqqan qul. *Zuhra, sensiz bu olam bo‘ldi qorong‘u, Har luqma oshim sensizdir o g‘ u.* S.Abdulla, Saylanma. *To‘y kuni kiygan oppoq ko‘ylagini kiydi, so‘ng o‘ziga atir sepdi va kishini abadiy baxtiyor qiladigan va qaysidir kitobda shunday deb o‘qigan, qog‘ozga o‘rog‘liq o g‘ u ni stakanga soldi va choynakni sirqitib quydi*. N.Eshonqul, Ochilmagan eshik. *Buloqdan suv ichdi hazrati Iso, G‘oyat totli edi bu obi hayot. Suvni bir ko‘zaga qo‘yganda ammo Z a q q u m ga aylandi u o‘sha zahot*. A.Oripov, Jon achchig‘i. *Muhabbat... Kimningdir oshig‘i olchi, Oshiq bo‘lib, xolos, z a q q u m yutganman.* I.Mirzo, Shafaqqa ingansan. *Balki, asal deganim zahar, Bol deganim, ehtimol, z a q q u m.* M.Abdulhakim, Onaginam. *Ey odam... taning mozor jimligiga mushtoq, o‘lsanggina qutulasan, mundan bo‘sa bilganing z a q q u m dan achchiq, kel beri, sen jin kabi kel.* B.Ro‘zimuhammad, Jiyda shoxidagi parilar. *Hali z a h a r-z a q q u m orasida o‘tirgan bir mo‘ysafiddan Salimboyvachcha bu kun zahar sotib olarkan, buni qachon va qanday qo‘llashni aslo o‘ylagani yo‘q edi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Hali z a h a r-z a q q u m totini bitmay, mashriqdan mag‘ribga ko‘chgan saboda, haris nigohlarni nazarga ilmay, hilolday porlardi ko‘m-ko‘k qaboda*. Sh.Rahmon, Saylanma.

ZAHARLAMOQ, OG‘ULAMOQ Zahar, zaharli moddalar qo‘shmoq, yaroqsiz holatga keltirmoq. **Og‘ulamoq** badiiy nutqda qo‘llanadi.

– Arziydimi-yo‘qmi, b-bilmadim, lekin bu fisqi-fasod gaplar keyingi kunlarda ichgan oshimni z a h a r l a b, yuragimni q-qon qilib yubordi! – dedi kapitan. O.Yoqubov, Izlayman. *Sinchkov boqsam, bu daraxtning sumbati daraxt, Ichi g‘ovak tugayotgan saxt ko‘rinadi. Tomirini z a h a r l a gan kelgindi suvlar, Kallaklangan boshlari karaxt ko‘rinadi*. H.Xudoyberdiyeva, Daraxt. *Ayni shu mavhumot shoirning-da hayotini lahza sayin o g‘ u l a b borar-u, u sho‘rlik butun zahri qotil alamini ichiga yutar, alaloqibat esa, yutilgan iztirob she’r bo‘lib ko‘ksini yorib chiqar ekan*. U.Hamdam, Yo‘l. *Uning har bir so‘zi qulog‘imga*

xuddi simobdek oqib kirar, keyin miyamni o g‘ u l a b, butun vujudimni o‘z izmiga ola boshladi. R.Jabborov, Intihor.

ZAHARLI, OG‘ULI, ZAHAROLUD Tarkibida, yuzasida, biror qismida zahar, zaharlovchi modda bo‘lgan. **Zaharli** barcha uslublarga xos. **Og‘uli, zaharolud** badiiy uslubda qo‘llanadi.

Faqat badanimga ishlatmang kimyo, kimyo kirib bo‘lgan xonumonimga, butifos, kataran, qisqasi, sonming z a h a r l i dorilar oqar qonimda. Sh.Rahmon, Qo‘shimcha qo‘riq. *Z a h a r l i ilon tez uchishdan ko‘zi tinib, boshini ko‘tarib ololmaydi, lochinni chaqishga iloj topolmay qoladi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Baxtsizlik nomard ovchiday panada poylab turarkan: o‘qi nishonga bir tegdimi, yovvoyi shavq bilan o g‘ u l i paykonlarini ketma-ket yo‘llayverarkan.* A.Yo‘ldoshev, Puankare. *Keksa tanasiga o g‘ u l i ilondek chirmashgan alangadan minnatdor bo‘lib, quyida yastangan tokzorga adovatli tikildi.* N.Norqobilov, Yong‘in. *Nechun siz ham zaqqum daraxtining z a h a r o l u d mevasini oshatmoqchi bo‘lasiz? Himmat birla vafoning mukofoti shulmidi?* S.Siyoyev, Ahmad Yassaviy. *Qadim Turon bog‘larin bog‘ siyog‘i qolmagan, Z a h a r o l u d havoli dalalarga onaman.* H.Xudoyberdiyeva, Tumor – vasiyatimni...

ZARAR, ZIYON, FUTUR, TALAFOT Kishi, jamiyat, tabiat va boshqalarga yetkazilgan moddiy va ma’naviy shikast. **Ziyon** oddiy so‘zlashuvga xos. **Futur** badiiy nutqqa xos. **Talafot** so‘zida shikastlanish darajasi sinonimik qatordagi boshqa birliklarga qaraganda yuqori bo‘lib, yirik makonlarga yetkazilgan moddiy shikast ma’nosini ifodalaydi.

Yangi qo‘shnimizning davlatga keltirayotgan z a r a r ini cho‘tga tashlasak, hammanikidan oshib tusharkan. T.Eshbek, Ostonaqul buvaning “boyliklari”. *Yer to‘g‘risida bir chatoq odam bilan sudlashib yurgan edi, sud ishni buning z a r a r iga hukm qilganmikan, deb o‘yladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *E, qo‘yaber. O‘ziyam bo‘lganicha bo‘ldi deyman. Nojoiz xatti-harakatlar, amallarga sarflangan vaqtlar nafaqat behuda, bexislat, balki koni z i y o n, koni uvol, koni zavolligini, zinhor-bazinhor chin umr sanog‘iga qo‘shilmasligini anglamas g‘ofillar kabi ish tutadilar*. Q.Kenja, Toshqin. *Oxir-oqibat, bu avlod... qayta quruvchi demokrat bo‘ldi. Ammo-lekin hayot uchun z i y o n avlod bo‘ldi. Xalq uchun xavf-xatar avlod bo‘ldi*. T.Murod, Tanlangan asarlar. *Mufti: Sizning so‘zingiz ajab, Sultonali. Siz bizning odamiyatimiz yo‘qlig‘ini birar joyda ko‘rganmisiz yoki dimog‘ingizg‘a f u t u r yetib qolg‘anmi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Mana, bizni aqlsizligimizni oxiri va isroflarimizni xotimasi dinimizg‘a f u t u r kelmoqig‘a sabab bo‘lur*. Behbudiy, Tanlangan asarlar. *Vodiydan keladigan suruvlarning ahvoli ma’lum, yem-xashakni g‘amlab, yaxshi qo‘ralar qurib, qishdan avaylab olib chiqilmasa, t a l a f o t ko‘payib, foyda o‘rniga zarar ko‘rish mumkin.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Odamlar suv sohillari bo‘yida barpo*

etilgan katta shaharlar, hatto kichikroq mamlakatlar hududiga bexosdan yopirilib, beadad t a l a f o t lar keltirayotgan "Sunami" degan baloyi azim xavfidan cho'chib, halovatsiz kunlarni boshdan kechirmoqdalar, hadik va qo'rquv iskanjasida yashamoqdalar. D.Nuriy, Vijdon hayqiriqlari.

ZARARLI, ZIYONKOR, ZARARKUNANDA Ziyon yetkazadigan, foydaning aksi. **Zararli** so'zining qo'llanish doirasi **zararkunanda**ga qaraganda kengroq, **zararkunanda** ko'proq hasharot, gazak o'tlarga nisbatan qo'llanadi. **Ziyonkor** odam va jonzotlarga nisbatan qo'llanadi, badiiy nutqqa xos.

Shu nafas olayotgan havoyingizdayam z a r a r l i mikroblar bor. Mashinaning orqasidan chiqayotgan tutun ham koni ziyon... E, hamma narsani o'ylab, har narsadan hadiksirab yashasang, yashashning qizig'i qolmaydi... Sh.Xolmirzayev, Xumor. *Inson vujudiga kirgan u jonzot aslida o'z hayoti uchun kurashadi, yashash jarayonida z a r a r l i moddalar hosil qiladi*. I.Sulton, Genetik. *Do'st z i y o n k o r bo'lmas, Z i y o n k o r do'st bo'lmas.* Maqol. *Z i y o n k o r hasharot qo'nmasin, deb, Ohak surar, qurisin badbaxt*. Mirtemir, Bo'g'. *Z a r a r k u n a n d a hasharotlarga munosabat borasida qonun chiqishi mumkindir, xushomadga qarshi bunday chora qo'llash imkonsiz – shirinsuxanlik bilan yaltoqilikning chegarasini aniqlash oson emas-da.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Ana keyin majruh paxmoqvoy g'o'za qurtini qirish o'rniga o'zi z a r a r k u n a n d a hasharotlarga yem bo'lib ketyapti.* N.Qilich, Munojot.

ZARARSIZ, BEZARAR, BEZIYON Zarari mavjud bo'lmagan. **Bezarar, beziyon** badiiy uslubga xos. **Bezarar, beziyon** ham jonli, ham jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanadi, **zararsiz** ko'proq jonsiz predmetlar va mavhum tushunchalarga nisbatan qo'llanadi. **Beziyon** ko'proq oddiy so'zlashuvda qo'llanadi.

U yog'ini so'rasangiz, z a r a r s i z narsaning o'zi yo'q! Sh.Xolmirzayev, Xumor. *Boshliq bo'lmas, albatta, Bir juft o'rinbosarsiz. To'rtta zavga sakkizta Yordamchi ham z a r a r s i z*. E.Vohidov, Matmusaning bog'i. *Ma'sum bolalarning kurashi b e z a r a r. Ammo toj-u taxtli og'a-inilarnnig adovati qanchalik baxtsizliklar keltirishini o'zingiz ko'rib turibsiz.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Endi yana bir masala: nima uchun Toshkent–Jizzax yo'lida aynan meni adashtirdilar, mingta haydovchi b e z a r a r o'tib-qaytib yotibdi-ku?* A.A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. *Bilaman, yuvoshlik doim bexatar, Beboshlik ba'zida emas b e z i y o n.* J.Kamol, Sakkizliklar. *Shuning uchun men ko'proq peyzajga zo'r beraman, lirikaga zo'r beraman: bular b e z i y o n mavzular.* Sh.Xolmirzayev, Ustoz.

ZARLI, ZARDO'ZI, ZARBOF(T), ZARVARAQ Yaltiroq ip bilan tikilgan, bezatilgan. **Zarli** so'zining qo'llanish doirasi keng. *To'n*, *do'ppi* so'zlari bilan ko'pincha **zardo'zi** so'zi qo'llanadi, bu so'zda "zar bilan to'la belangan"

ifodasi bor. **Zarbof**, asosan, to‘nga nisbatan qo‘llanadi. **Zarvaraq** bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Shosha borib zulfinni tushirdi-yu, ostonada uzun nimpushti ko‘ylagi, z a r l i nimchasi qaddi-bastiga yarashgan o‘rtabo‘y xonimni ko‘rdi. A.Dilmurod, Mezon burji. *Ona sandiqning tubidan z a r l i to‘nni avaylab oldi, uzoq hidladi, entikib-entikib nafas oldi.* S.To‘rayev, Zarchopon. *U z a r d o‘ z i ko‘rpachalar to‘shalgan tanobiyga to‘rdagi eshikdan kirib keldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bayramona kinoanjumanlarga u “milliy ko‘rinmoq” uchun yal-yal xonatlas liboslar-u z a r d o‘ z i nimchalar kiyib boradi.* E.A’zam, Shovqin. *Bir kun to‘kin bo‘lar yupqa dasturxon, Z a r b o f bo‘lmasa ham kiygansan chopon, Lekin odamlikni unutar bo‘lsang, Ularning barchasi hayf senga, inson!* A.Oripov, Odamiylik. *Hamma mung‘ayib qolgan, oppoq ro‘mol ostidagi kelin boshini quyi solib o‘tirar, egniga z a r b o f to‘n, boshiga do‘ppi kiygan kuyov uning qulog‘iga shivirlab, allanimani tushuntirar edi*. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *A’yonlar z a r b o f t libosda, lashkarboshilar po‘lat sovut va dubulg‘alar kiyib, qimmatbaho qurol-yarog‘lar taqib olishgan.* G‘.Karimiy, Ulug‘ muarrix. *Z a r v a r a q pogonli boshliqlar to‘dalashib nima haqdadir so‘zlashardilar...* N.Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim.

ZARVARAQ, SHMUSTITUL Kitobning sarvarag‘idan yoki har bir bob, bo‘lim, qismdan oldin qo‘yiladigan ikki yoki bir sahifali alohida varag‘i. **Shmustitul** poligrafiya terminologiyasida qo‘llanadi.

Hech qaydan men kutgan z a r v a r a q chiqmadi, Ignadek yaltirab bir varaq chiqmadi. Hasrat-la alamga bir qiroq chiqmadi – Miyamda behuda xayollar to‘qidim... Cho‘lpon, Diyorim. *Dovrug‘i doston xattot Mirzahoshim Xo‘jandiydan husnixatning murakkab usullarini, muhr yasashni, kitoblarga z a r v a r a q lar ishlashni, hoshiyalarni tilla hal bilan bezashni o‘rgandi.* A.Asil, Olam aro charaqlagan nur. *Sh m u s t i t u l da kitobning alohida qism va boblari oldidan shu qism yoki bobning nomi, rasm hamda bezaklar joylashtiriladi*. “Dastgohli rangtasvir”.

ZAVQ, MAROQ, SHAVQ, HAZ Kishiga lazzat bag‘ishlovchi kayfiyat. **Maroq**, asosan, *bilan* ko‘makchisi vositasida qo‘llanadi va huzur bilan berilgan holat ma’nosini bildiradi. **Shavq** kuchli hayajonga to‘la kayfiyatni bildiradi, badiiy nutqqa xos. **Haz** o‘g‘uz shevalarida qo‘llanadi.

– General bo‘lib ketding-ku, azamat, – dedi uning ko‘ksiga z a v q bilan tikilarkan Melivoy aka. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Z a v q toshar yuragida Suvning jildirashidan, Har tup g‘o‘za tagida O‘ynab pildirashidan Payqaydi: bu – saraton*. Mirtemir, Suv va suluv. *Yusupov kuzatgani chiqqanlar bilan xayrlashib mashinaga o‘tirarkan, ikki pahlavon qirg‘iz yigitiga, o‘rtada turgan otasiga m a r o q bilan qarab qo‘ydi*. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Tabiat seni shuncha m a r o q va ishtiyoq bilan yaratsa-yu, ajalga mot qildirsa, telbalik bo‘ladi,*

Munisxon. A.Qahhor, Sarob. *Men o‘larman, lekin shu quchoq sh a v q i, Olov quchoq toti o‘yimdan ketmas.* Mirtemir, Quchoq. *Har biri bir yangilik keltirayotgan bu kunlarning sh a v q idan mast bo‘lgan xaloyiq har qanday ishga mo‘r-malaxday yopishar...* A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Keyin minginchi, ehtimol, millioninchi marta “Yozning h a z ini pashsha bilan vakil buzadi”, degan dono gapni aytgan insonga tasannolar aytib, yangi vakil, komissiyani kutib olishga hozirlana boshlashdi.* Sh.Matkarim, Og‘riq.

ZAVQLANMOQ, MAROQLANMOQ, SHAVQLANMOQ, HAZ ETMOQ Lazzat, qoniqish tuyg‘ularini his qilmoq. **Maroqlanmoq** kam qo‘llanadi. **Haz etmoq** – shevaga xos so‘z.

Yo‘ldosh ota Azizxonining yosh bolalarcha berayotgan javobidan z a v q l a n ib turardi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ostida masiqqan ko‘k hangi. Xalil bobo atayin eshagiga xala bosib dikonglatadi. Men z a v q l a n ib kulaman.* N.Aminov, Ayri. *Bir necha yigitlar uning yoniga kelib, ham m a r o q l a n ib, ham tortinib u bilan so‘zlasha boshladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *So‘ng Sohibqiron lashkarboshi ishorasiga ko‘ra, burg‘u va karnay-surnay sadolari ostida, tep-tekis keng maydondan o‘mrovlarini tik tutib, gurs-gurs qadam tashlab, olg‘a bosayotgan sarbozlarni m a r o q l a n ib nazardan o‘tkazadi.* A.Dilmurod, Mezon burji. *– Hayt-hayt! – deya sh a v q l a n ib silkindi Oqchopon. – Umrimda bunaqa vahvahali chaynovga duch kelmagandim. Qornim nog‘ora bo‘p ketdi-ya!* A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Hali vaqti kelib e’tiqodlarini tushuntirganda aytib berarman, ammo hozir ekranda kishanlarini titrab-qaqshab, sh a v q l a n ib o‘payotgan olomonga qarab, butun boshli bir mamlakat xalqini tamom qamrab olgan mahkumlik tuyg‘ularining jozibasi oldida o‘zim ham lol o‘tirgan edim*. A.A’zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. *He, chiqonlaringni ham ayttirma! Ular sening ham, mening ham ustimdan h a z e t ib kulsalar kerak. Sen bo‘lsa... farishta deysan*. Sh.Matkarim, Boljon. *Yigitlarning yol to‘shinda, Joziba bor qilmishinda, H a z a t a siz (etasiz) og‘ushinda, Galin (kelin) bo‘ling Xorazma*. S.Ochil, Galin bo‘ling Xorazma.

ZINA, ZINAPOYA, PILLAPOYA, PAYMANCHAK Bino va inshootlarda yuqoriga chiqish yoki pastga tushish uchun mo‘ljallangan pog‘onali qurilma. **Zinapoya, pillapoya** ham zinaning bir pog‘onasini, ham butun zinani bildirishi mumkin. **Paymanchak** shevaga xos so‘z bo‘lib, ariq, kanal bo‘yidagi o‘yilgan zina ta’kidiga ega.

Yigit z i n a dan yugurgilab chiqib, xotinga ro‘para bo‘ldi. Sh.Xolmirzayev, Olis yulduzlar ostida. *Chayqalib-chayqalib g‘ishtin z i n a lardan chiqdi-yu, salqin dahlizdan o‘tib, uyga otilib kirdi. Qandaydir ayollar (Iskandar qaramadi) unga yo‘l bo‘shatishdi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Z i n a p o y a dan kuzovga chiqsam, yumshoq poxol ustiga ola matraslar to‘shalgan. Bayzaq bilan yuzma-yuz bo‘lib yonboshladik.* P.Qodirov, Meros. *Adolat bilan Tursunoy egilgan-*

laricha yetaklashib, yugurib z i n a p o y a ga, juda ko‘p kovushlar qalashib yotgan joyga borib cho‘kdilar... A.Muxtor, Opa-singillar. *P i l l a p o y a bo‘ldim senga, azizim, Sen ham gal kelganda p i l l a p o y a bo‘l!* E.Vohidov, She’r dunyosi. *Kimdir qaddini tik tutgan holda o‘rtada gerdayib borar, kimdir egilib-mayishgancha chetda, p i l l a p o y a tutqichiga suyangan ko‘yi arang harakatlanardi*. U.Hamdam, Pillapoya. *Misol uchun, men tug‘ilib o‘sgan qishloqda “p a y m a n ch a k” degan so‘z bor. U soy, ko‘l yoki daryo bo‘yida suv olish uchun o‘yilgan zinapoyadir.* I.Sulton, Jon ichra jonim mening.

ZINO, FAHSH Nikohsiz, noshar’iy jinsiy aloqada bo‘lish. **Fahsh** badiiy nutqqa xos, ma’noni **zino**dan ko‘ra kuchli darajada ifodalaydi.

Ma’shuqlar bor, “Besh kunlik dunyoni o‘ylar, faqat, ...yori yiroq ketganda z i n o ni o‘ylar faqat... H.M.Hasan, “Lazgi” raqsi. *O‘z holiga qo‘ysalar agar, qilmasalar zo‘rlig-u z i n o, tug‘armidi to‘lg‘oqdagi yer har yilida bittadan Sino.* Sh.Rahmon, Afshonadagi Ibn sino haykali. *Erkakni goh rashkmas, hasad o‘ldirar, Ayolni goh f a h sh-u fasod o‘ldirar, Odamzod bir-birin ko‘nglin kuldirar, Bir gul taqmay qo‘ydi. Bu ne sinoat?* H.Xudoyberdiyeva, Evrilish bo‘lmasa... *Iskandar*: *– Men sargardon hayotimda nimani ko‘rdim? Hamma yerda imonsizlik, f a h sh va qabohat!* E.Vohidov, Istanbul fojiasi.

ZING‘ILLAMOQ, G‘IZILLAMOQ, G‘IRILLAMOQ, ZIPILLAMOQ Juda tez va ildam harakatlanmoq. **G‘izillamoq, g‘irillamoq**da harakatlanish darajasi **zing‘illamoq**qa qaraganda yuqori. **Zipillamoq** so‘zida juda tez yurish ta’kidi mavjud, nutqda kam qo‘llanadi, shevaviy xususiyati bor.

Xoliq z i n g‘ i l l a gancha uy biqinidan o‘tgan toshloq yo‘lkaga chiqdi, otasiga qo‘rquv, xavotir bilan qarab: – Mana, ketyapman-ku... – dedi. Sh.Xolmirzayev, Ukki sayrayapti. *Kelinoyim oshxonadan chiqib, ko‘chaga z i n g‘ i l l a di.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Tushunish qiyin, qachondir o‘sha taft yo‘qoldi, avtobus gavjum shahar ko‘chalaridan g‘ i z i l l a b yelayotgandami yoxud qishloqni yonlab oqadigan soy bo‘yiga yetgandami, butunlay so‘ndi.* A.Dilmurod, Qo‘ng‘iroq. *Bitta eshigi tushib qolgan, lekin g‘ildiraklari joyida, bosibroq ortga tortib qo‘yib yuborsang g‘ i z i l l a b ketadi.* M.Yo‘ldoshev, Mamduh. *Tashqari chiqishim bilan surmarang taksi g‘ i r i l l a b kelib shundoq yonboshimda to‘xtadi*. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *– Men hozir g‘ i r i l l a b yetib boraman, o‘rtoq Sultonov, – dedi Mamajon belidan arqonni yechib, – gapning po‘stkallasini aytsam, uka, menga juda alam qildi.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Muharririmiz bergan nomdan mamnun oshpaz-qorovul “tushundim, tushundim” degandek sirdoshlarcha bosh qimtib, oshxona tomon z i p i l l a ydi.* E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir. *Bir zamon qarasa, ilmiy rahbaridan tortib boshqa hamma olimlar ham z i p i l l a b jo‘nab ketishayotganmish*. O‘.Usmonov, Girdob.

ZIRAK, ISIRG‘A, BALDOQ, OYBALDOQ Quloqqa taqiladigan bezak. **Isirg‘a** so‘zlashuvda faol qo‘llanadi, **baldoq** ko‘proq shevalarda uchraydi, shu

bilan birga, shaklan katta bo‘lgan zirak turini bildiradi. **Oybaldoq** shaklan oyga o‘xshash zirakni ifodalaydi.

Marvarid shodali z i r a k taqqan, ponbarxat ko‘ylagining yengini shimarib bolasiga holvaytar yedirayotgan mahrxo‘r xotin gap qotdi: – Qandoq xarj bo‘lsa akalarim, ukalarim hisobidan bo‘lsin, xotin boshim bilan nega men qilarkanman? Mening mahrimni bechiqim qilib berasizlar. S.Ahmad, Xomtalash. *Xitoyi ipak matolarga o‘rangan, quloqlariga ogir hindu z i r a k lari, qo‘llariga bag‘dodi oltin bilaguzuklar taqqan, burni puchuq, xunuk O‘g‘abegim Mirzo Ulug‘bekni quvib daxmaning tepasiga chiqarmish, etagiga yopishib, zino qilishga da’vat etarmish.* O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. *Abror aka – Otello, egnida qizil shohi ko‘ylak, belida qizil shohi belbog‘, qulog‘ida “tilla” i s i r g‘ a, qop-qora chehrasida viqor, vazminlik, oliyanoblik, tishlari yarqirab sahnaga kirib keldi.* O.Yoqubov, Abror aka. *Ayol quloqlariga halqa shaklidagi kattakon tilla i s i r g‘ a taqqan, uzun qora sochlari xuddi alvastilarnikiday yelkasi osha to‘zg‘ib yotardi.* H.Shayxov, Tutash olamlar. *Ayvon peshida sovun qutisidek radiopriyomnikni qulog‘iga tutib, o‘n ikki yoshlardagi bir qiz o‘tirardi. Uning quloqlarida so‘lkavoydek tilla b a l d o q.* S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg‘alar. *Suyukli yor, qulog‘ingda Tilla b a l d o q. Men yasharman yuragingda, Tilla b a l d o q.* M.Yusuf, Tilla baldoq. *Qoshlariga quyuq o‘sma qo‘yib, ikki chakkasidagi gajagini naq iyagigacha tushirib olgan, qo‘lida qo‘sha-qo‘sha bilaguzuk, qulog‘ida o y b a l d o q, yonib turgan bu ayolning ovozidagi qichiq, boqishlaridagi ishva Buzrukxo‘janing ko‘nglidagi shubhani oshirgandek bo‘ldi.* X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar. *O y b a l d o g‘ i yaltirab bu kechalari, O‘lan aytdi Turkman qizga chechalari.* B.Normurodov, Senga armon bo‘libmidi, Muhammad…

ZIYOFAT, O‘TIRISH, BAZM, GASHTAK, TO‘KMA Biror munosabat bilan uy yoki hovlida o‘tkaziladigan yig‘in, katta mehmondorchilik. **O‘tirish** so‘zlashuvga xos. **Bazm** badiiy uslubda qo‘llanadi. **Gashtak** shevaga xos. **To‘kma** – ulfatlar o‘rtaga to‘kkan mablag‘ va masalliq hisobiga, odatda, qish kunlarida o‘tkaziladigan o‘tirish.

Abdurahmon bir oy o‘tmay qavm-u qarindoshlarning-da z i y o f a t lari nihoyatiga yetib, beva onasining tuppasiga qanoat etishka majbur bo‘lib qoldi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Uchqo‘rg‘on, Lug‘umbek, Kuyganyor, Shahrixon, Asaka, Marg‘ilon, u yog‘i Konibodomgacha yana o‘n to‘rt joyda quruvchilar uchun katta z i y o f a t tayyorgarligi ko‘rilayotgandi.* S.Ahmad, Ufq. *Mansurning og‘zidan nogoh chiqib ketdi: – Jo‘ra, bir o‘ t i r i sh qilsam, nima deysiz?* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Mardonbek akaning o‘zi og‘zi qulog‘iga yetib, shuni odamlarga gapirib beribdi. Qaysi bir o‘ t i r i sh da o‘g‘limning to‘yiga Olimjonni olib kelmasam, otimni boshqa qo‘yaman, deb yuborgan ekan*. O‘.Umarbekov, Qaytar dunyo. *Haddingni bilib chek qo‘y o‘yin, b a z m, o‘tirishga, Ko‘z*

och, o‘tir ishga. E.Vohidov, O‘zimga savol. *Bir botir suvoriy o‘tarkan, shunda B a z m ga nazari tushdi nogahon.* A.Oripov, Jinlar. *Qo‘ying, bugun qolay g a sh t a k dan, Bo‘lolmasman siz bilan birga.* E.Vohidov, Yolg‘izlik istagi. *G a sh t a k ning butun a’zolari va mehmonlar avval oqshom majlis bo‘ladigan joyga to‘planganlar*. S.Ayniy, Esdaliklar. *...stolni shishalar qoplagan, ular t o‘ k m a da yo gap-gashtakda o‘tirganday, qichqirib gaplashadi, qattiq kulishadi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Bu t o‘ k m a yig‘ilish, o‘yin-kulgi qilish uchun bir bahona edi, bu yerda childirma, dutori bilan Nosir akam ham hozir bo‘lardi.* N.Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim.

ZIYOLI, O‘QIMISHLI, ILMLI, MA’RIFATLI, INTELLIGENT Aqliy mehnat bilan shug‘ullanadigan, dunyoqarashi keng. **O‘qimishli** so‘zlashuv uslubiga xos, unda o‘qiganlik, oliy o‘quv yurtini tugatganlik ta’kidi mavjud. **Ma’rifatli, ilmli** badiiy nutqda faol. **Ma’rifatli** so‘zida diniy va dunyoviy ilmlardan xabardorlik ta’kidi anglashiladi. **Intelligent** hozirgi adabiy tilda kam qo‘llanadi.

Yangi direktor z i y o l i odam-da, qilni qirq yoraman deb, sizni shoshirib qo‘yayotgani yo‘qmi? P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Xalqimizning chinakam ozodlik va istiqlolga erishishi uchun siz bilan bizga o‘xshagan z i y o l i lar kurashmasa, kim kurashadi?* H.Shayxov, Sohildagi fojia. *Buxoroda qancha hujra bor? Yer yuzida qancha o‘ q i m i sh l i odam bo‘lsa, shuncha.* M.Yusuf, Saylanma. *Qo‘shni hovlida Zamonalidek o‘ q i m i sh l i va odamshavanda yigit yashaydi.* P.Qodirov, Qora ko‘zlar. – *Qiziq. Ilmsiz, hatto qo‘l qo‘yishni bilmaydigan odam qanday qilib sizdek i l m l i odamga pir bo‘ladi? – ko‘zlarini ayyorcha qisdi Salim.* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Shuni o‘qitib, menga odam qilib ber. Bittasi i l m l i bo‘lsin, – deb iltimos qilib qoldi.* S.Ahmad, Ufq. *...dadamning asl otlari Nuriddin bo‘lsa-da, ko‘proq “Traktorchi qori” deb atashardi. Chunki u kishi tengdoshlari orasida ancha m a’ r i f a t l i, bilimdon edilar*. D.Nuriy, Vijdon hayqiriqlari. *Har qanday m a’ r i f a t l i qalb sohibini yuhodek yutib yuborishga qodir o‘rmonni tark etishni-da o‘ylamay, yo‘q, aksincha, tepa shoxlari ko‘rinmas bahaybat daraxtlarni bosib-yanchib o‘tish qasdida shaxdam qadamlar ila ilgarilayverdi*. X.Do‘stmuhammad, Umid guli.*...general Ambarsumyan degani shu ekan. Xo‘p muloyim gaplashdi. “Siz – Shomatov, i n t e l l i g e n t odam ko‘rinasiz, maktabda dars berarkansiz”, dedi*. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Kallakesarlar “siyosiy dushmanlar”ni mazax qiladi. “Ha, i n t e l l i g e n t lar, Vatan xoinlari, ahvoling qalay?”* S.Ahmad, Qo‘rquv saltanati.

ZIYONKORLIK, ZARARKUNANDALIK Zarar keltirish, ziyon yetkazaverish holati. **Ziyonkorlik** oddiy so‘zlashuvda faol, **zararkunandalik** ko‘proq badiiy uslubga xos.

Rostlik bila savdo alarga z i y o n k o r l i k va va’daga vafo alarga badkirdorlik. Navoiy, Mahbub ul-qulub. *Qaytib kelsa, haykal hamon bir oyoqda tu-*

ribdi. Rais janjal ko‘tardi: bu qanaqasi, yubiley kelyapti, kim qilyapti bu z a r a r k u n a n d a l i k n i! A.Muxtor, Etik. *1932-yil yozida adib aksilinqilobiy, z a r a r k u n a n d a l i k faoliyatini olib borganlikda ayblanib, uch yilga Janubiy Sibirga surgun qilinadi*. N.Karimov, G‘ulom Zafariy.

ZIYORATGOH, QADAMJO Aziz-avliyolar xoki saqlanadigan, ziyorat qilinadigan joy. Publitsistik, rasmiy uslublarda **ziyoratgoh** qo‘llanadi. **Qadamjo** ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanadi.

Yakshanba kuni ertalabdan Sayramga jo‘nab, kun bo‘yi o‘ndan oshiq z i y o r a t g o h ni aylanib, kechqurun horib-charchab Oqsuvga qaytdim. G‘.Karimiy, Mankent afsonasi. *Sarasvati Gangaga pok yetib kelish uchun yer tagiga tushib oqibdir. Mana shu Ollohobodda yana yuzaga chiqib, sevgilisiga qo‘shilibdir. Shuning uchun bu daryolarning qo‘shilgan joyi muqaddas z i y o r a t g o h hisoblangay*. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Qrim, Qrim! Ezgu q a d a m j o, Shoir sevgan sehrgar sohil*. Mirtemir, Dengiz bo‘yida. *Qobulda “Bog‘i Bobur” degan q a d a m j o bor. Uning baland to‘rida shoirning qabri saqlangan*. A.Muxtor, Taft.

ZOHID, GO‘SHANISHIN Hayot lazzatidan voz kechgan, tarkidunyo qilgan kishi. **Go‘shanishin** badiiy nutqqa xos.

Z o h i d, senga hur-u menga jonona kerak, Jannat senga bo‘lsun, menga mayxona kerak. Navoiy. *Z o h i d larga qarshi chiqib, Orif bo‘ldi shoirlar.* E.Vohidov, Zohidlar va oriflar haqida hikoyat. *Men bir darvish banda esam, g o‘ sh a n i sh i n zot, dunyoning to‘rtdan birini band aylagan sultonlikni boshqarishga faqirga yo‘l bo‘lsin!* M.Ali, Sarbadorlar. *G o‘ sh a n i sh i n Abdishning kallasi haqiqatan zo‘r ishlashiga shubha yo‘q – agar siz, xotin, bola-chaqasi nima bo‘ladi, deb xavotirlansangiz, Abdish, xotin yo‘limda, bola belimda, degan aqidaga qat’iy amal qilishini aytib o‘tish o‘rinli*. I.Ismoilov, Meteorit.

ZOHIDLIK, GO‘SHANISHINLIK, TARKIDUNYOCHILIK Hayot lazzatidan voz kechish, tarkidunyo qilish. **Go‘shanishinlik** badiiy nutqqa xos. **Tarkidunyochilik** ko‘proq ilmiy adabiyotlarda qo‘llanadi.

U shu ishlarning hammasini “haqiqat” uchun, tariqatdan, shariatdan, so‘fiylik, z o h i d l i k dan yuqori va yuksak bo‘lg‘on bir haqiqat uchun ishlagan edi. Cho‘lpon, Shayx San’on. *Ana shunday ruhiy tazyiq ostida Mariya Nikolayevna tarkidunyo qilib, monastirga boradi, umrini z o h i d l i k da o‘tkazadi.* H.Sattoriy, Turgenev turtkisi. *Johil, nodonlardan uzoq yurish yaxshi, ammo g o‘ sh a n i sh i n l i k maqbul emas, adabiy mahfillarga, munozara-musohabalarga qatnashmoq, hayotda faollik ko‘rsatmoq ilhomni toblaydi, ijodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.* N.Komilov, Ustoz va yosh iste’dod. *Bu hol lirik qahramonni umidsizlikka, g o‘ sh a n i sh i n l i k ka chorlayotgani yo‘q.* N.Rahimjonov, Tiriklik nashidasi. *Xotiranavisning bu so‘nggi so‘zlari Kamiyni*

t a r k i d u n y o ch i l i k ka ruju qo‘ygan, uzlatga chekingan kishi emas, balki ko‘ziga she’riyatdan boshqa narsa ko‘rinmagan, yashash ma’nosini faqat badiiy ijoddan, she’riyatdan topgan shoir, deb tushunish to‘g‘riroq bo‘ladi. E.Ochilov, Jahoniy tariqat asoschisi. *T a r k i d u n y o ch i l i k, xilvatni rad etib, jamoat bilan birga bo‘lishni shart qilib qo‘ydi.* N.Karimov, Abdulla Qodiriy va Toshkent adabiy muhiti.

ZOLIM, ZULMKOR, JOBIR, QONXO‘R Zulm, jabr qiluvchi va keltiruvchi. **Zulmkor** so‘zida zulm, zo‘rlik ta’kidi ochiq ifodalanadi, kitobiy nutqda qo‘llanadi. **Jobir** badiiy uslubga xos, unda jabr qiluvchilik ta’kidi bor, eskirgan so‘z. **Qonxo‘r**da belgi darajasi boshqalarga qaraganda yuqori.

Tong yeliday saharlarda Yov ustiga yurar bo‘ldim. Yurtim uchun zo‘r janglarda Z o l i m larni qirar bo‘ldim. Mirtemir, Saharlarda. *Nahotki buning uchun Shayboniyxonday makkor, z o l i m va shafqatsiz bo‘lish kerak edi?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Kimning qo‘li qon – u adolat peshvosi, kimning yolg‘on va aldov piri – u rostgo‘ylik timsoli, kim jaholatparast – u donolik ramzi, kim z u l m k o r va xo‘rlovchi – u rahm-shafqat ko‘zgusi.* N.Eshonqul, Qora kitob. *O‘z eriga dor tutib chiqqan z u l m k o r ayolday ketardim.* Oydinniso, Afv. *Tarix ko‘p yil tahqir bitar Chingiz kabi j o b i r ga.* E.Vohidov, Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat. *J o b i r mustabidlar irodasi-la ne sirlar ingraydi mash’um kenglikda.* Sh.Rahmon, Shohrux mirzo suhbati. *Q o n x o‘ r daryo qaro qildi kunduzim, Ko‘zim nuri o‘sha edi, yolg‘izim...* M.Yusuf, Daryo. *Erkalashi mangu bitibdi... Qon toshibdi q o n x o‘ r ko‘zida...* Mirtemir, Nurxonni yo‘qlab.

ZOTILJAM, PNEVMONIYA O‘pkaning o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishi kasalligi. **Pnevmoniya** – kasallikning xalqaro nomi, ilmiy uslubda ko‘p ishlatiladi.

Jannat bibi jannatga Ketdi bultur javzoda, Qorini o‘n yil burun Olib ketgan Z *z o t i l j a m*. E.Vohidov, Jumadan qolgan odam. *Esimda: bolalik, kulba, qahraton... Z o t i l j a m qiynardi sizni tun-u kun.* M.Mirzo, Onajon. *– P n e v m o n i y a! – dedi do‘xtir negadir Rustamga yuzlanib. – O‘ng o‘pkasi shamollagan.* O‘.Hoshimov, Saylanma.

ZOTLI, ZOTDOR, NASLDOR Irsiy kelib chiqishi yaxshi, toza. **Zotdor** toza nasllilik ta’kidini **zotli**ga nisbatan kuchli ifodalaydi, kitobiy uslubga xos. **Nasldor zotli**, **zotdor**ga qaraganda kamroq qo‘llanadi.

Sherqo‘zi pulga muhtoj emas. Uch govmish sigiri (bittasi yaqinda tug‘ib beradi), ikki z o t l i buzog‘i, bir novvosi bor... A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Qumri xolaning echkisi podadan qaytmadi... Shundoq z o t l i echki to‘satdan g‘oyib bo‘lsa!* L.Mahmudov, Mehr qolur... *Avvalgi yili borganida qaysi bir og‘aynisiga yomon ko‘rinib, bir kuchuk ola keldi. Yomon ko‘rinib deganimiz – z o t d o r kuchuk o‘g‘irlab olib kelindi*. T.Sulaymon, Sirtlon. *– Juda z o t d o r echki – bu. Egiz tug‘adi. Sutini buving sog‘ib oladi, – dedi Karvon.* Sh.Ismat,

Uloqcha. *Akamning iztirobga tushayotgani bejiz emasdi. Qorabayir nihoyatda zo‘r, n a s l d o r ot edi*. U.Mustafoqulov, Oq qashqa. *Rahmonqul: – Suti uvuzdan endi ajrab edi. Pushti n a s l d o r bo‘ladi deb umid qiluvdim.* S.O‘nar, Chambil-belning oydalasi.

ZOVUR, ZAKAN, ZAXKASH Zaxni qochirish uchun qazilgan chuqur ariq. **Zakan** kam ishlatiladi. **Zaxkash** xalq tilida qo‘llanadi.

Besh metr chuqurlikdagi z o v u r larning ichi hovuzday keng... P.Qodirov, Meros. *Urush boshlanishidan bir-ikki oy oldin hovlimizning o‘rtasidan vodo-provod o‘tdi. Odam zo‘rg‘a hatlab o‘tadigan z o v u r qazildi*. O‘.Umarbekov, Qaytar dunyo. *Ot botqoqlikdagi z a k a n suviga tumshug‘ini botirib ichmoqchi bo‘ldi-yu, sho‘rligidan yana tumshug‘ini tortdi*. S.Ahmad, Odamning izi. *U z a k a n ning baland qirg‘og‘iga tirmashib chiqolmasdan ko‘p urindi. Bolalar yuqoridan turib xoxolab kulishdi*. N.Abbosxon, Ustoz. *– Hozir turtib yubora-man, suvga tushib oqib ketasan, – deb qo‘lini ko‘targan edi, qo‘rqqanimdan undan oldin ko‘ksidan itarib yuboribman, chinqirgancha z a x k a sh ning o‘rta-siga shaloplab tushdi*. I.Mirzo, Bonu. *Momomning uylari G‘oybu qishlog‘ining Oyoqbog‘ degan tomonida edi. Bizning elat bilan ularning elatini z a x k a sh ajratib turardi*. N.Yangiboyeva, Aytilmagan qo‘shiqlar.

ZULM, ZUG‘UM, ISTIBDOD, TAADDI Biror kishi, biror toifaning bosh-qalarga ko‘rsatgan yomonligi. **Zug‘um** so‘zida belgi darajasi **zulm**ga qaraganda kuchliroq. **Zug‘um** badiiy uslubga xos. **Taadi** – eskirgan so‘z. **Istibdod** omma-ga yetkazilgan jabrni ifodalaydi.

Amir Shohmurod zohidona hayot kechirdi: birovning haqini z u l m bilan tortib olib yemadi... S.Is’hoqov, Qabrdan chiqqan qul. *Shuningdek, mo‘g‘ul z u l m idan qochib yurgan boshqa musulmonlar ham kelib Jaloliddinning safi-ga qo‘shilishdi*. S.Ochil, Xorazm jonim mening. *Bu to‘ra... Ayniqsa, urush bosh-langandan buyon bunday “kezishlarni” va z u g‘ u m ini kuchaytirgan edi*. Oy-bek, Tanlangan asarlar. *Bir kuni u ijarador kampirning z u g‘ u m idan zada bo‘lib, xiyobondagi xarrakda o‘tirgan chog‘i o‘sha qiz yoniga keldi*. Sh.Ismat, Sukunat sohili. *Siz bo‘lsangiz i s t i b d o d daraxtini tag-tomiri bilan qo‘porib tashlash o‘rniga shoxchalarini sindirib yuribsiz...* X.To‘xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi. *...kishi go‘yo o‘zini xon huzurida, i s t i b d o d salobati ostida sezar va muhtasham va muzayyan qasrdan ruh olish o‘rnig‘a, bil’aks, bir dahshat va xavf his eta boshlar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Biz... Musulmonqul-ning zulm va t a a d d i si... bag‘oyat oshib borganligini muzokara... qilishdik.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bir nechasi aytdi: – Hozir ultonning t a a d d i sidan qochib, bo‘lak chegaraga borib turganimiz ma’qul.* “Yodgor”.

O‘

O‘JAR, QAYSAR, QIYIQ, TIXIR, SARKASH, KAJBAHS, TARXASH, GOJ, O‘R To‘g‘ri, maqbul maslahat, gap-so‘zga ham quloq solmay, yon bermay, o‘z fikrini ma’qullayveradigan, gap uqmaydigan. **Qaysar** so‘zida o‘z fikrida qat’iy turish mazmuni kuchli ifodalangan. **Qiyiq** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi. **Tixir** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos. **Sarkash** so‘zida birovga itoat etmaydigan, bo‘yin bermaydigan kabi ma’no ta’kidlari qabariq ifodalangan, kam qo‘llanadi. **Kajbahs** so‘zi mantiqsiz bahs-munozara qilib, o‘z fikrini oldinga suruvchi insonlarga nisbatan qo‘llanadi, eskirgan, kitobiy. **Tarxash, goj** so‘zlari kam qo‘llanadi. **O‘r** so‘zi, asosan, shevada, shuningdek, xalq og‘zaki ijodida uchraydi.

Bayramxon amir Muzaffarga shuni aytib, buyruqni yana bir takrorladi, ammo o‘ j a r afg‘on amiri Muzaffarxon buyruqni bajarib bo‘lmasligini aytdi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *O‘ j a r ruhim, jangari ruhim, Bir zumgina o‘yga tolsang-chi.* A.Sher, Qadimgi kuy. *Q a y s a r yigit ekan, bir baloni boshlamasa go‘rgaydi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Manovi qo‘rs-u q a y s a r bola bilan bir xonada o‘tiraverib siqilib ketdi.* E.A’zam, Shovqin. *Mulla Ikrom q i y i q odam bo‘lganidanmi yoki kasbi shuni lozim ko‘rganidanmi, murosaga unamadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Hur edim, s a r k a sh edim, yuksakdir maqomim mening. Boltalanmoqda sarvdek bor-u tamomim mening.* M.A’zam, Kuzgi yaproqlar. *Akbar: – Amirzodam, siz ertaga yana Rajastxonga jo‘nab keting, – dedi. – Tog‘angiz Man Sinx hamon s a r k a sh mevarliklar bilan olishmoqda.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Darvesh hoji hech kimning fikri bilan kelisholmaydigan o‘jar, k a j b a h s edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Dunyoda o‘zbek xotinlaridan injiq, k a j b a h s i yo‘q. Go‘yo uylanish faqat erkak uchun kerakdek!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Yog‘dularin to‘kmaydi oy barkashda, Osmon bilan yer arazda – t a r x a sh d a.* E.Oxunova. *Akasi A’zamjon g o j roq edi. U dadasining gapiga “xo‘p” derdi-yu, keyin o‘zi bilgancha ish tutib ketaverardi.* S.Ahmad, Ufq. *– Hay-hay! – dedi Nasriddin polvon, – Og‘aynilar, g o j bo‘lmang juda.* M.Ali, Boqiy dunyo. *Hali bu bola yosh bo‘lsa ham, yomon o‘ r bola ekan. O‘zbek o‘ r bo‘ladi-da, deyishayotirlar.* “Ravshan”.

O‘JARLIK, QAYSARLIK, TIXIRLIK, KAJBAHSLIK, SARKASHLIK, TARXASHLIK, GOJLIK, O‘RLIK O‘z bilganidan qolmaslik, o‘jarlarga xos xususiyat. **Kajbahslik, sarkashlik, tarxashlik**, **gojlik** so‘zlarida o‘z fikrini ma’qullash ta’kidi kuchli, eskirgan, kitobiy. Bu so‘zlar ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanadi. **O‘rlik** so‘zi shevaga xos.

O‘ j a r l i k ni qo‘yib, gapimga quloq solsang... og‘angning yoniga olib kiraman. Mirmuhsin, Me’mor. *Agar kimdir birov “bag‘ritoshsan”, desa, ranjiydigan… bu odamni o‘ j a r l i k otidan tushira olish haligacha hech birlariga nasib etmagan.* T.Malik, Xazonrezgi. *Johil va bag‘ritosh bir otaning chegarasiz q a y s a r l i g i va teskariligi oldida ojiz bir xotin... nimjon bir ko‘ngil...* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Amirning q a y s a r l i g i tutdimi yo boshqa degulik gapi qolmadimi, har holda, bular ishonadigan sabab qidirib o‘tirmadi.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘rinbu qaynatasining t i x i r l i g i dan uyaldi.* S.Anorboyev, Oqsoy. *K a j b a h s l i k qilganlari ham Umarshayx mirzoning kuni bitganini, agar biror tasodif bilan yana taxtda qolsa-da, shu badfe’lligi-yu, urishqoqligi omon bo‘lsa, bir vaqtlar Yunusxonga taqdim qilib yuborganidek, butun Farg‘onani bo‘lak-bo‘laklab boshqalarga in’om etib yuborishini aytganda, shayx Mazidbek tomonga o‘tishdan o‘zga chora topa olishmadi.* T.Qurbon, O‘lim sharpasi. *Sen ey gul, qo‘ymading s a r k a s h l i g i ngni sarvdek hargiz, Ayog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.* Bobur, Xazon yaprog‘i yanglig‘... *Suvon aka hazilaki t a r x a s h l i k qilib, lekin keyingi kursiga ko‘chib, yonidan joy bo‘shatdi.* E.A’zam, Hulo‘l. *Mahkam Musayev buni Ergashevning t a r x a s h l i g i dan bildi.* I.Rahim, Zangori kema kapitani. *Hech kim legionga xohish bildirmay turgan shunday nozik bir paytda “o‘zimniki to‘g‘ri” deb g o j l i k qilishni o‘rinsiz bilgan Ali Naimxon bir isqirt asirning guvohligiga ishonib qo‘ya qolishni ham istamas edi.* Shuhrat, Oltin zanglamas. *O‘ r l i k qilsa, aytgan so‘zga ko‘ndirib, Musofirga zo‘rligimiz bildirib...* “Yodgor”. *Odamlar cholni o ‘r l i k da qanchalik ayblamasin, lekin u jo‘n turmushga ko‘nikib ketolmadi.* N.Norqobilov, Bekatdagi oq uycha.

O‘LAKSA, O‘LIMTIK, O‘LAMSA, MURDOR O‘lgan jonivor. **O‘limtik** so‘zida nopok, harom o‘lganlik ta’kidi mavjud. **O‘lamsa –** shevaga xos so‘z. **Murdor** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi. **O‘laksa, murdor** so‘zlari ba’zan haqoratni bildiruvchi so‘z sifatida ham ishlatiladi.

Burgut bo‘la olsang, nimaga chang solishni bilib ol: quzg‘unga o‘xshab o ‘l a k s a ovlama. T.Malik, Shaytanat. *O‘ l a k s a ga o‘ch, xuddi yom-yom, Qaydan topay yovga mos bir nom.* Mirtemir, Tanlangan asarlar. *Yo‘lning kanorida – shundoq sarhadda O‘ l i m t i k yer edi allaqanday zot.* A.Oripov, G‘iybat. *Bir maymun pista chaqardi chaqchayib, O‘ l i m t i k axtarardi yolli sirtlon.* M.A’zam, Kuzgi yaproqlar. *Bu bo‘rilar o‘shaning bitta-yarimta o‘ l a m s a sini yeb… yurishadi.* N.Qobilov, Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar. *Magar masjidda eshitmadingmukim, bechora, ahvoli tang bo‘lgan odamlarga m u r d o r ni yemak haloldir, deb.* A.Qahhor, Millatchilar.

O‘LAKSAXO‘R, O‘LIMTIKXO‘R, O‘LIMSAXO‘R, MURDAXO‘R, MURDORXO‘R, **KALJO‘RCHI** Harom o‘lgan narsalarni yeyuvchi; o‘laksa bilan ovqatlanuvchi (hayvon va qushlar haqida). **O‘limtikxo‘r** so‘zi barcha nutq

uslublarida birdek qo‘llanadi. **O‘limsaxo‘r** shevaga xos so‘z. **Murdaxo‘r, murdorxo‘r** so‘zlari nisbatan kam qo‘llanadi.

Ayol xarsangtosh ustida o‘lja talashib, bir-biri bilan cho‘qishayotgan o‘laksaxo‘r qushlardan boshqasini payqamadi. N.Norqobilov, Qora quyun. *Ko‘zini ochib, osmonda samolyotlar o‘rnida pastlab charx urgan o‘limtikxo‘rlarni ko‘rdi.* M.Mansurov, Yombi. *Sen o‘limsaxo‘r, murdaxo‘r bir hayvonsan.* S.Ayniy, Jallodlar. *Osmonda uchadiganlardan murdaxo‘r kalxatni, suvda suzadiganlardan akulani, sudraladiganlardan kobra ilonni, o‘rmalaydiganlardan qoraqurt bilan chayonni, vahshiy hayvonlardan sherni ham, boringki, jami jonzotni bitta qo‘ymay o‘pib chiqqan.* S.Ahmad, Lab haqida doston. *Tepamizda kaljo‘rchi asta charx urib suzib yuribdi.* S.Anorboyev, Yo‘lda yo‘ldosh bo‘lganlar.

O‘LIK, MURDA, JASAD, MAY(Y)IT, LOSH O‘lgan, jonsiz tana. **O‘lik** so‘zi odamga nisbatan ham, boshqa hayvonlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Murda,** asosan, kishining jonsiz tanasiga nisbatan qo‘llanadi. **Jasad** ko‘proq odamning, qisman hayvonlarning jonsiz tanasiga nisbatan ishlatiladi, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Mayit** so‘zi kitobiy nutqqa oid. **Losh** odam, hayvon va parandalarning jonsiz jasadiga nisbatan qo‘llanadi.

Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi: – Xudoyo, ayamdi daydiga davo beygin. A.Qahhor, Bemor. *Kinochilar uyi hozirgina o‘lik chiqqan kabi sovuq huvullab turar, kimsasiz edi.* E.A’zam, Shovqin. *Avval aqldan ozib, jinni bo‘ladi. Keyin ochlikdan, yolg‘izlikdan talvasada jon berib... murdasi sasib yotadi.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *“O‘sha-o‘sha qabriston, – deya entikdi. – Tirik murdalar qabristoni!”.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Yusuf o‘g‘lining jasadiga so‘nggi bor ilinj bilan boqdi... bo‘lmadi, oq matoning ustidan peshanasidan o‘pib, jasadni go‘rning ichida turgan odamga emas (hatto u qo‘llarini cho‘zib turgan bo‘lsa-da), balki yonboshidagi otasiga uzatdi...* U.Hamdam, Muvozanat. *Ancha vaqtdan keyin xonaga kirgan kishilar arslonning o‘z akslari bilan jang qila-qila halok bo‘lganini ko‘rdilar. To‘rt tomondagi oynalarda esa minglab arslonlarning jonsiz jasadlari akslanib turar edi.* I.Sulton, Ozod. *Odamlar bosh egib o‘tirgan shu paytda go‘rkovning qopqoqli tobutni yuqoriga uzatganini, kafanlangan mayitni lahadga qo‘yganini hech kim ko‘rmay qoldi.* S.Ahmad, Umrim bayoni. *Jo‘xoriday qular dushmanning losh i, Quzg‘unlarga yemtik bo‘ladi go‘shi.* “Yusuf va Ahmad”. *Sayozgina chuqurlikda butun boshli sigir losh i cho‘zilib yotardi.* N.Norqobilov, Bekatdagi oq uycha.

O‘LIM, VAFOT, QAZO Organizm hayot faoliyatining butunlay to‘xtashi. **O‘lim** so‘zi kengroq qo‘llanadi. **Vafot** so‘zi, odatda, badiiy nutqda qo‘llanadi. **Qazo** juda kam va, asosan, *yetmoq* fe’li bilan qo‘llanadi.

“Gumondor bormi?” – dedi usta.”Gumondor-ku yo‘q, ammo bechoraning o‘ l i m i juda qiziq kunga to‘g‘ri keldi”. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko‘radi, ona tilida yig‘laydi... o‘ l i m oldida onasini ona tilida yo‘qlaydi...* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Gulnor qiz Unsin bilan gaplashganda, uning qishlog‘i, uy-joy, tirikchiliklari, onasi, u bechora xotinning v a f o t i va shuning singari narsalari to‘g‘risida so‘z ochar edi.* Oybek, Qutlug‘ qon. *Kul Tegin v a f o t idan so‘ng Tan xoqoni bilan qitanlar-u tatabilar orasida tanglik yuzaga keldi.* I.Sulton, Bilga Xoqon. *Ona “q a z o yim yetib olamdan o‘tsam, bolam o‘z qo‘li bilan qabrga qo‘yadi” deb umid qilardi*. S.Ahmad, Ufq. *Sultonning q a z o sini falokat dema, taxt bo‘sh qolganidan foydalanib, Sulton Abusaid Mirzo Xurosonga kirganini falokat de!* I.Sulton, Alisher Navoiy.

O‘LMOQ, VAFOT ETMOQ, QAZO QILMOQ, QAYTISH QILMOQ, NOBUD BO‘LMOQ, QURBON BO‘LMOQ, HALOK BO‘LMOQ, UZILMOQ Hayoti tugamoq, yashashdan to‘xtamoq. **Qazo qilmoq**, asosan, katta yoshdagi kishilarga nisbatan qo‘llanadi. **Qaytish qilmoq** ko‘proq shevada qo‘llanadi. **Nobud bo‘lmoq** oddiy so‘zlashuvda, asosan, go‘daklarga nisbatan qo‘llanadi. **Qurbon bo‘lmoq, halok bo‘lmoq** jang, kurash va shu kabi hodisalardagi o‘limni ifodalaydi. **Uzilmoq** jon chiqish paytini ifodalashda qo‘llanadi.

Usta Olim ham Otabekka o‘zining o‘lgan Saodati to‘g‘risidagi ipidan ignasigacha bo‘lgan xotiralarini takror-takror hikoya qilib, hikoyasi oxirida: “Peshanamga sig‘madi-da, o‘ l di!” – deb qo‘yar edi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu yerning do‘xtiri “o‘ l adi” degan odam, mana, qarang, yana o‘n besh yil yashadilar. O‘n besh yil-a!* E.A’zam, Suv yoqalab. *Oqshom vaqti To‘raqulov v a f o t e t ib edi. To‘raqulov sobiq raykom sekretari edi.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Uzoq vaqtlardan beri, onasi v a f o t e t ganidan beri birinchi marta uning ma’yus boqishlarini aniq tasavvur etdi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Qo‘shchi bobo-* **O‘** *ning tengdoshlaridan ko‘plari q a z o q i l ib, uch-to‘rt qariya bir-birlariga juda suyanishib qolishgan edi.* Mirmuhsin, Umid. *Alimardon diplom yoqlashidan bir hafta oldin onasi q a z o q i l di. U orzusiga yetolmadi: kelinining qo‘lidan bir piyola choy icha olmadi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Momo eri q a y t i sh q i l ganda ellik yoshda edi. Mana shunga ham o‘ttiz yil bo‘pti.* S.Tursunov, Chavandozning ko‘ngli. – *Turg‘un Mirhosilga qarab izoh berdi: – Sen armiyada eding. Enam q a y t i sh q i l ganda kafanlikka bergan surpdan Urayim o‘g‘ri salkam bir metrini urib qopti-da.* T.Malik, Xazonrezgi. *Qarasam, G‘afforjon n o b u d b o ‘ l ganligi to‘g‘risida uning nomiga kelgan qora xat.* A.Qahhor, Xotinlar. *Ko‘p odam shundan n o b u d b o‘ l gan. Ha, isdan ehtiyot bo‘lish kerak. Is deymiz-u, o‘zi bu – zaharli gaz, is gazi.* A.A’zam, Hali hayot bor... *Yigit o‘ldi. U – qahramon, u – mard inson, b o‘ l di q u r b o n.* Mirtemir, Tanlangan asarlar. *Turonda shayboniyzodalar eng johil kuchlarni qo‘zg‘atib, mazhab urushini boshlamasa edi,*

ming-ming odam behuda q u r b o n b o ‘ l mas edi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Shomatov h a l o k b o ‘ l gan kuni, ertalab siz o ‘sha atrofda yugurib yurganingizni ko ‘rgan odamlar bor.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Zokirning otasi bir yil oldin h a l o k b o ‘ l gan, akasi hali frontda, oyisi ro ‘zg ‘orlaridagi buyumlardan sotib tirikchilik tebratar edi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Endi ovoragarchilikning foydasi yo ‘q... Shu bugun tongda, quyosh endi tig ‘ urib, qushlar chug ‘urlay boshlagan damda, opasi bilan qariyb bir vaqtda u z i l di.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Bu taxmin Akbarni seskantirib yubordi. Salim ota ertasi kuni u z i l di.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

O‘PICH, BO‘SA, MUCHCHI Sevish, erkalash ifodasi sifatida lab tegizish. **Bo‘sa** bu ma’noga poetik ifoda qo‘shadi, kitobiy nutqqa xos. **Muchchi**, asosan, folklorda va o‘zbek tilining ayrim shevalarida qo‘llanadi.

Xotin uning harakatidan “O ‘ p i ch ber” degan ma’noni angladi-da: “O ‘p i ch mi? Hech bo ‘lmasa, shuni to ‘g ‘ri ayta qolsangiz, nima bo ‘lar ekan!” – dedi. A.Qahhor, Nutq. *Aynan shu birinchi o ‘ p i ch umid daryosini to ‘sib turgan to ‘g ‘onni buzar, visolning nurli cho ‘qqisini in’om etar edi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Birinchi marta sovg ‘a keltirib berganingizda onangizning ko ‘zida qalqigan yoshmi? Birinchi b o ‘ s a mi?* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Jonim qurbon qoshing bilan ko ‘zingdan, Bir m u ch ch i ber, bolam, narigi yuzingdan.* “Avazxon”. *Mol-u dunyong darkor emas Oqqizga, O ‘xshatib bir m u ch ch i olsang bo ‘ladi.* “Ravshan”.

O‘Q, PAYKON, TIR Yoyga qo‘yib otiladigan, uchi nayzasimon uzun, ingichka tayoqcha. **Paykon** so‘zi kitobiy nutqqa mansub. **Tir** so‘zida eskilik bo‘yog‘i mavjud, bu ma’noda kam qo‘llanadi.

U kamonga chapdastlik bilan o ‘ q o ‘rnatdi va chopib borayotgan ot ustida nishonga otdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ko ‘kturk o ‘rmonlarida esa hali-hanuz Ashina o ‘ q-yoyi bilan kezadi. U odam bolasi, biroq bo ‘rini emgan botir hisoblanadi.* I.Sulton, To‘linoy xayollari. *Qamishdan yasalgan qo ‘lbola p a y k o n daraxt shoxlari orasida ko ‘zdan g ‘oyib bo ‘ldi.* G‘.Shermuhammad, Langartog‘ yo‘lida. *...yillar mobaynida vayronalardan sopol siniqlari, zanglagan temir p a y k o n larni izlab topib, qaysi davrga oidligini aniqlash uchun ularni chang-u zangdan tozalashdan or etmagan.* G‘.Karimiy, Ulug‘ muarrix. *Har balodan asraguvchi, eng muhim qimmat yarog ‘ – T i r i vahshat, xanjari zillatga qalqondir kitob.* Hamza, Kitob. *...qo ‘mondon birinchilar qatorida olishardi; u o ‘ng boldiridan Katan t i r i bilan yaralandi, t i r ning uchi yaralangan soniga kirib qoldi.* Q.Amon, Spitamen.

O‘QDON, SADOQ, TIRDON Kamalak o‘qlari joylanib, belga bog‘lanadigan yoki yelkaga osib yuriladigan asbob. **Sadoq** eskirgan, ko‘proq tarixiy asarlarda qo‘llanadi. **Tirdon** nisbatan kam ishlatiladi, eskirgan, asosan, tarixiy mavzudagi asarlarda qo‘llanadi.

Urushga kirganingda o‘ q d o n ni yo o‘ng biqiningga, yo egarga os. Yelkangda bo‘lsa, enkayib ot choptirganingda olishga qiynalasan. I.Sulton, Bilga Xoqon. *Yog‘och va sigir shoxidan qurol* (*o‘q-yoy, o‘ q d o n, nayza, qalqon*) *yasash avj olgan.* “O‘zME”. *Qizlarning ham, yigitlarning ham bellarida o‘q-yoyi va s a d o q larida o‘qlari bor edi.* M.Osim, To‘maris. *Xiyonatchining holi ne kechishi avvaldan ma’lum, taslim bo‘lmoqdan, qilich va s a d o q ni bo‘yniga osib, tuproqqa belanib emaklab, sultondan afv istashdan o‘zga chora yo‘q edi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Mehmonxona devorida eskigina kamon va tirlari bilan t i r d o n osilib turardi – Taxmos ovga borishni yoqtirardi.* Q.Amon, Spitamen.

O‘QIMOQ, MUTOLAA QILMOQ So‘z, jumla, gap, matn va shu kabilarning yozma shaklini ichda yoki og‘zaki ifodalamoq. **Mutolaa qilmoq** so‘zida diqqat bilan o‘qish, o‘qib tushunib olish ta’kidi mavjud, badiiy uslubga xos.

Bir fikrni qat’iy, ishonch bilan aytish mumkin: Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarini o‘zbekning uch avlod kitobxoni qunt, qiziqish bilan o‘ q i di. X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *...so‘lim daryo yoqasidagi uch qavatli muhtasham saroyda kelajak insonini yaratish borasidagi tadqiqotlarning navbatdagi yakuni o‘ q i b eshittirilmoqda edi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Saidiy qaytib kelganida, hamhujrasi Ehson tor va dim uyda ishtonchang, dimiqib o‘ltirib, m u t o l a a q i l ar edi.* A.Qahhor, Sarob. *Endi u ilgarigidan ham ko‘proq va xo‘broq namoz o‘qiydigan, m u t o l a a q i l adigan, odamlarga va’z aytadigan bo‘ldi-qoldi.* U.Hamdam, Muvozanat.

O‘QITUVCHI, MUALLIM, USTOZ (USTOD), DOMLA, PEDAGOG, AFANDI, MURABBIY Fan, tarbiya asoslaridan birini o‘qituvchi, shuningdek, ta’lim-tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchi shaxs. **Ustoz, domla** so‘zlari har qanday ilmli kishiga hurmat bilan murojaat etish shakli sifatida ham qo‘llanadi. **Domla** so‘zi, odatda, ta’limning yuqori bosqichlarida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarga nisbatan qo‘llanadi. **Pedagog** so‘zi o‘qituvchi va tarbiyalovchi shaxs ma’nosini bildiradi. **Ustod**, **afandi** so‘zlarida eskilik bo‘yog‘i mavjud, ayni paytda bu so‘zlar kitobiy nutqqa xos. **Murabbiy** umuman tarbiya beruvchi ta’kidiga ega, ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Uning shahardagi qiliqlaridan bexabar Toshbolta jilmayib qo‘yishlariga xushtor bo‘lib, “o‘ q i t u v ch i xalqi yaxshi bo‘ladi”, degan fikrda odam qo‘ydi. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Bugun o‘g‘lini uylantirgan anavi chol o‘ q i t u v ch i man, dedimi?* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Ashula m u a l l i m i bor-ku, o‘sha. Qarasam, suvni hovuzchasiga burib o‘tiribdi.* E.A’zam, Suv yoqalab. *Ular boshlarini ko‘tarib, suyukli m u a l l i m ni tabassum bilan qarshiladilar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Men charxpalakni emas, u s t o z larimni qo‘msar ekanman. Suv – suv emas, men ekanman! Charxpalak – charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Xullas, u s t o d bilan shogird o‘rtasida samimiy munosabat paydo bo‘lib, bir-birlarini tez-tez yo‘qlay-*

digan bo‘ldilar. S.Abdulla, Mavlono Muqimiy. *Avaz har kuni ertalab ulug‘ u s t o d larining kitoblarini o‘qib, dars olardi.* J.Sharipov, Xorazm. *Yangi usul maktabning yaxshiligi, bolalarning toza, yorug‘ xonada o‘tirib o‘qishligi, yosh d o m l a ning xushmuomalaligi, yana ko‘p fazilati va xislatlari machit imomi Asad qorining eski usul maktabiga ham yetib bordi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Shayxzoda d o m l a, garchi meni o‘qitmagan bo‘lsa ham, men o‘qigan institutda dars berardi.* Shukrullo, Javohirlar sandig‘i. *Oddiy p e d a g o g bunaqa to‘y qilolmaydi. Demak, bu ham qallob! Qarang, pora bermoqchi bo‘ldi-ya!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Uning “muallim o‘zimizniki” ...A f a n d i mning tuprog‘i shu yerdan olingan! deganini esladi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Sizning dushmaningizni aytayotganim yo‘q, a f a n d i m. Turk-islom xalqining dushmanlarini aytaman*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *A f a n d i m, bayonda xatoga yo‘l berib qo‘ymadimmi? – Xato-ku qilmadingiz, biroq “yaxshi amal” deganingizga nochorlarga yordam berish ham kiradi.* T.Malik, Savohil. *Hozirgi kunda biz marhum Porso domla, professor Azizxon Qayumov, professor Xolid Rasul va yana bir necha m u r a b b i y larni istisno qilganimizda, matnshunos olimlarimiz deyarli yo‘q.* K.Qahhorova, Men dardimni kimga aytaman? *Dil erkinligiday kishiga buyuk m u r a b b i y yo‘q.* I.G‘afurov, Bu bezovta zamona...

O‘QITUVCHILIK, MUALLIMLIK, USTOZLIK, PEDAGOGLIK, DOMLALIK, MURABBIYLIK Asosan, ta’lim va tarbiya bilan shug‘ullanishga yo‘naltirilgan faoliyat, kasb. **Ustozlik** so‘zida badiiy bo‘yoq ustuvor bo‘lib, bu kasb vakillariga bo‘lgan ehtirom ifodasiga ega. **Pedagoglik** ilmiy, publitsistik va rasmiy uslubga xos. **Murabbiylik** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Ushbu mafkura Yusufga 80-yillarning boshlaridanoq oshno bo‘lib, institutda o‘qish va keyingi o‘ q i t u v ch i l i k faoliyati davomida yanada teranlashgandi. U.Hamdam, Muvozanat. *Ataullo Isayevich, baribir, olti oygacha m u a l l i m l i k ka qo‘yilmadi. Xotinining yonida qo‘g‘irchoq fabrikasida ishlab yurdi.* X.To‘x-

taboyev, Mungli ko‘zlar. *Chunki shu soatdan sizning u s t o z l i k, mening shogirdlik muhlatim tugadi.* E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Pedagogika o‘quv yurtlariga kiruvchi uni bitiruvchilarga nisbatan talabchanlik bo‘shashtirildi. Natijada, p e d a g o g l i k ka qobiliyati yo‘q, bilimi past yuzlab yoshlar har yili respublika o‘qituvchilari tarkibiga qo‘shildi.* M.Ochilov, O‘qituvchi odobi. *P e d a g o g l i k sha’niga o‘chmas dog‘ tushirgan bu kal kechirim so‘rashni qayerdan bilsin?* U.Azim, Sevgi. *Hozirgi so‘zim Saida to‘g‘risida, chunki bu shoiraginaning shu voyaga yetib keluvida kaminaning ham ozgina m u r a b b i y l i g i bo‘lgan.* G‘.G‘ulom, Adabiy oila. *Adabiyot bo‘yicha m u r a b b i y l i k kasbim tufayli salkam oltmish yildan beri yoshlar bilan ishlayman.* U.Normatov, Hozirgi kunda adabiyotni internetsiz tasavvur etish qiyin.

O‘RALASHMOQ, UYMALASHMOQ, UYMALANMOQ, KUYMALANMOQ Biror narsa, yumush bilan shug‘ullanmoq, ovora, mashg‘ul bo‘lmoq.

Uymalashmoq so‘zida keraksiz narsalar bilan ovora bo‘lish ta’kidi mavjud. **Uymalanmoq** so‘zi kam qo‘llanadi. **Kuymalanmoq** so‘zida mayda-chuyda ishlar bilan mashg‘ullik ta’kidi qabariqroq ifodalanadi, ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xosdir.

Haydar pakana deganlari qamoqda o‘ziga mos hamtovoq topolmaganmi, yana Asadbek atrofida xirapashshadek o‘ralashaverdi. T.Malik, Shaytanat. *U “dunyoga eng ulkan va odamzot hali xayoliga keltirmagan shahar quramiz”, deb xitob qilar, qachon qaramay chizmalar ichida o‘ r a l a sh ib o‘tirardi.* N.Eshonqul, Tobut. *Uzoq yurdim, axiyri chirigan tomirlar atrofida uymalashib turgan bir gala chumolini ko‘rdim.* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish. *...peshtaxta yonida u y m a l a sh ib, negadir hadeb cho‘ntagini kavlayotgan Tolik dabdurustdan: – Ming so‘m qarz berib tur, – dedi.* Sh.Bo‘tayev, Qarz. *Birozdan keyin Cho‘livoy aka haligi narsalarni olib ketdi va yana egatlarning boshida uymalandi.* O.Husanov, Nay. *Ichkarida k u y m a l a n ib yurgan Rohila kampir ayvonga chiqib, choliga yaqinlashib so‘radi: – Choyni yangilab beraymi?* Sh.Otabek, Xonadon. *To‘lqin tepalik ustidan hansiragan ko‘yi ko‘z tashlaganda xotini allaqachon hovlisida k u y m a l a n ib turganini ko‘rdi.* L.Bo‘rixon, Tumor.

O‘RAMOQ I**, CHIRMAMOQ, O‘RAB-CHIRMAMOQ** Biror narsani aylantirib, mahkam o‘rab, chandib bog‘lamoq. **O‘ramoq** so‘zi atrofini bir marta, shuningdek, birdan ortiq marta o‘rashni ham ifodalayveradi. **Chirmamoq** so‘zida belgi darajasi kuchli. Bunda atrofini o‘rash birdan ortiq bo‘ladi va obyektni siqib o‘rash ma’no qirrasi ham kuzatiladi. **O‘rab-chirmamoq** so‘zida mazkur ma’no yanada kuchli ifodalanadi.

Azizbek boshiga oq shoyidan salla o‘ r a b, oyoqlarini kumush uzangiga tiragan, siyrak qoshli, cho‘qqisoqol, bug‘doyrangli, qirq besh, ellik yoshlar chamalik bir kishi edi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Daladan issiq hovur jimirlab ko‘tarilar, yuz-ko‘ziga ro‘mol o‘ r a b olgan uch-to‘rtta xotin egilib chopiq qilardi.* I.Sulton, To‘linoy. *...Hamma yog‘i alvon, shior, ko‘m-ko‘k barg va gullar bilan ch i r m a b tashlangan.* A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Murid Avazni gujumga ch i r m a b bog‘ladi.* S.Siyoyev, Avaz. *Yelkadan oqayotgan qonni to‘xtatish uchun yaralangan joyni yumshoq salla matosi bilan besh-olti marta o‘rab, qattiq ch i r m a di-yu , qo‘ltiq tagidan tang‘ib bog‘lab qo‘ydi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Tog‘orani dasturxon bilan o‘ r a b-ch i r m a b, hovli burchagidagi uyilib yotgan g‘o‘zapoyalar oldiga boradi.* O‘.Hoshimov, Dehqonning bir kuni. *Yo‘g‘on chirmovuqlar daraxtdan daraxtga o‘tib, hamma yoqni o‘rab-ch i r m a b tashlagan.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

O‘RAMOQ II**, QURSHAMOQ, QAMAL QILMOQ, QAMALGA OLMOQ, QURSHOVGA OLMOQ, MUHOSARA QILMOQ** Yon atrofdan kelib, halqaga olmoq; yon atrofni shaxs yoki narsa bilan band qilmoq. **O‘ramoq**

keng ma’noli bo‘lib, ham jonli, ham jonsiz predmetga nisbatan qo‘llanadi. **Qurshamoq**, asosan, jonli narsalar bilan band bo‘lish holatiga nisbatan ishlatiladi. **Qamal qilmoq, qamalga olmoq, muhosara qilmoq**, asosan, harbiylik ta’kidiga ega. **Qurshovga olmoq, o‘ramoq** boshqa narsa, predmetlar tomonidan chulg‘ab olinishni ifodalashi mumkin. **Muhosara qilmoq** – eskirgan so‘z.

Hasan hashamatli hovlisini qo‘rg‘onga aylantirganidek, o‘zini ihota devori bilan o‘ r a b o l gan. O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Uch tomoni devor bilan o‘ r a l gan shiyponga bolalarning va o‘zimizning karovatlarimiz qo‘yildi*. Z.Saidnosirova, Oybegim mening. *Bir necha yigitlar Yo‘lchining atrofini q u r shadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Orqadan Suyunboy aka kelmoqda edi. Ikki suruv qo‘y uni ikki tomondan sekin q u r sh a b keldi-yu, bir-biriga qo‘shilib ketdi*. P.Qodirov, Qora ko‘zlar. *Yo‘lni ochish uchun u Sherxon Chunorga qo‘shin tortib keldi va Sherxonni q a m a l q i l di.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Dastlab tashqaridan kelganlar mahalliy kishilar yashayotgan qal’ani q a m a l q i l di.* Sh.Jabbor, Oltin g‘isht. *O‘zaro maktub jangi bo‘layotgan paytda Boyazid Konstantinopolni dengiz va quruqlik tomondan qurshab, q a m a l g a o l gan edi.* X.Davron, Sohibqiron nabirasi yoki Mitti yulduz qissasi. *Tanbalning qo‘shini Xonzoda begimni va uning navkarlarini darhol q u r sh o v g a o l di.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bu fursatdin istifoda qilib, Bahodirxon Nasafdin chiqib Samarqandga doxil bo‘lub, ko‘p katta qo‘shun jamlab kelib, Buxoroni m u h o s a r a q i l di.* M.Olim, Tarixi Turkiston. *Axsi qal’asining m u h o s a r a q i l inganini o‘zim ko‘rdim*. T.Malik, Falak.

O‘RINBOSAR, MUOVIN Boshliq yoki rahbarning vazifasini bajarish huquqiga ega bo‘lgan rasmiy yordamchi. So‘zlashuv nutqida **muovin** so‘ziga qaraganda **o‘rinbosar** so‘zi kengroq qo‘llanadi. **Muovin** ko‘proq kitobiy nutqda qo‘llanadi.

Ministr o‘ r i n b o s a r i telefonda yigirma minut “qovurdi”. Yubiley obyekti o‘lda-jo‘lda bo‘lib yotgani uchun Iskandar Vahobovich boshchilik qilayotgan trest aybdor emish. O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Muharrir o‘ r i n b o s a r i Rixsi Saxiboyev, Oybekning o‘zi markazqo‘mga ariza berib, yangi romanga materiallar yig‘ish uchun bir muddat frontga yuborishlarini so‘raganini, uni frontdagi o‘zbek jangchilariga konsert qo‘yish uchun ketayotgan artistlar bilan frontga yuborishganini aytdi.* S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim. *...Hamma yoqda shu tartib – ulug‘ dohiy chap tomonda, uning jigari, izdosh-g‘oyadoshi, barcha lavozimlardagi o‘ r i n b o s a r i, “sevimli rahbar” Men Xon Man o‘ng tomonda.* E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *O‘shandayam uni xizmatkori uyg‘otib, zarur gap bilan m u o v i n i yo‘qlaganidan xabar berdi.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘sha kecha uxlagan odam uxlagandir, Jiyanbeka hayajon-u ikkilanishlar og‘ushida to‘lg‘anib chiqdi: “Kim bo‘lsam ekan – vazirga m u o v i n mi yoki Mafkuraxon opamga qarashli sho‘baga mudirmi?”* E.A’zam, Shoirning to‘yi.

O‘RINBOSARLIK, MUOVINLIK Boshliq yoki rahbarning vazifasini bajarish huquqiga ega bo‘lgan rasmiy yordamchilik lavozimi. **Muovinlik** so‘zi ko‘proq kitobiy nutqda qo‘llanadi.

Eshon rais qozikalondan keyin turadigan amaldor bo‘lib, uning mahkamasiga vaqtincha o‘ r i n b o s a r l i k qiluvchi xalifa, noib, mulozimlar, mirzalar, miroxo‘rboshi… edi. B.Eshov, O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. *M u o v i n l i k yaxshi, albatta. Biroq Sunnatni uyga olib ketishim uchun bu dastak bo‘lolmasdi baribir.* A.Yo‘ldoshev, Yetim so‘z. *Jiyanbekani surishtirib qolgani ham bejiz emas: madaniyat vazirligida bitta m u o v i n l i k o‘rni bo‘sh, o‘zi she’r-per yozar ekan, qo‘shiq aytib o‘yinga ham tushsa kerak, eng muhimi – qaddi-qomati joyida!* E.A’zam, Shoirning to‘yi.

O‘RINLI, JO‘YALI, MA’QUL, JOIZ, MAQBUL Muayyan vaziyatga to‘g‘ri keladigan, jamiyat qoidalariga mos keladigan. **Ma’qul** so‘zi so‘zlashuv nutqida ko‘proq qo‘llanadi. **Jo‘yali, joiz** so‘zlari kitobiy nutqqa xos. **Maqbul** bu belgini boshqa sinonimlariga nisbatan ortiqroq ifodalaydi.

O‘ r i n l i so‘zga tuya cho‘kadi. Maqol. *Hamida begim Salim otaning bu andishasini o‘ r i n l i topdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Nizomjon o‘ylab qarasa, darhaqiqat, bu j o‘ y a l i gap ekan.* S.Ahmad, Ufq. *Madumarning telbalarcha baqirig‘i oldida bu mulohaza j o‘ y a l i roq tuyuldi.* A.Muxtor, Chinor. *Buning ham yaxshi, m a’ q u l tomonlari bordir, albatta. Lekin bu yo‘lni butun xalq qabul qilsin, deyish – noto‘g‘ri.* U.Hamdam, Muvozanat. *Bularni guruh desa-da bo‘ladi, to‘da desa-da bo‘ladi. To‘da deyish m a’ q u l roq.* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *J o i z so‘z aytilganida chaqnagan chaqmoqdan yovning yana bir bolasi o‘ldimikin, deb ham o‘ylayman.* I.Sulton, Ozod. *Aytish j o i z ki, bu til ikki ming yillardan beri talotumli tarixning turli baland-past, tekis-notekis, odil-noodil chig‘iriqlaridan salomat o‘tib, sayqal topib kelmoqda.* N.Mahmudov, Milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli. *Biz bu g‘azal musannifini tutib... g‘azal zimnidagi so‘zlarni mushohada qilib ko‘rmog‘imiz m a q b u l dir.* S.Siyoev, Avaz. *Men qo‘l qo‘yib, muhr bosar edim-u, lekin sirtdan turib sizlarga yordam berganim m a q b u l.* J.Sharipov, Xorazm.

O‘RNAK, NAMUNA, IBRAT, ULGI Boshqalar ergashsa, taqlid qilsa, o‘rgansa arziydigan ish yoki harakat namunasi. **Namuna, ibrat** so‘zlarida o‘rnak bo‘la oladigan, ergashsa arziydigan shaxs yoki narsa ta’kidi qabariq ifodalangan. **Ulgi** so‘zi shevaga xos.

Ming shirin maslahatdan bitta o‘ r n a k ish yaxshi. Maqol. *Shunday og‘ir, mas’uliyatli paytlarda komandirning shaxsiy jasorati va o‘ r n a g i bir onda yuzlarcha odamlarni qanoatlantiradigan qandaydir sehrli bir kuchga ega ekaniga aslo shubha qilmasdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shundan so‘ng esa bu mangu zot xokisorlikning va samimiyatning ajoyib n a m u n a sini tuhfa etgan edi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Odobli va marhamatli kishilarning do‘sti*

ko‘p bo‘lib, undan hamma n a m u n a oladi. Gazetadan. *Shunday og‘ir, mas’uliyatli paytlarda komandirning shaxsiy jasorati va o‘ r n a g i bir onda yuzlarcha odamlarni qanoatlantiradigan qandaydir sehrli bir kuchga ega ekaniga aslo shubha qilmasdi*. Oybek, Tanlangan asarlar. – *Bu yerni bitirib ketganlar bizga n a m u n a va o‘rnak, – dedi A’zam Rasulov*. E.Raimov, Ajab qishloq. *Hazrat Navoiy odamni bu olamga i b r a t nazari bilan qarashga, unda yashirin sir-asror, hikmatlarni, unga berilgan bebaho ne’mat – aql bilan idrok etishga chorlaydilar.* A.Tilavov, Tafakkur birla bilmish odamizod. *Elning qadr-u qimmatini, erk-u hamiyatini, qadd-u bastini raso ko‘rmoqday ulkan niyatni qalbiga jo qilib, har qanday vahshatlarga tik boqa bilgan ajdodlarimizning ma’rifat tug‘ini sarbaland tutgan i b r a t i asrlar osha aks-sado berib turibdi.* N.Mahmudov, Ma’rifat manzillari. *Uyiga borsangiz, tikkan narsalariga og‘zingiz ochilib qoladi. “Bu hujjatlarning hammasini matbuotda e’lon qilish kerak, ham yoshlarimizga u l g i bo‘ladi ham bu ig‘volarga yaxshi bir zarba bo‘ladi”, – dedi Rajabov.* O.Yoqubov, Ota izidan. *U l g i bo‘ldi uchqur ot qarchig‘a-yu lochinga.* “Qo‘shiqlar”.

O‘RNAK OLMOQ, IBRAT OLMOQ, ULGI OLMOQ Boshqalar ergashsa, taqlid qilsa, o‘rgansa arziydigan ish yoki harakat sari intilmoq. **Ibrat olmoq** so‘zining ma’nosidagi ta’sirchanlik boshqa sinonimlariga nisbatan kuchli tarzda ifodalanadi. **Ulgi olmoq** so‘zi shevaga xos.

Qushlar-u soylardan o‘ r n a k o l, axir, Miraziz, baxt tinmagan yildan kelur. M.A’zam, Kuzgi yaproqlar. *Amal qilguvchi amalida qo‘y boquvchidan o‘ r n a k o l uvi lozim ekan.* T.Malik, Shaytanat. *Bobur o‘g‘illarining otadan i b r a t olib allaqachon may ichishga o‘tganlarini hozir yana bir og‘rinib his qildi-yu, ko‘pdan beri ko‘ngliga tuggan niyatini shu qirg‘inbarot arafasida amalga oshirmasa bo‘lmasligini o‘yladi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Nodon so‘zlar – dono i b r a t o l ar.* Maqol. *Shamolingga oqar daryo muzlagan, Qarchig‘aydan u l g i o l gan bedovsan.* “Nigor va Zamon”. *Ilon ovlamoqni Qoravoy changalzorda o‘rgangan, bu sohada u tipratikandan u l g i o l gandi*. N.Norqobilov, Bekatdagi oq uycha.

O‘

O‘RTOQ, DO‘ST, HABIB, OG‘AYNI, OSHNA, JO‘RA, ULFAT, BIRODAR, HAMDAM, DUGONA, ESH, TOMIR, CHO‘PQOT Yoshi, qarashlari, faoliyati va shu kabi jihatlari bilan o‘zaro yaqin bo‘lgan; do‘stlik, o‘rtoqlik munosabatidagi kishi. **Do‘st** so‘zida o‘rtoqlik munosabatidagi yaqinlik yana ham kuchliroq bo‘ladi. **Habib** so‘zida poetik bo‘yoq ustuvor. **Oshna, og‘ayni** so‘zlari so‘zlashuv nutqida ko‘proq qo‘llanadi. **Jo‘ra, birodar, ulfat** so‘zlari **o‘rtoq, oshna, og‘ayni** so‘zlariga nisbatan kam qo‘llanadi. **Hamdam** so‘zi eskirgan. **Dugona** so‘zi xotin-qizlarga nisbatan qo‘llanadi. **Esh** so‘zi shevaga xos. **Tomir** so‘zi bu ma’noda juda kam qo‘llanadi. **Cho‘pqot** so‘zi eskirgan, kam qo‘llanadi.

Nuri alohida xonada o‘z o‘ r t o q lari – obro‘li oilalarning qizlari bilan o‘ltirar edi. Oybek, Qutlug‘ qon. *O‘ r t o q lar-u tanish-bilishlardan nolimayman, lekin hech biridan, masalan, sizning yoki hatto sizga o‘xshagan odamlarning suhbatidan olgan huzurni topolmayman.* U.Hamdam, Muvozanat. *“Biz senikiga mehmon bo‘lib keldik. Bu kishi d o‘ s t im Jondor vagonchi”, – dedi Tantiboyvachcha.* Oybek, Qutlug‘ qon. *Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan quvmaydigan, boshingga bulut kelganida izingdan qolmaydigan d o ‘s t – haqiqiy d o‘ s t.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Yaratganning sinovi shunchalar shiddatlimi, o‘z h a b i b ini olovga otishlarigacha yo‘l qo‘yib berdi?* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Biz shu yerdagi o g‘ a y n i lar bilan kengashib, bir gapga to‘xtab qo‘ydik.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bular Yusufning hamqishloqlari: kimlari bir paytdagi hamkasblari, kimlari o g‘ a y n i lari, sobiq sinfdoshlari...* U.Hamdam, Muvozanat. *Bu shaharda tanish-bilishning yo‘qligi Mirzayevga shu bugun bilindi. Bironta o sh n a si bo‘lsa, shaftoli sayiliga aytmasmidi.* A.Qahhor, Dahshat. *Biz tomonlarda kambag‘al-qashshoq ko‘p. Oxiri G‘afur G‘ulomning bir rais o sh n a sinikiga Habibiy domlani Navoiy deb olib borganini, rais qo‘y so‘yib, mehmon qilganini, “Navoiy”ga to‘n kiydirganini aytganimda, Oybek boyagidan ham qattiq kuldi.* S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim. *Baraka topkur qo‘shnimiz, huv Hakimboy j o‘ r a ngizning o‘g‘li-da, tunov kuni suv bog‘lab kelgan ekan. Ko‘llatib sug‘orib oldim.* E.A’zam, Suv yoqalab. *To‘yxonaning egasi oralaridan qil o‘tmaydigan qadrdon u l f a t i – To‘lamat o‘g‘il to‘yi qilganda u ham bel bog‘lab, xizmatini ayamagan. Buning ustiga to‘yonalarini aytmaysizmi!* S.Anorboyev, Go‘zallik izlab. *Bu ziyofat chinakamiga mushoira kechasiga aylanib ketgan edi. G‘afur aka bu yerda ham u l f a t ning guli bo‘ldi.* S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim. *“Axir o‘zing ham mujiksan-ku, uyat emasmi o‘z b i r o d a r ingni qilich bilan chopsang?” desa, “Mening xizmatim shunday”, dermish.* A.Muxtor, Chinor. *Yalpizlar gullagan shu bahor fasli, Sodiq h a m d a m bo‘lgin sen menga, dilbar.* M.Yusuf, Sevgi bu... *Dilora d u g o n a si bilan uzoq gaplashmadi, juda bo‘lsa, bir choynak choy icharlik vaqt o‘tgandir.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *– Barakalla, – Muhamedov yana choy ho‘pladi, – d u g o n a ngizga ishonib taqinchoqlaringizni berib yuborib, yaxshi qilibsiz.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Ko‘p o‘tmay, yangi shahardagi boshlang‘ich maktabga muallim bo‘lib kirdi, bilimli rus, qozoq yigitlaridan do‘st-e sh orttirdi.* A.Muxtor, Chinor. *Paxtazor oralab traktor guvlar, E sh va inoq to‘p qiz, peshona bog‘liq.* Mirtemir, Tanlangan asarlar. *Ikki o‘rtada so‘z bergandik, t o m i r miz... deb, zuvalasi ayrim bitta xamirmiz deb.* G‘.G‘ulom, Ko‘kan. *Mingning zotini bilgandan birning otini bil, deganlar, tanishib qo‘yaylik, t o m i r.* A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi. *Shundayam sizga, eski ch o ‘p q o t, eski qadrdon.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Sir yashirarkansan, ch o‘ p q o t bo‘lmaysan...* A.Muxtor, Tug‘ilish.

O‘RTOQLIK, DO‘STLIK, HABIBLIK, OG‘AYNILIK, OSHNACHILIK, JO‘RALIK, BIRODARLIK, HAMDAMLIK, DUGONALIK, ESHLIK Yoshi, qarashlari, faoliyati va shu kabi tomonlari bilan o‘zaro yaqinlik; do‘stlik, o‘rtoqlik munosabati. **Habiblik, hamdamlik** ko‘proq kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Eshlik** so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Bobolarimiz ham, “Qo‘rg‘on qurma, boylik to‘plama, do‘st orttir”, deganlar. Haqiqatan ham, do‘stlikdan go‘zalroq, o‘ r t o q l i k dan kuchliroq narsa yo‘q olamda. M.Salom, Kechirim. *Respublikamiz poytaxtida o‘tgan kuni eronlik gimnastika ustalari bilan O‘zbekiston gimnastikachilarining o‘ r t o q l i k uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.* Gazetadan. *Siz bilan meni nojo‘ya xayol bog‘lagani yo‘q, azizim! Nojo‘ya xayol bog‘lagan d o‘ s t l i k ning bahridan kechish va yana nojo‘ya maqsadlarga loyiq do‘stlar orttirish naqadar oson!* X.Do‘stmuhammad, Hijronim mingdir mening. *Beshikkertti urug‘-qabilachilik davrining qoldig‘i. Qo‘shni, urug‘, qabilalar o‘zaro d o‘ s t l i k ni mustahkamlashda beshikkerttidan foydalanganlar.* “O‘zME”. *Muhabbatda bir-birini anglash bo‘ladi: buni biz yuksak ma’noda h a b i b l i k, do‘stlik deymiz. Muhabbat bir tomonlama bo‘lmaydi.* I.G‘afurov, Muhabbat ma’rifati. *H a b i b l i k, birodarlik odobini ulug‘laydi, do‘st zimmasidagi burchlarni va haqlarni sidqidildan ado etmoqqa da’vat etadi*. Gazetadan. *“Barakalla, o‘rtoq shoir, Qani do‘stlik, o g‘ a y n i l i k, hafsalam pir”.* G‘.G‘ulom, Tanlangan asarlar. *O g‘ a y n i l i k bor ekan, to‘g‘rilanmaydigan ish bo‘lmaydi.* Shukrullo, Saylanma. *Bizning o sh n a ch i l i g i miz sen so‘rayotgan pulga qarab qolgani yo‘q. Oshnam deb men seni qidirib topganim yo‘q, senam meni izlamagansan.* T.Malik, Iblis devori. *O sh n a ch i l i k – bir yilchilik, Qudachilik – ming yilchilik.* Maqol. *Akalik, j o‘ r a l i k tegdi jonimga, Gohida tirilib, goho berib jon, Yakka-yu yolg‘izing bo‘lib yoningda Yashagim kelmoqda besharaf, beshon.* U.Azim, Saylanma. *Yana hayotim ilgarigi iziga tushgandek bo‘ldi, men tag‘in yumushlarim ummoniga g‘arq bo‘ldim: ostimda mashina, qo‘limda ro‘yxat, boshimda esa fuqarolik, farzandlik, otalik, erlik, j o‘ r a l i k kabi burchlardan bino bo‘lgan yo‘riqnoma…* U.Hamdam, Ko‘nglimdagi daryo. *Do‘stlik, qardoshlik, b i r o d a r l i k biz yetib kelgan porloq manzillar, yuksak dovonlarning tamal toshi bo‘lib qoladi.* X.Yodgorov, Hayot to‘lqinlari. – *Xalqlar b i r o d a r l i g i degan narsa – muqaddas tushuncha, – dedi xo‘rsinib. – Ammo bir yurt ikkinchi yurtni azbaroyi baxtli qilish uchun bosib olmas ekan.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Bir hamrozlik, ajib h a m d a m l i k. Vujudlarda qon kabi kezar.* A.Sher, Yig‘layotgan tosh. *...onalar qizlari bilan bolalik chog‘laridayoq sirdoshlik, d u g o n a l i k rishtalarini mustahkamlab olishlari zarur bo‘ladi.* Gazetadan. *Quluntoy ham unga qilib eski e sh l i k, O‘rgatibdir Ko‘kanchaga juvozkashlik.* G‘.G‘ulom, Ko‘kan.

O‘SMOQ, ULG‘AYMOQ, KATTA BO‘LMOQ Yosh va jismoniy jihatdan katta holatga o‘tmoq, ulga‘yish tomon rivojlanmoq. **Ulg‘aymoq** bu ma’noga

aqlan rasolashganlik ifodasini ham qo‘shadi. **Katta bo‘lmoq** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos.

Safingda ulg‘aydim, chiniqdim, o‘ s dim, Safingda bo‘lmoqlik ulug‘ iftixor. Shuhrat, Saylanma. *“Daroz odamning esi kamroq bo‘ladi, – deya o‘yladi. – Shu bois faqat bo‘yiga o‘ s adi. Buni esi qanaqa ekan?”* T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. *Jo‘ra u l g‘ a y ibdi, zap tanti o‘g‘lon, Dengiz taglarida qilar sayohat.* Mirtemir, Tanlangan asarlar. *Tohir-Zuhra holidan bir kalima eshiting: O‘qib, o‘ynab bir bog‘da u l g‘ a y ar edilar teng.* S.Abdulla, Tohir va Zuhra. *Bolalarim k a t t a b o‘ l ib, qatorga kirib, ishlab yurganiyam, Masturaning men kabi uyda yolg‘iz o‘tirganiyam, mening kasal bo‘lib bir dastyorga, qarovchiga muhtoj bo‘lib qolganimam to‘g‘ri.* U.Hamdam, Muvozanat. *Yillar o‘tib, toshbaqa haqiqatini biladigan avlod dunyodan o‘tib ketdi. Keyingi avlod esa faqatgina rivoyatlardan eshitib k a t t a b o‘ l di.* I.Sulton, Boqiy darbadar.

O‘T I, OLOV, ALANGA, OTASH, NOR, O‘RT Tabiiy ta’sir, yonilg‘i yoki yoqilg‘i vositasida amalga oshiriladigan yonish jarayoni. **O‘t** va **olov** so‘zlari adabiy tilda ishlatilishi qariyb teng, lekin ayrim holatlarda bu so‘zlarning birini ikkinchisi o‘rnida qo‘llab bo‘lmaydi. (Masalan, *quyosh olovi* va *quyosh o‘ti*) Ba’zi shevalarda **o‘t**, ba’zilarida **olov** faol ishlatiladi. **Alanga** – kitobiy so‘z. **Otash** va **nor** so‘zlari badiiy uslubga xoslangan. **Nor, o‘rt** so‘zlarida eskilik bo‘yog‘i mavjud.

O‘ t balosi, suv balosi, tuhmat balosidan asrashni so‘rab, yuziga fotiha tortdi. O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Yelkasiga paxtalik nimcha tashlagan dotsent Obidovich, yonib bo‘lgan o ‘t cho‘g‘ida ko‘milgan kartoshkalarni uchi qorayib kuygan kosov bilan kovlab, tinmay sigareta chekadi.* T.Murod, Kuzning bir kunida. *Bog‘lar zebolanib olar alvon tus, Holbuki, saraton – jazirama yoz. Bamisli o l o v da to‘ragan qaqnus, Xayolimga keldi nogoh shu qiyos*. O.Tohir, Anor guli. *Aytganday qilib, o l o v ni yoqqach, tutun ko‘tarilishi bilan o‘tinlar orasidan pastga tushib, yerosti yo‘lagi orqali uyiga boribdi-yu, bir yil tashqariga chiqmay o‘tiribdi.* T.Malik, Shaytanat. *O‘sha yoqda quyuq tutun, qizg‘ish a l a n g a ko‘zga tashlanar, portlash sadolari eshitilar edi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *A l a ng a domiga uchib tushayotgan muqaddas kitob... Keyin, birin-birin – oppoq dastor, oq xirqa, sahro zarangidan yasalgan irg‘ay aso...* E.A’zam, Shovqin. *Kimdir faryod solib yig‘lardi nuqul, O t a sh da yonardi o‘zga bir odam.* A.Oripov, G‘iybat. *Kech kirishi bilan o‘n olti manjaniqdan yonartosh otishar, daryo tepasidan shig‘illab kelayotgan o t a sh ni ko‘rgan otlar hurkib qochardi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *N o r i hijron bag‘rim yomon kuydirdi, Beparvo yor, qoshi kamon kuydirdi.* O.Tohir, Nori hijron. *Man Yo‘q edim. Bor etti Ishq, ujmoh edim, n o r etti ishq, bir boshga ming savdo sola borimni bozor etti Ishq.* M.Benazir, Man Yo‘q edim… *Shubha qovurar edi Ba’zilarni misli o‘rt.* Mirtemir.

O‘T II**, O‘LAN, ALAF** Poyasi yog‘ochlanmaydigan, chorva mollari uchun asosiy ozuqa bo‘ladigan yashil o‘simlik. **O‘lan** so‘zi yakka holda kam qo‘llanadi. Bu so‘z **o‘t** so‘zi bilan birga kelib juft holda ham qo‘llanadi. **Alaf** so‘zi ko‘pincha shevada qo‘llanadi.

Otinbibi xolam sumalak qanday kelib chiqqanini ham gapira boshladi, ilgarigi zamonda Bibifotima degan bitta ayol, o‘zi juda obro‘1i odamning xotini bo‘lishiga qaramay, behad kambag‘a1 bo‘lganidan bolalariga ovqat topib berolmay, qozonga tosh bilan ko‘k o‘ t solib qaynata boshlabdi. X.To‘xtaboyev, Besh bolali yigitcha. *Yaylov to‘la o‘ t bo‘lsa. Qishloqda yashab turib, mol boqmaslik gunoh-ku!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Yengilgina esgan shamol dimog‘ga turli o‘ l a n islarini keltirib urardi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Gulzorni a l a f bossa, zog‘ bossa, bog‘bon turib…* T.Sulaymon, Armon. *Ha, yillar shuvullab o‘tib ketdi. Tosh ostida a l a f bo‘lib qolib ketmadi.* A.Suyun, Shoxdor.

O‘T III**, ZARDA, SAFRO** Jigardan ajralib chiquvchi sarg‘ish-yashil rangli achchiq suyuqlik. **Zarda** ayrim shevalarda faol qo‘llanadi. **Safro** kitobiy nutqqa xos.

Kimgadir yovvoyi echkining terisimi, ayiqning o‘ t imi kerak ekan. N.Qobul, Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar. *– Xuddi qo‘rg‘oshin yutgandayman, ko‘kragim og‘ir. Mana shu yerimni bossam, og‘riydi. Qayt qilaman. Z a r d a m qaynab turadi, – dedi Saidiy.* A.Qahhor, Sarob. *S a f r o odatda jigardan o‘n ikki barmoqli ichakka oqib tushib, so‘ngra ingichka ichakka o‘tadi.* N.Ismoilov, Kasallarni parvarish qilish. *Jo‘rabek dushanba, seshanba kunlari s a f r o tashlab, ruhi yorishgan kishidek, ancha yengil tortdi.* Mirmuhsin, Qulamas qoya.

O‘TIRMOQ, CHO‘KMOQ Biror joyni egallab o‘rnashmoq. **Cho‘kmoq** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Yonimda o‘ t i r gan taqirbosh bola ora-sira menga, tizzamdagi hech narsa yozilmagan yondaftarchamga qarab-qarab qo‘yayotgan edi. A.Yo‘ldosh, Yetim so‘z. *Choyxona bozorga yaqin, bozorniki desa ham bo‘ladi, har xil odam bor, aralashib nima zaril, o‘ t i r ib maqolasimi, she’rinimi yozaversin.* A.A’zam, Hali hayot bor. *Turdi g‘ilay Malik muallimning yoniga ch o‘ k di.* A.Ko‘chimov, Halqa. *…Qobilning yoniga ch o‘ k ib, yelkasidan sekin quchdi. – Hay, mayli, ish bo‘lsa qochmas, ikkov avval bir xirgoyi qilaylik…* M.M.Do‘st, Galatepaga qaytish.

O‘TKIR, KESKIR, BURRO Yaxshi, oson, tez kesadigan. **Keskir** so‘zi xalq tilida faol bo‘lib, ko‘pincha folklor asarlarida ko‘p uchraydi. **Burro** so‘zi kam qo‘llanadi.

O‘ t k i r, qonsiragan xanjarini beliga osib, oyboltasini ko‘targan jallod qushbegining hukmiga muntazir edi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Hademay o‘tkir tig‘ ularning qorni, ko‘kragi, boshini yoradi. O‘lik hujayralarda yashiringan*

haqiqatni o‘qimoqchi bo‘lganday titkilashadi. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Ostingda yuz alvon o‘ynaydi oting, Belingda yarqirar k e s k i r po‘lating*. “Alpomish”. *Po‘lat bilan qirdi devni, k e s k i r xanjarini urdi, yalang‘ochlab qilich soldi*. “Malikayi ayyor”. *Do‘ppisini olib kel desangiz, axir biz jallod... qilichi b u r r o ... kimning ajali yetsa... boshini kesib keltiramiz-da!* Hamza, Boy ila xizmatchi. *Qilichim o‘tkir, tig‘im b u r r o, hukmingizni bajo keltiraman...* “Luqmoni Hakim”.

O‘TMISH, KECHMISH, MOZIY Kishi, xalq hayotining o‘tgan (orqada qolgan) qismi, shu o‘tgan davridagi hayoti. **O‘tmish, kechmish** so‘zlarida muayyan kishi, shuningdek, xalqning o‘tgan davrdagi hayotiga ishora qilinadi, **moziy** so‘zi esa kishilarga nisbatan qo‘llanmaydi. **Moziy** so‘zi eskirgan, kitobiy nutqqa xos, bu so‘zda tarix ta’kidi qabariq ifodalangan.

Kechmishni ko‘rganlar demas afsona, O‘ t m i sh – qalin kitob, sarlavhasi qon. Mirtemir, Tanlangan asarlar. *Nuqul o‘ t m i sh idan noliydigan odam kelajagini barbod qilishi mumkin. O‘z ildizini inkor qilgan daraxt qurib qoladi.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Bu qo‘shiq k e ch m i sh ning bir afsonasi, Bobom so‘ylab bergan kelib xonasi.* Mirtemir, Tanlangan asarlar. *Ummon go‘yo tarixga o‘xshar edi! Go‘yo butun k e ch m i sh lar ana shunday sokin va til-zabonsiz, bepoyon tarzda, vaqtsiz-u makonsiz dolg‘alanmoqdaydi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Shoshma, ona daryo, shoshma muncha ham, Sen ham tushun, m o z i y va bugun nadir.* Mirtemir, Saylanma. *M o z i y da o‘tgan valilardan biri “Dunyo o‘tkinchi mehmonxonadir. Dunyodagi eng ulug‘ boylik dunyoga berilmaslikdir. Dunyoni afzal bilgan kishi zillatga, xorlikka hukm etilib, halok bo‘lur”, degan ekan.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar.

O‘TROQ, MUQIM, TURG‘UN Ma’lum bir joyda doimiy yashovchi. **O‘troq** so‘zi insonlarga, shuningdek, hayvon va parrandalarga nisbatan ham qo‘llanadi. Bu so‘z, odatda, ilmiy nutqda ko‘p uchraydi. **Muqim** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Turg‘un** so‘zida bir joyda o‘rnashib qolganlik ta’kidi kuchli ifodalangan.

Mazkur shartli alomatlarga to‘la o‘ t r o q makon qadimda dastlab “Shahriston”, ya’ni “shoh-o‘r-iston” nomi bilan atalgan. A.Muhammadjonov, Toshkent darvozalari: tarixi, nomlanishi va ma’nosi. *Boya Farhod qo‘shilganidan beri m u q i m o‘tirgani uning o‘zi bilan yetti kishi edi.* E.A’zam, Shovqin. *Lekin ular m u q i m yashaydigan, o‘zlari bilmagan holda yashaydigan bitta joy bor, yana bitta joy.* E.A’zam, Bir daqiqa ko‘zingni yum. *Modomiki siz mening mamlakatimda vatan tutib, muqim va t u r g‘ u n turar ekansiz, nimani iltimos qilsangiz, o‘sha narsa albatta ijobat izzatini topajak!* I.Sulton, Alisher Navoiy.

O‘XSHAMOQ, MENGZAMOQ, MAYZAMOQ Xususiyat, xislat, tuzilish va boshqa belgisi bilan birxillikka ega bo‘lmoq. **Mengzamoq** bu ma’noni poetik bo‘yoqdor qilib ifodalaydi. **Mayzamoq** so‘zi shevaga xos.

Mo‘minlar egizak jonlarga o‘ x sh a b, O‘zgaga boqqan choq o‘zni ko‘rguvsi. A.Oripov, Hayit. *Jamoling o‘ x sh a ydi osmonda oyga, Qoshing kelishibdi qo‘lingda yoyga.* “Bahrom va Gulandom”. *Endi uning qoyaga m e ng z a lishiga kelsak, bu afsona quyidagi yo‘sinda talqin etiladi: emishki, Donishota juda serfarzand bo‘lib, ular o‘sib-ulg‘ayishgach, bu makon torlik qilib, sekin-asta tog‘ning turli puchmoqlariga taralib ketishibdi.* N.Norqobilov, Qora quyun. *Bolani azal-azaldan podshoga m e ng z a ydilar.* X.To‘xtaboyev, Mungli ko‘zlar. *Odamga m a y z a b gapiradi, odamga m a y z a b kuladi*. T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

O‘XSHASH, MONAND Ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyati, xislati va boshqa jihati bir xil. **Monand** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Bizning Marg‘ilonda bir qiz bor... shundoq ko‘hlikki, bu o‘rtada uning o ‘ x - sh a sh i bo‘lmas, deb o‘ylayman! A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xullas, o‘sha odam tirikchiligi tang ahvolda qolgach, o‘ziga o‘ x sh a sh so‘qir bir tilanchiga shogird tushibdi.* O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Zero, ijodiy sintez degani bir jihatdan alximiyaga m o n a n d: kimyogar turli moddalarni qorishtirib sara oltin olishga intilarkan, singishmagan moddalar cho‘kindi bo‘lib shishada qolaveradi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Vaziraning egnida shaftoli guliga m o n a n d, ko‘ksi ochiq, yelkasiga paxta qo‘yib tikilgan shoyi ko‘ylak*. S.Ahmad, Ufq.

O‘XSHASHLIK, MONANDLIK O‘xshash belgiga egalik, o‘xshash holat. **Monandlik** so‘zida bu ma’no bir qadar yuqori ifodalangan, kitobiy nutqqa xos.

Fikrlarimiz, qarashlarimiz ikki tomchi suvdek o‘ x sh a sh l i g i meni juda ko‘plab marta lol qoldirgan, bu o‘xshashlikni umr bo‘yi eslab, xotirlab yuraman... X.Do‘stmuhammad, Hijronim mingdir mening. *Tanasining ayriligi ham o‘sha-o‘sha, kovagi g‘orning og‘ziga o‘ x sh a sh l i g i ham... Yo qudratingdan!* E.A’zam, Suv yoqalab. *Tantanalar uyi, madaniyat saroyining peshtoqlari, ustunlari qurilishida tarixiy imoratsozlik an’analariga m o n a n d l i k bor.* K.Matyoqubov, Latif shaharning latofati.

O‘YIN, RAQS San’atning musiqa jo‘rligida qo‘l, oyoq, gavda ritmik harakati va mimikalar uyg‘unligi bilan ijro etiladigan turi. **Raqs** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Ko‘pchilik yigitlar o‘rtasida oq koftalik, qora yubkalik, qomati ixcham Fotima hozir o‘ y i n ga tushib ketadiganday quvonib turar edi. P.Tursun, O‘qituvchi. *Boyagi “hindu” yovvoyilardek sakrab o‘ y i n ga tusha ketdi.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Mag‘lub yiqilgan joyidan ohista turadi. G‘olibning quvonch r a q s iga alam bilan qaraydi.* U.Azim, Birovning umri. *G‘olibo bul r a q s o‘zining ixtirosidir. Bul vajhdin hamisha mulozamatda, doim harifi sharob va hamsuhbatdir.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

O‘YINCHI, RAQQOSA, RAQQOS Raqsga tushuvchi kishi. **Raqqosa** ayollarga, **raqqos** erkaklarga nisbatan qo‘llanadi, bu jihatdan **o‘yinchi** so‘zi neytral. **Raqqos** – nutqda nofaol so‘z.

Odamlar uning chet eldan kelgan mehmon ekanini bilib to‘rga o‘tqazishibdi, to‘n kiyg‘izishibdi, o‘ y i n ch i lar uni o‘yinga tortishibdi. A.Qahhor, Dumli odamlar. – *U pulni yaxshiroq teradi! Pul bermaganni askiya qilib bo‘lsayam, pulini chiqartiradi. U chiroyliroq boshqa o‘ y i n ch i qizlardan...* Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Uning ma’suma qalbi orzularga qanchalar limmo-lim edi. U r a q q o s a bo‘lmoqchi edi, u muallima bo‘lmoqchi edi, u sut sog‘uvchi bo‘lmoqchi edi.* A.Yo‘ldosh, Quduq. *Mug‘anniylar kuy qilar og‘oz, R a q q o s a lar raqs etar sernoz.* E.Vohidov, Saylanma. *Endi Ro‘ziqul ...xuddi kuy boshlanishini kutayotgan r a q q o s day qo‘llarini kerib ko‘tarib, barmoqlarini pastga solintiradi...* A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *U boyagi r a q q o s ning harakatlarini takrorlayotganini sezib qoldi.* E.A’zam, Shovqin.

O‘YLAMOQ, FIKRLAMOQ, MUSHOHADA QILMOQ (YURITMOQ) Muayyan voqea-hodisa, jarayon, shaxs yoki narsa doirasida fikr yuritmoq. **Fikrlamoq** so‘zida chuqur mushohada ta’kidi ustuvor. **Mushohada qilmoq (yuritmoq)** so‘zida muayyan bir xulosaga kelish ta’kidi mavjud, ayni paytda u kitobiy nutqqa xosdir.

Kechalari ba’zan shuni o‘ y l a b, qattiq bezovta bo‘ladi, zirapcha misol qadalib yotgan allanima yurak-yuragini zirqiratib yuboradi... E.A’zam, Shovqin. *Ammo shu yomg‘ir faslida loylarga botib besh kunlik yo‘lni uch kunda bosib o‘tish azobini o‘ y l a ganda Afzalbekni g‘am bosdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *...aqlda va hayot kechirishda oddiy insonlardan ustun bo‘lib dunyoga keladigan bunday jonzotlarning f i k r l a sh mantig‘ini ham oldindan aytib bera olmaymiz.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Bir-birimizdan bexabar holda bir narsa haqida bir xil o‘ylaydigan, bir xil f i k r l a ydigan darajada ko‘ngillarimiz yaqinlashib ketganidan Sizga va o‘zimga havasim keladi.* X.Do‘stmuhammad, Hijronim mingdir mening. *Ehtimol, shuning uchun ham xalq ming yil yashab, ming yil m u sh o h a d a q i l ib, so‘ng “oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘dir”, degandir...* U.Hamdam, Ota. *Qayiqni ham, daryoni ham, o‘zini-yu o‘zgalarni ham yaratgan Zotning qudratini m u sh o h a d a q i l di, uning yodini sira unutmadi va hayot ishlaridan xulosa chiqardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

O‘YNAMOQ, RAQS ETMOQ Tana, oyoq, qo‘l va qosh-ko‘zlarni kuyga uyg‘un holda harakatlantirmoq. **Raqs etmoq** so‘zida bir qadar kitobiylik ta’kidi mavjud.

Xonimbibi qizlarga qistatib o‘tirmay, o‘rnidan sakrab turdi-da, o‘ y n a b ham ketdi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shuncha kundan beri “Dadang to‘yingni ko‘rolmadi”, deb ma’yus tortib yurgan odam shunaqayam ochilib ketdilar, shunaqayam o‘ y n a dilarki! Balo ekanlar-ku!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Toshkentning dong chiqargan yallachilari sho‘x, jonli qo‘shiq – “Olmacha, anoringga balli, bog‘-u bo‘stoningga balli”ni kuylab, gulxan tevaragida r a q s*

e t adilar. Oybek, Navoiy. *Shodligin bildirib bir zum r a q s e t di, So‘ngra bir so‘z demay jim chiqib ketdi.* M.A’zam, Kuzgi yaproqlar.

O‘ZBOSHIMCHA, BEBOSH, BOSHBOSHDOQ Boshqalar bilan hisoblashmasdan, faqat o‘z erki, o‘z xohishi bilan ish tutadigan. **Bebosh** so‘zida “hech kimga quloq solmaydigan”, “itoatsiz” kabi ma’no qirralari ta’kidlangan. **Boshboshdoq** so‘zida bu ma’no kuchli ifodalangan.

Ota-onasiz qolganingga shunday o‘ z b o sh i m ch a, beodob bo‘lib ketdingmi hali? P.Tursun, O‘qituvchi. *O‘ z b o sh i m ch a falak jismingdagi sadaf ichiga inju deb tosh solibdi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *...faqat shumlik uchungina tug‘ilgandek ko‘ringan shunday b e b o sh, shum bolani shirin muomala bilan axiyri tuzatib oldilar.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Odil aka o‘g‘lining gaplaridan ko‘p mutaassir bo‘ldi. Abdurahmon domla yoshligida b e b o sh o‘tgani rost.* U.Hamdam, Muvozanat. *Demokratiyaning hududlari, erkinlikning chegarasi bo‘ladimi-yo‘qmi, bilmayman, lekin shuni aniq bilamanki, demokratik jamiyat degani tizginsiz, b o sh b o sh d o q, zo‘ravonlik jamiyati emas.* O.Sharafiddinov, Dovondagi o‘ylar.

O‘ZBOSHIMCHALIK, BEBOSHLIK, BOSHBOSHDOQLIK O‘zboshimcha ish, xatti-harakat. **Beboshlik** so‘zida tartib-intizomga bo‘ysunmay qo‘yganlik, itoatsizlik ifodalari ustuvor. **Boshboshdoqlik** ko‘proq jamoaga tegishli tartibsizlik ma’nosini kuchaytirib ifodalaydi.

Ammo otasi o‘g‘lining bu o‘ z b o sh i m ch a l i g i dan tajang bo‘lib, moddiy yordam bermay qo‘yadi. M.Jumaboyev, Bolalar adabiyoti va folklor. *Sasaramdagi dehqonlarning yerini o‘lchash, hosilini bexato hisoblashda va soliqchilarning b e b o sh l i g i ni yo‘qotishda ko‘pgina yangi tadbirlarni amalga oshirdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Siz aytganday qilinsa, b e b o sh l i k ka katta yo‘l ochiladi, hamma yoq anarxiya bo‘lib ketadi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Ayni paytda hukumat ishlari, umuman, davlatni boshqarish shunday murakkab ishki, b o s h b o s h d o q l i k salbiy oqibatlarga olib kelishi muqarrar.* U.Hamdam, Muvozanat. *Yengilsan. B o sh b o sh d o q l i k ka moyilsan. Hukmni o‘tkazmoqda ojiz bo‘lib qolmasmikansan? Hukmni o‘tkazmoq uchun qattiqqo‘l, og‘ir bo‘lmoq darkor.* T.Malik, Savohil.

O‘ZGARUVCHAN, BEQAROR, QARORSIZ Bir zaylda turmaydigan, hadeb o‘zgaraveradigan. Qatordagi so‘zlar, asosan, ob-havoning shunday sifatini bildirish uchun ishlatiladi. **Beqaror** bu ma’noda ko‘p, **qarorsiz** esa kam qo‘llanadi.

Bu yerning havosi juda o‘ z g a r u v ch a n ekan... Ha-ha, qor deysizmi, do‘l deysizmi – marhamat! Sh.Xolmirzayev, Saylanma. *Mening o‘g‘il bola jiyanim, jigarim, bu o‘ z g a r u v ch a n, notinch hayotda shu yurishing yo‘qolmasin, omon bo‘l!* O‘.Umarbekov, Saylanma. *Zarafshon vodiysining ob-havosi juda b e q a r o r, bir kunda yuz marta o‘zgaradi.* Sh.Toshmatov, Erk qushi. *Yo‘l jimjit,*

faqat to‘polonchi shamol changni to‘zitib, q a r o r s i z yeladi. H.G‘ulom, Senga intilaman. *Ob-havo shunaqa q a r o r s i z bo‘ladi, zo‘rlanish yaramaydi...* H.Qodiriy, Eski Toshkantda.

O‘G‘IRLAMOQ, SHILMOQ, ILIB KETMOQ O‘zganing narsasini xufiyona olmoq, qonunga xilof ravishda o‘zlashtirmoq. **Shilmoq** so‘zida kishi molini aldab o‘ziniki qilish ta’kidi yetakchilik qiladi. **Ilib ketmoq** so‘zida harakatning osonlik bilan amalga oshishi ta’kidi anglashiladi. Bu so‘z, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **Shilib ketmoq** va **ilib ketmoq** so‘zlari ma’noni bir qadar obrazli ifodalaydi.

Borsak – hamma yoq bardak! Bir epizodni to‘rt-besh martadan oldik, deb pulni o‘ g‘ i r l a ydilar. E.A’zam, Shovqin. *O‘g‘li... ro‘zg‘orni yaxshilab, ovqatlarni mo‘l-ko‘l qila boshlabdi. Otasining pulini o‘ g‘ i r l a b, xarajat qilaveribdi-da.* Oybek, Tanlangan asarlar. *– Otam qarib, yo‘lda horib qolgan chol edi. Qaroqchilar uni bir zumda yotqizib, yonidagi bor pulini sh i l ib olishdi, – dedi Hoji xola.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *O‘g‘ri, bandit! Ertaga hamma yoqni sh i l ib qochadi.* A.Muxtor, Tug‘ilish. *– Ma, ehtiyot qil! – dedi bandi yelim qog‘oz bilan yamalgan kattakon papkamni stol tagiga tiqib. Anavi yerda begona kompaniya o‘tiribdi. I l i b k e t masin tag‘in!* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Innaykeyin, hozir bo‘linglar, qaqir yerlarga jon kirganda, tag‘in Teshaboy i l i b k e t masin.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.

O‘CH, QASOS, QASD, INTIQOM, ALAM Haqorat, alam o‘tkazganlik, umuman, yomonlik uchun qilinadigan javob tarzidagi ish, harakat, yomonlik. **Qasos** so‘zida atayin yomonlik qilish ta’kidi kuchli darajada ifodalangan. **Qasd** so‘zi kam qo‘llanadi. **Intiqom** eskirgan, kitobiy.

Yo‘lchi ko‘chada boyning prikazchigidan... hamma voqeani, ya’ni Gulnorning vafoti, Yormat uni Salimboyvachcha zaharlagan deb, qizining o‘ ch ini olib, bundan uch-to‘rt kun burun boyvachchani o‘ldirib, o‘zi g‘oyib bo‘lganini, bukun qayerdadir ushlanganini eshitgan edi. Oybek, Qutlug‘ qon. *Yo‘q, Nusratilla uni yomon ko‘radi, bu odamlarning hammasida alami, o‘ch i bor.* A.Muxtor, Opa-singillar. *Bu mudhish xabar yosh-qarining yuragida g‘azab va q a s o s alangasini yondirib yubordi.* N.Safarov, Sevgi. *Yo‘q, men ta’na qilmayman. Ko‘rsin, kuyib o‘lsin. Shuning o‘zi q a s o s bo‘ladi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Biz bechoralarda nima q a s d ing bor edi, shunchalik sharmanda qilding?!* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *– Ol, q a s d ingni olmaysanmi?! – pichirladi Alimardon undan ko‘z uzmay turarkan.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Bu odamlarning... biri haqoratga qarshi i n t i q o m qo‘lini ko‘tarmay, hamshiralik qo‘lini cho‘zgan, biri onalik mehr-muhabbati bilan boshini silagan.* A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *“Sen farmon bergansen, qasdini sendan olmog‘imiz kerak!” degilari kelib, Komronga i n t i q o m to‘la ko‘zlar bilan tikilishardi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Muncha serpiching bo‘lib ketibsiz. Menda a l a m ingiz bormi?*

Shuhrat, Shinelli yillar. *O‘zining qizlari o‘tirib qolganiga a l a m ini o‘gay qizidan oladi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar.

O‘CHMOQ, SO‘NMOQ Yonishdan, yolqin berishdan to‘xtamoq. **So‘nmoq** so‘zida yonayotgan narsaning sekin-astalik bilan butunlay o‘chish ta’kidi mavjud.

Chiroq yerga to‘nkarilib tushdi-yu, darhol o‘ ch di. Yorug‘ga o‘rgangan ko‘zlar qorong‘ilikda odamni odamdan ajratolmay qoldi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Jimjiloqning uchidek keladigan, shamga o‘xshagan mitti chiroqcha goh yonadi, goh o‘ ch adi. Muttasil qizil nur taratadi... Qizil nur!* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Moyi tugab, piligi so‘xta bo‘lgan chiroq bir lip etib s o ‘n di.* S.Ahmad, Ufq. *Yiltiragan cho‘g‘ yerga tushib, ojiz uchqunlarini sachratib s o ‘ n di.* M.Muhamedov, Qimmat bilan Himmat.

G‘

G‘ALABA, ZAFAR, MUZAFFARIYAT, NUSRAT Jang yoki bellashuv (kurash)da qozonilgan (erishilgan) muvaffaqiyat. **Zafar**, **muzaffariyat** so‘zlarida g‘alaba ta’kidi kuchli, poetik bo‘yoq mavjud. **Muzaffariyat** so‘zi eskirgan, ko‘proq kitobiy nutqqa xos. **Nusrat** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Bu yonda xalq qirilmoqda, Yodgor esa g‘ a l a b a g‘aflatida kayf-safo mayini sipqormoqda. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Hirot darvozalari tepasida karnay-u surnay, nog‘oralar avj qildi; sulton Shohrux mirzo lashkari g‘ a l a b a bilan qaytib keldi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Boburning uch mingga yaqin qurolli kishilari z a f a r kuyini chalib, qo‘sh nog‘oralar va karnaylar sadosi ostida shaharga kira boshladilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Urush – muvozanat boy berilgach, unga qayta erishish ilinjida so‘yilgan qurbonlik, tinchlik – qo‘lga kiritilgan z a f a r sharafiga berilgan ziyofat.* U.Hamdam, Muvozanat. *Keksalar guzar va mahallalarga to‘nkalardan gulxan solib, olomonga m u z a f f a r i y a t tilaydilar.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sherpanja shahzoda Sulton Husayn Egallamish Hirot toj-u taxtini, Muborak bo‘lsin bu m u z a f f a r i y a t! Do‘stingiz chorlamish sizni yoniga*. I.Mirzo, Samarqand sayqali. *Bo‘lib dahshatli janglar, o‘tdi sonsiz davr-u davronlar, Buningdek fath-u n u s r a t ko‘rmagan bu gumbazi atlas.* Habibiy. *– N u s r a t shijoatdan emas, Tangri taolodandir, – dedi Navoiy, muloyimlik bilan.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

G‘AM, TASHVISH, G‘USSA, QAYG‘U, KULFAT, ALAM, ANDUH, DOG‘, HASRAT, DARD, MUNG, HUZUN, SHO‘R, SHO‘RISH Kishida paydo bo‘lgan ruhiy azob his-tuyg‘usi, ruhiyatdagi shunday holat. **Tashvish** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. **G‘am** so‘zi **tashvish** so‘zi bilan juftlashib keladi hamda “ruhan ezilish” ifodasini beradi. Nutqda bu ma’noda **g‘am-koyish** so‘zi ham ishlatiladi. **Kulfat** so‘zi bu ma’noni kuchli darajada ifodalaydi. **Dard, alam** so‘zlarida ruhiy azob ta’kidi kuchli. Bu so‘zlar juft holda qo‘llanib, mazkur mazmunni yanada kuchli ifodalaydi. **Anduh** eskirgan, kitobiy so‘z bo‘lib, poetik bo‘yog‘i bor. Ko‘pincha **g‘am** so‘zi bilan birga juft so‘z holida qo‘llanadi, bunda ma’noni yanada kuchli darajada ifodalaydi. **Mung, huzun** so‘zlari eskirgan, kitobiy nutqqa xos. **Sho‘r, sho‘rish** so‘zlari nofaol bo‘lib, nutqda kam ishlatiladi.

Haqiqatan, endi bu iztiroblardan foyda yo‘q, vujudini qaqshatgan bu tizginsiz g‘ a m ni jilovlay bilmoq, nima bilandir ovunmoq kerak! I.Sulton, Ozod. *Yodimdadir o‘shal damlar, kulgularing edi so‘lim, hali yiroq edi g‘ a m lar, dunyoda yo‘q edi o‘lim.* Sh.Rahmon, Saylanma. *Sizga bir maslahatim: ko‘p*

kuyunchak bo‘lavermang, yurak kasalligi aksariyat ikir-chikir t a sh v i sh lardan kelib chiqadi. O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor. *Senga bir umr kuyishning o‘zi yetmaganday, t a sh v i sh imdan kuya-kuya xasga aylanding, kul bo‘lding.* I.Sulton, Ozod. *Yo‘lin yo‘qotsa odam – muhabbatga suyangay, G‘ u s s a ga botsa odam – muhabbatga suyangay*. A.Oripov, Birinchi muhabbatim. *Qizning qarashi asta-asta o‘zgarib, behol g‘ u s s a o‘rnini sog‘inch-u armon, yillab ko‘rishmagan oshiqlar orasida bo‘ladigan begonalig-u betoqatlik egalladi.* U.Azim, Birovning umri. *Yana chin gaplardan kelar bo‘lsam... bu munglug‘ ko‘nglumdan qo‘zg‘olgan q a y g‘ u larim qaynar suvdek bo‘lib ikki ko‘zimdan oqqani turgan esalar-da, endi haq so‘zni aytar paytim keldi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bitta sham o‘chgaydir shabboda yelsa, Kulga libos, balki, asli u q a y g‘ u*. A.O‘ktam, Taraddud. *Eng yaxshi farzanding etilmishdir oq, Ey balo tutquni, k u l f a t da ado!* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Neki dard bor, neki k u l f a t bu jahonning kunjida, Men bo‘lay yuz ming giriftor, lek mahvash bo‘lmasin.* E.Vohidov, Muhabbat. *Yiqildingmi?.. Ko‘zlaringda Buncha a l a m, Buncha a l a m!* U.Azim, Saylanma. *Jindekkina a l a m ham Tog‘dek botib ketarkan, Ko‘ksim to‘la ming armon, To‘lg‘onaman, Onajon*. M.Yusuf, Beshinchi o‘g‘il. *Men siyohbaxt dunyoga kelmagan bo‘lsam edi, sizga munchalik kulfatlar, munchalik a n d u h lar yo‘q edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Sevgisiz tiriklik a n d u h, befarah, Mangu sharofatli ma’raka bu kun.* R.Parfi, Ko‘zlar. *Bulbul oshno bo‘lar Eram bog‘iga, Qursin o‘lim, kim chidaydi d o g‘ iga*. “Ravshan”. *Qorong‘i qish kunlaridan qolgan d o g‘ lar, to‘rt devor orasida yashashdan kelgan chiqindilar, otalardan o‘tgan zulmlar, sovchilardan yetgan tashvishlar barham yemaganmidi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Suv o‘rniga qon shimayotgan halovatsiz, bechora zamin. H a s r a t bilan yerga qaraydi chiqarmasdan xudolar damin.* Sh.Rahmon, Saylanma. *Ko‘ringan odamga h a s r a tingni aytib, dunyodan yig‘lab o‘tmoqchimisan?* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Bu odamning ichi to‘la d a r d.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Faqat u yulduzning bilsang borligin, Yulduzim deb bilsa kimdir seni ham, D a r d, anduh, masofa yo‘qolib sekin, Yulduzlar allasin bilasan malham...* Zulfiya, Saylanma. *Yirik, dono ko‘zlar m u ng ga aylanib To‘kilmagan yoshga to‘ladi liqqa.* Zulfiya, Quyoshli qalam. *Nusratjon osmondagi siyrak pushti rang bulutlarga tikilib o‘tirar, oqarib ketgan yuzida, sal qisilgan qo‘y ko‘zlarida allaqanday sokin bir m u ng jilva qilardi.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Kumushning ko‘zlarida doimiy bir ma’yusiyat, arimas bir h u z u n, har onda bir entikib chayqalish edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Nechun yurakda tosh, ko‘zlarda h u z u n, Nechun?! Xo‘rlangan insonlar faryodi?* R.Parfi, Siyovush. *Kitob o‘qimaydigan boshliq – sh o‘ r imiz, u na san’atning, na adabiyotning, na ilmning qadriga yetadi*. Mirmuhsin, Tanlangan asarlar. *Men – o‘tda, sen esa xazonda vosil, Evoh, tiriklikning sh o‘ r i sh i bisyor!* U.Azim, Kuz.

G‘ARAZGO‘Y, KEKCHI, G‘ARAZCHI Birovning yutug‘ini ko‘ra olmaydigan, yomon niyat, g‘araz bilan ish tutuvchi. **Kekchi** so‘zi kek saqlaydigan, o‘ch olish payiga tushgan insonlarga nisbatan qo‘llanadi. **G‘arazchi** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos.

Sizning adolatli hukmingizdan bir narsani so‘raymiz... bizning to‘g‘rimizda yomon maqsad bilan sizga chaqimchilik qiluvchi ig‘vogar va g‘ a r a z g o‘ y lar bu majlisga hozirlansinlar. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shunday rangi toza yigit Mahkamning tasavvuridagi g‘ a r a z g o‘ y amalparastga hech ham to‘g‘ri kelmasdi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Ushinskiyning elchilar guruhiga kiritilishi, majlisda “k e k ch i”, “adovatchi” degan nom olishi Asadullani behad g‘azablantirdi.* T.Malik, Savohil. *Avvalam, men siz o‘ylagancha k e k ch i emasman. Sizda nima aybki, sizdan o‘ch olsam.* Shuhrat, Jannat qidirganlar. *G‘ a r a z ch i, buzg‘unchi va nizochi unsurlarning tomir yoyishi Turkistonni, qolaversa, butun Sharqni halokat chuquriga qarab sudragani yagona sababmikin?* Gazetadan. *Mana shunday g‘a r a z ch i larni, ular kim bo‘lsalar ham, ish boshidan quvlash va ular o‘rniga yaxshi va xolis odamlarni o‘tqazish najotimizning yo‘lidir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

G‘ARB, KUNBOTAR, **MAG‘RIB, XOVAR** Dunyoning to‘rt tomonidan biri; quyosh botadigan tomon. **Kunbotar** so‘zi so‘zlashuv nutqida ancha faol qo‘llanadi. **Mag‘rib, xovar** so‘zlari eskirgan, kitobiy nutqqa xos.

Sharqdan, g‘ a r b dan, janubdan mudom “Salom”, deya kelar mehmonlar. M.Shayxzoda, Toshkentnoma. *Oftob g‘ a r b ga yonboshlaganda, ikki yo‘lovchi dashtdan chiqib, tepalikka yo‘l oldi*. A.Qahhor, Maston. *Tashqariga chiqqanimda, k u n b o t a r dagi adirlar betidan – archazorlarni oralab qo‘ylarimiz tushib kelmoqda edi.* Sh.Xolmirzayev, Og‘ir tosh ko‘chsa. *Hovlining k u n b o t a r tomonida, xarobalikdan ozgina berida bo‘lgan boyagi yo‘lakka tirab solingan ikki darichalik bir uy bor edi*. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Puldor odam – qanotli odam, bu qanot bilan m a g‘ r i b dan mashriqqacha uchasan, har yerda oshna-og‘ayni, do‘st-yor topasan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bir to‘da yigit m a g ‘ r i b dan to mashriqqacha yetgan lak-lak lashkari bo‘lgan temuriylar saltanatini qulata olarmidingiz*. Mirmuhsin, Me’mor. *Forig‘ o‘lg‘och bu dur nisoridin, Dedikim: “Boxtar diyoridin Qildilar azmi X o v a r ikki kishi, Tun-u kun sayr o‘lub alarning ishi”*. Navoiy, Sab’ai sayyor. *Ki, Iskandarki olib yetti kishvar, Hududi boxtardin to ba x o v a r*. Navoiy, Farhod va Shirin.

G‘IRROM, TIRRIQ O‘yin, musobaqa, bellashuv yoki boshqa munosabatda tartib-qoidaga zid yo‘l tutuvchi; halollikka rioya qilmaydigan. **Tirriq** so‘zida belgi darajasi kuchli.

Shaxmatning yana bir zarari shuki, agar g‘ i r r o m odam bilan o‘ynasangiz, asabingiz buziladi. A.Qahhor, Asarlar. *Pochchaginamga o‘xshagan g‘ i r r o m larni o‘marishadi. O‘zing o‘ylab ko‘r, ishchidan yo dehqondan nimani*

o‘marishadi? T.Malik, So‘nggi o‘q. *Fashist beinsof ekan, juda t i r r i q ekan.* Oybek, Quyosh qoraymas. *Anavi t i r r i q lar ko‘p ishlarni bo‘yniga olmasligi mumkin.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

G‘IYBAT, FISQ-FASOD, FISQ-FUJUR, **DEDI-DEDI, VISIR-VISIR** Birovni kamsitib, yomonlab aytilgan yolg‘on-yashiq gap. **Fisq-fujur** so‘zi kam qo‘llanadi. **Dedi-dedi** so‘zida bir kishidan eshitgan gapni boshqa kishiga yetkazish ta’kidi kuchli, so‘zlashuv nutqiga xos. **Visir-visir** so‘zida g‘iybat darajasi **dedi-dedi**ga nisbatan kuchli.

Ha, yaratgan egam shohid! O‘zi qo‘shg‘on xo‘jam oldida tariqday gunohim yo‘q. Biroq bul ichi qora shumniyatlar tarqatgan g‘ i y b a t lar, tuhmatlar, bular qo‘ygan tuzoqlar!.. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *G‘ i y b a t bilan tuhmat – o‘lgan odam go‘shtini yeyish bilan barobar ekan.* T.Malik, Savohil. *Ertasiga Islomxo‘ja haqida uydirma gaplar, f i s q-f a s o d lar to‘qildi.* J.Sharipov, Xorazm. *Bo‘ynim egildi, bukildi, biroq sinmadi. Qancha-qancha f i s q-u f a s o d, ig‘vo, malomatlarga qoldim, lekin tushkun bo‘lmadim.* I.Rahim, Ishbilarmon qismati. *Saragul. – Nechun qon yig‘lamaylik? Saroyda ig‘vo, haramda f i s q-u f u j u r! G‘iybat!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Amakim ham, xotini ham qiziga nasihat qilish o‘rniga, uning f i s q-f u j u r ishlarida ko‘makdosh bo‘ldilar.* M.Qoriyev, Oydin kechalar. *Kim bilsin, qishloqdagi v i s i r-v i s i r lar Habibaning ham qulog‘iga yetgandir.* O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Yo‘q, bo‘layotgandir, balki, siz bilan menga eshittirmay, hu orqada, v i s i r-v i s i r, shivir-shivir...* A.A’zam, Tiqin.

G‘IYBAT QILMOQ, FISQ-FASOD QILMOQ, CHALPIMOQ, VISIR-VISIR QILMOQ Kishi haqida g‘iybat tarzidagi gaplar aytmoq, shunday gaplar bilan kishini aybsitmoq, bir tomonlama yomonlamoq. **G‘iybatlashmoq** so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **Chalpimoq** so‘zida birovni yomonlab gapirish ifodasi yuqori. Bu so‘z, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi

Men boshqa narsadan ranjidim ...orqangizdan g‘ i y b a t q i l may, fikrimni ko‘pchilik orasida aytganimdan beg‘araz ekanimni bilishingiz kerak edi. T.Malik, Savohil. *Kishi mehnat qilmasa, g‘ i y b a t q i l adi.* Mirmuhsin, Umid. *O‘zi udda qilolmay, ketidan xotinlarday f i s q-u f a s o d q i l ib yuradigan sendaqalardan o‘sha begona yaxshi*. O.Yoqubov, Izlayman. *Ayniqsa, frontovikning xotinini ch a l p i shga hech kimning haqqi yo‘q*. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *U har kuni samovarga chiqib... hadeb yangi raisni ch a l p i ydi.* S.Ahmad, Hodivoy. *Mana endi bu gal unga qo‘l keladi, Rahbarning qulog‘iga v i s i r-v i s i r q i l adi.* U.Nazarov, Alangali salom.

G‘OLIB, MUZAFFAR Urush, jang, kurash, tortishuv, musobaqa va shu kabilarda g‘alaba qozongan, ustun chiqqan. **Muzaffar** kitobiy nutqqa xos bo‘lib, kam qo‘llanadi.

G‘ o l i b hukmdor urush talafotlari o‘rnini to‘ldirish va yangi urushlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun, mag‘lub esa g‘olib talab qilgan o‘lponni to‘lash

uchun el boshiga yangi-yangi xiroj-u yag‘mo yomg‘irini yog‘dirardi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Urushdan qaytgan g‘ o l i b otadek Qo‘yni-qo‘nji to‘lib saxiy kuz keldi.* G‘.G‘ulom, Saylanma. *Yusufbek hoji boshliq yer-u ko‘kka sig‘magan m u z a f f a r xalq o‘rda tevaragini qurshab turdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Saragul. – Yovuz Chingizxon, xoin To‘xtamish! M u z a f f a r lashkarlarim yakson qilg‘on mag‘lub Yildirim! Ayt ularg‘a: men To‘xtamishday tuzimni yeb, tuzlug‘imga tupurgan ila so‘zlashmaymen.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat.

G‘ULG‘ULA, G‘ULU(V), QUTQU, G‘ASHLIK Kishi ruhi, dilidagi notinch, bezovta holat. **G‘ulu(v)** va **qutqu** so‘zlari kam qo‘llanadi, **g‘ulu(v)** ko‘proq she’riy nutqqa xos. **G‘ashlik** so‘zida ta’bi xiralik ta’kidi kuchli.

Murodning gapidan ham ta’sirlandim, ham ko‘nglimdagi g‘ u l g‘ u l a kuchaydi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Shavkatning xayolida uy asta tebranayotganday bo‘lib, yuragidagi g‘ u l g‘ u l a kuchaydi.* Q.Kenja, Tog‘ yo‘-lida bir oqshom. *Kechalari mizg‘imas me’mor, Muhandisda o‘zgacha g‘ u l u.* M.Ali, Amir Temur chamani. *Saragul. – Amirim! Ollo qovushtirgan juft-u halolim, yaratgan egam bu ko‘nglingizga bul g‘ u l u v, dilingizga bul shubhani solibdur, qo‘ying bul xatarli yurishni!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Zamona qalqib turibdi, bek tugul amirning o‘zi ham q u t q u da emish.* A.Muxtor, Chinor. *Rahim Saidov o‘zini bosib oldi, lekin baribir dilidagi g‘ a sh l i k uyga qaytganida ham tarqamadi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Mana endi daf’atan fikrsiz, o‘ysiz qoldi, yuragi bo‘m-bo‘sh, bunda faqat g‘ a sh l i k va og‘riq hukmron.* X.Sultonov, Onamning yurti.

G‘ULG‘ULA SOLMOQ, G‘ULU(V) SOLMOQ, QUTQU SOLMOQ Kishi dilida notinchlik uyg‘otmoq, bezovtalik qo‘zg‘amoq. **G‘ulu(v) solmoq** kitobiy nutqqa xos. **Qutqu solmoq** so‘zida gijgijlamoq ma’nosining ta’kidi ham bor.

Qanday kunlarni boshimizdan kechirmadik. Lekin ko‘p qayg‘urmang, davr o‘zi shunaqa edi. U ba’zi odamlarni esankiratib qo‘ydi, yuragiga g‘ u l g‘ u l a s o l di, yo‘ldan ozdirdi, hatto o‘zidan cho‘chiydigan ham qilib qo‘ydi. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Bir yoqdan ro‘za oyi ham yurakka g‘ulg‘ula solib yaqinlashmoqda edi.* M.Osim, Tilsiz guvoh. *U ne o‘ktam, botir yigitlar Yuragiga s o l magan g‘uluv.* E.Vohidov, Nido. *Yigitlikda g‘uncha kabi lab Tinchlik bermay s o l ardi g‘ulu.* Shukrullo. *Mana, Isfandiyor, (so‘z kerakmidi), Qutqu s o l moq uchun el orasiga Aybli xotinmidi yo erkakmidi – Oppor, derdi o‘lim minorasiga.* I.Mirzo, Xiva. *O‘lim minorasi. Hindu bilan muslim aro q u t q u s o l gan – shul odam!” Olis yurtdan kelgan birov Ayb qo‘ydi beandisha!* E.Vohidov, Ruhlar isyoni.

Sh

SHABADA (SHABBODA), YEL, SABO, NASIM Yengil, mayin shamol. **Shabboda** so‘zi kitobiy bo‘yoqqa ega. **Yel** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **Sabo** so‘zi ertalabgi mayin, yoqimli shamol, ya’ni tong shabadasini bildirib, poetik ta’kid bilan ifodalangan. **Nasim** so‘zida yengil, yoqimli shamol ta’kidi mavjud, kitobiy nutqqa xos.

Yulduzlar sirli ko‘z qisishar, tillaqoshdek ingichka oy sirli mo‘ralar, sh a b a d a sirli shivirlar, sadarayhon bilan tuproq sirli hid taratar, osmon ham, yer ham sirlarga to‘la edi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Ana, butaning ustiga yoyib qo‘yilgan kasofat shim yengil sh a b a d a da ohista tebranadi.* E.A’zam, Shovqin. *Bitta sham o‘chgaydir sh a b b o d a yelsa, Kulga libos, balki asli u qayg‘u.* A.O‘ktam, Taraddud. *Novdalarni bezab g‘unchalar, Tongda aytdi hayot otini*. *Va sh a b b o d a qurg‘ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini.* H.Olimjon, O‘rik gullaganda. *Shimol tog‘larida sovuq y e l esdi, Qirovlar to‘kildi o‘t-u o‘langa.* U.Azim, Saylanma. *Borliq kiyib olgan moviy bir libos, Y e l esar – bahorning pildiroqlari.* A.Oripov, Aprel. *Vatan jim turadi. S a b o larining Naylarga qo‘shilib bo‘zlari ko‘pdir. Saraton. Dashtdagi bobolarimning Pastak chaylalarin so‘zlari ko‘pdir.* H.Xudoyberdiyeva, She’rlar. *S a b o arzimni yetkur, mohitobon bir kelub ketsun, Tamomi husn elining shohi-sultoni, bir kelub ketsun.* Hamza, Bir kelib ketsun. *Kolonnalar to‘lib-toshadi, bayroqlar bahor n a s i m i bilan o‘ynashadi.* Mirtemir, Tanlangan asarlar. *Ariq bo‘ylari, tolzorlar oralab uchgan shabadalar, Samarqand n a s i m iday, qaynoq tanlarga qanot urib, erkalab, orom berib o‘tadi.* Mirmuhsin, Umid.

SHAKLDOSH, OMONIM Shakli va talaffuzi bir xil, ammo ma’nosi har xil bo‘lgan lisoniy birliklar. Mazkur so‘zlar lingvistik tushunchani anglatish jihatidan o‘zaro teng. **Shakldosh** so‘zi ilmiy asarlarda, shuningdek, maktab darsliklarida ham ishlatiladi, bu so‘z keyingi yillarda faollashib bormoqda. **Omonim** so‘zi tilshunoslikka oid ilmiy asarlar va ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanadi.

Ikki xil sememaga ega bo‘lgan fe’llar o‘zaro sh a k l d o sh leksemalarmi yoki ko‘p sememali so‘zlarmi, degan mantiqiy savol tug‘iladi. H.Ne’matov, R.Rasulov, O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. *Sh a k l d o sh so‘zlar, ya’ni omonimlarni ham farqlay bilish so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash va, demak, nutqning aniqligini ta’minlashga yordam beradi.* N.Mahmudov, O‘qituvchi nutqi madaniyati. *Masalan,* ***ot, oz, ol*** *o m o n i m larining tarkibiga kiruvchi bir so‘z til tarixida cho‘ziq a: bilan talaffuz etilgan edi*. “O‘zbek tili leksikologiyasi”. *O m o n i m larni qorishtirish natijasida yuzaga keladigan nutqiy noa-*

niqliklar ko‘proq o‘quvchilar nutqida kuzatiladi... N.Mahmudov, O‘qituvchi nutqi madaniyati.

SHAKLDOSHLIK, OMONIMIYA Turli ma’noga ega bo‘lgan til birliklarining talaffuz va yozilish jihatidan bir xil bo‘lishi. Mazkur so‘zlar lingvistik tushunchani ifodalash jihatiga ko‘ra o‘zaro teng. Har ikkala so‘z keng qo‘llanadi. Tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarda **omonimiya** so‘zi nisbatan ko‘p uchraydi.

Ulkan adib Abdulla Qahhor “San’atkor” nomli hikoyasi (1936-yil)da bo‘lsa fe’lining adabiy talaffuzdagi bo‘sa shakli bilan bo‘sa (o‘pich) oti o‘rtasidagi shakldoshlikdan foydalanib, mazkur fe’lning faqat bo‘lsa shaklini adabiy talaffuz deb tushunadigan, hatto bo‘sa (o‘pich)ni ham bo‘lsa tarzida aytadigan “madaniyatli” artistning benihoya kulgili qiyofasini chizgan... N.Mahmudov, O‘qituvchi nutqi madaniyati. *Bu ham dostonlardagi ko‘p ma‘nolilik va shakldoshlikka asoslangan san‘atlarga aloqador xususiyat.* S.Olim, Iyhomangiz san‘atlar. *Konversiya usulida so‘z yasash shuncha qadimiy ekan, uning natijasida omonimiyaning yuzaga kelishi ham shuncha qadimiydir.* “O‘zbek tili leksikologiyasi”. *O‘zbek tilidagi omonimiyani yuzaga keltiruvchi ichki manba so‘z yasash usullaridir.* “O‘zbek tili leksikologiyasi”.

SHAMOL, BOD, BO‘RON, TO‘FON, DOVUL, DUVALANG Havoning yer sathi bo‘ylab (gorizontal) harakati. **Shamol** so‘zida mazkur jarayon, harakat ifodasida umumiylik mavjud. **Bod** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Bo‘ron** so‘zi to‘zon, shuningdek, qor-yomg‘ir aralash esadigan shiddatli shamolga nisbatan qo‘llanadi. **Dovul** so‘zida vayronlik keltiruvchi kuchli bo‘ron ta’kidi mavjud. **Duvalang** so‘zi o‘g‘uz shevalarida shiddatli shamolga nisbatan qo‘llanadi, bu so‘zning **duvalay** varianti ham uchraydi.

Bilsam, onamning yurti hur shamollar maskani – zumrad vodiy qo‘ynida ekan... X.Sultonov, Onamning yurti. *Qarama-qarshidan esayotgan shamol shiddati ostida och kulrang tusli notanish butalar yovvoyi is taratib yulqinar, ko‘tarilgan chang-u to‘zon isi ham tevarakni tutib ketgan edi.* I.Sulton, Shamolli kecha. *Ey bod, yetkur yora salomim.* Mashrab. *...Negadir o‘zi ham rostdan odamlar hozir shunaqa ekanligini tasdiqlash uchun amakisining o‘g‘liga urug‘lik uchun tiramoda o‘n besh ming so‘m bergani, biroq uni qaytarib olish qiyin bo‘lgani, ikki-uch marta besh yuz-ming so‘mdan berib barakasini uchirgani, oxiri ekkan bug‘doyini bod urib, hech narsa berolmasligini aytib turganini so‘zladi.* S.O‘nar, Vijdon. *Bu yerlarda girdibod-u bo‘ron ko‘p bo‘ladi.* Mirmuhsin, Me’mor. *O‘ynoqi shamollar ila basma-bas Ana, qo‘ndi burgut eng yuksak joyga! Cho‘qqi uzra turdi-yu bir pas Yana bo‘ron misol qo‘zg‘aldi. Qayga?* A.Oripov, Bo‘ron. *Ikki kechagacha uyqu ololmadi, ko‘zini yumsa, terakning shovullashi to‘fon bosib kelayotganday kuchayaverdi*. A.Muxtor, Opa-singillar. *Taqdir deyin desam, tahqirga o‘xshar. Tug‘yonim – ko‘z yoshi, isyonim – xanda. Ummon asov bo‘lsa, to‘fon ham o‘jar. Inon-imkon bormi yurak – yel-*

kanda? I.Mirzo, Bu hayot ekan-da... *Sal o‘tmay osmon oqarib, atrof yorisha boshladi-yu, tungi qora d o v u l ning qabih ishi butun dahshati bilan namoyon bo‘ldi.* O.Yoqubov, Diyonat. *Juda uzoqdagi bepoyon o‘zga hududlardan boshlangan va uchragan neki bor payhon qilib o‘tadigan, kuchi d o v u l lardan ham shiddatliroq bir to‘fon boshlanishidan darak bermoqda edi kuzatuv xizmatlari.* I.Sulton, Sofiya. *Nimadir yuz berdi, mo‘tadil iqlim d u v a l a y komida uzildi yerdan*. O.Matjon. *Ohlarimni bir xas kabi uchirmoq bo‘lib, D u v a l a ng ga aylanadi sokin yel gohi.* E.Samandar, Nazm nafasi.

SHAMOLLAMOQ, SHABADALAMOQ, YELLATMOQ 1. Shamollash kasaliga duchor bo‘lmoq, shamollash tufayli kasal bo‘lmoq. **Shabadalamoq** so‘zi kam qo‘llanadi. **Yellatmoq** shevaga xos.

Sh a m o l l a ysiz, Safar aka, o‘ranib o‘ltiring. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Bu qo‘llar uni yo‘rgaklagan, unga ko‘krak tutgan, sh a m o l l a ganida badaniga qo‘y yog‘i surgan*. O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Nega qo‘zg‘aldingiz, to‘ram? Sh a b a d a l a b qolmang, yana.* I.Sulton, Burgutning parvozi. *Suvda sh a b a d a l a gan yomon, odam qattiq kasal bo‘lib qolishi mumkin.* Q.Kenja, Toshqin. *Bugun maydonga tushmoqning hech iloji yo‘q, chunki belni andakkina y e l l a t ib qo‘yganmiz. Ammo ertagacha tuzalib qolar degan umiddamiz.* N.Norqobilov, Kurash.

2. SHAMOLLAMOQ, SHABADALAMOQ Toza havodan nafas olib yurmoq.

Ancha sh a m o l l a b va yengillab kirgan vaqtida mingboshi dasturxon yoniga ag‘nab, uchib qolgan edi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. – *Birpas s h a b a d a l a ng, bolam, – dedi chol*. Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.

SHAPALOQ, TARSAKI, SHAPATI Qo‘l, panja bilan (betga) urilgan zarba. **Tarsaki** so‘zida kuchli zarb ifodasi anglashiladi. **Shapati** so‘zi ko‘proq oddiy so‘zlashuvda qo‘llanadi, bu so‘zda “uncha kuchli bo‘lmagan zarba” ma’nosi ustuvor.

U otasidan, hech bo‘lmasa, bir shapaloq yeyishini, sh a p a l o q dan keyin musht tushib qolmasligi uchun yig‘lamsirab baqirishi lozimligini ham hisobga olgan edi. T.Malik, Shaytanat. *Xullas, janjal “oq qilaman”dan tortib bir-ikki s h a p a l o q qacha borib yetdi. Shukrki, qo‘rg‘on eshiklari mahkam edi – tashqariga tiq etgan tovush eshitilmadi*...Y.Tog‘a, Biz bo‘lmagan joylarda… *Ajratаman, degan ikki-uchtasi ham t a r s a k i bilan siylanibdi. Nima bo‘lgandayam, jinni jinni-da?* U.Hamdam, Muvozanat. *Ko‘zdan xoli joyga chiqishgach, bezorilarga xos iboralarda so‘zlana turib, to‘satdan uning yuziga tarsaki tushirib qoldi. Bu t a r s a k i ning ma’nosi, bundan keyin holingni bilib, tinchgina yur, degani edi.* N.Norqobilov, Kurash. *Sarvar shitob bilan yurib kelib Diloraning yuziga bir sh a p a t i uradi.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *U Ehsonning kaftiga sh a p a t i bilan urib so‘rashdi-da, burnini jiyirib, uyning u yoq-bu yog‘iga qaradi*. A.Qahhor, Sarob.

SHAPALOQLAMOQ, SHAPALOQ TORTMOQ, TARSAKILAMOQ, TARSAKI TORTMOQ, TARSAKI TUSHIRMOQ, SHAPATILAMOQ Ochiq kaft bilan tananing biron qismi (ko‘pincha bet)ga zarb bermoq, shapaloq bilan urmoq. **Shapaloq tortmoq, tarsaki tortmoq** so‘zlarida belgi darajasi kuchli ifodalangan. **Shapatilamoq** so‘zida zarba berish ta’kidi yengilroq ekanligi seziladi.

Qosimov qaytib o‘rniga o‘tirarkan, tizzasiga sh a p a l o q l a b bir urib qo‘ydi. H.Nu’mon, Fasllar. *Padariga qusur bunaqalarni! Kecha kechqurun xoli topib, gapni maydalashtirib yuramanmi deb, yoniga yaqinlashsam, bu ablahni qarang, kimligimni surishtirmasdanoq sh a p a l o q l a b tushirib qolsa bo‘ladimi, la’nati!* Shukrullo, Saylanma. *U xamir yuqi qo‘li bilan o‘glining yuziga ayamay shart-shart sh a p a l o q t o r t di.* X.Sultonov, Onamning yurti. *Hukumat vakili ekanini hisobga olib, to sh a p a l o q t o r t guncha indamay turdim. Vaholanki, ovozini vaqtida o‘chirish uchun bo‘yniga tayyor chandilgan galstukni ozgina tortib qo‘yishim kifoya edi.* A.Obidjon, Ayollar va xayollar. *Zulayxo Gavharga bemor odamga qaraganday achinib qaraydi, bundan ko‘ra t a r s a k i l a b yuborgani yaxshi emasmi?* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Juvon t a r s a k i t o r t ib yubormoqchiday qo‘lini shop qilib: “Yo‘qol!” dedi.* N.Qilichev, Yorongul. *Nima balo, biron ishdan kufr bo‘lib borayotgan ekanmi, haytovur, Yolg‘izjonning yuziga t a r s a k i t o r t ib yuboribdi.* R.Rahmon, Mehr ko‘zda. *Gulshoda o‘g‘lining goh u, goh bu yuziga charsillatib t a r s a k i tu sh i r a boshladi.* U.Hamdam, Muvozanat. *O‘tgan yili Mamatqul xotini Hanifa bilan gap talashib qolgani uchun Sobirning yuziga tarsaki tushirganini kechira olmagan Buvgul xola uni bola-chaqasi bilan chala bitgan imoratga ko‘chirib yuborgandi.* A.Yo‘ldosh, Yolg‘on va haqiqat. *– Xafa bo‘lmoqqa ruxsat yo‘q! – deya Kamolova, xiyla yaqinliklari bormi, uning chakkasiga sh a p a t i l a gandek yengilgina barmoq urib qo‘ydi…* E.A’zam, Shovqin. *Buvim qabr ustidagi qorlarni tozalab supurib, kurak bilan nariga itarib, o‘sha kurakning ustiga o‘tirdi-da: – Voy xudoyiiim! – deb boshini chayqab... yig‘lab yubordi. Keyin tizzasiga sh a p a t i l a b ura boshladi.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar.

SHARQ, KUNCHIQAR, MASHRIQ, **BOXTAR** Dunyoning to‘rt tomonidan biri, quyosh chiqadigan tomon. **Sharq** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Kunchiqar** so‘zi og‘zaki nutqda qo‘llanadi. **Mashriq, boxtar** so‘zlari eskirgan, kitobiy nutqqa xos.

Ko‘p kitob o‘qidim yoshlik kezimda, Gohi G‘arb, gohi Sh a r q hushimni oldi. Atay yodlamadim, lekin esimda – Muhammad akaning she’rlari qoldi. I.Mirzo, Javob. *Ot ko‘chaning sh a r q iga yurib... yana shimolga burilib, tor ko‘cha bo‘ylab uzoq ketdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *K u n ch i q a r tomonda tepaliklar bo‘lib, kunbotar tomon – tekislik, undan nari – qumliklar.* Mirmuhsin, Me’mor.

Erlardan biri – sochi yelkasiga tushgan, uzun jussali, ko‘k ko‘zlisi qo‘li bilan k u n ch i q a r ni ko‘rsatgach, o‘sha yoqqa yurishdi. I.Sulton, Bilga Xoqon. *Har tong ko‘zim m a sh r i q da. Kun chiqsaydi, sen yoqdan.* T.To‘la, Saylanma. *Mashriq ufqi asta-sekin yorishib kelardi.* Mirmuhsin, Me’mor. *M a sh r i q mamlakatlaridan birida hududsiz ummonlar orasidagi mo‘jazgina bir orolda... mo‘jiza bir daraxt o‘sarmish*. O.Yoqubov, Ko‘hna dunyo. *Ko‘ngul qushi tun-u kun mulki b o x t a r sari Havo qilurg‘a mahi xovariy erur bois.* Navoiy, G‘aroyib us-sig‘ar.

SHARTNOMA, BITIM, AHDNOMA Nimanidir qilish-qilmaslik yuzasidan ikki tomonning o‘zaro ishonch so‘zini qayd etuvchi, asosan, yozma shakldagi hujjat, odatda rasmiy munosabatlarda kuzatiladi. **Shartnoma** so‘zi, odatda, rasmiy nutqda faol qo‘llanadi. **Bitim** so‘zi kitobiy hamda publitsistik nutqqa mansubdir. **Ahdnoma** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Rano Sangram o‘g‘li Bikramaditni oraga qo‘yib tuzgan sh a r t n o m a da “agar Bobur hazratlari bizni Ibrohim Lodi zulmidan xalos qilsalar, uni oliy hukmdorimiz deb tan olurmiz” deyilgan joyi ham bor edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Darhol menga sh a r t n o m a loyihasini yuboradilar*. O‘.Umarbekov, Qadah. *Bu b i t i m ga binoan Shayboniyxon O‘ratepani Mahmudxonga berib, o‘zi Hisorga qo‘shin tortib ketgan edi*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Men bu dunyo bilan munosabat qilishni istamadim, bu dunyo men bilan yarashiq, do‘stlik b i t i m ini tuzolmagan, meni chiqindiga chiqarib qo‘ygan edi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Chunki po‘lat varaqqa bitilgan a h d n o m a ga binoan xonlik masnadiga faqat Chingizxon avlodlari munosib ko‘rilgan. Temurning bobokaloni Qorachor nuyon bu a h d n o m a ga imzo chekkan*. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bu birinchi o‘pish, ajralmas oila a h d n o m a siga bosilgan muhr edi.* S.Nazar, Yashil boylik.

SHARSHARA, SHALOLA, SHOVVA Suvning yuqoridan tik pastlikka shiddat bilan quyilib tushadigan joyi. **Shalola** so‘zida suvning yuqoridan tik pastlikka “shiddat bilan tushish” ifodasi kuchsizlanadi, muayyan darajada poetik bo‘yoq seziladi. **Shovva** so‘zi kam qo‘llanadi, unda “shovullagan tovush chiqishi”ga ishora mavjud.

Omontoy pastda hayqirib oqayotgan Qizilsuv sh a r sh a r a lariga parvo ham qilmaydi. T.Malik, Yer uyg‘ondi. *Zilol suvli sh a r sh a r a yonida ikki bahaybat chinor, Bobur zamonidan guvohlik berib, shox otib turibdi.* H.Hasanov, Ekvatordan o‘tganda. *Yuqoridan jarlik tubiga otiluvchi sh a l o l a sherday o‘kiradi.* H.G‘ulom, Toshkentliklar. *Butun koinot lola, Ko‘zim qamashadi, Aqlim zavqdan lol. O‘ngirga to‘kilgan qizil sh a l o l a, Poyimda bepoyon ol gilam misol.* E.Vohidov, Saylanma. *Yozda anhorga ham sig‘may guvullab yotadigan s h o v v a hozir to‘g‘onning har chekkalariga muz marjonlarini sochib, muzto‘qmog‘-u muzqilichlarini yasab yotar... edi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bir ma-*

hal Yigitali daraning suvi dimlanib oquvchi joy – sh o v v a qarshisidan chiqib qoldi. D.Nuriy, Osmon ustuni.

SHIKOYAT, ARZ, DOD, ARZ-DOD, SHIKVA Norozilik va ma'lum talab bilan og'zaki yoki yozma tarzda bildirilgan fikr. **Arz** so'zi, asosan, o'g'zaki tarzdagi dard-hasrat, shikoyatni ifodalaydi. **Arz-dod** so'zida to'lib toshgan dard-hasrat va undan shikoyat ta'kidi kuchli. **Shikva** so'zida eskilik bo'yog'i mavjud, ayni paytda u kitobiy nutqqa xosdir.

Tabiatan mag'rur, serda'vo Jiydali ahli bunday adolatsizlikka sira ko'nikolmasdi, bu yog'i Toshkent-u u yog'i Moskvaga, hatto undan ham narilarga s h i k o y a t yozgani yozgan edi. E.A'zam, Guli-guli. *To'rtta muchamizni sog' etib qo'yib, Sezmasdan yo'qotding sihatlaringni. Biror marta bo'lsin qovog'ing uyib, Aytmading sh i k o y a t, minnatlaringni.* I.Mirzo, Iqror. *Eshik oldida qorong'ilikdan birdaniga bir ovoz keldi: – Taqsir, a r z im bor edi...* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *O'xshamag'an yerda bir xotinning a r z ga kelishi qo'rqboshining ko'ngliga shubha soldi.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Sulton esa Amir Alisherning biron so'zini yerda qoldirmadi, bil'aks, a r z bilan keluvchilarning shikoyatlarini tinglash, kent-u qishloqlarda madrasa va maktablar barpo qilish, rabotlar qurdirish kabi el koriga yaraydigan barcha ishlarga bosh qilib tayinladi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Yo bo'lmasa, Tangritog'ning o'zida kelgindilar changalida qoldirganida d o d imni kimga aytardim?!* M.Mansur, Judolik diyori. *Hiloloy der boqqin arz-u d o d ima, Gugurt urma siynamdagi o'tima.* "Go'ro'g'lining tug'ilishi". *Nasibbekning hayot tark etgan jonsiz vujudi yanada ko'rkam tortgan, bir tutam qop-qora sochi keng, yorqin manglayiga tushib turar, tiniq, mardona chehrasida na bir og'riq, na sh i k v a-shikoyat ifodasi sezilar edi.* X.Sultonov, Onamning yurti.

SHIKOYATOMUZ, SHIKVALI Shikoyatga o'xshash, shikoyatnamo. **Shikvali** so'zi kam qo'llanadi, kitobiy nutqqa xos.

Yo'lovchilar yuzlarini yelpishar, issiqdan bo'g'riqqan ruxsorlarini ro'molchalari bilan artishib, bir-birlariga sh i k o y a t o m u z qarab, boshlarini sarak-sarak qilishar edi. S.Karomatov, Bir tomchi qon. *So'nggi marta xirillab nafas olayotgan bemordek sh i k o y a t o m u z g'iyqillab borayotgan arava ustida tevaragi ufqqa tutashgan cho'lni tomosha qilib boraman.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Kampir so'nggi jumlani sh i k v a l i bir ohangda aytdi.* Uyg'un, Tursunoy.

SHIRIN, MAZALI, LAZZATLI, LAZIZ, XUSHTA'M, TOTLI, TA'MLI, XUSHXO'R Mazasi (ta'mi) yoqimli. **Mazali** so'zida mazkur ma'no ifodasida umumiylik mavjud. **Lazzatli, laziz** so'zlarida maza, ta'm belgisi kuchli ifodalangan, ko'proq kitobiy. **Totli, xushxo'r** so'zlari nisbatan kam qo'llanadi, **xushxo'r** so'zida suyib yeyiladiganlik ta'kidi mavjud. **Ta'mli** so'zi ko'pincha so'zlashuv nutqida qo'llanadi.

So‘ng har kim o‘z ulushini sh i r i n choyga qo‘shib pok-pokiza tushirarkan, ona “to‘ymay qolishmasin”, deya har ehtimolga qarshi tag‘in non isitmoqqa tutinardi. U.Hamdam, Muvozanat. – *Ota, tilni yoradigan bo‘pti bu tut, biz bolaligimizda ham xuddi shunday sh i r i n midi? – dedim*. M.Yo‘ldoshev, Avliyo tut. *Albatta, Munisxon keyin o‘rganib ketdi, m a z a l i ovqatlar qiladigan bo‘ldi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Aka pochcha umri bino bo‘lib bunaqa m a z a l i taom yemagan edi!* M.Mansur, Judolik diyori. *Taom l a z z a t l i bo‘lganda uni shoshmasdan chaynash kerak-da.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Bizga xayol edi, Tush edi faqat To‘kin dasturxon-u l a z z a t l i oshlar. Baxti boqiy bo‘lsin, Ammo bu jannat Qadrin bilarmikin hozirgi yoshlar!* E.Vohidov, Saylanma. *Ulamolar esa, go‘yo uch kundan beri tuz totmaganday, l a z i z ovqatlarga chigirtkaday yopirila boshladilar.* Oybek, Nur qidirib. *Juvon bir kosa xushbo‘y va x u sh t a’ m ovqatni stolga qo‘yib, sekin nari ketdi.* S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi. *Amir saroyida x u sh t a’ m taomlar bilan qorinni to‘qlab olgan G‘ulomqodir kun yoyilmay turib notanish hamrohi bilan birgalikda Mazori Sharif sari ot soldi.* T.Malik, Savohil. *Xorazm tuprog‘ida yetilgan t o t l i mevalar, turkman otlari, eroniy gilamlar, Xiva zargarlari ziynatlagan tilla buyumlar, toy-toy ipak o‘ramlari imperator hazratlariga peshkash qilinadi*. S.Siyoyev, Avaz. *Siz nimani ham bilasiz... Qanaqa t o t l i, qanaqa go‘zal boshlangandi bizning turmushimiz.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *U kungi qo‘ziqorin qovurdog‘i go‘sht qovurdog‘idan ham t a’ m l i roq tuyuldi.* S.Ayniy, Esdaliklar. *Xazonlar orasida chirib, jigarrang tusga kirgan bir mevani topib olib, yosh boladay suyungan, yupqa po‘stini archib tashlab, ichidagi shirin t a’ m l i bo‘tqani barmog‘i bilan aylantirib, xuddi sumalak yalaganday yalab, suyunib ketgan edi.* I.Sulton, Ozod. *Aka-uka quyruq yog‘iga qilingan x u sh x o‘ r palovni tushirib, so‘ngra xo‘jabilmas qovunni huzur qilib yeyishdi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Oq kishmishdan tayyorlangan shinni juda x u sh x o‘ r bo‘ladi, uning oldida asal hech gap emas.* M.Hazratqulov, Jur’at.

SHIRIN, LAZZATLI, TOTLI, LAZIZ Kishiga huzur, orom beradigan, yoqimli. **Lazzatli** so‘zida huzur-halovat bag‘ishlashlik ta’kidi mavjud. **Totli, laziz** so‘zlari ko‘proq kitobiy nutqqa xos.

Ko‘ngli bir baloni sezdimi, o‘lgur Jiyanbeka ham minbarni tark etib, hay’at stoli bo‘ylab borarkan, Mafkuraxonimga qarab qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha “biz tayyormiz” degandek sh i r i n gina tabassum qilib o‘tdi. E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Birov ishlab kelganingga zormi, odamning qorni yarimta non bilan ham to‘yadi, bir og‘iz sh i r i n so‘z odamni o‘ldiribdimi?* I.Sulton, Turmush. *Birinchi ko‘rganimdayoq bezovta bo‘lib, yuragimni qandaydir hali menga tanish bo‘lmagan l a z z a t l i tuyg‘u qoplagan, hayotning yangi bir sehrli dunyosi menga o‘z quchog‘ini ochgan edi.* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… – *Osh yemay ketasizmi? – dedi. Bu uning ikkinchi turlik qilib aytilgan “mayli” javobi*

edi. Bir bugina emas, qirq yillik qadrdon xotin tomonidan eriga qilinaturg‘an mehribonchiliqning eng l a z z a t l i si edi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Dili potirlab, miyasida biri-biridan t o t l i o‘ylar charx uradi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Goho dilni ezsa tiriklik yuki, Goho to‘yganimda bu l a z i z jondan. Gohida... Bir nafas... Faqat... Holbuki, Seni unutganman. Unutganman...* I.Mirzo, Shafaqqa ingansan. *Mafkuraxonim gohida bugungi bor mansab-u martabasini o‘shandagi ayrim l a z i z daqiqalarga almashtirib yuborishga tayyor sezadi o‘zini.* E.A’zam, Shoirning to‘yi.

SHOL, FALAJ, PARALICH Asab sistemasining ishdan chiqishi natijasida tana a’zolaridan birortasining tamoman harakatsiz bo‘lib qolishidan iborat kasallik. **Falaj** va **paralich** so‘zlari, odatda ilmiy uslubda qo‘llanadi. **Paralich** so‘zi nisbatan nofaol.

Nima, kuyovlikka arzimaydimi? Ko‘rmi, sh o l mi yo qiyshiqmi?! T.Malik, Shaytanat. *Muborak kishiga qo‘l ko‘targan osiy ne sabab aynan darbadarlikka mahkum bo‘ldi? Ne sababdan qo‘li sh o l, ko‘zi ko‘r, tili soqov bo‘lmadi?* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Ana, baqiryapsiz! Ko‘zingiz bejo... Ikkinchi stadiya! Qon tomirlari zo‘riqsa, asab tolalari o‘ladi. Asab tolasi o‘lsa, odam insult bo‘ladi: f a l a j !* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Shu! Zebi bo‘lsa, o‘sha zaharlanish hodisasidan beri doim karaxt bir holda bo‘lardi; uning miyasi birdan f a l a j ga yo‘liqqan kabi edi*. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Kasallik alomatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: tana harorati yuqori bo‘ladi, boshda, belda, oyoq-qo‘llarda kuchli og‘riq…yuz nervi va mimik muskullarda falajlik, oyoq, tana bo‘yin va diafragmada bo‘shashgan p a r a l i ch kuzatilishi mumkin.* Gazetadan.

SHOVQIN, SURON, SHOVQIN-SURON, SHOV-SHUV, G‘OVUR, G‘AVG‘O, G‘ALA-G‘OVUR, QIY-CHUV, CHUVVOS, BAQIR-CHAQIR, AYYUHANNOS, QIYG‘OS Qattiq gap-so‘zdan eshitiladigan, shuningdek, turli harakat, hodisalar tufayli yuzaga kelib, qo‘shilib ketadigan baland, kuchli tovushlar. **Shovqin** va **suron** so‘zlari juft holda qo‘llanib, ovozning bir qadar kuchli ekanligini bildiradi. Bu so‘zlar insonlar va jonzotlarga xos tovushlarni ifodalaydi. **Qiy-chuv, ayyuhannos** so‘zlari esa faqat insonlarning tovushiga nisbatan qo‘llanadi. **Qiy-chuv, g‘ala-g‘ovur, baqir-chaqir, chuvvos** so‘zlarida ko‘pchilikning baland va betartib ovozi ta’kidi seziladi. **Qiyg‘os** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi.

Kafechalar, nochor kulgular, Tramvaylar sh o v q i n i aro – Va’da etib menga yog‘dular, Yuragimda sen bo‘lding paydo. U.Azim, Saylanma. *Ko‘shkka tutash “Havzi Mohiyon”da odam tumonat, shunga yarasha sh o v q i n ham avjda…* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Bobur umrining so‘nggi yillarida saroydagi xushchaqchaq s u r o n bilan to‘la bazm-u tomoshalardan sovigan edi.* X.Sultonov, Bir oqshom ertagi. *S u r o n tinib, hamma yana joyiga o‘tirib bo‘lgach, Oshno hech gap aytmaganday, voha rahbariga yuzlandi-da, jo‘ngina so‘radi*.

M.M.Do‘st, Lolazor. *Birov keldimi, bolam. Qulog‘imga sh o v q i n-s u r o n, baqir-chaqir kirganday bo‘ldi.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Shu yer menga juda yoqib qoldi. Tinch, chiroyli. Odamlari ham yaxshi. Sh o v q i n-s u r o n ni yomon ko‘raman. G‘alati-a? To‘g‘rimi?* O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Ular vokzalning oldida qator tizilib turgan “Pobeda”larning biriga o‘tirib, shaharning sh o v-sh u v ga to‘la gavjum ko‘chalaridan uchib ketdilar.* O.Yoqubov, Ota. *Pastdan, qishloqning ichidan tovush sal balandladi-yu, o‘chdi, past g‘o v u r eshitildi…* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Qator ketgan auditoriyalar yopiq, ichkaridan bosinqi g‘ o v u r eshitilardi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Bu galgi g‘a v g‘o shahar ichidan ko‘tarilmoqda edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xaloyiq mana shunday g‘ a l a-g‘ o v u r bilan har tarafdan saroy maydoniga daryoday oqib kelardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Qishloqda esa odatiy hayot davom etaveradi. Har yer-har yerdan ko‘kimtir tutun ko‘kka o‘rlaydi, bolalarning q i y-ch u v i, chaqaloq yig‘isi eshitiladi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bir uy xotin ch u v-v o s ko‘tardi.* S.Ahmad, Hukm. *...Tashqarida chiroqlar yongan, yo‘lakda tapir-tupur qadam tovushlari, b a q i r-ch a q i r, kulgi…* X.Sultonov, Onamning yurti. *Haligi ikkisining janjali esa borgan sari battar avjlanardi. Ularning b a q i r-ch a q i r iga parrandalar dosh berolmadi, birinchi bo‘lib ular nari uchib ketdilar*. N.Norqobilov, Buloq. *Isbot qilinmagan da’vo! Muncha a y y u h a n n o s!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Uyda hech vaqt ko‘rilmagan, vahimali bir q i y g‘ o s ko‘tarildi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ko‘chadan q i y g‘ o s va g‘ovur-g‘uvur tovush eshitilib, er-xotinning suhbatini to‘xtatdi.* S.Ayniy, Qullar.

SHOVQIN SOLMOQ, SHOVQIN QILMOQ, AYYUHANNOS SOLMOQ, QIY-CHUV QILMOQ (KO‘TARMOQ), G‘AVG‘O QILMOQ (KO‘TARMOQ) Birovga qarata qattiq ovoz bilan baqirib gapirmoq. **Shovqin solmoq, shovqin qilmoq** so‘zlari ko‘pchilik tomonidan yuzaga kelgan kuchli tarzdagi betartib tovushni ifodalaydi. **Qiy-chuv qilmoq (ko‘tarmoq)** so‘zida atayin uyushtirilgan juda baland, jaranglagan ovozda gapirish, qichqirish ifodasi yetakchi. **Ayyuhannos solmoq** so‘zida hayqirgan holdagi dod-faryod ta’kidi qabariq ifodalangan. **G‘avg‘o qilmoq** so‘zi nisbatan kam qo‘llanadi.

Sh

Odamlar guras-guras o‘tadi. Chiroyli kiyingan bolalar sh o v q i n s o l ib yugurishadi. O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Abdulla shu damda yodida jonlangan she’riy misradan chehrasi olovlanib ketdi. Uni ovozi boricha sh o v q i n s o l ib, yon-veridan o‘tayotgan-ketayotganlarni bitta-bitta to‘xtatib, beti-ko‘ziga tik boqib, jar solib takrorlagisi keldi...* X.Do‘stmuhammad, Yolg‘iz. *Bittang gapir! Bittang! Hammang baravar sh o v q i n q i l asan, gap uqib bo‘ladimi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qaynonasi a y y u h a n n o s s o l ib kirdi. Qarg‘adi. Qarg‘ab-qarg‘ab xumoridan chiqmadi. Dod solib yig‘layverdi*. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *– E odamlar, erimning dastidan dod! Bu olim emas, zolim-ku! – deya u battar a y y u h a n n o s s o l di.* Gazetadan. *To-*

moshabinlar bunisi irg‘ishlab, unisi gijinglab, qiy-chuv ko‘tarishdi; biridan biri oshirib-toshirib, meni maqtay ketishdi. A.Obidjon, Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan? *Xanzular qiy-chuv ko‘tar gancha jo‘nab ketishdi.* I.Sulton, Xun. *U bilmaydi qo‘shnilar Uyg‘onib ketganini. Sora ko‘tarib g‘avg‘o Chiqqanini ham bilmas.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar.

SHOX, MUGUZ Ba’zi hayvonlarning boshidan o‘sib chiqadigan suyaksimon qattiq o‘simta. **Muguz** so‘zi eskirgan.

Ermon buvaning chap oyog‘i oqsoq: hassa bilan yuradi. Sigirining o‘ng shoxi singan. Ola sigirning shoxi qandoq singanini hech kim bilmaydi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Buqa shox i dan ilinar, Odam – tilidan.* Maqol. *Odam tilidan topadi, hayvon – mug uz idan.* Maqol. *Molxonada bir muguzi singan qashqa echki ham bo‘g‘ilib ma’rardi.* H.O‘ktam, Navbahor.

SHOXSIZ, TO‘QOL Shoxi yo‘q, shoxsiz (hayvonlarga nisbatan). **To‘qol** so‘zi kam qo‘llanadi, ko‘pincha shoxi yo‘q echkiga nisbatan ishlatiladi.

Toy hammadan uzoqdan – Beshqo‘rg‘ondan o‘ziga o‘xshash yuvosh, shoxsiz sigirini oldiga solib kelardi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *...Oradan bir yilcha vaqt o‘tgach, Beshtepaga borib qoldim. Yaylovda yoyilib yurgan oyoqlari kalta-kalta, biqqa semiz, shox siz mollarga ko‘zim tushdi: “O‘sha zot!”* Sh.Xolmirzayev, Yangi zot. *San daxi to‘q ol echki muguz tilab qulog‘idin ayrilg‘ondek bo‘lma va yo dumsiz eshak dum ishtiyoqida yurub iki qulog‘idin ayrilg‘ondek bo‘lma.* Gulxaniy, Zarbulmasal. *– Sotganing bitta to‘q ol echki bo‘lsa, kalishga balo bormi? – deya jerkib berdi O‘tagan buva uni.* G‘.Shermuhammad, Barakasini bersin.

SHOSHILINCH, QISTALANG, OSHIG‘ICH, TIG‘IZ, ZIQ, TANG Tezda bajarilishi lozim bo‘lgan, kechiktirib bo‘lmaydigan. **Qistalang** so‘zi so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. **Oshig‘ich** so‘zi kam ishlatiladi. **Tig‘iz, ziq** so‘zlarida vaqtning kamligi ta’kidi mavjud. **Tang** so‘zi bu ma’noda juda kam qo‘llanadi.

Shoshilinch ishingiz bo‘lmasa, o‘tira turing. Hozir qizlar kelib qoladi. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim… *Bunaqasi bo‘lib turadi bizda. Birortasini shoshilinch uchirib yuborish kerak bo‘lgandir-da.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Qadimdan xotirjam, shoshilmay bosh ko‘taradigan giyohlarni odamning qistalang i, turtkisi, shoshirishi bedor qildi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *To‘yning bunaqa qistalang bo‘lishiga sabab – qizning otasi bir necha oydan beri betob.* A.Qahhor, Muhabbat. *Bir patnis jiyda-mayiz qilib, tandir nonni ushatib, endi choyga o‘tirgan edik, ko‘cha eshik oshig‘ich taqilladi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Xurram qotma, misli shirinlikka o‘ch boladay, Nazar baxshi uzatgan kitoblarga oshig‘ich qo‘l cho‘zdi.* N.Norqobilov, Kurash. *...anjomlarga tegmanglar, nazarimda, vaqt tig‘iz yig‘ishtirishga.* U.Hamdam, Muvozanat. *Dalada ishning tig‘iz vaqti o‘tgani uchun mardikorlarga*

bundan bir necha kun ilgari javob berilgan. Oybek, Tanlangan asarlar. *Odatdagidek shoshilyapsanmi? Vaqting z i q mi? Oshiqma, shoshilib borgan joyingga shoshilmay ham yetasan.* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Vaqt chindan ham z i q, tezroq musofirxonaga qaytish kerak edi.* E.A’zam, Manana. *Bu jiddiy va o‘ta dahshatli sha’ma G‘ani qoraning yuragiga battar qutqu solib, t a ng va zarur onlarda pinhona qo‘llaydigan qing‘ir amallardan foydalanish imkoniyatlaridan mahrum etgan esa-da, o‘z navbatida, uning izzat-nafsiga qattiq tegadi.* T.Malik, Sahovil. *Vaqt t a ng, dalada ish tig‘iz*. Oybek, Tanlangan asarlar.

SHUDRING, SHABNAM, SHAM Bahor va yoz fasllarida kechasi haroratning pasayishi tufayli mayda tomchilar tarzida yerga inadigan havodagi, atmosferadagi bug‘, namlik. **Shudring** so‘zida so‘zlashuv tiliga xoslanganlik bor. **Shabnam** so‘zida kitobiylik ta’kidi mavjud. **Sham** Farg‘ona shevasiga xos so‘z.

Sh u d r i ng da yuvingan akatsiya shoxlari ko‘k-qizg‘ish tusga kirib, kurtak tugishga tayyorlana boshlagan, gul ekish uchun yumshatilgan tekis tuproq uzoqdan baxmalga o‘xshab ko‘rinadi. P.Qodirov, Uch ildiz. *Poyida hali tonggi s h u d r i ng ini to‘kib ulgurmagan o‘t-o‘lan, giyoh-ko‘katlarning havoda gurkuragan biroz taxir, o‘tkir hididan cholning nafasi entikib, vujudi anchadan buyon unutilgan orombaxsh bir huzurdan yayrab ketdi.* X.Sulton, Onamning yurti. *Bu jahonda, deydilar, Har kimda bor bir o‘zga ta’b, Menga may, bulbulga tong, Gul bargida sh a b n a m shirin.* E.Vohidov, Muhabbat. *Yosumanga to‘rt toj yasaydi, lolaning boshiga qonli kuloh kiydiradi, gohi nargis guli boshiga oltin toj kiygizadi, gohida uning tojiga sh a b n a m dan gavhar qadaydi...* I.Sulton, Alisher Navoiy.

Ch

CHALA, YARIM-YORTI, CHALA-CHULPA, O‘LDA-JO‘LDA Maromiga yoki tamomiga yetkazilmagan, tamomlanmagan. **Yarim-yorti** so‘zida ish-harakatning oxiriga yetkazilmagani, to‘liq bo‘lmagani yaqqol ifodalangan. **Chala-chulpa** so‘zi muayyan harakatning naridan beri, qo‘l uchida qilingan holatiga nisbatan qo‘llanadi. **Chala-chulpa, o‘lda-jo‘lda** so‘zlari, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

Buncha xunuk kuladi! Ikkita tilla tishi o‘chayotgan cho‘g‘ga o‘xshaydi. Juda siyrak bo‘lgan sochlari ch a l a o‘rilgan ekinzor kabi... Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Hovlining bir chetidagi o‘g‘liga atab qurilayotgan ch a l a imoratga tikilgan ko‘yi tushunqiramay turganimni ko‘rib, tog‘amiz alam-iztirob bilan bo‘kirib yubordi.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Ishni y a r i m-y o r t i qilib tashlab ketishdan yomoni yo‘q...* J.Abdullaxonov, To‘fon. *Bo‘lgan voqeani Hafiza buvisiga y a r i m-y o r t i aytib berdi, kampir tahoratini ham unutib, baqrayib o‘tirib qoldi*. Mirmuhsin, Umid. *Bitta sigirmas, o‘nta sigir bo‘lsayam, Sobirjon eplaydi. Senga o‘xshab ch a l a-ch u l p a ish qilmaydi u!* Z.Qurolboy qizi, Yozsiz yil. *Ertalab ch a l a-ch u l p a nonushtalandi-yu, o‘zbekona odatga ko‘ra yuziga fotiha tortib, o‘rnidan turdi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *...siz sog‘liqqa ahamiyat bermayapsiz. O‘ l d a-j o‘ l d a davolanyapsiz.* L.Bo‘rixon, Sut sotuvchi bola. *Biz ham bola tug‘ganmiz, nechtasini katta qilganmiz, ishimiz o‘ l d a-j o‘ l d a qolib ketmagan.* I.Sulton, Onaizorim.

CHALINMOQ, YO‘LIQMOQ, UCHRAMOQ, DUCHOR BO‘LMOQ, GIRIFTOR BO‘LMOQ, MUBTALO BO‘LMOQ Kasallik, ofat, o‘lim, yomonlik kabilarga duchor bo‘lmoq; muammolarga uchramoq. **Duchor bo‘lmoq, giriftor bo‘lmoq, mubtalo bo‘lmoq** so‘zlarida biror kasallik yoki yomonlik ta’kidi qabariq ifodalangan.

– Ikkinchi qizim uch yashar bo‘p qoluvdi-ya! Senlar kelmasingdan bir yilcha oldin qizamiqqa ch a l i n di-yu... A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *...Samarqandda to‘rt yil o‘qib kelgan, bu yoqda qiz unashtirib qo‘yilgan yigit yomon bir tuzalmas qichimaga ch a l i n gan, sog‘ odam shu qorasovuqda suvga tushadimi, deb rosa gap bo‘lgan.* A.A’zam, Quroq. *– Shu desangiz, Usmonjon ukaginam, bir jiyanimiz ...tuhmat balosiga y o‘ l i q ib, qamalib yotibdi.* S.Ahmad, Bir siqim xandonpista. *Qancha-qancha odamga qiron keltirgan urushning nafasi hanuz sezilib turardi – ...biri oqsoq, boshqasining bir qo‘li yoki bir oyog‘i yo‘q, kontuziyaning jaddidan qaltiroqqa y o‘ l i q qanlariyam bor.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Sattor birdan mag‘lubiyatga u ch r a gan odamday butun*

vujudi madorsizlanib ketdi. P.Qodirov, Erk. *Akasining o‘limi va sud jarayonlari davrida ishga pul aralashganini sezib qanchalar iztirobga tushgan bo‘lsa, keyinroq bu xizmatga o‘tib pora bilan yuzma-yuz kelgach, undan beshbattar qiynoqlarga u ch r a di.* T.Malik, Shaytanat. *Hangomaning qizig‘i keyin chiqdi. Boqi o‘lishga o‘lib qo‘yib, tirik paytida ko‘rmagan sho‘rishlarga d u ch o r bo‘l di.* S.Ahmad, Sag‘ana. *Ko‘p ichmas edi-yu. Ayniqsa, yurak kasaliga d u ch o r b o‘ l gandan keyin ichmay qo‘ydi, deb eshitgandim.* U.Hamdam, Muvozanat. *Qarang, biz Bayramxonni amalidan tushirganimiz uchun hammamizni “balolarga g i r i f t o r b o‘ l inglar! deb qarg‘abdir.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Der: “Nelar ko‘rmadim dardli olamda, Qancha azoblarga b o‘ l dim g i r i f t o r”.* E.Vohidov, Saylanma. *Qadim zamonlarda bir podsho hardamxayollik kasaliga m u b t a l o b o‘ l gan ekan. Shuning uchun xayoliga kelgan har xil gaplarni gapirib yuboraverar ekan.* N.Oston, Ega va kesim. *Shu tariqa Shayx ishq dardiga m u b t a l o b o‘ l adi. Navoiy uning iztirobli holatini shayx tilidan shunday tasvirlaydi: Kim: –“Bo‘lur har lahza ranj afzun manga, Ne edikim qilding, ey gardun, manga!”* X.Davron, Navoiynoma.

CHAMA, TAXMIN, TUSMOL, MO‘LJAL, FARAZ, GIPOTEZA Biron-bir xatti-harakatni bajarishdan oldingi fikriy mo‘ljal. **Chama** va **taxmin** so‘zlari nutqning turli uslublarida teng darajada qo‘llanaveradi. Nutqda **tusmol** so‘zi **taxmin** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi. **Faraz** so‘zi kitobiy uslubga xos. **Mo‘ljal** so‘zida hisob-kitobga asoslanganlik ta’kidi bor. **Gipoteza** so‘zi, asosan, ilmiy uslubda qo‘llanadi.

Nigohlararo bu so‘zlashuv lahzaning o‘ndan biri ulushida bo‘lib o‘tgan esada, yigitning ch a m a sida yilga cho‘zilganday tuyuladi. N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun. *Mening ch a m a mda shoirlar madh etishni o‘rniga qo‘yishayotgan edi.* T.Malik, So‘nggi o‘q. *U gazetdagi mazkur suhbatdan xabardor edimi yoxud mana shu yerda ilk safar o‘qidimi – mezbon shu t a x m i n iga doir o‘ylarini oxiriga yetkazolmadi.* X.Do‘stmuhammad, Umid guli. *– O‘zimam shunaqa bo‘lishi kerak, deb o‘ylovdim. – U t a x m i n i to‘g‘ri chiqqanidan xursandligini yashirmadi...* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Oy botib, kecha qorong‘ilashib qolgan, juda avaylab, t u s m o l bilan harakat qilamiz*. G‘.G‘ulom, Shum bola. *Marg‘ubani t u s m o l bilan tanidi: sochini qirqtiribdi*. A.Qahhor, Muhabbat. *M o‘ l j a l imiz bo‘yicha kechqurun to‘qqizlarda Qo‘qondan Farg‘onaga o‘tish, mehmonxonada tunab, ertasi kun bo‘yi vodiyni aylanish va kechki salqin bilan Toshkentga qaytish edi*. O‘.Umarbekov, Qadah. *– Xavotir olmang, – dedi Zaynab xola erining o‘zgarib ketganini ko‘rib. M o‘ l j a l imda yana ikki oy bor*. O‘.Umarbekov, Kimning tashvishi yo‘q. *Fan aniq shu degan ko‘rsatmani bermaydi, balki f a r a z larni o‘rtaga tashlab, tajriba olib boradi, shu tajribaga ko‘ra ma’lum xulosani aytadi.* N.Eshonqul, Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi. *Qiz fotosintezga asoslanib, quyosh nuridan kiyim va ozuqa olish yo‘llari haqida bir*

qancha f a r a z larni ilgari surgandi. T.Malik, Falak. *Afsuski, uning topganlari g i p o t e z a ning o‘zidan bir necha barobar murakkabroq edi.* A.Yo‘ldoshev, Puankare. *G i p o t e z a qay darajada asosli bo‘lmasin, u nazariyaga aylanmaydi.* N.Shermuhamedova, Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

CHAMALAMOQ, TAXMIN QILMOQ, TUSMOL QILMOQ, TUSMOLLAMOQ, MO‘LJALLAMOQ, FARAZ QILMOQ (ETMOQ) Biror bir xatti-harakatni bajarish yoki gap-so‘zni aytish haqida taxminan reja tuzmoq, mo‘ljalga olmoq. **Taxmin qilmoq (etmoq)**, **tusmol qilmoq** so‘zlari nutqda faol ishlatiladi. **Tusmollamoq** ko‘proq oddiy so‘zlashuvda faol. **Mo‘ljallamoq** bu ma’noda kam qo‘llanadi.

To‘ylarda u yaxshi ko‘rinadigan joyni ch a m a l a b, mevalarini bolalar ship-shiydam qilib qo‘yishgan olmagami, behigami suyanib... mo‘ltayib tikilgani-tikilgan edi. Q.Kenja, Toshqin. *Yotoqxonani ch a m a l a b, qo‘liga ilashgan shifer parchasi bilan jazavaga tushib qaziy boshladi*. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Mabodo u mening amakim deb t a x m i n q i l insa, hatto oz-moz o‘xshasa, sizlardek o‘zimni har yoqqa tashlamasdan, bag‘rimga bosardim*. O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli. *Boshda Shahodat muftilar uni yotsinishib, uning yonida har turlik g‘iybatlarni qilishdan cho‘chidilar, chunki mulla Abdurahmonning Anvar kishisi bo‘lishi t a x m i n q i l ing‘an edi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Ko‘rinmaydi qorong‘uda hech narsa, Chambilni t u s m o l q i p jonvor uchadi.* “Ravshan”. *Bu savoli qiziq bo‘ldi-ku? Birovdan eshitganmi y o t u s m o l l a b so‘rayaptimi?* T.Malik, Shaytanat. *U Jonibek Sulton t u s m o l l a b, gap olish uchun shunday deganini anglamagan edi.* R.Haydarova, Javzo. *Bog‘ning sahnini Salim uch yarim tanob, Fazliddin uch tanob m o‘ l j a l l a di.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ba’zi olimlarning f a r a z q i l ishicha, har bir narsa, mana shu barg ham, odam ham elektronlarning maxsus birikmasidan iborat ekan.* A.Muxtor, Chinor.

CHANQAMOQ, SUVSAMOQ, SUVSIRAMOQ, CHO‘LLAMOQ, TASHNA BO‘LMOQ, CHANQOQ BO‘LMOQ, SUVSOQ BO‘LMOQ Suvga juda ham intiq bo‘lmoq. **Suvsamoq** so‘zida ma’no **chanqamoq**qa nisbatan kuchsizroq, **cho‘llamoq** so‘zida kuchliroq ifodalanadi. **Cho‘llamoq, tashna bo‘lmoq** so‘zlarida chanqash darajasi yuqori ifodalangan. **Suvsoq bo‘lmoq, chanqoq bo‘lmoq** so‘zlarida suvga ehtiyojmandlik nisbatan kuchsiz ifodalanadi. Bu so‘zlar, asosan, kitobiy uslubda qo‘llanadi. **Suvsoq bo‘lmoq** so‘zi nutqda kam ishlatiladi.

Tag‘in ch a n q a y boshladim. – Oyi, suv, – dedim hiqillab. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Daryo bo‘yidamiz-u ch a n q a ymizmi? G‘alati ekansiz!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Qizni so‘raganga ber, Qimizni – s u v s a ganga.* Maqol. *Kal ketaverdi, ketaverdi, horib, s u v s a b, ochqab, boshini bir joyga qo‘yib yotdi.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Tanlashni juda bilardi, yo bo‘lmasa, shun-*

dan shungacha dumalab kelgan qovun ichi ezilib pishardi, ishqilib, suvsirab turgan loykashlar sapchasini ham yeb to‘ymas edik. A.A’zam, Quroq. *Suvsirab yotgan qum va sahro o‘t-o‘lanlari tashnalik bilan osmonga boqayotgandek edi go‘yo…* X.To‘liboyev, Dengiz hayqirig‘i. *Oftob oyim mehmonlarga qarab chiqg‘andan keyin Hasanaliga kulib javob berdi: – O‘zimiz juda ch o‘ l l a b kelgan edik, shuning uchun kechirdik.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qo‘ziboy Usmonali akaning ch o‘ l l a ganini bilib, uyiga choy ichgani taklif qilgan edi, ko‘nmadi.* E.A’zam, Shovqin. *T a sh n a b o‘ l sang, suvga talpin!* A.Rahimboyev, Masnaviydan ibratli hikoyalar. *Suvga t a sh n a b o‘ l di Chambilning cho‘li, Tashnalikdan o‘lar cho‘lning bulbuli...* “Bo‘tako‘z”. *Tuya safari davomida og‘ir yuk sababli qiynalib charchaydi. Shu bilan birga, qorni och, ch a n q o q b o‘ l sa, turli yaylovlardan o‘tadi...* “Hidoyat”. *Ch a n q o q b o‘ l masa ham, suvni ma’lum vaqtda ichishni odat qilish kerak.* F.Qurbonova, Chanqoq bo‘lmasa ham, suv ichaverish kerakmi? *Mirzacho‘ldagi yerlarimiz s u v s o q b o‘ l ib qaqrab yotibdi.* Gazetadan.

CHAP, SO‘L Gavdaning yurak joylashgan tomoni, o‘ngning zidi bo‘lgan yoq. **Chap** so‘zi barcha uslublarda qo‘llanadi. **So‘l** so‘zi kam qo‘llanadi, hozirgi o‘zbek tilida eskirgan, ko‘proq tarixiy mavzudagi asarlarda uchraydi.

O‘ngga qarasa, o‘ngga qarayman, ch a p ga qarasa, chapga qarayman. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Ermat… yana bir marta silkinganida ko‘kragigacha chiqardi, turgan yerida ikki aylanib ch a p yonboshiga otdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *S o‘ l tomondagi xona nisbatan yorug‘. Qator kursilarda bir qancha sarkardalar, tabiblar o‘tirishibdi…* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Qora Mo‘g‘ul xojasi otining jilovini tutib, s o‘ l tomonini ro‘para qilib turar edi.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

CHAQIMCHI, CHAQMACHAQAR, G‘AMMOZ, O‘SHAKCHI Birovning gapini birovga tashuvchi, biror kimsaning sirini ochuvchi, birovlar ustidan maxfiy xabar yetkazib turuvchi. **Chaqmachaqar** ko‘proq kitobiy nutqda ishlatiladi. **G‘ammoz** so‘zi eskirgan, kitobiy. **O‘shakchi** – shevaga xos so‘z.

Ch

Shohruh har bir sovuq gap, fitna-yu ch a q i m ch i larga qulog‘ini tutar, erkinroq fikr yurituvchi... arboblarni quvg‘unga solib, e’tiborini pasaytirardi. Mirmuhsin, Me’mor. *Oybek yashagan muhit talantli odamlarni chiqishtirmaydigan, tilli-zabonlilarni yoqtirmaydigan, faqat mutelar va laganbardorlarga, ch a q i m c h i lar va hasadgo‘ylarga keng yo‘l ochib qo‘ygan muhit edi.* O.Sharafiddinov, Millatni uyg‘otgan adib. *Akamning o‘rnida bo‘lganimda, ch a q m a ch a q a r singlimning yuzini bir urib, qizartirib qo‘ygan bo‘lardim.* A.Ko‘chimov, Halqa. *...gap chaquvchining oti ham “chaq”dan uzoq ketmadi. Uni chaqimchi, ch a q m a ch a q a r dedilar.* E.Vohidov, So‘z latofati. *O‘rtada g‘ a m m o z erur, boz ustiga ahli nifoq*. Habibiy. *Qishlog‘imizda chaqimchi, mayda gap, gap tashuvchi odamlarni “o‘ sh a k ch i” deyishardi.* E.Shukur, So‘zdan

so‘zning farqi bor. *“Shu ukang xotinday maydagap, xotinday o‘ sh a k ch i-ya!”* E.A’zam, Bizning tog‘a.

CHAQIRMOQ, CHORLAMOQ Nomini aytish, ovoz chiqarish yoki biror xatti-harakat vositasida muayyan joyga kelishga undamoq. **Chorlamoq** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Uyga kirib ketgan Qurbon aka Sobirjonni ch a q i r ib qoldi. O.Yoqubov, Dastlabki qadam. *– E, ha, Oyxol momo... Oyxol momo! O‘ Oyxol momo! – deya ch a q i r di rais.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Boboqulovni dekanatga ch o r l a b, tartibga chaqiramizmi?* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Tabibiy go‘yo ushbu farmonni bila turib, atayin Avazni saroyga ch o r l a b ketgandek xijolat chekdi.* S.Siyoyev, Avaz.

CHAQMOQ, CHAQIN, YASHIN, YILDIRIM Atmosferada bulutlararo yoki bulutlar bilan yer sirti orasida paydo bo‘ladigan juda kuchli oniy elektr uchquni. **Chaqin** kitobiy uslubda ko‘p qo‘llanadi. **Yashin** so‘zi kitobiy nutqqa xos bo‘lib, badiiy adabiyotda tezlikni ifodalovchi holatlarda o‘xshatish asosi bo‘lib xizmat qiladi. **Yildirim** so‘zi o‘guz lahjasining ayrim shevalarida qo‘llanadi.

To‘g‘ri, tog‘da momaqaldiroq dahshatli qarsillaganida osmon chok-chokidan sitilib ketadiganday, ch a q m o q lar yer yuzini yondirib yuboradiganday tuyulardi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *...qishloq tepasida yalt-yult qilib ch a q m o q chaqdi-yu, birozdan keyin momaqaldiroq gumburladi*. S.Ahmad, Oydin kechalar. *Bahor osmonida chaqnasa ch a q i n, Ko‘ksingdan otilar olovli nafas.* A.Oripov, Saylanma. *Qora bulutlar orasida qilichdek yaltirab ch a q i n chaqa boshladi.* S.Ahmad, Jimjitlik. *Suron solsa agar zo‘r qaldiroqlar, Y a sh i n tegsa agar, Yuz yillik chinorga larza tushadi.* Mirtemir, Saylanma. *Y a sh i n ning ko‘kimtir yorug‘ida ro‘paradagi uylar va yomg‘irdan jimir-jimir bo‘lib yotgan hovli bir ko‘rindi-yu, ko‘zdan yo‘qoldi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Qorong‘ida yig‘lar kim, kim keladir yiroqdan? Charaqlaydi y i l d i r i m to‘qnashganday pichoqlar*. Sh.Rahmon, Mashq. *Yuksaklikka ko‘tarar meni Y i l d i r i m day yorishgan rohlar*. Sh.Rahmon, Saylanma.

CHARCHAMOQ, HOR(I)MOQ, TOLMOQ, TOLIQMOQ Mehnat, ish-harakat, dard-alam va shu kabilar natijasida horg‘inlik, charchoq sezmoq. **Horimoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **Tolmoq, toliqmoq** so‘zlari ko‘pincha kishi organizmining ma’lum qismlariga nisbatan qo‘llanadi, **toliqmoq** so‘zida holat **tolmoqqa** nisbatan aniqroq ifodalanadi. **Horib-tolib** shaklida juft qo‘llanganda, ma’no yanada kuchli namoyon bo‘ladi.

Saodat opa ch a r ch a di, shekilli, og‘ir xo‘rsinib, ko‘zlarini yumdi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O‘zim itday ch a r ch a ganman.* O‘.Hoshimov, Hikoyalar. *Sen uni oq yuvib, oq tarading, o‘sib-unishi uchun qo‘lingdan neki kelsa, barini qilding. H o r i gan-tolganing-*

ga, o‘lgan-tirilganingga qaramading. X.Sultonov, Onamning yurti. *Uzundan uzoq yo‘llarda u to‘xtagan rabot egalari Sulton Husayn Mirzo yorlig‘ini ko‘rgan zahoti h o r i gan ulovini yaxshilab boqib-sovutilgan boshqa otga almashtirib berishardi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Bektemir go‘dakni yerga qo‘yib, t o l gan bilagini uqaladi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Go‘yo turnalar tungi olis uchishidan t o l i q ib, bir zumga yonimizdagi hovuz bo‘yiga qo‘ngan-u bir-birlariga yo‘lda ko‘rganlarini hovliqa-hovliqa so‘ylab berayotganday.* M.Mansur, Judolik diyori. *Men ushbu yodgorlikni sira qo‘limdan qo‘ymayman, uni yuzlab marta varaqlashdan, duch kelgan sahifasidan ming birinchi daf’a huzur qilib o‘qishdan t o l i q mayman.* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Shahardan h o r i b -t o l i b qaytgan Farhod xonasida birpas cho‘zilmoqchi bo‘lib turgan edi, eshik tagida shovur-shuvur eshitilib, ...Valyaning quv chehrasi ko‘rindi.* E.A’zam, Shovqin.

CHARCHOQ, HORG‘INLIK, HORDIQ Mehnat, ish-harakat natijasida charchash, toliqish. **Horg‘inlik** so‘zida horigan, charchagan holat **charchoq** so‘ziga nisbatan kuchliroq ifodalanadi. **Hordiq** so‘zi bu ma’noda ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanadi.

Shu safarning o‘zidayoq Rahmatullaning hamma ch a r ch o q lari tarqab, dilida zig‘irdak ham g‘ubor qolmadi. X.Sultonov, Onamning yurti. *Yana bir so‘z shuki, mol-u mulk ishidan va arzchilar ishlaridan farog‘at hosil bo‘lgach, ch a r ch o q ni daf qilish uchun kutubxona ahli bilan mashg‘ul bo‘linsa.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Mahfuza hamon tugunlar oldida o‘tirar, boshidagi ro‘moli yelkasiga tushgan, charos ko‘zlarida h o r g‘ i n l i k bor edi...* T.Malik, Shaytanat. *O‘yinlardan tinkalari qurimay... ovozlaridan hech mahal h o r g‘ i n l i k sezilmaydigan bu yigitlarni urush fojialari, odamlarning alamli taqdirlari mutlaqo qiziqtirmas edi*. T.Malik, Xazonrezgi. *Muloyim, dilnavoz sadolar Yo‘lchining butun tomirlaridan h o r d i q ni sug‘urganday bo‘ldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bolalarning “zakaz”ini bajarishga ketgan dam olish soatlarining h o r d i g‘i birvarakay yozilganday, ko‘kragini to‘ldirib nafas oldi.* H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar.

Ch

CHATOQ, ISHKAL, XURJUN, PACHAVA, RASVO, KASHAL Muayyan ish-harakatning bajarilishida yuz bergan mushkulotli, muammoli holat. **Chatoq** so‘zida holatning chigallik darajasi ortiqligi qabariq ifodalangan, oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi. **Pachava, rasvo** so‘zlari og‘zaki nutqda ancha faol qo‘llanadi. **Rasvo** so‘zida ish-faoliyatning borishi yanada yomonlashganligi yoki mavjud vaziyatning qoniqarsizlashishi ta’kid oladi, oddiy so‘zlashuvga xos. **Xurjun** so‘zi bu ma’noda *ish* so‘zi bilan birga ko‘p qo‘llanadi. Qatordagi so‘zlarda belgi **rasvo** so‘zida yanada kuchayadi. **Kashal** – shevaga oid so‘z.

Ishlar ch a t o q, tovarishlar, bergan pullaring bir kishining qaytishigagina yetar ekan! E.A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Bundan tashqari,*

Risolatning ko‘ch-ko‘roni bilan borib o‘tiradigan joyi ham ch a t o q – ota hovlilarida akasi bilan kelinayasi bir etak jujuqlari bilan o‘zlarini arang eplab kun ko‘rishadi. Q.Kenja, Toshqin. *Rustamning sha’niga “bir chiroyli o‘tirishni boplading, doim bir i sh k a l chiqarmasang, qusuring qonmaydi o‘zi, uylanib ham o‘pkang bosilmadi.* Q.Kenja, Toshqin. *Arzing shumi? Yana o‘sha eski gap! Bir i sh k a l topursan har ishdan, ajab?* E.Vohidov, Saylanma. *Saidahmadxon: – Pul masalasi x u r j u n. Qo‘qon boylari, patir uchidan, deb jinday pul berishdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Endi asli to‘poriligimga qaytib, to‘g‘risini gapiraman – ishlar x u r j u n.* A.Obidjon, To‘poricha gap-gashtaklar. *Aravaning tagidan dehqonning ayanchli tovushi eshitildi: – O‘qi ketibdi, ish p a ch a v a.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yolg‘iz o‘zi emas, balki butun ahli kosibning ahvoli p a ch a v a ekanini ochib tashladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shunaqa ham bez bo‘ladimi! Bir ursang... Kayfiyatni ham r a s v o qilishdi-da.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Ishning r a s v o sini chiqargan bo‘lmasin tag‘in.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Qayerga borsa, ishni k a sh a l qilib yuradi*. Gazetadan. *Ishning ebini jo‘blab qarasaq juda k a sh a l, devor – tosh hamin! Oshib tushishning sira o‘nqovi yo‘q.*A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

CHAYNAMOQ, KAVSHAMOQ Og‘izdagi taomni tishlar orasida maydalamoq, yumshatmoq. **Kavshamoq** so‘zi, asosan, hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘z insonlarga nisbatan “dag‘al” ma’noda ishlatiladi.

Oshxonadagi yog‘och qutidan non olaman, yo‘l-yo‘lakay ch a y n a b, bobomning oldiga jo‘nayman. I.Sulton, Ozod. *Shukrona ayt doim, vijdoning qiynab, Turfa savdolardan bo‘g‘ilganingda. Bir umr yasharding bambukni ch a y n a b, Agar panda bo‘lib tug‘ilganingda.* A.Oripov, Inson. *Kechki ovqat paytidayam Goptayning arazi bosilmadi, tumtaygan asno, menga umuman qaramasdan, jim k a v sh a nib o‘tirdi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Nimalar bo‘layotgani bilan ishi yo‘q. Eshakligini qilib xashak k a v sh a yapti*. S.Ahmad, Bo‘ri ovi.

CHAYQAMOQ, SARAK-SARAK QILMOQ, SARAKLAMOQ Kishi boshini inkor etish ma’nosida u yon-bu yonga (asosan gorizontal yo‘nalishda) qimirlatmoq. **Sarak-sarak qilmoq** so‘zida bu ma‘no bir qadar umumiyroq ifoda topadi, ya’ni boshni gorizontal yoki vertikal yo‘nalishda harakatlantirilgani aniq anglashilmaydi. **Saraklamoq** shevaga xos so‘z, unda boshni sezilar-sezilmas qimirlatish ma’no ta’kidi ustuvor.

– Senga nima bo‘ldi? Tobing yo‘qmi? – deb so‘radi Asadulla. Hojiyaxon cho‘chib tushganday boshini ch a y q a di. T.Malik, Savohil. *“Olmaxon-ku!” – deb yubordi ichida bobo va shu zahoti boshini ch a y q a b, “Tulkiminan sichqondan tarqagan ko‘rinadi”, degan xayolga bordi.* X.Do‘stmuhammad, Jajman. *– Manavi botinkaga qarang, – deydi. – Ko‘ryapsizmi, tagi tuyaning ko‘ziday teshilib ketibdi. Poshnasi ham qolmagan. Egasi qanaqa odam, bilasizmi? Savri xola boshini s a r a k-s a r a k q i l ib, yo‘q, deydi. Sobirjon gapida davom etadi.*

O‘.Umarbekov, Kuz havosi. *Xolbek aka ko‘zlarini yumib, boshlarini s a r a k - s a r a k q i l gancha, ta’sirlanib-ta’sirlanib kula boshladi.* M.Mansur, Judolik diyori. – *Bay-bay-bay... chol qurg‘urning iqbolini ko‘ring! – dedi boshini s a r a k l a tib Mirhoji.* Oybek, Ulug‘ yo‘l. *Xurram qotma bosh s a r a k l a tdi: “To‘g‘ri, oshqinlash yaxshi emas, ammo siz g‘irt yosh bolaning ishini qipsiz, baxshi!”* N.Norqobilov, Kurash.

CHAYQOVCHI, OLIBSOTAR Arzonga mol olib, keragidan ortiq qimmatga sotuvchi shaxs. **Olibsotar** so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos, unda molni olib sotish ma’nosi ochiq ifoda topadi.

...Bu she’r tahlili emas. Ch a y q o v ch i ning uyi tintilganda topilgan buyumlarga tuzilgan militsiya akti. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *...qattiqroq gapirib, hukumatni esga solsang, dumini qisadi bu ch a y q o v ch i lar.* A.Muxtor, Davr mening taqdirimda. *Hayratim battar oshdi. Xayolimdan “Nima balo, bu odam tekshiruvchilardanmi, meni o l i b s o t a r gumon qilyapti, shekilli!” degan noxush fikr o‘tdi.* A.Haydarov, Qo‘sh ustunimning biri. *Paxta suvrati solingan chinni idishlar o l i b s o t a r larning uyida qalashib yotsa.* Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar.

CHANG, GARD, G‘UBOR, TO‘ZON Mayda zarra, kukun holidagi tuproq yoki boshqa moddalar. **Gard** so‘zi kam qo‘llanadi. **G‘ubor** so‘zi badiiy nutqqa xos bo‘lib, **chang**, **to‘zon** kabilardan havoda saqlangan yoki sathiga ingan mayda zarralarni ifodalaydi. **To‘zon** so‘zi aynan “chang” ma’nosida kam qo‘llanadi. Bu so‘zlarning *chang-to‘zon, chang-g‘ubor, gard-g‘ubor* tarzida juft holda qo‘llanishi ham kuzatiladi.

Hikmatillo g‘ildiraklar tagidan ko‘tarilgan ch a ng ga tikilganicha ko‘chaning o‘rtasida serrayib qoldi. O.Yoqubov, Billur qandillar. *Quyosh nuriga qarshi ch a ng bilan to‘zon keldi. O‘laksa ustidagi quzg‘un bilan zog‘ keldi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Ey yuzing jonimning quvvati, izining g a r d i ko‘zimga to‘tiyo bo‘lgan ona!* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Men sevaman Dezdemonani, Kiprigiga qo‘ndirmayman g a r d.* U.Azim, Otello. *Hamma yoq patarot, olmalarni qurt kemirib yotibdi, kuzaki mevalarini g‘ u b o r bosgan, kahrabo tusda.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *Qalin chang ustiga yog‘gan yomg‘ir loy hosil qilgan-u ustiga yana chang o‘tirgan... devorlarni ham g‘ u b o r mi, changmi qoplab olgan.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *O‘t ichida tong yorishar jim, Yel to‘zg‘itgan t o ‘ z o n emas, kul.* E.Vohidov, Ona. *U tashqariga chiqdi. Supa ustini, o‘choqboshini qalin gard-t o ‘ z o n qoplagan.* X.Sultonov, Onamning yurti.

CHEGARA, SARHAD, CHEK, POYON Bir-biriga qo‘shni, yondosh bo‘lgan davlat, viloyat, tuman, hudud orasidagi bo‘linish, ajralish chizig‘i. **Sarhad** so‘zi, asosan, davlatlararo chegaraga nisbatan qo‘llanadi. **Chek**, **poyon** so‘zlari kitobiy nutqqa xos, ular bu ma’noda namoyon bo‘lganda, ko‘pincha muayyan masofaning tugallanganlik, oxiriga yetganlik ta’kidi anglashiladi.

Hademay… ch e g a r a larni ochvorsa, bordi-keldilar mumkin bo‘lib qolsa, nima deysiz?! Akam o‘g‘rincha emas… ro‘y-rost kirib kelsa, nima deysiz?! M.Mansur, Judolik diyori. *Endi Qorabuloq ch e g a r a sidagi dovondan o‘tib olishsa, u yog‘i oson.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Chegarachi tun zulmatida, qahraton qishda, saraton jaziramasida s a r h a d larni bedor kezib xizmat o‘taydi.* J.Hasanov, Ozodlikdan boshqa Vatan yo‘q. *Movarounnahr s a r h a d lari Jayhunga qadar bo‘lib, undan u yog‘i Xuroson mulki edi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *O‘z yerining ch e k lariga bosib tikan...* G‘.G‘ulom, Tanlangan asarlar. *Bu turmish, bu hokimiyat, ch e k i ko‘rinmagan bu qorong‘iliq... uning uchun sira qiziqarliq emaslar…* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Shunday qilib, ketdik: oxiri-yu p o y o n i ko‘rinmagan, tugamaydurgan yo‘llar bilan – dovon oshib, tog‘ oshib…* M.Mansur, Judolik diyori. *Faqat qaysi tomonga, Ulug‘ tog‘gami yo poy-p o y o n i yo‘q paxtazorga – Muhammadjon aka bilolmay qoldi.* U.Hamdam, Muvozanat.

CHIDAM, BARDOSH, TOQAT, MATONAT, SABOT, TO‘ZIM, TAHAMMUL Qiyinchilik, dard, alam, azob kabilarga toqat qila olish, dosh berish qobiliyati. **Bardosh**, **matonat, sabot** so‘zlari shu ma’noni kuchli ifodalashga xizmat qiladi. **Matonat, sabot** so‘zlari kitobiy xoslangan so‘zlardir. **To‘zim** so‘zida “kishining kutilmagan ko‘ngilsizlik, kulfat tufayli g‘amga, og‘riqqa chidash” ifodasi mavjud. Bu so‘z kam qo‘llanadi. **Tahammul** so‘zi eskirgan, kitobiy.

Baxtiyorman degan birgina so‘zni Aytish uchun kerak qancha kuch, ch i d a m, Garchi Baxt so‘zlarning eng yoqimligi, Garchi tursa hamki tilning uchida. Sh.Rahmon, Saylanma. *Ee, xullas, mehnatning og‘iri-yengili demaydi, miq etmay qilaveradi. Joni qattiq. Ch i d a m, bardosh degan narsalar tosh-metin kelbatiga qo‘shilib, qotib ketgan.* A.A’zam, Quroq. *Qushlar jam bo‘lishar, pasayib osmon, Yerga qaray-qaray, chug‘urlashib der: – Barcha xislatimiz olgin-u, Inson, Bizga tirnoqchalik b a r d o sh ingdan ber.* A.Oripov, Bardosh. *Qayga ketding yuragim, Bitdi b a r d o sh va toqat.* Zulfiya, Saylanma. *Hikmatullo safar chog‘i og‘ir yukka sira t o q a t i yo‘q, otpuskaga kelishda ham bejirimgina yengil chamadon sotib olgan edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Boshingni qayonga urishni bilmaysan, qalb va ehtirosga bo‘ysunasan, jasorat va m a t o n a t qo‘lingdan tutadi – axir Sen odamsan!* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Shamol uning to‘plaganlarini har tarafga sochib o‘ynasa-da, u qunt va m a t o n a t, sabr va bardosh bilan yana abadiydek tuyulgan shu ishida davom etadi...* I.Sulton, Todd. *Mard kishiga yarashar Ahdga vafo va s a b o t.* M.Shayxzoda, Saylanma. *Lekin qutulmoq yo‘q hijron dastidan, Faqat qalbimizda bardosh va s a b o t.* A.Oripov, Saylanma. *Hammalari bir og‘izdan “Iloyo, shularga t o ‘ z i m bergin, ittifoqlik ato etgin, orqamizdan chirog‘imizni yoqib o‘tirishsin, tup qo‘yib palak yozishsin” deb, duolar qilishdi.* M.Mansur, Judolik diyori.

...birorta so‘zni ham o‘qiy olmadim, yig‘lagim keldi, xatni xontaxtaning bir chetiga surib, peshonamni ushlagancha to‘zonda qolgan tuyg‘ularimga t o ‘ z i m istadim. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Har qanday tashqi dushman Husayn Boyqaroning yeriga bosib kirsa, har qanday bek isyon ko‘tarsa, u qayg‘urmas, yolg‘iz g‘azablanar ham t a h a m m u l va sabot bilan safar choralarini ko‘rar edi.* Oybek, Navoiy. *Sabr-u t a h a m m u l qilgaydirmiz, vazirlarimiz ila xazinani boyitishning boshqa yo‘llarini izlagaymiz.* I.Sulton, Alisher Navoiy.

CHIDAMLI, BARDOSHLI, TOQATLI, TO‘ZIMLI, MATONATLI Qiyinchilik, og‘riq, dard, alam va shu kabilarga chidaydigan. **Toqatli** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos. **To‘zimli, matonatli** so‘zlari shu ma’noni kuchli tarzda ifodalashi bilan ajralib turadi. **Matonatli** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Baqirmasin, deb tishlatyapsanmi? Qo‘y buningni, oshnam – ch i d a m l i bola, uncha-buncha dard baqirtirolmaydi. T.Malik, Shaytanat. *Odamdek chidamli maxluq bo‘lmas ekan. O‘lib qolaman, devdim g‘amdan. Yo‘q, ko‘nikib ketdim.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Sog‘inch izmidagi odam surunkali bedavo dardga yo‘liqqan kimsadek sirtidan b a r d o sh l i ko‘ringani bilan ichidan zil ketgan bo‘ladi.* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *...siz juda irodali, b a r d o sh l i inson obrazini yaratishingiz kerak! Ana shu yog‘iyam muhim!* Sh.Xolmirzayev, Qaytish. *T o q a t l i ga tog‘lar egar boshini, Toqatsizning birovlar yer oshini. Maqol. Sipobek ota degan bir chol meni hayratda qoldirdi... hech qanday pardozsiz, adabiyotga shunday kirsa bo‘ladigan baquvvat obraz... turmushning o‘ziday keksa, t o ‘ z i m l i.* N.Fozilov, Qush qanoti bilan. *Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik... huquqimizg‘a tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, t o ‘ z i m l i turdik, sabr etdik.* Fitrat, Muxtoriyat. *M a t o n a t l i insonlar faqat afsonalarda emas, ular siz-u bizning yonginamizda ham bor.* Gazetadan. *Abdulla Qodiriy m a t o n a t l i, e’tiqodi sobit zot bo‘lgani uchun ham so‘nggi nafasigacha tuhmatlarni tan olmaganini, xudodan qaytmaganini... sezib olish qiyin emas-ku!* N.Boqiy, Mehrobdan chayon chiqdimi?

Ch **CHIDAMOQ, BARDOSH QILMOQ, TOB BERMOQ, TOQAT QILMOQ, KO‘TARMOQ, TAHAMMUL QILMOQ** Ruhiy yoki jismoniy qiyinchiliklarning tugashini sabr bilan kutmoq, ularga bardosh bermoq. **Tob bermoq** so‘zida bu tushuncha kuchsizroq ifodalanadi. **Ko‘tarmoq** so‘zi ruhiy qiyinchilikka sabr qilish bilan aloqador bo‘lib, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **Tob bermoq, tahammul qilmoq** so‘zlari kam qo‘llanadi. **Tahammul qilmoq** so‘zi eskirgan.

Muso ch i d a di, ch i d a di, yo‘q, oxiri bo‘lmadi, direktorga kirdi. A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Oqibati yaxshilik bilan tugagan hamma ish xayrlidir, deydilar. Balki, shundaydir. Ammo bu og‘riq, bu xo‘rliklarga ch i d a m o q!.. Nachora?!* L.Bo‘rixon, Sut sotuvchi bola. *Nilufar hozir buni o‘ylagani uchun*

emas, ko‘pdan beri yig‘ilib yurib, bugun birdan xuruj qilgan tizginsiz alamga b a r d o s h q i l olmagani uchun yig‘ladi. Bu dunyoda hech kim ko‘ngli to‘lmaydi, B a r d o sh q i l may, boshga davlat qo‘nmaydi. “Gulixiromon”. *Nizomiddinov uning o‘tli qarashiga t o b b e r olmay, asta-asta yurib, darvozadan chiqdi.* S.Ahmad, Hukm. *Zamira uning titroq vujudi va haddan tashqari olovli qarashiga t o b b e r olmay, stol ustiga pastroq engashdi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Asadbek... uzoqdan boshlangan gap mohiyatiga yetguncha t o q a t q i l di.* T.Malik, Shaytanat. *Adash Karvon t o q a t q i l olmadi, bor kuchini to‘plab, xotinining ruhsiz jasadini dast ko‘tardi-da, pastga qarab otildi*. X.Sultonov, Onamning yurti. *Kampirga aytma, k o ‘ t a r olmaydi*. *Yodgorboydan qoraxat kelgan!* A.Qahhor, Asror bobo. *Bitta men emas, hatto sening o‘zing ham qo‘pollashib qolding, ortiqcha gap k o ‘ t a r olmaysan*. J.Abdullaxonov, To‘fon. *Bek... yana yarim soatga t a h a m m u l q i l sangiz, oshni yeb, yo‘lga tushasiz.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

CHIRMOVUQ, ZARPECHAK, DEVPECHAK, CHIRMOV, CHIRMOVGUL O‘simliklar tanasiga chirmashib, ularning hisobiga yashaydigan, bargsiz, ingichka yovvoyi sariq o‘simlik. **Chirmovuq** bunday o‘simliklarning umumiy nomini bildiradi. Oddiy so‘zlashuvda ko‘proq **chirmoviq** shaklida qo‘llanadi. **Chirmov, chirmovgul** xalq tilida faol ishlatiladi. Botanika terminologiyasida, asosan, **zarpechak** qo‘llanadi.

C h i r m o v u q lar g‘o‘zalarim tanini o‘rab-o‘rab oldi. C h i r m o v u q lar g‘o‘zalarim jonini siqib-siqib oldi. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *...devorga chirmashgan **c** h i r m o v u q lar-u ilonpechaklar oralab kaltakesaklar, mov mushukday kalamushlar, barmoqday biqqi, bir qarichday keladigan echkemarchalar ko‘zlari chaqchayib devor kovaklarida o‘rmalab yurar edi*. N.Qilich, Zilzila. *Men handalak hidli z a r p e c h a k yuldim*. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Chap tomonda esa buning aksi – qachonlardir guvaladan pastakkina qilib qurilgan ayvon, uning oldida z a r p e c h a k o‘ralgan tok o‘sgan*. N.Rahmat, Zarpechak. *Bolaning esiga birdan bog‘chadagi o‘rigi va unga chirmashgan d e v p e ch a k tushdi. Yugurgancha bog‘chaga kirdi, o‘rikning tagiga borib qarasa, allaqachon d e v p e ch a k o‘rikni butun shoxlariga o‘rab olgan, yashil yaproqlarni sarg‘aytirgan, totli yemishlarini so‘ldirgan edi.* Munavvarqori, Devpechak. *D e v p e ch a k daraxtni bo‘g‘ishdan oldin u bilan do‘st bo‘lar ekan*. E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *Misoli ch i r m o v g u l palagi Qo‘llarim chirmashar bo‘yningga.* H.Sa’dulla, Ertaga.

CHIROYLI, GO‘ZAL, HUSNLI, HUSNDOR, XUSHRO‘Y, XUSHSURAT, KO‘HLIK, SULUV, ZEBO, LATOFATLI, SOHIBJAMOL, SULUK, RA’NO Husnga ega bo‘lgan, yoqimli ko‘rinishli. **Go‘zal** so‘zida o‘ta chiroylilik, ko‘zga yaqinlik ta’kidi mavjud. **Xushro‘y, xushsurat, ko‘hlik** so‘zlarida yoqimlilik ta’kidi bor, odatda, bu so‘zlar insonlarga nisbatan qo‘llanadi. **Barno,**

suluv, zebo so‘zlarida husni odatdagidan ortiqlik ta’kidi seziladi. **Zebo, latofatli, sohibjamol** so‘zlari kitobiy nutqda faol qo‘llanadi. **Suluk, ra’no** so‘zlari bu ma’noda kam qo‘llanadi. Shuningdek, bu qatordagi ayrim so‘zlar jins tushunchasi jihatdan farqlanadi. Jumladan, **latofatli** ayollarga nisbatan; **xushsurat** so‘zlari, asosan, erkak kishiga nisbatan qo‘llanadi.

Mana bu ch i r o y l i yigitcha undan qolgan zurriyot bo‘lsa kerak, tavba, xuddi quyib qo‘ygandek-a. Yaratgan egamning dargohi keng-da... X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Muhabbat – ch i r o y l i kapalak, qo‘rqaman sho‘rlikni tutgani. Kapalak quvganim yodimda, yodimda yo‘q ammo yetganim.* Sh.Rahmon, Saylanma. *Yonginasida g‘oyat latif va g o‘ z a l bir malak bormish, u tik qarashga botinmay, yerga tikilgan ko‘yi nimanidir kutar emish.* I.Sulton, Turmush. *Me’mor... g o‘ z a l qizi Badiani kichikligidan erkalardi, u o‘zining sezgir va hozirjavobligi bilan otasiga tortgan*. Mirmuhsin, Me’mor. *Boshyalang, yalangoyoq, ko‘ylagi yirtiq xotinning yuziga iztirob shunday chang solgan ediki, yigitlar uni Mishaning onasi, kechagi ko‘rkam, h u s n l i ayol ekanini bazo‘r farq qildilar.* Oybek, Quyosh qoraymas. *Bozorboy: – Bizzi xotin sal h u s n d o r roq. Bitta-yarimta elakishmasin, deb qorovul bo‘lib borganman.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Azizbek o‘zining eski mahramiga ko‘ngli to‘lmay boshqa bir o‘yinchi, ashulachi, h u s n d o r bir mahram topmoqchi...* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Aeroport foyesiga kirishim hamono smena boshlig‘i, o‘sha x u sh r o‘y sohibjamolning oynavand xonasi tomon chopdim.* Q.Norqobil, Kichik ostona. *Huv yoshligimda hamsoyamizning Zaynab degich qizi bo‘lardi. X u sh r o‘ y qiz edi o‘lgur.* E.A’zam, Shovqin. *Shunday kunlardan birida nomiga rota deyilgan, aslida intizom qolmagan bizning qismimizga ko‘ksi jarang-jurung orden-medallarga to‘la yosh, x u sh s u r a t bir mayor ikkita ofitser bilan “sovchi” bo‘lib keldi.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Eridan ancha yosh bo‘lgan qora qosh, quralay ko‘zli x u sh s u r a t Sitorabonu “dadasi urishib bermasaydi”, deb hayiqib turar edi.* M.Osim, Ibn Sino qissasi. *...Yigit unga boshidan o‘tgan voqealarni gapirib, o‘z yurtidan bo‘lak yurt yo‘qligini, o‘z xotinidan k o‘ h l i k ayol yo‘qligini aytibdi va gunohidan o‘tishni so‘rabdi*. O‘.Umarbekov, Sevgim-sevgilim... *– Bizning Marg‘ilonda bir qiz bor, – dedi Rahmat, – shundoq k o‘ h l i k ki, bu o‘rtada uning o‘xshashi bo‘lmas, deb o‘ylayman!* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Zahro hamon o‘shanday s u l u v, hatto hozir yanada to‘lishib ochilgan, yuzlari naqsh olmadek qirmizi, bo‘liq...* U.Hamdam, Muvozanat. *Shohimiz bebaxt. Uning olamga dovrug‘i ketgan yakka-yu yagona s u l u v qizi tug‘ilgan kunidan beri gungalak bo‘lib yuradi.* “O‘zbek xalq ertaklari”. *Kiyganida z e b o qizlar yangi liboslar, O‘zbek dilin saxovatin minnat-la eslar.* M.Shayxzoda, Tanlangan asarlar. *Samandarning quvonchdan chaqnagan ko‘zlari oldida o‘sha izlagani z e b o qiz namoyon bo‘ldi*. S.Karomatov, Qalbimda quyosh. *O‘zingning naqadar mo‘jizakor,*

l a t o f a t l i, sehrlarga boy, oppoq, beg‘ubor, go‘zal, aqlli, farosatli, jozibador... suyukli, qadrdon inson ekanligingni his qilgin, e’tirof etgin! X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Turg‘un uning husnini zimdan tomosha qilardi. O‘sha kuni Saodat burungidan ham l a t o f a t l i ko‘rindi unga.* O.Yoqubov, Tog‘ qizi. *Bu s o h i b j a m o l qiz oldida ot o‘ynatib, bahodirligini namoyish qiladigan xudodod beklar qani?* Mirmuhsin, Me’mor. *Baland ko‘shkdan bir-bir bosib noz-u navozish ila s o h i b j a m o l tarso qiz tushib keladi.* E.A’zam, Shovqin. *Otabekning ko‘nglini o‘sha go‘zal marg‘ilonliqdan sovitish yo‘lida undan ham ko‘hlik, undan ham s u l u k qiz topish ko‘yiga tushdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Mavlono Moniy sohibjamol va zarif va r a’ n o yigitdur.* Navoiy, Majolis un-nafois.

CHIROYLILASHMOQ, GO‘ZALLASHMOQ, KO‘RKAMLASHMOQ, ZEBOLANMOQ Ko‘rinishi yoqimli, chiroyli tusga kirmoq. **Go‘zallashmoq** so‘zi jonli, jonsiz narsalarga, joyga nisbatan ham qo‘llanib, ularning muayyan sifatini ta’kidlashga xizmat qiladi. **Ko‘rkamlashmoq** so‘zi kitobiy nutqqa xos. **Zebolanmoq**, asosan, ayollar tashqi ko‘rinishi, kiyinishining chiroylilashganiga nisbatan qo‘llanadi, nutqda kam uchraydi.

Oq qashqaning yollarini, quyrug‘ini tekislab kesgach, yana ham ch i r o y l i l a sh ib, ko‘rkamlashib ketdi. U.Mustafoqulov, Oq qashqa. *Sevgi odamni g o ‘ z a l l a sh tirib yuboradi, sevgan va sevilgan odamning chiroyiga chiroy qo‘shiladi...* X.Do‘stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *...shaharga yaqinlashgach, xaroba devorni ko‘rib ko‘zlariga ishonmay qoldi. Yer vaqti bilan yigirma yildan ziyodroq vaqt ichida k o ‘ r k a m l a sh ish o‘rniga ortga ketgan shaharning manzarasi uni behad ajablantirdi.* T.Malik, Devona. *Gulni hayron qoldirib, z e b o l a n ibsiz muncha ham.* S.Abdulla, Tohir va Zuhra.

CHIZG‘ICH, JAZBAR, JAZVAL, MISTAR Chizish yoki boshqa geometrik shakllarni ishlash uchun foydalaniladigan o‘quv va idora ishlari asbobi. Shu ma’noda hozirda **chizg‘ich** ko‘proq qo‘llanadi. **Jazbar** ko‘proq oddiy so‘zlashuvda ishlatiladi. **Jazval, mistar** eskirgan, asosan, tarixiy asarlarda uchraydi.

Stol ustida fil suyagidan o‘yib ishlangan ch i z g ‘ i c h va qog‘oz qirqadigan “pichoq”. Mirmuhsin, Me’mor. *Erim bolalarni ch i z g ‘ i ch bilan urish u yoqda tursin, hatto qattiq gapirmas... shuning uchun ham ular muallimni jonidan ortiq ko‘rishardi.* X.Husayniy, Ming quyosh shu’lasi. *...kechasi deraza rapiga qulayroq o‘rnashib o‘tirgancha ishga jiddiy kirishdim. Oldimda pargar, j a z b a r, daftar va soat.* N.Arslon, Oy jodusi. *Qachon uning uyiga borsa, Akmal katta oq qog‘ozga termilib, uchi ignaday qilib ochilgan turli qalamlar, har xil j a z b a r lar bilan nimalarnidir o‘lchab, chizib o‘tirgan bo‘ladi.* M.Hazratqulov, Jur’at. *Deraza tagida o‘tirgan ayol qo‘lidagi siyoh dog‘li j a z v a l bilan tiziga urib, ora-sira har to‘g‘rida gapirib qo‘yadi.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Xattot bunday*

mistarni toza qog‘oz yoki varaqning tagiga qo‘yib qo‘li bilan bosgan va uning natijasida iplarning izi qog‘ozga tushib, botiq chiziqlar paydo bo‘lgan. M.Rahmatov, Eski o‘zbek yozuvi praktikumi.

CHOL, QARIYA, MO‘YSAFID, OQSOQOL, BOBOY, ABUSHQA Uzoq yashab, ancha yoshga borgan er kishi. **Qariya, mo‘ysafid** so‘zlari kitobiy nutqqa xos. **Oqsoqol** so‘zi, odatda, maslahat, yo‘l-yo‘riq beruvchi keksa kishiga nisbatan qo‘llanadi. **Boboy** so‘zi so‘zlashuv nutqida mensimaslik, hurmatsizlik ifodasi sifatida qo‘llanadi. **Abushqa** – eskirgan so‘z.

Bir kuni ch o l bechoraning qo‘llari qaltirab, osh suzib berilgan chinni kosani tushirib, sindirib qo‘ydi. T.Malik, Odamiylik mulki. *Ch o l yigitligida osmondagi burgutning ko‘zidan, uchib borayotgan pashshaning qanotidan bexato uradigan, otgan o‘qi tegmasa, qayta otishni or biladigan dovqur ovchi bo‘lgan ekan*. A.A’zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Davra q a r i y a larga qarab jo‘shib ketdi. – Ha-ha, bo‘sh kelmang, polvon bova! – dedi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Q a r i y a hakamning o‘zingizni tanishtiring, degan savoliga ajablanib, “men Rixsiyev Mahkamboy bo‘laman, tuzukmi”, deb hammaga erinmay, sinchiklab qarab chiqdi.* A.Yo‘ldoshev, Bozor. *Pochtada pul olayotgan bir m o‘y s a f i d dan boshqa hech kim yo‘q edi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *To‘rda, yuzlari qat-qat ajin, qabariq ko‘zoynak taqqan ko‘hna bir m o‘y s a f i d ... yostiqqa yonboshlab mudrab yotibdi.* E.A’zam, Navoiyni o‘qigan bolalar. *...Shohizinda yonida farishtaday o q s o q o l “Yetim qoldim, otam”lab bo‘zlaganin ko‘rdim men.* I.Mirzo, Yodi hamisha yodda. *Ular orasida saksonni qoralab, hassa bilan arang yuradigan mahalla o q s o q o l lari ham bor edi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Shuu, b o b o y lar bitta ishga yana bittasini qo‘shib bitirishni bilmaydi...* A.A’zam, Quroq. *Horma, Nasibbek! Ha, b o b o y ni qayoqqa jo‘natding?* X.Sultonov, Onamning yurti.

CHOPQIR, CHOPAG‘ON, YUGURIK, UCHQUR Tez chopadigan, yelday yuguradigan. **Chopag‘on** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos, unda belgi **chopqir** so‘zi bilan bir xil ifodalanadi. **Yugurik** so‘zi bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Uchqur** so‘zi, odatda, yugurish tezligi o‘ta yuqori bo‘lgan jonivorlarga nisbatan qo‘llanadi, kitobiy nutqqa xos.

Tabibga o‘z hukmini o‘tkaza olmagan Kesakpolvon uning ch o p q i r otlarini otib tashlashga buyuradi. T.Malik, Shaytanat. *– Bunisini tirik ushlaymiz, – dedi ch o p q i r arg‘umoqda boshqalardan o‘zib borayotgan Muxon arqon sirtmoqni otishga shaylar ekan.* G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni. *Yashil maydon atrofidagi yo‘lkaga ch o p a g‘ o n lar chiqishdi.* S.Nurov, Chopag‘on. *Ikkov minib tulpor otti, Chopmoqqa havasi ketdi, Kimning oti y u g u r i k, deb.* “Erali va Sherali”. *Kepak yegan ot y u g u r i k bo‘lmas*. Maqol. *Nima balo, Haybat akam otni Izzada cho‘miltirgani opkelganmidi? Yo uyam bizga o‘xshab soyga quladimi u ch q u r otini eplay olmay?* M.Mansur, Judolik diyori. *Qamchi yeb*

o‘rganmagan u ch q u r bedov oldinga o‘qday otilib, egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

CHORA, ILOJ, TADBIR, IMKON, YO‘L, EP, AMAL Biror qiyinchilikdan, murakkab vaziyatdan qutulish yo‘li. **Iloj** oddiy so‘zlashuvga xos. Bu ma’noda **chora** so‘zi **tadbir** so‘ziga nisbatan ko‘p qo‘llanadi, **tadbir** – kitobiy so‘z. **Ep** oddiy so‘zlashuvga xos. **Amal** so‘zi kam qo‘llanadi.

Temur Malik mo‘g‘ullarga pand berib, ularni qirib tashlash ch o r a sini izlardi. Mirmuhsin, Temur Malik. – *Ha, boshqa ch o r a yo‘q, – dedi Alisher. – Na Hiriyda, na Mashhadda farovonlik qoldi.* I.Sulton, Alisher Navoiy. *Endi jim turasiz, sira i l o j yo‘q – dunyo o‘zgarmadi siz aytgan so‘zdan, siz qurgan qasrlar vayrona bo‘ldi, alaflarga to‘ldi siz oqqan o‘zan.* Sh.Rahmon, Saylanma. *Sen quyosh yuzlik bilan Diydor i l o j i yo‘q ekan, Naylagum kunduzni men, Kelgaymi deb shom istadim.* A.Oripov, Saylanma. *..haqiqat oldida u hayron va bunga qarshi t a d b i r o‘ylash bilan garang edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Bu t a d b i r ning kelib-kelib To‘lamatdan chiqqanini aytmaysizmi!* S.Anorboyev, Oqsoy. *Bugun singlingga qil silayi rahm, Ertaga hojat yo i m k o n bo‘lmagay.* I.Mirzo, Himmat. *Dunyoda tiriklik emasdir oson, Xudkashlik esa-chi, yomondan yomon. Faqat Yaratganning ismin takror et, Boshqa chora yo‘qdir, yo‘q o‘zga i m k o n.* A.Oripov, To‘rtlik. *Bosh tursa ko‘krakda, yelkada emas, Ezilib, dimiqib o‘lsa hamiyat; Hech kim y o‘ l topmasa, chiqarmasa sas, Bahona qilinsa muhit, jamiyat – Uzrlar gunohdan Yomonroq bo‘lar*. A.O‘ktam, Taxmin. *Hech bo‘lmasa, jonni saqla edi sen, Bir y o‘ l topib qochmoq kerak bu eldan.* H.Olimjon, Saylanma. *Ulardan kimlardir oshkora ko‘z yoshi to‘kib, o‘z hamdardligini bildirgan bo‘lsa, kimlardir buni o‘ziga ep ko‘rmay yoki e p ini qilolmay, uyalib qimtinardi-yu, lekin... “miq” etmay kutishardi.* U.Hamdam, Muvozanat. *Nimaiki kerak bo‘lsa, aytishaversin. Bu orada e p ini qilolmasam, shahar bor, xo‘pmi?* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Garchi reja buzildi, lekin bir a m a l ini qilamiz.* Oybek, Tanlangan asarlar.

CHORPOYA, SO‘RI Ochiq havoda o‘tirishga, yotishga mo‘ljallangan, to‘rt oyoqli va panjarali katta, keng karavot. **So‘ri** mazkur ma’noda shevaga oid.

She’r-u san’at ahliga yo‘q Kuy, qo‘shiqdan o‘zga mol, Bizga ham ul go‘shada Ch o r p o y a -yu ayvon bo‘lur. E.Vohidov, Saylanma. *Sherqo‘zi ch o r p o y a dagi ikki qavat ko‘rpachada yonboshlagancha, qo‘lidagi shingil rayhon bilan yelpinib: “Bizni tashlab qayga ketdi ul qaro ko‘zim mani”, – deya ming‘irlab xirgoyi qilib yotgan edi.* A.A’zam, Odamning olasi.*Omontoy uni dast ko‘tarib, davradan olib chiqdi-da, s o‘ r i ga yotqizib qo‘ydi.* S.Ahmad, To‘yboshi. *Tinib qolgandayin go‘yo atayin, Yog‘och s o‘ r i mizning tepasida oy.* S.Sayyid, Diydor.

CHOT, CHATANOQ, BUT Ikki oyoqning orasi. **Chatanoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi. **But** so‘zi qatordagi so‘zlarga qaraganda kam qo‘llanadi.

Bunaqa paytda muhtaram Fotih Burhonovich… raqibidan yengilib, dumini ch o t iga qisganicha vangillab juftakni rostlagan ko‘ppakday… yo‘rg‘alab qolishni ma’qul ko‘rardi. Q.Kenja, Ko‘ktoy. *G‘ozga ergashaman deb, chumchuqning ch o t i ayrilibdi.* Maqol. *Ola qarg‘aning yurishini qilaman deb, chumchuqning ch a t a n o g‘ i yirilibdi.* Maqol. *Shu asnoda yumaloq, xushchaqchaq mirishkor …katta tarvuzni qorniga qo‘yib, ch a t a n o g‘ i ni atayin kerib kira qoldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. – *Tezroq yuravering, Isomov, b u t ingiz yirilmaydi, – dedi Zumrad. Ayollar gurullab kuldi.* S.Siyoyev, Otliq ayol. *Oyim chelakni b u t iga qistirgancha, zirillab turgan yelinga yana qo‘l cho‘zdi.* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi.

CHUNKI, NEGAKI, ZEROKI, NECHUKKIM Sabab ma’nosini bildiruvchi ergashtiruvchi bog‘lovchi. **Chunki** so‘zi nutq uslublarining barchasida qo‘llanadi. **Negaki, zeroki** so‘zlari nutqqa o‘zgacha poetiklik baxsh etadi. Bu so‘zlarda sabab ta’kidi boshqa ma’nodoshlarga qaraganda biroz kuchli. **Nechukkim** so‘zi kitobiy nutqqa xos, eskirgan.

Ana Xidir polvonni chin erkak desa bo‘ladi! Ch u n k i ota-bovasining hunarini yerda qoldirmayapti! T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Farzand tarbiyasiga ota-ona mas’ul, maktab esa bu sohada ko‘makchi. Ch u n k i farzandning oilada olgan tarbiyasiga qarab, ota-onasiga rohat yoki jazo keltirishini hamma biladi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *N e g a k i hozirda mening ko‘z yoshlarimgina emas, butun borlig‘im siyohdir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Qiz uni tanimagan bo‘lsa kerak. N e g a k i Vahobjonning soch-soqoli o‘sib ketgan, kiyimlari chang, tuproq edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ma’rakadagi gapini biror g‘arazdan emas, vijdonining amri bilan aytgan, o‘zi shuni haqiqat deb bilgan, z e r o k i odamzodda imon bo‘lmasa, unda sadoqat ham bo‘lmaydi*. X.Sultonov, Onamning yurti. *Bu og‘ir musibat bo‘ldi, z e r o k i olimning vafoti ayriliqlarning eng yomonidir*. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Xususan, bundan so‘ng dim sara bo‘lg‘ay, n e ch u k k i m bugun kulbayi vayronamga Avazim tashrif buyurdi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *N e ch u k k i m, menga nurli tal’ating jannat bilan tengdir.* E.Vohidov, Saylanma.

CHUQUR, TERAN 1. Biror joydan, masalan, yerning sathidan ancha past. **Teran** so‘zi kitobiy nutqqa xos.

Ch

Kun botgan, ikki tog‘ oralig‘idagi ch u q u r daraga soya tushgan, lekin o‘ng qo‘ldagi osmon o‘pgan cho‘qqilar olmosday charaqlab turardi. O.Yoqubov, Matluba. *Binoning rangi uniqib ketgan, ko‘hna yog‘och darvozasi oldidan ch u q u r ariq oqardi.* N.Aminov, Qahqaha. *M.Qosimovning qiyofasi va yurish-turishiga sahro sokinligi, t e r a n qatlamlardan nam yuqi topib asta so‘radigan chayir saksovul tomirlarining to‘zimliligi asar qilganga o‘xshardi*. A.Muxtor, Davr mening taqdirimda. *Bu buloqning suvi o‘sha cho‘qqidan tushib, yana Osmon Yaylovga chiqib kelguncha ikki oradagi chuqurliklardan ham t e r a n roq joyga tushib, so‘ng yana yuksak tog‘ga ko‘tarilgan bo‘lishi kerak.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

2. Mazmun-mohiyat jihatidan keng qamrovli, asosli, kuchli. **Teran** so‘zining bu ma’nosida poetik bo‘yoq mavjud, **chuqur** so‘ziga qaraganda kam qo ‘llanadi.

Savodsiz kampirning sodda falsafasida qanchalik ch u q u r ma’no borligini endi tushunyapman. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Olti yil davomida romanga kiritgan yangi tahrirlarim ko‘proq uning badiiy nuqsonlarini tuzatishga, tarix haqiqatini ch u q u r roq ochishga qaratildi*. P.Qodirov, “Yulduzli tun”lar haqida. *“Chirog‘ing o‘chmasin”, degan soddagina hikmat zamiridagi t e r a n insoniy ma’noni shu tobdagina yurak-yuraklari zirqirab idrok etdi...* X.Sulton, Onamning yurti. *Hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Nima uchun eng t e r a n falsafiy asarda ko‘pincha telba qatnashadi?* O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari.

CHO‘L, DASHT, BIYOBON, SAHRO Suvsiz, bepoyon, doimo quruq iqlimli dasht. Qatordagi so‘zlarda darajama-daraja suvsizlik, quruqlik ta’kidi ortib boradi. **Dasht** so‘zi **biyobon** va **sahro**ga nisbatan nutqda ko‘p qo‘llanadi, **biyobon** va **sahro** so‘zlari kitobiy nutqda faol.

Qani endi, bu qaqragan ch o‘ l aro bir zilol suvli quduqqa duch kelsam-u, undan qonib-qonib ichib tashnaligimni qondirsam. U.Hamdam, Bir piyola suv. *Ch o‘ l deganlari Uzumchi qishlog‘imizdan uncha uzoq emasdirki, paxta yetishtiruvchi brigada a’zolari qo‘sh otli, to‘rt g‘ildirakli, so‘risi keng “haptakach”da tong yorishib-yorishmasidan yo‘lga tushib, ishlari bitgach, qorong‘i tushganda, yana qaytib kelishardi.* A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak. *Bir kuni kech kuzakda, oshnalari bilan o‘tirib, rosa ichadi, so‘ng uyga kelmasdan mashinasini to‘ppa-to‘g‘ri d a sh t ga haydaydi.* N.Norqobilov, Dashtda. *D a sh t da otlar kishnashar tolib, Kishan botib oyoqlariga*. U.Azim, Saylanma. *Bir donishmand ulug‘ hakim O‘tgan ekan jahonda. U kun bo‘yi Giyoh terib Kezib tog‘-u b i y o b o n, Odamlarga shifo berib Yashar ekan shodumon.* E.Vohidov, Jaholat to‘g‘risida rivoyat. *Ovoz juda-juda tanish edi, afsus, tanish chehra o‘rnida uning ro‘parasida hayhotday xarsangtosh qo‘r to‘kib turar, xarsangdan boshqa nima ham ovoz chiqara olardi bu b i y o b o n da?!* X.Do‘stmuhammad, Donishmand Sizif. *Yarim yil o‘tdi, bir yil o‘tdi. Jimjit. Hech kim hech narsa bilmaydi. Ikki yil deganda uni o‘shatdagi s a h r o da yo‘qolganini aytishdi.* O‘.Umarbekov, Ota va o‘g‘il. *Valilardan ibrat so‘ylar qadim sahrolar, So‘ndi qancha saltanatlar, qancha s a h r o lar.* S.Sayyid, Vatan.

CHO‘LOQ, OQSOQ, LANG Oyog‘i mayib yoki kalta. **Cho‘loq** so‘zining ishlatilishi nutq uslublariga ko‘ra cheklanmagan, shuningdek, u qo‘lga nisbatan ham qo‘llanadi. **Oqsoq** so‘zida belgi darajasi kuchsizroq. **Cho‘loq, oqsoq** so‘zlari jonivorlarga nisbatan ham qo‘llanadi. **Lang** so‘zi, asosan, shaxsga nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘zda eskilik bo‘yog‘i mavjud, ayni paytda u kitobiy nutqqa xosdir.

Shivir-shivirga ko‘ra, yurtida ch o‘ l o q childirmachining xotini, to‘rt bolasi bor ekan. E.A’zam, Hikoyalar. *...Sardor Xunxorshohning buyrug‘i bilan o‘n*

ming askarni olib, o‘zidan oldin bir ch o‘ l o q sarkardasini ming askari bilan peshdor qilib jo‘natib yubordi. “Avazxon”. *Karim ularni bir marta ko‘rgan: Qobil ozg‘in, o q s o q bola; silliq, cho‘zinchoq yuzi nimasi bilandir chindan ham shoirlarga o‘xshab ketadi.* A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Qora chopon ustidan qarg‘ashoyi belbog‘ bog‘lagan o q s o q kishi – Oynisaning ukasi Ummatali shosha-pisha ichkari kirdi, opasini quchoqlab, bazo‘r ajratib oldi*. X.Sultonov, Onamning yurti. *Manavi l a ng ning, ya’ni cho‘loqning oti Ixtiyor Kamol, qorako‘l sovxoziga direktor bo‘lgan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Men bir l a ng-u, sen esa ko‘r, notavon so‘qir, Bu dunyoda butun odam topilmaganday Ikkimizga Yer yuzining jilovin bermish*. A.Oripov, Sohibqiron.

CHO‘LOQLANMOQ, OQSAMOQ, OQSOQLANMOQ Cho‘loqlanib, oqsab yurmoq. **Oqsoqlanmoq, oqsamoq** so‘zlari oyoqni sudrab yurishga nisbatan ham qo‘llanadi. Bu so‘zlar cho‘loqlanishning pastroq darajasini bildiradi.

O‘sha kecha ular kaltakni toza yeb, yotoqxonaga cho‘l o q l a n a-cho‘l o q l a n a, bir-birlarini suyab kirib kelishdi. U.Hamdam, Muvozanat. *Yaralangan otlar o‘ram ichida ch o‘ l o q l a n ib, kishnab yurardi.* Mirmuhsin, Me’mor. *Komandir Steklov o q s a rdi. U ba’zan beixtiyor ravishda tizzasini changallar, yuzlari, go‘yo alam g‘ijimlaganday, bir on burishib ketardi*. Oybek, Quyosh qoraymas. *Bizning tuyamiz o q s a b, karvondan orqada qola boshladi.* M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. *Akbarning oyog‘i og‘rir ekanmi, yo oyoqlar bu og‘ir gavdani ko‘tarishga qodir emasmidi, har holda, u zinadan o q s o q l a n ib, sal bukilibroq chiqdi.* T.Malik, Falak. *Otabekning oyoq olishida ham biroz o q s o q l a n ish sezilar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

CHO‘LOQLIK, OQSOQLIK Cho‘loqqa xos belgilarga egalik, oqsoq ekanlik. **Cho‘loqlik** so‘zi **oqsoqlik** so‘ziga qaraganda so‘zlashuvda bir qadar faol qo‘llanadi. **Oqsoqlik** kitobiy uslubga xos.

Ammo besh qadamcha qolganda birdan cho‘l o q l i g i tuzalib qoldi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Qurbonov bir oyog‘ini… Omonpolvon to‘dasiga qarshi kurashda yo‘qotgan ekan. Shuning uchundirki, cho‘l o q l i g i dan hech o‘ksinmas, doim mag‘rur, qadam olishi bardam edi.* S.Anorboyev, Yaxshilik urug‘i. *Nazokat o q s o q l i g i mni bilsa, mendan aynab qoladi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *O q s o q l i k shikastlanishlar, suyaklar, bo‘g‘imlar, yumshoq to‘qimalarning… yallig‘lanish kasalliklari, qon tomir kasalliklari… bilan rivojlanadi*. “Salomatlik ensiklopediyasi”.

CHO‘NTAK, KISSA, HAMYON, YONCHIQ Kiyimning pul va boshqa zarur yengil narsalar olib yurish uchun tikilgan sirtqi yoki ichki xaltachasi. **Kissa** so‘zi shevaga xos. **Hamyon** kitobiy uslubga xos. **Yonchiq** so‘zi eskirgan, juda kam qo‘llanadi, unda yonda joylashganlik ta’kidi mavjud.

Ahmadqul bobomning: “Hamzaxon o‘g‘lim, ombordagi yong‘oqdan bir qop olib chiq, bolalarga ch o‘ n t a k lari to‘lguncha ulash…” – degan gaplaridan

keyin yig‘lashdan sal-pal to‘xtadim. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Hammasidan qizig‘i – paxtalikning ch o‘ n t a g i dan kecha mana shu koshonada tavalludi nishonlangan, yarim asrcha burun olis sovuq o‘lkada halok bo‘lgan marhum shoirning hujjatlari chiqdi.* E.A’zam, Shoirning to‘yi. *Xizmat haqini olib yag‘ir k i s s a siga tiqar ekan, “Karasho” xola yana to‘qqiz marotaba qatnamoq lozimligini aytdi…* E.A’zam, Shovqin. *Sartarosh pulni shimining k i s s a siga tiqarkan, tayinladi. – Shulardan qolmang, yaxshi odamlar*. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. *Bu yerda istagan odam istagan paytda choyxo‘rlik, h a m y o n ko‘tarsa, oshxo‘rlik ham qilishi mumkin.* T.Malik, Shaytanat. *O‘g‘rining katta-kichigi bo‘lmaydi. H a m y o n dan o‘margani bir so‘mmi, yuz so‘mmi, baribir – kissavur.* Gazetadan. *Hademay elga qahatchilik bo‘lg‘ay, – dedi Bug‘rohoji qalamtaroshini y o n ch i g‘ i ga solar ekan*. M.Osim, O‘tror. *Oradan ko‘b fursat o‘tmadi, ichkaridan Oybodoq yugurib chiqdi va darichadan turib “so‘yinchi!” dedi. Hoji y o n c h i g‘ i ni kavlay berib, “alhamdulilloh” deb qo‘ydi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

CHO‘TAL, SHIRINKOMA Oldi-sotdi vaqtida o‘rtada turgan vositachiga yoki boshqa kishiga (hatto bolalarga) beriladigan haq, pul. **Shirinkoma** so‘zi kam qo‘llanadi.

Q‘o‘ziboy chol ana shu ishi uchun mol egasidan ch o‘ t a l oladi. Sh.Xolmirzayev, Qariya. *Ehhe, ish katta-ku! Omad tilayman, ch o‘ t a l dan cho‘zasiz-da!* Oybek, Tanlangan asarlar. *– Mana bu sh i r i n k o m a si, – dedi pulni uzatib to‘ra. – Muhlati – uzog‘i bilan o‘n kun*. J.Sharipov, Xorazm. *– Gapni chalg‘itma?! Mendan sh i r i n k o m a undirolmaysan, – dedi Samsoqboy.* B.Rahmonov, Mardlar qissasi.

CHO‘TALCHI, TAVKARGIR Qimorda yutuqdan hissa oluvchi. **Tavkargir** so‘zi eskirgan, kitobiy.

Qimorni boshqaradigan ch o‘ t a l ch i yutgan tomondan o‘n so‘mga bir so‘m olib turar, ba’zan cho‘tal puldan yutqazganlarni, qarz berib, “ko‘tarib” qo‘yar edi. H.Nu’mon, A.Shorahmedov, Ota. *Oxiri Abdurahmon choyxonanishin, t a v k a r g i r va boboyi banglar orasida o‘ziga zamin topdi*. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

K O‘ R S A T K I CH

Ko‘rsatkichda lug‘atga kiritilgan barcha sinonimlar alifbo tartibida berilgan bo‘lib, u lug‘atda sinonim yoki sinonimik qatorning bor-yo‘qligini aniqlashga, lug‘atga kirgan sinonim va sinonimik qatorni tez topishga yordam beradi.

Sinonimik qatordagi bosh so‘zlar ko‘rsatkichda qora rangda va bosh harf bilan berilgan. Birdan ortiq sinonimik qatorda bosh so‘z bo‘lgan sinonim alohida-alohida va rim raqami bilan berilgan:

Ajratmoq I

Ajratmoq II kabi.

Sinonimik qatordagi boshqa so‘zlar ko‘rsatkichda kichik va oddiy harf bilan berilgan. Yonida esa (chiziqchadan so‘ng) shu so‘z qatnashgan sinonimik qatordagi bosh so‘z bosh harf bilan berilgan:

Belgi

belgisiz – Noaniq

bellashmoq – Musobaqalashmoq

bemavrid – Bemahal II

Bemalol

Bir so‘z necha sinonimik qatorda qatnashgan bo‘lsa, ko‘rsatkichda shuncha marta keltiriladi:

bekitmoq – Yashirmoq

bekitmoq – Aytmaslik

bekitmoq (berkitmoq) – Yopmoq

Bekor

bekor – Bekorga

bekor – Behuda



A

Abadiy
abadiyat – Abadiylik
Abadiylik
abadulabad – Abadiy
Abjir
Ablah
Ablahlik
abro‘ – Qosh
abushqa – Chol
ada – Ota
adabli – Odobli
adabsiz – Odobsiz
adabsizlik – Odobsizlik
adad – Son
adadsiz – Ko‘p
adadsiz – Sonsiz
adan – Ostona
adash – Yanglish
adashmoq – Yanglishmoq
adib (adiba) – Yozuvchi
adil – Tik
adir – Qir
adl – Adolat
ado – Noz
ado bo‘lmoq – Tugamoq
ado etmoq – Bajarmoq
Adolat
Adolatli
Adolatsizlik
adoqlamoq – Pasaymoq
ado qilmoq – Bitirmoq
ado qilmoq (yoki etmoq) – Tugatmoq I
ado qilmoq (yoki etmoq) – Tugatmoq II
Adovat I
Adovat II
adovat – Dushmanlik
aduliq – Adovat II
Advokat
afandi – Latifa
afandi – O‘qituvchi
Afsona
Afsonaviy
afsonavor – Afsonaviy
afsun – Sehr
afsungar – Sehrgar
afsunchi – Sehrgar
Afsus I
Afsus II
Afsuslanmoq
afsus qilmoq – Afsuslanmoq
aft – Yuz
aft-angor – Yuz
Aftidan
aftoda – Bechora
afv – Kechirim
afv etmoq – Kechirmoq
Afzal
Afzallik
afg‘on – Nola
Agar
ahamiyatli – Muhim
ahamiyatsiz – Baribir
Ahd
Ahdlashmoq
Ahd qilmoq
ahdnoma – Shartnoma
ahd-paymon – Ahd
ahd-paymon qilishmoq – Ahdlashmoq
Ahil
ahil – Inoq



ahillashmoq – Inoqlashmoq
ahliya – Xotin
ahmar – Qizil
Ahmoq
aholi – Xalq
Ahvol
ahvolot – Ahvol
ahvol – Vaziyat
ahyonda – Ba’zan
Ajab
ajablanarli – Ajab
Ajablanmoq
Ajin
ajinabuta – Na’matak
ajr – Jazo
ajr – Mukofot
Ajratmoq I
Ajratmoq II
ajratmoq – Ayirmoq
Aka
akillamoq – Hurmoq
Aks
aksar – Ko‘pchilik
aksar – Ko‘pincha
aksariyat – Ko‘pchilik
aksariyat – Ko‘pincha
aksa urmoq – Aksirmoq
aks holda – Aksincha
Aksincha
Aksirmoq
al – Qo‘l
alaf – O‘t II
Alahlamoq
alahsiramoq – Alahlamoq
alalxusus – Ayniqsa
alalabad – Abadiy
alam – O‘ch
alam – Azob
alam – Bayroq
alam – G‘am
alamdiyda – Jabrdiyda
alamli – Azobli
Alay-balay
Alanga
alanga – O‘t I
alanga olmoq – Yonmoq I
alangalanmoq – Yonmoq I
Albatta
aldam-qaldam (aldam-quldam) – Yolg‘on II
aldam-qaldamlik – Yolg‘onchilik
Aldamoq
aldamchi – Yolg‘onchi
aldamchi bo‘lmoq – Yolg‘onchi bo‘lmoq
aldamchilik – Yolg‘onchilik
aldoqchi – Yolg‘onchi
aldoqchi bo‘lmoq – Yolg‘onchi bo‘lmoq
aldoqchilik – Yolg‘onchilik
aldov – Yolg‘on II
alishmoq – Ayirboshlamoq
Aljimoq
aljiramoq – Aljimoq
Allakim
allanarsa – Allanima
allanecha – Allaqancha
allanechuk – Allaqanday
Allanima
Allaqanday
Allaqancha
almashmoq – Ayirboshlamoq
almashtirmoq – Ayirboshlamoq
alloh (olloh) – Xudo
alomat – Asar
alomat – Belgi
Aloqa
aloqa – Munosabat
Aloqador
alqov – Maqtov
alvon – Qizil

amal – Lavozim
amal – Chora
Amaldor
Amallamoq
amal olmoq – Ko‘karmoq
Amal qilmoq
amal-taqal qilmoq – Amallamoq
Ammo
amr – Buyruq
amr etmoq – Buyurmoq
amri mahol – Qiyin
anbiyo – Payg‘ambar
andak – Birpas
andak – Ozgina
andarmon – Mashg‘ul
andaza – Qolip
andisha – Uyat
andishali – Nomusli
andishasiz – Bezbet
andishasizlik – Bezbetlik
andisha qilmoq – Nomus qilmoq
andom – Qomat
anduh – G‘am
anekdot – Latifa
Aniq
aniq – Ma’lum
aniq – Albatta
aniqlashmoq – Ma’lum bo‘lmoq
aniq-tiniq – Aniq
anoyi – Anqov
ancha – Ko‘p
an’ana – Odat
Anqaymoq
Anqov
apoq-chapoq – Inoq
Apil-tapil
apir-shapir – Apil-tapil
Aqalli
Aql
aqllashmoq – Maslahatlashmoq
Aqlli
Aqlsiz
aqcha – Pul
Arang
Ardoqlamoq
ardoqlamoq – Avaylamoq
aristokrat – Asilzoda
ariston – Mahbus
arjumand – Aziz
Arqon
arroda – Palaxmon
Armiya
armon – Istak
armug‘on – Sovg‘a
aroq – Ichkilik
aroqxo‘r – Ichkilikboz
arxitektor – Me’mor
arvak – Kichik
arvoh – Ruh
arz – Shikoyat
arz-dod – Shikoyat
arg‘amchi – Arqon
Arg‘imchoq
arg‘umoq – Ot II
asabgarchilik – Xunoblik
Asabiy
asabiylik – Xunoblik
Asal
Asar
Asil
Asilzoda
Asir
Asirlik
aslaha – Qurol
aslo – Hech
asorat – Asar
asorat – Asirlik
Asosan
asosan – Muvofiq
asosan – Ko‘pincha

asosiy – Muhim
Asoslamoq
Asoslanmoq
asossiz – Bekorga
asossiz – Bekorchi
asotir – Afsona
asp – Ot I
Asqatmoq
asramoq – Avaylamoq
asta – Sekin
asta-sekin – Sekin
asti – Hech
Astoydil
astronavt – Fazogir
Atigi
atay – Ataylab
atayin – Ataylab
ataydan – Ataylab
Ataylab
atamoq – Hisoblamoq
ato etmoq – Bermoq
Atoqli
Atrof
Atroflicha
attang – Pushaymon
attang – Afsus I
attang – Afsus II
avaxta – Qamoq
Avaylamoq
Avliyo
avramoq – Aldamoq
avrash – Sehr
avroqchi (avrag‘ich(i) – Yolg‘onchi
Avval
Avvalgi
avvali – Avval
avvalam – Avvalo
avvalan – Avvalo
avvalambor – Avvalo
avvalboshi – Avvalo
Avvaldan
Avvalo
avramoq – Aldamoq
avzo – Kayfiyat
avzo – Ko‘rinish
axbor – Xabar
axborot – Xabar
axloq – Xulq
axloqli – Odobli
axloqsiz – Fohisha
axloqsiz – Odobsiz
axloqsizlik – Odobsizlik
axloqsizlik qilmoq – Odobsizlik qilmoq
axtarmoq – Izlamoq
aya – Ona
ayamoq – Avaylamoq
ayanch – Achinarli
ayanchli – Achinarli
Ayb
Aybdor
aybdor – Sababchi
aybli – Aybdor
Aybsiz
Ayil
Ayirboshlamoq
ayirbosh qilmoq – Ayirboshlamoq
ayirma – Farq
Ayirmoq
ayirmoq – Ajratmoq I
ayirmoq – Ajratmoq II
aylamoq – Qilmoq
aylana – Atrof
aylana – Gardish
Aylanay
aylanib-o‘rgilmoq – Parvona bo‘lmoq
Aylanmoq
aylansin – Aylanay
aymoq – Qarindosh
aynan – Xuddi
ayni – Xuddi

Aynimoq
Ayniqsa
Ayol
ayol – Xotin
ayon – Ma’lum
ayon bo‘lmoq – Ma’lum bo‘lmoq
ayoq – Qadah
ayri – Panshaxa
Ayov
Ayovsiz
Ayriliq
ayrim – Ba’zi
ayricha – Boshqacha
Aytganday
aytgancha – Aytganday
Aytishmoq
Aytmoq I
Aytmoq II
Aytmoq III
aytmoq – So‘zlamoq
aytmoqchi – Aytganday
Ayyor
Ayyorona
ayyuhannos – Shovqin
ayyuhannos solmoq – Shovqin solmoq
Ayg‘oqchi
Aysh
aysh – Rohat
aysh-ishrat – Aysh
azaldan – Avvaldan
azalgi – Qadimgi
azaliy – Qadimgi
azamat – Katta
azamat – Kuchli
azamat – Polvon
azamatlik – Kattalik
azza-bazza – Ataylab
azim – Katta
azimlik – Kattalik
Aziz
aziyat – Azob
azm – Ahd
azm qilmoq – Ahd qilmoq
azm – Ahd
Azob
azoblamoq – Qiynamoq
azob bermoq – Qiynamoq
Azobli
ag‘anamoq – Yiqilmoq
ag‘darilmoq – Yiqilmoq
ag‘darmoq – Tarjima qilmoq
ag‘raymoq – Anqaymoq
ag‘yor – Begona
ag‘yor – Dushman
ag‘yor bo‘lmoq – Dushman bo‘lmoq
ag‘yorlik – Adovat II
Ashaddiy
ashaddiy – Juda
Ashqol-dashqol
Ashula
ashula aytmoq – Kuylamoq I
Ashulachi
ashyo – Buyum
achimoq – Aynimoq
achimoq – Oshmoq
Achinarli
achomlamoq – Quchoqlamoq
achom qilmoq – Quchoqlamoq
Achchiq
achchiq – Jahl
achchiq – Nordon
Achchiqlanmoq
Achchiqlashmoq
anglamoq – Tushunmoq
angraymoq – Anqaymoq
angraymoq – Ajablanmoq
a’lo – Afzal
a’lo – Oliy
a’yon – Amaldor

B

baayni – Xuddi
badal – Evaz
badaliga – Evaziga
Badan I
Badan II
badastir – Bekam-ko‘st
badavlat – Boy
badbaxt – Baxtsiz
badbashara – Xunuk
badburush – Xunuk
badbo‘y – Sassiq
badkirdor – Ablah
badkirdorlik – Ablahlik
badkor – Ablah
badnafs – Ochko‘z
Badnom
badqovoq – Xunuk
badsurat – Xunuk
bahaybat – Katta
bahaybatlashmoq – Kattalashmoq
bahaybatlik – Kattalik
baho – Narx
bahodir – Botir
bahodir – Polvon
baholamoq – Narxlamoq
Bahona
bahona – Sabab
Bahor
bahorikor – Lalmi
Bahs
Bahslashmoq
bahuzur – Bemalol
Bajarmoq
Bajonidil
bajo qilmoq – Bajarmoq
Baland
Balandlamoq
Balandparvoz
baldoq – Zirak
Balli
balki – Aftidan
Balo
balo – Abjir
balokash – Baxtsiz
baloq – Pocha
baloxo‘r – Tekinxo‘r
Balog‘at
bamaylixotir – Bemalol
bamisoli – Kabi
band – Mashg‘ul
band – Sop
banda – Kamina
banda – Qul
bandayi ojiz – Kamina
bandi – Asir
banna – Sep
banogoh – To‘satdan
baqamti – Yuzma-yuz
baqamti kelmoq (bo‘lmoq) – Yuzma-yuz bo‘lmoq
Baqirmoq
Baqiroq
baqir-chaqir – Shovqin
baqraymoq – Qaramoq
baqo – Abadiylik
baquvvat – Kuchli
barakali – Unumli
barakali bo‘lmoq – Unumli bo‘lmoq
barakalla – Balli
baravar (barobar) – Teng I

baravar (barobar) – Teng II
baravar bo‘lmoq (barobar bo‘lmoq) – Teng bo‘lmoq
baravariga – Teng II
baravariga – Yoppasiga
Barg
bardam – Tetik
bardam bo‘lmoq – Tetiklashmoq
bardamlashmoq – Tetiklashmoq
bardosh – Chidam
bardoshli – Chidamli
bardosh qilmoq – Chidamoq
bafurja – Bemalol
barhayot – Tirik
bari – Hamma
Baribir
barkamol – Yetuk
barkamol bo‘lmoq – Yetuklashmoq
barno – Kelishgan
baroq – Qalin
barpo qilmoq (etmoq) – Tuzmoq I
barpo qilmoq (etmoq) – Yaratmoq
barvaqt – Erta
barvasta – Gavdali
barzangi – Gavdali
barcha – Hamma
Bas
basir – Ko‘r
baslashmoq – Musobaqalashmoq
bast – Qomat
Bastakor
batafsil – Atroflicha
batamom – Butunlay
batartib – Saranjom
batrak – Qul
bas bog‘lashmoq (bas boylashmoq) – Garov o‘ynamoq
baxil bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
Baxt
baxtiyor – Baxtli
Baxtli
Baxtsiz
baxsh etmoq – Bermoq
baxshi – Folbin
baydoq – Bayroq
bayon qilmoq (etmoq) – Aytmoq I
Bayroq
baytalmon – Sabil
bayzo – Oq
bayzo – Quyosh
bazm – Ziyofat
bazo‘r – Arang
bag‘riga bosmoq – Quchoqlamoq
bag‘ir – Ko‘krak II
bag‘ir – Quchoq
bag‘ishlamoq – Bermoq
bag‘oyat – Juda
bashar – Odam
bashara – Yuz
bashariyat – Kishilik
basharti – Agar
bashang – Olifta
bacha (bachcha) – Bola
bangi – Giyohvand
bangi – Kashanda
bangilik – Giyohvandlik
ba’daz – Keyin
Ba’zan
ba’zida – Ba’zan
ba’zi-ba’zida – Ba’zan
Ba’zi
ba’zi bir – Ba’zi
beadad – Ko‘p
beadad – Sanoqsiz
beaql – Aqlsiz
beayov – Ayovsiz
bebaxt – Baxtsiz
bebosh – O‘zboshimcha
beboshlik – O‘zboshimchalik
beburd – Betayin

Bedarak
bedard – Betashvish
bedavo – Xunuk
bedil – Oshiq
bedillik – Oshiqlik
bedodlik – Adolatsizlik
bedom-darak – Bedarak
bedor – Uyg‘oq
bedor bo‘lmoq – Uyqusiz bo‘lmoq
bedorlik – Uyqusizlik
bee’tibor – Beparvo
befarosat – Befahm
befarq – Baribir
befarzand – Bolasiz
befarzandlik – Bolasizlik
Befahm
befayz – Fayzsiz
befoyda – Behuda
befoyda – Foydasiz
befoyda – Unumsiz
Begona
Begonasiramoq
begumon – Albatta
begunoh – Aybsiz
behayo – Bezbet
behasham – Oddiy
behbudlik – Xursandlik
behisob – Ko‘p
behisht – Jannat
behuda – Bekorchi
behuda – Unumsiz
behush – Hushsiz
behushlanmoq – Hushsizlanmoq
behushlik – Hushsizlik
bejiz – Bekorga
Bejirim
beijozat – Ruxsatsiz
bejirim – Kelishgan
beizn – Ruxsatsiz
Beixtiyor
beish – Bekor
Bekam-ko‘st
bekas – Kimsasiz
bekik – Berk
bekimsa – Kimsasiz
Bekinmoq
bekitiqcha – Yashirincha
bekitmoq – Yashirmoq
bekitmoq – Tugatmoq IV
bekitmoq – To‘smoq I
bekitmoq (berkitmoq) – To‘smoq II
bekitmoq – Tugatmoq III
bekitmoq – Yopmoq
Bekor
bekor – Bekorga
bekor – Behuda
bekor bo‘lmoq – Bo‘shamoq
bekordan bekorga – Bekorga
bekorga – Behuda
Bekorga
Bekorchi
bekorchi – Daydi
bekorchilik – Daydilik
bekorchi – Behuda
bekorchi – Bekor
Belbog‘
Belgi
belgi – Asar
belgilamoq – Rejalashtirmoq
belgisiz – Noaniq
bellashmoq – Musobaqalashmoq
bellashuv – Musobaqa
belqars – Belbog‘
bemavrid – Bemahal II
Bemalol
Bemaza
bema’ni – Bekorchi
Bemahal I
Bemahal II
bemisl – Beqiyos

bemor – Kasal
bemorlik – Kasallik I
bemorlik – Kasallik II
benaf – Behuda
benazir – Beqiyos
benihoya – Juda
benomus – Vijdonsiz
benomus – Bezbet
benuqson – Bekam-ko‘st
beodob – Odobsiz
beodoblik – Odobsizlik
beodoblik qilmoq – Odobsizlik qilmoq
beomon – Ayovsiz
beor – Bezbet
beorom – Bezovta
beozor – Yuvosh
beozorlik – Yuvoshlik
Beparvo
Bepoyon
bepusht – Bolasiz
bepushtlik – Bolasizlik
beqaror – O‘zgaruvchan
Beqiyos
bequvvat – Kuchsiz
berahm – Ayovsiz
Berk
Bermoq
beruxsat – Ruxsatsiz
besado – Ovozsiz
besamar – Unumsiz
besamar bo‘lmoq – Unumsiz bo‘lmoq
besanoq – Ko‘p
besaranjom – Bezovta
besas – Ovozsiz
besubut – Betayin
besuyak – Suyaksiz
beso‘naqay – Xunuk
beso‘roq – Ruxsatsiz
bet – Yuz
bet – Yuza
Bet
Betavfiq
betashvish – Tinch II
Betayin
betamiz – Befahm
Betashvish
betinim – To‘xtovsiz
betinch – Bezovta
betinch bo‘lmoq – Bezovtalanmoq
betinchlanmoq – Bezovtalanmoq
betma-bet – Sahifama-sahifa
betma-bet – Yuzma-yuz
betma-bet bo‘lmoq – Yuzma-yuz bo‘lmoq
betob – Kasal
betob bo‘lmoq – Kasal bo‘lmoq
betoblanmoq – Kasal bo‘lmoq
betoblik – Kasallik I
betoblik – Kasallik II
betoqat – Bezovta
betoqatlik – Bezovtalik
betoqat bo‘lmoq – Bezovtalanmoq
betoqatlanmoq – Bezovtalanmoq
beto‘xtov – Surunkasiga
beun – Ovozsiz
Beva
bevafo – Vafosiz
bevaqt – Bemahal I
bevaqt – Bemahal II
bevosita – To‘g‘ridan to‘g‘ri
bexato – To‘g‘ri
bexavotir – Tinch II
bexirad – Aqlsiz
bexosdan – Beixtiyor
bexosdan – To‘satdan
Bezak
bezaksiz – Oddiy
bezanmoq – Yasanmoq
bezarar – Zararsiz
Beza (t) moq

Bezbet
Bezbetlik
beziyon – Zararsiz
Bezovta
Bezovtalanmoq
bezovta bo‘lmoq – Bezovtalanmoq
Bezovtalik
beshak – Albatta
beshafqat – Ayovsiz
beshikast – Falokatsiz
beshlik – Panshaxa
Bechora
bechora – Kambag‘al
bechorahol – Kambag‘al
bechorachilik – Kambag‘allik
beo‘xshov – Xunuk
beg‘am – Betashvish
beg‘am – Beparvo
beg‘ubor – Toza III
bilarmon – Bilimdon
bilag‘on – Bilimdon
bildirmoq – Aytmoq I
Bilimdon
bilinmoq – Ma’lum bo‘lmoq
bilmasdan – Beixtiyor
bilmoq – Hisoblamoq
bilmoq – Tushunmoq
bil’aks – Aksincha
binoan – Asosan
bino bo‘lmoq – Tug‘ilmoq
bino qilmoq (etmoq) – Yaratmoq
binoyi (bip-binoyi) – Yaxshi
biqinmoq – Bekinmoq
bir – Yolg‘iz
birakay – Yoppasiga
birakayiga – Yoppasiga
biram – Juda
birato‘la – Butunlay
birato‘la(si) – Yoppasiga
birdan – To‘satdan
Birdan bir
birdaniga – To‘satdan
birdaniga – Yoppasiga
birday – Doim
birda-yarim – Ba’zan
birgina – Faqat
birin-ketin – Ketma-ket
birin-sirin – Ketma-ket
birinchidan – Avval
bir lahza – Birpas
bir lahzada – Darrov
birlashmoq – Qo‘shilmoq
bir narsa – Allanima
bir necha – Allaqancha
bir nima – Allanima
birodar – O‘rtoq
birodarlik – O‘rtoqlik
bir onda – Darrov
biroq – Ammo
birov – Allakim
biroz – Ozgina
biroz – Birpas
Birpas
birpasda – Darrov
bir qator – Allaqancha
bir qancha – Allaqancha
bir talay – Allaqancha
birvarakayiga (birvarakasiga) – Yoppasiga
bir xil – Ba’zi
bir xil – Allaqanday
biryo‘la – Yoppasiga
bir zumda – Darrov
bisot – Sep
bisyor – Juda
bisyor – Ko‘p
bitim – Shartnoma
Bitirmoq
bitirmoq – Tugatmoq I
bitirmoq – Tugatmoq II

bitirmoq – Tugatmoq III
bitirmoq – Bajarmoq
bitishmoq – Ahdlashmoq
bitishmoq – Kelishmoq
bitishmoq – Qo‘shilmoq
bitmoq – Yozmoq
bitmoq – Tugamoq
bitta – Yolg‘iz
biyobon – Cho‘l
bizoat – Boylik
bichim – Qomat
boadab – Odobli
bobov – It
boboy – Chol
bod – Shamol
bodparak – Varrak
bois – Sabab
boj – Soliq
bol – Asal
Bola
Bolasiz
Bolasizlik
bop – Loyiq
Boplamoq
boqi-beg‘am – Beparvo
boqiy – Abadiy
boqiylik – Abadiylik
boqish – Qarash
boqishmoq – Yordamlashmoq
boqmoq – Qaramoq
Boqmoq
Bor
bor(a) – Marta
bordi-yu – Agar
bori – Atigi
borliq – Badan I
borut – Porox
bor-yo‘g‘i – Hamma
bor-yo‘g‘i – Atigi
Bosilmoq
bosim – To‘xtovsiz
bosinqiramoq – Alahsiramoq
bosiq – Og‘ir II
bosiqlik – Og‘irlik
bosmoq – Qoplamoq
bosmoq – Ortmoq
bosmoq – Nashr qilmoq (etmoq)
bot – Yana
botartib – Saranjom
botil – Qalbaki
Botinmoq
Botir
botirlik – Mardlik I
bovul – Siydik
bovul qilmoq – Siymoq
bovur – Qarindosh
bovurlashmoq – Quchoqlamoq
boxabar – Xabardor
boxabar bo‘lmoq – Xabardor bo‘lmoq
boxabar qilmoq – Xabar qilmoq
boxtar – Sharq
boyoqish – Bechora
Boy
boy – Er
Boylik
boyqush – Boyo‘g‘li
Boyo‘g‘li
boz – Yana
bog‘gul – Na’matak
bog‘liq – Aloqador
Bosh
bosh – Aql
boshboshdoq – O‘zboshimcha
boshboshdoqlik – O‘zboshimchalik
boshda – Avvalo
boshdan – Avvaldan
boshi – Avvalo
Boshlamoq
Boshliq
boshmoq – Poyabzal

boshog‘riq – Daxmaza
boshog‘riq bo‘lmoq – Daxmaza bo‘lmoq
Boshqa I
Boshqa II
Boshqarmoq
boshqarmoq – Haydamoq II
Boshqatdan
Boshqacha
boshchi – Boshliq
bugungi – Hozirgi
Buloq
bunyod bo‘lmoq – Tug‘ilmoq
bunyod qilmoq (etmoq) – Yaratmoq
buncha(lar) – Namuncha
bunchalik – Namuncha
burd – Subut
burda – Parcha
burdalamoq – Maydalamoq
burda-burda qilmoq – Maydalamoq
burdsiz – Betayin
burduq – Mesh
burro – O‘tkir
Burun
burun – Avval
burundan– Avvaldan
burungi – Avvalgi
burushiq – Ajin
burch – Vazifa
but – Bekam-ko‘st
but – Chot
butkul – Hamma
butkul – Butunlay
butun – Hamma
Butunlay
butunlay – Hech
buvi – Ona
buyuk – Katta
buyuklik – Kattalik
Buyum
Buyurmoq I
Buyurmoq II
buzdil – Qo‘rqoq
buzdillik – Qo‘rqoqlik
buzilmoq – Aynimoq
buzuq – Fohisha
buzuqlik – Fahsh
buzuqlik – Yomonlik
buzuqlik qilmoq – Yomonlik qilmoq
byurokrat – Rasmiyatchi
byurokratizm – Rasmiyatchilik
byurokratlik – Rasmiyatchilik
bo‘hton – Tuhmat
bo‘hton qilmoq – Tuhmat qilmoq
bo‘htonchi – Tuhmatchi
bo‘ka – So‘na
bo‘kirmoq – Baqirmoq
bo‘ladi – Bo‘pti
bo‘lak – Boshqa I
bo‘lak – Boshqa II
bo‘lak – Parcha
bo‘laklamoq – Maydalamoq
bo‘lakcha – Boshqacha
bo‘lar-bo‘lmas – Alay-balay
bo‘lgani – Bas
bo‘lgani – Atigi
bo‘ldi – Bas
bo‘lma – Xona
bo‘lmag‘ur – Bekorchi
bo‘lmoq – Taqsimlanmoq
bo‘lmoq – Kifoya qilmoq
Bo‘lmoq
bo‘nak – Qarz
bo‘nakchi – Qarzdor
Bo‘pti
bo‘ron – Shamol
bo‘sa – O‘pich
bo‘sag‘a – Ostona
bo‘ston – Gulzor
bo‘y – Qirg‘oq

bo‘y – Hid I
bo‘y-bast – Qomat
Bo‘yin
bo‘yinsa – Tengdosh
bo‘yicha – Tomon IV
bo‘ylab – Tomon IV
Bo‘ysunmoq
bo‘z – Oq
bo‘zarmoq – Oqarmoq I
bo‘zrang – Oq
bo‘g‘ilmoq – Xunob bo‘lmoq
bo‘g‘oz – Homilador
bo‘sh – Yumshoq
bo‘sh – Bekor
bo‘sh – Sayoz
Bo‘shamoq
bo‘shamoq – Qutulmoq
bo‘sh bo‘lmoq – Yumshamoq
bo‘shanqiramoq – Bo‘shashmoq
Bo‘shatmoq
bo‘shatmoq – Yechmoq I
bo‘shatmoq – Yechmoq II
bo‘shashgan – Lapashang
Bo‘shashmoq
bo‘shashmoq – Lanjlanmoq
bo‘shashmoq – Yumshamoq
bo‘shang – Lapashang
bo‘sh-bayov – Lapashang

D

dabdabali – Balandparvoz
dabdabali – Dang‘illama
dabdurustdan – To‘satdan
dada – Ota
daf – Doira
daf bo‘l – Ket
daf’a – Marta
daf’atan – To‘satdan
dahshat – Qo‘rquv
dahshatga tushmoq (kelmoq) – Qo‘rqmoq
dahshatli – Qo‘rqinchli
dakki – Tanbeh
dalillamoq – Asoslamoq
dalli-devona bo‘lmoq (dali-devona bo‘lmoq) – Tentak bo‘lmoq
dam – Vaqt
dam – Nafas
damduz – Kamgap
Dang‘illama
darak – Xabar
darak bermoq (qilmoq) – Xabar qilmoq
daraklamoq – So‘ramoq
daraksiz – Bedarak
darak topmoq – Xabardor bo‘lmoq
darbadar – Daydi
darbadarlik – Daydilik
Darbadar bo‘lmoq
darbadarlik qilmoq – Daydimoq
darbadarlik qilmoq – Darbadar bo‘lmoq
dard – Azob
dard – G‘am
darddosh – Hamdard
Dardlashmoq
dardisar – Daxmaza
dardisar bo‘lmoq – Daxmaza bo‘lmoq
dardkash – Hamdard
dardli – Azobli
dardmand – Kasalmand
dardchil – Kasalmand
dargumon bo‘lmoq – Gumon qilmoq
darhaqiqat – Rostdan
darhol – Darrov
darkor – Kerak
darmon – Kuch
darmonsiz – Kuchsiz
darmonsizlanmoq – Bo‘shashmoq
darmonsizlanmoq – Kuchsizlanmoq I
darmonsizlik – Kuchsizlik
daromad – Foyda II
daroz – Novcha
Darrov
dars – Go‘ng
darvoqe – Aytganday
Darvoza
dasisa – Hiyla
dast – Qo‘l
dasta – Sop
dastro‘mol(cha) – Ro‘molcha
dastor – Salla
davara – Do‘q
davara qilmoq – Do‘q qilmoq
davlat – Boylik
davlatli – Boy
davlatmand – Boy
Davolamoq
davomli – Uzoq II
daxl – Aloqa
daxldor – Aloqador

Daxmaza
Daxmaza bo‘lmoq
Daydi
Daydilik
daydilanmoq – Darbadar bo‘lmoq
Daydimoq
dayov – Eshkak
dag‘al – Qo‘rs
dag‘dag‘a – Do‘q
dag‘dag‘a qilmoq – Do‘q qilmoq
dashnom – Tanbeh
dasht – Cho‘l
Dangasa
Dangasalik
Dangasalik qilmoq
Dangasa bo‘lmoq
debocha – Kirish
dedi-dedi – G‘iybat
degandek – Kabi
demoq – So‘zlamoq
depara – Atrof
devalamoq – Yig‘moq
devona – Tilanchi
devona bo‘lmoq – Tentak bo‘lmoq
devpechak – Chirmovuq
Deyarli
did – Fahm
didli – Farosatli
didlilik – Farosatlilik
dil – Ko‘ngil
dildiramoq – Titramoq
dildor – Sevgili
dimog‘dor – Manman
dimog‘dorlik – Manmanlik
diqqat – Xunob
diqqatbozlik – Xunoblik
diqqat bo‘lmoq – Xunob bo‘lmoq
diqqatlanmoq – Xunob bo‘lmoq
diqqatlik – Xunoblik
diqqati oshmoq – Xunob bo‘lmoq
diqqatpazlik – Xunoblik
diqqatchilik – Xunoblik
dirdiramoq – Titramoq
dirdov – Oriq
diydiramoq – Titramoq
diydor – Visol
diydor – Yuz
diyonat – Vijdon
diyonatli – Vijdonli
diyonatsiz – Vijdonsiz
diyor – Vatan
dod – Voy
dod – Shikoyat
dod-faryod qilmoq – Dodlamoq
dod-faryod solmoq – Dodlamoq
Dodlamoq
dod qilmoq – Dodlamoq
dod solmoq – Dodlamoq
dod-voy qilmoq – Dodlamoq
Doim
doimo – Doim
doir – Aloqador
Doira
dom – Tuzoq
dorimoq – Kelmoq
dorimoq – Ketmoq
dov – Ganak
dovdir – Anqov
dom-daraksiz – Bedarak
domla – O‘qituvchi
domlalik – O‘qituvchilik
dovdiramoq – Gangimoq
Dovruq
dovul – Shamol
dovyurak – Botir
dovyuraklik – Mardlik I
dog‘– G‘am
dog‘uli – Ayyor
dong (dong‘) – Dovruq
dongdor – Atoqli

dud – Tutun
dudmol – Noaniq
dudoq – Lab
dugona – O‘rtoq
dugonalik – O‘rtoqlik
dujon – Homilador
Dum
Dumba
Dunyo
dunyo – Boylik
dunyoparast – Molparast
duoyibad – Qarg‘ish
duoyibad qilmoq – Qarg‘amoq
Duragay
durda-durda – Uzuq
durroj – Qirg‘ovul
durust – Bo‘pti
durust – Yaxshi
dustuman – Yuztuban
duvalang – Shamol
duvarak – Mayda
dushvor – Qiyin
Dushman
Dushman bo‘lmoq
Dushmanlashmoq
dushmanlik – Adovat II
Dushmanlik qilmoq
duch kelmoq – Uchramoq I
duchor bo‘lmoq – Chalinmoq
do‘laymoq – Qaramoq
do‘mboq – Semiz
do‘ndirmoq – Bajarmoq
do‘ndirmoq – Boplamoq
do‘nmoq – Qo‘nmoq
do‘pposlamoq – Urmoq
Do‘q
do‘q-davara – Do‘q
do‘q-davara qilmoq– Do‘q qilmoq
do‘q-po‘pisa – Do‘q
do‘qlamoq – Do‘q qilmoq
Do‘q qilmoq
do‘q-po‘pisa qilmoq – Do‘q qilmoq
do‘qol – Xasis
do‘qol bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
do‘qollik – Xasislik
do‘qollik qilmoq – Xasislik qilmoq
do‘rji – To‘p I
do‘st – O‘rtoq
do‘stlik – O‘rtoqlik
Do‘zax
do‘nglik – Qir

E

Ega
egallamoq – Qoplamoq
egam – Xudo
egasiz – Sabil
egachi – Opa
egin – Kiyim
egri – Qiyshiq
egri bo‘lmoq – Qiyshaymoq
egrilashmoq – Qiyshaymoq
ehson – Sadaqa
ehtirom – Hurmat
ehtiyoj – Muhtojlik
ehtiyojmand – Muhtoj
ehtiyot qilmoq – Avaylamoq
Ekmoq
el – Xalq
el – Vatan
Elak
eldosh – Yurtdosh
emchak – Ko‘krak I
ena – Ona
endigi – Navbatdagi
enmoq – Pasaymoq
entikmoq – Hansiramoq
ep – Chora
epashang – Lapashang
Eplamoq
epchil – Abjir
Er
er – Botir
er – Mard
erinchak – Erinchoq
Erinchoq
Erishmoq
erkin – Ozod
erkinlik – Ozodlik
erlik – Mardlik I
ermak – Masxara
ermak – Ovunchoq
ermaklamoq – Masxaralamoq
ersiramoq – Kuyikmoq
Erta
es – Aql
esankiramoq – Gangimoq
Esdalik
esga olmoq – Eslamoq
Eslamoq
esli – Aqlli
esiz – Afsus II
eski – Qadimgi
esvos bo‘lmoq – Tentak bo‘lmoq
et – Badan II
et – Go‘sht
etikdo‘z – Kosib
etikdo‘zlik – Kosiblik
etikchi – Kosib
etikchilik – Kosiblik
etli – Semiz
etmoq – Qilmoq
Evaziga
Evaz
Ezma
Ezmalanmoq
Ezmalik
ezmalik qilmoq – Ezmalanmoq
ezmachuruk – Ezma
ezmachuruklik – Ezmalik
ezmachuruklik qilmoq – Ezmalanmoq
esh – O‘rtoq
esh – Hamroh I

Eshik
Eshitmoq
Eshkak
eshlik – Hamrohlik I
eshlik – O‘rtoqlik
eshmoq – Boplamoq
eshmoq – To‘qimoq
engil – Kiyim
engil-bosh – Kiyim
e’tibor – Obro‘
e’tiborli – Obro‘li
e’tiborsiz – Beparvo
e’zozlamoq – Ardoqlamoq
e’zoz etmoq – Ardoqlamoq

F

Fahm
fahmlamoq – Tushunmoq
fahmsiz – Befahm
Fahsh
fahsh – Zino
fahshbozlik – Fahsh
fahshiyat – Fahsh
fahshxona – Fohishaxona
falaj – Shol
falak – Osmon
falokat – Balo
Falokatsiz
fantastik – Afsonaviy
Faoliyatsizlik
Faollik
Faqat
faqat(gina) – Atigi
faqir – Kambag‘al
faqir – Kamina
faqirlashmoq – Kambag‘allashmoq
Faqirona
faqirlarcha – Faqirona
faqirlik – Kambag‘allik
faraz – Chama
faraziy – Taxminiy
faraz qilmoq (etmoq) – Chamalamoq
farang – Usta
Farishta
farishtali – Fayzli
farishtasiz – Fayzsiz
farmon – Buyruq
farosat – Fahm
Farosatli
Farosatlilik
farosatsiz – Befahm
farog‘at – Rohat
Farq
farqlamoq – Ajratmoq II
Farqli
farq qilmoq – Ajratmoq II
farqsiz – Baribir
fason (poson) – Olifta
fatila – Jingalak
faryod – Nola
farzand – Bola
farzandsiz – Bolasiz
farzandsizlik – Bolasizlik
favqulodda – To‘satdan
Favvora
Faxrlanmoq
Fayzli
Fayzsiz
fazo – Osmon
Fazogir
Fazogirlik
fazokor – Fazogir
fe’l – Xulq
fe’l-atvor – Xulq
fikrlamoq – O‘ylamoq
firdavs – Jannat
firib – Hiyla
Firibgar
firoq – Ayriliq
fisq-fasod – G‘iybat
fisq-fasod qilmoq – G‘iybat qilmoq
fisq-fujur – G‘iybat
fig‘on – Nola
Fohisha
Fohishaxona
fokuschi – Masxaraboz I

Fol
Folbin
Folbinlik
folchilik – Folbinlik
folchi – Folbin
fontan – Favvora
forig‘ bo‘lmoq – Qutulmoq
fotograf – Suratchi
Foyda I
Foyda II
foyda bermoq – Asqatmoq
Foydalanmoq
foydali bo‘lmoq – Unumli bo‘lmoq
Foydasiz
foydasiz – Behuda
foydasiz bo‘lmoq – Unumsiz bo‘lmoq
furqat – Ayriliq
fursat – Vaqt
futur – Zarar

G

gado – Kambag‘al
gadolik – Kambag‘allik
gadoy – Tilanchi
Gajak
gajakdor – Gajak
Gajakli
gajim – Popuk
gal – Navbat
gal – Marta
galdagi – Navbatdagi
Ganak
Gandiraklamoq
gandiraklamoq – Tebranmoq
Ganchikor
Ganchikorlik
gap – Voqea
Gap
gapdon – Suxandon
gapirmoq – So‘zlamoq
gaplashmoq – Suhbatlashmoq
garang – Kar
garangsimoq – Gangimoq
gard – Chang
gardan – Bo‘yin
Gardish
gardun – Osmon
garmdori – Qalampir
Garmsel
garov bog‘lamoq (garov boylamoq) – Garov o‘ynamoq
garovlashmoq – Garov o‘ynamoq
Garov o‘ynamoq
gartak – Ozgina
Gavda
Gavdali
gavhar – Javohir
gaza – Qir
Gazaklamoq
gazak olmoq – Gazaklamoq
gazlama – Mato
gazmol – Mato
gazplita – Gazo‘choq
Gazo‘choq
gasht – Rohat
gashtak – Ziyofat
Gangimoq
gangramoq – Gangimoq
gerdaymoq – Kerilmoq
gezarmoq – Oqarmoq I
gibrid – Duragay
gidir – Adovat
gigant – Katta
gigantlik – Kattalik
Gijgijlamoq
gilambof – Gilamdo‘z
Gilamdo‘z
Gilamdo‘zlik
gilamchilik – Gilamdo‘zlik
gilkor – Ganchkor
gilkorlik – Ganchkorlik
gilmoya – Gilvata
Gilvata
Gina
gina-kudurat – Gina
Gina qilmoq
gipoteza – Chama
gird – Gardish
gird – Atrof
gird-atrof – Atrof
girdibod – Quyun

girdikapalak – Parvona
girdikapalak bo‘lmoq – Parvona bo‘lmoq
girdig‘um – Pakana
Girdob
giriftor bo‘lmoq – Chalinmoq
girgitton – Aylanay
girvat – Quyun
Giyohvand
Giyohvandlik
grim – Pardoz
Gul
gulbog‘– Gulzor
Guldon
guldurak – Momaqaldiroq
gulgun – Qizil
guliston – Gulzor
Gulzor
gulshan – Gulzor
gum – Girdob
Gumbaz
Gumon
gumonlanmoq – Gumon qilmoq
Gumonli
gumonsiramoq – Gumon qilmoq
gumonchil – Gumonli
Gumon qilmoq
gurdoli – Olxo‘ri
Guvoh
Guvohlik
goh(o) – Ba’zan
gohi(da) – Ba’zan
goj – O‘jar
gojlik – O‘jarlik
gulbuta – Na’matak
guluta – Gilvata
gumon – Shubha
gunoh – Ayb
gunohkor – Aybdor
gunohsiz – Aybsiz
gurunglashmoq – Suhbatlashmoq
gurung qilmoq (qurmoq) – Suhbatlashmoq
gung – Soqov
gungalak – Soqov
gungursday – Gavdaligo‘l – Anqov
go‘laymoq – Qaramoq
go‘r – Qabr
go‘riston – Qabriston
go‘rso‘xta – Kasofat I
go‘zal – Chiroyli
go‘zallashmoq – Chiroylilashmoq
go‘shanishin – Zohid
go‘shanishinlik – Zohidlik
Go‘sht
Go‘shtdor
Go‘shtli
Go‘ng

H

ha – Labbay
habib – O‘rtoq
habiblik – O‘rtoqlik
hadeb – Doim
hadik – Qo‘rquv
hadikli – Qo‘rqinchli
had qilmoq – Botinmoq
hadya – Sadaqa
hadya – Sovg‘a
hafsala – Istak
hafsala – Qunt
hajr – Ayriliq
halak – Bezovta
halinchak – Arg‘imchoq
halloslamoq – Hansiramoq
halok bo‘lmoq – O‘lmoq
halovat – Rohat
hamdam – O‘rtoq
hamdamlik – O‘rtoqlik
Hamdard
hamdam – Hamroh II
hamdamlik – Hamrohlik II
hamgap – Suhbatdosh
hamisha – Doim
Hamma
hammahalla – Hamqishloq
hamma vaqt – Doim
Hammol
Hammom
hamnafas – Hamroh II
hamnafaslik – Hamrohlik II
hamnishin – Suhbatdosh
Hamon
ham qilmoq – Yemoq
Hamroh I
Hamroh II
Hamrohlik I
Hamrohlik II
hamsafar – Hamroh I
hamsafarlik – Hamrohlik I
hamsoya – Qo‘shni
hamsuhbat – Suhbatdosh
hamtovoq – Hamroh II
hamtovoqlik – Hamrohlik II
Hamqishloq
hamqur – Tengdosh
hamqur bo‘lmoq – Tendosh bo‘lmoq
hamyon – Cho‘ntak
hamyurt – Yurtdosh
Hansiramoq
hanuz – Hamon
hapinmoq – Hovliqmoq
hapqat – Katta
hapriqmoq – Hovliqmoq
harakat qilmoq – Urinmoq
harakatsizlik – Faoliyatsizlik
harakatchan – Ishchan
harb – Urush
harb(a) qilmoq – Urush qilmoq
har doim – Doim
hargiz – Hech
Har holda
haris – Ochko‘z
haris – Xasis
haris bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
harislik – Xasislik
harislik qilmoq – Xasislik qilmoq
har mahal – Doim
Harom
Haromi

haromnamak – Ko‘rnamak
haromtomoq – Tekinxo‘r
haromxo‘r – Tekinxo‘r
Harorat
har qalay – Har holda
Har qancha
harsillamoq – Hansiramoq
har taraf – Atrof
har taraflama – Atroflicha
har tomon – Atrof
har tomonlama – Atroflicha
har vaqt – Doim
har yon – Atrof
har zamon(da) – Ba’zan
harchand – Har qancha
haq – Rost I
haqgo‘y – Rostgo‘y
haqiqat – Rost I
haqiqatan – Rostdan
haqiqatgo‘y – Rostgo‘y
haqir – Kamina
haqqoniy – Rost I
haqsizlik – Adolatsizlik
hasrat – Nolish
hasrat – G‘am
hasratlanmoq – Nolimoq
hasratlashmoq – Dardlashmoq
hasratlashmoq – Suhbatlashmoq
hasratli – Xafa
hasrat qilmoq – Nolimoq
hasrat qilmoq – Dardlashmoq
hatlam – Qadam
hatlamoq – Sakramoq
havas – Istak
havaslanmoq – Qiziqmoq
havas qilmoq – Qiziqmoq
Havo
havo – Kun
havolanmoq – Mag‘rurlanmoq
havorang – Ko‘k II
hayallab ketmoq – Kechikmoq
hayallamoq – Kechikmoq
hayallab qolmoq – Kechikmoq
haybatli – Katta
haybatlilik – Kattalik
Haydamoq I
Haydamoq II
hayinchak – Arg‘imchoq
hayinchalak – Arg‘imchoq
hayiqmoq – Qo‘rqmoq
haymiqmoq – Qo‘rqmoq
hayo – Uyat
hayoli – Nomusli
hayon – Foyda I
hayot – Turmush
hayot – Tirik
hayot – Umr
hayot kechirmoq – Yashamoq
hayrat – Hayronlik
hayratangiz – Hayratli
hayratbaxsh – Hayratli
hayratda qolmoq – Ajablanmoq
hayratga tushmoq – Ajablanmoq
hayratlanarli – Hayratli
hayratlanmoq – Ajablanmoq
Hayratli
hayratomuz – Hayratli
Hayron
hayrona – Hayron
hayronalik – Hayronlik
hayron bo‘lmoq – Ajablanmoq
Hayronlik
hayron qolmoq – Ajablanmoq
hayron-u lol – Hayron
haytovur – Harholda
haz – Zavq
hazar qilmoq – Jirkanmoq
haz etmoq – Zavqlanmoq
Hazilkash
Hazillashmoq

hazil qilmoq – Hazillashmoq
hazilvon – Hazilkash
hazin – Xafa
hazin – G‘amgin
haziniyat – Xafalik
hazinlik – Xafalik
hasham – Bezak
hashamatli – Dang‘illama
hang-mang – Hayron
hang-mang bo‘lmoq – Ajablanmoq
hang-mang qolmoq – Ajablanmoq
hangomalashmoq (hangamalashmoq) – Suhbatlashmoq

Hech

hech bo‘lmasa – Aqalli
hibs – Qamoq
hibsga olmoq – Qamamoq
hibs qilmoq (etmoq) – Qamamoq
hibsxona – Qamoq

Hid I

Hid II

Hidlamoq

hidlanmoq – Sasimoq
hijron – Ayriliq
hilol – Oy
hilpillamoq – Hilpiramoq

Hilpiramoq

hilp-hilp qilmoq (etmoq) – Hilpiramoq
himmatli – Mard
himmatli – Saxiy
himmatlilik – Mardlik II
himoya qilmoq – Qo‘riqlamoq
himoyachi – Advokat
hiringlamoq – Kulmoq
his – Sezgi
hisob – Son
hisob(i) – Deyarli
hisobiga – Evaziga

Hisoblamoq

hisobli – Sanoqli
hisobsiz – Ko‘p

Hissa

hissa – Marta

Hiyla

hiylagar – Ayyor
hodisa – Voqea
hofiz – Ashulachi
hojat – Muhtojlik
hojatmand – Muhtoj
hol – Ahvol
hol – Qurb
hol – Voqea
holat – Ahvol
holat – Vaziyat
holat – Voqea

Holbuki

holda – Tarzda
holsizlanmoq – Bo‘shashmoq
holsizlik – Kuchsizlik
holva – Qiz

Homilador

hoppoy – Qadam
hordiq – Charchoq
hor(i)moq – Charchamoq
horimtol – Dangasa

Horg‘in

horg‘inlik – Charchoq
hosil qilmoq – Tuzmoq II

Hosildor

hotam – Saxiy
hotamlik – Mardlik II
hotamtoy – Saxiy
hovli – Uy
hovlili – Uyli
hovlili bo‘lmoq – Uyli bo‘lmoq

Hovliqmoq

hovoncha – Keli
hovur – Harorat
hozir – Tayyor I

hozir – Tayyor II
hozir bo‘lmoq – Tayyor bo‘lmoq
Hozirgi
hozirlamoq – Tayyorlamoq
hozirlanmoq – Tayyorlanmoq
hozirlik – Tayyorgarlik
hudhud – Popishak
hululi (hulo‘l) – Na’matak
hulvo – Yalpiz
hunar – Kasb
Hunarmand
Hunarmandlik
hunarmandchilik – Hunarmandlik
hur – Farishta
hur – Ozod
hurkak – Qo‘rqoq
hurlik – Ozodlik
Hurmat
hurmatlamoq – Hurmat qilmoq
Hurmatli
Hurmat qilmoq
Hurmoq
hurriyat – Ozodlik
Husn
husndor – Chiroyli
husnli – Chiroyli
husn-u jamol – Husn
huzun – G‘am
huzunli – Xafa
huzur – Rohat
huzur-halovat – Rohat
huzur(ida) – Old(ida)
huzurlanmoq – Rohatlanmoq
huzur olmoq – Rohatlanmoq
huzur qilmoq – Rohatlanmoq
Hushsiz
Hushsizlanmoq
Hushsizlik
hushyor – Sezgir
Ho‘l
Ho‘llamoq

I

ibo – Uyat
iboli – Nomusli
ibosiz – Bezbet
ibrat – O‘rnak
ibrat olmoq – O‘rnak olmoq
idora qilmoq – Boshqarmoq
idramoq – Titramoq
idrok – Fahm
ifor – Hid I
Iflos
iflos – Ablah
ifloslik – Ablahlik
ifoda – Belgi
iforli – Xushbo‘y
igna – Nina
ignachi – Ninachi
ihota – To‘siq I
ihotalamoq – To‘smoq I
ihota qilmoq – To‘smoq I
ijozat – Ruxsat
ijozat bermoq – Ruxsat bermoq
ijozatnoma – Ruxsatnoma
ijozat olmoq – Ruxsat olmoq
ijozatsiz – Ruxsatsiz
ijozat so‘ramoq – Ruxsat so‘ramoq
ikkiqat – Homilador
ikkiyuzlama – Ikkiyuzlamachi
ikkiyuzlamalik – Ikkiyuzlamachilik
Ikkiyuzlamachi
Ikkiyuzlamachilik
ilalabad – Abadiy
ildam – Tez
ildamlamoq – Tezlamoq
ilgak – Ilmoq
ilgari – Avval
ilgari – Oldinga
ilgaridan – Avvaldan
ilgarigi – Avvalgi
ilhomlanmoq – Ruhlanmoq
iljaymoq – Jilmaymoq
ilib ketmoq – O‘g‘irlamoq
ilik – Qo‘l
ilkisdan (ilkis) – To‘satdan
illo – Ammo
ilmli – Ziyoli
Ilmoq
ilmoq – Kiymoq
iloj – Chora
ilojini topmoq – Amallamoq
ilojsiz – Noiloj
Iltifot
iltijo – Iltimos
iltijo qilmoq – Yalinmoq
Iltimos
Ilg‘or
Imillamoq
imirsilamoq – Imillamoq
Imkon
imkon – Chora
imkoniyat – Imkon
Imzo
In
indamas – Kamgap
Indamaslik
inmoq – Qo‘nmoq
innaykeyin – Keyin
Inoq
Inoqlashmoq
insof – Vijdon
insofli – Vijdonli

insofsiz – Vijdonsiz
inson – Odam
insongarchilik – Odamgarchilik
insoniyat – Kishilik
intelligent – Ziyoli
intiho – Oxir II
intilmoq – Urinmoq
intiq – Mahtal
intiqom – O‘ch
intizor – Mahtal

Inqiroz

in’om – Sovg‘a
ipiltiriq – Oriq
iqbol – Baxt
iqna – Iflos
iqtidor – Qobiliyat
iqtidorli – Qobiliyatli
irin – Lab
irimiga – Nomiga
irjaymoq – Jilmaymoq
irkit – Iflos
iroq – Uzoq I
iroq bo‘lmoq – Uzoq bo‘lmoq

iroqda – Uzoqda
iroqdagi – Uzoqdagi
iroqdan – Uzoqdan
iroqlamoq – Uzoqlashmoq
iroqlashmoq – Uzoqlashmoq
iroqlik – Uzoqlik
iroqlik qilmoq – Uzoqlik qilmoq
iroq qilmoq – Uzoq qilmoq
irg‘almoq – Tebranmoq
irg‘imoq – Sakramoq
irg‘itmoq – Otmoq
irshaymoq – Jilmaymoq
is – Hid I
is – Hid II
isbotlamoq – Asoslamoq
isfihon – Qilich

Isimoq

isirg‘a – Zirak
iskamoq – Hidlamoq
isliqi – Iflos
islovotxona – Fohishaxona
ism – Ot II
isnod – Uyat
isqirt – Iflos

Istak

Istamoq

istamoq – Izlamoq
istar-istamas – Noiloj
istehkom – Qal’a
istehzo – Kinoya
istehzoli – Kinoyali
iste’dod – Qobiliyat
iste’dodli – Qobiliyatli
iste’foga chiqmoq – Bo‘shamoq
iste’mol qilmoq – Yemoq
istibdod – Zulm
istiqbol – Kelajak
istiqlol – Ozodlik
istig‘no – Noz
istig‘no qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
isyon – Qo‘zg‘olon

It

itburun – Na’matak
itoat qilmoq – Bo‘ysunmoq
itqitmoq – Otmoq
ittifoq – Inoq
ittifoq – Jamoa
ittifoqlashmoq – Inoqlashmoq
ittifoqo – To‘satdan
ivirsilamoq – Kuymalanmoq
ivirsimoq – Kuymalanmoq
ivirsiq – Iflos
ivirsiramoq – Kuymalanmoq
ixlosmand – Muxlis
ixlosmandlik – Muxlislik

ixtiro – Kashfiyot
ixtirochi – Kashfiyotchi
Ixtiyor
ixtiyor qilmoq – Istamoq
ixtiyorsiz – Beixtiyor
iymanmoq – Tortinmoq
iz – Asar
izhor etmoq – Aytmoq I
Izlamoq
izm – Ixtiyor
izma-iz – Ketma-ket
izn – Ruxsat
izn bermoq – Ruxsat bermoq
izn olmoq – Ruxsat olmoq
iznsiz – Ruxsatsiz
izn so‘ramoq – Ruxsat so‘ramoq
iztirob – Azob
iztirobli – Azobli
izza bo‘lmoq – Uyalmoq
izzat – Hurmat
izzat-ehtirom – Hurmat
izzatlamoq – Hurmat qilmoq
izzatli – Hurmatli
izzat qilmoq – Hurmat qilmoq
Ish
ish – Lavozim
ish – Kasb
ish bermoq – Asqatmoq
Ishbilarmon
Ishbilarmonlik
ishboshi – Boshliq
ishkal – Chatoq
Ishlamoq
ishlatmoq – Foydalanmoq
ishrat – Aysh
ishq – Sevgi
ishqiboz – Muxlis
ishqibozlik – Muxlislik
ishsiz – Bekor
ishtirok etmoq – Qatnashmoq
ishtirokchi – Qatnashchi
ishtiyoq – Istak
ishva – Noz
ishvali – Nozli
ishvakor – Nozli
ishva qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
ishyoqmas – Dangasa
ishyoqmas bo‘lmoq – Dangasa bo‘lmoq
ishyoqmaslik – Dangasalik
ishshaymoq – Jilmaymoq
Ishchan
ishchanlik – Faollik
Ishchi
ich – Qorin
Ichkilik
Ichkilikboz
Ichmoq I
Ichmoq II
Ingichka
ingichka – Yupqa

J

jabonat – Qo‘rqoqlik
jabr – Azob
Jabrdiyda
jabrlamoq – Qiynamoq
jabrlanuvchi – Jabrdiyda
jabr qilmoq – Qiynamoq
jadal – Tez
jadallamoq – Tezlamoq
jadallik – Faollik
jafo – Azob
jafokash – Jabrdiyda
jahannam – Do‘zax
Jahl
jahllanmoq – Achchiqlanmoq
jahon – Dunyo
Jala
jalb qilmoq – Tortmoq
jami – Hamma
jamlamoq – Yig‘moq
Jamoa
jamol – Husn
jamol – Yuz
jamg‘armoq – Yig‘moq
Janjal
janjalkash – Urishqoq
janjallashmoq – Aytishmoq
Jannat
jarohat – Yara
jarohatlamoq – Yaralamoq
jarohatli – Yarali
jasad – O‘lik
jasorat qilmoq – Botinmoq
jasur – Botir
jasurlik – Mardlik I
jat – Kasofat II
javdiramoq – Qaramoq
javob bermoq – Ruxsat bermoq
javob olmoq – Ruxsat olmoq
javob so‘ramoq – Ruxsat so‘ramoq
Javohir
jazbar – Chizg‘ich
jazm – Ahd
jazm qilmoq(etmoq) – Ahd qilmoq
Jazo
jazval – Chizg‘ich
jang – Urush
jang qilmoq – Urush qilmoq
jangari – Urishqoq
jela – Tuzoq
jigar – Qarindosh
jigarband – Qarindosh
jigargo‘sha – Qarindosh
jigarrang – Qo‘ng‘ir
jihat – Tomon III
jilla – Aqalli
jilla bo‘lmasa – Aqalli
jillaqursa – Aqalli
Jilmaymoq
jilmoq – Qo‘zg‘almoq
jilob (jilop) – Paypoq
jilva – Noz
jilva qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
jim – Tinch I
jim bo‘lmoq – Tinchimoq
jimimoq – Tinchimoq
jimit – Kichik
jimjit – Tinch I
jimjitlik – Tinchlik I
jimlik – Tinchlik I

jindek (jinday, jindak) – Ozgina
jingul – Na’matak
jinni bo‘lmoq (jinni-pinni bo‘lmoq) – Tentak bo‘lmoq
jinoyat – Ayb
Jirkanmoq
jirlamoq – Kuylamoq I
jirraki – Asabiy
jirtaki – Asabiy
jism – Badan I
jizzaki – Asabiy
jichcha – Ozgina
Jingalak
jobir – Zolim
jodu – Sehr
jodugar – Sehrgar
joiz – O‘rinli
jom – Qadah
jonbozlik – Faollik
jon deb – Bajonidil
jon-dildan – Bajonidil
jonhalak – Parvona
jon-jon deb – Bajonidil
jonlanmoq – Tetiklashmoq
josus – Ayg‘oqchi
jovidon – Abadiy
jovlik – Yoppasiga
Joy
joyida – Tuzuk
joyida – Yaxshi
joylamoq – Ortmoq
joylamoq – Tiqmoq
Joylashmoq
joylashmoq – Kirmoq
Juda
juda bo‘lmaganda – Aqalli
judolik – Ayriliq
judo qilmoq – Ayirmoq
Juft
jujuq – Bola
Juldur
jumla – Gap
jur’akash – Kosagul
jur’akashlik – Kosagullik
jur’at qilmoq (etmoq) – Botinmoq
jussa – Gavda
jussali – Gavdali
jo‘gi – Lo‘li
jo‘mard – Mard
jo‘mardlik – Mardlik II
jo‘n – Oddiy
jo‘n – Sodda
jo‘na – Ket
jo‘namoq – Ketmoq
jo‘natmoq – Yubormoq
jo‘ra – O‘rtoq
jo‘ralik – O‘rtoqlik
jo‘rob – Supurgi
jo‘rtta – Ataylab
jo‘rttaga – Ataylab
jo‘yali – O‘rinli
Jo‘shmoq
jo‘shqin – Qizg‘in

K

Kabi
kabir – Katta
kabirlik – Kattalik
Kabob
Kabobpaz
kabobchi – Kabobpaz
Kafil bo‘lmoq
kafilga olmoq – Kafilligini olmoq
kafilini olmoq – Kafilligini olmoq
Kafilligini olmoq
kafillik – Kafolat
kafillik bermoq – Kafil bo‘lmoq
kafillikka o‘tmoq – Kafil bo‘lmoq
Kafolat
kafolat bermoq – Kafil bo‘lmoq
kaj – Qiyshiq
kajbahs – O‘jar
kajbahslik – O‘jarlik
kaj bo‘lmoq – Qiyshaymoq
kalaka – Masxara
kalakali – Masxarali
kalaka qilmoq – Masxaralamoq
kalima – So‘z
Kalit
kaljo‘rchi – O‘laksaxo‘r
kalla – Aql
kalla – Bosh
kallali – Aqlli
kalom – So‘z
kalondimog‘ – Manman
kalondimog‘lik – Manmanlik
kalovlanmoq – Gangimoq
Kalta
kaltabaqay – Pakana
kaltabo‘y – Pakana
kaltafahm – Befahm
kaltaklamoq – Urmoq
kalvak – Anqov
Kam
Kamalak
kamar – Girdob
Kamaymoq
Kambag‘al
kambag‘allarcha – Faqirona
Kambag‘allashmoq
kambag‘alchilik – Kambag‘allik
Kamgap
kam-ko‘stsiz – Bekam-ko‘st
Kamina
kaminayi kamtarin – Kamina
kam-ketik – Yetishmovchilik
kam-ko‘st – Yetishmovchilik
kamob – Noyob
kamol – Balog‘at
kamoli – Juda
kamolot –Balog‘at
kamol topmoq – Yetuklashmoq
kamon – Kamalak
kamonkash – Kamonchi
Kamonchi
kamquvvat – Kuchsiz
kamsuqum – Kamtar
kamsuqumlik – Kamtarlik
Kamtar
kamtarin – Kamtar
Kamtarlik
kamtarinlik – Kamtarlik
kamyob – Noyob
kamchil – Noyob
kamchillik – Yetishmovchilik

kanora – Qirg‘oq
Kaptar (kabutar)
Kar
karam – Iltifot
karanda – Manman
karandalik – Manmanlik
karaxt – Hushsiz
karaxtlanmoq – Hushsizlanmoq
karaxtlik – Hushsizlik
karashma – Noz
karashmali – Nozli
karashma qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
karomat – Mo‘jiza
Karomatgo‘y
karomatli – Karomatgo‘y
karomatchi – Avliyo
karquloq – Kar
karra – Marta
karta – Paykal
kartina – Surat
Karvonboshi
karvonboshi – Ilg‘or
Karvonsaroy
karvonxona – Karvonsaroy
kas – Odam
Kasal
Kasal bo‘lmoq
kasallanmoq – Kasal bo‘lmoq
Kasallik I
Kasallik II
Kasalmand
kasalvand – Kasalmand
Kasb
kasb-kor – Kasb
Kasofat I
Kasofat II
kasr – Kasofat II
Kasr
katapulta – Palaxmon
Katta
katta – Boshliq
katta bo‘lmoq – O‘smoq
kattakon –Boshliq
Kattalashmoq
Kattalik
kattarmoq – Kattalashmoq
kattaymoq – Kattalashmoq
kattazang – Manman
kattazanglik – Manmanlik
kavlamoq (kovlamoq) – Titmoq
kavlashtirmoq (kovlashtirmoq) – Titmoq
kavshamoq – Chaynamoq
kayf – Kayfiyat
kayf – Mast I
kayf – Mast II
Kayfiyat
kayfichog‘ – Xursand
kayfichog‘lik – Xursandlik
kayf-safo – Aysh
kazzob – Yolg‘onchi
kazzob bo‘lmoq – Yolg‘onchi bo‘lmoq
kazzoblik – Yolg‘onchilik
kashal – Mahtal
kashal – Chatoq
Kashanda
kashf – Kashfiyot
Kashfiyot
Kashfiyotchi
kashshof – Kashfiyotchi
kek – Adovat I
kekkayma – Manman
kekkaymajon – Manman
kekkaymoq – Kerilmoq
keksa – Qari
keksaymoq – Qarimoq
kekchi – G‘arazgo‘y
Kelajak

kelasi – Keyingi I
kelbat – Qomat
kelgusi – Keyingi I
kelgusida – Kelajak
Keli
kelinaya – Kelinoyi (kennoyi)
kelinopa – Kelinoyi (kennoyi)
Kelinoyi (Kennoyi)
Kelishgan
Kelishmoq
kelishmoq – Ahdlashmoq
kelishmoq – Yarashmoq
kelishtirmoq – Boplamoq
Kelmoq
kemakash – Kemachi
Kemachi
Kemirmoq
Kenja
kenjatoy – Kenja
kepata – Ahvol
kepchik – Doira
Kerak
kerak bo‘lmoq – Asqatmoq
Kerakli
Keraksiz
kerik – Manman
keriklik – Manmanlik
kerilmajon – Manman
kerilmachoq – Manman
Kerilmoq
Kermoq
kesatiq – Kinoya
kesatiqli – Kinoyali
keskir – O‘tkir
Kesmoq I
Kesmoq II
Ket
ket – Orqa
Ketma-ket
ketma-ket – To‘xtovsiz
Ketmoq
ketvorgan – Kelishgan
Keyin I
Keyingi I
Keyingi II
kez – Vaqt
kezak – Vaqt
kezak – Navbat
kezinmoq – Aylanmoq
kezmoq – Aylanmoq
Kecha
kechalik – Kechki II
kechasi – Kecha
kechik – Kechuv
Kechikmoq
Kechirim
Kechirimli
Kechirmoq
kechmoq – Kechirmoq
kechmish – O‘tmish
Kechki I
Kechki II
Kechkirmoq
kechlatmoq – Kechkirmoq
kechpishar – Kechki I
kech qolmoq – Kechikmoq
kechqurungi – Kechki II
Kechuv
kengash – Majlis
kengash – Maslahat
kengashli – Maslahatli
kengashmoq – Maslahatlashmoq
kengash qilmoq – Majlis qilmoq
kengashchi – Maslahatchi I
kengashchi – Maslahatchi II
kengchilik – Mo‘lchilik
kibrlanmoq – Mag‘rurlanmoq
kifoya – Bas
Kifoya qilmoq
kift – Yelka

Kigiz
kimdir – Allakim
kimsa – Odam
Kimsasiz
kin – Adovat I
Kinna
kinnakash – Kinnachi
Kinnachi
Kinoya
Kinoyali
kinoyaomuz – Kinoyali
Kiprik
kir – Iflos
kirdikor – Ayb
kirim – Foyda II
kirishmoq – Boshlamoq
Kirmoq
kiroyi – Juda
kissa – Cho‘ntak
Kiyim
kiyim-bosh – Kiyim
kiyim-kechak – Kiyim
Kiymoq
kishi – Birov
kishi – Odam
Kishilik
kishti kelmoq – Jo‘shmoq
Kichik
kichik – Kenja
kichiklashmoq – Kichraymoq
kichkina – Kichik
kichkina – Kenja
kichkinalashmoq – Kichraymoq
Kichraymoq
kodeks – Qonun
kofi – Qoniqarli
koinot – Dunyo
Kompas
kompozitor – Bastakor
Kon
kontrast – Qarama-qarshi
kontrast – Qarama-qarshilik
Konchi
Kosagul
Kosagullik
Kosib
kosib – Hunarmand
Kosiblik
kosiblik – Hunarmandlik
kosibchilik – Kosiblik
kosibchilik – Hunarmandlik
kosmonavt – Fazogir
kosmonavtlik – Fazogirlik
kovak – Puch
kovlamoq – Qazimoq
koyish – Tanbeh
Koshki
koshkiydi – Koshki
kredit – Qarz
kreditor – Qarzdor
kudurat – Gina
kulfat – G‘am
Kulgi
kulgi – Masxara
kulgili – Masxarali
Kulmoq
kulumsiramoq – Jilmaymoq
kun – Havo
kun – Quyosh
kunbotar – G‘arb
kunchi – Rashkchi
kunchiqar – Sharq
kurash – Musobaqa
kurash – Urush
kurashmoq – Musobaqalashmoq
kurashmoq – Urush qilmoq
kurash qilmoq – Urush qilmoq
kutilmaganda – To‘satdan
Kutmoq
Kuy

kuydi-pishdi – Kuyunchak
kuyib-pishmoq – Kuyinmoq
kuyikmoq – Kuyinmoq
Kuyindi
Kuyinmoq
Kuylamoq I
Kuylamoq II
Kuymalanmoq
kuymalanmoq – O‘ralashmoq
kuymanmoq – Kuymalanmoq
kuymoq – Yonmoq II
kuyuk – Kuyindi
Kuyunchak
Kuzatmoq
kuzatmoq – Tekshirmoq I
kuzatmoq – Tekshirmoq II
kushod – Butunlay
Kushxona
Kuch
kuch – Qurb
Kuchaymoq
Kuchli
Kuchsiz
Kuchsizlanmoq I
Kuchsizlanmoq II
Kuchsizlik
kuchuk – It
ko‘garchin – Kaptar (kabutar)
ko‘hlik – Chiroyli
ko‘hna – Qadimgi
Ko‘k I
Ko‘k II
ko‘k – Ko‘kat
ko‘k – Osmon
Ko‘karmoq
Ko‘kat
ko‘klam – Bahor
ko‘klamoq – Ko‘karmoq
ko‘kmak – Ko‘k I
Ko‘krak I
Ko‘krak II
ko‘krak – Ko‘ngil
ko‘ks – Ko‘krak II
ko‘laga – Soya
ko‘lam – Miqyos
ko‘lanka – Soya
ko‘lka – Soya
ko‘mak – Yordam
ko‘mak bermoq – Yordamlashmoq
ko‘makdosh – Yordamchi
ko‘maklashmoq – Yordamlashmoq
ko‘mak olmoq – Yordam olmoq
ko‘makchi – Yordamchi
Ko‘nikmoq
Ko‘nmoq
Ko‘p
ko‘p – Juda
Ko‘paymoq I
Ko‘paymoq II
ko‘pgina – Allaqancha
Ko‘pincha
ko‘plab – Allaqancha
ko‘plab – Ko‘p
ko‘plar – Ko‘pchilik
ko‘pmoq – Oshmoq
Ko‘pchilik
ko‘pchimoq – Oshmoq
Ko‘r
ko‘ra – Asosan
ko‘rak – Ko‘sak
ko‘rgilik – Taqdir
ko‘rgisi kelmoq – Sog‘inmoq
Ko‘rinish
ko‘rishmoq – Salomlashmoq
ko‘rishmoq – Uchramoq II
ko‘rk – Husn
ko‘rkamlashmoq – Chiroylilashmoq
ko‘rmoq – Hisoblamoq
Ko‘rnamak
Ko‘rsatma

Ko‘sak
ko‘tarilmoq – Balandlamoq
ko‘tar-ko‘tar – Maqtov
ko‘tarmoq – Ichmoq II
ko‘tarmoq – Kesmoq II
ko‘tarmoq – Chidamoq
ko‘toh – Kalta
ko‘zanak – Tuzoq
ko‘zanakli – Puch
ko‘zgu – Oyna
ko‘zlamoq – Mo‘ljallamoq
ko‘z tashlamoq – Qaramoq
ko‘shish ko‘rsatmoq – Urinmoq
ko‘shish qilmoq – Urinmoq
Ko‘ch
Ko‘chat
ko‘chatxona – Ko‘chatzor
Ko‘chatzor
ko‘chirmakash – Ko‘chirmachi
Ko‘chirmachi
Ko‘chki
ko‘chkin – Ko‘chki
ko‘chkinchi – Ko‘chma II
ko‘ch-ko‘lon – Ko‘ch
ko‘ch-ko‘ron – Ko‘ch
Ko‘chma I
Ko‘chma II
ko‘chmanchi – Ko‘chma II
Ko‘chmoq
ko‘chmoq – Qo‘zg‘almoq
Ko‘ngil
ko‘ngil – Istak
ko‘ngilsiz – Noxush

L

Lab
lab – Qirg‘oq
lab-balab – To‘la
Labbay
labbaygo‘y – Laganbardor
labbaygo‘ylik – Laganbardorlik
labolab – To‘la
lafz – Ahd
Lagan
Laganbardor
Laganbardorlik
lahad – Qabr
lahza – Soniya
lahza – Vaqt
lahzada – Darrov
lakalov – Lapashang
lallaymoq – Anqaymoq
Lalmi
lalmikor – Lalmi
landavur – Lapashang
Lanj
lanj – Mijg‘ov
Lanjlanmoq
lanjlanmoq – Mijg‘ovlanmoq
lanjlik – Mijg‘ovlik
lanjlik qilmoq – Mijg‘ovlanmoq
Lapashang
lapanglamoq – Tebranmoq
lappos – Semiz
laq-luq – Ashqol-dashqol
laqillamoq – Aljimoq
laqillatmoq – Aldamoq
latif – Nozik I
Latifa
latifaboz – Latifago‘y
Latifago‘y
latifachi – Latifago‘y
latofat – Nazokat
latofatli – Chiroyli
latta – Lapashang
lattaparast – Molparast
lattachaynar-Ezma
lattachaynarlik – Ezmalik
lattachaynarlik qilmoq – Ezmalanmoq
lavand – Lapashang
lavang – Lapashang
Lavlagi
Lavozim
laxtak – Qiyqim
layoqat – Qobiliyat
layoqatli – Qobiliyatli
laziz – Shirin I
laziz – Shirin II
lazzat – Maza
lazzatlanmoq – Rohatlanmoq
lazzatli – Shirin I
lazzatli – Shirin II
lazzatsiz – Bemaza
lashkar – Armiya
lashkarboshi – Qo‘mondon
lash-lush – Ashqol-dashqol
lang – Cho‘loq
la’nat – Qarg‘ish
la’nati – Kasofat I
la’natlamoq – Qarg‘amoq
lekin – Ammo
leksikograf – Lug‘atshunos
leksikografiya – Lug‘atshunoslik
libos – Kiyim
liliput – Pakana

lim – To‘la
limmo-lim – To‘la
lison – Til
loaqal – Aqalli
lobar – Kelishgan
lodon – Aqlsiz
lof – Mubolag‘a
lohas – Lanj
lohaslanmoq – Lanjlanmoq
lol – Hayron
lol – Soqov
lolagun – Qizil
lolarang – Qizil
lol-u hayron – Hayron
lop etib – To‘satdan
lopillamoq – Tebranmoq
loqayd – Beparvo
loy – Pul
loyihachi – Me’mor
Loyiq
lozim – Kerak
log‘ar – Oriq
losh – O‘lik
lutf – Iltifot
Lug‘at
Lug‘atshunos
Lug‘atshunoslik
lug‘atchi – Lug‘atshunos
lug‘atchilik – Lug‘atshunoslik
lungi – Sochiq
Lo‘li
lo‘pildoq – Semiz
lo‘ttiboz – Firibgar
lo‘ttiboz – Masxaraboz I
lo‘ttiboz – Masxaraboz II
lo‘ttibozlik – Masxarabozlik II
lo‘ttibozlik qilmoq – Masxarabozlik qilmoq



mabodo – Agar
madad – Yordam
madad bermoq – Yordamlashmoq
madadkor – Yordamchi
madad olmoq – Yordam olmoq
madh etmoq (qilmoq) – Kuylamoq II
madhgo‘y – Laganbardor
madhgo‘ylik – Laganbardorlik
mador – Kuch
madorsizlanmoq – Bo‘shashmoq
madorsizlanmoq – Kuchsizlanmoq I
madorsizlik – Kuchsizlik
magar – Agar
mahal – Vaqt
mahalladosh – Hamqishloq
Mahalliy
mahbas – Qamoq
mahbub(a) – Sevgili
Mahbus
mahkam – Puxta
mahkum – Mahbus
mahol – Qiyin
mahoratli – Usta
mahoratlilik – Ustalik
mahovat – Mubolag‘a
mahrum qilmoq – Ayirmoq
Mahtal
mahzun – Xafa
mahzun bo‘lmoq – Xafa bo‘lmoq
mahzunlanmoq (mahzunlashmoq) – Xafa bo‘lmoq
mahzunlik – Xafalik
majburiyat – Vazifa
Majburlamoq
majbur qilmoq (etmoq) – Majburlamoq
Majlis
Majlis qilmoq
majol – Kuch
majolsizlanmoq – Bo‘shashmoq
majolsizlik – Kuchsizlik
majruh – Yarali
makkor – Ayyor
makkorona – Ayyorona
makr – Hiyla
makruh – Harom
maktub – Xat
malak – Farishta
malay – Xizmatkor
malla – Sariq
malomat – Ta’na
malomat qilmoq – Ta’na qilmoq
malomat qilmoq – Tuhmat qilmoq
malomatchi – Tuhmatchi
mamlakat – Vatan
mamma – Ko‘krak I
mamnun – Xursand
mamnuniyat – Xursandlik
mamnunlik – Xursandlik
manfaat – Foyda I
manfaatsiz – Foydasiz
manjalaqi – Urishqoq
manjaniq (manjanaq) – Palaxmon
Manman
Manmanlik
manmansiramoq – Kerilmoq
mansab – Lavozim
mansabdor – Amaldor
maosh – Oylik
maqbul – Loyiq

maqbul – O‘rinli
Maqsad
maqsud – Maqsad
Maqtanmoq
Maqtov
Mard
Mardlik I
Mardlik II
mardum – Xalq
marhamat – Iltifot
maroq – Zavq
maroqlanmoq – Zavqlanmoq
marqad – Qabr
marsinmoq – Maqtanmoq
Marta
marza – Pushta
Maslahat
maslahatgo‘y – Maslahatchi I
Maslahatlashmoq
Maslahatli
maslahat qilmoq – Maslahatlashmoq
Maslahatchi I
Maslahatchi II
Masofa
Mast I
Mast II
maston – Ayyor
Masxara
Masxaraboz I
Masxaraboz II
Masxarabozlik I
Masxarabozlik II
Masxarabozlik qilmoq
Masxaralamoq
Masxarali
masxaraomuz – Masxarali
masxara qilmoq – Masxaralamoq
masshtab – Miqyos
mas’ud – Baxtli
Mato
matoh – Buyum
matonat – Chidam
matonatli – Chidamli
mavhum – Noaniq
maviz – Ichkilik
mavjud – Bor
mavoza qilmoq – Ayirboshlamoq
mavrid – Vaqt
mavsum – Vaqt
mav’iza – Nasihat
may – Ichkilik
Mayda
Maydalamoq
maydalashmoq – Kichraymoq
mayda-mayda qilmoq – Maydalamoq
mayda-chuyda – Ashqol-dashqol
mayda-chuyda – Mayda
may(y)it – O‘lik
mayishmoq – Qiyshaymoq
mayl – Istak
mayl – Ixtiyor
mayli – Bo‘pti
mayna qilmoq – Masxaralamoq
maynavozchilik – Masxarabozlik II
maynavozchilik qilmoq – Masxara-bozlik qilmoq
mayzamoq – O‘xshamoq
Maza
mazali – Shirin I
mazammat – Ta’na
mazammat qilmoq (yoki etmoq, aylamoq) – Ta’na qilmoq
maza qilmoq – Rohatlanmoq
mazasiz – Bemaza
mazax – Masxara
mazaxlamoq – Masxaralamoq
mazaxli – Masxarali
mazaxnamo – Masxarali
mazaxomuz – Masxarali
mazax qilmoq – Masxaralamoq

mazang – Lo‘li
maziyat – Afzallik
mazlum – Jabrdiyda
mazmun – Ma’no
Mag‘lubiyat
mag‘lub qilmoq (etmoq) – Yengmoq
mag‘rib – G‘arb
Mag‘rurlanmoq
mag‘zavalik – Ezmalik
mashaqqat – Qiyinchilik
mashaqqatli – Qiyin
mashhar – Qiyomat
mashhur – Atoqli
mashmasha – Janjal
mashriq – Sharq
mashvarat – Majlis
mashvarat – Maslahat
mashvarat qilmoq (qurmoq) – Maslahatlashmoq
Mashg‘ul
mashshoq – Sozanda
manglay – Peshona
mangu – Abadiy
mangulik – Abadiylik
Ma’lum
Ma’lum bo‘lmoq
ma’lumot – Xabar
ma’lum qilmoq – Xabar qilmoq
ma’mur – Mo‘l
ma’murchilik – Mo‘lchilik
ma’ni – Ma’no
Ma’no
ma’nosiz – Behuda
ma’qul – Bo‘pti
ma’qul – O‘rinli
ma’raka – Yig‘in
ma’rifatli – Ziyoli
ma’ruza – Doklad
ma’tal – Mahtal
ma’yus – Xafa
ma’yus bo‘lmoq – Xafa bo‘lmoq
ma’yuslanmoq – Xafa bo‘lmoq
ma’yuslik – Xafalik
ma’viza – Nasihat
Mehmon
mehmondor – Mezbon
Mehmondo‘st
mehnatkash – Ishchi
mehnatkash – Mehnatsevar
mehmonnavoz – Mehmondo‘st
mehnat qilmoq – Ishlamoq
Mehnatsevar
mehnatchan – Mehnatsevar
mehnatchi – Ishchi
Merosxo‘r
merov – Anqov
metin – Qattiq
Mezbon
Mesh
mechkay – Ochko‘z
mengzamoq – O‘xshamoq
me’da – Oshqozon
Me’mor
mijgon (mujgon) – Kiprik
mijja – Kiprik
Mijg‘ov
Mijg‘ovlanmoq
Mijg‘ovlik
mijg‘ovlik qilmoq – Mijg‘ovlanmoq
Millatparvar
millatsevar – Millatparvar
millatchi – Millatparvar
minmoq – Haydamoq II
ming‘aymas – Indamas
miqdor – Son
miq etmaslik – Indamaslik
Miqyos
miriqmoq – Qonmoq
Mirishkor
Mirishkorlik

miroxur – Otboqar
miskin – Kambag‘al
miskinlik – Kambag‘allik
misli – Kabi
mislsiz – Beqiyos
misol(i) – Kabi
misol – Namuna
mistar – Chizg‘ich
mitti – Kichik
mittilashmoq – Kichraymoq
miya – Aql
miyali – Aqlli
miyiq – Mo‘ylov
miyiqli – Mo‘ylovli
mi(y)nu – Osmon
ming – Har qancha
moh – Oy
mohir – Usta
mohirlik – Ustalik
mohona – Oylik
mojaro – Janjal
mojarolashmoq – Aytishmoq
Mol
mol – Buyum
Molboqar
mol-dunyo – Boylik
molfahm – Befahm
mol-mulk – Boylik
Molparast
molqo‘ra – Molxona
Molxona
molchi – Molboqar
momaguldurak – Momaqaldiroq
Momaqaldiroq
momiq – Paxta II
momo – Ona
monand – Loyiq
monand – O‘xshash
monandlik – O‘xshashlik
monelik – Qarshilik
monelik – To‘siq II
Mos
mos – Loyiq
moviy – Ko‘k II
moy – Yog‘
moyak – Tuxum
moyana – Oylik
moyli – Yog‘li
moziy – O‘tmish
mozor – Qabr
mozor – Qabriston
mozorboshi – Qabriston
mozoriston – Qabriston
mozorot – Qabriston
mozortepa – Qabriston
muallim – O‘qituvchi
muallimlik – O‘qituvchilik
muattar – Xushbo‘y
muazzam – Katta
muazzamlik – Kattalik
muazzin – So‘fi
mubham – Noaniq
mubohasa – Bahs
Mubolag‘a
muborakbod – Tabrik
muborakbod qilmoq (etmoq, aylamoq) – Tabriklamoq
mubtalo bo‘lmoq – Chalinmoq
muddao – Maqsad
muddat – Vaqt
mudhish – Qo‘rqinchli
mudofaa qilmoq – Qo‘riqlamoq
mudom – Doim
mufassal – Atroflicha
muguz – Shox
muhabbat – Sevgi
Muharrir
muhayyo – Tayyor II
muhayyo bo‘lmoq – Tayyor bo‘lmoq
muhayyo qilmoq (yoki etmoq,

aylamoq) – Tayyorlamoq
muhib – Muxlis
muhiblik – Muxlislik
Muhim
muhmal – Noaniq
muhofaza qilmoq – Qo‘riqlamoq
muhoraba – Urush
muhoraba qilmoq – Urush qilmoq
muhosara – Qamal
muhosara qilmoq – O‘ramoq II
muhtaram – Hurmatli
muhtarama – Hurmatli
muhtasham – Dang‘illama
Muhtoj
muhtoj – Kambag‘al
Muhtoj bo‘lmoq
Muhtojlik
muhtojlik – Kambag‘allik
mujda – Xushxabar
mujimoq – Kemirmoq
mujmal – Noaniq
mukammal – Atroflicha
mukammal – Bekam-ko‘st
mukammal – Yetuk
mukammal bo‘lmoq – Yetuklash-
moq
mukammalashmoq – Yetuklashmoq
Mukofot
mullajiring – Pul
muloyim – Yumshoq
muloyim bo‘lmoq – Yumshamoq
muloyimlashmoq – Yumshamoq
mumsik – Xasis
mumsik bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
mumsiklik – Xasislik
mumsiklik qilmoq – Xasislik qilmoq
mumtoz – Asil
munavvar – Yorug‘
munavvar bo‘lmoq – Yorishmoq I
munofiq – Ikkiyuzlamachi
munofiqlik – Ikkiyuzlamachilik
Munosabat
munosib – Loyiq
munozara – Bahs
munozaralashmoq – Bahslashmoq
munozara qilmoq – Bahslashmoq
muntazir – Mahtal
muomala – Munosabat
muovin – O‘rinbosar
muovinlik – O‘rinbosarlik
muqaddima – Kirish
muqarrar – Albatta
muqim – O‘troq
murabbiy – O‘qituvchi
murabbiylik – O‘qituvchilik
murda – O‘lik
murdaxo‘r – O‘laksaxo‘r
murdasho‘y – Yuvg‘uchi
murdor – Harom
murdor – O‘laksa
murdorxo‘r – O‘laksaxo‘r
murod – Maqsad
murt – Mo‘ylov
murtad – Betavfiq
murtli – Mo‘ylovli
murg‘ – Qush
musaffo – Toza III
musallas – Ichkilik
musavvir – Rassom
musibat – Balo
musiqa – Kuy
muvofiq – Asosan
Musobaqa
musobaqadosh – Musobaqachi
Musobaqalashmoq
musobaqa qilmoq – Musobaqalash-
moq
Musobaqachi
mustahkam – Puxta
mustaqillik – Ozodlik

mutakabbir – Manman
mutakabbirlik – Manmanlik
mutarjim – Tarjimon I
mutarjimlik – Tarjimonlik
mutarjimlik qilmoq – Tarjimonlik qilmoq
mute – Qaram
mutelik – Qaramlik
mutlaq(o) – Butunlay
mutlaqo – Hech
mutolaa qilmoq – O‘qimoq
muttaham – Vijdonsiz
muttasil – To‘xtovsiz
muvaffaq bo‘lmoq – Yetishmoq
muvofiq – Loyiq
Muxlis
Muxlislik
muyassar bo‘lmoq – Yetishmoq
Muz
muzaffar – G‘olib
muzaffariyat – G‘alaba
muzikachi – Sozanda
Muzlamoq
mug‘ombir – Ayyor
mug‘ombirona– Ayyorona
mushkul – Qiyin
mushkullashmoq – Qiyinlashmoq
mushohada qilmoq (yuritmoq) – O‘ylamoq
mushtarak – Umumiy
mushtarak bo‘lmoq – Umumiylashmoq
mushtaraklashmoq – Umumiylashmoq
mushtaraklik – Umumiylik
mushtariy – Obunachi
mushtlashmoq – Urishmoq
mushtoq – Mahtal
muchchi – O‘pich
mung – G‘am
munglanmoq – Xafa bo‘lmoq
mungli – Xafa
munglilik – Xafalik
mo‘jiz – Mo‘jizali
Mo‘jiza
mo‘jizador – Mo‘jizali
mo‘jizakor – Mo‘jizali
Mo‘jizali
mo‘jizaviy – Mo‘jizali
Mo‘l
mo‘l – Ko‘p
mo‘ljal – Reja
mo‘ljal – Chama
Mo‘ljallamoq
mo‘ljallamoq – Rejalashtirmoq
mo‘ljallamoq – Chamalamoq
mo‘ljal qilmoq – Mo‘ljallamoq
mo‘l-ko‘l – Mo‘l
mo‘l-ko‘lchilik –Mo‘lchilik
mo‘ltaymoq – Qaramoq
mo‘ltillamoq – Qaramoq
mo‘ltiramoq – Qaramoq
mo‘ltoni – Ayyor
mo‘ltoni – Lo‘li
Mo‘lchilik
mo‘min – Yuvosh
mo‘minlik – Yuvoshlik
mo‘min-qobil – Yuvosh
mo‘min-qobillik – Yuvoshlik
mo‘rcha – Hammom
mo‘tabar – Obro‘li
mo‘y – Qil
Mo‘ylov
mo‘ylovdor – Mo‘ylovli
Mo‘ylovli
mo‘ysafid – Chol

N

nabi – Payg‘ambar
nadomat – Afsus I
naf – Foyda I
Nafas
Nafas olmoq
nafis – Nozik II
nafsilamr(i) – To‘g‘risi
nafsiz – Foydasiz
nam – Ho‘l
namat – Kigiz
Namgarchilik
namlamoq – Ho‘llamoq
Namozshom
Namuna
namuna – O‘rnak
Namuncha
naq – Xuddi
naqadar – Namuncha
naridan beri – Apil-tapil
Narvon
Narx
Narxlamoq
narx-navo – Narx
nasiba – Rizq
nasiba – Taqdir
nasib bo‘lmoq – Buyurmoq II
nasib qilmoq (etmoq) – Buyurmoq II
Nasihat
nasim – Shabada
nasiya – Qarz
nasldor – Zotli
naslsiz – Bolasiz
Natija
natijalamoq – Yakunlamoq
natijasida – Sababli
natijasiz – Unumsiz
natijasiz bo‘lmoq – Unumsiz bo‘lmoq
nav – Tur
Navbat
navbat – Marta
Navbatdagi
navozanda – Sozanda
naynov – Novcha
nayrang– Hiyla
nayrangboz – Ayyor
nayrangboz – Firibgar
nayrangboz – Masxaraboz I
nayrangboz – Masxaraboz II
nayrangbozlik – Masxarabozlik I
nayza – Nish
nazar – Qarash
nazarimda – Aftidan
nazar solmoq – Qaramoq
nazdimda – Aftidan
Nazokat
nazorat qilmoq – Tekshirmoq I
nazorat qilmoq – Tekshirmoq II
nazorat qilmoq – Tekshirmoq III
nazr – Sadaqa
nazr-niyoz – Sadaqa
nashavand – Giyohvand
nashavandlik – Giyohvandlik
Nashr qilmoq (etmoq)
nashvati – Nok
Na’matak
ne – Nima
nega – Nimaga
negaki – Chunki
nechog‘lik – Namuncha
nechukkim – Chunki

nechun – Nimaga
ne’mat – Ovqat
nido – Ovoz
nigoh – Qarash
nigoh tashlamoq (qadamoq) – Qaramoq
nigor – Sevgili
nihol – Ko‘chat
nihoya – Oxir I
nihoya – Oxir II
nihoyalamoq – Tugamoq
nihoyatda – Juda
nihoyati – Atigi
Nima
nimadir – Allanima
Nimaga
Nimjon
nimjon – Kuchsiz
nimjonlashmoq – Kuchsizlanmoq I
Nina
Ninachi
niyat – Maqsad
Nish
nishon – Asar
nishon – Belgi
nishona – Belgi
nishtar – Nish
Noaniq
noayon – Noaniq
nobop – Sifatsiz
noboplik – Yomonlik
noboplik qilmoq – Yomonlik qilmoq
nobud bo‘lmoq – O‘lmoq
nodir – Noyob
nodon – Aqlsiz
nofaollik – Faoliyatsizlik
nogahon – To‘satdan
nohalol – Harom
noil bo‘lmoq – Erishmoq
Noiloj
noinsof –Vijdonsiz
Nok
nokas – Xasis
nokas bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
nokaslik qilmoq – Xasislik qilmoq
nokasta – Xasis
nokasta bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
nokastalik – Xasislik
nokastalik qilmoq – Xasislik qilmoq
nokerak – Keraksiz
Nola
Nolimoq
Nolish
nolish – Nola
Noloyiq
nom – Dovruq
nom – Ot II
noma – Xat
noma’lum – Noaniq
nomdor – Atoqli
Nomiga
nom-nishonsiz – Bedarak
nomunosib – Noloyiq
nomus – Uyat
Nomusli
Nomus qilmoq
nomussiz – Bezbet
nomussiz – Vijdonsiz
Nomuvofiq – Noloyiq
nonko‘r – Ko‘rnamak
nontepki – Ko‘rnamak
nopok – Iflos
notanish – Birov
notinch – Bezovta
Noqulay I
Noqulay II
nor – O‘t I
Nordon
norg‘ul – Gavdali
nosog‘ – Kasal

nosog‘lik – Kasallik I
nosog‘lom – Kasal
nosog‘lomlik – Kasallik I
notavon – Bechora
notayin – Noaniq
notinch – Bezovta
notiq – Suxandon
notob – Kasal
notoblik – Kasallik I
noto‘la – To‘liqsiz
noto‘liq – To‘liqsiz
noto‘g‘ri – Yanglish
noto‘g‘ri – Yolg‘on I
noto‘g‘ri bo‘lmoq – Yanglish bo‘lmoq
Novcha
Noxush
Noyob
Noz
nozarur – Keraksiz
Nozik I
Nozik II
Nozik III
nozik – Ingichka
nozik – Nimjon
Nozlanmoq
Nozli
noz qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
noz-u istig‘no – Noz
noz-u istig‘no qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
noz(-u) karashma – Noz
noz(-u) karashma qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
noo‘ng‘ay – Noqulay I
noo‘ng‘ay – Noqulay II
noo‘rin – Bekorga
noshud – Lapashang
nochor – Noiloj
nochorlarcha – Faqirona
nufuz – Obro‘
nufuzli – Obro‘li
nuqul – Doim
Nur
nurafshon – Yorug‘
nurafshon bo‘lmoq – Yorishmoq I
nurafshon bo‘lmoq – Yorishmoq II
nuri – Go‘ng
nurli – Yorug‘
nusrat – G‘alaba
no‘sh etmoq – Ichmoq II

O

obdan – Juda
Obdasta
obida – Yodgorlik
Obro‘
obro‘-e’tiborli – Obro‘li
obro‘dor – Obro‘li
Obro‘li
Obunachi
Odam
Odamgarchilik
odamjon – Odamoxun
odamkush – Qotil
Odamovi
Odamoxun
odamzod – Odam
odamshavanda – Odamoxun
Odat
Odatlanmoq
odatlanmoq – Ko‘nikmoq
odat qilmoq – Ko‘nikmoq
odat qilmoq – Odatlanmoq
Oddiy
odil – Adolatli
odillik – Adolat
odim – Qadam
odmi – Oddiy
odob (adab) – Xulq
Odobli
Odobsiz
Odobsizlik
Odobsizlik qilmoq
odoq (adoq) – Oxir I
odoq (adoq) – Oxir II
ofarin – Balli
ofat – Balo
oftob – Quyosh
oftoba (obtova) – Obdasta
ogoh – Xabardor
ogoh bo‘lmoq – Xabardor bo‘lmoq
ogohlantirmoq – Xabar qilmoq
ogoh qilmoq (etmoq) – Xabar qilmoq
oh – Nola
oh – Voy
ohista – Sekin
oh-voh qilmoq – Voy-voylamoq
oid – Aloqador
Oila
oila – Xotin
ojiz – Bechora
ojiz – Kuchsiz
ojiz – Ko‘r
ojiza – Qiz
ojizlanmoq – Kuchsizlanmoq I
ojizlashmoq – Kuchsizlanmoq II
ojizlik – Kuchsizlik
Okean
ol – Qizil
Ola
olabayroq – Ola
ola-bula – Ola
olam – Dunyo
olamurut – Nok
olapes – Ola
ola-qura – Ola
olataroq – Ola
olacha – Qirchang‘i
Old(ida)
oldin – Avval
oldindan – Avvaldan
Oldinga

oldingi – Avvalgi
olhirot – Olxo‘ri
olibsotar – Chayqovchi
Olifta
olinmoq – Bo‘shamoq
olis – Uzoq I
olis – Uzoq II
olis bo‘lmoq – Uzoq bo‘lmoq
olisda – Uzoqda
olisdagi – Uzoqdagi
olisdan – Uzoqdan
olislamoq – Uzoqlashmoq
olislashmoq – Uzoqlashmoq
olislik – Uzoqlik
olislik qilmoq – Uzoqlik qilmoq
olis qilmoq – Uzoq qilmoq
Oliy
olishmoq – Urishmoq
olishuv – Urush
olmoq – Aytmoq III
olmoq – Ichmoq II
olmoq – Kesmoq II
olmoq – Yemoq
olov – O‘t I
olovlanmoq – Yonmoq I
olqish – Maqtov
Oltin
olu – Olxo‘ri
Olxo‘ri
olg‘a – Oldinga
olchoq – Ablah
olchoqlik – Ablahlik
omilkor – Mirishkor
omilkorlik – Mirishkorlik
omonim – Shakldosh
omonimiya – Shakldoshlik
omonlashmoq – Salomlashmoq
omonsiz – Ayovsiz
on – Soniya
on – Vaqt
Ona
oniy – Birpas
ont – Qasam
ont ichmoq – Qasam ichmoq
Opa
opa – Ona
oppoq – Oq
Oq
Oqarmoq I
Oqarmoq II
oqibat – Natija
oqibatida – Sababli
oqil – Aqlli
oqlovchi – Advokat
oqpar – Oq
oqsamoq – Cho‘loqlanmoq
oqsoq – Cho‘loq
oqsoqlanmoq – Cho‘loqlanmoq
oqsoqlik – Cho‘loqlik
oqsoqol – Chol
oqsuyak – Asilzoda
oqshom – Kecha
oqshom – Namozshom
oqshomgi – Kechki II
or – Uyat
ora – Munosabat
oraliq – Masofa
ora-sira – Ba’zan
orasta – Saranjom
oraz – Yuz
ordona – Sabil
ordona qolmoq (qolgur) – Sabil qolmoq
Oriq
oriqlamoq – Ozmoq
oriyat – Uyat
orlanmoq – Nomus qilmoq
or-nomus – Uyat
oro – Pardoz
oroyish – Pardoz

Orqa
orqama-ketin – Ketma-ket
orqasida – Sababli
orqayin – Bemalol
or qilmoq – Nomus qilmoq
ort – Orqa
Ortiq
ortiq – Afzal
ortiq – Boshqa II
ortiqlik – Afzallik
ortiqcha – Behuda
ortiqcha – Keraksiz
Ortmoq
ortmoq – Ko‘paymoq I
orzu – Istak
orzulamoq – Istamoq
orzu qilmoq – Istamoq
Osmon
Oson
osoyishta – Tinch I
osoyishta – Tinch II
osoyishtalik – Tinchlik I
osoyishtalik – Tinchlik II
Ost
Ostona
osuda – Tinch I
osuda – Tinch II
osudalik – Tinchlik I
osudalik – Tinchlik II
Ot I
Ot II
Ota
otamlashmoq – Suhbatlashmoq
otash – O‘t I
Otboqar
otiz – Paykal
Otmoq
otmoq – Ichmoq II
Otxona
ovloq – Xilvat
Ovora
ovora – Mashg‘ul
Ovoz
ovoza – Dovruq
ovoza – Xabar
ovoza qilmoq – Xabar qilmoq
Ovozsiz
Ovqat
ovqatlanmoq – Yemoq
ovsar – Anqov
ovsar bo‘lmoq – Tentak bo‘lmoq
ovul – Qishloq
Ovunmoq
ovunch – Ovunchoq
Ovunchoq
Ovutmoq
Ovchi
Oxir I
Oxir II
oxirat – Qiyomat
Oxirgi
oxirgi – Keyingi II
oxirlamoq – Tugamoq
oxirlatmoq – Tugatmoq II
oxirlatmoq – Tugatmoq III
Oy
oybaldoq – Zirak
oydin – Aniq
oydinlashmoq – Ma’lum bo‘lmoq
oyi – Ona
Oylik
oymoma(o) – Oy
Oyna
oyoq – Oxir I
oyoq – Oxir II
oyoq kiyim – Poyabzal
oz – Kam
ozaymoq – Kamaymoq
Ozgina
ozgina – Birpas

ozib-to‘zmoq – Ozmoq
oziq – Ovqat
Ozmoq
oz-moz – Ozgina
Ozod
ozod bo‘lmoq – Qutulmoq
Ozodlik
ozoda – Toza I
ozoda – Toza II
ozod bo‘lmoq – Qutulmoq
ozod qilmoq – Bo‘shatmoq
ozod qilinmoq – Bo‘shamoq
ozor – Azob
ozorlanmoq – Xafa bo‘lmoq
ozor chekmoq – Xafa bo‘lmoq
ozg‘in – Oriq
ozg‘inlamoq – Ozmoq
og‘a – Aka
og‘ayni – O‘rtoq
og‘aynilik – O‘rtoqlik
og‘il – Molxona
og‘ilxona – Molxona
Og‘ir I
Og‘ir II
og‘ir – Qiyin
og‘ir bo‘lmoq – Yomonlashmoq
og‘irbo‘y – Homilador
Og‘irkarvon
og‘irlashmoq – Qiyinlashmoq
og‘irlashmoq – Yomonlashmoq
Og‘irlik
og‘iroyoq – Homilador
og‘irchilik – Qiyinchilik
og‘rimoq – Kasal bo‘lmoq
og‘riq – Azob
og‘riq – Kasal
og‘riqli – Azobli
og‘u – Zahar
og‘ulamoq – Zaharlamoq
og‘uli – Zaharli
og‘ush – Quchoq
Osh
osh – Ovqat
oshib-toshmoq – Ko‘paymoq I
Oshiq
oshiq – Ortiq
oshiq bo‘lmoq – Sevmoq
Oshiqlik
oshig‘ich – Shoshilinch
oshkor – Ma’lum
Oshmoq
oshmoq – Ko‘paymoq I
oshna – O‘rtoq
oshnachilik – O‘rtoqlik
osh-non – Ovqat
Oshqozon
oshufta – Oshiq
oshufta bo‘lmoq – Sevmoq
oshuftalik – Oshiqlik
oshyon – In
ochilmoq – Yorishmoq I
ochilmoq – Yorishmoq II
ochiq – Aniq
ochiqqo‘llik – Saxiylik
ochig‘i – To‘g‘risi
Ochko‘z
ochmoq – Tuzmoq I
ochofat – Ochko‘z
ochqich – Kalit
ochun – Dunyo
Ong

P

padar – Ota
pahlavon – Botir
pahlavon – Polvon
Pakana
Palaxmon
palidlik – Ablahlik
palla – Vaqt
palov – Osh
palovxonto‘ra – Osh
panalamoq – To‘smoq II
pana qilmoq – To‘smoq II
pand – Nasihat
pandavaqi – Anqov
Panshaxa
papalamoq – Ardoqlamoq
paqqos – Butunlay
paralich – Shol
parazit – Tekinxo‘r
pardalamoq – To‘smoq II
Pardoz
pardoz bermoq – Sayqallamoq
parranda – Qush
partav – Nur
parvardigor – Xudo
parvarishlamoq – Boqmoq
parvarish qilmoq – Boqmoq
Parvona
Parvona bo‘lmoq
parvosiz – Beparvo
parvoyi falak – Beparvo
parvoz qilmoq (etmoq) – Uchmoq
Parcha
parchalamoq – Maydalamoq
parcha-parcha qilmoq – Maydalamoq
Pasaymoq
pasaymoq – Sekinlashmoq
pasaymoq – Susaymoq
Past
pastkash – Ablah
pastkashlik – Ablahlik
Paxta I
Paxta II
pay – Hissa
paydar-pay –To‘xtovsiz
paydo bo‘lmoq – Tug‘ilmoq
Paykal
paykon – O‘q
paymanchak – Zina
paymona – Qadah
Paypoq
payqamoq – Sezmoq
Payraha
payt – Vaqt
payvasta – Tutash
payvasta bo‘lmoq – Tutash bo‘lmoq
Payg‘ambar
payg‘omchi – Payg‘ambar
pachava – Chatoq
pedagog – O‘qituvchi
pedagoglik – O‘qituvchilik
peshana (peshona) – Taqdir
Peshin
peshlavha – Sarlavha
peshob – Siydik
peshob qilmoq – Siymoq
Peshona
peshonaband – Peshonabog‘
Peshonabog‘
peshqadam – Ilg‘or
pidana (pudina) – Yalpiz
pillapoya – Zina
pinhona – Yashirincha

pinj – Quchoq
pirovard – Oxir II
pirpirak – Varrak
pismiq – Kamgap
pismoq – Bekinmoq
Piyoda
piyonista – Ichkilikboz
Piyoz
pishiq – Puxta
pishiq – Xasis
pishiq bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
pishiqlik – Xasislik
pishiqlik qilmoq – Xasislik qilmoq
picha – Birpas
picha – Ozgina
Pichan
pichir – Pichir-pichir
Pichirlamoq
Pichir-pichir
pichir-pichir qilmoq – Pichirlamoq
piching – Kinoya
pichingli – Kinoyali
plagiator – Ko‘chirmachi
pnevmoniya – Zotiljam
podachi – Molboqar
pok – Toza I
pok – Toza II
pokiza – Toza I
pokiza – Toza II
pokchi – Yuvg‘uchi
pol – Paykal
poliz – Paykal
Polvon
polvon – Kuchli
Popishak
Popuk
Pora
poralamoq – Maydalamoq
pora-pora qilmoq (etmoq) – Maydalamoq
Poraxo‘r
Poraxo‘rlik
pori – Go‘ng
porloq – Yorug‘
porloq bo‘lmoq – Yorishmoq I
Porox
portret – Surat
posbon – Qorovul
Poyabzal
poyintar – Soyintar
poylamoq – Kutmoq
poyma-poy – Poyintar-soyintar
poyon – Oxir I
poyon – Oxir II
poyon – Chegara
poyonsiz – Bepoyon
Poshna
poshshaxon – Asil
Pocha
Pochcha
Pul
pullamoq – Sotmoq
pul qilmoq – Sotmoq
Puxta
pushaymon – Afsus I
pushaymon bo‘lmoq – Afsuslanmoq
pushaymoq qilmoq – Afsuslanmoq
pushmon – Afsus I
Pushta
pushtan – Ayil
Puch
puchmoq – Xilvat
po‘k – Puch
po‘la – Puch
po‘pillatmoq – Urmoq
po‘pisa – Do‘q
po‘pisa qilmoq – Do‘q qilmoq
po‘rim – Olifta
po‘saxona – Ostona
po‘st – Qobiq
po‘stloq – Qobiq
po‘choq – Qobiq

Q

qabih – Ablah
qabihlik – Ablahlik
qabihlik – Yomonlik
qabihlik qilmoq – Yomonlik qilmoq
qabilida – Tarzda
Qabr
Qabriston
qad – Qomat
Qadah
qadahkash – Kosagul
qadahkashlik – Kosagullik
Qadam
qadamjo – Ziyoratgoh
Qadamoq
qadamoq – Ekmoq
qaddi-qomat – Qomat
qadim – Avval
qadim – Qadimgi
qadimdan – Avvaldan
Qadimgi
qadimgi – Avvalgi
qadimiy – Qadimgi
qadrdon – Aziz
qadrdon – Inoq
qadrdonlashmoq – Inoqlashmoq
qadrli – Aziz
qadrli – Hurmatli
qahr – Jahl
qahrlanmoq – Achchiqlanmoq
qahqaha – Kulgi
qahqaha otmoq (urmoq) – Kulmoq
Qalam
qalamkash – Yozuvchi
Qalampir
qalb – Ko‘ngil
Qalbaki
Qalbakilik
qaldiroq – Momaqaldiroq
Qalin
qalin – Inoq
qalinlashmoq – Inoqlashmoq
qallob – Firibgar
qalqmoq – Qo‘zg‘almoq
Qalqon
qaltiramoq – Titramoq
qaltiroq – Titroq
qaltis – Nozik III
qalt-qalt qilmoq (etmoq) – Titramoq
Qal’a
Qamal
qamal qilmoq – O‘ramoq II
qamalga olmoq – O‘ramoq II
Qamamoq
qamar – Oy
Qamish
Qamishzor
qamramoq – Qoplamoq
Qamoq
qamoqxona – Qamoq
qamti kelmoq – Yuzma-yuz bo‘lmoq
qandaydir – Allaqanday
qani – Koshki
qani edi – Koshki
qani endi – Koshki
qaniydi – Koshki
qanoatlanarli – Qoniqarli
qanoatlantirarli – Qoniqarli
qanor – Qop
qancha – Har qancha
qanchalar – Namuncha

qanchalik – Namuncha
qaqir-ququr – Ashqol-dashqol
qaqramoq – Qurimoq
qaqroq – Tashna
Qaqshamoq
qarab – Tomon IV
qarab – Yarasha
Qaram
Qarama-qarshi
qarama-qarshi – Aks
qarama-qarshi – Yuzma-yuz
Qarama-qarshilik
Qaramlik
Qaramoq
qaramoq – Boqmoq
qaramoq – Hisoblamoq
qaratqi – Qo‘riqchi
Qarash
qarashmoq – Yordamlashmoq
qardosh – Qarindosh
Qari
Qarimoq
Qarindosh
qariya – Chol
qariyb – Deyarli
qarol – Qul
qarol – Xizmatkor
qaror – Ahd
qarorsiz – O‘zgaruvchan
qarovsiz – Sabil
Qarsak
Qarsakbozlik
Qarsak chalmoq
qartaymoq – Qarimoq
qartang – Qari
Qarz
Qarzdor
Qarg‘a
Qarg‘amoq
Qarg‘ish
qarshi – Aks
Qarshilik
qarshilik – To‘siq II
Qasam
Qasam ichmoq
qasamyod – Qasam
qasamyod qilmoq – Qasam ichmoq
qasd – O‘ch
qasos – O‘ch
Qassob
qat – Marta
qataloq – So‘na
qatla – Marta
Qatnashmoq
Qatnashchi
qator – Saf
qatorasiga – Surunkasiga
qatra – Tomchi I
qatra – Tomchi II
Qatrang‘i
Qattiq
qattiq – Juda
qattiq – Xasis
qattiq bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
qattiqlik – Xasislik
qattiqlik qilmoq – Xasislik qilmoq
qattiqchilik – Qiyinchilik
qattol – Qotil
qayd qilmoq (yoki etmoq) – Yozmoq
qaynamoq – Jo‘shmoq
qaynoq – Qizg‘in
qayqi – Qiyshiq
qayramoq – Gijgijlamoq
qaysar – O‘jar
qaysarlik – O‘jarlik
qayta – Marta
qayta – Boshqatdan
qaytadan – Boshqatdan
qaytarmoq – Takrorlamoq
qaytish qilmoq – O‘lmoq

qaytmoq – Sekinlashmoq
qayt qilmoq – Qusmoq
qayg‘u – Tashvish
qayg‘u – G‘am
qayg‘udosh – Hamdard
qayg‘ulanmoq – Xafa bo‘lmoq
qayg‘uli – Xafa
qayg‘urmoq – Tashvishlanmoq
qayg‘urmoq – Xafa bo‘lmoq
qayg‘usiz – Betashvish
Qazimoq
qazo – O‘lim
qazo qilmoq – O‘lmoq
qashshoq – Kambag‘al
qashshoqlashmoq – Kambag‘allashmoq
qashshoqlik – Kambag‘allik
Qachongacha
qiblagoh – Ota
qiblanamo – Kompas
qidirmoq – Izlamoq
Qil
Qilich
qilmish – Ayb
Qilmoq
qiltiriq – Oriq
qilvir(i) – Ayyor
qimirlamoq – Qo‘zg‘almoq
qimizak – Nordon
qimmatli – Aziz
qimtinmoq – Tortinmoq
qinqaymoq – Qiyshaymoq
qing‘ir – Qiyshiq
Qir
qirmizi – Qizil
qirqmoq – Kesmoq I
qirqmoq – Kesmoq II
qirriq– Ayyor
Qirg‘oq
Qirg‘ovul
Qirchang‘i
qisim – Siqim
Qisiq
qisir – Bolasiz
qism – Parcha
qismat – Taqdir
qisqa – Kalta
qistalang – Shoshilinch
qistamoq – Majburlamoq
qitday – Ozgina
Qiyin
Qiyinlashmoq
Qiyinchilik
qiyiq – Belbog‘
qiyiq – Qisiq
qiyiq – O‘jar
qiyiqcha – Belbog‘
qiymat – Narx
qiymoq – Boplamoq
Qiynamoq
qiyofa – Ko‘rinish
qiyom – Peshin
Qiyomat
Qiyosiy
qiyoslamoq – Solishtirmoq
qiyos qilmoq – Solishtirmoq
Qiyqim
qiyqindi – Qiyqim
qiyqirmoq – Baqirmoq
Qiyg‘os
qiyg‘os – Shovqin
Qiyshaymoq
Qiyshiq
qiy-chuv (ko‘tarmoq) – Shovqin
qiy-chuv qilmoq – Shovqin solmoq
Qiz
qizaloq – Qiz
qizarishmoq – Aytishmoq
Qizil
qizilcha – Lavlagi

qizimoq – Isimoq
Qiziqmoq
qiziqchi – Masxaraboz I
qiziqchilik – Masxarabozlik I
qizg‘anmoq – Rashk qilmoq
qizg‘anch – Rashk
qizg‘anchiq – Rashk
qizg‘anchiq – Rashkchi
qizg‘anchiq – Xasis
qizg‘anchiq bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
qizg‘anchiqlik – Rashk
qizg‘anchiqlik – Xasislik
qizg‘anchiqlik qilmoq – Xasislik qilmoq
Qizg‘in
Qishloq
qichqirmoq – Baqirmoq
qishloqdosh – Hamqishloq
qobil – Yuvosh
Qobiliyat
Qobiliyatli
qobillik – Yuvoshlik
Qobiq
Qolip
qolmoq – Bosilmoq
Qomat
qomatdor – Gavdali
Qon
qondosh – Qarindosh
Qoniqarli
qoniqmoq – Qonmoq
Qonmoq
qontalash – Qizil
Qonun
qonxo‘r – Zolim
Qop
Qoplamoq
qopi (yoki qopu) – Eshik
qopqa – Darvoza
qopqon – Tuzoq
qoq – Quruq
qoq – Xuddi
qoqindiq – Aylanay
qoqsuyak – Oriq
qoqvosh – Xasis
qoralamoq – Yomonlamoq
qoralamoq – Yozmoq
Qoramag‘iz
qoraoli (qaroli) – Olxo‘ri
qoraparang – Qoramag‘iz
qorash – Qoramag‘iz
qorashirg‘ay – Qoramag‘iz
qoracha – Qoramag‘iz
Qorin
qorinbog‘ – Ayil
qoriq – Pushta
Qorong‘i
qorong‘i – Qorong‘ilik
qorong‘ilashmoq – Kechkirmoq
Qorong‘ilik
qorong‘i tushmoq – Kechkirmoq
qorong‘izor – Qorong‘ilik
Qorovul
Qotil
qotirmoq – Boplamoq
qov – Paxta II
qovjiramoq – Qurimoq
qovjiroq – Quruq
qovushmoq – Qo‘shilmoq
qoyil – Balli
qoyilmaqom – Yaxshi
qoyil qilmoq – Boplamoq
qoyillatmoq – Boplamoq
Qosh
qosh(ida) – Old(ida)
Qochoq
qochqin – Qochoq
qochqindi – Qochoq
qubba – Gumbaz
qubosh – Qo‘riqchi

qudrat – Kuch
qudrat – Qurb
Qul
qulamoq – Yiqilmoq
qulingiz – Kamina
qullik – Asirlik
qullik – Qaramlik
qulluq – Rahmat
qulqulum – Ochko‘z
qumrol – Qo‘ng‘ir
Qumg‘on
Qunt
qur – Marta
Qurb
qurbon bo‘lmoq – O‘lmoq
Qurimoq
qurmoq – Yaratmoq
Qurol
qursoq – Qorin
qurumsoq – Xasis
qurumsoq bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
qurumsoqlik – Xasislik
qurumsoqlik qilmoq – Xasislik qilmoq
Quruq
quruqshamoq – Qurimoq
qurg‘oq – Quruq
qurshamoq – Qoplamoq
qurshamoq – O‘ramoq II
qurshov – Atrof
qurshov – Qamal
qurshovga olmoq – O‘ramoq II
qurch – Qattiq
Qusmoq
qut – Baxt
qutlamoq – Tabriklamoq
qutlov – Tabrik
qutqarmoq – Bo‘shatmoq
qutqu – G‘ulg‘ula
qutqu solmoq – G‘ulg‘ula solmoq
Qutulmoq
quv – Ayyor
quvlamoq – Haydamoq I
quvmoq – Haydamoq I
quvnamoq – Sevinmoq
Quvnoq
quvonmoq – Sevinmoq
quvramoq – Qurimoq
quvvat – Kuch
quvvat – Qurb
quvvatsiz – Kuchsiz
quvvatsizlanmoq – Kuchsizlanmoq I
quvvatsizlanmoq – Kuchsizlanmoq II
quvvatsizlik – Kuchsizlik
quyi – Past
quyilamoq – Pasaymoq
quyruq – Dum
quyruq – Dumba
Quyon
quyonyurak – Qo‘rqoq
quyonyuraklik – Qo‘rqoqlik
Quyosh
Quyun
Qush
qushnoch – Folbin
quchmoq – Quchoqlamoq
Quchoq
Quchoqlamoq
Qo‘l
qo‘l – Imzo
qo‘lansa – Sassiq
qo‘lansimoq – Sasimoq
qo‘lbola – Yasama
qo‘ldosh – yordamchi
qo‘lro‘mol(cha) – Ro‘molcha
Qo‘mondon
qo‘msamoq – Sog‘inmoq
qo‘ndirmoq – Kiymoq
qo‘nish – Qo‘shni
Qo‘nj

Qo‘nmoq
qo‘noq – Mehmon
Qo‘ng‘ir
qo‘ng‘iroq – Jingalak
qo‘pol – Qo‘rs
qo‘qqisdan – To‘satdan
qo‘ra – Molxona
qo‘ra – Qo‘yxona
qo‘rimoq – Qo‘riqlamoq
Qo‘riqlamoq
Qo‘riqchi
qo‘riqchi – Qorovul
qo‘rqinch – Qo‘rquv
Qo‘rqinchli
qo‘rqmas – Botir
qo‘rqmaslik – Mardlik I
Qo‘rqmoq
Qo‘rqoq
Qo‘rqoqlik
Qo‘rquv
Qo‘rs
qo‘rg‘on – Qal’a
qo‘ton – Qo‘yxona
qo‘yib yubormoq – Bo‘shatmoq
qo‘yin – Quchoq
qo‘yindi – Qabr
qo‘yindi – Qabriston
qo‘ymoq – Bosilmoq
qo‘ymoq – To‘xtatmoq
Qo‘yxona
Qo‘zg‘almoq
Qo‘zg‘olon
qo‘sh – Juft
qo‘shaloq – Juft
Qo‘shilmoq
qo‘shin – Armiya
qo‘shiq – Ashula
qo‘shiq aytmoq – Kuylamoq I
qo‘shiqchi – Ashulachi
Qo‘shni
qo‘shoq – Juft
qo‘chqil – Qizil



rabot – Karvonsaroy
rafiq – Er
rafiqa – Xotin
rahbar – Boshliq
rahm – Ayov
Rahmat
rahmsiz – Ayovsiz
rahnamo – Boshliq
ramaqijon – Oriq
ranjimoq – Xafa bo‘lmoq
raqib – Dushman
raqib bo‘lmoq – Dushman bo‘lmoq
raqqos – O‘yinchi
raqqosa – O‘yinchi
raqs – O‘yin
raqs etmoq – O‘ynamoq
rasm – Odat
rasm – Surat
rasmiyatparast – Rasmiyatchi
rasmiyatparastlik – Rasmiyatchilik
Rasmiyatchi
Rasmiyatchilik
rasmchi – Suratchi
raso – Yetuk
raso bo‘lmoq – Yetuklashmoq
Rassom
rasul – Payg‘ambar
Rasululloh – Payg‘ambar
rasvo – Chatoq
rasvo bo‘lmoq – Yomonlashmoq
rasvolashmoq – Yomonlashmoq
rasvolik – Yomonlik
ravishda – Tarzda
ravnaq – Rivoj
ravona bo‘lmoq – Ketmoq
ravza – Jannat
ravshan – Aniq
ravshan – Ma’lum
ravshan – Yorug‘
ravshan bo‘lmoq – Ma’lum bo‘lmoq
ravshan bo‘lmoq – Yorishmoq I
ravshan bo‘lmoq – Yorishmoq II
ravshanlashmoq – Ma’lum bo‘lmoq
ravshanlashmoq – Yorishmoq I
ravshanlashmoq – Yorishmoq II
razil – Ablah
razillik – Ablahlik
razillik – Yomonlik
razillik qilmoq – Yomonlik qilmoq
razm solmoq – Qaramoq
rag‘batlanmoq – Ruhlanmoq
Rashk
Rashk qilmoq
Rashkchi
Rang
rang-barang – Rangli
rangdor – Rangli
rangin – Rangli
Rangli
rango-rang – Rangli
Rangpar
rangsiz – Rangpar
rang-tus – Rang
ra’no – Na’matak
ra’no – Chiroyli
ra’y – Istak
redaktor – Muharrir
Reja
rejalamoq – Rejalashtirmoq
Rejalashtirmoq

Rejali
Rejasiz
ribo – Sudxo‘rlik
rioya qilmoq – Amal qilmoq
Rivoj
Rivojlanmoq
rivoyat – Afsona
riyo – Ikkiyuzlamachilik
riyokor – Ikkiyuzlamachi
riyokorlik – Ikkiyuzlamachilik
riyokorlik – Samimiyatsizlik
riyozat – Qiyinchilik
rizolik – Rozilik
Rizq
rizq-nasiba – Rizq 1
rizvon – Jannat
rishva – Pora
rishvaxo‘r – Poraxo‘r
rishvaxo‘rlik – Poraxo‘rlik
robita – Munosabat
Rohat
rohat-farog‘at – Rohat
rohat qilmoq – Rohatlanmoq
Rohatlanmoq
rom – Fol
romchi – Folbin
romchilik – Folbinlik
rosa – Juda
Rost I
Rost II
rostakam – Rostdan
rostakamiga – Rostdan
Rostdan
Rostgo‘y
rosti – To‘g‘risi
Rostlamoq
rostchi – Rostgo‘y
royish – Yuvosh
royishlik – Yuvoshlik
rozi bo‘lmoq – Ko‘nmoq
Rozilik
rozilik bermoq – Ruxsat bermoq
rozilik olmoq – Ruxsat olmoq
rozilik so‘ramoq – Ruxsat so‘ramoq
rosh – Qirg‘oq
Ruh
ruhan – Ruhiy
Ruhiy
Ruhlanmoq
ruhoniy – Ruhiy
Ruxsat
Ruxsat bermoq (etmoq)
Ruxsat olmoq
Ruxsat so‘ramoq
Ruxsatnoma
Ruxsatsiz
ruxsor – Yuz
ro‘baro‘ kelmoq – Uchramoq I
Ro‘dapo
Ro‘molcha
ro‘baro‘ – Yuzma-yuz
ro‘baro‘ bo‘lmoq – Yuzma-yuz bo‘lmoq
ro‘para – Yuzma-yuz
ro‘y bermoq – Bo‘lmoq
ro‘zg‘or – Oila

S

Sabab
sababdan – Sababli
sababkor – Sababchi
Sababli
Sababchi
Sabil (savil)
Sabil qolmoq
sabo – Shabada
sabot – Chidam
sabzak – Qoramag‘iz
Sadaqa
sadaqachi – Tilanchi
sado – Ovoz
sadoq – O‘qdon
sadoqat – Vafo
sadoqatli – Vafodor
sadoqatsiz – Vafosiz
sadosiz – Ovozsiz
Saf
safar – Marta
safar – Sayohat
safro – O‘t III
Safsataboz
safsatachi – Safsataboz
sahifa – Bet
Sahifama-sahifa
sahro – Cho‘l
sak – It
sakillamoq – Daydimoq
Sakramoq
Saksovul
sal – Birpas
sal – Ozgina
salanglamoq – Daydimoq
Salla
sallamno – Balli
sallamno – Maqtov
sallox – Qassob
salloxxona – Kushxona
salohiyat – Qobiliyat
salohiyatli – Qobiliyatli
salom-alik qilmoq – Salomlashmoq
salomatlik – Sog‘lik
Salomlashmoq
samarador – Unumli
samarador bo‘lmoq – Unumli bo‘lmoq
samarali – Unumli
samarali bo‘lmoq – Unumli bo‘lmoq
samarasiz – Unumsiz
samarasiz bo‘lmoq – Unumsiz bo‘lmoq
Samimiyatsizlik
samo – Osmon
Samolyot
samum – Garmsel
sanamoq – Hisoblamoq
Sandiqsoz
sandiqchi – Sandiqsoz
sandiroqlamoq – Daydimoq
sanoq – Son
Sanoqli
sanoqsiz – Ko‘p
sanoch – Mesh
sanqi (sang‘i) – Daydi
sanqilik (sang‘ilik) – Daydilik
sanqimoq (sang‘imoq) – Daydimoq
sansanlamoq – Sensiramoq
sansiramoq – Sensiramoq
sanchmoq – Qadamoq
sanchmoq – Tiqmoq
saodat – Baxt

saodatli – Baxtli
sapchimoq – Sakramoq
saqar – Do‘zax
saqlamoq – Qo‘riqlamoq
sar – Bosh
sara – Asil
saraklamoq – Chayqamoq
sarak-sarak qilmoq – Chayqamoq
Saralamoq
Saranjom
Saranjomlamoq
saranjom qilmoq – Saranjomlamoq
saranjom-sarishta qilmoq – Saranjomlamoq
sarbast – Ozod
sarbon – Karvonboshi
Sarflamoq
sarf qilmoq – Sarflamoq
sargardon – Ovora
sarhad – Chegara
sarhisob qilmoq (yoki etmoq) – Yakunlamoq
sari – Tomon IV
sarimoy – Sariyog‘
Sariq
sariqso‘fiyon – Popishak
sariqcha – Tirsak
Sariyog‘
sarishta – Saranjom
sarkarda – Qo‘mondon
sarkash – O‘jar
sarkashlik – O‘jarlik
sarkor – Boshliq
Sarlavha
sarosimaga tushmoq – Gangimoq
sarosimalanmoq – Gangimoq
sarson – Ovora
sarson-sargardon – Ovora
sarvat – Boylik
sarxil – Asil
sarxillamoq – Saralamoq
sarxush – Mast I
sarxush – Mast II
sas – Ovoz
Sasimoq
Sassiq
sassiqpopishak – Popishak
sassiz – Ovozsiz
satang – Olifta
sath – Yuza
savalamoq – Urmoq
savamoq – Urmoq
Savat
savdo – Tashvish
savdoyi bo‘lmoq – Tentak bo‘lmoq
Savol
Saxiy
Saxiylik
saxovat – Saxiylik
saxovatli – Saxiy
saxovatlilik – Saxiylik
saxovatpesha – Saxiy
saxovatpeshalik – Saxiylik
Sayilgoh
sayis – Otboqar
sayisxona – Otxona
saylamoq – Saralamoq
Sayohat
sayohatchi – Sayyoh
sayoq – Daydi
sayoqlik – Daydilik
sayoqlik qilmoq – Daydimoq
Sayoz
Sayqallamoq
sayr – Sayohat
sayrbog‘ – Sayilgoh
sayr etmoq – Aylanmoq
sayrgoh – Sayilgoh
sayyod – Ovchi
Sayyoh
sayyor – Ko‘chma I
sazo – Jazo

sazo – Ovoz
sazoq – Saksovul
sag‘ir – Yetim
sag‘ir bo‘lmoq – Yetim bo‘lmoq
sag‘ir qolmoq – Yetim qolmoq
sag‘irlik – Yetimlik
Sehr
sehrboz – Sehrgar
Sehrgar
sehr-jodu – Sehr
sehrchi – Sehrgar
Sekin
sekin-asta – Sekin
Sekinlashmoq
sekund – Soniya
sel – Jala
selgimoq (sergimoq) – Qurimoq
selpimoq – Siltamoq
seltanlamoq – Gandiraklamoq
Semirmoq
Semiz
senlamoq – Sensiramoq
sen-menga bormoq – Achchiqlashmoq
Sensiramoq
Sep
sepkildor – Sepkilli
Sepkilli
sepmoq – Sochmoq
sepsilmoq – Susaymoq
sepsimoq – Susaymoq
serfayz – Fayzli
sergak – Sezgir
sergap – Ezma
sergap bo‘lmoq – Ezmalanmoq
sergaplik – Ezmalik
sergo‘sht – Go‘shtdor
sergo‘sht – Go‘shtli
serharakat – Ishchan
serhasham – Dang‘illama
serhosil – Hosildor
serishva – Nozli
serkarashma – Nozli
sermashaqqat – Qiyin
sermoy – Yog‘li
sernoz – Nozli
serob – Ko‘p
serob – Mo‘l
serobgarchilik – Mo‘lchilik
seroblashmoq – Ko‘paymoq I
serobchilik – Mo‘lchilik
Serraymoq
sersoqol – Soqolli
sersoya – Soyali
serunum – Hosildor
seruyqu – Uyquchi
Serxarajat
serxarj – Serxarajat
seryog‘ – Yog‘li
serg‘ayrat – Ishchan
serchiqim – Serxarajat
Sevgi
Sevgili
Sevinmoq
sevinchi – Suyunchi
Sevmoq
Sezgi
Sezgir
Sezmoq
sidqidildan – Astoydil
sidqidildan – Bajonidil
Sifatsiz
sihat – Sog‘lik
Silamoq
siljimoq-Qo‘zg‘almoq
silkitmoq – Siltamoq
silliqlamoq – Sayqallamoq
siloh – Qurol
Siltamoq
simillamoq – Qaqshamoq
simirmoq – Ichmoq I
sim-siyo(h) – Qorong‘i
simustun – Simyog‘och

Simyog‘och
sinoat – Voqea
sinoq – Sinov
Sinov
sin solmoq – Qaramoq
Sinchli
sinchkor – Sinchli
sipar – Qalqon
sipehr – Osmon
sipo – Og‘ir II
sipolik – Og‘irlik
sipqarmoq – Ichmoq I
sipqirmoq – Ichmoq I
sipqormoq – Ichmoq I
siqilmoq – Xunob bo‘lmoq
Siqim
sira – Hech
sirasi – To‘g‘risi
sirasiga – Surunkasiga
sirkor – Sirchi
Sirpanmoq
Sirpanchiq
Sirt
sirt – Yuza
sirg‘anmoq – Sirpanmoq
sirg‘anchiq – Sirpanchiq
Sirchi
sitmoq – So‘kmoq
Siydik
siylamoq – Hurmat qilmoq
siyliq – Mukofot
siylov – Mukofot
siymo – Yuz
Siymoq
siyna – Ko‘krak I
siyna – Ko‘krak II
siyna – Ko‘ngil
siyoh – Ko‘rinish
siyosat – Do‘q
siyosat qilmoq – Do‘q qilmoq
siypalamoq – Silamoq
siypamoq – Silamoq
siyqa – Sayoz
Sizlamoq
sizlamoq – Qaqshamoq
sizlovuq – Sizlog‘ich
Sizlog‘ich
sizsiramoq – Sizlamoq
singalamoq – Qaramoq
singari – Kabi
sobiq – Avvalgi
sodda – Oddiy
sodiq – Vafodor
sodiqlik – Vafo
sodir bo‘lmoq – Bo‘lmoq
sof – Toza II
sof – Toza III
sohib – Ega
sohibjamol – Chiroyli
sohil – Qirg‘oq
sokin – Tinch I
sokin – Tinch II
sokinlik – Tinchlik I
sokinlik – Tinchlik II
Soliq
solig‘liq – To‘shog‘liq
solishmoq – Urishmoq
solishtirma – Qiyosiy
Solishtirmoq
sollanmoq – Tebranmoq
solmoq – Tiqmoq
solmoq – To‘shamoq
solmoq – Urmoq
solg‘it – Soliq
Son
Soniya
sonsiz – Ko‘p
Sop
sop bo‘lmoq – Tugamoq
soplamoq – Tugatmoq III
sop qilmoq – Tugatmoq I
sop qilmoq – Tugatmoq II

soqiy – Kosagul
soqiylik – Kosagullik
soqoldor – Soqolli
Soqolli
Soqov
soqqa – Pul
soqchi – Qorovul
Sotmoq
Sotqin
sovuq – Xunuk
sovuqqon – Beparvo
Sovg‘a
sovg‘a-salom – Sovg‘a
soxt – Qomat
soxta – Qalbaki
soxtalik – Qalbakilik
soxtalik – Samimiyatsizlik
soxt-sumbat – Qomat
Soya
soyador – Soyali
Soyali
soyapar(var) – Dangasa
soyapar(var) bo‘lmoq – Dangasa bo‘lmoq
soyapar(var)lik – Dangasalik
Soz
soz – Qamish
soz – Yaxshi
Sozanda
sozliq – Qamishzor
sozloq – Qamishzor
sozchi – Sozanda
Sog‘aymoq
sog‘i – Qo‘nj
Sog‘inmoq
sog‘inmoq – Istamoq
Sog‘lik
Sochiq
Sochmoq
stolba – Simyog‘och
Subut
subutsiz – Betayin
Sudxo‘rlik
Suhbatdosh
Suhbatlashmoq
suhbat qilmoq – Suhbatlashmoq
sukunat – Tinchlik I
suldar – Gavda
sulgun – Qirg‘ovul
sulloh – Bezbet
sullohlik – Bezbetlik
suluk – Chiroyli
suluv – Chiroyli
sumbat – Qomat
sun’iy – Qalbaki
sun’iylik – Qalbakilik
supraqoqdi – Kenja
Supurgi
suq – Kinna
suq – Ochko‘z
suq(a)toy – Ochko‘z
suqmoq – Tiqmoq
sur – Quruq
sur – Bezbet
Surat
suratda – Tarzda
suratkash – Suratchi
suratkash – Rassom
Suratchi
surbet – Bezbet
surlik – Bezbetlik
surmoq – Ketmoq
suron – Shovqin
sursat – Soliq
surtki – Sochiq
Surunkasiga
surunkasiga – To‘xtovsiz
Susaymoq
susaymoq – Sekinlashmoq
sust – Og‘irkarvon
sust – Sekin
sustkash – Og‘irkarvon

sustkashlik qilmoq – Imillamoq
sustlashmoq – Imillamoq
sustlashmoq – Sekinlashmoq
sutrang – Oq
suveren – Ozod
suverenitet – Ozodlik
suvlamoq – Ho‘llamoq
suvsamoq – Chanqamoq
suvsiramoq – Chanqamoq
suvsoq – Tashna
suvsoq bo‘lmoq – Chanqamoq
suxan – So‘z
Suxandon
suxangar – Suxandon
suxanvar – Suxandon
Suyak
Suyaksiz
suyanmoq – Asoslanmoq
suymoq – Sevmoq
suyukli – Sevgili
suyunmoq – Sevinmoq
Suyunchi
Suzma
Sug‘urmoq
So‘fi
So‘kmoq
so‘l – Chap
so‘liq – So‘lg‘in
so‘liqlik – So‘lg‘inlik
so‘lish olmoq – Nafas olmoq
so‘l-u sog‘– Atrof
So‘lg‘in
So‘lg‘inlik
So‘na
so‘niqlik – So‘lg‘inlik
so‘nmoq – O‘chmoq
so‘qir – Ko‘r
so‘qishmoq – Urishmoq
so‘qmoq – Urmoq
so‘qqabosh – Kimsasiz
so‘rab-surishtirmoq – So‘ramoq
So‘ramoq
so‘ramoq – Boshqarmoq
so‘rashmoq – Salomlashmoq
so‘ri – Chorpoya
so‘roq – Savol
so‘roqlamoq – So‘ramoq
so‘roq qilmoq – Tergov qilmoq
so‘roqsiz – Ruxsatsiz
so‘rraymoq – Serraymoq
so‘tak – Lapashang
so‘tmoq – So‘kmoq
so‘ylamoq – So‘zlamoq
So‘z
so‘zamol – Suxandon
so‘zan – Nina
so‘zanak – Ninachi
so‘zboshi – Kirish
So‘zlamoq
so‘zlik – Lug‘at
so‘zsiz – Albatta
so‘g‘in – Keyin
so‘g‘on – Piyoz
so‘ng – Keyin I
so‘ng – Keyin II
so‘ng – Oxir II
so‘ngak – Suyak
so‘nggi – Oxirgi
so‘nggi – Keyingi II
so‘ngra-Keyin I
so‘ngra – Keyin II

T

taaddi – Zulm
taajjub – Hayronlik
taajjublanarli – Ajab
taajjublanmoq – Ajablanmoq
taajjubli – Ajab
taalluq – Aloqa
taalluqdor qilmoq – Uylantirmoq
taalluqli – Aloqador
taassuf – Afsus I
taassuf – Afsus II
taassuflanmoq – Afsuslanmoq
tabla – Otxona
Tabrik
Tabriklamoq
tabrik qilmoq – Tabriklamoq
tadbir – Chora
tadbirkor – Ishbilarmon
tadbirkorlik – Ishbilarmonlik
tadorik – Tayyorgarlik
Tadqiq qilmoq (etmoq)
taffot – Garmsel
tafovut – Farq
tafovutli – Farqli
tafriq(a) – Farq
taft – Harorat
taftish qilmoq – Tekshirmoq III
tahammul – Chidam
tahammul qilmoq – Chidamoq
tahdid – Do‘q
tahlika – Xavf
tahlikali – Xavfli
tahlil qilmoq (yoki etmoq) – Tadqiq qilmoq (etmoq)
tahsin – Maqtov
tajang – Asabiy
takabbur – Manman
takabburlanmoq – Kerilmoq
takabburlik – Manmanlik
taklif qilmoq – Aytmoq II
takomillashmoq – Yetuklashmoq
takomil topmoq – Yetuklashmoq
takror – Yana
Takrorlamoq
talafot – Zarar
talant – Qobiliyat
talantli – Qobiliyatli
talay – Ko‘p
talashmoq – Bahslashmoq
talmovsiramoq – Gangimoq
talpanglamoq – Tebranmoq
taltanglamoq – Tebranmoq
tal’at – Yuz
tamanno – Noz
tamiz – Fahm
tamom – Bas
tamom – Butunlay
tamoman – Butunlay
tamom bo‘lmoq – Tugamoq
tamomi – Hamma
tamomila – Butunlay
tamomlamoq – Bitirmoq
tamomlamoq – Tugatmoq I
tamomlamoq – Tugatmoq II
tamomlamoq – Tugatmoq III
tamom qilmoq – Tugatmoq I
tamom qilmoq – Tugatmoq II
tamom qilmoq – Tugatmoq III
tamom qilmoq – Bitirmoq
tamtam – Kelishgan
tamug‘ – Do‘zax

tamg‘a – Belgi
tan – Hissa
tan(a) – Badan I
tan(a) – Badan II
tanazzul – Inqiroz
tanbal – Dangasa
tanbal bo‘lmoq – Dangasa bo‘lmoq
tanballashmoq – Dangasa bo‘lmoq
tanballik – Dangasalik
tanballik qilmoq – Dangasalik qilmoq
Tanbeh
tanho – Faqat
tanho – Birdan-bir
tanho – Yolg‘iz
tanho bo‘lmoq – Yolg‘iz bo‘lmoq
tanholik – Yolg‘izlik
taniq – Belgi
taniqli – Atoqli
tanlamoq – Saralamoq
tanmahram – Er
tanovul qilmoq – Yemoq
tanqis – Noyob
tanqislik – Yetishmovchilik
tanti – Mard
tanti – Saxiy
tantilik – Mardlik II
taom – Ovqat
taomil – Odat
taomlanmoq – Yemoq
tappot – Garmsel
Taqdir
taqir – Hech
taqovul – Loyiq
taqqoslama – Qiyosiy
taqqoslamoq – Solishtirmoq
taqrir – Xat
Taqsimlanmoq
taqsim qilmoq – Taqsimlanmoq
taqchil – Noyob
taraddud – Tayyorgarlik
taraf – Tomon I
taraf – Tomon II
taraf – Tomon III
taraf – Tomon IV
tarannum qilmoq (etmoq) – Kuylamoq II
taraqqiy – Rivoj
taraqqiyot – Rivoj
taraqqiy qilmoq (etmoq) – Rivojlanmoq
tarbiyali – Odobli
tarbiyasiz – Odobsiz
tarbiyasizlik – Odobsizlik
tarbiyasizlik qilmoq – Odobsizlik qilmoq
tariqa – Tarzda
Tarjima
Tarjima qilmoq
tarjimachi – Tarjimon I
tarjimachilik – Tarjimonlik
Tarjimon I
Tarjimon II
Tarjimonlik
Tarjimonlik qilmoq
tarkidunyochilik – Zohidlik
tarona – Kuy
tarroh – Me’mor
tarsaki – Shapaloq
tarsakilamoq – Shapaloqlamoq
tarsaki tortmoq – Shapaloqlamoq
tarsaki tushirmoq – Shapaloqlamoq
tartib qilmoq – Tuzmoq II
tartibli – Rejali
tartibli – Saranjom
tartibga solmoq (keltirmoq) – Saranjomlamoq
tartibsiz – Rejasiz
tarxash – O‘jar
tarxashlik – O‘jarlik
Tarzda

tasadduq – Aylanay
tasalli – Taskin
tasanno – Balli
Taskin
taslim qilmoq (etmoq) – Yengmoq
tasqara – Xunuk
tasvir – Surat
tavallo – Iltimos
tavkargir – Cho‘talchi
taxlitda – Tarzda
taxmin – Chama
Taxminiy
taxmin qilmoq – Chamalamoq
taxt – Tayyor I
taxt – Tayyor II
taxt bo‘lmoq – Tayyor bo‘lmoq
taxtlamoq – Tayyorlamoq
taxt qilmoq – Tayyorlamoq
tayanmoq – Asoslanmoq
tayin – Albatta
tayin qilmoq (etmoq) – Rejalashtirmoq
tayinsiz – Betayin
tayinsiz – Noaniq
tayr – Qush
tayxar (toyxar) – Xo‘tik
Tayyor I
Tayyor II
Tayyor bo‘lmoq
tayyor qilmoq – Tayyorlamoq
tayyora – Samolyot
Tayyorgarlik
tayyorgarchilik – Tayyorgarlik
Tayyorlamoq
Tayyorlanmoq
tayyorlik – Tayyorgarlik
tag‘in – Yana
tash – Sirt
tashakkur – Rahmat
tashkil qilmoq (yoki etmoq) – Tuzmoq I
tashlamoq – To‘shamoq
tashlamoq – To‘xtatmoq
tashlashmoq – Urishmoq
Tashna
Tashna bo‘lmoq
tashna bo‘lmoq – Chanqamoq
Tashnalik
tashqari – Boshqa II
tashrif buyurmoq – Kelmoq
Tashvish
tashvish – G‘am
tashvish qilmoq – Tashvishlanmoq
Tashvishlanmoq
tashvishsiz – Tinch II
tazarv – Qirg‘ovul
tang – Shoshilinch
tangri – Xudo
ta’b – Istak
ta’m – Maza
ta’mli – Shirin I
ta’msiz – Bemaza
Ta’na
ta’na-dashnom – Ta’na
ta’na-mazammat – Ta’na
Ta’na qilmoq
ta’viya – Xunuk
ta’zir – Jazo
Tebranmoq
tegish – Hissa
tegishli – Aloqador
tegishmoq – Hazillashmoq
tegishqoq – Hazilkash
tegra – Atrof
tek – Tinch I
tek bo‘lmoq – Tinchimoq
tekintomoq – Tekinxo‘r
Tekinxo‘r
tekis – Qiyg‘os
tekshirmoq – Tadqiq qilmoq (etmoq)

Tekshirmoq I
Tekshirmoq II
Tekshirmoq III
telba – Ahmoq
telba bo‘lmoq – Tentak bo‘lmoq
telba-teskari – Poyintar-soyintar
tentak – Ahmoq
Tentak bo‘lmoq
tentimoq – Daydimoq
tentiraklamoq – Daydimoq
tentiramoq – Daydimoq
tepalik – Qir
teran – Chuqur
tergamoq – Tekshirmoq I
tergamoq – Tergov qilmoq
Tergov qilmoq
termilmoq – Qaramoq
termoq – Saralamoq
ters – Aks
ters – Qo‘rs
tersfe’l – Qo‘rs
teskari – Aks
Tetik
tetik bo‘lmoq – Tetiklashmoq
tetiklanmoq – Tetiklashmoq
Tetiklashmoq
tevarak – Atrof
tevat – It
Tez
tez – Darrov
tezak – Go‘ng
tezda(n) – Darrov
Tezlamoq
tezlamoq – Gijgijlamoq
tezlikda – Darrov
Teng I
Teng II
Teng bo‘lmoq
Tengdosh
Tengdosh bo‘lmoq
teng-hamqur – Tengdosh
tengqur – Tengdosh
tengqur bo‘lmoq – Tendosh bo‘lmoq
teng-tush (teng-to‘sh) – Tengdosh
teng-tush bo‘lmoq (teng-to‘sh bo‘lmoq) – Tendosh bo‘lmoq
Tik
tikka – Tik
tiklamoq – Rostlamoq
tiklashmoq – Aytishmoq
tikmoq – Ekmoq
Til
tilamoq – Istamoq
Tilanchi
tiliklamoq – Tilimlamoq
Tilimlamoq
tilim qilmoq – Tilimlamoq
tilim-tilim qilmoq – Tilimlamoq
tilkalamoq – Maydalamoq
tilka-tilka qilmoq (etmoq) – Maydalamoq
tilla (tillo) – Oltin
tilmoch – Tarjimon I
tilmochlik – Tarjimonlik
tilmochlik qilmoq – Tarjimonlik qilmoq
tilsiz – Soqov
tilyog‘lama – Laganbardor
tilyog‘lamalik – Laganbardorlik
tilyog‘lamachi – Laganbardor
tilyog‘lamachilik – Laganbardorlik
timdalamoq – Yulmoq
tin – Nafas
tinimsiz – To‘xtovsiz
tinmoq – Bosilmoq
tinmoq – Tinchimoq
tin olmoq – Nafas olmoq
Tinch I
Tinch II
tinch bo‘lmoq – Tinchlanmoq

Tinchimoq
tinchimoq – Tinchlanmoq
Tinchlanmoq
tinchlanmoq – Tinchimoq
Tinchlik I
Tinchlik II
tinchlik-osoyishtalik – Tinchlik I
tinch-osoyishta – Tinch I
tinchsizlanmoq – Bezovtalanmoq
tip – Tur
Tiqmoq
tir – O‘q
tirdon – O‘qdon
Tirik
tiriktovon – Boshog‘riq
tirikchilik – Turmush
tirish – Ajin
tirishmoq – Urinmoq
tirishqoq – Ishchan
tirjaymoq – Jilmaymoq
tirnoqcha – Hech
tirriq – G‘irrom
Tirsak
tirg‘anmoq – Sirpanmoq
tirg‘anchiq – Sirpanchiq
titkilamoq – Titmoq
Titmoq
Titramoq
Titroq
tixir – O‘jar
tixirlik – O‘jarlik
tiyrak – Sezgir
tiyrak – Tetik
tiyrak bo‘lmoq – Tetiklashmoq
tiyraklashmoq – Tetiklashmoq
tig‘iz – Qalin
tig‘iz – Shoshilinch
tinglamoq – Eshitmoq
toabad – Abadiy
tob – Sog‘lik
tob bermoq – Chidamoq
tobe – Qaram
tobelik – Qaramlik
toifa – Tur
tokay(gacha) – Qachongacha
tole – Baxt
toleli – Baxtli
tolesiz – Baxtsiz
toliqmoq – Charchamoq
tolmoq – Charchamoq
toltush – Peshin
tomir – O‘rtoq
Tomon I
Tomon II
Tomon III
Tomon IV
tomoq – Ovqat
tomoshabog‘ – Sayilgoh
Tomchi I
Tomchi II
tonqa (tanqa) – Qumg‘on
topqir – Marta
toq – Gumbaz
toqat – Chidam
toqatli – Chidamli
toqat qilmoq – Chidamoq
toqatsizlanmoq – Bezovtalanmoq
toqatsizlik – Bezovtalik
tor-mor qilmoq (etmoq) – Yengmoq
Tortinmoq
tortiq – Sovg‘a
tortishmoq – Bahslashmoq
tortishuv – Bahs
tortmoq – Ichmoq II
tot – Maza
totli – Shirin I
totli – Shirin II
totmoq – Yemoq
totsiz – Bemaza

totuv – Ahil
totuv – Inoq
totuvlashmoq – Inoqlashmoq
tovar – Mol
tovlamachi – Firibgar
tovoq – Lagan
tovush – Ovoz
tovushqon – Quyon
tovushsiz – Ovozsiz
toyinmoq – Sirpanmoq
toymoq – Sirpanmoq
toyg‘anoq – Sirpanchiq
toyg‘oq – Sirpanchiq
Toza I
Toza II
Toza III
toza – Juda
tosh – Qattiq
toshdaraxt – Qatrang‘i
toshoyna – Oyna
tuban – Past
tubanlamoq – Pasaymoq
tubanlik – Ablahlik
tufayli(dan) – Sababli
tugallamoq – Bitirmoq
Tugamoq
tugatmoq – Bitirmoq
Tugatmoq I
Tugatmoq II
Tugatmoq III
tugatmoq – Yakunlamoq
tuhfa – Sovg‘a
Tuhmat
Tuhmat qilmoq
Tuhmatchi
tuk – Qil
tul – Beva
tulki – Ayyor
tullak – Ayyor
tulpor – Ot II
tumtaroqli – Balandparvoz
tumshuq – Burun
tun – Kecha
tund – Qo‘rs
tungi – Kechki II
tuppa-tuzuk – Yaxshi
Tur
tur – Ket
turarjoy – Uy
turbat – Qabr
turist – Sayyoh
turli – Farqli
turma – Qamoq
Turmush
turq – Ko‘rinish
turq – Yuz
turush – Nordon
turg‘un – O‘troq
tus – Ko‘rinish
tus – Rang
tusamoq – Istamoq
tusmol – Chama
tusmoliy – Taxminiy
tusmollamoq – Chamalamoq
tusmol qilmoq – Chamalamoq
tustovuq – Qirg‘ovul
Tutash
Tutash bo‘lmoq
tutinmoq – Boshlamoq
Tutmoq
tutmoq – Qoplamoq
tutqa – Sop
tutqi – Sop
tutqich – Sop
tutqun – Asir
tutqunlik – Asirlik
Tutun
tuturuqsiz – Betayin
Tuxum
tuymoq – Sezmoq

tuyqusdan (tuyqus, tuyuqsindan) – To‘satdan
tuyg‘u – Sezgi
tuyg‘un – Sezgir
tuzalmoq – Sog‘aymoq
tuzatmoq – Davolamoq
Tuzmoq I
Tuzmoq II
Tuzoq
tuzuk – Qonun
tuzuk – Yaxshi
tuzuk – Bo‘pti
tug‘– Bayroq
tug‘dona – Qatrang‘i
Tug‘ilmoq
tug‘ishgan – Qarindosh
tush – Peshin
tushirmoq – Urmoq
tushirmoq – Yemoq
tushmoq – Bo‘shamoq
tushum – Foyda II
Tushunmoq
tushunmoq – Hisoblamoq
to‘da – To‘p I
to‘da – To‘p II
to‘dalamoq – Yig‘moq
to‘fon – Shamol
to‘kin – Mo‘l
to‘kinlik – Mo‘lchilik
to‘kin-sochin – Mo‘l
to‘kin-sochinlik – Mo‘lchilik
to‘kinchilik – Mo‘lchilik
to‘kis – Bekam-ko‘st
to‘kis – To‘liq
to‘kma – Ziyofat
To‘la
to‘la – Atroflicha
to‘la – Semiz
to‘la – To‘liq
to‘la (to‘liq) – Bekam-ko‘st
to‘la-to‘kis – Atroflicha
to‘la-to‘kis – Bekam-ko‘st
to‘la-to‘kis – To‘liq
To‘liq
to‘liq – Atroflicha
to‘liq – To‘la
To‘liqsiz
to‘lishmoq – Semirmoq
to‘nbichar – Qiz
To‘p I
To‘p II
to‘plamoq – Yig‘moq
to‘polon – Janjal
to‘potar – Peshin
to‘ppa-to‘g‘ri – To‘g‘ridan to‘g‘ri
To‘qimoq
to‘qishtirmoq – Urishtirmoq II
to‘qnashmoq – Uchramoq I
to‘qol – Shoxsiz
to‘ra – Rasmiyatchi
to‘ralik – Rasmiyatchilik
to‘ramoq – Tug‘ilmoq
to‘rachilik – Rasmiyatchilik
to‘rs – Qo‘rs
to‘rsiq – Mesh
to‘rva – Qop
to‘rvaqoqdi – Kenja
To‘satdan (to‘sat, to‘sindan)
To‘siq I
To‘siq II
to‘siq – Qarshilik
To‘siq bo‘lmoq
to‘siqlik – Qarshilik
to‘siqlik – To‘siq II
To‘smoq I
To‘smoq II
to‘sqin – Qarshilik
to‘sqin – To‘siq II
to‘sqinlik – Qarshilik
to‘sqinlik – To‘siq II

to‘sqovul – Qorovul
to‘xtam – Ahd
to‘xtamga kelmoq – Ahd qilmoq
to‘xtamoq – Bosilmoq
To‘xtatmoq
To‘xtovsiz
to‘ymoq – Qonmoq
to‘zim – Chidam
to‘zimli – Chidamli
to‘zon – Chang
to‘g‘namoq – Qadamoq
to‘g‘onoq – Qarshilik
to‘g‘onoq – To‘siq II
to‘g‘onoq bo‘lmoq – To‘siq bo‘lmoq
To‘g‘ri
to‘g‘ri – Rost I
to‘g‘ri – Rost II
to‘g‘ri – Tik
to‘g‘ri – To‘g‘ridan to‘g‘ri
To‘g‘ridan to‘g‘ri
to‘g‘rilamoq – Rostlamoq
to‘g‘ri-noto‘g‘ri – Yolg‘on I
To‘g‘risi
to‘g‘riso‘z – Rostgo‘y
to‘sh – Ko‘krak II
to‘shakxona – Yotoq
To‘shamoq
To‘shog‘liq
to‘ng – Qo‘rs
to‘ngmoq – Muzlamoq

U

u-bu – Alay-balay
udarnik – Ilg‘or
uddaburon – Abjir
uddalamoq – Eplamoq
udda qilmoq – Eplamoq
udum – Odat
ujmoh (uchmoh) – Jannat
ulfat – O‘rtoq
ulgi – O‘rnak
ulgi olmoq – O‘rnak olmoq
ulkan – Katta
ulkanlashmoq – Kattalashmoq
ulkanlik – Kattalik
uloqtirmoq – Otmoq
ulus – Xalq
ulug‘ – Katta
ulug‘lashmoq – Kattalashmoq
ulug‘lik – Kattalik
ulush – Hissa
ulg‘aymoq – O‘smoq
ummon – Okean
Umr
umrbod – Abadiy
umrdosh – Er
umrguzaronlik qilmoq – Yashamoq
Umumiy
umumiy bo‘lmoq – Umumiylashmoq
Umumiylashmoq
Umumiylik
un – Ovoz
unamoq – Ko‘nmoq
unda-bunda – Ba’zan
unmoq – Ko‘karmoq
unnamoq – Urinmoq
unsiz – Ovozsiz
unumdor – Hosildor
unumdor – Unumli
Unumli
unumli – Hosildor
Unumli bo‘lmoq
Unumsiz
Unumsiz bo‘lmoq
uqmoq – Tushunmoq
uqubat – Azob
uqubatli – Azobli
uquv – Fahm
uquv – Qobiliyat
uquvli – Qobiliyatli
urf – Odat
urf-odat – Odat
Urinmoq
urinchoq – Ishchan
Urishmoq
urishmoq – Urush qilmoq
Urishqoq
Urishtirmoq I
Urishtirmoq II
Urmoq
urmoq – Ichmoq II
urmoq – Yemoq
urug‘ – Qarindosh
Urush
Urush qilmoq
urchimoq – Ko‘paymoq I
urchimoq – Ko‘paymoq II
Usta
Ustalik
ust-bosh – Kiyim
ustomon – Ayyor
ustoz (ustod) – O‘qituvchi

ustozlik – O‘qituvchilik
ustun – Afzal
ustun kelmoq – Yengmoq
ustunlik – Afzallik
ustuxon – Suyak
uvada – Juldur
uvvalo – Astoydil
uvvalo – Juda
Uy
uy – Oila
uy – Xona
uy-joy – Uy
uy-joyli – Uyli
uy-joyli bo‘lmoq – Uyli bo‘lmoq
uya – In
Uyalmoq
Uyat
uyat-andisha – Uyat
uyatli – Badnom
uyatli bo‘lmoq – Uyalmoq
uyatmoq – Uyalmoq
uyatsiz – Bezbet
uydirma – Afsona
uydirma – Yolg‘on II
uydirmachi – Yolg‘onchi
uylamoq – Uylantirmoq
Uylanmoq
Uylantirmoq
Uyli
Uyli bo‘lmoq
uyli qilmoq – Uylantirmoq
uymalanmoq – O‘ralashmoq
uymalashmoq – O‘ralashmoq
uymoq – Yig‘moq
uyqusiz – Uyg‘oq
Uyqusiz bo‘lmoq
Uyqusizlik
uyquchan – Uyquchi
Uyquchi
uyum – To‘p I
uyum – To‘p II
uyurma – Quyun
uyushma – Jamoa
Uyg‘oq
uzatmoq – Kuzatmoq
Uzaymoq
uzilmoq – O‘lmoq
uzluksiz – To‘xtovsiz
Uzoq I
Uzoq II
Uzoq bo‘lmoq
Uzoq qilmoq
uzoq qolmoq – Kechikmoq
Uzoqda
Uzoqdagi
Uzoqdan
uzoqib ketmoq – Kechikmoq
uzoqlamoq – Uzoqlashmoq
Uzoqlashmoq
Uzoqlik
Uzoqlik qilmoq
uzoqmoq – Kechikmoq
uzoqmoq – Uzoqlashmoq
uzor – Yuz
uzr – Kechirim
uzrli – Kechirimli
uzun – Novcha
uzunlashmoq – Uzaymoq
Uzuq
uzuq-yuluq – Uzuq
ushlamoq – Tutmoq
Uchmoq
uchoq – Samolyot
uchqur – Chopqir
Uchramoq I
Uchramoq II
uchramoq – Chalinmoq
uchrashuv – Visol
uchuniq – Kasallik I
uchunmoq – Kasal bo‘lmoq



Vafo
Vafodor
vafoli – Vafodor
Vafosiz
vafot – O‘lim
vafot etmoq – O‘lmoq
vahima – Qo‘rquv
vahimali – Qo‘rqinchli
vaholanki – Holbuki
vahshat – Qo‘rquv
Vahshiy
vahshiy – Yovuz
Vahshiylarcha
vahshiylik – Yovuzlik
vahshiyona – Vahshiylarcha
vaj – Bahona
vaj – Sabab
vaj-karson – Bahona
vaj-karson – Sabab
vajh – Sabab
vajidan – Sababli
vajohat – Ko‘rinish
vakillamoq – Hurmoq
valad – Haromi
valaqlamoq – Aljimoq
valdiramoq – Aljimoq
valiy – Avliyo
vaqillamoq – Aljimoq
Vaqt
vaqti-vaqti bilan – Ba’zan
vaqtixush – Xursand
vaqtixushlik – Xursandlik
vaqtichog‘ – Xursand
vaqtichog‘lik – Xursandlik
vaqtli – Erta
varajalamoq – Titramoq
varaja qilmoq – Titramoq
varaq – Bet
Varrak
varvarak – Varrak
vasl – Visol
Vatan
vatandosh – Yurtdosh
Vayrona
vaysamoq – Aljimoq
vaza – Guldon
Vazifa
Vaziyat
vazmin – Og‘ir I
vazmin – Og‘ir II
vazminlik – Og‘irlik
Va’da
va’da – Ahd
va’dalashmoq – Ahdlashmoq
vertikal – Tik
vidolashmoq – Xayrlashmoq
Vijdon
Vijdonli
Vijdonsiz
vino – Ichkilik
visir-visir – G‘iybat
visir-visir qilmoq – G‘iybat qilmoq
Visol
voh – Voy
volida – Ona
Voqea
voqe bo‘lmoq – Bo‘lmoq
voqif – Xabardor
voqif bo‘lmoq – Xabardor bo‘lmoq
voqif qilmoq (etmoq) – Xabar qilmoq

voris – Merosxo‘r
vosil bo‘lmoq – Erishmoq
vovullamoq – Hurmoq
Voy
Voyvoylamoq
voya – Balog‘at
voydod – Voy
voylamoq – Voyvoylamoq
vujud – Badan I
vujudga keltirmoq – Yaratmoq

X

Xabar
xabar bermoq – Xabar qilmoq
Xabardor
Xabardor bo‘lmoq
xabarlamoq – Xabar qilmoq
Xabar qilmoq
xabar topmoq – Xabardor bo‘lmoq
xabardor qilmoq – Xabar qilmoq
Xafa
Xafa bo‘lmoq
xafagarchilik – Xafalik
xafalanmoq – Xafa bo‘lmoq
xafalashmoq – Achchiqlashmoq
Xafalik
xafachilik – Xafalik
xalos bo‘lmoq – Qutulmoq
xalos qilmoq (etmoq) – Bo‘shatmoq
xaloyiq – Xalq
Xalq
xalta – Qop
xamircha – Na’matak
xanda – Kulgi
xarajat qilmoq – Sarflamoq
xarjlamoq – Sarflamoq
xarj qilmoq – Sarflamoq
xaroba – Vayrona
xas – Pichan
Xasis
Xasis bo‘lmoq
Xasislik
Xasislik qilmoq
xasta – Kasal
xasta bo‘lmoq – Kasal bo‘lmoq
xastalanmoq – Kasal bo‘lmoq
xastalik – Kasallik I
xastalik – Kasallik II
Xat
xatar – Xavf
xatarli – Xavfli
xat-xabarsiz – Bedarak
xatm qilmoq – Tugatmoq III
xato – Yanglish
xato bo‘lmoq – Yanglish bo‘lmoq
xato qilmoq – Yanglishmoq
xatosiz – To‘g‘ri
Xavf
xavflanmoq – Qo‘rqmoq
Xavfli
xavfsiramoq – Qo‘rqmoq
xavotir – Qo‘rquv
xavotirli – Xavfli
xayoliy – Afsonaviy
xayr – Sadaqa
Xayrlashmoq
xayr-ma’zur qilmoq – Xayrlashmoq
xayr-xo‘shlashmoq – Xayrlashmoq
xayr-xo‘sh qilmoq – Kuzatmoq
xayr-xo‘sh qilmoq – Xayrlashmoq
xashak – Pichan
xesh – Qarindosh
xil – Tur
xilda – Tarzda
xillamoq – Saralamoq
xilof – Zid
Xilvat
xilvatgoh – Xilvat
xipcha – Ingichka
Xira
xirad – Aql
xiradmand – Aqlli

xirapashsha – Xira
xiraxandon – Xira
xiroj – Soliq
xirpa – Ayyor
xiyol – Ozgina
xiyonatkor – Sotqin
xizmatkash – Xizmatkor
Xizmatkor
xizmat qilmoq – Ishlamoq
xizmatchi – Ishchi
xizmatchi – Xizmatkor
xobgoh – Yotoq
xohish – Istak
xohlamoq – Istamoq
xoin – Sotqin
xoli bo‘lmoq – Qutilmoq
xoma – Qalam
xomitmoq – Yechmoq III
xomush – Xafa
xomush bo‘lmoq – Xafa bo‘lmoq
xomushlanmoq – Xafa bo‘lmoq
xomushlik – Xafalik
Xona
xonadon – Oila
xonadon – Uy
xonaki – Yasama
xonanda – Ashulachi
xonish qilmoq – Kuylamoq I
xorgul – Na’matak
xotima qilmoq – Tugatmoq III
xotimalamoq – Tugatmoq III
Xotin
xotin – Ayol
xotinli(k) bo‘lmoq – Uylanmoq
xotinli(k) qilmoq – Uylantirmoq
xotin olmoq – Uylanmoq
xotin-qiz(lar) – Ayol
xotin-xalaj – Ayol
xotira – Esdalik
xotirjam – Tinch II
xotirjamlik – Tinchlik II
xotirlamoq – Eslamoq
xovar – G‘arb
xoxolamoq – Kulmoq
Xuddi
Xudo
xufiya – Ayg‘oqchi
xulosalamoq – Yakunlamoq
xulosa qilmoq – Yakunlamoq
Xulq
xulq-atvor – Xulq
Xun – Qon
Xunob
xunoba – Xunob
Xunob bo‘lmoq
xunobgarchilik (xunobagarchilik) – Xunoblik
xunobi oshmoq – Xunob bo‘lmoq
Xunoblik
xunrez – Qotil
Xunuk
xurjun – Chatoq
xurjunlashmoq – Yomonlashmoq
xurram – Xursand
Xursand
Xursandlik
xurshid – Quyosh
xusumat – Adovat II
xususan – Ayniqsa
xushaxloq – Odobli
xushbichim – Bejirim
xushbichim – Kelishgan
Xushbo‘y
xushhol – Xursand
xushhollik – Xursandlik
xushomadgo‘y – Laganbardor
xushomadgo‘ylik – Laganbardorlik
xushqomat – Kelishgan
xushro‘y – Chiroyli
xushsurat – Chiroyli

xushta’m – Shirin I
xushtor – Oshiq
xushtor bo‘lmoq – Sevmoq
xushtorlik – Oshiqlik
xushvaqt – Xursand
xushvaqtlik – Xursandlik
Xushxabar
xushxo‘r – Shirin I
xushchaqchaq – Quvnoq
xo‘ja – Ega
xo‘jako‘rsinga – Nomiga
xo‘jayin – Ega
xo‘p – Bo‘pti
xo‘p (xo‘b) – Juda
xo‘rak – Ovqat
Xo‘tik
xo‘shlashmoq – Xayrlashmoq



yagona – Birdan bir
yagona bo‘lmoq – Yolg‘iz bo‘lmoq
yagonalik – Yolg‘izlik
yakan – Pul
yakka – Faqat
yakka – Yolg‘iz
yakka bo‘lmoq (yakka-yakka bo‘lmoq) – Yolg‘iz bo‘lmoq
yakkalanmoq – Yolg‘izlanmoq
yakkalik – Yolg‘izlik
yakka-yu yolg‘iz – Birdan-bir
yakka-yolg‘iz bo‘lmoq – Yolg‘iz bo‘lmoq
yakkash – Doim
yakun – Natija
Yakunlamoq
yakunlamoq – Tugatmoq II
yakunlamoq – Tugatmoq III
yakunlanmoq – Tugamoq
yakun qilmoq – Yakunlamoq
yakun topmoq – Tugamoq
yalang‘ochlamoq – Yechintirmoq
yalang‘och qilmoq – Yechintirmoq
yalang – Doim
yalanglamoq – Yechintirmoq
Yalinmoq
yalov– Bayroq
Yalpiz
yalpoq – Yassi
yalqov – Dangasa
yalqov bo‘lmoq – Dangasa bo‘lmoq
yalqovlanmoq – Dangasa bo‘lmoq
yalqovlik – Dangasalik
yalqovlik qilmoq – Dangasalik qilmoq
yaltoq – Laganbardor
yaltoqi – Laganbardor
yaltoqilik – Laganbardorlik
yamoqchi – Kosib
yamoqchilik – Kosiblik
Yana
yapaloq – Yassi
yapaloqqush – Boyo‘g‘li
yaproq – Barg
Yaqin
yaqinlamoq – Yaqinlashmoq
Yaqinlashmoq
yaqqol – Aniq
Yara
yarador – Yarali
yarador qilmoq (yoki etmoq) – Yaralamoq
Yaralamoq
yaralamoq – Paydo bo‘lmoq
Yarali
yaralmoq – Tug‘ilmoq
yaramas – Ablah
yaramaslik – Yomonlik
yaramaslik qilmoq – Yomonlik qilmoq
Yaramoq
Yarasha
Yarashmoq
yara-chaqa – Yara
yara-chaqali – Yarali
yaratgan – Xudo
Yaratmoq
yaratmoq – Tuzmoq II
yarim bo‘lmoq – Yarimlamoq
yarim-yorti – Chala

Yarimlamoq
yarli – Kambag‘al
yaroqli bo‘lmoq – Yaramoq
yaroqsiz – Sifatsiz
yarog‘ – Qurol
Yasama
yasama – Qalbaki
yasamalik – Qalbakilik
yasamoq – Boplamoq
Yasanmoq
yasatmoq – Beza(t)moq
yasan-tusan qilmoq – Yasanmoq
yasoq – Qonun
Yassi
yax – Muz
yaxlamoq – Muzlamoq
yaxmalak – Sirpanchiq
Yaxshi
yaxshi – Afzal
yaxshi – Bo‘pti
yaxshi ko‘rmoq – Sevmoq
yayov – Piyoda
yazna – Pochcha
Yag‘rindor
yag‘rinli – Yag‘rindor
yasha – Balli
yasha(ng) – Balli
yashab tashla(ng) – Balli
Yashamoq
yashavor – Balli
yashil – Ko‘k I
yashin – Chaqmoq
yashirinmoq – Bekinmoq
Yashirincha
yashiriq – Yashirincha
yashiriqcha – Yashirincha
Yashirmoq
yanga – Kelinoyi (Kennoyi)
yangi – Hozirgi
yangidan – Boshqatdan
yangilik – Xabar
yanglig‘ – Kabi
Yanglish
Yanglish bo‘lmoq
yanglish – Yolg‘on I
Yanglishmoq
yebto‘ymas – Ochko‘z
yegulik – Ovqat
yel – Shabada
yelim – Xira
Yelka
yellatmoq – Shamollamoq
yelmoq – Yugurmoq
yelpiramoq – Hilpiramoq
yemish – Ovqat
Yemoq
yerkindik – Pakana
yerlik – Mahalliy
yermitti – Pakana
yesir – Beva
yetakchi – Ilg‘or
yetarli – Bas
yetilmoq – Oshmoq
Yetim
Yetim bo‘lmoq
Yetimlik
Yetim qolmoq
yetimcha – Yetim
yetishmaslik – Yetishmovchilik
Yetishmovchilik
yetkazmoq – Yubormoq
yetmoq – Kifoya qilmoq
Yetuk
yetuk bo‘lmoq – Yetuklashmoq
Yetuklashmoq
yetuklik – Balog‘at
Yechintirmoq
Yechmoq I
Yechmoq II
Yechmoq III

Yechmoq IV
yengil – Oson
yengil – Yupun
yengil-yelpi – Yuzaki
Yengmoq
yildirim – Chaqmoq
yilqi – Ot II
yilqibon – Otboqar
yilqiboqar – Otboqar
yilqichi – Otboqar
Yiqilmoq
yirganmoq – Jirkanmoq
yirik – Katta
yiriklashmoq – Kattalashmoq
yiriklik – Kattalik
yiring bog‘lamoq – Gazaklamoq
yiringlamoq – Gazaklamoq
yirmoq – Kermoq
yiroq – Uzoq I
yiroq bo‘lmoq – Uzoq bo‘lmoq
yiroq qilmoq – Uzoq qilmoq
yiroqda – Uzoqda
yiroqdagi – Uzoqdagi
yiroqdan – Uzoqdan
yiroqlamoq – Uzoqlashmoq
yiroqlashmoq – Uzoqlashmoq
yiroqlik – Uzoqlik
yiroqlik qilmoq – Uzoqlik qilmoq
yirtqich – Vahshiy
yirtqich – Yovuz
yirtqichlik – Yovuzlik
yig‘ilish – Majlis
yig‘ilish qilmoq – Majlis qilmoq
yig‘in – Majlis
yig‘inmoq – Yig‘moq
yig‘in qilmoq – Majlis qilmoq
yig‘ishtirmoq – Saranjomlamoq
yig‘ishtirmoq – To‘xtatmoq
Yig‘moq
yig‘namoq – Yig‘moq
yo – Yoki
yobi – Qirchang‘i
yodaki – Yoddan
yodakasiga – Yoddan
Yoddan
yod etmoq – Eslamoq
yodgor – Esdalik
Yodgorlik
yodgorlik – Esdalik
yodlamoq – Eslamoq
yoinki – Yoki
Yoki
yolqamsiq (yalqamsiq) – Erinchoq
yolqin – Alanga
yolvormoq – Yalinmoq
Yolg‘iz
yolg‘iz – Birdan bir
yolg‘iz – Faqat
yolg‘iz – Kimsasiz
Yolg‘iz bo‘lmoq
Yolg‘izlanmoq
Yolg‘izlik
Yolg‘on I
Yolg‘on II
yolg‘on – Bekorchi
yolg‘ondakam – Qalbaki
yolg‘ondakam (yolg‘ondaka) – Yolg‘ondan
yolg‘ondakasiga – Yolg‘ondan
Yolg‘ondan
yolg‘on-yashiq – Yolg‘on II
Yolg‘onchi
Yolg‘onchi bo‘lmoq
Yolg‘onchilik
yomon – Juda
yomon – Sifatsiz
yomon bo‘lmoq – Yomonlashmoq
Yomonlamoq
Yomonlashmoq
Yomonlik

Yomonlik qilmoq
yomonotliq – Badnom
yomonotliq qilmoq – Yomonlamoq
yomg‘irgarlik – Yog‘ingarchilik
yomg‘irgarchilik – Yog‘ingarchilik
yon – Tomon I
yon(ida) – Old(ida)
yonashmoq – Yaqinlashmoq
yondashmoq – Yaqinlashmoq
Yonmoq I
Yonmoq II
yonmoq – Jo‘shmoq
yonchiq – Cho‘ntak
yopiq – Berk
yopishqoq – Xira
Yopmoq
yopmoq – To‘smoq I
yopmoq – Tugatmoq IV
Yoppasiga
yoq – Tomon I
yoqa – Qirg‘oq
yoqalashmoq – Urishmoq
yoqavalangor – Yoqavayron
Yoqavayron
yoqimsiz – Noxush
yor – Sevgili
Yordam
yordam bermoq – Yordamlashmoq
Yordamlashmoq
Yordam olmoq
yordam qilmoq – Yordamlashmoq
Yordamchi
Yorishmoq I
Yorishmoq II
yorlashmoq – Yordamlashmoq
yorqin – Aniq
yorqin – Yorug‘
yorqin bo‘lmoq – Yorishmoq I
Yorug‘
yorug‘lashmoq – Yorishmoq I
yostiqdosh – Er
yostiqdosh – Xotin
yot – Birov
Yotoq
yotoqxona – Yotoq
yotsinmoq – Begonasiramoq
yotsiramoq – Begonasiramoq
yov – Dushman
yova – Panshaxa
yovar – Yordamchi
yov bo‘lmoq – Dushman bo‘lmoq
yovlik – Adovat II
yovlik qilmoq – Dushmanlik qilmoq
yovqur – Botir
yovuq – Yaqin
yovuqlashmoq – Yaqinlashmoq
Yovuz
yovuz – Vahshiy
Yovuzlik
yovvoyi – Odamovi
yovvoyilarcha – Vahshiylarcha
yovvosh – Yuvosh
yoxud – Yoki
yoy – Kamalak
yoziq – Ayb
yoziqsiz – Aybsiz
yozig‘liq – To‘shog‘liq
yozmish – Taqdir
Yozmoq
yozmoq – To‘shamoq
yozmoq – Yechmoq II
yozmoq – Yechmoq III
yoztovuq – Qirg‘ovul
Yozuvchi
yozg‘iriq – Ta’na
yozg‘irmoq – Gina qilmoq
Yog‘
yog‘du – Nur
yog‘i(y) – Dushman
yog‘i(y) bo‘lmoq – Dushman bo‘lmoq

Yog‘ingarchilik
yog‘iylik – Adovat II
Yog‘li
Yubormoq
Yugur-yugur
yugurik – Chopqir
Yugurmoq
yuho – Ochko‘z
yuklamoq – Ortmoq
yukli – Homilador
yuksak – Oliy
yuksalmoq – Balandlamoq
yuksalmoq – Rivojlanmoq
yukchi – Hammol
Yulmoq
yumdalamoq – Yulmoq
yumurta – Tuxum
yumush – Ish
Yumshamoq
yumsharmoq – Yumshamoq
Yumshoq
yumshoq bo‘lmoq – Yumshamoq
yupanmoq – Ovunmoq
yupanch – Ovunchoq
yupanch – Taskin
yupanchiq – Ovunchoq
yupatmoq – Ovutmoq
Yupqa
yupqa – Yupun
yupqalanmoq – Yupqalashmoq
Yupqalashmoq
yupqarmoq – Yupqalashmoq
Yupun
yuqori – Afzal
yuqori – Baland
yuqori – Oliy
yuqorilamoq – Balandlamoq
yuqtob – Ochko‘z
Yurak
yurak – Ko‘ngil
yurakdan – Astoydil
yurakli(k) – Botir
yurak qilmoq – Botinmoq
yuraksiz – Qo‘rqoq
yuraksizlik – Qo‘rqoqlik
yurmoq – Ko‘nmoq
yurt – Vatan
yurt – Xalq
Yurtdosh
yutqiziq – Mag‘lubiyat
Yuvosh
Yuvoshlik
Yuvg‘uchi
Yuz
yuz – Yuza
Yuza
yuzaga keltirmoq – Yaratmoq
yuz bermoq – Bo‘lmoq
Yuzaki
yuzlashmoq – Uchramoq I
Yuzma-yuz
Yuzma-yuz bo‘lmoq
yuzma-yuz kelmoq – Uchramoq I
yuzsiz – Bezbet
yuzsizlik – Bezbetlik
Yuztuban
yo‘l – Sayohat
yo‘l – Marta
yo‘l – Chora
yo‘lamoq – Yaqinlashmoq
Yo‘latmoq
yo‘lboshchi – Boshliq
yo‘ldosh – Hamroh I
yo‘ldosh – Hamroh II
yo‘ldoshlik – Hamrohlik I
yo‘ldoshlik – Hamrohlik II
yo‘liga – Nomiga
yo‘liqmoq – Uchramoq I
yo‘liqmoq – Uchramoq II
yo‘liqmoq – Chalinmoq

yo‘llamoq – Yubormoq
yo‘l olmoq – Ketmoq
Yo‘lovchi
yo‘l-yo‘riq – Ko‘rsatma
yo‘lchi – Yo‘lovchi
yo‘qlamoq – Eslamoq
yo‘qol – Ket
yo‘qotmoq – Tugatmoq I
yo‘q qilmoq – Tugatmoq I
yo‘qsil – Kambag‘al
yo‘qchilik – Kambag‘allik
yo‘sinda – Tarzda

Z

zabardast – Kuchli
zabon – Til
zabun – Achinarli
zafar – G‘alaba
zafar qozonmoq – Yengmoq
zafar quchmoq – Yengmoq
Zahar
zahar – Achchiq
Zaharlamoq
Zaharli
zaharolud – Zaharli
zaharxanda – Kinoya
zahar-zaqqum – Achchiq
zahar-zaqqum – Zahar
zahmat – Qiyinchlik
zaif – Kuchsiz
zaif – Nimjon
zaiflashmoq – Kuchsizlanmoq I
zaiflashmoq – Kuchsizlanmoq II
zaiflik – Kuchsizlik
zakan – Zovur
zalvarli – Og‘ir I
zamon – Vaqt
zamonaviy – Hozirgi
zap – Juda
zaqqum – Zahar
zar – Oltin
Zarar
zararkunanda – Zararli
zararkunandalik – Ziyonkorlik
Zararli
Zararsiz
zarang – Qattiq
zarbdor – Ilg‘or
zarbof(t) – Zarli
zarda – Jahl
zarda – O‘t III
zardo‘zi – Zarli
Zarli
zarpechak – Chirmovuq
zarracha – Hech
Zarvaraq
zarvaraq – Zarli
zarur – Kerak
zarur – Kerakli
zaruriy – Kerakli
zavj – Er
zavja – Xotin
Zavq
Zavqlanmoq
zaxkash – Zovur
zaxkashlik – Namgarchilik
zangor(i) – Ko‘k I
zangi – Narvon
zangin – Boy
za’faron – Sariq
zeb – Husn
zeb – Pardoz
zebo – Chiroyli
zebolashmoq – Chiroylilashmoq
zehn – Fahm
zeroki – Chunki
zid – Aks
zid – Qarama-qarshi
ziddiyat – Qarama-qarshilik
zidlik – Qarama-qarshilik
zil – Og‘ir I
zildek (zilday) – Og‘ir I
zil-zambil – Og‘ir I
zimiston – Qorong‘ilik

zim-ziyo – Qorong‘i
Zina
zinapoya – Zina
zindon – Qamoq
zinhor – Hech
Zino
zinokorlik – Fahsh
Zing‘illamoq
zipillamoq – Zing‘illamoq
ziq – Xunob
ziq – Shoshilinch
ziq bo‘lmoq – Xunob bo‘lmoq
ziqna – Xasis
ziqna bo‘lmoq – Xasis bo‘lmoq
ziqnalik –Xasislik
ziqnalik qilmoq – Xasislik qilmoq
Zirak
zirqiramoq – Qaqshamoq
ziynat – Bezak
ziyo – Nur
ziyod(a) – Ortiq
Ziyofat
Ziyoli
ziyon – Zarar
ziyonkor – Zararli
Ziyonkorlik
Ziyoratgoh
ziyrak – Sezgir
zig‘ircha – Hech
zig‘ircha – Ozgina
zich – Qalin
zodagon – Asilzoda
Zohid
Zohidlik
Zolim
zor – Iltimos
zor – Muhtoj
zor – Nola
zora – Koshki
zor bo‘lmoq – Muhtoj bo‘lmoq
zoriqmoq – Muhtoj bo‘lmoq
zorlanmoq – Nolimoq
zorlik – Muhtojlik
zormanda – Sabil
zotdor – Zotli
Zotiljam
Zotli
Zovur
zoye – Behuda
zog‘ – Qarg‘a
zud – Tez
zulf – Gajak
zulfak – Gajak
zulfakdor – Gajak
Zulm
zulmat – Qorong‘ilik
zulmkor – Zolim
zumda – Darrov
zurriyot – Bola
zurriyotsiz – Bolasiz
zug‘um – Zulm
zo‘r – Katta
zo‘r – Kuchli
zo‘raymoq – Kuchaymoq
zo‘r-bazo‘r – Arang
zo‘rlamoq – majburlamoq
zo‘rg‘atdan – Arang

O‘

o‘ba – Qabr
o‘ba – Qishloq
o‘bdan – Juda
o‘girgich – Tarjimon II
o‘girma – Tarjima
o‘girmoq – Tarjima qilmoq
o‘git – Nasihat
O‘jar
O‘jarlik
o‘kinmoq – Afsuslanmoq
o‘kinch – Afsus I
o‘ksi(n)moq – Xafa bo‘lmoq
o‘ksiz – Bechora
o‘kcha – Poshna
O‘laksa
O‘laksaxo‘r
o‘lamsa – O‘laksa
o‘lan – O‘t II
o‘larday – Juda
o‘larcha – Juda
o‘lda-jo‘lda – Chala
o‘lgu(n)day – Juda
o‘lib-tirilib – Arang
O‘lik
O‘lim
o‘limsaxo‘r – O‘laksaxo‘r
o‘limtik – O‘laksa
o‘limtikxo‘r – O‘laksaxo‘r
o‘lma(ng) – Balli
O‘lmoq
o‘lpon – Soliq
o‘lchovli – Sanoqli
o‘miz – Yelka
o‘mrov – Ko‘krak II
o‘nqov – Imkon
o‘ng‘ay – Oson
o‘ng‘aysiz – Noqulay I
o‘ng‘aysiz – Noqulay II
O‘pich
o‘pqon – Girdob
O‘q
o‘qaloq – So‘na
O‘qdon
o‘qimishli – Ziyoli
O‘qimoq
O‘qituvchi
O‘qituvchilik
o‘qraymoq – Qaramoq
o‘qtin-o‘qtin – Ba’zan
o‘r – O‘jar
o‘rab-chirmamoq – O‘ramoq I
O‘ralashmoq
O‘ramoq I
O‘ramoq II
o‘ramoq – Qoplamoq
o‘ramoq – To‘smoq I
o‘rganmoq – Ko‘nikmoq
o‘rganmoq – Odatlanmoq
o‘rganmoq – Tadqiq qilmoq (etmoq)
o‘rganmoq – Tekshirmoq III
o‘rgilay – Aylanay
o‘rgilsin – Aylanay
o‘rin – Joy
o‘rin – Lavozim
O‘rinbosar
O‘rinbosarlik
o‘rinlatmoq – Bajarmoq
o‘rinlatmoq – Boplamoq
o‘rinlashmoq – Joylashmoq
O‘rinli

o‘rinsiz – Bekorga
o‘rlamoq – Balandlamoq
o‘rlik – O‘jarlik
o‘rmoq – To‘qimoq
O‘rnak
o‘rnak – Namuna
O‘rnak olmoq
o‘rnashmoq – Joylashmoq
o‘rnashmoq – Kirmoq
o‘rt – O‘t I
o‘rtanmoq – Yonmoq II
O‘rtoq
o‘rtoq – Er
O‘rtoqlik
O‘smoq
o‘smoq – Ko‘karmoq
o‘smoq – Rivojlanmoq
O‘t I
O‘t II
O‘t III
o‘ta – Juda
o‘taketgan – Ashaddiy
o‘taketgan – Juda
o‘tamoq – Bajarmoq
o‘tinmoq – Yalinmoq
o‘tinch – Iltimos
o‘tirish – Ziyofat
O‘tirmoq
o‘tirmoq – Qo‘nmoq
o‘tkinchi – Yo‘lovchi
O‘tkir
O‘tmish
o‘tmoq – Kechirmoq
o‘tmoq – Ko‘chmoq
o‘t olmoq – Yonmoq I
o‘tqazmoq – Ekmoq
O‘troq
o‘truk (o‘tirik) – Yolg‘on I
O‘xshamoq
o‘xshatmoq – Boplamoq
O‘xshash
o‘xshash – Kabi
O‘xshashlik
O‘yin
O‘yinchi
O‘ylamoq
o‘ymoq – Qazimoq
O‘ynamoq
o‘ynashmoq – Hazillashmoq
O‘zboshimcha
O‘zboshimchalik
o‘zga – Begona
o‘zga – Boshqa I
o‘zga – Boshqa II
O‘zgaruvchan
o‘zgacha – Boshqacha
o‘zi – Xudo
o‘g‘ir – Keli
O‘g‘irlamoq
o‘shakchi – Chaqimchi
O‘ch
O‘chmoq
o‘ngimoq – Oqarmoq II
o‘ng-u so‘l – Atrof

G‘

g‘addor – Sotqin
g‘ajimoq – Mujimoq
G‘alaba
g‘alaba qilmoq – Yengmoq
g‘alaba qozonmoq – Yengmoq
g‘alat – Yanglish
g‘alat bo‘lmoq – Yanglish bo‘lmoq
g‘alati – Ajab
g‘alati – Allaqanday
g‘alayon – Qo‘zg‘olon
g‘ala-g‘ovur – Shovqin
g‘alva – Janjal
g‘alvir – Elak
G‘am
g‘am – Tashvish
g‘amboda – Xafa
g‘amgin – Xafa
g‘amgin bo‘lmoq – Xafa bo‘lmoq
g‘amginlik – Xafalik
g‘amli – Xafa
g‘ammoz – Chaqimchi
g‘amnok – Xafa
g‘amsiz – Betashvish
g‘am-tashvishsiz – Tinch II
g‘amza – Noz
g‘amzali – Nozli
g‘amza qilmoq (etmoq, aylamoq) – Nozlanmoq
g‘ani – Boy
g‘anim – Dushman
g‘anim bo‘lmoq – Dushman bo‘lmoq
g‘animlashmoq – Dushmanlik qilmoq
g‘animlik – Adovat II
g‘animlik qilmoq – Dushmanlik qilmoq
g‘ar – Fohisha
g‘araz – Adovat I
G‘arazgo‘y
g‘arazchi – G‘arazgo‘y
G‘arb
g‘arib – Kimsasiz
g‘ariba – Ajab
g‘assol – Yuvg‘uchi
g‘avg‘o – Janjal
g‘avg‘o – Shovqin
g‘avg‘o qilmoq (ko‘tarmoq) – Shovqin solmoq
g‘ayir – Begona
g‘aynoli – Olxo‘ri
g‘ayratli – Ishchan
g‘ayritabiiylik – Qalbakilik
g‘ayrishuuriy – Bilmasdan
g‘azab – Jahl
g‘azablanmoq – Achchiqlanmoq
g‘ashlik – G‘ulg‘ula
g‘ijillashmoq – Aytishmoq
g‘ilmon – Farishta
g‘irillamoq – Zing‘illamoq
g‘iring-piring – Alay-balay
G‘irrom
G‘iybat
G‘iybat qilmoq
g‘izillamoq – Zing‘illamoq
g‘izo – Ovqat
g‘ing-ping – Alay-balay
G‘olib
g‘olib bo‘lmoq – Yengmoq
g‘olib kelmoq – Yengmoq
g‘olib chiqmoq – Yengmoq
g‘ov – Qarshilik

g‘ov – To‘siq I
g‘ov – To‘siq II
g‘ovak – Puch
g‘ov bo‘lmoq – To‘siq bo‘lmoq
g‘ovur – Shovqin
g‘oyat – Juda
g‘oyatda – Juda
g‘ubor – Chang
g‘uborsiz – Toza III
g‘ulom – Qul
g‘ulu(v) – G‘ulg‘ula
g‘ulu(v) solmoq – G‘ulg‘ula solmoq
G‘ulg‘ula
G‘ulg‘ula solmoq
g‘uppa – Qalin
g‘ururlanmoq – Faxrlanmoq
g‘ururlanmoq – Mag‘rurlanmoq
g‘ussa – G‘am
g‘o‘r – Sayoz
g‘o‘za – Paxta I

Sh

Shabada (Shabboda)
shabadalamoq – Shamollamoq
shabnam – Shudring
shafqat – Ayov
shafqatsiz – Ayovsiz
shahd – Asal
shahvoniyat – Fahsh
Shakldosh
Shakldoshlik
shaksiz – Albatta
shalabbo – Ho‘l
shallaqi – Urishqoq
shalola – Sharshara
shalpaymoq – Bo‘shashmoq
shalviragan – Lapashang
shalviramoq – Bo‘shashmoq
sham – Shudring
Shamol
Shamollamoq
shams – Quyosh
shamshir – Qilich
shantaj – Do‘q
shang‘i – Baqiroq
Shapaloq
Shapaloqlamoq
shapaloq tortmoq – Shapaloqlamoq
shaparak – Yupqa
shapati – Shapaloq
shapatilamoq – Shapaloqlamoq
sharm – Uyat
sharmanda – Badnom
sharm-hayo – Uyat
sharm-hayosiz – Bezbet
sharmisor – Badnom
sharmli – Nomusli
sharob – Ichkilik
sharobxo‘r – Ichkilikboz
sharoit – Vaziyat
Sharq
sharr – Yovuzlik
shartlashmoq – Ahdlashmoq
Shartnoma
Sharshara
shavhar – Er
shavq – Zavq
shavqlanmoq – Zavqlanmoq
shaxdam – Tez
shaxt – Tez
shaxta – Kon
shaxtachi – Konchi
shaxtyor – Konchi
shay – Tayyor I
shay – Tayyor II
shay bo‘lmoq – Tayyor bo‘lmoq
shay qilmoq – Tayyorlamoq
shaydo – Oshiq
shaydo bo‘lmoq – Sevmoq
shaydolik – Oshiqlik
shaydoyi – Oshiq
shaydoyilik – Oshiqlik
shaylamoq – Tayyorlamoq
shaylanmoq – Tayyorlanmoq
shayton – Ayyor
shashlik – Kabob
shashlikpaz – Kabobpaz
shashlikchi – Kabobpaz
shekilli – Aftidan
sherik – Hamroh II
sheriklik – Hamrohlik II
sheva – Noz

shifo bermoq – Davolamoq
shifolamoq – Tuzatmoq
shijoatli – Botir
Shikoyat
shikoyat – Nolish
shikoyatlanmoq – Nolimoq
Shikoyatomuz
shikoyat qilmoq – Nolimoq
shikva – Shikoyat
shikvali – Shikoyatomuz
shilimshiq – Xira
shilmoq – O‘g‘irlamoq
shilqim – Xira
shilta – Ho‘l
shimirmoq – Ichmoq I
shinavanda – Muxlis
shinavandalik – Muxlislik
shirakayf – Mast I
Shirin I
Shirin II
shirin – Xushbo‘y
shirinkoma – Cho‘tal
shitob – Tez
shivir – Pichir-pichir
shivirlamoq – Pichirlamoq
shivir-shivir – Pichir-pichir
shivir-shivir qilmoq – Pichirlamoq
shig‘a – Qiyg‘os
shig‘il – Qiyg‘os
shmustitul – Zarvaraq
shod – Xursand
shodlanmoq – Sevinmoq
shodlik – Xursandlik
shohid – Guvoh
shohidlik – Guvohlik
shoir – Yozuvchi
shokila – Popuk
Shol
shon – Dovruq
shopmo‘ylov – Mo‘ylovli
shoti – Narvon
Shovqin
shovqin qilmoq – Shovqin solmoq
Shovqin solmoq
shovqin-suron – Shovqin
shovva – Sharshara
shov-shuv – Shovqin
Shox
shoxa – Panshaxa
Shoxsiz
shoyad – Koshki
shosha-pisha – Apil-tapil
Shoshilinch
shubha – Gumon
shubhalanmoq – Gumon qilmoq
shubhali – Gumonli
shubhasiz – Albatta
shudli – Qobiliyatli
Shudring
shuhrat – Dovruq
shunchaki – Nomiga
shuncha(lar) – Namuncha
shunchalik – Namuncha
shustagar – Yuvg‘uchi
shuur – Ong
shu’la – Nur
sho‘r – G‘am
sho‘rish – G‘am
sho‘rlik – Bechora
sho‘rpeshona – Baxtsiz

Ch

chakka – Tomchi I
chakki – Behuda
chakki – Suzma
Chala
chala-chulpa – Chala
Chalinmoq
chalma – Salla
chalpimoq – G‘iybat qilmoq
Chama
chama – Qurb
Chamalamoq
chamamda – Aftidan
chamanzor – Gulzor
chamasi – Aftidan
chandon – Juda
chandon – Marta
Chanqamoq
chanqoq – Tashna
chanqoq bo‘lmoq – Tashna bo‘lmoq
chanqoq bo‘lmoq – Chanqamoq
chanqoqlik – Tashnalik
Chap
chapak – Qarsak
chapakbozlik – Qarsakbozlik
chapak chalmoq – Qarsak chalmoq
chapdast – Abjir
chappa – Aks
Chaqimchi
chaqin – Chaqmoq
Chaqirmoq
chaqirmoq – Aytmoq II
chaqmachaqar – Chaqimchi
Chaqmoq
chaqqon – Abjir
chaqchaqlashmoq – Suhbatlashmoq
chaqchaymoq – Qaramoq
charog‘on – Yorug‘
charog‘on bo‘lmoq – Yorishmoq I
Charchamoq
Charchoq
charchoq – Horg‘in
chatanoq – Chot
chatishmoq – Qo‘shilmoq
Chatoq
chatoq bo‘lmoq – Yanglish bo‘lmoq
chatoqlashmoq – Yomonlashmoq
chaynalmoq – Mijg‘ovlanmoq
Chaynamoq
chayqalmoq – Tebranmoq
Chayqamoq
Chayqovchi
chashma – Buloq
Chang
changak – Ilmoq
Chegara
chehra – Yuz
chek – Chegara
chekka – Xilvat
cheksiz – Bepoyon
chekuvchi – Kashanda
chel – Paykal
cherik – Armiya
chet – Qirg‘oq
chet – Xilvat
chetlatilmoq – Bo‘shamoq
checha – Kelinoyi (Kennoyi)
chechak – Gul
chechakzor – Gulzor
Chidam
Chidamli
chidamli – Puxta
Chidamoq

childirma – Doira
chilvir – Arqon
chin – Rost I
chin – Rost II
chinakamiga – Astoydil
chindan – Astoydil
chindan – Rostdan
chinqirmoq – Baqirmoq
chiqarmoq – Sug‘urmoq
chiqimdor – Serxarajat
chiqim qilmoq – Sarflamoq
chiranmachoq – Manman
chiranchoq – Manman
chiranchoqlik – Manmanlik
chirmamoq – O‘ramoq I
chirmanda – Doira
chirmov – Chirmovuq
chirmovgul – Chirmovuq
Chirmovuq
chiroy – Husn
Chiroyli
Chiroylilashmoq
chizi – Ozgina
Chizg‘ich
chig‘ – Qamish
Chol
cholg‘u – Soz
cholg‘uchi – Sozanda
chonoch – Savat
chopag‘on – Chopqir
chopa-chop – Yugur-yugur
chopmoq – Kesmoq I
chopmoq – Yugurmoq
Chopqir
chop qilmoq (etmoq) – Nashr qilmoq (etmoq)
chop-chop – Yugur-yugur
Chora
chorasiz – Bechora
chorig‘ – Poyabzal
chorlamoq –Aytmoq II
chorlamoq – Chaqirmoq
chor-nochor – Noiloj
Chorpoya
chorsi – Belbog‘
Chot
Choydish – Qumg‘on
Choygun(m) – Qumg‘on
chog‘ – Qurb
chog‘ – Vaqt
chog‘i – Aftidan
chog‘imda – Aftidan
chog‘ishtirma – Qiyosiy
chog‘ishtirmoq – Solishtirmoq
chog‘lamoq – Mo‘ljallamoq
chulg‘amoq – Qoplamoq
Chunki
chunon – Juda
chuqulamoq – Qazimoq
Chuqur
churq etmaslik – Indamaslik
chuvvos – Shovqin
chuchkurmoq – Aksirmoq
cho‘bir – Qirchang‘i
cho‘kmoq – O‘tirmoq
Cho‘l
cho‘llamoq – Chanqamoq
Cho‘loq
Cho‘loqlanmoq
Cho‘loqlik
Cho‘ntak
cho‘p – Pichan
cho‘pqot – O‘rtoq
cho‘qishtirmoq – Urishtirmoq I
cho‘qishtirmoq – Urishtirmoq II
cho‘ri – Xizmatkor
Cho‘tal
Cho‘talchi
cho‘tlamoq – Mo‘ljallamoq
cho‘zilmoq – Uzaymoq
cho‘chimoq – Qo‘rqmoq

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI

II JILD

Muharrir *Habib Abdiyev*
Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*
Musahhihlar: *Nilufar Ahmedova, Aziza Ahmedova*
Kompyuterda sahifalovchi *Hilola Sharipova*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016
Bosishga 2022-yil 0-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70 x100 $^{1}/_{16.}$ Times New Roman garniturasi.
Ofset bosma. 28,2 shartli bosma taboq. 39,65 nashr tabog‘i.
Adadi 1000 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz info@gglit.uz.